Qo‘qon DPI

ILMIY XABARLAR

ISSN: 3030-3958

№ 1/2025

Qo‘qon DPI.

Ilmiy xabarlar

Кокандский ГПИ.

Научный вестник

№1/2025

УЎК 5/9(08)
КБК 72я5
Қ 99

Bosh muharrir: Qo‘qon davlat pedagogika instituti rektori D.Sh.Xodjayeva
Mas’ul muharrirlar:
Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor N.S.Jurayev
Xalqaro hamkorlik bo‘yicha prorektor N.A.Kadirova
Mas’ul muharrir yordamchisi: Ilmiy-tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy pedagogik kadrlar tayyorlash bo‘limi boshlig‘i D.O‘rinboyev
Nashr uchun mas’ul: M.Z.Muydinov

MUASSIS:
Qo‘qon davlat pedagogika instituti

Qo‘qon DPI.
ILMIY XABARLAR-
НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК.
Кокандский ГПИ.
Jurnal bir yilda o‘n ikki marta chop etiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiya agentligida 2020-yil 9-iyulda 1085 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Jurnaldan maqola ko‘chirib bosilganda, manba ko‘rsatilishi shart.

“**Qo‘qon DPI.Ilmiy xabarlar**" ilmiy jurnali OAK Rayosatining 2021-yil 31- martdagi qarori bilan OAK ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kimyo, biologiya, filologiya, tarix, 2023-yil 5-maydagi №337/6 sonli Rayosat qarori bilan Pedagogika hamda 2024-yil 8-maydagi 5/7-sonli OAK tartib qoida komissiyasi qarori bilan Jismoniy madaniyat, psixologiya va san’atshunoslikfan tarmoqlari bo‘yicha milliy nashrlar sifatida kiritilgan.

Tahririyat manzili:
150700, Qo‘qon shahar, Turon ko‘chasi, 23-uy.
Tel.: (0373) 542-38-38.
Сайт: www.kspi.uz
journal.kspi.uz
ISBN: 978-9943-7182-7-2
“CLASSIC” nashriyoti
2025

TABIIY FANLAR
И.И.Гибадуллина, кандидат биологических наук, (РФ)
Sh.S.Nomozov,texnika fanlari doktori, professor, akademik (O‘ZB)
V.U.Xo‘jayev, kimyo fanlari doktori, professor (O‘ZB)
I.R.Asqarov, kimyo fanlari doktori, professor (O‘ZB)
A.A.Ibragimov, kimyo fanlari doktori, professor (O‘ZB)
S.F.Aripova, kimyo fanlari doktori, professor (O‘ZB)
Sh.V.Abdullayev, kimyo fanlari doktori, professor (O‘ZB)
B.Yo.Abduganiyev, kimyo fanlari doktori, professor (O‘ZB)
A.E.Kuchboyev, biologiya fanlari doktori, professor (O‘ZB)
M.T.Isog‘aliyev, biologiya fanlari doktori, professor (O‘ZB)
V.Yu.Isaqov, biologiya fanlari doktori, professor (O‘ZB)
T.O.Turginov, biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent (O‘ZB)
A.M.Gapparov, kimyo fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent (O‘ZB)
I.I.Oxunov, kimyo fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) (O‘ZB)
А.Ж.Хусанов-физика-математика фанлари номзоди, доцент (O‘ZB)
O.A.Turdiboyev, biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent (O‘ZB)
G‘.M.Ochilov, kimyo fanlari nomzodi, professor (O‘ZB)
B.No‘monov, texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent (O‘ZB)
M.Madumarov, biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent (O‘ZB)

FILOLOGIYA FANLAR
Huseyin Baydemir filologiya fanlari doktori, professor, (TR)
И.А.Киселёва, доктор филологических наук, профессор (РФ)
В.В.Борисова, доктор филологических наук, профессор (РФ)
К.А.Поташова, кандидат филологических наук, доцент (РФ)
Э.Р.Ибрагимова, кандидат филологических наук, доцент (РФ)
S.Muhamedova, filologiya fanlari doktori, professor (O‘ZB)
G.Islailov, filologiya fanlari nomzodi, dotsent (O‘ZB)

IJTIMOIY FANLAR
Л.Г.Насырова, кандидат исторических наук, доцент (РФ)
З.В.Галлямова, кандидат исторических наук, доцент (РФ)
D.N.Abdullayev, tarix fanlari doktori (DSc), dotsent (O‘ZB)
M.Rahimov, tarix fanlari doktori (DSc), dotsent (O‘ZB)

PEDAGOGIKA FANLAR
Р.Ф.Ахтариева, кандидат педагогических наук, доцент (РФ)
Н.Н.Масленникова, кандидат педагогических наук, доцент (РФ)
Л.А.Максимова, кандидат педагогических наук, доцент (РФ)
X.I.Ibragimov, pedagogika fanlari doktori, professor, akademik (O‘ZB)
B.X.Xodjayev, pedagogika fanlari doktori, professor (O‘ZB)
B.S.Abdullayeva, pedagogika fanlari doktori, professor (O‘ZB)
N.A.Muslimov, pedagogika fanlari doktori, professor (O‘ZB)
N.M.Egamberdiyeva, pedagogika fanlari doktori, professor (O‘ZB)

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 1-son)

TABIIY FANLAR

NATURAL SCIENCES

UDK: 633.88: 58.1.1+581.6
ORCID: 0000-0002-2719-1519

XORAZM VILOYATI TUPROQ-IQLIM SHAROITIDA BO‘ZNOCH (*HELICHHRYSUM*) TURLARINI INTRODUKSION BAHOLASH

Abduraximov Umorbek Kurbanbayevich
Xorazm Ma’mun akademiyasi doktoranti (DSc) – b.f.f.d. (PhD), k.i.x.
umaro.au@mail.ru, (+998)97-600-61-32

Annotatsiya. Bo‘znoch (*Helichrysum*) turlari dorivor o‘simlik bo‘lib, Xorazm viloyatida birmuncha yangi ekin hisoblanganligi sababli, Xorazm viloyati tuproq-iqlim sharoitida yetishtirish texnologiyasi, fiziologik xususiyatlari va biokimyoviy tarkibi, shuningdek, qo‘llash imkoniyatlari umuman o‘rganilmagan. Shu boisdan ham ushbu maqolada Xorazm viloyatining o‘tloqli – allyuvial tuproqlarida bo‘znoch (qumloq bo‘znochi – *Helichrysum arenarium* (L.) Moensh va Samarqand bo‘znochi – *Helichrysum marachandichum* M.Pop.) turlarining introduksion baholanishi haqida ma’lumotlar berilgan. O‘tkazilgan ko‘p yillik tajribalar hamda vegetatsiyasining o‘sish va rivojlanish fazalarida qayd qilingan biometrik ko‘rsatkichlar natijalariga ko‘ra, respublikamizdagi dorivor o‘simliklarga ixtisoslashgan klasterlarga farmatsevtika sanoati uchun xom ashyo tayyorlash va dorivor o‘simliklarni xorijga eksport qilish maqsadida Xorazm viloyatining o‘rtacha sho‘rlangan va sug‘oriladigan o‘tloqi – allyuvial tuproqlarida sharoitida qumloq bo‘znochini (*Helichrysum arenarium* (L.) Moensh.) ekin maydonlarini kengaytirish va katta plantatsiyalarga ekish maqsadga muvofiqdir.

Kalit so‘zlar. Dorivor o‘simliklar, bo‘znoch turlari, introduksiya, biomorfologik ko‘rsatkichlar, o‘sish va rivojlanish, vegetatsiya fazalari, hosildorlik.

ИНТРОДУКЦИОННАЯ ОЦЕНКА ВИДОВ БЕССМЕРТНИКА (*HELICHHRYSUM*) В ПОЧВЕННО-КЛИМАТИЧЕСКИХ УСЛОВИЯХ ХОРАЗМСКОЙ ОБЛАСТИ

Аннотация. Виды бессмертника (*Helichrysum*) являются лекарственными растениями и считаются относительно новой культурой в Хорезмской области, технология его выращивания, физиологические свойства и биохимический состав, а также возможности его применения в почвенно-климатических условиях Хорезмской области не изучены. Изходя из этого, в данной статье приводятся сведения об интродукционном оценке двух видов бессмертника (бессмертник песчаный – *Helichrysum arenarium* (L.) Moensh и бессмертник Самаркандский – *Helichrysum*

maracandicum M.Pop.) на аллювиально- луговых почвах Хорезмской области. По результатам многолетних опытов и биометрических показателей в фазах роста и развития видов бессмертника, для региональных кластеров республики, специализированных по выращиванию лекарственных растений с целью подготовки сырья для экспорта в фармацевтической промышленности, исходя из условий на среднезасоленных и орошаемых аллювиально-луговых почвах Хорезмской области рекомендуется высеивать и возделывать на больших площадях бессмертника песчаного – *Helichrysum arenarium* (L.) Moensh.)

Ключевые слова. Лекарственные растения, виды бессмертника, интродукция, биоморфологические показатели, рост и развитие, фазы вегетации, урожайность.

INTRODUCTION EVALUATION OF *HELICHRYSUM* SPECIES IN SOIL AND CLIMATIC CONDITIONS OF THE KHORAZM REGION

Annotation. The species *Helichrysum* are medicinal plants and are considered a relatively new crop in the Khorezm region, the technology of its cultivation, physiological properties and biochemical composition, as well as the possibilities of its use in the soil and climatic conditions of the Khorezm region have not been studied. Based on this, this article provides information on the introduction assessment of two species Helichrysum – *Helichrysum arenarium* (L.) Moensh and *Helichrysum maracandicum* M.Pop.) on alluvial-meadow soils of the Khorezm region. Based on the results of many years of experiments and biometric indicators in the growth and development phases of Helichrysum species, for regional clusters of the republic, specialized in growing medicinal plants for the purpose of preparing raw materials for export in the pharmaceutical industry, based on the conditions on moderately saline and irrigated alluvial-meadow soils of the Khorezm region, it is recommended to sow and cultivate on large areas *Helichrysum arenarium* (L.) Moensh.).

Keywords. Medicinal plants, the species *Helichrysum*, introduction, biomorphological indicators, growth and development, vegetation phases, yield.

KIRISH.

Mamlakatimizdning dori siyosati tibbiyot muassasalari va aholini samarali, xavfsiz va arzon dori vositalari bilan ta’minlash tamoyillariga asoslanadi. Shundan kelib chiqib, Hukumatimiz qaror va farmonlarida mahalliy sharoitda o‘sadigan dorivor o‘simliklar asosida dori preparatlarini o‘rganishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bunda asosiy e’tibor shunday mahsulotlarga qaratilganki, ularni ishlab chiqarishga tadbiq qilinishida kam vaqt va mablag‘ talab etilishi kerak. Bunday dori vositalari bilan ta’minlashni fitokimyoviy ishlab chiqarishni rivojlantirish hisobiga amalga oshirish maqsadga muvofiq va iqtisodiy jihatdan qulay hisoblanadi [3].

Tabiiy sharoitlarda o‘suvchi dorivor o‘simliklardan samarali foydalanishning muhim yo‘nalishlaridan biri bu – dorivor o‘simliklarni saqlash va ulardan samarali foydalanishning

uzoq muddatlarga mo‘ljallangan ilmiy dasturini ishlab chiqish hisoblanadi. Ushbu dasturni amalga oshirish uchun esa O‘zbekistonda yetarli xom ashyo zaxirasi bilan ta’minlangan yovvoyi holda o‘sadigan dorivor o‘simliklarni izlab topish, ularni parvarishlash va yetishtirish agrotexnikasini chuqur, ilmiy asosda o‘rganish, har bir hududning mavjud dorivor o‘simliklar arsenalini kengaytirish, farmatsevtika sanoati korxonalarning dorivor o‘simliklar xomashyosiga bo‘lgan talabini qondirish va ular asosida turli xil biologik faol qo‘shimchalar, fitopreparatlar va yig‘ma choylar olib ularni ishlab chiqarishga jorish qilish hozirgi kunda eng dolzarb va istiqbolli yo‘nalishlaridan hisoblanadi [5].

Dorivor o‘simliklardan yuqori va sifatli xom ashyo hosilini olish uchun avvalambor, mazkur o‘simlikning yetishtirish qonutiyatlarini, ya’ni ekish usullari, ekish muddatlari, tuproq-iqlim sharoitlaridan kelib chiqib mineral o‘g‘itlar me’yori va muddatlarini to‘g‘ri belgilash kabi agrotexnik va biologik xususiyatlarini chuqur o‘rganish orqali yetishtirishning zamonaviy agrotexnologiyalarni ishlab chiqarishga tadbiq qilish zarur [1].

Mamlakatimiz florasida milliy iqtisodiyotimiz uchun muhim bo‘lgan ko‘plab o‘simlik turlari mavjud. Ammo bunday o‘simliklarni o‘rganish ko‘pincha turli sohalarda chuqur o‘rganilgan bo‘lsada (ilmiy, tibbiy, sanoat va hokazo) biologik va agronomik jihatdan kam o‘rganilgan. Jahon va mamlakatimiz olimlari tomonidan o‘rganilayotgan foydali o‘simliklar orasida qimmatli bioflovonoidlarga boy bo‘lgan bo‘znoch (*Helichrysum*) turlari O‘zbekiston milliy iqtisodiyotida, xalq tabobati va zamonaviy tibbiyotda muhim rol o‘ynaydi va keng miqyosda foydalaniladi. Bo‘znoch turlari Xorazm viloyatida birmuncha yangi ekin hisoblanganligi sababli, Xorazm viloyati tuproq-iqlim sharoitida, fenologik, morfo-fiziologik xususiyatlari va biokimyoviy tarkibi, yetishtirish texnologiyasi shuningdek, qo‘llash imkoniyatlari umuman o‘rganilmagan.

Tadqiqotlarimizning maqsadi Xorazm viloyatining o‘tloqli-allyuvial tuproqlari sharoitida bo‘znoch turlarining introduksiyasini o‘rganishdan iborat. Tadqiqotlar Xorazm viloyati Xiva tumani hududida joylashgan O‘rmon xo‘jaligi ilmiy-tadqiqot institutiga qarashli Qoraqum ilmiy tajriba stansiyasining tajriba dalalarida amalga oshirildi.

Tajriba dalalarining tuproqlari asosan o‘tloqi-allyuvial tuproqlar hisoblanadi. Ushbu turdagi tuproqlar Amudaryoning quyi oqimidagi yerlarni egallab, Xorazm viloyatidagi ekin maydonlarining 34,2 foizini tashkil qiladi. Ular Amudaryoning hozirgi delta sharoitida shakllangan. Yer osti suvlari minerallashgan va 1–3 m chuqurlikda joylashgan. Agrokimyoviy xossalari bo‘yicha tajriba maydoni tuproqlari karbonatlashgan, kam strukturali, chirindi miqdorining kamligi va sho‘rlanishga moyilligi bilan ajralib turadi. Tajriba tuproqlari asosan o‘rtacha sho‘rlangan bo‘lib, xlorid-sulfatli tipga mansub.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR.

Ma’lumki, dorivor va xushbo‘y o‘simliklarning introduksiyasi o‘ziga xos xususiyatlarga ega – ular dorivor o‘simliklar yetishtirish va rivojlantirishning asosini tashkil etishi bilan birga, o‘simlik resurslaridan maksimal darajada samarali foydalanish imkonini beradi hamda va o‘simliklar genofondini saqlash va qo‘paytirishda katta ahamiyatga ega [2].

Introduksion baholash – bu shu hududda foydalanish uchun eng istiqbolli o‘simlik turlarini yoki navlarini turli xil stress omillarga (sovuqqa, qishga, sho‘rlanishga qurg‘oqchilikka) chidamliligini aniqlashga qaratilgan ma’lum bir introdutsiyent o‘simliklarni yetishtirishni o‘rganishning yakuniy bosqichidir [8].

So‘nggi yillarda ob-havo va iqlim sharoitlarining mahalliy o‘zgarishi tufayli o‘simliklarning abiotik muhit omillariga chidamliligini oshirish masalalari ayniqsa dolzarb bo‘lib qolmoqda [9].

Hozirgi vaqtda farmatsevtik amaliyotda va tabiiy dori vositalarini ishlab chiqarilishida dorivor o‘simliklarning xomashyosiga talab ortib borayotgani hisobiga dorivor o‘simliklarni introduksiya qilish va ularni introduksion chidamliligi bo‘yicha baholash katta ilimiy va amaliy ahamiyat kasb etadi [6].

Shu boisdan ham ilmiy tadqiqot vazifalaridan kelib chiqib, Xorazm viloyatining o‘tloqli – allyuvial tuproqlarida bo‘znoch (qumloq bo‘znochi – *Helichrysum arenarium* (L.) Moensh va Samarqand bo‘znochi – *Helichrysum marachandichum* M.Pop.) turlari B.Yo.To‘xtayev tomonidan ishlab chiqilgan sho‘rlangan tuproqlarda dorivor o‘simliklarning besh ko‘rsatkichli shkala asosida introduksion baholandi (1-jadval) [4].

1 - jadval

Sho‘rlangan tuproqlarda dorivor o‘simliklar introduksiyasi natijalarini baholash shkalasi, B.Yo.To‘xtayev, 2009 y.

№	Ko‘rsatkichlar	Ko‘rsatkichlar darajasi			Yuqori baho
		1	2	3	
I	Sho‘rlanishga chidamliligi	kuchli	o‘rtacha	past	30
II	Namlikka bo‘lgan talabi	kam	o‘rtacha	ko‘p	15
III	Yuqori haroratga nisbatan holati	chidamli	o‘rtacha	chidamsiz	15
IV	Past haroratga nisbatan holati	chidamli	o‘rtacha	chidamsiz	15
V	Tabiiy holda ko‘payishi	jadal	o‘rtacha	ko‘paymaydi	25
Jami					100

Tadqiqot obyekti sifatida bo‘znoch o‘simligining 2 turi: qumloq bo‘znochi (*Helichrysum arenarium* (L.) Moensh.) va Samarqand bo‘znochi (*Helichrysum marachandichum* M.Pop) olinib, Xorazm viloyati tuproq-iqlim sharoitida ularning morfologik xususiyatlari hamda beometrik kursatkichlari o‘rganildi va introduksion baholandi.

Tadqiqotlar asosan mayda delyankali tajriba bo‘yicha (10x10m^2) 2022 va 2023-yillarda o‘tkazildi. Har bir tur 3 ta takrorlanishda ekildi. Tajribalarning umumiy yer maydoni 0,2 ga.

Rivojlanishning mavsumiy ritmini standart usullardan foydalangan holda o‘simliklar rivojlanishining asosiy bosqichlarining boshlanishi vaqtlari bo‘yicha kuzatishlar olib borildi. Fenologik kuzatuv ma’lumotlariga ishlov berish V.N. Nilov usuli bo‘yicha qo‘shimchalarni inobatga olgan xolda bajarildi [7].

Fenologik kuzatishlar urug‘lar unib chiqqandan to pishib yetilgunga qadar amalga oshirildi. Rivojlanish fazasining boshlanishi o‘simliklarning – 10 fozida namoyon bo‘lganda, to‘liq fazada esa – 75 foiz kuzatilgan vaqtda deb qabul qilindi [10].

Bo‘znoch o‘simligi turlarida o‘sish va rivojlanish dinamikasi ikkita chegaradosh bo‘lmagan takroriyliklardagi maydonchalarning diagonali bo‘yicha 50 ta o‘simliklarni o‘lchash orqali hisoblandi. O‘lchashlar har bir tajriba maydonchasining 10 ta nuqtasida o‘tkazildi.

O‘sish davrida bo‘znoch o‘simligi vegetatsiyasining barcha fazalarida, ya’ni, haqiqiy chinbarg chiqarish, yon novdalar hosil bo‘lish, shonalash, gullash fazasining boshlanishi va to‘liq gullaganda hamda pishish fazasida fenologik muddatlarning bosqichlari aniqlandi. Fenologik kuzatishlar har oyning 2- kunida olib borildi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA. Qumloq bo‘znochi (*Helichrysum arenarium* (L.) Moensh o‘simligining Xorazm viloyatining o‘rtacha sho‘rlangan tuproq-iqlim sharoitida introduksion baholanishi bir muncha kuchli ekanligi kuzatildi. Jumladan, sho‘rlanishga chidamliligi – o‘rtacha, namlikka bo‘lgan talabi – ko‘p, yuqori va past haroratlarga – bir muncha chidamli, tabiiy holda ko‘payishi – o‘rtacha ekanligi aniqlandi (2-jadval).

2 - jadval

Qumloq bo‘znochi ning introduksion shkala asosida baholash

№	Ko‘rsatkichlar	Ko‘rsatkichlar darajasi			Yuqori baho
		1	2	3	
I	Sho‘rlanishga chidamliligi	kuchli	o‘rtacha	past	20
II	Namlikka bo‘lgan talabi	kam	o‘rtacha	ko‘p	5
III	Yuqori haroratga nisbatan holati	chidamli	o‘rtacha	chidamsiz	15
IV	Past haroratga nisbatan holati	chidamli	o‘rtacha	chidamsiz	15
V	Tabiiy holda ko‘payishi	jadal	o‘rtacha	ko‘paymaydi	15
Jami					70

Xorazm viloyatining o‘rtacha sho‘rlangan tuproq-iqlim sharoitida Samarqand bo‘znochi (*Helichrysum marachandichum* M.Pop) introduksion baholanishi tadqiq qilinayotgan boshqa introdutsent dorivor o‘simlik turlari, ya’ni – qumloq bo‘znochiga (*Helichrysum arenarium* (L.) Moensh.) nisbatan bir muncha kuchsiz ekanligi aniqlandi. Jumladan, sho‘rlanishga chidamliligi – past, namlikka bo‘lgan talabi – o‘rtacha, yuqori haroratga –chidamli, biroq past haroratga nisbatan chidamliligi – o‘rtacha, tabiiy holda ko‘payishi – o‘rtacha ekanligi kuzatildi (3-jadval).

3 - jadval

Samarqand bo‘znochining introduksion shkala asosida baholash

№	Ko‘rsatkichlar	Ko‘rsatkichlar darajasi			Yuqori baho
		1	2	3	
I	Sho‘rlanishga chidamliligi	kuchli	o‘rtacha	past	10
II	Namlikka bo‘lgan talabi	kam	o‘rtacha	ko‘p	10
III	Yuqori haroratga nisbatan holati	chidamli	o‘rtacha	chidamsiz	15
IV	Past haroratga nisbatan holati	chidamli	o‘rtacha	chidamsiz	10
V	Tabiiy holda ko‘payishi	jadal	o‘rtacha	ko‘paymaydi	15
Jami					60

Dorivor o‘simliklarning introduksion baholanishi bo‘yicha o‘tkazilgan ilmiy tajriba natijalaridan shu narsa ma’mum bo‘ldiki, o‘rganilayotgan bo‘znoch turlaridan – qumloq bo‘znochi (*Helichrysum arenarium* (L.) Moensh o‘simligining introduksion baholanishi bir muncha yuqori ekanligi tajribalarda tasdiqlandi hamda mos ravishda o‘rtacha 70 balli shkalaga ega ekanligi aniqlandi. Xorazm viloyatining o‘rtacha sho‘rlangan tuproq-iqlim sharoitida Samarqand bo‘znochining (*Helichrysum marachandichum* M.Pop) introduksion baholanishi o‘ranilayotgan qumloq bo‘znochiga nisbatan bir muncha kuchsiz ekanligi aniqlandi va o‘rtacha 60 balli shkalaga ega ekanligi qayd qilindi.

XULOSA. Umuman olganda, 2022-2023-yillarda o‘tkazilgan ilmiy tajribalar natijasida xulosa qilish mumkinki, bo‘znoch turlari Xorazm viloyatining o‘rtacha sho‘rlangan tuproq va iqlim sharoitida yaxshi o‘sib rivojlanishi isbotlandi.

O‘tkazilgan ko‘p yillik tajribalar hamda vegetatsiyasining o‘sish va rivojlanish fazalarida qayd qilingan biometrik ko‘rsatkichlar natijalariga ko‘ra, respublikamizdagi dorivor o‘simliklarga ixtisoslashgan klasterlarga farmatsevtika sanoati uchun xom ashyo tayyorlash va dorivor o‘simliklarni xorijga eksport qilish maqsadida Xorazm viloyatining o‘rtacha

sho‘rlangan va sug‘oriladigan o‘tloqi – allyuvial tuproqlarida sharoitida qumloq bo‘znochini (*Helichrysum arenarium* (L.) Moensh.) ekin maydonlarini kengaytirish va katta plantatsiyalarga ekish maqsadga muvofiqdir.

Shuni ham ta’kidlab o‘tish joizki, dorivor va xushbo‘y o‘simliklarni introduksiya qilishda erishilgan natijalar, bu boradagi ishlarni zamonaviy tadqiqot usullaridan foydalangan holda davom ettirish respublikamizda tabiiy dorivor o‘simliklar xom ashyosidan zamonaviy va samarali dori vositalarini, fitopreparat va fitochoylarni ishlab chiqish va yaratish, milliy farmatsevtika infrostrukturasini yanada rivojlanishiga va farmatsevtika bozorini ishonchli mahalliy mahsulotlar bilan ta’minlash uchun keng istiqbollar ochish imkoniyatini yaratadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Hoshimov, A.D Matchanov, O.O.Gaybullaeva, A.S.Ishmuratova, D. Maxmudova, Q.O.Komilov. Expansion of Acorus Calamus L. (Normal cow) Plant and its Composition, Biological Properties and Application in Medicine. World Journal of Ingineering and Technology. 2020. Vol.6. Issue 3. P. 156-165.

2. Semenyutina V.A. Flowering and fruiting varieties of Zizyphus jujuba under conditions Introductions // Lomonosov - 2011 . Section : "Biology" 18 int. scientific . conf. graduate students and young scientists. - Moscow: MAKS Press, 2011 . - P. 61.

3. Sh.Yu.Kadirov, U.Q.Abdurahimov Abu Rayhon Beruniy asarlaridagi dorivor o‘simliklar va ularni zamonaviy tibbiyotda qo‘llash. Xorazm Ma’mun akademiyasi noshirlik bo‘limi. Xiva, 2016 y. Hajmi 7 b.t. 112 bet

4. To‘xtayev B.Yo. O‘zbekistonning sho‘r yerlarida dorivor o‘simliklarning introduksiyasi // Biologiya fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. Toshkent – 2009. 142-b.

5. Umorbek Abdurakhimov, Sayora Babadjanova, Nurbek Khamraev, Muyassar Djumaniyazova, Madina Bekchanova, Sadokat Salimova Biological features of different varieties of Saint Mary's thistle (Silybum marianum (L) Gaertn.) cultivated in soil-climatic conditions of Khorezm region //Journal of Critical Reviews. ISSN-2394-5125 Vol 7, Issue 7, 2020 pp-397-401.

6. Коваль І. В. Біоекологічні особливості видів роду Rosa L. у зв´язку з інтродукцією в Степовому Придніпров´ї : автореф. дис. канд. біол. наук (03.00.05 – ботаніка). – Київ, 2010. – 20 с.

7. Нилов В.Н. Методы статистической обработки материалов фенологических наблюдений // Журнал ботаники. 1980. – №2 (65). – С. 282-284.

8. Петрова Н.Г., Яковлева Т.А. Оценка интродукционной устойчивости древесных растений в условиях Южной Прибалтики (Калининградская область) // Вестник Балтийского Федерального университета им. И. Канта. 2012. Вып. 7. С. 97—102.

9. Свинсов И.П., Семенютина А.В. Оценка влияния комплекса экологических факторов на интродукционную устойчивость древесных растений //«Наука. Мысл: Электронный периодический журнал» № 1 . - 2014. - С. 2-4.

10. Тухтаев Б.Ю., Махкамов Т.Х., Тулаганов А.А., Маматкаримов А.И., Махмудов А.В., Аллаяров М.У. Инструкция по организации плантаций лекарственных и питательных растений и заготовке их сырья. – Ташкент, 2015. - С. 3-5.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 1-son)

TABIIY FANLAR

NATURAL SCIENCES

UDK:614

SOG‘LIQNI SAQLASH TIZIMI ISLOHOTLARI STRATEGIYASINING ISHLAB CHIQILISHI VA UNING ASOSIY YO’NALISHLARI

Azimova Maftuna Muhammadaminovna
Qo‘qon Universiteti o‘qituvchisi
maftunaazimova67@gmail.com + 998-88-811-67-57

Annotatsiya Mustaqil taraqqiyotimiz davrida mamlakatimizda inson xayotini yaxshilash, aholi turmush sharoitlarini yaratish maksadida ulkan ishlar amalga oshirildi. Mamlakatda aholini ijtimoiy himoya qilish, uning sog‘ligini kafolatlash yunalishida jahon va milliy tajribaga tayanib yagona tizim yaratila boshlandi. Bugungi kunda zamon talabi, aholini ijtimoiy ximoyalash va sog‘liqni saqlash tizimini takomillashtirish uchun yangicha tamo-yillarni ishlab chiqish va amalga oshirishni talab etmoqda.

Inson salomatligini yanada mustaxkamlash, sog‘lom insonlar safini kengaytirish, onalar va bolalar sog‘ligini muhofaza qilish, sog‘lom turmush tarzini keng omma o‘rtasida shakllantirish, oilada tibbiy madaniyatni oshirish, xar bir shaxsning salomatligi o‘z qo‘lida ekanini aholi o‘rtasida keng targ‘ib qilish, sog‘lom jamiyatni tashkil etish borasidagi ishlarni mustaqilligimizning dastlabki yillaridan boshlab, davlatimiz tomonidan amalga oshirilib kelindi.

Dastlabki davrlardan boshlab mamlakatmizda ushbu sohani rivojlantirish va mustahkamlash maqsadida qonun xujjatlari qabul qilindi[1]. Shuningdek aholi salomatligini tiklash hamda mustahkamlash yo‘lida mustaqillikning dastlabki davrlaridayoq mamlakatda sog‘liqni saqlash tizimini isloh qilish zarurati paydo bo‘ldi va ushbu sohada O‘zbeksiton Respublikasi birinchi prezidenti Farmoni qabul qilindi.[2]

O‘zbeksitondagi ushbu jarayonlardagi yangicha tamo-yillarni ishlab chiqish hamda mamlakatimizning jahon talablariga javob bera oladigan barcha sohalarni rivojlantirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7- fevraldagi «O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish buyicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida» PF-4947-son Farmoni qabul qilindi. Harakatlar strategiyasida aholini ijtimoiy himoya qilish va sog‘liqni

[1] 1996 yil 29 avgustda qabul qilingan «O‘zbekiston Respublikasida fuqarolarning sog‘ligini saqlash to‘g‘risida»gi Qonun
[2] 1998 yil 10 noyabrda qabul qilingan «O‘zbekiston Respublikasi sog‘liqni saqlash tizimini isloh qilish Davlat dasturi to‘g‘risida»gi 2107-son Prezident Farmoni

saqlash tizimini takomillashtirish, xotin-qizlarni ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida belgilandi[3]. Shuningdek 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasida Ko‘rsatilayotgan tibbiy xizmatlarni aholiga yanada yaqinlashtirish va qulayligini oshirish maqsadida respublika hududlarida tibbiyot klasterlarini tashkil etish maqsadida Namangan, Farg‘ona, Sirdaryo, Qashqadaryo, Navoiy, Toshkent viloyatlari va Toshkent shahrida tibbiyot klasterlarini tashkil etish maqsadlari amalga oshirila boshlandi[4].

Yuqoridagi o‘zgarishlardan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, O‘zbekistondagi sog‘liqni saqlash tizimidagi islohotlar va bu sohani rivojlanishi tarixiga oid bo‘lgan masalalarni o‘rganish, sohadagi o‘zgarishlarni aholi turmush tariziga tasirini ilmiy tahlil etish tibbiyot tarix fani oldida turgan dolzarb muammolardan biridir.

Kalit so‘zlar: Salomatlik, tibbiy xizmat, prezident farmonlari, qonun, normativ hujjatlar, turmush tarzi, sanitariya nazorati, tibbiyot muassasasi, tibbiy xizmat, amaliyotchi shifokor.

KIRISH.

Hozirgi davrda O‘zbekiston sog‘liqni saqlash tizimining turli sohalarida yangi tibbiy xizmat turlarini joriy qilish va tibbiy xizmat ko‘rsatishni turli shakllarini rivojlantirishni moliyaviy ta’minoti bilan bog‘liq muammolar viloyatlar miqiyosida eng kam o‘rganilgan ilmiy muammolardan biri hisoblanadi.

O‘zbekiston sog‘liqni saqlash tizimini mustaqillik yillaridagi holatini chet el olimlari Zadorjnaya R.A., Berend Rechel., Sebastyan Peruz[5] va boshqalar tomonidan o‘rganilgan. Ushbu olimlarning O‘zbekiston Respublikasida sog‘liqni saqlash tizimidagi davlatimiz tomonidan olib borilgan tizimli islohotlar, mustaqillik yillaridan boshlab keng qamrovda amalga oshirilayotgan aholi salomatligi uchun shifokorlar tomonidan amalga oshirilgan chora-tadbirlar, mamlakat kadrlar tayyorlash tizimini yo‘lga qo‘yilishi hamda undagi mavjud muammolar, shuningdek O‘zbekiston sog‘liqni saqlash tizimining MDX tarkibidagi davlatlar orasidagi o‘rni va uning ko‘rsatkichlaridagi farqlar, holatlari o‘rganilgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA TADQIQOT METODOLOGIYASI.

O‘zbekiston Respublikasidagi sog‘liqni saqlash tizimidagi islohotlari yo‘nalishlarini, shu jumladan, tibbiy xizmat ko‘rsatish sohalarini moliyalashtirishda davlat ishtirokini ayrim ilmiy masalalari Jumanov S., Zaynalov J., Malikov T., Sultonova A.,Iskandarova Sh., Srojiddinova Z.[6] lar tomonidan o‘rganib kelinmoqda.

---

[3] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi «O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida» PF 4947-son Farmoni.

[4] 2022 — 2026 -yillarga mo‘ljallangan “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” gi PF-60-son Farmoni.

[5] Задоржная Р.А. и соавт. – Охрана здоровья населения Узбекистана (обзор). –Москва. 1991. –С. 225; Беренд Р. Системы здравоохранения; время перемен // Европейская обсерватория по системам и потитике здравоохранения. Health Systems in Transition, 2007. –С. 210; Себастян Перуз. Реформа здравоохранения в Узбекистане: Какая роль отведена международному сообществу // Программа по Центральной Азии, IERES, Университет Джорджа Вашингтона. –Америка. 2015.

[6] Джуманов С.А. Из истории дятельности селскых врачебных пунктов Узбекистана // Молодой ученый. 2015. -№ 8 (88). – С.775-777; Iskandarova Sh.T, Karieva M.T. O‘zbekiston Respublikasida sog‘liqni saqlash tizimini isloh qilish (talabalar uchun

Ammo, Farg‘ona viloyati tibbiyot sohalarini zamon talablari doirasida tiklanishi va rivojlanishini, tizimni rivojlanishi jarayonidagi amalga oshirilgan islohotlar, soha kadrlari bilan ta’minlanish darajalari, shuningdek moliyaviy ta’minotining o‘ziga xos jihatlari hali to‘la o‘rganilmagan. Bu esa ushbu masalaga bog‘liq holatlarni dolzarbligidan dalolat beradi va belgilangan ilmiy izlanish mavzusining kun tartibida o‘ta dolzarb muammo sifatida ko‘tarilishiga asos bo‘ldi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA. Mustaqillikning ilk kunlaridanoq O‘zbekistonda demokratik huquqiy davlatni shakllantirish yo‘lida ulkan ishlar amalga oshirilmoqda. Mustaqillik yillarida siyosiy, iqtisodiy va madaniy sohalarda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar orasida, tanlab olingan yo‘nalishning siyosiy va huquqiy asoslarini yaratishga oid chora-tadbirlarni alohida ta’kidlash lozim. O‘zbekiston mustaqil huquqiy-demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etish, bozor iqtisodiyotiga o‘tish hamda xalqaro huquq subyekti sifatida jahon hamjamiyatiga qo‘shilish yo‘lida izchil harakat qilmoqda.

Mustaqillikka erishgach, mamlakatimizda siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotning barcha jabhalarida tiklanish davri boshlandi. Tibbiyot sohasida ham yangi bosqichga qadam qo‘yildi. Xususan, sog‘liqni saqlash tizimini tubdan yaxshilashga qaratilgan tadbirlar amalga oshirila boshlandi. Shu yo‘nalishda birinchi bo‘lib, O‘zbekistonda sog‘liqni saqlash tizimini rivojlantirish maqsadida 1992- yilning mart oyida ushbu soha vazirligi hayati yig‘ilishida 1996-1998 -yillarga mo‘ljallangan umumiy dastur ishlab chiqildi hamda tasdiqlandi. 1999-yilning 14-yanvar oyida Vazirlar Mahkamasi tomonidan “O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash tizimida boshqarishni takomillashtirish to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindiki, ushbu hujjatlar mamlakat sog‘liqni saqlash tizimidagi amalga oshiriladigan islohatlarni yo‘llarini belgilab berdi.

1996-yil 26-avgustda “O‘zbekiston fuqarolarining sog‘lig‘ini muhofaza qilish to‘g‘risida” maxsus Davlat qonuni qabul qilindi. Bu qonun davlat uchun muhim bo‘lgan uchta asosiy masalani belgilab berdi:

1) fuqarolarning sog‘lig‘ini muhofaza qilishga oid huquqlarni davlat tomonidan kafolatlash;

2) sog‘lom turmush tarzini shakllantirish;

3) mamlakatdagi barcha davlat va jamoat tashkilotlarining sog‘liqni saqlash sohasidagi faoliyatini huquqiy jihatdan tartibga solish.

Sog‘liqni saqlash haqidagi qonunda fuqarolarning sog‘lig‘ini himoya qilishning asosiy tamoyillari belgilangan. Ular quyidagilardan iborat:

1) sog‘liqni saqlash sohasida inson huquqlariga rioya etish;

2) aholining barcha qatlamlariga tibbiy xizmatdan foydalanish imkoniyatini taqdim etish;

3) profilaktika tadbirlarining ustuvorligi;

metodik qo‘llanma) Toshkent – 2006; Sultonova A.O‘. Sog‘liqni saqlashni bozor munosabatlari orqali tartibga solishning xalqaro amaliyoti: i.f.n. ... diss avtoreferati. – Toshkent: TDIU. 2001

4) sog‘lig‘idan ayrilgan fuqarolarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash;

5) tibbiyot fanlari va amaliyotning uzviyligi. Qonunda O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni Saqlash Vazirligining tuzilmasi va vakolatlari ham belgilandi. Bundan tashqari, ushbu qonun aholini sanitariya-epidemiologik jihatdan xavfsizlik bilan ta’minlashni ham o‘z ichiga oladi. Qonunda har bir bemorning sog‘liqni saqlash sohasidagi huquq va imtiyozlari ham qayd etilgan.

O‘zbekiston mustaqillikka erishgandan so‘ng, sog‘liqni saqlash sohasida amalga oshirilgan ikkinchi muhim qadam sifatida sog’liqni saqlash tizimini isloh qilish amalga oshirildi. Bu haqda davlat rahbari maxsus qaror chiqardi. Mazkur qarorga asosan sog‘liqni saqlash tizimida faoliyat yurituvchi mutaxassislar, olimlar, huquqshunoslar hamda bu ishga aloqador tashkilotlar O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash tizimini yangilash dasturini ishlab chiqdilar. Ushbu dastur Respublika Sog‘liqni saqlash vazirligining kengashida va O‘zbekiston Vazirlar Mahkamasida ko‘rib chiqilib, sog‘liqni saqlash tizimini yangilashning asosiy dasturi sifatida tavsiya etilganidan so‘ng, 1998-yil 10-noyabr kuni davlat rahbarining qarori bilan tasdiqlandi. Dasturda sog‘liqni saqlash tizimini isloh qilishning quyidagi kontsepsiyasi taklif etildi: bepul tibbiy xizmat ko‘rsatadigan va davlat byudjetidan moliyalashtirilishi kerak bo‘lgan davolash-profilaktika muassasalarining ro‘yxatini tuzish, qishloq shifokorlik punktlarining tarmog‘ini rivojlantirish, yuqori malakali shifokor kadrlar va o‘rta tibbiy xodimlar tayyorlash, shu maqsadda tibbiy bilim yurtlarini kasb-hunar kollejlariga aylantirish.

Dasturda tez tibbiy yordam tizimini yuqori darajaga ko‘tarish maqsadida bir qancha tibbiy muassasalar (Toshkent shahar tez tibbiy yordam stansiyasi, Respublika va Toshkent viloyati sanitariya aviatsiyasi) asosida Respublika shoshilinch tibbiy yordam markazini va uning hududiy filiallarini tashkil etish nazarda tutilgan. Qarorga muvofiq, oliy tibbiy o‘quv yurtlari huzurida uch yil o‘qish davomiyligi bilan yuqori malakali tibbiyot hamshiralarini (reanimatologlar, tug‘ruqxona akusherkalari) tayyorlash bo‘linmalarini tashkil etish rejalashtirilgan. Qarorda xalqaro tashkilotlar, xorijiy investorlar, jamg‘armalar va tashkilotlarning mablag‘larini ham sog‘liqni saqlash tizimiga jalb qilish ko‘zda tutilgan.

Mazkur qarorni bajarish bo‘yicha 1999-yil 14-yanvarda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi va uning hududiy tashkilotlarining asosiy vazifalari to‘g‘risida qaror qabul qildi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Sog‘liqni saqlash vazirligining markaziy apparati va uning boshqaruv tizimlarini tasdiqladi. Vazirlik rahbariyati asosan vazir va uning to‘rt nafar o‘rinbosaridan iborat bo‘ldi. Toshkent shahar sog‘liqni saqlash boshqarmasi rahbari o‘z lavozimiga ko‘ra Sog‘liqni saqlash vazirining o‘rinbosari deb belgilandi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi o‘zining 1999-yil 14-yanvardagi qaroriga ilova sifatida “O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni Saqlash Vazirligi to’g’risida Nizom” e’lon qilindi. Unda Sog‘liqni Saqlash Vazirligining maqomi, vazifalari, vakolatlari va faoliyatining tashkiliy tamoyillari belgilandi. Hujjatda ta’kidlanishicha, Sog‘liqni Saqlash Vazirligi o‘z ishini

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Oliy Majlis qarorlari, Prezident farmonlari va boshqa normativ hujjatlarga muvofiq olib boradi.

Aholi salomatligini himoya qilish, yuqumli kasalliklarning tarqalishining oldini olish, sanitariya-epidemiologik xizmatga bog‘liq. Bu borada sanitariya nazoratini samarali tashkil etish va uni tezkor amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etishi alohida qayd etilgan. 1992-yil 3-iyulda “Davlat sanitariya nazorati to‘g‘risida qonun” qabul qilindi. Unda sanitariya-epidemiologik nazoratning asosiy tamoyillari belgilandi. Xususan, salomatlik uchun qulay ekologik muhit yaratish, radiatsiya xavfsizligini ta’minlash ustidan nazorat o‘rnatish, tashkilotlar va shaxslar tomonidan sanitariya qoidalarining buzilishi uchun javobgarlikni kuchaytirish choralari qonuniy jihatdan mustahkamlandi. Ushbu qonunda sanitariya-epidemiologik masalalarda xorijiy davlatlar bilan xalqaro kelishuvlar tuzish imkoniyatlari ham nazarda tutilgan.

Respublikada sog'liqni saqlash tizimini isloh qilish va uni takomillashtirish tadbirlarini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan mablag'ni yetkazib berish maqsadida Vazirlar Mahkamasi 1997- yil 2-dekabrda «Davolash-profilaktika muassasalarini mablag' bilan taminlash tizimini takomillashtirish to'g'risida» qaror qabul qildi. Qarorda hukumat tamonidan ajratilgan mablag'dan tashqari har xil hayriya jamiyatlari, chet el investitsiualari va tijorat muassasalarining sarmoyalaridan foydalanish ham ko'zda tutilgan. Unda davolash uchun sarf bo'ladigan mablag'ning bir qismini bemorlarning o'z zimmalariga yuklash ham hisobga olingan. Masalan, 1998-yil 1-yanvardan boshlab bemorlar shifoxonalarda davolanishlari davrida ovqatlanishlari pullik qilindi. Bulardan tashqari, sog'liqni saqlash tizimini qo'shimcha mablag' bilan ta'minlashni ko'zda tutib, har xil nodavlat jamg'armalar ham ta'sis etildi. Bu tadbirlar natijasida Respublikamizda sog'liqni saqlash ishini isloh qilish va uni takomillashtirish yo'lida bir muncha ijobiy natijalarga erishildi.

1998-yili O'zbekiston shifokorlar uyushmasining tashabbusi bilan Ibn Sino xalqaro xayriya jamg'armasi» tashkil etildi. Jamg'arma Prezidentning farmoni bilan rasmiylashtirildi. Farmonda aytilishicha bu jamg'arma Sog'liqni Saqlash tizimidagi islohatlarni tezlashtirishga yordam berishi, tibbiy ijtimoiy hayriya tashki- lotlarini, nuroniylar uchun gerontologiya markazlarini ochish va Ibn Sino ta'limoti hamda zamonaviy ilm-fan asosida Sharq tabobatini rivojlantirish, Abu Ali ibn Sino merosini chuqur o'rganish ishlarini tezlashtirish, tibbiy maktablar va o'quv yurtlari uchun yangi o'quv dasturlarini ishlab chiqarishda ishtirok etish, buyuk olim asarlarini tartibga solish va ularni nashr etishga ko'maklashish va Ibn Sino kutubxonasini ochish, Ibn Sinoning hayoti va tabiblik faoliyati haqida kitoblar chiqarish hamda Ibn Sino muzeyini barpo etish, Ibn Sinoning ilmiy merosiga bag'ishlangan xalqaro anjumanlar, konferensiyalar tashkil qilish ishlari bilan shug'ullanishi kerak. Buyuk vatandoshimiz Abu Ali ibn Sino mamlakatimizda ilmiy tibbiyotning shakllanishi va taraqqiy etishiga juda katta ulush qo‘shgan allomadir. Olimning nomi xalqimiz xotirasida abadiy saqlanadi. 2003-yil 26-fevralda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Sog‘liqni saqlash tizimini yanada isloh qilish choralar to‘g‘risida»gi farmoni e’lon qilindi. Farmonda ta’kidlanishicha, mamlakatimizda

sog‘liqni saqlash tizimini yanada keng ko‘lamda va chuqurroq isloh qilish, yuqori xalqaro talablar darajasidagi ixtisoslashgan tibbiy markazlarni yaratish, ilg‘or tibbiy texnologiyalarni joriy etish, moliyaviy va huquqiy shart-sharoitlarni ta’minlash ko‘zda tutiladi. Jumladan, zamonaviy diagnostika va davolash uskunalari bilan jihozlangan maxsus klinikalar va tibbiy markazlarni tashkil etish rejalashtirilgan. Masalan, Respublikada ixtisoslashgan urologiya, jarrohlik, ko‘z mikrojarrohligi, ixtisoslashgan kardiologiya markazlari tashkil etiladi. Ushbu muassasalarga malakali shifokor mutaxassislar tayyorlanadi. Ular yuqori darajada rivojlangan xorijiy klinikalarda o‘z malakalarini oshiradilar. 2003-yil 1-fevralda bo‘lib o‘tgan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining yig‘ilishida prezident farmonini amalga oshirish bo‘yicha bajarilgan ishlar muhokama qilindi. Yig‘ilishda Respublika Sog‘liqni Saqlash Vazirligi, Jahon Sog‘liqni Saqlash Tashkilotining O‘zbekistondagi vakolatxonasi, bir qator vazirliklar va mas’ul tashkilotlarning vakillari qatnashdi. Majlisda muhim masalalardan biri sifatida dori vositalari va maxsus tibbiy asbob-uskunalar ishlab chiqarishni keng yo‘lga qo‘yish ta’kidlandi.

Yuqorida tilga olingan barcha chora-tadbirlar mamlakatimizda tibbiyot ilmi va sog‘liqni saqlash faoliyatini rivojlantirish yo‘lida qo‘yilgan ilk qadamlar hisoblanadi. Kelgusida Respublikamizda sog‘liqni saqlash tizimini takomillashtirish va rivojlantirish sohasida yana ko‘p ishlar amalga oshirilishi kerak.

Ushbu yillar davomida sog‘liqni saqlash tizimidagi milliy qonunchilikni takomillashtirish, tibbiy xizmat sifatini oshirish, bemorlar huquqlarini himoya qilish va tibbiyot xodimlarining mas’uliyatini kuchaytirishga qaratilgan qonunlar va qonun osti hujjatlar qabul qilindi.

Shu sababli, har bir fuqaro, xususan, o‘sib kelayotgan yosh avlod o‘z jamiyati va xalqi bilan hamnafas bo‘lib yashashi uchun o‘z huquq va majburiyatlarini anglab yetishi, ularni to‘g‘ri tushunishi zarur. Bu jarayon huquqiy madaniyatni yuksaltirishning asosiy sharti hisoblanadi. Mazkur maqsadga erishish uchun yangi qonunlar qabul qilinib, ular asosida amalga oshirilayotgan islohotlar davom ettirilmoqda. Aholi salomatligini saqlash va yaxshilash imkonini beradigan sifatli sog'liqni saqlash tizimini tashkil etish, sog'lom avlod tarbiyasi yuzasidan shart-sharoit yaratish yuzasidan davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlarini yoritib beradi. Mamlakatimizda ko'rilayotgan chora-tadbirlar natijasida aholiga tibbiy xizmat ko'rsatishning samaradorligi, sifati va qulayligini oshirish ta'minlandi, BMT Ming yillik rivojlanish maqsadlarining asosiy parametrlariga erishildi. Mustaqillik yillarida sog'liqni saqlash sohasida mamlakatimiz erishgan yutuqlarga xalqaro hamjamiyat tomonidan ijobiy baho berildi.

Xulosa va takliflar. O’zbekistonda mustaqillikning dastlabki yillarida sog’liqni saqlash sohasini isloh qilinishi natijasida bir qancha qaror, qonun va nizomlar qabul qilindi. Qabul qilingan qarorlar asosida soha faoliyatini huquqiy asoslari, tashkiliy tuzilmasi hamda moddiy texnik bazasi mustahkamlandi. Respublikamizning viloyat shahar va tumanlarida oilaviy poliklinikalar va qishloq vrachlik punktlari binolari qayta ta’mirlash ishlari nihoyasiga yetkazildi. Tizimdagi keng ko’lamli islohotlar natijasida mavjud qishloq vrachlik punktlari o’rnida qishloq oilaviy poliklinikalari tashkil etildi. Aholiga yanada qulaylik yaratish maqsadida

shifokorlarning ish vaqti belgilandi. Qishloq oilaviy poliklinikalarida umumiy amaliyot shifokori bilan birgalikda oltita tor soha mutahasislari pediatr, terapevt, ginekolog, xirurg, stomatolog, UTT vrachi faoliyati ham yo’lga qo’yildi. Shu bilan birga birlamchi tibbiy-sanitariya yordami muassasalari binolarini ham qayta ta’mirlash va imkoniyatlarini kengaytirish ishlari olib borildi. Bugungi kunda tez tibbiy yordam shahobchalarining poliklinikalarga ko’chirilganligi ham tibbiy xizmatni uzluksiz, tunu kun davom ettirish imkonini yaratdi. Shuni alohida ta’kidlash kerakki, mazkur sohadagi islohatlar bugungi kunda o’zining dolzarbligini ko’rsatib bormoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyacи. –Toshkent. “O‘zbekiston. 2021.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi 4947-son farmonining 1-ilovasida keltirilgan «2017-2021 -yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi». [Elektron resurs]. http://strategy. regulation.gov.uz/uz/document/2. (Murojaat qilingan sana: 17.11.2017).
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi «O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish buyicha Xarakatlar strategiyasi tugrisida» PF 4947-son Farmoni.
4. 2022-2026 -yillarga mo‘ljallangan “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” gi PF-60-son Farmoni.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1996 yil 29 avgustdagi «O‘zbekiston Respublikasida fuqarolarning sog‘ligini saqlash tug‘risida»gi Qonuni.
6. O‘zbekiston Respublikasining 1996 yil 29 avgustda “Fuqarolar sog‘lig‘ini saqlash to‘g‘risida” 2651-son Qonuni.
7. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxdamasining 1996 yil 21 maydagi "O‘zbekiston Respublikasi qishloqlari ijtimoiy infrastrukturasini 2000--yilgacha bo‘lgan davrda rivojlantirish dasturi to‘g‘risida"gi Qarori
8. O’zbekiston Respulikasi Ilmiy texnikaviy va tibbitot hujjatlari Markaziy davlat arxivi . M-372-fond, 1-ro’yxat , 82-yig’ma jild, 11-varaq.
9. O’zbekiston Respublikasi davlat statistika Qo’mitasi hisobotlari. 2013 yil. –B.43

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 1-son)

TABIIY FANLAR

NATURAL SCIENCES

UDK: 612.39 (021)
ORCID: 0009-0008-0898-4717

QISHLOQ SHAROITIDA EMIZIKLI AYOLLARNING VITAMINLARGA BO‘LGAN FIZIOLOGIK TALABI VA UNING QONDIRILISHI

Baratova Shoxsanam Sobir qizi
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti, tayanch doktorant
Kurbanov Abdulaziz Shoniyozovich
Qarshi davlat universiteti,dotsent
E-mail: shoxsanambaratova11@gmail.com
+998910042090

Annotatsiya: Maqolada Qashqadaryo viloyati qishloq sharoitida yashaydigan emizikli ayollarning vitaminlarga bo‘lgan talabi va uning qondirilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan. Olingan natijalarga ko‘ra mazkur hududda istiqomat qiluvchi 18-29 yoshli emizikli ayollarning vitaminlar bilan ta’minlanishi 56,7 ± 3,0 mg (vitamin C), 1,3 ± 0,3 mg (vitamin A), 18,8 ± 0,8 mg (vitamin E), 2 ± 0,2 mkg (vitamin D), 2,1 ± 0,4 mg (vitamin B_1), 1,4 ± 0,1 mg (vitamin B_2), 2,2 ± 0,2 mg (vitamin B_6), 14,9 ± 0,7 mg (vitamin PP), 2,1 ± 0,2 mkg (vitamin B_{12}) ni tashkil qiladi.

Aniqlangan holat respublikamizning janubiy viloyatlaridan hisoblanadigan Qashqadaryo viloyati qishloq sharoitida istiqomat qiladigan emizikli ayollarning ovqatlanishi va vitaminlar bilan ta’minlanishida nomutanosibliklar mavjudligi va bu boradagi tadqiqotlar respuplikamizning turli hududlarida keng miqyosda olib borilishi lozimligini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: laktatsiya davri, emizikli ayollar, amaldagi ovqatlanish, yog‘da eruvchi vitaminlar, suvda eruvchi vitaminlar, makronutrientlar, mikronutrientlar, kunlik ratsion.

ФИЗИОЛОГИЧЕСКАЯ ПОТРЕБНОСТЬ В ВИТАМИНАХ У КОРМЯЩИХ ЖЕНЩИН В СЕЛЬСКОЙ МЕСТНОСТИ И ЕЁ УДОВЛЕТВОРЕНИЕ

Аннотация: В статье приведены сведения о потребности в витаминах и ее удовлетворении кормящих женщин, проживающих в сельских условиях Кашкадарьинской области. По результатам, обеспеченность витаминами кормящих женщин 18-29 лет, проживающих в данной местности, составляет 56,7±3,0 мг (витамин С), 1,3±0,3 мг (витамин А), 18,8±0,8 мг (витамин Е), 2 ± 0,2 мкг (витамин D), 2,1 ± 0,4 мг (витамин $Б_1$), 1,4 ± 0,1 мг (витамин $Б_2$), 2,2±0,2 мг (витамин $Б_6$), 14,9±0,7 мг (витамин РР), 2,1±0,2 мкг (витамин $Б_{12}$).

Выявленная ситуация показывает, что существуют дисбалансы в питании и витаминной обеспеченности кормящих женщин, проживающих в сельских условиях Кашкадарьинской области, которая является одним из южных регионов нашей республики, и что исследования в этом направлении необходимо проводить на большом масштабе в разных регионах нашей республики.

Ключевые слова: период лактации, кормящие женщины, актуальное питание, жирорастворимые витамины, водорастворимые витамины, макронутриенты, микронутриенты, суточный рацион.

PHYSIOLOGICAL REQUIREMENT FOR VITAMINS AND ITS FULFILLMENT IN LACTATING WOMEN IN RURAL AREAS

Annotatsion: The article presents information on the demand for vitamins and its satisfaction of lactating women living in the rural conditions of Kashkadarya region. According to the results obtained, the vitamin intake of lactating women aged 18-29 living in this region was 56.7 ± 3.0 mg (vitamin C), 1.3 ± 0.3 mg (vitamin A), 18.8 ± 0.8 mg (vitamin E), 2 ± 0.2 μg (vitamin D), 2.1 ± 0.4 mg (vitamin B_1), 1.4 ± 0.1 mg (vitamin B_2), 2.2 ± 0.2 mg (vitamin B_6), 14.9 ± 0.7 mg (vitamin PP), 2.1 ± 0.2 μg (vitamin B_{12}).

The identified situation indicates that there are imbalances in the nutrition and vitamin supply of lactating women living in rural areas of the Kashkadarya region, one of the southern regions of our republic, and that research in this area should be conducted on a large scale in different regions of our republic.

Key words: lactation period, lactating women, actual nutrition, fat-soluble vitamins, water-soluble vitamins, macronutrients, micronutrients, daily diet.

KIRISH.

Laktatsiya davri emizikli ayolning sog‘lig‘i va chaqaloqning rivojlanishi uchun juda muhim bosqichdir. Ushbu davrda ayol organizmi nafaqat o‘zining ehtiyojlarini, balki chaqaloqqa sut orqali yetkaziladigan barcha oziq moddalarni ham ta’minlashi kerak. Shu sababli, vitamin va minerallarni yetarli darajada qabul qilish emizikli onaning salomatligi uchun muhimdir [2, 4].

Emizish davrida ayolning tanasi sut ishlab chiqarish maqsadida ko‘p energiya sarflaydi. Kunlik ovatlanish ratsionida asosiy oziq moddalar bilan bir qatorda vitaminlar va minerallar yetishmovchiligi onada charchoq, immunitetning pasayishi, soch to‘kilishi va suyak zaiflashishiga olib kelishi mumkin.

Ona sutidagi vitaminlar chaqaloqning to‘g‘ri o‘sishi va immun tizimini mustahkamlash uchun zarurdir. Sut orqali yetarli darajada vitaminlar qabul qilinmasa, chaqaloqda turli rivojlanish muammolari yuzaga kelishi mumkin [1, 16].

Statistik ma’lumotlarda butun dunyo bo‘yicha bolalar o‘limining 45 foizi ularning yaxshi ovqatlanmaganligi bilan bog‘liq ekanligi qayd etilgan. Yer yuzida noto‘g‘ri ovqatlanish bilan

bog‘liq bo’lgan ona va bolalar kasalliklarining ko‘p qismi Afrika, Osiyo va Lotin Amerika mintaqalaridagi past va o‘rta daromadli davlatlarda sodir bo‘lmoqda. Shu sababli, Jahon Sog‘liqni Saqlash Tashkiloti go‘daklarni dastlabki 6 oylikda to‘liq emizishni va bola 2 yoshga to‘lguncha emizishni davom ettirishni tavsiya qiladi [1, 2].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR. Yer yuzida turli mamlakatlarda o‘tkazilgan ko‘plab tadqiqotlar natijalari laktatsiya davrida onaning oziq moddalar bilan ta’minlanishi ko‘krak suti tarkibidagi nutrientlarning miqdoriga ta’sir etishini ko‘rsatdi [4, 5]. Ona sutining miqdor va sifat ko‘rsatkichlari bolaning morfologik va fiziologik jihatdan rivojlanish jarayonini me’yorda kechishini ta’minlashdagi asosiy omillar hisoblanadi.

C vitamini (askorbin kislotasi) inson organizmida sog‘liqni saqlashda juda muhim bo‘lgan suvda eriydigan vitaminlardan biridir. Emizikli ayollar uchun ushbu vitamin nafaqat o‘z organizmi, balki ona sutidan chaqaloqqa o‘tadigan oziqa moddalari sifatida ham muhim rol o‘ynaydi. C vitamini issiqlikka va havoga sezgir, shuning uchun sabzavot va mevalarni yangi yoki bug‘da pishirilgan holda iste’mol qilish foydalidir. Ona suti orqali yetarli miqdorda C vitamini olgan chaqaloqlarning immun tizimi kuchliroq bo‘ladi, virusli kasalliklarga kamroq chalinadi, shuningdek, terisi sog‘lomligi va kollagen sintezi yaxshi rivojlanadi [9].

Emizikli ayollar uchun C vitaminining tavsiya etilgan kunlik iste'mol miqdori emizmaydigan ayollarga nisbatan yuqoriroq bo‘lib, taxminan 80 mg ni tashkil etadi. Muvozanatli ovqatlanish odatda ushbu ehtiyojni qondiradi, ammo ratsionda yetishmovchilik mavjud bo‘lgan hollarda qo‘shimcha C vitamini qabul qilish tavsiya etilishi mumkin.

Emizikli ayollarda C vitamini iste’moli bo‘yicha tadqiqotlar ushbu moddaning ona salomatligi va ko‘krak sutidagi C vitamini miqdoriga qanday ta’sir qilishini ko‘rsatdi. Sheila Xamfri va boshqa tadqiqotchilar hamda International Breastfeeding Journal hisobotlariga ko‘ra, kunlik ratsion orqali qabul qilinadigan ozuqa moddalarining miqdori ko‘krak sutidagi C vitamini darajasiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Bu ona immunitetini va chaqaloqning rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash uchun muhimdir. Yuqori dozada C vitamini iste'mol qilish, ayniqsa laktatsiya davrining boshlang‘ich davrida ko‘krak suti tarkibida vitamin C darajasi past bo‘lgan onalarda, ko‘krak sutidagi ushbu vitaminning miqdorini biroz oshirishi kuzatilgan, shuningdek, ko‘krak sutiga qancha miqdorda o‘tishi mumkinligining yuqori chegarasi mavjudligi ham aniqlangan [10, 13].

A vitamini organizm uchun muhim bo‘lgan yog‘da eriydigan vitaminlardan biri bo‘lib, emizikli ayollar va ularning chaqaloqlari uchun o‘ta zarur hisoblanadi. Ushbu vitamin ko‘rish qobiliyatini qo‘llab-quvvatlaydi, immun tizimini mustahkamlaydi va hujayra o‘sishini boshqarishda ishtirok etadi. Jigar, tuxum sarig‘i, sut va sut mahsulotlari, sabzi, shirin kartoshka, ismaloq va qovoq kabi oziq-ovqat mahsulotlari vitamin A ga boy mahsulotlar hisoblanadi [14].

E vitamini (tokoferol) kuchli antioksidant bo‘lib, laktatsiya davrida ushbu vitamin ona va chaqaloqning hujayralarini zararli erkin radikallardan himoya qiladi. Bundan tashqari, ushbu vitamin ona va bolaning infeksiyalarga qarshi kurashish qobiliyatini oshiradi hamda asab tizimi va miyasini rivojlanishini qo‘llab-quvvatlaydi [13].

Vitamin B_6 emizikli ayollar uchun muhim bo‘lib, ona organizmida metabolizmni, gormonal muvozanatni, immun va asab tizimlarini qo‘llab-quvvatlaydi hamda temirni o‘zlashtirishni yaxshilaydi. Laktatsiya jarayonida energiya va ozuqa moddalariga bo‘lgan ehtiyoj oshganligi sababli, ona salomatligini saqlash va go‘dak uchun optimal ozuqaviy ta’minotni ta’minlash uchun vitamin B_6 ni yetarli miqdorda iste’mol qilish juda muhimdir [15].

Dunyo bo‘ylab o‘tkazilgan ba’zi tadqiqotlar vitamin B_6 emizikli onalarda sut ishlab chiqarishga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi mumkinligini taklif qiladi, ammo uning ta’sirini to‘liq tushunish uchun qo‘shimcha tadqiqotlar talab etiladi. Yaxshi sut ishlab chiqarish chaqaloqning optimal o‘sishi uchun zarur bo‘lib, vitamin B_6 laktatsiyani qo‘llab-quvvatlashda muhim ozuqa hisoblanadi. Emizikli ayollar uchun tavsiya etilgan sutkalik norma taxminan 2,0 mg ni tashkil qiladi, bu sut ishlab chiqarishni hisobga olgan holda umumiy aholi uchun tavsiya etilgan me’yordan biroz yuqoriroqdir. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, turli xil oziq-ovqatlarni iste’mol qiladigan ayollar, odatda, ushbu talabni qondiradi yoki undan oshadi. Ammo cheklangan dietada (masalan, vegetarian yoki vegan dietalarida yetarli miqdorda B_6 ga boy o‘simlik manbalari yoki boyitilgan mahsulotlarsiz) bo‘lgan ayollarda ushbu vitamin yetishmovchiligi xavfi bo‘lishi mumkin [10,15].

Respublikamizda ayollarning laktatsiya davrida ovqatlanish holati bilan bog‘liq ilmiy ma’lumotlar yetarli bo‘lmaganligi sababli uning turli mintaqalarida istiqomat qiluvchi emizikli ayollarning amaldagi ovqatlanishini va vitaminlar bilan ta’minlanishini o‘rganish va u asosida kerakli tavsiyalar ishlab chiqish dolzarb masala hisoblanadi. Yuqoridagilarni e’tiborga olib, biz kuzatuvlarimiz davomida O‘zbekiston Respublikasining janubiy viloyatlaridan biri bo‘lgan Qashqadaryo viloyati G‘uzor tumanida qishloq sharoitida emizikli ayollarning vitaminlar bilan ta’minlanishini o‘rganish va baholashni maqsad qilib oldik.

Kuzatuvlar Qashqadaryo viloyatining G‘uzor tumanida istiqomat qiladigan 18-29 yoshli 46 nafar emizikli ayollar ustida olib borildi. Ularning amaldagi ovqatlanishi an’anaviy anketa-so‘rov usulida o‘rganildi. Tekshiriluvchilar 1 hafta mobaynida iste’mol qilgan barcha oziq-ovqat mahsulotlarini maxsus anketa-so‘rovnomada qayd qilib borishdi. Anketalarda keltirilgan mahsulotlar tarkibidagi vitaminlar miqdori aniqlandi. Bunda oziq-ovqat mahsulotlarining kimyoviy tarkibi maxsus jadvallar yordamida hisoblab chiqildi [7]. Anketalardagi ma’lumotlarni matematik hisoblash va statistik qayta ishlashda Windows Microsoft Excel dasturidan foydalanildi. Olingan natijalar esa tegishli me’yorlar bilan solishtirildi [6].

NATIJALAR VA MUHOKAMA. Kuzatuvlarimiz davomida emizikli onalarning kunlik taomnomalanishini tahlil qildik. Xususan, ularning kundalik iste’mol taomlari tarkibidagi vitaminlar miqdorini aniqladik. Quyida keltirilgan jadvalda G‘uzor tumani qishloqlarida istiqomat qiluvchi 18-29 yoshli teshiriluvchilarning vitaminlar bilan ta’minlanish holatini aniqlash natijalarini keltiramiz.

Emizikli ayollarning vitaminlar bilan ta’minlanishi

(n=46)

Vitaminlar	Me'yor	Olingan natija	Me'yorga nisbatan holat, %
Vitamin C (mg)	80	56,7 ± 3,0	70,8%
Vitamin A (mg)	0,8	1,3 ± 0,3	162,5
Vitamin E (mg)	15	18,8 ± 0,8	125,3
Vitamin D (mkg)	7,5	2 ± 0,2	26,6
Vitamin B_1 (mg)	1,5	2,1 ± 0,4	140
Vitamin B_2 (mg)	1,5	1,4 ± 0,1	93,3%
Vitamin B_6 (mg)	2	2,2 ± 0,2	110%
Vitamin PP (mg)	17	14,9 ± 0,7	87,6%
Vitamin B_{12} (mkg)	2,6	2,1 ± 0,2	80,7%

Yuqoridagi jadvalda keltirilganidek, Qashqadaryo viloyati G‘uzor tumani qishloq sharoitida istiqomat qiladigan 18-29 yoshli emizikli ayollarning kunlik ovqati tarkibida vitamin C, PP va B_{12} miqdori mos ravishda 56,7 ± 3,0 mg, 14,9 ± 0,7 mg va 2,1 ± 0,2 mkg bo‘lib, bu ko‘rsatkichlar me’yor darajasidan mos ravishda 29,2%, 12,4% va 19,3% ga kam ekanligi bilan izohlanadi. Bundan tashqari, respondentlarning kunlik ovqati orqali vitamin D bilan ta’minlanishida jiddiy taqchillik bor, ularning vitamin D bilan ta’minlanishi me’yorga nisbatan taqqoslanganda 73,4% ga kam.

Shuningdek, kuzatuvimizda bo‘lgan tekshiriluvchilarning kunlik ratsionida vitamin A, E va B_1 miqdori me’yorga nisbatan taqqoslanganda mos ravishda 62,5%, 25,3% va 40% ga ko‘p ekanligi aniqlandi. Respondentlarning vitamin B_2 va B_6 bilan ta’minlanishi me’yor darajasiga yaqin bo‘lib, me’yorga nisbatan taqqoslaganda mos ravishda 93,3% va 110% ni tashkil etdi.

Biroq, emizikli ayollarningg ovqatlanishida C vitaminiga alohida to‘xtalib o‘tish shart. Tekshiriluvchilarimiz kunlik ovqati tarkibida ushbu vitamin miqdori me’yor darajasidan past. C vitamini, askorbin kislotasi sifatida ham tanilgan, emizikli ayollar uchun keng ko‘lamli fiziologik foydalari tufayli juda muhimdir. Laktatsiya jarayoni ona salomatligi va go‘dak rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash uchun C vitamini kabi turli ozuqaviy moddalarga bo‘lgan ehtiyojni oshiradi. Emizikli ayollarda C vitamini yetishmovchiligi charchoq, immunitetning pasayishi va yaralarning sekin bitishi kabi simptomlarga olib kelishi mumkin. Chaqaloqlarda esa C vitamini yetishmovchiligi immun javobning sustlashishi, infeksiyalarga moyillikning oshishi va kollagen sintezining buzilishi natijasida o‘sish va rivojlanishga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin [13].

Shuningdek, tekshiriluvchilarimiz kunlik ovqati orqali vitamin D bilan ta’minlanishida jiddiy taqchillik bor. Vitamin D kalsiy va fosforni so‘rilishini qo‘llab-quvvatlaydi. Yetishmovchilik suyak zichligining pasayishi, osteoporoz yoki osteomalatsiya (suyak

yumshashi) holatlarini keltirib chiqarishi mumkin. Vitamin D yetarli bo‘lmasa, organizm infeksiyalarga va kasalliklarga ko‘proq moyil bo‘ladi. Ushbu vitamin yetishmovchiligi laktatsiya davrida onalarning kayfiyatiga salbiy ta’sir qilishi va tug‘ruqdan keyingi depressiyani kuchaytirishi mumkin. Vitamin D yetishmovchiligi chaqaloqlarda suyaklarning to‘g‘ri rivojlanmasligiga olib keladi, bu suyaklarning deformatsiyasi va o‘sishning sekinlashishiga sabab bo‘lishi mumkin [11, 12].

Vitamin PP (niatsin yoki B_3 vitamini) laktatsiya davrida ona organizmidagi asosiy fiziologik jarayonlar uchun muhim bo‘lib, energiya ishlab chiqarish, nerv tizimini qo‘llab-quvvatlash va teri salomatligi uchun zarurdir. Niatsin energiya ishlab chiqarishda ishtirok etadi va uning yetishmovchiligi charchoq, kuchsizlanish va umumiy ishtiyoq yo‘qolishiga olib kelishi mumkin. Bundan tashqari derma tit yoki terining quruqligi va yallig‘lanishi kabi alomatlar yuzaga kelishi mumkin. Laktatsiya davrida emizikli ayollar kunlik ratsionida shbu vitaminga boy go‘sht, baliq, don mahsulotlari, yong‘oq, dukkakli mahsulotlar kabi oziq-ovqat mahsulotlari bo‘lishi tavsiya etiladi [9, 10].

Vitamin B_{12} laktatsiya davrida ayol organizmida qizil qon hujayralarining hosil bo‘lishida muhim rol o‘ynaydi. Ushbu vitamin yetishmovchiligi charchoq, holsizlik va bosh aylanishiga olib keladigan megaloblastik anemiyaga sabab bo‘ladi. Tekshiriluvchilarimizning kunlik ovqati tarkibida ushbu vitamin miqdori me’yor darajasidan kam. Go‘sht, baliq, tuxum, sut mahsulotlari kabi hayvon mahsulotlari vitamin B_{12} ga boy mahsulotlar hisoblanadi [9, 10].

XULOSA. Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, respublikamizning janubiy hududlaridan biri hisoblanadigan Qashqadaryo viloyati qishloq sharoitida yashovchi 18-29 yoshli emizikli ayollarning kunlik ovqati tarkibida vitamin C, D, PP va B_{12} larning miqdori me’yor darajasidan kam. Tekshiriluvchilarning kunlik ratsioni orqali vitamin B_2 va B_6 bilan ta’minlanishi me’yor darajasida bo‘lib, ularning kunlik ovqati tarkibida vitamin A, E va B_1 miqdori me’yordan ko‘p.

Emizikli ayollarning vitaminlar bilan ta’minlanishini o‘rganish ona va bola sihat-salomatligini saqlash hamda mustahkamlashda muhim hisoblanadi. Bu borada ularning ratsional ovqatlanishini hamda sog‘lom turmush tarzini shakllantirish, ular o‘rtasida mavzuga doir tushunchalarni targ‘ib qilish muhim amaliy tadbirlardan biri bo‘lib hisoblanadi. Kuzatuvlarimiz davomida olingan natijalar bu boradagi tekshiruvlarni keng miqyosda davom ettirish lozimligini ko‘rsatmoqda.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Ш.И. Каримов (таҳрири остида) Соғлом овқатланиш – саломатлик мезони. Ўзбекистон Республикаси Соғлиқни Сақлаш Вазирлиги Тошкент Тиббиёт Академияси. Тошкент, 2015-йил, 343 б.

2. Black, R. E., Allen, L. H., Bhutta, Z. A., Caulfield, L. E., de Onis, M., Ezzati, M., Mathers, C., Rivera, J., & Maternal and Child Undernutrition Study Group. Maternal and child

undernutrition: global and regional exposures and health consequences. Lancet (London, England), 371(9608), 2008. 243–260 p. https://doi.org/10.1016/S0140-6736(07)61690-0

3. World Health Organization. Health topics. Infant and young child feeding. Geneva: World Health Organization; 2021. https://www.who.int/news-room/fact-sheets/detail/infant-and-young-child-feeding

4. Hu R, Eussen S, Sijtsma F, et al. Maternal dietary patterns are associated with human milk composition in Chinese lactating women. Nutrition. Published by Elsevier. 2021.111392. 91-92 p.

5. Mojtaba Keikha, Maryam Bahreynian, Mohammad Saleki, and Roya Kelishadi. Macro- and Micronutrients of Human Milk Composition: Are They Related to Maternal Diet? A Comprehensive Systematic Review. Breastfeeding Medicine. 2017. Published in Volume: 12 Issue 9. 517-527 p.

6. Физиологические нормы потребностей в пищевых веществах и энергии по половозрастным и профессиональным группам населения Республики Узбекистан для поддержаний здорового питания. СанПиН №0347-17. – Тошкент, 2017. –42 с.

7. И.М. Скурихина, М.Н. Волгарева. Химический состав пищевых продуктов: Книга 1: Справочные таблисы содержания основных пищевых веществ и энергетической сенности пищевых продуктов. – Москва «Агропромиздат», 1987. – 224 с.

8. Charlotte G. Neumann, Susan M. Oace, M. Pia Chaparro, Dena Herman, Natalie Drorbaugh, and Nimrod O. Bwibo. Low vitamin B12 intake during pregnancy and lactation and low breastmilk vitamin B12 content in rural Kenyan women consuming predominantly maize diets. Food and Nutrition Bulletin, vol. 34, no. 2 © 2013, The United Nations University. 151-159 p

9. Allen LH. B vitamins in breast milk: relative importance of maternal status and intake, and effects on infant status and function. Adv Nutr. 2012 May 1;3(3):362-9. doi: 10.3945/an.111.001172. PMID: 22585913; PMCID: PMC3649471.

10. Коденцова, М. Гмошинская. Насыщенность грудного молока витаминами и ее оптимизация. Врач (1) 2015. 68-73 с

11. Heo, J. S., Ahn, Y. M., Kim, A. E., & Shin, S. M. Breastfeeding and vitamin D. Clinical and experimental pediatrics, 65(9) 2022. 418–429 p. https://doi.org/10.3345/cep.2021.00444

12. Drugs and Lactation Database (LactMed®) [Internet]. Bethesda (MD): National Institute of Child Health and Human Development; Vitamin D. [Updated 2024 Jul 15]. Available from: https://www.ncbi.nlm.nih.gov/books/NBK500914/

13. Zarban A, Toroghi MM, Asli M, Jafari M, Vejdan M, Sharifzadeh G. Effect of vitamin C and E supplementation on total antioxidant content of human breastmilk and infant urine. Breastfeed Med. 2015;10(4):214-217. doi:10.1089/bfm.2014.0143

14. Gannon BM, Jones C, Mehta S. Vitamin A Requirements in Pregnancy and Lactation. Curr Dev Nutr. 2020;4(10):142. Published 2020 Aug 24. doi:10.1093/cdn/nzaa142

15. Allen, Lindsay. B Vitamins in Breast Milk: Relative Importance of Maternal Status and Intake, and Effects on Infant Status and Function. Advances in nutrition (Bethesda, Md.). 2012. 3. 362-9. 10.3945/an.111.001172.

16. Sh. Qurbonov, A. Qurbonov. To‘g‘ri ovqatlanish qoidalari. Toshkent, 2014. 231 b.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 1-son)

TABIIY FANLAR

NATURAL SCIENCES

FARG‘ONA VODIYSI VILOYATLARI ZIYORATGOHLARIGA TASHRIF BUYURISHNING MAVSUMIYLIK OMILLARI VA XUSUSIYATLARI.

Hamdamov Eldorbek Doniyorjon o‘g‘li
O‘zbekiston Milliy universiteti
Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya kafedrasi tayanch doktoranti
E-mail: hamdamoveldorbek8@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada, Farg‘ona vodiysi viloyatlardagi bir qancha ziyoratgoh va qadamjolarga rekreatsion va tibbiy jihatdan ta’rif berilgan bo‘lib, shu bilan birga, ushbu ziyoratgohlarga tashrif buyurishning mavsumiyligi tadqiq qilingan.

Shu bilan birga, hozirgi kunda Farg‘ona vodiysi viloyatlarida ko‘plab ziyoratgohlar dam olish maskanlariga aylantirilgan bo‘lib, mahalliy aholi orasida ko‘plab kasalliklarni davolashda jumladan, bepushtlik va boshqa ko‘plab kasalliklarni davolashda yoki farzand so’rash uchun tashrif buyuriladi.

Kalit so‘zlar: Ziyorat turizmi, shifobaxsh buloqlar, shifobaxsh qum, pik davr, bod kasalligi, sariq kasalligi, teri kasalliklari, o‘lik davr, bepushtlik, ruhiy tiklanish.

KIRISH: Hozirgi kunda Farg‘ona vodiysi viloyatlari o‘zining go‘zal dam olish maskanlari, ko‘ngil ochar joylari, shifobaxsh buloqlari, muqaddas va ko‘plab dardlarga davo istab tashrif buyiriluvchi ziyoratgohlarga boy maskan hisoblanadi.

Muqaddas ziyoratgohlar insonlarga diniy, ruhiy hotirjamlik bag‘ishlaydi Shu bilan birga, ko‘plab ziyoratgohlarning buloq suvlari, tuproqlari, ko‘plab kasalliklarga shu bilan birga, bepushtlikga ham davodir. Vodiy va taqshqaridan kelgan ko‘plab ayol va erkaklar ziyoratgohlarga farzand so‘rab ham tashrif buyuradilar.

Asosiy qism: Farg‘ona vodiysi aholisi qadimdan o’zlarining bu dunyodan o‘tgan aziz avliyolarini e’zozlab ularning ruhlarini shod etib kelishgan. Bizga ma’lumki, bu dunyoda yashab o‘z umrini Allohga baxshida qilgan, Islom dinini yoyilishiga katta xissa qo‘shib shaxid bo‘lgan avliyolarning ruhi va ular qoldirgan ma’naviy meros hozirgi kunda ham biz avlodlarga dinimizni yaxshiroq o‘rganishimizga turtki bo‘lmoqda.

Odamzod tabiati ruhiy va jismoniy tiklanishga ehtiyoj sezadi, inson organizmi, tashqi omillar tufayli shifo topishi mumkin, biroq, inson ruhiyati va qalbi Robbisiga yaqin bo‘lsagina taskin topadi. Xalqimiz qadimdan sahobalar va aziz avliyolar dafn etilgan joylarni Allohning nazari tushgan joylar deb ishonganlar. Bunga bir qancha sabablar mavjud, misol uchun; ularning

qabrlari oldidan buloqlar otilib chiqqanligi va ushbu buloqlar suvi shifobaxshlik xususiyatlariga ega ekanligi kabilardir.

Farg‘ona vodiysida Islom dini qadimdan insonlar orasida keng tarqalgani va donishmand va mutafakkirlar ko‘plab yetishib chiqqanligi bois, muqaddas qadamjolar ham keng tarqalgan. Hozirgi kunda Farg‘ona vodiysi viloyatlarida 200 dan ortiq ziyoratgoh va qadamjolar mavjud. Ushbu qadamjolarga odamlar turli xil maqsadlarda tashrif buyurishadi. Jumladan: Allohga yaqin bo‘lish, ruhiy taskin topish, farzand talabida bo’lganlar farzand so‘rash, turli xil kasalliklarga davo istab tashrif buyurishadi. Odamlarda har xil kasalliklarning mavsumiy xususiyatga ega ekanligi, iqlimning mavsumiyligi tufayli ziyoratgoh va qadamjolarga tashrif buyurish ham mavsumiy xususiyatga ega.

Muqaddas ziyoratgoh va qadamjolarning rekreatsion ahamiyati katta va keng qirralidir, avvalo, insonlar ziyoratgohlarga tashrif buyurishganda o‘zlarini qalban hotirjam his qiladilar. Bu esa inson jismidagi ko‘plab asab bilan bog‘liq kasalliklarga davodir. Bundan tashqari, ushbu ziyoratgohlardagi shifobaxsh qum, hovuz va buloqlar ham insonlardagi turli-xil kasalliklarni davolash xususiyatiga ega bo‘lib, quyida ularning har biriga to‘xtalib o‘tamiz.

Ziyoratgohlarni rekreatsion jihatdan quyidagicha tiplarga bo‘lishni lozim topdik:

1. *Dam olish va ziyorat qilish maqsadida tashrif buyuriluvchi ziyoratgohlar;*
2. *Shifobaxsh qumga ega bo‘lgan ziyoratgohlar;*
3. *Shifobaxsh buloqlar va xovuzlarga ega bo‘lgan ziyoratgohlar;*
4. *Turli xil kasalliklarga davo bo‘luvchi ziyoratgohlar;*
5. *Kasb va dehqonchiligida baraka tilab tashrif buyuriluvchi ziyoratgohlar.*

Ziyoratgoh va qadamjolarning yuqoridagi tipiga qarab ularning mavsumiylik xususiyatlari bir biridan farq qiladi.

1. *Dam olish va ziyorat qilish maqsadida tashrif buyuriluvchi ziyoratgohlar:*

Bunday tipdagi ziyoratgohlar Farg‘ona vodiysi viloyatlarida salmoqli darajada bo‘lib, Bandi ota ziyoratgohi, Xo‘jataqsim ota ziyoratgohi, Teshiktosh ota ziyoratgohi, Xo‘ja Ahmad Valiy ziyoratgohi, Sulton Uvays Qaraniy ziyoratgohi, Pochcha ota ziyoratgohi, Qovunchi ota ziyoratgohi, Xazrat Ali maqbarasi, Yordon ota ziyoratgohi, Arsif ota ziyoratgohi kabi ziyoratgohlarni misol qilib keltirishimiz mumkin bunday tipdagi ziyoratgohlarda mavsumiylik yoz faslida pik davriga ko‘tariladi, odamlar dam olish va qadimiy ziyoratgohlarni ziyorat qilish uchun tashrif buyuradilar, bu tipdagi ziyoratgohlarning mavsumiy bo‘lishini havo harorati belgilab beradi.

2. *Shifobaxsh qumlarga ega bo‘lgan ziyoratgohlar:*

Bu tipdagi ziyoratgohlarga, O‘n bir Ahmad ziyoratgohi, Bastom buva ziyoratgohi, Oqmozor ziyoratgohi kabi ziyoratgohlar kiradi. Mahalliy aholi shifobaxsh qumlardan bod, bepushtlik, tanaga oq tushishi, yosh bolaolarda siygaklik, kattalarda buyrak va qovuq shamollashlari, revmatizm kabi kasalliklarga davo topish maqsadida tashrif buyurishadi. Quyosh taftida qizigan tuproq inson tanasiga kuchli ta’sir ko‘rsatadi, katta yoshli odamlarning

organizmiga qizigan tuproq bazan salbiy ta’sir ham ko‘rsatishi mumkin, shu sababdan, davolanuvchilar asosan yilning avgust va sentyabr oylarida tashrif buyurishadi.

3. *Shifobaxsh xovuz va buloqlarga ega bo‘lgan ziyoratgohlar*: bu tipdagi ziyoratgohlarda ko‘plab shifobaxsh buloqlar mavjud bo’lib, rivoyatlarga ko‘ra, shu yerlarga dafn etilgan sahoba va avliyolarning qabrlari yonidan shu kabi buloqlar otilib chiqqan ekan. Bunday ziyoratgohlarga; Xo‘jamposhsho ziyoratgohi, Tuzliq momo ziyoratgohi, Sadkak ota ziyoratgohi, Xovuzkon ota ziyoratgohi, Buvi ona kabi ziyoratgohlar misol bo‘ladi. Ziyoratgohlardagi buloqlarning xususiyatlari ham turli xil bo’lib, ba’zi buloqlarga tosh va tanga tashlab niyyat qilinadi (Buvi ona va Xojamposhsho ziyoratgohidagi buloqlar). Boshqa buloqlar atrofida dam olish maskanlari tashkil etilgan bo’lib buloq suvi ist’emol qilinmaydi (Sadkak ota ziyratgohi), Xovuzkon ota ziyoratgohidagi buloq va Tuzliqmomo ziyoratgohidagi hovuz esa inson organizmidagi turli xil kasalliklarga davo bo’ladi. Yuqorida aytib o’tilgan ziyoratgohlar hovuz va buloqlar bilan bog‘liq bo’lganligi uchun mavsumiylik asosan yoz faslida pik davrga ko‘tariladi.

4. Turli xil kasalliklarga davo bo‘luvchi ziyoratgohlar;

Farg‘ona vodiysi ziyoratgohlari o’zining turli xil shifobaxsh xususiyatlari bilan ko‘plab odamlar dardiga davo bo’lib kelgan. Jumladan: Sariq kasaligiga chalingan bemorlar Sariqota mozoriga, ko‘k yo‘tal kasaligiga chalinganlar Xo‘jayi Kabutpush, Ko‘k tilli ota ziyoratgohlariga, Badaniga va sochiga oq tushgan va turli yaralar toshgan odamlar Bobo Qambar, Kelachi buva ziyoratgohlariga, tashrif buyuradilar. Barchaga ma’lumki ko’k yo‘tal, sariq kasalligi asosan yilning sovuq kuz, qish fasllarida avj oladi, shu sababli, Sariqota mozori, Xo‘jayi Kabutpush, Ko‘k tilli ota ziyoratgohlariga tashrif buyurishning pik davri aynan shu fasllarda sodir bo‘ladi.

5. *Kasb va dehqonchiligida baraka tilab tashrif buyuriluvchi ziyoratgohlar:*

Ushbu tipdagi ziyoratgohlarga asosan insonlar o’z kasbi va ro‘zg‘orlariga Allohdan Baraka tilab tashrif buyuradilar. Bunday tipdagi ziyoratgohlarga; Galdir bobo ziyoratgohi (ziyoratgohda har yili bahor faslida buvaydalik ustalar kasbiy marosim amallarini ado etadilar), Ummat buva ziyoratgohi (dehqonlar hirmon ko‘tarishdan avval bu yerni ziyorat qiladilar). Bunday ziyoratgohlarga tashrif buyurish, odamlarning kasbi va dehqonchiligiga baraka va mo‘l – ko‘l hosil beradi deb ishonadilar. Shu sababdan, bu ziyoratgohlarga tashrif buyurish mavsumi ham insonlar shug‘ullanadigan kasbga bog‘liqdir, ya’ni, Ummatbuva ziyoratgohiga dehqonlar asosan kuz faslida hirmon ko‘tarishdan oldin tashrif buyuradilar, Galdir bobo ziyoratgohi esa har yili bahor faslida mahalliy ustalar bilan gavjum bo‘ladi.

Farg‘ona vodiysida qadimdan ulug‘ avliyo va donishmand kishilar yetishib chiqqan bo‘lib, ular o’zlarining islom diniga bo’lgan e’tiqodining yuqori ekanligi va odamlar orasida islom dinining tarqalishiga katta xissa qo‘shganligi tufayli ularning nomlari haligacha odamlar tilidan tushmay kelmoqda, hattoki, ularning ziyoratgohlari ko‘plab niyyat talab insonlarga umid bag‘ishlamoqda.

Natijalar va muhokamalar: Farg‘ona vodiysi viloyatlari ziyoratgohlari va ularning shifobaxshlik xususiyatlarini o‘rganish natijasida, ko‘plab ma’lumotlaga ega bo’lindi, jumladan Farg‘ona vodiysi viloyatlarida qancha ziyoratgoh mavjud ekanligi, ularning soni aniqlandi, shu bilan birga muqaddas ziyoratgohlar ko‘plab turlarga ajratildi, masalan: Shifobaxsh buloqlar mavjud joylarda tashkil topgan ziyoratgohlar, shifobaxsh tuproqlar mavjud joyda tashkil topgan ziyoratgohlar, qabr o‘rnida tashkil topgan ziyoratgohlar va boshqa turlarga bo‘linadi.

XULOSA.

Farg‘ona vodiysi o’zida ulkan xazinalarni va ne’matlarni yashirib yotgan maskandir, ushbu hududda insonlardagi ko’plab dardlarga shifo bo‘luvchi tabiiy ne’matlar bilan birgalikda ko’plab bedavo dardlarga shifo istab tashrif buyuriluvchi ziyoratgohlar ham mavjud.

Farg‘ona vodiysida hozirgi kunda 100 dan ortiq ziyoratgoh va qadamjolar mavjuddir. Ularning aksariyati, katta rekreatsion ahamiyatga ega ziyoratgohlardir. Shuningdek, mahalliy aholi orasida ham nomlari ko‘plab tilga olinib kelinmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 9 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasida ichki va ziyorat turizmni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6165-son Farmoni.

2. Jumaev X.X. Qashqadaryo viloyati turizm-rekreasiya salohiyatini baholash va turizm infratuzilmasining hududiy tizimlarini takomillashtirish. Geogr. fan. b-cha fal. dok. (PhD) ... diss. avtoref. Samarqand, 2022. 49 b.

3. Maxmudov M.M. Andijon viloyatida turizmni rivojlantirishning iqtisodiy-geografik xususiyatlari. Geogr. fan. b-cha fal. dok. (PhD) ... diss. avtoref. Toshkent, 2021. 45 b.

4. B**.** Eraliyev, I. Ostonaqulov, N. Abdulahatov. “O‘zbekiston ziyoratgohlari va qadamjolari. Farg‘ona viloyati” T:. “Turon Zamin Ziyo”., 2014.

5. B**.** Eraliyev, I. Ostonaqulov, N. Abdulahatov. “O‘zbekiston ziyoratgohlari va qadamjolari. Andijon va Namangan viloyatlari” T:. “Turon Zamin Ziyo”., 2014.

6. Xazrat Ali haqida qissalar. T:. Yozuvchi, 1992.

7. Булатова В. А. Древняя Кува. Ташкент, 1972.

8. Mirza Olim Mushrif . “Qo‘qon xonligi tarixi”. T:. G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va San’at nashriyoti, 1995.

9.“O‘zbekistonda turizm va rekreatsiyani rivojlantirishning geografik muammolari va imkoniyatlari”. Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. (Chirchiq Sh., 2019-yil 11-12 oktyabr). Chirchiq-2019.

10. Х. Ваҳобов, Ў. Якубов. Рекреацион география асослари. Т.: 2008.

11. A.Z. Zokirov “O‘zbekistonning shifobaxsh resurslari va shifogoh maskanlari”. Toshkent. Abu Ali Ibn Sino nomidagi tibbiyot nashriyoti-1997

12. www.ziyo.net

13. www.aniq.uz

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 1-son)

TABIIY FANLAR

NATURAL SCIENCES

УЎК 13058

ХАРАКТЕРИСТИКА КОСТЕЙ ТАЗА И НОГ В ЗАВИСИМОСТИ ОТ ВОЗРАСТА

Гадаев. А.М
vrverius@gmail.com
Ташкентский государственный стоматологический институт, Ташкент
Рахманов О.Р
gamerlegion@gmail.com
Ташкентский государственный стоматологический институт, Ташкент
Абдурасулов Х.Б
abdurasulovhasanboy877@gmail.com
Ташкентский государственный стоматологический институт, Ташкент
Абдурасулов Х.Б
abdursulovhusan041@gmail.com
Ташкентский государственный стоматологический институт, Ташкент

Annotatsiya. Inson tanasi murakkab va nozik tizimdan iborat bo‘lib, uning har bir qismi o‘ziga xos funksiyalarni bajaradi. Chanoq va oyoq suyaklari bu tizimning ajralmas qismidir. Ular harakat va muvozanatni ta'minlash, tana yukini ko‘tarish va harakatlanishni osonlashtirishda muhim rol o‘ynaydi. Yoshga nisbatan suyaklarning xususiyatlari o‘zgaradi, bu esa ularning rivojlanishi, shakllanishi va funksional imkoniyatlariga ta'sir ko‘rsatadi. Ushbu maqolada chanoq va oyoq suyaklarining yoshga nisbatan xususiyatlari haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: chanoq suyaklari, oyoq suyaklari, funksiya, harakat, muvozanat, chanoq bo‘shlig‘i, jismoniy faoliyat, mushaklar.

Аннотация. Организм человека – сложная и деликатная система, каждая часть которой выполняет свои функции. Кости таза и ног являются неотъемлемой частью этой системы. Они играют важную роль в обеспечении движения и равновесия, переносят вес тела и облегчают движение. Характеристики костей меняются с возрастом, что влияет на их развитие, формирование и функциональные возможности. В данной статье представлена подробная информация о возрастных особенностях костей бедра и голени.

Ключевые слова: кости таза, кости голени, функция, движение, равновесие, полость таза, двигательная активность, мышцы.

Abstract. The human body is a complex and delicate system, each part of which performs its own functions. Pelvis and leg bones are an integral part of this system. They play an important role in providing movement and balance, carrying body weight and facilitating movement. The characteristics of bones change with age, which affects their development, formation and functional capabilities. This article provides detailed information about age-related features of the hip and leg bones.

Key words: pelvic bones, leg bones, function, movement, balance, pelvic cavity, physical activity, muscles.

ВВЕДЕНИЕ

Кости таза расположены в нижней части тела человека и состоят из нескольких костей, соединенных между собой и образующих таз. Кости таза в основном состоят из трех основных частей: подвздошной, седалищной и лобковой. Эти кости соединяются друг с другом и образуют полость таза. Форма и размеры костей таза изменяются с возрастом. У детей раннего возраста кости таза еще не полностью сформированы и по мере роста изменяются. В подростковом возрасте кости таза быстро растут, и в этот период изменяются их форма и размеры. Кости таза женщин шире и мягче мужских, что важно в процессе родов. В молодости и взрослом возрасте кости таза полностью формируются и их изменения замедляются. С возрастом в костях таза могут возникнуть дегенеративные изменения, что снижает прочность и эластичность костей.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ

Возрастные изменения костей таза также влияют на минеральный состав костной ткани. У маленьких детей может быть низкое содержание минералов в костях, что снижает их силу.В подростковом возрасте увеличивается минеральность костей, что повышает их прочность. А с возрастом минеральность костей может снижаться, что снижает прочность костей. Кости ног являются одним из основных элементов, обеспечивающих движение человеческого тела. Они состоят из таких костей, как коленная чашечка, большеберцовая и малоберцовая кости, которые вместе обеспечивают человеку движение и равновесие. В зависимости от возраста изменяются форма, размеры и функциональные характеристики костей голени. У детей раннего возраста кости ног еще не полностью развиты и в процессе роста изменяются. В подростковом возрасте кости стоп быстро растут, и в ходе этого процесса изменяются их форма и размеры. В молодости кости ног полностью формируются и их изменения замедляются. В этот период прочность и эластичность костей ног наиболее высоки. С возрастом в костях ног могут возникнуть дегенеративные изменения, что снижает прочность и эластичность костей. Возрастные особенности костей ног также связаны с генетическими факторами, питанием и физической активностью. В зависимости от возраста в костях таза и ног происходит ряд изменений. В детстве кости быстро растут и развиваются, что влияет на

их форму и размер. В подростковом возрасте рост костей ускоряется, и в ходе этого процесса меняется форма костей.

РЕЗУЛЬТАТЫ И ОБСУЖДЕНИЕ

Развитие и изменения костей зависят от ряда факторов. Генетические факторы, питание, физическая активность и условия окружающей среды играют важную роль в развитии костей. У маленьких детей правильное питание и физическая активность способствуют правильному развитию костей. В подростковом возрасте физическая активность повышает прочность костей и положительно влияет на их развитие. С возрастом развитие костей замедляется и происходят дегенеративные изменения. Этот процесс снижает прочность костей и снижает их эластичность. Правильное питание, физическая активность и здоровый образ жизни важны для улучшения прочности костей у пожилых людей. Существует ряд рекомендаций по поддержанию здоровья костей. Правильное питание, физическая активность и употребление продуктов, обогащенных витаминами и минералами, способствуют повышению прочности костей. Кальций и витамин D необходимы для здоровья костей. Кальций обеспечивает крепкие кости, а витамин D обеспечивает хорошее усвоение кальция в организме.[1]

Кроме того, физическая активность также играет важную роль в поддержании здоровья костей. Своевременные физические упражнения, ходьба, бег и другие занятия повышают прочность костей и сохраняют их эластичность. Для пожилых людей регулярная физическая активность важна для здоровья костей.[2]

Кости таза и ног, являющиеся основной частью человеческого тела, обеспечивающей движение и равновесие, имеют важное значение в спорте и работе. Здоровье и развитие этих костей зависит от характера, интенсивности и вида спортивной и трудовой деятельности. В данной статье представлена подробная информация о влиянии и развитии спортивной и трудовой деятельности на кости бедра и голени.[3]

Занятия спортом по-разному влияют на кости таза и ног. Физические упражнения и спорт помогают укрепить кости, повысить эластичность и улучшить общее состояние здоровья. Во время физической активности кости испытывают нагрузку, что увеличивает их прочность. Кости ног и таз укрепляются регулярными упражнениями. Спортивная деятельность повышает эластичность костей. Это, в свою очередь, расширяет диапазон движений и повышает способность организма выполнять различные движения. Спортивные тренировки способствуют сохранению баланса костей таза и ног. Это особенно важно в таких видах спорта, как прыжки в высоту, бег или танцы. [4]

Регулярные физические упражнения помогают предотвратить травмы, укрепляя кости и мышцы. Когда кости крепкие, они более устойчивы к внешним воздействиям. Физическая активность улучшает кровообращение. Он увеличивает поступление питательных веществ в кости и укрепляет их здоровье.[5]

Трудовая деятельность также влияет на кости таза и ног, но этот эффект отличается от занятий спортом. Трудовая деятельность, особенно физическая работа, может иметь

положительное или отрицательное влияние на развитие костей и здоровье. При физической работе большая нагрузка может приходиться на кости таза и ног. Это может привести к травме, если не использовать правильную технику и приемы. Регулярная физическая активность важна для повышения прочности костей, гибкости и защиты от травм. Однако трудовая деятельность, особенно поднятие тяжестей или работа в неправильном положении, может оказать негативное влияние на кости. Поэтому важно соблюдать осторожность и правильную технику при любой физической активности. Чтобы сохранить и развить здоровье костей таза и ног, необходимо правильно организовать спортивную и трудовую деятельность.[6]

ВЫВОДЫ

Кости таза и ног являются важными частями человеческого тела, и их характеристики меняются с возрастом. У маленьких детей кости растут и развиваются быстро, а в подростковом возрасте их форма и размеры изменяются. В молодости кости полностью формируются, а при старении происходят дегенеративные изменения. Развитие и изменения костей зависят от ряда факторов, а правильное питание, физическая активность и здоровый образ жизни могут помочь повысить прочность костей. Также изучение возрастных свойств костей помогает лучше понять их значение для здоровья и движения. Каждый несет ответственность за принятие необходимых мер для поддержания здоровья наших костей, управления их развитием и защиты их с возрастом.

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ

1. Келли, К.М. (2021). «Развитие костей и старение: всесторонний обзор». Журнал исследований костей, 15 (2), 45-60.

2. Смит Дж. А. и Браун Л. Т. (2020). «Влияние возраста на здоровье скелета: обзор». Клиническая ортопедия и связанные с ней исследования, 478(3), 564-572.

3. Джонсон Р.Д. и Ли С.Х. (2019). «Человек и человеческий скелет: изменения и адаптации». Исследования костей и минералов, 34 (1), 12–25.

4. Миллер А.Л. и Томпсон Дж.Р. (2018). «Старение скелета: механизмы и эффекты». Международный журнал исследований остеопороза, 5(4), 223-230.

5. Робертс, Калифорния (2022). «Развитие костей таза и стопы: возрастные характеристики». Журнал остеологии, 10 (1), 30-40.

6. Уильямс, Пенсильвания, и Гарсия, МЭ (2020). «Возрастные изменения плотности и структуры костей». Журнал старения и здоровья, 32 (5), 789-802.

7. Адамс, Р.В. (2021). «Роль физической активности в поддержании здоровья скелета на протяжении всей жизни». Спортивная медицина, 51 (6), 1023–1035.

8. Тейлор Б.Дж. и Нгуен Т.Х. (2019). «Продольное исследование здоровья костей у стареющего населения». Журнал гериатрической ортопедии, 7 (2), 145–156.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 1-son)

TABIIY FANLAR

NATURAL SCIENCES

UDK: 378.180.6: 664.4(045)

TALABALARNING MINERAL MODDALARGA BO‘LGAN FIZIOLOGIK TALABI VA UNING QONDIRILISHI

Rashidova Saygul Majitovna
Qarshi Davlat Universiteti, II-kurs,
biologiya yo‘nalishi magistranti
saygulrashidova2023@gmail.com. tel.+998 88.638.07.22

Annotatsiya: Maqolada Qashqadaryo viloyati Qarshi davlat universiteti kimyo-biologiya va geografiya fakultetlari hamda Shahrisabz Kimyo-texnologiya instituti 18-29 yoshli talabalarining ayrim mineral moddalarga bo‘lgan talabi va uning qondirilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Olingan natijalarga ko‘ra ushbu Oliy ta’lim muassasalari tekshiriluvchilaridan yigit talabalarning kunlik ovqatidagi kalsiy, fosfor, magniy, temir, rux va yodning miqdori mos ravishda 665,9 mg, 608,1 mg, 259,7 mg, 8,9 mg, 11,0 mkg va 78,3 mg ni tashkil etdi. Respondentlar orasidagi qiz talabalarning kalsiy, fosfor, magniy, temir, rux va yod kabi mineral moddalar bilan ta’minlanishi mos ravishda 701,2 mg, 609,4 mg, 209,1 mg, 7,3 mg, 12,6 mkg va 91,5 mg ekanligi aniqlandi.

Talabalarning ma’danli moddalar bilan ta’minlanishini baholashda ularning yuqorida qayd qilingan ko’rsatkichlarini aniqlab tahlil qilib borish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar: talabalar, mineral moddalar, kalsiy, fosfor, magniy, temir, rux, yod, kunlik ratsion.

Аннотация: В статье представлена информация о потребности и удовлетворенности студентов химико-биологического и географического факультетов Каршинского государственного университета Кашкадарьинской области и Шахрисабзского химико-технологического института в возрасте 18-29 лет в определенных минералах.

Согласно полученным результатам, количество кальция, фосфора, магния, железа, цинка и йода в ежедневном приеме пищи молодых студентов из этих высших учебных заведений составило 665,9 мг, 608,1 мг, 259,7 мг, 8,9 мг, 11,0 мкг и 78,3 мг соответственно. Было обнаружено, что учащиеся женского пола среди респондентов получали минералы, такие как кальций, фосфор, магний, железо, цинк и йод, 701,2 мг, 609,4 мг, 209,1 мг, 7,3 мг, 12,6 мкг и 91,5 мг соответственно.

При оценке обеспеченности студентов рудными веществами важное научно-практическое значение приобретает точный анализ их выше указанных показателей.

Ключевые слова: студенты, минеральные вещества, кальций, фосфор, магний, железо, цинк, йод, суточный рацион.

Annotatsion: The article provides information on the needs and satisfaction of students of the chemical, biological and geographical faculties of Karshi State University of Kashkadarya region and Shakhrisabz Institute of Chemical Technology aged 18-29 years in certain minerals.

According to the results, the amount of calcium, phosphorus, magnesium, iron, zinc and iodine in the daily intake of young students from these higher educational institutions was 665.9 mg, 608.1 mg, 259.7 mg, 8.9 mg, 11.0 mkg and 78.3 mg, respectively. It was found that female students among the respondents received minerals such as calcium, phosphorus, magnesium, iron, zinc, and iodine, 701.2 mg, 609.4 mg, 209.1 mg, 7.3 mg, 12.6 mkg, and 91.5 mg, respectively.

When assessing students' availability of ore substances, an accurate analysis of their above-mentioned indicators is of great scientific and practical importance.

Key words: students, minerals, calcium, phosphorus, magnesium, iron, zinc, iodine, daily ration.

KIRISH.

Kelajagimiz egalari bo‘lgan yoshlarning har tomonlama o‘sib, barkamol inson bo‘lib shakllanishida, tashqi muhit omillaridan sog’lom ovqatlanishning o’rni beqiyosdir. Yoshiga, jinsiga, ish faoliyatiga monand ovqatlanish aqliy va jismoniy ish qobiliyatiga hamda salomatligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti qoshidagi Jahon Sog‘liqni Saqlash departamentining ma’lumotlarida, keyingi yillarda talabalarning amaldagi ovqatlanishida muhim kamchiliklar qayd qilinmoqda. Jumladan, talabalarning iste’mol taomlarida oqsillarning xususan, hayvon oqsillarining sezilarli darajada kamligi qator kasalliklarga – marazm, jismoniy, hatto aqliy zaiflikka olib kelishi kuzatilmoqda

Hozirgi kunda universitet va institutlarda ta’lim jarayoni shakli, usullari, zamonaviy pedagogik texnologiyalarning qo‘llanilishi, axborot hajmining ko‘pligi vaqtning yetishmasligi, ba’zi talabalardagi ruhiy tushkunlik sabab bo‘lmoqda. Bu esa o‘z navbatida ovqatlanish tartibining buzilishiga olib keladi.

Bundan tashqari, aksariyat hollarda talabalar tomonidan yoshga oid va o‘quv yuklamalarga qarab, ovqatlanishni to‘g‘ri tashkil qilmaslik, qomatni saqlash maqsadida doimiy och yurish, energiyali ichimliklarni ko‘p iste’mol qilish, fast-fudlar bilan taomlanish orqali salomatligiga zarar yetkazadi. Bunday ovqatlanish tartibi nafaqat hazm tizimida, balki, yurak qon-tomir, endokrin, ayiruv va immun tizimida qator kasalliklar kelib chiqishiga hamda ortiqcha vazn yoki vazn yetishmasligi vujudga kelishiga zamin yaratadi.

Hozirgi vaqtda turli aholi guruhlarida aniq ovqatlanish muammolarini o‘rganish aholi salomatligini yaxshilash yo‘lida olib boriladigan ishlar yo‘nalishlarini aniqlash va rejalashtirishda eng muhim ishlardan bo‘lib, talabalar aniq ovqatlanishini o‘rganish bu ishlar orasida birinchi navbatda yo‘lga qo‘yilishi zarur bo‘lgan dolzarb masaladir. Bu borada turli mamlakatlar, shu jumladan, O‘zbekistonda ham qator samarali ishlar olib borilmoqda [1, 8.]

Mikroelementlar organizmning hamma to‘qima va hujayralar tarkibiga kiradi. Mikroelementlarning ahamiyati suyak, mushak to‘qimalari rivojlanishida, qonning hosil bo’lishida, nerv sistemalari takomillashuvida va moddalar bilan bir qatorda energiya almashinuvi jarayonlarida ham ishtirok etishi yanada ortadi; ular fermentlar, gormonlar va boshqa biologik suyuqliklarni ham qo’shish mumkin. Organizmdagi asosiy fiziologik jarayonlar bevosita va bilvosita mineral birikmalar ishtirokida yuzaga chiqadi. Ular oqsillar kabi organ va to‘qimalar uchun plastik material sifatida ahamiyatga ega. Ma’danli moddalarning bir qismi hujayralarda va tananing to‘qima suyuqliklarida erigan tuzlar holida, boshqa bir qismi qon, miya, mushaklar tarkibiga kiradi. Binobarin, bolalarning o‘sishi, suyaklarining rivojlanishi uchun ular iste’mol qiladigan ovqat tarkibida mineral tuzlar yetarli miqdorda bo‘lishi kerakligi ko‘rsatilgan [7.]

Yuqoridagilarni hisobga olib, biz Qarshi va Shahrisabz sharoitidagi Oliy ta’lim muassasalarida tahsil olyotgan o’quvchilarning kunlik ovqat ratsionidagi mineral moddalarning qancha ekanligini o‘rganishni maqsad qilib oldik.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR. A.V. Korobeynikova, I.S. Seleznevalar tomonidan Rossiya hududidagi Ural federal universiteti talabalarining oqilona ovqatlanishi tahlil qilinadi. Maqolada talabalarning sog'lom turmush tarzi omili sifatida oqilona ovqatlanishning roli tahlil qilinadi. Ural federal universiteti talabalarining oqilona ovqatlanishiga munosabatni o'rganish natijalari keltirilgan. 2016 yilda Ural federal universitetda talabalarning ovqatlanish muammolarini o'rganish maqsadida "Organik sintez texnologiyasi" kafedrasi tomonidan o'rta maktab o'quvchilari va talabalar o'rtasida so'rov o'tkazildi. Namuna 115 kishini tashkil etdi, shu jumladan 10-11 sinf o'quvchilari-26 kishi (22,6%); 2-kurs talabalari-51 kishi (44,4%); 4-kurs talabalari va magistrantlar 38 kishi (33,1%). So'rovda 15 yoshdan 23 yoshgacha bo'lgan har ikki jinsdagi yoshlar ishtirok etdi. [9.]

So'rov natijalari shuni ko'rsatdiki: So'rovda qatnashganlarning aksariyati (41%) o'quv kunlarida ta'lim muassasalarining oshxonalarida (bufetlarida) ovqatlanishni afzal ko'rishadi; taxminan har beshinchi kishi uydan oziq-ovqat olib kelishga harakat qiladi (21,1%); 16,9% oziq-ovqat mahsulotlarini fast-fudlardan sotib oladi.

Rossiyalik olimlar tomonidan ham mazkur masala ishga yaroqli aholi guruhlarida, o‘smir-yoshlar o‘quvchilar va talabalar, sportchilar va boshqa aholi guruhlarida sog‘lom turmush tarzining muhim tarkibi sifatida batafsil o‘rganilgan [10, 4, 13, 2, 11, 14, 8,].

Talabalarning amaldagi ovqatlanishini o‘rganish va shu yo‘l bilan ularning to‘g‘ri ovqatlanishini yo‘lga qo‘yish masalalariga ilmiy yondoshish nutritsiologiya fanining oldida

turgan eng muhim va ayni vaqtda murakkab vazifalardan biri hisoblanadi. Shunga muvofiq bir guruh talabalar orasida kuzatuv va tadqiqot ishlarini olib bordik.

Kuzatuvlar Qashqadaryo viloyati Qarshi davlat universiteti kimyo-biologiya va geografiya fakultetlari hamda Shahrisabz Kimyo-texnologiya instituti talabalari o‘rtasida o‘tkazildi. 18-29 yoshli talabalardan jami 307 nafar tekshiriluvchilarda kuzatuvlar o‘tkazildi. Qarshi Davlat universiteti talabalaridan 165 nafari, Shahrisabz Kimyo-texnologiya instituti talabalaridan 142 nafari o‘rtasida tekshirish ishlari olib borildi.

Talabalar amaldagi ovqatlanishi ularning kunlik iste’mol taomlari tarkibidagi asosiy va qo‘shimcha oziq moddalarning miqdorini aniqlash hamda baholash imkonini beradigan an’anaviy anketa-so‘rov usulida o‘rganildi. Anketa-so‘rov usuliga binoan talabalar 1 hafta mobaynida iste’mol qilgan barcha oziq-ovqat mahsulotlarini maxsus anketa-so‘rovnomada qayd qilib borishdi. Anketalarda keltirilgan mahsulotlar tarkibidagi ayrim mineral moddalar miqdori aniqlandi. Bunda oziq-ovqat mahsulotlarining kimyoviy tarkibi maxsus jadvallar yordamida hisoblab chiqildi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA.

Ma’lumki, talabalar iste’mol qilayotgan oziq-ovqat sifati, turi, miqdori, o‘z vaqtida va ma’lum bir meyorda ovqatlanish, inson hayotiga ta’sir ko‘rsatuvchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Talabalik davrida moddalar almashinuvi va gormonal tizimda sezilarli o‘zgarishlar sodir bo‘ladi. [1. 15.]

Talabalarning ayrim ma’danli moddalar bilan ta’minlanishini o‘rganish bo‘yicha olingan natijalarni quyidagi jadvalda keltiramiz.

Talabalarning ayrim ma’danli moddalar bilan ta’minlanishi

Ko‘rsatkichlar	Me’yor	Natijalar	
		Yigitlar	Qizlar
Kalsiy, mg	1000	665,9 66,6%	701,2 70,1
Fosfor, mg	600	608,1 101,3%	609,4 101,5
Magniy, mg	260	259,7 99,9	209,1 80,4
Temir, mg	10	8,9 89	7,3 73
Rux, mkg	7	11,0 157	12,6 180
Yod, mg	130	78,3 60,2	91,5 70,4

Yuqoridagi jadvaldan shu ma’lum bo‘lmoqdaki, 1-guruhda kunlik ratsion tarkibidagi kalsiy, temir va yod miqdori me’yor ko‘rsatkichlaridan ancha uzoq (mos ravishda 66,6%, 89% va 60,2%). Xuddi shunga o‘xshash holat 2-guruh uchun ham tegishli (kalsiy 70,1%, temir 73% hamda yod 70,4%).

Bundan tashqari, 1-guruhda fosfor va magniy miqdori me’yor darajasida bo‘lib, me’yorga nisbatan taqqoslaganda mos ravishda 101,3% va 99,9% ni tashkil etadi. Ushbu guruhda rux elementi me’yorga nisbatan ko‘proq 157% ga ta’minlangan.

Ikkinchi guruhda ham fosfor elementining miqdori me’yor darajasiga yaqin 101,5%, magniy va rux elementlarining miqdori esa 80,4 va 180% ga ta’minlangan.

Biroq, talabalarning ovqatlanishida temir elementiga alohida to‘xtalib o‘tish shart. Buning boisi shundaki, temir moddasi homilador ayollar uchun o‘ta muhim. Uning ratsionda yetishmasligi homiladorlik jarayoniga kuchli salbiy ta’sir qilishi bilan ajralib turadi.

Temir odam organizmida qon hosil bo‘lishida birlamchi ahamiyatga yega yelement bo‘lib, uning asosiy qismi gemoglobin tarkibida uchraydi. Muhimi, temir hamma mahsulotlarda ham uchramaydi. Unga boy mahsulotlar birinchi navbatda go‘sht va go‘sht mahsulotlari, kalla-poycha mahsulotlari, qolaversa, bug‘doy yormasi, qora non, ayrim dukkaklilar, petrushka, shivit kabi ko‘katlar, ayrim sabzavotlar (qovoq, lavlagi va b.), turshak, mayiz kabilardir. Temir elementiga bo‘lgan talabni yetarlicha qondirishda go‘sht va go‘sht mahsulotlarini sabzavotlar bilan birga iste’mol qilish samarali yekani turli tadqiqotlarda o‘z isbotini topgan [15, 3, 5-7, 12].

Ayni bizning mintaqamizda talabalar orasida temir yetishmasligi bilan bog‘liq kamqonlik (yoki anemiya) kasalligi juda ko‘p holatlarda kuzatilmoqda. Turli adabiyotlar va statistik ma’lumotlarga qaraganda, respublikamizda talabalar orasida temir yetishmasligi kamqonligi 30-40% dan ziyod. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi hamda BMT bolalar fondi (YUNISEF) hamkorligida 2017 yilda o‘tkazilgan tadqiqot natijalariga ko‘ra, respublikamizda talabalar orasida kamqonlik 32,7% ni tashkil etgan [14, 15].

Biz o‘tkazgan kuzatuv va tadqiqotlar hamda ulardan olingan natijalar shuni ko‘rsatdiki, talabalarning ovqatlanishi odatdagi turmush tarziga ega bo‘lgan yoshlarnikidan keskin farqlanmaydi. Bu esa ilmiy jihatdan noto‘g‘ri yondoshuv hisoblanadi. Aksariyat hollarda talabalar o‘z organizmlarining o‘sib boruvchi talabini to‘g‘ri anglab yetishmaydi, turli oziq moddalarga nisbatan yehtiyojini qondirish chora-tadbirlarini o‘z vaqtida ko‘rishmaydi. Aytib o‘tilgan salbiy holatlar talabalarning salomatligiga xavf tug‘dirishi bilan bir qatorda ularning o‘sib-rivojlanishiga salbiy ta’sir etmasdan qolmaydi. Bunday salbiy holatlarning oldini olish uchun bu boradagi tadqiqotlarni kengroq miqyosda o‘tkazish, talabalarning ilmiy asoslangan ovqatlanishini yo‘lga qo‘yish katta ahamiyat kasb etadi.

XULOSA. Qashqadaryo viloyati Qarshi davlat universiteti kimyo-biologiya va geografiya fakultetlari hamda Shahrisabz Kimyo-texnologiya instituti 18-29 yoshli talabalaridan yigitlarning kalsiy, temir va yod mineral moddalari bilan ta’minlanishi me’yor ko‘rsatkichlaridan past. Talaba yigitlarning fosfor, magniy bilan ta’minlanishi me’yor darajasida, rux bilan ta’minlanishi esa me’yor darajasidan yuqori ko’rsatkichni tashkil etadi. Ushbu Oliy ta’lim muassasalaridagi 18-29 yoshli talaba qizlarning kalsiy, magniy, temir, yod bilan ta’minlanishi me’yor darajasidan past, fosfor, me’yor darajasida, rux esa me’yordan ko‘p.

Shunday qilib, biz olib borgan kuzatuvlarning natijalariga tayangan holda shuni aytish joizki, Qarshi Davlat universiteti va Shahrisabz Kimyo-texnologiya instituti respondentlarining

oqilona ovqatlanishini tashkil qilish, bu borada jamoatchilik orasida to‘g‘ri ovqatlanish bo‘yicha keng miqyosda targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borish, ularda ovqatlanish madaniyatiga oid tushunchalarini shakllantirish ularning sihat-salomatligini saqlash va muhofaza qilish borasida ijobiy natijalarga erishishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Мирзиёев Ш.М. “Аҳолининг соғлом овқатланишини таъминлаш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида” ги қарори. Тошкент. 2020., 10 ноябр. Янги Ўзбекистон 2020 йил., № 3.- Б. 1-3.

2. Воронина Н.В. Обоснование потребности в энергии и пищевых веществах учащихся общеобразовательных школ в условиях Республики Узбекистана: Дис…канд. мед. наук. - Т: НИИСГПЗ, 1993.-187 с.

3. Дўсчанов Б.О., Юсупова О.Б. Болаларнинг оилада тўғри овқатланишининг гигиеник асослари. //Педиатрия Тошкент., 2001- № 2 Б. 26-29.

4. Мартинчик А.Н., Батурин А.К., Кешабянц Э.Э., Фатьянова Л.Н. Семенова Я.А., Базарова Л.Б., Устинова Ю.В Анализ фактического питания детей и подростков России в возрасте от 3 до 19 лет //Вопросы питания. – Москва., 2017.- №4.- С. 50-60.

5. Нормы физиологических потребностей в пишевых веществах и энергии для различные групп населения СССР. //Вопросы питания. –Москва., 1992, № 2.- С. 6-15.

6. Нормы физиологических потребностей в пищевых веществах и энергии для различных групп населения Узбекистана: СанПиН №0035-95.-Ташкент., 1995. – С. 23.

7. Отабоев Ш.Т., Шайхова Г.И.,Саломова Ф.И.,Атахонова Д.О. // XX1 асрда экология, барқарор ривожланиш, рационал овқатланиш ва саломатлик муаммолари. //Ўқув қўлланма. Алма-ата., 2014.- Б. 165-175.

8. Рахматуллаев Ё.Ш. Физиологическая обеспеченность пищевыми веществами учащихся сельских школ и её рационализация. Автореф. дисс… канд. биол. наук. –Т., 2009.- 20 с.

9. Скурихин И.М., Шатерников В.А. Как правильно питаться.М. : Легкая и пищевая промышленность,1984. С. 13.

10. Тутельян В.А. Наука о питании: Прошлое, настоящее, будущее // Вопросы питания. –Москва., 2005.- № 6.– С. 3-10.

11. Худойберганов А.С. Гигиеническое обоснование рационализации питания школьников по белково- витаминной обоспеченности и биологической ценности продуктов в условиях Узбекистана; Дисс....док. мед.наук.- Т:II Таш ГосМИ, 1993.- с. 391.

12. Чарльз В. Ван Вэй III., Айертон – Джонс К. Секреты питания / Пер. с англ. –М.-СПб.: “Издательство БИНОМ”- “Издательство диалект”, 2006.- С. 320.

13. Шакаримов А.К., Комплексная оценка пищевых приоритетов учащихся младщих классов средних общеобразовательных школ Материалы XIX международного конгресса “Здоровые и образование в XXI веке”. – Москва, 18-20 декабря 2017.- С. 47-52.

14. Шайхова Г.И. Выявление скрытого дефицита железа среди детей дошкольного возраста в условиях Ташкента // Актуал. проб. гигиен. науки в свете реформы системы здровох. Узб-на: Материалы науч.-прак. конф.- Ташкент,1999.- С. 50-52.

15. Nutrition Labeling and Education act of 1990, Public Law.-1990.- P.101-535.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 1-son)

TABIIY FANLAR

NATURAL SCIENCES

PATHOGENETIC ASPECTS OF HYPOTHALAMO-PIPOPHYSICAL SYNDROME IN PATIENTS WITH EPILEPSY

Amonova Zakhro Kakhramonovna,
PhD., assistant of the Department of Neurology,
Samarkand State Medical University
Amonova Zilola Kaxramonovna
is a 2nd year student at the Faculty of Dentistry of the EMU University

Annotatsiya: Epilepsiya bilan og‘rigan bemorlarda gipotalmo-pipofizik sindromning patogenetik jihatlari juda murakkab va ko‘p qirrali muammo bo‘lib, u asab tizimining turli darajalari va endokrin tizimining o‘zaro ta'sirini o‘rganishni talab etadi. Ushbu maqolada gipotalmo-pipofizik sindromining epilepsiya bilan bog‘liq patogenetik mexanizmlarini, klinik ko‘rinishlarini, diagnostika va davolash usullari haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar: epilepsiya, bemorlar, gipotalamo-pipofizik sindrom, gipofiz, gormonlar, davolash, asab faoliyati.

Аннотация: Патогенетические аспекты гипоталмо-пипофизарного синдрома у больных эпилепсией представляют собой весьма сложную и многогранную проблему, требующую изучения взаимодействия нервной и эндокринной систем на разных уровнях. В статье представлена информация о патогенетических механизмах гипоталмо-пипофизарного синдрома, ассоциированного с эпилепсией, клинических проявлениях, методах диагностики и лечения.

Ключевые слова: эпилепсия, больные, гипоталамо-гипофизарный синдром, гипофиз, гормоны, лечение, нервная деятельность.

Abstract: The pathogenetic aspects of the hypothalmo-pipophysial syndrome in patients with epilepsy is a very complex and multifaceted problem, which requires the study of the interaction of the nervous system and the endocrine system at different levels. This article provides information on the pathogenetic mechanisms of hypothalmo-pypophysial syndrome associated with epilepsy, clinical manifestations, diagnostic and treatment methods.

Key words: epilepsy, patients, hypothalamic-pituitary syndrome, pituitary gland, hormones, treatment, nervous activity.

INTRODUCTION

Hypothalamo-pypophysial syndrome is a pathological condition caused mainly by the interaction of the hypothalamus and the pituitary gland. The hypothalamus is located at the

upper level of the nervous system, and it carries out many physiological processes, including the production of hormones, temperature regulation, and control of sleep and wakefulness rhythms. The pituitary gland produces its own hormones under the influence of hormones produced by the hypothalamus. The development of hypothalamic-pituitary syndrome in patients with epilepsy is often associated with pathological changes in the hypothalamus.

MATERIALS AND METHODS

Epilepsy is a chronic disease of the nervous system characterized by sudden epileptic seizures caused by temporary changes in nerve activity. Epilepsy patients may develop hypothalamo-pipophysial syndrome, which complicates their clinical presentation and treatment. The hormonal activity of the hypothalamus plays an important role in the management of epileptic seizures, because the normal functioning of the hypothalamus ensures the stability of the nervous system. The pathogenetic mechanisms of hypothalamo-pypophysial syndrome depend on several factors. First, the hormonal activity of the hypothalamus may be disturbed in patients with epilepsy. Disturbances in the passage of hormones from the hypothalamus to the pituitary gland can lead to changes in pituitary hormone production. These changes can disrupt a variety of metabolic and physiological processes in the body, including stress response, energy metabolism, and the immune system. Second, changes in the hypothalamus can affect other parts of the nervous system. As a result of the development of hypothalamo-pipophysial syndrome in patients with epilepsy, changes may occur in other parts of the nervous system, for example, in the limbic system. And these changes can lead to the psychological state of the patient, especially depression and anxiety.[1]

RESULTS AND DISCUSSIONS

Clinical manifestations of hypothalamic-pituitary syndrome can be very different. Patients may experience various symptoms, such as sleep disturbances, changes in eating habits, changes in hormone levels, weight changes, etc. These symptoms can worsen the general condition of the patient and reduce the quality of life. The diagnostic process is important in determining the hypothalamo-pypophysial syndrome.It is necessary to analyze the clinical manifestations of patients, perform laboratory tests, including measurement of hormone levels, and evaluate the state of the hypothalamus and pituitary gland using imaging methods, such as MRI or CT. These methods help to determine the causes of hypothalamo-pypophysial syndrome and play an important role in determining the treatment strategy. [2]

Treatment options are important in the management of hypothalamic-pituitary syndrome. Treatment for patients with epilepsy often involves the use of antiepileptic drugs. However, the presence of hypothalamo-pypophysial syndrome can complicate the treatment strategy. Therefore, to improve the condition of patients, additional treatments aimed at balancing hormones, such as hormone therapy or psychotherapy, can be used. Pathogenetic aspects of the hypothalamo-pipophysial syndrome and its connection with epilepsy are an urgent problem in modern neurology and endocrinology. Correct diagnosis and effective treatment of this syndrome help to improve the quality of life of patients. Also, expanding knowledge about new

hormonal and nervous system changes during the study of hypothalamic-pituitary syndrome allows to develop more effective approaches to the treatment of patients.Several methods are used in the treatment of epilepsy and hypothalamic-pituitary syndrome.[3]

These methods are selected depending on the patient's condition, symptoms and severity of the disease. Antiepileptic drugs are the main method in the treatment of epilepsy. These drugs help prevent epileptic seizures and come in different types. Each drug is selected depending on the individual characteristics of the patient. Doctors take into account the patient's age, sex, medical history and other factors when choosing the right medicine for patients. Hormone therapy is used to eliminate disturbances in the production of hormones in hypothalamic-pituitary syndrome. In such cases, special drugs are used to normalize hormone levels. This method of treatment helps to improve the general condition of the patient and reduce the symptoms.[4]

Psychotherapy also plays an important role, as patients with epilepsy and hypothalamo-pyophysial syndrome may develop psychological problems, such as depression or anxiety. Psychotherapeutic sessions help improve the patient's mental state, reduce stress and improve their social life. Physiotherapy methods of treatment, such as massage and other physiotherapeutic methods, can be useful in improving the general condition of the patient and strengthening the nervous system. These techniques help reduce stress and strengthen muscles. Clinical monitoring is also very important. Patients with epilepsy should be constantly monitored by a neurologist. This allows to evaluate the effectiveness of treatment and change the treatment regimen if necessary, and also helps to quickly identify changes in the patient's condition.[5]

In some cases, if drugs do not help or the patient's condition is severe, operative treatment may be required. In some types of epilepsy, such as focal epilepsy, the epileptic focus can be surgically removed, which can lead to fewer or complete seizures. Diet and lifestyle are also important in improving the condition of patients. A healthy diet and regular physical activity increase the general well-being of the patient. Some patients may benefit from special diets, such as the ketogenic diet, which may help reduce epileptic seizures. In general, the treatment method for each patient is selected individually and is carried out according to the plan established by the doctor. During treatment, it is important to constantly assess the patient's condition and make the necessary changes. Patients and their relatives need to be in close contact with doctors and monitor symptoms and drug effects.[6]

The pathogenetic aspects of the hypothalamo-pipophysial syndrome in patients with epilepsy are complex and multifaceted. This syndrome occurs as a result of dysfunction of the hypothalamus and pituitary glands, which leads to hormonal imbalance. The hypothalamus plays an important role in the production of hormones and in controlling their effects on the pituitary gland. Dysfunction of the hypothalamus in patients with epilepsy is often associated with changes in the nervous system that cause epileptic seizures. The connections between the

hypothalamus and the pituitary gland are also important in the body's stress response mechanisms, control of hormone levels, and regulation of metabolic processes.[7]

Changes in hormone levels in patients with hypothalamic-pituitary syndrome affect various body processes. Factors such as disturbances in the production of hypothalamus hormones, an increase in stress hormones, changes in the nervous system and disturbances in metabolic processes can further worsen the condition of patients. Changes in the production of hormones by the hypothalamus are clearly visible, mainly in the level of adrenal hormones, reproductive hormones and other important hormones. Changes in the nervous system play an important role in the hypothalamic-pituitary syndrome. Dysfunction in the hypothalamus can increase the excitability of nerve cells and cause epileptic seizures. These processes, in turn, worsen the general condition of the patient and have a negative effect on the treatment process.[8]

CONCLUSION

In general, the pathogenetic aspects of the hypothalamic-pituitary syndrome associated with epilepsy are complex and multifaceted, and it requires the study of the interaction of the nervous and endocrine systems. Correct identification and treatment of this syndrome can help improve the quality of life of patients and lead to new advances in modern medicine. For this, it will be necessary to combine scientific research and clinical experiences.

REFERENCES

1. Abdullayev, A. (2021). Epilepsy and its pathogenesis. Medical journal.

2. Muradov, B. (2020). Hypothalamo-pypophysial syndrome: clinical and pathogenetic aspects. Journal of Neurology of Uzbekistan.

3. Karimov, D. (2022). Epilepsy and its complications. Medical Academy of Uzbekistan.

4. Kholmatov, S. (2023). Epilepsy and hypothalamic-pituitary syndrome: new research. Medical sciences.

5. Rasulov, E. (2021). Epilepsy and the hypothalamic-pituitary system. Journal of neurology and psychiatry of Uzbekistan.

6. Shodmonov, O. (2022). Epilepsy and hypothalamic-pituitary syndrome: diagnosis and treatment. Medicine and life.

7. Nematov, T. (2023). Epilepsy: pathogenetic aspects and methods of treatment. Medical journal of Uzbekistan.

8. Kadyrov, F. (2020). Neurological aspects of hypothalamo-pypophysial syndrome. Journal of Neurology and Psychiatry of Uzbekistan.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 1-son)

TABIIY FANLAR

NATURAL SCIENCES

UDK: 633.814
ORCID: 0009-0006-6094-2325

DORIVOR PAPAYA (*Carica papaya* L) O ‘SIMLIGINING INSON XAYOTIDAGI AHAMIYATI

Abdupattoyeva Mubinabonu Sobitali qizi
Qo‘qon davlat pedagogika instituti,
Biologiya yo‘nalishi talabasi
E-mail: *baxttaxt27@gmail.com*

Annotasiya. Maqolada dorivor papaya (*Carica papaya* L.) o‘simligining biologik xususiyatlari, o‘stirilayotgan tuproq iqlim sharoitlariga bog‘liqligi o‘rganilgan. Bundan tashqari papayaning turli qismlaridan (meva, barg, ildiz va boshqalar) insonga foydali bo'lgan turli xil oziqaviy mahsulotlardan, papaya mevasida A, C vitamini, foliy kislotasi, tola va antioksidantlar mavjud. Papayada papain moddasi mavjud bo'lib, bu hazm jarayonlarini yengillashtirishi xaqida ilmiy ma’lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: dorivor, efir moylar, tuproq, oqsil, papain.

ВАЖНОСТЬ РАСТЕНИЯ ПАПАЙЯ ЛЕКАРСТВЕННАЯ (Carica papaya L) В ЖИЗНИ ЧЕЛОВЕКА

Аннотация: В статье исследованы биологические свойства растения папайя лекарственная (*Carica papaya* L) и их зависимость от климатических условий произрастающей почвы. Кроме того, плоды папайи содержат витамин А, С, фолиевую кислоту, клетчатку и антиоксиданты из разных частей папайи (плодов, листьев, корней и др.). Папайя содержит папаин, который, как было научно доказано, облегчает процессы пищеварения.

Ключевые слова: лекарственные, эфирные масла, грунт, протеин, папаин.

IMPORTANCE OF THE PAPAYA PLANT (Carica papaya L) IN HUMAN LIFE

Annotation: The article examines the biological properties of the papaya plant (*Carica papaya* L) and their dependence on the climatic conditions of the growing soil. In addition, papaya fruits contain vitamin A, C, folic acid, fiber and antioxidants from different parts of the papaya (fruits, leaves, roots, etc.). Papaya contains papain, which has been scientifically proven to facilitate digestion.

Keywords: medicinal, essential oils, soil, protein, papain.

Kirish. Bugungi kunda Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti ma’lumotiga ko‘ra dunyo aholisining 80% kasalliklarni davolashda dorivor o‘simliklardan foydalanib, kasalliklarni davolash uchun ishlatiladigan o‘simlik turlari 70 ming atrofida bo‘lib, dunyoda yetishtirilgan o‘simliklarning atiga 15 foizini tashkil qiladi» [1]. Shu sababli qo‘riq va sug‘oriladigan tuproqlar unumdorligiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillarni aniqlash, tuproq va dorivor o‘simliklarning yetishtirish uchun moslashtirish xususiyatlarini tadqiq etish orqali tuproq unumdorligini saqlash, oshirish va dorivor o‘simliklar hosili sifatini baholash muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Respublikamizda tuproqlarda kechayotgan ekologik, o‘zgarishlarni aniqlash, tuproq unumdorligini oshirish va muhofaza qilish va sho‘rlangan yerlarda dorivor o‘simliklar introduksiyasi, ulardan oqilona foydalinish bo‘yicha ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilib, muhim natijalarga erishilmoqda. O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning 2017-2021 yillarga mo‘ljallangan Harakatlar strategiyasida «...qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishni muttasil rivojlashtirish, mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini yanada mustahkamlash, sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holatini yanada yaxshilash, paxta va boshoqli don ekiladigan maydonlarni qisqartirib, ekin maydonlarini yanada maqbullashtirish» [2] bo‘yicha muhim vazifalar belgilab berilgan.

Xalq xo‘jaligida papaya o‘simligi tansiq meva sifatida juda qadrli bo‘lib, yaxshi yetilmagan mevasi, urug‘lari va bargida davo bo‘luvchi moddalar ko‘p saqlanadi.

Papaya o‘simligining meva va urug‘lari tarkibida 100 mg/g da uglevodlar-7,74-13,45 mg/g, proteinlar-0,36-0,44 mg/g, lipidlar-0,21-0,28 mg/g, askorbin kislotasi 34,31-44,79 mg/g miqdorlarda uchraydi. Bundan tashqari, vitaminlardan A, B_1, B_2, B_3, C, papayaning pishmagan mevalarida esa, karotenoidlar, papain va ximopapain fermentlari mavjud. Papaya urug‘larida flavonoidlarni o‘z ichiga olgan papaya yog‘i xamda urug‘i yog‘ida lipidli fitokimyoviy moddalar va oleyk kislotasi kabi muhim yog‘ kislotalari ko‘p uchraydi. Urug‘larda topilgan boshqa yog‘ kislotalari orasida araxid, palmitik, linolenik va stearik kislotalari xam mavjud [1,2,3,4,5,6].

Papayaning ekstraktlari rak xujayralarini yo‘qotishda, hosil bo‘lishining oldini olishda barcha zamonaviy kimyoviy dorilaridan 250 marta ko‘p ta’sirli va foydali ekanligini o‘rganilgan.

Tadqiqot obyekti va metodlari. Farg‘ona viloyati Uchko‘prik tumani Mehrigiyo xususiy korxonasi hududida introduksiya qilingan papaya (*Carica papaya* L) o‘simligi tadqiqot obyekti hisoblanadi. Mazkur korxona hududida 2023-2024 yillarda tadqiqotlar olib borildi.

Tadqiqot natijalari va muhokamasi. Papaya (*Carica papaya* L) o‘simligi tibbiyotda foydalaniladigan asosiy qismlaridan barg, meva, ildizlar xisoblanadi. O‘simlikning ildiz va barglari siydik haydash, urug‘lari turli xil gijjalarni tushiruvchi, barglari astma va revmatizmni davolashda eng muhim vosita xisoblanadi. O‘simlikdan asosan quyidagicha foydalaniladi.

-Papaya o‘simligi tarkibida ko`plab biologik aktiv moddalar mavjud. 2 ta zarur modda chymopapain va papain ovqat hazm bo`lishiga yordam beradi.

-O‘simlik mevalari oshqozon muammolari va ichak parazitlarini bartaraf etishda ham qo`llaniladi. Shuningdek, papain artritga ham davo bo‘ladi.

-Ildizidan tayyorlangan xantal bachadon shishini davolashda yordam beradi.

-Papaya shirasi (lateks) psoriazni davolashda ishlatiladi. Shuningdek, dunyoning ko‘p burchaklarida mahalliy antiseptik vosita hisoblanadi.

Mexrigiyo korxonasi xududida yetishtrilib qayta ishlanib, qadoqdan chiqarilgan papaya choylari - oddiy ko‘k va qora choylarga biologik faol moddalar, qo‘shimcha sifatida papaya bargi va mevasidan qo‘shilgan, 100% toza ipak matodan tayyorlangan xaltachalarda chiqariladi. (ipak yurakni xursand qiladigan doridir. Me’daning ovqatni o‘zlashtirishdagi ishini kuchaytiradi. Unda uning miqdori ahamiyatga ega emas. Abu Ali ibn Sino ushbu choyga qo‘shimcha oq qayin kurtagi va barglari, qulupnoy mevasi va zaytun daraxti barglaridan qo‘shilishi papaya choyining shifobaxshlik xususiyatini yanada oshiradi. Bundan tashqari papaya choyi - umurtqa osteoxondrozida, umurtqa orasi disk churrasida, jigar va oshqozon faoliyatini yaxshilashda, o‘z quvvatini oshirishda juda samarali. Immun sistemasini mustahkamlaydi - immunitetni oshiradi. Uzoq vaqt iste’mol qilganlarda umurtqa va bosh suyak bo‘g‘inlarida tuz yig‘ilmaydi.

Papaya yog‘i - amarant, atirgul yog‘lari va asalari ona suti bilan boyitilgan bo‘lib, turli kasalliklarni (prostatit, prostate adenomasi, quvvatsizlik, ayollar kasalliklari) hosil bo‘lishini oldini olishda nihoyatda foydali. Immun sistemani mustahkamlaydi, jigar va oshqozon faoliyatini yaxshilaydi, umurtqa pog‘onasi disk churralarini bartaraf etadi.

Papaya asali - “Mehrigiyoda 200 xildan ortiq shifobaxsh dorivor giyohlar (sumbul, arslonquyruq, moychechak, limono‘t, zaytun, qoraqiz) o‘sadigan bog‘laridan yig‘ilgan asalga papayaning pishgan urug‘i, bargi ekstrakti va quritilgan mevasi hamda assalari ona suti va atirgul yog‘lari qo‘shilib tayyorlangan. Qon hosil bo‘lishini yaxshilaydi, oshqozon, jigar va buyraklar uchun foydali. Organizmning qarishini oldini oladi, xotirani yaxshilaydi, kuch va quvvatni oshiradi. O‘t yo‘llarida tosh hosil bo‘lishini oldini oladi. Turli shishlarni (bosh miya, ko‘krak bezlari, oshqozon, adenoma, mioma grijalar) shimilib ketishida va hosil bo‘lishining oldini olishda foydali.

Pishib yetilmagan papayaning shirasi tarkibida papain deb ataluvchi murakkab proteolitik oqsil mavjud. U oqsil bo‘lsa ham yuqori harorat ta‘sirida parchalanmaydi. Papain teridagi yiringni parchalash shishlar, churralar va ayrim bezlarni bo‘shashtirib, so‘rilish xususiyatiga ega. Uning bunday keng qamrovli ta’sirga egaligi tarkibida tabiiy fermentlarning ko’pligidadir. Papain molekulasi bitta polipiptik zanjirdan iborat bo’lib, 212 xil aminokislotalar qoldig‘idan iborat. U 6-8 mochavina eritmasida va 70 foizlik spirtda o‘z xususiyatini deyarli yo‘qotmaydi. Lekin namlikka va ochiq havoga chidamsizligi uni nihoyatda ehtiyotkorlik bilan asrashni taqozo etadi. Papaindan tibbiyotda tromboz, gastrit, oshqozon ichak kasalliklarini davolashda, qon anti koagulyatori sifatida, ekzemada, gijja haydovchi vosita sifatida, bundan tashqari kuygan

yaralarni davolashda, kosmetologiyada sepkil va ortiqcha tuklarni yo‘qotish uchun foydalaniladi. Qon bosimini tushiruvchi asosiy vosita hisoblanadi. Lekin yuqori dozalari tomirlar torayishiga olib keladi. Shuningdek uning tarkibida proteaz va pepsin kabi fermentlar bor.

Tarkibidagi bu moddalar tufayli umurtqa pog‘onasidagi churralarni davolashda eng asosiy vositadir. U yana ortiqcha vaznni yo‘qotib qomatni chiroyli qiladi. Bundan tashqari, papain pivo ishlab chiqarish sanoatida, to‘qimachilik va oziq-ovqat sanoatida, saqich ishlab chiqarishda ham muhim ahamiyatga ega. Papaya ning yashil mevasi, bargi, poyasida lateks degan sutsimon shira bo‘lib, uning tarkibida proteolitik fermentlar, olma kislotasi, qatron bor. Bu sutsimon shira juda zaharli bo‘lib, rangini yo‘qotgandagina uning zararli xususiyati qolmaydi. Aynan shu sutsimon shiradan chilla yarani davolashda ishlatiladi.

Papaya mevasida vitamin C, A, kaliy va magniylarni ko‘p bo‘lganligi sababli indeyslar turli teri kasalliklarini, jarohatlarni davolashda, tanadagi turli parazit gijjalardan tozalanishda foydalanishadi. AQSH da bu mevadan gerpesni davolashda qo‘llaniladigan hab dorilar ishlab chiqariladi.

Florida universitetining meditsina fanlari doktori Nam Dan Papaya ni quritilgan bargidan tayyorlangan ekstraktidan saraton kasalligini davolashda foydalanish mumkinligini tajribalar asosida isbotlab berdi. Papaya bargi tarkibidagi sitokininlar o‘smalarga va infeksiyalarga qarshi xususiyatga ega bo‘lgan oqsil moddalari hosil bo‘lishini quvvatlaydi.

Uning ethnofarmocology jurnalidagi maqolasida papaya barglari ayollar bachadonidagi, ko`krak bezlaridagi, jigarda va oshqozon osti bezidagi o‘smalarga qarshi kurashda samarali yordam beradi, hamda papayani saraton kasalligiga qarshi eng kuchli vosita deb ta‘riflaydi. Hindistonlik 41 olimlar ham papaya daraxti po‘stlog‘i o‘sma hujayralarni to‘xtatish xususiyatiga ega ekanligini ko‘rsatishgan. Papayani o‘stiriladigan muhitiga, tuproq va iqlim sharoitiga bog‘liq holda turli hayotiy formalari, minglab navlari mavjud [7,8,9,10]. Biroq papaya qaysi mamlakatda qaysi navi yetishtirilishidan qat‘iy nazar, uning bargi va mevasi nihoyatda shifobaxshligi bilan jahon ommasini e‘tiborini tortgan.

Xulosa. Yuqoridagi fikrlar asosida shunday qat’iy xulosaga kelish mumkinki, O‘zbekistonning har bir viloyatida, jumladan Farg‘ona iqlim sharoitida papaya (*Carica papaya* L) ekib o‘stirish, yopiq plantatasiyalarini tashkil etish, va uning tur sonlarini ko‘paytirish, xususan, papayaning yashil mevasi, bargi, poyasida lateks degan sutsimon shira bo‘lib, uning tarkibida proteolitik fermentlar, olma kislotasi, qatron bo‘lib, bu sutsimon shira juda zaharli, rangini yo‘qotgandagina uning zararli xususiyati qolmaydi. Aynan shu sutsimon shiradan chilla yarani davolashda keng qo‘llaniladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-son «O’zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo’yicha Harakatlar strategiyasi to’g’risida»gi Farmoni.

2. Kelly K. History of medicine. New York: Facts on file, 2009. pp. 29-50.

3. Berdiev E.T., Xakimova M.X., Maxmudova G.B. O`rmon dorivor o‘simliklari. -T., O`zR FA Minitipografiyasi, 2016. - 252 b.

4. Berdiev E.T. Na’matak-tabiiy vitaminlar xazinasi. - T., O`zR FA Minitipografiyasi, 2018. 4-38 b.

5. Murdaxaev Yu.M. Vostochnыy bazar: lekarstva i pryanosti. -NEW YORK: SLOVO-WORD, 2001. -373 s.

6. To`xtaev B.Yo. O`zbekistonning sho`r erlarida dorivor o‘simliklarning introduksiyasi. B.f.d. disser. -T., 2009. 12 b.

7. Toyjonov K., Toyjonova M. Ibn Sino qo`llagan dorivor o‘simliklar va vositalar haqida // O`zb. biol. jurn. Toshkent, 2007. №1. 55-59 b.

8.Meliboev S., Obloberdieva K. Beruniy tavsiflagan dorivor o‘simliklarning Farg`ona vodiysidagi turlari to`g`risida // O`zb. biol. jurn. №3. – Toshkent, 2007. 30-33 b.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 1-son)

TABIIY FANLAR

NATURAL SCIENCES

UO‘K: 544.473:544.478.1

SCUTELLARIA COMOSA O‘SIMLIGINI KIMYOVIY TARKIBI VA KO‘PAYTIRISHDA URUG‘ SAMARADORLIGI

Sevara Dadajonova O‘ktamjon qizi
Farg‘ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti o‘qituvchisi
E-mail dadajonovasevara10@gmail.com
Tel (90)231-89-94

Annotatsiya Mazkur maqolada dorivor o’simliklardan biri hisoblangan yalpizdoshlar *(Lamiaceae)* oilasi, ko’kamaron *(scutellaria)* turkumi turlarining kimyoviy tarkibi bo’yicha adabiyotlar tahlili va shifobaxsh *scutellaria comosa* turning biologik va botanik tavsifi shuningdek uning urug’ unuvchanligini dala hamda laboratoriya sharoitlarida unishi ko’rsatkichlari ifodalangan. Xulosa tariqasida esa ushbu turning urug’idan ko’paytirish uchun eng optimal sharoitlar tavsiya etilgan.

Kalit so‘zlar: *Scutellaria comosa*, Lamiaceae, biologik faol moddalar, flavanoid, tabiiy biologik zaxira, dominant qoplam.

THE CHEMICAL COMPOSITION AND SEED EFFICIENCY IN REPRODUCTION OF THE *SCUTELLARIA COMOSA* PLANT

Abstract This article presents an analysis of the literature on the chemical composition of species of the mint family *(Lamiaceae),* the genus of skullcap *(scutellaria),* considered one of the medicinal plants, as well as a biological and botanical description of the species *scutellaria comosa* officinalis, as well as indicators of its germination in the field and laboratory conditions. In conclusion, the most optimal conditions for the propagation of this species by seeds were recommended.

Keywords: *Scutellaria comosa*, Lamiaceae, biologically active substances, flavin, natural biological reserve, dominant coating.

ХИМИЧЕСКИЙ СОСТАВ И ЭФФЕКТИВНОСТЬ СЕМЯН ПРИ РАЗМНОЖЕНИИ РАСТЕНИЯ *SCUTELLARIA COMOSA*

Аннотация В данной статье представлен анализ литературы по химическому составу видов семейства мятных *(Lamiaceae),* рода шлемник *(scutellaria),* считающихся одним из лекарственных растений, а также биологическое и ботаническое описание вида

scutellaria comosa лекарственного, а также показатели его всхожести в полевых и лабораторных условиях. В заключение, были рекомендованы наиболее оптимальные условия для размножения этого вида семенами.

Ключевые слова: *Scutellaria comosa*, Lamiaceae, биологически активные вещества, Флавин, естественный биологический резерв, доминирующее покрытие.

Kirish. Respublikamiz hududida 600 dan ziyod dorivor o‘simliklar bo‘lib, shundan 250 turi hozirda mahsus o‘simliklarni ko‘paytirish plantatsiyalarida ko‘paytirilib, ilmiy tabobatda ishlatiladi. Bugungi kunda dorivor o‘simliklar *Ferula tadjikorum, Ephedra eqiuisetina, cistanche salsa* (C.A.Mey), *Scutellaria comosa, Helichrisum maracandicum, Allium sativum L.* va *Ajuga turkestanica* (Regal) mahalliy aholi tomonidan rejasiz foydalanishi natijasida ularning tabiiy biologik zahirasi keskin kamayib borishi kuzatilmoqda. [1] Dorivor o‘simliklar tarkibida alkoloidlar, glikozidlar, flavonoidlar, kumarinlar, oshlovchi moddalar, efir moylari va vitaminlar mavjud bo‘lib, ular o‘simlikning vegetatsiya davrining turli xil vaqtida hosil bo‘lib, barg, ildiz, gul, poya va mevalarida to‘planadi.

Yalpizdoshlar oilasi Scutellaria turkumi turlarining deyarli xamma turlari dorivorlik xususiyatiga ega bo’lib ular tarkibidan ko’plab kimyogarlar tomonidan biologik faol moddalar aniqlanmoqda hamda tibbiyotda va farmasevtika sohasida sezilarli darajada foydalanilmoqda. Ushbu turkum turlarining asosiy qismi faqatgina tabiiy holda urug'idan ko’payadi ammo inson va boshqa biologik omillar tufayli ushbu turlarning tabiiy biologik zahiralari kamayib bormoqda. Dorivor scutellaria comosa o’simligining tabiiy va laboratoriya sharoitlarida urug’ining unish ko’rsatkichlarini taqqoslash va optimal sharoitni tanlash ushbu o’simlikni tabiiy biologik zahirasini saqlab qolishga qaratilgan.

Adabiyotlar tahlili. Kokilli ko‘kamaron (*Scutellaria comosa* Juz) o‘simligi yalpizdoshlar *(Lamiaceae)* oilasi ko‘kamaron (*Scutellaria L.*) turkumi vakili bo‘lib dunyoda 360 tur, MDX mamlakatlarida 138 tur, O‘rta Osiyoda 89 tur, O‘zbekiston hududida esa 36 turi uchraydi. Ushbu turkumning shifobaxshlik va kimyoviy tarkibi bo’yicha ma’lumotlar ko’plab adabiyotlarda keltirilgan. Jumladan, *Scutellaria L.* turkum turlarida biologik faol modda hisoblangan, o’simliklarda ikkilamchi metabolitlar sifatida sintezlanadigan flavon, flavanoidlar, irioidlar va boshqa kimyoviy moddalarning bo’lishi o’ziga xos o’ringa ega. Bu biologik faol moddalar o’simlikning ildiz va poyasida to’planadi.(Karimov A. 2017) [2]

Ko‘kamaron o‘simligining ildizi va ildiz poyasi tarkibida 4,5 % (20 tagacha) flavanoidlar bo’lib, eng muhimlari baykalin (gidrolizlanganda glyukuron kislota va baykaleinga parchalanadi), skutellarin (gidrolizlanganda glyukuron kislota va skutellareinga parchalanadi) va ular vogonin hisoblanadi. Hozirgacha o‘simlikning poyasi va bargidan skutellarin flavanoidi ajratib olinadi (O’ljanova N.2009).[3]

Scutellaria comosa Juz. - Kokilli ko‘kamaron. Chala buta, bo‘yi 15-40 sm. Poyasi asosidan yog‘ochlangan, novdasi sershox, bezli tukchalar bilan qoplangan. Barglari uchburchak, cho‘zinchoq yoki uchburchak tuxumsimon, barg uchi o‘tkir yoki to‘mtoq, qirrasi yirik arratishli,

ustki barg tomirlari burishgan, qalin tukli, xira to‘q yashil, osti kulrang, qisqa bandli. Gulbandlari tuxumsimon-nashtarsimon, uchki qismi o‘tkir bukik, qalin tukli. Gullari uzunchoqshingil to‘pgulda qalin joylashgan, gulbandlar qisqa. Gulkosabarg 3-4 mm, bezchali tukli, ustki labi ovalsimon, botiq o‘simtali eni 7-8 mm. gultojbargi sariq, tashqi tomoni sertuk, paxmoq, uzunligi 20-25 mm. mevasi bukilgan yong‘oqcha, deyarli tuxumsimon, 15 mm uzunlikda, momiq tukli. May-iyun oylarida gullab, iyun-iyul oylarida urug‘laydi.

Tog‘ning pastki va o‘rta zonasining shag‘alli yerlarida o‘sadi. Toshkent (Mogoltog‘), Andijon, Farg‘ona va Samarqand viloyatlarida o‘sadi. Umumiy tarqalishi: O‘rta Osiyo (Tyan-Shan va Pomir-Oloy tog‘larini Farg‘ona vodiysi qismida.[4,5]

Bundan tashqari Siddiqov G‘.U va Karimov A.M lar tomonidan birinchi bo‘lib *Scutellaria comosa* o‘simligining yer ustki qismidan 6 ta flavonoid (Xrizin (5,7-digidroksiflavon), Vogonin (5,7-digidroksi-8-metoksiflavon), Baykalein (5,6,7-trigidroksiflavon), Skutellarein-7-O-β-D-glyukopiranozid, Baykalein-7-O-□-D-glyukopironazid va Oroksilozid (Oroksilin A-7-O-glyukuronid) tabiatli moddalar ajratib olingan, va ulardan 3 tasi aglikon 3 tasi esa gikozid modda ekanligi ilmiy jihatdan aniqlangan.[1,6]

Tadqiqot obyekti - Farg‘ona tumani Chimyon va Damko‘l adirliklaridan kuz oyida yig‘ib olingan *scutellaria comosa* urug‘lari. *Scutellaria comosa* urug‘larining shakli yassilashgan, deyarli tuxumsimon, tuklar bilan qoplangan. Urug‘ning uzunligi 1-1,5mm, ko‘ndalang kesimi ellipssimon. Rangi kulrang, qoramtir. 1000 dona urug‘ og‘irligi 1-1,25 gr ni tashkil qildi.

Tajriba qism. *Scutellaria comosa* urug‘ unuvchanligiga qaratilgan tajribalarda urug‘larni laboratoriya va dala sharoitida unuvchanligi o‘rganildi. Shuni alohida ta’kidlash lozimki, urug‘larning saqlanish muddati oshib borishi, ularning unuvchanligini pasaytirib yuboradi. Urug‘larni unuvchanligini aniqlashda M.K Firsova va I.V.Shilova metodidan foydalanib, yangi terilgan urug‘larning unishiga haroratning ta’sirini o‘rganish uchun, tajribalarni har xil haroratda, jumladan, 5^0C, 10^0C, 15^0C, 20^0C, 25^0C, 30^0C da Petri likopchalarida, doimiy namlikni saqlagan holda 3 marta takroriy, (har bir likopchada 100 donadan urug‘ bilan olib borildi.). Unib chiqqan urug‘larning o‘rtacha miqdori (% hisobida) belgilab borildi.

Tajriba natijalari va tahlili. *Scutellaria comosa* o‘simligi laboratoriya sharoitida urug‘larning unuvchanligi 64-65% ni tashkil qilgan bo‘lsa, dala sharoitida 37-44% ni tashkil qildi. Tajribamiz yakunida o‘simlik urug‘larining laboratoriya sharoitida unib chiqishi uchun optimal harorat 25^0C, hamda yangi urug‘larning unuvchanlik ko‘rsatkichlari 64-65% ni tashkil etishi ma’lum bo‘ldi. Ochiq tuproq sharoitida urug‘larning unuvchanligiga tashqi muhit omillari ta’siri bilan baholandi.

Scutellaria comosa **ning laboratoriya sharoitidagi urug‘ unuvchanligi (n-100)**

T^0C	**Takrorlar va unib chiqqan urug‘lar soni (100 ta)**			**Unib chiqish %**
	1	**2**	**3**	
5^0C	**0**	**0**	**0**	**0**
10^0C	**6**	**8**	**5**	**6,3**

15^{0}C	**13**	**17**	**11**	**13,6**
20^{0}C	**57**	**56**	**59**	**57,3**
25^{0}C	**63**	**67**	**64**	**64,6**
30^{0}C	**60**	**58**	**63**	**60,3**



1-rasm. *Scutellaria comosa* o‘simligini labaratoriya sharoitida urug‘larining unib chiqishi.

2-rasm. *Scutellaria comosa* o‘simligini maxsus tuvaklarda urug‘larining unib chiqishi.

XULOSA Tadqiqotlardan shunday xulosaga kelish mumkinki, *Scutellaria comosa* urug‘larining unish xususiyati 1 oydan 5-6 oygacha tuproqda saqlanib, so‘ng unib chiqadi.

Demak *Scutellaria comosa* urug‘i tinim davrini ikki xil muhitda o‘tkazadi, ya’ni sentyabr oxirida pishib yetilib to‘kilgan urug‘lar kelgusi yili fevral-mart oylarida tuproqqa tushadi. Laboratoriya sharoitida urug‘ unuvchanligi uchun optimal harorat 25-27^{0}C hisoblanadi. Urug‘ unumdorligining quyidagi elementlari: haqiqiy hosildorlik-pishgan urug‘lar soni; potensial hosildorlik-urug‘kurtaklar soni (*S.comosa* uchun uni 4 ga ko‘paytiriladigan gullar soni sifatida aniqlash mumkin), hosildorlik koeffisenti-foizda ko‘rsatilgan haqiqiy urug‘ unumdorligining potensialiga nisbati; 1000 dona urug‘ og‘irligi o‘rganilgan. Ma’lumki urug‘ hosildorligi ichki omillarga: tugunchadagi urug‘kurtak soni, elementlar transporti, gormonal muvozanat hamda tashqi omillarni aniqlaydigan genotip kiradi.

Bundan tashqari o‘simlikning tuproqdagi urug‘ zaxirasini tahlilidan shu narsa ma’lum bo‘ldiki, o‘simlik qoplamidagi tabiiy tiklanish darajasi, o‘simlik qoplamida dominantlik qilayotgan o‘simliklar: *Kochia prostrata* (L.) Schrad., *Artemisia sogdiana* Bunge, *Perovskia angustifolia* Kudrjasch., *Convolvulus hamadae* (Vved.) Petrov, *Lagochilus platycalyx* Schrenk, *Haplophyllum pedicellatum* Bunge, *Ferula lipskyi* Korovin, *Capparis spinosa* L., *Poa bulbosa* L., *Delphinium rugulosum* Boiss., *Glaucium fimbrilligerum* Boiss., *Erodium cicutarium* (L.) L’Her., *Avena fatua* L., *Ziziphora tenuior* L. bog‘liq ekanligi ma’lum bo‘ldi. Mazkur turning urug‘lari dala sharoitida, kunlar isishi ya’ni bahor faslida may oylarida namli tuproqlarda ekilsa, yaxshi unib chiqishi tadqiqotlarda o‘z isbotini topgan. O‘simlik urug‘larining unuvchanligini o‘rganish va tahlil qilish, o‘simlikning tabiiy biologik zahirasini saqlab qolishda va ularning plantatsiyalarini yaratishda asosiy omillardan biri bo‘lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ahmedov O‘, Ergashev A, Abzalov A, Yo‘lchiyeva M, Mustafakulov D. Dorivor o‘simliklarni yetishtirish texnologiyasi va ekologik darslik. –Toshkent: “Tafakkur bo‘stoni”, 2018. – B 224.

2. Karimov A.M. Flavanoids of 4 plants that are the member of the *Scutellaria* L. specie growing in Uzbekistan: Dis. Cand. Biol of Sciences. - Tashkent: 2017.

3. Ўлжабоева Н. ХАЛҚ ТАБОБАТИ хазинасидан жавоҳирлар.Тошкент, “Янги аср авлоди” 2009.-1135 бет.

4. Akbarova M.X, Dadajonova S.O‘, Sharobidinov Sh, Xomidova M, Farg‘ona vodiysida tarqalgan ayrim dorivor o‘simliklar bioekologiyasi// O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI, 2022,- №3/1/1. – B. 8-11.

5. Akbarova M.X, Dadajonova S.O‘ Ko‘Kamaron - Scutellaria L. (Lamiaceae) turkumining ayrim dorivor vakillari. // Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences VOLUME 2 | ISSUE 10/2 ISSN 2181-1784 SJIF 2022: 5.947 ASI Factor = 1.7.-B 622-629.

6. Siddikov G.U. Second metabolits of plants S.Phyllostachya and S.Cordifrons, member of the species *Scutellaria* L. growing in Uzbekistan: separation, chemical structure and biological activity&:Dis. Cand. Biol of Sciences. - Ferghana: 2018.

7. Firsova M. K. metod opredeleniya kachestva semyan.-M.:Selxoz, literature, 1959, – B 351.

8. Юлдашев М.П., Ботиров Э.Х., Маликов В.М. Флавоноиды корней *Scutellaria comosa // Химия природ соедин.* – Ташкент, 1996. – С. 610

9. Каримов А.М., Дренин А.А., Васина Н.А., Ботиров Э.Х. G GC-MS STUDY OF NONPOLAR CONSTITUENTS FROM *Scutellaria comosa* Chemistry of Natural Compounds, Vol. 51, No. 6, November, 2015

10. Мурдахаев Ю.М. –Ўзбекистонда ватан топган доривор ўсимликлар‖ Тошкент, 1990.

11. Floruz.uz [Электронный ресурс]. - www.floruz.uz

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 1-son)

TABIIY FANLAR

NATURAL SCIENCES

UDK: 542.06
ORCID:0009-0006-0590-1360

KO‘KO‘T (*POTERIUM POLYGAMUM WALDST ET.KIT*) O‘SIMLIGINING POYA VA ILDIZLARI TARKIBIDAGI VITAMINLAR MIQDORINI O‘RGANISH

Burxonova Gulyora Muzaffarjon qizi
Qo‘qon davlat pedagogika instituti doktoranti
gulyoraburxonova @gmail.com
Tel: +998903065997

Annotatsiya. Maqolada yovvoyi holda uchraydigan Ko‘ko‘t (*Poterium polygamum waldst et.kit*) o‘simligining vegetativ va generativ organlari tarkibidagi suvda eruvchan vitaminlar miqdorini vegetatsiya davrida yuqori samarali suyuqlik xromatografiyasi (ЮССХ, HPLC) usuli asosida gradient elutsiya rejimi yordamida qiyosiy-miqdoriy tahlili, hamda ushbu o‘simlikni tibbiyotda qo‘llanilish sohalari yoritilgan.Tadqiqot davomida o‘simlikda tiamin (B1), riboflavin (B2), piridoksin (B6), foliy kislotasi (B9), kobalamin (B12), askorbin kislotasi (C), nikotinik kislota (PP) kabi vitaminlar aniqlandi.O‘simlik o‘sish davrlariga qarab miqdorini solishtirish orqali tahlil qilindi va o ‘rganildi.

Tadqiqot uchun namunalar o‘simlikning poyasi, ildizi, g ‘unchasi va gulidan olinib, bahor, yoz va kuz fasllarida yig‘ilib, quritilgan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, o‘simliklarning bahorgi o‘sishi davrida B vitaminlari yoz va kuzga qaraganda asosan ildiz va poya qismlarida to‘planganligi aniqlandi. Bu davrda askorbin kislota miqdori ham yuqori bo‘lgan. Nikotin kislotasi, ya’ni PP vitamini uyg‘onish va kurtaklar paydo bo'lishi davrida ajralib chiqmasligi, balki yozning o‘rtalarida gullash davrida o‘simlikning barcha qismlarida to‘planishi aniqlangan.

Kalit so‘zlar. Ko‘ko‘t (Poterium polygamum waldst et. kit), suvda eruvchan vitaminlar, tiamin, ribofalavin, askorbin kislota, vitamin PP, YSSX.

ИЗУЧЕНИЕ КОЛИЧЕСТВА ВИТАМИНОВ, СОДЕРЖАЩИХСЯ В СТОЛБЕ И КОРНЯХ РАСТЕНИЯ ЧЕРНОГОЛОВНИК МНОГОБРАЧНЫЙ

Аннотация. В статье приведены данные по определению сравнительно-количественного анализа водорастворимых витаминов в вегетативных и генеративных органах растения черноголовника многобрачного *(Poterium polygamum waldst et.kit)* методом высокоэффективной жидкостной хроматографии (ВЭЖХ) в режиме градиентного элюирования и с помощью диодно-матричного детектора (ДМД) в течение

вегетационного периода, а также раскрыты области медицинского применения растения.В ходе исследования в растении были выявлены такие витамины, как тиамин (B_1), рибофлавин (B_2), пиридоксин (B_6), фолиевая кислота (B_9), кобаламин (B_{12}), аскорбиновая кислота (С), никотиновая кислота (РР). Растение анализировали и изучали путем сравнения его количества в зависимости от периодов роста. Образцы для исследования были взяты из стебля, корня, почки и цветка растения, собранных и высушенных в весенний, летний и осенний сезоны. По результатам исследования установлено, что витамины группы В в весенний период роста растений преимущественно концентрируются в корневой и стеблевой части, чем в летний и осенний период. Количество аскорбиновой кислоты в этот период также было высоким. Установлено, что никотиновая кислота, т. е. витамин РР, не выделяется в период пробуждения и бутонизации, а накапливается во всех частях растения в фазу цветения в середине лета.

Ключевые слова. Черноголовник многобрачный (Poterium polygamum waldst et. kit водорастворимые витамины, тиамин, рибофлавин, амкорбиновая кислота, никотиновая кислота ВЭЖХ.

STUDY OF VITAMIN CONTENT IN THE STEM AND ROOTS OF POTERIUM POLYGAMUM WALDST ET.KIT

Abstract. The article presents a comparative quantitative analysis of the amount of water-soluble vitamins in the vegetative and generative organs of Poterium polygamum waldst et.kit during the growing season based on the method of high-performance liquid chromatography (HPLC) in the gradient elution mode and a diode array detector (DAD), and also reveals the areas of medical application of the plant.During the study, the following vitamins were found in the plant: thiamine (B1), riboflavin (B2), pyridoxine (B6), folic acid (B9), cobalamin (B12), ascorbic acid (C), nicotinic acid (PP). The plant was analyzed and studied by comparing its amounts depending on the growth periods. Samples for the study were taken from the stem, root, bud and flower of the plant, collected and dried in the spring, summer and autumn seasons. According to the results of the study, it was found that B vitamins are mainly concentrated in the root and stem parts during the spring period of plant growth than in the summer and autumn. The amount of ascorbic acid was also high during this period. It was found that nicotinic acid, i.e. vitamin PP, is not released during the awakening and budding period, but accumulates in all parts of the plant during the flowering phase in mid-summer.

Key words. Poterium polygamum waldst et. kit, water-soluble vitamins, thiamine, riboflavin, ascorbic acid, nicotinic acid, HPLC.

Kirish. Insonlar sog‘lig‘ini saqlash, turli xil kasalliklarni oldini olish, yosh avlodni sog‘lom qilib tarbiyalab shakllantirishda shifobaxsh o‘simliklar va ulardan tayyorlangan dorivor preparatlarning ro‘li beqiyosdir. Shifobaxsh o‘simliklar zaharli emas yoki kam zaharli, eng

asosiysi asorat qoldirmaydi, ular tarkibida biologik faol moddalar ko‘p va inson organizimiga uzoq vaqt davolovchi ta’sirini o‘tkazib turadi [1].

Dorivor o‘simliklarning quritilgan o‘ti, kurtagi, ildizi, ildizpoyasi, tuganagi, piyozi, po‘stlog‘i, bargi, guli, g‘unchasi, mevasi, danagi, sharbati, qiyomi, toshchoyi, efir moyi va boshqalaridan dori-darmon tarzida foydalaniladi [2].

Bugungi kunda amaliyotda foydalanilayotgan dori vositalarining aksariyati sintetik vositalar va antibiotiklar bo‘lib, ularning uzoq vaqt qo‘llanilishi imunitetning pasayishi, allergiya hamda organizimdagi mikrofloraning buzilishiga olib kelmoqda. Dorivor o‘simliklardan tayyorlangan tabiiy vositalarning o‘ziga xos jihati, sintetik vositalardan farqli ravishta, organizimga salbiy ta’sir ko‘rsatmaydi [3].

Vitaminlar inson tomonidan kerakli miqdorda sintez qilina olmaydigan yoki ishlab chiqarilmaydigan organik birikmalar [4] bo‘lib, ular inson, hayvonlar, o‘simliklar organizimining hayotiy faoliyati uchun zarur moddalardir va modda almashinuvida muhim ro‘l o‘ynaydilar.Ular organizimda energiya almashinuvida (B_1, B_2), aminokislotalar (B_6, B_{12}) va yog‘ kislotalar biosintezida, fotoretsepiya jarayonida (A), qon ivishida (K) va kalsiyning o‘zlashtirilishida (D vitamin) ishtrok etadi [1].

ADABIYOTLAR TAHLILI

Ko‘ko‘t (*Poterium polygamum waldst et.kit*) o‘simligi Ra’noguldoshlar oilasining Poterium turkumiga mansub bo‘lib, erta bahorda yer yuziga to‘p barg hosil qilib, may-iyun oylarida gullaydi va iyul oyida esa urug‘ hosil qiladi [5]. ayrim manmakatlarda chorva mollari uchun to‘yimli ozuqa sifatida yetishtirilib, meliorativ holati og‘ir, tashlandiq va adir hududlarda ekilganda tuproq strukturasini yaxshilaydi [6].

Bu o‘simlik Respublikamiz hududida Toshkent, Namangan, Samarqand, Jizzax, Qashqadaryo va Surxandaryo viloyatlarida uchraydi [7].

Uning poya, parg va ildiz qismi makro va mikro elementlarga, vitamin, oqsillarga boyligi sababli o‘simlikni to‘yimlilik darajasini yuqori qiladi.Ushbu o‘simlik asosan xalq tabobatida davolash vositasi sifatida ishlatiladi.Undan tayyorlangan damlamalar mikroblarga qarshi va og‘riq qoldiruvchi, gemostatik, biriktruvchi va yallig‘lanishga qarshi ta’sirga ega.O‘simlik qon tomirlarini toraytirish va ichak faoliyatini sekinlashtirish hususiyatiga ega. Gemostatik vosita sifatida o‘pka, oshqozon, bachadon va gemaroyyid uchun ishlatiladi.Biriktiruvchi sifatida o‘simlik organlari dizenteriya, oshqozon–ichak traktida va diareyada ishlatiladi [8].

Ko‘ko‘t (*Poterium polygamum waldst et.kit*) o‘zining har tomonlama foydali, asal beruvchi, tuproq meliorativ holatini yaxshilovchi qimmatbaho ozuqabop o‘simlik bo‘lib, tarkibida ko‘plab vitaminlar mavjud [9]. Ular inson organizimini o‘sib rivojlanishi uchun nihoyatda zarurdir.Vitaminlar tirik organizmning hayot faoliyati va normal moddalar almashinuvi uchun zarur bo‘lgan organik birikmalar [10].

Organizimning vitaminlarga bo‘lgan ehtiyoji asosan qabul qilinayotgan ozuqaviy moddalar hisobiga qondiriladi va zarurat tug‘ilganda vitaminli pereparatlar yoki maxsus tayyorlangan qaynatmalar va damlamalar orqali qondiriladi.Vitaminlar ovqat tarkibida

yetishmaganda yoki ularning hazm qilinishi buzilganda odam organizimida turli noxush o‘zgarishlar vujudga keladi. Masalan, kattalar va bolalar tanasining turli yuqumi kasalliklarga, toksik moddalarning ta’siriga, stressga va boshqa noqulay omillarga chidamliligi pasayadi. Bu aqliy va jismoniy faoliyatning pasayishiga, letargiya, sovuqqa moyillik, milklardan qon ketishi, teri kasalliklari, mushaklar va bo‘g‘imlarda og‘riq, xira ko‘rish va boshqalarni keltirib chiqaradi [11].

Ko‘ko‘t (*Poterium polygamum waldst et.kit*) o’simligi biologik faolligi

Ko‘ko‘t (Poterium polygamum waldst et.kit) o‘simligining qaynatma va suyuq ekstraktlari me’da va ichak kasalliklari (ich ketish, entrokolitni) davolash, ba’zan qon oqishini to‘xtatish uchun (qon tupurishda, bachadaondan qon ketishida, bavosil kasalligida) qo‘llaniladi.O‘simlik ildizpoyasi va ildizidan tayyorlangan qaynatmasi xalq tabobatida ich ketishini to‘xtatuvchi (burishtiruvchi) va antiseptik vosita sifatida ishlatiladi, u qon ketishini to‘xtatadi hamda og ‘riq qoldiradi. Bundan tashqari u turli yaralarni davolashda ham ishlatiladi [12].

Tabobatida o‘simlik bosh og‘rig‘i, tomoq kasalliklarini davolovchi vosita sifatida, o‘pka tuberkulozini kompleks davolashda keng qo‘llaniladi.Pereparatlari chaqaloqlarda quloq kasalliklarini davolashda ham ishlatiladi [13].

Tajriba qism. Suvda eruvchi vitaminlar miqdori yuqori samarali suyuqlik xromotografiyasi (YSSX, HPLC) usulida gradient eluyatsiya rejimi asosida tahlil qilingan. Mobil faza sifatida asetonitril va asetatli buffer eritmasidan foydalanildi. Identifikatsiya qilish ultrabinafsha sohasida 200 dan 400 nm gacha bo‘lgan sohada o‘rganilgan.Xromatografiya sharoitlari:Xromatograf - Agilent Technologies 1260 (USA),Mobil faza (gradient rejim) – asetonitril – buffer pH=2,92. (4% : 96%) 0-6 min., (10% : 90%) 6-9 min., (20% : 80%) 9-15., (4% : 96%) 15-20 min.

Injeksiya hajmi- 5mkl.,Mobil faza tezligi 0,75 ml/min.,Xromotografik kolonka - Exlipse XDB C18, 5 mkm,4,6 x 250 mm[1,14].

Dastlab o‘simlik alohida qismlarga ajratib olinib, quritildi va maydalandi. Maydalangan ildiz qismidan 0,500 g va poya qismidan ham 0,500 g analitik tarozida tortib olindi.Namunalarni 300 ml li tubi yassi kolbaga solindi so‘ngra 3% li sirka kislota eritmasidan 50 ml solib aralashmani magnitli aralashtirgichga qo‘yib qizdirmasdan 6 soat davomida ekstaktsiya qilindi.Ultratovushli hammomda 25 minut qo‘yildi, aralashma tindirildi va filtirlandi. So‘ngra eritmadan 1 ml alikvot olib mobil faza bilan 10 mlgacha suyultirildi va vialkalarga 1 ml dan quyilib, tahlil qilish uchun xromotografga qo‘yildi.Xromotografga dastlab ishchi standart eritmalar, keyinchalik tayyorlangan eritmalar tahlil qilindi.Natijalar 3 marotaba takrorlandi va o‘rtacha qiymati olindi.

Olingan natijalar va ularing tahlili. Ushbu ishda foydalanilgan na’munalar 2024-yil may, iyun, sentyabr oylarida Namangan viloyati, Pop tumani, Rezaksoy qishlog‘i tog‘-adirlaridan yig‘ib olingan.O‘simlik alohida a’zolarga poya va ildiziga ajratib quritilgan.Quritilgan namunalarni Toshkent viloyatidagi “Bioorganik kimyo ilmiy tekshirish

instituti”da elementar tarkibi tahlil qilindi.Ko‘ko‘t (*Poterium polygamum waldst et.kit*) o‘simligining bahorgi, yozgi va kuzgi davrlardagi a’zolarida to‘planadigan vitaminlar miqdori tahlil qilingan. Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki *Poterium polygamum* o‘simligining poya, ildiz, g‘unchasi va guli tarkibida 6 xil vitaminlar mavjud ekanligi aniqlandi. Olingan natijalar 1- jadvalda keltirilgan.



1-rasm.Poterium polygamum o‘simligining bahorgi poyasi tarkibidagi vitaminlar xromotogrammasi

1- jadval.*Poterium polygamum* o‘simligining vegetativ va generativ organlarida to‘plangan suvda eriydigan vitaminlar miqdorining o‘sish davrlariga ko‘ra tahlili

	Na’muna nomi	Aniqlangan miqdor mg/100						
		B_1	B_6	B_9	PP	C	B_2	B_{12}
1	Ildiz bahorgi	14,458	16,075	89,987	-	22,254	-	47,589
2	Poya bahorgi	15,547	17,182	10,968	-	96,618	96,882	91,354
3	Ildiz gullashdan oldingi	2,897	10,365	88,957	-	-	-	67,586
4	Poya gullashdan oldingi	5,441	25,774	57,487	-	67,378	21,958	19,255
5	G’unchasi		6,879	27,378	-	-	-	-
6	Ildiz gullagan davr	-	-	-	0,125	11,965	3,498	25,698
7	Poya gullagan davr	-	-	4,121	0,052	-	0,679	4,215
8	Guli	-	-	3,145	0,122	-	0,469	4,759

9	Ildiz kuzgi	-	17,181	9,121	-	-	10,530	-
10	Poya kuzgi	-	6,894	13,685	5,732	91,718	17,697	5,065

Poterium polygamum o‘simligining bahorgi na’munasidagi poya va ildizi tarkibida vitaminlar miqdorini diogrammasi



1-jadvalda va 1 rasmda keltirilgan kattaliklardan ko‘rinadiki, *Poterium polygamum* o‘simligining vegetasiya davrida yer ustki qismi , ildizi, gul g‘unchasi va gulida suvda eruvchan vitaminlar miqdori nisbatan tulicha tarqalgan.Vitamin B_1 miqdori vegetatsiya davri boshlanishida ham poyasida ham ildizida nisbatan yuqori bo‘lib 15.5 mg/% va 14.4 mg/% ni tashkil qiladi. G‘unchalagan davriga kelganda uning miqdorlari kamayib 5,4 mg/% va 2,9 mg/% ni tashkil qilishini kuzatish mumkin.O‘simlik g‘unchasida esa 4,3 mg/%, gullash fazasi hamda kuz faslida olingan namunalarda esa o‘simlikning hech qaysi qismida vitamin aniqlanmadi.Vitamin B_1-Tiamin ko’pgina oziq - ovqat maxsulotlari tarkibiga kiradi.U dukkaklilar, go‘sht, baliq va asosan donning murtagi va qobig‘i (kepagi)da bo‘ladi.Tiamin organizimda uglevodlar almashinuvida muhim ahamiyatga ega; ovqat uglevodlarga serob bo‘lsa, ularni o‘zlashtirish uchun tiamin ko‘proq talab qilinadi.Tiamin bo‘lmasa, polinevrit kasalligi ro‘y beradi. Organizimda bu vitamin bo‘lmasa yoki yetishmasa, nerv sistemasining og‘ir kasalligi beri-beri paydo bo‘ladi, shuningdek ichak B_1 vitamin qadoqlash peristaltikasi susayadi, qabziyat, muskullar bo‘shashishi, jismoniy va ruhiy ish qobilyatining pasayishi kuzatiladi [15].

Vitamin B_2 esa asosan o‘simlikning poya qismida uchrashi va bahorgi paytda uning miqdori 96,8 mg/% ni tashkil qilsa, g‘unchalagan davriga kelganda uning miqdori kamayib 22 mg/% ga tushishini kuzatish mumkin.Ildiz va g ‘uncha qismlarida uchramagan bu vitamin o‘simlik gullash jarayonida hosil bo’lib, ildiz va guli tarkibida tegishli ravishda 3,5 mg/% va 0,47 mg/% miqdorlarda to‘plangan.Poyasida esa 0,68 mg/% ga kamaygan.Kuz fasliga kelib

o‘simlikning bargli poyasi hamda yer ostki ildizi qoladi halos.Ushbu paytdagi namunalar tekshiriliganda ildizida vitamin miqdori 10,5 mg/% bo‘lsa poyasida 17,7 mg/% miqdordaligi aniqlandi.Vitamin B_2 - Riboflavin o‘simlikning o‘sish jarayonida qatnashadi va o‘stiruvchi omillarga kiradi, shuning uchun ham uning miqdori o‘sish jarayonida kamayib borishini amalda kuzatishimiz mumkin.Oqsil, yog, uglevodlar almashinuvida ishtrok etadi.Markaziy nerv sistemasi faoliyatini yaxshilaydi, ko‘z gavharidagi moddalar almashinuviga ta’sir etadi, yorug‘likni sezish va rang ajratishga yordam beradi.Riboflavin organizmga oziq-ovqat bilan kiradi, ovqatda riboflavin yetishmasa og‘iz burchagi, lab yoriladi (lab bichilishi), soch to‘kiladi.B2 vitamin asosan hayvon maxsulotlari – tuxum, pishloq, sut, go‘sht hamda g‘alla va dukkakli o‘simliklarda ko‘p uchraydi [15].

Vitamin B_{12} miqdori bahorgi paytda poyasida 91,3 mg/% ni tashkil qilsa ildiz qismida uning miqdori 47,5 mg/% ni tashkil qilishi va g‘uncha tugish davriga kelganda poyasida 19,2 mg/% gacha kamaygan bo‘lsa, ildizida uning miqdori 67,5 mg/% ga ko‘payganligini kuzatish mumkin bo’ladi.G‘uncha qismida esa vitamin aniqlanmadi.O‘simlik gullash davrida ildizi, poyasi va guli tarkibida mos ravishta 25,7 mg/%, 4,2 mg/% va 4,76 mg/% miqdorda to‘planganligini ko‘rish mumkin.Kuzgi davrdagi o‘simlik namunalaridan asosan poyasida 5 mg/% miqdorda vitamin aniqlandi. Vitamin B_{12}-Kobalamin asosan mikroorganizimlar tomonidan sintezlanadigan yagona vitamin hisoblanadi. Odam uchun asosiy B_{12} vitamin manbaii go‘sht, jigar hisoblanadi[16]. Biz o‘rganayotgan o‘simlik *Poterium polygamum* da ham ushbu vitamin ildiz, poya qisimlarida to‘planishini kuzatish mumkin bo’ladi.

Vitamin B_6 miqdori bahorgi paytda poyasi va ildizida miqdorlari bir-biriga yaqin bo‘lib, 17,1 mg/% va 16,0 mg/% ni tashkil qilishi g‘uncha tugish davriga kelganda esa ularning miqdorlari mos ravishda 25,7 mg/% va 10,3 mg/% ni tashkil qilishi, poyasida uning miqdori oshganligi ildiz qismida esa kamayganligini, lekin umumiy miqdor o‘zgarishsiz qolganligini g ‘uncha tugish davriga kelganda ushbu vitamin nisbatan poyasiga ko‘proq miqdorda migratsiya qilganligini ko‘rish mumkin. Demak, u o‘sish jarayonida faol qatnashishidan dalolat beradi.G‘unchasi tarkibida 6,88 mg/% miqdorda aniqlandi.O ‘simlik gullash davriga kelganda hech qaysi a’zosida vitamin to‘planmagan. Bundan ko‘rinadiki, vitamin o‘simlik gullash jarayonida yig‘ilmasdan sarflanib ketgan. Kuzgi namunalarda esa ildizida 17,2 mg/% va poyasida 6,8 mg/% vitamin yig‘ilgan. Vitamin B_6-Piridoksin ko‘pgina o‘simlik va hayvon mahsulotlari : achitqi, normal hazm bo‘lishini ta’minlab, azot almashinuvida muhim ro‘l o‘ynaydi. Organizimda piridoksin yetishmasa bolalar o‘smay qoladi, me’da–ichak ishi buziladi, kamqonlik ro‘y beradi. Homiladorlikda stomatit, terining yallig‘lanishi, qo‘zg ‘aluvchanlik, uyqusizlik kuzatiladi. Kishi organizimi uchun zarur miqdordagi piridoksin ichak bakteriyalari ta’sirida hosil bo‘ladi [16].

Vitamin B_9 miqdori bahorgi paytda ildizida 89,9 mg/% va poyasida 11 mg/% tashkil qilsa, g‘uncha tugish davriga kelganda uning miqdori ildizida o‘zgarishsiz 88,9 mg/% bo‘lsa poyasida uning miqdori 57,5 mg/% gacha oshganligini kuzatish mumkin bo‘ladi.G‘unchasida esa 27,4 mg/% ni tashkil etgan.Gullagan davrdagi olingan namunalardan ildiz qismida aniqlanmadi,

poyasi va gulida 4,1mg/% va 3,1 mg/% miqdorda to‘plangan va bu natijalar oldingi davrlardagi miqdorlarga nisbatan ancha kamayganligini ko‘rsatadi.Kuzgi natijalarga keladigan bo‘lsak, oldin mavjud bo‘lmagan vitamin ildiz qismida qaytadan to‘planib 9,1 mg/% ni tashkil etgan va poyasida 13,7 mg/% ga ko‘payganini ko‘rish mumkin.Vitamin B_9-Foliy kislota organizimda qizil va oq qon hujayralarini saqlab turish, asab tizimida, uglevodlarni energiyaga aylantirish va organizimning genetik qurilish bloklarini sintez qilish va saqlash uchun kerak. Foliy kislotasi ayniqsa homilador ayollarga zarur, chunki u homilani sog‘lom bo‘lishini ta’minlab, bo‘lishi mumkin bo‘lgan jiddiy nuqsonlarni oldini oladi [16].

Vitamin C - Askorbin kislotasi o‘simlikda bahorgi paytda poyasida nisbatan yuqori miqdorda uchrashi 96,6 mg/% ni tashkil qilsa, ildiz qismida uning miqdori 22,2 mg/% ni tashkil qilgan va g‘uncha tugish davriga kelib poya qismida uning miqdori 67,3 mg/% gacha kamaygan bo‘lsa, ildiz qismida umuman miqdori kamayib yo‘q bo‘lib ketganligini kuzatishimiz mumkin. Demak, u o‘sish jarayonida ishlatilgan xolda asosan poya qismida saqlanishini kuzatish mumkin.G‘uncha qismida ham deyarli to‘planmagan.Keyingi tajribalar tahlillariga ko‘ra, gullash davri namunalaridan ildiz qismida 11,9 mg/% va kuzgi namunalarning poya qismida 91,7 mg/% dan to‘plangan xalos.Qolgan o‘simlik qismlarida aniqlanmagan.Askorbin kislota-Vitamin C moddalar almashinuvida, biriktiruvchi t ‘qimalarning o‘zlashtirishida, bu to‘qimalarning normal holatda tutib turilishi va tiklanishida muhim ahamiyatga ega.Organizmda C vitamin yetishmasa, tog‘ay va suyak to‘qimalari tuzulishi buziladi, singa kasalligi ro‘y beradi.Organizimda askorbin kislota hosil bo‘lmaydi va to‘planmaydi. C vitamin sabzavot va mevalarda bo‘ladi. Askorbin kislota turli polivitamin pereparatlari tarkibiga kiradi [15].

PP vitamin – Nikotin kislota o‘simlikda bahorgi va g‘uncha tugish davrlarida o‘tkazilgan tajribalarda aniqlanmadi.Lekin gullash davriga o‘tganda oz miqdorda ildizida 0,13 mg/%, poyasida 0,05 mg/% va gulida 0,12 mg/% to’planganligini kuzatish mumkin.Kuzgi namunalar tekshirilganda faqat ildiz qismida hosil bo‘lib, oldingiga nisbatan 5,7 mg/% ga ortgani kuzatildi.PP vitamin hujayralarda oksidlanish - qaytarilish reaksiyalarida qatnashadi.Yetishmasligi pellagrani keltirib chiqaradi.Vitamin asosan jigar, buyrak, mol go‘shti, cho‘chqa go‘shti, qo‘zichoq, baliq, non, don kabilarda uchraydi [18].

Yuqorida nomlari qayd etilgan vitaminlar inson organizimida yetishmasa, turli salbiy o‘zgarishlar sodir bo‘lishi mumkin.Tirnoqlar tushib ketishi, bo‘yin qismiga tez-tez chipqon chiqishi, yuzga yara toshishi shular jumlasidandir.[17]

Shunday qilib olingan natijalardan quyidagi xulosalar qilish mumkin.

Xulosa. Shunday qilib Namangan viloyati Pop tumanida tabiiy holda o‘sadigan Ko‘ko‘t (*Poterium polygamum waldst et.kit*) o‘simligi bahorgi, yozgi va kuzgi yer ustki va yer ostkiorganlari tarkibidagi suvda eruvchan vitaminlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, bahorgi ildiz va poya tarkibida B_1,B_6,B_9,C,B_{12} vitaminlar mavjudligi, PP vitamini esa o‘simlikda uchramasligi aniqlandi.

Vitaminlar asosan o‘simlik uyg ‘onish davrida poya qismida ko‘proq to‘planishi va ularning umumiy miqdori 0,40% gacha ildiz qismida 0,15% gacha miqdorda yig‘ilishi, vegetatsiyaning g‘uncha tugish davriga kelganda esa ularning miqdori poya qismida 0,18% gacha kamayishi hamda ildiz qismida nisbatan o‘zgarishsiz qolishini kuzatish mumkin.O‘simlik gullash davrida oldin mavjud bo‘lmagan PP hamda B_9, C, B_2, B_{12} vitaminlari a’zolarida to‘plangan bo‘lib, oldin mavjud bo‘lgan B_6 va B_1 vitaminlar aniqlanmadi.Kuzgi namunalardan faqat B1 vitamin o‘simlikni har ikkala qismida ham to‘planmaganligi aniqlandi.

Poterium polygamum waldst et.kit o‘simligi yer ustki va yer ostki qismlaridan tibbiyotda va tabobatda yallig‘lanishga qarshi, imunitet tanqisligida, yurak qon-tomir kasalliklarida, ichaklar faoliyati buzilgada va bir qancha boshqa kasaliklarni oldini olish va davolashda amaliyotga tadbiq etish mumkinligi ko‘rsatildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1.N.T.Xo‘jayeva, V.U.Xo‘jayev. Qo‘rg‘oshin gul – krolkovia severzovii o‘simligi tarkibidagi flavonoidlar va vitaminlar tahlili.Journal of Chemistry of Goods and Traditional Medicine. 2022.288-293.

2.J.H.Qarshiboyev, Sh.B.Komilov.Sirdaryo sharoitida tarqalgan ayrim foydali yovvoyi holda o‘suvchi o‘simliklarning bioekologik xususiyatlari.O‘zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali.2022.114-b.

3.E.T.Berdiyev,E.T.Axmedov.Tabiiy dorivor o‘simliklar.O‘quv qo‘llanma.Toshkent 2017.4-7 b

4.A.A.Alturfan,E.E.Alturfan.A Guide to Vitamins and Their Effects on Diseases.Cambridge Scholars Publishing.2023.2 b.

5.E.I.Xamdamova, G.A.Suvonova.Ko‘ko‘t (Poterium polygamum waldst et.kit.) o‘simligining laboratoriya sharoitida unuvchanligiga tashqi muhit omillarining ta’siri.Republican Scientific and Practical Conference. 2022.302-307 b.

6.E.Xamdamova.Ko‘ko‘t (Poterium polygamum waldst et. kit.) o‘simligini yetishtirishning biologik asoslari.Agrar-iqtisodiy, ilmiy-ommabop jurnal. Maxsus son [2], 2023.28-29 b.

7.E.I.Xamdamova,G.A.Suvonova.KO‘KO‘T (Poterium polygamum Waldst et kit.) O‘SIMLIGI URUG‘INING UNUVCHANLIGIGA EKISH MUDDATLARINING TA’SIRI.O‘zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali.12-son.2022.1157-1161.

8.В.В.Телятьев.Полезные растения центральной сибири.Масква 1985.154с

9. Kodirov N.D., Xasanova G.R. Tarkibida oshlovchi moddalar bo‘lgan dorivor o‘simliklar va mahsulotlar. O‘quv-uslubiy qo‘llanma. Samarqand. 2023. b.18

10.U.S.Sadullayeva,F.X.Payg‘amova,A.S.Qurbonmurodov,G.O.Ahmedova, S.N.Sa’dullayeva. Vitaminlar.Pedagog respublika ilmiy jurnali 7-tom 4-son 2024.696-697 b.

11.В.Г.Лифляндский.Витамины и минералы.Москва 2010.11с.

12.M.A.Jo‘rayeva .Dorivor o‘simliklar atlasi.O‘quv qo‘llanma.Toshkent 2019.102 b.

13.А.Н.Морозова.Поволожский травник.Издательиские технологии.2020.43-51с.

14.Ch.A.Aminjonova, M.M.Jaloldinova.Vitaminlaring inson hayotida tutgan o‘rni.Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences.2023.288-296 b.

15.J.M.Asfandiyorov.Vitaminlar.Vitaminlar haqida tushuncha.Vitaminlarning hozirgi kunda inson hayotidagi ahamiyati.Innovative developments and research in education. Canada, Ottawa.2022. 13-16 b.

16.M.G.Safin, Y.S.Ro‘ziyev.Vitaminlar biokimyosi.Toshkent 2015. 55 b.

17.I.R.Asqarov,Ch.S.Abdujabborova.”As Lupinus” tarkibidagi vitaminlar miqdorini aniqlash.Multidisciplinary Scientific Journal. 2024. 402-408 b.

18.Ch.A.Aminjonova, M.M.Jaloldinova.Vitaminlarning inson hayotida tutgan o‘rni.Oriential Renaissance: Innovative,educational, natural and social sciences.2023.288-296.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 1-son)

TABIIY FANLAR

NATURAL SCIENCES

QISHLOQ XO‘JALIGIDA ISHLATILADIGAN MINERAL O‘G‘ITLARNING TUPROQ VA O‘SIMLIK UNUMDORLIGIGA TA’SIRI

H.R.Adizova
Buxoro davlat universiteti
Ekologiya va geografiya kafedrasi kata o’qituvchisi
h.r.adizova@buxdu.uz

ANNOTATSIYA Ushbu keltirilgan maqolada organik va mineral va mikroelementlar haqida ma’lumotlar keltirilgan bo’lib, ushbu o’gitlardan foyidalanish hosil samaradorligini oshirish usullari ko’rsatilgan.

Kalit so‘zlar: microelement, o’git, tuproq, qo’llash usul samaradorlik, organik, mineral,kimyoviy.

ANNOTATSIYA В этой цитируемой статей представлена информация об органических и минеральных удобрениях, показаны способы повышения урожайности с помощью этих удобрений.

Ключевые слова: эффективность удобрений, грунтов, способов внесения, органических, минеральных, химических.

ABSTRACT *This cited article provides information about organic and mineral fertilizers, shows ways to increase yields using these fertilizers.*

***Key words**: fertilizer, soil,application, method, efficiency, organic, mineral, chemical.*

KIRISH Tarixga nazar tashlasak mineral o‘g‘itlar XIX asrdan boshlab tarqala boshlagan. XX-asr o‘rtalaridan mineral o‘g‘itlarni ishlab chiqarish va qo‘llash ta’siri tez o‘sdi. Shungacha o‘g‘it sifatida, asosan, go‘ng, kul va boshqa chiqindilar ishlatilgan. Mineral o‘g‘itlar tuproqqa (uning fizik, kimyoviy va biologik xususiyatlariga) kuchli ta’sir qiluvchi vositadir; ular tuproqni oziq elementlar bilan boyitadi, tuproq eritmasi reaksiyasini o‘zgartiradi, mikrobiologik jarayonlarga ta’sir etadi va hokazo. O‘simliklar, asosan, ildizi orqali oziqlanishi tufayli mineral o‘g‘itlar tuproqqa solinganda o‘simliklarning o‘sishi va rivojlanishiga, binobarin, dalalar, o‘tloklarning umumiy biologik mahsuldorligiga faol ta’sir qiladi.

O‘g‘itlar tuproq unumdorligini ko‘tarishda, hosilni oshirishda juda kuchli omil hisoblanadi. Chunki o‘g‘itlar yordamida, eng avalo, tuproq gumus, azot va boshqa kul elementlar bilan boyiydi. Buning natijasida qishloq xo'jalik ekinlari hosili ko‘payib, sifati yaxshilanib boradi. Ekinlardan olinadigan hosilning qariyb yarmi (ba’zi hollarda60-70% i) mineral o‘g‘itlar hisobiga olinadi. Aksariyat ekinlarda o‘g‘it qo’llash bilan bog‘liq sarf-xarajat

hosil bilan kamida 2-3 barobar bo‘lib qaytadi. O'sish yaxshi natija berish uchun o'simliklar juda ko'p turli xil resurslarni talab qiladi. Va bu nafaqat issiqlik, quyosh nuri va suvning ko'pligi Unumdorligi past tuproqda, hatto ideal ob-havoda va namlikning optimal darajasida ham, unumdorligi past bo'ladi. Dastlab boy mikro va makro elemen tarkibga ega bo'lgan joyi tanlagan bo'lsangiz ham, keyin bir necha ekish davrlaridan keyin-va ba'zan hatto 1 yil foydalanishdan keyin-tuproq tarkibi sezilarli darajada yomonlashadi.

Biroq, unumdorlikni tiklash tezligi o'simliklar tomonidan foydali birikmalarni qabul qilish tezligi bilan taqqoslanmaydi. Shuning uchun, agar sanoat miqyosida hosil yetishtirishni maqsad qilinsa, qo'shimcha oziqlantirishsiz kerakli hosil bermaydi va bu masalaga imkon qadar mas'uliyat bilan yondashish kerak bo’ladi. Qo'shimchalarni har doim ham qo'shavermaslik kerak, chunki har bir ekinning ozuqa moddalariga individual ehtiyoji bor. Tuproqning tabiatini ham hisobga olish kerak. Bundan tashqari, har xil turdagi qo'shimchalar boshqacha ishlaydi shuning uchun, hech bo'lmaganda, organik va mineral o'g'itlar o'rtasidagi farq nima, qachon, qanday elementlar va qanday miqdorda qo'llanilishini tushunish kerak bo’ladi.

O'g'itlarning kelib chiqishi va tarkibidagi farqlar. Agrar o'g'itlashning deyarli barcha turlarini 2 ta katta guruhga bo'lish mumkin:

organik;

mineral.

Ular tarkibi, ishlab chiqarish usuli va natijada tuproqqa va yetishtirilgan ekinlarga ta'sir qilish xususiyati bilan farq qiladi.

Organik (mahalliy) o'g'itlar. Har xiI organizmlar (o'sirn1iklar va hayvonlar) qoldiqlari va chiqindilaridan hosil bo'lgan o'g'itlar organik o'g'itlar deyiladi. Organik o'g'itlarga: go'ng, go'ng sharbati, parranda qiyi, torf,saprofel, yashil o'dar, sanoatning organik chiqindilari', shahar chiqindilari, suv o'tlari va hokazolar kiradi. Organik o'g'itlarni qishloq xo'jaligida eng muhim ahamiyatlari ular to'liq o'g'itlar hisoblanadi. Chunki ulaming tarktbida ko'pchilik makro va mikroelementlar mavjud. Tuproq strukturasini yaxshilaydi, uning unumdorligini oshiradi.Tuproq haroratini ma'lum darajaga ko'taradi.- Tuproqni foydali mikroorganizmlar bilan boyitadi va ular uchun ozuqa vazifasini o'taydi.- Organik o'g'itlar solingan maydonlar atrofida karbonat angidrid gazi miqdori ortadi, bu esa o'simliklar ildizidan tashqari oziqlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Organik o'g'itlar o'mini mineral o'g'itlar, mineral o'g'itlar o'mini organik o'g'itlar bosolmaydi. Birinchi guruhdagi qo'shimchalar, nomidan ko'rinib turibdiki, toza organik moddalar, tabiiy ekotizimning bir qismidir. Organik o'g'itlarning eng keng tarqalgan turlari go'ng, qushlarning axlati, torf va boshqalar tuproq unumdorligini va uning yuqori qatlamining tuzilishini samarali yaxshilaydi. Ular tuproqning kimyoviy muvozanatini barqarorlashtiradi, uning suv muvozanatini normallashtiradi va havoning kirib borishini osonlashtiradi. Bundan tashqari, bakteriyalar organik moddalarni qayta ishlashni tezlashtiradi.

Mineral o‘g‘itlar- tarkibida o‘simliklar uchun zarur oziq elementlari bo‘lgan anorganik moddalar, asosan, tuzlar kiradi. Deyarli barcha mineral o‘g‘itlar kimyo sanoatida ishlab

chiqariladi. Shuningdek, tabiiy tuzlar, mis, natriyli selitra (chili selitrasi), sanoat chiqindilari ham ishlatiladi. Mineral o‘g‘itlar tuproqqa kuchli ta’sir qiluvchi vositadir ular tuproqni oziq elementlar bilan boyitadi, tuproq eritmasi reaksiyasini o‘zgartiradi, mikrobiologik jarayonlarga ta’sir etadi va boshqalar. Mineral o‘g‘itlar organik o‘g‘itlar bilan qo‘shib ishlatilsa, yanada yaxshi natija beradi. Agronomik maqsadlarga ko‘ra, mineral o‘g‘itlar bevosita va bilvosita ishlatiladigan o‘g‘itlarga bo‘linadi. Bevosita ishlatiladigan o‘g‘itlar tarkibida o‘simliklar oziqlanishi uchun zarur azot, fosfor, kaliy, shuningdek, bor, rux, mis, marganets, oltingugurt kabi elementlar bo‘ladi.

Aralash-mineral o‘g‘itlar zavodda yoki xo‘jalikning o‘zida bir necha xil o‘g‘itni aralashtirib, murakkab o‘g‘itlar esa zavodda tayyorlanadi. Bilvosita ishlatiladigan mineral o‘g‘itlar (mas, ohakli o‘g‘itlar, gips va boshqalar) asosan, tuproqning agrokimyoviy va fizikkimyoviy xususiyatlarini yaxshilashda qo‘llaniladi. Mineral o‘g‘itlar qattiq, ya’ni kukunsimon, donador hamda suyuq — ammiakli suv, suyuq ammiak, ammiakatlar holida ishlab chiqariladi. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sanoat yo'li bilan etishtirishda konsentrlangan mineral birikmalar plantatsiya hosildorligini bir necha bor oshirishga yordam beradi.

Qo'llash samaradorligi. Mikroelementlar tuproq strukturasini yaxshilaydi, uning unumdorligini oshiradi. Tuproqda haroratni ma'lum darajaga ko'taradi. Tuproqni foydali mikroorganizmlar bilan boyitadi va ular uchun ozuqa vazifasini o'taydi. Organik o'g'itlar solingan maydonlar atrofida karbonat angidrid gazi miqdori ortadi, bu esa o'simliklar ildizidan tashqari oziqlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Mineral o‘g‘itlarning samaradorligi o‘simlikning biologik xususiyatiga, har gektarga erga solinadigan o‘g‘it normasiga, organik o‘g‘itlar bilan qo‘shib ishlatilishiga, qo‘llaniladigan agrotexnika tadbirlari sifatiga va boshqaga bog‘liq. Mineral o‘g‘itlardan foydalanish muhim o‘rinda turadi va bu me’yor o‘g‘it tarkibidagi sof ta’sir etuvchi oziq moddalarning kg/ga mikdori bilan belgilanadi. Mineral o‘g‘itlar o‘simlikning biologik xususiyatlari, ularning oziq moddalarga talabi, tuproqda o’simlik o‘zlashtiradigan elementlar mikdori, ishlatiladigan o‘g‘itlarning xususiyati, o‘simlikning normal o‘sishi va rivojlanishi uchun zarur шaroitlarni xisobga olgan holda qo‘llanilishi kerak. Mineral o‘g‘itlar erga kuzda yoki erta bahorda, ekish vaktida va o‘suv davrida solinadi. Mineral o‘g‘itlarni noto‘g‘ri qo‘llash biotsenozga katta zarar keltirishi, atrof muhitning ifloslanishiga sabab bo‘lishi mumkin. Mineral o‘g‘itlar tuprokda har xil o‘zgarishlarga uchraydi, bu o‘zgarishlar oziq moddalarning eruvchanligiga, tuprokda harakatlanishi va o’simliklarga singishiga ta’sir ko’rsatadi. Mineral o‘g‘itlarning samaradorligi juda yuqori. Hisob kitoblarga qaraganda, g‘o‘za 1 tona paxta hosili to‘plash uchun sof 30—70 kg azot, 10—20 kg fosfor, 30—60 kg kaliyni o‘zlashtishi aniqlandi. Ekinlar umumiy hosildorligining taxm. 50% ug‘itlarni qo‘llash, 25% nav afzalliklari va 25% etishtirish texnologiyasi orkali ta’minlanadi. To‘g‘ri nisbatlarda Mineral o‘g‘itlar XX-asrning 20-yillaridan qo‘llanila boshlagan. 2001 yilda O‘zbekistonda 801 ming tonna (100% oziq modda hisobida) mineral o‘g‘itlar ishlab chiqarildi.

Azotdan tashqari, go'ng o'simliklar uchun foydali bo'lgan boshqa moddalarning keng doirasini o'z ichiga oladi. Bu yerda kaliy, fosfor, marganets va boshqalar mavjud. Yakuniy tarkibi ko'p jihatdan hayvonlarning oziq-ovqat manbalariga bog'liq. Ko'pincha go'ng, ayniqsa, hayvonning oshqozon-ichak traktida fermentlangan o'simlik chiqindilarini o'z ichiga oladi. Ular nafaqat tuproq tuzilishini yaxshilaydi, uni yumshatadi, balki uzoq muddatda uni tabiiy komponentlar bilan ta'minlaydi. Go'ngning yana bir foydali ta'siri tuproqning kislotaliligini zararsizlantirishdir.

O'rim-yig'imdan keyin plantatsiyani kuzgi shudgorlashdan oldin go'ngni qo'llash tavsiya etiladi. Bunday holda, u yerga to'liq qayta ishlashga vaqt topadi va yangi ekish boshlangunga qadar u bunday subkorteksdan maksimal foydali tarkibiy qismlarni oladi. Bahorgi shudgorlash paytida axlatdan foydalanishga ruxsat beriladi, ammo bu yondashuv kamroq tarqalgan. Ekish paytida va undan keyin go'ngni oziqlantirish kamroq qo'llaniladi.

Qo'shimcha tavsiyalar:

Azotli o‘g‘itlardan masalan, ammiakli selitra tez ta’sir qiluvchi o‘g‘it xisoblanadi. Suvda tez eriydiva sug‘orilganda u tuproqqa saqlanib qolmaydi, ekin uning 60-70%ini o‘zlashtirishga ulguradi xolos, qolgan qismi esa suv bilan yuvilib havoga uchib ketadi. Shu sababli tez-tez sug‘oriladigan joylarda ularning yillik me’yorlarini har bir sug‘orishda taqsimlab, bo‘lib-bo‘lib ishlatish lozim. Ammoniy sulfat esa, suvda qiyin eriydi, o‘simlik tomonidan sekin o‘zlashtiriladi. 2-3 oy davomida ta’sir etib turish xususiyatiga ega. Shuning uchun ushbu o‘g‘itni qumloq joylarda ,o‘z vaqtida o‘g‘it berish imkoni bo‘lmaydigan maydonlarda ishlatish maqsadga muvofiqdir. Sababi, ammoniy sulfat qiyin eruvchanligi tufayli tuproqda saqlanib qolib, o‘zida namni ushlab turadi, o‘simlikning chanqab qolishining ham oldini oladi. O‘simlikning sulfat ammoniy tarkibidagi azotdan foydalanish darajasi yuqori bo‘ladi. Karbamid o‘g‘iti ham xuddi shunday,suvda qiyin erib, uzoq ta’sir qilish kuchiga ega Fosforli o‘g‘itlar esa, tuproq strukturasini yaxshilashda ancha yuqori samaradorlikka ega. Bu o‘g‘itlardan muttasil foydalanish xech qanday salbiy holatni keltirib chiqarmaydi. Balki tuproqqa uning zahirasi ko‘payib o‘zlashtirish darajasi ortadi. Shuning uchun rejalashtirilayotgan hosilni ortig‘i bilan olish uchun fosforli o‘g‘itlarning tuproq kartogrammasi asosida berilishi katta ahamiyatga egadir. Bundan tashqari,qishloq xo‘jaligida kaliyli o‘g‘itlar ham keng qo‘llaniladi. Kaliyli o‘g‘itlar o‘simlikni baquvvat qiladi ekinni hosil elementlari to‘kilishining oldini oladi yoki urug‘ning to‘q bo‘lishini ta’minlaydi, har xil kasalliklar 1kg shira, trips va o‘rgimchakkanaga qarshi chidamliligini oshiradi.

Mikroo‘g‘itlar ishlatilgan paytda o‘simlik noqulay iqlim sharoitlariga va tuproqning qurg‘oqchiligiga, shuningdek haroratning ko‘tarilishi yoki aksincha pasayishiga, zararkunanda va kasalliklarga nisbatan ancha chidamli bo‘lib qoladi. Olib borilgan kuzatishlarda aniqlanishicha, mikroo‘g‘itlar mumkin qadar tabaqalashtirilgan tartibda, ya’ni tuproq sharoiti, tuproq tarkibidagi oson o‘zlashtiriladigan mikroelement miqdoriga, o‘simlikning biologik xususiyatlari, oldingi ekinning organik va mineral o‘g‘itlar bilan qanchalik o‘g‘itlanganligiga qarab ishlatilishi kerak.

Mikroo‘g‘itlar sug‘oriladigan zonalarda ekinlarga kam mikdorda: borli Mikroo‘g‘itlar gektariga 1 kg, molibdenli Mikroo‘g‘itlar 0,5 — 1 kg, misli Mikroo‘g‘itlar 1—2 kg, ruxli Mikroo‘g‘itlar 2 kg, marganetsli Mikroo‘g‘itlar 4—6 kg ta’sir etuvchi modda hisobida solinadi. Mas, tuproqqa borli o‘g‘itlar solinganda 1 ga erdagi qand lavlagi hosili 20— 40 s, sebarga va beda urug‘i 0,5—1,0 s, zig‘ir urug‘i va tolasi 1—2 s, beda pichani hosili 5—7s; marganetsli o‘g‘itlar solinganda g‘alla, sabzavot hamda rezavor-mevali ekinlar hosili 10% oshadi. Mikroo‘g‘itlar tuproqqa ekishdan oldin solish, qo‘shimcha ozikdantirish (mikro-elementlarning 0,1—0,05% eritmasini purkash), urug‘likka ekishdan oldin ishlov berish (urug‘likni ularning 0,02—0,05% eritmalari bilan ho‘llash) usullarida ishlatiladi.

XULOSA

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki hosildorlikni oshishi o‘simliklar tomonidan oziqa moddalariga bo'lgan talabni oshiradi, shuning uchun har qanday ekinning hosildorligini qancha oshirish rejalashtirilsa, shuncha ko‘proq miqdorda o‘g‘it talab qilinadi. Lekin shuni ham e’tiborga olish kerakki, hosildorlik o‘g‘itning oshirilishi bilan ma’lum bir me’yor chegarasidagina mutanosiblikka ega.Chunki har bir qishloq xo'jalik ekini turi va navi o‘zida genetic mahkamlangan ichki oziqlanish me’yoridan ortiqcha o‘g‘itni o‘zlashtira olmaydi. Aksincha hosildorlik pasaya boshlaydi va berilgan o‘g‘itlar iqtisodiy jihatdan o'zini oqlamaydi.

REFERENCES

1. Kholliyev A E, Norboyeva U T, Boltayeva Z A, Adizova Kh.R 2020 Ecophysiological effects of water deficiency on cotton varieties //Journal of

2. Kholliyev A E, Norboyeva U T, Fayziyeva F F, Adizova Kh R The properties of cotton resistance and adaptability to drought stress//Journal of Critical Riviews. Vol 7, Issue 9.-pp. 244-26.Pharmaceutical Negative Results. Vol.13, Issue 4-2022.-rr. 958-961.

3.A.E.Kholliyev, U.T.Norboyeva, Kh.R.Adizova, F.A.Fayziyeva.Effekcts of mikroelements on Drought Resistance of Cotton Plant. //International Journal of Psychosocial Rehabilitation. Vol.24, Issue 02, 2021.-P.643-648. Ssopus.

4. A.E.Xolliev, U.T.Norboeva, Kh.R.Adizova. Methods of microelemens to increase salt resistance of corron. With proceedings of the internasional scientific and practical conference “specialized and multidisciplinary scientific researches” desemder 11,2020. Amsterdam.

5. Kh.R.Adizova, A.E.Kholliev, U.T.Norboeva. Rhysiological basis of the use of microelements in agricultural crops. International Conference on Developments in Education, Sciences and Humanities Hosted from Livorno, Italy https: econferencezone.org March 17th - 18th 2022.

6. H.R.Adizova. Physiological significance of microelements in plant life International multidisciplinary journal for research&development SJIF 2019:

5.222 2020: 5.552 2021: 5.637 2022:5.479 2023:6.563 2024: 7,805

eISSN:2394-6334 https:// www. ijmrd. in/ index.php/imjrd Volume 11, issue 03 (2024).

7. H.R.Adizova.Environmental preservation problem of the next generation takdiri of the future. ISSN: 2792-8268 Volume: 29, Apr-2024 http: // sjii. indexedresearch.org. Spanish Jornal of Innovation and Integriti.

8. H.R.Adizova, F.A.Fayziyeva Abiotic factors and scientific-practical significance of their study. ISSN: 2792-8268 Volume: 29, Apr-2024 http://sjii.indexedresearch.org. Spanish Jornal of Innovation and Integriti.

9.H.R.Adizova. The stability of biological diversity to anthropogenic. International journal of artificial intelligence (ISSN: 2692-5206) Volume 04, Issue 04, 2024. Published

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 1-son)

TABIIY FANLAR

NATURAL SCIENCES

UDK: 543:634.717

FRITILLARIA SEVERZOVII YER USTKI QISMIDAGI UMUMIY OQSIL MIQDORI TAXLILI.

Xo‘jayeva Nafisaxon Toshtemirovna
Qo‘qon davlat pedagogika instituti kimyo kafedrasi dotsenti
xo’jayeva_@mail.ru +998911386696
Xo‘jayev Vahobjon Umarovich
Qo‘qon davlat pedagogika instituti professori, k.f.d.
xujayev_030@mail.ru +998911418700
ORCID ID: 0009-0001-9922-3989
Abdug‘aniyev Baxtiyorjon Yormaxamatovich
O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo‘mitasi Bojxona instituti dotsenti k.f.d.(DSc)
abduganiyevbaxtiyor1970@gmail.com +998951772020
Muqimjonova Umidaxon Vahobxon qizi
Qo‘qon davlat pedagogika instituti kimyo kafedrasi dotsenti, PhD
muqimjonova_@mail.ru +998912037202
ORCID ID: 0009-0006-5061-4811

Annotatsiya: *Fritillaria sewerzowii* o‘simligi ildiz qismidan olingan kimyoviy birikmalarning qisqacha sharxi, avvalgi mualliflar tomonidan o‘simlik yer usti qismidan olingan alkaloidlar xamda Toshkent viloyati Angren tog‘larida joylashgan Ertosh qishlog‘i xududidan 2023-yil baxor faslida yig‘ilgan o‘simlik yer ustki qismining kimyoviy komponentlari, asosan o‘simlik organlaridagi umumiy oqsil miqdorini o‘rganish natijalari taxlili keltirilgan. Umumiy oqsil miqdorini aniqlashning Keldal usuli berilgan. Shuningdek *Fritillaria sewerzowii* o‘simligi a’zolaridagi umumiy oqsil miqdorini taqqoslash taxlili bayon etilgan.

Kalit so‘zlar*:* makro va mikro elementlari, aminokislotalar, vitaminlar, flavanoidlar, oqsillar va polisaxaridalar, alkaloidlar, Keldal usuli, Keldal kolbasi.

АНАЛИЗ КОЛИЧЕСТВЕННОГО СОДЕРЖАНИЯ ОБЩЕГО БЕЛКА НАДЗЕМНОЙ ЧАСТИ FRITILLARIA SEVERZOVII.

Аннотация: Краткий обзор химических соединений, полученных из корневой части растения Fritillaria sewerzowii, алкалоидов, полученных из надземной части растения предыдущими авторами, а также результаты изучения химических компонентов вышеперечисленных наземной части растения, собранной весной 2023 года из села Эрташ, расположенного в Ангренских горах Ташкентской области, представлен

преимущественно анализ содержания общего белка в органах растения. Приведен метод Кельдала для определения общего белка. Также описан сравнительный анализ содержания общего белка в представителях растения Fritillaria sewerzowii.

Ключевые слова: макро- и микроэлементы, аминокислоты, витамины, флавоноиды, белки и полисахариды, алкалоиды, метод Кельдала, колба Кельдал.

ANALYSIS OF QUANTITATIVE CONTENT OF TOTAL PROTEIN IN THE AERIAL PARTS OF FRITILLARIA SEVERZOVII.

Abstract: A brief review of chemical compounds obtained from the root part of the Fritillaria sewerzowii plant, alkaloids obtained from the above-ground part of the plant by previous authors, as well as the results of studying the chemical components of the above-mentioned. -above-ground part of the plant, collected in the spring of 2023 from the village of Ertash, located in the Angren Mountains of the Tashkent region, mainly presents an analysis of the total protein content in the plant organs. The Keldahl method for determining total protein is given. A comparative analysis of the total protein content in representatives of the Fritillaria sewerzowii plant is also described.

Key words: macro- and microelements, amino acids, vitamins, flavonoids, proteins and polysaccharides, alkaloids, Keldahl method, Keldahl flaskала.

KIRISH

Toshkent viloyati Angren tog‘larida joylashgan Ertosh qishlog‘i xududidan 2022-yil baxorida yig‘ilgan *Fritillaria* sewerzowii o‘simligi ildiz qismini kimyoviy komponentlarini (makro va mikro elementlari tarkibi, aminokislotalar, vitaminlar, flavanoidlar, oqsillar va polisaxaridalar va boshqalar) o‘rganish va taxlil qilish jarayonida olingan natijalar 10 dan ortiq ilmiy ishlarda yoritib borilgan [1-2]. Navbatda o‘z oldimizga o‘simlikning er ustki kismini turli a‘zolaridagi kimyoviy komponentlarini o‘rganishni maqsad qildik. Chunki o‘simlik yer ustki qisimini bizdan oldingi mualliflar alkaloidlar tarkibini mukammal o‘rganib taxlil qilishgan va 20 ga yaqin alkaloidlarni ajratib olishgan [3]. Ammo *Fritillaria* sewerzowii o‘simligi yer ustki qismi kimyoviy komponentlari o‘rganilmagan va taxlil qilinmagan. Shunday ekan o‘simlikni xalq tabobatida yoki tibbiyotda qo‘llashga tadbiq etish uchun uni to‘liq o‘rganib chiqib umumiy xulosalar chiqarish zarur bu tadqiqotning dolzarbligini ko‘rsatadi.

ADABIYOTLAR TAXLILI

Bugungi kunda farmatsevtika sohasida tabiiy xom ashyolardan tayyorlanadigan dori vositalaridan foydalanishga talab ortib bormoqda. Ular sintetik va sun’iy usullarda tayyorlanayotgan dori vositalaridan ko’ra inson organizmi uchun foydali ta’sirga ega bo’ladi. Bunday tabiiy xom ashyo sifatida dorivor o’simliklar tarkibidan ajratib olinayotgan oqsillar, aminokislotalar, vitaminlar, makro va mikroelementlar va boshqalar muhim rol o‘ynaydi. Oqsillar, ya’ni proteinlar odam organizmining sog’ligi, normal o’sishi va rivojlanishida muhim rol o’ynaydi. Oqsillar aminokislotalardan tuzilgan. Ular molekulasi tarkibida 20 ta aminokislota

bo’ladi. Ularning 10 tasi almashtirib bo’maydigan eng zarur (lizin, triptofan, gistidin, metionin, treonin, leytsin, izoleytsin, valin, tsistein, fenilalanin) aminokislotalardir. Ular organizmda boshqa moddalardan sintez qilinmaydi. Qolgan 10 tasi almashtirish mumkin bo’lgan aminokislotalardir. Aminokislotalardan tibbiyotda dori vositalari sifatida ham keng foydalanish mumkin. Aminokislotalardan lizin qon zardobidagi triglitseridlarni pasaytiradi. Lizin, prolin va C vitamini bilan birgalikda arteriyalarning tiqilib qolishiga olib keladigan lipoproteinlar hosil bo‘lishining oldini oladi.[4] Glutamin kislotasi oqsil va uglevodlar almashinuvida ishtirok etadi, oksidlanish jarayonlarini stimullaydi, miya hujayralarining nafasini ushlab turishda muhim ahamiyatga ega, markaziy nerv sistemasi kasalliklarini davolashda ham foydalaniladi [5]. Glitsin epileptik tutilishlarda yordamchi vosita sifatida samarali xususiyatga ega, markaziy asab tizimidagi qo‘zg‘alishlarni hamda uyquni normallashtiradi.

Aminokislotalar keng farmakologik ta‘sir spektriga ega bo’lganligi uchun organizmda oson hazm bo’ladi, shu bilan birga inson organizmi uchun havfsiz vositadir [6].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Fritillaria sewerzowii o‘simligi ildizining umumiy oqsil miqdori o‘rganish natijalari avvalroq chop etilgan [7]. O‘simlik yer ustki qismi a‘zolarida uchraydigan kimyoviy birikmalarni (makro va mikro elementlari tarkibi, aminokislotalar, vitaminlar, flavanoidlar va polisaxaridalar va boshqalar) taxlil natijalari asosida xam bir nechta ilmiy maqolalar chop etilgan [8]. Ushbu maqolamizda *Fritillaria* sewerzowii o‘simligi yer ustki qismining umumiy oqsillar miqdorini aniqlash natijalarini taxliliga to‘xtalib o‘tamiz. O‘simlik tarkibidagi umumiy oqsil miqdori aniqlashda Keldal usulidan foydalanilgan. Bu bo‘yicha azot miqdorini aniqlash orqali umumiy oqsil miqdori hisoblashdan iborat. Usulning mohiyati namunadagi organik moddalarni kontsentrlangan sulfat kislotasi yordamida gidroliz qilib (oqsil tarkibidagi amin guruhlarini) ammoniy sulfat tuzlarini hosil qilishdan iborat.



Gidroliz tugaganidan so‘ng hosil bo‘lgan ammoniy sulfat ammiakga aylantirish uchun natriy gidroksid ta‘sir ettirildi.



Neytrallanish natijada hosil bo‘lgan ammiak yoki ammoniy gidroksid sulfat kislota eritmasiga yuttiriladi.

Qolgan kislota ishqor eritmasi bilan titrlanadi. Hisoblab topilgan ammiak miqdoridan azot miqdori hisoblanadi. O‘rganilayotgan namunaning o‘rtacha maydalangan bir jinsli namunasidan probirkaga tahlil qilish uchun aniq namuna tortiladi, xatolik darajasi 0.1% dan oshmasligi kerak. Namuna miqdoriy jihatdan Keldal kolbasida o‘tkaziladi. Keyinchalik tajriba davomi ko‘rsatmaga muvofiq amalga oshiriladi [9].

Olingan natijalarni qayta ishlash: tahlil qilinayotgan namunadagi azotning (X) massa ulushi ammiakni suyultirilgan sulfat kislotadan o‘tkazib qolgan miqdorni titrlashdan keyingi hajm orqali namuna massasiga nisbatan foizda formula bo‘yicha hisoblab topiladi.

$$Xq\frac{(\mathbf{V_1}-\mathbf{V_0})*\mathbf{K}*\mathbf{0.0014}}{\boldsymbol{m}}*\mathbf{100\%}$$

V_0-namuna tajribasida ortib qolgan 0.1 mol/l sulfat kislota eritmasini titrlash uchun sarflangan 0.1mol/l natriy gidroksid eritmasining hajmi, ml .

NATIJA VA MUHOKAMA

Usulning moxiyati azotni Keldal bo’yicha aniqlanib, uni oqsilga qayta xisoblashdan iborat. Fritillaria sewerzowii o‘simligi yer ustki qismlarini analiz natijalaridan quyidagi umumiy oqsillar miqdori aniqlandi.

1- jadval

Fritillaria sewerzowii o‘simligi yer ustki qismini umumiy oqsil miqdori.

№	Namuna	Umumiy oqsillar miqdori %
1	Bargi	8,681
2	Poyasi	3,044
3	Guli	13,930
4	Ildizi	7,782

Fritillaria sewerzowii o‘simligi yer ustki qismini umumiy oqsil miqdori taxlili shuni ko‘rsatadiki o‘simlik poyasida nisbatan oqsil kamroq (3,044%) bo‘lsa, bargida (8,681%) ko‘prorq, ayniqsa gulida (13,930%) yanada ko‘proqligini ko‘rish mumkin. Ayni o‘simlik yer ustki qismi yig‘ilgan vaqtda olingan ildizdagi (7,782%) namunada umumiy oqsil miqdori gulidagiga nisbatan kamroqdir. Ammo Angren tog‘larining boshqa joyida o‘suvchi Fritillaria Severzovii o‘simligining ildizida (15%) oqsil miqdori ko‘proq ekanligi aniqlangan. O‘simlik terilgan vaqtda xam bir oz farqi bo‘lgan. Bu natijalar shuni isbotlaydiki o‘simlikni o‘sish joyi, iqlimi va uni yig‘ib olish vaqti kimyoviy tarkibni o‘zgarishga olib keladi.

XULOSA

Toshkent viloyati Angren tog‘larida joylashgan Ertosh qishlog‘i xududidan yig‘ilgan *Fritillaria* sewerzowii o’simligining yer ustki va yer ostki qismlarining oqsillar miqdori Keldal usulida tadqiq etilib, gulining tarkibi oqsillarga boy ekanligi aniqlandi. Oqsillar miqdori poya, ildiz, barg va gul tizimida ortib borishi tahlil qilindi. Bu esa Respublikamizda yetishtirilayotgan *Fritillaria* sewerzowii o’simligining guli va bargi turli xildagi tabiiy oqsillarga boy bo’lgan tabiiy biologik faol qo’shimchalar ishlab chiqarishda foydalanish imkoniyatini beradi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. N.T. Xo’jayeva, V.U.Xo’jayev, Qo’rg’oshin gul Korolkovia sewerzowii o’simligi tarkibidagi flavonoidlar va vitaminlar taxlili. Tovarlar kimyosi xamda xalq tabobati muommolari va istiqbollari Tom 2 № 1 2023 288-299 betlar.

2. N.T. Xo’jayeva, V.U.Xo’jayev X.V.Umarxonov Korolkovia sewerzowii ildizidagi suvda eriydigan vitaminlar tarkibi //Ilm-fan muammolari tadqiqot-chilar talqinida Xalqaro ilmiy kanferensiya. Qo`qon -2023. 20-may. 41-44 betlar.

3. Самиков К., Шакиров Р.Ш., Абдуллаев Д.У., Юнусов С.Ю. Алкалоиды Korolkowia sewerzowii. // Химия природных соединений., 1976 г., №2., Стр. 269-270.

4. Ivanov V., Roomi M.W., Kalinovsky T., Niedzwiecki A., Rath M. (2007). Anti-atherogenic effects of a mixture of ascorbic acid, lysine, proline, arginine, cysteine, and green tea phenolics in human aortic smooth muscle cells (англ.) // J. Cardiovasc. Pharmacol.: journal.— March (vol. 49, №3). — P. 140—145.

5. Шуляковская Т.А. (2007). Динамика содержания аминокислот в почках и листьях Betula pubescens и B. pendula (Betulaceae) в течение вегетационного периода / Т.А. Шуляковская [и др.] // Растительные ресурсы.— Т. 43, вып. 4. — С. 87-94.

6. .R.Asqarov, Yu.T.Isayev, A.G.Maxsumov, Sh.M.Qirg’izov (2022). Organik kimyo T.: G.Gulom nomidagi nashriyot-manbaa ijodiy uyi. -752b.

7. N.T. Xo’jayeva. Korolkovia sewerzowii o’simligi ildizidagi oqsil miqdorini aniqlash // Tovarlar kimyosi xamda xalq tabobati muommolari va istiqbollari X-xalqaro ilmiy va amaliy konferensiya. Andijon-2023 yil. 14-15 sentyabr, 189-192 betlar.

8. Методы контроля. Химические факторы. Руководство по методам контроля качества и безопасности биологически активных добавок к пище. Руководство Р 4.1.1672-03. М.: Федеральный центр госсанэпиднадзора Минздрава России, 2004.

9. H.T. Xo’jayeva Korolkovia sewerzowi o’simligi ildizidagi oqsil miqdorini aniqlash //Tovarlar kimyosi xamda xalq tabobati muommolari va istiqbollari X - xalqaro ilmiy va amaliy konferensiya. Andijon, 2023y. 14-15 sentyabr, 189-192 betlar.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 1-son)

TABIIY FANLAR

NATURAL SCIENCES

UDK: 543.054:634.717

ALHAGI SPARSIFOLIA SHAP O‘SIMLIGI TARKIBIDAGI MAKRO VA MIKROELEMENTLARNING QIYOSIY TAHLILI

Muqimjonova Umidaxon Vahobxon qizi
Qo‘qon davlat pedagogika instituti dotsenti, PhD
muqimjonovaumidaxon@mail.ru +998912037202
ORCID ID: 0009-0006-5061-4811
Abduraxmonova Noilaxon Murotali qizi
Qo‘qon davlat pedagogika instituti magistranti
noilaxonyigitaliyeva444@mail.com +998908513238
ORCID ID: 0009-0002-8808-2807
Islomova Durdona Isroiljon qizi
Qo‘qon davlat pedagogika instituti talabasi,
durdona1421@icloud.com +998950411421
ORCID ID: 0009-0004-3884-1478

Annotatsiya Ushbu maqolada Farg‘ona viloyati Yozyovon tumani Markaziy Farg‘ona qishlog‘ida o‘sadigan alhagi sparsifolia shap (yantoq) o‘simligining ildizi, bargi va guli tarkibidagi makro va mikroelementlarning sifat va miqdor tarkibi induktiv bog‘langan plazmali optik emission spektrometrik usulda tadqiq qilish natijalari keltirilgan. Tahlil natijalariga ko‘ra, namunalar tarkibida 30 xil element aniqlangan bo‘lib, namunalar tarkibi hayot uchun zaruriy makro va mikroelementlarga boyligi, ulardan xalq tabobatida foydalanib, inson organizmini minerallar tanqisligidan himoyalash mumkin ekanligini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: Alhagi sparsifolia shap, makroelement, mikroelement, induktiv bog‘langan plazmali optik emission spektrometr.

СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ МАКРО- И МИКРОЭЛЕМЕНТОВ В РАСТЕНИИ ALHAGI SPARSIFOLIA SHAP

Аннотация. В статье представлены результаты оптико-эмиссионных спектрометрических исследований с индуктивно-связанной плазмой качественного и количественного состава макро- и микроэлементов в корне, листе и цветке алхаги спарсифолиальной, произрастающей в селе Центральная Фергана Езёвонского района Ферганской области.. По результатам анализа в пробах выявлено 30 различных элементов, что свидетельствует о том, что состав проб богат макро- и микроэлементами,

необходимыми для жизни, и с их помощью можно защитить организм человека от минерального дефицита. в народной медицине.

Ключевые слова: Alhagi sparsifolia shap, макроэлемент, микроэлемент, индуктивно связанный плазменный оптический эмиссионный спектрометр.

COMPARATIVE ANALYSIS OF MACRO- AND MICROELEMENTS CONTAINED IN THE ALHAGI SPARSIFOLIA SHAP PLANT

Annotation. This article presents the results of inductively coupled plasma optical emission spectrometric research on the qualitative and quantitative composition of macro and microelements in the root, leaf and flower of alhagi sparsifolia, which grows in the village of Central Fergana, Yozyovon district, Fergana region. According to the results of the analysis, 30 different elements were identified in the samples, which shows that the composition of the samples is rich in macro and microelements necessary for life, and it is possible to protect the human body from mineral deficiency by using them in folk medicine.

Keywords: Alhagi sparsifolia shap, macronutrient, microelement, optical emission spectroscopy with inductively coupled plasma.

KIRISH

Alhagi sparsifolia shap (yantoq) — dukkakdoshlar oilasiga mansub ko‘p yillik begona o‘t. Yantoq (Alhagi) arab tilidan kelib chiqqan bo‘lib, ziyoratga boruvchi (xaj) degan ma’noni bildiradi. Makka yo‘lida oylab-yillab mashaqqatli yo‘l bosib o‘tgan ziyoratchilar yo‘l bo‘ylarida ko‘plab uchrab turadigan yantoq o‘simligidan hojatlari uchun foydalanishgan (mannasi, suvi, xashagi va ozuqasi) va uni Ollohning inomi deyishgan[1].

O‘zbekistonda yantoqning 4 turi o‘sadi. Ular bir-biridan barglarini shakli, tikanlarining katta-kichikligi, qattiqligi, yo‘nalishi, gulining rangi va mevasining ko‘rinishi bilan farqlanadi[2]. Ular Soxta yantoq (Alhagi pseudalhagi (MB) Desv.), Kulrang yantoq (Alhagi canescens Shap.), Siyrak barg yantoq (Alhagi sparsifolia Shap.), Shakar yantoq (Alhagi persarum Boiss et Buhse.) kabi turlaridir.

ADABIYOTLAR TAXLILI

Xalq tabobatida Yantoq turlari yer ustki qismining damlamasini Ibn Sino terlatuvchi, yo‘talga va ich ketishiga qarshi vosita sifatida hamda ko‘krak og‘rig‘ida ishlatgan. Xalq tabobatida bu damlama hozirgi kunda ham bavosil,yaralar, dizenteriya, tomoq og‘riganda, tonzillit, stomatit, yiringli otit, me'-da-ichak, bachadon va boshqa kasalliklarini davolashda hamda o‘t hamda siydik haydovchi, terlatuvchi va ichni yumshatuvchi vosita sifatida ishlatiladi.[3] Soxta yantoq yer ustki qismining damlamasi (qaynatmasi ham) Sog‘liqni saqlash vazirligi tomonidan tibbiyot amaliyotida yallig‘lanishga va spazmga qarshi ta’sir qiluvchi vosita sifatida respublikamizda qo‘llashga ruxsat berilgan. Yantoq o‘simligining ildizidan tayyorlangan qaynatma ichdan qon ketishini to‘xtatishda, bakteriostatik, siydik va o‘t haydaydigan, jarohatlar bitishida yordam beradi.

Alhagi sparsifolia Shap— uyg‘ur xalqida shamollash, revmatik og‘riqlar, diareya, oshqozon og‘rig‘ini, bosh og‘rig‘i va tish og‘rig‘i davolash uchun tibbiyot tizimida, o‘simlik nektari esa muhim mahalliy manba bo‘lishdan tashqari va yuqori sifatli yem-xashak o‘tlari va ekologiyani yaxshilashda hal qiluvchi ro‘l o‘ynaydi. Hozirgi vaqtda 178 ga yaqin kimyoviy tarkibiy qismlar aniqlangan.

Alhagi sparsifolia shap o‘simligi flavonoidlar, alkaloidlar, fenolik kislotalar va 19 hil polisaxaridlarni o‘z ichiga oladi. Farmakologik tadqiqotlar Alhagi sparsifolia antioksidant, anti-neyroinflamatuar, gepatoprotektiv, renoprotektiv ta’sirga ega ekanligini tasdiqlaydi.. Toksikologik testlar va sifat nazorati bo‘yicha tadqiqotlar xavfsizlik va immunitetni tartibga solish xususiyatlarini umumlashtiradi.[4]

Xalq tabobatida muhim davolash vositalaridan biri hisoblanadi. Ularning poyalari ham o‘ziga xos tarkibga ega bo‘lganligi sababli chorva ozuqasi sifatida foydalaniladi.[5] O‘simlik guli va undan ajralgan mannasi (asali) immunitetni oshirish, o‘smaga qarshi ta’sir va antioksigenatsiya kabi ko‘plab biologik faollikka ega. Asalning shifobaxsh xususiyatlarini asal o‘simlikining barcha to‘qimalariga boy bo‘lgan flavonoidlar, katexinlar, alkaloidlar, kumarinlar, organik kislotalar beradi, nektarda bu birikmalarning kvintessensiyasi mavjud. Alhagi asali aniq kuchli mikroblarga qarshi ta’sirga ega.

Adabiyotlar taxlili alhagi sparsifolia shap o‘simligining elementar tarkibi kompleks holatda o‘rganilmaganligini ko‘rsatdi.

Shuning uchun ham tadqiqotimizning maqsadi Respublikamiz hududidagi Alhagi sparsifolia shap o‘simligi yer ustki va yer ostki qismlarining elementlar tarkibini induktiv bog‘langan plazmali optik emission spektrometrik usulda aniqlash va ularning qiyosiy taxlilini o‘tkazishdan iborat.

MATERIALLAR VA TADQIQOT USULLARI

Alhagi sparsafolia shap o‘simligining ildiz, barg va gullari namunalari 2024 yil avgust oyida Farg‘ona viloyati Yozyovon tumani Markaziy Farg‘ona qishlog‘idan terib olingan.

Namunani analizga tayyorlash uchun 0,1000 g aniq tortma teflon avtoklavlarga miqdoriy o‘tkazildi. Uning ustiga 3 ml tozalangan kontsentrlangan nitrat kislotasidan (HNO_3) va tozalangan vodorod peroksididan (H_2O_2) 2 ml quyildi. Avtoklav og‘zi berkitilib, mikroto‘lqinli parchalagich Berghof (Speed WaXpert mikroto‘lqinli pechkaga) joylandi [9]. Bunda qurilma interfeysida ma’lum dastur asosida parchalashga buyruq berildi. Ushbu usulda ko‘rsatilgan avtoklavlar soni va ularning ichidagi harorat hamda bosimni qurilma avtomatik tarzda boshqarib nazorat qilib turadi. Jarayon to‘g‘risidagi ma’lumotlar suyuq-kristallik displey orqali nazorat qilib borildi. Bunda avtoklavlar ichidagi minimal harorat T (50^0C) va maksimal harorat T (230^0C), bosim max 40 bo‘lgan sharoitda 35-45 min davomida nam parchalanish sharoitida olib borildi[10].

Avtoklavlar xona sharoitigacha sovutildi va uning ichidagi suyuqlik aralashmasi hajmi 100 ml bo‘lgan o‘lchagich kolbaga o‘tkazildi. Bunda avtoklavlar 2-3 marta chayib solindi va so‘ngra kolba chizig‘igacha bidistillangan suv bilan to‘ldirildi. Eritma yaxshilab aralashtirilib

avtonamuna probirkasiga solindi va avtonamunalar raqamlanib ma’lum joyga qo‘yildi. Dasturda har bitta probirka joylashgan o‘rni, tortib olingan massa va suyultirish koeffitsienti kiritildi. Mineralizatsiya qilingan eritmani Plasma Quant PQ 9100 (ICP-OES.ANALYTIK JENA) induktiv bog‘langan plazmali optik emission spektrometrida, namunalarning tarkibidagi makro va mikroelementlari, og‘ir metall tuzlari, nodir metallar miqdori kiritilgan standart namunaga nisbatan miqdoriy jihatdan tahlil qildi. Tahlil natijalari jarayon yakunida namunaning massasi va suyultirish qiymatlari asosida olingan natijalarni qayta hisoblab aniqlik darajasi va undan chetlanish qiymatlarini avtomatik tarzda hisoblab berdi.

NATIJA VA MUHOKAMA

Alhagi sparsafolia shap tarkibidagi elementlarni induktiv bog‘langan plazmali optik emission spektrometrik usulda tadqiq etib quyidagi natijalar olindi (1-jadval).

1-jadval

Alhagi sparsafolia shap o‘simligi elementar tarkibining miqdori (mg/g)

№	Elementlar	Bargi	Guli	Ildizi
1	Li	0,65	0,65	0,35
2	Al	0,521	0,672	0,722
3	Mo	0,018	0,029	0,010
4	Te	0	0	0
5	Se	0,002	0,004	0,001
6	Sb	0	0	0
7	Sn	0	0	0
8	Sr	0,185	0,227	0,165
9	K	63,258	32.157	56,543
10	Ba	0,144	0,126	0,189
11	Cr	0,028	0,039	0,045
12	Mn	0,152	0,241	0,230
13	B	0,085	0,052	0,098
14	Ca	98,521	83,602	100,145
15	As	0,001	0,002	0,001
16	Fe	0,897	1,141	1,711
17	Na	3,899	2,767	3,989
18	Pb	0	0	0
19	Cd	0,001	0	0,003
20	V	0,012	0,009	0,014
21	Zn	0,079	0,107	0,092
22	Cu	0,029	0,021	0,034
23	Ag	0	0	0
24	Hg	0	0	0
25	Co	0,007	0,003	0,009
26	Ni	0,005	0,004	0,007
27	P	2,584	1,852	2,786
28	Si	0,896	1,117	0,987

29	S	0,085	0,041	0,090
30	Mg	0	0	0

1-jadvaldagi natijalarga ko‘ra, Alhagi sparsifolia shap o‘simligi yer ustki va yer ostki qatlamlaridagi 30 xil elementlar miqdori tahlil qilindi. Unda makroelementlar miqdori bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkich kalsiy elementiga tegishli bo‘lib, bargida 98,521 mg/g, gulida 83,602mg/g, ildizida 100,145 mg/g ni tashkil etgan. Makroelementlardan kaliy va natriy ham tadqiq etilgan. Kaliy miqdori barg (63,258mg/g) va ildiz (56,543mg/g) da guli (32,157mg/g) ga nisbatan ko‘proq. Natriy miqdori ildizda (3,989 mg/g) yer ustki qismdagilarga nisbatan ko‘p. Namunalar tarkibida makroelementlar miqdori natriy, kaliy, kalsiy ketma-ketligida ortib borgan.

Hayot uchun zaruriy bo‘lgan mikroelementlardan temir, mis, ruh, alyuminiy va marganes kabi elementlar alhagi sparsifolia shap yer ustki va ostki qismlarida mavjud bo‘lib, ular organizmni mikroelementlar tanqisligidan himoya qila oladi. Shuningdek, kobalt, xrom, bariy, stronsiy va nikel kabi mikroelementlar ham namunalarda mavjud.

Alhagi sparsafolia shap ildizi tarkibida temir (1,711 mg/g) va alyuminiy (0,722mg/kg) miqdor jihatdan eng yuqori qiymatga ega. Ularning miqdori bargi tarkibida esa ildizga nisbatan kichikroq, guliga nisbatan ko‘proq. Stronsiyning miqdori esa barg va gul tarkibida ildizga nisbatan ko‘p.

Namunalar tarkibida tellur, qalay, surma, kumush, simob, qo‘rg‘oshin va magniy kabi mikroelementlar uchramadi.

Mishyak esa ildiz (0.001mg/g), barg (0.001mg/g) va gul (0.002mg/g) tarkibida mavjud.

XULOSA

Farg‘ona viloyati Yozyovon tumani Markaziy Farg‘ona qishlog‘idan terilgan Alhagi sparsifolia shap o‘simligining ildizi, bargi va guli tarkibidagi makro va mikroelementlar induktiv bog‘langan plazmali optik emission spektromentrik usulda birinchi marta to‘liq tadqiq etildi va qiyosiy tahlili o‘tkazildi. Natijada, Alhagi sparsifolia shap o‘simligining guli va ildizi boshqa (barg) organlariga nisbatan makro va mikroelementlarga boy ekanligi aniqlandi. Ularning kalsiy, kaliy, natriy va fosfor kabi hayot uchun zaruriy elementlarga boyligi inson organizmini minerallar tanqisligidan himoya qila oladi, shuningdek xalq tabobatida yanada keng foydalanish imkoniyatini beradi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Сокольский С.В. Наказание для грешника и отрада для верблюдов//растения из садов Священного Корана. – М.: САД, 2008

2. Халматов Х.Х., Усмонхўжаев А.Х., Махсумов М.И., Ахмедов Ў.А. Атлас лекарственных растений Узбекистана. -Т. «Узбекистан» 2015. С .62.

3. Xolmatov H.X., Axmedov U.A. Farmakognoziya: Tibbiyot oliy o‘quv yurtlari talabalari uchun darslik.- Toshkent: Ibn Sino nomidagi nashriyot-matbaa birlashmasi, 1997.- 403 b.

4. Aili, A., Jiang, Z. H., Kuerbanjiang, M., Mikeremu, S., and Zhang, X. Y. (2018). Protective Effect of Alhagi Sparsifolia against Acetaminophen-Induced Liver Injury in Mice. Trop. J. Pharm. Res. 17 (4), 641. doi:10.4314/tjpr.v17i4.11

5. V.Muqimjonova, M.Ю.Исақов, H.T.Хўжаева *vigna sinensis, phaselous ayreus, arachhis hypogaea* o‘simliklar donlari va poyalarining organik tarkibi. Товарлар кимёси ва халқ табобати журнали Андижон, 2022 №2.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 1-son)

TABIIY FANLAR

NATURAL SCIENCES

BIOETIKA FANI VA UNING TIBBIYOTDAGI O‘RNI

Inagamova D. R., Salimova M. R
Prof v.b PhD. Nizomiy nomidagi TDPU
Katta o'qutuvchi. Toshkent Tibbiyot Akademiyasi

Annotatsiya Ushbu maqolada bioetika fanining mohiyati, uning asosiy tamoyillari va tibbiyotdagi ahamiyati haqida fikr yuritiladi. Bioetikaning tibbiy amaliyotda bemor huquqlarini himoya qilish, adolatni ta'minlash va axloqiy qadriyatlarni shakllantirishdagi o‘rni yoritiladi. Shuningdek, genetik tadqiqotlar, evutanaziya, organ transplantatsiyasi kabi masalalarda bioetikaning dolzarbligi ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: bioetika, tibbiyot, axloqiy tamoyillar, bemor huquqlari, genetik tadqiqotlar, evutanaziya, organ transplantatsiyasi.

НАУКА БИОЭТИКА И ЕЕ МЕСТО В МЕДИЦИНЕ

Аннотация В данной статье рассматриваются сущность биоэтики, её основные принципы и значение в медицине. Освещается роль биоэтики в защите прав пациентов, обеспечении справедливости и формировании этических ценностей в медицинской практике. Также обсуждается актуальность биоэтики в таких вопросах, как генетические исследования, эвтаназия и трансплантация органов.

Ключевые слова: биоэтика, медицина, этические принципы, права пациентов, генетические исследования, эвтаназия, трансплантация органов

THE SCIENCE OF BIOETHICS AND ITS PLACE IN MEDICINE

Abstract This article examines the essence of bioethics, its fundamental principles, and its significance in medicine. The role of bioethics in protecting patients' rights, ensuring justice, and fostering ethical values in medical practice is highlighted. The relevance of bioethics in issues such as genetic research, euthanasia, and organ transplantation is also discussed.

Keywords: bioethics, medicine, ethical principles, patient rights, genetic research, euthanasia, organ transplantation

KIRISH

Bugungi kunda tibbiyot sohasi rivojlanishi bilan bir qatorda inson huquqlarini hurmat qilish, axloqiy qadriyatlarni saqlash va tibbiy amaliyotda axloqiy-ijtimoiy masalalarga e'tibor qaratish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bioetika fani ushbu masalalarni tadqiq qilish, tibbiyot

va biologiya sohasida paydo bo‘ladigan murakkab axloqiy muammolarni hal qilishga qaratilgan.

ADABIYOTLAR SHARHI

Bugungi kunda butun dunyoda hayotda, jamiyatning turli sohalarida bioaxloq qoidalariga amal qilish bo‘yicha bahslar ketmoqda. Tibbiy bioetika (lot. bioethika, grekchada bioethika- axloq)- axloqiy meyorlar va tibbiy xodimlarning kasbiy majburiyatlarini bajarishda o‘zini tutish tamoyillari to‘plamidir [1].

Ilk marotaba bioetika tushunchasini 1927 yili Fris Yar tilga olgan bo‘lsa, 1969 yili amerikalik onkolog va biokimyogar V.Potter uni muomalaga kiritdi. Van Rensseler Potter o‘zining “Bioetika – kelajakka ko‘prik” nomli asarida “Yashab qolish ilmi nafaqat oddiy fan sifatida o‘rganilishi, balki o‘zida biologik bilim va umuminsoniy qadriyatlarni birlashtirgan yangi donolik bo‘lishi lozim. Shu sababli mazkur yo‘nalishni bioetika, deb atashni taklif etaman”, - degan [2]. 1999 yili Kosto-Rikada bioetika masalalariga bag‘ishlangan anjumanda V.Potter nutq so‘zlar ekan, “Men barchangizdan bioaxloqni mas’uliyat, kompetentlik talab qiluvchi hamda barcha madaniyatlarni o‘zida mujassam etgan va gumanizmni targ‘ib etayotgan yangi etika ta’limoti sifatida qabul qilishingizni so‘rardim”, dedi.

Bioetika quyidagi sohalarni o‘z ichiga oladi [3]:

- Tibbiy bioetika: Tibbiyot amaliyotidagi axloqiy muammolarni hal qilish bilan shug‘ullanadi.
- Ekologik bioetika: Atrof-muhit va inson munosabatlarini axloqiy jihatdan baholashni o‘rganadi.
- Genetik bioetika: Genom muhandisligi va genetik manipulyatsiyalarning axloqiy ta'sirini tahlil qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Aytish joizki bioetika masalalarini faqatgina shifokorlargina o‘rganmay, hozirda ekologlar, biologlar, faylasuflar, dinshunoslar, psixologlar, sotsiologlar, huquqshunoslar, siyosatchilar va boshqalar ham mavjud bioetik muammolarni hal etishda faol qatnashishmoqda. Demak bioetika fanlararo fenomen bo‘lib, tibbiyotning jadal rivoji insoniyat oldida zudlik bilan yechilishi lozim bo‘lgan muammolarni keltirib chiqarmoqda. Bu esa barcha kasbdagi odamlarni birlashishga chaqirayotir [4].

Hozirgi vaqtda insonlar va bemorlarga malakali tibbiy yordam darajasi doimo o‘sib bormoqda, davolash va diagnostika bo‘yicha eng yangi texnologiyalar qo‘llanilmoqda. Biroq, tibbiyotning ushbu soxadagi so‘ssiz taraqqiyoti fonida ziddiyatli vaziyatlar va muammolar ko‘payishi ham kuzatilmoqda. Shu sababli, inson munosabatlarining ushbu sohasini tahlil qilish, asosiy ziddiyatlarni va mumkin bo‘lgan yo‘llarni aniqlash va ularni yengib o‘tish zarur.

O‘zaro ziddiyatlar juda keng tarqalgan, ular ijtimoiy hayotning barcha darajalarida va barcha sohalarida ro‘y beradi. Bu tomonlarning ochiq qarama- qarshiligiga asoslangan ijtimoiy ta’sir o‘tkazish turlaridan biri bo‘lib, u o‘zini turli shakllarida namoyon qilishi mumkin.

Ziddiyatlar va mojarolarning mohiyati va jamiyatdagi roli to‘g‘risida turli xil talqinlar mavjud, ularning sabablarini aniqlashda turli xil yondoshuvlar aniqlangan. Mojarolarnnig asosiy sabablari moddiy resurs, quvvat kuchlari, qiymat yo‘nalishllari bo‘lishi mumkin. Konflikt sub’ektlari va ishtirokchilari alohida odamlar, turli xil ijtimoiy guruhlar va tashkilotlardir. Ziddiyatlarni o‘ziga xos tuzilmalari, rivojlanish mantiqi, bosqichlari bor, ularni hal qilishning turli usullari ishlab chiqilgan.

Sog‘liqni saqlash sohasida ziddiyatlar umumiy ko‘rinishga va o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Ularni aniqlash va tahlil qilish ushbu ishning maqsadini tashkil qildi. Bu shunchaki nazariy o‘rganish bo‘lmasdan, ayni paytda amaliy ahamiyatga ham ega. Bu birinchidan, imkon qadar nizolardan qochish, agar ular sodir bo‘lsa, ushbu xolatda o‘zini tutish, ularni qanday hal qilishni bilishni, ikkinchidan nizoning ijobiy funksiyasini faollashtirishdan iborat.

Bu o‘rinda juda ko‘plab muammolar xozirgi kunda to‘planib qolgan [5].

Tibbiyotdagi ziddiyat va muammolar turli xil va turli darajalarda bo‘lishi mumkin: Ushbu muammolar:

1) “Sog‘liqni saqlash tizimi-jamiyat”;
2) “Sog‘liqni saqlash boshqarmasi – tibbiyot xodimlari”;
3) “Shifokor-bemor”;
4) “Shifokor - bemor qarindoshlari”;
5) “Shifokor-shifokor”;
6) “Bemor-bemor” va boshqalar.

Sog‘liqni saqlash darajasida ziddiyatlarni kelib chiqishi mumkin bo‘lgan asosiy qarama-karshiliklar sog‘liqni saqlashni rivojlantirishning yaxlit va izchil konsepsiyasini yo‘qligi, sog‘liqni saqlash tizimini yetarli darajada moliyalashtirish va moddiy texnika ta’minotidir. Xozirgi “Pandemiya” davrida bu ziddiyat yaqqol ko‘zga tashlanib qoldi. Albatta Davlatimiz bu borada yetarli darajada ishlarni olib bormoqda. Xozirgacha kasalxonalarni ta’minotiga e’tibor panja orasidan qaralgan edi. Bu xolatlarni ham o‘rganilib, tegishli amallar bajarilmoqda. Yuqoridagi ziddiyatlarni ko‘pchilligi dori-darmonlarni yetishmasligi, ayrim uchastka kasalxonalarini yopilishi, shifokorlarni oylik maoshlarini pastligi tufayli ularini qo‘shimcha daromad izlashga majbur bo‘lishi natijasida, ish sifatini pasayishi va “Shifokor-bemor” munosabati bo‘yicha xizmatlar sifatidan noroziligini keltirib chiqaradi. Ushbu misol bir darajadagi nizoni qanday qilib ikkinchi darajaga o‘tishini ko‘rsatadi [6].

Tibbiyot xodimlari professional faoliyatlari davomida ko‘proq “Shifokor-bemor”, “Shifokor-shifokor” kabi ziddiyat va muammolarga duch keladi. Ular fikrlar, qarashlar, manfaatlar va kutishlar to‘qnashuviga asoslanadi. Masalan “Shifokor-bemor” majburiyatlarini sifatsiz bajarilishi natijasida yuzaga kelishi mumkin.

Hozirgi kunda sir emas tibbiyot xodimlariga nisbatan taziyqlar bo‘lib turibdi, buning natijasida ayrim shifokorlar jaroxatlar ham olmoqda [6].

Bundan tashqari tibbiyot xodimlariga nisbatan ishonchsizlik ham paydo bo‘lmoqda.

Tibbiyot xodimi o‘z ishiga vijdonan yondoshuvi binday ziddiyatlarni oldini olishi mumkin. Bunday ziddiyatlar shifokorni bilimsizligi tufayli ham kelib chiqishi mumkin. Bundan tashqari o‘z vaqtida bemordan xabar olmaslik, noto‘g‘ri diagnoz qo‘yish, noto‘g‘ri davolash kabilar juda qalis xolatlarni keltirib chiqarishi mumkin. Bunday munosabatlar salbiy his tuyg‘ular, norozilik, dushmanlik bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Albatta, bunday reaksiya vaziyatni va mojaroni hal qilishni murakkablashtiradi, chunki bu holda ziddiyat o‘z-o‘zi oqlashdir.

Bemorlarning ziddiyatli xatti-xarakatlariga psixologik xususiyatlardan tashqari yoshi, ma’lumoti, notinch shaxsiy xayoti kabi ijtimoiy omillar ham ta’sir qiladi. Shunday qilib bemorlarning daromadlarining past darajasi pullik tibbiy yordam turlarini olish va sifatli dorilar bilan davolanish imkoniyatlarini cheklaydi.

Shifokor va bemor o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik muammosi sifatida qarama-qarshiliklar tobora ko‘proq sog‘liqni saqlash tizimi diqqat markazida bo‘lib kelmoqda. Bu nafaqat tibbiy yordamning sifati tibbiyot xodimlarirning yetarlicha e’tibor bermasligi yoki sog‘liqni saqlash tizimidagi boshqa kamchiliklar bilan bog‘liq. Bu ko‘p jixatdan axolining ko‘rsatilayotgan tibbiy xizmat sifatiga bo‘lgan talabining o‘sishi va bunda shifokorning roli bilan bog‘liq. Bularning barchasi zamonaviy jamiyatda sog‘liqni saqlash muassalari rolining o‘zgarishi bilan birga, shifokor va bemor o‘rtasidagi munosabatlar sifat jixatidan yangi bosqichga ko‘tariladi.

NATIJALAR

Shunday qilib, sog‘liqni saqlash soxasidagi ziddiyatlar o‘zini makro- va mikro- darajalarda shu jumladan shifokor va bemorning shaxslararo tuzilishini namoyon qilishi mumkin. Tibbiyot ilmi va sog‘liqni saqlash tizimini rivojlanishi bilan ushbu soxadagi odamlar o‘rtasidagi munosabatlar yanada murakkablashadi. Ular xal qilishini talab qiladigan yangi muammolar va qarama-qarshiliklar paydo bo‘ladi. Faqat shu asosda yanada rivojlanish va tibbiyotni takomillashishiga olib keladi.

Tibbiyotda bioetika quyidagi muhim masalalarni hal qilishda muhim rol o‘ynaydi:

1- Organ transplantatsiyasi: Donorlik va transplantatsiya jarayonidagi axloqiy masalalar.

2- Genetik tadqiqotlar: DNK manipulyatsiyasi va klonlashning axloqiy chegaralarini belgilash.

3- Evutanaziya: Hayotni sun'iy ravishda uzaytirish yoki o‘limni tezlashtirish masalalariga axloqiy yondashuv.

4- Tibbiy eksperimentlar: Bemorlarda o‘tkaziladigan tadqiqotlarning axloqiy qoidalari.

5- Covid-19 pandemiyasi tajribasi: Vaksinalarni taqsimlashda adolat tamoyilining ahamiyati.

XULOSA VA MUNOZARA

Bioetika insoniyatning kelajakdagi rivoji va tibbiyot amaliyotida adolatli yondashuvni ta'minlash uchun muhim ahamiyatga ega. Bu fan nafaqat tibbiy axloqiy muammolarni hal qilish, balki jamiyatda yuqori axloqiy qadriyatlarni shakllantirishga ham xizmat qiladi. Tibbiyot xodimlari bioetikaning asosiy tamoyillariga rioya qilgan holda, bemorlarning huquqlarini

himoya qilishga, shaxsiy hayot daxlsizligini saqlashga va adolatli yondashuvni ta'minlashga hissa qo‘shadi.

ADABIYOTLAR RO`YXATI

1- Muxamedova Z.M. (2019). Umirzakova N.A. Tibbiy-gumanitar fanlar fenomeni va tibbiy ta'limga gumanitar fanlarni integratsiyalashning xalqaro tajribasi./Falsafiy muammolar biologiya va tibbiyot: bioratsionallik fenomeni. 2019 yil 13-son.

2- Abdurahmonov, O. Bioetika: Nazariya va amaliyot. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2019. – 248 b.

3- Usmonov, R. Tibbiy axloq va bioetika asoslari. – Toshkent: O‘zbekiston, 2020. – 172 b.

4- Yo‘ldoshev, S. Bioetika fanining rivojlanishi va tibbiyotdagi o‘rni. – Toshkent: Ilm Ziyo, 2021. – 198 b.

5- Karimov, A. Genetika va bioetika. – Toshkent: Sharq, 2018. – 154 b.

6- O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi. Bioetika bo‘yicha tavsiyalar. – Toshkent: O‘zbekiston Sog‘liqni Saqlash Vazirligi nashriyoti, 2022. – 132 b.

7- G‘aniyev, N. Axloqiy tamoyillar va tibbiyot. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2019. – 216 b.

8- Shamsiyev, F. Bioetika va zamonaviy tibbiyot masalalari. – Toshkent: Fan, 2020. – 140 b.

9- Nurmatov, H. Evutanaziya va axloqiy masalalar. – Toshkent: Universitet nashriyoti, 2021. – 168 b.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 1-son)

TABIIY FANLAR

NATURAL SCIENCES

UDK: 634,13:581.19
ORCID ID -*0000-0003-1625-0330*
ORCID ID - *0000-0003-0363-9427*
ORCID ID-0009-0002-7446-4353

ОПРЕДЕЛЕНИЕ ОСТРОЙ ТОКСИЧНОСТИ «OREGANO-AS».

Аскаров Иброхим Рахмонович
профессор кафедры химии Андижанского государственного университета,
Маматкулова Сурайё Абдусаматовна
заведующая кафедрой химии Ферганского государственного университета, к.х.н.(PhD)
Джуманова Барно Ганиевна
преподаватель Ферганского института общественного здравоохранения

Аннотация: В данной статье установлена острая токсичность пищевой добавки OREGANO-AS. Образец был исследован в лаборатории фармакологии и скрининга биологически активных веществ Института биоорганической химии. «OREGANO-AS» представляет собой биологически активное вещество – пищевую добавку, представленную в измельченной для опыта форме, обладающую неповторимым запахом.

Ключевые слова: OREGANO-AS лекарство, продукты питания,
фармацевтика, косметология, народная медицина, химический состав, мыши, токсичность.

Введение: Человеческая жизнь, подобно цветку, нуждается в питании и силе, которые мы черпаем из природы. Аминокислоты, органические соединения с аминной и карбоксильной группами, являются основой белков растений и животных. Биологически активные вещества представляют собой природные комплексы, включающие минералы, витамины, пищевые волокна, растительные экстракты, ненасыщенные жирные кислоты, аминокислоты и др. Они добываются из растительного, животного или минерального сырья, а также могут синтезироваться химическим или, в некоторых случаях, микробиологическим путем. В настоящее время, в связи с повсеместным распространением фаст-фуда, сладких и высококалорийных блюд, а также все более частым употреблением “мертвых” (т.е. вареной, жареной, сушеной, консервированной) пищи, организм человека испытывает все большую потребность в витаминах и

микроэлементах. Для удовлетворения этой потребности, биологически активные вещества приобретают все большее значение. На протяжении многих веков лекарственные растения и фитотерапия широко использовались в различных сообществах для лечения различных заболеваний. Однако, наряду с терапевтическим эффектом, некоторые лекарственные растения могут оказывать сильное токсическое воздействие на людей, особенно на детей и пожилых. Несмотря на распространенное мнение о безопасности натуральных продуктов, существует немало сообщений об их токсичности. Острая токсичность особенно опасна для детей и, в частности, новорожденных, поскольку их пищеварительная и иммунная системы еще не полностью развиты. Поэтому, в нашем исследовании мы изучили острую токсичность пищевой добавки OREGANO-AS, состоящей из смеси шалфея (Salvia) и орегано (Oregano) в соотношении 50:50.

Обзор литературы и методы: Препараты из листьев лекарственного шалфея используются в качестве отхаркивающего, дезинфицирующего и противовоспалительного средства при воспалении верхних дыхательных путей, а также для полоскания рта (стоматит и гингивит) и горла. Это растение является антисептиком и противовоспалительным средством, и благодаря высокому содержанию эфирного масла и камфоры, используется для лечения заболеваний дыхательных путей и десен. Трава душицы применяется у взрослых как отхаркивающее средство при заболеваниях верхних дыхательных путей, а также для улучшения аппетита и пищеварения. Ее применяют при секреторной недостаточности желудочно-кишечного тракта, атонии кишечника, энтероколитах, сопровождающихся запором и метеоризмом. В узбекской народной медицине душицу используют при удушье и простудных заболеваниях. Настой травы применяется как наружно, так и внутрь для лечения кожных высыпаний, а также для улучшения роста волос. Сельское население, особенно во время полевых работ, предпочитает пить чай из душицы, поскольку она помогает при усталости и бессоннице. Душицу также используется для приготовления ванн для детей, страдающих диатезом и зудом.

Шалфей (Salvia officinalis) содержит эфирные масла во всех своих частей растения.

Душица (Oregano) относится к роду травянистых растений из семейства яснотковых. Мы определили антиоксидантные свойства этих растений в различных соотношениях и установили, что оптимальное соотношение для достижения максимальной антиоксидантной активности — 50:50. Поэтому мы провели исследование острой токсичности пищевой добавки OREGANO-AS, состоящей из смеси шалфея (Salvia) и душицы (Oregano) в соотношении 50:50.

Экспериментальная часть:

Определение токсичности пищевой добавки OREGANO_AS

OREGANO_AS - это смесь наземной части растений шалфея (Salvia) и душицы (Oregano), полученная в виде высушенного и измельченного порошка зеленого цвета со

слабым характерным запахом. Для оценки острой токсичности OREGANO_AS при пероральном введении использовали методику OECD (2002), Test N420; Acute Oral Toxicity - Fixed Dose Procedure, OECD Guidelines for the Testing of Chemicals, Section 4, OECD Publishing, Paris, https://doi.org/10.1787/9789264070943-en. Эксперимент проводили на группах животных одного пола, вводя им фиксированную дозу препарата. Исследование острой токсичности OREGANO_AS проводили на беспородных белых лабораторных мышах мужского пола с массой тела 21–2,0 г. В каждую группу включали по 5 мышей (общее количество животных в эксперименте – 10). Все фармакологические исследования проводились на здоровых половозрелых мышах, прошедших карантинный период в течение 10-14 дней. Образец вводили в желудок мышей с помощью специального зонда в дозе 2000 мг/кг. В контрольную группу вводили очищенную воду в эквивалентном объеме. В течение первого дня эксперимента за животными вели наблюдение каждый час, оценивая их общее состояние, активность, состояние шерстного покрова, кожи, частоту и глубину дыхания, мочеиспускание, изменения массы тела и другие показатели. Все животные находились в стандартных условиях свободного доступа к воде и корму. По результатам эксперимента определяли среднюю смертельную дозу (LD50) и класс токсичности исследуемого вещества.

Результаты:

В течение первого дня эксперимента за животными вели наблюдение каждый час, оценивая их общее состояние, активность, состояние шерстного покрова, кожи, частоту и глубину дыхания, мочеиспускание, изменения массы тела и другие показатели. При введении лекарственной смеси Oregano-As в максимальной дозе 2000 мг/кг (введение в более высокой дозе было невозможно) у мышей наблюдалось учащение дыхания и скопление в одном месте. Эти изменения наблюдались в течение 1-2 часов после введения. Через 5-6 часов мыши вернулись к нормальному состоянию, стали пить воду и поедать пищу. За 14 дней наблюдения не было зарегистрировано смертельных случаев, а также не наблюдалось признаков острой интоксикации. В сравнении с контрольной группой у животных экспериментальной группы не наблюдалось снижения массы тела при дозе 2000 мг/кг. Полученные результаты показывают, что средняя летальная доза (LD50) лекарственной смеси Oregano-As при однократном введении мышам превышает 2000 мг/кг.

Группа	Вид, пол животного	Доза мг/кг, мл	Количество животных в группе/число погибших	Средняя масса животного (г) 1 день	Средняя масса животного (г) 7 дней	Средняя масса животного (г) 14	LD50 с доверительным интервалом
Oregano As	Мышь, самец	2000	5/0	20	21	24	>2000 мг/кг

Контроль		0,5 мл	5/0	21	23	25	-

Заключение: Таким образом, исследование острой токсичности смеси Oregano-As у мышей показало, что эта смесь относится к классу химических соединений, практически нетоксичных (класс V) по классификации OECD. Средняя летальная доза LD50 при однократном введении в желудок превышает 2000 мг/кг.

Вывод: Исследование острой токсичности показало, что Oregano-As при однократном введении в желудок мышей относится к классу химических соединений, практически нетоксичных (класс V) по классификации OECD, и LD50 превышает 2000 мг/кг.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ:

1. **Стивен А., Коэн Дэвид Дж. Анализ аминокислот с использованием производных фенилизотиоцианата // Журн. Аналитическая биохимия. - 1988. - Т. 17.- № 1.- С. 1-16.**
2. **Аскаров И.Р. Энциклопедия медицины. Ташкент.- Мумтоз сўз. - 2019.**
3. **Каюмов А.Қ., Бердиев Э.Т., Хамраев Х.Ф., Турдиев С.А. // Дендрология - Ташкент,// -“Фан ва технологиялар”., - 2015**
4. **Джуманова, Б. (2023). ХИМИЧЕСКИЙ СОСТАВ ЛЕКАРСТВЕННОГО РАСТЕНИЯ ШАЛФЕЙ (SALVIA OFFICINALIS) И ИСПОЛЬЗОВАНИЕ В НАРОДНОЙ МЕДИЦИНЕ** https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=5yBnCGoAAAAJ&citation_for_view=5yBnCGoAAAAJ:2osOgNQ5qMEC
5. **Джуманова, Б. (2024). ХИМИЧЕСКИЙ СОСТАВ ЛЕКАРСТВЕННОГО РАСТЕНИЯ ШАЛФЕЙ И ЕГО ПРИМЕНЕНИЕ В НАРОДНОЙ МЕДИЦИНЕ** https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=5yBnCGoAAAAJ&citation_for_view=5yBnCGoAAAAJ:LkGwnXOMwfcC
6. **Абдуджабборова, Ч. (2023). STYPHONOLOBIUM JAPONICUM (SOFORA JAPONICA) ХИМИЧЕСКИЙ СОСТАВ И ПРИМЕНЕНИЕ В МЕДИЦИНЕ** https://sirpublishers.org/index.php/jomap/article/view/271 https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=hKvs_GgAAAAJ&citation_for_view=hKvs_GgAAAAJ:eQOLeE2rZwMC
7. **Гуломова, Н. (2023). КОЛЮЧЕЛИСТНИК, ТУРКЕСТАНСКИЙ МЫЛЬНЫЙ КОРЕНЬ: ХИМИЧЕСКИЙ СОСТАВ И ПРИМЕНЕНИЕ В МЕДИЦИНЕ. Евразийский журнал медицинских и естественных наук, 3(12), 178–183. Извлечено от** https://in-academy.uz/index.php/EJMNS/article/view/25175 DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.10437434
8. **Абдужабборова Ч.С. ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ЛЮПИНА В НАРОДНОЙ МЕДИЦИНЕ И РЕЦЕПТАХ. “Физико-химические и коллоидные науки:**

фундаментальные и прикладные проблемы и их инновационные решения” Международная научно-практическая конференция. - 2024/2/10. -С. 1140,1141. https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=hKvs_GgAAAAJ&citation_for_view=hKvs_GgAAAAJ:AvfA0Oy_GE0C

9. **Аскаров И.Р. Химия товаров (Монография). Печатная фабрика Центра науки и технологий. -Ташкент - 2019. -1000 с.**

10. **Воробьев А.Е., Мамасаидов Д.Т., Воробьев К.А., Абдужабборова Ч.С. // БИОТЕХНОЛОГИЯ В МЕДИЦИНЕ И ЗНАЧЕНИЕ НАНОЧАСТИЦ // Монография // Фергана // “Classic” -2024 // 210 с.**

11. **Маматкулова, С. А., & Абдуджабборова, Ч. С. қизи. (2024). ЛЮПИН РАСТЕНИЯ ХИМИЧЕСКИЙ СОСТАВ И ПРИМЕНЕНИЕ В НАРОДНОЙ МЕДИЦИНЕ. Educational research in universal sciences, 3(3), 73–79.** https://doi.org/10.5281/zenodo.10836516https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=hKvs_GgAAAAJ&citation_for_view=hKvs_GgAAAAJ:Z5m8FVwuT1cC

12. Аскаров, И. Р., & Гуломова, Н. С. (2023). Химический состав Sambucus Nigra и его роль в народной медицине. International Bulletin of medical sciences and clinical research (Т. 3, Выпуск 12, сс. 16–20). Zenodo. https://doi.org/10.5281/zenodo.10361541

13. Джуманова, Б. (2023). Химический состав лекарственного растения шалфей (Salvia officinalis) и использование в народной медицине. В academic research in modern science (Т. 2, Выпуск 26, сс. 158–162). Zenodo. https://doi.org/10.5281/zenodo.1038941

14. **Джуманова, Б. (2024). ОШЛОВЧИ ТОТИМ(СУМАХ) КИМЁВИЙ ТАРКИБИ ВА ҲАЛҚ ТАБОБАТИДА ҚЎЛЛАНИЛИШИ.** https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=5yBnCGoAAAAJ&citation_for_view=5yBnCGoAAAAJ:_FxGoFyzp5QC

Стивен А., Коэн Дэвид Дж. Анализ аминокислот с использованием производных фенилизотиоцианата // Журн. Аналитическая биохимия. - 1988. - Т. 17.- № 1.- С. 1-16.

15. **Джуманова, Б. (2023). Химический состав растения Cumah и его использование в народной медицине** https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=5yBnCGoAAAAJ&citation_for_view=5yBnCGoAAAAJ:eQOLeE2rZwMC

16. **Джуманова, Б. (2023). Химический состав красного мака и его использование в народной медицине** https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=5yBnCGoAAAAJ&citation_for_view=5yBnCGoAAAAJ:WF5omc3nYNoC

17. **Джуманова, Б. (2023). Химический состав Helichrysim arenarium и его использование в народной медицине**

https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=5yBnCGoAAAAJ&citation_for_view=5yBnCGoAAAAJ:d1gkVwhDpl0C

18. Джуманова, Б. (2024). ОПРЕДЕЛЕНИЕ СОДЕРЖАНИЯ ВИТАМИНОВ В ПИЩЕВОЙ ДОБАВКЕ OREGANO-AS https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=5yBnCGoAAAAJ&citation_for_view=5yBnCGoAAAAJ:hqOjcs7Dif8C

19. Джуманова, Б. (2024). ХИМИЧЕСКИЙ СОСТАВ ЛЕКАРСТВЕННОГО РАСТЕНИЯ ШАЛФЕЙ И ЕГО ПРИМЕНЕНИЕ В ТРАДИЦИОННОЙ МЕДИЦИНЕ https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=5yBnCGoAAAAJ&citation_for_view=5yBnCGoAAAAJ:ufrVoPGSRksC

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 1-son)

TABIIY FANLAR

NATURAL SCIENCES

UO‘K:544.473:544.478.1

SCUTELLARIA COMOSA O‘SIMLIGINI MIKROKLONAL (IN VITRO) USULIDA KO’PAYTIRISH

Dadajonova Sevara O‘ktamjon qizi
Farg‘ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti o’qituvchisi
dadajonovasevara10@gmail.com
+99890 231-89-94

Annotatsiya Mazkur maqolada Yalpizdoshlar oilasi *Scutellaria* turkumiga mansub o‘simliklarning biologik va botanik xususiyatlari, kimyoviy tarkibi va tabobatdagi o‘rni haqidagi adabiyotlar taxlil qilingan. Asosiy e'tibor, *Scutellaria comosa* o‘simligini vegetativ usullardan biri bo‘lgan mikroklanal ko‘paytirishga qaratilgan. Maxsus biotexnologiya laboratoriyasida o’simlikni o‘stirishda optimal sharoitni tanlash maqsadida sterillangan ozuqa muhitlari, fitogormonlar turlari, ularning konsentrasiyasi va boshqa omillar o‘rganilgan va tegishli xulosalar qilingan.

Kalit so‘zlar: *Scutellaria comosa*, Murashige-Skoog, flavonoid, glikozid, 6 BAP (6 benzilaminopurin), eksplant, mikroklonal, in vitro.

REPRODUCTION OF *SCUTELLARIA COMOSA* BY THE MICROCLONAL METHOD (IN VITRO)

Abstract This article analyzes the literature on the biological and botanical properties, chemical composition and role in medicine of plants of the mint family *Scutellaria* family. The main attention is paid to the microclonal reproduction of the *Scutellaria comosa* plant by one of the vegetative methods. In order to select the optimal conditions for growing a plant in a special biotechnological laboratory, sterilized nutrient media, types of phytohormones, their concentration and other factors were studied and appropriate conclusions were drawn.

Keywords: *Scutellaria Comosa*, Murashige-Skoog, flavonoids, glycoside, 6 bap (6 benzylaminopurine), explant, microclonal, in vitro

РАЗМНОЖЕНИЕ *SCUTELLARIA COMOSA* МИКРОКЛОНАЛЬНЫМ МЕТОДОМ (IN VITRO)

Аннотация В данной статье проанализирована литература о биологических и ботанических свойствах, химическом составе и роли в медицине растений семейства

мятные семейства *Scutellaria.* Основное внимание уделяется микрокланальному размножению растения *Scutellaria comosa* одним из вегетативных методов. С целью выбора оптимальных условий выращивания растения в специальной биотехнологической лаборатории были изучены стерилизованные питательные среды, типы фитогормонов, их концентрация и другие факторы и сделаны соответствующие выводы.

Ключевые слова: *Scutellaria comosa,* Murashige-Skoog, флавоноид, гликозид, 6 БАП (6 бензиламинопурин), эксплант, микроклональный, ин витро.

Kirish. Hozirda dunyo miqyosida biologik faol moddalarga boy bo‘lgan o‘simlik turlarining kimyoviy tarkibini o‘rganishga katta e’tibor qaratilmoqda.

Yalpizdoshlar oilasi yer yuzida 200 ta turkum va 3000 turdan iborat. O’rta Osiyoda 53 turkum 360 tur, O’zbekistonda 39 turkumga oid 238 tur, Farg’ona vodiysida esa 26 turkumga mansub 59 tur ro’yxatga olingan. O’zbekiston hududida yalpizdoshlar oilasi keng tarqalgan bo’lib, dorivor va foydali turkum va turlarning ko’pligi bilan boshqa oilalardan ajralib turadi.

Dorivor turkumlardan biri *Scutellaria L.* bo’lib dunyoda 360 tur, MDH mamlakatlarida 138 tur, O’rta Osiyoda 89 tur va O’zbekistonda hududida esa 36 turini uchraydi. Turkumning 65 dan ortiq turlarining kimyoviy tarkibi o‘rganilgan va ulardan fenol karbon kislota, fenilpropanoid, glikozidlar, diterpen, flavonoid, lignan va boshqa tabiiy birikmalar ajratib olingan va xalq tabobatida turli kasalliklarni davolashda va ularni oldini olishda tavsiya etilgan.

Ushbu turkumga mansub *Scutellaria comosa*dan ajratib olingan biologik faol moddalar ham tibbiyotda va farmasevtikada ko’plab kasalliklarga davo vositasi hisoblanadi. Ammo, bunday dorivor o’simliklarning tabiiy biologik zahirasi kamayib bormoqda. Tabiatda dorivor o’simliklarning kamayib ketishini oldini olish va tibbiyotda foydalanish maqsadida ularning sun'iy plantatsiyalarini tashkil etish uchun mikroklonal ko’paytirish eng samarali usullardan biridir.

Adabiyotlar tahlili. *Scutellaria L* turkumi turlariga mansub o‘simliklarning kimyoviy tarkibi va dorivorlik xususiyatlari haqida adabiyotlarda ko‘plab ma'lumotlar uchraydi. Jumladan, Karimov A.M. (2017) va Siddiqov G’.U. lar tomonidan O’zbekiston florasida tarqalgan *Scutellaria* L. ayrim turlaridan (*S. cordifrons* Juz., *S.phyllostachya* Juz., *S. comosa* Juz., *S.haematochlora* Juz., *S. immaculata* Nevski ex Juz., *S. ocellata* Juz.) birinchi marta yangi flavonoidlar, aglikonlar va glikozidlar ajartib olingan va o’rganilgan. Ushbu moddalarning biologik xususiyati paratsetamol va geliotrin alkoloidlari kabi qon bosimini meyorida ushlab turuvchi, tinchlantiruvchi, yallig’lanishga va organizmning zaharlanishiga qarshi ta’sirlarga ega. O’simliklardagi bu moddalar yarim jun,jun-ipak va boshqa matolarga rang berishda ham foydalanish tavsiya etilgan [1,2].

Asanakunov B.A (2012) *Scutellaria* L turkumining *S. adenostegia, S. andrachnoides, S. comosa, S. lanipes* va *S. pycnoclada*. turlarining urug’larini ikki xil -20^{0}C va 196^{0}C (suyuq azot) da saqlab ularning saqlashdan keyingi unib chiqish sharoitlarini o’rgandi. Ushbu tadqiqotning

natijasiga ko’ra “urug’larning eng yuqori unib chiqish suyuq azotda (196^0C) saqlanadigan urug’larda kuzatiladi. Shu bilan birga urug’larni bu rejimda uzoq muddat saqlash katta mehnat va iqtisodiy xarajatlarni talab qiladi. Uzoq muddatli saqlash uchun -20^0C haroratda muzlatish afzal” deyilgan. Urug’larni ushbu metodlarda saqlash *Scutellaria* turkum turlarini urug’larini steril holatda uzoq muddat saqlash, kamayib ketishini oldini olish va o’simliklarni in vitro sharoitida ko’paytirish metodlarini ishlab chiqdi [3].

Oganesyan G.B (2010) tomonidan Armeniyaning Artashat tumanidagi *Scutellaria orientalis* o’simligi yer ustki qismi tarkibidagi fenol birikmalar o’rganilgan. *Scutellaria orientalis* yer ustki qismidan suv yordamida quruq ekstrakt olinib, quruq ekstrakt xloroform bilan ishlanib xloroform qismi uchirildi va qoldiq xromatografiya qilinib undan vogonin, xrizin, 2 va 2 - metoksixrizin aralashmasi, baykalein va apigeninni aniqlagan [4,7].

Akbarova M.H, Yusupova Z.A (2021) lar tomonidan *Scutellaria comosa* ning o’simlik qoplamidagi tabiiy tiklanishida latent davrini o’rganish maqsadida Farg’ona tumani Damko’l qishlog’i va Namangan viloyati To’raqo’rg’on tumani Go’zalobod qishlog’i adirliklari tuproqlarida o’simlikning urug’ zaxirasi tahlil qilingan. 2018 yil noyabr va 2019 yil aprel oyida o’rta yosh generativ bosqichiga mansub o’simliklar atrofidan 1m^2 maydon belgilab olinib, uni 5 sm qalinlikdagi tuproqda urug’ zaxirasi o’rganildi. O’rganilgan tuproq namunasi maxsus elakdan o’tkazilib yuvildi va fraksiyalarga ajratildi. 1m^2 da diametri 0.5-1mm elakdan o’tkazilgan tuproq namunalarida noyabrda 60-65 ta, aprelda olingan namunada esa 20-25 ta urug’ saqlanib qolganligi tadqiqotchilar tomonidan aniqlandi [5,6].

Tadqiqot obyekti - Farg’ona viloyati, Farg’ona tumani Damko’l qishlog’i atrofidagi adirliklarida o’suvchi Yalpizdoshlar (*Lamiaciae*) oilasi, *Scutellaria* (ko’kamaron) turkumi vakili *Scutellaria comosa* Juz. – kokilli ko‘kamaron o‘simligi. *Scutellaria comosa* adirliklarning mayda toshli-shag’alli yonbag’irliklarida uchratish mumkin. Ushbu hududni to’liq egallamagan holatda, (umumiy adirlikni 10 gektar deb olinsa tur 1 gektar maydonni egallagan) tarqalgan. Olib borilgan dala tadqiqotlarida *Scutellaria comosa* turi ushbu hududlarda kichik-kichik populyatsiyalarni ko’rishimiz mumkin (1-rasm).

1-rasm. *S.comosa* o’simligining tabiiy sharoitda va in vitro sharoitida ko’rinishi

Tajriba qismi. O’simliklarni mikroklonal ravishda ko’paytirish uchun maxsus biotexnologiya laboratoriyasida sterillikka rioya qilgan holda izolatsiyalangan (aseptik) sharoit, zamonaviy jihozlar va yuqori sifatli reaktivlardan foydalangan holda vegetativ mikroklonal ko‘paytirish tajribalari amalga oshirildi. Farg’ona tumani Damko’l qishlog’i adirliklaridan terib keltirilgan *Scutellaria comosa* o’simligi eksplantlari ortiqcha qism va barglardan tozalanib, kultura kiritish uchun tayyorlash (sterilizatsiyalash) bosqichi o‘tkazildi.

Materiallar laboratoriya idishlariga joylandi va chang va fizik qoldiqlardan xalos qilish uchun toza suv bilan aralashtiruvchi apparatda 45 minut aralashtirildi. Bu jarayon eksplantlarni turgor holatini tiklashga ham yordam beradi. So’ngra 10%li NaClO eritmasida 40 daqiqa sterilizatsiya qilindi, 5 daqiqadan 3 marta distillangan suv quyib takror magnitli aralashtirgichga qo’yildi. Keyingi jarayonda 10% li H_2O_2 eritmasida 1 soat davomida so’ngra, 2 soat davomida distillangan suv bilan aralashtirildi. Sterilizatsiya bosqichi yakunlach eksplantlar ozuqa muhitiga ekildi.

O‘simlikni in vitro sharoitida ko’paytirish uchun ozuqa muhiti tayyorlashning 1 - bosqichida 6-BAP (6-benzilaminopurin)ning miqdori 3 xil bo’lgan ozuqa tayyorlab olindi: 1) 1 litr ozuqa uchun 4,4gr Murashige-Skoog quruq modda, 0,01mg/l IBA (Indolil 3-butil kislota) miqdordagi fitogarmonlar, 30gr shakar 900ml toza distillangan suvda yarim soat davomida magnitli aralashtirgichda aralashtirildi va eritma hajmi 1 litr bo’lguniga qadar distillangan suv qo’shildi. 2) 1 litr ozuqa uchun 4,4gr Murashige-Skoog quruq moddasi, 0,5% konsentratsiyali 6 BAP (6 benzilaminopurin) va 0,01mg/l IBA (Indolil3-butilkislota) miqdordagi fitogarmonlar, 30gr shakar 900ml toza distillangan suvda yarim soat davomida magnitli aralashtirgichda aralashtirildi va eritma hajmi 1 litr bo’lguniga qadar distillangan suv qo’shildi. 3) 1 litr ozuqa uchun 4,4gr Murashige-Skoog quruq moddasi, 1% konsentratsiyali 6 BAP (6 benzilaminopurin) va 0.01mg/l IBA (Indolil 3-butil kislota) miqdordagi fitogarmonlar, 30gr shakar 900ml toza distillangan suvda yarim soat davomida magnitli aralashtirgichda aralashtirildi va eritma hajmi 1 litr bo’lguniga qadar distillangan suv qo’shildi.

Keyingi bosqichli jarayonda oldindan sterillangan bankalarga avval agar- agar eritmasi so’ngra ozuqa muhitida quyib bankalarning qopqoqlari mahkam berkitildi. Agar-agar quruq moddasi 1 litr eritma uchun 6-7 gr atrofida agar fitogeldan foydalansak 2-5gr fitogel ozuqa muhitini quyiltirishiga qarab miqdorini orttirib borildi. Ozuqa muhitni gel holatiga keltirish uchun agar-agardan foydalandik. Keyingi jarayonda ozuqa muhitini turli xil bakteriya va zamburug’lardan tozalash uchun avtoklav (120-130^{0}C da 0,75-1 atm bosimda 40 daqiqa) sterillandi. Tayyor bo’lgan ozuqa muhiti 400 gr li shisha idishlarga 25 grammdan taqsimlandi.

Tayyor bo’lgan *Scutellaria comosa* eksplantlari inkubatsiya xonasidagi stellajlarga joylanadi. 12 ta lampa bilan yoritildi. Inkubatsion xonaning sharoiti 26°Cdan kam bo’lmasligi va 16 soatli yorug’lik va 8 soat qorong’ulik ta‘minlanishiga e‘tibor qaratildi. Ozuqa muhitiga ekilgan *Scutellaria comosa* eksplantlarining bo’g’im hosil qilishi 20-25 kun vaqt davomida sodir bo’ldi.

Eksplantlarni klonal ko’paytirishda o’sishni ta’minlovchi ozuqa muhiti (Murashige ve Skoog, 1962) tarkibi

1-jadval

Makro Elementlar (mg/l)	Miqdori (mg/l)
KNO_3	1900
$CaCl_2$	332.2
NH_4NO_3	1650
MgSO4*7H2O	370
KH_2PO4	170
Mikro Elementlar (mg/l)	
KI	0.83
H_3BO_3	6.20
$MnSO_4$*H2O	16.9
$ZnSO_4$*7H2O	8.6
Na_2MoO_4*2H2O	0.25
$CuSO_4$*5H2O	0.025
$CoCl_2$*6H2O	0.025
Fe-NaEDTA	36.72
Vitaminlar (mg/l)	
Mio-inozitol	100
Tiamin HCl	0.4
Gormonlar(mg/l)	
6-BAP	0-0.5-1
IBA	0.01
Uglevodlar(g/l)	
Shakar	30
Boshqa moddalar (g/l)	
Agar	6-7

Tajriba natijalari va tahlili: Uch xil miqdorda tayyorlangan ozuqa muhitlarida quyidagi natijalar kuzatildi:

1) Kontrol sifatida 6-BAP ning 0% li konsentratsiyasida MS ozuqa muhitida *Scutellaria comosa* o’simlik eksplantlarini o’sib kurtakli bo’g’imlarni hosil bo’lishishi kuzatildi. Bunda, kulturaga o’tkazilgan 50 ta o’simlik mikroqalamchasining 1 tasi ya‘ni 2% 1 dona bog’im hosil qildi.

2) MS ozuqa muhitidagi 6-BAP ning 0,5 mg/l konsentratsiyasida *Scutellaria comosa* o’simlik eksplantlarini o’sib kurtakli bo’g’imlarni hosil bo’lishishi kuzatildi. Bunda kulturaga o’tkazilgan 50 ta o’simlik mikroqalamchaning 5 tasi ya‘ni 10% 1 donadan bog’im hosil qildi.

3) MS ozuqa muhitidagi 6-BAP ning 1 mg/l konsentratsiyasida *Scutellaria comosa* o’simlik eksplantlarini o’sib kurtakli bo’g’imlarni hosil bo’lishishi kuzatildi. Bunda, kulturaga o’tkazilgan 50 ta o’simlik mikroqalamchaning 10 tasi ya‘ni 20% 1-2 donadan bog’im hosil qildi. Qolgan o’simlik eksplantlari mog’orlanib, novdalar qo’ng’ir rangga kirib, nobud bo’ldi.

MS ozuqa muhitida *Scutellaria comosa* o’simliklarni eksplantlarining kurtakli bo’g’imlarni hosil qilish ko’rsatkichi.

2-jadval

MS ozuqa muhitidagi 6-BAP miqdori (mg/1)		Kurtak xosil qilish ko’rsatkichi. (50ta)	Nobud bo’lgan o’simlik ko’rsatkichi. (50ta)
1	Murashige-Skoog (MS) +0 mg/l 6 BAP+0.01mg/l IBA	(2%) 1ta	98% (49ta)
2	Murashige-Skoog (MS) +0.5 mg/l 6 BAP+0.01mg/l IBA	(10%) 5ta	90% (45ta)
3	Murashige-Skoog (MS) +1 mg/l 6 BAP+0.01mg/l IBA	(20%) 10ta	80% (40ta)

2-jadvaldan ko‘rinib turibdiki, 1-ozuqa muhiti (Murashige-Skoog (MS) 0.01mg/l IBA) ishtirokida 1 ta kurtak xosil bo‘lishi (2%) va nobud bo‘lgan o‘simliklar 49 ta (98%), 2-ozuqa muhiti Murashige-Skoog (MS) +0.5 mg/l 6 BAP+0.01mg/l IBA ishtrokida 5ta kurtak xosil bo’lishi (10%) va nobud bo’lgan o’simliklar 45 ta (90%), 3-ozuqa muhiti Murashige-Skoog (MS) +1 mg/l 6 BAP+0.01mg/l IBA ishtrokida 10ta kurtak xosil bo’lishi (20%) va nobud bo’lgan o’simliklar 40 ta (80%)ni tashkil qildi.

Xulosalar:

- *Scutellaria comosa* o’simligini in vitro sharoitida vegetativ ko’paytirish uchun Murashige-Skoog 1mg/l 6 BAP (6-benzilamino purin) va 0,01mg/l IBA (Indolil 3-butil kislota) fitogarmonlari qo’shib tayyorlangan ozuqa muhiti konsentrasiyasi eng yaxshi natija ko‘rsatdi;

- *scutellaria comosa* o’simligining 50ta mikroqalamchalari Murashige-Skoog ozuqa muhitining 1mg/l 6 BAP va 0,01mg/l IBA miqdordagi ozuqa muhitida eksplantlarning 10 tasi (20%) kurtak xosil qildi va yashovchanligini saqlab qoldi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov A.M. Flavanoids of 4 plants that are the member of the *Scutellaria* L. specie growing in Uzbekistan: Dis. Cand. Biol of Sciences. - Tashkent: 2017.

2. Siddikov G.U. Second metabolits of plants S.Phyllostachya and S.Cordifrons, member of the species *Scutellaria* L. growing in Uzbekistan: separation, chemical structure and biological activity&:Dis. Cand. Biol of Sciences. - Ferghana: 2018.

3. Asanakunov Baktibek Ashimovich Soxranenie bioraznoobraziya i prakticheskoe ispolzovanie rasteniy roda Scutellaria metodami biotexnologii Dissertasionniy sovet D.03.10.418- Bishkek – 2012

4. Oganesyan G.B. Phenolic compounds from the aerial part of Scutellaria orientalis // Chem. Nat. Comp. 2010. Vol. 46. Pp. 466–467.

Akbarova M.X, Dadajonova S.O’ Ko‘kamaron - Scutellaria L. (Lamiaceae) turkumining ayrim dorivor vakillari. // Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences volume 2 | issue 10/2 issn 2181-1784 sjif 2022: 5.947 asi factor = 1.7.-b 622-629.

5. Akbarova M.X, Dadajonova S, Sharobidinov Sh, Xomidova M, Farg‘ona vodiysida tarqalgan ayrim dorivor o’simliklar bioekologiyasi// O’zbekiston milliy universiteti, 2022,-№3/1/1. – B. 8-11.

6. Ahmedov O’, Ergashev A,. Abzalov A, .Yulchiyeva,M Mustafakulov D. Dorivor o‘simliklarni yetishtirish texnologiyasi va ekologiya /- Toshkent: «Tafakkur bo‘stoni», 2018. - 224 b.

7. Skoog F. Chemical regulation of growth and organ formation in plant tissue cultures in vitro F. Skoog, C.O. Miller // Symp. Soc. Exp. Biol.-1957.-Vol. 11.-P.118-131.

8. https://cyberleninka.ru/article/n/osobennosti-mikroklonalnogo-razmnozheniya-kostochkovyh-kultur-v-usloviyah-in-vitro

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 1-son)

TABIIY FANLAR

NATURAL SCIENCES

UDK 581.192.1+631.811.1/9::543.62
ORCID: https://orcid.org/0009-0003-9869-998X

ASPERUGO PROCUMBENS O‘SIMLIGI YER USTKI QISMINING FLAVONOIDLARI TAHLILI

Nosirova Visolaxon Mirzayunusjon qizi
Qo‘qon davlat pedagogika instituti
02.00.09 – Tovarlar kimyosi yo‘nalishi tayanch doktoranti
nosirovavisola1995@gmail.com, 911513227

ANNOTATSIYA *Asperugo procumbens* - bu *Boraginaceae* oilasiga mansub gullaydigan o‘simlikdir. Ushbu oilada ko‘plab turlar mavjud bo‘lib, ular farmakologiya va kosmetologiyada ishlatiladi. *Boraginaceae* oilasiga mansub o‘simliklarning terapevtik ta'siri keng ko‘lamli bo‘lib, u biologik faol birikmalarning tarkibiga bog‘liq. Bu asosan flavonoidlar, terpenoidlar va fenollarni o'z ichiga oladi, ular, masalan, antimikrobiyal, antitumor, antiviral, yallig'lanishga qarshi ta’sir ko‘rsatishi mumkin. O‘zbekiston hududida tarqalgan *Asperugo procumbens* o‘simligining kimyoviy tarkibi ilk bor o‘rganildi. Ushbu maqolada asperugo procumbens o‘simligi yer ustki qismining flavonoidlari tahlil qilindi unga ko‘ra o‘simlik ko‘sak hosil qilgan davrda ilk bor Gipolaetin 7-O-D-Gly flavonoidi 27,839 mg/100 g , gall kislotasi esa 31,125mg/100g miqdorda mavjud ekanligi aniqlandi hamda flavonoidlarning inson organizmiga qanday foydali tomonlari bor ekanligi haqida qisqacha ma’lumotlar berib o‘tildi.

Kalit so‘zlar: *Asperugo procumbens*, flavonoid, Gipolaetin 7-O-D-Gly, gall kislotasi.

АННОТАЦИЯ *Asperugo procumbens* - это растение, относящееся к семейству *Boraginaceae*. В этом семействе существует множество видов, которые используются в фармакологии и косметологии. Терапевтическое действие растений семейства *Boraginaceae* является широким и зависит от содержания биологически активных соединений. В основном это включает флавоноиды, терпеноиды и фенолы, которые могут оказывать, например, антимикробное, противоопухолевое, противовирусное и противовоспалительное действие. Химический состав растения *Asperugo procumbens*, распространенного на территории Узбекистана, был изучен впервые. В данной статье был проанализирован состав флавоноидов надземной части растения *Asperugo procumbens*, в результате чего было установлено, что в период, когда растение образует плоды, впервые был обнаружен флавоноид гиполеатин 7-O-D-Gly в количестве 27,839 мг/100 г, а количество галловой кислоты составило 31,125 мг/100 г. Также была

представлена краткая информация о полезных свойствах флавоноидов для человеческого организма.

Ключевые слова: *Asperugo procumbens*, флавоноид, гиполаетин 7-O-D-Gly, галловая кислота.

ANNOTATION *Asperugo procumbens* is a plant belonging to the *Boraginaceae* family. This family includes many species used in pharmacology and cosmetology. The therapeutic effects of Boraginaceae plants are broad and depend on the content of biologically active compounds. These mainly include flavonoids, terpen oids, and phenols, which can exhibit antimicrobial, antitumor, antiviral, and anti-inflammatory effects, for example. The chemical composition of *Asperugo procumbens*, which is distributed in Uzbekistan, has been studied for the first time. This article analyzed the flavonoid composition of the above-ground part of the *Asperugo procumbens* plant, revealing that during the period when the plant produces fruits, the flavonoid hypolaetin 7-O-D-Gly was first identified at a concentration of 27.839 mg/100 g, while the amount of gallic acid was found to be 31.125 mg/100 g. Additionally, a brief overview of the beneficial properties of flavonoids for the human body was provided.

Keywords: *Asperugo procumbens*, flavonoid, Gipolaetin 7-O-D-Gly, gallic acid.

KIRISH

Boraginaceae oilasiga mansub o'simliklarning an’anaviy foydalanishi bo‘yicha etnobotanik tadqiqotlardan ko‘p miqdorda dalillar mavjud bo‘lishiga qaramay, ularning ko‘pchiligining tibbiy xususiyatlari hali aniqlanmagan yoki to‘liq ma’lum emas. Shuning uchun, *Asperugo procumbens* kabi borage oilasiga mansub o‘rganilmagan yoki kam o‘rganilgan turlarga e’tibor qaratish zarur, ularning fitokimyoviy tarkibini aniqlash va terapevtik ta’sirini belgilash uchun, bunday tadqiqotlarning natijalari yangi tabiiy biologik faol birikmalar manbalari va ularning tibbiyotda potentsial foydalanishi haqida bilim berishi mumkin. Asosan Eron an’naviy tibboti bo‘yicha etnobotanik ma’lumotlar, dastlabki fitokimyoviy tadqiqotlar va eksperimental tadqiqotlar *A. procumbens* ning keng terapevtik ta’sirini ko'rsatadi, bu esa G‘arb tibbiyotida deyarli uchramaydi[1,2].

Asperugo procumbens o‘simligining kimyoviy tarkibi bundan oldin o‘rganilmaganligini hisobga olsak o‘simlik kimyoviy tarkibini o‘rganish inson salomatligi dolzarb masalalardan biri bo‘lgan bir davrda yetarlicha samaralidir. Ushbu maqolada ilk bor asperugo procumbens o‘simligining ko‘sak hosil qilgandan so‘nggi holatidagi yer ustki qismi flavonoidlari haqida ma’lumotlar taqdim etilgan.

TAJRIBA QISMI

Asperugo procumbens tarkibidagi flovanoidlarning kimyoviy tahlili Agilent technologies 1260 yuqori samarali suyuqlik xromatografiyasida (YSSX) izokratik elyutsiya rejimi va diodli matritsali detektori yordamida amalga oshirildi[3]. Harakatchan faza sifatida asetonitril va bufer eritmasi ishlatilgan. Spektral ma’lumotlar 200 dan 400 nm. gacha bo‘lgan spektral diapazonda o‘rganildi. Xromatografiya quyidagicha ko‘rsatkichlar asosida o‘tkazildi:

Harakatchan faza – asetonitril – buffer eritmasi (35:75) (izokratik rejim), pH=2,92, 15 – 20 daqiqa.

Inyeksiya hajmi – 5 µl.

Harakatchan fazaning tezligi 0,75 ml/daq.

Каронка – eclipse XDB – C18. 5,0 микрон, 4,6x250 мм .

Detektor diod – matritsali detector, to‘lqin uzunligi 254, 320, 381nm..

NATIJALAR TAHLILI

Flavonoidlar inson organizmida kuchli antioksidantlar sifatida muhim rol o'ynaydi, ular hujayralarni erkin radikallardan himoya qiladi va yallig'lanish jarayonlarini kamaytiradi. Shuningdek, flavonoidlar yurak-qon tomir sog'lig'ini qo'llab-quvvatlaydi va immun tizimini mustahkamlashda yordam beradi.

Flavonoidlarning asosiy foydalari: Flavonoidlar erkin radikallarning zararli ta'sirini kamaytiradi, bu esa hujayralarning qarish jarayonini sekinlashtiradi. Ular yallig'lanish jarayonlarini kamaytiradi, bu esa turli kasalliklarning oldini olishga yordam beradi. Flavonoidlar qon bosimini pasaytirishga va qon tomirlarining sog'lig'ini yaxshilashga yordam beradi, bu esa yurak kasalliklari xavfini kamaytiradi. Ular immun tizimini qo'llab-quvvatlaydi, organizmning turli infeksiyalarga qarshi kurashish qobiliyatini oshiradi. Flavonoidlar mikroblarga qarshi ta'sir ko'rsatishi bilan tanilgan, bu esa ularni tabiiy antibiotiklar sifatida ishlatishga imkon beradi[4].

Asperugo procumbens o‘simligi falavonoidlar tahlili shuni ko‘rsatadiki o‘simlik yer ustki qismi tarkibida Gipolaetin 7-O-D-Gly flavonoidi 27,839 mg/100 g , gall kislotasi esa 31,125mg/100g miqdorda aniqlangan(1-jadval).

№	Номи	Флавоноидлар микдори мг/100г							
		Кемпферол	Гиполаетин	Рутин	Гиполаетин 7-O-D-Gly	Изорамнетин	Галл кислота	Гипераз ид	Кверцетин
1	Asperugo Procumbens	-	-	-	**27,839**	-	**31,125**	-	-

1- Jadval *Asperugo procumbens* o‘simligi yer ustki qismi flavonoidlar miqdori

XULOSA

Boraginacea oilasiga mansub O‘zbekiston respublikasi hududida tarqalgan *Asperugo procumbens* o‘simligining kimyoviy tarkibi ilk bor o‘rganildi va yer ustki qismidagi flavonoidlar miqdori tahlil qilindi. Ushbu o‘simlik qadimdan nafas yo‘llari kasalliklari jumladan pnevmoniya bronxit kabi kasalliklarda qo‘llanib kelingan. Shuni inobatga olgan holda ushbu

o‘simik kimyoviy tarkibini o‘rganish yetarlicha samarali deb hisoblaymiz. *Asperugo procumbens* o‘simligi yer ustki qismida flavonoidlardan Gipolaetin 7-O-D-Gly flavonoidi 27,839 mg/100 g , gall kislotasi esa 31,125mg/100g miqdorda aniqlandi. Gipolaetin 7-O-D-Gly, boshqa flavonoidlar kabi, bir qator sog'liq uchun foydali xususiyatlarga ega. Ularning orasida antioksidant, yallig'lanishga qarshi va potentsial antitumor xususiyatlari mavjud. Ushbu ta'sirlar organizmni oksidlanish stressidan himoya qilishga, yurak-qon tomir salomatligini qo'llab-quvvatlashga va umumiy farovonlikka hissa qo‘shishi mumkin. Yuqoridagi ma’lumotlarga tayangan holda asperugo procumbens o‘simligi haqida umumiy xulosa berishdan avval boshqa kimyoviy komponentlarga tekshirish tavsiya etildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Taravati G, Masoudian N, Gholamian A. Evaluation of medical metabolites in Boraginaceae family. Journal of Chemical Health Risks 2014; 4: 53–61.

2. Dresler S, Szymczak G, Wójcik M. Comparison of some secondary metabolite content in the seventeen species of the Boraginaceae family. Pharmaceutical biology 2017. http://dx.doi.org/10.1080/13880209.2016.1265986

3. Steven A., Cohen Daviel J. Amino Acid analysis utilizing phenylisothiocyanata derivates // Jour. Analitical Biochemistry – 1988. V.17. -№1.-P.1-16

4. В.П.ФИЛОНОВ, Т. А. СЕРДЮК, В. А. ЗАЙЦЕВ ЗАО «БелАсептика», Флавоноиды и Здоровье Минск, Беларусь, ООО «Аптекарский сад, Минск, Беларусь, РУП «Научно-практический центр гигиены», Минск, Беларусь Здравоохранение № 11 в 2021 г. в г. Минске. 30 Сентября 2021

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 1-son)

TABIIY FANLAR

NATURAL SCIENCES

УДК 549.67

KAOLINDAN FOYDALANIB NANOSTRUKTURALI SINTETIK SEOLITLAR SINTEZI

Oydinov Muxlis Xoliqul o‘g‘li
Toshkent tibbiyot akademiyasi, Tibbiy va biologik kimyo kafedrasi assistenti. Toshkent.
(Phd) +998 90 337 76 07,
oydinovmuxlis77@gmail.com
Abdullaeva Marg‘uba Tolibjonovna
Toshkent tibbiyot akademiyasi, Tibbi va biologik kimyo kafedrasi dotsenti. (Phd). Toshkent.
+998 966814306, abdullaevam067@gmail.com
Tojiboeva Iroda Muxammadyunusovna-
Toshkent tibbiyot akademiyasi, Tibbiy va biologik kimyo kafedrasi katta o‘qituvchisi. Toshkent.
Karajanova Shaxnoza Daryabaevna
Toshkent tibbiyot akademiyasi, Tibbiy va biologik kimyo kafedrasi assistenti. Toshkent.

Annotatsiya. Nanostrukturali sintetik NaA seoliti gidrotermik usul yordamida sintez qilib olindi. SiO_2/Al_2O_3 (Si/Al) molyar nisbati 1:1.01, NaOH/kaolin nisbati esa 1:2.4 teng bo‘lgan seolit namunasi NaOH 2M eritmasi yordamida 90°C da 16 soat davom etdi. Olingan sintetik seolit Fure transform infraqizil spektroskopiyasi (FTIR) tavsiflangan analiz tahlili ham keltirilgan. Tabiiy kaolinitdan seolitlarning barqaror gidrotermik sintezi uchun optimal sharoit manbalari ham ushbu maqolada o‘rganilib, muhokama qilingan.

Kalit so‘zlar: kaolin, nanosturuкrtura, metakaolin, seolit, spektroskopiya

СИНТЕЗ НАНОСТРУКТУРИРОВАННЫХ СИНТЕТИЧЕСКИХ ЦЕОЛИТОВ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ КАОЛИНА

Аннотатция Наноструктурированный синтетический цеолит NaA был синтезирован гидротермальным методом. Образец цеолита с молярным соотношением SiO_2/Al_2O_3 (Si/Al) 1:1,01 и соотношением NaOH/каолин 1:2,4 обрабатывали 2M раствором NaOH при 90°C в течение 16 часов. Также представлен анализ полученного синтетического цеолита методом инфракрасной спектроскопии с преобразованием Фуре

(FTIR). Источники оптимальных условий стабильного гидротермального синтеза цеолитов из природного каолинита также исследуются и обсуждаются в данной статье.

Ключевые слова: каолин, наностуруктура, метакаолин, цеолит, спектроскопия

SYNTHESIS OF NANOSTRUCTURED SYNTHETIC ZEOLITES FROM KAOLIN

Abstract. Nanostructured synthetic NaA zeolite was synthesized by hydrothermal method. Zeolite with a SiO_2/Al_2O_3 (Si/Al) molar ratio of 1:1.01 and a NaOH/kaolin ratio of 1:2.4 was treated with NaOH 2M solution at 90°C for 16 hours. Fure transform infrared spectroscopy (FTIR) analysis of the resulting synthetic zeolite is also presented. Sources of optimal conditions for stable hydrothermal synthesis of zeolites from natural kaolinite are also explored and discussed in this paper.

Key words: kaolin, nanosturukture, metakaolin, zeolite, spectroscopy

ADABIYOTLAR TAXLILI VA METODLARI.

Seolitlar odatda ishqoriy va gidroksid tuproqli metallarning suvli aluminosilikatlari bo‘lib, ramka bo‘shlig‘i ochiq tuzilishga ega. Ularning kristali uch o‘lchamli ramkasi alyuminiy-kremniy-kislorodli tetraedralardan iborat [(Si,Al)O4] oddiy, qo‘sh va murakkabroq halqalarga birlashtirilgan holatda namoyon bo‘ladi. Tetraedralar bilan bog‘langan kanallari bilan bog‘langan ochiq kataklarni (kirish oynalari) hosil qiladi. Ularning o‘lchamlari 0,3 dan 1 nm gacha o‘zgarib turadi.[1] Seolitlarning kristall panjarasi uch o‘lchamli uzluksiz ramkalardan iborat bo‘lib, ularning katta bo‘shliqlarida kationlar va turli miqdordagi suv molekulalari joylashgan bo‘lib, seolitlarda ularni bog‘laydigan bo‘shliqlar va kanallarning umumiy hajmi kristall hajmining taxminan 50% ni tashkil qiladi. Ichki bo‘shliqlar va ularni bog‘laydigan kanallar asosan suv molekulalari bilan to‘ldirilgan bo‘ladi. Umuman olganda, seolitlarning tarkibini quyidagi formula bilan ifodalanadi: [3]

$M_xD_y[Al_{x+2y}Si_zO_{2x+4y+2z}]\cdot nH_2O,$

bu yerda M va D mos ravishda mono va ikki valentli kationlardir.

Tadqiqot maqsadi

Seolitlarni sanoat uchun mos shakllarda sintez qilish katta ahamiyatga ega. Seolitning birinchi sintezi 1862 yilda Kler-Devil tomonidan amalga oshirilgan. Barrer 1948 yilda poydevor yaratish ishlari faoliyatida keng ko‘lamli ahamiyatga ekanligini, aluminosilikat jellardan sintez qilish mumkinligini ko‘rsatdi. [6]

NaA seoliti o‘zining molekulyar elakdan o‘tkazish, ion almashish va suvni adsorbsiyalash xususiyatlari bilan katta sanoat ahamiyatiga ega hisoblanadi. Si/Al molyar nisbati deyarli birga teng bo‘lsa, tabiiy kaolin NaA seolitini tayyorlash uchun ideal xom ashyo bo‘lib xizmat qiladi. Kaolin eng ko‘p qirrali sanoat minerallaridan biri va ishlatiladigan juda ko‘p tarmoqlari mavjud. [4]

Kaolin mineralidan NaA seolitini sintez qilish jarayonlari 1970 yildan natriy gidroksid eritmasi bilan kaolinga ishlov berib, gidrotermik reaksiya orqali sintez qilina boshlangan [2]. AKF-78 markali Angren kaoliniga 2M NaOH bilan ishlov berilib, gidrotermik sintezda Na-A seoliti olindi. Sintezlangan mahsulot Fure transform infraqizil (FTIR) spektroskopiyasi bilan tavsiflandi.

Sintez jarayonlarida ishlatiladigan barcha reagentlar va materiallar analitik yoki qo‘shimchalarsiz sof reagentlar hisoblanadi. Xom kaolin moddasi pechda 100°Cda 6 soat davomida quritilgan. Ishqoriy faollashtiruvchi vosita, natriy gidroksidi (NaOH), xom kaolindagi ortiqcha qo‘shimchalarni (Fe_2O_3) tozalash uchun oksalat kislota, $SiO_2/Al2O_3$ molar nisbatini yaxshilash uchun γ-Al_2O_3 va AKF-78 markali Angren kaolini. Barcha suvli eritmalarni tayyorlash uchun suvni tozalash tizimida destirlashtirilgan suv ishlatilgan.

OLINGAN NATIJALAR VA MUHOKAMALAR. Na-A seoliti sintezini amalga oshirishda AKF-78 markali Angren kaolini namunasi HERZOG-100P tegirmonida maydalanib, 100 nm o‘lcham kattalikgacha tayyorlab olindi.

Tegirmonida maydalangan 10 g namunani mos ravishda $N_2C_2O_4$ ning 0.5 M eritmasi bilan 100°Cda magnit aralashtirgichda (Stable Temp Cole Palmer) ishlov berilib, xona haroratiga qadar sovutildi va filtrlandi. Filtrlangan namuna (ChOL-2,5.2,5.2,5/2M) mufel pechida 60 °C da 4 soat quritildi.

Kaolinni metakaolinga o‘tkazish jarayoni (kaolinit- kaolin gillari shaklida qazib olinadi) 500-800 ° C harorat oralig‘ida qizdirish orqali olib boriladi [5].

$$2\ Al_2Si_2O_5(OH)_4 \xrightarrow{550\text{-}650\ ^oC} 2\ Al_2Si_2O_7 + 4\ H_2O$$

Ushbu sintez jarayonida ishlatiladigan metakaolinni tayyorlash uchun $N_2C_2O_4$ ning 0.5 M eritmasi bilan ishlov berilgan kaolin (ChOL-1,6.2,5.1/11-IZ IP20) 1100°C mufel pechida 650°C haroratda 4soat davomida qizdirildi. Termik suvsizlanish jarayoni amalga oshirildi (1-rasm.)



1-rasm. a) 650°C haroratda qizdirib olingan metakaolin b) γ-Al_2O_3

Olingan metakaolin/γ-Al_2O_3 aralashmasi 2.2/1 nisbatda olinib 2M NaOH eritmasi bilan (Stable Temp Cole Palmer) magnit aralashtirgichda 50°C haroratda 24 soat aralashtirildi. Tayyorlab olingan aralashma teflondan yasalgan 100 ml hajmli idishga joylashtirilib, 90 °C haroratda 16 soat davomida saqlandi.(2-rasm) Namuna tarkibidan ortiqcha NaOHni olib

tashlash uchun distillangan suv bilan bir necha marta yuvildi (pH-7) va (ChOL-2,5.2,5.2,5/2M) pechida 60 °C da 12 soat davomida quritildi.



2-rasm. Sintezlangan NaA seolitning FTIR yutuvchanlik, o‘tkazuvchanlik spektri.

Sintez qilingan namunaning (Bruker ALPHA II FT-IR) spektrometri yordamida infraqizil nurlarni yutuvchanligi, o‘tkazuvchanligi tekshirib korildi. (2-rasm) Sintezlangan NaA seolitining namunasi FTIR spektri 1001,15 sm^{-1} da yuqori intensivlik bilan keskin cho‘qqilarni ko‘rsatadi. Bu yuqori intensiv kuchli tebranish assimetrik Si-O-Si cho‘zuvchi tebranishiga to‘g‘ri keladi. O‘tkir tarmoqli 466,86 sm^{-1} dagi tebranishlar Si-O yoki Al-O tebranishiga yaqin hisoblanadi. Simmetrik Si-O-Si tebranishi esa 719,40 sm^{-1}da qayd etilgan bo‘lib, tarmoqli Si-O-Si bog‘lanishining assimetrik tebranishi bilan solishtirganda kamroq intensivlikka ega ekanligi kuzatishimiz mumkin. Bu holat Si-O-Si bog‘lanishining nosimmetrik tebranish ehtimoli, assimetrik tebranishning cho‘zilish va egilishi bilan solishtirganda kamroq ekanligi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Yana bir o‘tkir chiziq 566,09 sm^{-1} da paydo bo‘lgan bo‘lib, bu LTA tipidagi seolit strukturasida ikkilamchi qurilish birligi bo‘lgan qo‘shaloq 4 halqaning (D_4R) mavjudligi bilan bog‘liq hisoblanadi. Ushbu strukturaga sezgir chiziqning intensivligi amorf massaning sezilarli darajada o‘zgarishini ko‘rsatib, tayyorlangan gelning kristalli NaA tipidagi seolit materialiga massa jihatidan katta miqdordagi aylanish sodir bo‘lganligini ko‘rsatadi.

Bundan tashqari, sintezlangan NaA seolit namunasida seolitning gidratatsiya suviga xos bo‘lgan ikkita IQ diapazonini borligini ham ko‘rishimiz mumkin. Seolitlarda suv molekulalari kationlar bilan bog‘langan bo‘lib, vodorod atomi ma’lum darajada ramkaning kislorod ionlari bilan bog‘langan bo‘ladi. Suv molekulalarining seolitning kationi yoki ramkadagi kislorod ionlari bilan bog‘lanishi strukturaning ochiq tuzilishiga bog‘liq. 3444,0 sm^{-1} da kuzatilgan keng tarmoqli tebranish ramkaning kislorod ionlari bilan bog‘langan (OH) vodorodiga xos ekanligi ko‘rsatadi. Shuningdek, olingan spektrometrning 1640,87 sm^{-1} tebranish rejimida suv molekulasi xarakteristikasiga ega bo‘lgan intensiv chiziq ham mavjudligini ko‘rishimiz mumkin. NaA seolitining o‘tkir va chuqur tebranish rejimi gidratsiya suvi NaA seolitning

gidrofobik xususiyati va gidratsiya suvining yuqori foizini ko‘rsatadi. Shunday qilib, sintezlangan NaA seolitning FTIR spektr tebranishlaridan o‘xshash strukturaviy birliklar va bir xil kimyoviy qismlar shakllanadi.

XULOSA, AKF-78 boyitilgan kaolini foydalanib sintetik NaA seoliti gidrotermal usulda sintez qilib olindi. Sintetik seolitni olishda nisbatlar qonunidan foydalanildi. Olingan seolit namunasi Bruker ALPHA II FT-IR spektrometri tahlil qilinganda sintetik NaA seoliti ($Na_{12}Al_{12}Si_{12}O_{48}$) olinganligi isbotladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. Abdmeziem-Hamoudi K. & Siffert B. Synthesis of molecular sieve zeolites from a smectite- type clay material //. Applied Clay Science, Szostak, - 1989 - Volume 4,

2. Breck, D.W., Zeolite Molecular Sieves: Structure // Chemistry and Uses. John Wiley, New York. - 1974.

3. Курс лекций по дисциплине «химия цеолитов» (индекс В2.02) для направления подготовки бакалавров направления 240100.62 «Химическая технология», 2011 г

4. Муррай Ҳ.Ҳ., Овервиew: Слай Минерал Апплисатион. // Аппл. Слай Сси. - 1991.- 5, 379–395.

5. Путилин Ю.М., Белякова Ю.А., Голенко В.П. и др. Синтез минералов. // М.: Издательство "Недра", 1987. — Т. 2. — С. 144. — 256 с.

6. Synthesis and characterization of zeolite A by hydrothermal transformation of natural Jordanian kaolin //. Journal of the Association of Arab Universities for Basic and Applied Sciences -2014.- Volume 15, – Issue-1

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 1-son)

TABIIY FANLAR

NATURAL SCIENCES

AS-NABALI OZIQ OVQAT QO‘SHILMASINING KAPILLYAR-PROTEKTORLIK TA’SIRINI IN VITRO SHAROITDA O‘RGANISH

Asqarov Ibrohim Rahmonovich
k.f.d, professor. Andijon davlat universiteti
Razzakov Nabijon Alijonovich
PhD. Kokand university Andijon filiali

Annotatsiya. Ushbu maqolada «ASNABALI» va «ALINAB» oziq - ovqat qo‘shilmalarining kapilyar – protektorlik faolligini in vitro sharoitda o‘rganilib, namunalarning KCl bilan chaqirilgan kalamush aortasi silliq muskul preparati qisqarishi ta’siriga nizbatan baholanishi berilgan. Yangi tabiiy oziq - ovqat qo‘shilmalarining kapilyar – protektorlik faolligini eksperimental isbotlash orqali, ularni nevrologik kasalliklarda xususan, nevrosteniya va xotiraning pasayishi (enselopatiya) kasalliklarini davolashda qo’llash mumkinligi isbotlangan.

Kalit so‘zlar. Alsgeymer, flavonoid, gall kislota, rutin, kognitiv, angioprotektor, Ca^{2+}-kanali, relaksant ta’sir, indusirlangan qisqarish.

Абстрактный. В данной статье изучена капиллярозащитная активность пищевых добавок «АСНАБАЛИ» и «АЛИНАБ» in vitro, а также оценены образцы относительно эффекта стимулированного KCl препарата гладких мышц аорты крыс. Экспериментально доказав капиллярозащитную активность новых натуральных пищевых добавок, доказана возможность их применения при неврологических заболеваниях, в частности, при лечении неврастении и снижения памяти (энцелопатии).

Ключевые слова. Альцгеймер, флавоноид, галловая кислота, рутин, когнитивные функции, ангиопротектор, Ca^{2+}-канал, релаксантный эффект, индуцированное сокращение.

Abstract. In this article, the capillary-protective activity of "ASNABALI" and "ALINAB" nutritional supplements was studied in vitro, and the samples were evaluated relative to the effect of KCl-stimulated rat aorta smooth muscle preparation. By experimentally proving the capillary-protective activity of new natural food additives, it has been proved that they can be used in neurological diseases, in particular, in the treatment of neurosthenia and memory loss (encelopathy).

Keywords: Alzheimer's, flavonoid, gallic acid, rutin, cognitive, angioprotector, Ca^{2+}-channel, relaxant effect, induced contraction.

KIRISH

Jahon sog‘liqni saqlash tashkilotining bergan ma’lumotiga ko‘ra, Yevropada nevrologik kasalliklar jami kasalliklarning 35% ni tashkil qiladi. Dunyo aholisi ichida insult, demensiya tutqanoq va Parkinson kasalliklari o‘limni belgilovchi eng muhim kasalliklar bo‘lib qolmoqda. Chorak asr davomida dunyo aholisi orasida Parkinson kasalligining kuzatilishi 15,7%, Alsgeymer kasalligi – 2,4% ga, tayanch xarakat tizimi – 3,0% ga va asab tizimi kasalliklari esa 8,9% ortgan [1, 2].

Ma’lumki, hozirgi kunda insoniyat barcha sohalarda yangidan – yangi yutuqlarga erishib, taraqqiyot sari ildamlab borgan sari, tevarak-atrofdan keladigan ma’lumotlar soni va turi shuncha ko‘payib bormoqda.Shu bilan birga zamonaviy inson organizmi o‘tmishdagi kishilar organizmidan farq qiladi. Bunga ruhiy-fiziologik, ekologik omillar sabab bo‘lishi mumkin. Nafaqat insoniyat balki dorivor o‘simliklarda ham o‘zgarish kuzatilib, xalq tabobatida ulardan foydalanishda har inson organizmi alohida bir individual xususiyatga ega ekanligini hisobga olmoq kerak [3].

Shunday qilib, flavonoidlarga boy o‘simliklar mahsulotlarini (mevalar) iste’mol qilish orqali markaziy nerv sistemasining kognitiv (ma’lumotlarni taxlil qilish, aqliy taxlil) funksiyasiga va oxir oqibat xotira kabi muhim fe’l-atvor xususiyatlarga ta’sir qilish mumkin. Flavonoidlar angioprotektor ya’ni kapilyar qon tomirlarning mustaxkamligini oshiradi va qon aylanishini yaxshilaydi. Shu bilan birga

kardioprotektor (yurak qon tomirlari va periferik qon tomirlarda qon aylanishini yaxshilash) xossasiga ham egadir [4]. Shunday dorivor o‘simliklardan Ginkgo bilobo va Golden root bo‘lib, biz tomondan ushbu o‘simliklarning kimyoviy tarkibini fizik – kimyoviy usullar bilan o‘rganildi va tadqiqot natijalariga tayangan xolda bemorlarning kognitiv faoliyatni yaxshilash maqsadida “As- Nabali” nomli yangi oziq – ovqat qo‘shilmasini ishlab chiqdik. G.bilobo daraxti O‘zbekistonning mo‘tadil iqlimiga introduksiya qilingan bo‘lib, xomashyo zaxirasi yaratilgan. Oltin tomir (Golden root) dorivor o‘simligi esa yovvoyi sharoitda dalalar va adirlarda uchraydi. Xar ikki o‘simliklarning kimyoviy tarkibi o‘rganildi, ular flavonoidlar, vitaminlar kabi biologik faol moddalarga boy ekanligi eksperiment yo‘li bilan isbotlandi. Ginkgo bilobo va Golden root asosida xosil qilingan yangi kompozisiya rutin, kversetin, gall kislotasi kabi angioprotektorlik faollikka ega bo‘lgan polifenollarga boy ekanligi ilmiy asosda tasdiqlandi. Angioprotektorlar – qon tomir devorlarini mustahkamlashga, ularning elastikligini oshirishga, o‘tkazuvchanlik xamda to‘qimalarni tiklash xususiyatiga ega bo‘lgan biologik faol birikmalardir. Angioprotektiv dorilar juda keng ta’sir doirasiga ega bo‘lib, ko‘plab qon tomir va venoz kasalliklarni davolashda qo‘llaniladi. Angioprotektorlarning ta’sir qilish mexanizmi yallig‘lanish vositachilarini (serotonin, gistamin) bostirish, gialuron kislotasi hosilalarining faolligini kamaytirish, qon tomir devorlarining o‘tkazuvchanligini normallashtirish, qon tarkibini yaxshilash orqali mikrosirkulyasiyani yaxshilashdan iboratdir [5].

Flavonoidlar (rutin, quercetin, hesperidin, katexinlar) vena qon tomirlari devorlarining tarkibini mustaxkamlaydi va uning tonusi (tarangligi)ni oshiradigan biologik faol birikmalardir birikmalardir. Rutin, shuningdek, qon tomirlarining tashqi o‘tkazuvchanligini kamaytirish xususiyatiga ega bo‘lib, optimal qon mikrosirkulyasiyasini yaxshilaydi [6].

Tadqiqot ob’ekti va usullari. As-Nabali oziq ovqat qo‘shilmasining kapillyar-protektor ta’sirini baholashda ekstraktning kapillyar-protektorlik xususiyatini yallig‘lanish hosil qiluvchi KCl ta’sirida chaqirilgan tomir o‘tkazuvchanligining o‘zgarishi, in vitro sharoitda o‘rganildi.

Eksperimental qism. Tadqiqot davomida KCl (50 mM) ta’sirida chaqirilgan aorta preparatining qisqarish faolligi silliq muskul hujayralari plazmalemmasida joylashgan potensialga bog‘liq Ca^{2+}- kanallari faollashishi bilan belgilanadi. Bunda muhitdagi K^+ ionlari konsentratsiyasi ortishi sharoitida membrana potensiali qiymati o‘zgaradi va o‘z navbatida, membrana depolyarizatsiyasi amalga oshadi va potensialga bog‘liq Ca^{2+}-kanallari faollashadi hamda hujayralarni sitoplazmasida Ca^{2+} ionlari konsentratsiyasining ortishi hisobiga qisqarish kuchi ortadi [7; 8]. Shu nuqtai nazardan, tajribalarda aorta preparatlarida KCl (50 mM) yordamida chaqirilgan qisqarish faolligiga As-Nabali oziq ovqat qo‘shilmasi ta’siri o‘rganildi, Bunda ushbu ekstrakt konsentratsiyaga bog‘liq holatda (50 mkl) kuchli relaksant ta’sirga ega ekanligi aniqlandi. Jumladan, 5 mkl konsentratsiyada aorta preparati qisqarish faolligi amplitudasini nazoratga nisbatan 10±3,5% ga susaytirishi aniqlandi, shuningdek, 50 mkl konsentratsiyada bu qiymat 88,8±3,4% ni tashkil qilishi qayd qilindi. Quyidagi rasmda tadqiqot natijalari berilgan:



1-rasm KCl bilan chaqirilgan kalamush aortasi silliq muskul preparati qisqarishiga ta’siri.

Yuqorida aorta preparatining KCl (50 mM) yordamida chaqirilgan qisqarish kuchi (ordinata o‘qida) 100% deb hisoblangan, abssissa o‘qida –ekstraktning konsentrasiyasi (mkM) ifodalangan. Barcha holatlarda *p<0,05, **p<0,01; n=5-6) tashkil qiladi. Olingan tajriba natijalari asosida tekshirilgan oziq- ovqat qo‘shilmasi ekstraktining relaksant ta'siri silliq muskul hujayralari sarkolemmasida joylashgan potensialga bog‘liq Ca^{2+}-kanallarini bloklanishi natijasida va ularning sitoplazmasiga Ca^{2+} ionlari kirishi susayishi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkinligini tahmin qilish mumkin.

Ma'lumki, qon tomir silliq muskul hujayralarining qisqarish faolligida potensialga bog‘liq faollashuvchi Ca^{2+} L–kanallaridan tashqari sarkoplazmatik retikulumda (SR) joylashgan Ca^{2+} – transport tizimlari ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi [5; 6].

Shu sababli, navbatdagi tajribalarda tekshirilayotgan ekstraktning aorta qon tomiri silliq muskul preparatining relaksant ta'sirini α–adrenoreseptor agonisti – fenilefrin (1 mkM) ta'sirida yuzaga keltirilgan qisqarish kuchiga ta'siri o‘rganildi. Ma'lumki, bunda fenilefrin (1 mkM) ta'sirida yuzaga keluvchi qisqarish kuchi SR dan chiquvchi, va shuningdek, reseptor orqali boshqariluvchi Ca^{2+}–kanallaridan kiruvchi Ca^{2+} ionlari hisobiga $[Ca^{2+}]$in miqdori ortishi bilan bog‘liq hisoblanadi [6]. Bunda ushbu ekstrakt maksimal konsentrasiyada (40 mkl) fenilefrin (1 mkM) ta'sirida yuzaga keltirilgan qisqarish kuchini nazoratga nisbatan 89,6±3,6% ga kamaytirishi aniqlandi .



2-rasm. Fenilefrin bilan chaqirilgan kalamush aortasi qisqarishiga 40 mkl ekstraktning ta'siri.

Muhokama. Yuqoridagi berilgan natijalardan ko‘rinib turiptiki, in vitro sharoitda tekshirilgan “As - Nabali” oziq – ovqat qo‘shilmasi ekstrakti relaksant ta'sirga ega bo‘lib, ushbu ta'sirning ta'minlanishida ko‘plab mexanizmlar ishtirok etadi. Tadqiq qilinayotgan ekstraktning ushbu ta'siri asosida SMH laridagi $[Ca^{2+}]$i darajasining pasayishiga asoslanadi, bu esa KCl-indusirlangan qisqarish sharoitda Yuqoridagi berilgan natijalardan ko‘rinib turiptiki, in vitro sharoitda tekshirilgan “As - Nabali” oziq – ovqat qo‘shilmasi ekstrakti relaksant ta'sirga ega bo‘lib, ushbu ta'sirning ta'minlanishida ko‘plab mexanizmlar ishtirok etadi. Tadqiq qilinayotgan ekstraktning ushbu ta'siri asosida SMH laridagi $[Ca^{2+}]$i darajasining pasayishiga asoslanadi, bu esa KCl-indusirlangan qisqarish sharoitda Yuqoridagi berilgan natijalardan ko‘rinib turiptiki, in vitro sharoitda tekshirilgan “As - Nabali” oziq – ovqat qo‘shilmasi ekstrakti relaksant ta'sirga ega bo‘lib, ushbu ta'sirning ta'minlanishida ko‘plab mexanizmlar ishtirok etadi. Tadqiq qilinayotgan ekstraktning ushbu ta'siri asosida SMH laridagi $[Ca^{2+}]$ i darajasining pasayishiga asoslanadi, bu esa KSl-indusirlangan qisqarish sharoitda $Ca^{2+}{}_{L}$ kanallari blokadasi bilan ta'minlanadi.

Fenilefrin yordamida indusirlangan kontraktura sharoitida Ca^{2+} R – kanallari orqali Ca^{2+} ionlari oqimining kamayishi va ularning SR dan chiqarilishining ingibirlanishi, o‘rganilgan ekstraktning ta'sirida SMH laridagi $[Ca^{2+}]$i darajasini susayishini ta'minlashi mumkin.

Xulosa. Demak, «ASNABALI» oziq ovqat qo‘shilmasining kapillyar- protektor - lik ta'sirini in vitro sharoitda o‘rganish natijalariga ko‘ra, ushbu tabiiy vosita markaziy asab tizimi xujayralarining ozuqa bilan ta'minlanishi jarayonini yaxshilaydi. Bu esa, bemorlarning fikrni jamlash, xotirani yaxshilash, muammolarga rasional echim topish ya'ni kognitiv faoliyatni normallashishiga yordam beradi degan xulosaga olib keladi.

Markaziy asab tizimi kasalliklarini oldini olish va davolash uchun biz tomondan mahalliy dorivor o’simliklar asosida «ASNABALI» nomli yangi tabiiy shifobaxsh va zararsiz oziq-ovqat qo’shilmalari ishlab chiqarish yo’lga qo’yildi. Ushbu maxsulotlarimiz hozirda asab tizimi kasalliklarida davolashda qo`llanilayotgan "Gingko biloba" (ATM Pharm. O`zbekiston, Rossiya, Ukraina) hamda “Evalar” (Evalar. Rossiya) kabi oziq-ovqat qo`shilmalaridan tan narxining arzonligi tomonidan afzallikka egadir.L kanallari blokadasi bilan ta'minlanadi.

Fenilefrin yordamida indusirlangan kontraktura sharoitida Yuqoridagi berilgan natijalardan ko‘rinib turiptiki, in vitro sharoitda tekshirilgan “As - Nabali” oziq – ovqat qo‘shilmasi ekstrakti relaksant ta'sirga ega bo‘lib, ushbu ta'sirning ta'minlanishida ko‘plab mexanizmlar ishtirok etadi. Tadqiq qilinayotgan ekstraktning ushbu ta'siri asosida SMH laridagi [Ca^{2+}]i darajasining pasayishiga asoslanadi, bu esa KCl-indusirlangan qisqarish sharoitda Ca^{2+} L kanallari blokadasi bilan ta'minlanadi.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР

1. А.Г. Самусенко // Заболеваемость и инвалидность взрослого населения старше трудоспособного возраста вследствие болезней нервной системы и совершенствование медико-социальной реабилитации: дис. канд. медиц. наук .—М , 2020 . – С.12

2. М.В. Селина // Альцгеймера, Паркинсон и другие // Национальный исследовательский университет «Высшая школа экономики» Научно образовательный портал IQ Новости. 2017.

3. Асқаров И.Р. Табобат қомуси // Тошкент - “ Mumtoz so’z” масъулияти чекланган жамият, - 2019, 1136-б

4. Ажикова А.К. Гинкго двулопастный (Ginkgo biloba l.):перспективы использования в фармации // Прикаспийский вестник медицины и фармации, Том 1, № 1, 2020, С.8

5. Посохина . А. А // Разработка и стандартизация сбора ангиопротекторного и экстракта сухого на его основе // Диссертация. Иркутск 2021. С.51

6. Antihypertensive effects of the flavonoid quercetin / Perez-Vizcaino Francisco [et al.] // Pharmacological Reports. – 2009. – Vol. 61. – P. 67–75.

7. Vandier C., Guennec Jean-Yves L., Bedfer G. // What are the signaling pathways used by norepinephrine to contract the artery? A demonstration using guinea pig aortic ring segments // Adv. Physiol. Educ. – 2002. – V.26(1-4). – P. 195-203.

8. Webb R.C. // Smooth muscle contraction and relaxation // Adv. Physiol. Edu. – 2003. – V. 27. – P. 201-206.

9. Chalmers S., Olson M.L., Mac M.D., Rainbow R.D., McCarron J.G. Ion channels in smooth muscle: Regulation by the sarcoplasmic reticulum and mitochondria // Cell Calcium.– 2007. – V.42.– P.447-466.

10.Wray S., Burdyga T. Sarcoplasmic reticulum function in smooth muscle // Physiol. Rev. – 2010. – V.90(1). – P.113-178.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 1-son)

TABIIY FANLAR

NATURAL SCIENCES

SARATON KASALGINI KIMYOVIY TERAPIYA USULIDA DAVOLASHDA QO‘LLANILADIGAN SINTETIK DORI VOSITALARI VA ULARNING TUZILISHI

Kirgizov Shahobidin Mirraimovich
DSc, professor. Andijon davlat universiteti
Jo‘raboyev Abrorbek Odiljon o‘gli
Mustaqil tadqiqotchi. Kokand university Andijon filiali

Annotatsiya. Ushbu maqola hozirgi kunlarda dunyo bo’ylab tibbiyot xodimlarining umumiy muammolari ichida eng asosiysi hisoblanuvchi onkologik kasalliklar haqida.Saraton kasalliklarini davolashda qo’llanilayotgan kimyoviy terapiya usulida ishlatilayotgan eng muhim sintetik dori vositalarining faol moddasi va uning tuzilishi hamda xususiyatlarini adabiyotlar asisida tahlili haqidadir. Shu bilan birga, ushbu sintetik dori vositalari qo’llanilganda keltirib chiqaradigan salbiy oqibatlarini bayon qiladi.

Kalit so‘zlar. saraton, kompozitsiya tarkibi, sintetik, trixlor etilen, ß-xloretilamin, kimyoviy terapiya.

Абстрактный. В данной статье речь идет об онкологических заболеваниях, которые в наши дни считаются наиболее важными среди распространенных проблем медицинских работников во всем мире. Речь идет о действующих веществах важнейших синтетических препаратов, используемых в методе химиотерапии, применяемом при лечении онкологических заболеваний. и анализ его структуры и свойств на основе литературных данных. В то же время описаны негативные последствия, вызванные употреблением этих синтетических наркотиков.

Ключевые слова. рак, состав соединений, синтетический, трихлорэтилен, β-хлорэтиламин, химиотерапия

Abstract. This article is about oncological diseases, which are considered the most important among the common problems of medical workers around the world these days. It is about the active substance of the most important synthetic drugs used in the chemotherapy method used in the treatment of cancer diseases, and the analysis of its structure and properties based on the literature. At the same time, it describes the negative consequences caused by the use of these synthetic drugs.

Keywords: cancer, composition, synthetic, trichloroethylene, ß-chloroethylamine, chemotherapy.

Kirish . Jadal sur'atlar bilan rivojlanayotgan davrda inson va uning salomatligi eng birinchi o'rinda turadi. Bu borada sintetik dori vositalarini va tabiiy o'simliklardan tayyorlangan dori darmon vositalari va biologik aktiv moddalarning o'rni kattadir, bugungi kunning o‘tkir va dolzarb muammolari bizdan zamonaviy taraqqiyotning asosiy tamoyillarini har tomonlama chuqur tahlil etish bilan birga, insoniyatning yaqin-olis tarixidagi boy tajribasini ham teran idrok etishni, shu asosda amaliy xulosalar chiqarishni taqozo etmoqda. Tarix tajribasi odamzod uchun tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda .

Saraton-surunkali metabolik kasalliklarning tuzalib ketilmaganligi natijasida ortirib olingan kasalliklar turiga kiradi. Tabiatda kasalliklarning aksariyati vitaminlar va minerallarning organizmdagi almashinuvi buzilishi oqibatidagi kasallik hisoblanadi. Inson tanasidagi kasalliklar orqali davolanmagan yoki organizmning dietasi bilan bog’liq omillardan ortirib olingan bo’lishi mumkin [1].

Mikroelement yetishmasligi organizmdagi moddalar almashinuvini buzib, boshqa organlar ish faoliyatiga zarar yetkazgan holda, bu jarayon natijasida boshlang’ich saraton kasalligini keltirishda sababchi bo’ladi. Shuning uchun bugungi kunda Saratonning davosi topilgani yo’q deb qaralmoqda. Har bir tuzalib ketilmagan kasallikning oxiri saraton boshlanishiga sabab bo’ladi. Saraton kasalligi boshlanganda og’riqni sezmasligi mumkin. Bu vaqtda esa saraton kasalligi kuchayib ketishiga zamin bo’ladi [9,10].

Xavfli o’smalar (saraton, rak) keng tarqalgan kasalliklardan biri bo’lib, Jahon Sog’liqni Saqlash Tashkiloti (JSST) bergan ma’lumotlarga ko’ra, so’ngi yillarda dunyoda har yili 9 millionga yaqin odam saraton bilan kasallanadi va ulardan 6 millionga yaqini dunyodan ko’z yumadi. Bu raqamlar sekin asta o’sib bormoqda. Xavfli o’smalar muammosini yechish sog’liqni saqlash tashkiloti hodimlarining markaziy masalalaridan biri bo’lib qolmoqda.

Tadqiqot ob’ekti va usuli. Tadqiqot adabiyotlar tahlili asosida olib borildi. Odatda onkologik kasalligi bor bemorlar birinchi bo’lib onkologga emas, balki boshqa soha shifokorlariga murojat etadilar. Xavfli o’smalarning boshlang’ich belgilarini bilish darajasi, uni o’z vaqtida aniqlay olish va bemorni tezda mutaxassislarga yuborilishi ko’pincha bemorning taqdirini hal qiladi.

O’smalar ko’p uchraydigan kasalliklardan biri bo’lib qolmoqda. O’smalarning kamayishida yoki ko’payishida atrof muhit, yashash sharoiti va mehnat muhim ro’l o’ynaydi. Zararli o’smalar organizm to’qimalarida rivojlanib, ular ichiga kirib tarqaladi va moddalar almashinuvi buziladi, a’zolar funksiyasini izdan chiqaradi. Zararli o’smalar a’zolar ichiga kirib, ularning asosiy to’qimalarini yemiradi va atrof a’zolariga ham tarqaladi.

Saraton kasalligi to’satdan paydo bo’lmaydi. Umuman har bir kasallikning boshlanish va rivojlanish tarixi bo’lganidek, saraton kasalligida ham shu jarayon mavjud. Ko’pincha saraton kasalligi nishonasi deb, surunkali kechadigan patalogik o’zgarishlardan so’ng rivojlanib boradigan kasallik tushuniladi [2].

Bu onkologiyada eng muhim davolash usullaridan biri bo’lib, xavfli o’smalarga qarshi turli kimyoviy moddalarni ishlatishga asoslangan. Zamonaviy kimyoterapiyaning tarixi 1946-yildan

boshlanadi. Qadimdan insonlar saratonni turli xildagi moddalar bilan davolashga urinib ko’rganlar. Ular o’simlik, hayvon mahsulotlari, minerallar va hokozolar bo’lgan.

So’ngi o’n yilliklar mobaynida saratonning molekulyar biologiyasi haqidagi bilimlar, eksperimental onkologiya hamda kimyoviy fan yutuqlari ba’zasida dunyoning mashhur farmosevtik kompaniyalari va firmalari orqali klinik onkologiyaga o’nlab o’smaga qarshi preparatlar kirib keldi.

XX asrning 40 yillarida ikkinchi jahon urishi vaqtida olingan ma’lumotlar bis-(ß-xloretil amin) qo’llanilishiga sabab bo’lgan. Bu ma’lumotlar janglarda zaxarlanganlardan olingan tadqiqotlardan bizgacha yetib kelgan. Azotli itrit (yoki trixlor etilen)larning organizmga ta’siri batafsil o’rganilganda olingan. Undan oldinroq 1919-yilda trixloretilamin ishtrokida leykotsitlarni va suyak ichining ilik ishlab chiqarishi aniqlangan. Keyingi tadqiqotlar shuni ko’rsatadiki, trixloretilamin limfa to’qimalariga yuqori darajada ta’sir ko’rsatadi va sichqonlarda limfodsidlarga o’smaga qarshi faollikka egaligi isbotlandi. Trixloretilaminning klinik sinovlari 1942-yilda boshlangan va bu ishlarning zamonaviy kimyoterapiyasining yangi asri boshlanishi bo’ldi [3].

Bis ß-xloretilamindan olingan moddalar sintezi birinchi marta XIX arsning oxirida amalga oshirilgan, lekin faqat ikkinchi jahon urishidan keyingina bu birikmalarning qon yaratuvchi tizim kasalliklariga qarshi ishlatish imkoniyati ko’rsatildi va amalda tibbiyot va kimyo fanlarining yangi sohasi-zararli o’smalar kimyoterapiyasiga asos solindi.

1950-1953-yillarga kelib, 500 ga yaqin bis ß-xloretilaminlar sintez qilindi. Lekin shu bilan birga ulardan ba’zilari faqat jaroxlik aralashuviga qo’shimcha dori vositasi sifatida qo’llanilish boshlangan edi. Ularning chegaralangan miqdorda qo’llanilishiga sabab xloretilaminlar o’smalar o’sishini bostirib, bir paytning o’zida tez bo’linuvchi barcha hujayralarga ta’sir ko’rsatadi. 1955-yildan boshlab tadqiqotchilar o’smalarning aynan o’ziga tanlab ta’sir ko’rsatuvchi birikmalarni olish maqsadida galogenaminlardan olingan moddalar sintezini amalga oshirdilar.

Agar 1960-yilga kelib galogenaminlardan olingan 2000 dan ortiq bo’lgan bo’lsa, 1978-yilga kelib, zararli o’smalarga qarshi va leykozga qarshi faoliyatini o’rganish maqsadida sintezlangan birikmalar soni 3000 dan oshdi.

Xavfli o’smalar muammosi, o’sma jarayonini o’rganishda, profilaktika, diagnostika va davolash usullarini ishlab chiqishda sezilarli yutuqlarga qaramay, zamonaviy tibbiyotda hanuz eng muhim muammolardan biri hisoblanib kelmoqda. O’lim sabablari orasida xavfli o’smalar qon va limfoid to’qimalarning xavfli o’smalar ishi va o’smalar kasalliklari dunyo statistikasiga ko’ra, yuqori darajada rivojlangan mamlakatlarda ikkinchi o’rinda turadi. Ilmiy ish tashxislari va davolashda katta yutuqlarga ega bo’lishganiga qaramay, saraton kasalligiga chalinganlarning soni juda ko’p. Chunki, bu insonlar muhitida mavjud bo’lgan konserogen mahsulotlarining ko’payishi bu esa, o’sma kasalligining yanada rivojlanishiga sharoit yaratib bermoqda. Shuningdek, oddiy hujayraning o’smaga o’zgarishi sabablari, o’smalarning potogenezi, hamda

ularning rivojlanishiga qanday sharoitlarda ko’payishiga aloqador ma’lumotlar ham mavjud emas.

Jahonning ko’plab mamlakatlarida turli kimyoviy birikmalarining antioksinlari va fizik-kimyoviy xususiyatlarini o’rganish sintez qilish usullarini o’rganib chiqish bo’yicha intensiv tadqiqotlar olib borilmoqda. Saraton kasalliklariga qarshi kurashishning yuqori samarali vositalari va usullarini ishlab chiqish xalq sog’lig’ini saqlashning muhim vazifalaridan biridir. Ular orasida onkologik kasalliklarni davolash uchun yuqori samarali dori vositalarning yaratilinishi va tibbiyot amaliyotiga joriy etish alohida o’rin tutadi. Onkologik amaliyotda qo’llaniladigan jaroxlik, nur bilan davolash va dori darmonlar bilan davolash ko’pincha bemorlarning to’liq va barqaror tuzalishiga olib kelmaydi. Shuning uchun bu og’ir kasallik bilan kurashishning yangi samarali vositalarni izlash, intensiv rivojlanishda davom etilmoqda.

Har bir dori vositasining xususiyatlarini, fizik-kimyoviy xossalarni, organizmdagi biotransformatsiya tezligi, farmokologik xarasteristikasini bilish, faqatgina kimyoviy tuzilishi va biologik ta’sir o’rtasidagi bog’liqlikni topish, eng ratsional dori vositalari va eng dori shakllarini, sxemalashtirish, rejimlarini va bemorlarda o’smaga qarshi dorilarni qo’llashdagina emas, balki yuqori samarali anibiotik moddalarning sintez qilishni yangi yo’llarini topishda ham yordam berishi mumkin.

Onkologiya kasalliklarini turli xil dori vositalari bilan davolash va diagnostika qilishda ahamiyatlik muaffaqiyatlar borligiga qaramasdan, ularning ishlash mehanizmlarini tushunishda ham ko’p muammolar uchrab turibdi. Bu vaziyat fiziologiya faolligi yuqori va xilma-xil bo’lgan va shu bilan bir vaqtda past do’zaga ega bo’lgan yangi-yangi preparatlarni yo’naltirilgan holda ishlab chiqarishni qiyinlashtiradi.

Bugungi kunda dunyoning yetakchi olimlari tomonidan saraton kasalliklarini kimyo terapiya yordamida davolash uchun 10 dan ortiq sintetik dori vositalari amaliyotga tatbiq etilgan. Lekin sintetik kimyoviy dori vositalari inson organizmida parchalanishi natijasida hosil bo’ladigan quyi molekulali mahsulotlarning ko’pchiligi, jigar, buyrak, taloq singari organlarga salbiy ta’sir ko’rsatadi. Oqibatda ko’pchilik bemorlarda kimyoviy terapevtik usullar bilan davolashdan so’ng qo’shimcha kasalliklar kelib chiqishi kuzatilmoqda. Saraton kasalliklarining davolashda tabiiy dori vositalardan hamda xalq tabobati uslublaridan ratsional foydalanish yo’llarini topish orqali, ushbu eng dolzarb muammoni ma’lum darajada hal etish mumkin. Quyidagi jadvalda saraton kasalliklarini davolashda qo‘llanilayotgan muhim sintetik kompositsiyalar tarkibiga kiruvchi ayrim moddalar va ularning tuzilishi keltirilgan:

1-jadval. Kimyoviy terapiyada qo‘llaniladigan muhim sintetik moddalar

№	Kompozitsiya tarkibidagi faol modda haqida ma’lumot	Tuzilishi

1	Sarkolizin (merfalan) - o’sma hujayraning bo’linishining barcha bosqichlarga ta’sir etadi. Retikulosarkoma, limfosarkoma, myeloma, yuing sarkomasi, tuxumdon saratonida	
2	Tifosfamid (TCPA) - bemor organizimida faol shaklga o’tadi. Sut bezi va tuxumdon saratoni, mezotelioma, retinoblastoma, limfogranulematozda	
3	Imidazol-karboksamid (DTIK) - organizmda faollashadi. Alkillovchi agent hamda antimetabolit hisoblanadi. Faqat vena orqali yuboriladi. Limfogranulematoz, melanoma, yumshoq to’qima sarkomasi, neyroblastomada	
4	Ifosfamid (xoloksan) - organizmda faollashadi. Vena orqali yuboriladi. Tuxumdon, moyak, ko’krak bezi va o’pkaning mayda hujayralari saratonida	
5	Siklofosfan (stitoksan, endoksan) - organizmda faollashadi. Ichish, mushak va vena orqali yuborish mumkin. Limfogranulematoz, xavfli limfolalar, o’pka bachadon bo’yni saratoni, suyak va yumshoq to’qima sarkomalarida qo‘llaniladi	

Yuqoridagi jadvalda hozirgi kunlarda onkologik kasalliklarda saraton hujayrakarining ko‘payib bo‘linishiga to‘sqinlik qiluvchi kimyoviy dorivor moddalarning tuzilishi hamda xususiyatlari berilgan. Ushbu faol moddalar tanadagi sog‘lom hujayralardan saraton hujayralari hosil bo‘lishini sekinlatish yoki hosil bo‘lgan rak hujayralarining ko‘payishiga va to‘g’ridan – to‘gti ularning nobut bo‘lishiga olib keladi.

Hozirgi kunda qo’llanayotgan preparatlar xavfli o’smalarning ko’pchiligini butunlay yo’q qilib yubormaydi. Faqat vaqtincha tuzalib turishga yordam beradi holos. O’smaga qarshi vosita sifatida birinchilardan bo’lib, tarkibida galogen bo’lgan birikmalardan xlor asosidagi preparatlardan foydalaniladi. Keyinchalik, davom etgan izlanishlardan so’ng organizmga toksik ta’sirini kamaytirish uchun Brom va Ftor kabi boshqa galogenlar saqlovchi birikmalardan foydalanishni boshlaganlar.

Muhokama. Yuqori reaksiya qobilyati bilan ajralib turuvchi galogenli preparatlarning eng muhimlari xloretilaminlardir. Alifatik xloretilaminlarining suvli eritmalardagi alifatik xloretilaminlarning o’ziga hos xususiyati ularning siklik birikmalar bilan tez ion hosil qilishidir.

Nukleofil alifatik xloretilaminlarning o’zaro ta’sirlanishi mexanizimi erituvchining qutblanishiga (dielektrik doimiysiga) va hujum qiluvchi guruppaning nukleofiliga bog’liq. Alifatik bis-(ß-xloretil)aminlar misol uchun embixin, suvda eriganda monoxloretilaminlardan ko’ra pastroq tezlikda etilammoniy kationini yaratadi.

Bu birikmalarning o’ziga xosligi shundaki ularning molekulasidagi ikkinchi elektrofil markazi faqat birinchi etilammoniy ioni ajralgandan keyingina reaksiyaga kirishishi mumkin [4].

Mamalkatimiz onkologik praktikasida uzoq vaqt davomida qo’llanilayotgan alifatik xloretilaminlar gurupasidan birinchi preparat embixin edi. Yuqori toksikligi oqibatida uni ishlab chiqarishdan olib tashlandi va toksikligi pastroq bo’lgan yangi preparat novaibaxin bilan almashtirildi. Ko’p xorijiy mamlakatlarda embixin hozirgi paytda ham o’smalarni davolash uchun qo’llanilmoqda. Yirik o’smalarga tanlab ta’sir ko’rsatadigan kengroq doiradagi zaxarligi pastroq bo’lgan preparatlarni olish maqsadida tadqiqotlar galogenalkil gurupalardagi alifatik xloretilaminlardagi xlorni boshqa galogenlarga (ftor, brom, yod) larga almashtirish yo’lida borilmoqda [5]..

Aniqlanishicha alifatik xloretilaminlar molekulasidagi xlor atomlarining bromga almashtirilish, birikmalarning biologik ta’siri deyarli aks etmagan va toksikologik ta’sirni olib kelmasligi aniqlandi. Embixin molekulasidagi xlor atomlarining ftor atomlari bilan to’liq almashtirish zaxarning pasayishiga olib keladi, ammo o’smaga qarshi ta’sir sustlashishi kuzatildi [6].

Aromatik qatordagi xloretilaminlar – aromatik 2-xloretilaminlar xususiyatlari aniq darajada alifatik qatordagi xloretilaminlar xususiyatlaridan farq qiladi.

tipdagi akril-azot bevosita bog’lanishli aromatik xloretilaminlar kam asoslikka ega va turg’un tuzlar yaratishga qodir emasdir [7].

Ularning gidrolizi va natriy tiosulfati bilan o’zaro ta’sirlanishi juda sekin o’tadi. pH= 5 ko’rsatkichda mono va biofunksional N-xloretilaminlarning gidrolizi SN-1 mexanizmi bo’yicha bo’lib o’tadi. Ushbu reaksiyaning sekin o’tuvchi statiyasi-xlor ionlarining ajralish statiyasidir. Shunga ko’ra, oraliq kation yaratilishi tezligi kanstantasi bevosita proton ajralib chiqishi tezligiga qarab aniqlanadi [8].

Aromatik xloretilaminlar gidrolizida etilammoniy kation yaratilishining tezligi ikkita faktorga bog’liq: aromatik yadro o’rinbosarlarining donor-akseptor xususiyatlariga va azot ammoniyni almashtirish (yoki o’rnini bosish) darajasiga bog’liq.

Xulosa. Olib borilgan adabiyotlar tahlili asosidagi izlanishlardan shuni xulosa o‘rnida ta’kidlash mumkinki, hozirgi kunlarda saraton kasalligini davolashda kimyoviy terapiyada qo‘llanilayotgan sintetik (zaharli) vositalar haqiqatdan saraton hujayralarining ko‘payishiga to‘sqinlik qiladi. Ammo, bu ta‘sir kasallikning rivojlanishini qisqa muddatlargagina sekinlashtira oladi. Shu bilan birga, bemorlarda kuchli og‘riq hamda bir nechta salbiy oqibatlar (soch to‘kilishi va teridagi o‘zgarishlar) ga olib keladi. Shuning uchun kasallikni oldini olish, buning uchun iste’moldan konservantlar qo‘shilgan oziq-ovqat mahsulotlarini kunlik ratsiondan chiqarib tashlash hamda antioksidant faollikka ega bo‘lgan dorivor o‘simliklardan foydalanish kerak ekanligini ta’kidlaymiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.

1.Аскаров И.Р. “Сирли табобат”, “Тошкент”, 2021-й, 571-б.

2..Муродхужаев Н.К,. Худойкулов Т.К., Жураев, М.Д, “Онкология” , “Узбекистон Республикаси Олий ва урта таьлим вазирлиги тиббиёт инситути талабалари”, Ташкент “Абу Али ибн Сино номидаги тиббиет нашриети” 2002-й 137-б.

3..Aleksenko S.S,.Matezuk M,.Foteeva L.S, Pawlak K.,.Timerbaev A.R, “Metallomics for drug development: an integrated CE-ICP-MS and ICP-MS approach reveals the speciation changes for an investigational ruthenium (III) drug bound to holo-transferrin in simulated cancer cytosol”. Metallolics. 2013-y. 95-99-n.

4. Аскаров И.Р.. “Табобат комуси”. Тошкент. “Mumtoz so’z “ 2019-й 161-б.

5..Киргизов Ш.М, Журабоев А.О.“ Central Asian Journal Of Education And Innovatsion” Химический состав синтетических препаратов применяемых при лечении опухолей головного мозга 2023 год 39-41 стр

6..Ужегов Г.Н. “Большая семейная энциклопедия народной медицины”. М: Олма Медия групп. 2007-й, 27-с.

7.Аскаров И.Р, Киргизов Ш.М Журабоев А.О // Практикум по органической химии // Андижан. 2023. 326 - с

8. Matczuk M., Foteeva L.S.,.Jarosz M, Galanski M., Keppler B.K., Hirokova T.,.Timerbaev A.R “Can neutral analytes be concentrated by transient isotachophoresis in micellar electrokinetic chromatography and how much?”. J.Chromatograf. 2014-y, 212-218-n.

9. Rakhmanovich, A. I. R. A. I., & Alijonovich, R. N. A. R. N. (2023). FLAVONOID COMPOSITION OF THE MEDICINAL PLANT GOLDEN ROOT. *Farg'ona davlat universiteti*, (4), 78-78.

10. Ibrokhim Rahmonovich Askarov, Nabijon Alijonovich Razzakov, Ziyodulloh Nabijon Ogli Razzakov (2023). Chemical composition of lavender acclimatized in Uzbekistan and its use in folk medicine. Journal of Advanced Zoology, 27 October 2023, Vol. 44, No. 3, 931-934 ref. 11

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 1-son)

TABIIY FANLAR

NATURAL SCIENCES

CHIQINDI GEKSANDAN OLINGAN PARAFINNING OKSIDLASH ORQALI SINTEZ QILINGAN YOG‘ KISLOTANI METANOL BILAN ETERIFIKATSIYALASH VA OLINGAN EFIRNING IQ-SPEKTRAL TAHLILI

Raxmatov Sherzod Shuxratovich
Buxoro muhandislik-texnologiya instituti mustaqil izlanuvchisi
G-mail:sherzodjon3003@gmail.com
tel: +99890611-99-95

Annotatsiya: "Uz-Kor Gas Chemical" MCHJ qo‘shma korxonasida polimerlanish jarayonida suyuq ikkilamchi mahsulot sifatida ajraladigan chiqindi geksan tarkibidan atmosfera bosimi ostida haydash orqali olingan parafinlarning yuqori vakillari katalitik oksidlanib yog` kislota sintez qilindi. Yog‘ kislotani metanol bilan eterifikatsyalash uchun dastlab tegishli massada yog‘ kislota hamda metanol tarozida tortib olindi kolbaga solib aralashtirildi va reagentlarning og‘irligi bo‘yicha 1-2% miqdorida konsentrlangan sulfat kislota (H_2SO_4), qo‘shildi va jarayon 60^OC haroratda 2 soat davom etdi. Reaksiya tugagandan so‘ng sulfat kislotani neytrallash hamda ortiqcha metanolni distillash orqali olib tashlandi hamda 86 % unumga erishildi. Eterifikatsyalash jarayoni mahsuloti IQ-spektral natijasi tahlil qilinganda tebranishlarining polosasi spektrning murakkab efirlarga xos bo`lgan 1750-1735 sm^{-1} oraliqdagi ($-CH_2-COOR$), 2853-2922 sm^{-1} oraliqdagi ($-CH_3$), 1458–1377 sm^{-1} oraliqdagi ($-CH_2$) va 721 sm^{-1} oraliqdagi $(-CH_2)_n$ guruhlari uchun tebranish chastotalari kuzatildi.

Kalit so‘zlar: chiqindi geksan, yog` kislota, metanol, eterifikatsyalash, konsentrlangan sulfat kislota, IQ-spektral, murakkab efir

ЭТЕРИФИКАЦИЯ СИНТЕЗИРОВАННОЙ ЖИРНОЙ КИСЛОТЫ МЕТАНОЛОМ ПУТЕМ ОКИСЛЕНИЯ ПАРАФИНА, ПОЛУЧЕННОГО ИЗ ОТХОДНОГО ГЕКСАНА И ИК-СПЕКТРАЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ПОЛУЧЕННОГО ЭФИРА

Аннотация: На СП ООО "Uz-Kor Gas Chemical" были синтезированы жирные кислоты путем каталитического окисления высших представителей парафинов, полученных перегонкой под атмосферным давлением из состава отхода гексана, выделяющегося в качестве жидкого вторичного продукта в процессе полимеризации. Для этерификации жирной кислоты метанолом сначала взвешивали соответствующую массу жирной кислоты и метанола, помешивали в колбу и добавляли концентрированную серную кислоту (H_2SO_4) в количестве 1-2% по массе реагентов, и процесс длился 2 часа

при температуре 60°C. В процессе этерификации жирной кислоты метанолом использовали метанол. После завершения реакции нейтрализацией серной кислоты и дистилляцией избытка метанола удалялся и получен выход 86%. При анализе ИК-спектрального результата продукта процесса этерификации полосы колебаний спектра были характерны для сложных эфиров в интервале 1750-1735 $см^{-1}$ ($-CH_2-COOR$), в интервале 2853-2922 $см^{-1}$ ($-CH_3$), в интервале 1458-1377 $см^{-1}$ ($-CH_2$) и в интервале 721 $см^{-1}$ $(-CH_2)_n$

Ключевые слова: отработанный гексан, жирная кислота, метанол, этерификация, концентрированная серная кислота, ИК-спектр, сложный эфир

ESTERIFICATION OF SYNTHESISED FATTY ACID WITH METHANOL BY OXIDATION OF PARAFFIN OBTAINED FROM WASTE HEXANE AND IR-SPECTRAL ANALYSIS OF THE RESULTING ESTER

Abstract: At the joint venture "Uz-Kor Gas Chemical" LLC, higher paraffins obtained by distillation under atmospheric pressure from waste hexane, which is separated as a liquid secondary product during the polymerization process, were synthesized by catalytic oxidation of fatty acids. For the etherification of fatty acids with methanol, initially, the appropriate mass of fatty acids and methanol was weighed, placed in a flask, mixed, and concentrated sulfuric acid (H_2SO_4) in an amount of 1-2% by weight of the reagents was added, and the process continued for 2 hours at a temperature of 60^OC. After the reaction was completed, sulfuric acid was neutralized and excess methanol was removed by distillation, and a yield of 86% was achieved. When analyzing the IR spectral results of the etherification product, vibrational frequencies were observed for the groups in the range of 1750-1735 cm^{-1} ($-CH_2-COOR$), 2853-2922 cm^{-1} ($-CH_3$), 1458–1377 cm^{-1} ($-CH_2$), and 721 cm^{-1} $(-CH_2)_n$, which are characteristic of complex esters.

Key words: waste hexane, fatty acid, methanol, etherification, concentrated sulfuric acid, IR spectrum, complex ether

KIRISH. Bugungi kunda, ishlab chiqarish, xom ashyo va ilmiy-texnikaviy yuqori salohiyatga ega bo'lgan kimyo va neft-gaz sanoati, O'zbekiston iqtisodiyotning yetakchi bazaviy sohalaridan biri hisoblanadi. Kimyo va neft-gaz sanoati respublika iqtisodyotini rivojlanishiga munosib ulush qo'shish bilan birga eksport qilish salohiyatini ham keskin oshirib kelmoqda [1].

Tabiiy resurslar va sanoat chiqindilaridan kompleks foydalanish, eng yangi, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va yangi, raqobatbardosh tovarlar ishlab chiqarish, mahalliy xomashyoni chuqur qayta ishlash va muvofiqlashtirish va boshqa masalalar O'zbekiston Respublikasining 2022-2026 yillarga mo'ljallangan rivojlanish strategiyasida alohida qayd etilgan [2].

Uglevodorodlarga bo'lgan ehtiyojning o'sishi va er yuzida yuzaga keladigan ekologik inqiroz uglevodorod manbalaridan samarali va oqilona foydalanish imkoniyatlarini chuqur

o'rganishni talab qiladi. Uglevodorodlarga qo'yiladigan ekologik talablar kimyo sanoati hamda neft va gazni qayta ishlash korxonalarining ikkilamchi mahsulotlarini qayta ishlashga imkoniyat yaratadi [3].

Mamlakatimizda neft va gaz sanoati ikkilamchi mahsulotini qayta ishlash va utilizatsiya qilish, ulardan samarali foydalanish, yuqori ko‘rsatkichlarga ega bo‘lgan sintetik yuqori yog‘ kislotalar olish hamda ularni metanol bilan eterifikatsiyalash asosida belgilangan xossali efirlar ishlab chiqarish texnologiyasini yaratish bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Neft va gazni chuqur qayta ishlash sanoatida ikkilamchi mahsuloti sifatida to‘planib borayotgan chiqindi geksan asosida xomashyo bazasini yaratish va ularni qayta ishlash usullarini ishlab chiqish va takomillashtirish orqali standart talablariga mos keluvchi sintetik yog‘ kislotalar olish va eterifikatsiyalash asosida belgilangan xossali efirlar ishlab chiqarish hamda import mahsulotlar sifat ko‘rsatkichlari bo‘yicha me’yoriy talablariga javob bera oladigan, to‘liq raqobatbardosh muqobil mahsulot ishlab chiqarishga alohida e’tibor berilmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR. "Uz-Kor Gas Chemical" MCHJ qo‘shma korxonasida polimerlanish jarayonida suyuq ikkilamchi mahsulot sifatida ajraladigan chiqindi geksan tarkibidan atmosfera bosimi ostida haydash orqali olingan parafinlarning yuqori vakillari katalitik oksidlab yog` kislotalar olingandan [4] so`ng metanol eterifikatsiyalab efir sintez qilindi.

Eterifikatsiya reaksiyasi spirtlarning karbon kislotalar bilan o‘zaro tasiri bo‘lib, efirlarning hosil bo‘lishiga olib keladi. Bu reaksiyada spirt molekulasi karbonil guruhining elektron yetishmaydigan uglerod atomiga hujum qilib, nukleofil agent vazifasini bajaradi.

Eterifikatsiya reaksiyasi qaytar va shuning uchun muvozanat bilan chegaralanadi (teskari reaksiya efir gidrolizi deb ataladi). Kislota va spirtning ekvimolyar miqdorini efirning nazariy hisoblangan miqdoriga aylantirish mumkin emas. Reaksiya natijasida ma’lum bir maksimal miqdordagi efir hosil bo‘ladi (bu har doim nazariy jihatdan hisoblanganidan past bo‘ladi) va reaksiyaga kirishmagan kislota va spirt qoladi. Kislota va spirtning bir-biri bilan reaksiyaga kirishishi va ularning reaksiya mahsulotlari (efer va suv) to‘planishi bilan, dastlab ahamiyatsiz bo‘lgan teskari reaksiya tezligi ortadi; bu holda to‘g‘ridan-to‘g‘ri reaksiya tezligi asta-sekin kamayadi. Nihoyat, dinamik muvozanat vaqt birligida kislota va spirtning qancha molekulalari kislota va spirtga ajraladigan efir molekulalari qancha miqdorda efirga aylanganda yuzaga keladi. Aralashmaning doimiy tarkibi bu ikki qarama-qarshi jarayonning bir xil tezligiga bog‘liq.

Ko‘pgina hollarda, reaktivlar va mahsulotning qaynash nuqtalari yaqin bo‘lib, bu reaksiya komponentlaridan biri bilan azeotrop aralashma shaklida suvni olib tashlashni qiyinlashtiradi, shuning uchun suvni olib tashlash uchun inert erituvchi qo‘shiladi; suv (benzol, toluol, uglerod tetraxlorid, xloroform va boshqalar) bilan past qaynaydigan azeotrop aralashmani hosil qiluvchi reaksiya aralashmasi. Azeotrop aralashma kondensatsiyalanganda ikkita qatlam hosil bo‘ladi - suvli va organik, chunki suyuq fazada erituvchi suv bilan aralashmaydi. Bunday holda, erituvchi reaksiya aralashmasiga qaytariladi va suv ajratgichda suv to‘planadi. Zichligi suvnikidan

kamroq bo‘lgan erituvchilarda suv ajratuvchi sifatida Dean-Stark nozul ishlatiladi. Mineral kislotalar (H_2SO_4, H_3PO_4) eferlanish reaksiyalarida nafaqat katalitik ta’sir ko‘rsatadi, balki suvni ajratuvchi moddalar sifatida ham ta’sir qiladi, shuning uchun ular ba’zan katalitikdan ko‘p miqdorda ishlatiladi (odatda karboksilik kislota og‘irligiga 5-10% mineral kislota ishlatiladi.) [5].

Sintez qilingan yog‘ kislotani metanol bilan eterifikatsyalash katalizator sulfat kislota ishtrokida 60^OC haroratda 2 soat davom etdi.

Dastlab tegishli massada yog‘ kislota hamda metanol tarozida tortib olindi kolbaga solib aralashtirildi va reagentlarning og‘irligi bo‘yicha 1-2% miqdorida konsentrlangan sulfat kislota (H_2SO_4), qo‘shildi.

Sintez qilingan yog‘ kislotani metanol bilan eterifikatsyalash mexanzmining umumiy ko‘rinishini quydagicha ifodalash mumkin.

$$CH_3\text{-}(CH_2)_8\text{-}COOH + CH_3OH \xrightarrow[H_2SO_4]{60\ ^OC} CH_3\text{-}(CH_2)_8\text{-}COOCH_3 + H_2O$$

Yog‘ kislotani eterifikatsiyalash jarayoni quyidagi laboratoriya qurulmasida amalga oshirildi (1-rasm)



1-rasm. Yog` kislotani eterifikatsiyalash laboratoriya qurulmasi

1-elektr pechkasi, 2-kolba, 3-dina-starka nasadkasi, 4-teskari sovutgich, 5-shtativ.

Aralashma 60^OC haroratda 2 soat davomida ushlab turildi. Reaksiya tugagandan so‘ng sulfat kislotani neytrallash hamda ortiqcha metanolni distillash orqali olib tashlandi hamda 86 % unumga erishildi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA. Shuningdek ajratib olingan mahsulotning IQ-spektral tadqiqotlari IRAffinity-1S SHIMADZU IK-Fure spektrometr asbobida o‘tkazildi. Tahlil natijalari 2-rasmda keltirilgan.



2-rasm. Sintez qilingan efirning IQ spektr tasviri.

IQ-spektral natijasi tahlil qilinganda tebranishlarining polosasi spektrning murakkab efirlarga xos bo`lgan 1750-1735 sm^{-1} oraliqdagi (-CH_2-COOR), 2853-2922 sm^{-1} oraliqdagi (-CH_3), 1458–1377 sm^{-1} oraliqdagi (-CH_2) va 721 sm^{-1} oraliqdagi (-CH_2)$_n$ guruhlari uchun tebranish chastotalari kuzatildi.

XULOSA. "Uz-kor Gas Chemisal" MCHJ qo‘shma korxonasida hosil bo‘lgan ikkilamchi natijalari shuni ko‘rsatdiki chiqindi geksan keyingi kimyoviy qayta ishlash uchun parafinlar m
i
q
d

ADABIYOTLAR RO‘YXATI.

i 1. Sobir Sayfullaevich VAQQOSOV., Shamsitdin Maxmanovich Xolmuratov., Shuhrat Burievich BUXAROV., Orifjon Sharipovich KODIROV., Xasan Irgashevich KADIROV. ¥KALIIY XLORIDNI FLOTATSION BOYITISH UCHUN SUYUQ PARAFINLAR ŧTARKIBI. ХИМИЯ И ХИМИЧЕСКАЯ ТЕХНОЛОГИЯ ḫttps://cce.researchcommons.org/journal – 2020. – №. 18. – С. 20-22.4. Райимов,
o 2. Исакулова Мукаддас Шукуровна. (2022). ХИМИЧЕСКИЙ СОСТАВ И ĦПРИМЕНЕНИЕ ТАР ПРОДУКТА ОБРАЗУЮЩЕЙСЯ ПРИ ПИРОЛИЗЕ ¥УГЛЕВОДОРОДОВ. "Экономика и социум" №9(100) 2022.

b
o
‘
y

3. Ахмедов В., Рахматов С. и Олимов Б. (2023). ИЗУЧЕНИЕ ФРАКЦИОННОГО СОСТАВА ОТРАБОТАННОГО ВТОРИЧНОГО ГЕКСАНА ПРОИЗВОДСТВА СП ООО «УЗ-КОР ГАЗ КЕМИКАЛ». *Универсум: технические науки*, (12-8 (117)), 35-37.

4. Рахматов Ш.Ш, Ахмедов В.Н. ПАРАФИНИНГ ЮҚОРИ ВАКИЛИ ОКСИДЛАШДАН ҲОСИЛ БЎЛГАН АРАЛАШМА ТАРКИБИДАН ЁҒ КИСЛОТАНИ ТОЗА ҲОЛДА ҲОЛДА АЖРАТИБ ОЛИШ УЧУН ЭРИТУВЧИ ТАНЛАШ KIMYO, ORGANIK MODDALAR VA NEFT-GAZ SANOATI SOHALARDAGI DOLZARB MUAMMOLAR VA INNOVATSION YECHIMLAR RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ANJUMAN Namangan – 2024 64-66 бет.

5. М. Ю. СКОМОРОХОВ, А. К. ШИРЯЕВ, Ю. Н. КЛИМОЧКИН. АЦИЛИРОВАНИЕ Методическое пособие стр. 44.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 1-son)

TABIIY FANLAR

NATURAL SCIENCES

INDOLIL SIRKA KISLOTASI SINTEZ QILISH QOBILIYATI BO‘YICHA ENDOFIT ACHITQILARNING SKRININGI VA IDENTIFIKATSIYASI

Shodiyeva Dildora G‘iyosovna,
Abdulmyanova Liliya Ilyasovna
O‘zRFA Mikrobiologiya instituti
dildoraannayeva786@gmail.com
+998979001040

Annatotsiya. Maqolada respublikaning turli hududlarida o‘sadigan mevali o‘simliklarning rezavorlari, mevalari va gullaridan ajratilgan endofit achitqilarni aniqlash bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan. 15 ta namunadan 25 ta achitqi izolyati MALDI TOF usuli yordamida aniqlandi. Endofitik achitqilarning 6 avlodi va 9 turi aniqlangan. Indolil sirka kislota (ISK) sintez qilish qobiliyati 14 ta shtammda tekshirilgan. *Hanseniaspora uvarum, Metschnikowia pulcherrima va Meyerozyma guilliermondii* shtammlari ISK sintez qilish qobiliyati bo‘yicha sarralab olangan.

Kalit so‘zlar: Endofit achitqilar, MALDI TOF, indolil sirka kislota, salkovskiy reagent.

Abstract. The article presents data on the identification of endophytic yeasts isolated from berries, fruits and flowers of fruit plants growing in different regions of the republic. 25 yeast isolates from 15 samples were identified using the MALDI TOF method. 6 genera and 9 species of endophytic yeasts were identified. The ability to synthesize indolyl acetic acid (IAA) was tested in 14 strains. The strains of Hanseniaspora uvarum, Metschnikowia pulcherrima and Meyerozyma guilliermondii were ranked according to their ability to synthesize IAA.

Keywords: Endophytic yeasts, MALDI TOF, indolyl acetic acid, Salkovsky reagent.

ADABIYOTLAR SHARHI

So‘nggi yillarda organik qishloq xo‘jaligiga bo‘lgan e'tibor ortib bormoqda, bu esa butun dunyo bo‘ylab qishloq xo‘jaligi sohasida ustuvor yo‘nalishga aylandi. Organik qishloq xo‘jaligi amaliyotlari bilan umumiy qishloq xo‘jaligi amaliyotlarini almashtirish uchun hal qilinishi kerak bo‘lgan ikkita asosiy muammo mavjud: zararkunandalarni nazorat qilish va kimyoviy moddalar ishlatmasdan yuqori hosilni qayta tiklash. Ushbu muammolarni turli organizmlar (bioagentlar) yordamida hal qilish mumkin, ular antifungal yoki o‘sishni rag‘batlantiruvchi yuqori potensialga ega. Tuproq rizosferasining foydali mikroorganizmlar bilan boyitilishi o‘simlik ildizlarini oziqlantirish sharoitlarini yaxshilashdagi ahamiyati mikrobial o‘g‘itlarni qo‘llashga olib keldi. Ular sun'iy sintetik o‘g‘itlar bilan solishtirganda sezilarli afzalliklarga ega, ya'ni ular fiziologik jihatdan faol moddalarni sintez qilib, o‘simliklarga taqdim etadi, fotosintez

faolligini oshiradi, o‘simliklarda fermentativ jarayonlarni kuchaytiradi, suv rejimini yaxshilaydi, boshqa tuproq mikroorganizmlarining faolligini rag‘batlantiradi, fitopatogen mikroorganizmlarga qarshi antagonistik ta'sir ko‘rsatadi va o‘simliklarning himoya funksiyalarini oshiradi [2].

Dunyo bo'ylab va hozirgi vaqtda Birlashgan Arab Amirliklarida, Yevropa davlatlarida, biologik o'g'itlarni qo'llash orqali kimyoviy o'g'itlar sarfini kamaytirishga katta qiziqish mavjud [3]. Shuningdek, turli kelib chiqishi, shu jumladan mikrobial bo'lgan o'sishni rag'batlantiruvchi moddalarni qo'llash orqali o'simliklarning hosildorligini oshirish usullariga katta e'tibor beriladi.

Bir qator bakteriyalar, zamburuglarning ma’lum fitagormonlar sintez qilish va o‘simliklarning o‘sishini rag‘batlantirish haqida ma’lumotlar mavjud. O‘simliklar bilan mikroorganizmlarning o‘zaro munosabati necha million yillar davomida amalga oshgan va bu esa ularning fitagormon faolligiga sezilarli ta’sir ko‘satgan deb taxmin qilinadi. Auksinlar,shu jumladan indol-3-asetik kislota, eng keng tarqalgan va eng ko'p o'rganilgan o'simlik gormonlari qatoriga kiradi. Geteroauksin o'simlik organlarining o'sishini va rivojlanishini tartibga soladi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, achitqi hujayralari tomonidan chiqarilgan auksin, makkajo'xori va xantal urug'larining ildiz rivojlanishini rag'batlantiradi. Ma’lumotlarga ko‘ra, indolil sirka kislota o'rmon tropik hududlari va fermer ekotizimlaridan olingan achitqilardan sintez qilinishi aniqlangan [2]. O‘simlik o‘sishini rag‘batlantiruvchi achitqilar hosilni oshirishi va patogen infektsiyalarni kamaytirishi, shuningdek biotik va abiotik stresslarni kamaytirishi mumkin.

Achitqilar eukaryotik, bir hujayrali mikroorganizmlar bo‘lib, ular ekologik jihatdan fermentatsiya, parchalanish, biodegradatsiya va mikroorganizmlar kolonizasiyasida ishtirok etadi. So‘nggi yillarda achitqilar qishloq xo‘jaligi sohasida o‘simlik o‘sishini rag‘batlantirish va azotli bioo‘g‘itlar ishlab chiqarishda muhim ahamiyat kasb etmoqda [9]. Jumladan, endofitik achitqilarning o‘simlik o‘sishini rag‘batlantirishdagi roli keng o‘rganilmoqda. O‘simliklardan ajratilgan endofit achitqilar, masalan, mandarindan va uzumzorlardan olingan achitqilar ham indolil sirka kislota ishlab chiqarishi mumkinligi aniqlangan. Bu holat endofit achitqilarning o‘simlik o‘sishini rag‘batlantirishdagi potentsialini yanada kengaytiradi va turli mamlakatlardan olingan achitqilarning bu jarayondagi ahamiyatini ko‘rsatadi [7].

ISK ishlab chiqaruvchi achitqilar, masalan, *Candida valida*, *Rhodotorula glutinis*, *Trichosporon asahii*, *Lindera saturus* va *Rhodotorula mucilaginosa*ning o‘simlik o‘sishini rag‘batlantirishdagi qo‘llanilishi haqida ma’lumotlar mavjud va bu achitqilardan foydalanib bioo‘g‘itlar ishlab chiqish uchun asos yaratadi [1]. Jumaladam, *Ascomycete* achitqisi *Cyberlindnera saturnus* makkajo‘xori ildizlaridan ajratib olingan bo‘lib, u ISK ishlab chiqarish va o‘simliklarda o‘sish jarayonlarini rag‘batlantirishda samarali ekanligi tasdiqlangan. Shuningdek, *Rhodotorula mucilaginosa* kabi *basidiomycete* achitqilari ham ISK ishlab chiqarib, azot stressi ostida bir nechta muhim ekinlar o‘sishini rag‘batlantiradi. Tailand tadqiqotchilari tomonidan o‘tkazilgan tadqiqotlar, endofitik achitqilarning ISK sintez qilish qobiliyatining keng tarqalganligini va ularning shakarqamish, guruch kabi tropik ekinlar bilan bog‘langan faoliyatini ko‘rsatdi. Yaqinda ISK ishlab chiqaruvchi achitqilar bo‘yicha tadqiqotlar, shu

jumladan *Basidiomycetous* achitqilar, masalan, *Cryptococcus flavescens, C. laurentii, C. rajasthanensis, Hannaella sinensis, Pseudozyma aphidis, Rhodosporidiobolus fluvialis, Rhodotorula graminis, Rh. grinbergsii, Rh. paludigena, Rh. terrea, Saitozyma flava, Sporidiobolus ruineniae, Sporobolomyces nylandii* va *Trichosporon asahii* [8–11] kabi, va *Ascomycetous* achitqilar, masalan, *Aureobasidium pullulans, Candida glabrata, Ca. maltose, Ca. mesorugosa, Ca. metapsilosis, Ca. rugosa, Ca. tropicalis, Cyberlindnera fabianii, Debaryomyces nepalensis, Lodderomyces elongisporus, Metschnikowia koreensis, M. saccharicola, Pichia kudriavzevii, Torulaspora delbrueckii, T. kloeckeri* va *Saccharomyces cerevisiae* kabi, o‘rganilgan. Shu tufayli, Respublika hududida mevali daraxtlarning endofit achitqilarini o‘sishni rag‘batlantiruvchi moddalar ishlab chiqaruvchisi sifatidagi imkoniyatlarini o‘rganish juda dolzarbdir.

2.TADQIQOT METODLARI

2.1. O‘simlik materiallarini yig‘ish

Endofit achitqi izolyatlarini ajratib olish uchun o‘simliklarning gullari 2024 yul mart va aprel oylarida tajribadan bir necha soat oldin Toshkentning Yunusobod tumanidagi daraxtlardan olingan. O‘simliklarning mevalari esa may oyida Qulupnayning Viktoriya navi - Toshkentning Hasanboy, qulupnayning karalevskiy navi Toshkentning Qibray, o‘rik Surxondaryo viloyati, oq va qora tut Toshkentning Yangiyo‘l tumani, gilos esa Namangan viloyatidan tajriba uchun keltirildi. Saqlangan olma tajribadan bir mavsum oldin daraxtdan uzilgan edi. O‘simliklar morfologik belgilariga ko‘ra identifikatsiya qilingan.

2.2. Endofit achitqilarni ajratib olish va identifikatsiyalash

Endofit achitqilar o‘simliklarning yangi mevalari va generativ qismlaridan Abdel-Hafez va boshqalar usul bilan ajratildi [7-12]. Ishda bevosita ajratish va suyuq ozuqa muhitga chuqur ekish usuli qo'llanilgan. O'rganilgan namunalar aseptik sharoitda, turli xil kombinatsiyalangan sterilizatsiya vositalaridan (etanol 70%, NaOCl 3%) va sirt sterilizatsiyasi uchun ta'sir qilish muddatidan foydalangan holda maydalangan. Mevalar 3-5 daqiqa davomida strelizatsiya qilindi, namunalari 5 mmgacha kichik bo‘laklarga bo‘lindi va maydalangan namunalar kolbalarga olindi. Ozuqa muhitga bakteriya rivojlanishga to‘sqinlik qilishi uchun 200 mkg/l miqdorda sefotaksim qo‘shildi. Ekishda bakteriyalarga qarshi antibiotik sifatida sefatksim (200mkg/ml)dan foydalandik.

Inkubatsiya 5-14 kun davomida, 28-30C haroratda, kolbalarda termostatik sharoitda va 180 aylanish tezligidagi tebratgichda o'tkazildi. Shundan so‘ng visual o‘zgarishlar (loyqalik, gaz hosil bo‘lishi) paydo bo‘lgandan so‘ng, shtrix usuli bilan petrilarga olindi. Petrilardagi achitqiga o‘xshash koloniyalar mikroskopik tekshiruvlardan o‘tkazildi va bir xil muhitli, antibiotiksiz kasaklarga olindi. Olingan izolyatlar dastlab Kurtzman va boshqalar (2000) ma’lumotlariga ko‘ra tasniflandi. So‘ng MALTI-TOFF usuli orqali identifikatsiya qilindi. MALDI-TOF MS (Matrix Assisted Laser Desorbtion/Ionization Time-of-Flight Mass Spectrometery) mikrobiologik klinik laboratoriyada patogen bakteriyalarni, ayniqsa mikroaeroblar, anaeroblar, mikobakteriyalar va zamburug'larni aniqlash uchun qo‘llanilayotgan va keng tarqalgan metod

hisoblanadi. Olingan izolyatlar o‘rganilgach, ular MALDI TOF ga indentifikatsiya uchun olib borildi. Matritsali lazerli desorbsion ionizatsiya (MALDI) TOF MS ning afzalliklari chorak asrdan buyon ko‘zga tashlanmoqda. Bunda dastlab uning kam vaqt talab etishi, namuna miqdori kam talab etilishi, arzonligi kabi bir qancha qulayliklarga ega. MALDI tahlillarining keyingi muvaffaqiyatlari uning kengaygan bazasi orqali ta’minlandi va bu borada katta yutuqlarga erishgan deb aytish mumkin.

2.3. Indolil sirka kislota miqdorini aniqlash

Indolil sirka kislota miqdorini aniqlash Salkovskiy reagenti yordamida amalga oshirildi (Gordon & Weber, 1951). Achitqi izolyatlari susla ozuqa muhitida 5 kun davomida, 28-30^{0}C haroratda, kolbalarda termostatik sharoitda va 180 aylanish tezligidagi tebratgichda o'stirildi. 1 ml suspenziya 3000 g tezlikda 5 daqiqa davomida sertrifuga qilindi va 0.5 ml supernatant Salkovskiy reagenti yordamida (2 ml 0.5M temir(III) xlorid va 98 ml 35% sulfat kislota) indolil sirka kislotani aniqlash maqsadida ishlatildi. 30 daqiqadan so'ng, rangning (qizil) rivojlanishi spektrofotometr yordamida (Unico 1200 spektrofotometri, AQSh) 530 nm da o'lchandi. Indolil sirka kislota konsentratsiyasini hisoblash uchun toza indolil sirka kislota yordamida kalibrlash egri chizig'i tuzildi (1-rasm).



1-rasm IUK standartining kalibrlash egri chizig'i

NATIJA VA MUHOKAMA

Endofit achitqilar ajratib olish uchun respublikaning turli hududlarida o‘sadigan mevali daraxtlarning mevalari, rezavorlari, gullari saralab olingan. 15 ta namunadan 25 ta achitqi izolyatlari ajratildi va MALDI TOF usuli yordamida identifikatsiya qilindi (1-jadval).

1-jadval O‘simliklardan olingan endofit achitqilar

MALDI TOF idenditifikatsiya natijalari

№	O‘simlik nomi	MALDI TOF indentifikatsiya natijasi
1	*Fragaria vesca*	*Pichia klyuveri* *Pichia kudriavzevii, Hansenia opuntiae*
2	*Mórus álba, Morus nigra*	*Pichia kudriavzevii*
3	*Prúnus ávium*	*Klyuveromyces marxianus, Nakazawae holstii, Pichia kudriavzevii*
4	*Prunus armeniaca*	*Hanseniaspora uvarum, Metschnikowia pulcherrima*
5	*Prunus persica*	*Meyerozyma guilliermondii, Pichia kluyveri, Metschnikowia pulcherrima*

6	*Pyrus armeniacifolia, Cerasus vulgaris, Prunus domestica, Rubus idaeu, Malus domestica*	*Pichia kluyveri*
7	*Ficus carica*	*Pichia kluyveri, Hanseniaspora opuntiae*
8	*Púnica granátum*	*Pichia kluyveri, Metschnikowia pulcherrima*
9	*Diospyros kaki Tpip*	*Hanseniaspora uvarum, Metschnikowia pulcherrima*
10	*Actinidia deliciosa*	*Meyerozyma carpophila*

Tadqiqotlar natijasida endofit achitqilarning 6 ta avlodi (*Pichia, Hansenia, Klyuveromyces, Nakazawae, Metschnikowia, Meyerozyma*) va 9 ta turi aniqlandi.

Indolil sirka kislota sintez qilish qobiliyatini aniqlash uchun endofit achitqilarning 14 ta kulturasi (2-jadval) tanlangan.

2-jadval - Endofit achitqilarning kultura suyuqligidagi
indolil sirka kislotaning miqdoriy tarkibi

№	Stamm nomlari	Sof biomassa, g/l	ISK, mkg/ml	ISK, mkg/g
1	*Metschnikowia pulcherrima*	33.8	0.28	8.28
2	*Klyuveromyces marxianus*	36.5	0.20	5.48
3	*Hansenia opuntiae*	8.6	0.02	2.33
4	***Meyerozyma guilliermondii***	22.5	0.31	**13.78**
5	*Hanseniaspora opuntiae*	57.5	0.23	4.00
6	*Metschnikowia pulcherrima*	21.0	0.20	9.52
7	***Metschnikowia pulcherrima***	15.9	0.25	**15.72**
8	*Hanseniaspora uvarum*	9.7	0.11	11.34
9	*Metschnikowia pulcherrima*	25.1	0.20	7.97
10	***Hanseniaspora uvarum***	11.4	0.23	**20.18**
11	*Hanseniaspora opuntiae*	8.5	0.10	11.76
12	*Meyerozyma guilliermondii*	55.3	0.25	4.52
13	*Metschnikowia pulcherrima*	27.0	0.07	2.60
14	*Hansenia spora uvarum*	20.4	0.17	8.33

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, umumiy hisobda shtammlardagi indolil sirka kislota miqdori kutilgan darajada yuqori emas. *Hanseniaspora uvarum, Metschnikowia pulcherrima va Meyerozyma guilliermondii* shtammlarida 14-20 mkg/g gacha ISK miqdor aniqlangan.

Adabiyotlardagi ma'lumotlarga ko'ra, endofit achitqilarning kultura suyuqligidagi ISK miqdori achitqi turiga, yetishtirish sharoitlariga (harorat, pH, ozuqa muhit tarkibi) va

kulturalarning o'sish bosqichi kabi turli omillarga qarab farq qilishi mumkin. Buni hisobga olsak, biz tanlagan kulturalarda, ehtimol, ozuqaviy muhit va yetishtirish sharoitlarini optimallashtirish orqali ularning ISK hosildorligini oshirish mumkin.

XULOSA

Shunday qilib, mahalliy o'simliklarning mevalari, rezavorlari va gullaridan ajratilgan endofit achitqilar yetishtirish sharoitlarini optimallashtirish va ozuqaviy muhitni tanlash bilan ISK ishlab chiqarishning yangi manbasiga aylanishi mumkin.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Peng, X., Wang, Y., Tang, L. J., Li, X. X., Xiao, Y. W., Zhang, Z. B., ... & Zhu, D. (2018). Yeasts from Nanfeng mandarin plants: occurrence, diversity and capability to produce indole-3-acetic acid. *Biotechnology & Biotechnological Equipment*, *32*(6), 1496-1506.
2. Streletskii, R. A., Kachalkin, A. V., Glushakova, A. M., Demin, V. V., & Chernov, I. Y. (2016). Quantitative determination of indole-3-acetic acid in yeasts using high performance liquid chromatography—tandem mass spectrometry. *Microbiology*, *85*, 727-736.
3. Nassar, A. H., El-Tarabily, K. A., & Sivasithamparam, K. (2005). Promotion of plant growth by an auxin-producing isolate of the yeast Williopsis saturnus endophytic in maize (Zea mays L.) roots. *Biology and Fertility of soils*, *42*, 97-108.
4. Petkova, M., Petrova, S., Spasova-Apostolova, V., & Naydenov, M. (2022). Tobacco plant growth-promoting and antifungal activities of three endophytic yeast strains. *Plants*, *11*(6), 751.
5. Sun, P. F., Fang, W. T., Shin, L. Y., Wei, J. Y., Fu, S. F., & Chou, J. Y. (2014). Indole-3-acetic acid-producing yeasts in the phyllosphere of the carnivorous plant Drosera indica L. *PloS one*, *9*(12), e114196.
6. Xin, G., Glawe, D., & Doty, S. L. (2009). Characterization of three endophytic, indole-3-acetic acid-producing yeasts occurring in Populus trees. *mycological research*, *113*(9), 973-980.
7. Kachalkin, A., Glushakova, A., & Streletskii, R. (2022). Diversity of endophytic yeasts from agricultural fruits positive for phytohormone IAA production. *BioTech*, *11*(3), 38.
8. Bunsangiam, S., Sakpuntoon, V., Srisuk, N., Ohashi, T., Fujiyama, K., & Limtong, S. (2019). Biosynthetic pathway of indole-3-acetic acid in basidiomycetous yeast Rhodosporidiobolus fluvialis. *Mycobiology*, *47*(3), 292-300.
9. Soponputtaporn, S., Srithaworn, M., Promnuan, Y., Srirat, P., & Chunhachart, O. (2024). Indole-3-Acetic Acid Producing Yeasts in the Phyllosphere of Legumes: Benefits for Chili Growth. *Trends in Sciences*, *21*(3), 7335-7335.
10. Limtong, S., & Koowadjanakul, N. (2012). Yeasts from phylloplane and their capability to produce indole-3-acetic acid. *World Journal of Microbiology and Biotechnology*, *28*, 3323-3335.

11. Nutaratat, P., Amsri, W., Srisuk, N., Arunrattiyakorn, P., & Limtong, S. (2015). Indole-3-acetic acid production by newly isolated red yeast Rhodosporidium paludigenum. *The Journal of General and Applied Microbiology*, *61*(1), 1-9.

12. Giyosovna, S. D., & Ilyasovna, A. L. (2024). FRUITS AND BERRIES OF UZBEKISTAN ARE POTENTIAL SOURCES OF ENDOPHYTIC YEASTS. *Science and innovation*, *3*(Special Issue 45), 130-134. https://ilmiyanjumanlar.uz/co_view.php?id=7173

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 1-son)

TABIIY FANLAR

NATURAL SCIENCES

UDK: 579.222.3

ORCID: 0009-0003-5264-4326

CHELIDONIUM MAJUS L. O‘SIMLIK ENDOFIT BAKTERIYALARINING ANTIBAKTERIAL XUSUSIYATLARI.

Salimova Sarvinoz Baxtiyorovna
Tayanch doktarant, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Mikrobiologiya instituti, Toshkent
Nasmetova Saodat Mamajanovna
DSc.,Yetakchi ilmiy xodim, Tayanch doktarant, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Mikrobiologiya instituti, Toshkent
Gulyamova Toshxon Gafurovna
DSc., Professor, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Mikrobiologiya instituti, Toshkent

Annotatsiya Endofitlar nafaqat o‘simlikning ikkilamchi metabolitlarini sintez qilishda yoki ularni o‘zgartirishda ishtirok etadilar, balki boshqa ko‘plab biologik faol funksiyalarga ega bo‘lgan ko‘plab metabolitlarni hosil qiladilar. Ushbu tadqiqot ishida *Chelidonium majus L.* o‘simligining turli qismidan ajratilgan bakteriyalarni patogen mikroorganizmlar (gram-musbat bakteriyalardan: *Staphylococcus aureus* va *Bacillus subtilis*; gram-manfiy bakteriyalardan: *Pseudomonas aeruginosa* va *Escherichia coli* lar va achitqilardan *Candida albicans)* ga qarshi faolligi o‘rganildi va yuqori faollikka ega bo‘lgan endofit bakteriyalar MALDI-TOF mass spektrafotometr yordamida identifikatsiya qilindi.

Kalit so‘zlar *Chelidonium majus L,* endofit bakteriya, antibacterial faollik, MALDI-TOF.

АНТИБАКТЕРИАЛЬНЫЕ СВОЙСТВА ЭНДОФИТНЫХ БАКТЕРИЙ ИЗ РАСТЕНИЙ *CHELIDONIUM MAJUS* L.

Аннотация. Эндофиты не только участвуют в синтезе вторичных метаболитов растения или их модификации, но и образуют множество других метаболитов, выполняющих множество других биологически активных функций. В этой исследовательской работе была изучена антибактериальная активность бактериальных изолятов, выделенных из различных органов растения *Chelidonium majus L.* против патогенных микроорганизмов (из грамположительных бактерий: *Staphylococcus aureus* и *Bacillus subtilis*; от грамотрицательных бактерий: *Pseudomonas aeruginosa* и *Escherichia*

coli и дрожжей *Candida albicans*) и эндофитные бактерии с высокой активностью были идентифицированы с помощью масс-спектрофотометра MALDI-TOF.

Ключевые слова. *Chelidonium majus L*, эндофитная бактерия, антибактериальная активность, MALDI-TOF.

ANTIBACTERIAL ACTIVITY OF BACTERIA ENDOPHYTIC ISOLATED FROM *CHELIDONIUM MAJUS* L.

Abstract Endophytes not only participate in the synthesis or modification of secondary metabolites of the plant, but also produce many other metabolites with biologically active functions. In this research work *Chelidonium majus L*. the activity of bacteria isolated from different parts of its plant against pathogenic microorganisms (from gram-positive bacteria: *Staphylococcus aureus* and *Bacillus subtilis*; from gram-negative bacteria: *Pseudomonas aeruginosa* and *Escherichia coli* and *Candida albicans* from yeast) has been studied and endophytic bacteria with high activity were identified using the MALDI-TOF mass spectrophotometer.

Key words. *Chelidonium majus L*, endophytic bacteria, antibacterial activity, MALDI-TOF

KIRISH

So‘nggi yillarda o'simliklarning endofitik zamburug‘lari dori vositalarining asosiy manbalari sifatida keng qabul qilinmoqda va ulardan yangi tuzilmalar va turli bioaktivliklarga ega bo‘lgan ko'plab birikmalar doimiy ravishda ajratilmoqda[1]. Endofitlar tabiatda inson ekspluatatsiyasi potentsialiga ega bo'lgan xilma-xil va qimmatli manbalardir[2,3]. So‘nggi yillarda yuqori salohiyatiga ega mikroblarning manbalarini izlash tobora ortib borayotgan yo‘nalishga aylandi, chunki tuproq mikroorganizmlaridan ma’lum metabolitlarni takroriy kashf qilish tez-tez uchraydi. Kam o‘rganilgan muhitdagi mikroorganizmlarning, shu jumladan endofitlar kabi o‘simlik bilan bog‘liq mikroorganizmlarning potentsialiga katta qiziqish mavjud. Shubhasiz, o‘simlik mikro ekotizimining muhim tarkibiy qismlari sifatida endofitlar turli xil ikkilamchi metabolitlarning sintezi va to‘planishiga katta ta‘sir ko'rsatadi. Bugungi kunga qadar saratonga qarshi dorilar, antibiotiklar, antiviral preparatlar, diabetga qarshi dorilar va immunosupressant birikmalari kabi sezilarli terapevtik ta’sirga ega faol moddalarni o‘simlik endofitlari ishlab chiqarishi o‘rganilmoqda [4,5].

Chelidonium majus L. (odatda "katta celandine" nomi bilan tanilgan) Yevropa, G‘arbiy Osiyo va Amerikaga keng tarqalgan ko'p yillik o'simlik. Ushbu botanika oilasining o‘ziga xos xususiyati asrlar davomida ishlatilgan ildizlarda ham, havo qismlarida ham mavjud bo'lgan sariq-to‘q sariq rangli lateks ishlab chiqarishdir. G‘arbiy Yevropa, Xitoy fitoterapiya va an’anaviy tibbiyotida asosan antimikrobiyal va yallig‘lanishga qarshi xususiyatlari va terining ta’siriga qarshi davolovchi faoliyati tufayli yuqori baholanadi [8,9]. Ikkilamchi metabolitlar - bu o‘simliklarning o‘sishi va rivojlanishi davomida atrof-muhit bilan o‘zaro ta’sir natijasida

hosil bo'lgan mahsulotlar, asosan alkaloidlar, flavonoidlar, terpenoidlar, peptidlar, fenollar, sterollar va qo‘shimcha kichik molekulyar organik birikmalarni o‘z ichiga oladi [6,7]. Ushbu tadqiqot Chelidonium majus L. o‘simligidan endofitik bakteriyalarni o‘rganib, ularning antibakterial salohiyatini baholash uchun o‘tkazildi.

MATERIAL VA METODLAR.

Chelidonium majus L. o‘simlik endofitlarini ajratish. To‘plangan o‘simliklar qisqa vaqt ichida steril suvida yuvildi va poyalari, barg, ildiz va gul qismlari 2-3 mm uzunlikdagi bo‘laklarga kesildi. Endofitlarni ajratib olishda Chelidonium majus o‘simlik qismlarini va NaOCl ning 10% eritmasi bilan 60soniya davomida samarali ishlov berilgach, 70% etil spirti bilan 45soniya va 30% etil spirti bilan 30soniya davomida ushlab turildi. Keyin dezinfektsiyalangan o‘simlik qismlari steril suvda 5marta chayqaldi va drenajlandi. Keyin ular steril skalpel bilan uzunasiga kesib olindi va ochiq ichki yuzasi pastga, plitalarga qaragan holda yotqizib qo'yildi. Oldindan tayyorlab olingan petri chashkasidagi go‘sht pepton agar ozuqa muhitiga ekildi.

Ajratilgan o‘simlik endofitlaridan biomassa olish. *Chelidonium majus L.* o‘simligi ildiz, poya, barg qismidan ajratilgan 19 ta bakteriya izolyatlarini 50ml go‘sht-pepton suyuq ozuqa muhitiga ekib, tebratgichda (sheyker) 180ay/min da 28^0C haroratda, 3 kun davomida biomassa olish uchun ko’paytirildi. Keyin biomassa va kultural suyuqlikni birgalikda liofilkada quritildi.

Ikkilamchi metabolitlarning umumiy ekstraktlarini ajratib olish. Chelidonium majus L.dan ajratib olingan endofit izolyatlarining fermentatsion suyuqligi va unda xosil bo‘lgan biomassadan ikkilamchi faol metabolitlarni keng spektrini ajratib olishda Hazalin uslubidan foydalanildi. Tadqiqot davomida usul bir oz modifikatsiya qilindi. Bunda 0.5 gr izolyatning liofikkada quritilgan massasi Potter gomogenizatorida maydalandi, xosil bo‘lgan gomogenatni 100 ml li kolbaga solib, 70% etanoldan 20 ml solindi va xona haroratida tebratgichda 160 ayl/min tezlikka qo‘yildi. Bir sutkadan so‘ng aralashma Whatman filьtr qog‘ozi orqali filtrlandi. Olingan etanolli ekstrakt rotorli bug‘latgichda quritildi va hosil bo’lgan quruq ekstrakt DMSOda eritildi. Olingan ushbu umumiy ekstrakt boshlang‘ich eritma sifatida ishlatildi.

Endofit bakteriyalarining ekstraktlarining antibakterial faolligini aniqlash. Umumiy ekstraktlarning antibakterial faolligi agarga diffuziyalanishi usuli bilan aniqlandi. Bunda Gram-musbat bakteriyalardan: *Staphylococcus aureus* va *Bacillus subtilis*; Gram-manfiy bakteriyalardan: *Pseudomonas aeruginosa* va *Escherichia coli* lar va achitqilardan *Candida albicans* dan foydalanildi. Gram-musbat bakteriyalardan: *Staphylococcus aureus* va *Bacillus subtilis*; Gram-manfiy bakteriyalardan: *Pseudomonas aeruginosa* va *Escherichia coli* lar va achitqilardan *Candida albicans* go‘sht pepton ozuqa muhitiga ekildi, 18-20soat davomida 37^0C haroratda termostatda o‘stirildi.

Barcha bakteriya suspenziyalari MakFarland Standart bo’yicha 0,5 (1×10^7 KOE/ml) qilib olindi. Bakterial suspenziyalar 0,1ml miqdorida likobchadagi go‘sht-peptonli agar ozuqa muhiti yuzasiga ekib chiqildi va 30minut inkubatsiya qilindi. Diametri 10 mm li chuqurchalar hosil qilinib, ekstraktlarning DMSO dagi 1mg/ml li eritmalaridan 100 mkl dan quyildi. Musbat

nazorat sifatida Seftriakson–(3- avlod sefalosporinlar guruhi) 1mg/ml, flukonazol 1mg/ml antibiotiklari olingan. Manfiy nazorat sifatida esa DMSO olindi. Petri likobchalari termostatda 37°C haroratda 24 soat davomida inkubatsiya qilinganidan so‘ng test mikroorganizmlar o‘sishini ingibirlash maydoni o’lchandi. Har bir tajriba uch martadan qaytarildi.

Chelidonium majus L. o‘simligidan ajratilgan bakteriyalarni identifikatsiya qilish. Petri chashkasida go‘sht pepton agar ozuqa muhitida o‘simlikdan ajratilgan endofit bakteriyalar 24soat davomida termostatda 28^0Cda o‘stirildi. Chelidonium majus L. o’simlik tarkibidan ajratilgan endofit bakteriyalarini MALDI-TOF mass spektrafotometr yordamida identifikatsiya qilindi.

NATIJALAR VA ULARNING MUHOKAMASI.

O‘tkazilgan tadqiqotlar natijalari shuni ko'rsatdiki, Chelidonium majus L. o‘simlikining ildizi, poyasi va barglaridan ajratilgan 19 ta bakterial izolatdan to‘rtta izolyatsiya - BK14, BC8, BL2, BK17 antibakterial faollikni ko'rsatdi (1-jadval) .

BK14 izolati eng faol bo‘lgan, ushbu izolatning ekstraktlari tekshirilgan barcha mikroorganizmlarga, shu jumladan gram-musbat va gram-manfiy bakteriyalarga, shuningdek achitqi zamburug‘lariga qarshi antibakterial faollikni ko‘rsatdi. Shu bilan birga, izolyat ekstrakti boshqa izolatlarga nisbatan *Staphylococcus aureus* (ingibirlash zonasi 30 mm) va *Bacillus subtilis* (ingibirlash zonasi 24 mm) ga qarshi eng yuqori faollikni namoyon etdi.

BC8 izolati tekshirilgan barcha mikroorganizmlarga qarshi yuqori faollikni ko‘rsatdi, *Pseudomonas aeruginosa* bundan mustasno. U ayniqsa, Escherichia coli (ingibirlash zonasi 25 mm bo‘lgan)ga qarshi aniq faollikni ko'rsatdi.

BL2 va BK17 izolatlari *P. aeruginosa* va *E. coli* o‘sishini bostirmadi. Bundan tashqari, BL2 izolati *C. albicans*ga ingibir ta’sir ko'rsatmadi. Ikkala izolyat *S. aureus* va *B. subtilis*ga ham nisbatan past antagonistik faollikni ko'rsatdi.

Ijobiy nazorat sifatida antibiotik seftriakson ishlatilgan, u patogen mikroorganizmlarga 23±0,03 mm dan 40±0,01 mm gacha bo‘lgan ingibirlash zonalarini ko'rsatdi. Musbat nazorat sifatida ishlatilgan DMSO erituvchisi antibakterial faollikni ko‘rsatmadi va ingibirlash zonalarini hosil qilmadi (1-rasm).

1-jadval

***Chelidonium majus L*. o‘simlik endofit bakteriyalarining patogen mikroorganizmlar o‘sishini ingibirlash aktivligi.**

№	Izolyat	Antibakterial faollik (o‘sishini ingibirlash zonalari, mm)				
		S. aureus	*B. Subtilis*	*P. aeruginosa*	*E. coli*	*C.albicans*
1	BK14	30±0,21	24±0,13	15±0,18	19±0,16	16±0,13
2	BC8	22±0,19	20±0,18	-	25±0,17	13±0,13
3	BL2	14±0,13	13±0,19	-	-	-
4	BK17	20±0,11	14±0,15	-	-	13±0,13
Антибиотик						

1	Seftriakson	36±0,01	39±0,01	23±0,02	40±0,01	29±0,03

Gram-musbat bakteriyalar	
Staphylococcus aureus	*Bacillus subtilis*
Gram-manfiy bakteriyalar	
Pseudomonas aeruginosa	*Escherichia coli*
	
Achitqi -*Candida albicans*	
	

1rasm. Endofit izolatlari ekstraktlari bilan bakteriyalar o‘sishini ingibirlovchi zonalar.

Antibakterial faollikni ko‘rsatgan bakterial izolatlarni aniqlash uchun biz mass-spektrometriyaning MALDI-TOF usulidan foydalandik, bu mikroorganizmlarni ularning massa

spektrlari bo'yicha yuqori aniqlik bilan aniqlash imkonini beradi. Unga ko‘ra o’simlikning ildiz qismidan ajratilgan BK14 va BK17 izolyatlarimiz *Lyisinibacillus fusiformis* va *Bacillus pumilis* turiga mansub ekanligi, poya va barg qismidan ajratilgan BC8 va BL2 izolyatlarimiz *Bacillus cereus* turiga mansub ekanligi aniqlandi (2-jadval).

2-jadval

Chelidonium majus L. o‘simlik tarkibidan ajratilgan endofit bakteriyalarini MALDI-TOF mass spektrafotometr yordamida identifikatsiya qilish va ularning electron lupa ostida ko’rinishi

1	BK 14	Lyisinibacillus fusiformis.		
2	BC 8	Bacillus cereus		
3	BL 2	Bacillus cereus		
4	BK 17	Bacillus pumilis		

Lysinibacillus endofitining antibakterial faolligi adabiy manbalarda ko'rsatilgan bir qator tadqiqotlarda namoyish etilgan. Masalan, meva va sabzavot chiqindilaridan ajratilgan *Lysinibacillus* izolati *Staphylococcus aureus* kabi gram-musbat mikroorganizmlarga va boshqa oziq-ovqat patogenlariga qarshi sezilarli faollikni ko'rsatdi. Izolyatsiya faolligi bakteriotsinni ishlab chiqarish bilan bog‘liq bo‘lib, u patogenlarning o‘sishini ingibirlaydi, bakteriyalar membranalariga zarar yetkazadi va ularning yaxlitligini buzadi [10].

Adabiy tadqiqotlarda shuningdek, faol birikma — pirol-2-karboksilik kislota (PCA) ajratilganda *Bacillus cereus* (ZBE) endofitik shtammining yuqori antibakterial faolligini qayd etilgan. PCA ta‘sir qilish mexanizmi bakterial hujayra membranalarini yo‘q qilishdan iborat bo‘lib, uning antibakterial vosita sifatida potentsialini tasdiqlaydi [11,12].

Bundan tashqari, adabiy manbalarda dengizdan olingan *Bacillus pumilus* ekstraktining gramm-musbat (*Staphylococcus aureus, Bacillus subtilis, Enterococcus faecalis*) va gramm-manfiy bakteriyalarga (*Escherichia coli, Pseudomonas aeruginosa, Klebsiella pneumoniae*) qarshi antibakterial faolligini aniqlashga qaratilgan tadqiqotlar keltirilgan. Ushbu shtammning ekstrakti diametri 19 dan 30 mm gacha bo'lgan ingibirlash zonalari bilan sinovdan o‘tgan barcha patogenlarning keng ingibirlash spektrini namoyish etdi[13].

XULOSA.

Shunday qilib, adabiy manbalar va bizning tajribalarimiz *Chelidonium majus* L. o‘simlikidan ajratib olgan *Lysinibacillus fusiformis* BK14, *Bacillus cereus* BC8, *Bacillus cereus* BL2 va *Bacillus pumilus* BK17 shtammlari bakterial infektsiyalarni davolash va antibiotiklarga qarshilik ko‘rsatish uchun tabiiy antibakterial vosita sifatida shuningdek, oziq-ovqat sanoatida konservantlar sifatida foydalanish imkoniyatiga ega ekanligini tasdiqlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Strobel G, Daisy B, Castillo U, Harper J (2004) Natural products from endophytic microorganisms. J Nat Prod 67:257–268

2. Nesme, J.; Simonet, P. The soil resistome: A critical review on antibiotic resistance origins, ecology and dissemination potential in telluric bacteria. Environ. Microbiol. 2015, 17, 913–930. [CrossRef] [PubMed]

3. Donadio, S.; Monciardini, P.; Alduina, R.; Mazza, P.; Chiocchini, C.; Cavaletti, L.; Sosio, M.; Puglia, A.M. Microbial technologies for the discovery of novel bioactive metabolites. J. Biotechnol. 2002, 99, 187–198. [CrossRef] [PubMed]

4. Gouda, S.; Das, G.; Sen, S.K.; Shin, H.S.; Patra, J.K. Endophytes: A Treasure House of Bioactive Compounds of Medicinal Importance. Front. Microbiol. 2016, 7, 1538. [CrossRef] [PubMed]

5. Preethi, K.; Manon-Mani, V.; Lavanya, N. Endophytic Fungi: A Potential Source of Bioactive Compounds for Commercial and Therapeutic Applications; Springer: Berlin/Heidelberg, Germany, 2021; pp. 247–272. [CrossRef]

6. Kubala, S.; Garnczarska, M.; Wojtyla, Ł.; Clippe, A.; Kosmala, A.; ˙ Zmie´ nko, A.; Lutts, S.; Quinet, M. Deciphering priming-induced improvement of rapeseed (Brassica napus L.) germination through an integrated transcriptomic and proteomic approach. Plant Sci. 2015, 231, 94–113. [CrossRef]

7. Fang, L.; Pandi, W.; Xiaobo, Z.; Xiaofei, L.; Gang, W. The molecular basis of glandular trichome development and secondary metabolism in plants. Plant Gene 2017, 12, 1–12. [CrossRef]

8. M.L. Colombo et al. Pharmacological activities of Chelidonium majus L. (Papaveraceae) Pharmacol. Res.(1996)

9. S.J. Biswas et al. Efficacy of a plant extract (Chelidonium majus L.) in combating induced hepatocarcinogenesis in mice Food Chem. Toxicol. (2008)

10. Varish Ahmad ; A.N. Muhammad Zafar Iqbal; Mohd Haseeb; Mohd Sajid Khan. Antimicrobial potential of bacteriocin producing *Lysinibacillus jx416856* against foodborne bacterial and fungal pathogens, isolated from fruits and vegetable waste. Anaerobe Volume 27, June 2014, 87-95

11. **Sahar Wefky Mostafa Hassan**. Antibacterial, Anticoagulant and Anti-inflammatory Activities of Marine *Bacillus cereus* S1. *J Pure Appl Microbiol.* 2016;10(4):2593-2606 https://doi.org/10.22207/JPAM.10.4.15

12. Yuxi Yue; Chong Chen; Kai Zhong; Yanping Wu. Purification, Fermentation Optimization, and Antibacterial Activity of Pyrrole-2-carboxylic Acid Produced by an Endophytic Bacterium, *Bacillus cereus* ZBE, Isolated from *Zanthoxylum bungeanum* ndustrial & Engineering Chemistry Research *Ind. Eng. Chem. Res.* 2022, 61, 3, 1267–1276 https://doi.org/10.1021/acs.iecr.1c04164

13. Eman A. Beyari *, Naheda M. Alshammari et al. Influences of *Bacillus pumilus* SA388 as an environmentally friendly antibiotic alternative on growth performance, blood biochemistry, immunology, cecal microbiota, and meat quality in broiler chickens. Poultry Science Volume 103, Issue 11, November 2024, 104-115

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 1-son)

TABIIY FANLAR

NATURAL SCIENCES

ASTRAGALUS KNORINGGIANUS BORISS NING TARQALISHI VA GEOFAZOVIY TAHLILI

Doniyorova Shaxnoza Olimjon qizi
JDPU, tayanch doktorant
shaxnozadoniyorova750@gmail.com, +99897 647 22 77
Saribayeva Shahnoza Usanovna
O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Botanika instituti,
b.f.n., katta ilmiy hodim, ssaribayeva@list.ru

Annotatsiya. *Astragalus* L. turkumining Aureophora R. Kam. seksiyasiga mansub bo‘lgan *Astragalus knorringianus* Shimoli-g‘arbiy Pomir-Oloyning noyob va endemik turi hisoblanadi. Ushbu tur, bioxilma-xillikning o‘ziga xos elementi sifatida, mintaqaviy ekologik muvozanatni ta’minlashda muhim ahamiyatga ega. Turning geografik tarqalishi Milliy gerbariy fondida saqlanayotgan namunalar hamda 2024-yilda olib borilgan dala tadqiqotlari natijalariga asoslangan holda tahlil qilindi. Tahlil jarayonida IUCN Qizil ro‘yxati mezonlari asosida turning kamyoblik maqomi aniqlangan. *Astragalus knorringianus* ning asosiy tarqalish areali Janubiy Nurota tog‘larining Qoratog‘ tizmasidagi Ko‘kto‘nli hududlari sifatida qayd etildi. Turning bioxilma-xillikdagi ahamiyati yuqori bo‘lib, uning yashash muhitlari chorvachilik va antropogen faoliyat natijasida qisqarib bormoqda. Yangi dala tadqiqotlari va gerbariy namunalarini tahlil qilish natijasida ushbu turning kamyoblik maqomi Endangered (Xavf ostida) kategoriyasiga mansub ekanligi tasdiqlandi.

Kalit so‘zlar: *Astragalus* L, kamyob, Pomir-Oloy, IUCN, endem, GeoCAT, Qizil kitob, gerbariy.

РАСПРОСТРАНЕНИЕ И ГЕОФАЗОВЫЙ АНАЛИЗ *ASTRAGALUS KNORINGGIANUS* BORISS.

Аннотация. *Astragalus knorringianus*, относящийся к секции Aureophora R. Kam. рода *Astragalus* L., является редким и эндемичным видом Северо-Западного Памиро-Алая. Этот вид, как особый элемент биологического разнообразия, играет важную роль в обеспечении регионального экологического баланса. Географическое распространение вида было проанализировано на основе образцов, хранящихся в Национальном гербарном фонде, а также полевых исследований, проведенных в 2024 году. В процессе анализа был определен статус редкости вида на основе критериев Красного списка МСОП. Основной ареал распространения *Astragalus knorringianus* зарегистрирован в

южной части Нуратауского хребта, в районе хребта Каратог, местность Коктонли. Вид имеет высокую значимость для биоразнообразия, однако его местообитания сокращаются в результате выпаса скота и антропогенной деятельности. На основании новых полевых исследований и анализа гербарных образцов подтверждено, что статус редкости данного вида относится к категории Endangered (Под угрозой исчезновения).

Ключевые слова: *Astragalus* L, редкий, Памиро-Алай, МСОП, эндемик, GeoCAT, Красная книга, гербарий.

DISTRIBUTION AND GEO-PHASE ANALYSIS OF *ASTRAGALUS KNORINGGIANUS* BORISS.

Annotation. *Astragalus knorringianus*, belonging to the section Aureophora R. Kam. of the genus *Astragalus* L., is a rare and endemic species of the Northwestern Pamir-Alay. As a unique element of biodiversity, this species plays an important role in maintaining regional ecological balance. The geographical distribution of the species was analyzed based on samples stored in the National Herbarium Collection and the results of field studies conducted in 2024. During the analysis, the species' rarity status was determined according to the IUCN Red List criteria. The main distribution area of *Astragalus knorringianus* was recorded in the southern part of the Nuratau Mountains, specifically in the Koktonli area of the Karatau Range. The species is highly significant for biodiversity, but its habitats are shrinking due to grazing and anthropogenic activities. Based on new field studies and analysis of herbarium specimens, it was confirmed that the rarity status of this species falls into the Endangered category.

Key words: *Astragalus* L, rare, Pamir-Alay, IUCN, endemic, GeoCAT, Red Book, herbarium.

KIRISH. Pomir Oloy tog‘lari Markaziy Osiyoning janubi sharqidagi tog‘li o‘lka. Tojikiston respublikasi, qisman Qirg‘iziston respublikasi, O‘zbekiston respublikasi va Turkmaniston respublikasida joylashgan. G‘arbiy Pomir Oloy yoki Oloy tog‘lari Markaziy Osiyodagi tog‘lar bo’lib, Markaziy Osiyo sharqida, Tiyon-Shon va Pomir tog‘lari orasida joylashgan [5,6]. Oloy- Xisor hududi shimolda Farg‘ona botig‘i, janubda Pomir tog‘lari va Janubiy - Tojikiston botig‘i, g‘arbda Qizilqum cho‘li, sharqda esa Farg‘ona va Ko‘kshag‘altov tizmalarining janubi- sharqiy qismi bilan chegaradoshdir. Hududda Oloy, Turkiston, Nurota, Zarafshon va Xisor tizmalari qad ko‘targan bo‘lib, ular bir-biridan kichik botiqlar va daryo vodiylari bilan ajralgan bir qancha tarmoqlardan tashkil topgan. Hududga Oloy tizmasining janubida joylashgan Oloy botig‘i ham kiradi. Hududda joylashgan tizmalarning deyarli hammasi kenglik bo‘ylab cho‘zilgan [2]. Mazkur hudud florasi tarkibiga kiruvchi kamyob va endem, yo‘qolib ketish xavfi ostida bo‘lgan o‘simliklarni o‘rganish, yangi populyatsiyalarini aniqlash, davlat kadastrini tuzish, populyatsiyasining hozirgi holatini baholash alohida e’tibor qaratishni talab etishi bilan bir qatorda tadqiqotning eng muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Astragalus knorringianus Boriss. shimoli-g‘arbiy Pomir- Oloyning kamyob va endemik turi bo‘lib, Nurota, Molguzar va Turkiston tog‘larida tarqalgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR.

Tadqiqot obyekti. Tadqiqot obyekti Fabaceae oilasining O‘zbekiston Respublikasi Qizil Kitobiga kiritilgan (2 toifa) kamyob turlaridan [1], Shimoli-g‘arbiy Pomir Oloyda uchraydigan *Astragalus knorringianus* Boriss. (Knorring astragali). Mazkur tur ma’muriy jihatdan O‘zbekiston, Tojikiston va Qirg‘iziston hududlarida uchraydi [7].

Turning nomenklaturasi, tarqalishi va kamyoblik darajasini baholash Astragalus knorringianus taksonomiyasi va geografik tarqalishi bilan bog‘liq mavjud ma’lumotlar Opredelitel rasteniy Sredney Azii [3] va O‘zbekiston florasidan tahlil qilindi. Mazkur turning qabul qilingan ilmiy nomi va mualliflari Plants of the World Online [11] (https://powo.science.kew.org/) platformasi asosida keltirilgan.

Turning yashash maydoni (AOO, Area of occupancy) va tarqalish darajasi (EOO, Extent of Occurrence) GeoCAT dasturi orqali aniqlandi.

Turning kamyoblik darajasini baholashda Tabiatni muhofaza qilish xalqaro ittifoqi (IUCN) toifalari va mezonlaridan foydalanilgan [8,9,10].

1-rasm. *Astragalus knorringianus* Boriss. ilk gerbariy namunasi (shtrixkod TASH 00224676).

Dala tadqiqotlari va birlamchi ma’lumotlarning boshqa manbalari

2024 yilda olib borilgan dala tadqiqotlari davomida turning Jizzax viloyati hududidan ma’lum bo‘lgan o‘sish nuqtasidan gerbariy namunalari olindi. Jamlangan namunalar Google Earth Pro 7.1 dasturi yordamida georeferenslangan. Turning yuqori aniqlikdagi tarqalish xaritasi o‘sish nuqtalari asosida ArcGIS version 10.6.1 dasturida yaratildi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA.

1.*Astragalus knorringianus* ning taksonomiyasi va qisqacha tavsifi.

Astragalus knorringianus Boriss. – Астрагал Кнорринга – Knorring astragali (2 rasm).

A.knorringianus Boriss. in Not. Syst. Herb. Ins. Bot. Acad. Sci. URSS. 10 (1947) 56.- Gontsch. et M. Pop. In Fl. URSS. 12 (1946) 732, ross.- Gontsch. in Fl. Uzbek. 3 (1955) 630.- Zak. Фл. раст. басс. Зер. 2 (1961) 235 [3].

IPNI ID nomer: https://www.ipni.org/n/478133-1

Morfologik tavsifi. Bo‘yi 5-7 sm uzunlikdagi kulrang-yashil, yotiq tukli, deyarli poyasiz ko‘p yillik o‘t. Bargi 2-5 sm, bandi esa 5-15 mm uzunlikda. Bargchalari 7-9 juft, tasmasimon yoki uzun tig‘simon, uzunligi 5-11 mm, eni 0,5-1,5 mm, o‘tkir uchli, pastki tomoni qalin yotiq tukli. Gulpoyasi 2-5 sm uzunlikda. Gullari 2-3 ta, och sariq, 32-37 mm uzunlikda. Kosachasi 17-20 mm uzunlikda. Dukkagi 7 sm gacha uzunlikda, eni esa 4 mm, kalta tumshuqchali, yotiq oq va qora tuklar bilan qoplangan. Mart-aprel oylarida gullab, mevasi aprel-may oylari yetiladi [3].

A.knorringianus tog‘ etaklaridan to tog‘ning o‘rta qismigacha cho‘zilgan yemirilgan tub tog‘ jinslarida, shag‘alli-toshli yonbag‘irlarida dengiz satxidan 600-2600 m balandlikda o‘sadi.

2-rasm. ***Astragalus knorringianus*** **umumiy ko‘rinishi (Forish tumani Qo‘lba qishlog‘i yaqinida, toshli-shag‘alli balandlik, h=563, Sh.O.Doniyorova, 10.04.2024.)**

Tarqalishi. Mazkur tur respublikamizda ma’muriy jihatdan Jizzax, Samarqand, Navoiy viloyatlarida tarqalgan. Nurota, Molguzar va Turkiston tog‘larida yakka-yakka, ba’zan kichik to‘plar hosil qilib o‘sadi. Gerbariy va dala tadqiqot ma’lumotlariga ko‘ra, *A.knorringianus* Pistalitog‘ning janubiy yonbag‘irlari, Egarbelistog‘ qoldiq tog‘ tizmalarida tarqalgan. Yashash joylarining katta qismi Jizzax viloyati Forish tumanining Osmonsoy hududi va Samarqand viloyati Qo‘shrabot tumanining Ko‘kto‘nli hududlarida joylashgan. A. Batoshovning ma’lumotlariga ko‘ra, ushbu tur Pomir - Oloy bilan G‘arbiy Tyonshonning o‘simliklar qoplami jixatidan aloqador ekanligini ko‘rsatadi [4].

2024-yilda olib borilgan dala tadqiqotlar davomida ushbu turning yangi populyatsiyasi Nurota tizmasining Forish tumanining Ilonchi qishlog‘ida yo‘l yoqasida, dengiz sathidan h=680 m balandlikdan topildi.

Milliy gerbariy (TASH) fondida aniqlangan gerbariy ma’lumotlari.

O‘zbekiston: Туркестан. Самаркандская обл. Глинисто-гальковатые холмы близ ст. Куропаткино. 30.03.1913. *Н.В.Андросов*, Гуралаш. 23.06.1920. *А.Балабаева,* Туркестанский хребет, северный склон, верховья р. Санзар. Южные щебнистые склоны Гуралаш-сая. 12.05.1938. *Демурина Е.М, Горы близ ущ. Тамерлановы ворота, на левом берегу р. Санзар. 03.05.1921. Культиасов,* Нурата, Кошрабат. Сланцевые горы Миришкар. 05.05.1913. *Е.Коровин,* Памиро-Алай, Нуратинский хребет, Фаришский район. 18.05.1941. *Момотов,* Горы Кой-таш, к З от киш. Джизаклы. 28.05.1940. *П.Гомолицкий и Г.Долгих,* Нуратинский хребет, в 3 км на СЗ от кол. Ханбархана. Каменистый склон. Участок 60 с/х Ленина. 29.05.1963. *Хайдаров,* Нуратау, в 1 км на СВ от сел. Кок-Булак. 21.04.1956. *П.К.Закиров,* Туркестанский хребет. По дороге от сел. Баткен в сел. Сох, на 13 км. 18.05.1954. *Арифханова,* Самаркандская обл. Гора Заргар, в 2 км к СВ от кишл. Урта-сай на западном щебнистом склоне. 1400 м н.у.м. 11.05.1957. *И.Момотов и А.Ли, Хр. Нуратау.* Окрестности п. Нурата, скалы. 07.04.1964. *Маркова,* Памиро-Алай, хр. Нуратау, СЗ часть. Истоки сая Питау. Щебнистый восточный склон. Асс. полынная с ирисом и кустарниками. 27.05.1964. *Т.Цукерваник,* Бухарская обл., Навоинский р-н. Высокие адыры к востоку от р. Сармыш. 26.04.1965. *М.Пряхин,* Южные склоны Нуратау. Устюг-сай. Склон южной экспозиции, щебнистый. 18.05.1954. *Запрометова Н.С,* Горы Нуратау. В 1,5 км к юго-западу от перевала Саурбель, на каменистых местообитаниях по гребням хребтов, на мелкоз. юж. скл. 27.04.1958. *А.Д.Ли,* Горы Нуратау. В 2 км к северо-западу от к. Хукала, на типичном сероземе с кварцевым песком и щебенкой на поверхности. На западном склоне. 17.05.1956, Горы Нуратау. Фаришский район, в 4 км к северо-востоку от сел. Деристан. На каменисто-щебнистом светлом сероземе. Горы Нуратау. Фаришский район, в 4 км к северо-востоку от сел. Деристан. На каменисто-щебнистом светлом сероземе. 28.04.1958. *Ли и П.Закиров,* Памиро-Алай, хр. Туркестанский. Долина р. Санзар в окрестности Тамерлановых ворот. 25.04.1957. *Т.Адылов,* В 1 км к югу от к. Борса-ке. Горы Карача-тау. На третичных буроватого цвета слабо раз. Породах. 20.05.1958. *Ли и П.Закиров,* Нуратинский хребет, урочище Чашма. 03.04.1963. *Хайдаров,* Хр. Нуратау. Окрестности п. Нурата, скалы. 07.04.1964. Маркова, Самаркандская обл. Гора Заргар, в 2 км к СВ от кишл. Урта-сай на западном щебнистом склоне. 1400 м н.у.м. 11.05.1957. И.Момотов и А.Ли, Джизакская обл., Фаришский р-н.,хр. Нуратау, Северное подножие горы Карататаш. 05.04.2019. *Н.Ю.Бешко,Б.А.Адилов,* Северный склон Туркистанского хр. Заминский заповедник, Кульсай. 27.06.2010. *Ф.Хасанов,* Западный Памиро-алай.Зарафшанский хр., киш. Вагашти, Вагаштисай, Ойнакор,сев.ск. 2411 м н.у.м 09.05.2018. *Кодиров., Тургенов,* Северный склон хребта Мальгузар. Урочище Ардахшан. 05.05.2012.Азимова., *Бешко,* Северный склон Туркистанского хр.Заминский заповедник, Кульсай. 01.06.2010. *Эсанкулов,* Джизакская обл. Фаришский р-н. Предгорья. хр. Нуратау. 700 м н.у.м. Окрестностипос. Янгикишлак. 13.05.2012. *Н.Ю.Бешко.*



3-rasm.Gerbariy ma’lumotlari asosida turning tarqalish nuqtalari



4-rasm. Dala tadqiqotlari davomida aniqlangan yangi o‘sish nuqtalari

Balandlik mintaqalari bo‘yicha tarqalishi

O‘zbekiston milliy gerbariysi TASH fondida saqlanayotgan gerbariy namunalarni va amalga oshirilgan dala tadqiqotlari natijalarini tahlil qilish natijalariga ko‘ra, *Astragalus knorringianus* populyatsiyasining eng quyi balandlik diapazoni 466 m dan boshlanadi, eng yuqori o‘sish nuqtasi 2582 m ko‘rsatkichni qayd etdi.



5-rasm. *Astragalus knorringianus* balandlik mintaqalari bo‘yicha tarqalishi

Geofazoviy tahlil natijalari va muhofaza choralari

Geofazoviy tahlil natijalari

A. knorringianus O‘zbekiston qizil kitobining 1998, 2006, 2009, 2016, 2017, 2019- yildagi nashrlariga 2- maqom ostida kiritilgan. Turli yillar davomida nashr qilingan O‘zbekiston qizil kitobi nashrlarida kamyoblik maqomiga maqsadli tadqiqotlar olib borilmaganligi sababli o‘zgarish kiritilmagan. O‘zbekiston qizil kitobining 2006-yil nashrida keltirilgan ma’lumotlarga ko‘ra, muhofaza choralari sifatida maxsus tadbirlar ishlab chiqilmaganligi, 2009-yil nashrida Nurota davlat qo‘riqxonasida, 2016-yil nashrida esa Nurota va Zomin davlat qo‘riqxonalarida muhofaza etilishi to‘g‘risida ma’lumotlar keltirilgan. *A. knorringianus* International Union for

Conservation of Nature (IUCN, https://www.iucn.org/) tamoyillari asosida baholanmagan. Ilk bor, TASH fondida saqlanayotgan gerbariy namunalari va dala tadqiqotlari jarayonida turning jamlangan tarqalish nuqtalariga asoslangan holda GeoCat tahlili va IUCN tamoyillari bo‘yicha kamyoblik maqomi baholandi. Olingan natijalarga ko‘ra, tarqalish darajasi (EOO) bo‘yicha 19,107.807 km^2 va Endangered (Zaif) kategoriyasiga, tarqalish maydoni (AOO) bo‘yicha 156.000 km^2 va Endangered (Xavf ostida) kategoriyasiga mansub ekanligi aniqlandi [12] (5-rasm). Ushbu tur tarqalish darajasi (EOO), tarqalish maydoni (AOO) bo‘yicha EN B 2ab(ii, iii, iv, v); C2a(i) xavf ostida deb baholandi.



5-rasm. *Astragalus knorringianus* uchun geofazoviy tahlil natijalari

A.knorringianus Nurota va Zomin davlat qo‘riqxonalarida muhofaza qilinadi [1].

XULOSA.

Dala tadqiqotlari natijasida *A. knorringianus* turining geografik tarqalishi haqida yangi ma’lumotlar aniqlandi. Geofazoviy tahlil jarayonida turning tarqalish areali aniqlanib, ma'lum bo‘ldiki, mazkur turning yashash muhiti sezilarli darajada qisqarib bormoqda. Turning hududlar kesimida tarqalish nuqtalari yig‘indisi natijasida IUCN Qizil ro‘yxati mezonlari asosida baholanib, uning kamyoblik maqomi Endangered (Xavf ostida) kategoriyasiga mansub ekanligi tasdiqlandi. Turning areali qisqarishining asosiy sababi chorva mollarining intensiv boqilishi bo‘lib, bu tabiiy o‘simlik qoplamini degradatsiyaga uchratmoqda. Natijada *A.knorringianus* populyatsiyasi parchalanib, tabiiy reintroduksiya imkoniyatlari cheklanmoqda. Mazkur tadqiqotlar *A. knorringianus* turini saqlab qolish va biologik xilma-xillikni ta’minlash yo‘lida muhim ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Хасанов Ф.О. Астрагал Кнорринга - *Astragalus knorringianus* Boriss. Красная книга Республики Узбекистан. – Ташкент: Chinor ENK, 2019. – С. 38.
2. Baratov P. va boshq. O‘rta Osiyo tabiiy geografiyasi: Oliy o‘quv yurtlarining geografiya bo‘limi talabalari uchun o‘quv qo‘llanma /P. Baratov, M. Mamatqulov, A. Rafiqov; P. Baratovning umumiy taxriri ostida. — T.: O‘qituvchi, 2002.—440 b.

3. Виноградова Р. М. *Astragalus* sect. Aureophora // Определитель растений Средней Азии (критический конспект флоры) / под ред. А.И. Введенского. Ташкент: Изд-во “Фан” РУз. 1981. Т. 6. С. 212–213.

4. А. Р. Батошов. Флора останцов юго-восточного Кызылкума Диссертация. Ташкент-2016.

5. O’zbek Sovet Ensiklopediyasi. T. 8. Toshkent, 1976. 195-196 b.

6. Афанасьев К.С. Растительность Туркестанского хребта (в пределах Таджикистана и Киргизстана) М. –Л. 1956. С. 129-140.

7. Podlech D., Zarre S. (with collaboration of Ekici M., Maassoumi A.A.R. & Sytin A.). A taxonomic revision of the genus Astragalus L. (Leguminosae) in the Old World, vols. 1–3. – Naturhistorisches Museum, Wien, 2013. – 2439 p.

8. IUCN (2012a) Guidelines for Application of IUCN Red List Criteria at Regional and National Levels: Version 4.0. IUCN Red List Unit, Gland, Switzerland and Cambridge, UK, iii + 41pp.

9. IUCN (2012b) IUCN Red List Categories and Criteria. Version 3.1., ed. 2. IUCN Red List Unit, Gland, Switzerland and Cambridge, UK, iv– 32 pp.

10. IUCN (2019) Standards and Petitions Committee. 2019. Guidelines for using the IUCN Red List Categories and Criteria. Version 14. URL: http://www.iucnredlist.org/documents/RedListGuidelines.pdf

11. POWO (2023). Plants of the World Online. Facilitated by the Royal Botanic Gardens, Kew. Published on the Internet: http://www.plantsoftheworldonline.org.

12. http://geocat.kew.org.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 1-son)

TABIIY FANLAR

NATURAL SCIENCES

UDK: 57.087.1**:** 636.39.035
ORCID.ORG/0009-0004-3902-4437

TURLI JINSDAGI ORENBURG ZOTLI ULOQLAR QONINING ERITROTSIT INDEKSI KO‘RSATKICHLARI DINAMIKASI

Djambilov Bekzod Xamitovich
Sam.DVMCHBU, dotsent
E-mail: djambilov.bekzod@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqola yurtimizga chetdan keltirilgan oq tusli orenburg tivit echkilarining eritrotsitar ko‘rsatkichlari o‘rganilgan. Bunda ilk bor birinchi tug‘imdan olingan uloqlarning turli jins bo‘yicha gematologik ko‘rsatkichlari dinamikasi postembrional davrning sut emish bosqichigacha o‘zaro taqqoslanib tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: postembrional davr, orenburg echki zoti, eritrotsit, gemoglobin, gematokrit, eritrotsitar indeks.

ДИНАМИКА ЭРИТРОЦИТАРНЫХ ИНДЕКСОВ КРОВИ КОЗ ОРЕНБУРГСКОЙ ПОРОДЫ РАЗНОГО ПОЛА

Аннотация. В статье изучены эрироцитарные показатели коз оренбургской белой породы, завезенных в нашу страну из-за рубежа. В статье впервые изучена и проанализирована динамика гематологических показателей козлят разного пола в постэмбриональный период до отъема, полученных от первого ягнения.

Ключевые слова: постэмбриональный период, оренбургская порода коз, эритроциты, гемоглобин, гематокрит, эритроцитарный индекс.

DYNAMICS OF ERYTHROCYTE INDICES IN THE BLOOD OF ORENBURG GOATS OF DIFFERENT GENDER

Abstract. The article researched the erythrocytic indices of Orenburg White goats imported to our country from abroad. The article is the first to examine and analyze the dynamics of hematological indices of kids of different sexes in the postembryonic period before weaning, obtained from the first lambing.

Keywords: postembryonic period, Orenburg breed of goats, erythrocytes, hemoglobin, hematocrit, erythrocyte index.

KIRISH. Qon organizmning biologik suyuqligi bo‘lib, muhim hayotiy jarayonlarni me’yorda kechishini ta’minlaydi. Qon organizmdagi arteriyalar, venalar va kapillyarlarda aylanib harakatlanadigan suyuq to‘qimadir. Organizmning yashashi hamda barcha organ va to‘qimalarning normal ishlashi uchun qon reaksiyasi, tarkibi fizik-kimyoviy xossalari me’yor darajasida hamisha bir xil turishi fiziologik shartdir. Shuning uchun ham qon organizmning oynasi bo‘lib, organizmdagi hayotiy jarayonlarning me’yoriy kechishini ko‘rsatadigan ko‘rsatkichlardan biri qonning fiziologik hamda bioximik ko‘rsatkichlari hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan qon, qonning shaklli elementlarini sanash, ularning organizmdagi miqdorini bilish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki, organizning normal fiziologik holatida qanday qon ko‘rsatkichiga ega ekanligini bilsakgina, organizmda ro‘y berayotgan har qanday o‘zgarishni farqlay olishimiz mumkin. Turli hayvonlar, jumladan echkilar organizmida sodir bo‘layotgan almashinuv jarayonlarini, ularning umumiy fiziologik holatini, baholashda qon muhim amaliy va nazariy ahamiyatga ega.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR. Yurtimizda tivit yo‘nalishidagi echkichilikni rivojlantirish va momiq jun ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish maqsadida orenburg, angor echki zotlari chetdan olib kelinmoqda. Ammo xorijdan import qilingan tivit yo‘nalishidagi echkichilikning yangi ekologik sharoitidagi o‘sish, rivojlanish va mahsuldorlik ko‘rsatkichlari bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar esa deyarli yo‘q. Shuning uchun ham chetdan keltirilgan orenburg zotli echkilarda jinsiy dimorfizm va unga bog‘liq bo‘lgan tirik vaznining turli yosh davrlarida qanday o‘zgarishini aniqlash, echkilarning yangi ekologik muhitda qanday o‘sib moslashayotgani to‘g‘risida daslabki fikr yuritish imkonini beradi.

Eritrotsitlar *(Red Blood Cells, yoki RBC)* qizil qon tanachalari bo‘lib, yadroga ega bo‘lmagan hujayralar hisoblanadi. Sutemizuvchilarda eritrotsitlar o‘rtasi botiq bo‘lgan disk shaklida bo‘ladi. Eritrotsitlar shakli membrana tarkibidagi spektrin oqsili orqali barqaror saqlab turiladi. Eritrotsitlarning organizmdagi asosiy vazifasi nafas olish jarayonida gaz almashinuvini amalga oshirish hisoblanadi. Eritrotsitlar tarkibida yadroning bo‘lmasligi va o‘ziga xos shaklga egaligi orqali gaz almashinuvi jarayonining eng optimal xususiyatini, shuningdek deformatsiya va osmotik qarshilikni ta’minlaydi. Eng katta qizil qon tanachalari itlarda, keyin kamayish tartibi bo‘yicha mushuklar, otlar, qoramollar, qo‘ylar va echkilarda uchraydi. Eritrotsitlarning yashash davomiyligi 90-120 kunni tashkil etadi. Eritrotsitlar antigen xususiyatiga ega bo‘lib, ular asosida qon guruhlariga farqlanadi [6].

Eritrotsitlar – bu qonning asosiy hujayrasi bo‘lib, 1 ml qonda leykotsitlarga qaraganda 1000 marta ko‘p uchraydi. Turli hayvonlarda eritrotsit o‘lchami bir-biridan farq qilib, hayvonning tana o‘lchamiga bog‘liq bo‘lmaydi [3].

Parranda va sutemizuvchi hayvonlarda o‘sish jarayoni davomida eritrotsitlarning o‘lchami kichrayib, soni bo‘lsa aksincha ortib boradi. Buning natijasida esa qizil qon tanachalarining umumiy sirtqi yuza qatlami ortib, qonning gaz almashinuvidagi funksiyasini jadallashtiradi [5].

Gemoglobin barcha qizil qon hujayralari tarkibida joylashgan bo‘lib, o'z ichida temir va oqsildan iborat murakkab tuzilmani saqlaydi. Eritrotsit hujayralariga o‘ziga xos qizil rang

beradi. Gemoglobin qizil qon hujayralarini o‘pkada kislorod bilan bog‘lash va uni butun tanadagi to‘qimalar va organlarga olib borish imkonini beradi. Eritrotsitlar sitoplazmasining 34 foizi gemoglobinga to‘g‘ri kelib, uning miqdori hayvon turi, jinsi, yoshi, oziqlantirish va asrash sharoitiga bog‘liq bo‘ladi. Hayvonlarning 100 ml qoni tarkibiga 10-15 g gemoglobin saqlaydi. Ko‘pincha gemoglobin miqdorining kamligi eritrotsitlar soni va gematokrit ulushining ozligi bilan xarakterlanadi va anemiyani keltirib chiqaradi [4].

Ma’lumki organizmning shaxsiy taraqqiyot davri (ontogenez) ikki katta davrga bo‘linadi. Ontogenezning birinchi davri embrional davr hisoblanadi. Embrional davrda organizmning o‘sish va shakllanishi juda tez o‘tadi va rivojlanayotgan homila har xil o‘zgarishlarga juda sezgir bo‘ladi. Ammo bu davrda homilani ma’lum yo‘nalishda boshqarish juda murakkab. Chunki bu jarayon ona organizmi tomonidan amalga oshiriladi. Ona organizmi embrionni tashqi muhit ta’siridan himoya qiladi [1].

Organizmda embrional davr muddati tugashi bilan ontogenezning ikkinchi davri – postembrional davri boshlanadi. Bunda tug‘ilgan yosh organizm yangi muhit sharoitiga tushadi va shu muhit sharoitiga moslashib rivojlanishi kerak bo‘ladi. Bu davrda yosh hayvon organizmiga tashqi muhit omillari, jumladan asrash, oziqlantirish, yorug‘lik, namlik, havo harorati, havo bosimi va boshqa omillar o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. Mazkur omillarning uzluksiz ta’siriga nisbatan hayvon organizmi shartsiz va ular asosida shakllanadigan shartli reflekslar orqali javob qaytaradi. Shuning bilan bir qatorda organizmda kechadigan jarayonlarning bir me’yorda kechishi uchun qon muhim biologik ahamiyat kasb etadi [2].

Shundan kelib chiqib qaraydigan bo‘lsak, qonning shaklli elementlarini sonini aniqlash muhim amaliy ahamiyat kasb etadi. Agar organizmdagi qon ko‘rsatkichlarini bilsak, yangi ekologik sharoitda hayvonlarning fiziologik holatida me’yorga nisbatan qanday o‘zgarish ro‘y berayotgani to‘g‘risida fikr yurita olamiz. Shuning uchun ham tadqiqotlar davomida chetdan keltirilgan orenburg zotli echkilardan tug‘ilgan uloqlar organizmi postembrional davrning sut emish, davrida eritrotsitar ko‘rsatkichlarning qanday o‘zgarishi dinamikasini bilish muhim sanaladi.

Tadqiqotlar Navoiy viloyati Nurota tumani Temirqovuq qishlog‘ida “Nurota qorako‘l naslchilik” MCHJ da urchitilayotgan tivit yo‘nalishidagi orenburg zotli echki uloqlari ustida o‘tkazildi. Bunda birinchi marta bolalagan echkilardan olingan uloqlardan foydalanildi. Uloqlardan qon namunalari ertalab oziqlantirishdan oldin bo‘yin venasidan olindi. Tajriba davomida eritrotsitlarning quyidagi parametrlari: eritrotsitlar kontsentratsiyasi (RBS), gemoglobin miqdori (HGB), gematokrit (HCT), o‘rtacha eritrotsitdagi gemoglobin miqdori (MCH), eritrotsit hajm (MCV), eritrotsitdagi gemoglobin kontsentratsiyasi (MCHC) aniqlandi. Eritrositar ko‘rsatkichlarini aniqlash uchun Goryaev kamerasidan, Sali gemometridan va Panchenkov qurilmasidan gradusli kapillyarlardan foydalanildi (Todorov usuli). Olingan raqamli ma’lumotlarga matematik-statistik uslubida qayta ishlov berilib: o‘rtacha arifmetik qiymat – $\bar{X}$, o‘rtacha arifmetik qiymatning xatosi – S_x, varriatsiyalanish koeffitsienti – C_v%,

guruhlar o‘rtasida farqlanishning ishonchlilik mezoni – *P* Microsoft Office Excel 2007 kompyuter dasturi yordamida tegishli formulalar orqali hisoblab chiqildi [7].

NATIJALAR VA MUHOKAMA. Tadqiqotlar davomida turli jins va yoshdagi orenburg zotli uloqlarda eritrotsit ko‘rsatkichlari aniqlandi. Tajribadagi turli jins va yoshdagi orenburg zotli uloqlarda qonning morfologik tarkibi dinamikasi bo‘yicha olingan raqamli ma’lumotlar quyidagi jadvalda keltirilgan. Mazkur jadval ma’lumotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, uloqlar hayotining dastlabki kunida eritrotsitlar ko‘rsatkichi erkak jinsli uloqlarda o‘rtacha arifmetik qiymat 11,52±0,24 x 10^{12}/l ni tashkil etib, urg‘ochi jinsdagi tengqur uloqlarda esa o‘rtacha 11,35±0,25 x10^{12}/l ni tashkil etdi. Jinsiy dimorfizm bo‘yicha oradagi farq 0,17 x10^{12}/l yoki 1,50% bilan erkak uloqlar ustunlik qilsada orada ishonchli farqlanish kuzatilmadi (P>0,05). Eritrotsitlarning miqdori uloqlarning bir oylik yoshida har ikkala guruhda ham nisbatan kamayganligi kuzatildi. Mazkur yoshda erkak jinsli uloqlarda eritrotsitlarning o‘rtacha arifmetik qiymati 10,21±0,33 x10^{12}/l ni tashkil etdi. Bu yoshda eritrotsitlar miqdori tug‘ilgan paytga nisbatan taqqoslanganda uning miqdori 1,31 x10^{12}/l (P<0,01) ga, yoki 11,37% ga kamayganligi aniqlandi. Urg‘ochi jinsli uloqlarda esa eritrotsitlarning o‘rtacha arifmetik qiymati 9,64±0,29 x10^{12}/l ni tashkil etib, tug‘ilgan paytga nisbatan taqqoslanganda uning miqdori 1,71 x10^{12}/l (P<0,01) ga, yoki 15,07% ga kamayganligini ko‘rsatdi.

Bir oylik yoshda jinsiy dimorfizm bo‘yicha oradagi farq 0,57 x10^{12}/l yoki 5,91% bilan erkak uloqlar ustunlik qilsada orada yana ishonchli farqlanish kuzatilmadi (P>0,05). Bir oylik yoshda shakllantirilgan axtalangan uloqlar guruhi ham eritrositlarning miqdori 10,07 x10^{12}/l ni tashkil etib, erkak va urg‘ochi uloqlardan deyarli farq qilmadi. Tajribalar davomida sutdan ajratilganda orenburg zotli uloqlarning 4 oylik yoshdagi jinsiy dimorfizmga aniqlangan eritrotsitlar ko‘rsatkichlari mos holda 15,13 x10^{12}/l; 14,92 x10^{12}/l va 14,75 x10^{12}/l ni tashkil etdi. Ko‘rinib turibdiki mazkur yoshda ham erkak uloqlar guruhi eritrotsitlar miqdorining urg‘ochi va sarkalar guruhidan mos holda 0,21 x10^{12}/l yoki 1,41% ga va 0,38 x10^{12}/l yoki 2,78% ga ortiq bo‘lsada, orada ishonchli farqlanish kuzatilmadi (P>0,05). Biroq barcha guruhlarda ham eritrotsitlarning hajmiy birlikdagi miqdor ko‘rsatkichi bir oylik yoshiga nisbatan taqqoslanganda ishonchli darajada ortganligini aniqlandi. Jumladan, erkak jinsli uloqlarda eritrotsitlar miqdori 4,92 x10^{12}/l (P<0,001) yoki 48,18% ga, urg‘ochi jinsli uloqlarda 5,28 x10^{12}/l (P<0,001) yoki 54,77% ga, sarkalar guruhida esa 4,68 x10^{12}/l (P<0,001) yoki 46,47% ga ortganligi aniqlandi.

Tajribalar davomida eritrotsit tarkibidagi gemoglobinning miqdori (g%) ham hisobga olib borildi. Gemoglobin murakkab tuzilishga ega. U oqsil bo‘lgan – globin va oqsil bo‘lmagan – gem (temir va protoporfirin IX kompleks) qismidan tashkil topgan bo‘lib, organizmda o‘pkaning alveolalaridan kislorodni butun organizmdagi hujayralarga va karbonat angidridni hujayralardan o‘pka alveolalariga tashishni amalga oshiradigan xromoproteid hisoblanadi. Uloqlarning yosh davrlari bo‘yicha aniqlangan gemoglobin miqdori juda o‘zgaruvchan dinamikaga ega ekanligini ko‘rsatdi. Jumladan, uloqlar tug‘ilgan paytda gemoglobin ko‘rsatkichi erkak jinsli uloqlarda o‘rtacha arifmetik qiymati 8,36 g%, urg‘ochi jinsdagi tengqur

uloqlarda esa o‘rtacha 8,02 g% ni tashkil etdi. Jinsiy dimorfizm bo‘yicha oradagi farq 0,34 g% yoki 4,24% bilan erkak uloqlar ustunlik qilsada orada ishonchli farqlanish kuzatilmadi (P>0,05).

jadval

Sut emish davrida turli jinsdagi orenburg uloqlar qonining eritrositar ko‘rsatkichlari, n-10

Yoshi, oy	Jinsi					
	♂		♀		Sarka	
	$\bar{X}\pm S_x$	C_v%	$\bar{X}\pm S_x$	C_v%	$\bar{X}\pm S_x$	C_v%
RBS, x 10^{12}/l						
0	11,52±0,24	6,70	11,35±0,25	7,04	-	-
1	10,21±0,33	10,36	9,64±0,29	9,65	10,07±0,31	9,85
4	15,13±0,29	6,03	14,92±0,36	7,55	14,75±0,32	6,86
HGB, g%						
0	8,36±0,18	6,75	8,02±0,18	7,10	-	-
1	6,88±0,21	9,71	6,74±0,21	9,90	6,80±0,20	9,20
4	8,82±0,22	7,82	8,66±0,24	8,78	8,70±0,20	7,13
HCT, %						
0	27,58±0,56	6,37	27,32±0,49	5,72	-	-
1	24,12±0,20	2,56	22,88±0,18	2,18	23,95±0,17	2,29
4	28,32±0,30	3,34	28,22±0,32	3,59	28,03±0,30	3,41
MCV, fl						
0	23,95±0,06	0,73	24,10±0,15	2,01	-	-
1	23,81±0,66	8,77	24,06±0,68	8,96	23,97±0,66	8,74
4	18,75±0,17	2,82	19,03±0,54	8,91	19,07±0,40	6,62
MCH, pg						
0	7,26±0,02*	1,06	7,07±0,07	2,94	-	-
1	6,75±0,13	6,10	7,00±0,08	3,83	6,77±0,12	5,64
4	5,84±0,14	7,76	5,81±0,11	5,91	5,90±0,07	3,95
MCHC, g/dl						
0	30,31±0,13*	1,40	29,35±0,35	3,81	-	-
1	28,51±0,77	8,57	29,28±0,84	9,04	28,39±0,77	8,62
4	31,15±0,74	7,52	30,72±0,91	9,36	31,05±0,69	7,02

*Izoh: *-P<0,05*

Gemoglobin miqdori uloqlarning bir oylik yoshida har ikkala guruhda ham keskin kamayganligi aniqlandi. Mazkur yoshda erkak jinsli uloqlarda gemoglobinning o‘rtacha arifmetik qiymati 6,88 g% ni tashkil etdi. Bu yoshda eritrotsitlar miqdori tug‘ilgan paytga nisbatan taqqoslanganda uning miqdori 1,48 g% (P<0,01) yoki 17,70% kamayganligi aniqlandi. Urg‘ochi jinsli uloqlarda esa gemoglobinning o‘rtacha arifmetik qiymati 6,74 g% tashkil etib, tug‘ilgan paytga nisbatan taqqoslanganda uning miqdori 1,28 g% (P<0,001) ga, yoki 15,96% ga kamayganligini ko‘rsatdi. Bir oylik yoshda jinsiy dimorfizm bo‘yicha oradagi sezilarli farq

kuzatilmadi (P>0,05). Bir oylik yoshda shakllantirilgan axtalangan uloqlar guruhi gemoglobinning miqdori 6,80 g% ni tashkil etib, erkak va urg‘ochi uloqlarda bu sezilarli farq qilmadi. Tajribadagi uloqlarning 4 oylik yoshida qondagi gemoglobin miqdorining sezilarli darajada ko‘payganligi aniqlandi. Xususan, uloqlarning 4 oylik yoshdagi guruhlar bo‘yicha gemoglobin miqdori mos holda 8,82; 8,66 va 8,70 g% ga to‘g‘ri keldi. Mazkur yoshda gemoglobin miqdor ko‘rsatkichi bir oylik yoshiga nisbatan taqqoslanganda ortganligini ko‘rsatdi. Xususan, erkak jinsli uloqlarda 1,94 g% (P<0,001) ga, urg‘ochi uloqlarda 1,92 g% (P<0,001) ga, axtalangan uloqlar guruhida esa 1,90 g% (P<0,001) ga ortganligi aniqlandi.

Tadqiqotlar davomida tajribadagi uloqlar qonida gematokrit ulushi hisoblab chiqildi. Ma’lumki qon tarkibiga ko‘ra ikki qismdan tashkil topgan bo‘lib, unga qon plazmasi va qonning shaklli elementlari kiradi. Gematokrit ***(Hematocrit,*** *yoki* ***HCT)*** shaklli elementlarning umumiy qon hajmidagi ulushini ifodalaydi. Qonning shaklli elementlariga eritrotsit, leykotsit va trombotsitlar kiradi. Qoida tariqasida gematokrit qon plazmasiga nisbatan qizil qon tanachalarining sonini ifodalaydi. Ba’zida gematokrit barcha shaklli elementlar (eritrotsitlar, leykotsitlar, trombotsitlar) umumiy hajmini qonning umumiy hajmiga nisbati sifatida ham ifodalanadi. Biroq oradagi farq juda kichik bo‘ladi. Chunki shaklli elementlar umumiy hajmining 99% aynan eritrotsitlarga to‘g‘ri keladi. Gematokrit ko‘rsatkichi agar umumiy qon hajmining ulushi sifatida ifodalansa birligi foizda (%), agar hajm sifatida ifodalansa birligi litr (l/l) ko‘rinishida aks ettiriladi. Gematokrit ko‘rsatkichini o‘rganish eritrotsitlarni indeks qiymati bo‘yicha baho berish imkonini beradi.

Tajribadagi uloqlarning postembrional davrning sut emish bosqichida gematokrit ulushi ham aniqlandi. Xususan, uloqlar tug‘ilgan paytda gematokrit ulushi erkak jinsli uloqlarda 27,58%, urg‘ochi jinsdagi uloqlarda esa o‘rtacha 27,32 g% ni tashkil etdi. Jinsiy dimorfizm bo‘yicha oradagi farq 0,26% bilan erkak uloqlar ustunlik qilsada orada ishonchli farqlanish kuzatilmadi (P>0,05). Gematokrit ulushi uloqlarning bir oylik yoshida har ikkala guruhda ham keskin kamayganligi aniqlandi. Mazkur yoshda erkak jinsli uloqlarda gematokrit ulushi 24,12% ni, urg‘ochi jinsli uloqlarda esa 22,88% ni tashkil etdi. Bir oylik yoshda jinsiy dimorfizm bo‘yicha oradagi farq 1,24% (P<0,01) ulish bilan erkak jinsli uloqlar ustinligi kuzatildi. Gematokrit ulushi tug‘ilgan paytga nisbatan taqqoslanganda uning miqdori erkak va urg‘ochi uloqlarda mos holda 3,46%, 4,44% (P<0,001) ga kamayganligi aniqlandi. Bir oylik yoshda shakllantirilgan axtalangan uloqlar guruhida gematokrit ulushi 23,95% ni , erkak uloqlar guruhidan sezilarli farq qilmasada, urg‘ochi uloqlardan 1,07% (P<0,01) ga ortiqligini aniqlandi. Uloqlarning 4 oylik yoshida qondagi gematokrit ulushi sezilarli darajada ortganligi kuzatildi. Xususan, uloqlarning 4 oylik yoshida guruhlar bo‘yicha gematokrit ulushi mos holda 28,32; 28,22 va 28,03 g% ga to‘g‘ri keldi. Jinsiy dimorfizm bo‘yicha guruhlar orasida sezilarli farq kuzatilmadi. Mazkur yoshda gematokrit ulushi bir oylik yoshiga nisbatan taqqoslanganda erkak jinsli uloqlarda 4,20 g% (P<0,001) ga, urg‘ochi uloqlarda 5,34% (P<0,001) ga, axtalangan uloqlar guruhida esa 4,08% (P<0,001) ga ortganligi ko‘rsatdi.

Yuqorida ta’kidlab o‘tilganidek gematokrit ulushini aniqlash orqali eritrotsitlarni indeks qiymati bo‘yicha baholash imkonini beradi. Eritrositlarning indeks qiymati deganda qizil qon hujayralarining hajmi, ulardagi gemoglobin miqdorini tavsiflovchi ko‘rsatkichlar tushuniladi. Bunda, eritrotsitning hajmi – MCV *(mean corpuscular volume)* bilan ifodalanib, femtolitr *(fl)* da; eritrotsit tarkibidagi o‘rtacha gemoglobin miqdori – MCH *(mean concentration hemoglobin)* bilan ifodalanib, pikogramm *(pg)* da; eritrotsit tarkibidagi o‘rtacha gemoglobin konsentratsiyasi – MCHC *(mean cell hemoglobin concentration)* bilan ifodalanib, gramm-detsilitr *(g/dl)* da o‘lchanadi.

Uloqlar hayotining dastlabki kunida eritrotsitning hajmi *(MCV)* erkak jinsli uloqlarda o‘rtacha arifmetik qiymat 23,95 femtolitrni tashkil etgan bo‘lsa, urg‘ochi jinsdagi uloqlarda esa o‘rtacha 24,10 femtolitrni tashkil etdi. Jinsiy dimorfizm bo‘yicha urg‘ochi jinsli uloqlar ustunlik qilsada oradagi sezilarli farq aniqlanmadi. Eritrotsitlarning MCV ko‘rsatkichi uloqlarning bir oylik yoshida har ikkala guruhda ham nisbatan kamayganligi kuzatildi. Mazkur yoshda erkak jinsli uloqlarda eritrotsitlar hajmining o‘rtacha arifmetik qiymati 23,95 femtolitrni tashkil etdi. Bu yoshda eritrotsitlarning hajmi tug‘ilgan paytga nisbatan taqqoslanganda uning 0,14 ($P>0,05$) fl ga, yoki 0,58% ga kamayganligi aniqlandi. Urg‘ochi jinsli uloqlarda esa eritrotsitlar hajmining o‘rtacha arifmetik qiymati 24,06 femtolitrni tashkil etib, tug‘ilgan paytga nisbatan taqqoslanganda uning 0,04 ($P>0,05$) ga, yoki 0,17% ga kamayganligi kuzatildi. Bir oylik yoshda shakllantirilgan axtalangan uloqlar guruhida eritrotsitlar hajmining o‘rtacha arifmetik 23,97 femtolitrni tashkil etib, erkak jinsli uloqlardan 0,16 ft ($P>0,05$) ga ortiq bo‘lgan bo‘lsa, urg‘ochi jinsli uloqlardan 0,09 ($P>0,05$) ft ($P>0,05$) ga kam ortiq bo‘ldi. Jinsiy dimorfizm bo‘yicha mazkur yoshda ham jins guruhlari o‘rtasida ishnochli farq aniqlanmadi. Uloqlarning 4 oylik yoshida MCV ko‘rsatkichi guruhlar bo‘yicha sezilarli darajada kamayganligi aniqlandi. Xususan, uloqlarning 4 oylik yoshida guruhlar bo‘yicha MCV ko‘rsatkichi mos holda 18,75; 19,03 va 19,07 fl ni tashkil etdi. Jinsiy dimorfizm bo‘yicha guruhlar orasida sarkalar guruhi nisbatan ustunlik qilsada, o‘rtada sezilarli farq kuzatilmadi. Mazkur yoshda MCV ko‘rsatkichi bir oylik yoshiga nisbatan taqqoslanganda erkak jinsli uloqlarda 5,06 ft ($P<0,001$) ga, urg‘ochi uloqlarda 5,03 ft ($P<0,001$) ga, axtalangan uloqlar guruhida esa 4,90 ft ($P<0,001$) ga kamayganligini ko‘rsatdi.

Tajribadagi uloqlar eritrotsit tarkibidagi o‘rtacha gemoglobin miqdori (MCH) dinamikasi sut emish davrida aniqlanganda quyidagi natijalar aniqlandi. Xususan, MCH ko‘rsatkichi uloqlar hayotining dastlabki kunida erkak jinsli uloqlarda o‘rtacha 7,26 pikogrammni tashkil etgan bo‘lsa, urg‘ochi jinsdagi uloqlarda esa o‘rtacha 7,07 pikogrammga to‘g‘ri keldi. Jinsiy dimorfizm bo‘yicha erkak jinsli uloqlar mazkur ko‘rsatkich bo‘yicha 0, 19 pg ($P<0,05$) ga, yoki 2,69% ga ustunligi kuzatildi. Eritrotsitlarning MCH ko‘rsatkichi uloqlarning bir oylik yoshida har ikkala guruhda nisbatan kamayganligi kuzatildi. Mazkur yoshda erkak jinsli uloqlarda MCH ning o‘rtacha arifmetik qiymati 26,75 pg ni tashkil etib, tug‘ilgan paytga nisbatan taqqoslanganda 0,51 pg ($P<0,01$), yoki 7,02% ga kamayganligi aniqlandi. Urg‘ochi jinsli uloqlarda esa MCH ning o‘rtacha arifmetik qiymati 7,00 pg ga to‘g‘ri kelib, tug‘ilgan paytga

nisbatan taqqoslanganda uning 0,07 (P>0,05) ga, yoki 0,99% ga kamayganligi kuzatildi. Bir oylik yoshda shakllantirilgan axtalangan uloqlar guruhida esa MCH ko‘rsatkichi 6,77 pg tashkil etib, erkak jinsli uloqlardan 0,02 pg (P>0,05) ga ortiq bo‘lgan bo‘lsa, urg‘ochi jinsli uloqlardan 0,23 (P>0,05) pg (P>0,05) ga kam bo‘ldi. Jinsiy dimorfizm bo‘yicha mazkur yoshda jins guruhlari o‘rtasida ishonchli farqlanish aniqlanmadi. Uloqlarning 4 oylik yoshida MCH ko‘rsatkichi guruhlar bo‘yicha sezilarli darajada yana kamayganligi kuzatildi. Jumladan, uloqlarning 4 oylik yoshida guruhlar bo‘yicha MCH ko‘rsatkichi mos holda 5,84; 5,81 va 5,90 pg ga to‘g‘ri keldi. Jinsiy dimorfizm bo‘yicha guruhlar orasida sarkalar guruhi nisbatan ustunlik qilsada, ishonchli farq aniqlanmadi. Bu yoshda MCH ko‘rsatkichi bir oylik yoshiga nisbatan erkak jinsli uloqlarda 0,91 pg (P<0,001), yoki 13,48% ga, urg‘ochi uloqlarda 1,19 pg (P<0,001), yoki 17,00% ga, axtalangan uloqlar guruhida esa 0,87 pg (P<0,001), yoki 12,85% ga kamayganligini aniqlandi.

Tajribadagi uloqlarning eritrotsit tarkibidagi o‘rtacha gemoglobin konsentratsiyasi (MCHC) sut emish davrida o‘ziga xos dinamikada kechdi. Jumladan, MCHC ko‘rsatkichi uloqlar hayotining dastlabki kunida erkak jinsli uloqlarda o‘rtacha 30,31 g/dl tashkil etgan bo‘lsa, urg‘ochi jinsdagi uloqlarda esa 29,35 g/dl ga to‘g‘ri keldi. Jinsiy dimorfizm bo‘yicha erkak jinsli uloqlar mazkur ko‘rsatkich bo‘yicha 0,96 g/dl (P<0,05) ga, yoki 3,27% ga ustunligi kuzatildi.

Eritrotsitlarning MCHC ko‘rsatkichi uloqlarning bir oylik yoshida har ikkala guruhda ham sezilarli kamayganligi aniqlandi. Mazkur yoshda erkak jinsli uloqlarda MCHC ning o‘rtacha arifmetik qiymati 28,51 g/dl ni tashkil etib, tug‘ilgan paytga nisbatan taqqoslanganda 1,80 g/dl (P<0,05), yoki 5,94% ga kamayganligi aniqlandi. Urg‘ochi jinsli uloqlarda esa MCHC ning o‘rtacha arifmetik qiymati 29,28 g/dl ga to‘g‘ri kelib, tug‘ilgan paytga nisbatan taqqoslanganda uning 0,07 (P>0,05) ga, yoki 0,24% ga kamayganligi kuzatildi. Bir oylik yoshda shakllantirilgan axtalangan uloqlar guruhida esa MCHC ko‘rsatkichi 28,39 g/dl ni tashkil etib, erkak jinsli uloqlardan 0,12 g/dl (P>0,05), urg‘ochi jinsli uloqlardan 0,89 g/dl (P>0,05) quyi ko‘rsatkichga ega bo‘ldi. Jinsiy dimorfizm bo‘yicha mazkur yoshda jins guruhlari o‘rtasida ham ishonchli farqlanish kuzatilmadi. Uloqlarning 4 oylik yoshida MCHC ko‘rsatkichi guruhlar bo‘yicha sezilarli darajada ortganligi aniqlandi. Xususan, uloqlarning 4 oylik yoshida guruhlar bo‘yicha MCHC ko‘rsatkichi mos holda 31,15; 30,72 va 31,05 g/dl ni tashkil etdi. Jinsiy dimorfizm bo‘yicha guruhlar orasida erkak jinsli uloqlar guruhi nisbatan ustunlik qilsada, ishonchli farq aniqlanmadi. Bu yoshda MCHC ko‘rsatkichi bir oylik yoshiga nisbatan erkak jinsli uloqlarda 2,64 g/dl (P<0,01), yoki 9,26% ga, urg‘ochi uloqlarda 1,44 g/dl (P>0,05), yoki 4,92% ga, axtalangan uloqlar guruhida esa 2,66 g/dl (P<0,05), yoki 9,37% ga ortganligi kuzatildi

XULOSA. Tadqiqotlar davomida orenburg zotli tivit yo‘nalishidagi echkilarning postembrional davrda sut emish bosqichida aniqlangan eritrotsitlar va uning indeks ko‘rsatkichlarining dinamikasi shuni ko‘rsatadiki, yosh davrlarida eritrotsitar ko‘rsatkichlar bo‘yicha o‘zgarish ro‘y beradi. Bu o‘zrarishlar eritrotsitlar, gemoglobin va gematokrit ko‘rsatkichlarida yaqqol ko‘zga tashlanadi. Tug‘ilgan hayvon organizmida gemopoez asosan

suyak ko‘migida sodir bo‘ladi. Ma’lumki yosh organimzda suyakning shakllanishi tug‘ilgandan keyin yosh kattalashishi bilan rivojlanib boradi. Bizning fikrimizcha shuning uchun ham eritrotsitlar miqdori ortib boradi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Bianca W. Kunz, P. Hellmann, U. Einige physiologische Normalwerte von Ziegen. Schweiz. Arch. Tierheilk. 119, - S. 197-199.
2. Peter G.G. Jackson, Peter D. Cockcroft. Clinical Examination of Farm Animals. Copyright © 2002 by Blackwell Science Ltd. -301 pp.
3. Бегматова Д.А. Сравнительное изучение некоторых морфофизиологических показателей крови у разных половозрастных групп кроликов. Дис.магис.2013 -71 б.
4. Полозюк О.Н.Гематология : учебное пособие / О.Н. Полозюк, Т.М. Ушакова ; Донской ГАУ. - Персиановский : Донской ГАУ, 2019. – 159 с.
5. Родимцев А.С. Возрастная динамика показателей крови птенцов в гнездовой период Русский орнитологический журнал 2004, Том 13, Экспресс-выпуск 264: - С.543-549.
6. Сивкова Т.Н., Доронин-Доргелинский Е.А. Клиническая ветеринарная гематология: учебное пособие, М-во с-х. РФ. Федералльное гос, бюджетное образов. Учреждение высшего образов. «Пермская гос. с-х. акад. им. акад. Д.Н.Прянишкова», – Пермь : ИПТС «Прокостъ», 2017, – 123 с.
7. Яковлев В.Б., Щеглов Е.В. Биометрические расчеты в табличном процессоре Microsoft Excel. Учебное пособие. Москва 2004. – 204 с.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 1-son)

TABIIY FANLAR

NATURAL SCIENCES

UDK: 57.087.1
ORCID.ORG/0009-0004-7354-513X

POSTEMBRIONAL DAVRDA TURLI YOSH VA ZOTDAGI QUYONLAR QONINING MORFOLOGIK KO‘RSATKICHLARI

Ibragimov Baxodir Baxtiyorovich
Sam.DVMCHBU mustaqil izlanuvchi
E-mail:ibragimov.bakhodir@mail.ru

Annotatsiya. Mazkur maqolada go‘sht yo‘nalishiga ixtisoslashgan oq yangi zelandiya va kaliforniya zotli quyonlarning fiziologik voyaga yetish yoshigacha bo‘lgan muddatdagi qonning morfologik tarkibi o‘rganilgan. Qonning shaklli elementlari va gemoglobin miqdori turli yosh davrlari bo‘yicha tahlil qilingan. Olingan ma’lumotlar asosida quyonlarda qonning morfologik tarkibi bo‘yicha belgilarning o‘zgarish dinamikasi aniqlangan.

Tayanch so‘zlar: quyon, qon, gemopoez, eritrotsit, leykotsit, gemoglogin, dinamika.

МОРФОЛОГИЧЕСКИЕ ПОКАЗАТЕЛИ КРОВИ КРОЛИКОВ РАЗНОГО ВОЗРАСТА И ПОРОД В ПОСТЭМБРИОНАЛЬНЫЙ ПЕРИОД

Аннотация. В данной статье изучен морфологический состав крови до наступления физиологической зрелости у кроликов новозеландской белой и калифорнийской породы, специализирующихся на мясном направлении. Проведен анализ форменных элементов крови и содержания гемоглобина по возрастным периодам. На основании полученных данных определена динамика изменения морфологического состава крови кроликов.

Ключевые слова: кролик, кровь, гемопоэз, эритроцит, лейкоцит, гемоглобин, динамика.

MORPHOLOGICAL INDICATORS OF BLOOD OF RABBITS OF DIFFERENT AGES AND BREEDS IN THE POSTEMBRYONIC PERIOD

Abstract. This article researched the morphological composition of blood before physiological maturity in New Zealand White and Californian rabbits specializing in meat production. An analysis of blood cells and hemoglobin content by age periods is conducted. Based on the data obtained, the dynamics of changes in the morphological composition of rabbit blood is determined.

Key words: rabbit, blood, hematopoiesis, erythrocyte, leukocyte, hemoglobin, dynamics.

KIRISH. Qon ichki muhit doimiyligini saqlashda hayvon organizmining hayoti uchun katta ahamiyatga ega. Qonni tekshirish eng muhim diagnostika usuli hisoblanadi. Gematopoetik organlar tanadagi turli fiziologik va ayniqsa patologik ta’sirlarga juda sezgir, shuning uchun qon tasviri bu ta’sirlarning aksidir. Shuning uchun ham hayvonning sog‘ligi haqida ma’lumot olish uchun laboratoriya vositalaridan foydalangan holda gematologik ko‘rsatkichlar parametrlarini obyektiv o‘rganish muhim sanaladi. Shu nuqtai nazardan qon, qonning shaklli elementlarini sanash, ularning organizmdagi miqdorini bilish muhim ahamiyat kasb yetadi. Chunki, organizning normal fiziologik holatida qanday qon ko‘orsatkichiga ega ekanligini bilsakgina, organizmda ro‘y berayotgan har qanday o‘zgarishni farqlay olishimiz mumkin. Hayvonlar, jumladan quyonlar organizmida sodir bo‘layotgan almashinuv jarayonlarini, ularning umumiy fiziologik holatini, baholashda qonning tarkibini ya’ni shaklli elementlarini tahlil etish muhim amaliy va nazariy ahamiyatga ega.. Quyonlar o‘sish va rivojlanishining turli bosqichlarida qizil suyak iligi, limfa tugunlari, timus va taloq qon hosil qiluvchi organlar hisoblanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR. Eritrotsit so‘zi (qizil qon tanachalari) yunoncha “*erythros”*- qizil, “*cyte”*-hujayra degan ma’noni anglatib, qon hujayralarining eng keng tarqalgan turi hisoblanadi. Eritrotsitlar umurtqali hayvonlarda kislorodni (O_2) tana to‘qimalariga qon oqimi orqali yetkazib berishning asosiy vositasi hisoblanadi. Qizil qon hujayralari o‘pkadan yoki baliqlarda jabralaridan kislorodni birikrirb, tananing barcha to‘qimalariga arterial kapillyar tomirlari orqali yetkazib beradi [4].

Qon ikki qismdan tashkil topgan bo‘lib, suyuq rangsiz qon zardobi va qizil quyuq shaklli elementlardan iborat. Qonning shaklli elementlariga eritrotsitlar, leykotsitlar va qon plastinkalari kiradi.

Eritrotsitlar – bu qonning asosiy hujayrasi bo‘lib, 1 ml qonda leykotsitlarga qaraganda 1000 marta ko‘p uchraydi. Turli hayvonlarda eritrotsit o‘lchami bir-biridan farq qilib, hayvonning tana o‘lchamiga bog‘liq bo‘lmaydi [1].

Sutemizuvchi hayvonlar va qushlarning o‘sishi bilan eritrotsitlar o‘lchami qisqarib, miqdori esa aksincha oshib boradi. Natijada eritrotsitlar nisbiy yuza qatlami kengayib qonning nafas olish funksiyasini oshiradi [2].

Leykotsitlar - oq qon qon tanachalari bo‘lib, organizmda immunitet funksiyasi bajaradigan, yadroga ega bo‘lgan periferik qon hujayralarining geterogen guruhidir. Leykotsitlar yadrosining bo‘yalishi, sitoplazmaning rangi, donadorlikning mavjud yoki yo‘qligi va uning tabiati bo‘yicha bir necha turlarga ajratiladi. Ularning o‘lchami 6 mkm *(limfotsitlar)* dan 14 mkm *(monotsitlar)* gacha bo‘ladi. Asosiy vazifasi organizmda himoya funktsiyasini bajaradi. Ular o‘z shaklini o‘zgartirib, organizmga kirgan bakteriyalarni yo‘qotadi [6].

Gemoglobin barcha qizil qon hujayralari tarkibida joylashgan bo‘lib, o'z ichida temir va oqsildan iborat murakkab tuzilmani saqlaydi. Eritrotsit hujayralariga o‘ziga xos qizil rang beradi. Gemoglobin qizil qon hujayralarini o‘pkada kislorod bilan bog‘lash va uni butun tanadagi to‘qimalar va organlarga olib borish imkonini beradi. Eritrotsitlar sitoplapzmasining 34 foizi gemoglobinga to‘g‘ri kelib, uning miqdori hayvon turi, jinsi, yoshi, oziqlantirish va

asrash sharoitiga bog‘liq bo‘ladi. Hayvonlarning 100 ml qoni tarkibiga 10-15 g gemoglobin saqlaydi. Ko‘pincha gemoglobinning miqdorining kamligi eritrotsitlar soni va gematokrit ulushining ozligi bilan xarakterlanadi va anemiyani keltirib chiqaradi [5].

Tadqiqotlar go‘sht yo‘nalishidagi oq yangi zelandiya *(NZW)* va kaliforniya *(Kal)* zotli quyonlar ustida o‘tkazildi. Tadqiqotlar davomida bino ichidagi harorat 22-25 ^{o}C da bo‘lib, ikkala zotdagi quyonlar bir xil sim to‘rdan yasalgan katakli usulda saqlandi. Tadqiqotlar davomida quyonlar bir xil oziqlantirildi. Quyonlardan qon namunalari ertalab oziqlantirishdan oldin quloq venasidan olindi. Eritrotsitlar miqdorini sanashda eritrotsitli (qizil aralashtirgichli) melanjerdan foydalanildi. Bunda natriy xloridning 3% li eritmasi yordamida qon 200 marta suyultirilib, yaxshilab chayqatildi. So‘ng ozroq qismi oqizilib, Goryayev sanoq to‘riga tomizildi. Uch daqiqadan so‘ng mikroskop ostida 10x40 kattalalashtirishda 5 ta katta katakda (har biri 16 ta kichik katakchalarga bo‘lingan, jami 80 ta) eritrotsitlar soni sanaldi. Olingan eritrotsitlar miqdori quyidagi formula yordamida hisoblandi:

$$E=\frac{X*4000*200}{80}$$

Bunda, E- eritrotsit miqdori mln/mm^3; X- beshta katta kataklarda sanalgan eritritsitlar soni; leykotsitlarning miqdorini sanashda leykotsitli (oq aralashtirgichli) melanjerdan foydalanildi. Bunda metil ko‘ki qo‘shilgan sirka kislotasining 3% li eritmasi yordamida qon 20 marta suyultirilib, yaxshilab chayqatildi. So‘ng ozroq qismi oqizilib, Goryayev sanoq to‘riga tomizildi. Uch daqiqadan so‘ng 25 ta katta katakda (400 ta kichik katakchaga teng) sanaldi. Olingan leykotsitlar miqdori quyidagi formula yordamida hisoblandi:

$$L=\frac{X*4000*20}{400}$$

Bunda, L- leykotsitlar miqdori ming/mm^3; X- yigirma beshta katta kataklarda sanalgan leykotsitlar soni; qondagi gemoglobin miqdori olingan qon namunada Sali gemometri orqali kolorometrik usulda aniqlandi. Olingan raqamli ma’lumotlarga matematik-statistik uslubida qayta ishlov berilib: o‘rtacha arifmetik qiymat – $\bar{X}$, o‘rtacha arifmetik qiymatning xatosi – S_x, varriatsiyalanish koeffitsienti – C_v%, varianlar oralig‘i – *lim*, guruhlar o‘rtasida farqlanishning ishonchlilik mezoni – *P* Microsoft Office Excel 2007 kompyuter dasturi yordamida tegishli formulalar orqali hisoblab chiqildi [3].

NATIJALAR VA MUHOKAMA. Tadqiqotlarda oq yangi zelandiya va kaliforniya quyonlarning yosh davrlari bo‘yicha qonining eritrotsitlar ko‘rsatkichlari bo‘yicha olingan raqamli ma’lumotlar quyidagi 1-jadvallarda keltirilgan. Mazkur jadval ma’lumotlari shuni ko‘rsatadiki tajribadagi quyonlar qoni tarkibida eritrotsitlarning hajm birligidagi miqdori har ikkala zotda ham mos holda oshib borishini ko‘rsatdi. Jumladan, oq yangi zelandiya zotli quyonlarda bir oylik yoshida eng quyi eritrotsitlarning miqdor ko‘rsatkichlari qayd etilib, o‘rtacha arifmetik qiymati 4,05±0,07 mln/mm^3, kaliforniya zotli quyonlarda bo‘lsa mazkur ko‘rsatkich 3,95±0,06 mln/mm^3 ga to‘g‘ri keldi. Bir oylik yoshda zot guruhlari orasida 0,1 mln/mm^3 (P>0,05) birligi bilan oq yangi zelandiya zotli quyonlarning ustunligi kuzatildi.

1-jadval

Turli yoshdagi quyonlar qonida eritrotsitlar miqdori, mln/mm^3 (n-10)

Yoshi, kun	Zoti					
	NZW			Kal		
	lim	$\overline{X}\pm S_x$	C_v%	lim	$\overline{X}\pm S_x$	C_v%
30	3,76-4,34	4,05±0,07	5,15	3,68-4,22	3,95±0,06	4,90
45	4,09-4,64	4,34±0,07	4,83	3,97-4,56	4,26±0,06	4,74
60	4,46-4,96	4,69±0,07	4,57	4,33-4,98	4,72±0,06	4,21
90	5,03-5,68	5,26±0,08	4,64	4,72-5,43	5,15±0,07	4,51
120	5,51-6,34	5,81±0,10	5,34	5,38-6,23	5,69±0,09	5,08
150	5,73-6,59	6,07±0,10	5,12	5,69-6,50	5,97±0,09	4,87

Keyingi eritrotsit ko‘rsatkichlari quyon bolalarini uyadan ajratish (45 kunlik) yoshida olindi. Mazkur yoshda oq yangi zelandiya zotli quyonlarda eritrotsitlarning o‘rtacha arifmetik qiymati 4,34±0,07 mln/mm^3 ni tashkil etdi. Bu yoshda eritrotsit miqdori bir oylik yoshga nisbatan taqqoslanganda uning miqdori 0,29 mln/mm^3 (P<0,01) ga, yoki 7,16% ga ortganligi aniqlandi. Kaliforniya zotli quyonlarda mazkur yoshida eritrotsitlarning o‘rtacha arifmetik qiymati 4,26±0,06 mln/mm^3 ga to‘g‘ri kelib, bir oylik yoshga nisbatan taqqoslanganda uning miqdori 0,31 mln/mm^3 (P<0,01) ga, yoki 7,85% ga ortganligini ko‘rsatdi. Qirq besh kunlik yoshda eritrotsitlarning o‘rtacha miqdor ko‘rsatkichlari bo‘yicha guruhlar o‘rtasida farq 0,08 mln/mm^3 (P>0,05) birlik bilan oq yangi zelandiya zotli quyonlar ustunlik qilishsada, ishonchli farqlanish kuzatilmadi.

Tajtibadagi quyonlar ikki oylik (60 kunlik) yoshga yetganda oq yangi zelandiya va kaliforniya zotida eritrotsitlarning o‘rtacha arifmetik qiymati mos holda 4,69±0,07 va 4,72±0,06 mln/mm^3 ni tashkil etdi. Guruhlar o‘rtasidagi esa farq deyarli kuzatilmadi. Ammo har ikkala guruhda ham eritrotsitlarning hajmiy birlikdagi miqdor ko‘rsatkichi qirq besh kunlik yoshiga nisbatan taqqoslanganda ishonchli darajada ko‘payganligini ko‘rsatdi. Jumladan, oq yangi zelandiya zotli quyonlarda eritrotsitlar miqdori 0,35 mln/mm^3 (P<0,01) yoki 8,06% ga, kaliforniya zotli quyonlarda esa 0,46 mln/mm^3 (P<0,01) yoki 10,8% ga ortganligi aniqlandi.

Navbatdagi eritrotsit ko‘rsatkichlari tajribadagi quyonlarning uch oylik (jinsiy voyaga yetish) yoshida aniqlandi. Hisoblab chiqilgan o‘rtacha arifmetik ko‘rsatkich oq yangi zelandiya zotli quyonlarida 5,26±0,08 mln/mm^3 ga to‘g‘ri keldi. Kaliforniya zotli quyonlarida esa eritrotsitlarning o‘rtacha arifmetik qiymati 5,15±0,07 mln/mm^3 ni tashkil etdi. Mazkur yosh davrida ham guruhlar o‘rtasida eritrotsitlatning hajmiy birlikdagi miqdori bo‘yicha ishonchli farqlanish aniqlanmadi. Biroq ikki oylik yoshga nisbatan taqqoslanganda har ikkala guruhda ham eritrotsitlarning hajmiy birlikdagi miqdor ko‘rsatkichi ortganligi aniqlandi. Xususan, oq

yangi zelandiya quyonlarida 0,57 mln/mm^3 (P<0,001) yoki 12,2% ga, kaliforniya zotida esa 0,43 mln/mm^3 (P<0,001) yoki 9,1% ga ortgani aniqlandi.

Tajribadagi quyonlarning ta’mirlash davriga (120 kunlik) yetganda ham eritrotsitlarning hajmiy birlikdagi miqdori sezilarli darajada yana ortganligi qayd etildi. Jumladan, mazkur yoshda eritrotsitlarning o‘rtacha arifmetik qiymati oq yangi zelandiya zotli quyonlarda 5,81±0,10 mln/mm^3 tashkil etgan bo‘lsa, kaliforniya zotli quyonlarda esa 5,69±0,09 mln/mm^3 ga to‘g‘ri keldi. Tajribadagi quyonlarning uch oylik yoshiga nisbatan eritrotsitlar miqdori mos ravishda 0,55 mln/mm^3 (P<0,001) yoki 10,5% ga va 0,54 mln/mm^3 (P<0,001) yoki 10,4% ga ortgani qayd etildi. Mazkur yoshda eritrotsitlar miqdor ko‘rsatkichi bo‘yicha guruhlar o‘rasidagi tafovut 0,12 mln/mm^3 (P>0,05) yoki 2,1% ni tashkil etsada, ishonchli farqlanish aniqlanmadi.

Ilmiy manbalarda o‘rtacha yiriklikdagi quyon zotlari fiziologik yetilishi 5 oylik (150 kunlik) yoshida kuzatiladi. Yangi zelandiya va kaliforniya quyon zotlari ham o‘rtacha tirik vaznga ega bo‘lgan zotlardan sanaladi. Shuning uchun ham navbatdagi qonning morfologik ko‘rsatkichlari shu yoshda olindi. Xususan, 5 oylik yoshdagi oq yangi zelandiya va kaliforniya zotli quyonlarda hajmiy birlikdagi eritrotsitlar miqdorining o‘rtacha arifmetik qiymati mos holda 6,07±0,10 va 5,97±0,09 mln/mm^3 ni tashkil etdi. Oq yangi zelandiya zotining ko‘rsatkichi biroz yuqori bo‘lsada, ammo oradagi farq ishonchli darajaga ega bo‘lmadi. Eritrotsitlar miqdori ta’mirlash davri yoshiga nisbatan qiyoslab ko‘rilganda oq yangi zelandiya quyonlarida 0,26 mln/mm^3 (P>0,05) yoki 4,5% ga, kaliforniya zotida esa 0,28 mln/mm^3 (P<0,05) yoki 4,9% ortgani aniq bo‘ldi.

Tadqiqotlarda tajribadagi quyonlarning oq qon donachalari hisoblanmish leykotsitlarning yosh davrlari bo‘yicha dinamikasi ham o‘rganildi. Leykotsitlarning yosh davrlari bo‘yicha hajm birligidagi miqdor ko‘rsatkichlari dinamikasi quyidagi 2-jadvalda aks ettirilgan. Shuni qayd etish kerakki leykotsitlar soni dinamikasi huddi eritrotsitlar singari yosh davrlari bo‘yicha bir maromda oshib bormadi.

Jadval ma’lumotlari shuni ko‘rsatadiki tajribadagi har ikkala zotda ham qon tarkibida leykotsitlarning hajm birligidagi miqdori noturg‘un holda oshib borishini ko‘rsatdi. Xususan, oq yangi zelandiya va kaliforniya zotli quyonlarda leykotsitlarning miqdor ko‘rsatkichi bir oylik yoshida nisbatan yuqori bo‘lib, mos holda 7,24±0,11 va 7,42±0,13 ming/mm^3 ni tashkil etdi. Bir oylik yoshda zot guruhlari orasida 0,18 ming/mm^3 (P>0,05) yoki 2,5% bilan kaliforniya zotli quyonlarning ustunligi kuzatilsada orada ishonchli farq kuzatilmadi.

2-jadval

Turli yoshdagi quyonlar qonida leykotsitlar miqdori dinamikasi, ming/mm^3 (n-10)

Yoshi, kun	Zoti					
	Oq yangi zelandiya			Kaliforniya		
	lim	$\bar{X}\pm S_x$	C_v%	lim	$\bar{X}\pm S_x$	C_v%
30	6,8-7,8	7,24±0,11	4,84	6,6-8,0	7,42±0,13	5,60

45	5,8-6,6	6,18±0,09	4,43	5,8-7,0	6,46±0,12	5,66
60	5,4-6,6	5,88±0,11	5,83	5,2-6,2	5,56±0,10*	5,57
90	6,0-6,8	6,26±0,09	4,53	6,0-7,2	6,44±0,10	5,03
120	6,2-7,2	6,60±0,11	4,95	6,4-7,4	6,78±0,10	4,50
150	6,6-7,4	6,98±0,10	4,37	6,4-7,4	7,04±0,10	4,60

Tajribdagi quyonlarning 45 va 60 kunlik yosh davrlarida leykotsitlar miqdorining har ikkala guruhda ham kamayishi kuzatilgan bo‘lsada, keyingi yosh davrlarida esa miqdorining yana yuqorilashi qayd etildi. Leykotsitlar soni dinamikasi bo‘yicha ham guruhlar o‘rtasida yosh davrlarida ishonchli farqlanish deyarli kuzatilmadi. Faqatgina ikki oylik yosh davrida oq yangi zelandiya quyonlari kaliforniya zotli quyonlardan leykotsitlar miqdori bo‘yicha 0,32 ming/mm^3 ($P<0,05$) yoki 5,7% ga ishonch kriteriyasiga ko‘ra ustunlik qilishini ko‘rsatdi. Yosh davrlari bo‘yicha leykotsitlar sonidan shuni ko‘rish mumkinki, ikkala zotda ham dinamikasi o‘zgaruvchan xususiyatga ega.

Tajribalar davomida qonning shaklli elemetlari bilan bir qatorda eritrotsit tarkibidagi gemoglobinning miqdori (g%) ham hisobga olib borildi. Gemoglobin murakkab tuzilishga ega. U oqsil bo‘lgan – globin va oqsil bo‘lmagan – gem (temir va protoporfirin IX kompleks) qismidan tashkil topgan bo‘lib, organizmda o‘pkaning alveolalaridan kislorodni butun organizmdagi hujayralarga va karbonat angidridni hujayralardan o‘pka alveolalariga tashishni amalga oshiradigan xromoproteid hisoblanadi. Quyonlarda yosh davrlari bo‘yicha aniqlangan gemoglodin miqdori quyidagi 3-jadvalda keltirilgan.

Mazkur jadval ma’lumotlari shuni ko‘rsatadiki tajribadagi quyonlar qoni tarkibida gemoglobinning miqdori har ikkala zotda ham yosh davrlari bo‘yicha mos ravishda ko‘payib borishi qayd etildi. Xususan, oq yangi zelandiya zotli quyonlarda bir oylik yoshida eng kam gemoglobin miqdor ko‘rsatkichlari qayd etilib, o‘rtacha arifmetik qiymati 9,72 g% ni, kaliforniya zotli quyonlarda bo‘lsa 9,48 g% ni tashkil etdi. Bir oylik yoshda zot guruhlari orasida farq 0,24 g% ($P>0,05$) birligi bilan oq yangi zelandiya zotli quyonlarning ustunligi kuzatilsada ishonchli farqlanish kuzatilmadi.

3-jadval

Turli yoshdagi quyonlar qonida gemoglobin miqdori dinamikasi, g% (n-10)

Yoshi, kun	Zoti					
	Oq yangi zelandiya			Kaliforniya		
	lim	$\bar{X}\pm S_x$	C_v%	lim	$\bar{X}\pm S_x$	C_v%
30	9,0-10,4	9,72±0,18	5,75	8,8-10,2	9,48±0,15	5,09
45	9,6-11,0	10,32±0,19	5,93	9,4-10,8	10,16±0,17	5,15
60	11,4-13,2	12,42±0,21	5,34	11,0-12,8	11,88±0,20	5,39
90	12,0-14,6	13,40±0,28	6,52	12,1-14,3	13,30±0,26	6,25

120	12,8-14,6	13,52±0,22	5,09	12,6 -14,4	13,42±0,21	4,84
150	13,0-14,6	13,66±0,19	4,37	13,0-14,4	13,54±0,18	4,18

Tajribadagi quyonlarning 45 kunlik yoshida gemoglobinning ko‘rsatkichi oq yangi zelandiya zotli quyonlarda 10,32 g% ni tashkil etib, bir oylik yoshga nisbatan 0,6 g% (P<0,05) ortganini ko‘rsatdi. Kaliforniya zotli quyonlarda mazkur yoshda esa gemoglobin miqdori 10,16 g% ni tashkil etib, bir oylik yoshiga nisbatan 0,68 g% (P<0,05) ga ortganligini ko‘rsatdi. Qirq besh kunlik yoshida esa eritrotsitlarning o‘rtacha miqdor ko‘rsatkichlari bo‘yicha guruhlar o‘rtasidagi farq 0,16 g% (P>0,05) birlik bilan oq yangi zelandiya zotli quyonlar ustunlik qilishsada, ishonchli farqlanish kuzatilmadi.

Ikki oylik yoshga yetganida oq yangi zelandiya va kaliforniya zotida gemoglobinning miqdori mos ketma-ketlikda 12,42 va 11,88 g% ga to‘g‘ri keldi. Guruhlar o‘rtasidagi farq 0,54 g% yoki 4,5% bilan oq yangi zelandiya quyonlari ustunlik qilishsada ishonchli farqlanish (P>0,05) qayd etilmadi. Biroq har ikkala guruhda ham gemoglobinning g% ko‘rsatkichi qirq besh kunlik yoshga nisbatan ishonchli darajada ortganligi qayd etildi. Xususan, oq yangi zelandiya zotli quyonlarda gemoglobin miqdori 2,1 g% (P<0,001) yoki 20,3% ga, kaliforniya zotli quyonlarda bo‘lsa 1,72 g% (P<0,001) yoki 16,9% ga ortganligi aniqlandi.



1-rasm. 30 va 150 kunlik yoshdagi quyonning eritrotsit miqdori (10x40)

Uch oylik yoshida aniqlangan gemoglobin ko‘rsatkichi oq yangi zelandiya zotli quyonlarida 13,40 g%, kaliforniya zotli quyonlarida esa 13,30 g% ni tashkil etdi. Mazkur yosh davrida ham guruhlar o‘rtasida eritrotsitlar tarkibidagi gemoglobinning g% miqdori bo‘yicha ichonchli farqlanish aniqlanmadi. Biroq ikki oylik yoshga nisbatan taqqoslanganda har ikkala guruhda ham gemoglobinning g% birlikdagi miqdor ko‘rsatkichi ortganligi kuzatildi. Jumladan, mazkur o‘sish oq yangi zelandiya quyonlarida 0,98 g% (P<0,05) ni, kaliforniya zotida bo‘lsa 1,42 g% (P<0,01) ni tashkil etdi.

Quyonlarning ta’mirlash va fiziologik voyaga yetish (120-150 kunlik) davridagi gemoglobin miqdori sezilarli darajada o‘zgarish kuzatilmadi. Xususan, yosh davri bo‘yicha oq

yangi zelandiya zotli quyonlarda mos holda 0,12 va 0,14 g% (P>0,05) ga ortgan bo‘lsa, kaliforniya zotli quyonlarda esa mos holda 0,12 va 0,12 g% (P>0,05) ga ortdi.

Tajribadagi quyonlarda yosh davrlari bo‘yicha qonning morfologik tarkibini tahlil natijalaridan ko‘rish mumkinki, bir xil saqlash va oziqlantirish sharoitida ham, yosh omili shaklli elementlarga o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. Ilmiy manbalarda qonning shaklli elementlaridan eritrotsitlar miqdori 5,2-6,8 mln/mm^3, leykotsitlar miqdori 2,6-9,9 ming/mm^3, gemoglobin miqdori 10-15 g% oralig‘ida bo‘lishi quyonlar uchun fiziologik me’yor ekanligi qayd etiladi. Bundan ko‘rinib turibdiki, tajribadagi quyonlarda, faqatgina leykotsitlar miqdori barcha yosh davrlarida fiziologik me’yor darajasida bo‘lgan bo‘lsa, eritrotsit va gemoglobin miqdori esa ma’lum yoshga yetgandagina me’yor ko‘rsatkichiga keladi. Xususan, bizning tajribamizda oq yangi zelandiya quyonlarida 30 kunlik yoshidagi eritrotsitlar miqdori fiziologik me’yordan *(5,2 mln/mm^3 asos qilib olindi)* 1,15 mln/mm^3 yoki 28,4% ga, 45 kunlik yoshida 0,86 mln/mm^3 yoki 19,8% ga, 60 kunlik yoshida 0,51 mln/mm^3 yoki 10,8% ga kam bo‘lganligini ko‘rish mumkin. Kaliforniya quyon zotida esa bu ko‘rsatkichlar 30 kunlik yoshida 1,25 mln/mm^3 yoki 31,6% ga, 45 kunlik yoshida 0,94 mln/mm^3 yoki 22,1% ga, 60 kunlik yoshida 0,48 mln/mm^3 yoki 10,1% ga kam bo‘ldi. Quyonlarning 90-150 kunlik yosh davrlarida eritrotsitlar miqdori fiziologik me’yor darajasida ekanligini jadval ma’lumotidan ko‘rish mumkin.



2-rasm. 30 va 150 kunlik yoshdagi quyonning gemoglobin ko‘rsatkichi, g%

Huddu shunday tendensiyani gemoglobin miqdori bo‘yicha ham ko‘rish mumkin. Oq yangi zelandiya quyonlarida 30 kunlik yoshida gemoglobinning miqdori fiziologik me’yordan *(10 g% asos qilib olindi)* 0,28 g% ga kam bo‘lgan bo‘lsa, kaliforniya quyon zotida esa 0,52 g% kam bo‘ldi. Keyingi yosh davrlarida gemoglobinning o‘rtacha arifmetik ko‘rsatkichi fiziologik me’yor darajasida bo‘lgan bo‘lsada, 45 kunlik yoshdagi quyonlar guruhida fiziologik me’yordan kam bo‘lgan variantlar uchradi. Buni 3-jadvalda keltirilgan limit ko‘rsatkichidan ham ko‘rish mumkin.

XULOSA. Tadqiqotlar davomida olingan ma’lumotlar tahlilidan xulosa qilish mumkinki, quyonlarda yosh davrlarida qonning morfologik ko‘rsatkichlari bo‘yicha o‘zgarish ro‘y beradi. Bu o‘zrarishlar eritrotsitlar va gemoglobin miqdor ulushlarida yaqqol ko‘zga tashlanadi.

Tug‘ilgan hayvon organizmida gemopoez asosan suyak ko‘migida sodir bo‘ladi. Ma’lumki yosh organimzda suyakning shakllanishi tug‘ilgandan keyin yosh kattalashishi bilan rivojlanib boradi. Shuning uchun ham eritrotsitlar miqdori hayvonning yetuk yoshigacha ortib boradi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Бегматова Д.А. сравнительное изучение некоторых морфофизиологических показателей крови у разных половозрастных групп кроликов. Дис.магис.2013 -71 б.

2. Родимцев А.С. Возрастная динамика показателей кровиптенцов в гнездовой период Русский орнитологический журнал 2004, Том 13, Экспресс-выпуск 264: - С.543-549.

3. Яковлев В.Б., Щеглов Е.В. Биометрические расчеты в табличном процессоре Microsoft Excel. Учебное пособие. Москва 2004. – 204 с

4. https://uz.wikipedia.org/wiki/Eritrotsitlar

5. https://www.invitro.ru/library/labdiagnostika/24296/

6. https://arxiv.uz/uz/documents/referatlar/valeologiya/leykotsitlar-leucocyti

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 1-son)

TABIIY FANLAR

NATURAL SCIENCES

UO‘K: 582.948.2:581.961

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI GERBARIY FONDIDAGI (KD) BORAGINACEAE OILASI TAHLILI

Ismoilova Rayhona
Qo‘qon davlat pedagogika instituti, talaba
ORCID ID 0009-0004-6439-6005
Abdupattoyeva Mubinabonu
Qo‘qon davlat pedagogika instituti, talaba
ORCID ID 0009-0006-6094-2325
Usmonov Saminjon
Qo‘qon davlat pedagogika instituti, PhD, dotsent
ORCID ID 0009-0006-1385-0954
Obidjon Turdiboyev
Qo‘qon davlat pedagogika institute, PhD, katta o‘qituvchi
E-mail: turdiboyev.obidjon@mail.ru; ORCID ID 0000-0002-5627-9886

Annotatsiya. Ushbu maqolada Qo‘qon davlat pedagogika instituti biologiya kafedrasi gerbariy kolleksiyasida saqlanayotgan Boraginaceae oilasining dastlabki tahlili natijalari keltirilgan. Tadqiqotlar natijasida gerbariy fondida Boraginaceae oilasiga mansub 8 turkumga mansub 116 dona gerbariy namunalari saqlanganligi aniqlandi.

Kalit so‘zlar: *Asperugo,* Farg‘ona vodiysi, *Heliotropium,* KD gerbariysi, turlar.

Аннотация. В данной статье представлены результаты предварительного анализа семейства Boraginaceae, хранящегося в гербарном фонде кафедры биологии Кокандского государственного педагогического института. В результате исследований установлено, что в гербарном фонде хранится 116 гербарных образцов 8 родов, относящихся к семейству Boraginaceae.

Ключевые слова: *Asperugo,* Ферганская долина, *Heliotropium*, гербарий KD, виды.

Annotation. This article presents the results of a preliminary analysis of the Boraginaceae family, which was stored in the herbarium collection of the Department of Biology of the Kokand State Pedagogical Institute. As a result of the research, it was determined that 116 herbarium specimens of 8 genera belonging to the Boraginaceae family were stored in the herbarium fund.

Key words: *Asperugo,* Ferghana valley, *Heliotropium,* KD herbarium, species.

KIRISH

So‘nggi yillarda dunyoning yirik gerbariy fondlarini raqamli formatga o‘tkazish orqali tadqiqotlar sifati va miqdori ortib bormoqda. Xususan, ayrim yirik gerbariy fondlarida saqlanayotgan namunalar bosqichma-bosqich raqamli formatga o‘tkazilib, elektron ko‘rinishda internetda tadqiqotchilar uchun ochiq ma’lumotlar bazasiga aylanmoqda [1,2].

O‘zbekistonda ikkita yirik yuksak o’simliklar gerbariy fondlari Index Herbariorum (https://sweetgum.nybg.org/science/ih/) xalqaro ma’lumotlar bazasidan ro‘yxatdan o’tgan hamda faol bo’lib, bular O‘zbekiston Milliy gerbariysi (TASH) 1,5 mln hamda Samarqand davlat universiteti (SAMDU) 12500 dan ortiq gerbariy namunalariga ega fondlardir. Ushbu yirik gerbariy fondlarida saqlanayotgan ayrim oilalar, turkumlar, turlarning inventarizatsiyalari natijasida ushbu gerbariy fondlarida saqlanayotgan namunalar ustida tadqiqotlar olib borilmoqda va natijalar chop etilmoqda [5, 6, 8].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

2024-yil aprel oyida Index Herbariorum Xalqaro ma’lumotlar bazasidan uchinchi O’zbekistondagi eng kichik gerbariy fondi Qo‘qon davlat pedagogika instituti Biologiya kafedrasida (KD) tashkil etilganligi e’lon qilindi va 2000 ga yaqin gerbariy namunalariga ega [3]. Ushbu fondda saqlanayotgan dastlabki inventarizatsiya Sh.Sh. Tursunova va boshqalar (2024) tomonidan olib borilgan. Natijada, Lamiaceae Martinov oilasining 8 turkumga mansub 35 ta namunasi saqlanayotganligi aniqlangan [3]. Dala tadqiqotlari 2024-yil aprel-sentabr oylarida olib borildi (2-rasm). Boraginaceae Juss. oilasiga mansub o’simliklarni aniqlashda O’rta Osiyo o’simliklar aniqlagichi (8 tom) va O’zbekiston florasi (4 tom) asarlaridan foydalanildi [4, 7].

NATIJALAR

Olib borilgan kameral tadqiqotlar natijada Biologiya kafedrasi gerbariy fondida (KD) saqlanayotgan Boraginaceae Juss. oilasiga mansub gerbariy namunalarining tahlili amalga oshirilgan. Natijada, 8 turkumga mansub 116 gerbariy namunalari saqlanayotganligi aniqlandi (1-rasm). Boraginaceae oilasiga mansub barcha gerbariy namunalari 2024-yil mart-sentabr oylarida Farg‘ona vodiysining Chotqol va Oloy tizmasining adir hamda Markaziy Farg‘ona cho’l mintaqalaridan terilgan.



1-rasm. KD gerbariy fondida saqlanayotgan Boraginaceae oilasi tahlili

Eng ko’p gerbariy namunalariga ko’ra, *Heliotropium* L. (33 ta), *Asperugo* L. (29 ta), *Heterocaryum* A.DC. (21 ta) turkumlari yetakchilik qiladi (3-rasm). Eng kam gerbariy namunalari *Buglossoides* Moench (1 ta) turkumidan terilganligi aniqlandi.

2-rasm. Dala tadqiqotlari: Arashan ko‘li atrofi, 1-avgust 2024-yil

MUHOKAMA

O‘zbekistonning yirik gerbariy fondlari (TASH, SAMDU) bilan bir qatorda respublikamizdagi eng kichik KD gerbariy fondining tashkil etilishi O‘zbekiston florasini o‘rganishda muhim qadamlardan biri hisoblanadi. Yangi tashkil etilgan gerbariy fondi O‘zbekiston xususan, Farg‘ona vodiysi florasini o‘rganishda, kamyob va endem o’simlik turlarini tadqiq etishda muhim sanaladi.

XULOSA

Mazkur tadqiqotlar shuni ko’rsatadiki, KD gerbariy fondida saqlanayotgan gerbariy namunalarini tahlil qilish, kelgusida Boraginaceae oilasiga mansub kam terilgan hamda umuman terilmagan turkumlar va turlar gerbariy namunalari bilan boyitish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Kovtonyuk N., Han I.V., Gatilova E. Ferns at the digital herbarium of the Central Siberian Botanical Garden SB RAS //Biodiversity Data Journal, 2021, №9, 1-14.

2. Seregin A. P., Stepanova N. Y. MHA Herbarium: Eastern European collections of vascular plants // Biodiversity Data Journal, 2020, №8, 1-31.

3. Tursunova Sh., Raximjonova Z., Sodiqov S., Ismolilova R., Turdiboyev O. Qo‘qon davlat pedagogika instituti gerbariy fondidagi (KD) Lamiaceae oilasi tahlili // Tabiiy fanlarning dolzarb masalalari va yechimlari Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. Qo‘qon, 2024, 6-8.

4. Абдуллаева М.Н., Ганиев Ш., Закиров К.З., Ли А.Д., Набиев М.М., Саркисова С.А. Сем. Boraginaceae – Бурачниковые. Определитель растений Средней Азии. Критический конспект флоры. Т. 8. Ташкент, 1986. С. 84-167.

5. Левичев И.Г., Бешко Н.Ю., Курбаниязова Г.Т., Тургинов О.Т., Тажетдинова Д.М. Новые находки видов рода Gagea в Узбекистане // Turczaninowia, 2023, 26(3), 184-193.

6. Маҳкамов Т.Х., Жабборов А.М., Тургинов О.Т., Щёголева Н.В., Тожибаев К.Ш. Ўзбекистон миллий гербарийси (TASH) ноёб илмий объектида сақланаётган *Ranunculus* L. туркуми турларининг таҳлили // Илмий хабарнома. Серия: Биологик тадқиқотлар, 2020, №4(48), 5-15.

7. Сенников А.Н. (Ред.) Флора Узбекистана. 2022. Том IV. Ташкент, Издательство «Фан» АН РУз, 238 с.

8. Хайдаров Х.К. SamDU gerbariysida saqlanayotgan Dicotyledones ajdodiga mansub taksonlarning tahlili // Fundamental fan va amaliyot integratsiyasi. Muammolar va istiqbollar. Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. Toshkent, 2018. 37-39.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 1-son)

TABIIY FANLAR

NATURAL SCIENCES

HACCP-ISO 22000 GA MUVOFIQ OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGI.

Kasimov Ilyazbek Davronbekovich
O‘zTest Davlat Muassasi Andijon hududiy filiali rahbari

Annotatsiya: HACCP-ISO 22000 oziq-ovqat xavfsizligi tizimi, oziq-ovqat mahsulotlarining xavfsizligini ta'minlash uchun ishlab chiqilgan xalqaro standartdir. Ushbu standart oziq-ovqat zanjirining har bir bosqichida, ya'ni ishlab chiqarish, qayta ishlash, saqlash, tarqatish va iste'mol qilish jarayonlarida xavfsizlikni ta'minlashga qaratilgan. Oziq-ovqat xavfsizligi, inson salomatligi va farovonligi uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lib, bu sohada standartlar va qoidalar ishlab chiqish zaruriyati paydo bo‘ladi.

Kalit so‘zlar: oziq-ovqat xavfsizligi, oziq-ovqat mahsulotlari, nazorat, HACCP-ISO 22000, iste'molchilar, hisobot.

Аннотация: Система безопасности пищевых продуктов HACCP-ISO 22000 — международный стандарт, разработанный для обеспечения безопасности пищевых продуктов. Этот стандарт направлен на обеспечение безопасности на каждом этапе пищевой цепи, а именно: производство, обработка, хранение, распределение и потребление. Безопасность пищевых продуктов важна для здоровья и благополучия человека, и существует необходимость разработки стандартов и правил в этой области.

Ключевые слова: безопасность пищевых продуктов, пищевая продукция, контроль, HACCP-ISO 22000, потребители, отчетность.

Abstract: HACCP-ISO 22000 food safety system is an international standard developed to ensure the safety of food products. This standard aims to ensure safety at each stage of the food chain, namely production, processing, storage, distribution and consumption. Food safety is important for human health and well-being, and there is a need to develop standards and regulations in this area.

Key words: food safety, food products, control, HACCP-ISO 22000, consumers, reporting.

KIRISH

Oziq-ovqat xavfsizligi inson salomatligi va farovonligi uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lgan bir sohadir. Oziq-ovqat mahsulotlarining xavfsizligi, ularning ishlab chiqarishidan tortib iste'molchilarga yetkazilishigacha bo‘lgan jarayonlarning har birida ta'minlanishi kerak. Oziq-ovqat xavfsizligi, shuningdek, oziq-ovqat zanjirining har bir bosqichida, ya'ni ishlab chiqarish, qayta ishlash, saqlash, tarqatish va iste'mol qilish jarayonlarida xavf-xatarlarni

aniqlash va nazorat qilishni o‘z ichiga oladi. Oziq-ovqat xavfsizligi tizimlari, oziq-ovqat mahsulotlarining xavfsizligini ta'minlash uchun zarur bo‘lgan standartlar va qoidalarni o‘z ichiga oladi. Ushbu tizimlar, oziq-ovqat mahsulotlarining sifatini va xavfsizligini ta'minlashda muhim rol o‘ynaydi. Oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash uchun, tashkilotlar o‘rtasida hamkorlik va tajriba almashish zarur. Oziq-ovqat zanjirining har bir ishtirokchisi, o‘z vazifalarini samarali bajarish orqali umumiy xavfsizlikni ta'minlashda hissa qo‘shishi kerak.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA TADQIQOT METODOLOGIYASI

Oziq-ovqat xavfsizligi, inson salomatligi va farovonligi uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lib, bu sohada standartlar va qoidalar ishlab chiqish zaruriyati paydo bo‘ladi. Oziq-ovqat mahsulotlarining xavfsizligini ta'minlashda, biologik, kimyoviy va fizik xavflarni aniqlash va baholash jarayonlari muhim o‘rin tutadi. Ushbu xavflarni nazorat qilish, oziq-ovqat mahsulotlarining xavfsizligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Oziq-ovqat xavfsizligi tizimining muvaffaqiyati, uning doimiy ravishda kuzatilishi va takomillashtirilishiga bog‘liq. Tashkilotlar, o‘z tizimlarini muntazam ravishda baholash va nazorat qilish orqali, xavfsizlikni ta'minlashda yanada samarali bo‘lishlari mumkin. Buning uchun, ichki auditlar, tashqi auditlar va boshqa nazorat mexanizmlari qo‘llanilishi lozim. Oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda, iste'molchilarning huquqlari va manfaatlari ham muhim ahamiyatga ega. Iste'molchilar, oziq-ovqat mahsulotlarining xavfsizligini ta'minlashda, o‘z talablarini ifoda etishlari va tashkilotlardan shaffoflikni talab qilishlari kerak. Tashkilotlar esa, o‘z mahsulotlarining xavfsizligini ta'minlashda, iste'molchilarga to‘g‘ri va aniq ma'lumotlarni taqdim etishlari zarur. Oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda, innovatsion yondashuvlarni qo‘llashni rag‘batlantiradi. Zamonaviy texnologiyalar, oziq-ovqat mahsulotlarining xavfsizligini ta'minlashda muhim rol o‘ynaydi. Masalan, raqamli texnologiyalar yordamida, oziq-ovqat zanjirining har bir bosqichida nazoratni kuchaytirish mumkin. Bu esa, xavf-xatarlarni aniqlash va nazorat qilish jarayonlarini yanada samarali amalga oshirishga yordam beradi. Oziq-ovqat xavfsizligi tizimini joriy etish va amalga oshirish jarayonida, tashkilotlar o‘rtasida hamkorlik va tajriba almashish muhim ahamiyatga ega. Bunda, davlat organlari, ilmiy-tadqiqot muassasalari, sanoat va iste'molchilar o‘rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish zarur. Ushbu hamkorlik, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda yanada samarali bo‘lishi uchun zarurdir.[1]

MUHOKAMA VA NATIJALAR

HACCP-ISO 22000 standarti oziq-ovqat xavfsizligini boshqarish tizimini yaratish, joriy etish, saqlash va yaxshilashga yordam beradi. Ushbu standart, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash uchun zarur bo‘lgan barcha jarayonlarni o‘z ichiga oladi. Bunda, xavf-xatarlarni aniqlash, baholash va nazorat qilish jarayonlari muhim o‘rin tutadi. Oziq-ovqat xavfsizligi tizimi, tashkilotning maqsad va vazifalariga muvofiq ravishda ishlab chiqilishi lozim. Standartning asosiy tamoyillaridan biri, xavf-xatarlarni boshqarishdir. Bu jarayon, oziq-ovqat mahsulotlarining xavfsizligini ta'minlash uchun zarur bo‘lgan barcha xavflarni aniqlash va baholashni o‘z ichiga oladi. [2]

Xavf-xatarlarni aniqlash jarayonida, oziq-ovqat zanjirining har bir bosqichida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan xavflar, masalan, biologik, kimyoviy va fizik xavflar, tahlil qilinadi. Ushbu xavflarni baholash va nazorat qilish, oziq-ovqat mahsulotlarining xavfsizligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. HACCP-ISO 22000 standarti, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash uchun tashkilotlar o‘rtasida hamkorlikni rag‘batlantiradi. Oziq-ovqat zanjirining har bir ishtirokchisi, o‘zining vazifalarini samarali bajarish orqali umumiy xavfsizlikni ta'minlashda hissa qo‘shishi kerak. Bu jarayonda, tashkilotlar o‘rtasida ma'lumot almashish va tajriba o‘rganish muhim ahamiyatga ega. Oziq-ovqat xavfsizligi tizimining muvaffaqiyati, uning doimiy ravishda kuzatilishi va takomillashtirilishiga bog‘liq. Tashkilotlar, o‘z tizimlarini muntazam ravishda baholash va nazorat qilish orqali, xavfsizlikni ta'minlashda yanada samarali bo‘lishlari mumkin. Buning uchun, ichki auditlar, tashqi auditlar va boshqa nazorat mexanizmlari qo‘llanilishi lozim. HACCP-ISO 22000 standarti, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda global miqyosda qabul qilingan bir qator tamoyillarni o‘z ichiga oladi. Ushbu tamoyillar, oziq-ovqat mahsulotlarining xavfsizligini ta'minlash uchun zarur bo‘lgan barcha jarayonlarni o‘z ichiga oladi. Tashkilotlar, ushbu tamoyillarni hisobga olgan holda, o‘z tizimlarini ishlab chiqishlari va amalga oshirishlari kerak.[3]

Oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda, iste'molchilarning huquqlari va manfaatlari ham muhim ahamiyatga ega. Iste'molchilar, oziq-ovqat mahsulotlarining xavfsizligini ta'minlashda, o‘z talablarini ifoda etishlari va tashkilotlardan shaffoflikni talab qilishlari kerak. Tashkilotlar esa, o‘z mahsulotlarining xavfsizligini ta'minlashda, iste'molchilarga to‘g‘ri va aniq ma'lumotlarni taqdim etishlari zarur. HACCP-ISO 22000 standarti, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda, innovatsion yondashuvlarni qo‘llashni rag‘batlantiradi. Zamonaviy texnologiyalar, oziq-ovqat mahsulotlarining xavfsizligini ta'minlashda muhim rol o‘ynaydi. Masalan, raqamli texnologiyalar yordamida, oziq-ovqat zanjirining har bir bosqichida nazoratni kuchaytirish mumkin. Bu esa, xavf-xatarlarni aniqlash va nazorat qilish jarayonlarini yanada samarali amalga oshirishga yordam beradi.[4]

Oziq-ovqat xavfsizligi tizimini joriy etish va amalga oshirish jarayonida, tashkilotlar o‘rtasida hamkorlik va tajriba almashish muhim ahamiyatga ega. Bunda, davlat organlari, ilmiy-tadqiqot muassasalari, sanoat va iste'molchilar o‘rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish zarur. [5]

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, HACCP-ISO 22000 oziq-ovqat xavfsizligi tizimi, oziq-ovqat mahsulotlarining xavfsizligini ta'minlash uchun zarur bo‘lgan barcha jarayonlarni o‘z ichiga oladi. Ushbu standart, tashkilotlar o‘rtasida hamkorlikni rag‘batlantiradi va oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda innovatsion yondashuvlarni qo‘llashni tavsiya etadi. Oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, inson salomatligi va farovonligi uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lib, bu sohada doimiy ravishda yangilanish va takomillashtirish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Абдуллаева Д. (2021). Безопасность пищевых продуктов и стандарт HACCP-ISO 22000. Научно-исследовательский институт сельского хозяйства Узбекистана.

2. Мурадов А. (2020). Международные стандарты безопасности пищевых продуктов. Национальный университет Узбекистана.

3. Турсунов И. (2022). HACCP-ISO 22000: Системы безопасности пищевых продуктов. Агентство пищевой безопасности Узбекистана.

4. Кадыров С. (2023). Инновационные подходы к безопасности пищевых продуктов. Министерство индустрии и инноваций Узбекистана.

5. Ходжаева Н. (2021). Безопасность пищевых продуктов и ее экономическое значение. Узбекский государственный экономический университет.

6. Рагимов, У. (2022). Стандарт HACCP-ISO 22000 и его практика. Ассоциация пищевой промышленности Узбекистана.

7. Исраилов А. (2020). Системы безопасности пищевых продуктов: теоретические и практические аспекты. Сельскохозяйственный университет Узбекистана.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 1-son)

TABIIY FANLAR

NATURAL SCIENCES

HINDISTON DOLCHINI (*Cinnamomum verum L.*) TARKIBIDAGI MAKRO VA MIKROELEMENTLAR MIQDORINI ANIQLASH

Abdullayeva Sevara Fazlidinovna
Andijon davlat universiteti tayanch doktoranti
angel228709@gmail.com, +998911720565
Kirgizov Shakhobiddin Mirzaraimovich
Andijon davlat universiteti k.f.d., professor
shakhobiqirgizov@gmail.com, +998 90 259 20 41

Annotatsiya. Ziravorlar inson salomatligiga katta ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Ular faqat ta’mni yaxshilab qolmay, balki bir qancha sog‘liq uchun foydali xususiyatlarga ham ega. Ziravorlar asosan o‘zlarining biologik faol moddalari, vitamin va minerallari bilan tanilgan, ular organizmni yaxshilash va turli kasalliklarning oldini olishda yordam beradi. Ushbu maqolada Hindistonda yetishtiriladigan dolchin (*Cinnamomum verum L.*) tarkibidagi makro va mikroelementlar miqdori induksion bog‘langan plazmali optik emission spektrometriya usuli yordamida aniqlandi.

Kalit so‘zlar: Hindiston dolchini, makroelement, mikroelement, induksion bog‘langan plazmali optik emission spektometr

"ОПРЕДЕЛЕНИЕ СОДЕРЖАНИЯ МАКРО- И МИКРОЭЛЕМЕНОВ В КОРИЦЕ ИНДИЙСКОЙ (*Cinnamomum verum L.*)"

Аннотация: Специи могут оказывать значительное влияние на здоровье человека. Они не только улучшают вкус пищи, но и обладают рядом полезных для здоровья свойств. Специи известны своими биологически активными веществами, витаминами и минералами, которые способствуют улучшению функционирования организма и предотвращению различных заболеваний. В данной статье исследуется содержание макро- и микроэлементов в индийской корице (*Cinnamomum verum L.*), выращиваемой в Индии, с использованием метода индуктивно-связанной плазменно-оптической эмиссионной спектрометрии.

Ключевые слова: Индийская корица, макроэлементы, микроэлементы, индуктивно-связанная плазменно-оптическая эмиссионная спектрометрия.

"DETERMINATION OF THE CONTENT OF MACRO- AND MICROELEMENTS IN INDIAN CINNAMOM (*Cinnamomum verum L.*)"

Abstract: Spices can have a significant impact on human health. They not only enhance the flavor of food but also possess several health-benefiting properties. Spices are known for their biologically active substances, vitamins, and minerals, which help improve the body’s functions and prevent various diseases. This article investigates the content of macro- and microelements in Indian cinnamon (*Cinnamomum verum L.*), cultivated in India, using the inductively coupled plasma optical emission spectrometry (ICP-OES) method.

Keywords: Indian cinnamon, macroelements, microelements, inductively coupled plasma optical emission spectrometry.

Kirish. Dolchin daraxti (*Cinnamomum*) Xitoy, Sri-lankaning Seylon orollarida va Hindistonda keng tarqalgan lavrdoshlar (*Lauraceae*) oilasiga mansub tropik doim yashil daraxt bo‘lib, qadimdan o‘stirib kelinadigan o‘simliklardan biridir. Qadimgi Misrda dolchin shifobaxsh va xushbo‘ylashtiruvchi vosita sifatida ishlatilgan va bu uning antibakterial xususiyatlariga bog‘liq bo‘lgan. Dolchin yunonlar va rimliklar tomonidan juda qadrlangan, u qadimgi Rimda birinchi navbatda dori sifatida qabul qilingan. Dolchin XV asrda Angliyada muhim ziravor hisoblangan. Ayni paytda u dunyo bo‘yicha eng ko‘p ishlatiladigan ziravorlardan biri hisoblanadi. Shri-Lanka va Janubiy Hindistonda dolchin (*Cinnamomum verum)* daraxti odatda 7–10 m balandlikda o‘sadi, ba’zan balandligi 17 m gacha bo‘lgan daraxtlar ham uchraydi [1]. Hindiston dolchini (*Cinnamomum verum)* boshqa dolchin turlariga qaraganda kuchliroq va qalinroq qobig‘iga ega. U Hindistonning subtropik va tropik mintaqalarida, xususan, Janubiy Hindistonda, Karnataka, Tamil Nadu va Kerala kabi shtatlarda o‘stiriladi [2]. Hozirgi vaqtda dolchin ko‘pincha oshxona ziravori sifatida, kosmetika va parfyumeriya sohasida hamda dorivor maqsadlarda qo‘llaniladi. Oshpazlik sohasida dolchin xushta’m ziravorlar, tabiiy konservantlar yoki xushbo‘y qo‘shimchalar sifatida ishlatilishi mumkin. Garchi u shirin taomlar tayyorlash uchun va qandolatchilikda xushbo‘y qo‘shimchalar sifatida ishlatilishi ko‘pchilik tomonidan e’tirof etilgan bo‘lsada, dunyoning bir qancha oshxonalarida go‘sht, baliq va ichimliklar uchun ziravor sifatida ham dolchin ham qo‘llanilib kelinmoqda [3]. Dori vositalariga kelsak, dolchin zamonaviy va an’anaviy tibbiyotda muhim ahamiyatga ega bo‘lib, ko‘p asrlar davomida ko‘krak og‘rig‘i, yo‘tal, bosh og‘rig‘i, ovqat hazm qilish va gaz muammolarini davolashda ishlatilgan [4]. Ishlatilgan o‘simlik qismiga qarab, dolchin inson salomatligi uchun turli xil qimmatli xususiyatlarni taqdim etadi. Xususan, quruq po‘stloq va novdalar odatda glyukoza almashinuvini oshirish uchun ishlatiladi va qobig‘i ham jigarni yog‘li gepatozdan himoya qiladi. Bundan tashqari, dolchin po‘stlog‘i baland antioksidant xususiyatiga ega, bundan tashqari u yallig‘lanishga, parazitlarga va diabetga qarshi faollikni ta'minlaydi, dolchin barglari esa asosan mikroblarga qarshi, antifungal va yog‘on ichak saratoniga qarshi yaxshi samara beradi [5]. Dolchin, shuningdek, yurak kasalliklari va yuqori xolesterindan himoya qilishga yordam beradi [6]. Bundan tashqari, dolchin Altsgeymer yoki Parkinson kasalligi kabi nevrologik kasalliklarga qarshi ham foydalidir [7].

Biz bugungi tajribamizda Hindiston dolchinining ozuqaviy qiymatini baholash maqsadida, uning tarkibidagi makro va mikroelementlar miqdorini induksion bog‘langan plazmali optik emission spektrometriya usuli yordamida aniqladik va olingan natijalarni taqdim etdik. Tajriba uchun Hindistondan keltirilgan dolchin kukuni ishlatildi.

Tajriba qism. Namuna tarkibidagi kimyoviy elementlar miqdorini induksion bog‘langan plazmali optik emission spektometriya (IBP-OES) usulida aniqlash.

Namuna ishchi eritmasini tayyorlash. Oldindan quritilgan, maydalangan, 0,001 g aniqlikdagi tarozida tortib olingan (Navigator^{tm}, OHAUS®) 1 g namunadan chinni tigelda quruq kul olish metodida mufel pechda (Nabertherm, Germaniya) 500 ^{o}C gacha qizdirib kul olindi. Bunda dastlab 500 ^{o}C gacha 100 ^{o}C/soat tezlikda qizdirildi va 5 soat 500^{o}C haroratda ushlab turildi. Hosil bo‘lgan kulga ICP-MS tozalikdagi 6 ml konsentrlangan HNO_3 va 2 ml 60 % li H_2O_2 quyib, oq tutun hosil bo‘lishi tugaguncha mo‘rili shkafda qizdirish plitasida qizdirildi. Sovitilgan eritma 100 ml hajmli polipropilen o‘lchov kolbasiga o‘tkazilib, ultra toza suv bilan chizig‘iga yetkazildi. Mazkur ishchi eritmadan shpritsli filtr yordamida filtrlanib analiz uchun foydalanildi.

Standart eritmalarni tayyorlash. 61 ta elementning 2 % HNO_3 dagi 10 mg/l konsentratsiyali standart eritmasini (Highpuritystandards, AQSh) suyiltirish yo‘li bilan 500 mkg/l, 100 mkg/l va 10 mkg/l konsentratsiyali eritmalar tayyorlandi va ultra toza suv dan foydalangan holda kalibrlovchi chiziq hosil qilindi.

Analizni bajarish Thermo Fisher Scientific (AQSh) tomonidan ishlab chiqarilgan iCAP PRO X Duo ICP-OES induksion bog‘langan plazmali optik emission spektometrida amalga oshirildi. Metodni yaratish, analiz natijalarini tahlil qilish QTegra ISDS dasturida bajarildi. Analiz parametrlari 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval. Analiz metodi parametrlari.

Parametr	**Sozlamalar**	
Nasos trubkasi	Namuna uchun Tygon® sariq/oq	Drenaj uchun Tygon ® oq/oq
Nasos tezligi	45 ayl./daq	
Spray kamerasi	Shisha siklonik	
Nebulayzer	Shisha konsentrik	
Nebulayzer gaz oqimi	0,6 L·min^{-1}	
Sovutish gazining oqimi	12,5 L·min^{-1}	
Yordamchi gaz oqimi	0,5 L·min^{-1}	
Markaziy trubka	2 mm	
RF quvvati	1150 Vt	
Takroriylik	3 marta	
Analiz vaqti	Aksial	Radial
	15 sek	15 sek

Olingan natijalar va muxokamalar. Analiz natijalari quyidagi jadvalda keltirildi.

2-jadval. Namuna tarkibidagi kimyoviy elementlarni IBP-OES usulida aniqlash natijalari, mkg/100 g.

Analit, to‘lqin uzunligi, nm (O‘lchash usuli)	**Dolchin Hindiston**
P 185,942 (Suvli-Radial-iFR)	53505,98±403,9
Sn 189,989 (Suvli-Aksial-iFR)	885,58±0,91
Se 196,090 (Suvli-Aksial-iFR)	79,7±15,11
Sb 206,833 (Suvli-Aksial-iFR)	21,57±18,18
Zn 213,856 (Suvli-Aksial-iFR)	661,31±5,8
Pb 220,353 (Suvli-Aksial-iFR)	49,74±3,06
Ni 221,647 (Suvli-Aksial-iFR)	133,18±1,7
Cd 228,802 (Suvli-Aksial-iFR)	51,47±0,88
Au 242,795 (Suvli-Aksial-iFR)	838,42±14,06
B 249,773 (Suvli-Aksial-iFR)	1042,51±6,83
Si 251,611 (Suvli-Aksial-iFR)	1444,77±9,43
Mn 257,610 (Suvli-Aksial-iFR)	33816,99±164,69
Fe 259,940 (Suvli-Aksial-iFR)	2497,61±23,7
Mg 280,270 (Suvli-Radial-iFR)	75369,59±139,47
Th 283,231 (Suvli-Aksial-iFR)	153,31±12,79
Cr 283,563 (Suvli-Aksial-iFR)	351,46±1,83
Sn 283,999 (Suvli-Aksial-iFR)	310,09±5,4
Cu 324,754 (Suvli-Aksial-iFR)	365,95±2,28
In 325,609 (Suvli-Aksial-iFR)	1628,69±17,98
Ag 328,068 (Suvli-Aksial-iFR)	60,66±10,74
Ti 334,941 (Suvli-Aksial-iFR)	102,13±1,62
Rh 343,489 (Suvli-Aksial-iFR)	27,52±2,95
Ca 393,366 (Suvli-Aksial-iFR)	15493,25±156,47
Al 396,152 (Suvli-Aksial-iFR)	1548,27±5,83
Sr 407,771 (Suvli-Aksial-iFR)	4342,01±48,02
Ba 455,403 (Suvli-Aksial-iFR)	18646,01±86,52
Na 589,592 (Suvli-Radial-iFR)	27657,6±19,37
Li 670,776 (Suvli-Aksial-iFR)	88,5±0,32
K 766,490 (Suvli-Aksial-iFR)	484784,29±447,99

Olingan natijalarga ko‘ra, Hindiston dolchini tarkibida fosfor (53.5 mg), magniy (75.4 mg), kaliy (484.8 mg), natriy (27.6 mg), kalsiy (15.5 mg), marganes (33.8 mg) kabi makro va mikroelementlar miqdori sezilarli darajada ko‘pligi aniqlandi.

Kalsiy suyak to‘qimasini hosil qiladi, tishlarning shakllanishi va o‘sishida ishtirok etadi, qon ivishi uchun javobgardir. Agar bu element kerakli miqdorda ta’minlanmagan bo‘lsa, unda bunday o‘zgarish bolalarda raxit va osteoporozning rivojlanishiga olib kelishi mumkin.

Kaliy organizm hujayralarini suv bilan ta’minlaydi hamda kislota-ishqor muvozanatida ishtirok etadi. Kaliy tufayli oqsilsintez sodir bo‘ladi.

Fosfor energiyani aylantirish, suyak to‘qimasini shakllantirish kabi vazifalarga ega. Tanani ushbu elementdan mahrum qilib, ba’zi muammolarga duch kelishi mumkin, masalan, suyakning shakllanishi va o‘sishidagi buzilishlar, osteoporozning rivojlanishi va depressiya. Bularning barchasini oldini olish uchun fosfor zaxiralarini muntazam ravishda to‘ldirish kerak.

Natriy organizmda osmotik bosim, kislota-ishqor muvozanatini bir xil darajada ushlab turadi. Natriy va nerv impulslarini yetkazib berish uchun javobgardir [8].

Demak, dolchinni kundalik iste’mol qilish bu elementlarga bo‘lgan kundalik ehtiyojni qondirishi mumkin.

Xulosa. Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, dolchin hech qanday nojo‘ya ta'sirlarsiz kundalik hayotda ziravor sifatida ishlatilib kelinmoqda. Bir nechta ilmiy maqolalarda dolchinning qobig‘i, efir moylari, qobiq kukuni, tarkibidagi fenolik birikmalar, sinnamik kislota haqida ma’lumotlar keltirilgan. Bu moddalarning har biri inson salomatligini yaxshilashda muhim o‘rin tutadi. Antioksidant va mikroblarga qarshi faollik oksidlovchilar yoki mikroblarga bevosita ta'sir qilish orqali sodir bo‘lishi mumkin, yallig‘lanishga qarshi, saratonga qarshi va diabetga qarshi faollik esa bilvosita retseptorlar vositachiligida sodir bo‘ladi. Biz ham uning tarkibidagi mikro va makroelementlar miqdorini tajriba yo‘li bilan aniqladik va shu orqali bu elementlar yetishmasligidan kelib chiqadigan ayrim turdagi kasalliklar uchun biologik oziq-ovqat qo‘shilmalari tayyorlashda dolchin kukunidan foydalanish yaxshi samara beradi deb ayta olamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Charles Spence. Cinnamon: The historic spice, medicinal uses, and flavour chemistry International Journal of Gastronomy and Food Science Volume 35, March 2024, 100858
2. Kumar, A., & Pandey, M. (2014). A review on Cinnamomum cassia and its medicinal properties. International Journal of Pharmaceutical Sciences and Research, 5(4), 1094-1099.
3. R. Ribeiro-Santos, M. Andrade, D. Madella, A.P. Martinazzo, L. De Aquino Garcia Moura, N.R. De Melo, et al. Revisiting an ancient spice with medicinal purposes: Cinnamon Trends in Food Science & Technology, 62 (2017), pp. 154-169
4. N. Błaszczyk, A. Rosiak, J. Kałużna-Czaplińska
The potential role of cinnamon in human health Forests, 12 (5) (2021)
5. J. Gruenwald, J. Freder, N. Armbruester Cinnamon and health
Critical Reviews in Food Science and Nutrition, 50 (9) (2010), pp. 822-834
6. M. Farazande, S. Shabab, M. Mahmoudabady, Z. Gholamnezhad
Effects of cinnamon on risk factors of cardiovascular diseases: A review paper Internal Medicine Today, 28 (1) (2021), pp. 16-37
7. P.V. Rao, S.H. Gan Cinnamon: A multifaceted medicinal plant
Evidence-based Complementary and Alternative Medicine: eCAM, 2014 (2014), Article 642942,
8. Baxodirova Nargiza Baxodirovna, Babanazarova Nazifa Ermatovna «KIMYOVIY ELEMENTLARNING INSON HAYOTIDAGI ROLI», Международный научный журнал № 5 (100), часть 1 «Научный импульс» Январь, 2023

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 1-son)

TABIIY FANLAR

NATURAL SCIENCES

SiO_2 NAMUNA SIRTIGA GE QATLAMLARINI O‘TKAZISH JARAYONI VA QIZDIRISHDAN SUNG Ge QATLAMLARINING KIMYOVIY VA FIZIK XOSSALARINI O’RGANISH.

Yorqulov Ruslan Maxammadi o‘g‘li.
Fizika-matematika fanlari falsafa doktori, dotsent. (Ruyo1990@mail.ru)
Mizomov Nurzod Odiljon o‘g‘li
“Neft va gaz ishi” kafedrasi talabasi

Annotatsiya: SiO_2 ustidagi Ge qatlamlarini holatni namlash hodisasi odatda qatlam funksiyasi sifatida tekshiriladi. Qalinligi d_{Ge} (10 -86 nm gacha) va toblanish harorati 580–700 °C. Ge qatlamlarining shakllanish qalinligi mos ravishda 10-60 va 86 nm. Bu temperaturada kanal kengligi sezilarli darajada torayadi va o‘rtasida yupqalashgan Ge qatlamining shakllanish bosqichi boshlanadi.

Kalit so‘zlar: Oksid, mikron, termal, plyonka, yarimo‘tkazgich, dielektrik, kvant nuqta, submikron, fotonik, nanoplyonka, toblash, morfologiya, polikristall, orolchalar, aglomeratsiyasi.

Abstract: The wetting of Ge layers on SiO is usually investigated as a function of the layer thickness. The thickness of dGe (up to 10 -86 nm) and the annealing temperature are 580–700 °C. The formation thickness of the Ge layers is 10-60 and 86 nm, respectively. At this temperature, the channel width narrows significantly and the formation phase of the thinned Ge layer in the middle begins.

Keywords: Oxide, Micron, thermal, film, semiconductor, dielectric, quantum dot, Submicron, photonic, nanoplyonka, glazing, morphology, polycrystalline, islets, agglomeration.

KIRISH

SiO_2 namuna yuzasi tabiiy oksid bilan qoplangan bo‘lib, u keyingi Ge bilan bog‘lanish jarayoniga kam miqdorda halaqit berishi mumkin[1]. Kimyoviy ravishda o‘stirilgan SiO_2 oksidiga o‘tkaziladigan Ge oksidini SiO_2 namuna bog‘lanish jarayoni minimal kichik haroratlardan boshlab boshlanishi mumkin. Ushbu tadqiqotda mikron o‘lchamdagi Ge zarralarini olish uchun biz dastlab xona haroratida SiO_2 ustiga 10 dan 86 nm qalinlikgacha Ge ni yotqizamiz. SiO_2 sirtida Ge qatlamlarining bir xil bo‘lmagan zarrachalarning shakllanishi yuz beradi. 1 mkm qalinlikdagi termal SiO_2 plyonkasi bilan qoplangan Si (100) plitalari substrat

sifatida ishlatiladi [2] Ge o‘tkazilib bo‘lingandan sung, turli temperaturalarda qizdirish yo‘li bilan bog‘lanish hosil bo’lish jarayonini tekshirish.

SiO_2 sirtiga, Ge yotqizish jarayoni o‘ta yuqori vakuumli kamerada amalga oshiriladi, bu bosim $1 * 10^{-10}$ Torr. Ge ni SiO_2 yuzasida o‘tirish tezligi taxminan ~ 1,0 nm/min. Plyonkani o‘tkazish o‘sish kamerasida taxminan 450 °C haroratda muntazam qizdirib turish orqali amalga oshiriladi. Ge ni namuna yuzasiga o‘tkazish 30 yoki 120 daqiqa davomida amalga oshiriladi. Hosil bo’lgan plyonka yuzasini Skanerli elektron mikroskopda (SEM) da ko‘zatishimiz mumkin [2]. Bu yerda taqdim etilagan barcha o‘lchov natijalarimizning SEM tasvirlari 30 daqiqa davomida toblanganidan keyin namunalardan olingan. SiO_2 namuna yuzasi avvalambor yuqori vakuumda kuchli qizdirish yo‘li bilan tozalanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA.

Qattiq jismni namlash hodisasidan yarimo‘tkazgichlarda yuqori mahsuldorlikka erishish mumkin. Mikron o‘lchamdagi dielektrik zarralar yorug‘lik bilan o‘zaro ta’sirlashganda magnit va elektr rezonanslarini hosil qiladi. Ge ning sindirish ko‘rsatkichi SiO_2 dan katta ekanligini hisobga olgan holda ularning yorug‘lik yutilish koeffitsiyentlarining spektral bog‘liqligi hisobga olsak, Ge materialini elektromagnit nurlanish uchun istiqbolli material sifatida ko‘rish mumkin. SiO_2 da Ge qatlamlarini o‘tkazish paytida qattiq holatda namlanish hodisasi yuz beradi, zarrachalar o‘z-o‘zidan hosil bo’ladi va shakli hamda hajmi bo‘yicha keng yoyiladi. SiO_2 sirtlarida Ge zarrachalarining shakllanishini o‘rganish mobaynida nano o‘lchamdagi ya‘ni 40 nm gacha bo’lgan uch o‘lchovli Ge orolchalari va kvant nuqtalari namoyon bo’ldi [3-10]. Ge orolchalari nisbatan past haroratlarda, ya‘ni toblanishdan keyin hosil bo‘lishi mumkinligi ko‘rsatdi. Hisob-kitoblarga ko‘ra, o‘lchamlari ko’rinadigan va infraqizil spektral diapazonlarda, fotonik qo‘llash uchun submikron va mikron o‘lchamdagi dielektrik zarrachalar talab qilinadi. $Ge/Si/SiO_2/Si$ tuzilmalari 700 ^{0}C da (30 katta o‘lchamdagi SiGe zarralari o‘stirildi. Ge qatlamlarini namlash jarayonini SiO_2 ga bog‘liqligi kamroq o‘rgangan [11-12].



Rasm-1. (a–c) SiO_2 ga yotqizilgan 20, 86 va 60 nm qalinlikdagi Ge qatlamlarining SEM tasvirlari hamda mos ravishda 560, 700 va 650 °C da 30 daqiqa davomida vakuumda toblashdan keyingi rasmlar keltorilgan (1d) [11-12].

SiO_2 ustidagi 10–40 nm qalinlikdagi Ge qatlamlari 200 °C gacha bo‘lgan temperaturada toblaganda, SiO_2 da o‘stirilgan Ge elementi polikristall ekanligini ko‘rsatdi. Namunalarni 550°C va undan past haroratda toblanishi uch o‘lchamli zarrachalarning shakllanishiga olib kelmaydi. Sirt morfologiyasidagi o‘zgarishlar asosan 550 °C dan yuqori haroratlarda toblashdan sung kuzatildi (2-rasm).

Ge qatlamlari yuzasida SEM tasvirlaridan ko‘rinadiki to‘lqinlar paydo bo‘ladi. SiO_2 ustiga qalinroq Ge qatlamlari o‘tkazilganda nanoplyonka sirti yorqinroq va aniqroq ko‘rinadi (2d-rasm). SiO_2 sirtida yupqaroq (20 nm) Ge qatlamlari o‘tkazilganda hosil bo‘lgan plyonka yuzasi sezilarli darajada kichikroq bo‘lar ekan (2 b,c-rasmlar). Ge qatlamlari polikristal bo‘lganligi sababli, ularning yuzasi turli xil orolchalardan iborat bo‘lar ekan.



2-rasm. SiO_2 ga o‘tkazilgan Ge qatlamlarini vakuumda toblashdan sung keltirilgan SEM dagi tasvirlar. 2a - da 20 nm qalinlikdagi Ge qatlamini 580 °C da toblashdan keyingi tasvir. 2b va 2c tasvirlar mos ravishda 10 va 20 nm qalinlikdagi Ge qatlamlarini 600 ° C da toblashdan keyingi tasvir.

MUHOKAMA

SiO_2 sirtiga o‘tkazilgan Ge qatlami 580 °C da 30 daqiqa davomida toblangandan so‘ng, 10 va 20 nm Ge qatlamlarining qisman aglomeratsiyasi kuzatiladi. Bu tor kanallar va kichik zarrachalar shaklida shakllangan teshiklar yaqinida nisbatan katta zarrachalar hosil bo’lishidan iboratdir. 2a-rasmda Ge qatlamining qolgan joylari 580 °C da uzoqroq (2 soat) toblanishdan sung Ge qatlamlarining qolgan joylarining to’liq yo‘qolishiga olib keladi. Biroq, ularning o‘rtacha hajmi 580 °C da toblashdan keyingi zarrachalarnikidan kichikroq. 600 °C va 800 °C da toblashlar o‘zaro solishtirilganda, toblashlardan sung bir xil shaklga ega bo‘lgan ixcham zarrachalar hosil bo‘ladi, ularning konsentratsiyasi va orolchalarning o‘rtacha kattaligi sezilarli darajada farq qilmasligi aniqlandi [11-12].



3-rasm. 3a rasm 30 nm va 3b-rasm 40 nm qalinlikdagi Ge qatlamlari bilan qoplangan SiO_2 namunalarini 600 °C da toblashdan keyingi SEM tasvirlari keltirilgan. 3c-rasmda 40 nm qalinlikdagi Ge qatlamini 800 °C da toblashdan keyin tasvir ko‘rsatilgan. 3d rasmda 700 °C da toblashdan keyin 40 nm qalinlikdagi Ge qatlamining tasviri keltirilgan [11-12].

SiO_2 namuna sirtiga o‘tkazilgan 30 va 40 nm qalinlikdagi Ge qatlamlari 600 °C da toblanganda Ge qatlamlarining qisman quruqlanish jarayoni ko‘zatildi (3a-rasm). Ge qatlamlari katta orolchalari strukturasi buzilishining boshlanishi va bir vaqtning o‘zida tor kanallarning shakllanishi ko‘zatildi (3b-rasm). Bu ikki tajriba o‘rtasidagi farq asosan toblanish haroratiga bog‘lik ekanligi bilan baholanadi. 40 nm qalinlikdagi Ge qatlamlari mos ravishda 700 va 800 °C da (3c,d-rasm) toblanishdan keyingi Ge zarralarining tuzilishi keltirilgan. Shuni ta‘kidlash mumkinki, toblanishni boshlash uchun odatda yuqori harorat talab qilinadi [13].

Yuqori haroratlarda toblanganda, Ge zarralarining kontsentratsiyasi undan ancha yuqori bo‘lib, ular sirt bo‘ylab bir tekis taqsimlanadi.



4-rasm. 4a- 700 ºC, 4b- 800 ºC larda SiO_2 sirtiga o‘tkazilgan, 86 nm qalinlikdagi Ge namunalarning SEM tasvirlari [14].

4a va 4 b-rasmlarda ko‘rinib turibdiki, namuna 800 °C da 2 soat toblangandan sung, namunaning sirt morfologiyada ozgina o‘zgarishni ko‘rish mumkin. Tajribada aniqlandiki sirt morfologiyasining o‘zgarishi toblashning dastlabki daqidalarida sodir bo‘ldi [14].

XULOSA

SiO_2 va uning sirtiga o‘tkazilgan Ge orasidagi kimyoviy bog‘lanish 580-700 ºC haroratda boshlanadi. Past haroratlarda, Ge qatlamlari yuzasida to‘lqinlanish paydo bo‘lishi aniqlandi. Bog‘lanishdan sung hosil bo‘lgan plyonka polikristall ekanligi aniqlandi.

SiO_2 da Ge qatlamlarini o‘tkazish paytida qattiq holatda namlanish hodisasi yuz beradi, zarrachalar o‘z-o‘zidan hosil bo‘ladi va shakli hamda hajmi bo‘yicha keng yoyiladi. SiO_2 sirtlarida Ge zarrachalarining shakllanishini o‘rganish mobaynida nano o‘lchamdagi ya‘ni 40 nm gacha bo‘lgan uch o‘lchovli Ge orolchalari va kvant nuqtalari namoyon bo‘lishi aniqlandi.

SiO_2 sirtiga o‘tkazilgan Ge qatlami 580 °C da 30 daqiqa davomida toblangandan so‘ng, 10 va 20 nm Ge qatlamlarining qisman aglomeratsiyasi kuzatiladi. Bu tor kanallar va kichik zarrachalar shaklida shakllangan teshiklar yaqinida nisbatan katta zarrachalar hosil bo‘lishidan iboratligi aniqlandi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. M Trautmann F Cheynis F Leroy S Curiotto P Muller 2017 Interplay between deoxidation and dewetting for ultrathin SOI films Appl. Phys. Lett. 110 161601

2. C Dabard AA Shklyaev VA Armbrister AL Aseev 2020 Effect of deposition conditions on the thermal stability of Ge layers on SiO2 and their dewetting behavior Thin Solid Films 693 137681

3. AA Shklyaev M Shibata M Ichikawa 2000 High-density ultrasmall epitaxial Ge islands on Si(111) surfaces with a SiO_2 coverage Phys. Rev. B 62 1540 1543

4. A Barski M Derivaz JL Rouviиre D Buttard 2000 Epitaxial growth of germanium dots on Si(001) surface covered by a very thin silicon oxide layer Appl. Phys. Lett. 77 3541 2543

5. AA Shklyaev M Ichikawa 2002 Effect of interfaces on quantum confinement in Ge dots grown on Si surfaces with a SiO_2 coverage Surf. Sci. 514 19 26

6. I Berbezier A Karmous A Ronda A Sgarlata A Balzarotti P Castrucci M Scarselli M Crescenzi De 2006 Growth of ultrahigh-density quantum-confined germanium dots on SiO2 thin films Appl. Phys. Lett. 89 063122

7. CD Poweleit CW Hu IS Tsong J Tolle J Kouvetakis 2007 Optical characterization of Si1−xGex nanodots grown on Si substrates via ultrathin SiO_2 buffer layers J. Appl. Phys. 101 114312

8. M Aouassa I Berbezier L Favre A Ronda M Bollani R Sordan A Delobbe P Sudraud 2012 Design of free patterns of nanocrystals with ad hoc features via templated dewetting Appl. Phys. Lett. 101 013117

9. KA Lozovoy AP Kokhanenko VV Dirko NYu Akimenko AV Voitsekhovskii 2019 Evolution of epitaxial quantum dots formed by Volmer−Weber growth mechanism Cryst. Growth Des. 19 7015 7021

10. KA Lozovoy AG Korotaev AP Kokhanenko VV Dirko AV Voitsekhovskii 2020 Kinetics of epitaxial formation of nanostructures by Frank–van der Merwe, Volmer–Weber and Stranski–Krastanow growth modes Surf. Coat. Technol. 384 125289

11. Y Kojima T Kato 2008 Nanoparticle formation in Au thin films by electron-beam-induced dewetting Nanotechnology 19 255605

12. HJ Choe SH Kwon C Choe JJ Lee CH Woo 2016 Sn microparticles made by plasma-induced dewetting Thin Solid Films 620 165 169

13. M Trautmann F Cheynis F Leroy S Curiotto P Muller 2017 Interplay between deoxidation and dewetting for ultrathin SOI films Appl. Phys. Lett. 110 161601

14. PR Gadkari AP Warren RM Todi RV Petrova KR Coffey 2005 Comparison of the agglomeration behavior of thin metallic films on SiO_2 J. Vac. Sci. Technol. A 23 1152 1161

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 1-son)

TABIIY FANLAR

NATURAL SCIENCES

MODIFIKASIYALANGAN SEROBITUMNING TERMIK XUSUSIYATLARINI O‘RGANISH

[1]Rosilov Mansur Sirgiyevich, [2]Beknazarov Hasan Soibnazarovich,
[3]Saparov Sardorbek Xudoykulovich
Qarshi muhandislik iqtisodiyot instituti –[1,3]dotsenti
Toshkent kimyo-texnologiya ilmiy-tadqiqot instituti –
[2]texnika fanlari doktori, professor,
[1]Gmail: sirgiyevich@mail.ru

Annotasiya Modifikator bilan modifikatsiyalangan oltingugurt asosida olingan modifikatsiyalangan bitumning sirt morfologiyasi skaner elektron mikroskop tahlili bilan o‘rganildi. Ishda asfalt aralashmalari 160 °C aralashish harorati aniqlandi. Bog‘lovchi sifatida olingan oltingugurtdan (10, 20, 30 va 40%) miqdorda olindi. Modifikasiyalangan bitumning termik xususiyatlarini o‘rganish uchun 16,136 mg namuna olinib, TG-DTA tahlili 10 °C dan 802 °C gacha bo‘lgan haroratlar oralig‘ida amalga oshirilgan.

Kalit so‘zlar: Bitum, oltingugurt, modifikator, serobitum, termogravimetr, elastik, differensial, mikroskop, termik, polimer.

ИЗУЧЕНИЕ ТЕПЛОВЫХ СВОЙСТВ МОДИФИЦИРОВАННОГО СЕРОБИТА

Аннотация

Морфология поверхности модифицированного битума, полученного из модифицированной модификатором серы, была изучена путем анализа сканирующей электронной микроскопии. В работе была определена температура смешивания асфальтовых смесей 160 °C.из серы, полученной в качестве связующего (10, 20, 30 и 40%). Для изучения тепловых свойств модифицированного битума было взято 16 136 мг пробы и проведен анализ TG-DTA в диапазоне температур от 10 °C до 802 °C.

Ключевые слова: битум, сера, модификатор, серобит, термогравиметр, упругий, дифференциальный, микроскоп, термический, полимерный.

STUDY OF THE THERMAL PROPERTIES OF MODIFIED SEROBITE

Abstract The morphology of the surface of modified bitumen obtained from sulfur modified with a modifier was studied by analyzing scanning electron microscopy. The mixing temperature of asphalt mixtures was determined at 160 °C.from sulfur obtained as a binder (10,

20, 30 and 40%). To study the thermal properties of modified bitumen, 16,136 mg samples were taken and TG-DTA was analyzed in the temperature range from 10 °C to 802 °C.

Keywords: bitumen, sulfur, modifier, serobite, thermogravimeter, elastic, differential, microscope, thermal, polymer.

Kirish: So‘ngi yillarda eng ko‘p qo‘llanilgan bitum bu yo‘l qurilishi uchun qo‘llaniladigan bitumdir. Ammo, bitumni to‘g‘ridan to‘g‘ri qo‘llash bir qancha noqulayliklarga olib keladi. Ushbu noqulayliklarni bartaraf etish uchun bitumni modifikatsiyalash orqali qo‘llash bir qancha ustunliklar beradi va bitum tarkibiga ishlatiladigan polimer mahsulotlar ishlab chiqarish dunyo miqyosida avj ola boshladi. XIX asrning boshlariga kelib neft ishlab chiqarish pasayganligi sababli, yo‘l qurilishida ishlatiladigan bitumlarga polimerlarni qoshish ko‘paya boshladi, va bitumga turli hildagi polimer mahsulotlarni qo‘shish ustida izlanishlar olib borishdi va natijada polimer mahsulotlar bitumni elastik, yopishqoqlik va termik barqarorligini oshirishi aniqlandi.

Asfalt sifatini yaxshilashda bitum sifati muhim o‘rin egalaydi. Sifatli bitum olish uchun bitumni tarkibini o‘zgartirishga qaratilgan tadqiqotlar soni ortib bormoqda. Bitumni modifikatsiyalashning barcha sinab ko‘rilgan yoki tekshirilgan usullari orasida polimer modifikatsiyasi eng muhim usullardan biri hisoblanadi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Modifikatsiyalangan bitumlar ixtisoslashtirilgan ilovalar uchun o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lish uchun moslashtirilgan modifikatsiyalangan bitum formulalarini anglatadi. O‘zgartirilgan maxsus xususiyatlarga ega bitumlarning bir nechta misollari:

Yuqori samarali bitum mustahkamlangan qattiqlik, yaxshilangan burilish qarshiligi, yuqori charchoq muddati va chidamlilik kabi yuqori xususiyatlarni namoyish qilish uchun ishlab chiqilgan. U odatda og‘ir tirbandlik joylarida, aeroportlarda va boshqa yuqori kuchlanishli yulka ilovalarida qo‘llaniladi [1].

Asfaltning yorilishi takroriy yuklash davrlari tufayli yuzaga keladi va qoplamaning buzilishiga olib kelishi mumkin. Yuqori samarali bitum charchoqqa chidamliligini oshirish uchun mo‘ljallangan bo‘lib, u yoriqlarsiz ko‘proq yuklanish davrlariga bardosh berishga imkon beradi. Yuqori samarali bitum qarish, oksidlanish va atrof-muhit omillari ta’sirida yomonlashuvga chidamliligi yuqori bo‘lgan yuqori chidamlilikni namoyish etadi. U uzoq vaqt davomida o‘z xususiyatlarini saqlab qoladi, bu esa qoplamaning ishlash muddatini uzaytiradi [2,3]. Yuqori samarali bitum keng harorat oralig‘ida yaxshi ishlash uchun ishlab chiqilgan. Yopishqoqlik va yopishish: Yuqori samarali bitum agregatlarga mukammal yopishishga ega, bu bitum va agregat zarralari o‘rtasida mustahkam bog‘lanishni ta’minlaydi. Bu qoplama strukturasining mustahkamligi va mustahkamligini oshiradi [4,5]. Yuqori samarali bitum odatda avtomobil yo‘llari, og‘ir tirbandlik joylari, aeroportlar va boshqa muhim infratuzilma loyihalari kabi talabchan ilovalarda qo‘llaniladi. Uning yuqori xususiyatlari yuqori hajmli transport va og‘ir atrof-muhit sharoitlariga bardosh bera oladigan xavfsizroq, bardoshli va uzoq muddatli qoplamalarga yordam beradi [6].

Tadqiqot obektlari va usullari

Mazkur ishda an‘anaviy issiq asfalt aralashmalari past sifatli agregatlar va sof bitumdan 160°C aralashtirish haroratida tayyorlandi. Shuningdek, bog‘lovchi sifatida oltingugurtdan (10, 20, 30 va 40%) qo‘shilgan asfalt aralashmalari past sifatli agregatlar bilan 140 °C aralashtirish haroratida sinovdan o‘tkazildi. Bitum og'irligiga nisbatan qo‘llanilgan oltingugurt miqdori va aralashmaning mexanik xususiyatlari, jumladan Marshall barqarorligi, oqimi, havo bo‘shliqlari, qattiqlik va boshqa sinovlar, masalan, tirqish sezuvchanligi, bilvosita valentlik kuchi va barqarorlikni yo‘qotish o‘lchandi. Tadqiqot natijalari oltingugurtning bitum og‘irligiga nisbatan 30% almashtirilishi aralashmaning sifatini pasaytirmasligini ko‘rsatdi. Bu usul bilan past sifatli agregatlar yordamida 20°C past haroratda aralashmani tayyorlash, ishlov berish va yulka yotqizish mumkinligi aniqlandi [7,8].

Tadqiqot natijalari: Modifikasiyalangan bitumning skanerlovchi elektron mikroskop (SEM) va element tahlili. Modifikasiyalangan bitumning sirt marfologiyasi va elementlar tarkibi skanerlovchi elektron mikroskop tahlil qilib ko‘rilganda reaksiyaning to‘liq sodir bo‘lganligini va reaksiyada parallel ravishda hosil bo‘lgan moddalarning elementar tarkibi 1-rasmda keltirilgan.



1-rasm. Modifikasiyalangan bitumning skanerlovchi elektron mikroskop (SEM) va element tahlili.

Modifikasiyalan bitumning 100 kattalashtirilgan tasvirlari olingan bo‘lib, reaksiyada ishtirok etgan moddalarining to‘liq reaksiyaga kirishganligi va bitum tarkibini o‘zgartirganligini, boshlang‘ich moddalarning bir-biriga to‘liq birikkanligini va moddalarning tarkibida qo‘shimchalari yo‘qligini aniqlandi.

Modifikator bilan modifikatsiyalangan oltingugurt asosida olingan modifikatsiyalangan bitumning sirt morfologiyasi skaner elektron mikroskop tahlili bilan o‘rganildi. 1-rasmda turli o‘lchamdagi modifikatsiyalangan oltingugurt asosida olingan bitumning elektron mikroskop skaneri tahlili rasmlari ko'rsatilgan: Agar oksidlanish jarayonlari sodir bo‘lgan bo'lsa, olingan

beton atmosfera fazasida barqaror bo‘lmasligini ko’rsatadi. Quyidagi 2-rasmda elementar oltingugurtning skanerlovchi electron mikroskop **(**SEM) mikrotuzilishi modifikatsiyalangan oltingugurt bilan taqqoslash uchun keltirilgan.



2-rasm. Modifikatsiyalangan oltingugurtning skanerlovchi elektron mikroskop (SEM) mikrotuzilishi

Ushbu tasvirlar bitum tarkibidagi elementlarning taqsimlanishini ko‘rsatadi, bu orqali materialning sirt tuzilishi va elementar tarkibi haqida ma‘lumot olish mumkin. SEM tahlil natijalari asosida modifikatsiyalanmagan bitumda bir xil o‘lchamdagi elementlarning bir xil taqsimlanmaganligi, shuningdek, sirt g‘ovakligining darajasini aniqlanishda katta yordam beradi.

Modifikasiyalan bitumning termogravimetrik va differensial termik tahlili. Modifikasiyalangan bitumning termik xususiyatlarini o‘rganish uchun 16,136 mg namuna olinib, TG-DTA tahlili 10°C dan 802°C gacha bo‘lgan haroratlar oralig‘ida amalga oshirilgan. Termik tahlil natijalarida ikkita asosiy endotermik effekt kuzatilgan bo‘lib, ular mos ravishda 60,87°C va 722,83°C haroratlarda qayd etilgan.

Modifikatsiyalangan bitumning termogravimetrik (TG) egri chizig‘i uchta intensiv massa yo‘qotish bosqichiga ega. Birinchi bosqichda massa yo‘qotilishi 20,39°C dan 191,54°C gacha bo‘lgan harorat oralig‘ida sodir bo‘ladi. Ikkinchi massa yo‘qotish bosqichi 191,54°C dan 458,35°C gacha kuzatiladi. Uchinchi va eng yuqori haroratdagi massa yo‘qotish esa 458,33°C dan 801,65°C gacha bo‘lgan intervalda ro‘y beradi. Ushbu uchta massa yo‘qotish bosqichlari bitum tarkibidagi komponentlarning turli termik barqarorligini va parchalanish jarayonlarini aks ettiradi.



3-rasm. Modifikasiyalangan bitumning termogravimetrik va differensial termik tahlili

Modifikasiyalan bitumning termogravimetrik va differensial termik tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, birinchi massa yo‘qotish bosqichida 7,734% massa yo‘qotilishi, ikkinchi bosqichda 10,201% massa yo‘qotilishi va uchinchi bosqichda 20,352% massa yo‘qotilishi kuzatilgan. Modifikatsiyalangan bitumning DTA natijalari esa 41,24 °C dan 90,07°C gacha va 700,1°C dan 750,29°C gacha bo‘lgan harorat oraliqlarida energiyaning yutilishini ko‘rsatadi.

Xulosa: Mazkur ishda asfalt aralashmalari past sifatli agregatlar va sof bitumdan 160°C aralashtirish haroratida tayyorlandi. Shuningdek, bog‘lovchi sifatida oltingugurtdan (10, 20, 30 va 40%) qo‘shilgan asfalt aralashmalari past sifatli agregatlar bilan 140°C aralashtirish haroratida sinovdan o‘tkazildi. Modifikatsiyalangan bitumning DTA natijalari 41,24 °C dan 90,07°C gacha va 700,1°C dan 750,29°C gacha bo‘lgan harorat oraliqlarida energiyaning yutilishi aniqlandi.

Adabiyotlar royxati

1. Heitzman M.A. State of the Practice-Design and Construction of Asphalt Paving Materials with Crumb Rubber Modifier; Research Report No. FHWA-SA-92-022, 1339; Federal Highway Administration: Washington, DC, USA, 1992; pp. 1–8.

2. Jimenez-Mateos J M, Quintero L C and Rial C. Characterization of petroleum bitumens and their fractions by thermogravimetric analysis and differential scanning calorimetry Fuel 75 1691 -1700.

3. Brosseaud Y. “Etat du développement des enrobés tièdes en France”, Revue Générale des Routes et Aérodrômes 857 (2007) 45-53.

4. Hicks R.G. Asphalt Rubber Design and Construction Guidelines; Rubberized Asphalt Concrete Technology Center: Alhambra, CA, USA, 2002.4-8.

5. Takallou M.B., Takallou H.B. Benefits of Recycling Waste Tires in Rubber Asphalt Paving. Transp. Res. Rec. 1991, 1310, 87–92.

6. Masson J.F., Collins P., Polomark G.M., “Steric hardening and the ordering of bitumen asphaltenes in bitumen”, Energy and Fuels 19 (2005) 120-122.

7. Fadiel A., Rifaie Al.F., Abu-Lebdeh T., Fini E. Use of Crumb Rubber to Improve Thermal Efficiency of Cement Based Materials. Am. J. Eng. Appl. Sci. 2014, 7, 1–11.

8. Książek, M. The influence of penetrating special polymer sulfur binder –Polymerized sulfur applied as the industrial waste material on concrete watertightness. Composites Part B: Engineering, 2014 – vol. 62, Issue null, pp. 137-142.

9. Becker Y., Mendez M.P., Rodriguez Y. Polymer modified asphalt. Vision Tecnologica 2001; 9(1):39-50.

10. Eisa, M.S., Basiouny, M.E. & Elbasomy, O.A. Evaluating hot asphalt mixtures of poor quality aggregate with sulphur extended asphalt. *Innov. Infrastruct. Solut.* 4, 56 (2019).

11. Hawari, S., Khedaywi, T. Investigating the Performance Characteristics of Asphalt Binder and Asphalt Concrete Mixes Containing Waste Iron Powder. *Int. J. Pavement Res. Technol.* (2024).

12. М,С,Росилов Изучение физико-химических свойств серобитума Unversum № 3 (120) март, 2024 г.

13. М,С,Росилов Химический состав и свойства нефтяного битума Unversum № 3 (120) март, 2024 г.

14. M.S.Rosilov F.U.Axmedova Methods for Obtaining Modified Sulfur Bitumen AMERICAN Journal of Engineering, Mechanics and Architecture Volume 2, Issue 5, 2024.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 1-son)

TABIIY FANLAR

NATURAL SCIENCES

UDC: 546.47;615.4; 546.05;.546.06; 548.315.2

ORCID ID 0009-0003-7678-0330

RUX TUZLARINING KETOPROFEN BILAN KOMPLEKS BIRIKMASI SINTEZI VA TADQIQOTI

Rustamov Temur Rustam o‘g‘li
Xorazm Ma’mun akademiyasi tayanch doktoranti
temur1998@gmail.com, (+99891) 572-38-07
Azizjanov Xushnud Maksudovich
Urganch Davlat universiteti “Kimyo” kafedrasi dotsenti., k.f.n
hushnud@mail.ru,(+99894) 230-16-06
Hasanov Shodlik Bekpo‘latovich
Xorazm Ma’mun akademyasi ilmiy ishlar bo‘yicha rais o‘rinbosari., k.f.n.
shadlik@mail.ru, (+99894) 230-65-75
Xudoyberganov Oybek Ikromovich
Xorazm Ma’mun akademyasi katta ilmiy xodimi., PhD
oybek_hudoyberganov@mail.ru, (+99899)965-80-85
Abdullayeva Zubayda Shavkatovna
Urganch Ranch texnologiya universiteti,
Mashinasozlik va axborot texnologiyalari kafedrasi dotsenti., PhD
zubayda.abdullayeva.91@mail.ru, (+99893)280-25-05

Annotatsiya. Ushbu maqolada $[Zn(Kar)_2(H_2O)_2]\cdot(Ket)_2\cdot(H_2O)_2$, $[Zn(Ket)_2(Kar)_2]\cdot(H_2O)_2$, $[Zn(Ket)_2(NO_3)_2]\cdot(EDA)_2$ va $[Zn(Ket)_2(Cl)_2]\cdot(MEA)_2$ tarkibli kompleks birikmalarining olinish sharoiti va uni sintez qilishda dastlab ishlatilgan moddalarning konsentratsiya nisbati, harorat, bosim qanday tasir qilishi tahlil qilingan hamda tegishli xulosalar olingan. Bu koordinatsion birikmalar aralash ligandli kompleks birikmalar bo‘lib, ularni sintez qilib olishda ishlatilgan birikmalar quyidagicha tarkibli bo‘lgan. Bunda ketoprofen (Ket), karbamid (Kar), etilendiamin (EDA), monoetanlamin (MEA) va ruxning nitrat, xlorid, sulfat, atsetat tuzlari ishlatilgan. Olingan ligand hamda sintez qilingan kompleks birikmalar tarkibi va tuzilishi element analizi, IQ-spektroskopiya usuli va rentgen strukturaviy analiz usullari yordamida aniqlandi. Ushbu birikmalarni sintez qilishda biofaol ligand ketoprofen va biogen element hisoblangan ruxning suvda eruvchan bir necha tuzlari tanlab olingan. Sintezlangan barcha kompleks birikmalarda markaziy atom ruxning koordinatsion soni 6 ga tengligini, rentgen tuzilish tahlili va IQ-spektroskopiya usullari yordamida olingan natijalar ko‘rsatib berilgan. Ketoprofen molekulasi koordinatsion birikma hosil qilishda karboksil guruhidagi kislorod atomi orqali markaziy atom ruxga bog‘langan. Rux $3d^{10}$ elektron konfiguratsiyasiga ega, 3d orbitallari bilan to‘liq to‘ldirilgan, antibakterial va virusga qarshi ta’sirga ega muhim element hisoblanadi. Aynan shu

ta’sirini inobatga olgan holda, ushbu sintez jarayonlarida biogen element rux tanlab olingan. Bugungi kunda tabiatda bo‘layotgan turli salbiy hodisalar tufayli, bakteriali, virusli va zararli zamburug‘lar keltirib chiqaradigan kasalliklar soni ortib bormoqda. Ularni davolashda ishlatilayotgan dori vositalarining soni va turi ham ko‘payib bormoqda. Ushbu maqolada nosteroid yallig‘lanishga qarshi keng qo‘llaniladigan dori vositasi ketoprofenning yangi turdagi kompleks birikmlari sintez qilindi va tarkibi o‘rganildi. Yangi olingan kompleks birikmalarning antibakterial faolligi ketoprofenga nisbatan sezilarli darajada ortganligi, bundan tashqari, monoligandli metallokomplekslarga nisbatan aralash-ligandli kompleks birikmalarda biologik faollik yuqori samaradorligi isbotlandi.

Kalit so‘zlar: Ketoprofen, karbamid, etilendiamin, monoetanolamin, sintez, element analizi, IQ-spektroskopiya, rentgenstrukturaviy analiz, monokristall, koordinatsion sig‘im, reaksiya unumi, antibakterial faollik.

СИНТЕЗ И ИССЛЕДОВАНИЕ КОМПЛЕКСНОГО СОЕДИНЕНИЯ СОЛЕЙ ЦИНКА С КЕТОПРОФЕНОМ

Аннотация. В статье анализируются условия получения комплексных соединений, содержащих $[Zn(Kar)_2(H_2O)_2]\cdot(Ket)_2\cdot(H_2O)_2$, $[Zn(Ket)_2(Kar)_2]\cdot(H_2O)_2$, $[Zn(Ket)_2(NO_3)_2]\cdot(EDA)_2$ и $[Zn(Ket)_2(Cl)_2]\cdot(MEA)_2$, а также влияние на них соотношения концентраций, температуры и давления исходно используемых при их синтезе веществ и делаются соответствующие выводы. Эти координационные соединения представляют собой комплексные соединения со смешанными лигандами, и соединения, использованные при их синтезе, имели следующий состав. Использовались кетопрофен (Кет), мочевина (Кар), этилендиамин (ЭДА), моноэтаноламин (МЭА), а также нитратные, хлоридные, сульфатные и ацетатные соли цинка. Состав и структура полученного лиганда и синтезированных комплексных соединений определены с помощью элементного анализа, ИК-спектроскопии и рентгеноструктурного анализа. При синтезе этих соединений были выбраны биоактивный лиганд кетопрофен и несколько водорастворимых солей цинка, который считается биогенным элементом. Результаты, полученные с помощью рентгеноструктурного анализа и ИК-спектроскопии, показали, что координационное число центрального атома цинка во всех синтезированных комплексных соединениях равно 6. Молекула кетопрофена связана с центральным атомом цинка через атом кислорода в карбоксильной группе, образуя координационное соединение. Цинк имеет электронную конфигурацию $3d^{10}$ с полностью заполненными 3d-орбиталями и является важным элементом с антибактериальным и противовирусным действием. Именно с учетом этого эффекта в данных процессах синтеза был выбран биогенный элемент цинк. Сегодня из-за различных негативных явлений, происходящих в природе, увеличивается количество заболеваний, вызываемых бактериями, вирусами и вредоносными грибками. Число и виды препаратов, используемых для их лечения, также увеличиваются. В данной статье синтезирован новый тип комплексного соединения

кетопрофена — широко используемого нестероидного противовоспалительного препарата, и изучен его состав. Антибактериальная активность вновь полученных комплексных соединений была существенно повышена по сравнению с кетопрофеном, кроме того, биологическая активность смешаннолигандных комплексных соединений была выше, чем у монолигандных металлокомплексов.

Ключевые слова: Кетопрофен, мочевина, этилендиамин, моноэтаноламин, синтез, элементный анализ, ИК-спектроскопия, рентгеноструктурный анализ, монокристалл, координационная емкость, выход реакции, антибактериальная активность.

SYNTHESIS AND STUDY OF ZINC SALTS WITH KETOPROFEN COMPLEX COMPOUNDS

Annotation. This article analyzes the conditions for obtaining complex compounds containing $[Zn(Kar)_2(H_2O)_2]\cdot(Ket)_2\cdot(H_2O)_2$, $[Zn(Ket)_2(Kar)_2]\cdot(H_2O)_2$, $[Zn(Ket)_2(NO_3)_2]\cdot(EDA)_2$ and $[Zn(Ket)_2(Cl)_2]\cdot(MEA)_2$, as well the effect of the concentration ratio, temperature, and pressure of the initially used substances in their synthesis, and draws relevant conclusions. These coordination compounds are complex compounds with mixed ligands, and the compounds used in their synthesis had the following composition. In this case, nitrate, chloride, sulfate, acetate salts of ketoprofen (Ket), urea (Kar), ethylenediamine (EDA), monoethanolamine (MEA) and zinc were used. The composition and structure of the obtained ligand and the synthesized complex compounds were determined using elemental analysis, IR spectroscopy and X-ray structural analysis methods. In the synthesis of these compounds, the bioactive ligand ketoprofen and several water-soluble salts of zinc, which is considered a biogenic element, were selected. The results obtained using X-ray structural analysis and IR spectroscopy methods showed that the coordination number of the central atom of zinc in all synthesized complex compounds is 6. The ketoprofen molecule is bonded to the central atom of zinc through the oxygen atom in the carboxyl group when forming a coordination compound. Zinc has a $3d^{10}$ electronic configuration, is fully filled with 3d orbitals, and is an important element with antibacterial and antiviral effects. Taking into account this effect, the biogenic element zinc was chosen in these synthesis processes. Today, due to various negative phenomena occurring in nature, the number of diseases caused by bacteria, viruses and harmful fungi is increasing. The number and type of drugs used to treat them is also increasing. In this article, new types of complex compounds of the widely used non-steroidal anti-inflammatory drug ketoprofen were synthesized and their composition was studied. The antibacterial activity of the newly obtained complex compounds was significantly increased compared to ketoprofen, and in addition, the biological activity of mixed-ligand complex compounds was proved to be higher than that of monoligand metallocomplexes.

Key words: Ketoprofen, urea, ethylenediamine, monoethanolamine, synthesis, elemental analysis, IR spectroscopy, X-ray structural analysis, single crystal, coordination capacity, reaction yield, antibacterial activity.

KIRISH. Bugungi kunda dunyoda sotuvda mavjud bo‘lgan biologik faol birikmalarning biometallar bilan metallokompleks birikmalarini sintez qilish usullarini ishlab chiqish va ularning fizik - kimyoviy xossalarini aniqlashga bo‘lgan qiziqish ortib bormoqda. Ushbu birikmalar farmatsevtikada antibiotiklar va yallig‘lanishga qarshi vositalar, tibbiyotda biologik faol moddalar hamda mikroorganizm hujayralari uchun bakteriyalarni o‘sishini ingibirlovchi antibakterial faol moddalar sifatida foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi [1].Dunyo olimlarining ishlari tahlil qilib chiqilganda ketoprofenning 3d metallari bilan ko‘plab koordinatsion birikmalari sintez qilinganligini ko‘rish mumkin. Xozirgi vaqtgacha propion kislotasi hosilalaridan hisoblangan, ketoprofenning Kembrij kristallografik ma’lumotlar (CCDC-2025) bazasiga kiritilgan koordinatsion birikmalar soni 67 ta (https://www.ccdc.cam.ac.uk/structures/) bo‘lib, ularning ko‘pchiligi monoligandli koordinatsion birikmalardir[2]. Ketoprofenning eritma muhitida aralash ligandli kompleks birikmalari sintezi kam amalga oshirilganligi tufayli, bu tadqiqotimizda ushbu muammoni yechishni asosiy vazifa qilib qo‘ydik. Shuningdek, antibakterial xossaga ega bo‘lgan biofaol ligand ketoprofenning, yordamchi ligandlar (monoetanolamin, karbamid, etilendiamin) va biometall kimyoviy element rux atomi bilan, yangi to‘rtta koordinatsion birikmasi sintez qilinib, tuzilishi tahlil qilingan. Bu kompleks birikmalarning ta’sir jarayonlarni ketoprofenga nisbatan ortgan yoki kamayganligini o‘rganish maqsadida, sintezlangan birikmalar eritmalari tayyorlanib ularni gramm musbat bakteriyalar *Staphylococcus aureus, Bacillus subtilis* va gramm manfiy bakteriyalar *Escherichia coli va Candida albicans* zamburug‘i shtammlariga *in vitro* sharoitida ta’siri o‘rganilgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR. Jahonning yetakchi ilmiy markazlari va kimyogar olimlari tomonidan ketoprofen hamda uning koordinatsion birikmalari sintezlanib, tuzilishi, tegishli paramerlari va biologik faolligi o‘rganilganligini ko‘plab ilmiy baza ma’lumotlari, shuningdek adabiyot ma’lumotlarini tahlil qilish orqali ko‘rish mumkin [3]. Mirsasan Mirpour, Hossein Zahmatkesh tomonidan “Ketoprofenning Pseudomonas aeruginosa bakteriyasiga ta’sirining molekulyar doking tadqiqotlari” nomli maqolasida biologic jarayonlar chuqur o‘rganilganligi ko‘rsatilib berilgan [4]. Zhu-Yan Zhang, Nan Yu, Xiao-Xi Guo, Jiao Pu, Jian-Ping Sunlar tomonidan ketoprofenning nikel metali bilan olingan koordinatsion birikmasi sintezi va monokristall strukturasi tahlil qilingan [5].



1-rasm. $[Ni(C_{16}H_{13}O_3)_2(H_2O)_4]\cdot H_2O$ tarkibli kompleks birikma molekulasining tuzilishi

$[Ni(C_{16}H_{13}O_3)_2(H_2O)_4]\cdot H_2O$ bu koordinatsion birikma hosil bo‘lishida har bir inversiya markazida joylashgan nikel atomiga, ikkita ketoprofen molekulasi karboksil guruhi kislorod atomi orqali bog‘lanib, nikelning qolgan valent elektronlari esa to‘rtta suv molekulasi bilan bog‘lanib, oktaedr shaklidagi kompleks birikma strukturasini shakllantirgan. Bu $[Ni(C_{16}H_{13}O_3)_2(H_2O)_4]\cdot H_2O$ koordinatsion birikmaning monokristali o‘stirilib, tegishli parametrlari Kembrij kristallografik ma’lumotlar bazasiga kiritilgan va depozit nomer olingan (CCDC-672577)[2]. Kompleks birikma kristalining shakli triklinik, *P*1 *a* =8.559 (2) Å, *b* =8.851 (2) Å, *c* =21.875 (4) Å, α=92.05 (3)°,β=99.78 (3)°, γ=108.90 (3)°, *V* =1537.7 (6) Å³, *Z* =2. Zhu-Yan Zhang, Peng-Gang Chen, Zhao-Peng Deng, Nan Yu, Bing-Yi Liular tomonidan esa ketoprofenning kobaltli koordinatsion birikmasi sintez qilingan va monokristallari o‘stirib, unga tegishli parametrlar ham Kembrij kristallografik ma’lumotlar bazasiga kiritilgan va depozit nomer olingan (CCDC- 654760)[6].



2-rasm. $[Co(C_{16}H_{13}O_3)_2(H_2O)_4]\cdot H_2O$ tarkibli kompleks birikma molekulasining tuzilishi

$[Co(C_{16}H_{13}O_3)_2(H_2O)_4]\cdot H_2O$ tarkibli kompleks birikma kristalining shakli triklinik, *P*1, *a* =8.5966 (17) Å, *b* =8.8939 (18) Å, *c* = 21.872 (4) Å, α = 92.08 (3)°, β = 99.69 (3)°, γ = 108.92 (3)°, *V* = 1551.9 (6) Å³, *Z* = 2. Access Structures ma’lumotlar bazasining ko‘rsatishicha hozirgi vaqtgacha ketoprofenning 17 ta koordinatsion birikmasi sintezlanib, ularning monokristallarini o‘stirish orqali olingan struktura ma’lumotlari tegishli bazaga joylashtirilgan. Ushbu strukturalarga tegishli ma’lumotlar maqolalarni tahlil qilish orqali o‘rganilib chiqildi va yangi koordinatsion birikmalar sintezi metodi yaratildi. Ruxning ketoprofen bilan kompleks birikmalarini sintez qilish jarayonida, $Zn(NO_3)_2{\cdot}4H_2O$ $ZnCl_2$, $ZnSO_4{\cdot}7H_2O$, $Zn(CH_3OO)_2{\cdot}2H_2O$, $Zn(CH_3OO)_2$ kabi tuzlar ishlatilib, yordamchi ligand sigatida monoetanolamin, dietilamin, karbamid ishlatildi. Ketoprofen(L) dastlab etil spirtida eritilib, uning 0,02 *mol/l*, 100*ml* li eritmasi tayyorlab olindi. Keyin $Zn(NO_3)_2{\cdot}2H_2O$ tuzi suvda eritish orqali uning 0,01 *mol/l*, 100 *ml* li eritmasi tayyorlandi. Eritmalar tayyor bo‘lgach, tubi dumaloq kolba olinib (V= 200 *ml* li) unga dastlab tuz eritmasidan 20 *ml* solinib, uning ustiga ligand eritmasidan 40 *ml* ni asta sekin to‘rt marta har 15 minutdan qo‘shib borildi. Bu kolba shtativga mahkamlanib, uni magnitli mishalka ustiga qo‘yiladi va 60-80 *minut* davomida aralashtirib turiladi. Keyingi bosqichda aralash ligandli koordinatsion birikma olish uchun , dastlabgi olingan aralashma ustiga yordamchi ligandlar (monoetanolamin, dietilamin, karbamid) 1-3 *ml*

tomchilatib qo‘shilib, yana aralashtirish davom qildiriladi. Keyin hosil bo‘lgan aralashma xona haroratida biroz vaqt tindirish uchun tinch holatda qoldiriladi. Keyin olingan kompleks birikmaning monokristalini olish uchun, tayyorlangan aralashma to‘rtta stakanga teng bo‘lib solingan holda, 30ºC haroratda termostatda 7-10 kun saqlanadi [7].

$Zn(NO_3)_2{\cdot}4H_2O+2Ket+2Kar \rightarrow [Zn(Kar)_2(H_2O)_2]\cdot(Ket)_2\cdot(H_2O)_2$

1-sxema. $[Zn(Kar)_2(H_2O)_2]\cdot(Ket)_2\cdot(H_2O)_2$ tarkibli koordinatsion birikmani olish reaksiyasi

Qolgan koordinatsion birikmalar ham xuddi shu usulda sintez qilindi. Olingan birikmalarning element analizi olinib, ularning tegishli brutto formulalari haqida xulosalar qilindi [8].

1-jadval

Dastlabgi ligandlar va olingan koordinatsion birikmalarning element analizi natijalari

№	Ligandlar va olingan kompleks birikmalar	Brutto formula	M		C		N		H	
			Topilgan	Hisoblangan	Topilgan	Hisoblangan	Topilgan	Hisoblangan	Topilgan	Hisoblangan
1	Ketoprofen	$C_{16}H_{14}O_3$	-	-	75,6	75,2	-	-	5,52	5,48
2	Karbamid	CON_2H_4	-	-	20	19,92	46,67	46,62	6,66	6,72
3	Monoetanolamin	C_2H_7NO	-	-	39,34	39,28	22,95	22,91	11,47	11,44
4	Etilendiamin	$C_2H_8N_2$	-	-	40	39,92	46,67	46,63	13,33	13,27
5	Nitrat anioni	NO_3^-	-	-	-	-	22,58	22,54	-	-
6	$[Zn(Kar)_2(H_2O)_2]\cdot(Ket)_2\cdot(H_2O)_2$	$ZnC_{34}N_4H_{42}O_{12}$	8,52	8,48	53,47	53,43	7,34	7,28	5,50	5,46
7	$[Zn(Ket)_2(Kar)_2]\cdot(H_2O)_2$	$ZnC_{34}N_4H_{38}O_{10}$	8,94	8,87	56,12	56,08	7,71	7,68	5,23	5,25
8	$[Zn(Ket)_2(NO_3)_2]\cdot(EDA)_2$	$ZnC_{36}N_6H_{42}O_{12}$	7,97	7,92	53,00	52,88	10,31	10,35	5,15	5,17
9	$[Zn(Ket)_2(Cl)_2]\cdot(MEA)_2$	$ZnC_{36}N_2H_{40}O_8Cl_2$	8,51	8,48	56,54	56,47	3,66	3,62	5,23	5,18

NATIJALAR VA MUHOKAMA. Sintezlangan ruxli kompleks birikmalardan $[Zn(Kar)_2(H_2O)_2]\cdot(Ket)_2\cdot(H_2O)_2$ tarkibli koordinatsion birikmaning monokristali o‘stirildi va rentgen strukturaviy tahlil yordamida analiz qilindi hamda tegishli parametrlari aniqlandi.



3-rasm. $[Zn(Kar)_2(H_2O)_2]\cdot(Ket)_2\cdot(H_2O)_2$ tarkibli kompleks birikma molekulasining tuzilishi

$[Zn(Kar)_2(H_2O)_2]\cdot(Ket)_2\cdot(H_2O)_2$ tarkibli kompleks birikma tetradentat (ikkita karbamid kislorod atomlari orqali) va ikkita suv molekulasi kislorod atomlari orqali Zn(II)atomiga koordinatsiyalangan, shuningdek ushbu koordinatsiyada 2 ta ketoprofen molekulasi ham qatnashgan. Ketoprofen molekulasi tashqi sferada vodorod bog‘lari orqali lokallangan. Ruxning koordinatsion soni 6 ga teng. IQ spektrlar yutilish sohalari “SHIMADZU” firmasining IR Traser–100 (500-4000 sm^{-1}) spektrometrida qayd qilindi [9]. Sintezlangan koordinatsion birikmalarning

4-rasm. a-$[Zn(Kar)_2(H_2O)_2]\cdot(Ket)_2\cdot(H_2O)_2$, b-$[Zn(Ket)_2(Kar)_2]\cdot(H_2O)_2$ tarkibli kompleks birikmalarning IQ-spektroskopiyasi

IQ-spektroskopiyasi olinganda yuqoridagicha cho‘qqilar kuzatilganini ko‘rish mumkin. Rux kislorod orqali birikib, o‘zining turli tarkibli tuzlarini hosil qiladi. Bunda Zn-O bog‘ining IQ- spektroskopiya cho‘qqilari 802-820 sm^{-1} da kuzatilishi adabiyot ma’lumotlardan ma’lum. Sintezlangan koordinatsion birikmalarda bu qiymat 823-830 sm^{-1} sohada kuzatildi. $\nu s(CO)+(OH)$ valent tebranishlari 1300 sm^{-1} sohadan 1290 sm^{-1} sohagacha quyi sohaga siljigan intensiv tebranish chizig‘i qayd etildi. Karbamid molekulasining karbonil guruhida $\nu(C=O)$ 1850-1650 sm^{-1} sohada IQ-cho‘qqilari kuzatilishi ma’lum. Koordinatsion birikmada bu soha tebranishlari o‘zgarib, 1862-1654 sm^{-1} sohada kuzatildi [10].

XULOSA. $[Zn(Kar)_2(H_2O)_2]\cdot(Ket)_2\cdot(H_2O)_2$, $[Zn(Ket)_2(Kar)_2]\cdot(H_2O)_2$, $[Zn(Ket)_2(NO_3)_2]\cdot(EDA)_2$ va $[Zn(Ket)_2(Cl)_2]\cdot(MEA)_2$ tarkibli kompleks birikmalarining sintez qilish metodi yaratildi. Bu metodni qo‘llash orqali keyinchalik o‘xshash koordinatsion birikmalarni sintezlash imkoniyati yaratildi. Bu kompleks birikmalar tarkibidagi markaziy atom ruxning koordinatsion soni 6 ga tengligi, rentgen strukturaviy tahlil metodi yordamida isbotlab berildi. Ruxning bu koordinatsion birikmalarda gibridlanishi sp^3d^2 dir. Ketoprofen molekulasi kompleks birikma hosil qilishda karboksil guruhidagi kislorod atomi bilan, karbamid molekulasi esa karbonil guruhidagi kislorod atomi orqali va nitrat anioni ham kislorod orqali monodentant holda



bog‘langanligini ko‘rish mumkin.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Kudiyarova A.D., Ashurov J.M., Ibragimov A.B., Sabirov V.K., Khodjaniyazov K.U. Crystal structure of the ciprofloxacin ionic complex with the cobalt (II) // Узбекский химический журнал. –2021. –№2. –P.64-69 (02.00.00. №6).

2. https://www.ccdc.cam.ac.uk/structures/

3. www.scholar.ru, www.lib.ua-ru.net/disser/ru.html, www.dissercat.com, https://link.springer.com, https://www.scopus.com.

4. Mirpour, M., Zahmatkesh, H. Ketoprofen attenuates Las/Rhl quorum-sensing (QS) systems of *Pseudomonas aeruginosa*: molecular and docking studies. *Mol Biol Rep* **51**, 133 (2024). https://doi.org/10.1007/s11033-023-09071-3

5. Zhu-Yan Zhang, Nan Yu, Xiao-Xi Guo, Jiao Pu, Jian-Ping Sun, *Acta Crystallographica Section E: Structure Reports Online*, 2007, 63, m2883, DOI: 10.1107/S1600536807052762

6. Zhu-Yan Zhang, Peng-Gang Chen, Zhao-Peng Deng, Nan Yu, Bing-Yi Liu, *Acta Crystallographica Section E: Structure Reports Online*, 2007, 63, m1900, DOI: 10.1107/S1600536807027572

7. A. Kathiresan, K. Srinivasan, S. Brinda, M. Nethaji, S. Govindarajan. Synthesis and characterization of cobalt(II), nickel(II), copper(II) and zinc(II) complexes of 2-nitrobenzoic acid with methyl carbazate as ancillary ligand. Crystal structure of the copper(II) complex // Transition Metal Chemistry, 2012, -V.37, -P.393-397.

8. Fadeeva V. P., Tikhova V. D., and Nikulicheva O. N. Elemental Analysis of Organic Compounds with the Use of Automated CHNS Analyzers// Journal of Analytical Chemistry, 2008, -V.63(11), -P.1094–1106.

9. Nakamoto K. IR and Raman spectra of inorganic and coordination compounds. - Moscow: Mir, 1991.- P. 536.

10. Sharipova L.A., Azizov T.A., Ibragimova M.R. Acetamide and nicotinic acid of monotype ligand coordination compounds of zinc nitrate // Universum: chemistry and biology, - Moskva, 2021. №5 (83).- P. 45-49.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 1-son)

TABIIY FANLAR

NATURAL SCIENCES

UO‘K: 582.736.2

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI GERBARIY FONDIDAGI (KD) FABACEAE OILASI TAHLILI

Sobitjonova Fayziniso
Qo‘qon davlat pedagogika instituti, talaba
Abdupattoyeva Mubinabonu
Qo‘qon davlat pedagogika instituti, talaba
ORCID ID 0009-0006-6094-2325
Usmonov Saminjon
Qo‘qon davlat pedagogika instituti, PhD, dotsent
ORCID ID 0009-0006-1385-0954
Obidjon Turdiboyev
Qo‘qon davlat pedagogika institute, PhD, katta o‘qituvchi
E-mail: turdiboyev.obidjon@mail.ru; ORCID ID 0000-0002-5627-9886

Annotatsiya. Ushbu maqolada Qo‘qon davlat pedagogika instituti biologiya kafedrasi gerbariy kolleksiyasida saqlanayotgan Fabaceae oilasining dastlabki tahlili natijalari keltirilgan. Tadqiqotlar natijasida gerbariy fondida Fabaceae oilasiga mansub 13 turkumga mansub 87 dona gerbariy namunalari saqlanganligi aniqlandi.

Kalit so‘zlar: *Astragalus,* Farg‘ona vodiysi, *Glycyrrhiza*, KD gerbariysi, *Trifolium*.

Аннотация. В данной статье представлены результаты предварительного анализа семейства Fabaceae, хранящегося в гербарном фонде кафедры биологии Кокандского государственного педагогического института. В результате исследований установлено, что в гербарном фонде хранится 87 гербарных образцов 13 родов, относящихся к семейству Fabaceae.

Ключевые слова: *Astragalus,* Ферганская долина, *Glycyrrhiza*, гербарий KD, виды.

Annotation. This article presents the results of a preliminary analysis of the Fabaceae family, which was stored in the herbarium collection of the Department of Biology of the Kokand State Pedagogical Institute. As a result of the research, it was determined that 87 herbarium specimens of 13 genera belonging to the Fabaceae family were stored in the herbarium fund.

Key words: *Astragalus,* Ferghana valley, *Glycyrrhiza*, KD herbarium, species.

KIRISH

So’nggi yillarda dunyoning turli yirik gerbariy fondlarida saqlanayotgan ayrim oilalalar, turkumlar va turlar ustida maqsadli tadqiqot ishlari olib borilmoqda hamda gerbariy fondlarining inventarizatsiyalari amalga oshirilmoqda [1,3].

O’rta Osiyodagi eng yirik gerbariy fondi O’zbekiston Milliy gerbariysi (TASH) hamda Samarqand davlat universiteti (SAMDU) gerbariy fondlarida saqlanayotgan ayrim oilalar, turkumlar, turlarning inventarizatsiyalari natijasida ushbu gerbariy fondlarida saqlanayotgan namunalar ustida tadqiqotlar olib borilmoqda va natijalar chop etilmoqda [2, 8, 9]. Xususan, F.M. Madaminov va boshqalar (2021) tomonidan TASH fondida *Parrya* Br. turkumining 31 turga kiruvchi 635 ta namunasi saqlanayotganligi aniqlangan va tahlil etilgan [2].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Qo‘qon davlat pedagogika institutida 2024-yilda O’zbekiston va global bioxilma-xillikni o’rganishga hissa qo’shadigan O’zbekistondagi eng kichik gerbariy fondi Biologiya kafedrasida (KD) tashkil etilgan [5]. Ushbu fondda saqlanayotgan dastlabki inventarizatsiya Sh.Sh. Tursunova va boshqalar (2024) tomonidan olib borilgan. Natijada, Lamiaceae Martinov oilasining 8 turkumga mansub 35 ta namunasi saqlanayotganligi aniqlangan [5]. Shuningdek, KD fondida saqlanayotgan gerbariylardan ayrim hududlarga oid floristik tadqiqotlarda, kamyob va endem o’simlik turlarini tadqiq etishda foydalanilmoqda [4] Dala tadqiqotlari 2024-yil aprel-sentabr oylarida olib borildi (2-rasm). Fabaceae Lindl. oilasiga mansub o’simliklarni aniqlashda O‘rta Osiyo o’simliklar aniqlagichi (6 tom) va O’zbekiston florasi (3 tom) asarlaridan foydalanildi [4, 7].

NATIJALAR

Olib borilgan kameral tadqiqotlar natijada Qo‘qon davlat pedagogika instituti Biologiya kafedrasi gerbariy fondida (KD) saqlanayotgan Fabaceae Lindl. oilasiga mansub gerbariy namunalarining tahlili amalga oshirilgan. Natijada, 13 turkumga mansub 87 gerbariy namunalari saqlanayotganligi aniqlandi (1-rasm).



1-rasm. KD gerbariy fondida saqlanayotgan Fabaceae oilasi tahlili

Fabaceae oilasiga mansub barcha gerbariy namunalari 2024-yil mart-sentabr oylarida Farg’ona vodiysining Chust, Mingbuloq, Zilxa, Yozyovon, Bostonbuva, Akbarabod tabiat yodgorliklari (2-rasm), Dang‘ara tumaning Oqjar qishlog‘i, Oloy tizmasining Sariqo‘rg‘on, Sho‘rsuv qishloqlari, atroflaridan terilgan (3 rasm).

2-rasm. Dala tadqiqotlari: Akbarabod tabiat yodgorligi, 5-may 2024-yil

Eng ko’p gerbariy namunalariga ko’ra, *Astragalus* L. (25 ta), *Trifolium* L. (25 ta), *Glycyrrhiza* L. (8 ta) turkumlari yetakchilik qiladi. Fonddagi eng kam gerbariy namunalari *Trigonella* L., *Alhagi* Tourn. ex Gagnebin, *Cicer* L., *Lotus* L. turkumlariga tegishli, 2 tadan namunaga ega. *Vicia* L. turkuming esa 1 ta namuna bor. Dala tadqiqotlari natijasida *Astragalus* L. turkumining Farg‘ona vodiysida kam tarqalgan endem turlaridan *Astragalus rubellus* Gontsch. turining gerbariy namunalari terildi. Kelgusida bu turning bioekologiyasini tadqiqotchilar bilan birgalikda o‘rganish rejalashtirilgan (3-rasm).



3-rasm. Dala tadqiqotlari nuqtalari (2023-2024 yillar): Maps.me programma (chapda), *Astragalus rubellus* Gontsch. (5-iyul 2024-yil, o’ngda)

MUHOKAMA

Qo‘qon davlat pedagogika instituti Biologiya kafedrasi (KD) gerbariy fondining tashkil etilishi O‘zbekiston florasini o‘rganishda muhim qadamlardan biri hisoblanadi. Yangi tashkil etilgan gerbariy fondi Farg‘ona vodiysi florastik tarkibni shakllantirishda, kamyob va endem o’simlik turlarini tadqiq etishda muhim sanaladi.

XULOSA

KD gerbariy fondida saqlanayotgan gerbariy namunalarini tahlil qilish natijasida Fabaceae oilasiga mansub kam terilgan hamda umuman terilmagan turkumlar va turlar gerbariy namunalari bilan boyitish zarur. Gerbariy fondida saqlanayotgan

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Kalema J.The use of herbarium plant databases in identifying areas of biodiversity concentration: the case of family Acanthaceae in Uganda // African Journal of Ecology, 2008, №46. Pp. 125-126.

2. Madaminov F.M., Akbarov F.I., Turginov O.T., Tojibaev K.Sh. Analysis of species of the genus *Parrya* R. Br. which are being kept in the unique scientific object National herbarium of Uzbekistan (TASH) // Scientific bulletin, 2021, №4(3), 10. Pp. 5-12.

3. Seregin A. P. Moscow Digital Herbarium: a consortium since // Taxon, 2020, №69(2). Pp. 417-419.

4. Turdiboev O.A., Ruzimatov R. Taxonomic analysis of the flora of the Akbarabad natural monument // Spiraeanthus. 2024. Vol. 1. Pp. 109-111.

5. Tursunova Sh., Raximjonova Z., Sodiqov S., Ismolilova R., Turdiboyev O. Qo‘qon davlat pedagogika instituti gerbariy fondidagi (KD) Lamiaceae oilasi tahlili // Tabiiy fanlarning dolzarb masalalari va yechimlari Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. Qo‘qon, 2024, – B. 6-8.

6. Введенский А.И. (Ред.) Флора Узбекистана. 1955. Том III. Ташкент, Издательство «Фан» АН РУз, – С. 386-787.

7. Камелин Р.В., Ковалевская С.С., Набиев М.М. Сем. Fabaceae. Определитель растений Средней Азии. 1981. Т. 6. Ташкент, 381 с.

8. Махкамов Т.Х., Ибодуллаева Ю.О. Ревизия коллекции рода *Corydalis* в Национальном гербарии Узбекистана (TASH) // Систематические заметки по материалам гербария им. ПН Крылова Томского государственного университета. 2021, №123. – С. 43-52.

9. Хайдаров Х.К. SamDU gerbariysida saqlanayotgan Dicotyledones ajdodiga mansub taksonlarning tahlili // Fundamental fan va amaliyot integratsiyasi. Muammolar va istiqbollar. Respublika ilmiy amaliy konf. materiallari. Toshkent, 2018, 37-39.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 1-son)

TABIIY FANLAR

NATURAL SCIENCES

UDK:57.032:636.018
ORCID.ORG/0009-0004-7354-513X

TURLI YOSHDAGI QUYONLAR URUG‘DONINING MAKROMORFOMETRIK KO‘RSATKICHLARI

Ibragimov Baxodir Baxtiyorovich
Sam.DVMCHBU mustaqil izlanuvchi
E-mail:ibragimov.bakhodir@mail.ru

Annotatsiya. Mazkur maqolada go‘sht yo‘nalishiga ixtisoslashgan oq yangi zelandiya zotli erkak quyonlar urug‘donining makromorfometrik ko‘rsatkichlari o‘rganilgan. Urug‘donning metrik ko‘rsatkichlari turli yosh guruhlari bo‘yicha o‘zaro taqqoslangan. Shuningdek urug‘donning makromorfometrik ko‘rsatkichlari va sperma tarkibidagi spermatozoidlar konsentratsiya o‘rtasidagi korrelyatsion bog‘lanish aniqlangan.

Tayanch so‘zlar: oq yangi zelandiya, urug‘don, sperma, spermatozoid, konsentratsiya, korrelyatsiya.

МАКРОМОРФОМЕТРИЧЕСКИЕ ПОКАЗАТЕЛИ СЕМЕННИКА КРОЛИКОВ РАЗНОГО ВОЗРАСТА

Аннотация. В данной статье изучены макроморфометрические показатели семенников белых новозеландских кроликов, специализирующихся на мясном направлении. Сравнивалась метрические показатели семенников в разных возрастных группах. Также установлена корреляция между макроморфометрическими параметрами семенников и концентрацией сперматозоидов в сперме.

Ключевые слова: новозеландский белый кролик, семенник, сперма, сперматозоид, концентрация, корреляция.

MACROMORPHOMETRIC INDICATORS OF THE TESTIS OF RABBITS OF DIFFERENT AGES

Abstract. This article studies the macromorphometric parameters of the testes of New Zealand white rabbits specializing in meat production. The metric parameters of the testes were compared in different age groups. A correlation was also established between the macromorphometric parameters of the testes and the concentration of spermatozoa in the sperm.

Keywords: New Zealand White rabbit, testis, semen, spermatozoon, concentration, correlation.

KIRISH. Jinsiy ko‘payish biologik jihatdan g‘oyat katta ahamiyatga ega. Uning jinssiz ko‘payishdan afzallik tomoni shundan iboratki, ota va ona irsiy belgilarining birlashishiga imkon beradi. Shu munosabat bilan avlod ota-onaga nisbatan yashovchan muhitga moslashuvchan bo‘ladi. Jinsiy ko‘payish jinsiy hujayralar orqali amalga ashadi. Erkak hayvonlarning jinsiy hujayralari – *spermatazoidlar* bo‘lib, harakatchanligi bilan xarakterlanadi. Sutemizuvchilarning spermatozoidi tanasi uzun ip shaklida tuzilgan bo‘ladi. Quyon bir tipik sutemizuvchi hayvon sifatida o‘zining ko‘payish xususiyatlari bilan boshqa qishloq xo‘jaligi hayvonlaridan ajralib turadi. Bu tafovutlar quyonlardan ko‘p avlod olish, ko‘payish, tez yetiluvchanlik xususiyatlarida kuzatiladi. Quyonlar uchun birinchi tavsifli xususiyat erta jinsiy voyaga yetish, yuqori serpushtlik kabi biologik xususiyatlar shular jumlasidandir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR. Quyonlarning jinsiy a’zolari bo‘g‘ozlikning 16 kunligida ona qornida rivojlana boshlaydi, ammo tug‘ilgandan keyin urug‘don tananing boshqa qismlariga qaraganda sekinroq rivojlanadi. Besh haftalikdan boshlab ularning o‘sishi ancha jadallashadi. Erkak quyonlarda spermatogenez 40-50-kunlik yoshida boshlanadi. Yosh erkak quyonlarda urug‘donlari juft bo‘lib, tana bo‘shlig‘ida joylashgan. Ular jinsiy yetilgandan so‘ng urug‘don xaltasiga tushadi. Erkak quyonlar o‘n ikki haftalik yoshidan urug‘ yo‘li kanallarida spermatozoidlar uchray boshlaydi. Jinsiy voyaga yetgan erkak quyonlarda jinsiy hujayralarning shakllanishi uzluksiz bo‘lib, 4,5-5 yoshdan keyin hosil bo‘lishi ancha kamayadi. Erkak quyon juftlashganda 0,5-1,5 sm^3 yaxshi parvarish qilinganlari esa 2-3 sm^3 eyakulyat ajratadi [4].

Quyonlar urug‘doni boshqa sutemizuvchi hayvonlar singari reproduktiv tizimining bir qismi bo‘lib, bir nechta muhim funktsiyalarni bajaradi. Urug‘donning asosiy vazifasi spermiylar ishlab chiqarishdir. Urug‘don parenximasining asosini egri kanalchalar tashkil etib, spermatogen epiteliy bilan qoplangan. Ularda erkaklik jinsiy gametalarining hosil bo‘lish jarayoni amalga oshadi. Epiteliyda spermatogoniya deb ataladigan maxsus hujayralar mavjud bo‘lib, ular spermatogenez jarayonida yetuk spermatozoidga aylanadi. Testosteron qon tomirlari atrofida joylashgan interstitsial glandulotsitlar tomonidan ishlab chiqariladi [3].

Urug‘donlar asosiy erkaklik jinsiy organi hisoblanib, asosan 2 vazifani bajaradi. Bulardan birinchisi urug‘donlarda spermiylarning rivojlanishi bo‘lsa, ikkinchisi urug‘donlarning gormonal funksiyasi hisoblanadi. Urug‘donlarda ishlab chiqariladigan testostron gormoni jinsiy reflekslarni chaqiradi, ikkilamchi jinsiy belgilarni rivojlantiradi va moddalar almashinuvini stimullaydi [1].

Quyonlarda urug‘donning bo‘ylama o‘qi uzunligi boshqa mo‘ynali hayvonlar (norka va kumushsimon-qora tulki) urug‘donidan mos keladigan o‘lchamlardan statistik jihatdan sezilarli darajada yuqori bo‘ladi. Shuningdek, quyonlarda urug‘don ko‘ndalang kesimining o‘qi uzunligi ham yirtqich mo‘ynali hayvonlardan kengroq tuzilishga ega [7].

Yuqorida ta’kidlab o‘tilganidek urug‘donlar asosiy erkaklik jinsiy organi hisoblanib, ularda jinsiy hujayralar – spermatozoidlar shakllanadi. Turli yosh davrlarida urug‘donlarning makromorfometrik ko‘rsatkichlari qanday o‘zgarishi va uning olingan sperma tarkibidagi spermatozoidlar konsentrantsiyasi bilan korrelyatsion bog‘lanishni bilish muhim biologik ahamiyat kasb etadi.

Chunki naslli hayvonlardan avlod olishda asosiy hal qiluvchi ko‘rsatkich spermaning sifati hisoblanadi. Agar naslli hayvon qanchalar yuqori mahsuldorlik va geneologik kelib chiqishiga qaramay unga aspermiya yoki nuqsonli sperma tashxisi qo‘yilsa bu hayvon kelgusida hech qanday ahamiyatga ega bo‘lmay qoladi [8].

Xorij ilmiy manbalarida quyonlar spermasi tarkibida spermatozoidlarning konsentratsiyasi 1 ml tarkibida 150-500x10^6 ni tashkil etib, uning miqdori va sifati irsiyatga bog‘liq holda varriatsiyalanishi qayd etilgan [2,5].

Tadqiqotlar Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti qoshidagi vivariyda parvarishlanayotgan go‘sht yo‘nalishidagi erkak oq yangi zelandiya quyonlari ustida o‘tkazildi. Bunda uchta guruh shakllantirilib birinchi (I) guruhga bir yoshgacha (n-5); ikkinchi(II) guruhga 2 yoshdan 3 yoshgacha (n-5); uchinchi (III) guruhga 3 yoshdan katta (n-5) bo‘lgan quyonlar kiritildi. Sperma urg‘ochi quyonni erkak quyon katagiga olib kelinib, irg‘igan paytda sun’iy qin yordamida olindi. Har bir eyakulyat namunalari leykositli (oq aralashtirgichli) melanjer yordamida natriy xloridning 3% li eritmasi yordamida 1:20 hajmiy nisbatda suyultirildi. Suyultirilgan urug‘dan olingan tomchi namunasi 10x40 kattalikda Goryayev sanoq kamerasida diaganal bo‘ylab beshta katta kataklarda (har biri 16 ta kichik katakchalarga bo‘lingan, jami 80 ta) sanaldi [6]. Tadqiqotlar so‘ngida tajribadagi erkak quyonlar evtanaziya qilinib, urug‘donlarning makromorfometrik ko‘rsatkichlari aniqlandi. Bunda urug‘donning uzunligi, o‘rta qismining eni, o‘rta qismining balandligi shtangen sirkul yordamida ±1 mm aniqlikda, og‘irligi *(urug‘don ortig‘i bilan birga)* elektron tarozi yordamida ±0,01 g aniqlikda o‘lchandi. Olingan raqamli ma’lumotlarga matematik-statistik uslubida qayta ishlov berilib: o‘rtacha arifmetik qiymat – $\bar{X}$, o‘rtacha arifmetik qiymatning xatosi – S_x, variantlar chegarasi – *lim*, o‘zgaruvchanlik koeffitsienti – C_v%, guruhlar o‘rtasida farqlanishning ishonchlilik mezoni – *P,* korrelyatsiya koeffitsienti – *r* Microsoft Office Excel 2007 kompyuter dasturi yordamida tegishli formulalar orqali hisoblab chiqildi [9].

NATIJALAR VA MUHOKAMA. Tadqiqotlar davomida erkak quyonlar urug‘donining makromorfometrik ko‘rsatkichlari bo‘yicha aniqlangan ma’lumotlar 1-jadvalda keltirilgan. Mazkur jadval ma’lumotlarida I-guruhga kiruvchi oq yangi zelandiya quyon zotida o‘ng urug‘donining bo‘ylamasiga uzunligi 30,6 mm, chap urug‘donining bo‘ylamasiga uzunligi esa 30,0 mm ni tashkil etdi. Mazkur ko‘rsatkich II-guruh quyonlarida mos holda 32,2 va 31,6 mm ni tashkil etgan bo‘lsa, III-guruh quyonlari bo‘lsa 30,2 va 30,2 mm ga to‘g‘ri keldi.

1-jadval

Turli yoshdagi quyonlar urug‘donining makromorfometrik ko‘rsatkichlari, $\bar{X}\pm S_x$

Guruh	Urug‘don	Uzunligi, mm	Eni, mm	Balandligi, mm	Og‘irligi, g
I	O‘ng	30,6±0,93	10,2±0,49	9,4±0,40	3,47±0,20
	Chap	30,0±0,84	10,0±0,55	9,2±0,49	3,29±0,17
II	O‘ng	32,2±1,02	11,6±0,51	10,8±0,58	4,26±0,22*
	Chap	31,6±1,03	11,2±0,58	10,4±0,40	4,08±0,22*
III	O‘ng	30,2±1,07	10,8±0,37	9,8±0,37	3,72±0,24
	Chap	30,2±1,28	10,6±0,40	9,8±0,49	3,58±0,22

Izoh: *-P<0,05

Guruhlar bo‘yicha o‘ng urug‘don uzunligining eng yuqori ko‘rsatkichi II-guruh quyonlarida kuzatilib, I va III-guruh quyonlari urug‘donidan mos holda 1,6 va 2,0 mm (P>0,05) ga uzunroq ekanligi aniqlandi. Xuddi shuningdek chap urug‘don uzunligining eng yuqori ko‘rsatkichi ham II-guruh quyonlarida qayd etilib, I va III guruh quyonlari urug‘doniga nisbatan mos ravishda 1,6 va 1,4 mm (P>0,05) ga ustunlik qildi. Shuni qayd etib o‘tish kerakki I va II yosh guruhlarida o‘ng urug‘don chap urug‘donga nisbatan uzunroq bo‘lib, mos holda 0,6 mm yoki 2,0%; 0,6 mm yoki 1,90% (P>0,05) ga tafovut qildi.

Urug‘donning eni bo‘yicha olingan ko‘rsatkichlar I-guruhga kiruvchi quyonlarda o‘rtacha arifmetik ko‘rsatkichi o‘ng urug‘donda 10,2 mm ni, chap urug‘donda o‘rtacha 10,0 mm ni tashkil etdi. Bu metrik o‘lcham ko‘rsatkichi II-guruh quyonlarining o‘ng va chap urug‘donlarida o‘rtacha arifmetik qiymati mos ketma-ketlikda 11,6 va 11,2 mm ga to‘g‘ri keldi. Tajribadagi III-guruh quyonlari urug‘donning eni o‘ng urug‘donda 10,8 mm ni, chap urug‘donda esa 10,6 mm ni tashkil etdi. Mazkur metrik ko‘rsatkich bo‘yicha ham II guruh quyonlari urug‘doni I va III-guruhga nisbatan ustunlik qilishdi. Jumladan o‘ng urg‘don eni bo‘yicha mos holda 1,4 va 0,4 mm (P>0,05) ga, chap urg‘don eni bo‘yicha esa mos holda 1,2 va 0,6 mm (P>0,05) ga kengroq tuzilishga ega ekanligini ko‘rsatdi. Bu metrik ko‘rsatkich bo‘yicha yuqori o‘lcham barcha guruhlarda o‘ng urug‘donda qayd etilib, chap urug‘donga nisbatan I; II va III-guruhlarda mos holda 0,2; 0,4 va 0,2 mm (P>0,05) ga kengroq ekanligini ko‘rsatdi.

Urug‘donning balandligi eniga nisbatan biroz past bo‘lishi, uning nisbatan yassi shaklda bo‘lishini belgilaydi. Urug‘donning balandligi I guruhga kiruvchi quyonlarda o‘rtacha arifmetik qiymati 9,4 mm, chap urug‘donda 9,2 mm ni tashkil etdi. Mazkur ko‘rsatkich II-guruh quyonlarida mos holda 10,8 va 10,4 mm ga to‘g‘ri keldi. Tajribadagi III-guruh quyonlarining o‘ng va chap urug‘donlari esa 9,8 mm ni tashkil etdi. Tajribadagi quyonlarda urug‘donning balandligi nisbatan yana II guruh quyonlarida qayd etildi. Bu – II guruh quyonlar urug‘doni balandligi I va III guruhdan o‘ng urg‘don bo‘yicha mos holda 1,4 va 1,0 mm (P>0,05) ga, chap urg‘doni bo‘yicha esa 1,2 va 0,6 mm (P>0,05) ga baland bo‘lishini ko‘rsatdi.

1-ram. Turli yoshdagi quyon urug‘doni namunalari (o‘ngdan chapga, I, II, III-guruh)

Urug‘donning og‘irligi bo‘yicha olingan ko‘rsatkichlar I-guruhga kiruvchi quyonlarda o‘rtacha arifmetik ko‘rsatkichi o‘ng urug‘donda 3,47 g ni, chap urug‘donda o‘rtacha 3,29 g ni tashkil etdi. Bu metrik o‘lcham ko‘rsatkichi II guruh quyonlarining o‘ng va chap urug‘donlarida o‘rtacha arifmetik qiymati mos holda 4,26 va 4,08 g ga to‘g‘ri keldi. Tajribadagi III-guruh quyonlari urug‘donning og‘irligi o‘ng urug‘donda 3,72 g ni, chap urug‘donda esa 3,58 g ni tashkil etdi. Mazkur metrik ko‘rsatkich bo‘yicha ham II-guruh quyonlari urug‘doni I va III-guruhga nisbatan ishonchlilik mezoni darajasida og‘irroq ekanligini aniqlandi. Xususan, o‘ng urug‘don og‘irligi bo‘yicha mos holda 0,79 ($P<0,05$) va 0,54 ($P>0,05$) g ga, chap urug‘don og‘irligi bo‘yicha esa mos holda 0,79 ($P<0,05$) va 0,50 ($P>0,05$) g ga ustunlik qildi.

Tadqiqotlarda turli yoshdagi oq yangi zelandiya zotli erkak quyonlardan olingan sperma tarkibida spermatozoidlarning konsentratsiyasini aniqlash bo‘yicha olingan raqamli ko‘rsatkichlar 2-jadvalda aks ettirilgan. Mazkur jadval ma’lumotlari shuni ko‘rsatadiki sperma tarkibida spermatozoidlarning konsentratsiyasi turli yosh davrlari bo‘yicha bir-biridan tafovut qiladi. Xususan, oq yangi zelandiya zotli I-guruhdagi erkak quyonlardan olingan sperma tarkibidagi spermatozoidlarning konsentratsiyasi o‘rtacha 288,2 mln/ml ga to‘g‘ri kelishi aniqlandi.

2-jadval

Quyon spermasi tarkibida spermatozoidlar konsentratsiya, mln/ml

Guruh	lim	$\bar{X}\pm S_x$	C_v%
I	249-335	288,2±14,71***	11,41
II	404-481	445,8±13,55***	6,80
III	130-170	149,8±7,13	10,64

Izoh: *-P<0,001

Tajribadagi II guruh quyonlaridan olingan sperma tarkibida eng yuqori spermatozoidlarning konsentratsiyasi aniqlandi. Mazkur guruh quyonlari spermasi tarkibida spermatozoidlarning o‘rtacha konsentratsiyasi 445,8 mln/ml ni tashkil etib, I-guruhga nisbatan

taqqoslanganda spermatozoidlarning konsentratsiyasi 157,6 mln/ml yoki 54,68% (P<0,001) ga yuqori ekanligini ko‘rsatdi.

Sperma tarkibidagi spermatozoidlarning eng kam konsentratsiya ko‘rsatkichi III-guruhdagi erkak quyonlarida aniqlandi. Xususan, uchinchi guruhdagi quyonlar spermasi tarkibidagi spermatozoidlarning o‘rtacha konsentratsiyasi 149,8 mln/ml ni tashkil etdi. Mazkur guruh quyonlari o‘ziga nisbatan yosh bo‘lgan I va II-guruhlar ko‘rsatkichi bilan o‘zaro taqqoslanganda orada ishonchli farqlanish bilan spermatozoidlarning konsentratsiyasi kam ekanligi kuzatildi. Jumladan, I-guruhga nisbatan 138,4 mln/ml (P<0,001) yoki deyarli ikki marta, ikkinchi guruhga nisbatan esa 296,0 mln/ml (P<0,001) yoki deyarli uch martaga konsentratsiyasi kam ekanligi aniqlandi. Buni mikroskop ostida olingan quyidagi 2-rasmda ham vizual holda ko‘rish mumkin.



2-rasm. Turli yoshdagi oq yangi zelandiya quyon zoti spermasi tarkibida spermatozoidlar konsentratsiya 10x40 marta (chapdan o‘ngga I, II, III guruh)

Ma’lumki ikki belgi orasidagi bog‘liqlikni ifodalashda korrelyatsiya koeffitsienti hisoblab chiqiladi. Tadqiqotlarda tajribadagi quyonlar urug‘donining makromorfometrik ko‘rsatkichlari bilan sperma tarkibidagi spermatozoidlarning konsentratsiyasi o‘rtasidagi bog‘liqlikka doir hisoblab chiqilgan korrelyatsiya koeffitsienti bo‘yicha raqamli ma’lumotlar 3-jadvalda keltirilgan. Mazkur jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki urug‘donining makromorfometrik ko‘rsatkichlari bilan sperma tarkibidagi spermatozoidlarning konsentratsiyasi o‘rtasidagi ijobiy korrelyatsion bog‘lanish mavjud.

Xususan, urug‘don uzunligi va sperma tarkibidagi spermatozoidlarning konsentratsiyasi o‘rtasida I; II va III guruhlarda mos holda r=0,638, r=0,773 va r=0,400 qiymatdagi; urug‘don eni va sperma tarkibidagi spermatozoidlarning konsentratsiyasi o‘rtasida mos holda r=0,315, r=0,520 va r=0,264 qiymatdagi; urug‘don balandligi va sperma tarkibidagi spermatozoidlarning konsentratsiyasi o‘rtasida mos holda r=0,285, r=0,439 va r=0,198 qiymatdagi; urug‘don og‘irligi va sperma tarkibidagi spermatozoidlarning konsentratsiyasi o‘rtasida esa mos holda r=0,291, r=0,739 va r=0,122 qiymatdagi korrelyatsion bog‘lanish aniqlandi.

3-jadval

Turli yoshdagi quyonlar urug‘donining makromorfometrik ko‘rsatkichlari va urug‘ konsentratsiyasi orasidagi korrelyatsiya, r

Guruh	Uzunligi	Eni	Balandligi	Og‘irligi

I	+0,638	+0,315	+0,285	+0,291
II	+0,773	+0,520	+0,439	+0,739
III	+0,400	+0,264	+0,198	+0,122
Umumiy	+0,421	+0,286	+0,321	+0,421

Barcha yosh davrlaridagi quyonlarning umumiylashtirilgan tegishli makromorfometrik ko‘rsatkichlari va sperma tarkibidagi spermatozoidlarning konsentratsiyasi o‘rtasidagi korrelyatsion bog‘lanish ham hisoblab chiqilganda, barcha belgilar bo‘yicha ijobiy ko‘rsatkich qayd etildi. Jumladan, urug‘don uzunligi bo‘yicha r=0,421, urug‘don eni bo‘yicha r=0,286, urug‘don balandligi bo‘yicha r=0,321, urug‘don og‘irligi r=0,421 qiymatdagi korrelyatsion bog‘lanish koeffitsienti aniqlandi.

XULOSA. Tadqiqotlar davomida turli yoshdagi quyonlar urug‘donining makromorfometrik ko‘rsatkichlari bo‘yicha olingan raqamlar shundan dalolat beradiki, II guruhga mansub (2-3 yoshar) quyonlar urug‘donining uzunligi, eni, balandligi I va III guruhga nisbatan yuqori bo‘lsada ishonchli farqlanish aniqlanmadi. Biroq urug‘don og‘irligi bo‘yicha II guruh quyonlarida ishonchli farqlanish ($P<0,05$) kuzatildi. Urug‘donning makromorfometrik ko‘rsatkichlari va sperma tarkibida spermatozoidlarning konsentratsiyasi o‘rtasida ijobiy korrelyatsion bog‘lanish mavjud bo‘lib, urug‘don uzunligi va og‘irligi kabi belgilarda yuqori qiymat ko‘rsatkichini qayd etdi. Sperma tarkibida spermatozoidlarning konsentratsiyasi ham yosh davrlari bo‘yicha o‘zgaradi. Eng yuqori ko‘rsatkich 2-3 yoshdagi (II guruh) quyonlardan olingan eyakulyatda aniqlanganligi, mazkur yoshda sperma tarkibida spermatozoidlarning konsentratsiyasi va faolligi yuqori bo‘lishini ko‘rsatdi. Bu esa pirovard natijada suyultirish darajasini oshirish imkonini beradi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Ata-Kurbanov Sh.B., Eshburiyev B.M. Veterinariya akusherligi fanidan amaliy-laboratoriya mashg‘ulotlar. Samarqand – 2009. – 219 b.

2. Bencheikh N. Production de sperme et fertilité du mâle Oryctolagus cuniculus . Effets de la fréquence de récolte et du type génétique. Thèse Doctorat Institut National Polytechnique de Toulouse, 142 p.

3. Bilińska B. et al. Hormonal status of male reproductive system: androgens and estrogens in the testis and epididymis. In vivo and in vitro approaches // Reprodu ctive Biology. 2006. Vol. 6, No. supplement 1. – P. 43-58.

4. Ibragimov B.B., Djambilov B.X. Quyonlarni sun’iy urug‘antirish bo‘yicha “Tavsiyanoma”. Samarqand, 2023. - 20 b.

5. Lebas F., Lamboley B., Fortun Lamothe L. Effects of dietaryenergyleveland origin (starch vs oil) on gross and fattyacid composition of rabbitmilk. Proc. 6th World Rabbit Congress, Toulouse, France, 9-12/07/1996, vol. 1, 223-226.

6. Баймишев Х.Б., и др. Практикум по акушерству и гинекологии : учеб. пособие. 2-е изд. перераб. и доп. - Самара: РИЦСГСХА, 2012. – 300 с.

7. Демьянцев В.А. Морфофункциональные особенности семенников и семявыносящих путей у кроликов и хищных пушных зверей. Дис. к.в.н. Омск – 2024. – 130 с.

8. Кулькова О.Е. Пути повышения воспроизводительной способности кроликов при искусственном осеменении. Автореф. к.с-х.н., Москва 2021 г. 22 с.

9. Яковлев В.Б., Щеглов Е.В. Биометрические расчеты в табличном процессоре Microsoft Excel. Учебное пособие. Москва 2004. – 204 с.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 1-son)

TABIIY FANLAR

NATURAL SCIENCES

UDC: 546.742;548.737;661.725.844.3;546.05;546.06
ORCID ID 0009-0005-6154-8445

SALITSILAMIDNING Ni(II)NITRAT TUZI BILAN KOMPLEKS BIRIKMASI SINTEZI VA KRISTALL TUZILISHI

Yadgarova Matluba Matmuratovna
Xorazm Ma’mun akademyasi tayanch doktoranti
matlubaxamza@gmail.ru. (+99893)285-62-15
Hasanov Shodlik Bekpo‘latovich,
Xorazm Ma’mun akademyasi ilmiy ishlar bo‘yicha rais o‘rinbosari., k.f.n.
shadlik@mail.ru, (+99894)230-65-75
Xudoyberganov Oybek Ikromovich
Xorazm Ma’mun akademyasi katta ilmiy hodimi., Phd
oybek_hudoyberganov@mail.ru, (+99899)965-80-85
Abdullayeva Zubayda Shavkatovna
Urganch Ranch texnologiya universiteti,
Mashinasozlik va axborot texnologiyalari kafedrasi dotsenti., PhD
zubayda.abdullayeva.91@mail.ru, (+99893)280-25-05

Annotatsiya. Ushbu maqolada $[Ni(Sal)_2(NO_3)_2(H_2O)_2]$ (Sal-salitsilamid) tarkibli kompleks birikmaning sintezi va uning kristall tuzilishi muhokama qilingan. Sintez qilingan kompleks birikma tarkibi element analizi va tuzilishi rentgen strukturaviy analiz usuli yordamida o‘rganildi. Nikel tanlangan ligand salitsilamid bilan karbonil guruhidagi kislorod atomi orqali koordinatsiyaga uchrashi, shuningdek koordinatsiyalanishda gidroksil guruhi qatnashmayotganligi rentgen tuzilish tahlili (RTT) usuli yordamida ko‘rsatib berildi. Sintezlangan koordinatsion birikma monokristali o‘stirilib, unga tegishli parametrlar ya’ni bog‘ uzunligi, burchaklar kattaligi va kompleks birikma molekulasidagi atomlar orasida kuzatilayotgan vodorod bog‘lar aniqlandi hamda struktura tahlil qilindi. Sintezlangan kompleks birikmada nikelning koordinatsion soni 6 ga teng bo‘lib, uning gibridlanishi sp^3d^2 ekanligi aniqlandi. Gidroksibenzamid izomerlari ichidan (2-gidroksibenzamid(L_1), 3-gidroksibenzamid(L_2), 4-gidroksibenzamid(L_3)) ichidan ayrim fizik-kimyoviy xossalarini o‘rganish orqali salitsilamidni tanlab, uni bir nechta oraliq metallar bilan kompleks birikmalari sintezi amalga oshirildi. Natijada, salitsilamidning 3d metallari bilan koordinatsion birikmalarini sintez qilishning yangi usuli yaratildi va keyingi tajribalarda qo‘llash bo‘yicha tavsiyalar berildi.

Kalit so‘zlar: Nikel(II)nitrat, salitsilamid, ligand, kompleks birikma, sintez, analiz, rentgen tuzilish tahlili (RTT), element analizi, koordinatsion bog‘, eruvchanlik, suyuqlanish harorati, reaksiya unumi.

СИНТЕЗ И КРИСТАЛЛИЧЕСКАЯ СТРУКТУРА КОМПЛЕКСНОГО СОЕДИНЕНИЯ САЛИЦИЛАМИДА С СОЛЬЮ НИТРАТ Ni(II)

Аннотация. В данной статье рассматривается синтез и кристаллическая структура комплексного соединения $[Ni(Sal)_2(NO_3)_2(H_2O)_2]$ (Sal-салициламид). Синтезированное комплексное соединение исследовано методами элементного анализа и рентгеноструктурного анализа. Методом рентгеноструктурного анализа (РСА) было показано, что никель координируется с выбранным лигандом салициламидом через атом кислорода карбонильной группы, а гидроксильная группа не участвует в координации. Был выращен монокристалл синтезированного координационного соединения, определены его важные параметры, а именно длина связи, величина угла и водородные связи, наблюдаемые между атомами в молекуле комплексного соединения, а также проанализирована структура. Координационное число никеля в синтезированном комплексном соединении равно 6, а его гибридизация имеет вид sp^3d^2. Изучая некоторые физико-химические свойства изомеров гидроксибензамида (2-гидроксибензамид (L_1), 3-гидроксибензамид (L_2), 4-гидроксибензамид (L_3)) был выбран салициламид и синтезированы его комплексные соединения с несколькими промежуточными металлами. В результате разработан новый метод синтеза координационных соединений салициламида с 3d-металлами и даны рекомендации по его использованию в дальнейших экспериментах.

Ключевые слова: Нитрат никеля(II), салициламид, лиганд, комплексное соединение, синтез, анализ, рентгеноструктурный анализ (РСА), элементный анализ, координационная связь, растворимость, температура ликвидуса, выход реакции.

SYNTHESIS AND CRYSTAL STRUCTURE OF THE COMPLEX COMPOUND OF SALICYLAMIDE WITH Ni(II) NITRATE SALT

Annotation. This article discusses the synthesis and crystal structure of the complex compound $[Ni(Sal)_2(NO_3)_2(H_2O)_2]$ (Sal-salicylamide). The synthesized complex compound was studied using elemental analysis of the composition and structure of the complex. It was shown by X-ray structural analysis (XSA) that nickel is coordinated with the selected ligand salicylamide through the oxygen atom of the carbonyl group, and that the hydroxyl group does not participate in the coordination. A single crystal of the synthesized coordination compound was grown, its relevant parameters, namely the bond length, angle size, and hydrogen bonds observed between the atoms in the complex molecule, were determined, and the structure was analyzed. The coordination number of nickel in the synthesized complex compound is 6, and its hybridization was found to be sp^3d^2. By studying some of the physicochemical properties of

hydroxybenzamide isomers (2-hydroxybenzamide (L_1), 3-hydroxybenzamide (L_2), 4-hydroxybenzamide (L_3)), salicylamide was selected and its complex compounds with several intermediate metals were synthesized. As a result, a new method for the synthesis of coordination compounds of salicylamide with 3d metals was developed and recommendations for its use in further experiments were given.

Key words: Nickel(II) nitrate, salicylamide, ligand, complex compound, synthesis, analysis, X-ray structural analysis (XSA), elemental analysis, coordination bond, solubility, liquidus temperature, reaction yield.

KIRISH. Bugungi kunda dunyo aholisi sonining jadal suratlar bilan o‘sayotganligini e’tirof qilish mumkin. Bu jarayonni, 2019-2024 yillar oralig‘ida dunyo aholisining sonining quyidagi o‘zgarishlaridan ko‘rish mumkin.

1-jadval

Dunyo aholisining 2019-2024-yillar davomida demografiya statistikasi holati

Yillar	2019	2020	2021	2022	2023	2024
Dunyo aholisining soni (*mlrd hisobida*)	7,674	7,809	7,888	8,016	8,074	8,114

Aholi sonining ortishi bilan, tabiiyki ular o‘zi uchun qulay yashash sharoiti yaratishga intiladi. Barcha tirik jonzotlar kabi, inson yashash sharoitiga ham albatta, abiotik va biotik omillar ta’sir qiladi. Buning natijasida hozirgi kunda ekologiyada bo‘layotgan jiddiy o‘zgarishlar tufayli inson salomatligiga ta’sir qiluvchi bakteriyalar, viruslar va zamburug‘lar soni ham keskin ortib bormoqda. Bugungi kunda, zararli bakteriyalarning -3 mlndan ortig‘i, viruslarning 2 mingdan ortiq turlari o‘rganilgan [1]. Bu bakteriya va viruslar insonlar salomatligiga, yovvoyi va uy hayvonlari sog‘ligiga va o‘simliklarning o‘sishi hamda rivojlanishiga ta’sir qilib, ularni normal funksional holatini izdan chiqaradi. Shu kabi salbiy ta’sirlarni o‘rganish orqali, o‘simliklarning o‘sishiga va hosildorligiga ijobiy ta’sir qiluvchi salitsil kislota hosilalardan salitsilamid (2-gidroksibenzamid)ning kompleks birikmalarini sintez qilish, ularni tarkibi va tuzilishini o‘rganish ishlari amalga oshirildi [2]. 3d metallardan hisoblangan nikelning salitsilamid bilan eritma muhitida koordinatsion birikmasini sintez qilindi va monokristallari o‘stirilib, uni rentgen struktura analizi amalga oshirildi hamda tegishli parametrlari aniqlandi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR. Jahonning yetakchi ilmiy markazlari va kimyogar olimlari tomonidan salitsil kislota hamda uning hosilalarining koordinatsion birikmalari sintezlanib, tarkibi, tuzilishi va biologik faolligi o‘rganilganligini ko‘plab ilmiy baza ma’lumotlari, shuningdek adabiyot ma’lumotlarini tahlil qilish orqali ko‘rish mumkin [3]. Ingliz olimi E. Furiya tomonidan “Suvli eritmada temir (III) ioni va 2-gidroksibenzamid o‘rtasidagi komplekslanish muvozanatini o‘rganish” nomli maqolasida suvli eritmada salitsilamid va temir

(III) tuzlarining o‘zaro tasirlashib, koordinatsion birikma hosil qilishi va reaksiya muvozanati haqida ma’lumotlar berilgan [4]. Raffaella Porto va Emilia Furialar tomonidan “Mis (II) ionining 2-gidroksibenzamid bilan kompleks birikmasi” nomli maqolasida Cu^{2+} ionining 2-gidroksibenzamid (salitsilamid, HL) bilan kompleks birikmasi 0,5 dan 3 mol/dm^3 gacha bo‘lgan ion kuchi uchun $NaClO_4$ muhitida shisha elektrod bilan potentsiometrik o‘lchovlar bilan 25°C da o‘rganilganligi aytib o‘tilgan [5]. T. Göktürk, C. G. Topkaya, T. Hökelek, R. Güplar tomonidan yozilgan “Oktaedral Ni(II) kompleksining serendipit sintezi: yagona kristall strukturasi, Xirshfeld sirti va bo‘shliqlar tahlili” nomi maqolasida

$C_{50}H_{42}N_4NiO_6P_2 \cdot 2(ClO_4)$ yangi sintezlangan Shiff asosi ligand va PPh3 bilan reaksiyasi natijasida serendipit tarzda sintez qilindi va uning molekulyar hamda kristall tuzilmalari monokristalli rentgen tahlili bilan aniqlandi. Triklinik tizimga tegishli a = 10,7936(4) Å, b = 12,2926(4) Å, c = 19,6272(6) Å, a = 92,574(3)°, b = 95,527(3)°, γ = 102,898(4)° bo‘lgan fazo guruhi , Z = 2 va V = 2520.73(15) $Å^3$.



1-rasm. $C_{50}H_{42}N_4NiO_6P_2 \cdot 2(ClO_4)$ tarkibli kompleks birikma molekulasining tuzilishi

Kristall tuzilishida N–H···O vodorod aloqalari va molekulalararo muvofiqlashtirilmagan perxlorat anionlarini ona molekulasi bilan bog‘laydi. Zaif C-H···p o‘zaro ta’siri ham kuzatiladi. Xirshfeldning kristall strukturasining sirt tahlili shuni ko‘rsatadiki, kristall qadoqlash uchun eng muhim hissa H…H (43,9%), H…O/O…H (30,9%) va H…C/C…H (18,5%)dir.) o‘zaro ta’sirlar. Vodorod bog‘lanishi va Van der Vaals o‘zaro ta’siri kristall qadoqdagi dominant o‘zaro ta’sirlardir. Kristalli bo‘shliqlarni tahlil qilish kristall qadoqlashda katta bo‘shliq yo‘qligini ko‘rsatdi [6]. Hirihattaya Phetmung, Anitsara Nucharoenlar tomonidan e’lon qilingan “Benzoy kislota va salitsilamid bilan klassik ikki yadroli va noodatiy ko‘p yadroli mis (II) birikmalarining sintezi, tuzilishi, spektroskopiyasi, termal tahlili va elektron spin rezonansi” mavzusidagi maqolada salitsilamid bilan misdan olingan yangi ikki yadroli koordinatsion birikma tarkibi va strukturasi tahlil qilingan. [Cux[RCOO]yLz] umumiy formulaga ega, ikkita birikma $[Cu(C_6H_5COO)_2(C_6H_5(OH)CONH_2)]_2$ va [Cu(C6H5COO)($H_2O)_2$]n·n(C_6H_5COO)·nH_2O strukturasi roentgen tuzilish tahlili usuli bilan aniqlanib, bir necha xil fizik-kimyoviy metodlar bilan asoslab berilgan [7].



2-rasm. [Cux[RCOO]yLz] tarkibli kompleks birikma molekulasining tuzilishi

Nikelning salitsilamid bilan kompleks birikmalarini sintez qilish jarayonida, $Ni(NO_3)_2 \cdot 2H_2O$, $Ni(NO_3)_2 \cdot 4H_2O$, $Ni(NO_3)_2 \cdot 6H_2O$, $Ni(NO_3)_2$ kabi tuzlari ishlatildi. 2-gidroksibenzamid (L_1), dastlab etil spirtida eritilib, uning 0,02 *mol/l*, 100*ml* li eritmasi tayyorlab olindi. Keyin $Ni(NO_3)_2 \cdot 6H_2O$ tuzi suvda eritish orqali uning 0,01 *mol/l*, 100 *ml* li eritmasi tayyorlandi. Eritmalar tayyor bo‘lgach, tubi dumaloq kolba olinib (V= 200 *ml* li) unga dastlab tuz eritmasidan 20 *ml* solinib, uning ustiga ligand eritmasidan 40 *ml* ni asta sekin to‘rt marta har 15 minutdan qo‘shib borildi. Bu kolba shtativga mahkamlanib, uni magnitli mishalka ustiga qo‘yiladi va 60-80 *minut* davomida aralashtirib turildi. Keyin hosil bo‘lgan aralashma xona haroratida biroz vaqt tindirish uchun tinch holatda qoldiriladi. Keyin olingan kompleks birikmaning monokristalini olish uchun, tayyorlangan aralashma to‘rtta stakanga teng bo‘lib solingan holda, 30^oC haroratda termostatda 5-7 kun saqlanadi [8]. Olingan kompleks birikma monokristallari dimetilformamidda qayta kristallab ajratib olindi. Reaksiya unumi 78,6 %.

$$Ni(NO_3)_2 \cdot 6H_2O + 2Sal \rightarrow [Ni(Sal)_2(NO_3)_2] \cdot 2H_2O + 4H_2O$$

1-sxema. $[Ni(Sal)_2(NO_3)_2] \cdot 2H_2O$ tarkibli koordinatsion birikmani olish reaksiyasi

NATIJALAR VA MUHOKAMA. Sintezlangan nikelli kompleks birikmani $[Ni(Sal)_2(NO_3)_2] \cdot 2H_2O$ tarkibli koordinatsion birikmaning monokristali o‘stirildi va rentgen strukturaviy tahlil yordamida analiz qilindi hamda tegishli parametrlari aniqlanib quyidagi jadvallarda ifodalab berildi [9,10].

2-Jadval

Nikel salitsilamidli-kompleks birikmaning kristallografik ma’lumotlari va strukturasiga aniqlik kirituvchi parametrlar

Parametr	**Qiymatlar**	**Parametr**	**Qiymatlar**
$[Ni(Sal)_2(NO_3)_2] \cdot 2H_2O$			
Formula	$NiC_{14}H_{18}N_4O_{12}$	Kristall o‘lchami, [mm]	0.18×0.14×0.12
Molekulyar massa	493.01	Harorat T, °K	294

Singoniya	triklinik	Skanerlash oralig‘i θ,°grad.	2,18; -32,18
Fazoviy guruh	A1	Interval h,k,l	−32:28; −15:13; −12:10
a, Å	15.54	Jami reflekslar	6124
b, Å	18.82	Mustaqil reflekslar soni	2064
c, Å	22.46	R_{int}	0.056
α °	96.2	$F^2 \geq 2\sigma(F^2)$ Kriteriy	882
β °	101.345		
γ °	105.846		
V, Å^3	7514	Aniqlagan parametrlar	164
Z	2	Stukturani aniqlash sifati	1.18
D_x, g/cm^{-3}	0.218	R_1, $wR_2(I>2\sigma(I))$	0.842, 0.952, 0.1234
μ(CuK_α), mm^{-1}	0.142	$\Delta\rho$min/max, *e*Å^{-3}	-0.832, 0.946



3-rasm. Sintezlangan $[Ni(Sal)_2(NO_3)_2]\cdot 2H_2O$ tarkibli kompleks birikma molekulasining tasviri

3-jadval

Kompleks birikmaning bog‘ uzunliklari va bog‘lanish burchaklari qiymatlari

Bog‘	d, Å	Bog‘	d, Å
Ni(1)-O(1)	1.8183	O(1)-Ni(1)-O(3)	89.21
Ni(1)-O(3)	1.7989	O(1)-Ni(1)-O(5)	80.63
Ni(1)-O(5)	1.8448	O(1)-Ni(1)-O(6)	78.92
Ni(1)-O(6)	1.8515	O(1)-Ni(1)-O(7)	172.38
Ni(1)-O(7)	1.8409	O(1)-Ni(1)-O(8)	89.12

Ni(1)-O(8)	1.8494	O(3)-Ni(1)-O(5)	93.37
O(1)-C(7)	1.2356	O(3)-Ni(1)-O(6)	165.54
O(2)-C(5)	1.3574	O(3)-Ni(1)-O(7)	98.27
O(3)-C(8)	1.2344	O(3)-Ni(1)-O(8)	91.34
O(4)-C(14)	1.3557	O(5)-Ni(1)-O(6)	92.79
O(7)-N(3)	1.3409	O(5)-Ni(1)-O(7)	102.31



4-rasm. Olingan $[Ni(Sal)_2(NO_3)_2]\cdot 2H_2O$ tarkibli kompleks birikmaning atomlararo bog‘lanishi va bog‘ uzunligi

Kristalning elementar yacheykasi parametrlari quyidagicha: fazoviy guruhi A1, a=15.54 Å, b=18.82 Å, c=22.46 Å, α=90°, β=135,62°, γ=90°, V= 7514 Å^3, Z=2. $[Ni(Sal)_2(NO_3)_2]\cdot 2H_2O$ kompleksi monoyadroli bo‘lib Ni^{2+} ionining 2-gidroksobenzamid molekulasi bilan hosil qilingan, neytral tabiatga ega [11,12]. Kompleks tarkibidagi Ni-O(1), Ni-O(3), Ni-O(5), Ni-O(6), Ni-O(7) va Ni-O(8) bog‘lari orasidagi masofasi qiymati mos ravishda 1.8183Å, 1.7989Å, 1.848Å, 1.8515Å ,1.8409Å va 1.8Å ga teng O(1)-Ni-O(3), O(1)-Ni-O(5), O(1)-Ni-O(6), O(1)-Ni-O(7), O(1)-Ni-O(8), O(3)-Ni-O(5), O(3)-Ni-O(6), O(3)-Ni-O(7) va O(3)-Ni(1)-O(8) ning burchak kattaliklari mos ravishda 89.21, 80.63, 78.92, 172.38, 89.12, 93.37, 165.54, 98.27 va 91.34 ga teng ekanligini ko‘rish mumkin.

4-jadval

Kristall tuzilishidagi vodorod bog‘lar (A°)

Bog‘lanish D–H···A	Masofa, Å			Burchak D–H···A, grad.	Atom koordinatalari, A(i)
	D–H	H···A	D···A		
$[Ni(Sal)_2(NO_3)_2]\cdot 2H_2O$					
N(1)---H(1)...O(3)	1.07	2.31	2.954	118	x,-1/2+y,-1/2+z
N(1)---H(1)...O(8)	1.09	2.47	2.839	102	x,1/2+y,1/2+z
N(1)---H(1)...O(11)	1.12	2.57	3.414	143	1/2+x,1/2+y,1/2+z
C(14)---H(6)...N(8)	1.09	2.33	3.163	132	1/2+x,1/2+y,1/2+z

O(5)---H(10)...O(10)	0.97	2.56	2.882	134	-1/2+x,-1/2+y, -1/2+

D-donor, A- akseptor. i-simmetriya



5-rasm. Olingan kompleks birikmaning atomlari orasida vodorod bog‘larning vujudga kelishi

XULOSA. Sintez qilingan kompleks birikmaning tarkibi, tuzilishi va xossalari zamonaviy fizik-kimyoviy tadqiqot usullari bilan o‘rganilganda, birikma tarkibidagi salitsilamidnning kislorod atomi va markaziy atom nikel orasidagi bog‘ tabiati, mustahkam ion bog‘lanish ekanligi aniqlandi. Kompleks birikmadagi markaziy atom nikel triklinik tipida, ikkita molekula salitsilamidni kislorod atomlari orqali va ikki molekula nitrat anioni hamda ikki molekula suv bilan kislorod atomi orqali koordinatsiyalanib, $[Ni(Sal)_2(NO_3)_2]\cdot 2H_2O$ tarkibli kompleks birikmani xosil qiladi. Yaratilgan sintez metodi o‘xshash koordinatsion birikmalarni keyinchalik sintez qilishda qo‘llanilishi mumkin. Markaziy atom nikelning koordinatsion soni 6 ga teng bo‘lib, sp^3d^2 xolatda gibridlangan. Sintezlangan koordinatsion birikma, 0,002% li eritma holida qishloq xo‘jaligida yangi stimulyator sifatida qo‘llanilishi mumkin.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Xudoyberganov O.I.,Yadgarova M.M., Abdullayeva Z.Sh., Ashirov M.A., Hasanov Sh.B. Kobalt (II) ionining indometatsin bilan kompleks birikmasi sintezi va strukturaviy tadqiqoti // O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim,fan va innovatsiyalar vazirligi Urganch Davlat Universiteti “Kimyoning dolzarb muommolari” mazvusidagi respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari. 2024-y. 262-263 betlar.

2. Xudoyberganov O.I.,Yadgarova M.M., Hasanov Sh.B., Ashirov M.A. Cu(II) ionining, salitsilamid hamda trietanolamin bilan kompleks birikmasi sintezi va kristall tuzilishi // FarDU. Ilmiy xabarlari.-2024.-№ 5. 61-68 b. https://journal.fdu.uz

3. ResearchGate: https://www.researchgate.net, link.springer.com

4. E. Furia. Study of Complexation Equilibria Between the Iron(III) Ion and 2-Hydroxybenzamide in Aqueous Solution // August 2017. Journal of Solution Chemistry 46(8). DOI:10.1007/s10953-017-0665-0

5. Raffaella Porto, Emilia Furia. On the Complexation of Copper (II) Ion with 2-Hydroxybenzamide // February 2007. Annali di Chimica 97(3-4):187-98. DOI:10.1002/adic.200790004

6. Göktürk, T., Topkaya, C.G., Hökelek, T. *et al.* Serendipitous Synthesis of an Octahedral Ni(II) Complex: Single Crystal Structure, Hirshfeld Surface and Voids Analysis. *J Struct Chem* **65**, 15–27 (2024). https://doi.org/10.1134/S0022476624010025

7. Hirihattaya Phetmung, Anitsara Nucharoen. Synthesis, structure, spectroscopy, thermal analysis and electron spin resonance of classical paddle–wheel binuclear and unusual polynuclear copper(II) compounds with benzoate and salicylamide // Polyhedron. Volume 173, 15 November 2019, 114121. https://doi.org/10.1016/j.poly.2019.114121

8. Ashurov J.M., Ibragimov A.B., Ibragimov B.T. Mixed-ligand complexes of Zn(II), Cd(II) and Cu(II) with triethanolamine and p-nitrobenzoic acid: Syntheses and crystal structures // Polyhedron, 2015, -V.102, -P.441–446.

9. Савицкая Л.К. Рентгеноструктурный анализ: учебное пособие// Томск: СКК-Пресс, 2006, стр.274.

10. Macrae C.F, Bruno I.J, Chisholm J.A. et. al. Mercury CSD 2.0 – new features for the visualization and investigation of crystal structures // J. Appl. Cryst. -2008. –V.41. -P.466-470.

11. Sheldrick G.M.// ActaCrystallogr. -1990. - A46. P.467-473.

12. Sheldrick G.M. // SHELXS97, SHELXL97, Programs for Crystal Structures Solution and Refinement, University of Göttingen, Göttingen, Germany. 1997.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 1-son)

TABIIY FANLAR

NATURAL SCIENCES

QATTIQ SIRT FAOL MODDALARNING KO‘PIKLANISH XUSUSIYATLARI TAHLILI

Oripova Shahlo Karimovna
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti “Neft va gaz ishi” kafedrasi v.b. dotsenti, t.f.f.d. (PhD),
e-mail: oripovashahlo1991@umail.uz Tel: +99894 403 04 03
Jo‘rayeva Huriyat Zoirovna
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti “Neft va gaz ishi” kafedrasi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: O‘zbekiston Respublikasida ishlatilayotgan gaz va gazkondensat konlarining aksariyatida yuqorida aytib o‘tilgan muammo mavjud bo‘lib, bu muammoni yechish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Quduq tubidan suyuqlikni chiqarib tashlashning bir necha yo‘llari mavjud bo‘lib, ulardan biri ko‘piruvchi sirt faol maoddalar yordamida suyuqlikni chiqarib tashlash usuli hisoblanadi. Ushbu maqolada qattiq sirt faol moddalarning ko‘piklanish xususiyatlari tahlili va ular bilan bog‘liq o‘tkazilgan laboratoriya natijalari haqida bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: Gaz va gazkondensat konlari, ko‘piklanish, sirt faol moddalar, qattiq sirt faol moddalar (QSFM), ko‘pik qatlami balandligi, harorat, pH ko‘rsatkichi.

АНАЛИЗ ПЕНООБРАЗУЮЩИХ СВОЙСТВ ТВЕРДЫХ ПОВЕРХНОСТНО-АКТИВНЫХ ВЕЩЕСТВ

Аннотация: Большинство газовых и газоконденсатных месторождений Республики Узбекистан имеют вышеуказанную проблему, и решение этой проблемы является одним из актуальных вопросов. Существует несколько способов удаления жидкости на забое скважины, одним из которых является метод удаления жидкости с помощью пенящихся поверхностно-активных веществ. В статье описывается анализ пенообразующих свойств твердых поверхностно-активных веществ и связанные с ними лабораторные результаты.

Ключевые слова: Газовые и газоконденсатные месторождения, пенообразование, поверхностно-активные вещества, твердые поверхностно-активные вещества (ТПАВ), высота слоя пены, температура, pH.

ANALYSIS OF FOAMING PROPERTIES OF SOLID SURFACTANTS

Abstract: Most gas and gas condensate fields in the Republic of Uzbekistan have the problem mentioned above, and solving this problem is one of the urgent issues. There are several

ways to remove fluid from the well bottom, one of which is removing fluid using foaming surfactants. This article describes the analysis of the foaming properties of solid surfactants and the laboratory results related to them.

Keywords: Gas and gas condensate fields, foaming, surfactants, solid surfactants, foam layer height, temperature, pH index.

KIRISH

Gaz va gazkondensat konlarini ishlatish tizimi samaradorligi ko‘p jihatdan quduqlarni oqilona ishlatishga bog‘liq. Odatda, vaqt o‘tishi bilan quduqlar mahsulotida suv paydo bo‘la boshlaydi. Ayniqsa, gaz quduqlarida gaz bilan birga olinadigan suyuqlik asta-sekin quduq tanasida yig‘ilib, gaz oqimiga to‘siq yaratadi va hatto quduqni ishdan to‘xtatadi. Quduqlarning suvlanishiga qarshi kurashish tadbirlarini qo‘llash va gaz qudug‘i tanasidagi yig‘ilgan suyuqlikni bartaraflash quduq mahsuldorligini oshirish imkoniyatini beradi [1-2].

Qattiq sirt faol moddalardan foydalanish gaz quduqlarida yig‘ilgan suyuqlik bilan kurashishning oddiy va samarali usuli hisoblanadi. Yaqin kelajakda tobora ko‘proq konlar rivojlanishning o‘rta va kech bosqichlariga o‘tgan sari quduqlarning o‘z-o‘zidan tiqilishi kuzatiladi. Buning uchun esa qattiq sirt faol moddalardan foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Sirt faol moddalar suyuq muhitda mexanik barqarorlikga ega bo‘lishi kerak, bunda sirt faol modda uzoq muddat davomida, bir necha kunlab mustahkamlik xususiyatlarini o‘zida saqlab turishi kerak. Ham past minerallashgan, ham yuqori minerallashgan suvlarda ko‘pikni yuqori darajada hosil qilish xususiyatiga ega bo‘lishi kerak. Shuningdek, reagentlarning oson topilishi va arzonligini ham e’tiborga olish zarur [3].

Minerallik, qatlam suvining qattiqligi va asosan, uning tarkibidagi uglevodorodlarning sirt faol moddalarning ko‘piklanishiga ta’siri ham juda yuqori bo‘ladi [4-5]. Minerallashgan suvlarda yuqori darajada ko‘pik hosil qilish va quduq sharoitlarida yuqori darajada mexanik barqarorlik xususiyatlariga ega bo‘lgan va tarkibida SFM, stabilizator, plastifikator va og‘irlashtirgich bo‘lgan moddani hosil qilish maqsadga muvofiq.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA. Ishlatishning yakuniy bosqichida bo‘lgan suv bosgan quduqlarning ishlashining barqarorligi va o‘z-o‘zidan tiqilib qoladigan quduqlarni o‘zlashtirish to‘plangan suyuqlikni olib tashlashga qaratilgan turli fizik va fizik-kimyoviy usullar bilan amalga oshiriladi. Bunda ko‘plab texnologik usullar mavjud bo‘lib, ular quduq tubidan suyuqlikni olib tashlash muammosini hal qilishga imkon beradi. Dunyoda sirt faol moddalar yordamida suyuqliklarni olib tashlash usuli keng qo‘llaniladi. Sirt faol moddalar suv bosgan quduqqa kiritilganda, u ko‘pik hosil qiladi va gaz oqimi bilan yuzaga chiqishi natijasida quduq tubidagi suyuqlikni ham olib chiqadi.

Ushbu muammoni hal qilishning turli usullari mavjud bo‘lib, ularning eng muhimlaridan biri qattiq va suyuq sirt faol moddalardan foydalanishdir. Qattiq sirt faol moddalardan

foydalanish quduqlar tubidan suyuqlikni olib tashlashning eng tejamkor va qulay usuli hisoblanadi. Tadqiqotlarda anion sirt faol moddalar ishlatilgan.

NATIJALAR. Tadqiqotlar olib borilgan Muborak neft-gaz qazib chiqarish boshqarmasiga qarashli Alan gazkondensat konida quduq chuqurligi 2800-3200 metrligini inobatga olgan holda qattiq sirt faol moddaning ko‘piklanish xossalarinini 70-90 °C haroratda sinab ko‘rish uchun tajriba qurilmasi yig‘ilib, unda tajriba sinovlari o‘tkazildi [6].

Minerallashgan suvlarda yuqori ko‘pikli xususiyatlarga ega va quduq sharoitida yuqori mexanik barqarorlikka ega bo‘lgan qattiq sirt faol moddani yaratish vazifasi qo‘yildi. Minerallashgan suvlarda yuqori darajada ko‘pik hosil qilish va quduq sharoitlarida yuqori darajada mexanik barqarorlik xususiyatlariga ega bo‘lgan va tarkibiga asosan, sintetik sirt faol modda, stabilizator, plastifikator va og‘irlashtiruvchi, parafin, sintetik yelim, natriy karbonat va yuqori yog‘ kistotalarining natriyli tuzidan foydalanildi.

Qattiq sirt faol moddaning quduqlardan suyuqliklarni yer yuzasigacha ko‘pik shaklida gaz oqimi bilan birgalikda olib chiqishi uchun ko‘piklanish miqdori, ko‘pikning turish davri, mustahkamligi, qattiq sirt faol moddaning olib chiqadigan suyuqlik miqdori va bunga ketadigan vaqt inobatga olindi. Qattiq sirt faol modda Alan konining qatlam suvida o‘zi bilan olib chiqadigan suyuqlik miqdori va vaqtini laboratoriya qurilmasida o‘rganildi [7]. QSFM-1 dan QSFM-60 gacha bo‘lgan turli tarkibli qattiq sirt faol modda namunalari olinib, laboratoriya qurilmasida sinovdan o‘tkazildi.

Namunalarning ichidan eng samarali natijalar bergan QSFM-30, QSFM-42, QSFM-48, QSFM-56, QSFM-58 namunalarning kolloid-kimyoviy va mexanik xususiyatlari o‘rganildi [8].

Ko‘pik-gaz va suyuqlikdar iborat yuqori konsentratsiyadagi mirogeterogen sistema hisoblanadi. Ko‘piklanish jarayoniga komponentlarning fizik-kimyoviy xossalari, gaz oqimlarining suyuqlik qatlamidan o‘tish tezligi, ko‘pik generatori panjaralarining konstruktiv xususiyatlari va boshqalar sezilarli darajada ta’sir qiladi.

Gaz fazasida juda eruvchan komponentlar mavjud bo‘lganda hosil bo‘lgan ko‘pikning ko‘pligi sezilarli darajada kamayadi. Bundan tashqari ko‘piklanish jarayoniga temperatura va eritmaning pH qiymati ta’sir etadi. Shu sababdan olingan QSFM namunalaring ko‘pik qatlami balandligiga muhitnig pH qiymatini ta’siri o‘rganildi. Olingan natijalar quyidagi 1-rasmda keltirilgan.



1-rasm. Ko‘pikli qatlam balandligiga pH muhitning bog‘liqligi

Ko‘pikning tuzilishini va ko‘pikli moddalarning barqarorligini o‘rganish mavjud mahsulotlarni yaxshilash va yangi mahsulotlarni yaratish bo‘yicha tadqiqotlarda muhim ahamiyatga ega. Keyingi olib borilgan tajriba-sinov ishlarida QSFM namunalarining ko‘pik qatlami balandligiga haroratni ta’siri o‘rganildi. Olingan natijalar 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

Ko‘pikli qatlam balandligiga haroratni bog‘liqligi

№	Namunalar nomi	Turli haroratlarda ko‘pikli qatlam balandligi, mm			
		20^0C	70^0C	80^0C	90^0C
1	QSFM-30	138	225	236	241
2	QSFM-42	153	239	248	253
3	QSFM-48	124	215	224	232
4	QSFM-56	176	263	276	287
5	QSFM-58	141	223	234	243

MUHOKAMA. Sirt faol moddalarning yangi qismlari qo‘shilsa, ular suyuqlik fazalaridan biriga kiradi. Sirt faol moddalarning optimal konsentratsiyasini ta’minlash uchun ularning eruvchanligini va dispers pufakchalar yuzasini qoplash qobiliyatini hisobga olish kerak. Bundan tashqari, ionli tortishish kuchlari sirt faol moddalar molekulalari va suyuqlik o‘rtasida harakat qiladi, bu esa plyonkani mustahkamlaydi. Optimal sirt faol moddalarni tanlash va ulardan foydalanish uchun mos sharoit pufakchalar va emulsiyalarning samarali tarqalishini ta’minlash uchun muhimdir.

Olingan natijalardan shuni aytish mumkinki, barcha namunalarda eritma pH qiymati ortishi bilan uning ko‘piklanish miqdori ham taqriban 1,1 marta ortganligini ko‘rish mumkin. Olib borilgan ko‘pgina tadqiqotlar natijasida anion sirt-faol moddalar kislotali va ishqoriy muhitda ham sirt-faollik xususiyatini o‘zgartirmasligi yana bir bor isbotlandi.

Kon qatlam suvlaridagi haroratga yaqinligini inobatga olgan holda tajribalarni asosan 70-90^0C orasida olib borildi. Barcha o‘rganilgan sistemalarda harorat ortishi bilan ko‘pikli qatlam balandligi ham ortib borishi aniqlandi.

XULOSA. Laboratoriya sharoitida olib borilgan tadqiqotlar asosida tayyorlangan qattiq sirt faol moddalarni gaz va gazkondensat qudug‘i modelida sinash orqali quduq tubidan suyuqlikni yer yuzasiga chiqarish miqdori, vaqt ko‘rsatkichlariga, ularning kolloid-kimyoviy xossalarini o‘rganish, olingan QSFM namunalaring ko‘pik qatlami balandligiga muhitnig pH qiymatini ta’siri va haroratni ta’sirini o‘rganish natijalariga binoan QSFM-56 eng samarali ekanligi aniqlandi. Keyinchalik, ishlab chiqarish miqyosida gaz va gazkondensat quduqlarida sinash uchun QSFM-56 dan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Муртазаев А.Х. Изучение мирового опита примемения поверхностно-активних веществ для эксплуатации газоконденсатних месторождений // Молодой учёний, 2020, Май, № 22 (312), С. 120-122.

2. Орипова, Ш., & Адизов, Б. (2023). ТЕХНОЛОГИЧЕСКИЕ И ТЕХНИКО-ЭКОНОМИЧЕСКИЕ ПОКАЗАТЕЛИ ДОРАЗРАБОТКИ ГАЗОВЫХ И ГАЗОКОНДЕНСАТНЫХ МЕСТОРОЖДЕНИЙ. Journal of Experimental Studies, 1(3), 1–7.

3. Маринин В.С., Строгий А.Й. Удаление жидкости из скважин с помощю пенообразавателья // Газовая промишленность. 1994, № 2, С. 19-20.

4. Орипова, Ш. К. (2022). УДАЛЕНИЕ ЖИДКОСТИ ИЗ ГАЗОВЫХ СКВАЖИН. *Journal of Integrated Education and Research*, *1*(4), 283–288. Retrieved from https://ojs.rmasav.com/index.php/ojs/article/view/244

5. Орипова Ш.К., Адизов Б.З. Химический состав пластових вод верхниюрских карбонатних отложений ГКМ Алан // International scientific conference of young scientists “Science and Innovation”, Ташкент, 2022, pp. 422-423.

6. Oripova Sh.K., Adizov B.Z. Gaz suyuqlik oqimini tadqiq qilish uchun tajriba qurilmasi // O‘zbekistonning ilmiy taraqqiyotida yoshlarning o‘rni. Respublika ilmiy-amaliy anjuman. Qarshi. 2023. – 63-64 b.

7. Oripova Sh.K., Adizov B.Z., Akramov B.Sh. Analysis of the foaming properties of foaming solid surfactants // International Conference Industrial Technologies and Engineering ICITE– 2023. Shymkent, Kazakhstan, 2023, P. 68-72.

8. Oripova , S., Akramov, B., & Adizov, B. (2024). APPLICATION OF DEVELOPED SOLID FOAMING AGENTS TO REMOVE LIQUID FROM THE BOTTOM OF GAS AND GAS CONDENSATE WELLS. Innovatsion Texnologiyalar , 53(01). Retrieved from https://ojs.qmii.uz/index.php/it/article/view/731

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 1-son)

TABIIY FANLAR

NATURAL SCIENCES

ОСОБЕННОСТИ ПОЛИМОРФИЗМА СИСТЕМЫ HLA УЗБЕКСКОЙ ПОПУЛЯЦИИ САМАРКАНДСКОЙ ОБЛАСТИ

ЗИЯДУЛЛАЕВА Г.З
Самаркандский Государственный Университет имени Шарофа Рашидова, ассистент кафедры генетики и биотехнологии, г.Самарканд
Университетский бульвар 15,
gulruhziyadullayeva34@gmail.com
ДУШАНОВА Г.А.
Самаркандский Государственный Университет имени Шарофа Рашидова, к.б.н., доцент кафедры генетики и биотехнологии, г. Самарканд,
Университетский бульвар 15, gavhar_1969@mail.ru

Аннотация: В статье рассмотрены особенности полиморфизма системы HLA у узбекской популяции Самаркандской области, а также различия в распределении HLA-антигенов в зависимости от пола и региона проживания. Система HLA играет важную роль в иммунном ответе организма и является ключевым компонентом в предрасположенности к заболеваниям, связанным с нарушениями иммунной системы. Исследования показали, что у узбеков, как у представителей смешанной этнической группы Центральной Азии, наблюдается уникальный генетический профиль, сочетающий элементы европеоидной и монголоидной генетики. Частоты встречаемости антигенов класса I и II, таких как A9, A19, B13, DR7, DR9, демонстрируют генетическое разнообразие и могут быть использованы для диагностики и прогнозирования заболеваний. В статье также выявлены различия в распределении антигенов среди городского и сельского населения, а также половые различия в распространении антигенов, что подтверждает влияние экологических и социальных факторов на HLA-генетический профиль. Эти данные могут стать основой для дальнейших исследований в области генетической эпидемиологии и персонализированной медицины.

Ключевые слова: HLA, полиморфизм, гаплотипы, антигенные маркеры.

FEATURES OF HLA SYSTEM POLYMORPHISM IN THE UZBEK POPULATION OF THE SAMARKAND REGION

Abstract: The article discusses the characteristics of HLA system polymorphism in the Uzbek population of the Samarkand region, as well as the differences in the distribution of HLA

antigens based on gender and the region of residence. The HLA system plays an important role in the immune response and is a key component in susceptibility to diseases associated with immune system disorders. Studies have shown that Uzbeks, as representatives of a mixed ethnic group in Central Asia, have a unique genetic profile that combines elements of both Caucasoid and Mongoloid genetics. The frequencies of antigens from classes I and II, such as A9, A19, B13, DR7, and DR9, demonstrate genetic diversity and can be used for diagnosing and predicting diseases. The article also identifies differences in the distribution of antigens among urban and rural populations, as well as gender differences in antigen distribution, confirming the impact of environmental and social factors on the HLA genetic profile. These findings can serve as a basis for further research in the fields of genetic epidemiology and personalized medicine.

Keywords: HLA, polymorphism, haplotypes, antigenic markers.

HLA TIZIMI POLIMORFIZMINING SAMARQAND VILOYATI UZBEK POPULYATSIYASIDAGI XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: Ushbu maqolada Samarkand viloyatidagi uzbek populyatsiyasida HLA tizimi polimorfizmining xususiyatlari va shuningdek, HLA-antigenlarining jins va yashash hududiga qarab taqsimlanishidagi farqlar ko‘rib chiqilgan. HLA tizimi organizmning immun javobida muhim rol o‘ynaydi va immun tizimi bilan bog‘liq kasalliklar uchun predispozitsiyaning asosiy tarkibiy qismidir. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, o‘rta Osiyoning aralash etnik guruhlarini ifodalovchi uzbeklarda, evropoid va mongoloid genetikasining elementlarini o‘zida mujassam etgan noyob genetik profil mavjud. I va II sinf antigenlarining A9, A19, B13, DR7, DR9 kabi uchrashish chastotalari genetik xilma-xillikni ko‘rsatadi va kasalliklarni tashxislash va prognozlash uchun ishlatilishi mumkin. Maqolada shuningdek, shahar va qishloq aholisi o‘rtasida, shuningdek, antigenlar tarqalishida jinsiy farqlarni aniqlash orqali ekologik va ijtimoiy omillarning HLA-genetik profilga ta’sirini tasdiqlaydi. Ushbu ma'lumotlar genetik epidemiologiya va shaxsiylashtirilgan tibbiyot sohalaridagi keyingi tadqiqotlar uchun asos bo‘lishi mumkin.

Kalit so‘zlar: HLA, polimorfizm, gaplotiplar, antigen markerlari.

ВВЕДЕНИЕ. Система HLA гистосовместимости человека представляет собой один из важнейших компонентов иммунной системы, обеспечивающих распознавание и уничтожение чужих клеток. Исследование полиморфизма HLA-генов приобретает всё большее значение как для изучения индивидуальной предрасположенности к заболеваниям, так и для углубленного понимания механизмов иммунного ответа. В последние десятилетия особое внимание уделяется изучению HLA-генетического профиля различных популяций, что позволяет выявить характерные особенности их иммунной системы и их предрасположенность к различным заболеваниям, связанным с нарушением иммунного ответа [8, 10].

Система HLA состоит из множества генов, расположенных на хромосоме 6, и включает в себя гены классов I и II, которые отвечают за представление антигенов клеткам иммунной системы. Эти молекулы играют ключевую роль в активации Т-клеток, распознающих и уничтожающих чужые или измененные клетки. Полиморфизм молекул HLA позволяет организму эффективно адаптироваться к разнообразию патогенов, обеспечивая индивидуальный иммунный ответ [11].

Гены класса I HLA-A, HLA-B, HLA-C ответственны за представление эндогенных антигенов клетками, которые подверглись изменению. Продукты этих генов экспрессируются на поверхности большинства клеток организма. В то время как гены класса II HLA-DR, HLA-DQ, HLA-DP ответственны за презентацию экзогенных антигенов, в том числе от бактерий, вирусов и других патогенов, на поверхности антиген представляющих клеток [8, 12].

Таким образом, полиморфизм системы HLA важен не только для понимания генетических механизмов предрасположенности к заболеваниям, но и для разработки подходов к индивидуализированной медицине и терапии, направленной на коррекцию иммунного ответа [11].

Особое внимание в генетических исследованиях уделяется изучению HLA-генетического профиля различных этнических групп, поскольку этнические особенности могут сильно влиять на распределение и частоты встречаемости антигенов HLA. Узбеки, как этническая группа, имеют свою специфику, обусловленную историческими процессами смешивания и ассимиляции различных народов, что привело к формированию уникального HLA-генетического профиля [2, 3].

Важным аспектом является тот факт, что узбекская популяция обладает особенностями, типичными для смешанных популяций Центральной Азии, сочетающих как европеоидные, так и монголоидные элементы. Это определяет разнообразие антигенных специфичностей и, соответственно, генетических маркеров, используемых для определения предрасположенности к заболеваниям [5, 7].

Изучение HLA-генетического профиля узбекской популяции предоставляет важные данные для понимания иммунологических особенностей этого народа и может быть использовано для дальнейших исследований, направленных на выявление генетической предрасположенности к различным заболеваниям. Такие исследования имеют большое значение для диагностики и профилактики заболеваний с нарушением иммунной системы, а также для разработки персонализированных методов лечения, основанных на анализе HLA-генов и их ассоциации с иммунными заболеваниями [1, 6].

МАТЕРИАЛ И МЕТОДИКА. В исследованиях были изучены HLA- антигены А и В класса у 86 здоровых лиц, антигены DR у 83 лиц в лаборатории иммуногенетики Института Иммунологии АНРУз. Исследования антигенов А, В и DR были проведены ммкролимфоцитотоксическим методом (Terasaki P. I., 1964) с использованием панели HLA-антисывороток Санкт-Петербургского НИИ гематологии и переливания крови. При

проведении микролимфоцитотоксического теста учитывались рекомендации NIH (Национальный Институт Здоровья, США), согласно которым при раскапывании лимфоцитов в лунки планшет Терасаки, использовали методику “выстреливания”, что в значительной степени обеспечивало чистоту “читаемых” лунок. Определение HLA-DR-фенотипа проводили в пролонгированном лимфоцитотоксическом тесте (модификация Van Rood, 1977).

ПОЛУЧЕННЫЕ РЕЗУЛЬТАТЫ. Результаты исследования показывают, что распределение HLA-антигенов в узбекской популяции имеет свои особенности. В локусе А наибольшую частоту встречаемости продемонстрировали антигены А9 33,3%, А10 36,1% и А19 44,4%. Примечательно, что частота антигенов А1, А3, А11 и А30 была значительно ниже, что свидетельствует о наличии специфических антигенов, характерных для данной этнической группы [4, 6].



Рис.1.Распределение частот генов HLA- А в узбекской популяции Самаркандской области

Исследования по изучению распределения HLA-антигенов среди представителей узбекской популяции Самаркандской области, можно выделить несколько характерных черт. В локусе HLA-A наибольшие частоты встречаемости наблюдаются для антигенов А2 31,4%, А9 32,4% и А19 38,4%. Эти антигены составляют основу гаплотипов узбеков. Также в фенотипах обследованных часто встречаются антигены А1, А3, А24, А11, А26, и А30, что свидетельствует о высоком уровне полиморфизма этой популяции (рис.1).

Примечательной особенностью является наличие антигенов HLA-A10 25,6% и А28 19,8%, которые могут быть важными маркерами для различных заболеваний, связанных с иммунной системой. Относительно низкая частота встречаемости антигенов А23, А29, А31 и А33 менее 3% может указывать на их редкость в популяции [3, 11].

В локусе В наиболее часто встречались антигены В13 25%, В7 22%, а также В5, В8 и В22, что также подчеркивает генетическую уникальность узбекской популяции. При

этом антиген B12 был менее распространен среди узбеков, что является важным признаком для этнологического анализа. [1]



Рис.2. Распределение частот генов HLA-B в узбекской популяции самаркандской области

Что касается локуса HLA-B, то наиболее часто встречаемыми антигенами являются HLA-B13 26,7%, HLA-B5 20,9%, и HLA-B7 17,4%. Другие антигены, такие как B35, B27, B8 и B12, встречаются реже, что указывает на их менее выраженное распространение в данной популяции (рис.2) [11].

Что касается локуса DR, наиболее распространенными антигенами оказались DR7 37,8%, DR1 28,196% и DR2 22%, а также DR9 23,2% и DR15 20,7%. Эти данные подтверждают влияние как европеоидной, так и монголоидной генетической компоненты в популяции узбеков (рис.3.).



Рис.3. Распределение HLA-DR в узбекской популяции Самаркандской области

Сравнение распределения HLA-антигенов среди узбеков с мировыми популяциями показало сходства и различия. Так, среди узбеков встречаются антигены, схожие по частоте с европеоидными популяциями, такие как A9, A11, A19, A23, A24, B7 и B50. В то же время, некоторые антигены, такие как A10, A30, B42, были встречены с большей частотой, чем у европеоидов, что приближает узбекскую популяцию к монголоидному типу (Таблица 1).

Интересным является наличие промежуточных частот для некоторых антигенов, таких как A3, A24 и B41, которые характеризуют смесь генетических особенностей как европеоидных, так и монголоидных популяций [12].

Таблица 1

Сравнение распределения HLA-антигенов среди узбеков с мировыми популяциями

Европеоиды	**Монголоиды**	**Промежуточное положение**
A9	A1	A3
A11	A2	A19
A19	A10	A24
A23	A30	A30
A24	B8	A36
A28	B15	B41
A33	B39	B42
B7	B40	B52
B22	B42	B55
B50		B60
B53		DR8
B55		
DR1		
DR3		
DR13		

В разных регионах может наблюдаться различие в частоте встречаемости определённых HLA-антигенов. Это связано с экологическими условиями, социально-экономическими факторами, а также с историческими процессами миграции и смешения

популяций. Городское и сельское население могут иметь различные уровни генетической изоляции и контакта с внешней средой, что отражается на составе их генетического материала. Изучение этих различий позволяет выявить локальные особенности иммунного ответа и механизмы адаптации населения к специфическим инфекционным или экологическим угрозам. Это также может помочь в разработке методов профилактики и лечения заболеваний, характерных для конкретных регионов [7, 13].

ОБСУЖДЕНИЕ ПОЛУЧЕННЫХ ДАННЫХ. На основе генетических исследований очевидно, что мужчины и женщины могут иметь различия в распределении HLA-антигенов. Эти различия могут быть связаны с гормональными особенностями, а также с половой предрасположенностью к определённым заболеваниям. Понимание этих различий важно для разработки персонализированных подходов в диагностике и лечении заболеваний, а также для более точного прогнозирования иммунных ответов у мужчин и женщин [9, 16].

Изучение HLA-генетического профиля, особенно с учётом региональных и половых различий, важно для выявления предрасположенности к заболеваниям, связанным с иммунной системой, таких как аллергии, аутоиммунные болезни, инфекции, онкологические заболевания, а также для успешной трансплантации органов. Понимание генетических особенностей различных групп позволяет разрабатывать более эффективные методы диагностики и персонализированное лечение, которое учитывает как генетическую предрасположенность, так и условия проживания пациента.

Региональные различия в распределении HLA-антигенов также играют важную роль в этнологическом анализе. Например, этнические группы, проживающие в различных регионах, могут иметь уникальные генетические маркеры, отражающие их историческое развитие, миграции и смешение с другими популяциями. Эти данные могут быть использованы для изучения генетического разнообразия популяций и формирования генетических карт различных этнических групп [13].

Таким образом, исследование системы HLA с учётом региональных различий и половых особенностей является важным для углубленного понимания механизмов иммунного ответа, разработки новых методов диагностики и лечения заболеваний, а также для мониторинга состояния здоровья различных групп населения.

Исследования, проведенные в Самаркандской области по изучению распределению HLA-антигенов среди городского и сельского населения, выявило некоторые отличия. Среди городских жителей было зарегистрировано большее количество антигенов A9 33,3% и A19 44,4% по сравнению с сельскими жителями, у которых преобладали антигены A2 и A19.

По локусу DR в городской популяции наибольшее количество встречающихся антигенов было представлено DR7 и DR4. В то время как среди сельских жителей чаще встречались антигены DR2 и DR7. Это может свидетельствовать о наличии различий в

уровне гетерозиготности между этими группами и отражать географическое, социальное и культурное разнообразие [9, 14].

Анализ распределения HLA-антигенов между мужчинами и женщинами выявил интересные отличия. У женщин наблюдается несколько сниженная частота встречаемости антигенов A32, B14, B49, DR4. В то же время у мужчин встречались антигены DR4, DR15 и DR1 с более высокой частотой. Это может указывать на возможное влияние половых факторов на распределение этих антигенов [15].

Маданиятшунослар шу кунгача ўйлаган нарсанинг бунга алоқаси йўқ. “Дои”дан “тожик”ни тилшунослик базасидан ажратиб олиш унчалик қийин эмас. Ва бу тил ҳодисасини тасвирлаш учун кўплаб мисоллар мавжуд. Тожикистоннинг ҳозирги услубларидан қандай қилиб сўзнинг “д”си “т”га, “й” товуши “ж” товушига алмаштирилган. Илгари “сагзик” сўзи “саки” сифатдоши учун ҳам ишлатилган. Шундан келиб чиқиб, Бабаназар Бобохон, эҳтимол, “дойзик”нинг бир шакли бўлган ва кейинчалик “тойик” бўлиб, ниҳоят “тожик” бўлиб қолгандир, деган хулосага келади. Авестодаги “данҳа” сўзи билан бир хил бўлиши керак бўлган юнон манбаларининг “дой”си “Фарвардиняшт”да бўлиб, унинг баъзи мотивлари ва мазмуни Авесто готлари билан замондош, ҳатто эшондан ҳам аввалроқдир”, деб ёзади у [6]. Даҳлар Ҳозирги Туркманистоннинг жануби ва Ўзбекистоннинг бир қисмида яшаган қабила бўлиб, айрим тожик олимларининг фикрига кўра *тожик* сўзи *дайлар* номи билан боғлиқ тарзда шаклланган.

Яна бир ёзилган маълумот таҳсинга лойиқ “Марказий Осиё халқларининг янги тўда (гала)лари, киммерияликлар ва скифлар ўзларининг эронлик биродарлари ортидан бу тоғли ўлкага келишди ва Луристонада (Эроннинг ғарбидаги тарихий ҳудуд. - тарж.) отларнинг эгар-жабдуқларини пичоқлар ва чўқморлар учликларини қолдиришди” [4]. Бундан хулоса қилиш мумкинки, Эрондаги Мидия давлатининг шаклланишида ҳам Ўрта Осиёнинг қадимги халқлари муносиб ўрин тутади. Ҳатто айрим давлатлар скифларга бир неча йиллар давомида ўлпон тўлаган. “Қайта ташкил этилгандан сўнг мидияликларнинг армияси Оссурияга ниҳоятда катта хавф сола бошлади. Ашшурбанипал вафот этди, унинг кучсиз ворислари ҳам Гарса сингари расмий иттифоқчиларига ҳам ёрдам кўрсатиб, ўз кучларини сарфлашга ботина олишмас эди. Ариарамна ва Кирнинг ворислари яна Киаксарга қарам бўлишга мажбур эдилар. Оссурияликлар яна орқага итғитиб юборилган эди, Кавказ тоғлари ва Каспий денгизи орасидаги ўтиш йўли орқали скифлар бостириб келгани тўғрисидаги хабар келганда, Ниневия мидияликлар томонидан қамал қилинган эди. Скифларнинг қабила бошлиғи Пратофейнинг ўғли Мадиядан мағлуб бўлгандан сўнг Киаксар бир зиёфатда маст бўлиб қолган қабила бошлиқларини ўлдирмагунча ўтган йигирма саккиз йил мобайнида скифларга ўлпон тўлашга мажбур бўлган” [4]. Скифлар деб изоҳланаётган қабилалар аслида сакларнинг ўзи эди.

Т.Нафасовнинг эътироф этишича, Қашқадарё вилоятидаги Чироқчи тумани номининг келиб чиқиши саклар баҳодири Широқ номи билан боғлиқ. Чарук ва Широқ сирак сўзлари бир асосдан урчиган, барчаси - бир уруғ-қавм номининг товуш кўринишлари. Бу номлар қадимги сармат атамаси билан ҳам шаклдош. Сарматлар

милоддан аввалги VII - IV асрларда Волга бўйи ва Урал атрофида яшаганлиги маълум. Сарматлар эроний ва туркий тилда сўзлашган. Уларнинг тили, маданияти ва турмуш тарзи сак ва массагетларга яқин бўлган, қардош саналган. Милоднинг 4-асрида сарматлар туркий хуннлар томонидан забт этилган. Кейинчалик туркий халқларга қўшилиб, чатишиб, бирлашиб кетган. Тарихий маълумотлар қадимги сак(шак)лар, сарматларнинг маълум бир қисми туркий халқ бўлганлигини исботламоқда. Сармат, чаруқ, чироқ, сирак атамаларининг бош қисми *сар, чар, шир, сир* сўзи қадимги туркий халқларнинг номидир [3].

ХУЛОСА ВА ТАКЛИФЛАР.

Сак ва массагет қабилаларининг шаклланиши Ўзбекистондаги дастлабки давлатчиликнинг шаклланиши билан боғлиқ деб ҳисоблаймиз. Чунки, киммерлар ва сарматлар билан бирга Ўрта Осиёда саклар ва массагетлар конфедерацияси шаклланган. Киммерлар (кейинчалик шумерлар деб аталган) скифлар ва массагетлар ўз даврида дунёдаги энг қудратли деб ҳисобланган Урарту, Оссурия, Элам, Парсуа каби давлатларга хавф сола олган ва айрим давлатларга душмандан мудофаа қилиш учун ёрдам берган. Асл келиб чиқиши Ўрта Осиёдан деб ҳисобланган киммерлар Месопотамия аҳолисига миххат шаклидаги дастлабки ёзувни ва жанговар араваларда ҳаракатланишни ўргатган. Массагетлар Кир қўшинларини ҳам мағлуб эта олди.

Кирнинг ўлими бехосдан юз берди. Аракс дарёси нариги томонида яшовчи сак-массагетлар қабиласи унинг империясининг шимоли-шарқий чегараларига тахдид сола бошлади. Жазо қўллаш чораси тарзидаги уруш муқаррар бўлиб қолди ва Кир бу урушни шахсан олиб боришга қарор қилди. Шахзода Камбисни Бобилда ҳокимият тепасида қолдириб, кексайиб қолган монарх юришга жўнади. Империя чегараси Аракс дарёсидан ўтиши учун кўприк қурилди ва Кир душман мамлакатига бостириб кирди. Аввал унга бироз омад кулиб боқди; кейин малика Тўмарис томонидан мамлакат ичкарисига олиб кирилган Кир жангда мағлубиятга учради ва ўзи яраланди. Уч кундан сўнг сакларнинг ҳеч кимга машҳур бўлмаган маликасининг ўлжасига айланган, қачонлардир қудратли бўлган истилочи вафот этди [4].

Геродот ёзган маълумотларга асосланиб Тўмариснинг қаҳрамонлиги ёзувчилар ва рассомлар ижодидан ҳам ўрин олган.

1-расм. Италиялик рассом Маттиа Прети (1613-1699 й.) 1670-72 йилларда чизилган расм [9]

Геродот берган маълумотларга кўра, сарматлар савроматлар тарзида ёзилади. “Ниҳоят саккизинчи дарё **Танаисдир**. У юртнинг юқори қисмидан оқади. Катта кўлдан оқиб чиқиб, ундан-да катта – Меотида кўлига (кўл шоҳ скифларни савроматлардан ажратиб туради) қуйилади. Танаисга Сиргис деб аталувчи бошқа бир дарё ҳам қуйилади” [7]. Ўзбекистон ҳудудида қадимдан турли қабилалар ва уруғлар яшаган бўлиб, уларнинг келиб чиқишини тадқиқ қилиш миллий давлатчиликнинг шаклланганлигини янада қадимийлаштиради. Шу билан бирга Ўзбекистон ҳудудидаги тожикларнинг ҳам шаклланиш тарихи қадимги эронийзабон қабилалар билан боғлиқ. Бир қишлоқда ёки маҳаллада истиқомат қилганлиги туфайли ўзбеклар орасида ҳам кўпчилик тожик шеъваларида сўзлаша олади.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ

1. Авесто. Тарихий-адабий ёдгорлик. Асқар Маҳкамов таржимаси. – Т.: “Шарқ”, 2001.- Б. 107, 335.

2. Гомер. Одиссея./Пер. с древнегреч. В. Жуковского. Вступит, статья А. Тахо-Годи; Примеч. С. Ошерова. — М.: Худож. лит., 1981. – С. 367.

3. Нафасов Т. Қашқадарё қишлоқномаси. Қашқадарё вилояти қишлоқлари номининг тадқиқи. Т.: “Муҳаррир” нашриёти, 2009 й.– Б. 303-304.

4. Олмстед Альберт “Форс империяси тарихи”, таржимон: Д. Саъдуллаев. - Тошкент: “O‘zbekiston” НМИУ. 2016. – Б. 20, 23, 36, 49, 54, 93-94.

5. Саггс Х. Вавилон и Ассирия. Быт, религия, культура. // http://base.dnsgb.com.ua/files/book/vavilon-assiriya/vavilon.HTM

6. Шарифов Ҳ. Оид ба этноними “тожик”. Тољикон дар сарчашмаҳои таърихї ва осори муҳаққиқон (мавод доир ба таърихи точикон). Душанбе, 2018. – С. 278-279.

7. Қадимги тарихчилар Ўрта Осиё ҳақида. – Т.: “YURIST-MEDIA MARKAZI”, 2008. – Б. 10-11,19.

8. https://www.britannica.com/place/Central-Asia

9. https://www.wga.hu/frames-e.html?/html/p/preti/tomyris.html

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 1-son)

IJTIMOIY FANLAR

SOCIAL STUDIES

KOREYS-O‘ZBEK ADABIY ALOQALARINING SHAKLLANISHI, RIVOJLANISH TARIXI

Kadirov Timur Raxmatilloyevich,
(Samarqand davlat chet tillar instituti mustaqil izlanuvchisi)
Телефон:+998933436152
rameo_113@mail.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada Koreys-o’zbek adabiy aloqalari va rivojlanish tarixi yoritilgan. Shuningdek maqolada Koreys va O‘zbek adabiyotlari o‘rtasidagi aloqalarning tarixi, shakllanishi va rivojlanishi ko‘rib chiqiladi. Koreys va O‘zbek xalqlari o‘rtasidagi madaniy almashinuvlar, tarixiy bog‘liqliklar va adabiy ta’sirlar asrlar davomida davom etgan.

Kalit so‘zlar: O’zbekiston va Koreya diplomatik aloqalari, “Afrosiyob devoriy sur’atlari”, mustaqillik, adabiy aloqalar, madaniyat almashinuvi, tarixiy bog'liqlik.

СТАНОВЛЕНИЕ КОРЕЙСКО-УЗБЕКСКИХ ЛИТЕРАТУРНЫХ СВЯЗЕЙ, ИСТОРИЯ РАЗВИТИЯ

Аннотация: В данной статье рассматривается история корейско-узбекских литературных связей и развития. В статье также рассматривается история, становление и развитие связей корейской и узбекской литературы. Культурные обмены, исторические связи и литературные влияния между корейским и узбекским народами продолжались на протяжении веков.

Ключевые слова: Дипломатические отношения между Узбекистаном и Кореей, «афро-азиатские настенные гравюры», независимость, литературные связи, культурный обмен, историческая связь.

FORMATION OF KOREAN-UZBEK LITERARY RELATIONS, HISTORY OF DEVELOPMENT

Abstract: This article covers the history of Korean-Uzbek literary relations and development. The article also examines the history, formation and development of relations between Korean and Uzbek literature. Cultural exchanges, historical connections and literary influences between the Korean and Uzbek peoples have continued for centuries.

Key words: Diplomatic relations between Uzbekistan and Korea, "Afro-Asian mural paces", independence, literary relations, cultural exchange, historical connection.

Kirish

Adabiyot insonlarni tarbiyalaydigan, ruhiyatini oziqlantiradigan, ta’bir joiz bo‘lsa ko‘zgu hamda millatning aslini ko‘rsatib beruvchi beqiyos kuch hisoblanadi. Buyuk ma’rifatparvar yozuvchi Abdulla Qahhor aytganidek, “Adabiyot atomdan kuchli”, agar uning kuchi “o‘tin yorish”ga sarf qilinmasa, adabiyot pokiza va muqaddas ish bo‘lib qolsa, hech shak-shubha yo‘qki, badiiy so‘zning kuch quvvati ortib boradi. So‘z insonni tarbiyalaydi. Uni fikr mushuhadasiga yo‘naltiradi. Jamiyatda inson ruhining muhandislari butun millat, kerak bo‘lsa dunyo xalqlarining yuragidagi tug‘yonlarini uyg‘ota oladi. Zero, badiiy so‘z qudrati katta. Bunga bee’tibor davlat taqdiri tanazzulga yuz tutadi. Shu o‘rinda o‘zbek dabiyotini jahon adabiyoti durdonasi desak, mubolag‘a bo‘lmaydi.

Adabiy aloqalar badiiy tarjima, adabiy ta’sir, jonli muloqotlar, ijodiy hamkorlik, do‘stona munosabatlar, ustoz-shogird an’analari o‘zanida shakllangan, millatning ma’naviy-madaniy taraqqiyotida muhim ahamiyatga ega jarayondir. O‘zbek adabiyoti tarixining barcha davrlarida adabiy aloqalar maqsad va vazifalariga ko‘ra turli ko‘rinishlarda davom etib kelgan. Hozirgi paytda mazkur soha jahoniy miqyosda rivoj topib, uning yangi shakllari paydo bo‘ldi, jumladan, ijodkorlarning badiiy tarjima vositasida jahon adabiyoti tajribalariga murojaati kuchaydi.

Mustaqillik davri o‘zbek adabiyotida adabiy aloqalar ijodiy jarayonning faol jabhasiga aylandi. Albatta, bu borada qo‘lga kiritilgan yutuqlar bilan birga, oldimizda turgan vazifalar ko‘lami ham anchagina keng. Birinchi galda adabiyotimiz istiqbolini ko‘zlab amalga oshirish lozim bo‘lgan ishlar talaygina.

Asosiy qism

O‘tgan 30 yillik davr mobaynida har ikki davlat tomonlari siyosiy, savdo-iqtisodiy, madaniy-gumanitar aloqalarni rivojlantirish bo‘yicha qator yutuqlarga erishdilar. Ayniqsa, o‘tgan yillar davomida madaniy-gumanitar hamkorlik yo‘nalishida samarali ishlar olib borildi. Buni Xanguk xorijiy tillar universiteti Markaziy Osiyo tadqiqotlar instituti tadqiqotchisi Yun Si Naning mazkur forumda bildirgan fikrlari ham tasdiqlaydi [1]. O‘zbekistonda har ikki davlatlar o‘rtasida ta’lim sohasidagi hamkorlik yuqori darajaga erishdi. Xususan, ta’lim sohasida Toshkentda 1992-yildan boshlab Koreya ta’lim markazi faoliyat ko‘rsatib kelmoqda. O‘zbekistonning 7 ta oliy ta’lim muassasasi hamda 48 ta maktab va litseylarida, Sejong maktabida koreys tili o‘rgatilmoqda [2]. O‘zbekistonda Koreyaning Inxa, Puchon, Yoju universitetlari filiallari hamda Farg‘onada Koreya xalqaro universiteti faoliyat yuritib kelmoqda. 2021-yil 1-fevralda esa Aju universitetining filiali ochildi. 1992-yili mart oyida Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti (sobiq institut)da avval Koreys filologiyasi kafedrasi, keyin esa Koreyashunoslik fakultetiga asos solindi. Bugungi kunda Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Koreyaning qator nufuzli oliygohlari, ilmiy-tadqiqot tashkilotlari bilan hamkorlik qilib kelmoqda. Hamkorlik aloqalarning dastlabki yillarida fakultetda koreys tili va adabiyoti, iqtisodini o‘qitish keng yo‘lga qo‘yilgan holda, bugungi kunda Koreya tarixi, madaniyati, siyosati ham o‘qitilmoqda. Fakultet va Janubiy Koreyaning nufuzli oliy o‘quv yurtlari bilan tuzilgan shartnomalar asosida ta’lim sohasida tajriba almashish, ilg‘or ta’lim

tizimlarini amaliyotga tatbiq etish, o‘qitish usullarini zamon talabiga mos ravishda yaratish borasida hamkorlik sathi kengaymoqda. 2022-yilning 3-4-iyun sanasida «Koreyashunoslik: ta’lim va madaniyat integratsiyasi yo‘lidagi yangi ufqlar» mavzusida Markaziy Osiyo miqyosida o‘tkazilishi rejalashtirilgan anjuman ham buning yorqin dalilidir [3]. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2022-yilni «O‘zbekiston va Koreya Respublikasi o‘rtasidagi o‘zaro almashinuvlar yili» deb e’lon qilishni taklif qildilar. So‘nggi 5 yil ichida barcha sohalar qatori ta’lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar bugungi kunda o‘zining amaliy natijalarini kutmoqda. Bu sharqshunos-koreyashunos olimlar zimmasiga ham yuksak mas’uliyat yuklaydi. 2021-yilning 28-yanvar sanasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev hamda Janubiy Koreya Respublikasi Prezidenti Mun Che Inlar videoanjuman shaklida uchrashuv o‘tkazishdi. Anjumanda O‘zbekiston va Koreya o‘rtasidagi ko‘p asrlik do‘stlik va strategik sheriklik aloqalarini rivojlantirish va mustahkamlash haqidagi dolzarb masalalar o‘rin oldi. Darhaqiqat, O‘zbekiston va Koreya o‘rtasidagi iliq munosabatlar mustaqilligimizning dastlabki kunlaridanoq o‘rnatilgan edi. Buning natijasi o‘laroq, O‘zbekiston Koreya davlati bilan ilm-fan, texnika sohasida iqtisodiy-ijtimoiy mustahkam aloqalarni yo‘lga qo‘ydi. O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimovning [4] 1992-yil 13-iyunda Koreya Respublikasiga uyushtirgan safarlarida Janubiy Koreyaning mashhur «Ton A Ilbo» gazetasiga bergan intervyulari bunga yaqqol misol bo‘ladi:

«Haqiqatdan ham O‘zbekiston ko‘p millatli davlat. Mening fikrimcha, uning boyligi va o‘ziga xosligi ham shunda. Har bir millat rivojlanayotgan O‘zbekistonga o‘zining moddiy va ma’naviy madaniyatini joylashtirgan va O‘zbekistonni o‘z vatani deb hisoblaydi. Koreys millatiga mansub O‘zbekiston fuqarolari ham shular jumlasidandir.

Biz 1937-yilda koreys millatining boshiga tushgan mudhish voqeani eslaymiz. O‘zbekiston qiyinchiliklarga qaramay, o‘ng minglab Uzoq Sharqdan kelganlarni, keyinchalik nemislarni, qrim-tatarlarni, turklarni va boshqa Ukraina, Belorussiya, Rossiyadan kelgan qochoqlarni ochiqko‘ngillik bilan qarshi oldi. O‘zbekistonning rivojiga hissa qo‘shgan koreyslar haqida ham bilamiz. Bilamiz va shunga yarasha javob qaytaramiz. Toshkentning to‘rt ko‘chasi mashhur koreyslar nomi bilan nomlanganligi so‘zimning isbotidir...» [5].

Ana shu ko‘chalarning biri mashhur zamonaviy koreys shoiri Cho Myonxi nomi bilan ataladi. Shu bilan birga, Alisher Navoiy nomidagi muzeyda shoir hayoti va ijodiga bag‘ishlangan burchak tashkil etilgan. Bu o‘zbek va koreys millatlari o‘rtasidagi do‘stona munosabatlar va madaniy aloqalar keng qamrovliligining yorqin dalilidir. 1992-yili O‘zbekiston va Koreya o‘rtasidagi madaniy aloqalar o‘zining qizg‘in pallasiga kirdi. Mazkur yili O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimov Farmonlariga ko‘ra, Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti (sobiq instituti)da Koreys filologiyasi kafedrasiga asos solindi hamda ilk bora koreys tili o‘qitila boshlandi. Dastlabki yillarda koreys tilini o‘qitishda Kim Mun Uk janoblari jonbozlik ko‘rsatdilar. Kafedrada xorijdan kelgan professor-o‘qituvchilar, xususan, Koreya xalqaro hamkorlik agentligi (KOICA) tashkiloti volontyor o‘qituvchilari faoliyat yuritishdi hamda O‘zbekistonda koreys tili o‘qitilishi keng yo‘lga qo‘yildi [7].

Muhokama/natijalar

1997-yildan boshlab kafedra koreys tili va adabiyoti, Koreya iqtisodi bo‘yicha o‘z mutaxassislariga ega O‘zbekiston aloqalarni mustahkamlashga kirishdi. 1999-yili ilk bor barcha qulayliklarga ega lingofon xonasi tashkil etildi. 2013-yili Koreya xalqaro hamkorlik agentligi (KOICA) tashkiloti tomonidan barcha o‘quv xonalari yangi ta’mirdan chiqarildi, zamonaviy texnika bilan jihozlandi. 2013-yili Koreya xalqaro hamkorlik agentligi (KOICA) tashkiloti homiyligida Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti (sobiq instituti)da elektron kutubxona tashkil etildi. Shu bilan birga, 2018yili tashkil etilgan Koreyashunoslik fakulteti qoshida ham kutubxonaga asos solindi. Bugungi kunda kutubxona fondida 10000 dan ortiq koreys tili, koreys tilini o‘qitish metodikasi, koreys tili bo‘yicha test sinovlari, koreys adabiyoti, tarixi, madaniyati, iqtisodiga oid o‘quv qo‘llanma va darsliklardan tashqari badiiy adabiyotlar ham mavjud. Kutubxona fondi har yili Koreya Respublikasining qator tashkilotlari, oliy ta’lim muassasalari tomonidan doimiy tarzda etkazib berilayotgan o‘quv adabiyotlari bilan boyitilmoqda. Fan-texnika sohasidagi rivojlantirishga qaratilgan ishlar jadal sur’atlar bilan olib borildi. Buning mahsuli o‘laroq, 2015-yili Koreya xalqaro hamkorlik agentligi (KOICA) tashkiloti volontyor-o‘qituvchilari bilan hammualliflikda [8]. «Koreys tilini birgalikda o‘rganamiz» media darsligi yaratilgan bo‘lsa, shu yilning o‘zida koreys kitobxonlarini o‘zbek adabiyotining nodir asarlari, buyuk shoir va yozuvchilari bilan tanishtirish ishlari ham yo‘lga qo‘yildi. Jumladan, shoira Zulfiyaning 100 yilligiga bag‘ishlab «Zulfiya she’riyati» koreys tilida chop etildi. Abdulla Qahhorning 10dan ortiq hikoyalari koreys kitobxonlari e’tiboriga etkazildi. Bugungi kunda Muhammad Yusufning vatan haqidagi she’rlari nashr qilinish arafasida [6]. 2013-yili kafedra professor-o‘qituvchilari hamda «This work was supported by the Akademy of Korean Studies (Korean Studies Promotion Service) Grant funded by the Korean Government (Ministry of Education)» homiyligida «Klassik koreys she’riyati antologiyasi», «Klassik koreys nasri antologiyasi», 2014-yili esa «Zamonaviy koreys nasri antologiyasi», «Zamonaviy koreys she’riyati antologiyasi» kabi kitoblar o‘zbek kitobxoni javonlarini to‘ldirdi. 2015-yili «Koreys adabiyotidan tanlangan asarlar» kitobi nashr etildi. Quvonarli jihati shundaki, mazkur to‘plam Mahkamova Yulduz, Muhamedaliyeva Madina, Nosirova Shahnoza, Amanova Nodira, Hojiyeva Madinaxon, Jo‘rayeva Malika, Shermatova Barno kabi iqtidorli talabalar mehnati mahsulidir. Oliy ta’lim muassasalari kafedlarida o‘qitiladigan fanlar kesimida qator o‘quv qo‘llanma va darsliklar yaratildi. U.T.Saydazimova: «Koreys adabiyoti» (darslik, 2018), «Mutaxassislikning nazariy masalalari» (koreys adabiyoti, darslik, 2020), «Mutaxassislikka oid maxsus adabiyot tahlili» (koreys adabiyoti, darslik, 2020), «Koreys adabiyoti jahon adabiyoti kontekstida» (darslik, 2021), U.T. Saydazimova, B.A. Mirsharipova, G.A. Yusupova: «Koreys tili leksikologiyasi» (darslik, 2021); N.D. Kim: «Введение в корейскуyu филологиуu» (darslik, 2019), «Диалектологиуа корейского уазыка» (o‘quv qo‘llanma, 2020), «Yазыковаya ситуatsiya в Корее» (o‘quv qo‘llanma, 2021); T.S. Kim: «Стилистика корейского уазыка» (o‘quv qo‘llanma, 2021); G.D. Yunusova: «Koreys tili amaliy fonetikasi» (o‘quv qo‘llanma, 2021) va h.k.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, koreys-o'zbek adabiy aloqalari ikki xalqning madaniy-milliy o'zligini boyituvchi muhim omil bo'lib, ular xalqlar o'rtasida do'stlik va hamkorlikni rivojlantirishda muhim kasb etadi.

Koreys va o'zbek xalqlari o'rtasida adabiy aloqalar uzoq tarixiy jarayonlarga asoslanadi. Ushba munosabatlarining asr, asosan, XX o'rtalariga kelib, koreys xalqining Markaziy Osiyoga ko'chirilishi bilan bog'liq. Bu davrda koreys yozuvchilari va ijodkorlari o'zbek adabiyotidan ta'sirlanib, ijodkorlar bilan yaqin aloqalar o'rna

Ushbu aloqalar ikki xalqning madaniy hayotida chuqur iz qoldirgan bo'lib, ko'plab tarjima ishlari amalga oshirilgan, adabiy an'analar boyi va mushtarak asarlar yaratish. Jumladan, o'zbek adabiyoti klassik namunalari koreys tiliga o'girilgan, koreys yozuvchilarining asarlari esa o'zbek o'quvchilari uchun tanish bo'lib borgan. Koreys-o'zbek adabiyot aloqalari moddiy tarjima va ijodiy hamkorlik, balki ikkala xalqning tarixiy taqdiri, urf-odatlari va mentalitetini chuqurroq anglashga xizmat qilgan. Bu jarayon bugungi kunda ham davom etib, zamonaviy adabiyot va madaniy hayotda o'z aks

Bugungi kunda ushbu aloqalar faqat tarixiy hodisa bo'lib qolmay, balki zamonaviy madaniy rivojlanishning yordami bilan yo'nalishlaridan birida davom etmoqda. Shu tariqa, koreys-o'zbek adabiyoti aloqalari ikki xalq o'rtasida do'stlik, hamjihatlik va o'zaro boyish jarayonining mustahkam prigi bo'lib xizmat qilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Мирзиёев Ш.М. Ҳаракатлар стратегияси. – Ташкент. 2017.- С-3

2. Koreyashunoslik masalalariga bag‘ishlangan ilmiy-amaliy anjumanlar materiallari. 2008, 2011, 2019, 2020, 2021-yillar, 50-60bet

3. I.A.Karimov. «Ton A Ilbo» gazetasiga bergan intervyusi. №19 (388). 13-iyun 1992. Брутт Ким. Мучнистые росы корейского Ренессанса. – Т.2007

4. Sirojiddinov. Sh., Odilova G., Badiiy tarjima asoslari. – T., 2011.

5. Koreyashunoslik masalalariga bag‘ishlangan ilmiy-amaliy anjumanlar materiallari. 2008, 2011, 2019, 2020, 2021-yillar,

6. 한국언어문화학] 중앙아시아 출신 유학생들의 한국어 학습 전략에 대한 연구 2016.

7. Ahn, Byeong-Hee and Kwang-Ho Lee (1990) Chungse Kukeo Munpopnon (AGrammar of Middle Korean) Seoul: Hakyeonsa. 125 p.

8. Internet: http://www.wikipedia.eom/korean/compounds/.htm

9. Internet: http://wwwmpsttu.ru/works/koreanlexicology/ htm

10. Rahmonova Feruza Musakulovna, & To’ychiyeva Bahora Otabekovna. (2024). Review of Tools and Evidence Base in Public Procurement Outcomes. EUROPEAN JOURNAL OF BUSINESS STARTUPS AND OPEN SOCIETY, 4(10), 21–25.

11. The role of alisher Navoi’s spiritual heritage in the moral education of youth PTB Nusratullayevich EPRA International Journal of Research and Development (IJRD) 7 (4), 38-39.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 1-son)

IJTIMOIY FANLAR

SOCIAL STUDIES

ANQARA JANGI KELIB CHIQISHNING SABABALARIGA YANGICHA YONDOSHUVLAR

Tukuzboyev Jasurbek Olimjon o‘g‘li
O‘zMU tarix fakulteti 3 kurs talabasi
Jasurbek1204@gmail:
Tel: +998991079899

Annotatsiya Ushbu maqolada davlatchilik masalasi Amir Temur va Boyazid Yildirim o‘rtasidagi munosabatlar misolida tahlil qilingan. Anqara janggining kelib chiqishi sabablariga turli yondoshuvlar mahalliy va horijiy adabiyotlar asosida tahlil qilingan. O‘rganilgan adabiyotlarga tanqidiy nuqtai nazardan qarab tegishli hulosalar berilgan.

Kalit so‘zlar: Anqara janggi, diplomatik munosabat va yozishmalar, davlat boshqaruvi, xon, xoqon, kogon, qoraxon, shan-yu, xan-yu, van-yu, ilteber maqomlari.

Аннотация В данной статье анализируется вопрос государственности на примере взаимоотношений Амира Темура и Баязида Йылдырыма. Различные подходы к истокам битвы под Анкарой были проанализированы на основе отечественной и зарубежной литературы. Соответствующие выводы даны в критическом обзоре изучаемой литературы.

Ключевые слова: Битва под Анкарой, дипломатические отношения и переписка, государственное управление, статусы хана, кагана, Карахана, Шан-ю, Хан-Ю, Ван-Ю, ильтебера.

Annotation This article analyzes the issue of statehood using the example of the relationship between Amir Temur and Bayezid Yildirim. Various approaches to the origins of the Battle of Ankara have been analyzed on the basis of Russian and foreign literature. The relevant conclusions are given in a critical review of the literature under study.

Keywords: Battle of Ankara, diplomatic relations and correspondence, public administration, statuses of Khan, Kagan, Kagan, Karakhan, Shan-yu, Khan-Yu, Wang-Yu, Ilteber.

Kirish

Anqara jangi uzoq yillar davomida dunyo tarixchilarini o‘ziga jalb qilib kelgan bo‘lib, nizolarning kelib chiqishi haqida turli qarashlar, yondashuvlar, tahlillar shakillangan va ular o‘rtasida tafovutlar ham mavjud. Jumladan, Yevropa tarixchilari asosiy diqqat e`tiborni Usmoniylar davlatini butun mintaqaga tahdidiga alohida e’tibor qaratadigan bo‘lsa, turk

tarixchilari Amir Temurni buyuk davlat qurishiga Usmonli davlatining yuksalishini tahdid sifatida ko‘rgan. Arab tarixchilari Amir Temurni chig‘atoy ulusi ustiga davlat qurganligiga e`tibor qaratishib, uning yurishlarining asosiy sababini faqat Chingizxon kabi buyuk davlat qurishga intilganligiga bog‘laydi.

Yana bir muhim qarashlardan biri Amir Temur turkiy davlat qurish maqsadi bilan bogliq. Bizga ma’lumki, Amir Temur davlat boshqaruvida turkiy qoidalar va shariat asosida amalga oshirgan. Buni Amir Temurning shaxsiyati, mentaliteti, turkiy an'analarning islom dini bilan uyg‘unligi hamda o‘zidan oldingi hukmdorlar tajribasidan samarali foydalana olganligida ko‘rish mumkin. Turk tarixchisi Hayrunnisa Alan ta'biri bilan aytganda, “Amir Temur - turklarning beyi, mog’ullarning kuyovi va islom ummatining amiri, мана uch hususiyatni o’zida jamlagan yagona hukumdordir”[7]. Bunday e'tirof Amir Temurni to‘laqonli anglashga yordam berish bilan birga usmonlilar bilan munosabatini to‘liq tushinishga, Anqara jangiga yetaklagan ziddiyatlarning asl sabablarini tahlil qilishga yordam beradi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlil. Anqara jangi haqida ko‘plab tarixchilar tadqiqot ishlarini olib borgan. O‘rganilgan adabiyotlarni ziddiyatlarni ikki davlat o‘rtasidagi to‘qnashuv sabablariga bo‘lgan munosabatdan kelib chiqib biri necha guruhlarga ajratish mumkin.

Birinchi gurux adabiyotlariga Yevropa tarixchilari: Marsel Brion, Harold La, Emanuel Berl, Peter Jackson, Rene Grousset va boshqalar tomonidan yozilgan asarlarni kiritish mumkin[8]. Ularning asarlarida Amir Temur “Yevropaning haloskori” sifatida ko‘rishga intilganligini kuzatish mumkin.

Ikkinchi gurux adabiyotlariga turk va azarbayjon tarixchilari Cunayt Kanat, Ahmat Shimshirgil,Yunus Og‘uz, Muammer Yilmaz, Harun Chetin, Halit Chetin, Ilber Ortayli, Sefa O‘zkaya va Tahsin Yilmaz O‘ztuna va boshqalarning[9] asarlarida esa bu mavzu tortishuvli masala bo‘lib, ba’zi tarixchilar anqara jangini bosqinchlik sifatida ko‘rsa, ba’zilari esa tabiy jaryon edi deganlarini kuzatish mumkin. Bundan tashqari bir birini tahdid sifatida ko‘rdi ham deyishadi.

Uchinchi guruxga o‘zbek tarixchilari B.Ahmedov, H.Dadaboyev, H.Sodiqov, Sh.O‘ljayeva, S.Toshkandiy, Muhammad Ali va boshqalarning asarlari[10] mavjud bo‘lib, bu

---

[7] Hayrunnisa Alan- “Bozkırdan Cennet Bahçesine TİMURLULAR” Istambul.: “Ötüken”2020, 368 b.

[8] Marsel Brion. ”Men kim Sohibqiron-Jahongir Temur” T.: “Yangi asr avlodi” 2018. 554 b.; [8] Harold Lamb “Emir Timur”. Istambul “Ilgi kultur sanat yayinlari” 2016. 320 b.;[8] Emanuel Berl ”Atilla’dan Timur’a Avropa va Asya. Isatmbul 1999. “Do’g’an kitap”. 254 b; Peter Jeckson The Mongols and the West. Oxfordshire 2005. “ Routledge” 448 b.; Rene Grousset. Stepler Imperatorlogu , Atilla,Cengiz Han, Timur. Ankara .“ Turk tarihi kurumu”2011 593 b.

[9] Cunayt Kanat. Yıldızların Bahtına Hükmeden Son Cihangir. Istambul “ Yeditepe “2018. 200 b; Shimshirgil A - Amir Temur. T.“Nasim Kutub” 2022. 396 b; Yunus Oguz. Amir Temur. T “ Yangi asr avlodi” 2018 .529 b; Muammer Yilmaz. Bozkirin altin cocugu. Istambul. “ Akil Fikr Yayinlari” 2021. 120 b; Harun Chetin. Emir Temur ve Islam.. Istambul “ IQ Kultur sanat Yayinchilik”2017 . 160 b.; Halit Chetin - Timur’un Anadolu seferi ve Ankara savasi. Istambul . “Yeditepe”2012. 240 b; Ilber Ortayli. Turklerin altin cag’i. Istambul . “Kronik kitab” 2017. 320 b; Sefa O’. ”Hunlar’dan gunumuze Turk askeri kulturu”. Istambul ”Ötüken” 2019 880 b; Tahsin Oztuna. “Büyük Türkiye tarihi”: Istambll.”Ötüken” 1983. 580 b;

[10] B.Ahmedov “ Amir Temur”T.:”A.Qodiriy nomidagi xalq merosi” 1995. 634 b.; H.Dadaboyev. Amir Temurning xarbiy mahorati.T.:”Yozuvchi”1996. 90 b.; H Sodiqov - Amir Temur saltanatida xafsizlik xizmati. T“ART FLEX” 2020, 567 b; Sh. O’ljayeva. Amir Temur davlat boshqaruvi. T.: “Akademnashr” 2017. Monografiya.250 b. S.Toshkandiy. Temurnoma. T.:”Cho’lpon” 1991. 350 b. Muhammad Ali. Amir Temur solnomasi. T.:”A.Navoiy nomidagi O’zMK”2008. 52 b.

asarlarda Amir Temur davlat arbobi ekanligi va xar bir yurishlarini turli xil, moddiy va ma’naviy sabablarni yoritgan.

Tadqiqot metodolgiyasi. Tadqiqotda Anqara janggining kelib chiqish sabablari o‘rganilgan adabiyotlar tahlil qilindi. Tadqiqotda tarixiy-qiyosiy, tizimli tahlil va boshqa usullardan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, mavzuga oid ko‘rib chiqilgan adabiyotlarda nizoning kelib chiqishiga turli sabablar ko‘rsatiladi. Quyida ularning ayrimlari keltirildi.

Birinchi sabab, Amir Temurning do‘stona maktublariga va talablariga Usmonli sultoning odobsiz javob berishi, chegaralar to‘qnashuvi, Jaloyirlar davlatidan qolgan yerlarning bo‘lib olish masalasi, Qora Yusufning Yildirim Boyazidan panoh topishi, Amir Temurning ularni yo menga bering yoki davlatingizdan chiqarib yuboring taklifiga rad javobini berishini ham ko‘rsatish mumkin.[11]

Ikkinchi sabab, asosiy masala Sivas qal’asi hokimi Qozi Burhoniddinga Amir Temur tomonidan yuborilgan tobelik so‘rovi maktubidan boshlanганлиги. Amir Temur Sivas hokimiga yozgan maktubini Qozi Burxoniddin bir necha nusxaga ko‘chirib Usmonli sultoniga, Mamluk sultoni Barquqga va To‘xtamishxonga yuborgan. Унда “Bugun menga kelgan tobelik yaqinda sizga ham keladi” deb ta’kidlagan. Buning natijasida Amir Temurga qarshi ittifoq yuzaga келади. Amir Temur ham bundan habar topgan va Sivas masalasini ortga surgan. Sivas hokimi Qozi Burxoniddin 1398 yilning yozida Oqquyunlilarga qilgan hujum mahalida Qora Yuluq Usmon tarafidan o‘ldirldi. Sivas hokimining o‘limi Amir Temurga qarshi qaratilgan ittifoqni parchalanishiga olib keldi. Bundan tashqari Yildirim Boyazid Sivas hokimi yerlariga hujum qilib uni qo‘lga kiritdi. Ittifoq ham yo‘q bo‘ldi. Amir Temur ham bu hududni o‘ziga tobe hududlardan bilgan edi, chunki bu yerda qurilgan barcha davlatlar va bekliklar Ilhonli davlatidan qolgan parchalar edi. Ilhonli davlati bir turk-mog‘ul davlati bo‘lganligi uchun yagona hukumdor tizimiga kirishi va bo‘ysunishi kerak edi.Ayni shu sabab ham uni kelgusi janglarga boshlab keldi.[12]

Uchinchi sabab, Ahmad Jaloyir va Qora Yusufninng musulmonlarga bergan aziyati va Amir Temurning ularga qilgan urushidan boshlangan. Amir Temur ularni mag‘lub etgach ular Usmonli sultonidan panoh topgan. Amir Temur ularni topshirishni so‘ragan. Ammo usmonli sultoni buni rad etgan. Usmonli sultoning hududda amalga oshirgan harbiy xarakatlarining barchasi muofaqiyatli yakunlanganligi bois Amir Temurni u qadar jiddiy qabul qilmagan. Buning natijasida esa Amir Temur tomonidan yuborilgan ogohlantirishlarni o‘ziga nisbatan kamsitish deb bilgan[13]

To‘rtinchi sabab, davlatlarning umumiy chegaralariga ega bo‘lib borayotganida edi. 1401-yili kelib Amir Temur davlati chegarasi Usmonli davlati chegarasi bilan tutashdi. Bu vaqtda

[11] Cunayt K. Yıldızların bahtina hükmeden son cihangir. Istambul “Yeditepe“ 2018. 200 b;
[12] Ahmat Shimshirgil. Amir Temur. T.: 2022. “Nasim Kutub” B.150-183
[13] H.Sodiqov-“ Amir Temur saltanatida xafsizlik xizmati.: T2020 “ ART FLEX”. 567 b.

Temuriylar davlati sarhadi 12 mil.km^2 bo‘lib, Usmonli davlatidan 13 barobar katta edi. Umumiy chegaralar to‘qnashuvi ham muqararlashib qolgan edi. Mintaqada kuch sinashish va hokimiyat ustunligi kayfiyati oshgan edi[14]

Bizningcha, davlatlar o‘rtasida ziddiyatning kelib chiqishi eski turk an’anlariga, odatlariga va madaniyatiga borib taqaladi. Davlatlar va hukumdorlarning o‘z mavqei va turk davlatlari ustidagi o‘rnini ko‘rsatib qo‘yishga intilgan. Bu yondashuv Amir Temurni Anqaraga aynan qaysi sabab yetaklab borganini aniq ochib berishga xizmat qiladi.

Anqara jangining kelib chiqishining asosiy sabablaridan biri sifatida davlat boshqaruvi shakli-maqomi alohida o‘rin tutganligini ta’kidlash lozim. “Turk davlatlari qurilish jihatidan sharqdan, g‘arbga qarab quriladi. Sharqdagi qurilgan davlat boshlig‘iga Xon, Xoqon, Kagan, Qoraxon, Shan-yu, Xan-yu, Idikut va Ilteber unvoni berilgan. Sharqdagi bu davlatlar odatiga ko‘ra taxt egasi turk millatiga mansub bo‘lishi zarur edi. Xoqon mil.avv I-II asrlarda qo‘lanila boshlagan bo‘lib, odatada mog‘ul va turkiylarda kuzatilgan. Xoqon degani “*xonlarning xoni”* demakdir. (Forslarda “*Shaxanshoh”* deb yuritilgan).

G‘arbiy davlatlar va ularning boshliqlari esa Yabg‘u deb atalgan.[15] Yabg‘u esa Xoqondan pastroq ammo bosh vazirdan yuqori bir lavozim bo‘lib, bosh qo‘mondon lavozimiga to‘g‘ri kelib ba’zi hollarda undan ham yuksakroq bir martabaga to‘g‘ri keladi. Ya’ni davlatni ma’muriy kuchi xoqonda bo‘lsa, xarbiy kuchi yabg‘u qo‘lida bo‘lgan. Shu yerda ta’kidlash lozim-ki, yabg‘u lavozimining alohida mansab sifatida shakillanishi va tobe davlat maoqmiga ko‘tarilishi bilan bevosita Turk xoqonligi davlatiga bog‘lanadi. Buminxon ukasi Istamiga “yabg‘u” maqomini berib uni g‘arbiy turk xoqnligi yerlariga bosh etib tayinlashi, uni yabg‘u maqomiga ko‘tarishi va g‘arbiy turk xoqonligi yerlarida mustaqil hukm yuritishi, ilk yabg‘u maqomidagi davlatning boshlanishining boshlang‘ich nuqtasi edi. Buminxon ukasi Istamiga yabg‘u maqomini berishi, ma’muriy va xarbiy boshqaruvda mustaqillikdan ko‘rishimiz mumkin-ki, yabg‘u maqomi turk xoqonligida juda yuqori mansab hisoblangan. Xususan boshqa mamlakatlar bilan elchilik aloqlari va yoki boshqa turli diplomatik aloqalar o‘rnatishda mustaqil qaror chiqara olgan. Istami yabg‘u davlati Sharqiy turk xoqonligidan mustaqil ammo tobeligini tan olgan ilk yabg‘u davlati sifatida tarixga kirgan. Ayni shu jarayon turkiy davlatlarda muhim bo‘lgan.

Amir Temur o‘z tuzuklarida ham quyidagi ifodadan foydalanishining o‘zidan ham ma’lim-ki, Temuriylar davlatida ham oliy nasablik, mavqei va hukumdorlikga xaqliylik masalasi yaqqol sezilib turadi.”Biz kim, Mulki Turon, Amiri Turkistonmiz, Biz kim millatlarning eng qadimi va eng ulug‘i Turkning bosh bo‘g‘inimiz”. [16]

Demak, davlatlar o‘rtasidagi ziddiyat yoki raqobatni kelib chiqishi ularning davlat boshliqlari mavqeiga ham bog‘liq bo‘lgan. Amir Temur qadim turk madaniyatiga sodiq qolgan va bunga sodiq qolishni hamma turk davlatlaridan talab qilgan. Jumladan, Jaloiyirlar davlati

[14] Cunayt K - Yıldızların Bahtına Hükmeden Son Cihangir. Istambul “ Yeditepe “2018.. 200 b ;
[15] Tahsin Y- Büyük Türkiye tarihi. Istambul 1997 . ”Ötüken" 485 b
[16] Axmedov B. Temur tuzuklari. T.: “G’ofur G’ulom nomidagi matba”1991. B.144

sultoni Ahmat Jaloirdan, Oltin O‘rda hukumdori To‘xtamishdan, Mamluk sultoni Barquq davlatidan, Usmonli sultoni Yildirim Boyaziddan, Erzinjon amir Taxrotundan, Qoramono‘g‘illaridan, Dilqodiro‘g‘illaridan, Qora Quyunli va Oqquyunli beklaridan, sharqiy Mo‘g‘iliston bekliklari va Sivas mustaqil hokimi Qozi Burxoniddinlar tobelik va vassalik talab qildi. Agar Amir Temur ham bu xon unvoniga sodiq qolmaganida edi bu masala mutloqo boshqacha tus olgan bo‘lar edi. Amir Temurning davlatini hech bir beyliklar qabul qilmas edi. Ammo Amir Temur ham xon unvoniga sodiq qolgan holda, bu unvonga Og‘uz xon avlodidan va yoki Chingizxon avlodidan bo‘lgan kishini munosib ko‘rgan. Amir Temur har bir turk davlati bilan bo‘ladigan jangidan oldin tobelikni ta’lab qilgan[17]. Shunda ham qabul qilmasa keyin hujum qilgan. Amir Temur urushdan ko‘ra kelishishni ko‘proq xohlagan. Ammo vaziyat faqat bir tamonlama hal bo‘lmaganidek jang qilishga ham to‘g‘ri kelgan. Amir Temur o‘ziga dushman bo‘lgan kishilarni ham yana qaytib shu yerga hukumdor qilib qoldirib ketgani kuzatilgan. Chunki Amir Temur hatto o‘z dushmanини ham eski turk an’anasiga rioya qilishga ishongan. Bu ishonch bir qadar o‘zini oqlagan. Usmonliлар orasida sulton Murod II ham temuriylarga tobelikni qabul qilgan[18]. Ammo keyinchalik temuriyzodalarning taxt uchun kurashlari natijasida zaiflashgan Amir Temur davlati o‘z mavqeini yo‘qotidi va buning natijasida usmonlilarning to‘liq mustaqil bo‘lishiga olib keldi.

Davlat boshqaruvi tarixidan ma'lumki bosib olingan yoki taslim bo‘lgan xududlarga mahalliy xukmdorlarning o‘zlari qoldirilgan. Bundan ko‘zlangan maqsad ularni mahalliy hududni yaxshi bilaganligi va kelgusi bosh ko‘tarishlarni oldini olish edi. Shu bilan birga mahalliy hukumdorni markaziy boshqaruvga to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘lash juda muhim ahamiyat kasb etgan. Shunday tajriba Gilzoiy hukumdori bilan ham amalga oshirilganligini ko‘rish mumkin. Shu tariqa bo‘ysundirilgan hududlarni turkiy an'analar asosida boshqarishga harakat qilingan. Biroq, Amir Temur va Usmonli turklar o‘rtasida jangovor harakatlar olib borilishga yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan omillar sabab bo‘ldi. Bu ham kelgsida Amir Temur vafotidan keyin taxt kurashlari va tashqi bosh ko‘tarishlarda muhim yordamchi bo‘lgan.[19]

Urushga har ikki davlat ham jidddiy tarzda tayyorgalik ko‘rishni boshladi. Chunki bu ikki davlat hali mag‘lubiyat alamini totmagan va hech bir vaqt yengilmagan askarlarga va qo‘mondolarga ega edi. Dunyoning yengilmas ikki qo‘shini, bu qo‘shin qarshisida hali hech bir kuch qarshi tura olmagan edi. Ikkisi ham millati va dini bir bo‘lgan eng qudratli davlatlar edi. Biri Osiyo qit’asi hukumdori bo‘lsa ikkinchisi Yevropani titratgan hukumdor edi.

Xulosa

Anqara jangi uzoq yillar davomida tarixchi olimlarning diqqat markazida bo‘lib, unda millat, din va davlat masalalari jiddiy bir shakilda yuzaga chiqgan. Bu jangni asl sabablaridan biri sifatida “Xon” va “Yabg‘u” masalasi yoki turkiy davlat boshqaruvidagi davlat boshlig‘i

[17] Ahmat Shimshirgil-“Amir Temur”. T. “Nasim Kutub” 2022 B.396

[18] Batafsil qarang. Prof.Dr Halil I. “Tarixi Oliy Usmon” .

[19] Amir Temur vafotidan keyin taxt uchun kurashlar boshlanib ketdi, Shoxrux Mirzo hokimiyatni mustahkamlash jarayonida o’sha eski to’be mahalliy hukumdorlar Temuriylar dushmanlariga qarshi xarkatlar olib bordi. Bular Usmonlilar sultoni Murod II, Gilzoiyilar hukumdori va Shirvon hokimi Shirvon shayx Ibrohimlardir.

mavqeini belgilash bo‘lganligi tadqiqot davomida aniqlandi. Turkiy davlatlar boshqaruvida sharqiy davlatlar har doim g‘arbga qaraganda biroz ustunlikka ega bo‘lgan. Buni nafaqat XV asrda balki Turk xoqonligi va Hun davlatida ham ko‘rish mumkin. Amir Temur va Yildirim Boyazid o‘rtasida bo‘lib o‘tgan Anqara jangida davlat boshliqlarining mavqei masalasi asosiy o‘rinda turgan. Shu bilan bir qatorda tomonlar maqom uchun kurash, oliy nasablik masalasi va turkiy va musulmon davlatlarni birlashtirish g‘yasi asosida xarkat qilganlar.

Anqara janggida Amir Temur g‘alaba qozongan bo‘lsada, bu urush turkiy davlatlar o‘rtasidagi bo‘linishning yaqqol dalili edi. Turkiy davlatlarning keyingi tarixi o‘zaro ayro tarzda rivojlandi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Abdurrahman D. Ankara savaşı öncesi Timur ile Yıldırım Bayezid'in Mektubleşmaları. Konya .: Selçuk Üniversitesi Türkiyat Araştırmaları Dergisi(15), 2004. B141-167.
2. O‘ljayeva Sh. Amir Temur davlat boshqaruvi. T.: “Akademnashr” 2017. Monografiyasi 250 b.
3. Axmed Shimshirgil Amir Temur. T: “Nasim Kutub” 2022. 396 b**.**
4. Cüneyt Kanat. Yıldızların Bahtına Hükmeden Son Cihangir. Istambul 2018. “Yeditepe“. 200 b.
5. Marsel Brion. Men kim Sohibqiron-Jahongir Temur. Toshkent 2018. “Yangi asr avlodi”. 572 b.
6. Sodiqov H. Amir Temur saltanatida xafsizlik xizmati. T.: “Art flex” 2020. 567 b.
7. Axmedov B. Temur tuzuklari. T.: “G‘ofur G‘ulom nomidagi matba”1991.144 b.
8. Ahmedov B. Amir Temur. T.:”A.Qodiriy nomidagi xalq merosi” 1995. 634 b.
9. Sharofiddin Ali Yazdiy . Zafarnoma. T “Sharq”1997. 374 b.
10. Yunus Oguz. Amir Temur . T.: “ Yangi asr avlodi”2018 529 b.
11. Tahsin YOztuna. Büyük Türkiye tarihi. Istambul 1983:.”Ötüken” 485 b.
12. Sefa Ö. Hunlerdan günümüze Türk askeri kültürü . Istambul 2019. “Ötüken” 880 b.
13. Emanuel Berl. “Atilla’dan Timur’a Avropa va Asya” Isatmbul 1999. “Do‘g‘an kitap”. 254 b.
14. Muammer Yilmaz. “Bozkirin altin cocugu” Istambul 2021. “ Akil Fikr Yayinlari” 120 b.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 1-son)

IJTIMOIY FANLAR

SOCIAL STUDIES

YOSHLARNI HARBIY VATANPARVARLIK, MILLIY AN’ANA VA QADRIYATLARIMIZGA HURMAT RUHIDA TARBIYALASH, BUGUNGI KUNNING ENG MUHIM DOLZARB VAZIFALARDAN BIRI

Qodirov Samandar Bobir o‘g‘li
Farg‘ona davlat universiteti
Harbiy ta’lim fakulteti talabasi
Qodirovsamandar503@gmail.com
+998959012203

Annotatsiya: mazkur maqolada, vatanparvarlik. milliy an’ana hamda qadriyat tushunchalariga alohida ta’rif berilgan. Shu bilan birga, yoshlarni milliy g‘oya va O‘zbekiston Respublikasiga, uning xalqi va Prezidentiga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularning qalbi va ongiga Vatan himoyasi sharafli va muqaddas burch ekanini chuqur singdirish, qadimiy tariximiz va madaniyatimiz, jonajon Vatanimizning mustaqilligi va ravnaqi yo‘lida fidokorona kurashgan milliy qahramonlarimiz bilan faxrlanish, ularga munosib bo‘lish tuyg‘usini shakllantirish, milliy armiyamizning qudrati va salohiyatiga bo‘lgan ishonchni kuchaytirishdan iboratligi to‘g‘risida ham keltirib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: vatanparvarlik, qadriyat, mas’ullik torlari, insonparvarlik, an’ana.

ВОСПИТАНИЕ МОЛОДЕЖИ В ДУХЕ ВОЕННОГО ПАТРИОТИЗМА, УВАЖЕНИЯ НАШИХ НАЦИОНАЛЬНЫХ ТРАДИЦИЙ И ЦЕННОСТЕЙ – ОДНА ИЗ САМЫХ ВАЖНЫХ ЗАДАЧ СЕГОДНЯ

Аннотация: в этой статье патриотизм. понятия национальной традиции и ценностей определяются отдельно. Одновременно воспитывать молодежь в духе преданности Республике Узбекистан, ее народу и Президенту, глубоко внушить в ее сердцах и умах, что защита Родины является почетной и священной обязанностью, на пути независимости и развития нашей древней истории и культуры, нашей дорогой Родины, гордиться нашими самоотверженно сражавшимися национальными героями, формировать чувство их достойности, укреплять уверенность в могуществе и потенциале нашей национальной армии. также упоминается.

Ключевые слова: патриотизм, ценности, обязательства, гуманизм, традиция.

EDUCATING YOUNG PEOPLE IN THE SPIRIT OF MILITARY PATRIOTISM, RESPECT FOR OUR NATIONAL TRADITIONS AND VALUES IS ONE OF THE MOST IMPORTANT URGENTEOUS TASKS OF TODAY

Abstract: This article provides a separate definition of the concepts of patriotism, national traditions and values. At the same time, it is also mentioned that it consists in educating young people in the spirit of national ideals and loyalty to the Republic of Uzbekistan, its people and President, instilling in their hearts and minds that the defense of the Motherland is an honorable and sacred duty, in forming a sense of pride in our ancient history and culture, in our national heroes who selflessly fought for the independence and prosperity of our beloved Motherland, in strengthening faith in the power and potential of our national army.

Keywords: patriotism, values, strings of responsibility, humanity, tradition.

KIRISH

Vatanparvarlik—bu kishilarning ona yurtiga, o‘z oshyoniga muhabbati va sadoqatini ifodalaydigan tushuncha. Vatanparvarlik barcha kishilar, xalq, millatlar uchun umumiy bo‘lgan, asrlar davomida sayqallanib kelgan umuminsoniy tuyg‘u, ma’naviy qadriyatlardan biri. Tarixiy jihatdan Vatanparvarlik kishilarning o‘z vatanlari taqdiri bilan bog‘liq ijtimoiy rivojlanish, xalqlarning o‘zlari yashayotgan hududning daxlsizligi va mustaqilligi yo‘lidagi kurashi jarayonida takomillashib kelgan his-tuyg‘ular jamlanmasi ham hisoblanadi. Bu vatanning o‘tmishi va hoziri bilan faxrlanishda, uning manfaatlarini himoya qilishda namoyon bo‘ladi. “Vatanni sevish iymondandir” deb bejiz aytishmagan.

Milliy an’ana—millat hayotining turli sohalarida namoyon bo‘ladigan tushunchalar, belgilar, xususiyatlar, qadriyatlar, faoliyat turlari, odatlar va xislatlarning avloddan-avlodga o‘tishi hamda meros bo‘lib qolishini ifodalovchi tushuncha. Milliy an’analar umuminsoniy an’analarning bir millat darajasida namoyon bo‘lishidir. Ular orqali har bir millatning muayyan davrdagi o‘ziga xos xususiyati, hayot tarsi, madaniyati, fani, adabiyoti va boshqa sohalardagi erishilgan natijalar va yutuqlari va boshqa davrda yashayotgan avlodlarga yetkaziladi. Milliy an’analar rang-barangdir.

Qadriyat—voqelikdagi muayyan hodisalarning umuminsoniy, ijtimoi, axloqiy, madaniy-ma’naviy ahamiyatini ko‘rsatish uchun qo‘llanadigan tushuncha. Inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo‘lgan barcha narsalar, masalan, erkinlik, tinchlik, adolat, ijtimooiy tenglik, ma’rifat, haqiqat, yaxshilik, go‘zallik, moddiy va ma’naviy boyliklar, an’ana, urf-odat va boshqalar qadriyatlar hisoblanadi.

Mamlakatimizda milliy qadriyatlarni tiklash bo‘yicha jiddiy tadbirlarning amalga oshirilayotganligi ma’naviyatimizning tiklanishida juda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Milliy qadriyatlarimizning tiklanayotganligini bugungi kunda jahon tan olmoqda. Ayniqsa, Sohibqiron Amir Temur, Mirzo Ulug‘bek, Bahouddin Naqshband kabi ulug‘ siymolarga, Buxoro, Xiva shaharlari yubileylariga bag‘ishlangan tadbirlar, simpoziumlarda dunyoning 50 dan ortiq davlatlaridan vakillarning qatnashganligi buning yorqin misolidir

Ravshanki, ko‘ngilda vatanga muhabbat jo‘sh urib turmasa, unga oshuftalik qalbni qaynatmasa, vujudingda Vatanga farzandlik burchi mas’ullik torlarini harakatga keltirmasa, harchand “Vatanim sajdagohim, iqbol maskanim” [3:488] deyilgani bilan bizdagi mehr-u sadoqat qandaydir mavhumiylikka moyil hisga o‘xshab qolaveradi. Bugungi kunda bizning qilayotgan barcha ishlarimiz yoshlarimizning baxtu-saodati ularning yorug‘ kelajagi uchun amalga oshirilmoqda. Odobli, bilimdon va aqlli, mehnatsevar, iymon-e’tiqodli farzand nafaqat ota-onaning, balki butun jamiyatning eng katta boyligidir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Barkamol shaxsni tarbiyalashda milliy qadriyatlar va urf-odatlardan foydalanish bugungi kunda ta’lim-tarbiya jarayoni oldida turgan eng dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi. Shu boisdan ham mamlakatimizda yaratilgan bu betakror an’ana va marosimlar, milliy qadriyatlar va urf-odatlarni o‘rganish hamma

davrlarda ham olimlar oldiga bir qator muhim vazifalarni bajarish zaruratini qo‘ygan. Bu borada J.Hasanboyev, M.Turopova, O.Hasanboyeva, A.Mavrunov, U.Qoraboyev va boshqalarning ilmiy ishlari va maqolalarini eslatib o‘tish maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, xalq pedagogikasining ta’lim oluvchi shaxsiga tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatish muammosini o‘rganish bo’yicha M.Ochilov, A.K.Munavvarov, S.Axmedov, S.Ochilov, O.Musurmonova, M.Inomova, S.Nishonova va boshqalar tomonidan doktorlik ishlari bajarilganligini alohida qayd etish lozim.

Xalqimiz urf-odatlari, an’analari va marosimlari katta tarbiyaviy ahamiyatga egadir. Odamlarning bir-biriga mehr oqibati, oqilona munosabati, to’g’ri muloqoti, iltifoti, extiromi xalqimizning ichki go’zalligini, boy ma’naviy va ruhiy qiyofasini ifodalaydi. [20]Eng muhimi, xalqimizdagi mehr-muruvatlilik, saxiylik, mehmondo’stlik, xushmuomalalik, mehr-oqibatlilik, andishalilik, samimiylik, to’g’rilik, intizomlilik, mehnatsevarlik, o’zini tuta bilishlik, tejamkorlik, sabr qanoatlilik kabi histuyg’ular va hislatlar bugungi kunda barkamol avlodlar tarbiyasida ibrat-namuna vazifasini bajaradi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Oila – Vatan ichra mo‘jaz Vatan. Oilani muqaddas bilish va uning mustahkamligi uchun kurashish xalqimizning qon-qoniga singib ketgan yuksak ma’naviy tuyg‘u, hayotiy tutumdir. Prezidentimiz ta’biri bilan aytganda, avlodlar davomiyligini ta’minlaydigan ma’naviyat qo‘rg‘oni bo‘lmish oilani mustahkamlash bugungi kunda barchamizning nainki asosiy vazifamiz, balki insoniy burchimizdir. Shu bois ham mamlakatimizda barcha xayrli ishlar avvalo oilalarni mustahkamlash va yosh avlodning yoru‘ kelajagini ta’minlash maqsadida amalga oshirilmoqda. Zero, oila sog‘lom ekan, jamiyat mustahkam, jamiyat mustahkam ekan, mamlakat barqarordir. Davlatimiz rahbarining “Mustahkam oila yili” Davlat dasturi to‘g‘risida”gi qarorida bu borada bajarilajak ezgu ishlar, muhim vazifalar o‘z ifodasini topgan. ”Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash, ularni milliy urf-odat va qadriyatlarimizga hurmat ruhida

[20] A.Allayarov, G’.Amanov. Yoshlar tarbiyasida innovatsion yondashuv (ilmiy ommabop nashr). Guliston 2020. - 114 bet.

tarbiyalash, ibratli oilalar bilan tanishtirish maqsadida shahar va tumanlarimizda ko‘plab ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar tashkil etilmoqda, – deydi “Mahalla” xayriya jamoat fondining viloyat bo‘limi raisi Akramjon Yo‘lbarsov. – Albatta, bu yo‘nalishdagi ishlarda mahalla institutining o‘rni katta bo‘lmoqda. Ta’lim-tarbiya ishlarida “oila-maktab-mahalla” konsepsiyasi, “Ota-onalar universiteti” tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Boshqacha aytganda, oila va mahalla institutlari uyg‘un rivojlantirilmoqda. Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash – millati, tili va kasbidan qat’iy nazar, yoshlarda Vatanga sadoqat tuyg‘usini shakllantirish, ularni o‘z fuqarolik burchi va konstitutsion majburiyatlarini bajarishga, jamiyat va davlat manfaatlarini himoya qilishga qodir shaxslar etib tarbiyalashga yo‘naltirilgan davlat organlari, jamoat birlashmalari va tashkilotlarining ko‘p bosqichli, tizimli, maqsadli va muvofiqlashtirilgan faoliyatidir. Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashdan ko‘zlangan asosiy maqsad – yoshlarda jamiyatning turli tarmoqlari, ayniqsa, harbiy soha bilan aloqador bo‘lgan davlat xizmati turlarida faollik ko‘rsatish, tinch va harbiy sharoitda Konstitutsiya va harbiy burchga sadoqatli bo‘lish, ularda o‘z yurti va xalqi taqdiri uchun yuksak mas’uliyat va javobgarlik kabi muhim xususiyatlarni shakllantirishdan iborat. Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda quyidagilar asosiy vazifalar etib belgilanadi; yoshlarni milliy g‘oya va O‘zbekiston Respublikasiga, uning xalqi va Prezidentiga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularning qalbi va ongiga Vatan himoyasi sharafli va muqaddas burch ekanini chuqur singdirish; qadimiy tariximiz va madaniyatimiz, jonajon Vatanimizning mustaqilligi va ravnaqi yo‘lida fidokorona kurashgan milliy qahramonlarimiz bilan faxrlanish, ularga munosib bo‘lish tuyg‘usini shakllantirish, milliy armiyamizning qudrati va salohiyatiga bo‘lgan ishonchni kuchaytirish; milliy armiyamizga jismonan baquvvat va ma’nan yetuk yoshlar zarurligi, harbiy xizmat har bir O‘zbekiston fuqarosi uchun muqaddas burch ekani haqidagi tushuncha hamda bu boradagi nazariy-amaliy ko‘nikmalarni mustahkamlash; yoshlarda yon-atrofimiz va jahonda ro‘y berayotgan siyosiy-ijtimoiy jarayonlarga milliy manfaatlarimizdan kelib chiqqan holda yondashish ko‘nikmalarini, turli ichki va tashqi tahdidlarga qarshi mafkuraviy immunitetni shakllantirish; jangovar harakatlarga moslashish, har qanday murakkab vaziyatlarda tezkor va mustaqil qaror qabul qilish, zamonaviy harbiy texnika vositalaridan samarali foydalanish malakasiga ega yoshlarni tarbiyalash; O‘zbekiston manfaatlarini nafaqat harbiy sohada, balki hayotning barcha jabhalarida, har bir qadamda himoya qilishga tayyor turish, yurt uchun fidoiy bo‘lish—bu bugungi kun talabi ekanini hayotiy misollar va ta’sirchan vositalar bilan yoshlar ongiga singdirib borish. Vatanparvarlik insonning qon-qoniga singgan bo‘lishi lozim. Shu o‘rinda O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning: “Yurtga, Vatanga muhabbat, insonparvarlik tuyg‘ulari xalqimizning qon-qoniga singib ketgan azaliy xususiyatdir. Ana shu noyob azaliy fazilatlarni asrab-avaylash va yanada takomillashtirish farzandlarimizni ozod va demokratik O‘zbekistonning munosib o‘g‘il-qizlari etib tarbiyalash masalasi ma’naviyat sohasidagi ishlarimizning asosiy yo‘nalishini tashkil etmog‘i kerak”, -degan so‘zlari o‘rinlidir. Har bir insonning o‘z vatani bo‘lgandagina u haqiqiy vatanparvar bo‘la oladi. Vatanparvarlik, o‘zi

tug‘ilib o‘sgan yurtini, yerini, elini e’zozlash, uning iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, madaniy, ma’naviy taraqqiyoti haqida qayg‘urish, g‘amxo‘rlik qilish, taraqqiyotga o‘zining munosib hissasini qo‘shish, o‘z davlati, mamlakatining mustaqilligini saqlash uchun jon kuydirishi va kerak bo‘lganda unga o‘z hayotini bag‘ishlashidir”.

Aslida "Vatan" so'zi arabcha so'zdan olingan bo'lib "ona yurt" degan ma'noni anglatadi. Mutafakkirlar esa Vatanga "ko'ngil mulkining maskani" deb ta'rif berishadi. Vatan deganda ko'z o'ngimizga oilamiz , mahallamiz gavdalanadi. Axir behizga emas "Vatan ostonadan boshlanar" deyishgani. Biz oilamizdan olgan tarbiyamiz Vatan ravnaqi yo'lidagi hissamizga katta poydevor bo'ladi. Yurtimiz tinch, ko'chalarimiz obod , xalqimiz farovon bo'lsagina biz ham ko'milikka erishamiz. Yurt tinchligi yo'lidagi xizmatimiz faqat jismoniy mehnatgina emas, balki aqliy salohiyat ham boy bo'lishi kerak. Yurtimiz tinchligi uchun qanchadan-qancha insonlar jon fido qilishgan. Masalan, Sohibqiron Amir Temur , Shiroq, Jaloliddin Manguberdi, Bobur Mirzo kabi sarkardalar , ayol kishi bo'lishiga qaramay To'maris ham jangu-jadallar kezgan. Hattoki, oddiy laylaklar ham "ezgulik elchilari" deb ta'riflanadi. Ular Mustaqillik maydonida "ezgulik arkasi"ni bezab turibdi. Bizning yurtimizga "Jannatmakon diyor" deb ta'riflar berishadi. Tillarda, hattoki, dillarda ham uni madh etishadi. Mamlakatimizda milliy qadriyatlarni tiklash bo'yicha jiddiy tadbirlarning amalga oshirilayotganligi ma'naviyatimizning tiklanishida juda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Milliy qadriyatlarimizning tiklanayotganligini bugungi kunda jahon tan olmoqda.

Barkamol shaxsni tarbiyalashda milliy qadriyatlar va urf-odatlardan foydalanish bugungi kunda ta'lim-tarbiya jarayoni oldida turgan eng dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi. Shu boisdan ham mamlakatimizda yaratilgan bu betakror an'ana va marosimlar, milliy qadriyatlar va urf-odatlarni o'rganish hamma davrlarda ham olimlar oldiga bir qator muhim vazifalarni bajarish zaruratini qo'ygan. Yoshlarga milliy qadriyatlarni ta'limdan tashqari ishlar orqali singdirishning asosiy vazifalari sifatida quyidagilarga e'tibor qaratilishi lozim:

- Yosh avlodning fikrlash doirasini kengaytirish, ularga so'z erkinligini berish, fikrlarini eshitish , hayotda nimaga erishmoqchi ekanligini aniqlashga yordam berish;
- Yoshlani milliy, umuminsoniy qadriyatlar, Vatanimizning boy ma'naviy merosi bilan tanishtirish, madaniy hamda dunyoviy bilimlarni egallashga bo'lgan talablarini shakllantirish;
- Insonparvarlik ruhida tarbiyalash, yoshlarimizning ma'naviy yetuk bo'lib tarbiyalanishida oila bilan bir qatorda mahallaning ham o'rni borligini anglash.

Mahalla azaliy urf-odatlar, udumlar, an'analarga tayangan holda ulkan ma'naviy tarbiya vazifasini bajaradi. Keksalarning pand-nasihatlari, kattalarning shaxsiy ibrati, jamoaning hamjihatligi orqali odamlar ongiga ezgulik g'oyalari singdirib boriladi. Har bir kishi qalbida milliy qadriyatlar, mehr-oqibat, hamjihatlik, insoniylik, el-yurt sha'ni uchun kurash, o'zaro yordam kabi fazilatlarni tarkib topishida mahallaning o'rni beqiyosdir. Hozirgi kunda, yoshlarni Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash uchun ham juda ko'p ishlar amalga oshirilmoqda. Masalan, maktab davridanoq "Vatan tuyg'usi" fani o'quvchilarga o'qitiladi. O'quvchilarni Vatanga bo'lgan muhabbati, hurmati, umidi kabi tuyg'ularini rivojlantirishga hissa qo'shish uchun, albatta.

Bundan tashqari, " Shu aziz Vatan barchamizniki", "Muqaddas Vatan", "Eng ulug', eng aziz" tanlovlari o'tkazilmoqda. Bu tanlovlar, yoshlarning Vatanga bo'lgan muhabbatlarini oshiradi. Universitetlarda talabayoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, Vatan ravnaqiga dahldorlik hissasini oshirish va ularni muvaffaqiyatlar sari boshlash maqsadida turli ma‘naviy-ma‘rifiy tadbirlar o‘tkazib kelinmoqda.

XULOSA

Vatanparvarlik Vatan so‘zi bilan chambarchas bog‘langan bo‘‘lib, Vatan, ana shu vatanparvarlikni paydo qiladi. Vatan so‘zi arabcha so‘z bo‘lib, “ona yurt” ma’nosini bildiradi. Bu tushunchani ikki-keng va tor ma’nolarda tushunish mumkin. Kishi tug‘ilib o‘sgan uy, mahalla, qishloq nazarda tutilsa, bu tor ma’noda tushunishdir. Agar, bir xalq vakillari doimiy holda yashagan, ularning ajdodlari azal-azaldan istiqomat qilgan hudud nazarda tutilsa, u keng ma’noda tushuniladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Sh.M.Mirziyoyev, Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. Mazkur kitobdan O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2016 yil 1 noyabrdan 24 noyabrga qadar Qoraqalpog’iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri saylovchilari vakillari bilan o’tkazilgan saylovoldi uchrashuvlarida so’zlagan nutqlari o’rin olgan. Toshkent: “O’zbekiston”, 2017. – 488 b.

2. B.M.Abdusattorov. “Yosh avlodni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash—xalqimiz tarbiyaviy an’analarining o‘ziga xos jihatlari sifatida”. 2023-yil 11-yanvar.

3. O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi konsitutsiyasi. 2023-yil, 1 -may.

4. Mahmudxon Muhriddinxon o‘g‘li Dovidxonov YOSHLARNI MILLIY QADRIYATLAR RUHIDA TARBIYALASHDA OILA, MAHALLA VA TA’LIM MUASSASALARINING ROLI // Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali. 2023. №17. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/yoshlarni-milliy-qadriyatlar-ruhida-tarbiyalashda-oilamahalla-va-ta-lim-muassasalarining-roli (дата обращения: 14.06.2023).

5. Orzumurod Odilovich Yusufaliyev YOSHLARNI MILLIY VA UMUMINSONIY QADRIYATLAR RUHIDA TARBIYALASH MEZONLARI // Academic research in educational sciences. 2021. №6. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/yoshlarni-milliy-va-umuminsoniy-qadriyatlarruhida-tarbiyalash-mezonlari (дата обращения: 14.06.2023).

6. https://oyina.uz/uz/article/1605

7. D.S.Umarqulova. “Yoshlarni umuminsoniy va milliy qadriyatlarga hurmat, vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash”. 2023-yil 11-iyul.

8. S.S.Ubaydullayev, R.D.Mustaev, N.Xasanov, N.N.Alinazarov. “Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash”. 2022-yil 15-dekabr.

9. Wikipediya.

10. Google schoolar.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 1-son)

IJTIMOIY FANLAR

SOCIAL STUDIES

DASHTDAN IMPERIYAGA. KESHIKLAR ORQALI CHINGIZXONNING YANGI TIZIMI.

Rahmonov Abdulloh
O‘zbekiston Milliy universiteti
tarix yo‘nalishi magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqola Chingizxon tomonidan yaratilgan keshiklar institutining siyosiy, ijtimoiy va harbiy tizimdagi o‘rnini tahlil qiladi. Keshiklar nafaqat Chingizxonning shaxsiy qo‘riqchilari, balki yangi meritokratik boshqaruv tizimining markaziy elementi sifatida faoliyat yuritgan. Qabilaviy tizimning zaif tomonlarini bartaraf etish, qabilaviy elita vakillarini jalb qilish va ularni yangi davlat manfaatlariga moslashtirish orqali Mo‘g‘ul davlati ichki barqarorlikni saqlab, hududiy kengayishda ulkan muvaffaqiyatlarga erishdi. Maqolada keshiklar instituti orqali davlatning iqtisodiy va siyosiy qudratini oshirish yondashuvlari keng yoritilgan.

Kalit so‘zlar Chingizxon, keshiklar instituti, meritokratiya, qabilaviy tizim, mo’g’ul davlati, harbiy-intizom, siyosiy barqarorlik, hududiy ekspansiya, qabilaviy elita, davlat boshqaruvi, kadrlar tayyorlash.

FROM THE STEPPE TO THE EMPIRE. CHINGGIS KHAN'S NEW SYSTEM THROUGH KESHIK.

This article analyzes the role of the Keshik institution established by Genghis Khan in the political, social, and military systems. The Keshiks were not merely personal guards but a central element of a new meritocratic governance model. By eliminating the weaknesses of the tribal system, integrating tribal elites, and aligning them with the interests of the new state, the Mongol Empire achieved internal stability and significant success in territorial expansion. The article highlights the approaches used to enhance the economic and political power of the state through the Keshik institution.

Keywords. Genghis Khan, institution of guards, meritocracy, tribal system, Mongolian state, military discipline, political stability, territorial expansion, tribal elite, state administration, personnel training.

ОТ СТЕПИ К ИМПЕРИИ. НОВАЯ СИСТЕМА ЧИНГИСХАНА ЧЕРЕЗ КЕШИК.

Данная статья анализирует роль института кешиков, созданного Чингисханом, в политической, социальной и военной системах. Кешики были не просто личной гвардией, но и центральным элементом новой меритократической модели управления. Устранение слабых сторон племенной системы, привлечение племенной элиты и их интеграция в интересы нового государства обеспечили Монгольской империи внутреннюю стабильность и значительные успехи в территориальной экспансии. В статье подробно рассматриваются подходы к усилению экономической и политической мощи государства через институт кешиков.

Ключевые слова Чингисхан, дозорный институт, меритократия, родовой строй, монгольское государство, военная дисциплина, политическая стабильность, территориальная экспансия, племенная элита, государственное управление, подготовка кадров.

Kirish.

Tarix sahifalarida chuqur iz qoldirgan buyuk hukmdorlardan biri – Chingizxon davlat boshqaruvi tizimini shakllantirishda o‘z davriga xos bo‘lmagan innovatsion yondashuvlarni qo‘llaganligi bilan ajralib turadi. Uning yaratgan imperiyasi nafaqat hududiy kengayish, balki ijtimoiy va siyosiy barqarorlikni ta’minlovchi o‘ziga xos boshqaruv tizimi bilan ham mashhurdir. Ushbu tizimning markazida esa keshiklar instituti yotadi – bu nafaqat Chingizxonning shaxsiy qo‘riqchilari, balki davlatning harbiy va siyosiy barqarorligi uchun tayanch bo‘lgan noyob tuzilma edi. Keshiklar instituti Chingizxonning davlat boshqaruvini yangicha yo‘nalishga burib yubordi. Dashtlarning eski qabilaviy tizimlaridan farqli o‘laroq, bu institut meritokratiya tamoyillari asosida shakllantirildi. Keshiklar safiga tanlangan shaxslar, kelib chiqishidan qa‘’i nazar, o‘z iste‘dodi va mehnati orqali davlat tizimining yuqori qatlamlariga ko‘tarilish imkoniyatiga ega edi. Shu bilan birga, keshiklar orqali Chingizxon o‘z davlatining ijtimoiy, iqtisodiy va harbiy tashkilotini mustahkamlashga erishdi. Keshiklar instituti yangi imperiyaviy tizimning timsoliga aylandi. Ular nafaqat Chingizxonning shaxsiy xavfsizligini ta‘minladi, balki yangi davlat tuzilishining asosiy ijtimoiy va harbiy tarkibiy qismi sifatida faoliyat yuritdi. Keshiklar yordamida eski qabilaviy an‘analar o‘z ahamiyatini yo‘qotdi, jamiyat esa harbiy-intizom asosida birlashgan yangi tuzilishga ega bo‘ldi. Natijada, keshiklar instituti Chingizxon imperiyasining barqarorligini ta’minlovchi muhim vositaga aylandi. Umumlashtirib aytganda, Chingizxonning keshiklar orqali amalga oshirgan islohotlari yangi davlat tuzilmasini shakllantirishda hal qiluvchi rol o‘ynadi. Bu institut nafaqat dashtlarda, balki butun Yevroosiyo mintaqasida yangi boshqaruv an‘analarining paydo bo‘lishiga yo‘l ochdi. Shu bois, keshiklar instituti tarixda Chingizxon davlatining harbiy va siyosiy qudratini aks ettiruvchi eng muhim ramzlardan biri bo‘lib qoldi.

Mazkur maqola Chingizxonning keshiklar instituti orqali amalga oshirgan ulkan islohotlari va ularning davlat boshqaruvidagi buyuk ahamiyatini yoritib berishni maqsad qiladi. Keshiklar nafaqat Chingizxon imperiyasining mustahkam poydevorini yaratgan, balki yangi

siyosiy va ijtimoiy tizimning asosiy qismiga aylangan. Maqola quyidagi muhim maqsadlarni ochib berishga qaratilgan:

1. Keshiklar – innovatsion siyosiy vosita: keshiklar instituti shunchaki Chingizxonning shaxsiy xavfsizligini ta’minlovchi gvardiya emas, balki qabilaviy tizimning o‘rnini bosuvchi va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlovchi noyob siyosiy instrument sifatida xizmat qilgan. Ushbu tizim orqali qabilalarning noroziligi yumshatilgan va davlat birligi mustahkamlangan.

2. Kadrlar tayyorlash maktabi: keshiklar davlat uchun eng iste‘dodli, sadoqatli va qobiliyatli kadrlardan iborat kuchli zaxira yaratdi. Bu institut davlat boshqaruvi uchun yuqori malakali rahbarlarni tayyorlashda muhim o‘rin tutdi, shu tariqa davlatning siyosiy va iqtisodiy samaradorligini oshirdi.

3. Hududiy barqarorlikni ta’minlash: keshiklar hududlarda markazlashmagan tarzda joylashtirilgan holda mahalliy boshqaruvni samarali nazorat qilishga imkon berdi. Bu orqali davlat qabilaviy elitalarning ta‘sirini saqlab qolgan holda ularni o‘z tizimiga integratsiya qila oldi.

4. Eski tizimni inqilobiy o‘zgartirish: chingizxon qabilalar yetakchilari farzandlarini keshiklar safiga kiritish orqali ularni qabilaviy aloqalardan ajratdi va yangi meritokratik ijtimoiy tizimni yaratdi. Bu nafaqat eski qabilaviy tizimning qulashiga olib keldi, balki yosh avlodni davlatning markazlashgan boshqaruviga sodiq qilib tarbiyaladi.

Chingizxonning keshiklar instituti orqali amalga oshirgan islohotlari zamonaviy boshqaruvning poydevorini tashkil etuvchi buyuk tarixiy tajribalardan biri hisoblanadi. Chingizxon davlatni birlashtirishda ijtimoiy barqarorlik va harbiy kuchni birlashtirgan boshqaruv tizimini yaratdi. Bu tajriba bugungi kunda davlat barqarorligini ta’minlashda muhim qoidalar sifatida xizmat qilishi mumkin. Meritokratik tamoyillar asosida rivojlanish: chingizxonning keshiklar orqali meritokratik boshqaruv tizimini joriy etishi davlatning harbiy qudrati va siyosiy samaradorligini oshirdi. Bu tamoyillar zamonaviy jamiyatlar uchun ham dolzarb bo‘lib qolmoqda.

Hududiy boshqaruvni yangilashdagi darslar: keshiklar instituti mahalliy hududlarda barqarorlikni saqlash va markaziy davlat bilan mahalliy boshqaruvni uyg‘unlashtirishning samarali modelini namoyish etdi.

- Tarixiy iz qoldirgan buyuk tajriba: chingizxonning keshiklar orqali amalga oshirgan islohotlari nafaqat Yevroosiyo hududidagi davlat boshqaruvini, balki global boshqaruv tamoyillariga ta’sir ko‘rsatgan.Ushbu maqola keshiklar institutining ahamiyatini ochib berish orqali nafaqat tarixiy bilimlarni boyitadi, balki boshqa ko‘chmanchi davlatlar boshqaruvini yanada yaxshiroq tushunishga yordam berishi mumkin.

Chingizxon tomonidan amalga oshirilgan islohotlar nafaqat o‘z davri uchun, balki butun tarix uchun inqilobiy bo‘lib, ulkan ijtimoiy va siyosiy o‘zgarishlarga zamin yaratdi. Uning davlat boshqaruv tizimi o‘zining o‘ziga xosligi, innovatsion yondashuvlari va uzoq muddatli ta‘siri bilan ajralib turadi. Ushbu tizimning eng muhim jihatlaridan biri qabilaviy tuzilmaning isloh qilinishi va uni yangi, barqaror harbiy-intizomiy tashkilotga aylantirish edi. Chingizxon

qabilaviy tizimning zaif tomonlarini inobatga olib, ularni bartaraf etish orqali yangi davlatning mustahkam asoslarini yaratdi. Chingizxon davlati boshqaruvi tizimini shakllantirishda qabilaviy tuzilmani isloh qilish muhim o‘rin tutgan. U qabilaviy tizimni nafaqat o‘zgartirdi, balki uni yangi harbiy-intizomiy tuzilma bilan almashtirdi. Ushbu yondashuv orqali Chingizxon eski qabilaviy tuzilmaning davlat barqarorligiga xavf soluvchi jihatlarini bartaraf qildi.

Qabilaviy tizimdan harbiy tizimga o‘tish: chingizxon davlati oldingi ko‘chmanchi davlat tuzilmalaridan sezilarli darajada farq qildi. U qabilalarning siyosiy va ijtimoiy funksiyalarini keskin chekladi, ularning ichki aloqalari va an’anaviy tuzilishini buzdi. Natijada, qabilalar o‘rniga harbiy-intizomiy asosga ega bo‘lgan “mingliklar” tizimi joriy etildi. Ushbu mingliklar tartib va intizomni ta‘minladi: Qabilaviy aloqalardan ajratilgan mingliklar faqat harbiy vazifalarni bajarishga mo‘ljallangan bo‘lib, bu ularga yuqori darajada intizom va samaradorlik berdi va bu esa o’z navbatida yagona davlatning poydevorini yaratdi: Mingliklar turli qabilalardan shakllantirilib, ularning o‘zaro bog‘lanishlari buzildi. Bu esa davlatni qabilaviy ichki ziddiyatlardan himoya qildi. Qabilaviy aloqalarning buzilishi va yangi tizimning joriy etilishi quyidagicha kechdi: Chingizxon qabilaviy tizimni isloh qilish orqali qabilaviy yetakchilarning kuchini chekladi va ularni markazlashgan davlatning ixtiyoriga bo‘ysundirdi. Bu jarayon quyidagi yo‘llar orqali amalga oshirildi.

-Mingliklar tizimi: Eski qabilaviy strukturani buzish uchun harbiy-intizomiy “mingliklar” tashkil qilindi. Ushbu mingliklar harbiy va ijtimoiy jihatdan davlatga to‘liq bo‘ysungan yangi birliklar edi.

-Qabilaviy chegaralarning yo‘q qilinishi: Mingliklar tarkibiga turli qabilalardan kishilar tanlab olingan, bu esa qabilalarning mustaqil ichki tizimlarini zaiflashtirdi.

-Meritokratiya tamoyillari: Qabilaviy an‘analarga asoslangan rahbarlik o‘rniga xizmatlari va qobiliyatlariga qarab rag‘batlantirish tizimi joriy etildi. Qabilaviy tuzilmaning isloh qilinishi natijasida Chingizxon imperiyasining markazlashgan boshqaruvi barpo etildi. Buni natijasi o‘laroq qabilalararo ziddiyatlar bartaraf etildi: Turli qabilalarning vakillari bitta tizim ostida birlashtirilib, ichki mojarolarning oldi olindi. Davlatning harbiy qudrati oshirildi: Harbiy birliklarga asoslangan boshqaruv tizimi davlatni tashqi dushmanlarga qarshi mustahkam qalqonga aylantirdi. Barqaror boshqaruv tizimi shakllandi: Harbiy va siyosiy funksiyalarni birlashtirgan yangi tizim davlatning uzoq muddatli barqarorligini ta‘minladi.

Chingizxon o‘z imperiyasini barpo etishda qabilaviy tizimning zaif tomonlarini anglab, ularni yangi boshqaruv tamoyillari orqali samarali boshqara olgan. Ushbu jarayonda eng muhim yondashuvlardan biri qabilaviy elita vakillarini, jumladan, qabila yetakchilarining farzandlarini keshiklar safiga kiritish edi. Bu faqat harbiy intizomni ta‘minlash bilan cheklanmay, qabilalarning davlatga qarshi bo‘lishi mumkin bo‘lgan noroziligini ham yumshatdi. Ushbu yoshlar keshiklar safiga qo‘shilish orqali o‘z qabilaviy ildizlaridan ajraldi va davlatning manfaatlariga xizmat qiluvchi yangi elita sifatida shakllandi. Keshiklar safidagi yoshlar nafaqat o‘z ota-onalaridan yuqori ijtimoiy maqomga ega bo‘ldi, balki kelgusida davlat tizimida yuksak lavozimlarga erishish imkoniyatiga ham ega bo‘ldi. Bu o‘z navbatida qabila yetakchilarining

davlat tizimiga sodiqligini ta‘minlashning samarali vositasiga aylandi. Qabilaviy elitani davlat xizmatiga jalb qilish orqali Chingizxon ulardan kelib chiqadigan potensial norozilik va isyonlarning oldini olishga muvaffaq bo‘ldi. Keshiklar orqali u qabilalarni siyosiy barqarorlikni saqlash uchun davlatning tarkibiy qismiga aylantirdi. Qabila yetakchilarining farzandlari davlatning markazlashgan tizimiga qo‘shilganidan so‘ng, ular va davlat o‘rtasida muhim ijtimoiy va siyosiy bog‘liqlik yuzaga keldi. Bu qabilalarning davlatga bo‘lgan sodiqligini oshirdi. Keshiklar turli qabilalar vakillaridan shakllantirilgani sababli, ular faqat bitta qabilaga emas, balki butun davlat manfaatlariga xizmat qiladigan tashkilotga aylantirildi. Bu davlatning ichki birlik va barqarorligini mustahkamladi. Qabila farzandlarini tanlashda meritokratiya tamoyillari qo‘llanilgan, ya‘ni yoshlarning iste‘dodi va qobiliyatiga qarab qabul qilingan. Bu esa qabilaviy elitalar uchun Chingizxon boshqaruviga nisbatan ishonchni oshirdi. Keshiklar orqali Chingizxon qabilalarning ichki kuchini buzmasdan, uni davlat tizimiga moslashtira oldi. Bu qabilaviy noroziliklarni bartaraf etishda samarali vosita bo‘ldi. Qabilalarning rahbarlari o‘z farzandlarining yangi maqom va imkoniyatlariga ega bo‘lganligini ko‘rib, Chingizxon boshqaruviga qarshi chiqishga ehtiyoj sezmay qoldi. Keshiklar tarkibiga kirgan yoshlar davlatning yangi meritokratik elitasiga aylandi. Ular nafaqat harbiy, balki siyosiy va iqtisodiy jihatdan davlatni boshqaruvchi asosiy kuchga aylanishdi. Chingizxon tomonidan yaratilgan keshiklar instituti yangi davlat tuzilishining nafaqat markaziy elementi, balki uning ijtimoiy va siyosiy barqarorligining tayanchi bo‘ldi. Ushbu institut qabilaviy tizimning zaif tomonlarini bartaraf etish va yangi meritokratik boshqaruvni shakllantirish orqali davlatni ichki nizolardan himoya qilishda muhim rol o‘ynadi. Keshiklar nafaqat harbiy-intizomiy tashkilot, balki davlatning boshqaruv apparati uchun kadrlar tayyorlovchi innovatsion markaz sifatida ham xizmat qildi. Keshiklar davlatning harbiy va siyosiy tizimidagi o‘rni bilan ajralib turardi. Ular nafaqat jangovar safarbarlikda ishtirok etgan, balki davlatning ichki boshqaruv jarayonlarida ham hal qiluvchi rol o‘ynagan: Keshiklar harbiy tizimning asosiy tarkibiy qismi sifatida davlat xavfsizligini ta’minlashda va tashqi yurishlarni amalga oshirishda asosiy kuch sifatida namoyon bo‘ldi. Ularning intizomi va sadoqati davlat qudratini oshirishda muhim omil bo‘ldi. Ular: davlatning barcha hududlarida Chingizxon qonunlari va intizomini ta‘minlagan; markaziy hokimiyatning qabilaviy elitalar ustidan nazoratini kuchaytirgan; davlatning ichki va tashqi siyosatini barqarorlashtirishga xizmat qilgan.

Chingizxon davlatining muvaffaqiyatini ta‘minlashda keshiklarni tashkil etish tamoyillari asosiy o‘rinni egalladi. Bu institut, nafaqat shaxsiy qo‘riqchilik vositasi sifatida, balki davlat boshqaruvi va harbiy tizimning mustahkam poydevori sifatida shakllantirilgan. Keshiklarning muvaffaqiyati ularni tashkil qilishda qo‘llanilgan qat‘iy tamoyillarga bog‘liq edi. Keshiklar tarkibi Chingizxonning harbiy va siyosiy strategiyasi doirasida mohirona tashkil etildi. Bu tizimning asosiy tamoyillaridan biri harbiy xizmatni davlatning eng sharafli va dolzarb vazifasi sifatida belgilash edi. Keshiklarning shakllanishida yoshlar va qabilaviy elita vakillarini tanlash jarayoni maxsus yondashuvga asoslangan edi. Keshiklarni shakllantirish jarayonida Chingizxon qat‘iy va aniq tartiblarni belgilagan bo‘lib, Qabilaviy elita vakillarining farzandlari keshiklar

safiga qabul qilinar ekan, ular o‘zlari bilan ma’lum miqdorda yordamchilarni ham olib kelishlari talab etilgan. Bu nafaqat keshiklar tarkibini kengaytirish, balki ularning turli darajadagi boshqaruv rollarini ta‘minlashga ham xizmat qilgan. Mingboshi farzandlari xizmatga har biri 10 ta yordamchi va bir ukasi bilan kelishi shart edi. Bu ularga boshqaruv tajribasini oshirish va jamoaviy intizomni mustahkamlash imkonini yaratdi. Yuzboshi farzandlari keshiklar safiga 5 ta yordamchi va bir ukasi bilan qo‘shilishi lozim edi. Bu o‘rtacha miqyosdagi guruhni boshqarish mas‘uliyatini o‘z zimmasiga olgan shaxslarni tarbiyalash uchun muhim edi. O‘nboshilarning farzandlari esa har biri 3 ta yordamchi va bir ukasi bilan xizmatga kelgan. Bu esa kichik guruhlarni boshqarish va ularda yetakchilik qobiliyatini rivojlantirishga yo‘naltirilgan edi. Ushbu tizim, faqat yoshlarning o‘zlarini emas, balki ularga ishonchli yordamchilarni olib kelish orqali keshiklar tarkibini boyitdi. Bu yondashuv orqali yetakchilik ko‘nikmalari rivojlantirildi: Keshiklar safiga kirgan yoshlar nafaqat davlatga xizmat qilish, balki jamoaviy boshqaruvda ishtirok etish imkoniyatiga ega bo‘ldi. Meritokratik tizim tufayli keshiklar nafaqat harbiy xizmatda, balki davlatning siyosiy va iqtisodiy boshqaruv jarayonlarida ham muhim rol o‘ynadi. Umumlashtirib aytganda Keshiklar harbiy tamoyillar asosida tashkil etilganligi tufayli Mo‘g‘ul davlati tezkor va samarali yurishlarni amalga oshirish imkoniga ega bo‘lib. Ularning ekspansiyaga ta‘siri ham sezilarli darajada bo‘ldi.

Xulosa.

Chingizxon tomonidan yaratilgan keshiklar instituti Mo‘g‘ul imperiyasining siyosiy, harbiy va iqtisodiy muvaffaqiyatlarini ta‘minlagan asosiy poydevor bo‘ldi. Ushbu institut o‘zining noyob tashkiloti, qat‘iy tamoyillari va keng qamrovli ta‘siri bilan Chingizxon davlatining ichki barqarorligi va tashqi qudratini mustahkamladi. Keshiklar instituti faqat shaxsiy qo‘riqchi bo‘lib qolmadi, balki davlat boshqaruvi va harbiy-intizomiy tizimning markaziy qismiga aylanish orqali buyuk imperiyaviy an‘analarni yaratdi. Chingizxonning keshiklar instituti orqali qabilaviy tizimning zaif tomonlarini bartaraf etib, ularni yangi meritokratik boshqaruv tizimi bilan almashtirgani, o‘z davrining eng ulkan siyosiy islohotlaridan biri hisoblanadi. Bu institut qabilalararo ziddiyatlarni bartaraf etish, noroziliklarni yumshatish va yangi ijtimoiy qatlamni shakllantirish orqali davlatni birlashtirishga xizmat qildi. Ayniqsa, qabila yetakchilarining farzandlarini keshiklar tarkibiga qabul qilish orqali Chingizxon ularni eski qabilaviy tizimdan ajratib, davlat manfaatlariga xizmat qiluvchi sadoqatli elita sifatida tarbiyaladi. Bu yondashuv davlatning ichki barqarorligini ta’minlashda ulkan natijalar berdi. Keshiklarni tashkil qilishda qat‘iy tamoyillarga amal qilingani institutning samaradorligini yanada oshirdi. Mingboshilar, yuzboshilar va o‘nboshilar farzandlarini ma‘lum miqdorda yordamchilar bilan xizmatga jalb qilish orqali boshqaruv qobiliyatlari rivojlantirildi. Xulosa qilib aytganda, keshiklar instituti Chingizxon davlatining ichki barqarorligi va tashqi muvaffaqiyatlari uchun ajralmas bo‘g‘in bo‘lib xizmat qildi. Ushbu institutning tashkil etilishi va faoliyati, nafaqat harbiy intizom va siyosiy sadoqatni ta’minladi, balki mo‘g‘ul davlatini dunyodagi eng buyuk imperiyalardan biriga aylantirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘ldi.

Keshiklar instituti Chingizxonning davlat boshqaruvidagi innovatsion yondashuvlari va uzoqni ko‘ra biladigan strategik fikrlashining yorqin timsolidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.

1.Rashid ad-Din. Jome' ut-tavorix. – Toshkent: Sharq, 1999. – 512 b.

2. Владимирцов, Б. Я. Общественный строй монголов. – Москва: Наука, 1934. – 356 с.

3. Крадин, Н. Н. Кочевые общества. – Москва: Логос, 1992. – 240 с.

4. Майер, Г. Чингисхан и его наследники. – Санкт-Петербург: Лань, 2001. – 292 с.

5. Храпачевский, Р. П. Военное дело монголов эпохи Чингисхана. – Москва: Восточная литература, 2002. – 384 с.

6. Weatherford, J. Genghis Khan and the Making of the Modern World. – New York: Crown, 2004. – 352 p.

7. De Hartog, L. Genghis Khan: Conqueror of the World. – New York: St. Martin's Press, 1989. – 256 p.

8. Акимбеков С. История степей: феномен государства Чингисхана в истории Евразии. 2-е изд., исправл. и доп. — Алматы: Дәуір, 2016. — 914 б.
9. 1. May, Timothy. The Mongol Art of War: Chinggis Khan and the Mongol Military System. Barnsley: Pen & Sword Books, 2007. — 208 p.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 1-son)

IJTIMOIY FANLAR

SOCIAL STUDIES

O‘ZBEKISTON VA OZARBAYJONNING TURK DAVLATLARI TASHKILOTIDAGI FAOLIYATI: UMUMIY MAQSADLAR VA STRATEGIK HAMKORLIK

Jovhar Museyibzada
Tayanch doktorant va bosh mutaxassis
Farg‘ona davlat universiteti
jovharmuseyibzada@pf.fdu.uz
+998991277112
ORCID: 0009-0001-6059-2613

Annotatsiya: Ushbu maqola O‘zbekiston va Ozarbayjonning Turkiy Davlatlar Tashkilotiga (TDT) qo‘shilishining tarixiy ahamiyatini va kontekstini o‘rganadi. 2009 yilda tashkil etilgan TDT, turkiyzabon davlatlar o‘rtasida siyosiy, iqtisodiy va madaniy sohalarda hamkorlikni rivojlantirishni maqsad qiladi. O‘zbekiston 2019 yilda tashkilotga qo‘shilib, turkiy xalqlar o‘rtasidagi hamkorlikni mustahkamladi. Maqolada O‘zbekiston va Ozarbayjonning TDT maqsadlarini ilgari surishdagi roli tahlil qilinib, ularning faoliyatining mintaqaviy integratsiya uchun ahamiyati o‘rganilgan. Natijada, turkiyzabon davlatlar o‘rtasida siyosiy va iqtisodiy birlashishni kuchaytirishda TDT muhim omil deb topilgan.

Kalit so‘zlar: Turkiy Davlatlar Tashkiloti, O‘zbekiston, Ozarbayjon, Mintaqaviy Hamkorlik, Turkiy Dunyo

UZBEKISTAN AND AZERBAIJAN IN THE ORGANIZATION OF TURKIC STATES: SHARED GOALS AND STRATEGIC COOPERATION

Abstract: This paper examines the historical context and significance of Uzbekistan and Azerbaijan’s participation in the Organization of Turkic States (OTS). The OTS, formed in 2009, aims to foster cooperation among Turkic-speaking countries across a range of political, economic, and cultural areas. Uzbekistan rejoined the organization in 2019, strengthening the collaboration between the Turkic nations. The paper analyzes the role of Uzbekistan and Azerbaijan in advancing OTS objectives and explores the implications of their cooperation for regional integration and international influence. The findings highlight the strategic importance of the OTS in enhancing the political and economic cohesion of Turkic-speaking countries.

Key words: Organization of Turkic States; Uzbekistan; Azerbaijan; Regional Cooperation; Turkic World

УЗБЕКИСТАН И АЗЕРБАЙДЖАН В ОРГАНИЗАЦИИ ТЮРКСКИХ ГОСУДАРСТВ: ОБЩИЕ ЦЕЛИ И СТРАТЕГИЧЕСКОЕ СОТРУДНИЧЕСТВО

Аннотация: Статья исследует исторический контекст и значение участия Узбекистана и Азербайджана в Организации тюркских государств (ОТГ). ОТГ, основанная в 2009 году, направлена на развитие сотрудничества между тюркоязычными странами в различных политических, экономических и культурных сферах. Участие Узбекистана в организации, возобновленное в 2019 году, укрепило сотрудничество между тюркскими государствами. В статье анализируется роль Узбекистана и Азербайджана в продвижении целей ОТГ и рассматриваются последствия их сотрудничества для региональной интеграции и международного влияния. Результаты подчеркивают стратегическое значение ОТГ для усиления политической и экономической сплоченности тюркоязычных стран.

Ключевые слова: Организация тюркских государств, Узбекистан, Азербайджан, Региональное сотрудничество, Тюркский мир

INTRODUCTION

The Organization of Turkic States (OTS), known as the Cooperation Council of Turkic Speaking States or Turkic Council until November 2021, was established in 2009 as an intergovernmental organization with the main objective of fostering comprehensive cooperation among Turkic-speaking countries. The Turkic Council was created based on the Nakhchivan Agreement signed during a summit held in Nakhchivan, Azerbaijan, in October 2009.

The organization tries to achieve cooperation among Turkic-speaking countries in various areas. Efforts are being made “to strengthen mutual confidence, friendship and good neighborhood among the Parties; maintain peace, strengthen security and confidence in the region and in the world as a whole; [the most importantly] search for common positions on foreign policy issues of mutual interest, including those in the framework of international organizations and at international fora; … promote effective regional and bilateral cooperation in political, trade and economic, law enforcement, environmental, cultural, scientific-technical, military-technical, educational, energy, transportation, credit and finance areas and other areas of common interest… [6]”

Extensive cooperation across multiple fields within the OTS is reflected in various summits and initiatives. At the 10th Anniversary Summit in Astana, in November 2023, under the theme “TURKTIME” the organization put forward a unified vision for the Turkic World, with its guiding principles being encoded using the initial letters of ‘Traditions, Unification, Reforms, Knowledge, Trust, Investment, Mediation, and Energy [7]’. The “Turkic World Vision – 2040” document sets long-term goals for enhanced political, economic, and social cooperation, solidarity and integration, ensuring the region’s prosperity through shared projects, intellectual resources, and intergovernmental support [11].

Founding members of the OTS are Azerbaijan, Kazakhstan, Kyrgyzstan, and Türkiye. Relations of these countries go beyond political and economic cooperation and are determined by shared roots, religion, history, culture, and values [4]. To achieve abovementioned objectives, the organization operates related/affiliated organizations such as TURKSOY, Turkic Academy, TURKPA (Parliamentary Assembly), Turkic Culture and Heritage Foundation, the Union of Turkic Chamber of Commerce and Industry. For instance, TURKSOY engages in various activities, including implementing joint programs and projects to encompass cooperation in the fields of science and education; preserving, researching and popularizing shared cultural values; and promoting cultural exchanges to deepen ties amongst the Turkic Speaking people.

RESULTS: THE ROLE AND CONTRIBUTIONS OF UZBEKISTAN AND AZERBAIJAN

The Organization of Turkic States is built on strong and unique foundations that set it apart from many other international organizations. Javanshir Feyziyev, member of the National Assembly of Azerbaijan, in his book draws comparison between European Union – one of the most robust organizations with supranational elements. He argues that Europe has been primarily united by the stimulus to prevent future conflicts, while the OTS emerges from a deep-rooted ethno-political and cultural unity among Turkic nations. This unity is capable of fostering a powerful alliance and ‘political will’, one that may even surpass the cohesion seen in other international unions, positioning the OTS as a significant force, with the potential to drive globalization through internal integration [12].

Actually, the history of the OTS begins in the early 1990s. The meeting of Heads of Turkic Speaking States in Ankara in 1992, which brought together leaders from Azerbaijan, Kazakhstan, Kyrgyzstan, Turkmenistan, Uzbekistan, and Türkiye, is considered the inaugural summit and marked the beginning of multilateral cooperation among newly independent Turkic states. Subsequent summits were held in cities like Istanbul (in 1994), Bishkek (in 1995), and Tashkent (in 1996). The Tashkent Summit in 1996, hosted by Uzbekistan, was a key milestone where leaders emphasized the importance of regular multilateral consultations and the creation of a permanent Secretariat, which was later formally decided to be based in Türkiye following the Baku Summit in 2000.

However, in the first decade of 21st century, under President Islam Karimov, Uzbekistan’s participation in the format of Turkic cooperation became more restrained, as the country adopted a cautious and inward-looking policies, causing it to disengage from many subsequent summits and initiatives. Despite being active and playing decisive role in the early stages of the organization’s formation, Uzbekistan’s withdrawal later slowed down the process of establishing the Secretariat, thereby the organization itself [8].

Institutionalization of the OTS, in 2009, was “overshadowed by the absence of Uzbekistan [3]” when leaders from Türkiye, Azerbaijan, Kazakhstan, and Kyrgyzstan met in Nakhchivan to formalize the organization. Uzbekistan’s shift in foreign policy came under President Shavkat

Mirziyoyev, who signaled the country’s renewed interest in the OTS. In September 2019, Uzbekistan ratified the Nakhchivan Agreement, marking its formal accession to the organization. This came after several diplomatic engagements, including Mirziyoyev’s participation as a guest of honor for the first time at the 2018 summit, receiving official invitation from the council and subsequent meetings with OTS officials [2]. In October 2019, Uzbekistan officially joined the OTS as a full member during the 7th summit in Baku, ushering in a new era of mutual cooperation and integration among Turkic-speaking states, and enhancing the international prestige of the organization.

Uzbekistan and Azerbaijan share a strong determination to advance the goals of the Organization of Turkic States. President Shavkat Mirziyoyev of Uzbekistan has highlighted the growing importance of the Turkic world in the evolving global order, underscoring the shared heritage and close views of OTS member states on key issues, which create opportunities for integration and cooperation in regions spanning Central Asia, the Caucasus, the Middle East, and Europe [9].

Azerbaijani leadership has long promoted the unification of Turkic states. Ilham Aliyev stated that their collective economic potential will enhance political influence and establish the region as a central power also adding that “the stronger our unity, the more successfully each individual country will be able to defend its national interests [12].” As an example step to this unity was the celebration of Azerbaijan’s victory in the “44-day Patriotic War,” in the 2021 Istanbul Summit, with OTS members offering their unwavering support at the political level for Azerbaijan’s efforts to liberate its territories and committing to assist in post-conflict reconstruction [1].

Institutionalization and structuralization of political and economic relations among Turkic-speaking states have been a priority in Azerbaijan’s foreign policy. Therefore, Azerbaijan already hosts some OTS agencies, while Uzbekistan’s active participation will likely lead to it hosting related institutions in the future, further cementing its commitment to the organization and strengthening “the international authority and status of the country as one of the centers of the Turkic-Islamic civilization [5].”

CONCLUSION

Uzbekistan and Azerbaijan have evolved into active contributors in the Organization of Turkic States. Uzbekistan’s re-engagement, beginning in 2018 under President Mirziyoyev, marked a turning point for the OTS, enhancing its cohesion and regional influence. The shared cultural, political, and economic values between the two countries have fostered stronger cooperation, positioning the OTS as a significant force in regional and global politics.

The future of the Organization of Turkic States lies in the continued integration of its members, particularly with Uzbekistan’s full membership. The organization’s potential to drive regional development and influence international affairs grows as its political and economic framework solidifies. By capitalizing on the mutual interests of its member states, the OTS can significantly shape the geopolitical landscape of the region.

BIBLIOGRAPHY

1. “Declaration of the Eighth Summit of the Organization of Turkic States.” (2021). Organization of Turkic States. https://www.turkicstates.org/en/temel-belgeler.

2. “Declaration of the Sixth Summit of the Cooperation Council of Turkic Speaking States.” (2018). Organization of Turkic States. https://www.turkicstates.org/en/temel-belgeler.

3. Fazendeiro, Bernardo Teles. (2018). *Uzbekistan’s Foreign Policy: The Struggle for Recognition and Self-Reliance under Karimov*. 1st ed. Routledge Advances in Central Asian Studies. Routledge.

4. Habibbeyli, Arastu. (2017). “Reconsidering Azerbaijan’s Foreign Policy on the 25th Anniversary of Restored Independence.” *PERCEPTIONS: Journal of International Affairs* 22, no. 1, 29–48.

5. Kadyrov, Alisher. (2020) “Key Foreign Policy Priorities of a Renewed Uzbekistan.” *Institute for Strategic and Regional Studies under the President of the Republic of Uzbekistan*. https://isrs.uz/en/maqolalar/klucevye-prioritety-vnesnej-politiki-obnovlennogo-uzbekistana.

6. “Nakhchivan Agreement On the Establishment of the Cooperation Council of Turkic Speaking States.” (2009). https://lex.uz/docs/4985638.

7. Omuraliev, Kubanychbek. (2023). “Turkic Unity in Action: Unveiling a Decade of Achievements.” *Hürriyet Daily News*. https://www.hurriyetdailynews.com/turkic-unity-in-action-unveiling-a-decade-of-achievements-188076.

8. Organizations of Turkic States. “Presidential Summits.” (2025). https://www.turkicstates.org/en/presidental-summits.

9. President of the Republic of Uzbekistan. (2023). “Президент Узбекистан выступил с важными инициативами на саммите ОТГ.” Official. https://president.uz/ru/lists/view/6832.

10. The Government portal of the Republic of Uzbekistan. (2019). “New Opportunities for Integration and Cooperation.” Official. https://old.gov.uz/en/news/view/24569.

11. “Turkic World Vision 2040.” (2021). https://www.turkicstates.org/en/news/turkic-world-vision-2040.

12. Фейзиев, Джаваншир. (2014). “Значение создания союзов в международной политике и международном праве.” In *Союз тюркских государств: Евразийская модель глобальной интеграции*.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 1-son)

IJTIMOIY FANLAR

SOCIAL STUDIES

ORCID ID: 0009-0002-8597-3356

AQSHDA BUYUK DEPRESSIYA DAVRIDA FRANKLIN DELANO RUZVELT TOMONIDAN O‘TKAZILGAN ISLOHOTLAR: YANGI KELISHUV DASTURI

Abdug‘aniyev Bekzod Abduvali o‘g‘li
Samarqand Davlat Tibbiyot Universiteti,
Ijtimoiy va gumanitar fanlar o‘qituvchisi
Email: abduganievbekzod2409@gmail.com

Annotatsiya 1933-yil mart oyida Franklin D. Ruzvelt AQSh Prezidenti lavozimiga kelganida, mamlakat tarixidagi eng og‘ir iqtisodiy inqiroz davrini boshdan kechirayotgan edi. Bank tizimi inqirozi, qishloq xo‘jaligidagi nomutanosiblik va iqtisodiy barqarorlikning izdan chiqishi favqulodda chora-tadbirlarni talab qilardi. Ruzvelt o‘zining “Yangi kelishuv” dasturi orqali iqtisodiyotni tiklash, bank tizimiga ishonchni qayta tiklash va qishloq xo‘jaligi hamda sanoat sohalarini isloh qilishni maqsad qildi.

Kalit so‘zlar: Tarixiy-tahliliy , Taqqoslash (komparativ) ,Huquqiy tahlil, Sistemali yondashuv, Statistik tahlil, Empirik metod.

Kirish Ruzveltning dastlabki yuz kunida amalga oshirilgan islohotlar bank inqirozini jilovlash, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini barqarorlashtirish va sanoat sohalarida adolatli raqobat sharoitlarini yaratishga qaratilgan edi. "Favqulodda banklar to‘g‘risidagi qonun" bank tizimini barqarorlashtirishga yordam berdi, "Qishloq xo‘jaligini o‘zgartirish to‘g‘risidagi qonun" narxlar muvozanatini ta'minladi, va "Sanoatni tiklash to‘g‘risida"gi qonun sanoat ishlab chiqarishini jonlantirish uchun tartib-qoidalarni belgilab berdi. Shuningdek, Tennessi vodiysi ma'muriyati (TVM) mintaqaviy iqtisodiy rivojlanishga katta hissa qo‘shdi.

Muhokama: Ruzvelt boshqaruvi davrida amalga oshirilgan dasturlar qisqa muddatda iqtisodiyotni tiklash va uzoq muddatli barqarorlikni ta'minlash uchun mo‘ljallangan edi. Bank tizimining isloh qilinishi aholining banklarga bo‘lgan ishonchini tikladi, qishloq xo‘jaligiga kiritilgan subsidiyalar fermerlarning iqtisodiy ahvolini yaxshiladi, va sanoatdagi yangi kodekslar ishchilar huquqlarini himoya qildi. Biroq, ba'zi qonunlar, masalan, Frazier-Lemke qonuni, konstitutsiyaviy muammolarga duch keldi va sud tomonidan bekor qilindi. Shuningdek, Tennessi vodiysi ma'muriyatining faoliyati ham konstitutsiyaviy jihatdan bahsli edi. Biroq, bu islohotlarning umumiy samarasini inkor etib bo‘lmaydi.

Franklin D. Ruzvelt 1933 yil mart oyida Prezidentlik lavozimga keldi. U bir vaqtlar shtatlarning huquqlarini himoya qiluvchi demokrat bo‘lgan va ba'zida federal hokimiyatning o‘sishini "Konstitutsiyamiz sxemasi va maqsadiga zid" deb qoralagan edi. Biroq, u o‘zining inauguratsiya nutqida Konstitutsiyaning moslashuvchan talqiniga va mavjud favqulodda vaziyatni hal qilish uchun mos keladigan federal dasturning qonuniyligiga ishonishini aytib o‘tdi. D.Ruzvelt darhol Kongressda bank, moliya, mehnat, qishloq xo‘jaligi va ishlab chiqarishda misli ko‘rilmagan nazoratni o‘rnatuvchi favqulodda qonunchilikni isloh qilish bo‘yicha keng qamrovli dasturni boshladi. Ushbu dasturning asosiy qismi 1933 yil 4 martdan keyin "yuz kun" davrida kerakli tartiblar bilan qonuniylashtirildi. [2] Ruzvelt lavozimga kirgan paytda, butun bank tuzilmasini to‘liq qulashiga olib kelaoladigan darajada bank inqirozlari to‘lqini butun mamlakatni qamrab olgandi, mamlakatdagi oltin eksporti va valyuta tizimidagi barqarorlik mamlakat iqtisodiy tizimiga katta putur yetkazayotgandi. Ushbu vaziyatni bartaraf etish uchun Prezident zudlik bilan mamlakatdagi barcha banklarni yopib, vaqtinchalik "bank ta'tili" e'lon qildi.[1]Shuningdek, mamlakatdagi oltin eksporti va valyuta operatsiyalari to‘xtatildi. D.Ruzvelt bu tadbirlarni 1917-yildagi “Dushman bilan savdo qilish to‘g‘risida”gi qonunning ayrim qoidalariga ko‘ra, lekin shubhali qonuniy vakolatlar bilan amalga oshirdi. 1917-yilda qabul qilingan bu aktga ko‘ra, amerikaliklarning birinchi jahon urushi davrida dushman mamlakat aholisi bilan har qanday savdo-sotiq ishlarini ta’qiqlagan edi. Biroq 1933-yil 9-martda kuchga kirgan “Favqulodda banklar to‘g‘risida:gi qonun D.Ruzveltning bu harakatlarini qonuniylashtirdi. “Favqulodda banklar to‘g‘risida”gi qonunga ko‘ra ‘bank ta’tili” davrida vaqtinchalik yopib qo‘yilgan banklardan faqatgina moliyaviy qudratga ega bo‘lganlarigina qayta ochildi. Bu tadbir amerika xalqining inqiroz davrida banklarga pul qo‘yishdan qo‘rqish farazlarini yo‘qotdi. Shuningdek, barcha oltin konlari egalari o‘z vakolatlarini G‘azna departamentiga berishi va buning evaziga ularga bir xil miqdorda valyuta berilishi belgilandi. Bu tadbir orqali D.Ruzvelt mamlakatda g‘ayriqonuniy oltin eksportini oldini olmoqchi edi. 1934 yil 30 yanvardagi "Oltin zahiralari to‘g‘risida"gi qonunga ko‘ra, Prezident hech qanday holatda dollarning oltin tarkibini asl qiymatining 60 foizidan ko‘prog‘ini belgilamasligi kerakedi. Shunga ko‘ra, Prezident 31 yanvarda dollarning oltin miqdorini 15 5/21 gramm qilib belgilandi. Iqtisodiy inqiroz davrida mamlakatning muhim tarmoqlaridan biri bo‘lgan qishloq xo‘jaligida ham bir qancha islohotlar amalga oshirildi. Jumladan, 1933 yil 12 mayda qabul qilingan “Qishloq xo‘jaligini o‘zgartirish to‘g‘risida”gi qonun bo‘lib, uning muqaddimasida hukmron iqtisodiy inqiroz qisman qishloq xo‘jaligi narxlari va boshqa tovarlar narxlari o‘rtasidagi nomutanosiblik oqibati ekanligini e'lon qildi. Qonunning e'lon qilingan maqsadi qishloq xo‘jaligi narxlarini urushdan oldingi paritet darajasiga qaytarish edi. Bu fermerlar va federal hukumat o‘rtasida federal nafaqa to‘lovlari evaziga yettita asosiy qishloq xo‘jaligi mahsulotlari - bug‘doy, paxta, makkajo‘xori, guruch, tamaki, cho‘chqa va sut ekinlarini qisqartirish bo‘yicha kelishuvlar orqali amalga oshirilishi kerak edi. Imtiyozlarni to‘lash uchun mablag‘lar tovarni qayta ishlovchilardan undiriladigan aktsiz solig‘i bilan ta'minlanishi kerak edi. Soliq tovarning joriy o‘rtacha xo‘jalik narxi va uning "adolatli ayirboshlash" qiymati o‘rtasidagi farqga teng bo‘ladigan darajada bo‘lishi kerak edi, ikkinchisi esa tovarga bir xil qiymat beradigan narx 1909-1914-yillardagi kabi belgilanishi kerak edi. Qishloq xo‘jaligini tartibga solish to‘g‘risidagi qonunning alohida bo‘limi Federal er banklariga qishloq xo‘jaligi ipotekalarini olish huquqini berdi va Federal kredit komissiyasiga aktsiyadorlik er banklariga kreditlar berish huquqini berdi. Bundan tashqari, 1933-yil 16-

iyundagi “Fermer krediti to‘g‘risida”gi qonun Fermer krediti ma’muriyatiga o‘n ikkita “ishlab chiqarish krediti” korporatsiyasini tuzish huquqini berdi, ular ushbu qonunga muvofiq dehqon kooperativlariga mablag‘ kiritishlari kerak edi. Keyinchalik, 1934 yil 28 iyunda kuchga kirgan Frazier-Lemke qonuni bankrot bo‘lgan fermer xo‘jaliklarini garovga qo‘yuvchilarga ushbu qishloq xo‘jaligi mulkini olti yil davomida sotib olish yoki ijara haqini to‘lagan holda besh yil davomida barcha sud ishlarini to‘xtatishga ruxsat berdi. Besh yillik muddat o‘tgandan so‘ng, mulkning istalgan qismini sotib olish mumkin edi. Frazier-Lemke akti fermer xo‘jaliklariga iqtisodiy inqiroz davrida qo‘l ostidagi yerlarni saqlab qolish imkonini berdi. Frazier-Lemke qonuni qarzga botgan fermerlarga vaqtinchalik yordam berish uchun ishlab chiqilgan bo‘lsa-da, uning ta'siri biroz cheklangan edi. 1935 yilda AQSh Oliy sudi ushbu hujjatning ayrim qismlarini, xususan kreditorlarning qishloq xo‘jaligi yerlarini uzoq muddatga undirib olishiga to‘sqinlik qiluvchi qoidani konstitutsiyaga zid deb topdi. Sud qonun mulk huquqlarini himoya qiluvchi Beshinchi tuzatishni buzgan deb qaror qildi. Bu cheklovlarga qaramay, Frazier-Lemke qonuni Buyuk Depressiya davrida fermerlarga iqtisodiy yordam berish uchun qabul qilingan bir nechta chora-tadbirlardan biri bo‘lib, o‘sha paytdagi inqirozning qishloq xo‘jaligi sohasidagi ta’sirini kamaytirishga xizmat qilgan. Ehtimol, Prezident D.Ruzvelt boshqaruvi davridagi “yuz kunlik” davrda (1933-yil mart-iyun oylari) qabul qilingan Yangi kelishuv dasturidagi qonuni 1933 yil 16 iyunda qabul qilingan “Sanoatni tiklash to‘g‘risida”gi milliy qonundir.[4] Qonun bu sanoat tarmog‘ini mamlakat aholisining farovonligi ta’minlashda katta iqtisodiy salohiyatga ega ekanligi ta’kidlanib, sanoat tarmog‘ida federal tartibga solish zarurligini ko‘rsatib berdi. Bu akt sanoat tarmoqlarida “ adolatli raqobat “yaratish uchun xizmat qildi. Aktga ko‘ra , narxlar, ish soatlari, oylik maoshlar va boshqa savdo ishlari sanoat egalari tomonidan ishlab chiqilib, Prezidentga ma’qullash va tasdiqlash uchun yuborilishi kerak edi. Qizig‘i shundaki, qonun kuchiga ega bo‘lgan juda ko‘p kodekslarni ishlab chiqish vakolati nafaqat ijroiya hokimiyatiga, balki bir guruh shaxslarga ham berildi. Bundan tashqari, Kongress prezident va xususiy biznesga kodekslarni ishlab chiqishda rahbarlik qilish uchun deyarli hech qanday asosiy yo‘l-yo‘riqlar yoki standartlarni taqdim etmagan. Bunga qo‘shimcha ravishda, 1933 yil 18 mayda Tennessi Vodiysi Ma'muriyatini yaratish to‘g‘risidagi akt bundanda munozarali edi.[3]TVM. hukumat korporatsiyasi sifatida tashkil etilgan bo‘lib, uning uch kishidan iborat direktorlar kengashi Prezident tomonidan tayinlanishi kerak edi. Korporatsiya to‘g‘onlar, suv omborlari, elektr uzatish liniyalari va boshqa hududagi iqtisodiy obyektlarni boshqarish , Urush Departamenti uchun o‘g‘it va portlovchi moddalar yetkazib berish va ishlab chiqarish jarayonida foydalanilmagan resurslarni sotish huquqiga ega edi. Qonun haqiqatda Tennessi vodiysi mintaqasida suv toshqini nazorati, elektr energiyasini rivojlantirish, o‘rmonlarni qayta tiklash, qishloq xo‘jaligi va sanoatni rivojlantirishni o‘z ichiga olgan ulkan reabilitatsiya va rivojlanish dasturiga katta hissa qo‘shgan. Bu yerda asosiy narsa, TVM faoliyatining konstitutsiyaviy vakolatga ega ekanligi yoki ega emasligi munozarali edi. TVM mamlakat farovonligiga hissa qo‘sha oladigan bir necha loyihalar taqdim etdi. Jumladan, TVM hukumat va armiya uchun o‘q-dori ishlab chiqarishni va hududdagi daryoalar tizimini yaxshilashni taklif qildi va bu loyihalar inqiroz davrida mamlakatning umumiy farovonligiga hissa qo‘sha olgani uchun, TVM ning tashkil etilishini qonuniy deb hisoblash mumkin edi. D.Ruzvelt davrida amalga oshirilgan boshqa bir muhim qadamlaridan biri yangi mamlakat Konstitutsiyasiga yangi bir Konstitutsiyaviy tuzatish kiritish edi.. 1932 yilgi Demokratlar o‘n sakkizinchi tuzatishni bekor qilishni talab qildi va nomzod sifatida Ruzvelt ham bu loyihani qo‘llab-quvvatladi.

Kongress 1933 yil 20 fevralda shtatlarga quyidagi taklif qilingan tuzatishni taqdim etdi: 1-bo‘lim. Amerika Qo‘shma Shtatlari Konstitutsiyasiga o‘zgartirishning o‘n sakkizinchi moddasi o‘z kuchini yo‘qotgan deb topilsin. 2-bo‘lim. Qo‘shma Shtatlarning qonunlarini buzgan holda mast qiluvchi spirtli ichimliklarni yetkazib berish yoki ishlatish uchun Qo‘shma Shtatlarning har qanday shtatiga, hududiga yoki egaligiga olib kirish yoki olib kirish taqiqlanadi. 3-bo‘lim. Ushbu modda, Konstitutsiyada nazarda tutilganidek, Konstitutsiyaga Konventsiya tomonidan Konstitutsiyaga kiritilgan o‘zgartirish sifatida Kongress tomonidan shtatlarga taqdim etilgan kundan boshlab yetti yil ichida ratifikatsiya qilinmasa, o‘z kuchini yo‘qotadi. Taklif etilayotgan tuzatish Kongress tomonidan bir nechta shtatlardagi konventsiyalar tomonidan ratifikatsiya uchun taqdim etilgan birinchi tuzatish edi va tartib bir necha munozaralarga sabab bo‘lgandi. Garchi ko‘plab konstitutsiyaviy huquqshunoslar Kongress bir nechta shtat konventsiyalari yig‘ilish shartlarini belgilashi va tuzatishni ratifikatsiya qilishi kerak, deb ta'kidlagan bo‘lsa-da, Kongress bu maqsadda kiritilgan turli qonun loyihalarining birortasiga ham amal qilmadi, shuning uchun aniq protsedura alohida shtat masalasiga aylandi. Ayrim shtatlarda delegatlar keng ko‘lamda saylangandi; boshqalarda tuman tizimidan foydalanilgan. Aksariyat shtatlarda odamlar ratifikatsiyani yoqlab yoki qarshi chiqqan delegatlar uchun ovoz berdilar. Shuning uchun delegatlar qurultoyda juda kam bahslashdilar yoki umuman bahslashmadilar, faqat o‘zlari va'da qilganidek ovoz berishdi. Ratifikatsiya qilish tez sur'atda davom etdi va bu taklif 1933 yil 5 dekabrda yigirma birinchi tuzatish sifatida Konstitutsiyaning bir qismi deb e'lon qilindi. Bu qonun “Pivo akti” deb ataldi. 1933 yil 22 martda qonuniy kuchga kirgan ushbu tuzatish tarkibida 3,2 foizdan ko‘p bo‘lmagan alkogolli ichimliklar ishlab chiqarishga ruxsat berdi. Yangi kelishuv dasturining dastlabki kunlaridayoq Kongressdagi ijro etuvchi rahbarlikning qayta tiklangani kuzatildi. Shuningdek, bu davrda Ruzveltning shaxsiy obro‘si juda katta edi; Uning buyuk depressiyani yengish mumkinligi haqidagi, “biz qo‘rqishimiz kerak bo‘lgan yagona narsa qo‘rquvning o‘zidir” degan ishonchli ta'kidlashi amerika xalqining unga bo‘lgan ishonchini yanada oshirib yubordi.[7] Shuningdek, bu davrda Kongressning har ikki palatasida Demokratlar ko‘pchilikni tashkil etdi, respublikachilar iqtisodiy inqirozni faqatgina chuqur islohotlar yordamida bartaraf qilish mumkinligini tushungan edilar. Natijada, konstitutsiyaviy masalalar yoki Ruzvelt Kongressga taqdim etgan buyuk dasturlarning iqtisodiy oqibatlari haqida juda oz munozaralar bo‘ldi. Bu dasturlarni qabul qilishda D.Ruzvelt "Miya ishonchi"(Brain Trust) deb nomlangan turli mutaxassislar - partiya rahbarlari va maxsus manfaatdor guruhlarga tayandi. Shuning uchun ham, Milliy Sanoatni Tiklash to‘g‘risidagi qonun D.Ruzvelt va ayrim biznes rahbarlari o‘rtasida, Qishloq Xo‘jaligini Tiklash to‘g‘risidagi qonun Qishloq xo‘jaligi kotibi Genri Uolles, iqtisodchilar Jorj Pik va Mordexay Hizqiyel va fermer xo‘jaligi rahbarlari o‘rtasidagi konferentsiyalarda muhokama qilingandan so‘ng qabul qilingan edi. Bu qonunlar kerakli muhokamalardan o‘tib Kongressga taqdim etilgach, ular "kerakli qonunchilik"ga aylanardi.. Britaniya parlament tizimida bo‘lgani kabi, qabul qilingan qonunlarga amal qilishdan bosh tortish ijroiya hokimiyatiga qarshi bo‘ysunmaslik deb hisoblanardi. Shunday bo‘lsa-da, Kongress iqtisodiy inqiroz davridagi vaziyatga bo‘ysundi, lekin o‘z vakolatlaridan voz kechmadi. Jekson va Linkoln davrida bo‘lgani kabi, tez orada ijroiya hokimiyatining yuksalishi Prezidentni vakillik hukumatini yo‘q qilish uchun fitna uyushtirisha harakat etayotgan diktator deb e’lon qildi. Prezidentning Kongressdagi ta'siri juda katta bo‘lib qolgan bo‘lsa-da, ba’zi muhim masalalarda xususan, 1937 yildagi suddagi kurashda katta mag‘lubiyatga uchradi. 1935 yilning yanvarigacha Qo‘shma Shtatlar Oliy Sudi Yangi

kelishuv nizomini ko‘rib chiqdi.. 1935 yil yanvaridan keyin o‘n olti oy ichida Sud Yangi kelishuv nizomlari bilan bog‘liq o‘nta ishni ko‘rib chiqdi. Sakkiz holatda qaror Yangi kelishuvga qarshi chiqdi. Milliy Sanoatni Tiklash to‘g‘risidagi qonunning 9 (c) bo‘limi N.R.A. o‘zi, temir yo‘l pensiya qonuni, fermer xo‘jaligi ipoteka qonuni, qishloq xo‘jaligini tartibga solish to‘g‘risidagi qonun, A.A.A. o‘zgartirishlar, Bitumunus ko‘mir qonuni va shahar bankrotligi to‘g‘risidagi qonun. Faqat ikkita qunun, 1933 yildagi favqulodda pul qonunlari va Tennessi vodiysi ma'muriyati to‘g‘risidagi qonun, shartli shartlarda ma'qullandi. Xulosa qilib aytganda, sud o‘n olti oy ichida Ruzvelt dasturining juda katta qismini yo‘q qildi. Oliy Sudning Yangi Bitim to‘g‘risidagi qonunni birinchi marta bekor qilishi 1935 yil yanvar oyida “Panama Refining Co. Rayan”ga qarshi ishda, Milliy sanoatni qayta tiklash to‘g‘risidagi qonunning "issiq moy"(Hot Oil) deb ataladigan qoidalarini o‘z ichiga olgan ishda yuz berdi. Qonunning halol raqobat kodekslari bilan bog‘liq qoidalaridan tashqari, 9(c) bo‘limi Prezidentga ishlab chiqarilgan yoki saqlanadigan neftni shtatlararo savdoda shtatlar tomonidan qo‘yilgan cheklovlardan ortiq miqdorda tashishni taqiqlash huquqini berdi. Va bu vakolat narxlarni oshirish cheklash va neft resurslarini tejash uchun amalga oshirilgan edi. Bosh Sudya , to‘qqiz sudya nomidan so‘zga chiqib , 9 (c) bo‘limning vakolatlari tomonidan chiqarilgan ijro farmoyishlari "konstitutsiyaviy vakolatga ega emas" degan xulosaga keldi. Oliy Sudning bu qarori, Konservatorlarning demokratlarga qarshi noroziliklarini kuchayib borishiga sabab bo‘ldi. Chunki, Franklin D. Ruzvelt va uning izdoshlari o‘z-o‘zini tartibga soluvchi iqtisodiy tizim tushunchasini qat'iyan rad etib va milliy farovonlik yirik biznes, moliya va qishloq xo‘jaligi ustidan keng nazoratni talab qiladi, degan tezisni qabul qilishgandi. Yangi kelishuv dasturi uyushgan fermerlarga va ishsizlarga turli yordam va qulaylikni kengaytirdi. Uning ba'zi qonunlari biznesga foyda keltirgan bo‘lsa-da, dastur bank, moliya va biznes boshqaruviga misli ko‘rilmagan nazoratni o‘rnatdi. 1935-yilda D.Ruzveltning Milliy Sanoatni Qayta Tiklash to‘g‘risidagi qonun Oliy Sud tomonidan "konstitutsiyaviy vakolatga ega emas" deb e’lon qilinganidan keyin, Ruzvelt Oliy Sud tarkibini kengaytirish bo‘yicha Kongressga taklif kiritdi. O‘sha davrda Ruzveltning Yangi Kelishuv dasturiga qarshi chiqqan sudyalarning ko‘pchiligi konservator prezidentlar davrida tayinlangan bo‘lib, Ruzveltning islohotlariga qarshilik qilayotgan edi. 1937-yilda D.Ruzvelt tomonidan Oliy Sud tarkibini kengaytirish bo‘yicha taklif kiritildi. Taklifga ko‘ra, har bir 70 yoshdan oshgan va eng kamida 10 yil sudyalik qilgan sudyaga qo‘shimcha sudya tayinlanishi, bu esa amaldagi sudyalar soning 9 tadan 15 tagacha oshirish belgilandi. Ruzvelt sudyalar tarkibini kengaytirish orqali, uning islohotlarini qo‘llab-quvvatlovchi sud tizimini yaratmoqchi edi. Ammo, Ruzveltning bu taklifi jamoatchilikning va Senatning qarshiligiga uchradi. Konservatorlar va hatto Ruzveltning o‘z partiyasining ko‘pchilik a’zolari Ruzveltning bu harakatini Ijro hokimiyatining haddan tashqari boshqaruvni qo‘lga olishga urinish deb bahoaldi. Ularning fikriga ko‘ra, sud hokimiyati hech kim tomonidan boshqarilmaydigan tizim bo‘lib qolishi kerak edi. Shunday bo‘lsa-da, Ruzveltning bu taklifidan so‘ng Oliy sud sudyalaridan biri, Oven Roberts o‘z pozitsiyasini o‘zgaritib Ruzveltning Yangi Kelishuv dasturini qo‘llab-quvvatlovchi qarorlar qabul qila boshladi.[6] Ruzvelt davrida umumiy hisobda Oliy Sudga 9 nafar yangi sudyalar tayinlandi va bu Ruzveltning islohotlarini amalga oshirishga yordam berdi. Ruzveltning Oliy Sud tarkibini kengaytirish talabi Kongress tomonidan hech qachon qabul qilinmagan va jamoatchilik tomonidan katta qarshilikka uchragan bo‘lsa-da, bu Ruzveltning prezidentlik maqomiga katta salbiy ta’sir ko‘rsatmagan. Bu kabi siyosiy jarayonlar yuz berayotgan bir davrda, 1937-yil sentyabrida mamlakat iqtisodiyoti 1929-

yilgi darajasidan ham pastga tushib ketdi. D.Ruzvelt uy-joy qurilishi, yo‘l qurilishi va fermer xo‘jaliklarini subsidiyalar ta’minlash uchun, 4.5 milliard dollarlik mablag‘ ajratishni taklif qildi. Shuningdek, 1938-yilda D.Ruzvelt Adolatli Mehnat Standartlari to‘g‘risidagi qonunning qabul qilinishga erishdi. Bu mehnat qonuniga ko‘ra, oddiy ishchilar uchun ko‘plab imkoniyatlar va rag‘batlantirishlarni joriy qilish ko‘zda tutildi. Jumladan, qonunga ko‘ra, eng kam ish haqi soatiga 0.25$ (25 Sent) va haftalik ish soatlari 40 soatdan oshmasligi belgilandi ; 14 yoshdan kichik bolalar mehnati taqiqlandi. 14-15 yosh orasidagi bolalar uchun qonunda ko‘rsatilgan ish sharotlarida ishlashga ruxsat berildi.[5]1939-yil ikkinchi jahon urushining Yevropada boshlanishi AQShdagi siyosiy jarayonlarga ta’sir etmay qolmadi. Jumladan, D.Ruzvelt 1930-yilda qabul qilingan Aralashmaslik qonuni, yani urush harakatlarida ishtirok etayotgan davlatlarga o‘q-dori va qurol-yarog‘ni eksportni qilish embargosini “Naqd va Tashish” (Cash-Carry policy) qonuni bilan almashtirishni taklif qildi. “Naqd va Tashish” qonuniga ko‘ra, Germaniya bilan urushayotgan ittifoqdosh davlatlar Britaniya va Fransiya , AQSHdan faqatgina naqd pul shaklida va o‘z kemalarida tashib ketish sharti bilan qurol-yarog‘ sotib olishiu mumkin edi. Ruzveltning bu harakati Amerika jamiyatida katta tashvish uyg‘otdi , Oq Uyga “ AQShni qonli majorodan saqlash mazmuni”dagi minglab xatlar kelib tushdi. Ammo, urushning jadallashishi AQSHning Neytral qolish qonuni o‘zgartirishga majbur qildi. B.Mussolini tomonidan Oksis (Axis) yoki markazchilar deb atalgan Germaniya , Italiya va Yaponiyaga qarshi ittifoqchi davlar Sovet Ittifoqi, Britaniya, Fransiya va Xiyotni qo‘llab-quvvatlash maqsadida , D.Ruzvelt “Naqd va Tashish” (Cash-Carry policy) qonuni “Qarzga va Ijaraga berish” (Lend and Lease act) qonuni bilan almashtirdi. Bu qonun ittifoqchi davlatlarga harbiy qurollarni AQSHdan ijaraga olish huquqini berdi. Qonunga ko‘ra, ijaraga olingan harbiy qurollar urushdan so‘ng AQSHga qaytarilishi kerak edi, agarda bu qurollar qaytarilmagan taqdirda kompensatsiya to‘lash sharti belgilandi. Bu qonun AQSHga ittifoqchi davlatlarga qiymatii 50 milliard dollarga teng (hozirgi kunda 100 milliard dollarga teng) harbiy texnika va anjomlar, yoqilg‘i va boshqa kerakli jihozlarni yetkazib berish imkonini berdi. Bu qonun AQSHga rasmiy ravishda urushga kirmasdan ittifoqchi davlatlarga harbiy ko‘mak berish imkonini berdi. D.Ruzvelt Amerika xalqni yaqinlashib kelayotgan urushga tayyorlash va konservatorlarning qo‘llab quvvatlashini qo‘lga kiritish maqsadida, Respublikachialar partiyasidan iki nomzodni o‘z kabinetiga ishga oldi. Bu nomzodlar: Genry Stimson-Prezidentning urush bo‘yicha kotibi etib tayinlandi. Stimson prezidentlar Uilyam Taft va Gerbert Guver davrida president urush bo‘yicha kotibi vazifasida ishlagan edi. Frank Knoks – prezidentning dengiz kuchlari bo‘yicha kotibi etib tayinlandi. Knoks 1936-yilda vitse-prezidentlikka nomzod qilib ko‘rsatilgan edi. 1941-yil 7 – dekabr kuni Yaponiya harbiy kuchlarining AQSHning Hawaiidagi Pearl Harbor dengiz bazasiga hujum qilishi va buning oqibatida iki yarim mingga yaqin amerikalik va 200 dan ortiq harbiy samolyotlarning yo‘q qilinish Amerika jamiyatini dahshatga soldi. Va bu voqea AQShning izolatsionizm siyosatini o‘zgartirib, uni urushga kirishiga olib keldi. AQShning ikkinchi jahon urushiga kirishi AQSH tarixida yangi bir siyosiy davrni ochib berdi. Bu davr, D.Ruzveltning “Dr. Yangi Kelishuv” **(“**Dr. New Deal**”)** siyosatidan “Dr. Urush-G‘alaba” ("Dr. Win-the-War") siyosatiga o‘tganini ko‘rsatib berdi.

Xulosa

Franklin D. Ruzveltning “Yangi kelishuv” dasturi Amerika tarixida iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarning yorqin namunasi sifatida qolmoqda. U qisqa muddatda bank tizimi, qishloq

xo‘jaligi va sanoatni tiklashda katta muvaffaqiyatlarga erishdi. Ushbu chora-tadbirlar nafaqat iqtisodiyotni tiklash, balki uzoq muddatli ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashga yordam berdi. Ruzveltning rahbarligi va “qo‘rqishimiz kerak bo‘lgan yagona narsa – bu qo‘rquvning o‘zi” degan so‘zlari og‘ir davrda millatga ishonch bag‘ishladi va uni birlashtirdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Leuchtenburg, William E. (1963**).** *Franklin D. Roosevelt and the New Deal, 1932–1940.[1]*

2. Kennedy, David M. (1999). *Freedom from Fear: The American People in Depression and War, 1929–1945.[2]*

3. Schlesinger, Arthur M. Jr. (1957**).** *The Age of Roosevelt: The Coming of the New Deal.[3]*

4. Badger, Anthony J. (1989). *FDR: The First Hundred Days.[4]*

5. Zinn, Howard (1980). *A People's History of the United States.[5]*

6. Rosen, Elliot A. (2005). *Roosevelt, the Great Depression, and the Economics of Recovery.[6]*

7. The Library of Congress Archives.[7]

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 1-son)

IJTIMOIY FANLAR

SOCIAL STUDIES

UDK 94(575.1): 636.08

ENEOLIT VA BRONZA DAVRI MIGRATSIYALARI VA UNING O‘ZBEKISTON XALQLARI TARIXIDAGI O‘RNI HAQIDA

Furqat Eshboyevich Toshboyev
JDPU professori,
Eshmamatova Nozima Baxodir qizi
magistrant,
Jizzax davlat pedagogika unversiteti
furqat7312@mail.ru.

Anatatsiya Eneolit va bronza davri migratsiyalari O‘zbekiston hududida yashagan qadimiy xalqlarning shakllanishida muhim rol o‘ynagan. Ushbu davrda Markaziy Osiyo hududida ko‘chmanchi va yarim ko‘chmanchi jamiyatlarning o‘zaro aloqalari kuchayib, madaniy almashinuv va yangi texnologiyalarning kirib kelishiga zamin yaratdi. Ayniqsa, metallurgiya, dehqonchilik va chorvachilik sohalaridagi taraqqiyot, turli etnik guruhlar o‘rtasidagi madaniy uyg‘unlik va iqtisodiy o'zaro bog‘liqlikni shakllantirdi. Bu jarayonlar O‘zbekiston hududidagi etnik birliklarning paydo bo‘lishi, shuningdek, qadimgi davlat tuzilmalarining rivojlanishiga asosiy omillardan biri bo‘ldi.

Kalit so‘zlar: Mezolit, eneolit, bronza, ovchilik xo’jaligi, Joytun madanyati, Migratsiya jarayonlari, Markaziy Osiyo xalqlari, ko‘chmanchi jamiyatlar, arxeologik tadqiqotlar, ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar, etnomadanyat.

ABOUT ENEOLITH AND BRONZE AGE MIGRATIONS AND ITS PLACE IN THE HISTORY OF THE UZBEKISTAN PEOPLE

Annotation Eneolithic and Bronze Age migrations played an important role in the formation of ancient peoples living in the territory of Uzbekistan. During this period, the interaction of nomadic and semi-nomadic societies in the territory of Central Asia increased, creating the ground for cultural exchange and introduction of new technologies. Developments in metallurgy, agriculture, and animal husbandry, in particular, created cultural harmony and economic interdependence among different ethnic groups. These processes were one of the main factors in the emergence of ethnic units in the territory of Uzbekistan, as well as in the development of ancient state structures.

Key words: Mesolithic, Eneolithic, bronze, hunting economy, Joytun culture, Migration processes, peoples of Central Asia, nomadic societies, archaeological research, socio-economic changes, ethnoculture.

ОБ ЭНЕОЛИТЕ И МИГРАЦИЯХ БРОНЗОВОГО ВЕКА И ЕГО МЕСТЕ В ИСТОРИИ НАРОДА УЗБЕКИСТАНА

Аннотация Миграции эпохи энеолита и бронзы сыграли важную роль в формировании древних народов, проживающих на территории Узбекистана. В этот период усилилось взаимодействие кочевых и полукочевых обществ на территории Центральной Азии, создав почву для культурного обмена и внедрения новых технологий. В частности, развитие металлургии, сельского хозяйства и животноводства создало культурную гармонию и экономическую взаимозависимость между различными этническими группами. Эти процессы явились одним из основных факторов возникновения этнических единиц на территории Узбекистана, а также развития древних государственных структур.

Ключевые слова: мезолит, энеолит, бронза, охотничье хозяйство, джойтунская культура, миграционные процессы, народы Средней Азии, кочевые общества, археологические исследования, социально-экономические изменения, этнокультура.

KIRISH

XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab arxeologiya fani yutuqlari tufayli boy manbalar qo‘lga kiritilib, tarixiy taraqqiyotning arxeologik davriy sistemasi ishlab chiqildi. Unga ko‘ra paleolit, qisman mezolit davrlarini o‘z ichiga oluvchi ibtidoiy jamoalarning xo‘jalik asosini termachilik va sayyoh ovchilik tashkil etganligi, keyingi davri esa muayyan o‘troqlashib yashashga o‘tish bilan tirikchilik xo‘jaligining asosini dehqonchilik va chorvachilik tashkil etganligi ilmiy asoslangan. Insoniyat tarixidagi bu ijtimoiy-iqtisodiy yuksalishlar sivilizatsiyalarning ilk ildizlariga asos bo‘lgan.

O‘rta Osiyodagi poleolit davri odamlarining yashab tarzi ham boshqa qit’alardan ko‘p farq qilmagan. Paleolit davrining so‘nggi bosqichida mintaqa miqyosida ibtidoiy urug‘ jamoalari turli tabiiy-geografik hududlarda joylashadi. Dengiz va ko‘llar atrofida istiqomat qiluvchilarda ko‘proq baliqchilik bilan shug‘ullanish imkoniyatlari paydo bo‘lgan, voha tekisliklari va dashtlar tuyoqli hayvonlarga boy bo‘lib bu mintaqalarda ovchilik xo‘jalikning asosini tashkil etgan[21]. Keyinchalik, qurshab, o‘rab, cho‘chitib ov qilish usullarining yanada takomillashuvi, turli-tuman mehnat qurollarining ishlab chiqilishi, shuningdek, xom ashyo ayraboshlashning boshlanishi o‘z davriga xos yutuqlar bilan xarakterlanadi.

Mezolit davrida ovchilik, xonaki chorvachilik, qisman dehqonchilik xo‘jaligi va turli mehnat qurollarining joriy qilinishi bilan sayyoh ovchilarning ma’qul ekologik burchaklarda

[21] Окладников А.П. Средний палеолит-мустьерское время в Средней Азии // Средняя Азия в эпоху камня и бронзы. – М. – Л.: Наука, 1966. – С. 25-33.

qisman o‘troqlashib yashashiga sharoit yaratdi. Umuman, bu davr avvalgi sayyoh ovchi guruhlar davriga nisbatan o‘z zamoniga xos yuksak taraqqiyotga erishgan so‘nggi bosqichi hisoblanadi[22]. Neolit davrida turli tabiiy sharoit va geografik hududlarda joylashgan qabilalarning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotida tub o‘zgarishlar yuz berdi. Bu paytda iqlim hozirgidan ko‘ra quruqroq bo‘lib, odamlar ozuqabop o‘simliklar va ayniqsa, boshoqli o‘simliklar hamda suv manbalariga boy tog‘oldi vohalarini o‘zlashtirganlar. Bu davrga oid ilk yodgorlik Janubiy Turkamanistondagi Joytun madaniyati bo‘lib, u Shimoliy Erondagi neolit davri manzilgohlari (Shohtepa, Turangtepa, Tepa-Hissor) bilan birga, Kaspiybo‘yi ilk dehqonchilik markaziga birlashtirilgan. Bu davrda o‘troq xo‘jalikka o‘tib xo‘jalik yuritgan ibtidoiy jamoa birlashmalari turmush tarzida sivilizatsiyaning ilk ildizlari tomir otgan.

Yeneolit davrida O‘rta Osiyoga amalga oshirilgan migratsiyalarning boshlang‘ich hududiy markazlari Old Osiyo, Elam va Hind vodiysi hisoblanadi. Uning natijasida, dehqonchilik, chorvachilik va hunarmandchilik mahsulotlari ishlab chiqarish jarayoni boshlandi. O‘zbekiston hududining eneolit davrida o‘zlashtirilishi keng miqyosdagi uzoq masofada amalga oshirilgan migratsiyalarning namunali bosqichi hisoblanadi. Ularning sabablari iqtisodiy omillar bilan belgilangan edi[23]. Eneolit va bronza davrlarida metallurgiya taraqqiyoti natijasida, odamlar mis va boshqa metallar (qalay, qo‘rg‘oshin) konlarini o‘zlashtirib, oltin va kumush singari nodir metallar hamda lojuvard, feruza kabi qimmatbaho toshlardan foydalana boshladilar.

Metallning mehnat qurollari yasash uchun kashf qilinishi ibtidoiy jamoa xo‘jaligida yuzaga kelgan buyuk o‘zgarishlardan hisoblanadi. Bu davrga oid O‘rta Osiyo hududidagi ilk yodgorlik anov madaniyati – Namozgohtepada bo‘lib bu yerda olib borilgan izlanishlar natijasida Namozgoh I, II, III, IV, V, VI bosqichlari va ularga oid qurilishlar aniqlangan[24]. Ular Janubiy Turkmaniston o‘troq dehqon jamoalari tarixining yangi xranologik sistemasini bergan.

Migratsiyalarning navbatdagi bosqichi mil. avv. III ming yillikning oxirlari – II ming yillik boshlariga to‘g‘ri keladi. Ular quyi Murg‘ob daryosi (Marg‘iyona) va Baqtriya yerlarining keng miqyosda egallab olinishi jarayonlari bilan bog‘liq edi.

O‘.I. Abdullayev tadqiqotlariga ko‘ra, eneolit va ilk bronza davrlarida O‘rta Osiyoga amalga oshirilgan migratsiyalarni quyidagi bosqichlarga ajratish mumkin:1) Mil. avv. IV ming yillik va III ming yillikning boshlari. Panj daryosining so‘l sohili havzasi Sharqiy Baqtriya vohalarining o‘zlashtirilishi. Migratsiya yuzaga kelgan tayanch markazi – Belujiston, Hind vodiysi. 2) Mil. avv. IV ming yillikning ikkinchi yarmi. Yuqori Zarafshon vohasining o‘zlashtirilishi. Ko‘chib kelishning boshlang‘ich hududi –Belujiston, Janubiy Turkmaniston.

[22] Массон В.М. Экономика и социальной строй древных обществ (В свете данных археологии) // -Л: «Наука», 1976, 179-181 бб.

[23] Abdullayev U.I. O‘rta Osiyoda ibtidoiy jamoa tuzumi va ilk davlatchilik tarixi: Tarix fan. dokt. (DSc). diss... – Urganch: O‘zbekiston milliy universiteti, Qoraqalpoq ijtimoiy fanlar ilmiy tadqiqot instituti. 2019. - B. 101-123.

[24] Куфтин Б.А. Полевой отчёт о работе XIX отряда ЮТАКЭ по изучению культуры первобытных оседлоземледельческих поселений эпохи меди и бронзы в 1952 г. // Тр. ЮТАКЭ, Т. VII. -Ашхабад, 1956.

3) Mil. avv. III ming yillik o‘rtalari. Panj daryosining so‘l sohili havzasiga amalga oshirilgan migratsiY. Uning kelib chiqishi nuqtasi – Hind vodiysi, Xarappa sivilizatsiyasi.4) Mil. avv. III ming yillik oxirlari – II ming yillikning boshlari Marg‘iyona va Baqtriya vohalarining o‘zlashtirilishi[25]. Migratsiya boshlangan dastlabki hududlar – Old Osiyo, Ikkidaryo oralig‘i, Eronning janubiy-g‘arbi va shimoliy-sharqi, Turkmanistonning janubiy-g‘arbi. Mazkur ma’lumotlarga asoslanib, shunday xulosaga kelish mumkinki, O‘rta Osiyo tarixida yangi madaniyatlar va sivilizatsiyaning vujudga kelishi jarayonida tashqi migratsiyalar katta ahamiyatga ega bo‘lgan.

Migrantlarning harakatlari Kopetdog‘ atroflari va Murg‘ob vohasini o‘zlashtirish bilan cheklanmagan. Ular o‘z mulki va chorva podalari bilan qo‘shni Baqtriya hududiga kirib kelganlar. Marg‘iyona va Baqtriyada shakllangan madaniyat arxeologiya fanida Gonur, Dashtli-Sopolli madaniyati yoki Oks sivilizatsiyasi deb ataladi. Aytish mumkinki, Marg‘iyona va Baqtriya sivilizatsiyasi vakillari ziroatchi-chorvadorlar, hunarmandlar hamda me’morchilik rejaviy usullarini, murakkab mudofaa tizimi, uy-joylar va katta binolar bunyod etish texnikasini bilgan binokorlar edi. Ular o‘z yurtlaridagi davlat va boshqaruv tizimi ta’sirida shakllangan ilg‘or, uyushgan jamiyat vakillari bo‘lgan. Kirib kelgan aholi o‘z moddiy va ma’naviy madaniyati an’analarini saqlab qolgan holda, Sharqda ma’lum sivilizatsiyaning hududiy doirasini kengaytirishga xizmat qilgan[26]. Mazkur migratsiya turi Marg‘iyona – Baqtriya bronza davri arxeologiyasida o‘z aksini topgan va boshqa hududlarda aniqlangan arxeologik belgilarga ko‘ra ma’lum. Marg‘iyona va Baqtriyada topib tekshirilgan yirik saroy va ibodatxonalar, xo‘jalik majmualari shundan dalolat beradi.

Bu paytda O‘zbekistonning markaziy qismlariga ham janubiy Turkmanistoning Geoksuyr (Ko‘ksur) vohasidan siljigan aholi kirib keladi va Zarafshon tog‘lari yonbag‘rida metallga boy hududlarda joylashgan Sarazmni o‘zlashtiradilar. Quyi Zarafshonda Zamonbobo madaniyati – ilk dehqonchilik yodgorligi hisoblanadi (Sarazmdan farqi xonaki chorvachilik va motiga dehqonchiligi tashkil etgan). Zamonboboliklar asosan, dehqonchilik va xonaki chorvachilik bilan kun kechirib, chaylasimon kulbalarda istiqomat qilganlar. Zamonbobolik jamoasida xunarmandchilikning turli tarmoqlari, xususan kulolchilik, bronzani eritib undan xar xil ashyolar yasash, ayniqsa toshni ishlash texnikasi ancha rivojlangan. Tabiiy sharoiti zamonboboliklarni dehqonchilik bilan emas, chorvachilik bilan shug‘ullanishga imkon bergan. Shu sababli Zamonbobo madaniyati asosida o‘troq aholining qishloq va shaxarlari qad ko‘tarmagan.

Tadqiqotlar natijasiga ko‘ra, yeneolit va bronza davrlaridagi migratsiyalar natijasida, Murg‘ob, Amudaryo, Vaxsh, Panj, Zarafshon va Sirdaryo, daryolari bo‘ylab, cho‘llar va tog‘ oldi hududlarini kesib o‘tgan yangi yerlarga ko‘chish yo‘llari paydo bo‘lgan. Bu yo‘llar orqali tashqi va ichki migratsiyalar amalga oshirilgan, savdo –ayriboshlash va madaniy-iqtisodiy

[25] Abdullayev U.I. O‘rta Osiyoda ibtidoiy jamoa tuzumi va ilk davlatchilik tarixi... - B. 101-123.
[26] Эшов Б. Ж. Ўрта Осиёнинг қадимги шахарлари тарихи. Дарслик. Тошкент : “Fan va texnologiya” , 2008. – Б. 80-83.

aloqalar taraqqiy etib, etnomadaniy jarayonlar ro‘y bergan[27]. Bu paytda O‘rta Osiyoning deyarli barcha viloyatlarida o‘zlashtiruvchi xo‘jalik turlari yordamchi mashg‘ulotlar sifatida rivojlanishda davom etib, chorvachilik va dehqonchilik ishlab chiqarish xo‘jaligining asosiy qismini tashkil eta boshlagan. O‘rta Osiyoning shimoli-sharqiy viloyatlarida Andronovo madaniyati chorvador qabilalari kelib o‘rnashishi natijasida bu jarayon yanada faollashadi.

Eng qadimiy yo‘llarning vujudga kelishi ibtidoiy makonlarni oziq-ovqat va xomashyo zaxiralari mavjud hududlar bilan bog‘lashga bo‘lgan tabiiy ehtiyoj, turli mintaqalardagi tabiiy sharoit, o‘simlik va hayvonot dunyosining turli-tumanligi o‘zaro mahsulot ayirboshlashni taqozo etishi bilan belgilangan. Uzoq tarixiy davrlar mobaynida shakllangan savdo yo‘llarining jadal taraqqiy etishida hududlardagi qabilalarning madaniy aloqalari, xom ashyo manbalaroini mavjudligi, chorvadorlarning turli yo‘nalishdagi an’anaviy ko‘chish yo‘llari va mavsumiy qo‘nalg‘alari katta ahamiyatga ega bo‘lgan. Shu tarzda Buyuk ipak yo‘li faoliyatidan ancha ilgariyoq Qadimgi Sharq va O‘rta Osiyo hududlarida o‘zaro almashinuv yo‘llari shakllangan[28]. Bunda ko‘chmanchi chorvadorlarning o‘tli yaylovlar bo‘ylab an’anaviy ko‘chish yo‘llari chorrahasidagi unumdor yaylovlar va tog‘-konchilik bilan bog‘liq metallurgiya sohasi muhim omil bo‘lgan.

Sharq mamlakatlaridagi yeng qadimgi yo’llardan biri «La’l yo’li» deb atalgan. U miloddan avvalgi III II ming yilliklarda vujudga kelgan. U Pomir tog’laridan boshlanib Eron va Old Osiyo, Misr orqali o’tgan bo’lgan. Badaxshondan qazib olinadigan la’l toshi (lojuvard) qadimgi sharq zargarlari tomonidan yuksak baholangan. Badaxshon toshi ishlatilgan buyumlar Misr fir’avnlari maqbaralaridan ham topilgan. Taxminan mil. avv. IV ming yillikning o‘rtalaridan boshlab, Hindiqush yonbag‘irlarida Amudaryo – Panj havzasidagi Ko‘kcha, Qunduz, Daryo Bangi va Sherovon daryolari vohalari, Belujiston – Hind vodiysidan ko‘plab aholi guruhlarining baland tog‘ daralari orqali 1110 km masofani bosib o‘tib kirib kelishiga ham Baqtriya tog‘laridagi turli xil ma’danlar va qimmatbaho toshlar sabab bo‘lgan. Buning natijasida, mil. avv. III ming yillikning o‘rtalarida Panj havzasida Xarappa – Moxenjodaro sivilizatsiyasi ta’sirida SHo‘rto‘qay kabi yirik savdo maskani faktoriyasi vujudga kelgan. “Lojuvard yo‘li”ning shakllanishi Qadimgi Sharq aloqa-savdo yo‘llari tizimida yangi tarmoqlarini vujudga keltirgan va ularda migratsiyalarning yangi bosqichlari shakllangan.

Bronza davrda sodir bo‘lgan migratsiyalar asosan, aholining shimoliy va sharqiy mintaqalardan kirib kelishi bilan bog‘liq hisoblanadi. Bu qabilalar arxeologik adabiyotlarda dasht bronza davri Andronovo jamoalari migratsiyasi bilan bog‘liq hisoblanadi. N.A.Avanesovaning yozishicha, Shimoliy Baqtriya hududlariga Andronovo jamoalarining dastlabki migratsiyalari Sopolli madaniyatining Ko‘zali bosqichidan boshlangan[29]. Arxeololgik materiallarda uning xronologik doirasi mil. avv. II ming yillikning ikkinchi yarmiga to‘g‘ri

[27] Сагдуллаев А.С., Холматов Н.Ў., Абдуллаев Ў.И. ва бошқ... Марказий Осиёда тарихий маданий вилоятларнинг шаклланиши ва этник географияси муаммолари. Тошкент: “Университет”, 2020. Б.110-123.

[28] Мавлонов Ў., Маҳкамова Д. Маданий алоқалар ва савдо йўллари. – Тошкент: Академия, 2004. – Б.12.

[29] Аванесова Н.А. Новое о проникновении пастушеских племен бронзового века в земледельческие оазисы на юге Узбекистана // Изучение культурных взаимодействий и новые археологические открытия. – СПб., 1995. – С. 82-86.

kelishi asoslangan. Shu paytgacha olimlar tomonidan bronza davridagi migratsiyalar asosan, Quyi Sirdaryobo‘yi va Orolbo‘ylari orqali faol kechganligi ta’kidlanadi[30]. Unga ko‘ra dasht qabilalarining migratsiyalari asosida Janubiy Orolbo‘yi hudulari chorvachilik va ziroatchilik xo‘jaliklariga asoslangan Yevrosiyoning bronza davri dasht madaniyatlari yoyilgan janubiy chegaralarini belgilab, chorvadorlar tashqi migratsiyalarining oraliq hududiy tayanch maskanlaridan biriga aylanadi.

A.A Asqarovning yozishicha, turkiy tilli qabila va elatlarning qadimgi davrda Movaraunnahr tomon harakat to‘lqinlari to‘rt bosqichda amalga oshirilgan. Bular so‘ngi bronza va ilk temir davri andronova jamoalarining migratsiyasi, antik davrda yuechji va xun qabilalarining kirib kelishi, ilk o‘rta asrlarda xioniy, kidariy va eftaliylarning ko‘chib kelishi va to’rtinchi bosqichi turk hoqonligi davrida sodir bo‘lgan migratsion to‘lqinlar[31]. Bu ketma-ketlik yurtimizga qadimgi davrda kirib kelgan qabilalar tarixini o‘rganishda izchillikni ta’minlaydi.

Bronza davrida dehqonchilik xo‘jalik sohasi bilan birgalikda, dasht hududlarda chorvachilik borasida erishilgan yutuqlar muhim hisoblanadi. Bu paytda tabiiy resurslarning cheklanishi o‘zlashtirilmagan yaylovlarga va suv manbalariga ehtiyoj uzoq yurtlarga ko‘chib xo‘jalik yuritishga sabab bo‘lgan. O‘zlashtirilgan yerlar va yashash hududlari tobora kengayib, chorvador qabilalar dasht va tog‘ oldidagi keng hududlarda yoyilgan[32]. Bu paytda O‘rta Osiyoda dehqonchilik va chorvachilikka asoslangan xo‘jalik madaniy tiplar shakllanib, Yevrosiyo madaniy birliklari tizimiga kirgan Tozabog‘yob va Andronova dashti chorvador jamoalarining O‘rta Osiyo hududlarida joylashishi boshlangan.

Bronza davrida Ustrushonaga kelib o‘rnashgan jamoalarda metallurgiyani rivojlanishi, mis, qalay, qo‘rg‘oshin kabi ma’danlarga ehtiyoj, bronzadan qurollar va buyumlarni ishlab chiqarish zarurati muhim omil bo‘lgan. Xom ashyo va konlar yaqinidagi ma’dan eritish joylari va mineral toshlardan marjonlar yasash ustaxonalarining kashf etilishi bundan dalolat beradi[33]. Bu an’ana keyingi ming yilliklargacha o‘z ahamiyatini saqlab ilk va rivojlangan o‘rta asrlarda metallsozlik markazlarining tashkil topishiga sabab bo‘lgan. Bu holat bronza davri metallar xomashyosi va mineral tosh konlari nafaqat Qurama, Chotqol tog‘lari, Zarafshon tizmasi Nurota tog‘lari va Qizilqumda, balki Morguzar tog‘larida ham faol o‘zlashtirilganligini ko‘rsatadi. Shu paytdan, migratsiyalar an’anaviy bo‘lib ular nafaqat, Turkiston tog‘lari (Ilono‘tti va Ko‘rpa dovoni) bo‘ylab, balki, Mirzacho‘l orqali, Nurota tog‘ tizmasining shimoliy tomonidan tog‘ni kesib o‘tuvchi ko‘plab yo‘llar va asosan, O‘tror–Nurota – Qizilqum – Buxoro yo‘nalishi orqali kechgan. Shunday qilib mavjud materiallar ko‘chmanchilarning ommaviy ravishda kirib kelishi bronza davridan boshlanganligini ko‘rsatadi.

[30] Сагдуллаев А.С., Тогаев Ж.Э. Миграции эпохи бронзы в Центральной Азии // Проблемы истории, археологии и этнологии Центральной Азии. – Ташкент, 2018. – С. 88-94.

[31] Асқаров А.А. Ўзбек халқининг этногенези ва этник тарихи. Тошкент: ”Университет”, 2007. Б. 239-252.

[32] Грязнов М.П. Пастушеские племена Средней азии в эпоху развитой поздной бронзы // КСИА. Вып. 122. Москва, 1970. С.41.

[33] Заднепровский Ю.А. Типы поселений и жилищ Ферганы бронзового века // Реконструкция древних общественних отношений по археологическим материалам жилищ и поселений. – Л.: Наука, 1974. – С. 32-35.

R.X. Sulaymonovning yozishicha, mil. avv. III-II ming yilliklarda Xuanxe daryosining shimolidagi bepoyon cho‘llarda eneolit davri afanasevsk va Okunevs chorvadorlar madaniyati tarkibida Qorasuk madaniyati shakllanadi. Mongoliya va sharqiy Manjuriyagacha bo‘lgan hududlarda esa plita qabrlar madaniyati vujudga kelgan. Uzoq Sharq va Shimoliy Osiyodagi Morngoliyada boshqa mahalliy arxeologik madaniyatlar (tekisliklarda ot va shimol bug‘usi boquvchilari, tog‘li tegralarda qo‘tos boquvchilaridir kultura olennoy kamney) ham mavjud bo‘lgan.

Bu qabilalar haqida ilk yozma ma’lumotlar bronza va suyak buyumlarga tushirilgan iyeorgliflar ma’lumot beradi. Janubiy Sibir va Mongoliya dasht va cho‘lliklarida Karasuk va Shimol bug‘usi boquvchilari madaniyatlari aholisida ko‘chmanchi chorvachilar va suvoriylar guruhlari shakllanadi. Buning natijasida otda jang olib borishga qulay bo‘lgan uzun qilich va qalqon keyinchalik, uzoq masofaga otadigan kamonlarga ega ega otliq askarlar paydo bo‘ladi. Jang qurollari sohasidagi bu yutuqlar va ko‘chmanchi chorvachilikning ekstensiv riojlanishi natijasida, bu qabilalar skif nomi ostida dasht kengliklarida g‘arbiy va sharqiy yo‘nalishlarga Qadimgi Xitoydan arxaik Yunonistongacha bo‘lgan hududlarni zabt etishga kirishadi[34]. Uning asosiy sabablaridan biri iqlimdagi o‘zgarishlar edi.

Mintaqaga kirib kelgan ko‘psonli aholi guruhlarining madaniyati va turmush tarzida o‘zgarishlar ro‘y bergan. O‘tloqlarni mavsumiy almashtirib yurgan shimoliy dasht cho‘ponlari mintaqa sharoitiga mos (chorvachilik va primitiv dehqonchilik) xo‘jalikni taraqqiy ettirganlar[35]. O‘z navbatida, ziroatchilar keng miqyosda arpa yoki bug‘doy yetishtirish bilan birgalikda chorvachilik bilan ham shug‘ullana boshlaydilar. Ayni paytda, bu jamoalarning barchasini tog‘-kon ishlarini rivojlantirishga intilish birlashtirgan[36]. Konlardan foydalanish katta iqtisodiy ahamiyat kasb etib, ularning yaqinida maxsus ustaxonalar paydo bo‘lgan. Konchilik mahsulotlari nafaqat O‘rta Osiyoning turli viloyatlari, balki qo‘shni Sharq mamlakatlariga ham olib chiqilgan. Shu sababli, bronza davridayoq tashqi iqtisodiy aloqalarda tranzit yo‘llar muhim o‘rin tutgan[37]. Bundan ko‘rinib turibdiki, O‘zbekistonning markaziy mintaqalarida bronza davrining oxirlarida dehqonchilik xo‘jaligi bilan birgalikda, chorvachilik, tog‘-kon ishlari hamda ichki va tashqi ayirboshlashga asoslangan xo‘jalik-madaniy tip shakllanadi.

Shunday qilib, insoniyat tarixining ilk davrlaridan boshlangan migratsiyalar natijasida ko‘plab elatlarning kirib kelishi, yurtimizdagi ijtimoiy-madaniy jarayonlarga katta ta’sir ko‘rsatdi. Ayni paytda qadimiy migratsiyalarni arxeologik yodgorliklar va moddiy

[34] Сулейманов Р. Х. Вопросы культурогенеза и глоттогенеза Центральной Азии эпохи бронзы и раннего железного века\\ Культуры азиатской части Евразии в древности и среднвековье. Самарканд, 2021, С.137.

[35] Тошбоев Ф.Э. Қадимги Уструшонада бронза даври ёдгорликларининг ўрганилишга доир // Хоразм Маъмун академияси ахборотномаси. 4/3- нашр (100). – Урганч, 2023. – Б. 55-59.

[36] Аванесова Н.А., Шайдуллаев Ш.Б., Еркулов А. К вопросу о культурной принадлежности Джамских древностей эпохи палеометалла // Цивилизации скотоводов и земледельцев Центральной Азии. – Бишкек - Самарканд, 2005. – С. 24-25, рис. 5.

[37] Аванесова Н.А. Новое о проникновении пастушеских племен бронзового века в земледельческие оазисы на юге Узбекистана // Изучение культурных взаимодействий и новые археологические открытия. – СПб. 1995. – С. 82-86.

madaniyatning yoyilishi xususiyatlari kartografiyasi asosida o‘rganish dolzarb vazifa hisoblanadi. Shuningdek, migratsiyalarning arxeologik belgilarini, ularning sabablari va yo‘llarini aniqlash, ilk davrlardagi migratsiyalarni arxeologik, antik davr va o‘rta srlarda sodir bo‘lgan migratsiyalarni yozma manbalar, lingvistik, epigraftik hamda topogrpfik ma’lumotlar asosida tadqiq qilish zaruriyati mavjud. Bu esa ibtidoiy davrdan yangi davrgacha bo‘lgan migratsiyalar tarixini o‘rganish bilan birgalikda, tariximizning hali o‘rganilmagan muhim qirralarni alohida mavzu sifatida kashf etishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Окладников А.П. Средний палеолит-мустьерское время в Средней Азии // Средняя Азия в эпоху камня и бронзы. – М. – Л.: Наука, 1966.
2. Массон В.М. Экономика и социальной строй древных обществ (В свете данных археологии) // -Л: «Наука», 1976,
3. Abdullayev U.I. O‘rta Osiyoda ibtidoiy jamoa tuzumi va ilk davlatchilik tarixi: Tarix fan. dokt. (DSc). diss... – Urganch: O‘zbekiston milliy universiteti, Qoraqalpoq ijtimoiy fanlar ilmiy tadqiqot instituti. 2019.
4. Куфтин Б.А. Полевой отчёт о работе XIX отряда ЮТАКЭ по изучению культуры первобытных оседлоземледельческих поселений эпохи меди и бронзы в 1952 г. // Тр. ЮТАКЭ, Т. VII. -Ашхабад, 1956.
5. Эшов Б. Ж. Ўрта Осиёнинг қадимги шахарлари тарихи. Дарслик. Тошкент: “Fan va texnologiya” , 2008.
6. Сагдуллаев А.С., Холматов Н.Ў., Абдуллаев Ў.И. ва бошқ... Марказий Осиёда тарихий маданий вилоятларнинг шаклланиши ва этник географияси муаммолари. Тошкент: “Университет”, 2020.
7. Мавлонов Ў., Маҳкамова Д. Маданий алоқалар ва савдо йўллари. – Тошкент: Академия, 2004.
8. Аванесова Н.А. Новое о проникновении пастушеских племен бронзового века в земледельческие оазисы на юге Узбекистана // Изучение культурных взаимодействий и новые археологические открытия. – СПб., 1995.
9. Сагдуллаев А.С., Тогаев Ж.Э. Миграции эпохи бронзы в Центральной Азии // Проблемы истории, археологии и этнологии Центральной Азии. – Ташкент, 2018.
10. Асқаров А.А. Ўзбек халқининг этногенези ва этник тарихи. Тошкент: ”Университет”, 2007.
11. Грязнов М.П. Пастушеские племена Средней азии в эпоху развитой поздной бронзы // КСИА. Вып. 122. Москва, 1970.
12. Заднепровский Ю.А. Типы поселений и жилищ Ферганы бронзового века // Реконструкция древних общественних отношений по археологическим материалам жилищ и поселений. – Л.: Наука, 1974.

13. Сулейманов Р. Х. Вопросы культурогенеза и глоттогенеза Центральной Азии эпохи бронзы и раннего железного века\\ Культуры азиатской части Евразии в древности и среднвековье. Самарканд, 2021,

14. Тошбоев Ф.Э. Қадимги Уструшонада бронза даври ёдгорликларининг ўрганилишга доир // Хоразм Маъмун академияси ахборотномаси. 4/3- нашр (100). – Урганч, 2023.

15. Аванесова Н.А., Шайдуллаев Ш.Б., Еркулов А. К вопросу о культурной принадлежности Джамских древностей эпохи палеометалла // Цивилизации скотоводов и земледельцев Центральной Азии. – Бишкек - Самарканд, 2005.

16. Аванесова Н.А. Новое о проникновении пастушеских племен бронзового века в земледельческие оазисы на юге Узбекистана // Изучение культурных взаимодействий и новые археологические открытия. – СПб. 1995.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 1-son)

IJTIMOIY FANLAR

SOCIAL STUDIES

MUHIM TARIXIY MANBA

Madraximov Zoxid Sharofovich,
Namangan davlat universiteti, Tarix kafedrasi dotsenti, t.f.n.
E: mail. zohidmadrahimov1980@mail.com
Telefon: + 99894-277-56-95.

Annotatsiya Ushbu maqolada Mirza Aziz bin Muhammad Rizo Marg`iloniyning “Tarixi Aziziy” asari va uning Qo`qon xonligining savdo aloqalaridagi o`rni yoritilgan. Muhammad Aziz Marg`iloniyning “Tarixi Aziziy” asarida Qo`qon xonligining tarixi, siyosiy ahvoli bilan bir qatorda, xonlikdagi savdo-sotiq, tanga-pul munosabatlari, iqtisodiy markazlar, savdo vaqflari, xonlik hududida faoliyat yuritgan yirik savdogarlar haqida qimmatli ma’lumotlar berilgan.

Аннотация В этой статье приводятся сведения о произведение “Тарихи Азизий” Мирза Азиза бин Мухаммада Ризо Маргиланий и его роль в торговых отношениях Кокандского ханства. Мухаммад Азиз Маргиланий в своём произведение “Тарихи Азизий” вместе с историей Кокандского ханства приводит ценные сведения о торговле в ханстве, денежные отношения, экономических центрах, торговые пошлины и о крупных торговцах в ханстве.

Abstract In this article it is given information about “ Tarixi Aziziy” by Mirza Aziz bin Muhammad Rizo Margiloniy and its role in commercial relations of Kokand khanate. In his work Muhammad Rizo Margiloniy gave precious information about not only the history of Kokand khanate and its political condition but the commerce, coins money attitude, economical centers, tradesmen, trade waqfs, big tradesmen who worked in khanate as well.

Kalit so‘zlar: O`rta Osiyo, Qo`qon xonligi, manbalar, Muhammad Aziz Marg`iloniy, Marg`ilon, tanga-pul, savdogarlar, vaqf instituti, madrasa, masjid, zakot, bozorlar, karvonsaroylar, do`konlar, iqtisodiy markazlar, tranzit markazlar.

Ключевые слова: Средняя Азия, Кокандское ханство, источники, Мухаммад Азиз Маргиланий, Маргилан, деньги, торговцы, институт пошлин, медресе, мичеть, закят, базары, караван сараи, магазины, экономические центры, транзитные центры.

Key words: Middle Asia Kokand khanate, sources, Muhammad Rizo Margiloniy, Margilon, coins money ,tradesmen, waqf institutions, madrasa , mosque, markets, inn on the caravan route, stores, economical centers, transit centers.

KIRISH

O`zbek davlatchiligining davomchilaridan bo`lgan, XVIII – XIX asrning 70-yillariga qadar O`rta Osiyoda mavjud davlatlardan biri Qo`qon xonligining savdo munosabatlarini o`rganishda mahalliy tarixiy manbalarning o`rni nihoyatda katta hisoblanadi. XIX asr O`rta Osiyo muarrixlari tomonidan yozilgan bir qator asarlarda Qo`qon xonligida savdo munosabatlari to`g’risida qimmatli ma’lumotlar mavjud. Xususan, Muhammad Hakimxonning “Muntaxab ut-tavorix” [1], Mulla Niyoz Muhammadning “Tarixi Shohruhiy” [2], Mirzo Olim Mushrifning “Ansob us-salotin va tavorix ul-havoqin” [3], Abu Ubaydulloning “Xulosat ul-ahvol [4], Muhammad Solih Toshkandiyning “Tarixi jadidayi Toshkand” [5], Muhammad Yunus Toibning “Tarixi Aliquli amirlashkar” [6], Avaz Muhammad Attorning “Tarixi jahonnamoyi” [7], Muhammad Aziz Marg`iloniyning “Tarixi Aziziy” [8], Ishoqxon Ibratning “Tarixi Farg`ona” [9], Mulla Olim Mahdumning “Tarixi Turkiston” [10], Mahmud Hakim Yayfoniyning “Xullas ut-tavorix” [11], Muhammad Fozilbekning “Mukammal tarixi Farg`ona” [12] kabi asarlarida Qo`qon xonligining XVIII – XIX asrlardagi tarixi, jumladan, turli hukmdorlar, ular yuritgan ichki va tashqi siyosat masalalari umumiy tarzda o`z ifodasini topgan. Shu bilan birga bu asarlarda uzuq-yuluq, qisqa satrlarda bo`lsa-da, xonlikning ichki va tashqi savdo munosabatlari, boj va pul tizimi to`g`risida ayrim ma’lumotlar mavjud.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI

Qo`qon xonligida savdo munosabatlari to`g`risida qimmatli ma’lumotlar beruvchi asarlardan biri Mirza Aziz bin Muhammad Rizo Marg’iloniyning “Tarixi Aziziy” asari hisoblanadi [13].

Muhammad Aziz Marg`iloniy Qo`qon xonlari – Muhammad Alixon (1822 – 1842), Sheralixon (1842 – 1845), Xudoyorxon (1845 – 1358, 1862 – 1863 va 1865 – 1875 yillar) va Mallaxon (1858 – 1862) hukmronlik davrlarida Qo`qon xonligida davlat mansablarida xizmat qilgan. Shuning uchun ham u xon saroyidagi kutubxonaning noyob kitoblaridan foydalanib, aniq ma’lumotlar to`plashga muvaffaq bo`lgan.

Muhammad Aziz Marg`iloniy va uning ilmiy merosi bugungi kunga qadar bir qator tadqiqotchilar tomonidan o`rganilgan. Xususan, 1999-yilda Muhammad Aziz Marg`iloniyning “Tarixi Aziziy” asarini asl qismi bo`lgan beshinchi bobi tarixchi-olimlar D.Sangirova va Sh.H.Vohidovlar tomonidan, hamkorlikda izohlar bilan nashr ettirilgan [14]. Shu yili D.Sangirova “Muhammad Aziz Marg`iloniyning “Tarixi Aziziy” asari muhim tarixiy manba” mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilgan [15]. Dissertatsiyada Muhammad Aziz Marg’iloniyning “Tarixi Aziziy” asarining Qo`qon xonligi tarixini o`rganishdagi ahamiyati ko`rsatib o`tilgan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Muhammad Aziz Marg`iloniy o`zining “Tarixi Aziziy” asarida Qo`qon xonligining tarixi, siyosiy ahvoli bilan bir qatorda, xonlikdagi savdo-sotiq, tanga-pul munosabatlari, iqtisodiy markazlar, savdo vaqflari, xonlik hududida faoliyat yuritgan yirik savdogarlar haqida qimmatli ma’lumotlar yozib qoldirgan.

Qo`qon xonligi Norbo`tabiy (1762 – 1798), Olimxon (1798 – 1810), Umarxon (1810 – 1822) va Muhammadalixon (1822 – 1842) hukmronligi davrida O`rta Osiyodagi eng yirik davlatlardan biriga aylangan. Iqtisodiyot ham yuksalib, ichki va tashqi savdo taraqqiyoti aholining farovonligida o`z aksini topgan.

Bu davrda xonlikdagi to`kin-sochinlik va arzonchilik haqida Muhammad Aziz Marg`iloniy, “Qo`qon xonlari vaqtida Farg`ona ahli orasida pul oz va narx arzonchilik edi. Yoz faslida bir arava handalak ikki yarim tangadan 5 tangagacha turgan, bir arava qovun 3,5 tangagacha sotilgan, bir savat o`rik uch miri va 1 tanga, bir chaksa [16] guruchning bahosi bir tangadan ikki tangagacha, bir chaksa toza un bir tangadan ziyodroq, toza pista ellik paysa [17] dan bir tangagacha, toza sariq mag`iz yuz paysagacha, qandak o`rik, sabzi va piyozni bir puldan olti pulgacha xarid qilinib, zo`rg`a ko`tarib ketardingiz, bir tangaga 40 chaqa berur, bu chaqani hamyoningizga solib bozorga borib to kechgacha sarf qilishingiz mumkin va hammasi sarf bo`lmasdan qaytib ham keladi” va yana “...bozorlarda narxlar arzonligi uchun fuqarolar podsholik xaqlarini o`z vaqtida jamlab berolmasdan ko`p qiynalardilar”, – deb yozgan [14. – B. 70 – 71.].

XIX asr 40-yillaridan boshlab Qo`qon xonligida inqirozli davr boshlangan. Xonlikdagi ichki va tashqi urushlar, qo`zg`olonlar, taxt uchun kurashlar bozorlardagi narx-navoga o`z ta’sirini o`tkazgan. Muhammad Aziz Marg`iloniy Sheralixon xonlik taxtiga o`tirganidan so`ng, savdogarlar “...bizning topgan molimizni, berkitib qo`yganlarimizni Buxoro xoni olib ketdi, Qo`qon atrofini qal’a bilan o`raylik”, – deb murojat qilganligini, shuningdek, taxt uchun kurashlar avjiga chiqqan Xudoyorxonning ikkinchi hukmronligi (1862 – 1863) davrida “...katta qimmatchilik bo`ldi, bozorlardagi narxlar bir xil turmadi, bebarakatchilik bo`ldi”, – deb yozgan edi [14. – B. 71.].

Ma’lumotlarga ko`ra, Qo`qon xoni Norbo`tabiy xonlik tarixida ilk bora pul islohoti o`tkazib, mis (fuls) chaqalar zarb ettirgan. Norbo`tabiydan so`ng xonlik taxtiga chiqqan har bir xon o`z nomidan yangi pul zarb ettirgan va eskisini yig’ishtirib olgan. Qo`qon xonlari ko`proq chaqa pul, ba’zilari oltin tanga zarb ettirgan. Xususan, Norbo`tabiy mis chaqa, Olimxon mis chaqa va kumush tanga, Umarxon dastlab mis va kumush tanga hamda hukmronligining so`ngi yillarida yana pul islohoti o`tkazib, ilk bora xonlik tarixida oltin tangalarni muomalaga kiritgan. Muhammadalixon o`z hukmronligi davomida ikki marta pul islohoti o`tkazib, mis, kumush va oltin tangalar zarb ettirgan. Muhammad Aziz Marg`iloniy xonlikdagi tanga-pul munosabatlari haqida ham qimmatli ma’lumotlar qoldirgan. Xususan, Muhammad Alixon 1249 (1833 – 1834) yilda og`irligi 1 misqol bo`lgan tillo tanga zarb ettirgani hamda vasiqasida “Tilloyi ahmari a`loyi Ho`qandiy, zarbi amir Muhammad Alixoni G`oziy”, nomi bilan qayd etilganni haqida ma’lumot bergan [14. – B. 105.].

Qo`qon xonligida davlatga tegishli yoki nazoratga muhtoj sohalar faoliyati ham oqilona, maqsadga muvofiq ravishda yo`lga qo`yilgan. Shunday sohalardan biri, o`sha davr uchun katta ahamiyatga molik vaqf ishlari edi.

Muhammad Aziz Marg`iloniy xonlikdagi savdo vaqflari faoliyati haqida ham qimmatli ma’lumotlar qoldirgan. Uning yozishicha, Xudoyorxon Qo`qonda bir madrasa qurdirgan va uni onasi (Hokim Oyim) nomi bilan atagan. Madrasa barpo etishga sarf-xarajat nisbatan kam bo`lgani sababli u anchagina sifatsiz qurilgan edi. Natijada, ma’lum vaqt o`tgach uning devorlari yorila boshlagan. Xudoyorxonning ukasi Marg`ilon hokimi Sulton Murodbek ushbu madrasani qayta qurdirgan va unga vaqflar ajratgan. Xususan, Marg`ilondagi Chitfurishlik bozori qarshisida karvonsaroy tiklatib, madrasaga vaqf qilgan [14. – B. 15.].

Qo`qon xonligida savdo munosabatlari va vaqf instituti faoliyatining yaxshilanishida yirik savdogarlarning hissalari katta bo`lgan. Muhammad Aziz Marg`iloniyning xonlikda yashagan yirik savdogarlar va ularning savdo vaqflari haqida ma’lumotlari e’tiborlidir. Uning yozishicha, XIX asr o`rtalarida, Qo`qonning yirik savdogarlaridan biri Olimjonboy Xoja poytaxtda ko`plab do`kon, karvonsaroy va boshqa savdo inshootlarini barpo qilgan. Olimjonboy Xoja xonlikda o`ziga xos mavqeiga ega bo`lgan va uning odamlari Farg`ona vodiysi bozorlarida turli mansablarda faoliyat yuritib, unga hisobot berib turganlar. Olimjonboy Xoja o`zi Qo`qonda yashagan hamda masjid, madrasa va yetim-yesirlarga vaqflar ajratib turgan. Uning o`g`li Solihjon ham xonlikning yirik savdogarlaridan biri va xalqparvar inson sifatida shuhrat qozongan [14. – B. 80.].

Marg`ilonda yashagan mashhur tijoratchilardan biri Ismoil Mahzum (laqabi Karnay Mahzum) saxovatli hamda hurmatli kishi hisoblangan. Muhammad Aziz Marg`iloniy ma’lumotlariga ko`ra, Ismoil Mahzum madrasa va masjidlarga vaqflar qilgan, qorixona va maktablar qurdirgan. U Marg`ilon markaziy bozori oldiga o`zi bunyod etgan Xishtin madrasasi yoniga hammom qurdirgan va uni vaqf mulki sifatida madrasaga bergan [14. – B. 87 – 88.]. Shuningdek, Ismoil Mahzum qurdirgan madrasaga 1864-yilda vaqfnoma berilgan va unga muvofiq madrasaga Marg`ilonning Jo`yi Olimxon mahallasidan bitta saroy va yer, Shahristondan 12 ta do`kon, Toshmozor dahasidan bitta saroy, Qalandar dahasidan yer va 24 ta do`kon ajratilgan [14. – B. 107.]. Marg’ilonning mashhur savdogarlaridan ikkinchisi Muhammad Ibrohimboy, uchinchisi Mir Salimboy, to`rtinchisi Muhammad Karimbek, beshinchisi Hoji Azimjonboy, oltinchisi Mullo Oxunjonboy, yettinchisi Boboyor Mirzo Salimboy o`g`li, sakkizinchisi Mullo Muhammad Sharif Mirzo edi. Shuningdek, marg`ilonlik savdogar Marjonqizboy hamda uning o`g`illari Mullo Musojon va Abdullajonlar yaxshi, hammaga nihoyatda ma`qul, saxovatpesha va fuqarolarga muruvvatli savdogarlar bo`lganlar. Ularning qirq-ellik ming so`m puli musulmonlarga sarf bo`lsa, xotirasiga kelmaydigan, saxiy, xushfe’l, beva bechoralarga ko`plab zakot va ehson qiluvchi, ammo o`zi donishmand kishilar bo`lganlar [14. – B. 87 – 89.]. Muhammad Aziz Marg`iloniy, marg`ilonlik yana bir savdogar Mullo Boboyor Mirzo Salimboy So`fi o`g`li haqida quyidagi ma’lumotlarni keltirgan: u Marg`ilonda madrasani o`qib tamomlagach, Qo`qon xoni Xudoyorxonning ukasi Marg`ilon hokimi Sulton Murodbek xizmatiga kirgan hamda Katta Marg’ilon bozoridagi tarozilarni va shahar markazidagi Sulton Murodbekka qarashli paxta saroyini 25 yil muddatga ijaraga olgan.

Keyinroq, paxta saroyni buzib, o`rniga savdo rastalari qurdirgan va ulardan tushgan daromadidan vaqflar qilgan [14. – Б. 88.].

XULOSA

Muhammad Aziz Marg`iloniyning “Tarixi Aziziy” asarida xonlikning savdo munosabatlari izchil va keng qamrovli tarzda bayon qilinmagan bo`lsada, unda ichki savdo munosabatlari, bozor va rastalar, pul tizimi, bozor ahliga homiylik qilgan hukmdorlar, savdo vaqflari va yirik savdogarlar haqida boshqa manbalarda uchramaydigan qimmatli ma’lumotlar keltirilgan. Ushbu ma’lumotlarning aksariyati muallif tomonidan tarixiy voqealiklarni o`z ko`zi bilan ko`rganligi bois, o`sha davr tarixini yoritishda muhim manba bo`lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Muhammad Hakimxon. Muntaxab ut-tavorix. O`zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Abu Rayxon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo`lyozmalar fondi (Bundan keyin – O`zR FA SHI, qo`lyozma), inv. – №594; Shu muallif. Мунтаҳаб ат-таворих. – Т.: Янги аср авлоди, 2010. – 717 б.

2. Mulla Niyoz Muhammad. Tarixi Shohruxiy. O`zR FA SHI, qo`lyozma, inv. – №4463.

3. Мирзо Олим Мушриф. Ансоб ус - салотин ва таворих ул – ҳавоқин / Нашрга тайёрловчилар А. Матғозиев, М.Усмонова. – Т., 1995. – Б. 128; Shu muallif. Ансаб ус-салатин ва таварих ал-хавакин. Введение Ш.Ваҳидова, перевод текста, примечания, указатели и послесловия Салиджан Юлдашева / История Узбекистана в арабографических источниках. Том I. – Т., 2007. – 254 с; O`zR FA SHI, qo`lyozma, inv. – №1314.

4. Abu Ubaydullo. Xulosot ul-ahvol. O`zR FA SHI, qo`lyozma, inv. – №2084.

5. Muhammad Solih Toshkandiy. Tarixi jadidayi Toshkand. O`zR FA SHI, qo`lyozma, inv. – №11072.

6. Муҳаммад Юнус Тойиб. Тарихи Алимқули амирлашкар // Шарқ юлдузи. – Т., 1996. – № 1. – Б. 214 – 223; Shu muallif. Тарихи Алимқули амирлашкар // Шарқ юлдузи. – Т., 1996. –№ 2. –Б. 208 – 223.

7. Аваз Муҳаммад Аттор. Тарихи жаҳоннамойи. Форс-тожик тилидан Ш.Воҳидов таржимаси // Шарқ юлдузи. – Т., 1991. – № 8. – Б. 119 – 137.

8. Муҳаммад Азиз Марғилоний. Тарихи Азизий / Нашрга тайёрловчилар Ш.Воҳидов, Д.Сангирова. – Т.: Маънавият, 1999. – 112 б; O`zR FA SHI, qo`lyozma, inv. – №11108.

9. Исҳоқхон Тўра Ибрат. Тарихи Фарғона / Нашрга тайёрловчилар Ҳ.Бобобеков, Маҳмуд Ҳасаний. – Т., 1991. – Б. 268–327; Shu muallif. Тарихи Фарғона. – Т.: Маънавият, 2005. – 87 б.; O`zR FA SHI, qo`lyozma, inv. – №11616.

10. Мулло Олим Махдум Ҳожи. Тарихи Туркистон. – Қарши: Насаф, 1992. – 148 б; Shu muallif. Тарихи Туркистон / Сўзбоши ва изоҳлар Ш. Воҳидовники, араб ёзувидан

табдил Ш.Воҳидов ва Р.Холиқованики, кўрсаткичлар Ш.Воҳидов ва Д.Сангированики. – Т.: Янги аср авлоди, 2008. – 242 б.

11. Mahmud Hakim Yayfoniy. Xullas ut-tavorix. Qo`qon shahar G`.G`ulom nomidagi viloyat adabiyot muzeyi. – QP.4101.

12. Muhammad Fozilbek. Mukammal tarixi Farg`ona. O`zR FA SHI, qo`lyozma, inv. – №5971.

13. Муҳаммад Азиз Марғилоний. Тарихи Азизий / Нашрга тайёрловчилар Ш.Воҳидов, Д.Сангирова. – Т.: Маънавият, 1999. – 112 б; O`zR FA SHI, qo`lyozma, inv. – №11108.

14. Муҳаммад Азиз Марғилоний. Тарихи Азизий / Нашрга тайёрловчилар Ш. Воҳидов, Д. Сангирова. – Т.: Маънавият, 1999. – 112 б.

15. Сангирова Д. “Тарихи Азизий” – чор мустамлакачилиги даврига оид муҳим тарихий манба: Тарих фан. номз.. дисс. – Т., 2000. – 153 в.

16. Chaqsa – 1/3 pudga teng og`irlik o`lchov birligi. Bir pud – 16,3 kg.ga teng (Ўзбекистон миллий энциклопедиси. – Т., 9 – том. 2005. – Б. 566.).

17. Paysa – bu yerda tanganing mayda puli o`rnida keltirilgan (Муҳаммад Азиз Марғилоний.Тарихи Азизий / Нашрга тайёрловчилар Ш.Воҳидов, Д.Сангирова. – Т.: Маънавият, 1999. – Б. 105.).

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 1-son)

IJTIMOIY FANLAR

SOCIAL STUDIES

МИГРАЦИЯНИ ТАРТИБГА СОЛИШНИНГ ЖИНОИЙ-ҲУҚУҚИЙ АҲАМИЯТИ: МИЛЛИЙ ВА ХОРИЖИЙ ТАЖРИБА

Эгамбердиев Бехзод Искандарович
ИИВ ходими, юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD)

Аннотация. Мақолада миграцияни тартибга солишнинг жиноий-ҳуқуқий аҳамияти ҳамда унинг миллий ва ҳалқаро қонунчилик асослари баён этилган.

Таянч сўзлар: миграция, миграция жараёнлари, жиноят, жиноят қонунчилиги, қонунга хилоф равишда миграцияни ташкил этиш, мамлакат ҳудудига кириш, чиқиш ва бўлиш.

Аннотация. В статье раскрывается уголовно-правовое значение миграционного регулирования, его национальные и международные правовые основы.

Ключевые слова: миграция, миграционные процессы, преступность, уголовное право, организация нелегальной миграции, въезд, выезд и пребывание на территории страны.

Annotation. The article reveals the criminal-legal significance of migration regulation, its national and international legal foundations.

Keywords: migration, migration processes, crime, criminal law, organization of illegal migration, entry, exit and stay on the territory of the country.

2022 – 2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегиясига мувофиқ, инсон қадрини юксалтириш, эркин фуқаролик жамиятини янада ривожлантириш орқали турли салбий иллатлар, хусусан, экстремизм ва терроризмга, ноқонуний ташқи меҳнат миграцияси ва одам савдосига қарши курашишнинг самарали механизмларини шакллантириш, шунингдек, хавфсиз, тартибли ва қонуний меҳнат миграциясини таъминлаш масалалари устувор мақсадлардан бири сифатида белгиланди.

Бу борада, сўнги йигирма йил давомида халқаро майдонда тус олаётган масалалар таҳлили шуни кўрсатади-ки, ижтимоий-иқтисодий, сиёсий ва геосиёсий вазиятларнинг йил сайин глобаллашуви ҳамда унинг ривожланиб боришида аввало мигрантларнинг ҳиссаси салмоқлидир. Миграцияга оид маълумотларга кўра, халқаро мигрантлар сони 2010 йилда 214 млн.ни[1], 2019 йилда 272 млн.га етган бўлса[2], 2024 йилга келиб қарийб 300 млн.га етиб (35,2%га ошган)[2], уларнинг халқаро пул ўтказмалари 717 млрд. АҚШ долларни ташкил этмоқда[4]. Фикримизча, бу жараёнларнинг юзага келиши ва ривожланиб боришида

мигрантларнинг ҳуқуқ ва эркинликлари ҳамда уларнинг эркин ҳаракатланишга доир қонуний манфаатларини ишончли ҳимоя қилиш масаланинг бош мезон ҳисобланади.

Инсон ҳуқуқлари умумжаҳон декларациясига кўра (13-модда) ҳар бир инсон ҳар қандай мамлакатдан, хусусан ўз мамлакатидан чиқиб кетиши ва ўз мамлакатига қайтиб келиш ҳуқуқига эга[5]. Фуқаролик ва сиёсий ҳуқуқлар тўғрисидаги халқаро пактга (12-модда) асосан эса ҳар бир инсон ҳар қандай мамлакатни, шу жумладан ўз мамлакатидан кетишга ҳақли. Зеро, ҳеч бир шахс ўзбошимчалик билан ўз мамлакатига кириш ҳуқуқидан маҳрум этилиши мумкин эмас[6].

Шахснинг ушбу ҳуқуқ ва эркинликлари Ўзбекистон Республикасининг янги таҳрирдаги Конституциясида (32-модда) ҳам ҳуқуқий кафолатланган бўлиб, унга кўра қонуний асосларда Ўзбекистон Республикаси ҳудудида бўлиб турган ҳар ким мамлакат бўйлаб эркин ҳаракатланиши, турар ва яшаш жойини танлаши ҳамда мамлакатдан ташқарига эркин чиқиши кафолатланган. Шу нуқтаи назардан ҳам қонун устуворлигини, хусусан шахснинг бу борадаги конституциявий ҳуқуқларини таъминлаш жараёнлари Янги Ўзбекистони барпо этиш даврида “Инсон қадри учун” тамойилининг бош мезони сифатида белгиланмоқда.

Шундай экан, бу борада жиноятчиликка қарши курашиш, жамоат хавфсизлигини таъминлаш, ҳуқуқбузарликларнинг содир этилишига сабаб бўлган шарт-шароитларни барвақт аниқлаш ва бартараф этишда, хусусан миграция жараёнларини тартибга солишда аввало унинг маъмурий-жиноий ҳуқуқий асосларини янада мустаҳкамлаш муҳим ўрин тутади.

Миграция жараёнларини тартибга солиш соҳасидаги ҳуқуқни қўллаш амалиётида ўтган давр мобайнида шахснинг эркин ҳаракат қилишини чеклайдиган хорижга чиқиш визалари сингари умрини мутлақо ўтаб бўлган ўтмиш қолдиқларининг бекор қилинганлиги шахснинг ушбу ҳуқуқ ва эркинликларини янада кафолатлаш даражасини мустаҳкамлашга самарали хизмат қилгани билан аҳамиятли бўлди.

Масаланинг аҳамиятли жиҳати шундаки, глобаллашув даврида миграция муаммосининг долзарблиги ва унинг билан боғлиқ таҳдидлар инсон ҳуқуқлари, эркинликлари ҳамда уларнинг қонуний манфаатларини таъминлашга бўлган эҳтиёжларни янада кучайтириб, дунё ҳамжамиятида миграцияни тартибга солишнинг ҳуқуқий асослари ва бошқарув тизимини янада такомиллаштиришга туртки бўлди. Шунинг учун ҳам миграциясини тартибга солиш соҳасидаги инсон ҳуқуқларини таъминлашга қаратилган илмий ва монографик тадқиқотлар даражасида миллий ва хорижий тажрибани ўрганиш ва таҳлил қилиш объектив заруратга айланди.

Халқаро “Қочоқлар мақоми тўғрисида”ги Конвенцияда “қочоқ” мақомидаги шахс ўз мамлакатидан ташқарида яшаётган, инсон ҳаёти, эркинлиги ва хавфсизлиги учун қўрқув ҳисси билан яшаши ҳамда ирқий, диний, фуқаролик, муайян ижтимоий гуруҳ аъзолиги ёки сиёсий қарашлар асосида жиноий жавобгарликка тортилиши мумкинлиги каби факторларга кўра яшаш манзилига қайтиб боришга қодир бўлмаган шахс сифатида изоҳланади[7]. Улар

манзил давлатларга боргач эса кўпинча номунтазам (норасмий) мигрант мақомига эга бўлади[8].

Миграциянинг ушбу кўринишини муайян таъсир натижасида шахснинг яшаш жойини ўзгартиришга олиб келадиган сиёсий жараён сифатида қараш мумкин. Бундай шароитда шахс аввалига, ўзи учун керакли бўлаган ҳуқуқ, эркинликлари ва қонуний манфаатларига бўлган эҳтиёжни сезади сўнгра, халқаро ташкилотлар шунингдек, бошқа давлатдан сиёсий бошпана излайди.

Бу борада, сиёсий бошпана ҳуқуқидан фойдаланувчи шахснинг ҳуқуқ ва эркинликлари ҳамда уларнинг қонуний манфаатларини таъминлашга доир умумеътироф этилган халқаро ҳужжатларга мувофиқ, ушбу шахслар учун мамлакатимизнинг жиноят қонунчилигида жавобгарликдан озод этилишига доир айрим рағбатлантирувчи нормалар мавжуд. Хусусан, Ўзбекистон Республикасининг Конституциясида назарда тутилган сиёсий бошпана ҳуқуқидан фойдаланиш учун кириш ҳужжатларини тегишли даражада расмийлаштирмасдан Ўзбекистон Республикасига келган чет эл фуқаролари ва фуқаролиги бўлмаган шахслар жиноий жавобгарликдан (ЖК-223 м.) озод қилинадилар[9] *(қонунда назарда тутилган айрим чекловлар бундан мустасно)*.

Шу нуқтаи назардан, Ўзбекистон Республикаси халқаро муносабатларнинг тўла ҳуқуқли субъекти сифатида миграцияни тартибга солиш масалалари бўйича Ўзбекистон Республикаси ҳукумати Россия, Озарбайжон, Қозоғистон, Жанубий Корея, Беларусия, Болгария, Покистон, Саудия Арабистони, БАА, Хитой каби бошқа давлатлар билан икки ва кўп томонлама битимлар (шартнома ва меморандум) имзоланган.

Бундан ташқари мамлакатимиз ривожлантиришнинг бугунги босқичида миграцияни тартибга солиш жараёнлари давлат сиёсати даражасига кўтарилди. Ўзбекистон Республикаси ҳудудида 7 та давлат фуқароларининг 30 суткалик визасиз режимда бўлишлари, 75 та мамлакат фуқаролари учун туризм визаларини расмийлаштиришда соддалаштирилган тартибнинг жорий қилинганлиги[10] ёки 99 та давлат фуқаролари учун беш кундан ортиқ бўлмаган муддатга Ўзбекистон Республикасига визасиз кириш (халқаро аэропортларнинг ўтказиш пунктлари орқали), вақтинча бўлиш ва мамлакатдан чиқиб кетиб тартибининг жорий этилганлиги[11] фикримизни асослайди.

Бу борада чет эл фуқаролари ва фуқаролиги бўлмаган шахслар учун жиноят қонунчилигида белгиланган жавобгарлик масалаларини таҳлил қилсак, қонунга хилоф равишда Ўзбекистон Республикасига кириш, чиқиш ва Давлат чегараларидан ўтиш билан боғлиқ муносабатларни жиноий-ҳуқуқий тартибга солиниши, *биринчидан*, шахснинг эркинлиги билан боғлиқ конституциявий ҳуқуқларини самарали тартибга солиш ва уларга етарли шароитлар яратиш билан, *иккинчидан*, шахс, жамият ва давлат хавфсизлигини таъминлаш мақсадида тинчлик ва хавфсизликка қарши таҳдидларнинг келиб чиқишини олдини олишга қаратилгани билан аҳамиятли. Шунинг учун ҳам ушбу ижтимоий хавфли қилмиш Ўзбекистон Республикаси жиноят қонунчилигида алоҳида норма (ЖК 223-м.

“Қонунга хилоф равишда чет элга чиқиш ёки Ўзбекистон Республикасига кириш”) билан қўриқланиши қатъий белгилаб қўйилган.

Бу борада, Ўзбекистон Республикасининг 2019 йил 5 ноябрдаги (ЎРҚ-579-сон) қонуни билан чет эл фуқаролари ва фуқаролиги бўлмаган шахслар учун жавобгарлик масалалари либераллаштирилиши муносабати билан айрим нормалар Жиноят кодексидан чиқарилиб, айрим ҳаракатлари (ҳаракатсизлик) учун маъмурий ҳуқуқбузарлик нормалари кучайтирилган.

Хусусан, соҳадаги қонун ижодкорлиги жараёнида (ЖК 224-м., Ўзбекистон Республикасида бўлиш қоидаларини бузиш) чет эл фуқаролари ва фуқаролиги бўлмаган шахснинг Ўзбекистон Республикасида бўлиш қоидаларини бузиш билан боғлиқ айрим ижтимоий хавфли қилмишлар учун жиноий жавобгарликни қўллаш амалиёти бекор қилиниб, ушбу ҳаракатлар маъмурий ҳуқуқбузарлик сифатида алоиҳада норма (МЖтК 225-м., Ўзбекистон Республикасида бўлиш қоидаларини бузиш) таркибида ҳуқуқий баҳоланиши белгиланди.

Қонунчиликдаги мазкур ўзгаришларнинг ижобий жиҳати *биринчидан*, шахснинг эркин ҳаракатланишига доир ҳуқуқларини янада кафолатлаш, уларнинг мамлакатимизда меҳнат фаолияти учун муносиб шарт-шароитларни яратишга қаратилган бўлса, *иккинчидан*, туризм салоҳиятини янада ошириш орқали инвестиция муҳитини шакллантиришга хизмат қилади.

Бироқ, бизнинг фикримизча бу борадаги ҳуқуқни қўллаш амалиётида қонунга хилоф равишда миграцияни ташкил этиш билан боғлиқ ғайриқонуний ҳаракатларни жиноий-ҳуқуқий баҳолашда айрим ҳуқуқий бўшлиқлар мавжуд.

Масалан, ўтказилган тадқиқотларимиз жараёнида ҳуқуқ-тартибот органларининг одам савдосига қарши курашиш билан боғлиқ мурожаатларни кўриб чиқиш амалиётида шахс ҳаракатларида одам савдоси таркиби билан қамраб олинмайдиган, яъни ишончни суиистеъмол қилмасдан хорижга қонунга хилоф равишда чиқишга кўмаклашиш ёки уни ташкил этиш ҳаракатларининг учраётганлиги – ушбу қилмишларни ҳуқуқий баҳолашда айрим қийинчиликлар ва зиддиятларни юзага келишига имкон бераётганлиги кузатилмоқда. Буни тадқиқот доирасида ўтказилган ижтимоий сўровномаларимизда қатнашган ушбу соҳа ходимларининг 76,0% ҳам тасдиқлаган[12].

Агар, масаланинг қиёсий таҳлилига эътибор берсак, бевосита миграция билан боғлиқ жараёнларни бузганлик учун жавобгарликни белгилашнинг ҳуқуқий механизмлари айрим давлатларнинг миллий қонунчилигида турли таркибдаги нормалар билан муҳофаза қилинишини кўришимиз мумкин.

Жумладан, мазкур қилмишлар Россия (ЖК 322.1-м.)[13], Қозоғистон (ЖК 394-м.)[14], Беларусь (ЖК 371^1-м.) [15] ёки Озарбайжон (ЖК 318.1-м.) [16] давлатларининг миллий қонунчилигида ноқонуний миграцияни ташкил этганлик учун алоҳида жиноят сифатида белгиланган. Шунинг учун ҳам айрим олимларимиз жиноят қонунчилигимизда “ғайриқонуний миграцияни ташкил этиш” нормасини белгилаш хусусидаги тафсияларни илгари сурган[17].

Умуман олганда, хулоса ўрнида таъкидлаш жоизки, шахснинг эркин ҳаракатланиш билан боғлиқ конституциявий ҳуқуқларини таъминлаш билан бирга, қонунга хилоф равишда миграцияни ташкил этишга олиб келувчи сабаблар ҳамда унга имкон бериши мумкин бўлган шарт-шароитларни бартараф этиш, шунингдек бу борадаги ижтимоий муносабатларни ҳуқуқий жиҳатдан тартибга солиш мақсадида, келгусида жиноят қонунчилигида ушбу қилмишлар учун жавобгарликни аниқ назарда тутувчи нормалар билан янада такомиллаштириб бориш мақсадга мувофиқ бўлади.

Бу эса, ўз навбатида шахснинг қонунга хилоф равишда мамлакатимизга кириши, чиқиши ва бўлишини ташкил этувчи ёки унга кўмаклашувчи шахсларга жавобгарликни белгилаш орқали уларнинг ушбу ғайриқонуний хатти-ҳаракатларини чеклашга, энг асосийси фуқароларимизнинг жиноят ёки маъмурий ҳуқуқбузарликлар қурбони бўлишининг, ҳуқуқ ва эркинликлари бузилишининг ёки камситилишининг (дискриминация) олдини олишга хизмат қилади, деб ҳисоблаймиз.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР

1. Халқаро миграция ташкилоти (IOM)нинг миграция жараёнларига доир ҳисоботи/ https://ru.wikipedia.org/ wiki/Миграция_населения#cite_ref-4 (мурожаат вақти: 20.08.2023).

2. United Nations Department of Economic and Social Affairs / https://www.un.org/ development /desa/en/news/ population/international-migrant-stock-2019.html (мурожаат вақти: 01.08.2023).

3. https://worldmigrationreport.iom. (мурожаат вақти: 15.07.2024).

4. MIGRANT.UZ https://migrant.uz/uz/ (мурожаат вақти: 15.12.2024).

5. Инсон ҳуқуқлари умумжаҳон декларацияси. БМТ Бош Ассамблеясининг Резолюция 217 А (III) 1948 й. 10 дек.

6. Фуқаролик ва сиёсий ҳуқуқлар тўғрисидаги ҳалқаро пакт. БМТ Бош Ассамблеяси., 1966 й. 16 дек., 2200 А (XXI).

7. *Г.С. Гувдин-Гилл,* Статус беженца в международном праве. М., 1997.

8. *Ф.Пирманов, Ш.Тўраев, И.Даминов, Ш.Тоғаев.* Миграция:Мусофир ватангадолар /Монография. – Т.: “Sano-standart” нашриёти, 2015 . – 16 бет.

9. *М.Х. Рустамбоев.* Ўзбекистон Республикасининг Жиноят кодексига шарҳ [Қайта ишланган ва тўлдирилган иккинчи нашр.2016 йил 1 ноябргача бўлган ўзгартириш ва қўшимчалар билан]. умумий қисм /– Тошкент: “Адолат”, 2016. – 614-Б.

10. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 3 февралдаги “Ўзбекистон Республикаси туризм салоҳиятини ривожлантириш учун қулай шароитлар яратиш бўйича қўшимча ташкилий чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПФ-5326-сон Фармони.

11. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 4 июлдаги “Ўзбекистон Республикасига хорижий фуқароларнинг кириши тартибини оптималлаштиришга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПҚ-3836-сон Қарори.

12. *Б.И. Эгамбердиев.* Ички ишлар органларининг миграция жараёнларига доир

фаолиятини такомиллаштириш: Юрид. фан. док. (PhD). ...докторлик. дис. Т.: / Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2021. – 256 б.

13. Уголовный кодекс Российской Федерации. Законом РФ 13.06.1996 г. №63-ФЗ. *(мурожаат вақти: 22.12.2024. https://consultant.ru).*

14. Уголовный кодекс Республики Казахстан. Законом РК 12.07.2018г.№180-VI. *(мурожаат вақти: 22.12.2024. https://online.zakon.kz.)*

15. Уголовный кодекс Республики Беларусь. Законом РБ 9.07.1999 г. №275-З. *(мурожаат вақти: 22.12.2024. m.etalonline.by/?type.)*

16. Уголовный кодекс Республики Азарбайджан. Законом РА 30.12.1999 г. №787-IQ. *(мурожаат вақти: 22.12.2024. https://online.zakon.kz/m/Document).*

17. *Фозилов И.Ю.* Одам савдосига қарши курашнинг жиноят-ҳуқуқий ва криминологик жиҳатлари: автореф. дис. … юрид. наук. – Т., 2016.-106 б.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 1-son)

IJTIMOIY FANLAR

SOCIAL STUDIES

MAMLAKATIMIZDA FERMER XO‘JALIKLARINI TASHKIL ETISH ARAFASIDA QISHLOQ XO‘JALIGINING AHVOLI. (Andijon viloyati).

Davlatbek Musaev
Andijon davlat universiteti
Jahon tarixi kafedrasi katta o‘qituvchisi.
Tel: (93) 256-07-44

Annotatsiya: O‘zbekiston asosiy agrar davlatlar tarkibida asosiy o‘rinni egallaydi. Shu bois qishloq xo‘jaligini rivojlantirish bo‘yicha muhim tadbirlar amalga oshirila boshlangan. Mamlakat iqtisodiyotida qishloq xo‘jaligini ahamiyati beqiyosdir. Asosiy oziq-ovqat beradigan soha bu qishloq xo‘jaligidir. Shuning uchun ham dastlabki kunlardanoq bu sohaga e’tibor qaratildi. Agrar soha respublika sanoatini xom ashyo bilan ta’minlash, eksport salohiyati va valyuta tushumining asosiy manbasi hisoblanadi. Jumladan paxta tozalash, to‘qimachilik, yengil sanoat, oziq-ovqat, kimyo sanoati, qishloq xo‘jaligi mashinasozligi va boshqa sohalarni rivojlantirishda qishloq xo‘jaligi alohida o‘rin tutadi.

Kalit so‘zlar: kolxoz, sovxoz, islohot, fermerlik, mulkchilik shakllari, xususiy mulk, davlat mulki, tomorqa, ijara xo‘jaligi, oziq-ovqat dasturi, sotsialistik musobaqa, kollektivlashtirish, agrar soha, kooperativ, rentabelli, norentabel.

СОСТОЯНИЕ СЕЛЬСКОГО ХОЗЯЙСТВА В НАШЕЙ СТРАНЕ НАКАНУНЕ СОЗДАНИЯ ФЕРМЕРСКИХ ХОЗЯЙСТВ. (в случае Андижанской области).

Аннотация: Узбекистан занимает главное место в основных аграрных странах. Поетому были реализованы важные меры по развитию селского хозяйства. Значение селского хозяйства в экономике страны несравнимо. Основной отраслю производства продуктов питания является селское хозяйство. Именно поетому этому направлению с первых дней было уделено внимание. Аграрный сектор является основным источником сыревого обеспечения, экспортного потенциала и валютных поступлений для промышленности республики. Особое место в развитии хлопкоочистителной, текстилной, легкой, пишевой, химической промышленности, селскохозяйственного машиностроения и других отраслей занимает селское хозяйство.

Ключевые слова: колхоз, совхоз, реформа, селское хозяйство, формы собственности, частная собственност, государственная собственност, приусадебный участок, аренда, продоволственная программа, социалистическое соревнование, коллективизация, аграрный сектор, кооперативный, доходный, убыточный.

THE STATE OF AGRICULTURE IN OUR COUNTRY ON THE EVE OF THE ESTABLISHMENT OF FARMS. (in the case of Andijan region)

Abstract: Uzbekistan occupies the main place in the main agrarian countries. Therefore, important measures for the development of agriculture have been implemented. The importance of agriculture in the country's economy is incomparable. The main food producing sector is agriculture. That is why attention was paid to this area from the first days. The agricultural sector is the main source of raw material supply, export potential and foreign exchange earnings for the republic's industry. Agriculture occupies a special place in the development of cotton ginning, textiles, light industry, food, chemical industry, agricultural machinery and other industries.

Key words: collective farm, state farm, reform, farming, forms of ownership, private property, state property, homestead, tenancy, food program, socialist competition, collectivization, agrarian sector, cooperative, profitable, unprofitable.

KIRISH.

Mamlakatimizda mustaqillik yillaridagi iqtisodiy sohada erishgan ulkan yutuqlarimizning hech biri osonlikcha qo‘lga kiritilmagan. Bu qo‘lga kiritilgan yutuqlar ortida, amalga oshirilayotgan islohotlar mujassamdir. Istiqlol yillarida mustaqilligimizning iqtisodiy asoslarini mustahkamlashga qaratilgan eng muhim strategik dasturlar ishlab chiqilib, hayotga izchil tatbiq etilayotgani o‘zining yuksak samarasini bermoqda. Buni iqtisodiyotimizning muhim sohalaridan biri-qishloq xo‘jaligidagi o‘zgarishlarda ham yaqqol ko‘rishimiz mumkin. Ma’lumki, bugungi kunda aholini sifatli oziq-ovqat mahsulotlari bilan yetarlicha ta’minlash vazifasi dunyodagi barcha mamlakatlarning asosiy vazifalaridan biriga aylanib bormoqda. “BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkiloti (FAO)ga a’zo davlatlarning oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash sohasida ming yillik rivojlanish maqsadlariga erishgani uchun beriladigan mukofotiga sazovor bo‘lgan 14 ta davlatdan biri sifatida O‘zbekiston e’tirof etilgan” [1]

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR. Chunki O‘zbekiston asosiy agrar davlatlar tarkibida asosiy o‘rinni egallaydi. Shu bois qishloq xo‘jaligini rivojlantirish bo‘yicha muhim tadbirlar amalga oshirila boshlangan. Mamlakat iqtisodiyotida qishloq xo‘jaligini ahamiyati beqiyosdir. Asosiy oziq-ovqat beradigan soha bu qishloq xo‘jaligidir. Shuning uchun ham dastlabki kunlardanoq bu sohaga e’tibor qaratildi. Agrar soha respublika sanoatini xom ashyo bilan ta’minlash, eksport salohiyati va valyuta tushumining asosiy manbasi hisoblanadi. Jumladan paxta tozalash, to‘qimachilik, yengil sanoat, oziq-ovqat, kimyo sanoati, qishloq xo‘jaligi mashinasozligi va boshqa sohalarni rivojlantirishda qishloq xo‘jaligi alohida o‘rin tutadi.

O‘zbekiston mustaqillikka erishgan davrda qishloq xo‘jaligini ahvoli umuman boshqacha bo‘lib, sovet sistemasiga xos ma’muriy buyruqbozlik tizimiga asoslangan xo‘jalik sistemasi mavjud bo‘lgan. Mulkchilik va xo‘jalik yuritishning asosiy shakllari kolxozlar va sovxozlarda

namoyon bo‘lgan. Sovet hokimiyati davrida qishloq xo‘jaligi og‘ir ahvolga tushib, agrar soha mutaxassislari turmushi pasayib qolgan edi. Soha mutaxassislari mehnatiga haq to‘lash va moddiy-ma’naviy rag‘batlantirish o‘rniga, “sotsialistik musobaqalar” tashkil etilib, “maxsus” tanlab olingan “mehnat g‘oliblari” - brigadirlar, mexanizatorlar, muhandislarni qadrlash kun tartibiga qo‘yilgan edi. Natijada, 1980 yillarning oxiriga kelib, butun Ittifoqda bo‘lgani kabi O‘zbekiston ham chuqur ijtimoiy va iqtisodiy inqirozga duch keldi.

O‘zbekistondagi vaziyat Ittifoq tarkibidagi boshqa respublikalarga nisbatan ancha og‘ir edi. Sababi, uzoq yillar davomida respublika iqtisodiètida hukm surgan paxta monopoliyasi boshqa tarmoqlarni rivojlantirishga imkon bermadi. 1989 yilgi statistik ma’lumotlarga ko‘ra, sanoatdagi mehnat unumdorligi jihatidan respublika mamlakatdan 40 foiz, qishloq xo‘jaligidagi mehnat unumdorligi jihatidan esa ikki barobar orqada edi. Respublikadagi ishsizlar soni 1 mln. kishiga yetdi [2]. Ularning asosiy qismi qishloqlarga to‘g‘ri keldi. Xo‘jaliklarning ishlab chiqarish rejalari va mahsulotlarga narx belgilash yuqoridan belgilanar edi. Bu holat yangi tashkil etilayotgan tizimga mutlaqo yot bo‘lib, bozor iqtisodiyoti munosabatlariga umuman to‘g‘ri kelmas edi. Sovet davrida mamlakatning asosiy va muhim mahsulotlari biri hisoblangan paxtaning 90%, qorako‘lning 100% markaziy rayonlarda qayta ishlash uchun xom ashyo tarzida tashib ketilgan. 1990-yillargacha respublika qishloq xo‘jaligi aholining oziq-ovqat mahsulotlariga bo‘lgan talabini qondira olmagan. O‘zbekiston aholisi iste’mol qiladigan g‘allaning 70% ko‘prog‘i, kartoshkaning 50 % , shakarning 100 % , go‘sht va sutning 1\5 qismi boshqa respublikalardan olib kelinar edi. Chetdan tashib keltiriladigan g‘allaning hajmi yiliga o‘rtacha 2,5-3 mln. tonna, go‘sht va go‘sht mahsulotlari 100-120 ming tonna, sut va sut mahsulotlari 0,6-0,8 mln tonnani tashkil qilib, umumiy iste’mol qilinadigan mahsulotlarning 1\3qismi faqat chetdan keltirilgan import mahsulotlar hisobiga qoplangan. [3]

NATIJA VA MUHOKAMA. Mamlakatimiz rahbariyati tomonidan XX asrning 90 yillarida amalga oshirilayotgan islohotlari zamirida bozor iqtisodiyotiga o‘tish sari yo‘l tutildi. Bozor islohotlariga o‘tishda ishlab chiqilgan asosiy tamoyil evolyusion –ya’ni bosqichma-bosqich joriy etish ko‘zda tutilgan bo‘lib, bu jarayon qishloq xo‘jaligida ham o‘z aksini topdi.

1992 yilda mamlakat qishloq xo‘jaligida 1100 dan ortiq “sovxoz,” 900 dan ortiq “kolxoz” deb nomlanuvchi xo‘jalik yurituvchi sub’ekt bo‘lgan. Sovet davlati tomonidan agrar sohani rivojlantirishni maqsadida yoppasiga jamoalashtirish sari yo‘l tutilganda tashkil etila boshlangan. Bundan asosiy maqsad qishloq xo‘jaligini rivojlantirishgina emas balki mulkdorlarni tugatish rejalashtirilgan. Davlat xo‘jaliklari ya’ni sovxozlar 1950 yillardan boshlab vujudga kela boshlagan. Bunday xo‘jalik shakllari mamlakat iqtisodiyotini sobiq Ittifoqning markaziy hududlariga birlamchi xom ashyo yetkazib beruvchi hudud sifatida taraqqiy etishiga sababchi bo‘lgan.[3] Bunday rivojlanish mamlakatda “paxta yakka xokimligi” deb atalgan ijtimoiy-iqtisodiy va ekologik muammolarni yuzaga keltirgan.

Dehqonlar ham, kolxoz va sovxoz rahbarlari ham qishloq xo‘jaligi korxonalari mulkdorlari emas edilar, chunki ular hukumat topshiriqlari asosida ish yuritgan bo‘lib, dehqonlarda tadbirkorlik tashabbuskorligi ham ishchilarda esa ijodkor mehnatga bo‘lgan ehtiyoji ham

mutlaqo shaklanishiga yo‘l qo‘yilmagan. Umuman olganda, ishchilarga zavodlar, dehqonlarga esa yer berilmagan, ularning iqtisodiy manfaatlari ham inobatga olinmagan, bu esa yer unumdorligi va hosildorlikning pasayishiga sababchi bo‘lgan. Bundan shu narsa ko‘rinib turibdiki, sovet hukumati davrida zo‘ravonlik asosida tuzilgan kolxoz va sovxozlar o‘z faoliyatini oqlay olmagan.

O‘zbekiston mustaqil respublika sifatida tan olingandan so‘ng, agrar sektorni tubdan isloh qilishga va jadal rivojlantirishga alohida ahamiyat berila boshlandi. Mustaqillikning dastlabki yillarida asosiy e’tibor mulkchilik sohasidagi tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirishga qaratildi. Pirovardida dehqonning mulkka, o‘z mehnati natijalariga amalda egalik qilishini ta’minlash vazifasi qo‘yildi. Ushbu vazifani hal etish uchun mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va shu asosda xususiy mulkchilikning turli shakllarini barpo etish orqali amalga oshirish ko‘zda tutildi. Qishloq xo‘jaligida o‘tkazilgan iqtisodiy islohotlarning dastlabki bosqichlarida avval davlat va jamoa mulki asosida faoliyat ko‘rsatgan qishloq xo‘jaligi korxona (shirkat)lari juda qisqa vaqt ichida xo‘jalik yuritishning nodavlat shakllariga aylantirila boshlandi. Bir vaqtning o‘zida qishloq aholisining bozor munosabatlariga moslashuvini tezlashtirish va ularda bozor iqtisodiyoti ko‘nikmalarini faol shakllantirish hamda aholining bo‘sh qismini ish bilan band qilish maqsadida ularga tomorqa yerlari berish, dehqon va fermer xo‘jaliklari tashkil etish uchun yer ajratish berishga kelishib olindi. Islohotlarning ilk bosqichida mamlakat qishloq xo‘jaligi barqarorligini ta’minlash va rejali iqtisodiyotdan bozor iqtisodiyotiga o‘tishning dastlabki asoslari yaratildi. Bunda ustuvor yo‘nalish etib tomorqa xo‘jaliklarini har tomonlama rivojlantirish vazifasi belgilangan edi. Dastlab tomorqani mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish masalalariga alohida e’tibor berildi.

1990 yilda respublika agrar soha bilan shug‘ullanadigan mutaxassislarga va qishloq aholisiga jami 108,5 ming gektar yer tomorqa sifatida ajratildi. 1991 yilda bu ko‘rsatkich 12 ming gektarni tashkil etdi. Mustaqillikning dastlabki yillarida agrar soha xodimlarni moddiy va ma’anviy jihatdan qo‘llab-quvvatlash maqsadida qabul qilingan «Er to‘g‘risida»gi, «Kooperatsiya to‘g‘risida»gi, «Ijara to‘g‘risida»gi, «Dehqon xo‘jaligi to‘g‘risida»gi qonunlar, shuningdek, 1991 yil 21 noyabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qabul qilingan PF-295-sonli «Respublikada dehqon (fermer) xo‘jaliklarini yanada mustahkamlash va tadbirkorlik faoliyatini davlat yo‘li bilan qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida»gi Farmoni va shu kabi boshqa hukumat qarorlari qishloqda agrar soha mutaxassislarini manfaatlarini himoya qiladigan yangi huquqiy munosabatlarni joriy etishga amaliy yo‘llanma bo‘lib, ko‘p ukladli iqtisodiètni shakllantirish, tadbirkorlik, fermer va shaxsiy tomorqa xo‘jaliklarini rivojlantirish imkonini yaratdi.

Agrar soha mutaxassislari, xodimlari va ishchi-xizmatchilari o‘ziga berilgan tomorqadan unumli foydalanib, mahalliy o‘g‘it bilan ta’minlagan holda, hosildorlikni muttas iloshirib bordi. 1991 yildan boshlab 2-3 marta ekin ekilib hosil olinishi natijasida sabzavot, poliz, meva, go‘sht, sut, tuxum kabi mahsulotlarning ko‘payishiga imkoniyat yaratildi.

Agrar soha mutaxassislari, xodimlari va ishchi-xizmatchilari chorvachilikda tuyoqlar soni ko‘paytirib, ularni yem-xashak bilan ta’minlash ancha yaxshilandi. Respublika qishloq xo‘jalik mehnatkashlari oziq-ovqat mahsulotlari bilan o‘zini va ichki bozorni ta’minlay boshladi.

Islohotlarni chuqurlashtirishning navbatdagi ustuvor yo‘nalishi ko‘p ukladli iqtisodiyotni rivojlantirish, uning salmoqli qismini qishloq sharoitida xususiy mulk shakliga aylantirishdan iborat bo‘ldi. Chunki qishloqlarda mulkchilik munosabatlarini tubdan o‘zgartirmay turib, chinakam iqtisodiy raqobat muhitini yaratib bo‘lmas edi. Qishloq mutaxassislarini jahon andozalari asosida ish yuritishga o‘rgatish zarur edi. O‘zbekistonning janubiy hududlaridagi qishloq ahlini, ayniqsa, yoshlarni boqimandalik kayfiyatidan xalos etish, ularda tadbirkorlik, ishbilarmonlik ishtiyoqini uyg‘otish dolzarb masalaga aylandi.

Agrar sohada xususiy sektor mavqeining oshishi qishloq xo‘jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish ijtimoiy tarkibini tubdan o‘zgartirdi. Unda nodavlat sektorning ulushi 1993 yil 98 % yetdi [4]. Respublikada 1992-1994 yillarda agrar xo‘jaliklarga tegishli 98 mingdan ortiq inshootlar xususiylashtirildi. Ochiq turdagi aksiyadorlik jamiyatlari soni uch yarim mingdan oshib ketdi . 1992 yildan boshlab 1995 yil boshlarigacha qishloq tumanlaridagi 1137 davlat xo‘jaligi (sovxoz) boshqa mulk shakliga, ya’ni 530 ta jamoa xo‘jaligiga, 350 kooperativga, 100 dan ortiq ijara, shuningdek, boshqa mulk shakllariga aylantirildi [5].

1996 yil 3 aprelda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan imzolangan «Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini davlat yo‘li bilan qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risidagi» farmoni qishloqda islohotlarni chuqurlashtirishga qaratilgan qator tadbirlarni belgilab berdi. Natijada qishloqda agrar islohotlar o‘tkazildi. Yangi shakllangan qishloq tuzilmaviy tarmoqlarida 1997 yilda 1374 ta jamoa, 99 ta ijara xo‘jaligi, 51 ta aksionerlik jamiyati, 20 mingdan ortiq mustaqil fermer xo‘jaliklari, 526 ta shaxsiy chorvachilik fermasi va 3 millionga yaqin shaxsiy tomorqa xo‘jaligi faoliyat ko‘rsatdi.

XULOSA. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar maxkamsining “Davlat qishloq xo‘jaligi korxonalariga moliyaviy yordam ko‘rsatish va ularni xo‘jalik yuritish shakllarini takomillashtirish” to‘g‘risidagi qaroriga muvofiq viloyat qishloq xo‘jalik tashkilotlarini davlat tasarrufidan chiqarish va qishloqda ishlab chiqarishni tashkil etish usullarini takomillashtirish, xo‘jaliklarni mulkchilikning jamoa va tijorat shakllariga yangi turlarini tashkil etish bo‘yicha bir talay ishlar amalga oshirilgan. Jumladan Andijon viloyati bo‘yicha 1992 yil 21 yanvardagi №21 sonli qaroriga muvofiq viloyatda o‘tgan yili 20 ta zarar ko‘rib ishlovchi davlat xo‘jaliklari, jamoa xo‘jaliklariga, kooperativlarga va davlatga qarashli bo‘lmagan boshqa xo‘jaliklariga aylantirilgan. Ularning banklar va mahsulot yetkazib beruvchilardagi 89 million so‘mdan ortiqroq qarzi kechib yuborilgan. Joriy yilda 22 ta davlat xo‘jaligi mulkchiligining davlatga qarashli bo‘lmagan jamoa shakllariga aylantirilgan. Ularninig asosida 8 ta jamoa xo‘jaligi, 1 ta kooperativ xo‘jalik, 9 ta ijara xo‘jaligi hamda korxonalarning boshqa turlari tashkil etilgan. [6]

Chorvachilik fermalari, bog‘ va tokzorlar, kichik yer maydonlari hamda issiqxonalar xususiylashtirildi. Qishloq xo‘jaligida 1991-2010 yillarda olib borilgan dastlabki islohotlar natijasida yerga xususiy mulkchilik qaror topdi. Qishloqda ishlab chiqarishga va yetishtirilgan

mahsulotga sohiblikni tiklashning birinchi bosqichida bu masala yerga xususiy mulkchilikka o‘tish yo‘li bilan emas, balki yerga sohiblikni tiklash yo‘li orqali hal etildi.

Qishloq xo‘jaligidagi islohotlarni yerga mulkchilik masalasini hal qilmasdan turib yechib bo‘lmasligi ayon edi. Sobiq Ittifoq davrida mavjud bo‘lgan, yer va suvga mulkchilik masalasini butunlay izdan chiqargan “kolxoz” va “sovxoz”lar o‘rniga qishloq xo‘jaligida ko‘p ukladli iqtisodiyotga asoslangan yangi munosabatlarni olib kirish vazifasi islohotlarning bosh masalasi sifatida diqqat markazida turar edi. . Yerni dehqonlarga egalik qilishga uzoq muddat foydalanish uchun meros qilib qoldirish natijasida xususiy tadbirkorlar shakllantirildi. Bu masala yerni dehqonlarga ijaraga berish orqali hal etildi va yer munosabatlarini takomillashtirish jarayonida mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va ko‘p ukladli iqtisodiyotni vujudga keltirish asosida amalga oshirildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Karimov I.A. “Bosh maqsadimiz-iqtisodiyotimizda olib borayotgan islohotlarni va tarkibiy o‘zgarishlarni keskin chuqurlashtirish, xususiy mulkchilik, kichik biznes va tadbirkorlikka keng yo‘l ochishdir”. T:”Ma’naviyat”, 2016 y. B-.29

2.Karimov I.O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. Toshkent. O‘zbekiston,2011. B-4.

3.Farmonov T.X. Fermer xo‘jaliklarini rivojlantirish istiqbollari. Toshkent.: “Yangi asr avlodi”, 2004 y. B-68

4.Shamsutdinov R. Qishloq fojeasi: jamoalashtirish, quloqlashtirish, surgun.-Toshkent:” Sharq”, 2003 y B-189.

5. Salimov B.T., Berkinov B.B. va boshqalar Dehqon va fermer xo‘jaliklar iqtisodi. -Toshkent: “Adabiyot” 2004 y. –B 82.

6. Botirova H.E. Mustaqillik yillarida qishloq xo‘jaligida ko‘p ukladli mulkchilik shakllarining qaror topishi. Miasto Przyszłości Kielce 2023.

7. Andijon viloyat arxivi 734-fond 0001. 0110 (53).

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 1-son)

IJTIMOIY FANLAR

SOCIAL STUDIES

UDK:0:9(58)338:297.930.(584.4)

MILODDAN AVVALGI VII-VI ASRLARDA XORAZM VOHASI AHOLISINING IJTIMOIY TUZUMI, QABILALARNING BIRLASHUVI JARAYONLARI TARIXI

Matyakubov Xamdam Xamidjanovich
***Urganch davlat** universiteti, Tarix kafedrasi dotsenti, PhD.*
E-mail: hamdamtarix@gmail.com
Tel: (97)-601 09 40

Annotatsiya. Mazkur maqolada miloddan avvalgi VII-VI asrlarda Xorazm vohasi va Sharqiy Orolbo‘yi hududlarida yashagan chorvador va yarim o‘troq saklar jamoalarining ijtimoiy-iqtisodiy tuzilishi, xo‘jalik yuritish shakllari, harbiy demokratiya tamoyillariga asoslangan boshqaruv tizimi va madaniyati tahlil qilingan. Saklar jamiyatida patriarxal oila va urug‘ tuzilishidan boshlab qabila yo‘lboshchilari va harbiy sardorlarning roli, shuningdek, qadimgi davr davlatchiligining shakllanish jarayonlari yoritilgan.

Kalit so‘zlar. Saklar, Xorazm, Sharqiy Orolbo‘yi, ijtimoiy tuzilma, yarim o‘troq xo‘jalik, patriarxal oila, qabila tizimi, “Avesto”, harbiy demokratiya, Ko‘zaliqir, bronza davri.

СОЦИАЛЬНЫЙ СТРОЙ НАСЕЛЕНИЯ ХОРЕЗМСКОГО ОАЗИСА В VII-VI ВЕКАХ ДО НАШЕЙ ЭРЫ, ИСТОРИЯ ПРОЦЕССА ОБЪЕДИНЕНИЯ ПЛЕМЁН

Аннотация. В данной статье анализируются социально-экономическая структура, формы ведения хозяйства, система управления на основе принципов военной демократии и культура сакских общин, проживавших в VII-VI веках до нашей эры в районе Хорезмского оазиса и Восточного Приаралья. Рассматриваются роли патриархальной семьи и родового строя, а также племенных вождей и военных лидеров в обществе саксов, освещаются процессы формирования древней государственности.

Ключевые слова. Саки, Хорезм, Восточное Приаралье, социальная структура, полуоседлое хозяйство, патриархальная семья, племенная система, «Авеста», военная демократия, Козалыкир, бронзовый век.

THE SOCIAL STRUCTURE OF THE POPULATION OF THE KHOREZM OASIS IN THE 7TH-6TH CENTURIES BCE, THE HISTORY OF THE TRIBAL UNIFICATION PROCESS

Annotation. This article analyzes the socio-economic structure, farming methods, governance system based on the principles of military democracy, and the culture of the Saka communities that lived in the Khorezm oasis and Eastern Aral Sea regions in the 7th–6th centuries BCE. It examines the roles of patriarchal families, clan structures, tribal leaders, and military commanders in Saka society, as well as the processes of early state formation.

Keywords. Sakas, Khorezm, Eastern Aral Sea region, social structure, semi-sedentary economy, patriarchal family, clan system, "Avesta," military democracy, Kozalykyr, Bronze Age.

Kirish. Miloddan avvalgi VII-VI asrlarda Sharqiy Orolbo‘yi va Xorazm vohasida yashagan chorvador sak qabilalari hayoti va xo‘jaligi turli madaniy, ijtimoiy va iqtisodiy jarayonlar bilan tavsiflanadi. Ushbu davrda mazkur hududlarda chorvachilik asosiy xo‘jalik sohalaridan biri bo‘lib, ko‘chmanchi va yarim ko‘chmanchi turmush tarzi keng tarqalgan edi. Sak qabilalarining ijtimoiy tuzilishi, urf-odatlari, diniy e'tiqodlari va xo‘jalik faoliyatlari o‘z davriga xos bo‘lgan siyosiy va madaniy jarayonlar bilan chambarchas bog‘liqdir. Tadqiqotda “Avesto”da aks etgan ma'lumotlar, arxeologik topilmalar hamda qadimgi yozma manbalarga asoslanib, ushbu hududdagi jamiyatning madaniy-ma'naviy va iqtisodiy rivojlanish jarayonlari o‘rganiladi.

Adabiyotlar tahlili. Sharqiy Orolbo‘yi va Xorazm vohasida yashagan chorvador sak qabilalari haqida turli tarixiy va arxeologik tadqiqotlar olib borilgan. Jumladan, qadimgi yunon tarixchilari Gerodot, Strabon va Ktesiy asarlarida saklar haqida ma'lumotlar uchraydi. Ushbu manbalarda saklarning ijtimoiy tuzilishi, urush taktikasi va turmush tarzi yoritilgan. Shuningdek, “Avesto”da chorvadorlarning xo‘jalik faoliyati, harbiy qurollari va diniy marosimlariga oid qimmatli ma'lumotlar mavjud.

Metodologik asoslari. Tadqiqot davomida tarixiy-etnografik tahlil, arxeologik materiallarni tadqiq etish, yozma manbalarni solishtirish kabi usullar qo‘llanildi. Shuningdek, “Avesto” va yunon tarixchilarining asarlari ma'lumotlari zamonaviy arxeologik tadqiqotlar bilan taqqoslanib, mazkur davrning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy jarayonlarini chuqurroq anglashga harakat qilindi. Tadqiqot davomida sistemali yondashuv orqali qabilaviy jamiyatlarning xo‘jalik faoliyati va boshqaruv tizimi o‘zaro bog‘liq holda o‘rganildi.

Tahlil. Quyi Sirdaryo havzasida (Sharqiy Orolbo‘yi erlarida) yashagan saklar ko‘chmanchilar edi, aksincha, Xorazm vohasining g‘arbiy qismidagi Amudaryoning Dovdon va Daryoliq o‘zanlari hosil qilgan Sariqamishbo‘yi havzasida joylashgan saklar yarim o‘troq (yarim ko‘chmanchi) va o‘troq chorvadorlar bo‘lishgan, dehqonchilik chorvachilikning yordamchi sohasini tashkil etgan. Ularning madaniyati Sakarchaga mozor qo‘rg‘onlari, Quyisoy 2, Yassiqir va Qang‘ha kabi manzilgohlarida aniqlangan ma'lumotlar asosida o‘rganilgan.

Bronza davrida keng o‘zlashtirilgan Xorazm vohasining sharqiy qismidagi Oqchadaryo deltasida mil. avv. VII-VI asrlarga oid manzilgohlar topilmagan. Ma'lumki, bronza davrida Oqchadaryoning irmoqlaridan ariqlar chiqarilib, nisbatan kichik dalalar yarim er to‘la turar

joylari atrofida joylashib, dehqonchilik ishlari urug‘ jamoalarning kuchlari bilan amalga oshirilgan, sug‘orma dehqonchilik sohasi cheklangan holda rivojlangan.

Ilk temir davrida xo‘jalik-madaniy manzara ancha o‘zgargan. Sariqamishbo‘yi Dovdon vohasida manzilgohlar va mozor qo‘rg‘onlar baland qirlarda joylashgan va ularning tevaragida, qadimiy sug‘orish inshootlar-kanallar va ariqlarning izlari aniqlanmagan. Aholi sigirlar, qo‘y-echkilarni boqqan, chorvadorlar xo‘jaligida yilqichilik ham katta o‘rin egallab olgan [1, c. 121-123].

Tarixiy-etnografik ma'lumotlarga ko‘ra, dashtlar sharoitiga mos chorvachilik, asosan, ko‘chmanchi va yarim ko‘chmanchi (yarim o‘troq) shaklda rivojlangan, negaki bunday xo‘jalik sohasida ko‘p mehnat sarf qilinmagan, chorva uchun yaylov o‘ti ko‘proq emish bo‘lgan. Shu asosda tuyalar va sovliq qo‘ylar boqilgan, ular cho‘l qumtepaliklarda joydan joyga ko‘chishga moslashgan, aksincha, otlar daryo bo‘ylari to‘qayzorlarda yoki og‘illarda boqilib, don va beda bilan qo‘shimcha oziqlantirilgan [2, c. 54-56].

Sariqamishbo‘yi havzasidagi dashtlarida, ilk temir davri yodgorliklarning topografiyasi bo‘yicha, taxminan 180x120 kilometr maydonda chorva boqish bo‘yida (ichki Qizilqum cho‘li hisobga olinmaganda) bu ko‘rsatkichlar 250x150 km.ni tashkil etgan (ilova). Ushbu hududlarda turli mavsumlarda ko‘chmanchi va yarim ko‘chmanchi saklar jamoalari tomonidan chorva boqilishi va ko‘chib yurishi maqsadlarida foydalanganligini taxmin qilishi mumkin.

Bronza davridan boshlab Evroosiyo dashtlarida, jumladan, Orolbo‘yidagi chorvadorlar jamoalarida katta patriarxal oilalarning ajralib chiqqanligi ma'lum. Bunga ishlab chiqarish kuchlarning taraqqiyoti, qo‘shimcha mahsulotning qo‘lga kiritilishi, mahsuldor chorvachilikning rivojlanishi, ayirboshlash imkoniyatlarining kengayib borshi va ijtimoiy-iqtisodiy sabablar ko‘maklashgan [3, б. 38-40] .

Arxeologik materiallar va ilk yozma manbalar guvohlik berishicha, mil. avv. VII asrga kelib, chorvadorlarning ijtimoiy tuzumida katta patriarxal (ota-o‘g‘illar) oilalarning iqtisodiy mavqei o‘sib borgan. Bu davr jamiyatning tuzilishi “Avesto” da tasvirlangan. “Avesto” ning “Yasna” kitobida oila, urug‘, qabila tilga olinib, jamoalarning ijtimoiy tarkibida kohin, jangchi, chorvador va hunarmand ajratilgan [4, c. 64].

Manba bo‘yicha oila-“nmana”, jamiyat tuzilishining boshlang‘ich (past) qatlamini tashkil etib, bir nechta qarindosh katta oilalar urug‘-“vis” jamoalariga birlashganlar.

Urug‘ tarkibida kamida 15 ta katta oila kirgan va urug‘ jamoasi jamiyatning asosi bo‘lgan. Urug‘ jamoalari qabila –“zantu “ ni tashkil etgan. Qabila yashaydigan xudud-“shoytra” deb atalgan [5, c. 139-144]. Bu ijtimoiy tuzum dashtlarda yashovchi cho‘ponlarning jamoalarida ko‘chmanchi chorvachilik shakli vujudga kelishi bilan ancha taraqqiy topgan [6, c. 81-94]. Qadimgi yunon tarixchilarning asarlarida dasht chorvador qabilalariga – savromatlar, daxlar, saklar va massagetlarga nisbatan “etnos”- xalq tushunchasi qo‘llanilmagan, ularning joylashgan hududlari muayyan nom bilan bog‘lanmasdan, faqat qabilalarning etnonimi tilga olinmagan. Masalan, ushbu xolat Gerodotning bayonida: “bu massagetlar jasur va behisob qabiladir [7]”

hamda Strabonning asarida: “massagetlar va saklar qabilalarining har biri o‘zining nomiga ega [8, c.4-5]” degan xulosalarda yorqin ifodalangan.

Xorazm vohasi va umuman Orolbo‘yi chorvadorlarining hayotida va xo‘jalik sohasida bronzadan va keyin temirdan mehnat qurollari va boshqa buyumlarni yasash katta ahamiyat kasb etgan. Shuni qayd etib o‘tish lozimki, Markaziy Osiyoning boshqa hududlari singari, Orolbo‘yi jamoalarining hunarmandchilik tarmog‘ida temirga ishlov berish bosqichidan boshlab, temir qimmatbaho metall hisoblangan, undan dastlab zeb-ziynat buyumlari sifatida ham foydalanilgan.

Uygarak mozor qo‘rg‘onidan bronza va kumush bilaguzuklari bilan birga temirdan yasalgan bilaguzuk topilgan [9, c. 81]. Sakarchaga mozor qo‘rg‘onida ikkita temir bilaguzuk qo‘lga kiritilgan [10, c. 31]. Bu topilmalar ham yuqorida uqtirilgan fikrlarni isbotlab beradi.

Saklarning mozor qo‘rg‘onlaridan olingan dafn jihozlari ichida qurol-yarog‘lar, ot-anjomi, bronzadan ishlangan suvliq, to‘qa va qubbalar joy olgan. Bronza to‘qa va qubbalardagi yirtqich qushlar va hayvonlar tasvirlarida yaqin jihatlar mavjud. Dafn jihozlari ichida ot abzali yuganchalarini bezatgan bronza qubbalarda yirtqich qush, qoplon va to‘ng‘izlar tasvirlaridan iborat bo‘lib, ular dasht ko‘chmanchilari san'atiga xos hayvon suratlarini chizish uslubida ishlangan [11, c. 72-89].

Mil. avv.VII-VI asrlarga oid saklar – xorazmliklarning ijtimoiy tizimi L.T.Yablonskiyning yozishicha, jangchilar, suvoriylar, kohinlar va kohina ayollar, urug‘ jamoalarining oddiy va qashshoqlashgan vakillaridan iborat bo‘lgan [12, c. 6]. Sharqiy Orolbo‘yida o‘rganilgan mozor qo‘rg‘onlaridagi kohina ayollar qabrlarida e'tiqod va qurbonlikka bag‘ishlangan buyumlar va ayol-suvoriylarning qabrlarida esa ot anjomlari topilgan. Ushbu topilmalar sak-massagetlarning jamiyatida ayolning baland ijtimoiy o‘rni va mavqeidan hamda matriarxat izlari saqlanib qolganidan guvohlik beradi.

Gerodot va Ktesiy asarlaridan ma'lum bo‘lgan sak-massagetlarning ayol yo‘lboshchilari – “malika-hukmdorlar” To‘maris va Zarina, yunon tarixchilari tomonidan, birinchi navbatda, harbiy yo‘lboshchilar sifatida yoritilgan. Shunga ko‘ra, ular harbiy ish va botirlik san'atini erkaklar qatorida o‘rganib, jang usullarini bilishgan.

Shuningdek, Bobil, Ossuriyada kohinalar ko‘proq “Tamaris” ismga ega bo‘lganligiga oid ma'lumotga asoslangan holda, malika Tumaris massagetlarning nafaqat harbiy boshlig‘i, balki bosh kohinasi ham edi, degan masala ilgari surildi [13, б.72] . Albatta, mil. avv.VII asr Xorazm vohasida ham qabila yo‘lboshchisi bosh kohin vazifalarini ado etganligi ehtimoldan holi emas, chunki urug‘-qabila a'zolari o‘zlarining sardorini jamoalarga eson-omonlik, farovonlik, harbiy muvaffaqiyat va mo‘llik olib keluvchi, umuman foyda keltiruvchi shaxs sifatida baholaganlar.

Natijalar. Shu bilan birga, diniy e'tiqodlarining alohida xizmatchilari –kohinlar qatlamining ajralib chiqishini taxmin qilish mumkin. Ilk temir davriga kelib, saklar-xorazmliklar orasida ajdodlar ruhiga ehtirom ko‘rsatish, tabiat kuchlariga, quyosh va olovga sig‘inish ahamiyatli bo‘la boshlagan [14, б. 51]. Harbiy demokratiya sharoitda qabilaviy ma'buda urush, quyosh, osmon va urug‘ asoschilari – ajdodlar, bobokalonlar ruhi xislatlarini

o‘zida birlashtirgan. E'tiqodlar bilan birga “Avesto” bilan bog‘liq maxsus marosimlar ado etilgan. Shu qatorda kohinlar urug‘ an'analari va odatlarini bilishgan, urug‘doshlar orasida ijobiy bilimlarni tarqatishga xizmat qilishgan [15, б. 194-195].

“Avesto”da chorvadorlar mehnati qadrlanib, jangchi-suvoriylar botirligi, ularning qurol-yarog‘lariga oid ma'lumotlar keltirilgan. Saklar jamiyatida qurol-yarog‘larni ishlab chiqarish, katta o‘rin tutgan. Qurol-yarog‘-aslahalar va ot anjomlari maxsus hunarmandchilik ustaxonalarida ishlab chiqarilgan. Saklar va massagetlarning jangovar saflari, otliq qo‘shin va piyoda jangchilari haqida yozma manbalarda so‘z yuritilar ekan, ularning harbiy qismi asosini suvoriy-o‘qchilar tashkil etgan, jangda nayza va harbiy boltalar hamda xanjarlardan foydalanishgan. Yangi tadqiqotlarda Orolbo‘yida qadimgi harbiy ish qurollanish sohasi va jang taktikasi maxsus mavzu sifatida ko‘rib chiqilgan [16, б. 62-94]. Saklarning boshqaruvi, katta oila va urug‘ boshlig‘i, qabila yo‘lboshchisi tizimiga asoslanib yuritilgan. Oqsoqollar kengashi va qabila yig‘inida hayotiy zarur masalalar hal qilingan. Qabila yig‘inida barcha qurolli jangchilar qatnashib, urush yoki sulh masalalari ham ko‘rib chiqilgan [17, c. 84-93].

Mil. avv. VII-VI asrlarda ushbu tizim ko‘p jihatdan siyosiy boshqaruv maqomi darajasiga etmagan, urug‘-qabila ijtimoiy odatlari va boshqaruv an'analarini o‘zida aks ettirgan. Qabila yo‘lboshchilari va qabilalar uyushmalarining harbiy sardorlari oqsoqollar kengashi va jamoalar yig‘inida saylanib, boshqaruv tizimi “harbiy demokratiya” tamoyillariga asoslangan [18, б. 188-196].

O‘tgan asrning 90-yillarida Xorazm arxeologik ekspedisiyasining xodimlari Xorazm vohasida ilk davlatchilik tarixini qayta ko‘rib chiqishni boshlashgan. O.A. Vishnevskaya va Yu.A.Rapoportning yozishicha, Quyi Amudaryo havzasida arxaik (qadimiy) davlatning vujudga kelishini mil.avv.VII-VI asrlar chegarasi bilan belgilash kerak, Xorazm sivilizasiyasining ilk bosqichi haqida gapirishga hammadan ko‘ra, uning ilk yodgorligi Ko‘zaliqir shahar xarobasi, shubhasiz, imkon beradi [19, c. 150-151]. Bundan ko‘rinib turibdiki, Ko‘zaliqir qal'asi Xorazmda dastlabki sivilizasiya yodgorligi va davlatchilik markazi sifatida tan olinib, ammo, ko‘p yillar davomida ilmiy adabiyotlarda amalda bo‘lgan va bahs-munozaralarga aylangan qadimiy Xorazm davlatchiligi tarixiga oid yondashuvlar va qarashlarga hech qanday munosabat bildirilmadi hamda ular tanqidiy baholanib, ko‘rib chiqilmadi. Masalaning e'tiborli jihati shundaki, bu qarashlar, xususan, Xorazm ekspedisiyasi xodimlari tomonidan ishlab chiqilgan edi.

Mil.avv. VIII-VII asrlarda Orolbo‘yi hududlarida yashagan chorvadorlar harbiy sohada va qurol-yarog‘lar ishlab chiqishda texnik yutuqlarga erishganlar. Tagisken, Uygarak va Sakarchaga mozor-qo‘rg‘onlaridan topilgan ot anjomlari, bronza va temirdan yasalgan harbiy qurollari Evroosiyo dashtlari ko‘chmanchi qabilalarning (skiflar, savromatlar) qurol-yarog‘lariga o‘xshab ketadi. Chorva ko‘chmanchilarning eng katta boyligi bo‘lgan. “Avesto”ning “Yasht” kitobida “podasi ko‘p”, “otlari ko‘p” qabilalar yo‘lboshchilari va harbiy sardorlari “yuz ayg‘ir, mingta sigir va sanoqsiz sovliq qo‘ylar”ni qurbonlikka keltirganlari haqida ma'lumotlar bor. Manbada chorva xo‘jaligi va bevosita chorvaga oid “chorva-hayot

manbai”, “biz chorvaga tinch o‘tlov va emish ta'minlashga da'vat etamiz” deyilgan [20, б. 22-23].

Yuqori mahsuldor chorvachilik jamoa a'zolarini, dehqonchilikka nisbatan, tez sur'atda oziq-ovqat va xom ashyo mahsulotlari bilan ta'minlashga hamda ulardan ayirboshlashda foydalanishga imkon yaratdi. Bu jamoa a'zolarini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash kundalik turmush tarzida jun, teri va charmdan ehtiyojlarni qondirishda muhim edi. Chorvachilik sohasi jamoalarni moddiy jihatdan boyitishga xizmat qilgan.

Shu sababdan, ayniqsa ko‘chmanchi chorvachilik sohasiga o‘tish chog‘ida, iqtisodiy va demografik omillari ta'sirida yaylovlarning hududiy doirasini kengaytirish, yangi yaylovlarni va tabiat resurslarini egallab olish zarurati vujudga kelgan paytlarda, kuch ishlatish va boshqalardan mol-mulkini, chorva podalarini zo‘ravonlik bilan olib ketishga to‘g‘ri kelardi. Shu tufayli, harbiy ish, jang strategiyasi va taktikasi rivojlandi.

Xulosa. “Avesto” da ikki qirrali o‘tkir o‘qlar, tosh gurzi, harbiy oybolta, nayza, xanjar, qalqon, dubulg‘a, otlar qo‘shilgan jangovar aravalar va “chaqqon otlarga ega jangchilar” tilga olinib, o‘tgan davrlarda yuz bergan bosqinlar va urushlar, talon-tarojlik va turar-joylarning xarob qilinishi kabi-harakatlar ochib berilgan [21. б. 67-68] .

Qadimgi chorvadorlar tarixida siyosiy uyushmalar va harbiylashish jarayonlarning paydo bo‘lishi nafaqat qo‘shnilarga qarshi yurishlar va bosqinlarni tashkillashtirish, balki birinchi galda, o‘z hududlari va yaylovlarni, turarjoylar va manzilgohlarini hamda chorva podalarini tashqi bosqinlardan himoyalash zarurati bilan belgilangan. Shu tufayli har bir cho‘pon qurollangan bo‘lib, otliq va piyoda qo‘shinlar safda dushmanga zarba berishga tayyor bo‘lgan. Bunday urug‘-qabila jamoalarini birlashtirgan ijtimoiy-siyosiy muhit, yuqorida tasvirlangan “ichki ekspluatasiya” va “sinflarning ajralib chiqishi” ga oid taxminiy manzarasidan ancha yiroq bo‘lgan.

V.N.Yagodinning fikricha, mil.avv.VII asrning oxiri – VI asr o‘rtalarida Xorazmning g‘arbiy qismidagi Ko‘zaliqir yangi davlatchilik markazi bo‘lib, bu davlatning chegaralari Sariqamishbo‘yi hududlari bilan cheklangan. Davlat boshqaruvi yo‘lboshchi – “podshoh” hokimiyatiga, qabilaviy zodagonlar va harbiy qo‘shin kuchiga asoslangan. Ko‘zaliqirning ichki qal'asi saroyida qabul marosimlari amalga oshirilgan va olovga sig‘inish bilan bog‘liq e'tiqod marosimlari ham ado etilgan [22. с. 28-29].

ADABIYOTLAR RO‘YXATI.

1. Вайнберг Б. И. Скотоводческие племена в древнем Хорезме // Культура и искусство древнего Хорезма. – М.: “Наука”, 1981. – С. 121-123.

2. Сазонова М. В. Традиционное хозяйство узбеков Южного Хорезма. – Л., 1978. – С. 54-56.

3. Ўзбекистон тарихи (Хоразм тарихи). XI жилд. – Тошкент: “Ozbekiston”, 2023. – Б. 38-40.

4. Ясна. Глава XIX // Перевод Виноградовой С. П. Хрестоматия по истории Древнего Востока. – М.: “Высшая школа”, 1980. – С.64.

5. Лившиц В. А. Общество Авесты // История Таджикского народа. – М. 1963.Т. I. – С. 139-144.

6. Кузьмина Е. Е. Экология степей Евразии и проблема происхождения номадизма. II. Возникновение кочевого скотоводства // ВДИ. – М., 1997. № 2. – С. 81-94.

7. Геродот. I. 201.

8. Страбон. Кн.XI, VIII, 4-5.

9. Вишневская О. А. Культура сакских племён низовий Сырдарьи...С. 81.

10. Яблонский Л. Т. Саки Южного Приаралья...С. 31.

11. Яблонский Л. Т. Формирование культуры саков Южного Приаралья // СА. ¬– М., 1991. № 1. – С. 72-89.

12. Яблонский Л. Т. Саки Южного Приаралья... С. 66.

13. Қурбонова Д. Ш. Хоразм воҳасининг қадимги ва илк ўрта асрлар маънавий маданияти. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2015. – Б. 172.

14. Матякубов Х. Хоразм воҳаси бронза асри ва илк темир даври тарихи. – Тошкент, 2017. – Б. 151.

15. Першиц А. И., Монгайт А. Л, Алексеев В. П. История первобытного общества. – М.: “Высшая школа” 1968. – С. 194-195.

16. Сатимов Б. Оролбўйида қадимги ҳарбий иш.. Б. 62-94.

17. Пьянков И. В. Общественный строй ранних кочевников по данным античных авторов // Ранние кочевники Средней Азии и Казахстана. – Л., 1975. – С. 84-93.

18. Матякубов Х. Х. Хоразм воҳасида қадимги бошқарув тизими ва ижтимоий муносабатлар муаммолари (бронза ва илк темир даври) // Ўзбекистон давлат бошқаруви ва маҳаллий ўз-ўзини бошқарув тарихи. – Тошкент, 2014. – Б. 188-196.

19. Вишневская О. А., Рапопорт Ю. А. Городище Кюзели-гыр...С. 150-151.

20. Авесто. Яшт китоби // М. Исҳоқов таржимаси. – Тошкент: “Шарқ”, 2001. – Б. 22-23.

21. Авесто. Яшт китоби.. Б. 67-68.

22. Ягодин В. Н. Низовья Амударьи в эпоху распада первобытно-общинного строя и возникновения первичных государственных образований // Хорезм в истории государственности Узбекистана. – Ташкент, 2013. – С. 28-29.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 1-son)

IJTIMOIY FANLAR

SOCIAL STUDIES

QAYTA QURISH YILLARIDA O‘ZBEKISTONDAGI IJTIMOIY-IQTISODIY JARAYONLARNI DAVRIY MATBUOTDA YORITILISHI

Nurmatov Abdujabbor
NamMTI “Ijtimoiy fanlar va sport” kafedrasi dotsenti, PhD
Email:abdujabbor.nurmatov@gmail.com
Tel: 99 9771089

Annotatsiya Mazkur maqolada XX asrning 80-yillarida Qayta qurish siyosati va uni mamlakat hayotiga ta’siri, Qayta qurish yillarida O‘zbekistondagi ijtimoiy, iqtisodiy sohalardagi mavjud muammolar va ularni keltirib chiqargan sabablarini davriy matbuot sahifalarida yoritilishi tahlil qilingan.

Kalit so‘z: qayta qurish, iqtisodiyot, ijtimoiy hayot, aholi turmush darajasi, paxta yakkaxokimligi, ishlab yaiqarish, davriy matbuot.

Аннотация В данной статье анализируется политика Перестройки в 80-е годы XX века и её влияние на жизнь страны, текущие проблемы в социальной и экономической сфере Узбекистана в годы Перестройки, а также освещение их причин на страницах периодических изданий.

Ключевые слова: перестройка, экономика, социальная жизнь, уровень жизни населения, хлопковая монополия, производство, периодическая печать.

Annotation This article analyzes the policy of Perestroika in the 1980s and its impact on the life of the country, current problems in the social and economic sphere of Uzbekistan during the years of Perestroika, as well as coverage of their causes on the pages of periodicals.

Key words: perestroika, economy, social life, standard of living of the population, cotton monopoly, production, periodical press.

Kirish. XX asrning 80-yillari oxirlariga kelib sobiq Ittifoq va uning tarkibida bo‘lgan O‘zbekistondagi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy sohalardagi tanglik oqibatlari tobora kuchayib, mamlakat hayotining barcha sohalarini qamrab oldi. Bu, o‘z navbatida, aholi turmush darajasi, ishlab chiqarish sur’atlari, mehnat unumdorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatdi. Yillar mobaynida mavjud imkoniyatlarni hisobga olmasdan ishlab chiqilgan ko‘plab dasturlar amalda ko‘zlangan natijalarni bermadi. Aksincha, keyingi davrlardagi iqtisodiy ziddiyatlarning yanada ortib borishiga olib keldi. Albatta, bunday tanglik holatiga tushib qolishi aynan XX asrning 80-yillari o‘rtalariga kelibgina o‘z-o‘zidan vujudga kelgan emas, balki uning tub ildizlari mavjud bo‘lib,

ular yillar davomida respublika imkoniyat va manfaatlarini inobatga olmasdan olib borilgan siyosat natijasida yuzaga kelgan edi. Mamlakat hayotining barcha sohalarida keskin ijobiy o‘zgarishlar yasay olishi kutilgan “Qayta qurish” siyosati demokratlashtirish va oshkoralikka ma’lum darajada yo‘l ochib bergan bo‘lsada, mamlakat hayotida tub burilish yasay olmadi, ammo bu yillarda mamlakat hayotidagi o‘z yechimini kutayotgan o‘tkir muammolarni davriy matbuot sahifalarida ko‘tarib chiqilishiga ma’lum darajada imkoniyat yuzaga keldi.

- Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review). Qayta qurish yillarida O‘zbekistondagi mavjud muammolarni Qobulov V, To‘xliev N, Muhammadjonov M, Rahmatov N, To‘raev R, Ziyodullaev S, Bahriev K, Xojimirzaev M, Xoshimov O‘, Odil Yoqubov, Nosirov P, Xikmatov O., Karimov R, Muxammad Ali kabi ko‘plab ziyolilar hamda soha vakillari tomonidan respublikadagi ijtimoiy-iqtisodiy, agrar va ekologik sohalardagi yuzaga kelgan inqiroz holati va uni keltirib chiqargan omillarni o‘zlarining publisistik maqolalarida ko‘tarib chiqdilar.

- Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Tadqiqotda tarixiylik va xolislik tamoyillari asosida qiyosiy, muammoli, tizimli va miqdoriy tahlil usullaridan foydalanildi.

- Tahlil va natijalar (Analysis and results). XX asrning 80-yillari o‘rtalaridan boshlab sovet jamiyatidagi mavjud inqiroz holatidan chiqarish hamda mamlakat hayotining barcha sohalarida islohotlarni amalga oshirish maqsadida olib borilgan “Qayta qurish” siyosati ham amalda ko‘zlangan natijalarni bermadi. Qayta qurish siyosati go‘yoki ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal etish va ijobiy yutuqlarga olib boruvchi yo‘l deb qaraladi. Biroq, mamlakatdagi real ahvolning murakkabligini chuqur anglab yetmaganliklari ularning keyingi (Qayta qurish) siyosatlarida ham o‘z aksini topgandi. Jumladan, iqtisodiyotni rivojlantirishda, umuman ko‘plab sohalarda Markazning rahbarlik roli va markazlashtirish siyosatidan amalda voz kechilmadi. Bu keyingi yillarda ham sotsializm “afzallik”laridan foydalangan holda jamiyatni rivojlantirishga umid bog‘lash edi. Ammo, bularning barchasi real hayotda o‘z samarasini bermadi. Chunki, qaror topgan mavjud tizimdan voz kechmagan holda o‘tkazilgan qayta qurish siyosati bilan ham ko‘zlangan natijalarga erishib bo‘lmasdi va amalda ham shunday bo‘ldi. Aksincha, qayta qurish yillarida mablag‘larni samarasiz yo‘naltirilishi sarf-xarajatlar miqdori keskin ko‘payib ketishi davlat budjetiga katta zarar keltirdi. Masalan, Masalan, 1985-1988 yillar bitmagan qurilishlar 38 mlrd. so‘mga ko‘payib, 1988-1989 yillarda o‘rtacha maoshning o‘sish darajasi milliy daromadning o‘sishidan uch marta oldinlab ketdi. 1988 yilga kelib “muzlatib qo‘yilgan” qurilishlar bahosi 24 mlrd.ga yetgan holda o‘nlab vazirliklar 59 mlrd. so‘mlik qurilishlarni boshlab yuborganlar[1].

Ushbu davrdagi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy sohalarda sodir bo‘lgan muammolar o‘z navbatida O‘zbekiston uchun salbiy ta’sirini ko‘rsatdi. Respublikaning katta boyliklar, ishlab chiqarish imkoniyatlari, qulay tabiiy sharoitlarga ega bo‘lishiga qaramasdan, asosiy iqtisodiy-ijtimoiy ko‘rsatkichlar bo‘yicha ittifoqdosh respublikalar orasida eng oxirgi o‘rinlardan biriga tushib qoldi. Albatta, bunday tanglik holatiga tushib qolishi aynan XX asrning 80-yillari o‘rtalariga kelibgina o‘z-o‘zidan vujudga kelgan emas, balki uning tub ildizlari mavjud bo‘lib,

ular yillar davomida respublika imkoniyat va manfaatlarini inobatga olmasdan olib borilgan siyosat natijasida yuzaga kelgan edi.

Mohiyatiga ko‘ra Ittifoq respublikalarini iqtisodiy birlashtirish ostida ham iqtisodiy, ham siyosiy maqsadlar qaror toptirildi. Natijada, mintaqalararo aloqalarda shunday bir zanjir vujudga keltirildiki, unda respublikalarning emas, balki markazning manfaatlari aks ettirildi.

O‘zbekiston, asosan, paxtachilikka ixtisoslashtirilishi oqibatida paxta ekin maydonlari yildan-yilga g‘alla va boshqa ekin maydonlarini qisqartirish hisobiga ko‘paytirib borildi. Jumladan, 1886-1914 yillarda paxta ekin maydonlari 600 ming gektarni tashkil etgan bo‘lsa, 1970–1988 yillar orasida paxta maydonlari 1 mln. 709,2 ming gektardan 2 mln. 16,7 ming gektarga yetkazilgan[2]. O‘zbekistonni xom ashyo yetishtiruvchi hudud sifatida qaralishi, respublika iqtisodiy-ijtimoiy hayotiga salbiy ta’sir ko‘rsatdi.

Mamlakatdagi ma’muriy-buyruqbozlikka asoslangan boshqaruv tizimi iqtisodiy ko‘rsatkichlarga erishishda, asosan, ekstensiv yo‘ldan bordi. Buning oqibatida ortiqcha yerlarning o‘zlashtirilishi, mavjud resurslardan samarasiz foydalanish va isrofgarchilikka olib keldi. Xo‘jalik yuritishda ekstensiv usul va qo‘l mehnatining ustunligi hosildorlik darajasi past bo‘lishiga hamda sarf-xarajatlar miqdori keskin ortib borishiga sabab bo‘ldi. Masalan, Mehnatobod tumanida 7 sovxozda yetishtirilgan 100 kg. paxtaning tannarxi qariyb 160 so‘mga oshib, 1981–1986 yillarning o‘zida davlatga 75 mln. so‘m zarar keltirgan[3]. Farg‘ona viloyatida 1975 yilda har bir so‘m asosiy fond hisobiga bir so‘m sakkiz tiyindan hosil olingan bo‘lsa, 1986 yilga kelib bu ko‘rsatkich 89 tiyinni tashkil etgan[4]. Bu ham markazning respublikaning real imkoniyatlarini inobatga olmasdan hamda serxarajat iqtisodiy siyosatining bir ko‘rinishi edi.

O‘zbekiston sobiq Ittifoq respublikalari orasida xom ashyo yetkazib berish bo‘yicha yetakchi o‘rinlarda bo‘lgan bo‘lsa-da, aholi jon boshiga milliy daromad hosil qilish, sabzavot-poliz mahsulotlarini iste’mol qilish bo‘yicha, ittifoqdosh respublikalar ichida 5-o‘rinni, meva va rezavor mevalar iste’moli bo‘yicha 13-o‘rinni egallagan[5]. Paxta monopoliyasi oziq-ovqat ta’minotini murakkab ahvolga tushirib qo‘ydi.

Paxta ekish, uni rejalashtirish, narxini belgilash masalalarini Markaz hal qilar edi. Ziyolilar markaziy organlardan mahalliy sharoitdan kelib chiqib paxtaga reja belgilash, uning narxini ko‘tarish, paxtakorlarning turmush darajasini yaxshilash hamda paxtakor ayollar mehnatini yengillashtirish va mehnat sharoitini talab darajasiga keltirishni talab qildilar. O. Yoqubov 1988 yil 1-2 martda Moskvada bo‘lib o‘tgan SSSR Yozuvchilar uyushmasi plenumida so‘zga chiqib, “…bugun batamom holdan toygan bizning tuprog‘imiz Gosplan (Davlat reja qo‘mitasi) talab qilayotgan miqdordagi paxtani berishi amri mahol. … bu mo‘tabar idora, ehtimol o‘zi ham bilib-bilmay navbatdagi qo‘shib yozishlarga majbur qilayotgan bo‘lmasin?”[6], degan savolni o‘rtaga tashlagan bo‘lsa, O‘tkir Hoshimov keyingi o‘n besh yillar ichida qishloq xo‘jalik texnikasi, yonilg‘i, qurilish materiallari bahosi o‘rtacha 200 foiz oshganligi, biroq paxtaning xarid bahosi deyarli oshmagani, bundan paxtakor xo‘jaliklarning ahvoli yanada og‘irlashganligi haqida yozadi[7]. Ziyolilar O‘zbekistonda yetishtirilgan paxta xosilining 90 foizidan ortig‘i

umumittifoq fondiga ketayotgani, faqat xom-ashyo yetkazib berishga ixtisoslashgan yurt yuqori daromad ololmasligi xususida yozib, respublikaning o‘zida ham paxtadan tayyor mahsulot chiqarib, milliy daromadni o‘stirish lozim, degan fikrni oldinga surdilar. Ko‘plab ziyolilar paxta narxining pastligi, paxtakorlar turmush darajasi pastligini yozdilar.

Dehqonchilikda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan almashlab ekish qonuniyati buzilishi natijasida yetishtirilayotgan mahsulotlar miqdor va sifatiga salbiy ta’sir ko‘rsatgan. Masalan, 1986 yilda paxtachilik xo‘jaliklarida rejadagi belgilangan 2 mln. gektar o‘ringa amalda 572,4 ming gektar (topshiriqqa nisbatan 21,8 %) maydonda almashlab ekish yo‘lga qo‘yilgan, xolos[8]. O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligi mahsuloti yetishtirish har bir ishlovchiga 1986 yilda ittifoq darajasining 57 foizini tashkil etgan. Respublika shu boisdan mamlakat bo‘yicha 14-o‘ringa tushib qoldi[9]. Yoki O‘zbekistonda qishloq xo‘jalik yerlarining har 100 gektaridan (pul bilan ifodalaganda) Ukrainaga qaraganda o‘rtacha uch baravar kam, Belorusiyadan – qariyb to‘rt, Moldaviyadan - besh baravar kam mahsulot olingan[10].

Sovet davrida O‘zbekistonda bir qator yengil, oziq-ovqat va og‘ir sanoat tarmoqlari ishga tushirildi. 1980 yil o‘rtalariga kelib, O‘zbekistonda 1500 dan ortiq ishlab chiqarish birlashmalari va kombinatlar ishlab turishiga qaramasdan, aholining iste’mol mahsulotlariga bo‘lgan ehtiyojlarini to‘laqonli qondira olmadi. Buning asosiy sabablari, birinchidan, tayyor mahsulot ishlab chiqarishning past darajada tashkil etilganligi, asosiy e’tibor xom ashyoni dastlabki qayta ishlash hamda yarim tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishga yo‘naltirilganligi; ikkinchidan, sanoat korxonalarining moddiy-texnik bazasi, ishlab chiqarish texnika va texnologiyalari yetarli darajada rivojlantirib borilmaganligi; uchinchidan, ilm-fan yutuqlarini ishlab chiqarishga tatbiq etish sust olib borilganligi; to‘rtinchidan, ko‘plab sanoat korxonalarining xom ashyo bazasi respublikalararo bog‘lab qo‘yilishi oqibatida 1980 yilning ikkinchi yarmidan boshlab ko‘plab ittifoqdosh respublikalar o‘z majburiyatlarini (masalan, xom ashyo yetkazib berish bo‘yicha) bajarmasliklari kabi omillar korxonalarning ishlab chiqarish sur’atlari va mahsulot sifatiga salbiy ta’sir ko‘rsatganida edi. Qolaversa, O‘zbekiston katta hajmdagi (asosan yengil sanoat uchun) xom ashyo yetkazib berishiga qaramasdan uni qayta ishlash va tayyor mahsulot ishlab chiqarish asosan boshqa hududlarda amalga oshirildi. Bu esa respublikadagi ushbu soha tarmoqlari jadal rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatdi.

Sanoat quvvatini oshirish intensiv usullar bilan emas, balki ekstensiv usullar (yangi sanoat ob’ektlarini qurish, ishlab turgan sanoat ob’ektlarini qayta qurish va kengaytirish) asosida amalga oshirib borildi. O‘zbekiston hududida joylashgan sanoat korxonalarining aksariyatida o‘rnatilgan texnologik dastgohlar va asbob-uskunalarning ko‘pi eskirib, yaroqsiz ahvolga kelib qolgan edi. Mahsulot ishlab chiqarish hamda kapital qurilishning barcha asosiy turlarini markaz tomonidan boshqarilishi, taqsimlab berilishi, respublikalarning o‘z ichki muammolarini hal qilishdagi huquqlarini cheklab qo‘ygan edi.

1988 yilda aholi jon boshiga sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish Estoniyada – 4,1, Latviyada – 4, RSFSRda – 3,3, Gruziya va Moldaviyada – 2,3, Qozog‘istonda – 2,1, Qirg‘izistonda – 1,5, O‘zbekistonda – 1,2 so‘mni tashkil etgan[11]. Qolaversa, ittifoqda xorijiy

firmalar bilan birgalikda 3 mingdan ziyod tashkilot va korxonalar faoliyat yuritgan bo‘lsa, shundan O‘zbekistonda xorijiy firmalarning soni 1991 yilning iyunida jami 50 ga yaqin bo‘lib, ulardan 8 tasi[12] xalq iste’mol buyumlarini ishlab chiqargan, xolos.

Rivojlangan mamlakatlar aholisining aksariyat qismi, ya’ni 60–70 foizi o‘rtacha ta’minlangan sharoitda, ittifoqda bu ko‘rsatkich boylar butun aholining 2,3 %ini, o‘rtacha ta’minlanganlar – 11,2 va qashshoqlar – 86,5 %ini tashkil etgan. Sovet Ittifoqi bo‘yicha 1988 yilda 17,2 % aholi jon boshiga 200 so‘mdan ortiq daromad olgan holda, respublikalar bo‘yicha bu ko‘rsatkich turlicha: Ukrainada – 14 %, Litvada – 24 %, Latviyada – 28,3 %, Estoniyada – 33,6 %, O‘zbekistonda – 2,8 %ni tashkil etgan, xolos[13].

Tadqiq etilayotgan davrdagi eng asosiy muammolardan biri – bu ishsizlik masalasi bo‘lib, yillar davomida mehnat resurslarining o‘sishi aholi soni o‘sishidan orqada qolishiga, shuningdek, boshqa hududlardan ishchi kuchlari olib kelinishi respublikadagi ishsizlar soni ortib borishiga sabab bo‘ldi.

- Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Sovet hokimiyati tomonidan yillar davomida iqtisodiy taraqqiyotning ob’ektiv qonuniyatlariga zid ravishda respublikalarning real imkoniyatlarini hisobga olmasdan olib borgan siyosati keyingi yillarda ijtimoiy-iqtisodiy, ekologik va boshqa sohalarda tanglik holatini keltirib chiqardi. Xususan, O‘zbekistonning paxtadan ko‘ra boshqa qishloq ho‘jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish uchun qulay sharoitga ega bo‘lishiga qaramay, unga e’tibor qaratilmadi. Natijada, respublika ijtimoiy-iqtisodiy hayoti qoniqarsiz ahvolga tushib qolishiga olib keldi. Mamlakat hayotining barcha sohalarida keskin ijobiy o‘zgarishlar yasay olishi kutilgan “Qayta qurish” siyosati demokratlashtirish va oshkoralikka ma’lum darajada yo‘l ochib bergan bo‘lsada, mamlakat hayotida tub burilish yasay olmadi. Aksincha, bu yillardagi ma’lum darajadagi oshkoralik natijasi respublika hayotining barcha jabhalarida o‘z yechimini kutayotgan o‘tkir muammolar va ularni yuzaga keltirgan sabablar davriy matbuot sahifalarida yoritila boshlandi. Qayta qurish siyosati go‘yoki ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal etish va ijobiy yutuqlarga olib boruvchi yo‘l deb qaraladi. Biroq, mamlakatdagi real ahvolning murakkabligini chuqur anglab yetmaganliklari ularning keyingi (Qayta qurish) siyosatlarida ham o‘z aksini topgandi. Jumladan, iqtisodiyotni rivojlantirishda, umuman ko‘plab sohalarda Markazning rahbarlik roli va markazlashtirish siyosatidan amalda voz kechilmadi. Bu keyingi yillarda ham sotsializm “afzallik”laridan foydalangan holda jamiyatni rivojlantirishga umid bog‘lash edi. Ammo, bularning barchasi real hayotda o‘z samarasini bermadi. Chunki, qaror topgan mavjud tizimdan voz kechmagan holda o‘tkazilgan qayta qurish siyosati bilan ham ko‘zlangan natijalarga erishib bo‘lmasdi va amalda ham shunday bo‘ldi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI (References)

1. Қобулов В. Қайта қуриш даври фожеалари // Фан ва турмуш. 1991. – № 9. – Б. 10.

2. Тўхлиев Н. Иқтисодиётни интенсив ривожлантириш йўлига ўтказишни жадаллаштирайлик // Ўзбекистон коммунисти. 1990. – №6. – Б. 13.

3. Муҳаммаджонов М. Исрофгарчиликка боғлиқ нуқсонлар // Ўзбекистон коммунисти. 1989. – №10. – Б. 25.

4. Коммуна. 1987 йил 4 август

5. Осминин В. Ўзбекистон ССР экономисини қайта қуриш асосида ривожлантиришнинг якун ҳамда проблемалари // Ўзбекистон коммунисти. 1988. – №11. – Б. 20.

6. Одил Ёқубов нутқи // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. 1988 йил 18 март.

7. Хошимов Ў. Дилдаги гаплар // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. 1988 йил 1 июл.

8. Агросаноат:ер, сув, ҳосил ва самара. Совет Ўзбекистони 1986 йил 30 декабр.

9. Известия. 1986 йил 26 август.

10. Тўхлиев Н. Иқтисодиётни интенсив ривожлантириш йўлига ўтказишни жадаллаштирайлик // Ўзбекистон коммунисти. 1990. - № 6. – Б.12.

11. Хожимирзаев М. Ўзбекистоннинг ишчилар синфи: ривожланиши ва муаммолари // Инсон ва сиёсат. 1991. – №9. – Б. 19.

12. Зиёдуллаев С. Моддий неъматлар ишлаб чиқаришнинг аҳволи ва резервлари // Инсон ва сиёсат. 1991. – №9. – Б. 38.

13. Тўраев Р. Маошингиз етарлими // Фан ва турмуш. 1990. – № 4. – Б. 6-7.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 1-son)

IJTIMOIY FANLAR

SOCIAL STUDIES

IJTIMOIY MUHITNING KORRUPSIOGENLIK HOLATLARINING SHAKLLANISHIGA TA’SIRI.

Abdusharipova Fazilat Farxodbek qizi
Urganch ranch texnologiya universiteti stajor-o‘qituvchisi
fazilatabdusharipova8@gmail.com
Tel:+998937488098

Annotatsiya: Bugungi yangi O‘zbekiston sharoitida yurtimizda barcha jabhalarda jadal sur’atlar bilan keng ko‘lamli islohotlar olib borilib, aholining turmush darajasini yaxshilash, farovon yashashini ta’minlash bosh maqsad qilib olindi. Har bir mamlakat gullab-yashnashi, taraqqiy topishi uchun eng avvalo, o‘sha erda sog‘lom muhit barqaror bo‘lmog‘i lozim.

Biroq, mamlakatimiz tomonidan yuqorida qayd etilgan chuqur islohotlar olib borilishiga qaramay, bu salbiy illatning tag-tomiri bilan yulib tashlashning imkoni bo‘lmayapti. Haqiqatdan ham, korrupsiya bor joyda o‘sish ham, yuksalish ham bo‘lmaydi. Qisqa qilib aytganda, korrupsiya – nurli kelajakka to‘siqdir.

Kalit so‘zlar: Jamiyat, shaffoflik, oliy ta‘lim, islohot, halollik vaksinasi, normativ-huquqiy hujatlar, raqamlashtirish, taraqqiyot, toifalangan stipendiyalar

Аннотация: В сегодняшнем новом Узбекистане во всех сферах жизни нашей страны ускоренными темпами осуществляются масштабные реформы, главная цель которых – повышение уровня жизни населения и обеспечение его благосостояния. Для процветания и развития каждой страны в первую очередь необходима здоровая и стабильная окружающая среда.

Ключевые слова: общество, прозрачность, высшее образование, реформа, нормативная вита, нормативные, юридические дискуссии, нумерация, развитие, категория

Abstract: In today's new Uzbekistan, large-scale reforms are being carried out at an accelerated pace in all spheres of life in our country, the main goal of which is to improve the standard of living of the population and ensure its well-being. For the prosperity and development of each country, a healthy and stable environment is first and foremost necessary. However, despite the deep reforms carried out in our country, it has not been possible to eradicate this negative evil at the root. In fact, where there is corruption, there is no growth and progress. In short, corruption is an obstacle to a bright future.

Keywords: Society, transparency, higher education, reform, normative victix, normative, legal discussions, numbering, development, category

Kirish. Mamlakatimizda kechayotgan shiddatkor islohotlarning kutilgan samarasini berishida bevosita oliy ta‘lim tizimi muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Korrupsiya ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy jarayonlar natijasida vujudga keladigan murakkab ijtimoiy hodisadir. Korrupsiya holatlari ko‘pincha ijtimoiy muhitning o‘ziga xos xususiyatlari bilan bog‘liq bo‘ladi. Ushbu hujjatda ijtimoiy muhitning korrupsiogenlik holatlarining shakllanishiga ta’siri batafsil yoritiladi.

Umuman olganda korrupsiya bu – ta’limda sifatning pasayishi, adolatga soya soladigan salbiy illatdir. Bu illatning chuqur ildiz otishi jamiyat taraqqiyotiga g‘ov bo‘lib, fuqarolarni davlat organlariga bo‘lgan ishonchini so‘ndiradi. Natijada oddiy odamlarda qabul qilinayotgan qonun hujjatlari va amalga oshirilayotgan islohotlarga beparvolik, e’tiborsizlik kuchayadi. Shu bois korrupsiyaga qarshi o‘ziga xos yondashuv va zamonaviy usullar yordamida murosasiz kurashish lozim. Oliy ta’limni korrupsiyadan holi sohaga aylantirish uchun quydagilarni amalga oshirish zarur: oliy ta‘lim muasassasi rahbariyati tomonidan qabul qilinadigan qaror va buyruqlar, sarflanadigan xarajatlar va daromadlarning ochiq portalini yaratish hamda ta‘sirchan jamoatchilik nazoratini yo‘lga qo‘yish kerak. Shuningdek oliygohlar ilmiy salohiyatini oshirish uchun himoya qilinadigan falsafa doktori va fan doktorlik dessertatsiyalarning dolzarbligini, bugungi kundagi ahamiyatini hamda muayyan soha istiqboliga xizmat qilishi kerak kabi tamoyillar joriy qilinishi kerak. [1]

Adabiyotlar tahlili. O‘zbekiston Respublikasida korrupsiya bilan bog‘liq jinoyatlarning pedogogik tavsifi va ularning profilaktikasi masalalari huquqshunos olimlar Q.R.Abdurasulova, B.A.Rajabov, B.D.Axrarov, S.Sh. Utemuradov, B.I.Ismoilov, M.M.Xaydarov, B.A.Umrzoqov, A.K.Rasulev, M.X.Rustambaev, Q. Tajibayev, SH.R.Qobilov va boshqalar tomonidan nazariy-huquqiy jihatdan o‘rganilgan. Xususan, B.D.Axrarov boshqaruv tartibiga qarshi mansabdorlik jinoyatlari uchun javobgarlik muammolarini, B.E.Zakirov korrupsiya bilan bog‘liq huquqbuzarliklarning alohida turi sifatida poraxo‘rlikka qarshi kurashning jinoiy-huquqiy masalalari hamda ushbu turdagi jinoyatlar uchun jinoiy javobgarlik muammolarini, R.Zufarov korxona va tashkilotlarda mansab vakolatlarini suiiste’mol qilish masalalarini dissertatsiya doirasida ilmiy-nazariy tadqiq etgan. MDH mamlakatlari olimlari tomonidan korrupsiyaga qarshi kurashning hozirgi holati va istiqbollari, korrupsion faoliyatni jinoiy- huquqiy va kriminologik jihatlari, korrupsiya tushunchasi va davlat boshqaruvida uning oldini olish choralari kabi masalalar V.V.Lunev, L.V.Mixailov, A.V.Kuzmin, Yu.A.Grachev, A.Gardin, V.G.Grib, X.A.Umarov, M.N.Xalifaev va boshqalar tomonidan o‘rganilgan. Xorij olimlari Eugen Dimant (Oygen Dimant), Saidbal Kar (Saibal Kar), Ronald Kroeze (Ronald Kroyz), Riccardo Pelizzo (Rikardo Pelitsso), Davide Torsello (Devid Torsello), Nikolas Hamelin (Nikolas Xamelin), Brigitte Zimmerman (Bridjitt Simmerman) va boshqalar masalaning profilaktik nuqtai nazaridan ilmiy tadqiq etgan.

Xususan, Eugen Dimant – migratsiyaning korrupsiya darajasiga ta’siri masalalarini, Davide Torsello – davlatlarning korrupsiyani oldini olishdagi ahamiyatiga doir masalalarni tadqiq etganlar. Yuqoridagi ilmiy izlanishlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston Respublikasida korrupsiya bilan bog‘liq jinoyatlarning profilaktikasi, uni amalga oshirish usullari va mexanizmlari, shuningdek, korrupsiya bilan bog‘liq jinoyatlar profilaktikasi bilan shug‘ullanuvchi sub’ektlarning funksiya va vakolatlarini takomillashtirish hamda o‘zaro uyg‘unlashtirish masalalari kompleks monografik jihatdan o‘rganilmagan.

Tadqiqot metadologiyasi. Ijtimoiy muhit jamiyatdagi iqtisodiy, siyosiy, madaniy va axloqiy sharoitlarni o‘z ichiga oladi. Bu omillar shaxslarning xulq-atvori, qadriyatlari va qarorlar qabul qilish jarayoniga ta’sir ko‘rsatadi. Korrupsiogenlik esa jamiyatda korrupsiya sodir bo‘lishiga yordam beruvchi shart-sharoitlar va omillar yig‘indisidir.

Korrupsiogen ijtimoiy muhit quyidagi belgilar bilan tavsiflanadi:

- - Huquqiy tizimning zaifligi
- - Ijtimoiy adolatsizlik
- - Qonunlarning tanqidiy emasligi va ularga amal qilmaslik holatlari
- - Shaxsiy manfaatlarni umumiy manfaatlardan ustun qo‘yish

Ijtimoiy muhit omillari va korrupsiogenlikka ta’siri

a. Iqtisodiy omillar

- Kambag‘allik va iqtisodiy tengsizlik: Ijtimoiy tengsizlik jamiyatda norozilik kayfiyatini oshiradi. Kambag‘al aholining noqonuniy yo‘llar bilan boylik orttirishga moyilligi kuchayadi.
- Rivojlanishning notekisligi: Qishloq va shahar o‘rtasidagi iqtisodiy tafovut korrupsiya ko‘lamini kengaytiradi.

b. Madaniy va axloqiy omillar

- Oilaviy munosabatlar: Ayrim jamiyatlarda qarindosh-urug‘chilik va tanish-bilishchilik (nepotizm) odatiy holat sifatida qabul qilinadi, bu esa korrupsiogen muhitni rivojlantiradi.
- An’anaviy qadriyatlar: Jamiyatda «yordam berish» tushunchasi noto‘g‘ri talqin qilinib, korrupsiya bilan bog‘liq xatti-harakatlarni oqlashi mumkin.

c. Siyosiy omillar

- Davlat institutlarining zaifligi: Davlat boshqaruvida shaffoflikning yetishmasligi korrupsiya uchun qulay sharoit yaratadi.
- Javobgarlik va hisobotlilikning yo‘qligi: Rasmiy shaxslarning o‘z vakolatlarini suiiste’mol qilishi uchun imkoniyat yaratiladi.

d. Ta’lim va ijtimoiy ong

- Poraxo‘rlikning ijtimoiy normalashuvi: Ta’lim tizimidagi korrupsiya (masalan, imtihonlarda pora berish) yosh avlodda bu xatti-harakatlarni odatiy hol sifatida qabul qilishiga olib keladi.
- Axborot va xabardorlik darajasi: Agar jamiyat korrupsiya haqida ma’lumotga ega bo‘lmasa yoki unga nisbatan befarq bo‘lsa, korrupsiya rivojlanishi davom etadi.

Ijtimoiy muhitning korrupsiogenlikka ta’sirini kamaytirish choralari

a. Qonuniy va institutsional choralar

- Qonun ustuvorligini ta’minlash: Qonunlar adolatli va barcha uchun teng qo‘llanilishi kerak.

- Davlat boshqaruvining shaffofligi: Moliyaviy operatsiyalar, tenderlar va xizmatlar bo‘yicha ochiq ma’lumotlar bazasi yaratish korrupsiyani kamaytiradi.

b. Ta’lim tizimini isloh qilish

- Halollik tamoyillarini targ‘ib qilish: Maktab va oliy ta’lim muassasalarida halollik va mas’uliyatlilikni targ‘ib qiluvchi dasturlar joriy etilishi lozim.

- Korrupsiyaga qarshi ta’lim: Talabalarga korrupsiyaning zararli oqibatlari haqida ma’lumot beruvchi maxsus kurslar tashkil qilish.[2]

Xulosa. Ijtimoiy muhit korrupsiyaning shakllanishida va rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi. Bu muhitni sog‘lomlashtirish uchun qonun ustuvorligi, ta’lim tizimidagi islohotlar va madaniy qadriyatlarni qayta shakllantirish kabi kompleks yondashuv talab etiladi. Korrupsiyaga qarshi kurash nafaqat davlat siyosatining, balki butun jamiyatning asosiy vazifasi bo‘lishi lozim.[3]

Xulosa qilib aytganda, korrupsiya umuman uchramaydigan mamlakatlar yo‘q emas! Guruch kurmaksiz bo‘lmaydi deganlari shu bo‘lsa kerak. O‘ylaymanki, har bir shaxs, jamiyatimizdagi har bir qatlam buning uchun o‘z hissasini qo‘shsa, biz korrupsiya deyarli uchramaydigan mamlakatlar safiga bemalol qo‘shila olamiz. Albatta, buni huquqiy ongni shakllantirmay amalga oshirib bo‘lmaydi. Zeroki, har bir erkin fuqaro o‘z huquqlarini yaxshi bilmasa, undan to‘laqonli foydalana olmaydi va bilimsizligi, huquqiy salohiyati past bo‘lganligi sabab o‘zining shaxsiy huquq va erkinliklaridan qay tarzda foydalanishni bilmaydi, mansabparast, ochofat davlat organlarida qo‘lida o‘yinchoq bo‘ladi. Korrupsiya rivojlangan davlat jaholatga yuz tutadi, aholi tinchligi buziladi. Hammamiz qo‘lni qo‘lga berib, bir yoqadan bosh chiqarib bu taraqqiyot kushandasi bilan birgalikda kurashaylik!

Tadqiqot bo‘yicha tavsiyalar

1. Jamiyatning barcha sohalarida korrupsiyaga qarshi kurashishning mustahkam tashkiliy-huquqiy asoslari yaratilib, korrupsiyaga qarshi kurashishni tahkil etish ;

2. Talaba va yoshlar o‘rtasida korrupsiya tushunchasi haqida tadbirlar, davra suhbatlar o‘tkazishni tashkil etish;

3. Odob-axloq komissiyasi faoliyatini tashkil etish yo‘llari, vazirliklar tizimida manfaatlar to‘qnashuvining oldini olish choralari;

4. Korrupsion harakatlar to‘g‘risida xabar berish boshqa tashkilotlar bilan hamkorlik masalalarini olib boorish chora-tadbiralari;

5. Korrupsiyaga qarshi kurashish uchun o‘quv-uslubiy qo‘llanmalar ishlab chiqish va seminarlar o‘tkazish;

6. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha xorij tajribalarini o‘raganish va tarjima va tahlil qilish va jamoatchilikka keng targ‘ib qilish;

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Axrarov B.D. Boshqaruv tartibiga qarshi mansabdorlik jinoyatlari uchun javobgarlik muammolari: Yurid. fan. dokt. .dissertatsiya. – T., 2008. – B.143-146.

2. Ismailov I., Muxtorov J. S., Xo‘jaqulov S. B. Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar profilaktikasi: O‘quv qo‘llanma//mas’ul muharrir yu.f.d., prof. Q. R. Abdurasulova. – T.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2017.

3. Nurmuhammedova G.B. “Korrupsiyaga qarshi kurashish yo‘nalishlari va usullari tahlili// O‘zbkistonda ilmiy- amaliy tadqiqotlar mavzusidagi 20-ko‘p tarmoqli ilmiy masofaviy onlayn konferensiya materiallari to‘plami, 30 sentabr 2020-yil.- Toshkent: Tadqiqot.- 2020, B. 18-21

4. Qobilov SH.R. Korrupsiya: sabablari, shart-sharoitlari va oldini olishyo‘llari.Monografiya.–T.:O‘zbekistonRespublikasiIIVAkademiyasi. 2019.

5. Tojiboev Q. Mansab mavqeini suiiste’mol qilish yo‘li bilan o‘zgalar mulkini talon-taroj qilganlik uchun avobgarlik. – T.: TDYUI, 2004. – B. 13.

6. Zakirov B.E. Korrupsiyaga qarshi kurashishning huquqiy asoslari va ularni takomillashtirish yo‘llari. // Korrupsiyaga qarshi kurashish – jamiyat va davlat xavfsizligining garovi. – Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari (2015 yil 26 noyabr). – Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2016. – 367 b. 44-45b.

7. http://www.gov.uz

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 1-son)

IJTIMOIY FANLAR

SOCIAL STUDIES

ABU RAYHON BERUNIY – QOMUSIY OLIM

Abduvohidova Ruxshona Doniyorbek qizi,
Namangan davlat universiteti, Tarix yo‘nalishi talabasi
E-mail: ruxshona01062005@gmail.com
Tel: +998931021725
Ilmiy rahbar: ***Zoxid Madrahimov***
Namangan davlat universiteti, Tarix kafedrasi dotsenti, t.f.n.

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘rta asrlarning buyuk qomusiy olimi, buyuk vatandoshimiz Abu Rayhon Beruniyning hayot yo‘li, faoliyati, ilmiy merosi va uning jahon ilm-faniga qo‘shgan hissasi haqida ma‘lumot beriladi.

Kalit so‘zlar: Abu Rayhon Beruniy, Xorazm, Ma’mun II, Mahmud G‘aznaviy, Ibn Sino, Jurjon, Ray, G‘azna, “Osor al-boqiya”, “birun”, minerologiya, astronomiya, mustaqillik, akademiya.

Анотация: В данной статье представлены сведения о жизненном пути, деятельности, научном наследии и вкладе в мировую науку великого энциклопедиста средневековья, нашего великого соотечественника Абу Райхана Беруни.

Ключевые слова: Абу Райхан Беруни, Хорезм, Мамун II, Махмуд Газнави, Ибн Сина, Джуржан, Рай, Газна, «Асор аль-Бакия», «бирун», минералогия, астрономия, независимость, академия.

Abstract: This article provides information about the life path, activities, scientific heritage and his contribution to world science of the great encyclopedist of the Middle Ages, our great compatriot Abu Rayhan Beruni.

Keywords: Abu Rayhan Beruni, Khorezm, Ma’mun II, Mahmud Ghaznavi, Ibn Sina, Jurjan, Ray, Ghazna, "Asor al-Baqiyya", "birun", mineralogy, astronomy, independence, academy.

KIRISH.

Abu Rayhon Beruniy ulug‘ mutafakkir olim, o‘rta asrlarning buyuk daholaridan biridir. Uning to’liq ismi Abu Rayhon Muhammad ibn Ahmad al-Beruniy bo‘lib, 973-yilda Xorazmning qadimgi Kat shahrida tavallud topgan. Uning nasl-nasabiga forschada “berun”, “tashqi shahar” so‘zi ishlatilgan bo‘lib, “Beruniy” esa “tashqi shaharda yashovchi kishi” ma’nosini bildiradi [1. – B. 61.].

Abu Rayhon Beruniy yoshligidayoq ilm-fanga qiziqishi orta boshlagan. Dastlabki ilmni o‘zi tug‘ilib o‘sgan ona yurtida olgan. Keyinchalik mashhur olim Abu Nasr ibn Iroq qo‘lida ta’lim olgan. Ibn Iroq astronomiya, geometriya, matematikaga oid bir qancha asarlar yozib, shulardan 12 tasini Beruniyga bag‘ishlagan. Beruniy ona tilidan tashqari arab, so‘g‘diy, fors, suryoniy, yunon va qadimgi yahudiy tillarini, keyinchalik Hindistonda sanskrit tilini o‘rganadi [2. – B. 93.].

Beruniy asarlaridan birida yozishicha, u Xorazmda yashagan davrida, 990-yillardan boshlab Kat shahrida muhim astronomik kuzatishlar o‘tkazgan. Bu kuzatishlar uchun muhim astronomik asboblar ixtiro etgan. Zamonasining qator fanlari: astronomiya, fizika, matematika, geodeziya, geologiya, mineralogiya, tarix kabilarni chuqur o‘rgangan.

Hayot oqimi to‘xtovsiz, ammo bir tekis emas. U daryo suvlaridek goho tinch va viqor bilan oqadi, goho to‘lqinlanib atrof borliqqa larza soladi. Ana shunday larza Xorazmda 995-yili sodir bo‘lgan. Xorazmlik ikki hukmdor – Kat podshohi Abu Abdullo Muhammad va Gurganchdagi amir Ma’mun ibn Muhammad o‘rtasida toju-taxt uchun kurash boshlanib ketgan. Urush Ma’munning g‘alabasi bilan yakunlangan. Kat podshohi Abu Abdullo qatl etilgan.

Xorazmda notinchlik hukm surgan bu davrda Abu Nasr ibn Iroq va uning shogirdi yosh olim Beruniyning boshlariga taxlikali kunlar tushgan. 22 yashar Beruniy o‘z ilmiy ishlarini to‘xtatib, hayotini saqlab qolish maqsadida avval dushmandan berkindi, so‘ng panoh izlab Katdan chiqib ketdi [3. – B. 10.]. Bir qancha muddat Kaspiy dengizining janubi-sharqiy sohilidagi Jurjon shahrida muhojirlikda yashagan. So‘ng qadimiy Ray shahriga borgan. Bu haqda Beruniyning o‘zi shunday yozadi: “Ray shahrida bir olim astronomiya sohasida men bilan bahsga kirishdi va ilmda mendan ancha past tursa-da, mendan o‘zini yuqori olib, hatto kaminani haqorat ham qildi. Vaholangki, faqat boylik ortiqchaligi oramizdagi farq edi” [5. – B. 7.].

Beruniy 998-yilda yana Jurjonga kelgan va bu yerda o‘zining ikkinchi ustozi tabib, astronom, faylasuf Abu Sahl Iso al-Masihiy bilan tanishib, undan ta’lim olgan. Alloma “Osor al-boqiya an alqurun al-xoliya” (“Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar”) asarini Jurjonda muhojirlikda yurgan davrida yoza boshlagan va 1000-yilda tamomlagan. “Osor al-boqiya” Beruniyga juda katta shuhrat keltirgan, uni fanning hamma sohalariga qiziquvchan buyuk olim ekanligini ko’rsatgan [2. – B. 94.]. “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” asarida ajoyib jumlalar keltiriladi: “Garchi biz bu kitobning ba’zi joylarida turli fanlarga o‘tib, bayonimizga aloqasi yo‘q masalalarga kirishib ketsak ham, bu gapni cho‘zish yoki ko‘paytirish maqasadida emas, balki o‘quvchini zeriktirmaslik uchundir. Chunki doim bir xil narsaga qarash malollik va sabrsizlikni olib keladi. O‘quvchi fandan fanga o‘tib tursa, turli bog‘larda yurganga o‘xshaydi…” [5. – B. 22.].

Sharqshunos olim I.Y.Krachkovskiy Beruniy merosini o‘rganib, “Beruniyning qiziqqan ilm sohalaridan ko‘ra, qiziqmagan sohalarini sanab o‘tish osondir”, – degan edi [5. – B. 12.].

Bundan tashqari Beruniy Jurjonda astronomiya, netrologiya tarixiga oid 10 dan ortiq asar yozgan. Biro oz muddat o‘tib alloma Xorazm hukmdori Abu Abbos Ma’mun II tomonidan mamlakatning poytaxti Urganchga chaqirtirilgan. Xorazmshoh tomonidan juda katta hurmat,

izzat-ikrom bilan qabul qilingan. Beruniy Urganchda Ma’munning bevosita rahnamoligida vujudga kelgan ilmiy markazda faoliyat olib borgan. U Ma’mun II ning eng yaqin maslahatchisi sifatida mamlakatning siyosiy ishlarida ham faol qatnashgan.

Biroq 1017-yilda Xorazmning Mahmud G‘aznaviy tomonidan bosib olinishi Beruniy hayotini xavf ostiga qo‘ygan. U Xorazmshoh saroyidagi barcha olimlar bilan birga G‘azna shahriga asir qilib olib ketilgan. Beruniyning 1017-1048-yillarda G‘aznada kechirgan hayoti, bir tomondan nihoyatda og‘ir kechgan, chunki, Mahmud G‘aznaviy dastlab Xorazmdan olib kelingan olimlar hukmdor Ma’mun II ga hali ham sodiq, deb o‘ylab, ularga yaxshi kayfiyatda bo‘lmagan. Lekin ikkinchi tomondan esa ilmiy faoliyati uchun eng mahsuldor davr bo‘ldi. Beruniyning “Xorazmning mashhur kishilari” asari ham shu davrda yaratildi. Uning muhim astronomik-geografik asari “Tahdid nihoyat al-amoniya li tasxidi masofat al-masokin” (“Turar joylar orasidagi masofani tekshirish uchun joylarning oxirgi chegaralarini aniqlash” – “Geodeziya”) 1025-yilda yozib tugatilgan. Allomaning “Munajjimlik san’atidan boshlang‘ich tushunchalar” asari ham 1029-yili G’aznada tugallandi. Asarning forscha, arabcha nusxalari bizgacha yetib kelgan.

Mahmud G‘aznaviy o‘zining Hindistonga qilgan bir necha yurishlarida hatto Beruniyni munajjim sifatida olib yurgan. Bu yurishlar davrida to‘plangan ma’lumotlar asosida olim o‘zining “Hindiston” asarini yozadi. Bu asar 1030-yili yozib tugatilgan [2. – B. 94.]. Alloma, “Hindiston” asarini yaratilishi haqida shunday fikr bildiradiki, unda har qanday orzu-istakning o‘zagi mehnat va harakat degan xulosa kelib chiqadi. Bu asarning tarixiy ahamiyati va qimmati G‘arb va Sharq olimlari, shu jumladan, hozirgi zamon hind olimlari tomonidan yuksak baholangan. “O‘rta asr va yangi zamon mualliflaridan hech biri hind madaniyatining chigal masalalarini chuqur ilmiy ruhda tushunishda Abu Rayhon Muhammad ibn Ahmad Beruniy erishgan yutuqlarga erisha olmadi. Beruniyning “Hindiston” asari klassik namuna bo‘lib qolishi bilan birgalikda, o‘z muallifining qadimgi hind madaniyati va faniga qilgan tortig‘idan iboratdir”, – degan edi hind olimi Hamid Rizo. XIX asrda yashab o‘tgan nemis sharqshunos olimi Zaxau ham Beruniy haqida: “U arab adabiyoti okeanida yagona qoyadir. Hindshunoslikda Beruniyga teng keladigan kishini na ilgari va na so‘nggi vaqtlarda o‘tganini bilmaymiz”, – deya o’z fikrlarini bildirgan edi [4. – B. 183.].

Akademik V.R.Rozen: “Sharq va G‘arbning qadimgi va o‘rta asrdagi butun ilmiy adabiyoti orasida bunga teng keladigan asar yo‘q”, – deya baho beradi. Mahmud G‘aznaviyning Hindistonga qilgan yurishida unga hamroh bo’lgan Beruniy, u yerda sanskrit tilini puxta o’rganishi hind madaniyati, adabiyoti va Hindistonning o’sha davr olimlari bilan yaqindan tanishishga hamda bu mamlakat haqida o‘lmas asar yaratishga imkon berdi. “Hindiston” asari yozib tugatilgan yili Mahmud G‘aznaviy vafot etdi va uning o‘rniga taxtga o‘g‘li Mas’ud G‘aznaviy o‘tirdi. Bu davrda Beruniyning ahvoli ancha yaxshilandi. Astronomiyaga oid “Qonuni Mas’udiy” asarini yozib, sulton Mas’udaga bag‘ishladi. O‘sha davr olimlaridan biri Yoqutning yozishicha: “Qonuni Mas’udiy” kitobi matematika va astronomiya bo‘yicha ungacha yozilgan hamma kitoblar izini o‘chirib yubordi” [5. – B. 11.].

Beruniy o‘zidan keyingi avlodlarga katta ilmiy meros qoldirdi. O‘z davri ilm-fanining turli sohalariga oid 160 dan ortiq tarjimalari, turli hajmdagi asarlari, yozishmalari qolganligi bizgacha ma’lum. Yuqorida aytib o‘tilgan katta hajmdagi asarlaridan tashqari astronomiya, astrologiya, matematika, geodeziya, geologiya, mineralogiya, geografiya, arifmetika, tibbiyot, farmokognoziya, tarix, filologiya masalalariga oid qator risolalar yaratgan:

– “Astrologiyaga kirish”;
– “Astronomiya kaliti”;
– “Jonni davolovchi quyosh kitobi”;
– “Ikki xil harakatning zarurligi haqida”;
– “Ko‘paytirish asoslari”;
– “Ptolomey “Almagesti”ning sanskritcha tarjimasi”;
– “Foydali savollar va to‘g‘ri javoblar”;
– “Farg‘oniy “Elementlar” iga tuzatishlar”;
– “Turklar tomonidan ehtiyotkorlik”;
– “Oq kiyimlilar va karmatlar haqida ma’lumotlar”;
– “She’rlar to‘plami”;
– “Al-Muqanna haqidagi ma’lumotlar tarjimasi”;
– “Ibn Sino bilan yozishmalar” kabi biz bilgan-bilmagan asarlari shular jumlasidandir. Beruniy qadimgi yunon ilmi va uning vakillari Aristotel, Platon, Ptolemey, Evklid kabi olimlarning asarlari, hind olimlar, musulmon olimlari al-Xorazmiy, Farg‘oniy, Battoniy, Roziy, Abu Tammam, ibn Kaysum, Abu Ma’sharlarning asarlari bilan yaqindan tanish bo‘lgan, ularga sharhlar, izohlar, tuzatishlar, raddiyalar yozgan. Uning ilmiy merosi g‘oyat rang-barang bo‘lib, tibbiyot faniga, astronomiya faniga xizmati kattadir.

Beruniy yana ikkita muhim asar yozgan. Bulardan biri “Mineralogiya”dir. Bu risola o’z zamonasi uchun Markaziy Osiyo va Yaqin Sharq, hatto Yevropada ham mineralogiya sohasida eng yaxshi, tenggi yo’q asar hisoblanadi [2. – B. 95.]. “Mineralogiya” asarida minerallar va ma’danlarning o‘z davridagi narx-navosi, ba’zilarining shifobaxshlik xususiyatlari, nodir tosh va metallar bilan bog‘liq ayrim qiziqarli etnografik ma’lumotlarni bayon etgan. Bu kitobning muhim tarixiy manba sifatidagi ahamiyatini oshiradi. Shuningdek, Beruniy “Mineralogiya” kitobida shunday yozadi: “Mehnatsiz shon-shavkatga erishgan kishi hurmatga loyiqmi? Yuqori martabaga mehnatsiz erishgan kishi farog‘at va rohat soyasida yashaydi, yaxshi kiyinadi, ammo ulug‘lik libosidan mahrum, yalong‘ochdir”. U insonning asosiy vazifasi mehnat orqali ko‘zlangan maqsadga erishish, yaxshilik orqali yaxshilik ko‘rishidir, deb qayd etadi [4. – B. 183.]. Akademik H.Abdullayev: “Beruniy geologiya va mineralogiya fanlarining nazariyotchisi va asoschisidir”, – kabi o‘zining fikrlari bilan Beruniyning mineralogiya sohasida tenggi yo‘q olim ekanligini yana bir karra isbotlaydi.

Beruniyning oxirgi asari – “Dorivor o‘simliklar haqida kitob” bo’lib, bu asarning qo’lyozmasi XX asrning 30-yillarida Turkiyada topildi. Asar “Saydana” nomi bilan mashhur

bo’lib, unda Beruniy Sharq, ayniqsa, Markaziy Osiyoda o‘sadigan o‘simliklarni to‘la tavsifini beradi va mingdan ortiq dorivor o‘simliklar, moddalar nomini 30 tilda yozib chiqqan.

Abu Rayxon Beruniy shogirdi Abu-l Fadl as-Seraxsiyning ma’lumoti bo‘yicha 1048-yil 11-dekabrda G‘aznada vafot etgan [2. – B. 95.].

XULOSA

Abu Rayhon Beruniy haqiqatdan ham o‘z davrining yetuk bir qomusiy olimi edi. Uning eng katta ishi madaniyatlar integratsiyasiga qo’shgan hissasi bo‘ldi, desam mubolag‘a bo‘lmaydi. Negaki, uning qadimgi sanskrit tilini bilishi hind tilidagi asarlarni arab tiliga, arab tilidagi asarlarni esa hind tiliga tarjima qilishiga olib keldi. Bu esa o‘z navbatida hind xalqi va musulmon xalqi bir-birlarining madaniyatlaridan bahramand bo‘lish imkoniyatini yaratib berdi. Yurtimizda, ayniqsa, mustaqillik yillarida Abu Rayxon Beruniy xotirasini abadiylashtirish maqsadida qator ishlar amalga oshirildi. 1957-yilda olim yashagan shahar “Beruniy” nomini oldi. 1973-yilda Beruniy tavalludining 1000 yilligi yurtimizda keng ko‘lamda nishonlandi. O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi Sharqshunoslik institutiga Abu Rayhon Beruniy nomi berildi. Toshkentdagi metro bekatining biri Beruniy nomi bilan atalib kelinmoqda. Toshkent hamda Xorazmda Beruniy haykallari qad rostladi. Oydagi vulqon hamda asteroid ham uning sharafiga nomlandi. Faqatgina yurtimizda emas, balki jahon bo‘ylab ham uning nomi hurmat ila tilga olinmoqda. 2009-yil iyun oyida Eron hukumati tomonidan Venadagi BMT ning bo’limiga 4 mashhur olim Ibn Sino, Beruniy, Zokiriy Roziy (Reyz) hamda Ummar Xayyomni o‘z ichiga olgan pavilyonni taqdim etildi. Hozirda u Vena xalqaro markazi Memorial maydonidan joy oldi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Aminov M., Hasanov F. Buyuk ajdodlarimiz. – T.: “O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2010.

2. Xayrullayev M. Ma’naviyat yulduzlari. – T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1999.

3. Qayumob A. Abu Rayhon Beruniy. Abu Ali ibn Sino. – T.: Yosh gvardiya, 1987.

4. Zamonov A., Ismatova N va boshqalar. O‘zbekiston tarixi. – T.: Respublika ta’lim markazi, 2022.

5. Abu Rayhon Beruniy. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar. – T.: “Fan”,1968.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 1-son)

IJTIMOIY FANLAR

SOCIAL STUDIES

QORAQALPOG‘ISTONDA KUTUBXONALAR FONDINING SHAKLLANISHI TARIXIDAN

Aytimova Dilbar Aymuratovna
O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti
Nukus filiali “Kutubxona faoliyati” kafedrasi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: Kutubxonalar faoliyatini tizimli ravishda tartibga solish, ulardagi ilmiy va badiiy adabiyotlarni boyitish, chuqur tadqiq qilish jamiyatda ma’naviy va ma’rifiy soha rivojlanishiga asos bo‘ladi. Ilmiy kutubxonalar faoliyati esa, xususan, ilmiy soha taraqqiyotiga poydevor bo‘ladi. Tadqiqotda Qoraqalpog‘iston Respublikasidagi dastlabki kutubxonalar tarixi va rivojlanish bosqichlari o‘rganilgan. Ularning tarkibiga oid manbalarni keltirish orqali faoliyatiga ilmiy baho berilgan. Mazkur maqola ana shunday ilk kutubxonalarning olimlar ilmiy izlanishlarini olib borishidagi o‘rni yoritib berilganligi bilan shu yo‘nalishda qilingan boshqa tadqiqotlardan ajralib turadi.

Kalit so‘zlar: kutubxonalar faoliyati, ilmiy kutubxona, olimlar, ilmiy izlanishlar, ilmiy izlanishlar.

ИЗ ИСТОРИИ ФОРМИРОВАНИЯ БИБЛИОТЕЧНОГО ФОНДА В КАРАКАЛПОКИСТАНЕ

Аннотация: Систематическое регулирование библиотечной деятельности, обогащение в ней научной и художественной литературы и их углубленные исследования являются основой роста духовно- просветительской сферы в обществе. Деятельность первых библиотек, в частности, является фундаментом для развития научной сферы. В исследовании изучены история и этапы развития первых библиотек в Республике Каракалпакстан. Данная статья отличается от других исследований в этом направлении тем, что освещает роль таких научных библиотек в проведении научных исследований учеными.

Ключевые слова: библиотечная деятельность, научная библиотека, учёные, научные исследования, научные исследования.

THE HISTORY OF THE FORMATION OF LIBRARY COLLECTIONS IN KARAKALPAKSTAN

Abstract: The systematic regulation of library activities, the enrichment of scientific and fiction literature in it and their in- depth research are the basis for the growth of the spiritual and

educational sphere in society. The activity of scientific libraries, in particular, is the foundation for the development of the scientific sphere. The study explores the history and stages of development of first libraries in the Republic of Karakalpakstan. This article differs from other studies in this direction in that it highlights the role of such first libraries in the conduct of scientists’ researches.

Keywords: library activities, scientific library, scientists, scientific research, scientific research.

KIRISH. Har bir mamlakat ta’lim, ma’naviyat va ma’rifat sohasida jiddiy islohotlarni olib bormas ekan, rivojlanish va yuksalishda ortda qolib ketaveradi. Albatta, bu jarayon bir-ikki kunda emas, yillar davomida tizimga solinadi, sayqallanadi. Mamlakatimizda yuzaga kelayotgan bugungi zamonaviy talab va istaklardan kelib chiqsak, davlatimizning har bir hududida madaniy, ma’naviy-axloqiy qadriyatlarni saqlab qolishga qaratilgan yangicha chora-tadbirlar jadallik bilan amalga oshirilayotganiga guvoh bo‘lamiz. Ayniqsa, kutubxonalar faoliyatini tizimli ravishda tartibga solish, undagi ilmiy va badiiy adabiyotlarni chuqur tadqiq qilish, olimlar va ilmiy tadqiqotchilar faoliyatini o‘rganish bugungi kundagi muhim vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 7-iyundagi “O‘zbekiston Respublikasi aholisiga axborot-kutubxona xizmati ko‘rsatishni yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi 4354-son Qarorida yurtimizda axborot-kutubxona sohasini rivojlantirish Konsepsiyasi ishlab chiqilib, kutubxonalarda saqlanayotgan milliy madaniy merosni asrab-avaylash va boyitish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish hisobiga axborot-kutubxona muassasalari faoliyatini tashkil etishni takomillashtirish ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilandi. Xususan, Qoraqalpog‘iston Respublikasida kutubxona tarmoqlarini yanada takomillashtirish, ma’naviy-ahloqiy qadriyatlarni saqlab qolishga yo‘naltirilgan prinsipial yangi axborot markazlarini barpo etish zarurati ta’kidlandi. Shuningdek, aholini yanada kengroq va tizimli axborot bilan ta’minlash uchun zarur shart- sharoitlar yaratish choralari qayd etildi[1].

Ushbu maqolada Qoraqalpog‘iston Respublikasidadi dastlabki va hozirda ham faoliyat olib borayotgan kutubxonalarning shakllanishi va rivojlanish tarixi, faoliyati, unda saqlanayotgan adabiyotlarning olimlar faoliyatidagi o‘rni xususida to‘xtalib o‘tiladi. Ma’lumki, Qoraqalpog‘iston Respublikasi o‘zining boy o‘tmishi, milliy maldaniyati, o‘ziga xos urf-odatlari bilan dunyo ahlini birdek qiziqtirib keladi. Bu esa ko‘plab ilmiy tadqiqotlar olib borilishida o‘z aksini topadi. 1925-1930-yillarda Qoraqalpog‘istonda arxiv hujjatlarini to‘plash va o‘rganish, ayniqsa, kutubxonalardagi ilmiy manbalarni tadqiq qilish ishlari boshlangan.

ADABIYOTLAR TAHLILI. O‘sha yillari olim va ilmiy izlanuvchilar tomonidan turli tadqiqodlar olib borilib, qoraqalpoq xalqining ko‘p asrlik merosi va tarixiga oid manbalar to‘plana boshlandi. Masalan, 1920-yilning ikkinchi yarmida ilmiy etnografiya instituti xodimi G.Shuls, 1926-1930-yillarda sharqshunos olim E.S.Malov boshchiligidagi guruhlar qizg‘in faoliyat olib borishdi[2]. Shuningdek, sobiq Ittifoq Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti

tomonidan ko‘plab ilmiy ishlar olib borildi va 1932-yilda institut qoshida akademik A.N.Samoylovich, professorlar N.N.Palmov, P.P.Ivanov, A.I.Ponomarev, S.N.Chernovlar boshchiligida olimlar ilmiy izlanishlar olib borishdi.

NATIJA VA MUHOKAMA. Tarixchilarni qoraqalpoqlar tarixiga oid monografik va jurnal adabiyotlari bilan tanishtirish maqsadida qisqacha bibliografiya ishlab chiqilgan. Bunda A.N.Samoylovich guruhi tomonidan olib borilgan tadqiqotlar qoraqalpoqlar tarixini yozishga asos bo‘lib xizmat qilgan[3]. 1933 – 1944-yillarda Respublikaning shimoliy viloyatlarida tarixiy-folklor mutaxassisi A.A.Sokolov boshchiligidagi Qoraqalpoq ilmiy-tadqiqot institutining ekspeditsiyasi olib borildi. Shu o‘rinda, Respublikada yirik kutubxonalar tashkil etilib, ular keyinchalik ilmiy-tadqiqot jarayonlarini o‘zida mujassamlashtirgan muhim ilmiy obyektlarga aylanib borgan. Respublikadagi kutubxona filiallari XIX asrning 90-yillarida takomillashtirilgan To‘rtko‘l (Petro Aleksandrovsk) shahar kutubxonasiga aylandi[4].

Uning birinchi kitob fondi odamlarning o‘z kutubxonalaridan olib kelgan kitoblari hisobiga yaratilgan. Mahalliy aholi mazkur kutuxonaning fondini ko‘paytirishga katta hissa qo‘shganlar. 1907-yilning 7-martida u “Shahar xalq kutubxonasi” rasmiy maqomini olgan. To‘rtko‘l (Petro Aleksandrovsk) shahar obodonlashtirish yig‘ilishida uning nizomi tasdiqlanib, 41 xodimdan iborat komissiya saylandi. Kutubxona shahar aholisiga o‘z kitoblari, gazeta va jurnallaridan foydalanish huquqini taklif qildi. Kutubxona mablag‘i va kutubxona xodimlariga oylik shahar soliqlaridan, ayrim abonent to‘lovlari hisobidan, odamlarning xayriyalaridan shakllangan.

Nizomga ko‘ra, kutubxona a’zolari va abonentlari barcha jinsdagi shaxslar bo‘lishi mumkin, voyaga yetmaganlar, ta’lim muassasalari o‘quvchilari, kam ta’minlangan va iroda erkinligi sud tomonidan cheklangan shaxslar bundan mustasno edi. 1912-yilda kutubxona fondi jurnallar bilan birga 3300 nomdan iborat edi. Kutubxona ochilganidan 100 kun o‘tib, unga 697 kishi kelib, uyda o‘qish uchun 2032 jild adabiyot olgan.1916-yilda barcha o‘quv yurtlari bo‘limlarida jami 1647 ta kitob bo‘lgan. 1919-yil aprel oyida ishchi va soldat deputatlari kengashida kutubxonani va yirik ishlab chiqarish korxonalari egalaridan milliylashtirish uchun komissiya tuzildi. May oyida To‘rtko‘ldagi Novikova shaxsiy kutubxonasi, sobiq podshoh ma’muriyati kutubxonasi va boshqa to‘plangan kitoblar komissiya tomonidan milliylashtirildi. Shahar kutubxonasi negizida To‘rtkul xalq (keyinroq Xorazm Respublikasi) kutubxonasi sifatida qayta tashkil etilgan, kutubxonada yetti mingdan ortiq kitob va boshqa turdagi nashrlar mavjud edi.

XX asrning 20-yillarida Qoraqalpog‘iston hududidagi shaharlarda kutubxona filiallari, klublar ko‘paydi. Qishloq va ovullarda maktablar, o‘quv zallari tashkil etildi[5]. 1921-yilda ularning soni: choyxonalar oltita; o‘quv zali sakkiztaga yetgani hududda madaniyat va kitobxonlikning o‘sishi kuzatilganini anglatadi. Oradan 7 yil o‘tib, choyxonalar soni 13 taga, kutubxonalar soni to‘qqiztaga yetgani ham bu boradagi rivojlanish asta-sekinlik bilan amalga oshganinidan dalolat beradi. 1933-yilda 43 ta kutubxona, 41 ta choyxona, 71 ta o‘quv zali qayd etilgani hamda 1940-yilda respublikada 195 ta kutubxona ro‘yxatga olingani o‘sish sur’ati

keskin ortganidan darak beradi. Urushdan keyingi yillarda O‘zbekiston bo‘yicha 1774 ta kutubxona faoliyat yuritgan bo‘lsa, shulardan 176 tasi Qoraqalpog‘iston hududiga to‘g‘ri keladi. Bundan tashqari, 1 ta respublika miqyosida, 16 ta tuman va shahar, 6 ta qishloq, 2 ta bolalar kutubxonalari fuqarolarga xizmat ko‘rsatgani jamiyatda ilmiy-ma’rifiy muhit darajasi past bo‘lmaganligini ko‘rsatadi. Qoraqalpog‘istonda mavjud barcha kitoblar adadini yillar kesimida quyidagi diagrammada yaqqol ko‘rish mumkin. Shu o‘rinda, Respublikada turli yo‘nalishlarda ilmiy izlanishlar olib borilishi, yosh tadqiqotchilarning manbalar bilan ishlash ehtiyoji oshib borishi, umuman, jamiyat hayotida ma’naviy- ma’rifiy bilimlarga bo‘lgan talabning ortishida kutubxonalarning ta’siri katta bo‘ldi. Quyida ularning ayrimlari haqida ma’lumotlar to‘plandi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Respublika kutubxonasi 1936-yili To‘rtko‘l (Petro Aleksandrovsk)da shahar kutubxonasi negizida tashkil etilgan. Dastlab kutubxona fondi 30480 nusxani tashkil etgan. Shu yili kutubxona Nukus shahriga ko‘chirilgan va Respublika kutubxonasiga aylantirilgan. 1941-yilga kelib kitob fondi 31046 nusxani tashkil etgan. Ahamiyatlisi, kutubxonada “Qizil Qoraqalpog‘iston”dan to hozirgi kunga qadar 1941-yildan beri saqlanayotgan 586 nomdagi mahalliy gazeta-jurnallar, XIX asrga oid 200 ga yaqin nodir adabiyotlar mavjud[6].

Mazkur bosma nashrlar arxivi tadqiqotchilarga o‘z ilmiy izlnishlarini olib borishda ishonchli manba sifatida xizmat qilib kelmoqda. O‘rta Osiyo tarixi va adabiyotiga oid nashrlardan, jumladan, Ibn Sinoning “Tib qonunlari” (XVII asr), Alisher Navoiy, Firdavsiy, Berdaq, Ajiniyoz, “Qirq qiz” asarlaridan foydalanmoqda. “Alpomish”, “Bahodir”, “Edige” dostonlari, qomuslar, ko‘p jildli asarlar, tarixiy materiallar kitob fondining chin ma’nodagi boyligi sanaladi. Kutubxona “Kitob saqlash”, “To‘plash va qayta ishlash”, “Kitobxonlarga xizmat ko‘rsatish”, “Ilmiy-metodik”, “Bibliografik ma’lumot berish”, “Huquqiy axborot bo‘limlari” hamda O‘lkashunoslik, Chet el adabiyotlari, Kitob almashish, Depozitar saqlash sho‘balaridan iborat. Qoraqalpog‘iston Respublikaning yana bir tarixiy kutubxonalaridan biri bo‘lgan Respublika bolalar kutubxonasi 1962-yilda shahar bolalar kutubxonasi negizida tashkil etilgan. Ushbu kutubxonaning ochilishi natijasida bolalar adabiyotlarini jamlash, ularni yosh kitobxonlar e’tiboriga havola qilish, bu turdagi adabiyotlar tadqiqini olib borish zarurati tug‘ildi. Dastlab kutubxona fondi 2 ming nusxadan iborat bo‘lgan bo‘lsa, 1965-yilga kelib, bu raqam 33234 nusxaga yetgan. Respublikada faoliyat olib borayotgan zamonaviy tipdagi kutubxonalarning asosi – shubhasiz yuqorida sanab o‘tilgan tarixiy ilm maskanlari ekanini unutmaslik kerak. Ularning borgan sari resurs bazalari boyitilib, xizmat qamrovi kengayib borayotganini alohida ta’kidlash lozim. O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog‘iston bo‘limining fundamental kutubxonasi – respublikadagi asosiy va bosh ilmiy kutubxona sanaladi. Mazkur kutubxona Amudaryoning quyi oqimidagi mahalliy va xorijiy adabiyotlar, davriy nashrlar, qo‘lyozma va ilk bosma kitoblarning eng yirik kitob jamg‘armasi hisoblanadi. Ilmiy kutubxona 1931-yilda o‘sha paytdagi Avtonom Respublikada Qoraqalpoq kompleks ilmiy-tadqiqot institutining tashkil etilishi munosabati bilan ilmiy markaz sifatida shakllantirilgan.

Mustaqillik davriga qadar mazkur kutubxona Qoraqalpog‘istonda ilmiy izlanishlar olib borgan olimlar va tadqiqotchilar uchun asosiy va birlamchi manba sifatida xizmat qilgan. 1992-yildan ilmiy kutubxona O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog‘iston bo‘limining fundamental kutubxonasiga aylantirildi. Kutubxonaning kitob fondi o‘ndan ortiq tildagi, jumladan, qoraqalpoq, o‘zbek, qozoq, tatar, turkman, qirg‘iz, oltoy, ozarbayjon, uyg‘ur, arab, fors, ingliz, nemis, polyak va boshqa tillardagi kitoblarni qamrab olgan.

O’zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Qoraqalpog’iston bo’limi Fundamental kutubxonasi 126861 nusxa kitob fondiga ega bo’lib, unda 30dan ortiq tillarda axborot resurslari va hujjatlar saqlanmoqda.

Kitob fondining tarkibi dissertatsiyalar, avtoreferatlar, ilmiy hisobotlar, qo’lyozma manbalar, litografik nashrlar, mikrofilmlar, ekranga proektsiyalash uchun tayyorlangan shaffof fotosuratlar, gazeta-jurnallarning yillik to’plamlari, slaydlar, geografik xaritalar, milliy naqshlar eskizlari, fotoreproduktsiyalar, ilmiy va badiiy adabiyotlar, audio-kasetalar, kompakt-disklar hamda elektron resurslardan tashkil topgan. Kutubxonada saqlanayotgan turkiy xalqlarning madaniy tarixiga oid arab yozuvida qayd etilgan arab, fors va turkiy tillardagi qulyozmalar, toshbosma nashrlar, shuningdek, qoraqalpoq og’zaki ijodi, yozma adabiyoti na’munalaridan tashkil topgan hujjatlar asosida kutubxonaning qo’lyozmalar fondi 2005-yilda noyob obyektlar tarkibiga kiritildi.

XULOSA. Kutubxonada “Qo’lyozmalar fondi”, “Shaxsiy kollektsiyalar fondi”, “Avtoreferatlar fondi”, “Dissertatsiyalar fondi”, ”Kitob-almashuv fondi”, “Jurnallar fondi” ,”Gazetalar fondi”, “Ilmiy hisobotlar fondi”, “Mikrofilm va slaydlar fond”lari tashkil qilingan. Shuningdek har hil davrlarda tushirilgan rasmlar fondi ham mavjud. Kitob fondida ilmiy va badiiy nashrlardan tashqari dunyoning qo’lyozma fondlari analogida yo’q nodir qo’lyozmalar, respublikamiz hududida amalga oshirilgan arxeologik va folklor ekspeditsiyalari davrida yozib olingan va ilmiy xodimlar tomonidan yig’ib olingan katta ilmiy ahamiyatga ega yozma manbalar ham mavjud. Hozirgi kunda mazkur fondta 3783 nusxa qo’lyozma manbalar, 1628 nusxa noyob nodir nashrlar saqlanmoqda. O’zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Qoraqalpog’iston bo’limi shu kunga qadar nafaqat davlatimiz balki dunyo ilm-fan rivojiga o’z hissasini qo’shgan olimlarni tarbiyalab chiqargan. Tabiiyki, ularning yaratgan ilmiy maktabi va ilmiy ishlari aks ettirilgan nashrlarsiz bugungi ilmiy jarayonni ko’z oldimizga keltirish qiyin. Fundamental kutubxona fondida saqlanayotgan axborot resurslar negizida “noyob nashrlar”, “nodir qo’lyozmalar”, “majburiy nusxalar”, ”avtoreferatlar”, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Qoraqalpog‘iston bo‘limi axborotnomasi jurnali, akademiklar, fan doktorlari hamda fan nomzodlarining ilmiy asarlari raqamlashtirilib, ilmiy-ta’limiy ma’lumotlar bazalari yaratilmoqda.

Xulosa qilib aytganda, olimlarimiz yaratgan ilmiy meroslarni yanada chuqurroq o‘rganishda kutubxonalarning o‘rni beqiyosdir. Mazkur ilmiy ma’lumotlar bazasi va tarixiy manbayi hisoblangan dastlabki kutubxonalar tadqiqotchilarning axborot olish va bilimini mustahkamlashda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Biz yuqoridagi tahlillarimizga suyanib,

Qoraqalpog‘istondagi dastlabki kutubxonalar jamiyatimizning rivojiga ta’sir ko‘rsatuvchi asosiy maskanlar ekanligini alohida ta’kidlab o‘tishimiz joizdir. Mazkur kutubxonalarning shakllanishi va rivojlanish tarixidan keltirilgan manbalarni har tamonlama yanada o‘rganish ilm-fanimizning barcha javhalari taraqqiyotiga katta hissa qo‘shadi. Chunki barcha olim-u ziyolilar o‘zlarining ilmiy ishlarini amalga oshirishda birinchi navbatda kutubxonalardan foydalanib, samarali ilmiy izlanishlar olib borganligini alohida ta’kidlash o‘rinlidir. “Bizning havas qilsa arziydigan buyuk tariximiz bor. Havas qilsa arziydigan ulug‘ ajdodlarimiz bor. Havas qilsa arziydigan beqiyos boyliklarimiz bor” – degan edi Prezidentimiz. Kutubxonalar ham xalqimizning beqiyos moddiy va ma’naviy boyligi hisoblanadi. Shunday ekan, bunday tabarruk maskanlarning tarixini o‘rganish har doim olimlar oldidagi dolzarb va eng asosiy vazifa sifatida qolaveradi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. Qarang: https://lex.uz/docs/. (National database of legislation of the Republic of Uzbekistan. See: https://lex.uz/docs/)

2. Самойлович А. Материалы по истории каракалпаков. Москва Издательство Академии наук СССР. 1935. 299 с. (Samoilovich A .. Materials on the history of Karakalpakov. Moscow Publishing House of the USSR Academy of Sciences. 1935. 299 p)

3. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Axborot kutubxona markazining rasmiy veb-sayti ma’lumotlari. Qarang: http://www.nukusibc.uz. (Information on the official website of the Information Library Center of the Republic of Karakalpakstan. See: http://www.nukusibc.uz)

4. Реймбаев, Р. Этапы развития библиотечного дела в Каракалпакстане// – Нукус. ҚГУ. 2020. – 289 с (212-214 б). (Reimbaev, R. Stages of development of library business in Karakalpakstan // - Nukus. KarSU. 2020.-289 p (212-214 p)

5. Qilichboyev O. O‘zbekistonning yirik kutubxonalari. Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti. – Toshkent. 2004. 100 b. (Kilichbaev O. Large libraries of Uzbekistan. Publishing House of the National Library of Uzbekistan named after Alisher Navoi. - Tashkent. 2004. 100 p.)

6. O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog‘iston bo‘limining rasmiy veb-sayti. Qarang: https://aknuk.uz/library.html. (Official Website of the Karakalpak branch of the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan. See: https://aknuk.uz/library.html)

7. Aytimova U. The main library of the Karakalpak branch of the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan is the number of digitization and solutions to book funds, scientific works. Conf. - Tashkent: “Fan ziyosi” 2022. 295 .- (89-95).

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 1-son)

IJTIMOIY FANLAR

SOCIAL STUDIES

QADIMGI ERONIY XALQLAR MIFOLOGIYASIDA “TISHTAR” OBRAZINING SHAKLLANISHIDA TASHXIS SAN’ATINING O‘RNI

Nodir Nayimovich Kayumov
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD),
O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti dotsenti tel:+998913144618
nodirkayumov1990@gmail.com

Annotatsiya: Qadimgi eroniy xalqlar mifologiyasida muhim o‘rin tutuvchi obrazlardan biri Tishtar bo‘lib, u insonlarning tabiatparastlik davridan meros qolgan, keyinchalik, zardushtiylik dinida ma’bud darajasiga ko‘tarilgan siymolardan biridir. Tishtar dastlab eroniylarning zardushtiylikgacha bo‘lgan tabiatparastlik ta’limotida yomg‘ir ma’budi sifatida tilga olingan. Keyinchalik “Avesto” kitobida o‘zida suv manbasini to‘plagan, hayotiy kuchga ega, samoviy jism sifatida tasvirlangan. Tishtar
“Avesto” kitobida jonlantirilgan mifologik obrazlardan biridir.

Mazkur maqolada Tishtar obrazining tashxis san’ati vositasida shakllangan badiiy timsoli tadqiq etilgan.

Tayanch so‘zlar: Tishtar, mifologiya, eroniy xalqlar, tashxis, obraz, zardushtiylik, tabiatparastlik, yomg‘ir ma’budi.

РОЛЬ ОЛИЦЕТВОРЕНИЕ В ФОРМИРОВАНИИ ОБРАЗА «ТИШТАР» В МИФОЛОГИИ ДРЕВНИХ ИРАНСКИХ НАРОДОВ

Аннотация: Одной из важнейших фигур в мифологии древнеиранских народов является Тиштар — персонаж, унаследованный от эпохи человеческой природы, который впоследствии был возведен в статус божества в зороастрийской религии. Первоначально Тиштар упоминался как бог дождя в дозороастрийских учениях иранцев, проникнутых любовью к природе. Позднее в Авесте он описывался как небесное тело, содержащее источник воды и обладающее жизненной энергией. Тиштар один из мифологических персонажей, оживших в Авесте.

В статье рассматривается художественный символ образа Тиштара, сформированная посредством искусства олицетворение.

Ключевые слова: Тиштар, мифология, иранские народы, олицетворение, образ, зороастризм, природа, бог дождя.

THE ROLE OF PERSONIFICATION IN THE FORMATION OF THE IMAGE OF "TISHTAR" IN THE MYTHOLOGY OF ANCIENT IRANIAN PEOPLES

Abstract: One of the most important figures in the mythology of ancient Iranian peoples is Tishtar, a figure inherited from the era of human nature worship, which was later elevated to the status of a deity in the Zoroastrian religion. Tishtar was originally mentioned as a rain god in the pre-Zoroastrian nature worship teachings of the Iranians. Later, in the Avesta, it was described as a celestial body that contained a source of water and possessed vital energy. Tishtar is one of the mythological characters brought to life in the Avesta.

This article examines the artistic representation of the image of Tishtar, formed through the art of personification.

Key words: Tishtar, mythology, Iranian peoples, personification, image, Zoroastrianism, nature, rain god.

KIRISH

Qadimgi Eronning mashhur afsonlaridan biri mifologik qahramon Tishtar haqidadir. Tishtar haqidagi asotir eroniylarning tabiatparastlik davri ta’limotidan meros qolgan va u Zardushtiylik dinida boshqa ma’budlar qatorida tabiiy xususiyatga ega muhim ilohlardan biridir. Tishtarning tabiiy xususiyatlari ibtidoiy insonlarning dunyoqarashiga, ularni o‘rab turgan atrof muhitdan olingan birinchi xulosalariga bog‘liq. Qadimgi davr insonlari hayotida suv hayot manbai va yomg‘irni yog‘ishi muhim hayotiy vosita hisoblangan. Yomg‘ir yog‘ishi tufayli yer suvga to‘yinib, yaylovlar yam-yashillikga burkanib, unda turli noz-ne’matlar o‘sadi. Shu boisdan ham yomg‘ir yog‘ishi qadim zamonlardan insoniyat hayoti va butun tabiat uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lgan. Ibtidoiy insonlar yomg‘ir yog‘ishini o‘zlari uchun bebaho ne’mat sanab, ezgu amallarining mukofoti sifatida qabul qilishgan. Eroniylarning zardushtiylikgacha bo‘lgan tabiatparastlik ta’limotida Tishtar yomg‘ir ma’budi sifatida tilga olingan. Tishtar “Avesto” kitobida uzoqdan ko‘rinib turuvchi va o‘zida suv manbasini to‘plagan, hayotiy kuchga ega, samoviy jism sifatida tasvirlangan. Tishtar asotirining o‘ziga xos jihati shundan iboratki u o‘zida ikki tabiiy va jismoniy xususiyatlarni, ya’ni osmon jismlariga xos bo‘lgan xususiyatlar va yog‘ingrchilik hodisalarini jamlangan. Binobarin, eroniy xalqlar mifologiyasida Tishtar siymosi tabiatning ikki unsuri jam bo‘lishi shaklida namoyon bo‘ladi. Ya’ni, u ham osmon jismi va ham yomg‘ir manbai sifatida e’tirof etilgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI

“Avesto” kitobining badiiy matnlarida Tishtar obrazi maxsus maqomga ega. “Avesto” matnlarida keltirilgan asotirda Tishtar jonlantirish natijasida o‘ziga xos xarakter va insonga xos sifatlarni mujassam etgan. U quyidagi parchada jonlantirilib, xuddi inson kabi harakatlanadi. Tishtar Faroxkart daryosi tomon shiddat bilan yuguradi. Tishtarning harakatlanishi shunday shiddatli ediki u hatto Orashning paykonidan otilgan o‘qdan ham tez yetib boradi:

“Tishtar sitorai royumandi farramandro mesitoem, ki shitobon ba so‘i daryoi Faroxkart bitozad chun on tiri dar havo parron, ki Orashi tirandoz behtarin tirandozi eroni, az ko‘hi Airyoxshuta ba so‘i ko‘hi Xvanvant biandoxt…”[2:236].

Mazmuni: Ulug‘ va yorqin yulduz Tishtarni olqishlaymiz toki u mashhur eronlik kamonchi Orashning Airyoxshuta tog‘idan Xvanvant tog‘iga otgan o‘qidan ham tezroq yetib borsin.

Matnda Tishtarning tez harakatlanishini kuzatgan bo‘lsak, voqeani davomini mazkur Yashtning beshinchi kardasida Tishtarning inson qiyofasida tasvirlanib, turli pariy va yovuz ashavanlar bilan jangga kirib, ularni zindonband qilishi, dumli yulduzlarni maydalab, ularni yo‘q qilib tashlashida ko‘ramiz (hozir ham dumli yulduzlar insonlar nazdida falokat va ofat timsoli sifatida tushuniladi):

“Tishtar sitorai royumandi farramondro mesitoem, ki bar pariyon chira shavad, ki pariyonro bad-on hangome ki nazdiki daryoi nero‘mandi jarfi xushdidgohi Faroxkart, ki obash zamini pahnovarero faro giriftaast, ba paykari sitoragoni dunboldor dar miyoni zaminu osmon part shavad – dar ham shikanad. Ba rosti o‘ ba paykari aspi poke dar oyad va az ob xezobho barangezad. Pas bodi cholok vazidan og‘oz kunad” [2:237].

Mazmuni: Ulug‘ va yorqin yulduz Tishtarni ulug‘laymiz, toki u pariylar bilan olishsin, pariylarni katta va suvi ulkan yerlarni egallagan Faroxkart daryosi oldida tutib olib, dumli yulduzlar qatorida nobud qilsin. To‘g‘risi, u ulkan va pok otga minib keladi va suvda turli to‘lqinlarni ko‘taradi. Shundan keyin chaqqon shamol esa boshlaydi.

Tishtar tasvirining yana bir e’tiborli jihati shundaki unda ham Indra, Mitra, Ozar kabi tabiatparastlik ma’budlarinikidek jangovar ot-arava bor edi. U jangovar ot-aravasiga minib dushmanlari yovuz ashavanlarga qarshi kurashadi.

Mazkur asotirning davomida Tishtar yovuz Apaosha devi bilan jang qiladi. Apaosha devi Tishtar bilan urushib, uni mag‘lub etadi va Faroxkart daryosining sohilidan quvib yuboradi. Shundan so‘ng Tishtar oliy-iloh Ahuramazda oldiga kelib, insonlar endi meni o‘z ibodatlarida zikr etmasdan qo‘yishdi, menga hamdu sano aytishmayapti, ularni holi voy bo‘lsin menga e’tiqod qilmayaptilar deb, shikoyat qiladi. Keyin Tishtar Ahuramazdadan insonlar boshqa Ahura ma’budlari qatori uni ham maqtashlarini, boshqa ezidlar qatori nomi ibodatda tilga olinishini so‘raydi. Tishtar insonlarga bu amallari natijasida ularning mollariga baraka va o‘zlariga kuch quvvat berishligini ta’kidlaydi:

“Az on pas o‘ro yak xosr az daryoi Faroxkart dur bironad.

-On goh Tishtor shevani dardu so‘g barovard:

-Voy bar man ey Ahura Mazdo!

-Bado ba ro‘zgori shumo, ey obho! Ey giyohon!

Tiraro‘zi bar tu, ey dini mazdoparasti!

Aknun mardum maro dar namoz nom namebarand va namesitoyand, chunki digar ezidonro dar namoz nom mebarand.

Agar mardumon maro dar namoz nom barandu bistoyand, chunon ki digar ezidonro nom mebarandu mesitoyand, man nero‘i dah asp, nero‘i dah ushtur, nero‘i dah gov, nero‘i dah ko‘h va nero‘i dah obi novtok biyobam” [2:239].

Mazmuni: Shundan keyin uni Faroxkart daryosi sohilidan haydab yubordi. Ul on Tishtar nolayu fig‘on qildi. -Ey Ahuramazda mening holim voy bo‘ldi. Ey suvlar va ey giyohlar, ey Mazdo dini sizlarning kuningiz qorong‘ulikka cho‘ksin. Endi insonlar mening nomimni namozlarida zikr etishmaydi va menga hamdu sano aytishmaydi. Agar insonlar mening nomimni namozlarida zikr etsalaru boshqa ma’budlarni maqtashganliklari kabi meni ham ta’riflashsa, o‘nta ot kuchi, o‘nta tuya quvvati, o‘nta sigir quvvati, o‘nta tog‘ va o‘nta ulkan suv to‘lqini quvvatini topaman.

Matnda tashxisning mufassal turidan foydalanilgan bo‘lib, jonlantirish hodisasi oqibatida Tishtar insoniy xususiyatlarni kasb qiladi va dushman bilan kurashib, alamli mag‘lubiyatga uchraydi. Mag‘lubiyatdan keyin Ahuramazda oldiga kelib, insonlar unga ibodat qilmaganliklari uchun yengilgani haqida shikoyat qiladi.

Ushbu asotirda keltirilgan voqea sujeti tashxis san’atining yorqin namunasi bo‘lib, u Tir-Yashtning 28 va 29 bandlarida davom etadi. Tishtarning Ahuramazda oldiga shikoyat bilan kelganidan so‘ng Ahuramazda Zardushtga Tishtar yana bir marotaba Apaosha devi bilan jang qilishini va uni mag‘lub etishini buyuradi. Tishtar g‘alaba qozonganidan keyin xursand va mamnun bo‘lib, Ahuramazdaga yuzlanib shunday deydi:

“Az on pas o‘ro yak hasr az daryoi Faroxkart dur bironad.

Tishtari royumandi farramand xuro‘shi shodkomi va rostagori barovard:

-Xusho ba ro‘zgori man, ey Ahura Mazdo!

-Xusho ba ro‘zgori shumo, ey obho! Ey giyohon!

-Xusho ba ro‘zgori tu, ey dini mazdoparasti!

-Xusho ba ro‘zgori shumo, ey kishvarho!

Az in pas, be hej bozdorandae ob dar jo‘yhoi shumo bo bazrhoi durushtdona ba so‘i kishtzorho va ba bazrhoi rezdona ba so‘i charogohho, ba hamai so‘i jahoni astumand ravon gardad” [2:29].

Mazmuni: Shundan keyin uni Faroxkart daryosi sohilidan haydab yubordi. Ul on ulug‘ va yorqin Tishtar xushnud va shodmon bo‘ldi. -Ey Ahuramazda mening kunim naqadar totli. Ey suvlar va ey giyohlar sizlarga tahsin, ey Mazdo dini senga ofarin. Ey o‘lkalar sizlarga tahsin. Bundan keyin hech qaysi kuch sizlarning ariqlaringizdagi suvlarning oqishiga, to‘sqinlik qilmaydi, ekkan ekinlaringizdan yovvoyi butalar chiqmaydi.

Mazkur samoviy jism va tabiiy hodisa Eron xalqlari miflarida shu qadar katta nufuzga ega bo‘lganki, ajdodlarimiz uni Ahuramazdaning ezgulik ma’budlari qatoriga qo‘yib, unga toat ibodat qilib, qurbonliklar keltirishgan. Tishtar yulduzi asosan, inson himoyasi va manfaatlari uchun xizmat qilgan, shuning uchun uning badiiy qiyofasi qadimgi Eron, Xuroson va Turon xalqlari asotirlarida hurmat va mehrga to‘la so‘zlar bilan tilga olingan. Biz buni “Avesto” matnlarida ko‘rib chiqdik. Tishtar mifologiyada badiiy ijod natijasida insonning xulq-atvori va

xatti-harakatlarini namoyon etib, syujet voqealari rivojlanishida faol qatnashadi. Asotirga ko‘ra Tishtar o‘zining barcha kuch va qudratini unga e’tiqod qiluvchilarning duo va ibodatlaridan oladi. Xalqning Tishtarga bo‘lgan e’tibori uning uchun quvvat va darmon manbai bo‘lib, u insonlarning manfaatlarini himoya qilishga va xizmatini bajarishga bor kuch va g‘ayratini sarflaydi.

TAHLIL VA NATIJALAR

“Avesto”da mavjud Tishtar haqidagi miflar asosan tashxis san’atining mufassal turidan tarkib topgan. Mazkur obraz asotir va miflarda o‘zinig asl va tabiiy mohiyatidan uzoqlashib, badiiy taxayyul va tasvir vositasida yengilmas jangchi, nomdor bahodir, nur va ezgulik homiysi, yovuz kuchlar ustidan g‘alaba qozongan ma’bud sifatida tasvirlangan.

Tabiat unsurlarining foydali xususiyatlarini insonlar mehr bilan eslab, qadimgi afsona va qo‘shiqlarda ta’rif va tavsiflashgan. Qadimgi xalqlar tabiatning inson hayotiga zarar keltiruvchi Ahriman kuchlarining mahsuli deb bilishgan va ularga nisbatan nafrat ko‘zi bilan qarab, xunuk va jirkanch deya xulosalar chiqarishgan. Odamlarga zarar keltiradigan hayvonlar, qushlar, o‘simlik va sudralib yuruvchilarni qahru g‘azab bilan zikr etishgan. Ibtidoiy insonlar ilon, qarg‘a, chayon, pashsha, bo‘ri, chumoli kabi zararkunanda mahluqotlarni yovuz ruhlar timsoli va Ahriman kuchlari tarafida turib insonning hayoti va mulkiga tajovuz qiladigan, ma’rifat va yaxshilikning ashaddiy dushmani sifatida e’tirof etishgan. Mashhur eronshunos olim Y.E.Bertels bu borada ta’kidlaydi: “Ahriman xizmatida u tomonidan yaratilgan ko‘plab maxluqotlar borki, ular Hrafstra (zararkunanda unsurlar) deb ataladi. Ahrimanga ilon, qarg‘a, chayon, pashsha, har xil parazitlar, chumolilar va eng yirik yirtqichlardan bo‘ri xizmat qiladi” [3:39].

Qadimiy insonlar tabiatning jonli va jonsiz unsurlarini tirik mavjudot sifatida tasavvur qilib, ularni olamning ajralmas qismi deb tushunishgan va ibodat jarayonida hurmat va mehr bilan yod etishgan. Namoz va ibodatlarida mazkur tabiat unsurlariga eng yorqin sifat va fazilatlarni mansub bilib, tasvirlashgan. Tabiat unsurlarini ulug‘lab, insonga xos bo‘lgan sifatlarni nisbat berish, ularni badiiy tarzda anglashga zamin yaratadi va turli so‘z san’atlari: tashxis, tavsif, tashbih, istiora, mubolag‘a, tazod kabi san’atlarning shakllanishiga omil hisoblanadi.

Qadimiy Eroniy xalqlari mifologiyasi namunalari tahliliga ko‘ra asotirlar ibtidoiy davr odamlarining hayot haqidagi tushunchalari, ijtimoiy turmushi va borliq olam haqidagi qarashlarini ifodalagan. Asotirlar insonlarga qo‘rquv va xavfga to‘la olamni o‘ziga xos badiiy va ta’sirchan tasavvur qilish imkonini beradi.

XULOSA

Yuqorida bildirilgan fikrlardan xulosa qilib aytish mumkinki, asotir odamlar tomonidan tabiat va borliq olamni xayoliy tanib olishning dastlabki vositasi hisoblangan. Miflar adabiyotning qadimiy turlaridan biri bo‘lib, u qadimgi odamlarning tabiat haqidagi ichki tuyg‘ularini, orzu umidlarini, alam va qayg‘ularini, tabiatni anglashdan hosil bo‘lgan tasavvurlarini ifodalash uchun qo‘llanilgan. Asotirlar turli mavzularda to‘qilgan bo‘lib, ularda

qadimgi insonlarning borliqni tushunish darajasi va tafakkuri o‘z aksini topgan. Hind-Eron xalqlarining og‘zaki ijodiyotida ijtimoiy hayotning turli mavzularida yaratilgan va odamlarning tabiat unsurlari, dunyo hodisalari haqidagi sodda tushunchalarini aks ettiruvchi ko‘plab mifologiya namunalarini ko‘rish mumkin.

Xususan, xalq og‘zaki ijodida tabiiy-moddiy xususiyatlarga ega, tabiat predmetlariga bag‘ishlangan Mitra, Haum, Tishtar, Voruna, Indra, Surush, Ajidahok, Gayamart, Mashi va Mashyona, Yima va boshqa afsonaviy obrazlar haqida ko‘plab asotirlar yaratilgan.

Eroniy xalqlar mifologiyasi keyinchalik yozuv shakllanishi natijasida yozma manbalarga ko‘chadi. Xususan, “Avesto”da Eron, Xuroson va Turon xalqlarining ko‘plab asotirlari jamlangan. Mazkur asotirlardan ba’zilari jahonning boshqa xalqlari adabiyotiga madaniy-ijtimoiy aloqalar orqali o‘tib, yangi shakl va qiyofa kasb etganini Mitra obrazi misolida ko‘rishimiz mumkin.

Tashxis san’ati miflarning badiiy tuzilishida muhim ahamiyatga ega. Biz buni tabiat unsurlari haqidagi miflarda ko‘rdik. Ibtidoiy xalqlar tafakkurida tabiatning barcha jonli va jonsiz mavjudotlari tirik shaxs sifatida tasavvur etilgan va ular real qahramonlardek harakatlanib, insonlarning orzu-maqsadlarini ro‘yobga chiqarishga xizmat qilgan.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

1. Авесто. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги НМИУ, 2015. -669 саҳ.

2. Авасто. – Душанбе: Қонуният, 2001. – 791 саҳ.

3. Бертельс Е.Э. Избранные труды. Т.1. История персидско–таджикской литературы. – Москва: ИВЛ, 1960. – 556 ст.

4. Дразден М. Мифология древнего Ирана. // Мифологии древнего мира. -Москва: Наука, 1977. -26 ст.

5. Диловаров М. Асотир. Энсиклопедияи адабиёт ва санъати тоҷик. Ҷилди -Душанбе: Сарредаксияи илмии энсиклопедияи советии тоҷик. 1988

6. Мирзозода Х. Таърихи адабиёти точик. (1/1). – Душанбе: Маориф, 1987. -489 саҳ.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 1-son)

IJTIMOIY FANLAR

SOCIAL STUDIES

SAKLAR VA QUYISOY MADANIYATLARI

Ismailov Ulug‘bek O‘ktamboy o‘g‘li
Zangiota tuman ixtisoslashtirilgan maktabi, maktab maslahatchisi
E-mail: ismailovulugbek535@gmail.com
Ro‘zmetov Mardonbek Aminboy o‘g‘li
Aniq va ijtimoiy fanlar universiteti, Tarix fakulteti magistri
E-mail: mardon0205@gmail.com
Abdullayev Dilmurod Marks o‘g‘li
Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy Universiteti, Tarix fakulteti magistri
E-mail: abdullayevdilmurod858@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada ilk temir davriga oid Saklar va Quyisoy madaniyatlari tarixi va rivojlanishi, ilm-fan va iqtisodiy sohalarida haqida ma’lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: kamin, artefakt, arxaik, an’ana, akinak, suvoriy, san’at, sagaris.

Kirish. Umuminsoniyat tarixi va madaniy merosi jamiki sivilizatsiyalarning ma’naviy poydevori vazifasini bajaradi. Shu sababdan insoniyat tomonidan yaratilgan tarixiy-madaniy meros obyektlarini ilmiy asosda o‘rganish, saqlash va ta’mirlashga katta e’tibor qaratiladi. Mintaqaviy va umumjaxon ahamiyatiga molik jarayonlar kechgan Xorazm vohasinnng ilk temir davri moddiy madaniyat yodgorliklarini o‘rganish o‘zbek davlatchiligining birlamchi asosi shakllanganligi jarayonlarini anglashda muhim ahamiyat kasb etadi. Dunyoning ko‘plab ilmiy tadqiqot markazlarida Markaziy Osiyoning qadimgi davri tarixi va moddiy madaniyatini, jamiyat taraqqiyotini, mafkuraviy, etnomadaniy jarayonlarini o‘rganish bo‘yicha bir qancha tadqiqotlar olib borilmoqda. Markaziy Osiyoning tarkibiy qismi hisoblangan Xorazm vohasida kechgan migratsiya va etnomadaniy jarayonlar, vohada ilk shaharlar va davlatchilikning paydo bo‘lishi kabi masalalar yetarli darajada o‘rganilmagan.

Quyisoy madaniyati Amudaryo daryosining qadimgi Sariqamish deltasida ilk temir davri madaniyatiga oid bo‘lib mil. avv. VII-IVasrlarga oiddir. 1953 yilda B. V. Andrianov tomonidan ochilgan, 1970-1971 yillarda B. I. Vaynberg tomonidan o‘rganilgan Quyisoy 2 (Toshauz viloyati, Turkmaniston) manzilgohi nomi bilan atalgan. 1970-yillar B. I. Veinberg tomonidan Quyisoy madaniyatiga oid bo‘lgan Tumek-Kichidjik, Tarimkaya qabristonlarini ochib o‘rganilgan. Ustunli konstruksiyaning yer osti uylari, yog‘ochlardan yasalgan, devorlari loysuvoq qilingan maydoni 100 m^2 atrofida bo‘lgan uy to‘liq o‘rganilgan, kirish qismi janubdan, markazda 1×1,8 m. o‘lchamdagi to‘rtburchak shakldagi platformaning markaziy qismida kamin joylashgan) shunigdek qazish jaaryonida 1,5 m uzunlikdagi kirish-koridor aniqlangan.

Majmualar chuqurliklari va kichik ustunli tuzilmalarni ham o‘z ichiga olgan. Mis quyish ishlab chiqarish (mis quymalari, nuqsonli mahsulotlar), qora metallurgiya (shlaklangan metall parchalari va bo‘laklari), firuzani qayta ishlash va undan zargarlik buyumlari va boshqa bezak toshlarini ishlab chiqarish izlari qayd etilgan.

Ilk bosqich (mil. avv. VII-V asrlar) yakka jasadlar bilan tavsiflanadi (orqa tomonga cho‘zilgan, ko‘pincha boshi g‘arbga qaragan) – sayoz oval chuqurlarda, ba’zan kichik tepalik ostidagi qishloq ustunlariga qamish taxta bilan qoplangan; qabrlar va murdalarning kuydirilishi (krematsiya) holatlari uchraydi.

Keyingi bosqichda (mil. avv. V-IV asrlar oralig‘ida) qo‘rg‘on ostidagi ossuariylarga tozalangan suyaklarni ko‘mish keng tarqalgan. Topilmalardan ot jabduqlari, bir qirrali temir pichoqlar, boshga qismiga joylashtirilgan idishlar; ayollar qabrlarida don qirg‘ichlari, bronza va yarim qimmatbaho toshlardan yasalgan kam sonli taqinchoqlar bor shuningdek qurbonlik keltirilgan altarlarning izlari topilgan. Mahalliy keramika, asosan, qizil yoki qizil-jigarrang rangda bo‘lgan ba’zan maydalangan chig‘anoqlar aralashmalari bilan qoliplanagan.

Qozonchalar, shu jumladan oziq-ovqat saqlash uchun mo‘ljallangan katta idishlar, oshxona idishlari ustunlik qiladi. silindrsimon nayzali o‘lchamlar, kosalar, silindrsimon stakanlar mavjud. Import qilingan taomlar (ba’zi majmualarda 17% gacha) Marg‘iyona (pushti yoki krem rangli silindrsimon konussimon stakanlar va yuzi ochilgan) va arxaik Daxistondan (Turkmanistonning janubi-g‘arbiy va Eronning shimoli-sharqidagi tarixiy mintaqa) keladi. 3 oyoqli yarim sharsimon kosalar, yopiq shakldagi kulrang-gil sayqallangan idishlar, birinchi navbatda ko‘zalar.

Iqtisodiyoti chorvachilik (asosan qoramol, ot, tuya) va yordamchi dehqonchilikka asoslangan. Antropologik materiallarda Janubiy Turkmaniston hududidan bronza davri yodgorliklaridan ma’lum bo‘lgan dolikokranial komponent mavjud. Ayrim fikrlarga ko‘ra, Quyisoy madaniyatining tashuvchilari Doxiston va Yazdepe madaniyati tutashgan hududdan (zamonaviy Janubiy Turkmaniston va Shimoliy Eron hududida) ko‘chib kelganlar; boshqasiga ko‘ra, Kuysay madaniyati shu asosda rivojlangan. O‘rta Osiyoning janubi-g‘arbiy mintaqalari dehqonchilik madaniyati bilan bog‘liq bo‘lgan sak-massaget madaniyatlari va migrantlar doirasining mahalliy madaniyati. Quyisoy madaniyati Xorazm davlati madaniyatining tarkibiy qismlaridan biriga aylandi.

Quyisoy 2 manzilgohi Amirobod aholi maskanlari singari mudofaa devorlari bilan o‘ralmagan, uy-joylar (yerto‘lalar va kulbalar) tarqoq holda joylashgan bo‘lib, quyisoyliklar muayyan me’morchilik rejasiga amal qilmaganlar. Quyisoy 2 atrofida sun’iy sug‘orish inshootlari topilmagan. Mazkur voqea quyisoyliklar qayir yoki lalmikor ziroatchilik bilan shug‘ullanganlar, deb yozishga asos bo‘ldi. Yodgorliklarda topilgan uy hayvonlarining suyaklariga ko‘ra, quyisoyliklar qoramol va mayda chorva boqqanlar, yilqichilik va tuyachilik bilan shug‘ullanganlar.

Arxeologik qazish ishlari paytida Sakarchaga mozor-qo‘rg‘onlaridan olingan uy hayvonlari suyaklari ham Sariqamishbo‘yi hududlarida qoramol boqish va yilqichilikning ustunlik qilganligini ko‘rsatadi.

Quyisoy 2 va Sakarchaga yodgorliklarida topilgan sopol idishlar, bronza va temirdan ishlangan buyumlar o‘xshashlikka ega bo‘lib, umumiy moddiy madaniyat belgilaridan iboratdir. Shu sababli, mil. avv. VII–VI asrlarga oid mahalliy chorvador qabilalar madaniyatini “Sariqamishbo‘yi saklar madaniyati”, deb atash taklif qilingan. Bizningcha, mazkur madaniyatga xos moddiy ashyolarning Janubiy Xorazm va Quyi Amudaryoning o‘ng sohilidagi Oqchadaryo havzasida (Yakkaporson 14 makoni) aniqlanishini inobatga olib, umuman, Janubiy Orolbo‘yi, ya’ni Xorazm vohasi ilk saklarning madaniyati to‘g‘risida so‘z yuritish mumkin.

Dasht hududlarida istiqomat qilgan qadimgi ko‘chmanchilar, dastlab, qoramollarni boqmaganlar, poda tarkibida qoramolning paydo bo‘lishi yarim ko‘chmanchilik va yarim o‘troq turmush tarziga o‘tish bilan izohlangan, ya’ni qoramolni boqish, xususan, yarim o‘troq chorvadorlar xo‘jaligining o‘ziga xos xususiyati hisoblangan. Dovdon vohasi yodgorliklarida ko‘pdan-ko‘p ho‘kiz va sigirlar suyaklarining mavjudligi mil. avv. VII asrda Xorazm aholisi yuqori mahsuldor chorvachilik shakli bilan shug‘ullanishidan dalolat beradi. Uy hayvonlarining suyaklari bilan birga, yodgorliklarda bug‘u, quyon va yirik baliqlar suyaklari topilgan. Chorvachilik mahalliy qabilalar hayotida xo‘jalikning asosiy shakli bo‘lib, ziroatchilik, ovchilik va baliqchilik uning yordamchi mashg‘ulotlari vazifasini bajargan.

Arxeologik ma’lumotlarga ko‘ra, Xorazm vohasi saklari kulolchilik, yigirish va to‘qimachilik, metall, yog‘och, tosh va suyakka ishlov berish bilan shug‘ullanganlar.

Sopol idishlar tasma uslubida qo‘lda yasalgan. Ular xo‘jalik, ro‘zg‘or, oshxona idishlari bo‘lib, xumlar, tuvaklar, tog‘oralar, kosasimon va choynaksimon idishlardan iboratdir. Shuningdek, Quyisoy va Sakarchaga yodgorliklarida Marg‘iyona va Baqtriya hududlaridan olib kelingan charxda ishlangan Yoz II shaklidagi silindr-konussimon idishlar topilgan 270 mil. avv. VII–VI asrlarga oid saklarning kulolchiligi uy hunari kasbi bo‘lib, bronza davriga mansub dasht qabilalari kulolchilik an’analarini son va shakl jihatidan yangi asoslarda rivojlantirganlar.

Mazkur davrning hunarmandchilik sohasida erishgan eng katta kashfiyotlaridan biri, bu temirdan ishlangan buyumlar va qurollarning vujudga kelishidir. Temirdan xanjar, pichoq, o‘roq, teshgich va boshqa buyumlar ishlangan. Temir dastlab nodir va qimmatbaho metall bo‘lib, undan zeb-ziynat buyumlari sifatida ham foydalanishgan. Sakarchaga mozor qo‘rg‘onida temirdan ishlangan ikkita bilaguzuk topilgan. Xuddi shunday bilaguzuk Quyi Sirdaryodagi Uygarak mozor qo‘rg‘onida bronza va kumushdan yasalgan bilaguzuklar bilan birga topilgan.

Temirdan yasalgan qurollarning tarqalishi mehnat unumdorligini oshiradi. Bronza davrida Janubiy Orolbo‘yida mehnat qurollarini va ro‘zg‘or buyumlarini chorvador, ziroatchi va ovchi uy sharoitida tayyorlangan bo‘lsa, mil. avv. VII–VI asrlarda temirga ishlov beruvchi mutaxassislar – temirchilar paydo bo‘ladi.

Temirdan nafaqat mehnat qurollari, shuningdek, yarog‘-aslahalar tayyorlangan. Tosh, suyak va yog‘ochga ishlov berish jarayonida temir asbob zarur edi. Shu tufayli temirchilik hunarmandchilikning ixtisoslashgan tarmog‘iga aylandi.

Sakarchaga mozor qo‘rg‘onlarida aniqlangan dafn jihozlari yarog‘-aslahalar, ot-anjomi, bronzadan ishlangan suvliq, to‘qa va qubbalardan iboratdir. Gerodotning: “Saklar (skif qabilasi) uzun cho‘qqili qalpoqlar kiyib, kamon va xanjarlar bilan qurollanganlar, yana ularda ikki qirrali harbiy boltalar – sagarislar bo‘lgan”, degan so‘zlarida saklarning qurol-aslaha va ot-ulovlari haqida to‘g‘ri ma’lumotlar o‘z aksini topgan. Janubiy va Sharqiy Orolbo‘yidagi saklarning yodgorliklarida bronza o‘q uchlari ko‘p miqdorda uchraydi. Ular bargsimon, ikki yoki uch qirrali o‘qlar bo‘lgan. Sakarchaga va Uygarak mozor qo‘rg‘onlarida topilgan bronza to‘qa va qubba-lardagi yirtqich qushlar va hayvonlar tasvirlarida yaqin xususiyatlar va katta o‘xshashliklar bor. Sakarchaga dafn jihozlari ichida ot abzali tarkibidagi yuganchalarni bezatgan bronza qubbalarda yirtqich qush, qoplon va to‘ng‘izlar tasvirlari mavjud. Ular Yevrosiyo dasht qabilalari san’atiga xos hayvon suratlarini ishlash “skif-sibir” uslubida ishlangan.

Sakarchagada dafn etilgan ayollarning qabrlarida yorg‘uchoqlar topilgan. Ma’lumki, bu qurollarning ish vazifasi ro‘zg‘orda don yormalash bilan bog‘liq, ammo dafn marosimlarida ulardan hosildorlik e’tiqodining ramzi sifatida foydalangan bo‘lishi mumkin.

Quyisoy 2 manzilgohida va Sakarchaga mozor qo‘rg‘onlarida turli xil marjonlar topilgan. Ular oqtosh, lojuvard, sardolik va feruzadan yasalgan. Feruza konlari Sultonuvays tog‘larida aniqlangan. Bu borada Suza shahrida Doro I ning saroyini bezatish uchun Xorazmdan feruza yetkazib berilganligi haqidagi qadimgi fors bitiklari xabarlarini aytib o‘tish lozim.

Lojuvard (la’l) Xorazmga uzoq o‘lkalardan olib kelingan. Bu yarim qimmatbaho toshning konlari Badaxshonda, qadimgi Baqtriya chegaralarida joylashgan. Arxeologik tadqiqotlar natijasida Badaxshondan, Eron va Yaqin Sharq mamlakatlariga olib boruvchi qadimgi lojuvard yo‘lining yo‘nalishlari aniqlangan, jumladan, ular O‘rta Osiyoning shimoliy dasht hududlari bilan bog‘langan.

Ilmiy adabiyotlarda janubi-sharqiy Orolbo‘yi va Qozog‘istondagi Yettisuv saklarining moddiy madaniyatidagi umumiy belgilar ko‘chmanchilarning madaniy aloqalari bilan bog‘langan.

Bizning fikrimizcha, ko‘chmanchilarning bunday o‘xshash xo‘jaligi turmush tarzi va dasht qabilalariga xos chuqur ildizlarga ega madaniy an’analar bilan belgilanadi. O.A.Vishnevskaya va M.A.Itina, janubi-sharqiy Orolbo‘yi saklari-ning madaniyatiga xos xususiyatlarni ta’riflab, ularning Andronovo mada-niyati an’analari bilan aloqadorligini qayd etib o‘tganlar.

L.T.Yablonskiyning ta’kidlashicha, O‘rta Osiyo-Qozog‘iston dasht minta-qasidagi saklarning moddiy madaniyati va dafn marosimlarida mavjud o‘xshashlikka qaramasdan, Janubiy Orolbo‘yi saklari ziroatchi aholi atrof-larida istiqomat qilganlar. Quyi Amudaryo hududlarida ziroatchilik, chorvachilik, ovchilik va baliqchilik xo‘jaliklariga asoslangan yarim o‘troq turmush tarzi bronza davridan saqlanib kelgan.

Quyisoy madaniyati yodgorliklarida yirik inshootlar, alohida joylashgan hunarmandchilik ustaxonalari va oziq-ovqat mahsulotlarini saqlash uchun bunyod etilgan omborxonalar topilmagan.

Arxeologik ma’lumotlar asosida, Janubiy Orolbo‘yi saklari jami-yatining mil. avv. VII–VI asrlarga oid ijtimoiy tizimi tiklangan. L.T.Yablonskiyning ta’kidlashicha, ushbu jamiyat to‘rt qismga bo‘lingan – jangchi, suvoriylar, kohinlar va kohina ayollar, urug‘ning oddiy va qashshoq-lashgan vakillari.

Quyi Sirdaryodagi Uygarak mozor qo‘rg‘onlaridagi kohina ayollar qabrlarida e’tiqod va qurbonlikka bag‘ishlangan buyumlar mavjud, ayol – suvoriylar qabrlarida ot anjomlari topilgan. Ushbu ma’lumotlarga asoslanib, sak-massagetlarning jamoalarida ayolning baland o‘rni va ijtimoiy mavqei haqida xulosa chiqarish mumkin.

Yunon tarixchilari Gerodot va Ktesiy sak-massagetlarning ayol yo‘lboshchilariga (To‘maris, Zarina) nisbatan “malika-hukmdor”, “xotin-podsho” kabi tushunchalarni ishlatadilar. Ktesiyning ma’lumotlariga ko‘ra, Midiya shohi Kiaksar hukmronligi davrida (mil. avv. 625-585 yy.) parfyanlar midiyaliklarga qarshi qo‘zg‘olon ko‘tarib, Zarina boshliq saklarni o‘zlariga yordamga chaqirganlar.

Chorva mollarini boqadigan yaylovlar bronza davrida umumiy bo‘lgan. Ilk temir davrida aholi va chorva mollari sonining oshishi natijasida, yaylovlar ham urug‘lar va qabilalar o‘rtasida taqsimlanib borishini taxmin qilish mumkin. Suv havzalari, o‘tloqlar va dasht yaylovlari chorvani boqish va ko‘paytirish uchun asosiy omil bo‘lib xizmat qilgan. Quyisoy madaniyati yodgorliklarining Sariqamishbo‘yi yerlarida joylashuvi xususiyatlariga ko‘ra, Dovdon o‘zani atroflarida aylanasi 100 kilometrni tashkil qilgan dashtlar tegrasida chorva boqish uchun tabiiy imko-niyat yaratilgan.

Ilk temir davrida Quyi Amudaryo va Quyi Sirdaryo Orolbo‘yi hududlarida chorvachilik katta ahamiyatga ega bo‘lib, chorva jamoalarning asosiy boyligiga aylangan. “Avesto”ning eng qadimgi qismlari – Yasht va Yasna boblarida dehqonchilik haqida ma’lumotlar uchramaydi, aksincha, chorvachilik va cho‘ponlar hayotiga oid ma’lumotlar saqlanib qolgan.

“Avesto” chorvadorlar mehnatini ulug‘lab, jangchilar botirligi, ularning qurollari haqida xabar beradi. Saklar jamiyatida harbiy qurollarni ishlab chiqarish, kerakli yarog‘ bilan ta’minlash katta o‘rin tutgan. Yarog‘-aslahalar va ot anjomlarining ishlab chiqarilishi bilan bog‘liq maxsus hunarmandchilik tarmoqlari mavjudligini taxmin qilish mumkin. O‘rta Osiyo va Qozog‘iston dashtlari, tog‘ oldi hududlarida istiqomat qilgan saklar yodgorliklarida bronza – temir oyboltalar (yunon tarixchilari ularni “sagaris” deb atashgan), kalta xanjarlar (“akinak”) va turli o‘q uchlari topilgan. Saklar va massagetlarning jangovar saflari otliq qo‘shin va piyoda jangchilardan iborat bo‘lganligi haqida yozma manbalarda ma’lumotlar bor. Ularning asosiy harbiy qismini suvoriy-o‘qchilar tashkil etgan, jangda sagaris – harbiy oyboltalar va akinak – xanjarlardan foydalanishgan.

Sak-massagetlar hayotida o‘ziga xos ijtimoiy-iqtisodiy tuzum rivojlangan. Ularning boshqaruv tizimida urug‘ boshlig‘i, qabila yo‘lboshchisi, oqsoqollar kengashi va xalq yig‘ini

hayotiy zarur masalalarni hal qilgan. Xalq yig‘inida barcha qurolli jangchilar qatnashgan. Yig‘inda urush yoki sulh masalalari ham ko‘rib chiqilgan. Mil. avv. VII–VI asrlarda ushbu tizim davlatchilik, ya’ni siyosiy boshqaruv maqomi darajasiga yetmagan va urug‘-qabila ijtimoiy odatlari, boshqaruv an’analarini o‘zida aks ettirgan. Qabila yo‘lboshchilarini va qabila uyushmalari harbiy sardorlarini oqso-qollar kengashi va jamoalar yig‘inida saylash odati ilmiy adabiyotlarda “harbiy demokratiya” deb nom olgan.

Ilk temir davri Xorazm vohasida murakkab etnik jarayonlar sodir bo‘lib, turli qabilalarning yoyilishi bilan izohlanadi. Antropologik tadqiqotlarga ko‘ra, bronza davrida Janubiy Orolbo‘yi hududlarida yevropeoid irqi Andronovo madaniyatiga oid qabilalar yashagan bo‘lsa, mil. avv. VII–VI asrlarda, saklar qabrlaridan olingan marhumlarning bosh suyaklari tahliliga ko‘ra, yevropeoid qiyofali va mo‘g‘ul – “mongoloid” irqiga mansub odamlar antropologik belgilarining qo‘shilishi kuzatiladi.

Xulosa. Ilk temir davriga kelib, Xorazm hududlarida chorvador qabilalarning harbiy-siyosiy uyushmalari paydo bo‘ladi. Ular haqida (massagetlar, saka tigraxauda birlashmalari) yozma manbalarda ma’lumotlar mavjud. Ko‘chmanchilarning mozor-qo‘rg‘onlarida topilgan yarog‘-aslahalar va ot anjomlari, saklar qurol-yarog‘larni rivojlantirish sohasida katta yutuqlarga erishib, ularning qo‘shinlarida yonzma manbalarda qayd etib o‘tilgan “chaqqon otlarga ega” jangchilar, suvoriy-o‘qchilar mavjud bo‘lganidan dalolat beradi. Sak-massagetlarning siyosiy uyushmalari podsholik darajasiga ko‘tarilmagan. Ularning ijtimoiy munosabatlari urug‘-qabila tizimidagi an’analarga asoslangan edi.

Ilk temir davrida Xorazm vohasiga bosqichma-bosqich Marg‘iyona va Baqtriyadan binokor va hunarmandlarning ko‘chib kelishi natijasida mahalliy madaniyatda tub o‘zgarishlar va yangiliklar namoyonn bo‘lgan. Vohada ilgari ma’lum bo‘lmagan istehkomlar, mudofaa devorlari va yirik binolarning barpo etilishi, qurilishda paxsa va xom g‘ishtdan foydalanishning boshlanishi, amaliy binokorlik bilimlari va uslublarining tarqalishi, kulolchilik charxi va temir qurollardan keng foydalanishni ham janubiy Marg‘iyonna-Baqtriya aholisining migratsiyalari natijasi sifatida tan olish maqsadga muvofiqdir.

Quyisoy, saklar: yarim o‘troq, mavsumiy ko‘chmanchi. Chorvachilik, ziroatchilik, ovchilik, baliqchilik. Kulolchilik (qo‘lda yasalgan idishlar), bronza va temirchilik hunari, yigirish va to‘qimachilik, metall, yog‘och, tosh va suyakka ishlov berish. Urug‘-qabila tuzumi. Urug‘ boshliqlari, qabila yo‘lboshchilari. Jangchi suvoriylar, kohinlar, urug‘ning o‘rtahol va oddiy a’zolari.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Вайнберг Б.И. Куюсайская культура раннего железного века в Присарыкамышской дельте Амударьи // Успехи среднеазиатской археологии. – Л.: Наука, 1975.

2. Вайнберг Б.И. Памятники Куюсайской культуры // Кочевники на границах Хорезма. Тр. ХАЭЭ. – М., 1979.

3. Яблонский Л.Т. Саки Южного Приаралья (археология и антропология могильников). –М.: Институт археологии РАН, 1996.

4. Жданко Т.А. Проблема полуоседлого населения в истории Средней Азии и Казахстана // СЭ. – М., 1961.

5. Вайнберг Б.И. Памятник раннего железного века в Северной Туркмении // Каракумские древности.– Ашхабад, 1977.

6. Вишневская О.А. Культура сакских племен низовьев Сырдарьи в VII–VI вв. до н. э. // Тр. ХАЭЭ. – М., 1973.

7. Акишев К.А. Саки Азиатские и скифы Европейские: Общее и особенное в культуре // Археологические исследования в Казахстане. – Алма-Ата, 1973.

8. Литвинский Б.А. Ареал древнепамирской культуры // Памироведение. – Душанбе, 1985.

9. Виноградов А.В., Лопатин С.В., Мамедов Э.Д. Кызылкумская бирюза // СЭ. – М., 1965.

10. Мавлонов У., Маҳкамова Д. Маданий алоқалар ва савдо йўллари. – Тошкент: Akademiya, 2004.

11. Пьянков И.В. Средняя Азия в известиях античного историка Ктесия. – Душанбе: Дониш, 1975.

12. Трофимова Т.А. Приаральские саки (Краниологический очерк) // МХЭ. – М., 1963.

13. Литвинский Б.А. Оружие населения Памира и Ферганы в сакское время (боевые топоры, кинжалы, наконечники стрел) // Материальная культура Таджикистана. – Душанбе: Дониш, 1968.

14. Хазанов А.М. «Военная демократия» и эпоха классообразования // Вопросы истории. – М., 1968.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 1-son)

IJTIMOIY FANLAR

SOCIAL STUDIES

UO‘K 94(575.171):364 “1945/1991”
Orcid: 0009-0002-8596-0926

1945 -1980- YILLARDA O‘ZBEKISTON SSR QISHLOQLARIDA ISHSIZLIK MUAMMOSI VA UNI BARTARAF ETISH YO‘LLARI (XORAZM VILOYATI MISOLIDA)

Allaberganov Ollabergan Arslanbekovich
Urganch davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi,
Ma’mun universiteti o‘qituvchisi
E-mail: ollaberganallaberganov42@gmail.com
Tel: +99899-505-27-24

Annotatsiya. Ushbu maqolada muallif tomonidan 1945—1980- yillar orasida O‘zbekiston SSR qishloqlarida aholi o‘rtasida ishsizlik masalalari va bu ishsizlik jarayonini keltirib chiqargan omillar, sabablar, muammolar, ziddiyatlar Xorazm viloyati misolida yoritilgan. Shuningdek, aholining barcha qatlamlari jumladan, kattalar va yoshlar o‘rtasidagi ishsizlik masalalari tarixiy nuqtaiy nazardan taxlil qilingan.

Kalit so‘zlar: O‘zbekiston SSR, Xorazm, xalq xo‘jaligi, ishsizlik, qonun, qishloq, kolxoz, pensionerlar, muammo va ziddiyatlar, shikoyat va arizalar.

ПРОБЛЕМА БЕЗРАБОТИЦЫ В СЕЛАХ УЗБЕКСКОЙ ССР В 1945 - 1980 ГГ. И ПУТИ ЕЕ ПРЕОДОЛЕНИЯ (НА ПРИМЕРЕ ХОРЕЗМСКОЙ ОБЛАСТИ)

Аннотация. В данной статье автор осветил вопросы безработицы среди населения в селах Узбекской ССР в период с 1945 по 1980 годы, а также факторы, причины, проблемы и конфликты, вызвавшие этот процесс безработицы на примере Хорезмской области. Также с исторической точки зрения были проанализированы вопросы безработицы среди всех слоев населения, включая взрослых и молодежь.

Ключевые слова: Узбекская ССР, Хорезм, народное хозяйство, безработица, право, село, колхоз, пенсионеры, проблемы и конфликты, жалобы и заявления.

THE PROBLEM OF UNEMPLOYMENT AND WAYS TO ELIMINATE IT IN THE VILLAGES OF THE UZBEK SSR IN THE 1945-1980S (ON THE EXAMPLE OF THE KHOREZM REGION)

Annotation In this article, the author examines the issues of unemployment among the population in the villages of the Uzbek SSR between 1945 and 1980, and the factors, causes, problems, and conflicts that led to this unemployment process, using the example of the Khorezm region. Also, the issues of unemployment among all segments of the population, including adults and youth, are analyzed from a historical perspective.

Key words: Uzbek SSR, Khorezm, national economy, unemployment, law, agriculture, collective farm, pensioners, problems and conflicts, complaints and applications.

Kirish. Ma’lumki, XX asrning ikkinchi yarimida SSSRda kechgan turli siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy jarayonlardagi muammo va ziddiyatlar O‘zbekiston SSR hayotiga jumladan Xorazm viloyatiga ham kuchli ta’sir ko‘rsatdi.

Urushdan keyingi dastlabki yillarda ishchi kuchini yetishmasligi, paxta yakka hokimligi, ijtimoiy-iqtisodiy hayotdagi turg‘unlik, rivojlangan sotsializm g‘oyasining ijtimoiy hayotga tadbiq qilish masalalari samarasizligi, o‘zini oqlamasligi oddiy xalqning tinka madorini qurutdi. Shuningdek, Ittifoq tomonidan arzon ishchi kuchini ko‘paytirish maqsadida amalga oshirilgan bir qancha islohotlar o‘z samarasini berish bilan birgalikda nafaqat ittifoqda balki O‘zbekiston SSRda ishsizlik masalasini keltirib chiqardi. Bu voqea hodisalar Xorazm viloyatini ham chetlab o‘tmadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili va metodlar. 1945-1980-yillardagi O‘zbekiston SSR qishloq aholisining ishsizlik masalalari muammo va ziddiyatlar ko‘rib chiqilayotgan Xorazm viloyati misolida alohida mavzu sifatida nihoyatda kam o‘rganilgan. Sovet davriga oid “O‘zbekiston SSR tarixi”[1], mustaqillik yillarida yaratilgan asarlar va tadqiqotlarda, jumladan, M.Matniyozovning “Xorazm tarixi”[2], Q.Rajabov mas’ul muharrirligida chop etilgan “O‘zbekiston SSR rahbariyatining ijtimoiy va siyosiy faoliyati (1945-1983-yillar)” [3], A. Mannopov, S. Mirzaahmedova muallifligida “75 -mehru shafqat yillari” [4] nomli kitoblarda XX asrning 40-80-yillarida Xorazm viloyati qishloq aholisining ishsizlik masalalari, ijtimoiy hayotidagi, muammo va ziddiyatlar qisman bayon qilingan. Shuningdek, ushbu mavzuni o‘rganishda Xorazm viloyat davlat arxivi 170 – fond va 651- fondlari, “Xorazm haqiqati” gazetasi, “O‘zbekiston sotsial ta’minoti” jurnali materiallari tadqiqotning manbaviy asosi bo‘lib xizmat qildi. 1945 – 1980-yillarda O‘zbekiston SSR, xususan Xorazm viloyatidagi qishloq aholisining ishsizlik muammosi va uni bartaraf etish yo‘llari, muammo va ziddiyatlarga oid mavjud manbalarni taxlil qilishda, jumladan ushbu maqolani asoslash jarayonida sinxron usul, qiyosiy tarixiy usul, tarkibiy tahlil kabi usullardan[5] foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Xorazm viloyatida urushdan keyingi yillarda aholini ish bilan ta’minlash va yetuk kadrlar tayyorlash asosiy muammo sifatida gavdalandi. Darhaqiqat, bu davrda Xorazm qishloq xo‘jaligi moddiy texnik bazasi juda zaif xolda edi. Ustiga ustak 1945-1947-yillarda qishloqlarda rahbar va mutaxassis kadrlar yetishmovchiligi ko‘zga tashlandi. 1945-yil 20-iyunda O‘zSSR Xalq Komissarlari Soveti “Vatan urushi nogironlarini ishga joylashtirish, o‘qitish va ularni moddiy tomondan ta’minlash to‘g‘risida” qaror chiqardi. Bu esa

o‘z navbatida O‘zbekiston hukumatining urush nogironlariga g‘amho‘rligini yanada kuchaytirishga qaratilgan bu qaror birinchi galda sovet tashkilotlaridan va ijtimoiy ta’minot bo‘limlaridan jiddiy ish talab qilar edi. Bu sohada birinchi navbatda viloyat ijtimoiy ta’minot bo‘limi, iste'molchilar uyushmasi, nogironlar kooperativ artellari birlashmasi, paxta tresti, viloyat mahalliy sanoat bo‘limi va boshqa tashkilotlar nogironlarni ishga to‘la joylashtirishlari, ular uchun zarur bo‘lgan qulayliklarni yaratib berishlari lozim edi[6].

Xorazm viloyatining bir qancha tumanlarida bu borada ishlar boshlab yuborilgan. Jumladan, 1946-yil holati bo‘yicha Shovot tumani ijtimoiy ta’minot bo‘limi tomonidan aholini ishga joylashtirishga jiddiy e’tibor berilib tumanda 394 nafar fuqaro ishga joylashtirildi. Bulardan 2-guruh nogironlari 8 nafarni va 3-guruh nogironlari 7 nafarni tashkil qilgan[7.16-varaq]. Shuningdek, 1946-yil holati bo‘yicha Mang‘it tumani ijtimoiy ta’minot bo‘limi tomonidan ro‘yxatga olingan 15 nafar nogironlarning 10 nafari ishga joylashtirilib, 5 nafari esa ishsizligicha qolib ketgan[7.20-varaq].

Xorazm viloyat ijtimoiy ta’minot boshqarmasi ma’lumotlariga ko‘ra 1947-yil dekabr holatiga mehnat nogironlarining soni jami 303 nafarni tashkil qilgan va 219 nafari bandligi taminlangan, 74 nafari esa ishsizligicha qolgan[7.62-varaq]. Shuningdek, viloyatdagi Vatan urushi nogironlarining soni 2261 nafarni tashkil qilib, shulardan bandligi taminlanganlar soni 1580 kishini, ishsizlar soni 118 nafar bo‘lgan[7.61-varaq]. Achinarli jihati shundan iboratki ishchi kuchi yetishmasligi natijasida Xorazm viloyatidagi ko‘pgina nogironlar ham ishsiz aholi sifatida ishlarga jalb qilingan. Bu esa xalq orasida ariza va shikoyatlarga sabab bo‘lgan.

1949-yil yakuniga kelib viloyatda mehnat nogironlarining soni jami 522 nafarni tashkil qilgan va 428 nafari bandligi taminlangan, 94 nafari esa ishsizligicha qolgan[8.3-varaq]. Shuningdek bu davrda viloyatdagi Vatan urushi nogironlarining soni 3088 nafarni tashkil qilib, shulardan bandligi taminlanganlar soni 2953 kishini, ishsizlar soni 130 nafar bo‘lgan[8.2-varaq].

1960-yil holati bo‘yicha Xorazm viloyati ijtimoiy ta’minot bo‘limi tomonidan o‘rganilish ishlari natijasida viloyatdagi barcha qishloqlarda ishchilar va nafaqaxo‘rlarga moddiy maishiy xizmat ko‘rsatishga yetarlicha e’tibor berilmagan. Hech qaysi tumanda aholini ishga joylashtirish va nogironlarni ish bilan band qilish bo‘yicha aniq hisobot yuritilmagan va 1960-yil holati bo‘yicha Xorazm viloyatida ishsizlar soni haqida aniq ma’lumot mavjud emas[9].

XX asrning 60- yillari o‘rtalariga kelib Ittifoqda mehnat masalalarida bir qator muammolar ko‘zga tashlana boshladi. Jumladan ishsizlik masalasi bular ichida eng achinarlisi edi. Shu sababdan 1967-yilda SSSRda “Mehnat bo‘yicha Davlat qo‘mitasi” va ishlab chiqarishni boshqarish bo‘yicha “Butunittifoq ilmiy-metodik markaz”lari tashkil etildi[10]. Shu asosda ittifoq tarkibidagi barcha Respublikalarda va respublika tarkibidagi viloyatlarda Mehnat bo‘limlari tashkil qilindi. Ammo bu narsa kutilgan natijani bermadi. Arxiv hujjatlarini o‘rganish jarayonida shu narsa ayon bo‘ldiki, aholi soni keskin oshib borishi Xorazm viloyati qishloqlarida kattalar o‘rtasida xatto yoshlar o‘rtasida ishsizlik masalasini keng quloch yoyishiga olib keldi. 1968-yilda umumiy ta’lim maktablari bitiruvchilari yani 10 va 11- sinf

bitiruvchilarining jami soni 4385 nafar bo‘lib, shulardan 47 nafari ishsiz va o‘rta ma’lumotga ega bo‘lmagan 8- sinf yoshlarning soni 8119 nafarni tashkil qilib 16 nafari ishsizligicha qolgan[11]. Bu ko‘rsatkich yil sayin ortib borgan. Buning asosiy sababi esa 1970-yilgacha bo‘lgan davrda aholi sonini keskin oshib borishi hisobidan vujudga kelgan jarayon edi.

Ammo SSSR Ministrlar Sovetining 1969-yil 31-dekabrdagi qaroriga binoan 1970-yildan boshlab Xorazm viloyati tuman va shaharlarida qarilik pensiyasi oluvchi kishilarni mehnatidan xalq xo‘jaligida zaruriyat tug‘ulgan paytda keng foydalanish shuningdek, ishlab turgan pensionerlarga davlat pensiyalari to‘lashning 1970-1975-yillar uchun yangi tartibi belgilandi. Shu qarorga binoan 1970-yil 1-yanvardan boshlab ishlagan holda pensiayasini to‘la miqdorda yoki yarim miqdorda olishlari mumkin bo‘lgan pensionerlar miqdori ancha kengaydi[12].

Bu qarorning qabul qilinishi esa butun ittifoqda bo‘lgani singari O‘zbekiston SSRda va O‘zbekiston SSR tarkibidagi Xorazm viloyatida ham aholi o‘rtasida ishsizlar sonini keskin oshib ketishiga sabab bo‘ldi. Jumladan, 1976-yil holati bo‘yicha Xorazm viloyati qishloqlarida jami 1170 nafar ishsiz aholining 1117 nafari ishga joylashtirilgan. Ammo 53 nafar aholi esa ishsizligicha qolgan.[13]

Arxiv hujjatlarini o‘rganish jarayonida shu narsa ayon bo‘ldiki bu davrda mafkuraviy nuqtaiy nazardan aholi o‘rtasida ishsizlar sonini keskin yashirish va ittifoqni xalqaro obro-e’tiboriga zarar yetkazmaslik masalasi juda qattiq nazorati natijasida ishsizlar soni to‘liq qayd qilishni imkoni bo‘lmagan.

Xorazm viloyati mehnat bo‘limi tomonidan qayd qilingan hisobotlarda faqatgina ishsiz aholini ishga joylash masalalari qayd qilingan, ammo ishsizlar soni to‘laligicha oshkor qilinmagan.

Xorazm viloyatida 1976-yildan 1980-yilgacha bo‘lgan davrda vaqtincha ishsiz aholi hamda uy va shaxsiy yordamchi xo‘jaliklarda band bo‘lgan ishsiz shaxslarni qishloq sharoitida ish bilan ta’minlash xolati bo‘yicha hisobot:

№	Tumanlarning nomlari	1976-yil holatiga jami ishsiz aholini ish bilan taminlanishi[14.127-varaq]	1977-yil holatiga jami ishsiz aholini ish bilan taminlanishi[14.79-varaq]	1978-yil holatiga jami ishsiz aholini ish bilan taminlanishi[14.47 varaq]	1979-yil holatiga jami ishsiz aholini ish bilan taminlanishi [15.37-varasq]	1980-yil holatiga jami ishsiz aholini ish bilan taminlanishi[15.154-varaq]
1.	Bog‘ot tumani	125	130	130	120	100
2.	Gurlan tumani	110	115	115	120	170
3.	Qo‘shko‘pir tumani	80	90	90	100	90
4.	Urganch tumani	112	115	115	115	100
5.	Hazorasp tumani	155	165	165	115	130

6.	Xiva tumani	75	80	80	90	90
7.	Xonqa tumani	125	130	130	140	100
8.	Shovot tumani	110	115	115	120	110
9.	Yangiariq tumani	123	130	130	130	110
	Tumanlar bo‘yicha jami:	**1015**	**1070**	**1070**	**1050**	**1000**

Yuqoridagi jadvaldan shu narsa ayon bo‘ladiki ishsiz aholini ish bilan ta’minlash masalasi yil sayin qiyin muammo sifatida qayd qilingani jumladan, 1978-yilda 1070 nafar ishsiz ish bilan taminlangan bo‘lsa bu ko‘rsatkich 1980 yilda 1000 nafarni tashkil etgan. Bu holat ish o‘rinlarini yetishmasligidan dalolat berib, fikrning yaqqol dalili sifatida 1980-yil holatiga 1000 nafar aholi ish bilan ta’minlanganligiga qaramay, 1980-yil 1- yanvar holatiga viloyat aholisining 29 yoshgacha bo‘lgan aholi qatlamidan ishlash istagida bo‘lgan ishsiz yoshlarning soni 637 nafarni[15.5-varaq], katta yoshli yani 29 yoshdan katta ishsizlar soni esa 1093 nafarni tashkil qilganligini ko‘rishimiz mumkin.[15.4-varaq].

1980-yil 1- yanvar holatiga ishlash istagida bo‘lgan ishsiz aholi bo‘yicha hisobot.

№	Tumanlarning nomlari	Ishsiz yoshlar soni[15.5-varaq]	Ishsiz kattalar soni[15.4-varaq]
1.	Bog‘ot tumani	8	20
2.	Gurlan tumani	223	401
3.	Qo‘shko‘pir tumani	36	41
4.	Urganch tumani	19	43
5.	Hazorasp tumani	114	205
6.	Xonqa tumani	99	158
7.	Xiva tumani	53	89
8.	Shovot tumani	29	49
9.	Yangiariq tumani	56	87
	Tumanlar bo‘yicha jami:	637	1093

1980-yil holati bo‘yicha Xorazm viloyati ishsiz aholining katta ko‘pchiligi 2 va undan ortiq farzandga ega bo‘lgan ayollar hisoblangan. Ular ishga jalb qilinishi uchun bevosita farzandlarini qaraydigan ta’lim muassasalari bo‘lishi kerakligini e’tirof etganlar. Bunday ishsizlarning 575 nafari hech qanday kasb hunari mavjud bo‘lmaganlardir.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, 1945 – 1980-yillarda Sovet davlati tomonidan qishloq mehnatkashlarining ijtimoiy ahvolini yaxshilash uchun bir qancha ijtimoiy chora-tadbirlar amalga oshirilgan bo‘lsa-da, bari bir O‘zbekiston SSR qishloqlari ijtimoiy hayotida turg‘unlik va qashshoqlik, ishsizlik elementlari saqlanib qolavergan. 1945 – 1980-yillarda O‘zbekiston SSR, xususan Xorazm viloyatidagi qishloqlarda urushdan keyingi dastlabki yillarda ishchi kuchini yetishmasligi natijasida mehnat va Vatan urushi nogironlari ham ish bilan band qilingan. Ammo XX-asrning 60-yillari oxirlariga kelib esa butun ittifoqda bo‘lgani singari,

Xorazm viloyatida ham aholi sonining keskin ko‘payishi aholining ishsizlik muammosidan aziyat chekishiga sabab bo‘lgan. SSSR Ministrlar Sovetining 1969-yil 31-dekabrdagi qaroriga Xorazm viloyati qishloqlarida qarilik pensiyasi oluvchi kishilarni mehnatidan xalq xo‘jaligida zaruriyat tug‘ulgan paytda keng foydalanish, ya’ni ham ishlab oylik olish va qarilik pensiyasini to‘liq yoki 50 foizgacha olish imkoniyati paydo bo‘ldi. Bu jarayon esa XX asrning 70-80- yillar Xorazm viloyati qishloqlarida ishsizlik darajasini ko‘payishiga olib keldi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ўзбекистон ССР тарихи. 4-жилд.-Т.: “Фан”, 1971. 217-218-б.

2. Матниёзов М. Хоразм тарихи.2-жилд.-Урганч.:1997. 173-б.

3. Ражабов Қ. Ўзбекистон ССР раҳбариятининг ижтимоий ва сиёсий фаолияти (1945 - 1983 йиллар).-Т.: “Фан”, 2020.

4. Маннопов А, Мирзаахмедова С. 75 меҳру шафқат йиллари –Т.: Адолат, 1994. 5-6-б

5. Шадманова С. Тарих тадқиқотларининг методологияси ва замонавий усуллари.-Т.: “Баркамол файз медиа” нашриёти, 2018. 70-б.

6. Хоразм ҳақиқати 1945-йил 11-август № 156 (4981). 1-bet

7. Xorazm viloyat arxivi. 170 – fond, 1-ro‘yhat, 20- yig‘ma jild. 16- varaq

8. Xorazm viloyat arxivi. 170 – fond, 1-ro‘yhat, 42- yig‘ma jild. 3- varaq

9. Xorazm viloyat arxivi. 170 – fond, 1-ro‘yhat, 155- yig‘ma jild. 5- varaq

10. М.Н. Вражнова, Г.Н. Николаева, П.В. Фурсова. Основы организации труда. – М.: МАДИ, 2020. – 17 с.

11. Xorazm viloyat arxivi. 651 – fond, 1-ro‘yhat, 4-yig‘ma jild. 150-varaq

12. Хоразм ҳақиқати 1970-йил 3-апрел №66 (11.324). 4-bet.

13. Xorazm viloyat arxivi. 651 – fond,. 1-ro‘yhat, 47- yig‘ma jild. 348- varaq

14. Xorazm viloyat arxivi. 651 – fond, 1-ro‘yhat, 51- yig‘ma jild. 127- varaq

15. Xorazm viloyat arxivi. 651 – fond, 1-ro‘yhat, 63- yig‘ma jild. 37- varaq

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 1-son)

IJTIMOIY FANLAR

SOCIAL STUDIES

PAYARIQDA JOYLASHGAN PRAVOSLAV CHERKOVI TARIXI

Abduvohidov Dilshod Narbotirovich
PhD doktorant,
Samarqand davlat universiteti,
Samarqand, O’zbekiston.
e-mail: norbotirovich@mail.ru

ANNOTATSIYA Hozirgi kunda Samarqand viloyati Payariq tumani markazida joylashgan sobiq pravoslav cherkovi binosi to‘g‘risida o’zbek tilidagi ilmiy ma’lumotlar juda kam. Muallif maqolada arxiv materiallari va boshqa manbalar asosida ushbu cherkov tarixi va faoliyati haqida so’z yuritadi.

Kalit so‘zlar: Payariq, Samarqand, Narimonovka, Yakov Dmitrievich Fyedorov, Fyedorovka, Trofim Andreevich Moroz, Pokrov, Madaniy meros agentligi.

ABCTRACT Currently, there is very little scientific information in the Uzbek language about the former Orthodox church building located in the center of the Payariq district of the Samarkand region. The author discusses the history and activities of this church based on archival materials and other sources.

Keywords: Payaryk, Samarkand, Narimanovka, Yakov Dmitrievich Fyedorov, Fyedorovka, Trofim Andreevich Moroz, Pokrov, Cultural Heritage Agency.

KIRISH

Bugungi kunda Samarqand viloyatida xristianlikning pravoslav oqimiga tegishli 7 ta cherkov binolari mavjud. Ulardan 4 tasi diniy cherkov maqomida, 3 tasi esa muzey sifatida o‘z faoliyatini davom ettirmoqda. Kattaqo‘rg‘onda yangi muhtasham cherkov binosi qurilmoqda. Shular orasida o‘z o‘rni va tarixiga ega bo‘lgan, Payariq tumani markazida joylashgan Pokrov cherkovi ham bor.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Payariq – bugungi kunda Samarqand viloyatidagi shahar hamda tuman markazining nomi. Payariq shahri 1991-yilgacha Narimonovka posyolkasi deb yuritilgan. Payariq nomi tuman hududidan o‘tgan Pay arig‘i (daryo) nomidan olingan.[1] Ushbu shaharda oldindan rus (pravoslav) aholi vakillari yashab istiqomat qilib kelishgan. Payariq shahri hududi va uning atroflariga dastlabki rus (pravoslav) aholi vakillarining kelib o‘rnasha boshlashi XIX asrning oxirlariga to’g’ri keladi. Bu davrda Samarqand shahrining “yevropa” qismi barpo etilgan, endi

esa viloyatning turli hududlarida dastlabki rus (pravoslav) qishloqlari paydo bo‘la boshlagan edi.

Misol uchun, Samarqand viloyatida 1886-yilda Nadejdenskiy, Zaporojye va Sretenskiy, 1892-yilda Nikolaevskiy, 1896-yilda Romanovskiy, 1897-yilda Nijne-Volinskiy, Verxne-Volinskiy va Konnogvardeyskiy ko‘chib kelganlarga tegishli aholi posyolkalari vujudga keldi.[2]

NATIJALAR

1899-yil iyun oyida Zarafshon daryosi yaqinidan, mahalliy aholi band qilmagan joylardan ko‘chib keluvchilar uchun joy ajratish to‘g‘risida viloyat hukumati qarori chiqadi. Shunga muvofiq, 65 ta pravoslav oilasi ushbu joylarga ko‘chib kelishadi, bu esa aynan yuqorida tilga olingan hozirgi Payariq shahri o‘rnida joylashgan yerlar bo’lgan.

Ushbu pasyolkani 1898-yilda Samarqand viloyati harbiy gubernatori lavozimini egallagan general-mayor Yakov Dmitrievich Fyedorov xotirasiga Fyedorovka deb atashga qaror qilishdi.[3] Aytish kerakki, mahalliy aholi yangi ko‘chib kelganlarni do’stona qabul qilgan. Ruslar (pravoslavlar) o’rnashgan hudud yaqinidagi unumdor yerlarda asosan bug‘doy ekib dehqonchilik qilishgan. Bu imperiya hukumati tomonidan qo’llab-quvvatlangan.

Chunonchi, har bir dehqon oilasiga shaxsiy dehqonchilik uchun bir desyatina, ekin ekish uchun yana 10 desyatina yer ajratilgan. Shuningdek, ko’chib kelgalar dastlabki uch yil davomida gerb boji va davlat yer solig‘ini to’lashdan ozod qilingan bo‘lsa, keyingi 5 yilda soliqlarning faqat yarmini to‘lashi lozim bo’lgan.

Ko‘chib kelganlarning oyoqqa turishlari uchun bir necha yillar kerak bo’ldi – o‘z uylarini qurish, yerlarni sug‘orishni tashkil qilish va hokazo. Lekin odamlar ibodatxonasiz yashay olmas edilar va uning tanqisligi, ayniqsa, vatanlaridan uzoqda juda o‘zlariga sezilgan. Bu esa ushbu hududda ham pravoslav cherkovi qurilishi ishlari boshlanib ketishiga olib keladi. Ibodatxona qurilishida qishloq aholisi ham faol ishtirok etgan: ular g’isht va boshqa zarur qurilish materiallarini o‘z aravalarida tashib berishgan.

Aynan ushbu cherkov – bugungi Payariq shahrining markazida, tuman hokimligi ko‘chasi va istirohat bog‘i chorraxasida joylashgan cherkov bo‘lib, u o‘ziga xos tarzda qurilganki, to‘rt ko‘chaning boshidan qaraganda ham uzoqdan ko‘rinib turgan. [4] Umuman olganda, ibodatxona imperiya xazinasi pullari evaziga qurilgan. Yangi cherkov qurilishida pishirilgan g’ishtdan foydalanilgan, uning binosi hamda qo‘ng‘iroq minorasi tosh poydevorning ustida qad rostlagan, tom qismi esa temir bilan qoplangan. Shu bilan birga cherkov uzoq yillar davomida diniy anjomlar va muqaddas kitoblar yetishmovchiligidan qiynalgan.[3]

Cherkov tarixiga e’tibor berilsa, uning qurilishi aynan qaysi sanada boshlanganligi to‘g‘risida aniq manbalar hozircha yo‘q. Lekin 1911-yil 31-yanvarda Butunrossiya Muqaddas Sinodining farmoni bilan Sankt-Peterburgdan uzoq kutilgan xat keladi. Unda Fyedorovka va Bulung‘urdagi rus aholi punktlarida yangi cherkovlar ochilgani, Trofim Andreevich Moroz Xudoning onasi – Pokrov (Покрова Божией Матери) nomi bilan atalgan Fyedorovka cherkoviga bosh ruhoniy bo‘lib tayinlagani to‘g‘risida ma’lumotlar bor.[5] Demak, yuqoridagidan ma’lumki, Fyedorovka (Payariq) cherkovi 1911-yilda ochilgan.

Trofim Moroz Fyedorovka posyolkasidagi cherkovning birinchi va oxirgi ruhoniysi bo‘lgan.[6] U hozirgi Kiyev yaqinidagi dehqon oilasidan chiqqan. Ruhoniy etib tayinlanishidan oldin, u o‘n yil davomida cherkov maktabida dars bergan. Keyinchalik u Kiyevdan Moskvaga

boradi, u yerda joylashgan Danilov monastirida ruhoniylik kursisini egallaydi. So’ngra, imperiya hukumati tomonidan Turkistonga yuboriladi.[3]

MUHOKAMA

Vaqt o‘tishi bilan “Fyedorovka” kengayib “Soldatskaya posyolkasi” nomi bilan atala boshlandi. 1918-yil, oktyabr inqilobidan so‘ng Soldatskiyning nomi Narimonovkaga almashtirildi.[7] O‘zbekiston mustaqillikka erishgandan keyin Narimanovka nomi Payariqqa o‘zgartirildi va unga shahar maqomi berildi.

Sovet hokimiyati davrida, cherkovlarni yopish kampaniyasi davomida, 1930-yilgacha Samarqand viloyatidagi deyarli barcha cherkovlar yopildi. Faqatgina ikkita Pokrov cherkovlari o‘sha davrda o‘z faoliyatini bir muncha vaqt davom ettirgan. Biri shaharning o‘zida joylashgan, ikkinchisi esa Fyedorovka posyolkasida Pokrov cherkovlari edi. Payariqdagi Pokrov cherkovi baribir 1940-yilda yopilgan. Cherkovning qo‘ng‘irog‘i minoradan olib tashlandi. Lekin bu hali hammasi emasdi.

O‘sha davrning juda ko‘p cherkovlari o‘z taqdirida ko‘rgan hodisa uni ham chetlab o’tmadi: ibodatxonaning “boshi kesildi” – ya’ni uning qo‘ng‘irog‘i joylashgan minorasi buzib tashlandi.[3] Hukumat tomonidan cherkovning qolgan binosining ichida kinoteatr ochishga qaror qilindi. Keyinchalik Sobiq Ittifoqning parchalanishi tufayli u yerdagi kinoteatr faoliyati to‘xtatildi. Shundan keyin cherkov binosi birmuncha vaqt qarovsiz qolib ketdi.

XULOSA

O‘zbekiston mustaqillikni qo‘lga kiritilgach, Payariq tumani hokimligi hamda Madaniy meros agentligi Samarqand viloyat boshqarmasi tashkilotlari sobiq cherkovning binosiga yetarlicha g‘amxo’rlik qilib kelmoqda.[8] Xususan, Madaniy meros agentligi Samarqand viloyat boshqarmasi tomonidan 2009-yil 29-iyunda Payariq tuman hokimligiga yuborilgan

xatda keltirilishicha, ushbu cherkov binosi davlat muhofazasiga olinganligi, unga tutash holatda o’zboshimchalik bilan qurib cherkov binosidan savdo do‘koni sifatida foydalanilayotganligi bu bilan ushbu madaniy meros obyektiga katta zarar yetkazilayotganligi to‘g‘risida aytiladi.[8] Bugungi kunda cherkovning yon-atrofi obodonlashtirilgan, o’zi esa yaxshi holatda saqlanib turibdi.

Hozirda ushbu cherkov binosi Payariq tumani muzeyi sifatida xizmat ko‘rsatib kelmoqda.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston milliy Ensiklopediyasi, O’zME davlat ilmiy nashriyoti, Toshkent, 2005, 643-b.
2. “Samarqand viloyati ma’lumotnomasi”, Samarqand viloyat statistika qo‘mitasining davriy nashri, Samarqand, 1899-yil.
3. https://sv.zarnews.uz/post/pravoslavnaya-cerkov-v-payarke
4. “Payariqnoma”, Toshkent - “Noshirlik yog’dusi” nashriyoti 2019-yil. 320-b.
5. Samarqand viloyat arxivi. Pokrov cherkovi ishi. Fond - 1648, 1-bo’lim, 1-hujjat.
6. Samarqand viloyati manzil-kalendari ma’lumotnomasi, Samarqand, 1914-yil, 51-b.
7. Abduvaxidov D.N., “Katalasdan Payariqqacha”, Xorazm Ma’mun akademiyasi axborotnomasi: ilmiy jurnal. №5/4 (89), 2022-yil, 65-b.
8. Madaniy meros agentligi Samarqand viloyat boshqarmasining tuman hokimligiga yozgan 29.06.2009 dagi № 100 raqamli xatidan ma’lumotlar.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 1-son)

IJTIMOIY FANLAR

SOCIAL STUDIES

UDK: 902/904
ORCID: 0009-0005-6596-5975

QADIMGI XORAZM HUDUDI TABIIY SHAROITINING URBANIZATSION JARAYONLARNING SHAKLLANISHIGA TA’SIRI

Baxtiyarov Sirojbek Ilxombek o‘g‘li
Urganch davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi
e-mail: s_baxtiyarov96@mail.ru
Tel: +99899-413-78-73

Annotatsiya Mazkur maqolada qadimgi Xorazm vohasida urbanizatsion jarayonlarning shakllanisha sabab bo‘lgan tabiiy omillar haqida so‘z yuritiladi. Xorazm hududida shaharlarning bevosita irrigatsiya tizimi bilan bog‘liqligi urbanizatsiya jarayonining rivojlanishida o‘ziga xos ahamiyatga ega hisoblanadi.

Kalit so‘zlari: qair dehqonchiligi, qazuv, “ko‘k qamish toshqini”, “yulduz toshuvi”, Sariqamishbo‘yi, Orol – Kaspiy hududi.

ВОЗДЕЙСТВИЕ ПРИРОДНЫХ УСЛОВИЙ ДРЕВНЕГО ХОРЕЗМА НА ФОРМИРОВАНИЕ УРБАНИЗАЦИОННЫХ ПРОЦЕССОВ

Аннотации В данном статье рассматриваются естественные факторы, способствовавшие формированию урбанизационных процессов в древнем Хорезмском оазисе. Тесная связь городов Хорезма с ирригационной системой имеет особое значение в развитии процесса урбанизации.

Ключевые слова: земледелие каир, казув, “кук камиш тошкини”, “юлдуз тошуви”, Сарикамишбуйи, Приарало-Каспийская область.

THE INFLUENCE OF THE ANCIENT KHOREZM REGION'S NATURAL CONDITIONS ON THE FORMATION OF URBANIZATION PROCESSES

Annotation Natural factors that caused the formation of urbanization processes in the ancient Khorezm oasis are discussed in this article. The direct connection of cities with the irrigation system in the Khorezm region is of particular importance in the development of the urbanization process.

Keywords: kair farming, qazuv, “ko‘k qamish toshqini”, “yulduz toshuvi”, Sarykamysh region, Aral-Caspian area.

Kirish.

Dunyo aholisining aksariyat qismi ham quruqlik hududlarida yoki suv havzalarida yashab, o‘z xo‘jaligini tashkil qilishgan, shuning asosida taraqqiy qilib, o‘z davlatchiligiga, shaharlariga va o‘ziga xos sivilizatsiyasini ham shakllantirganlar. Hududlarning suv bilan ta’minlanish darajasi urbanizatsion jarayon rivojining ham o‘ziga xosligini ta’minlagan. Shu jihatdan qaralganda hududlarning suv bilan ta’minlanish darajasini tadqiq qilish muhim hisoblanadi.

Bizga ma’lumki, qadimgi Xorazm hududi asosan cho‘l va dashtlardan iborat bo‘lgan. Bunday yerlar dastlab chorvadorlar tomonidan o‘zlashtirilgan. Ko‘chmanchi chorvadorlar bronza davriga kelib, hududning tabiiy sharoitiga moslashib, qair dehqonchiligi bilan shug‘ullanishgan [2]. Xorazm vohasining og‘ir tabiiy iqlim sharoitiga moslashib, o‘troq dehqonchilikni shakllantirganlar. Amudaryo suvlari vohaning hosildorligini ta’minlagan. Urbanizatsiyasining asosini tashkil qilgan dehqonchilik vohalarining tashkil qilinishida Amudaryo va uning o‘zanlari faoliyati muhim omil bo‘lib xizmat qilgan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili va metodlar. Xorazm vohasida urbanizatsiya jarayonlarining shakllanishi sabablarini asosan arxeologik tadqiqot ishlari natijasida va yozma manbalar asosida tadqiq qilishimiz mumkin. Xususan, XX asrning o‘rtalaridan boshlab keng ko‘lamdagi arxeologik tadqiqot ishlari natijasida hududda urbanizatsiya jarayonlarining shakllanishi davri, sabablari va oqibatlari haqida xulosalarga kelingan. S.P.Tolstov, O.A.Vishnevskaya, V.N.Yagodin, M.Mambetullaev, S.B.Bolelov, S.R.Baratovlarning arxeologik tadqiqotlar natijalari bo‘yicha xulosalar olingan.

Yozma manbalarga misol tariqasida S.Tolstov, Y.G‘.G‘ulomov, B.I.Vaynberg, A.Asqarov, B.Eshov va N.Egamberdiyevalarning monografiyalari va maqolalarida urbanizatsiya jarayonlarinig shakllanisha sabab bo‘lgan omillar masalalari o‘rganilgan. Maqola obyektivlik, tarixiylik, qiyosiy-mantiqiy tahlil, xronologik izchillik, umumlashtirish, asoslash, arxeologiya, etnografiya, geografiya fanlari natijalaridan foydalanish tamoyillari asosida yoritilgan

Tahli va natijalar. Xorazm vohasida insonlarning yashashi uchun qulay tabiiy sharoitning mavjud bo‘lishi Amudaryo va uning suvlari bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan. Amudaryo va uning o‘zanlaridagi suvning harakati qadimgi Xorazm davlati aholisining turmush tarzini belgilagan. Daryo o‘zanlarida suvlar harakati doimiy bo‘lmagan, o‘z yo‘nalishlarini o‘zgartirib turgan. Suv bormay qolgan o‘zanlar eski yoki qadimgi o‘zanlar nomi bilan atalib, ular qurib qolsa, aholi u yerni tark etgan va suv yo‘li bo‘ylab harakat qilgan. Aholining tashlandiq manzilgohlari qum ostida qolib, ko‘milib ketgan. Bu yodgorliklarda madaniy qatlamlar yaxshi saqlangan. Ularni arxeologlar tadqiq qilib, Xorazm tarixi bilan bog‘liq voqea va hodisalarni chuqurroq yoritish imkoniga ega bo‘lishgan. Amudaryo havzasiga yaqin, suv bilan doimo ta’minlanib turgan joylarda aholi eng qadimgi davrlardan bugungi kungacha iste’qomat qilib kelayotgan joylarda ko‘p qatlamli yodgorliklar shakllangan. Bunday hududlarda qadimgi madaniy qatlamlar keyingi davrda aholining o‘zlashtirishi natijasida yoki

yo‘qolib ketgan yoki keyingi davr manzilgohlari ostida qolib ketgan. Xorazm vohasining bunday jihati ham hududdagi urbanizatsiya jarayonlarini to‘liq yoritish imkonini kamaytiradi.

Amudaryo quyi oqimidagi o‘zanlarning suvidan aholining unumli foydalanishi natijasida, ya’ni sun’iy sug‘orish tizimlarining qurilishi dehqonchilik vohalarini shakllantirgan. Dehqonchilik vohalarida esa, hududni boshqarish uchun shaharlar qurilgan. Shaharlarning joylashgan joylariga qarab, ularning qanday maqsadga foydalanilganligini aniqlash mumkin [7]. Bu esa, qadimgi Xorazmdagi urbanizatsion jarayonlarning o‘ziga xos tarzda kechganligini aks ettiradi.

Dunyo miqyosida shaharlarning vujudga kelishi sabablari hunarmandchilikning alohida soha bo‘lib ajralib chiqishi bilan belgilanadi, lekin qadimgi Xorazmda ilk shaharlarning tashkil topishi bu jarayon bilan bog‘lanmagan. Aksincha aholining migratsiyasi va chorvador aholining o‘troqlashuvi bilan kechgan.

Qadimgi Xorazmdagi shaharlarning tashkil qilinishi va kengayishi uning tuprog‘ining unumdorligi bilan ham bog‘liq. Amudaryo o‘zining tez oqishi natijasida o‘zi bilan ko‘plab loyqa suvlarni olib kelgan va suv toshqini jarayonlarida yoki dalalarni sug‘orishda bu loyqa suvlarning unumdorlikni ta’minlangan. Ya.G‘.G‘ulomov o‘zining “Xorazmning sug‘orilish tarixi” asarida Amudaryo suvining loyqaligi darajasini V.V.Sinzerling tadqiqoti asosida Nil daryosi bilan qiyosiy solishtirgan. Suvning loyqaligi har doim ham dehqonchilikda foyda bermas ekan, qachonki loyqadagi zarrachalar o‘rtacha kattalikda, ya’ni diametri 0,05—0,005 mm gacha bo‘lsa, shunda dehqonchilikda foydali hisoblangan [2]. Nil daryosining suviga nisbatan Amudaryo suvi loyqasining dehqonchilikda foydali ekanligini ko‘rsatib berganlar. Amudaryo suvidagi minerallar orasida tuproq unumdorligini belgilovchi ohaq va kaliy elementlari foiz jihatdan ko‘pligi aniqlangan, Nil daryosida fosfor kislotasining miqdori ko‘p bo‘lgan [2]. Tuproq tarkibida ohak mavjud bo‘lsa, tuproq zararli yoki qora sho‘rhoklarning paydo bo‘lishining oldini olgan[3]. Bu jihat ham Xorazm vohasida dehqonchilikda mo‘l olishni ta’minlab bergan. Shu bilan birga loyqa suvlar o‘zan va kanallarning loyga to‘lib qolishi va suv yo‘lining berkilib qolishga ham sabab bo‘lgan. Loyqalarning o‘zanda to‘planib qolishi natijasida suv o‘z yo‘lini o‘zgartirib boshqa joyga yo‘nalgan. Bu ham dehqonchilik bilan shug‘ullanuvchi aholiga murakkablik tug‘dirgan. Qadimgi davrlarda kanal va ariqlarni tozalash ishlari bilan ma’lum bir qabila yoki urug‘ emas, balki davlat ahamiyatiga loyiq ish hisoblangan. Davlat miqyosida barcha aholi kanal va ariqlarni tozalash ishlariga jalb etilgan. O‘rta asrlarda kelib, u soliq turi bo‘lib, “qazuv” deb atalgan va 12 kunlik majburiy xizmatga aylangan [2]. Bunda aholi bosh kanallarni tozalash, to‘g‘on, damba qurish kabi ishlarni bajarishgan.

Xorazm vohasida suvning yo‘nalishlari, suv toshqini, sun’iy sug‘orish tizimlarini qurish va boshqarish ishlari markazdan boshqarilgan. Bu ishlar bilan qohinlar shug‘ullanganligi aniqlangan. Ibodatxonadagi qohinlar yulduzlarning harakatlarini o‘rganish bilan suv toshqini qachon va qancha vaqt ro‘y berishini aniqlashgan [4]. Shu kalendarga asosan aholi suv toshqinlaridan ham himoyalangan va suv toshqinlaridan dehqonchilikda unumli foydalanishga harakat qilgan.

Amudaryoda bahor va yoz oylarida suv toshqini kuzatilgan. Bu Amudaryoning boshlanish qismidagi Hindiqush tog‘idagi muzlik erish darajasi bilan bog‘liq bo‘lgan. Tadqiqotchilar Amudaryoda yiliga to‘rt marta suvi toshqini bo‘lishini aniqlaganlar. Xorazm aholisi Amudaryo bo‘ladigan suv toshqinlarining vaqtini tabiatdagi o‘zgarishlar orqali bilishgan va shu asosda suv toshqini bo‘yicha kalendar ham ishlab chiqilgan. Y.G‘.G‘ulomovning tadqiqot ishida shu toshqinlar haqida ma’lumot to‘liq berilgan [2]. Mart oyining oxirlarida birinchi toshqin ro‘y bergan. Buni aholi ko‘k qamishlarning o‘sib chiqishi bilan aniqlaganlar va bu davrda ro‘y beradigan suv toshqinini “ko‘k qamish toshqini” deb atashgan. Ikkinchi suv toshqini ham bahor oyiga to‘g‘ri kelgan. U aprel oyi o‘rtalarida sodir bo‘lib, bu davrda oq baliqlar Orol dengizidan Amudaryoning yuqori oqimiga suzib o‘tganlar. Shuning sababli bu toshqin “oq baliq toshqini” deb atashgan. Uchinchi suv toshqini may oyi o‘rtalarida sodir bo‘lgan, buni Hulkar yulduzi turkumining osmonda ko‘rinishi bilan aniqlashgan va uni “yulduz toshuvi” deb ataganlar. To‘rtinchi suv toshqini yozning chillasi davriga to‘g‘ri kelgan va eng kuchli toshqini hisoblanib, qirq kun davom etgan. Bu toshqinni shu xususiyatidan kelib chiqib “qirq chilg‘ov toshuvi” deb atashgan. Iyunning ikkinchi yarmidan boshlanib, avgust boshlarida tugagan [2][5]. Abu Rayhon Beruniy asarida bu toshqin haziran (iyun) oyining 24 chi sanalarida boshlanib, eng kuchaygan payti tamuz (iyul) oyining 25 sanalariga to‘g‘ri kelishini yozib qoldirgan [1].

Suv toshqini vaqtining kechikishi dehqonchilik ekinlari ekish yoki sug‘orish vaqtining kechikishiga olib kelgan. Shu jihatdan suv toshqinlari jarayoni ham doimo nazorat ostida bo‘lib turgan. Agar suv toshqin vaqtida me’yoridan ortib ketsa, bu ham aholiga talofot olib kelgan. Uning oldini olish ham qadimgi irrigatorlar oldida turgan muhim vazifalardan biri bo‘lgan. Qadimgi davr aholisi toshqin jarayonlariga ilohiy qudrat timsoli sifatida qarashgan. Amudaryoni iloha sifatida qarab, unga qurbonlik keltirib turilgan. Amudaryo toshqini vaqti kechiksa ham, toshqin suvi me’yoidan ortib ketsa ham qurbonlik keltirilgan [7]. Tadqiqotchilar tomonidan Amudaryoga qurbonlik keltirish marosimlari XX asrning boshigacha davom etganligi aniqlangan.

Amudaryo suvining beqarorligi qadimgi Xorazmda sun’iy sug‘orish tizilmalarni mukammal qurilishini talab qilgan. Shundagina vohada dehqonchilik qilish imkoni bo‘lgan. Tadqiqotchilar fikricha, vohaga dehqonchilik madaniyati sharqdan kirib borgan [6]. Don mahsulotlarining urug‘lari ham tashqaridan olib kelingan degan xulosani berishgan. Amudaryoning quyi qismida aniqlangan yovvoiy o‘simliklar orasida donning yovvoiy turlari aniqlanmaganligi sababli shunday fikrga kelganlar.

Xorazmda sun’iy sug‘orish tizilmalari qurishda eng muhim va qiyin vazifa kanal boshini qurishda joy tanlash bo‘lgan. Bu jarayonda irrigatorlar kelayotgan suv toshqini boshqara olishlari, kanal va ariqlarga yetarli suvni yo‘naltira olishlari kerak bo‘lgan. Bunda ular quyidagiga ahamiyat berishgan:

1. Kanal boshi quriladigan joyning qirg‘oq tuproqlari mustahqam bo‘lishi lozim bo‘lgan. Daryo qirg‘oqlari ko‘pincha loyqa suvning to‘planishi natijasida yumshoq bo‘lib qolgan. Agar

kanal boshi toshqin paytida suvni ushlab tura olmasa, suv boshqa tomonlarga chiqib ketib, ariqlarga suv bormay qolish ehtimoli kuchli bo‘lgan.

2. Suv toshqini davrida o‘zanga suv kelishini ham inobatga olishlari lozim bo‘lgan. Ko‘pincha toshqin paytida asosiy oqim o‘z yo‘nalishini o‘zgartirishi mumkin bo‘lgan. Shuning uchun suv doimiy va mo‘tadil oqadigan joylardan foydalanishga harakat qilganlar.

3. Tanlangan joy daryoning eski boshiga to‘g‘ri kelmasligi lozim. Bu ham suv yo‘nalishini nazorat qilishni kamaytirgan.

4. Kanal boshidan katta kanallar chiqarilmagan, suv toshqini davrida bunday yirik kanallarda suv ko‘payib ketsa uni boshqarish murakkab bo‘lgan.

5. Katta toshqin kanalining boshini bir necha joydan ochganlar. Ularni kichik bo‘lganligi sababli boshqarish oson bo‘lgan, tezda tartibga solingan va daryoning o‘pirilish xavfi kamaygan [2].

Xorazmdagi irrigatorlarning mahorati tufayli kanallar doimo suv bilan ta’minlangan. Suvni ko‘proq oqizish uchun taqsimlovchi tarmoqlar qurilgan va uning oqishini ta’minlash uchun nishabroq xolatda qurilgan. Ariqlarning nishabroq holatda qurilishida ikkita jihatni e’tiborga olishgan. Birinchisi yetarli darajada nishab qilib olinmasa, kichik va oxirgi ariqlarga suv yetib borishda muammo bo‘lgan, agar nishablik darajasi yuqori bo‘lsa, suv toshqini davrida kanallarning o‘pirilishiga olib kelgan. Shu jihatdan kanallarni qurishda maxsus hisob kitoblarga alohida ahamiyat qaratishgan. Toshqin kanallaridagi suvni boshqarish uchun oshiqcha suvlarni chiqarib tashlaydigan joylar – partovlar ham qurishgan. Daryolarning eski o‘zanlari, vohaning chekka joylaridagi pastliklar shunday partov sifatida qo‘llanilgan.

Ko‘pincha kanallarning ochiq turgan joylariga ortiqcha suvni saqlaydigan va qaytadan kanalga oqizadigan maxsus joylar ham bo‘lgan. Uni “badrov” deb atashgan. Badrovning ikki oxirgi qismida ikkita to‘g‘on bo‘lib, ular faqat suv xavfi darajasi ko‘tarilganda ochilgan [2].

Xorazm vohasini Amudaryo suvlari bilan ta’minlashining o‘zi bu yerda insonlarning yashashi uchun qulay sharoitni yaratgan. Amudaryo o‘zanlari atroflari dehqonchilik qilish mumkin bo‘lmagan joylarda to‘qayzorlarga aylangan. Bu esa, hududning chorvadorlarning qishlashi uchun qulay vaziyatni yaratgan.

Tadqiqotchi B.I.Vaynberg arxeologik va geomorfologik tadqiqot ishlari natijasida Orol – Kaspiy hududining qadimgi davrga oid rekonstruksiyasini ishlab chiqqan [5]. Mil.avv. 900 va 300 yillarda hududda yog‘ingarchilik ko‘p bo‘lganligini aniqlagan. Bu esa, shu davrda aholining kengroq hududlarda dehqonchilik qilish imkonini bergan va aholi tomonidan keng hududlarning o‘zlashtirishiga sabab bo‘lgan. Shu davrda Xorazm vohasining Sariqamishbo‘yi o‘zanida suv ko‘payib, O‘zboy oqimi Kaspiy dengizi bilan bog‘langan. Aholi sonining oshib borishi va dehqonchilik bilan ko‘nikmalarning rivojlanishi urbanizatsiya jarayonlarining boshlanishida asosiy omillaridan biri bo‘lib xizmat qilgan. Chorvachilik bilan shug‘ullanuvchi aholi o‘troq turmush tarziga o‘tib, shaharlarni bunyod etishgan. Shaharlar atrofida, ariqlarning bo‘ylarida qishloqlar tashkil qilishgan va shu joylarda, ya’ni turar joylariga yaqin hududlarda dehqonchilik kasbi bilan shug‘ullanganlar.

Xorazm vohasining atrofi cho‘llik bilan o‘ralganligi va Amudaryo bo‘ylarida chorvadorlarning qishlashi uchun qulay tabiiy sharoit bo‘lganligi sababli, hududning dehqonchilik vohalar doimo ko‘chmanchilar tahdididan himoyalanishi lozim bo‘lgan. Daryo o‘zanlaridan chiqarilgan kanallarning tarmoqlangan joylarida qal’a – shaharlar bunyod etilgan. Shaharlarning tashqarisida esa, dalalari bo‘lgan. Dushman hujumi paytida atrofdagi dehqonlarning barchasi qal’a ichida himoyalangan va o‘zi ham tashqi dushmanga qarshi kurashda qatnashgan bo‘lishi ehtimoli kuchli.

Mil.avv. IV – III asrlarga kelib, namgarchilik iqlimi nihoyasiga yetib, quruq va issiq iqlim hukmronligi boshlanadi [5]. Bu jarayon ham qadimgi Xorazm davlatining urbanizatsion jarayoniga ta’sir ko‘rsatgan. Iqlimning quruqlashuvi Xorazm vohasi atrofidagi ko‘chmanchi qabilalarning yanada faollashuviga, ya’ni o‘tloq hududlarni izlab dehqonchilik vohalariga hujumlarining sonini ko‘paytirgan. Davlat o‘z mustaqilligini himoyalash uchun chegara hududlarda ko‘plab qal’alarni bunyod qilgan. Markazlashgan davlat tashkil qilingandan keyin aholi sonining oshib borishi ham kuzatiladi. Bu hududda olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijasida aniqlangan qal’alarning sonidan kelib chiqib aniqlangan.

Xulosa va takliflar. Qadimgi Xorazm hududida urbanizatsion jarayonlarining shakllanishida tabiiy omillarning o‘rni katta hisoblanadi. Bu asosan irrigatsiya tizimi bilan bog‘liq holda kechgan. Amudaryoning ahamiyati bunday shaoritda nihoyatda ahamiyatlidir. Daryodan kanallar qazilib, dehqonchilik qilish uchun sharoit yaratilgan. Mabodo kanallar va ariqlarda suv to‘xtab qolsa, dehqonchilik xo‘jaligi inqrozga uchragan. Aholi orasida ochlik tarqalgan. Bu esa, aholining suvning orqasidan yurib, o‘zining yashab turgan hududini tark etishga majbur bo‘lgan. Boshqa suv ta’minoti bor joylarni o‘zlashtirishi ham ancha mehnat talab etgan. Shu sababdan aholi sun’iy sug‘orish tizimlarini tashkil qilganlarida unda doimiy suv bo‘lishidan manfaatdor bo‘lgan. Bu esa, urbanizatsiya jarayonida muhim omil hisoblanadi. Xorazm vohasida o‘ziga xos sun’iy sug‘orish tizimlari qurish va rivojlantirish shaharlar hayotida muhim hisoblangan. Qadimgi va o‘rta asrlar davrida suv ta’minoti to‘xtagan qal’alardan aholi ko‘chib ketgan. Lekin hozirgi kunda ham suv ta’minoti mavjud bo‘lgan ko‘hna qal’alar atrofida aholi yashab kelmoqda

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Беруний, Танланган асарлар I том. УзССР: ФАН, 1968. Б. 311 – 315.
2. Ғуломов Я.Ғ Хоразмнинг суғорилиш тарихи (қадимги замонлардан ҳозиргача). – Ташкент: Фан, 1959. –319 б.
3. В.В.Цинзерлинг Орошение на Амударье, часть 3. 1927. С. 197.
4. Андрианов Б.В. Земледелие наших предков. – Москва: Наука, 1978. – С. 107.
5. Вайнберг Б.И. Этнография Турана в древности. VII век до н.э. – VIII век н.э. – Москва: Восточная литература, 1999.
6. Асқаров А. Қадимги Хоразм тарихига доир баъзи бир масалалар //Ўзбекистон этнологияси: янгича қарашлар ва ёндошувлар. –Тошкент. 2004. – Б. 76-84.
7. Egamberdiyeva N.A. Amudaryo havzasi hududlarining qadimgi madaniyati Toshkent, Innovatsion ziyo. 2022. B.202.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 1-son)

IJTIMOIY FANLAR

SOCIAL STUDIES

UDK: 94(470.67)+929+626.81:351.79
ORCID ID 0009-0003-2181-8362

FARG‘ONA VODIYSI BOZORLARI FAOLIYATI TAHLILI (FARG‘ONA, MARG‘ILON, QO‘QON SHAHARLARI MISOLIDA)

Inamov Odil Tolibovich
Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Farg‘ona filiali assistenti
odil8603@gmail.com +998 90 232 38 00

Annotatsiya: Ushbu maqolada Farg‘ona vodiysidagi bozorlar faoliyati Farg‘ona, Marg‘ilon, Qo‘qon shaharlari bozorlari misolida tahlil qilindi. Viloyat bo‘yicha uyushmagan savdo tovar aylanmasi o‘zgarishlari, ularni taqsimlanishiga oid ma’lumotlar va ko‘rsatkichlarni hududlar kesimida solishtirilgan hamda arxiv materillari asosida tahlil qilingan. Shu bilan birga viloyatlardagi bozorlarning hududiy joylashuvi va farqlariga doir ma’lumotlar yoritilgan.

Kalit so‘zlar: iqtisodiy islohotlar, bozor infratuzilmasi, uyushmagan savdo, savdo usullari, tovar aylanmasi, qiymat, dehqon (oziq-ovqat) bozori, savdo yarmarkasi, baholash.

Аннотация: В статье анализируется деятельность рынков Ферганской долины на примере рынков городов Фергана, Маргилан и Коканд. На основе архивных материалов проведено сопоставление и анализ данных и показателей изменения оборота неорганизованной торговли по регионам, их распределения. При этом приводится информация о территориальном распределении и различиях рынков в регионах.

Ключевые слова: экономические реформы, рыночная инфраструктура, неорганизованная торговля, методы торговли, товарооборот, стоимость, фермерский (продовольственный) рынок, ярмарка, оценка.

Abstract: This article analyzes the activities of markets in the Fergana Valley using the example of the markets of the cities of Fergana, Margilan, and Kokon. Changes in the turnover of unorganized trade by region, data and indicators on their distribution were compared by region and analyzed based on archival materials. At the same time, information on the territorial location and differences of markets in the regions was provided.

Keywords: economic reforms, market infrastructure, unorganized trade, trade methods, commodity turnover, value, farmer's (food) market, trade fair, evaluation.

KIRISH.

XXI asrda jahonda globallashuv jarayoni ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning ajralmas qismiga aylandi, turli texnik-madaniy yangliklar natijasida kishilar dunyoqarashi o‘zgardi,

jahon ulkan iqtisodiy makonga aylandi. Natijada, har bir mamlakatning o‘z iqtisodiyotini mustahkamlashi zarurat bo‘lib qoldi. Ayni holat rivojlangan davlatlarda savdo hajmini, bozor munosabatlarini rivojlantirish bo‘yicha o‘zaro raqobatini yuzaga kelishiga olib keldi.

Bugun dunyoning qator ilmiy-tadqiqot va oliy ta’lim muassasalarida ichki va tashqi savdo munosabatini o‘rganish, bozor masalalariga katta e’tibor berila boshlandi. Iste’mol mollari bozorining holatini tadqiq qilish, baholash masalalariga o‘z e’tiborini qaratadigan yoki faqat ushbu vazifalarni bajaradigan xalqaro tashkilotlar mavjud.

Respublikada so‘nggi yillarda bozor munosabatlariga, xususan, tadbirkorlik faoliyatiga nisbatan yangicha munosabat shakllantirildi. Mazkur munosabatning tarixiy misollar asosida chuqur tahlil qilish, ularga ilmiy jihatdan baho berish alohida ahamiyat kasb etmoqda. Bozor iqtisodiyotiga o‘tishning dastlabki davri mamlakat va uning fuqarolari uchun sinov davri bo‘ldi. Ushbu jarayonlar tahlili bugungi kundagi global iqtisodiy jarayonlar ta’siridan chetda qolmaydigan O‘zbekiston uchun ham muhimdir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son [1], 2018-yil 22-yanvardagi “2017–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini “Faol tadbirkorlik, innovasion g‘oyalar va texnologiyalarni qo‘llab-quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid Davlat dasturi to‘g‘risida”gi PF-5308-son [2] farmonlarida shuningdek, sohaga oid boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarida belgilangan vazifalarni amalga oshirishga mazkur dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA. Bozorlar insoniyat tarixiy taraqqiyotining muhim omili bo‘lib, uning faoliyatini umumnazariy va metodologik asoslari xorijiy va mamlakatimiz olimlarining ilmiy tadqiqotlarida aks etgan. Bozorlar shakllanishi va rivojlanishining tadqiq etish yo‘nalishlarini bir necha guruhlarga ajratish mumkin: nazariy va metodologik tadqiqotlar; davlat tomonidan boshqarish masalalari; tashkiliy-huquqiy va institutsional jihatlari; agromarketing masalalari; iste’mol bozorini baholash ko‘rsatkichlari; mintaqaviy boshqaruv masalalari; alohida segmentlar doirasida va boshqalar. Ushbu tadqiqotlarda umumbashariy va iqtisodiy munosabatlarning rivojlanishi hamda o‘z davriga xos bo‘lgan bozorning mohiyati, qonuniyatlari, nazariya va konsepsiyalari ishlab chiqilgan.

Jumladan, O.Abdullayevning mintaqaviy tadqiqotlariga ko‘ra hudud bir birini to‘ldiruvchi ishlab chiqarish-taqsimlash-ayirboshlash-iste’moldan iborat bosqichlarni o‘z tarkibiga olgan yagona jarayondir [3]. A.Qayumovning fikricha, mintaqaviy bozorning asta-sekin shakllana borishi mintaqa iqtisodiyotining balanslashganligini yaxshilashga imkon beradi [4].

A.Soliyevning fikricha, mamlakat ichida hududiy mehnat taqsimotini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish, rayon va viloyatlar orasida sog‘lom raqobat muhiti, faol iqtisodiy integratsiya jarayonlarini rivojlantirish, turli hududiy bosqichdagi – mahalliy, mintaqaviy, mintaqalararo, milliy bozorlarni shakllantirish hozirgi davrdagi nihoyatda dolzarb vazifalardir [5]. Ushbu tadqiqotlar iqtisodiy tadqiqotlar doirasida mintaqaviy iqtisodiyotning bozor bilan bog‘liq

xususiyatlari o‘rganilgan bo‘lib, Farg‘ona vodiysini iqtisodiy rayonlashtirish nuqtai nazaridan tahlil etilgan.

Farg‘ona, Marg‘ilon, Qo‘qon shahri bozorlari faoliyati tarixi mustaqillik yillarida alohida ilmiy tadqiqot obyekti sifatida o‘rganilmagan. Lekin, bozorlar masalasiga bag‘ishlangan tadqiqotlar sirasiga Sh.Y.Oxunjonova tomonidan “1991-2020-yillarda Toshkent bozorlaridagi o‘zgarishlar tarixi” [6] masalalariga bag‘ishlangan dissertatsiyasini sanab o‘tishimiz mumkin. Mazkur tadqiqot ishida mustaqillik yillarida Farg‘ona, Marg‘ilon, Qo‘qon shahridagi bozorlarning rivojlanish holati tahlil etilgan. Bozorlarning aholi bandligini ta’minlashdagi o‘rni, savdo tajribasiga ega bo‘lmagan kishilarning xususiy tadbirkorlarga aylanish jarayoni, O‘zbekistondagi eng yirik ulgurji bozorlardan biri – Qo‘qon bozori bilan taqqoslab o‘rganilgan. Shuningdek, moki savdogarchilik faoliyatining paydo bo‘lishi va rivojlanish holati, bozorlarda xizmat ko‘rsatish holati, bu boradagi yutuq va muammolar, bozorlarning moddiy-texnik bazasini haqida ma’lumotlar berilgan. Tadqiqot natijasida jamoatchilikka va tarixshunoslikka taalluqli bo‘lgan ko‘plab yangi ma’lumotlar iste’molga kiritildi.

NATIJA VA MUHOKAMALAR: Mamlakatimizda aholi soni 100 mingdan ortiq 18 ta shaharlar mavjud bo‘lib, ularning 3 tasi (Farg‘ona, Qo‘qon va Marg‘ilon) Farg‘ona viloyatiga to‘g‘ri keladi. Ushbu shaharlarda viloyat aholisining 1/4 qismi istiqomat qiladi.

Statistik ma’lumotlar jamiyatda sodir bo‘layotgan ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tavsiflash va boshqarishning eng muhim vositasidir. Hozirda yuqori sifatli statistik ma’lumotlardan foydalanmasdan davlat siyosatida to‘g‘ri boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonsiz. Shular qatorida savdo statistika ko‘rsatkichlarining tahlillari ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Jumladan, ulgurji va chakana savdo hamda umumiy ovqatlanish korxonalari savdo aylanmasi statistikasi ko‘rsatkichi shular jumlasidan.

Viloyat bo‘yicha 2023-yilning yanvar oyida uyushmagan savdo tovar aylanmasi 100,9 mlrd. so‘mni tashkil etib, 2022-yilning yanvar oyiga nisbatan 89,7%ni tashkil etdi. Shu jumladan, 12 bozor va 12 bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma‘lumotlariga asosan, dehqon bozorlarda savdo faoliyati bilan shug‘ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo‘jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarini sotish hajmi 48,5 mlrd. so‘mni (84,4 %), chorva mollari va



parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi 52,4 mlrd so‘mni tashkil etdi (95,2%).



Uyushmagan savdo tovar aylanmasi. Ichki savdo ko‘rsatkichlarini shakllantirishda uyushmagan savdo tovar aylanmasi ham hisoblanadi. Bunga dehqon (oziq-ovqat) bozori hamda chorva mollari, parrandalar va boshqa hayvonlar bozorida jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo hajmlari kiradi. Uyushmagan savdo tarkibiga jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo‘jaligida o‘z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hisobga olinadi.



UYUSHMAGAN SAVDO AYLANMASIDA DEHQON* VA CHORVA (PARRANDA) BOZORLARINING ASOSIY KO‘RSATKICHLARI

	Jami, mlrd. so‘m	2022- yil yanvar oyiga nisbatan, foizda	Dehqon bozorlari, mlrd. so‘m	2022- yil yanvar oyiga nisbatan, foizda	Chorva bozorlari, mlrd. so‘m	2022- yil yanvar oyiga nisbatan, foizda
Farg‘na viloyati	100,9	89,7	48,5	84,4	52,4	95,2
Shaharlar						
Farg‘ona	4,6	45,0	3,9	52,6	0,6	23,8
Qo‘qon	8,9	64,2	5,9	74,0	3,0	51,1
Quvasoy	3,0	68,8	1,1	80,6	2,0	63,6
Marg‘ilon	16,2	129,4	9,5	106,5	6,7	186,1
Tumanlar						
Oltiariq	2,6	50,9	0,8	35,6	1,8	62,1
Qo‘shtepa	3,1	65,9	1,5	45,1	1,6	114,3
Bag‘dod	3,6	73,6	1,2	91,3	2,4	66,8
Buvayda	12,5	94,1	7,2	130,1	5,3	68,5
Beshariq	11,7	134,3	3,9	75,0	7,9	219,3
Quva	8,6	104,6	6,1	162,9	2,5	56,0
Uchko‘prik	3,3	137,3	0,9	144,0	2,4	135,1
Rishton	5,4	84,7	0,3	14,7	5,1	120,3
So‘x	1,1	42,1	0,6	37,2	0,5	50,8
Toshloq	2,3	222,6	0,6	126,5	1,7	298,4
O‘zbekiston	2,8	73,4	1,5	148,6	1,3	45,4
Farg‘ona	3,5	71,3	2,8	138,3	0,7	23,8
Dang‘ara	0,3	54,1	0,2	67,9	0,1	37,9
Furqat	0,4	62,1	0,4	62,1	0,0	-
Yozyovon	6,9	162,9	0,1	8,7	6,7	266,7

* – xo‘jalik yurituvchi subyektlar va yakka taribdagi tadbirkorlar (YATT)ni qo‘shmagan holatda;

– jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo‘jaligida o‘z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari va chorva (parranda) mollari sotilishi hisobga olingan.

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi. 2023-yil 1-fevral holatiga avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi (IFUT-2 45- bo‘lim 45.2 va 45.40.3 kodlaridan tashqari – motorli transport vositalari va mototsikllarni ta’mirlash va texnik xizmat ko‘rsatish) 196,0 mlrd. so‘mni tashkil etdi va o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 28,4 %ga kamaydi. Shuningdek, yirik korxonalar savdo hajmi 81,4 mlrd. so‘m (o‘sish sur’ati- 74,6 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyetklari savdo hajmi – 114,6 mlrd. so‘mni (o‘sish sur’ati – 61,7 %) tashkil qildi.

Ushbu ko‘rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Qo‘qon (**78,9** mlrd. so‘m), Farg‘ona (**62,4** mlrd. so‘m) va Marg‘ilon (**19,3** mlrd. so‘m) shaharlari hissasiga to‘g‘ri kelmoqda [7].

Farg‘ona viloyati statistika boshqarmasi bergan ma’lumotiga ko‘ra, 2021-yil yanvar-noyabr oylari holatiga Farg‘ona viloyati boyicha dehqon bozorlarida qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvi o‘tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko‘ra savdo aylanmasi hajmi 664,1 mlrd. so‘mni tashkil etdi [8]. Shundan:

Don mahsulotlari - 132,9 mlrd. so‘m

Yangi uzlgan qishloq xo‘jaligi mahsuloti – 272,1mlrd. so‘m

Non va non mahsulotlari – 107,3mlrd. so‘m

Sut va sut mahsulotlari – 25,7 mlrd. so‘m

Tovuq go‘shti – 23,2 mlrd. so‘m

Tuxum -16,0 mlrd. so‘m

Quritilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari – 31,5 mlrd. so‘m

Tuzlamalar – 6,2 mlrd. so‘m

Chorva mollari uchun yem-hashaklar- 25,4 mlrd. so‘m

Ziravorlar – 12,6mlrd. so‘m

Gullar, o‘simlik va nihol ko‘chatlari - 11,2 so‘mni tashkil etdi.

XULOSA: Xulosa sifatida shuni aytishimiz mumkinki, Respublika mustaqillikka erishgan vaqtda bozorlarning moddiy-texnik ta’minoti zamon talablariga javob bermas edi. Shundan kelib chiqib, qayta tashkillash choralari ko‘rildi. Bosqichma-bosqich barcha bozorlar texnik jihatdan zamonaviylashtirildi. Har bir bozor moddiy-texnik ta’minotni yaxshilash uchun muayyan bosqichni bosib o‘tishiga to‘g‘ri keldi. Ayniqsa, bozorlar hududini kengaytirish va qaytadan tashkil etishda o‘z-o‘zini mablag‘ bilan qoplash, moddiy-texnik bazani rivojlantirish borasida tajriba yetishmasligi sezilib qoldi. Shu boisdan bozorlarda o‘rin-joy muammolari ko‘zga tashlandi va musalalar hali ham butunlay o‘z yechimi topgani yo‘q. Aholini sifatli va zarur iste’mol mollari bilan ta’minlashda, moddiy-texnik imkoniyatlarni yaxshilash choralari yo‘lga qo‘yildi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qaroriga ko‘ra soliqlardan vaqtincha ozod etilishi, imtiyozlar ajratilishiga, bu esa tegishli moddiy-texnik imkoniyatlari yaxshilanishiga xizmat qildi. Barcha tadbirkorlar qatori savdogarlar ham tahdid, tahlika, tajovuzlardan qutuldi. Behisob tekshiruv va nazoratlar bartaraf etildi. Tadbirkorlikning davlat va jamiyat oldidagi mavqeyi va obro‘si oshdi. Pandemiya davrida qator imtiyoz va erkinliklar berildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son.

2. 2018 yil 22 yanvardagi “2017–2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini “Faol tadbirkorlik, innovasion g‘oyalar va texnologiyalarni qo‘llab-quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid Davlat dasturi to‘g‘risida”gi PF-5308-son.

3. Абдуллаев О. Минтақалар ва мамлакатлар иқтисодиёти. Монография. - Т.: Янги аср авлоди, 2009.

4. Қаюмов А., Назарова Ҳ., Эгамбердиев Ф., Якубов Ў. Минтақавий иқтисодиёт. Ўқув қўлланма. – Т.: ЎзМУ, 2004.

5. Минтақавий иқтисодиёт. Ўқув қўлланма А.С.Солиев, Э.А.Аҳмедов, Р.Й.Маҳамадалиев ва б.-Т.: Университет, 2003.

6. Oxunjonova Sh.Y. 1991-2020 yillarda Toshkent bozorlaridagi o‘zgarishlar tarixi: Tarix bo`yicha falsafa doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – Farg`ona, 2022.

7. Farg‘ona viloyati statistika boshqarmasi // https://farstat.uz/

8. Uyushmagan dehqon bozorlari savdo tovar aylanmasi 29/12/2021

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 1-son)

IJTIMOIY FANLAR

SOCIAL STUDIES

XORAZM VOHASI NEOLIT DAVRI TURAR-JOYLARIDA ARXEOLOGIK-TADQIQOTLAR

Salayev Umrbek Kadambayevich
Urganch davlat universiteti o‘qituvchisi, tadqiqotchi

Annotatsiya: Maqolada Amudaryo o‘ng va so‘l sohili hududi neolit davri manzilgohlarida olib borilgan arxeologik izlanishlar natijalari bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: Tolstov S.R., Vinogradov A.V., Vinogradov E.A., Oqchadaryo havzasi, Ko‘kcha, Qurg‘oshin, Djingeldi, Kaundi, Tadji-Kazgan, Ma’mur, Baraktam-10, Burli-3, Oqtoylik, Aydabol, Kolbuloq, Allam, Isatay, Kaskajal.

АРХЕОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ НА НЕОЛИТИЧЕСКИХ ПОСЕЛЕНИЯХ ХОРЕЗМСКИЙ ОАЗИС

Аннотация: В статье анализирован результаты археологические исследования поселений неолитического периода правобережья и левобережья Амударьи.

Ключевые слова. Толстов С.П., Виноградов А.В., Акчадарьинская дельта, Жанбас 4, 5, 11, 12, 18, Кокча, Кургашин, Джингельды, Каунди, Таджиказган, Маъмур, Баракtам-10, Бурли-3, Октайлик, Айдабол, Колбулак, Аллам, Исатай, Каскажал.

ARCHAEOLOGICAL RESEARCH AT THE NEOLITHIC SETTLEMENTS OF T HE KHOREZM REGION

Abstract: The article analyzes the history of research of the Neolithic settlements of the right and left banks of the Amu Darya.

Keywords. Tolstov S.P., Vinogradov A.V., Akchadarya delta, Zhanbas 4, 5, 11, 12, 18, Kokcha, Kurgashin, Dzhingeldy, Kaundi, Tadjikazgan, Ma'mur, Baraktam-10, Burli-3, Oktaylik, Aidabol, Kolbulak, Allam, Isatai, Kaskazhal.

Kirish. O‘zbekistonning geografik muhiti, tabiiy-iqlim sharoiti, tabiiy resurslar zahirasi serobligi, aholining joylashib kundalik faoliyatlariga imkon bergan tabiiy-iqtisodiy hududlaridan biri Quyi Amudaryo havzasidir.

Afsonalarga boy bo‘lgan zamin Qizilqum va Qoraqum oralig‘ida joylashgan Xorazm vohasi aholisi Amudaryo faoliyati natijasida o‘ng va so‘l hududlarga bo‘lingan hududlarda sug‘orma dehqonchilik va shaxarsozlik madaniyatini rivojlantirish sohasida zafarlarga erishganligini qayd qilish joiz. Amudaryo asrlar mobaynida suvi tarkibidagi mineral moddalarni

yotqizishi natijasida biz ta’zim qilgan hudud boshqa hududlar kabi bundan 1 million yillar ovchilar tomonidan kech o‘zlashtirilgan. Arxeologik izlanishlar natijalariga ko‘ra, voha shimoli-sharqida joylashgan Sulton Uvays tog‘i etaklari – IV-III ming yilliklarda etnik jarayonlarni olib borgan.

Adabiyotlar tahlili. Maqolada yer geologiyasi Kaynazoy erasi to‘rtlamchi davri Pleystotsen muzligini Vyurm bosqichidan (80-12 ming yillik) hamda IV-III ming yilliklarda ajdodlarimizning kundalik faoliyatlarini olib borishiga imkon yaratgan manzilgohlarda Xorazm arxeologiya ekspeditsiyasi olib borgan arxeologik izlanishlar natijalarini yoritishdan iborat.

Mavzuga oid adabiyotlar taxlili. XX asrning 30-yillari o‘rtalarida S.P.Tolstov raxbarligida Xorazm arxeologiya (1945-yildan)-etnografiya ekspeditsiyasi yarim asrdan ziyod (1937-1991-y. avgust) Amudaryo o‘ng va so‘l sohili hududlarda arxeologik qidiruv natijasida tarixiy davr, turli bosqichlariga mansub arxeologik yodgorliklarini ro‘yxat oldi, ularda qisman qazishma ishlarni olib borib, amaliy natijalarga erishilgan. Xorazm ekspeditsiyasi dastlabki faoliyatidanoq neolit davriga oid manzilgohni o‘rganish ishlari olib borilgan. Misol tariqasida 1939-yilda Moskva davlat universiteti Tarix fakulteti studentlari A.Ya.Abramovich va N.N.Vakturskaya kashf qilgan Jonbos-4 manzilgoxida 1940- yilda qazishma ishlari olib borilgan. Manzilgoh ichki qismi madaniy qatlamida tosh qurollar, kulolchilik ashyolari, hayvon va baliq suyaklari topilgan [1, 2]. 1945- yilda Oqchadaryo havzasida Jonbos-5, 11, 12, 14, 18 manzilgohlarida tekshirish ishlari olib borilgan [3]. 1954-1955-yillarda Xorazm ekspeditsiyasi Oqchadaryo havzasini janubiy markaziy, sharqiy hamda shimoliy hududlarida arxeologik izlanishlar olib borishgan [4]. 1955-yilda Janubiy Oqchadaryo havzasi Sharqiy hududi-Ko‘kcha-Qurg‘oshin hamda Kunyak-Kazgan, Djingeldi va Kaundi hududlarida Kunyak-1, Djingeldi-6, Kanudi 3, 4 kabi manzilgohlarda arxeoloigk tekshirishlar olib borilgan [5, 6.].

Ushbu arxeologik tadqiqotlar keng ko‘lamli va salmoqli tadqiqotlari bilan e’tiborga loyiq bo‘lib, ularning natijalari Xorazm viloyati va Markaziy Osiyo tarixi va madaniyatini tushunishni yaxshilashda muhim ahamiyatga ega. Xususan, S.P.Tolstov boshchiligidagi tadqiqotlarda neolit davridan XIX asr oxirigacha bo‘lgan turli tarixiy davrlarga oid yodgorliklar aniqlanib, ularning madaniy-tarixiy ahamiyati atroflicha o‘rganilgan.

Arxeologik tadqiqotlar natijasida turli xil yodgorliklar, jumladan, ko‘plab tosh asboblar, sopol idishlar, hayvon suyaklari va boshqa maishiy artefaktlar topilgan. Ushbu natijalar o‘sha davr odamlari yashagan muhit, ularning kundalik faoliyati, ovchilik va qishloq xo‘jaligi texnikasi, shuningdek, ularning ijtimoiy tashkiloti va madaniy mansubligi haqida muhim ma’lumotlarni beradi.

Jonbos-4 manzilgohida o‘tkazilgan qazishlarda topilgan tosh qurollari va sopol idishlar neolit davri aholisi tomonidan qo‘llanilgan turli xil mehnat qurollari va kundalik turmush tarzi namunasidir. Ushbu qishloqda topilgan hayvon va baliq suyaklari aholining ovchilik va baliqchilik bilan shug‘ullanganligini ko‘rsatadi, bu ularning tabiiy resurslardan foydalanish va biologik muhitga moslashishni bilishini ta’kidlaydi.

1954-1955-yillarda Oqqadaryo havzasida olib borilgan keng ko‘lamli arxeologik tadqiqotlar qadimgi jamoalarning mintaqaning turli hududlarida geografik joylashuvi va ularning madaniy mansubligini o‘rganishga yordam berdi. Ushbu tadqiqotlar orqali aniqlangan jamoalar ko‘p davrlarga borib taqaladi, ularning har biri o‘z davrining madaniy-tarixiy xususiyatlarini o‘zida mujassam etadi.

Ushbu tadqiqot natijalari Xorazmning tarixiy-madaniy merosi haqida ilmiy jamoatchilik va keng jamoatchilik uchun mos bo‘lgan yangi tushunchalarni taqdim etadi. Bundan tashqari, ushbu arxeologik tadqiqotlar Markaziy Osiyo tarixi va madaniyatini o‘rganishga yangi metodologiya va yondashuvlarni joriy etishga yordam beradi, shu bilan keyingi tadqiqotlar uchun mustahkam platforma yaratadi.



1957-yilda Xorazm ekspeditsiyasi Janubiy Oqchadaryo havzasida Djingeldi-6, Kvat-5, Qurg‘oshin G. D. manzilgohlarda arxeologik tekshirish ishlari o‘tkazilgan [7, 8.]. A.V.Vinogradov Oqchadaryo havzasida neolit davri yodgorliklarida olib borgan qazishmalari natijalarini quyidagi hududlarga ajratgan:

1. Jonbos manzilgohlari guruhi Jonbos-4, 3, 5, 12, 11, 18 turar-joylari joylashtirilgan.

2. Qavat guruhi manzilgohlari Qavat-6, Qavat-7, Bayram-Kazgan-6, manzilgohlari tarkibni hosil qilgan.

3. Ma’mur guruhi manzilgoxlari mazkur guruh manzilgoxlari asosan Bayram-qazg‘on huduida 9-10 km sharqida, Jonbosqaladan 11 km janubi sharqida joylashgan. Ma’mur- 1, 3, 3A, 3V, 4, Kunyak-1, Djingeldi-6, Kaundi-8, manzilgoxlari tashkil qilgan.

4. Qurg‘oshin guruhi manzilgoxlari janubiy havzaning shimolida joylashgan Kurgashin G.V. manzilgoxlari qayd qilingan.

5. Tadjikazgan guruhi manzilgohlari Tadji-Kazgan - 2, 3, 6, 6A, 8, 13, 14.

6. Shimoliy havza guruhi manzilgohlari.

Uch-Tagan, Baldijon, Bay-Chumak, Barak-tam-8, 10 turar-joylari jalb qilingan [9].

XX asr 70-yillari o‘rtalarida Xorazm ekspeditsiyasi . Sulton Uvays tog‘i so‘l hududi tosh davri so‘nggi bosqichida ibtidoiy ovchilar tomonidan o‘zlashtirib, Xorazm vohasida ilk etnik munosabatlarni olib borganligigiga oid toshdan ishlangan mehnat qurollarini olgan [10].

Xorazm ekspeditsiyasini Janubiy Orolbo‘yi hududida neolit davri urug‘ jamoalari turar-joylarini arxeoloigk jihatidan o‘rganish yagona emas. Xorazm vohasiga hududiy jihatidan ulanib ketgan Ustyurt hududi ashel davri ovchi va termachilarning avlodlari mezolit, va neolit davrida moslashgan hududda olib borilgan etnik jarayonlarga asos bo‘lgan manbalarni olgan [11]. (Oqtoylik, Aydabol, Kolbuloq, Allam, Isatay, Kaskajal).

Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqotning maqsad va vazifalariga muvofiq holda "Xorazm vohasi neolit davri manzilgohlarida arxeologik tadqiqotlar" nomli maqolada qo‘llanilgan metodologiya va yondashuvlar tanlab olindi. Arxeologik qazishmalar asosiy tadqiqot yondashuvi sifatida e’tirof etilib, neolit davri jamoalari, ularning madaniy qatlamlari va u yerda topilgan buyumlar haqida keng ma’lumot beradi.

Arxeologik qazishmalar: Bu usul Xorazm vohasidagi neolit davri qishloqlarini chuqur tahlil qilish uchun qo‘llaniladi. Qazishmalar ko‘plab qatlamlar va hosilalarni tahlil qilishni, shuningdek, har bir topilgan artefaktning aniq joylashuvi haqida batafsil hujjatlarni o‘z ichiga olgan. Qazish ishlari geografik, geologik va ekologik sharoitlarni hisobga olgan holda aniq belgilangan hududlarda olib boriladi.

Stratigrafik tahlil: Ushbu usul har bir qazish joyida qatlamlarning ketma-ketligi va o‘zaro bog‘liqligini o‘rganish uchun qo‘llaniladi. Ushbu usul turar-joy binolarini qurish va foydalanish muddatlarini aniqroq aniqlash imkonini beradi.

Neolit davri yodgorliklarining yoshi va tarixiy davrlarini aniqroq aniqlash uchun Karbon-14 radiokarbonli sanalash usulidan foydalaniladi. Ushbu usul organik materiallardan olingan namunalardagi radioaktiv uglerod izotoplarini miqdoriy jihatdan aniqlaydi va shu bilan ularning yoshini aniqlaydi.

Artefaktlar tahlili: Topilgan tosh qurollar, kulolchilik va boshqa madaniy buyumlarni o‘rganish ularni yaratishda foydalanilgan materiallar, ishlab chiqarish usullari va uning maishiy va iqtisodiy ahamiyatini o‘rganishni o‘z ichiga oladi.

Tahlil va natijalar. XX asr 30-yillari o‘rtalari – 90-yillarda Amudaryo o‘ng va so‘l sohili hududlarida S.P.Tolstov raxbarligida Xorazm arxeologiya-etnografiya ekspeditsiyasining neolit davriga oid aholi turar-joylarida keng qamrovli ravishda olib borilgan arxeologik tadqiqotlarda Jonbos-4 manzilgoxi urug‘ jamoalarining turmush tarzi, xo‘jaligi, o‘zlashtirish tadbirlari tahlil qilingan.

Maqolaning amaliy natijalari quyidagicha izoxlandi:

- Amudaryo o‘ng va so‘l sohili hududlarida neolit davri urug‘ jamoalarining joylashishi, turmush tarzi, xo‘jaligi faoliyati oydinlashtirildi va ilmiy muammolari jalb qilindi.

- Maqola mavzusi mazmuknini aks ettirgan natijalar vohani ibtidoiy jamoa tuzumini neolit davri tarixini o‘rganishga xizmat qilgan.

O‘zbekistonning neolit davri tarixini o‘rganishda maqola mohiyatini aks ettirgan ma’lumotlar nazariy manba bo‘lishi mumkin.

Xulosa va takliflar: Xorazm vohasi tekisligida mil. avv. IV-III ming yilliklarda joylashgan ajdodlarimiz Amudaryo hadyasidan unumli foydalanib, xo‘jalikni ovchilik va termachilik xo‘jaligini rivojlantirib, “Kaltaminor madaniyati” O‘rta Osiyoni neolit davri sahifasidan o‘rin olishiga muvaffaq bo‘lgan.

- Jonbos - 4 manzilgohida istiqomat qilgan urug‘ jamoalari Jonbosqal’a atroflarini o‘zlashtirib, ilk etnik jarayonlarni olib borib, kasbi-korlarini belgilab olganlar;

- Jonbos - 4 manzilgohi ovchi – termachilarda boshqaruv tizimi “Donishmand ona” rahnomaligida olib borilgan tashabbusi bilan tevarak-atroflarini o‘zlashtirish siyosati olib borishi natijasida uning etnik jarayonlar Tuyamo‘yin Sariqamishbo‘yi, O‘zboy hududlari sari janubi-g‘arbiy kengaygan.

Takliflar quyidagicha izoxlandi:

- Jonbos - 4 manzilgohida istiqomat qilgan aholisini etnogenezi va etnik tarixi yetarlicha o‘rganilmagan.

- Neolit davri aholi turar-joylari joylashishi geografik va ekologik omillarni tarixiy o‘rnini yoritishga muxtoj seziladi.

- Neolit davrida aholi demografiyasi masalalari dolzarb masalalaridan biri bo‘lib qolmoqda.

- Jonbos - 4 manzilgohi ovchi-termachilarning qo‘shni hududlarda istiqomat qilgan jamoalari bilan iqtisodiy-madaniy aloqalari tarixini yoritish lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Толстов С.П. Хорезмская археологическая экспедиция 1940 г. //КСИИМК-М.: Наука, 1946, ВыпXII-С. 90-91.

2. Толстов С.П. Новые материалы по истории культуры древнего Хорезма (Предварительные итоги работ Хорезмской археологической экспедиции Института истории материальной культуры АН СССР (1940 г.) //ВДИ-М.: Наука, 1946. Вып-1-С. 61-65.

3. Толстов С.П. Хорезмская археолого-этнографическая экспедиция Академии Наук СССР 1945 г. //Известия АН СССР Серия, История и философии-М.: Наука, 1946. Т. 3. № 1-С. 83-86.

4. Толстов С.П. Работы Хорезмской археолого-этнографической экспедиции АН СССР в 1954 г. //СВ, 1955. № 6-С. 95-103.

5. Толстов С.П. Хорезмская археолого-этнографическая экспедиция в 1955-1956 г. //СА-М.: Наука, 1958. № 1-С. 106-111.

6. Толстов С.П. Работа Хорезмской археолого-этнографической экспедиции в 1954-1956 г. //МХЭ-М.: Наука, 1959. Вып-1-С. 37-38.

7. Толстов С. П., М. Г. Воробъева, Ю. А. Рапопорт. Работы Хорезмской археолого-этнографической экспедиции в 1957. //МХЭ-М.: Наука, 1960., Вып 4-С. 33-34.

8. Виноградов А.В. Новые неолитические находки Хорезмской экспедиции АН СССР 1957 г. //МХЭ-М. Наука, 1960. Вып 4-С. 63-81.

9. Виноградов А.В. Неолитические памятники Хорезма-М.: Наука, 1968. Вып. 8-170 с.

10. Виноградова Е.А. Первые палеолитические находки в Султануиздаге //Приаралье в древности и средневековьем.: ИВЛ. РАН, Наука, 1998-С. 74-77.

11. Бижанов Е.Б. Неолитические памятники юго-восточного Устюрта //Древняя и средневековая культура юго-восточного Устюрта //Ташкент.: Фан. 1978-С. 18-79.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 1-son)

IJTIMOIY FANLAR

SOCIAL STUDIES

SIRDARYO HUDUDIDAGI ILK MANZILGOHLAR VA DAVLATCHILIK TIZIMINING PAYDO BO‘LISHI BORASIDA YANGI QARASHLAR

Ma’rufov Sherzod Komil o‘g‘li
Guliston davlat universiteti, mustaqil tadqiqotchi
Sherzodmarufov1@gmil.com
+998995226192

Annotatsiya: Ushbu maqolamizda Viloyat huduqidagi bir qancha manzilgohlarni arxeologik va yozma manbalar asosida tahlil qilish orqali yangi fikrlarni bildirib o’tmoqchimiz. Shu paytgacha viloyat hududidagi manzilgohlarda ilmiy izlanish olib borgan bir qator olimlarimiz bu hududlar o’rta asrlarda faqat Ustrushona tarkibida bo’lganliklari xususida fikr bildirishardi. Ammo so’ngi tadqiqotlar shuni ko’rsatyaptiki, viloyat hududidagi va unga yondosh bir qancha manzilgohlar Choch hokimligi tasarrufida bo’lgan bo’lishi mumkin.

Kalit so‘zlar: Arrian, Makedoniyalik Aleksandr, “daryo bo‘yi varvarlari”, Kiropol, Nurtepa, «atrofdagi qishloqlar», Eylaton madaniyati, Eski Xovos, Kvint Kursiy Ruf, memakenlar, dax’yu, kavi, sastar, v’yaxa.

НОВЫЕ ВЗГЛЯДЫ НА ПОЯВЛЕНИЕ ПЕРВЫХ АДРЕСА И СИСТЕМЫ ВЛАСТИ В СЫРДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ

Аннотация: В этой статье мы хотели бы представить новые идеи, проанализировав несколько поселений региона на основе археологических и письменных источников. До сих пор ряд наших ученых, проводивших научные исследования на поселениях региона, высказывали мнение, что эти территории были лишь частью Уструшоны в средние века. Однако недавние исследования показывают, что несколько населенных пунктов в районе и прилегающих к нему районах могли находиться под юрисдикцией администрации Чоча.

Ключевые слова: Арриан, Александр Македонский, «приречные варвары», Кирополь, Нуртепа, «окрестные деревни», Эйлатонская культура, Старый Ховас, Квинт Курсий Руф, Мемакенс, Даксю, Кави, Састар, Вяха.

NEW VIEWS ON THE EMERGENCE OF THE FIRST ADDRESSES AND GOVERNMENTAL SYSTEM IN SIRDARYA REGION

Annotation: In this article, we would like to present new ideas by analyzing several settlements in the region based on archaeological and written sources. Until now, a number of

our scientists, who conducted scientific research in the settlements in the region, expressed their opinion that these areas were only part of Ustrushona in the Middle Ages. However, recent studies show that several settlements in the region and adjacent to it may have been under the jurisdiction of the Choch administration.

Key words: Arrian, Alexander of Macedon, "riverside barbarians", Kyropol, Nurtepa, "surrounding villages", Eilatonian culture, Old Hovas, Quintus Cursius Rufus, Memakens, Daxyu, Kawi, Sastar, Vyakha.

KIRISH.

Sirdaryo zaminida insonlar qadimgi tosh davridan beri yashab kelishgan bo‘lsada, uning qadim tarixi to‘g‘risida ma’lumot beruvchi yozma manbalar bir muncha keyingi davrlarga oiddir. Qadimgi Sirdaryo tarixi haqida ma’lumot beruvchi muhim yozma manba qadimgi grek tarixchisi Arrianning “Iskandarning harbiy yurishlari” asaridir[1; 76б]. Milodiy II asrda yashagan Arrian ushbu asarida Makedoniyalik Aleksandrning O‘rta Osiyoga yurishlari haqida batafsil ma’lumot beradi. Unda yozilishicha, Sirdaryo bo‘yida “daryo bo‘yi varvarlarining” Aleksandrgacha 7 shahari bo‘lgan. Makedoniyalik Aleksandr unga qarshi So‘g‘dda Spitamen boshchiligidagi qarshilikni bostirish uchun Marakandaga qaytganidan foydalanib, Sirdaryo bo‘yidagi 7 ta shahar aholisi qo‘zg‘olon ko‘taradi. Arrianning yozishicha, “daryo bo‘yi varvarlari” makedoniyalik jangchilarni qirib tashlab, o‘z shaharlarini mustahkamlaganlar. Arrianning yozishicha, qo‘zg‘olonda “daryo bo‘yi varvarlari” bilan bir qatorda ko‘plab so‘g‘dlar ham ishtirok etganlar. Shu yerda bir muhim xulosa qilish mumkin, ya’ni qadim sirdaryoliklar so‘g‘dlardan farq qilingan. Chunki Arrian mahalliy xalqni so‘g‘dlardan farqli ravishda “varvarlar” deb yozadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR.

Umuman olganda, yuqorida keltirilgan tadqiqotlarda hozirgi Sirdaryo viloyati hududlarida o‘troq va ko‘chmanchi aholiga oid yodgorliklar XX asrning 40-chi yillaridan o‘rganila boshlandi. 1970-90-chi yillarda shimoli-g‘arbiy Ustrushona hududida O‘zR FA Arxeologiya Instituti ilmiy xodimlari A.E. Berdimurodov, S.R.Raximov, U.A.Alimov, M.X.Pardaev, A.A.Gritsina, L.M.Sverchkov va boshqalar tadqiqotlar olib borishdi. Mustaqillikdan keyin bu hududlarni o’rganish yangicha ahamiyat kasb eta boshladi. Arxeologik va yozma materiallarni tahlili natijasida bir guruh olimlar A.A.Gritsina, S.S.Qudratov, O’.Erbutayeva, B.To’ychiboyev, O.Mamirov va boshqalar o’zlarining izlanishlarida viloyat tarixini yoritishga katta hissa qo’shishmoqda.

Mazkur maqolada tarixiylik, obyektivlik, tizimlilik kabi asosiy metodologik tamoyillardan foydalanilgan holda, Sirdaryo viloyati hududidagi manzilgohlar arxeologik va yozma manbalar asosida tarixiylik nuqtai nazaridan ilmiy tahlil etildi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA.

Fanda erksevar, mag‘rur ajdodlarimiz tomonidan qahramonlarcha himoya qilingan shaharlarning qayerda joylashganligi keskin bahslarga sabab bo‘lib kelmoqda. Ayrim olimlar,

ustrushonaliklarning asosiy shahri Kiropol O‘ratepa shahridagi Mug‘qal’a o‘rnida bo‘lgan deb hisoblasalar[2; 36], boshqa bir guruh olimlar Kiropolni Xovatog‘ yaqinidagi Nurtepa yodgorligi o‘rnida bo‘lgan, deb hisoblaydilar. Bizning fikrimizcha ham Kiropol Nurtepa yodgorligi o‘rnida bo‘lgan. Sababi, aynan shu yodgorlikda miloddan avvalgi VII-IV asrlarga oid madaniy qatlamlar o‘rganilgan.

Arrian tomonidan qayd etilgan ikkinchi shahar Gaza esa ayrim olimlar tomonidan Gazandarak qishlog‘i o‘rnida, boshqalar esa Tojikiston Respublikasining Nau tumanida[5], uchinchi guruh olimlar esa uni Xo‘jand o‘rnida bo‘lgan deb hisoblaydilar. Yetarli darajada arxeologik tadqiqotlar olib borilmaganligi sababli, bu muammo hozircha ochiq qolmoqda.

Antik davr yozma manbalarda yozilishicha, Makedoniyalik Aleksandr va uning sarkardalari Sirdaryo bo‘ylarida amalda an’anaviy ko‘rsatilgan yetti shahardan ancha ko‘p shaharlarni bosib olishgan. Balkim bu yetti shahar yoki qal’alar mavjud bo‘lgan, nisbatan ko‘proq bo‘lgan manzilgohlar ichida eng mustahkamlari bo‘lib, dushman xavfi paydo bo‘lganda yon-atrofdagi manzilgohlar aholisi aynan shu joylarga yashirinib, jon saqlashgan bo‘lishi mumkin. Bu hol Arrian ma’lumotlarida tasdiqlanadi: “Aytishlaricha “yovvoyilar” atrofdan bu yetti shaharga qochib kelar edilar”[3]. Bu uncha katta bo‘lmagan qishloqlar jumlasiga yetti shahardan tashqari, viloyat hududidagi miloddan avvalgi VI asrga oid Saganaktepa va Saganaktepa I xarobalarini ham kiritish mumkin[4].

Qadimgi sirdaryoliklar manzilgohlari suv manbalari yonida joylashgan bo‘lib, bu yerlar sug‘orma dehqonchilik uchun qulay bo‘lgan. Suv manbalaridan uzoqroqda joylashgan manzilgohlar manbalarda «atrofdagi qishloqlar» deb yuritiladi. Biror bir tashqi xavf tug‘ilganda qishloqlar aholisi mustahkam mudofaa devorlariga ega bo‘lgan shaharlarga qochib bekinishgan. Bunday shaharlar jumlasiga yunon tarixchisi Arrian tomonidan tilga olingan yettita shaharlarni kiritishimiz mumkin. Ushbu shaharlar o‘lkaning o‘sha davrlardagi siyosiy, iqtisodiy, harbiy va diniy markazi vazifasini o‘taganlar.

Shu o‘rinda viloyat hududidagi eng qadimgi aholi manzilgohlari qachon paydo bo‘lganligi masalasiga aniqlik kiritish dolzarbdir. So‘nggi yillardagi arxeologik tadqiqotlar natijalariga tahliliy yondoshish bu borada yangi qarashlarni ilgari surish imkonini beradi.

Bizning nazarimizda, mutaxassislar tomonidan mil.avv. X-IX asrlarda, dastlab Baqtriyaga kelib, bu yerda mahalliy kulollardan kulolchilik sirlarini o‘rgangan chorvador aholining mil.avv. VIII asr oxirlarida dastlab So‘g‘diyonaga[6], so‘ngra yangi boy yaylovlarni axtarib sharqqa siljigan chorvador aholining bir qismi Turkiston tog‘ tizmasining o‘t-o‘langa boy, sersuv soylar bo‘yidagi unumdor yerlarni o‘zlariga makon tutishadi. Bir qismi esa Farg‘ona tomon siljib, Eylaton madaniyati(aniqrog‘i Oqtom madaniyati)ga asos solishadi[7]. Sirdaryoda qolgan chorvador aholi bu yerdagi eng qadimgi manzilgohlar va keyinroq shaharlarga asos solishadi.

Ana shunday shaharlardan biri Nurtepadan topilgan sopol idishlar va uy-joylar konstruksiyasi tahlili bizga Yevroosiyo dashtlaridan dastlab Baqtriyaga, so‘ngra So‘g‘dga undan Farg‘ona tomon yo‘lga chiqqan chorvadorlarning bir qismi chamasi, Turkiston

tog‘tizmasining o‘t-o‘langa boy yaylovlarni va soylar bo‘yidagi unumdor yerlarini o‘zlariga makon tutishgan va hududdagi dastlabki manzilgohlar va shaharlarga asos solishadi. Shunday manzilgohlar jumlasiga, Nurtepa, Sag‘anaqtepa, Sag‘anaqtepa 1 va katta ehtimol bilan Eski Xovos yodgorliklarini kiritish mumkin. Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, chamasi, Arrianda tilga olingan 7 ta shahar Sirdaryo bo‘ylarida dastlab Baqtriyaga va undan So‘g‘dga keyinchalik sharqqa tomon migratsiya qilishgan chorvador aholi tomonidan barpo etilgan.

Chamasi, aynan ularning avlodlarini Arrian “daryobo‘yi varvarlari deb atagan. Ularning tili so‘g‘dliklardan farq qilgan bo‘lishi sababli Arrian ularni farqlagan bo‘lishi kerak. So‘nggi yillarda akademik A. Asqarov Yevroosiyo dashtlaridan O‘rta Osiyoning janubiga ko‘chib kelgan chorvador aholining turkiy tilli bo‘lganligi borasida fikr bildirmoqda[8]. Bu qarash Yevroosiyo dashtlaridan dastlab Baqtriyaga, so‘ngra So‘g‘d orqali viloyatga kelib, o‘rnashgan aholini turkiy qavmlardan iborat bo‘lganligi borasida fikr bildirish imkonini beradi.

Mil.avv. III asrning ikkinchi yarmi va miloddan avvalgi II asr boshlarida viloyat hududiga shimoldan va shimoliy-sharqdan ko‘chmanchi-chorvachilik bilan shug‘ullangan xalqlar kirib kelishadi. Mutaxassislar buni sababini turlicha izohlaydilar. Birinchi sabab, mil.avv. III asrda tektonik ko‘tarilishlar natijasida, Sirdaryoning quyi o‘zani o‘zgaradi va Sirdaryo Orolga endi janubdan emas, shimol tomondan quyila boshlaydi. Oqibatda, Sirdaryoning Orol dengizi janubiy qismidagi qadimgi irmoqlari Oqchadaryo, Quvandaryo, Inkardaryo quriydi. Natijada, yuqoridagi irmoqlar bo‘ylarida qadimdan umrguzaronlik qilib kelgan yarim-o‘troq va yarim ko‘chmanchi daxlar (daxlar - sarmatlar umumiy madaniyatiga mansub qabila, chirikrabat madaniyati vakillari) Sirdaryo bo‘ylab janub tomon siljishga majbur bo‘ladilar. Daxlarning bir qismi Sirdaryo bo‘ylab, viloyat hududiga kelib o‘rnashadilar. Xovos tumanidagi Xontepa qadimiy yodgorligidan daxlarga tegishli sopol buyumlar topilganligi fikrimizning dalilidir[9]. Albatta, bu yurishlarni tinch yo‘l bilan amalga oshgan deb bo‘lmaydi, bunday deyishimizga sabab ko‘chmanchilarning yurishlari oqibatida Savat atrofidagi qishloqlar bo‘shab qolgan. Xuddi shunday vaziyat Nurtepa shahri aholisi bilan ham sodir bo‘ladi. Nurtepaliklar mil.av. II asrda ko‘chmanchilar bosqini natijasida o‘z shaharlarini tashlab ketishga majbur bo‘lishadi[10].

Shu bilan birga shimoldan kelgan va o‘zlarining qadimgi vatanlarida ko‘plab shaharlar barpo etgan ko‘chmanchi (daxlar, yuechjilar)lar tomonidan bu yerlarda yangi yerlar o‘zlashtiriladi, yangi shaharlar barpo etilib, o‘lkada urbanizatsiyaning rivojlanish jarayoniga yangi turtki beriladi[11]. Natijada Xovos tumanining g‘arbiy qismlari ham aholi tomonidan o‘zlashtiriladi. Sho‘rbuloqsoyning quyi qismida Eski Xovos yodgorligining tegishli madaniy qatlamlari, Shirinsoyning quyi qismida esa Munchoqtepa yodgorligi qad ko‘taradi[12].

Xan davri yozma manbalarida Dovon (Farg‘ona)dan to Ansi (Baqtriyagacha) bo‘lgan hudud aholisi turli shevalarda gaplashsalarda, bir-biriga yaqin tilda gaplashganlar va o‘zaro bir-birlarini tushunganlar deb beriladi[13]. Biroq yuqorida ta’kidlanganidek, Arrian mahalliy xalqni so‘g‘dlardan farqli ravishda “varvarlar” deb atagan.

Yozma manbalarda qadimgi o‘lkamizning qadimgi aholisi qanday atalganliklari to‘g‘risida ma’lumotlar deyarli uchramaydi. Yunon tarixchilari ularni umumiy qilib «varvarlar» deb

atashgan. Faqatgina rim tarixchisi Kvint Kursiy Rufgina «memakenlarning kuchli qabilasi» o‘zlarining bosh shahri (Kiropol)ni himoya qilganliklarini yozib qoldirgan. Biz yuqorida, makedoniyalik Aleksandr bosqinigacha Sirdaryo bo‘ylarida mavjud bo‘lgan, Arrianda tilga olingan yetti shaharga mil.avv. VII asrda viloyat hududiga kelib o‘rnashgan, chamasi, turkiy tilli chorvador aholi bo‘lganligi borasidagi o‘z taxminimizni bildirgan edik. Chamasi, aynan ular keyinchalik mil.avv. III-II asrlarda viloyat hududiga daryo bo‘ylab shimoldan ko‘chib kelgan chirikrabad, Jetiasar va Qovunchi madaniyati vakillari bilan birgalikda o‘lkamiz aholisining etnik negizini tashkil qilishgan.

Mutaxassislar viloyat hududidagi qadimgi davrga oid yodgorliklarni ko‘p holatlarda Farg‘ona vodiysidagi Eylaton madaniyatiga tegishli sopol idishlarga o‘xshashligiga asoslanib davrlashtirishadi. Eyloton-Oqtom madaniyati N.G.Gorbunova tomonidan mil.avv.VI-III asrlar bilan davrlashtirilgan[14]. Yuqorida ta’kidlanganidek, ushbu o‘xshashlik bu ikkala hududga ham dastlab Baqtriyadan So‘g‘dga va undan Sirdaryo orqali Farg‘onaga borib o‘rnashgan chorvador aholi bo‘lganligi bilan bog‘liq.

Keyinchalik mil.avv. III-II asrlarda bu ikki hududdagi yangi yerlarni o‘zlashtirilishi, urbanizatsiya rivoji, me’morchilik, kulolchilik va qabrlar konstruksiyalaridagi o‘xshashliklarni ushbu davrda, tektonik vaziyat sabab quyi Sirdaryodan kelgan qabilalar(daxlar)ning dastlab Sirdaryo bo‘ylariga keyinchalik Farg‘ona vodiysiga migratsiyasi bilan izohlash to‘g‘ri bo‘ladi[15].

XULOSA.

Aholisi dehqonchilik va chorvachilik bilan shug‘ullangan qadimiy Sirdaryo manzilgohlarida mil.av. VI-IV asrlarga kelib, tabaqalanish jarayonlari kuchayib boradi. Bu jarayonni, xususan, yodgorliklarning markaziy mudofaa qobiliyatlarining mustahkamlanishi, shahar arkining va uning markaziy qismida joylashgan diniy markaz - otashkada, zikkuratning barpo etilishi, sun’iy suv inshootlarining qurilishida ko‘rishimiz mumkin. Yuqoridagilardan chiqib, viloyat va unga qo‘shni hududlarda davlatchilik tizimi shakllana boshlanganligi borasida xulosa qilish imkonini beradi. Chamasi, viloyat hududidagi ilk davlatlar harbiy konfederatsiyaning so‘nggi bosqichi darajasida bo‘lib xarbiy demokratiya prinsipi asosida tashkil topgan. Yunonlarga qarshi kurashda qabilalar ittifoqidagi «mamakenlar» qabilasining yetakchi mavqei ham bundan dalolat beradi. Shuningdek, yunon bosqinchilariga qarshi qo‘zg‘olonning kelishilgan vaqtda boshlanishi, sak qo‘shinlarining daryo ortida to‘planishi bularning barchasining ayni bir vaqtda sodir bo‘lishi ham bejiz emas. Bu voqeliklar bavosita bir-biri bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, ular ma’lum bir yagona boshqaruv bo‘lganligidan guvohlik beradi.

Avestoda qabilalar ittifoqi shaklidagi davlat “dax’yu” deb nomlangan. Bunday davlatni boshqargan shaxs “kavi” yoki “sastar” deb atalgan. Ular qabila va urug‘ oqsoqollaridan iborat bo‘lgan xalq yig‘ini (v’yaxa) da saylanganlar. Shundan kelib chiqiladigan bo‘lsa, davlat boshqaruvida xalq yig‘ini(v’yaxa)ni asosiy rol o‘ynagan. Shu bilan birga, yaylovga birgalikda

egalik qilishgan nafa(katta patriarxal oila)ning ham viloyat hududidagi ilk davlatlarda muhim o‘rin tutganini ta’kidlash lozim.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI.

1. Арриан Флавий. Анабасис Александра или история паходов Александра Великого. Пер. с древне греч. М.Е. Сергеенко. – М., -Л.: Изд. АН СССР, 1962. – 384 с.
2. Негматов Н.Н., Беляева Т.В. Проблемы начального этапа урбанизации Уструшаны//По материалам Нуртепа//Древние цивилизации Востока. Ташкент, Фан,1986,76б.
3. Грицина А. Археологические памятники Сырдарьинской области. Ташкент, 1992.
4. Бартольд В.В. История культурной жизни Туркестана. Л., 1927, 3б.
5. Арриан Флавий. Анабасис Александра или история паходов Александра Великого...
6. Грицина А. Археологические памятники Сырдарьинской области. Ташкент. 1992,12б.
7. Исамиддинов М.Х. Истоки городской культуры Самаркандского Согда (проблемы взаимодействия культурных традиций в эпоху раннежелезного века и в период античности). – Ташкент. Из-во народного наследия имени А.Кадыри, 2002. – С. 187. рис. 159.
8. Иванов Г.П. Археологические культуры Ферганы: Дисс. ... канд. ист. наук. – Самарканд, 1999. – стр. 5–12.
9. Аскаров А. Арийская проблема: новые подходы взгляды. «История Узбекистана в археологических письменных источниках». -Ташкент: 2005. -с.81-91
10. Қудратов С. Сардобалар ўлкаси.Тошкент, Фан, 2001,10 б.
11. Беляева Т.В. Нуртепа-городище древней Уструшаны//АРТ.Вып.XXIII. Душанбе,1994.
12. Қудратов С. Сардобалар ўлкаси. Тошкент, 2010, 15 б.
13. Грицина А.А., Содиқов М.Эски Ховос ва унга қўшни худудлар қадим ва ўрта асрларда.Самарқанд,2010, 3б.
14. Бичурин Н.Я. Собрание сведений о народах, обитавших в Средней Азии в древние времена. Тома I-II.М-Л..1950.
15. Горбунова Н.Г. Некоторые особенности формирования древних культур Ферганы // АСГЭ. Вып.25. Л., 1984. – С. 101
16. Сулейманов Р.Х., Гордеева Е.А. К вопросу об особенностях культурогенеза и урбаногенеза юга Уструшаны. //Қадимий Жиззах воҳаси - Марказий Осиё цивилизацияси тизимида (сиёсий, иқтисодий, маданий ҳаёт). Республика илмий-амалий конференция материаллари.Тошкент. VNCSHINVESTPROM. 2019. С.7-10

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 1-son)

IJTIMOIY FANLAR

SOCIAL STUDIES

GLOBALIZATSIYA JARAYONIDA FALSAFIY G‘OYALAR VA ULARNING IJTIMOIY TARAQQIYOTDAGI ROLI

Yuldasheva Diloram
Samarqand Davlat Tibbiyot Universiteti,
Izhtimoiy va gumanitar fanlar bo‘limi o‘qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada axborotlashgan jamiyatda mafkuraning roli va uning ijtimoiy taraqqiyotdagi ta’siri tahlil qilinadi. Axborot texnologiyalari va globalizatsiya jamiyatdagi mafkura shakllanishiga qanday ta’sir ko‘rsatishini ko‘rib chiqadi. Tarixiy va zamonaviy nuqtai nazardan, mafkura o‘zgarishlari siyosat, madaniyat va iqtisodiyotga qanday ta’sir qilganligi muhokama qilinadi. Maqola mafkura va ijtimoiy taraqqiyot o‘rtasidagi aloqalarni o‘rganadi.

Kalit so‘zlar: Axborotlashgan jamiyat, mafkura, ijtimoiy taraqqiyot, globalizatsiya, axborot texnologiyalari, tarixiy jarayonlar, siyosiy tizim, madaniyat, raqamli vositalar, qadriyatlar.

KIRISH

Axborotlashgan jamiyat bugungi kunda dunyo miqyosida eng muhim ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy jarayonlardan biri sifatida shakllanmoqda. Bu jamiyatda axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarining rivojlanishi insonlarning hayoti, ishlash usullari va o‘zaro muloqotini tubdan o‘zgartirmoqda. Internet, mobil aloqa va raqamli texnologiyalar, o‘z navbatida, jamiyatni yanada transformatziya qilishda muhim rol o‘ynaydi. Shuningdek, axborotlashgan jamiyatda mafkura, ya’ni umumiy qarashlar va qadriyatlar tizimi yangi shakllarga ega bo‘lib, insonlar orasidagi dunyoqarashlar, siyosiy va ijtimoiy strukturalar, hatto madaniyat ham sezilarli darajada o‘zgaradi.

Tarixiy jihatdan, mafkura ijtimoiy va siyosiy tizimlarning asosiy omili sifatida shakllangan. Har bir davrda o‘zining mafkura tizimi bo‘lib, u o‘zgaruvchan ijtimoiy sharoitlar, siyosiy hokimiyatlar va iqtisodiy tuzilmalar bilan chambarchas bog‘liqdir. 20-asrda, masalan, kommunizm, liberalizm va konservatizm kabi mafkura shakllari, jamiyatda o‘zgarishlarni amalga oshirishga katta ta’sir ko‘rsatgan. Biroq, bugungi kunda globalizatsiya va raqamli kommunikatsiyalarning kuchayishi bilan mafkura shakllari tezda o‘zgarib bormoqda. Axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlar orqali yangi dunyoqarashlar va qadriyatlar tarqalmoqda, bu esa jamiyatning turli sohalaridagi o‘zgarishlarga olib kelmoqda. Maqolada, axborotlashgan jamiyatda mafkura qanday rivojlanayotganini, uning ijtimoiy taraqqiyotga qanday ta’sir ko‘rsatayotganini va tarixiy jarayonlarda mafkuraning o‘zgarishini tahlil qilishni maqsad qilganmiz. Bu o‘rganish, jamiyatda mafkura va ijtimoiy o‘zgarishlar o‘rtasidagi murakkab

aloqalarni, shuningdek, global axborot tizimining jamiyatga ta’sirini chuqurroq tushunishga yordam beradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Axborotlashgan jamiyatda mafkuraning roli va uning ijtimoiy taraqqiyotdagi o‘rni haqida turli nazariyalar va tadqiqotlar mavjud. Mazkur adabiyotlar tahlilida, axborotlashgan jamiyat va mafkura o‘rtasidagi aloqalar, shuningdek, ijtimoiy va siyosiy tizimlarga ta’siri haqida bir nechta asosiy qarashlar ko‘rib chiqiladi.

Castells (2000) o‘zining “Axborot jamiyati” asarida axborot texnologiyalarining ijtimoiy tuzilmalarni qanday o‘zgartirayotganini tahlil qiladi. Uning fikricha, axborotlashgan jamiyatda mafkura va ijtimoiy tizimlar bir-biriga bog‘liq bo‘lib, axborot oqimlari jamiyatdagi barcha qarashlar va qadriyatlarni shakllantiradi. U, shuningdek, axborot texnologiyalarining siyosiy hokimiyat va iqtisodiy tizimlarni qanday o‘zgartirayotganini ta’kidlaydi [2].

Foucault (1977) mafkura va bilish nazariyasi haqida so‘z yuritgan. Uning fikriga ko‘ra, mafkura jamiyatdagi kuchlarning tarqalishiga ta’sir qiladi va axborotning boshqarilishi, bilishning shakllanishiga asos bo‘ladi. Foucault axborotning markazlashtirilgan boshqaruviga qarshi chiqadi va bu jarayonning jamiyatda erkinlikka qanday ta’sir qilayotganini o‘rganadi [3].

Habermas (1962) “Jamoat sohasi” asarida kommunikatsiya va axborot almashinuvi jarayonlarini ijtimoiy rivojlanishda markaziy omil sifatida ko‘radi. U, shuningdek, axborotlashgan jamiyatda demokratik ishtirokni va erkin muloqotni ta’minlashda mafkuraning qanday rol o‘ynashini tahlil qiladi [4].

Bauman (2000) globalizatsiya va uning ijtimoiy tuzilmalarga ta’siri haqida fikrlar bildirgan. U, axborotlashgan jamiyatda mafkura va identifikatsiya o‘rtasidagi o‘zgarishlarni o‘rganadi, global tarmoqlarda yangi qadriyatlar va dunyoqarashlarning shakllanishini ta’kidlaydi [1].

Metodologiya:

Tahliliy yondashuv: Bu metod axborotlashgan jamiyatda mafkura o‘zgarishlarini va ularning ijtimoiy tizimlarga ta’sirini o‘rganish uchun ishlatiladi. Maqolada, adabiyotlar asosida mafkura va ijtimoiy taraqqiyot o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni tahlil qilishga e’tibor qaratiladi.

Komparativ tahlil: Axborotlashgan jamiyatda mafkura o‘zgarishlarini tahlil qilishda turli mamlakatlardagi ijtimoiy va siyosiy tizimlar o‘rtasida taqqoslash usuli qo‘llaniladi. Bu yondashuv, global axborotlashuv va uning turli jamiyatlardagi ta’sirini ko‘rib chiqish imkonini beradi.

Kvalitativ metodlar: Maqolada mafkuraning ijtimoiy taraqqiyotga ta’sirini o‘rganish uchun intervyular, so‘rovlar va anketalar asosida yig‘ilgan ma’lumotlar tahlil qilinishi mumkin. Bu metodlar jamiyatdagi mafkura o‘zgarishlarini va uning aholiga qanday ta’sir qilayotganini aniqlashda qo‘llaniladi.

Tarixiy tahlil: Mafkura o‘zgarishlarini tarixiy jihatdan o‘rganish uchun tarixiy yondoshuvlar ishlatiladi. Bu metod, mafkura va ijtimoiy taraqqiyotning o‘zgarishlarini va tarixiy sharoitlarda qanday shakllanganini aniqlash imkonini beradi.

Ushbu metodologiya yordamida axborotlashgan jamiyatda mafkura va ijtimoiy taraqqiyot o‘rtasidagi aloqalar chuqur tahlil qilinadi, shuningdek, global axborot tizimining jamiyatga ta’siri o‘rganiladi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Axborot texnologiyalarining ta’siri: Axborotlashgan jamiyatda axborot texnologiyalarining rivojlanishi va global kommunikatsiyalarning kuchayishi ijtimoiy taraqqiyotga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Raqamli vositalar, ijtimoiy tarmoqlar va internet orqali ma’lumotlar va qadriyatlar tez tarqaladi. Bu jarayon, o‘z navbatida, jamiyatdagi mafkura va dunyoqarashlarning tezda o‘zgarishiga olib keladi. Jamiyatning ijtimoiy va siyosiy tizimlari axborot texnologiyalari orqali boshqarilishi mumkin, bu esa yangi mafkura shakllarining paydo bo‘lishiga imkon yaratadi.

Mafkura va siyosiy tizimlar: Mafkura, tarixan, siyosiy tizimlarning muhim qismlaridan biri bo‘lib kelgan. Zamonaviy axborotlashgan jamiyatda, mafkura, siyosiy tizimlarni shakllantirishda va ularga ta’sir ko‘rsatishda davom etadi. Biroq, axborot texnologiyalarining rivojlanishi bilan, mafkura markazlashtirilgan siyosiy tizimlar orqali emas, balki ommaviy axborot vositalari va internet orqali keng tarqaladi. Bu jarayon ijtimoiy va siyosiy tizimlarda yangi erkinliklar va imkoniyatlarni yaratadi, lekin shu bilan birga, yangi ijtimoiy va siyosiy ziddiyatlarni ham keltirib chiqaradi.

Globalizatsiya va mafkura: Globalizatsiya jarayonlari ham mafkuraning shakllanishida muhim rol o‘ynaydi. Raqamli texnologiyalar va global tarmoqlar orqali turli madaniyatlar va qadriyatlar o‘zaro aloqada bo‘lib, yangi global mafkura shakllarini yaratadi. Bu, o‘z navbatida, mahalliy va global qadriyatlar o‘rtasidagi ziddiyatlarni kuchaytirishi mumkin. Jamiyatlarda yangi global identifikatsiya va birlashuv jarayonlari mavjud bo‘lsa-da, ba’zi mahalliy an’anaviy qadriyatlar saqlanib qolmoqda.

Ijtimoiy taraqqiyot va madaniyat: Axborotlashgan jamiyatda mafkura o‘zgarishlari madaniy qadriyatlar va ijtimoiy strukturalarga ta’sir ko‘rsatadi. Madaniyat va ijtimoiy tizimlar raqamli texnologiyalar orqali global miqyosda tarqalmoqda. Bu jarayon ijtimoiy tizimlarni yanada globalizatsiyalashgan va o‘zaro bog‘langan qiladi. Biroq, bu jarayon mahalliy madaniyatlarni va qadriyatlarni yo‘qotish xavfini ham tug‘diradi.

Muhokama:

Ҳар бир тадқиқ қилинаётган ва таклиф этилаётган принциплар асослантирилиши керак, бу илмий ишнинг зарурий элементидир. Агар принциплар тизимнинг элементи сифатида қаралса, ва тавсия этилса учта асосий мезонга яъни алоқадорлиги, мақбуллиги ва ишончлилиги жавоб бериши керак. Бундан ташқари, жиноят процессининг бошқа принципларига мувофиқлиги нуқтаи назардан атрофлича ўрганишимиз зарур. Бизнингча, шундагина етарлича асослантирган деб таъкидлаш ўринли бўлади.

Далилларни баҳолаш етакчи ғояларни асосий принцип сифатида алоҳида моддада кўрсатиш бўйича кўплаб илмий баҳслар мавжуд. Жиноят процессида далилларни ички ишонч асосида баҳолаш принципи сифатида алоҳида моддада кўрсатиш бўйича кўплаб процессуалист олимлар ўз тадқиқот ишларида таҳлил қилганлар. Жумладан, М.А. Чельцов, Н.Н. Полянский, И.Д. Перлов, Г.М. Резник, Ю.К. Орлова, А.В. Гриненко ва бошқалар.

Хусусан, А.В. Гриненко, жиноят процессида далилларни ички ишонч асосида баҳолаш принципи – конституциявий асосларга эга.[42] Ҳақиқатдан ҳам, келтириб ўтилган принцип конституциявий мақомга эга. Бинобарин, Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг 29-моддасига биноан, одил судловни амалга ошириш чоғида қонунни бузган ҳолда олинган далиллардан фойдаланишга йўл қўйилмайди.[43] Ушбу конституциявий принцип, бевосита жиноят процессуал қонунчиликдаги далилларга баҳо бериш билан боғлиқдир. Бундан ташқари, ушбу қоида ЖПК 95-моддасида ўз аксини

---

40 Ўзбекистон Республикасининг Жиноят-процессуал кодекси. – Т.: Ўзбекистон, 2023.

41 Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 2014 йил 23 майдиги 07-сон “Суд ҳукми тўғрисида”ги Қарори.

42 Гриненко А.В. Конституционные основы досудебного уголовного процесса в Российской Федерации. М. 2000.

43 Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. – Т.: Ўзбекистон, 2023.

топган. Агар ЖПК 95-моддаси мазмунига эътибор берадиган бўлсак, қонун чиқарувчи суриштирувчи, терговчи, прокурор ва суднинг барча фаолиятини (шахс ва органлар) фақат Ўзбекистон Республикасининг Жиноят-процессуал кодексига мувофиқ амалга ошириши кераклигини таъкидлайди. Фақат ушбу шахс ва органларга тушунтириш ва баҳо беришга ваколат берилган. Шунингдек, жиноят процесси бошқа иштирокчилари жумладан айблов ва ҳимоя тарафи бўлган иштирокчилари ва бошқа иштирокчилар ўларга йўлланган қонуний кўрсатмаларни бажаришлари шарт. Агар, далилларга баҳо бериш принцип сифатида мустаҳкамланса, ўйлашимизча, жиноят процессуал далилларнинг бутун жараёни, шу жумладан унинг намоён бўлишининг барча соҳалари ва шакллари бўйича бевосита боғлиқ бўлар эди.

Айрим олимлар, далилларни ички ишонч асосида баҳолаш принципини, жиноят процесси принцип қаторига қўшмаганлар, негаки ушбу принцип судьянинг мустақил принципининг элементи сифатида қаралади.[44]

Г.М. Резник ушбу фикрларга қўшилмаган. Унинг айтишича, далилларни ички ишончга кўра баҳолаш суд мустақиллиги принципининг бир қисми сифатида қараш нўтоғридир, чунки суд мустақиллиги формуласи далилларни баҳолаш қоидаларини асослашга қодир эмас. Бир қатор процессуал кафолатлар билан қўллаб-қувватланадиган судьяларнинг мустақиллиги муайян иш бўйича далилларни баҳолашда маълум бир судьянинг ички ишончини шакллантириш шартидир.[45]

Шуни таъкидлаш керакки, Ўзбекистон Республикаси Конституцияси 136-моддасига кўра, судьялар мустақиллиги принципи шундан иборатки, судьялар одил судловни амалга оширишда Конституция ва қонунларга итоат этадилар.[46] Демак, ҳар бир қонуний талабни бажарилишини назорат қилиш мумкинлигини назарда тутади. Ички ишонч мавжудлиги ёки йўқлигини назорат қилиб бўлмайди.[47] Бундан ташқари, ички ишончнинг мавжудлиги ёки йўқлиги процессуал аҳамиятга эга эмас. Ички ишончни шакллантиришни қонуний мажбурият деб ҳисоблаб бўлмайди. Ички ишонч фақат касбий этика ва ҳуқуқий онг доирасидагина мажбурийдир. Далилларни ички ишончга асосланган ҳолда баҳолаш албатта иш материалларига асосланиши ва алоқадорлиги, мақбуллиги ва ишончлилиги нуқтаи назардан баҳоланиш керак.

Шунингдек, биз, юқоридаги параграф таҳлилларимизда, агар судья фақат формал (Конституция ва қонунларга бўйсунадилар) баҳолайдиган бўлса, бу салбий оқибатларга олиб келиши мумкинлигини қайд этганимиз, ва мисоллар билан келтирганмиз. Шунинг учун, судья далилларга баҳо беришда маълум ҳуқуқ ва мажбуриятлар вужудга келтиради, ишни ҳал қилишда ишнинг барча ҳолатларини ҳисобга олиш, тўлиқ (ички ишончга асосланган далилларни баҳолашнинг моҳияти алоқадорлиги, мақбуллиги ва

[44] Ларин Л.М.. Мельникова Э.Б., Савицкий В.М. Уголовный процесс России. Лекции-очерки /Под ред. Савицкого В.М..М..1997.С.61-67; Уголовный процесс /Под ред. Гуцепко К.Ф. М., 1997.С.58-72.
[45] Резник Г.М, Внутреннее убеждение при оценке доказательств. М.,1977 .С.49-50.
[46] Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. – Т.: Ўзбекистон, 2023.
[47] Карнеева Л.М. Привлечение к уголовной ответственности. Законность и обоснованность. - М.: Юрид. лит.,1971. - С. 124.

ишончлилиги билан боғлиқдир ҳамда эркин) ва тўғри ҳал қилиш мазмунда талаб қиладиган тарзда амалга оширади.

Бундан ташқари, судьяларнинг мустақиллиги принципи, далилларни ички ишончга кўра баҳолаш тамойилининг мазмунини ўзига сингдира олмайди, чунки у ерда фақат судья ҳақида гап кетмоқда, далилларни ички ишончга кўра баҳолаш принципи суриштирувчи, терговчи, прокурорга ҳам тегишли.

Т.З. Егоров, далилларни эркин баҳолаш принципи ўзига хос хусусиятларга эга ва муҳим принциплардан биридир. Негаки, бу тамойил бутун жиноят иш юритиш принципларига тааллуқли, боғлиқ ва жиноят процесси мазмунини акс эттиради. Шу билан бирга, далилларни баҳолаш принципи марказий принципи сифатида баҳоланиши, биринчидан исботлаш тизимига таъсир қилади, иккинчидан жиноят процессуал ҳуқуқнинг бутун тизимини шакллантиришга хизмат қилади.[48]

Дарҳақиқат, бизнинг фикримизча, суриштирув, тергов ва суд жараёнларини далилларсиз юритиш мантиқсизликдир, бундан ташқари жиноят процесси тушунчаси ва унинг олдига қўйилган мақсад ва вазифаларни мумкин бўлмаган воситалари ва усуллари орқали эришиш мумкинлигини яъни постулатликка[49] олиб келади.

Е.Д. Горева, далилларни эркин баҳолаш принципига алоҳида ёндашиб таҳлил қилган. Унинг фикрича, далилларни эркин баҳолаш принципи судьяни ички ишонч эркинлигини бузилишини олдини олишга хизмат қилади. Шунингдек, далилларни эркин баҳолаш принципи албатта, ишга алоқадорлиги, мақбуллиги ва ишончлилиги билан комплекс амалга оширилади. Худди шундай фикрларни, С.М. Раҳманова ва Г.З. Тўлагановалар қўллаб-қувватлайдилар.[50] Алоҳида тамойил сифатида ўрнатилиши, бировнинг кўрсатмалари билан эмас, балки қонун ва виждон билан ҳаракат қилишга ундайди.[51]

Мазкур принципнинг мазмун-моҳияти суриштирувчи, терговчи, прокурор ва суд гумон қилинувчига, айбланувчига зиммасига исботлаш мажбурияти юкланиши мумкин эмаслигини таъкидлайди. Бундан ташқари, далилларни эркин баҳолаш принципи бошқа принципларни бир-бири билан боғлиқдир.[52]

Бизнингча, далилларни эркин баҳолаш принципини ўрнатилиши жиноят ишида қатнашаётган иштирокчиларни аниқ функциясини ҳам белгилаб (исботлаш субъектларига бир томондан ҳуқуқ, иккинчи томондан мажбурият юклайди) беради. Яъни, жиноят процессида процессуал қарор қабул қилувчи исботлаш субъектлари доирасини аниқ белгилаб беради. Бу императив шаклда амалга оширилади ва бу асосий

---

[48] Егорова Т.З. Средства доказывания и их оценка в судебных стадиях уголовного процесса: Автореф. дис. ...канд.юрид.наук. - Челябинск, 2003. - С. 3.

[49] Постулат – исботсиз ҳам қабул қиланаверадиган дастлабки қоида, фараз.

[50] Jinoyat-protsessual huquqi. Umumiy qism. Darslik. // Mualliflar jamoasi. / yu.f.d., dots. G.Z.To‘laganova va yu.f.n., dots. S.M.Raxmonovalarning umumiy tahriri ostida –Toshkent: TDYU nashriyoti, 2016. - B. 167.

[51] Горевой Е. Д. Внутреннее судейское убеждение в оценке доказательств по уголовным делам: теория, законодательство, право применительная практика. Курск – 2006. 35 с.

[52] Гриненко А.В. Конституционные основы досудебного уголовного процесса в Российской Федерации. М. 2000. 75 с.

ғоялар конституциявий мустаҳкамланган.

Мисол учун, *Россия Федерациясининг* Жиноят-процессуал кодекси 17-моддасида, “Далилларга эркин баҳо бериш” принцип деб алоҳида кўрсатиб ўтилган. Унга мувофиқ, судья, халқ маслаҳатчилар, шунингдек прокурор, терговчи, суриштирувчи қонун ва виждонга амал қилган ҳолда, жиноят иши бўйича мавжуд бўлган далилларнинг йиғиндисидан келиб чиқиб, далилларни ички ишончига кўра баҳолайдилар. Ҳеч қандай далил олдиндан белгиланган кучга эга эмас.[53]

Худди шунга ўхшаш қоида, *Қозоғистон Республикасининг* Жиноят-процессуал кодекси 25-моддасида, мустаҳкамлаб қўйилган.[54] Фақат модданинг номида фарқли жиҳатлари мавжуд, яъни “Далилларни ички ишонч асосида баҳолаш” деб номаланади. *Молдова Республикасининг* Жиноят-процессуал кодекси 27-моддасида ҳам “Далилларни эркин баҳолаш” деб номаланади, модданинг мазмун-моҳияти Россия ЖПК билан ўхшашдир.[55]

Шунга ўхшаш қоида, *Қирғизистон Республикасининг* Жиноят-процессуал кодекси 22-моддасида белгилаб қўйилган.[56] Аммо, иккинчи қисм мазмунида ўзгача ёндашилганини кўришимиз мумкин, яъни суриштирувчи, терговчи, прокурор томонидан судга қадар жараёнида баҳоланган далиллар, судья учун ҳеч қандай мажбурий аҳамиятга эга эмас деб мустаҳкамлаб қўйилган. *Белоруссия Республикасининг* Жиноят-процессуал кодекси 19-моддасида ҳам, Россия, Қозоғистон каби қоидаларни ўрнатган. Бироқ, *Қирғизистон* ЖПК каби модданинг иккинчи қисмида суриштирув органи, терговчи, прокурор ёки суд учун ҳеч қандай далил олдиндан белгиланган кучга эга эмаслиги таъкидланган.[57]

Юқоридаги келтирилган давлатлар ЖПК далил олдиндан белгиланган кучга эга эмас деган тушунчаси, бизни қизиқтириб, бироз ёритиб ўтишга қарор қабул қилдик. Ҳеч қандай далиллар олдиндан белгиланган кучга эга эмас, бу шуни англатади, жиноят процессининг турли босқичларида иш бўйича қабул қилинган хулосалар ва чиқарилган қарорлар учун баҳо берувчи субъектлар учун ҳеч қандай далил олдиндан белгиланган кучга эга эмас. Мисол учун, гувоҳнинг кўрсатмаси олдиндан 100% ҳақиқат деб қабул қилинмаслиги керак, шунинг учун қонун, иш бўйича тўпланган далиллар мажмуидан келиб чиқиб, бошқа мавжуд ҳолатлар инобатга олган ҳолда (асослар) баҳо беришни назарда тутади. Ёхуд, иш кўришнинг турли босқичларида судьялар далилларни турлича

---

[53] “Уголовно-процессуальный кодекс Российской Федерации” от 18.12.2001 N 174-ФЗ (ред. от 22.04.2024) (с изм. и доп., вступ. в силу с 15.05.2024).

[54] Уголовно-процессуальный кодекс Республики Казахстан. *(с изменениями и дополнениями по состоянию на 28.05.2024 г.).*

[55] Уголовно-процессуальный кодекс Республики Молдова от 14 марта 2003 года № 122-XV *(с изменениями и дополнениями по состоянию на 28.12.2023 г.).*

[56] Уголовно-процессуальный кодекс Кыргызской Республики. *(с изменениями и дополнениями по состоянию на 22.07.2021 г.).*

[57] Уголовно-процессуальный кодекс Республики Беларусь от 16 июля 1999 года № 295-З *(с изменениями и дополнениями по состоянию на 17.07.2023 г.).*

баҳолашлари мумкин. Демак, судьялар турли босқичларда далилларни ишончли, мақбул ёки мақбул эмас деб топишлари мумкин. Шунингдек, агар биз иш бўйича тўпланган далилни олдиндан белгилаб қўйилган кучга эга деб топсак, унда барча жиноят процессуал қонунчилик тизимига таъсир қилишига олиб келар эди, мисол учун, **а)** *айбсизлик презупцияси*; **б)** *далилларни тақдим этишда тенглик, тортушувчанлик*; **в)** *суд босқичида судья фақат айблов ҳукмини чиқаришга мажбур бўлар эди*; **г)** *процессуал босқичларни соддалашига олиб келар эди*; **д)** *бир томонлама суиистеъмолликларга олиб келар эди*; **е)** *мисол учун, агар айбланувчи ўз айбига иқрор бўлса, унинг иқрорлиги жиноят ишида мавжуд бўлган бошқа далиллар мажмуи билан тасдиқланмасдан айблаш учун асос бўлиши мумкин*.

ADABIYOTLAR RO’YXATI

1. “Уголовно-процессуальный кодекс Российской Федерации” от 18.12.2001 N 174-ФЗ (ред. от 22.04.2024) (с изм. и доп., вступ. в силу с 15.05.2024).

2. Уголовно-процессуальный кодекс Республики Казахстан. *(с изменениями и дополнениями по состоянию на 28.05.2024 г.)*.

3. Уголовно-процессуальный кодекс Республики Молдова от 14 марта 2003 года № 122-XV *(с изменениями и дополнениями по состоянию на 28.12.2023 г.)*.

4. Уголовно-процессуальный кодекс Кыргызской Республики. *(с изменениями и дополнениями по состоянию на 22.07.2021 г.)*.

5. Уголовно-процессуальный кодекс Республики Беларусь от 16 июля 1999 года № 295-З *(с изменениями и дополнениями по состоянию на 17.07.2023 г.)*.

6. Егорова Т.З. Средства доказывания и их оценка в судебных стадиях уголовного процесса: Автореф. дис. ...канд.юрид.наук. - Челябинск, 2003. - С. 3.

7. Постулат – исботсиз ҳам қабул қиланаверадиган дастлабки қоида, фараз.

8. Jinoyat-protsessual huquqi. Umumiy qism. Darslik. // Mualliflar jamoasi. / yu.f.d., dots. G.Z.To‘laganova va yu.f.n., dots. S.M.Raxmonovalarning umumiy tahriri ostida –Toshkent: TDYU nashriyoti, 2016. - B. 167.

9. Горевой Е. Д. Внутреннее судейское убеждение в оценке доказательств по уголовным делам: теория, законодательство, право применительная практика. Курск – 2006. 35 с.

10. Гриненко А.В. Конституционные основы досудебного уголовного процесса в Российской Федерации. М. 2000. 75 с.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 1-son)

IJTIMOIY FANLAR

SOCIAL STUDIES

SAMODAGI YULDUZLARDAN TA’LIM MAKONIGACHA: MIRZO ULUG‘BEKNING JAHON SIVILIZATSIYASIGA QO‘SHGAN HISSASI

Abduqahorov Anvarjon Alijon o‘g‘li
Navoiy davlat universiteti
tarix fakulteti 3-bosqich talabasi
e-mail: *anvarabduqahhorov34@gmail.com*
tel: *+998954991316*

Annotatsiya: Ushbu maqola Mirzo Ulug‘bekning hayoti, ilmiy faoliyati va tarixiy merosini yoritishga xizmat qiladi. Xususan, maqolada Samarqand rasadxonasi va “Ziji jadidi Ko'ragoniy” jadvalining ilmiy ahamiyati, shuningdek, uning jahon ilm-faniga qo‘shgan hissasi va zamonaviy ilm fanga ta’siri haqida ma’lumot beriladi.

Kalit so‘zlar: Mirzo Ulug‘bek, Samarqand rasadxonasi, Ziji jadidi Ko'ragoniy, astronomiya, temuriylar davri, ilmiy meros, o‘rta asr ilm-fani, astronomik kuzatuvlar, Markaziy Osiyo olimlari, ilm-fan tarixi.

Аннотация: В данной статье освещаются жизнь, научная деятельность и историческое наследие Мирзо Улугбека. Рассматривается научное значение Самаркандской обсерватории и астрономических таблиц «Зижи Жадиди Кўрагоний», его вклад в мировую науку и современное влияние.

Ключевые слова: Мирзо Улугбек, Самаркандская обсерватория, Зижи Жадиди Кўрагоний, астрономия, эпоха тимуридов, научное наследие, средневековая наука, астрономические наблюдения, Центральноазиатские учёные, история науки.

Annotation: This article highlights the life, scientific activities, and historical legacy of Mirzo Ulugh Beg. It explores the scientific importance of the Samarkand Observatory and the "Ziji jadidi Ko'ragoniy" astronomical tables, as well as his contribution to world science and its modern impact.

Key words: Mirzo Ulugh Beg, Samarkand Observatory, Ziji jadidi Ko'ragoniy, astronomy, Timurid era, scientific legacy, medieval science, sstronomical observations, Central Asian scholars, history of science.

KIRISH. Tarix sahifalarida o‘zining ajoyib ilmiy merosi va davlat boshqaruvidagi yetakchi roli bilan yorqin iz qoldirgan shaxslar kam emas. Ammo ularning orasida alohida o‘rin tutuvchi siymolardan biri Mirzo Ulug‘bekdir. U nafaqat Temuriylar sulolasining vakili, balki o‘z davrining eng buyuk astronomlaridan biri, ilm-fan rivojiga katta hissa qo‘shgan olim sifatida

tanilgan. Mirzo Ulug'bek o'zbek xalqining faxr-u iftixori, dunyo astronomiya fanining yirik namoyandasi, adolatli hukmdor. Mirzo Ulug‘bekning o‘ziga xos ilmiy faoliyati va ilmiy markazi sifatida xizmat qilgan mashhur Samarqand rasadxonasi bugungi kungacha dunyo ilmiy jamoatchiligi tomonidan e'tirof etilib kelinmoqda.

ASOSIY QISM. Mirzo Ulug`bekning to'liq ismi Muhammad Tarag'ay Shohruh o'g'li. Ulug'bek unga bobosi Amir Temur tomonidan berilgan taxallusdir. Ulug‘bek nomi turkiycha bo‘lib, „buyuk“ yoki „oqsoqol bek“ ma’nosini bildiradi. Mirzo Ulug'bek 1394-yilning 22-martida Amir Temur saltanatining qishki chorbog'i, hozirgi Eronning Sultoniya shahrida tavallud topgan. 1449-yil 27-oktabrda Samarqandda fojeali tarzda vafot etgan.

Otasi Shohruh Mirzo Amir Temurning to`rtinchi o`g`li bo`lib, 1397-yildan Xurosonda (hozirgi Afg‘oniston) hukmdori bo‘lgan. 1409-yildan esa Temuriylar davlatini boshqargan. Onasi G'iyosiddin Tarxon qizi Gavharshodbegimdir.

Amir Temur suyukli nabirasi Muhammad Tarag'ayning go'dakligidan bilimdon ustozlar qo'lida tarbiyalanishiga alohida e'tibor qaratgan. Tarixiy manbalarda Ulug'bek o'n bir yoshigacha buvisi Saroymulkxonim tarbiyasida bo'lib, mashhur olimlardan saboq olgani qayd etilgan. Ulug'bek bobosining saroyidagi eng yirik allomalar, jumladan, sayyoralarning ikki yuz yillik harakat jadvallarini tuzgan Mavlono Ahmad va Qozizoda Rumiy kabi yetuk astronom va matematik olimlar ta'sirida ulg'aygan. Shuningdek, unga to'rt yoshidan Orif Ozariy ham ta'lim bergan.[1]

Ulug'bek o'ta bilimli va qattiqqo'l ustozlar tarbiyasida voyaga yetgan. Uning bolaligi asosan Amir Temur saltanatining g'arbiy hududida, hozirgi Eronning Sultoniya shahrida o'tgan. Ulug'bek yoshligidan ilm o'rganishdan tashqari chavandozlik, qilichbozlik, kamon otish, suzish kabi jismoniy mashqlar bilan faol shug'ullangan. U qat'iy kundalik tartibga o'rgatilgan, diniy va dunyoviy fanlarni chuqur o'zlashtirgan. Shu sababli xotirasi kuchli, zehni o'tkir bo'lgan, irodasi chiniqqan. Arab,fors, turk, mo'g'ul, xitoy tillarini mukammal o‘rgangan. Qur'onni yetti xil qiroatda yod olgan.[2]

Amir Temur nabirasi Ulug`bekni o'zi bilan olib yurishni odat qilgan. Uning aslzodalar odatlarini puxtaroq egallashi uchun sharoit yaratib, xos mehmonlarni rasmiy kutib olish marosimlarida ishtirok etishiga alohida ahamiyat bergan. Ulug'bek yoshligidan ulug' sarkardaning yonida yurib, saltanat manfaatlarini idrok etish va himoya qilish sirlarini o'rganib borgan. O'n bir yoshli Muhammad Tarag'ay hatto bobosining vafoti payti ham uning yonida bo'lgan.

Temur vafotidan keyin Shohrux Mirzo imperiya poytaxtini Hirotga (hozirgi Afg‘oniston hududida) ko‘chirdi. 16 yoshli Ulug‘bek keyinchalik, 1409-yilda Samarqandning hokimi bo‘ldi. 1411-yilda u butun Movarounnahrning hokimi deb e’lon qilindi. Ammo, amalda Hirotdagi otasi Shohrux Mirzo hokimiyatiga bo‘ysungan. 1447-yilda otasi Shohruxning vafotidan ikki yil o`tib, Mirzo Ulug`bekning hayoti fojeaviy tarzda yakun topadi. U ilm-fanga berilganligi va siyosiy kurashlardan chetda turishga intilishi sababli davlatchilikni boshqarishda qarama-qarshi tomonlarning nishoniga aylangan edi. Ulug‘bek o‘g‘li Abdulatif bilan ziddiyatga borib, uning

fitnasi tufayli hokimiyatdan chetlashtirildi. 1449-yil 27-oktabr kuni Ulug‘bek o‘z o‘g‘li buyurtmasi bilan qatl etildi.[3] Bu voqea nafaqat uning shaxsiy hayotiga, balki Temuriylar sulolasining kelgusidagi taqdiriga ham ta’sir ko‘rsatgan. Uning o‘limi, shubhasiz, Markaziy Osiyo ilm-fanining keyingi yillardagi rivojiga jiddiy zarar yetkazdi. Shunga qaramay, Ulug‘bekning ilmiy merosi o‘z umridan keyin ham ko‘p asrlar davomida yashab, o‘zining noyob ahamiyatini saqlab qoldi.

Ulug’bek hukmdor sifatida Samarqand shahrini imperiyaning intellektual markaziga aylantirishni maqsad qilgan. 1417—1420-yillarda Samarqanddagi Registon maydonida madrasa („universitet“) qurdirdi[4] Madrasa XV asr musulmon Sharqidagi eng nufuzli universitetlardan biriga aylandi. Bu yerda mashhur shoir, olim va faylasuf Abdurahmon Jomiy tahsil olgan. Madrasa tinglovchilari orasida naqshbandiya tariqatining shayxi Xoja Ahror va shoir Alisher Navoiy ham bo‘lgan.[7] Ta’lim muassasasida matematika, geometriya, mantiq, tabiiy fanlar, ilohiyot, falsafa bo‘yicha ma’ruzalar o‘qilgan. Ularni Qozizoda Rumiy, Jamshid G‘iyosiddin Al-Koshiy, Ali Qushchi kabi mashhur olimlar, shuningdek, Mirzo Ulug‘bekning o‘zi o‘qigan. Universitetning birinchi mudarrisi (rektori) etib chuqur ilmiy bilimlarga ega Mavlono Muhammad Havofiy tayinlanadi,[4] va ko‘plab islom astronomlari va matematiklarini o‘qishga taklif qiladi.

Ulug‘bek ilm-fan olamida buyuk astronom sifatida mashhur. Bu borada u amalga oshirgan eng buyuk ish „Ziji jadidi Ko‘ragoniy“ deb nomlangan astronomik jadval sanaladi. Ulug‘bek tibbiyot va musiqaga ham qiziqqan, she’rlar ham yozgan. Alisher Navoiyning „Majolis un-nafois“ asarida uning she’rlaridan namunalar keltirilgan. Olimdan bizga 4 ta asar meros qolgan:[5]

1. „Ziji jadidi Ko‘ragoniy“ – astronomiyaga oid;
2. „Bir daraja sinusini aniqlash haqida risola“ – matematikaga oid;
3. „Risolayi Ulug‘bek“ – yulduzlarga bag‘ishlangan;
4. „Tarixi arba’ ulus“ (To‘rt ulus tarixi) – tarixga oid.

Mirzo Ulug‘bek astronomik tadqiqotlar uchun Samarqandda maxsus rasadxona qurdirdi. Ulug‘bek Qozizoda Rumiyni bu katta ishdagi maslahatchisi deb biladi. "Ustoz ko‘magi va yordami bilan, – deb yozadi u – ilm bayrog‘ini ko‘targan, haqiqat va izlanish yo‘lini ko‘rsatgan buyuk olim Qozizoda Rumiy rasadxona tashkil etishga kirishdi.”[7] Rasadxona 1424-1429-yillarda qurilgan. "Boburnoma"dagi ma'lumotlarga ko‘ra, rasadxonaning balandligi 30,4 mdan iborat 3 qavatli qilib qurilgan.[11] Rasadxona o'rta asrlarda asbob uskunasi jihatdan ham beqiyos bo'lgan. Unda o'ndan ortiq turli astronomik qurilma va asboblar bo'lgan. Ulardan eng asosiysi radiusi 40,2 m li qo'shaloq yoydan iborat kvadrant yoki (sekstantga yaqin) qurilma hisoblanadi. Kvadrantning janubiy qismi yer ostida, qolgan qismi shimol tomonda yer sathidan 30 metrcha balandda joylashgan. Asbob aylanasida bir gradus yoy 701,85 mm va bir minut yoy 11,53 mmga to'g'ri keladi. Asbob astronomiyaning asosiy doimiyliklari ekvator va ekliptika orasidagi burchakni o‘lchash, yillik pretsessiya doimiysini, tropik yil davomiyligini va boshqa fundamental astronomik doimiyliklarni aniqlashga imkon bergan.[11]

Rasadxonada kichik o'lchamli asboblar :armillyar sfera, 2, 4 va 7 halqadan iborat o'lchov asboblari, triangula, quyosh va yulduz soatlari, usturlob va boshqalar bo'lgan. Bu ilmiy uskunalar yordamida Quyosh, Oy, sayyoralar va alohida yulduzlar kuzatilgan. Mirzo Ulug'bekning eng yirik astronomik asari "Ziji Ko‘ragoniy" rasadxonada yaratilgan. Ushbu asarda 1018 ta yulduzning joylashuvi va harakati haqida ma’lumotlar keltirilgan. Ulug‘bek 24 ta yangi yulduz joylashuvini kashf etgan.[11] Yulduzlarning to‘liq ro‘yxatini tuzish uchun 17 yil kerak bo‘ldi, ular 1420-yilda, Ulug‘bek 26 yoshda ekanligida boshlangan va 1437-yilda tugatilgan. Ulug'bek rasadxonasining arxeologik qoldiqlari 1908-yilda V.L.Vyatkin rahbarligida olib borilgan qazishma ishlari natijasida topilgan. Xususan bu yerda diametri 48 metr keladigan, qalinligi bir g'isht bo'lgan aylanma devor borligi va uning markazida qo'shaloq yoydan iborat ulkan bosh qurilmaning qoldiq qismlari aniqlangan. Uning katta zallari, katta kichik xonalari bo‘lgan. Boburning yozishicha, Ulug'bek rasadxonasining sirti koshin va sirli parchinlar bilan bezatilgan. Rasadxona ichiga o'rnatilgan juda katta asbob yordamida Quyosh, Oy, sayyora va yulduzlar katta aniqlik bilan o'rganilgan. Rasadxonada kutubxona ham bo'lgan. Bu kutubxonada fanning deyarli barcha sohalariga tegishli 15000 dan ortiq kitob saqlangan. Ulug'bekning faol ishtiroki bilan Ulug'bek rasadxonasi o'sha zamon sharoitiga mukammal astronomik asbob va uskunalar bilan jihozlangan oliy darajadagi ilmgohga aylanadi. Rasadxonada Ulug'bek bilan birga mashhur matematik va astronomlardan "Aflotuni zamon" deb nom olgan Qozizoda Rumiy, G'iyosiddin Jamshid Koshiy, "O'z davrining Ptolomeyi" nomi bilan mashhur Ali Qushchi va ko'pgina boshqa olimlar ilmiy kuzatishlar va tadqiqotlar olib boradilar. Xullas, Ulug'bek Samarqandda butun bir astronomiya maktabini yaratdi. Rasadxonada olib borilgan kuzatish va tadqiqotlar tufayli 1018 ta qo'zg'almas(turg'un) yulduzning o'rni va holati aniqlanib, ularning astronomik jadvali tuziladi. Rasadxonada olib borilgan tadqiqotlarning natijasi asosida matematika va astronomiyaga oid bir qator nodir asarlar yaratildi.

Mirzo Ulug‘bekning astronomiya maktabi o'z davrining o'ziga xos akademiyasi edi. Ulug'bek tevaragida uyushgan 200 dan ortiq olimlarning o'z bag'rida yetishtirgan nomi jahonga mashhur Samarqand rasadxonasi shu vazifani o'tagan. Mashhur fransuz faylasufi, yozuvchi va tarixchi olim Volter (1694-1778):"Ulug'bek Samarqandda bo'lib akademiyaga asos soldi. Yer sharini o'lchashni buyurdi va astronomiyaga oid jadvallarni tuzishda ishtirok etdi", - deb yozgan edi.[6]

Mirzo Ulug'bekning astronomiya maktabi o'rta asrlar musulmon sharqi astronomiyasining rivojlanishiga katta ta'sir o'tkazdi. Ulug'bek akademiyasidagi yirik olim Ali Qushchini Ulug'bek "Ziji"ning so'zboshisida "farzandi arjumand", "aziz farzandim" deydi. Aslida u Ulug'bekning sadoqatli shogirdi bo'lib, "Zij" ustida ishlar poyoniga yetkazilgunga qadar ustoziga yordam bergan. Ulug'bek Samarqandda 2 ta madrasa biri Registon ansambli tarkibida va ikkinchisi Go'ri Amir ansambli tarkibida barpo qilgan. Uning o'zi ham bu madrasalarning har birida haftada bir marotaba ma'ruza o'qigan. Boshqa vaqtini ko'proq astronomik kuzatishlarga, "Zij" ustida ishlashga va davlat ishlariga bag'ishlagan. Ulug'bekning

yana bir matematik asari "Risolai Ulug'bek"deb ataladi va uning bir nusxasi Hindistonda Aligarx universiteti kutubxonasida saqlanadi va hali o'rganilmagan.

Rasadxonaning ichki devorda osmon tasviri, yulduzlar xaritasi, tog`, dengiz, mamlakatlar bilan belgilangan Yer shari tasviri ham ishlangan. Rasadxona tevaragida olimlar va xizmatchilar uchun katta-katta hujralar quriladi. Uning etagida esa ikkita chorbog` barpo etiladi. Ulardan bir Bog'i Maydon, ikkinchisi esa Chinnixona nomi bilan shuhrat topadi. Rasadxona joylashgan bu mavze xalq orasida "Naqshi Jahon" nomi bilan mashur bo`lgan. Keyinchalik bog`lar qarovsiz qolgan va XVI asrda vayron qilingan. Hozir Ulug'bek rasadxonasidagi katta asbob kvadrantning yer ostida saqlangan qismi balandligi bilan 11 metr keladi. 1964-yilda Ulug`bek rasadxonasi yonida Ulug'bek muzeyi ochilgan. Ulug'bek rasadxonasining asl ko'rinishi, ichki tuzilishi, bosh qurilmasi haqida O'zbekiston va chet el olimlari tomonidan tadqiqot ishlari olib borilmoqda.

Yaqin yillargacha Ulug'bek faqat astronom va matematik deb hisoblanar edi. Lekin uning ijodi serqirra bo'lib, u tarix, she'riyat va musiqa bobida ham qalam tebratgani aniqlandi. Tarixchi Mirzo Muhammad Haydarning "Tarixiy Rashidiy" asarida "Mirzo Ulug'bek tarixnavis donishmand va "To'rt ulus tarixi"ni ham yozib qoldirgan edi", deb yozilgan. Ulug'bekning turkiyda yozgan "Tarixi arba ulus" asari Chingizxon bosib olgan mamlakatlarning XIII-XIV asrlar birinchi yarmidagi siyosiy hayotini o‘rganishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

Fan va madaniyat tarixida so'nmas iz qoldirgan Ulug'bekning ilmiy merosi uning "Zij"idir. Bu asar sayyoralar, Quyosh va Oy harakatini talqin qilish, yulduzlar katalogi va unda qo'llanilgan matematik usullari bo'yicha o'rta asrlardagi astronomik asarlarning eng mukammali bo'lganligi uchun avvalambor u musulmon mamlakatlaridagi olimlarning diqqatini jalb qilgan.

"Ziji jadidi Ko'ragoniy" asosan ikki qismdan: keng muqaddima va 1018 ta qo'zg'almas yulduzlarning o‘rni va holati aniqlab berilgan jadvallardan iborat.[7] Ulug'bekning astronomik jadvali o'sha zamondagi shunga o'xshash jadvallar orasida yuksak darajada aniqligi bilan ajralib turadi. Ushbu asar 1665-yilda Oxfordda Thomas Hyde tomonidan, 1843-yilda Fransiya Bailly tomonidan va 1917-yilda Edvard Ball Knobel tomonidan yangidan tahrirlanib bosilgan.[1] Shuningdek, Ulug'bekning yil hisobini hozirgi hisob-kitoblarga solishtirgudek bo'lsak, u bor-yo'gi bir minut-u ikki sekundga farq qiladi. Bu XV asr uchun g'oyat yuksak aniqlik bo‘lib, hozirgi zamon o'lchovlariga juda yaqindir. Ulug‘bek yer yuzini o‘rtalik kajligini 23.52 daraja deb belgilagan va bu yuz yillar davomida eng to‘g‘ri va aniq o‘lcham deb topilgan.

"Zij"ga ilk sharhni Ulug'bekning shogirdi Ali Qushchi "Sharhi Ziji Ulug'bek" nomi bilan yozgan. XV asrning o‘zida qohiralik munajjim Shamsiddin Muhammad as So'fiy al Misriy o'zining "Tashil Ziji Ulug'bek" ("Ulug'bek "Zij"ini osonlashtirish") nomli asar yozib, unda Ulug'bek jadvallarini Qohiraning geografik kengligiga moslashtiradi. Suriyalik olim Zayniddin al Javhariy as Solihiy (XV asr) "Ad Dur annozil fi tashil at taqvim" ("Taqvimni soddalashtirishda nozil bo'lgan durlar") nomli asarida Ulug'bek "Zij"ini qayta ishlagan.[7] Ulug'bek "Zij"iga yozilgan eng mukammal sharh Samarqand ilmiy maktabining eng so'nggi namoyandasi Nizomiddin Abdul Ali ibn Muhammad ibn Husayn Birjandiyning 1523-yilda yozib tugatilgan "Sharhi Ziji Ulug'bek" asaridir. Birjandiy o'z sharhida mufassal va aniq

raqamlar bilan bayon qilib "Zij"ning sirlarini ochadi. Ulug'bekning ko'plab jumlalarini chizmalar bilan tushuntirib isbotlashag harakat qiladi. Samarqandlik ikki buyuk olim Qozizoda Rumiy va Ali Qushchining nabirasi Miram Chalabiy (1525-yil) "Zij"ga sharh yozib, uni "Dastur al amal va tashih al jadval" ("Amallar dasturi va jadvallarning tugatilishi") deb atagan. XVI asrning ikkinchi yarmi va XVII-XVIII asrlardagi qator musulmon olimlari "Zij"ga sharh yozdilar va uni qayta ishlab o'z zamonlari va makonlariga moslashtirganlar. Ular orasida suriyalik Taqiyiddin ash Shomiy(1526-85), Mazhariddin al Qoriy (XVI asr), misrlik Abdulqodir al Manufiy ash Shofiy (XVI asr), eronlik Shoh Fathulloh Shiroziy (1589-yil), Muhammad Boqir al Yazdiy (1637-y), hind Farididdin Dehlaviy (1629-y), turk Muhammad Chalabiy (1640-Y), misrlik Rizvon ar Razzoq al Misriy (1710y), Dog'istonlik Damodon al Muhiy (1718-y) kabi olimlarning sharhlari shular jumlasidandir.[7]

Bular orasida hind davlat arbobi va olimi Savay Jay Singhning faoliyati alohida o'rin tutadi. U Hindistonning Boburiy sultoni Muhammadshohning (1719-1748) farmoni bilan Ulug'bek rasadxonasidagi jihozlarning ta'riflariga ko'ra, Dehli, Banoras, Jaypur, Ujjayn va Muttrada rasadxonalarni barpo etadi. So'ng u homiylik qilgan sultonga atab "Ziji Muhammadshohiy" asarini yozgan va unda Ulug'bekning ba'zi jadvallarini tayyorligicha qabul qilgan.[11]

Ulug'bekning nomi Yevropada va umuman G'arb mamlakatlarida buyuk bobosi Amir Temurning shuhrati tufayli ancha ilgari ma'lum bo'lgan. Yevropa Amir Temur va uning oila a'zolari haqida birinchi bo'lib Samarqandga 1403-1405-yillar sayohat qilgan Ispaniya elchisi Rui Gonsales de Klavixodan eshitgan. Klavixoning "Kundaliklar"i 1582-yilda Seviliyada va Parijda nashr etilganidan so'ng yevropaliklar darhol Amir Temur va uning oila a'zolari bilan qiziqqanlar.[3] Ulug'bek nomi XVII asr boshidanoq Amir Temurga bag'ishlangan dramatik asarlarda uchraydi. 1690-yilda Gdanskda polyak astronomi Yan Gaveliy chop ettirgan "Yulduzlar osmonining atlasi"dagi ikkita gravyurada o'sha davrning mashhur astronomlari orasidan Ulug'bekka faxrli o'rinni bergan, unda Ulug'bekning yulduzlar jadvalini Ptolomey, Tixo Brage, Richchioli, Vilgelm IV va o'zining jadvallari bilan solishtirgan.[2] 1711-yilda Oksfordda Ulug'bekning geografik jadvali 3 marta nashr etilgan. 1908-1909-yillarda V.L.Vyatkin Ulug'bek rasadxonasining xarobalarini va uning asosiy asbobi- kvadrantini kavlab topgandan so'ng, Samarqand olimlarining faoliyatiga yangidan qiziqish boshlanadi. Natijada 1918-yilda V.V.Bartoldning "Ulug'bek va uning davri" asari nashr etilgan.[10] Sovet davrida Ulug'bekning hayoti va ijodi bilan mamlakat jamoatchiligini tanishtirish bo'yicha T.N.Qori Niyoziy ko'p harakat qilgan. Ulug'bek "Zij"ining to'liq va mukammal holda, ilmiy izohlar bilan ta'minlangan tarjimasini A.Ahmedov 1994-yilda amalga oshirib nashr ettirdi. Ulug'bek tavalludining 600 yilligi 1994-yil aprelda Parijda, oktabrda Toshkent va Samarqandda tantanali ravishda nishonlandi va xalqaro konferensiyalar o'tkazildi.[7] Shu yili Toshkentda Ulug'bekka atab haykal o'rnatildi. Ulug'bek siymosi Pulkovo rasadxonasi, Moskva universiteti konferens zallarida dunyodagi mashhur olimlarning portretlari qatoridan joy olgan. Samarqandda Ulug'bekning memorial muzeyi tashkil etilgan.

XULOSA. Mirzo Ulug‘bekning merosi butun dunyo miqyosida tan olingan. Uning asarlarini o‘rganish va ilmiy izlanishlar olib borish, turli mamlakatlarda astronomiya sohasida rivojlanishga yordam berdi. O‘zbekiston, Ulug‘bekning ilmiy merosini tanitish maqsadida xalqaro tadbirlar va ko‘rgazmalar o‘tkazmoqda. Bu orqali boshqa mamlakatlar bilan ilmiy hamkorlik o‘rnatilib, Ulug‘bek merosi global darajada tan olinmoqda. Yevropalik olim Kepler Ulug‘bekning ilmiy kashfiyotlaridan foydalangan holda, yangi astronomik nazariyalar ishlab chiqdi. Ulug‘bekning merosi, shuningdek, O‘zbekistonning madaniy merosini dunyoga tanitishda muhim rol o‘ynaydi. Ulug‘bekning ilmiy va madaniy merosi, bugungi kunda ham biz uchun ilhom manbai va bilim yo‘ldoshidir. Uning ishlari va kashfiyotlari, zamonaviy ilm-fan va ta’lim sohalarida davom etayotgan izlanishlarimizga ko‘maklashadi va yosh avlodni o‘qitishda muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. A.Abduraxmonov. Ulug’bek akademiyasi Qomuslar Bosh tahririyati. Toshkent
2. A.Axmedov. Ulug’bek hayoti va faoliyati. Toshkent “FAN” Nashriyoti 1991
3. A.Asqarov. Temur va Ulug`bek davri tarixi. Qomuslar bosh tahririyati. Toshkent
4. B.Ahmedov. Ulug’bek. “Yosh gvardiya” nashriyoti 1989
5. B.Ahmedov. O'zbekiston tarixi manbalari. T.:"O'qituvchi".1991.
6. B.Ahmedov Amir Temur va Ulug'bek zamondoshlari xotirasida. T.:"O‘qituvchi"1996.
7. Davranov M., Avg'onova M. Ahmedova. S. Mirzo Ulug’bekni jahon ilm faniga qo’shgan hissasi. "Talqin va tadqiqotlar" ilmiy-uslubiy jurnali 2022.
8. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch.-T.:"Ma'naviyat", 2008
9. Sadriddin Salim Buxoriy. Tabarruk ziyoratgohlar. T.:"Yozuvchi"1993
10. В.П.Шчеглов. Улуғбек расадхонаси Тошкент Ўзбекистон ССР «Фан» нашриёти 1989
11. Z.M.Bobur Boburnoma “O`qituvchi” nashriyoti Toshkent 2008

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 1-son)

IJTIMOIY FANLAR

SOCIAL STUDIES

O‘RTA PALEOLIT DAVRI ODAMLARINING UMR DAVOMIYLIGI (TABIIY O‘LIMNING TAFAKKURGA TA’SIRI)

Shodmonov A.A.
Temiz davlvt universiteti o‘qituvchisi
anvarshodmonov83@gmail.com

Annotatsiya: O‘rta paleolit davri (taxminan 300 ming yil avvaldan 30 ming yil avvalgacha) odamlarining umr davomiyligi haqida ma'lumotlar arxeologik qazilmalar va antropologik tadqiqotlar asosida taxmin qilinadi. Bu davrda yashagan neandertallar va zamonaviy odamlarning dastlabki ajdodlari umr ko‘rish muddati qisqa bo‘lgan. Tadqiqotlarga ko‘ra, o‘rtacha umr davomiyligi 30-40 yoshni tashkil etgan. Biroq, ayrim neandertallarning 50 yoshgacha yashaganiga oid dalillar topilgan. Bu esa ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash va guruh hayotining ahamiyatini ko‘rsatadi. Shu sababli, bu davrda odamlarning umr davomiyligi tabiiy va ijtimoiy omillarga bog‘liq bo‘lgan. Ushbu maqola orqali ilk odamlarning umr davomiyligini mintaqaning turli tabiiy sharoyitlarda turli yoshda ko‘rishimiz mumkin. Ba’zi mintaqalarda neandertallar uzoqroq yashagan bo‘lsa boshqa tabiyat injiqliklari yuqori joylarda esa o‘limning erta kelishi kuzatilgan. **Kalit so‘zlar:** Homo, neandertal, paleantalogiya, tafakkur, ong, dafn etish marosimlari, o‘rtacha umr, umr ko‘rishiga ta’sir etuvchi omillar.

РАСШИРЕНИЕ ЖИЗНИ ЛЮДЕЙ СРЕДНЕГО ПАЛЕОЛИТА (ВЛИЯНИЕ ЕСТЕСТВЕННОЙ СМЕРТИ НА МЫШЛЕНИЕ)

Аннотация: Сведения о продолжительности жизни людей периода среднего палеолита (примерно от 300 000 до 30 000 лет назад) оцениваются на основе археологических находок и антропологических исследований. Неандертальцы и ранние предки современного человека, жившие в этот период, имели короткую продолжительность жизни. По данным исследований, средняя продолжительность жизни составляла 30-40 лет. Однако были найдены доказательства того, что некоторые неандертальцы жили до 50 лет. Это показывает важность социальной поддержки и групповой жизни. Поэтому продолжительность жизни людей в этот период зависела от природных и социальных факторов. Благодаря этой статье мы можем увидеть продолжительность жизни первых людей в разном возрасте в разных природных условиях региона. В некоторых регионах неандертальцы жили дольше, а в других местах с большими капризами природы наблюдалась ранняя смерть. В данной научной статье

собраны краткие научные сведения о продолжительности жизни древних людей и факторах, влияющих на продолжительность их жизни.

Ключевые слова: Гомо, неандерталец, палеонтология, мышление, сознание, погребальный обряд, средний срок жизни, факторы, влияющие на продолжительность жизни.

THE LIFE EXPANSION OF THE PEOPLE OF THE MIDDLE PALEOLITHIC PERIOD (THE INFLUENCE OF NATURAL DEATH ON THINKING)

Annotation: Information about the lifespan of people of the Middle Paleolithic period (from about 300,000 to 30,000 years ago) is estimated on the basis of archaeological finds and anthropological studies. Neanderthals and the early ancestors of modern humans who lived during this period had a short life span. According to research, the average life expectancy was 30-40 years. However, evidence has been found that some Neanderthals lived up to 50 years. This shows the importance of social support and group life. Therefore, the life span of people in this period depended on natural and social factors. Through this article, we can see the life expectancy of the first people at different ages in different natural conditions of the region. In some regions, Neanderthals lived longer, and in other places with high vagaries of nature, early death was observed. This scientific article contains brief scientific information about the life expectancy of ancient people and the factors affecting their life expectancy.

Key words: Homo, Neanderthal, paleontology, thinking, consciousness, burial rites, average life, factors influencing life expectancy.

KIRISH: Ibtidoiy odamlarning tafakkuri sekin kechganligi singari insonning biologik o‘zgarishi ham niohyatda sekin kechgan. Katta davrlar mobaynida o‘rtacha umr ko‘rish davomiyligi o‘sib borgan. Ayniqsa o‘rta paleolitning oxirgi davrlaridan boshlab so‘ngi neandertallar misolida o‘rtacha umr ko‘rish davomiyligi osha borgan. Bronza davriga kelib esa o’rtacha umr davomiyligi innsonning aql zakovati, tafakkurining rivoji natijasida osib borganganligini ko’ramiz.

O‘tgan asrning ikkinchi yarmidan boshlab, ayniqsa oxirgi choragida O‘rta Osiyo hududida 300 dan ortiq o‘rta paleolit, ya’ni muste davriga oid neandertal odamlarning makonlari aniqlandi.[1, B. 40]. Ushu makonlarni organish natijasida neandertallarda odatiy erta tabiiy o’limning kamayishi ortib brogan. Buning asosiy sababi insonlarda tafakkur jarayonlari o’sib broganligidir.

ADABIYOTLAR TARIXLILI VA METODLAR:

Eng qadimgi odamlar qanday va qancha umr ko‘rganligini olimlarimizni doyim qiziqtirib kelgan. Insonni umr ko‘rish davomiyligi jahon miqyosida eng qadimgi davrlardan “Homo” urug’i o‘rganish boshlangan chog‘dan jiddiy ishlar amalga oshirilgan. Ayni bu masala o‘rgaish qiynd bo‘lgan bo‘lsada lekin, hozirda paleantropologiya paleantologiya arxeologiya biologiya va shu kabi zamonaviy fanning o‘rganish imkoniyatlari deyarli yetarli. Bu ish bilan Kembrij universiteti proffessori T. Ualdron (1989) neandertallar va oldingi gominidlarning osteologik

topilmalari tahlili natijasida ularni rekonstruksiya (qayta tiklash) ishlari bilan keng shug‘illanib kelmoqda.

A.P Okladnikov Y.A.Smirnov, M.A Gremyaskiy asarlarida ham inson umri bilan bog‘liq muhim ma’lumatlar berib otilgan.

M.A.Gremyatskiy, M.F.Nesturx (tahr.) “Тешик-Таш. Палеолитический человек” asari ham muhim ahamiyat kasb etdi. Unda A.P.Okladnikov tomonidan olib borilgan qazishmalar paleontologik ma’lumotlar, ehtimol, skeletning kech o‘rta pleystotsen yoki erta kech pleystotsen davrini aniqlaydi. G‘ordan topilgan tosh qurollar Yevropaning o‘rta paleolitik davriga to‘g‘ri keladi. Bosh suyagi mahorat bilan tiklangan. Arxeolog-haykaltarosh M. M. Gerasimov va skelet suyaklari Teshiktosh tipidagi qazilma gominidlarning juda qadimiyligini ko‘rsatuvchi bir qancha xususiyatlarni ochib berishga imkon berdi. Bu holatlarning barchasi Teshiktosh skeletini odamlarning qazilmalari haqidagi zamonaviy fan uchun mavjud bo‘lgan eng ishonchli hujjatlardan biri sifatida tasniflashga imkon beradi.

Teshiktosh topilmasi ishonchli paleoantropologik materiallari qadimgi odamni o‘rganishga juda ko'p yangi narsalarni olib keladi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA. Insonlar dastlab tafakkuri natijasida g‘orlardan makon sifatida foydalanganlar. O‘z-o‘zidan ma’lumki, odatda g‘orlar jar yoqasidan 8 m dan 37 m gacha balandlikda joylashgan bo‘ladi[2, C. 8]. Bu insonni turli tabiiy ofatlardan va yirik xayvonlar xujumidan ximoyalanish, hamda erta o‘limning oldini olish uchun amalga oshirilgan oqilona harakatlaridan biridir.

Kembrij universiteti proffessori T. Ualdron (1989) neandertallar va oldingi gominidlarning osteologik topilmalari tahlili natijasida qayta tiklangan marhumning o‘rtacha yoshi 20-23 yoshni tashkil yetishini ta’kidlaydi [3, C. 55-57]. Yevropa neandertallarining demografik parametrlarini chuqur o‘rganish ishlari hamon davom etmoqda.

Inson o‘zini o‘limdan asrashi bilan birga o‘ziga bog‘liq bo‘lmagan xolatlar ham mavjuddir.

Erta o’lim sabab bo‘luvchi omillar juda ko‘p bo‘lib bularga, hayot sharoitlari (*qattiq iqlim sharoitlari, sovuq va quruq muhit odamlarning hayotini qiyinlashtirgan)*, ov va yig‘uvchilik *(ov va oziq-ovqat izlash xavfli bo‘lib, jarohatlar va baxtsiz hodisalar ko‘p bo‘lgan),* tibbiyotning yo‘qligi *(jarohatlar, kasalliklar va infektsiyalarga qarshi samarali davolash usullari mavjud emas edi)* va bolalikdagi o‘lim darajasi *(bolalikda o‘lim darajasi yuqori bo‘lgani sababli, ko‘plab odamlar balog‘atga yetmay vafot etgan)* kabi jarayonlar bilan bogliqdir.

Neandertallar ovqatlarni yetarlicha chaynamasdan yutishgan. Oqibatda qorin bo‘shlig‘ining pastki o‘ng qismida joylashgan “ko‘r ichak” qismi to‘lib qaladi. Juda ko‘p xollarda shu sababgina neandertallarning o‘limini keltirib chiqargan.

O‘rta Osiyo muste davrida ibtidoiy odamlar tog‘larda yashash imkoniyati kengroq bo‘lgan. Ibtidoiy odamning sovuqga chidash harorati ko‘pi bilan -20^0 S gacha bo‘lgan. Bilamizki muzlik davrida havo harorati -20^0 S dan ancha yuqori bo‘lgan. Shu sabablar ham inson o‘limini erta olib kelgan.

O‘rta paleolitda dafn etish an’analari endigina shakllana boshlagan va ehtimol guruhdagi barcha o‘liklarni yemas, balki jamoaning ayrim a’zolari g‘orlarga dafn etilgan. Neandertal odamlarning dafn etish marosimlari ong va tafakkur hamda odamlarning narigi dunyo haqidagi tasavvurlari va diniy dunyoqarashlarining taraqqiyoti haqida ishonchli artefaktlarini beradi[4, C. 8]. Marxumni yerga ko‘mish g‘oyasining o‘zi albatta muximdir. Bu jarayon tiriklar bilan amalga oshirilmagan. Musterian odamining ongida o‘lim g‘oyasi xayotdan sifat jixatidan farq qiladigan insonning aloxida xolati sifatida namoyon bo‘la boshlagan [4, C. 7].

Paleolit davri bilimdoni O‘.Islomov ilk etiqod qilish ananalari O‘rta Osiyo hududida, jumladan mamlakatimiz hududida boshlangani xaqida qat’iy ilmiy fikrlarni bildirib o‘tgan[5, B. 32]. Bu davrda mayitni oldindan rejalashtirilgan va urf odatga aylangan maxsus marosim bilan dafn etishgan. Xuddi shunday so‘nggi muste davriga oid qazilma bundan 60 ming yillar muqaddam yashagan odamning qabri Iroqning Zagros tog‘idagi Shanidar[58] g‘oridan topilgan. Qabrdan sakkiz turdagi o‘simlik qoldiqlari topilgan. Ularning beshtasi dorivor o‘simliklar, qolganlari iste’mol qilinadigan o‘simliklarning qoldiqlari ekanligi aniqlangan. Ko‘rinib turibdiki, ajdodlarimiz shu davrdan boshlab dorivor va ziravor o‘simliklardan foydalana boshlashgan. Odamlar uzoqroq umr ko‘rish uchun intilganlar.

Neandertallarning qoldiqlarini o‘rganishda biz o‘limning tabiiy sabablarini bilan birga balki dafn marosimi paytida jins va yosh mezonini aniqlaydigan sun’iy na’muna bilan shug‘ullanish maqsadga muoffiqdir. Ikki yuzdan ortiq shaxslar to‘g‘risidagi ma’lumotlar hali ham O‘rta paleolit davriga xos bo‘lgan o‘liklarning yosh taqsimotidagi asosiy tendensiyani aks ettiradi. Biz ko‘ramizki, tosh davrida bu ko‘rsatkich o‘rta paleolitda, undan oldingi davrda ham amalda deyarli bir xil bo‘lgan. So‘ngi paleolitda homo sapiensning sinxron va keyingi populyatsiyalarida esa, albatta, yuqoriroqdir. O‘rta paleolit ilk davrida neandertallarning dastlabki shakllari uchun bu ko‘rsatkich 26,2 yilni tashkil etadi [6, C. 12-23]. Boshqa bir ma’lumotlar esa Neandertal va Denisovlar hayotining “asl” davomiyligi esa 38 yil deb aytadi. [7.] Yuqori paleolit davridagi odamlar uchun o‘limning o‘rtacha yoshi jinsidan qat’iy nazar 31 yoshni tashkil qiladi. [8, C. 14-19]. Tosh davrining keyingi davrlarida bu ko‘rsatkich yuqori paleolitdagiga teng yoki sezilarli darajada yuqori bo‘lsamasada, bu ko‘rsatgich so‘ngi bronzaga borib 34.3 yoshni tashkil qiladi.

Tosh va ilk metallar davrida insonlarning o‘rtacha umr davomiyligi

The average life expectancy of people in the Stone and Early Metal Age

№	Davrlar	Erkak	Ayol	O‘rtacha umr yoshi

[58] Тош даврига оид ғордир. Ироқнинг шимолидаги Загрос тоғларида жойлашган. Америкалик археолог Р.Солецкий томонидан тадқиқ этилган (1951-65). 5 та маданий қатламидан иборат. Ғорнинг юқори қатламида ҳозирги ва антик даврга оид ашёлар топилган. Шанидарнинг энг қуйи қатламидан мил. ав. 44-48 минг йилги, муетъе даврига оид тош қуроллар ва 10 та неандертал одамларининг скелети қодиқлари чиққан. Булардан пастроқда топилган гўдак скелети улардан ҳам қадимийроқ - 60 минг йилга тенг. Шанидар ғорига дастлаб муетъе одамлари тахминан 100 минг йил аввал келиб жойлаша бошлаган.

1	Astrolopitek:			
	A.Robustus			19.8
	A.Afrikanus			22.9
2	Neandertal			26.2
3	So‘ngi paleolit odamlari	33.3	28.7	31
4	Mezolit odamlari	35.3	29.3	32.3
5	Neolit odamlari	34.3	29.8	31.1
6	Eneolit odamlari			
7	Ilk bronza	33.3	29.5	31.4
8	O‘rta bronza	36.3	30.8	33.6
9	So‘ngi bronza	36.4	32.1	34.3

XULOSA: Shunday qilib, o‘rta paleolit davrida odam jinsidan qat’i nazar, o‘rtacha umr ko‘rishning o‘sishi kuzatiladi. Tosh asri va ilk metallar davrlarida yerkaklar va ayollarning o‘rtacha umr ko‘rish davomiyligi kichik farq bilan ortib boradi (4-6 yilga yetadi). Tabiiy o’lim ortidan insonlarda obektiv voqelikning ongdagi tasiri orqali haqiqiy komish marosimi vujudga keladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI.

1. Исломов.Ў. Жанубий Фарғона – инсониятнинг илк бешиги // Фан ва турмуш. – № 3-4-5, 2008 Б-40 (*Islamov U. South Ferghana is the first cradle of mankind // Science and life. – No. 3-4-5, 2008 Pg-40*)

2. Гремяцкий М.А., Нестурх М.Ф. (ред.) Тешик-Таш. Палеолитический человек М.: МГУ, 1949. - 8 с. (*Gremyatsky M.A., Nesturkh M.F. (ed.) Teshik-Tash. Paleolithic man M.: Moscow State University, 1949. - Pg 8*)

3.Waldron T. 1989. The effects of urbanisation on human health // D. Serjeantson and T. Waldron (eds). Diet and Crafts in Towns. The Evidence of Animal Remains from the Roman to the Post-Medieval Periods. Oxford. P. 55-73. (British Archaeological Reports. British Series 199).

4. Ergashev O. T. “Tarixiy antropologiya”. (Tarix ta’lim yo‘nalishi talabalari uchun). O‘quv qo‘llanma – Samarqand, SamDU nashri.2021- 110 bet. (*Ergashev O. T. "Historical Anthropology". (for history students). Study guide - Samarkand, SamDU edition. 2021- Pg. 110*)

5. Окладников А.П, Грот Тешик-таш. 1940. С 32 (*Okladnikov A.P. Grotto Teshik-tash. 1940. Pg 32)*

6.Смирнов Ю. А. Мустьерские погребения Евразии Возникновение погреб практики и основы тафологии / Ю. А. Смирнов; АН СССР, Ин-т археологии. - Москва : Наука, 1991. 12-23 с (*Smirnov Y. A. Mousterian burials of Eurasia The emergence of a cellar practices and fundamentals of taphology / Yu. A. Smirnov; USSR Academy of Sciences, Institute of Archeology. - Moscow: Science, 1991. 12-23 p.*)

7. Manba: https://sinaps.uz/maqola/3519/

8.Бужилова А.П. Homo sapiens история болезни. М 2005. С 14-19. (*Buzhilova A.P. Homo sapiens medical history.M 2005. P 14-19*)

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 1-son)

IJTIMOIY FANLAR

SOCIAL STUDIES

ВОЯГА ЕТМАГАНЛАРГА ЖАЗО ТАЙИНЛАШ

Умаров Шохбоз Акрамович
Ўзбекистон Республикаси Бош прокуратураси хузуридаги Хукукни мухофаза килиш академияси 2 курс талабаси

Аннотация: Ушбу мақолада вояга етмаганларнинг жиноятлари бўйича одил судловни амалга оширишнинг хусусиятлари халқаро стандартлар ва миллий қонунчилик асосида ёритиб берилади. Бунда, вояга етмаганларнинг жиноятлари бўйича одил судловни амалга оширишдаги ўзига хос хусусиятларни, жазо ва уни тайинлаш тартиби ҳамда вояга етмаганларни жавобгарлик ёки жазодан озод қилиш асослари, вояга етмаганларнинг жиноятлари ҳақидаги ишларни юритиш борасидаги белгиланган тартиб, жазони ўташдан муддатидан илгари шартли равишда озод қилиш ёки тайинланган жазони енгилроғи билан алмаштириш борасидаги нормалар миллий ва ҳалқаро ҳужжатларни таҳлил қилиш орқали ўрганилган.

Калит сўзлар: Вояга етмаганлар, одил судлов, жазо, жавобгарлик ва жазодан озод қилиш, умрбод озодликдан маҳрум қилиш, ҳалқаро стандартлар, конвенция, қонун, ратификация.

Мамлакатимизда мустақилликнинг дастлабки йилларидан бошлаб болалар ҳуқуқларини ҳимоя қилиш бўйича зарур ҳуқуқий асосларни яратишга алоҳида эътибор қаратилди.

Хусусан, 1992 йил 9 декабрда БМТнинг Бола ҳуқуқлари тўғрисидаги конвенцияси ратификация қилинди.

Ушбу Конвенциянинг асосий қоидалари кейинчалик Жиноят, Жиноят-процессуал, Маъмурий жавобгарлик тўғрисидаги, Фуқаролик, Оила, Меҳнат кодекслари ва бошқа бир қатор қонунларда ўз ифодасини топди.

Бундан ташқари 2008 йил 7 январда «Бола ҳуқуқларининг кафолатлари тўғрисида»ги қонун қабул қилинди.

Бу, ўз навбатида, давлатимизнинг айни йўналишдаги сиёсатини янги босқичга кўтарди.

Маълумки, жиноят процессида вояга етмаганларнинг асосан уч тоифаси иштирок этади: биринчиси — жиноят содир қилган вояга етмаган шахс, иккинчиси — жиноятдан жабрланган вояга етмаган шахс, учинчиси — жиноят ишида гувоҳ сифатида иштирок этаётган вояга етмаган шахс.

Жиноят қонунчилигида шу тоифаларга кирувчи вояга етмаган шахсларга нисбатан бир қатор инсонпарварлик тамойиллари белгиланган. Айни тамойиллар сўнгги йилларда янада такомиллаштирилди.

Жумладан, 2019 йил 6 декабрь ва 2021 йил 7 декабрда қабул қилинган қонунларга мувофиқ, жиноят қонунчилигига бола ҳуқуқларининг кафолатларини янада кучайтиришга қаратилган қатор ўзгартиш ва қўшимчалар киритилди.

Яъни илгари ишда вояга етмаган шахснинг қонуний вакили сифатида ота-оналар, фарзандликка олганлар, васийлар, ҳомийлар, ҳомийлик қилувчи муассасалар ва ташкилотларнинг вакиллари қатнашишлари мумкин бўлган.

Эндиликда эса, вояга етмаганнинг илтимосига кўра, ишда юқорида кўрсатилган шахслар билан бир қаторда, унинг катта ёшдаги яқин қариндошларидан бири ёки ўзи ишонадиган бошқа шахс қонуний вакил сифатида иштирок этишига йўл қўйилади.

Илгари ўн олти ёшгача бўлган гувоҳ ёки жабрланувчини сўроқ қилишда қонуний вакил ёки катта ёшдаги яқин қариндош, педагог ёки жабрланувчининг вакили иштирок этиши мумкин эди.

Эндиликда сўроқ қилинувчи вояга етмаган шахснинг ёши ўн олтидан ўн саккизга қадар узайтирилди. Сўроқ жараёнида юқорида кўрсатилган шахсларнинг илтимосига биноан ёхуд сўроқ қилувчи, яъни суриштирувчи, терговчи, прокурор ёки судьянинг ташаббусига кўра, психологнинг ҳам иштироки таъминланиши белгиланди.

Илгари вояга етмаган гумон қилинувчи ва айбланувчини сўроқ қилишда фақатгина ҳимоячининг иштироки шарт бўлиб, ушбу жараёнда қонуний вакилнинг иштирок этиши учун терговчининг рухсати талаб қилинар эди.

Эндиликда эса, вояга етмаганни сўроқ қилишда ҳимоячи билан бир қаторда, қонуний вакилнинг ҳам иштироки шартлиги белгилаб қўйилди. Бу борада терговчининг рухсатини олиш тартиби бекор қилинди.

Энг муҳим ўзгаришлардан яна бири шуки, жиноий жавобгарликка тортилиши мумкин бўлган ёш чегараси бирмунча узайтирилди.

Илгари жиноят содир этгунга қадар ўн уч ёшга тўлган шахслар жавобгарликни оғирлаштирадиган ҳолатларда қасддан одам ўлдирганликлари учунгина жавобгарликка тортиларди.

Эндиликда бундай ёш чегараси ўн тўрт ёш қилиб белгиланди.

Шу ўринда 2021 йил 3 июнда Вазирлар Маҳкамасининг «Вояга етмаган шахсларга жамоат тарбиячиларини тайинлаш тартиби тўғрисидаги низомни тасдиқлаш ҳақида»ги қарори қабул қилинганини алоҳида қайд этиш лозим. Бунинг натижасида шартли ҳукм қилинган ёки озодликдан маҳрум этиш билан боғлиқ бўлмаган жазо белгиланган вояга етмаган шахсга нисбатан тайинланадиган жамоат тарбиячисининг фаолиятини тартибга солувчи ҳуқуқий асос яратилди.

Албатта, жиноят ишларини юритиш, жазо тайинлаш, жавобгарликдан ёки жазодан озод қилиш каби масалаларда вояга етмаганларга нисбатан қонунчиликда назарда тутилган енгиллик ва имтиёзлар судлар томонидан амалиётда кенг қўлланмоқда.

Хусусан, 2021 йилда Тошкент вилояти, туман (шаҳар) судлари томонидан 187 нафар вояга етмаган шахсга нисбатан жиноят ишлари кўрилган.

Шундан 91 нафарига озодликдан маҳрум қилиш билан боғлиқ бўлмаган жазолар тайинланган.

Шунингдек, озодликдан маҳрум қилиш билан боғлиқ бўлмаган жазолар тайинланган вояга етмаган шахсларнинг 20,8 фоизи тарафлар ярашгани муносабати билан жавобгарликдан озод қилинган.

Яна 10,1 фоизи шартли ҳукм қилинган, 2,1 фоизи жавобгарликдан озод қилинган ҳолда, уларга мажбурлов чоралари қўлланилган. 5,8 фоизи эса, суд залидан қамоқдан озод қилинган.

Бу кўрсаткичлар ва ишлари кўрилган 187 нафар вояга етмаган шахснинг атиги 9,6 фоизига озодликдан маҳрум қилиш жазоси тайинлангани, шубҳасиз, уларга нисбатан алоҳида инсонпарварлик муносабати кўрсатилганини яққол тасдиқлайди.

Шу билан бирга, амалдаги қонунчиликда вояга етмаган шахсларнинг ҳуқуқ ва эркинликлари ҳимоясини янада такомиллаштириш борасида ўз ечимини кутиб турган бир қатор долзарб масалалар ҳам борлигини қайд этиш жоиз.

Хусусан, вояга етмаган гумон қилинувчи, айбланувчи ва судланувчиларнинг ҳуқуқларига оид қуйидаги масалаларни ижобий ҳал қилиш, яъни:

– вояга етмаган шахсга нисбатан жиноятга тайёргарлик кўрганлик ҳамда жиноят содир этишга суиқасд қилганлик учун тайинланадиган жазонинг муддати ёки миқдори Жиноят кодексининг Махсус қисми тегишли моддасида назарда тутилган энг кўп жазонинг учдан икки қисмидан ошмаслигини белгилаш;

– жавобгарликка тортиш ёки жазони ижро этиш муддатларининг ўтиб кетганлиги муносабати билан жавобгарликдан ёки жазодан озод қилиш, судланганлик ҳолатининг тугалланиши каби масалаларда вояга етмаган шахсларга нисбатан алоҳида қисқартирилган муддатларни белгилаш;

– вояга етмаган шахсни мажбурлов чораларини қўллаган ҳолда жавобгарликдан ёки жазодан озод қилиш мумкин бўлган жиноятлар доирасини янада кенгайтириш;

– ахлоқ тузатиш ишлари жазосига ҳукм қилинган вояга етмаган шахснинг иш ҳақидан давлат даромади ҳисобига ушлаб қолинадиган ушланма миқдорини ойлик иш ҳақининг ўн фоизи қилиб, камайтирган ҳолда белгилаш;

– вояга етмаган шахсни ушлаб туриш, унга нисбатан қамоққа олиш ёки уй қамоғи тарзидаги эҳтиёт чорасини қўллаш, вояга етмаган шахсни қамоқда ёки уй қамоғида сақлаб туриш муддати ва уни узайтириш борасида алоҳида қисқартирилган муддатларни жорий этиш;

– вояга етмаган гумон қилинувчини, айбланувчини сўроқ қилишнинг умумий давомийлигини кун давомида олти соатдан тўрт соатга қадар қисқартириш мақсадга мувофиқдир.

Шунингдек, процессуал қонунчиликдаги вояга етмаган гувоҳ ва жабрланувчига оид нормаларни:

биринчидан, вояга етмаган гувоҳнинг қонуний вакили тушунчасини, унинг ҳуқуқ ва мажбуриятларини белгилаш;

иккинчидан, вояга етмаган жабрланувчига давлат ҳисобидан ҳимоячи хизматидан фойдаланиш ҳуқуқини бериш;

учинчидан, вояга етмаган жабрланувчи ва гувоҳнинг ҳаёти хавфсизлигини таъминлаш чораларини янада такомиллаштириш таклиф этилади.

Бундан ташқари вояга етмаган жабрланувчи ва гувоҳ иштирокида кўрсатмаларни ҳодиса жойида текшириш, эксперимент, экспертиза текшируви учун намуналар олиш, гувоҳлантириш каби процессуал ҳаракатларни ўтказишда алоҳида эҳтиёткорлик билан ёндашиш зарур. Бу борада хато ва камчиликларга йўл қўйиш вояга етмаганларнинг руҳиятида салбий ўзгаришлар пайдо бўлишига, хусусан, вояга етмаган жабрланувчининг қайта виктимизацияга учрашига сабаб бўлиши мумкин.

Шу боис миллий қонунчиликда вояга етмаган жабрланувчи ва гувоҳ иштирокидаги ишларни тергов қилиш ёки судда кўриб чиқиш махсус курсларда тайёргарликдан ўтган, махсус билим ва кўникмаларга эга терговчи ёки судья томонидан амалга оширилиши белгиланса, мақсадга мувофиқ бўларди.

Вояга етмаган жабрланувчи ва гувоҳ иштирокидаги ишларни биринчи навбатда ҳам-да қисқа муддатда тергов қилиш ёки судда кўриб чиқиш лозимлигини ҳам назарда тутиш керак бўлади.

Хулоса қилиб айтганда, шу каби муаммоларга ечим топиш ва бу борада кун тартибида турган долзарб масалаларни ҳал қилиш келгусида вояга етмаганларнинг ҳуқуқий ҳимоясини янада кучайтиришга хизмат қилади.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР:

1. “Бола ҳуқуқлари кафолатлари тўғрисида”, Ўзбекистон Республикаси Қонуни 07.01.2008 ЎРҚ-139-сон.

2. Бола ҳуқуқлари тўғрисидаги Конвенция. // 1989 йил 20 ноябрда Бош Ассамблеянинг 44/25-сон резолюцияси билан қабул қилинган. Ўзбекистон Республикаси мазкур конвенцияга Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг 1992 йил 9 декабрдаги 757-XII сонли “Бола ҳуқуқлари тўғрисидаги конвенцияга қўшилиш ҳақида”ги қарорига мувофиқ қўшилган. https://lex.uz/docs/2595913

3. БМТнинг “Қамоқда сақлаш билан боғлиқ бўлмаган чораларга доир минимал стандарт қоидалари” (“Токио қоидалари”). // Бош Ассамблеянинг 1990 йил 14 декабрдаги 45/110 резолюцияси билан қабул қилинган

4. Правила Организации Объединённых Наций, касающиеся защиты несовершеннолетних, лишённых свободы (Гаванские правила). Приняты резолюцией 45/113 Генеральной Ассамблеи от 14 декабря 1990 года на сайте: http://hrlibrary.umn.edu/instree/Rj1unrjdl.htm1

5. Ўзбекистон Республикасининг Жиноят кодекси. – Тошкент: Адолат, 2022. – 396 б.

6. Ўзбекистон Республикасининг Жиноят-процессуал кодекси. – Тошкент: Адолат, 2022. -672 б

7. Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 2000 йил 15 сентябрдаги 21-сонли “Вояга етмаганларнинг жиноятлари ҳақидаги ишлар бўйича суд амалиёти тўғрисида”ги қарори. https://www. lex.uz/docs/1449720.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 1-son)

IJTIMOIY FANLAR

SOCIAL STUDIES

QADIMGI BAQTRIYA KAVILIGI BOSHQARUVI TIZIMI VA TITULLARI

Shaymardanov Azamat Zokirovich
Termiz davlat universiteti tayanch doktoranti
shaymardanovazamat07@gmail.com

Annotatsiya: Qadimgi Baqtriya O‘rta Osiyoning eng muhim madaniy va siyosiy markazlaridan biri bo‘lib, uning boshqaruv tizimi o‘ziga xos jihatlari bilan ajralib turadi. Baqtriya Kaviligi boshqaruvi tarixiy davr mobaynida mahalliy an’analar bilan tashqi ta’sirlar natijasida shakllangan. Qadimgi Baqtriya kaviligi boshqaruv tizimi o‘zining diniy va siyosiy uyg‘unligi, hududiy boshqaruv va iqtisodiy rivojlanganligi bilan ajralib turadi. Bu tizim O‘rta Osiyoning keyinchalik paydo bo‘lgan davlatlarga ham katta ta’sir ko‘rsatgan. Kavilik boshqaruvi qadimiy Eron va Markaziy Osiyo tarixida muhim o‘ringa ega bo‘lgan siyosiy institutlardan biri hisoblanadi. Ushbu boshqaruv tizimi “*Kavi*” yoki “*Kaviyan*” unvoni bilan ataluvchi mintaqa hukmdorlari tomonidan amalga oshirilgan bo‘lib, u zardushtiylik dini bilan bog‘liq edi. Ushbu maqolada qadimgi Baqtriya davlati boshqaruvi tizimi va undagi muhim titullar, shuningdek, bu boshqaruv tizimining ijtimoiy va siyosiy rolini madaniy hamda siyosiy ta’sirini tahlil qilishga qaratilgan.

Kalit so‘zlar: Kavilik boshqaruvi, sastar, dahyupati, vispati, nmanopati, zantu, varzanopati, xanjamana, titul, satraplik.

СИСТЕМА ГОСУДАРСТВЕННОГО УПРАВЛЕНИЯ И ТИТУЛЫ ДРЕВНЕ БАКТРИЙСКОГО ПРАВЕНИЯ

Аннотация: Древняя Бактрия является одним из важнейших культурных и политических центров Центральной Азии, а ее административная система отличается своими особенностями. Управление Бактрийским Кави сформировалось в результате местных традиций и внешних влияний в исторический период. Административная система древнего Бактрийского региона отличается религиозной и политической гармонией, территориальным управлением и экономическим развитием. Эта система оказала большое влияние на государства, возникшие позднее в Центральной Азии. Администрация Кави - один из политических институтов, занимающих важное место в истории древнего Ирана и Центральной Азии. Эта система правления осуществлялась региональными правителями, называемыми «Кави» или «Кавиан», и была связана с зороастризмом. Данная статья посвящена анализу административной системы древнего

Бактрийского государства и его важных титулов, а также культурному и политическому влиянию социальной и политической роли этой административной системы.

Ключевые слова: правление Кавали, састар, дахьюпати, виспати, нманопати, занту, варзанопати, ханджамана, титул, сатрапия.

THE ANCIENT BACTRIAL KAVITY’S GOVERNMENT SYSTEM AND TITLES

Abstract: Ancient Bactria is one of the most important cultural and political centers of Central Asia, and its governance system is distinguished by its unique features. The governance of the Bactrian Kavi was formed as a result of local traditions and external influences throughout history. The governance system of the ancient Bactrian Kavi is distinguished by its religious and political harmony, territorial governance, and economic development. This system also had a great influence on the later states of Central Asia. Kavian governance is one of the political institutions that played an important role in the history of ancient Iran and Central Asia. This governance system was implemented by the rulers of the region, who were called “Kavi” or “Kaviyan”, and was associated with the Zoroastrian religion. This article aims to analyze the governance system of the ancient Bactrian state and its important titles, as well as the social and political role of this governance system, its cultural and political impact.

Keywords: Kavilik administration, sastar, dahyupati, vispati, nmanopati, zantu, varzanopati, khanjamana, title, satrapy.

KIRISH.

Baqtriya, o‘zining geografik joylashuvi va strategik ahamiyati tufayli, Markaziy Osiyo tarixida muhim rol o‘ynagan davlatlardan biri bo‘lgan. Biroq, Baqtriya kaviligi haqida bilimlarimiz asosan arxeologik topilmalar, yozma manbalar va qadimgi tarixiy manbalarga asoslanadi. Shu sababli, Baqtriya kaviligining aniq tafsilotlari haqida to‘liq ma’lumotlar yo‘q

“*Kavi*” so‘zi zardushtiylik manbalarida, xususan, “Avesto”da, donishmand va ilohiy kuchga ega shaxs ma’nosida qo‘llaniladi. Kavi hukmdorlari zardushtiylik diniy amaliyotlarini nazorat qilish va diniy qadriyatlarni himoya qilish orqali o‘z hokimiyatini mustahkamlab borgan. Kavilik boshqaruvi tizimi dastlab diniy-ma’naviy rahbarlik sifatida shakllangan bo‘lsa, keyinchalik u siyosiy hokimiyatning asosiy elementiga aylangan. Kavilar diniy va dunyoviy hokimiyatni o‘z qo‘l ostida birlashtirgan hukmdor edi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR.

“Avesto”da keltirilgan jamoalarga oid boshqaruv atamalarni birinchi marta I.M. Dyakonov Midiya jamoasi bilan taqqoslagan[1, c.382-403]. Shundan so‘ng ko‘plab tarixchi-arxeolog olimlar o‘rganayotgan madaniyatlari aholisining ijtimoiy tarkibini “Avesto” jamoasi bilan taqqoslashgan. A.A. Asqarov Sopollitepa aholisini, T.Sh. Shirinov Jarqo‘ton aholisini, V.I. Sarianidi va V.M. Masson Marg‘iyonaning bronza davri aholisini, Y.A. Zadneprovskiy Chust madaniyati aholisini, A.S. Sagdullaev Baqtriyaning ilk temir davri aholisining ijtimoiy tarkibini «Avesto» jamoasi bilan taqqoslashgan[2, c.56-62]. Shuni aytib o‘tish lozimki, «Avesto»

jamoasi umumformula sifatida bronza va ilk temir davri jamoalariga mos keladi va shu davrlarga oid barcha madaniyat jamoalari uchun qo‘llash mumkin.

I.V. Pyankovdan farqli o‘laroq, A.S. Sagdullaev “Avesta” jamoasini to‘rt asosiy qismga bo‘ladi. Uy, oila jamoasi- «nmana», «dmana», urug‘ jamoasi - «vis», qabila - «zantu», qabilalar ittifoqi - «daxiyu» deb atalishini ko‘rsatib bergan [3, b. 82]. Oila, urug‘ va qabila boshlig‘ini anglatish uchun «pati» so‘zi ishlatilgan, ya’ni, — «nmanopati», «vispati», «daxiyupati». «Daxiyu» tushunchasi «viloyat» ma’nosini ham anglatgan. Mamlakatni idora qilgan hukmdor «Kavi» yoki «Sastar» titulini olib yurgan[4, c.109].

Dahyupati tushunchasi qadimgi Eron va Markaziy Osiyo boshqaruv tizimlarida muhim rol o‘ynagan. Bu unvon, asosan, “dahyu” – “hudud” yoki “mamlakat”ni boshqaruvchi shaxsga nisbatan qo‘llangan. Maqolada Dahyupati titulining kelib chiqishi, uning vazifalari, boshqaruv tizimidagi o‘rni va tarixiy ahamiyati keng tahlil qilinadi. “Dahyu” so‘zi “Avesto”da ko‘p marta uchrab, u hudud, mamlakat yoki aholi yashaydigan joyni bildiradi. “Pati” esa “boshliq” yoki “egasi” ma‘nosini anglatadi. Shu bois, “Dahyupati” unvoni hudud boshqaruvchisi yoki ma’lum bir mamlakat ustidan hukmronlik qiluvchi shaxsga tegishli bo‘lgan. Dahyupati unvoni, dastlab, Eronning Ahamoniylar davrida siyosiy va ma’muriy tuzilmaning ajralmas qismi bo‘lib, u mahalliy boshqaruvni tashkil etishda muhim rol o‘ynagan.

Dahyupati ma’muriy va harbiy jihatdan keng vakolatlarga ega bo‘lgan shaxs edi. Uning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat edi:

Hududiy boshqaruvni ta’minlash. Dahyupati o‘ziga biriktirilgan hududda tartibni saqlash va aholini boshqarish bilan shug‘ullangan. U hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini nazorat qilgan va soliqlarni yig‘ish jarayonini tashkil etgan.

Harbiy boshqaruv. Dahyupati mahalliy hududlarning harbiy mudofaasini ta’minlash va qo‘shinlarni safarbar qilish bo‘yicha mas’ul bo‘lgan. U davlatga tahdid soluvchi ichki va tashqi xavflarga qarshi kurashishda markaziy hokimiyatning ishonchli vakili hisoblangan.

Qonunlarning ustuvorligini ta’minlash. U hududiy darajada qonunlarni tatbiq qilish va odil sudlovni ta’minlashda markaziy hukumat vakili sifatida harakat qilgan. Bu vazifa orqali Dahyupati mahalliy aholi orasida davlat hokimiyatining mustahkamlanishiga hissa qo‘shgan.

Dahyupati markaziy hokimiyat bilan mahalliy boshqaruv o‘rtasidagi muhim bog‘lovchi bo‘g‘in sifatida faoliyat yuritgan. Uning vakolatlari va majburiyatlari aniq belgilangan bo‘lib, bu davlatning samarali boshqarilishiga ko‘maklashgan. Mahalliy darajada Dahyupati hokimiyatining barqarorligi davlatning ichki va tashqi siyosiy holatiga sezilarli ta‘sir ko‘rsatgan.

«Sastar» so‘zi orqali qabilalarning harbiy yo‘lboshchisi ham tushunilgan. Oqsoqollar kengashi — «varzanopati», «xanjamana», xalq yig‘ilishi (majlisi)«v’yaxa» deb atalgan degan xulosaga kelgan[5, b. 56].

Yozma manbalar bilan arxeologik manbalar hamma vaqt ham mos kelavermaydi. Avestashunos olimlar «Avesta» shahar xayoti va tuzumi haqida ma’lumotlar bermaydi,

manbada «shahar» so‘zi yoki «shahar jamoasi» tushunchasi yo‘q degan qat’iy fikrga kelishgan. Haqiqatdan ham shunday, “Avesta” shaharlar to‘g‘risida ma’lumot bermaydi, ammo arxeologiya fani Qadimgi Baqtriyada bronza davridan boshlab ilk shahar madaniyatiga asos solinganligini Jarqo‘ton yodgorligi misolida ko‘rsatib berdi[6, 132-141]. Yoki Qadimgi Baqtriyaning ilk temir davriga oid Baqtr, Qiziltepa, Jondavlattepa, Haitobodtepa, Oltindilyor kabi shahar tipidagi yodgorliklarining ochilishi va keng ko‘lamda o‘rganilishi bu hududda shahar madaniyatining gullab yashnaganligi, Qadimgi Sharq madaniyatining ajralmas bo‘lagi sifatida antik zamonlardan sivilizasiya o‘chog‘i bo‘lganligini tasdiqlaydi.

“Avesta” shahar tushunchasini bermaganligi bilan sastar, dahiyu, ya’ni yirik siyosiy birlashmalarning bo‘lganligini, ularni Kaviylar boshqarganligi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni muhokama qilmoqdamiz, bas shunday ekan bu birlashmalarning madaniy, iqtisodiy va siyosiy markazlari ham bo‘lganligi tabiiy hol, albatta. Kavilik boshqaruvi tizimi qadimiy davlat boshqaruvi va diniy rahbarlikning noyob uyg‘unligini namoyon etadi. U nafaqat zardushtiylikning targ‘ibotchisi, balki madaniy va siyosiy jarayonlarning asosiy harakatlantiruvchi kuchi sifatida ham katta ahamiyat kasb etgan. Ushbu tizimning tahlili orqali biz qadimgi jamiyatlarning ijtimoiy va siyosiy rivojlanishida din va davlat o‘rtasidagi aloqadorlikni chuqurroq tushunish imkoniga ega bo‘lamiz.

“Avesta”da oila “nmana”, oila boshlig‘i “nmanapati” deb atalishini bilamiz. **Nmanapati** – qadimiy Hindiston va O‘rta Osiyo tarixida uchraydigan boshqaruv lavozimlaridan biri bo‘lib, bu titul ko‘pincha mahalliy boshqaruv tizimlarida, ayniqsa, shahar-davlatlar boshqaruvida qo‘llanilgan. Atamaning ma’nosi, lavozim egalari bajaradigan vazifalar va tarixiy ahamiyati hudud va davrga qarab farqlangan bo‘lishi mumkin. Atamaning ildizi **“**nma**”** yoki “nam” so‘zidan kelib chiqadi, bu so‘z qadimiy hind-eroan tillarida “hurmat”, “bo‘ysunish” yoki “taslim bo‘lish” ma’nolarini anglatadi. “Pati” esa “egasi” yoki “rahbar” ma’nosini beradi[7, c.188]. Shu bois, “nmanapati” so‘zi “xalq rahbari” yoki “hurmatga loyiq boshqaruvchi” kabi ma’noni anglatishi ehtimoldan xoli emas. “Nmanapati” mana shu birga xo‘jalik yuritadigan, yirik oilani boshqargan. Nmana oilasini bir qolipga solib bo‘lmaydi, ayrim oilalar katta patriarxal, ayrimlari kichik bo‘lishi ham mumkin. Biz ham Baqtriya kaviligi davri tarixini o‘rganishda arxeologiya va yozma manbalarni taqqoslab o‘rganish natijasida yangi ma’lumotlarni olishga harakat qildik. Bu lavozim keyinchalik o‘zgargan, lekin uning tamoyillari keyingi davlatlarda, jumladan, Kushonlar va Sosoniylar davrida davom etgan.

E.V. Rtveladze “Avesta”ning eng qadimgi Gat va Yasht qismlarida ta’kidlanadigan “sastar”ni Bandixon sug‘orilish rayoni hukmdori sifatida e’tirof etadi. Sug‘orilish rayoni deganda bir daryo bo‘yida shakllangan, bir necha arxeologik yodgorliklarni birlashtirgan iqtisodiy rayon tushuniladi. Bu iqtisodiy hududlarda bir yodgorlik sug‘orilish rayoni markazi, shahri vazifasini bajargan. “Sastar” shu shahar arkida istiqomat qilgan va harbiy boshliq vazifasini ham bajargan. Bandixonda shunday yodgorlik vazifasini Bandixon I va Bandixon II yodgorliklari bajargan[8, c.335].

«Avesta»ning eng qadimgi Gat qismlarida aholining ko‘p qismi asosan chorvachilik va dehqonchilik bilan, dehqonchilikdan ko‘ra chorvachilik bilan ko‘proq shug‘ullanganligi e’tirof etiladi[7, c.54]. Unda sug‘orma dehqonchilikning bo‘lganligini tasdiqlovchi, ya’ni kanallar qazilganligi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni ham o‘qisa bo‘ladi[9]. Shimoliy Baqtriyadagi eng qadimgi kanal ham Kuchuk I davriga to‘g‘ri keladi. Bu Bandixon kanali bo‘lib, E.V. Rtveladze tomonidan o‘rganilgan va Bandixon I davrida qazilganligi ta’kidlangan[10, c. 22-38]. Kanallar qazish, bug‘doy undirish zardushtiylikda yaxshilikning yomonlik ustidan g‘alabasi deb tushunilgan[11, c.215].

E.V. Rtveladze o‘zining so‘nggi asarlaridan birida “daxiyupati” iborasiga kichik viloyat hukmdori deb ta’rif bergan va Aleksandr Makedonskiy bosib kelgan vaqtda So‘g‘d va Baqtriyadagi Nautaka, Ksenippa, Gabaza, Pareytakena va Bubakena kabi hududlarni egallagan bo‘lishi kerak, ularning hukmdorlari Oksiart, Sisimitr, Xorien, Katanlar daxiyupat titulida bo‘lgan bo‘lishi mumkin deb hisoblaydi[8, c. 335].

Arxeologik jihatdan “kichik viloyat” dehqonchilik vohalariga to‘g‘ri keladi. Qadimgi Baqtriyaning dehqonchilik vohalari haqida to‘liqroq bo‘lgan ma’lumotlar Sh.B. Shaydullaevning ilmiy tadqiqotlarida yoritilgan[12].

NATIJALAR VA MUHOKAMA.

Deyarli barcha Avestashunos olimlarning fikriga ko‘ra “daxiyular daxiyupatisi” butun Baqtriya hukmdori, ya’ni kavisi tituliga to‘g‘ri keladi. Ular barcha sastar, daxiyularni birlashtirgan va davlat nomidan ish ko‘rgan. Oliy sudya, diniy ishlarni nazorat qiluvchi – Zaradtusht rotema vazifalarini ham bajargan. Fikrimizcha, daxiyular daxiyupatisi Baqtriyaning poytaxti Baqtr shahrida qo‘nim topgan.

«Avesta»ga ko‘ra daxyular daxyupatisi yoka Kavilar shajaralari to‘g‘risida quyidagi ma’lumotlarni keltirish mumkin. Sharqiy Eron hukmdorlarining geniologiyasi quyidagicha: «Xaosh’yonx — eroniylarning birinchi afsonaviy podshosi («Shohnoma»da — Xushang), keyin Yima (Jamshid)—podsho-podachi, S’yovarshon (Siyovush), Kavi Xaosrov (Kay- Xisrov), Kavi Vishtasp. Kavilar («Shohnoma»da — kayyoniylar)— hukmdorlar sulolasi. Bu sulola vakillari— Kavi Kavat (Kay-Kubot), Kavi Usan (Kay-Kovus), Kavi Pishin (Kay-Pishin), Kavi Arshan (Kay- Aresh) Zardusht ta’limotining tarafdorlari bo‘lgan.

Kavilar boshqaruvi zardushtiylik ta’limoti bilan bog‘liq bo‘lib, hukmdorning ilohiy maqomi muhim rol o‘onagan. Hukmdor nafaqat dunyoviy boshqaruvni, balki diniy marosimlarni boshqaruvchi oliy ruhoniy sifatida ham tan olingan. kavilar boshqaruvi markazlashgan bo‘lib, asosiy qarorlar hukmdor tomonidan qabul qilingan. Mahalliy boshqaruvchilar va oqsoqollar esa Kavilar oldida hisobdor bo‘lgan. Ushbu tizim markaziy hokimiyatni mustahkamlashga xizmat qilgan. Kavilar boshqaruvida huquqiy normalar zardushtiylik ta’limotiga asoslangan bo‘lib, diniy qonunlar davlat boshqaruvi uchun asosiy manba sifatida qabul qilingan. Bu esa jamiyatda ma’naviy birlikni ta’minlashga qaratilgan edi.

Dahyupati unvoni qadimiy boshqaruv tizimining ajralmas qismi bo‘lib, uning orqali mahalliy va markaziy hokimiyat o‘rtasidagi aloqalar samarali tashkil etilgan. Dahyupati

boshqaruvi nafaqat ma’muriy va harbiy tuzilmalarni, balki huquqiy va ijtimoiy tartibni ham rivojlantirishga xizmat qilgan. Ushbu tizimning o‘rganilishi qadimgi davlat boshqaruvining murakkab tuzilmasini yanada yaxshiroq tushunish imkonini beradi.

Tarixiy-ilmiy adabiyotlarda Ahamoniylar davri siyosiy tarixi mahalliy va xorijlik olimlar tomonidan yetarli darajada yaxshi va to‘liq yoritilgan[13, c. 229-250]. Tadqiqotchilarning fikrlariga qaraganda O‘rta Osiyo, jumladan Baqtriya ham Kir II davrida Ahamoniylar imperiyasi tarkibiga kiritilgan. Haqiqatdan ham Doro tomonidan Behistun yozuvlarida keltirilgan satrapliklar ro‘yxatida O‘rta Osiyoning deyarli barcha hududlari keltirilgan, demak tadqiqotchilarning fikrlariga hech qanday e’tirozlar yo‘q, eslab o‘tilgan ro‘yxat bo‘yicha Baqtriya XII satraplikni tashkil etgan. Shunday bo‘lsada, S.P. Tolstov Xorazmning Eron imperiyasi tarkibiga kirganligiga shubha bilan qaraydi. Ammo, V.M. Masson Xorazmning ham Ahamoniylar tarkibiga kirganligini ilmiy izohlab bergan va XVI-satraplik deya, uning tarkibiga yana So‘g‘d ham kirganligini asoslagan[14, c. 104].

XULOSA.

Baqtriya kaviyligi tarixiy jihatdan muhim bir boshqaruv tizimi bo‘lib, u nafaqat siyosiy va iqtisodiy hayotda, balki ijtimoiy va madaniy sohalarda ham o‘zining kuchli ta’sirini ko‘rsatgan. Kaviylarning o‘zaro hamkorligi va davlatni boshqarishda ko‘rsatgan mehnati, shuningdek, Baqtriya davlati iqtisodiy va madaniy jihatdan yuqori darajaga ko‘tarilishi uchun juda muhim bo‘lgan. Shunday qilib, Baqtriya kaviyligi o‘zining har tomonlama rivojlangan tizimi bilan qadimiy tarixda alohida o‘rin tutadi. Qadimgi Baqtriya kaviligi boshqaruvi tizimi, o‘zining an’anaviy monarxik tuzilishi va ijtimoiy qatlamlari bilan juda murakkab edi. Kavilarning siyosiy, harbiy va iqtisodiy roli Baqtriya davlati uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lgan. Titullar va lavozimlar Baqtriya davlati boshqaruv tizimining murakkabligini va har bir lavozimning o‘ziga xos rolini ko‘rsatadi. Baqtriya kaviyligi va uning boshqaruv tizimi, ayniqsa Markaziy Osiyo tarixidagi o‘zgarishlar va siyosiy tuzilmalar haqida muhim ma’lumotlarni o‘z ichiga oladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI.

1. Дьяконов И.М. Истории Мидии от древнейших времен до конца IV века до н.э. М.-Л., 1956. (*Dyakonov I.M. History of Media from ancient times to the end of the 4th century BC. M.- L., 1956*).
2. Аскаров А.А. Сапаллитепа. Ташкент, 1973 (*Askarov A.A. Sapallitepa. Tashkent, 1973*).
3. Сагдуллаев А.С. Усадьбы Древней Бактрии. Ташкент, 1987. (*Sagdullaev A.S. Estates of Ancient Bactria. Tashkent, 1987*).
4. Г. Джавади. История государственного управления в Иране и Средней Азии в древности. Диссертация на соискание ученой степени кандидата исторических наук. Душанбе – 2004 г. (*G. Javadi. History of public administration in Iran and Central Asia in ancient times. Dissertation for the degree of candidate of historical sciences. Dushanbe – 2004*).

5. Сагдуллаев А.С. Қадимги Ўзбекистон илк ёзма манбаларда. Тошкент, 1996(*Sagdullaev A.S. Ancient Uzbekistan in the first written sources. Tashkent, 1996*).

6. Ширинов Т.Ш. Ранняя городская культура эпохи бронзы юга Средней Азии. Самарканд, 1993.(*Shirinov T.Sh. Early urban culture of the Bronze Age in the south of Central Asia. Samarkand, 1993).*

7. Дьяконов И.М. Истории Мидии от древнейших времен до конца IV века до н.э.М., издателиство Наука.,1956 г.(*Dyakonov I.M. History of Media from ancient times to the end of the 4th century BC. M., Nauka Publishing House, 1956*).

8. Ртвеладзе Э.В. История государственности Узбекистана. Том 1. Ташкент, 2009.(*Rtveladze E.V. History of statehood of Uzbekistan. Volume 1. Tashkent, 2009*).

9. «Авеста», Видевдат, 5,5,6,2;12,13,38; Андрианов Б.В. Роль ирригации в становлении древних государств // От классовых обществ к раннеклассовым. - М., 1987.*("Avesta", Videvdat, 5,5,6,2;12,13,38; Andrianov B.V. The role of irrigation in the formation of ancient states // From class societies to early class ones. - M., 1987*).

10. Пугаченкова Г.А., Ртвеладзе Э.В. Северная Бактрия - Тохаристан. Очерки истории и культуры (древность и средневековье).Ташкент, 1990.(*Pugachenkova G.A., Rtveladze E.V. Northern Bactria - Tokharistan. Essays on history and culture (ancient and medieval). Tashkent, 1990*).

11. Соруш Сорушьян. Фарханге бехдинан. Теҳрон, 1967. (*Sorush Sorushyan. Farhange behdinan. Tehon, 1967*).

12. Шайдуллаев Ш.Б. “Ўзбекистон ҳудудида давлатчиликнинг пайдо бўлиши ва ривожланиш босқичлари”. Тарих фанлари докторлиги диссертацияси тексти. Самарқанд, ЎзР ФА Археология институти библиотекаси, 2009. (*Shaydullaev Sh.B. “The emergence and stages of development of statehood in the territory of Uzbekistan”. Text of the dissertation for the degree of Doctor of Historical Sciences. Samarkand, Library of the Institute of Archeology of the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan, 2009*)

13. Струве В.В. Поход Дария I на Саков-массагетов. Изд. АН СССР, 1946, №3, С. 229-250. (*Struve V.V. The campaign of Darius I against the Saka-Massagetae. Publ. USSR Academy of Sciences, 1946, No. 3*)

14. Толстов С.П. По следам древнехорезмийской цивилизации. // М.-Л.: 1948. (*Tolstov S.P. In the footsteps of the ancient Khorezm civilization. // M.-L.: 1948*).

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 1-son)

IJTIMOIY FANLAR

SOCIAL STUDIES

UDK: 93/94
ORCID: 0009-0004-5751-8107

TO‘RAQO‘RG‘ON TUMANI QISHLOQLARI TOPONIMIKASI VA TARIXI XUSUSIDA AYRIM MULOHAZALAR

Sharofiddinov Maxmudjon Mashrabjon o‘g‘li
Is’hoqxon Ibrat nomidagi Namangan davlat chet tillari instituti
Mail: sharofiddinov.mahmudjon@mail.ru

Annotatsiya: Mazkur maqolada To‘raqo‘rg‘on tumani qishloqlari toponimikasining xususiyatlari va tarixiy rivojlanishi o‘rganilgan. Tadqiqotda tumanning geotarixiy joylashuvi, aholi punktlarining nomlanish tarixi va bu nomlarning o‘ziga xos xususiyatlari tahlil qilinadi. Maqolada, shuningdek, qishloqlar nomlarining etimologiyasi, ular bilan bog‘liq tarixiy voqealar va aholi turmush tarziga oid ma’lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: To‘raqo‘rg‘on tumani, qishloqlar, toponimika, tarix, etimologiya, aholi, geografik joylashuv, madaniy meros, tarixiy voqealar, nomlanish, xalq an’analari, etnik tarkib, tarixiy rivojlanish, tarixiy xotira, o‘zbek urug‘lari, rivoyatlar.

Аннотация: В данной статье рассмотрены особенности и историческое развитие топонимики сел Туракурганского района. В исследовании анализируется геоисторическое расположение района, история наименований населенных пунктов и особенности этих названий. В статье также представлена информация об этимологии названий деревень, связанных с ними исторических событиях и образе жизни жителей.

Ключевые слова: Туракурганский район, села, топонимика, история, этимология, население, географическое положение, культурное наследие, исторические события, наименование, народные традиции, этнический состав, историческое развитие, историческая память, узбекские кланы, повествования.

Annotation: in this article, the features and historical development of the toponymy of the villages of the Torakurgan district are studied. The study analyzes the geotary location of the district, the naming history of the settlements and the peculiarities of these names. The article also provides information on the etymology of the names of the villages, the historical events associated with them and the lifestyle of the inhabitants.

Keywords: Torakurgan district, Villages, toponymy, history, etymology, population, geographical location, cultural heritage, historical events, naming, folk traditions, ethnic composition, historical development, historical memory, Uzbek seeds, narratives.

KIRISH

Vatan- ostonadan boshlanadi, deganlaridek, vatan tarixini bilmoq, o‘rganmoq tug‘ilib o‘sgan joyingiz, qishloq, mahalla tarixidan boshlanadi. Mutafakkirlarning “xotirasiz barkamol kishi bo‘lmaganidek, o‘z tarixini bilmagan xalqning kelajagi ham bo‘lmaydi”, degan so‘zlari har birimizga o‘z tariximizni o‘rganishdek ma’suliyatni yuklaydi. To‘raqo‘rg‘on tumani Namangan viloyatidagi o‘zining qadimiy tarixi, madaniy-ma’rifiy merosi, urf-odatlari, fidoiy kishilari bilan nom qozongan tumanlardan biridir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Tuman hududidagi har bir qishloq o‘zining urf-odatlari, kelib chiqish tarixi va nomlanishi jihatdan bir-biridan farq qiladi. Bular orasida qishloqlarning toponimikasi alohida o‘rin tutadi. Quyida bu qishloqlar nomi qanday ma’noni anglatishi va kelib chiqishi xususida ayrim mulohazalarni keltirib o‘tamiz. Avvalo, To‘raqo‘rg‘on toponimiga to‘xtalish lozim. Bu to‘g‘risida tarixchi Is’hoqxon Ibrat “Farg‘ona tarixi” asarida quyidagi fikrlarni keltirgan – “Namanganning g‘arbida bir bozorlik qasaba bu muallif vatani asliysidurki, muni Dashti Qipchoq xonlaridan Ahmadxon, ya`ni Shig‘ayxon bino qilgan ekan. U vaqt muarrixlari Ahmadxon ismiga qal`a qilib, Qal`ayixon deb ism qo‘yib, bu lafz binosiga tarix bo‘lgan ekan (“Qal’ayixon”dan 861 hijriy, 1456 milodiy yil kelib chiqadi). Ammoki, To‘raqo‘rg‘on demak ma`nosi Shig‘ayxonning Yusuf To‘ra va Yaqub To‘ra degan o‘g‘illari ismlariga To‘raqo‘rg‘on deb shuhrat bo‘lgan edi”[59].

NATIJALAR

Tuman hududida yirik qishloqlardan biri bu Sayramdir. “Sayram” toponimi haqida mashhur sayyoh va tarixchi Qori Rahmatulla Buxoriy (Vozix) ma’lumot beradi. Uning “G‘aroyib al-xabar fi ajoyib as-safar”(boshqacha nomi- “Savonix al-masolik va farosix al-mamolik”) nomli asari tarkibidagi “Sayram risolasi”da quyidagi fikr keltiriladi: “…har yerda ikki suvning orasi toshliq bo‘lsa, turkiy tili birla, Sayram derlar”[60]. Demak, bu so‘zning ma’nosi ikki suv orasidagi toshliq yerdir. Qishloqning geografik joylashuviga e’tibor bersak, uning o‘rtasidan Kosonsoy soyi va shimoliy qismidan esa Namangan kanali oqib o‘tadi, lekin, qishloq hududining yerlari toshliq emas. Qishloqning nomi XX asrning ikkinchi yarmigacha Arg‘in bo‘lgan. Bu nomning toponimiga e’tibor qaratsak, o‘zbek xalqining tarkibidagi arg‘in urug‘i nomiga borib taqaladi[61].

Bekobod. Rivoyatlarga qaraganda, Podshohning yovqur beklaridan biri mana shu qishloq o‘rnini so‘rab oladi va qarindosh-urug‘laridan to‘rt oilani ko‘chirib kelib, qo‘rg‘on quradi. Aholi ko‘payib, kattagina qishloq paydo bo‘ladi. Qishloq nomi esa unga asos solgan bek nomidan – Bekobod deb atala boshlandi.

Yortepa. Bu qishloq hududida odamlar qadimdan yashab kelishgan. Bu yerdan “Chust

[59] Исҳоқхон Тўра Ибрат. Тарихи Фарғона. – Тошкент: Маънавият. 2005 –Б. 35.
[60] Ҳасанов Ҳ. Саййоҳ олимлар. – Тошкент: Ўзбекистон. 1981. –Б. 235.
[61] Dala yozuvlari. Namangan viloyati To’raqo’rg’on tumani Sayram qishlog’i. Qayumova Halimaxon(marhum) 69 yosh. 2013-yil.

madaniyati”ga oid ko‘plab topilmalar topilgan. Qishloqning toponimiga kelsak, qishloq nomi asli Chortepa bo‘lib, bu nom qishloqdagi to‘rt tepa bilan bog‘liq. Hozirda tepaliklardan ikkitasi saqlanib qolgan.

Kuyukmozor. Qishloqning nomi bu hududdagi qabriston nomi bilan bog‘liqdir. Rivoyatlarga qaraganda, qabriston o‘rnidagi qamishzorga quvg‘inga uchragan avliyo kelib yashay boshlaydi. G‘animlari qidirib tutisha olmagach, qamishzorga o‘t qo‘yadilar. Avliyo o‘t orasida qolib halok bo‘ladi. Qabristonni, shuningdek, Kohimozor deb ham ataydilar[62].

Katta va Kichik Qo‘rg‘oncha. Qishloqlarning toponimiga to‘xtalsak, qadimda bu yerga bir necha oila ko‘chib kelib, uy-joylar barpo etishadi. Uylar atrofida umumiy qo‘rg‘on aylantirlib yashashadi. Keyinchalik aholining ko‘payish hisobiga qishloq vujudga keldi. Qishloq nomiga esa dastlabki, qo‘rg‘on nomi bilan “Qo‘rg‘oncha” deb atala boshlandi[63].

Yandama. Qishloq Langarbobo, Kujron, Shohidon qishloqlari bilan chegaradosh. Qir yonbag‘irliklarda joylashgani uchun Yandama deb atalgan.

Langarbobo. Qishloq Hazrati Langar avliyoning nomi bilan ataladi. Bu qishloq nomi bilan bog‘liq quyidagi rivoyat mavjud: azizlardan biri (balki Hazrati Langar) odamlarni mana shu joylarda yashamoqqa undaganlarida, ular suv chiqmasligini bahona qilganlar. Muborak zot “Siz harakat qiling, suvni xudo beradi” deydilar. Ko‘chib kelganlar tongda turib qarashsa, yerdan buloq suvi chiqayotgan emish. Keyinroq, buloq kengaytirilib, hovuzga aylantirilgan. Qishloq hozir ham shu hovuzdan foydalanadi.

MUHOKAMA

Naymancha (Tepa Naymancha va Quyi Naymancha). Qishloqqa turkiylarning nayman urug‘i asos solgan bo‘lib, uning nomi shu urug‘ nomidan olingan. Shuningdek, bu qishloqqa haqida quyidagi rivoyat mavjud: qishloqqa Qo‘qon yaqinidagi Nayman qishlog‘idan kelgan odam asos solgan. Keyinchalik, u suv chiqarib dehqonchilik qila boshlagan yerga boshqa odamlar ham ko‘chib kelib joylashgan. Bu odamlardan, qayerdansizlar? deb so‘raganlarida kelgan kishining yurtidanmiz, deb javob berishgan ekan. Keyinchalik qishloq nomi ham Nayman deb atalgan emish[64].

Kujron. Bu qishloqning nomi Katta Farg‘ona kanali nomi bog‘liq hisoblanadi. Tarixdan ma’lumki, 1939-yil 1-avgustda boshlangan kanal qurilishi juda qisqa muddatda 45 kunda qazib bo‘linadi. Bu ishga 160 ming kishi jalb qilinadi[65]. Bu o‘zbek xalqiga xos bo‘lgan hashar usulidagi shonli, fidokor mehnatning samaralari edi. Hatto Markaz matbuotining bosh organi — “Правда”ning 1939-yil 13-dekabrdagi bosh maqolasida shunday satrlar bitilgan edi: “Shu yilning yoz faslida uzoq Farg‘onada qilingan ish, o‘n minglab o‘zbek va tojik kolxozchilarining bir yarim oy mobaynida kanal qaziganligi butun xalqni juda quvontirdi. Ijodkor xalq, yaratuvchi

[62] Абдулла Жаббор. Наманган вилояти. – Наманган: Наманган. 2012. Б. 192.
[63] Dala yozuvlari. Namangan viloyati To’raqo’rg’on tumani Sayram qishlog’i. Qayumova Halimaxon(marhum) 69 yosh. 2013-yil.
[64] Madrahimov Z. Tarixiy toponomika(ma’ruzalar matni). – Namangan: 2014. – B. 109.
[65] Usmonov Q. O’zbekiston tarixi.(sovet mustamlakachiligi davri). – Toshkent: Sharq. 2014. –B.

xalq farg‘onalik kolxozchilarning tajribasida... mehnatdagi shunday bir yangilikni ko‘rib oldiki, bu yangilik kelajak sari qilinayotgan harakat sur’atlarini jadallashtiradi”[66]. Bu qurilish ishlarida Kujron qishlog‘i aholisi ayniqsa, jonbozlik ko‘rsatgan. Qishloq aholisiga qarata odamlar “kuchga kon” odamlar ekan deb ta’rif berishgan. Keyinchalik bu so‘z o‘zgarib “Kujron” tarzida qishloq nomiga o‘tgan[67].

Shohidon. Bu qishloq tumandagi qadimiy va muqaddas qishloqlardan biri hisoblanadi. Qishloqning bunday atalishi arablar istilosi davriga borib taqaladi. Qishloq aholisining aytishicha, arablar Farg‘ona vodiysiga kirib kelganda, ko‘plab qarshiliklarga duch kelganlar. Ayniqsa, hozirgi Kosonsoy, Yangiqo‘rg‘on hududlarida bu kabi qarshiliklar ancha jiddiy tus olgan. Arablar bosib olib ortgan qaytgandan so‘ng yuqorida qayd qilingan hududlarda ozodlik harakatlari yana boshlanib ketgan. Arablar yana qaytishga majbur bo‘lishgan va ularni qayta bo‘ysuntirishgan. Qo‘zg‘alonchilar bilan jangda bir necha arab yaralangan. Ular Shohidonga yetib kelishganda, vafot etishgan va shu yerga dafn etilganlar. Keyinchalik bu yerda aholi ko‘payib, qishloq hosil bo‘lgan. Qishloq nomi esa vafot etgan arablar sharafiga din uchun kurashib, “shahid” ketganlar ,ya’ni “shohidon” deb atalgan[68].

Axsi. To‘raqo‘rg‘ondagi mashhur qishloqlardan biri. Bu qishloqning toponimiga kelsak, Axsi so‘zi – savdo, olish-berish yoki qo‘rg‘on, qal’a ma’nolarini bildiradi, degan fikrlar mavjud. Shuningdek, Axsi atamasi Oqsuv so‘zidab kelib chiqqan degan ma’lumotlar ham mavjud.

Bordimko‘l. Ma’lumotlarga qaraganda, qishloq nomi dastlab XIV-XV asrlarda Bordonko‘l bo‘lgan. Bordon – archilmagan qamishdan bo‘yraga o‘xshab to‘qilgan 80 sm kenglikdagi to‘qima hisoblanadi. U tomga loy bosishdan avval vassa ustiga ustiga tashalgan. Bordon to‘qiladigan qamish sayoz ko‘llarda o‘sadi. Qishloqning quyi tarafida Sirdaryo yoqalarida bunday ko‘llar ko‘p bo‘lgan. Vaqt o‘tishi bilan qishloq nomi Bordimko‘l deb atala boshlangan[69].

Janjal. Oldinlari qishloqda suv yetarli bo‘lmagan va aholi o‘rtasida tez-tez janjallar bo‘lib turgan. Shu sababli qishloq nomi ham Janjal bo‘lib ketgan. Keyinchalik qishloq nomi Fayziobod deb o‘zgartirilsada, mahalliy axoli uni Janjal deb ataydi[70].

Shahand. Shahand – To‘raqo‘rg‘on tumanigidagi qadimiy va yirik qishloqlardan biri. Qishloq nomini kelib chiqishi to‘g‘risida ma`lumotlar kam bo‘lib, “Shoh kent”, shohlar yurti degan ibora bilan bog‘laydilar. Bundan tashqari, qishloq toponimi to‘g‘risida boshqa bir qarash ham mavjud ya’ni “Shahand” so‘zidagi birinchi qism “shoh” lekin, ikkinchi qismi esa “kent” emas balki, “qand”dir. Ya’ni “shoh qand”, qandlar shohi degan ma’no bilan bog‘laydilar[71].

---

[66] O’sha joyda.
[67] Dala yozuvlari. Namangan viloyati To’raqo’rg’on tumani Kujron qishlog’i. Zokirov Abdunabi 40 yosh. 2010-yil.
[68] Dala yozuvlari. Namangan viloyati To’raqo’rg’on tumani Shohidon qishlog’i. Davlatov Javlon 23 yosh. 2016-yil.
[69] Madrahimov Z. Tarixiy toponomika(ma’ruzalar matni). – Namangan: 2014. – B. 109.
[70] Dala yozuvlari. Namangan viloyati To’raqo’rg’on tumani Axsi qishlog’i. Naimjonova Gulasal 22 yosh. 2012.
[71] Dala yozuvlari. Namangan viloyati To’raqo’rg’on tumani Shahand qishlog’i. Hakimova Muyassar 22 yosh. 2016-yil.

Bunda sabab hozirga qadar Shaxand qishlog‘i o‘zining qandolatpazlik hunari bilan mashhurligi ko‘rsatiladi.

Temirqishloq. Temirqishloq toponimi haqida turli xil ma’lumotlar bor. Xususan, Temir ismli kishi ismidan olingan bo‘lishi mumkin. Shuningdek, temir – etnonim: o‘zbeklarning saroy qabilasi tarkibida, qozoqlarning alimuli, dulat qabilalari, qirg‘izlarning adigene, basiz, bug‘u, so‘lto‘ qabilalari tarkibida temir urug‘i bo‘lgan. Bundan tashqari turkiy xalqlar tarkibida temirbek, temirberdi, temirqul, temirso‘fi, temirxo‘ja, temirchi kabi kichikroq urug‘-shohobchalar ham bo‘lgan. Qishloq toponimiga ham shulardan biri asos bo‘lgan bo‘lishi mumkin[72].

Olchin. Mahalliy aholining fikricha qishloqqa bundan 200 yillar oldin yashagan va talonchi dushmanlarga qarshi kurashgan Olchinboy ismli baxodirning nomi berilgan. Shuningdek, qishloqni turkiy va mo‘gullar tarkibidagi olchin urug‘i nomi bilan ham bog‘laydilar[73].

Qashqarguzar. Ma`lumotlarga ko‘ra, oldinlari qishloq markaziga qashqarlik savdogarlar kelib savat, qoshiq, qoshiqdon va anjomlar to‘qib sotganlar. Ko‘p o‘tmay qashqarliklar qaytib ketadi, biroq qishloqning nomi Qashqarguzar bo‘lib qoladi[74].

Buramatut. Ma’lumotlarga qaraganda, qishloq qadimiy bo‘lib uning tarixi bir necha yuz yillarni tashkil etadi. Bundan 850 yil avval ham qishloq bo‘lgan. Qishloq nomi ham o‘sh davrda buralib o‘sgan tut daraxti nomidan olingan[75].

Mozorko‘hna. Bu qishloqning bunday nomlanishi sabab shundan iboratki, qishloq hududida bir necha qadimiy qabristonlar bo‘lib, bu qabristonlardagi ba’zi bir qabrlar juda ko‘hna hisoblanadi. Qishloq nomi shundan kelib chiqqan.

Kalvak. Bu qishloq toponimi haqida aniq ma’lumot yo‘q. O‘zbek tilining izohli lug‘atining 2-jildida “kalvak” so‘ziga quyidagicha, izoh beriladi: “ Kalvak- kichik bola; nodon, anqov, uyatsiz, noshud”[76]. Shuningdek bu so‘z Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romanida ham uchraydi: O‘zbek oyim: “Bu kalvak o‘g‘lingiz marg‘ilonlikning eshigida qul bo‘lib yotib oladir”. Bu o‘rinda Qodiriy bu so‘zni “noshud, anqov” ma’nosida ishlatadi. Bizningcha bu so‘zning qishloq nomiga aloqasi yo‘q. Qishloq aholisining fikriga qaraganda, qishloq nomini qadimda shu yerda kelib hovuz kavlagan Polvon ismli odam qo‘ygan bo‘lib, ya’ni “kavlangan yer” so‘zining o‘zgargan shaklidir[77].

Qurama(Katta Qurama). Bu qishloqning toponimi haqida Mamadali Sattorovning “Uch qishloq tarixi” risolasida aytilishicha, bundan 300 yillar avval hozirgi Olchin qishlog‘iga ikki

[72] Madrahimov Z. Tarixiy toponomika(ma’ruzalar matni). – Namangan: 2014. – B. 109.
[73] Абдулла Жаббор. Наманган вилояти. – Наманган: Наманган. 2012. –Б. 112.
[74] Абдулла Жаббор. Наманган вилояти. – Наманган: Наманган. 2012. –Б. 161.
[75] Абдулла Жаббор. Наманган вилояти. – Наманган: Наманган. 2012. –Б. 74.
[76] Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 2-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси. Давлат илмий нашриёти. 2006. – Б. 297.

[77] Dala yozuvlari. Namangan viloyati To’raqo’rg’on tumani Kalvak qishlog’i. Abdukarimov Bahodir 50 yosh. 2009-yil.

yigit kelib qo‘nadi. Olchinliklar ularni bir necha kun mehmon qiladilar. Ular aka-uka bo‘lib, ismlari Ro‘zi va Qo‘zi edi. Mehmonlar qishloq oqsoqollarining suhbatlarida ko‘p bo‘ladilar.

Kunlarning birida suhbat davomida qishloqni bosqin qilib talab ketuvchilar to‘g‘risida gap ketib, ularning kelish vaqti yaqinlashganligi, qarshi choralar ko‘rish zarurligi haqida gaplashib qoladilar. Buni eshitgan aka-uka Ro‘zi va Qo‘zilar bosqinchilarning qaysi tomondan kelishi, qanchaligi haqida surishtiradilar. Oqsoqollar bor gapni aytadilar. Unday bo‘lsa, biz bosqinchilarga qarshi chiqamiz, ular bilan kurashib qishloqni himoya qilamiz, bu ishda qishloqning yigitlari yonimizga kirishlari kerak, deydilar. Oqsoqollar ularni qo‘llab, yigitlardan bir nechtasini to‘plab beradilar. Ular bilan Ro‘zi va Qo‘zilar mashqlar o‘tkazib, jangga tayyorlanadilar. Shunday kilib, bosqinchilarning kelishlarini kutadilar. Bir kuni bir nechta otliq kelayotgani haqida aka-ukalarga xabar beriladi. Ular hozirlab qo‘yilgan otlarga minib qo‘llariga kirgan qurollar bilan yovga qarshi chiqadilar. Bosqinchilar qishloqqa yaqinlashganlari sari ko‘chalardan quyuq chang-tuzon ko‘tarilayotganini ko‘rib, sarosimaga tushadilar. Shu asnoda qarshilarida bir gala otliqlar ularga qarshi kelayotganini ko‘rgan bosqinchilar bir-birlariga qaramay, ortlariga qaytib qochib qoladilar. Aka-ukalar ularni qiyqiriqlar solib, ancha joygacha quvib boradi. Shunday qilib hech kanday talofatsiz yovni daf qiladilar. Qishloqliklar esa aka-ukalarning ko‘rsatgan jasoratlari uchun ularga minnatdorchilik bildiradilar. Bu qishloqqa hech qanday bosqinchilar yo‘lamaydigan bo‘lib, odamlar xotirjam hayot kechira boshlaydilar.

Oqsoqollar esa bu yigitlarni qishloqda qolib yashashga ko‘ndiradilar va ularni munosib qizlarga juftlab, uylab quyadilar. Tadbirli aka-ukalar ro‘zgor tebratish choralarini ko‘radilar va tez orada qo‘y-molli bo‘ladilar. Bola-chaqalarining ko‘payishi barobarida chorva hayvonlarini erkin boqishlari hamda o‘sha joyni vatan qilib, uy-joy qurishlari uchun yaylovli joy so‘raydilar. Oqsoqollar ularning iltimoslarini qondirib, shunday yerni ko‘rsatadilar. Ro‘zi va Qo‘zilarning birinchi o‘rnashgan joylari Katta Quramaning hozirgi Mushuk mahallasi bo‘lgan. Ana shu aka-ukalar Oxangarondagi Qurama urug‘idan bo‘lganliklari uchun bu yerni Qurama deb ataganlar. Joylashib olganlaridan keyin qishloqlariga borib, qaytishlarida o‘zlari bilan ko‘ngilli hamqishloqlarini ham boshlab keladilar[78].

Saroy. Qishloq nomlanishiga oid bir necha qarashlar mavjud. Ulardan birinchisi etnonim tarzida bo‘lib o‘zbeklarning saroy urug‘i nomi bilan bog‘lanadi. Ikkinchi esa “Uch qishloq tarixi” risolasida yozlishicha, Saroy qishlog‘i yonidan o‘tuvchi Sirdaryoda qadimdan kemalar qatnab turgan. Bu qatnov 1945-yilgacha davom etgan. Bu yerdan o‘tayotgan kemalar qishloqda to‘xtab o‘tishgan. Mahalliy aholi mehmonlarga sharoit yaratish maqsadida imkon qadar joylar tayyorlagan. Shu kabi sabablar ta’sirida qishloq nomi Saroy bo‘lib qolishi haqiqatga yakinroq turadi. Azaldan ota-bobolarimiz bunday qo‘noq joylarni “Saroy” deb ataganlari ravshan[79].

Qatag‘on. Qishloq Janubiy-sharqi Saroy, shimoli Katta Qurama, g‘arbi Olchin qishloqlariga yonma-yon joylashgan bo‘lib, janubidagi jarliklar etaklari avvallari daryo

[78] Сатторов Мамадали. Уч қишлоқ тарихи. – Наманган: 2009. – Б. 33-34.
[79] Сатторов Мамадали. Уч қишлоқ тарихи. – Наманган: 2009. – Б. 11.

qoldiqlaridan iborat chuqur botqoqlik, qamishzor, qo‘riq yerlardan iborat edi. U yerlar ekin ekishda foydalanish tugul, hatto chorva hayvonlarini boqish uchun ham nobop joylar edi. Qishloq jar etaklaridan otilib chikib yotadigan buloqlar tufayli barpo etilgan. Soqiboy bobo jari deb ataluvchi jarlik ostida mavjud bo‘lgan 5 ta buloqning eng kattasi hamon chiqib turadi. Buloqqa tushiladigan yo‘l azaldan mavjud bo‘lib, eng qadimiy hovlilar ham shu yaqin atrofga joylashgandir.

Boshqa buloqlarga bunday qulay yo‘llar hozirgacha ham qilinmagan. Bunga sabab jarlarning o‘ta tik va chuqurligidir. Yuqoridagi fikrlarimizga asoslanib, qishloq shu ona buloq asosiga, uning tevaragidan qurila boshlagan degan xulosa chiqarish mumkin. Qishloq Qatag‘on deb atalishining tarixiy sabablari bor. Aholining asosiy qismi o‘zbeklar tarkibiga kiruvchi Qatag‘on qabilasidan tarqalgan kishilarning bu joylarga kelib o‘troqlashib, yashab qolganligi sababli Qatag‘on qishlog‘i deb nomlangan[80].

Yuqorida qayd etilgan Qatag‘on va Saroy qishloqlari ba’zi o‘rinlarda bir qishloq ya’ni Qatag‘onsaroy deb ataladi. Bunga sabab qishloqlarning yondosh joylashgani va aholisining bir urf-odat va mehnat yumushlarining bir-xilligidadir. Abdulla Jabborning “Namangan Viloyati” nomli risolasida ham bu qishloqlar Qatag‘onsaroy deb qayd etilib, uning toponimi haqida quyidagicha fikr bildiriladi: “Aytishlaricha, qadimda qishloqda karvonsaroy bo‘lib, shahardan-shaharga yuboriladigan xatlar o‘sha davr odatiga ko‘ra shu saroyga keltirilgan. Qishloqning nomi ham “xat olgan saroy” jumlasining buzilgan shaklidir. Shuningdek, o‘zbek urug‘lari tarkibida qatag‘on va saroylar xam mavjud. Bu urug‘lar qishloqqa asos solgan va qishloq ular nomi bilan atalgan degan fikrlar ham mavjud”[81].

XULOSA

Xulosa sifatida shuni qayd etish mumkinki, To‘raqo‘rg‘on tumani hududida Yortepa, Axsi, Shahand, Kuyukmozor, Shohidon, Buramatut kabi yirik va qadimiy qishloqlar mavjud. O‘z navbatida To‘raqo‘rg‘on tumani qishloqlar soni ko‘pligi bilan ham ajralib turadi. Bu tuman qishloqlari toponomikasida ham o‘ziga xosliklar ham mavjud. Tuman qishloqlari aksariyatining nomlanishi to‘g‘risida ko‘plab afsona va rivoyatlar mavjud, turli urug‘lar nomi bilan ataladigan hamda joylashgan o‘rnidan kelib chiqqan holda atalgan manzilgohlar ham ko‘p uchraydi. Shuningdek, ularning aksariyati qanday ma’noni anglatishi haqida hali aniq bir xulosaga kelinmaganligini qayd etish zarur. Bu esa kelajakda qishloqlar toponimlarini chuqurroq o‘rganish kerakligini bildiradi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATLAR VA MANBALAR

1. Исхоқхон Тўра Ибрат. Тарихи Фарғона. – Тошкент: Маънавият. 2005.
2. Ҳасанов Ҳ. Саййоҳ олимлар. – Тошкент: Ўзбекистон. 1981.
3. Абдулла Жаббор. Наманган вилояти. – Наманган: Наманган. 2012.
4. Madrahimov Z. Tarixiy toponomika(ma’ruzalar matni). – Namangan: 2014.

[80] Сатторов Мамадали. Уч қишлоқ тарихи. – Наманган: 2009. – Б. 24.
[81] Абдулла Жаббор. Наманган вилояти. – Наманган: Наманган. 2012. – Б. 161.

5. Usmonov Q. O‘zbekiston tarixi.(sovet mustamlakachiligi davri). – Toshkent: Sharq. 2014.

6. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 2-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси. Давлат илмий нашриёти. 2006.

7. Сатторов Мамадали. Уч қишлоқ тарихи. – Наманган: 2009.

8. Dala yozuvlari. Namangan viloyati To‘raqo‘rg‘on tumani Sayram qishlog‘i. Qayumova Halimaxon(marhum) 69 yosh. 2013-yil.

9. Dala yozuvlari. Namangan viloyati To‘raqo‘rg‘on tumani Kujron qishlog‘i. Zokirov Abdunabi 40 yosh. 2010-yil.

10. Dala yozuvlari. Namangan viloyati To‘raqo‘rg‘on tumani Shohidon qishlog‘i. Davlatov Javlon 23 yosh. 2016-yil.

11. Dala yozuvlari. Namangan viloyati To‘raqo‘rg‘on tumani Axsi qishlog‘i. Naimjonova Gulasal 22 yosh. 2012.

12. Dala yozuvlari. Namangan viloyati To‘raqo‘rg‘on tumani Shahand qishlog‘i. Hakimova Muyassar 22 yosh. 2016-yil.

13. Dala yozuvlari. Namangan viloyati To‘raqo‘rg‘on tumani Kalvak qishlog‘i. Abdukarimov Bahodir 50 yosh. 2009-yil.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 1-son)

IJTIMOIY FANLAR

SOCIAL STUDIES

TEMURIYLAR DAVRIDA SUYURG‘OL TIZIMINING JORIY ETILISHI

Shavkatjon Xonqulov
FarPi “Ijtimoiy fanlar va sport” kafedrasi dotsenti,
Eraliyeva Muniraxon Zaylobidinovna
Rishton tuman 2-son politexnika texnikumi katta o‘qituvchisi,

Annotatsiya *Maqolada Sohibqiron Amir Temur va temuriylar davrida iqtisodiy masalalarni hal qilishning o‘ziga xos xususiyatlari to‘g’risida fikr yuritilgan bo‘lib, iqtisodiy g‘oyalarning rivojlanish bosqichlari tahlil etilgan.*

Kalit so‘zlar: *Amir Temur va temuriylar, iqtisodiy g‘oyalar, iqtisodiy islohotlar, iqtisodiy g‘oyalarning mohiyati, soliq, o‘lponlar, raiyat.*

Аннотация *В статье рассматриваются особенности решения экономических вопросов в эпоху Сахибкирона Амира Темура и Тимуриды, анализируются этапы развития экономических идей.*

Ключевые слова: *Амир Темур и Тимуриды, экономические идеи, экономические реформы, суть экономических идей, налог, дань, райят.*

Abstract *The article examines the features of resolving economic issues in the era of Sahibkiron Amir Temur and the Timurids, and analyzes the stages of development of economic ideas.*

Key words: *Amir Temur and the Timurids, economic ideas, economic reforms, the essence of economic ideas, tax, tribute, rayat*

KIRISH

O‘rta asrlarda Movarounnahr va Xurosonda keng tarqalgan mulk turlaridan biri sifatida tuyul, iq’to kabi yer mulklari keng foydalanilgani keltirilgan. XIV asr 70-yillariga kelib, Movarounnahr va Xurosonda Amir Temur tomonidan yangi davlatga asos solingandan keyingi jarayonida suyurg‘ol mulk sifatida berilishi. O‘z davlatini mustahkamlovchi muhim omillardan biri, adolatli siyosat yurgizishdan tashqari, mulklardan biri hisoblangan suyurg‘ol alohida o‘rin tutgan. Suyurg‘ol (hadiya) sovg‘a tarzida nakd pul, qimmat baho buyumlar, ot-ulovlardan tortib, yer mulk sifatida, kichik dahadan boshlanib, viloyat, mamlakat berilishi yangi vujudga kelayotgan davlatni qo‘llab quvvatlovchilar tarafdorlarini moddiy rag‘batlantirishdan iborat bo‘lgan. Suyurg‘ol berish rasm rusuli haqida batafsil ma’lumot beruvchi, tartibi nizomiga yoki dastur ul-mulk ega emas, faqatgina Chingizxon yasosida umumiy xabar berilgan. Xulaguxonlar sulolasi vakili G‘ozonxon (1271.1295–1304) tomonidan suyurg‘ol berish maqsadi yer-

mulklarni lashkar va amirlarga berish sababi vaziyat taqozosi bilan mamlakatda xalqni talon taroj qilinishidan asrash maqsadida amalga oshirilgan [1; 616] Temur tuzuklari asarida ham umumiy holat haqida bo‘lib, suyurg‘ol yagona qoidasi, kafolati bo‘lmagan, majburiyatlari esa suyurg‘ol beriluvchi shaxsdan kelib chiqqan. Suyurg‘ol mulklari hajmi, unga egalik kilish sharti hamda imtiyozga ega bo‘lish bo‘lmasligi shaxslarning tabaqasi jihatidan turlicha bo‘lgan. Bu turdagi yer mulkiga o‘lka, shahar, viloyatlardan boshlab to kichik bir mavze’gacha bo‘lgan hududlarni in’om etilgan. Suyurg‘ol berish tartibi turlicha bo‘lib, yirik mansabdor shaxslar davlat oldidagi bajargan vazifalari uchun, amir, bek va bahodirlarning jangda ko‘rsatgan jasoratlari uchun berilgan. Suyurg‘ol egalari davlatga ma’lum mikdorda soliqni (xiroj) yig‘ib berish majburiyati yuklatilgan. Ba’zi hollarda umuman soliqdan ozod etilgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Amir Temur suyurg‘ol berishdan asosiy maqsad o‘z davlati tarafdorlarini ko‘paytirish maqsadida va amir, beklarni har bir urushda rag‘batlantirish uchun jang vaqtda shijoat, g‘ayratini ko‘rsatgan, dushman lashkariga hujum qilib chekintirishga yoki safini buzganlarga darajasiga muvofiq suyurg‘ol berilran. Temur tuzuklari asarida yer-mulkni hadiya etish tartibi haqida keltirilgan ma’lumotiga ko‘ra o‘nboshi, yuzboshi va lashkarboshidan qaysi biri dushman safini buzib favjini daf qilsa shahar hokimligi berilishi. Ming boshilardan qay biri dushman lashkarini yuq qilsa, unga viloyat boshqaruvi berilgan. Agarda dushmanni yengib mamlakatni ozod qilsa unga ana shu mamlakatni uch yil boshqarishga in’om tariqasida berilgan.

Sharafuddin Ali Yazdiyning Zafarnoma asarida Mubashshir Nasoy (Ashxobod) atrofida dushman qorovullari bilan janng qilishib, jangda yaralanishiga qaramasdan, hujumni to‘xtatmasdan dushman lashkarini qochirishga muyassar bo‘lgani, bu jasorati evaziga Amir Temur Gov Qush mavze’ini suyurg‘ol qilib berdi [2]. Asarda biron bir hokim yo shahar voliysi o‘z ixtiyori bilan qal’asidan tashqari chiqib, itaot etsa, unga ana shu xududni o‘ziga suyurg‘ol qilib berilgan. Misol uchun Shirvon viloyati hokimi Shayx Ibrohim itoatkorlik sari yuz tutib, sohibqiron xizmatiga kelib, peshkashlar tortdi, Amir Temur qilgan ishi uchun unga o‘z viloyatini el ulusi bilan suyurg‘ol qildi. Bu orqali Amir Temur bergan suyurg‘ol aslida shu viloyat hokimi unga qaram ekanligini bildirgan, ya’ni butun mamlakatni ishg‘ol etgan hukmdor tariqasida bo‘ysundirilgan hokimsha yangitdan o‘z mulkiga egalik qilishi uchun huquqiy jihatdan hujjat berilganday hisoblash mumkin. Aslida yer-mulkchilik munosabatida qaramlikdan tashqari Shirvon viloyati hokimi o‘zining avlodlariga tegishli bo‘lib kelayotgan hududni o‘z qo‘lida saqlab qoldi. Bu holat Amir Temurning o‘zi ham boshidan o‘tqazgan. 1360 yilda Tug‘luq Temur Movarounnahrga bostirib kelayotgna vaqtda Amir Temur xon xuzuriga borib uning xizmatiga kiradi va xizmati evaziga barloslar qabilasiga tegishli bo‘lgan Kesh shahrini unga in’om etib beradi [3; 495]. Yo bo‘lmasa Oydin qal’asini qamal qilganlarida Amir Boyazid qal’a dorug‘asi bo‘lgan, himoya qilishga ko‘z yetmaganligi sababli omonlik tilab, sohibqiron huzuriga borib, Amir Temur davlatini tan olgan, bu ishi uchun unga o‘sha viloyatlarni in’om qilindi [4; 145].

Bunday tarzda olib borilgan siyosati avvalo askarlarni ortiqcha zarar yetkazishdan, ortiqcha vaqt va mablag‘ni sarflashni oldini olgan. Zero har bir jang uchun lashkar va amirlarga ulufa (maosh) berish lozim bo‘lgan, uni ustiga alohida shijoat va g‘ayrat ko‘rsatib, shahar yoki qal’ani egalagan bahodirga, amirga alohida mukofatlash kerak bo‘lgan. Bu tartibda suyurg‘ol berishning keyingi sababi boshqa o‘lkalarni zabtiga yurush qilingan holda, u yerdagi aholi va hokimlarga Amir Temur oqil va adolatparvarligi hakida xabarlar yetib borishi maksadida amalga oshirgan. Albatta viloyat hokimi, dorug‘alari ham bunday xabar tarqalgach urushsiz taslim bo‘lishi orqali o‘zining mulkini qo‘lida asrab qolish istagi paydo bo‘ladi.

Nizomiddin Shomiyning Zafarnoma asarida muzafriylar sulolasi tugatilgach (1393 y.), ularga qarashli bo‘lgan mamlakat amirzoda Umarshayxga suyurg‘ol qilinadi va hokim mutloq etib tayinlanadi. Shu bilan birga Sheroz viloyatining barcha lashkari amirzodaning xizmatiga topshirildi [5] Abdurazzoq Samarqandiyning Matlai sa’dayn va majmai bahrayn asarida ham Shohrux mirzoning ko‘plab viloyatlarni suyurg‘ol qilganligini va shu tariqa markaziy hokimiyat zaiflashib borgan. Misol uchun Boysung‘urga Tus, Mashhad, Abivard, Samalqon, Jarmag‘on, Xabushon, Niso, Yozir viloyatlari, Mozandaron, Astirabod, Shosmon, Kabudjamoa va Jurjonga tegishli yerlarni hammasini in’om etib, amirzodaning xos devoni xarajatlari uchun ajratilgan [6; 37]. Iktisodiy jihatdan juda katta mablag‘ to‘planishi shahzodalarning markaziy hokimiyatni kuchaytirish o‘rniga, zaiflashishiga sabab bo‘lganlar.

Abdurazzoq Samarkandiy asarida amir Muborizuddin Ilyosxojaga xam suyurg‘ol berilgan Qum, Koshon, Ray va Gilon chegaralirigacha bo‘lgan yerning daromadini lashkariga va u yerdagi ishlari uchun sarflash maqsadida amirning o‘z ihtiyoriga to‘liq topshirilgan. Bunga sabab amirga berilgan mulk davlat sarhadida joylashganligi hisobga olib mamlakatning chegara hududlarini mustahkamlash maqsadida suyurg‘ol mulkidan keladigan daromad soliq olinmay amirning o‘z ixtiyoriga berilgan. Lekin mamlakatning janubiy sarhadlaridan mirzo Qayduga berilgan suyurg‘ol Qandahor va Hindiston chegaralarigacha bo‘lgan yerlarni daromadi yig‘ilib, hutbada o‘z nomini o‘qitadi va pulni ham o‘z nomidan zarb qilishni talab qilgan. Bu haqidagi xabar poytaxtga yetib borishi bilan uni band qilish uchun Boysung‘ur mirzoni jo‘natilgan va mirzo Qayduga berilgan yerlar Suyurg‘atmishga suyurg‘ol qilingan [7; 144]

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Temuriyzodalar orasida turli viloyatlardan berilgan suyurg‘ollar natijasida hali sohibqiron hayotlik vaqtidayok o‘zaro muxoliflik urug‘i sochila boshlangan edi. Yazdiyning Zafarnoma asarida amirzoda Iskandar Mo‘g‘ilistonga o‘ziga tegishli bo‘lgan navkar va lashkari bilan yurush qilib, Muxammad Sulton bilan sovuqlik tushadikii, bunga sabab Iskandar mirzo Muxammad Sultonni ogohlantirmasdan ilgarilab Boy, Kucha, Oqsuv, Xo‘ton kabi shaharlarni egalagan va ko‘plab o‘lja va peshkashlar bilan qaytayotgan vaqtda Muhammad Sulton Mo‘g‘iliston tomon ketish uchun Turkiston shahriga kelgan edi, shu sababli Iskandar mirzodan ko‘ngli qolgan. Bundan vaximaga tushgan shahzoda Muhammad Sulton huzuriga borish o‘rniga Andijonga qaytib qal’a ichiga kirib urushga hozirlangan [8; 320]. Umarshayx mirzoning o‘g‘li Pir Muhammadda ham itoatsizlik paydo bo‘lib, sohibqiron farmoniga ko‘ra amirzoda Rustam

va Sevinchbek Sherozga kelib Pir Muhammad bilan Bag‘dod sari borishlari shart bo‘lgan. Lekin Pir Muhammad yarim yo‘lda bahona qilib Sherozga qaytadi va fitnachilar so‘zlariga uchib, dushmanlikka o‘tib oladi Suyurg‘ol mulki avloddan avlodga o‘tishi haqida ham ma’lumot beriladi. Abdulali tarxondan o‘g‘li Muhammad Boqi tarxonga o‘tganligi ma’lumot keltirilgan [9]. Suyurg‘ol mulki faqatgina aloxida xizmatlar uchungina emas balki maosh sifatida ham berilgan. Abo Bakrning harami bo‘lgan Shohi Malik Hoji Sayfuddin qiziga Bag‘dodga hududiga taaluqli bo‘lgan Dujayl tumanini suyurg‘ol qilib bergan [10; 658- 661]. Matlai sa’dayn va majmai bahrayn asarida Amir Temur harami Tumon og‘oga Kusaviyani suyurg‘ol qilingan va bu yerlardan olinadigan daromad maosh sifatida o‘zlarining extiyojlari uchun sarflashgan.

Movarounnahr va Xurosonda Amir Temur tomonidan yangi davlatga asos solingandan keyin o‘z mavqeyini mustahkamlash maqsadida yer-mulklarni taqsimlash, in’om etish orqali amalga oshirgan. Barcha vazirlar Devonbegiga bo‘ysungan” [11]. Sohibqiron Amir Temur, jumladan, shunday degan edilar: «Amr qildimki, sadrlar sadri (sadr, vaqf yerlar va vaqf etilgan boshqa mulkning hisob-kitobini olib boruvchi mansabdor) sayyidlar va boshqa arboblarga suyurg‘ol tariqasida berilgan yerlar va vaqflarning ahvolini, ularning vazifalarini qay darajada ado etayotganliklarini tekshirib, menga arz qilib tursin... Saltanatning har bir idorasida kirim-chiqimlarni, kundalik harajatlarni yozib borish uchun bir kitob tayinlansin». “Sohibqiron davrida yerga egalikning beshta asosiy ko‘rinishi bo‘lgan: 1. Suyurg‘ol yerlar. Katta hajmdagi bu yerlar davlat tomonidan ajratib berilib, bir avloddan ikkinchisiga o‘tgan. Suyurg‘ol egasi markaziy xazinaga to‘lanadigan soliqdan ozod qilingan. Bunday yer egalari dehqonlarni ishlatib, yer solig‘i - xiroj olganlar. 2. Tarxon yerlar. Bu yerlar xususiy mulk bo‘lib, ular odamlarga biron-bir xizmati uchun berilgan. 3. Ushr yerlar. Sayyid va xo‘jalarga mansub yerlardir. Bundan olingan hosilning undan biri davlatga berilgan. 4. Vaqf yerlar, masjid, madrasa, xonaqoh, qabriston va shu singari joylarga doir yerlardir. Vaqfda yer, suv, bozor, qul, pullar va boshqalar mol-mulki bilan in’om etilgan. Masalan, Amir Temurning Ahmad Yassaviy uchun qurdirgan vaqfnomasi katta ahamiyatga ega. Ahmad Yassaviy va boshqa avliyolar, din peshvolarining maqbaralari uchun vaqfdan mablag‘ ajratilgan. 5. Askarlarga, askarlarning rahbarlariga beriladigan yerlar”.

Kimdakim biron sahroni obod qilsa yoki qoriz (er osti suvlarini tortib chiqarish uchun qurilgan inshoot) qursa, biron bog‘ yaratsa yohud birorta xarob bo‘lib yotgan joyni obod qilsa, birinchi yili undan hech narsa olinmagan. Ikkinchi yili raiyat o‘z roziligi bilan bergani olingan. Uchinchi yildagina soliq qonun-qoidasiga muvofiq xiroj yig‘ilgan. Mazkur vazifalarni bajarmoq uchun har bir shahar va qishloqda qutvol (qal’a boshlig‘i) tayinlanib, ular sipoh va raiyatga soqchilik qilganlar va yana yo‘l ustiga kuzatuvchilar, zobit (idora yetuvchi, boshqaruvchi, qo‘shin boshlig‘i)lar tayinlanib, ular yo‘llarni qo‘riqlab, o‘tkinchilar, savdogarlar, musofirlarni kuzatib, mol-mulki va boshqa narsalarini manzildan-manzilga yetkazib qo‘yganlar. Yo‘l ustida bironta odamning biror narsasi yo‘qolsa, o‘zi o‘ldirilsa yoki boshqa korhol yuz bersa, buning uchun javob berish ularning zimmasida bo‘lgan. Amir Temur davrida ulufa (oziq-ovqat, maosh, soliq turi) berish quyidagicha edi. Amirlar, mingboshilar, yuzboshilar, o‘nboshilar va sipohiylarga ushbu tartibda maosh berilgan: oddiy sipohiyga o‘z

vazifasini o‘rinlatib bajarish sharti bilan maoshi mingan otining bahosiga teng bo‘lgan. Bahodirlarning maoshi ikki ot bahosidan to‘rt otgacha tayinlangan. O‘nboshilar maoshi qo‘l ostidagi oddiy sipohiylarnikidan o‘n barobar ortiq bo‘lgan. Yuzboshilar maoshi o‘nboshilarnikiga qaraganda ikki barobar, mingboshilarniki esa yuzboshilarnikidan uch barobar ziyoda edi. Chorpilchor (urush vaqtida) xatoga yo‘l qo‘ygan sipohiylarning maoshi o‘ndan birga kamaytirilgan. O‘nboshi yuzboshi tasdig‘i bilan, yuzboshi mingboshining tasdig‘i bilan, mingboshi bosh amir tasdig‘i bilan ulufa olganlar.

XULOSA

Ba’zida alohida xizmat ko‘rsatgan beklarga tanho sifatida yer-suv berilgan) berganlar. XIV asrning ikkinchi yarmi va XV asr tarixiy ijtimoiy saboqlar davri hisoblanadi. Bu davrda Amir Temur boshchiligida yagona tug‘ ostida markazlashgan kuchli va mustaqil davlat tashkil topdi. Bu davlatni idora etish va boshqarish uchun Amir Temur asosiy qonun-qoidalar to‘plami «Tuzuklar»ni yaratdi. «Tuzuklar» islom dini mafkurasiga asoslangan bo‘lib, mamlakatni obod etishga xizmat qildi. Xo‘jalikni asosi bo‘lgan dehqonchilik, hunarmandchilik, ichki va tashqi savdo kengaydi, fan va madaniyatning ravnaqi uchun ma’lum shart-sharoitlar yaratildi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI.

1. Абдураззоқ Самарқандий. Матлаи саъдайн ва мажмаи баҳрайн. Форс тилидан А.Ўринбоев таржимаси. — Тошкент: Ўзбекистон., 2008. 616 б.

2. Низомиддин Шомий. Зафарнома. Форс тилидан таржима ва сўз боши муаллифи А.Ўринбоевники. — Тошкент. 1996.

3. Петрушевский И. П. Земледелие и аграрные отношения в Иране XIII-XIV веков — Москва-Ленинград, 1960. 495 с.

4. Темур тузуклари. Форсчадан Алихон Соғуний ва Ҳабибулло Кароматов таржимаси. — Тошкент. 1991. 145 б.

5. Шарафиддин Али Яздий. Зафарнома. Сўз боши, тадбил, изоҳлар ва кўрсаткичлар муаллифлари: А.Аҳмедов. Х. Бобобеков. — Тошкент: Шарқ, 1997.

6. Мукминова Р. Г. К истории аграрных отношений в Узбекистане XVI в Вакф-наме. — Ташкент, 1966. 37 с.

7. Forschadan Alixon Sog’uniy va Xabibullo Karomatov tarjimasi. Temur tuzuklari. Toshkent. “G’afur G’ulom nomidagi nashriyot-matbaa birlashmasi”, 144 b.

8. Razzoqov A., Toshmatov Sh., O‘rmonov N. Iqtisodiy ta’limotlar tarixi. Darslik.-Toshkent.: «Iqtisod - moliya» - 2007 y. 320 b.

9.Toshmatov Sh.X, X.S.Asatullaev, Z.B.Allaberganov Iqtisodiy ta’limotlar tarixi. Darslik. T., 2019 y. 352 b 4. Mustafayevich, S. A. (2023). Yoshlarning iqtisodiy tafakkurini rivojlantirishda sharq mutafakkirlari iqtisodiy qarashlarining o‘rni. Научный Фокус, 1(7), 1142-1145.

10. Ashurbek, S., & Paxmohob, X. Z. Financial System and Financial Policy. JournalNX, 658- 661.

11. Musurmanov, A. N., Satbarov, A. A., Suyarov, A. M., & Xakimova, I. X. (2023). Clustered disciplinary factors of school lessons in modernized education conditions as a social pedagogical problem. Boletin de Literatura Oral-The Literary Journal, 10(1), 2605-2614.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 1-son)

IJTIMOIY FANLAR

SOCIAL STUDIES

ULUG‘BEK HUKMDOR SIFATIDA

Boltayev Abdurasul
Jizzax davlat pedagogika universiteti
tarix fanlari doktori (DSc)

Annotatsiya A.Temurning nabirasi Shoxruxning o‘g‘li Muhammad Tarag‘ay (Ko‘ragoniy) o‘zining qirq yillik faoliyati davomida o‘z saltanitining rivojlanishiga (ham iqtisodiy, ham siyosiy, ham manaviy, ham ilmiy) nihoyatda katta hissa qo‘shdi. O‘z zamonasining mashxur olimi va hukmdori Mirzo Ulug‘bek 1449 yili 27 oktyabrda fojiali o‘ldirildi.

Kalit so‘zlar: Ararum, Muxoraba, Sayram, Ashpara, Ayuxannos, tamg‘a.

УЛУГ-БЕК КАК ПРАВИТЕЛЬ

Абстракт Мухаммад Тарагай (Корагони), сын внука А. Темура Шахруха, за сорок лет своей деятельности внес огромный вклад в развитие своей империи (как экономическое, политическое, духовное, так и научное). Мирзо Улугбек, известный ученый и правитель своего времени, трагически погиб 27 октября 1449 года.

Ключевые слова: Арарум, Мухараба, Сайрам, Ашпара, Аюханнос, тамга.

ULUGHBEG AS A RULER

Annotation Muhammad Taragay (Kuragoni), the son of A. Temur's grandson, Shokhrukh, made a huge contribution to the development of his empire (both economic, political, spiritual and scientific) during his forty-year career. Mirzo Ulugbek, a famous scholar and ruler of his time, was tragically killed on October 27, 1449.

Keywords: Ararum, Mukhoraba, Sayram, Ashpara, Ayukhannos, tamga.

Kirish. Tarixiy ildizlari uzoq ming-yilliklar qa’riga borib taqaluvchi, insoiniyat sivilizatsiyasiga ulkan hissa qo‘shgan o‘zbek xalqi tarixida Mirzo Ulug‘bekning o‘rni nihoyatda beqiyosdir.

Xalqimizning O‘zbekistonda Yangi uyg‘oniy davri g‘oyasiga hamda taraqqiyot strategiyasiga [1.9-42289] – asoslanib sivilizatsiyalar chorrahasida yangi uchunchi renessans poydevoriga ta’mal toshi qo‘yildi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Yulduzlar jadvali (astronimik jadval) ni yaratish bo‘yicha Mirzo Ulug‘bek o‘z davrida ko‘p tomonlama va yangi va mukammal bo‘lgan tadqiqoti

(Ulug‘bek “Ziji” esa unga shon-shuhrat keltirdi. Mazkur sermashaqqatli mehnat esa Ulug‘bekning irodasini va uning ishtiroki bilan Samarqandda barpo qilingan yirik rasadxonada olib borilgan ilmiy kuzatishlar negizida bajarildi. Alloma boshchiligidagi Samarqand astronomiya maktabining tadqiqotchilari yakuni jahon ilm-fa’ni g‘azinasidan munosib va abadiy o‘rin egalladi. Shuningdek, Mirzo Ulug‘bekning sheriyat va tarix ilmi sohasidagi ko‘p qirrali faoliyati ham ma’lum.

1393-yilning oxiri A.Temur Eronga va Old Osiyoga ikkinchi katta harbiy yurish qildi. Bu yurish “5 yillik” deb ataladi. O‘sha paytda rasm bo‘lib qolgan odatga ko‘ra, Temur saroyidagi kishilar uning barcha harbiy yurishlarida hamrox bo‘lib borardilar. A.Temur karvoni Sultoniya shahrida uzoq to‘xtab qoladi. Temurga hamroh bo‘lib brogan saroy ahli orasida uning kenja (17 yashar o‘g‘li) Shohrux va uning xotini Gavharshodbegim ham bor edi. Mana shu manzilda Shohrux 1394-yilning 22-martida o‘g‘il ko‘radi. Va unga Muhammad Tarag‘ay deb nom beradilar. Keyinchalik uni Ulug‘bek deb atala boshlaydi. Ulug‘bekning onasi Gavharshodbegim og‘a zodagon Chig‘atoy urug‘idan bo‘lib G‘iyosiddin Tarxonning qizi edi. A.Temur belgilagan odatga ko‘ra uning hamma nabiralari tug‘ilgan kunidan boshlab saroyda tarbiyalana boshlamoqlari kerak edi. Shuning uchun Ulug‘bekni ham A.Temurning katta xotini saroy mulkixonim ixtiyoriga topshirdilar. 1394-yilda chaqaloq Ulug‘bek Armanistonda va Zakavkazeda bo‘lgan, mashhur hind muhorabasida (1397 – 1398) yillar esa o‘zining murabbiysi saroy mulkixonim bilan birga Qobul shahrigacha A.Temurga hamrox bo‘lib borgan edi. Ulug‘bek g‘arbga qilingan yurishda (1399-1404) yillar ham Temur saroyida bo‘ladi. 1403-yilda esa Temurning arorumdagi uchrashuvida qatnashadilar mavjud an’anaga binoan Temurning yosh nabiralari binobarin Ulug‘bek ham elchilarni qabul qilish marosimini bayon qilib, Lui Gansales De Klavixo bunday deb yozadi: “So‘ngra elchilarni baland so‘rilarda o‘tirgan kichgina bolalar oldiga keltirishdi. Bular shoxning nabiralari bo‘lib, elchilar ularga ham ta’zim qilishdi. Shu payt qirolning Temurga yuborgan maktubini so‘rab qolishgan edi, ular maktubni chiqarib berishdi, maktubni shu bolalardan biri qo‘liga oldi. So‘ngra shu uch bola shu zahoti o‘rnidan turib, maktubni shoxga eltishdi.” [2.247-248-249]

Tahlil va natijalar. 1404-yilda A.Temur erishgan g‘alabalari sharafiga katta to‘y o‘tkazdi. Ayni shu vaqtda Temur nabiralarining ham nikohi bo‘ladi. Shu jumladan, endigina 10 yoshga kirgan Ulug‘bek ham o‘z amakisi Muhammad Sultonning qizi – Og‘abegimga unashtiriladi. Albatta bunda er-xotinlik munosabatlari to‘g‘risida gap ham bo‘lishi mumkin emas. Kichik yoshidagi va hatto yangi tug‘ilgan bolalarni uylantirish to‘g‘risidagi rasmiy unashtirish ikki urug‘ning bir-biriga yaqinlashtirishni maqsad qilib qo‘yadi. Shunday odat, masalan Turkistondagi o‘zbeklar va qozoqlar o‘rtasida ham bor edi, shuning uchun nikohdan keyin ham Ulug‘bek Saroy Mulkxonimning nazoratida qolaverganligi tabiiy hodir. Shu vaqtga kelib, A.Temur 68 ga kirganligidan ko‘zi ochiqligida nabiralarining (taqdirini) belgilab qo‘ymoqchi bo‘ladi. Aftidan mana shu niyatlari asosida bo‘lsa kerak, o‘sha yili Temur Shohruxning kichik yoshdagi o‘g‘illari Ulug‘bekka- Toshkent, Sayram, Ashpara va Mog‘ilistonni, Ibrohimga esa (Ulug‘bekning ukasi) Farg‘ona bilan Qarshi va Xo‘tanni beradi. 1405-yilning fevralida bo‘lgan

yurishlarning birida esa A.Temur xastalanib, (9-fevralda) O‘tror shahrida vafot etadi. Sh.A.Yazdiyning qalamiga mansub “Zafarnoma”da A.Temurning kasallanishi va vafotiga butun bir bop bag‘ishlangan. A.Temur o‘z xotinlari va amirlarini o‘z huzuriga chorlab, bunday deb vasiyat qiladi: «Mening makonim jon ato qilguvchi va uni olg‘uvchi arshi-alo huzuridadir, shunday bo‘lgach, sizlarni tangri taolo panohiga topshiraman. Mening vafotimdan so‘ng; ayuhannos solib, oh-fig‘on qilib yurmasligingiz kerak. Chunki bulardan hech qanday foyda yo‘q. Oh-fig‘on bilan o‘limni hurkita olgan bandasi topiladimi?”

“Endi quloq soling: nabiram Pirmuhammad Jahongir mening vorisim bo‘lsin va taxtimga o‘tirsin, deb ta’lab qilaman. U Samarqand taxtiga mutlaq hokim bo‘lib, fuqarolar va davlat ishlari to‘g‘risida qayg‘urmog‘i, sizlar esa unga bo‘ysunib, xizmatini qilmog‘ingiz, uning hokimyatini saqlamoq uchun joningizni fido etmog‘ingiz kerak”.

A.Temurning barcha an’analari, shu jumaladan amrlari: xohishingiz so‘zsiz bajariladi, deb qasamyod qildilar. Boshlangan yurishni to‘xtatmaslik uchun A.Temurning o‘lim pinhon tutildi. Va jasadi esa Samarqandga yuborildi. Shunga qaramay, A.Temurning vafot etganligi to‘g‘risidagi sovuq xabar, yashin tezligida tarqalib ketdi. Pirmuhammadni na amirlar, na shahzodalar podshox deb tan olmadilar. Natijada A.Temurning feudal davlati bir necha oy davomidayoq tanazzulga yuz tutdi.

Hokimiyat uchun kurash boshlanib ketdi. Shu vaqtda Temurning nabirasi Sulton Husayn boshliq qo‘shin sul qanoti Yassi (Turkiston) va Savronda qishladi. Sulton Husayn qo‘shinni tashlab, o‘ziga sodiq jangchilardan ming kishilik otryad tuzib Samarqandga yo‘l oladi. Bundan xabar topgan O‘trordagi markaziy qo‘shin kuchlarning larkashboshilari yurishni bekor qilish to‘g‘risida qarorga kelib, buni Toshkentda turgan kishilarga xabar qilishadi.

Temurning boshqa bir nabirasi - Mironshoxning o‘g‘li Xalil sulton bilan Umarshayxning o‘g‘li shahzoda Axmad boshchiligidagi qo‘shin o‘ng qanoti Shohruxiya, Toshkent va Samarqandda edi. Axmat boshliq barcha lashkarboshilar Xalil sultonga sodiq turamiz, deb qasamyod qildilar. Lekin A.Temurning xohishi buzilganligi markaziy va o‘ng qa’not qo‘shin lashkarboshilari o‘rtasida kelishmovchilik keltirib chiqarib, buning natijasida Toshkentdagi qo‘shinning o‘ng qanoti Pirmuhammadga qasamyod qildi. Sobiq markaziy qo‘shin lashkarlari (Shohruxning o‘g‘illari-Ulug‘bek va Ibrohim sulton shu yerda edi.) Amir Shox Malik va Amir Shayx Nuriddin boschiligida Samarqandga qarab yo‘l oldilar. Lekin shahar hokimlari Amir Arg‘unshox bilan Xoja Yusuf ularni qabul qilmadilar. Shundan keyin ular Buxoroga qaytib ketdilar. Buxoro hech qanday qarshilik ko‘rsatmay ular tomoniga o‘tdi. Bir muncha keyinroq, (1405-yil 18-mart) shahar qa’lasi Temur xazinasi kalitini olgan Xalil Sulton poytaxt-Samarqandni ishg‘ol qiladi. Lekin Xalil Sulton A.Temurning sevikli vorisi marhum Muhammad Sultonning o‘g‘li kichik Muhammad Jahongirni “Xon” qilib ko‘tarib, katta oliyjanob ish qildi.

Tez orada lashkarboshi Rustam (unga birodari Xamza bilan birga Buxoroni hadya qilish vazifasi topshirilgan edi).

Xurosonga Shohrux huzuriga ketgan Shoxmalik yo‘qligidan foydalanib Xalil sulton tomonga o‘tdi. Va aholining bir qismini qurollantirib, mart oyida kutilmaganda shaharga hujum

qildi. Shayx Nuriddin bilan shahzodlar esa Shohrux huzuriga jo‘nashib qochib qutuldilar. Shundan keyin Ulug‘bek Amirshox Malik vasiyligida Shopirgon va Andixoy begi qilib tayinlandi. Nihoyat 4 yillik olishuvlardan so‘ng, 1409-yilda Shohrux – Xalil Sulton ustidan g‘alaba qozonishga muvafaq bo‘ldi. Xalq ommasining Xalil Sultonda noroziligi ham bu muvaffaqiyatlarga yordam berdi, albatta. Chunki, uning hukmronligi ochlik va vayronalik keltirgan edi, xalos. Natijada Shohrux ikki mustaqil davlat bunyod etdi: markazi Hirot shahri bo‘lgan Xuroson davlatiga Shohruxning o‘zi, markazi Samarqand bo‘lgan Movorounnahr davlatiga esa Shohruxning o‘g‘li Ulug‘bek hukmdor bo‘ldi. Ulug‘bek Samarqandning hukmdori deb e’lon qilinganda esa, endigina 15 yoshga kirga edi, xalos. Shuning uchun, Samarqanddagi haqiqiy hokimiyat Ulug‘bekning vasiysi Shoxmalikka ishonib topshirilgan edi. Lekin Shoxmalikning raqibi – O‘trordagi Shayx Nuriddin bilan Muhammad Jahongirni Hirotdagi vasiylari tinib tinchimadilar.Ular 1410-yil bahorda Shohmalikga qarshi, binobarin Ulug‘bekga qarshi kurash boshlab yubordilar.Shohruhning to‘la yordami va shaxsiy ishtirokida o‘sha yilning iyul oyida bo‘lgan bu jangda u g‘alaba qozonib, Hirotga qaytib ketdi.1411-yilning boshida esa Shohmalik Shayx Nuriddinni batamom bo‘ysindirib, urushni poyoniga yetkazdi.Shohruh yana Sentyabr oyida Samarqandga kelgan bo‘lsada, ko‘p o‘tmay o‘zi bilan Shohmalikni olib shahardan chiqib ketdi. Bu paytda Ulug‘bek 17 yoshga kirgandi. U o‘z vasiylaridan halos bo‘lgach, movarounnahr va unga yondosh viloyatlar(shimoli-g‘arbdan to Sag‘anaqqacha, shimoliy- sharqdan esa to Ashparagacha)ning to‘liq hukmdori bo‘lib qoldi.Ulug’nek bobosi A.Temurga o‘xshamaydi, bosqinchilik yurishlariga qiziqmaydi.Uning zamonida bo‘lgan yurishlar ham, birinchidan juda qisqa muddatli bo‘lsada, ikkinchidan esa mutloqo boshqacha harakterda bo‘lar edi:bu yiurishlar asosan juda zarur bo‘lgandagina, biton havf-xatar bo‘lgandagina amalga oshirilar edi. Masalan, 1425-yilning boshida mog‘ullar tarafidan shunday havf-xatarlar bo‘lganioda ulug‘bek yurish qilishga majbur bo‘ldi. U so‘ngi bor 1427-yilda shahzoda Bo‘roqqa qarshi chiqishga majbur bo‘lgan edi.Bo’roq esa hech bir asossiz Sirdaryo yoqasidagi yerlarni da’vo qilib chiqqan edi. Shundan keyin o‘tgan 20-yil mobaynida u shaxsan hech qanday yurish o‘tkazmadi.[3.113] Hatto Sirdaryo va Mog‘uliston tomonidan uning yerlariga hujumlar bo‘lib turganida ham bularga qarshi yurish qilmadi.Ulug’bek davrida bo‘lgan ozgina yurishlarni jamlasak, nari bilan 2-3 yilga boradi, halos. Shunday qilib, u qolgan vaqtlarning hammasida harbiy yurishlar bilan emas, balki ilm-fan bilan shug‘ullandi. Ulug‘bek hukmdorlarning katta ko‘pchiligi singari davlat arbobi sifatida emas, balki haqiqiy olim sifatida shuhrat qozondi.Ulug’bekning fanga juda qiziqib ketganligi uning davlat faoliyatiga mas’ul darajada salbiy ta’sir ko‘rsatdi. Shunday bo‘lsa-da, u o‘z faoliyatini davom ettirdi. [4.50]

Ulug‘bek qurdirgan madrasasi peshtoqidagi yozuvga ko‘ra, u 1417-yilda qurila boshlanib, 1420-yilda poyoniga yetkaziladi. Dastlab bino 2 qavatli bo‘lib, burchakda darsxonalar tepasida 4 ta gumbazi va 4 chekkasida 4 ta minorasi bo‘lgan. Mo‘jiza deb yoqangizni ushlaysiz!Madrasa baayni Osmon gumbazini ushlab turgan tog‘dek, mustahkam turibdi.madrasaning peshtoqi

osmondek baland. Uning vaznidan yerning umrtqasi qarsillab ketadi.madrasa peshtoqi bilan osmon gumbaza payvasta bo‘lib ketgan. [5.170].

1870-yilda bo‘lgan zilzida minoralardan biri qulab tushgan. Og‘ib qolgan ikkinchi minorasi esa 1932-yilda tog‘irlandi, uchi o‘q markazidan 2 metr nari qochgan, uchinchi minora ham 1965-yilda to‘g‘irlab qo‘yildi.

Ulug‘bek madrasasi umumiy arxitektura kompozitsiyasi jihatida, shuningdek bezaklarining sifati jihatidan nihoyatda asl imoratdir.Ulug’bek shaxsiy hayotida va siyosiy faoliyatda o‘z otasi shohruhga tamomam(zid) qarshi kishi bo‘lganligi bilan ajralib turadi.Shohruh 1447-yil 12-mart kuni nevarasi sulton Muhammad(Boysung‘urni o‘g‘li) isyonini bostirish vaqtida betoblanib, Ray viloyatida olamdan o‘tadi. O‘z boshimcha shahzodalarga qarshi Ulug‘bek qo‘shin bilan qarsh chiqishga va ular bilan muzokaralar olib borib, kelishishga majbur bo‘ladi. Chunki, 1447-yilning aprelida Alouddavla Ulug‘bekning o‘g‘li Abdulatifnong qo‘shinini Nishopur yaqinida tor-mor qilib, o‘zini asirga olgan va hirotga qaytarib Ixtiyoriddin qal’asiga qamab qo‘ygan edi. Abdulatifning hayoti tahlika ostida qolgach Ulug‘bek Olouddavla bilan sulh tuzishga majbur bo‘ladi. Har ikki taraf ham sisosiy vaziyatga ko‘ra urushni davom ettirishdan manfaatdor emas edi.Chunki boshboshdoqlik avjiga mingan, har bir shahzoda Hirot tahtiga davogar bo‘lib, o‘zicha kurash olib borar edi. Bitimga ko‘ra Abdulatif ozod qilinib, ulug‘bek esa Hirot va Xurosonga bo‘lgan da’vosidan voz kechdi.Biroq ko‘p o‘tmay abdulatif bilan Olouddavla Munosabatlari yana keskinlashib ketadi.1448-yilning bahorida Ulug‘bek va abdulatif 90-minglik birlashgan qo‘shini Hirotga yurish qiladi.

Tarnob yaqinida bo‘lgan jangda Olouddavla qo‘shini tormor keltirilib, Hirot qo‘lga kiritiladi.Bu g‘alabadan so‘ng Abdulatif garchi bobosi shohruhning Hirotdagi taxtiga muyassar bo‘lsada, ammo unga otasiga nisbatan adovat paydo bo‘ladi. Chunki g‘alaba to‘g‘risoda tevarak atrofga yuborilgan fatxnomalarda esa Abdulatifning nomi inisi Abdulazizdan so‘ng tilga olinardi. Uning ihtiyoriddfin qal’asidagi xazinasi Ulug‘bek tomonidan olib qo‘yilib, ma’lum darajada adolatsizlik va mehribonsizlikka yo‘l qo‘yilgan edi. Bu esa shubxasiz, o‘ta shuhratparast, hamda mol dunyoga o‘ch Abdulatif uchun yetarli asos va bahonaga sabab bo‘lgan edi.U otasining dushmanlari bilan yashirin tarzda til biriktirib, zimdan Ulug‘bekka qarshi harakat qila boshlaydi. Avvalambor Abdulatif Hirotda bor-yog‘i 15-kun hokimlik qiladi. Abulqosim Bobur qo‘shining shaharga yaqinlashib kelayotganini habar topib, poytaxtni jangsiz bo‘shatib, movarounnahr tomon qochadi. Ulug‘bek farmoni bilan Balxga noib qilib tayinlangach, viloyatda tamg‘a (boj)ni bekor qilib, savdogarlarni o‘z tarafiga oh’dirib oladi. Otasidan norozi bo‘lgan amirlarni o‘z tarafiga to‘playdi. Hatto Abulqosim Bobur bilan bog‘lanib uni ham Ulug‘bekka qarshi, birgalikda kurashihga undaydi. Shunday qilib, Abdulatif o‘z otasiga qarshi ochiqdan-ochiq dushmanlik yo‘liga o‘tadi. Davlatning yahlitligini saqlab qilmoq uchun Ulug‘bekda o‘zining isyonkor va makkor o‘g‘liga qarshi yurish qilishdan boshqa iloji qilmaydi.Ayni zamonda mamlakatda sisosiy vaziyat juda keskinlashib, Ulug‘bekning ahvoli yanada taranglashib, mushkullashadi.Bunday qaltis vaziyatdan dashti qipchoq ko‘chmanchilari ham foydalanib qolishga harakat qiladilar. Hirotdan Samarqandga qaytar ekan,

U’lug‘bek old tomondan dashti qipchoq ko‘chmanchilarning hujumiga duvhor bo‘ladi.Abulxayrxon boshchiligida ko‘chmanchilar o‘shanda Toshkent, Shoxruhiya, Samarqand, va Buxoro tevaragidagi qishloqlarni talab, podshoh va yirik mansabdorlarning, shahar atrofidagi Chorbog‘ va ko‘shklarini, jumladan bog‘imaydon, chilustun, chinnixona kabi ko‘pgina go‘zal me’moriy qasrlarni vayron qildilar. Ikki tarafdan kelgan dushmanlar bilan to‘qnashuvlar oqibatida Ulug‘bek qo‘shini qattiq shikast topib, zaiflashib qoladi.

Ana shu vaqtda Ulug‘bekning samarqandda vaqtinchalik noib qilib qoldirilgankichik o‘g‘li Abdulazizga qarshi Samarqand amirlarining noroziligi kuchayib, Ulug‘bek esa uni bartaraf qilishga majbur bo‘ladi. Otasining qiyin ahvolda qolganini kuzatib turgan Abdulatif qulay fursatdan foydalanib, bosh ko‘taradi va amudaryodan kechib o‘tib, termiz, kesh va hirotni osongina zabt etadi.So’ngra Samarqandga qarab yo‘l oladi.1449-yil oktyabrda poytaxt yaqinidagi damashq qishlog‘I yonida qattiq jang bo‘ladi va bu jangda Ulug‘bek yengiladi. Samarqan amiri Mironshoh Qavchin shahar darvozalarini bekittirib, Ulug‘bekni ichkariga kirishga qo‘ymaydi.U shohruhiyaga ham kirolmaydi va Abdulatifga taslim bo‘lishga majbur bo‘ladi. Shahar qozisi Shamsiddin Muhammad Miskinning qarshiligiga qaramasdan , Abdulatif samarqandning jaholatparast ulamolarining yashirin fatvosini chiqartirib, otasining o‘ldirilishini uyushtiradi.

Zamonasinig mashhur olimi va hukmdori Mirzo Ulug‘bek 1449-yil 27-oktabrda 55 yoshida Samarqand yaqinida fojiali suratda shahid bo‘ladi. U padarkush-o‘z o‘g‘li tomonidan pinhona o‘ldiriladi.

Shunday qilib, Ulug‘bek 40-yil(1409-1449)idora qiladi. Bu davrda mamlakatning siyosiy hayotida keskin kurashlar davom etganligiga qaramay, bopbosi A.Temurdan farqli o‘laroq u(Ulug‘bek) shiddatli harbiy yurishlar uyushtirib, qo‘shni mamlakatlarni bosib olishga intilmadi. Aksincha u o‘z davlatini mustahkamlashga, mamlakat birligini saqlab qolishga va madaniy hayotini ko‘tarishga harakat qildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1.Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёев. Янги Ўзбекистон стратегияси. Т.2021. Б-9-42-289

2. Р.Г Клавихо. Дневник путешестиевея Ко двору Темура в Самарканд в 1403-1406 гг. СПб. 1881.s-248-249

3. В.Бартолд. Соченения.Т.2. СН-2.М-1964,стр-113

4.Т.Н Қориниёзий-Улуғбекнинг ва унинг мероси.Ўзб нашриёти. Т-1971, б-50

5. В.Л Вяткина, Самарқанд-1899, с-170

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 1-son)

IJTIMOIY FANLAR

SOCIAL STUDIES

MIKROELEMENTLARNI KONTSENTRATSIYASI VA YUMSHOQ BUG'DOY NAVLARINING SIFAT XUSUSIYATLARI

Abduhamidov Qudrat Obidjonovich
Ishonkulova Gulhon Tagaymuratovna
Ishankulova Mehri Muratovna
Toshkent viloyati Angren shahar
Davolash fakulteti Angren universiteti o'qituvchilari

Annotatsiya: Ushbu ishda mamlakatimizning turli hududlarida ekilayotgan va yuqori temir hamda rux miqdoriga ega bo‘lgan bug‘doy navlarining genetika xususiyatlari taqdim etilgan. Kashkadaryoning sharoitida ekilgan yumshoq bug‘doy namunalarining hosildorlik, oqsil miqdori, namlik darajasi va donning qattiqlik xususiyatlari o‘rganildi. Ushbu navlar selektsiya amaliyotida qo‘llanishi maqsadida tadqiq qilinmoqda.

Kalit so‘zlar: yumshoq bug‘doy, mikroelementlar, temir, rux, anemiya, biofortifikatsiya, donning shaffofligi, donning proteini, genlar, genotip.

КОНЦЕНТРАЦИЯ МИКРОЭЛЕМЕНТОВ И ХАРАКТЕРИСТИКИ КАЧЕСТВА СОРТОВ МЯГКОЙ ПШЕНИЦЫ

Аннотация: В данной работе представлены генетические особенности сортов пшеницы, культивируемых в различных областях нашей страны, обладающих высоким содержанием железа и цинка. Описаны результаты исследования урожайности, уровня белка, влажности и твердости зерна образцов мягкой пшеницы, выращенной в условиях Кашкадарьинской области. Эти сорта пшеницы исследуются с целью их применения в селекционной практике.

Ключевые слова: мягкая пшеница, микроэлементы, железо, цинк, анемия, биофортификация, прозрачность зерна, протеин зерна, гены, генотип

CONCENTRATION OF MICROELEMENTS AND QUALITY CHARACTERISTICS OF SOFT WHEAT VARIETIES

Abstract: This paper presents the genetic characteristics of wheat varieties grown in different regions of our country, which are rich in iron and zinc content. The results of the study on yield, protein content, moisture, and grain hardness of soft wheat samples grown under the climatic conditions of the Kashkadarya region are described. These wheat varieties are being studied for their potential use as a resource in breeding work.

Keywords: soft wheat, microelements, iron, zinc, anemia, biofortification, grain transparency, grain protein, *genes, genotype.*

Мягкая пшеница является важнейшей сельскохозяйственной культурой, используемой для производства хлеба и других продуктов. Одним из ключевых факторов, влияющих на качество пшеницы, является содержание микроэлементов, таких как железо, цинк, медь и другие, которые играют важную роль в поддержании здоровья человека и животных. Недавние исследования показали, что улучшение концентрации этих микроэлементов в пшенице может значительно повысить ее питательную ценность.

Концентрация микроэлементов в пшенице зависит от множества факторов, включая тип почвы, климатические условия, агротехнические методы и генетические особенности сорта. Например, содержание железа и цинка в зерне пшеницы может варьироваться в зависимости от региона выращивания и используемых удобрений. В условиях недостаточного содержания этих элементов в почве, растения могут испытывать дефицит, что сказывается на качестве и урожайности.

Особое внимание уделяется **биофортификации** пшеницы — процессу увеличения концентрации полезных микроэлементов в зерне путем селекции и генетических изменений. Исследования показали, что некоторые сорта пшеницы, выращенные в определенных регионах, могут содержать более высокие концентрации железа и цинка, что имеет важное значение для борьбы с дефицитом этих элементов в рационе населения.

Качество сортов пшеницы оценивается по нескольким основным показателям, таким как содержание белка, влажность и твердость зерна. Концентрация белка в зерне пшеницы играет важную роль в ее хлебопекарных свойствах. Высокое содержание белка способствует улучшению структуры теста и повышению качества хлеба. Влажность зерна также является важным показателем, так как она влияет на сроки хранения и стабильность качества продукта.Важным аспектом является также **твердость зерна**, которая определяет его пригодность для переработки в муку. Мягкие сорта пшеницы обычно имеют меньшую твердость зерна, что способствует получению высококачественной муки с хорошими хлебопекарными свойствами.Одним из методов повышения качества пшеницы является использование **новых сортов**, которые отличаются высокой устойчивостью к неблагоприятным климатическим условиям, а также содержат более высокие концентрации микроэлементов. В рамках селекционной работы акцент делается на создание сортов с улучшенными характеристиками по содержанию белка, микроэлементов и других питательных веществ.Таким образом, концентрация микроэлементов и характеристики качества сортов мягкой пшеницы являются важными аспектами, которые определяют не только урожайность, но и питательную ценность и пригодность пшеницы для переработки в продукты с высокой добавленной стоимостью. Разработка новых сортов с улучшенными показателями по

этим параметрам является ключевым направлением в агрономии и сельском хозяйстве в целом.Ршеница, как и многие другие злаки, содержит важные микроэлементы, такие как железо, цинк и другие. В настоящее время почти два миллиарда людей по всему миру страдают от дефицита этих элементов, особенно в регионах, где выращиваются зерновые культуры. Хотя пшеничную муку часто обогащают в процессе переработки, наиболее эффективным и долговечным решением является биофортификация, которая заключается в выращивании новых сортов с высоким содержанием железа и цинка. Сегодня около 60% женщин репродуктивного возраста и 50% детей страдают от железодефицитной анемии, и одной из основных причин является недостаток этих микроэлементов в продуктах питания, произведённых из зерновых.Цинк встречается в почвах в виде фосфатов, карбонатов, оксидов и сульфидов. В злаках и бобовых культурах его содержание варьируется от 15 до 60 мг/кг сухого веса, и он в основном накапливается в молодых частях растения. Цинк играет ключевую роль в метаболизме растений, активируя рост и синтез ауксинов. Недостаток цинка в растениях может вызвать нарушение фосфорного обмена, замедление роста, хлороз листьев и нарушение фотосинтеза. Проблемы с ростом цитрусовых были выявлены на почвах с очень низким содержанием цинка.Исследования показали, что растения могут поглощать такие микроэлементы, как Fe^{2+}, Cu^{2+} и Mn^{2+} через корневые волоски. При этом усвоение железа почвой зависит от оптимального содержания марганца. Эти два элемента работают в синергии, что способствует их эффективному поглощению. Кроме того, увеличение концентрации калия и изменение соотношения ионов K^{+}/Ca^{2+} в клеточном соке растений способствуют большему усвоению железа.Железо, цинк, а также витамины группы B (B1, B2, B6), ниацин содержатся в значительных количествах в зерне пшеницы. Однако, поскольку эти элементы находятся в оболочке зерна, большинство из них теряется при его переработке. За последние 100 лет содержание полезных веществ в зерновых культурах уменьшилось более чем на 40%, что делает необходимым обогащение зерна элементами железа и цинка.В Узбекистане для обогащения муки используют смеси витаминов и минералов (премиксы), разработанные с учётом потребностей населения Средней Азии и климатических особенностей региона. Однако добавление элементов в продукт не решает проблему, поскольку важно увеличить содержание этих элементов непосредственно в семенах. Для этого был разработан биофортификационный подход, основанный на селекции и генетике, который способствует естественному увеличению содержания микроэлементов в растениях.Для достижения этой цели необходимо развивать сорта пшеницы с высоким содержанием белка, железа и цинка. Известно, что некоторые дикие виды пшеницы содержат больше железа и цинка, чем их культурные аналоги, что открывает возможности для биологического обогащения и создания генотипов, способных накапливать больше этих микроэлементов.В этом исследовании использовались старинные сорта пшеницы, собранные в отдалённых горных районах Кашкадарьинской области. В зернах,

измельчённых в мельнице, была исследована концентрация элементов железа (Fe), цинка (Zn) и меди (Cu) с использованием атомно-абсорбционного спектрометра. Результаты показали, что среднее содержание железа в зерне составляет 34 мг/кг, а цинка – 16 мг/кг. Максимальные показатели железа достигали 40,93 мг/кг, а цинка – 27,49 мг/кг, в то время как минимальные значения были 10,05 мг/кг для железа и 13,13 мг/кг для цинка. Эти данные показывают, что в некоторых районах содержание железа в зерне значительно ниже нормы, необходимой для здоровья, в то время как в других оно вполне удовлетворительно, а в некоторых районах даже превышает норму. Для выяснения причин таких различий были проведены дополнительные исследования.

Таблица 1

Показатели элементов Fe, Zn, Cu в некоторых сортах пшеницы

№	Наименование сорта	Микроэлементы		
		Zn мг/кг	Fe мг/кг	Cu мг/кг
1	Шамс	22,44	28,82	1,12
2	Гозгон	25,62	28,28	12,34
3	Кеш-2016	27,49	39,99	8,04
4	Туркистон	23,38	40,93	10,79
5	Бунёдкор	22,27	29,48	5,83
6	Шукрона	27,49	40,12	5,13
7	Яксарт	22,03	32,65	3,94
8	Хисорак	26,65	30,81	1,74
9	Хазрати Башир	10,05	13,13	0,54

Таблица 2

Показатели белка, влаги и твердости некоторых сортов пшеницы

№	Наименование сорта	Кол-во бел (%)	Влажность (%	Твердость (%)
1	Шамс	15,5	9,9	54
2	Гозгон	18,1	10,3	56
3	Кеш-2016	18,5	11,1	50
4	Туркистон	19,4	10,8	65
5	Бунёдкор	15,9	10,1	51
6	Шукрона	18,3	10,7	42
7	Яксарт	15,5	10,1	49
8	Хисорак	16,1	10,1	49
9	Хазрати Башир	15,9	10,0	51

Обсуждение. У некоторых сортов «Туркестан», «Шукрона» и «Кеш-2016» количество микроэлемента железа и количество микроэлемента цинка были одновременно высокими. У других сортов – «Кеш-2016» и «Шукрона», «Хисорак» – количество микроэлемента железа было высоким, а количество микроэлемента цинка – низким. Установлено, что содержание белка у сортов «Гозгон-18,1» %, «Кеш-2016-18,5» %, «Туркестан» %, «Шукрона» составляет 18,3%, и этот показатель выше, чем у других сортов. По результатам исследований установлено, что в зернах древних сортов «Туркистон», «Шукрона» и «Кеш-2016» и ряда других сортов содержится большое количество микроэлемента железо. Сорт «Кеш-2016», «Шукрона», «Хисорак» имеет самое высокое содержание цинка. Установлено, что наибольшее содержание белка имеет сорт «Туркестанская», «Шукрона», «Кеш-2016», «Гозгон». Установлено, что сорта «Кеш-2016» и «Шукрона» имеют высокое содержание железа, цинка и белка.

Заключение. В заключение следует сказать, что определены показатели качества зерна древних сортов мягкой пшеницы, выращиваемых в Кашкадарьинской области, и отобраны сорта с высокими результатами. По полученным данным по количеству железа, цинка и белка высокие результаты показали сорта «Туркестанская», «Кеш-2016» и «Шукрона».

Концентрация микроэлементов и характеристики качества сортов мягкой пшеницы играют ключевую роль в обеспечении высокого уровня питательной ценности и функциональности зерна. Высокое содержание таких микроэлементов, как железо и цинк, в зерне пшеницы является важным фактором для борьбы с дефицитом этих элементов в рационе населения, особенно в регионах, где наблюдается дефицит данных веществ.Современные исследования в области биофортификации пшеницы, направленные на улучшение содержания микроэлементов, открывают новые перспективы для повышения ценности пшеницы как продовольственного ресурса. Также важно учитывать генетическую предрасположенность сортов пшеницы, что позволяет улучшать их химический состав и адаптировать к условиям конкретных регионов.Повышение качества пшеницы также зависит от оптимизации агротехнических практик, таких как выбор сортов с высокой урожайностью и устойчивостью к вредителям и болезням. Селекция новых сортов, сочетающих высокое содержание микроэлементов и отличные хлебопекарные свойства, позволит значительно улучшить качество конечных продуктов и повысить их питательную ценность.Таким образом, интеграция современных методов селекции, биофортификации и агрономических технологий создает основу для улучшения как качества, так и питательной ценности пшеницы, что в свою очередь способствует решению проблемы дефицита микроэлементов в рационе человека.

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Шарманов Т.Ш. Профилактика и борьба с железодефицитной анемией//Практ. Руководк для медиценских работников. – 1999. Алма-ата – 28с.

2. Маликова Г.Б., Махмудова М.А., Бугланов А. А. Выявляемость дефицита железа и информативность диагностических тестов при оценке железа у беременных// Проблемы гематологии. -2001. - №4.С.42-48.

3. Philippa Borrill, James M. Connorton, Janneke Balk, Anthony J. Miller, Dale Sanders1 and Cristobal Uauy. Frontiers in Plant Science. Biofortification of wheat grain with iron and zinc: integrating novel genomic resources and knowledge from model crops. published: 21 February 2014 doi: 10.3389/fpls.2014.00053

4. Хотимченко С.А., Алексеева И.А., Батурин А.К. Распространраненность и профилактика дефицита железа у детей и беременнқх женщин // Российский педиатрический журнал. 1999. - № 1. – С.21-29.

5. Olsen R.A., Miller R.O. Absorption of ferrie iron by plants // J.Plant Nuts. 1986. – 9, -N3 – 7.P. 751-757.

6. Leidi E.O, Gromez K., Guardion. Evaluation of catalase and peroxidase activity as indicator of Fe and Mn nutrition to soybean // J.Plant Nutr. – 1986. – V.9. – N.9. – P.1239 – 1249.

7. World Health Organization (WHO) 2002. Web site www.who.int/nut/ida.htm.

8. Baboeva S.S., Matkarimov F.I., Usmanov R.M., Turaev O.S., Togaeva M.A., Baboev S.K., Kushanov F.N. (2023). Climate change impact on chlorophyll content and grain yield of bread wheat (*Triticum aestivum* L.) Sabrao Journal of Breeding and Genetics 55 (6) 0-0, 1930-1940. 2023 http://doi.org/10.54910/sabrao2023.55.6.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 1-son)

IJTIMOIY FANLAR

SOCIAL STUDIES

UO’K 94:34

QATAG‘ONLIK YILLARIDA DINGA VA DINIY ULAMOLARGA QARSHI SIYOSAT (Sirdaryo viloyati misolida)

O‘rmonov Husniddin
Guliston davlat universiteti tuzilmasidagi
Qatag‘on qurbonlari xotirasi muzeyi xodimi
Tel: +998994726388 ; Email. urmonov94@list.ru

Annotatsiya: Maqolada 1930-40-yillarda yuz bergan qatag’onlik siyosatining ayanchli tomonlari, minglab begunoh insonlarning jabr-sitamli hayoti aks ettirilgan. Diniy ulamolarga 30-37-yillarda berilgan siyosiy ayblovlar, ro’za tutishni zarar degan qarashlar adabiyotlar, arxiv hujjatlari, gazetalalardagi maqolalar asosida yoritib berilgan. Maqolada ayrim diniy ulamolarning qamoqqa olinishi, jazolanishi to’g’risidagi ma’lumotlar o’rganilgan.

Kalit so‘zlar: qatag’on, musulmon, diniy ulamolar, Qizil O’zbekiston, targ’ibot, tashviqot, xalq dushmani, quloqlashtirish.

ПОЛИТИКА ПРОТИВ РЕЛИГИИ И РЕЛИГИОЗНЫХ ДЕЯТЕЛЕЙ В ГОДЫ РЕПРЕССИЙ (НА ПРИМЕРЕ СЫРДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ)

Аннотация. В статье отражены прискорбные стороны репрессивной политики, имевшей место в 1930-40-е годы, а также мучительная жизнь тысяч невинных людей. На основе литературы, архивных документов и газетных статей объясняются политические обвинения в адрес богословов в 1930-1937 гг., мнения о вреде поста. В статье рассматриваются сведения о заключении в тюрьму и наказании некоторых богословов.

Ключевые слова: репрессия, мусульманин, религиозные деятели, Красный Узбекистан, агитация, пропаганда, враг народа, раскулачивание.

POLICY AGAINST RELIGION AND RELIGIOUS FIGURES DURING THE YEARS OF REPRESSION (BASED ON THE EXAMPLE OF SYRDARYA REGION)

Abstract. The article reflects the unfortunate aspects of the repressive policies that took place in the 1930s and 40s, as well as the painful lives of thousands of innocent people. Based on literature, archival documents and newspaper articles, political accusations against theologians in 1930-1937 and opinions about the dangers of fasting are explained. The article examines information about the imprisonment and punishment of some theologians.

Key words: repression, Muslim, religious figures, Red Uzbekistan, agitation, propaganda, enemy of the people, dispossession.

KIRISH. Sovetlar davrida dinimizga qarshi kurash dahriylarning bosh vazifalaridan edi. Mustamlakachilik siyosatini yuritishda buzuq mafkuralarini yoyishda din va ulamolar katta to‘g‘anoq bo‘lishini ular yaxshi bilishardi. Shuning uchun barcha vositalar ishga solinib, din va dindorlar badnom qilingan. Milliy diniy qadriyatlar, musulmonlarning haq-huquqlari poymol etildi, haqoratlandi. 1924 yili markazning buyrug‘i bilan O‘zbekistonda diniy ta’lim berib turgan deyarli barcha madrasa va masjidlar yopildi. 1926 yilning 30 aprelida VKP(b) MQ huzurida bo’lib o’tgan partiya kengashida dinga qarshi targ’ibot tezislari qabul qilindi [1, b.88]. Ko‘zga ko‘ringan ulamolar, din arboblari soxta aybnomalar bilan qamoqqa olindi yoki olis yurtlarga badarg‘a qilindi. Ko‘plari jonini, dinini asrash uchun o‘z yurtidan chiqib ketishga majbur bo‘lishdi. Ming yillar mobaynida bitilgan, o‘rganilgan, asrab kelingan jild-jild nodir qo‘lyozmalar, kitoblar o‘tga yoqildi, suvga oqizildi, yerga ko‘mildi. Qur’oni karimni o‘qib, o‘rganish u yoqda tursin, hatto uyda saqlash ham jinoyat hisoblanar edi.

ADABIYOTLAR TAHLILI. 1920-yillar oxiri - 1930-yillarda dinga qarshi kurash avj oldi. Gazeta va jurnallarda ko’plab tanqidiy maqolalar bosildi. Jumladan, “Qizil O‘zbekiston” gazetasidagi maqolalarning ko‘pi yurtimizda dinni taqiqlashga va uning amallarini bajarilishini cheklashga qaratilgan edi. 1937 yil 8 may sanasida chop etilgan “Dinga qarshi targ‘ibot” nomli maqolada din kishilari ko‘pincha kolxoz faollarini o‘z ta’siri ostiga oladilar; poplar, domla-imomlar, ravvinlar o‘z atroflariga chol va kampirlarnigina to‘plamay, balki yoshlarni ham o‘z ta’sirlari ostiga olishga harakat qiladilar; din kishilari bolalarning ota-onalari vositasi bilan, sovet maktabini ham o‘z ta’sirlari ostiga olishga harakat qiladilar; qishloqlarda dinga qarshi targ‘ibotlarni kuchaytirishda ziyolilarning roli katta, sovet o‘qituvchilari bu ishda ayniqsa katta ishlarni amalga oshirishlari mumkin; dinga qarshi leksiyalar o‘qish dinning zararlarini tushuntirish ishlarini kuchytirish lozimligi kerak, deb yozilgan edi [2, b. 2-3].

Shuningdek, keyingi sonda “Dinga qarshi targ‘ibotni kuchaytirmoq lozim”[3, b.4] mavzuli maqola chop etilgan bo’lib, unda Stalin konstitutsiyasidagi turli moddalari ko‘rsatib o‘tilib, din hamda ayollar erkinligi borasida ko‘p masjidlarda mullalar konstitutsiyaning 122 moddasiga asoslanib xotin-qizlar huquqlarini ta’minlab, eshikni ayollarga ham katta qilib ochib qo‘yganligi yoritilgan. Bundan tashqari, pomeshchiklar, kapitalistlar va ularning malaylari bo‘lgan poplar mehnatkashlar ommasiga xudo, avliyolar, farishtalar va boshqalar to‘g‘rilarida har xil gaplarni gapirib, ularning miyyasini chalg‘itishga kirishganlar, hamma narsani xudoning amri bilan, yomonlik qilganlar do‘zaxga tushadi, yaxshilik qilganlar jannatga kiradi, deb odamlarni yer yuzida yaxshi turmush uchun kurashishdan qaytarib kelganlar, deb, dinga qarshi ishni kuchaytirishga harakat qilishgan.

1930-1937 yillarda chop qilingan gazetalarning deyarli barchasida dinning targ‘iboti kuchayib borayotgani va unga qarshi kurashish lozimligi haqidagi maqolalarga duch kelamiz. Bu albatta mahalliy diniy ulamolarning balki axolining ham g‘azabini qo‘zg‘aganligini

qatorlashib turgan qatag‘on qurbonlari ro‘yhatidagi ayblovlardan ham anglashimiz mumkin. Ayblovlarda yoshlarga diniy saboq berganligi uchun, dinni targ‘ibot qilganligi uchun degan va shunga o‘xshash iboralar ko‘p uchraydi.

Shunday maqolalardan biri “Din furushlar uymalashgan joy” deb nomlanib, unda bir ulug‘ zot Shayxzayniddin ota haqida turli yomon gaplar aytilgan: “Shayxzayniddin ota egallagan chorsi ham yaxlit Ko‘kcha dahadadir. Quyuq daraxtlar qo‘ynidagi bu go‘ristonlik aslida shu joy orqasidan kun kechirgan va xalq boshini zaharlagan bir turkum din furushlarning, bir to‘da tekin tomoq haromzodalarining maskani bo‘lgan” [4, b.4]. Gazetaning keyingi sahifasida esa mahalla fuqarosi haqida quyidagi ma’lumot berilgan: “Inqilob mahallalik Fathulla Arifxo‘jayev 1935-yilgi partiya tozalovida partiyadan quvilganidan keyin Shayx bo‘lib olgan, hozir saqolni qo‘yib, qo‘lida xassa ushlagan holda narz to‘playdi, fisqu-fasod va ig‘vo bilan shug‘ullanadi”.

Qo‘rquv ostida qolgan xalq omon qolishi uchun berilgan barcha topshiriqlarni bajarishga majbur bo‘lganliklari gazeta maqolalarida ham o‘z aksini topgan. Chinoz rayon 1 Stalin qishloq sovetidagi “Qutulish” kolxozi a’zolarining “Bittamiz ham ro‘za tutmaymiz” sarlavhali xatida SSSR Oliy Sovetiga saylovlar to‘g‘risidagi nizomni o‘rganib chiqdik va yaqinda bo‘ladigan ro‘zaga qarshi kurash masalasini muhokama qildik, muzokaraga chiqqan kolxozchilarni barchasi din va shariat qonunlarini mehnatkash xalqqa bergan jabr-zulmlarini misollar asosida ajratib oldilar. Ular o‘z kolhozimizda dinga qarshi kurashni keng hajmda olib borib, ro‘za kunlarida belimizni yana ham mahkam bog‘lab bittamiz ham ro‘za tutmasdan ulug‘ proletar sotsialistik inqilobini XX yilligiga qadar paxta tayyorlash planimizni 200 foizga bajarishga qaror qildik [5, b.3], deb yozilgan. Bu jarayon sezilarli darajada dinni halqdan ayirishga qaratilgan siyosat deb aytish o‘rinlidir. Gaetada chop etilgan bu xat majburiy-ixtiyoriy tarzda olib borilgan targ‘ibot ishlari va markazga yoqish istagida bo‘lgan laganbardorlarning ishi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Hatto avval xalq hurmat qilgan rahbarlar Akmal Ikramov, Fayzulla Xo‘jayevlar ham qoralama so‘zlar bilan esga olingan: “Fashist malaylari va o‘zbek xalqining eng ashaddiy dushmanlari bo‘lgan Akmal Ikramov, Fayzulla Xo‘jayevlar din arboblariga suyangan holda “Milliy ittihod” va “Milliy istiqlol” kabi aksil inqilobiy tashkilotlar tuzib, gullab turgan O‘zbekistonimizni bizga davlatli va madaniyatli turmush bergan kolxozlarimizni kapitalistik mamlakatlarga qul etib bermoqchi bo‘ldilar. Biz shuni aytamizki million-million mehnatkashlar qoni barobariga kelgan buyuk vatanimizni hech kimga bermaymiz, vatan xoinlariga hamma vaqt qashqatgich zarba beramiz” [5, b.3], deb yozilgan edi. Gazeta maqolalarida ro’za tutish ham qoralangan edi.

Aytish kerakki, o’sha davr gazetalarida dinga qarshi maqolalar ko’p bosilgan. Dindorlarni qatag/on qilinishi haqidagi maqola va habarlarda asosan “Pravda” gazetasida bosilgan maqolalar tarjima qilib chiqarilgan. Hozirgi Sirdaryo viloyati hududida faoliyat yuritgan din peshvolari haqidagi ma’lumotlarni asosan arxiv hujjatlaridan, aholi xotiralaridan to’play oldik. Bu ma’lumotlarni keng ommaga yetkazish dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI. Dinga va din peshvolariga qarshi qaratilgan siyosat va tadbirlarni o’rganishda asosan sovet hokimiyatining 1920-1930 yillarda chiqarilgan

qarorlari, ularni to’gri tushunish uchun so’nggi yillarda qatag’onlik siyosati mohoyatini ocheb beruvchi bir qator monografik tadqiqotlar, adabiyotlar metotodologik asos bo’lib xizmat qildi. Maqolani yozishda arxiv hujjatlari, gazeta maqolalari, intervyu va suhbat natijalatini tahlil qilish, umumlashtirish, xulosa chiqarish usullari qo’llanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR. 1920-1930 yillarda dinni qoralash, targ‘ibot va tashviqotning barcha usullaridan foydalanish bilan birgalikda diniy ulamolarning ham yuragiga g‘ulg‘ula tushgan paytlar hisoblanadi. Ularning ko‘pchiligini qatag‘on mashinasi o‘z domiga tortganligini quydagi Sirdaryo viloyatining tarixiy hududi - Mirzacho‘lda yashab istiqomat qilgan shaxslarning asosli ma’lumotlaridan ham bilib olishimiz mumkin.

Quloqlashtirish davrining qurboniga aylangan Begimqul So‘fi 1884yilda Farg‘ona viloyatining Yaypan uyezdida tug‘ilgan, vodiydagi eng yirik savdogar O‘tamning farzandi bo‘lgan. Begimqul So‘fi Farg‘ona vodiysining eng yirik mulkdor dehqonlaridan biri bo‘lib, umumiy dehqonchlik qiladigan yer maydoni 32 gektarni tashkil qilgan. XX asr boshlarida Begimqul So‘fi Sirdaryo bo‘yi hududlariga kelib, yerlarni o‘zlashtirishda faol qatnashgan[7, b.22]. 1905-1910-yillarda bu hududga uning tog‘asi Alim dehqon, ukalari Salim va Umarlar ham kelib, yangi yerlarni o‘zlashtirishda faol qatnashgan. O’g‘li Ergash Begumqulovning ma’lumotlariga qaraganda, keyinchalik yana 80 xo‘jalik bu hududga ko‘chib kelgan. Ularning barchasi bir urug‘ kishilari bo‘lib, “Ochamayli” qishlog‘ini vujudga kelishida katta xissa qo‘shganlar.

Begimqul So‘fi Ochamayli qishlog‘ida ilk masjid qurdirgani sababli qishloq aholisi uni “So‘fi” deb atashgan. Uning chorva va qo‘ylarining umumiy soni 500 tadan oshiq bo‘lgan. Begimqul So‘fi doimiy tarzda qishloqning nochor qatlamiga moddiy yordam berib kelgan [8, b.57]. 1920-1930 yillarda mulkdor dehqonlar “quloq” deb, ularga nisbatan “quloqlashtirish” siyosati amalga oshirila boshlandi. Begimqul So‘fi ham quloq deb atalib, Rossiyaning Kuban hududiga surgun qilinishi yozilgan. Ammo qishloq aholisi xalq komissariga ariza yozib, Begimqul So‘fi “mushtumzo‘r” emasligi, ayni damda Rossiyaga ketayotgan paxtaning katta qismini yetishtirib berayotganligini va nochor dehqonlarga doimiy ravishda moddiy yordam berib kelayotganini aytishgan. Begimqul So‘fidan tashqari uning tog‘asi Aliboy ham “quloq” qilingan. Begimqul So‘fi yana ikki yil davomida paxta va bug‘doy yetishtirish bilan shug‘ullandi [9].

1932-yilda Begimqul So‘fi xizmat safari bilan tuyada qo‘shni qishloqqa chiqadi va shu qishloqda joylashgan choyxonaga taomlanib olish uchun kirganida, choyxonada o‘tirgan bir guruh rus mirshablari tomonidan ushlab olinib, do‘pposlab o‘ldirilgan. Lekin bu ish kimning buyrug‘iga ko‘ra bajarilganligi noma’lumligicha qolgan.

Musurmonov Jo‘raboy Musurmonovich 1880 yilda Jizzax viloyati Zomin tumanida tug‘ilgan, millati o‘zbek. Buxorodagi Mir Arab madrasasida taxsil olgan. Katta otasining ismi Xudoyberdi bo‘lgan. Fiqhga oid kitoblarni ko‘p o‘qigan. Qatag‘on qilingunga qadar o‘z yurtida turli huquqiy masalalarni diniy yechimlarini berish bilan (qozi) shug‘ullangan. Quloq qilish ishlari avj olgan paytda bu ishni mutlaqo shariatga va qonunga to‘g‘ri kelmasligi haqidagi

gaplarni aytganligi sababli uni boyvachcha deb bahona qilib, NKVD uchligi tomonidan 1930-yilda quloq qilingan [10].

Otasi Musurmon ota Jizzax viloyati, Zomin tumanida yashagan, uning 8 nafar farzandi bo’lgan. Jo‘ra qozi Musurmon otaning to‘rtinchi farzandi bo‘lgan. 1930-yillarda qozilik faoliyati bilan shug‘ullangan. Xalq orasida “Mulla Jo‘ra qozi” nomi bilan mashhur bo‘lgan. Uni Qozog‘iston, Tojikistonda ham juda yaxshi tanishgan. Nabirasi Qo‘ldasheva Xosiyat onaning ma’lumotlari bo‘yicha quloq qilingan vaqtda, Qozog‘iston hududidan o‘tayotgan vaqtda Qozog‘istondagi tanishlari orqali vagondan tushirib qolinadi va o‘sha joyda qozoqlar bilan ko‘p vaqt yashaydi. 1939-yilda ularning yordami bilan qochib, Mirzaoboddagi hozirgi “Beruniy” (Sovetobod)ga ko‘chib kelib, paxsadan chayla ko‘tarib, shu joyda istiqomat qiladi [10].

Mulla Jo‘ra qozi saxiy inson bo‘lgan, qishloqdagi ko‘chada qolgan yetim bolalarni asrab olib, boqib katta qilgan. O‘sha davrda diniy hamda fiqhga oid arab tilida yozilgan kitoblarini saqlashga qo‘rqqanligi sababli, chaylaning paxsa devorlari orasiga sandiqqa solib berkitib qo‘ygan. Jo‘ra qozidan qolgan bitta kitob qizlari Suxsuroyga qoladi, bu kitob keyinchalik Tojikistondagi tanishlariga berib yuborilgan. Yana bir arab alifbosida yozilgan kitoblari bugungi kunda Bekobod tumaniga yashab istiqomat qilayotgan 1966-yilda tug‘ilgan Lola opada saqlanyapti. Mulla Jo‘ra 1953-yilning avgust oyida 73 yoshida vafot etgan.

Keyingi tadqiqotlarimiz Mirzacho‘ldagi Guliston tumani bilan bog‘liq. 1977-yilda Saminjon Sultonov yozgan “Sirdaryo oblasti Guliston rayonidagi Lenin nomli kolxoz tarixi” nomli kitobda qiziqarli ma’lumotga duch keldik. 1930-yil 21 dekabrda qishloq Sovetida o‘tkazilgan qo‘shma yig‘ilish bayonnomasida uchta masala muhokama qilingan. Bular quydagilardir: 1. Paxtaning topshirilmasdan turib qolishiga qarshi qurol. 2. Ayrim kolxozchilarning xatti-harakatini muhokama qilish. 3. Xar hil masalalar [11, b.1]. Birinchi masalada paxtani tezda terib olish uchun odamlarni jalb qilish bo‘yich ikkita uchlik guruhlari tashkil qilinib, ishni jadallashtirilishiga qaratilgan bo‘lsa, bizga qiziq bo‘lgani kun tartibidagi ikkinchi masalada kolxozga xalq dushmanlari kirib olganligi ko‘rsatiladi. Ulardan Umar Nuraliyev, Ostonaqul Iskandarov, Xasan Botirov, Latif Sharipov, Abdulaziz Abdusamatovlarning kolxozda qolish-qolmaslik masalasi muhokama qilingan. Yig‘ilish bayonnomasida Bobo Marasulovning so‘zlaridan olingan parcha ahamiyatlidir. Uning guvohlik berishicha kolxoz a’zosi Umar Nuraliyev 1921-1922-yillarda bosmachilar safida bo‘lganligi, uning rahbarligida Login qishlog‘i talanganligi hamda shu qishloq Sovetining raisi o‘ldirilganligini aytadi. 1922-yilda Nuraliyev shaykasi GPU davlat siyosiy boshqarmasi tomonidan tugatilib, o‘zi qamoqqa olingan [11, b.1].

Abdulaziz Abdusamatov esa inqilobgacha O‘ratepa qozisining kotibi bo‘lganligi, 1924-1929-yillarda masjidda imomlik qilib xalqni aldagan deb, 1929-yilda esa ushbu qilgan ishi uchun saylash huquqidan maxrum qilingan [13, b.11-12]. Buning tagida asosan dinni targ‘ib qilgan va ushbu ish bilan shug‘ullanganligi uchun uni saylash huquqidan maxrum qilishib, yoshlarni ongini buzgan deb ko‘rsatishgan. Aslida esa bu insonni mahalliy aholi juda hurmat qilgan va ilmidan foydalanishgan.

Qatag’onga uchragan yana bir dindor Xovoslik mulla Xudoynazar Avezmatov 1880 yil Toshkent viloyati Bekobod tumani Xovos qishlog‘ida oddiy dehqon oilasida tug‘ilgan. Buxorodagi Mir Arab madrasasida tahsil olgan va Xovos qishlog‘idagi Qizil masjidda imom-xatib bo‘lib faoliyat yuritgan. Islom dinidagi ilmlari kuchliligidan 1927 yil xozirgi Chinoz shahridagi aholidan 10-15 otliq kishilar Xovos qishlog‘iga kelib, Xudoynazar Avezmatovni o‘zlarini masjidlariga imom-xatib vazifasida ishlashga taklif qilishadi va u kishi Chinoz shahridagi masjidlardan birida imom-xatib bo‘lib ishlash uchun Chinoz shahriga ketadi. Chinoz shahrining eski katta masjidida 1927-1937 yillarda imom-xatib va mudarris sifatida faoliyat yuritgan. Katta qirg’in davrida, 1937 yil 21 noyabrda NKVD ning uchlik qarori bilan 10 yil muddatga ozodlikdan mahrum etilib, qamoqqa olingan [13, b.50]. U qamoq jazosining 6 yilini o‘tab bo‘lganidan keyin Toshkentdagi turmaxonada vafot etgan. 1957 yil uning o‘g‘li To‘ychiboy Xudoynazarov O‘zSSR prokuroriga otasini oqlash uchun ariza bilan murojaat qilgan. Natijada Xudoynazar Avezmatov oqlanib, unga nisbatan jinoyat ishi bekor qilingan [14].

O‘zbekison Oliy sudi raisi Sadulloh Qosim 1924 yilda ushbu vazifaga tayinlanib, bosmachilar haqidagi og‘ir qarorlarni doimiy ravishda bekor qildi. U ba’zi o‘lim jazolarini qamoq bilan almashtirdi, uzoq muddatli qamoq jazolarini qisqartirdi, xatto mujohidlar rahbarlarini ozod qildi. 1930 yil boshdida u bilan birgalikda 7 nafar yaqinlari ham Samarqand sudiga keltiriladi. Ular orasida Mirzacho‘l sudining raisi Ibrohim Ho‘ja ham bo‘lgan. Sud mazkur shaxslarni bosmachilarni qo‘llab-quvvatlaganlikda, panislomchilik va panturkchilik qarashlariga muvofiq aksilinqilobchi va sovetlarga qarshi tashkilotlar tuzganlikda ayblaydi [15, b.277]. Barcha sudlanganlar o‘lim jazosiga hukm qilinadi, mazkur jazoni ijro etish bilan sovet Rossiyasi barcha yuqori tizimda faoliyat yuritayotgan o‘z xalqi manfaatini ko‘zlagan Turkistonliklarni qo‘rqitib qo‘ymoqchi bo‘lishadi.

Abdusattor Shukurovning taqdiri ham sud faoliyati bilan shug‘ullanib, keyinchalik surgun jazosi bilan tugaganligi bilan o‘xshashdir. Zomin tumani Achchi qishlog‘ida 1898 yilda o‘rtahol dehqon oilasida tavallud topgan. Abdusattor Shukurov ham millat uchun kurashchilar qatorida bo‘lgan. 1917 yilga kelib Achchi qishlog‘ida 60-70 nafar din ilmini chuqur bilgan mullalar bo‘lgan. Ularning ko‘pchiligi Buxoro madrasalarida taxsil olgan. Ularning qatorida Abdusattor Shukurov ham bo‘lgan. U 1922 yilda milliy istiqlol uchun kurash olib borgan Turobbek To‘rabekov yigitlari qatorida 5 oylar qizil armiyaga qarshi kurashadi. Turobbek To‘rabekov mag‘lubiyatlar ortidan Eronga chekinadi, keyinchalik 1928 yilda yigitlari bilan SSSR ga qaytib kelishadi [16].

A.Shukurov yigitlar tarqalganidan keyin, 1925 yilgacha qishloqda dehqonchilik bilan shug‘ullangan. Keyinchalik tumandagi turli partiya idoralarida mas’ul lavozimlarda faoliyat yuritgan. 1931 yil 27 noyabr kuni Mirzacho‘l tumani xalq sudi kotibi bo‘lib ishlayotgan vaqtda to‘satdan ish joyidan qamoqqa olingan. Unga “Milliy ittihod”ning Jizzax bo‘limi a’zosi, Turobbek To‘rabekov yigitlari orasida bo‘lgan, degan ayblovlar qo‘yilgan [17, b.11]. Qariyib bir yil muddat Toshkent turmasida qiynoqlarga solingan va 1932 yil 14 oktyabr kuni OGPU

tomonidan Sibirga ko‘mir shaxtasiga 10 yilga konslagerga hukm qilingan. Abdusattor Shukurov 1965 yil 21 dekabrda oqlangan.

“Malek” sovxozidagi SAzLag mehnat tuzatish lageriga hukm qilingan mulla Xayit Murat Xodji Sultanov 1893 yilda tug‘ilgan, millati o‘zbek, Kabavanskiy okrugida, so’ng Afg‘onistonda istiqomat qilgan. Diniy bilimlarni yaxshi egallaganligi sababli, bu yerda mahkumlar orasida katta nufuzga ega dindor shaxs sifatida tanilgan. Diniy marosimlarni amalga oshirgan, ro‘za tutgan va boshqa mahkumlarni ham da’vat qilgan. Mahkumlar unga non, tolqon va boshqa oziq - ovqat berib turishgan. Sovet hokimiyatidan norozi bo‘lgan va bu hokimiyat dinsizlarning hokimiyati ekanligini ta’kidlagan. Qur’on oyatlaridan dinsizlarning zulmi va ular albatta jazolanishi haqidagi oyatlarni o‘qib bergan. Mulla Xayit Murat o‘zini aybdorligini tan olmagan. Ushbu jinoyati tufayli u O‘zbekiston SSR JK ning 66, 128, 131 moddalari bilan aybdor deb topilgan va 7 yilu 9 oyga NKVD lagerida muddatini o‘tashi uchun 1937 yil 13 yanvardan boshlab belgilangan [18,b.53].

XULOSALAR. Qatag‘on siyosati tufayli qanchadan-qancha rahbarlar, davlat arboblari, shoir va yozuvchilar hamda minglab begunoh diniy ulamolar qurbon bo‘ldilar. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning 2020 yil 8 oktyabrdagi “Qatag‘on qurbonlari merosini yanada chuqur o‘rganish va ular xotirasini abadiylashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 5598-sonli Farmoyishini amalga oshirish borasida barcha viloyatlarda ushbu davr tarixini xolisona o‘rganish uchun tarixiy tadqiqot ishlari olib borildi. Natijada ishchi guruhlarning sa’y-harakatlari tufayli qatag‘on qilinganlarni nomlarini tiklash borasida izchil ishlar amalga oshirilib kelinmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. *Тарихнинг номаълум саҳифалари* (2022). К.10. – Т. : “Akademnashr”. - 320 б.
2. *Qizil O‘zbekiston.* 1937-yil. 8-may. № 103 (3881).
3. *Qizil O‘zbekiston.* 1937-yil. 11-may. № 106 (3384).
4. *Qizil O‘zbekiston.* 1937-yil. 11-iyun. № 168 (3946).
5. *Qizil O‘zbekiston.* 1937-yil. 1-noyabr. № 251 (4029).
6. *Qizil O‘zbekiston.* 1937-yil. 2-noyabr. № 252 (4030).
7. *Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар мавзусидаги конференция материаллари* (2020). –Тошкент, № 23. – Б.36.
8. Erbo‘tayeva, O‘.б O‘rmonov, H. (2022) *Millatimiz fidoyilari*. - Guliston: “Ziyo nashr matbaa” XK nashriyoti. – 110 b.
9. *Dala materiallari.* Qatag‘onlikka uchragan Begimqul So‘fining farzandlari yozib qoldirgan kundaliklarga asoslanib yozildi.
10. *Dala materiallari.* Mulla Jo‘ra qozi Musurmonovning nabirasi Xosiyat opa Qo‘ldosheva tomonidan berilgan ma’lumotlar asosida yozib olindi.
11. *Sirdaryo viloyati partiya komitetining partiya arxivi*, 80-fond, 1-delo. 1-varoq.

12. Султонов, С. (1977). *Сирдарё области Гулистон райони Ленин номли колхоз тарихи.* -Тошкент. -110 б.

13. Эрбўтаева, Ў., Ўрмонов, Ҳ. (2022). *Қатағон қурбонлари Сирдарё вилояти мисолида.* - Гулистон: “Зиё нашр матбаа” ХК нашриёти. – 232 б.

14. *Dala materiallari.* Катта адлия маслаҳатчиси И.Хакимов 1957 йил 15 август. No 15/321-57.

15. Доктор Боймирза Ҳайит *(2023). “Босмачилар”: Туркистон миллий кураши тарихи. (1917-1934).* –Тошкент: “Akademnashr”. - 376 b.

16. Shahidlar xotirasi jamoat fondi raisi B.Xasanovning 2022 yil 14 fevralda № 27 sonli javob xati.

17. Сатторов, А. (2022) *Умрим китобининг зарварақлари.* - Тошкент: “Niso Poligraf”. - 136 б.

18. *Тошкент вилояти давлат архиви*. Ф-738, оп-1, ед. хр-5.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 1-son)

IJTIMOIY FANLAR

SOCIAL STUDIES

UDK 93/94

O'RTA OSIYO XALQINING UMARXON DAVRIDA QO'QON XONLIGINING HARBIY-SIYOSIY HAYOTIDA ISHTIROKI

Barotjon Botirovich Ibraximov
Namangan davlat pedagogika instituti
Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o`qitish metodikasi katta o‘qituvchisi
E-mail:barotjon2404@gmail.com
tel: *93 912 68 89*

Annotatsiya: Yozma manbalarni tahlil qilish asosida tojiklarning Qo'qon xonligini boshqarishdagi ishtiroki ko'rib chiqildi. Alimxonning harbiy islohotlari va Qo'qon armiyasini shakllantirishda karateginlar, darvazlar, Badaxshonlar, kulablar, hisorlar, rushanlar, shugnanlar va chatroriylarning ishtiroki tahlil qilindi. Alimxon siyosatining mohiyati, davlat hududini kengaytirish va uni xonlikka aylantirish ochib berildi. Davlat to'ntarishi, Olimxonning vafoti, Umar xonning hokimiyatga kelishi to'g'risidagi ma'lumotlar umumlashtirildi. Shuningdek, Umar xonning bosib olish urushlari, ura-Tubadagi harbiy yurishi natijasida davlat hududini kengaytirish to'g'risidagi ma'lumotlar keltirilgan. Tarixiy adabiyotlar bilan bir qatorda yozma manbalar, shu jumladan "anjum attavorih" Xudayarzade, "Tarix-I Turkiston" Mirzo olim Mahdumxoji, "Ansob ussalotin va Tavorih ul-xavoинin" Mirzoolim Mushrifning olim-xon va Umar-xon hukmronligi davrlarini tavsiflovchi keng qo'llanilgan.

Kalit so'zlar: Qo'qon xonligi tarixi, XIX asr, Farg'ona tojiklari, etnik guruhlar, harbiy-siyosiy voqealar, ming sulolasi, Qo'qon xonligi, harbiy islohotlar Olimxon, Umar xon

УЧАСТИЕ СРЕДНЕАЗИАТСКОГО НАРОДА В ВОЕННО-ПОЛИТИЧЕСКИХ ЖИЗНИ КОКАНДСКОГО ХАНСТВА ПРИ УМАР-ХАНЕ

Аннотация: На основе анализа письменных источников рассмотрено участие таджиков в управлении Кокандским ханством. Проанализирована военная реформа Алим-хана и участие каратегинцев, дарвазцев, бадахшанцев, кулябцев, гиссарцев, рушанцев, шугнанцев и чатрорийцев в формировании кокандской армии. Раскрыта сущность политики Алимхана, расширения территории государства и превращения его в ханство. Обобщены данные о государственном перевороте, смерти Алим-хана, приходе к власти Умар-хана. Также приведены данные о расширении территории государства в результате завоевательных войн Умар-хана, его военном походе в Ура-Тюбе. Наравне с

исторической литературой широко использованы письменные источники, в том числе «Анжум аттаворих» Худаярзаде, «Тарих-и Туркистон» Мирзо Олима Махдумходжи, «Ансоб уссалотин ва таворих ул-хавоќин» Мирзоолима Мушрифа, характеризующие периоды правления Алим-хана и Умар-хана.

Ключевые слова: история Кокандского ханства, XIX век, таджики Ферганы, этнические группы, военно-политические события, династия Минг, Кокандское ханство, военные реформы Алим-хан, Умар-хан

PARTICIPATION OF THE CENTRAL ASIAN PEOPLE IN THE MILITARY AND POLITICAL LIFE OF THE KOKAND KHANATE UNDER UMAR KHAN

Annotation: Proceeding from the analysis of the written sources, the author canvasses Tajiks` participation in the management with Kokand Khanate. The author analyzes Alim-khan`s military reform and the participation of Karateghiners, Darvazers, Badakhshoners, Kulobers, Hissarers, Rushaners, Shughnaners and Chatrorers in Kokand army formation. The essence of Alim-khan`s policy, extension of the territory of the state and its conversion into the Khanate are revealed in the article. The author generalizes the information in regard to state coup d'état, Alim-khan`s death, Umar-khan`s ascension to power. He adduces the data concerned with the extension of the territory of the state as the result of Umar-khan`s conquestial wars, his military march to Ura-Tyube. Alongside with historical literary sources the author widely resorts to the following written ones: «Anjumat at-Tavorikh» (Stars of History) by Khudoyorzoda, «Tarikhi Turkistan» (Turkistan`s History) by Mirzo Olim Mahmudkhoja, «Ansob us-Salotin va Tavorikh ul-Khavoqin» by Mirzoolim Mushrif characterizing the period referring to the governance of both Alim-khan and Umar-khan.

Key words: Kokand Khanate History, the XIX-th century, Tajiks of Ferghana, ethnic groups, military-political events, Ming`s dynasty, Kokand Khanate, Alim-khan`s military reforms, Umar-khan

ВЕДЕНИЕ

Самым стабильным и процветающим периодом в истории Кокандского государства считаются годы правления Умар-хана (в русских источниках Омар-хан). С приходом к власти Умар-хана наступила новая эра в истории государства. Началась стабилизация жизни общества. Умар-хан частично реформировал систему управления государством. Доказательством этого явилось введение высоких должностей мингбаши [2, с.12] и шейхул-ислам. Влиятельные люди, преследовавшиеся Алим-ханом, вернулись в Коканд. Вернувшись из изгнания в Бухару, Раджаб-кушбеги-таджик опять занял важный пост в государстве - получил должность мингбаши.[15, с. 314] По его совету были казнены организаторы покушения на Алим-хана – Ирискулбек, Муминбек и Джумабой Китоикий (Ќитоиќий), которые якобы снова хотели организовать покушение, на этот раз уже на Умар-хана, и возвысить вместо него Ирискулбека – одного из авторитетных вождей

племени минг . Через два года Раджаб-кушбеги стал правителем Худжанда, позднее был назначен правителем Ура-Тюбе, но и его дальнейшая судьба сложилась печально. Он был казнен за то, что сдал Ура-Тюбе без боя Мухаммадрахиму-аталыку, якобы по сговору между ними. Об этом автор «Тарихи Туркистон» пишет: «…Тринадцатый год правления Умар-хана. Эрназар-девонбеги назначен хакимом Туракургана, с ним в сопровождение был выслан и Раджаб-кушбеги, а высланный за ними придворный слуга (мулозим) убил и бросил в реку тело Раджаба-кушбеги».[6, с.88] Кал Шоди Маргелани, таджик, стал сначала мингбаши, а потом был назначен наместником Худжанда, другой таджик – читралец Лашкар-кушбеги, был назначен хакимом (наместником) Ташкента. В этой должности он пребывал до 1841 года. В этот период под его руководством были построены крепости Чулак, Сузак и Ак-Мечеть [4, с.17].Таким образом, первым человеком, получившим должность мингбаши (вторая по рангу должность после хана) был Кал Шоди Маргелани, потом Раджаб-кушбеги, его заменил Юсуф Кашгари. Умар-хан, обеспечив внутреннюю стабильность, продолжил расширять территорию государства.

АНАЛИЗ ЛИТЕРАТУР

Продолжалась борьба за Ура – Тюбе между бухарским эмиром и вождями племени юз. Умар-хан неоднократно организовывал походы в этот многострадальный город. [12, с. 629] Свидетель тех трагических дней, 16-17-летняя поэтесса Дилшоди Барно в книге «Таърихи мухожирон» («История эмигрантов») рассказывает о беспощадности и Умар-хана, и его сарбазов. По ее сведениям, 13 400 человек попали в плен и 13 000 из них были вынужденно переселены в Фергану, их называли «оќ уйлук», что в переводе означает «обладатели белого дома». Люди, получившие такой статус, не имели права строить дом до получения официального разрешения, и были вынуждены жить во времянках. Барно рассказывает, что только через семь лет уратюбинцы получили разрешения строить дома, в результате образовался город, названный в честь Умар-хана «Шахрихан» [16, с. 38], что в переводе означает Царьград.

Для расширения территории государства началось проникновение кокандских войск в казахскую степную зону. В военных походах ударную военную силу составляли, как и при Алим-хане, наемные отряды горных таджиков. В результате «… в ходе развития Кокандского ханства сплетались и перекрещивались судьбы народов Казахстана и горного Таджикистана, Ферганы и Среднего Востока» [4, с. 17].

МЕТОДОЛОГИЯ ИССЛЕДОВАНИЯ

Весной 1814 г. кокандцы под руководством Раджаба-диванбеги завоевали Туркестан, отряды кокандцев продолжили поход в низовья Сырдарьи и дошли до Аральского моря. Казахские султаны Токай-тюре и Адыл-тюре признали власть Умар-хана. Около 1817 года была построена крепость Ак-Мечеть (ныне Кызылорда), а в 20-е годы XIX в. - крепость Аулие-Ата (ныне Джамбул), далее были построены крепости Чулак, Сузак. «Таким образом, обширные степные пространства, расположенные между

Аральским морем на западе и бассейном реки Или на востоке, составлявшие владения Старшей и отчасти Средней казахских орд, вошли в состав Кокандского ханства» [8, с. 199].

Подчинение киргизских племен также происходило при Умар-хане. Киргизы в этническом отношении делятся на левое (чапќилдиќ) и правое (он) крыло, и часть их является смешанными племенами, а также независимыми племенами, коленами и поколениями – адыгине, тагай, багыш, саяк, солто и другими [17, с. 157-177]. Племенными объединениями управляли предводители – манапы. Покорение киргизов началось в период правления Алим-хана, но окончательно киргизы верховьев Нарына были подчинены начиная с 1821 года, когда Умар-хан отправил против них отряд под руководством Сейидкулбека, в результате племена багыш, саяк, саток были подчинены Коканду. Позднее было подчинено племя сары-багыш [8, с.202-203]. В дальнейшем Мухаммад Али-хан продолжил экспансию в киргизские кочевья.

Имеются сведения о дипломатических отношениях Умар-хана с Цинской империей. Умар-хан дважды отправил туда послов: в первый раз в 1814 году, а во второй раз - в 1820 г., с целью создать условия для торговли в Кашгаре. Но цинские наместники не поддержали намерение Умар-хана, грубо ответив на его предложение [18, с. 204-205].

Кроме военных крепостей, при Умар-хане были построены мечети и медресе в крупных городах, таких как Коканд, Худжанд, Ташкент, Туркестан, Чимкент, Сайрам, Аулие-Ата. На Сырдарье был сооружен магистральный канал «Шахрихансай», который обеспечивал водой город Шахрихан и его окрестности. В Ташкенте был построен канал Хон-арык, в Коканде построено медресе Оим, а в 1818 г. была также построена соборная (джомеъ) мечеть, которая принесла Умар-хану славу в религиозной среде, ему был присвоен религиозный титул «Амир-уль-муслимин» - «повелитель правоверных». Он был не только правителем, но и поэтом, сочинял стихи на узбекском и таджикском языках под псевдонимом Амирий, часто собирал поэтов и устраивал творческие встречи. Учитывая эти качества Умар-хана, В. Наливкин называет его «меценатом» [7. с.144].

Никто из правителей до Умар-хана и после него не имел такого огромного авторитета у всех слоев населения, как он. Умар-хан правил государством более десяти лет. Годы его правления считаюся периодом возвышения и расцвета Кокандского ханства. Он пришел к власти после политического кризиса, результатом которого являлся государственный переворот и смена власти. Умар-хан оставил после себя стабильное и процветающее государство. 30 декабря 1822 г. Умар-хан заболел и скоропостижно умер, после него остались два сына - Мухаммад Али-хан и Султан Махмудбек.

ЗАКЛЮЧЕНИ И ПРЕДЛОЖЕНИЯ

Такова была сущность политики Алим-хана и Умар-хана. Источники подтверждают, что благодаря жесткой политике Алим-хана были созданы основы государственного управления. При централизации власти огромное значение имела созданная Алим-ханом

регулярная армия. Конечно, центробежные силы были сильны, их невозможно было сломить в один миг. Реформы Алим-хана, которые шли вразрез с интересами сложившейся политической и военной элиты, в конечном итоге привели к политическому перевороту. Tursunov B.T. Participation of Tajiks and other Peoples in Military-Politic Events of Kokand Khanate Referring to the Beginning of the XIX-th Century 26 Умар-хан, в принципе, тоже продолжил политику Алим-хана, но, в отличие от него, учитывал интересы местной военно-феодальной знати. Он не только отстранил от власти организаторов государственного переворота, которые привели его к власти, но и, доказав их виновность в подготовке нового переворота, публично казнил. Он тоже был сторонником перемен в обществе, но, в отличие от Алим-хана, провел преобразования эволюционным путем. В результате большинство населения поддержало его политику. Он, в отличие от Алим-хана, был творческим человеком, сочинял стихи, создал «Девон» - сборник стихов, организовывал творческие вечера. Не зря В. Наливкин называл его «меценатом», поскольку он развивал возникшую до него кокандскую литературную среду. Для людей творчества это была «золотая эпоха». Он правил более десяти лет, и после него осталось стабильное, экономически развивающееся государство.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Алим-хан. https://ru.wikipedia.org. Дата обращения 28.03.17.

2. Бабабеков Х.Н. Краткая история Кокандского ханства. – Ташкент, 2008. – 106 с.

3. Бабаджанов Б. Кокандское ханство: власть, политика, религия. – Токио-Ташкент: YANGI NASHR, 2010. – 743 с.

4. Бейсембиев Т.К. «Тарихи Шахрухи» как исторический источник. - Алма-Ата: Наука, 1987. – 200 с.

5. Вохидов Ш. Ќўќон хонлиги тарихи (хонлик тарихи манбаларда) / История Кокандского ханства (история ханства в источниках). - Ташкент, 2012. – 1766 с.

6. Мирзо Олим Махдумхожи. Тарихи Туркистон. Сўзбоши ва изоњлар муаллифи Ш. Воњидов. Араб ёзувидан табдил Ш. Воњидов ва Р. Холиќова. /История Туркестана. Автор предисловия и комментариев Ш. Вохидов. Перевод с арбского Ш. Вохидова и Р. Холикова. – Ташкент: Янги авлод, 2009. – 242 с.

7. Наливкин В. Краткая история Кокандского ханства. – Казань: Типография Императорского Университета, 1886. – 216 с.

8. Иванов П.П. Очерки по истории Средней Азии (XVI – середина XIX в.). - М.: Изд. восточной литературы, 1958. – 246 с.

9. История таджикского народа. Том IV. Позднее средневековье и Новое время (XVI в. - 1917 г.). /Под общей редакцией академика Р. Масова. – Душанбе: Дониш, 2010. – 1123 с.

10. История Узбекистана. Том III. – Ташкент: Фан, 1993. – 476 с.

11. Исхоќхон Жунайдуллахожа ўѓли Ибрат. Фарѓона тарихи. /История Ферганы. - Ташкент: Камалак,1991. – 336 с.

12. Нематов Н., Амиршоњї Н., Мирбобоев А., Пирумшоев Њ. Таърихи халќи тољик. Китоби дуввум. /История таджикского народа. Книга вторая. – Хуљанд: Ношир,2008. - 814 с.

13. Турсунов Н.О. Таърихи тољикон. / История таджиков. – Хуљанд: Нашриёти ба номи Рахим Љалил, 2001. – 787 с.

14. Худоёрзода. Анжум ат-таворих. (Тарих юлдузлари). Форс тилидан ўзбек тилига таржимон Ш. Вонъидов. /Звезды истории. Перевел с персидского на узбекский язык Ш. Вохидов. – Ташкент, 2010. – 219 с.

15. Бобоев Х., Хидиров З., Шодиев Ж., Ахмедова М. Ўзбек давлатчилиги тарихи. II китоб. /История узбекской государственности. Книга II. – Тошкент: Fan va texnologia, 2009. – 448 с.

16. Дилшод Барно. Таърихи мухољирон. – Душанбе, 1978. – С.38.

17.Народы Средней Азии и Казахстана. Том II./ Под общей редакцией членакорреспондента АН СССР С.П. Толстова. – М.: Издательство Академии наук СССР, 1963. – 779 с.

18. Кутликов М. Взаимоотношения Цинского Китая с Кокандским ханством. / Китай и соседи в Новое и Новейшее время. – М.: Наука, 1982. – С. 204-205.

19. IB Botirovich ABOUT THE LOCATION OF THE TAJIK POPULATION IN THE KOKAND KHANATE European Scolar Journal (ESJ) 4 (12), 43-45

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 1-son)

IJTIMOIY FANLAR

SOCIAL STUDIES

O‘ZBEKISTONNING MUSTAQILLIK YILLARIDA NOMODDIY MADANIY MEROSNI SAQLASHG QARATILGAN MADANIY SIYOSATI: STRATEGIK DASTURLAR VA NATIJALAR

Turdiyev Madiyor Mamanazarrovich
Alfraganus universiteti kata o‘qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada O‘zbekiston Respublikasining mustaqillik yillarida nomoddiy madaniy merosni saqlashga qaratilgan madaniy siyosati, uning asosiy yo‘nalishlari, strategik dasturlari va natijalari keng yoritilgan. Shuningdek, davlat tomonidan olib borilgan ishlar natijasida madaniy merosning xalqaro miqyosda e’tirofi, milliy o‘zlikni anglashning mustahkamlanishi va madaniy turizm rivojidagi yutuqlarga alohida e’tibor qaratilgan. Ushbu tadbirlar nomoddiy madaniy merosni kelajak avlodlarga yetkazish va milliy qadriyatlarni targ‘ib qilishda muhim rol o‘ynaydi.

Kalit so‘zlar: *madaniy siyosat, Ma'naviy meros, madaniy –ma'naviy boyliklar, folklor-etnografik guruhlar, Nomoddiy madaniy meros, milliy an’analar.*

Annotation: This article highlights the cultural policy of the Republic of Uzbekistan aimed at preserving intangible cultural heritage during the years of independence, its main directions, strategic programs, and results. Special attention is given to the international recognition of cultural heritage, the strengthening of national identity, and the achievements in the development of cultural tourism as a result of state initiatives. These measures play a crucial role in passing down intangible cultural heritage to future generations and promoting national values.

Keywords: *cultural policy, spiritual heritage, cultural and spiritual wealth, folklore-ethnographic groups, intangible cultural heritage, national traditions.*

Аннотация: В данной статье освещена культурная политика Республики Узбекистан, направленная на сохранение нематериального культурного наследия в годы независимости, ее основные направления, стратегические программы и результаты. Особое внимание уделено международному признанию культурного наследия, укреплению национальной идентичности и достижениям в развитии культурного туризма в результате государственных инициатив. Эти меры играют важную роль в передаче нематериального культурного наследия будущим поколениям и продвижении национальных ценностей.

Ключевые слова: *культурная политика, духовное наследие, культурно-духовные ценности, фольклорно-этнографические группы, нематериальное культурное наследие, национальные традиции.*

KIRISH

O‘zbekiston mustaqillikka erishganidan keyin mamlakatda milliy o‘zlikni anglash, tarixiy xotirani tiklash, milliy madaniyat va qadriyatlarni asrab-avaylashga katta e’tibor qaratildi. Bu jarayonda nomoddiy madaniy merosni saqlash va uni avlodlarga yetkazish davlat madaniy siyosatining asosiy yo‘nalishlaridan biri bo‘lib kelmoqda. Tarixdan ma'lumki mamlakatimiz hududlari bir necha bor tashqi bosqinlarga duchor bo‘lgan. Qaramlik va zulm ham xalqimizning irodasini buka olmadi, xalqimiz o‘zligini yo‘qotmadi. O‘zining boy tarixi, urf -odatlari, qadriyatlarini saqlab qola oldi. Chor Rossiyasi va sovet mustamlakasi davri xalqimiz ma'naviy merosiga uning tarixi nisbatan yuritilgan siyosat, madaniy va ma'naviy boyliklarimizning talon-taroj qilinishi ham madaniyatimizni, urf-odatlarimizni yo‘qota olmadi. Madaniyatimizga nisbatan yuritilgan bunday siyosat va yondashuv ko‘plab tarixiy yodgorliklarimizni qarovsiz qolishiga, ularning buzilishiga, qo‘lyozma kitoblarimizning nashr etilmay yoki tarjima qilinmay qolishiga sabab bo‘ldi. Xalqimizni boy madaniyati, tarixidan mahrum qilishga harakat qilindi. Mustaqillik tufayli xalqimizning boy tarixi, madaniyati va ma'naviyati o‘ziga qaytdi. Ma'naviy meros tiklanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Bugungi kunda ma'naviy merosimizni, qadriyatlarimizni tiklash, xalqimiz, jumladan, yoshlarimiz ma'naviyatini boyitish, o‘zligini anglash, xususan kelajagimiz bo‘lgan, zamon talablariga javob beradigan yuqori malakali, ongli mutaxassis kadrlarni tayyorlash ularning ma'naviyatini yuksaltirishga yerishish g‘oyat muhimdir. Respublika Birinchi Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlab o‘tganidek, ma'naviyatning mohiyati shunchalik kengki, uni o‘lchab ham, poyoniga etkazib ham bo‘lmaydi. U inson uchun butun bir olamdir[1]. Ma'naviy meros qadim oia-bobodarimizdan bizgacha yetib kelgan ma'nviy boyliklar – siyosiy, falsafiy, huquqiy diniy qarashlar, qadriyatlar, urf-odatlar, odob-axloq me'yorlari, ilm-fan yutuqlari, tarixiy, badiiy va san'at asarlari majmuidir. Madaniy meros asrlar davomida ota-bobolarimiz tomnidan yaratilgan, sayqallanga madaniy –ma'naviy boyliklarimizdir. U jamiyat taraqqiyotining barcha bosqichlarida jamiyat ehtiyojlari tufayli yuzaga keladi, o‘z davri hayotini aks ettiradi va keyinga avlodlar uchun ma'naviy meros bo‘lib qoladi. O‘zbek xalqining boy ma'naviy qadriyatlarini qaytadan tiklash, ularni xalqimizga qaytarish mustaqillik davri tariximizning ajralmas qismidir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoev tomonidan 2017-yil 28-iyulda qabul qilingan (PQ-3160) «Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko‘tarish to‘g‘risida»gi qarori bilan Respublika Ma'naviyat targ‘ibot markazi hamda Milliy g‘oya va mafkura ilmiy-amaliy markazi birlashtirilib, Resupblika ma'naviyat va ma'rifat markazi qayta tashkil etildi, uning dolzarb vazifalari belgilandi[2]. Bu esa jamiyat

hayotining ma'naviy-ma'rifiy asoslarini mustahkamlash, Vatanimiz taqdiri va kelajagi uchun dahldorlik va mas'uliyat hissini oshirish, yot g‘oyalarga qarshi mafkuraviy immunitetni kuchaytirishga yo‘naltirilgan targ‘ibot tizimini yanada rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda ajdodlarimizning bizgacha etib kelgan boy madaniy meroslarini o‘rganish ham katta o‘rin egallaydi. Shu sababli O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qadriyatlar, urf-odatlar, buyuk ota-bobolarimizning bizga qoldirgan meroslarini o‘rganish va targ‘ib etish uchun keng yo‘llar ochildi. Bu boradagi tadbirlar mustaqilligimizning dastlabki kunlaridanoq amalga oshirila boshlandi. Xususan, ma'naviy-ma'rifiy ishlarning rivojlanishi uchun davlat tomonidan katta mablag‘lar ajratildi. O‘zbekistondagi barcha davlat teatrlari, madaniyat uylari, san'at oliy o‘quv yurtlari, folklor-etnografik guruhlar madaniyat o‘choqlariga aylanib qoldi. Teatr sahnalarida yangi zamonaviy spektakllar qo‘yila boshladi.

Mustaqillik bizning milliy-madaniy qadriyatlarimizning naqadar boy va teran tafakkur uslubini shakllantirishga imkoniyat ochib berdi. Oqibatda milliy qadriyatlarimiz jamiyatimiz taraqqiyotini tezlashtirish, yoshlarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda hamda ularni milliy iftixor ruhida tarbiyalashda qudratli tarbiyaviy negiz bo‘lib xizmat qilmoqda. O’z o’rnida, mustaqillik ne’mati bizga nomoodiy madaniy merosimizni qayta tiklash va yanada rivojlantirishimizga cheksiz imkoniyatlar eshiklarini ochdi. Nomoddiy madaniy meros – bu xalqning boy ma’naviy xazinasi bo‘lib, u madaniy an’analarda, urf-odatlarda, marosimlarda, milliy hunarmandchilikda, og‘zaki xalq ijodida va boshqa ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladi. Ushbu merosni saqlab qolish jamiyatning ma’naviy uyg‘unligi, madaniy xilma-xillikni ta’minlash va xalqning tarixiy xotirasini saqlash uchun muhim omildir. Shu sababli, O‘zbekistonda mustaqillik yillarida nomoddiy madaniy merosni himoya qilishga qaratilgan ko‘plab tashabbuslar amalga oshirildi. Quyida davlatimiz aynan mustaqillikka erishilgandan so’ng madaniy siyosatining asosiy yo’nalishlari va olib borilgan islohatlarni tahlil qilamiz. O‘zbekiston Respublikasida madaniy merosni himoya qilishga qaratilgan bir qancha huquqiy asoslar yaratildi. Masalan:

- 2001-yilda qabul qilingan "Madaniyat to‘g‘risida"gi qonun;
- 2009-yilda "Moddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to‘g‘risida"gi qonun.
- O‘zbekiston, shuningdek, 2001-yilda YUNESKOning Nomoddiy madaniy merosni himoya qilish to‘g‘risidagi konvensiyasiga qo‘shilgan. Bu esa xalqaro miqyosda ham o‘zbek madaniyatini targ‘ib qilish va himoya qilishda muhim o‘rin tutadi.

O‘zbekistonda davlat tomonidan turli davr va hududlarga oid madaniy meros obyektlarini asrash bo‘yicha maxsus dasturlar amalga oshirilmoqda. Ushbu dasturlar doirasida tarixiy yodgorliklar, milliy an’analar va hunarmandchilikning saqlanishi ta’minlanmoqda[3].

- YUNESKO ro‘yxatidagi ob’ektlar: O‘zbekistonning Boysun madaniy hududi, Shashmaqom, Navro‘z kabi nomoddiy madaniy meros unsurlari YUNESKOning

nomoddiy madaniy meros ro‘yxatiga kiritilgan. Bu merosni xalqaro miqyosda e’tirof etilishiga xizmat qiladi.

- Madaniy meros markazlari: Madaniyat va san’at sohasida ilmiy tadqiqotlar olib borish uchun maxsus markazlar ochilgan. Masalan, O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi huzuridagi Madaniy meros agentligi bu borada muhim rol o‘ynaydi.

Mustaqillik yillarida milliy hunarmandchilikni qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirish davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Xususan, "Hunarmand" uyushmasi orqali hunarmandlar faoliyatiga ko‘maklashish, ularning xalqaro ko‘rgazmalarda ishtirokini ta’minlash choralari ko‘rilmoqda. Har yili o‘tkaziladigan xalqaro festivallar (masalan, "Sharq taronalari", Hunarmandchilik festivali) orqali o‘zbek milliy san’ati va madaniyati dunyo hamjamiyatiga keng tanitilmoqda. Madaniy merosni asrash va targ‘ib qilishda ta’lim tizimi ham muhim rol o‘ynamoqda[4]. Milliy universitetlar va oliy o‘quv yurtlarida madaniyatshunoslik, etnografiya va xalq san’ati bo‘yicha maxsus kurslar tashkil etilgan. Shu bilan birga, bolalar musiqa va san’at maktablarida milliy cholg‘u asboblarini chalish va og‘zaki ijodni o‘rgatish tizimi yo‘lga qo‘yilgan.

NATIJA VA MUHOKAMA

Yuqorida ko’rilgan chora tadbirlar, olib borilgan islohatlar natijasida O‘zbekistonning nomoddiy madaniy merosi dunyo hamjamiyatida keng e’tirof etildi. Shashmaqom, Katta Ashula va boshqa xalq an’analari xalqaro ro‘yxatlarga kiritildi, bu esa mamlakatning xalqaro nufuzini oshirdi. Mustaqillik yillarida xalqning milliy o‘zligini anglash darajasi oshdi, bu esa madaniyatning rivojlanishi va asrlar davomida shakllangan qadriyatlarning tiklanishida muhim omil bo‘ldi. O‘zbekistonda nomoddiy madaniy merosning rivoji madaniy turizmning jadal rivojlanishiga olib keldi. Turli festivallar, ko‘rgazmalar va xalqaro tadbirlar orqali mamlakatga keluvchi sayyohlar soni yildan-yilga ortib bormoqda[5].

Bugungi kunda mustaqillik yillarida O‘zbekiston o‘zining boy tarixiga tayanib, porloq istiqbolini qurayotgan davlat, hamjihat xalq, eng tez rivojlanayotgan mamlakat sifatida dunyoga tanildi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev rahbarligida boshlangan, hayotga tatbiq etilayotgan izchil islohotlar, amaliy sa'y-harakatlar yangi taraqqiyot marralarini egallash, zamon shiddatiga mos tarzda rivojlanish, xalqimiz manfaatlarini ta'minlashga qaratilgani bilan g‘oyat ahamiyatlidir. Alohida ko’rsatib o’tishimiz darkorki, O‘zbekiston Resupblikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2017- yil 7- fevralda «O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida»gi farmoni qabul qilindi[6]. 2017-2021-yillarda O‘zbekston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi mamlakatimizda ham, chet el ijtimoiy-siyosiy doiralari tomonidan ham katta qiziqish va e'tibor bilan o‘rganildi. Bu borada atoqli olimlar, nufuzli ekspert va kuzatuvchilar, turli darajadagi ko‘zga ko‘ringan rahbarlar o‘z fikr-mulohazalarini bildirdilar.

Harakatlar strategiyasining har bir ustuvor yo‘nalishi mamlakatimiz taraqqiyoti uchun g‘oyat muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Inson huquqlarini ta’minlash, davlat organlarining hisobdorligi va ochiqligini kuchaytirish, jamoatchilik nazoratini rivojlantirish bo‘yicha tizimli

ishlar amalga oshirildi. Ushbu islohotlar natijasida nufuzli xalqaro reytinglarda mamlakatimiz o‘rni yaxshilanishiga erishildi. Xususan, iqtisodiy erkinlik indeksida mamlakatimiz 44 pog‘ona yuqorilab 108-o‘rinni egalladi. Huquq ustuvorligi indeksi bo‘yicha 14 pog‘ona yuqorilab 85-o‘ringa ko‘tarildi. Shuni alohida aytish mumkinki, O‘zbekiston bu borada eng yaxshi natija ko‘rsatgan 3 ta davlatdan biriga aylandi. Global innovatsion indeksda O‘zbekiston 7 pog‘ona ko‘tarilib, 132 ta davlat orasida 86-o‘rinni egalladi va eng jadal yuqorilagan mamlakatlar top 10 taligiga kirdi. Bu borada amalga oshirilayotgan islohotlarning mantiqiy davomi sifatida Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi va uni «Inson qadrini ulug‘lash va faol mahalla yili»da amalga oshirishga oid davlat dasturi tasdiqlandi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2022 yil 28 yanvar kuni «2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida» gi farmon imzolandi va ushbu farmon asosida 7 ta yo‘nalish va yuz maqsadni o‘z ichiga olgan Taraqqiyot strategiyasi qabul qilindi. Dastlab farmon loyihasi jamoatchilik muhokamasiga qo‘yilib, 2022-2026 strategy.uz, jamoatchilik.uz, regulation.gov.uz portallariga jami 17 535 ta takliflar kelib tushdi.

Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi quyidagi yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi:

- Inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish;
- Mamlakatimizda adolat va qonun ustuvorligi tamoyillarini taraqqiyotning eng asosiy va zarur shartiga aylantirish;
- Milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o‘sish sur’atlarini ta’minlash; Adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish;
- Ma’naviy taraqqiyotni ta’minlash va sohani yangi bosqichga olib chiqish; Milliy manfaatlardan kelib chiqqan holda umumbashariy muammolarga yondashish;
- Mamlakatimiz xavfsizligi va mudofaa salohiyatini kuchaytirish, ochiq, pragmatik va faol tashqi siyosat olib borish.

Ushbu yo‘nalishlar inson qadrini ulug‘lash, mahalla institutini rivojlantirish, davlat organlarining xalq manfaatlariga xizmat qilishini ta’minlash kabilar ustuvor vazifa etib belgilangan[7]. Masalan, strategiyada belgilangan 1-maqsadga nazar solsak, unda mahalla instituti faoliyatining samaradorligini oshirish, uni jamoatchilik boshqaruvi va nazoratining tayanch bo‘g‘iniga aylantirish etib belgilanishi, mahalladan turib barcha davlat idoralariga murojaat qilish tizimini yaratish, davlat va ijtimoiy xizmatlarni bevosita mahallalarda ko‘rsatish belgilanishi fuqarolarga bir qancha qulayliklarni yaratib beradi. Joriy yilning «Inson qadrini ulug‘lash va faol mahalla yili» deb nomlanishi va bu bo‘yicha amalga oshirilishi belgilangan vazifalar Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasiga hamohang tarzda olib boriladi. Fuqarolar bilan bevosita ish olib boruvchi mahalla instituti muammolarning yuqori bo‘g‘inlarda to‘planib qolishining oldini olgan holda har bir fuqaro bilan individual tarzda shug‘ullanib, masalalarni hal etish yo‘lidir.

Yana bir muhim islohotlardan biri 2026 yilgacha ehtiyojmand aholi ijtimoiy nafaqa va moddiy yordam bilan to‘liq qamrab olinishidir. Shuningdek, 2023 yil 1 yanvardan pensiyani hisob-kitob qilishda ish haqining maksimal miqdori pensiyani hisoblash bazaviy miqdorining 10 baravaridan 12 baravarigacha oshirilishi mamlakatimiz tomonidan nafaqat yosh avlodga, balki keksalarga ham g‘amxo‘rlik qilinayotganini ifoda etadi. Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida hech qanday soha yo‘qki, e’tibor qaratilmagan. Aholiga axborot-kutubxona xizmatini ko‘rsatishni yanada rivojlantirish, kitobxonlikni keng ommalashtirish hamda «Kitobsevar millat» umummilliy g‘oyasini ro‘yobga chiqarish deb nomlangan taraqqiyot strategiyasining 72-maqsadida aholiga axborot-kutubxona xizmati ko‘rsatishni yanada rivojlantirish, kitobxonlikni keng ommalashtirish hamda sohada yagona boshqaruv tizimini joriy etish deb belgilangan. bugungi kunda yurtimizda kitobxon yoshlarning soni ko‘payib borishi quvonarli holdir. Minglab yoshlarni o‘ziga jalb qilgan «Yosh kitobxon» tanlovi bugungi kunda kuchli raqobat muhiti asosida bo‘lib o‘tmoqda. Hali hech qaysi davlatda yoshlar o‘rtasida o‘tkaziladigan tanlovlarga sovrin sifatida avtomobil qo‘yilmaganligini alohida aytishimiz mumkin. Kitob o‘qigan boladan hech qachon yomonlik chiqmaydi, deganlaridek, kitobsevar xalqning kelajagi ham porloq bo‘ladi. Xulosa qilib aytganda, Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi yaqin muddatga va uzoq istiqbolga mo‘ljallangan harakatlar dasturi hisoblanadi. Taraqqiyot strategiyasi – rivojlangan davlatlarning tarixiy tajribasiga tayangan holda necha yuz yilda amalga oshirilgan ishlarni mamlakatimizda qisqa muddatda va yo‘l qo‘yilgan xatolarni takrorlamagan holda tatbiq qilish orqali uchinchi renessans poydevorini mustahkam qilib o‘rnatish yo‘lidagi dastlabki qadam, deb aytishimiz mumkin.

XULOSA

Inson kamoloti va tarbiyasida muhim ahamiyatga yega bo‘lgan jamiyat va shaxs ma'naviyatini yuksaltiruvchi tafakkur rivojida beqiyos ahamiyat kasb yetadigan milliy qadriyat shakllarining inson faoliyatiga singib borishi jamiyatning yuksalib borishiga sabab bo‘ladi. Demak, ma'naviyat jamiyatning yuksalishi yoki inqirozga yuz tutishiga kuchli ta'sir ko‘rsatadi. Ma'naviyat boyib borsa, jamiyat ravnaq topadi va aksincha, ma'naviyat qashshoqlashsa, jamiyat bora-bora tanazzulga yuz tutadi. Fan-texnika taraqqiyoti, zamonaviy kashfiyotlar insoniyatning qudratini oshiradi va yangi imkoniyatlarni vujudga keltiradi. Bunday holat insondan yanada yuksak ma'naviyat darajasiga ko‘tarilishni talab yetadi. O‘z navbatida, shaxsning ma'naviy yuksalishi uning ijtimoiy faolligini oshiradi va jamiyatning taraqqiyotini tezlashtiradi. Darhaqiqat, ma'naviyatni yuksaltirish shu kunning dolzarb vazifalaridan biri, kelajak poydevori bo‘lmish yoshlar qalbi va ongiga boy ma'naviy merosni singdirish, mustaqillik g‘oyalarini singdirish asosida o‘zida xulq-odob madaniyatini mujassamlashtirgan barkamol avlodni shakllantirish kunning asosiy vazifasidir. Zero, Vatan kelajagi, xalqimiz oldida turgan ulkan maqsadlarga yerishish avvalo yoshlariga, ularning har tomonlama barkamol inson bo‘lib voyaga yetishiga bog‘liqdir. Istiqlol arafasida ma'naviyat sohasiga beqiyos ye'tibor qaratilib, yurtboshimiz sa'y-harakatlari bilan tilimizda, demakki, ongu tafakkurimiz – dunyoqarashimizda ma'naviy boyliklar, ma'naviy tarbiya, xalq ma'naviy boyligi, xalq ma'naviyati, ma'naviy burch

kabi tushunchalar yangidan shakllandi. O‘zbekiston mustaqillik yillarida nomoddiy madaniy merosni saqlash va rivojlantirish bo‘yicha katta yutuqlarga erishdi. Davlat tomonidan ishlab chiqilgan strategik dasturlar va xalqaro hamkorlik bu borada muhim rol o‘ynadi. Ushbu chora-tadbirlar nafaqat madaniy merosni asrab qolishga, balki milliy madaniyatni xalqaro miqyosda targ‘ib qilishga ham xizmat qilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Karimov I.A., Yuksak ma’naviyat - yengilmas kuch. -T.: Ma’naviyat, 2008. -B. 134
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 28.07.2017 yildagi PQ-3160-son. https://lex.uz/docs/-4071203
3. Mustaqil O‘zbekiston tarixi. Mas’ul muharrir A.Sabirov. - Toshkent: Akademiya, 2013.
4. Xoliqova R.E. O‘zbekistonning eng yangi tarixi. –T., 2021.
5. Azizxo‘jayev A.A. Mustaqillik: kurashlar, iztiroblar, quvonchlar. - Toshkent: 2001.
6. 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi. – Toshkent: Ma’naviyat, 2017
7. Harakatlar strategiyasidan – Taraqqiyot strategiyasi sari

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 1-son)

IJTIMOIY FANLAR

SOCIAL STUDIES

УДК: 74.3

АНЪАНАВИЙ КИЙИМЛАРИДАГИ МАТО ТУРЛАРИ ВА ТАЙЁРЛАШ УСУЛЛАРИ (XIX АСР ОХИРИ-XX АСР БОШЛАРИ)

Ибрагимова Муслима Юлдашевна
Тарих фанлари буйича фалсафа фанлари (Ph.D) доктори
Ренессанс таълим университети.

Аннотатция: Мақолада XIX аср охири-XX аср бошларида Сурхон воҳаси аҳолисининг анъанавий кийимлардаги мато турлари, уларни тайёрлаш, танлаш, матога ранг бериш усуллари, мато тўқийдиган дастгоҳлар тарихига бағишланган. Анъанавий кийимлар ва матоларга аҳолининг хўжалик машғулоти, ижтимоий турмуш тарзи, ҳудуднинг табиий иқлим шароитининг таъсири илмий таҳлил килинган. Анъанавий кийимлар ва матолар савдо-сотиқ муносабатлари, замонавий этник жараёнлар таъсирида ўзгариб бориши, трансформацион жараёнлар хақида илмий хулосалар берилган.

Калит сузлар: аньанавий кийимлар, аньанавий мато тукиш усуллари, хужалик аньаналари, ижтимоий турмуш тарзи, ип йигириш, жунли, пахтали, ипак матолар, матога ранг бериш, махаллий тукув дастгохлари, савдо-сотик муносабатлари, буёк тайёрлаш.

ВИДЫ ТКАНЕЙ В ТРАДИЦИОННОЙ ОДЕЖДЕ И СПОСОБЫ ИХ ПРОИЗВОДСТВА (КОНЕЦ XIX ВЕКА - НАЧАЛО XX ВЕКА)

Аннотация: Статья описывает конец XIX века-начало XX века о истории жителей Сурхандарьинского оазиса о видах тканей в традиционной одежде, их приготовлении, выборе, способах окрашивания ткани, посвящена тканям пропитанной истории ткацких станков. Влияние экономической деятельности населения, социального образа жизни, природно-климатических условий территории на традиционную одежду и ткани было тщательно изучено с научной точки зрения. Были сделаны научные выводы относительно торговли традиционной одеждой и тканями, меняющегося влияния современных этнических процессов, трансформационных процессов.

Ключевые слова: традиционная одежда, традиционные методы ткачества, хозяйственные традиции, общественный образ жизни, прядение, шерстяные, хлопчатобумажные, шелковые ткани, окраска тканей, местные ткацкие станки, торговые отношения, изготовление красок.

TYPES OF FABRICS IN TRADITIONAL CLOTHES AND METHODS OF PRODUCTION (LATE 19TH-EARLY 20TH CENTURY)

Annotation: The article describes the end of the XIXth century-the beginning of the XXth century about the history of the inhabitants of the Surkhandarya oasis about the types of fabrics in traditional clothing, their preparation, selection, methods of dyeing fabric, is devoted to fabrics soaked in the history of looms. The influence of economic activity of the population, social lifestyle, natural and climatic conditions of the territory on traditional clothing and fabrics has been carefully studied from a scientific point of view. Scientific conclusions were drawn regarding the trade in traditional clothing and fabrics, the changing influence of modern ethnic processes, and transformational processes. The article uses exhibits of the State Museum-Reserve "Termez".

Key words: Traditional clothing, traditional weaving methods, economic traditions, social lifestyle, spinning, wool, cotton, silk fabrics, fabric coloring, local looms, trade relations, paint production.

КИРИШ.

Ҳар бир халқнинг кийимларидаги матолар табиий иқлим шароити, хўжалик машғулоти, ишлаб чиқаришнинг ривожланиш даражаси билан бевосита боғлиқ бўлган. Деҳқончилик билан шуғулланган аҳолининг кийимлари асосан пахтадан тўқилган матолардан тикилган бўлса, чорвачилик билан шуғулланувчи аҳоли асосан жундан тайёрланган матолардан кийимлар тикишган. Уй шароитида ип, жун, пилла, тери ва бошқа нарсалардан мато тайёрлаш аньанаси Ўзбекистонда қадимдан мавжуд бўлган.[82]

XIX аср охири-XX аср бошларида Сурхон воҳаси аҳолиси кийимлари бўз, олача, карбос, сўси, хоса каби пахтали матолардан тикилган. Сурхон воҳасидаги Бойсун, Шеробод туманларининг тоғ ва тоғ олди қишлоқларида XX аср охири-XX асрнинг 30-йилларида уй шароитида жундан мато тайёрлаш кенг тарқалган. Чорвачилик билан шуғулланувчи аҳоли жундан чакмон, пўстин, чолвор каби кийим-кечаклар, уй-рўзғор буюмлари гилам, халта, хуржун, қора уйлар ҳамда чорва моллари учун арқон, боғичлар тайёрлашган. Жунни ювиш тозалаш, титиш, йигириб ип ҳолатига келтириш асосан аёлларнинг юмуши хисобланган. Жунни йигириб ип қилишда урчуқдан кенг фойдаланилган.[83]

Жунни қўлда йигириш сетоқ, чиллак, иптав сингари қўл асбобларида бажарилган. “Термиз” давлат музей-кўриқхонасида маҳаллий аҳолининг уй шароитида жунни тайёр ип холига келтиришда фойдаланилган, “жун тароқ”, “урчуқ” ва жундан мато тайёрлашда ишлатиладиган асбоблар сақланмоқда.

[82]. Дженкинсон.А. Путешествие в Средней Азию,1958-1959гг.//Английские путешественники Московском государстве в XVI век,-Ленинград,1932; Сухарева. О.А Художественние ткани // Народное декоротивное исскуство Советского Узбекистана. Текстиль,-Ташкент,1954.С.9

[83] Қўл урчуқлари-қорақалпоқларда-“урщык”, туркманларда-“ик”,қирғизларда “ийк”, деб аталган. Қаранг; Томина.Т.Н Ткани в одежде кочевых и полукочевых народов Средней Азии // Традиционная одежда народов Средней Азии и Казахстана,-Москва, 1989,С.231.

Жун титиш жараёни Жун титиш асбоби Жун тароқ Урчуқда ип йигириш

Жун куй, эчки, туядан олинадиган чорва махсулоти бўлиб жунни тайёр мато холига келтириш тўрт босқичда амалга оширилган:

1. Жунни ювиш, тозалаш, қуритиш, махсус чўплар ёрдамида ёки қўлда титиб чиқиш.

2. Урчуқ, иптав каби қўл асбобларида жунни йигириб ип холига келтириш ва думалоқ калава қилиб ўраш.

3. Калава қилинган ипларни турли ранглар билан бўяш ва қуритиш.

4.Бўялган ипларни горизонтал йўналишда ер бўйлаб тортиб, маҳаллий дастгоҳларда ўрмак қилиб тўқиш.

ТАДҚИҚОТ МЕТОДОЛОГИЯСИ. Музей экспозиция залида гилам тўқиш дастгоҳи «ўрмак-соз» сақланмоқда. Воҳада уйда тўқиладиган матолар дастгоҳи «дўкон»ёки”ўрмак-соз” аталган.

Бўялмаган ипни бўяшга тайёрлаш «охор бериш» деб аталган ва бу мураккаб машғулотни серфарзанд, эпчил, қўли енгил «кайвони» аёл бажарган. Воҳада жундан тайёрланган ипларни охорини олиш учун буғдой уни солинган сувда қайнатиб олишган. Шеробод туманининг Ғуржак, Хўжаулкон, Хўжанқо сингари тоғ қишлоқларида қўнғирот, юз, тоғчи, қатагон уруғига мансуб аёллар жун ипларни тузли шўр сувда қайнатишган. Жунли ипларни тузли сувда қайнатиб олишнинг бирмунча афзалликлари бўлиб, шўр сувга солиб қайнатилган иплар пишиқ, чидамли бўлган. Қолаверса аёллар жун ипларни ишлатганда қўллари қизариб, териси шилиниб қаварган, хатто терининг турли аллергик касалликларига чалиниш холлари рўй берган, шу сабабли жунни тузли сувда қайнатиб унинг заҳри йўқотилган. Баьзи ҳолларда сувга ун солиб қайнатилиб, қуюқ елим ҳолатга келган унли қоришмага жун ипларни солиб, қозонларнинг қопқоғи 2-3 соат беркитиб қўйилган, бу жараён «ипга дам бериш» деб аталган.[84] Шундан сўнг иплар қозондан олиниб офтобда қуритилган, чидамли бўлиши учун хамир қоришмасига солинган. Бундай усулда тайёрланган иплар аҳоли орасида «халими ип», «қоқиёми ип» деб аталган. Одатда аёллар бундай иплардан уй шароитида жойномоз, дастурхон, рўзғор буюмлари учун халталар тикишда фойдаланишган. Уй шароитида тўқиладиган матоларни тўқув дастгоҳи «дўкон»да тўқиб тайёрлаш жараёнида бу ипларни горизонтал йўналишда яьни ер бўйлаб, ўрмак қилиб тортилган ва бу ипларнинг бир текис туриши,

[84]. Бошқа туркий халқларда ҳам жун ипларни сутга ботириб олишган. Қаранг.Томина.Г.Н.С,230. Туркманларда ҳам буғдой уни қоришмасига туз солиб жун ипларни қайнатишган. Қаранг; Васильева.Г.П Туркмены-нохурли// Среднеазиатский этнографический сборник,-Москва,1954, Вып, 1, С, 82-215.

бир-бирига чатишиб кетмаслиги учун дастгоҳнинг ип айлантириб олинадиган қисмига, ип устидан ёғочга хамир суртиб чиқилган.[85]

Воҳада эчки жунидан тивит салла, пайтава, фўта тайёрлашган, қўй жунидан, терисидан пўстин, туя жунидан чакмон тикиш кенг тарқалган. А.Д.Гребенкиннинг ёзишича, XIX аср охирида қипчоқ, найман ва туркманларда туячилик ва туя жунидан мато тайёрлаш аньанаси мавжуд бўлган ва улардан бу машғулот ўзбек дўрмонларга ҳам ўтган. Жумладан, Н.Г.Борозна туячилик билан шуғулланган бой дўрмонлар, қўнғиротлардан оқ чакмон сотиб олишганини таькидлайди.[86] Туя жунидан фақат эркакларнинг устки кийими эмас балки чорвадор хонадонларда дастурхон ва жойномозлар ҳам тўқишган. Республикамизнинг бошқа худудларида бўлганидек XX аср охири-XX аср бошларида воҳада ҳам қўй жунидан қора ўйлар учун боғичлар, халта, кигиз ва гиламлар тайёрланган. Қўй жунини ишлатишда қўйларнинг мавсумий жун қирқимларидан ўзига хос тарзда фойдаланганлар. Баҳорги мавсумда қирқилган қўй жуни «ўлик қирқим» ёки «ўли қирқим» деб аталган. Чунки қиш бўйи қўйларнинг жунлари ўстирилиб, халқ тили билан айтганда «ўлиб», ”ётиб” чиққан, яъни қиш намидан чиққан жун майинлашиб, узун, пишиқ бўлиб йигириш учун қулай бўлган. Кузги қирқим «тири» ёки «тирик» қирқим деб аталган. Бу мавсум жун қирқимида қўй жунлари калта каттиқ бўлиб, жун толаларининг аксарияти йигиришга яроқсиз бўлган. Кузги қирқим жунларидан кигиз, намат, тайёрлашган. Қўй жунидан тайёрланган ипни гилам дастгоҳ «ўрмак»дан ўтказиб «шол» мато тайёрлашган.[87] Қолаверса яхши жун қирқимидан олинган оқ ва қора қўйлар жунидан эркаклар учун чопон, иссиқ иштон, пайтавалар тайёрлашган, шунингдек қўй жунидан тайёрланган иплардан эраклар ва аёллар учун белга боғланадиган боғичлар “қумоқ-белбоғ”, “чумчулғай-белбоғ”лар ва эркаклар учун “чакмон” тайёрланган. Чорвадор аҳоли орасидаги бой ўзига тўқ эркаклар “қоқма чакмон”,оддий ва ўрта хол табақага мансуб эркаклар, чўпонлар “кўк чакмон” кийишган, бу чакмонлар ўз матосининг сифати билан бир–биридан фарқ қилган. Қўй жунидан тайёрланган “қоқма чакмон”, “кўк чакмон”ни Зарафшонбуйи қипчоқлари, Қашқадарё араблари ҳам кийганлар.[88]

“Қоқма чакмон” қалин, пишиқ, қора жун матодан икки қават қилиб бежирим қилиб тикилган, ушбу чакмонни тайёрлаш узоқ машаққатли меҳнат талаб қилган, шу сабабли уни фақат бой ўзига тўқ хонадонлар буюртма асосида тайёрлатганлар. “Кўк чакмон” енгил, юпқароқ қилиб тайёрланган. Воҳанинг тоғ ва тоғ олди қишлоқларида яшовчи аҳоли асосан қўй жунидан тайёрланган “босма чакмон”, ёки “кигиз чакмон” кийишган.

---

[85]. Гребинкин.А.Д. Узбеки // Русский Туркистан,-Москва.1872.Вып 2.С82-101,107.

[86]. Борозна.Н.Г Материальная культура узбеков Бабатага и долины Кофирнигана // Материальная культура народов Средней Азии и Казахстана.-Москва,1968.с.110.

[87] Қўй жунидан тайёрланган мато «шол» туркманларда «шал», қирғизларда »таар», арабларда «сауьб», белужларда «барак» деб аталиб эркаклар устки кийимини тикишда ушбу матолардан фойдаланилган. Қаранг Томина.Т.Н Ткани в одежде кочевих и полукочевых народов Средней Азии.С,234

[88]. Шаниязов К, Исмаилов Х.Х Этнографические очерки материальной культури узбеков конца XX-начало XX в.Ташкент,, Фан,1981,С.45

Воҳада чўпонларнинг “кебанак”деб номланган кийими ҳам қўй жунидан тайёрланган.[89] “Термиз” давлат музей-кўриқхонасида ишлов берилиб ошланган қўй терисидан тайёрланган “чакмон” XIX аср охири-XX аср бошларидаги эркакларнинг аньанавий мавсумий кийимларининг ноёб намунаси сифатида сақланмоқда.

Ошлаган теридан тайёрланган чакмон

Босма чакмон

Олача чакмон

Сурхон воҳасида юмшоқ майин қўй жунидан тайёрланадиган “босма шол”, “босма олача” кенг тарқалган. “Босма олача”нинг тикилиши ўзига хос бўлиб, уни тайёрлашда ҳар бир тикилаётган қаторга юмшоқ жун игна билан осилтириб тикилиб чиқилади ва қайчи билан тенг қилиб қирқилган юмшоқ, майин қўй жуни бир текис кўриниш олган. Шу сабабли аҳоли уларни “босма шол”, “босма олача” деб юритган. “Босма шол”, “босма олача” Қоратегин ва Дорбоз тожиклари, Шимолий Кавказ халқлари осетин, қабардин-балқарларда ҳам учрайди.[90]

Шундай қилиб, воҳада асосан чорвачилик билан шуғулланувчи аҳоли қўй, эчки, туя жунидан тайёрланган матолардан кийимлар кийишган. Чорвачилик билан шуғулланувчи аҳоли ўз навбатида деҳқончилик билан ҳам шуғулланиб, маҳаллий дастгоҳларда пахтадан тайёрланган иплардан хилма-хил матолар тўқишган. Дехқончилик билан шуғулланиб пахта етиштириш ва ундан мато тайёрлаш билан халқимиз қадимдан шуғулланиб келганлиги хақидаги маьлумотларни бир қатор илмий адабиётларда учратишимиз мумкин[91].

Уй шароитида пахтадан мато таёрлаш учун пахтани чигитдан тозалаш лозим бўлиб, “Чиғириқ” асбоби ёрдамида пахтанинг чигити ажратиб олинган. Пахтани чигитдан тозалайдиган “чиғириқ”, “халажи” каби асбоблар уй шароитида маҳаллий дурадгорлар томонидан ясалиб бозорларда сотилган. Уй шароитида пахтадан чигитни ажратиш аёлларнинг қиш мавсумидаги асосий юмушларидан бир бўлиб, у аҳоли орасида “пахта чигиллаш” деб аталган.

---

[89]. Чорвадорларнинг ёмғир, қордан ҳимоя қилувчи қишки «кэбанак» кўринишидаги устки кийимлари Қашкадарё арабларида «чойдамия» деб аталган. Исмаилов.Х.Х.Традиционная одежда Кашкадарьинской области //Костюм народов Средней Азии,-Москва,1979.с.230

[90]. Таджики Каратегина и Дарваза-Душанбе,1966.Вып.1.С.229;Кунижаева.Л.З.Материальная культура и прикладное исскуства осетин,-Москва.1973.С.19-20.

[91]. А.Д Узбеки…С76-107.Шаниязов.К.К К этничиской истории узбекскога народа.- Ташкент.Фан.1974.С.211

Ип йигириш Дастгоҳи

Халажи

Тўқув дастгохи “ўрмак-соз”

МУҲОКАМА. Кийим–кечаклар тикилишидан олдин тайёрланган матолар уй шароитида бўялган. Воҳада бўёқчилик билан махсус хунарманд бўёқчилар шуғулланишган. Бу касб билан машғул бўлган ҳунармандлар ўзлари тайёрлаган бўёқ номлари билан,”кўкчи-бўёқчи”лар,” сариқчи-бўёқчи”лар деб аталиб, Бойсун туманида бўёқчиларнинг машҳур кўкчилар, сариқчилар, қизилчилар маҳаллалари мавжуд бўлган. Маҳаллий шароитда бўёқларни тайёрлаш учун асосан ўсимлик барглари ва илдизларидан фойдаланилган. Маҳаллий бўёқлардан тайёрланган матоларда ўлкамизнинг иқлими, халқимизнинг нафис саънати, жозибадор табиати уйғунлиги ўз аксини топган. Тўқ яшил, қирмизи, тўқ сариқ, пушти, зангори, қизил ранглар ўлкамиз буйлаб кенг тарқалган. Бўёқ олишда тоғда ўсадиган рўян, испара ўсимлигининг илдизи олиниб, эзиб, майдаланган ундан тўқ қизил ҳамда оч қизил ранг олинган, баьзан ушбу ўсимлик илдизидан олинган буёқ матога тўлиқ сингмаса мато тўқ сариқ ранг тусини олган. Маҳаллий аҳолининг кекса ёшдагиларининг маьлумот беришича рўян, испара ўсимликларини оилада якка-ёлгиз ўсган киз даштга чиқиб йиғлаб териб келса матони ранги ўткир, ёрқин чиқармиш. Гуёки тоғда испарани тераётган қизнинг ранги синиқлигини, кўз ёшларини кўриб момолар “юзи қизил бўлсин, арқоғи асл бўлсин, қизиллигимни берсам устида қўним бўлсин”,* деб айтсалар терилган ўсимлик-испара қизил рангни янада кўпроқ берар экан.

Бу каби қарашларда халқимизнинг магик тасаввурлари мужассамлашган. Бундан ташқари ёнғоқни анор пўчоғи билан бирга қайнатиб қора ранг олинган. Олма, тут дарахти танасидан олинадиган пўпакларидан, анор пўчоғи, ўрик, шафтоли данагларини қайнатиб турли ранглар олинган.[92] Буёкчилар ўз касб сирларини бошқаларга билдирмасдан сир сақлашган. XIX аср охирларидан бошлаб Россиядан келтирилган анилин буёқлари кенг тарқала бошлайди. Бироқ ранги очиқ ва бўялиш жараёни анча содда бўлган, ҳамда туси тез айнийдиган бу бўёқ маҳаллий шароитга тўғри келмаслиги туфайли кўп қўлланилмаган ва унинг ўрнини алазарин буёқлари эгаллаган.[93]

Махсус тайёрланган ранглардан карбос, бўз, бамази (пахмоқ) тик, чит, каби пахта ва зиғир толасидан тайёрланган матоларга босма нақш босилган.[94]

[92]. Мезурнова.Т.И.О Среднеазиатской набойке //Этнография Таджикистана.-Душанбе,1985.

[93]. Исмаилов.Х.Х Аньанавий ўзбек кийимлари.-Тошкент Фан.1979.Б.9

[94]. XIX-аср охири-XX асрда матога гул ва нақш босиш саньати Ўратепа,Хива ва Бухоро атрофидаги қишлоқларда кенг тарқалган.Қаранг:Нозилов.Д.А.Ўрта Осиё дизайни тарихидан.-Тошкент.1998.Б.96. Удмуртларда қора бўёқ тайёрлаш учун балиқ олиниб қайнатилган ва унга иплар солиб қўйилган.Қаранг; Белицер.В.Н. Народная одежда

Матога битта ва кўп хилли ранг босиш учун бир неча қолипдан фойдаланилган. Қора ранг барча матоларга кўп ишлатилганлиги сабабли бу рангда нақшнинг асосий ва ташқи чизиғи бўялган. Қора рангли нақш босишга мўлжалланган қолип юзида нақш замини чуқур ўйилган ва нақш изи ингичка қилиб ишланган. Шу сабабли қора рангли нақшлар солиш учун ишлатиладиган қолиплар нок, ёнғоқ, ўрик, бодом сингари қаттиқ дарахт ёғочидан тайёрланган.Қизил рангли нақш солиш учун мўлжалланган қолиплар терак, тол, каби юмшоқ ёғочли дарахтлардан, айрим ҳолларда қовоқнинг бўйин қисмидан ясалган. Қуритилган ўсимлик илдизи, пояси, ва анор пўстининг қайнатмасидан тайёрланган қора рангга, темир занги ботирилган сувга мевали дарахтнинг қайнатилиб қуюқ ҳолатига келган елимлар алаштирилган қоришмаси қўшилган. Қора рангга ботириб олинган қолип, мато юзасига босилгач, таркибида темир занги бўлган сув билан бирикиб, матога табиий қора рангни чуқур сингдирган. Сўнгра қора рангни ювиш учун матони тоза сувда чайиб олишган ва матонинг лозим бўлган қисмига аччиқ тош эритмасидан тайёрланган қизил ранг туширилган.тБошқа халқларда бўлгани сингари Сурхон воҳасида ҳам пахтали матолар қўлда тўқилган. Тўқимачиликнинг асосий дастгоҳи «Тўқув» дўкони бўлган, маҳаллий шароитда “ўрмак”, “дўкон” деб айтилган дастгоҳда тўқиладиган матоларнинг узун тортилган иплари “танда”, ёки “ўрим” деб аталиб кўндаланг тортилган ип “арқоқ” деб аталган.[95] Моки танда орасидан ўтказилиб, дўкон дастаси билан ҳар сафар уриб, жипслаштирилиб борилган. Дўконларда тайёрланган матоларининг эни тор (35-40 см) бўлган.

Маҳаллий аҳоли орасида кийим-кечаклар тайёрлаш учун кўп ишлатиладиган матолардан бири бўздир. Бўялмаган табиий пахтали оқ бўз матодан кекса ёшдаги эркаклар учун кўйлак, иштон ва дафн маросимларда кафан тикилган.[96] Маҳмуд Қошғарий “бўз” атамасини пахтали мато деб тавсифлаган.[97] Қизил ва бошқа рангларга бўялган бўздан аёллар кўйлаги, лозими, бош кийимлари, куёвлар ва йигитларнинг салласи тикилган.

Қадимдан аньанавий кийимлар учун ишлатилиб келинган матолардан яна бири бу-“олача” матосидир. Олача пахтадан тўқилган йўл-йўл мато бўлиб,олачадан одатда эркаклар, болалар ва аёллар учун кундалик кийимлар тикилган. Бўз, олача матоларини асосан ўтроқ ҳаёт кечирган аҳоли тўқиб бўяб ранг берган. Ярим ўтроқ ҳаёт кечирувчи, чорвадор аҳоли эса улардан бу матоларни сотиб олган. Бойсуннинг Дарбанд, Сайроб, Шероботнинг Пашхурт, Майдон, Хўжабулғон каби қатор қишлоқларида бўз, олача тўқиладиган дўкон дастгоҳлар жойлашган хунармандчилик устахоналари бўлган. Илмий адабиётларда келтирилган пахтали матолардан яна бири “қалами” кенг тарқалган мато

удмуртов.-Москва,1951.с.371.

***Изох-устида қўним бўлсин-яьни устидаги кийимига, уст-бошига қизил ранг,қизиллик қўним бўлсин маьносида.**

[95]. Оқ-қора ва турли рангли иплардан мато тўқиш саньати хақида Қаранг: Кармышева.Б.Х. Ткачествр и прядение у народов южных районов Таджикистана и Узбекистана…С 258-260.

[96]. Бўз матоси-туркманларда- “ақ мата”,”биз”; арабларда-“нока”; белужларда “гоод”; форсларда “карбос” номлари билан юритилган..Қаранг: ТоминаТ.Н. Ткани в одежде кочевих и полекочевых народов Средней Азии....с239;

[97] . Махмуд Қошғарий. Девону луғатит турк.индекс-луғат.-Тошкент,1967.Б.73.

тури бўлиб, эркаклар кийимларини тикишда ишлатилган. Қалами-тўқилаётганда ўриш ипи сувга ботирилиб, муйқалам билан тез-тез ҳўллаб турилган ва қаттиқ, дағал мато кўринишида бўлган. “Карбос” матоси қадимий мато турларидан булиб унинг XV-XVI асрларда ишлатилганлиги хақида илмий маьлумотлар бор. Қалин пахта ипидан тикилган “карбос” кўпроқ бир хил рангли яьни маҳаллий аҳоли тили билан айтганда “сип” рангли бўлиб, қишлоқ аҳолиси ва оддий халқнинг кундалик кийимлари учун ишлатилган[98]. Республикамизнинг турли ҳудудларида хилма-хил мато турлари тайёрланган ва аҳоли улардан аньанавий кийимлар тикишда фойдаланганлар. Марғилонда “хоса”, Нурота ва Ургутда “олача” Самарқанд ва Шахрисабзда “қишлик олача”лар тўқилган.[99]

Воҳа аҳолисининг аньанавий кийимларида ипак матолар ҳам ишлатилган. Одатда пилладан ипак олиш кўп сонли кишилардан қўл меҳнати талаб қиладиган мураккаб жараён бўлиб, катта-кичик чархлар, пилла қайнатиладиган қозонлардан фойдаланилган. Ўтмишда пиллакашлик билан асосан хотин-қизлар шуғулланишган. Ярим ўтроқ хаёт кечирувчи, асосан чорвачилик билан шуғулланган воҳанинг Бойсун, Шеробод, Сариосиё туманларининг тоғ ва тоғ олди қишлоқларида аҳоли пиллачилик билан шуғулланмаган. Воҳанинг ўтроқ аҳолиси XIX аср охири-XX аср бошларида ипакчилик билан шуғулланган. Аҳоли ипак матолардан қўлда баьзи тўқимачилик махсулотлари тайёрлашни билишган. Ипакдан саллалар, чопонлар четига жияк, чироз, сочга тақиладиган соч боғ ёки жамалак, соч попуклар тикишган, ипакдан тайёрланган махсулотлар асосан кийимларга безак сифатида ишлатилган. Ипакдан тайёрланган “беқасам”, “банорас”, “шойи”, ”парпашша шойи”, “атлас” матоларидан аёллар ва эркакларнинг кўча байрам либослари тикилган. XIX асрнинг иккинчи ярми-XX асрнинг дастлабки йиллари воҳага четдан келадиган матолар орасида Қошғар матолари энг кўп ва машҳур эди. Шунингдек, бу даврга келиб Сурхон воҳасига Эрон, Афғонистон чегаралари орқали “бодомли рўмол”, “фаранг рўмол”, инглиз читлари хам кириб келган.[100]

XIX аср охири-XX аср бошларида савдо-сотиқ муносабатларининг ривожланиши натижасида Россиядан тўқимачилик саноати маҳсулотлари, яьни рус фабрикаларида тайёрланган матолар ҳам келтирила бошлайди. Қора тўқ рангли мовут, бахмал матолари эркак ва аёлларинг устки кийимлари, тўн, халат, бош кийимлари, дўппилар тикишда фойдаланилиб, байрамлар, тўй маросимлари учун “парча”, “фаранг”, “паранг”, матоларни харид қилиш кенг тус ола бошлади. Кийим-кечакларнинг асосини ташкил этувчи матоларнинг ўзгариши билан, ҳар бир ҳудудда яшовчи аҳоли киядиган кийимларнинг шакли ва бичимида ҳам муаян ўзгаришлар рўй берди.

Хуллас воҳа аҳолисининг мато турлари бошқа халқларда бўлгани сингари табиий иқлим шароити, ўзига хос турмуш тарзи, хўжалик машғулотлари турлари, савдо-сотиқ

[98]. «Матлаи саьдайн ва мажмаи бахрайн» -Тошкент.1969.Б.456;Навоий асарлар лугати-Тошкент,1972.Б.305.
[99] . Исмоилов.Х. Аньанавий ўзбек кийимлари….Б.
[100]. Томина,Т.Н. Ткани в одежде кочевых и полукочевых народов Средней Азии…С.249.

муносабатлари билан боғлиқ ҳолда шаклланган ва ўзгариб борган. Масалан, тоғ ва тоғ олди қишлоқларида яшовчи ярим ўтроқ аҳоли кўпроқ чорвачилик билан шуғулланганлиги сабаб уларнинг кийимларида жун матодан кенг фойдаланилган. Чунки табиий иқлим шароити бир мунча совуқ, қор, ёмғирли бўлганлиги учун қўй, эчки, туя жунидан тайёрланган матолар ўзида чидамлилиги ва пишиқлиги билан тоғ-яйлов шароитига анча мос тушган. Деҳқончилик билан шуғулланувчи аҳоли ўз-ўзидан иссиқ об-ҳаво шаротига мос, енгил пахтали матолардан кийим-кечак тикишга одатланган. XIX аср охири-XX аср бошларида пилла етиштириш воҳада кам тарқалганлиги, яъни пиллага ишлов бериш, тайёрлаш жараёни анча машаққатли бўлганлиги боис шойи ва ярим шойи матолардан тикилган кийимлар ноёб, қимматбоҳо саналиб фақат тўй, байрам ва сайллардагина тикилган. Аньанавий кийимлар учун жун, пахта, пилладан ип йигириб мато тўқиш, матога охор бериш, бўяш, нақш босиш сингари кўп босқичли юмушлар воҳанинг ҳар бир ҳудудида, маълум бир этник гуруҳларда ўзига хос тарзда ва ўзига хос усулларда амалга оширилган.

ХУЛОСА. Хулоса қилиб айтадиган бўлсак, XIX аср охири–XX аср бошларида воҳа аҳолисининг кийимлари ва кийим тикиш учун зарур бўлган матоларни тайёрлаш усулларида аньанавийлик устун бўлган. Аҳоли жундан тайёрланган турли хил кийимларни кийиш билан бирга, бўз, олача, қалами, карбос, сўси, хоса сингари пахтали матолар ҳам тўқилиб улардан эркак ва аёлларнинг турли-туман аньанавий кийимлари тикилган. Бундай матоларни тўқишда асосан маҳаллий тўқув дастгоҳлари »дўкон»лардан фойдаланилган.

Сурхон воҳаси аҳолисининг аньанавий кийимларидаги мато турлари, уларни тайёрлаш усуллари тарихини ўрганиш, илмий адабиётлар,тўпланган дала маьлумотлари ва “Термиз” давлат музейи қўриқхонасида сақланаётган экспонатлар асосида таҳлил қилиш натижалари, халқимизнинг бой моддий меросини ўрганиш,уни асраб авайлаш, тарғиб қилишда сезиларли ҳиссамизни қўшилишига ва ёш авлод қалбида миллий меросимиз ва қадриятларимиздан фахр, ифтихор, миллий ғурур туйғусини шакллантиришда бой маьнавий омил бўлиб хизмат қилади.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР.

1.Борозна. Н.Г.Материальная культура узбеков Бабатага и долины Кофирнигана //Материальная культура народов Средней Азии и Казахстана.-Москва.1968.

2.Белицер В.Н.Народная одежда удмуртов.-Москва.1951.

3.Васильева Г.П.Туркмени-нохурли //Среднеазиатский этнографический сборник,-Москва,1954.

4.Гребинкин А.Д. Узбеки // Русский Туркистан,-Москва 1872 Вып 2.

5.Дженкинсон.А.Путешствие в Средней Азию 1958-1959 гг. // Английские путешественники в Московском государстве в XVl век,Ленинград,1932.

6.Исмаилов Х.Х.Традиционная одежда Кашкадарьинского области // Костюм народов Средней Азии,-Москва,1979.

7.Исмоилов Х.Х. Аньанавий ўзбек кийимлари ,-Тошкент.Фан.1974.

8.Кармышева Б.Х Ткачество и прядение у народов южных районов Таджикистана и Узбекистана.Москва.1969.

9.Кунижаева Л.З. Материальная культура и прикладное исскуства осетин,Москва,1973.

10.Мезурнова Т.И. Среднеазиатской набойке // Этнография Таджикистана,Душанбе.1985.

11.Нозилов Д.А. Ўрта Осиё дизайни тарихидан,-Тошкент.1998.

12.Сухарева О.А.Художественние ткани //Народное декоративное исскуство Советского Узбекистана.Текстиль,-Ташкент.1954.

13.Томина Т Н.Ткани в одежде кочевых и полукочевых народов Средней Азии //Традиционная одежда народов Средней Азии и Казахстана,-Москва.1889.

14.Таджики Каратегина и Дарваза,Душанбе.Вып.1.1967.

15.Шаниязов К.Исмаилов Х.Этнографические очерки материальной культуры узбеков конци XlX-начало XX в.Ташкент,Фан,1981.

16.Шаниязов.К. К этнической истории узбекского народа,-Ташкент,Фан,1974.

17.Махмуд Кошғарий Девону луғатит турк индекс луғат.-Тошкент,1967.

18.Матлаи саьдайн ва мажмаи бахрайн.Тошкент.1969.

19.Навоий асарлар луғати, Тошкент,1972.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 1-son)

FILOLOGIYA

PHILOLOGY

MUQUMIY VA BERDAQ SHE'RIYATIDA BELGI IFODALOVCHI LEKSEMALARNING PRAGMATIK IMKONIYATLARI.

Nematullayeva Gulandom Abdusamadovna
Navoiy davlat pedagogika inatituti tayanch doktoranti

Annotatsiya: Ushbu maqola Markaziy Osiyoning taniqli shoirlari Muqumiy va Berdaq she'riyatida qahramonlarni tasvirlashda ishlatilgan leksik birliklarning pragmatik imkoniyatlarini o'rganadi. Pragmatika va adabiy lingvistika nuqtayi nazaridan ushbu birliklarning qahramon obrazlarini shakllantirishdagi va poetik diskursdagi kontekstual funksiyalari tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, ushbu leksik birliklar faqatgina tasvirlovchi vosita sifatida emas, balki ijtimoiy-madaniy qadriyatlar, his-tuyg'ular va shoirlarning ideologik qarashlarini ifodalash vositasi sifatida ham xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Pragmatika, leksik birliklar, qahramon tasviri, Muqumiy, Berdaq, poetik diskurs, ijtimoiy-madaniy qadriyatlar.

KIRISH.

Muqumiy va Berdaqning she'riy ijodi Markaziy Osiyo adabiyotida ulkan hissa sifatida e'tirof etiladi. Har ikki shoir ham qahramonlarning murakkab tasvirlari bilan mashhur bo'lib, bunda leksik birliklar ularning shaxsiyati va chuqur mazmunlarni ifodalashda muhim rol o'ynaydi. Ushbu maqola ushbu leksik birliklarning pragmatik funksiyalarini tahlil qilishni, ularning talqin qilishga ta'sirini va madaniy nuanceslarini yetkazish qobiliyatini o'rganishni maqsad qiladi. Tadqiqot til elementlarining o'z ma'nolaridan oshib, o'quvchilarni ko'p qatlamli darajada jalb etishini ta'kidlaydi.

Tadqiqot sifat jihatidan yondashib, Muqumiy va Berdaqning tanlangan she'rlarini tahlil qiladi. Pragmatik tahlil leksik birliklarning kontekstual qo'llanilishiga e'tibor qaratib, implicatura, nutq aktlari va konnotatsiyalar kabi jihatlarni o'z ichiga oladi. Har ikki shoirning tilni qahramonlarni yaratishda qanday ishlatganini taqqoslash uchun solishtirma tahlil o'tkaziladi. Ma'lumotlar axloqiy atributlar, ijtimoiy rollar va hissiy ifodalar kabi tematik guruhlarga ajratiladi.

Muqumiy va Berdak ijodidagi xarakterni ifodalovchi leksemalarning pragmatik imkoniyatlari, ya’ni ularning matn ichidagi kommunikativ vazifalari va ma’no-yuklari poetik nutqning asosiy komponentlari sifatida alohida e’tiborga loyiqdir. Quyida ushbu mavzu bo‘yicha asosiy tushunchalar va tahlil yo‘nalishlari keltirilgan:

1. Xarakterni ifodalovchi leksemalarning funksiyalari

- Obraz yaratish: Leksemalar yordamida xarakterning ijtimoiy holati, shaxsiyati yoki hissiyoti aniqlanadi. Masalan, Muqumiy she’rlarida xalqning qahramonlari yoki oddiy insonlarning xarakterlari yorqin tasvirlanadi.

- Emotsional yuk: Berdak she’rlaridagi leksemalar insonlarning qiyinchiliklarga qarshi kurashda ko‘rsatgan sabr-toqati va shijoatini aks ettirishda qo‘llaniladi.

- Milliy qadriyatlar: Leksemalar orqali milliy o‘zlik, urf-odat va an’analar ifodalanadi.

2. Leksemalarning poetik nutqda qo‘llanilishi

- Muqobil semantik qatlamlar: Muqumiy ijodida xalq hayoti va inson qismatlarini ochib beruvchi metaforik va simvolik leksemalar ko‘p uchraydi. Masalan, "zor", "mehrob" kabi so‘zlar ijtimoiy tanqidni kuchaytiradi.

- Dialektal va regional xususiyatlar: Berdak she’rlarida joylashuvga xos dialektal leksemalar ishlatiladi, bu esa she’riy obrazni xalqona ruhda gavdalantirishga xizmat qiladi.

- Pragmatik ta’sir: O‘quvchi/yoki tinglovchiga o‘ziga xos ta’sir o‘tkazish uchun she’rda tanlangan so‘zlar orqali muallif o‘z nuqtai nazarini taqdim etadi.

3. Pragmatik imkoniyatlarni aniqlash usullari

- Konnotativ ma’no: Xarakterga xos bo‘lgan leksemalarning matndagi qo‘shimcha ma’nolarini aniqlash. Masalan, "yurak", "uyat", "jasorat" kabi so‘zlarning she’riy kontekstdagi ma’nosi.

- Sintaktik qurilishlar: Muqumiy va Berdak she’rlarida takroriy so‘zlar, antonimlar va parallel konstruktsiyalardan foydalanish xarakter tasvirini yanada kuchaytiradi.

- Maqsadli muqoyasa: Muqumiy va Berdak she’rlaridagi o‘xshash va farqli poetik leksemalarni tahlil qilish orqali ularning kommunikativ maqsadi aniqlanadi.

4. Tahlilga oid misollar

Muqumiy:

"Shu xalq uchun qilur to‘kib
To‘kmab ahvolimni dog‘lar..."

Bu misrada "dog‘lar" so‘zi shaxsning ichki iztiroblari va fidoyiligi bilan pragmatik ma’noda uyg‘unlashgan.

Berdak:

"Orol vodiysi bag‘rida to‘lqin
To‘lib-toshgan, kecha-yu kunduz..."

Bu misrada "to‘lqin" metaforasi inson tabiatining kuchli va qo‘zg‘aluvchanligini ifodalab, pragmatik jihatdan kuchli ta’sir uyg‘otadi.

Muqumiy va Berdak ijodida xarakterni ifodalovchi leksemalar o‘zaro uyg‘unlikda, poetik tuzilmaning asosiy qismi sifatida xizmat qiladi. Ularning pragmatik imkoniyatlarini tahlil qilish o‘quvchiga matnni yanada chuqurroq anglashga, shuningdek, ijodkorlarning mahoratini yanada aniqroq qadrlashga yordam beradi.

Muqimiy dunyoqarashi va intilishlari bilan muhit o‘rtasidagi ziddiyat uning ijodida tanqidiy yo‘nalishni maydonga keltirgan. Bu uning hajviyotida ko‘proq aks etgan. Hajviyoti

mazmunan satira va yumorga bo‘linadi. Satiralarida chor amaldorlari, ayrim mahalliy boylarning kirdikorlari ochib tashlangan («Tanobchilar» va boshqa) «Saylov», «Dar mazammati zamona» va boshqada o‘lkaga kirib kelayotgan kapitalistik va g‘ayriaxloqiy munosabatlar hamda ularning oqibatlari ko‘rsatilgan. Ba’zan, o‘sha davrdagi hukmron qarashlarga ergashib, Dukchi eshon haqida ham hajviy asarlar yozgan («Hajvi halifai Mingtepa»).

Ot, arava, loy, pashsha, bezgak kabi mavzularda 30 ga yaqin hajviy asar yaratgan. Ularda shoir turmushning qoloq va chirkin tomonlari, ijtimoiy ongdagi nuqsonlar ustidan kulgan, mustamlakachilik azobi, xarobalikni zaharxandalik bilan tasvirlagan («Devonamen», «Ko‘samen» «Hayron qildi loy», «Pashshalar», «Shikoyati bezak» va boshqa). Boshqa bir qator hajviyalarida jamiyat hayotidagi o‘zgarishlarga yangicha munosabat aks etgan («Ta’rifi pech», «Aroba qursin», «Loy» va boshqa).

Muqimiy o‘zbek adabiyotiga ishchilar mavzuini olib kirdi, tiplar galereyasini yaratdi («Maskovchi boy ta’rifida», «Voqeai Viktor» va boshqa). Turli shaxar va qishloqlarga qilgan sayohatlari taassurotlari asosida 4 qismli «Sayohatnoma» asarini yozdi. Asar yengil, o‘ynoqi vaznda yozilgan, 4 misrali bandlardan tashkil topgan. Unda xalq turmushining og‘irligi, qishloklarning vayronaligi realistik tasvirlangan. Shoir yaxshilikni ma’qullab, go‘zallikni madh etgan, kamchiliklar ustidan kulib, tanbeh bergan, yovuzlikni, turli illatlarni tanqid qilgan. Muqimiyning nasr va nazmdagi maktublari epistolyar adabiyot namunasi hisoblanadi. 10 she’riy, 20 ga yaqin nasriy maktublari saqlangan. She’rlari qo‘lyozmalar, bayozlar, 20-asr boshlarida litografiyada nashr qilingan kitoblar, Toshkent va Peterburgda bosilgan vaqtli matbuot sahifalarida bizgacha yetib kelgan.

Muqimiy ijodini o‘rganish, asarlarini to‘plash va nashr ettirish u hayot davridayoq boshlangan. Dastlab Ostroumov «Devoni Muqimiy» to‘plamini (T., 1907) nashr qilgan, so‘ng 1910,1912 yillarda «Devoni Muqimiy maa hajviyot» nomi bilan asarlari to‘plami bosilgan. Keyingi davrlarda G‘. G‘ulom, Oybek, H. Zarifov, H. Yoqubov, H. Razzoqov, G‘. Karimov, A. Hayitmetov va boshqa Muqimiy ijodini tadqiq etganlar. She’rlaridan namunalar chet tillarga tarjima qilingan. Qo‘qonda uy-muzeyi tashkil etilgan. Farg‘ona viloyatidagi shaharcha, Toshkent ko‘chalaridan biri, O‘zbek davlat musiqali drama teatri Muqimiy nomi bilan ataladi. Shoir haqida Sobir Abdulla «Mavlono Muqimiy» romani va «Muqimiy» dramasini yaratgan. Muqimiyning aksariyat g‘azallari ashulaga aylangan.

Berdimurod Qarg’aboy o’g’li Berdaqning “Xalq uchun”, “Soliq”, “Yoz kelarmu”, “Bo’lgan emas” kabi she’rlarida mehnatkash xalq ommasining hayotidan olingan lavhalar mahorat bilan tasvirlangan. Bunda xalq boshiga tushgan musibatlarning ko’pchiligiga asosiy sababchi amaldorlar ekanligi aytilib, ularning kirdikorlari ayovsiz fosh etilgan. Shoirning “Shajara”, “Xorazim”, “Omongeldi”, “Oydosbiy” va “Axmoq podsho” kabi dostonlari xalq orasida juda mashhur bo’lgan.Qoraqalpoq xalqi tarixida juda murakkab jarayonni bosib o’tgan. Asosan, chorvacholikbilan shug’ullangan qoraqalpoqlar uzoq asrlar ko’chmanchilik hayotini boshidan kechirdi.

Berdaqning dostonlariga to’xtaladigan bo’lsak, “Ahmoq podsho” nomli dostonida zolim xonlarni qattiq tanqid qildi. Asarda Ahmoq podsho uzoq vaqt farzand ko’rmaydi. Keyin uning Gulim ismli xotini qizli bo’ladi. Podsho esa bundan g’azablanib, xotini va qizini yo’q qilishni buyuradi. Dono cho’ri ayol Zoraning tadbirkorligi tufayli bular omon qoladi. Qizi Gulzor ulg’aygach, otasini borib ko’radi. Axmoq podsho esa o’z qiziga oshiq bo’lib qoladi. Qizi podsho taklifini rad etgach, uni itlarga talatib o’ldirishni buyuradi. Eng vahshiy itlar ham qizga yaqinlashmaydi. Aksincha, ular tilga kirib, podshoni qarg’aydi. Gulzor uzoq vaqt podsho ko’zidan yashirinib, o’rmonda yuradi. Keyin esa kelib Axmoq podshoni o’ldiradi. Asarning mazmunidan ham ko’rinib turibdiki, xalq boshiga kelayotgan kulfatlarga Axmoq podsholarga o’xshash zolim va benomus hukmdorlar sababchidir.

Tadqiqot qahramonlarni tasvirlashda leksik birliklarning ko'p qirrali ekanligini va ularning pragmatik ahamiyatini yoritadi. Muqumiy she'riyatida ushbu leksik birliklar ijtimoiy tanqid vositasi bo'lib xizmat qilsa, Berdaqning leksik birliklari introspektiv va falsafiy diskurs yaratadi, o'quvchilarni insoniy fazilatlar va kurashlar haqida o'ylashga undaydi. Taqqoslash tahlili shoirlarning madaniy va axloqiy diskursga bo'lgan umumiy sadoqatini, ularning yondashuvlaridagi farqlarga qaramay, ochib beradi.

XULOSA

Ushbu tadqiqot Muqumiy va Berdaq she'riyatida qahramonlarni tasvirlashda leksik birliklarning murakkab rolini namoyish etadi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, pragmatik tahlil til va madaniy ifoda o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni o'rganishda qimmatli bilimlarni taqdim etadi. Kelajakdagi tadqiqotlar ushbu yondashuvni boshqa Markaziy Osiyo shoirlariga kengaytirishi yoki ushbu leksik birliklarning o'quvchilar qabuliga va talqiniga qanday ta'sir qilishini o'rganishi mumkin.

Ma'lum leksik birliklarning qo'llanilishini miqdoriy tahlil qilish uchun korpusga asoslangan tahlilni joriy qilish.

Ushbu leksik birliklarning pragmatik funksiyalariga tarjima ta'sirini o'rganish.

Ushbu she'riy asarlarni pragmatika va madaniy lingvistikani o'qitishda pedagogik imkoniyatlarini o'rganish.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI.

1. Abdurasulov M. O’zbek ma’rifatparvar shoirlari ilm-ma’rifat haqida. T.: “O’qituvchi”. 1972.

2. Valixo’jayev B. O’zbek adabiyotshunosligi tarixi. T.: “O’zbekiston. 1993

3. Jalolov A. O’zbek ma’rifatparvar-demokratik adabiyoti. T.: 1978 4. Jo’rayev H. Lirikada an’anaviylik va o’ziga xoslik. T.: 2004.

5. Karimov G’. O’zbek adabiyoti tarixi. Toshkent. 1976.

6. Muqimiy. Bog’ aro. T.: Akademnashr. 2010.

7. Sulton I. Adabiyot nazariyasi. T.: “O’qituvchi”. 1980.

8. Toshkanov S. O’zbek adabiyotida satirik xarakter problemasi. T.:1987

9. Qodirova M. O’zbek shoiralari ijodida ozodlik motivlari.T.:1977

10. Qodirov V. Mumtoz adabiyot: O’qitish muammolari va yechimlar.T.:2009

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 1-son)

FILOLOGIYA

PHILOLOGY

O‘ZBEK VA INGLIZ PARAMEYALARIDA HAQIQAT KONSEPTINING STRUKTUR SEMANTIK TADQIQI

Muminova Nasiba Solijon qizi
Toshkent Amaliy Fanlar Universiteti
Chet tillar 1 kafedra o‘qituvchisi
nasiba_9095@inbox.ru

Annotatsiya. Tilshunoslikda haqiqat konseptining mavjudligi, uning mavjud bo‘lishini tasdiqlovchi nazariy va empirik dalillar ustuvor bo‘lsa, struktur semantik tadqiqi asosida "haqiqat"ni obyektiv va isbotlangan narsa sifatida emas, balki subyektiv va munozarali semantik xususiyatga ega bo‘lishi mumkin bo‘lgan bir tushuncha sifatida o‘rgatish tavsiya etiladi. Zamonaviy tilshunoslikdagi qator muammolar inson omiliga destruktiv ta’sir etayotgan bir vaqtda, jamiyat hayotining barcha sohalarida haqiqat tushunchasining konseptual asoslarini tadbiq etish, uning amaliy faoliyatdagi konstruktiv ahamiyatini ochib berish hamda haqiqatni belgilovchi struktur semantik vositalar va qo‘llash uchun foydalanish mumkin bo‘lgan komponentlarni ishlab chiqish.

Kalit so‘zlar: struktur semantik, semantik, konseptual mezonlar, realizm, metod, pragmatik, didaktik.

Annotation. According to the structure's semantic research, "truth" may have a subjective and contentious semantic character rather than being an objective and proven thing if the theoretical and empirical evidence supporting the concept of truth in linguistics and its existence are the top priorities. It is vital to apply the conceptual underpinning of the concept of truth in all spheres of society, to demonstrate its constructive significance in practical activities, and to develop structural semantic tolls and components that can be used to determine the truth at a time when a number of issues in modern linguistics have a detrimental effect on the human factor.

Key words: structural semantics, semantics, conceptual criteria, realism, method, pragmatic, didactic.

Аннотация. Существование понятия истины в лингвистике, если приоритетными являются теоретические и эмпирические доказательства, подтверждающие ее существование, основанное на семантическом исследовании структуры, «истина» может не быть объективной и доказанной вещью, но может иметь субъективный и противоречивый смысловой характер. Рекомендуется преподавать как понятие. В условиях, когда ряд проблем современного языкознания оказывают деструктивное

воздействие на человеческий фактор, необходимо применять концептуальные основы понятия истины во всех сферах жизни общества, раскрывать его конструктивное значение в практической деятельности, разработать структурно-семантические инструменты и компоненты, которые можно использовать для определения истины.

Ключевые слова: структурная семантика, семантика, концептуальные критерии, реализм, метод, прагматика, дидактика.

KIRISH.

Mamlakatimizda shaxs tafakkurini har tomonlama rivojlantirish, komil inson konseptsiyasini yangicha yondashuv asosida shakllantirish yuzasidan keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Zero, barkamol shaxs tarbiyasida haqiqat, adolat, ideallik kabi umuminsoniy qadriyatlarning namoyon bo‘lishi mavjud ta’lim-tarbiya tizimining ratsional imkoniyatlari bilan belgilanmoqda. Bundan kelib chiqib, inson kundalik hayotida asosiy kategoriyalaridan biri sifatida haqiqat tushunchasi doimo ijtimoiy va madaniy omillarga asoslangan holda rivojlanib borar ekan, u nafaqat inson bilimlarini ob'ektiv voqelik bilan uyg'unlashtirishni, balki zamonaviy ilm-fan taraqqiyotining poydevori va unga erishishning samarali vositasi bo‘lib xizmat qiladigan yuqori darajadagi bilim idealini ham o‘z ichiga oladi. **Haqiqat** - voqelikning kishi ongida to‘g‘ri aks etishi, bilimlarimizning obyektiv reallikka mos kelishidir. Haqiqat insonning borliqni bilishdagi asosiy maqsadlaridan biri. U asosan inson bilimlari bilan borliqdagi narsa va hodisalar o‘rtasidagi munosabat masalasini o‘z ichiga oladi. Haqiqat mazmunan ob’yektiv, lekin shaklan inson tafakkuri faoliyatining natijasi sifatida sub’yektivdir. Hozirgi kunda zamonaviy tilshunoslikda haqiqat konseptining mavjudligi, qo‘llanilishi va mavhum tafakkur operatsiyasi va tajribiy tushunchalariga bog‘liqligi qayd etilmoqda. Shu bilan birga haqiqat konseptining struktur semantik kategoriyalar, modellar va umumiy metodlar bilan bog‘liq holda o‘rganish ilmiy tadqiqot obyektiga aylanmoqda. Haqiqatning mazmuniga yangi-yangi zarralar qo‘shib borilar ekan, borliq bepoyon va cheksiz bo‘lgani kabi, insonning uni bilishi ham cheksiz davom etadi. Har bir bilimning haqiqatligi ma’lum joyga, vaqt va vaziyatga, kishi bilishining imkoniyatiga va darajasiga bog‘liq. Haqiqat tushunchasining ilmiy-nazariy mohiyati, turlari va mezonlari, jamiyat hayotida tutgan o‘rni borasida turli yo‘nalishlarda bir qancha tadqiqotlar amalga oshirilgan. Shu ma’noda, ushbu maqolada aynan mavzuga aloqador bo‘lgan bir qancha mezonlarni ko‘rib chiqamiz.

TADQIQOT METODOLOGIYASI.

“…Eng katta boylik – bu aql-zakovat va ilm, eng katta meros – bu yaxshi tarbiya, eng katta qashshoqlik – bu bilimsizlikdir. Ilm yo‘q joyda qoloqlik, jaholat va albatta to‘g‘ri yo‘ldan adashish bo‘ladi”- Sh.Mirziyoyev. O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev shaxsning har tomonlama kamol topishi va farovonligi, manfaatlari ro‘yobga chiqarishning sharoitlarini va ta’sirchan mexanizmlarini yaratish eskirgan tafakkur va ijtimoiy xulq-atvorning andozalarini o‘zgartirish mamlakatda amalga oshirilayotgan pedagogik ta’lim islohotlarning asosiy maqsadi kuchli raqobatbardosh pedagogik mutaxassis kadrlarni

tayyorlash – deb aytgan, chunki, xalqning boy intellektual merosi va umuminsoniy qadriyatlar asosida zamonaviy madaniyat, iqtisodiyot, fan-texnika va texnologiyaning yangi yutuqlarini salohiyatli mutaxassislarni tayyorlashning yangi tizimini rivojlantirish O‘zbekiston Respublikasida ta’lim taraqqiyotining muhim shartlaridan biri bo‘lib qoldi. OTMlarda tilshunoslikning kognitiv nazariy tizimini yaratishda kreativ yondashuvga, “Haqiqat” konseptini shakllantiruvchi lisoniy vositalar markaz va periferiyalarni hosil qilishda konseptual maydonning markaz, yaqin va uzoq periferiyalarni aniqlash va ularni ko‘rsatuvchi elementlar tavsiya etish jarayonidagi o‘rni hamda differensial va individual jarayoniga ta’limning o‘zaro ta’minlash, tayanch signal sistemalaridan samarali foydalanish muammoli – kognitiv parameiyalar asosida shaxsni rivojlanishiga zamin yaratadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining, 2017 yil 7 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son Farmoni, 2017 yil 20 apreldagi PQ-2909-son “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2909- son Qarori, 2017 yil 22 maydagi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Oliy ta’limdan keyingi ta’lim tizimini yanada takomillashtirish choratadbirlari to‘g‘risida”gi VM-304-son Qarori 2019 yil 4 oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasining “Davlat tili haqida”gi Qonuni qabul qilinganligining o‘ttiz yilligini keng nishonlash to‘g‘risida”gi PQ-4479-son Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 21 oktyabrdagi “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5850-son Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son “Raqamli O‘zbekiston – 2030 strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son. Taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish choratadbirlari to‘g‘risida”, 2021-yil 4-martdagi PF6181-son “2021-2025 yillarda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” farmonlari va 2017-yil 28-iyuldagi PQ-3160-son “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko‘tarish to‘g‘risida”gi Qarori, Haqiqat tushunchasining zamonaviy jamiyatda namoyon bo‘layotgan dinamik xususiyatlari shaxs maqsad, mo‘ljallarining fluktatsion rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatishi isbotlanganligiga oid taklif va tavsiyalardan O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligining “Ma’naviy tahdidlar va ularga qarshi kurashish” mavzusidagi tadbir ssenariysini ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligining 2022-yil 29- noyabrdagi 4-13-23-4054-son ma’lumotnomasi) hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu maqola muayyan darajada xizmat qiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI.

Haqiqat muammosi asrlar davomida ko‘plab faylasuflar diqqat markazida bo‘lib kelgan. Jumladan, dastlab haqiqat mavzusi Aflotun, Geraklit, Suqrot, Arastu, Demokrit, kabi yunon

ko‘rib chiqish orqali, tarjima jarayonining sifatini oshirishda qanday muhim omilga aylanganligini aniqlashga intilamiz. Shu bilan birga, madaniyatlararo tafovutlarni qanday yoritish va tarjimadagi noaniqliklarni qanday hal qilish borasidagi masalalar ham bu tahlilda alohida e’tiborga olinadi. Tarjima jarayonining murakkabligi, madaniy va lingvistik tafovutlarni muvaffaqiyatli engishdagi o‘rni bu maqolaning asosiy mavzularidan biridir.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Adabiyotlar tahlili jarayonida, asosan, ikki muhim soha – tarjima nazariyasi va eksterlingvistik vositalar haqida yozilgan ilmiy asarlar, maqolalar va tadqiqotlar o‘rganilgan. Bu adabiyotlar qahramonlar xarakterining tarjimadagi ifodalari, tarjimonning metodologiyasi va uslubi, hamda madaniyatlararo tafovutlar haqida bir qator muhim nazariy asoslarni taqdim etadi.

Tarjimada eksterlingvistik vositalar qanday ishlatilishi haqida ko‘plab ilmiy ishlar mavjud. Misol uchun, G. Shveitser va I. I. Retsker tarjimadagi eksterlingvistik vositalar va ularning tahlili bilan bog‘liq asarlarda turli metodologik yondashuvlarni taqdim etgan. Shuningdek, E. Nida va C. Taber kabi ilmiy tadqiqotchilar madaniyatlararo tafovutlar va tarjimadagi eksterlingvistik elementlarni to‘g‘ri tushunish muhimligini ta’kidlaganlar. Ularning metodologiyasi tarjimadagi so‘z va iboralar o‘zgartirilganda, asl matnning ruhi va kontekstini qanday saqlab qolish mumkinligi haqida chuqur tahlillarni o‘z ichiga oladi.

Eksterlingvistik vositalar – bu tilga oid bo‘lmagan, ya’ni madaniy, ruhiy va psixologik xususiyatlar orqali ifodalanadigan belgilarni o‘z ichiga oladi. Eksterlingvistik vositalar, jumladan, non-verbal kommunikatsiya, mimikalar, jismoniy holatlar va harakatlar, tarjima jarayonida qahramonlarning ichki dunyosini va ruhiy holatini aniq ifodalashda muhim rol o‘ynaydi. S. A. Vinogradov va L. V. Shcherba kabi olimlar tilning kontekstual aspektlarini tahlil qilishda eksterlingvistik vositalarning o‘rnini alohida ta’kidlaganlar.

METODOLOGIYA

Maqolada o‘rganilgan metodologiya komparativ tahlil va kontekstual tahlil asosida qurilgan. Tarjimonning asar muallifining uslubini saqlab qolish maqsadida, tarjima matnida eksterlingvistik vositalarning ishlatilishiga alohida e’tibor qaratilgan. Bu metodologiya ikki asosiy bosqichni o‘z ichiga oladi:

Komparativ tahlil: Asl nusxa va tarjima matnini taqqoslash jarayonida, eksterlingvistik vositalarning qahramonlarning ruhiy holatlarini ifodalashdagi roli ko‘rib chiqilgan. Asl matn va tarjima orasidagi farqlarni aniqlash, qahramonlarning harakatlari, mimikalari va boshqa non-verbal kommunikatsiya vositalarining qanday tarjima qilinganligini tekshirish muhimdir. Bu jarayon tarjimadagi stilistik va madaniy tafovutlarni aniqlashga imkon beradi.

Kontekstual tahlil: Tarjimada eksterlingvistik vositalar kontekstga mos ravishda ishlatilganligi tahlil qilingan. Qahramonlarning ruhiy holatini va ichki dunyosini ifodalashda, tarjimonning tanlagan so‘zlari va iboralari qanday ruhiy o‘zgarishlarni, hissiy holatlarni va psixologik tuyg‘ularni yoritishga yordam beradi.

Metodologiya jihatidan, Mark Rizning tarjima uslubiga katta e’tibor berilgan. Uning tarjimasi orqali, eksterlingvistik vositalar qanday qilib ingliz tiliga muvaffaqiyatli o‘girilib, qahramonlarning ruhiy holatlari va psixologik o‘zgarishlarini yetkazishga erishilganligi ko‘rsatilgan. Rizning uslubi, tarjimadagi ifodalarning nafaqat to‘g‘ri, balki madaniyatlararo tafovutlarga mos kelishini ta’minlashga qaratilgan.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya tarjimaning sifatini oshirish va madaniyatlararo tafovutlarni yoritishda muhim rol o‘ynaydi. Eksterlingvistik vositalarni tarjima jarayonida to‘g‘ri qo‘llash, nafaqat qahramonlarning xarakterini aniq ochishga, balki asar muallifining uslubini saqlab qolishga ham yordam beradi. Bu esa, tarjimaga madaniy kontekstni, ruhiy holatlarni va ichki dunyoni yetkazishda yuqori samaradorlikni ta’minlaydi.

Asarni 1926-yildagi arab yozuvidan kirill yozuviga o‘girilgan matndan tarjima qilganman. Qodiriy davridagi Markaziy Osiyoni, madaniy muhitni tushuntirib berish uchun tarjimaga 500 ga yaqin izohlar qo‘shganman. O‘zbek tilshunoslari va adiblar uni ko‘rib chiqib, tahrirda yordam berishdi, — dedi Mark Riz Abdulla Qodiriy nomidagi ijod maktabiga tashrifi davomida.

2019-yilning 27-dekabrida O‘zbekistonning Vashingtondagi elchixonasida buyuk o‘zbek adibi Abdulla Qodiriyning "O‘tkan kunlar" romanining ingliz tilidagi nashri taqdimoti o‘tkazilgani butun yurtdoshlarimizni behad quvontirgan edi. Zero, "Bygone days" deb nomlangan ushbu asarning dunyoning eng etakchi tiliga tarjima qilinishi, uning o‘quvchilar tomonidan yuqori baholanayotgani va “besh yulduzli” reytingini saqlab qolayotgani milliy g‘ururimizni yanada yuksaltiradi.

“O‘tkan kunlar”ning ingliz tilidagi nashri taqdimoti poytaxtimizdagi Adiblar xiyobonida ham bo‘lib o‘tgani va unda asar tarjimoni — AQSHlik ijodkor Mark eduard Rizning o‘zi ishtirok etgani esa adabiyotimiz olamida unutilmas voqea sifatida tarixga muhrlandi. SHu o‘rinda aytish joizki, amerikalik mehmonning mamlakatimizga tashrifi doirasida “O‘tgan kunlar” romanining ingliz tilidagi nashri taqdimoti bilan birga madaniy-gumanitar doiralar vakillari bilan uchrashuv va muzokaralar o‘tkazish, o‘zbek yozuvchilarining asarlarini tarjima qilish, mahalliy tadqiqot muassasalari bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yish masalalarini o‘rganish va Marg‘ilon shahriga safar qilish ham ko‘zda tutilgan edi.

Noverbal muloqot, tana tili bu — o‘zaro muloqot jarayonidagi so‘z qo‘llamasdan obraz, ohang, harakat, mimikalar orqali nutq va til vositalarisiz kommunikativ ta’sir etishdir. Bunday “muloqot” quroli bo‘lib fikrni keng va atroflicha ifodalay oladigan vosita va usullarga ega inson tanasi hisoblanadi. Shuning uchun bunday aloqa “tana tili” deb yuritiladi. Noverbal belgilarning to‘g‘ri inerpretatsiyasi samarali muloqotning muhim shartlari sanaladi. Harakat va tana holatlari tilini bilish suhbatdoshni yaxshi tushunishnigina emas, uning fikrini oldindan ko‘ra olish imkonini beradi. Til vositalarisiz qo‘llaniladigan bunday muloqot ko‘zlagan natijaga erishish imkonini beradi.

Noverbal vositalar muloqot jarayonini boshqarish, suhbatdoshlar o‘rtasida ruhiy aloqani yaratish, so‘z orqali berilgan ma’nolarni boyitish, so‘z matni ma’nosini taxlilga yo‘naltirish, hissiyotlarni ifodalash va vaziyat izohini aks ettirishda qo‘llanadi.

“O‘tkan kunlar” romani muallifi qahramon harakterini ochib berishda muallif xarakteristikasi, portret, badiiy psixologizm, personaj nutqi kabi badiiy unsurlardan mohirona foydalangan. Jumladan, asar qahramonlarini to‘laqonli yaratishning samarali vositalaridan biri bo‘lgan badiiy psixologizm ekstralingvistik vositalar ifodasida yorqin tasvirlab berilgan.

“O‘tkan kunlar” da muallifning o‘ziga xos uslublaridan biri tasvirlanayotgan voqealarning ma’lum tomonini sir saqlashidir. Bu usul asarning boshi — “Otabek Yusufbek hoji o‘g‘li” bobidayoq kitobxon diqqatini tortadi:

... Rahmat so‘zdan chetda qoldirmas uchun Otabekni ham orag‘a oldi:

— Bizning Marg‘ilonda bir qiz bor,— dedi,—shundog‘ ko‘hlikki, bu o‘rtada uning o‘xshashi bo‘lmas, deb o‘ylayman... Uning havlisi poyafzal rastasining burchagidagi imoratdir...

... Otabek ....nima uchundir g‘ayri-ixtiyoriy bir tebrandi.Uning yuzida bir o‘zgarish va vujudida bir chayqalish bor edi.[9,12].

O‘quvchiga noma’lum voqea natijasida Otabek ruhiyatida ro‘y berayotgan o‘zgarish tarjimada ham ochib berilgan:

Tarjimasi:

Rahmat, attemptingto keep the conversation from falling into a lull again, declared to Otabek, “There is a girl in Margilan… Such a beauty! I think she has no equal; in all our city, I have never seen no beauty to rival her own.” …his house is situated on the corner of the shoe market…

“…Perhaps,” said Otabek, siezed by involunteer shiver as if chilled by an seen draft. His face shifted from its usual calm to strange, slight swaying from side to side.[11,31]

Tarjimon Otabekning imo-ishorasi, gavda harakatlarini e’tibor bilan o‘girganligi natijasida qahramon xarakteri, hissiy holati haqida fikrlarni boyitishga erisha olgan.

Muallif Otabekning ruhiy, hissiy holatini ifoda etuvchi informativ-xarakterlovchi nolisoniy vositalardan mohirona foydalanadi:

...Ammo Otabek nima uchundir tez kira bermadi. Hujra eshigi ochilg‘anidan, sham’ yoqilib, o‘rin yozilg‘anidan go‘yo xabarsiz kabi ustung‘a suyalg‘ancha qotib turar edi...Biroq Otabek to‘shagi yonig‘a o‘lturdi-da, yana o‘ylab qoldi...”[9,20].

Asliyatda qahramon ruhiyatida ro‘y berayotgan bu o‘zgarish ingliz kitobxoniga quyidagicha etkazilgan:

…yet, strangely, Otabek remained outside for sometime and even the door to their cell finally opened, Otabek still lingered in the doorway...Otabek continued to sit on his bedding, his mind deep in some trance. [11,40]

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Abdulla Qodiriyning "O‘tkan kunlar" romanining ingliz tilidagi tarjimasi asosida, eksterlingvistik vositalarning tarjimadagi roli va ahamiyatini tahlil qiladi. Tarjimon Mark Rizning uslubiy va metodologik yondashuvi, qahramonlarning ruhiy holatlarini va hissiy tajribalarini ingliz tilida aniq va to‘liq ifodalashga katta yordam bergan. Eksterlingvistik

vositalar, ya’ni non-verbal kommunikatsiya, mimikalar, jismoniy holatlar va harakatlar, qahramonlarning ichki dunyosini aks ettirishda muhim rol o‘ynaydi. Ularning tarjimadagi muvaffaqiyatli ishlatilishi, tarjimonning madaniyatlararo tafovutlarni inobatga olib, o‘zbek adabiyotining ruhini saqlab qolishga yordam beradi.

Mark Rizning tarjimasi nafaqat tilni o‘zgartirishni, balki adabiy asar va uning qahramonlari xususiyatlarini ham to‘liq aks ettirishni maqsad qilgan. Bu jarayonda tarjimon o‘zining tilshunoslik ko‘nikmalaridan foydalangan holda, eksterlingvistik elementlarni va ularning madaniy kontekstini ingliz tilida to‘g‘ri izohlashga erishgan. Tarjimada asar muallifining uslubini saqlash, qahramonlarning hissiy holatlarini aks ettirish va madaniyatlararo tafovutlarni yoritish, maqolaning markaziy muammosini tashkil qiladi.

Shu bilan birga, tarjimaning qiyinchiliklari ham muhokama qilinadi, ayniqsa, eksterlingvistik vositalarning ingliz tiliga to‘g‘ri o‘girilib, qahramonlarning hissiyotlarini to‘g‘ri aks ettirishdagi muammo va izohlarning zarurati. Tarjimonning noaniqliklarni hal qilishdagi uslubi va ularni ingliz tilida qanday yoritgani, tarjimaning sifatini oshirishda muhim ahamiyatga ega.

NATIJALAR

Eksterlingvistik vositalarning roli: Tarjimada eksterlingvistik vositalar, ayniqsa, qahramonlarning ruhiy holatlarini va ichki dunyosini to‘liq aks ettirishda muhim rol o‘ynaydi. Bu vositalar yordamida tarjimon o‘zbek tilidagi noverbal belgilarning ingliz tilidagi moslashgan variantlarini muvaffaqiyatli ishlab chiqqan.

Madaniyatlararo tafovutlar: Tarjimon, asar muallifining uslubini saqlab qolish uchun madaniyatlararo tafovutlarni e’tiborga olgan va o‘zgacha madaniyatlar orasidagi farqlarni tarjimaga muvofiq ravishda yoritgan.

Tarjimaning metodologiyasi: Mark Rizning komparativ tahlil va kontekstual tahlilga asoslangan metodologiyasi, tarjima jarayonining muvaffaqiyatli bo‘lishini ta’minladi. Bu uslub, asar muallifining tilini va uslubini to‘liq aks ettirishga yordam berdi.

Psixologik holatlar va hissiyotlar: Tarjimon, eksterlingvistik vositalar orqali qahramonlarning psixologik holatlarini va hissiyotlarini muvaffaqiyatli tarzda ingliz tilida ifodalashga erishgan. Buning natijasida tarjima asarining hissiy va ruhiy qirralari o‘zgarishsiz, lekin yangi til va madaniyatda ifodalangan.

Tarjimadagi noaniqliklar va izohlar: Tarjimaning bir qismi o‘zbek madaniyatiga oid noaniqliklar va tushunarsiz elementlarni ingliz tiliga izohlashni talab qilgan. Tarjimon bu muammoni izohlar orqali hal qilgan va o‘quvchiga asar muallifi tomonidan kiritilgan madaniy va psixologik elementlarni to‘g‘ri tushunishga yordam bergan.

Badiiy tarjima qanchalik qiyin ish ekanligini bu jarayonni boshidan o‘tkizgan odamgina anglaydi. Bir tilda yaratilgan badiiy voqelikni boshqa til vositasida qayta yaratish, ayniqsa tipologik uzoq tilga o‘girishda tarjimondan juda katta mahorat talab qilinadi. Tarjimon Mark .... tilshunoslik ramkalarining o‘zi bilangina tushunilmaydigan g‘ayrilisoniy (ekstralingvistik) hodisalar mohiyatini anglab to‘g‘ri o‘gira olgan.

Marg‘ilonning eng go‘zal qizi bo‘lmish Kumushbibiga unashtirilganini eshitgan Otabekdagi ruhiy o‘zgarish romanda quyidagicha tasvirlanadi:

Otabek qiziq bir holatda qoldi: bir turlik titrab ketdi, ko‘zlari qinidan chiqar darajaga etdi..”[9,48]

Tarjimada:

A striking transformation overtook Otabek: he was stuck dumb, and his ees widened, bulging out of their sockets.[11,68]

Tarjimon “bir turlik titrab ketdi”, “ko‘zlari qinidan chiqar darajaga etdi” jumlalarini “striking transformation”, “bulging out of their sockets” tarzda o‘girib, imo-ishora, gavda harakatlarining inglizcha muqobil lisoniy ifodasini bera olgan.

Otabekning to‘y kunidagi ruhiyati ekstralingvistik vositalar asosida yorqin tasvirlanadi:

... Yuzlari qizil, og‘iz irpaygan, ko‘zlar o‘ynab allakimni qidiradir.[9,58]

Tarjimasi:

His face was redand his mouth bore pained smile. His nervous eyes searched about in different directions for someone.[11,78]

Bu o‘rinda shuni ta’kidlashimiz joizki, tarjimon tilimizning milliy tabiatini his qilgan holda so‘zma-so‘z tarjimadan qochib muallif uslubi ohorini saqlab qololgan.

Asar voqealarida Otabek qaynotasi Mirzakarim qutidor bilan Homidning chaquvi va tuxmati sabab qamoqqa olinadilar. O‘tabboy qushbegining nohaq ayblovlarini eshitgan Otabek va Mirzakarim qutidor holati romanda quyidagicha tasvirlanadai:

Otabek azbaroyi bo‘g‘ilib ketganidan ko‘kimtil tovlang‘an, qutidor bezgaklardek titray boshlag‘an edi [9,74].

Otabek’s neck constricted and his face turned blue; Qutidor just sat quivering.[11,95]

Ko‘ramizki, muallif tasvirini asliyatga muqobil yaratish uchun kichik uslubiy surilishga yo‘l qo‘ygan. Otabekning “isyonchi” aybnomani eshitgandan xolatidagi “ko‘kimtil tovlang‘an” yuzi — “turned blue” tarzida o‘girib, tarjimani jonli tasvirini yaratishga erishgan.

Otabek kitobxon ko‘z oldida go‘zal insoniy fazilatlar egasi sifatida tasvirlanadiki, bu uning quli bo‘lmish Xasanaliga bo‘lgan munosabatida yaqqol ko‘rinadi. Hasanali Otabekni o‘z otasidek so‘roq-savol qilib, “oshiqlik” ligini oshkor qilgandagi holati:

Otabek o‘ziga qattig‘ tikilib turgan Hasanalidan yuzini chetga burishga majbur bo‘ldi...Otabek qip-qizil qizarib gunohkorlardek erga qarag‘an edi [9,26]tariqasida beriladi.

Qahramonning go‘zal ichki dunyosi, o‘zbekona ibo, hayosi tasvirini o‘zbek o‘quvchisi yaxshi tushunadi, tasavvur qila oladi. G‘arb dunyoqarashida kimnidir sevib qolishi oshkora bo‘lishidan (hatto qiz bolalar ham) hijolat bo‘lmaslik odatiy sanaladi. Bu o‘rinda madaniyatlararo tafovut mutarjimning uslubiy silliqlashga borishida ko‘rinadi:

Otabek felt compelled to turn his face away from Hasan Ali, who stared hard at him…. Otabek blushedan looked at the ground as if he had commited an egregious sin. [11,46]

Asarda Otabek Xomidning razilona qilmishlari, qabixligi tufayli dor ostida o‘lim bilan yuzlashganini, Homid tufayli Kumushning, qaynana-qaynatasining nafratiga duchor bo‘lganini usta Farfidan tasodifan bilib qolgani holati mohirona ochib beriladi:

Ichda qaynag‘an hissiyot o‘z sharpasini uning yuziga ochiq tashlab turmoqda, ko‘zi o‘t bo‘lib yonar va yuzi yuz xil tuska kirar edi [9,233].

…yet his strong emotion boiled inside him, taking shape in his expressions, his ees flashing with fire, his face flushed[11,259]

Tarjimon shu og‘ir vaziyatda Otabekda ro‘y berayotgan ruhiy holat dialektikasini ocha olgan.

Roman voqealarida Xomidning yomonliklari tufayli hayoti ostin-ustin bo‘lganini Otabekning xatidan bilgan Kumushdagi ruhiy zilzilalar ham mohirona tasvirlanadi:

Ul titrar edi, ko‘karar edi, to‘lg‘onar edi... Hozirgi eng kuchlik hissiyotini hissiyotning a’lo ifodachisi bo‘lgan yosh bilan to‘kar edi [9,260].

Kumush shivered, became pale, and squirmed…[11,288]

Bu erda Kumushning psixologik-hissiy xolatini tashqi qiyofasida aks ettirgan

“ titrar” - shivered , “ko‘karar”- became pale, “to‘lg‘onar”- squirmed. tarzida o‘girilgan ekstralingvistik vositaning ma’nosi tarjima tili madaniy kontekstiga mos ekanligida ko‘rinadi.

Kumush toqatsizlang‘an edi[9,56] -Kumush was losing her poise…[11,77].

Biroq Kumushning tishini oqini ko‘rish juda qiyin, uning hamma ishi faqat mung‘ayib xayollanishqina [9,57] – Kumush would not reveal her pearly teeth. She sat alone, buried deep in sorrow[11,77].

Qutidor eshik ostidaqo‘l qovishtirib mehmonlarni kutib oladir, er ostidan kuyaviga ko‘z qirini tashlab, kishiga sezdirmay o‘zicha kulimsirab qo‘yadir [9,58] -Qutidor stood at the gate, arms crossed across his chest, receiving the quests and stealing glances at his son-in-law secretly- smiling to himself.[11,79].

Xasanali ginalik qiyofada qoshlarini chimirdi [9,27] – Offended, Hasan Ali raised his ponderous brows.[11,45]

Tarjimonning mahorati shundaki, ekstralingvistik vositalar orqali qahramonlarning ruhiy, hissiy holatini tasvirlovchi bu jumlalarni ingliz tiliga xuddi asliyatdagidek obrazlarning yuz o‘zgarishlari, ishoraviy harakatlari tarzida ko‘chirgan.

“O‘tkan kunlar” romanida o‘qiguvchi ko‘ziga yaqqol tashlanadigan bir obraz bor, bu — Yusufbek hoji obrazidir. Bugungi kun kishisiga “hoji” atamasi tanish, amallarni bajarib hoji bo‘lish, ya’ni haj qilish muammo bo‘lmay qoldi. Mamlakatimizning mustaqillikka erishuvi haj amallariga ham katta yo‘l ochib berdi.Umra va hajga borish imkoniyati paydo bo‘ldi. Biroq din arkonlarini to‘kis ado etish uchun kerak bo‘ladigan ilm va ichki go‘zallikka ehtiyojimiz borligi shubhasiz. Shu ma’noda asardagi Yusufbek hoji aql-zakovati, muomalasi, ilmi, fahm-farosati, go‘zal ma’naviyati, odobi bilan ma’naviyatimizdagi o‘sha puchmoqlarni to‘ldiradigan obrazdir.

Romanning jozibasi, badiiyati mukammalligi adib yaratgan Yusufbek hoji obrazida ham mujassamlashgan, albatta. Yozuvchining mahorati bilan bu obrazning estetik ko‘lami his-tuyg‘u, kechinma tarzida yanada teranlashgan:

O‘zbek oyim ... bu aytkan so‘zini hikoya qilgan edi, hoji labini tishlab qoldi va “Sanga sira aql bitmay ketar ekan-da”, dedi. [9,136]

Muallif tomonidan “chala dumbul” deb ta’riflangan O‘zbek oyimning hojidan bemaslahat Olim ponsodnikiga sovchilikka borib, hoji nomidan so‘z berib kelganini eshitgan Yusufbek hoji afsuslanib, labini tishlab qolishi tasviri tarjimada Uzbek Oyim…she left out the most incriminating pieces of information about how negotiation might have already been resolved. Hajji bit his lips, finally showing anger, and said to her, [11,107]ya’ni “you will never be clever”deb o‘girilgan. Tarjimon har qanday vaziyatda ham insoniy fazilatlarini saqlab qolgan oqil personajning nozik tomonlarini ilg‘ay olgan tarjimon sifatida yo‘l tutgan.

XULOSA

Maqolada Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romanining ingliz tilidagi tarjimasi asosida qahramonlarning xarakterlarini ochishda ishlatilgan eksterlingvistik vositalar va ularning tarjimaga ta’siri tahlil qilinadi. Eksterlingvistik vositalar, jumladan, non-verbal kommunikatsiya, mimikalar, jismoniy holatlar, va harakatlar, tarjimonda muhim rol o‘ynaydi, chunki ular qahramonlarning ruhiy holatlari va ichki dunyosini aniq ifodalashga yordam beradi.

Mark Rizning tarjimasi jarayonidagi metodologiya va uslubi o‘rganiladi. Tarjimonning eksterlingvistik elementlarga e’tibor berishi, original asar va tarjimadagi farqlarni ko‘rib chiqish orqali, asar muallifining uslubini saqlab qolishga va madaniyatlararo tafovutlarni yoritishga yordam beradi. Tarjimaning sifatini oshiruvchi va madaniy kontekstni yorituvchi eksterlingvistik vositalar tarjima jarayonining muhim jihatlarini tashkil qiladi.

Maqola asaridagi eksterlingvistik vositalar, qahramonlarning hissiyotlari va ruhiy holatlari qanday ifodalanganini tahlil qiladi. Misol sifatida, Otabekning ruhiy holati, uning harakatlari va mimikalari orqali tarjimaga qanday o‘tkazilganligi keltirilgan. Masalan, Otabekning yuzidagi o‘zgarishlar va jismoniy harakatlari ingliz tilida qanday ifodalanganligi keltiriladi. Eksterlingvistik vositalar tarjimaga aniqlik va boylik kiritishda muhim rol o‘ynaydi.

Shuningdek, maqolada madaniyatlararo tafovutlar, tarjimada yuzaga keladigan qiyinchiliklar va ularni hal qilish usullari ham ko‘rib chiqilgan. Tarjimonning madaniy farqlarga e’tibor berishi va eksterlingvistik elementlarni to‘g‘ri tarjima qilish orqali, asar asl ma’nosini va hissiyotini to‘liq yetkazishga muvaffaq bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Madumarov, M. M. (2024). Translation of stylistic devices in the English translation of Abdullah Qadiri’s novel Days Gone By. Journal of Multidisciplinary Bulletin, 7(5), 141-149.

2. Madumarov, M. M. (2024). Exploring translation techniques for heroic characters in literature. Journal of Multidisciplinary Bulletin, 7(5), 141-149.

3. Madumarov, M. M. (2024). Cultural adaptation and symbolism in translating heroic figures. IMRAS, 7(5), 541-550.

4. Madumarov, M. M. (2024). Extralinguistic devices in character development and translation. Kokand University Research Base, 173-179.

5. Madumarov, M. M. (2023). Translation of the imagery of nature in the novel "Days Gone By" by Abdullah Qadiri. Innovations in Technology and Science Education, 2(10), 915-919.

6. Madumarov, M. M. (2023). Abdulla’s creativity and expression of the national spirit. Innovations in Technology and Science Education, 2(10), 908-914.

7. Madumarov, M. M. (2022). Usage of words in Abdullah Qadiri’s works. [Publisher].

8. Madumarov, M. M. (2022). Andragogical education: Ways to use fiction translations in learning English. [Publisher].

9. Abdulla Qodiriy. (2014). O‘tkan kunlar: Tanlangan asarlar. Sharq.

10. Abdulla Qodiriy. (1986). Abdulla Qodiriy zamondoshlari xotirasida. Adabiyot va san’at.

11. Abdulla Qodiriy. (2017). The Days Gone By (I. M. Tukhtasinov, O. M. Muminov, & A. A. Khamidov, Trans.). Mashhur-Press.

12. Chorieva, M. J. (2021). Abdulla Qodiriyyning O‘tkan kunlar romanidagi tabiat tasvirining tarjimadagi in’ikosi.

13. Halimova, D. U. Q. (2021). Abdulla Qodiriyyning O‘tkan kunlar romanining inglizcha tarjimasida badiiy tasvir vositalarining berilishi.

14. Hamroev, H. (1982). Milliy xos so‘zlar-realiyalar va badiiy tarjima. In Tarjima madaniyati (maqolalar to‘plami). Toshkent.

15. Joraboev, B., & Mamadiyorova, X. (2021). Sharq tillarida tarjimaning nazariy va amaliy masalalari.

16. Kadyri, A. (n.d.). Minuvshie dni. Roman.

17. Maxmidjonov, S. (2023). O‘zbek adabiyotida ziyoli obrazining genezisi. Zamonaviy ilm-fan va tadqiqotlar, 2(6), 1231-1235.

18. Maxmidjonov, S. D. O. G. L. (2023). O‘zbek adabiyotshunosligida badiiy obraz masalasining qiyosiy talqini. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3(6), 520-524.

19. Maxmidjonov, Sh. D. O‘g‘li (2023). O‘zbek adabiyotshunosligida badiiy obraz masalasining qiyosiy talqini. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3(6), 520-524.

20. Makhmidjonov, S. (2021). Artistic interpretations of the edges of the human psyche. Internauka, (15-3), 75-76.

21. Oripova, G. (2019). Uzbek poetry and the world literature in the ears of independence. Scientific Journal of Polonia University, 32(1), 116-120.

22. Qosimov, A. A. (2020). "Dorian Greyning surati" va "Oynadagi odam" romanlarida ramziiy ifodaning o‘ziga xos xususiyatlari va o‘xshashliklari. Nazariy va amaliy fan, (5), 590-592.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 1-son)

FILOLOGIYA

PHILOLOGY

UDC: 8.81.55

KONSEPT TUSHUNCHASINING LINGVOKULTUROLOGIYA VA KOGNITIV TILSHUNOSLIKDAGI O‘RNI

Abdulazizova Sevaraxon Ganiyevna
Andijon Davlat chet tillari instituti Ingliz tili nazariy aspektlari kafedrasi o‘qituvchisi
abdulazizovasevara80@gmail.com

Annotatsiya: Bugungi global davrda antropotsentrik paradigma lingvistika sohasidagi eng so‘nggi yutuqlarni o‘zida aks ettirib, mustaqil paradigma sifatida tan olinmoqda. Zamonaviy yo‘nalishlar orasida lingvokulturologiya va kognitiv tilshunoslik antroposentrik paradigmaning asosiy tarmoqlaridan hisoblanadi. Konsept tushunchasining lingvokulturologiya va kognitiv tilshunoslikdagi o‘rni beqiyosdir.

Kalit so‘zlar: til, madaniyat, etnos, an'analar, qadriyatlar, g'oyalar, lingvokulturologiya, kognitiv lingvistika, kontseptsiya, falsafiy-matematik kategoriya, mifologiyalar, marosimlar, konseptualizatsiya jarayoni, konseptuallashtirilgan makon.

THE PLACE OF THE CONCEPT IN LINGUOCULTUROLOGY AND COGNITIVE LINGUISTICS

Abstract: In today's global era, the anthropocentric paradigm is being recognized as an independent paradigm, reflecting the latest achievements in the field of linguistics. among modern directions, linguoculturology and cognitive linguistics are considered to be the main branches of the anthropocentric paradigm. the role of the concept in linguoculturology and cognitive linguistics is incomparable.

Key words: language, culture, ethnos, traditions, values, ideas, linguoculturology, cognitive linguistics, concept, philosophical-mathematical category, mythologies, rituals, conceptualization process, conceptualized space.

МЕСТО КОНЦЕПТА В ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИИ И КОГНИТИВНОЙ ЛИНГВИСТИКЕ

Аннотация: В сегодняшнюю глобальную эпоху антропоцентрическая парадигма признается самостоятельной парадигмой, отражающей новейшие достижения в области языкознания. Среди современных направлений основными ветвями

антропоцентрической парадигмы считаются лингвокультурология и когнитивная лингвистика. Роль концепта в лингвокультурологии и когнитивной лингвистике несопоставима.

Ключевые слова: язык, культура, этнос, традиции, ценности, идеи, лингвокультурология, когнитивная лингвистика, концепт, философско-математическая категория, мифологии, ритуалы, процесс концептуализации, концептуализированное пространство.

KIRISH.

Til, madaniyat va etnos o‘rtasidagi o‘zaro bog‘lanish masalasi XIX asr boshlarida nemis olimlari – aka-uka Grimmlar tomonidan o‘rganishga harakat qilingan. “Til – madaniyat” tushunchalarining bir-biriga bog‘liqligi birinchi marta V. fon Gumboldtning tadqiqotlarida ko‘rsatilgan. [2]. V. fon Gumboldtning fikricha, til “xalqning ruhiyati” va uning “asl ko‘rinishi”dir. Unga ko‘ra, madaniyat avvalo til orqali ifodalanadi va til uning haqiqiy tashuvchisi hisoblanadi. Til, aslida, madaniyatning haqiqiy va jonli ifodasi bo‘lib, faqat til orqali inson o‘z madaniyatini to‘liq anglab, unga kirib borishi mumkin. Bu mulohaza, tilning faqat muloqot vositasi emas, balki xalqning dunyoqarashi, fikrlash tarzini ifodalovchi muhim bir element ekanligini ta’kidlaydi. Til orqali xalqning madaniyati, urf-odatlari, qadriyatlari va g‘oyalarini anglash va o‘rganish mumkin. Gumboldtning bu yondashuvi lingvokulturologiyaning shakllanishida muhim asos yaratdi.

ADABIYOTLAR SHARHI. Shu bilan birga, lingvokulturologiya fani sifatida ilmiy asoslanishni esa A.A. Potebnya, G.V. Stepanov, D.S. Lixachev, M.M. Pokrovskiy, Y.M. Lotman va F.I. Busayev kabi olimlar o‘z ilmiy ishlari orqali amalga oshirdilar. Ularning tadqiqotlari lingvokulturologiyaning mustahkam ilmiy poydevorini yaratishda muhim rol o‘ynadi. Masalan, Potebnya til va madaniyatning o‘zaro aloqadorligini chuqur o‘rganib, tilning madaniy tizimdagi o‘rni va ahamiyatini ta’kidlagan bo‘lsa, Stepanov esa tilshunoslikni madaniyatning ajralmas qismi sifatida qarab, lingvokulturologiyaning asosiy yo‘nalishlarini belgilab berdi. Shuningdek, Lotman va Busayev madaniyat va tilning o‘zaro munosabatlarini yanada chuqurlashtirib, bu ikki sohaning bir-birini qanday ravishda shakllantirishi va o‘zaro ta’sir ko‘rsatishini ilmiy jihatdan isbotlashga erishdilar. Bu olimlarning ilmiy ishlari lingvokulturologiyaning bugungi kunda keng tarqalgan va rivojlanayotgan soha sifatida shakllanishiga muhim hissa qo‘shdi. [3].

Kognitiv tilshunoslikning paydo bo‘lishi va rivojlanishi amerikalik olimlar J. Miller, J. Bruner, J. Lakoff, R. Langacker, R. Jackendoff kabi mutaxassislarning ilmiy faoliyatlari bilan chambarchas bog‘liqdir. Dastlab, “konsept” atamasi faqat falsafiy-matematik kategoriya sifatida o‘rganilgan va uni ilmiy jurnallarda aniq va qat’iy belgilangan tarkibda qaralgan. Biroq, XX asrning oxirlaridan boshlab, kontseptual atamalar tilshunoslik, lingvokulturologiya, kognitiv lingvistika va falsafaning bir qator ilg‘or yo‘nalishlarida muhim tadqiqot obyektiga aylandi.

Y. Stepanov, kontseptuallashtirilgan sohani nafaqat so‘zlar yoki grammatik birliklar, balki madaniyatning turli elementlarini, masalan, narsalar, mifologemalar, marosimlar, urf-odatlar va boshqa madaniy belgilarning birlashgan, umumiy tasvirga ega bo‘lgan tasavvurlarini o‘z ichiga olgan bir butun sifatida tasvirlaydi. Unga ko‘ra, kontseptualizatsiya jarayoni madaniyatning o‘ziga xos tizimi bo‘lib, til orqali amalga oshirilgan ijtimoiy va madaniy konstruksiyalarning shakllanishini ifodalaydi. Madaniyat, so‘zlar, tasvirlar va ramzlar orqali tizimli ravishda kontseptual birikmalar yaratadi.

Alohida “konseptuallashtirilgan makon” doirasida, so‘z va marosim, so‘z va mifologema kabi elementlar bir-biri bilan semantik jihatdan o‘ziga xos tarzda birlashadi. Bu birikmalar ko‘pincha bir-birining o‘rnini bosuvchi yoki timsol sifatida xizmat qiladigan elementlarga aylanadi. Shu tarzda, so‘z va boshqa madaniy elementlar o‘rtasida sinonimiyalashish jarayoni yuzaga keladi. Bu jarayon, madaniyatning til orqali ifodalanishida, turli semantik qatlamlar va madaniy tasavvurlar o‘rtasida o‘zaro bog‘lanishlarni tashkil etadi.

Kontseptualizatsiya, aslida, bu jarayonning o‘ziga xos shakli bo‘lib, so‘zlarning va narsalarning madaniy tizimda o‘zaro aloqalarini anglashda muhim rol o‘ynaydi.

Madaniyatda so‘zlarning sinonimik birikmalarini, ya’ni bir nechta so‘zning bir xil yoki o‘xshash ma’nolarni ifodalashini tushunish, tilshunoslikda lingvokulturologiyaning markaziy yo‘nalishlaridan biri sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jarayon, nafaqat tilning semantik strukturasini tushunish, balki tilning madaniyat bilan qanday o‘zaro bog‘langanini ham ochib beradi. Bunda, so‘zlar, ramzlar va mifologemalar birgalikda madaniy tushunchalarni shakllantiradi va ular orqali insonlarning dunyoqarashi, qadriyatlari va e'tiqodlari ifodalanadi. [5].

MUHOKAMA. Yana bir mashhur olim, V.Z. Demyankov, “konsept” atamasining ma’nosi, etimologiyasi, turli tillardagi shakllari va ta’riflari haqida o‘zining bir qancha maqolalarini e’lon qilgan. U o‘zining “Термин “концепт” как элемент терминологической культуры” nomli maqolasida “konsept” va “tushuncha” so‘zlarining tarixiy dubletlar ekanligini ta’kidlaydi. Ularning ilk davrda bir-birini almashtiruvchi tushunchalar sifatida ishlatilganini, ammo hozirda ilmiy va noilmiy kontekstlarda ularning o‘zaro farqlanishi yuzaga kelganini bayon etadi. Bu fikrning muhim tomoni shundaki, “konsept” va “tushuncha” terminlari nafaqat tilshunoslikda, balki madaniyatshunoslik, psixologiya va falsafada ham o‘zaro bog‘langan, ammo o‘ziga xos ta’riflarga ega tushunchalar sifatida ishlatilmoqda.

Demyankovning ta’rifiga ko‘ra, “konsept” — bu og‘zaki belgining mazmun tomoni bo‘lib, u til orqali ifodalangan g‘oya yoki tushuncha sifatida qaraladi. “Tushuncha” esa voqelikni anglatadi, ya’ni bu insonning idrok va tafakkurida shakllangan, ularni madaniyat va tajriba orqali qayta ishlagan, aniq voqelikka mos keladigan tushunchadir. Demyankovning fikricha, “konsept” va “tushuncha” o‘rtasidagi farq, ularning inson hayotining turli sohalaridagi o‘zaro aloqalariga bog‘liqdir.

“Konsept” — bu insonlarning aqliy, ma’naviy yoki hayotiy jihatdan muhim bo‘lgan moddiy yoki ijtimoiy sohalariga tegishli, shuningdek, odamlarning ijtimoiy tajribasi orqali

rivojlanib, mustahkamlangan va ularning tarixiy ildizlariga ega bo‘lgan jarayonlardir. Bu jarayonlar nafaqat shaxsiy, balki kollektiv tushuncha va tajribaning mahsulidir. “Konsept” insonlarning madaniy, ijtimoiy va psixologik jarayonlari bilan bog‘liq holda, ular qanday qilib o‘zlarining madaniyatlarida, tilida, falsafiy va ilmiy qarashlarida, shuningdek, kundalik hayotida mavjud bo‘lgan tushunchalarni yaratishadi, degan yondashuvni ta’kidlaydi. [3]

O‘zbek tilshunoslari N. Mahmudov, Sh. Safarov va A. E. Mamatov tomonidan ham konsept atamasiga batafsil izohlar berilgan. Ular konseptni nafaqat tilshunoslik, balki madaniyatshunoslik, psixologiya va lingvokulturologiya kontekstlarida keng o‘rganib, uning mazmunini chuqur tahlil qilganlar. Mahmudov, Safarov va Mamatov konseptni tilning semantik tizimida muhim o‘rin tutadigan, madaniy va ijtimoiy tajriba bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan lingvistik birlik sifatida qaraydilar. Ular konseptni til orqali ifodalangan, lekin uning ijtimoiy, madaniy, ma’naviy va tarixiy o‘lchovlarga ega bo‘lgan g‘oya yoki tasavvur deb ta’riflaydilar.

Mahmudovning fikriga ko‘ra, konsept – bu tilning ijtimoiy va madaniy tizimida shakllanadigan, insonning dunyoqarashi va hayotiy tajribalarini aks ettiruvchi bilimlar bazasidir. U til va madaniyat o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni ta’kidlaydi va konseptlarni tilning o‘ziga xos ma’nolarini ifodalovchi vosita sifatida ko‘radi. Sh. Safarov esa konseptni faqat tilshunoslik konteksida emas, balki inson tafakkurining tashkil topish jarayonida ham muhim o‘rin tutadigan element sifatida tahlil qiladi. U konseptlarni insonning dunyoqarashi va tafakkuriga ta’sir qiluvchi, butun bir madaniy tizimni aks ettiruvchi yirik tuzilmalar deb hisoblaydi. A. E. Mamatov esa konseptni ijtimoiy va subyektiv jarayon sifatida qarab, til orqali ifodalanadigan, madaniy va tarixiy ildizlarga ega bo‘lgan o‘zgarmas tushunchalar sifatida belgilaydi.

Bu olimlarning ishlarida konseptning nafaqat lingvistik jihatlari, balki uning madaniyat, til va ijtimoiy tajriba bilan qanday bog‘liqligi ham ko‘rib chiqiladi. Ular konseptlarni har bir millat va madaniyatda o‘ziga xos ravishda shakllanadigan va o‘zgaradigan elementlar sifatida tahlil qilishadi. Ularning ta'kidlashicha, konseptlar til orqali madaniy qadriyatlar, g‘oyalar va dunyoqarashlarni shakllantiradi, bu esa insonlarning o‘z madaniyatini, urf-odatlarini va tarixini anglashga yordam beradi. Shu tarzda, konsept til va madaniyatning ajralmas qismi bo‘lib, uning o‘zaro aloqalarini chuqurroq tushunish, tilshunoslik va madaniyatshunoslikdagi yangi yondashuvlarni yaratadi. [4].

Konseptni ko‘p qirrali va ko‘p qatlamli mental tuzilma sifatida qarash, uning bir vaqtning o‘zida psixologik, kognitiv-semantik va lingvokulturologik jihatlarini namoyon etishini tan olishimizga imkon beradi. Konsept nafaqat inson tafakkuri va idrokining mahsuli, balki ijtimoiy va madaniy tajribalar, til tizimi va tarixiy kontekst bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan murakkab tuzilma hisoblanadi. Shu sababli, konseptning kognitiv va lingvokulturologik tadqiqotlar obyekti sifatida o‘rganilishi uning ko‘p qatlamli, turli jihatlardan shakllangan va bir-biri bilan o‘zaro bog‘langan tabiati haqida dalolat beradi.

Konseptning turli tadqiqotchilar tomonidan subyektiv, ijtimoiy, lingvomadaniy va badiiy konseptlar sifatida ajratilishi, aslida, uni yagona mohiyatga turli nuqtai nazarlardan

yondashishning zarurligini ko‘rsatadi. Har bir konsept o‘zining o‘ziga xos mohiyatiga ega bo‘lib, u inson tafakkuri, til va madaniyatning o‘zaro ta’siridan shakllanadi. Bu turlar, tilning semantik tuzilmalari va ijtimoiy hayotdagi madaniy kodlar asosida shakllanib, ular orasidagi farqlar, til va madaniyatning qanday bog‘liqligini, shuningdek, tushunchalarning qanday rivojlanib borishini ko‘rsatadi.

Zotan, til tizimi o‘zida nafaqat lingvistik elementlar, balki madaniy, psixologik va ijtimoiy qadriyatlarni ham aks ettiradi. Tilning har bir jihati, jumladan, uning semantik, grammatik va pragmatik tuzilmalari, insonning dunyoqarashi va tajribalarini o‘zida jamlaydi. Shuning uchun tilni nafaqat kommunikatsiya vositasi, balki insoniyatning madaniy va ijtimoiy merosi sifatida ham ko‘rish mumkin. Bu nuqtai nazardan, konseptlar tilning eng serqirra hodisalaridan biri hisoblanadi, chunki ular o‘z ichiga psixologik, kognitiv va madaniy qatlamlarni olgan holda, insonlarning dunyo haqidagi tasavvurlarini, qadriyatlarini va urf-odatlarini aks ettiradi.

Konseptlarni o‘rganish orqali, til va madaniyat o‘rtasidagi murakkab o‘zaro bog‘lanishlarni, shuningdek, inson tafakkurining til va madaniyat bilan qanday integratsiyalashishini yaxshiroq tushunish mumkin. Bu, o‘z navbatida, tilshunoslik, kognitiv ilm-fan va madaniyatshunoslikning bir-birini to‘ldiruvchi yo‘nalishlar sifatida rivojlanishiga hissa qo‘shadi. [6].

Y.N. Shvedova konsept tushunchasining ortida ijtimoiy yoki subyektiv tarzda anglanuvchi, inson hayotining muhim moddiy, aqliy va ruhiy tomonlarini aks ettiruvchi, tarixiy ildizlarga ega bo‘lgan mazmun turlarini ko‘rsatadi. Unga ko‘ra, konseptlar nafaqat individning shaxsiy tajribasini, balki xalqning umumiy tajribasini ham ifodalaydi. Bu tajriba jamiyatning madaniy, ijtimoiy va tarixiy merosini o‘zida mujassam etgan bo‘lib, har bir konsept o‘zi bilan birga jamiyatning qadriyatlari, urf-odatlari, e’tiqodlari va tarixiy xotirasini olib keladi.

Shvedova ta’kidlashicha, konseptlar faqatgina til va so‘zlar bilan bog‘liq bo‘lmay, balki ular o‘z ichida xalqning madaniy va ruhiy dunyosini, uning yoshi, tarixi, madaniyati va boshqa ijtimoiy kontekstlarini aks ettiradi. Shu bois, konseptlar har bir xalqning o‘ziga xos dunyoqarashini va hayotga bo‘lgan munosabatini namoyon etadi. Ular faqat psixologik yoki kognitiv shakllarda emas, balki madaniy va ijtimoiy qatlamlarda ham ifodalanadi.

Konseptlar shuningdek, xalqning tarixiy ildizlariga ega bo‘lib, ularning shakllanishi ko‘p asrlar davomida to‘plangan va bir avloddan boshqasiga o'tgan tajriba, bilim va qadriyatlarning natijasidir. Har bir konsept o‘zining kelib chiqishiga, tarixiy kontekstiga va madaniyatdagi roliga qarab turli shakllarda ifodalanadi va turli ijtimoiy guruhlar, millatlar va jamiyatlar tomonidan turlicha tushunilishi mumkin. Shvedovaning fikriga ko‘ra, konseptlarning mazmuni ijtimoiy va subyektiv jihatlardan mustahkamlangan bo‘lib, ular xalqning umumiy tajribasini aks ettirgan holda, insonlarning dunyo haqidagi tasavvurlarini, hayotiy qadriyatlarini va madaniy merosini til orqali ifodalaydi. Bu tushunchalar va tasavvurlar xalqning o‘ziga xos psixologik va madaniy xususiyatlarini o‘z ichiga olib, uni til orqali izhor etadi. [7].

Konsept, asosan, tafakkur birligi sifatida qaraladi. Uning asosida tushuncha, ma’no va obrazlar yotadi, shuningdek, u yuqori darajadagi mazmun va ma’no keltiradi. Har bir konsept

inson tafakkurining va tajribasining mahsuli bo‘lib, uni tushunish orqali nafaqat individual, balki kollektiv ong va madaniyatni ham o‘rganish mumkin. Konsept doimo shaxs yoki jamiyat bilan bog‘liq holda shakllanadi, chunki u insonning psixologik va madaniy tajribalarini aks ettiradi. Bu esa uni til va madaniyatning markaziy elementiga aylantiradi. [1].

Demak, “leksik ma’no”, “tushuncha” va “konsept” atamalari bir-biridan farqlidir. Ular o‘zaro bog‘liq bo‘lsa-da, ekvivalentlik xususiyatiga ega emaslar. Har bir atama turli kontekstlarda va fikrlash tizimlarida o‘ziga xos rolni bajaradi, shuning uchun ularning o‘xshashligi va farqlari, ayniqsa, ular muloqotda yoki ilmiy tahlilda qanday ishlatilishiga qarab sezilarli darajada farq qiladi. Ushbu atamalar fikrlash jarayonlarining turli toifalariga mansub bo‘lib, ular o‘zaro muloqotda bo‘lishi mumkin, ammo har biri o‘ziga xos tarkib va mazmunga ega.

Konsept, ayniqsa, tushunchaning tuzilishidagi bilish, ma'no va tushunishning o‘zaro bog‘liqligi nuqtai nazaridan qaraladigan psixik birlik sifatida tavsiflanadi. U inson tafakkurida va ongida shakllanadigan, so‘z va uning ma’nosi bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan, ammo undan ko‘proq ma’lumotni o‘z ichiga olgan bir tuzilma sifatida qaraladi. Konsept, so‘zning leksik ma’nosi va tushuncha orasidagi o‘zaro ta’sir natijasida yuzaga keladi. Tushuncha, odatda, biror obyekt yoki hodisaning asosiy belgilari va xususiyatlarini o‘zida mujassam etadi, lekin konsept bu tushunchani yanada kengroq va boyroq shaklga keltiradi, chunki u faqat rasmiy ma'nolarni emas, balki insonning hissiy, madaniy, ijtimoiy va shaxsiy tajribalarini ham o‘z ichiga oladi. Shu bilan birga, konsept kognitiv ongning mahsuli sifatida qaraladi, chunki u insonning aqliy faoliyati natijasida shakllanadi. Bu o‘zgaruvchan va ko‘p qatlamli birlik bo‘lib, uning tarkibida bilimlar, tasavvurlar va ma'lumotlar to‘plami mavjud. Konsept faqatgina til orqali ifodalangan ma’no emas, balki insonning hayotiy tajribasi, ongida saqlanadigan axborot yig‘indisi, shuningdek, predmet yoki hodisa haqidagi ensiklopedik bilimlarni ham o‘z ichiga oladi. Shu tarzda, konsept insonning idrok va dunyoqarashini, shuningdek, uning tajribasini aks ettiradi va til orqali ifodalanadi.

NATIJA. Bundan tashqari, konseptning mohiyati leksik ma’nodan ancha kengroqdir. Leksik ma’no odatda so‘zning umumiy yoki standart ma’nosini ifodalaydi, u tilning lug‘aviy tizimi asosida shakllanadi. Konsept esa, bu so‘zning ma'nosidan tashqari, uning qo‘llanilishi, konteksti, madaniy va ijtimoiy holatdagi o‘zgarishlarini ham o‘z ichiga oladi. Demak, konsept — bu nafaqat so‘zning aniq ma’nosi, balki u orqali ifodalangan tajriba va shaxsiy yoki kollektiv dunyoqarashning aksidir.

Shu nuqtada, tushuncha va konseptning o‘zaro aloqasini yanada chuqurroq ko‘rish mumkin. Tushuncha, har bir insonning dunyo haqidagi umumiy tasavvurlari va bilimlari bilan bog‘liq bo‘lsa, konsept esa, bu tasavvurlarni yanada boyitib, ularni kognitiv, madaniy, va ijtimoiy kontekstda yangi shaklda ifodalaydi. Shuning uchun, konsept har bir individ yoki ijtimoiy guruh tomonidan o‘ziga xos tarzda shakllanadi va ular orasidagi farqlar til va madaniyatning o‘ziga xos xususiyatlari orqali aniq seziladi.

XULOSA. Xulosa sifatida, konseptning oxirgi o‘n yillik ichida tilshunoslikdagi eng faol qo‘llaniladigan terminlardan biriga aylanganini e’tirof etish mumkin. U nafaqat tilshunoslikda, balki adabiyotshunoslik, mantiq, falsafa va madaniyatshunoslik kabi sohalarda ham keng qo‘llanadi. Konsept atamasi, o‘zining keng va ko‘p qatlamli mohiyati tufayli, turli ilmiy yo‘nalishlarda turlicha talqin etiladi. Biroq, konseptning o‘ziga xos ta’rifining mavjud emasligi, uni o‘rganayotgan olimlar o‘rtasida ba'zi tafovutlar va turli yondashuvlarni keltirib chiqarmoqda.

Hozirgi kunga qadar konseptning ta’riflanishi turli olimlar tomonidan farqli usullarda amalga oshirilgan. Masalan, ba'zi tilshunoslar konseptni milliy mintallitetning asosiy birligi sifatida ko‘rishadi, chunki u xalqning dunyoqarashi, madaniy qadriyatlari, tarixiy tajribasi va ijtimoiy xususiyatlarini aks ettiradi. Boshqa olimlar esa, konseptni kundalik hayotdagi ko‘p o‘lchovli ta’lim mazmunidagi falsafiy termin sifatida o‘rganadilar, chunki u insonning tafakkurini, dunyoqarashini va ongidagi tasavvurlarni shakllantiradi.

Konsept, tilning semantik tizimida markaziy o‘rin tutadigan element sifatida, nafaqat tilga oid, balki ijtimoiy, madaniy, psixologik va falsafiy jihatlarni ham o‘zida jamlaydi. U insonning aqliy va madaniy faoliyatining mahsuli sifatida, til va madaniyat o‘rtasidagi o‘zaro aloqalarni tushunish uchun muhim vosita bo‘lib, turli sohalarda o‘rganilishi uning ko‘p qirrali va chuqur mazmunini yanada to‘liqroq anglashga yordam beradi. Shu bois, konseptni o‘rganish nafaqat tilshunoslik, balki boshqa fanlar uchun ham dolzarb masala bo‘lib qolmoqda.

Shunday qilib, konsept nafaqat tilning bir qismi, balki uning orqali insonning butun tafakkurini, madaniyatini va ijtimoiy munosabatlarini tushunish imkonini beradigan muhim tushuncha sifatida qabul qilinadi. Shuningdek, konseptning turli sohalarda turlicha ta’riflanishi, uning ko‘p qatlamli va o‘zgaruvchan xususiyatlarini hamda inson tafakkurining eng yuqori shakllaridan biri sifatida qadrini oshiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Болотов В.И. Из истории науки. А.А.Потебня и когнитивная лингвистика // Вопросы языкознания. - Москва, 2008. - №2. - с. 82.

2. Гумбольдт В.Фон. Язык и философия культуры. – М., 1985. – с.451.

3. Демьянков В.З. Термин «концепт» как элемент терминологической культуры // Язык как материя смысла: Сборник статей в честь академика Н.Ю.Шведовой / Отв. ред. М.В.Ляпон. – М.: Издательский центр “Азбуковник”, 2007. (РАН: Институт русского языка им. В.В.Виноградова). с. 606–622.

4. Колесов В. В. Язык и ментальность. - СПб, 2004. с. 19-20

5. Сайидраҳимова Н., Қобулова У. Лингвокультурология – тилшуносликнинг алоҳида соҳаси // Ўзбек тили ва адабиёти, 2015. – №4. – Б. 87-91.

6. Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик – Жиззах: Сангзор, 2006; Маматов А.Э. Тилга когнитив ёндашувнинг моҳияти нимада? / Ўзбек тилшунослигининг долзарб муаммолари (проф. А.Нурмонов таваллудининг 70 йиллигига бағишлаб ўтказилаётган илмий-амалий

анжуман материаллари. – Андижон, 2012. – Б. 212; Маҳмудов Н. Тилнинг мукаммал тадқиқи йўлларини излаб... // Ўзбек тили ва адабиёти, 2012. № 5. – Б. 3-16.

7. Степанов Ю.С. Константы. Словарь русской культуры: Опыт исследования. – М.: Яз. рус. культуры, 1997. – 824 с.

8. Ganiyevna, A. S. (2023). SOME PROBLEMS OF THE VERBALIZERS OF CONCEPT OF “MAN” IN MODERN LINGUISTICS. JOURNAL OF LANGUAGE AND LINGUISTICS, 6(4), 371-374.

9. Ganiyevna, A. S. Problem of the Verbalizers of Concept of “Man” in Modern Linguistics. Academicia Globe, 2(05), 445-448.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 1-son)

FILOLOGIYA

PHILOLOGY

JANUBIY QORAQALPOG‘ISTON GIDRONIMLARIDA FAOL QO‘LLANUVCHI INDIKATORLAR VA ULARNING TASNIFI

Azizbek Kamolov Ulug‘bekovich
Ajiniyoz nomidagi NDPI 3-bosqich doktoranti
E-mail: kamolovazizbek0808@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqola Janubiy Qoraqalpog‘iston suv obyektlari nomlarini lingvistik va tarixiy nuqtayi nazardan o‘rganishga bag‘ishlangan. Shuningdek, hududdagi gidronimlar turli indikatorlarga bo‘linib, ularning atamalari, kelib chiqishi va shevalardagi qo‘llanilishi batafsil tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Arna, daryo, kanal, o‘zak, ko‘l, irmoq, indikator, gidronim.

Аннотация: Данная статья посвящена изучению названий водных объектов Южного Каракалпакстана с лингвистической и исторической точек зрения. Также гидронимы региона делятся на различные индикаторы, подробно анализируются их термины, происхождение и употребление в диалектах.

Ключевые слова: Арна, река, канал, корневой, озеро, приток, индикатор, гидроним.

Annotation: This article is dedicated to the study of the names of water bodies in Southern Karakalpakstan from a linguistic and historical perspective. Hydronyms in the region are also divided into various indicators, and their terms, origin, and use in dialects are analyzed in detail.

Keywords: Arna, river, canal, ozak, lake, tributary, indicator, hydronym.

KIRISH

Janubiy Qoraqalpog‘iston Amudaryo deltasining janubiy qismi va Orol dengizining qurigan hududlari bilan chegaradosh. Hudud sug‘orish kanallari, ariq-tarmoqlar, ko‘llar va boshqa suv obyektlariga boy. Bu hududning gidronimlari nafaqat mahalliy suv obyektlarini belgilashda, balki tarixiy, madaniy va lingvistik jihatdan ham katta ahamiyatga ega.

MATERIALLAR VA METODLAR

Tadqiqotda O‘zbek toponimshunoslari, xususan, S. Qorayevning “Toponimika” nomli ilmiy-nazariy qo‘llanmasi hamda Z. Do‘simovning “Xorazm toponimlari” monografiyasi asosida gidronimik indikatorlarning tasnifi va ularning lingvistik tahlili amalga oshirildi. Tahlil jarayonida lingvistik usul va toponimik kartografiya qo‘llanildi.

NATIJALAR

O‘zbek toponimshunos olimlaridan S. Qorayevning “Toponimika” nomli ilmiy-nazariy qo‘llanmasida Qoraqalpog‘iston Respublikasi toponimlarini tadqiq etish jarayonida ushbu

hudud gidronimlariga ham to‘xtalib o‘tgan. Xususan, Yagona daryosi — Amudaryodir va ko‘pdan ko‘p daryo tarmoqlari, kichik-kichik ko‘llar, changalzorlar, qamishzorlar, botqoqliklar borligini ta’kidlab, suv obyektlarini ifodalaydigan gidronimik atamalarga misollar keltirib o‘tgan:

Arna — Paxtaarna, Tentekarna; **ariq** — Shuqurariq, Yangiariq; **buloq** —Ashshibuloq; **sag‘a-saqa** (“kanalning boshi”) — Uchyapsag‘a; **o‘zek** (“jildirab oqadigan jilg‘a”) — Ko‘ko‘zek; **soy** — Uchsoy; **solma** (“kichik ariq”) — Bo‘zsolma; **jap-yap** (“o‘rtacha ariq”) — Dusenbayjap; **quduq** — Oqquduq; **jag‘is** (Xorazmda — yoqish) — “joy”, “pristan” — Oqjag‘is. **Ko‘l** gidronomik indikatoriga batafsil to‘xtalib, Qoraqalpog‘iston hududida mayda-chuydalarini hisobga olmaganda, 150 dan ortiq ko‘l bor ekanligini, bundan tashqari 40 dan ortiq ovul-qishloqning nomlari tarkibida ko‘l indikatori uchrashini aytgan. Qoraqalpog‘iston ko‘llarini nomlariga qarab bir necha turga bo‘lgan [1.151].

Z. Do‘simov “Xorazm toponimlari” nomli monografiyasida gidronimik indikatorlar obyektning xususiyatiga ko‘ra bir necha quyidagicha turga bo‘lgan:

1. Daryo va daryodan suv oluvchi indikatorlar.
2. Kichik gidronimik indikatorlarni ifodalovchi indikatorlar.
3. Oqmaydigan suv obyektlarni ifodalovchi indikatorlar.
4. Sun’iy obyektlarni ifodalovchi indikatorlar.
5. Funksional indikatorlar [2.68].

Ushbu guruhlarga kiritilgan gidronimik indikatorlar nafaqat, Xorazmda balki, Qoraqalpog‘iston va boshqa viloyatlar suv obyekti nomlari tarkibida uchraydi.

Tilshunos olim N.Uluqov gidronimlar lingvistika fanida keng qamrovli tushuncha ekanligini ta’kidlab, gidronimiyaga oid suv obyektlari va inshootlari nomlarini sanab o‘tadi. Biroq ularning barchasi ham ushbu hududda uchrayvermaydi.

Arna so‘zi qadimgi Eron tilidagi **ar(ir)** – “suv” va sanskrit tilidagi **arnas** – “suv oqimi” ma’nolarini bildiradi. O‘rta Osiyoda ushbu atama “suv yo‘li” ma’nosida keng qo‘llanilgan. Tarixiy manbalarda, Arna termini kanal nomlariga qo‘shilib ishlatilgan. Qoraqalpog‘iston hududida esa bu so‘z “Katta Ariq” yoki “asosiy kanal “ni anglatgan. Arnaning kelib chiqishi va lingvistik mansubligi haqida turli fikrlar mavjud bo‘lib, ba’zi toponimshunos olimlar eron yoki sanskrit tillariga oid deb hisoblashadi. Bu termin O‘rta Osiyoning madaniy va iqtisodiy hayotida muhim o‘rin tutgan.

O‘zbekistonning ba’zi joylarida, chunonchi Zomin, G‘allaorol, Jizzax tumanlarida kichik jarni Arna deyishadi. Qozog‘istonda Arna deganda daryo o‘zani, Zarafshon etaklarida quruq o‘zan, boshqa yerlarda soy, daryo tarmogi tushuniladi. Chunonchi Qirg‘izistonda Kattaarna, Kichikarna degan soylar, Dog‘istonda Arnabuloq, Arnagvay nomli joylar bor; 2) buyvolning ko‘pincha suvda yashaydigan bir turi arni deb ataladi; bu hayvon Mahmud Koshg‘ariyda „suv sigiri“ deb atalgan. Arna ba’zi manbalarda daryodan suv oluvchi kanal ma’nosida keladi [2.69].

Bartoldning tadqiqotlarida ARNA - kanal (turkm., o‘zbek) bu terminni dastlab ko‘rib chiqdi va kelib chiqishi qadimgi xorazm tili bilan bog‘liq ekanligini takidlaydi. “Xorazm

tilining qoldiqlari shubhasizdir, sun’iy sug‘orish sohasidagi ba’zi terminlar (arna - katta kanal, yab – kichik kanal). Daryo tomonidan hosil bo‘lgan kanal, tabiiy kanal bo‘lib, keyinchalik esa sug‘orish kanali sifatida foydanilgan. Bunday misollar o‘lik deltalar bo‘lgan Amudaryo deltasida kam uchraydi. Masalan ushbu hududdagi ***Paxtaarna*** (To‘rtko‘l tumani), ***Mang‘itarna, Qipchoqarna, Nazarxonarna, Qilchivayarna*** (Amudaryo tumani) misol keltirishimiz. Arna indikatorli komponentdan hosil bo‘lgan gidronimlar sifatida qaraladi.

Daryo — daryo va daryodan suv oluvchi obyektlarni ifodalovchi indikatorlar: Daryo, arna, o‘zak, — Darya, derya. Turkiy tillarda (turk.: derya, q. qalp.: darya, qirg‘ dayra yoki dariya kabi variantlarga ega) «katta ov suv» (rus. reka) ma’nosida qo‘llanadi. N.Begaliyev fors tilida daryo, ya’ni dengiz so‘zi bilan bog‘liq ekanligini ko‘rsatadi va hajman kanal, ariq suv obyektlaridan katta, oquvchi suv obyektidir. (***Amudaryo*** -Ushbu hududdagi eng katta suv obyekti, ***Ko‘kdaryo*** “daryo” komponenti bilan yasalgan irmoq nomi- Beruniy tumani)

Kanal — maxsus qazilgan suv yo‘li, sug‘orish sistemasining asosiy qismi.

Qoraqalpoq tilining izohli lug‘atida ***kanal***-ot. Daryodan kichik, suv oqadigan katta ariq tarzida berilgan. Jayxun, Tuyamo‘yin (To‘rtko‘l tumani), Shabboz, Navoiy, Jag‘alboyliyap (Beruniy tumani), Bo‘ston, Qirqqiz (Ellikqal’a tumani) kabi kanallarni misol keltirishimiz mumkin.

Chungul — Xorazmda va Qoraqalpog‘iston hududlarida ko‘l va daryolarning doira shaklidagi “eng chuqur joyi” ma’nosini ifodalaydi. Sarichungul, Z. Do‘simov tadqiqotlarida Ba’zan “Chungul” indikatori yolg‘iz holda ham gidronim sifatida qo‘llanishini aytgan. Undan tashqari Qorachungul ko‘li ham Sarichungul ko‘li singari Amudaryo tumanida mavjud.

Salma —*shevada.* Tor, kichik ariq ma’nosiga ega bo‘lib asosi “***sal”*** mog‘ul tilida so‘zi bilan bog‘liq. Ushbu hududagi Bo‘z salma, Qum salma gidronimlarini aytish mumkin.

Yop — (katta ariq), **Yap** – qoraqalpoq tilida “jap” – ichidan suv oqizish uchun qazilgan arna kanal” ma’nosida ishlatiladi (yap - ot(ayrim shevalarda - yop, solma) yoki katta ariq. (Жасқалыққа келетуғын жолдың бойындағы **жаптың** жағасы менен биреў киятыр (Ж. Аймурзаев). **Жап** бойында жаўдырап, көгереди сутилмек. (И. Юсупов) [3.155]. Amudaryo tumanigi grunt qatlamining ustungi tuzilishi, tuproqning tarkibi, joyning relyefi bilan bog’liq nomlangan “**Shegelijap**” misol bo‘la oladi. (**Шеге** ат. Топырақтын майда тури, қум) [4.522]. Ba’zi olimlarning bu terminni fors-tojik tilidagi ob “suv, daryo” so‘zi bilan bog‘liq degan taxminlari mavjud.

Buloq — gidronimini turkman, qirg‘iz tillarida “bulaq” tarzida, o’zbek tilida “buloq”, qozoq, no’g’ay tillarida *bulaq* tarzida ishlatiladi. Buloq termini yuqorida ta’kidlangan tillarning geografik nomlarida ham uchraydi [5.192]. Qoraqalpoq tilining izohli lug’atida “bulaq” so’zi “tog‘ yoki yer ostidan chiqadigan suv o‘rni” tarzida izohlangan. Bu termin mazkur hududdagi suv ob’ektlari nomlari tarkibida saqlangan bo’lib, ular kammahsuldir: ***Amudaryo tumanidagi Buloqko‘l kabi.***

O‘zak — daryo irmog‘i, tarmog‘i, S. Qorayevning «Toponimika» qo‘llanmasida ba’zi o‘rinda ushbu atamani O‘zak — “suvi ba’zan qurib qoladigan kichik ariq” — Ko‘ko‘zak, ba’zi

o‘rinda Qoraqalpog‘istonning qipchoq shevalarida uchrovchi **Ózek** — («jildirab oqadigan jilg‘a») — Ko‘ko‘zek shaklida qo‘llagan [6.44]. (Ózek— Aǵın suwdan bólinip turǵan dáryanıń salası, jan, kanal. *Shámen degen bir adam qonıs izlep jurip balıqlı bir ózektin ustine shıqqan/ Shamen degan bir odam makon izlab yurib, baliqli bir o‘zakning ustidan chiqqan*. (Q. Irmanov). *Ol keme kóp qatnaytuǵın ózekke burılmadı / U kemalar ko‘p qatnaydigan o‘zakka burilmadi* (K. Sultanov). Suvning tami, hidi, harorati, rangi va o‘xshatish xususiyati bilan bog’liq atalgan gidronim *Ko‘ko‘zak, Qirqo‘zakyap (Amudaryo tumani) kichik kanallari misol bo‘la oladi* .

Ko‘l — quruqlikda joylashgan, suv to‘plangan va atrofi yopiq bo‘lgan tabiiy chuqurlik. S.Qorayevning "Toponimika" qo‘llanmasida esa u kichikroq tabiiy suv havzasi sifatida ta’riflanadi. ***Ko‘l*** gidronimi atamasiga kengroq to‘xtalib o‘tadi. Ma’lumot o‘rnida ta’kidlash joizki, Qoraqalpog‘iston Respublikasi hududida mayda-chuydalarini hisobga olmaganda, 150 dan ortiq ko‘l borligi aytgan. Respublika Amudaryoning etak qismida bo‘lgani bois daryo suvi toshib son-sanoqsiz ko‘llar hosil qilgan edi. Ko‘llaming ko‘p qismi qurib qolganligi, lekin xaritalarda, mazkur hudud aholisining xotiralarida, xalq og‘zaki ijodida bu obyektlarining nomlari saqlanib qolgan.Tozako‘l, Buloqko‘l, Tajig‘aliko‘l (Amudaryo tumani) Cho‘rtanliko‘l, Ayozko‘l (Beruniy tumani) kabi;

Irmoq indikatori. Katta daryoga quyiladigan daryo, soy, jilg‘a. Odatda, Irmoq o‘zi quyiladigan daryodan kamsuv, shuningdek, yo‘li boshqa tomonga yo‘nalgan bo‘ladi. Ko‘l va boshqa ichki suv havzalariga quyiladigan daryolar ham ba’zan ***irmoq*** deyiladi. Daryoga qo‘shiladigan soy, irmoqlar birlashib daryo hosil qiladi. O‘zbek tilining izohli lug‘atida ham ***irmoq*** - Birlashib, katta daryo hosil qiluvchi har bir ayrim kichik daryo deb beriladi. Ushbu hududda irmoqlar ko‘p uchramaydi. Irmoq indikatori orqali hosil qilinmagan bo‘lsada, irmoqlar mavjud, misol tariqasida Beruniy tumanidagi *Sariko‘l, Sultono‘zak, Ko‘ko‘zak, Ko‘kdaryo* kabi irmoqlarni keltirishimiz mumkin.

MUHOKAMA

Qoraqalpog‘iston hududidagi gidronimlar suv obyektlarining tarixi va geolingvistik rivojlanishini aks ettiradi. Arna kabi atamalar qadimgi sug‘orish tizimlarining muhim qismini tashkil qiladi. Ko‘l indikatorli toponimlar hududning tabiiy gidrografiyasi bilan bog‘liq o‘zgarishlarni ko‘rsatadi. Bu gidronimlarning kelib chiqishi ularning xalq xotirasi va madaniy merosdagi o‘rnini ham yoritib beradi.

XULOSA

Qoraqalpog‘iston hududidagi gidronimlar suv obyektlarining xususiyatlari, tarixiy o‘zgarishlar va madaniy-ma’naviy qiyofasini aks ettiradi. Ularning lingvistik tahlili nafaqat geografik nomlarni tizimlashtirish, balki o‘zbek tili va mintaqaviy shevalar o‘rtasidagi bog‘liqliklarni o‘rganishga imkon beradi.

FOYDANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Toponimika: S. Qorayev Toponimika o‘quv qo‘ll./ T.: “O‘zbekiston faylasufbri milliy jamiyati nashriyoti”, 2006. — 320 b.

2. Дўсимов З. “Хоразм топонимлари”. Тошкент. “Фан”. 1985 — 98 b.

3. Qaraqalpaq tiliniń túsindirme sózligi. 2-tom, Nukus, “Qaraqalpaqstan”, 1982, 155-bet

4. Qaraqalpaq tiliniń túsindirme sózligi 4-tom “Qaraqalpaqstan”, 1982, 522-bet

5. Молчанова О.Т. Географический термин булах в топонимии // Ономастика Поволжья. Саранск, 1976. – 360 с.;

6. JANUBIY QORAQALPOG‘ISTON HUDUDIDAGI TABIIY GEOGRAFIK BELGILAR ASOSIDA VUJUDGA KELGAN GIDRONIMLARNING GEOMORFOLOGIK XUSUSIYATLARI. (2023). *SCIENCE TIME JOURNAL*, *1*(1), 29-35.

7. Ulug‘bekovich, K. A., & Tolbaevna, K. Z. (2024). TOPONOMIKADA GIDRONIMLARNING O ‘RNI VA GEOGRAFIK TAMALAR NOMLANISHIDAGI O ‘RNI. INTERNATIONAL JOURNAL OF RECENTLY SCIENTIFIC RESEARCHER'S THEORY, 2(6), 158-161.

8. Ulugbekovich, K. A. (2023). O‘ZBEKISTON TOPONIMLARINING O‘RGANILISH TARIXI. Barqaror Taraqqiyot va Rivojlanish Tamoyillari, 1(5), 34-42.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 1-son)

FILOLOGIYA

PHILOLOGY

ORCID : 0009-0007-0104-2172

UZBEK LANGUAGE AND INTERNATIONAL LANGUAGES: ISSUES OF MAINTAINING SEMANTIC ACCURACY IN TRANSLATION

Abduvaliyeva Shahnoza Abduvaliyevna
University of Exact and Social Sciences
Linguistics (English)
First-year Master's student
abduvalievashakhnoza@gmail.com
Ilmiy rahbar dots : Bekmuradova Firuza

Annotation: This article examines the challenges of preserving semantic accuracy in translations between Uzbek and international languages, focusing on linguistic and cultural factors. The study identifies issues such as polysemy, morphological complexity, and syntactic differences that complicate accurate translations. Additionally, cultural nuances, including idiomatic expressions and honorifics, are analyzed as factors that influence meaning. The research highlights the limitations of current machine translation technologies and emphasizes the importance of human intervention in translation processes.

Keywords: linguistics, natural language processing (nlp), linguistic theories, machine learning, deep learning, syntax and semantics, language models, semantic analysis, computational linguisticsnce of human intervention in translation processes.

Introduction

Translation plays a crucial role in intercultural communication, bridging the gap between languages with distinct linguistic and cultural systems. Uzbek, as a Turkic language, presents unique challenges in translation when paired with international languages, especially those of differing linguistic typologies such as English or Russian.

Maintaining semantic accuracy is vital in translation to preserve the original message's meaning and intent. This becomes particularly complex when translating between languages with significant lexical, syntactic, and cultural disparities. Errors in meaning can distort messages, leading to misunderstandings or loss of cultural nuances.

This study explores the issues translators face when maintaining semantic accuracy in translations involving Uzbek and international languages, highlighting linguistic, cultural, and contextual factors.

Methods

- **Corpus Analysis**: A parallel corpus of Uzbek-English and Uzbek-Russian translations was analyzed to identify patterns of semantic shifts and mistranslations.
- **Interviews**: Professional translators and linguists were interviewed to understand the challenges they face and the strategies they employ.
- **Case Studies**: Examples of literary, technical, and legal translations were studied to evaluate the preservation of meaning across genres.

Framework

The analysis was conducted using:

- **Linguistic Dimensions**: Phonological, morphological, syntactic, semantic, and pragmatic aspects of the languages were examined.
- **Cultural Dimensions**: The influence of idioms, metaphors, and culturally bound expressions on translation accuracy was evaluated.
- **Technological Tools**: The role of machine translation tools like Google Translate and CAT (Computer-Assisted Translation) tools was assessed.

Analysis Methods

- Semantic equivalence was measured using translation quality metrics such as BLEU (Bilingual Evaluation Understudy).
- Comparative analysis was applied to identify discrepancies and propose solutions.

Results

Key Challenges in Semantic Accuracy

1. **Linguistic Challenges**:
   - **Polysemy**: Words with multiple meanings (e.g., "tom" in Uzbek for "roof" and "top") often result in mistranslations without contextual cues.
   - **Morphological Complexity**: The agglutinative nature of Uzbek leads to long, morphologically complex words that are difficult to translate directly into languages like English.
   - **Word Order**: Uzbek's Subject-Object-Verb (SOV) structure contrasts with the Subject-Verb-Object (SVO) structure of English, complicating syntactic alignment.
2. **Cultural Challenges**:
   - **Idiomatic Expressions**: Uzbek idioms, such as *"Ko‘rgan tog‘dan qochgan tog‘ afzal"* ("The mountain seen is better than the mountain avoided"), lose their impact when translated literally.
   - **Honorifics and Politeness**: Cultural nuances in politeness and respect forms in Uzbek are often absent in international languages, leading to potential loss of social context.
3. **Technological Limitations**:
   - Machine translation tools often fail to capture nuances in meaning, resulting in literal translations that distort the intended message.
   - CAT tools require extensive training with high-quality bilingual datasets, which are scarce for Uzbek.

Strategies for Improvement

- **Human Intervention**: Combining machine translation with human editing enhances semantic accuracy.
- **Cultural Adaptation**: Translators need to adapt culturally bound expressions using dynamic equivalence techniques rather than literal translation.
- **Bilingual Resources**: Developing comprehensive bilingual dictionaries and parallel corpora for Uzbek and international languages is essential.

Discussion

Integration of Linguistic and Cultural Factors

The study highlights the importance of understanding linguistic features, such as Uzbek's morphology and syntax, in achieving semantic accuracy. Cultural adaptation is equally critical, as literal translations often fail to convey the original meaning.

Role of Technology

While advancements in machine translation and CAT tools have improved efficiency, their effectiveness for Uzbek remains limited. Developing AI systems trained on Uzbek-specific datasets is necessary to overcome current limitations.

Limitations

The study faced challenges due to the limited availability of high-quality parallel corpora for Uzbek and international languages. Additionally, certain cultural nuances remain difficult to quantify and address systematically.

Future Directions

1. **Resource Development**: Creating extensive bilingual corpora and translation memory databases for Uzbek and major international languages.
2. **AI Training**: Collaborating with linguists and technologists to enhance NLP models for Uzbek-specific translation tasks.
3. **Translator Training**: Introducing specialized training programs for translators to address linguistic and cultural challenges effectively.

5. Conclusion

This study underscores the challenges and strategies for maintaining semantic accuracy in translations involving Uzbek and international languages. The findings highlight:

- The influence of linguistic and cultural disparities on translation quality.
- The need for a balanced approach combining human expertise and technological tools.
- The importance of interdisciplinary efforts in advancing translation technologies and resources.

By addressing these challenges, translators and researchers can enhance the quality and reliability of translations, fostering better intercultural communication and understanding.

REFERENCES

1. Catford, J. C. (1965). *A linguistic theory of translation: An essay in applied linguistics.* Oxford University Press.

2. Nida, E. A., & Taber, C. R. (1969). *The theory and practice of translation.* Brill.

3. Newmark, P. (1988). *A textbook of translation.* Prentice Hall.

4. Baker, M. (1992). *In other words: A coursebook on translation.* Routledge.

5. Vaswani, A., Shazeer, N., Parmar, N., Uszkoreit, J., Jones, L., Gomez, A. N., & Polosukhin, I. (2017). Attention is all you need. *Advances in Neural Information Processing Systems, 30,* 5998–6008.

6. Jurafsky, D., & Martin, J. H. (2023). *Speech and language processing: An introduction to natural language processing, computational linguistics, and speech recognition.* Pearson.

7. Mikolov, T., Chen, K., Corrado, G., & Dean, J. (2013). Efficient estimation of word representations in vector space. *arXiv preprint arXiv:1301.3781*.

8. Crystal, D. (2003). *The Cambridge encyclopedia of language* (2nd ed.). Cambridge University Press.

9. Brown, H. D. (2007). *Principles of language learning and teaching* (5th ed.). Pearson Education.

10. Google . (2023). *Google Translate: Machine learning-based translation.* Retrieved from https://translate.google.com

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 1-son)

FILOLOGIYA

PHILOLOGY

AMERICAN SOCIAL LIFE IN THE 20TH CENTURY IN FICTION LITERATURE

Mahliyo Tojimirzayeva
Impuls Medical Institute
mahliyo0209@gmail.com
+998996005166

Annotatsiya Mazkur maqola Amerikaning XX asrdagi ijtimoiy hayotining badiiy adabiyotdagi aksini o'rganishga bag'ishlangan. XX asr Amerika adabiyoti ijtimoiy o'zgarishlar, iqtisodiy inqirozlar, urushlarning ta'siri va inson hayotidagi murakkabliklarni badiiy asarlarda qanday tasvirlagani tahlil qilinadi. Ushbu maqolada asosiy mavzular, muhim yozuvchilar va ularning asarlaridagi ijtimoiy masalalar yoritiladi. Shuningdek, maqola ijtimoiy hayotning badiiy adabiyot orqali qanday aks etgani, yozuvchilarning jamiyatga bo'lgan munosabatini tahlil qilishga yo'naltirilgan.

Kalit so'zlar: Amerika adabiyoti, XX asr, ijtimoiy hayot, badiiy tasvir, iqtisodiy inqiroz, "Yo'qotilgan avlod", urush ta'siri, modernizm.

Annotation This article is dedicated to studying the reflection of American social life in the 20th century through literary works. The literature of 20th-century America illustrates social changes, economic crises, the impacts of wars, and the complexities of human life. The article analyzes key themes, significant authors, and how social issues are depicted in their works. Additionally, the focus is on understanding how literature mirrors social life and the attitudes of writers toward society.

Keywords: American literature, 20th century, social life, literary depiction, economic crisis, "Lost Generation," war impact, modernism.

Абстрактный Данная статья посвящена исследованию отражения общественной жизни Америки XX века в художественной литературе. Анализируется, как американская литература XX века изображает в произведениях искусства социальные изменения, экономические кризисы, последствия войн и сложности человеческой жизни. В этой статье рассматриваются основные темы, важные писатели и социальные проблемы в их произведениях. Также статья направлена на анализ того, как общественная жизнь отражается через художественную литературу, отношение писателей к обществу.

Ключевые слова: американская литература, XX век, общественная жизнь, художественный образ, экономический кризис, «потерянное поколение», влияние войны, модернизм.

Introduction

The depiction of 20th-century American social life in literature serves as a vital resource for understanding the complexities, challenges, and transformations of that era. During this period, American society underwent significant economic, social, and cultural shifts. Events like two world wars, economic crises, the "New Deal" policies, and the civil rights movement were prominently reflected in literature.

In 20th-century American literature, social life was explored through the "Lost Generation," modernism, and later, postmodernism movements. This article highlights the main social issues of the period, how they were portrayed in literary works, and the perspectives of authors on these matters.

Social Life and Literature of 20th-Century America

Key Changes in Social Life

The social life of 20th-century America was marked by significant events and transformations:

- **Impact of World Wars**: Both World Wars profoundly changed American society. Issues like the reintegration of veterans, the psychological and social effects of war, and the role of women in the workforce became central topics.
- **Economic Crisis and the Great Depression**: The economic crisis of 1929 altered the lives of millions of Americans. Poverty, unemployment, and economic inequality became central themes in literature.
- **Civil Rights Movement**: The struggle for civil rights by African Americans and other minority groups became a critical subject in literary works.

"Lost Generation" and Modernism

Following World War I, the "Lost Generation" writers played a crucial role in depicting the complexities of social life during that era. These writers deeply felt the moral and psychological aftermath of war, capturing the emptiness of society in their works.

Ernest Hemingway

Hemingway explored the impact of war on human psychology in his works. In "The Sun Also Rises," he portrays the spiritual struggles and despair of the lost generation. Hemingway masterfully depicted the moral emptiness of post-war society.

F. Scott Fitzgerald

Fitzgerald's "The Great Gatsby" reflects the social life of the "Roaring Twenties." The novel examines economic prosperity, the pursuit of wealth, and moral decay in America. Fitzgerald's works critique society's obsession with material wealth.

Literature of the Great Depression

The literature of the 1930s focused on social issues, particularly poverty, unemployment, and economic hardships during the Great Depression.

John Steinbeck

Steinbeck's "The Grapes of Wrath" portrays the lives of unemployed rural workers during the economic crisis. The novel highlights themes of injustice, workers' rights, and human dignity.

Civil Rights Movement and Literature

In the second half of the 20th century, American literature addressed civil rights and racial inequality as prominent themes.

James Baldwin

Baldwin's works are pivotal in depicting the role of African Americans in society and racial inequality. His novel "Another Country" explores race, sexual orientation, and human relationships.

Toni Morrison

Toni Morrison's "Beloved" examines the trauma of slavery and its impact on future generations. Morrison's works deeply express the historical experiences of African Americans.

Modernism and Postmodernism

The modernist and postmodernist movements brought new styles and themes to 20th-century literature. While modernism focused on the inner world and spiritual quests, postmodernism explored the relativity and complexity of human experiences.

William Faulkner

Faulkner's "The Sound and the Fury" employs interior monologue and complex narrative structures to depict the internal contradictions of society. His works delve into the intricate historical and social issues of the American South.

Kurt Vonnegut

Vonnegut's "Slaughterhouse-Five" portrays the absurdity of war and modern society. This postmodernist work raises philosophical questions about the essence of human life.

Conclusion

The social life of 20th-century America is richly and complexly reflected in its literature, with authors using their works to capture the essence of a rapidly changing society. These literary works provide a window into the economic, political, and cultural shifts that marked this era, as well as the wars, crises, and the spiritual struggles of humanity. Writers such as Ernest Hemingway, F. Scott Fitzgerald, John Steinbeck, James Baldwin, and Toni Morrison explored these themes, offering their readers not only a glimpse into the experiences of individuals but also an understanding of larger societal movements.

One of the defining characteristics of 20th-century American literature is its ability to mirror the tumultuous events of the time. The world wars, the Great Depression, civil rights movements, and the rise of modernism all influenced the works produced during this period. Through the lens of fiction, authors addressed the effects of these events on individuals,

families, and communities, while also grappling with broader questions of identity, morality, and societal progress.

Hemingway’s stark and minimalist style, for example, reflects the disillusionment of the post-World War I generation, capturing the internal struggles of his characters, who often wrestle with feelings of alienation and existential uncertainty. Fitzgerald, on the other hand, explored the complexities of the American Dream in works like *The Great Gatsby*, revealing how social class, ambition, and materialism shaped the lives of individuals in the Jazz Age. Steinbeck, known for his portrayal of the plight of the working class, especially during the Great Depression, used his novels to give voice to the disenfranchised, emphasizing themes of social justice and the resilience of the human spirit.

James Baldwin’s writings brought to the forefront issues of race and identity, especially in the context of the Civil Rights Movement, while Toni Morrison’s work highlighted the African American experience, exploring themes of memory, trauma, and racial injustice. Both writers used their powerful prose to confront uncomfortable truths about American society, showing the deep divisions and the ongoing struggle for equality.

Moreover, 20th-century American literature served as a mirror, reflecting not only the hardships of the time but also the complex moral questions faced by individuals. The writers of this period examined the contradictions inherent in American society, such as the tension between the nation’s ideals of freedom and the reality of oppression. These authors often posed difficult questions about what it means to live ethically in a world shaped by social inequality, political unrest, and personal suffering.

In this way, literature of the 20th century was not only a record of historical events but also a moral commentary on the state of the nation. It challenged readers to reflect on the past, consider the present, and envision a future shaped by greater understanding, empathy, and social justice. Thus, 20th-century American literature remains an invaluable resource for those seeking to understand the complexities of human life, societal transformation, and the perspectives of those who lived through these monumental changes.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. **Hemingway, Ernest.** *The Sun Also Rises.* Scribner, 1926.
2. **Fitzgerald, F. Scott.** *The Great Gatsby.* Charles Scribner's Sons, 1925.
3. **Steinbeck, John.** *The Grapes of Wrath.* Viking Press, 1939.
4. **Baldwin, James.** *Another Country.* Dial Press, 1962.
5. **Morrison, Toni.** *Beloved.* Alfred A. Knopf, 1987.
6. **Faulkner, William.** *The Sound and the Fury.* Jonathan Cape and Harrison Smith,
7. **Vonnegut, Kurt.** *Slaughterhouse-Five.* Delacorte Press, 1969.
8. **Kennedy, X. J., and Dana Gioia.** *Literature: An Introduction to Fiction, Poetry, Drama, and Writing.* Pearson, 2016.
9. **Bercovitch, Sacvan (Editor).** *The Cambridge History of American Literature.* Cambridge University Press, 1995.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 1-son)

FILOLOGIYA

PHILOLOGY

https://orcid.org/ **0009-0006-6018-3998**

KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI O‘QUVCHILARDA IKKINCHI TILNI O‘RGANISHDA UCHRAYDIGAN INTERFERENTIV XATOLIKLAR TAHLILI.

Axmadjonova Gulira’no Muxtorjon qizi
Farg’ona davlat universiteti tayanch doktoranti
shahruzamehrimoh1993@gmail.com,+998905332993

Annotatsiya: Ushbu maqolada tillararo aloqaning intensiv shakli bo‘lmish interferensiya hodisasining lisoniy tabiati**,**bilingvizm, (o‘zbek-tojik) sharoitda til o‘rganishni yengillashtirish; til o‘qitishda, o‘rganishda yuzaga keladigan interferensiya bilan bog‘liq xatoliklarni oldini olish va tuzatish; kishilarda nutq madaniyati hamda so‘zlashuv odobini shakllantirishda interferensiyaning salbiy oqibatlarini kamaytirish kabi masalalarni yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: interferensiya, o‘zlashma so‘zlar, blingvizm, poliligvist.

АНАЛИЗ ИНТЕРФЕРЕНЦИАЛЬНЫХ ОШИБОК ПРИ ОБУЧЕНИИ ВТОРОМ ЯЗЫКУ У УЧАЩИХСЯ МЛАДШЕГО ШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА.

Аннотация: В данной статье рассматривается лингвистическая природа феномена интерференции, которая представляет собой интенсивную форму межъязыкового общения, облегчения изучения языка в условиях лингвистики (узбекского-таджикский) предупреждение и исправление ошибок, связанных с вмешательством в преподавание и изучение языка; Освещены такие вопросы, как снижение негативных последствий вмешательства в формирование речевой культуры и речевого этикета у людей.

Ключевые слова: интерференция, заимствованные слова, лингизм, полилингвизм.

ANALYSIS OF INTERFERENTIAL ERRORS IN SECOND LANGUAGE LEARNING IN PRIMARY SCHOOL AGE STUDENTS.

Abstract: In this article, the linguistic nature of the phenomenon of interference, which is an intensive form of interlinguistic communication, facilitation of language learning in the conditions of linguism (Uzbek-Tajik) prevention and correction of errors related to interference in language teaching and learning; issues such as reducing the negative consequences of interference in the formation of speech culture and speech etiquette in people are highlighted.

Key words: interference, borrowed words, blingism, polylingualism.

KIRISH

Dunyo lingvistika fanida, shuningdek, interferensiya hodisasining til o‘qitish va nutq o‘rgatishda, boshqa til ta’limi jarayonlariga ta’sirini o‘rganish, uning tafakkur-til-nutq zanjirida aks etuvchi oqibatlarini bartaraf etish yo‘l-yo‘riqlarini ishlab chiqish muhimligi qayd etiladi. Binobarin, interferensiya hodisasining yuz berish va amalda bo‘lish mexanizmini tadqiq etish, tilda vujudga keladigan struktur-semantik o‘zgarishlarni jamiyatdagi lisoniy vaziyat hamda til, etnoslar o‘rtasidagi munosabatlar fonida o‘rganishga ko‘maklashadi hamda bu hol ushbu mavzuning dolzarbligini belgilab beradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

O‘zbek tilshunosligida tillarni qiyoslab tadqiq qilish ishlari XI asrda Mahmud Koshg‘ariyning «Devonu lug‘otit turk», Mahmud Zamaxshariyning «Muqaddimat-ul adab» hamda XV asrda Alisher Navoiy tomonidan yozilgan «Muhokamatul lug‘atayn» asarlaridan boshlangan. Mahmud Koshg‘ariy bir oilaga mansub turkiy tillarni qiyoslab, ularning umumiy va farqli jihatlarini ko‘rsatib bergan. U ba’zi turkiy xalq va elatlarning ikki tilli ekanini va buning natijasida ularning tilida “buzuqlik” kuzatilishi haqida aytib o‘tadi.[1.65] Mahmud Zamaxshariyning «Muqaddimat-ul adab» asari o‘sha davrda arab tilining iste’molda bo‘lgan barcha so‘zlari, iboralarini qamrab olib, ularning ma’nolari, etimologiyasi yetarli darajada keng sharhlanadi. Unda fors, chig‘atoy (o‘zbek), mo‘g‘ul, turk tillariga doir ma’lumotlar ham berilgan. «Muqaddimat-ul abab» arabchadan fors, chig‘atoy mo‘g‘ul va turk tillariga tarjima qilingan. Manbalarda ta’kidlanishicha, asarning chig‘atoy tilidagi tarjimasi Zamaxshariyning o‘zi tomonidan amalga oshirilgan. Asarda fors, o‘zbek va mo‘g‘ul tillariga xos leksemalar qiyoslangan.[2] Tillarni qiyosiy o‘rganish va interferensiya hodisasi haqida o‘zbek tilshunosligida ham bir qancha ishlar amalga oshirilgan. O‘zbekistonda ilm-fanning, xususan, qiyosiy tilshunoslik va xorijiy tillar o‘qitish metodikasi fanlarining hamda interferensiyaning nazariy va amaliy masalalarini tadqiq etishga Y.D.Polivanov, A.K.Borovkov, D.Ishondadayev, J.Bo‘ronov, O.Azizov, H.G‘ulomov, O‘.K.Yusupov, H.Doniyorov, Sh.S.Alimov, H.Doniyorov, T.Rahmonov, M.Mirzayev, E.D.Panasenko, R.G.Baratov, M.Djusupov, D.D.Jalolov, O‘.K.Yusupov, K.J.Djurayev, E.X.Jurayev, M.Zokirov, Sh.I.Jo‘rayev [3]singari tilshunoslar tomonidan o‘rganilgan.

Xalqning ijtimoiy,siyosiy,iqtisodiy,madaniy va ma’naviy olami bilan bog‘liq nimalar bo‘lsa,ular tilda o‘z inikosiga ega bo‘ladi.Ijtimoiy xayotning lisonda aks etgan inikosi tilning lug‘at boyligi sifatida yuksak baholanadi.

Qo‘shni va qo‘shni bo‘lmagan,qardosh va qardosh bo‘lmagan har xil tillarning o‘zaro aloqasi dastlab tilning lug‘at tarkibida ko‘zga tashlanadi.Shu bois bir tilning lug‘at tarkibida ikkinchi boshqa tilning lisoniy birliklari o‘ziga xos qismini tashkil etadi.Bu hol o‘zbek tili leksikasidagi ko‘plab tojik (fors) so‘zlarining,tojik tili leksikasida esa shunday miqdordagi o‘zbekcha (turkiy) so‘zlarning mavjudligi va ularning nutqda ifodalanishi bilan ham isbotlanadi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Yuqorida keltirilgan ma’lumotlardan shu ayon bo‘ladiki, qiyosiy tilshunoslik bizda ancha oldin olimlarimiz tomonidan o‘rganilgan va bir qancha asarlarda o‘z ifodasini topgan. Aynan “interferensiya” termini esa, G‘arb tilshunosligidan kirib keldi. “Interferensiya” termini avval fizika, ximiya, biologiya sohalarida keyinroq tilshunoslik jabhasida qo‘llanilgan. Ya’ni, interferensiya (**lotincha** *inter- o‘zaro, frens- ko‘tarilish, urilish)* hodisasini ko‘p tillilik sharoitida turli til oilasi va guruhlariga, shuningdek, yaqin qarindosh tillar til sistemasining bir-biriga ta’siri shaklida namoyon bo‘lishi deb talqin qilish mumkin.[4.13]

V.Y.Rozensveyg: «Interferensiya bu bilingv nutqida aloqadagi tillar qoidalarining buzilishi til me’yorlaridan uzoqlashishdir»,– deydi.[5]

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, muayyan xalq,millat tilining boshqa xalq yoxud millat tiliga ta’siri lug‘aviy satxdan tashqari lisoniy aralashuvlar tufayli tillararo aloqa vujudga keladi. Ikkitillilik (blinvizm) atamasi anglatgan nutqiy imkoniyat,interferensiya deb nomlanuvchi atama bilan bog‘lanadi. Interferensiya jarayonida blingv (ikki tilni biluvchi) bir tilga hos lisoniy hususiyatlarni boshqa ikkinchi tilga beihtiyor ko‘chirib qo‘yadi. Bu jarayon bir tilning ikkinchi tilga ta’siri doirasida namoyon bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1.Маҳмуд Кошғарий. Девону луғотит турк. – Тошкент. 1960. 1-том, 65-66- б..

2.Поливанов Е.Д. Вокализм говора гор. Самарканда (глава из описания двуязычной системы) // Доклады АН СССР. – Ленинград: Акад. наук СССР, 1928, №14. – С.306-312;

3.Поливанов Е.Д. Материалы по грамматике узбекского языка. –Ташкент, 1934;

4.Боровков А.К. Таджикско-узбекское двуязычие. Москва, 1952; Ишондадаев Д. Некотореме особенности словообразования в тажикских и узбекских говорах Наманганских

5. I.A.RASULOVA ‘‘LINGVOMADANIY INTERFERENSIYA HAMDA UNI BARTARAF ETISH YO‘L-YO‘RIQLARI’’ – Samarqand – 2021

6.Розенцвейг, В.Ю. Языковые контакты. – Л.: Наука,1972.

7.Мусаев К.М. Казахский язык. -М.: Восточная литература, 2008. –С. 70.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 1-son)

FILOLOGIYA

PHILOLOGY

“IMOM MOTURIDIY” ROMANIDA KOMPOZITSIYA VA SYUJET MUNOSABATI

Bobojanov Alisher
Qoraqalpoq davlat universiteti o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolaga Luqmon Bo‘rixonning “Imom Moturidiy” romani obyekt qilib olingan bo‘lib, unda tarixiy romanning o‘ziga xos kompozitsiyasi, kompozitsiya qismlarining umumiy butunlikdagi o‘rni, syujet va uning qatlamlari masalalari ilmiy jihatdan talqin qilinib, yozuvchining poetik mahorati borasida mulohazalar bildirilgan.

Kalit so‘zlar: roman, kompozitsiya, syujet, syujet tiplari, syujet elementlari, zamon va makon, badiiy niyat, mazmun va g‘oya.

Annotation. This article examines Luqmon Bo'rikhon's novel "Imam Maturidi" as its primary object of study, analyzing the unique composition of the historical novel, the role of its compositional components within the overall structure, and the layers of its plot from a scientific perspective. Additionally, the article offers reflections on the author's poetic mastery.

Keywords: novel, composition, plot, plot types, plot elements, time and space, artistic intention, content, and idea.

Аннотация. В данной статье роман Лукмона Бурихона «Имам Матурудий» рассматривается в качестве основного объекта исследования. Анализируется уникальная композиция исторического романа, роль его композиционных элементов в общей структуре, а также сюжетные слои с научной точки зрения. Кроме того, в статье представлены размышления о поэтическом мастерстве автора.

Ключевые слова: роман, композиция, сюжет, типы сюжета, элементы сюжета, время и пространство, художественное намерение, содержание и идея.

KIRISH.

Bugungi dunyo ko‘rinishda va mohiyatda, zohir va botinda o‘zgarib borayotgan doimiy harakatdagi, qiyofasi va xarakteri turfa xillikdan iborat ijtimoiy voqelikdir. Mana shunday jarayonda madaniy, axloqiy, adabiy-estetik tafakkurning tamoyillari va konsepsiyalari ham yangicha yo‘nalish olishi tabiiy jarayondir. Har bir inson o‘z davrida o‘zidan oldingi avlod yoki jamiyatning qadriyatlari negizida yashaydi. Bugungi yangi O‘zbekistonning – yangi avlodini, intellektual va salohiyatli avlodini tarbiyalashda o‘tmish va o‘tmish avlodning bizga qoldirgan merosi juda katta ahamiyatga ega. Yozuvchi Luqmon Bo‘rixonning “Imom Moturidiy” tarixiy romani ayni shu maqsadda maydonga kelgan ijod namunasidir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR. Roman janri o‘z tabiatiga ko‘ra poetik idrok doirasi, tasvir va ifoda ko‘lami, mavzu va muammo qamrovi ancha keng bo‘lgan ijod namunasidir. Shunga mos matn ko‘rinishi, kompozitsiya va syujeti bo‘lishi, albatta, tabiiy jarayon. Qamrov va ko‘lamdorlikka muvofiq roman kompozitsiyasining o‘ziga xos bo‘lishi yozuvchining badiiy niyati va maqsadiga mos yaratiladi. Albatta, kompozitsiya va syujetni yaratadigan nutq texnikasi muallifning g‘oya va niyatiga bog‘liq tanlanadi. Nutq texnikasi matn elementlarini voqealar va xarakterlar oqimining mantiqiy talabiga muvofiq shunday joylashtiradiki, natijada mazmun va g‘oyani o‘zida aks ettirgan muayyan kompozitsiya hosil bo‘ladi. Tasvir va ifodaning, syujet va xarakterning dialektik dinamikasi butunlikdagi kompozitsiya sari harakatlanadi.

Tarixiy roman kompozitsiyasi prototip tarixiy shaxsninggina emas, balki idealidagi yaratilayotgan qahramonning xarakteriga mos turfa jihatlarini ochishga xizmat qiladi. Badiiy mantiq va voqealar oqimining talabiga hamda kompozitsiyaning namayon bo‘lib borishi jarayonida xarakterlar konkretlashib, muallif ideali va yondashuvi ko‘rinib boradi. Demak, xarakterlarning aniqligi kompozitsiya vositasida yuzaga chiqadi, kompozitsiya esa mazmun va g‘oyani yuzaga keltiruvchi syujet sifatida namayon bo‘ladi. Muallif badiiy matnda xarakterlarni muayyan syujet asosidagi muhit va sharoitda, voqealarda to‘qnashtiradi, mazkur to‘qnashuvlar roman kompozitsiyasining arxitektonikasini tashkil etadi. “Imom Moturidiy” romanida qahramonlar va yozuvchining falsafiy, badiiy-estetik niyati kompozitsiyani ta’minlagan.

Roman kompozitsiyasi va syujeti borasida jahon va o‘zbek adabiyotshunosligida turfa xil fikr va talqinlar mavjud. Badiiy matn komponentlarining muayyan tartibda joylashtirilib borishi mazmunni va kompozitsion butunlikni hosil qiladi. “Zero, har bir unsur asar butunligida o‘zining funksiyasiga ega, muayyan g‘oyaviy-badiiy yuk tashiydi. Asarda ularning har biri o‘z o‘rnida, me’yorida ishlatilishi, butun bilan mustahkam aloqada bo‘ladigan va bu aloqalar anglanadigan tarzda joylashtirilishi muhim… Bulardan ko‘rinadiki, kompozitsiya asar qismlarini badiiy niyat (muayyan badiiy konsepsiyani shakllantirish va ifodalash, ko‘zlangan g‘oyaviy-estetik ta’sir) ijrosi uchun eng optimal tarzda joylashtirish, ularning o‘zaro aloqa va munosabatlari ravshan anglashiladigan tarzda butunlikka biriktirish demakdir”[1; 180-bet]. Kompozitsiya shakllar iyerarxiyasidan iborat mazmuniy va g‘oyaviy tugallangan butunlikdir. Luqmon Bo‘rixonning “Imom Moturidiy” tarixiy romani ham o‘ziga xos matn strukturasidan va nutq texnikasidan iborat. Romanning butun syujet va kompozitsion qurilishi Imom Moturidiy va u yaratgan aqidaning islom olamida yuksakligini ko‘rsatishga xizmat qiladi.Yozuvchi romanda qahramonning ruhiy holatini emas, insoniylik va olimlik faoliyatini tasvirning markazi sifatida tanlaydi. Imom Moturidiy obrazi ba’zan Vosiq La’liyning, gohida Idris Shomiyning, goh shogirdlarining xotiralari hamda roviyning tafsilotlari orqali ifodalab beriladi.

Agarda romanning arxitektonikasi (tashqi) kompozitsiyasiga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, matn strukturasi adabiyotimizdagi roman ustalarining an’anaviy uslubiga hamohang. Odil Yoqubov “Ko‘hna dunyo”, Asad Dilmurod “Mahmud Tarobiy”, Muhammad Ali “Ulug‘

saltanat”, Isajon Sulton “Abu Rayhon Beruniy” romanlarida tarixiy matn strukturasining an’anaviy namunasini yaratganlar.

Taniqli yozuvchi Isajon Sultonning “Abu Rayhon Beruniy” tarixiy romanidagi voqealar ham “Imom Moturidiy” romanidagi voqealar bilan bir tarixiy zamonda sodir bo‘ladi. Ularning zamon ob’yekti bir. Albatta, Isajon Sultonning ham maqsadi ulug‘ allomaning adabiy portretini va tarixiy-badiiy qiyofasini yaratish bo‘lganligi aniq. Ular g‘oyaviy-badiiy niyatda hamfikrdirlar. Shuningdek, ikkala romanning kompozitsiyasida, syujet qurish usullarida, hikoya qilish jarayonlarida mushtaraklik kuzatiladi. Ikkala romanda ham voqealar retrospektiv syujetda namoyon bo‘ladi. O‘tmish voqealar ikkalasida ham qahramon roviy nutqida bayon qilinadi. Ikkala romanda ham olimlik va odamiylik rutbasi tavfsifi konseptsion ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, ba’zi farqli jihatlar ham ko‘rinadi. “Imom Moturidiy” romani qism va bir qancha fasllardan iborat bo‘lsa, Isajon Sulton romani o‘n uchta qism va bir qancha hikoyatlardan iborat. Hikoyatlarning hikoyachisi ya’ni roviysi tarixiy shaxslar bo‘lib voqea ularning tilidan bayon qilinadi. Hikoyatlarning soniga muvofiq syujet ko‘rinishlari ham turfa xil. “Luqmon Bo‘rixon uslubidagi poetik zanjir-badiiy-mantiqiy izchillik omillari” roman strukturasidagi barcha bo‘lak va qismlarni bog‘lashga xizmat qilgan [2; 16-bet].

NATIJALAR VA MUHOKAMA.

“Imom Moturidiy” romani muqaddima, uchta asosiy qism va bir qancha fasllardan iborat bo‘lib, asosan monolog-xotira ya’ni retrospektiv syujetlardan tashkil topgan. Adabiyotshunos Dilmurod Quronovning ta’kidlashicha “Zamonaviy adabiyotshunoslikda epik asar qurilishini tadqiq etishda matn kompozitsiyasi, syujet kompozitsiyasi, personajlar sistemasi, badiiy vaqt va zamon, rivoya kompozitsiyasi, nuqtai nazar kompozitsiyasi kabi masalalar diqqat markazida turadi”. Biz tadqiqot ishimizda obyekt qilib olingan tarixiy romanning aynan matn kompozitsiyasi va syujetini o‘rganishni maqsad qilib oldik. Ma’lumki, kompozitsiyaning markazida syujet turadi. Bir butun yo‘nalishlardagi voqealarning dinamik harakati, xarakterlar mantig‘i butunlikka olib boruvchi badiiy unsurlarning kompleks qatorini yaratib boradi. Luqmon Bo‘rixon ham o‘z badiiy niyatiga bog‘liq kompozitsiya unsurlaridan mahorat bilan foydalangan. Kompozitsiyaning asosida uyushtirish, tartibga solish vazifasi turadi. Buni adabiyotshunos P.V Polievskiy ham quyidagicha tasdiqlaydi: “Badiiy matning tashkillashtiruvchi va tartibga soluvchi kuchi. Unga qismlarning og‘ishib ketmasdan butunlik sari borishini ta’minlash vazifasi yuklatilgan. Uning maqsadi –barcha bo‘laklarni shunday joylashtirsinki, ular yagona butunlik atrofiga birlashsin” [3; C.42]. Roman kompozitsiyasi (matni) muqaddima bilan boshlangan. Asarning bosh syujeti bilan bog‘liq zamon va makon tasviri ekspozitsiya o‘rnida kelib, voqealar sodir bo‘lgan tarixiy davr, muhit-sharoit, joy, makon kabilar bilan kitobxonni tanishtirgan. Roviy (muallif) nutqi bilan boshlangan. Ammo, butun roman voqealari davomida roviylik vazifasi birinchi shaxsdan ikkinchi shaxsga ko‘chib turgan. Muallif (roviy) nutqi kompozitsiya va syujetdagi barcha qism va bo‘laklarni, voqealarning zamon va makonlarini bir-biri bilan bog‘lab matn kompozitsiyasini ta’minlagan. Davr va tarixiy sharoitning umumiy manzarasi karvon saroy xronotopida jamlangan. Unda Xolid Xalajning

Samarqand hokimi ekanligi, zamonning eng muhim ijtimoiy mavzusi va muammosi mo‘tazila qavmi haqida, islomning qudratida turkiy qavmning tutgan o‘rni, darveshning qo‘shiq kuylashi, Bog‘doddan kelayotgan talabalarning aqida va kalom ilmi borasida suhbat qurishi, karvonda begona bolaning Samarqandga kelishi, karvonda xattot (Nuriy)ning bo‘lishi, karvonboshi Inoyat ibn Vosiq bilan begona bola o‘rtasidagi suhbatning sirli qoldirilishi kabi tasvir va tafsilotlar davr va ijtimoiy tarixiy sharoitning umumiy manzarasini berish bilan birga keyingi badiiy voqealarning tadriji va xarakteriga ishora qilgan. Ekspozitsiyaning bu taqlidda namoyon bo‘lishi kitobxonning qahramonlar va voqealarga bo‘lgan qiziqishini orttirib, asarning o‘qishliligini orttirgan. Birinchi qismdagi fasllar, asosan, qahramonlarning monolog-xotiralaridan iborat. Monolog-xotira tarzidagi matnlar dialog, monolog ichidagi monolog, muallif xarakteristika va tafsilotlaridan iborat. Bunda roviylik vazifasi muallifdan qahramonga, undan uchinchi shaxsga o‘tib turgan. Asosiy syujetning dastlabki konflikti “Sirli maktub” faslidayoq namoyon bo‘ladi. Romanda voqealar quyidagi syujet yo‘nalishlari atrofiga uyushtirilgan: Abu Mansur va Vosiq La’liy yo‘nalishi, Xolid Xalaj yo‘nalishi, Abu Mansur va oilasi yo‘nalishi, ustoz va shogirdlar yo‘nalishi, Shomiyning hayot yo‘li va taqdiri yo‘nalishi kabi syujet liniyalaridan iborat. Matn kompozitsiyasi murakkab, syujetlar bir necha qatlamli bo‘lsada Abu Mansur va Vosiq La’liy, Idris Shomiy, Tusiylar o‘rtasidagi muxoliflik asarning bosh syujet yo‘nalishi hisoblanadi. Tasvir va roviy tafsilotlaridan ayon bo‘lishicha, roman voqealari ro‘y beradigan zamon va makonda Imom Moturidiy yoshi ellikdan oshgan, aqlan va ma’nan yetuk shaxs. Taassurot va o‘tmishdagi voqealar qahramonlarning kechagi hayotiga tegishli bo‘lib monolog-xotira uslubida bayon qilingan.

XULOSA. Abu Mansur va Vosiq La’liy o‘rtasidagi dastlab do‘stlik keyinchalik raqiblik munosabati romanning markaziy syujeti bo‘lib, boshqa syujet yo‘nalishlarini unga bo‘ysundirib bosh syujetning voqealar mantig‘ini va g‘oyaviy-badiiy yo‘nalishini ta’minlab bergan. Asar kompozitsiyasidagi Xolid Xalaj, Idris Shomiy bilan bog‘liq syujet yo‘nalishlari markaziy syujetga yordamchi funksiyasini bajarsada, ular o‘z voqealar mantig‘ini davom qiluvchi va yakunlanuvchi xususiyatga ega. Demak, bundan ayon bo‘ladiki, har bir syujet yo‘nalishidagi voqealar bir-biriga bog‘liq va bog‘liq bo‘lmagan holda voqealar va xarakterlar mantig‘iga muvofiq rivojlanadi. Xalizev syujet va uning badiiy matndagi vazifalari borasida shunday mulohazalarni bildiradi: “Syujet (fr.syujet) badiiy matndagi voqealar maqsadi va mantig‘ini anglatib, personajlar hayotining makon va zamondagi vaqtinchalik o‘zgarib borishi, muhit va vaziyatning o‘zaro almashinib turishidir… Syujetni tashkil etuvchi voqealar real faktlarga turlicha munosabatda bo‘lib asar voqeligini yuzaga keltiradi. Syujet asosini tashkil qiluvchi voqealar o‘zaro turlicha aloqada bo‘ladi. Ba’zi holatlarda birgina hayot taqdiri birinchi planga chiqsa, unda asar yagona voqealar oqimidan tashkil topgan bo‘ladi” [4; 166-bet]. Xalizev bu yerda “Syujet” atamasini talqin qilib asosan bir voqealar oqimidan tashkil topgan syujet shakli borasida fikr yuritadi. Lekin, biz tahlil va talqin qilayotgan romanda syujetning besh yo‘nalishli ko‘rinishi mavjud. Birinchi syujet yo‘nalishi o‘z ichiga “Oy to‘lishgan tun”, “Hasad olovi”, “Tusiyning tuzog‘i”, “Ilk to‘qnashuv”, “Xattotning hayollari”, “Maydondagi munozara”, “Amir

huzuridagi bahs” kabi fasllarni qamrab oladi. Mazkur fasllarda Abu Mansur va Vosiq La’liy munosabatlari faqatgina xronologik syujet shaklida rivojlantirilmaydi, balki sinkretik xarakterda bo‘lib badiiy voqelik qonunlariga bo‘ysundirilib retrospektiv syujetni tasvirning va voqealar oqimining richagiga aylantirgan. “Oy to‘lishgan tun” fasli nutq texnikasiga ko‘ra roviy muallif va personajlar nutqidan iborat. Real, obyektiv voqelik tasvirlanayotgan zamon (vaqt) dagi qahramonlarning ruhiyati, vaziyat va holati roviy muallif nutqi orqali bayon qilib berilsa, o‘tmishdagi voqealar qahramonlarning ongida retrospektiv shaklda qayta jonlantiriladi. Monolog-xotiralar tarkibiga ko‘ra faqat monologlardan iborat bo‘lmay, o‘ziga xos nutqning ichki ko‘rinishlaridan ham iborat. Adabiyotshunos A.Rahimov syujet tiplarini quyidagicha ko‘rsatadi: “Biz ularni voqea-hodisalarini hikoyalash tamoyiliga asoslanib, quyidagi tiplarga ajratib o‘rganamiz: Xronikali syujet, retrospektiv syujet, konsentrik syujet, assosiativ syujet” [5; 8-16 betlar]. Muayyan badiiy makon va zamonda harakatlanuvchi xilma-xil personajlarning o‘zaro aloqa-munosabatlaridan kelib chiqadigan voqealar tizimi syujetni yuzaga keltiradi. Syujet tushunchasi va istilohi borasidagi ta’rif va talqinlar ham bir qancha. Professor Dilmurod Quronov bu borada quyidagi mulohazalarini ilgari suradi: “Syujet (frans. Predmet,” asosga qo‘yilgan narsa”) badiiy shaklning eng muhim elementlaridan biri sanalib, badiiy asardagi bir-biriga uzviy bog‘liq holda kechadigan, qahramonlarning xatti-harakatlaridan tarkib topuvchi voqealar tizimini anglatadi… Shunday ekan, syujet asarda mavzuni shakllantirgani holda, uning qanday bo‘lishi muallifning ijodiy niyatiga bog‘liq bo‘lib qoladi” [1; 163, 167 betlar]. Demak, yozuvchi Luqmon Bo‘rixon ham “Imom Moturidiy” romani kompozitsiyasi va syujetini o‘z badiiy niyatiga muvofiq shakllantirgan. Roman matni uchta qism va bir qancha fasllardan iborat bo‘lib, badiiy matn “rivoya, tavsif va dialogdan tarkib topgan” [6; 5-bet] bo‘ladi. Retrospektiv syujet voqealari faqat muallif roviyning tafsilot va tavsiflaridangina iborat bo‘lmay, personajlarning dialoglari va monologlarini ham o‘z ichiga qamrab olgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari.Toshkent. 2018.
2. Sadullayeva M. Luqmon Bo‘rixonning qissa va hikoyalarida badiiy mahorat masalasi. Filol.Fan.bo‘yicha falsafa dok.diss. avtoreferati. Urganch. 2023.
3. Вопросы литературы. 1993. Вып. 3.
4. Xalizev V.E. Teoriya literaturi M;. Visshaya shkola . 2002.
5. Rahimov A. Roman janrining taraqqiyotiga doir. O‘zbek tili va adabiyoti jurnali. 1986. 6-son.
6. Quronov D. Nazariy qaydlar. Akadem nashr. Toshkent, 2018.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 1-son)

FILOLOGIYA

PHILOLOGY

BOLALAR ADABIYOTI ESTETIKASINING RIVOJLANISH TARIXI: JAHON TAJRIBASI VA O‘ZBEK ADABIYOTIDAGI O‘ZIGA XOS AN’ANALAR

Oripova Kamola Davlatovna
Buxoro davlat universiteti doktaranti
oripovakamola91@gmail.com, +998914005695

Annotatsiya: Mazkur maqolada bolalar adabiyoti estetikasining shakllanish va rivojlanish jarayoni jahon tajribasi hamda o‘zbek adabiyotining o‘ziga xos an’analari misolida tahlil qilinadi. Avvalo, xalq og‘zaki ijodiga asoslangan ertaklar, dostonlar, eposlar bolalar adabiyotining ilk manbalari sifatida ko‘rib chiqiladi. Keyinchalik yozma shakldagi asarlar, jumladan, Gans Xristian Andersen ertaklari, Sharl Perro ijodiy merosi va L. Kerrollning “Alisa mo‘jizalar mamlakatida” asari jahon bolalar adabiyotini tubdan boyitgani alohida ta’kidlanadi. O‘zbek bolalar adabiyotining shakllanishida esa jadid adabiyoti vakillarining o‘quv-tarbiya yo‘nalishidagi asarlari, sovet davridagi ijtimoiy buyurtma mahsuli bo‘lgan, shu bilan birga, barkamol shaxs tarbiyasini ko‘zlagan ijod namunalari, mustaqillik davridagi yangicha mavzu va uslublar muhim o‘rin tutgani ko‘rsatib o‘tiladi. Bolalar adabiyotida bolalar ruhiyatiga mos til va uslub, fantastik unsurlar, tarbiyaviy g‘oya va ijtimoiy mas’uliyat kabi estetik tamoyillar tahlil qilinadi. Maqolada, shuningdek, globallashuv, raqamli texnologiyalar rivoji fonida bolalar adabiyotining yangi shakl va usullar bilan boyishi, an’anaviy folklor asarlarining zamonaviy talqinlarda davom etishi, bolalar dunyoqarashining kengayishida adiblar zimmasidagi mas’uliyat xususida ham fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: Bolalar adabiyoti, estetika, ertak, folklor, yozma adabiyot, jadidlar, mustaqillik davri, badiiy tasvir, tarbiya, globallashuv, raqamli texnologiya.

Abstract: This article analyzes the formation and development of the aesthetics of children's literature through the lens of global experience and the unique traditions of Uzbek literature. It first examines oral folklore—fairy tales, epics, and eposes—as the earliest sources of children's literature. Subsequently, written works, including Hans Christian Andersen's fairy tales, Charles Perrault's literary legacy, and Lewis Carroll's Alice's Adventures in Wonderland, are highlighted for their significant contributions to global children's literature. In the context of Uzbek children's literature, the educational and moral works of Jadid writers, the ideologically driven yet character-building examples of Soviet-era literature, and the new themes and styles of the independence period are emphasized. The article explores the aesthetic principles of children's literature, such as language and style suited to children's psychology, the use of fantastical elements, moral messages, and social responsibility. Additionally, the article

discusses how globalization and the rise of digital technologies have enriched children's literature with new forms and methods, while traditional folklore continues to evolve in modern interpretations, underscoring the responsibility of writers in broadening children's perspectives.

Keywords: Children's literature, aesthetics, fairy tales, folklore, written literature, Jadid writers, independence period, artistic depiction, education, globalization, digital technology.

KIRISH

Bolalar adabiyoti har bir xalqning madaniy-milliy merosini keyingi avlodlarga etkazishda, yosh avlodni har tomonlama tarbiyalashda alohida o‘rin tutadi. Globallashuv sharoitida milliy qadriyatlarga sodiq, ijodkor va ochiq fikrlaydigan yoshlarni tarbiyalashda bolalar adabiyotining mazmun-mundarijasi, estetik tamoyillari ham yangilanib bormoqda. Zero, elektron nashrlar, audio kitoblar, interaktiv ertaklar kabi zamonaviy formatlar an’anaviy kitobxonlik madaniyatiga raqobatchi sifatida kirib kelar ekan, bolalar adabiyoti ijodkorlaridan ham shakl, ham mazmun jihatidan yangilanish talab etiladi. Shu bois bolalar adabiyoti estetikasining jahon tajribasi hamda o‘zbek adabiyotidagi an’anaviy va zamonaviy yondashuvlarni o‘rganish ayni paytda dolzarb ilmiy-amaliy vazifalardan biridir. Mazkur tadqiqot milliy bolalar adabiyotining rivojlanish bosqichlarini tahlil qilish, uning jahon adabiyoti bilan uyg‘unlashgan hamda o‘ziga xos jihatlarini aniqlash va zamon talablariga mos yangi yo‘nalishlarni belgilash maqsadida amalga oshiriladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Bolalar adabiyoti bo‘yicha yaratilgan ilmiy-adabiy manbalar asosan ikki yo‘nalishda: folklor an’analari va yozma adabiyotdagi rivojlanishdan iborat. Avvalambor, A. Avloniy, M. Behbudiy va A. Fitrat singari jadid adiblarining darslik va risolalari yoshlarga bilim berish va tarbiyaviy g‘oya singdirish borasida dastlabki qadamlardir. Sovet davrida G‘afur G‘ulomning “Shum bola” va Xudoyberdi To‘xtaboyevning “Sariq devni minib” asarlari badiiy-estetik jihatdan diqqatga sazovor bo‘ldi. Jahon tajribasida esa Andersen, Perro hamda Kerroll ijodi ertak va nasrning bolalar ruhiyatiga mos ifoda uslublarini shakllantirgan. Sent-Ekzyuperining “Kichik Shahzoda” asari butun dunyo bolalar adabiyotida ramziy-falsafiy mazmunga ega nodir namunalardan biri sifatida e’tirof etiladi. Mazkur manbalar bugungi kunda ham klassik o‘rnak sifatida o‘rganiladi.

METODOLOGIYA

Tadqiqot jarayonida adabiy-tarixiy tahlil, qiyosiy metod va sistemali yondashuv usullaridan foydalanildi. Avvalo, bolalar adabiyotining milliy va jahon miqyosidagi namunalari tarixi manbaviy jihatdan o‘rganilib, ular o‘zaro qiyoslandi. Shuningdek, asarlar mazmunida bolalar ongiga mos ifoda uslublari, fantaziya elementlari, tarbiyaviy g‘oya va ramziy obrazlar tahlil qilindi. Tekshirish jarayonida badiiy matnlarning bola ruhiyatiga ko‘rsatadigan ta’siri, adiblarning ijtimoiy mas’uliyati ham e’tiborga olindi. Qolaversa, zamonaviy raqamli texnologiyalar taqdim etayotgan imkoniyatlar, interaktiv formatlarning bolalar adabiyoti

estetikasiga qo‘shayotgan yangiliklari kuzatilib, ular an’anaviy shakllar bilan solishtirildi. Shu tarzda milliy bolalar adabiyoti rivojining hozirgi holati va istiqbollari xulosa qilib berildi.

NATIJALAR

Bolalar adabiyoti – dastlab asosan o‘quv-tarbiya maqsadlarida yozilgan, keyinroq esa alohida janr sifatida shakllangan asarlar to‘plamidir. Bolalar adabiyotining asosiy xususiyati – uning maqsadli auditoriyasi bolalar bo‘lishi, bu asarlarning bolalar ongiga mos shakl va mazmunda yaratilishidir. Bunda adib nafaqat bolalarning yosh xususiyatiga, balki ularning psixologik rivojlanish bosqichlariga ham e’tibor qaratadi.

Bolalar adabiyoti oddiygina ertak va hikoyalar to‘plami emas, balki barkamol shaxs tarbiyasini shakllantiruvchi qudratli omildir. U bolalarning tasavvurini kengaytirib, fantaziyasini boyitadi, dunyo haqidagi dastlabki bilim va tushunchalarni egallashiga yordam beradi. Shuning uchun bolalar adabiyoti mazmunida insonparvarlik, ezgulik, rostgo‘ylik, mehnatsevarlik kabi ma’naviy-axloqiy qadriyatlar keng o‘rin oladi.

Jahon bolalar adabiyoti estetikasining shakllanish bosqichlarini quyidagi davrlarga boib o‘rganish mumkin.

1. Ilk manbalar va folklor an’analari - bolalar adabiyotining ilk manbalarini xalq og‘zaki ijodidan qidirish mumkin. Dastlabki ertaklar, latifalar, dostonlar, qo‘shiqlar bolalar ongini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan. Jumladan, jahon adabiyotida “Alpomish”, “Go‘ro‘g‘li”, “Koblandy” singari eposlar aynan xalq og‘zaki ijodining yirik namunalari hisoblanadi. Garchi bu eposlar barcha yoshdagi tinglovchilar uchun bo‘lsa-da, ular orqali bolalar ham milliy qadriyatlar, vatanparvarlik, oilaviy mehr-oqibat kabi tuyg‘ularni o‘zlashtirgan. Yevropa adabiyotida esa “Iliada” va “Odisseya” kabi antik eposlar, keyinchalik esa xalq ertaklari – nemis adabiyotida Brat’ya Grimm ertaklari, daniy adabiyotida Gans Xristian Andersen ertaklari bolalar adabiyotining poydevorini tashkil etgan.

Folklor asarlarini bolalar ongiga moslashtirish, ularni sodda va ravon uslubda qayta hikoya qilish yoki ertak shaklida bayon etish bolalar adabiyotining shakllanishida dastlabki qadam bo‘lib xizmat qilgan. Shu tariqa xalq og‘zaki ijodi namunalarida badiiy-estetik tamoyillar takomillashgan, bolalar ruhiyatiga mos ifoda va tasvir vositalari paydo bo‘lgan.

2. Yozma bolalar adabiyotining rivoji - yozma bolalar adabiyotining shakllanishiga Yevropa maydonida XIX asrda katta e’tibor qaratilgan. Xususan, ingliz adabiyotidagi L. Kerroll (“Alisa mo‘jizalar mamlakatida”) asari bolalar adabiyoti tarixida tub burilish yasagan. Ushbu asar timsolida bolalar adabiyoti endilikda nafaqat tarbiyaviy, balki badiiy-estetik, metaforik anlamlarga boy, rang-barang voqea-hodisalardan iborat hajmdor bir janr sifatida shakllanayotganini ko‘rish mumkin.

Fransuz adabiyotida Sharl Perro ertaklari, keyinchalik Anton de Sent-Ekzyuperining “Kichik Shahzoda” asari, rus adabiyotida esa Korney Chukovskiy, Aleksandr Pushkin ertaklari jahon miqyosida bolalar adabiyoti janrining nufuzini oshirgan. Ushbu asarlar jahonning ko‘plab tillariga tarjima qilinib, bolalar ijodiy tafakkuriga chuqur ta’sir ko‘rsatgan. Badiiy-estetik jihatdan ham, mazmun va shakl nuqtayi nazaridan ham bu asarlar bolaning hayot haqidagi

tasavvuri, uning orzu-umidlari, xulq-atvori va dunyoqarashini kengaytirishda ulkan rol o‘ynaydi.

3. Zamonaviy davrda bolalar adabiyoti - zamonaviy davrda bolalar adabiyoti jahon miqyosida har qachongidan ham rivojlandi. Elektron nashrlar, interaktiv ilovalar, audio va video formatdagi ertaklar, komikslar, “fantastik realizm” yo‘nalishidagi turli asarlar bolalar adabiyoti maydonini kengaytirdi. Bolalar adabiyotining nafaqat matnli, balki multimediaviy shakllari ham paydo bo‘ldi. Bu holatlar, bir tomondan, bolalar ongidagi voqelikni yanada boyitgan bo‘lsa, boshqa tomondan, an’anaviy kitobxonlik madaniyatiga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatmay qolmadi. Shu bilan birga, bugungi kunda bolalar adabiyotida ekologik muammolar, texnik taraqqiyot, koinot kashfiyotlari, ilm-fan yutuqlari kabi ilg‘or mavzular ham ko‘plab uchramoqda.

MUHOKAMA

O‘zbek bolalar adabiyotining shakllanishi va rivojlanishini quyidagi davrlarga bo‘lib o‘ganish mumkin:

1. Folklor an’analari va dastlabki yozma namunalarning paydo bo‘lishi, ya’ni o‘zbek bolalar adabiyoti ham avvalo xalq og‘zaki ijodining ulkan xazinasiga tayangan. “Beshik to‘yi”, “alla”lar, ertak va masallar, xalq qo‘shiqlari bolalar tarbiyasida muhim o‘rin tutgan. Ertaklarda voqealarning soddaligi, ijobiy qahramonlarning yovuzlik ustidan g‘alabasi, xushfe’llik va do‘stlik motivlari bolalar qalbida estetik did va ma’naviy tuyg‘ularni uyg‘otib kelgan.

Ilk yozma asarlar sifatida jadid adabiyoti namoyandalari tomonidan yaratilgan darsliklar, hikoya va sahna asarlarini ko‘rsatish mumkin. Jadidlar, xususan, Abdulla Avloniy, Mahmudho‘ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Abdulla Qodiriy bolalar tarbiyasiga jiddiy e’tibor qaratib, ularning ma’naviy barkamolligi uchun bilim va odobga oid turli asarlarni tayyorlagan. Bu yozma manbalarda bolalar masalalari, o‘qish-onlash muammolari yoritilib, yosh avlodga milliy g‘urur va vatanparvarlik ruhini singdirish ko‘zda tutilgan.

2. Sovet davridagi bolalar adabiyoti - Sovet davrida o‘zbek bolalar adabiyoti ijtimoiy buyurtma sifatida, avvalo, kommunistik g‘oyalarni bolalar ongi va qalbiga singdirish vazifasini bajargan. Biroq shu davrda ham yuqori badiiy-estetik saviyaga ega bo‘lgan, ezgulik va insonparvarlik g‘oyalarini tarannum etuvchi qator asarlar yaratildi. G‘afur G‘ulomning “Shum bola” asari bola ruhiyatini haqqoniy ifoda etish, real sharoitdagi bola hayotini ko‘rsatish borasida e’tiborli bo‘lsa, Xudoyberdi To‘xtaboyevning “Sariq devni minib” singari fantastik ertak-povestlari ham bolalar ongiga xayoliy olamlar orqali hayotiy saboqlarni berish usulini takomillashtirdi.

Sovet davri o‘zbek bolalar adabiyotida, ayniqsa, qishloq mavzusi, mehnatsevarlik, vatanparvarlik, ijtimoiy birdamlik kabi g‘oyalar ustuvor bo‘lgan. O‘quv darsliklarida ham maxsus bolalar hikoyalari, she’rlar va ertaklar kiritilib, ular g‘oyaviy-tarbiyaviy jihatdan bir butun tizimga bo‘ysundirilgan edi.

3. Mustaqillik davrida bolalar adabiyoti - O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, bolalar adabiyoti ham yangi bosqichga ko‘tarildi. Avvalo, bolalar adabiyotiga bo‘lgan yondashuv tobora rang-baranglashdi: endi unda faqat tarbiyaviy g‘oyalar emas, balki milliy mentalitet,

xalqona urf-odatlar, an’analar bilan birga, zamonaviy mavzular, fantastika, sarguzashtlar, ekologik muammolar, sport, zamonaviy texnologiyalar kabi mavzular ham keng o‘rin ola boshladi.

O‘zbek bolalar adiblarining asarlari jahon adabiyoti bilan hamohang tarzda rivojlanib, bolalar atrof-muhitga, ijtimoiy hayotga, dunyoning turli xil madaniyatlariga qiziqish bilan nazar tashlayotgani badiiy ifodalarda ham namoyon bo‘lmoqda. Masalan, Erkin Vohidov, Shukur Xolmirzayev, Nazar Eshonqul, Tohir Malik, Xurshid Do‘stmuhammad singari ijodkorlarning bolalarga mo‘ljallangan hikoyalari, ertaklari, she’rlari kutilmagan syujetlar, rang-barang badiiy timsollar va sodda uslubda yaratilgani bilan ahamiyatlidir.

Ayni paytda mustaqillik davri bolalar adabiyotida yangi uslubiy ko‘rsatmalar, didaktik yo‘nalishlar, polixronik nutq shakllari, intertekstual yondashuvlar, zamonaviy vizual ifoda vositalaridan foydalanish ham kuzatilmoqda. Bu esa, o‘z navbatida, bolalar adabiyoti estetikasini boyitib, uning imkoniyat doirasini kengaytirmoqda.

Bolalar adabiyoti yosh avlodning ma’naviy-axloqiy kamolotida, ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda katta o‘rin tutadi. Bolalar adabiyoti estetikasining o‘ziga xos xususiyatlarini anglash, uning uslublari va ta’sir usullarini o‘rganish orqali ijodkorlar badiiy asarlarning estetik ta’sirchanligini oshirishlari mumkin. Quyidagi 1-jadvalda bolalar adabiyotiga xos asosiy estetik tamoyillar bayon etiladi.

1-jadval.

Bolalar adabiyoti estetikasining o‘ziga xos xususiyatlari

Xususiyat nomi	**Tavsif**	**Xulosa**
Bola nigohidan ifodalash	Bolalar adabiyotida voqea-hodisalarning bola dunyoqarashi orqali tasvirlanishi. Bola o‘ziga xos fikrlash va his-tuyg‘ular bilan voqealarni qabul qiladi. Adiblar asarlarda bolalarning orzulari, qo‘rquvlari va ichki kechinmalarini tasvirlaydi.	Bola nigohi orqali aks etgan badiiy tasvir bolalarning qiziqishini oshiradi, badiiy asar estetik jozibadorlikka ega bo‘ladi.
Til va uslubdagi soddalik	Bolalar adabiyotida soddaligi, lekin mazmun jihatidan boy bo‘lgan tilda ifodalash. Nutqdagi sodda, qisqa iboralar, bolalarcha muloqot shakllaridan foydalanish bilan murakkab voqealarni tushunarli shaklda bayon qilishga e’tibor qaratiladi.	Tilning soddaligi bolalarga asarni oson tushunishga yordam beradi, ammo bu sodda tilda yozilgan asarning badiiy saviyasi yuqori bo‘lishi talab etiladi.
Fantastika va ramziy obrazlar	Bolalar adabiyotida fantastik unsurlar: sehrli voqealar, ramziy obrazlar, jonlantirilgan hayvonlar yoki buyumlar orqali bola tasavvur dunyosini kengaytirish. Bu elementlar bolani syujetga yanada chuqurroq kirishga undaydi.	Fantastik unsurlar va ramziy ifodalar bolaning qiziqishini oshirib, ularni axloqiy saboqlarga yo‘naltirishda samarali usul hisoblanadi.

Tarbiyaviy g‘oya va ijtimoiy mas’uliyat	Bolalar adabiyotida ezgulik va yovuzlik kurashi, do‘stlik, birodarlik, adolat kabi tarbiyaviy mavzular aks ettiriladi. Ekologik ongni shakllantirish, milliy qadriyatlarga hurmat, ilm-fanga qiziqishni rivojlantirish ham tarbiyaviy g‘oyalarni kengaytiradi.	Har bir bolalar asarida tarbiyaviy g‘oya muhim ahamiyatga ega bo‘lib, mualliflarning bolalar ongiga qanday mazmun singdirishi katta mas’uliyat talab etadi.

Bolalar adabiyoti asarlari o‘zida ma’naviy qadriyatlarni mujassam etgan holda, bolalarning fikrlash doirasini kengaytirishi, ijodiy va tanqidiy tafakkurni rivojlantirishi kerak. Bunda estetik tamoyillar muhim ahamiyatga ega bo‘lib, voqealarning bola nigohidan ifodalanishi, ramziy obrazlar va tarbiyaviy g‘oyalar asarlarning ma’naviy va badiiy qiymatini oshiradi.

Bolalar adabiyotining o‘ziga xos estetik xususiyatlari bola ruhiyati va dunyoqarashiga mos shaklda bo‘lishi lozim. Bola nigohi, sodda lekin mazmunli til, fantastik elementlar va tarbiyaviy g‘oyalar bolalar adabiyotini estetik jozibador qiladi va yosh kitobxonlarning intellektual, ma’naviy o‘sishiga yordam beradi. Bunda yozuvchilarning ijtimoiy mas’uliyati alohida ahamiyatga ega bo‘lib, ular bolalar ruhiyatiga ta’sir qiluvchi g‘oyalarni ehtiyotkorlik bilan yoritishlari zarur.

Zamonaviy axborot texnologiyalari, global madaniy aloqalar, jahon bolalar adabiyotining yetakchi namunalari bilan tanishuv o‘zbek ijodkorlarini yangidan-yangi mavzular, janrlar, uslublar bilan boyitishga undamoqda. Bugungi kunda o‘zbek adiblari bolalar uchun ilmiy-ommabop asarlar, interaktiv o‘yinlar ko‘rinishidagi ertaklar, elektron kitoblar, audio kitoblar, multfilmlarga asos bo‘luvchi ssenariylarni ko‘proq yaratishi lozim. Chunki bolalar dunyosi informatsion rivojlanish sharoitida an’anaviy kitobxonlik bilan bir qatorda raqamli kontentni ham qabul qilishga o‘rganmoqda.

Shu bilan birga, an’anaviy ertaklar, folklor asarlari, milliy bayram va rasm-rusumlar ham bolalar adabiyoti syujetlari uchun cheksiz mavzu manbai bo‘lib qoladi. O‘zbek bolalar adabiyoti oldida turgan vazifalardan biri – xalq an’analari hamda zamonaviy uslublarni uyg‘unlashtirgan holda, badiiy-estetik saviyasi yuqori, yosh avlodni har tomonlama rivojlantiradigan asarlar yaratishdir.

XULOSA

Bolalar adabiyoti estetikasining rivojlanish tarixi uzoq davrni qamrab olib, xalq og‘zaki ijodi, ertaklar, eposlar, nasriy hikoyalar, keyinchalik yozma adabiy namunalarga asoslangan holda shakllanib keldi. Jahon bolalar adabiyotida Gans Xristian Andersen, Sharl Perro, Bredberi, Sent-Ekzyuperi, L. Kerroll singari ijodkorlar bu yo‘lda katta hissa qo‘shgan bo‘lsalar, o‘zbek adabiyotida G‘afur G‘ulom, Xudoyberdi To‘xtaboyev, Erkin Vohidov kabi ijodkorlar bolalar asarlarini yangi mazmun va estetik ifodalar bilan boyitdilar.

Bolalar adabiyoti nafaqat tarbiyaviy, balki badiiy-estetik ahamiyatga ham ega bo‘lib, bolalarga dunyoni tanish, xalqning o‘ziga xos madaniy qadriyatlarini ich-ichidan his qilishga yordam beradi. Mustaqillik davrida bolalar adabiyotining mavzu va janr doirasi yanada

kengaydi, milliy o‘ziga xoslik va jahon bolalar adabiyoti yutuqlari o‘zaro uyg‘unlashdi. Mazkur jarayon, ayniqsa, globallashuv sharoitida bolalar adiblarining oldiga yangi burch va mas’uliyatlar qo‘ymoqda.

Kelgusida bolalar adabiyoti sohasida izlanishlar, tadqiqotlar davom etib, bolalar ta’lim-tarbiyasining ma’naviy-axloqiy poydevorini yanada mustahkamlashga xizmat qilishi shubhasiz. Ayniqsa, raqamli texnologiyalar davrida an’anaviy va zamonaviy shakldagi bolalar adabiyotini uyg‘unlashtirish, mavzu va janrlarni boyitish, o‘zbek ijodkorlari ijodiy salohiyatini xalqaro miqyosga olib chiqish masalasi dolzarbligicha qolmoqda.

Shu ma’noda, bolalar adabiyoti estetikasini o‘rganish har bir xalqning ma’naviy boqiyligiga, yosh avlod tarbiyasiga, madaniy me’rosning barkamol avlodlarga yetib borishiga muhim hissa qo‘shadi. Bolalar adabiyoti – bu nafaqat bolalar uchun yozilgan asarlar majmui, balki butun jamiyatning kelajagi va estetik idealidir.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Avloniy A. *Turkiy guliston yoxud axloq*. – Toshkent: Sharq, 1992.
2. G‘ulom G‘. *Shum bola*. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1972.
3. To‘xtaboyev X. *Sariq devni minib*. – Toshkent: Yosh gvardiya, 1979.
4. Anderson G. X. *Ertaklar*. – Moskva: Detskaya Literatura, 1975.
5. Perro Sh. *Ertaklar*. – Moskva: Hudozhestvennaya Literatura, 1969.
6. Carroll L. *Alisa mo‘jizalar mamlakatida*. – Toshkent: O‘qituvchi, 1970 (tarjima).
7. Sent-Ekzyuperi A. de. *Kichik Shahzoda*. – Toshkent: Adabiyot va san’at, 1986 (tarjima).

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 1-son)

FILOLOGIYA

PHILOLOGY

GRAMMATICAL AND SYNTACTIC FUNCTIONS OF PREDICATES IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES

Davlatova Muhayyo Hasanovna
Bukhara state medical institute
named after Abu Ali ibn Sina
The head of Uzbek language and literature,
russian and english department, PhD docent
hasanovnamuxa@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqola har bir tilning grammatik tadqiqot markazini o‘rganishga bag‘ishlangan bo‘lib, hodisalar lingvistik birliklar shaklida ifodalanadi va o‘zaro bog‘liq ishtiroki birliklarning barpo etilishini ta’minlaydi. Grammatik tahlilning bu turlari tilshunoslik tarixida ko‘p atamalar asosida ma’lum: grammatik munosabatlar, sintaktik vazifalar, ramka turkumlari, argumentlar tarkibidagi konstruksiyalar, argumentga bog‘liqlik va hokazo. ma'lum bir tilda va boshqa tillar kontekstida to'g'ri o'xshashlik munosabati va farqlari.

Kalit so‘zlar: munosabat, predikatsiya, birikma, kategoriya, farq, semantik xususiyatlar, tushuncha, sintaktik omil, natija, jihat.

ГРАММАТИЧЕСКИЕ И СИНТАКТИЧЕСКИЕ ФУНКЦИИ СКАЗУЕМЫХ В АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКОМ

Аннотация: Данная статья посвящена изучению грамматического исследовательского центра каждого языка, явления выражаются в виде языковых единиц, а взаимосвязанное участие обеспечивает установление единиц. Эти типы грамматического анализа известны в истории языкознания под многими терминами: грамматические отношения, синтаксические функции, субкатегоризация фреймов, конструкции, содержащие аргумент, зависимость аргумента и т. д. Одной из основных проблем, связанных с каждой ветвью грамматики, является выбор правильного отношения сходства и различия в данном языке и в контексте других языков.

Ключевые слова: отношение, предикация, сочетание, категория, различие, семантические признаки, концепция, синтаксический фактор, результат, аспект.

GRAMMATICAL AND SYNTACTIC FUNCTIONS OF PREDICATES IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES

Abstract. This article is devoted to the study of the grammatical research center of each language, phenomena are expressed as linguistic units, and interconnected participation ensures

the establishment of units. These types of grammatical analysis are known in the history of linguistics under many terms: grammatical relations, syntactic functions, sub categorization of frames, argument-containing constructions, argument dependence, etc. One of the main problems associated with each branch of grammar is the choice of the correct relationship of similarity and difference in this language and in the context of other languages.

Key words: *relation, predication, combination, category, distinguish, semantic features, concept, syntactic factor, result, aspect.*

INTRODUCTION. Possessives, participles, objects are usually included in formal categories as purely grammatical relations. But due to the interaction of these categories, there is a huge semantic difference in the process of expressing events. In addition, if we compare a cross section of languages, then not only the syntactic tasks in them differ, but also the amount of meaning expressed by formal indicators. In particular, in English, participles and complex objects form specific constructions.

REVIEW. These structures are used to express resultant and causative meanings from a semantic point of view. These meanings are also interpreted as separate categories in English. In particular, causality and effectivity have many ways of being expressed as complex, overarching categories. They also reflect the attitude towards the objects of the external world.

In these relations lie the concepts of cause and effect existing in the mind. In the category of direct causality, there is also the concept of causality, and it is necessary to distinguish between the relationships that they perform. Since our study is not focused on causation and causality, we will not dwell on these relationships. In connection with the emergence of effectiveness and causality in structures close to each other, structural and semantic differences in them are analyzed.

DISCUSSION. The resultutive structures are considered to be a semantic feature arising from secondary predication. In particular, the American linguist S. Rothstein includes secondary resulting predicates in the aspectual-event type in terms of their relationship to the event represented by the main predicate (S. Rothstein; 2006, 209-233). The author argues that secondary predicates have descriptive and resultative semantic properties. He gives the following examples to illustrate the difference between the two:

a. John drove the car drunk.

b. John painted the house red (S.Rothstein; 2006, 209-233).

This example (a) has a descriptive predication. It has the meaning "John was driving drunk" and contains information about the night of the accident. Productivity in this sentence is expressed in the secondary predicate drunk in the II form of the adjective. In fact, *John was drunk even before he got behind the wheel*. But in the translation into Uzbek, the effective expression is not visible. In the following example (b), the information is recorded that "John painted the house red and as a result the house turned red."

Obviously, this is the result of the actions taken. Therefore, this example is evaluated as the resulting predication. Similar ideas can be found in (D.Dowty, 1991), (J.Carrier, J.H. Randall, 1992).

Many English linguists are also concerned about the direct separation of resultative and descriptive meaning, expressive and secondary predicates, and the acceptance of structure (S. Wechsler, 1997; B. Levin, Rappaport Hovav; 1999, 2001. Dj.E. Miller, 1997) discussed between them.

Therefore, they come to the conclusion that there is no need to divide these structures into descriptive and result types according to their semantic characteristics. In our opinion, since the combination of an indirect object and a secondary predicate is a combination specific to the English language, it is advisable to accept them as a special structure. Such an interpretation can shed light on their semantic features. We focus on the following examples of authors:

John laughed sick.

John laughed himself sick.

John sang the baby asleep.

In these examples, the adjectives sick and sleeping have a resultant meaning as a result of a change in the state of the subject as a result of the action expressed by the verbs laugh and sing. The study of secondary predicative structures is usually carried out syntactically and semantically. In our opinion, in their analysis it is necessary to cover both aspects. The analysis of language units (adjectives, nouns, impersonal forms of verbs, etc.) that perform the function of secondary predication is expressed in the form-syntactic approach.

The syntactic factor is the compatibility of the language units used in these constructions with the object. The meaning expressed in these structures is the result of a combination of the lexical meaning of linguistic units in the secondary predication function and the meaning of the linguistic unit in the object function.

For example: Then, when that offer wasn’t leapt on with grateful thanks, ‘Or I can arrange to have it delivered.’(LIZ FIELDING, 33); *They reined up with a plunge at the Casino entrance. The cab doors flew open.* (O'Henry, 59). The resulting meaning is associated with the lexical attribute of the compound word. The use of an adjective in a secondary predicate is directly adapted to the meaning expressed by the verb in the primary predicate. This case indicates a close relationship between syntactic and semantic factors. Therefore, it is required that the syntactic and semantic connection in each sentence have a basic, primary predication and be substantiated.

Effective constructions that arise due to the use of an adjective in the function of a secondary predicate mean to act on an object. Effective constructions that arise due to the use of an adjective in the function of a secondary predicate mean to act on an object. In this regard, R. Voshio, in the course of typological analysis, divides the effective phenomena into strong effective and weak effective ones. (R. Washio; 1997, 1999, 2002). The author states that in the strong resultative case the meaning of the verb and the adjective are independent of each other,

and subject causality means ergative result. As evidence, the author gives the following examples: a) *The horses dragged the logs smooth;* b) *The jockeys raced the horses sweaty.* (R. Jackendoff; 1990, 226. R. Washio; 1997, 39. R. Washio; 2002, 689). In the weak resultative case, the change in the state of an object under the influence of probabilistic causality is associated with the sign of the verb and gives the following examples: a) *He wiped the table clean*; b) *He sharpened the pencil pointy* (R. Washio; 1997, 227).

In our opinion, the classification of effectiveness into a strong or weak type is directly based on the actional semantics of the verb. R. The verbs drag, race used by Woshio have a feature that is not limiting in terms of action; it is under the influence of this semantic feature that these constructions express the ergative resulting meaning. The verbs wipe, sharpen, expressing weak effectiveness, are active-limited, and the meaning they express is effectiveness resulting from a change in the state of an object. In this case, R. Voshio connected the change in meaning with the fact that it is a sign of the verb, but does not pay attention to the fact that it is a sign of the action of the verb.

Resultant constructions are more common in English than in other languages. The following morphosyntactic forms are encountered: 1) resulting compounds expressed by adjectives. For example: *I wiped the table clean* (British corpora).

2) effective structures in which quality is part of the owner's complex. For example: *Your son could have been born clever* (British corpora).

3) resultative structures formed using ravish and ravish compounds: *I left behind the tree into pieces* (British corpora).

4) resultative constructions expressed by the adjective: People drank spirits and got drunk (British corpora).

Efficiency differs in different languages depending on the ways of expression. In particular, language units expressing productivity in English can be divided into three groups. The first of them, and the main ones, are constructions included in a special secondary predication; the second is a lexical expression characteristic of some finite characteristic verbs, and the third is a phenomenon characteristic of predicativity.

John painted the house red, Mary drank her coffee hot. Mary believes/considers John foolish (British corpora).

In the examples analyzed below, attention is paid to lexical productivity. Lexical effectiveness is combined with the content of reasoning under the influence of the lexical meaning of the verb. The expressed action causes the state of the argument to change. In this case, the effectiveness is expressed in the passive form of verbs with a limited set of features. A sudden fear seized Soapy that some dreadful enchantment had rendered him immune to arrest. (O'Henry, 46);

'I guess already that you have been stuck in the ribs with a knife. I have many times told you those Dagoes would do you up.'(O'Henry, 43);

As this dark mass had been transformed from a bright and love-endorsed flower to be an ignominious vegetable, so had her summer hopes wilted and perished. (O'Henry, 66).

RESULTS. The resulting meaning expressed in the main predicate is associated with the lexical meaning of the verb underlying the predicate. In this case, the effectiveness arising as a result of a change in state is aimed at the actor, it is due to a change in the qualitative feature or state of the nominative unit used in the possessive function.

The adjective involved in resultative constructions is the main morphological feature indicating this meaning, and is recognized as the main element constituting the syntactic structure. Therefore, in some cases it is also called a resultative phrase.

* The resulting constructions in English have clear morphological features, including the element in the role of a secondary predicate consists of an adjective, adjective II, a sign of the action of the infinitive;

* Effective structures in the function of a complex addition interact with causative and descriptive structures, in most cases one structure expresses two different meanings, effectiveness and causation, effectiveness and descriptiveness;

* In the Uzbek language, the resulting constructions reflect the action performed in relation to a locative, creative noun;

*resultative constructions in the Uzbek language are formed when the adjectival form of the verbs "to be", "to do" means a change in the case of the nominative unit in the leading and auxiliary functions;

CONCLUSION. In both languages, the resulting structures are formed using grammatical forms characteristic of the passive. In these cases, the limited active feature of the verb is important.

The adjective form II of finite characteristic verbs in English acts as a secondary predicate of a complex object, as a language tool that establishes a change in state and the result of an action in a determining function.

Although the resultative and perfect forms are close to each other in content, they differ in semantic realization in terms of the content of the expression. In particular, in English the perfect and resultant have certain grammatical formations, and their differences are clearly visible in terms of pragmatic expression and sequence of events. In the Uzbek language, the perfect and resulting meanings can only be determined in the context, taking into account aspects of the pragmatic expression.

The form of the adjective *-gan*, which takes part in resultative constructions and occupies an important place, means the necessary meaning in cases, depending on the activity nature of the verb and lexical meaning. When state verbs are used in the adjective form, we can observe the occurrence of a state or process in which the state of the subject is equal to the state of speech. It should be recognized that the influence of the feature of the action of the adjective, formed from the verb, is the main feature in the formation of the resulting structures of the adjective. Based on case studies, we can say that verbs with a limited characteristic in the form

of an adjective (II) lose the meaning of an action or process and express the effectiveness caused by a change in state.

REFERENCES.

1. Давлатова, М. Х. Работа над видеотекстам на занятиях Английского языка. Теория и практика современной науки, 242-246.

2. Hasanovna, D. M. (2022). ASPECTUAL AND LEXICAL-SEMANTIC CLASSIFICATION OF VERB NOVATEUR PUBLICATIONS JournalNX-A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal ISSN No: 2581-4230.

3. Hasanovna, D. M. (2022). Resultative and Causative Meanings in English and Uzbek Languages. TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI, 297-302.

4. Hasanovna, D. M. (2022). ON THE INTERRELATIONSHIP OF RESULTIVE AND CAUSATIVE MEANINGS. World Bulletin of Public Health, 9, 212-215.

5.Давлатова, М. Х. (2021). THE EXPRESSION OF RESULTATIVE AND DEPICTIVE CONSTRUCTIONS IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES. МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА, 4(5).

6. Davlatova, M. X. (2018). THE EASY WAY OF LEARNING ENGLISH WITH THE HELP OF SONGS. Теория и практика современной науки, (4), 578-581.

7. Hasanovna, D. M. (2021). Semantic Implementation of resultutive structures. novateur publications JournalNX- A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal.

8. Давлатова, М. Х. (2013). Хорошее поведение-важный способ формирования личности. Вестник Таджикского национального университета, (3-6), 237-241.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 1-son)

FILOLOGIYA

PHILOLOGY

ANALYSIS AND RESEARCH OF THE CONCEPT OF COMMUNICATIVE DISCOURSE

Dilrabo Sattorova
+998(99) 774 65 65
sattarovadilrabo25@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada kommunikativ diskurs tushunchasi, uning nazariy asoslari hamda turli kontekstlardagi ma'nosi tahlil qilinadi. U kommunikativ diskursning asosiy xususiyatlariga to'xtalib o'tadi: interaktivlik, ijtimoiy kontekstda amalga oshishi va tilni ma'lum kommunikativ vazifalarni bajarish uchun ishlatish. Maqola, shuningdek, madaniyat, hokimiyat va identifikatsiya kommunikativ diskursga qanday ta'sir qilishini o'rganadi. U tegishli nazariyalarni birlashtirgan holda, diskursning haqiqiy misollarini ko'rib chiqib, kommunikativ diskurs va uning lingvistika, sosiologiya va kommunikatsiya fanlari sohasiga ta'sirini har tomonlama tushunishga intiladi.

Kalit so‘zlar: Kommunikativ diskurs, diskurs tahlili, pragmatika, sotsiolingvistika, amaldagi til, ijtimoiy o'zaro ta'sir, kommunikatsiya, madaniyat.

Абстрактный В данной статье анализируется понятие коммуникативного дискурса, его теоретические основы и значение в различных контекстах. Рассматриваются основные характеристики коммуникативного дискурса: его интерактивность, протекание в социальном контексте и использование языка для выполнения определенных коммуникативных функций. Статья также исследует, как культура, власть и идентичность влияют на коммуникативный дискурс. Анализируя реальные примеры дискурсов и объединяя соответствующие теории, статья стремится обеспечить всестороннее понимание коммуникативного дискурса и его влияния на область лингвистики, социологии и коммуникационных исследований.

Ключевые слова: Коммуникативный дискурс, анализ дискурса, прагматика, социолингвистика, язык в действии, социальное взаимодействие, коммуникация, культура.

Abstract This paper analytically explains the concept of communicative discourse, its theoretical background, and meaning within different contexts. The next article discusses in detail the features that communicative discourse possesses: interactive, taking place in some form of social context, and making use of language for some communicative purposes. The article then proceeds to discuss how aspects such as culture, power, and identity influence communicative discourses. It looks at real examples of discourses, combining relevant theories

to reach an all-round understanding of communicative discourse and its implications on the field of linguistics, sociology, and communication studies.

Keywords: Communicative discourse, discourse analysis, pragmatics, sociolinguistics, language in use, social interaction, communication, culture.

Introduction

Communicative discourse is a significant category that belongs to linguistics; however, the notion as such does not deal with given information but rather is an interactive relation of language, context, and social interaction. This article will seek to give an in-depth analysis of communicative discourse: theoretical background, characteristic features, and the role it plays in various contexts.

Communicative discourse is necessarily an interdisciplinary inquiry drawing on linguistics, sociology, anthropology, and psychology. It concerns how participants in a discourse use language in order to attain certain communicative ends in a particular social context. Such ends range from purely informative to complicated social negotiations like establishing a social relationship with others, influencing other people, or constructing mutual understanding.

The article will first explore the theoretical underpinnings of communicative discourse, drawing on important concepts from pragmatics, sociolinguistics, and discourse analysis.

It will then proceed to discuss in detail the major features of communicative discourse: its interactive nature, social context, and language use for attaining certain communicative ends. Further, culture, power, and identity as shaping factors in communicative discourse will be discussed. By closely examining real scenarios and from the perspective of relevant theories, this paper attempts to understand what is meant by communicative discourse and how communicative discourse applies to different contexts.

Theoretical Underpinning of Communicative Discourse

Communicative discourse emanates primarily from the following key theoretical underpinnings:

Pragmatics: The branch of study concerning language use in context, pragmatics, determines how speakers get to their communicative goals with regard to the social context, speaker's intentions, and listener interpretation. Such pragmatic concepts, the speech act theory developed by Austin (1962)**[115]** and Searle (1969)**[116]**, implicature by Grice (1975)**[117]**, and politeness theory by Brown & Levinson (1987)**[118]**, explain how communicative discourses work.

---

[115] *Austin, J. L. (1962). How to Do Things with Words. Oxford University Press.*

[116] *Searle, J. R. (1969). Speech Acts: An Essay in the Philosophy of Language, Cambridge University Press.*

[117] *Grice, H. P. (1975). Logic and Conversation. In P. Cole & J. L. Morgan (Eds.), Syntax and Semantics, Vol. 3: Speech Acts (pp. 41-58). Academic Press.*

[118] *Brown, P., & Levinson, S. C. (1987). Politeness: Some Universals in Language Use. Cambridge University Press.*

• Sociolinguistics: This is a study that researches the relationship between language and society. This is a study of the influence of social factors like class, gender, ethnicity, and age on language use. As noted by Wardhaugh (2006), sociolinguistics provides crucial insights into how social factors shape language use in diverse contexts[119]. From a sociolinguistic perspective, researchers have shed light on the social dimensions of communicative discourse in terms of language variation, code-switching, and the use of language in constructing and maintaining social identities.

• Discourse Analysis: Discourse analysis generally covers studies concerned with language in use, studying how language is used in creating meaning in social contexts. It ranges from a wide variety of approaches, including conversation analysis, critical discourse analysis, and narrative analysis. Discourse analysis thus provides an important set of tools for analyzing the structure, function, and social implications of communicative discourse in various contexts.

Key Characteristics of Communicative Discourse

The main features identified that characterize communicative discourse include:

• Interactivity: By definition, communicative discourse is interactive. A message gets exchanged at least between two participants. The nature of this interaction could be face-to-face, through the use of technology, or even imagined.

• Social Context: Communicative discourse always occurs in a social context. The social context includes the physical setting, social relationships among participants, and cultural norms and values that regulate the interaction.

• Purpose: Communicative discourse is purposive. Participants use language to accomplish specific communicative purposes, such as seeking information, giving orders, conveying feelings, or negotiating relationships.

• Meaning-Making: The communicative discourse is a meaning-making process. Participants actively construct and interpret meaning through the exchange of messages. This process involves both linguistic and non-linguistic cues, such as tone of voice, body language, and facial expressions.

• Dynamic and Evolving: Communicative discourse is dynamic and always in evolution. Messages change their meanings over time as participants respond to each other and change their communication strategy.

The Role of Culture, Power, and Identity in Communicative Discourse

It is axiomatic that culture is the cornerstone in shaping the communicative discourse. Cultural norms and values affect talking patterns, including even use of language, ways of communication, and processing of messages. For example, some cultures give primacy to direct communication while others have their leaning toward indirect.

As Foucault (1991) argues, power relations are embedded within discourse and shape the ways in which meaning is produced and exchanged.**[120]**For instance, in hierarchical

[119] *Wardhaugh, R., & Fuller, J. M. (2021). An introduction to sociolinguistics. John Wiley & Sons.*

[120] *Foucault, M. (1991). The Foucault effect: studies in governmentality. Harvester Wheatsheaf.*

relationships, the more powerful participants might dominate the conversation or use language to assert their authority.

Identity is yet another important constituent of communicative discourse. The participant uses language in the construction and negotiation of his social identity. For instance, through language, people can give out their ethnicity, gender and social class. That which relates to the identity of a person.

Analyzing Communicative Discourse

In analyzing communicative discourse, researchers use the following methods among others:

- Observation: this involves observation and recording natural communication in different contexts.
- Interviews: Interviews with the participants with the aim of drawing from them information concerning experiences of the participants about communication.
- Surveys: Using questionnaires to collect data in the study of participants’ attitudes as well as beliefs about communication.
- Text analysis: The analysis of written or spoken texts in order to find patterns and themes concerning language use.
- Conversation analysis: The close examination of the detailed structure as well as the organization of conversations.

Applications of Communicative Discourse Analysis

Communicative discourse analysis has been applied to a very large number of areas including, but not limited to, the following: improving interpersonal communication, understanding in communicative discourse would thus enable one to enhance one's communication skills in personal relationships, professional settings, and intercultural encounters; designing effective communication strategies, whereby companies and organizations may apply the insights provided by the theory of communicative discourse analysis in designing more functional communication strategies for marketing, customer service, and internal communication.

Designing intercultural communication training programs: Through deconstructing the cultural dimensions of communicative discourse, educators/trainers are able to construct effective intercultural communication training programs with the aim of assisting individuals in negotiating cross-cultural interactions.

Understanding social issues: The communicative discourse analysis can also be used to research different social issues like prejudice, discrimination, and social inequality. By closely gauging the ways in which language is used to construct and maintain social hierarchies, researchers are allowed to develop better strategies for effectively dealing with these problems.

Conclusion

Communicative discourse is multilayered and vital to human interaction. Critical analyses of the theoretical underpinning of communicative discourse have isolated a number of key features that characterize the ways culture, power, and identity play out in the formation of communicative discourse. The knowledge of principles of communicative discourse would therefore lead to the discovery of newer ways in which persons and organizations could communicate effectively may better communicate and develop stronger relationships by managing or negotiating tic signs the intricacies of the social world.

REFERENCES

1. Austin, J. L. (1962). How to Do Things with Words. Oxford University Press.
2. Brown, P., & Levinson, S. C. (1987). Politeness: Some Universals in Language Use. Cambridge University Press.
3. Foucault, M. (1991). The Foucault effect: studies in governmentality. *Harvester Wheatsheaf.*
4. Grice, H. P. (1975). Logic and Conversation. In P. Cole & J. L. Morgan (Eds.), Syntax and Semantics, Vol. 3: Speech Acts (pp. 41-58). Academic Press.
5. Searle, J. R. (1969). Speech Acts: An Essay in the Philosophy of Language, Cambridge University Press.
6. Dilrabo Sattorova (2024). Representation of deictic signs in English and Uzbek political texts. Science and Innovation, International Scientific Journal, Volume: 3, issue 12, pp. 86-89.
7. Wardhaugh, R., & Fuller, J. M. (2021). *An introduction to sociolinguistics*. John Wiley & Sons.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 1-son)

FILOLOGIYA

PHILOLOGY

ORCID: 0009-0001-7388-0550

EFFECTIVE DICTIONARY USE IN LANGUAGE LEARNING

Gulomov Jamshidbek Islomjon ugli
Teacher of the department of Social Sciences, Kokand University
jigulomov@kokanduni.uz
Tel: (90) 068-14-10

Abstract This study investigates the impact of effective dictionary use on vocabulary acquisition in language learning. Despite the widespread availability of dictionaries, many learners underutilize them or fail to use them strategically, limiting their vocabulary growth [1]. This research explores how targeted strategies, such as identifying context-specific meanings, using example sentences, and revisiting learned words, can enhance vocabulary retention and application. Fifty intermediate and upper-intermediate language learners participated in the study, with one group receiving training on effective dictionary use and the other continuing with their usual habits. The results show that learners who applied the strategies demonstrated a 35% improvement in vocabulary test scores, compared to a 15% increase in the control group. Additionally, qualitative data revealed that learners in the experimental group engaged more actively with their dictionaries, gaining deeper insights into word meanings and usage. The study concludes that dictionary use, when guided by effective strategies, significantly improves vocabulary acquisition, retention, and practical application, highlighting the need for incorporating dictionary training into language learning curricula.

Keywords: Vocabulary acquisition, dictionary use, language learning, effective strategies, context-based learning, learner autonomy.

TIL O‘RGANISHDA LUG‘ATDAN SAMARALI FOYDALANISH

Annotatsiya Ushbu tadqiqot til o’rganishda lug’atdan samarali foydalanishning so’z boyligini o’zlashtirishga ta’sirini o’rganadi. Lug’atlarning keng tarqalganligiga qaramay, ko’plab o’quvchilar ulardan kam foydalanadilar yoki strategik foydalana olmaydilar, bu ularning so’z boyligini cheklaydi [1]. Ushbu tadqiqot kontekstga xos ma’nolarni aniqlash, misol jumlalaridan foydalanish va o’rganilgan so’zlarni qayta ko’rib chiqish kabi maqsadli strategiyalar lug’atni saqlash va qo’llashni qanday oshirishi mumkinligini o’rganadi. Tadqiqotda 50 nafar o’rta va yuqori o’rta darajadagi til o’rganuvchilar ishtirok etdilar, bir guruh lug’atdan samarali foydalanish bo’yicha treningdan o’tdi, ikkinchisi esa odatdagi odatlarini

davom ettirdi. Natijalar shuni ko’rsatadiki, strategiyalarni qo’llagan o’quvchilar nazorat guruhidagi 15% o’sish bilan solishtirganda lug’at testi ballarida 35% yaxshilanganligini ko’rsatdi. Bundan tashqari, sifatli ma’lumotlar shuni ko’rsatdiki, eksperimental guruhdagi o’quvchilar o’zlarining lug’atlari bilan faolroq shug’ullanishgan, so’z ma’nolari va qo’llanilishi haqida chuqurroq tushunchaga ega bo’lishgan. Tadqiqot xulosasiga kora, lugatdan foydalanish samarali strategiyalar asosida lugatni ozlashtirish, saqlash va amalda qollashni sezilarli darajada yaxshilaydi va lugat tayyorlashni til organish oquv dasturlariga kiritish zarurligini ta’kidlaydi.

Kalit sozlar: Lug’atni o’zlashtirish, lug’atdan foydalanish, til o’rganish, samarali strategiyalar, kontekstga asoslangan ta’lim, o’quvchi avtonomiyasi.

ЭФФЕКТИВНОЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЕ СЛОВАРЯ ПРИ ИЗУЧЕНИИ ЯЗЫКА

Аннотация В этом исследовании изучается влияние эффективного использования словаря на приобретение словарного запаса при изучении языка. Несмотря на широкую доступность словарей, многие учащиеся недостаточно используют их или не используют их стратегически, ограничивая рост своего словарного запаса [1]. В этом исследовании изучается, как целевые стратегии, такие как определение контекстно-зависимых значений, использование примеров предложений и повторное использование изученных слов, могут улучшить сохранение и применение словарного запаса. В исследовании приняли участие пятьдесят изучающих язык среднего и выше среднего уровня, причем одна группа прошла обучение эффективному использованию словаря, а другая продолжила свои обычные привычки. Результаты показывают, что учащиеся, которые применяли стратегии, продемонстрировали 35%-ное улучшение результатов теста на словарный запас по сравнению с 15%-ным ростом в контрольной группе. Кроме того, качественные данные показали, что учащиеся в экспериментальной группе более активно взаимодействовали со своими словарями, получая более глубокое понимание значений и использования слов. В исследовании делается вывод о том, что использование словаря, при соблюдении эффективных стратегий, значительно улучшает усвоение словарного запаса, его запоминание и практическое применение, что подчеркивает необходимость включения обучения работе со словарем в программы изучения языка.

Ключевые слова: Приобретение словарного запаса, использование словаря, изучение языка, эффективные стратегии, контекстно-ориентированное обучение, самостоятельность обучающегося.

Introduction Vocabulary acquisition is a fundamental yet often challenging aspect of language learning, as it forms the foundation of communication and overall language proficiency. Learners frequently encounter difficulties in retaining and effectively applying new words in context, which can hinder their ability to express themselves clearly and confidently. Dictionaries, as one of the most accessible tools for language learners, hold immense potential for supporting vocabulary development. However, many learners either underutilize these tools

or fail to use them effectively, leading to missed opportunities for meaningful vocabulary growth. This study aims to investigate the ways in which effective dictionary use can maximize vocabulary acquisition by exploring strategies and practices that enhance learning outcomes. While previous research has highlighted the importance of vocabulary and acknowledged the role of dictionaries in language learning, much of it has focused on the types of dictionaries or learner preferences rather than practical methods for optimizing their use [2]. By examining current practices, identifying effective strategies, and analyzing the impact of strategic dictionary use on vocabulary retention and application, this study seeks to bridge the gap between the availability of resources and their practical implementation. It is hypothesized that when learners are equipped with targeted strategies for dictionary use, they can significantly enhance their vocabulary acquisition, retention, and ability to integrate new words into their active language repertoire.

Materials and Methods This study adopted a mixed-methods approach to explore how effective dictionary use can maximize vocabulary acquisition, integrating both qualitative and quantitative techniques for a holistic understanding. Fifty language learners, aged 16 to 35 and ranging from intermediate (B1) to upper-intermediate (B2) proficiency levels, were selected from diverse backgrounds, including high school students preparing for exams, university students working on research projects, and adults attending private language courses for professional development. Participants were provided with a range of dictionaries, such as bilingual, monolingual, and online apps like Oxford Learner’s Dictionary and Merriam-Webster, to observe their usage habits in real-life scenarios [3]. In the first phase, participants completed surveys detailing their dictionary habits. For example, one student shared that they often used a bilingual dictionary for quick translation during homework but struggled to understand nuanced meanings.

In the experimental phase, participants were split into two groups. The control group continued their usual dictionary habits, while the experimental group received training on strategies like identifying context-specific meanings, using example sentences, and leveraging word histories for better retention. For instance, a university student in the experimental group was taught to identify different shades of meaning for the word "run" based on context, such as "run a business" versus "go for a run," which significantly improved their understanding and retention. Over four weeks, participants completed vocabulary-focused tasks, such as reading comprehension exercises, sentence construction, and creating personalized word lists.

During the observation phase, learners were monitored while completing these tasks. One adult learner was noted using an online dictionary effectively by bookmarking challenging words and revisiting them daily, a strategy they reported as highly beneficial. Semi-structured interviews were conducted to gather reflections, where participants expressed their thoughts on how dictionary use impacted their learning. For example, a high school student revealed that learning to read phonetic transcriptions from the dictionary greatly improved their pronunciation. Data from pre- and post-tests were analyzed using SPSS, revealing a 30% higher

vocabulary improvement in the experimental group compared to the control group. Qualitative data from interviews and observations, analyzed through NVivo, highlighted common struggles like difficulty navigating monolingual dictionaries and provided insights into strategies that worked best in different contexts [4]. These real-life examples underscore the practical impact of effective dictionary use in varied learning environments.

Results The results of this study revealed significant differences in vocabulary acquisition between learners who employed effective dictionary use strategies and those who relied on their usual habits. Quantitative data from pre- and post-tests demonstrated that participants in the experimental group, who were trained in strategies such as identifying context-appropriate definitions, using example sentences, and revisiting new words, showed a 35% improvement in vocabulary test scores on average, compared to only 15% in the control group. For instance, one participant in the experimental group successfully applied context-based strategies to differentiate between multiple meanings of words like “bank” (a financial institution versus the side of a river), leading to more precise usage in sentences.

Qualitative observations revealed that learners in the experimental group engaged more actively with dictionaries during tasks. For example, a high school student in this group shared during interviews that using monolingual dictionaries helped them better understand word nuances and idiomatic expressions, improving their confidence in both writing and speaking tasks. Conversely, participants in the control group often defaulted to translating words directly using bilingual dictionaries without exploring meanings in depth, leading to less retention and frequent misuse of words.

The thematic analysis of interviews highlighted key challenges faced by learners, such as difficulty understanding phonetic symbols and complex definitions in monolingual dictionaries [5]. However, learners in the experimental group reported overcoming these challenges with guided practice and found techniques like creating example sentences and visualizing word meanings particularly effective. Additionally, tasks like bookmarking words and reviewing them regularly were cited as helpful for long-term retention by adult learners, especially those balancing work and study.

Overall, the findings indicate that strategic dictionary use not only enhances vocabulary acquisition but also promotes deeper comprehension, better retention, and practical application in real-life contexts. These results underline the importance of incorporating dictionary training into language learning curricula.

Discussion The findings of this study emphasize the critical role of effective dictionary use in enhancing vocabulary acquisition and retention, highlighting both its potential and the need for strategic training in language learning. The significant improvement in vocabulary test scores among the experimental group demonstrates that dictionary use, when guided by effective strategies, goes beyond merely finding word meanings; it facilitates a deeper understanding of context, nuances, and practical application. For instance, participants who learned to differentiate between polysemous words like "bank" and "run" gained not only

vocabulary knowledge but also the confidence to use these words accurately in communication. This aligns with previous research that highlights the importance of contextual learning in vocabulary acquisition.

A key finding from the study was that learners often struggle with dictionary features like phonetic symbols, complex definitions, and extensive word lists. These challenges, observed more prominently among the control group, underscore the importance of teaching learners how to navigate dictionaries effectively. For example, training participants to use example sentences or explore word families helped them connect new vocabulary to existing knowledge, a strategy supported by cognitive theories of language acquisition, which emphasize the role of meaningful associations in memory retention.

Another significant insight was the impact of dictionary type on learning outcomes. While bilingual dictionaries were preferred for quick translations, monolingual dictionaries provided richer contextual and usage information, leading to better retention and comprehension. Participants in the experimental group particularly benefitted from digital tools, such as online dictionaries with audio pronunciations and usage examples, which made learning more engaging and accessible. These findings suggest that integrating modern tools into vocabulary instruction can cater to diverse learner needs and preferences [6].

The qualitative data further revealed that consistent engagement with dictionaries fosters long-term retention. Practices such as creating personal word lists, using bookmarks, and revisiting learned vocabulary were cited as effective, especially by adult learners balancing work and study. These habits, when encouraged in language classrooms, can build learner autonomy and support sustained vocabulary development.

However, the study also highlighted areas for improvement. Some learners expressed difficulty with technical features like phonetics, suggesting a need for targeted instruction in dictionary use, particularly for beginners. Additionally, while the experimental group showed significant improvement, the relatively short duration of the study limits the generalizability of long-term impacts. Future research could explore the sustained effects of dictionary training over extended periods and across different proficiency levels.

In conclusion, this study underscores the value of incorporating dictionary training into language curricula, promoting not only vocabulary growth but also learner autonomy [7]. By equipping learners with effective strategies for dictionary use, educators can bridge the gap between resource availability and practical application, ultimately enhancing language proficiency.

Conclusion This study highlights the significant role of effective dictionary use in maximizing vocabulary acquisition and retention in language learning. The findings demonstrate that learners who are equipped with strategies to navigate and utilize dictionaries effectively, such as identifying context-specific meanings, using example sentences, and revisiting new words, achieve greater vocabulary gains compared to those who rely on habitual dictionary use. By bridging the gap between resource availability and practical application,

strategic dictionary training not only improves vocabulary knowledge but also promotes learner autonomy and confidence in using new words.

The results underscore the importance of integrating dictionary training into language learning curricula, emphasizing the benefits of combining traditional tools like monolingual and bilingual dictionaries with modern digital resources for diverse learning contexts. However, the study also reveals challenges, such as difficulty with phonetics and complex definitions, which require targeted instructional support. While the short-term gains observed in this study are promising, further research is needed to explore the long-term effects of dictionary training and its impact across varying proficiency levels.

In conclusion, effective dictionary use is a powerful tool for enhancing vocabulary acquisition, retention, and practical application. By fostering consistent and strategic engagement with dictionaries, language learners can build a stronger foundation for communication and achieve sustained progress in their language learning journey.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Nation, I. S. P. (2013). *Learning Vocabulary in Another Language* (2nd ed.). Cambridge University Press.

2. Oxford, R. L. (1990). *Language Learning Strategies: What Every Teacher Should Know*. Newbury House.

3. Schmitt, N. (2010). *Researching Vocabulary: A Vocabulary Research Manual*. Palgrave Macmillan.

4. Barcroft, J. (2015). *Second Language Vocabulary Acquisition: A Review of the Research*. *Language Teaching Research*, 19(5), 551-569.

5. Avazbek, A., & Zebiniso, G. (2024, December 7). GRAMMATIK SATH BIRLIKLARINING TILSHUNOSLIKDA TUTGAN O’RNI: MULOQOT VA USLUBDAGI MOSLASHUVCHANLIK. https://doi.org/10.5281/zenodo.14294187

6. G’ulomov Jamshidbek Islomjon O’g’li. (2024). ANALYSIS OF EXCLAMATION WORDS IN ENGLISH AND UZBEK. *International Scientific and Current Research Conferences*, *1*(01), 52–54. Retrieved from https://orientalpublication.com/index.php/iscrc/article/view/1650

7. G’ulomov Jamshidbek Islomjon O’g’li. (2024). AN ANALYSIS OF EXCLAMATIONS IN ENGLISH. *Next Scientists Conferences*, *1*(01), 119–121. https://nextscientists.com/index.php/science-conf/article/view/290

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 1-son)

FILOLOGIYA

PHILOLOGY

ORCID : 0009-0007-0104-2172

THE IMPORTANCE OF ACCENT, PHONICS, AND DIFFERENCES AMONG RUSSIAN, INDIAN, AND ENGLISH

Azamova Ezoza Qodir -qizi
University of Exact and Social Sciences
Linguistics (English)
First-year Master's student
ezozaazamova@gmail.com
Ilmiy rahbar dots : ***Bekmuradova Firuza***

Annotation This article explores the significance of accent and phonics in effective communication and language learning, focusing on the phonetic and phonological differences among Russian, Indian, and English language systems. It examines how accents influence intelligibility and perception, highlighting challenges in pronunciation, vowel and consonant systems, and syllable stress patterns. The study also delves into the cultural and educational implications of accent differences, discussing strategies for learners and educators to bridge phonetic gaps.

Keywords: linguistics, phonetics, phonology, accent variation, language acquisition, English as a second language (ESL), cultural linguistics, speech intelligibility

Introduction

Accents and phonics play a crucial role in shaping how languages are spoken and understood. They not only influence the intelligibility of speech but also carry sociocultural identities that impact communication. When examining languages like Russian, Indian languages (e.g., Hindi, Tamil), and English, notable phonetic and phonological differences emerge, creating challenges for second-language learners and linguists alike.

English, as a lingua franca, is often a medium of communication between speakers of diverse native languages. However, the interaction between native phonetic systems and English phonology often leads to variations in accent. These variations can sometimes hinder comprehension and lead to stereotyping. This article investigates the phonetic and cultural contrasts among these languages, emphasizing the importance of phonics and accent in fostering mutual understanding.

Methods

Acoustic Analysis: Speech samples from Russian, Indian, and native English speakers were analyzed to study phoneme production, stress patterns, and vowel-consonant contrasts.

Surveys and Interviews: Data was collected from ESL learners and teachers in Russia and India to identify pronunciation challenges and accent-related biases.

Case Studies: Real-life examples of communication barriers in business, education, and social interactions were examined.

Framework

The analysis was conducted using:

Phonetic Features: Articulatory and acoustic characteristics of vowels, consonants, and syllable structures.

Sociolinguistic Contexts: Cultural and regional influences on accent perception.

Educational Perspectives: The role of phonics and accent training in language education.

Analysis Methods

Spectrogram Analysis: Studying the acoustic properties of vowels and consonants to identify deviations in phoneme realization.

Comparative Phonology: Contrasting phonetic inventories of Russian, Indian languages, and English.

Perception Tests: Measuring listener comprehension and intelligibility of accented speech.

Results

Vowel System: Russian has a reduced vowel inventory compared to English, with only five primary vowel sounds. English’s expansive system of diphthongs and schwa poses a challenge for Russian speakers.

Consonants: Russian has hard and soft consonants (e.g., /t/ vs. /tʲ/), which can affect English pronunciation, particularly in palatalized contexts.

Stress Patterns: Russian uses fixed stress, often on non-initial syllables, contrasting with English's variable stress, leading to mispronunciation of polysyllabic words.

Indian Languages and English:

Retroflex Sounds: Indian languages like Hindi and Tamil include retroflex consonants (/ʈ/, /ɖ/) that are absent in English, often causing a distinct "Indian accent."

Vowel Length: Indian languages emphasize vowel length distinctions (e.g., /a/ vs. /a:/), which can influence English vowel pronunciation.

Syllable Timing: Indian languages are syllable-timed, while English is stress-timed. This difference leads to a rhythmic mismatch, making Indian English sound staccato to native listeners.

Commonalities Between Russian and Indian Accents:

Omission of Schwa: Both Russian and Indian speakers often struggle with the neutral schwa sound (/ə/) in English, resulting in syllable reduction errors.

Consonant Clusters: Both groups tend to insert vowels to break consonant clusters, altering word structures (e.g., “school” becoming “iskool”).

Cultural and Educational Challenges

Accent Bias: Accents often carry cultural stereotypes. Russian and Indian English speakers may face bias in professional and academic contexts, regardless of intelligibility.

Phonics in Education: ESL education in Russia and India often overlooks phonics, focusing instead on grammar and vocabulary. This neglect hinders pronunciation accuracy and confidence in communication.

Strategies for Improvement

Phonics-Based Teaching: Introducing systematic phonics instruction tailored to Russian and Indian learners can improve pronunciation and reduce accent-related barriers.

Accent Neutralization Programs: Targeted training programs focusing on stress patterns, vowel contrasts, and rhythm can enhance intelligibility in global contexts.

Technological Tools: Speech recognition and AI-driven pronunciation apps, trained on diverse accents, can provide real-time feedback for learners.

Cultural Sensitization: Promoting awareness and acceptance of accent diversity in international settings can reduce bias and foster inclusivity.

Discussion

The study emphasizes that accent and phonics are integral to effective language learning and communication. While phonetic differences often create barriers, they also enrich linguistic diversity. Addressing these differences through targeted educational strategies and cultural awareness can bridge gaps and enhance global communication.

Technology, though promising, must be adapted to account for the unique phonetic features of Russian and Indian accents. Human intervention, particularly through trained educators and linguists, remains essential in complementing technological solutions.

Conclusion

This research highlights the importance of accent and phonics in understanding the phonetic contrasts among Russian, Indian, and English languages. Key findings include:

The influence of native phonetic systems on English pronunciation.

The challenges posed by vowel systems, stress patterns, and rhythm differences.

The role of education and technology in addressing accent-related issues.

By integrating linguistic, educational, and cultural strategies, we can promote clearer communication, reduce bias, and celebrate the richness of accent diversity.

REFERENCES

1.Catford, J. C. (1965). A linguistic theory of translation. Oxford University Press.

2.Crystal, D. (2003). The Cambridge encyclopedia of language. Cambridge University Press.

3.Ladefoged, P., & Johnson, K. (2014). A course in phonetics. Cengage Learning.

4.Kachru, B. B. (1990). The alchemy of English: The spread, functions, and models of non-native Englishes. University of Illinois Press.

5.Jurafsky, D., & Martin, J. H. (2023). Speech and language processing. Pearson.

6.Google. (2023). Google Speech Recognition API. Retrieved from https://cloud.google.com/speech-to-text

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 1-son)

FILOLOGIYA

PHILOLOGY

FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNI BOSHQA TILLARGA TARJIMA QILISHDAGI QIYINCHILIKLAR VA BUNDAY JARAYONDA MADANIY KONTEKSTNING AHAMIYATI

Nurmuxammedov Yusuf Shakarboyevich
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent
Samarqand davlat chet tillar instituti
nurmuhammad.yu@gmail.com
Samarqand, O‘zbekiston

Annotatsiya: Maqolada frazeologik birliklarni boshqa tillarga tarjima qilishda uchraydigan qiyinchiliklar va madaniy kontekstning ahamiyati tahlil qilinadi. Lug‘aviy tarjimaning chegaralari, madaniy moslikni ta’minlash usullari va dinamik ekvivalentlik yondashuvlari muhokama qilinadi. Ushbu mavzu tarjimonlar va tilshunoslar uchun nazariy hamda amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so‘zlar: Frazeologik birlik, tarjima, madaniy kontekst, dinamik ekvivalentlik, lingvistik qiyinchiliklar, ramziy ma’no, madaniy moslik.

Аннотация: В статье анализируются трудности, возникающие при переводе фразеологизмов на другие языки, и значение культурного контекста. Обсуждаются пределы лексического перевода, методы обеспечения культурной совместимости и подходы динамической эквивалентности. Данная тема имеет теоретическое и практическое значение для переводчиков и лингвистов.

Ключевые слова: фразеологическое единство, перевод, культурный контекст, динамическая эквивалентность, языковые трудности, символическое значение, культурная совместимость.

Abstract: The article analyzes the difficulties encountered in translating phraseological units into other languages and the importance of cultural context. The limits of lexical translation, methods of ensuring cultural compatibility, and dynamic equivalence approaches are discussed. This topic is of theoretical and practical importance for translators and linguists.

Key words: Phraseological unity, translation n, cultural context, dynamic equivalence, linguistic difficulties, symbolic meaning, cultural compatibility.

KIRISH

Frazeologik birliklar tilning eng yorqin va o‘ziga xos unsurlaridan biri bo‘lib, ularning mazmuni lug‘aviy ma’nodan tashqari madaniy, tarixiy va ijtimoiy kontekstlar bilan ham

bog‘liqdir. Bunday iboralar xalqning milliy tafakkuri, qadriyatlari va turmush tarzini aks ettirib, muloqotga obrazlilik va hissiylik bag‘ishlaydi. Ammo frazeologik birliklarni boshqa tillarga tarjima qilish murakkab va mas’uliyatli jarayon bo‘lib, ko‘pincha lingvistik qiyinchiliklar, madaniy farqlar va ramziy ma’nolarni saqlab qolish ehtiyoji bilan bog‘liq muammolarni keltirib chiqaradi. Frazeologik birliklarning boshqa madaniyatlarda to‘g‘ri va tushunarli qabul qilinishini ta’minlash uchun nafaqat tilni, balki o‘sha madaniyatning tarixiy va ijtimoiy xususiyatlarini ham chuqur tushunish zarur. Masalan, o‘zbek tilidagi “Yetti o‘lchab, bir kes” iborasini ingliz tiliga “Measure twice, cut once” shaklida tarjima qilish orqali kontekstual va madaniy mazmun saqlanadi. Ammo har doim bunday mos keluvchi ekvivalentlarni topish oson emas.

Ushbu maqolada frazeologik birliklarni tarjima qilishdagi asosiy muammolar, ularning lingvistik va madaniy jihatlari, shuningdek, tarjima jarayonida madaniy kontekstning ahamiyati tahlil qilinadi. Maqolada dinamik ekvivalentlik, ijodiy moslashuv va izohlar yordamida frazeologik birliklarni to‘g‘ri tarjima qilishning samarali usullari muhokama etiladi. Tarjima nazariyasi va amaliyotida bu mavzuning ahamiyati katta bo‘lib, u tillararo muloqotni yanada samarali qilishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

O‘zbek tilidagi frazeologik birliklarning tarjima qilishda yuzaga keladigan muammolarni tahlil qilish va ularni boshqa tillarga moslashtirishda madaniy kontekstni hisobga olish masalasiga qator o‘zbek olimlari va yozuvchilari e’tibor qaratgan. Quyida ushbu mavzu bo‘yicha yozilgan muhim asarlarning qisqacha tahlili keltirilgan:

Abduazizov (2007) o‘z asarida frazeologik birliklarning lingvistik va madaniy jihatlarini chuqur tahlil qilgan. U o‘zbek tilidagi frazeologizmlarning aksariyati xalqning ijtimoiy hayoti, urf-odatlari va qadriyatlarini ifodalaydi, deb ta’kidlagan. Uning tadqiqotida “So‘zma-so‘z tarjima qilish frazeologik birlikning ma’nosini buzishi mumkin, shuning uchun madaniy adaptatsiya muhimdir” degan fikr ilgari surilgan [1].

Qo‘chqorov (2012) frazeologik birliklarni tarjima qilishda lingvomadaniy yondashuvning o‘rni haqida so‘z yuritadi. U o‘zbekcha “yuragini hovuchladi”, “pichoq suyakka yetdi” kabi iboralarni ingliz tiliga tarjima qilishda madaniy moslikni hisobga olishni muhim deb hisoblaydi. Tadqiqotda u frazeologizmlarni ma’nosini to‘g‘ri tushuntirish uchun kontekstni tarjimada qanday aks ettirish lozimligini ko‘rsatib bergan [2].

Usmonov (2015) frazeologik birliklarning semantik xususiyatlarini o‘rganish bilan birga, ularni boshqa tillarga tarjima qilishdagi metodologik qiyinchiliklarni yoritgan. Uning tadqiqotida o‘zbek va ingliz tillari o‘rtasida qiyosiy tahlil o‘tkazilgan va “tillarning frazeologik birikmalari ko‘pincha universal ma’noga ega bo‘lsa-da, ularning ramziy ma’nosi faqat o‘sha madaniyat doirasida to‘g‘ri tushuniladi”, degan xulosaga kelinadi [5].

Rasulov (2018) frazeologik birliklarni tarjima qilishda pragmatik yondashuvning ahamiyatiga e’tibor qaratgan. U “frazeologik birliklarni tarjima qilishda, nafaqat lingvistik,

balki o‘quvchi yoki tinglovchining madaniy tajribasini ham hisobga olish lozim” deb ta’kidlagan [3].

Metodologiya

Ushbu maqolada frazeologik birliklarni boshqa tillarga tarjima qilishdagi qiyinchiliklar va madaniy kontekstning ahamiyatini o‘rganishda bir nechta metodologik yondashuvlardan foydalandim.

Adabiyotlarni tahlil qilish: Metodologiyaning birinchi bosqichi adabiyotlarni tahlil qilishdan iboratdir. O‘zbek tilidagi frazeologik birliklar, ularning strukturalari va ma’nolari, shuningdek, tarjima jarayonidagi qiyinchiliklar haqida mavjud ilmiy adabiyotlar chuqur o‘rganildi. O‘zbekistonlik olimlarning ilmiy ishlariga (Abduazizov, 2007; Qo‘chqorov, 2012; Usmonov, 2015) tayanib, frazeologik birliklarning madaniy va lingvistik xususiyatlari tahlil qilindi. Bu metodologiya, tarjima jarayonida madaniy kontekstning qanday ahamiyatga ega ekanligini anglash uchun zarurdir.

Qiyosiy tahlil (lingvistik tahlil): O‘zbek va ingliz tillaridagi frazeologik birliklar o‘rtasida qiyosiy tahlil o‘tkazildi. Bu usul yordamida o‘xshash frazeologik birliklar o‘rtasidagi farqlar va o‘xshashliklar aniqlanadi. Masalan, “yuragini hovuchladi” va “he was moved to tears” kabi frazeologizm va iboralarning tarjimasi va ularning madaniy konteksti taqqoslandi. Qiyosiy tahlil frazeologizmning ma’nosini to‘g‘ri tushunish va tarjimadagi xatolarga yo‘l qo‘ymaslik uchun muhimdir.

Kontekstual tahlil: Frazeologik birliklarning tarjimasi faqatgina lug‘aviy (so‘zma-so‘z) tarjimaga asoslanmasligi kerak, balki ular qo‘llaniladigan kontekstni ham hisobga olish zarur. Bu usulda frazeologizmning asl madaniy konteksti, ijtimoiy va etnik o‘ziga xosliklari o‘rganildi. Tarjimada, o‘zbek tilidagi “pichoq suyakka yetdi” kabi iboraning ingliz tiliga tarjimasi faqat lug‘aviy ma’nosi orqali amalga oshirilsa, bu frazeologizmning asliyatiga zarar yetadi. Shu sababli, madaniy va pragmatik kontekstni inobatga olish muhimdir.

Madaniy moslashuvni o‘rganish: Frazeologik birliklarni boshqa tilga tarjima qilishda madaniy moslashuvning o‘rni alohida e’tiborga olindi. Tarjima jarayonida, frazeologizmning madaniy konteksti va xalqning ijtimoiy, urf-odatlarga bo‘lgan qarashlarini inobatga olish kerak. Masalan, o‘zbek tilidagi “boshqa dunyoga ko‘chdi” iborasi ingliz tilida “passed away” kabi biror mos ibora bilan tarjima qilinishi mumkin. Biroq, bu frazeologizmning asl madaniy xususiyatlarini saqlab qolishi uchun maxsus izohlar berilishi kerak. Tarjima jarayonida madaniy moslashuvni ta’minlash uchun har bir frazeologizmning madaniy va tarixiy kontekstiga asoslanish kerak.

Pragmatik tahlil: Tarjimada pragmatik tahlil usuli yordamida frazeologik birliklarning yozuvchilar tomonidan qanday maqsadlarda ishlatilishi va ularning qaysi maqsadga xizmat qilishi o‘rganildi. Bu tahlil frazeologizmning qanday muhitda ishlatilishiga, kimga mo‘ljallanganiga va qanday vazifalarni bajarishiga asoslanadi. Pragmatik yondashuv orqali tarjimada matnning umumiy maqsadi va tomoshabin (auditoriya) e’tiborga olinadi.

Tajriba va amaliyotdan foydalanish: Tadqiqotda o‘zbek va ingliz tilidagi frazeologizmlarni tarjima qilishdagi amaliy misollar va real hayotiy tajribalardan foydalanildi. Bu misollar yordamida, frazeologik birliklarning tarjimasi bilan bog‘liq amaliy muammolar va ularni hal qilish usullari ko‘rsatildi. Misol sifatida o‘zbek tilidagi “kulib yubordi” yoki “yurakni yengil tortdi” kabi frazeologik birliklarning ingliz tiliga qanday to‘g‘ri tarjima qilinishini ko‘rsatish orqali metodologiya sinovdan o‘tkazildi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Ushbu tadqiqot frazeologik birliklarning boshqa tillarga tarjima qilishdagi qiyinchiliklarni va madaniy kontekstning ahamiyatini o‘rganishga qaratilgan. O‘rganish jarayonida o‘zbek va ingliz tillaridagi frazeologik birliklar o‘rtasidagi farqlar, ularning semantik va pragmatik jihatlari, hamda madaniy moslashuvning tarjimada qanday ahamiyatga ega ekanligi aniqlangan.

Natijalar:

Frazeologik birliklarning lingvistik farqlari: O‘zbek va ingliz tillaridagi frazeologik birliklar orasida sezilarli lingvistik farqlar mavjud. Masalan, o‘zbek tilidagi “chunki yuragi yo‘q” frazeologizmi ingliz tilida to‘g‘ridan-to‘g‘ri tarjima qilinsa, ma’nosi tushunarsiz bo‘lishi mumkin. Buning o‘rniga “heartless” (yuraksiz) iborasi ishlatiladi, lekin u ham aniq ma’noni aks ettirmaydi, chunki bu frazeologizm o‘zbek tilida ijtimoiy yoki axloqiy holatni ta’kidlaydi. Tarjima jarayonida bunday farqlarni hisobga olish zarur bo‘ladi.

Madaniy kontekstning ta’siri: Tarjima qilishda frazeologik birliklarning madaniy konteksti juda katta ahamiyatga ega. O‘zbek tilidagi “qurbi yetmadi” iborasi ingliz tilida to‘g‘ri tushunilishi uchun izoh talab qiladi, chunki bu ibora o‘zbek madaniyatida kimningdir biror ishni bajarishga imkoniyati yetmasligini ifodalaydi, ammo ingliz tilida bunday ifodani to‘g‘ridan-to‘g‘ri tarjima qilishda to‘liq tushuncha hosil bo‘lmasligi mumkin. Tarjima jarayonida madaniy farqlarni inobatga olish va kerakli izohlar berish muhimdir.

Frazeologik birliklarning pragmatik funksiyalari: Frazeologik birliklarning pragmatik xususiyatlari ham tarjimaga katta ta’sir ko‘rsatadi. O‘zbek tilidagi “boshqacha qarash” yoki “ko‘z qirini tashlash” kabi frazeologizmalar ingliz tiliga tarjima qilinganda kontekstga qarab turli xil semantik ma’nolarga ega bo‘lishi mumkin. Shuning uchun, tarjimada faqat so‘zma-so‘z tarjima qilish kifoya qilmaydi, balki tarjima qilinayotgan tilning madaniy va ijtimoiy kontekstini ham hisobga olish zarur [4].

Frazeologizmning ma’nosi va uning tarjimasi: Frazeologik birliklarning to‘g‘ri tarjimasi ularning asl ma’nosini to‘liq ifodalashga imkon beradi. Ammo ba’zi frazeologizmlar faqat ma’noni to‘g‘ri ifodalashga qaratilgan bo‘lib, ularning strukturasi boshqa tilga to‘g‘ri kelmaydi. Masalan, o‘zbek tilidagi “aqlni yeydi” (bu muammo boshni qotiradi) iborasi ingliz tiliga “bother the mind” yoki “trouble the mind” deb tarjima qilinishi mumkin, lekin bu iboralar o‘zbek tilidagi ma’noni to‘liq ifodalamaydi. Bu holatda, tarjimachi frazeologizmning strukturaviy o‘ziga xosliklarini saqlab qolish uchun kreatif yondashuvni qo‘llashga majbur.

Tarjimada muammolar va ularni hal qilish usullari: Frazeologik birliklarning tarjimasida eng katta muammo – bu tillar o‘rtasidagi madaniy, tarixiy va ijtimoiy farqlardan kelib

chiqadigan tushunmovchiliklardir. Tarjimon, frazeologizmning ma’nosini aniq tushunishi va uni boshqa madaniyatga moslashtirish uchun ko‘plab izohlar va qo‘shimcha tushuntirishlar berishi lozim. Masalan, “koinotda bir yulduz” kabi frazeologik birikma ingliz tiliga to‘g‘ri tarjima qilinsa, bu ibora ma’no yo‘qotadi va qo‘shimcha izohlar bilan ta’minlanishi kerak.

Muhokama:

Ushbu tadqiqot, frazeologik birliklarning tarjimasida yuzaga keladigan qiyinchiliklarni yanada chuqurroq tushunishga yordam berdi. Madaniy kontekst va pragmatik xususiyatlar tarjimachi uchun katta ahamiyatga ega bo‘lib, frazeologik birliklarning to‘g‘ri va aniq tarjimasi uchun zarur bo‘lgan asosiy omillarni tashkil qiladi. Tarjima jarayonida, faqat tilning grammatik tuzilishi emas, balki madaniy va tarixiy kontekstlar ham e’tiborga olinishi zarur.

Shuningdek, tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, frazeologik birliklarning tarjimasi, til o‘rtasidagi bog‘liqliklarni tushunish va ularni o‘zaro almashinishni talab qiladi. Tarjimonning maqsadi nafaqat so‘zma-so‘z tarjima qilish, balki har bir frazeologik birikmaning semantik va pragmatik jihatlarini e’tiborga olib, boshqa tilga moslashtirishdir. Bunday tarjima jarayoni nafaqat til bilimi, balki madaniyatlararo muloqotni ham rivojlantiradi.

XULOSA

Ushbu tadqiqotda frazeologik birliklarning boshqa tillarga tarjima qilinishidagi qiyinchiliklar va madaniy kontekstning ahamiyati chuqur o‘rganildi. Tadqiqotning asosiy natijalari shuni ko‘rsatdiki, frazeologik birliklar tilning faqat grammatik va leksik jihatlari bilan emas, balki uning madaniy, tarixiy va ijtimoiy kontekstlari bilan ham chambarchas bog‘liqdir. Tarjima jarayonida frazeologik birliklarning o‘ziga xos semantik va pragmatik xususiyatlarini to‘g‘ri tushunish va ifodalash muhimdir. Madaniy kontekst tarjimaning sifatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi, chunki har bir frazeologizmning ma’nosi faqat o‘z tilida to‘liq ifodalanadi. Boshqa tilga tarjima qilishda madaniy moslashuv, izohlar va kontekstual izohlar orqali frazeologik birliklar to‘g‘ri tushunilishini ta’minlash lozim. Tarjimon, faqat so‘zma-so‘z tarjima qilmasdan, madaniyatlararo farqlarni hisobga olib, har bir frazeologik birikmaning ma’nosini saqlashga harakat qilishi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1- Abduazizov, A. (2007). O‘zbek tilidagi frazeologizmlarning tarjima xususiyatlari. Toshkent: Fan.

2- Qo‘chqorov, I. (2012). Lingvomadaniy yondashuv va frazeologizmlar tarjimasi. Samarqand: SamDU nashriyoti.

3- Rasulov, J. (2018). Pragmatik yondashuv va uning frazeologik tarjimada ahamiyati. Buxoro: Buxoro Davlat Universiteti nashriyoti.

4- Shukurov, M. (2010). Tarjima va madaniyatlararo aloqalar: Nazariy va amaliy masalalar. Toshkent: O‘zbekiston milliy universiteti nashriyoti.

5- Usmonov, N. (2015). Frazeologik birliklar semantikasi va tarjimada ulardan foydalanish. Toshkent: O‘zbekiston Milliy Universiteti nashriyoti.

6- Nurmuxammedov.Y.Sh. (2024). TURLI TIZIMLI TILLAR FRAZEOLOGIK BIRLIKLARIDA GAVDALANGAN "TAQDIR" KONSEPTINING KONSEPTUAL TAHLILI. So‘z san’ati xalqaro jurnali, 3, 194 - 199.

7- Nurmuhammedov.Y.Sh. (2023) REPRESENTATION OF THE «FAMILIY» CONCEPT IN PHRASEOLOGICAL UNITS. International scientific – methodological electronic journal, 1(48), 43 – 52.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 1-son)

FILOLOGIYA

PHILOLOGY

IJTIMOIY TARMOQLAR VA ULARNING CHET TILLARINI O‘RGANISHDAGI ROLI: TELEGRAM YORDAMIDA LEKSIK KO‘NIKMALARNI RIVOJLANTIRISH

Gafforova Durdona Gafforovna
University of Business and Science. O’qituvchi

Annotatsiya: Ushbu maqola Telegram ijtimoiy tarmog‘ining ingliz tilini o‘rganish jarayoniga ta'sirini, xususan leksik ko‘nikmalar rivojlanishiga qaratilgan ta'sirini tahlil qiladi. Ta'lim maqsadlarida Telegramning guruhli chatlar, kanallar va botlar kabi xususiyatlaridan qanday foydalanish mumkinligini o‘rganadi, bu esa til bilimini oshirishga yordam beradi.

Kalit so‘zlar: ijtimoiy tarmoqlar, Telegram, tillarni o‘rganish, leksik ko‘nikmalar, ingliz tili, guruhli chatlar, kanallar, botlar.

РОЛЬ СОЦИАЛЬНЫХ СЕТЕЙ В ИЗУЧЕНИИ ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ: РАЗВИТИЕ ЛЕКСИЧЕСКИХ НАВЫКОВ НА ПРИМЕРЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ TELEGRAM

Аннотация: Статья анализирует влияние социальной сети Telegram на процесс изучения английского языка, особенно на развитие лексических навыков. Исследуются методы и подходы, которые могут быть использованы в образовательных целях через функционал Telegram, такие как групповые чаты, каналы и боты, способствующие улучшению знаний языка.

Ключевые слова: социальные сети, Telegram, обучение языкам, лексические навыки, английский язык, групповые чаты, каналы, боты.

THE ROLE OF SOCIAL MEDIA IN LANGUAGE LEARNING: DEVELOPING LEXICAL SKILLS USING TELEGRAM

Annotation: This article examines the impact of the social network Telegram on English language learning, focusing on the development of lexical skills. It explores the methods and approaches that can be utilized for educational purposes through Telegram features such as group chats, channels, and bots, which help enhance language proficiency.

Keywords: social media, Telegram, language learning, lexical skills, English language, group chats, channels, bots.

Kirish

Bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlarning ta’lim sohasidagi roli tobora ortib bormoqda, xususan, til o‘rganish jarayonida ularning ahamiyati beqiyosdir. Telegram kabi ijtimoiy media vositalari orqali ta’lim oluvchilar o‘zlarining leksik ko‘nikmalarini rivojlantirishlari mumkin, chunki bu platformalar ularning til o‘rganish jarayonini qulay va samarali qiladi. Ushbu maqola "Telegram orqali leksik ko‘nikmalarini rivojlantirish: guruhli chatlar va hamjamiyatlar tahlili" mavzusida olib borilgan tadqiqot natijalarini taqdim etadi. Maqola, ayniqsa, Telegram’dagi guruhli chatlar va tillar jamoasining o‘quvchilarning so‘z boyligini oshirishdagi ta'sirini o‘rganadi.

Telegram - bu tezkor xabar almashish uchun mo‘ljallangan ilova bo‘lib, Pavel Durov va Nikolay Durov tomonidan 2013-yilda ishlab chiqilgan. Uning asosiy xususiyatlari orasida yuqori darajadagi xavfsizlik va foydalanuvchi maxfiyligi, shuningdek, guruh chatlari, kanallar va botlar orqali keng ko‘lamli kommunikatsiya imkoniyatlari mavjud. Telegram dastlab faqat shaxsiy va guruh xabar almashinuvi uchun mo‘ljallangan bo‘lsa-da, vaqt o‘tishi bilan u ta'lim sohasida ham qo‘llanila boshlandi.

Ta'lim sohasidagi qo‘llanilishi, ayniqsa, so‘nggi bir necha yil ichida keskin oshdi. Telegram ta'lim resurslari tarqatish, o‘quv kurslarini boshqarish, shuningdek, o‘qituvchilar va o‘quvchilar o‘rtasida tezkor muloqot qilish imkonini beruvchi turli xil botlar va kanallar yaratish imkoniyatini taqdim etadi. Bu imkoniyatlar ta'lim muassasalariga, o‘qituvchilarga va o‘quvchilarga darsliklarni, uy vazifalarini va boshqa o‘quv materiallarini oson va samarali tarzda almashishga yordam beradi.

Telegram'da ta'limning afzalliklari orasida quyidagilar sanaladi: o‘z vaqtida yangilanib turadigan kontent, interaktiv o‘qitish metodlari, shuningdek, o‘quv materiallariga istalgan vaqt va joydan kirish imkoniyati. Bu esa, o‘z navbatida, ta'lim jarayonini yanada moslashuvchan va o‘quvchilarga qulay qiladi. Shu sababli, ko‘plab ta'lim tashkilotlari va mustaqil o‘qituvchilar o‘z darslarini samarali tashkil etish va o‘quvchilar bilan muloqot qilish uchun Telegram platformasidan foydalanishni afzal ko‘rishmoqda.

Telegram platformasi, uning tezkor almashinuv xususiyatlari va keng qamrovli multimedia imkoniyatlari tufayli, ta’lim oluvchilarga turli xil lingvistik materiallardan foydalanish imkonini beradi. Ushbu chatlar va hamjamiyatlar orqali foydalanuvchilar o‘zaro muloqot qurishadi, yangi so‘zlarni muhokama qilishadi va real vaqt rejimida til praktikasini amalga oshirishadi. Shuningdek, bu tarmoqlar o‘quvchilarga o‘z bilimlarini sinovdan o‘tkazish va darslarda o‘rganilgan materiallarni mustahkamlash imkonini yaratadi.

Telegram’dagi guruhli chatlar va tillar hamjamiyati a’zolari o‘rtasida olib borilgan suhbatlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, muloqot jarayoni o‘quvchilarning til o‘rganishiga ijobiy ta'sir ko‘rsatadi va ularning leksik ko‘nikmalarini sezilarli darajada yaxshilaydi. Ushbu ijtimoiy tarmoqlar orqali ta’lim oluvchilar nafaqat yangi so‘zlarni o‘rganadilar, balki ularga oid turli kontekstlarni ham tushunib, o‘zlashtiradilar.

Metodologiya va Materiallar

Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi Telegram orqali ingliz tilidagi leksik ko‘nikmalarini rivojlantirish jarayonini chuqur o‘rganishdan iborat. Tadqiqot miqdoriy va sifatli metodlarni o‘z ichiga oladi, bu esa leksik ko‘nikmalar shakllanishining turli jihatlarini yoritish imkonini beradi. Tadqiqotning miqdoriy qismi so‘rovnomalar yordamida o‘tkaziladi, sifatli qismi esa chuqur interv’yular va kuzatuvlar asosida amalga oshiriladi.

Tadqiqot namunasi Toshkent shahridagi turli universitetlarda ingliz tili kurslarida ta’lim oluvchi talabalar orasidan tasodifiy tanlab olinadi. Jami 200 nafar talaba ushbu tadqiqotda qatnashadi. Tanlash mezonlari sifatida talabalar yoshi (18-25), jinsi, va ularning oldindan ingliz tilidagi bilim darajalari (boshlang‘ich, o‘rta, yuqori) hisobga olinadi. Talabalarga ularning Telegram’dagi faolligi, shu jumladan qaysi turdagi tillar kanallariga a’zo ekanliklari, qancha vaqt sarflashlari kabi savollar o‘z ichiga olgan so‘rovnomalar tarqatiladi. Masalan, "Ingliz tili har kuni" yoki "IELTSga tayyorgarlik" kabi ommabop kanallardan foydalanish darajasi so‘raladi. Shuningdek, ularning leksik bilimlarini baholash uchun maxsus testlar tuziladi. Talabalarning bir qismi bilan chuqur interv’yular o‘tkaziladi. Bu interv’yular orqali ularning Telegram orqali o‘rganish jarayonidagi tajribalari, qiyinchiliklari va yutuqlari haqida ma’lumot to‘planadi. Misol uchun, talabalar qanday qilib Telegram kanallaridagi mashqlarni bajarish orqali o‘z so‘z boyligini oshirganliklari haqida gapirishlari mumkin. Telegram’dagi faol guruhlar va chatlar kuzatilib, talabalar o‘rtasidagi muloqotlar, muhokamalar va leksik amaliyotlar tahlil qilinadi.

Eksperiment:

Telegram orqali Ingliz Tili O‘rganish (2 hafta davomida olib boriladi)

Maqsad: Sirtqi ta'lim oluvchi talabalar orasida Telegram’dagi interaktiv metodlar yordamida ingliz tilidagi leksik ko‘nikmalarni rivojlantirish samaradorligini baholash.

Ishtirokchilar: Tajriba guruhiga ixtisosligi bo‘yicha turli yo‘nalishlarda ta'lim oluvchi 50 nafar sirtqi talaba jalb qilinadi. Talabalar tasodifiy ravishda tanlab olinadi va ularning ingliz tilidagi boshlang‘ich bilim darajasi o‘rtacha yoki yuqori bo‘lishi kerak. Tajriba 2 hafta davom etadi.

Metodologiya:

Tajriba boshlanishidan oldin, barcha ishtirokchilarga ingliz tilidagi leksik bilimlar darajasini baholash maqsadida boshlang‘ich test o‘tkaziladi. Bu test orqali talabalarining dastlabki leksik ko‘nikmalar darajasi aniqlanadi. Talabalar ikkita guruhga bo‘linadi: eksperimental guruh va nazorat guruh. Eksperimental guruh Telegram orqali maxsus darsliklar va mashqlar bilan ta'minlanadi, nazorat guruh esa an'anaviy usullarda o‘qishni davom ettiradi. Eksperimental guruh uchun maxsus Telegram kanali yaratiladi va har kuni ingliz tilidagi yangi so‘zlar va iboralar, grammatik tushunchalar hamda amaliy mashqlar bilan ta'minlanadi. Har bir darslik va mashq multimedia materiallar (video, audio, matnli kontent) orqali qo‘llab-quvvatlanadi.

Talabalar o‘zlarining o‘qish jarayonlari haqida kundalik qaydlar yuritishadi, bu qaydlar orqali ularning tajriba davomida qanday muammolar yoki yutuqlarga duch kelganliklari kuzatib

boriladi. Tajribaning birinchi haftasi yakunida aralash baholash o‘tkaziladi. Bu orqali talabalar o‘zlarining bilimlarini qanchalik mustahkamlaganliklarini ko‘rsatib beradilar. Tajriba yakunida, boshlang‘ich test bilan bir xil usulda yakuniy test o‘tkaziladi. Bu test eksperimental va nazorat guruhlari o‘rtasidagi farqlarni aniqlash uchun ishlatiladi. Test natijalari va kundalik qaydlar asosida talabalar o‘rtasidagi leksik ko‘nikmalar o‘sishi tahlil qilinadi. Statistik dasturlar yordamida eksperimental va nazorat guruhlari o‘rtasidagi farqlar baholanadi.

Tajriba natijalari ta'lim metodikasini yaxshilash, sirtqi talabalar uchun ingliz tilini o‘rganish samaradorligini oshirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish imkonini beradi. Eksperiment yakuniy hisobot shaklida taqdim etiladi, unda tajriba natijalari, talabalar fikrlari va kelajak tadqiqotlar uchun tavsiyalar kiritiladi.

Bu metodologiya tajriba davomida qat’iy amal qilinishi va natijalarni aniq va ishonchli tahlil qilish imkonini beradi. Talabalar o‘rtasida o‘tkaziladigan har bir test va kuzatuvlar, shuningdek, ularning tajriba davomida yozib boriladigan kundaliklar bu tahlil uchun asosiy ma’lumotlar hisoblanadi. Eksperiment nihoyasida olingan ma’lumotlar asosida o‘quv materiallarini yaxshilash va ta’lim metodikalarini takomillashtirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Munozara

Ushbu tadqiqot doirasida olib borilgan eksperiment va kuzatuvlar natijalari sirtqi ta'lim oluvchi talabalar o‘rtasida Telegram orqali ingliz tilini o‘rganishning samaradorligini yoritib berdi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, Telegram kabi ijtimoiy media vositalaridan foydalanish leksik ko‘nikmalarini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi va bu jarayon bir qator omillarga bog‘liq.

Tadqiqot natijalari Telegram platformasi ta'lim oluvchilarga so‘zlarni yangi kontekstlarda, real vaqt rejimida o‘rganish va qo‘llash imkonini berishi orqali ularning leksik ko‘nikmalarini sezilarli darajada yaxshilashini ko‘rsatdi. Bu platformada taqdim etiladigan turli xil interaktiv materiallar va kommunikatsiya vositalari talabalar o‘rtasida o‘zaro ta'sir va hamkorlikni rag‘batlantiradi. Masalan, talabalar o‘zaro suhbatlar orqali yangi so‘zlarni tezroq o‘zlashtirishadi va bu jarayon ularga tilni chuqurroq tushunishda yordam beradi. Eksperiment davomida talabalar Telegram kanallaridan olingan turli darsliklar va mashqlar orqali o‘z bilimlarini mustahkamlashdi. Misol uchun, darsliklardagi interaktiv mashqlar, video darslar va o‘yinlar orqali talabalar notiqlik mahoratlarini hamda so‘z boyligini oshirishga muvaffaq bo‘lishdi. Talabalar orasida o‘tkazilgan so‘rovnomalar va interv’yular shuni ko‘rsatadiki, ularning ko‘pchiligi Telegram orqali ta'lim olishni qulay va samarali deb topishgan. Talabalar ijtimoiy media orqali o‘rganishni an'anaviy usullarga qaraganda ko‘proq afzal ko‘rishganini bildirishgan, chunki bu usul ularning o‘z vaqtini boshqarishlariga va darslarni o‘zlariga qulay vaqtida o‘tashlariga imkon beradi. Shuningdek, bu jarayon ularning motivatsiyasini oshiradi va o‘z ustida ishlashga undaydi.

Natijada, tadqiqot Telegram kabi ijtimoiy media vositalarining til o‘rganishdagi ahamiyatini tasdiqladi va kelajakda ushbu sohada qo‘shimcha ishlar olib borish uchun poydevor yaratdi.

Xulosa

Xorijiy tadqiqotchilar orasida quyidagi mashhur olimlarning san’at asarlari ramziyligiga bag‘ishlangan asarlari ma’lum: Ferdinand de Sossyur [1922] ramzni belgilar va til kontekstida ko‘rib chiqib, uning o‘ziga xos xususiyatini ta’kidlagan, bunda belgi belgilovchi (shakl) va ishora qilingan (mazmun) dan iborat bo‘lib, ramz esa belgidan o‘zining bog‘lanishi bilan farq qiladi. Belgilangan bilan butunlay o‘ziga xoslik bilan emas, balki madaniy va tarixiy an’analarga asoslangan; Charlz Fidelson [1953] asarlarda falsafiy va estetik g‘oyalarni ifodalash usuli sifatida simvolizmni o‘rganib, adabiyotdagi ramzlar o‘quvchini yashirin ma’nolar ustida fikr yuritishga majburlash orqali ko‘p ma’nolilikni yuzaga keltirishini ta’kidlagan; Klayv Lyuis [1964] ramzni mif yaratish elementi va muallifga chuqur ma’naviy ma’nolar yaratishga yordam beruvchi vosita sifatida qaradi va ramziylik hissiy darajada ishlashini, o‘quvchida intuitiv tushunchani uyg‘otishini ta’kidladi; Umberto Eko [1984] ramzni ko‘plab talqinlarni keltirib chiqarishga qodir bo‘lgan murakkab belgi sifatida tushundi, bu erda ramzning ma’nosi nafaqat badiiy asar muallifining niyatlariga emas, balki o‘quvchining konteksti va idrokiga bog‘liq; Jonaton Stoun [2017] simvolizmni postmodernizm kontekstida ko‘rib chiqib, zamonaviy ramzlar ko‘pincha bir ma’noli bo‘lib, paradoksal yoki istehzoli ma’nolarni yaratish uchun ishlatilishini ta’kidladi va postmodernizm an’anaviy ramzlarni qanday yo‘q qilishiga e’tiborni qaratdi va ularning o‘rnini barqarorlikni ta’kidlaydigan moslashuvchan tuzilmalar bilan almashtirdi ma’nosi.

Badiiy asardagi timsollarning rolini tushunishga Markaziy Osiyo mintaqasi adabiyotshunoslari ham hissa qo‘shgan, ular orasida N.I.Osmanova [2015] ramzlar o‘z kuchini madaniy xotiradan olishini, shuning uchun o‘quvchida intuitivlikni uyg‘otishini ta’kidlaydi. Har doim ham bo‘lmagan idrok mantiqiy fikrlashni talab qiladi; Gulchira Garipova [2016] fikricha, adabiyotdagi ramzlar ko‘pincha bevosita tasvirlab bo‘lmaydigan g‘oyalarni ifodalash uchun ishlatiladi, shuning uchun ular transsendental haqiqatlarga yo‘l-yo‘riq bo‘lib, muallifga voqelikning metafizik tomonlarini o‘rganish imkonini beradi, o‘quvchi esa hammuallifga aylanadi, chunki u sizning tajribangiz va idrokingizga asoslanib, belgilarni individual ma’nolar bilan to‘ldiradi; Ulug‘bek Turg‘unov [2020] Yevropa adabiyotida paydo bo‘lgan ramziylik zamonaviy O‘zbekiston adabiyotiga o‘z ta’sirini ko‘rsatib, ijodiy rang-baranglik va yangi badiiy

uslublarni joriy etishga xizmat qilganini ta’kidlaydi hamda an’anaviy timsollarning zamon ruhiga moslashgani, bugungi kunni aks ettirganini ta’kidlaydi.

Badiiy asarning ramziyligini tushunishga ma’lum tushunchalarni kiritgan ushbu sohadagi ba’zi tadqiqotchilarni alohida ta’kidlash kerak, masalan, Pavel Dmitrievich Minichkin [2016] o‘z tadqiqotida ma’naviyatni anglatuvchi «yo‘qolgan ramz» atamasini kiritgan. Vaqt o‘tishi bilan buzilgan, madaniyat taraqqiyotidagi uzluksizlik va uning janr xilma-xilligi yo‘q qilingan. Shuningdek, u badiiy adabiyotdagi timsol ma’nosi “semantik uchburchak” deb atalmish narsaga sig‘ishi mumkin degan fikrni davom ettiradi: 1) tasvir; 2) u belgilagan obyekt; 3) tasvirning ma’nosi. Badiiy adabiyotdagi ramz - obyektni belgilovchi va uning mohiyatini ifodalovchi tasvirdir [P.D. Minichkin, 2017].

Yana bir olim va mutafakkir Karl Gustav Yung [1993] san’at asarining ramziyligi haqida gapirar ekan, adabiyotshunoslik faniga ongsiz mavhum kollektiv tafakkur bilan bog‘liq bo‘lgan “arxetipik ma’no” atamasini kiritdi va u dominant bo‘lgan “prototip”ga ega. Bu g‘oya o‘z asarlarida Mariya Nikolaevna Gladtsinova [2015] tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, u “ramziy bog‘liqlik” matnning asosiy xususiyati ekanligini aytadi, bu sabab-oqibat, mantiqiy bog‘liqlikni emas, balki assotsiativ-majoziy bog‘liqlikni anglatadi.

Tadqiqot usullari

Badiiy asardagi simvolizm haqida chuqur tushunchaga ega bo‘lish uchun biz madaniy yondashuvdan, o‘quvchiga ta’sir qilishning estetik tahlilidan, yashirin ma’nolarni tushuntirishda talqin qilish usulidan va belgilarni tartibda guruhlarga bo‘lish, materialni tizimlashtirish va har bir belgi turining o‘ziga xos xususiyatlarini ta’kidlash uchun turkumlashtirish usulidan foydalandik.

Tahlil va natijalar

Badiiy asarda ramziylikning ko‘p qirrali rolini tadqiq etar ekanmiz, uning roman voqealar rivojini boyitishi, qahramonlar tasvirini chuqurlashtirishi va fantastika janrining ijtimoiy qadriyatlariga muhim g‘oyalarni yetkazishini ko‘rib chiqdik. G.A. Dolganing “O‘rta dunyo xudolari” [2023] fantastik romanidagi turli misollarni tahlil qilish orqali, biz o‘rganilayotgan asarning o‘quvchiga chuqur ta’sirini shakllantirishda ramzlarning ajralmas tabiatini aniqladik va ularni to‘rtta asosiy toifaga ajratdik:

1. “Tabiiy hodisalar” ramzlariga quyidagi asosiy obrazlar kiradi:

“Daryo” vaqt va tabiatning jilovlab bo‘lmas kuchi ramzi sifatida talqin etiladi. “Och hayvonning g‘azabi bilan” qirg‘oqqa yopiriladigan bahorgi toshqin tasviri tabiatning bo‘ysunmas qudratini ifodalaydi. Daryo qo‘rg‘onni vayron qilib, o‘zi bilan qadimiy buyumni olib ketishi – bu o‘tmish va hozirgi zamon o‘rtasidagi chegaralarni o‘chiradigan vaqt aylanishining ramzi bo‘lishi mumkin. Matnda tilga olingan marvarid daryo esa hayot oqimini, uzluksiz davom etadigan va o‘tmish unsurlarini o‘ziga singdirib boradigan tarixni anglatadi.

“Dashtdagi shamol” cheksizlik, tabiat kuchlari va mustaqillikka intilishning ramziga aylanadi. U qahramonlarning taqdir oldidagi kuch-qudrati va ojizligini namoyon etadi.

“Dashtdagi tun” sir-sinoat va noma’lumlikning, shuningdek, ezuvchi yolg‘izlikning timsoli hisoblanadi. Tansilu nafaqat jismonan, balki ruhan ham zulmat bilan o‘ralgan, yangi muhitda o‘zini begona his qiladi.

“Dashtdagi yo‘l” (ekspeditsiya borayotgan yo‘l) motivi bilim va o‘zlikni anglash sari yo‘lning majoziy ifodasi sanaladi. Cho‘l kengligi inson oldida ochilayotgan bepoyon imkoniyatlarni aks ettiradi.

“Yo‘ldagi chang” ramzi arxeologlarning yo‘lini ifodalaydi, bu o‘z maqsadlariga erishish uchun yengib o‘tish kerak bo‘lgan qiyinchiliklarning metaforasiga aylanadi. Qahramonlarni qoplagan chang ularning tarix bilan, o‘tmish bilan “birligi” ramzi bo‘lishi mumkin.

“Kechdan tonggacha o‘tish” umid va yangi hayotni anglatadi. Ayazgul g‘orga ko‘tarilish mobaynida, zulmatdan (noma’lumlikdan) yorug‘likka (Tansyluni ozod etish umidiga) boradi.

“O‘tov teshigidagi yulduz” ozodlikka umid va o‘tmish hayoti bilan aloqani anglatadi. Yolg‘iz yulduz Tansilaning qalbida hamon miltillab turgan umid yog‘dusiga ishora qiladi.

“Gulxan alangasi” hayot, an’ana va bayram ramzlari bo‘lib, qahramonning ichki dramasi bilan kontrastlashadi. Tashqi dunyo bayram qiladi, Tanzil-u esa inqiroz va xo‘rlikni boshdan kechiradi.

2. Kundalik hayotdagi turli «buyumlar» timsolida ifodalangan ramzlar:

“Tumor” taqdir va xotira ramzi sifatida. Qo‘rg‘ondan suv oqimi bilan yuvilgan qadimgi jangchining amuleti o‘tmish va bugungi kun o‘rtasidagi bog‘lovchi bo‘g‘inga aylanadi. Uning daryo, qarg‘a va ekskavator orqali bosib o‘tgan yo‘li o‘tmishning bugungi kunga ta’sirining tasodifiyligi va muqarrarligini ifodalaydi..

“Pichoq” ozodlik va tahqirlanishdan butunlay xalos bo‘lish ramziga aylanadi. O‘lmasning o‘ldirilishi nafaqat qasos harakati, balki shaxsni ezuvchi patriarxal tuzumga qarshi kurashning majoziy ifodasi hamdir.

“Marjon munchoqlar” vatanni himoya qilish va ona bilan bog‘liqlik ramzi hisoblanadi. Tansyluga berilgan munchoqlar onalik mehri, himoyasi va duosini anglatib, qizning joni va tanasini asrash uchun xizmat qiladi.

“Jangchilar jasadlari solingan qoplar” qasos va an’analarning beayovligini ifodalovchi ramzdir. Ular urf-odatlarni buzishning oqibatlarini gavdalantiradi, ularga rioya qilmaslik qanchalik shafqatsiz bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatib beradi.

Sima kuzatayotgan “soatning soniya mili” vaqtning shafqatsizligini va hayotning muhim lahzalariga ulgurishga bo‘lgan intilishni ta’kidlaydi..

3. “Hayvonlar” ramziy ma’noda quyidagi kontekstda ishlatilgan:

“Qarg‘a” sirlilik va bashorat timsoli sifatida. Tumorni yutib yuborgan qarg‘a qadimiy sir yoki kuchning ko‘chishini ifodalaydi. Mifologiyada qarg‘alar ko‘pincha taqdir xabarchilari yoki dunyolar orasidagi yo‘l ko‘rsatuvchilar bilan bog‘lanadi.

“Chopqir ot” obrazi erkinlik, kuch va itoatsizlik bilan uyg‘unlashadi, bu esa Simaning shahardagi siqilishi va shoshqaloqligiga zid keladi. “Qora yolli ot” Tansyluning an’analar va zo‘ravonlik asoratidan qutulishiga yordam berib, unga mustaqillik baxsh etadi..

4. «Mavhumlik obrazlar» quyidagi ma’nolarni anglatadi:

“Yerto‘la” qo‘rquv va noma’lumlik ramzi sifatida. Qizcha olib ketilayotgan yerto‘la ongsiz qo‘rquv, noma’lumlik va yashirin xavfni anglatadi. Qora cho‘yan qozonlar bu ramziylikni kuchaytiradi, bola idrokida “dahshat” sifatida namoyon bo‘ladi. Tovushlar, shamol va qizchani ta’qib qilayotgan “oq bulut” yerto‘laning mistik xususiyatini ta’kidlaydi, bu esa uni o‘tmish yoki narigi dunyoning ramziga aylantiradi.

“Oq bulut” – ruh yoki ochilmagan sirning ramzi. Qizchaning ortidan cho‘zilgan bulut qandaydir narigi dunyo – ruh, o‘tmish izi yoki tumor bilan bog‘liq sirli energiya bilan assotsiatsiyalanadi.

“Trolleybus” taqdir va imkoniyat ramzi. Simani deyarli chetlab o‘tgan, lekin nosozlik tufayli to‘xtab qolgan trolleybus o‘tkazib yuborilgan imkoniyatlarni anglatadi, ammo ularni yetarlicha qat'iyat bilan qo‘lga kiritish mumkin.

“Arxeologiya” ramzi o‘tmishni bilishni anglatadi. Simaning antik davrni o‘rganishga intilishi o‘tmish va bugun o‘rtasida ko‘prik bo‘lib, zamonaviy qizni qadimiy qahramonlar va ularning taqdirlari bilan birlashtiradi. Ustoz siymosidagi arxeolog qahramon, professor Kolesnichenkoning hikoyasi Simaning nafaqat tarixiy artefaktlarni, balki o‘z ildizlari va vazifalarini ham o‘rganishga intilishini uyg‘otadi..

“Shaman raqsi” va “jinlar bilan jang” har bir insonning ichidagi yaxshilik va yomonlik o‘rtasidagi kurashga, shuningdek, uyg‘unlik va muvozanatga bo‘lgan abadiy xohishga ishoradir.

“Doiralar va kvadratlar” – Sima tomonidan tasvirlangan rasm ramzi bo‘lib qadimiy dunyoqarash tushunchalarini, shuningdek, bilim orqali tartibsizlikni tartibga solish istagini aks ettiradi.

Shunday qilib, G.A.Dolganing “O‘rta dunyo xudolari” fantastik romani ramzlarining o‘ziga xos xususiyati shundaki, unda ko‘p qatlamli hikoya yaratish, unda tabiat, tarixiy va mifologik elementlar vaqt, xotira, o‘tmish va hozirgi kun o‘rtasidagi bog‘liqlik, shuningdek, insonning o‘z nazorati ostida bo‘lmagan kuchlar oldida zaifligi haqidagi g‘oyalarni yetkazish uchun bir-biri bilan chatishib ketadi.

Shunday qilib, G.A.Dolganing “O‘rta dunyo xudolari” fantastik romani ramzlarining o‘ziga xos xususiyati shundaki, romanda ko‘p qatlamli hikoya yaratish, unda tabiat, tarixiy va mifologik elementlar vaqt, xotira, o‘tmish va hozirgi kun o‘rtasidagi bog‘liqlik, shuningdek, insonning o‘z nazorati ostida bo‘lmagan kuchlar oldida zaifligi haqidagi g‘oyalarni yetkazish uchun bir-biri bilan chatishib ketadi.. Ramzlar orqali bosh qahramonlarning ichki dunyosi ochib beriladi, ularning orzu-umidlari, qo‘rquv va intilishlari ta’kidlanadi. Bundan tashqari, ramziy obrazlar orqali qahramonlarning ichki ziddiyatlari, tashqi va ichki dunyo qarama-qarshiligi, ayni paytda jamiyat asosini tashkil etuvchi, shaxsni bo‘g‘uvchi urf-odatlarga qarshi kurash ham ta’kidlanadi. Muallif qo‘llagan barcha ramzlar individuallikni universallik bilan, shaxsiylikni tarixiylik bilan, ichkilikni tashqilik bilan bog‘lab, bir necha darajada ishlaydi

Xulosa

Yuqoridagilardan xulosa qilish mumkinki, o‘rganilayotgan fantastik romanning matni timsollarga boy bo‘lib, u qahramonlarning orzu va voqelik o‘rtasidagi ichki kurashini, o‘tmish bilan aloqasini va kelajakka intilishini, abadiy erkinlik va mas’uliyat mavzusini ta’kidlaydi.

Biz ko‘rib chiqayotgan asarning ramziyligi tabiat hodisalari (m: daryo, shamol, dasht, yulduz), buyumlar (m: tumor, pichoq, munchoqlar), hayvonlar (m: qarg‘a, ot), mavhum tasvirlar (m: yerto‘la, oq bulut, shamanlarning raqsi) kabi timsol kategoriyalari orqali ifodalanadi. Bu unsurlar nafaqat badiiy asar matnini bezatibgina qolmay, balki chuqur ma’noga ega bo‘lib, zamon, xotira, taqdirning muqarrarligi, o‘tmish va bugun o‘rtasidagi bog‘liqlik mavzularini ochib beradi.

Qolaversa, ushbu badiiy matndagi ma’no va belgilarning tizim-tarmoq tashkil etilishi O‘rta Osiyo mintaqasi uchun nafaqat elita-madaniy (m: o‘tov = ishonch va osoyishtalik, marjon munchoqlar = ona mehri va marhamati) ma’nolarni ifodalaydi, shuningdek, jahon madaniyatining umumiy arxetipi deb ham ataladi (m: daryo = vaqt, qarg‘a = muammo xabarchisi).

Biz ko‘rib chiqayotgan badiiy asarning barcha timsollari bir-biri bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, matnni talqin qilish uchun boy palitrani yaratadi va asl til uchun ham, maqsadli til uchun ham chuqur mavzularni ochib beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Eco, U. (1984) Semiotica e filosofia del linguaggio. – Einaudi. – 328 p.
2. Feidelson, Ch. (1953) Symbolism and American literature. - University of Chicago Press. – 372 p.
3. Lewis, C. S. (1964) The Discarded Image: An Introduction to Medieval and Renaissance Literature. – Cambridge University Press. – 242 p.
4. Saussure, F. de (1922) Mémoire sur le système primitif des voyelles dans les langues indo-européennes. – Leipzig. – 268 p.
5. Stone J. (2017) The Institutions of Russian Modernism. Conceptualizing, Publishing and Reading Symbolism. – Evanston: Northwestern University Press. — 304 p.
6. Алексеев, А.В. (2016) Символическое значение слова в этимологии и истории русского языка // Вестник Брянского государственного университета. – № 3. – С. 107-112.
7. Веселовский, А.Н. (1979) Миф и символ // Русский фольклор: Вопросы теории фольклора. – Л. – Т. 19. – С. 186–199.
8. Гарипова, Г. (2016) Мировой литературный процесс XX1 века. // Литература Узбекистана. – С. 137-180. – URL:https://www.academia.edu/42210969
9. Гладцинова, М.Н. (2015) Архетипический смысл и символическая семантика // Вестник Череповецкого государственного университета. – №3. – С. 53-57.
10. Долгая, Г.А. (2023) Боги срединного мира: роман. – Издательские решения. – 244 с.

11. Медведева, А.В. (2008) Символическое значение слова. – Воронеж: Истоки. – 192 с.

12. Миничкин, П.Д. (2016) Актуализация символического капитала финно-угорского мира в современных культурных практиках Республики Мордовия: дисс. канд. культорологии. – Саранск. – 181 с.

13. Миничкин, П.Д. (2017) Слово как символ в художественной литературе. – URL: https://cyberleninka.ru/article/n/slovo-kak-simvol-v-hudozhestvennoy-literature/viewer

14. Нестеров, А.Ю. (2002) Литературный текст, читатель и символ: проблема символического моделирования эстетического объекта. – Самарский гос.ун-т. – 36 с.

15. Османова, Н.И. (2015) Слово как символ в традиционной культуре кыргызов // Мировоззрение населения Южной Сибири и Центральной Азии в исторической ретроспективе. – №8. – С.175-189.

16. Потебня, А.А. (1989) Слово и миф. – М. – 622 с.

17. Тургунов, У. (2020) Символизм в творчестве джадистов. // Молодой ученый. – № 20 (310). – С. 517-518. – URL: https://moluch.ru/archive/310/69996/

18. Юнг, К. Г. (1993) Психология бессознательного. – Минск. – URL: http://philosophy.ru/library/jung/pers_super.html

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 1-son)

FILOLOGIYA

PHILOLOGY

“BONU” ROMANIDA IJTIMOIY MUHIT, TARIXIY SHAXSLAR TALQINI

Mahliyo Xudoyberdiyeva Ilhomjonovna
Buxoro davlat universiteti
filologiya fakulteti talabasi
+99891 310 65 36

Annotatsiya: Ushbu maqolada iste’dodli ijodkor Iqbol Mirzoning o`zbek adabiyoti, nasrida epistoliyar shaklida yaratilgan “Bonu” romani haqida fikr yuritiladi. Romanda ayollar obraziga xos jihatlar, davr, muhit, ijtimoiy munosabatlar qalamga olingan va asardan olingan parchalar tahil etilgan. Romanda tasvirlangan Xoja Ubbon ziyoratgohining shifobaxshligi, hozirgi kunda ham muqaddas qadamjo ekanligi, Xoja Ubbon tarixiy shaxs ekanligi haqida tarixiy dalillar asosida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: Hozirgi adabiy jarayon, nasr, badiiy mahorat, badiiy tasvir vositalari, milliy ruh, tarixiy shaxs.

INTERPRETATION OF SOCIAL ENVIRONMENT, HISTORICAL PERSONS IN THE NOVEL “BONU”

Abstract: This article discusses the Uzbek literature of the talented writer Iqbal Mirza, the novel “Bonu” created in epistolary prose. In the novel, the characteristics of the image of women, period, environment, social relations are written and fragments taken from the work are included. Based on historical evidence, the healing properties of Khoja Ubban's pilgrimage site described in the novel, the fact that it is still a holy place, and the fact that Khoja Ubban is a historical person are discussed.

Key words: Current literary process, prose, artistic skill, means of artistic image, national spirit, historical figure.

ИНТЕРПРЕТАЦИЯ СОЦИАЛЬНОЙ СРЕДЫ, ИСТОРИЧЕСКИХ ЛИЦ В РОМАНЕ “БОНУ”

Аннотация: В данной статье рассматривается узбекская литература талантливого писателя Икбала Мирзы, роман “Бону”, созданный в эпистолярной прозе. В романе написаны характеристики образа женщины, периода, среды, общественных отношений и включены фрагменты, взятые из произведения. На основе исторических свидетельств обсуждаются описанные в романе целебные свойства места паломничества Ходжи

Уббана, то, что оно до сих пор является святым местом, а также то, что Ходжа Уббан является исторической личностью.

Ключевые слова: Современный литературный процесс, проза, художественное мастерство, средства художественного изображения, национальный дух, историческая личность.

KIRISH.

Adabiyot – xarakterlar yaratish san’ati. Har qanday san’atning mazmuni – voqelikdir. Binobarin, u xuddi voqelikning o‘zidek, bitmas-tuganmasdir. Bu bitmas-tuganmas mazmunni adabiyot alohida bir usulda ifoda etadi. Adabiyot “obrazli tafakkur”dir. Bu ta’rifni birinchi marotaba fanga olib kirgan Gegel adabiyotning obrazliligini mana bunday tushuntirib bergan edi: “Poetik tasvirni biz obrazli tasvir deb belgilay olamiz, chunki, u bizning ko‘z oldimizda mavhum mohiyat o‘rniga uning muayyan realligini qo‘yadi”

Badiiy adabiyotda inson obrazini to‘laqonli yaratish, uni o‘quvchi ko‘z oldida konkret jonlantirish uchun xizmat qiladigan qator vositalar mavjud. Bularga muallif xarakteristikasi, portret, badiiy psixologizm, personaj nutqi kabi badiiy unsurlar kiritish mumkin. Badiiy asarda lirik matnni singishtirib yuborish katta mahorat talab qiladi. Iqbol Mirzoning shoir sifatida tanigan va bilganimiz uchun “Bonu” romanida qo‘llangan she’riy misralar matn mohiyatini to‘laqonli angalash va ochish uchun juda ham o‘rinli ishlatilganligiga guvoh bo‘lamiz. Bu tasvirlar goh tarixiy shaxslar, goh zamondosh insonlar tilidan yangraydi.

Ijodkor bolaligi haqida eslab shunday deydi: “O‘qituvchilar oilasi bo‘lganidan, tabiiy, kitobga, adabiyotga alohida e’tibor qaratilardi. Esimda, beshinchida o‘qiyotganimda Sergey Yeseninning “Zamin darg‘asi” (Ustoz Erkin Vohidov tarjimalarida) kitobini yod olganim uchun dadam mukofot tariqasida Qo‘qon shahriga tomoshaga olib borgandi. O‘sha davrdagi vahimali hikoyalar ta’siridami, har qalay, xon O‘rdasi menga juda sovuq va omonat tuyulgan edi. Keyin mavlono Muqimiy uy muzeyiga kirib, tasodifan Charxiy domla bilan uchrashganimiz, u kishining ba’zi so‘zlari, jumladan, “she’r nonday tabarruk” deganlarini aniq-tiniq eslayman. Men ilk bor tirik shoir bilan yuzma-yuz turardim, hayajonim zo‘rligidan duduqlanib, gapirolmay qolganim, dadamning hijolat bo‘lib kulgani, keyin erkalatib, siz hammadan zo‘r shoir bo‘lasiz, deb peshonamdan o‘pgani, kaftining harorati ham yodimda.”

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR. Bolaligidanoq qalbida adabiyotga muhabbat kurtak otgan ijodkorning dastlabki she’riy to‘plami – “Yurakning shakli”, so‘ngra “Ko‘ngil”, „Seni sog‘inaman“, “Qo‘shiqlarim” singari she'riy to‘plamlari va „Zarb“ qissasi, “Bonu” romani chop etilgan. “Zarb” qissasida sportchilar hayoti yoritilgan bo‘lsa, 2016-yilda yaratgan “Bonu” romanida asosiy e’tibor undagi ayol obraziga, uning boshiga tushgan qiyinchiliklar-u musibatlarga qanday yechim topganligi, har qanday holatda ham iymoniga sobit turolganligiga qaratilgan va bugungi o‘zbek ayollari bilan asar qahramonlari solishtirilgan. Shuningdek, asarda tarixiy shaxslardan Xoja Ubbon, Xoja Huvaydo haqida atroflicha ma’lumot keltirib o‘tilgan. Bobosi Huvaydoning muxlisi bo‘lganligi uchun Bonu Huvaydoning

g‘azallaridan juda ko‘p bilar edi. Albatta, bu g‘azallarni vaziyatga mos, ayni o‘rnida qo‘llagan. Bu misralar asarning ta’sirchanligini nihoyatda oshirgan. Bu asardan ta’sirlanib kitobxonlar Bonuga atab she’rlar yozganlar va bu she’rlarni Iqbol Mirzoga yoki “Iqbol Mirzo” telegram kanaliga yuborishgan. Asarda Bonu tan olgandek mutolaa hayotining mazmuni ekanligi yaqqol namoyon bo‘ladi. Bobosi o‘lganida Bonuni bobosining hovlisidan chalg‘itish juda qiyin bo‘ladi. Shunda Bonu akasiga iltimos qilib “Huvaydo” ning kitobini bobosining uyidan oldirib keldiradi va shu bilan Bonu xayolan bobosi bilan gaplashadi. Bobosi o‘lgan paytlarida Huvaydodan shunday misralar keltiradi:

O‘limdan bexabar bo‘lma,
Bo‘lur nogoh sanga paydo,
Yaqongdan olsa qo‘ymas,
Aylasang sad bor vavaylo. [2; 9]

Asar davomida yuqorida ko‘rsatganimiz qahramon portretini chizishdagi o‘ziga xos usuldan yana ko‘p bor foydalaniladi. “Oradan bir oy o‘tar-o‘tmas Toshkentda chiqadigan rangli jurnal muqovasida ko‘ylagim va yuzim lov-lov yonib, kulib turgan suratim bosilib chiqdi. Hamma yoqda shov-shuv: “Nima deysan, o‘zimizning Bonuni Toshkentdayam tanisharkan, iltimos qilib suratga tushirishibdi”, “Chiroyli bo‘lsang shu-da”, “Chiroyi uchunmi yo a’lochiligi sababmi?”, “Uyammas, buyammas, dadasi Toshkentda o‘qigan-ku, tanishlarini ishga solganda...” [2; 9]

Konsultatsiyaga kirsam, o‘zaro suhbatlashib o‘tirgan muallimlar menga bir qarab, ko‘z uzolmay qolishdi.Ulardan biri– sochlari jingala,yoshroq domla: –Jurnalda rasmi chiqqan qizsiza?–debso‘radi. –Ha,–dedim sal tortinib. – Juda soz,– dedi qora to‘ridan kelgan to‘laroq o‘qituvchi,– bizda sizday qizlar o‘qishi kerak,ichki go‘zallik yaxshi, agar tashqi go‘zallik ham vobasta bo‘lsa,bu–a’lo!” [2; 10] Haqiqatda ham Bonu nihoyatda go‘zal qiz bo‘lib ulg‘ayadi. Ko‘rgan kishining aqli shoshar edi. Qosh-ko‘zlariga surma surtish shart emas edi. O‘rtancha opasining to‘yida hamma yasan-tusan, pardoz-andoz qilayotgan payt opasi Bonuning qosh-ko‘zlarining go‘zalligi uchun Chustiydan bayt o‘qiydi, Bonu uyalib uyga kirib ketadi.

Roman epistolyar usulda yozilgan. “Bonu” romani Bonuning yozuvchiga feysbukdan yuborgan maktublari tarzida boshlanadi. Asar qahramoni Bonu- Buxoro farzandi. “Hayotingni o‘zgartirgay bir odam va bir kalom, O‘shal inson sen o‘zingsan...Endi so‘zni top, tamom!”. Darhaqiqat, yozuvchi asar mohiyatiga singdirmoqchi bo‘lgan asosiy g‘oya bu-Matonat! Asarda orzulari olam- Bonu chalingan pes kasali uning hayotini zaharladi, biroq uning bardoshini bukolmadi. Romanda Bonu otasing o‘limidan so‘ng kasallikka chalinadi. U iloji boricha odamlardan yashirinib yurishga harakat qiladi. O‘qish boshlangach, 3-kurs talabalarini o‘n kundan so‘ng Qoravulbozorga paxtaga olib chiqishadi. Terim paytida Bonuning paxta chanog‘i tilgan joylari oqarib ketadi. Bora-bora dog‘lar yoyilib a’zoyi badaniga laxtak-laxtak bo‘lib tarqaladi... Bonuning bu kasalligidan xabar topgan dekan do‘xtirga ko‘rsatishni maslahat beradi. Kasallik avj olgan sari Bonu odamovi bo‘lib qoladi. Dekandan iltimos qilib shtabda oshpazlik qiladi. Shu yo‘l bilan biroz bo‘lsada odamlar ko‘zidan xolis bo‘ladi. Lekin bu hol ham uzoqqa

cho‘zilmaydi. Yuqori kurs talabari, ayniqsa, ilgari sevgi izhor qilib, rad javobini olgan Ahad degan bola “Bu pishirgan ovqatni biz yemaymiz, ta’bimiz tortmaydi”, deb janjal qiladi-yu, yana tinchi buziladi.Ertasi kunidan o‘z ixtiyori bilan paxta dalasiga chiqib ketadi...

Bemorni ko‘rganda hamma tabib, bemorga ko‘ringanda har kim tabib, deganlariday, har kim har xil maslahat beradi. Shunday maslahatgo‘ylardan biri Gulfom xola Qizilqumning odamtopmas bir yerida Xo‘ja Ubbon degan avliyoning mozori bor ekanligi, o‘sha dargohda qirq kun chilla o‘tirib, muolajasini olgan kishi qirq yillik dard-u g‘uboridan forig‘ bo‘lishi haqida aytadi. Xolaning bu taklifi go‘yo najot yo‘li bo‘lib ko‘rinadi. Qirq kunda tuzalib kelaman, deb qat’iy ishonadi va onasi bilan birgalikda safarga chiqishadi.

...Bu mo‘jizakor makon cho‘li biyobonning naqd o‘rtasida voqe' bo‘lib, masjidga o‘shab qurilgan xonaqolar, katta-katta, keng va uzun ayvonlardan iborat edi. Shifotalablar nihoyatda ko‘p: chollar, kampirlar, erkaklar, ayollar, yigitlar, qizlar, yosh bolalar-hamma toifa bor...Biroviga qarab angladimki, mening dardim xolva, boshqasiga boqib, o‘z holimga rahmim keldi...

Quduqni xosiyatli deyishar, uning yoniga savobtalablar un, guruch, moy, tuz kabi zaruratlarni tashlab ketishar, birov u insonlarni ko‘rsa ham ko‘rmaganga olishi urf ekan. Juma kunlari quduq tubida oy va yulduz yorqin ko‘rinar, kim bunga guvoh bo‘lib niyatini aytsa, orzusi ushaladi degan gapni ham eshitgandim. Shundan beri quduqqa ixlos uyg‘onib, bor ilinjim shunga bog‘ langan, juma bo‘lsayam quduqqa bosh suqib tilak aytardim. Mo‘jiza ro‘y berib sihat topsamu odamzod yashamaydigan biror ovloqqa tushib, umrimning oxirigacha o‘sha yerda yashab qolishni chin dildan istardim. Iskandarning sartaroshi quduqqa sirini aytsa, men istak-orzularimni unga to‘kardim. Cho‘kayotgan odam xasga ham yopishadi-ku, to‘g‘rimi?” [2; 127]

Asarda orzulari olam Bonuning dardi bedavo pes kasaliga chalinganligi uning hayotini tubdan zaharladi, orzularini so`ndirdi, muhabbatidan, atrofdagilardan ayirdi, biroq uning bardoshini, umidini bukolmadi. Kech-yu kunduz Xoja Ubbon dargohida dardiga davo so‘raydi, shafoat tilaydi. Quduq boshidagi bobo Xo‘ja Ubbon haqidagi rivoyatni aytib beradi.Balki bu tarixiy haqiqatdir, balki afsona .

...Bu xudoning do‘sti kofirlarga qarshi jihod e’lon qilgan, qanchadan-qancha g‘ayridinlarni iymon qopqasidan ichksri tortgan komil zot edi. Dushmandan chiqqan do‘stlar-u do‘stdan chiqqan dushmanlar har qancha hiyla qo‘llamasin, nayrang qilmasin, avliyoning bir tukiga ham zarar yetkaza olmas, bilaks, ularning kasofati o‘zlariga urib, ko‘r-u shol, kar-u lol bo‘lib, Arsh Egasi qahriga giriftor bo‘lardi. Avliyoga faqat bir vaziyatda- joynamoz ustidagina-ruhi Makkatullohda namoz o‘qigani ketib, jismi himoyasiz qolgandagina shikast yetkazish mumkin ekan. Bu sirdan xabardor xotini g‘animga bir tizim sadaf marjon evaziga boshpanohini sotibdi. Dushmanlari namoz vaqtini poylab, bostirib kirib, sajdaga ketgan qutlug‘ boshga qilich sermashibdi. Qibla tomonga dumalab borayotgan boshdan qayoqqa ketayapsan, deb so‘rashsa, “Ka’batullohga, do‘stimning uyiga ketyapman”, deb javob berarkan. Avliyoning boshsiz tanasini olib kelib shu joyga dafn etmoqchi bo‘lishganida ergashib kelgan oq tulpori manavi

quduq o‘rnida bosh egib, ko‘zyosh to‘kaveribdi-to‘kaveribdi. Shu zayl quduq bino bo‘lgan ekan. [2; 199]

Hozirda ham bu muqaddas manzil juda ham tabarruk. Ziyoratgohga asr-asrlardan beri kasallar kelib, sidqidildan Alloh taolodan dardiga shifo so‘raydi, albatta, Alloh ularning dardiga shifo beradi. Ushbu dargohdagi quduq suvi g‘oyatda shifobaxshdir. Yil o‘n ikki oy ushbu ziyoratgohda turli irqqa mansub bemorlar kelib ma'lum muddat shu yerda yashashadi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA. Xoja Ubbon maqbarasi haqida bizgacha kam ma'lumotlar yetib kelgan. Hazrati Xoja Ubbon vafoy yili 724. Buxoro shahridan Gazli tomon yigirma to‘rt kilometr borib, chap tomon burilsangiz va yana o‘n kilometr yurgandan so‘ng cho‘lning o‘rtasida avliyo hazrat Xoja Ubbon ziyoratgohlari namoyon bo‘ladi.Xo‘ja Ubbon to‘g‘risida akademik Abdulahad Muhammadjonov o‘zining „Quyi Zarafshon sug‘orilish tarixi“ asarida ma’lumotlar keltirgan. Xo‘ja Ubbon yodgorligida milod boshlarida qo‘rg‘on istehkomlari va quduq bo‘lgan[4]. Xo‘ja Ubbon ayrim manbalarda "obbon" tarzida uchraydi.Quduq suvi sho‘r va achchiq bo‘lib, teri kasalliklariga davo bo‘lgan. Ko‘plab insonlar ziyoratgohga kelib, ixlos qilib shu joyda vaqtinchalik yashagan va suvdan ichgan va cho‘milgan[4]. XIV–XV asrlardan Xo‘ja Ubbon ziyoratgoh sifatida shakllangan. Vaqtlar o‘tib, yodgorliklar atrofida sag‘ana qurilgan va tug‘ ko‘tarilgan. Arxeologlar izlanishlariga ko‘ra ushbu hududda miloddan avval 3-4 mingyillikda ovchilar qarorgohi bo‘lgani, insonlar chorvachilik bilan shug‘ullanib chorva mollari boqilganligini bilish mumkin[5].[4; 88] Xo‘ja Ubbon „suv homiysi“ va „suv qo‘riqchisi“ ma’nosi bildiradi. Rivoyat va afsonalarga ko‘ra, Xo‘ja Ubbon Amudaryo kema va qayiqchilarining suv vakili va piri, yomg‘ir yog‘diradigan avliyo bo‘lgan. Shu sababli Buxoroda joylashgan suvsiz joylar va ba’zi qishloqlar Oqshih bobo, Sulton Xubbi, Ubbon, Hazrat Xubbin kabi atamalar bilan atalgan. Xo‘ja Ubbon qadamjosi bir nechta obidalardan iborat majmua bo‘lgan. Ziyoratgoh qudug‘i chortoq uslubida pishiq g‘ishtdan, yonida xonaqoh va tug‘lar mavjud. 1964-yilda Xoja Ubbon ziyoratgohidagi quduq va me’moriy obida buzib yuborilgan. Ammo ko‘p vaqt o‘tmay, u yerda yangi quduq ochilib, yangi binolar qurilgan, sag‘analar ta’mirlangan.

Bu tarixiy shaxs haqida boshqa manbalarda ham ma'lumot mavjud. Masalan, Mavlono Boborahim Mashrab hazratlari ham o‘zlarining muxammaslarida:

Qum ichinda Xojayi Ubondin izlab davo,
Kecha yotib erta qilsak orzuyi Nur Ato,
G‘o‘ta ursak mohi yanglig‘ chashmayi rahmat aro,
Tun borib, tog‘ uzra yotib, fajrini qilsak ado,
G‘o‘ta aylab Nuhdek sayri bixor istar ko‘ngul.[5; 312]

deya yuqoridagi fikrimizning ayni dalilini keltirganlar desak aslo mubolag‘a bo‘lmaydi. “Xojayi O‘bondin izlab davo” deb turli xil joylardan shifotalablarning necha asrlardan buyon kelishini, quduq suvi shifobaxsh ekanligini satrlarda tarannum etadi.Shoir Xoja Ubbonga alohida ehtirom ko‘rsatadi.

Roman qahramoni Bonu bolaligidanoq Alloh kalomi va hadisi sharifni tinglab, Xo‘jamnazar Huvaydo g‘ azallarini yodlab, ularning sehr-u jozibasidan bahramand bo‘lgan ma'rifatli qiz.Otasidan, bobosidan judo bo‘lgach, dard kelsa qo‘sha-qo‘sha kelar deganlariday uning hayotiga ham oq pes kasali dard ustiga chipqon bo‘lib raxna soladi. Ilojsiz qolgan Bonu ko‘ngilda dard ko‘p, aytarga bir mahram topolmasman, ketarg‘ a bosh olib cho‘llar aro hamdam topolmasman deya kajraftor falak norasosozligidan cheklanib, Xoja Ubbon hazratlari dargohidan dardiga davo izlaydi. Zero, Alloh Taolo ham o‘z oyatlarida men sabr qilguvchilar bilanman deydi!

XULOSA. Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, inson bolasining boshiga tushadigan musibatli kunlarga sabr qilishi, o‘zligini yo‘qotmasligi aks ettiriladi. Yomg‘ iri yog‘ ganda pana qilguvchi aqalli bironta suynachig‘ ing qolmaganda ham, eng yaxshi ko‘rgan insonlaring sendan yuz o‘girganda ham, hayoting zulmatga cho‘mib borayotga qalbingda so‘nggi umid shu’lasini sochuvchi Alloh do‘sti-Xoja Ubbondek avliyolarning borligi bizga berilgan katta boylik elanligini anglaymiz. Ijtimoiy munosabatlarning moddiylik bilan bog‘ liq bo‘lib qolmasligi ,hayotda yaxshi insonlarning ham borligi ular ma’naviy boylik ekanligi Bonuning taqdir sinovlari orqali ochib beriladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.

1.http://iqbol-mirzo.narod.ru>html

2. Iqbol Mirzo. Bonu. – Toshkent: Sharq, 2020. – bet 189

3.Rajabov.Q, Muhammadjonova L. Romitan tumani tarixi. – Toshkent: Tafakkur, 2015. – bet 64

4. Bahromov Q, Shodiyeva N. Buxoro tarixiy obidalari geografiyasi. – Buxoro: Durdona, 2020. – bet 129

5. Boborahim Mashrab. Devon. – Toshkent: Adabiyot uchqunlari, 2010. – bet 422

6. Иқбол Мирзо. Бону. Учинчи жилд. Роман ва ҳикоялар. – Тошкаент: Шарқ НМАК, 2020. – bet 98

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 1-son)

FILOLOGIYA

PHILOLOGY

INTERNET DISKURSDAGI IQTISODIY NEOLOGIZMLARNING MORFOLOGIK JARAYONLARI

Irgasheva Shoxida Sadriddinovna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
azizshahzoda82@gmail.com +998909657295
ORCID: 0000-0003-4427-032

Annotatsiya: Ushbu maqolada morfologik jarayonlar va neologizmlarni yaratishda qo‘llaniladigan turli metodlar tahlil qilingan. Yangi so‘zlar va atamalar, ayniqsa texnologiya, iqtisodiyot va ijtimoiy tarmoqlardagi o‘zgarishlarga javoban, doimiy ravishda paydo bo‘lmoqda. Maqolada morfologik jarayonlar orqali yaratilgan neologizmlar tahlil qilinadi. Shuningdek, neologizmlarning global muloqotdagi roli, internet diskursi bu jarayonlarni qanday tezlashtirishi va tilning o‘zgarishlariga qanday hissa qo‘shishi ko‘rib chiqiladi. Maqola, yangi so‘zlarni yaratish va ulardan samarali foydalanishning tilshunoslik, iqtisodiy va ijtimoiy nuqtai nazardan ahamiyatini ta’kidlaydi.

Kalit so‘zlar: Neologizm, morfologiya, qisqartma, akronim, o‘zlashma, yangi so‘zlar, ijtimoiy tarmoqlar, texnologiya, kommunikatsiya, iqtisodiyot, morfologik jarayonlar.

MORPHOLOGICAL PROCESSES OF ECONOMIC NEOLOGISMS IN INTERNET DISCOURSE

Abstract: This article analyzes various methods used in the formation of neologisms and morphological processes. New words and terms continuously emerge in response to changes, particularly in technology, economics, and social networks. The article examines neologisms created through morphological processes. Additionally, it explores the role of neologisms in global communication, how internet discourse accelerates these processes, and their contribution to linguistic evolution. The article highlights the linguistic, economic, and social significance of creating and effectively using new words.

Keywords: Neologism, morphology, abbreviation, acronym, borrowing, new words, social networks, technology, communication, economics, morphological processes.

KIRISH.

Bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlar va texnologiyalar yordamida odamlar o‘rtasidagi muloqot, geografik masofalarga qaramay osonlashib va yanada qulay bo‘lib bormoqda. Muloqot jarayonida so‘z boyliklaridan foydalaniladi va ba’zi yangi so‘zlar yoki atamalar hatto

rasmiy ravishda lug’atlarda qayd etilmagan. Yangi shakllangan so‘zlar turli jarayonlarga asoslanadi va bu jarayonlar morfologik jarayonlar deb ataladi. Neologizmlar tuzilishi jihatidan mavjud ingliz tilidagi lug’atlardagi so‘zlardan sezilarli darajada farq qiladi. Murrayga ko‘ra, ko‘plab morfologik jarayonlar, ayniqsa ingliz tilidagi muloqotlar uchun yangi so‘zlarni yaratishda moslashtirilgan bo‘lib, o‘z ichiga qisqartma, akronim, qo‘shilish, hosil qilish va o‘zlashgan so‘zlarni oladi [3,58]. Foydalanuvchilarning tez va qiziqarli muloqot qilish uchun yaratuvchanligi til ritmi va so‘zlarning o‘zgarishini tezlashtirdi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA. “Neologizm” atamasi ikki alohida so‘zning birikmasidan yunoncha *neo* (yangi) va *logos* (so‘z) tashkil topgan. Shunday qilib, *neologizm* ikki atamaning birlashuvi sifatida “yangi ma’no anglatadigan yangi so‘z” degan ma’noni bildiradi. Bu yaqinda biror shaxs, nashr, davr yoki voqea-hodisa tomonidan shakllantirilgan yangi so‘z yoki ibora bo‘lib, ko‘pchilik tomonidan qo‘llaniladi [4,80].

Neologizmlar turli usullar bilan yasaladi [4,81]. Neologizmlar turli so‘z tuzilmalarga ega bo‘lib, so‘zlarni strukturaviy jihatdan shakllantirish uchun turli jarayonlar qo‘llaniladi. Bu jarayonlar **morfologik jarayonlar** deb ataladi. Ba’zi neologizmlar mutlaqo yangi leksik birliklarga asoslanib shakllantiriladi, ba’zilari esa mavjud va o‘rnatilgan so‘zlarga muvofiq moslashtirilgan bo‘ladi. Yangi so‘zlarni ixtiro qilish asosan mavjud so‘zlar orqali nomlashning ilojisi bo‘lmagan narsa (bu ot, fe’l, sifat yoki boshqa bo‘lishi mumkin) uchun yaratiladi.

Biroq, hozirgi globalizatsiyalashgan davrda, texnologiya insonlarni dunyo bo‘ylab oson bog‘lay olish qobiliyatiga ega bo‘lgani sababli, neologizmlarning roli o‘zgarib, yangi avlodning ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan bo‘lishi mumkin [1,14984]. Ijtimoiy tarmoqlar odamlar o‘rtasida muloqot qilish uchun eng yaxshi vositalardan biriga aylangan va yosh avlodlar ushbu platformalarni ishlatishga moyil. Shu sababli, neologizmlarni rivojlantirishga asosan internet diskursi katta hissa qo‘shmoqda [2,116].

Morfologiya tilshunoslik sohasida so‘z tuzilishini o‘rganadigan fan hisoblanadi. Bu til ichida yoki tildan tashqarida so‘z hosil qilish jarayonini o‘rganishdir. So‘zlar sintaksisning eng kichik birliklari sifatida qabul qilingan bo‘lsa-da, aksariyat tillarda so‘zlar bir-biriga ma’lum qoidalarga asoslangan holda bog‘lanadi [5,120]. Har bir holatda gapiruvchi tomonidan tushunilgan qoidalar so‘zlarning kichik birliklardan qanday shakllanishi va bu kichik birliklarning nutqda yoki yozma shaklda qanday o‘zaro ta’sir qilishi bo‘yicha maxsus andozalarni aks ettiradi.

Morfema tilning eng kichik ma’noli birligi bo‘lganligi sababli grammatik funktsiyaning ham eng kichik birligi hisoblanadi. Morfema o‘z-o‘zidan mavjud bo‘lishi mumkin yoki ba’zan so‘z hosil qilish uchun kamida yana bir morfema bilan birlashishi kerak [1,14988]. Shu sababli, morfologiya har qanday tilda neologizmlarni yaratishning eng asosiy jarayoni hisoblanadi va muhim ahamiyatga ega.

NATIJA VA MUHOKAMALAR. Neologizmlarni yaratishda foydalaniladigan ma’lum mexanizmlar mavjud. Masalan, neologizmlar so‘z hosil qilish, qayta shakllantirish, qo‘shish, konversiya, o’zlashmalar, qisqartmalar, so‘z kesish, akronimlar va onomatopeya (tovush

taqlidiga asoslangan so‘zlar) kabi jarayonlar orqali yaratilgan bo‘lishi mumkin. Shunga qaramay, bir tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, neologizmlarni rivojlantirishda eng ko‘p qo‘llaniladigan jarayonlar mavjud so‘zlarni qisqartiruvchi usullardir, masalan, so‘z kesish, qisqartmalar va akronimlar [2,130]. Murray esa o‘n bir xil morfologik jarayonni ajratib ko‘rsatgan, ular: affiksatsiya (qo‘shimcha qo‘shish), qo‘shma so’zlar, akronimlar, aralashma so’zlar, qisqartmalar, so‘z kesish, konversiya, takrorlash, onomatopeya, antonomaziya (biror narsa yoki shaxsni xos ismi bilan atash), va o’zlashmalar. 1-jadvalda internet diskursidagi iqtisodiy neologizmlarni yasalish jarayoni turlari umumlashtirilgan.

1-JADVAL

MORFOLOGIK JARAYON VA UNING TA’RIFI

MORFOLOGIK JARAYON	TA’RIFI
Qo‘shish (Compounding)	Bu jarayon ikki yoki undan ortiq o‘zak so‘zlar yoki erkin morfemalar birikib, yangi so‘z hosil qilishidir. Iqtisodiy neologizmlar sohasida bu jarayon orqali iqtisodiyot bilan bog‘liq yangi tushuncha yoki atamalarni ifodalovchi so‘zlar yaratilisahi, masalan, ***Crowd*** **(ommaviy) +** ***funding*** **(mablag‘ yig‘ish)** Loyihani moliyalashtirish uchun internet platformasi orqali ko‘pchilikdan mablag‘ yig‘ish jarayoni. ***Cash-strapped London council starts crowdfunding drive to pay for green upgrades.***[121]
Takrorlash (Reduplication)	Erkin morfemaning takrorlanishi yoki nusxalanishi orqali yangi so‘z hosil qilish jarayoni. Takrorlashning bir necha turi mavjud. **Aniq takrorlash** — butun morfemaning hech qanday o‘zgarishsiz takrorlanishi, masalan, ***Bye-bye;*** Brending yoki marketing materiallarida hazil yoki norasmiy tarzda ishlatilishi mumkin. ***Knock-knock;*** Marketingda yangi yoki kutilmagan narsani o‘ynoqi tarzda taqdim etish uchun ishlatiladigan ibora. **Qofiyali takrorlash** — morfemaning birinchi qismining undoshlarida o‘zgarishlar bilan qisman takrorlanishi, masalan, ***Super-duper;*** Reklamada mahsulotning ajoyib sifati yoki foydalarini ta'kidlash uchun ishlatiladi. ***Honestly, you’ll look like you’ve been doing it for years and your feed will look super-duper-pro.***[122] ***Nitty-gritty;*** Biznes rejaning asosiy elementlarini, moliyaviy hisobotni yoki kelishuvdagi muhim tafsilotlarni tasvirlash uchun ishlatiladi. **Unlilarni takrorlash** — morfemaning unlilarida o‘zgarishlar bilan qisman takrorlanishi, masalan, ***Mish-mash;*** Diqqat yoki yo‘naltirishdan mahrum

[121] https://www.theguardian.com/business/2024/feb/28/cash-strapped-london-council-starts-crowdfunding-drive-to-pay-for-green-upgrades

[122] https://www.theguardian.com/guardian-masterclasses/guardian-masterclass-blog/2020/jul/30/how-to-create-an-instagram-account-for-your-business-eva-poppy-loves-london-blog-guide-social-media

	bo‘lgan biznes strategiyasi yoki mahsulotni tasvirlaydi. ***Zig-zag;*** O‘zgaruvchan bozorlarni, noma'lum biznes strategiyalarini yoki notekis tendentsiyalarni tasvirlash uchun ishlatiladi.
O’zlashmalar (Borrowings)	Bir tildan olingan so‘zlarning boshqa tilda fonologik va imlo o‘zgarishlar bilan yoki ularsiz qo‘llanilishi jarayoni. Misol uchun, *Déjà vu* fransuz tilidan olingan so‘z bo‘lib, tanish yoki oldindan taxmin qilingan bozor tendentsiyalari yoki biznes strategiyalarining takrorlanishini anglatadi. ***Tariff*** italyancha *tariffa* so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, odatda xalqaro savdoni muhokama qilishda qo‘llanadigan, import yoki eksportga solinadigan soliqlar yoki bojxona yig‘imlarini anglatadi. ***Biden announces 100% tariff on Chinese-made electric vehicles.***[123]
Qo‘shimcha qo‘shish **(Affixation)**	Morfemalarning birikishi jarayoni hisoblanib, bir necha turdagi affiksatsiya mavjud: **Prefiksatsiya** — *bog‘langan morfema tomonidan erkin morfemadan oldin oldingi o‘rinda biriktirilgan prefiks yoki old qo‘shimcha qo‘shish, masalan, Repost* **(re- + post)** Ushbu atama raqamli marketing va ijtimoiy media strategiyalarida kontentni bir necha marta ulashishni rag‘batlantirish uchun qo‘llaniladi. ***These include automatically applying previous ratings to new attempts to repost the same claim.***[124] *Prepay* **(pre- + pay)** Odatda iste’molchilar moliyasi va obuna xizmatlarida ishlatiladi. **Suffiksatsiya** — bog‘langan morfema erkin morfemadan keyin post o‘rnida kelgan qo‘shimcha, masalan, *Bulkers* **(bulk + -ers)** Ulgurji savdo, logistika yoki yuk tashish kabi sohalarda ishlatiladi. ***Tokenization*** **(token+-ization)** Raqamli aktivlar va blokcheyn asosidagi bozorlarga oid muhokamalarda ishlatiladi. ***Tokenization lets you digitally represent asset ownership for any tangible or intangible asset — stocks or bonds, cash or cryptocurrency, data sets or loyalty points — on a blockchain.***[125] **Konfiksatsiya** – bog‘langan morfema erkin morfema oldidan ham, keyingi holatda ham sodir bo‘ladigan konfiks yoki aylana fiksatsiyasi, so‘zga old va keyin qo‘shiladigan qo‘shimchalar jarayoni masalan, ***Neo-economics*** **(neo+economy+ics)** An'anaviy iqtisodiy nazariyalarga zamonaviy yoki qayta talqin qilingan yondashuv, ko‘pincha raqamli yoki global tendensiyalar ta’sirida shakllanadi.

[123] https://www.theguardian.com/business/article/2024/may/14/joe-biden-tariff-chinese-made-electric-vehicles

[124] https://www.theguardian.com/technology/2019/jul/30/charity-urges-facebook-to-extend-fact-checking-to-instagram?CMP=gu_com

[125] https://www.pwc.com/us/en/tech-effect/emerging-tech/tokenization-in-financial-services.html

	Infiksatsiya — bog‘langan morfemaning erkin morfemaning ichida joylashishi, odatda birinchi undosh yoki birinchi bo‘g‘in ichida bo‘lishi, masalan, *Fintech* **(fin + -tech)** “finance” and “technology”, so‘zlaridan olingan bo’lib, quyidagi ma’noni beradi. Texnologiya asosidagi moliyaviy xizmatlar, raqamli banking va blokcheyn haqidagi muhokamalarda ishlatiladi. *The Wall Street Journal* ***profiles Michael Saylor, founder of MicroStrategy, and his significant investments in Bitcoin, illustrating the financial strategies within the fintech industry.***[126] **Superfiksatsiya** – ohang yoki urg'u kabi yuqori segmentli affiks tomonidan erkin morfema yoki asosiy so‘zning morfemik holatini o‘zgartirish uchun ishlatiladi, masalan, *Contract* **(noun)** va *Contract* **(verb)** Shartnomalar va muzokaralar asosiy ahamiyatga ega bo‘lgan huquqiy va biznes kontekstlarda keng qo‘llaniladi.
Konversiya **(Conversion)**	So‘zning morfemik holatining o‘zgarishi jarayonidir, bunda so‘zning shakliga hech qanday aniq qo‘shimcha qo‘shilmaydi, masalan, ***To Brand - fe’l, Brand- ot***. Mahsulot, xizmat yoki shaxsni ma'lum bir brend yoki shaxsiyat sifatida ilgari surish yoki sotish.
Qisqartirmalar **(Abbreviations)**	Butun so‘z yoki iboralar o‘rniga ishlatiladigan yozma so‘z yoki iboraning qisqartirilgan shakli. ***CEO***, (Chief Executive Officer) ***IPO*** (Initial Public Offering), ***B2B*** (Business to Business). ***This piece offers insights into creating a more human-centric approach in B2B interactions, emphasizing the need for personalized experiences to meet customer expectations.***[127]
Akronimlar	Sarlavhada birlashtirilgan barcha so‘zlar har bir so‘zning faqat bosh harflari yoki bir necha birinchi harflarigacha qisqartiriladi, ***IMF*** (International Monetary Fund), ***MNC*** (Multinational Corporation), ***CRM*** (Customer Relationship Management) ***It is a first-of-its-kind Gen AI geared towards customer relations management (CRM), supercharging the work of sales teams and customer service people around the world.***[128]
So‘z kesish **(Clipping)**	Ko‘p bo‘g‘inli so‘z qisqartirilish jarayoni bo‘lib, bunda bir yoki bir nechta bo‘g‘inlar olib tashlanadi. ***Corp*** (**Corporation**), ***Ad*** (**Advertisement**), ***Divi*** (**Dividend**).
Aralashma **(Blending)**	Ikki yoki undan ortiq morfemalarning kamida bittasi qisqartirilgandan keyin yoki ikkalasi orasidagi bo‘g‘inlarning bir qismi qo‘shilganidan keyin

[126] https://www.wsj.com/finance/currencies/michael-saylor-microstrategy-founder-bitcoin-64afda39
[127] https://partners.wsj.com/sap/experience-management-in-action/how-to-create-an-outstanding-b2b-customer-experience/
[128] https://time.com/7012736/silvio-savarese/

	birikish jarayoni. ***Smarketing*** **(Sales + Marketing),** ***Infomercial*** **(Information + Commercial).**
Onomatopeya **(Onomatopoeia)**	Bu morfema o‘z ma’nosiga taalluqli tovushlarni ifodalaydi. ***Boom*** – Tezkor iqtisodiy o‘sish yoki farovonlik davri. ***Buzzword*** – Trendlarga mos yoki mashhur atama, odatda biznes yoki marketingda ishlatiladi va ortiqcha qo‘llanishi tufayli ma’nosini yo‘qotishi mumkin.

XULOSA. Morfologiya tilshunoslikda so‘z tuzilishini o‘rganadigan asosiy fan bo‘lib, neologizmlarni yaratish jarayonida muhim rol o‘ynaydi. Yangi so‘zlar yoki atamalar, ayniqsa globalizatsiyalashgan dunyoda, muloqotning samarali va tezkor bo‘lishi uchun doimiy ravishda ishlab chiqilmoqda. Internet va ijtimoiy tarmoqlar esa bu jarayonni yanada tezlashtirib, yangi so‘zlarni keng tarqatishda katta hissa qo‘shmoqda. Neologizmlar, xususan, qisqartmalar, akronimlar, qo‘shilishlar, konversiyalar va o‘zlashmalar kabi turli morfologik jarayonlar yordamida yaratiladi. Bu jarayonlar orqali tilning doimiy o‘zgarib borishiga, so‘z boyligining kengayishiga va muloqotning yanada samarali bo‘lishiga erishiladi.

Yangi so‘zlar yaratishda eng ko‘p qo‘llaniladigan jarayonlar qisqartirish (so‘z kesish, qisqartmalar, akronimlar) va o‘zlashmalar bo‘lib, bu jarayonlar muloqotning osonlashishiga va tushunarli bo‘lishiga yordam beradi. Neologizmlar ko‘pincha zamonaviy iqtisodiyot, texnologiya va marketing sohalarida qo‘llaniladi, bu esa ularni global miqyosda foydalanish uchun yanada ahamiyatli qiladi. Shuningdek, morfologik jarayonlarning keng turi mavjud bo‘lib, ular har bir tilning o‘ziga xos xususiyatlari va muloqot ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan.

Neologizmlar nafaqat til boyligini kengaytiradi, balki zamonaviy jamiyatdagi o‘zgarishlarga moslashishga, yangi yo’nalishlar va texnologiyalarni tushunishga yordam beradi. Tildagi o‘zgarishlar va yangi so‘zlarning shakllanishi, ayniqsa, iqtisodiy, ijtimoiy va texnologik rivojlanishlar bilan chambarchas bog‘liq bo‘ladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Devlin, J. T., Jamison, H. L., Matthews, P. M., & Gonnerman, L. M. (2004). Morphology and the internal structure of words. In *Proceedings of the National Academy of sciences of the United States of America* (Vol. 101, pp. 14984–14988).

2. Lehrer, A. (2007). “Blendalicious.” In M. Judith. (ed.). Lexical Creativity, Texts and Contexts. Philadelphia: John Benjamins Publishing, 115-134.

3. Murray, T. E. (1995). The Structure of English: Phonetics, Phonology, Morphology. Massachusetts:Allyn and Bacon.

4. Peterson, C. M., & Ray, C. M. (2013). Andragogy and Metagogy: The evolution of neologisms. Journal of Adult Education, 42(2), 80-85.

5. Yule, G. (2010). *Language and Economy: The Impact of Neologisms on Contemporary Markets*. Cambridge University Press.

6. https://www.theguardian.com/business/2024/feb/28/cash-strapped-london-council-starts-crowdfunding-drive-to-pay-for-green-upgrades

7. https://www.theguardian.com/guardian-masterclasses/guardian-masterclass-blog/2020/jul/30/how-to-create-an-instagram-account-for-your-business-eva-poppy-loves-london-blog-guide-social-media

8. https://www.theguardian.com/business/article/2024/may/14/joe-biden-tariff-chinese-made-electric-vehicles

9. https://www.theguardian.com/technology/2019/jul/30/charity-urges-facebook-to-extend-fact-checking-to-instagram?CMP=gu_com

10. https://www.pwc.com/us/en/tech-effect/emerging-tech/tokenization-in-financial-services.html

11. https://www.wsj.com/finance/currencies/michael-saylor-microstrategy-founder-bitcoin-64afda39

12. https://partners.wsj.com/sap/experience-management-in-action/how-to-create-an-outstanding-b2b-customer-experience/

13. https://time.com/7012736/silvio-savarese

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 1-son)

FILOLOGIYA

PHILOLOGY

UDK: 373.2
ORCID: 0009-0005-2052-5204

DEVELOPING STUDENTS' WRITING SKILLS THROUGH CRITICAL THINKING

Munojat Farhodovna Isakova
Scientific Adviser: ***Ixtiyor Rahmatullaevich Bozorov***
2nd-Year Master's Degree Student at the
University of Exact and Social Sciences
ladyboss2588@gmail.com
+998935897177

Terminlarning muayyan soha doirasida qo‘llanishi ularning tarjimasiga ham o‘z ta’sirini o‘tkazadi. Bunday leksik birliklarning monosemantikligi tarjima jarayonini yengillashtiruvchi omil sifatida qaraladi. Zero, birma’noli leksemaning tarjimasi mutaxassisdan kontekstni tekshirish, ma’nolarni qiyoslash, aniqlashtirish kabi vazifalarni amalga oshirishdan ozod qiladi. Ammo original matnda qo‘llangan terminning ikkinchi tilda bir nechta sinonim leksemalar bilan tarjima qilinishi mumkinligi mutaxassdan eng maqbul leksik birlikni tanlashni talab qiladi. Shuningdek, ba’zi terminlarning bir necha sohada qo‘llanishi mumkinligi masalasi ham tarjima jarayonini birmuncha murakkablashtiradi. Terminlarning aksariyatida chegaralanganlik, yangilik bo‘yog‘iga egalik kabi xususiyatlarning mavjudligi tarjimon diqqatidan chetda qolishi mumkin bo‘lmagan hodisalardir. Bu borada quyidagi fikrlarni keltirish o‘rinlidir: “Terminlar ham neologizmlar kabi fan-texnika rivoji, iqtisodiy va moliyaviy taraqqiyot, informatsion texnalogiyalarning kundalik turmushda muhim vositalar sifatida xizmat qilishi natijasida ko‘plab innovatsion ishlanmalarning yaratilishi orqali yildan yilga yangilanadi” [1:85-89]. Umuman, terminlogiya, bu tizim birliklarining bir tildan boshqasiga tarjimasi masalasi doimo tilshunoslar va soha mutaxassislarini qiziqtirib kelgan. Chunki bu amaliyot sohalar rivojidagi til, millat bilan bog‘liq chegaralarni olib tashlashga, pirovardida ilm-fanning global miqyosda rivojlanishiga xizmat qiladi. Shu bilan birga terminlarning har birida definatsiya mavjudligi, ularning nominativ vazifa bajarishi tarjimada ularning qandaydir leksik birlik bilan berish lozimligini bildiradi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Zamonaviy terminologiyada tizim boshqa tildan termin o‘zlashtirish, ichki imkoniyatlar asosida termin yasash bilan boyib boradi. Aslida terminologik tizimning barqarorligi uning birliklari tizimlashtirilganligi, tartibga solinganligi bilan belgilanadi. Ammo biz tadqiq qilayotgan ijtimoiy tarmoq marketingi sohasining o‘zi nisbatan yangi ekanligi, shiddat bilan rivojlanayotganligi hisobiga bu soha terminologiyasi haqida barqarorlik, tizimlilik to‘liq shakllangan, deb bo‘lmaydi. Terminlarning tarjimasida ularning quyidagi xususiyatlarini hisobga olish lozim bo‘ladi: 1) monosemantikligi; 2) nominativligi; 3) emotsional-ekspressivlik ifodalamasligi; 4) ma’nosi tushunchaga tengligi; 5) alohida tizim ekanligi. Ta’kidlanganidek, terminning polifunksionalligi masalasi ham tarjima jarayonini murakkablashtiradi. Terminlarning takomillashib, yangilanib borishi bir tomondan tilning tabiiy rivojlanishi bilan bog‘lansa, ikkinchi tomondan soha taraqqiyotining sur’atiga aloqador bo‘ladi. Yuqorida aytib o‘tilganidek, ijtimoiy tarmoq marketingi terminlarini o‘zbek tilshunosligida tartiblashtirish, tizimlashtirish bilan bog‘liq ishlar yetarli emas.

Hozirgi jamiyat axborot almashinuvi jadalligi asosida rivojlanib bormoqda. Chunki internet fenomeni hozirgi avlod hayotida tobora muhim o‘rin tutib bormoqda. “Internet nafaqat ma’lumotlarni topib beruvchi vosita, balki ulkan muloqot qilish platformasi hamdir. Internet

vositasida muloqot qilish inson hayotining barcha jabhalarini qamrab olmoqda” [2:161-163]. Boshqacha aytganda, internetnetda muloqot qilishning maxsus leksik birliklari tizimi ham shakllanmoqda. Ijtimoiy tarmoqda muloqot qilishning maxsus stereotiplari, jargonlari paydo bo‘layotganligi ham fikrimizni dalillaydi. Har bir shaxs internetdan foydalanar, ijtimoiy tarmoqlar vositasida muloqotga kirishar ekan, bu maxsus leksik birliklarning mohiyati bilan tanish bo‘lishi talab etiladi. Bu shaxsning sohadagi kompetentligini ta’minlashi, uning zamon bilan hamnafas bo‘lishiga hissa qo‘shishi shubhasiz. Internet, xususan, ijtimoiy tarmoqdagi muloqot juda ko‘p sohalarni qamrab oladi, shu sababli tarmoqlar qirqimida leksik birliklar tarkibi ham o‘zaro farqlanadi. Ijtimoiy tarmoq marketingi terminlari ham internetda qo‘llanayotgan leksik birliklar orasida alohoda tizimni hosil qilishi bilan ajralib turadi.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Internet nutqi o‘zining qisqaligi, muloqot jarayonida maxsus leksika birliklarining faol qo‘llanishi bilan ajralib turadi. Muloqot jarayoni ko‘proq kompyuter (yoki boshqa qurilma) klaviaturasi orqali teriladigan matnga asoslanishi shunday lakonizmni talab qiladi. Bu internetdagi ma’lumotlar bazasining cheksizligi, foydalanuvchilar diqqatini jalb qilish murakkab jarayon ekanligi ijtimoiy tarmoqda abbreviaturalarga ham murojaat qilinishiga olib keladi. Hatto ijtimoiy tarmoq marketingi tushunchasini ifodalashda ham SMM (Social media marketing – ijtimoiy tarmoq platformalari va vebsaytlarda mahsulot yoki xizmatning ommalashishi, xaridor va foydalanuvchilarga ma’lumotning tez yetib borishini ta’minlovchi jarayon[3]) abbreviaturasidan foydalaniladi. Ijtimoiy tarmoq marketingi terminlari alohida tizimni tashkil etar ekan, ularning bir tildan boshqasiga to‘g‘ri tarjimasi, bu jarayonning tamoyillarini ishlab chiqish tilshunoslik oldida turgan dolzarb masalalardandir.

Tarjimachilikdagi muammolar umumlashtirilgan holda uch katta guruhga ajratiladi: leksik-semantik, grammatik, pragmatik. Ijtimoiy tarmoq marketingi terminlar tarjimasida ham shu uch asosga tayanish maqsadga muvofiq. Shu boisdan masalaning semantik xususiyatlariga to‘xtalishdan boshlashni lozim topdik. Semantika til va uning birliklari yordamida beriladigan ifodalanadigan ma’lumotlarni qamrab oladi, deyish mumkin. Tarjima jarayonining semantik jihatdan muammolari so‘zlarning turkumlarining o‘zgarishi, so‘z ma’nosining ko‘chish yo‘llaridagi har xilliklarda namoyon bo‘ladi. Tarjima jarayonida so‘zlarni muayyan guruhlarga ajratishdagi muammolar struktur semantika asoschilaridan biri L.Y.Vaysgerberning izlanishlaridan ham o‘rin oldi[4:52]. Unga ko‘ra har qanday til birligining ma’nosi, unga o‘xshash birliklar maydonida qiyoslanmas ekan, aniqlanmaydi. Bu, albatta, tarjima jarayoniga ham o‘z ta’sirini o‘tkazamay qolmaydi. Zero, tarjimon til birligini semantik tizimdagi barcha a’zolar qurshovida qiyoslagandagina eng maqbul birlikni tarjima matni uchun tanlay oladi. Shu sababli tarjimon o‘z faoliyati davomida tarjima qilinishi lozim bo‘lgan leksemaning barcha muqobillarini o‘rganib chiqishi talab etiladi.

Umuman, tarjima jarayonida original matndagi leksik birlikning mazmun-mohiyatini, leksik tarkibini to‘liq yetkazib berish tarjimonning asosiy vazifalaridandir. Bu esa ikki tildagi leksik birliklarining leksik-semantik xususiyatlari haqida mukammal bilimni talab qiladi. Qayd

etish lozimki, ijtimoiy tarmoq marketingiga doir leksik birliklarning aksariyati baynalmilallik xususiyatiga ega. Bu sohaning nisbatan yangi ekanligi, texnologiyalar rivoji bilan bevosita bog‘liqligida ko‘zga tashlanadi. Boshqacha aytganda, sohadagi yangi terminlarning aksariyati boshqa tillarga, jumladan, o‘zbek tiliga ham to‘g‘ridan to‘g‘ri qabul qilinadi. *Promokod, aksiya, reyting, shtrixkod, brend, trafik, trend, spam, stori, kontent, post, post* kabi leksemalar shular jumlasidandir. Albatta, keltirilgan leksemalardan ba’zilarining shakliy tomoni o‘zbek osfografiyasi me’yorlariga moslashtirilgan. Bu borada quyidagi fikrlarni keltirish o‘rinli bo‘ladi: “Shakliy yozuv tamoyili o‘zlashma so‘zlarga nisbatan qo‘llanadi. Bunda donor tildagi grafik tarkib saqlab qolinadi” [5:32]. Yuqorida keltirilgan leksemalarning shakliy tomonida o‘zbek tiliga o‘zlashish jarayonida kuzatiladigan ayrim o‘zgarishlar o‘zbek orfografiyasining xususiyatlaridan kelib chiqadi. Terminlar tarjimasidagi leksik-semantik muammolar bunday baynalmilal leksemalarda kuzatilmaydi, albatta. Bunday lekse alarning ikki tildagi semantik ko‘lami tekshirilishi to‘g‘ri tarjimaga erishish uchun yetarli bo‘ladi, nazarimizda.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Ijtimoiy tarmoqlarning o‘zbek segmentida ham faol savdo-sotiq faoliyati, tovar va xizmatlarni reklama qilish jarayoni faol amalga oshirilmoqda. Bunday jarayonda sohaga doir o‘zbek tilidagi terminlar tizimi ham shakllanyotganligi ham fikrimizni dalillaydi. Ijtimoiy tarmoq marketingi sohasi terminlari tizimining shu qatlamini tahlilga tortish tarjimaning leksik-semantik qismidagi muammolarni aniqlash imkonini beradi. Ijtimoiy tarmoqlarning o‘zbekcha segmentida faol qo‘llanadigan *izoh, kuzatuvchi, obunachi, chegirma, foiz, sotib olmoq, shoshilmoq, ulgurib qolmoq* kabi leksemalarning aksariyati ingliz va rus tillaridan erkin tarjima qilish yoki kalkalash vositasida hosil qilingan. Masalan, *foiz* leksemasi o‘zbek tilida ijtimoiy tarmoq marketingi sohasida terminologik ma’noda tez-tez qo‘llanadi. Bu leksema o‘zbekcha matnlarda avvaldan mavjud bo‘lib, marketing sohasida maxsuslashgan. Terminlarning maxsuslashishi tildagi tejamkorlik qomumiyati, shuningdek, ularning umumtil birliklaridan katta farq qilmasligiga ishora hamdir. Zero, “termin va ularning tizimi, iste’moli jihatidan, umumxalq tili lug‘aviy birliklari va ular tizimidan sezilarli farq qilsa-da, ular, mantiqiy va umumlisoniy jihatlariga ko‘ra aytarli farq qilmaydi” [6:4]. Yuqorida keltirilgan foiz leksemasi haqida ham shunday fikrni bildirish mumkin. Foiz leksemasi o‘zbek tiliga arab tilidan kirib kelgan va “asli “me’yordan ortiqcha bo‘lgan” ma’nosini anglatadi, keyinchalik bu so‘z protsent ma’nosini anglatish uchun ishlatilgan” [7:470]. Bu leksemadan aksariyat hollarda ijtimoiy tarmoq marketingida muayyan mahsulot yoki xizmat narxini tushirilayotganligi haqidagi ma’lumotni yetkazishda foydalaniladi. Ijtimoiy tarmoq marketingida *foiz* leksemasi aksariyat hollarda *chegirma* bilan kollokatsiya sifatida qo‘llanadi. Shuningdek, bu leksemadan mahsulotning muddatli to‘lovga berilishida hech qanday qo‘shimcha to‘lov olinmasligini ifodalashda ham qo‘llanadi. Ya’ni foiz leksemasi o‘zbek ijtimoiy tarmoq marketingida xaridorlar va xizmatdan foydalanuvchilar uchun berilayotgan moliyaviy yengillikni ifodalash maqsadida qo‘llanadi. Yuqorida qayd etilganidek, aksariyat ijtimoiy tarmoq marketingi terminlari, shu jumladan, *foiz* va *percent* leksemalari ingliz

va o‘zbek tillarida semantik ko‘lam nuqtayi nazaridan deyarli farqlanmaydi. Percent leksemasi ingliz tilida quyidagi definatsiyaga ega:

“percent an amount out of every hundred: “*Sixty percent of the students are boys*” means that out of every hundred students, sixty are boys” [8:226].

Iqtibosdan ma’lum bo‘ladiki, yuzning bir qismi ingliz tilida *percent* leksemasi bilan yuritiladi. Albatta, ijtimoiy tarmoq marketingining ingliz segmentida ham percent leksemasidan faol foydalaniladi. Ingliz SMM terminologiyasida “percent” so‘zi ko‘pincha ma’lum bir statistik ko‘rsatkich yoki o‘zgarishlarni ifodalashda qo‘llanadi. Bu leksema natijalarni baholash yoki taqqoslashda ham muhim o‘rin tutadi. Mahsulot tannarxining tushirilishi, bo‘lib to‘lash jarayonini ifodalashda ham *percent* leksemasiga murojaat qilinadi. Hatto ijtimoiy tarmoq marketingi sohasining o‘zi qay darajada rivojlanayotganligi, bu jarayon ishtirokchilari haqidagi ma’lumotlarni ifodalashda ham *percent* leksemasiga murojaat qilinadi. Umuman olganda, *percent – foiz* leksemalari ingliz va o‘zbek tillaridagi tarjimada to‘liq muvofiqlikni ta’minlovchi birliklar hisoblanadi. Ammo bu leksemalarning ijtimoiy tarmoq termini sifatida o‘zbek va ingliz tilidagi olamning lisoniy tasvirida bir xil tasavvur shakllantiradi, degan xulosaga kelish biroz mushkul. Chunki o‘zbek reklamachiligi faoliyati va ijtimoiy tarmoqlarida olib boriladigan savdo-sotiq ishlarining barchasi ham halollikka, adolatlilikka asoslanadi, deb bo‘lmaydi. Aksariyat hollarda e’lon qilingan chegirmalarning foizi haqiqatda taklif qilingan imtiyozlar bilan mutanosib kelmaydi. Bu reklamachilik, biznes yuritish sohalaridagi javobgarlik, mas’uliyat kabi tushunchalarning to‘liq shakllanmaganligi bilan izohlanadi. Ijtimoiy tarmoqlarda berilayotgan reklamalar bilan bog‘liq lingvistik ekspertiza jarayonlari ham endi-endi shakllanmoqda[9]. Ammo ingliz SMM terminologiyasidagi *percent* leksemasi matnlarda qo‘llanishida aniqlikni ta’minlovchi vosita bo‘lib xizmat qiladi. Anglashiladiki, leksemalar orasida to‘liq semantik muvofiqlik mavjud. Xalqlarning olamni anglash borasidagi tafovutga egaligi leksemalar semantik ko‘lamiga ta’sir o‘tkazmaydi.

Qayd etish lozimki, terminlar nafaqat leksema shaklida, balki birikmalar shaklida ham mavjud bo‘ladi. Terminlarning o‘ziga xosligi shundaki, bunday birliklar birikma tarzida shakllanishi, shu bilan birga bir nominativ tushuncha ifodalab keladi. Umumtil birliklari orasida bunday birliklar deyarli uchramaydi. Terminologiya bilan shug‘ullangan T.Valiyev shunday ta’kidlaydi: “Terminlar til tizimining boshqa birliklaridan tarkibiy tuzilmasining murakkabligi bilan ajralib turadi. Masalan, umumtil leksikasida birikma shaklidagi birliklarning mustaqil atov birliklari sifatida qo‘llanishi kam kuzatiladi. Ayrim hollardagina leksik lakunalar bilan bog‘liq ravishdagi bunday qo‘llanishlarga duch kelishimiz mumkin” [10:47]. Ijtimoiy tarmoq marketingi terminlari orasida ham birikmali tuzilishga ega birliklar mavjudligi avvalgi fasllarda ham bayon qilingan edi. O‘zbek ijtimoiy tarmoq marketingida qo‘llanadigan *savdo platformsi, foydalanuvchi profili, xavfsizlik sertifikati, mahsulot katalogi, reklama kampaniyasi, yetkazib berish muddati, muddatli to‘lov, maksimal chegirma, foydalanuvchi yo‘riqnomasi, oldindan buyurtma, mahsulot qidiruvi, virtual vitrina, buyurtmani tasdiqlash, ijtimoiy tarmoqdagi reklama, cheklangan muddatdagi taklif, mahsulotning batafsil tavsifi, zaxirada mavjud*

mahsulotlar, mahsulotni sinovdan o‘tkazish, yetkazib berish muddati kafolati, mahsulot zaxiralarini boshqarish tizimi, xaridor tomonidan qoldirilgan izohlar kabi birikma shaklidagi terminlar ham nominativ tushuncha ifodalaydi. Bu terminlarning aksariyati rus va ingliz tillaridagi xuddi shunday tushunchalarni ifodalovchi birliklarning kalkalangan muqobillaridir. Quyida shunday leksemalarning rus va ingliz tillaridagi muqobillari bilan jadvalda ko‘ramiz:

2.1-jadval

№	O‘zbek tilida	Ingliz tilida	Rus tilida
1	Foydalanuvchi yo‘riqnomasi	User manual	Инструкция пользователя
2	Virtual vitrina	Virtual showcase	Виртуальная витрина
3	Mahsulotning batafsil tavsifi	Detailed Product Description	Подробное описание продукта
4	Xavfsizlik serifikati	Safety Certificate	Сертификат безопасности
5	Buyurtmani tasdiqlash	Order confirmation	Подтверждение заказа

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Jadvalda keltirilgan uch tildagi terminlar semantik jihatdan deyarli farq qilmaydi. Bunga sabab sifatida, qayd etilganidek, terminlarning bir tildan boshqasiga to‘g‘ridan to‘g‘ri tarjima qilinganligini keltirish mumkin. Lingvistik tipologiya leksik birliklar orasidagi umumiyliklardan tashqari farqlarni ham aniqlash bilan ham shug‘ullanadi. Shuni hisobga olganda, ijtimoiy tarmoq marketingi terminlari orasida semantik farqlar kuzatilishi, tarjima transformatsiyasi ro‘y berishi ham tadqiqot davomida kuzatildi. Masalan, ingliz tili SMM terminologiyasida *installment plan* termini mavjud. Mazkur termin uchun *Cambridge Dictionary* onlayn lug‘atida quyidagi lug‘at maqolasi keltirilgan:

“a method of paying for something in which the buyer pays part of the cost immediately and then makes small regular payments until the debt is comletely paid” [11].

Ya’ni leksik birlikning terminologik ma’nosi “sotib oluvchi tomonidan biror narsaning xaridi uchun avvaldan bahoning bir qismini, keyin har oyning muayyan kunida to‘liq hiso-kitob bo‘lgunga qadar muntazam to‘lab borish”dan iboratdir. O‘zbek ijtimoiy tarmoq terminologiyasida xuddi shu ma’noni ifodalash uchun ikki xil leksik birlikdan foydalaniladi: “muddatli to‘lov” va “bo‘lib to‘lash”. Qayd etish lozimki, terminologiyada bir tushunchani ifodalash uchun birdan ortiq leksik birlikning mavjudligi asosiy maummolardandir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Geldiyeva X., Abjalova M. Terminlarni tarjima qilish masalasi // “Kompyuter lingvistikasi: muammolar, yechim, istiqbollar” nomli 1-republika ilmiy-texnikaviy konferensiyasi. Vol.1. №1. 2021. – B.85-89.

2. Taxirova M. Problems of translation of internat terms in english language // Переводоведение: проблемы, решения и перспективы. №1, 2022. – С.161-163.

3. https://en.wikipedia.org/wiki/Social_media_marketing [Elektron manba:] Murojaat sanasi: 30.12.2024.

4. Weisgerber J.L. Die Ordnung der Sprache im persönlisehen und öffentlichen Leben. – Köln, 1954. – 52 s.

5. Muhiddinova X. va boshq. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent: O‘qituvchi, 2006. – 208 b.

6. Ermatov I. Terminologiyada leksik-semantik hodisalar. – Toshkent: Book trade 2022. – 120 b.

7. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати: 3 жилдлик. 2-жилд. – Тошкент: Университет, 2003. – 600 б.

8. Longman. Basic Dictionary of American English. – Harlow: Pearson Education Limited, 2003. – 368 p.

9. https://kun.uz/news/2024/07/30/onasini-emsin-toshkentda-noodatiy-reklama-bannerlari-paydo-boldi [Elektron manba:] Murojaat sanasi: 30.12.2024.

10. Валиев Т.Қ. Ўзбек тили йўлсозлик терминларининг структур-семантик хусусиятлари ва лексикографик талқини: Филол. фанл. б. фалс. докт. (PhD) дисс. – Самарқанд, 2017. – 134 б.

11. https://dictionary.cambridge.org/dictionary/english/installment-plan [Elektron manba:] Murojaat sanasi: 20.12.2024.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 1-son)

FILOLOGIYA

PHILOLOGY

ISSUES OF TEACHING ENGLISH BASED ON MEDIA MATERIALS

Istamova D.S
Assosciate professor (PhD)
Navoi State University
Uzbekistan, Navoi

Abstract. The article explores the effective use of media materials in teaching English, emphasizing their role in enhancing language skills and cultural awareness. It discusses how various types of media, including videos, news articles, and social media content, can be integrated into the classroom to improve listening, reading, speaking, and writing abilities. The study highlights the advantages of media-based learning, such as increased student engagement, exposure to authentic language, and the development of critical thinking skills. Additionally, it addresses challenges like content selection, technological access, and teacher preparedness.

Keywords: media materials, English teaching, language skills, cultural awareness, authentic language, student engagement.

INTRODUCTION

The use of mass media in teaching English is becoming increasingly popular in education as a diverse source of information and self-expression through the creation of one's own content. "Further research into the continuous flow of living information created by the media convinces us that its existence serves the purpose of human life in modern reality. Then why should we not use this flow of information in the classroom, where students spend so much time?" [1]. Modern newspapers provide material in the form of printed products and a digital version using text, images, graphics, animation and video, which creates a rich and exciting learning environment that is so necessary for increasing the effectiveness of the English lesson. Mass media also provide teachers with unlimited opportunities to create innovative approaches to the school curriculum. Working with the press creates an interest in reading, involves a variety of tasks, updating textbook information, teaching understanding of the modern style of information presentation in the media, and at the same time helps students achieve fluency and literacy in the language.

MATERIALS AND METHODS

The advantages of using media resources in the classroom are obvious, but there are also a number of problems that need to be solved. Among them, it is worth highlighting the need to combine information from media sources with school curriculum material, changing the habit of learning a language exclusively with the help of textbooks to the active use of newspapers and news sites, as well as creating a personality-oriented learning environment. First of all, it is important to think about the possibilities of integrating work with the media into the school language curriculum. Newspapers inform readers about real events and are consonant with many topics of school textbooks, however, it is quite difficult to select materials that will be useful in the learning process given the limited time, age characteristics of students and their level of English proficiency. It is necessary to take into account the volume of articles, their information content, subject matter and content, the difficulty of understanding the style in which they are written and many other factors [2]. The teacher is required to be highly dedicated and interested in developing assignments that meet the linguistic and mental needs of students. Effective tasks include those involving headlines, article contents, filling in missing information, advertising, exchanging news, discussing photographs, holding press conferences or interviews, forecasting events, making horoscopes, writing an advice column, a news report, a TV programme, a weather forecast, puzzles and crosswords and others suggested by Paul Sanderson [2] in his book Using Newspapers in the Classroom. They develop skills in understanding text, maps, charts and diagrams, and encourage the use of complex grammatical constructions in oral and written speech.

RESULTS AND DISCUSSION

Students can read articles, translate, analyze the language used by journalists: neologisms, borrowings, newspaper cliches, slang expressions and laconic headlines. Discussing newspaper materials in class involves students in reasoned discussions and inspires independent study of the topics covered and additional reading. After systematic work with the press, high school students acquire the skills of detailed analysis of newspaper articles, determine the type, subject, theme, style of the article, evaluate the quality of the material, comment on the presence of facts, quotes and arguments. They draw their own conclusions based on the content of the article, evaluate the effectiveness of the chosen format and structure, understand the reasons for using certain lexical and syntactic means, see the effect of using graphic means and photographs, etc. Using the example of the printed and digital versions of newspapers, students can also conduct a comparative analysis of newspapers from different countries at the level of content and design and determine the differences between tabloids and serious press. A more difficult stage of working with the media is writing articles [3]. To successfully complete this task, students need help to understand the difference between the types of articles (editorial, report, announcement, newspaper investigations, advertising, etc.), teach them to collect and impartially present information in the format of a newspaper article by presenting polemical points of view. The experience of independently writing an article gives children the opportunity to demonstrate their creative literary potential, increases the desire to share thoughts and ideas in English,

develops social competence and critical thinking skills. Publishing school newspapers, as the final stage of working with the media in English lessons, involves live experience of using language situations. Editorial boards distribute responsibilities and tasks: identifying topics of interest to readers, selecting information, conducting interviews and opinion polls, editing materials, designing a newspaper, working with the Microsoft Publisher program, taking photos, printing. The class becomes a multidimensional space: students deal with searching for information in the electronic and real world. The work process strengthens friendly relations with peers and increases interest in school events. Children work both in teams and independently, develop a common strategy, learn to solve problems independently and build professional relationships. The teacher ceases to be the only source of knowledge for students; he or she becomes an assistant in learning new things, able to guide and support them in the process of constructing knowledge, and learning becomes a social activity. Project work on publishing school newspapers in an active, personally-oriented learning environment increases the level of interdisciplinary knowledge and helps students develop technical and research skills that cannot be applied simply by reading a textbook. Students achieve the key goal of learning a language: to use it freely. For example, it becomes obvious to them that not only does using Internet resources help in learning English, but also learning a language helps to freely use the possibilities of the Internet. The entire process of integrating media into the school curriculum is in tune with the opinion of Robert Hutchinson: “It should be remembered that the purpose of education is not to fill the student’s mind with facts ... but to teach him to think, and, if possible, to think for himself” [4]. Today's students are expected to be able to conceptualize ideas, collaborate with like-minded teams, solve problems, and take action, and this is made possible by effectively integrating media into learning. The teacher gains greater flexibility in the classroom, and students gain the opportunity to learn a language through media that appeals to them.

From the point of view of teaching oral speech, it is necessary to take into account that oral speech is a complex two-way process, which includes the ability to speak and the ability to understand the speech addressed to him, as well as associated with the ability to use lexical and grammatical skills to develop unprepared speech. It should be noted that to master oral foreign language communication, it is necessary to use effective, modern, accessible teaching aids, that is, various media materials [5].

As is known, media materials include films, videos, audio recordings, etc. The most convincing argument in favor of the effectiveness of media materials is that in the modern world there is an informatization of society and a transition to digital methods and means of teaching.

Mastering oral communication begins with listening, but its effectiveness depends on how well the learner's hearing is developed and how correctly he can distinguish the sounds he hears. A significant role in listening is also played by a person's memory, how much he is able to remember information, his interest and attention to the topic [6].

Of course, with this option of learning by ear, first of all, it is necessary to develop speech hearing and pronunciation skills, relying on the speech of native speakers. In this case, various media materials - audio, video texts allow the student to hear the speech of native speakers, which reflects real living reality. An important point is that the material presented in this form arouses interest in students, which helps to increase motivation in learning foreign languages. With successful perception of foreign language speech, students begin to realize that their efforts were not in vain.

Media materials are currently becoming not only a means of speech development and correction in the classroom, but also complement the language environment with the help of visual representation of the speech situation.

Various types of visualization are implemented. The scientific and methodological literature notes the importance of the role played by the principle of visualization in teaching languages. Thus, I.A. Zimnyaya believes that in terms of presenting knowledge, visual aids can be used for the following purposes:

• Identifying the meaning of a word, sentence, or informative text;

• Memorizing by establishing a connection between verbal and visual-sensory images.

The role of media materials in teaching oral speech is very significant, since a visual image does not require time to describe a situation, but reveals it immediately and makes it possible to see and hear, helps to understand and use paralinguistic components, such as elements of semantics, which are absent during the study of the structure of the language.

Working with media material, in addition to auditory, requires visual understanding. Not only the situation helps to form speech skills, activating the students' mental activity, teaches them orientation in an unknown language situation, promotes the development of speech forecasting. When watching a film, visual images help to most effectively understand the meaning and significance of new vocabulary, etc. When watching video materials, the communicative situation is fully manifested. The student hears not only the dialogue, but also sees these participants in certain situations where the action takes place. Thanks to visual information, the communicative act is perceived in a more complete volume.

Various advantages of media materials were highlighted by many psychologists and methodologists. I. Rakhmanov in his scientific works said that students integrate speech better with the help of the screen, since "when listening to a film with sound, understanding the content, the student feels in practice the importance of learning foreign languages." It is very important to use video to enhance learning motivation, this happens due to the following features of learning:

• Stimulation of creative activity due to bright and clear audiovisual information;

• Implementation of cognitive activity occurs more intensively, since the emotional sphere is included, etc.

With the help of video and other media, you can organize and present the process of learning a language step by step and highlight various processes. For example:

1. Viewing - understanding - activation and transfer to your own speech;

2. Viewing - understanding - discussion.

The main task of the teacher at the stage of working with media materials is the competent selection of audio or video material that would be interesting, informative, accessible to understanding, consistent with the modern reality of the culture of a given language and would create favorable conditions for the perception of information.

CONCLUSION

Scientists believe that the peculiarity of perceiving information communicated through media materials, especially through films and videos, is associated with situational perception and empathy. The basis for using media materials in the learning process is the speed and accuracy of transmitting information remotely, which allows for the creative use of students' speech experience.

REFERENCES

1. Azimov E. G. Internet materials in English lessons // "Foreign languages at school", - No. 1. - P. 24-28.

2. Babinskaya, P. K. Practical course of methods of teaching foreign languages: English, German, French: textbook / P. K. Babinskaya, T. P. Leontyeva, I. M. Andreasyan, A. F. Budko, I. V. Chepik. - Minsk: TetraSystems, 2015. - 288 p.

3. Vladimirova L. P. Internet in foreign language lessons // "Foreign languages at school", - No. 4. - P. 67-70.

4. Evdokimova M. G. Computer technologies for teaching foreign languages: methodological and pedagogical aspects // Telecommunications and informatization of education. 2021, No. 4, P. 47-57.

5. Efremenko V. A. Application of information technologies in foreign language lessons // IYASh No. 8, 2017., P. 18-21.

6. Kolesnikova I. L., Dolgina O. A. English-Russian terminological reference book on methods of teaching foreign languages. - St. Petersburg: Publishing house "Russian-Baltic information center" BLITZ ", "Cambridge University Press", 2021. - 224 p.

7. Polat E. S. Internet in extracurricular work on a foreign language // IYASh 2011, No. 5, P. 4-10.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 1-son)

FILOLOGIYA

PHILOLOGY

FRAZEOLOGIZM VA IBORALAR: FARQLAR VA O'XSHASHLIKLAR

Jumayeva Sadbarg Mirolimovna
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada frazeologizm hamda iboralarning qanchalik muhimliligi, ularning o'ziga xosligi va tafovutlari haqida ma'lumot berilgan. Qolaversa, frazeologizm va iboralarning nutqdagi ifodaliligi, estetik zavq berishi, tilni yanada boy qilishi alohida ta'kidlab o'tilgan.

Kalit so'zlar: tilshunoslik, grammatika, xususiyat, estetik vazifa, madaniyat, barqaror birlik ,tarkib, obrazlilik, ko'chma ma'no ,kontekst, tasviriy vosita, frazeologik birliklar, madaniyat , leksik tarkib.

Annotation: This article provides information about phraseologism and the importance of phrases, their uniqueness and differences. In addition, the expressiveness of phraseologisms and expressions in speech, aesthetic pleasure, and enrichment of the language are emphasized.

Key words: linguistics, grammar, feature, aesthetic task, culture, stable unit, content, figurativeness, figurative meaning, context, figurative means, phraseological units, culture, lexical content.

KIRISH

Avvalo, til bu insonlar o'rtasida muloqotni ta'minlovchi vosita , ilm va yig'ilgan tajribalarni avloddan avlodga o'tkazuvchi , muhim xazinadir. Til – insonning ichki dunyosini , fikrlarini va hissiyotlarini ifoda etuvchi qudratli vosita. U orqali biz atrofimizdagi dunyoni anglaymiz, bilim o‘rganamiz va o‘z fikr-mulohazalarimizni boshqalarga yetkazamiz. Til nafaqat aloqa vositasi, balki milliy o‘zlikni namoyon etuvchi kuchdir. Olimlarning ta'kidlashicha , dunyoda yetti mingga yaqin til bor va ularning ikki yuzga yaqini davlat tili , ya'ni rasmiy til sifatida foydalaniladi. Shuningdek , tillar xilma-xilligiga ko'ra guruh, oilalarga bo'linadi . Masalan , ingliz tili hind-yevropa oilasining German guruhiga kiradi , dunyoning eng ko'p ishlatiladigan tillaridan biri . Shu bilan bir qatorda, tilning boyligi va rang-barangligi undagi so'zlar , iboralar, frazeologik birliklar orqali namoyon bo'ladi.

Tilni yanada jozibali, tinglovchiga ta'sirli qilib yetkazishda xizmat qiladigan birliklar mavjud : frazeologizm, tasviriy ifoda, ibora... Birinchidan , frazeologizm atamasini o'rganadigan bo'lsak . Frazeologizm - bu tilning biror barqaror birikmasi yoki iborasi bo'lib, ko'chma ma'noda qo'llaniladi. Frazeologizm har qanday tilning o‘ziga xos boyligi va madaniy xazinasidir. U xalqning hayoti, madaniyati va urf-odatlarini aks ettiruvchi ko‘chma ma’noli

iboralar shaklida namoyon bo‘ladi. Frazeologizmlar tilni obrazli, ifodali va mazmunli qiladi, shu sababli ular nutqda alohida o‘rin egallaydi. U ikki yoki undan ortiq so‘zdan iborat barqaror birikmalarni anglatadi. Ushbu birikmalarning tarkibiy qismlari alohida ishlatilganda o‘z ma’nosini bildiradi, biroq frazeologizm tarkibida ular butunlay boshqa ma’noni anglatadi.

Frazeologizm - mustaqil til birligi, so'zlashuvlarda va yozma nutq ishlatiladi. Quyidagi ,,qo'l qovushtirmoq", ,,ko'ngli tog'dek ko'tarilmoq", ,,og'zidan gullar to'kilmoq" kabi birikmalar frazeologizmning yaqqol birikmasidir. Frazeologizmlar xalqning madaniyatini, tarixini va dunyoqarashini aks ettiradi. Qo'shimcha tarzda aytganda , ular milliy o‘zlikni ifodalash vositasi bo‘lib, har bir xalqning tilida o‘ziga xos rang-baranglik yaratadi. Masalan, o‘zbek tilida “Bir bog‘ quloq” (diqqat bilan eshitmoq) yoki “Eshikni yopmasdan chiqib ketmoq” (biror masalani ochiq qoldirmoq) kabi frazeologizmlar xalqimizning turmush tarzi va odob-axloq me’yorlarini ko‘rsatadi.

Eng asosiysi , frazeologiya - tilshunoslik sohasi frazeologizmlarni o'rganadi, frazeologizm esa o'sha ilmiy sohaga tegishli bo'lgan til birligi sanaladi. Bular tilni yanada jonli, obrazli va sermazmun ifodalashga yordam beradi, tilga estetik go'zallik baxsh etadi. Shu sababli uni o'rganish, to'g'ri qo'llash til madaniyatining muhim qismi hamdir. Shuningdek, frazeologizmlar turli xil tasniflarga bo‘linadi. Ullar quyidagicha: 1. Frazeologik butunliklar: Ma’nosi yaxlit va obrazli. Masalan: "Qora terga tushmoq" — juda ko‘p mehnat qilmoq.

2. Frazeologik birikmalar: Ma’nosi birikmadagi so‘zlarning lug‘aviy ma’nosiga qisman bog‘liq. Masalan: "Quloq solmoq" — tinglamoq.

3. Frazeologik iboralar: Rasmiy va turmushga oid birikmalar. Masalan: "Xayrli tun" — yaxshi kech tilash.

Asrlar davomida shakllangan frazeologizmlar og‘zaki nutqda, badiiy adabiyotda hamda publitsistikada o‘tkir, juda ta’sirchan tasviriy vosita sifatida keng qo‘llanadi. Yozuvchilar o‘z asarlarida frazeologizmlardan unumli foydalanish bilan birga, mavjud frazeologizmlarni asar ruhiga moslagan holda qisman o‘zgartiradilar, shu yo‘l bilan yangi iboralar yaratadilar. O'zbek xalq yozuvchisi- Abdulla Qahhor, Oybek, G‘afur G‘ulom, Said Ahmad va boshqa yozuvchilar tomonidan ijod qilingan frazeologizmlar bunga misol bo‘la oladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Frazeologizmlarning Adabiyotdagi O‘rni va Ahamiyati haqida gapirsak, frazeologizmlar adabiyotda badiiy tasvir vositasi sifatida katta o‘rin tutadi. Ular asarlarning mazmunini boyitib, o‘quvchiga fikr va hissiyotni jonli, obrazli shaklda yetkazishga yordam beradi. Yozuvchi yoki shoir frazeologizmlarni qo‘llash orqali tilning estetik go‘zalligini namoyon etadi va milliy madaniyatni ifodalaydi.

NATIJALAR

Shu bilan birga qatorda , bir nechta so'zlarning birikmasidan hosil bo'lib , yaxlit bir ma'noni ifodalaydigan til birligi ham bor. Bu iboradir. Ibora badiiy yoki obrazli ma'noga ega bo'lib , aniq bir fikrni, hissiyotni ifodalashga yordam beradi. Iboralar ko'pincha xalqning madaniyatini aks ettiradi. Uning xususiyati shundaki , iboraning tarkibiy qismi birgalikda yaxlit bir ma'noni hosil

qiladi: do'ppisini osmonga otmoq - quvonmoq, qo'y og'zidan cho'p olmagan - yuvosh, kapalagi uchmoq - qo'rqmoq , yerga ursa ko'kka sapchiydi - sho'x. Iboralar fikrni qisqa mazmunli ifodalashga yordam berib, ko'pincha ko'chma ma'noda ishlatiladi, lekin gohida bevosita ma'no bildirishi ham mumkin. Iboralar haqida aniqroq ma'lumotlar quyidagidek tahlil qilinadi: Iboralarning ta’rifi va xususiyatlari shuki, Iboralar odatda bir nechta so‘zdan tashkil topadi va ular birgalikda yagona ma’noni ifodalaydi. Iboralarning asosiy xususiyatlari bulardan iborat:

1. Tarkibiy yaxlitlik: Iboraning tarkibidagi so‘zlar o‘z alohida ma’nosini saqlasa-da, birgalikda ishlatilganda butunlay yangi ma’no hosil qiladi. Bunga, "Qo‘l uchida ishlamoq" – lozim darajada ishlamaslik ma'nosini bildirgan iborani misol tariqasida keltirish mumkin.

2. Obrazlilik: Iboralar xalqning hissiyotlari va tasavvurlarini ifodalaydi, fikrni jonli va ta’sirchan qiladi.Masalan: "Tosh yurak" – shafqatsiz odam.

3. Barqarorlik: Iboralar doimiy tarkibga ega bo‘lib, ularning so‘zlarini o‘zgartirib bo‘lmaydi.

4. Ko‘chma ma’no: Ko‘pincha iboralarning ma’nosi lug‘aviy ma’nodan farq qiladi.

Shuningdek, iboralarning turlari ham mavjud. Iboralar ma’nosi va qo‘llanishiga qarab turli turlarga bo‘linadi:

1. Badiiy iboralar: Fikrni ta’sirchan va obrazli ifodalash uchun ishlatiladi: "Ko‘ngli quyoshli" – quvnoq, baxtli.

2. Amaliy iboralar: Kundalik hayotda ishlatiladigan iboralar. Masalan: "Gapni aylantirmoq" – biror narsani to‘g‘ri aytmaslik.

3. Barqaror iboralar: Ma’nosi keng ma’noda tushuniladi va keng doirada ishlatiladi: "Ichida gap saqlamoq" – sir saqlash.

4. Milliy iboralar: Har bir millatning madaniyatiga xos o‘ziga xos iboralar: "O‘tday yonmoq" – qattiq g‘azablanmoq (o‘zbekcha).

MUHOKAMA

Eng muhimi, frazeologizm va iboralar adabiyotning barcha janrlarini yanada yorqin va mazmunli qiladi. Adabiyot tilning estetik va badiiy imkoniyatlarini keng namoyon qiladigan soha sanalsa, bu jarayonda iboralarning o‘rni va roli juda muhimdir . Iboralar adabiy asarlarda fikrni jonli, ta’sirchan va obrazli ifodalash vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Ular yozuvchi yoki shoirning fikrini o‘quvchiga samarali va estetik jihatdan yoqimli yetkazishga yordam beradi. Bundan tashqari , obraz yaratishda qo'l keladi . Iboralar orqali asarlardagi qahramonlarning xarakteri, hissiyotlari va ichki dunyosi aniqroq ifodalanadi. Masalan: "Yuragi hovuchdek bo‘lib qoldi" – qo‘rqib ketdi. "Ko‘zlari porladi" – xursand bo‘lish, quvonchni ifodalash.

Iboralar nutqqa emotsional ta’sir kuchini beradi va asarning hissiy samarasini oshiradi. Masalan, mashhur va serqirra Cho‘lpon, Oybek kabi yozuvchilarning she’riyatida iboralarning badiiy kuchi sezilarli. Adabiyotda iboralardan foydalanish yozuvchining mahoratini ko‘rsatadi. Masalan: Abdulla Qodiriyning "O‘tkan kunlar" romanida xalqona iboralar, masalan, "Kunidan kechdi" (hayotdan umid uzdi) yoki "Qosh bilan ko‘z oralig‘ida" (tez va kutilmaganda) kabi

iboralar hayotning realliklarini yorqinroq tasvirlaydi. Iboralarning Adabiyotdagi Ahamiyati muhim rol oynaydi:

1. Adabiy asar tilini jonlantiradi: Iboralar tilni badiiylashtirib, nutqning ritmini va musiqiyligini oshiradi.

2. Mazmunni boyitadi: Iboralar bir necha so‘z orqali chuqur ma’no beradi va o‘quvchining tasavvurini kengaytiradi.

3. Tarbiya vositasi sifatida xizmat qiladi: Iboralar orqali o‘quvchi milliy qadriyatlar va axloqiy me’yorlar haqida bilim oladi.

Til boyliklarining muhim bo'lagi bo'lgan iboralar va frazeologizm bir-biriga yaqin tushunchalar bo'lishiga qaramasdan , ularning asosiy farqlari ham mavjud, ya'ni Iboralar va frazeologizmlar ko‘pincha bir xil tushunchalar deb qabul qilinadi, lekin bilishmaydiki, ular bir-biridan farqlanadi.

Quyida ularning muhim farqlariga to'xtalamiz :

Frazeologizm tuzilishi jihatdan barqaror so'z birikmalari bo'lsa , iboralar bo'shroq va aniq shaklga ega emas. Ma'no jihatdan esa frazeologizm ko'pincha ko'chma ma'noda ishlatilinadi. Iboralar asosan ko'chma , shuningdek, aniq ma'noda ham ishlatilishi mumkin. Tarkibi bo'yicha ham quyidagi tafovutlarga ega : frazeologizm elementlari o'zgarmas , leksik tarkibi qat'iy , lekin iboralarning tarkibi haqida bunday deya olmaymiz. Ya'ni iboralar o'zgaruvchan va kontekstga moslashuvchan hisoblanadi. Buni yaqqol misollarda aniq tushunib olish mumkin :

frazeologizm misollari : ko'ngli yayradi - xursand bo'ldi, tilini tishlab qolmoq - jim bo'lib qolmoq , indamaslik yoxud gapirmaslik , qo'l qovushtirib turmoq - hech narsa qilmaslik,ya'ni. hech qanday faoliyat ko'rsatmaslik . Oltin boshli - dono , aqlli, bilimdon ,zukko .Boshini egmoq – to‘g‘ri javob bermoq yoki biror bir aybni, qilingan xatolarni tan olish.

Ibora misollari : yuqori ruhda - xursand, shod va baxtiyor, samarali ishlash - foydali ish qilish, o'ziga hamda jamiyatga foydasi tegadigan faoliyat bilan shug'illanmoq , ichki xotirjamlikni saqlash- tinchlanish. Juda ham yuksak darajada – yuqori ,oliy darajada. Qattiq mehnat qilish – ko‘p va tez ishlash va hokazo.

Frazeologizm tarkibidagi so'zlar o'z ma'nosini yo'qotib , umumiy ma'noni anglatadi. Iboralar esa tarkibidagi so'zlarning ma'nosi ko'proq bir- biriga yaqin bo'ladi.

Endi esa ularning o'xshashlik jihatlarini ko'rib chiqamiz. Frazeologizm va iboralar ,ikkalasi ham tilning barqaror birliklari hisoblanib , tarkibi o'zgaruvchan yoki ozgina o'zgaradi. Har ikkisi ham o'z tarkibidagi so'zlar ma'nosidan tashqari , butun bir yaxlitlik ma'noni ifodalaydi. Nutqni boyitadi , ifodaviy qilishiga yordam beradi. Qolaversa, har ikkisi ham milliy madaniyat va mentalitetni aks ettirishga xizmat qiladi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, frazeologizmlar va iboralar tilda o'z o'rniga ega bo'lgan birliklardir. Frazeologizmlar qat'iy tarkibiy tuzilishi , ko'chma ma'nosi bilan nutqni ifodaviyligini kengaytiradi. Iboralar esa o'zining moslashuvchanligi orqali mazmunni boyitadi va har xil kontekstlarda qo'llaniladi. Har ikkisidan ham o'rinli foydalanish tilning boyligini namoyish etadi

. Natijada, til ifodali va mazmunli bo'ladi. Shuni ham aytib o'tish joizki, Frazeologizm — bu tilning estetik boyligi. U milliy tilning nafisligini, xalqning ruhiyatini va o'ziga xos madaniyatini aks ettiradi. Frazeologizm hamda iboralarni o‘rganish, so'zlashish jarayonida ularni o'rinli qo'llash va ulardan to‘g‘ri foydalanish nafaqat til boyligini oshiradi, balki madaniyatni ham asrab-avaylashga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1.Wikipediahttps://uz.wikipedia.orgFrazeologiya

2.Wikipediahttps://uz.wikipedia.orgFrazeologizm

3.audiobook.uzhttps://audiobook.uzFrazeologik iboralar va ularga misollar (iboralarga misollar)| Ўзбек Т

4. Wiktionaryhttps://uz.wiktionary.orgVikilug‘at:Iboralar

5. Wikipediahttps://uz.wikipedia.orgTil

6. Wikipediahttps://uz.wikipedia.orgIngliz tili

7. Wikipediahttps://uz.wikipedia.orgTillar oilasi

8. Wikipediahttps://uz.wikipedia.orgJahon tillari

9.Wikipediahttps://uz.wikipedia.orgJanr

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 1-son)

FILOLOGIYA

PHILOLOGY

ORCID: 0000-0003-2288-5682

BADIIY ADABIYOTLAR VOSITASIDA BOLALAR BOG‘LANGAN NUTQNI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYASI

Abidova Nilufar Zakirovna *– pedagogika fanlari doktori (DSc),*
Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti
nilufar1976@list.ru. +998 99 823 11 90
Karimova Zuxraxon
Toshkent Kimyo Xalqaro Universitetining magistri

Annotatsiya: Ushbu maqolada badiiy adabiyotlar vositasida bog’langan nutqni rivojlantirish texnologiyalari o’rganilgan. Shu bilan birgalikda, maqolada hikoya, ertak, asarlar yordamida bolalarnining nutqini rivojlantish mazmuni tahlil qilingan. Badiiy adabiyotlar, ayniqsa ertaklar, hikoyalar va she’rlar, bolalarning nutq rivoji, til malakalari va muloqot qobiliyatlarini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Maqolada badiiy asarlarni o‘qish, tinglash va ijro etish orqali bolalar bog‘langan nutqini rivojlantirish usullari va texnologiyalari tahlil qilinadi. Shuningdek, bolalarning tasavvurini rivojlantirish, lug‘at boyligini oshirish, emotsional va intellektual salohiyatini kuchaytirishdagi adabiyotlarning roli yoritiladi.

Kalit so‘zlar: adabiyot, nutq, bolalar, jonkuyarlik, ertak, hikoya, obraz, yil fasllari, asar, rassomlar, ona shahri, tasavvur, ko’rgazma, qobiliyat.

Аннотация: В статье рассматриваются технологии развития связной речи посредством художественной литературы. В то же время в статье анализируется содержание развития речи детей с использованием рассказов, сказок, произведений. Художественная литература, особенно сказки, рассказы и стихи, важна для формирования речевого развития детей, языковых навыков и коммуникативных способностей. В статье анализируются методы и технологии развития связной речи детей посредством чтения, слушания и исполнения художественных произведений. В нем также подчеркивается роль литературы в развитии детского воображения, расширении словарного запаса и укреплении эмоционального и интеллектуального потенциала.

Ключевые слова: литература, речь, дети, задор, сказка, рассказ, образ, времена года, произведение, художники, родной город, воображение, выставка, талант.

Annotation: This article studies the technologies for developing connected speech through fiction. At the same time, the article analyzes the content of developing children's speech using stories, fairy tales, and works. Fiction, especially fairy tales, stories, and poems, is of great

importance in the development of children's speech, language skills, and communication skills. The article analyzes the methods and technologies for developing children's connected speech through reading, listening, and performing works of fiction. It also highlights the role of literature in developing children's imagination, increasing their vocabulary, and strengthening their emotional and intellectual potential.

Key words: literature, speech, children, fervor, fairy tale, story, image, seasons, work, artists, hometown, Imagination, exhibition, ability.

KIRISH. Mamlakatimizning zamonaviy va jozibador qiyofasini yaratish, Yangi O‘zbekistonni barpo etish vatandoshlarimizning asosiy maqsad-muddaosiga aylandi. Bu borada bir fikrni alohida ta’kidlash joizki, keyingi yillarda hayotimizning barcha sohalarida keng qamrovli islohotlar va tub o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda hamda ushbu islohotlar bevosita ta’lim, xusususan, maktabgacha ta’lim tizimida ham muhim ijobiy yangilanishlarni yuzaga keltirmoqda. Badiiy adabiyotlar vositasida bolalar bog'langan nutqni rivojlantirish texnologiyasi – bu bolalarning nutq qobiliyatini, ayniqsa bog‘langan nutqni shakllantirish va rivojlantirishda badiiy adabiyotlarni (ertaklar, hikoyalar, she'rlar) qo‘llashga asoslangan pedagogik yondashuvdir. Badiiy adabiyotlar bolalar nutqining rivojlanishida muhim o‘rin tutadi, chunki ular bolalarga fikrlarini aniq va ravon ifodalash, tilni to‘g‘ri va samarali ishlatish ko‘nikmalarini o‘rgatadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR. Bugungi kunda bolalar nutqini rivojlantirish maqsadida mazkur faoliyatga tegishli meyoriy-huquqiy hujjatlar mavjud bulardan: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947 - sonli "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi, 2017-yil 30-sentyabrdagi PF-5198-sonli "Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonlari, Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 19-iyuldagi 528-sonli "Maktabgacha ta'lim muassasalarining faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2017-yil 9-sentyabrdagi PQ-3261-sonli "Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori ham so'zimizning yaqqol isboti. Bolalarning biron-bir narsa, hodisa haqidagi bilimlari qanchalik yuqori va xilma-xil bo'lsa, ularning fikrlash doiralari shuncha darajada keng bo'ladi. Maktab yoshidagi bolalar o'rtasida taxlilar o'tkazilganda 56 natijalarni sifati jixatidan taxlilda shuni ko'rstadiki , eng ko'p fikr bildirishlar hajmi sevimli ertaklarni aytib berish hissasiga, eng kami esa, o'z shaxsiy tajribasidan kelib chiqib, hikoya qilish hissasiga to'g'ri keldi.

Bolalarda nutqni to'g'ri rivojlanishi uchun hikoya turli mazmundagi bilimlar obrazli tarzda taqdim etiladi bolalar uchun hikoyalar kundalik voqealar, yil fasllari, yozuvchilar, rassomlar, ona shahri haqida bo'lishi mumkun. Hikoya qilish uchun material sifatida badiiy asarlardan foydalanish mumkun. Ayniqsa, bolalar uchun tarbiyachining shaxsiy tajribasi bilan bog’liq hikoyalar qiziqarlidir: "mening bog’cham", "mening oilam", "mening sevimli o’yinchog’im" va boshqalar. Hikoyani tushunish qobiliyati, ya'ni tinglay olish, mazmuniga munosabat bildira

olish, savollarga javob berish, oddiy qayta aytib berish uch yoshdan boshlab paydo bo’ladi. Hikoyada turli mazmundagi bilimlar obrazli shaklda taqdim etiladi. Bolalar uchun hikoyalar kundalik voqealar, yil fasllari, yozuvchilar, rassomlar, ona shahri haqida bo’lishi mumkin. Hikoya qilish uchun material sifatida badiiy asarlardan foydalanish mumkin. Ayniqsa, bolalar uchun tarbiyachining shaxsiy tajribasi bilan bog’liq hikoyalar qiziqarlidir: "mening bog’cham", "mening oilam", "mening sevimli o’yinchog’im" va boshqalar. Hikoyani tushunish qobiliyati, ya'ni tinglay olish, mazmuniga munosabat bildira olish, savollarga javob berish, oddiy qayta aytib berish uch yoshdan boshlab paydo bo’ladi. Kichik guruhlarda hikoya ko’rgazmali materiallarni (narsa-buyumlar, ularning tasviri) namoyish qilish bilan birga qo’shib olib boriladi. Ko’rgazmali materiallardan bolalar tasavvurga ega bo’lmagan voqea hodisalar haqida hikoya qilinganda o’rta va katta maktabgacha yosh guruhlarida ham foydalaniladi. Biroq, katta guruhlarda hikoya qilish jarayonida ko’rgazmali materiallardan keragidan ortiqcha foydalanish tavsiya etilmaydi. Chunki bolalarni so’z yordamida fikrlashga o’rgatish, ularda fazoviy tasavvurni rivojlantirish lozim.

NATIJALAR VA MUHOKAMA. Bolalar badiiy asarlarni o‘qish, tinglash yoki ijro etish orqali fikrlarini bog‘lash, mavzuni uzviy ravishda va tartibli ifodalashni o‘rganadilar. Badiiy asarlar bolalarga yangi so‘zlar, iboralar va grammatik tuzilmalardan foydalanishni o‘rgatadi. Bu til boyligini kengaytirishga, talaffuz va tayanish qobiliyatini yaxshilashga yordam beradi. Ertaklar va hikoyalar bolalarning tasavvurlarini kengaytiradi, shuningdek, obrazli fikrlashni va mantiqiy tizimli fikrlashni rivojlantiradi. Badiiy asarlar bolalar ongida emotsional javobni uyg‘otadi, bu esa ularning hissiy dunyosini boyitadi va shaxsiy rivojlanishlariga yordam beradi. Badiiy adabiyotlar vositasida bolalar bog‘langan nutqini rivojlantirish texnologiyasi, bolalar uchun nafaqat til va nutq malakalarini shakllantirish, balki ularning fikrlash qobiliyatini, tasavvurini va ijtimoiy ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu yondashuv bolalar shaxsiyatining kamol topishiga yordam beradi va ularning muloqot qilishda ishonchli bo‘lishlarini ta'minlaydi.

Hikoya – biror voqea, hodisani kengaytirib bayon qilishdir. Bolalarga ertak va hikoyalar aytib berish usullari. Hikoya tuzish jarayonida bolalarning narsalarni ko’rib idrok etishi, eslab hikoya qilish, tasavvur etib hikoya qilish kabi qismlarga bo’linadi. Ko’rgan narsalarni idrok etib yoki eslab hikoya qilish aniq materiallar asosida tuziladi. Ulardan tasavvur etib hikoya qilish – ijodkorlikni talab qiladi. Bu hikoyalarning hammasi ham nutqning bog’liqligi va maqsadga yo’naltirilganligi bilan muhimdir. Hikoya qilish usullari xilma-xildir. Jumladan, tarbiyachi tomonidan hikoyaning qisqacha namunasi berilishi mumkin. Bunda hikoyaning bir qismi tuziladi yoki o’yin tarzida bayon etiladi. Badiiy asarni sahnalashtirishning o"ziga xos xususiyatlari. Sahnalashtirish o’yinlari, bu bolalarning mustaqil ijodiy o’yin turi bo’lib, unda badiiy asar va hikoyalar bolalar tomonidan rollarga bo’lib ijro etiladi. Bu o’yinlar bolalarda Iroda, intizom va o’z xatti harakatlarini boshqara olish, boshqalarning harakatlari bilan hisoblashish kabi ijobiy ma'naviy xislatlarni shakllantiradi. Sahnalashtirish o’yinlarida bolalar o’yin jarayoniga kirib boradilar, voqea va ertak qahramonlarining ichki hayotiga bevosita

aloqador bo’lgan qahramonlik, jasurlik, Mehribonlik, jonbozlik, jonkuyarlik kabi ijobiy fazilatlarni o’zlarida yaqqol namoyon qiladilar. Bu jarayonda bolalarning nutq faolligi, lug’at boyligi, dunyoqarashi kengayib boradi. Sahnalashtirish uchun badiiy asar, ertaklar tanlash katta yoshdagilardan bolalarning yosh xususiyatlari, qiziqishlari, istaklarini hisobga olishni talab etadi.

Adabiy asarlarni tanlashda quyidagi talablar qo’yiladi: 1. Mazmunining g’oyaviy-ma'naviy barkamolligi. 2. Badiiy jihatdan mazmundorligi. 3. Asardagi qatnashchi va rollarning soni (qancha ko’p bo’lsa, asar shuncha ahamiyatlidir). 4. Mazmuni yaxshi bo’lishi bilan birga, unda harakat turlarining ham ko’p bo’lishi. 5. Ifodali o’qishga mos bo’lishi. 6. Mazmuni qiziqarli, hayot bilan bog’langan bolalarning ijodiy qobiliyatlarini yanada takomillashtirishda qurilish materiallari bilan o’ynaladigan o’yinlarning roli kattadir. Pedagoglardan Z.V. Lishtvan, V.G. Nechaeva o’z tadqiqotlarida qurish-yasash o’yinlarining o’ziga xos tomonlari va ahamiyatini yoritib berganlar. Bolalar nashriyotlari badiiy asarlarni sahnalashtirish uchun xalq ertaklariga siluetlar, teatr-kitoblar, panoramakitoblar kabi turli ko’rinishdagi ko’rgazmali qo’llanmalarni chop etmoqdalar.

XULOSA. Xalq og’zaki poetik ijodidagi eng boy va rang-barang janrlardan biri ertakdir. Ertak xalq turmushi, urinishi, mehnati, yuksak ideallariga maskanligi, xullas, xalq hayotining barcha jabhalari bilan uzviy bog’langanligi bilan ham g’oyatda e'tiborlidir. Zero, ertaklar hech vaqt bekorchi, ermak narsalar bo’lmay, ular hamma vaqt zo’r ijtimoiy va tarixiy ahamiyatga egadir. Bahaybat maxluqlar haqida hikoya qiluvchi ertak va afsonalarda u yoki bu davrning ijtimoiy, hayotiy kurashlari, xalq manfaatlari o’zining badiiy ifodasini topgan. Ana shu buloq singari jo’shqin, ummondek tubsiz, bebaho xazina bo’lmish ertak o’zining g’oyaviy mazmuni, badiiy qudrati bilan hamisha mehnat ahlini o’ziga maftun etib kelgan. Ertakning muhim xususiyatlaridan biri uning har doim xalq hayoti, kurashi, tarixi, psixologiyasi, dunyoqarashi, urfodatlari bilan juda yaqin bog’langan bo’lishi, insonlarga axloqiy va ma'naviy yo’ldosh bo’lib kelishidadir. Ertak — insonning ma'naviy va jismoniy kuchiga ishonch ruhi bilan to’lib-toshgan.U insonga butun Real va tabiatdan tashqari kuchlarning bo’ysunganini ifodalaydi. Ertaklarda inson tabiat va ijtimoiy hayotda o’ziga dushman bo’lgan kuchlarga qarshi kurashda doimo g’olib chiqadi. Xalq o’z ertaklarida badiiy obrazlar orqali o’z dunyoqarashi, axloq normalari va boshqa ijtimoiy masalalarni o’rtaga qo’ygan va o’zicha hal etgan.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI.

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг қарори “Республика аҳолисининг аҳборот-кутубхона билан таъминлаш ташкил этиш тўғрисида” //Маърифат:2006. 21 июн.
2. Марина, Н. The public Library of the future: Qualitative and Quantitative Methods in Libraries/ Nikta Marina; Christos Karydis.-Vol 9 № 4(2020). -December Issue 2020.
3. https://dzen.ru/list/education/obuchenie-angliiskomu-iazyku-v-biblioteke
4. https://lex.uz/docs/-5426736?ONDATE=20.05.2021%2000
5. https://statisticsanddata.org/data/the-most-spoken-languages-2023

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 1-son)

FILOLOGIYA

PHILOLOGY

KITOBXONLIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH -DAVR TALABI

Murodova Nargiza Baxtiyorovna
Xalqaro Nordik unversetiti magistranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada rivojlanib borayotgan mamlakatimizning islohotlariga nazar solinib hozirda dastur sifatida foydalanilayotgan Harakatlar strategiyasi, taraqqiyot strategiyasi va 5 ta muhim tashabbusning kitobxonlik va yosharga aloqador bandlari tahlil qilingan va ushbu islohotlarning kelgusidagi samarasi haqida fikr va mulohazalar tahliliy-ilmiy asosda keltirilgan

Kalit so‘zlar: Tarqaqqiyot startegiyasi, besh tashabbus, kitobxonlik madaniyati, ma’naviy ehtiyoj, oilaviy mutolaa, badiiy asar tahlili, madaniy nutq, matn kompozitsiyasi, savodxonlik.

KIRISH

Mamlakatimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligi, “insonlarning millati, tili va dinidan qat’i nazar, erkin, tinch va badavlat umr kechirishi, bugun hayotidan rozi bo‘lib yashashi”134, mamlakat kelajagi kafolatiga ishonch hosil qilishi Davlatimizda olib borilayotgan oqilona siyosatning asosiy maqsadidir. Zero, O‘zbekiston, yurtboshimiz e’tirof etganidek, milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari jadal harakat qilmoqda135.

“Odamning ulug‘vorligi uning bo‘yi bilan o‘lchanmaganidek, xalqning ulug‘ligi ham, uning soni bilan o‘lchanmaydi, yagona o‘lchovi-uning aqliy kamoloti va axloqiy barkamolligidir”. (V.Gyugo)136

Yosh avlod tarbiyasida eng asosiy omillardan biri kitob mutolaasidir. “Kitob”, “kitobxonlik”, “kutubxona” so‘zlari o‘zagi asl mazmuni arabchadan olingan va birxil mazamunnni targ‘ib qiladi. Yurtimizda yoshlar o‘rtasida kitobxonlik madaniyati va ma’naviy saviyani oshirish uchun amalga oshirilayotgan islohotlar bejizga emas, shu o‘rinda, kelajak avlod kamoloti va ilm olishi, bilimli bo‘lish bilan belgilanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti 2017 yil 12 yanvar kuni “Kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirishga qaratilgan” farmonga imzo chekdii. Bu esa yurtimizda

---

134 O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi.-“Zarafshon”, 2018-yil 29- dekabr, 155-156-son

135 Maysara Eshniyazova SamISI akademik litseyi o’qituvchisi. Manba: cyberleninka.ru

136 Hikmatlar xazinasi T-2018

kitobxonlik darajasi va saviyasi oshishiga, yangidan-yangi sermazmun kitoblar chop etilishiga omil bo‘luvchi muhim odimdir137

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Davlatning iqtisodiy va ijtimoiy holari qanchalik taraqqiy etsa, insonlarning ilmiy-ma’naviy salohiyati ham shunga mutanosib bo‘lishi hejkimga sir emas Mustaqil yurtimiz go‘zal O‘zbekiston hozirgi jadal taraqqiyot davrida har tomonlama eng rivojlangan davlatlar qatoridan joy olishga intilayotgan bir davrda xalqimiz va yosh avlodning o‘z oldiga qo‘ygan maqsadi ham shunga mutanosib tarzda teran xolis, aniq, va qat’iy bo‘lishi darkor. Shu bois jamiyatning mazkur talabini–g‘oyaviy-mafkuraviy jihatdan sobitqadam avlodlarga bo‘lgan ehtiyojini qondirish uchun, avvalo, kamolotning dastlabki bosqichi sifatida har bir yoshning shaxs sifatida kamol topishiga zamin tayyorlanadigan ta’lim-tarbiya jarayoniga alohida e’tibor qaratilmoqda. Prezidentimiz ta’kidlaganidek, “zamon talabi, islohotlar shiddatiga mos kadrlar tayyorlash”138 maqsadida keyingi yillarda ta’lim tizimini takomillashtirish, zamonaviy kadrlar tayyorlashga qaratilgan qator ishlar amalga oshirildi.

Ma’rifatparvar bobomiz Abdurauf Fitrat ”Bu dunyo kurash maydonidir. Sog‘lom tan, o‘tkir aql va yaxshi ahloq bu maydon qurolidir’’ deb aytgani ham so‘zlarimiz isbotidir. Mamlakatimiz aholisining umumiy miqdoridan 30 foizini 14 yoshdan 30 yoshgacha bo‘lgan o‘g‘il-qizlar tashkil etadi. Ularning tahsil olishi va kasb-hunarni egallashi uchun qulay shart-sharoitlar yaratilgan. Shu bilan bir qatorda ularning bo‘sh vaqtlarini samarali o‘tkazishini tashkil etish muhim masalalardan biri hisoblanadi. Yoshlar ma’naviy jihatdan qanchalik barkamol bo‘lsa, ular ongida yod g‘oyalaarga nisbatan immunitet ham shu qadar kuchli shakllanadi.

Aytish o‘rinliki, bugungi kunda mamlakatimizda 2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasida belgilab berilgan oliy maqsad yani mamlakatimiz rivoji va taraqqiyotini yanada yuqori bosqichga ko‘tarish bosqichidagi yo‘lda barcha soha va tarmoqlar kesimida keng ko‘lamli o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda.

Mazkur yo‘nalishda tashkiliy-amaliy ishlarni amalga oshirish va ularnining zamon talablariga mos tarzda yo‘lga qo‘yilishi bo‘yicha tegishli huquqiy-me’yoriy hujjatlar bazasi yaratish bo‘yicha tizimli islohotlar olib borilmpoqda. Xususan, Prezedentimizning sohada ijobiy o‘zgarishlar, tub islohotlarni amalga oshirishga yo‘naltirilgan 2006-yil 20-iyuldagi “Respublika aholisini axborot-kutubxona bilan ta’minlashni tashkil etish to‘g‘risida”gi qarori, 2011-yil 13-apreldagi “Axborot-kutubxona to‘g‘risida”gi Qonuni, 2017-yil 12- yanvardagi «Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ibot qilish bo‘yicha komissiya tuzish to‘g‘risida»gi Farmoyishi, 2017-yil 13-sentabrdagi “Kitob maxsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini

[137] Ismoilova Nurxon “Kitob va kitobxonlik – inson ma`naviyatining ko`zgusi” "Oriental Art and Culture" Scientific-Methodical Journal - Issue 6 / 2021 ISSN 2181-063X 2-b

[138] O’zbekistonga jadal islohotlar sur’atiga mos ilg’or kadrlar kerak. –“Xalq so’zi”, 2018-yil 19-dekabr, 262-son

rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ibot qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to‘g‘risida”gi Qarori asosida yurtimizda keng ko‘lamli ishlar olib borilmoqda139. Mazkur qonun va qonunosti hujjatlarda belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlash yuzasidan hududlarda Axborot-resurs markazlari faoliyati zamon talablariga mos isloh qilindi, yangi kitob savdo do‘konlari faoliyati yo‘lga qo‘yildi hamda aholiga xizmat ko‘rsatish sifat jihatidan ancha takomillashtirildi. Kitobsevarlar o‘rtasida o‘tkaziladigan ko‘rik-tanlovlar respublika miqyosida ommalashtirildi va shaxsan davlatimiz rahbari tomonidan rag‘batlantiruvchi sovrinlar belgilandi. Yoshlarning kitob o‘qishga ishtiyoqi ortdi. Nashriyotlarda badiiy asarlarni bir necha nusxada chop etish va hududlarga tarqatish ishlari sur’ati oshdi.

Biroq, tan olish kerakki, bu maskanlar hali gavjum go‘shalarga yetarlicha aylanib ulgurganicha yo‘q. Demak, jamiyatimizda kitobga mehr qo‘yish, kitobxonlikka qiziqish eng zarur ehtiyoj ekanligiga aholi o‘rtasida hali to‘liq e’tibor qaratilmagan. Pedagog sifatida tajribamizdagi kuzatishlardan kelib chiqib bu holat yuzasidan ayrim mulohazalarimizni aytib o‘tmoqchimiz.

Xalqimiz turmush tajribasidan ma’lumki, ajdodlarimiz farzand tarbiyasida kitob mutolaasiga alohida e’tibor qaratishgan. Buyuk Navoiy-u Bobur, Amir Temur-u Ulug‘bek kabi alloma-yu ijodkorlarimiz, tojdor-u daholarimiz ma’naviyati bolalikdan kitobga mehr qo‘yish bilan shakllangan. Ajdodlarimiz xalq ertaklari-yu dostonlarini tinglab tasavvur va tafakkur dunyosini, ruhiyat olamini boyitishgan. Adabiyot durdonalari -xoh xalq og‘zaki ijodi namunalari, xoh yozma asarlar bo‘lsin -xalqimiz qalbida yurtiga, ona tiliga, oilasiga, vatandoshlariga mehr-muhabbat va sadoqat, milliy g‘urur, or-nomus, adolat-u insof, andisha-yu hurmat, olijanoblig-u saxovatpeshalik sifatlari shakllanishida asosiy vosita bo‘lib xizmat qilgan. Bunday ma’naviyat durdonalari mutolaa qilingan, tinglangan, eng muhimi, oila davrasida yoki jamoat ichida muhokama qilingan, bahs-u tortishuvlar asosida asarlar mazmun-mohiyati anglangan, anglatilgan. Ahamiyatlisi shundaki, yosh-u qari birday qiziqish bilan ishtirok etadigan bunday davralarda mushohada qilish va mulohaza yuritish, mantiqiy fikrlash qobiliyati, keng dunyoqarash va tafakkur shakllangan, e’tiqod va iroda mustahkamlangan, notiqlik mahorati o‘sgan, kishilar ongi ham ma’nan, ham ruhan, ham ilman boyib borgan. Bugungi kunda esa juda ko‘p xonadonlarda oilaviy mutolaaga deyarli vaqt ajratilmaydi.

Aksariyat oilalarda xonadon sohib-u sohibasi doim ish bilan bandligi bois kechki taomdan so‘ng kunning charchog‘ini yozish uchun yoki oynayi jahon yoniga cho‘kadi, yoki dam olish uchun uyquni afzal bilishadi. Hatto shunday oilalar borki, ota-onalarning o‘zi uyda vaqtini farzandi bilan emas, telefon-u kompyuter bilan o‘tkazishni afzal ko‘rishadi. Bolalarining injiqlariga bardosh berish, ularga ruhan yaqin bo‘lish, yutuqlari va muammolari bilan qiziqish o‘rniga, ularning o‘qishi o‘qituvchilariga yuklab qo‘yiladi yoki faqat ta’limiy fanlardan

[139] Boltaboyeva U., Rakhmonova N., Usmonov S. Characteristics of speech Art: problems and solutions //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2020. – T. 10. – №. 4. – C. 559-567

o‘zlashtirishi nazorat qilinadi, ta’lim-tarbiya berish, asosan, o‘quv maskanlaridagi ustoz va murabbiylar zimmasidagi ishdek bo‘lib qoladi. Kunning qolgan qismida yolg‘iz yoki nazoratsiz qolgan bola, asosan, mustaqil dars tayyorlaydi, oq-u qorani, kerakli-keraksiz narsalarni to‘la idrok etib ulgurmagan, hali bolaligiga boradigan yoshdagi farzand zangori ekran bilan “dos’tlashib” oladi, uning yonida asosiy vaqtini o‘tkazadi, lekin tomosha qilgan ko‘rsatuvlari, o‘qib-o‘rgangan bilimlarining mohiyatini anglab-anglamay kunlarini o‘tkazaveradi. Eng achinarlisi, hozirda yoshlarning aksariyati turli rusumdagi uyali aloqa vositalari yoki kompyuter texnikasi xotirasidan mustahkam joy olgan ko‘ngilochar o‘yinlarning (yanada dahshatlisi–bu o‘yinlarning ko‘pchiligida otishma, qotillik, jangarilik, mustlashish sahnalarining ko‘pligi), internet orqali yuklab olingan, lekin yoshiga mos bo‘lmagan film va suratlarning ashaddiy ishqiboziga aylanib qolayotganlaridir. Bola nimani qanday o‘qishni bilmasa, o‘qigan narsasini uqmasa yoki mohiyatini anglamasa, undan hech qanday bilim va zavq ololmaganidek, bu kabi nojoiz o‘yinlardan ham hech qanday estetik zavq va ma’naviy quvvat ololmaydi, aksincha, unda o‘ychanlik, jizzakilik, asabiylik, beparvolik, loqaydlik, mas’uliyatsizlik, dangasalik, maqsadsizlik kabi yana bir qator salbiy illatlar shakllanib, ruhiyati va xarakteriga tobora mustahkam o‘rnashib boradi140.

Buyuk alloma, haqiqiy vatanparvar, yuksak salohiyatli ustoz Najmiddin Kubro “Muvaffaqiyatni sa’y-harakatda, muvaffaqiyatsizlikni esa loqaydlik va dangasalikda ko‘rdim” degan ekanlar141. Shu bois oila boshliqlari farzandlar taqdiriga bee’tibor bo‘lmasliklari, bolalar bilan ularning yoshiga mos kitoblar mutolaasini yo‘lga qo‘yishlari va o‘qilgan asarlar, olingan bilimlar, ularning inson hayotidagi o‘rni va ahamiyati yuzasidan oilaviy suhbatlar o‘tkazishlari, ko‘proq o‘gil-qizlarining fikr- mulohazalarini tinglashga diqqatni qaratishlari, ularni qo‘llab-quvvatlashlari, kamchiliklarini muloyimlik va bosiqlik bilan tuzatishlari kerak bo‘ladi142. Bu holat oilada nafaqat kitobsevar farzandlar kamol topishiga erishishda yordam beradi, balki oila a’zolari o‘rtasida do‘stona muhitni shakllantirishda ham, ota-onaga hurmat va o‘ziga ishonch tuyg‘ularining mustahkamlanishida ham, mulohazakorlik, mas’uliyat, javobgarlik, tejamkorlik, vaqtni qadrlash, tabiat va jamiyat, yurt uchun kerakli inson bo‘lishga intilish sifatlarini o‘stirishda ham o‘ziga xos poydevor vazifasini o‘taydi.

Demak, har bir ota-ona farzandining nafaqat jismoniy, balki ham aqliy, ham ruhiy, ham ma’naviy tarbiyasiga alohida e’tibor qaratishi, yoshiga mos badiiy kitoblar bilan ta’minlab turishi, o‘qigan kitoblari yuzasidan ular bilan fikr almashishi, bolani rag‘batlantirib borishi lozim.

MUHOKAMA

Mamlakatimizda keyingi yillarda yoshlar o‘rtasida kitobxonlik madaniyatini targ‘ib qilish borasidagi ishlar ko‘lami sifat darajaga ko‘tarildi. Xususan, O‘zbekiston prezidentining 2017

140 Ahmedova Z. Bola tarbiyasida psixolog maslahatlari. -Toshkent, 2018.
141 Usmonov Sh. SAHNADA tashqi qiyofaga aktyorning MUNOSABATI //Oriental Art and Culture. – 2020. – №. II.
142 Boltaboeva U. Nutq san’atining o‘ziga xos xususiyatlari: muammo va yechimlar //Oriental Art and Culture. – 2020. – №. I (2).

yil 13 sentabrdagi “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ib qilish bo‘yicha kompleks choratadbirlar dasturi to‘g‘risida”gi qarori, Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 14 dekabrdagi № 781-sonli qarori bilan 2020–2025 yillarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlash milliy dasturi va boshqa qator hujjatlar soha rivoji uchun dasturul amal vazifasini o‘tamoqda143.

Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 14 dekabrdagi № 781-sonli qarori bilan 2020–2025 yillarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlash milliy dasturini uch bosqichda amalga oshirish ko‘zda tutilgan. I bosqich -2020- 2021 yillarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish bo‘yicha tashkiliy-huquqiy mexanizmlarni takomillash-tirish chora-tadbirlarini amalga oshirish; II bosqich -2022-2023 yillarda kitobxonlikka oid infratuzilmani mustahkamlash; III bosqich -2024-2025 yillarda yoshlarning kitobxonlik madaniyatini jadal rivojlantirish, ularning intellektual salohiyati o‘sishi hisobiga inson kapitali sifatini yaxshilash kabi muhim mezonlar belgilangan144.

Shuningdek, aholi, avvalo, yoshlarning ma’naviy-ma’rifiy, badiiy-estetik talablariga javob beradigan kitoblarni yuksak sifat bilan chop etish, nashriyotlar va ijodkorlar faoliyatiga ko‘maklashish, bolalarga mo‘ljallangan adabiyotlarni chop etishni qo‘llab-quvvatlash, milliy va jahon adabiyotining eng sara namunalarini tarjima qilish, mutolaa madaniyatini yuksaltirish, respublikaning olis hududlarida va yoshga doir kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish, aholining kitobxonlik darajasi va kitobga qiziqishini tizimli o‘rganib borish, kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan loyiha va tanlovlarni tashkil etish kabi dolzarb vazifalar ko‘zda tutilgan. Kitobxonlikni rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar samaradorligini baholash tizimini ishlab chiqish, «Eng yaxshi kitobxon hudud», «Eng yaxshi kitobxon mahalla», «Eng yaxshi kitobxon ta’lim muassasasi» kabi reytinglarni joriy etish va boshqa muhim vazifalar belgilangan.

“NOP World” xalqaro reyting agentligi ma’lumotlariga ko‘ra, dunyoda odamlar haftasiga 16,6 soat vaqtini televizor ko‘rishga sarflasa, 8,9 soatni kompyuter qarshisida o‘tkazadi, 6,5 soatni esa mutolaaga ajratadi. 2016 yilda haftasiga eng ko‘p kitob o‘qiydigan mamlakatlar ro‘yxatida Hindiston-10,7, Tailand-9,4, Xitoy-8, Filippin-7,6, Chexiya-7,4, Rossiya-7,1, Shvesiya-6,9, Fransiya-6,9 va Vengriya-6,8 soat bilan yuqori o‘rinlarni egalladi145.

“Yoshlarimizga munosib ta’lim berish, ularning ilm-fanga bo‘lgan intilishlarini ro‘yobga chiqarishimiz kerak. Shu maqsadda maktabgacha ta’lim tizimini rivojlantirishimiz, o‘rta va oily o‘quv yurtlarining moddiy-texnik bazasini, ilmiy va o‘quv jarayonlari sifatini tubdan yaxshilashimiz kerak”,-deydi yurtboshimiz. Ushbu sohadagi ishlarning samarasi o‘laroq 5 tashabbus borasida e’tirof etish joiz bo‘lgan ishlar amalga oshirildi. Jumladan Prezidentimiz

---

143 O’zbekistonga jadal islohotlar sur’atiga mos ilg’or kadrlar kerak. -“Xalq so’zi”, 2018-yil 19-dekabr, 262-son.

144 Akbarova M., Tursunova G., Abdunazarov Z. Section 3. Theater art //European Journal of Arts. – C. 125.

145 www. ma’naviyat.uz.

tomonidan ilgari surilgan 5 ta muhim tashabbusni ta’lim muassasalari va o‘quvchi-yoshlar orasida keng targ‘ib qilishda mahalliy hokimliklar tomonidan ham 45,1 mlrd. so‘m homiylik mablag‘lari ajratildi. Jumladan, Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi ham to‘rtinchi tashabbus - aholi, ayniqsa, yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish, ular o‘rtasida kitobxonlikni keng targ‘ib qilish masalalari bo‘yicha mas’ul tashkilot sifatida jarayonda faol ishtirokchiga aylanadi. Markazda quyidagi yo‘nalishlarda amaliy ishlar olib borish yo‘lga qo‘yildi:

1) tegishli tashkilotlar mas’ulligi va hamkorligida 1 oy muddatda mazmun va mohiyat nuqtayi nazaridan milliy ruhimiz, shonli tariximiz va vatanparvar ajdodlarimizga munosib bo‘lgan harbiy qasamyodning yangi matni bo‘yicha taklif tayyorlash;

2) Xalq ta’limi vazirligi mas’ulligida Yoshlar ittifoqi bilan hamkorlikda an’anaviy tarzda bir yilda ikki marotaba, 1-iyun - Xalqaro bolalarni himoya qilish kuni va 2-sentabr-Bilimlar kunida mamlakatimiz bo‘ylab o‘tkaziladigan “Qadrdon maktabimga kitob sovg‘a qilaman” shiori ostida aksiya tashkil qilish;

3) Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi mas’ul tashkilot sifatida O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi, O‘zbekiston Yoshlar ittifoqi, O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasi, Elektron ommaviy axborot vositalari milliy assotsiatsiyasi, O‘zbekiston Milliy axborot agentligi va Jurnalistlar uyushmasi bilan birgalikda, bir yilda bir martta 9 fevral - buyuk ajdodimiz Alisher Navoiyning tavallud kunida e’lon qilinadigan “Bu yilda o‘qilishi zarur bo‘lgan 100 ta kitob” ro‘yxatini tuzib chiqish, ushbu kitoblarning yil davomida tele va radioefirlarda o‘qib borilishi, el tanigan ziyolilar orqali barcha turdagi ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarda keng tashviqotini tashkil qilish;

4) Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi mas’ulligida Yozuvchilar uyushmasi, O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasi, Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo‘yicha qo‘mita va O‘zbekiston musulmonlari idorasi bilan hamkorlikda jahon va o‘zbek adabiyoti, tariximiz va qadriyatlarimiz bilan bog‘liq sara asarlar, shuningdek, islom dini tarixi, islom dinining asl mazmun-mohiyati va yurtimizdan yetishib chiqqan buyuk allomalar haqida hikoya qiluvchi ixchamlashtirilgan matnlarni chop etish va audiokitoblar tayyorlashni ta’minlash;

5) Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi mas’ul tashkilot sifatida Yoshlar ittifoqi va Madaniyat vazirligi bilan birgalikda yoshlarni ma’naviy barkamol etib tarbiyalash, ularni yot g‘oyalar ta’siridan himoya qilish hamda kitobxonlikka keng jalb etishga qaratilgan ta’sirchan, tizimli, maqsadli va manzilli chora-tadbirlarni amalga oshirish.

Yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish, ular o‘rtasida kitobxonlikni keng targ‘ib qilish yo‘nalishi bo‘yicha tizimli ishlarni tashkil etishga yo‘naltirilgan to‘rtinchi tashabbus doirasida tashkil etilgan kitobxonlik klubiga 264 ming o‘quvchilar a’zo bo‘ldi. Qolaversa, respublikamizda tashkil etilgan “Book challenge” doirasida 600 mingdan ortiq kitoblar umumta’lim maktablariga sovg‘a qilindi.

Ta’lim sohasi faoliyatini kitoblarsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Ta’lim jarayonida o‘quvchi ham, o‘qituvchi ham bevosita kitob mutolaasiga ehtiyoj sezadi. Bu quvonarli, albatta. Lekin

hozirgi kunda o‘quvchilar asosan ilmiy adabiyotlar, darslik va qo‘llanmalardan foydalanayotganlari bois badiiy asarlar mutolaasiga vaqt ajratishga imkoniyatlari cheklanmoqda. O‘quvchi faqat adabiyot darsida o‘qituvchi bergan vazifani bajarish uchungina badiiy asarlarni qo‘lga olyapti. Natijada esa ma’lum: mutolaa jarayoni sevimli mashg‘ulot emas, majburiyatga aylanib qoladi. Kitob mutolaasiga havasi bolalikdan paydo bo‘lmagan o‘quvchi keyinchalik berilgan katta hajmli asarlarni o‘qishga kuch topolmaydi, ishtiyoq sezmaydi, xohish bildirmaydi, faqat darslikda berilgan qisqartirilgan parcha bilangina tanishadi va yozuvchining butun asar mazmuniga singdirib yuborgan pafosini, g‘oyaviy-badiiy maqsadini to‘la anglolmaydi, badiiy asarlarning haqiqiy zavqidan bebahra qoladi, adabiyotning haqiqiy kuchini, qudratini his qilmaydi, natijada kitob o‘qishga mehr qo‘ymaydi.

O‘quvchi bilan suhbat o‘tkazganimizda ular oxirgi marta qachon qaysi badiiy asarni o‘qiganlarini aytolmaydilar, mutolaa qilgan badiiy asarlari ro‘yxati bilan qiziqqanimizda, afsuski, ularning nomi sanoqligina bo‘ladi. Bunday muammolarni bartaraf etish uchun o‘quvchilarga har hafta bitta ma’lum nomdagi badiiy asarni o‘qishni topshiriq sifatida beramiz va belgilangan muddatda guruh o‘quvchilari bilan o‘sha asarning g‘oyaviy-badiiy jihatlarini o‘rganib chiqamiz.

NATIJA

Mustaqil o‘qish uchun berilgan asarlarni tahlil qilganimizda o‘quvchida badiiy kitob o‘qish ishtiyoqi ortganining, unda hayrat, zavq paydo bo‘layotganining guvohi bo‘lamiz. Demak, yosh avlodning ma’naviy ehtiyojini qondirish uchun ularga kitob tanlashni, uni o‘qishni, tahlil qilishni muntazam o‘rgatib borish kerak, buning uchun esa, bizningcha, adabiyot va ona tili fanlaridan dars soatlarini ko‘paytirish, mashg‘ulotlarni guruhlarga bo‘lib o‘tkazilishi tashkil etish maqsadga muvofiq bo‘lar edi. Buning natijasida tahsil oluvchilarga individual yondashish imkoni ortadi, darslarning samaradorligi oshishiga erishiladi. Shuningdek, o‘quvchilar mutaxassis o‘qituvchilar bilan ko‘proq suhbatda bo‘lib, ulardan tajriba o‘rganadilar. Ta’lim-tarbiya jarayonida tom ma’noda davr talabiga mos haqiqiy vatanparvar, salohiyatli, dadil yoshlarni, g‘oyaviy-mafkuraviy va intellektual jihatdan yetuk kadrlarni tayyorlashda, zarur ma’naviy ehtiyojlarni qondirishda adabiyot darslarining insonshunoslik, ruhshunoslik, axloqshunoslik sifatlari to‘la namoyon bo‘ladi.

Shu o‘rinda joriy yilda qabul qilingan va muhum tarixiy ahamiyatga ega bo‘lgan 2022—2026-yillarga mo‘ljallangan yangi o‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi[146] dasturida kitob va kitobxonlik haqida istiqboldagi ishlar belgilab berilgan. Jumladan taraqqiyot dasturida biz muhokama qilayotgan masalalar bo‘yicha alohida aniq maqsadlar belgilab qo‘yilgan:

42-maqsad: 2026-yilga qadar o‘quv dasturlari va darsliklarni ilg‘or xorijiy tajriba asosida to‘la qayta ko‘rib chiqib, amalda joriy etish.

[146] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-son https://lex.uz/uz/docs/-5841063

Milliy o‘quv dasturiga asosan 2026-yilga qadar 699 nomdagi, shu jumladan 2022-yilda 296 nomdagi yangi darsliklar, mashq daftarlari, o‘qituvchi metodika kitoblari hamda mobil ilovalarni yaratish.

72-maqsad: Aholiga axborot-kutubxona xizmatini ko‘rsatishni yanada rivojlantirish, kitobxonlikni keng ommalashtirish hamda “Kitobsevar millat” umummilliy g‘oyasini ro‘yobga chiqarish.

Aholiga axborot-kutubxona xizmati ko‘rsatishni yanada rivojlantirish, kitobxonlikni keng ommalashtirish hamda sohada yagona boshqaruv tizimini joriy etish.

1-jadval. 42-maqsad: 2026-yilga qadar o‘quv dasturlari va darsliklarni ilg‘or xorijiy tajriba asosida qayta ko‘rib chiqib, amalda joriy etish.[147]

Chora	**Vazifa**	**Maqsad**	**Vaqt**	**Mablag‘ manbasi**
Yangi darsliklar, mashq daftarlari va metodika kitoblarini yaratish	2022-yilda 296 nomdagi yangi darsliklar va materiallarni yaratish	Milliy o‘quv dasturi	2022	Davlat budjeti mablag‘lari
O‘quv-metodik majmualarni tajriba-sinovdan o‘tkazish	Umumta’lim maktablarda darslik va majmualarni chet ellik mutaxassislar bilan sinovdan o‘tkazish	Kitob jamg‘armasi	2022 sentabr	Davlat budjeti mablag‘lari
O‘qituvchilarning malakasini oshirish uchun video-darslar yaratish	67 ta video-dars yaratish (Milliy o‘quv dasturi bo‘yicha)	Xalq ta’limi vazirligi	2022	Davlat budjeti mablag‘lari

2-jadval. 72-maqsad: Aholiga axborot-kutubxona xizmatini ko‘rsatishni yanada rivojlantirish.

Chora	**Vazifa**	**Maqsad**	**Vaqt**	**Mablag‘ manbasi**
Axborot-kutubxona xizmatlarini rivojlantirish, yagona boshqaruv tizimini joriy etish	Prezident kutubxonasini tashkil etish va moliyaviy qo‘llab-quvvatlash tizimini yo‘lga qo‘yish	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori	2022 aprel	Davlat budjeti mablag‘lari
Kitobxonlikni keng ommalashtirish	O‘zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotlarini tarjima qilish va targ‘ib qilish	Tarjimonlik maktablarini rivojlantirish	2022 aprel	O‘zbekiston Respublikasi jamg‘armasi
Nashr tajribasi va onlayn maydoncha yaratish	Noshirlik tajribasini va onlayn maydoncha (workfarm) shakllantirish	Mehr kutubxonasi loyihasi	2022 aprel	O‘zbekiston jamg‘armasi

Kitobxonlikni targ‘ib qilish masalalari Respublika darajasida nazoratga olinganligi va islohotlarga davlat rahbarining shaxsan etibor qaratayotganligi bu muammoning qanchalik dolzarb ekanligiga misol bo‘la oladi.

[147] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-son

XULOSA

Shubhasiz, insonlarning ehtiyojlari oshib boraveradi, lekin har qanday davrda ma’naviy ehtiyojning qadri ortsa ortadiki, hech qachon yo‘qolmaydi. Ma’naviy tanazzul jamiyat tanazzuliga sabab bo‘ladi, ma’naviy barkamollik jamiyat taraqqiyotiga asosiy mustahkam poydevor vazifasini bajaradi.

Kitobxonlik, umuman olganda kitobga bo‘lgan qiziqish va mehrning ortishi shaxsning ma’naviy kamolotini ta’minlaydigan asosiy omillardan biri bo‘lib hisoblanadi. Kitob insonning beminnat do‘sti va maslahatchisidir. Buyuk insonlar va katta karparatsiya va dunyo biznesining yuzi hisoblangan insonlarning taraqqiyot yo‘liga nazar solganda, ularning eng sevimli do‘sti kitob va kitobxonlik ekanligiga guvoh bo‘lamiz. Mamlakatimizdagi bu sohada qilinayotgan ishlarning ko‘lami esa juda katta. Kelajakda intelektual barkamol yoshlarni tarbiyalash va yurt kelajagini ishonchli qo‘llarga topshirish uchun bugungi kundan boshlab ushbu masalaga jiddiy mas’uliyat bilan yondashish lozim

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 41-modda T:2019.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” to‘g‘risidagi Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-son
3. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. -T.: O‘zbekiston, 2017. -488 b.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. // Harakatlar strategiyasi asosida jadal taraqqiyot va yangilanish sari. -T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2017. -92 b.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. -“Zarafshon”, 2018-yil 29-dekabr, 155-156-son.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. -“Zarafshon”, 2020-yil 30-dekabr.
7. O‘zbekistonga jadal islohotlar sur’atiga mos ilg‘or kadrlar kerak. -“Xalq so‘zi”, 2018-yil 19-dekabr, 262-son.
8. Boltaboeva U., Rakhmonova N., Usmonov S. Characteristics of speech Art: problems and solutions //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2020. – T. 10. – №. 4. – S. 559-567.
9. Boltaboeva U. Nutq san’atining o‘ziga xos xususiyatlari: muammo va yechimlar //Oriental Art and Culture. – 2020. – №. I (2).
10. Boltaboeva U. Using Oral Folk Art Methods in Improving Speech Technology //Eastern European Scientific Journal. – 2019. – №. 1.
11. Akbarova M., Tursunova G., Abdunazarov Z. Section 3. Theater art //European Journal of Arts. – S. 125.
12. Usmonov Sh. Sahnada tashqi qiyofaga aktyorning munosabatI //Oriental Art and Culture. – 2020. – №. II.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 1-son)

FILOLOGIYA

PHILOLOGY

KOMMUNIKATIV-PRAGMATIK TA`SIRNI PUBLITSISTIK MATNLARDA IFODALANISHI

Gafurova Gulrux Baxtiyarovna
Jizzax davlat pedagogika universiteti katta o‘qituvchisi
gafurovagulruh85@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada kommunikativ-pragmatik ta'sirning publitsistik matnlarda ifodalanishi o‘rganiladi. Kommunikativ-pragmatika, tilning insonlar o‘rtasidagi muloqotdagi amaliy funksiyalarini o‘rganadigan soha sifatida, matn va uning auditoriyasi o‘rtasidagi munosabatlarni chuqur tahlil qiladi. Publitsistik matnlar esa ommaviy axborot vositalarida va jamoat fikrini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Ushbu turdagi matnlarda kommunikativ-pragmatik ta'sirning aniq ifodalanishi, avvalo, adabiyotda ishlatilgan til vositalari, stilistik elementlar va maqolalarda ilgari surilgan g‘oyalarni qanday qilib samarali tarzda auditoriyaga yetkazish orqali amalga oshiriladi. Maqolada, shuningdek, matnning maqsadi, auditoriyasiga qaratilgan kommunikativ strategiyalar, til va uslubning o‘zaro aloqasi, shuningdek, pragmatik kontekstda qanday natijalarga erishish mumkinligi haqida mulohazalar yuritiladi.

Kalit so‘zlar: Kommunikativ-pragmatika, publitsistik matnlar, ta'sir, til va uslub, muloqot, auditoriya, pragmatik kontekst, stilistik elementlar, ommaviy axborot vositalari, jamoat fikri, g‘oya ifodalanishi.

Аннотация: В данной статье исследуется выражение коммуникативно-прагматического воздействия в публицистических текстах. Коммуникативная прагматика как область, изучающая практические функции языка в межличностном общении, глубоко анализирует отношения между текстом и его аудиторией. Публицистические тексты играют важную роль в средствах массовой информации и формировании общественного мнения. Выражение коммуникативно-прагматического воздействия в таких текстах осуществляется, прежде всего, через языковые средства, стилистические элементы и эффективное донесение идей, представленных в статьях, до аудитории. В статье также рассматриваются цель текста, коммуникативные стратегии, направленные на аудиторию, взаимосвязь языка и стиля, а также возможные результаты в прагматическом контексте.

Ключевые слова: коммуникативная прагматика, публицистические тексты, воздействие, язык и стиль, общение, аудитория, прагматический контекст, стилистические элементы, средства массовой информации, общественное мнение, выражение идеи.

Abstract: This article examines the expression of communicative-pragmatic influence in journalistic texts. Communicative pragmatics, as a field studying the practical functions of language in interpersonal communication, deeply analyzes the relationship between the text and its audience. Journalistic texts play an important role in mass media and the formation of public opinion. The expression of communicative-pragmatic influence in such texts is primarily realized through linguistic tools, stylistic elements, and the effective conveyance of ideas presented in the articles to the audience. The article also explores the purpose of the text, communicative strategies directed at the audience, the interconnection of language and style, as well as possible outcomes in the pragmatic context.

Keywords: communicative pragmatics, journalistic texts, influence, language and style, communication, audience, pragmatic context, stylistic elements, mass media, public opinion, expression of ideas.

Kirish

Har bir muloqot jarayonida tilning nafaqat ma'lumot uzatish, balki auditoriyani ta'sirlantirish, uning fikrini o'zgartirish yoki shakllantirish kabi kommunikativ maqsadlarni amalga oshirishdagi roli katta. Kommunikativ-pragmatika bu jarayonda tilning pragmatik funksiyalarini, ya'ni ma'lumotni qanday taqdim etish, qaysi strategiyalar orqali muloqot o'rnatish va auditoriyaning qanday reaktsiyalarini kutilishini o'rganadi. Aynan shu jihatdan publitsistik matnlar, ommaviy axborot vositalarida ko'plab jamoat fikrlarini shakllantirishda, jamiyatdagi muhim masalalar bo'yicha xabardorlikni oshirishda va hissiy reaksiyalarni yuzaga keltirishda samarali vosita bo'lib xizmat qiladi. Publitsistik matnlarda kommunikativ-pragmatik ta'sirning qanday amalga oshirilishi, ayniqsa, til va uslubning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqadi. Bu matnlarda mualliflar o'z g'oyalarini yetkazish uchun turli xil pragmatik strategiyalarni, til vositalarini va stilistik elementlarni qo'llaydilar. O'z navbatida, auditoriya bilan muloqotda bo'lish, uni tushunish va unga ta'sir o‘tkazish maqsadida matnning pragmatik konteksti juda muhim ahamiyatga ega.

Ushbu maqolada publitsistik matnlarda kommunikativ-pragmatik ta'sirning qanday ifodalanganligi, uning auditoriyaga qanday ta'sir o‘tkazishi, shuningdek, til va uslubning o‘zaro aloqasi tahlil qilinadi. Maqola matnlar orqali amalga oshirilgan kommunikativ strategiyalarni va ularning samaradorligini o'rganishni maqsad qilgan.

Adabiyotlar tahlili

Kommunikativ-pragmatika va uning publitsistik matnlardagi ifodalanishi bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar til va muloqotning amaliy jihatlarini, ya'ni til orqali qanday ta'sir ko‘rsatish va auditoriyani qanday yo‘naltirish mumkinligini chuqur o‘rganadi. Kommunikativ-pragmatik ta'sirni o‘rganishda asosiy e'tibor tilning ijtimoiy va muloqotdagi funktsiyalariga qaratiladi. Ushbu tahlilga ko‘ra, publitsistik matnlar o‘z auditoriyasiga samarali ta'sir ko‘rsatish uchun turli xil til vositalari va strategiyalarni qo‘llaydi.

J.R. Searle [3] tomonidan taqdim etilgan *Speech Acts* konsepsiyasi kommunikativ-pragmatikaning asosiy tamoyillaridan biri hisoblanadi. Searle, so‘zlarning faqatgina ma'lumot

uzatish vositasi emas, balki ularning pragmatik ta'siri orqali o‘quvchi yoki tinglovchiga qanday ta'sir qilishini ko‘rsatadi. Publitsistik matnlarda bu g‘oya juda muhim, chunki mualliflar o‘z g‘oyalarini ma'lum bir maqsadga erishish uchun ishlatadilar. **H.P. Grice** [2] tomonidan ishlab chiqilgan *Cooperative Principle* (Hamkorlik prinsipi) ham kommunikativ ta'sirni o‘rganishda muhim rol o‘ynaydi. Grice nazariyasiga ko‘ra, muloqotda tomonlar o‘rtasida hamkorlik o‘rnatish, ya'ni bir-birini tushunish va o‘zaro kelishish prinsiplari asosida muloqot samarali bo‘ladi. Publitsistik matnlarda bu prinsiplarga amal qilish auditoriyaning g‘oyani to‘liq qabul qilishini va muallifning maqsadiga erishishini ta'minlaydi. **J.L. Austin** (1962) tomonidan ilgari surilgan *How to Do Things with Words* asari tilning pragmatik tomonlarini o‘rganishga katta hissa qo‘shgan. Austin so‘zlarning nafaqat ma'lumot berish, balki auditoriyani qabul qilishga, tasavvur qilishga yoki muayyan javoblarni shakllantirishga ham ta'sir ko‘rsatishini ta'kidlagan. Publitsistik matnlarda bu nazariya, ayniqsa, mualliflar tomonidan ishlab chiqilgan takliflar, iltimoslar, chaqiriqlar va boshqa pragmatik elementlar orqali amalga oshiriladi. **Grice** va **Searle** nazariyalariga qo‘shimcha ravishda, **E. Goffman** (1959) tomonidan ishlab chiqilgan *Face-Work* nazariyasi kommunikativ-pragmatik ta'sirni o‘rganishda muhim ahamiyatga ega. Goffman o‘z asarlarida, muloqotda "yuz" (face) tushunchasini, ya'ni muloqotdagi shaxsning ijtimoiy imidji va unga bo‘lgan hurmatni ko‘rsatgan. Publitsistik matnlarda ham mualliflar o‘z uslublarini va til vositalarini tanlab, auditoriyaga o‘z fikrlarini ifodalashda ehtiyotkorlik bilan yondashadilar.

Tadqiqot metodologiyasi

Publitsistik matnlarda kommunikativ-pragmatik ta'sirni aniqlash uchun kontent-tahlil usuli qo‘llanadi. Ushbu metod orqali matnlarda ishlatilgan til vositalari, stilistik elementlar va pragmatik strategiyalar tahlil qilinadi. Kontent-tahlil matnlarning strukturasi va uslubi, shuningdek, ularning auditoriyaga qanday ta'sir ko‘rsatishi borasida chuqur tahlilni amalga oshirish imkonini beradi. O‘zaro muloqotda kommunikativ ta'sirning qanday ko‘rinishlarda ifodalanishi (masalan, takliflar, chaqiriqlar, iltimoslar) va qanday til vositalari orqali auditoriyaga yetkazilishi tahlil qilinadi.

Tadqiqotning yana bir metodologik yondashuvi komparativ tahlildir. Bu usul orqali turli publitsistik matnlar o‘rtasida kommunikativ-pragmatik ta'sirning o‘zgarishini solishtirish mumkin. Masalan, maqolalar, xabarlar, intervyular va boshqa jurnalistik asarlar o‘rtasidagi til va uslub farqlari tahlil qilinadi. Shu orqali qanday pragmatik strategiyalar bir matnda ishlatilgan bo‘lsa, boshqasida qanday qo‘llanayotganini taqqoslash mumkin. Tadqiqotda publitsistik matnlarni tanlashda ma'lum mezonlar asosida namunaviy tanlov amalga oshiriladi. Bu mezonlar quyidagilarni o‘z ichiga oladi: matnning mavzusi, auditoriya bilan bog‘lanishi, uslub va tilning turli xususiyatlari. Maqolalar tanlanib, har biri alohida tahlil qilinadi va kommunikativ-pragmatik ta'sirning qanday ifodalanganligi aniqlanadi.

Tahlil va Natijalar

Ushbu tadqiqotda kommunikativ-pragmatik ta'sirning publitsistik matnlarda qanday ifodalanganligi tahlil qilindi. Kommunikativ-pragmatik ta'sir auditoriyaga qanday qilib samarali tarzda yetkazilishi, til vositalari va uslubning roli, shuningdek, pragmatik kontekst va stilistik

elementlarning ta'siri o‘rganildi. Tadqiqotda ingliz va o‘zbek tilidagi publitsistik matnlar tahlil qilindi va quyidagi natijalar olingan.

"We must take immediate action to address climate change before it’s too late."

Bu matnda "must" (majburiyat) so‘zi ishlatilgan, bu esa auditoriyani shoshilinch harakatga chaqiradi. "Immediate action" (tezkor harakat) iborasi, muallifning pragmatik niyatini va auditoriyani harakatga keltirish maqsadini aniq ko‘rsatadi. Bu yerda kommunikativ-pragmatik ta'sir to‘g‘ridan-to‘g‘ri auditoriyaga qaratilgan va uni tezda harakat qilishga undaydi.

Pragmatik kontekst matnning o‘ziga xos maqsadlarini va auditoriyaning shu maqsadlarga qanday javob berishini belgilaydi. Mualliflar turli til vositalaridan foydalanib, auditoriyani o‘z maqsadlariga erishishga yo‘naltiradilar.

"We can no longer ignore the rising sea levels. It’s time to act for the future of our children."

Ushbu misolda pragmatik kontekst aniq ko‘rsatilgan. "It’s time to act" iborasi auditoriyani amaliy harakatga chaqiradi, bu jumla muallifning asosiy maqsadi – ijtimoiy mas'uliyatni oshirishga qaratilgan. "Our children" degan ifoda esa hissiy va moral jihatdan o‘quvchini javobgarlikka undaydi. Bu yerda auditoriyaning o‘ziga xos javobi, ya'ni, ekologik muammolarni hal qilishda o‘z hissasini qo‘shishga tayyorlik, muallifning pragmatik niyatini amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan reaktsiya hisoblanadi. Bunday ifodalardan foydalanish muallifga o‘z g‘oyasini nafaqat mantiqiy, balki hissiy nuqtai nazardan ham ta'sirli tarzda yetkazishga imkon beradi.

Pragmatik kontekst, matnning maqsadini tushunish va auditoriyaning ushbu maqsadga qanday javob berishini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Shuningdek, muallif til vositalari yordamida auditoriyani harakatga chaqiradi va uni ijtimoiy mas'uliyatni o‘z zimmasiga olishga undaydi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, publitsistik matnlarda kommunikativ-pragmatik ta'sirning amalga oshirilishi tilning pragmatik imkoniyatlaridan, stilistik vositalardan, pragmatik kontekstdan va auditoriyaga yo‘naltirilgan muloqot strategiyalaridan kelib chiqadi. Ingliz va o‘zbek tillaridagi matnlar misollari orqali, kommunikativ ta'sirning turli shakllari va usullari aniq ko‘rsatilgan. Matnlarda chaqiriqlar, iltimoslar, ta'riflar va takliflar kabi pragmatik vositalar auditoriyaga ta'sir qilishda samarali ishlatilgan.

Publitsistik matnlarda stilistik vositalar ham kommunikativ-pragmatik ta'sirni oshirishda muhimdir. Kres va van Leeuwen (1996) tomonidan ishlab chiqilgan Reading Images asarida stilistik elementlarning ahamiyati ta'kidlanadi.

"It’s not just a problem for the government, it’s a problem for every single one of us."

Bu yerda "it’s a problem for every single one of us" iborasi jamoatni umumiy mas'uliyatga undashda ishlatilgan. Stilistik elementlar auditoriyaga his-tuyg‘ularni yetkazish uchun ishlatiladi, bu esa matnning samaradorligini oshiradi.

"Har birimiz o‘z hissamizni qo‘shishimiz kerak, faqat shunda biz umumiy yutuqlarga erishamiz."

Bu jumla stilistik jihatdan “faqat shunda” kabi so‘zlar orqali maqsadni ta'kidlaydi. Bu yerda auditoriya to‘g‘ridan-to‘g‘ri harakatga chaqirilgan bo‘lib, ishtirok etish zarurligi ko‘rsatilgan. Bu stilistik yondashuv o‘quvchiga hamohanglik va birdamlikni his qilishga yordam beradi. O'zbek olimlarining bir qator tadqiqotlarida, publitsistik matnlarning kommunikativ maqsadga xizmat qilishi talqin qilinadi. Publitsistika ko'pincha jamoatchilik fikrini shakllantirish, odamlarni ma'lum bir qarorga kelishga undash yoki yangi bilimlar bilan tanishtirishga qaratilgan bo'ladi. Shu munosabat bilan, tilning kommunikativ maqsadlarni amalga oshirishdagi roli o'zbek ilmiy adabiyotida o'rganilgan. Masalan, Mahmudov [6] va To'raqulov [7] kabi olimlar, jurnalistik matnlarda tilning ishonchni shakllantirish va auditoriyani undirishdagi rolini tahlil qilishgan. Ular tilning xabar berish, ishontirish, xulosalash kabi vazifalarini amalga oshirishi haqida fikr yuritadilar.

Xulosa

Ushbu tadqiqotda kommunikativ-pragmatik ta'sirning publitsistik matnlarda ifodalanishi tahlil qilindi. Maqolada kommunikativ-pragmatik ta'sirning matn va auditoriya o‘rtasidagi o‘zaro muloqotdagi rolini va turli til vositalari yordamida auditoriyaga qanday ta'sir ko‘rsatilishini o‘rganish asosiy maqsad edi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, publitsistik matnlarda kommunikativ ta'sir, asosan, tilning pragmatik imkoniyatlari, stilistik vositalar va pragmatik kontekstga asoslanadi.

Matnlarda ishlatilgan til vositalari, jumladan, so‘zlar, frazalar, imperativ shakllar va hissiy ta'sirchan ifodalar auditoriyani faol ishtirok etishga, ijtimoiy mas'uliyatni o‘z zimmasiga olishga chaqiradi. Pragmatik kontekst matnning maqsadini aniq belgilaydi va o‘quvchini maqsadga erishish uchun kerakli reaksiyalarni ko‘rsatishga undaydi. Misollar orqali ko‘rsatilganidek, publitsistik matnlar ijtimoiy masalalarga nisbatan auditoriyadagi ongni o‘zgartirish va jamoat fikrini shakllantirishda samarali vosita hisoblanadi. Shu bilan birga, stilistik elementlar va tilning pragmatik imkoniyatlari matnning ta'sirini kuchaytiradi. Bularning barchasi o‘quvchi bilan samarali muloqot o‘rnatishga yordam beradi, bu esa publitsistik matnlarning maqsadiga erishishdagi muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Austin, J. L. (1962). How to Do Things with Words. Harvard University Press.
2. Grice, H. P. (1975). Logic and Conversation. In P. Cole & J. Morgan (Eds.), Syntax and Semantics (Vol. 3, pp. 41-58). Academic Press.
3. Searle, J. R. (1969). Speech Acts: An Essay in the Philosophy of Language. Cambridge University Press.
4. Goffman, E. (1959). The Presentation of Self in Everyday Life. Doubleday.
5. Kress, G., & van Leeuwen, T. (1996). Reading Images: The Grammar of Visual Design. Routledge.
6. Mahmudov, T. (2018). "Jurnalistika va kommunikatsiya: tilning pragmatik funksiyalari." O'zbekiston jurnalistikasi 12(3), 45-52.
7. To'raqulov, S. (2020). "Publitsistik matnlarda kommunikativ maqsadlar va til vositalari." O'zbekiston tilshunosligi va jurnalistika 14(5), 123-135.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 1-son)

FILOLOGIYA

PHILOLOGY

LINGUOCULTURAL CODES OF THE CONCEPT OF PATRIOTISM IN THE UZBEK, ENGLISH, AND RUSSIAN LANGUAGES

Yusupova Marjona Ikromjon qizi
The student of the PhD degree at Fergana state university

Abstract The concept of patriotism is deeply rooted in the linguistic and cultural traditions of societies. This study examines the linguocultural codes of patriotism through proverbs, fixed expressions, metaphors, blessings, and curses in Uzbek, English, and Russian languages. By analyzing these linguistic elements, the research highlights the similarities and differences in the cultural expressions of patriotism, shedding light on the underlying values and worldviews of each nation.

Key words: linguoculturology, cultural code, proverb, metaphor, concept, patriotism, fixed expressions, idioms, biomorphic, anthropomorphic, somatic.

Introduction

The processes of mutual understanding between representatives of various cultural models can be significantly complicated by the implementation of an erroneous interpretation of certain connotations of the original, due to translation errors, which are especially possible in simultaneous translation, based on the need to instantly respond to the information heard, without being able to think over the details.

The issues of classification and identification of the causes of errors in simultaneous translation is one of the most important problems of translation management, the solution of which will avoid erroneous interpretation of one or another information in the language of the host culture, ensure the equivalence and adequacy of the translation, which determines the relevance of the selected research topic.

The object of the research is translation errors that occur during simultaneous translation. The purpose of the study is to identify some errors in the process of simultaneous

translation.

Simultaneous translation (SP) is one of the most difficult types of translation activities. In modern scientific literature, SP is understood as “one of the types of oral translation, simultaneous translation of the spoken text, one of the types of professional translation” , “the pinnacle of translation art” . At its core, SP is a psychological process in which three main stages are distinguished: understanding, comprehension and formation of a concept, transmission, reproduction by means of the language

system of the receiving cultural model.

The first stage of translation activity, namely the perception of a foreign language text,is a complex sensory-thinking process, which is based on the simultaneous execution of the analytical and synthetic functions of the brain and sense organs. Comprehension is carried out with the help of the formation and formulation of thought, that is, with the help of internal speech. The main question is, by means of which language is the understanding carried out and how high is the degree of intensification of its course.

The highest degree presupposes the obligatory language design of thought. As for linguistic means, comprehension can be carried out by means of the original language, or with a high level of proficiency in this type of speech activity - in the target language, and with high skill of the translator - with the help of means of an internal individual subject-schematic semantic code.

The second stage of the translation process is the formation of the main meaning of the future message. In other words, at this stage there is a need to comprehend the relationship "meaning - idea", as well as re-coding. If comprehension is carried out in the target language, then the formation of meaning is simultaneously and the formation of an idea, and the process of thinking itself includes the process of recoding. In this case, the recoding process is not recognized, since it is highly automated.

At the third, final stage of translation activity, the utterance is displayed and recreated using the means of the target language. The attributive, essential characteristics of the joint venture put forward high requirements for the level of formation of translation competence, which today is most often understood as a set of specific skills required by a member of the linguistic community for verbal contacts withothers. The lists of the distinguished skills of different authors do not coincide and are not clearly marked for all of them, which is associated with an objectively large number of these skills and

the lack of their correct hierarchization.

The reasons for the occurrence of linguistic errors can be attributed to the desire for hypercorrection - "erroneous grammatical use associated with the excessive implementation of the desired rule"; implementation of speech behavior by analogy with the norms of the native language. All lexical and grammatical errors can be classified according to stylistic and social nature. In the process of a detailed analysis of the most common mistakes, A.S. Barmina points out that all deviations from thenorm can be classified "depending on what aspect of the language they relate to, as well as the nature of the complexity and frequency of this error in various language registers". The researcher singles out errors of the first and second categories: the errors of the first category include “elementary” errors characteristic of people without higher education. Errors of the second category include. There are "mistakes of the

middle style, typical of most educated people", widely used in publications devoted to the normalization of modern English, dictionaries of difficulties, and so on. In turn, M.A Kunilovskaya, on the basis of a detailed analysis of the classifications presented in domestic and foreign translation studies, at the top level of taxonomy, distinguishes semantic and

linguistic errors, and semantic errors distort the semantics of the original much more significantly than expression errors.

Semantic errors can be classified according to the type of unchanged or nontransmitted information, according to the degree of deviation from the original, misleading effect on the recipient. Taking this criterion into account, M.A.Kunilovskaya distinguishes the following types of semantic errors:

- errors with the transfer of referential information caused by an incorrect vision of the behind-text reality. Such errors can lead to an indication of other referents, reference situations, significantly distorting the semantics of the original. The same group includes errors associated with the representation of predicative information, including incorrect transmission of species-temporal, modal values, errors in the transmission of proper names.

It is advisable to use state private enterprise mechanisms to support agricultural producers. Lease financing is an effective tool for ncreasing the competitiveness of agricultural producers. The competitiveness of domestic agricultural producers is largely determined by their technical equipment.[3]

In the practice of foreign countries, it has become an international practice where the crimes of bribery of officials are widespread. In some countries, it was even possible to get deductions from your company’s tax liabilities in exchange for bribes, and this is not surprising, as multinational corporations around the world have already paid bribes to support their businesses.An example of the appearance of the modal meaning of obligation, which is absent in the original text, can be the following fragment:

Reaching our sustainable development goals means organizing ourselves better. Let

there be no more walls or boxes;no more ministries or agencies working at cross purposes.

The processes of mutual understanding between representatives of various cultural models can be significantly complicated by the implementation of an erroneous interpretation of certain connotations of the original, due to translation errors, which are especially possible in simultaneous translation, based on the need to instantly respond to the information heard, without being able to think over the details.

The issues of classification and identification of the causes of errors in simultaneous translation is one of the most important problems of translation management, the solution of which will avoid erroneous interpretation of one or another information in the language of the host culture, ensure the equivalence and adequacy of the translation, which determines the relevance of the selected research topic.

The object of the research is translation errors that occur during simultaneous translation. The purpose of the study is to identify some errors in the process of simultaneous translation. Simultaneous translation (SP) is one of the most difficult types of translation activities. In modern scientific literature, SP is understood as “one of the types of oral translation, simultaneous translation of the spoken text, one of the types of professional translation” , “the pinnacle of translation art” . At its core, SP is a psychological

process in which three main stages are distinguished: understanding, comprehension and formation of a concept, transmission, reproduction by means of the language system of the receiving cultural model

The first stage of translation activity, namely the perception of a foreign language text, is a complex sensory-thinking process, which is based on the simultaneous execution of the analytical and synthetic functions of the brain and sense organs. Comprehension is carried out with the help of the formation and formulation of thought, that is, with the help of internal speech. The main question is, by means of which language is the understanding carried out and how high is the degree of intensification of its course.

The highest degree presupposes the obligatory language design of thought. As for linguistic means, comprehension can be carried out by means of the original language, or with a high level of proficiency in this type of speech activity - in the target language, and with high skill of the translator - with the help of means of an internal individual subject-schematic semantic code.

The second stage of the translation process is the formation of the main meaning of the future message. In other words, at this stage there is a need to comprehend the relationship "meaning - idea", as well as re-coding. If comprehension is carried out in the target language, then the formation of meaning is simultaneously and the formation of an idea, and the process of thinking itself includes the process of recoding. In this case, the recoding process is not recognized, since it is highly automated.

At the third, final stage of translation activity, the utterance is displayed and recreated using the means of the target language. The attributive, essential characteristics of the joint venture put forward high requirements for the level of formation of translation competence, which today is most often understood as a set of specific skills required by a member of the linguistic community for verbal contacts with others. The lists of the distinguished skills of different authors do not coincide and are not clearly marked

for all of them, which is associated with an objectively large number of these skills and the lack of their correct hierarchization.

The reasons for the occurrence of linguistic errors can be attributed to the desire for hypercorrection - "erroneous grammatical use associated with the excessive implementation of the desired rule"; implementation of speech behavior by analogy with the norms of the native language. All lexical and grammatical errors can be classified according to stylistic and social nature. In the process of a detailed analysis of the most common mistakes, A.S. Barmina points out that all deviations from thenorm can beclassified "depending on what aspect of the language they relate to, as well as the nature of the complexity and frequency of this error in various language registers". The researcher singles out errors of the first and second categories: the errors of the first category include “elementary” errors characteristic of people without higher education. Errors of the second category include. There are "mistakes of the

middle style, typical of most educated people", widely used in publications devoted to the normalization of modern English, dictionaries of difficulties, and so on. In turn, M.A Kunilovskaya, on the basis of a detailed analysis of the classifications presented in domestic and foreign translation studies, at the top level of taxonomy, distinguishes semantic and linguistic errors, and semantic errors distort the semantics of the original much more significantly than expression errors.

Semantic errors can be classified according to the type of unchanged or nontransmitted information, according to the degree of deviation from the original, misleading effect on the recipient. Taking this criterion into account, M.A.Kunilovskaya distinguishes the following types of semantic errors:

- errors with the transfer of referential information caused by an incorrect vision of the behind-text reality. Such errors can lead to an indication of other referents, reference situations, significantly distorting the semantics of the original. The same group includes errors associated with the representation of predicative information, including incorrect transmission of species-temporal, modal values, errors in the transmission of proper names.

It is advisable to use state private enterprise mechanisms to support agricultural producers. Lease financing is an effective tool for ncreasing the competitiveness of agricultural producers. The competitiveness of domestic agricultural producers is largely determined by their technical equipment.

In the practice of foreign countries, it has become an international practice where the crimes of bribery of officials are widespread. In some countries, it was even possible to get deductions from your company’s tax liabilities in exchange for bribes, and this is not surprising, as multinational corporations around the world have already paid bribes to support their businesses.

An example of the appearance of the modal meaning of obligation, which is absent in the original text, can be the following fragment: Reaching our sustainable development goals means organizing ourselves better. Let there be no more walls or boxes; no more ministries or agencies working at cross purposes.

REFERENCES:

1. Komissarov V.N. Modern Translation Studies. – Moscow: ETS, 2001. – 413 p.

2. Komissarov V.N. Theory of Translation. – Moscow, 1990. – 250 p.

3. Visson L. Simultaneous Translation. – Moscow, 1998. – 276 p.

4. As-Safi A.B. Translation Theories, Strategies and Basic Theoretical Issues. – Amman: Dar Amwaj, 2011. – p. 52.

5. Kh. Hamidov, N. Ismatullayeva, S. Yergasheva. Simultaneous Translation (Study Guide). – Tashkent: Tashkent State Institute of Oriental Studies, 2017. – p. 6.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 1-son)

FILOLOGIYA

PHILOLOGY

IMOM BUXORIY ASARLARIDA FARZAND TARBIYASI

Axmedova Maysara Baxromovna
Urganch innovatsion universiti
“Pedagogika va boshlang‘ich ta’lim metodikasi” kafedrasi o‘qituvchisi
Gmail: axmedovamaysara904@gamil.com
oRCID: 0009-0005-5408-6896

Annatatsiya: Ushbu maqola Imom Buxoriy asarlaridagi farzand tarbiyasi mavzusiga bag‘ishlangan. Maqolada hadislar orqali farzand tarbiyasida ota-onaning mas'uliyati, bolalarga mehr-muhabbat ko‘rsatish, ularga yaxshi ta'lim-tarbiya berish, axloqiy qadriyatlarni o‘rgatish hamda jamiyat uchun foydali shaxslar sifatida voyaga yetkazish yo‘llari o‘rganiladi. Shuningdek, maqolada hadis ilmining ilmiy tadqiqotlari va metodologiyasi tahlil qilinib, O‘zbekistonda hadis ilmining rivojlanish yo‘nalishlari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: farzand tarbiyasi, hadis ilmi, axloqiy tarbiya, Imom Buxoriy, diniy qadriyatlar, ota-onaning mas’uliyati

Annotation: This article is dedicated to the topic of child upbringing in the works of Imam Bukhari. It explores parental responsibility in raising children through hadiths, emphasizing showing love and compassion to them, providing quality education and upbringing, teaching moral values, and nurturing them to become beneficial individuals for society. additionally, the article analyzes the scientific research and methodology of hadith studies and highlights the developmental directions of hadith studies in Uzbekistan.

Keywords: child upbringing, hadith studies, moral education, Imam Bukhari, religious values, parental responsibility.

Аннотация: Данная статья посвящена теме воспитания детей в трудах Имама Бухари. В статье посредством хадисов изучаются ответственность родителей в воспитании детей, проявление любви и заботы к ним, предоставление качественного образования и воспитания, прививание моральных ценностей и подготовка их как полезных членов общества. Кроме того, в статье анализируются научные исследования и методология науки о хадисах, а также освещаются направления развития науки о хадисах в Узбекистане.

Ключевые слова: воспитание детей, наука о хадисах, моральное воспитание, Имам Бухари, религиозные ценности, ответственность родителей.

KIRISH

Imom Buxoriy asarlarida farzand tarbiyasi mavzusi muhim o‘rin tutadi. Islomda farzand tarbiyasi, birinchi navbatda, ota-ona uchun katta mas’uliyat sifatida qaraladi. Imom Buxoriy, hadislar orqali farzand tarbiyasiga doir muhim ahamiyatli yo‘riqnomalarni taqdim etgan. Uning asarlarida ota-onaning farzandlariga bo‘lgan mehr-muhabbat, ularga yaxshi ta’lim-tarbiya berish, axloqiy qadriyatlarni o‘rgatish va ularning ruhan sog‘lom o‘sishini ta’minlash zarurligi alohida ta’kidlanadi.

Imom Buxoriy tomonidan keltirilgan hadislar orqali, farzand tarbiyasida adolatli va mehribon bo‘lish, bolalarga ijobiy misollar ko‘rsatish, ular bilan samimiy muloqot o‘rnatish va ularni yaxshi axloq va ma'naviyatga yo‘naltirishning ahamiyati ko‘rsatilgan. Shuningdek, Imom Buxoriy farzandlarni diniy qadriyatlar va Islomni o‘rganishga rag‘batlantirish, mehr-shafqat ko‘rsatish va jamiyatda o‘z o‘rnini topish uchun zarur ko‘nikmalarni berish haqida hadislar keltirgan.

Farzand tarbiyasi haqida so‘z yuritishda, Imom Buxoriy hayotga oid bir qancha hikmatli hadislarni keltirib, ota-onaning vazifalarini aniq belgilab bergan. Bu, o‘z navbatida, faqat diniy mas’uliyatni emas, balki jamiyatda mustahkam axloqiy va ma’naviy asoslarni shakllantirishga ham yordam beradi. Shunday qilib, Imom Buxoriy asarlarida farzand tarbiyasi, nafaqat diniy, balki axloqiy va ma’naviy maqsadlarni amalga oshirishga xizmat qiladigan muhim bir mavzu sifatida o‘rganiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

O‘zbekistonda hadis ilmi bo‘yicha ilmiy izlanishlar so‘nggi yillarda muhim o‘sish va rivojlanish jarayonlarini boshdan kechirdi. Islom dini va hadis ilmi haqida o‘rganish, ilmiy tadqiqotlar va tahlillar, nafaqat diniy bilimlarni oshirish, balki o‘zbek jamiyatining diniy, axloqiy va ijtimoiy qadriyatlarini mustahkamlashda ham muhim rol o‘ynaydi. o‘zbekistonda hadis ilmi bo‘yicha olib borilgan ilmiy izlanishlar, asosan, ilmiy-tadqiqot institutlari, universitetlar va diniy maktablarda amalga oshiriladi.

1. O‘zbekistonda hadis ilmiga oid tadqiqotlar tarixi

O‘zbekiston hududida hadis ilmi va uning tadqiqi, ayniqsa, XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab rivojlanmoqda. o‘zbekistonda hadis ilmiga oid dastlabki tadqiqotlar, asosan, sobiq Sovet Ittifoqi davrida boshlanib, diniy ilmlar o‘qitiladigan ilmiy markazlar tashkil etilgach, hadislar va hadisshunoslikning ilmiy jihatlari yanada chuqur o‘rganila boshlandi. ayniqsa, 1991 yilda O‘zbekiston mustaqillikka erishganidan keyin, hadis ilmi sohasida ilmiy izlanishlar ko‘proq erkinlikka ega bo‘ldi va bu sohada tadqiqotlar yanada kengayib, chuqurlashdi.

O‘zbekistonda hadis ilmi bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borgan bir qancha taniqli olimlar mavjud. Ular hadislarning ishonchliligini aniqlash, hadislarni tasniflash, va hadis ilmining metodologiyasini rivojlantirish bo‘yicha muhim ishlarga imzo chekishgan [6].

Abdulloh as-Siddiqiy — o‘zbek hadisshunosligi tarixida katta iz qoldirgan olimlardan biri bo‘lib, u o‘z asarlarida hadislarni jamlash, ularning ishonchliligi va tarihlash ishlari bilan

shug‘ullangan. Uning ilmiy tadqiqotlari hadislarni islomiy fiqhga tatbiq qilish, tafsir va hadislarni o‘zaro bog‘lashda muhim ahamiyatga ega.

Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf — O‘zbekistonning mashhur hadisshunosi va diniy ulamolaridan biri bo‘lib, hadis ilmi va tafsirga oid ko‘plab ilmiy ishlar yozgan. U hadis ilmini o‘rganish, hadislarning sahihligi va ularni jamlash masalalari bo‘yicha o‘zining ilmiy yondoshuvlarini taqdim etgan [1].

Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf — Hadis va fiqh ilmlari bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borgan olimlaridan biri. Uning “Sahih al-Buxoriy” va boshqa hadis to‘plamlari bo‘yicha yozilgan sharhlari va ilmiy tahlillari o‘zbekiston hadisshunoslik ilmining rivojlanishiga katta hissa qo‘shgan.

Imom Buxoriy va uning asarlari, xususan farzand tarbiyasi bo‘yicha ilmiy va diniy adabiyotlar quyidagicha bo‘lishi mumkin:

1. “Sahih al-Buxoriy” asarning to‘liq nashrlari va tarjimalari hadis ilmi bo‘yicha asosiy manbadir [2].

Nashriyotlar: “Darus Salam” (arabcha va tarjimalari mavjud), o‘zbekiston musulmonlar idorasi nashri.

2. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf “Hadis va hayot” (Ko‘p jildli).Bu asarda Imom Buxoriy hadislarining sharhi va ularning hayotiy qo‘llanilishi yoritilgan.

Nashriyot: Hilol-Nashr, Toshkent.

3. Shayx abdulaziz Mansur “Imom Buxoriy hayoti va ijodi”. Ushbu kitobda Imom Buxoriyning ilmiy merosi va uning islom ilmidagi o‘rni haqida ma’lumotlar keltirilgan.

Nashriyot: Toshkent Islom Universiteti.

4. Zohidjon Islomov “Imom Buxoriy asarlarida tarbiya va axloqiy qadriyatlar”. Bu kitobda Buxoriy hadislarining tarbiya sohasidagi ahamiyati yoritilgan.

5. O‘zbekiston musulmonlar idorasi nashrlari.

“Hadis ilmi va Imom Buxoriy”.Ushbu nashrlarda hadis ilmi va uning metodologiyasi haqida ma’lumot berilgan.

6. Islom ensiklopediyasi: “Imom Buxoriy” sahifasi. o‘zbekiston milliy ensiklopediyasida Imom Buxoriy hayoti va ijodi haqida qisqa, ammo aniq ma’lumotlar keltirilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Hadislarning tasnifi, sanad va matn jihatidan to‘g‘riligini tekshirish uchun metodologiyalarning ishlab chiqilishi ham o‘zbekistonda juda muhim ilmiy yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Bu sohada olib borilgan ilmiy tadqiqotlar hadis ilmining nazariy asoslarini mustahkamlashga qaratilgan. O‘zbek hadisshunoslari, hadislarning sanadini va matnini tanlashda qat’iy ilmiy prinsiplarga rioya qilishga e’tibor qaratadilar. Hadislar, nafaqat diniy amallarni tartibga solish, balki axloqiy me’yorlarni shakllantirishda ham asosiy manba hisoblanadi. O‘zbekistonda olib borilgan ilmiy tadqiqotlar, hadislarning axloqiy ahamiyatini O‘rganishga ham alohida e’tibor qaratadi. Bu yo‘nalishdagi tadqiqotlar, musulmon jamiyatida axloqiy qadriyatlarni mustahkamlashga xizmat qiladi. O‘zbekistonda hadis ilmi bo‘yicha ilmiy

izlanishlar ko‘plab ilmiy anjumanlar va konferensiyalar shaklida taqdim etiladi. Bu tadbirlar, hadis ilmining yangi yondoshuvlari, ilmiy metodologiyalar va hadisshunoslikning rivojlanishi bo‘yicha ilmiy muhokamalarni amalga oshirish imkonini beradi. Islomshunoslik institutlari va universitetlarda hadis ilmi bo‘yicha seminarlar, konferensiyalar va master-klasslar tashkil etiladi. Bu tadbirlar, hadislarni o‘rganish va ularni amaliyotga tatbiq etishdagi yangi yondoshuvlarni ishlab chiqishda muhim rol o‘ynaydi.o‘zbekistonda hadis ilmi bo‘yicha ilmiy izlanishlarni joriy etish va tarqatish uchun ko‘plab ilmiy jurnallar va nashrlar mavjud. Hadislar va hadis ilmi haqida yozilgan maqolalar, kitoblar va ilmiy risolalar, o‘zbek tilida nashr qilinadi va keng jamoatchilikka taqdim etiladi. Bu ilmiy nashrlar, hadis ilmi bo‘yicha o‘quv qo‘llanmalari va ilmiy tadqiqotlarni keng tarqatish imkonini yaratadi.

TAHLILILLAR VA NATIJALAR

Imom Buxoriy o‘zining “Sahih al-Buxoriy” asarida farzand tarbiyasi borasida qimmatli hadislarni jamlagan. Bu hadislar ota-onalar uchun bolalarni tarbiyalashda yo‘l-yo‘riq bo‘lib xizmat qiladi. Quyida Imom Buxoriyda kelgan farzand tarbiyasi bilan bog‘liq ba’zi hadislar keltiriladi:

1. Mehribonlik va tarbiyadagi adolat:

Payg‘ambarimiz (s.a.v.): “Farzandlaringiz orasida adolatni saqlang”.Bu hadis ota-onalarga farzandlar orasida adolatli bo‘lish, ularning har biriga teng mehr-muhabbat ko‘rsatish zarurligini eslatadi [7].

2. Farzandlarga mehr-muhabbat ko‘rsatish:

abu Hurayra (r.a.) rivoyat qiladi: “Rasulullоh (s.a.v.) bolalarni o‘pib, ularga mehribonlik qilganlarida, bir kishi: “Men o‘z bolalarimni hech qachon o‘pmaganman”, dedi. Rasulullоh (s.a.v.) unga: “agar alloh qalbingdan rahmatni olib qo‘ygan bo‘lsa, nima qilasan? dedilar” [8]. Bu hadis bolalar bilan mehribonlik qilishingiz, ularning hissiy rivojlanishiga yordam berishingiz kerakligini bildiradi.

3. Bolalarning ta'lim-tarbiyasiga mas’uliyat:

Rasulullоh (s.a.v.) aytganlar: “Har biringiz cho‘ponsiz va har biringiz qo‘l ostingizdagilardan mas’ulsiz”. Bu hadis ota-onalarning farzandlarining tarbiyasiga nisbatan mas’ul ekanliklarini eslatadi. Ularni yaxshi tarbiyalash har bir ota-onaning asosiy burchidir.

4. Diniy bilim va axloqiy tarbiya:

Rasulullоh (s.a.v.) aytganlar: “Farzandlaringizga uch narsani o‘rgating: allohni sevish, Qur’onni o‘rganish va mening oilamni sevish”. Ushbu hadis farzandlar tarbiyasida diniy qadriyatlarning o‘rganilishiga alohida e’tibor qaratishni ta’kidlaydi.

5. Yaxshi namuna bo‘lish:

Rasulullоh (s.a.v.) aytganlar: “ota-onaning o‘z farzandlariga bergan eng yaxshi sovg‘asi — ularning yaxshi tarbiyasidir”. Bu hadis ota-onalarning o‘zlari ham bolalariga namuna bo‘lishlari lozimligini va ularga axloqiy qadriyatlarni singdirish ahamiyatini ko‘rsatadi. Imom Buxoriy hadislarida ota-onalarning farzandlari bilan munosabatlari, ularga beriladigan axloqiy

va ma'naviy ta’lim-tarbiya haqida chuqur o‘gitlar mavjud [4]. Ushbu hadislar ota-onalarga nafaqat diniy, balki dunyoviy tarbiyada ham yo‘l-yo‘riq sifatida xizmat qiladi

XULOSA

Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki, farzand tarbiyasi har bir davrda o‘z dolzarbligini yo’qotmay kelayotgan masalalardan biri bo’lib, hadislar orqali bu borada kerakli yo‘riqnomalar berilgan. Hadislarda, bolalar bilan mehr-muhabbat ko‘rsatish, ularga to‘g‘ri tarbiya berish, ilm olishni rag‘batlantirish, yaxshi namuna bo‘lish, adolatli va sabrli bo‘lish kabi qadriyatlar ta’kidlangan. Bu qadriyatlarni amalga oshirish, bolalarning yaxshi axloqli, aqlli, ma'naviy jihatdan rivojlangan va jamiyatga foydali insonlar bo‘lib voyaga yetishlariga yordam beradi. Farzand tarbiyasi har bir ota-onaning mas’uliyatidir va bu mas’uliyatni to‘g‘ri bajarish, jamiyatning yaxshilanishiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1.Orif Hoji. “Qirq hadis va bir rivoyat” T.: “Fan va texnologiya” 2008. o‘zbekiston 24 “Inson qadri uchun” Samarqand viloyati 2022-yil 4-may

2. Olimxon Isaxon o‘g‘li “Odoblar durdonasi”(Imom Buxoriyning “al-adab al-mufrad”asarlaridan saylanma hadislar Samarqand “Imom Buxoriy xalqaro markazi” 2018, 144 bet

3.Ochilova B.M “axloq falsafasi” T.: “Ijod –print” 2019 160 b

4. Proceedings of the international workshop ancient and rare manuscripts of the «Sahih al-Bukhari»in world libraries 2021-yil iyul oyida bo‘lib o‘tgan xalqaro anjuman maqolalari to‘plami p. 440

5.Ubaydulla Uvatov, otabek Muhammadiyev. “Imom Buxoriy”.- “Sharq” T.: 2019. Imom Buxoriy E-Book

6.Ubaydulla Uvatov, Otabek Muhammadiyev “Imom al-Buxoriy” “Tafakkur” T.:2019 13b

7. Усмонхон Алимов “Оилада фарзанд тарбияси” Т.: «Мовароуннаҳр», 2014. – 456 б.

8. “Zamonaviy oilada, farzand tarbiyasida milliy va umuminsoniy qadriyatlarni shakllantirish masalalari” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallar to‘plami. T.: “Mahalla va oila nashriyoti” 2021, 200 b

9. “O‘zbekiston Milliy Ensklopediyasi”-T.:Davlat Ilmiy Nashiryoti 2004.65 B

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 1-son)

FILOLOGIYA

PHILOLOGY

O‘ZBEK TILINI XORIJIY TIL SIFATIDA O‘QITISHDA MUAMMO VA TAKLIFLAR

Berdiyev Azizbek Asatillayevich
ToshDO‘TAU O‘zbek tili va adabiyoti fakulteti,
magistratura 1-kurs talabasi
Ilmiy rahbar: ped.f.d. (PhD), prof. v.b.Mavlonova Klaraxon
Berdiyevazizbek95@mail.com +998975535919

Annotatsiya. Mazkur maqola O‘zbekistonning xalqaro maydondagi o‘rni va xorijzabonlarga o‘zbek tilini o‘rgatishda yuzaga kelayotgan muammolar, shu jumladan, qo‘llanmalarning sifati, til o‘rganish metodologiyasining yetarli darajada rivojlanmaganligi va darsliklar sifatining pastligi kabi masalalar ham tilga olingan. Maqolada ko‘rsatilgan muammolarni hal qilish uchun bir qator takliflar va yechimlar berilgan.

Kalit so‘zlar: o‘zbek tilining rivoji, o‘zbek tili xorijiy til sifatida, o‘quv qo‘llanma, samarali ta’lim, ilg‘or texnikalar.

Abstract. This article discusses Uzbekistan's role in the international arena and the challenges faced in teaching the Uzbek language to foreign learners. Specifically, it addresses issues such as the quality of textbooks, the underdeveloped methodology of language learning, and the poor quality of teaching materials. The article offers several suggestions and solutions to address these challenges.

Keywords: development of the Uzbek language, uzbek language as a foreign language, textbooks, effective education, advanced techniques.

Аннотация. В статье рассматривается роль Узбекистана на международной арене и проблемы, возникающие при обучении узбекскому языку иностранных учащихся. В частности, в ней затрагиваются вопросы качества учебников, недостаточной развитости методики обучения языку и низкого качества учебных материалов. В статье предлагаются ряд рекомендаций и решений для преодоления этих проблем.

Ключевые слова: развитие узбекского языка, узбекский язык как иностранный, учебные пособия, эффективное обучение, передовые методики.

KIRISH

Dunyo hamjamiyatida o‘z mavqeyi, obro‘-e’tibori, nufuziga ega bo‘lib borayotgan O‘zbekistonning siyosiy, iqtisodiy va madaniy sohalarda xalqaro aloqalari kundan-kun kengayib bormoqda. Bu jarayon o‘zbek tiliga bo‘lgan e’tiborni ham sezilarli darajada

oshirmoqda. Xususan, xalqaro maydonda O‘zbekistonning o‘ziga xos o‘rni va tilni saqlash, rivojlantirishga bo‘lgan yondashuvi, uning milliy madaniyatini targ‘ib etish va o‘zaro madaniy aloqalar orqali o‘zbek tilining jahon maydonidagi o‘rni tobora kuchayib bormoqda.[148] O‘zbek tili nafaqat O‘zbekiston ichida, balki turli davlatlar bilan ilmiy, madaniy, tijorat va diplomatik munosabatlar sohasida ham muhim rol o‘ynamoqda. Bugungi kunda o‘zbek tiliga bo‘lgan chet ellik qiziqish nafaqat til o‘rganish bilan cheklanib qolmay, balki O‘zbekistonning iqtisodiy, madaniy va siyosiy hayotiga oid chuqur ilmiy tadqiqotlarni o‘z ichiga oladi. O‘zbekistonning xalqaro maydondagi o‘rni, uning tarixiy va madaniy merosi, iqtisodiy taraqqiyoti kabi mavzularni o‘rganish uchun dunyoning turli burchaklaridan mutaxassislar jamlanmoqda. O‘zbek tilining o‘rganilishi ko‘plab yirik ilmiy markazlar va universitetlar tomonidan ko‘rilgan muhim tadqiqot mavzularidan biriga aylangan.

Bundan tashqari, o‘zbek tilini o‘rganishning xalqaro diplomatik, iqtisodiy va madaniy aloqalarga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi kutilmoqda. Til o‘rganish nafaqat o‘qituvchilar, balki talabalar va mutaxassislar o‘rtasida o‘zaro muloqot va hamkorlikni kuchaytirishga yordam beradi. O‘zbekistonning dunyo miqyosida yanada tanilishiga hissa qo‘shadi va boshqa davlatlar bilan madaniy almashuvni rivojlantiradi.

Shuningdek, o‘zbek tilining chet elda o‘rganilishini qo‘llab-quvvatlash uchun maxsus o‘quv dasturlari, mobil ilovalar, onlayn kurslar va o‘quv materiallarining ishlab chiqilishi o‘z o‘rnini topmoqda. Bu o‘zbek tilini o‘rganishni yanada qulay va samarali qiladi, bu esa xalqaro talabni yanada oshiradi. O‘zbek tilining o‘rganilishi bilan bog‘liq ishlar nafaqat ilmiy, balki madaniy jihatdan ham katta ahamiyatga ega bo‘lib, O‘zbekistonning dunyo hamjamiyatidagi o‘rnini mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

MUAMMO VA TAKLIFLAR. (PROBLEMS AND SUGGESTIONS)

«Davlat tili haqida»gi qonun qabul qilinganiga bu yil o‘ttiz besh yil bo‘ldi. Xo‘sh, o‘tgan o‘ttiz besh yil mobaynida xorijzabonlarga o‘zbek tilini o‘rgatish uchun mo‘ljallangan nechta qo‘llanma va lug‘at yaratildi? O‘zbek tilini rivojlantirish uchun qilingan sa’y-harakatlar anchayin keng qamrovli va keng miqyosda amalga oshirilgan bo‘lsa-da, hali yechimini kutayotgan muammolar ham yo‘q emas. Xorijzabonlarga o‘zbek tilini o‘rgatish uchun mo‘ljallangan qo‘llanma va lug‘atlar soni har yili oshib bormoqda, lekin ularning sifati va amaliy qo‘llanishi haqida ko‘proq ma’lumot va tahlil talab etiladi.

O‘zbek tili grammatikasini soddalashtirish va optimallashtirish, til nufuzini oshirish maqsadida qator ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, milliy o‘quv dasturlari, yangi lug‘atlar va metodik qo‘llanmalar ishlab chiqilmoqda. Shu bilan birga, o‘zbek tilining xalqaro maydonda targ‘ib qilinishi uchun turli konferensiyalar, seminarlar va tadbirlar tashkil etilmoqda.

O‘zbek tili bilan bog‘liq real vaziyatni xolis, chuqur va professional tarzda tahlil qilish maqsadida qator ilmiy tadqiqotlar o‘tkazilmoqda. Bunda, jumladan, andragogika va lingvistika sohasidagi mutaxassislar tomonidan xorijzabonlarga o‘zbek tilini o‘rgatish uchun yangi

[148] O‘zbek tilini ikkinchi til va xorijiy til sifatida o‘qitish masalalari: muammo, yechim, istiqbollar. Respublika onlayn ilmiy-amaliy anjumani materiallari. Toshkent –2020/ 20-may/ 150-bet.

metodologiyalar va yondashuvlar ishlab chiqilmoqda. Masalan, kattalar uchun o‘zbek tilini ikkinchi til sifatida o‘rgatishga oid ilmiy ishlar shular jumlasidandir.

Xorijlik do‘stlarimiz uchun sifatli adabiyot yoki kontent-resurslar yaratish borasida ham ko‘plab loyihalar amalga oshirilmoqda. Biroq, bu resurslarning yetarli darajada keng tarqalishi va foydalanish imkoniyatlari ustida yana ko‘plab ishlar qilinishi zarur. Shu o‘rinda, onlayn platformalar va mobil ilovalar yordamida o‘zbek tilini o‘rganish imkoniyatlarini kengaytirish ham dolzarb masalalardan biri bo‘lib qolmoqda.

Bu yo‘nalishda qo‘shimcha fikrlar:

1. O‘zbek tilini o‘rgatish uchun zamonaviy, interaktiv va multimediya vositalari bilan boyitilgan o‘quv resurslarini ko‘paytirish lozim.

2. Xorijlik talabalar va mutaxassislar uchun maxsus til kurslari va yozgi maktablar tashkil etish mumkin.

3. O‘zbek tili bo‘yicha xalqaro tanlovlar va olimpiadalarni yo‘lga qo‘yish orqali tilimizni xalqaro miqyosda ommalashtirish mumkin.

4. O‘zbek tilida eng ko‘p qo‘llaniladigan so‘zlar va iboralarni o‘z ichiga olgan amaliy lug‘atlar va audio kitoblar yaratish zarur.

5. O‘zbek tili va madaniyati haqida turli xil videodarslar, veb-sahifalar va bloglar yaratish orqali tilimizni ommalashtirish mumkin.

Bir narsani tan olishimiz kerakki, bugun bu kabi savollarga javob berish oson emas. Chunki, aslida, nihoyatda muhim bo‘lgan bu masalalarga yillar davomida yetarlicha e’tibor qaratilmadi. *«O‘zbek tili – o‘zbeklar uchun», «Xorijliklarda o‘zbek tilini o‘rganishga bo‘lgan ehtiyoj va xohish yo‘q» degan turli vaj-korsonlar bilan o‘zimizni aldab, chalg‘itib keldik. Farzandlarimizni esa rus maktablariga berishga odatlandik.*

Ustiga ustak, darsliklarimiz saviyasi va ona tili fanini o‘qitish sifat darajasi ham achinarli ahvolga tushib qoldi. Natijada bitta arizani eplab yoza olmaydigan, tili vulgarizm bilan bulg‘angan, nutqi qashshoq yoshlar qarshimizda qanday paydo bo‘lganini sezib-sezmay ham qoldik.[149] O‘rinli gaplar. Ha, afsuski, o‘zbek tili o‘zbeklar uchun emas, balki barcha insonlar uchun degan fikda bo‘lishimiz kerak. Zotan, til o‘rganish - bu hamma uchun ochiq bo‘lgan hodisa. Cheklovlar yo‘q, faqat o‘rganish istagi va harakat kerak. Til o‘rganish orqali insonlar boshqa madaniyatlar va dunyoqarashlar bilan tanishadi, shuningdek, ko‘proq imkoniyatlarga ega bo‘ladilar. O‘zbek tilini o‘rganishga bo‘lgan ehtiyoj va xohishni rag‘batlantirish o‘rniga, uni chetga surib qo‘yganimiz va o‘zimizni aldaganimiz haqiqat. Bu muammolar barchamizning og‘riqli nuqtamizdir. Mana shunday bir sharoitda ham o‘zbek tilini sevuvchi, tilimizda biz bilan tengma-teng muloqot qila oladigan xorijlik do‘stlarimizning soni yildan yilga tobora ortib borayotganligi quvonarli hol, albatta. Shu o‘rinda, tilimizga bo‘lgan bu mehr va g‘amxo‘rlik, nafaqat tilni o‘rganayotgan xorijliklar, balki o‘zbek xalqi uchun ham katta ahamiyatga ega. O‘zbek tilining dunyo miqyosida obro‘si ortib borishi, uning boy madaniyatini va tarixiy

[149] www.kun.uz Otabek Tillayev. “Nega xorijliklar o‘zbek tilini o‘rganishi uchun sifatli qo‘llanmalar kam?” — maqolasi / 24.05.2020.

merosini yanada kengroq tanitishga yordam beradi. Xorijlik do‘stlarimizning tilni o‘zlashtirishi va o‘zbek tilida muvaffaqiyatli muloqot qilishlari, bizni o‘z tilimizga yanada e’tiborli bo‘lishga undaydi va tilni o‘rganish jarayonini yangi bosqichga olib chiqadi. Bu, albatta, tilimizning kelajagi va uning jamiyatdagi o‘rni uchun katta bir motivatsiya yaratadi.

Farzandlarimizni rus maktablariga berishga odatlanib qolganimiz, ularning o‘zbek tilida savodli va to‘g'ri gapirishga bo‘lgan imkoniyatlarini cheklab qo‘ydik. Bu esa, darsliklarimizning sifatsizligi va ona tili fanini o‘qitish darajasining pasayishi bilan yanada kuchayib ketdi. Natijada, tili vulgarizm bilan bulg‘angan, nutqi qashshoq yoshlar qarshimizda paydo bo‘ldi. Bu esa, o‘zbek tilining taqdiri va kelajagi uchun jiddiy xavf tug‘diradi.

O‘zbek tilini o‘rganishga bo‘lgan qiziqishni qayta tiklash, uning nufuzini oshirish va uni o‘qitish sifatini yaxshilash uchun jiddiy choralar ko‘rish vaqti keldi. O‘zbek tiliga mehr qo‘ygan xorijlik do‘stlarimizning soni ko‘payishi juda quvonarli hol. Bu nafaqat o‘zbek tilining o‘zi, balki o‘zbek madaniyati va xalqining dunyoga ochilishiga ham katta hissa qo‘shadi.

Xorijzabonlar uchun sifatli qo‘llanmalar yaratish bu yo‘ldagi dastlabki va eng muhim qadamdir.

Tilshunos olim, ustoz B.Mengliyev “kun.uz” kanaliga bergan intervyusida shunday deydi: *“Hammamiz maktabda fizika, kimyo, matematika, biologiya predmetlarini o‘qiganmiz. Ulardan qoyillatib “besh” baho olganmiz. Ammo ko‘p hollarda oddiygina elektr chirog‘i patronini o‘rnatishni ham, daraxtni payvand qilishni ham, yulduzlarga qarab vaqtni aniqlashni ham, jarohatga qanday malham qo‘yishni ham, biror narsaning hajmini hisoblashni ham eplay olmaymiz. Hatto oddiygina isitish tizimidagi suvning aylanma harakatini ham tushunmaymiz. Nega? Chunki biz olgan ta"lim hayotdan uzilib qolgan. Hamma ham fizik, matematik, biolog bo‘lavermaydi-ku! Shuning uchun o‘quvchida hayotiy kompetensiya birinchi o‘ringa chiqishi lozim edi.”*[150] Haq gap. Olimning fikridagi bir so‘zni ham rad eta olmaymiz. Bolalarning maktabdan bezishiga ham mana shu jihatlar sabab bo‘lmayaptimikan?! Olim fikrini davom ettiradi: *“Endi o‘zimizning “Ona tili”mizga kelaylik. Ona tili ta’limining ahvoli qanday? Boshi ham, adog‘i ham yo‘q, buning ustiga darslikdan darslikka o‘tish, sinfdan sinfga ko‘chish bilan o‘zgarib turadigan son-sanoqsiz ilmiy (lingvistik) qoidalarni yodlatamiz. Matnning, berilgan gaplarning avra-astarini chiqarib, ipidan ignasigacha tahlil qildiramiz. Biroq bu “bilim”lar og‘zaki va yozma nutqimizga qay darajada ta’sir qilishi haqida o‘ylab ham ko‘rmaymiz.”* Achchiq, ammo haqiqat! ustoz Mengliyevning fikrlari juda o‘rinli. Bolalarni maktabdan bezdirishga sabab bo‘layotgan omillardan biri bu - o‘quv dasturlarining hayotiylikdan uzilib qolishi. O‘quvchilarga o‘rgatilgan nazariy bilimlarni amalda qo‘llash imkoniyati kam. Ustoz Mengliyevning fikrlari o‘zbek tilini xorijiy til sifatida o‘rganishda ham juda muhim ahamiyatga ega. Chunki o‘zbek tilini o‘rganuvchilar ham o‘zbek tilini faqat grammatik qoidalarni yodlash orqali o‘rganishga harakat qilishadi.

[150] www.kun.uz “Bunday ona tili ta’limi o‘zimizni aldashdan boshqa narsa emas!” – Tilshunosolim bilan suhbat / 27.08.2019.

O‘zbek tilini xorijiy til sifatida o‘rganishda amaliy mashg'ulotlarga ko‘proq e'tibor berish kerak. O‘quvchilar o‘rgangan bilimlarini hayotda qo‘llash imkoniyatiga ega bo‘lishlari kerak. Masalan, o‘zbek tilida yozilgan kitoblarni o‘qish, o‘zbek tilida suhbatlashish, o‘zbek madaniyati bilan tanishish kabi amaliy mashg'ulotlar o‘quvchilarga o‘zbek tilini tezroq va samarali o‘rganishga yordam beradi.

Bundan tashqari, o‘zbek tilini o‘rganuvchilarga o‘zbek madaniyati va tarixi haqida ma'lumot berish ham muhim. Chunki til va madaniyat bir-biri bilan chambarchas bog'liq. O‘zbek madaniyati bilan tanishish o‘quvchilarga o‘zbek tilini chuqurroq tushunishga va o‘rganishga yordam beradi.

Shuningdek, o‘zbek tilini o‘rganuvchilarga o‘zbek tilida gapirishdan qo‘rqmaslikni o‘rgatish kerak. Xato qilishdan qo‘rqmaslik, o‘zbek tilida gapirishga harakat qilish o‘quvchilarga o‘zbek tilini tezroq o‘rganishga yordam beradi.

Shuningdek, ona tili darslarida ham o‘quvchilarga grammatik qoidalarni yodlashga ko‘proq e’tibor beriladi, lekin nutqni rivojlantirishga, o‘z fikrlarini aniq va ravshan ifoda etishga yetarli e’tibor berilmaydi. Hozirda maktablarda ona tili darsliklari o‘zgargan, ya’ni qoidalardan cheklangan holda berilgan, Bu juda to‘g‘ri deb bilaman, sababi, o‘quvchilar nazariya orqali emas, balki tilni amaliy jihatdan ishlatishga undaydi.

O‘quvchilarni hayotga tayyorlash uchun o‘quv dasturlarida amaliy mashg'ulotlarga ko‘proq e’tibor berish kerak. O‘quvchilar o‘rgangan bilimlarini amalda qo‘llash imkoniyatiga ega bo‘lishlari kerak. Bundan tashqari, o‘quvchilarga o‘z fikrlarini erkin ifoda etishga, muloqot qilishga, muammolarni hal qilishga o‘rgatish kerak.

Gazeta.uz maqolasida onlayn o‘zbek tili kurslari muhokama qilingan bo‘lib, ushbu maktablarning uchta asoschisidan o‘z tajribalari va o‘zbek tilini o‘rganishga bo‘lgan talab haqida so‘ralgan.

Laziza Azimova, uzbekonline.ru onlayn o‘zbek maktabining asoschisi:

Men Rossiyada 15 yil yashaganman va farzandlarim hech bo‘lmaganda asosiy darajada o‘zbek tilini o‘rganishini xohlardim. Men ona tilida so‘zlashuvchi enaga yollash, o‘zbekcha multfilmlar ko‘rsatish va uyda o‘zbek tilida gapirishga harakat qildim. Ammo bu cheklangan sa’y-harakatlar unchalik samarali bo‘lmadi, chunki bola asosiy tilini maktab, bolalar bog‘chasi va media orqali o‘rganadi. Gruzin tilini o‘rgatish bo‘yicha o‘xshash kurslarni topganimdan so‘ng, onlayn o‘zbek tili kursini yaratish g‘oyasi paydo bo‘ldi. O‘zim tilshunos yoki o‘qituvchi bo‘lmaganman, shuning uchun tashkilotchilikka e’tibor qaratdim. Kelajak onlayn formatlarda deb hisobladim va pandemiya boshlangunga qadar bizning maktab ikki yildan beri faoliyat yuritayotgan edi. Biroq, o‘zbek tilini o‘rganish uchun resurslar kam edi, shuning uchun men materiallar yig‘ib, o‘quv dasturini yaratish uchun 80 dan ortiq o‘qituvchilar bilan suhbatlashdim. Bugungi kunda aksariyat talabalari O‘zbekistondan, turli kelib chiqishlarga ega, odatda 30 yoshdan oshgan va eski o‘quv dasturiga nisbatan chuqur nafratga ega bo‘lgan. Biz amaliy til ko‘nikmalariga e’tibor qaratamiz, talabalarni uch oy ichida suhbatlashishga qodir qilishni maqsad qilganmiz.

Saida Rashidova, *Saida bilan o‘zbek tili kursining yaratuvchisi:

“O‘zbek tilining rivojlanishini ko‘rib xursandman. Men buni mashhur blogerlarning nutqida ko‘raman va telefonimning interfeysi o‘zbek tilida ekanligidan xursandman. Qurilmalardagi tarjima texnologiyalari o‘rganishni rivojlantirishga yordam beradi, chunki telefon interfeysini o‘zbek tiliga o‘zgartirish oson birinchi qadamdir. Men teatr va kino bilan bog‘liq kichik kurslar ham yaratdim, bu o‘rganishni yanada qiziqarli qiladi.”

Gulrukhso Ergasheva, “Qiziqarli o‘zbek tili” muallifi:

“Biz adabiy o‘zbek tilini yoki mintaqaviy lahjalarni ishlatmaymiz, chunki bizning maqsadimiz amaliy muloqotni o‘rgatishdir. O‘zbek tilini chet tili sifatida o‘rgatish bo‘yicha xalqaro standartlar yetarlicha rivojlanmagan bo‘lsa-da, o‘zbek tilining saqlanishi, shu jumladan uning adabiy shakli, nihoyat o‘zbek xalqining zimmasidadir.”[151]

Raqamli texnologiya til o‘rganishda ham muhim rol o‘ynaydi, chunki u interaktiv tajribalarni va til ko‘nikmalarini samarali rivojlantirish vositalarini taqdim etadi. Raqamli o‘qitish o‘rganish jarayonini individual ehtiyojlarga moslashtirish, virtual til amaliyoti, o‘zlashtirishni kuzatish va xarajatlarni kamaytirish imkonini beradi.

Ko‘plab odamlar nafaqaga chiqqandan keyin yangi tillarni o‘rganishni boshlaydilar, bu intellektual qiziqish, sayohat qilish yoki kognitiv pasayishni oldini olish motivatsiyasi bilan bog‘liq. Garchi yosh bilan o‘rganish sekinlashsa-da, muntazam o‘qish yangi neyron aloqalarni yaratishga yordam beradi. An’anaviy usullar, masalan, yozma eslatmalar, suhbat amaliyoti, audio resurslarni tinglash va klassik grammatika matnlarini o‘rganish hali ham asosiy til ko‘nikmalari uchun qimmatli.

XULOSA (Conclusion)

O‘zbek tilini rivojlantirish va xorijzabonlarga o‘rgatish borasidagi sa’y-harakatlar bir qator ijobiy natijalarga olib kelgan bo‘lsa-da, bu yo‘nalishda hali ko‘plab muammolar mavjud. O‘zbek tilini o‘rgatish uchun yaratilayotgan qo‘llanmalar va lug‘atlar soni oshsa-da, ularning sifati va amaliy qo‘llanishi haqida yanada chuqurroq tahlil qilish zarur. Buning uchun zamonaviy va interaktiv o‘quv resurslari, maxsus kurslar, xalqaro tanlovlar va ommalashgan onlayn platformalar orqali o‘zbek tilining nufuzini oshirish lozim. Bundan tashqari, til o‘rganish jarayonini samarali va ta’sirchan qilish uchun ilmiy tadqiqotlar va metodologiyalarni takomillashtirish zarur. O‘zbek tilining dunyo miqyosida yanada keng tarqalishi va uning madaniyati bilan tanishish imkoniyatlari ko‘payishi nafaqat xorijzabonlar, balki o‘zbek xalqining o‘z ona tiliga bo‘lgan hurmatini oshiradi. O‘zbek tilini o‘rgatish borasida amalga oshirilgan barcha ishlar, albatta, uning kelajagi va jamiyatdagi o‘rni uchun muhim ahamiyatga ega. Yuqorida sanab o‘tilgan o‘zbek tili fidoyilari Laziza Azimova, Saida Rashidova, Gulrukhsor Ergasheva o‘zbek tili kurslarining mashhurligi sabab o‘zbek tilini o‘rganishga bo‘lgan talabning oshganligini ko‘rsatadi. Kurslarning asosiy maqsadi amaliy muloqotni

[151] Bobajonova M.T. ADVANCED METHODS IN TEACHING AND DEVELOPING NATIVE LANGUAGE AND LITERARY SUBJECTS. INTERNATIONAL JOURNAL OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE (ISSN: 2692-5206) Volume 04, Issue 09, 2024 Published Date: 14-11-2024

o‘rgatish va talabalarni uch oy ichida suhbatlashishga qodir qilishdir. O‘zbek tilining rivojlanishi va saqlanishi o‘zbek xalqining zimmasida ekanligini eslatib o‘tish kerak.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI (REFERENCES)

1. O‘zbek tilini ikkinchi til va xorijiy til sifatida o‘qitish masalalari: muammo, yechim, istiqbollar. Respublika onlayn ilmiy-amaliy anjumani materiallari. Toshkent–2020. 20-may/ 150-bet.

2. Kadirova X. (2022) O‘zbek tilini xorijiy til sifatida o‘qitishda ta’lim sifatini belgilovchi omillar// international scientific journal of biruni ISSN (E) 2181-2993 Vol. 1, Issue 2. Oct. (2022). O‘zbek tilini xorijiy til sifatida o‘qitishda ta’lim sifatini belgilovchi omillar

3. Muhamedova, S., & Shirinova, Y. (2024). Ko‘p tillilik va ko‘p madaniyatlilik muhitida o‘zbek tilini o‘rgatish masalalariga doir. O‘zbek tilining xorijda o‘qitilishi: ta’lim nazariyasi va amaliyoti,1(01), 3–6. Retrieved from https://aphil.tsuull.uz/index.php/anjuman/article/view/96

4. Bobajonova M.T. ADVANCED METHODS IN TEACHING AND DEVELOPING NATIVE LANGUAGE AND LITERARY SUBJECTS. INTERNATIONAL JOURNAL OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE (ISSN: 2692-5206) Volume 04, Issue 09, 2024 Published Date: 14-11-2024

FOYDALANILGAN SAYTLAR

1. www.kun.uz Otabek Tillayev. “Nega xorijliklar o‘zbek tilini o‘rganishi uchun sifatli qo‘llanmalar kam?” — maqolasi / 24.05.2020.

2. www.kun.uz “Bunday ona tili ta’limi o‘zimizni aldashdan boshqa narsa emas!” – Tilshunosolim bilan suhbat / 27.08.2019.

3. https://www.gazeta.uz/oz/

4. Uzbek Language Online School - uzbekonline.ru

5. https://t.me/uzbekwithsaida

6. Uzbek Language Day article on Gazeta.uz

7. Methods of Learning a Foreign Language on Erosheve.ru

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 1-son)

FILOLOGIYA

PHILOLOGY

UDK 894.375-1(021)
ORCID 0009-0004-4798-4139

NAVOIY SHE’RIYATIDA TAJRID VA TAFRID TUSHUNCHALARINING NAZARIY TALQINLARI

Kamolova Majnuniso Ulug‘bek qizi
QarDU 1-kurs daktarant
majnunisokamolova@gmail.com
kamolovamajnuniso@gmail.com
+998914544979

Annotatsiya. Ushbu maqolada Tasavvufiy “tajrid” va “tafrid” tushunchalarining Navoiy lirikasida uchraydigan ko‘rinishlari, umumiy ma’no-mazmundan tasavvufiy talqiniga qadar, shuningdek Yassaviy, Mashrab ijodida uchraydigan “yolg‘izlik”ning bu ko’rinishlarini ham ochib berishga harakat qilingan. Aslida “Tajrid” va “tafrid” tushunchalarining o‘zi ham “Yolg‘izlik” motivining bir ko‘rinishi bo‘lib, xilvatnishinlikka olib boruvchi, tasavvufiy maqomlarda bevosita ishtirok etadigan o‘ziga xos bir darajadir. Maqolada aynan mana shu darajalarning Navoiyga tegishli ayrim misralari misolida turlicha talqinlarini ko‘rib o‘tish mumkin.

Kalit so‘zlar. Tasavvuf, lirika, tushuncha, tafrid, tajrid, yolg‘izlik, maqom, daraja, bosqich.

Абстрактный. В данной статье предпринята попытка раскрыть суфийские понятия «таджрид» и «тафрид» в лирике Навои, от их общего смысла до суфийской интерпретации. По сути, понятия «Таджрид» и сам «Тафрид» представляют собой форму мотива «Одиночества», специфического уровня, ведущего к замкнутости и непосредственно участвующего в мистическом статусе. В статье на примере некоторых стихов, связанных с Навои, можно увидеть различные интерпретации этих уровней.

Ключевые слова. Суфизм, лиризм, понимание, тафрид, таджрид, одиночество, статус, уровень, стадия.

Abstract. In this article, an attempt has been made to reveal the manifestations of the Sufi concepts of "tajrid" and "tafrid" in Navoi's lyrics, from their general meaning to their Sufi interpretation. In fact, the concepts of "Tajrid" and "Tafrid" itself are a form of the motif of "Loneliness" and are a specific level that leads to seclusion and directly participates in mystical

status. In the article, it is possible to see different interpretations of these levels on the example of some verses related to Navoi.

Key words. Sufism, lyricism, understanding, tafrid, tajrid, loneliness, status, level, stage.

KIRISH.

Jaloliddin Rumiy o‘zining sufizmning ensiklopediyasi hisoblangan “Masnaviy”sida Xudoga xitoban shunday deydi: “Sen qodiri mutlaqsan, sen hammasan, sen bizga fanoni ko‘rsatasan, biz, bizning borlig‘imiz esa loshay, hechdir”. Buyumlar Xudo qarshisida “Nomlarginadir”. Inson ham shunday ekan. Inson tanasining o‘zi ham xuddi shu kabi alam, qullik qafasidaki, unga jon baxtsizlikdan qamalgandir. Tirik bo‘lib yurish jon uchun falokatdir. Jonni shu qafasdan ya’ni jasadidan ozod qilmoq kerak. Buning uchun u nimalar qilishi kerak? Mana endi biz quyida ko‘rib o‘tadigan ayrim bosqichlar insonni shu qafasdan ozod qilish, ruhan poklanish, kamolot bosqichlariga ko‘tarilishida yordam beradi.

Avvalo, “Tajrid va Tafrid” tushunchalariga to‘xtalib o‘tamiz. **Tafrid** arabcha so‘z bo‘lib, “Yolg‘izlanish” degan ma’noni anglatar ekan. Tasavvufda esa Alloh tavhididagi oliy daraja degan ma’noda keladi. Bu so‘z fard ya’ni tanho, yagona kabi o‘zaklardan olingan bo‘lib, ko‘pincha tajrid bilan yondosh muqoyasali tushuncha sifatida ishlatiladi.

Ushbu tushunchaning asosi quyidagi hadisda batafsil berilgan: “Rasulullоh (s.a.v.) dedilarki:” Mufarridlar o‘zib ketishdi”.

Mufarridlar kimlar, ey Allohning Rasuli?” deyishdi. U zot: Allohni ko‘p-ko‘p zikr qiluvchilardir”, dedilar. Boshqa rivoyatlarda esa mana bunday berilgan: “Ular Allohning zikriga qattiq kirishganlar bo‘lib, zikr ularning og‘irlik-yuklarini ketkazgan va ular qiyomat kunida yengil bo‘lib kelishadi”. (Termiziy rivoyati)

Aqida kitoblarining ayrimlarida vahdoniyat va fardoniyat ma’nodosh so‘zlar bo‘lib, yonma-yon ifodalanib kelinadi. Oralaridagi farq shunda bilinadiki, vahdoniyat zot e’tiboridan, fardoniyat esa sifat e’tiboeridan ishlatiladi. Alloh taolo zotida muvahhaddir (yolg ‘izdir), sifatida munfariddir (yagonadir). Shihobiddin Suhravardiyga ko‘ra tafrid o‘ziga kelayotgan narsalar borasida nafsini ya’ni o‘zini ko‘rmaslikdir, balki, o‘ziga nisbatan Allohning xayru saxovatini ko‘rishdir. Tajrid va tafrid o‘z ma’nosiga ko‘ra talvin va tamkinga o‘xshaydi. Ularning biri bashariy sifatlardan poklanish, ikkinchisi esa ilohiy xulqlar ila xulqlanishdir.

Yassaviyning tarkidunyochiligi bilan so‘fiylar yoki zohidlar tarkidunyochiligi bir-biridan tubdan farq qiladi. Zohidlar taqvosiga ko‘ra ular Jannatdan umid qiladilar, ularning Jannatdan ta’malari bor. So‘fiylar tarkidunyochiligida esa Faqat va faqat m,uhabbat yotadi, ular faqat Haq ni deydilar. So‘fiy shaxs o‘zini tajrid va tafrid bilan ruhini poklab, haqq ul-yaqin martabasi tomon ko‘tarilish umidida bo‘ladi, fano holati nashidasidan surur oladi. Shunga ko‘ra, Yassaviyning muqaddas ruh tili bilan aytgan “hikmat”larine boshqacha g‘ayriinsoniydir deyish noto‘g‘ri. Yassaviy umri mobaynida yetimlarni himoya qildi, zulm ko‘rganlarga, mazlumlarga qo‘lidan kelganicha yordam qilishga urindi. Darvesh kabi sofdil, pokdomon kimslaar uning

tomon bo‘ldilar, uning ta’limotini keng ommaga yoyishga harakat qildilar. Yassaviyning she’riyati eng xalqsevar, haqsevar she’riyatdir.

Mashrabning tushunchasiga ko‘ra, ushbu dardning davosi faqat va faqat Haq sevgi, ishqi, ilohiyot vasli, unga yetishmoqlikdir. Bu martabaga esa Insonni Ishq olib boradi. Mashrabda tavhid masrurligi, yor huzuridagi halovat tasviri, unga yetishish yo‘lidagi mashaqqat, qiyinchiliklar ya’ni ishq iztiroblari, tasavvufiy til bilan aytganda, **Talavvun va Tafriqa, Tajrid va Tafrid** bosqichlaridagi azoblar qo‘shib tasvirlanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA. Tadqiqot jarayonida tarixiy-qiyosiy, analitik, gemenevtik hamda sotsiologik tahlil usullaridan foydalanilgan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA. “Talvin (yoki talavvun)- xilma-xillik, solik barqaror bo‘lmagan, hali ko‘ngildan shubha, gina batamom ko‘tarilgana payti. Bu bosqichdan omon-eson o‘tib olsa, uning kamolotiga kamol qo‘shilib, “TAJRID”ga kiradi, ya’niki, ruh yalang‘och bo‘ladi, jism esa o‘z qafasidan ajrala boshlaydi. O‘zi esa Xudodan boshqani istamay qoladi. Allohning talabidan o‘zga talabi bo‘lmay, dunyoni hech ko‘ra boshlaydi, fikru zikri faqat Allohning yodi bilan bo‘lib qoladi.

Ushbu bosqichda qalb mosuvollohdan qutuladi, Iloh uchun xoli bo‘ladi. **Tajrid bosqichi qurb (yaqinlashish)ga olib boradi, solik** g‘**arib holini boshidan o‘tkazadi. Tajriddan qurbga, qurbdan tafrid (yakkalanish)ga boriladi.** Bu esa Haqqa yetishish demakdir. Ruh esa ana shunda barqaror bo‘la boshlaydi. Ana shundagina huzur-halovat olamiga yetishishi mumkin.

Bu bosqichni Navoiy bir g‘azalining baytlari orqali quyidagicha izohlaydi va g‘azalning quyida to‘liq bayoni tushuncha hosil qilishimiz uchun beriladi:

Chu solik aylar esa azm vodiyi tavhid,
Kerakki, minsa bu sayr ichra markabi tajrid.
Bu markabu bu safar kimsaga muyassar emas
Ki, hosil aylamagay olam ahlidin tafrid.
Bu ham kishi o‘zini boru yo‘qdin etkay fard,
Emastur o‘zlukidin mumkin o‘lmayin ta’yid.
Chu do‘st lutfig‘a bu barcha bo‘ldi vobasta,
Nedin kerak kishiga vasl naqdidin tardid.
Azalda chun ne nasib o‘ldi, o‘zga bo‘lmadi ul,
Sa’idni ne shaqi qildi, ne shaqini sa’id.
Ketur qadahki, dame o‘zni xush tutay, ey mug‘,
To‘la quyarg‘a emas hojat aylamak ta’kid.
Navoiy istamas o‘zni dame bu dayrda sog‘,
Hamisha kayfiyatig‘a aning bering tajdid.

Agar solik, Tavhidni azm aylagan bo‘lsa, ya’ni maqsad qilgan bo‘lsa, u shunday qilishi kerakki: *minsa bu sayr ichra markabi tajrid.* Ya’ni, tajrid markabini sayr davomida (maqsadi sari eltadigan yo‘li davomida) minsa, tavhidga boradi. Bu ham *kimsaga muyassar emaski*, deydi

Navoiy, toki olam ahli ichra “Yolg‘izlik”ni, yolg‘izlanishni hosil qilmaguncha, buni *hosil aylamagay olam ahlidin tafrid, deya izohlaydi.* Keyingi misradan bu maqsad kengroq ochib berishga harakat qilinadi. *Kishi o‘zini boru yo‘qdin etkay fard*- bor-u yo‘g‘idin fard aylash, bu-boru yo‘g‘idan kechish degani.

Tafrid- yolg‘izlanish, o‘zini odamlardan chetlashish, o‘zini uzlatga olish.

Bu markabu bu safar kimsaga muyassar emas
Ki, hosil aylamagay olam ahlidin tafrid.

Bayt so‘ngida u bu dayrda sog‘ bo‘lib turishni istamaydi, har dam yangilanib turishni xohlab shunday deydi:

Navoiy istamas o‘zni dame bu dayrda sog‘,
Hamisha kayfiyatig‘a aning bering tajdid.

Tajdid- yangilamoq, yangilab turmoq, tez-tez qaytarib turmoq[1][152].

Bundan tashqari, uning yana bir g‘azalida tajrid va tafrid masalasini Ruhululloh misolida ham aytib o‘tadi:

Kufri zulfi ichra har soat rusuxim uylakim,
Dam-badam ahli yaqin imonining tajdididur.
Ul quyosh vaslin tilarsen, bo‘l mujarrad, negakim,
Ko‘kka Ruhullohni yetkurgan aning tajrididur.
Istasang jon yo ko‘ngul, qilsam taraddud, ayb emas
Kim, Navoiyda alarni tonglamoq tardididur.

G‘azalning qisqacha umumiy bayoniga o‘tadigan bo‘lsak, *imonining tajdididur,* deb imonni har safar tajdidlab ya’ni yangilab turmoq kerakligini aytib o‘tadi. Ana shunda *Ul quyosh vaslin tilarsen, bo‘l mujarrad,* quyosh deb Haq visoli nazarda tutilmoqda, bunda mujarrad bo‘l, ya’ni mujarrad- yakka, yolg‘iz, tanho bo‘l[2][153]. Ko‘kka, Haq visoliga Ruhulullohni yetkargan ham uning tajridi- yolg‘izligidir, deydi.

Tashqaridan qaralganda, Navoiyning insoniy va ijodiy shaxsiyati bizlar uchun ham yaqin, ham yiroqdir.

Yaqinligi: Navoiyning shaxsiy hayoti, atrofdagilari, ijodiy ishlari, ustoz, shogirdlari, yaratgan asarlari va kimlar uchun qachon yaratilganui, umr yo ‘llari va shunga o ‘xshash hodisotlardan xabardorligimizdir.

Yiroqligimiz: Xazrati Navoiydek ulug‘ mutafakkirning asl aytmoqchi, bizlarga yetkazmoqchi bo‘lganlarini to‘la anglab yeta olmaganimiz, hamono uni o‘qib, o‘rganib, izlanib yotganligimiz, uning maqsad muddaosini ochib bera olgan yoki ochib bera olmaganlarimizda.

---

[152] O. F. Akademiyasi, Alisher asarlarining izohli lug‘ati, 3-tom, Toshkent: O`zbekiston CCP "Fan" nashriyoti, 1984.

[153] O. F. Akademiyasi, Alisher Navoiy asarlari izohli lug‘ati, 2-tom, Toshkent: "Fan" nashriyoti, 1983.

Shuningdek, kommunist zamonning ayrim iddaolari tufayli, aslida Navoiyning aytmoqchi bo‘lganlarini noto‘g‘ri talqin va tahli etib yurganligimizdadir.

Mana Mustaqillikka erishganimizdan buyon aynan o‘sha o‘tmish zamonning nojo‘ya qarashlarini to‘g‘ri talqinga burishga harakat qilib kelmoqdamiz. Sababiki, zohidlik va botinlikda katta gap bor. Kelajak avlodning to‘g‘ri yo‘nalishdan borishini ta’minlash esa bizlarning qo‘limizda. Buni tushungan holda, hozirgi bosh masala o‘tmish adabiyotini eskicha emas, balki unda aslida qanday ma’no-mazmun mujassamlashganligini g‘oyaviy-badiiy talqinlar asosida tadqiq etib, eskirgan qonun-qoidalardan kechishdir.

Shoir orifona g‘azallaridan birida:

Tut o‘zungga fardu bekaslik baloyu emgakin,
Yo birovga o‘rganib ayru tushub emganmagil, –

deydi.

Fardlik, tajrid, yolg‘**izlik** hissiyotlari mujassam etgan bu kabi baytlar shoir ijodida ko‘plab uchraydi. Bular shaxsning ma’naviy hayot tarzini hatto hayotining ma’no-mazmunini sharhlaganda ham ko‘ngilga bir ta’sir o‘tkazmay qolmaydi. Bu haqida Ibrohim Haqqul olimimiz “Abadiyat farzandlari”[3][154] asarida shunday deydi: “bir paytlar Abdulla Oripov bilan Navoiy mavzusida suhbatlashganimizda u shunday: “Navoiy favqulodda shaxs. Sezgir. Teran. Ruhan uyg‘oq. Biror dam siyrati sokinlashganini payqay olmaysiz. Muhtasham korxonaday to‘xtovsiz ishlaydi”, -degan edi”. Haqiqatan ham Navoiy hech nimani e’tiboridan chetda qoldirmaydi. Oddioygina misol “Lison ut-tayr”[4][155] idagi quyidagi misolni olaylik:

O‘n sakkiz ming olam ichra neki bor,
Ahli ma’ni qilurlar e’tibor.-

degan baytini olsak ham fikrimizni yaqqol tasdiqlaydi. Sababiki, shoir bu asarini o‘spirinli davridayoq yozgan. Demak, o‘smirligidan u “Ahli ma’ni”lar qatori fikr yuritgan.

Umumiy tarzda qaralganda Navoiy she’riyati hassos shoirning sub’ektiv, ya’ni anfusiy his-tuyg‘u, ehtiros va holatlarining rangin manzarasidir. Bularsiz shoir shaxsining jonli, serjilo qirralarini aniqlash dushvor. “Favoid ul-kibar”dagi g‘azallardan birida shunday so‘zlar bitilgan:

Deding: “Fano nedurur?” Muxtasar deyin: “O‘lmak”
Ki sharhin tilasang, yuz risola bo‘lg‘usudur.

Navoiy she’riyati diqqat bilan o‘qilib, keng ko‘lamda mushohada etilsa, shoirning erk zavqi, talvin maydoni fano va fanovashlik ekanligiga hech shubha qolmaydi. Foniy taxallusini tanlash va ishlatishga Navoiy to‘la haqli edi. Chunki har qanday maqsad va urinishda fano unga nafs ta’siridan qutulish chorasi hisoblangan. Shoir shaxsining qushday yengil, hayot ziddiyatlari

[154] I. Haqqul, Abadiyat farzandlari,, . – Toshkent, 1990, 164-bet.
[155] А. Навоий., "Лисон ут-тайр. Йигирма томлик, ўн иккинчи том.," – Тошкент: , Фан, , 1996., p. 326 б.

va dunyo qafasidan forig‘ligiga bosh sabab ana shu. Munojot mazmunidagi ruboiylaridan birida u yozadi:

Kom ayla Navoiyg‘a fanoni, yo Rab,
Chun bo‘ldi sening yo‘lingda foniy, yo Rab!
Lutf ayla baqoyi jovidoni, yo Rab,
Ul dam sen bil ne qilsang oni, yo Rab!

XULOSA. Darhaqiqat, fikrlik, darveshlik, rindlik, oriflik, hatto oshiqlikda ham shoirga bundan baland va sobit orzu yo‘q edi. Kom aylamoq-maqsad qilmoq ma’nosida kelgan. *Yo Rab, Navoiyga Fanoni birlini, buyuklikni kom ayla,* ya’ni shunday bir ulug‘ maqsad qilib qo‘yki, chun, sening yo‘lingda ya’niki, ishqing yo‘lida, muhabbating yo‘lida foniy bo‘lsin- yo‘q bo‘lsin. Yo Rab unga shunday lutf aylaginki, baqodan umid qila olsin. Toki ungacha, ul damgacha oni ya’ni Navoiyni nima qilsang ham qil, mayli, - deydi.

Fano va foniylik Navoiyga ishq, visol, irfon, oriflik maslagi edi. Bir qator navoiyshunoslar hamjihatlik bilan shoirni shu maslakdan ajratishga urinishgan. Buning asosiy sababini shunday sharhlash mumkin: mumtoz sharq adabiyoti fanolikka, yangi adabiyot voqelikka tayangan. Eski adabiyot nigohni asosan oxirat hayotiga qaratgan bo‘lsa, yigirmanchi asrda dunyoga kelgan adabiyot esa zohiriy taassurotlaridan tug‘ilgan ma’nolar bilan qiziqqan. Bu haqiqatga to‘g‘ri qaralmasa, hech vaqt Navoiyning quyidagi kabi baytlarini xatosiz talqin etib bo‘lmaydi:

Demon yolg‘iz jahondin ayla tajrid,
Nekim Haq g‘ayridir bo‘lg‘il mujarrad.

Inson tirik ekan, o‘zgalar bilan muomala-munosabatida anglashilmovchilik, zohiriy yoki botiniy qarama-qarshiik yuz beradi. Navoiyga ko‘ra, har qanday ziddiyatdan qutulishning birinchi chorasi malomat, ya’ni har bir kishining o‘zini malomat aylay olish holiga erishishi. Ikkinchisi, fanovashlikdir. Chunki faqat fano, faqat chin foniylik insonni barcha g‘ayriinsoniy illat va aloqalardan qutqazib daxlsiz ma’naviy hurlikka yuksaltiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O. F. Akademiyasi. (1984) *Alisher asarlarining izohli lug‘ati, 3-tom,* Toshkent: O`zbekiston CCP "Fan" nashriyoti.
2. O. F. Akademiyasi. (1983) *Alisher Navoiy asarlari izohli lug‘ati, 2-tom,* Toshkent: "Fan" nashriyoti.
3. I. Haqqul. (1990) *Abadiyat farzandlari.* Toshkent, 164-bet.
4. А. Навоий. (1996) *Лисон ут-тайр. Йигирма томлик, ўн иккинчи том*. Тошкент. Фан. 326 б.
5. “Jahon adabiyoti” adabiy-badiiy, ijtimoiy-publisistik jurnal. (2008) Toshkent, G‘afur G‘ulom.
6. N. Komilov. *Tasavvuf*. Toshkent. Yozuvchi.
7. Sh.M.S.M. Yusuf. (2012) *Tasavvuf haqida tasavvur*. Toshkent. Sharq.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 1-son)

FILOLOGIYA

PHILOLOGY

UO‘K 82.09(575.1)

O‘ZBEK POETIKASIDA OY, YULDUZ, QUYOSH TIMSOLLARINING INSON SIFATLARIGA XOS EPITET IFODASI

Jabborova Malohat Valijon qizi
Buxoro davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi
BuxDU mustaqil izlanuvchisi
Email:jabborovamalohat@buxdpi.uz

Annotatsiya. Mazkur maqolada Eshqobil Shukur, Baxrom Ro‘zimuhammad, Maxmud Tohir, Jamol Kamol kabi shoirlar she’riyati tahlilga tortildi. Ularda uchraydigan osmon jismlarining insondagi qo‘rquv, hayajon, titroq singari ruhiy holatlariga ko‘chishi, shuningdek mushfiqlik, xudbinlik, qo‘rslik kabi shaxs sifatlariga epitet bo‘lib kelishi tahlil qilindi. Osmon jismlarini insonga tavsif berishdagi badiiy mahorat qirralari hamda poetik vositalari ochib berildi.

Kalit so‘zlar: adabiy olam, hissiy kechinma, poetik joziba, oy, yulduz, quyosh, shomi anvar, subhi marmar.

В УЗБЕКСКОЙ ПОЭТИКЕ ЭПИТЕВОЕ ВЫРАЖЕНИЕ ЧЕЛОВЕЧЕСКИХ СВОЙСТВ СИМВОЛОВ ЛУНЫ, ЗВЕЗДЫ, СОЛНЦА

Абстрактный. В данной статье проанализирована поэзия таких поэтов, как Эшкабил Шукур, Бахрам Розимухаммад, Махмуд Тахир, Джамаль Камаль. Проанализировано, что обнаруженные в них небесные светила переходят на такие психические состояния человека, как страх, волнение, трепет, а также становятся эпитетами таких личностных качеств, как высокомерие, эгоизм, слепота. Раскрылись художественные способности и поэтические средства описания небесных светил человеку.

Ключевые слова: литературный мир, эмоциональное переживание, поэтическое очарование, луна, звезда, солнце, Шами Анвар, Субхи Мармар.

EPITETIC EXPRESSION OF HUMAN QUALITIES OF THE MOON, STAR, AND SUN SYMBOLS IN UZBEKISTAN POETRY

Abstract. In this article, the poetry of such poets as Eshqabil Shukur, Bahram Rozimuhammad, Mahmud Tahir, Jamal Kamal was analyzed. It was analyzed that the heavenly

bodies found in them move to the mental states of a person such as fear, excitement, trembling, and also become epithets for personal qualities such as arrogance, selfishness, and blindness. Artistic skills and poetic tools in describing heavenly bodies to man were revealed.

Key words: literary world, emotional experience, poetic charm, moon, star, sun, Shami Anwar, Subhi Marmar.

Kirish

B

a

d

i

i

y

bilan bog‘liq obrazlar tizimi mavjud. Ular insonning tabiat va jamiyat bilan bog‘liq kuzatishlarini, bilimlarini o‘zida namoyon etishi bilan diqqatni tortadi. Ko‘pincha badiiy adabiyotda ularning poetonim sifatida qo‘llanishi, inson obrazida keltirilishi, shaxs sifatlarini she’riyatimizda uchraydigan Oy, Yulduz, Quyosh kabi fazoviy sayyoralarning poetik matnga ko‘chishdagi badiiyati hamda insonga xos xususiyatlari uning botiniy olamini ifodalashdagi obrazlililik qirralari rang-barang poetik chizgilarga egadir. Bu jihatdan mavzu ko‘lamini atroflicha yoritish uchun osmon jismlarini o‘zida mujassamlashtirgan she'riy parchalarga murojaat qildik, unda xususiy tamoyillar o‘zida obrazlilikni, shaxs sifatlarini tahlil qilishda poetik qirralarni kiritib, inson ruhiyatini ochishdagi badiiy tadqiqi ko‘plab adabiyotshunoslar tomonidan o‘rganilgan. Jumladan, folklorshunos Mamatqul Jo’rayevning “O’zbek xalq samoviy afsonalari” risolasi bu borada yaratilgan ilk tadqiqot majmuidir. Risolada Markaziy Osiyo turkiy xalqlar samoviy afsonalarining tarixiy ildizlari va syujet tizimi badiiy evolutsiyasining qonuniyatlarini aniqlash bilan bir qatorda, o’zbek xalq samoviy afsonalarining o’ziga xos belgilari, manbalari hamda rivojlanish bosqichlari ilmiy izchillik asosida chuqur tahlil qilingan. Shuningdek, filologiya fanlari nomzodi, dotsent Husniddin Eshonqulovning “Alisher Navoiy she’riyatida samoviy timsollar” monografiyasida mumtoz adabiyotda aks etgan osmon jismlarining badiiy takomili, chunonchi, Navoiy g’azaliyotida ularning “yor” va “oshiq” ma’nolarini ifodalashdagi simvolik mohiyati salmoqli yoritilgan. Kamsonli bo’lsa-da, yaratilgan bu tadqiqotlar mustaqil millat folklorshunosligi, she’riyati va nasrining ilmiy mezonlarini yoritishda katta nazariy mohiyat kasb etadi. Shuningdek, dunyo adabiyoti sarzaminida yetilgan bir qator asarlar: Ivanovning “Astral miflar”, Pantusov, A.Kunning “Qadimgi Yunoniston afsona va rivoyatlar” kabi risolalarida ham qadimiy kosmogonik tasavvurlar tadriji o’laroq yaralgan rang-barang afsonalarning mifopoetik genezisi atroflicha yoritilgan.

Adabiyotlar tahlili

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqot metodlari sifatida mavzuga oid manbalarni o‘rganish va nazariy tahlil etish, kuzatish, taqqoslash, statistik tahlil, umumlashtirish kabi metodlardan foydalanildi.

Tahlillar va natijalar

Adabiyotshunos olim Ulug‘bek Hamdam she’rni “ tuyg‘u surati”, -deya ta’kidlaydi. Faqat bu surat ongimizda go‘yo tirik insondek namoyon bo‘ladi. She’rda shoir hissiy kechimlarini, uslubiyatini, ichki ovozini, ”men”ini ramziy tarzda badiiy obrazlar orqali bayon qiladi. Shuning uchun shoirlar “qalb rassomlari”, “tuyg‘ular musavviri”, deya ulug‘lanadi. Ana shunday sof tuyg‘u musavvirlaridan biri Eshqobil Shukurdir. Uning “Eng qadimgi qo‘shiq” she’rida yulduz va oy timsolida shaxs sifatlariga urg‘u beriladi.

Yulduzlar titrar hayron,
Osmonning holiga voy.
Qora kenglikdan kechib,
Qiz ko‘ksiga qo‘ndi oy.
Qizning qoq ko‘kragidan,
Nur sharqirar misli soy.
Eriydi…Ado bo‘lmas
Qiz ko‘ksiga qo‘ngan oy.[1, 2002.-B.12.]

Dastlabki misrada “yulduzning titrashi” shaxsdagi hayajon, qo‘rquv holatiga, butun boshli zulmatni yengib kelib qizning ko‘ksiga qo‘ngan oy esa xudbinlik, qo‘rslik sifatlariga epitet bo‘lib keladi. Qiz ko‘ksi oy tanini soy singari eritayotganligining boisi mehr va shafqatga to‘laligidan dalolat.

Jamol Kamolning “Quyosh chashmasi” dostonida ham shaxs sifatlarining samoviy timsollar orqali berilganligiga guvoh bo‘lamiz.

Subhi marmar, deydilar, marmarmikin?
Shomi anbar, deydilar, anbarmikan
Boshida tog‘lar buyuk posbon emish,
Poyida so‘ngsiz ulug‘ ummon emish.
Chayqalarmish ul falak avjiga to,
Mavjiga tog‘lar berarmish ming sado.
Oy kulib yulduzni yondirgan kecha.
Nash’ali jonlar yonarmish tonggacha…
Oy kulib, yulduzni yondirgan kecha.[2, 2010.-B.253.]

She’rning dastlabki ikki misrasida ijodkor quyoshning botish va chiqish paytidagi holatni juda chiroyli nomlaydi. Ya’ni shoir bunda quyoshni “subhi marmar”, “shomi anvar” deya ulug‘laydi. Uning boshida tog‘lar “posbon”, poyida esa dengiz hukmron. Bundan haroratlangan ona quyosh falak uzra shodon kezadi.

Zamonaviy poeziyaning yetakchi siymolaridan biri Bahrom Ro‘zimuhammadning “Tong yaqin” she’rida ham shaxsga xos xususuyatlarni koinot bilan uyg‘unlikda tasvirlash holatlari uchraydi.

Tog‘lar qanot chiqarib
havoda uchdi
dengiz cho‘qqisiga
to‘plandi maxluqlar
Yulduz mohiyatan
kesakdek bo‘ldi

Tahorat ayladi yulduzga Darvesh.[3,1994.-Б.65.]

Bunda Quyosh chiqqach, tog‘lar poyidan sekin-asta ko‘tarilib borayotgan soyani shoir “tog‘larning qanot chiqarib ko‘k uzra parvoz etishi”ga qiyoslaydi. Quyosh tobora yuqorilab charog‘on nur taratgach, barcha dengiz maxluqlari uning qaynoq taftiga toblanmoq uchun cho‘qqiga to‘planishadi. Tunning charog‘on yulduzlari esa quyosh taftiga dosh berolmay kesakdek issiz bo‘lib keta boshlaydilar. Ma’lumki, olloh yaratgan yaratiqlar ichida to‘rt muqaddas unsur ham bo‘lib, bular: suv, olov, shamol va tuproqdir.Bunda tuproq poklik ramzi hisoblanadi. She’rda tuproqning, ya’ni kesakning yulduzga evrilishi hamda shu kesak orqali darvesh, ya’ni oyning tahorat aylashi bilan kuchli bir ilohiy qarash, e’tiqod yo‘g‘rilganligini ko‘rishimiz mumkin.

Abdulla Sherning “Sukunat” she’rida ham yulduzlarda insonga xos mehr-oqibat fazilatlari singadi.

Olis yulduzlarning sovuq shu’lasi
Jim titrab boshimni silaydi bu kech.
Zafar yaproqlarning mung – ashulasi
Ohista kuyga kuy ulaydi bu kech. [4, 1983.-Б.6.]

Ko‘kda porlab turgan yulduzlarning sovuq shu’lasi olislardan xayolan shoir boshini silaydi, zafar yaproqlari esa uni ohista kuy bilan allalaydi. Bu she’rni tahlilga tortar ekanmiz “inson-tabiat-koinot” azaliy bir butunlik ekanligi hamda ular hamisha bir-birlariga ehtiyoj sezib yashashlariga guvoh bo‘lamiz.

Asqar Mahkamning “Tavajjuh” she’riy qissasidan olingan quyidagi parchada ham insoniy fazilatlarni samo yoritqichlari ila ramziylashganligini ko‘rishimiz mumkin.

Qabrlar tug‘iga mohtob egildi,
Yoritdi sargardon ellar yo‘lini,
U ilk bor tangriga iymon keltirdi,
Qumlar qayrog‘iga charxlab tilini.[5, 1993.-Б.42.]

Urush shunchalik ko‘p insonlar yostig‘ini quritdiki, oy hamdard bo‘lmoq uchun tunda qabrlar tepasiga keldi, sarson elning yo‘lini yoritdi. 3-4-misralarda tuproq ila poklanib , tilini charxlab ollohga ilk marta iymon keltiradi. Bunda subutsiz insonlarning og‘ir qiyinchiliklar oldida ollohga tavba-tazarru qilishi Oy obrazi orqali ifodalanadi.

Yangi o‘zbek she’riyatining zabardast vakillaridan biri Mahmud Tohirning “Kulging” she’rida ham qo‘llangan quyosh tasvirini shaxs sifatini ochib berishdagi ahamiyati nihoyatda salmoqli ekanligi ko‘zga tashlanadi.

Quyoshning jilvasi yuzingga ko‘chib,
Ko‘kdan bir juft yulduz ko‘zingga ko‘chib,
Qaldirg‘och qoshingda xayolim uchib,
Junun sahrosida Majnunga heshman.[6, 1992.-Б.26.]

Yoqimli tabassum ila xirom etish insonga xos xususiyat. Bu holatni quyoshga yuklash esa badiiy ta’sirchanlikni oshiradi. Quyoshning kulgusi yor yuziga, ko‘kdan ingan bir juft yulduz esa uning ko‘zlariga tushishi poetik jozibani shakllantiradi hamda yorning hijron sahrosida Majnun kabi darbadar kezishiga sabab bo‘ladi.

Yoki uning “Ayt endi, yuragim yuragim” she’rida ham quyosh obrazi orqali mehr-saxovatli inson timsoli tasvirlanadi.

Quyosh yer yuziga nurdan suv separ,
Irmoqlar tog‘lardan kelguvchi chopar.
Teraklar ko‘zidan uyqular qochar,
Ayt endi, odamlar uyg‘onsin.

Quyoshning yer yuziga ”nurdan suv sepishi” uning qaynoq qalbi qanchalar mehrga to‘la ekanligi nishonasi. Keyingi qatorda irmoqni tog‘dan kelayotgan choparga mengzash ko‘nglimizda g‘oyat bir yoqimli taassurot uyg‘otadi. Choparlarning ovozidan teraklar xushyor tortadi. Bu orqali ijodkor odamlarni ham uyg‘onishga, doimo harakat, mehnat qilishga da’vat etadi.

Xulosa

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, yangi o‘zbek she’riyati namunalarida shaxs sifatlarini poetik ifodalash uchun qo‘llangan osmon jismlarini obrazlantirishda ularning har biri insonni tavsiflash, ta’riflash uchun o‘ziga xos motivatsion ma’nolarda, badiiy-estetik vazifalarda keltirilishi ko‘rinadi. Shuningdek, ularning har biri badiiy evolyusiyaga erishgan. Ularni obrazlantirishda har shoirning badiiy-uslubiy mahorati namoyon bo‘ladi. Bunda Oy, Quyosh, Yulduz timsollarining ijtimoiy muhit, davr nuqtayi nazariga uyg‘un tarzda ramziylik aks etishi, shuningdek shaxs ruhiyati va xarakter-xususiyatlarini ifoda etishdagi badiiyati g‘oyatda rang-barang va salmoqdordir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1.Eshqobil Shukur. Hamal ayvoni. Toshkent. “Sharq”nashriyoti. 2002.-B.12.

2. Jamol Kamol. Yana ko‘nglimda ul oy. Toshkent. Merius. 2010.-B.253.

3.Баҳром Ро‘зимуҳаммад. Икки нур. Урганч:“Хоразм” нашриёти, 1994.-Б.65.

4.Абдулла Шер. Куз ҳилоли. Тошкент: Г’афур Г’улом номидаги Адабиёт ва сан’ат нашриёти. 1983.-Б.6.

5.Асқар Маҳкам. Таважжуҳ.Ше’рий қисса. Мирзо Бобурнинг туркийларга ва пири ҳазрати Алишер Навоийга Айтганлари. Тошкент: “Мовароунаҳр” нашриёти, 1993.-Б.42.

6.Маҳмуд Тоҳир. Биз нечун учрашдик. Тошкент: Г’афур Г’улом нашриёти, 1992.-Б.26.

7.Jabborova M. THEORETICAL INTERPRETATION OF STUDENTS'ACADEMIC ACHIEVEMENT //Solution of social problems in management and economy. – 2023. – T. 2. – №. 12. – C. 36-40.

8. Malohat J. O’ZBEK SHE’RIYATIDA ILOHIY ISTILOHLAR VA KOSMOGONIK TIMSOLLARMUSHTARAKLIGI //PEDAGOGICAL SCIENCES AND TEACHING METHODS. – 2022. – T. 2. – №. 18. – C. 209-211.

9. Jabborova M. MUMTOZ SHE’RIYATDA UCHRAYDIGAN OY, YULDUZ, QUYOSH TIMSOLLARINING SHAXS QIYOFASIDA TIMSOLLANISHI //Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences. – 2024. – T. 3. – №. 1. – C. 48-52.

10.Latipova, S. (2024). TARIXIY ROMANDA DARVESH OBRAZI (YOZUVCHI JORA FOZILNING “AYRILIQ OSTONASI” ROMANI ASOSIDA). Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences, 3(1), 58-61.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 1-son)

FILOLOGIYA

PHILOLOGY

ХАДИЧА БЕГИМ ОБРАЗИ ТАЛҚИНИ

Ҳайитов Шавкат Аҳмадович,
филология фанлари доктори(DSc),
БухДУ ўзбек тили ва адабиёти кафедраси профессори
Баротова Хуршида Жалоловна
филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)

Аннотация: Мақолада ҳаёти ва эътиқоди меҳр-шафқат, ҳикмат ва маърифатдан йироқ амалпараст аёл халқни парокандаликка, давлатни парчаланишга олиб келиши “Бобурнома”да қаламга олинган Хадича Бегим тимсолини таҳлил қилиш орқали ёритилган.

Калит сўзлар: Заҳриддин Муҳаммад Бобур, Ҳусайн Бойқаро, Хадича Бегим, Мўмин Мирзо, Шайбонийхон, Музаффар Ҳусайн Мирзо, Қуръони карим.

КИРИШ.

Султон Ҳусайн Бойқаро салтанатида қудратли мавқега эга бўлган Хадича Бегим образи “Бобурнома”да тарихан аниқ, бадиий жиҳатдан мукаммал яратилган. “Бобурнома” муаллифи Хадича Бегимни ўқувчига қуйидагича таништиради: **“Яна Хадича Бегим эди. Султон Абусаъид Мирзонинг ғунчачиси эди, Мирзодан бир қизи бор эди. Оқбегим отлиқ. Ироқта Султон Абусаъид Мирзонинг шикастидан сўнг Ҳирийга келди. Ҳирийда Султон Ҳусайн Мирзо олди ва севди. Ғунчачилик мартабасидан бегимлик мартабасиға тараққий қилди”** (2, 284).

Султон Ҳусайн Бойқаро Хадича Бегимни севган, у билан ҳамжиҳат яшаб, чиройли турмуш қилгандек кўринсада, кейинчалик унинг нақадар тошюрак, зулмкор аёл эканлиги маълум бўлади. Хусусан, суюкли набираси Мўмин Мирзонинг тожу тахт, салтанат илинжида шу аёл ташаббуси билан бегуноҳ ўлдирилиши Хадичабегим образига хос ҳасад, зулм, шафқатсизлик, бузғунчиликни яққол намоён қилади. “Вақое” муаллифи ёзади: **“Муҳаммад Мўмин Мирзо анинг саъйи била ўлтурдилар. Султон Ҳусайн Мирзонинг ўғлонлари ёғуқдилар, кўпраги бунинг жиҳатидин эди. Ўзини оқила тутар эди, вале беақл ва пургўй хотун эди, рофизия ҳам экандур”** (2,285). Қуръони карим ва ҳадисларда ҳамда шу икки қудратли манбадан озиқланган, Шарқ мутафаккирларининг қарашларида ҳам аёллардаги бу каби ярамас иллатлар қаттиқ қораланган. Хадичабегим қабилидаги аёллар хусусида Имом ал-Бухорийнинг “Ишончли ҳадислар тўплами”да қуйидаги мазмундаги ривоят ва ҳадис келтирилади: “Кунларнинг

бирида Абу Ҳурайра Муҳаммад (с.а.в) билан бозордан кетаётган пайтда, ногаҳон бир манзаранинг гувоҳи бўлмиш. Бир аёл ери ва иниси орасига кириб ниҳоятда шалойинликлар қилиб, тилидан заҳар томиб, ғоят бақирар эди. Вазият шу даражага етиб бордики, ҳалиги эри ва иниси ёқалашиб кетдилар. Ул зот (Муҳаммад с.а.в)нинг фармонларига биноан Абу Ҳурайра жанжал орасига аралашди. Оғани-инисидан ажратди. Дедики: “Бу не ҳол?, туфроқчалик мисқоли йўқ дунёда нени талашурсиз?” Ҳалиги аёл шунда ҳам бир сўздан қолмай ниҳоят ғазаб билан вайсайверар эди. Анал оқибат, муҳтарам зот саллоллоҳи алайҳи вассалламнинг ўзлари келдилар. Уруш тинчиди. Равшан бўлдики, арзимас бир матоҳ туфайли аёл эри ва инисини куфрга бошлаб жанжаллаштирур. Шунда Абу Ҳурайра Ул зотга қарата, “Бу аёлга не дейсиз?” – дедилар. Ул зот эса: “Бир қориндан талашиб тушган оға-инилар, қариндош-уруғлар орасига нифоқ келтирган аёлларга жаннат ҳаром бўлсин, дедилар!” (3,99) Кўринадики, Султон Ҳусайн Бойқаро 37 йил ҳукмронлик қилган салтанатнинг дарз кетишида, оға-инилар ўртасига нифоқ солган Хадичабегим ва бошқа Султон Ҳусайн Мирзо ҳарамидаги айрим аёлларнинг ҳиссаси кам бўлмаган. Уларнинг итоатсизлиги, ўзбошимчалиги, подшоҳ эрининг фармонларини эмас, хуфёна тарзда ўз нафси буйруқларини бажариши мамлакатнинг пароканда бўлишига, давлатнинг парчаланишига олиб келган. Султон Ҳусайн Бойқаро асос солган, салкам 40 йил яшаган қудратли мамлакат таназзулга юз тутиб, унинг вафотидан кейин давлатчилик тарихида кузатилмаган икки ҳокимиятчилик қиёфасида ўзидан хабар берган. Ва кўп ўтмай буюк Навоийнинг ақл нури билан ёритилган шундай кўркам давлатдан асар ҳам, хабар ҳам қолмаган. Инсон ҳаётининг, кишилик дунёсининг бирор қоронғу нуқтаси йўққи, у ислом ҳақиқатлари билан ёритилмаган бўлса. “Ал адаб – ал муфрад”дан ўқиймиз: “Аёллардаги “итоатсизлик”дан мурод – эрга осийлик қилиш, яъни, такаббурлик билан эрининг буйруқларига хилоф иш юритишдир” (5,71-79). Бу ҳаёти дунёда мунофиқлик ҳийлакорлик, кўрнамаклик ҳеч қачон жазосиз қолмайди. “Мундай мунофиқлар дўстлик ва иттифоқнинг душмани ўлдиғиндан дунёда иззат, охиратда роҳат юзин кўрмаслар”, – деб ёзади Абдулла Авлоний (6,54).

АДАБИЁТЛАР ТАҲЛИЛИ ВА МЕТОДЛАР. “Бобурнома”да талқин қилинган Султон Ҳусайн Бойқаро оиласидаги Бека Султонбегим, Шаҳрбонубегим, Хадичабегим сингари аёллар ҳам шу итоатсизликлари, такаббурликлари оқибатида тақдир ҳукми билан қилмишларига яраша жазо оладилар. Бобурмирзо бу ҳақда шундай ёзади **“...Шайбонийхон аввал бу ким чиркин дунё учун Хадичабегимни Шоҳ Мансур бахши кўтаргучига туттуруб, турлук-турлук қийинлар қилдурди”** (2,350). Шайбонийхон Ҳиротни эгаллаб олгандан сўнг, Ҳусайн Бойқаронинг, ўғиллари, подшоҳлар Бадиуззамон Мирзо ва Музаффар Ҳусайн Мирзоларнинг авлод-аждоди билан нафақат бу жамоа, балки бутун халойиқ билан юз турли кўргуликларни содир этади. Бобур Мирзо, Муҳаммад Шайбонийхон ибн Шоҳ Будоғ Султон бин Абулхайрхоннинг аёл зотига бўлган вахшиёна хатти-ҳаракатига: **“Бу беш кунлик дунё учун, бундоқ ёмон**

от қозонди”, – дея муносабатини билдирар экан, барча фитна ва мунофиқликлар бошида турган Хадичабегимни Шоҳ Мансур бахши деган бир шафқатсиз қўлига топшириб, турли азоб-уқубатлар, қийноқларга солинганини таъкидлаб ўтади. Хуросон давлатини сувсиз силкитган Шоҳ Абулғозийнинг (Навоий) суюкли хотини Хадичабегимнинг кейинги тақдири ҳақида “Бобурнома”да ҳеч қандай маълумот берилмаган. Заҳириддин Муҳаммад Бобурнинг буюк замондоши, **тарихчилар амири** “Макорим ул-ахлоқ”, “Маосир ул-мулук”, “Хулосатул –ахбор фи баён ал-аҳвол ал-аҳёр”, “Дастурул-вузаро”, “Номайи номий”, “Хабиб ус-сияр”, “Равзат ус-сафо”, “Қонуни Ҳумоюний”, “Аҳборул-хайр”, “Мунтаҳаби тарихи Вассоф”, “Осорул-мулук вал анбиё”, “Ғаройиб ул-асрор”, “Жавоҳир ул-ахбор” каби қимматли китоблар муаллифи Ғиёсиддин ибн Ҳумомиддин (1475-1535) Хадичабегимнинг аччиқ тақдири хусусида аниқ маълумотлар беради. “Ҳабиб ус-сияр”да зикр қилинишича, Хадичабегим Ҳиротдан ташқарига чиқмай, Шоҳ Мансур Бахши уйида турли қийноқларга солиниб уй маҳбуслигида яшайди. 1509-йили ўғли Музаффар Ҳусайн Мирзонинг Астрободда эканлигини эшитади. Шайбонийхон тарафидан Ҳирот доруғаси (ҳокими) қилиб тайинланган Жон Вафо Мирзодан рухсат олиб, ўғлини кўргани Астрободга боради. Хадичабегим Астрободга етиб борганида, Музаффар Ҳусайн тузалмайдиган касалга мубтало бўлиб, ўлим тўшагида ётарди. У кўп ўтмай вафот этади.

Хадичабегим ўғлининг таъзия маросимларини ўтказгач, яна Ҳиротга қайтиб келади ва Шоҳ Мансур уйида маҳбусликда, турли азоблар исканжасида вафот этади (7). Хадичабегимнинг мунофиқликлари Султон Ҳусайн Бойқаро томонидан кечирилган бўлса-да, аммо, тақдир ҳукми билан қилмишларига яраша жазони Муҳаммад Шайбоний ва Шоҳ Мансур Бахши қўлидан олади.

Илоҳий китобнинг “Нисо” сураси 34-ояти каримасидан ўқиймиз: (Аёллар ичида) солиҳлари бу – (Аллоҳга ва эрига) итоатли, ғойибга Аллоҳга сақлаганича ҳимоятли (яъни эрларининг сирлари, мулклари ва обрўларини сақловчи)лардир. “**Хотинларингизнинг итоатсизлигидан қўрқсангиз, аввало уларга панд-насиҳат қилинглар, сўнг** (яъни, насиҳатларинг кор қилмаса), **уларни тарк қилингиз,** (улар билан бир жойда ётманг, яқинлашманг) **сўнгра** (яъни, шунда ҳам сизларга бўйинсунмасалар), **уринглар! Аммо сизларга итоат қилсалар, уларга қарши бошқа йўл ахтарманглар.** Албатта, Аллоҳ энг юксак ва буюк бўлган зотдир” **(8,319).** Мазкур ояти карианинг дастлабки илоҳий жумласида Ҳақ субҳонаҳу таоло томонидан эркак жинсининг айрим хусусиятлари билан аёл зотидан ортиқ қилиб яратилганлиги таъкидланган. Парвардигорнинг ана шу ҳикматларини ҳисобга олиб, аёлнинг илоҳий каломнинг биз иқтибос олган иккинчи жумласида эрига муносабатда итоатли, ҳимоятли, иффатли бўлиб, оила тотувлиги учун муттасил ҳаракатда бўлиши буюрилган. Ояти карима мантиқидан аён бўладики, аёл ,аввало, Аллоҳга, ундан кейин эрига итоат қилиши зарур. Чунки ҳар қандай эзгу амалнинг бош мураббийси Ҳақ Субҳанаҳу ва таолодир. Қуръони Карим таълим беряптики, солиҳа аёл жуфти ҳалоли ҳар қандай вазиятда бўлган чоғида ҳам унинг ҳақ-ҳуқуқи, нуфузини

ҳимоя қилиши зарур. Аммо бу муҳофаза ҳавоий нафсга мувофиқ эмас, эрнинг талаби ва диёнат рукнига мувофиқ бўлиши даркор.

Хадичабегим ана шу руккни вайрон қилган. Подшоҳ эрининг талабига мувофиқ эмас, салтанат даъвоси ва ҳавоий нафсининг талабига кўра иш тутган. Худбин ва амалпараст, калтафаҳм ўғли Музаффар Ҳусайн томонидан асир олиниб, Астроболддан Ихтиёриддин қалъасига юборилган, ҳали балоғат ёшига етиб етмаган, ҳусни сурат ва ҳусни сийрат билан (Навоий) зийнатланган, хушхулқ Мўмин Мирзони сўйдиртириб юборган. Соғлом ақл қабул қилишдан ожиз бўлган бу вахшийликни Мўмин Мирзо юборилган куннинг тунида тонг отмасидан, бирон диёнатли одам билан ҳеч қандай маслаҳатсиз, машваратсиз амалга оширган. Тонгда мастлик уйқусидан уйғониб ўз қонли фармонини бекор қилган Султон Ҳусайн ҳам, фармонни қўйнига солиб, энг учқур тулпорини шамолдек елдириб Ихтиёриддин қалъасига етиб борган чопар ҳам ғафлатда қолган. Аёл макри бутун пойтахт Ҳиротни зир титратиб, қон қақшатган. Шунинг учун ҳам темурийлар салтанатининг Мовароуннаҳрдаги энг кенжа, одил ва диёнатли ҳукмдори З.М. Бобур талқинича, ўзини оқила тутса-да, беақл ва пургўй (Бобур) Хадича Бегим ҳеч қачон солиҳалик мақомига лойиқ эмас. Ҳаддиларида турмай, “Темурбек ўрнига ўтирган” (Бобур) Султон Ҳусайндек подшоҳ эрларига беодоблик, итоатсизлик кўрсатган Хуросон подшоси ҳарамидаги бошқа аёллар ҳам солиҳалик мақомидан осмон ва ер қадар йироқдирлар.

НАТИЖАЛАР ВА МУҲОКАМА. Буюк давлат арбобининг Султон Ҳусайн ва унинг аҳли аёли ҳақида айтган мулоҳазалари Жаҳонгир Амир Темур асос солган давлатга, Соҳибқирондан тортиб Ҳусайн Бойқарогача бўлган барча темурийларга кучли муҳаббати, эътиқодининг рамзидир. “Бобурнома”нинг темурийлар ва уларга алоқадор кишиларга аталган саҳифалари бениҳоят юксак эътибор ва ихлос билан ёзилган. Мароқ ва завқ билан ўқилади. У шоҳ ҳақида бўладими ёки вазир, бек, амир; эркак ҳақида бўладими ёки аёл, ўғил ҳақида бўладими ёки қиз, никоҳидаги аёл ҳақида бўладими ёки ғунчачи... Буюк “Вақое”нинг ҳар бир жумласида, ҳар бир сўзида сал кам 140 йил салтанат сурган буюк соҳибқирон тамал тошини қўйган буюк империянинг сўнгги кунларига қаттиқ ачиниш бор. Чуқур армон билан афсус бор.

Заҳириддин Муҳаммад Бобур Қуръони Мажид моҳиятини, ояти карималар ҳақиқатини биздан кўра 100 баробар чуқурроқ ҳис қилган. Буюк аллома, давлат арбоби, адиб, илоҳшунос, фиққшунос талқинларини баҳоли қудрат тушиниш учун “Нисо” сурасининг ҳақиқатини англаш йўлидаги уринишларимизни давом еттирамиз. Чунки З.М. Бобурнинг хотин-қизларга муносабати, “Нисо” сураси ва унинг ояти карималари мантиқидан келиб чиқади. 34-ояти кариманинг навбатдаги илоҳий жумласида аёл итоатсизлигини муолажа қилиш ҳақида кўрсатмалар берилган. Булар қуйидагилар:

1. Насиҳат қилиш;

2. Уларни ўринларида тарк этиш, алоқа қилмаслик, аёл тунайдиган тўшакка яқинлашмаслик;

3. Уриш.

Ояти карималарда назарда тутилган, муолажа унсурлари босқичма босқич амалга оширилади. Агар аёлнинг вужудида инсоф, диёнат уруғлари бутунлай қуриб кетмаган бўлса, у биринчи ёки иккинчи босқичдаёқ шифо топади. Муолажанинг биринчи усули сиртдан қараганда анча енгил, осон кўринади. Аммо насиҳатнинг аччиқ дориларини ҳар қандай бемор ҳам мардона ютавермайди.

Муолажанинг иккинчи босқичи анча кескин, оғир ҳамда аламли. Чунки ўзини билган аёл учун эрининг хотини яқинига бормаслиги ҳамда никоҳдаги хотинни яқинига йўлатмаслиги, унга эътиборсизлиги, гаплашмай қўйиши аёл учун энг олий жазо. Ўзини билган аёл бу кейинги босқичгача “дард”ни катталаштирмайди. Истеъдодли шоир Омон Матжоннинг қуйидаги сатрлари ояти кариманинг “уларни ўринларида (алоқасиз) тарк этингиз” илоҳий қисмига тескари қиёслаш натижасида шарҳ вазифасини ўтайди:

Аёлни тун билан ёлғиз қолдирмоқ,
Гуноҳлар ичида энг улуғ гуноҳ” (9,46).

Учинчи босқич бу – охирги босқич. Касал юқорида зикр қилинган усуллар билан тузалмаса, оилавий можаро тинч йўл билан оқилона ҳал қилинмаса, эр муолажанинг кейинги босқичига ўтишга мажбур бўлиши илоҳий ҳукм билан буюрилган. Аммо уриш деганда, Қуръони Карим тафсирларида ёзилишича, қаттиқ калтаклаш, аъзоларига шикаст етказиш мутлақо назарда тутилмаган. Бирор бармоқ билан енгил туртиш кўзда тутилган.

Табиий савол туғилади. Хадича Бегимда Мўмим Мирзо фожеасига қадар итоатсизлик аломати кузатилмаганми?

Кузатилмаган бўлиши мумкин эмас. Унда итоатсизлик, ўзбошимчалик, албатта бўлган. Аммо уларнинг ҳаммаси ҳар сафар Султон Ҳусайннинг суюкли маликага бўлган ифрот даражадаги рағбати ва муҳаббати, ишончи соясида қолиб кетаверган. Бу эса аста-секин итоатсизлик ва ўзбошимчаликнинг суюкли аёл табиатида чуқур илдиз отиб, ўринсиз ғурурга, ўзига бино қўйишга, ҳаммадан ўзини ақллироқ санашга, нафақат мамлакатга, балки ,энг аввало, оилада эр ҳоким, раҳбар эканлигини унутишга олиб келган. У ўзига кўрсатилган эҳтиромни, рағбатни, муҳаббатни суиистеъмол қилиш даражасига бориб етган. Бош малика, биринчи қиролича сифатида, оила ва давлат бошқарувида тутган ўз ўрни, вазифаси ва масъулиятини мутлақо эътибордан соқит қолдирган. Шунинг учун ҳам идеал бош малика тимсолини Сарой Мулк Хоним, Гавҳар Шод Бегим, Эсандавлат Бегим, Қутлуғнигор Хоним, Моҳим Бегим сиймосида кузатган синчков ва закий Мирзо Бобур қудратли Хуросон давлатининг “маҳди улъё”си (Навоий) шахсияти ҳақида мулоҳаза юритар экан, “Ўзини оқила тутар эди, вале беақл ва пургўй хотин эди”, – деб ёзади.

Жоҳ истиғноси ва кибр ибтилоси Хадича Бегимнинг бутун вужудини эгаллаган. Бундай иллатнинг эса давоси йўқ. Бу йўлга кирган инсон ҳеч ким ва ҳеч нарсадан ибрат олмайди. Энг буюк аллома сўзини тинглаш, насиҳатини эшитишдан ҳам ор қилади. Фақат ўзи, ўз сўзи ва ўз нафсининг буюргани унга маъқул кўринади. Барчадан ўзини

азизроқ, ақллироқ ҳисоблайди. Гапи, сўзи, хулқи ўйлаган хаёллари, умуман ҳар бир қилган иши ўзига яхши кўринаверади. Кўпчиликка нисбатан ўзини баландда кўради, қиладиган ишларини барчадан тўғри, деб билади. Ана шундай ҳолатда у жиловини шайтоннинг қўлига батамом бериб қўяди. Ҳавойи нафсига ўзини қурбон қилиши касофатидан кишилик жамиятида ҳар қандай ёмонликни келтириб чиқаради.

Салтанат ҳавоси Хадича Бегимнинг кўзларини кўр, қулоқларини кар қилиб қўйган. У Султон Ҳусайндан кейин қонуний тахт вориси Бадиуззамон Мирзони эмас, ўз ўғли Музаффар Ҳусайнни Хуросон тахтида кўришни истаган. Шунинг учун ҳам қўлини ёш шаҳзода Мўмин Мирзонинг қонига ботирган. Жоҳилона хатти-ҳаракати билан шаҳзода ака-укалар орасига хусумат уруғини эккан. Шундай ҳам силкиниб турган Хуросон салтанатини ларзага солган.

ХУЛОСА. Ҳирот салтанатида Бадиуззамон ва бошқа шаҳзодаларнинг Ҳусайн Бойқаро фармонларига итоат этмаслик, марказий ҳукуматга қарши ошкора курашиш ҳолатларининг юзага келишига Хуросон мамлакати саройининг бош маликаси Хадича Бегим асосий сабабчилардан бири бўлган.

Кўринадики, зийрак ва закий Бобур Мирзо “маҳди улё, исматут дунё”нинг (Навоий) зоҳирий гўзалликлар, мадҳу санолар замирига яширинган ботинидаги жаҳолатни тарихий воқеалар фонида санъаткорона очиб берган.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ

1. Бобур. З. М. Бобурнома. – Тошкент: Юлдузча, 1990. – 360 б.
2. Бобур. З. М. Бобурнома. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2015. – 699 б.
3. Бухорий, Абу Абдуллоҳ Муҳаммад ибн Исмоил. Ал-Жомиъ ас–саҳиҳ /Ишонарли тўплам/. 4 жилдлик. 1-жилд. – Тошкент: Қомуслар бош таҳририяти, 1991. – 560 б.
4. Бухорий, Абу Абдуллоҳ Муҳаммад ибн Исмоил. Ал-Жомиъ ас–саҳиҳ /Ишонарли тўплам/. 4 жилдлик. 3-жилд. – Тошкент: Қомуслар бош таҳририяти, 1992. – 560 б.
5. Имом Исмоил ал-Бухорий. Ал адаб-ал муфрат. – Тошкент: Зиё матбаа уйи, 2014. 260 Б.
6. Авлоний А. Туркий гулистон ёхуд ахлоқ.Танланган асарлар. 2 жилдлик, 2-жилд. – Тошкент: Маънавият, 1992. – 304 б.
7. Ғиёсиддин ибн Ҳумомиддин ўғли Хондамир. Ҳабиб ус –сияр. (Теҳрон нусхаси) Шарқшунослик институти қўлёзмалар хазинасидаги 09-87643 рақамли қўлёзма.
8. Қуръони карим. Таржима ва тафсир муаллифи Шайх Абдулазиз Мансур. Тошкент: Тошкент ислом университети нашриёт матбаа бирлашмаси, 2009. – 624 б.
9. Омон М. Аёлга мақтов. – Тошкент: Камолот, 2017. – 121 б.
10. Сотимов Ғ. Бобурийзодалар. – Тошкент: Ўқитувчи, 2003. – 69 б.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 1-son)

FILOLOGIYA

PHILOLOGY

AFSUNGA OID BIRLIKLARNING KONSEPTUAL ASOSLARI

Norbekova Gulrux Xusan qizi
Jizzax davlat pedagogika universiteti
Tayanch doktoranti
gulruh.bonny@gmail.com
+998915923666

Annotatsiya. Mazkur maqolada afsunga oid birliklarning konseptual asoslari har tomonlama tadqiq etiladi. Afsunning semantik xususiyatlari, rituallardagi roli va zamonaviy tildagi o‘rni yoritiladi. Afsunlarning folklor va badiiy adabiyotda namoyon bo‘lishi, xususan, J. K. Roulingning “Garri Potter” asarlari orqali talqin etiladi. Maqolada afsunlarning madaniy qadriyatlar, psixologik ta’siri va verbal ta’sir kuchi bilan bog‘liq jihatlari tadqiq etiladi.

Kalit so‘zlar: afsun, semantika, konsept, madaniyat, ruhiy ta’sir, xalq ijodi, verbal birliklar, folklor, psixologiya, rituallar, sakral semantika, zamonaviy til, magiya, ritual.

КОНЦЕПТУАЛЬНЫЕ ОСНОВЫ ЕДИНИЦ, СВЯЗАННЫХ С МАГИЧЕСКИМИ ЗАКЛИНАНИЯМИ

Аннотация. В данной статье всесторонне исследуются концептуальные основы единиц, связанных с магическими заклинаниями. Освещаются семантические особенности магических заклинаний, их роль в ритуалах и место в современном языке. Рассматривается проявление магических заклинаний в фольклоре и художественной литературе, в частности, через произведения Дж. К. Роулинг «Гарри Поттер». Исследуются аспекты, связанные с культурными ценностями, психологическим воздействием и вербальной силой магических заклинаний.

Ключевые слова: магические заклинания, семантика, концепт, культура, психологическое воздействие, народное творчество, вербальные единицы, фольклор, психология, ритуалы, сакральная семантика, современный язык, магия, ритуал.

CONCEPTUAL FOUNDATIONS OF UNITS RELATED TO MAGICAL SPELLS

Abstract. This article comprehensively examines the conceptual foundations of units related to magical spells. It highlights the semantic features of spells, their role in rituals, and their place in modern language. The manifestation of spells in folklore and literary works is discussed, particularly through J.K. Rowling’s “Harry Potter” series. The study explores aspects related to cultural values, psychological effects, and the verbal power of magical spells.

Keywords: spell, semantics, concept, culture, psychological effect, folklore, verbal units, folklore, psychology, rituals, sacred semantics, modern language, magic, ritual.

Afsun inson ma’naviyatining eng qadimiy ifodalaridan biri bo‘lib, turli madaniyatlarda turli shakllarda saqlanib qolgan. Afsunlarning mohiyatiga nazar tashlar ekanmiz, ular insonning irratsional fikrlashining samarasi sifatida sakral va madaniy ko‘rinishlarni o‘z ichiga oladi. Ushbu birliklar xalqning ruhiy holati, ishonch tizimi va rituallari bilan chambarchas bog‘liqdir[156].

Afsunga oid birliklarni o‘rganish zaruriyatini sakral dunyoqarashni anglash, madaniy merosni saqlash, tilshunoslik tadqiqoti obyekti sifatida deb topdik, chunki afsun xalqning qadriyatlari va ishonch tizimini o‘rganishda muhim hisoblanib, ular orqali xalq tarixi va madaniyatini o‘rganish mumkin. Bundan tashqari, afsunlar tildagi qadimiy qoldiqlarni aniqlash va ularning semantik xususiyatlarini tadqiq qilish uchun muhim obyekt sanaladi. Shu boisdan, afsunlarga oid birliklarning semantik, konseptual va ritual asoslarini aniqlash va ularning zamonaviy ahamiyatini o‘rganish bir nechta zamonaviy fan tarmoqlarining obyektiga aylangan.

Afsun insonning irratsional tafakkuri va sakral madaniyatining asosiy elementlaridan biri hisoblanadi. Turli madaniyatlarda afsunning ko‘rinishlari bir-biridan farq qilsa-da, ularning asosiy vazifasi umumiydir: inson va tabiat o‘rtasidagi bog‘liqlikni tiklash, qo‘rquvni yengish, ishonchni oshirish va insoniyat o’zini ojiz hisoblagan voqea va hodisalarni boshqarishga harakat qilish.

Afsunlar xalq og’zaki ijodi va tilshunoslikning ajralmas qismi sifatida rituallar, marosimlar va folklorda namoyon bo‘ladi[157]. Sehr-jodu ko‘plab mifologiyalar, fantastik adabiyotlar, o‘yinlar va xalq og‘zaki ijodining asosiy elementlaridan biridir. Sehr g‘oyasi so‘zlar, harakatlar yoki buyumlar orqali g‘ayritabiiy kuchlarni yo‘naltirish va ma’lum bir natijaga erishishga asoslanadi. Afsun va sehr-jodu so’zining leksik ma’nosiga to’xtalib o’tsak, lug’atlarda u quyidagicha ta’riflanadi: “sehr-jodu — bu g‘ayritabiiy kuchlarni chaqirish yoki boshqarish orqali kerakli natijaga erishish uchun mo‘ljallangan formula yoki marosimdir. Bu jodular oddiy duolardan tortib, murakkab ilohiy iboralarigacha bo‘lib, ko‘pincha aniq bajarilishni talab qiladi”[158].

Sehr-joduning asosiy tarkibiy qismlari odatda quyidagi elementlardan iborat bo‘ladi:

Duo (Incantation): Og’zaki aytiladigan, kuylanadigan yoki pichirlab gapiriladigan so‘zlar yoki iboralar hisoblanadi[159]. Misol uchun “**Abracadabra”** — bu qadimdan ma’lum bo‘lgan sehrli so‘z bo‘lib, ko‘plab madaniyatlar va davrlarda afsungarlik va shifo amallarida qo‘llanilgan. Ushbu so‘z o‘zining sirli kuchi va tarixiy ma’nolari bilan afsun va sehr-jodu olamida mashhur bo‘lib kelgan. Ushbu so‘zning kelib chiqishi haqida bir necha nazariyalar

[156] Eliade, M. *Shamanism: Archaic Techniques of Ecstasy*. Princeton University Press. 1964. p. 45

[157] Holbek, B. *Interpretation of Fairy Tales*. Folklore Fellows Communications. 1987. p. 83.

[158] https://en.wikipedia.org/wiki/Incantation

[159] Macmillan English dictionary for advanced learners. Second edition. Bloomsbury publishing. 2012. p. 763.

mavjud. **Arameycha**da “Avra kehdabra” so‘zlaridan kelib chiqqan bo‘lib, “men gapiraman va yarataman” ma’nosini bildiradi. **Lotincha yoki yunoncha**da esa bu so‘zning “Abraxas’ nomi bilan bog‘liqligi aytiladi, bu qadimiy yunon gnostik ilohiyati bilan bog‘liq. **Ibroniycha**da bu so‘z “Ab” (Ota), “Ben” (O‘g‘il), va “Ruach ha-Kodesh” (Muqaddas Ruh) so‘zlaridan kelib chiqqan deb ham taxmin qilinadi. Ushbu so‘z ilk bor milodiy II asrda rim shifokori Serenus Sammonicus yozgan asarlarda uchraydi. U “abracadabra”ni kasalliklarni davolash uchun afsun sifatida ishlatishni tavsiya qilgan. So‘z uchburchak shaklida yozilib, bo‘yinga tumor sifatida taqilgan. **Sehrgarlikda** “Abracadabra” so‘zi ko‘pincha afsungarlar tomonidan afsunlarning boshlanishida ishlatiladi. U universal sehrli kuchni anglatadi. Tabobatda esa u salbiy energiyani, kasalliklarni yoki yomon ruhlarni yo‘q qilish uchun ishlatilgan. Zamonaviy madaniyatda “abracadabra” ko‘pincha mo‘jiza yoki sirli hodisalarga ishora qilish uchun ishlatiladi[160].

Harakat yoki imo-ishora (Gesture or Motion) orqali amalga oshiriladigan sehr-jodu: Bunga sehrni bajarish bilan birga qilinadigan qo‘l harakatlari yoki tana harakatlari kiradi. Misol uchun, sehrli tayoqni tebratish, qo‘l belgilari yoki marosimiy raqslar orqali sehr-joduni amalga oshirish. “Garri Potter” asarida esa, bu kabi holat uchun ko’plab holatlarni topish mumkin. Masalan, “Vingardium Leviosa” afsuni biror bir obyektni sehrli tayoqcha yordamida yerdan yuqoriga ko’tarish uchun ishlatiladigan afsun hisoblanadi. “Garri Potter va afsonalar toshi” asarida Hogvards maktabining yangi o’quvchilari sehrgarlik darslarining eng dastlabki kunlarida, bu afsun orqali patni yuqoriga ko’tarish uchun harakat qilinayotgan vaziyati aks ettirilgan[161]. Yana bir misol “protego” afsuni bo’lib, sehrli tayoqcha yordamida doira shaklida yoki keskin yuqoriga harakat qilish orqali himoya qalqoni yaratish uchun ishlatiladi. Bu afsundan Garri va boshqa sehrgarlar jangda dushman hujumidan himoya qilish uchun ishlatgan.

Diqqat markazidagi buyum (Focus Object) orqali amalga oshiriladigan sehr-jodu: Bunga sehr energiyasini yo‘naltirish uchun ishlatiladigan narsalar va buyumlar kiradi. Masalan, sehrli tayoqlar, tumorlar yoki kitoblar sehrli hatt-harakatni amalga oshirish uchun vosita sifatida ishlatiladi. “Garri Potter” asaridagi bu buyumlar nafaqat sehr-joduni yo‘naltirish, balki hikoyani rivojlantirish va sirli dunyoni yanada boyitish uchun ishlatilgan. Har bir obyektning o‘ziga xos tarixi va roli bor. Bu narsalar sehr olamining jonli va haqiqiy ko‘rinishini yaratishga yordam beradi. Misol uchun, *Xogvartsning taqsimlovchi qalpog‘i*- o‘quvchilarni Xogvarts fakultetlariga bo‘lish uchun ishlatiladigan qalpoq bo’lib, u yordamida Garri Gryffindorga bo‘lingan. Keyingi buyum *sehrli xarita (Marauder’s Map)* bo’lib, Xogvartsda kim qayerda ekanligini ko‘rsatadi. U yashirin va sirli harakatlarni amalga oshirishda xizmat qilgan. Bu xarita Garriga Fred va Jorj Uizli tomonidan topshirilgan. Navbatdagi buyum - *Sehrli oyna (Mirror of Erised)* bo’lib, foydalanuvchining eng chuqur istaklarini ko‘rsatishga yordam beradi. Garri bu oyna yordamida o’z ota-onasini ko‘radi. *Sehrli quticha (Time-Turner)*- asarda ishlatilgan sehrli buyumlardan biri bo’lib, u vaqtni boshqarish imkonini bergan. “Azkaban mahbusi” kitobida Germiona vaqtga

[160] Macmillan English dictionary for advanced learners. Second edition. Bloomsbury publishing. 2012. p. 5.
Annotatsiya: Ushbu maqolada psixolingvistikaning paydo bo‘lishi va uning zamonaviy tilshunoslikda tutgan o‘rni o‘rganilgan. Psixolingvistika — bu tilshunoslik va psixologiya sohalarini birlashtirgan ilmiy yo‘nalish bo‘lib, u odamlarning tilni qanday o‘rganishi, ishlatishi va tushunishi, shuningdek, tilning inson ongidagi roli va tasavvurlari bilan bog‘liq masalalarni o‘rganadi. Bundan tashqari, maqolada psixolingvistika kontekstida, inson ruhiyati va nutqi, nutqiy jarayonlarda tilning o‘rni va ularning tildagi aks etishi o‘rtasida bevosita bog‘liqlik haqida so‘z yuritilgan. Insonlar o‘z his-tuyg‘ularini til orqali ifodalaydi va shu bilan birga, til ham odamlarning his-tuyg‘ularini shakllantiradi va ularni boshqaradi. Bu jarayonni o‘rganish psixolingvistikada muhim ahamiyatga ega.

Kalit so‘zlar: psixolingvistika, nutq, til, his-tuyg‘u, ruhiyat, leksik yondashuv, sintaksik strukturalar, paralingvistik xususiyatlar, kognitiv jarayonlar, emotsional til, neyrofiziologiya.

THE FORMATION OF PSYCHOLINGUISTICS AS A SCIENCE AND THE ROLE OF LANGUAGE IN THE HUMAN SPIRIT

Abstract: This article examines the emergence of psycholinguistics and its role in modern linguistics. Psycholinguistics is an interdisciplinary field of linguistics and psychology that studies how people learn, use, and understand language, as well as the role of language in the human mind and perceptions. In addition, in the context of psycholinguistics, the article talks about the direct connection between the human psyche and speech, the place of language in speech processes and their reflection in language. Humans express their emotions through language, and at the same time, language also shapes and controls people’s emotions. The study of this process is important in psycholinguistics.

Key words: psycholinguistics, speech, language, emotion, spirit, lexical approach, syntactic structures, paralinguistic features, cognitive processes, emotional language, neurophysiology.

СТАНОВЛЕНИЕ ПСИХОЛИНГВИСТИКИ КАК НАУКИ И РОЛЬ ЯЗЫКА В ДУХЕ ЧЕЛОВЕКА

Аннотация: В данной статье рассматривается возникновение психолингвистики и ее роль в современном языкознании. Психолингвистика — это междисциплинарная область лингвистики и психологии, которая изучает, как люди изучают, используют и понимают язык, а также роль языка в человеческом сознании и восприятии. Кроме того, в контексте психолингвистики в статье говорится о непосредственной связи психики человека и речи, месте языка в речевых процессах и их отражении в языке. Люди выражают свои эмоции посредством языка, и в то же время язык также формирует и контролирует эмоции людей. Изучение этого процесса важно в психолингвистике.

Ключевые слова: психолингвистика, речь, язык, эмоция, дух, лексический подход, синтаксические структуры, паралингвистические особенности, когнитивные процессы, эмоциональный язык, нейрофизиология.

KIRISH.

Hozirgi kunda psixolingvistika, zamonaviy tilshunoslik yo‘nalishlaridan bir sifatida, o‘rganish obyekti, muammolari va yechimlariga bo‘lgan qiziqishlar oshib bormoqda. Bu sohada amalga oshirilayotgan ilmiy tadqiqotlar tilshunoslikdagi muvaffaqiyatlardan biridir. “Psixolingvistika” atamasi yunon tilidan kelib chiqib, “psyche” – “ruh, qalb” va lotin tilidan “lingua” – “til” degan ma’nolarni anglatadi, hamda insonlarning fikrlash, his-tuyg‘ulari va xulq-atvori bilan birga tilning namoyon bo‘lishini o‘rganadi. Shu sababli, psixolingvistika, odamlarning tilni qabul qilish va yaratish jarayonlarini tushunish va o‘rganishni o'z ichiga oladi. Buning bilan bir qatorda, u tilning nafaqat jismoniy, balki kognitiv faoliyat ham ekanligini tasdiqlaydi. Psixolingvistika, til psixologiyasi va lingvistik psixologiyani ham o‘z ichiga oladi, ya’ni insonlarning tilni qanday anglash va uni qayta ishlashini o‘rganadi. Psixolingvistikaning asoslaridan biri esa nutqning biologik va psixologik faoliyat sifatida ishlov berishidir. U shuningdek, tilni qayta ishlash mexanizmlari, o'qish va yozish, gapirish va eshitish, fikrlash tizimlari bilan ham bog‘liqdir.

TADQIQOT METODOLOGIYASI. Psixolingvistikaning psixologik va lingvistik asoslari dastlabki g‘oyalar Vilgelm fon Gumboldtning antinomiyasida va “yosh grammatikachilar” nazariyasida shakllangan. Nutqiy faoliyat va tilning jamiyat va uning individual munosabatlarini bog‘lash g‘oyasi Gumboldtga xosdir. V. fon Gumboldt nazarida, tillar xalqlar va o‘ziga xos shaxslar tomonidan yaratiladi, chunki til nutqiy jarayonlarda namoyon bo‘ladi. U, shuningdek, til va uning egasi bo‘lgan jamiyat o‘rtasidagi aloqani tushunishning muhimligini ta’kidlaydi. [9]

Psixolingvistika eng yangi fanlardan biri bo‘lib, uning nazariy asoslari XIX asr oxirida “Til psixologiyasi” sifatida shakllana boshlagan. Yakob Kantor 1936-yilda “psixolingvistika” atamasini o‘z asarida qo‘llagan.[3] Kantor psixolingvistikaning asoschisi sifatida tanilgan. Bundan tashqari, Edvard Tordnik va Frederik Bartlett tomonidan olib borilgan tadqiqotlar ham ushbu sohaning rivojiga katta hissa qo‘shgan. Ammo ko‘plab olimlarning fikriga qaraganda, “psixolingvistika” atamasi dastlab 1946-yilda Kantorning shogirdi, amerika psixologi N.Pronko tomonidan “Psixolingvistika: sharh” nomli maqolasi chop etilgandan so‘ng ushbu terminining

ommalashuviga olib keldi. U ichki nutqni tekshirish jarayoni, nutqni qabul etish, tilni egallash kabi masalalarni o‘rganadi.[5]

Psixolingvistikaning akademik fan sifatida paydo bo‘lishi 1951-yilda Kornell universitetida o‘tkazilgan seminarga bog‘liq. Charlz Osgud va Sebeok tomonidan 1954-yilda nashr etilgan “Psycholinguistics; a survey of theory and research problem” kitobi shunga misol bo‘ladi. Mazkur kitob ilova tarzda ikki jurnalga nashr qilingan bo‘lib, unga E.R.Dayboldning 1954-1964- yillarda psixolingvistik tadqiqotlari va D. Millerning “Psixolingvistika haqida” maqolasi qo‘shimcha qilingan. [4:307] Jahonda mashhur nutq psixologiyasi bo‘yicha yirik mutaxassislardan biri Djorj Millerning “Language and Communication” mashur kitobi and “Psycholinguistics” maqolasi psixolingvistika fanining rivojiga hissa qo‘shdi. Shuningdek, A.A.Robarkning “Destiny and motivation in language. Studies psycholinguistics and gloosynamecs” asari ham ushbu fanning alohida bo‘lib shakllanishiga zamin bo‘ldi.[6]

Shuni ta’kidlash joizki, psixolingvistikaning o‘rganilishida Levertning bir qator asarlari ham bu sohada muhim rol o‘ynaydi. U tomonidan tilshunoslik uchun berilgan ma’lumotlarda psixolingvistika to‘rtta asosiy emperik ildizga ega ekanligi ko‘rsatilgan. [2]

TAHLIL VA NATIJALAR. Psixolingvistika – til va inson psixikasi o‘zaro bog‘liqligini, tilni idrok qilish, tushunish va ishlab chiqarish jarayonlarini o‘rganadigan fan sohasi. U lingvistika (tilshunoslik) va psixologiya tutashuvidagi soha bo‘lib, insonning ruhiy va aqliy faoliyati bilan tilni qanday bog‘lashini tahlil qiladi.

Psixolingvistikaning asosiy yo‘nalishlari:

1. Tilni idrok qilish (persepsiya): Insonning eshitish va ko‘rish orqali tilni qanday tushunishi o‘rganiladi. Bu jarayonda tovushlarni ajratish, so‘zlarni tanish, gapni tushunish va ma’noni anglash kabi bosqichlar mavjud.

2. Tilni ishlab chiqarish (produksiya): Insonning fikrlarini so‘zlar va gaplar shaklida ifoda qilish jarayoni. Ushbu jarayonda nutq hosil qilish, so‘zlarni tanlash va grammatik tuzilmalarni yaratish tahlil qilinadi.

3. Tilni o‘rganish (ontogenez): Bola tilni qanday o‘rganishi va rivojlantirishi o‘rganiladi. Bu, ayniqsa, ona tilini o‘zlashtirish va chet tillarni o‘rganish jarayonlarini tushunishda muhim.

4. Ikki va ko‘p tillilik: Bir vaqtning o‘zida bir necha tilni biluvchi shaxslarning til idrok qilish va ishlatish qobiliyati o‘rganiladi.

5. Til va xotira: So‘zlar va gaplar xotirada qanday saqlanadi, qanday qayta tiklanadi, va til ma'lumotlari inson xotirasining qaysi turiga bog‘liqligi o‘rganiladi.

Psixolingvistikaning markazida tilning inson miyasi va ruhiy jarayonlar bilan qanday bog‘lanishi yotadi. Psixolingvistika va his-tuyg‘ular o'rtasidagi bog‘liqlik, tilning inson ongida qanday aks ettirilishi va shakllanishi haqida chuqurroq tushuncha beradi. His-tuyg‘ular til orqali nafaqat ifodalanadi, balki til ham odamlarning his-tuyg‘ularini shakllantirishda va boshqarishda muhim rol o‘ynaydi. Bu, tilshunoslik, psixologiya va neyrofanlar kabi turli sohalarning o‘zaro aloqasini o‘rganishga imkon yaratadi.

Insonlar o‘z his-tuyg‘ularini ifodalash uchun turli so‘zlar va iboralar ishlatadi. Masalan, baxtni ifodalash uchun “yaxshi”, “quvonchli”, “yengil” kabi so‘zlar ishlatiladi, xuddi shunday, qayg‘u yoki g‘azabni ifodalashda “achchiq”, “nafrat”, “xafa” kabi so'zlar ishlatiladi. His-tuyg‘ular nafaqat so‘zlar bilan, balki ularni joylashtirish va bir-biriga bog‘lash usullari bilan ham ifodalanadi. Misol uchun, “Men juda baxtliman” yoki “Men juda baxtli his qilaman” kabi ifodalarda sintaktik tuzilmalar orqali hislar ta‘siri ko‘rsatiladi. His-tuyg‘ularni ifodalashda faqat so‘zlar emas, balki ovoz balandligi, ritmi, tonalligi va so‘zlarni talaffuz qilish usuli ham muhim rol o‘ynaydi. Shuningdek, jismoniy holat (yuz ifodalari, qo‘l harakatlari) ham his-tuyg‘ularni ifodalashda ishlatiladi.

Psixolingvistika, his-tuyg‘ularni tushunishda faqat tilni emas, balki odamlarning kognitiv jarayonlarini (xotira, diqqat, o'rganish va qabul qilish) ham o‘rganadi. Masalan, baxtli odamlar odatda ijobiy tilni ishlatishadi va salbiy holatlarni kamroq tilga olishadi. Shunday qilib, til va his-tuyg‘ular o‘rtasida o‘zaro ta’sir mavjud.

Psixolingvistika, til va inson ruhiyati o‘rtasidagi neyrofiziologik asoslarni ham o‘rganadi. His-tuyg‘ular, asosan, miyaning limbin tizimi (emotsional markaz) tomonidan boshqariladi va bu tizim til markazlari bilan o‘zaro aloqada bo‘ladi. Shuning uchun, his-tuyg‘ularni til orqali ifodalash, miyadagi emotsional va kognitiv jarayonlar o‘rtasidagi kompleks o‘zaro ta‘sirning natijasidir.

Psixolingvistika inson ruhiyatini yanada chuqur tushunish va tilning shaxs rivoji, o‘zaro muloqot va madaniy o‘zlashtirishdagi rolini aniqlash uchun keng imkoniyatlar beradi. Til insonning fikrlarini tuzilmaga solish va boshqalar bilan bo‘lishishda asosiy vositadir. Til fikrlash jarayonlarini aniqlash va izohlash imkonini beradi. Til orqali inson o‘z hissiyotlarini, kayfiyatini va ruhiy holatini boshqalar bilan bo‘lishadi. Masalan, ifodaviy so‘zlar va intonatsiya hissiyotlarni etkazishda muhim o‘rin tutadi. Til insonning kimligi, millati va madaniyati bilan chambarchas bog‘liq. Til orqali inson o‘ziga xosligini anglaydi va boshqalar bilan aloqa qiladi. Til ijtimoiy muloqotning markazida turadi. U orqali odamlar bir-birini tushunadi, hamkorlik qiladi va jamoalarda ishlaydi. Til insonning ichki dunyosini tashkil etishda ham muhim. Masalan, o‘z his-tuyg‘ularini so‘zlab bera olish stressni kamaytiradi va ruhiy sog‘liqni yaxshilaydi.

XULOSA

Psixolingvistikaning vujudga kelishi, lingvistika va psixologiyaning o‘zaro aloqasi, shuningdek, kognitiv psixologiyaning rivojlanishi natijasida yuzaga keldi. Bu ilmiy yo‘nalish tilning psixologik va neyrofiziologik asoslarini o‘rganish bilan shug‘ullanadi va tilni o‘rganish hamda ishlatish jarayonlarini insonning aqliy va psixologik jarayonlari bilan bog‘laydi. Psixolingvistika sohasining rivojlanishi, kognitiv psixologiya va neyrolingvistikaning o‘sishi bilan bog‘liq bo‘lib, hozirgi kunda bu soha juda keng va qiziqarli tadqiqot maydoniga aylangan. Bundan tashqari, so‘nggi yillar davomida bir qator muammoli psixolingvistik nazariyalar insoniyat tilni qanday o‘zlashtirishini tushuntirishga harakat qiladilar. Psixolingvistik biheviorizm va kognitiv nazariyalar dunyoga tanilgan psixolingvistik olimlar B.F.Skinner,

Noam Xomskiy, Jon Piagetlar tomonidan ham ko‘rib chiqilgan bo‘lib, lekin hali hanuz olimlarning fikrini o‘ziga jalb etib kelmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Garnham A, Garrod S and Sanord A: “Observation on the past and future of Psycholinguistics”; Handbook of Psycholinguistics. ELSEVIER 2006. P: 5-13

2. Levert, W. J. M., “Psixolingvistika tarixi: Xomskiygacha bo‘lgan davr” 1938-(2013) Oxford universiteti matbuoti. ISBN 9780191627200. OCLC 824525524

3. Kantor J. R., “Psychological Linguistics” Principia Press, 1977. P: 156

4. Osgood Ch.E. “Psycholinguistics; a survey of theory and research problems”, Bloomington, Indiana University Press, 1965, P-307 urn: oclc:record1151076890

5. Pronko N. H., “Language and psycholinguistics; a review”; Psychological Bulletin, 1946 May 1

6. Robark A.A. “Destiny and motivation in language. Studies psycholinguistics and gloosynamecs” Sci-art publishers Cambridge press,1954. P: 31,117-135

7. Chomskiy N.A., “A Review of B.Skinner’s Verbal Behavior”, 1959. P: 49-62 \\Google Scholar\\

8. Белянин В.П. Основы психолингвистической диагностики (модели мира в литературе). – М: Тривола, 2000.

9. Фон Гумбольдт В. Избранные труды по языкознанию. -М., 1984. -С. 8

10. Леонтьев А.А. Психолингвистические единицы и порождение речевого высказывания. - М.: Наука,1969.

11. Пешкова Н.П. Психолингвистические аспекты типологии научного текста: Автореф. дис. д-ра филол. наук. – Уфа: БашГУ, 2002.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 1-son)

FILOLOGIYA

PHILOLOGY

UDK: 821.519.133

“SARATON” QISSASIDA ADABIY QAHRAMONLAR XARAKTERI EVOLYUTSIYASI

Musayeva Shaxlo Kudratovna
Renessans ta’lim universiteti Filologiya kafedrasi v.b.,dotsenti
E-mail: musayevasahlo81@gmail.com
ORCID ID: https://orcid.org:0009-0008-1160-5634

Annotatsiya: N.Fozilovning “Saraton” qissasida ham asosan Ikkinchi jahon urushining front orti voqealari yoritilgan, urush davri o‘spirinlari hayotidagi o‘zgarishlar, o‘smir yoshidagi yigit-qizlarning nozik his-tuyg‘ulari, balog‘atga yetayotgan yoshlarning boshidan kechirgan holatlari tasvirlari alohida o‘rin tutadi. Ustozlari va safdoshlari an’analaridan ta’sirlangan N.Folzilov ham bu mavzuni o‘ziga xos usulda nasrda davom ettirdi, bu yosh go‘zalliklarini betakror tarannum eta oldi.

Kalit so‘zlar: “Saraton” qissasi, qahramon, his-tuyg‘ulari, xarakter, urf-odat, insoniylik.

THE EVOLUTION OF THE CHARACTERS OF THE LITERARY HEROES IN THE STORY "SARATON"

Annotation: N. Fozilov's novella "Saraton" primarily depicts events behind the front lines during World War II, focusing on the changes in the lives of adolescents during wartime, the delicate emotions of teenage boys and girls, and the experiences of young people coming of age. Influenced by the traditions of his mentors and peers, N. Fozilov continued this theme in prose in his unique style, masterfully portraying the beauty of youth.

Keywords: "Saraton" novella, protagonist, emotions, character, customs, humanity.

ЭВОЛЮЦИЯ ХАРАКТЕРА ЛИТЕРАТУРНЫХ ГЕРОЕВ В ПОВЕСТВЕ "САРАТОН"

Аннотация: В повести Н. Фозилова "Саратон" в основном освещаются события Второй мировой войны в тылу, особое место занимают изменения в жизни подростков военного времени, тонкие чувства юношей и девушек подросткового возраста, описания ситуаций, пережитых молодыми людьми в период взросления. Вдохновленный традициями своих наставников и соратников, Н. Фозилов продолжил эту тему в прозе своеобразным способом, сумев неповторимо воспеть юношескую красоту.

Ключевые слова: повесть "Саратон," герой, чувства, характер, обычаи, человечность.

Kirish.

O‘z hikoyalari bilan o‘zbek bolalar adabiyotida o‘ziga xos o‘ringa ega, keyingi yarim asrlik o‘zbek bolalar nasrining eng ko‘zga ko‘ringan namoyandalaridan biri N.Fozilov hikoyalarining qahramonlari o‘z davrining farzandi. Shuningdek, yozuvchi o‘zining ko‘rgan-kechirganlarini, yashagan davri voqeligini, odamlar qiyofasini bola nigohi bilan tasvirlaydi. Ushbu jihatni yozuvchining ko‘plab hikoyalarida ko‘rish mumkin. Uning urush va urushdan keyingi yillar turkistonlik o‘zbek va qozoq xalqi hayoti, u yerda yashovchi bolalar ichki dunyosini aks ettiruvchi hikoyalarida asosan yozuvchining ko‘rgan-kechirganlari asos qilib olingan. Bu esa uning asarlaridagi realistik tasvir uslubini kuchaytirishga xizmat qilgan.

N.Fozilov I.Olloberganov bilan suhbatida “Saraton” qissasining yozilish tarixi haqida to‘xtalar ekan, muxbirning “L.N. Tolstoy: “Anna Karenina – mening o‘zim” degan ekan. “Saraton”dagi voqealar sizning hayotingizga nechog‘lik yaqin?” degan savoliga javoban: “Saraton”dagi bola o‘zimman... Men urush farzandiman, ayni Vatan urushi boshlanganda 12 yoshda edim. O‘sha urush yillaridagi ko‘rgan-kechirganlarim xarakterimga obdon singib ketgan. Shu yoshda g‘o‘za oralab, suv sug‘organman, kultivatsiya qilganman, xirmon sovurganman. Shuning uchun tengqurlarimdan uch yil keyin dorilfununga o‘qishga kirganman. Yozuvchilik faoliyatim boshlanganda, nimani yozish kerak, nimadan boshlash kerak, degan savol tug‘ildi. Shunda boshimdan o‘tgan voqealarni asarlarimga singdirib yozdim. Deyarli barcha qissalarimda urush davridagi front orti voqealari aks etgan” deya e’tirof etadi”. (“ Noshir va Nosir so‘zi”. — B.18.*)*

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review). Uning ko‘plab asarlarida urush vaqti mashaqqatlari boshqa xalqlar singari o‘zbek va qozoq xalqlarini ham chetlab o‘tmagani, front ortida o‘zbek va qozoqlar yonma-yon turib fidokorona mehnat qilganlari tasvirlangan. N.Fozilovning “Saraton” qissasida ham asosan Ikkinchi jahon urushining front orti voqealari yoritilgan bo‘lsa-da, ammo asarda urush davri o‘spirinlari hayotidagi o‘zgarishlar, o‘smir yoshidagi yigit-qizlarning nozik his-tuyg‘ulari, balog‘atga yetayotgan yoshlarning boshidan kechirgan holatlari tasvirlari alohida o‘rin tutadi. Ustozlari va safdoshlari an’analaridan ta’sirlangan N.Folzilov ham bu mavzuni o‘ziga xos usulda nasrda davom ettirdi, bu yosh go‘zalliklarini betakror tarannum eta oldi.

N.Fozilov ijodi adib tiriklik vaqtidayoq adabiyotshunos olimlarimiz tomonidan o‘rganila boshlagan edi. Filologiya fanlari doktori, professor Pirmat Shermuhamedovning adib ijodi va shaxsiyati haqidagi ko‘plab fikrlari, “Istiqbolni o‘ylab”[167] va “Davr qahramon taqdirida”[168] kitoblarida N.Fozilov asarlari xususidagi mulohazalari hamda “Diydor” to‘plamida so‘zboshi sifatida berilgan “Kitob – tiriklik suvi” maqolasi, bolalar adabiyotining yetakchi

[167] Шермуҳамедов П. Истиқболни ўйлаб. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1987. – 170 б.
[168] Шермуҳамедов П. Давр қаҳрамон тақдирида. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1976. – 249 б.

tadqiqotchilaridan biri, adabiyotshunos olim, professor Safo Matjonning “Tiriklik suvi”[169], Safo Matjon va Umida Shermatovalarning adib hayoti va asarlariga bag‘ishlangan “Bolaligini poshsholikka yo‘ygan adib”[170] risolasi, “Saraton” kitobida so‘ngso‘z sifatida keltirilgan “Ijodiy mahorat qirralari” tadqiqoti fikrimizga dalildir.

Bundan tashqari, pedagogika fanlari doktori, professor Qozoqboy Yo‘ldoshevning N.Fozilov esse va yodnomalari haqidagi “Yirik shaxsiyatlar haqida chin so‘z”[171] maqolasi, adabiyotshunos Jovli Xushboqning “Nosir Fozilov nasri”[172] maqolasi, filologiya fanlari doktori, professor Yo‘ldosh Solijonovning “Lirika latofati, nasrning nazokati”[173] kitobidagi adib ijod yo‘li haqida fikr va mulohazalarini keltirishimiz mumkin.

Qissa “Saraton” deb nomlangani bejiz emas, chunki asar voqealari ayni yoz pallasida, saraton vaqtida ro‘y beradi. Bundan tashqari, bosh qahramonlar o‘z tuyg‘ulariga asir bo‘lgan vaqtda ular yuraklarini yondirayotgan olov ham saratonning issig‘iga qiyoslangan.

Ma’lumki, muayyan asar haqida gap ketganda, birinchi navbatda uning qahramonlari ko‘z oldingizda gavdalanadi. Masalan “O‘tkan kunlar” deganda Kumush va Otabek, “Mehrobdan chayon” deganda Anvar va Ra’no, “Yulduzli tunlar” deganda Bobur ko‘z oldimizga kelishini adabiyotshunoslar ko‘p bora ta’kidlaydilar. “Saraton” qissasini o‘qiganingizda yoki qissa nomini tilga olganingizdayoq To‘ra va Kamola ko‘z oldingizga kelishi ham xuddi shunday.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Qissa markazida To‘ra va Kamola munosabati tursa-da, yozuvchi ular taqdirini urushning xalq boshiga solgan cheksiz kulfatlari va katta sinovlari bilan qo‘shib ko‘rsatadi. Poda boqib yurgan ikki o‘smir o‘zlari bilmagan holatda asarning yana bir alamzadaligini kimdan olishini bilmay yurgan qahramoni Zulayho xola (eridan qoraxat kelganligi bois shu holatda edi) noo‘rin, o‘ylamay aytgan fikri bilan qahramonlarimiz To‘ra va Kamolaning taqdiri o‘zgarib ketadi va ular allaqanday hislarni tuyishlariga turtki bo‘ladi. Yuzaga chiqishi qiyin bo‘lgan tuyg‘ularni ko‘rsatish uchun yozuvchi juda qulay va tabiiy, kitobxonni hech shubhaga uyg‘otmaydigan vositalar topadi:

“…. To‘raning orqasiga Zulayho xolaning tayog‘i shaq etib tegdi. Qayoqdan paydo bo‘lib qolganini kim bilsin Kamola ko‘ndalang turib qoldi.

- Kelinoyi!..- uning tovushi achchiq chiqdi.

- Qoch nari, yuzsiz!

- Kelinoyi!...

- Sen hali uni himoya qiladigan bo‘lib qoldingmi,a? Ha, yashshamagur, bitta bolaning onasi bo‘lay deb qolganingda… nimaga birga poda boqishib yuribdi, desam….

- Kelinoyi…- Kamola shunday dedi-yu ko‘zlariga yosh olgancha chopib ketdi.

Atrofdagilar bu gapni eshitib hayratdan qotib qolishdi”[174].

[169] Матжон С. Тириклик суви. – Тошкент: Ёш гвардия, 1986. – 170 б.
[170] Матжон Сафо, Шерматова У. Болалигини пошшоликка йўйган адиб. – Тошкент: Истиқлол, 2012. – 39 б.
[171] Носир Фозилов замондошлар хотирасида. – Тошкент: Машҳур-пресс, 2019. – Б.329 .
[172] Ўша китоб. –Б.337.
[173] Солижонов Й. Лирика латофати, насрнинг назокати. –Тошкент: Адабиёт учқунлари, 2018. – 76 б.
[174] Фозилов Н. Саратон. – Тошкент, 2018. –Б.31-32 (ушбу манбадан олинган кейинги мисоллар саҳифаси қавсда кўрсатилади).

Yozuvchi Zulayho xola obrazidan personajlardagi ruhiy kolliziyani yuzaga chiqaruvchi vosita sifatida foydalanadi. Shu qisqa vaqtda insoniylik tuyg‘ulari qalblarini qamrab olgan qahramonlar bolalikni ortda qoldirib, balog‘atga yetganliklarini o‘ylab qoladilar. Chunki shu vaqtgacha To‘raqul Kamolani “Kamol” deb atar, hattoki uning qiz bola ekanligini ham his qilmagan edi.

Rais kelib bosh cho‘pon G‘iyos akani qishloqqa aytib ketgan vaqtda To‘ra birinchi bor Kamolani suvdan chiqayotganda ko‘rib, o‘zining muzlagan holati davomini Zulayho xola so‘zlari bilan poyoniga yetkazadi. Shu kundan boshlab Kamola poda boqishga chiqmaydi va qiz bolalarga xos kiyinib, o‘zini boshqacha his qila boshlaydi. Xullas, qahramonlarning odatdagi hayot tarzi o‘zgaradi, ular xarakterida sezilarli o‘zgarish (evolyutsiya) boshlanadi. Bu o‘zgarish faqat tashqi tomondan namoyon bo‘lmay, ayni paytda, ular ma’naviy olamida ham sodir bo‘ladi. Shu tariqa qissa o‘spirinlarni yoqimli hislar sari ham yetaklashi bilan o‘quvchini o‘z olamiga olib kiradi. Adib mahorati esa kitobxonni qahramonlarning gap-so‘zlari, xatti-harakatlariga to‘la ishontirishda ko‘zga tashlanadi:

“….Kimlardan xat kelibdi? - so‘radi rais,

O‘rmondan, keyin… - Boyg‘ozi xatlarni qo‘liga olib ko‘ra boshladi. - Salimjondan… Hoy To‘ra to‘xta, Kamolning otasidan xat bor, olib shig‘ib ber…

To‘raning qayeridir jiz etib, orqasiga qayrildi…..

...Idoraning chirog‘i o‘chdi. Hamma uy-uyiga tarqaldi. To‘ra qo‘lidagi xatni avaylab ushlab kelardi: “Hozir o‘zim olib kirib bersammikan yo oyimdan berib chiqarsammikan? Bemahalda kirganim qandoq bo‘larkan? Oyimdan berib chiqarganim ma’qul”.

...Kamola Rahbar opaning uyidan ancha yengil tortib chiqdi. Hali bolalar chiqib o‘ynaydigan mahal bo‘lmaganidan ko‘cha bo‘m-bo‘sh, qorong‘i edi. Yolg‘iz o‘zi ko‘cha o‘rtasida xayol bilan kelar ekan, kimdir birov orqasidan moy tuproqni pop-pop bosib kelayotganini eshitdi. Kim ekan u?

- Kamol?!

Bu tanish ovozni eshitib Kamolaning a’zoyi badaniga titroq kirdi…

Kamol?! - dedi u hayron bo‘lib.

Haligi odam indamadi-yu, lekin qadamini sekinlatdi. To‘ra unga baravarlashdi: “Bu mahalda nima qilib yuribdi”.

Qizig‘i, yaqindagina birga mol boqishib, kechqurunlari birga o‘ynab yuradigan bu ikki samimiy do‘stning oralari bunchalik uzoqlashib ketdi? Nega bir-biri bilan gaplashishga yuraklari dov bermaydi? Nega?

Buni o‘zlari ham tuzukroq tushunmas, bu tuyg‘udan ularning o‘zlari ham xijolatda, shu choqda shu tuyg‘udan ularning o‘zlari ham minnatdor, shunisi ma’quldek edi….” (“Saraton”, 89-90; 99-100)

Asarga tanlangan epigrafning o‘ziyoq o‘quvchiga yoqimli his bag‘ishlaydi. Qissaga qozoq adabiyotining buyuk vakili Abay ijodidan quyidagi epigraf keltirilgan:

“Sevgi tili So‘zsiz til

Ko‘z bilan ko‘r, dildan bil.
Bir qarash yo bir imo
Bilan bog‘lanar ko‘ngil”. (“Saraton”, 3)

Epigraf asarning butun mazmun-mohiyatini ochib berishi kerakligi zarur. “Saraton” asariga tanlangan epigraf asarning butun mazmun-mohiyatini ochib bermoqda. Bu o‘rinda adibning buyuk so‘z ustasi Abdulla Qahhor ta’limidan olgan saboqlari bilinib turibdi. Abdulla Qahhorning har bir hikoyasiga keltirilgan epigraf butun bir hikoyani jamlay olishi bilan ajralib tursa, N. Fozilovning “Saraton” qissasi uchun tanlangan epigraf ham xuddi shu vazifani bajarmoqda. Adibning aynan Abay ijodidan epigraf keltirishining sabablari ham bor. Olima B.Rajabova “Avlodimga so‘z qolsin” maqolasida keltirib o‘tganidek, Abay ijodini o‘zbek tiliga tarjima qilish borasida N.Fozilovning xizmatlari beqiyos, shu sababli eng sara namunalaridan asarlarida foydalanganligi ayon bo‘ladi.

“O‘smirlar va umuman yoshlar hayotini kattalar taqdiri bilan birga, katta hayot oqimi bilan uzviy qo‘shib tasvirlash Nosir Fozilov ijodining xarakterli belgilaridandir”. (“Bolaligini poshsholikka yo‘ygan adib”. - B. 12.)

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Qissada faqatgina bosh qahramonlar hayotida emas, balki epizodik obrazlarning ham xarakteri va ma’naviy olamida ham o‘zgarishlar bo‘ladi. Rais, Buyg‘ozi va To‘ra borib Ukrainadan ko‘chirib kelingan polyaklardan bo‘lmish Dvorjek choldan xabar olganda, rais ishga taklif qiladi, ammo chol ularning tilini tushunmaydi yoki ishonmaydi va javob qaytarmaydi. Buyg‘ozi va To‘ra yig‘ilgan “Oshi halol”dan ularga eltib bergach, chol bolalarini kolxoz ishiga yordamlashishga olib chiqib, yerlik xalqning iltifoti va g‘amxo‘rligidan minnatdorligini bildiradi va shu kundan boshlab qozoq, o‘zbek, rus, ukrain, polyak kabi millatlar bir tan-u bir jon bo‘lib ishlay boshlaydilar.

Yozuvchi asarda faqat muhabbatga to‘xtalmaydi, xalqning urf-odati, odamiyligi, mehribonligini ham to‘liq yoritadi, Vatanni dushmandan ozod qilishda yosh va qari insonlar birdek jonbozlik qilganini aniq lavhalarda tasvirlaydi. Asarda frontga ketayotganlar, yaqin kishilaridan judo bo‘lganlar, front uchun nozu-ne’matlar yetkazishda jonbozlik ko‘rsatayotganlarning yorqin obrazlari yaratilgan. Urush ortida mehnat qilayotgan xalqning munosabati, jamiyatda hukm surayotgan birdamlik g‘oyalarining yoshlar ongiga ta’siri, barvaqt ulg‘ayishga majbur bo‘layotgan o‘smirlarning hayoti asarda ta’sirli yoritilgan.

Yozuvchi asarida har bir detalga alohida e’tibor bergani sababli kitobxon ham beixtiyor shu manzaraga tushib qoladi. Masalan, “Oshi halol” – podachilar tomonidan mol qo‘shgan xonadonlardan yig‘iladigan ovqat bo‘lib, bunda qishloq ahlining barchasi uyda qozonida nima pishgan bo‘lsa “Oshi halol” aytib kelganlarning idishiga solib beradi. Bu holat muayyan ma’noda ramazon oyida aytiladigan “Yo ramazon”ga ham o‘xshab ketadi va bu marosimlar orqali yozuvchi kitobxonga xalqlarning urf-odatlarida namoyon bo‘ladigan ezgulik va yaxshiliklar haqida ma’lumot beradi.

Qissa o‘smir yoshidagi har bir yigit-qizni sinovdan o‘tkazadigan go‘zal tuyg‘ularning yorqin ifodasi ila nihoyasiga yetadi. Bu holatni tasvirlash orqali yozuvchi ezgulik albatta g‘alaba

qozonishini uqtiradi va urush tugayotganligi, yorug‘ kunlar yaqinligini kitobxonga his qildirishga harakat qiladi. Asar qahramonlari – To‘ra bilan Kamola shu asnoda o‘smirlikning sehrli sarhadidan balog‘at ostonasiga qadam qo‘yganlarini, anchadan beri o‘zlarini tahlikaga solib yurgan mujmal tuyg‘ulari oydinlashib, totli hisga, shirin orzuga aylanganini sezmay qolishgan edi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). “Saraton” qissasining yana bir o‘ziga xos uslubi shundaki, ushbu asarida yozuvchi umuman salbiy obrazdan foydalanmaydi, balki har bir qahramon o‘z xarakteri va ishi bilan kitobxonga o‘rnak bo‘ladigan holatlarni yuzaga chiqaradi. Qissadagi bu holat xarakterlar va muhit, sharoit o‘rtasidagi kolliziya yuzaga kelganda qahramonlarni salbiy hamda ijobiy tarzda tasvirlab qissani boyitishdan ko‘ra ijobiy obrazlar vositasida sharoitga, urushga qarshi kurashishni yuzaga olib chiqadi. Bu bilan adib urush davrida hamma bir yoqadan bosh chiqarib ishlaganini mahorat bilan ifodalaydi.

Yozuvchining tasvir uslubi, leksik qatlami bolalar uchun, o‘zbek tilining lug‘ati uchun katta xazina. 2020 yil nashrdan chiqqan besh jildlik O‘zbek tilining izohli lug‘atida jam bo‘ldi N.Fozilov ijodidan (hikoya va qissalari) 120 taga yaqin so‘zga nisbatan izoh sifatida ishlatilgani fikrimizning dalilidir. Izohli lug‘atni ko‘zdan kechirar ekansiz, yana bir adib ijodi qanchalik keng va har bir so‘z o‘rni bilan ishlatilganligiga guvoh bo‘lasiz. Bu yerda eskirgan so‘zlar, shevaga oid so‘zlar, xalqaro terminlar va yangi paydo bo‘lgan so‘zlargacha uchratish mumkin. Bu o‘rinda adib nafaqat o‘zbek tili, balki qazoq tili uchun ham ko‘plab leksik qatlamini so‘zlar bilan boyitgan.

“Saraton” qissasi XX asr so‘ngidagi o‘zbek bolalar nasrining go‘zal namunalaridan biridir. Bu asar o‘z vaqtida nashr etilib, juda tez tarqalib, kitobxonlar e’tiboriga tushgan. Qissani o‘qir ekansiz, ortiqcha izoh, pand-nasihatni kuzatmaysiz. Umuman, qissa mahorat bilan yozilgan, xususan, yozuvchi asar voqealarini tartiblashtirish, ularning bosh g‘oyani ochishdagi o‘rnini belgilash, uyushtirishda ayricha mahorat ko‘rsata olgan. Qissa yaxlit holatda kitobxon diqqatini tortadigan voqealarni o‘zida jamlagan. To‘g‘ri, ba’zida badiiy tasvir, obrazli topilmalardan ko‘ra voqealar sharhi ustunlik qiladigan o‘rinlar ham uchraydi. Shunga qaramay, yozuvchi qissadagi dolzarb g‘oya, o‘rinli xulosalar orqali yosh avlodga saboqqa aylanajak niyatni yorqin ifodalagan. Bu, o‘z navbatida, muallifning o‘z asari tuzilishi va voqealar rivojiga alohida e’tibor berganligidan dalolat beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Адабиёт назарияси. II жилдлик. I, II жилд. – Тошкент: Фан, 1978. – 320 б.
2. Баракаев Р. Истиқлол даври болалар адабиёти: анъана, ворисийлик ва изланиш // Ўзбек тили ва адабиёти, 2003. № 3. – Б. 3-14.
3. Болалар адабиёти ва замонавийлик. – Тошкент: Фан, 1991. - 212 б.
4. Каримов Н. XX аср адабиёти манзаралари. –Тошкент: O‘zbekiston, 2008. - 582 б.
5. Матжон С. Ижодий маҳорат қирралари / Фозилов Н. Саратон. – Тошкент: “Шарқ” НМАК, 2006. - 380 б.

6. Матжон Сафо, Шерматова У. Болалигини пошшоликка йўйган адиб. – Тошкент: Истиқлол, 2012. – 40 б.

7. Матжон С. Тириклик суви. – Тошкент: Ёш гвардия, 1986. – 170 б.

8. Мамажонов С. Услуб жилолари. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1992.-219 б.

9. Мирвалиев С. Наср, давр, қаҳрамон. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1983.-240 б.

10. Musayeva Sh. O‘zbek bolalar nasri taraqqiyotida Nosir Fozilov ijodi. Filol.fan.b.fals.dok. …diss. – Toshkent, 2023. – 130 b.

11. Сафаров О., Жамилова Б. Болалар адабиёти ва фольклор. – Тошкент: Турон замин зиё, 2015. - 330 б.

12. Safarov O., Barakayev R., Jamilova B. Bolalar adabiyoti. Oliy o‘quv yurtlari uchun darslik. - Toshkent: Shafoat Nur Fayz, 2022. - 320 b.

13. Шермуҳамедов П. Давр қаҳрамон тақдирида. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1976. – 249 б.

14. Шермуҳамедов П. Истиқболни ўйлаб. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1987. – 170 б.

15. Қўчқарова М. Бадиий сўз ва руҳият манзаралари (Эссе, қисса, ҳикоя: тадқиқ ва талқин). – Тошкент: Муҳаррир, 2011. - 232 б.

16. Фозилов Н. Саратон. – Тошкент: Ёш гвардия, 1975. - 384 б.

17. Носир Фозилов замондошлар хотирасида. – Тошкент: Машҳур-пресс, 2019. – Б.329 .

18. Солижонов Й. Лирика латофати, насрнинг назокати. –Тошкент: Адабиёт учқунлари, 2018. – 76 б.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 1-son)

FILOLOGIYA

PHILOLOGY

FE’L MAVZUSINING TURK VA O‘ZBEK TILI DARSLIKLARIDA YORITILISHI: TA’LIM SAMARADORLIGI TAHLILI HAMDA METODIK TAVSIYALAR

M. A. Rahimqulova –
BuxDPI magistranti
Ilmiy rahbar: ***D.B.Axmedova*** –
f.f.f.d. (PhD), dotsent
rahimqulovamohigul1994@gmail.com,
+998912414340

Annotatsiya. Mazkur maqolada 9-sinf uchun mo‘ljallangan ikki xil darslik – *“Türk Dili ve Edebiyatı 9"* hamda *"Ona tili (9-sinf)"* darsliklarining fe’l mavzusiga oid o‘quv topshiriqlari qiyosiy tahlil qilingan. Fe’l so‘z turkumi mazmunini chuqur o‘rganishning tilshunoslikda tutgan o‘rni, metodik ahamiyati hamda mazkur mavzuning o‘quvchilarning ijodiy va tahliliy ko‘nikmalarini rivojlantirishdagi roli aniq misollar asosida yoritib berilgan. Darsliklar tahlili davomida nazariy ma’lumotlar va amaliy mashqlar muvozanati, ijodkorlikni rag‘batlantirish, zamonaviy mavzularni qamrab olish zaruriyati, interaktiv usullarni tatbiq etish kabi masalalarga alohida e’tibor qaratilgan. Shuningdek, maqolada darsliklarning yutuqlari va kamchiliklari atroflicha tahlil etilib, kelgusida ta’lim sifatini yanada oshirish uchun zarur bo‘lgan tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: fe’l, ona tili ta’limi, turk tili va adabiyoti, darslik tahlili, ijodiy topshiriqlar, grammatik nazariya, qo‘shma gap, sodda gap, zamon shakllari.

Abstract: This article provides a comparative analysis of verb-related educational assignments in two textbooks intended for 9th-grade students: “Türk Dili ve Edebiyatı 9” and “Ona tili (9-sinf)”. It highlights the linguistic significance and methodological value of thoroughly studying the verb as a part of speech, as well as its role in developing students' creative and analytical skills, supported by concrete examples. The analysis emphasizes the balance between theoretical content and practical exercises, the promotion of creativity, the inclusion of contemporary topics, and the implementation of interactive methods. Moreover, the article examines the strengths and shortcomings of the textbooks and proposes recommendations for enhancing the quality of education in the future.

Keywords: verb, native language education, Turkish language and literature, textbook analysis, creative tasks, grammatical theory, complex sentences, simple sentences, tense forms.

KIRISH

Zamonaviy tilshunoslikda fe’l so‘z turkumi alohida o‘rin tutadi, chunki gapning asosiy mazmuni asosan fe’l orqali shakllanadi, fikr ifodasi va jarayon tasviri fe’l yordami bilan aniq ifodalab beriladi. Aynan shu sababli, dunyoning ko‘plab ta’lim tizimlarida, xususan, O‘zbekiston maktab o‘quv dasturlarida ham fe’l mavzusiga keng o‘rin ajratiladi. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi tomonidan tasdiqlangan 9-sinf darsliklarida (ona tili bo‘yicha) nazariy jihatlarining qariyb 20–25 foizi fe’l mavzusini o‘rganishga ajratilganligi kuzatiladi. Bu esa fe’l mavzusining ona tili ta’limida naqadar muhim ekanligidan dalolat beradi.

Jahon miqyosida olib borilgan tadqiqotlarda ham o‘quvchilar fe’l strukturasini o‘zlashtirish jarayonida tilning boshqa unsurlariga nisbatan samarali ko‘nikma hosil qilishlarini ta’kidlaydi. Misol uchun, Yaponiyada o‘tkazilgan bir izlanishda fe’l so‘z turkumiga oid interaktiv mashqlardan foydalangan o‘quvchilar bir necha haftadan so‘ng rasmiy test sinovida 18 foiz yaxshiroq natija ko‘rsatgan. Bu kabi tadqiqotlar fe’l mavzusini puxta o‘rganishning nafaqat lingvistik, balki psixologik va pedagogik afzalliklarga ham ega ekanligini ko‘rsatadi.

O‘zbek tilshunosligi va uslubshunosligida fe’lning zamon shakllari, shaxs-son qo‘shimchalari, irodaviy-yordamchi shakllari, modal anglash usullari ustida qator ilmiy izlanishlar olib borilgan. Shu bilan birga, maktab darsliklarida ushbu ilmiy xulosalarning qanchalik aks etishi, o‘quvchiga qanday uslubda yetkazilishi va amaliy topshiriqlarda qay darajada qo‘llanishi ham dolzarb masalalardan biridir. Ayniqsa, ijodiy tafakkurni va grammatik nazariyani o‘zaro uyg‘unlashtirish zaruriyati doimiy e’tiborni talab qiladi.

Mazkur maqolada fe’l mavzusining aynan ikki darslik – *“Türk Dili ve Edebiyatı 9”* hamda *“Ona tili (9-sinf)”* darsliklaridagi yoritilish xususiyatlari, savol-topshiriqlar va nazariy ma’lumotlar tahlili keltiriladi. Maqsad – darsliklar o‘rtasidagi o‘xshashliklar va farqlarni aniqlash, yutuq va kamchiliklarini ko‘rsatish, tajribali o‘qituvchilar va darslik mualliflari uchun metodik tavsiyalar ishlab chiqishdir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Fe’l mavzusini o‘rganish bo‘yicha mahalliy va xorijiy adabiyotlar xilma-xil yondashuvlarni taklif qiladi. *“Hozirgi o‘zbek adabiy tili”* kitobida fe’l so‘z turkumi leksik-semantik, grammatik va sintaktik jihatlari chuqur tahlil qilingan bo‘lib, ushbu yondashuv maktab darsliklari uchun puxta ilmiy poydevor yaratgan. Kitobda fe’l shakllarining tuzilishi va funksional xususiyatlari har tomonlama yoritilgan. Shuningdek, Sh.Rahmatullayev o‘zining “O‘zbek tilida fe’l frazemalarning bog‘lanishi” asarida frazemalar orqali fe’lning qo‘shimcha ma’nolar hosil qilishi va ular yordamida gapning bog‘lanish qoidalari haqida fikr bildirgan. U frazemalar tuzilmasini tahlil qilib, ularning gapdagi aloqadorlikni mustahkamlashdagi ahamiyatini alohida ta’kidlagan.

Brown James maktab darsliklarida fe’l mavzusi bo‘yicha mashqlarni to‘rt toifaga ajratadi: nazariy ma’lumotni mustahkamlovchi masalalar, ijodiy topshiriqlar, interaktiv guruhiy ishlar va

baholashga yo‘naltirilgan testlar. Uning fikricha, har bir toifa o‘quvchilarning bilimlarni turli usullar orqali chuqur o‘zlashtirishiga yordam beradi.

Anderson Michael tadqiqotida esa fe’lning ijtimoiy-lingvistik kontekstdagi o‘rni va o‘quvchilarning muloqot kompetensiyasini rivojlantirishdagi ahamiyati e’tirof etiladi. U real hayotiy vaziyatlarni ifodalovchi fe’l shakllarini amaliy mashqlarda qo‘llash o‘quvchilarning til ko‘nikmalarini yaxshilashda muhim rol o‘ynashini ta’kidlaydi. Shu tarzda, Anderson o‘quv jarayonida faqat grammatik ma’lumotlarni emas, balki turli kommunikativ vaziyatlarni simulyatsiya qilishni ham taklif qiladi.

Mazkur ishda biz *“Türk Dili ve Edebiyatı 9”* va *“Ona tili (9-sinf)”* darsliklaridagi fe’l mavzusini o‘rganishga doir topshiriqlarni tahlil qilamiz. Ushbu darsliklar turk tili va o‘zbek tili bo‘yicha maktab amaliyotida keng tarqalgan bo‘lib, har birining o‘ziga xos afzalliklari va kamchiliklari mavjud. Ilmiy adabiyotlar sharhida qayd etib o‘tganimizdek, fe’l mavzusi faqat nazariy bilimni emas, balki ijodiy va amaliy ko‘nikmalarni ham shakllantirishi lozim. Shu bois darsliklarda fe’l mavzusining qay shaklda berilayotgani ayni paytda muhim metodik masala hisoblanadi.

Mazkur tadqiqotda **kontent-tahlil** metodidan foydalanildi. Bunda darsliklarda keltirilgan fe’l mavzusiga oid nazariy tushuntirishlar, amaliy mashqlar, ijodiy topshiriqlar, test savollari, matn ustida ishlash bo‘yicha yo‘riqnomalar darsliklardan tanlab olingan 50 dan ortiq mashqlar, 20 dan ziyod matn ustida ishlash bo‘yicha ko‘rsatmalar va nazariy bloklar bo‘yicha ma’lumotlar quyidagi toifalarga ajratildi:

– **Nazariy ma’lumotlar hajmi va sifati,** ya’ni fe’lning asosiy belgilari, turlari, zamon shakllari, uslubiy xususiyatlari;

– **Amaliy mashqlar,** ya’ni fe’lni to‘g‘ri qo‘llash, jumla tuzish, gap turlari (sodda va qo‘shma) bilan bog‘liq topshiriqlar;

– **Ijodiy topshiriqlar** - hikoya yoki esse yozish, badiiy matnlarni tahrir qilish, mustaqil matn yaratish;

– **Interaktiv yondashuv,** ya’ni savol-javob, jamoaviy loyihalar, rol o‘ynash (role-play) usullarining mavjudligi.

Tahlil jarayonida har bir toifa bo‘yicha darsliklarning afzalliklari va kamchiliklari aniqlandi, ularning o‘xshash va farqli jihatlari umumlashtirildi. So‘rovnomadan olingan ma’lumotlar esa mualliflarning yondashuvi bilan o‘qituvchilar va o‘quvchilarning talablari o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni ko‘rsatdi.

NATIJALAR

Quyidagi 1-jadvalda *"Türk Dili ve Edebiyatı 9"* va *"Ona tili (9-sinf)"* darsliklarining fe’l mavzusiga oid asosiy ko‘rsatkichlari qiyosiy tahlil asosida taqdim etilgan. Fe’l mavzusi har ikkala darslikda ham o‘quvchilarning grammatik bilimlarini kengaytirish va amaliy qo‘llash ko‘nikmalarini shakllantirish uchun muhim o‘rin tutadi. Turk tili va adabiyoti darsligida fe’l zamon shakllari adabiy matnlar, she’r va hikoyalar asosida ko‘rib chiqilgan bo‘lsa, o‘zbek tili

darsligida ushbu tushunchalar aniq va batafsil grammatik topshiriqlar bilan boyitilgan. Ijodiy matn yozish topshiriqlari turk tili darsligida keng yoritilgan bo‘lsa-da, grammatik izchil mashqlar yetarli emas. O‘zbek tili darsligida esa grammatik mashqlar ko‘p bo‘lsa-da, ijodiy tafakkurni rivojlantirishga doir topshiriqlar nisbatan kamroq. Har ikkala darslikda matn ustida ishlash topshiriqlari mavjud bo‘lib, o‘zbek tili darsligiga badiiy va ilmiy matnlar ko‘proq kiritilgan. Ushbu taqqoslash tahlili darsliklar mazmunidagi kuchli va zaif jihatlarni ko‘rsatishga xizmat qiladi hamda o‘quv jarayonini boyitish bo‘yicha tavsiyalar uchun asos yaratadi.

1-jadval.

Fe’l mavzusiga oid o‘quv topshiriqlari bo‘yicha 9-sinf darsliklarining qiyosiy tahlili

Ko‘rsatkichlar	**Türk Dili ve Edebiyatı 9**	**Ona tili (9-sinf)**
Topshiriqlar turi	Nazariy va amaliy mashqlar, adabiy tahlillar	Nazariy ma’lumot va amaliy topshiriqlar
Fe’l turkumi bilan ishlash	Fe’l turlari keng qamrab olingan.	Fe’l turlari batafsil tushuntirilgan.
Zamon shakllarini o‘rganish	Zamon shakllarini she’r va hikoyalar asosida o‘rganish.	Zamon shakllarini mustahkamlovchi amaliy mashqlar orqali o‘zlashtirish.
Ijodiy topshiriqlar	Ijodiy matn yozish topshiriqlari mavjud.	Ijodiy matnlar yaratish topshiriqlari keng qamrovli.
Matn ustida tahlil	She’riy va prozaik matnlar ustida ish	Badiiy va ilmiy matnlar ustida ishlash
Qo‘shma va sodda gaplar bilan ishlash	Qo‘shma gap turlari ustida mashqlar kamroq.	Qo‘shma va ergashgan gaplar ko‘p o‘rganiladi.
Yutuqlar	Ijodkorlikni rivojlantirishga urg‘u berilgan.	Grammatik tushunchalarni chuqur o‘zlashtirishga imkoniyat yaratadi.
Kamchiliklar	Qisqa topshiriqlar cheklangan ijodkorlikni keltirib chiqarishi mumkin.	Ba’zida haddan tashqari grammatik urg‘u ijodkorlikni cheklashi mumkin.

Yuqoridagi 1-jadval ma’lumotlaridan ko‘rish mumkinki, *"Türk Dili ve Edebiyatı 9"* darsligi adabiy tahlil va ijodiy yondashuvga e’tibor qaratadi. Fe’lning zamon shakllarini adabiy matnlar, ayniqsa, she’rlar asosida o‘rganish bolalarda badiiy nutq rivojlanishiga hissa qo‘shadi. Biroq amaliy, nazariy jihatlari mustahkamlash uchun beriladigan topshiriqlarning qisqaroqligi ayrim hollarda o‘quvchilarda grammatik yondashuvni chuqur shakllantirishga xalaqit berishi mumkin.

MUHOKAMA

“Ona tili (9-sinf)” darsligi esa grammatik nazariyani chuqur o‘rgatishga asoslangan. Fe’l turlari, zamon shakllari, qo‘shma va ergashgan gaplarni qo‘llash bo‘yicha ko‘plab topshiriqlar mavjud. Ammo kitobda ayrim bo‘limlar haddan tashqari grammatik urg‘u bilan to‘ldirilgani sababli ijodkorlik, ijodiy fikrlash va erkin ifodalash imkoniyati nisbatan cheklanishi mumkin. Badiiy va ilmiy matnlar ustida ishlash ta’minlansa-da, ushbu jarayon ba’zan haddan tashqari uzoq nazariy tushunchalar bilan boyitilgani sababli o‘quvchilarning qiziqishi susayishi ehtimoldan xoli emas.

Har ikkala darslikda ham nazariy bilimlar bilan birga amaliy topshiriqlar berilgan bo‘lib, ular o‘quvchilarning grammatik bilimlarini mustahkamlashga xizmat qiladi. Darsliklarda ijodiy fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan yozma ishlar, matn tahlillari mavjud bo‘lib, bu o‘quvchilarning badiiy didini va fikrlash doirasini kengaytirishga yordam beradi. Fe’l mavzusida zamon shakllari va gap turlari (sodda va qo‘shma gap) bo‘yicha mashqlar kiritilgan bo‘lib, bu orqali o‘quvchilar nazariy bilimlarini amaliyotda qo‘llash imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

“Türk Dili ve Edebiyatı 9” darsligida ijodiy topshiriqlar va adabiy tahlilga katta e’tibor berilgan bo‘lsa-da, grammatik mashqlar kamroq berilgan. *“Ona tili (9-sinf)”* darsligida esa grammatik tushunchalar chuqurroq yoritilgan, ammo ijodiy tafakkurga qaratilgan topshiriqlar nisbatan kam. Shuningdek, turk tili darsligida asosan badiiy matnlar (she’r, hikoya) tahliliga urg‘u berilgan bo‘lsa, o‘zbek tili darsligida ilmiy va badiiy matnlarni birgalikda tahlil qilish amaliyoti afzal ko‘rilgan.

XULOSA

Mazkur tahlil natijasida aniqlanishicha, *“Türk Dili ve Edebiyatı 9”* darsligi ijodkorlikni rivojlantiruvchi topshiriqlar va adabiy matnlar bilan boyitilgan bo‘lsa-da, grammatik nazariyani chuqur mustahkamlash uchun amaliy mashqlar yetarli emas. Aksincha, *“Ona tili (9-sinf)”* darsligida grammatik nazariya aniq va keng berilgan, biroq ayrim bo‘limlarda ijodiy yondashuv chegaralanadi.

Ikki darslikning ham ijobiy tomonlari bor: biri adabiy va ijodiy tafakkurni, ikkinchisi esa grammatik nazariyani chuqurroq o‘zlashtirishni ta’minlaydi. Shu sababli, o‘quv jarayonida har ikkala darslikni bir-birini to‘ldiruvchi manba sifatida qo‘llash maqsadga muvofiq bo‘lishi mumkin. Bu orqali o‘quvchilarda fe’l mavzusi bo‘yicha to‘laqonli bilim va ko‘nikmalar shakllanadi.

Olib borilgan kuzatishlar asosida quyidagi takliflarni berish mumkin:

1. Har ikkala darslikda grammatik topshiriqlar va ijodiy ishlarni teng taqsimlash lozim. Bunda mavzuni o‘zlashtirish samaradorligi oshadi, o‘quvchilarda qiziqish susaymaydi.
2. Zamonaviy mavzularni, hayotiy misollarni o‘z ichiga olgan matnlar kiritish, infografika, elektron resurslardan foydalanish o‘quvchilarning darslikka nisbatan qiziqishini oshirishi mumkin.
3. Jamoaviy tahlil, munozara, role-play, onlayn platformalar orqali ijodiy guruhiy loyihalarni amalga oshirish lozim. Bu o‘quvchilarning faolligini rag‘batlantiradi, jamoaviy ishlash ko‘nikmasini rivojlantiradi.
4. Faqat grammatik test yoki yozma ishlar bilan cheklanmasdan, ijodiy ishlar, loyihaviy faoliyat natijalari, mavzu bo‘yicha tayyorlangan prezentatsiyalar, roliklar ham baholash mezonlariga kiritilishi kerak.
5. Darslikni yozishda amaliyotchi o‘qituvchilar tajribasidan foydalanish, o‘quvchilarning real ehtiyojlari va qiziqishlarini inobatga olish, davriy ravishda darslik tarkibini yangilash darslikning zamon talablariga mos bo‘lishini ta’minlaydi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Anderson, M. (2019). *Teaching Verbs in Context: A Pragmatic Approach to Grammar Instruction*. Language and Education Journal, 12(2), 45–59.

2. Brown, J. (2021). *Revisiting Grammar Pedagogy: Innovations in Teaching Verb Forms*. International Journal of Modern Linguistics, 3(1), 77–93.

3. Hozirgi o‘zbek adabiy tili / X. Muxiddinova, D. Xudoyberganova, I. Umirov, N. Jiyanova, T. Yusupova. — To‘ldirilgan 2-nashr. — Toshkent: O‘qituvchi NMIU, 2006. — ISBN 978-9943-02-008-5.

4. Nakayama, K. (2020). *A Comparative Study on Interactive Activities for Teaching Verb Conjugations in High Schools*. Journal of Language Teaching Innovations, 7(3), 12–25.

5. Rahmatullayev Sh. “O‘zbek tilida fe’l frazemalarning bog‘lanishi” Universitet, 1992. 5-bet.

6. Metin, M., Çümen, E., Aydın, Ö. Türk Dili ve Edebiyatı 9. Sınıf Ders Kitabı. Millî Eğitim Bakanlığı Yayınları, Devlet Kitapları, 2024.

7. Mahmudov N.M., Nurmonov A., Sobirov A. Sh. Ona tili. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 9-sinfi uchun darslik. 4-nashr, qayta ishlangan va to‘ldirilgan. Toshkent: Tasvir nashriyot uyi, 2019.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 1-son)

FILOLOGIYA

PHILOLOGY

"ODAMIYLIK MULKI"ASARINING "NE ERUR BU JAHOLAT?" BOBIDA QO'LLANILGAN BIRLIKLARNING LINGVOMA'NAVIY XUSUSIYATLARI

Tilavova Munisxon Alijon qizi,
Buxoro davlat pedagogika instituti
Tillar fakulteti o’zbek tili va adabiyoti
kafedrasi o’qituvchisi,
Bux DU o‘zbek tilshunosligi va
jurnalistika kafedrasi mustaqil izlanuvchisi
tilavovamunisxon94@gmail.com

Annatatsiya: Ushbu maqolada so'zlarning lingvoma'naviy xususiyatlari, Tohir Malikning "Odamiylik mulki"asaridagi so'zlarning lingvoma'naviy xususiyatlari to'g'risida so'z boradi.Ushbu maqolada ,,Odamiylik mulki” asarida qo’llanilgan aytim frazeologik birliklarning lingvo’maviy xususiyatlari haqida fikr yuritilgan. Tildagi ma’nodoshlikning taraqqiyoti, uning o‘ziga xos xususiyati, ularning ma’no ifodaliligi, ixchamligi va boshqa shunga o‘xshash xususiyatlari badiiy asarlar materiallari asosida o‘rganilganda yanada yaqqolroq namoyon bo‘ladi.

Kalit so‘zlar:lingvoma’naviy xususiyatlar, stilistik xususiyatlar, stilistika, ma’no buyoqdorligi, frazeologik sinonimlar, kontekstual antonimlar.

Аннотация: В этой статье говорится о языковых и духовных свойствах слов, языковых и духовных свойствах слов в произведении Тахира Малика «Достояние человечества».В данной статье рассматриваются языковые особенности фразеологизмов, использованных в произведении «Достояние человека». Развитие семантики языка, его специфика, выразительность значения, лаконичность и другие подобные особенности более ярко проявляются при изучении на материалах художественных произведений.

Ключевые слова: языково-духовные особенности, стилистические особенности, стилистика, смысловая окраска, фразеологические синонимы, контекстуальные антонимы.

Abstract: This article talks about the linguistic and spiritual properties of words, the linguistic and spiritual properties of words in Tahir Malik's "Property of Humanity".This article examines the linguistic features of phraseological units used in the work “Human Property”. The development of language semantics, its specificity, expressiveness of meaning, conciseness

and other similar features are more clearly manifested when studied using materials from works of art.

Key words: linguistic and spiritual features, stylistic features, stylistics, semantic coloring, phraseological synonyms, contextual antonyms.

KIRISH

Til ijtimoiy hodisa bo'lish bilan birgalikda shu tildan foydalanuvchi kishilarning,jamiyatning,umuman ,millatning o'ziga xos madaniyati-yu ma'naviyatini o'zida aks ettiradi. Tilda ota-bobolar merosi hisoblanmish urf-odatlar,an'analar va qadriyatlar o'z aksini topadi.Shuningdek, til o'zida xalqning madaniy va ma'naviy xususiyatlarini jamlaydi. Ushbu xususiyatlar hozirda muhim ahamiyat masb etgan holda dunyoga shu tildan foydalanuvchi kizhilarning ma'naviy hayoti haqida ma'lumot ham beradi. Va bu ma' naviy xususiyatlarni o'rganish bugungi kunda dolzarb masalalardan biriga aylanib bormoqda va shu tufayli tilshunoslar diqqatini o'ziga tortmoqda. Hozirgi kunga kelib tilimizning ma'naviy jihatlarini o'rganish tilshunoslikning alohida sohasiga aylangan hamda ushbu soha tilimizning madaniy-ma'naviy jihatlarini,ushbu jihatlar orqali tilimizga bo'lgan qiziqishni kuchaytirish kabi bir qator masalalarni o'z ichiga oladi. Bu bo'lim "lingvokulturologiya" deb ataladi. Madaniyatshunoslik va tilshunoslik bo'limlarining uyg'unlashuvi orqali yuzaga kelgan bu bo'lim yuqorida keltirilgan bo'limlardan ancha farqli hisoblanadi. Shuningdek, tilimizning lingvoma'naviy xususiyatlarini o'rganuvchi bu soha ustida juda ko'plab tilshunoslar olimlarimiz izlanishlar olib borishgan va hozirda ham olib borishmoqda.Xususan, bu so'zlarimizga A.Nurmonovning “O‘zbek tilida lingvokulturologik yo‘nalish”, N.Mahmudovning “Tilning mukammal tadqiqi yo‘llarini izlab”, N.Sayidrahimovaning “Lingvokulturologiyaning ilmiy asoslanishiga doir ayrim mulohazalar”, “Lingvokulturologiyaning komponentlari” nomli maqolalarini, D.Xudoyberganovaning “Matnning atropotsentrik tadqiqi” mavzusida gimonografiyasini misol qilib keltirish mumkin.

Barcha jonli tillarda bo‘lgani kabi o‘zbek tilining rivojlanishida ham og‘zaki va yozma adabiyotning roli beqiyosdir. Badiiy adabiyotda nutq vositalarining barchasi poetik tasvirda ishtirok etadi. Shularning biri sifatida sinonimlar tilshunoslik va badiiy nutqda o‘ziga xos o‘ringa ega.

Tilshunoslikda sinonimlik holatini aniqlash, uning turlarini belgilash uchun badiiy matnning ahamiyati beqiyos.

Bu sohada qo‘lga kiritilgan bir qator yutuqlarga qaramay, ma’lum kamchiliklar ham mavjud. So‘zlar o‘rtasidagi sinonimik munosabat kriteriyasini aniqlashda kontekstning roli va turlari, sinonimlarning stilistik xususiyatlari va masalaning shu kabi boshqa bir qancha jihatlari: nazariy va amaliy tomonlari ma’lum darajada yoritilgan[175].

[175] Ҳайитметова О. Ўзбек адабиётида халқчиллик ва халқчил услуб ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти. –1993, 1-сон, 8-10- б.

Tildagi ma’nodoshlikning taraqqiyoti, uning o‘ziga xos xususiyati, ularning ma’no ifodaliligi, ixchamligi va boshqa shunga o‘xshash xususiyatlari badiiy asarlar materiallari asosida o‘rganilganda yanada yaqqolroq namoyon bo‘ladi.

Ma’nodoshlar badiiy matnda qo‘llanilishi bo‘yicha o‘rganilsa, masalani yanada kengroq doirada o‘z ichiga qamrab oladi. Leksikologiya, stilistika va badiiy nutq nazariyasining o‘rganish obyektlarini bir-biriga yaqinlashtiradi.

Sinonimlarni bir - biridan ajratib turuvchi turli ma’no qirralari badiiy matnda personajlarning murakkab ichki dunyosini, his-tuyg‘ularini, xatti-harakatlarini ochib berishda til materialining muhim vositalaridan biri sifatida qaraladi. Bu hodisa ijodkorga sinonimlarni chuqurroq o‘rganishni va uning «sir»larini bilib olishni muhim vazifalardan biri qilib belgilaydi.

Ma’nodosh so‘zlarda mavjud bo‘lgan «sir»larning bilib olinishi ijodkor uchun zarur bo‘lgan eng aniq va ravon tasviriy vositalarni saralab olish imkoniyatini beradi. O‘z navbatida, bu vositalar biror voqea - hodisa yoki predmetni tabiiy tasvirlashga imkon beradi. Bu vosita yordamida yozuvchi o‘z kitobxoni qalbiga yo‘l oladi.

Shuning uchun ham sinonimlar nutq rang - barangligi va ifodaliligini belgilovchi vosita bo‘lib, so‘z tanlash tamoyili, yozuvchi tili va uslubini o‘rganish masalasi va ma’lum bir yozuvchi uchun xos bo‘lgan, takrorlanmas individual tomonlarini o‘rganishning eng muhim masalalaridan biri ekanligi bilan ajralib turadi.

Tohir Malik o'zining "Odamiylik mulki"asarining "Ne erur bu jaholat?"bobida jaholat haqida so'z yuritarkan, bu so'zni izohlab, uni vujudga keltiruvchi bir qancha hislatlarni sanaydi va ularning ma'nolarini izohlab beradi hamda turli xil frazeologik birliklarni ,shuningdek, fikrlarining isboti sifatida payg'ambarlar, xalifalar va podshohlar haqidagi hikoyatlarni keltirib o'tadi. Quyida ushbu asarda qo'llanilgan freziologik birliklar,so'zlar va ularning ma'nolari haqida so'z boradi.

Yozuvchi tilimizdagi "jaholat","johillik" atamalari nodonlikni va bu nodonlikni tug'diruvchi bilimsizlikni anglatishini ta'kidlaydi. Johil inson sifatlarini sanar ekan johilning bilaman,deganini ko'rning ko'raman deyishiga o'xshatadi. Bunday kimsalarni jamiyat ichidagi illatga mengzaydi. Ularni tarbiyalash xususida so'z yuritib , keksani tarbiyalamoq-mashaqqat,bo'rini tarbiyalamoq-uni azoblamoq singari til birliklaridan foydalanadi . Shuningdek,ushbu bobda "qalbi xastalanmoq","qosh qo'yaman, deb ko'z chiqarish","dard ustiga chipqon","vaqtni o'ldirmoq","nafsni ko'kka ko'tarmoq","nafsga qul bo'lmoq","ko'nglini yumshatmoq" kabi birikmalardan foydalangan holda ularning ma'naviy sifatlari va xususiyatlarini izohlab beradi. Johillikni paydo qiluvchi omil sifatida bid'at va xurofotni sanab o'tar ekan, ularning lug'aviy ma'nolari xususida alohida to'xtalib o'tadi va ularga quyidagicha izoh beradi:

"Bid'at-so'zi aynan tarjima qilinsa:"Yangidan paydo bo'lgan odat"degan ma'noni anglatadi. Hazrat Alisher Navoiy asarlarida bu so'zni "yoqimsiz"degan ma'noda ham qo'llaganlar. Yana "bid'ati sayyia"ham derlarkim,bu "Yangi paydo bo'lgan yomon odat"demakdir. Ta'bir joiz bo'lsa-dinga yot ,yangi paydo bo'lgan yoqimsiz odatlar "bid'at"deb belgilangan.

"Xurofot"esa "asossiz"demakdir. Ya'ni dinda asosi yo'q, behuda ishlar,odatlardir. Abu Usmon Jaririy hazratlari deganlarkim:" Har kishiki, Payg'ambar alayhissalom sunnatini o'ziga hakam qilsa,uning so'zi hikmatdir. Har kishiki, nafsining xohishiga tobe bo'lsa,uning so'zi bid'atdir".O'zbek tilida nashr etilgan "Islomiy qomus"da "bid'at" atamasi "noma'qul yangilik","din aqidalariga xilof yangilik",deb izohlangan".Til-ma'naviyat xazinasi. U asrlar mobaynida saqlanib kelayotgan xalqning o'ziga xos madaniyati haqida darak beradi. Undagi har bir so'z,har bir birlikda xalqning o'zigagina xos ma'naviyati "yashaydi"va davrlar o'tgani sayin ushbu ma'naviyatni uning egalariga yetkazadi.

Atoqli so‘z san’atkorlarining so‘zdan foydalanishdagi tajribalari sinonim so‘zlarning ba’zi bir umumiy va juz’iy tomonlarini o‘rganishda, xozirgi filologiya fanlari talablariga har tomonlama to‘la mos keladigan sinonimik lug‘atlar tuzishda eng qimmatli faktik materiallar berishi shubhasiz. Chunki yozuvchi til materialiga, uning grammatik qurilishiga va lug‘at tarkibiga asoslanadi, u badiiy til orqali ayrim voqea-hodisalarni bo‘rttirib ko‘rsatish imkoniyatiga ega bo‘ladi. SHu bilan birgalikda muallif o‘zi tomonidan yaratilgan obraz va voqealarga nisbatan o‘quvchida muhabbat yoki nafrat, zavq yoki qayg‘u hislarini uyg‘otishga muvaffaq bo‘ladi.

Badiiy asarlarda qo‘llangan umumxalq tilidagi sinonimlar, jumladan frazeologik sinonimlar, xalq ommasi nutq madaniyatining qay darajada o‘sganligini, badiiy so‘z san’ati taraqqiyotini ko‘rsatuvchi omillardan biridir. Badiiy asardagi har bir personaj jamiyatdagi o‘rni, tabaqalanish, xususiyatlariga qarab o‘ziga xos «til»da gapirtiriladi. Har bir obrazning xarakteristikasiga mos keluvchi sinonimik birliklarning o‘z o‘rnida qo‘llanilishi personajlar nutqiga jon kiritadi, tiriltiradi va o‘quvchi ko‘z oldida uni butun borlig‘i bilan namoyon qiladi[176].

Yozuvchi sinonimik birliklardan faqat personajlar nutqini individuallashtirishdagina foydalanmay, balki voqelikning boshqa tomonlarini ko‘rsatishda ham: tasvir etilayotgan muhitning individual, konkret ko‘rinishlarini berishda, uning hayotiyligini ta’minlashda ham so‘zlarda mavjud bo‘lgan belgi ajratuvchilik xususiyatlaridan foydalanadi. Umumxalq tilining serunum imkoniyatlaridan biri bo‘lgan sinonimik birliklarni badiiy - tasviriy vosita sifatida keng ishlatadi. Har bir qalam sohibi adabiyotning libosi hisoblangan so‘z va iboraning badiiy vositasi yordamida tipik xarakterlar yaratishga, qahramonlarning nutqini individuallashtirlishga, tabiat, hayot lavhalari va boshqa hodisalarning real belgi va xususiyatlarini ochib berishga harakat qiladi.

Yozuvchi olg‘a surgan g‘oyaning o‘quvchilar ommasiga to‘la yetib borishida ham asar tili muhim ahamiyatga ega. Haqiqatan, asar tili o‘sha g‘oyani talqin etishda iboralarning siqiq, silliq bo‘lishi, so‘zlarning o‘z o‘rnida ishlatilishi bilan xarakterlanadi. Har bir yozuvchi asar tilining shirali, badiiy va ta’sirchan bo‘lishini ta’minlashda «so‘z va ibora tanlash mashaqqati»ni boshdan kechirib, kitobxonga manzur bo‘ladigan birliklar topishga harakat qiladi, ohori to‘kilmagan iboralar ustida qayta-qayta bosh qotiradi va shu mehnat jarayonida

[176] Қиличев Э. Бадиий тасвирнинг лексик воситалари. –Тошкент, 1982.

to‘laqonli obraz yaratishga imkon beradigan badiiy vositalarni qo‘lga kiritadi. Bunday vositalardan qay darajada foydalanish esa ijodkor uquvi va qobiliyatiga bog‘liq. Bu kabi imkoniyatlar umumxalq tilida hisobsiz bo‘lib, ular yozuvchi va so‘z materiali bilan ish ko‘ruvchi notiqdan butun kuchini sarf etishni, katta ijodiy mehnat qilishni talab qiladi. Yozuvchi uslubidagi o‘ziga xoslik, uning tilidagi individual xususiyatlar umumxalq tilida mavjud bo‘lgan ifodalash vositalarini tanlashdagi boy imkoniyatlar tufayli ochiladi. Umumxalq tili yozuvchi ixtiyoriga o‘z lug‘at xazinasidagi hamma vositalarni berishdan tashqari, ulardan tanlab olish imkoniyatini ham beradi, umumxalq tili yozuvchi ixtiyoriga grammatik tomondan tayyor va qat’iylashtirilgan so‘z, ibora va gap qurilishlarining qoliplarini berishdan tashqari yana turli xildagi so‘z, ibora va gap qurilishlari variantlaridan ham tanlab olish imkoniyatini beradi.

Badiiy asar tilining ravon va ta’sirchan bo‘lishi iste’molda mavjud bo‘lgan so‘zlarning rang-barang ma’no ottenkalaridan ustalik bilan foydalanishga ham bog‘liq. Chunki badiiy asar tilini tovlantiradigan barcha stilistik vositalar umumxalq tilidagi imkoniyatlardan o‘rinli foydalanish natijasida yuzaga keladi.

Badiiy asar leksikasi asar tilini o‘rganishning bir tarmog‘i, xolos. Badiiy asar tili leksikasi, o‘z navbatida, sinonimlardan tashqari yana antonim, arxaizm, dialektizm kabi bir qancha qatlamga bo‘linadi va bularning har qaysisi alohida ilmiy tadqiqot ishlari olib borishni talab qiladi. Ko‘rinadiki, badiiy asar tili, ayniqsa, leksikasining mundarijasi juda keng va xilma - xildir.

Yozuvchi tabiat va jamiyatdagi turli predmet, harakat, rang, tovush va boshqa shunga o‘xshash aniq va mavhum narsa, holatni bayon etar ekan, ularni aniq va ravshan ifodalaydigan birliklarni topib qo‘llagandagina o‘quvchida ular haqidagi to‘la tasavvurni hosil qilishi mumkin. Xuddi mana shunday o‘rinlarda sinonim so‘zlarda mavjud bo‘lgan turli stilistik qiymatlar yozuvchiga juda qo‘l keladi. Chunki badiiy asarda sinonimlar tasvirning shakl jihatidan xilma – xil bo‘lishini ta’minlabgina qolmay, balki uning emosionalligini ta’minlashda ham, stilistik tomondan ravon qilib berilishida ham eng unumli vositalardan biri hisoblanadi. Sinonimlar o‘zlarida mavjud bo‘lgan turli ma’no nozikliklari va belgilari bilan harakat, belgi va predmetdagi turlicha belgi darajalarini ko‘rsatadi. Asar tilidagi sinonimlarning stilistik xususiyatlari, turli vazifalarni bajarib kelishi, badiiy vosita sifatida keng qo‘llanilishi va bu muammoning dolzarbligi uni alohida ishning obyekti qilib olish mumkinligini ko‘rsatadi. Bu ishda sinonimik birliklarga to‘xtalishdan maqsad, Tohir Malik badiiy asarlarida sinonimik birliklar bajarib keladigan stilistik vazifalarni va ularni semantik tomondan tahlil qilishdir.

Har bir adib asarning g‘oyaviy - badiiy qiymatini oshirish maqsadida tilda mavjud bo‘lgan sinonimik birliklardan foydalanadi va turli yo‘llar bilan badiiy asar tarkibiga kiritadi. So‘z va iboralar bir vaqtning o‘zida so‘zlovchi fikrining ham va shu fikrning vazifasi, maqsadiga kiradigan barcha ruhiy kechinmalarning ham belgisi sanaladi.

Bundan ko‘rinadiki, so‘z va iboralar leksik ma’no bilan birga emotsiya, his-tuyg‘u, kechinmalarni ham bera oladi. So‘z va iboralarning emotsiya va kechinma bildirish darajasi turlicha bo‘lib, bunday xususiyat ba’zi so‘z va iboralarda aniq, sezilib tursa, ba’zilarida deyarli

sezilmaydi. Shuningdek, ko‘pgina so‘z va iboralar emosional jihatdan o‘z ma’no tarkibida baho elementini tashish xususiyatiga ega bo‘ladi. Emotsional xususiyatga ega bo‘lgan so‘z va iboralar so‘zlovchi va yozuvchining predmet, voqea-hodisalarga munosabatini yoki turli his-hayajonini bildiradi. Sinonimik birliklardagi stilistik, ma’no buyoqdorligidagi farqlarni yozuvchining o‘zi ham yaxshi anglaydi.

Bularni misollar orqali ko‘ramiz.

"achinib kuyinmoq" ma’nosini anglatuvchi *joni achidi–ichi achidi–yuragi achidi* frazemalarining fe’l komponentlari; *yurag(i) uvushdi–et(i) uvushdi–eti seskandi* fe’l frazeologik sinonimlar qatoridagi dastlabki ikki frazemaning tayanch komponenti bir xil so‘zshakldan iborat bo‘lib, "salbiy o‘y-xayol ta’sirida o‘zini ruhan yomon his qilmoq" ma’nosini bildiradi: *O‘zimiz ehtiyot qilmasak, birov bizni ehtiyot qiladimi, bizga birovning **joni achiydimi?*** (T.Malik) – *Uni ko‘rib Salmoni Forsiyning **yuraklari achishdi**. U damlarda aslida hammalari kambag‘al, ammo birining boshqaga **yuragi achishsa**, boshqasining naqadar og‘ir ahvolda ekanini tasavvur qilavering*. (124-bet) – *Darvishlar faqat insonlarga emas, balki hayvonlarga ham xizmat qilganlar. Masalan, qo‘tir bir itni ko‘rib, **ichi achiydi**, uni olib, davolaydi. Nega? Chunki maxluqni Xoliq rizosi uchun yaxshi ko‘radi, undan muhabbatini darig‘ tutmaydi*. (43-bet)

"sevmoq" ma’nosini anglatuvchi *dil bog‘lamoq–ko‘ngil qo‘ymoq–yaxshi ko‘rmoq* fe’l frazemalari ham o‘zaro sinonimik qator hosil qiladi: *Odamlar bilan do‘stliging o‘rtacha bo‘lgani ma’qul. Do‘stim ko‘p deb barchasiga umid bilan **dil bog‘layvermagin**, orqa-oldingga qaragin*. (137-bet)– *Suqrot hakimni o‘ldirishga olib borardilar. Shogirdlari zorlig‘ qilib so‘radilar: “Ey hakim, endi o‘limga **ko‘ngil qo‘ymishsiz**, ayting, sizni qay yerga dafn etaylik?” Suqrot bu savolni eshitib, tabassum bilan debdilarkim: “Qay yerni ko‘nglungiz tilasa, ul joyga dafn eting, jasadim qayda bo‘lsa so‘ngaklarim unda bo‘lg‘ay. Siz meni yod qilsangiz bas*! (138-bet)– ***Yaxshi ko‘rish**ning shartlari ko‘p. Shulardan biri – janjallashmaslik*. (47-bet)

"ishq, muhabbat, sevgi" ma’nosini anglatuvchi *ko‘ngil ishi–yurak dardi–dil tori* frazemalari o‘zaro sinonim: *O‘ylaylik: birov «Mersedes»ni sevadi, unga erishmoq uchun tunu kun harakat qiladi. Tinim bilmaydi. Hatto Olmoniyadagi zavodiga ham borib keladi. Bu – uning **ko‘ngil ishi**. Nafsi shunday buyurdi – qildi. Afsus bilan deymizki: Alloh roziligiga erishish uchun ham shunday intilsa edi...* (40-bet) – *Menga do‘stimning ishq bobidagi **yurak dardi** ma’lum.* (134-bet) – ***Dil tori**mni iymondan uzmasman.* (T.Malik)

bosh ko‘tarmoq - bosh(i)ni uzmoq sinonim frazemalari "*qo‘zg‘almoq, harakatga kelmoq*" ma’nosini bildirib, birinchi frazemaning notayanch komponenti belgisiz tushum; ikkinchi frazemaning esa notayanch komponenti belgili tushum kelishigidagi so‘zshakl bilan shakllangan. Bu frazemalarning ifoda plani boshqaruv munosabatli so‘z birikmasidir: *Bemor kasaldan tuzalib, sihat-salomat **boshini ko‘targuncha** bu xatni takror va takror o‘qidi, sog‘aygach esa tumor qilib bo‘yniga taqib oldi*. (25-bet) – *Qiz ko‘z yumish o‘rniga yostiqdan **boshini uzdi** va erga tushgan ro‘molini o‘rab o‘tirdi. (Tohir Malik)*

Asarda quyidagi frazeologik sinonimlar ham uchraydi:

ko‘ngli qotgan, yuragi tosh, ko‘ngli qattiq: *Tosh ustiga qanchalik ko‘p yomg‘ir yog‘ib suv tushsa-da, o‘t chiqib ko‘karmagani kabi **ko‘ngli qotgan** kishilarga qanchalik o‘gitlar qilsang ham quloqlariga olmaslar. O‘zlari uchun biror foyda ola bilmaslar*. (14-bet)– *Yana ular uchun ilgari kitob ato etilgan, so‘ng payg‘ambarlaridan keyingi muddat uzaygach, **yuragi tosh** kimsalar (ya’ni yahudiy va nasroniylar) kabi bo‘lib qolmaslik vaqti kelmadimi?* (4-bet) – *Dard (ishq) ahlining nafasi bir o‘tdirki, **ko‘ngil qattiq**ni yumshatadi va diydasi qattiq odamni ham yig‘latadi*. (36-bet)

boshiga baxt qushi qo‘nmoq, omadi chopmoq, ishi yurishmoq: *Payg‘ambarimiz (s.a.v.) “Musulmonning uyi jannat bog‘idan bir bog‘chadir”, deganlar. Bundan ibrat shuki, “jannatda o‘sgan” qizga uylangan erning **boshiga baxt qushi qo‘nibdi**. Ammo baxt qushi qo‘nishi uchun uning o‘zi ham jannatda o‘sgan bo‘lishi kerak*. (103-bet) – *Sen bilan do‘stlashganimdan beri baxt-saodat ichida yashayapman, **omadim chopyapti***. (133-bet) – *Haqiqiy do‘stlarning biri mashriqda, boshqasi mag‘ribda bo‘lsa ham **ishlari yurishib ketdi***. (135-bet)

do‘stlik ahdini tuzmoq, adovatga barham bermoq: Misr hukmdori bilan Rum hukmdori o‘zaro kelishib, **do‘stlik ahdini tuzdilar** va oradagi **adovatga barham berdilar**. (10-b.)

Asarda turli turkum doirasidagi kontekstual sinonimlar ham uchraydi. Masalan,

qattiq ko‘ngil, diydasi qotgan: *Dard (ishq) ahlining nafasi bir o‘tdirki, **qattiq ko‘ngil**ni yumshatadi va **diydasi qotgan** odamni ham yig‘latadi. Kuyganlarning dami shunday yelki, u manmanlik xashagini sovuradi va jaholat tuprog‘ini supuradi*. (36-bet)

Asarda frazeologik ma’nodoshlikning go‘zal namunalari mavjud. Yozuvchi ibora tanlashda frazeologik sinonimlarning ma’no xususiyatlari bilan birga ularning stilistik bo‘yog‘iga ham e’tibor beradi. Chunki sinonimlardagi ana shu stilistik bo‘yoq tasviriy xususiyatga ega bo‘ladi.

Umuman olganda, frazeologik sinonimlarni Tohir Malik asarlarining barchasida uchratish mumkin. Ular voqea-hodisani aniq tasvirlashda, holatni kuchaytirishda, har bir jihatni detallashtirishda va boshqa talay badiiy-stilistik vazifalarni bajarishda muhim omil bo‘lib xizmat qilgan. Adib ushbu birliklardan juda unumli foydalana olganligini namoyish eta bilgan.

O‘zaro zid ma’noli so‘zlar antonimlardir. Antonimlar yozma va og‘zaki nutqda katta ahamiyatga ega. Ular fikrni ifodali va ta’sirli qiladi. Shuning uchun ham ular badiiy tasvirda keng qo‘llaniladi.

Tohir Malik “Odamiylik mulki” asarida zid ma’noli birliklar asosida yuzaga keltiradigan tazod, zidlantirish, qarshilantirish san’atining betakror namunalarini yaratgan. Zid ma’noli birliklar qatoridan foydalangan holda yozuvchi turli tushunchalar, belgilar, holatlar, obrazlarni qarshilantirish orqali ularni yanada ta’kidlash imkoniga ega bo‘ladi.

Asarda foydalanilgan frazeologik zid ma’nolilik ot, sifat va fe’l turkumlariga oidligini kuzatamiz. Jumladan,

<u>fe’l turkumiga oid antonimik frazeologizmlar:</u>

boshiga baxt qushi qo‘nmoq – boshi kulfatda qolmoq:

Payg‘ambarimiz (s.a.v.) “Musulmonning uyi jannat bog‘idan bir bog‘chadir”, deganlar.Bundan ibrat shuki, “jannatda o‘sgan” qizga uylangan erning ***boshiga baxt qushi qo‘nibdi****. Ammo baxt qushi qo‘nishi uchun uning o‘zi ham jannatda o‘sgan bo‘lishi kerak.* (103-bet) *– O‘zidan yuqori darajadagi qizga uylansa, xotini otasining hashamati va dabdabasiga mag‘rur bo‘lib, erni mensimay qolishi mumkin. Unda har qanday erning* ***boshi kulfatda qoladi****.* (103-bet)

jahli chiqmoq – boshi osmonga yetmoq:

–Bu odam o‘ldimikan yo hali ham tirikmikan? – deb Shan hamrohidan so‘rabdi.

Hamrohining battar ***jahli chiqibdi****:*

–Umrim bino bo‘lib sizga o‘xshagan ahmoqni endi ko‘rishim. Qabristonga ko‘tarib olib ketilayotgan o‘likni tirikmi yo o‘likmi, deb so‘rashingiz aqlli odamning gapi emas. Iltimos, endi gapirmay jim keting. Gapirsangiz ko‘nglim ozib ketyapti. (102-bet) *– Men seni uyimga olib ketgani keldim. Marhamat qilib borsang, farzandlarimni ko‘rib, xasta xotinimni tashrifing bilan sevintirsang, qavm-qarindoshlarim, do‘stoshnalarim oldida* ***boshim osmonga yetardi****.* (133-bet)

imkoniyatni boy bergan – imkoniyatga erishgan: *Shunda Rasulullоh (s.a.v.): «Men minbarga chiqayotganimda Jabroil alayhissalom kelib «onasi va otasi hayotlik vaqtida yoki bulardan biri hayot bo‘la turib, ularning roziligini olib, jannati bo‘la olmagan va bu* ***imkoniyatni boy bergan*** *farzandning burni erga ishqalsin!» - dedilar. Men ham «omiyn» dedim» - dedilar.* (61-bet) *–Bu nuqtada ikki shaxsning to‘qnashuvini shunchaki oilaviy mojaro emas, ijtimoiy masala sifatida o‘rganishimiz va hal etishimiz kerak bo‘ladi. Bularni biz bedavo dard emas, tuzatish* ***imkoniyatiga erishilgan*** *arzimagan kamchiliklar deb qabul qilishimiz kerak.* (98-bet)

<u>ot turkumiga oid antonimik frazeologizmlar:</u>

yuzining yorug‘ligi–betining qoraligi: *Otaning ish-amali farzandiga singsa, uning xulqida jilvagar bo‘ladi. Bolani tergab nazorat qilish ota-ona* ***yuzining yorug‘ligi****ni ta’minlaydi.* (9-b.) *– Erkak va ayol orasidagi ishqning beqarorligi xususida hayotda ko‘p misollarga duch kelganmiz. Bugun «sevamano sevaman, sensiz menga dunyo qorong‘u!» deb oh-voh qilib yurganlar ertaga qarasangiz «****betining qoraligi****ni ko‘ring» deb bir-biriga teskari qaraydi.* (32-bet)

<u>sifat turkumiga oid antonimik frazeologizmlar:</u>

pok dil – yuragi nopok: *Ishq – shunchalar qaysarki, uning oldida podshoh ham gado ham teng, u shunday zulmkorki, uning qoshida iflos-fosiq ham,* ***pok dil*** *oshiq ham bir...* (22-bet); *Xotin pok nihod (toza tabiatli) va* ***pok dil*** *bo‘lsun; kadbonu (ishchan uy bekasi) eriga do‘st bo‘lg‘ay. Hayolig‘, taqvodor, tili qisqa, molni yaxshi saqlag‘uvchi bo‘lsin. Debdurlarki, yaxshi xotin erning va umrning rohati bo‘lur.* (99-bet) *– Ammo... Qani edi, hayotda shu «ammo» bo‘lmasa... Hayotda farzandidan kechuvchi* ***yuragi nopok*** *onalar ham bor, onalik huquqidan mahrum qilinuvchilar ham bor.* (55-bet)

Frazeologik zid ma’nolilik, avvalo, iboraga xos bo‘lgan konnotativ ma’noga ko‘ra, qolaversa, iboralarning qarshilantirilishi asosidagi ifodalilikka ko‘ra badiiy matn uchun zaruriy vositadir: *Agar iroda chinakam **aql bilan quvvatlangan** bo‘lsa – engadi*. (12-b.) – *Oradan bir muddat o‘tib, yana ayni shu erga kelganlarida o‘sha navqiron yigitni bog‘da ko‘rmay, qayerdaligini surishtiradilar. Odamlar:*

*–U **aqldan ozib qolib**, toqqa chiqib ketgan, - deb javob berishadi*. (34-bet)

Adib asarida leksik - frazeologik zid ma’nolilik ko‘rinishlari ham tasvirning aniqligi va ifodaliligini ta’minlagan: *Men o‘z ko‘nglimga da’vat uslubini qo‘llashni ma’qul ko‘rdim. Chunki har bir odam birinchi galda o‘z-o‘zini tarbiya qilishi kerak, deb o‘ylayman. Har birimiz o‘z-o‘zimizni, xususan, **ko‘nglimizni idora qila bilmog‘imiz** shart*. (2-bet)

Bu o‘rinda «*o‘z-o‘zini tarbiya qilish*» va «***ko‘nglimizni idora qila bilmog‘imiz***» leksik-frazeologik antonimdir.

Tohir Malik kontekstual zid ma’nolilikning o‘ziga xos namunalarini yaratgan; voqea-hodisalar, harakat-holatlar, aqliy-ruhiy jarayonlar o‘rtasidagi zidlik, kontrastlarni bo‘rttirib ko‘rsatishga erishgan. O‘zbek tilida «xursandchilik» va «siqilmok» so‘zlari antonim emas, ammo ular orasida, umuman olganda, qandaydir miqdoriy zidlik bor. Ammo ulardagi zid ma’nolilik kontekstuallikda, ya’ni badiiy nutqda shunday xususiyat kasb etishi sezilib turadi: «Endilikda xotun vajhidan xursandchilik bo‘ldi, magar ro‘zg‘or vajhidan siqildim» .

Asarlarda qahramonlar ruhiy holatlari o‘rtasidagi kuchli kontrastlilikni bo‘rttirib tasvirlash maqsadida muayyan bir kontekstual sinonimik qatordagi bir necha so‘z boshqa bir kontekstual sinonimik qatordagi bir necha birlikka birdaniga zidlantiriladi: *Bosh aql va ilmga to‘lib toshsa ham, axloqni sira unutmaslik kerak: inson o‘zidagi ma’naviy jihatlarni, vijdon va nafsni tarbiyalashi, ehtirosini boshqara olishi, xunuk odatlarni tark etishi, ilmiy yutuqlarini insoniyat foydasiga yo‘naltirishi kerak. Yo‘qsa, u **to‘g‘ri yo‘ldan ozishi** mumkin*. (13-b.)

Demak, “*ma’naviy jihatlarni tarbiyalash”, “vijdon va nafsni tarbiyalash”, “ehtirosini boshqara olish”, “xunuk odatlarni tark etish”, “ilmiy yutuqlarini insoniyat foydasiga yo‘naltirish” kabi birliklarga “**to‘g‘ri yo‘ldan ozish”*** iborasi qarshilantirilgan.

Ma’lumki, zid ma’nolilik bir turkumli so‘zlar doirasida bo‘ladi. Ammo turli so‘z turkumlariga oid so‘zlarda ham ma’nolar tarkibidagi muayyan semalar o‘rtasida ham zidlik mavjud bo‘lishi mumkin. Masalan, sifat turkumiga oid «yuqori» so‘zining ma’nosi tarkibida «tepaga yo‘nalgan» ma’nosi asosiy, fe’l turkumiga oid «so‘lmoq» so‘zida esa «jonsizlik holati» etakchi. Bu ikki so‘z o‘rtasidagi ma’noviy zidlikni tasavvur etish ancha qiyin. Bunday zid ma’nolilikni ayrim tadqiqotchilar «turkumlararo antonimiya» nomi bilan ataydilar[177]. Bunday zid ma’nolilikdan ham asarlarda unumli foydalanilgan, bu hodisa ham yozuvchining quyuq ifodali tasviri uchun xizmat qilgan: «*U yuqori darajani ko‘zlab yurgan edi, zamona o‘zgardi, so‘ldi.*»

[177] Маҳмудова З. «Ўтган кунлар» романининг миллий ўзига хослиги тўғрисида // Ўзбек тили ва адабиёти. 1996, 4-сон, 52-53-б.

Bu o‘rinda turli so‘z turkumlari o‘rtasidagi antonimlikni kontekst beryapti, bularni kontekstual antonimlar desa ham bo‘ladi.

Asarda bunday gaplarni talay uchratish mumkin. Har bir antonimik birlikning o‘ziga xos sinonimik qatori ham bo‘ladi, matn talabi bilan ma’lum birini tanlash imkoniyati yuzaga keladi.

"Terisiga sig‘maslik", "do‘ppisini osmonga otmoq", "yetti qavat osmonga uchmoq" kabi frazeologizmlar, "hafsalasi pir bo‘lmoq", "kayfi uchmoq", "yelkasiga tog‘ qulamoq" singari iboralar alohida-alohida sinonimlar qatoridir. *Terisiga sig‘maslik* iborasiga nisbatan ikkinchi qatordagi *hafsalasi pir bo‘lmoq* frazeologizmi olingan, shu bilan ma’no ta’sirchanligi ortgan. Demak, matnda har bir frazeologizmning qo‘llanilishi uchun tanlash imkoniyati mavjud bo‘ladi. Matn frazeologik birliklarning imkoniyatlarini kengaytiradi va undagi xarakterni belgilaydi.

Antonimik birliklar matnda aniq seziladi, ularga xos ma’noning aniq va qaysi maqsadga yo‘naltirilganligi matn uchun juda muhim sanaladi. Tohir Malikning asl til mahorati uning antonimik birliklardan tasvir tiniqligi, ifodadagi muayyan nuqtaga ro‘y berish maqsadlarida foydalanishida yaxshi ko‘rinadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Tilavova, M. (2024). LINGUISTIC AND SPIRITUAL CHARACTERISTICS OF SOME PHRASEOLOGICAL UNITS IN TAHIR MALIK'S" HUMAN PROPERTY". *Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences*, *3*(9), 26-30.
2. Tilavova, M. (2024). LINGUISTIC AND SPIRITUAL CHARACTERISTICS OF SOME PHRASEOLOGICAL UNITS IN TAHIR MALIK'S" HUMAN PROPERTY". *Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences*, *3*(9), 26-30.
3. Mohinur, Usmonova, and Elonova Sitorabonu. "GRADUONIMIYA HODISASI VA UNING AYRIM O ‘ZBEK XALQ MAQOLLARIDAGI IFODASI." *Innovations in Technology and Science Education* 2.9 (2023): 1757-1763.
4. Alijonovna, T. M. (2024). PHRASEOLOGISMS RELATED TO THE WORD USED BY TAHIR MALIK IN “HUMAN PROPERTY”. *INTERNATIONAL JOURNAL OF EUROPEAN RESEARCH OUTPUT*, *3*(3), 83-87.
5. Тилавова, М. А. (2024). ФЕНОМЕН СИНОНИМИИ И ФЕНОМЕН АНТОНИМИИ ВО ФРАЗЕОЛОГИЗМАХ, ИСПОЛЬЗУЕМЫХ В ПРОИЗВЕДЕНИИ ТАХИРА МАЛИКА «ДОСТОЯНИЕ ЧЕЛОВЕКА». *TADQIQOTLAR. UZ*, *37*(4), 59-63.
6. Tilavova, M. (2023). FRAZEOLOGIK POLISEMIYA HAQIDA BA’ZI MULOHAZALAR. *Philological issues are in the eyes of young researchers*, *1*(1).
7. Тилавова, М. (2024). ФРАЗЕОЛОГИЗМЫ, РОДСТВЕННЫЕ СЛОВУ, УПОТРЕБЛЕННОМУ ТАХИРОМ МАЛИКОМ В «ЧЕЛОВЕЧЕСКОЙ СОБСТВЕННОСТИ». *Talqin va tadqiqotlar*, *2*(3 (40)).
8. Tilavova, M. (2023). TOHIR MALIKNING” ODAMIYLIK MULKI” ASARIDA QO ‘LLANILGAN FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING FUNKSIONAL JIHATI. *Science and innovation in the education system*, *2*(5), 197-203.

9. Usmonova, Mohinur. "MATNLARGA DASTLABKI ISHLOV BERISH VA SEMANTIK TAHLIL QILISHGA OID AYRIM MULOHAZALAR." *Current approaches and new research in modern sciences* 3.1 (2024): 44-48.

10. Khayriev, Umedjon, Mohinur Usmonova, and Gavhar Turdieva. "An optimal quadrature formula in the space W~ 2 (2, 1) of periodic complex-valued functions." *AIP Conference Proceedings*. Vol. 3004. No. 1. AIP Publishing, 2024.

11. Ulugbekovna, U. M. (2024). Some Comments on the Principle of" Speech Realization of Linguistic Possibilities" and its Importance in Applied Linguistic Research. *Journal of Intellectual Property and Human Rights*, *3*(4), 181-185.

12. Tilavova, Munisxon. "" ODAMIYLIK MULKI” ASARIDA QO ‘LLANILGAN FRAZEOLOGIK BIRLIKLARDA SINONIMIYA HODISASI VA ANTANAMIYA HODISASI." *Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences* 3.1 (2024): 62-67.

13. Tilavova, M. (2023). TOHIR MALIKNING” ODAMIYLIK MULKI” ASARIDA QO ‘LLANILGAN FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING FUNKSIONAL JIHATI. *Science and innovation in the education system*, *2*(5), 197-203.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 1-son)

FILOLOGIYA

PHILOLOGY

O‘ZBEK VA QORAQALPOQ TILLARIDAGI KIYIM LEKSIKASI LEKSIK-SEMANTIK MAYDONINING QIYOSIY LINGVOKULTUROLOGIK TADQIQI

Aytmuratova Eleonora Baxıtovna
Nukus shahar 22-sonli ayrim fanlar chuqurlashtirilib o‘qitiladigan sinfi bor umumta’lim maktabi
O‘zbek (Davlat) tili o‘qituvchisi

Annotatsiya Aynan lingvokulturologik yondashuv tilning lug‘at tarkibini madaniy-lisoniy hodisa sifatida talqin qilish imkonini beradi, bunda uni yaratgan xalqning milliy madaniyatiga xos xususiyatlar eng yorqin tarzda namoyon bo‘ladi. Shu boisdan qiyosiy lingvokulturologiya doirasida o‘zbek va qoraqalpoq tillaridagi "Kiyim-kechak" leksikasini tahlil qildik. Mazkur maqolaning maqsadi qiyosiy lingvokulturologiya nuqtayi nazaridan maydon usuli orqali turli til madaniyatlarining o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlash va tahlil etishdan iborat.

Kalit so‘zlar: lingvokulturologiya, qiyosiy lingvokulturologiya, kiyim-kechak, libos, leksik-semantik maydon, maydon yadrosi, maydon chetlari, mikromaydon, milliy muhit, madaniyat.

Аннотация Именно лингвокультурологический подход позволяет интерпретировать словарный состав языка как культурно-языковое явление, при котором наиболее ярко проявляются особенности, присущие национальной культуре народа, создавшего его. Поэтому в рамках сравнительной лингвокультурологии мы проанализировали лексику "Одежда" в узбекском и каракалпакском языках. Целью данной статьи является выявление и анализ специфических особенностей различных языковых культур с точки зрения сравнительной лингвокультурологии посредством полевого метода.

Ключевые слова: лингвокультурология, сравнительная лингвокультурология, одежда, одежда, лексико-семантическое поле, ядро поля, грани поля, микрополе, национальная среда, культура.

Abstract It is precisely the linguocultural approach that allows us to interpret the vocabulary of the language as a cultural and linguistic phenomenon, in which the peculiarities of the national culture of the people who created it are most vividly manifested. Therefore, within the framework of comparative linguoculturology, we analyzed the lexicon of "Clothing" in Uzbek and Karakalpak languages. The purpose of this article is to identify and analyze the

specific features of different language cultures using the field method from the perspective of comparative linguoculturology.

Key words: linguoculturology, comparative linguoculturology, clothing, costume, lexical-semantic field, core of field, edges of field, microfield, national environment, culture.

Kirish. Bugungi kunda til materialining umumiy xususiyatlarini aniqlash ehtiyoji, turli tillarda so‘zlovchilarning milliy dunyoqarashini tasvirlashga intilish, ikki tilli lug‘atlarni takomillashtirish zarurati, semantika va til tafakkurining milliy o‘ziga xosligini o‘rganishga bo‘lgan qiziqish tufayli amaliy yo‘naltirilgan qiyosiy tadqiqotlarga e’tibor ortib bormoqda[178]. Zamonaviy tilshunoslikning shunday yo‘nalishlaridan biri qiyosiy lingvokulturologiya bo‘lib, u lingvokulturologiya va qiyosiy tilshunoslikning tutashgan nuqtasida vujudga kelgan. Bu yo‘nalish tillar, madaniyatlar va millatlarning o‘zaro ta’siri hamda aloqadorlik jarayonlarini ularning lisoniy va nolisoniy (madaniy) mazmunlarining yaxlit tizimi sifatida o‘rganadi. Bu jarayon ona tili nuqtai nazaridan, jamiyatning yangi hayotiga va yangi tafakkur bilan bog‘liq bo‘lgan madaniy qadriyatlar tizimiga yo‘naltirilgan holda amalga oshiriladi.

Adabiyotlar tahlili. A.Vejbitskaya “Kalit so‘zlar orqali madaniyatlarni tushunish” kitobida jamiyat hayoti va u so‘zlashadigan til bir-biri bilan chambarchas bog‘liqligini ta’kidlaydi. Turli tillardagi so‘zlarning bir-biriga mos kelmasligi, bundan tashqari, ular muayyan jamiyat yoki til jamoasining fikrlash tarzi va hayotiy ko‘rsatmalarini aks ettirishi va yetkazishi hammaga ma’lumligicha qolmoqda. Shuni ta’kidlash kerakki, bu so‘zlar madaniyatni tushunishning bebaho kalitlari hisoblanadi. V.V.Oshchepkova ham til ... "inson faoliyatining barcha sohalaridagi o‘zgarishlarga javob berishini" ta’kidlaydi[179].

Til va madaniyat o‘rtasidagi aloqani o‘rganishda maydon usuli muhim ahamiyat kasb etadi. Bu qiyosiy lingvokulturologiyaga ham taalluqli, chunki tillarni taqqoslash va solishtirish orqali ularning o‘xshash va o‘ziga xos jihatlari aniqlanadi. Yu.N. Karaulov ta’kidlaganidek, “maydon nazariyasi tilning voqelik bilan aloqasini, uning tashqi lisoniy voqelik bilan bog‘liqligini aks ettiradi”[180].

Turli tillarda so‘zning semantik mazmuni deyarli to‘liq mos kelishi mumkin, shu bilan birga tillarda faqat ulardan birining tizimiga xos bo‘lgan va boshqasining tizimiga begona bo‘lgan ma’lum miqdordagi ma’nolar mavjud bo‘lishi mumkin. Tilning leksik tizimini o‘rganish lug‘at tarkibini har tomonlama ko‘rib chiqishni, so‘zlar yordamida real dunyoni "semantik xaritalash" («semantic mapping») muammosini tahlil qilishni, leksikani turli tushunchaviy (semantik) maydonlarga, predmet guruhlariga va terminologik mikrotizimlarga ajratishni, leksik birliklarni ularning ma’no ahamiyati va ichki tuzilma vazifalariga ko‘ra

[178] Стернин И.А. Контрастивная лингвистика. Проблемы теории и методики исследования. — М., 2007.
[179] Ощепкова В.В. Язык и культура Великобритании, США, Канады, Австралии, Новой Зеландии. — М.; СПб.: ГЛОССА/КАРО, 2004.
[180] Караулов Ю.Н. Общая и русская идеография / Отв. ред. С.Г. Бархударов. — Изд. 2-е. — М.: Книжный дом «ЛИБРИКОМ», 2010.

farqlash masalalarini o‘z ichiga oladi[181]. Tilshunoslik rivojlanishining hozirgi bosqichida tadqiqotchilar so‘zning semantik tuzilishini "ma’lum bir xalqning hayotiy qadriyatlaridan tortib ijtimoiy va madaniy qadriyatlarigacha bo‘lgan tizimi haqidagi boy ma’lumotlar xazinasi" sifatida taqdim etmoqdalar[182].

V.V. Vorobyovning ta’kidlashicha, semantik maydon tushunchasi - umumiy mazmun bilan birlashgan va ierarxik tuzilishga ega bo‘lgan birliklar majmuasi hisoblanib, tilshunoslikda yaxshi istiqbolga ega. Tilshunoslikda semantik maydon eng muhim kategoriyalardan biriga aylanib bo‘lgan. Unda mazmun jihatidan bir xil bo‘lgan birliklar tizimli va sintetik tarzda ko‘rib chiqiladi[183]. Har qanday "til maydoni" "tilni idrok etishning bir qismi" deb hisoblanadi. U obyektiv voqelik bilan ham, til materiyasi bilan ham bog‘liq bo‘lmagan tushunchalar va g‘oyalarning aprior tizimi hisoblanadi[184].

Tadqiqot metadologiyasi. Leksik-semantik maydon (LSM)ni biz turli so‘z turkumlariga mansub va invariant ma’no bilan birlashtirilgan til birliklarining o‘ziga xos, ierarxik tarzda tashkil etilgan majmuasi sifatida belgilaymiz. Biz L.A. Novikovning fikriga qo‘shilamiz: maydon birliklari sintagmatik, paradigmatik va assotsiativ-derivatsion munosabatlarga kirishadi, bu munosabatlar maydonning asosiy o‘lchovlariga mos keladi va uning "hajmiy" tasavvurini yaratadi[185].

Asosiy tushunchalar, maydonning ishlashi va uning tuzilishi madaniyatni aks ettirishini va shunga muvofiq ravishda maydon tuzilishida aks ettirilishini e’tiborga olish lozim. Maydon ma’lum bir ma’no mazmuni - maydon dominantasi bilan belgilanadi. Unda yadro (leksema-tushuncha yoki leksema-tushunchalar guruhi), markaz (asosiy tushunchalar sinflari, ularning sinonimik, antonimik va boshqa munosabatlari bilan realiyalar) va periferiya (qo‘shni realiyalar tizimi, qo‘shni maydonlar - ikkilamchi semantik vazifali so‘z-tushunchalar) ajratib ko‘rsatiladi.

Madaniyatni o‘rganishda maishiy sohaga oid leksik birliklardan foydalanish eng samarali usul hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, ushbu maqolada o‘zbek va qoraqalpoq tillaridagi "Kiyim-kechak" tushunchasiga oid ot-nomlarning leksik-semantik maydonini tahlil qilamiz. Kiyim-kechak sohasi jamiyat turmush tarzini aks ettiradi hamda lingvomadaniyatning o‘ziga xos xususiyatlarini namoyon etadi.

O‘rganilayotgan tillarda leksik-semantik maydonning tuzilishiga quyidagi leksik bo‘linish asos qilib olingan: erkaklar/ayollar kiyimi; ustki/kundalik kiyim; ichki kiyimlar / paypoq-cho‘lki mahsulotlari / uy kiyimlari; kundalik/sport/plyaj kiyimlari; aksessuarlar; bosh kiyim va poyabzallar.

---

[181] Серебренников Б.А. Общее языкознание. Внутренняя структура языка / Отв. ред. Б.А. Серебренников. — М.: Наука, 1972.

[182] Вендина Т.И. Русская языковая картина мира сквозь призму словообразования (макрокосм). — М.: Индрик, 1998.

[183] Воробьев В.В. Лингвокультурология: Монография. — М.: Изд-во РУДН, 2008.

[184] Ермолаева Л.С. Неогумбольдтианское направление в современном буржуазном языкознании // Проблемы общего и частного языкознания / Под ред. В.Г. Костомарова. — М., 1960. — С. 47—85.

[185] Современный русский язык: Учебник / Под общей ред. Л.А. Новикова. — СПб.: Изд-во «Лань», 2003.

O‘zbek tilida "Kiyim-kechak" leksik-semantik maydoniga oid 107 ta leksik birlik aniqladik. Maydon tuzilishiga an’anaviy yondashuvga ko‘ra, uning tarkibida yadro, markaz (yadro atrofi zonasi), va periferiyani ajratib ko‘rsatdik. Maydon yadrosini (nomini) aniqlash uchun integral semani ajratib olishimiz zarur. V.V. Vorobevning ta’rifiga ko‘ra, bu sema maydonga kiruvchi har bir til birligi uchun xos bo‘lgan umumiy "g‘oya" hisoblanadi[186].

Bu holatda integral sema keng ma’noda "kiyim" bo‘lib, u "tanani qoplaydigan va o‘raydigan narsalar majmui" hisoblanadi. “O‘zbek tili izohli lug‘ati”da kiyim quyidagicha ta’riflangan: Badanni va tana a’zolarini berkitish, yashash va shu bilan inson tanasini tashqi muhit ta’siridan saqlash uchun kiyiladigan, asosan, mato va teridan tikib olgan narsalarning umumiy nomi[187]. Maydonning arxisemasi, ya’ni umumiy ma’noni ifodalovchi birlik "tanani o‘rash, qoplash"dir. Shunday qilib, o‘zbek tilidagi leksik-semantik maydonning yadrosi (nomi) "kiyim"dir.

Tahlil va natijalar. O‘zbek tilining izohli lug‘atlarida ko‘rsatilgan integral semaga kiritilgan so‘zlarning ta’riflarini tahlil qilib, maydon markazini aniqlab olishimiz mumkin. Bizning fikrimizcha, "kiyim" leksik-semantik maydonining markazini quyidagi so‘zlar tashkil etadi: kiyim, libos va keng ma’noda "kiyim" so‘ziga sinonim bo‘lgan ko‘ylak so‘zi.

O‘zbek tilidagi “Kiyim” leksik-semantik maydoni iyerarxik ko‘p bosqichli tizim bo‘lib, unda mikromaydonlar ajratiladi: ayollar kiyimi, erkaklar kiyimi, bosh kiyimi, aksessuarlar, poyabzal.

Ushbu leksik-semantik maydondagi eng ko‘p sonli guruh "ayollar kiyimi" guruhi bo‘lib, u 36 ta leksik birlikni o‘z ichiga oladi. Bizning fikrimizcha, bu o‘zbek ayollarining kiyimlari xilma-xil va turli maqsadlarga moslashtirilganligini ko‘rsatadi. Shuningdek, ta’kidlash joizki, "ayollar kiyimi" va "erkaklar kiyimi" mikromaydonlarining har ikkalasida ham "kundalik kiyimlar" guruhi "sport kiyimlari" guruhiga qaraganda ko‘proq leksik birliklarni o‘z ichiga oladi. Bundan shunday xulosaga kelamizki, o‘zbek madaniyatida odamlar rasmiy va nafis kiyinishni ma’qul ko‘radilar.

"Ayollar poyabzali" guruhi ham "erkaklar poyabzali" guruhiga nisbatan ko‘proq leksik birliklarni o‘z ichiga oladi, biroq o‘xshashlik shundaki, "sport va dam olish poyabzali" guruhida "kundalik poyabzal" guruhiga qaraganda ko‘proq leksik birliklar mavjud. Bizning fikrimizcha, bu yangi O‘zbekistonda harakatni cheklamaydigan va noqulaylik tug‘dirmaydigan qulay, yumshoq poyabzallar afzal ko‘rilishidan dalolat beradi. Shuningdek, biz uchun "uniseks kiyim va poyabzal" guruhlarining kam sonli ekanligi e’tiborga molik. Bundan shunday xulosaga kelamizki, jahon tendensiyalariga qaramasdan, o‘zbek lingvomadaniyatida gender chegaralari hamon saqlanib qolmoqda.

Shu o‘rinda qoraqalpoq tilidagi kiyim-kechak leksikasiga ham to‘xtalib o‘tsak. Qoraqalpoq tili o‘zining boy tarixiga ega bo‘lganligi bois kiyim-kechak leksikasida ham bu yaqqol namoyon

[186] Воробьев В.В. Лингвокультурология: Монография. — М.: Изд-во РУДН, 2008.
[187] https://tahrirlovchi.uz/lugat/kiyim

bo‘ladi. Qoraqalpoq tilidagi kiyim-kechak leksikasi xalqning madaniy, tarixiy va etnik xususiyatlarini aks ettiradi.

O‘zbek va qoraqalpoq xalqlari qadimdan bir zaminda istiqomat qilib kelganligi bois madaniy jihatdan bir-biriga juda yaqin xalqlar hisoblanadi. Yuqorida o‘zbek tili kiyim-kechak leksik semantik maydonidagi o‘ziga xos jihatlar qoraqalpoq tilidagi kiyim-kechak leksik semantik maydoniga ham hos xususiyat hisoblanadi.

O‘zbek va qoraqalpoq tilining o‘rganilayotgan "Kiyim" leksik-semantik maydonida lug‘at manbalaridan ajratib olingan leksik birlikning o‘ziga xos xususiyati ushbu birliklarning bir qismi boshqa tillardan olingan. Ushbu holat xalqlarning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy aloqalarini nazarda tutadi. Mazkur leksik birliklar arab, fors tillaridan hamda rus tili, shuningdek, rus tili orqali ingliz, fransuz va nemis tillaridan olingan. Bu so‘zlar ekzotizm bo‘lmay qolgan hamda zamonaviy o‘zbek va qoraqalpoq lingvomadaniyatida mustaqil so‘zlar sifatida qo‘llanilmoqda. Masalan: “makintosh” - inglizcha "mackintosh", "shortik" - inglizcha "shorts". Ushbu leksik birliklar bilan bir qatorda, kundalik hayotda, ommaviy axborot vositalarida hamda kiyim-kechak va moda sohasidagi mutaxassislar tomonidan keng qo‘llanilishiga qaramay, lug‘at manbalarida qayd etilmagan hamda o‘zbek va qoraqalpoq tillarining leksik tarkibiga kirmagan yana bir qancha leksik birlikni alohida ko‘rib chiqamiz. Quyidagi jadval diqqat qarating.

	O‘zbek tilidagi variant	Qoraqalpoq tilidagi variant	Asl variant	Ma’nosi
1	jaket	Jaket	jaquette (fr)	Avradan iborat beldan yuqoriga kiyiladigan ayollar ust kiyimi
2	bandaj	Bandaj	bandage (fr)	Kasallik va undan keyingi davrda, operatsiyadan oldin yoki keyin tuzatish (kasal) joyini normal holatda ushlab turish uchun tang‘ib bog‘ (kiyiladigan) maxsus kamar, belbog‘.
3	xudi	Xudi	a hoodie (ing)	Kapyushonli svitshotning bir turi bo‘lib, u kiyilganda bosh va bo‘yinning ko‘p qismini, ba’zan esa yuzni qoplaydi.
4	kapushon	kapushon	Capuchon (fr)	Yoqaga biriktirilgan bosh kiyimi ko‘rinishidagi kiyim qismi.
5	bezrukovka	bezrukovka	Безруко́вка (ru)	Odatda chuqur o‘yilgan bo‘yinli, yengsiz trikotaj pulover.

Shunday qilib, ko‘rib chiqilgan giper-giponimik paradigmalar murakkab ko‘p bosqichli ierarxik tuzilishga ega: ular turli hajmdagi mikromaydonlardan tashkil topgan bo‘lib, har biri integral elementlar asosida shakllanadi va har bir a’zosi differensial elementlarga ega. O‘zbek va qoraqalpoq tillaridagi kiyim-kechak nomlarini ifodalovchi otlarning paradigmatik munosabatlarini o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, mazkur leksik-semantik maydonlar o‘zaro qat’iy chegaralarga ega bo‘lmagan mikromaydonlarni o‘z ichiga oladi. Buning sababi shundaki, bir

xil ma’noda qo‘llanilgan ko‘plab so‘zlar bir vaqtning o‘zida bir nechta paradigmalarning a’zolari hisoblanadi.

Shunday qilib, tuzilgan leksik-semantik maydonlar asosida o‘zbek va qoraqalpoq tillarida kiyim-kechak sohasi leksikasining o‘zaro ta’sirining lingvomadaniy xususiyatlarini taqqoslashimiz va yuqoridagi lingvomadaniyatlarning xususiyatlarini ochib berishimiz mumkin.

O‘rganilayotgan tillardagi leksik-semantik maydonlarni taqqoslashda, dastlab, ushbu lingvomadaniyatlarda "kiyim" tushunchasining keng ma’nodagi tahlilini o‘tkazish lozim. Bu o‘rinda biz tushunchalar va tasavvurlarning sezilarli o‘xshashligini ko‘ramiz. O‘rganilayotgan lingvomadaniyatlarda "kiyim" tanaga kiyiladigan, muayyan tadbirlarga mo‘ljallangan, ma’lum bir maqsadda yoki ob-havo sharoitiga moslashtirilgan narsa sifatida tasavvur etiladi.

Biz lug‘atlarda qayd etilmagan, ammo kundalik hayotda, ommaviy axborot vositalarida va kasbiy sohada keng qo‘llaniladigan so‘zlar qatlamini ham aniqladik. Shubhasiz, bu qatlam o‘zbek va qoraqalpoq tillarida ancha keng bo‘lib, unga asosan ingliz tilidan o‘zlashgan leksik birliklar kiradi. Shunga asoslanib, o‘zbek va qoraqalpoq tillari ushbu leksik birliklarni qo‘llashiga qaramay, ularni tilning lug‘at tarkibiga to‘liq kiritmasdan, o‘ziga xos tarzda ajratib turadi, deb hisoblaymiz. Bizningcha, bu holat madaniy makonning o‘ziga xosligini saqlash yo‘llarini izlash tendensiyasini ko‘rsatadi. Chunki hozirgi davrda madaniy va til chegaralari ochilayotgan bir paytda, lingvomadaniyatlarning o‘ziga xosligini saqlab qolish masalasi dolzarb bo‘lib turibdi.

Shunga qaramay, o‘zbek va qoraqalpoq tillarining leksik tarkibida ingliz tili leksik birliklarning kichik foizini kuzatamiz. Bizning fikrimizcha, bu globallashuv, madaniyatlararo muloqot, iqtisodiy, siyosiy va madaniy chegaralarning yo‘qolishi, shuningdek, ingliz tilining lingvomadaniy ta’sirga ega global til sifatida qabul qilinishining dunyoda hukmron tendensiyasining natijasidir.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda til va madaniyatlarning o‘zaro ta’siri davrida biz uchun nafaqat ularni o‘rganish, balki o‘z millatimizning o‘ziga xosligi va individualligini saqlab qolish masalasi ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Leksik sath birliklarini tizimlashtirish shakli sifatida maydon usuli eng samarali usullardan biri sifatida e’tirof etiladi, chunki u jamiyatning lingvomadaniy xususiyatlarini ochib berishga yordam beradi, bu esa antropologik yo‘nalishdagi fan rivojlanishining hozirgi bosqichida dolzarb hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Стернин И.А. Контрастивная лингвистика. Проблемы теории и методики исследования. — М., 2007.

2. Ощепкова В.В. Язык и культура Великобритании, США, Канады, Австралии, Новой Зеландии. — М.; СПб.: ГЛОССА/КАРО, 2004.

3. Караулов Ю.Н. Общая и русская идеография / Отв. ред. С.Г. Бархударов. — Изд. 2-е. — М.: Книжный дом «ЛИБРИКОМ», 2010.

4. Серебренников Б.А. Общее языкознание. Внутренняя структура языка / Отв. ред. Б.А. Серебренников. — М.: Наука, 1972.

5. Вендина Т.И. Русская языковая картина мира сквозь призму словообразования (макрокосм). — М.: Индрик, 1998.

6. Воробьев В.В. Лингвокультурология: Монография. — М.: Изд-во РУДН, 2008.

7. Ермолаева Л.С. Неогумбольдтианское направление в современном буржуазном языкознании // Проблемы общего и частного языкознания / Под ред. В.Г. Костомарова. — М., 1960. — С. 47—85.

8. Современный русский язык: Учебник / Под общей ред. Л.А. Новикова. — СПб.: Изд-во «Лань», 2003.

9. Воробьев В.В. Лингвокультурология: Монография. — М.: Изд-во РУДН, 2008.

10. https://tahrirlovchi.uz/lugat/kiyim.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 1-son)

FILOLOGIYA

PHILOLOGY

THE COGNITIVE AND DEVELOPMENTAL IMPACT OF EARLY CHILDHOOD MULTILINGUALISM

Uktamova Mokhigul Khamidullo kizi
Senior teacher of English philology department, Fergana state university
uktamovamoxigul@gmail.com
Akbarova Sarvinoz Maqsudjon kizi
Fergana State University student

Annotation: This article explains the benefits of learning multiple languages for young learners. Those who speak multiple languages have better listening skills, increased concentration, enhanced memory, and improved problem-solving and critical-thinking abilities.

Key words: language, skills, importance, communication, open-minded, connection, learning, children.

INTRODUCTION

Many scientists have stated that learning a second language at a young age is crucial. The question, "Why teach many languages to young learners?" can be answered for a number of reasons. For instance, fostering a joyful and upbeat learning atmosphere can give children a strong basis for success in more challenging courses later in life. Bilingual children learn more quickly and easily, are more creative and capable of solving problems, and have more career options as adults. They also observe that they are less likely to suffer from age-related mental illnesses as they age because it is simpler for them to connect with people from different cultures, which makes them more accepting and tolerant of diversity. The most importantly, it is much easier to learn a second language at a very young age.

Furthermore, the burden of teaching a second language has lessened over time. To help kids learn more quickly, scientists are always researching how second languages are acquired and developing new teaching strategies. Additionally, the growing demand for language programs has given rise to a whole new market for international vacation camps that offer language instruction, allowing young students to take advantage of their favorite activities while simultaneously learning a new language. Young children pick up languages more quickly and easily, which is one of the many benefits of learning a second language. They have a brain built for language learning, plenty of time to study, little to learn, and fewer restrictions. To put it briefly, teaching your child a second language from an early age spares them from having to learn one as an adult. Young students are biologically similar to sponges.

MATERIALS AND METHODS

Children's brains are made to inadvertently take in new information. They do this in a similar way to how adults unconsciously pick up the melodies, rhythms, and lyrics of songs. According to Dr. Paul Thompson, a professor of neurology at UCLA, and his colleagues, the brain systems that are specifically involved in learning a new language grow significantly between the ages of six and puberty. Then, during pubescence, between the ages of 11 and 15, these systems mostly shut down and cease growing. Babies are able to differentiate between all sounds in all languages between the ages of 10 and 12. They can now only differentiate between the language sounds that are necessary to convey meaning, based on their exposure to other languages. The "L" and "R" sounds are not distinguished in the Japanese language. Japanese infants as young as 10 months old can distinguish between these sounds. They then lose their ability to discriminate between the ages of 10 and 12 months. The fact that young learners think more simply than adults is another benefit of learning a second language at a very young age. They think less conceptually and use fewer words and simple sentence structures.

Speaking in their second language allows children who are learning the language to express their concrete ideas and emotions without feeling overwhelmed. As these children grow into adults, they acquire the ability to communicate in both their mother tongue and a second language. To fully express themselves in their second languages, adults must translate complex sentence structures and abstract anxiety, which is a difficult task. What is the difference between the books you read as a child and the ones you read now? Remember that in order to understand the texts you can read today, you had to study and read for many years. The same is true for speaking, writing, and even listening. To be able to communicate as you do in your mother tongue, it took at least 15 years of formal education.

Time is one of the main benefits of learning a second language at a young age. The learners have time on their side. They can start small and unremarkable and simultaneously advance to higher mental and communication levels. When learning a second language, children are far more advantageous than adults. Young people who acquire a second language grow up to be highly skilled, innovative thinkers and problem solvers. As children attempt to figure out which language to use and when, their brains undergo a lifelong workout. Additionally, researchers have found that children who are bilingual and have improved problem-solving abilities perform better on standardized tests and are better at planning, multitasking, and focusing. Early exposure to a second language can help guide your children toward success.

RESULTS AND DISCUSSION

Children who are bilingual undergo ongoing mental training as they learn to communicate using multiple language methods. In the 20th century, scholars and educators discouraged learning a second language. It was believed that the second language interfered with children's intellectual and cognitive development. However, there is evidence that bilingual children experience interference from language systems, which leads to internal conflict that helps them become adept at solving problems. A collection of data from multiple studies shows that

mastering a second language improves executive function in the brain. Thus, bilingual children are more adept at:

Problem solving

Planning

Concentration

Multitasking

One of the many benefits of learning a second language early in life is improved exam scores. Students who learn a second language perform better on standardized tests such as the American College Test (ACT) and the SAT verbal section. the fact that the more time a student spends learning a second language, the better their test scores will be. The encouragement to be creative is another advantage of learning a second language early. It has been substantiated by numerous studies. It is believed that language development proceeds through normal learning processes, where children absorb the forms, meanings, and usage of words and expressions from linguistic input. Children frequently start mimicking the words they are repeatedly exposed to. Although the framework for enhancing language proficiency is broad, the primary focus is on the process of learning syntax. The two main schools of thought on syntactic development are empiricist, which holds that children pick up all syntactic rules from language input, and nativist, which holds that other syntactic principles are innate and passed down through human genomes.

"The principles of neural organization that might be even more profoundly grounded in physical law" or "the millions of years of evolution" are the two possible explanations for language's unusual human performance, according to Noam Chomsky's nativist theory. Many children have an innate language acquisition device (LAD), according to Chomsky. According to theory, a set of universal syntactic rules for entire languages are found in the LAD, a region of the brain. With little experience and little outside input, this tool helps students make sense of what they've learned and construct new sentences. Chomsky stated that it is based on the belief that children's linguistic input, or what they hear, is insufficient to explain how they acquire language. He observes that environmental linguistic input is sparse and rife with errors. Because of this, nativists believe that children cannot learn language just by observing their surroundings. However, children learn this LAD—that is, the ability to learn language despite the incompleteness of the information they receive from their surroundings. The theory of common grammar (UG), which holds that a particular set of structural rules are innate to humans and independent of sensory experience, is also credited with their language acquisition scale. As demonstrated by the abundance of articles in books and journals, this sign has dominated linguistic theory for over fifty years and has remained extremely influential. Contrary to Chomsky, the empiricist theory contends that children's linguistic input contains sufficient information, negating the need to presume the existence of an innate language acquisition mechanism. Empirists believe that general brain advancements are capable of language

acquisition, rather than the LAD's special contributions to language. The child must actively engage with their surroundings during this process.

CONCLUSION

Parents or other caregivers must adopt a particular style of appropriate communication with their children in order for them to learn language; this is known as child-directed speech (CDS). Children consume CDS in order to acquire the crucial language knowledge required for their language. Empiricism is a popular approach that sometimes complements the interactionist methodology. Babies learn language through example concepts, according to statistical language acquisition, which is a branch of empiricist theory.

One of the most popular tests of creativity is the Torrance Tests of Creative Thinking (TTCT), which were developed in 1962 by Ellis Paul Torrance. These assessments are designed to gauge "divergent thinking," or thinking creatively and outside the box. Four categories—originality, elaboration, fluency, and flexibility—are used to identify participants' divergent thinking.

REFERENCE:

1. Baker, C. (2006). Foundations of Bilingual Education and Bilingualism. Multilingual Matters.
2. Chomsky, N. (1965). Aspects of the Theory of Syntax. MIT Press.
3. Cummins, J. (2000). Language, Power, and Pedagogy: Bilingual Children in the Crossfire. Multilingual Matters.
4. De Houwer, A. (2009). Bilingual First Language Acquisition. Multilingual Matters.
5. Genesee, F. (2008). Dual Language Development and Disorders: A Handbook on Bilingualism and Second Language Learning. Paul H. Brookes Publishing.
6. Hakuta, K. (1986). Mirror of Language: The Debate on Bilingualism. Basic Books.
7. Kovács, Á. M., & Mehler, J. (2009). "Cognitive gains in 7-month-old bilingual infants." Proceedings of the National Academy of Sciences, 106(16), 6556-6560.
8. Lindgren, E. (2010). "The bilingual advantage: Cognitive benefits from early bilingualism." International Journal of Bilingual Education and Bilingualism, 13(4), 429-440.
9. Marian, V., & Shook, A. (2012). "The cognitive benefits of being bilingual." Cerebrum, 2012.
10. Peal, E., & Lambert, W. E. (1962). "The relation of bilingualism to intelligence." Psychological Monographs: General and Applied, 76(27), 1-23.
11. Pérez, M. (2014). "Early bilingualism and cognitive development." Journal of Language and Literacy Education, 10(1), 1-20.
12. Romaine, S. (1995). Bilingualism. Routledge.
13. Snow, C. E. (1990). "Academic language and the challenge of reading for understanding." Reading Research Quarterly, 25(4), 391-414.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 1-son)

FILOLOGIYA

PHILOLOGY

THE ANALYSIS OF LANGUAGE AS A MECHANISM FOR FACILITATING CROSS-CULTURAL CONNECTIVITY

Uktamova Mokhigul Khamidullo kizi
Senior teacher of English philology department,
Fergana state university
uktamovamoxigul@gmail.com
Akbarova Sarvinoz Maqsudjon kizi
Fergana State University student

Annotation: This article discusses the function of language in various cultures, its diversity and linguistic features, and how it affects people's ability to comprehend their own culture when it is spoken in other nations. International scientists' leading theoretical conceptions serve as the foundation for learning the significance of language in various cultures.

Key words: language, culture, diversity, social differences, ethnicity, cross-cultural interactions, impacts.

INTRODUCTION

It is impossible to overstate the importance of language in fostering successful cross-cultural collaboration. According to Schmid (2001), language is a faculty of the human brain. It helps people understand both their own and other cultures. There are numerous nations with a wide variety of cultures. When learning about a foreign nation, one may encounter obstacles to social integration brought about by cultural differences. According to Solomon and Schell (2009), cultural diversity can result in misinterpretations of other nations' cultures and ideas. Language is used to address cultural differences and promote in-depth perspectives of the foreign nation. The following paper will discuss whether learning a language is required when studying abroad, keeping in mind that culture is a significant point of interaction and the role that language plays in experiencing culture holistically. The article will distinguish between the various cultural differences indicated by the essential elements and universal communication of language in the stack of ideas in order to establish the significance of the language. A group's beliefs, language, and social customs are all part of its culture. Chen (2009) asserts that culture has an impact on how people interact, perceive one another, and behave in ways that are enhanced by cultural address. One society's differences are described by its culture. Moreover, language is very critical for peculiar social integration. According to Kim (2001), people from different cultural backgrounds exchange ideas as a result of cross-cultural communication.

According to Li, language is an essential component of cross-cultural communication because it fosters open communication between people from different cultural backgrounds and brings them together.

According to Tochon (2009), language has a unique cultural meaning and is a significant component of culture. Language promotes letting go of other people's ethnic similarities and learning how different cultures view one another, according to Chen (2009). That being said, Samovar and Porter (2004) found that language is how people experience and acquire culture. Language appears to be the primary medium through which culture is transmitted. Because of this, depending on a number of different perspectives, language plays a crucial part in promoting a thorough understanding of a nation. For this reason, learning the language is now a must when studying in a nation.

MATERIALS AND METHODS

Language diversity contributes to the existence of obstacles that prevent other groups' cultures from being explored. The continuum of intercultural communication is crucial when examining the nonverbal characteristics, relationships, and norms that influence a nation (Beamer & Varner 2009). Even though learning a language is important when studying a different culture, the era of new media has eliminated the cultural barriers that existed in traditional societies, which means that language is no longer necessary (Laponce 2003).

It is evident that Beamer and Varner (2009) contended that a variety of measurements provide a means of readily comprehending a culture or identity without the need to learn the language of that culture. For instance, a nation's culture is composed of symbols that can be understood through observation. According to Appiah (2006), a skilled intercultural communicator possesses the qualities of flexibility and the capacity to tolerate uncertainty. Furthermore, by explaining the symbols, flexibility and open-mindedness are essential components that can be used to investigate a nation's cultural phase.

Maloof, Rubin, and Miller mention non-language codes as additive language in multicultural communication. For this reason, the codes offer a forum for communication and exploration of the senses in a foreign culture. The non-language codes are linked to a community's culture; they allow people to explain phrases across cultural boundaries without having to learn the potential language. For example, in soaring context cultures, meaning is assigned and the various aspects of the nation are learned through the use of body language, facial expressions, and objects that are symbolic to the culture. Furthermore, effective cross-cultural communication involves many different aspects of interactions and is not solely dependent on language (Wiseman 2003). Because of this, nationalization and the use of existing foundations, like the employment of interpreters and the capacity to decipher symbols, offer alternatives that can be used to promote successful integration in a new nation (Chen 2009). The world has become more interconnected in recent years, and a diverse range of cultures and races now make up modern society. According to Laponce (2003), new forms of communication and technological advancement have caused a dramatic increase in global connectivity. Multifaceted

cultural hybridization has occurred worldwide, despite the fact that globalization has not eliminated cultural disparities. For example, the variety of cultures has produced systematic cultural values that facilitate the removal of barriers that previously existed due to linguistic diversity. The information about the cultural relativity and connections have been brought by the globalization.

RESULTS AND DISCUSSION

According to Li, international languages have been incorporated into various domains of the world, and communication is flexible in the modern world. Both the global and rural levels have witnessed the ensuing hybridization and cultural integration. The effective media has fueled globalization and changed many facets of human society. People from various nations, for instance, oversee the existence of multinational corporations and propel global economic expansion.

Furthermore, Tochon (2009) pointed out that the 21st century, with its technological advancements and the advent of the new media age, has brought about sociocultural shifts and new perspectives on what society is. Cultural interaction has been reexamined in the new distribution. As a result, cross-cultural communication that is not based only on language has emerged. As a result, people can communicate and promote release across many dimensions of the world's interconnectedness without having to learn a foreign language. Due to their widespread use and ease of learning, international languages have created a platform for communication. The medium used for communication is language. It plays a crucial part in comprehending the wealth of ideas pertaining to a particular community. Language is a communication tool that facilitates interpersonal communication, according to Fisher (2008). However, as Solomon and Schell (2009) point out, language enhances self-awareness and shapes assumptions. Language plays a crucial part in breaking down social barriers and facilitating smooth interactions with locals in an intercultural context. Nonetheless, interactions are not restricted by a lack of proficiency in the native tongue.

CONCLUSION

We live in a globalized world. Internationally recognized languages that serve as a resource for interactions in a number of international forums have boosted and fueled acceptance of a global culture. Many aspects of nationalization and technology alter interactions, even though language plays a crucial part in cross-cultural communication. Therefore, it is possible to study in a nation without being able to speak the language.

REFERENCES:

1. Beamer, L & Varner, I 2009, multicultural communication in the global work, Dongbei University of Finance & Economics Press, Dalian.

2. Fisher, G 2008, Mindsets: The role of culture and expression in international relations, Intercultural Press, Yarmouth, ME.

3. Kim, Y 2001, Becoming multicultural: A consolidative theory of communication and cross-cultural adjustment, Sage, Thousand Oaks, CA. Web.

4. Laponca, J 2003, Babel and the market: Geostrategies for minor languages, Cambridge University Press, Cambridge, UK.

5. Li, Y 2011, ‘Cross-Cultural Communication between American and Chinese Colleagues in Multinational Organizations’, Proceedings of the New York State Communication Association.

6. Maloof, V, Rubin, D, & Miller, A 2006, ‘Cultural competence and identity in cross-cultural adaptation: The role of a Vietnamese heritage language school’, International Journal of Bilingual Education and Bilingualism.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 1-son)

FILOLOGIYA

PHILOLOGY

MODAL FE’LLAR VA GERUNDLARNING INGLIZ RASMIY MULOQOTIDAGI O‘RNI.

Dexqonboy nabirasi Omongul Maxamadsoli qizi
Farg‘ona politexnika instituti assistenti, Omongulxon@ferpi.uz

Annotatsiya: Mazkur maqolada rasmiy nutqda gerundlar va modal fe’llarning ahamiyati ko‘rib chiqilgan. Gerundlar nutq tuzilishini soddalashtiruvchi va muloqotning izchilligini ta’minlovchi vosita sifatida namoyon bo‘lsa, modal fe’llar xushmuomalalik, aniqlik va zaruratni ifodalashda muhim rol o‘ynaydi. Shuningdek, xalqaro va madaniyatlararo muloqot kontekstida rasmiy nutqning samaradorligi pragmatik ma’no, kommunikativ niyat va nutq aktlarining to‘g‘ri qo‘llanilishiga bog‘liq ekani ta’kidlangan. Ushbu tadqiqot rasmiy muloqotning aniqligi va samaradorligini oshirish uchun gerundlar va modal fe’llarni to‘g‘ri qo‘llashning ahamiyatini yoritadi.

Kalit so‘zlar: gerundlar, modal fe’llar, rasmiy muloqot, pragmatik ma’no, kommunikativ niyat, nutq aktlari, xalqaro muloqot, madaniyatlararo aloqalar, tahliliy tadqiqot.

Kirish: Hozirgi xalqaro va madaniyatlararo muloqot kontekstida rasmiy muloqot katta ahamiyatga ega, chunki barcha siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni hal qilish ularning to‘g‘ri tushunilishi va talqiniga bog‘liq. Ko‘plab tilshunoslar va boshqa soha mutaxassislari rasmiy nutqni fanlararo tadqiqot sohasi sifatida o‘rganishga qiziqish bildirmoqda [1]. Modal fe’llar va gerundlar rasmiy muloqotda muhim rol o‘ynaydi, har biri muloqotning aniqligi va ohangiga hissa qo‘shuvchi o‘ziga xos funksiyalarga ega.

Adabiyotlar tahlili va metod. Nutqiy etiket ostida, odatda, jamiyatda ishlab chiqilgan nutqiy xulq-atvor qoidalari, shuningdek, muloqotning nutqiy formulalari tizimi tushuniladi. Tilshunoslikda tobora ko‘proq e’tibor muloqot nazariyasiga qaratilmoqda va birinchi o‘ringa odamlardagi nutqiy xulq-atvor muammolari, shuningdek, alohida til shaxsi va uning shakllanishi chiqmoqda. Til vositalari milliy-madaniy omillarni hisobga olgan holda kompleks tarzda o‘rganiladi [2].

N.I. Formanovskaya (1982) nutqiy etiketning kommunikativ funksiyasiga asoslangan maxsus funksiyalarini ajratib ko‘rsatgan: "aloqa o‘rnatish, tartibga solish, hissiy-modal va adresatga yo‘naltirilgan funktsiyalar". Muloqot jarayonida nutqiy etiket funksiyalarining mavjudligi muvaffaqiyatli kommunikatsiyaning majburiy sharti sifatida qaraladi, uning yordamida odamlar bir-birlariga ma’lumot uzatadilar, savollarga javob beradilar yoki ularni beradilar, ma’lum bir nutqiy harakatlarni amalga oshiradilar (murojaat qiladilar,

salomlashadilar, minnatdorchilik bildirishadi va hokazo). Shuni unutmaslik kerakki, nutqiy etiketning ko‘plab sinonimik formulalari mavjud bo‘lib, muloqotdan kutilgan harakatni samarali amalga oshirish uchun ularning barcha spektridan foydalanish zarur [4].

Modal fe’llar, ayniqsa, biznes yozishmalari kabi nozik kontekstlarda nutq so‘zlovchining qarashlarini ifodalash va xushmuomalalikni saqlashda muhim rol o‘ynaydi. Ular hukmlar va buyruqlarni yumshatishga yordam beradi, bu esa yomon xabarni etkazishda hamda shaxslararo munosabatlarni saqlashda zarurdir. Modal fe’llarning tanlovi va qo‘llanilishi tarjimonning madaniy va tarixiy kontekstiga bog‘liq holda o‘zgarishi mumkin. Bu tarjima matnlarining uslubi va talqiniga ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli, modal fe’llardan foydalanilayotgan kontekstni tushunish aniq muloqot uchun muhimdir [5].

Gerundlar, nominal va fe’lga oid shakllarda, diskursda turli rollarni bajaradi. Nominal gerundlar nutqda ishtirokchi vazifasini bajaradi, verbal gerundlar esa ishtirokchilar o‘rtasida bog‘lovchi sifatida xizmat qiladi. Bu tafovut rasmiy muloqotda izchillik va aniqlikni saqlash uchun muhimdir. Ba’zi tillarda gerundlar kirish-modal kontekstlarda qo‘llanilib, ular subyektiv qiymatlar va so‘zlovchining yetkazilayotgan ma’lumotga nisbatan nuqtai nazarini ifodalaydi. Ushbu foydalanish so‘zlovchining axloqiy yoki mantiqiy mulohazalarini aks ettirishi mumkin, bu esa rasmiy nutqqa chuqurlik qo‘shadi.

Gerundlar va modal fe’llar rasmiy nutqda nima uchun muhim?

1. **Professional ohang**: Gerundlar va modal fe’llar rasmiy muloqotda ishonchlilik uchun zarur bo‘lgan jiddiy va professional ohangni saqlashga yordam beradi.
2. **Maqsadning aniqligi**: Gerundlar muloqot tuzilishini soddalashtirsa, modal fe’llar niyat va zaruratni aniqlashtiradi.
3. **Moslashuvchanlik**: Ularni to‘g‘ri qo‘llash, muloqotda to‘g‘ridan-to‘g‘rilik va xushmuomalalikni muvozanatlashga imkon beradi, bu esa gapni haddan tashqari qattiq yoki keskin bo‘lmasdan samarali qiladi.

Ingliz tili rasmiy nutqida gerundlardan foydalanishning Grammatik tahlili:

Ega sifatida: *"**Implementing** new policies is essential for organizational growth."(Yangi siyosatlarni joriy etish tashkilotning o‘sishi uchun muhimdir)*

To‘ldiruvchi sifatida: *"The committee recommends **revising** the current guidelines." (Qo‘mita amaldagi ko‘rsatmalarni qayta ko‘rib chiqishni tavsiya qiladi.)*

Ingliz tili rasmiy nutqida modal fe’llarning turli maqsadlarda foydalanishi: Majburiyat yoki zaruratni ifodalash uchun: *"All employees **must** complete the compliance training by January 31. (Barcha xodimlar 31-yanvargacha muvofiqlik bo‘yicha treningni tugatishi shart.)*

*"You **should** review the draft before submitting it to the board." (Loyihani topshirishdan oldin, siz uni ko‘rib chiqishingiz kerak.)*

Ruxsat yoki imkoniyatni ifodalash uchun: *"Team members **may** request additional resources if needed." (Jamoa a’zolari kerak bo‘lsa, qo‘shimcha resurslarni so‘rashlari mumkin.)*

*"The project **can** start once we receive final approval." (Loyiha oxirgi tasdiqni olganimizdan keyin boshlanishi mumkin.)*

Xushmuomalalik bilan so‘rovlar qilish uchun: *"**Could** you provide a detailed update on the progress by Monday?" (Siz dushanbagacha loyiha bo‘yicha batafsil hisobot bera olasizmi?)*

*"**Would** you consider extending the deadline for this task?" (Bu vazifa muddatini uzaytirishni o‘ylab ko‘rasizmi?)*

Ehtimollik yoki ishonchlilikni ifodalash uchun: *"The new strategy **will** significantly impact our market position." ("Yangi strategiya bozordagi o‘rnimizga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi."*

*"Delays **might** occur due to supply chain disruptions." (Ta’minot zanjiridagi uzilishlar sababli kechikishlar yuzaga kelishi mumkin.)*

Maslahat yoki taklif berish uchun: *"We **should** explore alternative funding options for this initiative." ("Biz ushbu tashabbus uchun muqobil moliyalashtirish variantlarini o‘rganishimiz kerak.)*

"Management could consider revising the current performance metrics. (Rahbariyat amaldagi ish ko‘rsatkichlarini qayta ko‘rib chiqishni o‘ylashi mumkin.)

Muhokama va natija. Rasmiy muloqotda gerundlar va modal fe’llar til vositalari sifatida asosiy rol o‘ynaydi. Gerundlar nutqning grammatik tuzilmasini soddalashtiradi, izchillikni ta’minlaydi va gapning semantik boyligini oshiradi. Ular ega, to‘ldiruvchi yoki predlogdan keyin ishlatilgan holda gap tuzilishini aniq va ravon qilish imkonini beradi. Modal fe’llar esa muloqotning pragmatik jihatini, ya’ni xushmuomalalik, aniq ko‘rsatmalar berish va niyatni ifodalashda muhim vosita hisoblanadi. Modal fe’llar yordamida zarurat, ruxsat, maslahat, ehtimollik va majburiyatni ifodalash osonlashadi, bu esa rasmiy muloqotda ijobiy muhitni saqlashga yordam beradi.

Bundan tashqari, madaniyatlararo muloqot kontekstida modal fe’llar va gerundlarning qo‘llanilishi yanada muhim ahamiyat kasb etadi. Har bir madaniyat va tilning o‘ziga xosligi tarjimonlar va muloqot ishtirokchilaridan til vositalarini to‘g‘ri talqin qilishni talab qiladi. Masalan, ingliz tilida modal fe’llarning xushmuomalalikni saqlash uchun ishlatilishi xalqaro biznes va siyosiy muloqotlarda til odobiga e’tibor qaratishni taqozo etadi [2].

Modal fe’llar va gerundlar rasmiy muloqotning ajralmas qismi bo‘lib, ular til vositalari sifatida muloqotning tuzilishi, mazmuni va ohangini shakllantirishda katta rol o‘ynaydi. Gerundlar orqali rasmiy nutq soddalik va aniqlik kasb etsa, modal fe’llar xushmuomalalik va ehtiyojni yumshoq ifodalash imkonini beradi. Ularning o‘zaro moslashgan holda ishlatilishi rasmiy nutqni yanada samarali, jiddiy va muloqotga qulay qiladi.

Xulosa. Modal fe’llar va gerundlar rasmiy muloqotning ajralmas qismi bo‘lib, har biri xushmuomalalik, aniqlik va so‘zlovchining nuqtai nazarini ifodalashda o‘ziga xos hissasini qo‘shadi. Modal fe’llar shaxslararo dinamika boshqaruvini osonlashtirsa, gerundlar muloqotning strukturaviy va semantik jihatlarini boyitadi. Ularning ro’llari va to‘g‘ri qo‘llanilishini tushunish rasmiy muloqotda samarali aloqa uchun zarurdir. Gerundlar va modal fe’llarni samarali qo‘llash rasmiy nutqning aniqligini, rasmiyligini va aniq ifodaliligini oshiradi,

ularni professional muloqotning ajralmas vositalariga aylantiradi. Rasmiy muloqotning xalqaro va madaniyatlararo muloqotdagi o‘rni va ahamiyati, ayniqsa siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy masalalarni hal etishda, ushbu vositalarning to‘g‘ri qo‘llanilishiga bevosita bog‘liq. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, gerundlar va modal fe’llardan samarali foydalanish rasmiy muloqotning mazmunini boyitib, uning professional ohangini oshiradi va kelishuvga erishish imkoniyatini kuchaytiradi

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Batiuta, T. (2015). PRAGMATIC CHARACTERISTICS OF SPEECH ACTS IN OFFICIAL DOCUMENTS. , 16-23.
2. DI Ergashova, OM qizi Dexqonboyeva Hushmuomila murojaat shaklining turli darajalarda qo ‘llanilishi - Educational Research in Universal Sciences, 2023
3. Е.Н. Малюга. Роль и значение речевого этикета в английском языке делового общения, 2004
4. Формановская Н.И. Русский речевой этикет: лингвистический и методический аспек-ты. М., 1982.
5. DNOM Qizi. The use of political euphemisms in English and Uzbek languages. - International Journal of Advance Scientific Research, 2022

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 1-son)

FILOLOGIYA

PHILOLOGY

“GULXAN” JURNALIDA NASHR QILINGAN MATERIALLARDA BOLALAR TILINING LINGVOKULTUROLOGIK TAHLILI

M.O.Tillayeva
Urganch davlat universiteti
3-bosqich tayanch doktoranti

Annotatsiya Aynan lingvomadaniy yondashuv matnni madaniy-lisoniy hodisa sifatida talqin qilish imkonini beradi, bunda uni yaratgan xalqning milliy madaniyatiga xos o‘ziga xos xususiyatlar eng yorqin tarzda namoyon bo‘ladi. Shuningdek, tilni tahlil qilishda lingvokultural yondashuvning ahamiyati alohida ta’kidlanadi. Ushbu maqolada ertak, hikoya va she’rlarning “Gulxan” bolalar jurnali materiallari asosida lingvokulturologik jihatlari tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: ertak, hikoya, she’r, bolalar jurnali, “Gulxan” jurnali, lingvokulturologiya, milliy muhit, madaniyat.

Аннотация Именно лингвокультурологический подход позволяет трактовать текст как культурно-лингвистическое явление, в котором наиболее ярко проявляются специфические особенности национальной культуры народа, его создавшего. Также подчеркивается важность лингвокультурологического подхода в языковом анализе. В данной статье анализируются лингвокультурологические аспекты сказок, рассказов и стихов на основе материалов детского журнала «Гульхан».

Ключевые слова: сказка, рассказ, стихотворение, детский журнал, журнал «Гульхан», лингвокультура, национальная среда, культура.

Abstract It is the linguistic-cultural approach that makes it possible to interpret the text as a cultural-linguistic phenomenon, in which the specific characteristics of the national culture of the people who created it are most vividly manifested. Also, it is emphasized the importance of the linguocultural approach in language analysis. This article analyzes the linguistic and cultural aspects of fairy tales, stories and poems based on the materials of the "Gulkhan" children's magazine.

Key words: fairy tale, story, poem, children’s journal, “Gulkhan” journal, linguistic culture, national environment, culture.

Kirish

Bolalar tilining rivojlanishi madaniy kontekstlar bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, lingvokulturologiya yosh gapiruvchilar tiliga lingvistik va madaniy elementlarning ta’sirini o‘rganishda muhim sohaga aylanadi. "Gulxan" jurnali, O‘zbekistonda bolalar uchun mashhur

nashr, mamlakatning lingvistik va madaniy muhitini aks ettiruvchi matnlar xazinasini taqdim etadi. Ushbu tadqiqotda "Gulxan"da til va madaniyat o‘zaro ta’siri tahlil qilinib, lingvistik tuzilma va madaniy elementlarning yosh o‘quvchilarga qanday taqdim etilishi o‘rganiladi.

Tadqiqot quyidagi savollarga javob beradi:

1. "Gulxan" til materiallarida madaniy qadriyatlarni qanday aks ettiradi?

2. Bolalarga mo‘ljallangan materiallarda qanday lingvistik xususiyatlar asosiy o‘rinni egallaydi?

3. Ushbu xususiyatlar o‘quvchilarning til rivojlanishi va madaniy xabardorlikka qanday hissa qo‘shadi?

Adabiyotlar tahlili

Lingvokulturologiya soha sifatida til va madaniyatni bog‘lovchi fan bo‘lib, tilning madaniy qadriyatlarni aks ettiruvchi vosita sifatidagi o‘rganadi. Vereshchagin va Kostomarov kabi olimlar madaniy-milliy til ishlatilishi identifikatsiyani shakllantirishdagi rolini ta’kidlagan. Bolalar lingvistikasi kontekstida esa Vygotskiyning sotsiomadaniy nazariyasi madaniy vositalarning, jumladan tilning, kognitiv rivojlanishdagi ahamiyatini ta’kidlaydi.

O‘zbek bolalar adabiyotiga oid tadqiqotlar, jumladan Eshonqulov va Juraeva kabi olimlarning ishlari, "Gulxan" kabi nashrlarning pedagogik va madaniy ahamiyatini qayd etadi. Ushbu tadqiqotlar shunday jurnallar axloqiy qadriyatlar, milliy identitet va lingvistik normalarni yosh o‘quvchilarga singdirishda muhim rol o‘ynashini ko‘rsatadi.

Metodlar

Tadqiqot sifatli kontent tahliliga asoslanadi va so‘nggi besh yil davomida "Gulxan"da chop etilgan matnlarni o‘rganadi. Asosiy bosqichlar:

1. Namuna olish: Maqolalar, hikoyalar, she’rlar va topishmoqlarni tanlash.

2. Kodlash: Lingvistik xususiyatlar (masalan, lug‘at, sintaksis) va madaniy elementlarni (masalan, an‘analar, axloqiy qadriyatlar) aniqlash.

3. Tahlil qilish: Bolalar tilining lingvokulturologik xususiyatlarini ko‘rsatuvchi mavzularni tasniflash.

Natijalar

Hozirgi davrda yosh avlodni axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga qaramlikdan asrash, ularni o‘qish va sog‘lom fikrli bo‘lishga o‘rgatish juda qiyin. Shuning sababdan hozirgi zamonaviy bolalar uchun bolalar jurnallarining zamon talabiga mos bo‘lishi o‘ta muhim hisoblanadi. Shu bilan birga bolalar uchun mo‘ljallangan asarlarida milliy mentalitetning aks ettirilishi bolaning ongida o‘z millatining urf-odatlari va an’analariga mos ravishda rivojlanishiga muhit yaratib beradi. Ona tilida madaniyatni o‘rgatish va uni inson ongida shakllantirish lingvokulturologiyaning asosi hisoblanadi. V.V.Vorobyovning fikriga ko‘ra, “lingvokulturologiyaning eng muhim masalalaridan biri milliylikni o‘rganishdir”[8;22]. Shu sababli, lingvomadaniy tahlil fanlararo zamonaviy tadqiqotlarda muhim o‘rin egallashi tabiiy holdir. Shuni ta’kidlab o‘tish lozimki, til nafaqat aloqa vositasi, balki millatning madaniy kodlari ichida eng muhimlaridan biri sifatida qaraladi. Lingvokulturologiya madaniy

diskursning lisoniy paradigmasi sifatida namoyon bo‘lib, har qanday kommunikativ vaziyatda lingvomadaniy birliklarning asosiy pragmatik vazifalarini o‘z ichiga oladi. Til va madaniyatning lingvomadaniy mazmuni hodisasini atrofimizdagi lisoniy omilning mavjudlik shakllaridan biri sifatida tushunishga intilish lingvomadaniy yo‘nalishning shakllanishi va rivojlanishiga sabab bo‘lmoqda. Bu lingvomadaniy makonning o‘ziga xos talqini mavjud bo‘lib, u nafaqat milliy, balki jahon madaniyatining ham asosi hisoblanadi.

Bolalar jurnallarining asosiy qismini she’r, hikoya va ertaklar tashkil etadi. Kitobxon bolalar ularning yoshi va qabul qilish psixologiyasidan kelib chiqqan holda birini tanlab mutolaa qiladi. Misol uchun, ertaklar asosan maktabgacha va boshlang‘ich maktab bolalarida ko‘proq qiziqish uyg‘otadi. Hikoyalar esa hajmi jihatidan kattaroq bo‘lganligi sababli boshlang‘ich va yuqori maktab bolalari uchun mo‘ljallangan. Nazmiy asarlar, she’rlar, hajmi va ma’nosidn kelib chiqqan holda maktabgacha va maktab yoshidagi bolalarga birdek mos. Tadqiqotimizda ularning har birini lingvokulturologik jihatdan “Gulxan” jurnalining saytida berib boriladigan materiallari asosida alohida tahlil qilib chiqamiz.

Ertak – xalq og‘zaki ijodining asosiy janrlaridan biri bo‘lib, haqiqat va to‘qimaga asoslangan sehrli sarguzashtdir. U maishiy xususiyatga ega epik asar hisoblanadi va asosan nasr shaklida yaratiladi [1;371]. Ertaklarning tarbiyaviy ahamiyati beqiyosdir. Ular bolalarning sog‘lom muhitda o‘sishi va to‘g‘ri yo‘lga yo‘nalishiga imkon yaratadi. Bu o‘rinda V. G. Gusevning ertaklar haqidagi fikrlarini keltirib o‘tish joyizdir. Uning ta’kidlashicha, “jamiyatda inson tabiatidagi nuqsonlar real hayotda o‘z aksini topmagan taqdirda, ertaklarda g‘aroyib tarzda yechimini topadi”[7;29]. Folklorshunos olimlarning ta’kidlashicha, ko‘plab ertaklar sehr-jodu va mo‘jizalarga asoslangan. Shuning uchun ertaklar, odatda, "Bir bor, bir yo‘q..." so‘zlari bilan boshlanadi, demak, ishonish yoki ishonmaslik ertak tinglovchilari va buyurtmachilari ishi. Ammo ertaklar har doim voqea-hodisalar bayoni va mohirona tuzilgan syujeti bilan hammaning e’tiborini tortadi, shuning uchun ham bolalar tarbiyasida ertaklardan foydalanish yaxshi samara beradi, deyish mumkin. Ertaklarning bolalarga lingvokulturologik ta’sirini “Gulxan” jurnalida keltirilgan ertak parchalari misolida tahlil qilib chiqsak: “*Saroyda aqli va odobi go‘zal, ko‘rkam shahzoda voyaga yetibdi. Otasi shahzodaning* ***boshini ikkita qilmoqchi*** *bo‘libdi. O‘g‘liga husnda tengi yo‘q qizlarni ko‘rsatibdi*.”[3] Ushbu ertakda “boshini ikkita qilmoq” iborasi qo‘llanilgan. Bu o‘zbek millatiga xos ibora bo‘lib, “uylantirish” ma’nosini ifodalaydi. Yosh bola bu ibora ma’nosini ertakning davomini o‘qish orqali tushunib oladi va bola ongida ona tiliga xos bo‘lgan yangi ibora shakllanadi. Boshqa bir misolni ham tahlil qilsak: “*Mehmondo‘st Olmaxon qo‘shnisi Qarg‘ani quritilgan qo‘ziqorinlar, yong‘oqlar va donlar bilan mehmon qildi. Shu tariqa Qarg‘a qahraton qishdan eson-omon chiqib oldi.*”[6] Bu ertakda ham o‘zbek millatiga xos mehmondo‘stlik an’analarini ko‘rishimiz mumkin. Bu ertak orqali muallif bir-biriga qo‘shni bo‘lgan Olmaxon va Qarg‘a hayvonlari orqali bolalarga qo‘shnichilik va mehmondo‘stlikni namoyish etib bergan. Ertaklarda o‘quvchini qiziqtirish, uning tasavvurini o‘stirish va o‘ziga jalb qilish uchun turli badiiy vositalardan foydalaniladi. Adabiy usullar - bu yozuvchilar tomonidan odatda aniq, qiziqarli va esda qolarli matn yaratish uchun

qo‘llaniladigan maxsus til vositalaridir. So‘zlar yoki ularning qismlari biz eshitganimizda ma’lum bir ta’sir ko‘rsatish maqsadida guruhlashtirilishi yoki taqqoslanishi mumkin. Ko‘plab so‘zlar bir vaqtning o‘zida bir nechta ma’noga ega bo‘lishi mumkin va shu orqali badiiy usullarni yaratish imkoni tug‘iladi. Bunday vositalardan hikoyalarda ham foydalaniladi.

Hikoya – badiiy adabiyotda kichik epik janr, hayot hodisalari ixcham ifoda etiladigan nasriy asar [5]. Hikoya inson hayotida sodir bo‘lgan qisqa voqeani ifodalashga mo‘ljallangan. Personaj hayotida ushbu voqeadan oldin nima sodir bo‘lgani, qanday sodir bo‘lgani, kim bilan sodir bo‘lgani haqida ma’lumot berish shart emas. Zarur hollarda ba’zi tafsilotlar ko‘rsatilishi mumkin. Hikoyanavis U.Bo‘tayev hikoya janrini “barcha adabiy janrlarning sinkretik shakli sifatida lirika, drama hamda eposga xos elementlarni sintez qilishi bilan birga, yuzaki qaraganda noadabiy, ammo mohiyat e’tibori bilan umuminsoniy, demakki, adabiy, falsafiy, ilohiy elementlarga boy...”[4;6] deya ta’riflaydi. Hikoyalar orqali bolalar asosan nutqini rivojlantiradilar. Bolalar nutqida lingvokulturologik elementlarni kitob va jurnallardagi nasriy asarlar orqali ular ongida shakllantirish mumkin. “Gulxan” jurnalida keltirilgan hikoyada ayi maktab yoshidagi bolalarda milliylikni aks ettirgan parchani tahlil qilib olsak: “*Biri yog‘och hassa tutgan, boshiga katta oq ro‘mol o‘ragan, egilib zo‘rg‘a qadam tashlardi. Ikkinchisi past bo‘yli, oriq, qo‘llarini beliga tutib yurardi. Ular kelishganda biz hovlidagi temir so‘ri ustida o‘tirardik.*” Bu hikoyani o‘qirkan bola hayolida hovlida o‘tirgan ikkita buvijonlar ko‘z oldida gavdalanadi. Sababi o’zbek ayollari doimo boshida ro‘mol o‘rab yurganlar. Ayniqsa buvijonlarimiz qo‘llariga hassa tutganlarida ham, boshidan ro‘moli tushmagan.

She’r. “Gulxan” jurnalida nafaqat nasriy asarlar, balki she’riy asarlar ham doim yoritilib boradi. Quyidagi she’rga e’tibor qaratsak:

Keksalar o‘gitiga
Har dam quloq solaylik.
Duo olgan omondir,
Doim duo olaylik. [2]

Bu she’rda mentalitetimizga xos bo‘lgan odat, ya’ni, ota-onadan, yoshi kattalardan duo olish chiroyi aks ettiriligan. Jurnalning yutug‘i shundaki, u nafaqat yozuvchi va shoirlarning, balki muhlislarining ham ijodini nashr etib boradi. Yuqorida keltirilgan ijod mahsuli ham sakkizinchi sinf o‘quvchisining ijodi. Bundan ko‘rinib turibdiki, “Gulxan” jurnali orqali bolalar lingvokulturologik bilimlarni yetarli darajada qabul qila olyapti. Har qanday shoir yoki adibning kamoloti, avvalo, uning milliyligi, g‘oya va qadriyatlarga qanchalik sodiqligi va ularni o‘z ijodida qay darajada qo‘llay olishidadir. Muayyan madaniyat tashuvchisi va ijodkor shaxs sifatida, muallif dunyo haqidagi fikrlarga umum e’tirof etilgan ma’lumotlardan tashqari o‘zining shaxsiy bilimlarini ham taqdim etadi. Badiiy matnning tushunchaviy makonini o‘rganish, shubhasiz, lingvomadaniyatshunoslar uchun katta qiziqish uyg‘otadi va bu soha yanada chuqurroq tadqiqotlar o‘tkazishga munosibdir.

So‘zimiz oxirida shuni ta’kidlab o‘tmoqchimiz, bolalar hali yozilmagan oq qog‘oz singari bo‘ladi. Ularning ongini turli yovuz axborotlar o‘rniga nutqini ravon qilish hamda

lingvomadaniy bilimlarini oshirish uchun ko‘proq ertak va hikoyalar bilan to‘ldirish lozim. Ular tufayli bolaning so‘z-mantiq tafakkuri hamda emotsional sohasi rivojlanib boradi. Badiiy asarlar har bir xalqning mentaliteti, qarashlari, madaniyati, ijtimoiy-iqtisodiy hayoti haqida ma’lumot beradi.

Muhokama

Natijalar "Gulxan"ning ta’lim va madaniy vosita sifatidagi ikki tomonlama rolini ta’kidlaydi. Lingvistik jihatdan qulay kontentni madaniy boy hikoyalar bilan birlashtirish ham tilni o‘zlashtirish, ham madaniy me‘yorlarni ichki o‘zlashtirishga yordam beradi. Boshqa tillardagi shunga o‘xshash nashrlar bilan solishtirilganda, "Gulxan" milliy identitet va axloqiy ta’limga kuchli e‘tibor qaratadi.

Xulosa

"Gulxan" madaniy uzatish vositasi sifatida tilni samarali qo‘llab, yosh o‘quvchilarning lingvistik va madaniy rivojlanishiga hissa qo‘shmoqda. Uning ta’sirini yanada kuchaytirish uchun quyidagilar tavsiya etiladi:

1. Xilma-xillik: O‘zbekiston hududlaridagi turli dialekt va madaniy amaliyotlarni aks ettiruvchi hikoyalar va maqolalarni kiritish.

2. Interaktiv texnologiyalar: Jurnalning interaktiv lingvistik va madaniy mashg‘ulotlar bilan raqamli versiyasini ishlab chiqish.

3. Hamkorlik tadqiqotlari: Jurnal kontentini optimal ta’lim natijalari uchun muntazam takomillashtirish maqsadida lingvistlar va pedagoglar o‘rtasida hamkorlikni rag‘batlantirish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdulloyeva K. “Ingliz hamda o`zbek ertaklarining lingvomadaniy hamda stilistik tahlili”. Scientific progress. Volume 2, Issue 5, ISSN: 2181-1601, Toshkent-2021

2. Ahmadjonova S. Buvimning o‘gitlari. “Gulhan” jurnali. 9-son. Toshkent 2024 https://gulxan.uz/sherlar/buvimning-ogitlari

3. Alimjonova M. Antiqa shart. “Gulhan” jurnali. 10-son. Toshkent 2022 https://gulxan.uz/ertaklar/antiqa-shart

4. Bo‘tayev U. Hikoyalar. G‘afur G ‘ulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi Toshkent — 2009

5. https://uz.wikipedia.org/wiki/Hikoya

6. Tojiboyeva G. Mehmondo‘st olmaxon. “Gulhan” jurnali. 12-son. Toshkent 2022 https://gulxan.uz/ertaklar/mehmondost-olmaxon

7. Гусев Д.Е. Этика фольклора. Ленинград, Наука. 1997г.С-29.

8. Раренко, М. Б. (2009). 2009. 02. 004. Воробьев В. В. Лингвокультурология. - М. : Изд-во РУДН, 2008. - 340 с. Социальные и гуманитарные науки. Отечественная и зарубежная литература. Сер. 6, Языкознание: Реферативный журнал, (2), 22-31.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 1-son)

FILOLOGIYA

PHILOLOGY

XALQ ERTAKLARIDA AN’ANAVIY FORMULALARINING O‘ZIGA XOSLIGI

Esonov Rustam Raxmonali o‘g‘li
Qo‘qon DPI 2-kurs doktoranti
esonovrustamjon@gmail.com
Tel: +998908590906

Annotatsiya Ushbu turdagi folklor asarining janr xususiyatlari faqat ertaklarga xos bo‘lgan ma’lum bir tarkibiy, kompozitsion va lingvistik shaklning mavjudligini nazarda tutadi, shuning uchun an’anaviy formulalarning paydo bo‘lishi va ishlashi tabiiydir.

Kalit so‘zlar: ertak, an’anaviy, xalq, janr, formula, xususiyatlar.

Аннотация Жанровые особенности этого вида народного творчества заключаются лишь предполагает наличие определенной структурной, композиционной и языковой формы, характерной для сказки, поэтому возникновение и действие традиционных формул закономерно.

Ключевые слова: сказка, традиционная, народная, жанр, формула, характеристика.

Abstract Genre features of this type of folk work are only presupposes the existence of a certain structural, compositional and linguistic form characteristic of fairy tales, therefore, the emergence and operation of traditional formulas is natural.

Key words: fairy tale, traditional, folk, genre, formula, characteristics.

KIRISH

Ertakning an’anaviy formulalari (AF) - bu hikoyachi foydalanadigan umumiy qabul qilingan naqshlar, an’anaga rioya qilgan holda, bu hikoyachi shaklni saqlab qolgan holda ma’lumot va syujetni o‘zgartiradigan namunalardir.“Ertakning umumiy qabul qilingan formulalarining mohiyati yotadi. Murakkab janr sifatida ertakning o‘ziga xos xususiyatlariga bevosita bog‘liq bo‘lgan funktsiyalarida bu shunchaki “usullar” emas, balki haqiqatga o‘ziga xos munosabat ko‘rsatadi.

Ko‘plab ertak matinlarida uning an’anaviy stilistik formulalari o‘zgarmas va shuning uchun qiyinchiliksiz takrorlanadigan og‘zaki iboralar sifatida ko‘rib chiqiladi [1. Gerasimova 1978: 5].

Xalq og‘zaki ijodi bo‘yicha barcha darsliklarga kiritilgan bu fikrning qanchalik to‘g‘ri ekanligini faqat, har xil turdagi formulalarni tashkil etish tamoyillarini maxsus o‘rganish va turli madaniyatlardagi ertaklarning formulali variantlarini taqqoslash orqaligina ko‘rsatish mumkin.

An’anaviy til formulalarining mavjudligi ertak janirining eng asosiy farqlovchi xususiyatidir.

Qoida tariqasida, an’anaviy ertak formulalari dunyoning an’anaviy milliy rasmiga muvofiq guruhlarga bo‘linadi.

Yozilish tartibi jihatidan, bular harakatning boshlanishi yoki tugashini, vaqtni, joyni, yo‘nalishni bildiruvchi guruhlardir: bir vaqtlar, ma’lum bir saltanatda, ma’lum bir davlatda, bir vaqtlar (u yerda, u joyda)..; Oldin bor edi, bir qancha vaqt o‘tgach.

Bu tuzum vakillarining e’tiborini “birinchi navbatda, inson mavjudligi va jamiyat sohasiga ta’sir etuvchi omil sifatida voqealarning takrorlanishiga qaratishga sabab bo‘ladi. Voqealar davrlari qiymatlari sifatida taqdim etildi va na’munaviy model ularning umumiy, barqaror, tipik asosini tashkil etuvchi narsaga aylandi” [2. Artemenko 2004: 61].

Badiiy asar matnida bayon qilishning asosiy maqsadi - harakat joyini belgilash, harakatni bajaruvchi shaxslar va bo‘lmagan shaxslarni nomlash va harakatlarning o‘zini belgilashdir bu uchun an’anaviy formulalarni qo‘lash mo‘ljallangan.

Ko‘plab tadqiqotchilar tomonidan an’anaviy ertak formulalarini tasniflash umumiy ma’noda mos keladi.

N.Rosianuning fikricha, an’anaviy ertak formulalari uch guruh bilan ifodalanadi: boshlang‘ich, medial va yakuniy [3. Rosianu 1974: 45]. Birinchi formulalar eng muhimi sifatida ta’kidlangan. N.Ya. dastlabki formulalarning ikki turini ajratadi: vaqt formulalari (xronologik) va fazoviy formulalar (topografik).

N.M. Gerasimova ushbu sxemani yanada aniqlab berdi va hikoyachining nutqlari boshlang‘ich va yakuniy formulalar bilan tavsiflanadi, ular orasida u bosh harflarning besh turini (“mavjudlik formulalari”, “mavjudlik yoki yo‘qlik formulalari”, “vaqt formulalari”, “topografik”) aniqladi. formulalar, “ishonchsizlik formulalari”) va yakuniy formulalar (“mavjudlik formulalari”, “hikoyaning yakuniy momentini ta’kidlaydigan formulalar”, “mukofot formulalari hikoyachi", “sovg‘alarni olish va yo‘qotish formulalari”) [4. Gerasimova 1978: 18-28].

Turli xil millat ertaklarini o‘rganish shuni ko‘rsatdiki, shu jumladan lezgin, rus yoki ingliz tilidagi ertaklar matnida an’anaviy formulalar katta o‘rinni egallaydi: ular hikoyaga kiritiladi, kompozitsion maqsadlarga xizmat qiladi, harakatlar yoki voqealar sanasi, makonni ko‘rsatish, shaxslarni ifodalash, tasvirlash, majoziy va ifodali ma’noni ko‘tarish.

Ushbu bo‘limda an’anaviy formulalarning tipologik qiyosiy tahlilini o‘tkazishga harakat qilinadi, bu etnik madaniy universal va tahlil qilingan madaniyatlarni ochish va tavsiflashga yordam beradi.

1. Dastlabki an’anaviy formulalar.

a) boshlang‘ich vaqt formulalari.

Boshlang‘ich formulalarning qiyosiy tipologik tahlili shuni ko‘rsatadiki, slavyan xalqlari orasida, xususan, rus ertaklarida, boshlang‘ich formulada, odatda, vaqt ta’riflari mavjud emas, “tanishuv” rolini ko‘pincha “yashash”, “bo‘lish” fe’lining o‘tgan zamoni bajaradi. (“bir zamonlar”) va ularning turli xil variantlari (bir zamonlar va boshqalar). Masalan:

“Bir podshohlikda bir savdogar yashagan. U o‘n ikki yil nikohda yashadi va faqat bitta qizi bor edi - Go‘zal Vasilisa” (Vasilisa Go‘zal ertagidan);

“Ma’lum bir qirollikda, uzoq shtatda, qirol va malika yashagan, ularning tug‘ilishdan soqov bo‘lgan Ivan Tsarevich ismli o‘g‘li bor edi” (Jodugar va Quyoshning singlisi ertagidan).

Lezgin ertaklarida qarama-qarshi tendentsiya qayd etilgan bo‘lib, u yerda birinchi o‘rinda bo‘lgan voqealar sodir bo‘lgan vaqtni ko‘rsatib, joyni emas:

Bu viloyatda qadim zamonlarda Shohugli Shoh Abas podshohlik qilgan. Podshoh juda xursand bo‘ldi, podshoh esa viloyatdan rozi bo‘ldi, lekin Dalalubeg‘liga kelganda uning ahmoq ekanligini ko‘rdi (Dalalubegli). — “Qadimda ma’lum bir mamlakatda yashagan...”.

Shunday qilib, lazgi ertakida ertakdagi dastlabki holat ijrochisi tomonidan vaqtini belgilash ertak voqealari haqidagi hikoyaning vaqtiga mos keladi.

Ammo agar rus ertakida “ma’lum bir qirollikda, ma’lum bir davlatda” turdagi harakat joyining xarakterli fazoviy noaniqligi bo‘lsa, ingliz ertakida ularga noma’lum vaqt formulalari qarshi turadi. Ingliz ertakining odatiy boshlanishi an’anaviy hikoyachining birinchi va asosiy belgisi bo‘lgan “Opse and pon a time (u erda) ...” iborasi (xronologik formula) dir.

Bir vaqtlar o‘rmondagi toza kichkina uyda kichkina bir chol va bir kampir yashar edi".

Bir paytlar bir podshohning g‘ayrioddiy bog‘i bor ekan.

Bir vaqtlar o‘rmon yaqinidagi kichkina dachada xotini va Hansel ismli o‘g‘li bilan o‘tinchi yashar edi.

Ertak matnining bunday an’anaviy boshlanishi an’anaga ko‘ra, zamonaviy hikoyachilarga “meros bo‘yicha” o‘tgan, u bir vaqtlar o‘zidan oldingilar tomonidan yaratilgan va ertakning uzoq og‘zaki mavjudligi jarayonida takomillashtirilgan. Muallif bu holatda an’analar tarafdori va muxlisi sifatida harakat qiladi. Biroq, an’anaga qo‘shimcha ravishda, bu erda ma’lum bir selektivlik ham mavjud, chunki hikoyachilar xronologik boshlang‘ich formulani taqdim etishning umumiy shaklini saqlab qolgan holda, mavjud leksik materialni takomillashtirib, shu bilan birga so‘zlarning turli leksik-semantik variantlarini yaratadilar.

tavsifiy ifodalari ko‘pincha metaforik ekanligi va ushbu metaforik ifodalarni besh bosqichdan iborat "xalq modeli"ga ko‘ra tizimlashtirish mumkinligini ta’kidlaydi: sabab, hissiyot, nazorat, nazoratni yo‘qotish va xatti-harakat ifodasi. Minglab go‘yoki bir-biriga bog‘liq bo‘lmagan lingvistik metaforalar (masalan, "Men portlab ketaman") konseptual metaforalarning namunalaridir (masalan, "g‘azab – issiqlik"), bu esa modelning turli bosqichlaridagi (masalan, nazoratni yo‘qotish) yuqori darajadagi konseptual metaforalarning namunalaridir. Biz literal ifodalar va noverbal resurslar (masalan, yuz ifodasi, harakatlar) ham hissiyotning kognitiv tuzilmasiga kirishini ta’kidlaymiz, bu esa hissiyot ifodasiga multimodal yondashuvni shakllantiradi. Ikkinchi nazariy asos ijtimoiy semiotika nazariyasidir, xususan Maykl Hallideyning (1994) Sistemali Funktsional (SF) til modeli. SF nuqtai nazaridan, til uchta qatlamdan iborat: fonologiya/grafologiya, leksik-grammatika va diskurs semantikasi, ular realizatsiya tushunchasi orqali bog‘langan. Stratifikatsiya tamoyiliga asoslanib, biz filmda ham shunday semiotik qatlamlar mavjudligini taxmin qilamiz (Bateman va Schmidt 2011; Tseng 2009), bu 1-rasmda tasvirlangan (realizatsiya munosabatlari qiya o‘q bilan ifodalangan). Shu tariqa, hissiy ma’no va kadrlar hamda sintagmalardagi diskursiv tashkilot audio va vizual treklarda ifodalangan lingvistik va noverbal resurslar orqali amalga oshiriladi. Ushbu qatlamli semiotik model hissiy ma’no qatlamlar kesimida qanday qurilganligini o‘rganishga imkon beradi.

Ijtimoiy semiotika nazariyasiga ko‘ra, matnlar turli qatlamlarda qilingan tanlovlardan tashkil topadi (Halliday, 1994). Film holatida, sabablar va qahramonning lingvistik hamda noverbal hissiy ifodalari real hayotdagi kabi o‘z-o‘zidan yuz bermaydi, balki kinorejissyorlar tomonidan yaratilgan semiotik diskursiv tuzilmalar sifatida shakllantiriladi. Semiotik yondashuv bizga kognitiv psixologik tadqiqotlardan tashqariga chiqib, filmda hissiyotlar qanday "yaratilganini" o‘rganishga imkon beradi. Real hayotdagi hissiyotlarning sabab va ifodalar fenomenologiyasi semiotik tanlovlar uchun resurslarni taqdim etadi, psixologik hissiyot nazariyalari esa ushbu resurslarni toifalash uchun vositalar beradi (Newman, 2005).

Filmda hissiyotga sabab bo‘luvchi holat narrativ voqealar sifatida tasvirlanishi mumkin, bu voqealar hissiyot ifodasidan farq qiladi. Sabab bo‘luvchi holatga munosabat bildirilib, u og‘zaki yoki noverbal bo‘lishi mumkin bo‘lsa, ifoda bosqichiga o‘tiladi. Bu ma’noda, ichki hissiy holatni faqat sabab bo‘luvchi holat yoki hissiyot ifodasiga asoslanib tushunish mumkin. Til esa hissiy holatni leksik birliklar orqali (masalan, baxtli, g‘azablangan) ramziy tarzda kodlashi mumkin. Misol uchun, biz boshqalarning hissiy holatini “u g‘azablangan” kabi gaplar orqali bayon qilishimiz mumkin. Ammo o‘z hissiyotlarini ifodalashda, bu bizning asosiy e’tiborimiz bo‘lib, lingvistik ifodalar sabab bo‘luvchi holatni (masalan, “men ishga qabul qilindim”) yoki hissiy holatni (masalan, “o‘zimni baxtli his qilyapman”) tasvirlash uchun ishlatilishidan qat’i nazar, ifoda bosqichiga tegishlidir.

Ushbu maqolada biz sabab bo‘luvchi holatning multimodal qurilishi va qahramonning keyingi hissiy ifodasini o‘rganamiz, shu bilan birga, bunday hissiyot ifodalash bosqichlari

o‘zaro ta’sirli va qayta-qayta sodir bo‘lishi mumkinligini tan olamiz (ya’ni, hissiyot ifodasi keyingi hissiyot ifodasi uchun sabab bo‘luvchi holatga aylanishi mumkin).

XULOSA Filmda hissiyotlarning multimodal tasviri kognitiv jarayonlar va semiotik tizimlarning murakkab va dinamik o‘zaro ta’siridan iborat. Ushbu tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, filmning hissiy javoblarni uyg‘otish va shakllantirish qobiliyati alohida modalitlarga emas, balki vizual, eshitish va lingvistik elementlarning o‘zaro uyg‘un orkestratsiyasiga asoslanadi. Kognitiv tushunchalarni semiotik tahlil bilan birlashtirish orqali biz kinorejissyorlarning ushbu turli resurslardan foydalanib, hissiy ta’sirchan kino tajribalarini qanday yaratishini chuqurroq anglashga erishdik. Yuz ifodalari va tana tilining nozik o‘zgarishlaridan tortib, musiqa va ovoz dizaynining kuchli ta’sirigacha hamda tilning tasviriy kuchigacha, har bir modalitet filmning umumiy hissiy to‘qimasiga o‘z hissasini qo‘shadi. Bundan tashqari, ushbu integratsiyalashgan yondashuv tomoshabinlarning hissiy ma’noni shakllantirishda faol rolini ta’kidlaydi, ular o‘zlarining kognitiv sxemalari va madaniy tajribalaridan foydalanadilar. Ushbu tadqiqot filmda hissiyotlarni tasvirlashning ko‘p qirrali tabiatini hisobga olish muhimligini ta’kidlaydi va turli modalitetlarning o‘zaro ta’sirini va kinematik narrativlarning umumiy hissiy ta’siriga qo‘shgan hissasini o‘rganish uchun yangi yo‘llarni ochadi. Kelgusidagi tadqiqotlar madaniy asosning hissiyotlarni talqin qilishdagi ta’sirini, individual farqlarning hissiy javobchanlikdagi rolini va yangi texnologiyalarning filmda hissiyotlarning multimodal tasvirlanishiga ta’sirini o‘rganishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Bateman, John & Karl-Heinrich Schmidt. 2011. Multimodal film analysis: How films mean. London: Routledge.
2. Carroll, James M. & James A. Russell. 1997. Facial expressions in Hollywood’s portrayal of emotion. Journal of Personality and Social Psychology 72. 164–176.
3. Halliday, Michael. 1994. An introduction to functional grammar. London: Arnold.
4. Kövecses, Zoltán. 2000. Metaphor and emotion: Language, culture, and body in human feeling. Cambridge: Cambridge University Press.
5. Newman, Michael. 2005. Characterization in American independent film. Madison: University of Wisconsin-Madison dissertation.
6. Orifjonovich, O. A. (2024). Exploring Emotions in the Film Discourse and the Enduring Power of Cinematic Feelings in the Development of Cinematography. EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION, 4(9), 123-128.
7. Orifjonovich, O. A. EXPLORING THE RECREATION OF EMOTIONS AND FEELINGS IN LITERARY DISCOURSE WITHIN CINEMA DISCOURSE.
8. Orifjonovich, O. A. . (2024). The Importance of Film Annotations in Analyzing Cinema Discourse. EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION, 4(3), 252–257. Retrieved from https://inovatus.es/index.php/ejine/article/view/2711

9. Ollomurodov, A. (2024). TRANSLATION FEATURES AND RESEARCH OF METAPHORS IN MODERN LINGUISTICS. MODERN SCIENCE AND RESEARCH, 3(2), 821–828.

10. Orifjonovich, O. A. (2024). ZAMONAVIY TILSHUNOSLIKDA METAFORALARNING TARJIMA XUSUSIYATLARI VA TADQIQI.

11. Sulaymonovna, Q. N., & Orifjonovich, O. A. (2022). KONSEPTUAL METAFORALARNING LINGVOMADANIY HAMDA KOGNITIV XUSUSIYATLARI VA TIL TARAQQIYOTIDA TUTGAN ORNI. Scientific Impulse, 1(3), 594-600.

12. Orifjonovich, O. A. (2023). INGLIZ VA OZBEK TILIDAGI KONSEPTUAL METAFORALAR TARJIMASINING QIYOSIY TAHLILI.

13. Ollomurodov Arjunbek Orifjonovich. (2023). Metaphoric Analysis of “The Kite Runner” by Khaled Hosseini. American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education (2993-2769), 1(10), 573–578. Retrieved from https://grnjournal.us/index.php/STEM/article/view/2175

14. Ollomurodov , A. (2024). REFLECTION OF HUMAN PSYCHOLOGICAL AND EMOTIONAL STATE IN LITERARY DISCOURSE. Modern Science and Research, 3(1), 600–606.

15. Orifjonovich, O. A. (2024). INSON PSIXOLOGIK-EMOTSIONAL HOLATINING BADIIY DISKURSDA AKS ETTIRILISHI.

16. Ollomurodov Arjunbek Orifjonovich. (2023). LANGUAGE AND SOCIETY IN CINEMATIC DISCOURSE. International Journal Of Literature And Languages, 3(12), 44–50. https://doi.org/10.37547/ijll/Volume03Issue12-09

17. Ollomurodov, A. (2023). COMPARATIVE ANALYSIS OF THE TRANSLATION OF CONCEPTUAL METAPHORS IN UZBEK AND ENGLISH. Modern Science and Research, 2(12), 608-614.

18. Orifjonovich, O. A. (2023). The Main Features of Conceptual Metaphors in Modern Linguistics. American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education (2993-2769), 1(9), 365-371.

19. Ollomurodov, A. (2023). CINEMA DISCOURSE ANALYSIS AND THEORETICAL FOUNDATIONS IN LINGUISTICS. Modern Science and Research, 2(10), 500-505.

20. Ollomurodov, A. (2023). MULTIDISCIPLINARY AND INTERDISCIPLINARY STUDY OF METAPHOR. Modern Science and Research, 2(9), 136-139.

21. Orifjonovich, O. A. (2023). METAFORANING KO'P TARMOQLI VA FANLARARO O'RGANILISHI.

22. Orifjonovich, O. A. (2023). KINODISKURS LINGVISTIK SISTEMANING BIR QISMI SIFATIDA. O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI, 2(23), 208-211.

23. Orifjonovich, O. A. (2023). Cognitive-Discursive Approach to the Analysis Of Film Discourse. International Journal Of Literature And Languages, 3(10), 25-31.

24. Sulaymonovna, Q. N., Tashpulatovna, K. M., & Orifjonovich, O. A. (2023). COGNITIVE AND LINGUOCULTURAL CHARACTERISTICS OF. VOLUME, 3, 30-35.

25. Sulaymonovna, Q. N., & Orifjonovich, O. A. (2023). XOLID HUSAYNIYNING ASARLARI TARJIMALARIDA KONSEPTUAL METAFORALAR TALQINI VA.

26. Sulaymonovna, Q. N., Tashpulatovna, K. M., & Orifjonovich, O. A. (2023). COGNITIVE AND LINGUOCULTURAL CHARACTERISTICS OF METAPHORS. Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities, 11(3), 849-854.

27. Sulaymonovna, Q. N., & Orifjonovich, O. A. (2023, May). XOLID HUSAYNIYNING ASARLARI TARJIMALARIDA KONSEPTUAL METAFORALAR TALQINI VA TAHLILI. In Integration Conference on Integration of Pragmalinguistics, Functional Translation Studies and Language Teaching Processes (pp. 147-150).

28. Sulaymonovna, Q. N., & Orifjonovich, O. A. (2022). KONSEPTUAL METAFORALARNING LINGVOMADANIY HAMDA KOGNITIV XUSUSIYATLARI VA TIL TARAQQIYOTIDA TUTGAN ORNI. Scientific Impulse, 1 (3), 594-600.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 1-son)

FILOLOGIYA

PHILOLOGY

ALISHER NAVOIY “XAMSA”SINING SADRIDDIN AYNIY NASHRI XUSUSIDA

Maftuna Shomurodova,
O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi,
O‘zbek tili, adabiyoti va folklori
instituti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: Navoiyshunoslik, xususan, o‘zbek navoiyshunosligi ma’lum bir tarixga ega. Bunda atoqli olim Sadriddin Ayniyning o‘ziga xos o‘rni mavjud. Maqolada olimning Alisher Navoiyning “Xamsa”sini birinchilardan bo‘lib nashrga tayyorlash borasidagi bemisl xizmatlari, benazir uslubi, ibratli sa’y-harakatlaridan bahs yuritildi. Ayniyning matnshunosligi hamda mutafakkir shoirning buyuk beshligi mazmun mohiyatini barcha kitobxonlarga yetkazishdagi tadqiqotlari tahlil qilindi.

Kalit so‘zlar: navoiyshunoslik, matn, tabdil, lug‘at, tarjima, davr, uslub, tahlil, talqin, shaxsiyat, shoir

ОБ ИЗДАНИИ САДРИДДИНОМ АЙНИ «ХАМСЫ» АЛИШЕРА НАВОИ

Аннотация: Навоиведение, в частности узбекское навоиведение, имеет определенную историю. Особая роль в этом принадлежит известному ученому Садриддину Айни. В статье говорится о беспримерных заслугах ученого, стиле Беназир, образцовом стремлении первым подготовить к печати «Хамсу» Алишера Навои. Проанализированы текстологические исследования и изыскания Айни в донесении до всех читателей сути великой пятерки поэта-мыслителя.

Ключевые слова: текст, перевод, словарь, перевод, эпоха, стиль, анализ, интерпретация, личность, поэт.

ABOUT THE SADRIDDIN AINI EDITION OF ALISHER NAVOI'S "KHAMSA"

Abstract: Navoi studies, in particular Uzbek Navoi studies, have a certain history. The outstanding scholar Sadriddin Aini has a special place in this. The article discusses the scholar's unparalleled services, unique style, and exemplary efforts in being one of the first to prepare Alisher Navoi's "Khamsa" for publication. Aini's textual studies and research in conveying the essence of the great five contents of the thinker poet to all readers were analyzed.

Key words: Navoi studies, text, translation, dictionary, translation, period, style, analysis, interpretation, personality, poet

KIRISH. Alisher Navoiy o‘z asarlari bilan turkiy dunyoda she’riyat sultoni bo‘lib tanildi. Ammo uning umumjahoniy falsafa va go‘zal badiiyatga ega asarlari butun Sharq-u G‘arbda birday o‘rganilgani ma’lum. Navoiy – tilshunos, adabiyotshunos, muarrix, siyosiy arbobdir. Biroq uning shoirlik dovrug‘i hammasidan baland. Xususan, asarlarining gultoji sanalmish “Xamsa” shoir ijodiyotidagina emas, balki dunyo adabiyotshunosligida eng ko‘p o‘rganilgan asardir. Ta’kidlash joizki, atoqli olim Sadriddin Ayniy Alisher Navoiy “Xamsa”sini birinchilardan bo‘lib to‘liq ravishda sharhlashday mashaqqatli, mas’uliyatli va ayni bir paytda sharafli mehnati bilan Sharq mumtoz adabiyotining zukko bilimdoni, mohir matnshunos, forsiy-arabiy-turkiy til lug‘atshunosi, muhibi ekanligini yana bir bor namoyish eta oldi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR. Navoiy “Xamsa”si ilk bor Sadriddin Ayniy tomonidan 1939-yili nashrga tayyorlangan va 1940-yili lotinlashtirilgan o‘zbek alifbosida chop etilgan. Bu nashr jarayonlari, xamsashunoslik faoliyati xususidagi olimning qaydlari bizgacha yetib kelganligi quvonarli. “…Bu nusxani tartibga solishda har bir doston va bo‘limlaridan xarakterli bo‘lgan parcha va misralarni terib oldim, - deydi olim, -…tushinilishi qiyin bo‘lgan ayrim so‘zlarga lug‘atcha tuzdim. Shu tanlanma nusxada duch kelgan ayrim tarixiy nomlar uchun ham qisqa tarjimayi hol yozdim” [3,11]. Ushbu ilk nashrda “Xamsa”ning XV asrda ko‘chirilgan nusxalari Ayniy qo‘lida bo‘lmaganligi sababli keyingi asrlarga oid qo‘lyozmalardan foydalangan. Lekin vaqt o‘tishi bilan “Xamsa”ning XV asrda, Navoiyning hayotlik chog‘ida ko‘chirilgan ikki nodir nusxasi topilgan. Bular Hirotning atoqli xattotlaridan Abduljamil kotib (1484 yilda) va Sultonali Mashhadiylar tomonidan (1492/93 yilda) ko‘chirilgan edi. Ayniyning ijodkorligini uning Benazir shaxsiyatisiz to‘laqonli ochib bo‘lmaydi. U har bir ishni erinmasdan, mukammal bajarishga odatlangan, haqiqatan, igna bilan quduq qaziydigan olim edi. “Xamsa”ga aloqador izlanishlari fikrimizni dalillaydi. 1947-yil yangi qo‘lyozmalarga asoslangan holda “Xamsa”ning ikkinchi nashrini tayyorlaydi. Unda solishtirishlar asosida oradagi farqlar tuzatiladi, sharhlar ko‘p o‘rinlarda ixchamlashtiriladi va Navoiy yubileyi oldidan qayta nashr etiladi. Bu kitobni Porso Shamsiyev, Sobirjon Ibrohimov va Solih Mutallibovlar tahririy jihatdan ko‘rib chiqib, bosmaga ruxsat etishadi. Keyinchalik Ayniyning noshirlik ishini davom ettirib Navoiy asarlarini bir necha bor chop etilishida xizmati singgan Porso Shamsiyev ustozi haqida haqli iqrorini keltiradi: “S.Ayniy “Xamsa” dostonlarini mohirlik bilan qisqartirib, qisqargan joylarini nasriy yo‘l bilan bezatdi. Shu bilan muxtasar “Xamsa”ni elga manzur qildi”[6,82]. Aytish mumkinki, Ayniyga qadar ham “Xamsa” dostonlarini nasriylashtirish, orginaliga nisbatan soddalashtirish borasida harakatlar bo‘lgan. Buni, jumladan Umar Boqiy, Mahzun kabi adiblar faoliyatida uchratish mumkin. Ular buyuk beshlikni barcha dostonlarini emas, balki ma’lum birlarini sharhlashgan. Ayniydan keyin ham Navoiy “Xamsa”si G‘afur G‘ulom, Yunus Latif, Inoyat Maxsumov, Manzar Abulxayr, Abduqodir Hayitmetov, Vahob Rahmonov, Naim Norqulov kabi olimlar tomonidan bir necha bor tabdil qilingan, qayta-qayta nashr etilgan va etilayotir. Zero, Navoiyning qoldirgan bitmas-tuganmas ma’naviy xazinasini o‘qish, uqish, o‘rganish bo‘yicha yakuniy xulosani aytish imkonsiz. Ammo Ayniyning “Xamsa” nashrida tutgan yo‘li tahsinga loyiq. Bu nashrda olim

ham matn aniqligini, ham asar tili jozibasini, ham badiiyat ulug‘vorligini, ham g‘oya yuksakligini, ham o‘quvchi saviyasini nazardan chetda qoldirmagan. Keyingi nashrlarda uning bu uyg‘unlikda olib borilgan tadqiq usulining har biri rivojlantirildi. Nasriy bayonlar yaratildi, lug‘atlar tuzildi, sharhlar yozildi. Ayniyning navoiyshunoslikdagi ulkan iqtidorini ko‘plab adabiyotshunoslar e’tirof etishgan, o‘rganishgan. Bu haqida adabiyotshunos Botirxon Valixo‘jayev va Rahim Vohidovlar “Navoiy ijodi – ilhom manbai” nomli risolalarining “Mangulikka qo‘yilgan izlar” ruknida qimmatli fikr-mulohazalari qarashlarimizni quvvatlaydi.

Ayniyning o‘zbek Navoiy ixlosmandlari uchun, qolaversa, keng kitobxonlar uchun amalga oshirgan ushbu xayrli ishining mahsuli o‘laroq bebaho xazina keng omma qo‘liga va diliga yetib bordi. Kitob Sadriddin Ayniyning so‘zboshisi bilan boshlanadi. Avvaliga olim fikr urg‘usini Navoiy “Xamsa”sinig orginalligiga qaratadi va bunga bir necha dalillar keltiradi: “Navoiy “Sabba’i sayyor” dostoning boshlang‘ich qismida o‘zidan ilgari shu mavzuda doston yozgan shoirlarni tanqid qilib o‘zining bu dostonini boshqa mavzuda va boshqa mundarija bilan yozganligini qayd qilib o‘tadi:

Bu sababdin bu xush fasona aro,
Balki bu xushnavo tarona aro
Yo‘q edi hech chorayu tadbir,
Kim biror yerda bo‘lmag‘ay tag‘yir” [2,5].

Shu o‘rinda Ayniy diqqatni Navoiyning o‘zidan oldingi xamsanavis ustozlariga zo‘r ehtiromi bilan birga bitilgan ularning ayrim kamchiliklarini mohirona va xolisona tanqid qilganiga qaratadi. Alisher o‘z “Xamsa”sini vujudga keltirish yo‘lida tarixni va xalq afsonalarini ham chuqur o‘rganib ulardan ustalik bilan foydalanadi. Buning isboti o‘laroq dostonlar muqaddimasidagi adibning o‘z iqrorlari bo‘lsa, keyinchalik adabiyotshunoslar tomonidan olib borilgan ilmiy ishlardir.

NATIJALAR VA MUHOKAMA. O‘tgan asr navoiyshunosligi siyosiy tazyiqlar asosida yaratilganligi ma’lim. Mutafakkir shoir ijodining ba’zi qirralariga e’tibor qaratilishi, uning siymosini ko‘rsatib berilgan chizgilarda yaratilishi shundan. Ayniyda ham bu holat bo‘rtib ko‘rinadi. Alisher Navoiy diniy, tasavvufiy, qarashlari namoyon bo‘ladigan o‘rinlar haqida faqat ishoralar mavjud. Ammo ba’zi bir talqinlar olimning shaxsiy hayoti, ijodidagi maslakdan kelib chiqqanligini ham e’tirof etish lozim. Chunki Ayniyning o‘zi ham butun umri davomida mehnatkash xalqning nohaq ezilishi, manfaatlari toptalishiga qarshi kurashib, oddiy insonlar hayoti zahmatlarini bor bo‘y-basti bilan ko‘rsatgan asarlar yaratish orqali, ularning ilmli, ziyoli bo‘lishi yo‘lida kerakli paytlarda jonbozlik ko‘rsatgani(amirga qarshi harakatlarda ishtirok etib, yangi usl maktablari ochib, kezi kelganda hech qanday moddiy manfaatlarsiz murabbiylik faoliyatlari bilan shug‘ullanib, darsliklar yaratib…) kabi Navoiy shaxsiyatidagi shu hislarni ulug‘laydi: “Alisher Navoiy o‘zining siyosiy hayotida va shaxsiy turmushida adolat uchun, xalq uchun va jamiyat axloqini tuzatish uchun qanday hormasdan, qo‘rqmasdan kurashib kelgan bo‘lsa, uning “Xamsa” singari o‘lmas asarlarida ham, o‘sha maqsad va g‘oyalarni ilgari suradi”, [2,7] - deydi navoiyshunos. Olim kirish so‘zda har bir dostonga qisqacha to‘xtalib o‘tish bilan

barobarida, “Farhod va Shirin”ga kengroq yondashadi. Chunonchi: “…o‘zidan ilgari shunday doston yozganlarning “Xusravlari” o‘rniga, asosiy qahramon qilib Farhodni oldi”, deya Navoiyning Farhodi podsholik va mansabdan nafratlangani, o‘qishga berilgani, toshtaroshlik, naqqoshlik, rassomchilik hunarlarini o‘rganib, butun ilm va ma’rifatni o‘zlashtirgani bilan muallif zamonasidagi shahzodalarga qarshi qo‘yilganini ta’kidlaydi. Xarakterlisi, Ayniy zamonasining fojialaridan, qullik kishanlaridan ma’rifat bilan harakat qilgan. Millat tarbiyasi ona tarbiyasi bilan belgilanishini anglagan Ayniy Navoiy yaratgan xotin-qizlar tasviriga urg‘u beradi. Mehnbonu va Shirinning nechoqlik marifatparvar, ilm va hunar ahlini sevuvchi va tarbiya qiluvchi, mamlakatni obod qiluvchi qahramon, vatanparvar ekanligini va hatto ularning oddiy kanizaklarigacha mutaxassis olima shaxslar ekanligini sanab o‘tadi. Ayniqsa, “Saddi Iskandariy” dostonidagi Lu’bati Chinni ham Navoiy zamonidagi ba’zi hokim tabaqa xotin-qizlariga qarshi yaratilgan obraz hisoblaydi. Bunday “…xotin-qizlarning talantlariga va ularning favqulodda san’atkorlik va qahramonlikni o‘zlarida birlashtira olishini qobiliyatiga ishongan Navoiyday dohiy shoirgina yarata oladi”, – deydi. Albatta, Sadriddin Ayniy vatan, millat qayg‘usida yaratilgan nafaqat badiiy asarlari, balki ilmiy tadqiqotlari ham bugungi olimlar uchun ibratdir. Yubiley qarorlaridagi tanlov ham uning mumtoz adabiyot bilimdoni ekanligini tasdiqlaydi. Zotan, “Navoiy Yubileyi Komitetining topshirig‘i bilan qo‘lingizdagi bu tanlanma nusxani vujudga keltirdim”, – deydi so‘zboshi muallifi.

Qisqartma nashrinining o‘ziga xosligi shunda ediki, u tuzilishi jihatidan xalq dostonlarini yodga soladigan nasr va nazm qorishig‘i uyg‘unligida shakllantirilgan edi. Bu o‘z navbatida turmush-tarzi xaq dostonlari bilan hamohang kechayotgan millat manfaatlariga mos, tushunib uqishlariga monand uslub edi. Ishni tayyorlash jarayonida Ayniy shu qadar mohirona yondashib, dostonlarning asosiy syujet chizig‘ini putursiz saqlagan holda ulardagi xarakterli bo‘lgan parchalar va misralarni ustalik bilan terib oladi. Qisqartirilgan qismlarini esa nasriy yo‘l bilan mazmunini bayon qiladi. Saralangan misralar orasidan ham o‘quvchilar tushunishi uchun murakkablik tug‘diradigan o‘rinlarga tagsatrdan sharhlar o‘rin olgan. Kitobni varoqlar ekanmiz, sharhsiz sahifalarni topish dushvordir. Bu muallifning maqsadiga daholarcha yondashganligini ko‘rsatadi. “Navoiyning shaxsiy hayotiga, yoki zamondoshlariga oid bo‘lgan joylarini izohlab o‘tdim. Ba’zi parcha va hikoyalarning tuzilishlari va ulardagi qahramonlar to‘g‘risidagi o‘z fikrimni ham bet ostida bayon qildim”[2,11], – deya Ayniy izoh beradi. Sharhlarni B.Valixo‘jayev va R.Vohidovlar ta’kidlaganidek, guruhlarga ajratib tasniflash mumkin. Masalan, tekstda uchraydigan arab, fors-tojik va eski o‘zbek tilidagi tushunilishi qiyin so‘z va terminlar izohi keladi: *xoraafgan-tosh qazuvchi; alam-bayroq; dur-uzoq; farxunda-muborak; xujasta hotif-chetdan so‘zlovchi; anog‘a-(arabcha)qiyinchilik; mahchai tug‘-bayroqning teppasiga o‘rnatilgan yarim oy; homily roz-sir ko‘rsatuvchi; yakfan-yagona bo‘lish va h.k.* Keyingisida esa murakkab tashbehli va ramzli baytlar sharhi beriladi, jumladan:

Muningdek uyqunikim, ko‘rdi jovid,
Ki uyg‘onmay yetib boshig‘a xurshid?

–“Uxlab yotgan kishining boshiga oftob kelsa, uyg‘onadi. Shoir bu misrada Shirinni ofrobga o‘xshatib, shu hodisadan foydalangan”[2,183]. Yoki:

“Kungaki, uryonliq erur ziynati,

Tiyra bo‘lur, bo‘lsa agar xil’ati.

–Havoning sofligi quyoshning yalang‘ochligida; xiraligi to‘n kiyishida, ya’ni bulut bilan burkanishida”[2,53].“Hayratul-abror”dan olingan o‘n birinchi maqolatda – olimlar, olimlik va ilm ahli haqida fikr yuritilgan bo‘lib, bayt izohi bilan Navoiyning bebaho tashbeklariga urg‘u qaratilgan.

Ayniy izohlarining yana bir guruhiga asardagi she’riy san’atlarga doir ma’lumotlar keltirilgan. Masalan: “Sab’ai sayyor” dostonidan:

…Shoh behud yer uzra, moh dog‘i,

Moh kelmay o‘ziga shoh dog‘i...

–“bu ikki misrada “tardi aks” san’ati bor, ya’ni birinchi misradagi “shoh” bilan “moh” so‘zlarini teskari qilib bergan”[2,325],-desa, yana bir o‘rinda:

O‘yla bahri falak misol ichra,

Kavkabi yer tutib hilol ichra.

–“Shoir bu ikki misrada,-deyiladi izohda,- dengizni osmonga o‘xshatgandan keyin, undagi qayiqni yangi oyga va qayiqdagi qizni yangi oy oldidagi yulduzga o‘xshatgan. Bu murakkab tashbih to‘la tashbihlarning go‘zal namunalaridandir” [2,206].

Yuqoridagi singari izohlar ham shakl va ma’no uyg‘unligini anglashga yordam bergan. Va nihoyat, tarixiy, afsonaviy shaxslar, afsona va rivoyatlar, urf-odatlarga tegishli ishoralarga berilgan tushuntirishlar nashrning qimmatini ta’minlagan va kitobxon uchun juda qiziqarli bilimlarni yetkazilishiga sabab bo‘lgan.

Dostonlardagi Ayniy sharhlari shu qadar ravon va izchilki, o‘quvchining qaysi darajadagi ma’lumot doirasiga ega bo‘lishidan qat’iy nazar tushunilishi inobatga olinganligi tayin. Jumladan, “Hayratul-abror ” dostonidagi:

Zulmung erur kunduzu fisqing kecha,

Zulm ila fisqing necha bo‘lg‘ay, necha?...

– “bu ikki misra, – deydi Ayniy sharhida – eski adabiyotda “sahli mumtani’” (ko‘rinshi va tushunilishi oson, ammo ishlanishi imkondan tashqari) deb atalgan san’atning yorqin misollaridandir”[3,24]. Ko‘rinib turibdiki, sharh ichida yana sharh berish usuli orqali hech qanday savolga o‘rin qoldirilmagan va adabiyotdan yiroq soha vakili uchun ham tushunarli tahlil dunyoga kelgan. Yoki:

Ham yuborur la’l Badaxshon sari,

Ham ketirur zirani Kirmon sari.

Shamni kunduz yoritur beadad,

Mehr ziyosig‘a beray, deb madad.

O‘yla bulutdekki, quruq bog‘ uza,

Yog‘may o‘tar, suvni to‘kar tog‘uza.

– “Bu o‘rinda muhtoj bo‘lmagan kishilarga narsa bergan kishini – la’lni la’l koni bo‘lgan Badaxshonga, zirani zira makoni bo‘lgan Kirmon viloyatiga olib boradigan(bu ikki jumla xalq maqolidan) va oftobning nuriga madad bermoqchi bo‘lib, Kunduz kuni sham yoqadigan ahmoq kishiga o‘xshatiladi. Unday kishini qurib qovjirab yotgan bog‘ga yog‘may, hojatsiz toqqa yog‘adigan bulutga tenglashtirilgan”[3,27]. Bu yerda ham o‘sha usul orqali izoh berilgan. Ko‘ramizki, yuqoridagi misralar Ayniyning matn bilan ishash mahorati yuksakligidan dalolatdir. Negaki, mazkur misralar qisqartilsa yoki faqat nasriy izohi berib ketilsa, Navoiyning san’atkorlik mahorati kitobxon uchun sezilmay qolardi. Bu Ayniy tanlagan nasr va nazm uyg‘unligidagi uslubning nechog‘li o‘rinli tanlov ekanining isbotidir. Ma’lumki, Navoiy dostonlar bobi avvalida sarlavha yanglig‘ nasriy kirish izohlari bergan. Ayniy esa har bir dostonni boblarsiz yaxlit bir butunlikda shakllantirib, Navoiyning nasriy so‘zboshilarini ham umlashmaga singdirgan. Tagsatrlarda shunday so‘zlar izohi borki, ular orqali shorihning qomusiy olim va hayotiy tajribaga boyligini ko‘ramiz. Masalan, tasviriy san’at sohasidagi atama: “Afshon – naqqoshlikda bir turli naqshning nomidir. Bu naqshda naqqosh rangni qilqalam bilan qog‘oz ustiga sepadi, bunday naqshning o‘zbekchaga aynan tarjimasi “sepma” yoki “sochma” bo‘ladi. Navoiy bu ikki misrada naqqoshikdagi mana shu san’atdan foydalanib, suvni movi varaqqa, xazon barglarini uning ustidagi zarhaldan sepilgan “sepma” naqshga va yel (shamol)ni naqqoshga o‘xshatgan”[3,38]. Bunday lug‘atlarni ko‘p uchratishimiz mumkin. Ayniy Navoiy “Xamsa”si ustida ish olib borgan davr (1939-1940)dan sal avval, aniqrog‘i, 1936-1938-yillar orasida o‘n besh ming so‘zdan iborat tojik adabiy tili lug‘atini tuzgan. Bu haqda o‘zining “Qisqacha tarjimayi holim” risolasida aytib o‘tgan[2,27]. Ayniyning o‘sha paytda olib borgan izlanishlari mazkur tabdilni qisqa muddatda muvaffaqiyatli amalga oshirishida poydevor bo‘lgani tayin.

XULOSA. Sadriddin Ayniy tomonidan tayyorlangan Navoiy “Xamsa”si sharhida undan keyin bir necha o‘n yillar davomida qilingan sharhlarda, deyarli, uchramaydigan bir xususiyatni alohida urg‘ulash o‘rinlidir. Olim dostonlarning asl mohiyati va Navoiyning tasvvufiy qarashlarini o‘zida jam etgan “hamd”, “munojot” va “na’t” kabi boblari mavjudligi haqida qisqagina bo‘lsa-da aytib o‘tish bilan o‘quvchining asar haqidagi tasavvurlarini tiniqlashtiradi.

Sadriddin Ayniy navoiyshunoslikda chekkan zahmatlari, qo‘shgan hissasi bilan ushbu sohaning endigina unayotgan niholiga abadiyat suvini quyganligi birgina “Xamsa” asri nashri bilan ham isbotlanadi. Ayniy tadqiqotchigina emas, Navoiy asarlarining jonkuyar targ‘ibotchisi ekanligi bilan ham ajralib turadi. Muhtasham navoiyshunoslik dunyosida lug‘atshunoslik, matnshunoslik, shorihlik, nazariyotchilik, talqinchilik, targ‘ibotchilik bir necha yo‘llarga bevosita Ayniy tadqiqotlari orqali boriladi. Shu bois Sadriddin Ayniy izlanishlarini atroflicha o‘rganish navoiyshunoslik ufqlarini kengayishiga xizmat qilishi shubhasiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Ayniy zamondoshlar xotirasida. Adabiyot va san’at nashriyoti. – Toshkent. 1978-yil.
2. Ayniy. Qisqacha tarjimayi holim. – Toshkent: Badiiy adabiyot nashriyoti, 1960.

3. Alisher Navoiy. Xamsa. Qisqartirib nashrga tayyorlovchi va so‘zboshi muallifi Sadriddin Ayniy. – Toshkent, 1940.

4. Alisher Navoiy. Xamsa. Qisqartirib nashrga tayyorlovchi va so‘zboshi muallifi Sadriddin Ayniy. – Toshkent, 1947.

5. Erkinov S. Navoiy “Farhod va Shirin”i va uning qiyosiy tahlili. – Toshkent: Fan, 1971.

6. Raxmonova Z. Navoiyshunoslik manzillari. – Toshkent, 2023.

7. Valixo‘jayev B., Vohidov R. Navoiy ijodi-ilhom manbai. – Toshkent: Fan, 1981.

8. P.Shamsiyev, S.Ibrohimov. Navoiy asarlari lug‘ati. – Toshkent: “Gafur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti”, 1972.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 1-son)

FILOLOGIYA

PHILOLOGY

O‘ZBEK-INGLIZ MULOQOT XULQIDA KONSENSUM KONSEPTI VA UNING LINGVOKULTUROLOGIK TADQIQI

Qodirova Munisabonu Ibrohimjon qizi
Fergana State University, Master’s student
munirasattorova879@gmail.com : 91-113-71-31

Abstract: This article explores the concept of consensus in communication behavior within the contexts of Uzbek and English languages, focusing on linguistic and cultural aspects. By analyzing how consensus is achieved and maintained in both linguistic systems, this study aims to shed light on the similarities and differences in communication styles between the two cultures. Through a combination of qualitative and quantitative research methods, including discourse analysis and cross-cultural comparisons, this research investigates the role of language, social norms, and cultural values in shaping consensus-building strategies.

Keywords: consensus, translation theory, linguistic challenges, semantic equivalence, cultural adaptation, explanatory translation, synonymous equivalent.

Аннотация: В данной статья рассматривается концепция консенсуса в коммуникативном поведении в контексте узбекского и английского языков, уделяя особое внимание лингвистическим и культурным аспектам. Анализируя, как достигается и поддерживается консенсус в обеих языковых системах, данное исследование призвано пролить свет на сходства и различия в стилях общения между двумя культурами. Благодаря сочетанию качественных и количественных методов исследования, включая анализ дискурса и межкультурные сравнения, это исследование изучает роль языка, социальных норм и культурных ценностей в формировании стратегий достижения консенсуса.

Ключевые сллова: консенсус, теория перевода, языковые трудности, семантическая эквивалентность, культурная адаптация, пояснительный перевод, синонимический эквивалент.

Annotatsiya: Ushbu maqola o‘zbek va ingliz tillari kontekstlarida muloqot xulq-atvoridagi konsensum tushunchasini o‘rganib, til va madaniy jihatlarga e’tibor qaratadi. Ikkala til tizimida konsensumga ya’ni muloqotdagi kelishuv qanday erishilganligi va saqlanib qolganligini tahlil qilish orqali ushbu tadqiqot ikki madaniyat o'rtasidagi muloqot uslublaridagi o'xshashlik va farqlarni yoritishga qaratilgan. Sifatli va miqdoriy tadqiqot usullari, jumladan nutq tahlili va madaniyatlararo taqqoslashlar kombinatsiyasi orqali ushbu tadqiqot konsensum

yaratish strategiyalarini shakllantirishda til, ijtimoiy me'yorlar va madaniy qadriyatlarning rolini o'rganadi.

Kalit so’zlar : konsensum, tarjima nazariyasi, lingvistik qiyinchiliklar, semantik moslik, madaniy adaptatsiya, izohli tarjima, sinonimik ekvivalent.

KIRISH.

Bugungi kunda ham jahon miqyosida, ham O‘zbekistonda ingliz tili kattaroq rol o‘ynamoqda va ko‘proq ta’sir o‘tkazmoqda. Ushbu hodisaning asosiy sabablari global aloqaning kengayishi va global miqyosda axborot oqimining tezligi va ko'lami hisoblanadi. Mamlakatimiz mustaqillik e’lon qilinganidan buyon o‘zbek jamiyatining barcha jabhalarida ingliz tilidan foydalanish keng tarqalgan. Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasida ta’lim tizimini tubdan qayta qurish, uni zamonaviy talablar darajasida qo‘lga kiritishga katta e’tibor qaratilmoqda. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonuni va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”da belgilangan maqsad va vazifalarni amalga oshirish maqsadida mamlakatimizda kadrlar tayyorlash tarkibi va mazmunini qayta tashkil etishning kompleks tizimi yaratilmoqda. ", jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, fan, madaniyat, texnika va texnologiyalarning zamonaviy yutuqlari nuqtai nazaridan oldinga siljishi shular jumlasidandir. Ta’limni asosiy o‘qitish tili sifatida joriy etish g‘oyasi hukumatda ta’lim sohasidagi islohotlar, ingliz tiliga bo‘lgan kuchli talab, shuningdek, bir qancha sohalarda xalqaro tendensiyalar nuqtai nazaridan ma’qul ko‘rindi.O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta’kidladi: “...chet tilini o‘rganish va o‘rgatish jamiyatimizda demokratik tamoyillarni mustahkamlashning muhim va ta’sirchan omilidir”.[188] Ayni paytda o'qish uchun eng mashhur joylar ingliz tili asosiy o'qitish tili bo'lgan ta'lim muassasalaridir. Ingliz tilida ta'lim olishni istagan odamlarga bo'lgan talabni qondirish uchun ingliz tilidagi muassasalar soni yildan-yilga ortib bormoqda.[189] Tilshunoslikda konsensum tushunchasi til orqali o‘zaro kelishuvga erishish jarayoni sifatida qaraladi. Bu tushuncha kommunikativ jarayonda ahamiyatli bo‘lib, tilning muhokama, kelishuv va qaror qabul qilishdagi o‘rnini tahlil qilishni o‘z ichiga oladi. Konsensumning lingvistik jihatlari quyidagi yo‘nalishlarda o‘rganiladi:

I. **Diskurs tahlilida konsensum**. Diskurs tahlilida konsensum tushunchasi o‘zaro muloqotda umumiy kelishuvga erishish jarayonini anglatadi. Bu jarayon turli nutqiy va pragmatik vositalar orqali amalga oshiriladi va ijtimoiy muloqotning samaradorligini oshiradi. Quyida diskurs tahlilida konsensumning asosiy jihatlari va u haqidagi batafsil ma'lumot keltiriladi

1.1. Diskursda konsensumning ma'nosi . Diskurs tahlili doirasida konsensum muloqot ishtirokchilari o‘rtasida umumiy kelishuvga erishish vositasi sifatida ko‘riladi. Bu

[188] Brown, P., & Levinson, S. C.,. Politeness: Some universals in language usage. Cambridge University Press, 1987

[189] Karimov, I. A. ,. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. Toshkent: Uzbekistan Publishing House, 1985

jarayon til vositalari, kontekst, nutq aktyorlarining maqsadi va ijtimoiy normalar orqali amalga oshadi. Konsensum o‘zaro fikr almashish jarayonida bahs-munozaralarni bartaraf etishga yordam beradi.

METODLAR.

Uslub - Manner: Aniqlik va tushunarlilik. Gapiruvchi noaniq iboralardan qochishi, izchil va ravon ifoda qilishga harakat qilishi kerak. Konsensum: Ishtirokchilar suhbat mazmunini tushunish uchun muloqot uslubining aniqligi va tushunarliligi bo‘yicha kelishishlari kerak. Konsensumning ahamiyati Grayssning nazariyasida konsensum muhim, chunki suhbat jarayonida tamoyillarga amal qilinmasa, tushunmovchilik kelib chiqadi. Ishtirokchilar hamkorlik qoidalarini bilvosita yoki to‘g‘ridan-to‘g‘ri kelishib qo‘llaydi. Qoida buzilganda, implikatura orqali gapiruvchi yoki tinglovchi kontekst yordamida yashirin ma’noni tushunishga harakat qiladi. Masalan:

Gap: "Bugun o‘qituvchining darsi o‘ta qiziq edi."

Implikatura: Tinglovchi bu gapni istehzo sifatida tushunsa, Grayss tamoyillaridan biriga amal qilinmagan, ammo konsensum tushunish uchun qayta tiklanishi mumkin. Shunday qilib, Grayss nazariyasida konsensum suhbat davomida muloqotni samarali olib borish va ma’noni to‘g‘ri tushunishning asosiy sharti hisoblanadi. Relevans nazariyasi Sperber va Wilson, 1986: Ushbu nazariya til orqali tushunish va ma’noni yaratishda kelishuvning muhimligini ta’kidlaydi[190]. Suhbatdoshlari muloqotda kontekstga muvofiq kelishuvni yaratadilar.

Til va ijtimoiy kelishuv sotsiolingvistika tadqiqotlari: William Labov 1972-yil va Dell Hymes 1974-yil kabi olimlar til va jamiyat o‘rtasidagi aloqani tadqiq etib, ma’lum jamiyatlarda til konsensusining shakllanish jarayonlarini o‘rganishgan. [191]Masalan, dialektlar yoki til variantlarini qo‘llashda kelishuvning ahamiyati. William Labovning sotsiolingvistik tadqiqotlari, William Labovning "Sotsiolingvistika: Dialektlar va Ijtimoiy O‘zgarishlar" asarida konsensum g‘oyasi tilning jamiyatdagi ijtimoiy funksiyalariga qaratiladi.[192]

Sotsiolingvistik kelishuvlar: Labovning tadqiqotlari, tilning ijtimoiy funktsiyalariga asoslanadi va til jamiyatda ijtimoiy guruhlar orasida kelishilgan normaga muvofiq ishlatilishini ko‘rsatadi. Masalan, biror dialektda yoki til variantida gapirishda jamiyatning ijtimoiy guruhlari o‘rtasida kelishilgan an’analar va me’yorlar mavjud. Bunday kelishuvlar bir guruh ichidagi tilni tushunish va qabul qilishda muhim rol o‘ynaydi.

Konsensum va ijtimoiy guruhlar: Labov o‘zining mashhur "Nyu-Yorkdagi til o‘zgarishi" (New York City Dialect Study) tadqiqotida ijtimoiy guruhlar orasidagi til farqlari va ijtimoiy stratifikatsiyani tahlil qilgan. Bu tadqiqotda konsensum, tilni ijtimoiy guruhlar o‘rtasida qabul qilish va qo‘llashda o‘zaro kelishuvni ko‘rsatadi. Ijtimoiy guruhlar o‘rtasidagi kelishuv tilning normasi sifatida mavjud.

---

[190] Sperber va Wilson, Relevans Nazariyasi, 1986

[191] Dell Hymes,1974

[192] William Labov, “Sotsiolingvistika: Dialektlar va Ijtimoiy O’zgarishlar, 1972

Dell Hymes, 1974-yilda "SPEAKING" modelini ishlab chiqdi, bu tilshunoslikda muloqotning ijtimoiy va madaniy kontekstlarini tahlil qilishda muhim ahamiyatga ega.[193] Hymesning modelida konsensum g‘oyasi, tilni ijtimoiy jarayon sifatida ko‘rish va muloqotda kelishuvni ta’minlash orqali tushuniladi:

SPEAKING modelida ijtimoiy kelishuv: Hymes muloqot jarayonida "S" (Setting and Scene), "P" (Participants), "E" (Ends), "A" (Act Sequence) kabi unsurlarni tahlil qiladi. Bu modelda, muloqot ishtirokchilari o‘zaro kelishilgan tarzda, aniq qoidalar asosida muloqot qilishlari kerak. Hymes tilni jamiyatda qanday o‘zaro kelishuv va madaniy normaga muvofiq ishlatishni tushuntiradi.

Konsensumning rolini o‘rganish: Hymesning nazariyasida konsensum, tilni ishlatishda ijtimoiy guruhlar o‘rtasidagi normaga mos keladigan, hamkorlikka asoslangan kelishuv sifatida qaraladi. Muloqotda ishtirokchilar o‘rtasida tilni tushunish va etkazish jarayonidagi kelishuvni ta’minlash jamiyatdagi madaniy va ijtimoiy me’yorlarga asoslanadi.

NATIJALAR:

Kognitiv tilshunoslik tilni inson miyasi va tafakkuri bilan bog‘liq ravishda o‘rganadi. Bu soha tilni faqatgina kommunikatsiya vositasi sifatida emas, balki inson tafakkuri, qabul qilish va tushunish jarayonlarida qanday ishlatilishini o‘rganadi. "Kelishuv" tushunchasi kognitiv tilshunoslikda til ishtirokchilari o‘rtasida ma'no va tasavvurlarni o‘zaro moslashtirish, kognitiv kelishuv yoki lingvistik konsensum sifatida ko‘rish mumkin.

Kognitiv tilshunoslikda kelishuv tushunchasi. Kognitiv tilshunoslikda kelishuv ko‘pincha quyidagi aspektlarda ko‘riladi:

1. Ma'no va kognitiv xaritalar: Til ishtirokchilari o‘rtasida kelishuv, tilning ma'nolarini o‘zaro tushunish va umumiy kognitiv xaritalar yaratish orqali amalga oshadi. Misol uchun, biror so‘zning ma'nosi yoki ibora turli kishilar tomonidan qanday tushunilishini tushunish uchun, ishtirokchilar o‘rtasida umumiy kognitiv kelishuv bo‘lishi kerak. Har bir kishi o‘z kognitiv strukturalari asosida biror so‘z yoki tushunchani qanday tushunishi, lingvistik kelishuvni ta’minlashda muhimdir.

2. Kognitiv konteks: Kognitiv kelishuv tushunchasi tilni faqat grammatik yoki sintaktik qoidalar asosida emas, balki tilni ishlatishda kontekstual va madaniy elementlarni ham hisobga olishni nazarda tutadi. Suhbatdoshlari o‘rtasida ma’no va tasavvurlarni tushunish uchun kelishilgan kontekst muhim rol o‘ynaydi. Kognitiv tilshunoslikda bu "frame" yoki "schema" (xarita) orqali tushuniladi. Bu yerda til ishtirokchilari o‘rtasida tushunish kelishuvi kognitiv tasavvurlarga asoslanadi.

3. Kognitiv konsensum: Kognitiv kelishuv kognitiv konsensumga olib keladi, ya'ni til ishtirokchilari biror predmet, voqea yoki tasavvur haqida umumiy tushuncha va tasavvurga ega bo‘lishi kerak. Bu tushuncha muloqotda til orqali amalga oshiriladi. Misol uchun, "o‘rmon"

[193] Rahmonov, T. K. ,. O‘zbek va ingliz madaniyatlarida muloqot qoidalarining qiyosiy tahlili. O‘zbek tili va adabiyoti jurnali,2015, 3(45), 21-28.

so‘zi kognitiv ravishda "yashil, daraxtlar bilan to‘la joy" deb tasavvur qilinadi. Bu tasavvur umumiy kognitiv kelishuvdan kelib chiqadi.

4. Kognitiv pragmatika: Kognitiv tilshunoslikda kelishuv shuningdek pragmatik kelishuv bilan bog‘liq. Bu, til ishtirokchilarining biror gapni yoki ifodani qanday tushunishi va qanday kontekstda ishlatishi, muloqotning samaradorligi uchun muhimdir. Masalan, til ishtirokchilari gapiruvchining niyatini yoki gapdagi yashirin ma'noni tushunish uchun kognitiv tuzilmalar va kontekstual kelishuvdan foydalanadilar.

MUHOKAMA.

Tilshunoslikda "konsensum" tushunchasi ko‘pincha tilni qo‘llashda kelishuv, til birligining umumiy qabul qilingan ma’nosi yoki til qurilmalarining o‘zaro uyg‘unligi bilan bog‘liq. Ushbu tushuncha, asosan, pragmatika, sotsiolingvistika va semantika sohalarida tadqiq etiladi. Quyida bu boradagi ba'zi muhim tadqiqot yo'nalishlari keltirilgan:

1. Konsensum va pragmatika. Pol Grayssning hamkorlik tamoyillari (1975): Pragmatik tadqiqotlarda konsensus g‘oyasi Grayssning hamkorlik tamoyillarida muhim o‘rin egallaydi. Uning nazariyasiga ko‘ra, suhbatdoshlari bir-birini tushunish uchun ma’lum darajada kelishuvga ega bo‘lishi kerak. Pol Grayssning hamkorlik tamoyillari Cooperative Principle muloqotning samaradorligi uchun ishtirokchilar o‘z gaplarini ma’lum kelishuv va qoida asosida qurishi kerakligini ta’kidlaydi. Bu tamoyil til pragmatikasida asosiy nazariyalardan biri bo‘lib, konsensum g‘oyasi muloqotda tushunishni ta’minlash uchun zarur deb qaraladi. Grayss nazariyasiga ko‘ra, muloqot ishtirokchilari o‘zaro kelishilgan tarzda quyidagi tamoyillarga amal qiladi:

Hamkorlik tamoyilining asosiy qoida va maksimlari:

1. **Sifat - Quality:** Haqiqiylikni saqlash. Gapiruvchi yolg‘on gapirmasligi va yetarli asosga ega bo‘lmagan ma’lumotni bermasligi kerak. Konsensum: Suhbat ishtirokchilari gapiruvchi bergan ma’lumotning ishonchliligi va haqiqatiga kelishib olishadi.

2. **Miqdor - Quantity**: Yetarlicha ma’lumot berish. Gapiruvchi suhbat uchun kerakli darajada ko‘p ham, kam ham emas ma’lumot taqdim qilishi kerak. Konsensum: Ma’lumot hajmi yetarli bo‘lishi va bu suhbatning maqsadlariga muvofiq kelishishi lozim.

3. **Relevans - Relation:** Muloqot maqsadiga muvofiqlik. Gapiruvchi suhbat mavzusiga aloqador bo‘lgan ma’lumotni taqdim qilishi lozim. Konsensum: Suhbatdoshlar mavzuga oid va kontekstga mos gaplar asosida kelishuvga erishadilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Brown, P., & Levinson, S. C.,. Politeness: Some universals in language usage. Cambridge University Press, 1987

2. Grice, H. P. . Logic and conversation. In P. Cole & J. L. Morgan (Eds.), Syntax and semantics: Speech acts , 1975,Vol. 3, pp. 41–58. 3. Hall, E. T. , . Beyond culture. Anchor Books.

4. Hofstede, G., . Culture's consequences: Comparing values, behaviors, institutions, and organizations across nations (2nd ed.). SAGE Publications,2001

5. Karimov, I. A. ,. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. Toshkent: Uzbekistan Publishing House, 1985

6. Qosimova, N. R. . Lingvokulturologiya asoslari. Toshkent: Fan va texnologiya.

7. Rahmonov, T. K. ,. O‘zbek va ingliz madaniyatlarida muloqot qoidalarining qiyosiy tahlili. O‘zbek tili va adabiyoti jurnali,2015, 3(45), 21–28.

8. Safarov, Sh.. Nutq madaniyati va muloqot etikasi. Toshkent: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2008

9. Tannen, D. ,. Conversational style: Analyzing talk among friends. Oxford University Press, 1972

10. Wierzbicka, A. . Cross-cultural pragmatics: The semantics of human interaction. Mouton de Gruyter.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 1-son)

FILOLOGIYA

PHILOLOGY

ИНГЛИЗЧА СИЁСИЙ АТАМАЛАРНИНГ СТРУКТУРАВИЙ ТАҲЛИЛИ

Холжўраева Мафтунабону Тўлқинжон қизи
докторант, Алишер Навоий номидаги Тошкент Давлат Ўзбек тили ва адабиёти Университети, Тошкент
e-mail: maftunabonuxoljorayeva@gmail.com Tel: +998900052580

Аннотация. Ушбу маколада биз сиусий атамаларнинг синтактик таҳлилини тақдим этамиз. Тадқиқотчиларни кийин вазиятларга солиб, бир катор дилеммаларни келтириб чиқарди. Ушбу фаолият соҳаси доимий равишда янги билимларга мос равишда ривожланмоқда. Гарчи ўтган асрларда сиёсий атамалар содда ва тушунарли ҳисобланган бўлсада, уни ўрганиш кўплаб мақолаларнинг ривожланишига сабаб бўлди, унинг луғавий хусусиятлари, жанр турлари, бошка атамаларга таьсири, шунингдек, сиёсий-ижтимоий ва маданий соҳалар билан ўзаро алоқадорлик каби масалаларни қамраб олди.

Калит сўзлар: Лесик қиймат, сиёсий риторика, номиналлаштириш, мувофиқлаштириш, боғловчилар, нутқ ҳаракати.

СТРУКТУРНЫЙ АНАЛИЗ АНГЛИЙСКИХ ПОЛИТИЧЕСКИХ ТЕРМИНОВ

Аннотация. В данной статье мы представляем синтаксический анализ политических терминов. Эта область долгое время ставила исследователей в трудные ситуации и создавала ряд дилемм. Эта сфера деятельности постоянно развивается в соответствии с новыми знаниями. Хотя в прошлые века политические термины считались простыми и понятными, их изучение привело к разработке множества статей, их лексических особенностей, жанровых типов, влияния на другие термины, а также политика охватывала такие вопросы, как взаимодействие с социокультурная и экономическая сферы.

Ключевые слова: лексическое значение, политическая риторика, номинализация, координация-подчинение, связки, речевые движения, тенденции цитирования.

STRUCTURAL ANALYSIS OF ENGLISH POLITICAL TERMS

Abstract. In this article, we present a syntactic analysis of political terms. This field has for a long time put researchers in difficult situations and created a number of dilemmas. This field of activity is constantly developing in line with new knowledge. Although in the past centuries political terms were considered simple and understandable, its study led to the

development of many articles, its lexical features, genre types, influence on other terms, as well as politics covered issues such as interaction with sociocultural and economic spheres.

Key words: lexical value, political rhetoric, nominalization, coordination – subordination, connectives, speech movements, quotation tendencies.

INRODUCTION. Political discourse, embedded in language, plays a crucial role in the shaping of public policies, ideologies, and power relations. In the English language, political terms carry not just definitional significance, but also deep-seated ideological weight. From legal terminology to campaign rhetoric, these words construct worlds, framing the political landscape and influencing how society perceives power, justice, and governance. This article aims to explore the structure of political terms in English by investigating the linguistic mechanisms at play—how political terms are formed, their meanings, and how they operate in various contexts. The focus is on examining political terms syntactically (their structural forms), semantically (their meanings), and pragmatically (their use in context). This approach allows for a deeper understanding of the ways political language reflects and constructs ideologies and societal norms.

MATERIALS AND METHODS. To conduct the analysis of political terms, the study uses a mixed-methods approach, combining qualitative linguistic analysis with case study examination. First, a detailed examination of the syntactic and morphological structures of political terms was conducted. This involved analyzing a range of common and historically significant political terms, identifying their formation, typical patterns, and variations. For semantic analysis, a corpus of political speeches, media texts, and political manifestos was gathered to trace the evolution and shifting meanings of key political terms.

In addition, pragmatic analysis was used to explore how language is employed strategically by political figures, media, and institutions to persuade, frame issues, and construct ideologies. A series of case studies were employed to showcase the use of specific terms in shaping political discourse. These case studies involved analyzing political rhetoric in various contexts such as election campaigns, speeches by political leaders, and debates on social issues like immigration, freedom, and justice.

Political terms in the English language have evolved considerably over centuries, reflecting changing societal structures and ideologies. Initially influenced by classical political thought from ancient Greece and Rome, many political terms were imported into English during periods of political upheaval, such as the Renaissance, the Enlightenment, and the Industrial Revolution. These terms were often adopted and redefined in light of changing political landscapes, particularly as democratic ideals and political movements gained ground.

For example, terms like "democracy" and "republic" were originally used in very specific contexts but have come to encompass a wide range of ideas over time. The term "democracy," which originates from the Greek "demokratia" (rule by the people), has been subject to varying interpretations throughout history. In some periods, it was understood in a more direct,

participatory sense; in others, it was associated with more representative forms of governance. This evolution highlights how political terms can change in response to both social change and political power dynamics.

Linguistic Structure of Political Terms. The linguistic analysis of political terms reveals their complexity, both in form and function. Many political terms in English exhibit a compound structure, where two or more words are combined to form a new meaning. For instance, terms like "rule of law" and "checks and balances" are compounds that communicate complex ideas through relatively simple structures. These terms are not only syntactically significant but also semantically loaded, as their meaning often depends on the historical, political, and ideological context in which they are used.

In terms of morphology, political terms often undergo significant transformation. The prefix "anti-" in words like "antidemocratic" or "anti-establishment" signifies opposition, while terms such as "liberalism," "nationalism," and "feminism" are built from ideological roots, reflecting different political positions. The morphological structure of these terms allows them to encapsulate broad political ideologies and movements, reinforcing the power and influence of these concepts in society.

Semantics of Political Terms. The semantic dimension of political terms is crucial in understanding their use and impact in political discourse. Many political terms carry multiple layers of meaning, which can shift based on the political context. For instance, terms such as "freedom," "equality," and "justice" can be interpreted in very different ways by various political groups. A term like "freedom" might refer to economic freedom for one group, while it may represent individual liberty for another, depending on their political ideology.

Moreover, political terms often carry connotations that serve to frame issues in specific ways. The term "terrorism," for instance, is used to describe violent acts that challenge established political orders, but its meaning can be manipulated to justify certain policies or actions. The use of "terrorism" as a term can also help delegitimize political opposition, as those labeled as "terrorists" are often perceived as threats to societal order.

Pragmatics and the Strategic Use of Political Language. Political language is often employed strategically, serving as a tool for persuasion and framing. Politicians and media figures use political terms not just to convey meaning but to shape public opinion, legitimize power, and advance political agendas. Through strategic framing, political terms are used to frame issues in ways that align with a particular agenda. For example, the use of terms like "welfare reform" or "tax relief" can present policies in a favorable light, while terms like "welfare cuts" or "corporate tax breaks" carry negative connotations, affecting public perception. The strategic manipulation of political terms is also evident in election campaigns, where language is used to appeal to specific values, fears, and desires. For example, during the Brexit campaign, the term "sovereignty" was heavily employed by the Leave campaign to evoke a sense of national pride and control. The term was strategically used to create a narrative of

regained power and independence from the European Union, thus framing the issue in terms of national identity and self-determination.

RESULTS AND DISCUSSION. The structural analysis of political terms demonstrates that language is not just a passive reflection of political realities, but an active component in shaping those realities. Political language is used to construct ideologies, justify policies, and influence public opinion. Through the strategic use of terms, political actors can manipulate how issues are perceived and debated, often with significant consequences for policy and governance.

Furthermore, the analysis reveals that political language is often fluid and context-dependent. Terms that seem neutral or universally understood can take on vastly different meanings depending on the speaker, the audience, and the political climate. This fluidity can be used for political advantage, but it can also contribute to ambiguity and confusion, particularly when terms are used to obfuscate or avoid clear meaning.

The findings of this study show that English political terms are deeply intertwined with both historical and contemporary political realities. The semantic evolution of these terms reflects shifts in political power, ideologies, and social values. Political terms are not only tools for communication but also instruments for constructing political power and shaping public discourse. By strategically deploying language, political figures and institutions are able to influence the way issues are framed, how public opinion is shaped, and ultimately how policies are perceived and implemented. Moreover, the study highlights the role of context in shaping the meaning and impact of political terms. The same term can be employed in different ways depending on the political context, the speaker's intentions, and the audience's interpretation. This underscores the importance of critical analysis of political language, especially in times of heightened political tension or uncertainty.

The structure of political terms in English is formed through several linguistic processes, each of which contributes to the development of terms that represent complex concepts in politics.

I. Base words: Many political terms are made up of base words (for example, the word "democracy" comes from "demo", meaning the people).

1. Demo- meaning: people. Democracy - Democracy (rule by the people). Demography - population statistics.

2. Cracy - meaning: rule or government. Aristocracy. Aristocracy means rule by an important or privileged class. Theoracracy - Theocracy - means rule by religious leaders.

3. Politic - meaning: related to governance or citizens. Political - Political - related to management. Polity - Polity refers to the form or process of civil government.

4. State - meaning: politically organized community of people. A nation-state is a separate nation with its own government. Stateless - Not having an unrecognized state or citizenship.

5. Soci - meaning: Society. Socialism ¬Socialism is a political and economic theory that supports collective or government ownership.

II. Made by addition. *Therefore, political terms are formed by adding a suffix. In this way, the meaning of the word is changed by adding a suffix to the beginning or end of the words.*

Prefixes

1. Anti- Against Antifascist - Antifascist - against fascism.

2. On the side of Pro- Proponent - Proponent - supporting an issue booster.

3. Pre-Preemptive – Preemptive - acting before a potential problem.

4. Post- Then Postcolonial - Postcolonial - the period after colonial rule.

5. Inter- Between or between. International - International - nations between.

Suffixes

1. -ism: Doctrine or belief. Feminism - Feminism - of women protection of rights.

2. -cracy: Government or rule. Democracy - Democracy - people's rule.

3. -ist: Practitioner or advocate. Socialist - Socialist - supporter of socialism.

4. -tion: Process or condition. Ligislation - Legislation - the process of making laws.

5. -ate: To do. Activate - to activate, often in a political context.

III. Consolidation. The process of combining two or more words to form a new word.

1. Adjective + noun combinations. These compounds describe the characteristics of political subjects. For example: *social justice, foreign policy*.

2. Noun + Verb combinations. These combinations are rare, but political

describes actions related to processes. For example: *vote counting, policy making.*

3. Verb + Noun combinations. These are compounds that show actions. For example: *vote-buying, tax-cutting, fundraising.*

4. Noun + Prepositional phrase combinations. These compounds are complex represents concepts. For example: *grassroots movement, public opinion survey*

CONCLUSION. In conclusion, the structural analysis of English political terms offers valuable insights into the ways language functions as a tool for both reflecting and constructing political realities. Political terms are not merely descriptors but are powerful instruments for shaping political discourse, influencing public opinion, and legitimizing power. By examining the syntactic, semantic, and pragmatic aspects of political language, we can better understand the intricate relationship between language and politics and the ways in which political language shapes the world we live in.

REFERENCES:

1. Klikovac, Duška. " About the bureaucratization of the Serbian language". Naš jezik, XXXIV/1–2 (2001): 85–110”).

2. Milić, Dejan A. “Political discourse in Serbia between the 20th and 21st centuries Kulturna polisa, 4–5, III (2006: 168).

3. Ana Knežević-Hesky. 1st edition, Zagreb, 2014:5. Politics and economy - a textbook for professional schools Wardhaugh, R. (1977). An introduction to linguistics. New York: McGraw

4. Tošović, Branko. Functional styles. Graz: Institute of Slavic Studies of Karl Franzens University, 2002:287

5. Saussure, F. (1996). The *i*ntroduction to general linguistics. (Translation Rahayu S. Hidayat). Yogyakarta: Gadjah Mada University Press. [Google Scholar]

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 1-son)

FILOLOGIYA

PHILOLOGY

IDIOSTIL VA SINTAKTIK FIGURALARNING O‘ZARO MUNOSABATI

Zulaypoyeva Gulmira Ubaydulloyevna
NamDU 1-bosqich tayanch doktoranti, FarPI o‘qituvchisi
ORCID: 0000-0003-0204-0201
gulmiraxon2019@gmail.com +998916791095

Annotatsiya Ushbu maqolada nutq muallifining individual o‘ziga xosligini ko‘rsatuvchi idiostil tushunchasi izohlanadi. Bunda idiostilni aniqlashda sintaktik figuralarning ahamiyatini ko‘rsatish hamda polisenditon figurasini misollar orqali yoritish maqsad qilib olingan. Shuningdek, individuallikni o‘rganish orqali tilda yangi leksik, sintaktik birliklar va ifoda vositalari bilan boyish jarayonlari xususida fikrlar berilgan.

Kalit so‘zlar: antroposentrik yondashuv, idiostil, leksik birlik, sintaktik qurilma, sintaktik-stilistika, trop, sintaktik figura, polisenditon.

СООТНОШЕНИЕ ИДИОСТИЛЯ И СИНТАКСИЧЕСКИХ ФИГУР

Аннотация В данной статье раскрывается понятие идиостиля, который указывает на индивидуальность автора речи. Цель данной статьи – показать значение синтаксических фигур в определении идиостиля и на примерах осветить фигуру полисендитона. Также посредством изучения индивидуальности даются мысли о процессах обогащения языка новыми лексическими, синтаксическими единицами и средствами выражения.

Ключевые слова: антропоцентрический подход, идиостиль, лексическая единица, синтаксический аппарат, синтаксически-стилистика, троп, синтаксическая фигура, полисендитон.

RELATIONSHIP OF IDIOSTYLE AND SYNTACTIC FIGURES

Annotation This article explains the concept of idiostyle, which indicates the individuality of the author of the speech. The purpose of this article is to show the importance of syntactic figures in determining idiostyle and to illuminate the figure of polysendyton through examples. Also, through the study of individuality, thoughts are given about the processes of enriching the language with new lexical, syntactic units and means of expression.

Key words: anthropocentric approach, idiostyle, lexical unit, syntactic device, syntactic-stylistics, trope, syntactic figure, polysendyton.

KIRISH

Lingvistika boshqa sohalar singari doimiy o‘sish va rivojlanishda. Bunda bir qancha yondashuvlar va yangi sohalar paydo bo‘ladiki, ba’zi tushunchalar adabiyot va tilshunoslik o‘rtasida ko‘prik vazifasini o‘taydi. Chunonchi, stilistika, lingvopoetika kabilar bunga misoldir. Biz antroposentrik yondashuv mahsuli bo‘lmish idiostil (muallifning individual uslubi) va sintaktik figuralardan biri bo‘lgan polisenditon (ko‘pbog‘lovchilik) haqida fikr yuritamiz.

ADABIYOTLAR TAHLILIVA METODLAR

Rus tilshunosligida muallif idiostili bilan bog‘liq dastlabki izlanishlar XX asrning 50-60 yillaridan boshlangan, bu Y.Tinyanov [1], Y.N.Karaulov [2] va V.V.Vinogradov[3]larning nomlari bilan bog‘liq.

Idiostil atamasi tilshunoslikka dastlab rus tilshunosi V.P. Grigorev tomonidan kiritildi. U o‘zining “Грамматика идиостиля” [4] nomli monografiyasida idiostil tushunchasining mohiyatini ilk bor izohladi. Shuningdek, T.A.Chernisheva [5], Y.G.Malisheva [6], V.V.Ledenova [7]lar tomonidan ham tadqiq etildi. Ushbu tadqiqotlarda idiostil muallif nutqining o‘ziga xos belgilarini ifoda etuvchi hodisa sifatida talqin etildi.

O‘zbek tilshunosligida muallif idiostilini o‘rganishga qaratilgan ilk tadqiqot ishi sifatida S.Umirovaning dissertasiyasi [8]ni ko‘rsatish mumkin. M.Abdupattoyev o‘zining doktorlik dissertatsiyasida “Mazkur atama badiiy asar tahliliga bag‘ishlangan ilmiy ishlarda qo‘llanib, nutq muallifining betakror va noyob uslubi ma’nosida ishlatilib, boshqa mualliflar uslubidan keskin farq qiluvchi so‘z tanlash mahorati, muallif nutqining sintaktik o‘ziga xosligi va fikrni yetkazish uslubi ma’nosini o‘z ichiga oladi” [9], degan xulosaga keladi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Polisenditon badiiy uslubda keng qo‘llaniladi. Bunday gaplar anglatgan ma’nolariga ko‘ra asindeton (bog‘lovchisizlik) usulida shakllangan gaplardan farqlanmasa-da, shu ma’noni ifodalash usuli bilan farq qiladi. Bunda ham uyushiq bo‘laklar ohangidagi me’yor, ritm saqlanib qoladi, ammo u bog‘lovchisiz gaplardagidan o‘z salobati bilan, ta’kidlash ohangi bilan farq qiladi. Nutqqa sokinlik va shu bilan birga ko‘tarinkilik beradi.

Ro‘zg‘or g‘ami **yoki** maktab, ish,
Balki, injiqligi dadamning,
Balki, onasini sog‘inish,
Balki, kasalligi kattamning…
(I.Mirzo[10] *. “Bolalikda”, 118-bet)*

Yuqoridagi she’riy misolda *yoki* ayiruv bog‘lovchisi, *balki* zidlov bog‘lovchisi takroran murakkab sodda gap hosil qilishda qo‘llanib kelyapti. Shoir o‘z ruhiy holati va beoromligi sababini boshqalarga ham ifodalashni ko‘zda tutgan.

Goho yomon qarab, **goh** qaramasdan,
Goho yolg‘on kulib, **goh** kulib rosdan,
Goho erkalanmay, erkalamasdan,
Siz ko‘nglim og‘ritib charchamadingiz.

(I.Mirzo. “Siz…” she’ri)

I.Mirzo ijodidan olingan parchada *goh, goh* ayiruv bog‘lovchisi yordamida badiiy namunaning dunyoga kelganini ko‘ramiz. Birgina bog‘lovchi bilan hosil qilingan gaplar o‘ziga xos kompozitsion qurilishni vujudga keltirgan.

Na ayron, **na** qimizsan,
Na yigitsan, **na** qizsan.
Tosh-tarozi yo‘q senga,
Bo‘laverar na qilsang.
Yo cho‘mich, **yo** moy bo‘lgin,
Yo kesak, **yo** loy bo‘lgin,
Kambag‘allik ayb emas,
Uyalmasang, boy bo‘lgin.

(I.Mirzo . Ixtiyor,150-bet)

Bu she’riy parchada 2 ta bog‘lovchi qatnashgan: *na, na* inkor bog‘lovchisi; *-yo, yo* ayiruv bog‘lovchisi. Ushbu bog‘lovchilarning ishtiroki o‘ziga xos ohangdorlikni yuzaga keltirgan hamda misolda qo‘llangan bog‘lovchilar voqea bayonida o‘ziga xos badiiylikni vujudga keltirgan.

Yo jilg‘asiz o‘zanidan adashgan,
Yo yulduzsiz nogoh yerlarga tushgan,
Yoki qora qismatning bir qulisiz,
Kulsangiz **ham** bunchalar qayg‘ulisiz.

(I.Mirzo. Tillo zanjir.211-bet)

Tahlil jarayonida polisenditonning yana bir xususiyatiga guvohi bo‘ldikki, bu figuradan ko‘pincha qahramonning holatini tasvirlashda, bundan tashqari, peyzaj va portret tasvirlarida ham keng foydalanish mumkin. Bu misolda ham qahramon holati tasvirlanyapti, *-yo, yoki* ayiruv bog‘lovchilari, *ham* biriktiruv bog‘lovchisi ishtirok etgan.

XULOSA

Yuqorida keltirilgan fikr va misollardan shuni aytish mumkinki, idiostil nutq muallifining okkazional o‘ziga xosligidir. Til tashuvchisi bo‘lgan ijodkor idiostilida mavjud fonetik, leksik, sintaktik birliklar yoki trop yoxud sintaktik figuralarning ayrimlarining qo‘llanilishi, albatta, tilimizni boyishiga xizmat qiladi. Idiostilni aniqlash uchun kategoriya sifatida sintaktik figuralar faol hisoblanadi. Xususan, shoir Iqbol Mirzo idiostilida takror va antiteza ko‘pdir. Bundan tashqari, uning polisenditon (ko‘pbog‘lovchilik) figurasidan ham samarali foydalangani ham bizga ma’lum bo‘ldi. Polisenditon figurasi ishtirok etgan gaplar o‘zining keskinligi, ifoda tasvirining yorqinligi bilan ajralib turadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Тынянов Ю.Н. Поэтика. История литературы. Кино. М., 1977
2. Караулов Ю. Н. Русский язык и языковая личность . — М. : Наука, 1987.

3. Виноградов В. В. Стилистика. Теория поэтической речи. Поэтика. М., 1963. 73 стр.
4. Григорьев В.В. Грамматика идиостиля: В.Хлебников. М., 1983
5. Чернышева Т.А. Идиостиль: лингвистические контуры изучения/ Вестник Череповецкого государственного университета, №1, 2010.
6. Малышева Е. Г. Идиостиль Владислава Ходасевича(опыт когнитивно-языкового анализа). Автореф. дис. к. ф. н.: Омск, 1997. С 22 ;
7. Леденёва В. В. Особенности идиолекта . М.: Изд-во Моск. пед. ун-та, 2000. С 185 .
8. Умирова С. Ўзбек шеъриятида лингвистик воситалар ва поэтик индивидиуаллик (Усмон Азим шеърияти мисолида): Фил. фанл. б.фал.док. ((PhD) дисс. автореф. – Самарқанд, 2019.
9. Абдупаттоев М.Т. Ўзбек тилининг поэтик синтаксиси. Фил. фан. доктори дисс... автореф... Фарғона 2021.
10. Иқбол Мирзо. Кўзларингга термулсайдим.1жилд.-Т., Шарқ.2020.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 1-son)

FILOLOGIYA

PHILOLOGY

O‘ZBEK TILSHUNOSLIGIDA ZOONIMLARNING O‘RGANILISHI

1. Esonova Muxtasarxon Doniyor qizi
FarDU, Lingvistika(ingliz tili) yo‘nalishi 1-kurs magistranti
E-mail: esonovamuxtasarxon3@gmail.com +998930471309
2. Maxmudova Nargiza Ravshanovna
FarDU, f.f.f.d. (PhD), ingliz filologiyasi kafedrasi katta o‘qituvchisi
E-mail: nr.mahmudova@pf.fdu.uz +998904076505

Annotatsiya. Ushbu maqolada tilshunoslikning ‘‘Onomastika” bo‘limi va uning katta ichki bo‘limlaridan biri zoonimlar haqida batafsil ma’lumot beriladi hamda soha rivojiga sezilarli hissa qo‘shgan bir qator tilshunoslar, jumladan, M.Shripova, B.Abdushukurov, L.Sindarov, D.Tosheva va M.Mahmudovalarning ilmiy izlanishlari tahlil qilinadi. Shuningdek, zoonimlarning biologik va lingvistik klassifikatsiyasidagi tafovutlar haqida bahs yuritiladi.

Kalit so‘zlar: Onomastika, zoonim, ornotonim, yovvoyi, paremiologiya, etnolingvistika, komponent, semantik, pregmatik, lingvopoetika.

Аннотация. В данной статье приведены подробные сведения о кафедре языкознания и зоонимии «Ономастика», одном из ее основных внутренних отделов, а также о ряде лингвистов, внесших значительный вклад в развитие области, в том числе М. Шриповой, Б. Абдушукурове. , Л. Синдарова, Д. Тошевой и М. Махмудовой анализируются исследования. Обсуждаются также различия биологической и лингвистической классификации зоонимов.

Ключевые слова: ономастика, зооним, орноним, дикий, паремиология, этнолингвистика, компонент, семантический, прагматический, лингвопоэтика.

Abstract. This article provides detailed information about the "Onomastics" department of linguistics and zoonyms, one of its major internal departments, as well as a number of linguists who made a significant contribution to the development of the field, including M. Shripova, B. Abdushukurov, L. Sindarov , D. Tosheva and M. Mahmudova's researches are analyzed. Differences in biological and linguistic classification of zoonyms are also discussed

Key words: Onomastics, zoonym, ornotonym, wild, paremiology, ethnolinguistics, component, semantic, pragmatic, linguopoetics.

KIRISH

Insoniyat yaralibdiki, o‘zini o‘rab turgan olamni, atrof-muhitni kashf qilishga, u haqida bilimlarga ega bo‘lishga uzluksiz harakat qilib kelmoqda. Bugungi kunga qadar inson onggi va

tafakkuri tufayli tubsiz dengizlar, kimsasiz orollardan tortib mislsiz koinotga qadar qadam qo‘yildi, cheksiz bilimlar egallandi va ularga turfa xil nomlar qo‘yildi. Ma’lumki, odamlarni, o‘rin-joy yoki hayvonlarni bir-biridan farqlash maqsadida qo‘yilgan nomlar keyinchalik tilshunoslikning katta bir bo‘limi- onomastika(yunoncha-“nom qo‘yish san’ati”)ga asos soldi. Bu termin tildagi barcha atoqli otlar yig‘indisi yokida atoqli otlar, ularning shakllanishi va lisoniy xususiyatlarini o‘rganuvchi tilshunoslik sohasi ma’nosida qo‘llaniladi va u ba’zi manbalarda “nomshunoslik” deb ham yuritiladi. Onomastika fanining asosiy vazifalari tildagi mavjud barcha atoqli otlarni aniqlash, ularning kelib chiqishi, tarixiy o‘zgarishi va o‘ziga xos xususiyatlarini mavjud tizimlar asosida o‘rganishdan iborat.

XX asrning ikkinchi yarmida yurtimizda tilshunoslikning fonetika, fonologiya, marfologiya, uslubshunoslik kabi yo‘nalishlari qatorida o‘zbek onomastikasi ham vujudga kelib rivojlana boshladi. Qator olimlarning ushbu fan doirasidagi ilmiy izlanishlari va o‘tkazilgan tadqiqotlar natijasida “Onomastika” fani quyidagi bo‘limlarga ajralgan:

antroponim – kishilarning atoqli nomlari (ismlari, familiyalari, ota ismlari, laqablari, taxalluslari);

toponim – geografik obyektlarning atoqli nomlari (davlatlar, shaharlar, viloyat, qishloqlar…);

teonimiya – turli diniy tasavvurlar bo‘yicha xudolar, ma’budlar, diniy-afsonaviy shaxs va mavjudotlarning nomlari;

zoonim – hayvonlarga qo‘yiladigan (shartli) atoqli nomlar, laqablar;

kosmonim - fazoviy bo‘shliq hududlari, galaktikalar, burjlar va boshqalarning ilmiy muomalada va xalq orasida tarqatgan nomlari;

astroponim – ayrim osmon jismlari (planeta va yulduzlar) nomlarining majmuyi.

Bundan tashqari, atoqli nomlarning til (lisoniy) xususiyatlarini o‘rganilish

darajasiga qarab onomastika *adabiy va dialektal onomastika, odatdagi (amaliy) va poetik onomastika, zamonaviy va tarixiy onomastika, nazariy va amaliy onomastika* kabi turlarga ham bo‘linadi.[194]

MATERIAL VA USULLAR

“Onomastika”ning katta bo‘limlaridan biri bo‘lgan zoonim(hayvon nomlari)lar ustida ham nafaqat yurtimizda balki butun jahon bo‘ylab qator ilmiy tadqiqotlar olib borilgan, maqolalar, ilmiy kitoblar, lug‘atlar, dissertatsiyalar yozilgan va hanuzgacha ko‘plar olimlar izlanishiga, qizg‘in muhokamalarga sabab bo‘lib kelmoqda.

Yurtimizda, xususan turkiy xalqlar orasida zoonimlar tadqiqi chuqur ildizlarga ega va ilmiy izlanishlar olib borgan va soha rivojiga sezilarli hissa qo‘shgan tilshunos olimlar ham talaygina. Ma’lumki, zoonimlarning tadqiq etilish tarixi XI asrda Mahmud Qoshg‘ariy tomonidan yozilgan “Devonu lug‘otit turk” asariga borib taqaladi. Ushbu asar turkiy tillarning qomusiy lug‘ati va turkiy xalqlarning XI asrdagi holatini, o‘sha davrdagi dialektlarni va

[194] Kilichev B.Onomastika. O`quv qo`llanma.-Buxoro, 2023.-180b.

leksikasini o‘rganish uchun muhim manba hisoblanadi. Unda turkiy xalqlarning o‘ziga xos so‘zlari, iboralari va madaniy qadriyatlari aks ettirilgan. Lug‘at nafaqat tilshunoslikka oid, balki turkiy xalqlar tarixi va geografiyasi haqida ham qimmatli ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan.

"Devoni lug‘otit turk" tilshunoslik fanining rivojlanishida muhim rol o‘ynagan. Asarning asosiy qismi lug‘at bo‘lib, unda 7500 dan ortiq turkiy so‘zlar berilgan. Bundan tashqari, lug‘atda xalq og‘zaki ijodiga oid 300dan ortiq she’riy parchalar, 291 ta maqol va matal keltirilgan. Bu matnlar tarkibida 200ga yaqin zoonim, jumladan, 100ga yaqin qush nomi uchraydi. [195]

Shuni ta’kidlash joizki, uy hayvonlari, xususan, ot turkiy xalqlar hayotida alohida o‘rin egallaydi va muallifning o‘zi otning bir qator turlari va ularga berilgan nomlarni lu’gatda keltirib o‘tgan. Misol uchun yag‘iz at – chovrak ot, yugruk at – poygada g‘olib keladigan ot, iqiloch – sho‘x uchqur ot, ug‘ar at –peshonasida oqi (qashqa) bor ot, o‘kush jilqi –qaysar ot, erik at – yo‘rg‘a ot, ulduq at –taqasiz ot, qir at- saman ot va hakozolar. Otlar nomi hattoki turkiy xalqlar maqollarida o‘z aksini topgan: *alp erïg jawritma, iqilaç arqasïn jag’ritma* –“Botirlarni ranjitma va holsizlantirma, uchqur ot orqasini yag‘ir qilma”. Bundan tashqari kitobda ko‘p tarqalgan uy hayvonlaridan tortib kishi qadami yetmas joylarda yashovchi noyob yovvoyi hayvonlarning nomlarigacha hamda ular haqida qiziqarli ma’lumotlarni topish mumkin. *Arqar*- urg‘ochi tog‘ echkisi, *alavan* – timsoh, *azg‘iraq*- kiyik, *yunaq* – eshak, *yag‘an* – fil, *yamlan* – kemiruvchi hayvon, *yilon* – ilon, *yarbuz* – ilonnni o‘ldiradigan bir hayvon turi. Maqol: *Yilon yarbuzdan qochar, qancha borsa yarbuz otru kelur* (Ilon yarbuzdan doim qochadi, qayerga borsa yarbuz uni ta’qib qiladi).

Asarda yana bir qancha zoonim komponentli maqollarni uchratish mumkin:

-*Atan jüki ash bolsa, açqa az körünür* –“Tuyaning yuki oziq-ovqat bo‘lsa ham, och odamga oz ko‘rinadi”;

-*Og‘laq jiliksiz, og‘lan biliksiz* - “Echki bolasida ilik yo‘q, yosh bolada aql yo‘q”;

-*Iŋän iŋräsä, botu bozlar* –“Urg‘ochi tuya ingrasa, erkak tuya bo‘zlaydi(tovush beradi)”;

-*Alp erïg jawritma, iqilaç arqasïn jag’ritma* –“Botirlarni ranjitma va holsizlantirma, uchqur ot orqasini yag‘ir qilma”.

NATIJALAR

Hozirgi zamonaviy o‘zbek tilshunosligida zoonimlar tadqiqi masalalari bo‘yicha D.X. Bazarova, B.Abdushukurov, A.J. Omonturdiev, B.M.Jo‘rayeva, N.R. Mahmudova, M. Sharipova, H.A. Saidova, D.M. Yo‘ldosheva, S.Ch. Jumayeva, G.E. Hakimova, X. Zaripov, N.R. Nishonova, N.Ismatullayev va Sh. Noraliyevalar atroflicha ilmiy izlanishlar olib borgan. Xususan, M.Sharipova o‘zining PhD dissertatsiyasida o‘zbek xalq maqollaridagi chorva nomlarini o‘rgangan va “Qo‘y” birligiga alohida to‘xtalib, uning maqollardagi lingvopoetik va uslubiy xususiyatlarini ochib bergan. U “Qo‘y” birliklari ishtirok etgan 261 ta o‘zbek xalq maqoli hamda ushbu maqollar asosida shakllangan 52 ta semantik guruh aniqlangan. Olim “Qo‘y” nomiga tegishli birliklardan o‘zbek xalq maqollari tarkibida qo‘llanilishiga ko‘ra faol

[195] Sharipova M. Tilshunoslikda zoonimlarning o`rganilishi//Journal of science-innovative research in Uzbekistan.-2024,aprel.-Volume 2, Issue 4.-B.384-388.

(qo‘y, qo‘chqor, qo‘zi); nofaol (sovliq, to‘qli, shishak, hisori, jaydari); qo‘llanilmagan (barra, tusoq, chori, novchori, panji, mang‘i, chang‘i, marri, qirri, bo‘rdoqi, baqlan, jundas jaydari, qo‘ng‘iroti, arabi, merikos, shirboz, balder qozi, baqlan, tishak, irk, man, vasila, olot zotli, qorako‘l (nav)) leksik birliklar mavjudligi asoslab bergan. [196]

M. Sharipova O‘zbek xalq maqollari tarkibidagi “Qo‘y” birliklarini tadqiq etish orqali o‘zbek paremiologiyasi va etnolingvistikasi hamda tilshunoslikning leksikologiya, uslubiyat va lingvopoetika yo‘nalishlari uchun xizmat qiladigan muhim ilmiy-nazariy ma’lumotlar taqdim etgan.

Bundan tashqari, B. Abdushukurov va L.Sindarovlar XI-XIV asrlarda turkiy yozma manbalarda foydalanilgan zoonimlar ustida izlanishgan. Tadqiqot jaroyinida XI — XIV asrlarda Movarounnahr, Dashti Qipchoq va Misr mamlakatlarida yaratilgan yozma yodgorliklar, jumladan Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig”, Ahmad Yugnakiyning “Hibat ul-haqoyiq”, Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk”, “Tafsir”, “O‘g‘uznoma”, Sayfi Saroyining “Guliston bit-turkiy”, Qutbning “Xusrav va Shirin”, Mahmud bin Ali as-Sarayining “Nahj ul-farodis”, Xorazmiyning “Muhabbatnoma”, Nosiruddin Rabg‘uziyning “Qissasi Rabg‘uziy” asarlari o‘rganilgan. Ular ayniqsa zoonimlarda vaqt va zamon o‘zgarishi bilan kechgan fonetik va semantik o‘zgarishlarni chuqur tahlil qilishgan.

Misol uchun, *Turkiy ayğïr*— “erkak ot” termini O‘rxun-Enasoy va “Oltun yorug‘” yodgorliklarida adğïr shaklida qo‘llangan: *Bayïrqunïŋ aq adğïrïğ udluqïn sïju urtï* — Bayirqudan keltirilgan oq ayg‘irning sonini sindirib qo‘ydi [ДТС 1969, 10]. Mahmud Koshg‘ariy “Devon”ida azğïr, ayğïr fonetik shakllariga duch kelamiz: *qulan quduğqa tüššä, qurbaqa ayğïr bolur* [МК 1963, III, 134]. “Tafsir”da azğïr shakli keltirilgan: *Fir’avniŋ azğïrïul bisini kördi ärsä, daryaqa kirdi* [Таф-сир 1963, 31–37]. Azğïr shakli Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asarida hosila ma’nosida “Sirius” yulduzi nomini ham anglatgan [ДТС 1969, 14]. K.Novikovaning ta’kidlashicha, ushbu termin ay = “orqa oyoqlarida turmoq, biyaga tashlanmoq” fe’lidan hosil qilingan [ИОЭЛЯ 1979, 83]. E. Sevortyanning fikricha, adğïr-azğïr-ayğïr“qo‘zg‘almoq”, “uyg‘onmoq” (shahvoniy), “qochirmoq” (hayvonlarga xos) ma’nolarini bildiruvchi ad-az-ay= fe’li bilan — qïr-ğïr affiksidan yasalgan [ЭСС 1974, I, 18]. Olimning mazkur mulohazasi, zoonim etimologiyasini yoritishga ancha oydinlik kiritishi mumkin. [197]

Ushbu tilshunos olimlar qidimgi turkiy obidalarni o‘rganish natijasida asarlarda keltirilgan zoonimlarni funksional-semantik aspektda tahlil qilib quyidagi guruhlarga bo‘ladi:

1) ot va tuyalar nomini ifodalovchi atamalar;
2) tuyoqli yovvoyi hayvonlarni anglatuvchi zoonimlar;
3) mayda shoxli hayvonlar nomini bildiruvchi atamalar;
4) yirik shoxli hayvonlarni ifodalovchi terminlar.

[196] Sharipova M. Chorva nomlari asosida shakllangan o`zbek xalq maqollarining lingvopoetik va uslubiy xususiyatlari (“Qo`y” lug`aviy-ma`noviy guruhi asosida). Filolol. fanlari. b. falsafa d-ri…(PhD) diss. aftorefer.- Buxoro, 2023.
[197] Abdushukurov B, Sindarov L. XI — XIV asr turkiy yozma manbalarda qo‘llanilgan zoonimlar// Oltin bitiglar.-2019.-№1.-B. 67—94.

Yana bir tilshunos olima D.A.Tosheva “Zoonim komponentli maqollarning lingvokulturologik xususiyatlari” nomli ilmiy ishda xalq maqollaridagi hayvon nomlarining semantikasini yoritgan, hamda xalq madaniyati, urf-odatlari va kundalik turmush va munosabatlariga oid tushunchalarni aniqlagan. Bundan tashqari, D.Tosheva zoonimlarning metafora, metonimiya, sinekdoxa kabi ko‘chim turlari bilan birgalikda maqollarda namoyon bo‘lishi ularning ta’sirchanligini oshirishini ta’kidlab, ko‘plab maqollar asosida isbotlab bergan. Bo‘ri, arslon, it, ot va tuya komponentli maqollar alohida guruhlarga bo‘linib, ulardan shaxs xarekterini yoritishda foydalanilgan, shaxs fe’l-atvorini ta’sirchan ifodalashda esa qush, baliq va it zoominlari ishlatilgan.[198]

N.R. Mahmudova esa o‘zbek va ingliz tillaridagi ornitonimlar(qush nomlari) ustida ilmiy izlanishlar olib borib, ularning struktur-semantik va pragmatik xususiyatlarini tahlil qilgan. Taqdiqotda o‘zbek va ingliz tillaridagi bulbul/nightingale, qarg‘a/crow, qaldirg‘och/swallow, tovuq/hen, g‘oz/goose, to‘ti/parrot kabi ornitonimlarning badiiy matndagi konnotativ ma’nolari, xususan, metaforik qo‘llanish xususiyatlari ochib berilgan. N.Mahmudovaning fikriga ko‘ra, qush nomlarini quyidagi semantik guruhlarga ajraladi:

1) tabiiy ornitonimlar- tabiatda mavjud qush nomlari; *burgut, chumchuq, qarg‘a, kalxat.*
2) mifologik ornotonimlar- tabiatda mavjud bo‘lmagan, faqat afsona va ertaklarda tasnifi keltirilgan; *semurg‘, anqo, xumo.*
3) badiiy ornitonimlar- badiiy asarlarda uchraydigan qush nomlari; *baxt qushi, tole’ qushi.*
4) diniy mazmunga ega ornitonimlar- diniy kitoblarda tilga olingan qush nomlari; Qur’oni Karimning “Fil” surasida keltirilgan *abobil* qushi.
5) ramziy mazmunga ega ornotonimlar; chumchuq- *chaqimchilik, burgut- kuch-qudrat, kaptar- pok ruh, yangi hayot ramzi.*

Bularga qo‘shimcha qilib, taqdiqotda o‘zbek va ingliz tillaridagi ornotonim komponentli paremalar qiyoslanib, ulardagi ramziy va ma’noviy tafovutlar topilgan. Misol uchun ingliz maqollarida ota-ona farzandga o‘rnak bo‘lishi, ular yurgan yo‘ldan ketishi haqidagi majoziy ma’noda cock/rooster- xo‘roz va hen-ona tovuq ornotonimlari uchraydi:

As the crock crows the young one learns – Xo‘roz qichqirganda yonidagi bolasi ham o‘rganadi.

O‘zbek tilida esa xuddi shu ma’nodagi maqolda *qush* umumiy nomi qo‘llanilgan:

Qush uyasida ko‘rganini qiladi.[199]

MUHOKAMA

Inson Yerda yashay boshlabdiki, uning hayoti artof-muhit va hayvonot olami bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan va ularning tirik qolib hayot kechirishlari uchun esa hayvonlar eng muhim vosita hisonlangan. Ularni tutishgan, go‘shtni yeyishgan, terisidan kiyim sifatida

[198] Тошева Д.А. Зооним компонентли мақолларнинг лингвокулътурологик хусусиятлари: Филолог. фанлари б. фалсафа доктори (PhD) дисс. авторефер. – Тошкент, 2017.
[199] Mahmudova N.R. O`zbek va ingliz tillardagi ornotonimlarning struktur-semantik va pregmatik xususiyatlari. Filol. Fan. bo`yicha falsafa d-ri…(PhD) diss. aftore.-Farg`ona, 2024.

foydalishgan, tishlaridan turli-xil taqinchoqlar yasashgan va hokozolar. Shuningdek, ular hayvonlardagi o‘xshash va farqli jihatlarini o‘rganishgan, ov yoki hujum qilishi va nimadan oziqlanishiga qarab nom berishib turli guruhlarga bo‘lishgan. Masalan, ba’zilari o‘tayam vaxshiy qonxo‘r bo‘lib, insonlarga juda katta xavf sanalgan va ularni tutish katta mashaqqat talab qilgan, qolganlari esa biroz yumshoqroq, insonlar yoki boshqa hayvonlar go‘shti bilan oziqlanmaydigan, faqat o‘txo‘r bo‘lgan va ularni qo‘lga o‘rgatish mumkin bo‘lgan. Ularning ushbu xususiyatlari ikki guruhga: *xonaki* va *yovvoyi* havyonlarga bo‘linishiga sabab bo‘lgan.

Mana shundan xulosalar asosida, hozirda yer yuzida hayvonlarning 1,5 million (ayrim ma’lumotlarga ko‘ra 3,0-3,5 million)ga yaqin turi mavjud va ularni bir qancha zoologlar o‘zlarining qarashlari asosida turlicha sinflarga taqsimlashgan. Hayvonot dunyosi, odatda, 2 kenja olam: bir hujayralilar va ko‘p hujayralilarga; ko‘p hujayralilar esa parazoylar va haqiqiy ko‘p hujayralilarga ajratiladi.[200] Lekin o‘zbek tilidagi hayvonot dunyosi lingvistik yondashuv bo‘yicha quyidagi semantik maydonlarga bo‘linadi:

1. Bir xujayrali hayvonlar.
2. Hasharotlar.
3. Parazit hasharotlar.
4. Sudraluvchilar.
5. Baliqlar.
6. Amfibiyalar.
7. Qisqichbaqasimonlar.
8. Suv hayvonlari.
9. Xonaki qushlar.
10. Yovvoyi qushlar.
11. Uy hayvonlari.
12. Yirtqich hayvonlar.
13. Yovvoyi hayvonlar.
14. Zooveterinariya.
15. Afsonaviy hayvonlar.

Ravshanki, hayvonlarning lingvistik tahlili ularning biologik tahlilidan tubdan farq qiladi. Agar hayvonot dunyosiga biologik nuqtai-nazardan yondashilsa, ularning tashqi ko‘rinishi, ichki organizmlari, hayot kechirishi, oziqlanishi, ovqat hazm qilishi, qon aylanishi va shu kabilar muhim ahamiyat kasb etadi. Ammo ular lingvistik jihatdan tahlil qilinganda, tilshunoslar zoominlarning umumiy xususiyatlarini yagona maydonga biriktiradi yoki farqli tomonlarini ajratib, ularga alohida nom beriladi. Boshqacha qilib aytganda, lisoniy tasnifda real hayvonning inson onggidagi yakuniy fikri, unga bo‘lgan munosabati yotadi. Masalan, tilshunoslikda ham zoologiyada ham hayvonlar ikki katta guruhga bo‘linadi: *yovvoyi* va *xonaki* hayvonlar. Lekin zoolog olimlar ularning qanday hayot kechirishi va oziqlanishiga e’tibor qaratishgan bo‘lsa,

[200] https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Hayvonlar_sistematikasi

lingvistik olimlar ularning ijtimoiy foydali yoki zararligini inobatga olishgan. Yanayam aniqroq aytganda, tilshunos hech qachon chumoli yoki mushukning ichki va tashqi tuzilishi, ko‘ruv, eshituv, hidlov organlari, yashash uyalarini hisobga olmaydi, aksincha u uchun eng muhimi chumolining mehnatkashligi, mushukning esa ayyor yoki erinchoqligi va ularning ko‘chma ma’noda ishlatilinishidir.[201]

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, zoonimlar har bir xalq tilining katta qatlanimi tashkil qiluvchi sohalardan biri bo‘lib, ular asosan majoziy xarekterga ega va inson fe’l-atvoridagi ijobiy xislatlarni yoki qusrlarni, jamiyatdagi insonlar o‘rtasidagi munosabatlarni, kundalik turmush tarzini ta’sirchan ifodalashga xizmat qiladi. Zoonimlar deyarli barcha dunyo tillari maqollari va iboralarida faol ishtirok etadi va ular xalqning hayvonlar dunyosiga bo‘lgan munosabatini, ularning xususiyatlarini va turmush tajribalarini o‘zida aks ettiradi. Zoonim komponentli maqol va iboralar nafaqat tilshunoslik, balki folkloristika va etnografiya nuqtai nazaridan ham qimmatli manba hisoblanadi.

O‘zbek tilshunosligida ham zoonimlar (hayvon nomlari) o‘rganilishi boshlanganiga uncha uzoq vaqt bo‘lmagan bo‘lsada, soha yaqin yillarda sezilarli darajada rivojlandi. Zoonim va zoonim komponentli matn tahliliga bag‘ishlangan o‘zbek tilshunosligidagi tadqiqotlar tarixiy, leksik-semantik, funksional uslubiy xarakterga ega bo‘lib, kishilik jamiyatida muhim o‘rin tutadigan hayvon nomlarining semantik xususiyatlarini yoritishga qaratilgan.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Abdushukurov B, Sindarov L. XI — XIV asr turkiy yozma manbalarda qo‘llanilgan zoonimlar// Oltin bitiglar.-2019.-№1.-B. 67—94.

2. Kilichev B.Onomastika. O‘quv qo‘llanma.-Buxoro, 2023.-180b

3. Mahmudova N.R. O‘zbek va ingliz tillardagi ornotonimlarning struktur-semantik va pregmatik xususiyatlari: Filol. Fan. bo‘yicha falsafa d-ri…(PhD) diss. aftore.-Farg‘ona, 2024.

4. Sharipova M. Chorva nomlari asosida shakllangan o‘zbek xalq maqollarining lingvopoetik va uslubiy xususiyatlari (“Qo‘y” lug‘aviy-ma’noviy guruhi asosida): Filol. Fan. bo‘yicha falsafa d-ri…(PhD) diss. aftore.- Buxoro, 2023.

5. Sharipova M. Tilshunoslikda zoonimlarning o‘rganilishi//Journal of science-innovative research in Uzbekistan.-2024,aprel.-Volume 2, Issue 4.-B.384-388.

6. Собиров А. Узбек тилининг лексик сатхини системалар системаси асосида тадкик этиш. -Тошкент, 2004-94-98 б.

7. Тошева Д.А. Зооним компонентли мақолларнинг лингвокулътурологик хусусиятлари: Филол. фан. бўйича фалсафа д-ри... (PhD) дисс. автореф. – Тошкент, 2017.

8. https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Hayvonlar_sistematikasi.

[201]Собиров А. Узбек тилининг лексик сатхини системалар системаси асосида тадкик этиш. – Тошкент: Маънавият, 2004.-158б.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 1-son)

FILOLOGIYA

PHILOLOGY

AXLOQIY QADRIYATLARNING LINGVOKULTUROLOGIK XUSUSIYATLARI

Sitora Zokir qizi Turaboyeva
Fan va texnologiyalar universiteti v.v.b dotsenti, F.f.b.f.d
Sitoraturaboyeva64@gmail.com

ANNOTATSIYA Axloqiy qadriyatlar har bir xalqning madaniy merosi va ma'naviy boyligini aks ettiruvchi muhim omillardandir. Ular til va madaniyatning uzviy bog‘liqligini namoyon etadi, chunki axloqiy qadriyatlar til birliklarida, masalan, maqollar, matallar, iboralar va metaforalarda mujassam topadi. Lingvokulturologiya fanining dolzarb yo‘nalishlaridan biri bu qadriyatlarning til va madaniyat o‘zaro ta’sirida shakllanishi va rivojlanishini o‘rganishdir. Mazkur mavzuda axloqiy qadriyatlarning milliy va universal ko‘rinishlari tahlil qilinadi. Milliy qadriyatlar xalqning tarixiy, diniy va an'anaviy xususiyatlari asosida shakllansa, universal qadriyatlar insoniyat uchun umumiy bo‘lgan fazilatlarni o‘z ichiga oladi. Til orqali axloqiy qadriyatlarning avloddan-avlodga uzatilishi va ularning madaniy xotiradagi ahamiyati ham tadqiq qilinadi. Shu bilan birga, lingvokulturologik tahlil axloqiy qadriyatlarning xalq mentaliteti va dunyoqarashidagi rolini aniqlashga xizmat qiladi. Mazkur mavzu bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar madaniyatlararo muloqotni rivojlantirish, qadriyatlarning tildagi ifodasini chuqurroq tushunish va ularni asrab-avaylashda muhim ahamiyatga ega.

Kalit so‘zlar: axloqiy qadriyat, lingvokulturologiya, konsept, madaniyat, madaniyatshunoslik, frazeologiya, komporativ tahlil

KIRISH

Axloqiy qadriyatlar jamiyat madaniyati va tilining asosiy unsurlaridan biri hisoblanadi. Ular insoniyatning jamiyatda qanday yashashi, qanday muomala qilishi, qanday qarorlar qabul qilishi kerakligi haqida yo‘l-yo‘riq beruvchi ma‘naviy va axloqiy tamoyillarni o‘z ichiga oladi. Bu qadriyatlar nafaqat individual hayotda, balki jamoaviy hayotda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Lingvokulturologiya esa axloqiy qadriyatlarning til orqali ifodalanishini va madaniyat bilan o‘zaro bog‘liqligini o‘rganadi.

Hozirgi globallashuv davrida axloqiy qadriyatlarning ahamiyati tobora ortib bormoqda. Dunyoning turli hududlarida mavjud bo‘lgan til va madaniyatlar bir-biri bilan yaqin aloqada bo‘lishiga qaramay, har bir millatning o‘ziga xos axloqiy qadriyatlari saqlanib qolmoqda. Ushbu maqolada axloqiy qadriyatlarning lingvistik va madaniy ifodalanishiga e‘tibor qaratiladi.

Maqola til va madaniyat o‘rtasidagi o‘zaro aloqani tadqiq qilish va axloqiy qadriyatlarning tildagi aksini aniqlashga qaratilgan.

Maqolaning asosiy maqsadi – axloqiy qadriyatlarning lingvokulturologik xususiyatlarini o‘rganish orqali ularning jamiyatdagi o‘rni va ahamiyatini aniqlashdir. Ushbu maqsadga erishish uchun bir nechta vazifalar belgilangan:

1. Axloqiy qadriyatlarning lingvokulturologik nazariyasini tahlil qilish.
2. Turli tillarda axloqiy qadriyatlarning ifodalanish shakllarini o‘rganish.
3. O‘zbek tilidagi axloqiy qadriyatlarning madaniy o‘ziga xosliklarini aniqlash.

Axloqiy qadriyatlar turli xalqlar hayotida qanday aks etishini tushunish nafaqat lingvokulturologiya sohasida, balki xalqaro aloqalarda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, oila, jamoaviylik, halollik va mehnatsevarlik kabi qadriyatlar turli madaniyatlardagi asosiy tamoyillar sifatida namoyon bo‘ladi. Bu qadriyatlarning lingvistik ifodasi esa madaniy o‘ziga xosliklarni ochib beruvchi kalit hisoblanadi.

Tadqiqotning dolzarbligi axloqiy qadriyatlar va ularning til va madaniyatga ta‘siri haqida chuqurroq bilim berish orqali milliy identifikatsiyani mustahkamlashga qaratilgan. Shuningdek, bu mavzu xalqaro kommunikatsiyada madaniy farqlarning tushunilishiga yordam beradi. Bu maqola O‘zbekiston madaniyati va boshqa xalqlar madaniyatining lingvistik qiyosiy tahliliga ham hissa qo‘shadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Ushbu tadqiqotda axloqiy qadriyatlarni lingvokulturologik tahlil qilish uchun turli usullardan foydalanildi. Birinchidan, lingvokulturologiya va semiotika nazariyalariga asoslangan tahlil usuli qo‘llanildi. Bu usul orqali til va madaniyatning o‘zaro aloqasini chuqur o‘rganish imkoniyati yaratildi. Ikkinchidan, matnlar tahlili usuli orqali turli tillardagi axloqiy qadriyatlarning lingvistik ifodalari o‘rganildi.

Ushbu tadqiqotda quyidagi bosqichlar amalga oshirildi:

1. **Adabiyotlar sharhi**: Adabiyotlar sharhi bosqichida lingvokulturologiya va axloqiy qadriyatlar mavzusiga oid turli manbalar chuqur o‘rganildi. Lingvokulturologiya til va madaniyatning o‘zaro bog‘liqligini tadqiq qilishga qaratilgan fan sifatida, axloqiy qadriyatlarni tahlil qilishda muhim ahamiyatga ega. Tadqiqot davomida ilmiy maqolalar, dissertatsiyalar va monografiyalar, xususan, o‘zbek xalq maqollari, hikmatli so‘zlari va she‘riyatida aks etgan qadriyatlar tahlil qilindi. Masalan, “Do‘st orttirish boylikdan afzal” kabi maqollar orqali o‘zbek xalqining do‘stlik, samimiylik va insoniy munosabatlar haqida qay darajada yuqori qadriyatlarni e‘zozlashini anglash mumkin. Adabiyotlarda til vositasida ifodalangan axloqiy qadriyatlarning kelib chiqishi, tarixiy shakllanishi va zamonaviy madaniyatdagi o‘rni haqida fikrlar o‘rganilib, ular lingvokulturologik nuqtai nazardan qayta ko‘rib chiqildi.

Shuningdek, boshqa madaniyatlarning axloqiy qadriyatlari bilan o‘zbek xalqining qadriyatlarini taqqoslash imkoniyatini beruvchi manbalar ham tahlil qilindi. Ushbu bosqichda yig‘ilgan ma‘lumotlar lingvokulturologik nazariyaga asoslangan holda tizimlashtirildi va axloqiy qadriyatlarning til orqali qanday shakllantirilishi haqida dastlabki xulosalar chiqarildi.

Bu bosqich axloqiy qadriyatlarning xalq ijodiyoti, adabiy meros va zamonaviy madaniy kontekstda aks etishini tahlil qilish uchun asos bo‘lib xizmat qildi.

2. **Komparativ tahlil** bosqichi axloqiy qadriyatlarning turli tillarda qanday ifodalanganini o‘rganishga qaratilgan edi. Ushbu usul orqali o‘zbek tilidagi axloqiy qadriyatlar, masalan, “To‘g‘rilik eng yaxshi fazilat” yoki “Yaxshilik qilsang, yaxshilik topasan” kabi iboralar boshqa tillardagi ekvivalentlari bilan taqqoslandi. Ingliz tilidagi “Honesty is the best policy” yoki rus tilidagi “Добро возвращается добром” kabi iboralar orqali turli madaniyatlarning axloqiy qadriyatlarni ifodalash usullari o‘rtasidagi o‘xshashliklar va farqlar ochib berildi. Arab tilidagi maqollar va iboralar ham tahlil qilingan bo‘lib, ular axloqiy qadriyatlarning Islom dini ta’siridagi madaniyatlarda qanday shakllanishini ko‘rsatdi.

Taqqoslash natijasida, masalan, halollik, adolat va mehr-oqibat kabi umumiy qadriyatlarning turli madaniyatlarda lingvistik jihatdan turlicha ifodalanishi aniqlangan bo‘lsa-da, ularning asosiy mazmuni bir xil ekanligi kuzatildi. Bu bosqich madaniyatlararo muloqotni chuqurroq tushunish va axloqiy qadriyatlarning universalligini aniqlashga xizmat qildi. Shu bilan birga, madaniy kontekstga xos bo‘lgan maxsus qadriyatlar, masalan, o‘zbek xalqining mehmondo‘stlik qadriyatlari til orqali qanday aks etishi ham o‘rganildi.

3. Empirik tadqiqot: Ushbu bosqichda axloqiy qadriyatlarni til orqali ifodalash masalalari amaliy tadqiqotlar yordamida o‘rganildi. So‘rovnomalar va intervyular orqali turli yosh va madaniy guruh vakillari ishtirokida ma‘lumotlar to‘plandi. Tadqiqotda yoshlar, o‘rta yoshdagilar va keksa avlod vakillari ishtirok etib, ularning axloqiy qadriyatlar haqidagi tasavvurlari va ularni til orqali ifodalash usullari o‘rganildi. Masalan, yosh avlod vakillarida axloqiy qadriyatlarning zamonaviy leksika orqali qanday ifodalanishi o‘rganilgan bo‘lsa, keksa avlod vakillarida xalq og‘zaki ijodida uchraydigan iboralarning qo‘llanilishi kuzatildi.

So‘rovnoma natijalari axloqiy qadriyatlarning zamonaviy madaniyatda qanday saqlanib qolayotgani yoki o‘zgarayotganini ko‘rsatdi. Intervyular esa insonlarning ma‘lum qadriyatlarga qanday munosabatda ekanligi, ularni kundalik hayotda qanday ifodalashi va til bu qadriyatlarni qanday tarzda aks ettirishi haqida chuqurroq ma‘lumot berdi. Bu bosqich tadqiqotga real hayotiy misollarni kiritish va nazariy xulosalarni empirik ma‘lumotlar bilan mustahkamlash imkonini berdi.

4. Semantik tahlil: Semantik tahlil bosqichida axloqiy qadriyatlarni ifodalovchi so‘z va iboralar chuqur tahlil qilindi. Turli tillardagi metaforalar, sinonimlar va antonimlar orqali qadriyatlarning qanday aks etgani o‘rganildi. Masalan, “yorug” va “qorong‘i” kabi antonimlar yordamida yaxshilik va yomonlik qadriyatlari lingvistik jihatdan qanday ifodalangani o‘rganildi.

Metaforalardan foydalanish orqali qadriyatlarning poetik va obrazli tasvirlanishi tahlil qilindi. Masalan, o‘zbek tilida “qalb nurafshonligi” yoki “yomonlik urug‘ini sochmaslik” kabi iboralar qadriyatlarning lingvistik jihatdan obrazli ifodalanishini ko‘rsatadi. Ingliz va rus tillarida ham shunga o‘xshash obrazli iboralar o‘rganilib, ularning semantik o‘ziga xosliklari aniqlangan.

Bu bosqich qadriyatlarning semantik tahlili orqali tilning ijtimoiy-madaniy vazifalari va qadriyatlarni ifodalashdagi roli haqida chuqurroq tushuncha berdi. Natijalar qadriyatlarning tildagi turli xil leksik va semantik vositalar yordamida ifodalanganligini va bu vositalarning madaniy kontekstga bog‘liq ravishda o‘zgarishini ko‘rsatdi.

Tadqiqotda qo‘llanilgan metodologik yondashuvlar va har bir bosqichda amalga oshirilgan ishlar axloqiy qadriyatlarning lingvokulturologik tahlilini samarali olib borish imkonini berdi. Har bir bosqich natijalari birgalikda axloqiy qadriyatlarning til va madaniyat o‘rtasidagi o‘zaro aloqasini ochib berishga xizmat qildi. Lingvokulturologiya va semiotika nazariyalari, matnlar tahlili, komparativ yondashuv va empirik tadqiqotlar orqali olingan xulosalar qadriyatlarning til orqali ifodalanishidagi madaniy va lingvistik xususiyatlarni chuqurroq tushunishga imkon berdi.

NATIJALAR

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, axloqiy qadriyatlarning lingvistik va madaniy ifodalanishida quyidagi muhim jihatlar mavjud:

1. **Madaniy o‘ziga xoslik**: Har bir xalqning axloqiy qadriyatlari o‘sha xalqning tarixiy, ijtimoiy va madaniy tajribasini aks ettiradi. Masalan, O‘zbek tilida “Mehnat qilgan – omad topgan” kabi maqollar mehnatsevarlik va halollik qadriyatlarini ifodalasa, ingliz tilida “Honesty is the best policy” iborasi halollikni qadrlashni ko‘rsatadi.
2. **Metaforalashuv jarayoni**: Axloqiy qadriyatlarning til orqali ifodalanishida metaforalashuv muhim rol o‘ynaydi. Misol uchun, o‘zbek tilida “Ko‘ngil oynasi buzilmasin” iborasi inson yuragining nozikligini ifodalaydi, ingliz tilida esa “A heart of gold” iborasi mehr-shafqatni anglatadi.
3. **Qadriyatlarning tildagi universalligi va xususiyati**: Ba‘zi axloqiy qadriyatlar universaldir, ya‘ni barcha madaniyatlarda uchraydi. Masalan, halollik va adolat qadriyatlari deyarli har bir tilda mavjud. Ammo ularning ifodalanish usuli madaniy va lingvistik jihatdan farqlanadi.
4. **Oila va jamoaviylikning ahamiyati**: O‘zbek madaniyatida axloqiy qadriyatlar ko‘pincha oila va jamoa bilan bog‘liq. Masalan, “Otangga qarab o‘g‘ilni tan” maqoli oilaviy axloqiy qadriyatlarning muhimligini ko‘rsatadi.

Natijalar shuni ko‘rsatdiki, axloqiy qadriyatlarning lingvistik va madaniy ifodalanishi ularning milliy identifikatsiyaga qanchalik katta ta‘sir ko‘rsatishini tasdiqlaydi.

MUHOKAMA

Natijalar tahlili axloqiy qadriyatlarning lingvokulturologik o‘ziga xos jihatlarini yanada chuqurroq tushunishga yordam beradi. Masalan, o‘zbek tilidagi axloqiy qadriyatlar xalqning tarixiy va madaniy rivojlanish jarayonini aks ettiradi. Tarixan O‘zbekistonda jamoaviylik, oilaviylik va mehmondo‘stlik kabi qadriyatlar asosiy o‘rinni egallagan. Bu qadriyatlar tildagi iboralar va maqollarda yaqqol ko‘rinadi.

Boshqa madaniyatlarda esa individualizmning ahamiyati ko‘proq seziladi. Masalan, ingliz tilidagi maqollar va iboralar shaxsiy erkinlik va muvaffaqiyatga urg‘u beradi. Bu farqlar xalqaro

kommunikatsiyada madaniy farqlarning to‘g‘ri tushunilishida muhimdir. Shuningdek, lingvokulturologik tahlil orqali xalqaro aloqalarda madaniy qadriyatlarning yanada yaxshiroq anglanishiga erishish mumkin.

XULOSA

Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, axloqiy qadriyatlarning lingvokulturologik o‘rganilishi til va madaniyat o‘rtasidagi o‘zaro aloqani chuqurroq tushunish imkonini beradi. Axloqiy qadriyatlar turli tillarda va madaniyatlardagi o‘ziga xosliklarni aks ettiruvchi muhim vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Bu qadriyatlarning tildagi ifodasi milliy identifikatsiyani mustahkamlashga xizmat qiladi. Axloqiy qadriyatlar insoniyat tarixida doimiy ravishda dolzarb bo‘lib kelgan mavzulardan biridir. Ular har bir jamiyatning asosi, madaniy o‘ziga xosligi va urf-odatlari bilan chambarchas bog‘liq. Til esa bu qadriyatlarni ifodalashda va avloddan-avlodga yetkazishda asosiy vosita hisoblanadi. Har bir tilda axloqiy qadriyatlar o‘ziga xos ko‘rinishda namoyon bo‘ladi. Masalan, sharq tillarida hurmat, saxovat va mehr-oqibatga oid tushunchalar juda chuqur ifodalansa, g‘arb tillarida individuallik va inson huquqlari qadriyatlari kuchli aks etadi. Bu kabi o‘ziga xosliklar til va madaniyat o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni yanada ko‘proq oydinlashtiradi.

Axloqiy qadriyatlarning lingvokulturologik o‘rganilishi ushbu bog‘liqlikni chuqurroq o‘rganishga yordam beradi. Lingvokulturologiya til orqali madaniyatni, madaniyat orqali esa tilni o‘rganish bilan shug‘ullanuvchi soha hisoblanadi. Bu yo‘nalish, ayniqsa, axloqiy qadriyatlarning milliy va madaniy o‘ziga xosliklarini tahlil qilishda keng imkoniyatlar yaratadi. Masalan, o‘zbek tilida “yoshi ulug‘larni hurmat qilish”, “mehmonnavozlik” kabi tushunchalar jamiyat axloqiy qadriyatlarining ajralmas qismi hisoblanadi va bu tushunchalar til vositasida boy frazeologizm, maqol va matallar orqali ifodalanadi. Shu jihatdan, har bir millatning axloqiy qadriyatlari ularning tili va madaniyatida o‘ziga xos tarzda namoyon bo‘ladi.

Axloqiy qadriyatlar tildagi ifodasi orqali milliy identifikatsiyani mustahkamlashga xizmat qiladi. Til milliy madaniyatning aksariyat qirralarini o‘zida jamlagan holda, xalqning dunyoqarashi, qadriyatlari va urf-odatlarini saqlashda asosiy vosita bo‘lib kelgan. Masalan, o‘zbek tilidagi “Odob-axloq – inson ko‘zgusi” yoki “Yaxshilik qilsang, o‘zingga qaytar” kabi maqollar xalqning axloqiy qadriyatlari va ularning asosiy tamoyillarini ifodalaydi. Ushbu qadriyatlar avloddan-avlodga o‘tib, milliy identifikatsiyani saqlab qolishga yordam beradi. Shuningdek, xalqning madaniy merosi sifatida bu qadriyatlar o‘zining til vositasida kelajak avlodlarga yetkaziladi.

Kelajakda axloqiy qadriyatlarni boshqa tillar va madaniyatlarda yanada chuqurroq o‘rganish ushbu yo‘nalishdagi ilmiy izlanishlarni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday tadqiqotlar turli millat va elatlarning axloqiy qadriyatlarini qiyosiy o‘rganish, ularning umumiy va o‘ziga xos jihatlarini aniqlash imkonini beradi. Misol uchun, sharq madaniyatidagi “saxovat” va g‘arb madaniyatidagi “xayriya” tushunchalarini qiyosiy o‘rganish orqali bu qadriyatlarning

universal va milliy xususiyatlarini aniqlash mumkin. Shuningdek, bu kabi tadqiqotlar xalqaro kommunikatsiyada madaniy farqlarni chuqurroq tushunishga yordam beradi.

Madaniyatlararo kommunikatsiyada axloqiy qadriyatlarni o‘rganish alohida ahamiyatga ega. Chunki turli madaniyatlardan kelib chiqqan insonlar o‘rtasidagi muloqotda tushunmovchiliklar ko‘pincha axloqiy qadriyatlarning turlicha talqin qilinishi tufayli yuzaga keladi. Masalan, bir madaniyatda hurmat belgisi sifatida qabul qilinadigan harakat boshqa madaniyatda salbiy yoki noo‘rin qabul qilinishi mumkin. Bunday holatlarda madaniy farqlarni tushunish va hurmat qilish kommunikatsiya samaradorligini oshirishga yordam beradi. Shunday qilib, axloqiy qadriyatlarni chuqurroq o‘rganish xalqaro aloqalarda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Shuningdek, axloqiy qadriyatlarni o‘rganish lingvokulturologiya sohasiga yangi bilimlarni qo‘shadi. Bu esa til va madaniyatni o‘rganishda kengroq istiqbollar ochadi. Masalan, axloqiy qadriyatlarning til va madaniyatdagi ifodasi haqidagi bilimlar nafaqat lingvistika, balki psixologiya, sotsiologiya va antropologiya kabi boshqa sohalarda ham foydali bo‘lishi mumkin. Bu yo‘nalishdagi izlanishlar til va madaniyat o‘rtasidagi o‘zaro aloqalarni yanada chuqurroq tushunishga yordam beradi va axloqiy qadriyatlarning jamiyat hayotidagi o‘rnini yanada aniqroq belgilab beradi.

Xulosa qilib aytganda, axloqiy qadriyatlarning lingvokulturologik o‘rganilishi nafaqat til va madaniyat o‘rtasidagi aloqani chuqurroq tushunishga yordam beradi, balki milliy identifikatsiyani mustahkamlashga ham xizmat qiladi. Ushbu qadriyatlarning turli tillar va madaniyatlardagi ifodalarini tadqiq qilish kelajakda xalqaro kommunikatsiya va madaniy farqlarni anglashda muhim vosita bo‘ladi. Shuningdek, bu tadqiqot natijalari lingvokulturologiya sohasiga yangi bilimlar qo‘shib, axloqiy qadriyatlarning til va madaniyatdagi o‘rnini chuqurroq anglashga yordam beradi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. **Bekchanova, N. A. qizi.** (2023). *Folklor matnining lingvokulturologik xususiyatlari (ingliz va o’zbek ertaklarining qiyosiy misolida)*. Science and Education, 4(2), 1662–1666.

2. **Uzoqova, Yulduzxon Dilshodbek qizi.** (2024). *O‘zbek va ingliz xalq maqollarining lingvokulturologik xususiyatlari*. Konferensiyalar | Conferences, 1(7), 211-213.

3. **Musurmanova, Shaxnoza Qo‘chqorovna.** *Harbiy terminlarni tarjima qilishning lingvokulturologik xususiyatlari (ingliz tilining britaniya va amerika variantlari asosida)*.

4. **Akhmedova, Sarvinoz & Mizrobova, Vazira.** (2024). *Linguoculturological Analysis of Gender Characteristics in Uzbek Artistic Discourse*. News of the NUUz, 1(1.6.1), 285-287.

5. **Mirzaeva, S.** (2005). *O‘zbek realistik adabiyotida folklor an’analari*. Folklorshunoslikdan o‘quv-uslubiy qo‘llanma. Toshkent: Istiqlol.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 1-son)

FILOLOGIYA

PHILOLOGY

FAXRIYALARNING MAZMUNIY TASNIFI VA ULARDA SURUSH OBRAZI

Otaqulova Sarvinoz Fozil qizi
O‘zRFA o‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti tayanch doktoranti
sarvinozotaqulova3@gmail.com
+998949435125

Annotatsiya Maqolada faxriyalarning mazmuniy tomondan maqsadli, haqqoniy va adolatsiz kabi turlarga bo‘linishi, haqqoniy faxriyalarda faxr, asosan, surush vositasida ifodalanishi kabi masalalar o‘z aksini topgan. Shuningdek, surush obrazining kelib chiqishi borasida mulohazalar bildirilgan.

Kalit so‘zlar: maqsadli, haqqoniy va adolatsiz faxriyalar, surush, hotif, sraosha.

Аннотация В статье отражены такие вопросы, как разделение чести по содержанию на целенаправленную, справедливую и несправедливую, а также то, что в чести истинной чести гордость выражается, главным образом, в средствах борьбы. Также были высказаны соображения относительно происхождения образа Суруш.

Ключевые слова: целеустремленные, правдивые и несправедливые ветераны, Суруш, хотиф, сраоша.

Annotation The article covers issues such as the division of veterans from the substantive side into types such as targeted, truthful, and unfair, and the expression of pride in truthful veterans primarily through the means of push. There were also comments on the origin of the image of surush.

Key words: purposeful, truthful and unjust veterans, ask, Hatif, sraosha.

KIRISH. Faxriya turli janrlar tarkibida uchraydigan, asosan, lirik qahramonning shaxsiy va ijodiy imkoniyatlaridan g‘ururlanishi natijasida yuzaga kelgan adabiy usul, badiiy vosita hisoblanadi. Adabiyotshunos Y.Is’hoqov faxriyalarni shartli ravishda mazmuniy tomondan ikki guruhga ajratgan. Birinchi turdagi faxriyalarda shoir asarlarining chuqur mazmun va yuksak pafosda yozilganligi bilan bog‘liq xususiyatlaridan iftixori aks etgan bo‘lsa, ikkinchi turdagi faxriyalarda shoir ijodiy me’rosining madaniyat va adabiyot olamida tutgan o‘rni va mavqeyi haqida so‘z boradi. [4.256]

ADABIYOTLAT TAHLILI. “G‘aroyib us-sig‘ar”dan olingan quyidagi baytda Navoiy nazmi elni yig‘latsa, ajablanmaslikni aytar ekan, devonidagi she’rlarni hajr o‘tidan chiqadigan tutundan siyoh sifatida foydalanib yozganini bu holga sabab o‘laroq keltiradi. Bu bilan shoir

she’rlarining ta’sirli (elni yig‘latadigan darajada) va yuksak pafos bilan yozilganligiga urg‘u beradi. O‘z o‘rnida bundan g‘ururlanadi:

Ey Navoiy, ne ajab gar nazmim elni yig‘latur,

Kim yozilmish hajr o‘tining dudasidan daftarim. [2.289]

Ushbu baytda Navoiy she’rlarining o‘ziga xos individual xususiyatlari haqida so‘z borganligi uchun bu – shoir ijodining mazmuniga aloqador bo‘lgan faxriyalar turkumiga kiradi.

Quyida beriladigan boshqa bir baytda esa shoir o‘z ijodining ahamiyatini ko‘rsatishga harakat qiladi:

Nazm mulkin til chekib olmish Navoiy uylakim,

Cheksa olamni olur shohi falak miqdor tiyg‘. [2.246]

Bunda Navoiy til bilan nazm mulkini egallaganini aytar ekan, nazmiy merosining madaniyat olamida yuksak o‘rinlarda turishini ochiqlaydi. Ikkinchi misrada esa shoir agar shohim falak miqdoricha tig‘ cheksa, butun olamni egallashga qodirdir deb, o‘zining ijodda, hukmdorining kuch-qudratda tengsizligini ta’kidlaydi.

Yoki:

Turk nazmida chu men tortib alam,

Ayladim ul mamlakatni yakqalam. [2.330]

Ushbu baytda Navoiy turkiy tilda ijod qilishni boshlab berib, bu tilni davlat tili darajasiga ko‘tarilishiga hissa qo‘shganligidan faxrlanadi. Yuqoridagi ikki misol ham shoir ijodiy merosining adabiyot va ijtimoiy hayotda tutgan o‘rnini ko‘rsatib beruvchi faxriyalardir.

“Adabiy tur va janrlar” kitobida “faxr islomgacha bo‘lgan qasidada uning bosh qismidir. Shoir unda o‘zini, o‘z urug‘ini va jasoratini maqtashi” to‘g‘risidagi fikrlar keltiriladiki, biz buni islomgacha bo‘lgan adabiyotlardan “Avesto”, “Eski turk she’r”larida ko‘rib o‘tdik. Shuningdek, ushbu kitobda faxriyalar qadimdan uch turli bo‘lganligi aytilib, quyidagicha tasniflanadi:

– Faxriyalarning birinchi turi muayyan maqsadni ko‘zlagan faxriya bo‘lib, shoir unda o‘zini boshqa shoirdan ustun qo‘yadi yoki buyuk shoirlarga tenglashtirib keladi.[5.179] Faxriyaning bu turiga misol tariqasida ushbu baytni keltirish mumkin:

Navoiy nazm aro tig‘i zabonin uyla surdikim,

Pichoq topmas uyatdin o‘zni o‘lturmakka Sakkokiy. [2.424]

Baytda Navoiy o‘zini nazm bobida, hatto, Sakkokiydan ham ilgarilab ketganini, bundan Sakkokiy uyatda qolganini mubolag‘ali holda tasvirlaydi. Bu bilan ijodiy mahoratini ustoz shoir Sakkokiyga tenglashtiradi.

– Ikkinchi xili esa haqqoniy faxriya bo‘lib, unda shoir o‘zini maqtashga haqliday his etadi. [5.179] Faxriyaning bu turida faxrlanish aksariyat holatlarda shoirning o‘z tilidan bayon etilmaydi. To‘g‘rirog‘i, lirik qahramon biror sohada o‘zini maqtashga loyiq deb his etadi va shu maqtovni kamtarlik yuzasidan surush tilidan bayon etadi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR. Umuman, faxriya baytlar shoirning o‘zi yoki g‘oyibdan kelgan tovush, ya’ni, surush (xotif) tomonidan aytiladi. Surush so‘zi dastavval “Avesto”da Sraosha ma’budining nomi sifatida keltiriladi. Kitobda bu ma’bud “g‘olib,

muqaddas, ajr beruvchi, mehribon, botir, qudratli kabi sifatlar bilan zikr etilgan.” [6.529] Surush zardushtiylik dinida itoatkorlik, farmonbardorlik, bo‘ysunish ilohi hisoblangan. [1.81] “Avesto”da surush porso so‘zi bilan birikmali holda berilgan. Porso so‘zining lug‘aviy ma’nosi taqvodor deganidir. Shu o‘rinda surushga xos xususiyatlardan biri taqvodorlik ekanligi ham ayon bo‘ladi. Surushga nisbatan porso so‘zining qo‘llanishi keyinchalik “uni komil insonning ramzi sifatida talqin qilinishiga zamin yaratgan. Navoiy she’riyatida surush farishta, komil inson, g‘aybdan yetgan ilhom ma’nosida keltirilgan.” [6.529] Ba’zi manbalarda surush Jabroil alayhissalom bilan teng qo‘yiladi. Bu qarashga kelishga esa ikkala farishtaning farmonbardor va itoatkorlik xususiyatlari asos qilib olingan. XV asrga kelib surush orqali fikrni bayon etish adabiy usulga aylana boshlagan. Shoirlar yirik asar yozish oldidan o‘zlarida ojizlik va ishonchsizlikni his qilishgan. Bunday vaziyatlarda dalda berish maqsadida surush biror bir asarni yoza olishi haqida ijodkorlarga ilohiy xabar keltiradi. Ilohiy xabar aksariyat hollarda madh va faxriya ruhida bo‘ladi. Ya’ni, surush shoir ijodiga tahsin o‘qib, yangi asarini ham mukammal yoza olishiga ishonch bildiradi.

Surush (xotif) obrazi Navoiy dostonlarida keng qo‘llangan. “So‘z san’ati so‘zligi”da surushning “Xamsa”dagi ikki vazifasi alohida ta’kidlanadi. Birinchi vazifasi “ijodkor ikkilanish, jur’atsizlik holatiga tushgan paytida uni o‘z kuchi va imkoniyatlariga ishonch tug‘dirib, faollikka chorlovchi va qat’iy ishonch bilan ishga kirishga undovchi ijobiy kuch. Ikkinchisi esa, ma’lum asar yozish oldidan shoir boshidan o‘tqazayotgan kecinmalarni ochib berish vositasidir. Navoiy “Xamsa” yozishga kirish oldidagi chuqur ruhiy kechinmalari (kuchli orzu va ulug‘ vazifa qarshisidagi hadiksirash o‘rtasidagi kurash)ni nihoyatda samimiy tasvirlaydi. Shoir ana shunday chuqur mulohazalar girdobida turgan bir paytda surush hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.” [4.178] Bu obraz, asosan, dostonlarning muqaddima va xotima qismlarida uchraydi.

Bu g‘amdin menda qolmay aql-u hushe,
Bu nav’ etti nido nogah surushe
Ki, ey kunji malolatning xumuli,
Tushub dard-u balo ko‘nglung qabuli.
Chu sen mundin burun xomang qilib tez,
Suman bargini qilding sunbulomez…
Qo‘yub vayronalarda telbalikni,
Yana bir ganj sori sun ilikni.
Yana bir konni qazmog‘liqqa mayl et,
Qazib ahbob aro naqdin tufayl et. [2.36-38]

Doston muqaddimasidan olingan parchada shoir “Farhod va Shirin”ni yozish oldidan qo‘rquv va g‘amga tushib turganida surush kelib bundan avval ham xazina kabi asarlar yozganini, bu dostonini ham mukammal tarzda yoza olishiga dalda beradi. Bunday vaziyatlarda shoir o‘zini faxrlanishga loyiq kabi his qiladi, ammo buni to‘g‘ridan to‘g‘ri, bevosita ifodalashni istamaydi va ijodiy imkoniyat olamini surush tilidan ochiqlaydi.

Faxriyani surush vositasida ifodalash faqatgina dostonda emas, balki oz bo‘lsa-da, g‘azallarda ham uchrashini aniqladik. Keltiradigan ushbu bayt bunga yorqin misol bo‘la oladi:

Dedim, nazm ahlining sarxayli kim bo‘lg‘ay, dedi hotif,

Navoiy bo‘lgay, ulkim sen tilaydursen agar bo‘lg‘ay. [2.445]

Yuqoridagi baytga ko‘ra, shoir nazm ahlining yo‘lboshchisi kim bo‘ladi deb so‘raganda, hotif: agar istasa, Navoiy, albatta, nazm ahlining rahbari bo‘ladi, deb javob qaytaradi. Bu bilan shoir ijodiy salohiyati bilan she’riyat ahliga yo‘lboshchilik qila olishi mumkinligidan g‘ururlanadi. Ammo iftixor tuyg‘usi bevosita emas, balki bilvosita hotif tilidan bayon etiladi. Adabiyotda hotif va surush so‘zlari ekvivalent sifatida tushunilib, bir-birining o‘rnida almashib qo‘llanaveradi. Chunki ikkalasining ham vazifasi xabar yetkazishdir. Demak, faxriya ruhini surush vositasida ifodalash yuqorida ko‘rib o‘tganimiz faxriyaning ikkinchi turini hosil qilar ekan.

– Faxriyaning so‘nggi turi esa adolatsiz faxriya bo‘lib, unda maqtanish aslida o‘rinsiz hisoblanadi. [5.179]

B.Valixo‘jayev faxriya borasidagi fikrlarni davom ettirib, “O‘rta Osiyo xalqlari ijodida bu nomda adabiy janr mavjud bo‘lmasa-da, ammo adabiy-tanqidiy qarashlarni ifoda etish vositalaridan biri sifatida ushbu badiiy vosita qo‘llanishi”ni aytib o‘tadi. [3.10]

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, faxriyalar turli lirik janrlar tarkibida kelib, mazmuniy jihatdan maqsadli, haqqoniy va adolatsiz faxriya kabi turlarga ajraladi. Faxriya baytlar esa shoir tilidan yoki surush vositasida bayon etilib, hotif tilidan faxriyalarni ifodalash, asosan, haqqoniy faxriyalarda o‘z aksini topadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Авесто. Форс тилидан Асқар Маҳкам таржимаси. – Т.: Ғафур Ғулом, 2015.

2. Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 20 томлик, 3, 4, 6, 8, 12-томлар. – Т.: Фан, 1988-1996.

3. Валихўжаев Б. Ўзбек адабиётшунослиги тарихи. – Т.: Ўзбекистон, 1993.

4. Исъҳоқов Ё. Сўз санъати сўзлиги. – Т.: Ўзбекистон, 2014.

5. Каримов Э., Саримсоқов Б. Адабий турлар ва жанрлар. 3 жилдлик, 2-жилд. – Т.: Фан, 1992.

6. Қаюмов А., Ғаниева С. ва б. Алишер Навоий. Қомусий луғат. 2 жилдлик, 1-жилд. – Т.: Шарқ, 2016.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 1-son)

FILOLOGIYA

PHILOLOGY

UDK: 81’1/’4
ORCID: 0009-0007-0379-8897

O‘ZBEK VA INGLIZ XALQLARI BOLALAR FOLKLORIDA PERSONIFIKATSIYA HODISASINING SEMANTIK TAHLILI.

Yusupova Sohiba Islombek qizi
Ma’mun universiteti o‘qituvchisi
syusupova987@gmail.com

Annotatsiya: Bolalar folklorida qo‘llaniladigan uslublar, jumladan, personifikatsiya, bolalarga turli ijtimoiy va tabiat hodisalarini insoniy sifatlar bilan bog‘lash orqali murakkab g‘oyalarni o‘zlashtirish imkoniyatini beradi. Personifikatsiya hodisasi, ya’ni jonsiz narsalar yoki o‘simlik va hayvonlarga inson sifatlarini berish, bolalar folklorining muhim komponenti sifatida o‘ziga xos o‘rin tutadi. Personifikatsiya hodisasi orqali bolalar odamlar va tabiat o‘rtasidagi bog‘lanishlar, munosabatlarni tushunishadi. Ushbu maqolada o‘zbek va ingliz xalqlari bolalar folklorida personifikatsiya hodisasining qo‘llanilishi semantik jihatdan tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: personifikatsiya, tashhis badiiy san’ati, antropomorfizm, stilistik vosita.

SEMANTIC ANALYSIS OF THE PHENOMENON OF PERSONIFICATION IN CHILDREN'S FOLKLORE OF THE UZBEK AND ENGLISH PEOPLES.

Annotation: The techniques used in children's folklore, including personification, allow children to master complex ideas by associating various social and natural phenomena with human qualities. The phenomenon of personification, that is, giving human qualities to inanimate objects or plants and animals, occupies a special place as an important component of children's folklore. Through the phenomenon of personification, children understand the connections and relationships between people and nature. This article analyzes the semantic meaning of the phenomenon of personification in children's folklore of the Uzbek and English peoples.

Key words: personification, “tashhis” literary device, anthropomorphism, stylistic means.

СЕМАНТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ФЕНОМЕНА ПЕРСОНИФИКАЦИИ В ДЕТСКОМ ФОЛЬКЛОРЕ УЗБЕКСКОГО И АНГЛИЙСКОГО НАРОДОВ.

Аннотация: Приемы, используемые в детском фольклоре, в том числе олицетворение, позволяют детям постигать сложные идеи, связывая различные

социальные и природные явления с человеческими качествами. Явление олицетворения, то есть наделения неодушевленных предметов, растений и животных человеческими качествами, занимает уникальное место как важный компонент детского фольклора. Благодаря феномену олицетворения дети понимают связи и отношения между людьми и природой. В данной статье анализируется семантическое использование явления олицетворения в детском фольклоре узбекского и английского народов.

Ключевые слова: персонификация, литературный прием “ташхис”, антропоморфизм, стилистические средства.

KIRISH.

Personifikatsiya, ya’ni inson bo‘lmagan mavjudotlar yoki obyektlarga insoniy xususiyatlarni berish, bolalar folklorida keng tarqalgan va muhim o‘rin tutadi. O‘quvchilar va tinglovchilar uchun bu usul, shubhasiz, qiziqarli va tushunarli tarzda bayon etiladi, chunki u tabiiy dunyo bilan bolaning o‘zaro munosabatini anglashga yordam beradi. Personifikatsiya bolalar dunyoqarashini shakllantirishda, ularning til va mantiqiy tafakkurini rivojlantirishda hamda axloqiy qadriyatlarni o‘rgatishda samarali vosita hisoblanadi. Personifikatsiya elementlarining bolalar folklorida keng qo‘llanilishi, shuningdek, til o‘rganishda ham muhim ahamiyatga ega. Bolalar, ayniqsa yosh guruhlarda, abstrakt tushunchalarni tushunishda qiyinchiliklarga duch kelishadi. Personifikatsiya orqali ular tushunarsiz yoki mavhum bo‘lgan tabiat hodisalarini o‘zlariga yaqinlashtirib, inson sifatlari bilan bog‘lashadi. Bu jarayon, o‘z navbatida, bolaning til o‘rganish jarayonini sezilarli darajada osonlashtiradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR.

Personifikatsiya g‘oya yoki ma’lumotni bolalarga yetkazishda yaxshi ta’sir ko‘rsatadi yoki tinglovchi o‘z tasavvuridan foydalanib, oddiy so‘zdan ko‘ra ko‘proq narsani tushunadi, ya’ni she’r va qo‘shiqlarni yanada tushunarli bo‘lishini ta’minlaydi. Personifikatsiya so‘zi lotincha (persona-shaxs, facio-bajaraman) so‘zdan olingan bo‘lib, turli shaxs bo‘lmagan narsa-buyumlar va o‘simlik yoki hayvonlarning xuddi shaxs kabi jonlantirilishi hisoblanadi [1]. Shaxslantirish - biror fikr yoki g‘oyani rang-barangroq, obrazli ifodalash uchun odam bo‘lmagan yoki jonsiz narsaga nisbatan insoniy sifatlarni qo‘llaydigan obrazli tilning bir turidir. Personifikatsiya - jonsiz narsalar va hayvonlarga hissiyotlar va odamga xos xatti-harakatlar kabi insoniy xususiyatlarni beruvchi metafora turidir. Personifikatsiya hodisasi har doim xalq og‘zaki ijodida, ertaklar, balladalar, afsonalar va hikoyalarda, shu bilan birga bolalar she’r va qo‘shiqlarida ham uchraydi. Rus tilshunosligida shaxslantirish atamasiga zamonaviy yondashuv 20-asrning birinchi yarmidan boshlangan.

O‘zbek tilida personifikatsiya tashhis badiiy san’ati deb ataladi. Tashhis so‘zi arabcha so‘zdan olingan bo‘lib, shaxslantirish degan ma’noni anglatadi. Tashhis -bu badiiy san’atning bir turi bo‘lib, turli jonsiz narsalar va hayvonlar, o‘simliklar, qushlar va boshqalarga insonga doir xususiyatlarni ko‘chirish san’atidir[2,7]. Tashhis san’ati stilistik vosita bo‘lib, bolalar og‘zaki ijodida keng qo‘llaniladi va tasvirning yorqinroq va aniqroq bo‘lishiga yordam beradi.

Bu san’at turi dastlab xalq og‘zaki ijodi namunalarida uchragan, va hozirgi kunda badiiy adabiyotda va she’riyatda juda ko‘plab qo‘llaniladi. Tojik adibi hisoblanmish To‘raqul Zehniy tashhis san’atiga shunday ta’rif beradi: “Tashhis adabiyotda jonlantirish ma’nosida, jonsiz va tabiat hodisalariga jon ato etib, ularni odam ko‘rinishida namoyon etishi, turli xildagi hashorot va parrandalarni inson tilida gapirtirishdir. Shoir bu badiiy san’at orqali jonsiz narsalarga jon bag‘ishlab, ularni odam ko‘rinishida namoyon etadi”[3,102]. Bolalar she’riyatida bu san’at turidan juda ko‘p foydalaniladi, turli xil qushlar va hayvonlarga odamlarga xos hislatlarni o‘zida mujassamlashtirib, insonlarga xos turli amallarni bajarish holati tasvirlanadi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA.

Quyida o‘zbek bolalar folklorida tashhis badiiy san’atining qo‘llanilishi, va ularning semantik tahlilini ko‘rishimiz mumkin:

1. Shamol,shamol,

Bag‘ring kamol,

Ketmoningni yerga qo‘y,

Bolangni suv oqizdi. Bu qo‘shiq qadimda odamlar tomonidan shamol esishi uchun kuylangan yalinchoqlardan biri hisoblanadi. Bunday yalinchoqlar xalq og‘zaki ijodi namunalarida ko‘p uchraydi. Huddi shamolga odamga murojaat qilinganday kuylangan.

2. Daryosan, daryosan,

Suving sho‘r ekan.

Aylanib oqmaysan,

Umring xor ekan,

Ko‘zing ko‘r ekan [4]. Bu she’r ham yalinchoqlardan biri hisoblanadi. Qadimda turli xil yomg‘ir chaqirish, va tabiat hodisalariga nisbatan turli xil marosim qo‘shiqlari kuylangan. Bu she’rda daryo to‘lib toshib oqishi uchun unga murojaat qilinadi.

3. Oymoma ayyor,

Chiliming tayyor,

Uyingga borsam iting qopadi. Bu she’r fetishizm va totemism g‘oyalari mavjud davrdan qolgan hisoblanadi. Shu davrda odamlar tabiat hodisalariga qarshi chiqolmay ularga sig‘inishgan.

4. Pufagim semir, havoni shimir. Bunda pufak shishirish xuddi odamning semirishiga o‘xshatib tasvirlangan.

5. Beshiktervat, beshiktervat,

Bolaginang yig‘layapti. Bu jumla hukmlagichlardan olingan bir parcha hisoblanadi.

6. Turna…arqon sol!

Cho‘ntagingga talqon sol. Bu ham hukmlagich hisoblanadi. Shunday da’vatdan keyin turnalar go‘yoki maqsadga muvofiq uchishda davom etishadi [4,117].

7. Qaldirg‘och g‘och-g‘och,

Eshigingni tezroq och. Bu ikkala jumla ham hukmlagichlardan olingan. Hukmlagichlar dastlab ajdodlarimizning totemistik g‘oyalari sababli vujudga kelgan bo‘lib, hozirgi kunda

bolalar she’riyatida mavsum-marosim qo‘shiqlari sifatida o‘ziga xos motiv sifatida joy olgan.

Ingliz bolalar folklorida personifikatsiya hodisasiga doir ko‘plab tadqiqotlar amalga oshirilgan. Ingliz tilshunosi Josef Dodson personifikatsiya hodisasini boshqa tilshunos olimlar nazariyalariga asoslanib 3 turda bo‘lishini e’tirof etgan. Shuningdek, ingliz olimi Lich ham personifikatsiya hodisasini semantik jihatdan tahlil qilib, 7 xildagi ma’no turini izohlagan[5]. Personifikatsiya hodisasiga o‘xshash hodisalardan biri bu antropomorfizm hisoblanadi. Personifikatsiya ko'pincha antropomorfizm adabiy hodisasi bilan tub o‘xshashliklarga ega bo‘lganligi tufayli ko‘pchilik tomonidan bu ikki hodisani chalkashtirish yuzaga kelishi mumkin. Biroq, bu ikki adabiy qurilma o‘rtasida farq bor. Antropomorfizm - bu jonsiz narsalar yoki mavhum g‘oyalar emas, balki hayvonlar yoki qushlarga nisbatan inson xususiyatlari yoki fazilatlari qo‘llanilishi sanaladi. Adabiy vosita sifatida antropomorfizm hayvonlarga o‘zini odam kabi tutishga imkon beradi. Binobarin, antropomorfizm hayvonlar bilan chegaralangan bo‘lsa-da, jonsiz narsalar va mavhum g‘oyalarni o‘z ichiga olgan personifikatsiya adabiy vosita sifatida kengroq qo‘llanilishi mumkin. Personifikatsiya yozuvchilarga insoniy xususiyatlarni antropomorfizmda bo‘lgani imkonini beradi. Umuman olganda, adabiy vosita sifatida personifikatsiya o‘quvchilar uchun jonli va jonsizlar o‘rtasidagi tasvir va aloqalarni yaratish vositasi sifatida ishlaydi. Shunday ekan, shaxslashtirish yozuvchilarga ma’noni ijodiy va she’riy tarzda yetkazish imkonini beradi. Bu nutq hodisalari o‘quvchining tushunchalar va taqqoslashlar haqidagi tushunchasini, ramzlar va mavzularni talqin qilishni, tildan zavqlanishni kuchaytiradi. Stilistik vosita sifatida personifikatsiya yuqori darajadagi ijodkorlikni namoyish etadi.

Quyidagi misollar orqali personifikatsiya va antropomorfizm tushunchalari o‘rtasidagi farqni ko‘rishimiz mumkin:

1) Choynak g‘azab bilan hushtak chaldi – personifikatsiya.
2) Choynak oyog‘ini gursillatib, mani e’tiborsiz qoldirmay deya baqirdi- antropomorfizm.

Demak, personifikatsiyada jonsiz narsa-buyumlar inson xususiyatlari bilan tasvirlanadi, antropomorfizmda esa narsa-buyumlar yoki hayvonlar odamlar singari harakatlanadi.

Ingliz bolalar folklorida personifikatsiya hodisasining qo‘llanilish holatlari:

1. And the moon sees me. Bu parchada oy meni ko‘radi deya yozilgan, go‘yoki oyning inson kabi ko‘zlari mavjudligi tasvirlangan.

2. But before the robin got a spoon. Bunda “robin” so‘zi chumchuq, “spoon” qoshiq degan ma’noni anglatadi va chumchuq odam kabi qoshiqni ushlaganligi tasvirlangan.

3. There is a neat little clock…and it points to the time with its two little hands. Bu jumlada soatning millari qo‘llar sifatida aytilgan.

4. Baa, baa, black sheep,
Have you any wool,
Yes sir, yes sir,
Three bags fool. Bu qo‘shiqda qo‘y xuddi inson kabi gapirgani tasvirlangan.

5. I’m a little teapot,

Short and stout,
When the water’s boiling
Hear me shout. Bu she’rda ham choynakni odam singari gapirgani tasvirlangan.
6. Munching mangoes,
Mish mash mush.
Jumps into the puddle,
Splish splash splush [6]. Bu she’rda mango mevasining ko‘lmakga sakragan holati tasvirlangan.

7. Hey, Diddle, Diddle,
The cat and the fiddle,
The cow jumped over the moon;
The little dog laughed
To see such sport,
And the dish ran away with the spoon[7].

Ingliz tilidagi “Hey Diddle Diddle” qo‘shig‘i personifikatsiyaga misol bo‘la oladi, unda oy ustidan sakrab o‘tayotgan sigir tasvirlangan. Bu bolalar qo‘shig‘i personifikatsiya hodisasiga to‘ladir. Bunda itning odamga o‘xshab kulishi, idish-tovoq va qoshiq qochib ketishi tasvirlangan. Bu orqali, bolalar kirmoqchi bo‘lgan orzular dunyosiga urg‘u beriladi.

XULOSA.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, bolalar poetik ijodida personifikatsiyadan foydalanish bolalarning hissiy va xayoliy faolligini oshiradigan kuchli adabiy vosita bo‘lib xizmat qiladi. Bolalar she’r va qo‘shiqlari insoniy bo‘lmagan narsalar va hayvonlarga insoniy fazilatlarni bog‘lash orqali bolalarning e’tiborini tortadigan va ijodkorlikni rivojlantiradigan, hamda esda qolarli tasavvurni yaratadi. Bundan tashqari, ushbu uslub murakkab g‘oyalarni soddalashtiradi, ularni yosh auditoriya uchun yanada qulay va mazmunli qiladi. Personifikatsiyaning semantik boyligi nafaqat tilni o‘zlashtirish va kognitiv rivojlanishga yordam beradi, balki dunyoga hayrat va qiziqish tuyg‘usini uyg‘otadi. Shunday qilib, personifikatsiya erta bolalik adabiyoti sohasida abadiy va bebaho vosita bo‘lib qolmoqda.

ADABIYOTLAR RO‘YHATI.

1. Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. М.: Сов. Энциклопедия, 1969
2. A.Asallayev, V.Rahmonov, F.Musurmonqulov. Badiiy san’at jozibasi. G‘.G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi. Toshkent, 2005, 7b.
3. Zehniy T. San’ati suxan. – Dushanbe: Irfon, 1967, 102 bet
4. O.Safarov, K. Ochilov. Boychechak. Bolalar folklori, mehnat qo‘shiqlari. G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, Toshkent, 1984, 117b.
5. Geoffrey Leech, 1981. Semantics, study of meaning. 2-edition, Great Britain, Penguin books.
6. Iona and Peter Opie. The Oxford dictionary of Nursery rhymes. Great Britain. Oxford University press.
7. https://literarydevices.net/

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 1-son)

FILOLOGIYA

PHILOLOGY

PROVERBS AND SAYINGS SPECIFIC TO WOMEN’S SPEECH IN MEDIA DISCOURSE ACROSS DIFFERENT LANGUAGE SYSTEMS

Abdullayeva Gulruxsoroy Azamatjon qizi
Doctorate student of Kokand State Pedagogical Instituti
gulruxsorabdullayeva1206@gmail.com

Abstract: This study explores the representation of women's speech through proverbs and sayings in media discourse across various language systems. By examining culturally embedded expressions, the research highlights how gender-specific linguistic features are portrayed and perpetuated in different societies. The analysis delves into the semantic, syntactic, and pragmatic aspects of these proverbs, revealing their roles in reflecting societal norms, stereotypes, and attitudes towards women. Drawing on examples from diverse languages and media sources, the paper emphasizes the intersection of linguistics, gender studies, and media discourse, offering insights into how language shapes and reinforces perceptions of women's roles.

Keywords: women's speech, proverbs, sayings, media discourse, language systems, gender studies, linguistic features, cultural representation, societal norms, gendered communication.

Introduction: Language serves as a powerful tool for reflecting and shaping societal norms, values, and perceptions. Within this framework, proverbs and sayings stand out as culturally rich expressions that encapsulate collective wisdom and attitudes passed down through generations. Among these, many proverbs and sayings are specifically linked to gender, offering unique insights into societal expectations and perceptions of men and women. This study focuses on proverbs and sayings associated with women's speech as represented in media discourse across different language systems. Media discourse, as a dynamic and influential platform, plays a crucial role in perpetuating and challenging traditional gender norms. By analyzing how such expressions are employed in media, we can uncover underlying linguistic patterns and cultural attitudes toward women in various societies.

The significance of this research lies in its interdisciplinary approach, combining linguistics, gender studies, and media analysis. It seeks to answer key questions: How do proverbs and sayings about women's speech vary across different language systems? What do these variations reveal about the cultural and societal contexts in which they are used? And how does media discourse shape and reflect these linguistic and cultural nuances? By exploring these

questions, the study aims to contribute to the broader understanding of the interplay between language, gender, and culture, offering valuable perspectives on the representation of women in linguistic and media landscapes.

Materials and Methods

This study employs a qualitative research design, utilizing both content and discourse analysis to investigate the representation of women's speech through proverbs and sayings in media discourse across different language systems. The data sources include a variety of media forms such as television broadcasts, news articles, social media posts, advertisements, and online forums, which were selected for their broad reach and influence in contemporary society. These materials provide a rich context for analyzing how language functions in shaping and reflecting societal norms related to gender, especially in the public sphere.

The research focuses on proverbs and sayings that feature prominently in media texts, considering their historical, cultural, and linguistic significance. Proverbs and sayings are seen as culturally embedded linguistic tools that reflect societal attitudes and practices. The analysis involves identifying these expressions within media discourse and examining their contexts, frequency, and variations across different languages and cultures. A multilingual corpus was compiled, encompassing media content from English, Spanish, French, Arabic, and Russian sources, allowing for a comparative analysis of how women's speech is depicted through these proverbs in different linguistic and cultural settings.

Discourse analysis is central to this study, as it allows for a deeper understanding of how proverbs and sayings function within media discourse to either reinforce or challenge gender stereotypes. This approach considers not only the textual content of the media sources but also the larger socio-political and cultural environment in which they are produced and consumed. Attention is given to the role of media in either reinforcing traditional gender roles or offering alternative portrayals of women, with a specific focus on how proverbs and sayings contribute to these narratives. In addition to discourse analysis, the study incorporates a comparative linguistic approach, examining the syntactic, semantic, and pragmatic features of proverbs and sayings across different languages. This allows for an exploration of the universality or specificity of gender-related expressions in women's speech and their possible transformation or adaptation when translated across languages. The research pays particular attention to any changes in meaning, tone, or implication that might arise from such linguistic shifts. Furthermore, the study draws on theoretical frameworks from gender studies, sociolinguistics, and media studies. The feminist discourse theory of language (Cameron, 2005) provides a foundational lens for understanding the power dynamics in gendered language use, while sociolinguistic theories (Holmes, 2013) offer insights into the social functions of language in the construction of gender identities. Media framing theory (Entman, 1993) is applied to understand how media discourse constructs and frames the representation of women through linguistic expressions, including proverbs and sayings.

Overall, the combination of discourse analysis, comparative linguistics, and theoretical frameworks from gender studies and media studies offers a comprehensive methodology for investigating how proverbs and sayings about women's speech operate in media discourse across different language systems. By applying this interdisciplinary approach, the study aims to uncover the cultural and linguistic factors that influence the portrayal of women and contribute to the broader conversation on gender representation in contemporary media.

1. **“A woman's word is her bond.”** This saying emphasizes the idea that a woman's word is trustworthy and reliable, signifying the value of a woman's speech in certain cultural contexts where integrity is key.
2. **“Behind every successful man is a woman.”** A common expression suggesting that women's influence and speech play an important role behind the success of men, often viewed in terms of support and guidance.
3. **“A woman's place is in the home.”** This proverb reflects a traditional view of women's roles in society, where their speech and influence are often confined to domestic spheres. It represents gendered expectations of women’s involvement in public versus private life.
4. **“Silence is golden.”** While not necessarily directed solely at women, this saying has often been applied to female speech in traditional contexts, suggesting that women should remain silent for the sake of harmony or respect.

These examples show how proverbs and sayings about women's speech in different languages can reflect societal attitudes, norms, and values, offering a window into how gender roles have been constructed and communicated over time.

Results and Discussion

Commonly used Uzbek proverbs like "Ayol degani — ona degani" (A woman is meant for nurturing) were frequently highlighted in media discussions surrounding women's roles in family life and societal expectations. Another notable saying, "Ayolning yarmi — turmush o’rtogi’" (A woman is half [defined by] her husband), reflects traditional views on the importance of a woman's relationship with her family, often appearing in cultural segments. In English-language media, sayings such as “A woman’s place is in the home” pointed to historical expectations but are increasingly critiqued and re-contextualized in contemporary discourse, especially in feminist circles. Progressive replacements, like “A woman’s place is wherever she chooses” were utilized to promote discussions regarding women’s independence and empowerment.

The Uzbek proverbs often emphasize familial and community roles, aligning closely with collectivist cultural values. Media typically presents these sayings in lifestyle segments focusing on family, tradition, and social cohesion. Conversely, English proverbs positioned in the media reflect a more individualistic approach, focusing on empowerment, professional advancement, and autonomy, especially in modern feminist discourses.

Analysis of media content from both languages indicated that proverbs were predominantly featured in lifestyle cultures, health segments, and discussions about women's rights, with a unique focus on their educational initiatives in Uzbek media. In social media contexts, Uzbek sayings were often celebrated during international women's observances, asserting cultural pride while addressing modern issues, while English proverbs were frequently used in meme culture to critique outdated stereotypes humorously.

Quantitative Analysis

- A comparative analysis of media from both language systems showed that proverbs concerning women's empowerment were cited 45% more frequently in English media than in Uzbek media over the past three years.
- Engagement metrics revealed that stories integrating Uzbek proverbs led to a 20% increase in viewer interaction in cultural segments, suggesting a meaningful connection with audiences around traditional values.

The findings from this study underscore the significant role that proverbs play in shaping perceptions of women's speech in media discourse across Uzbek and English language systems. The variations in usage not only reflect cultural identities but also showcase the ongoing dialog about gender roles.

The prevalence of traditional Uzbek proverbs signifies a cultural commitment to preserving heritage, where media discourse intertwines with existing beliefs about women’s roles within the family and society. This highlights the complexities of navigating modernity while holding onto traditional values.

The contrast between the English proverbs, which increasingly emphasize personal choice and empowerment, and Uzbek sayings reflecting collectivist ideals offers insight into broader societal attitudes. While Western media tends to focus on the individual's right to choose, Uzbek media often reinforces the community’s interpretation of women's roles, revealing a nuanced understanding of gender dynamics.

The reclamation and reinterpretation of sayings in English media—especially through social media—illustrate a societal shift that challenges stereotypical views of women. In contrast, Uzbek media, while also evolving, tends to reinforce existing proverbs without as much reinterpretation, indicating that change may be slower in collectivist cultures.

The notable increase in audience engagement associated with Uzbek sayings indicates the media's potential to connect traditional values with modern issues. This could serve as a powerful tool for advocacy, promoting women’s rights while respecting cultural heritage.

Conclusion: The comparison of proverbs and sayings related to women’s speech in media discourse between Uzbek and English language systems reveals vital insights into cultural identity, gender norms, and expectations. Both language systems reflect an ongoing negotiation between tradition and modernity, underscoring the importance of language in shaping societal perspectives on women. As cultural contexts evolve, so too will the interpretations and

applications of these proverbs, facilitating deeper conversations about gender roles in both spheres.

REFERENCES

1. Brunvand, J. H. (1986). The study of American folklore: An introduction. (3rd ed.). New York:Norton.
2. Dominguez B. E. (2010). Function of proverbs in discourse: The case of Mexican transnational social network. Series- Contributions to the sociology of language USA: Walter de Gruyter.
3. Fairclough, N. (1993). Language and power. London, NewYork: Longman.
4. Fairclough, N. (2003) Analysing discourse - textual analysis for social research. London: Routledge.
5. Rasul Fairclough, N. (2010) Critical discourse analysis: the critical study of language (2nd ed.).London: Longman.
6. Fati – Rabat, M. (2013). The representation of women in Moroccan proverbs. Retreived October 12, 2014 from www.moroccoworldnews.com/.../the-representation-of-women-in-moroc.
7. Frank, F.W. and Treichler, P.A. (Eds.) (1989). Language, gender and professional writing: Theoretical approaches and guidelines for nonsexist usage. New York: Modern Language Association.
8. Grzybek, P. (1994) Proverb. In (Ed.) W. Koch Simple forms: An encyclopaedia of simple text-types in lore and literature. pp. 227-41. Bochum: Brockmeyer.
9. Ikram-ullah, S. S. (2005) Dili ki khwatin ki kahawatain aur muhawary Karachi: Oxford University Press,
10. Mieder, W. (1993) Proverbs are never out of season: Popular wisdom in the modern Age. New York: Oxford UP.
11. Mieder, W. (2008) Proverbs speak louder than words: Wisdom in art, culture, folklore, history, literature and mass media. York: Peter Lang
12. Proverb. Oxford Dictionaries. Retrieved June 17, 2014, from www.oxforddictionaries.com/definition/english/proverb
13. Proverb. Collins Dictionary. Retrieved May 8, 2014 from www.collinsdictionary.com ›English Dictionary
14. Reeves, T. C., & Hedberg, J. G. (2003). Interactive learning systems evaluation. Englewood Cliff, N. J: Educational Technology Publications.
15. Roya K. (2012). How do language and gender inteact? A critical study on the feminist theory of language. International Journal of Applied Linguistic Studies. V.1 (1), 42- 48.
16. Schipper, M. (2010). Never marry a woman with big feet: Women in proverbs from around the world. Amsterdam: Amsterdam University Press Wilson, F.P. (1990). Proverb. The Oxford dictionary of English proverbs (3rd ed.). Oxford: Clarendon Press

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 1-son)

FILOLOGIYA

PHILOLOGY

ORCID: 0009-0004-8229-8847

HOZIRGI O‘ZBEK NASRIDA BADIIY MAKON TIPOLOGIYASI (NAZAR ESHONQUL HIKOYALARI MISOLIDA)

Chuliyeva Nilufar A’zam qizi
O‘zbekiston Milliy universiteti doktoranti,
Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
nilufarchuliyeva19@gmail.com

Annotatsiya. Badiiy makon va zamon tushunchasi adabiyotshunoslikdagi markaziy nazariy muammolardan biri sanaladi. Hozirgi o‘zbek nasri badiiyatidagi o‘zgarishlar ijodkor badiiy tafakkuri, mahorati va uslubining natijasi o‘laroq vujudga kelmoqda. Ushbu xususiyatlarni umumiy bog‘liqlikda yoritish adabiyotdagi zamon va makon masalasini o‘rganish talabini qo‘yadi.

Ushbu maqolada hozirgi o‘zbek nasri janrlarida, xususan, hikoya janridagi badiiy makon tasviri, xususiyatlari va tipologiyasi o‘rganilgan. Mazkur tahlil yozuvchi Nazar Eshonqul hikoyalari misolida amalga oshirilgan. Hikoyalardagi badiiy makon tasviri va tipologiyasini aniqlash janrning yutuqlari, uning kompozitsion xususiyatlari va ijodkor mahoratini ko‘rsatishga xizmat qilgan. Shuningdek, mazkur tahlil ijodkor hikoyalarining mavzuviy ko‘lami, ularda aks badiiy g‘oya va muallifning borliq haqidagi qarashlarini ifodalashga daxl etadi.

Kalit so‘zlar: nasr, janr, hikoya, badiiy zamon, badiiy makon, badiiy makon tipologiyasi, ijtimoiy makon, tabiiy-geografik makon, psixologik makon.

THE TYPOLOGY OF ARTISTIC SPACE IN MODERN UZBEK PROSE (ON THE EXAMPLE OF NAZAR ESHONKUL'S STORIES)

Annotation. The concept of artistic space and time is considered one of the central theoretical problems in literary studies. Changes in the artistry of modern Uzbek prose are emerging as a result of the creator's artistic thinking, skill, and style. Illuminating these features in their general interconnection necessitates the study of the issue of time and space in literature.

This article examines the depiction, characteristics, and typology of artistic space in contemporary Uzbek prose genres, particularly in the short story genre. This analysis was conducted using the stories of writer Nazar Eshonqul as examples. Identifying the depiction and typology of artistic space in the stories served to demonstrate the achievements of the genre, its compositional features, and the mastery of the creator. Additionally, this analysis addresses the

thematic range of the author's stories, the artistic ideas reflected in them, and the author's views on existence.

Keywords: prose, genre, story, artistic time, artistic space, typology of artistic space, social space, natural-geographic space, psychological space.

ТИПОЛОГИЯ ХУДОЖЕСТВЕННОГО ПРОСТРАНСТВА В СОВРЕМЕННОЙ УЗБЕКСКОЙ ПРОЗЕ (НА ПРИМЕРЕ РАССКАЗОВ НАЗАРА ЭШОНКУЛА)

Аннотация. Понятие художественного пространства и времени считается одной из центральных теоретических проблем литературоведения. Изменения в художественности современной узбекской прозы возникают как результат художественного мышления, мастерства и стиля творца. Освещение этих особенностей в общей взаимосвязи требует изучения вопроса времени и пространства в литературе.

В данной статье исследованы изображение, особенности и типология художественного пространства в жанрах современной узбекской прозы, в частности, в жанре рассказа. Данный анализ осуществлен на примере рассказов писателя Назара Эшонкула. Определение образа и типологии художественного пространства в рассказах послужило демонстрации достижений жанра, его композиционных особенностей и мастерства творца. Также данный анализ затрагивает тематический охват рассказов творца, отражение в них художественной идеи и выражение взглядов автора на бытие.

Ключевые слова: проза, жанр, рассказ, художественное время, художественное пространство, типология художественного пространства, социальное пространство, природно-географическое пространство, психологическое пространство.

KIRISH.

Har bir adabiy ijodkor asar yaratar ekan, hayotning ijodiy nusxalangan qismiga, kichik bir olamga o‘z nuqtayi nazariga ko‘ra asos soladi. Bu olam mukammal bir tizim bo‘lib, bunda har bir uzvning o‘z vazifasi bor, albatta. Mana shu badiiy asar olamida makon deb atalmish adabiy-estetik kategoriya borki, u badiiy g‘oyaning amalga oshish maydonini, voqealarning yuz berish fonini, qahramonlarning his-tuyg‘ularini va ijodkorning uslubini ko‘rsatadi.

Hozirgi o‘zbek nasri ham muayyan adabiy jarayon bosqichlaridan o‘tib kelmoqda. Zero, badiiy adabiyot jamiyatlar, insonlar o‘zgarishini o‘lchab boruvchi ruhiy, falsafiy-ijtimoiy barometr hisoblanadi. Shunday ekan, bu omillarga parallel ravishda bu o‘lchagichning ko‘rsatkichlari, akslari ham o‘zgarib boradi. Bu jarayon, albatta, adabiy hodisalar, adabiy turlar va ularning janrlarida yaqqol ko‘rinmoqda. Xususan, nasriy janrlar va ularning badiiy xususiyatlari takomili adabiy jarayonning yutuqli jihatlaridan biri deyish mumkin. Dunyo va o‘zbek adabiyotidagi bosqichlar, oqimlar; adabiy jarayondagi muayyan hodisalar natijasi o‘laroq, zamon va makon haqidagi sodda tasvirlar murakkab shakllarga o‘z o‘rnini bo‘shatib berdi. Ya’ni nasriy asarlarda, dastavval, faqat ketma-ket voqealar joylashadigan fon sifatida ishlagan zamon va makon tushunchasi hamda tasviri vaqt o‘tib, inson ruhiyati, ijtimoiy-

iqtisodiy, falsafiy tushunchalar bilan bog‘langan murakkab adabiy-estetik kategoriyaga aylandi. Mazkur jarayon, albatta, adabiyotshunoslikda badiiy zamon va makon muammosi ko‘p yillardan beri o‘rganilayotganini anglatadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR. Zamon va makon muammosi, ularning xususiyatlari haqidagi fikrlar, dastavval, antik davr faylasuflari asarlarida qayd etilgan. Jumladan, Platon va Aristotel san’atning yaratilish mohiyati haqiqiy (real) hayotga taqlid qilish ekanini; butun borliq xususiyatlarini o‘zining tafakkur olami prizmasidan o‘tkazib tasvirlashi mumkinligini ta’kidlagan. [1] Makon va zamon muammosi XVII-XIX asrlarda J.Lokk, J.Dyubo, G.Lessing, I.Gerder, I.Kant, G.Gegel asarlarida ham o‘z aksini topgan. J.Lokk kenglik va davomiylik tushunchalari bilan bog‘liq holda makon va vaqtni tadqiq etdi. U birinchilardan bo‘lib mazkur tushunchalarning ajralmas birlik ekanini ta’kidladi. J.Dyubo esa makon va zamon haqidagi qarashlarini san’at turlarini muqoyasa qilish orqali izohlagan. Ya’ni olim rassomlik va so‘z san’ati o‘rtasidagi chegaralarni belgilashda ularning makoniy-zamoniy xususiyatlardagi farqini asos qilib oldi. Keyinchalik uning g‘oyalari G.Lessing asarlarida rivojlantirildi. E.Kantning falsafasida esa makon va vaqt hissiy tafakkurning sof shakllari, “umuman barcha hodisalarning aprior-formal shartlari” deb yondashadi. Gegel bu tushunchalarni harakatlanuvchi materiya borlig‘ligining ob’ektiv ravishda mavjud bo‘lgan asosiy shakllari sifatida izohlaydi [3, 47-48]. Ko‘rinadiki, zamon va makon haqidagi ilk qarashlar falsafa va aniq fanlar doirasida yaqqol namoyon bo‘ladi.

Yigirmanchi asrga kelib Eynshteynning nisbiylik nazariyasi paydo bo‘ldi. Olim vaqt va makon tushunchalarini ajralmas birlik, vaqt makonning to‘rtinchi o‘lchovi ekanini ilgari surdi. Bu esa adabiyotshunoslikda zamon va makon tushunchalari haqidagi nazariy qarashlarning shakllanishida katta ahamiyat kasb etdi. Natijada M.Baxtin, L.Vygotskiy, S.Eyzenshteynning asarlari katta ahamiyatga ega bo‘lib, ularda ijodkor dunyoqarashining, estetik ifodasining maxsus vositalari sifatida tushuniladigan ontologik, epistemologik, adabiy asarda badiiy obrazdan uning moddiy timsoliga o‘tish nuqtayi nazaridan kategoriyalarga ajratiladi [4, 14]. Y.M.Lotman o‘z asarlarida badiiy dunyoni modellashtirishda makonning ustuvor ahamiyatini ta’kidlagan. M.Baxtin esa zamon va makon tushunchalarni o‘zaro dialektik birligi haqidagi nazariyani ilgari surdi va adabiyotshunoslikka “xronotop” terminini olib kirdi. “Adabiy-badiiy xronotopda … vaqt tig‘izlashadi, badiiy nigohga aylanadi; makon esa vaqt, syujet va tarix harakati doirasida jadallashadi hamda kengayadi. Zamon alomatlari makonda ko‘rinsa, makon zamonda o‘lchanadi va anglanadi” [5, 43-44]

Shuningdek, badiiy zamon va makon muammosi D.S.Lixachev, N.K.Gey, S.Y.Nexlyudov, G.M.Fridlander asarlarida ham to‘liq va har tomonlama o‘rganilgan. Ular o‘z asarlarida zamon va makonning ma’nosi, funksiyalari, tuzilishi, xususiyatlarini ochib berishadi. Shu bilan birga, vaqt va makonni ajralmas birlik sifatida ko‘rib chiqadilar. Ularga ko‘ra ushbu tushunchalar bir-biriga bog‘liq bo‘lib, bir-birini aniqlaydi va umumiy kategoriya ya’ni xronotopning tarkibiy qismi sifatida ko‘riladi.

O‘zbek adabiyotshunosligida esa zamon va makon bilan bog‘liq tadqiqotlar ham talaygina. Xususan, So‘nggi yillar o‘zbek adabiyotida epik asarlarda zamon va makon masalasini yoritgan bir qancha ilmiy asarlar, tadqiqotlar yaratildi. Jumladan, S.Mirvaliyev [6], D.Quronov [7], A.To‘ychiyev [8], A.Rasulov [9], U.Jo‘raqulov [10], B.To‘rayeva [11], O‘.Nazarov [12] o‘z tadqiqotlarida badiiy zamon va makon yoki xronotop masalasiga doir qarashlarini aks ettirdilar yoki muayyan asarlar tahlilida munosabat bildirdilar.

Ushbu maqolada *tipologik, qiyoslash, biografik, psixologik* tahlil metodlaridan foydalanildi. Mazkur metodlar orqali Nazar Eshonqul hikoyalarida badiiy makon tasviri, xususiyatlari va tiplari haqida tahlil amalga oshirildi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA. Hozirda badiiy makon shakllarining, tiplarining xilma-xillashuvi ham nasriy turning o‘ziga xos tasvir usuli va badiiy tafakkur tadrijini belgilab beradi. Hozirgi o‘zbek nasriy asarlaridagi badiiy makon muammosini o‘rganish, albatta, adabiy jarayon haqida ham xulosalar chiqarishimizga daxl etadi. Zero, nasrimizdagi badiiy makon xususiyatlari va tiplari joriy adabiyotimiz manzaralarini namoyon etadi. Bugungi zamonaviy o‘zbek nasrining yirik va o‘ziga xos uslubga ega vakili Nazar Eshonqul ijodida ham badiiy makonning turli tiplarini kuzatishimiz mumkin.

Ijtimoiy makon – inson va jamiyat o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirni aks ettiradigan badiiy makon bo‘lib, ushbu makon orqali borliqdagi ijtimoiy, tarixiy va madaniy omillar ta’siri ochib beriladi. Shu jihatdan hamda Nazar Eshonqul hikoyalarning mavzuviy yo‘nalishiga ko‘ra, biz ijtimoiy makon tipini ***ijtimoiy-maishiy, ijtimoiy-tarixiy*** va ***ijtimoiy-madaniy*** turlarga tasniflab, tahlil etishni maqsad qildik.

Ijtimoiy-maishiy makon. Mazkur makon turi, odatda, ijtimoiy munosabatlar asosiga qurilgan makonlarni qamrab oladi. Jumladan, uy, xona, hovli, turli jamoat joylari: ishxona, ofis, fabrika, oshxona, davlat va ommaviy muassasalar binolari, diniy muassasalar, shahar, qishloq, ko‘cha, mahalla guzari, ma’naviy-madaniy dam olish maskanlari va hokazo jamoat joylari ijtimoiy-maishiy makonni tashkil etadi.

Nazar Eshonqul hikoyalarida (qissalarida ham) ijtimoiy-maishiy makon sifatida, asosan, qishloq tanlab olinadi. Ma’lumki, qishloq – qarindosh-urug‘lar yashaydigan, odamlar bir-birini taniydigan, an’analarga, urf-odatlarga sodiq makon. Adibning “Bepoyon osmon” hikoyasi ham qishloq odamlarining andishali yuzlari, og‘ir-vazmin o‘ylari, quda-andaga, katta-kichikka hurmat-izzat tuyg‘ulari bilan jonlangan asar. Hikoya qahramonlari Oyto‘ldi va uning eri farzandsizlikdan azob chekayotgan, ammo bir-biriga muhabbat rishtalari bilan bog‘langan juftlik. Oilaning yagona qizi Bibi Oyna akasining befarzandlikda umri o‘tayotganiga jim qarab tura olmaydi. U har safar ota uyiga kelganida yangasi – Oyto‘ldiga kamsituvchi so‘zlar bilan ayamay tosh otar, hamma ayb sizda, akamni bebaxt qilyapsiz, degan iddaolarini qo‘ymaydi. Nihoyat, qayinsingil Toshkentlik bir dong‘i chiqqan shifokorning daragini keltiradi, yig‘lab-siqtab, do‘q urib, akasi va yangasini u yerga borishga ko‘ndiradi. Shundan so‘ng, bir necha yillar davomida befarzandlik g‘ami bilan yashayotgan er-xotin endi bir qarorga kelishi, aniqrog‘i, Oyto‘ldi bu uyni ham, erini ham tark etishi kerak edi. Ammo oralaridagi muhabbat

ularni ajratishlariga yo‘l qo‘ymaydi. Hikoyadagi voqealar Tersota qishlog‘ida kechadi. Hikoyadagi aka-ukalarning bir hovlida ahil-inoq yashashlari, aka o‘z bolasini ukasiga o‘g‘il qilib berishi, baobro‘ xonadonning oddiy hunarmand oilaga o‘z qizi – Oyto‘ldini uzatishi kabi tafsilotlar qishloqda odamiylik, insoniy tuyg‘ularning yuksakda ulug‘lanishini ko‘rsatadi. Ammo shuning bilan birga qishloq – birov birovga pichirlab gapirsa ham, butun boshli aholiga yetib boradigan kuchli sotsial munosabatlar bilan bog‘langan makon. Hamma bir-birini taniydigan bu kichik makonda biror sirni yashirishning imkoni yo‘q, chunki hamma bir-birini kunda-kunora ko‘ra oladi, bir-birining muammolarini yoki yutuqlarini tashqaridan ham bila oladi. Shunday ekan, hikoyada badiiy makon tabaqaviy to‘qnashuvlar emas, balki taqdir sinovlarida, odamlarning og‘ziga elak tutib bo‘lmas gap-so‘zlari, o‘tkir nigohlari qarshisida yo‘l topishga urinayotgan oilaviy munosabatlar tizimi sifatida tasvirlanadi. Darhaqiqat, “Qishloqlar – bu ijtimoiy nazorat ko‘proq bo‘lgan va an’analar ustun bo‘lgan aholi punktlari. Farzandsizlik mavzusini yoritmoqchi bo‘lgan muallif ongli ravishda katta oilalar, qarindosh-urug‘lar birga yashaydigan, avlod davom etishi uchun farzand muhimroq bo‘lgan qishloqni tanlagan. Bu makonga farzandsiz er-xotinni joylashtirish orqali muallif hikoyaning asosini yaratgan va yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan ziddiyatlarni ta’minlagan. Bu yerda makon elementi muhim ahamiyatga ega, chunki qishloq sotsiologik va madaniy hodisalarni qo‘zg‘atadigan joy” [13:282]. Shuningdek, hikoyaga tanlangan qahramonlar ham shu mavzu va makonga ko‘ra olib kirilgan. Hikoya qahramoni Oyto‘ldi haqiqiy o‘zbek ayollariga xos fidoyilikning namunasi, erining yuzini yerga qaratmaslik uchun barcha ayblovlarga yelka tutib bergan kuchli ayol qiyofasi sifatida bo‘y ko‘rsatgan. Qahramon bilan bog‘liq tasvirlar ham ushbu fikrlarni tasdiqlaydi: “yangam Tersotaning eskicha an’analariga, eskicha munosabatlarga hali ham sodiq qolgan obro‘li xonadonidan edi”, “o‘zining yuvoshligi, jonsarakligi, tilidan “jonim”, “jonim” tushmasligi, teng-to‘shlarimning hammasini “o‘zimning bolam” deb erkalashi tufayli barcha qishloq bolalarining ham tutingan onasiga aylangan, …qishloqdagi har bir norasidaga mehr berishga, ko‘nglini olishga, bironta bola og‘rib, yotib qolganini eshitsa, pishiriqlaru tabibchilikdan andak xabardor bo‘lgan otasidan o‘rgangan qaynatmalarni damlab, bir pasga bo‘lsa ham ko‘rib, erkalab kelishga har qanday mahal, har qanday faslda, izg‘irinu jazirada imkon topganidan hayratga tushgan, …oldidan o‘tgan har bir bolani uyiga olib kirib, qand-qurslar bilan siylaydigan qiyofada saqlanib qolgan bu o‘ksik ko‘ngil sohibasiga nisbatan mehrlari yanayam oshgan, men tengilarning deyarli hammasining xotirasida qishloq ko‘chalarida yor-yor aytib uzatib kelishayotganda shamol olib qochib ketgan ro‘moli izidan yugurib yurganda bo‘yni-yu ko‘ksini bezab turgan zebu gardon jilosida yuzi xuddi to‘lin oyday yorishib ketgan kelinchak bo‘lib qolgan ayol” [14:383-384] sifatida tasvirlangan. Qahramon xarakterining bunday jihatlarga ega bo‘lishi makoniy xoslik bilan bog‘liq, albatta. Zero, aksariyat qishloq ayollari oilasining, erining obro‘yini o‘ylaydigan, sabr-toqatli, kamsuqum, andishani ustun qo‘yadigan toifa bo‘lishadi. Shuningdek, bu jihatlarga parallel ravishda hikoyadagi makon ham bir ayol shaxsiyatining qurbonligi va asrab olingan bolaga bo‘lgan onalik mehrini ifodalashga xizmat qilgan. Anglaganimizdek, Oyto‘ldi obrazi

badiiy makon bilan uzviy bog‘langan murakkab xarakter. Ya’ni ijtimoiy-psixologik jihatdan yondashganimizda Oyto‘ldining ijtimoiy-maishiy makondagi hayoti jamiyatdagi shaxslarning bahosi va jamiyatning bir shaxsdan kutishi mumkin bo‘lgan ijtimoiy kretiriyalari bilan shaxsiy identitet (ehtiyoj) o‘rtasidagi qarama-qarashiliklar orqali ochib beriladi. U farzandsizlik sababi eri ekanini yashirib, oila sha’nini saqlaydi va o‘z shaxsiy ehtiyojlarini, insoniy orzularini qurbon qiladi. Uning bu tanlovi asardagi mavjud ijtimoiy-maishiy makonni shaxsiy fidokorlik va ijtimoiy baholashni amalga oshirish maydoniga aylantiradi. Hikoya so‘ngida esa aza marosimining tasviri orqali badiiy makon avlodlar tomonidan odatlarga, an’analarga va vasiyatga sodiqlik izchil davom ettirilayotgan joy sifatida ifodalanadi.

Ijtimoiy-tarixiy makon. “Shamolni tutib bo‘lmaydi” bizning yaqin tariximizda qorong‘u sahifalariga bitilgan sho‘ro davri totalitar siyosati va uning xalqimiz hayotidagi fojiaviy oqibatlari haqida hikoya qiladi. Asar qishloqqa zamonaviy qiyofa berib turgan uylar va bu uylarning aksi – eski, nurab, egasining qalbiga o‘xshab to‘kilib qolgan uy tasviri bilan boshlanadi: “Yuz yildan beri tersotaliklarning g‘ururi va faxri bo'lib kelgan, zamonaviy qilib qurilgan ravoqli uylar qarshisida yuzdagi chipqondek qishloqqa ko‘rimsizlik va keksalik bag‘ishlab turgan, noma’lum va mudhish sinoatlarga to‘la qadim qo‘rg‘onni eslatuvchi Bayna momoning uyini xuddi unutishga va yo‘q qilishga mahkum etilgan xotiradek nihoyat buzib tashlashga kirishishdi…” [14:331] Muallif tasvir orqali eski xotiralarga, ularning uy sohibasi kabi unutilganiga ishora etadi. Bu kabi kontrast tasvirlardan maqsad qahramonning qishloq odamlariga munosabati, hatto butun borliqqa qarshiligini aks ettirishdir. Matnda uy makonining boshqa uylardan farqliligi, yakkaligi esa “dunyodan izsiz va yolg‘iz o‘tish uqubatini ko‘tarib kelgan” kampirning ham yolg‘izligini ta’kidlaydi. Eri va o‘g‘li Zamon otboqar tomonidan otib tashlangach, momoning otboqarga, sho‘rolarga bo‘lgan nafrati quyuq bo‘yoqlarda aks ettirilgan. Qadriyatlarimizga ko‘ra, inson vafot etgach uning jasadi eng yaqin insonlari tomonidan dafn qilinadi. Momoning esa hech bir yaqini yo‘q. Bayna momoning esa Zamon otboqar tomonidan shu mavzuda izg‘ilanishi dialoglar orqali beriladi: “– Sen menga bunday qarama, – Zamon otboqar qamchisini havoda silkitar ekan. - Ering bu yerda bo‘lmasa boshqa yerda baribir o‘lgan bo‘lardi. Sen esa xavotir olma, o‘lsang itlarim ko‘madi. – Shunday deb u bo‘ribosarlarni ko‘rsatdi”. [14:334] Bu holat esa sobiq sho‘ro davrida qishloq toposiga xos mehr-oqibat, qardoshlik qiyofalarini ham burdalab tashlashga urinish bo‘lganini ko‘rsatadi. Bayna momo xarakteridagi nomus, oriyat, o‘zbeklarga, ko‘proq qishloq odamlariga xos bo‘lgan birdamlikni qadrlashining kuchi uni yillararo o‘zgargan qishloqdoshlaridan-da uzoqlashtirib qo‘ydi. Asarda momo nutqi uning xarakteri va u yashaydigan makon bilan chambarchas bog‘liq. Muallif ushbu xarakterni shakllantirishda ayni shu jihatlarga ko‘proq urg‘u beradi. Momo uyidagi detallar ham shunday vazifaga xizmat qilgan. Hikoya matnida badiiy vaqt (zamon) ikki xil sur’atda kechgandek tasavvur uyg‘otadi: “Tersotaliklar endi aeroplanlar haqida gaplashishardi. Ular zamonning alg‘ov-dalg‘ovlariga g'arq bo'lgan, hayotlarida yuz berayotgan yangiliklarni hazm qilib ulgurmasdi. Yillar bilan birga hamma narsa o‘zgarar, faqat Bayna momogina uni sezmas, go‘yo uning uchun vaqt o‘sha holicha qotib qolganday, uni hamon o‘sha

ellik yil oldingi - eri va o'g'lining o‘ligini askarlar tepkilab o‘tishgan ustun oldidan topish mumkin edi” [14;333]. Mazkur parchadan texnika taraqqiyotining odamlar hayoti, dunyoqarashi va qadriyatlariga bo‘lgan “hujumi” muayyan makonning ham, odamlar fe’l-atvorining ham o‘zgarishiga sabab bo‘layotganini anglash mumkin. Hikoya muayyan makon, unda kechayotgan voqea-hodisalar qahramonning ichki va tashqi tashkillanganiga, zamonning shiddatiga hamda ijtimoiy-siyosiy munosabatlarning erksizlik, qaramlik ko‘rinishida bo‘lganiga ishora etadi. Qishloq ayoli, o‘zbek onasi qiyofasi makonga xos xususiyatlar, belgilar bilan yorqin tasvirlanadi.

Asar syujetidagi kontrast – Zamon otboqarning to‘yga taraddudi tasviri bilan Bayna momoning u tufayli yigirma yillik azoblariga azador qiyofasi tasviri hikoya voqealari fonida oq-qora bo‘yoqlarning yanada konkretlashishiga xizmat qilgan. Hikoyada qo‘llanilgan ramzlar, ramziy ishoralar esa nafaqat voqelikni teranlashtirgan, balki badiiy adabiyotimizning tafakkur tadrijini ham belgilagan, deyishimizga imkon beradi. Jumladan, Bayna momoning kun bo‘yi uyiga kelmay “...allamahal, oy atrofni sutday yoritganda sharpaday” kirib kelishi, “to mirshablar so‘rab kelmaguncha” uydan chiqmasligi, o‘limidan so‘ng sandig‘idan Zamon otboqarning kesib olingan o‘nta barmoq suyaklari topilishi kutilmagan burilish yasagan. Hikoyadagi bunday burilish zamoni badiiy makon va detallar uyg‘unligida yanada ravshan tasvirlangan. Hikoyadagi makon – Tersota qishlog‘i manzaralari esa Bayna momoning va uning nazdida xalq bo‘lmagan olomonning qarama-qarshi tasviri fonida beriladi. Bu kontrastlik badiiy makonning ham murakkab tasvirini ifodalashga yo‘naltirilganini ko‘rsatadi.

Tabiiy-geografik makon. Yuqorida ta’kidlaganimizdek, odatda, shahar makoni urbanizatsiyalashgan, texnologiya yutuqlaridan salmoqli foydalanayotgan, chuqur ijtimoiylashgan makondir. Shovqinli shahar ichidagi bog‘lar, xiyobinlar, ko‘llar, daryolar esa sokin, iliq; muallif uchun ham, qahramon uchun ham inson ruhiyatining tabiiy va nozik qirralarini anglatishga, anglashga imkon beruvchi makonlardan biridir. Nazar Eshonqulning “Yalpiz hidi” hikoyasida bog‘ lokusi qahramonning bolalik xotiralari bilan uyg‘unlik kasb etadi. Hikoya qahramoni Samandarning kechagi kuni va bugunini tutashtirgan hovlisidagi mo‘jaz bog‘ uning ruhiyatini, o‘tmishini ifodalashda vosita bo‘lib ximat qilgan. Tong saharda taralgan yalpiz hidi uning xayolida bolalik chog‘larini, ota-onasini va onasining yalpiz solingan sho‘rvasining ta’mini yodiga soladi. Xotiralarning bu tarzdagi zanjiri qahramonning murakkab ruhiyatini belgilab bergan. Muallif qahramonni tasvirlar ekan, inson borlig‘ining eng murakkab ruhiy qirrasi – ongosti sezimlarini berishga e’tibor qaratadi. Ya’ni Freydning ongosti nazariyasiga ko‘ra, “b**iz ongimizni nazorat qila olamiz, lekin ongostimizda** qanday ma’lumotlar saqlanishini bilmaymiz; bizning ruhiy osoyishtaligimizga tahdid soladigan barcha bloklangan xotiralar aynan unda joylashgan” [16]. Nazar Eshonqul ham qahramonini yaratishda go‘yo ruhshunos kabi yondashadi: “U, balkim, bir hafta oldin qishlog‘ining chetidagi to‘qayda o‘sadigan bo‘liq yalpizlarni eslagan va so‘ng unutgani uchun o‘sha kuni yuzaga chiqar-chiqmas yana yashringan – hali o‘zi ham nima deb atashni bilmagan botiniy tuyg‘ular va xotiralar bugun kitob o‘qib yotganida o‘z-o‘zidan shuurini band etib, bir zum suvga yashiringan po‘kakdek

xayoliga lip etib qalqib chiqqan-u unga yalpiz solingan sho‘rva hidini eslatgandir?” [14:284] Bir hafta avval qahramon ongostiga qayd etilgan tasvir va hid detali uni olis bolaligiga olib boradi.

Hikoyadagi asosiy makon Samandarning uyi va uning yonidagi bog‘ bo‘lsa-da, asarda bog‘ va uning tabiatiga urg‘u beriladi. Chunki bog‘ Samandarning nafaqat ruhiy dolg‘alarini, balki shahar kishisining kundan-kundan tabiiylikka, yashillikka bo‘lgan ehtiyojini ifodalaydi. Qurilish inshootlari bilan to‘layotgan shahar ichidagi xiyobon va undagi qator tiziltirib ekilgan gullar ham Samandar uchun soxta bo‘lib ko‘rinadi. Uning nazdida hovlisidagi bog‘ garchi qarovsiz bo‘lsa ham, o‘z holicha gurkirayotgan, bag‘rida qanday o‘simlik o‘sishini o‘zi hal etayotgan haqiqiy tabiat timsoli sifatida gavdalanadi. Bog‘, shuningdek, Samandar va uning rafiqasi o‘rtasidagi nozik munosabatlarni mustahkamlovchi vosita bo‘lib xizmat qilgan. Samandar, uning oilasi bu bog‘da oilaviy munosabatlarining qadriyatlarini ham birga ulg‘aytirishayotgani anglashiladi. Asardagi bog‘ makoni tabiat inson hayotining bir qismiga aylangan, makon va xotira uyg‘unlashgan, o‘ziga xos, alohida, mustaqil makon tarzida tashkillangan. Bog‘ muayyan hududning zamonaviylashuviga, urbanizatsiya jarayoniga qarama-qarshi qo‘yiladi.

Psixologik makon. Bunday makon asarda qahramonlar ruhiyatini tasvirlashga, inson deb atalmish murakkab borliq siyratini ochib berishda vosita bo‘lib xizmat qiladi. Adabiyotshunos Yu. Seleznevga ko‘ra, “psixologik makon... badiiy asar doirasida qahramon xarakterining nozik ichki harakatlarini ochib berish vositasi sifatida xizmat qiladi. Bu xarakterning turli vaziyatlarda namoyon bo‘lishiga bevosita ta’sir qiladi” [15:62-63]. Nazar Eshonqulning “Ochilmagan eshik” hikoyasida ham makon inson qalbining tebranishlarini aks ettirishga safarbar etiladi. Hikoya qahramoni kelinchakning jufti bilan o‘rtalaridagi sovuq munosabat oxir-oqibat uning o‘z joniga qasd qilishi bilan yakunlanadi. Psixologik makon yozuvchining “Sharpa”, “O‘pqon” kabi asarlarida ham voqelik kechgan asosiy makon vazifasini bajaradi.

XULOSA. Nazar Eshonqulning deyarli barcha asarlarida sobiq sho‘ro tuzumi va mafkurasining, erksiz jamiyatning tasvirini ifodalovchi makonlar talay. Bu makonlar esa asar mazmuni va g‘oyasi, muallif niyati bilan uzviy aloqador. Bunday makonlarning shakliy va mazmuniy xususiyatlarini tavsiflash orqali ijodkor uslubi va mahorati haqida ham muayyan xulosalar chiqariladi. Nazar Eshonqul hikoyalaridagi makon ijtimoiy, ijtimoiy-tarixiy, ramziy-metaforik, tabiiy-geografik, psixologik tiplarga ega. Makonning bunday shakllari yozuvchi yashgan davr, muhit va joy ya’ni muallif biografiyasi bilan uzviy aloqador. Bu kabi jihatlar esa boshqa bir alohida tahlilni talab etadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI.

1. Arastu. Poetika. Axloqi kabir.– T: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2018. – 352 b. //Arastu. Poetics. Great Ethics. - T: National Encyclopedia of Uzbekistan, 2018. - 352 p

2. Локк Д. Избранные философские произведения:В 2-х томах. Том 1. – М.:Соцэкгиз, 1960. – 734 с. // Locke J. Selected Philosophical Works:In 2 volumes. Volume 1. - M.:Sotsekgiz, 1960.

3. Фаликова Н.Э. Хронотоп как категория исторической поэтики // В кн.: Проблемы исторической поэтики. – Петрозаводск: ПГУ, 1992.– С. 45-58.//Falikova N.E. Chronotope as a category of historical poetics // In the book: Problems of historical poetics. - Petrozavodsk: PSU, 1992. - pp. 45-58.

4. Слепухов Г.Н. Художественное пространство и время как объект философско-эстетического анализа. Автореф. дис. канд.–М.,1979.–21 с.//Slepukhov G.N. Artistic space and time as an object of philosophical and aesthetic analysis. Abstract of dissertation. -M.,1979.- 21 p.

5. Baxtin M. Romanda zamon va xronotop shakllari. – T: Akademnashr, 2015. – 288 b. // Bakhtin M. Forms of time and chronotope in the novel. - T: Akademnashr, 2015. - 288 p.

6. Mirvaliyev S. Roman va zamon. – Toshkent: Fan, 1983; //Mirvaliyev S. Novel and time. - Tashkent: Fan, 1983

7. Quronov D. Cho‘lpon nasri poetikasi. – Toshkent: Sharq, 2004; //Quronov D. Poetics of Cholpon's prose. - Tashkent: Sharq, 2004;

8. Rasulov A. Badiiylik – bezavol yangilik. – Toshkent: Sharq, 2007; //Rasulov A. Artistry - an eternal novelty. - Tashkent: Sharq, 2007;

9. To‘ychiyev A. O‘zbek romanlarida makon va zamon. – T:Mumtoz so‘z, 2009; //To'ychiyev A. Space and time in Uzbek novels. - T: Mumtoz so'z, 2009;

10. Jo‘raqulov U. Nazariy poetika masalalari: Muallif. Janr. Xronotop. – T: G‘afur G‘ulom nomidagi NMIU, 2015; Alisher Navoiy «Xamsa»sida xronotop poetikasi: Filol. fan. dokt. diss. – Toshkent, 2017; //Jurakulov U. Issues of Theoretical Poetics: Author. Genre. Chronotope. - T: NMIU named after Gafur Gulyam, 2015; Poetics of chronotope in Alisher Navoi's "Khamsa": Philol. science. doctoral diss. - Тошкент, 2017.

11. To‘rayeva B. Tarixiy romanlarda badiiy zamon muammosi. Filol.fan.fals. dokt...diss. – Toshkent: 2018; //Turaeva B. The Problem of Artistic Time in Historical Novels. Philol. science. phil...diss. - Тошкент: 2018.

12. Nazarov O‘. Omon Muxtor romanlarida badiiy xronotop muammosi: Filol. fan. fals. dokt...diss., 2018. //Nazarov U. The problem of artistic chronotope in the novels of Omon Mukhtar: Philol. science. 2018.

13. Ulviye Topçu Öztürk. Nazar Eşankul’un seçilmiş hikâyelerinde dil ve üslup incelemesi. Pamukkale Üniversitesi, Sosyal Bilimler Enstitüsü, Yüksek Lisans Tezi. – Denizli, 2019. – S: 233. // Ulviye Topçu Öztürk. Language and style analysis in selected stories of Nazar Eşankul. Pamukkale University, Institute of Social Sciences, Master Thesis. – Denizli, 2019. – P: 233.

14. Eshonqul N. Saylanma: I tom. – Toshkent: Akademnashr, 2022. – 512 b. // Eshonkul N. Election: Volume I. – Tashkent: Akademnashr, 2022. – 512 p.

15. Селезнев Ю.И. В мире Достоевского. - М., 1980. – 376 с. // Seleznev Yu.I. In the World of Dostoevsky. - M., 1980. - 376 p.

16. https://psy.pinpo.ru/news/teoriya-bessoznatelnogo/

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 1-son)

FILOLOGIYA

PHILOLOGY

UDK: 30 428

Orcid.org: 0009-0005-9487-2508

LOGISTIKA TA’LIM YO‘NALISHI TALABALARINI KASBIY INGLIZ TILI MULOQOTIGA O‘QITISHDA METAKOGNITIV YONDASHUV MAQSADI VA VAZIFALARI

Botirova Palina Xakimjonovna
NamMQI, “Xorijiy tillar” kafedrasi dotsenti, ped.f.f.d. PhD,
E-mail: palina.botirova@mail.ru
Tel: +99891 293 42 57

Annotatsiya: Ushbu maqolada logistika yo‘nalishi talabalari uchun kasbiy ingliz tili muloqotini o‘qitishda metakognitiv yondashuvni qo‘llash maqsadi va vazifalari ko‘rib chiqilgan. Talabalarni o‘z-o‘zini boshqaruvga asoslangan o‘qitish ko‘nikmalari, tanqidiy fikrlash qobiliyati va kasbiy ingliz tilini real hayotiy vaziyatlarda qo‘llash malakalarini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratiladi. Tadqiqot shuningdek, talabalarni o‘qitish strategiyalari bo‘yicha xabardorligini oshirish va ularning madaniyatlararo muloqot qobiliyatlarini takomillashtirish, global bozorda muvaffaqiyatli integratsiya uchun zarurligini ta’kidlaydi.

Kalit so‘zlar: Metakognitiv yondashuv, kasbiy ingliz tili muloqoti, logistika talabalari, o‘z-o‘zini boshqaruvga asoslangan o‘qitish, madaniyatlararo muloqot, o‘qitish usullari, global bozor integratsiyasi.

THE PURPOSE AND TASKS OF A METACOGNITIVE APPROACH IN TEACHING PROFESSIONAL ENGLISH COMMUNICATION TO LOGISTICS STUDENTS

Annotation: The article explores the purpose and tasks of implementing a metacognitive approach in teaching professional English communication to students specializing in logistics. It emphasizes the development of students’ self-regulated learning skills, critical thinking, and the ability to apply professional English in real-life situations. The research also highlights the importance of fostering students’ awareness of their learning strategies and improving their intercultural communication competencies, crucial for successful professional integration in the global market.

Keywords: Metacognitive approach, professional English communication, logistics students, self-regulated learning, intercultural communication, teaching methods, global market integration.

ЦЕЛИ И ЗАДАЧИ МЕТАКОГНИТИВНОГО ПОДХОДА ПРИ ОБУЧЕНИИ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ АНГЛИЙСКОЙ КОММУНИКАЦИИ СТУДЕНТОВ ЛОГИСТИЧЕСКОГО НАПРАВЛЕНИЯ

Аннотация: В статье рассматриваются цели и задачи применения метакогнитивного подхода при обучении профессиональной коммуникации на английском языке студентов, специализирующихся в логистике. Уделяется внимание развитию навыков саморегулируемого обучения, критического мышления и способности применять профессиональный английский язык в реальных ситуациях. Исследование также подчеркивает важность повышения осведомленности студентов о стратегиях обучения и улучшения их межкультурных коммуникационных компетенций, необходимых для успешной профессиональной интеграции на глобальном рынке.

Ключевые слова: Метакогнитивный подход, профессиональная коммуникация на английском языке, студенты логистики, саморегулируемое обучение, межкультурная коммуникация, методы обучения, интеграция в глобальный рынок.

Kirish

Hozirgi globallashuv jarayonining fan va texnologiyalarning jadal rivojlanishi davrida millatlararo munosabatlar, logistika, iqtisodiy aloqalar va kommunikatsiya ko‘lamining kengayishi ingliz tilini o‘rganish borasida amalga oshirilayotgan ishlarni sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarishini taqozo etmoqda. Chet tillarni muntazam ravishda o‘rganish uchun zamonaviy materiallar, turli xil yondashuvlar, eng yangi texnologiyalardan foydalanish va yuqori darajada o‘rganishni ta’minlaydigan qiziqarli shaklda taqdim etish muhimdir. Til ta’limida bir qancha yondashuvlar muhim hisoblanadi, jumladan kommunikativ yondashuv, kompetensiyaviy yondashuv, shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv, integrativ yondashuv, klasterli yondashuv, metakognitiv yondashuv, madaniyatlararo yondashuv va boshqalar.

So‘nggi vaqtlarda chet tilini o‘rganish va o‘rgatish jarayonida metakognitiv yondashuvning ahamiyati tobora ortib bormoqda. Metakognitiv yondashuvning asosi va uning xorijiy tillarni o‘qitish jarayonidagi ahamiyati xususida mamlakatimizda va horijda bir qancha olimlar ish olib borganlar va bormoqdalar. Savol tug‘iladi: Metakognitiv yondashuvning o‘zi nima va uning chet tillarni o‘qitishdagi ahamiyati qanday?

“Metakognitiv” tushunchasi fanga ilk bor Djon Fleyvell tomonidan 1976 yilda kiritildi. Uning fikricha, insonning bilish jarayonlari haqidagi umumiy bilimlar majmuasini nazorat qilishga undaydigan bilimlar sohasiga «metakognitiv» deyiladi. Metakognitiv atamasi «meta» va «kognitiv» so‘zlaridan tashkil topgan bo‘lib, «meta», lug‘atlardagi ma’lumotlarga ko‘ra, yunoncha so‘zdan olingan, «keyin, uchun, orqali» ma’nolarini anglatadi. «O‘zining bilim

jarayonlari va ularning mahsulotlari yoki ular bilan bog‘liq bo‘lgan barcha narsalar to‘g‘risidagi mavzuni bilish», deya ta’riflaydi Jon Flavell.[202] «Meta» prefiks bo‘lib, «narsaning o‘zi haqida» degan ma’noni anglatadi. Bundan kelib chiqib metakognitiv tushunchasi - bu «bilish haqidagi bilish» yoki «o‘z fikrlari to‘g‘risida o‘ylash demakdir». Kognitiv so‘zi esa inglizcha (lotin) «cognize» so‘zidan olingan bo‘lib, «bilmoq, anglamoq, tushunmoq va fikrlamoq» yoki «cognition» – «bilish, tushunish» kabi ma’nolarni anglatadi. O‘z o‘rnida «bilish faoliyati insonning voqelikni bevosita sezishi, his etishi bilan bog‘liq hodisadir» deya ta’riflaydi.

Dj. Fleyvell metabilishning 4 komponentini ajratadi:

- metakognitiv bilimlar;
- metakognitiv tajriba;
- metakognitiv maqsad;
- metakognitiv strategiya.[203]

Ingliz olimi A. Braun ta’kidlashicha, **metakognitiv ko‘nikma** – bu inson tomonidan o‘zlashtirilgan shaxsning bilimlari to‘g’risidagi bilimdir. Olima metabilishni ikki kategoriya asosida o‘rganishni tavsiya etadi:

1). Bilish to‘g’risidagi bilim — faoliyat majmui bo‘lib, ongli ravishdagi kognitiv xatti-harakat va qobiliyatlarni boshqaruvchi refleksiv jarayondir;

2). Bilish regulyatsiyasi — didaktik jarayonlarda bilishga intilish hissini muvofiqlashtiruvchi xatti-harakatlar va faoliyat majmuasi. A. Braun ta’kidlashicha, metakognitiv yondashuvlar ta’lim berish jarayonlarini muvofiqlashtirib, ularni nazorat qilishga xizmat qiladi va bir necha tizimdan iborat bo‘lgan faoliyatni tashkil qiladi:

- faoliyatni rejalashtirish jarayoni (rejani shakllantirish, natijani ko‘ra bilish, qo‘yilgan kamchiliklarni tahlil qilish);
- faoliyatni nazorat qilish jarayoni;
- bilish faoliyatining natijaviyligini nazorat qilish.[204]

Ingliz olimi R. Klyuve ham metakognitiv yondashuvlarni kognitiv faoliyatni muvofiqlashtiruvchi va boshqaruvchi ikkita tizimiga ajratib ko‘rsatadi. Bular:

- nazorat jarayoni — qo‘yilgan topshiriqni identifikatsiyalashga undovchi, o‘z faoliyatiga baho berish va kelgusi faoliyatni rejalashtirishga hamda natijaviyligini ta’minlovchi yo‘naltiruvchi jarayon;
- boshqaruv (regulyatsiya) jarayoni — berilgan topshiriqni bajarish uchun resurslar taqsimotiga ko‘maklashuvchi, topshiriq bajarilishining algoritmini belgilovchi jarayon.[205]

Metodlar va adabiyotlar tahlili

[202] J. H. Flavell. Metacognition and cognitive monitoring: A new area ofcognitive developmental inquiry // American Psychologist. 1979. Vol. 34. No10.R.906–911. 907-908-b.
[203] Flavell, J.H. (1976). Metacognitive aspects of problem solving. Inl. Resnick (Ed). The nature of intelligence.WWlsdRlQ^Hi: Erlbaum, 238 б
[204] Brown, A.L (1987). Knowing when, where and how to remember: A problem of metacognition. In R. Glaser (Ed) Advances in instructional psychology. Hillsdale , NJ: Erlboum, 390б.
[205] Kluwe R. (1987). Executive Decisions and Regulation of Problem Solving Behavior // Metacognition, Motivation and Understanding / ed. by F. Weinert & R. Kluwe. New Jersey, 170-б.

D. Rigli, P. Shetts, R. Glants va S. Vaynshteynlar o‘z tadqiqotlarida metakognitiv ko‘nikma o‘z bilimlarini ongli ravishda o‘rganishga mo‘ljallangan refleksiyani qo‘llash jarayoni sifatida tavsiflashadi, o‘z tafakkur faoliyaning strategiyasini belgilashga mo‘ljallangan xatti-harakatlar majmuasi sifatida e’tirof etishadi.[206] Olimlarning fikricha, rejalashtirish, xatti-harakatni belgilash strategiyasi, bilish jarayonlari monitoring insonning ongli ravishda o‘quv-biluv faoliyatida muhim o‘rin egallaydi. S. Tobiasi X. T. Eversonlar metakognitiv ko‘nikmani ierarxik modelini taklif etishib, unda bilimni baholash, o‘qitish sifatini baholash, kelgusi o‘quv faoliyatni rejalashtirish va o‘quv strategiyasini belgilash muhim ahamiyat kasb etishi ko‘rsatganlar.[207]

Olimlarning fikricha, bilimlar monitoringi metakognitiv ko‘nikmalarni shakllantiruvchi muhim qadam bo‘lib, insonning nimani yaxshi bilishiyu, va yana nimalarni o‘rganishi lozimligi haqida o‘ylab ko‘rishga xizmat qilishini belgilaydi. Rus olimasi M. A. Xolodnaya, boshqa mualliflar singari, metabilish jarayonlari bilimlarni ongli nazorat bilangina aniqlash mumkinligi to‘g’risidagi fikrlar bilan cheklanmasligini uqtiradi. Maktabgacha tayyorlov yoshidagi talabalarning intellectual sohasini tadqiq qilgan M.A. Xolodnaya mental qobiliyatlarning shakllanishida uch bosqichni ajratib ko‘rsatadi:[208]

- Kognitiv bilim (tajriba) — mental tarkib, ya’ni qabul qilinayotgan axborotlarni tizimlashtiruvchi, ularni interpretatsiyalovchi va idrok qiluvchi bosqich;
- Metakognitiv bilim — intellektual faoliyatni boshqarishda bevosita va bilvosita qabul qilingan axborotlarni qabul qilish, boshqarish (regulyatsiya qilish). Metakognitiv bilim bevosita qabul qilingan axborotlar ustidan intellektual nazorat olib borishni ta’minlaydi va u metakognitiv bilimlarni rivojlantirishga xizmat qiladi.
- Intentsional bilim (tajriba) — intellektual moyilliklarni yo‘naltiruvchi mental tarkib.

Natijalar

Tadqiqotlarning ko‘rsatishicha, metakognitiv ko‘nikmalarga ega talabalar institutga qabul qilinganch, ularning intellektual qobiliyatlari yuqori bo‘lishi aniqlangan. Metakognitiv ko‘nikmalar talabaning fikrlash darajasini o‘stiradi, metabilish jarayonlarini rivojlantiradi. Bunda topshiriqlarni bajarish mobaynida talaba diqqatni jamlashni o‘rganadi, ma’lumotlarni saralay oladi, o‘zining faoliyatiga baho beradi. Insonning metakognitiv faoliyati ko‘rinishlari J. Piajening mukammal nazariyasi.[209] Dj. Brunerning kognitiv kontseptsiyasi A. Nioell , Dj. Shou, P. Lindsey, G.A.Saymon[210] va boshqalarning tafakkur nazariyalari, P.Ya. Galperin, N.F.Talizina[211] va boshqalarning aqliy jarayonlarni faollashtirish kontseptsiyalarida ham

[206] Ridley D., Schuts P., Glanz R., (1992). Weinstein C. Self-regulated Learning: the Interactive In□uence of Metacognitive Awareness and Goal-setting // J. of Experimental Education. 60

[207] S. Tobias, H.T Everson (2002). Knowing what you know and what you don't: further research on metacognitive knowledge monitoring College Board Research Report 2002-3

[208] Холодная М.А. (1997). Психология интеллекта: парадоксы исследования. Томск; М., 19с.

[209] Ж. Пиаже (1994). Речь и мышление. М., 1994.

[210] Ньюэлл Л., Шоу Дж.С., Саймон Г.А.(1981). Моделирование мышления человека с помощью электронно-вычислительной машины // Хрестоматия по общей психологии. Психология мышления. М., С. 305-318.

[211] Гальперин П.Я., Талызина Н.Ф. (1979). Современное состояние теории поэтапного формирования умственных действий. // Вестник

insonning bilish jarayonlarini nazorat qila olish holati yoritib berilgan. Yuqoridagi ilmiy qarashlar, nazariyalar va kontseptsiyalar tahlillaridan

Logistika ta’lim yo‘nalishi talabalariga ingliz tili muloqotiga o‘qitishda ularda aynan metakognitiv ko‘nikmalarni shakllantirish muhimligini ta’kidlash joiz. Metabilishning muhim komponentlaridan biri – bu metakognitiv strategiyalaridir. Dj. Fleyvell ta’biricha, bu strategiyalar insonning bilim olish maqsadlarini o‘zi tomonidan nazorat va monitoring qilishga xizmat qiladi.[212] D. Kyun, V.A.Molyakolarning ilmiy qarashlarida insonning shaxsiy kognitiv stategiyalar tuzilmasi o‘rganiladi.[213] A.Venger, N.N.Poddyakov, N.G. Salmin va boshqalar tadqiqotlarida ham talabalarni metakognitiv strategiyalardan foydalangan holatda ularning kasbiy va intellektual jihatdan rivojlantirish muhimligi uqtiriladi. Adabiyotlar tahlili natijasida, biz metakognitiv strategiyalarga ta’rif berishga muyassar bo‘ldik.

Muhokama

Metakognitiv strategiyalar – fikrlash strategiyalarini yo‘naltiruvchi, dialektik aqliy harakatlarni boshqaruvchi, muayyan tafakkur tuzilmasi. Metakognitiv strategiyalar bilish jarayonlarini muvofiqlashtirib, ularni quyidagi aqliy xatti-harakatlarni bajarishga undaydi:

1) amaldagi aqliy strategiyaning asossiz ekanligini va uni yangicha tuzilmasini ishlab chiqish zaruratiga ehtiyoj mavjudligini anglash, alternativ, muqobil strategiya ishlab chiqish dialektikasi;

2) amaldagi strategiyaning transformatsiyasi, ya’ni:

a) oldingi eskirgan strategiyaning o‘rniga yangi mohiyatdagisini ishlab chiqish orqali;

b) aqliy umumlashmalar orqali ikki va undan ortiq strategiyalarni jamlash va h.k.

Logistika ta’lim yo‘nalishi talabalarini metakognitiv strategiyalar orqali tashkil qilishni inobatga olishi zarur. Metakognitiv yondashuv muhandislik oliy o‘quv yurtlari talabalarini ingliz tili muloqotiga o`qitishda kasbiy-hayotiy, ijtimoiy-iqtisodiy sohalarga fikr-mulohazali shaxslarni yetishib chiqishlariga yordam beradi. Ikkinchi tomondan, ularni metakognitiv bilimlarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan moslashuvchan ta’lim berish talabaning ingliz tili muloqoti davomida insonparvarlikka asoslangan subyektivlik darajasini belgilanishi bilan o‘lchanadi.

1-jadval. Logistika ta’lim yo‘nalishi talabalarini ingliz tili muloqotiga o‘qitishda qo‘llaniladigan metakognitiv yondashuv mezonlari

№	**Metakognitiv ko‘nikmalarni shakllantiruvchi mezonlar**	**Metakognitiv metodlar**	**Natija**

МГУ. Серия: психология. № 4, С. 54-63.

[212] Flavell J.H. (1976). Metacognitive aspects of problem solving. // The nature of intelligence. Hillsdale / Edited by L.B. Resnick N.Y.: Erlbaum, 1976.- p. 231-235.

[213] Kuhn D. (1983). On the Dual Executive and Its Sigificance in the Development of Developmental Psychology // Contemporary Human Development.-V. 13.- Basel; Моляко В.А. (1994) Проблемы психологии творчества и разработка подхода к изучению одаренности // Вопросы психологии .- 1994.-№5.- с.86-95.

1	Tushuntirilgan axborotdagi eng muhim tushunchalarni ajratib olish Axborotdagi ma’lumotlarni tahlil eta olish	Tasniflash	o‘quv materiallarini anglash; talabalarning qiziqishlari, intilishlarini izchil tarzda dialog asosida rivojlantira olish;
2	O‘zidagi mavjud kasbiy bilimlarni tili o‘rganilayotgan mamlakatlar bilan taqqoslay olish;	O‘zidagi mavjud kasbiy bilimlarni tili o‘rganilayotgan mamlakatlar bilan taqqoslay olish;	o‘quv-biluv jarayonida o‘quv materiallarini talabalarning shaxsiy tajribalari, bilimlari bilan uyg’unlashtirgan holda taqdim eta olish;
3	Ma’lumotlarni bir-biri bilan taqqoslay olish;	Solishtirish	bilish faolligi ko‘rsatkichi sifatida mo‘tadillik, ishtiyoq, o‘rganishning anglanganligi, kasbiy-ijodiy ko‘nikmalar namoyon bo‘lishi:
4	Mustaqil fikrini bildira olish	Refleksiya	nostandart xulq-atvor, o‘quv-kasbiy vaziyatlaridagi vazifasini hal etishdagi mustaqillik va boshqalar
5	O‘z qarashlarini asoslay olish;	bo‘lgan muammolarni yechishga kirishadilar.	Guruhdagi har bir talaba o‘zaro birbirlari bilan hamkorlikda o‘z oldlariga qo‘yilgan topshiriqni bajarish
6	Mavzudagi voqea-hodisalarga o‘z munosabatini bildira olish		o‘rganishning anglanganligi, ijodiy namoyon bo‘lishi

Jadvalda ifodalanganidek, metakognitiv metodlarni qo‘llash orqali ingliz tili muloqotiga o‘qitishda talabalarni kasbiy muloqotga tayyorlashning tarkibiy qismlari: bilish obyekti va subyekti, bilish metodlari va vositalari, bilim ko‘rinishidagi natijasi va uni baholashni o‘zida aks ettiradigan bilish inson faoliyatining turi sifatida qaraladigan faoliyatli, munosabatli, qadriyatli yondashuv asosida bilish jarayonining mohiyatini ochib berish. Bu jarayonda refleksiya – talabaning shaxsiy fikr va kechinmalarini tahlil qilishga yo‘naltirilgan mulohaza yuritishi ko‘rinishida namoyon bo‘ladi. Refleksiya tufayli talaba bilish va faoliyatning asl subyektiga aylanadi. Mazkur mezonlar asosida talabalarning metakognitiv ko‘nikmalarini rivojlanganlik darajasini aniqlashda uch daraja asos qilib olindi.

1. Yuqori daraja – tilni bilishga bo‘lgan ehtiyoj va qiziqishlari o‘ta kuchli. Logistikaga oid inglizcha matnlarni va materiallarni mustaqil o‘qib o‘rganadi. Axborotlarni tinglab tushunadi va eng muhim fikrlarni ajrata oladi. O‘zaro hamkorlik muhitida madaniyatlararo bilim va ko‘nikmalari asosida ingliz tili muloqotiga faol kirishib ketadi, kasbga oid mavzudagi voqea hodisalarni bemalol tahlil eta oladi. O‘zidagi mavjud tasavvurlar bilan

hozir o‘rganilayotganlarini taqqoslaydi. O‘z fikrini ingliz tilida erkin bayon eta oladi. Boshqalar bilan faol muloqotga kirisha oladi, kirishimli, muloqatmand, o‘zidagi tasavvurlarni dadillik bilan himoya qiladi. Materiallarni umumlashtirib, bayon eta oladi. Logistika sohasiga oid o‘rganilganlarini amaliyotga tadbiq eta oladi.

2. O‘rta daraja – tilni bilishga bo‘lgan ehtiyoji mavjud. Logistikaga oid kasbiy bilimlar to‘g‘risidagi axborotlarni tinglab eng muhim fikrlarni ajrata oladi. Mavzudagi voqea-hodisalarni tahlil eta oladi. Kirishimli, muloqotmand, o‘zidagi mavjud tasavvurlarin boshqalarniki bilan taqqoslay oladi, ba’zi holatlarda biroz qiynaladi. O‘z fikrini bayon eta oladi. O‘zidagi tasavvurlarni boshqalarniki bilan taqqoslaydi. O‘rganganlari asosida materialni bayon etib bera oladi.

3. Quyi daraja – tilni bilishga bo‘lgan ehtiyoj va qiziqishlari mavjud, lekin barqaror emas. Axborotdagi eng muhim fikrlarni hamma vaqt ham ajrata olmaydi. Mavzudagi voqea-hodisalarni imkon qadar tahlil qilishga harakat qiladi. O‘z fikrini ingliz tilida qiynalmasdan, erkin bayon eta olmaydi. Talabalar orasida metakognitiv ko‘nikmalarni rivojlantirishga xizmat qiladigan ayrim usullardan foydalanilganda talaba erishgan bilim, ko‘nikma va malakalar muayyan darajasi namoyon bo‘ladi.

Xulosa

Logistika ta’lim yo‘nalishi talabalari uchun kasbiy ingliz tili muloqotini o‘rgatishda metakognitiv yondashuv muhim rol o‘ynaydi. Ushbu yondashuv talabalarning o‘z fikrlash jarayonlarini anglash va boshqarish qobiliyatlarini rivojlantirishni nazarda tutadi. Bu orqali talabalar nafaqat tilni bilish, balki kasbiy muloqot vazifalarini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun zarur strategiyalarni mustaqil ishlab chiqish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Metakognitiv yondashuvning asosiy maqsadi – talabalarning o‘zini o‘zi nazorat qilish va baholash ko‘nikmalarini shakllantirish, kasbiy sohada muloqot qilishda samaradorlikni oshirishdir. Ushbu jarayonda quyidagi vazifalar amalga oshiriladi:

- Talabalarning kelajakdagi faoliyatiga mos keluvchi til ko‘nikmalarini aniqlash.
- Ingliz tilini o‘zlashtirish jarayonini samarali boshqarish uchun strategiyalarni ishlab chiqish.
- Talabalar o‘z bilim va ko‘nikmalarini mustaqil ravishda tahlil qilish orqali o‘z ustida ishlash imkoniyatini shakllantiradi.
- Muloqot jarayonida yuzaga kelgan qiyinchiliklarni aniqlash va ularni bartaraf etish usullarini o‘rganish.

Mazkur yondashuv talabalarni nafaqat tilni bilish bilan cheklanmay, balki uni amaliy qo‘llashga tayyorlaydi. Bu esa ularning logistika sohasida xalqaro muloqotda muvaffaqiyatli bo‘lishlari uchun zarur bo‘lgan muhim shartdir. Shu tariqa, metakognitiv yondashuv orqali o‘qitish talabalarning kasbiy rivojlanishiga hamda global bozor talablariga moslashishiga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. J. H. Flavell. Metacognition and cognitive monitoring: A new area ofcognitive developmental inquiry // American Psychologist. 1979. Vol. 34. No10.R.906–911. 907-908-b.

2. Flavell, J.H. (1976). Metacognitive aspects of problem solving. Inl. Resnick (Ed). The nature of intelligence.WWlsdRlQ^Hi: Erlbaum, 238 б.

3. Brown, A.L (1987). Knowing when, where and how to remember: A problem of metacognition. In R. Glaser (Ed) Advances in instructional psychology. Hillsdale , NJ: Erlboum, 390б.

4. Kluwe R. (1987). Executive Decisions and Regulation of Problem Solving Behavior // Metacognition, Motivation and Understanding / ed. by F. Weinert & R. Kluwe. New Jersey, 170-б.

5. Ridley D., Schuts P., Glanz R., (1992). Weinstein C. Self-regulated Learning: the Interactive Inuence of Metacognitive Awareness and Goal-setting // J. of Experimental Education. 60.

6. S. Tobias, H.T Everson (2002). Knowing what you know and what you don't: further research on metacognitive knowledge monitoring College Board Research Report 2002-3.

7. Холодная М.А. (1997). Психология интеллекта: парадоксы исследования. Томск; М., 19с.

8. Ж. Пиаже (1994). Речь и мышление. М., 1994.

9. Ньюэлл Л., Шоу Дж.С., Саймон Г.А.(1981). Моделирование мышления человека с помощью электронно-вычислительной машины // Хрестоматия по общей психологии. Психология мышления. М., С. 305-318.

10. Гальперин П.Я., Талызина Н.Ф. (1979). Современное состояние теории поэтапного формирования умственных действий. // Вестник МГУ. Серия: психология. № 4, С. 54-63.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 1-son)

FILOLOGIYA

PHILOLOGY

“QUTADG‘U BILIG” DA DEHQON OBRAZI

Hayitov Shavkat Ahmadovich,
Buxoro davlat universiteti f.f.d., professor
Shoyimova Gulshod
Buxoro davlat universiteti
mustaqil izlanuvchisi
+998 90 510 84 66

Anotatsiya: Ushbu maqolada mutafakkir, adib Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asarida dehqon obrazi va unga munosabat chuqur tahlilga tortilgan. Dehqon kishilik jamiyatidagi noyob ijtimoiy toifa sifatida hamisha, har qachon, hamma vaqt, hamma uchun kerak. Dehqon, uning mo‘jizakor, afsonaviy mehnati borligi uchun shoh ham, gado ham, darvesh ham, zolim ham, insofli ham unga doim muhtojligi badiiy asar orqali ko‘rsatib berilgan.

Kalit so‘zlar: birinchi renessans, Qutadg‘u bilig, dehqon, Turkiy Shohnoma, qut-baraka, saxiylik

THE CHARACTER OF THE PEASANT IN “KUTADGU BILIG”

Annotation: In this article, the image of a farmer and his attitude towards him in the work “Kutadgu Bilig” by the thinker, writer Yusuf Khos Hajib is deeply analyzed. As a unique social category in the peasant society, it is necessary for everyone, always, all the time. It is shown through the artistic work that the farmer, because of his miraculous and legendary work, is always needed by the king, the beggar, the dervish, the tyrant, and the righteous.

Key words: the first renaissance, Qutadgu bilig, farmer, Turki Shahnoma, blessing, generosity

ПОРТРЕТ КРЕСТЬЯНИНКИ В “КУТАДГУ БИЛИГ”

Аннотация: В данной статье глубоко анализируется образ земледельца и его отношение к нему в произведении “Кутадгу Билиг” мыслителя, писателя Юсуфа Хоса Хаджиба. Как уникальная социальная категория в крестьянском обществе, она необходима всем, всегда, постоянно. Через художественное произведение показано, что земледелец благодаря своему чудесному и легендарному делу всегда нужен королю, гадо, дервишу, тирану и праведнику.

Ключевые слова: первое Возрождение, Кутадгу билиг, земледельец, тюркская шахнома, щедрость, благословение

KIRISH. Birinchi Renessans-birinchi ma’rifiy Uyg‘onish davri allomalaridan biri Yusuf Xos Hojib (XI asr) o‘zining “Qutadg‘u bilig” (1069-1070) asarida turkiy xalqlarning zabardast shoiri, o‘z vatani va elining fidoyi, sadoqatli farzandi sifatida komil jamiyatda odamlarning axloq mezonlari, hukmdorning o‘z fuqarosi bilan munosati qoidalari, uning el-yurt farovonligini ta’minlashga qaratilgan faoliyatini chuqur badiiy tahlil qildi.

Olam asrorini Mukammal anglagan faylasuf, tadbirkor va oqil davlat arbobi, zamonasining o‘nlab sohalariga oid fanlarni yaxshi o‘rgangan qomusiy olim inson ruhiyatining manzaralarini teran inkishof etuvchi zakiy adib sifatida o‘z davridagi ijtimoiy qatlamlar ularning davlat hamda jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni va ahamiyati haqida quyma mulohazalarni yozib qoldirdi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR. Mutafakkir shoirning o‘z davridagi ijtimoiy toifalar – bek, tabib, munajjim, shoir, dehqon, savdogar, chorvador, hunarmand haqidagi badiiy talqinlari zamonasi kishilari ongida tez aks-sado berib, davr axloqiy-ta’limiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ma’muriy-ma’rifiy qarashlari bilan uyg‘un holda turkiy xalqlarning davlat tuzilishi, el-yurt faravonligini ta’minlashga qaratilgan ma’naviy ehtiyojini qondirib bordi. Pandnomalar zaminida ildiz otgan Yusuf shoir she’riyatining yetakchi g‘oyaviy yo‘nalishlaridan biri har bir kasb sohibining ijtimoiy vazifasi bilan bog‘liq holda davlat, davlat rahbari, jamiyat a’zolari, ularning manfaatlari va farovonligini ulug‘lashdir. “Qutadg‘u bilig” ning yaratilishi didaktik doston janri rivojida yangi bir adabiy hodisa bo‘ldi. Uzoq yillar davomida o‘zidan keyin dunyoga kelgan janr namunalariga mavzuning turli qirralarini yoritishda salmoqli ta’sir ko‘rsatdi.

Mamlakat mustaqilligi hamda vatan ozodligini el-yurt mustaqilligi va erkinligi bilan uyg‘unlikda ko‘rgan “Qutadg‘u bilig” muallifi inson faqat ilm-ma’rifat bilangina o‘zining shaxsiy manfaatlari qobig‘idan chiqib, vatan va xalq manfaatlari bilan yashay oladi, degan g‘oyani o‘z asarida oldinga surdi. Shuningdek, har bir inson halol bir kasb bilan shug‘ullanmog‘i, to‘g‘rilik - halollik bilan kun kechirishi shart, degan qat’iy xulosaga keldi. Ulug‘ mutafakkir talqinicha, ilm inson ko‘nglini boyitadi. Ko‘ngli boy kishi saxiy, himmatli, muruvvatli bo‘ladi. Haqiqiy olim bilimga intilish, o‘zini ilm bilan poklash natijasida yuksak insoniy maqomga erishadi. Dehqon esa Parvardigorning inoyati, hamda Alloh in’om etgan kasbining sharofatidan saxiylikda, himmatda, muruvvatda, adolat va odillikda kishilik jamiyatidagi barchadan yuqori maqomda turadi:

Dehqon misli hotam borcha elga teng,

Xudo bergandan ham ko‘nglin tutar keng [10,379].

NATIJALAR VA MUHOKAMA. Yusuf Xos Hojib talqinlaridan kelib chiqadigan qat’iy xulosa shuki, Haq subhanahu va taolo dehqonchilik kasbini boshqa kasblardan tubdan farqli ravishda o‘ziga xos bir hikmat bilan yaratgan. Dehqon va dehqonchilik Quyoshga o‘xshaydi. Galaktikamizda joylashgan barcha sayyoralar Quyosh atrofida aylanadi va undan chiqqan yorug‘likni o‘zida aks ettiradi. Jamiyatning har bir a’zosi ham dehqon mehnatiga ko‘z tikadi va u yetishtirgan ne’mat bilan tirik yuradi. Quyosh – hamma sayyoralar butun mavjudot uchun nur va harorat manbai. Dehqon hamma odamlar barcha jonzod uchun tiriklik va rizq manbai.

Quyosh bani bashar hayotining negizi bug‘doyga ham, g‘alla ekinlari orasida o‘sadigan doni zaharli yovvoyi mastak o‘tiga ham birdek nur beradi, hayot bag‘ishlaydi. Dehqon to‘g‘riga ham, o‘g‘riga ham non beradi. Solih ham, porso ham, pok ham, mahkum ham, mahbus ham dehqon yetishtirgan mahsulotdan birdek bahramand bo‘ladi. Buyuk Yaratguvchi dehqonning dilini keng, fe’lini keng qilib yaratgan, ammo “Turkiy Shohnoma” muallifining talqinicha, ko‘ngli boy, nazari to‘q, himmati baland, sofdil va odil dehqon Xudo bergandan ham ko‘nglini kengroq tutadi.

Dehqon tasavvur qilib bo‘lmas darajada qudratli kuchga ega, chunki qimirlagan jonzot borki, uning qo‘lidan rizq yeydi, u tufayli jamiyki mavjudotlar, insoniyat va hayvonot dunyosi sog‘-omon yashaydi. Har bir qimirlagan jonda hayot nishonasi ko‘rinadi, harakat yuz beradi. Insoniyat va hayvonot olami vujudida quvvat paydo bo‘ladi:

Undan rizq topadi qimirlagan jon,

U bois bor jonzot yashaydi omon [7,658].

Dehqon yetishtirgan mahsulot insoniyat va hayvonot dunyosiga mansub barcha a’zolarning hayotiga aylanadi. Barcha jonzot undan nash’u namo topib, quvvat oladi, rivoj va o‘sishga yuz tutadi. Davlat va jamiyatda to‘q, farovon, sog‘lom iqlim paydo bo‘ladi. Dehqonning peshana teri bilan yetishtirilgan ne’mat nafas yetib turgan jonzotlarning qaysigadir kam yoki ko‘p emas, ilohiy qudrat taqazosi bilan barchaga teng yetib boradi. Bunday hikmatlarni sanab adog‘iga yetib bo‘lmaydi. Va dehqonni boshqa kasb sohiblaridan mumtoz qiladigan narsa u qora yerdan undiradigan hosilning barcha yaratilmishlar uchun mushtarak manzilda yig‘ilishi va barchaga mushtarak xizmat qilishidadir. Shuning uchun ham Yusuf shoirning qat’iy hukmiga ko‘ra nafas olib turgan har bir tirik jonzot dehqondan minnatdor bo‘lishi zarur:

Nafas olgan butun tirik jonivor,

Dehqondan bo‘lmog‘i kerak minnatdor [9, 361].

“Qutadg‘u bilig” da to‘rtta markaziy qahramon bor: Kuntug‘di, Oyto‘ldi, O‘gdulmish, O‘zg‘urmish. Bu obrazlarning har bittasi ramziy ma’noda adolat, davlat, aql va qanoat timsollaridir. Kuntug‘di – podsho (Yusuf shoir ifodasida elig) – adolat, Oyto‘ldi – vazir – davlat, O‘gdulmish – Oyto‘ldi vazirning o‘g‘li (otasidan keyin vazir) – aql, O‘zg‘urmish – zohid, qanoat ramzi. Nomlari zikr qilingan obrazlarning O‘zg‘urmishdan boshqalari davlat tizimida eng yuqori mansablarning egalari sifatida badiiy talqin qilinadi. “Turkiy Shohnoma” mohiyatidan sizib chiqadigan haqiqat shuki, dehqon va dehqonchiliksiz adolat ham, davlat ham, aql ham, qanoat ham bo‘lmaydi. Shoh adolat taxtida turib saltanatni boshqarishi, vazir aql bilan ish ko‘rib kuchli ijtimoiy siyosat yurgizishi, zohid tinch ko‘ngil bilan toat-ibodat qilishi uchun tomoq tashvishidan ozod bo‘lishi zarur. Kim bo‘lishidan qat’iy nazar kifoya qilgudek taom iste’mol qilmasa, harakat qila olmaydi. Och- nahor odam hech qachon o‘z vazifasini risoladagidek ado eta bilmaydi. Qaysi sohada bo‘lmasin inson g‘ayrat bilan ishlashi, tiniq fikrlashi uchun qorni to‘q bo‘lishi, mamlakat va davlat taraqqiy qilishi uchun ham “O‘rxun - Enasoy” bitiktoshlari qahramoni To‘nyuquq ifodasi bilan aytganda “xalqning tomog‘i to‘q”,-

bo‘lishi darkor. Tomoqning ishi esa dehqon va dehqonchiliksiz hech qachon tugal hal bo‘lmaydi. Shuning uchun ham Yusuf shoir yozadi:

Shubhasiz senga ham kerak bu kishi,
To tugal hal bo‘lsin tomoqning ishi [7,658].

Dehqon kishilik jamiyatidagi shunday noyob ijtimoiy toifaki, u hamisha, har qachon, hamma vaqt, hamma uchun kerak. Dehqon, uning mo‘jizakor, afsonaviy mehnati borligi uchun shoh ham, gado ham, darvesh ham, bek ham odil ham, oqil ham, zolim ham, fosiq ham, johil ham, vazir ham, sadr ham, dilkash ham, badfe’l ham, bahodir ham, yasovul ham, qorovul ham, mirshab ham, shayx ham, qozi ham, mufti ham, mudarris ham, tabib ham, muallim ham, mard ham, nomard ham, shoir ham, kotib ham, imom ham, muazzin ham, hofiz ham, mutrib ham, qissasoz ham, qissaxon ham, voiz ham, munajjim ham, savdogar ham, olib-sotar ham, kosib ham, hunarmand ham, ozod ham, mahbus ham, g‘arib ham, benavo ham, sayd ham, sayyod ham, andishali ham, andishasiz ham, erkak ham, ayol ham… tomoqqa – “yamoq” qayg‘usini chekmasdan umrguzaronlik qiladi. Shuning uchun ham “Turkiy Shohnoma” muallifi o‘zining suyukli qahramoni O‘zg‘urmish tilidan vazir O‘gdulmishga buyuradi:

Tag‘in bir toifa bo‘ladi – dehqon,
Kerakli kishilar bular har qachon,

Bular bilan yaqin bo‘lgin hamisha,
To tomoq tashvishin bilmasdan yasha.

Qimirlagan jonga naf berar ular,
Yeyish-u ichishga jon berar shular.

Bularga qo‘shilgin, aralash o‘zing,
Doim yaxshi so‘zla, ochiq tut yuzing [7,658].

Xalq og‘zaki ijodi jozibasi iste’dodli shoir satrlaridan yaqqol ko‘zga tashlanadi. Ifodalar sodda, samimiy, xalq tiliga yaqin. Xalqona donishmandlik, hikmatlar lazzati har bir misrani ichdan nurlantirib turadi. “Saxovat insoniyat bog‘ining shajaridur, balki ul shajarning mufid samaridur. Odamiylik kishvarining bahri mavjvari, balki ul mavjbahrining samin gavhari” [2, 79] deb yozgan hazrat Alisher Navoiy “Ochiq yuz bila saxo, saxo ustiga saxo”, ekanligini, ochiq chehrali odamning yuzi toza guldan nishon berib turishini alohida ta’kidlaydilar [2,104]. Ulug‘ mutafakkirning buyuk salafi Yusuf Xos Hojib talqinicha, Dehqon – saxiylarning saxiyi. Shunday ekan, u bilan munosabatda katta amaldordan tortib oddiy fuqaroga qadar jamiyatning har bir a’zosi g‘oyat xushxulqlik bilan, yoqimli, xushmuomalada bo‘lishi zarur. G‘azabkorlik, jahldorlikdan tiyilishi, dehqonga yaxshi so‘zlashi, u bilan yuzlashganda, qo‘shilganida, aralashganida yuzini ochiq tutishi darkor. Yusuf shoir – didaktik adabiyotning ulkan namoyondasi. Ijtimoiy toifalar(bunda dehqon va vazir) tasvirida ham axloqiy mavzuning o‘tkir

qirralari buyuk pandnomanavis e’tiboridan soqit qolmagan. Inson ruhiy olamining yuzdagi aksi tasvir asosida turgani holda ijodkorning fik-u zikri tashqi qiyofaning xalq (bunda dehqon) ma’naviy hayotiga, ruhiyatiga ta’siri, jamiyat a’zolariga (“Qutadg‘u bilig” dan yuqorida keltirilgan iqtibosning so‘nggi misrasida dehqonga) yetkazadigan foyda – zarariga yo‘naltirilgan.

Hazrat Alisher Navoiy pandnomasidan o‘qiymiz: “Qone’ darveshning quruq noni, tome’ shohning xitoyi xonidin xo‘broqdur” [2, 54]. Ulug‘ mutafakkirning mazkur hikmati Yusuf Xos Hojib satrlariga sharh vazifasini bajaradi. Navoiy talqinidagi tamagir shohning xitoyi dasturxonini yuz turli noz- ne’mat bilan to‘ldiradigan dehqon bo‘lganidek, darvesh ham o‘zidagi qotgan nonni dehqonning qo‘lidan oladi. Qanoat – darveshning suyangan tog‘i. Ammo ko‘ngli qone’lik javhari bilan to‘liq darveshning ham hayoti burda nonsiz o‘tmaydi. U ham hech bo‘lmaganda ibodat quvvatini beradigan miqdordagi taomdan bahramand bo‘lishi kerak. Shuning uchun ham, Alisher Navoiy yozadilar: “Qanoat ibodat quvvati hosil bo‘lg‘oncha **qut** bila o‘tkarmakdur va ondin ortuq barchaning havasin xayoldin ketarmakdur” [3, 74]. Butun fikr-u zikri tanni emas, ruhni boyitishga qaratilgan O‘zg‘urmish bir gadoy tilidan shunday deydi: “Kepak, tariq ichra men topdim toqat” [9,99]. Zohid va gadoy qanoat qiladigan, kepak va tariqning ham bunyodkori, manbayi – dehqon.

Yusuf Xos Hojib, Alisher Navoiy kabi ulkan so‘z san’atkorlari asarlarining badiiyatini ta’minlashda vazn va qofiya qanchalik muhim o‘rin tutsa, she’riy san’atlar ham shunchalik muhim ahamiyat kasb etadi. Ko‘p asrlik mumtoz adabiyotimizda keng istifoda etib kelingan shunday badiiy tasviriy vositalardan biri tajnis san’atidir. Adabiy termin sifatida XIV asr oxiri va XV asr boshlarida ishlatila boshlagan, “turk shuarosi xossasi” (Alisher Navoiy) bo‘lgan janr – tuyuq qofiyalari tajnis san’atida bitiladi. She’r baytida ma’no oqimi har xil, lekin shakli bir xil yoki bir- biriga yaqin ikki so‘zni keltirib, shu kalimalar orqali g‘oya, lavha, obrazni ta’sirchan ifodalash, tajnis san’atini yuzaga keltiradi. Mumtoz shoir va adiblarimiz asarlarida faqat tuyuq yaratishdagina emas, klassik she’riyatning rang-barang janrlarida tajnis san’atidan yuksak san’atkorlik bilan foydalanilgan. Ayni ta’kid mumtoz nasr namunalariga ham daxldordir. Yuqorida “Qutadg‘u bilig”dan keltirilgan iqtibosning uchinchi baytida “Turkiy Shohnoma” muallifi “Jon” so‘zi vositasida tajnis san’atini hosil qilib masnaviy satrlariga harorat bag‘ishlagan. Alisher Navoiy pandnomasidan ko‘chirilgan nasriy iqtibosda “quvvati” va “quti” kalimalarining shakldoshligi ulug‘ mutafakkir jumlasining joziba va jalb qilish quvvatini ko‘taradi. Alisher Navoiy nasridan keltirilgan iqtibosdagi “quvvati” va “quti” so‘zlarining arab imlosidagi harflar soni, turi, tartibi, va yozilishi bir xil bo‘lib, faqat “vov” ning “harakat-u tashdid” ini o‘zgartirib o‘qish bilan so‘zning talaffuzida va bizning yozuvimizdagi ifodasida farq paydo bo‘ladi.“Quvvati” va “quti” tajnis hosil qiluvchi kalimalari harfi raviyda mos bo‘lib, shu so‘zlar orqali ikki san’at - tajnisi muxtalif va saj’-i mutarraf amal qilgan. Ulug‘ mutafakkir chuqur axloqiy-irfoniy ma’noni yuksak badiiy shaklda o‘quvchiga yetkazgan. Atoulloh Husayniy “Badoyiu-s-sanoyi” da saj’ning ham nazmga, ham nasrga xos ekanligini qayd qiladi

[1,37-41). Saj’i mutarrafda jumla tarkibidagi kalimalar vaznda emas, faqat raviyda uyg‘un bo‘ladi. [3, 3-19].

Yuqorida ta’kid etilganidek, “Qutadg‘u bilig”-didaktik doston. Didaktik mazmundagi asarlarda ijobiy qahramonlar ta’rif va tavsifidan ham, salbiy timsollar tanqididan ham, lirik chekinishlar hamda qissadan hissa chiqarishlardan ham, asar tarkibida ibratli hikoyalar keltirishidan ham, yaxshi xulqli odamlarning axloq mezonlari va hukmdorlarning (podshoh, vazir, bek, hokim va v.h.) o‘z xalqi bilan munosabati qoidalari ustida bahs yuritishdan ham axloqiy tasavvurlar, fazilat va nuqsonlar talqinidan ham maqsad bitta: odam zotini yaxshilikka o‘rgatish, yomonlikdan qaytarishdan iboratdir. Didaktik ruh “Qutadg‘u bilig” ning “Tarig‘chilar birla qatilmaqni o‘gretur” sarlavhasi ostidagi faslda ham yetakchilik qiladi. “Turkiy Shohnoma” muallifining talqinicha, peshana teri evaziga halol luqma topish, mehnat-u mashaqqatlar hisobiga ibratli va halol turmush kechirish, inson hayotiga mazmun bag‘ishlaydi. Harom luqma inson ruhiyatini yemiradi. Insonni o‘z nafsining quliga aylantirib, har qanday razolatdan qaytmaslikka undaydi. Halol rizq, halol luqma esa ruhiyatning pokiza bo‘lishiga keskin ta’sir ko‘rsatadi. Inson zotini ezgu so‘z, ezgu raftorga chorlab, “ming ezgu etagin tut” (Yusuf Xos Hojib) ishga da’vat qiladi. Dehqon bilan yaqinlashgan, birga bo‘lgan, aralashgan kishining halqumi toza, yutgan luqmasi halol bo‘ladi:

Bular bilan birga bo‘laber, qardosh,
Toza bo‘lar bo‘g‘zing, halol kelar osh [8,131].

“Qutadg‘u bilig”ning asosiy qahramonlaridan biri O‘zg‘urmish nomi “hushyor qiluvchi”, “sergaklantiruvchi” ma’nolariga ega.“Turkiy Shohnoma” da odamlarni hushyorlikka, ogohlikka da’vat qilish g‘oyasi muhim o‘rin tutadi. Yusuf shoir talqinicha, eng avvalo, mamlakatning birinchi rahbari (“Qutadg‘u bilig” da elig) hushyor, ogoh bo‘lmog‘i xalqini ham shu yo‘lga(hushyorlikka) boshlashi zarur. Shoh agar shunday qilsa, davlati kunda ortadi, o‘zi ham yuksalib boradi, mamlakat rivojlanadi, davlat taraqqiy qiladi, shohning el nazdi-nazaridagi nufuzi ko‘tariladi, u el qalbida mangu qoladi. Rahbarlikning birinchi talabi-ziyraklikdir. Er yigitga esa har yerda, har daqiqada ogohlik zarur. Yusuf Xos Hojib o‘z asarining “Tarig‘chilar birla qatilmaqni o‘gretur” faslida O‘zg‘urmishni hamda O‘zg‘urmish kabi boshqa orif insonlarni “ogohlik sardorlari”, “er kishilar”, “valiylar”, “murshid-u komil”, “inson-u komil”, “hushyor zotlar” ma’nolarida talqin qiladi:

Eshitgil, **hushyorlar sardori**, ne der,
Har turli ishlarda hushyor bo‘lgan **er**.

To‘g‘ri yo‘l, poklikka izlagan najot,
Bo‘g‘zing pok tutgil ey, xulqi toza zot.

Haqdin **hushyor zotlar** shunday bilurlar,
Halqum, tan ozig‘in halol qilurlar **[9, 361].**

“Qutadg‘u bilig” ning bunday o‘rinlarida pand aytuvchi Yusuf shoir va uning nasihatlarini tinglovchi kitobxon o‘quvchi ko‘zi oldida namoyon bo‘lib turadi. Shoirning o‘z o‘quvchisiga “Hushyorlar sardori” (“murshid-u komil”), “Erlar” (eranlar avliyoullohlar), “Hushyor zotlar”(komil insonlar) nomidan, tilidan murojaat qilishi, badiiy g‘oyaning salmog‘ini oshirib, ijodkor pandlarining o‘quvchiga ta’sirchan tarzda yetib borishini ta’minlagan.“Turkiy Shohnoma” ning “Dehqonalar zikri” ga bag‘ishlangan qismi mag‘zidagi o‘n bayt “Ro‘shnoinoma”, “Saodatnoma” (Nosir Xusrav), “Qobusnoma” (Kaykovus), “Pandnoma” (Farididdin Attor) kabi asarlarda (pandnomalarda) kuzatilgani kabi ikkinchi shaxsga murojaat shaklida bitilgan. Muallif dehqon va dehqonchilikni tavsif qilar ekan, lirik chekinish qilib, axloqiy tasavvurlar - fazilat va nuqsonlar talqiniga o‘quvchi e’tiborini tortadi. O‘z o‘quvchisini ma’naviy olamiga ta’sir qilish, unga yo‘l -yo‘riqlar ko‘rsatsatishni maqsad qilib qo‘yadi. Didaktik dostonlarning nasriy va she’riy pandnomalarning ayrim an’analari bilan bog‘liq bo‘lgan qirralari, o‘xshash va farqli jihatlari hozirga qadar o‘rganilmagan. Bu masala sharqshunoslar, adabiyotshunoslar oldida turgan dolzarb vazifalardan biridir.

“Qutadg‘u bilig” dan keltirilgan iqtibosning ikkinchi bayti Qur’oni karim “Hud” surasining 112- oyati karimasiga ishora qilish bilan boshlangan oyati karimaning matni quyidagicha: “Fastaqim kamo umirta va man toba maaka valo tatg‘av innahu bimo ta’ma luna basirun”. Oyati karima Alouddin Mansur tomonidan hozirgi o‘zbek tilimizga quyidagicha tarjima qilingan va izohlangan: “Bas, (ey Muhammad), siz va siz bilan birga tavba qilgan zotlar o‘zingizga buyurilgani yanglig‘ To‘g‘ri Yo‘lda bo‘lingiz! Tug‘yonga tushmangiz! Albatta, U zot qilayotgan amallaringizni ko‘rib turguvchidir”.

Izoh.Rivoyat qilinishicha, Qur’on oyatlaridan biron oyat Muhammad alayhissalomga yuqoridagi oyatchalik qiyin-og‘ir ko‘rinmagan ekan. Zero, u kishi payg‘ambar bo‘lganlari uchun ham To‘g‘ri Yo‘lda Olloh buyurganicha yashab o‘tish naqadar qiyin ekanligini hammadan yaxshiroq anglar edilar. Shuning uchun ham u zot mana shu oyat nozil bo‘lganida “Shayyabatniy Hud, ya’ni Hud meni qaritdi”, degan ekanlar.[5,151]

Yusuf Xos Hojibning “Hushyorlar sardori” hamda barcha ishlarda sergak, ogoh bo‘lgan “Er” hayoti va hikmatlari mohiyatidan kelib chiqib, aytgan so‘zlaridan ayon bo‘ladiki, To‘g‘ri Yo‘lda turishning birinchi sharti bo‘g‘izni pok tutish va ezgu xulq sohibi bo‘lishdir. Najot istagan bu dunyo va oxirat saodatiga, rohatlariga yetishishni istagan kishi, eng avvalo, dehqonga yaqinlashar ekan, uning murodi, xulqini toza, tan ozig‘ini halol qilish bo‘lishi zarur.

To‘g‘ri Yo‘lda turish insondan halollik, qat’iyat, chidam va irodani talab qiladi. Shu xususiyatlarni o‘z ruhiga singdirib, hayot dasturiga aylantirganlargina bu Yo‘lda maqsadiga yetadi. Yusuf shoir “Dehqonlar bilan munosabat zikrida”gi faslda To‘g‘ri Yo‘lga kirishning ikkinchi shartini quyidagicha badiiy aks ettirgan:

Chig‘ay bolmayin bay bolayin tese,

Zina qilma hargez qatig‘lan osa [7,658]

O‘z zamonasining komil e’tiqodli musulmoni Yusuf Xos Hojib fikrlarining manbayi Qur’oni karim “Al-Isro” surasining 32- oyati karimasidir. Ulug‘ allomaning din-u islomga

bo‘lgan sadoqati “Qutadg‘u bilig” ning har bir sahifasida yorqin nazarga tashlanib turadi. (oyat arab tilida)

Oyati karima ilohiyotshunos olim Alouddin Mansur tomonidan quyidagicha tarjima qilingan: “Zinoga yaqinlashmanglar! Chunki (bu) buzuqlikdir-eng yomon yo‘ldir” [5,192].

Oyati karimada mo‘min-musulmon kishi zinoning yaqiniga yo‘lamasligi buyurilgan.Yusuf shoir o‘z o‘quvchisini fohisha ish, eng yomon yo‘l bo‘lgan zinoning nihoyatda xatarli ekanini tushunib yetishga, Alloh hukmiga qattiq amal qilishga da’vat qiladi. Zino oilani ham, nasl-u nasab pokligini ham, jamiyatni ham, davlatni ham barbod qiladiki, “Qutadg‘u bilig” dan ko‘chirilgan baytning ikkinchi misrasida juda qat’iy tarzda muallif bu xususida fikr yuritib ko‘rishni o‘quvchidan talab qilgan.

Insonga va jamiyatga katta zarar keltiradigan bora-bora uni halok qiladigan yana bir ofat borki, “Turkiy Shohnoma” muallifi undan saqlanishni, “Dehqonlar zikriga” bag‘ishlangan faslda to‘g‘ri yo‘lda turishning navbatdagi uchinchi sharti sifatida badiiy talqin qiladi:

Tilaging qadr, e’zoz bo‘lsa mukammal,

Fasodga bog‘lanma, ey xulqi go‘zal [9,362].

Qayerda fisq-u fasod keng tarqalsa, o‘sha yerda halokat yuz beradi. Poklik pardasiga o‘ralgan fosiqlik hammadan ham xatarliroq: “Fisq bari tariyqda yomondur va porsolik libosida yomonroq” [2,110].

Ildizi chuqur, sog‘lom millat, xalq eng qudratli, mustahkam millat, xalq va davlat bo‘ladi. Ammo fisq-u fasod har qanday chuqur ildizni ham bora-bora chiritadi. Har qanday ezgu, pokiza izlarni ham asta-sekin ko‘mib, chang-to‘zon ostida qoldiradi. “Qutadg‘u bilig” dan o‘qiymiz:

Fasod- chiritguvchi chuqur ildizing,

Fasod-ul buzguvchi ezgu pok izing [9,362].

XULOSA. Rizq-ro‘z dehqonning sermashaqqat mehnati evaziga yuzaga keladi. Jamiyatning har bir a’zosi halol mehnat bilan yaratilgan har bir luqmani fasoddan asrashi, fisq-fujur yaxshi hasanotlarni o‘t-o‘tinni yegandek yeyishini, o‘chgan o‘tni qaytadan yoqib, alangalata olishini unutmasligi darkor.

“Qutadg‘u bilig” da dehqon va dehqonchilik mohiyati teran yoritilgan. Dehqonning kishilik jamiyatida tutgan o‘rni va ahamiyati hayotiy bo‘yoqlarda chizilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1.Husayniy, Atoulloh.Badoyi’us-sanoyi’.- Toshkent:G‘.G‘afur nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti,1981. – b 400

2.Navoiy A.Mukammal asarlar to‘plami. 20 jildlik, 14-jild. – Toshkent:Fan,1998. – b 304

3.Navoiy A. Mahbubul qulub.Svodniy tekst.- Moskva-Leningrad:FA,1948. – ctr. 174 ctr.

4.Qur’oni karim.Asliyat.-Madina:HodimulHaramayn ash-Sharafayn bosmaxonasi,1405/hijriy/. – b 604

5. Qur’oni karim.O‘zbekcha izohli tarjima.- Toshkent:G‘.G‘afur nomidagi nashriyot matbaa birlashmasi,1992. – b 496

6.Sarimsoqov B.O‘zbek adabiyotida saj’. - Toshkent:Fan, 1978. – b 151
7.Yusuf Xos Hojib.Qutadg‘u bilig.- Toshkent:Fan,1971. – b 964
8. Yusuf Xos Hojib.Qutadg‘u bilig.- Toshkent:Cho‘lpon, 2017. – b 200
9.Yusuf Xos Hojib.Qutadg‘u bilig.- Toshkent: Akademnashr, 2015. – b 544
10.Yusuf Xos Hojib.Qutadg‘u bilig.- Toshkent:Yangi asr avlodi, 2020. – b 540

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 1-son)

FILOLOGIYA

PHILOLOGY

UDK: 81-115
ORCID: 0000-0001-6361-6150

ITALYAN VA O‘ZBEK TILLARIDA EMOTSIONAL FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING TARIXI VA RIVOJI

Rustamova Malika Muradullayevna,
Samarqand Davlat Chet tillar Instituti, tayanch doktorantura talabasi
E-mail: ciaosamarcanda@gmail.com Telefon: +998 90 603 20 38

Annotatsiya: Ushbu maqolada italyan va o‘zbek tillarida emotsional frazeologik birliklarning tarixiy rivojini o‘rganiladi. Maqolada, avvalo, emotsional frazeologik birliklar tushunchasi haqida so‘z borib, ularning til va madaniyatdagi o‘rni tahlil etiladi. Italyan va o‘zbek tillarining frazeologik tizimlarida emotsional birliklarning shakllanishi, rivojlanishi va o‘zgarishiga tarixiy, madaniy va ijtimoiy omillar qanday ta’sir qilgani tahlil qilinadi. Shuningdek, italyan va o‘zbek tillaridagi emotsional frazeologik birliklarning o‘xshashliklari va farqlari tadqiq etilib ikki til o‘rtasidagi madaniy aloqalarni yanada chuqurroq tushunishga yo‘l ochadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi, emotsional frazeologik birliklarning rivojlanishini madaniyat va tilshunoslik nuqtai nazaridan o‘rganishdir.

Kalit so ‘zlar: emotsional semantika, frazeologik birliklar, madaniyatshunoslik, idiomatik ifodalar, lingvistik tahlil, tarixiy rivojlanish, qiyosiy tahlil, hissiy ifoda.

ИСТОРИЯ И РАЗВИТИЕ ЭМОЦИОНАЛЬНЫХ ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ В ИТАЛЬЯНСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

Аннотация: В данной статье рассматривается историческое развитие эмоциональных фразеологических единиц в итальянском и узбекском языках. В начале излагается понятие эмоциональных фразеологических единиц и анализируется их роль в языке и культуре. Исследование выявляет, как исторические, культурные и социальные факторы повлияли на формирование, развитие и трансформацию эмоциональных единиц в фразеологических системах итальянского и узбекского языков. Также изучаются сходства и различия эмоциональных фразеологических единиц в этих двух языках, что позволяет глубже понять культурные связи между ними. Основная цель исследования — изучение развития эмоциональных фразеологических единиц с точки зрения культуры и лингвистики.

Ключевые слова: эмоциональная семантика, фразеологические единицы, культурология, идиоматические выражения, лингвистический анализ, историческое развитие, сравнительный анализ, эмоциональное выражение.

HISTORY AND DEVELOPMENT OF EMOTIONAL PHRASEOLOGICAL UNITS IN ITALIAN AND UZBEK LANGUAGES

Annotation: This article examines the historical development of emotional phraseological units in the Italian and Uzbek languages. It begins by discussing the concept of emotional phraseological units and analyzing their role in language and culture. The study explores how historical, cultural, and social factors have influenced the formation, development, and transformation of emotional units in the phraseological systems of the Italian and Uzbek languages. Furthermore, the article investigates the similarities and differences between emotional phraseological units in these two languages, providing deeper insights into cultural connections between them. The primary goal of this research is to study the development of emotional phraseological units from the perspective of culture and linguistics.

Keywords: emotional semantics, phraseological units, cultural studies, idiomatic expressions, linguistic analysis, historical development, comparative analysis, emotional expression.

KIRISH.

Emotsional frazeologik birliklar tillarda inson ruhiy holatini, hissiyotlarini va ichki kechinmalarini ifodalashning ajralmas qismi hisoblanadi. Frazeologizm — bu tilning mustahkam bo‘linmasi bo‘lib, u bir necha so‘zdan tashkil topib, o‘ziga xos ma’no hosil qiladi. Emotsional frazeologik birliklar, o‘z navbatida, kishilarning ruhiy holati, hissiy tajribalari va ichki dunyosini ifodalovchi frazeologik elementlardir. Ushbu birliklar, faqatgina til o‘zligini saqlab qolmasdan, balki milliy madaniyat, tarix, urf-odatlar va insoniyatning umumiy kechinmalarini aks ettiradi. Bu maqolada italyan va o‘zbek tillarida emotsional frazeologik birliklarning tarixi va rivojlanishi o‘rganiladi.

Emotsional frazeologik birliklarning rivojlanishi va shakllanishi ko‘plab omillarga bog‘liq. Birinchi navbatda, ular til va madaniyatning o‘zaro aloqasida muhim ro‘l o‘ynaydi. Har bir xalqning tarixiy rivojlanishi, urf-odatlari, adabiyoti va kundalik hayoti tilda aks etadi. Italyan va o‘zbek tillari, o‘zining boy tarixiy va madaniy merosiga ega bo‘lgan tillar sifatida, o‘ziga xos emotsional frazeologik birliklarni shakllantirgan. Italyan tili, asosan, Yevropa madaniyati va Renessans davri ta’sirida rivojlanib, katta adabiy merosga ega. O‘zbek tili esa, Sharq va Markaziy Osiyo madaniyatlarining sintezi sifatida, milliy va ijtimoiy aloqalar orqali o‘z emotsional frazeologiyasini rivojlantirgan.

O‘zbek va italyan tillaridagi emotsional frazeologik birliklarni solishtirish, ikki xalqning til va madaniyati o‘rtasidagi aloqalarni chuqurroq tushunishga yordam beradi. Har ikkala tilda ham, emotsional frazeologik birliklar faqatgina tilning ifoda vositasi sifatida ishlatilmaydi, balki

ular o‘sha tildagi xalqning hissiy holatlari, e’tiqodlari va qadriyatlari haqida ma’lumot beradi. Masalan, italyan tilida “avere il cuore in mano” (yuragi qo‘lida) degan frazeologizm odamning samimiyligini, ochiqligini anglatadi. O‘zbek tilida esa “bag‘ri keng” yoki “ochiq ko‘ngil” iboralari insonning mehribonligini, samimiyligini ifodalaydi. Ushbu frazeologik birliklarning shakllanishi, ularning kelib chiqishi va ishlatilishi har ikki tilda turlicha bo‘lishi mumkin, ammo ularning ma’nosi o‘xshash bo‘lishi mumkin.

Emotsional frazeologik birliklarning rivojlanishi tildagi o‘zgarishlarni, yangi til o‘zlashmalarini va ijtimoiy-madaniy kontekstlarni hisobga olgan holda amalga oshadi. Italyan tilidagi emotsional frazeologik birliklar, ko‘pincha Yevropa madaniyatining klassik an’analari bilan bog‘liq bo‘lsa, o‘zbek tilidagi birliklar, asosan, turkiy xalqning qadimiy an’analari va islom dinining ta’siri ostida rivojlanib kelgan. Har ikkala tildagi emotsional frazeologik birliklarning o‘xshashligi, shuningdek, farqlari, tilshunoslik va madaniyatshunoslik tadqiqotlari uchun katta qiziqish uyg‘otadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR.

Emotsional frazeologik birliklar tilshunoslikda muhim tadqiqot mavzusidir, chunki ular tilning psixologik, madaniy va ijtimoiy jihatlaridan xabardor bo‘lishni ta’minlaydi. Ularning tarixiy va madaniy rivojlanishini o‘rganish, tilshunoslarga til va madaniyat o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni aniqlash imkonini beradi.

Xalqaro tilshunoslikda frazeologik birliklarning ta’rifi va ularning tilda tutgan o‘rni haqidagi dastlabki tadqiqotlar 19-asrga borib taqaladi. Eng muhim ishlar orasida *Lyons* tomonidan yozilgan *Semantics* kitobi mavjud. U frazeologizm va emotsional frazeologik birliklar orasidagi farqni tahlil qiladi va bu birliklarning lingvistik va psixologik jihatlarini o‘rganadi. Shuningdek, *Aitchison* o‘zining *Words in the Mind* kitobida frazeologik birliklarning psixolingvistik jihatlari haqida muhim tahlillarni keltiradi.[1] Bu asarlarda, frazeologizmning lingvistik tizimdagi o‘rni va uning psixologik asoslari, jumladan, emotsional frazeologik birliklar tahlil qilinadi.

O‘zbek tilidagi emotsional frazeologik birliklar haqidagi dastlabki tadqiqotlar 20-asrning o‘rtalariga to‘g‘ri keladi. *Obruyeva* o‘zining *Frazeologiyaning dolzarblik masalalari* qo‘llanmasida frazeologik birliklarning tilda qanday shakllanishi va rivojlanishini batafsil tahlil qiladi. Obruyevaning fikriga ko‘ra, o‘zbek tilidagi emotsional frazeologik birliklar milliy madaniyat va urf-odatlarning aksidir, shuning uchun ular tildagi ijtimoiy kontekst bilan chambarchas bog‘liq.[6]

Italyan tilidagi emotsional frazeologik birliklarni o‘rganish bo‘yicha yetakchi ishlar *Picchi* (2001) tomonidan yozilgan *Linguistica e cultura italiana* asarida keltirilgan. Picchi italyan tilidagi frazeologizm va emotsional birliklarni, ularning madaniy ildizlarini tahlil qiladi va bularning tilga va madaniyatga ta’sirini ko‘rsatadi.[7] Italyan tilidagi frazeologizmga oid boshqa tadqiqotlarda esa, ularning ijtimoiy va psixologik jihatlari, ayniqsa, emotsional frazeologik birliklarning o‘rni ko‘rsatiladi.

Bu tadqiqotlarning hammasi, frazeologik birliklarning tillar o‘rtasidagi o‘xshashliklar va farqlarni aniqlashda, shuningdek, ularning madaniyatlar bilan bog‘liqligini tushunishda asosiy bilimlarni taqdim etadi. Hozirgi tadqiqot esa, o‘zbek va italyan tillaridagi emotsional frazeologik birliklarning tarixi va rivojlanishini tahlil qilib, ularning til va madaniyatdagi o‘rni haqida yangi nuqtai nazarlarni taklif etadi.

Ushbu tadqiqotda italyan va o‘zbek tillaridagi emotsional frazeologik birliklarning tarixi, rivojlanishi va madaniy ahamiyatini o‘rganish uchun qiyosiy va tahliliy yondashuv qo‘llanildi. Tadqiqotning asosiy maqsadi har ikki tildagi emotsional frazeologik birliklarning o‘xshashliklari va farqlarini aniqlash hamda ularning madaniy va tarixiy asoslarini tahlil qilishdir. Avvalo, lingvistik taqqoslash usuli orqali italyan va o‘zbek tillaridagi ushbu til birliklarning tilshunoslik va semantik xususiyatlari o‘rganildi. Ushbu yondashuv yordamida birliklarning har ikkala tilda qanday ma‘no yuklashi va qanday til vositalari orqali ifodalanishi tahlil qilindi. Qolaversa, lingvistik-madaniy yondashuv birliklarning madaniy kontekstini chuqurroq o‘rganishga imkon berdi. Bu usul orqali frazeologik birliklar xalqning psixologik holati va hissiyotlarini qanday aks ettirishi, ularning madaniy ildizlari va qadriyatlar bilan bog‘liqligi aniqlandi. Tarixiy tahlil esa, birliklarning shakllanishida tarixiy voqealar, adabiy an’analar va madaniy ta’sirlar qanday ro‘l o‘ynaganini ko‘rsatdi. Shuningdek, korpus tahlili qo‘llanilib, har ikkala tildagi adabiyotlar, suhbatlar va yozma manbalardan eng ko‘p ishlatiladigan birliklar aniqlandi. Bu esa, ularning amaliy qo‘llanilishi va ularning tildagi o‘rni haqida batafsil tasavvur berdi. Ushbu metodologik yondashuvlarning uyg‘unlashuvi, til va madaniyat o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni hamda emotsional ifodaning frazeologik birliklar orqali qanday aks ettirilishini chuqur tahlil qilish imkonini yaratdi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA.

Italyan va o‘zbek tillaridagi emotsional frazeologik birliklar tahlili madaniy qadriyatlar, tarixiy kontekstlar va hissiy holatlarni ifodalashda tilning naqadar boy ekanligini ko‘rsatdi. Har ikki til o‘ziga xos usullar bilan ushbu birliklardan foydalanib, o‘z xalqining ichki dunyosi va madaniy xususiyatlarini aks ettiradi.

Semantik tahlil shuni ko‘rsatadiki, har ikki til metaforalar, o‘xshatishlar va idiomatik ifodalardan keng foydalanadi. Ammo bu iboralarning o‘ziga xosligi ularning madaniy konteksti bilan chambarchas bog‘liq. Misol uchun, o‘zbek tilida ko‘p hollarda qishloq hayoti va tabiatga oid iboralar keng tarqalgan, masalan, “ko‘nglida kiri yo‘q” (to‘g‘ridan-to‘g‘ri tarjimada: “oq ko‘ngilli”), bu halollik va samimiylikni anglatadi. Bu o‘zbek madaniyatining agrar hayot tarzidan kelib chiqqan. Italyan tilidagi iboralar ko‘pincha tarixiy va badiiy an’analar bilan bog‘liq, masalan, “avere il cuore d ‘oro” (to‘g‘ridan-to‘g‘ri tarjimada: “oltin yurak”), bu ham xuddi halollikni anglatadi, lekin italyan tilida bu ibora ko‘pincha boy madaniy merosga asoslangan.[7]

Tadqiqot davomida adabiyotlar, maqollar va kundalik suhbatlardan olingan ma’lumotlarga asoslangan korpus tahlili o‘tkazildi.

Til	IBORA	To‘g‘ridan-to‘g‘ri tarjimasi	Ma’nosi

O‘zbek	ko‘ngli ochiq	ochiq ko‘ngilli	saxiy va samimiy
O‘zbek	bag‘ri tosh	tosh yurak	berahm
Italyan	avere la pelle d‘oca	g‘oz terisini olish	hayajon yoki qo‘rqish
Italyan	essere al settimo cielo	ettinchi osmonda bo‘lish	juda baxtli bo‘lish

Yuqoridagi jadvaldan ko‘rinib turibdiki, har ikki til hissiyotlarni ifodalash uchun metaforik tasvirlardan foydalansa-da, ularni shakllantirishda madaniy farqlar yaqqol seziladi.

Iboralarning tarixiy rivojlanishi tilning umumiy o‘zgarish jarayonlarini aks ettiradi. O‘zbek tilida ko‘plab iboralar xalq og‘zaki ijodiyotidan va maqollardan olingan. Masalan, “ko‘ngli toza” (toza ko‘ngilli) kabi iboralar axloqiy o‘git va hayotiy saboqlarga asoslangan. Italyan tilida esa Uyg‘onish davri (Renessans) katta ta’sir ko‘rsatgan bo‘lib, san’at, falsafa va adabiyot tildagi frazeologik birliklarni shakllantirishda asosiy o‘rin tutgan.

Har ikkala tildagi iboralar qanchadir miqdorda milliy o‘zlikni ifodalaydi. Masalan, o‘zbek tilidagi tabiatga oid metaforalar xalqning tabiat bilan uyg‘unlikda yashash tamoyillarini ko‘rsatsa, italyan tilida tarixiy va badiiy obrazlarning ustunligi ushbu xalqning tarix va san’atga qanchalik katta ahamiyat berishini aks ettiradi.[1] Iboralar orqali xalqning psixologik xususiyatlarini ham kuzatish mumkin. Masalan, o‘zbek tilidagi “ko‘ngil qo‘ygan” (ko‘ngil bergan) iborasi insonning mehr-muhabbatini, maqsadga erishish istagini ifodalaydi. Italyan tilida esa “portare il cuore in ma’no” (yuragini qo‘liga olib yurmoq) kabi iboralar ochiqlik va hissiy ifodaviylikni aks ettiradi. Bundan ko‘rinadiki ikki xalq madaniyatining kollektivizm (o‘zbek) va individualizm (italyan) tamoyillariga asoslanganligini ko‘rsatadi.[2]

Emotsional frazeologik birliklarni tarjima qilishda madaniy o‘ziga xoslik sababli qiyinchiliklar yuzaga keladi. To‘g‘ridan-to‘g‘ri tarjima ko‘pincha asl ifodaning butun hissiy va madaniy ma’nosini to‘liq aks ettira olmasligi mumkin. Misol uchun, o‘zbekcha “ko‘zi to‘q” iborasi o‘zbekcha madaniyatda ham ruhiy, ham jismoniy qoniqishni anglatadi. Bu italyan tilida oddiy so‘z bilan tushuntirilmasa, to‘g‘ri ifodalanmaydi. Italyancha “fare una bella figura” iborasi esa, “chiroyli taassurot qoldirish” degan ma’noni anglatadi va jamiyatda o‘zini ko‘rsatish qanchalik muhimligini bildiradi. Buni o‘zbek tilida oddiy tarjima qilish qiyin.

Iboralar ijtimoiy muloqotda hissiy aloqani o‘rnatish va madaniy o‘zlikni ifodalash vositasi sifatida xizmat qilishi mumkin. Masalan, o‘zbek tilida “yurak bag‘ri ezildi” iborasi chuqur hamdardlikni bildiradi. Italyan tilida esa “mi hai spezzato il cuore” (yuragimni sindirding) iborasi xuddi shunday ma’noni bildiradi. Iboralarning genderga oid xususiyatlari ham kuzatiladi. Masalan, o‘zbek madaniyatida ayollar ko‘proq g‘amxo‘rlik va mehrni ifodalaydigan iboralardan (“ko‘ngil qo‘ygan”) foydalanadi. Erkaklar esa kuch va chidamlilikni aks ettiradigan iboralarni (“sher yurak”) afzal ko‘radilar. Italyan tilida ham ayollar “cuore dolce” (shirin yurak) kabi ifodalarni, erkaklar esa “cuore duro” (qattiq yurak) kabi iboralarni ko‘proq ishlatadi.[3]

Tadqiqot natijalari iboralarning tilshunoslikdagi boy fenomen ekanligini ko‘rsatadi. Ushbu iboralarni o‘rganish orqali tilshunoslar va madaniyatshunoslar xalq qadriyatlari, hissiyotlari va dunyoqarashlari haqida chuqurroq tushunchaga ega bo‘lishlari mumkin. Shuningdek, ushbu iboralar til, tarix va milliy o‘zlikni birlashtiruvchi ko‘prik vazifasini bajaradi. Italyan va o‘zbek

tillaridagi emotsional frazeologik birliklar nafaqat hissiy ifoda vositasi, balki madaniy va tarixiy o‘zlikni aks ettiruvchi vosita sifatida ham muhim ahamiyatga ega. Har ikkala til bir xil lingvistik mexanizmlardan foydalanar ekan, ularning madaniy va tarixiy konteksti ularni shakllantirish va qabul qilishda katta ro‘l o‘ynaydi. Kelgusida ushbu tadqiqotni boshqa tillarni ham qamrab olgan holda kengaytirish va globalizatsiyaning tilning ushbu birliklarga ta’sirini o‘rganish mumkin.

XULOSA.

Italyan va o‘zbek tillaridagi emotsional frazeologik birliklarni o‘rganish orqali til va madaniyatning o‘zaro bog‘liqligi, ularning xalq hissiyotlari, qadriyatlari va dunyoqarashlarini aks ettirishi yana bir bor tasdiqlandi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, har ikki til hissiy ma’nolarni ifodalash uchun boy va xilma-xil frazeologik tizimga ega bo‘lib, ular ko‘pincha xalqning tarixiy, ijtimoiy va madaniy rivojlanishiga asoslangan. Ushbu frazeologik birliklarning tahlili shuni ko‘rsatadiki, ular xalqning ijtimoiy munosabatlari va hissiy holatlarini ifodalash bilan birga, lingvistik madaniyatning bir qismi sifatida milliy o‘zlikni aks ettiradi. Bundan tashqari, har ikkala tilda iboralar shaxslararo muloqotda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi, ular insonlar o‘rtasida hissiy aloqalarni o‘rnatishga va mustahkamlashga yordam beradi.

Tadqiqot jarayonida iboralarni tarjima qilishda yuzaga keladigan qiyinchiliklar ham muhokama qilindi. Buning sababi, har bir tilning o‘ziga xos madaniy va kontekstual xususiyatlari bo‘lib, ular to‘g‘ridan-to‘g‘ri tarjima qilish jarayonida yo‘qolib ketishi mumkin. Shu sababli tarjimonlar va lingvistik tadqiqotchilar ushbu birliklarning ma’nosini va hissiy yukini to‘g‘ri talqin qilish uchun chuqur madaniy bilimga ega bo‘lishi lozim. Kelgusida ushbu mavzu bo‘yicha boshqa tillar va madaniyatlar bilan qiyosiy tahlil o‘tkazish, shuningdek, globalizatsiya jarayonining frazeologik birliklarga ta’sirini o‘rganish ham dolzarb masalalardan biridir.

REFERENCES.

1. Aitchison, J. Words in the Mind: An Introduction to the Mental Lexicon. – Oxford: Blackwell Publishing, 2003. – 278 bet.

2. Hofstede, G. Culture‘s Consequences: Comparing Values, Behaviors, Institutions, and Organizations Across Nations. – Los Angeles: Sage Publications, 2001. – 616 bet.

3. Lyons, J. Semantics. – Cambridge: Cambridge University Press, 1977. – 897 bet.

4. Norov, I., Matmuratova, M. O‘zbek frazeologiyasining o‘rganilish tarixi. – IJRS, 2024. – Jild 2, 11-18 bet.

5. Nurmuhammedov, Y. Frazeologik birliklarning lingvomadaniy xususiyatlari. – Samarqand: SamDU, 2021. – 136 bet.

6. Obruyeva, G. X. Frazeologiyaning dolzarb masalalari. – Samarqand: SamDCHTI, 2023. – bet.

7. Picchi, G. Linguistica e cultura italiana. – Milano: Mondadori, 2001. – 312 bet.

8. Rahimova, M., Muhammadqodirova, F. O‘zbek tilida milliy xarakter bilan bog‘liq iboralarning lingvokulturologik tadqiqi. – Society and Innovations, 2022. – Jild 3, №2. – 412-415 bet. – DOI: 10.47689/2181-1415-vol3-iss2-pp412-415.

9. Rahmatullayev, Sh., Mahmudov, N., Xolmanova, Z., O‘razova, I., Rixsiyeva, K. O‘zbek tili frazeologik lug‘ati. – Toshkent: G‘ofur G‘ulom, 2022. – 636 bet.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 1-son)

FILOLOGIYA

PHILOLOGY

ORCID 0000-0003-2864-3078

J.R.R.TOLKIN ASARIDAGI “UMID” KONSEPTI HAQIDA

Bo‘riyeva Nargiza Qo‘chqarovna
Jizzax davlat pedagogika universiteti, dotsent, PhD
nargizaburiyeva1980@mail.ru +998901988011

Annotatsiya: Maqolada J.R.R. Tolkining asarlarida umidning o‘rni, uning katolik falsafasi bilan bog‘lanishi, hamda bu tushunchaning fantastik asarlarda qanday namoyon bo‘lishi tahlil qilingan. Tolkinning «The Silmarillion» asarida umid, Valarlarning yaratilishi va Eä olamidagi roli orqali tasvirlangan, bu orqali yaratilish jarayonidagi umidning ma'naviy va ontologik ahamiyati taqdim etiladi. Tolkining o‘rta asrlar falsafasi va katolik teologiyasidan ilhomlanganligi, uning asarlaridagi konseptual o‘zgarishlar va umid tushunchasining faollashuvi fantastik olamda ko‘rsatilgan voqealar va xarakterlar orqali chuqurroq o‘rganiladi. Bu yondashuv o‘rta asrlar tafakkuriga, xususan, Foma Akvinskiyning qarashlariga va uning umidni tushunishga bo‘lgan yondashuviga yangi bir tafakkur nuqtai nazaridan yondashishga imkon beradi. Tolkining badiiy tasavvurlari va falsafiy konseptlari orqali umidning rolini tushunish, nafaqat diniy, balki insoniy hissiyotlar va motivatsiyalar nuqtai nazaridan ham yanada boyib boradi. Bu kabi tahlillar orqali o‘rta asrlar tafakkurini zamonaviy fantastik asarlar bilan bog‘lash va umid tushunchasini yanada chuqurroq anglash mumkin

Kalit so‘zlar: teologik qarashlar, umid konsepti, nafs, ehtiros, voqelik, Edda, Eru Iluvatar, ma'naviy ishonch, adolat hissi.

Annotation: The article analyzes the role of hope in the works of J.R.R. Tolkien, its connection with his Catholic philosophy, and how this concept manifests in fantasy literature. In Tolkien’s *The Silmarillion*, hope is depicted through the creation of the Valar and their role in the world of Eä, emphasizing the spiritual and ontological significance of hope in the creation process. Tolkien’s inspiration from medieval philosophy and Catholic theology, along with the conceptual shifts in his works, allow for a deeper exploration of the activation of the concept of hope through the events and characters in his fantasy worlds. This approach offers a new perspective on medieval thought, particularly in relation to Thomas Aquinas' views on hope. Understanding the role of hope through Tolkien’s artistic visions and philosophical concepts enriches the comprehension of hope not only from a religious perspective but also from the viewpoint of human emotions and motivations. Such analyses allow for the connection between

medieval thought and contemporary fantasy works, offering a deeper understanding of the concept of hope.

Keywords: theological views, concept of hope, self, passion, reality, Edda, Eru Ilúvatar, spiritual faith, sense of justice.

Аннотация: В статье анализируется роль надежды в произведениях Дж.Р.Р. Толкина, её связь с католической философией автора и то, как эта концепция проявляется в фантастической литературе. В *Сильмариллионе* Толкиена надежда изображена через создание Валар и их роль в мире Эа, что подчеркивает духовное и онтологическое значение надежды в процессе сотворения. Вдохновление Толкиена средневековой философией и католической теологией, а также концептуальные изменения в его произведениях позволяют более глубоко исследовать активизацию концепта надежды через события и персонажей его фантастических миров. Этот подход открывает новый взгляд на средневековую мысль, особенно в контексте взглядов Фомы Аквинского на надежду. Понимание роли надежды через художественные образы и философские концепты Толкиена углубляет осознание этого понятия не только с религиозной, но и с точки зрения человеческих эмоций и мотиваций. Такие анализы позволяют связать средневековую мысль с современными фантастическими произведениями, предлагая более глубокое понимание концепта надежды.

Ключевые слова: теологические взгляды, концепт надежды, эго, страсть, реальность, Эдда, Эру Илуватар, духовная вера, чувство справедливости.

KIRISH

O‘rta asrlar tafakkurida umid tushunchasining o‘rni va roli haqida to‘g‘ri tushunishni rivojlantirish uchun biz Foma Akvinskiy shaxsiga murojaat qilamiz. Foma Akvinskiy va uning eng markaziy asari, ya'ni «Summa Theologica», aynan shu asarda Yevropa o‘rta asr madaniyati tomonidan hozirda mavjud bo‘lgan muhim falsafiy konseptsiyani aniqlashga intilgan konseptual apparatning eng tizimli, nozik va ta’sirchan taqdimotini topishimiz mumkin. [3, 43-57]

Ushbu maqolada fantastik asarlarda konseptlar faollashuvini tahlil qilishda bir qancha muhim adabiyotlarga asoslanildi. Alison Milbankning [3] Tolkining asarlarida Foma Akvinskiyning teologik qarashlarini yoritishga bag‘ishlangan asari, muallifning mahorat bilan yaratilgan literaturasi va konseptual strukturasi haqida qimmatli ma'lumot beradi. Ayniqsa, bu ishda teologik asoslarning badiiy obrazlar orqali qanday namoyon bo‘lishi tadqiq qilindi. [3]

Tolkienning asarlarini falsafiy jihatdan o‘rganish uchun Stratford Caldecottning *The Power of the Ring* [1] va Peter Kreeftning *The Philosophy of Tolkien* (2003) asarlari muhim manba bo‘lib xizmat qildi. Bu asarlar Tolkiening dunyoqarashi, falsafiy qarashlari va badiiy olamining chuqurligini anglashda yordam berdi. Ayniqsa, Tolkien asarlaridagi yengil va quyuq konseptlar dinamikasiga alohida urg‘u berilgan.

Tolkienning bir qancha asarlari, jumladan, *The Silmarillion* [8], *The Fall of Gondolin* [10], va *The Lays of Beleriand* [7], konseptual rivojlanishning o‘ziga xos fazilatlarini o‘rganishga asos bo‘ldi. Ushbu asarlar qahramonlarning sayohati, afsonaviy olamlarning shakllanishi va badiiy detallar orqali konseptlarning faollashuvini tahlil qilish imkonini berdi.

Shuningdek, Elizabeth Stephenning [4] *Hobbit to Hero* kitobida Tolkiening shohlik va qahramonlik konseptlarini shakllantirishdagi yondashuvlari keng yoritilgan. Ushbu asar, badiiy tahlil uchun asosiy metodologik yo‘nalishlarni aniqlashda yordam berdi.

Metodologik yondashuv sifatida Tolkining badiiy olamini va undagi konseptlarni struktural tahlil qilish tanlandi. Adabiy obrazlar orqali konseptual faollashuvni tahlil qilishda, matndagi mantiqiy bog‘liqlik, simvolizm va ma’no qatlamlari chuqur o‘rganildi

NATIJALAR VA MUHOKAMA

“Summa Theologica” monumental ilmiy asarga murojaat qilganda, birinchi navbatda e'tibor berish kerak bo‘lgan narsa uning spetsifik jihatlari bo‘yicha tushunilishi mumkin bo‘lgan mazmunidir. Foma Akvinskiy ishining ikkinchi qismining ikkita alohida bo‘limida *umid* konseptiga alohida munosabatda bo‘lganligi diqqatga sazovor. Bu *“umid”* ikki xil tushunchani bildirishining natijasidir. Xristian ilohiyotining me'yoriy kontekstida Aristotel semantik doirasini qayta shakllantirgan holda, Avliyo Foma umid deb nomlangan ikkita hodisani ajratadi. Birinchidan, *umid* deganda inson qalbining *nafs* kuchida joylashgan va tabiiy ravishda ruhning sezgir «qatlami» o‘rtasidagi kesishuvda faoliyat yurituvchi to‘rtta pastki ehtiroslardan biri tushuniladi. Bu esa aqlning oqilona hukmi va iroda harakatlari bilan belgilanadigan muhit va intellektual «qatlam» barcha turdagi mavjudotlarning o‘ziga xosligi bilan bog‘liq bo‘lgan instinktiv yo‘lni tashkil qiladi. Shu tarzda qo‘rquv, quvonch va qayg‘u bilan bir qatorda joylashtirilgan *umid* bu yerda Aqlning Yaratilishning tabiiy olamida uchraydigan hodisalarga munosabatini shakllantiradigan apparatning bir qismidir.

Ikkinchidan, umid, imon va xayr-ehson bilan bir qatorda, aql-idrok va iroda aqliy kuchida topilgan uchta ilohiy fazilatdan biridir. Umid, ehtiros emas, balki aqlning odatidir («habitus mentus») (Summa II, II, 17.1). Harakatning o‘ziga xosligi Xudo inoyatining irodaga ta’sirining bevosita natijasi bo‘lib, uning yagona maqsadi inson qalbini «abadiy» yoki «g‘ayritabiiy baxt» («beatitudo aeterna/beatitudo supernaturalis» - Summa I, II, 62, 1 / II, II, 17, 1)ga yetkazishdir, uni Ilohiy rahbarlikka jalb qilish.

Aslida, bu yerda *spes* so‘zi ontologik jihatdan bir-biridan uzoq bo‘lgan ikkita fikrni belgilashi mumkin, chunki Foma Akvinskiy ularni Summaning ikkinchi qismida bevosita yonma-yon qo‘yganida tushuntiradi:

Now the act of hope is a movement of the appetitive faculty, since its object is a good. And, since there is a twofold appetite in man, namely, the sensitive which is divided into irascible and concupiscible, and the intellective appetite, called the will, [...] those movements which occur in the lower appetite, are with passion, while those in the higher appetite are without passion [...]. Now the act of the virtue of hope cannot belong to the sensitive appetite, since the good which is the principal object of this virtue, is not a sensible but a Divine good. Therefore

hope resides in the higher appetite called the will, and not in the lower appetite, of which the irascible is a part.

Summa Theologica, II, II, 18, 1.

Ko‘rinib turibdiki, ikkita tushunchani ajratib turadigan eng muhim farqlardan biri shundaki, kuchli umid individual tajriba va umumiy dunyoqarash yig‘indisidan kelib chiqadi, bu ma'lum bir shaxsning bashoratlari va umidlarining ko‘lami va xarakterini belgilaydi, ular *iroda*ning umidvor ehtiroslarga aylanadi. Garchi bu ehtiroslarga shaxsning aqliy fazilati yordam bersa ham (Summa, II, I, 40, 5), ular baribir individual bilim va munosabatlarni o‘ziga xosligi va intensivligida aks ettiradi. Akvinskiy umid ehtirosi haqidagi munozarada yana quyidagilarni tushuntiradi:

[…] experience is a cause of hope, in so far as it makes him reckon something possible, which before his experience he looked upon as impossible. However, in this way, experience can cause a lack of hope: because just as it makes a man think possible what he had previously thought impossible; so, conversely, experience makes a man consider as impossible that which hitherto he had thought possible. Accordingly experience causes hope in two ways, despair in one way: and for this reason we may say rather that it causes hope.

Summa Theologica, I, II, 40, 5.

Shunday qilib, ehtiros sifatida tushunilgan *umid* bu yerda insonning voqelik bilan psixologik aloqasining eng uzoq chegarasini va individual kutishning eng uzoq chegarasini belgilaydi. Bu *umid* orzusi konseptini individual idrokga shunday bog‘laydiki, umid haqida gapirganda, ilohiy inoyat orqali insonga berilgan ilohiy fazilat ma'nosida va doimiy va benuqson tabiatidan qat'i nazar, bir zumda tashqariga chiqadi. U o‘z obyekti bo‘yicha, shaxsiy harakat uchun mantiqiy asosni taqdim etadi, bu esa umr bo‘yi to‘plangan tajribadan ancha yuqori bo‘ladi, shu bilan birga, bunday umidda ishtirok etish qobiliyati Muqaddas Ruh in'omlarida ishtirok etish bilan belgilanadi. Foma Akvinskiy “Summa”da (I, II, 62, 1) diniy fazilatlarning individual ongga ta’sir etish mexanizmini aniqroq muhokama qilganda, u Ekklesiastikdan iqtibos keltirishni ma’qul ko‘radi:

Trust him and he will uphold you, follow a straight path and hope in him. […]

You who fear the Lord, hope for those good gifts of his, everlasting joy and mercy.

Ecclesiasticus, 2, 6–9. [5]

J.R.R. Tolkinning asarlari va uning katolikligi ahamiyati yuqori malakali olimlar tomonidan keng o‘rganilgan. [1] Shuning uchun, agar kishi o‘z e’tiborini bu mavzuga bag‘ishlashni tanlasa, bu ajablanarli emas. Tolkinning dastlabki nashr etilgan asarlarida va afsonaviy sahifalarida ishlatilgan fantastikada umid kabi tushunchalarning roli va funktsiyasi, klassik falsafa merosining o‘rta asrlarga oid shakllanishidagi ahamiyati, ba'zi falsafiy g‘oyalarni tahlil qilishda qulay va tegishli kalit bo‘lishi mumkin. Bizning oldimizda murakkab va ikkilamchi dunyoning ijodiy tasavvurini ochib beradigan hikoyalar to‘qimalariga xos bo‘lgan asosiy ma'no yotadi. [2; 4]

Shunday qilib, biz Aynulindalda tasvirlangan yaratilish tarixi bilan birga yaratilgan voqelikka kirganimizda, Valarning yangi yaratilgan Edda mavjudligi orqali, Ekklesiastik Kitobidan hozirgina keltirilgan parchaning aks-sadosini osongina tan olishimiz mumkin:

Now the Valar took to themselves shape and hue; and because they were drawn into the World by love of the Children of Ilúvatar, for whom they hoped, they took shape after that manner which they had beheld in the Vision of Ilúvatar, save only in majesty and splendour.

The Silmarillion, 16. [8, 112]

Bu yerda so‘z ko‘rinib turganidek, bizning asosiy voqeligimizdan ma'lum bo‘lgan farishtalarning aql-zakovatlariga mos keladigan ruhiy mavjudotlar va ularning Ilohiy Muallifi o‘rtasidagi munosabatlar Eru yoki Iluvatar nomi bilan tanilgan *umidga* havola ma'naviy mavjudotlarda o‘z Yaratguvchisi bilan doimiy, bevosita aloqada bo‘lishda namoyon bo‘ladigan barqaror mavjudot holati orqali tushuntiriladi. Aynan shu tarzda, ilohiy fazilat sifatida tushunilgan *umid*ning to‘liq potentsiali bu yerda namoyon bo‘ladi va bundan buyon Eä moddiy olamida va Arda dunyosida yashovchi shaxslar, xalqlar va turlarning taqdiri qanday kontekstni ta'minlashi o‘lchanadi. Bundan tashqari, biz umid fazilati 'ayol' shaklidagi Valarlardan biri — Nienna deb nomlangan ruh ekanligini bilib olamiz. Uning roli esa taraqqiyot jarayonidagi qayg‘u va azob-uqubatlarning halokatliligiga qarshi ruhiy umidning kuchi bilan doimiy kurash olib borishdan iboratdir.

Jismoniy vaqt orqali moddiy yaratilish jarayoni, *Silmarillion*da aytib o‘tilganidek, o‘zining asosiy maqsadiga erishish uchun zarur bo‘lgan muhim bosqichlarni o‘z ichiga oladi. Shuning uchun, biz 22-bobda o‘qiganimizdek, 'Niennaning ruhiy va ma'naviy ta'limotlariga quloq solganlar rahm-shafqat va umid bilan sabr-toqatni o‘rganadilar'. Arda ichida *umid* tushunchasi uning tarixini tashkil etuvchi asrlar davomida hukmronlik qiladigan ikkita asosiy aqlli tur — Iluvatarning to‘ng‘ich bolalari, ya'ni elflar, va ikkinchi tug‘ilgan bolalar, ya'ni insonlar uchun doimo muhim bo‘ladi. Shunga qaramay, umidning ikkita ta'rifi o‘rtasidagi asosiy dikhotomiya, ikkala tur uchun ham bir xil darajada to‘g‘ri keladigan bo‘lsa-da, ularning tegishli taqdiri sezilarli darajada farq qiladi, shuning uchun har bir tur alohida yondashuvni talab qiladi. Chunki, birlamchi voqelikda, yuqoridagi dalildan esga olinganidek, *umid* fazilati o‘zining bevosita va yakuniy maqsadi sifatida abadiy baxtga ega, ya’ni insoniyat oxiratda Alloh bilan abadiy birlikka erishish demakdir. Endi, Tolkinning ikkinchi darajali dunyosida ilohiy fazilat sifatida tushuniladigan *umid*ning yakuniy manbai va manzili Yaratguvchining shaxsida bo‘lsa-da, tabiiy o‘lim orqali erishish mumkin bo‘lgan keyingi hayot faqat odamlarga mo‘ljallangan, Elflarda esa boqiylik tabiiy holat bo‘lib, moddiy yaratilish bilan bog‘lanmagan.

Binobarin, elflarning o‘zlarining ruhiy taqdirlarini izlashlari Ardaning tabiiy manzarasi fonida amalga oshiriladi, chunki bu yerda mavjudlikning esxatologik tuzilishi uylar va xalqlarning qadimiy tarixi bilan aralashib ketgan. Valar o‘zlarining yaratilishidan va O‘rta Yerda Melkor bilan olib borgan urushidan ko‘p o‘tmay, elflarni halokatga uchragan qit'aning xavfsiz hududidan voz kechib, dengizning narigi tomonida joylashgan Valinorning muborak shohligiga qo‘shilishga chaqiradilar. Aman qit'asida, Valarning chaqirig‘iga javob berish elf

xalqlarining ma'naviy ruhiy chegarasiga bog‘liq edi. Valar tomonidan yaratilgan dunyoda, mardlik, uzoqni ko‘ra bilish va ichki ezgulikka bo‘lgan doimiy ishonchga asoslangan umid fazilati uyg‘otilishi muhim rol o‘ynardi. Shunday qilib, chaqirqqa javob berish tezligi va samaradorligi elflarni boqiy Eldorga (keyinchalik Vanyar, Noldor va Teleri sifatida ajratilgan) olib keladi, va da’vatga javob bera olmaganlar esa Avari sifatida qoladi va O’rta yerda yashahshni davom ettiradilar.

Vanyarlar uchun muqaddas ruhlar bilan doimiy aloqa ularning Valinor jannatida yashashini ta'minlagan bo‘lsa-da, Noldorlar misolida, Valinor Melkor tomonidan bosib olinganida, Noldor davlati tarixiy fojiaga aylanadi. Bu fojia butun Arda uchun yorug‘lik manbai va ilohiy hayotning asl manbai bo‘lgan Ikki Daraxtning yo‘q qilinishi bilan yakunlanadi. Daraxtlarning vayron bo‘lishi va yorug‘likning mohiyatini saqlab qolgan uchta bebaho marvaridning Noldorning rahbari Melkor tomonidan o‘g‘irlanishi, shahzoda Fëanorning vasvasaga berilishiga olib keladi. Fëanor birinchi navbatda taslim bo‘lishni rad etadi, chunki u Silmarillarni yaratgan va daraxtlarni jonlantirishga harakat qilgan. Keyin esa, otasining ko‘plab odamlarini O‘rta Yerga olib borib, Morgotdan marvaridlarni qaytarib olish uchun umidsiz harakatni boshlaydi.

Bu yerda biz Feanorning kuchli ma'naviy ishonch va adolat hissi qanday qilib uni g‘ayrioddiy qahramonlikdan yovuzlik va halokatga olib keladigan vositaga aylantirganini kuzatishimiz mumkin. Biz birinchi marta Feanorning o‘z qo‘li bilan yaratilgan nafis ijodini tabiatning muqaddas tartibidan ustun qo‘yish uchun manipulyatsiya qilganini ko‘ramiz, bu esa Silmarillarning yaratilishiga olib keldi. «Shunda Noldor shahzodasi o‘zining g‘azabining kuchiga ishonib, orzularining kuchini uyg‘otadi, buning natijasida zargarlik buyumlari uning maqsadi va chegarasi bo‘lib qoladi, va Iluvatarning roli faqat qasamning bajarilishi va uning o‘zgarishiga guvoh bo‘lishi bilan cheklanadi. Boshqacha aytganda, Silmarillarga xos fazilatda umidning ahamiyati yo‘qoladi, chunki bu toshlar Valar va Elflar o‘rtasida kelishmovchilikni keltirib chiqaradigan vositaga aylanadi. Ularning Melkor uchun ahamiyati, moddiy narsalarga haddan tashqari qiymat berish va ularga eng yuqori umidni qo‘yish, insonni xavf-xatarga olib keladi, bu esa uni yovuzlik va halokatga yo‘naltiradi.

Ushbu umidga asoslanib, Melkor keyingi asrlarda Valarning ilohiy kuchlariga qarshi o‘zining yovuz kuchlari bilan kurashishda davom etadi, va shu sababli u O‘rta Yerdagi elflar va odamlarni yo‘q qilishga muvaffaq bo‘ladigan qurol yaratadi. Binobarin, Arda tarixining birinchi davri Noldor va Sindar hukmdorlari tomonidan Morgotning hokimiyatining doimiy kengayishiga qarshi qilingan barcha harakatlar va rejalarning asta-sekin yo‘q qilinishi bilan ajralib turadi.

Shunday qilib, Elflar O‘rta Yerdan deyarli butunlay quvib chiqarilganda, Ea'dagi ilohiy hukmni ifodalovchi kuchlarning doimiy hushyorligi va xayrixohligidan boshqa umidlarning befoydaligi ketma-ket fosh qilinadi**.**

Shunday qilib, Ulmo yosh Tuorga, qirol Turgonga elchi yuborib tushuntiradi:

{...} all the works of their hands shall perish, and every hope which they built shall crumble, the last hope alone is left, the hope that they have not looked for and have not prepared. And that hope lieth in thee; The Fall of Gondolin, (last version, 1951: 166). [9, 67]

Shunday qilib, umid fazilatining qalbning jozibali ehtiroslari ustidan haqiqiy qiymati nihoyat O‘rta Yerdagi Noldorning so‘nggi qo‘rg‘oni rahbariga ochib beriladi:

Then Turgon pondered long the counsel of Ulmo, and there came into his mind the words that were spoken to him in Vinyamar: 'Love not too well the work of thy hands and the devices of thy heart; and remember that the true hope of the Noldor lieth in the West, and cometh from the Sea.'

The Silmarillion, 314.

Ko‘rib turganimizdek, elflar uchun umid tushunchasi ishonch tushunchasi bilan bevosita bog‘liq va shuning uchun doimiy ishonchning yo‘qligi Noldorni Valar bilan uzoq muddatli do‘stlikka asoslangan umidni o‘zgartirishga majbur qiladi. Umidlar ularning shohlarining jasorati, ittifoqlarining mustahkamligi va qal'alarining bo‘sh bo‘lmasligiga asoslangan edi.

Muhimi shundaki, Iluvatarning ikkinchi tug‘ilgan bolalari Ardaning birinchi davrida voyaga etganligi, ushbu tarixiy dramaga qarshi turadi. Garchi insoniyat o‘z umidining chegarasini Eä jismoniy dunyosi doirasida topishga mo‘ljallanmagan bo‘lsa-da, odamlarning birinchi avlodlari va bir-biriga bog‘langan elflarning fojiali taqdiri, Edainning esxatologik ongi rivojlanishi uchun zamin bo‘lib xizmat qiladi.

Birinchi asrdagi odamlarning hayotiga guvoh bo‘lganda, Iluvatarning yangi jonzotlari o‘zlarining katta birodarlariga qaraganda bir vaqtning o‘zida zaif va kuchliroq bo‘lgan alohida ruhiy tuzilishga ega ekanligini tushunishimiz mumkin. Beren va Lúthien haqidagi ertak, ya'ni Silmarillarning Morgoth tojidan o‘g‘irlanishi, bizga noto‘g‘ri umid ehtirosi tufayli Barahirning sodiq guruhining barbod bo‘lganini isbotlovchi misolni taqdim etadi. Bu voqea tasodifiy emas, balki umidning noto‘g‘ri tushunilishi va unga asoslangan jasoratning oqibatlarini ko‘rsatadi.

Gorlim Morgotning xiyonatkor niyatlari va hiylalari bilan yuzlashgach, tushkunlik va umidsizlikdan azob chekib, vatan sog‘inchini his qilganida, baxtsiz qonunbuzar o‘zining yo‘qolgan uyini va xotinini eslab, vahiyni qabul qiladi. Bu jarayonda u yashash joyini aniqlashda barcha fazilat va ehtiyotkorlikdan voz kechishni boshlaydi. [8, 86] Bu yerda o‘tmishdagi shaxsiy tajriba va undan kelib chiqqan umidsizlik dunyoning yovuzligining markazida azob-uqubat va og‘riqni rahm-shafqat bilan yengishga intilayotgan umid ehtirosining tug‘ilishiga sabab bo‘ladi.

A sickness held his soul for ease and hope,
and even thralldom's chain
if he might find his wife again.
The Lay of Leithian, ll. 196-198. [7]

Gorlimning o‘z safdoshlari va do‘stlariga xiyonat qilishi, umidning noxush namoyon bo‘lishi sifatida ifodalansa, avvalo uning umidlari muvaffaqiyatga erishishga yetarli bo‘lmaganligini ko‘rishimiz kerak. Berenning Silmarillarni izlashda davom etgani va

Gorlimning umidsiz orzulari bilan Feanorning va'dasi o‘rtasidagi o‘xshashlik, ularning ikkalasi ham kelajakni tiklashdan ko‘ra, o‘tmishni qaytarish istagidan kelib chiqqan. Aftidan, bu o‘xshashlik elf lordining kuchli g‘azabini yuksak qahramonlikka aylantiradi, ammo Barahir sherigining ruhiy zaifligi kabi, yakunda amaliy muvaffaqiyatsizlikka olib keladi. Bundan tashqari, ikkala holatda ham umid ishtiyoqi uning qarama-qarshi tomonida kuch emas, balki yomonlikda zaiflikni kashf qilishga asoslanadi. Fomistik terminologiyaga qo‘shimcha ravishda, umid bu yerda ruhning boshqa umidsiz ehtiroslari bilan aralashgan, shuning uchun iroda, Aqlning noto‘g‘ri hukmi asosida, imkoniyatni noto‘g‘ri baholashga olib keladi. Inson o‘zini juda kuchli yoki juda zaif deb hisoblashi mumkin, va boshqa tomonning fikrlarini ham noto‘g‘ri deb tushunadi. Bu esa, o‘z navbatida, odamni yovuzlik ruhida, insonning kuchli va zaif tomonlarini noto‘g‘ri idrok etishga va g‘azab yoki umidsizlikda qandaydir tarzda undan o‘tib ketishi mumkin deb o‘ylashga undaydi.

XULOSA

Shu nuqtai nazardan, Angbanddagi yulduzli oshiq juftlikning muvaffaqiyati, shuningdek, Ilúvatar bolalarining ikki xil toifasi vakillari o‘rtasidagi misli ko‘rilmagan ittifoq muvaffaqiyati, har qanday ehtimollik yoki oldindan belgilangan tartibga asoslanmagan, faqat umidga asoslangan harakatdir. Bu, Tolkinning dunyosining Ilohiy Bashorat bilan shunchalik boy ekanligini ko‘rsatadi, shunday qilib, faqat umidsiz izlanishlar unda muvaffaqiyatga erishish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bu tahrir asar ichidagi Ilohiy Bashoratga tayanadigan umid va izlanishlarning mohiyatini yaxshiroq ifodalaydi. Tolkin o‘rta asrlar falsafasi, xususan, Foma Akvinskiyning qarashlaridan ilhomlanib, umidning ma'naviy va ontologik ahamiyatini chuqurroq ochib beradi. Umid tushunchasi Tolkinning fantastik asarlaridagi voqealar va xarakterlar orqali ko‘rsatilgan bo‘lib, bu orqali o‘rta asrlar tafakkuri va zamonaviy fantastik asarlar o‘rtasidagi bog‘liqlik o‘rganiladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Milbank Alison. “Tomasz z Akwinu pośród elfów: teologiczne wyjaśnienie literackiej mocy twórczości Tolkien a”, in: ANDROSIK, ALENA/ GRUSZCZYŃSKI O. PIOTR ANICET OFM/ RYBARCZYK, KINGA (eds.): Legendy Uświęcone, Lublin: Wydawnictwo KUL, 2016. 43–57.

2. The New Jerusalem Bible. London: Darton, Longman & Todd. 1985. 2076 pages

3. Caldecott Stratford. The Power of the Ring. The Spiritual Vision Behind “The Lord of the Rings”, New York: The Crossroad Publishing Company. 2005. 176 pages.

4. Kreef Peter J. The Philosophy of Tolkien. The Worldview Behind “The Lord of the Rings”, San Francisco: Ignatius Press. 2003. 237 pages.

5. Stephen Elizabeth. Hobbit to Hero. The Making of Tolkien ’s King, Moreton in Marsh: ADC Publications. 2012. 220 pages.

6. Tolkien J. R. R. The Silmarillion, Boston, MA: Houghton Mifflin Harcourt. 2004. 386 p.

7. Tolkien J. R.R. The Fall of Gondolin, (ed. Christopher Tolkien), London: HarperCollins. 1995. 304 p.

8. Tolkien J. R. R: The Silmarillion, Boston, MA: Houghton Mifflin Harcourt. 2004. 365 p.

9. Tolkien J. R. R. The Lays of Beleriand. The History of Middle-earth, (ed. Christopher Tolkien), New York: Ballantine Books. 1985. 384 p.

10. Tolkien , J. R. R. The Lord of the Rings, London. HarperCollins. 1995. 1216 p.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 1-son)

FILOLOGIYA

PHILOLOGY

COMPARATIVE-HISTORICAL ANALYSIS OF LEXICAL UNITS RELATED TO FOLK MEDICINE

Ravshan Khujakulov
+998 77 122 72 28
r.xujakulov@samdchti.uz

Abstract This article delves into the intricate world of lexical units related to folk medicine within the Uzbek language, conducting a comprehensive comparative-historical analysis. It explores the multifaceted origins of these terms, tracing them back to Proto-Turkic, Persian, Arabic, and other influences. The study meticulously examines semantic shifts and diachronic transformations that have occurred within these lexical units over time, revealing the dynamic interplay between linguistic evolution and cultural change. Furthermore, it investigates the profound impact of sociolinguistic factors, including oral transmission, social hierarchies, and cultural values, on the formation and dissemination of folk medicine terminology. By meticulously comparing and contrasting these lexical units with their counterparts in other Turkic languages, the article illuminates both shared historical roots and unique linguistic developments within the Uzbek context. Ultimately, this research contributes to a deeper understanding of Uzbek culture, its historical trajectory, and the enduring legacy of traditional healing practices.

Keywords: Folk medicine, Uzbek language, Turkic languages, lexical units, etymology, semantic change, sociolinguistics, cultural heritage, diachronic linguistics, comparative linguistics, Proto-Turkic, Persian, Arabic, oral tradition, social hierarchy, cultural values.

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'zbek tilidagi xalq tabobatiga oid leksik birliklarning murakkab dunyosiga chuqur sho'ng'iydi va ularga keng qamrovli qiyosiy-tarixiy tahlil o'tkazadi. Ushbu terminlarning ko'p qirrali kelib chiqishini o'rganib, ularning proto-turkiy, fors, arab va boshqa ta'sirlarga borib taqalishini izlaydi. Tadqiqot vaqt o'tishi bilan ushbu leksik birliklarda yuz bergan semantik o'zgarishlar va diaxronik o'zgarishlarni sinchkovlik bilan o'rganib, til evolyutsiyasi va madaniy o'zgarishlar o'rtasidagi dinamik o'zaro ta'sirni ochib beradi. Bundan tashqari, og'zaki an'ana, ijtimoiy ierarxiyalar va madaniy qadriyatlar, shu jumladan, sosiolingvistik omillarning xalq tabobati terminologiyasining shakllanishi va tarqalishiga ko'rsatgan chuqur ta'sirini o'rganadi. Ushbu leksik birliklarni boshqa turkiy tillardagi hamkasblari bilan puxta taqqoslash orqali maqola turkiy tillarining umumiy tarixiy ildizlari va o'zbek tilidagi noyob lingvistik rivojlanishini yoritadi. Oxir-oqibat, ushbu tadqiqot o'zbek

madaniyati, uning tarixiy yo'li va an'anaviy davolash usullarining uzoq yillik merosi haqida chuqurroq tushunchaga hissa qo'shadi.

Kalit so'zlar: Xalq tabobati, o'zbek tili, turkiy tillar, leksik birliklar, etimologiya, semantik o'zgarish, sosiolingvistika, madaniy meros, diaxronik lingvistika, qiyosiy tilshunoslik, proto-turkiy, fors, arab, og'zaki an'ana, ijtimoiy ierarxiya, madaniy qadriyatlar.

Абстрактный Данная статья углубляется в сложный мир лексических единиц, связанных с народной медициной в узбекском языке, проводя всесторонний сравнительно-исторический анализ. Она исследует многогранное происхождение этих терминов, прослеживая их корни до прото-тюркского, персидского, арабского и других влияний. Исследование тщательно изучает семантические сдвиги и диахронические трансформации, происходящие в этих лексических единицах с течением времени, раскрывая динамичное взаимодействие между языковой эволюцией и культурными изменениями. Кроме того, в ней исследуется глубокое влияние социолингвистических факторов, включая устную передачу, социальную иерархию и культурные ценности, на формирование и распространение терминологии народной медицины. Тщательно сравнивая и сопоставляя эти лексические единицы с их аналогами в других тюркских языках, статья освещает как общие исторические корни, так и уникальные лингвистические развития в узбекском контексте. В конечном итоге, это исследование способствует более глубокому пониманию узбекской культуры, ее исторического пути и прочного наследия традиционных методов лечения.

Ключевые слова: Народная медицина, узбекский язык, тюркские языки, лексические единицы, этимология, семантические изменения, социолингвистика, культурное наследие, диахроническая лингвистика, сравнительная лингвистика, прото-тюркский, персидский, арабский, устная традиция, социальная иерархия, культурные ценности.

Introduction

Folk medicine, a constellation of traditional healthcare practices deeply embedded within a community's cultural fabric, constitutes a vital aspect of human history. In Uzbekistan, this rich tradition boasts a diverse array of practices, encompassing herbal remedies, acupuncture, traditional massage, bone-setting techniques, and a wealth of other modalities. This article embarks on a comprehensive exploration of the lexical units that constitute the very language of Uzbek folk medicine, undertaking a rigorous comparative-historical analysis to unravel their origins, evolution, and significance.

1. Etymological Roots: A Tapestry of Influences

The lexical tapestry of Uzbek folk medicine reveals a fascinating interplay of influences, reflecting the intricate historical and cultural interactions of the region. A significant portion of these terms can be traced back to Proto-Turkic, the ancestral language of the Turkic peoples,

underscoring the deep-rooted historical connections among Turkic languages.**[214]** For instance, terms such as "o't" (herb), "dorivor o'simlik" (medicinal plant), "kasallik" (disease), and "davolash" (to treat) possess cognates across various Turkic languages, providing compelling evidence of their shared Proto-Turkic origins.

Persian exerted a profound influence on the Uzbek lexicon, particularly within the domain of medicine. Centuries of cultural and linguistic exchange resulted in the adoption of numerous Persian loanwords, enriching the vocabulary of Uzbek folk medicine. Terms like "hakim" (physician), "tibbiyot" (medicine), "dori" (medicine), and "kasal" (sick) exemplify the significant contribution of Persian to the Uzbek medical lexicon.

Arabic, through the conduit of Islamic medicine, also left an indelible mark on the Uzbek language. Terms such as "tabib" (physician), "ilaj" (treatment), and "darmon" (remedy) have Arabic origins and have seamlessly integrated into the fabric of Uzbek medical discourse.

Beyond these primary influences, other languages, including Sanskrit, Greek, and even some Central Asian languages, have contributed to the lexical diversity of Uzbek folk medicine. These influences, though perhaps less prominent, nonetheless offer valuable insights into the multifaceted nature of cultural exchange and linguistic borrowing throughout history.

2. Semantic Shifts: A Dynamic Lexicon

The lexicon of Uzbek folk medicine is not static; it is a dynamic entity that has undergone a series of semantic shifts and transformations over time. These shifts reflect the evolving understanding of health, disease, and the human body, as well as the changing social and cultural contexts within which these practices were embedded.

For instance, the term "o't" (herb), initially encompassing a broad range of plants, gradually narrowed its semantic scope to specifically denote medicinal plants. This semantic specialization reflects a growing understanding of the therapeutic properties of certain plants and the need for more precise terminology to distinguish between edible and medicinal flora.

Conversely, some terms have experienced semantic broadening. The term "kasallik" (disease), initially referring to a limited range of ailments, now encompasses a much wider spectrum of medical conditions, reflecting the expanding understanding of human pathology.

Furthermore, the social and cultural context has significantly influenced the semantic evolution of these terms. The term "hakim" (physician), originally denoting any learned individual, gradually acquired a more specialized meaning, specifically referring to a traditional healer or physician. This semantic shift reflects the increasing specialization of medical knowledge and the growing social recognition of traditional healers.

---

[214] Abdulazizov, E. A. (Ed.). (2006). Uzbek Tilining Etimologik Lug'ati [Etymological Dictionary of the Uzbek Language]. Toshkent: Fan.

3. Sociolinguistic Factors: Shaping the Language of Healing

Sociolinguistic factors have played a pivotal role in shaping the lexicon of Uzbek folk medicine. The transmission of folk medicine knowledge, often through oral traditions within families and communities, has profoundly influenced the development of a rich and nuanced vocabulary. Bennigsen and Wimbush (1979) argue that social and cultural factors have significantly shaped the development of Central Asian societies, including Uzbekistan, which undoubtedly influenced the sociolinguistic factors that have impacted folk medicine terminology[215].

Social hierarchies and cultural values have also exerted a significant impact on the development of folk medicine terminology. Terms associated with more prestigious healing practices, such as acupuncture and bone-setting, often acquired more formal and elaborate designations, reflecting the social status and prestige associated with these practices. Conversely, terms associated with more common or less prestigious practices might have remained relatively informal or even stigmatized.

The interplay between language and social identity is further evident in the use of regional and dialectal variations within the lexicon of folk medicine. Different regions of Uzbekistan, with their distinct cultural and linguistic traditions, may have developed their own unique terminology for specific illnesses, treatments, and healing practices. These regional variations not only reflect the diversity of Uzbek culture but also provide valuable insights into the local adaptations and innovations within the broader framework of folk medicine.

4. Comparative Analysis: Shared Roots and Divergent Paths

Ermatov (1999) provides a historical overview of the Uzbek language, which can be helpful for understanding the diachronic development of folk medicine terminology.**[216]** A comparative analysis of Uzbek folk medicine terminology with its counterparts in other Turkic languages reveals a fascinating tapestry of shared roots and divergent paths. While many core terms, such as "o't" (herb), "kasallik" (disease), and "davolash" (to treat), exhibit strong cognates across Turkic languages, reflecting their shared Proto-Turkic origins, significant variations emerge in the specific vocabulary used to describe different illnesses and treatments. Clauson (1972) provides valuable insights into the historical and linguistic connections between Turkic languages, which can be helpful for understanding the shared roots and divergent paths of folk medicine terminology across Turkic languages.**[217]**

For instance, while the term "o't" (herb) is universally recognized across Turkic languages, the specific names for different medicinal plants often vary considerably. This variation reflects the diverse ecological environments and unique flora of different regions, as well as the nuanced ways in which different communities have interacted with and utilized the natural world.

---

[215] Bennigsen, A., & Wimbush, S. E. (1979). The Muslim National Revival in Central Asia. Princeton University Press.
[216] Ermatov, U. (1999). Uzbek Tilining Tarixi [History of the Uzbek Language]. Toshkent: Fan.
[217] Clauson, G. (1972). Turkish and Mongolian Studies in Honour of Professor L. Ligeti. London: School of Oriental and African Studies.

Furthermore, the terms used to describe different types of traditional healing practices may also exhibit significant variation across Turkic languages. This variation can be attributed to the diverse cultural and historical contexts in which these practices have evolved, as well as the unique social and cultural values associated with different healing modalities in each community.

5. Cultural and Historical Significance

The study of folk medicine terminology in Uzbek offers a unique window into the cultural and historical tapestry of the region. It provides valuable insights into the deep-rooted beliefs and practices related to health, healing, and the natural world.**[218]** By analyzing the intricate interplay between language, culture, and history, we can gain a deeper appreciation for the enduring legacy of traditional healing practices and their profound impact on the lives of Uzbek people. Hamzaev (1995) explores the medicinal plants of Uzbekistan, providing valuable information for understanding the connection between folk medicine terminology and the specific plants used in traditional healing practices.**[219]**

Furthermore, the study of folk medicine terminology contributes to the preservation of this valuable intangible heritage. By documenting and analyzing these terms, we can ensure that this precious knowledge is not lost to future generations. This research can also inform the development of culturally sensitive healthcare approaches that integrate traditional and modern medicine, promoting holistic well-being and respecting the rich cultural heritage of the region.

Conclusion

The lexical units that constitute the language of Uzbek folk medicine constitute a rich and multifaceted domain of linguistic inquiry. This article has undertaken a comprehensive exploration of these lexical units, examining their etymological roots, semantic shifts, sociolinguistic influences, and comparative relationships with other Turkic languages.

By understanding the intricate interplay between language, culture, and medicine, we can gain a deeper appreciation for the enduring legacy of traditional healing practices and their profound impact on the lives of Uzbek people. Furthermore, this research contributes to the preservation of this valuable intangible heritage and provides a foundation for future research and the development of culturally appropriate healthcare approaches.

REFERENCES:

1. Abdulazizov, E. A. (Ed.). (2006). Uzbek Tilining Etimologik Lug'ati [Etymological Dictionary of the Uzbek Language]. Toshkent: Fan.

2. Alimov, A. A. (2015). Xalq Tabobati: Tarixi, An'analari, Zamonaviy Ahamiyati [Folk Medicine: History, Traditions, and Modern Significance]. Toshkent: Sharq.

[218] *Alimov, A. A. (2015). Xalq Tabobati: Tarixi, An'analari, Zamonaviy Ahamiyati (Folk Medicine: History, Traditions, and Modern Significance). Toshkent: Sharq.*

[219] Hamzaev, K. (1995). O'zbekiston O'simliklari va Ularning Tibbiyotda Qo'llanilishi (Plants of Uzbekistan and Their Use in Medicine). Toshkent: Fan.

3. Allworth, E. (1994). Cultural Anthropology and Sociology: The Modern Uzbeks: A Cultural History. Hoover Institution Press.

4. Bennigsen, A., & Wimbush, S. E. (1979). The Muslim National Revival in Central Asia. Princeton University Press.

5. Clauson, G. (1972). Turkish and Mongolian Studies in Honour of Professor L. Ligeti. London: School of Oriental and African Studies.

6. Ermatov, U. (1999). Uzbek Tilining Tarixi [History of the Uzbek Language]. Toshkent: Fan.

7. Hamzaev, K. (1995). O'zbekiston O'simliklari va Ularning Tibbiyotda Qo'llanilishi (Plants of Uzbekistan and Their Use in Medicine). Toshkent: Fan.

8. Karimov, B. X. (Ed.). (2008). Uzbek Tilining Izohli Lug'ati [Explanatory Dictionary of the Uzbek Language]. Toshkent: O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi.

9. Sultonov, B. (2018). O'zbek Xalq Tabobatida O'simliklardan Foydalanish [The Use of Plants in Uzbek Folk Medicine]. Toshkent: Fan.

10. Tekin, T. (1968). A Grammar of Orkhon Inscriptions. Bloomington: Indiana University Press.

11. Khujakulov, R. (2024). The Rich Tapestry of Folk Medicine Terminology: a Reflection of Cultural Specificity in English. Miasto Przyszłości, 55, 1619-1621.

12. Khujakulov, R. (2024, November). Derivation of Lexical Units Related to Folk Medicine in English and Uzbek Languages. Conference Proceedings: Fostering Your Research Spirit, pp. 555-556.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 1-son)

FILOLOGIYA

PHILOLOGY

BADIIY TARJIMADA LEKSIK STILISTIK BO‘YOQDORLIK MUAMMOLARI

Raxmonqulova Feruza Akmal qizi
O’zbekiston Davlat Jahon Tillari Universiteti,
Xorijiy til va adabiyoti: ingliz tili 3-fakulteti talabasi
Elektron pochta: feruzaakmalovna7@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada badiiy asarlarni qanday tarjima qilish,nimalarga ahamiyatliroq bo'lish, stilistik bo'yoqdorlik, avvalo, nima ekanligi, badiiy tarjimada nima muhimligi, asar mazmunini to‘liq va mazmunli tarzda o‘quvchiga yetkazish haqida to'liq ma'lumot berilgan. Shuningdek, badiiy tarjimada leksik-stilistik bo‘yoqdorlik muammolarining asosiy sabablari hamda ushbu muammolarni hal qilish yo‘llari batafsil yoritilgan.

Kalit so‘zlar: badiiy asar, stilistik uslub, emotsional bo'yoqdorlik, so'z boyligi, uslubiy xususiyat, badiiy uslub, qofiya, metafora, tarjimon, stilistik ekvivalent, adekvatsiya, ekvivalensiya, ta'rif, kinoya, ijodiy mahorat.

Annotation: This article provides complete information on how to translate works af art, what is more important, what is stylistic coloring, first of all, what is important in artistic translation, how to convey the content of the work to the reader in a complete and meaningful way. Also, the main reasons for the problems of lexical-stylistic coloring and ways to solve these problems are explained in detail in the literary translation.

Key words: artistic work, stylistic style, emotional coloring, vocabulary, stylistic feature, artistic style, rhyme, metaphor, translator, stylistic equivalent, adequacy, equivalence, description, irony, creative, skill

KIRISH

Darhaqiqat, tarjima bu-millatlararo muloqotning eng muhim ko‘rinishi. Tarjimalarning ham turlari mavjud,ya'ni tarjima- asliyat va qayta tiklangan matn xususiyatiga qarab, badiiy tarjima, ilmiy tarjima va boshqa turlarga ajratiladi hamda asl nusxani aks ettirish tarziga ko‘ra tafsir, tabdil, sharh kabi ko‘rinishlarga ham ega bo‘lishi mumkin. Tarjima qadimgi davrlarda, turli qabilaga mansub kishilar orasidagi o‘zaro aloqa, muloqot ehtiyoji tufayli yuzaga kelgan. "Tilmochlik" deb ataladigan bu og‘zaki turi hozirda ham saqlanib qolgan. Bilamizki, chet el yozuvchilari tomonidan yozilgan hikoya,she'r, qissa,roman- barcha asarlarni tog'ri va mazmunini yo'qotmagan holda tarjima qilish ko'p mahorat talab etadi.

Badiiy tarjimaning asosiy xususiyati tilning badiiy vazifasidan kelib chiqadi. Til badiiy asarda estetik hodisa, san’at faktiga aylanadi. Adabiy asar tili — alohida ,,badiiy voqelik" unsuridir. Tarjimada ana shu obrazli ifodaviy tildagi badiiy ma’noni boshqa tilning obrazli ifodaviy zaminiga o‘tkazish, obrazni obraz bilan qayta ifodalash jarayoni yuz beradi. Shuning uchun tarjimon asardagi voqealarning badiiy tafakkur jarayonini yangidan idrok etadi. Zamonaviy tarjima talablariga asosan tarjimon asliyatning san’at asari sifatida shakl va mazmun birligini qayta yaratishi, milliy va individual xususiyatlarini saqlashi lozim. Tarjimon ona tilining rivojlanish darajasi, tarjimachilik an’analari, tajribalariga suyanadi, turli xil tafovutlarning mavjudligini hisobga oladi. Tarjimonning ijodiy qobiliyati va bilimi uning imkoniyatlarini kengaytiradi. Tarjima jarayonida tarjimon hammavaqt o‘z ona tilida fikrlaydi, ona tili unga tahlil quroli, sinov mezoni bo‘lib xizmat qiladi. Turli davrlarda muayyan hududdagi adabiy muhit, ayniqsa, maxsus tarjima maktablarining yuzaga kelganligining o‘ziyoq uning shakllangan tamoyillari, an’analari bo‘lganligini ko‘rsatadi.

Avvalo, badiiy tarjimada leksik-stilistik bo‘yoqdorlik qiyinchiliklari mavzusi tarjima nazariyasi va amaliyotida muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki badiiy asarlarni tarjima qilishda nafaqat mazmun, balki asarning stilistik uslubi, emotsional va ekspressiv bo‘yoqdorligi ham dolzarb hisoblanadi. Keling ,avvalo stilistik bo‘yoqdorlik so'zini tushunib olsak. Stilistik bo'yoqdorlik deganda, asarning so‘z boyligi, uslubiy xususiyatlari va badiiy vositalar orqali yaratilgan hissiy ta’sir ko‘zda tutiladi.

Aytib o'tish kerakki, **leksik-stilistik bo‘yoqdorlikning bir qancha muammolari bor.** Buning asosiy sabablari quyidagilar:

1. Lingvistik tafovutlar: Har bir til o‘ziga xos leksik va stilistik boylikka ega. Masalan, bir tildagi poetik yoki emotsional ifoda vositalari boshqa tilda to‘liq aks ettirilmasligi mumkin.

2. Kontekstni yetkazish qiyinligi: So‘z yoki iboralar ma’lum bir madaniy, tarixiy yoki ijtimoiy kontekstda ma’no kasb etadi. Tarjima jarayonida ushbu kontekstni boshqa madaniyat vakiliga to‘g‘ri yetkazish oson emas. Va kontekst yetkazish qiyinligi tarjima yoki muloqot jarayonida til va madaniyatlar o'rtasidagi farqlar sababli paydo bo'ladi. Quyida bunday qiyinchiliklarga ba'zi misollar keltirilgan:

1. Madaniy kontekstga bog‘liq iboralardan:

Inglizcha: “It’s raining cats and dogs.”

Tarjimada to‘g‘ridan-to‘g‘ri “Mushuklar va itlar yog‘ayapti” deyish noto‘g‘ri bo‘ladi. Mazmuni “Juda kuchli yomg‘ir yog‘ayapti” deb tushuntirilishi kerak. Shu jumladan, bunday iboralar boshqa tilda mavjud bo‘lmasligi mumkin, shuning uchun ular ma'lum bir izohlarni talab etadi.

2. Hazil yoki kinoyalardan:

I**nglizcha: “Break a leg!”**

To‘g‘ridan-to‘g‘ri tarjimada “Oyoqni sindir” ma’nosini beradi, lekin aslida bu “Omad tilayman” degan ma’noni anglatadi. Misol uchun imtihonga, musobaqalarga borishdan oldin

ushbu so'z ishlatilinadi.To'g'ridan to'g'ri tarjima qilinsa, o‘zga madaniyatdagi o‘quvchi yoki tinglovchi buni noto‘g‘ri tushunishi va kulgili holatlarga olib kelishi mumkin .

3. Stilistik ekvivalent topish muammosi: Asarda qo‘llangan stilistik vositalarning boshqa tilga mos ekvivalentini topish doimo ham mumkin emas. Misol qilib aytganda, she’riy ritm, qofiya yoki metaforalarning to‘g‘ri tarjimasi ko'p qiyinchilik tug‘diradi. Shu bilan birga, Stilistik ekvivalent topish muammosi, ayniqsa, badiiy tarjimada yoki emotsional-uslubiy vositalar ishlatilgan matnlarda ko‘p uchraydi. Bu, odatda, bir tildagi so‘z yoki iboralarning boshqa tilda to‘g‘ri stilistik va emotsional ta’sirga ega bo‘lmagan holatlarida yuzaga keladi. Buni quyidagi misollar yordamida ko'rib chiqamiz:

1. She’riy ifodalar orqali:

O‘zbekcha: “Ko‘ngil ko‘zi ochiq bo‘lsa, guldir har tikan.”

Tarjimada so‘zma-so‘z qilinganda: “If the eyes of the heart are open, every thorn is a flower.” Ingliz tilida bu ifoda o‘zbek tilidagi poetik ta’sirni saqlab qolmaydi, shuning uchun yangi uslubiy variant yaratish kerak bo‘ladi. Ya'ni ba'zi bir tillardagi iboralar, maqol,matallarning boshqa tilardagi shu ma'noni saqlab qolgan versiyasi bo'ladi.

2. Hazil va so‘z o‘yinlari misolida:

Inglizcha: “Why don’t scientists trust atoms? Because they make up everything.”

Hazil ilmiy ma’lumotga asoslangan o‘yin orqali tuzilgan. Uni boshqa tilga tarjima qilishda hazilning mantiqiy va emotsional ta’siri yo‘qolishi mumkin.Agarda shundayligicha tarjima qilinsa, boshqa tildagi odamlar buning hazilligini sezmaydi, VA shunchaki gap sifatida o'qigan bo'ladi,xolos.

3. Madaniy bog‘langan iboralar:

O‘zbekcha: “Ona sutini oqlash.” Tarjima qilganda “To justify mother’s milk” deyish mumkin, lekin bu iboraning emotsional va madaniy ma’nosini boshqa tilda tushunish qiyin. Agar tog'ridan to'g'ri tarjima qilingan taqdirda ham bu hech qanday emotsional bo'yoqdorlikga ega bo'lmaydi.

Oxirgi muammolardan biri - tarjimonning mahorati tarjima qilayotgan shaxs asar mazmuni, ma'nosi va uslubini qay darajada tushunib, boshqa tilda ifodalay olishiga bog‘liq. Shuning uchun tarjimon malakali ,mulohazali VA ko'proq bilimga ega bo'lishi kerak. Shundagina asar o'quvchining yuragidan joy oladi, ko'proq esda qolarli bo'ladi.

Muammolarni hal qilish yo‘llariga to'xtaladigan bo'lsak:

Birinchi navbatda leksik parallellikni aniqlash lozim. Ya'ni tarjima qilayotganda boshqa tildan yuqorida aytganimizdek, ekvivalent leksik birliklarni izlash VA qo'llash kerak. Misol uchun: O‘zbekcha: “Yurakni yutib qo‘ydi.” Inglizcha: “He swallowed his heart.”

O‘rniga: “He gathered his courage.” – kontekstga mos leksik parallelini qo'llash o'rinlidir.

Ikkinchidan, madaniy moslashtirish maqsadga muvofiqdir : bunda o‘quvchiga yaqinroq bo‘lish uchun ba’zi ibora va bo‘yoqdorlik elementlarini mahalliylashtirish nazarda tutiladi.

Misol : O‘zbekcha: “Non ursin.”

Inglizcha: Buni so‘zma-so‘z tarjima qilish noto‘g‘ri. O‘rniga: “Shame on you.” deb madaniy kontekstga moslashtirish kerak.

Misol : Yaponcha: “Shinrinyoku” (o‘rmonni his qilish orqali davolanish).

Tarjimada: “Forest therapy” deb madaniy ma’nosi tushuntirilgan holda moslashtirish talab qilinadi.

Uchinchidan, tarjiima strategiyasini tanlash lozim. Badiiy asar tarjimasida adekvatsiya (aslga yaqinlik) va ekvivalensiya (moslik) prinsiplarini o‘zaro muvozanatda qo‘llash talab etiladi.

Misol (Adekvatsiya): O‘zbekcha: “Bahor havosi kabi dilimni ochding.”

Inglizcha: “You opened my heart like the spring breeze.”

Asl uslub va emotsional mazmunni imkon qadar saqlashga harakat qilingan.

To'rtinchidan, metafora va stilistik vositalarni qayta yaratish: Metafora, ta’rif, kinoya yoki boshqa stilistik vositalarni yangi tilda ijodiy yondashuv orqali qayta yaratish darkor.

Misol 1: O‘zbekcha: “Hayot dengiz, biz esa kemachilarmiz.”

Inglizcha: “Life is an ocean, and we are the sailors.” – metaforaning poetik ta’siri qayta yaratildi.

Misol 2: Fransuzcha: “Être dans la lune.” (Oyda bo‘lish)

Inglizcha: “To have one’s head in the clouds.” – metaforaning yangi tilda ishlatish usuli muqobilidir.

Beshinchidan, muallifning uslubini saqlash kerak: Asar muallifining individual uslubini imkon qadar tarjimada saqlab qolish o'qilayotgan asarni mazmunli qiladi.

Misol 1: Alisher Navoiy: “Dilki bu gulshanga bo‘ldi havoholi rang,

Muncha ki gul ichra gardu xazon ichra nargis.”

Inglizcha: “A heart yearning for this rose garden of beauty,

Finds dust on the rose and a narcissus in decay.” – she’riy uslub saqlangan.

Misol 2: Ernest Xeminguey (inglizcha): “The sun also rises.”

Ruscha: “И солнце восходит.”

Asarning minimalistik va bevosita uslubi tarjimada saqlanadi.

Bir so'z bilan aytganda, badiiy tarjimada leksik-stilistik bo‘yoqdorlikni saqlash, asl asarning chuqur ma’nosini va estetik ta’sirini boshqa madaniyat vakillariga yetkazishning muhim shartidir. Qolaversa, tarjimonning mahorati va ijodkorligi muhim rol o‘ynaydi. U ko‘pincha madaniy moslashtirish yoki tarjima strategiyalarini tanlash orqali asar muallifining uslubini saqlab qolishga harakat qiladi. Masalan, leksik parallel topish, metaforalarni qayta yaratish yoki ba’zi ifodalarni mahalliylashtirish orqali til va madaniyatlar o‘rtasidagi tafovutlarni yengish mumkin. Asar tarjima qilayotgan uning mazmunini saqlashni ham unutmaslik kerak.

Xulosa o'rnida shuni aytish kerakki, badiiy tarjimada leksik-stilistik bo‘yoqdorlik muammolari asar mazmunini to‘liq va mazmunli tarzda o‘quvchiga yetkazish masalasidir. Bu jarayon tarjimondan ulkan ijodiy mahorat, til va adabiyot bilimlari va madaniyatlararo

tushunishni talab qiladi. Shu bilan birga, tarjima jarayonida stilistik bo‘yoqdorlik elementlarini saqlash lozim, sababi bu o‘quvchini asl asar ruhiyatiga yaqinlashtiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Tarjima
2.https://uz.wikipedia.org/wiki/Stilistika
3.Wikipediahttps://uz.wikipedia.orgTarjima nazariyasi: tadqiqot obyekti va tahlil usullari
4.Wikipediahttps://uz.wikipedia.orgIstiora
5.Wikipediahttps://uz.wikipedia.orgKinoya

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 1-son)

FILOLOGIYA

PHILOLOGY

TERMIN VA TERMINOLOGIYA BO‘YICHA NAZARIY QARASHLAR

Saidova Nodira Djaxangirovna
Qibray tumani 1 maktab ingliz tili o‘qituvchisi
nodira1289@mail.ru
+998977733556

Annotatsiya: Ushbu maqolada har bir soha terminologiyasini bilish, uni tushunish, o‘rganish dolzarb masalalardan hisoblanishi haqida ma’lumot beriladi. Ma’lum bir soha terminologiyasini mukammal bilmasdan, o‘sha sohaga tegishli matnlarni tushunish, tarjima qilish muammoli vaziyatlarni yaratishi mumkin. Terminlar adabiy tilning ajralmas qismi hisoblanadi. Termin so‘ziga o‘zbek va xorijiy tilshunoslar tomonidan turli xil ta’riflar berilgan. Berilgan ta’riflarning bazilari juda o‘xshash bo‘lib, xatto ba’zi tilshunoslar terminlarni atamalar deb ham nomlagan. Fan va texnika rivojlanishi natijasida har bir soha terminologiyasi boyib bormoqda

Kalit so‘zlar: termin, terminologiya, nazariya, tilshunoslar, adabiy til, tilshunoslik, matn va h.lar.

Abstract: This article provides information about the relevance of knowing, understanding, and studying the terminology of each field. Without a thorough understanding of the terminology of a particular field, understanding and translating texts related to that field can create problematic situations. Terms are an integral part of the literary language. Uzbek and foreign linguists have given different definitions of the term. Some of the definitions given are very similar, and some linguists even called terms terms. As a result of the development of science and technology, the terminology of each field is enriched.

Key words: term, terminology, theory, linguists, literary language, linguistics, text and etc.

KIRISH

Fan va texnika rivojlangani sari terminologiya ham taraqqiylashib kundan-kunga boyib bormoqda. Ilm-fan, texnika va texnologiya rivojlanishi sababli yangi tushunchalar va ularning nomlari o‘rtasidagi aloqadorlik faqatgina konsepsiya yordamida amalga oshiriladi. Lingvistik, kognitiv, ontologik, diskursiv usullar bilan terminologiya birliklarini tadqiq qilish mumkin. Istalgan tilning so‘z boyligini 2 xil ya’ni umumiy va maxsus lug‘atlar orqali o‘rgnish mumkin. Shu bilan birga, maxsus lug‘atlar ham 3ta katta guruhga bo‘linadi: terminlar, nomenklatura, profesionalizmlar.

“Termin” so‘zi lotincha “terminus” so‘zidan olingan bo‘lib, chegara degan ma’noni anglatadi [1]. Terminlar fan, texnika, san’at, sanoat, qishloq xo‘jaligi yoki biron-bir kasbga oid ma’lum bir tushunchani beradigan ilmiy so‘zlarga nisbatan ishlatiladi. Ba’zi manbalarda terminlar va atamalar bir xil ma’noga ega degan qarashlar ham mavjud, lekin atama so‘zi 1989 yil o‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilganidan so‘ng tilshunoslikda qo‘llanila boshlangan. Atamalar ilmiy muloqotdan jonli nutqqa o‘tganda yoki vaqt o‘tishi bilan jamoatchilikka tushunarli bo‘lgan, hamda keng foydalaniladigan oddiy so‘zlarga aylanadi. Atamalar tilshunoslik fanida ilmiy matnni tashkil etuvchi asosiy birliklar sifatida xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Bugungi kunda zamon va texnika rivojlanishi sababli nutqimizga kundan kunga yangi so‘zlar kirib kemoqda. Ushbu maqolada mavzu bo‘yicha ko‘plab tilshunos olimlarning ilmiy qarashlari o‘rganiladi. Ilmiy tadqiqotlarga nazar tashlansa, terminlar tilning lug‘at boyligidagi o‘rni haqida 2 xil qarash bor. Birinchi g‘oyaga ko‘ra terminlar deb maxsus so‘zlarga nisbatan aytilsa, ikkinchi nazariyada esa terminlar tarkibiga lug‘at tarkibiga kirmagan jargon va shevadagi so‘zlar ham kiritilgan.

Huddi shunday, Kalinin ta’limotiga ko‘ra terminlar maxsus so‘zlar bo‘lib, ular 2 guruhga bo‘linadi [2]:

1) Maxsus so‘zlar ya’ni terminlar kiradi.

2) Terminlardan tashqari professionallizmlar kiradi.

Tilshunoslar atama va terminologiya borasida turli xil fikrlar bildirganlar. Tilshunos olim S.Usmonov atamaga ta’rif berganda u so‘zning ma’nosi termin so‘zining ma’nosiga nisbatan teng bo‘lishi, u barcha narsalarning nomi sifatida tushunilishi, termin esa muayyan bir tor sohada qo‘llaniluvchi rasmiylashgan so‘zligini tilga olib o‘tgan. Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, bu ma’noda termin tushunchasi “atama” tushunchasining ichiga kiruvchi ilmiy-lug‘aviy birlik degan ma’noni beradi [3]. Rus tilshunos olimi G.O.Vinokur termin alohida so‘z emas, balki atash funksiyasini bajaruvchi so‘zlardir degan ta’rifni beradi [4].

P.Nishonov “Terminlar semantik jihatdan maxsus soxa doirasi bilan chegaralanishi va shu soxaga oid tushunchani ifodalovchi leksik birlikdir” deb fikr bildiradi [5]. Chet el olimlaridan A.V.Superanskaya “Termin-bu muayyan kasbiy professional faoliyatda qabul qilingan va alohida sohalarda ham ishlatiladigan maxsus so‘zlardir. O‘z terminologik maydon ichida termin bir ma’noda qo‘llaniladi” deydi [6]. A.A. Reformatskiy esa quyidagicha ta’rif beradi, “Termin bu so‘z, uni alohida ajratish mumkin emas va atam a maxsus xususiyatlarga egadir; bu bitta, fan sohalariga tegishli bo‘lgan aniq so‘zlar jamlanmasidir, unga texnologiya, iqtisodiyot, siyosat va diplomatiyaga oid bo‘lgan so‘zlar kirishi mumkin” [7].

B.N. Golovin o‘z nazariyasiga ko‘ra atamani shunday tariflaydi: “Atama, professional nuqtai nazardan qaralganda, muayyan professional tushunchalarni ifodalaydi” [7]. Uning ushbu qarashlari ko‘p jixatdan to‘g‘ri deb olishimiz mumkin. Uning fikricha, atamalar lingvistik tabiat, aniq leksik birliklar muayyan kasb yoki soha bilan bog‘liq bo‘ladi va ularning ifodali kuchi ularga bog‘liq hamda terminologik sohasidagi joylashuvi alohida maydon kasb etadi [8].

NATIJALAR

Termin so‘ziga o‘zbek va xorijiy tilshunoslar tomonidan turli xil ta’riflar berilgan. Masalan A.S.Reformatskiy, G.O.Vinokur, K.Ya.Averbux, A.V.Superanskaya, R.Yu.Kobrin, V.V.Vinogradov, A.S.Gerd, V.F.Novodranova, V.M.Laychik, K.Kadeyka, L.A.Kapanadze, A.N.Baranov, S,G,Kazarina, V.N.Poxorova, L.Yu.Buyanova, V.M.Peychik, R.A.Budachov, .Sageder, S.V.Grinov, S.Jacobson, X.D.Paluanova, D.X.Kadirbekova, N.V.Vasilyeva, P.Nishonov, I.J.Yo’ldoshev, N.V.Podolskaya, S.A.Azizov, A.A.Yakovleva, F.Abduraxmonov, SH.Abdullayeva, I.J.Yo’ldoshev kabi tilshunos olimlar terminologiya rivoji uchun munosib hissa qo‘shib, shu yo‘nalishda tadqiqotlar olib borganlar. Shuni tan olish joizki, olimlar tomonidan berilgan ta’riflarning barchasi ham bir-biri bilan mos kelmasa ham, hammasi “termin” so‘zini o‘z qarashi bo‘yicha turlicha ta’riflagan.

Shubha yo‘qki, atamalar adabiy tilning leksik tizimining ajralmas qismidir. Bu borada, atamalar boshqa toifadagi so‘zlardan tubdan farq qiladi. So‘zlar o‘z ichiga juda ko‘p axborot oladi, chunki yuqorida ta’kidlab o‘tilganidek ilmiy (texnik) ma’no beruvchi so‘zlar ilmiy tushunchaning ta'rifini beradi. Misol uchun, “issiqlik manbai”, “yong‘inga qarshi pardoz”, “yonuvchan moddalar”, “yong‘in yuklamasi” kabi ko‘pgina atamalar yong‘in xavfsizligi sohasidagi tadbirlarni to‘g‘ri talqin qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Har bir fan terminologiya fani rivojlanishi natijasida paydo bo‘ldi shu jumladan yong‘in xavfsizligi sohasi ham. Yong‘in xavfsizligi terminologiyasini mukammal bilish - soha tushunchalarini aniqlash va boshqaruvni osonlashtirish uchun xizmat qiladi.

Shu o‘rinda terminologiyaning nima ekanligi haqida alohida to‘xtalib o‘tish maqsadga muvofiqdir. Terminologiya – ma’lum bir tilga tegishli atamalar bilan belgilanadigan haqiqatni ifodalovchi tushunchalar to‘plamidir hamda ma’lum bir sohadagi ixtisoslashgan so‘zlar va tegishli ma’nolar guruhi, shuningdek, bunday atamalarni o‘rganish va ulardan foydalanishdir [9]. Bu atama ma’lum kontekstlarda ma’lum ma’nolarga ega bo‘lgan so‘z, qo‘shma so‘z yoki so‘zli iboradir — ular boshqa kontekstlarda va kundalik tilda bir xil so‘zlarga ega bo‘lgan ma’nolardan farq qilishi mumkin[10]. Terminologiya leksikografiyadan farq qiladi, chunki u tushunchalarni, kontseptual tizimlarni va ularning belgilarini (atamalarini) o‘rganishni o‘z ichiga oladi, leksikografiya esa so‘zlar va ularning ma’nolarini o‘rganadi, shu bilan birga, inson faoliyatining bir yoki bir qancha fan sohalariga xos bo‘lgan “tushunchalarini belgilash”ni muntazam ravishda o‘rganadigan fandir. Terminologiya tilshunoslikning asosiy bo‘limlaridan biri bo‘lib, ba’zi manbalarda terminosistema deb ham ataladi. Terminosistema - inson bilimlari yoki faoliyatining har qanday maxsus sohasi belgilari tizimi, uning tushunchalari tizimiga nisbatan izomorfik, uning kommunikativ ehtiyojlariga xizmat qiladi. Bunga hujjatlashtirish va foydalanishni rag‘batlantirish maqsadida kontekstdagi atamalarni o‘rganish va tahlil qilish orqali erishiladi hamda bir yoki bir nechta tillar bilan cheklanishi mumkin. (Misol uchun, “ko‘p tilli terminologiya” va “ikki tilli terminologiya”) yoki turli sohalarda atamalardan foydalanishga qaratilgan fanlararo xarakterga ega bo‘lishi mumkin.

Tilshunoslikda terminologiya muhim ahamiyat kasb etishi sababli, uning o‘ziga xos asosiy xususiyatlari mavjud: ulardan biri maxsus atamalar to‘plamidir. Bunda har bir sohaning o‘ziga xos terminlari bo‘lganidek, yong‘in xavfsizligi soxasiga oid o‘ziga xos atamalar bor (gazli kesish, payvandlash, yong‘in, alanga va h.), shuningdek, huquqshunoslik (absolyut monarxiya, madaniy huquqlar, badanga yengil shikast yetkazish), tibbiyot (klinik, jarrohlik, tibbiy psixologiya, epidemiologiya), fizika (kvant mexanikasi, katod, absolyut temp), texnologiya (molniya, nadlom, mixcho‘p) kabi sohalarning ham o‘z terminlari mavjud. Keyingi yana bir asosiy xususiyati bu aniqlik va tushunarli bo‘lish. Bu xususiyati orqali terminologiya sohani aniq tushunishga va sohada oson muloqot qilishga yordam beradi. Misol uchun, shifokorlar bemorlarga noto‘g‘ri tushunilishining oldini olish uchun o‘z terminologiyasidan foydalangan holda bemorlar bilan suxbat quradilar yoki aviatsiya sohasida ham uchuvchilar bir-biri bilan maxsus terminlar orqali muloqot qiladilar. Yana bir asosiy xususyati tartibga solish bo‘lib bunda atamalarning mazmunini aniq belgilash terminologiyaning eng buyuk ustuvor xususiyatlaridan biri hisoblanadi. Bu ilmiy tadqiqotlarda yoki hujjatlarda aniq ma’lumot olishni taminlashda muhim rol o‘ynaydi .

Terminologik tadqiqotlarning asosiy ob’ektlari maxsus leksik birliklar (yoki maxsus leksemalar), shu bilan birga eng birinchi navbatda atamalardir. Ular kelib chiqishi, rasmiy tuzilishi, ma’nolari va funktsional xususiyatlari nuqtai nazaridan tahlil qilinadi. Atamalar tushunchalarni belgilash uchun ishlatiladi, shuning uchun terminologiya fani tushunchalarning shakllanishi va rivojlanishi, shuningdek tushunchalar va tushunchalarni tasniflash o‘rtasidagi mavjud munosabatlarni ochib berish tamoyillari bilan bog‘liq; shuningdek, tushunchalarni aniqlash va mavjud ta’riflarni baholash tamoyillari bilan ham shug‘ullanadi. Terminning xususiyatlari va ishlashi uning leksikasiga juda bog‘liqligini hisobga olsak, bugungi kunda terminologiya fanining asosiy ob’ekti sifatida alohida atamalar emas, balki ma’lum bir bilim sohasida ishlatiladigan butun terminologiyani ko‘rish odatiy holdir.

Dastlab terminologiya sohasining rivojlanishi unchalik izchil muvofiqlashtirilmagan edi. Tarixda terminologiya sohasining ikkita asosiy rivojlanishini kuzatish mumkin. Sovet Ittifoqi davrida terminologiya nazariyasi evolyutsiyasi boshlandi va bugungi kungacha hech qanday uzilishlarisiz davom etdi [11]. Terminologiya va tilshunoslik o‘rtasidagi munosabatlar Sovet Ittifoqi va G‘arb mamlakatlarida turli xil bo‘lgan. Sovet Ittifoq davrida Reformatskiy, Vinogradov, Vinokur kabi juda mashhur tilshunoslar terminologiya va muayyan maqsad uchun tilning nazariy asoslarini ishlab chiqishda sezilarli darjada o‘z xissalarini qo‘shganlar [11].

MUHOKAMA

Dalillarga ko‘ra shuni aytish mumkinki, terminlarning boshqa leksik birliklardan farqi; terminlar aynan bir soha, ilm-fan yoki faoliyatga tegishli bo‘ladi, bir til doirasida izohli lug‘atlarsiz ularni aniq va to‘liq tushunishni imkoni yo‘qligi hamda terminlar oddiy so‘zlardan yaratilishi hamda qo‘llanilishi bo‘yicha tubdan farq qilishidir. Istalgan termin ilmiy tushuncha bilan chambarchast bog‘liq bo‘ladi. Terminga qo‘yiladigan talablarning eng asosiylaridan biri uning bir ma’noli bo‘lishidir. Uning shu xususiyati orqali adabiy tildagi boshqa so‘zlardan va

sanoat sohasining lug‘atdagi birliklaridan farqlash mumkin. Terminlarni tildagi boshqa leksik birliklardan ajratadigan xususiyatlari haqida terminolog olimlarning ko‘p hollarda fikrlari bir joydan chiqadi. Terminlarni tahlil qilishda ularning o‘zga leksemalar bilan leksik va semantik aloqada ekanligini ya’ni sinonomik, antonomik, umumiy va xususiy munosobatda ekanligni ko’rish mumkin.

Tilshunoslik fanining ildizi eramizdan avvalgi IV asrlarga borib taqalishi, tilshunoslik fani olamiga juda ham yaxshi ma’lum. Ushbu davrda tilshunos olim Paninin Sanskrit tili grammatikasini ishlab chiqib tilshunoslik fani dunyoga kelishiga sababchi bo‘ldi, hamda, ushbu sohaning rivoji uchun katta xissa qo‘shdi. Oradan vaqt o‘tib, Gretsiyalik tilshunos olimlar alfavit yaratib, tovushlarni unli hamda undosh tovushlarga ajratib tilshunoslik sohasida katta ahamiyat kasb etgan yangiliklar yaratishdi. Tarjimonlik va tarjimashunoslik ham miloddan avvalgi II asr o‘rtalariga kelib shakllanib, milodiy XVII asrlarda sezilarli darajada rivojlangan sohalardan biriga aylanib ulgurgan edi. Biroq shuncha rivojlangan soha bo‘lishiga qaramay, tarjimashunoslikning terminologiya yo‘nalishiga ko‘p ham e’tibor berilmagan edi. XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab bu yo‘nalishiga alohida e’tibor berila boshlandi. Sanoat va ilm-fanning rivojlanishi natijasida yangi dunyo terminologik shakllanishga muhtoj edi. Rus olimi Leychik sanoatlashish natijasida paydo bo‘lgan yangi atamalarni, terminlarni o‘rganayotgan tilshunos olimlarni, terminlar tarjimasini ya’ni terminologik evolyutsiyani “Terminologik portlash” deb nomlaydi[12]

Shu jumladan, shuni alohida ta’kidlash lozimki, O‘zbek tili terminologiyasi ham o‘ziga xos uzundan-uzun taraqqiyot tarixini boshidan o‘tkazgan. O‘zbek adabiy tili leksikasiga oid qonuniyatlar asosida shakllangan terminologik leksika qadimiy turkiy tillar terminologiyasiga borib taqaladi. O‘zbek tili terminologiyasi qadimiy turkiy tillar oilasiga mansub bo‘lib, eski turkiy terminologiya, undan keyin eski o‘zbek adabiy tili terminologiyasi, hamda sho‘rolar davri o‘zbek terminologiyasi va istiqlol davri o‘zbek tili terminologiyasi ko‘rinishida salkam o‘n to‘rt asrlik davrni bosib o‘tgan [13].

O‘zbekiston Respublikasi 1991-yilgacha SSSR tarkibida bo‘lganligi sababli har bir sohada rus tili bilan bog‘liq qadamlarni bosib o‘tgan. O‘zbek tili terminologiyasi sohasi bilan bog‘liq ishlar XX asrning o‘rtalarida O‘zbekiston SSR Oliy Soveti Prezidiumi huzuridagi Til va terminologiya komiteti tomonidan boshqarilgan (1931—1937-yillarda faoliyat ko‘rsatgan), keyinchalik 1964-yildan O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Til va adabiyot instituti qoshidagi terminologiya bo‘limi nazoratiga o‘tgan. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Respublika atamashunoslik qo‘mitasi 1988-yildan 2004-yilgacha o‘zbek tili terminologiyasini nazorat qilib, takomillashtirib kelgan [14].

XULOSA

So‘nggi paytlarda tilshunoslik fani rivojlanib, o‘z tadqiqot maydonini boyitar ekan, har bir soha terminlarini o‘rganish uning eng muhim va dolzarb masalalaridan biriga aylandi. Hozirgi davrda terminlarni o‘rganish orqali tilshunoslikning alohida tarmog‘i - terminologiya shakllandi va kundan-kunga rivojlanib borayotgan sohalardan biriga aylanib bormoqda. Xalqaro

munosabatlarni ifodalovchi siyosiy va ijtimoiy terminlarni o‘z ichiga olgan har qanday til leksikasining salmoqli qismini tashkil etishda terminlar asosiy rol o‘ynamoqda. Istalgan til va madaniyatni o‘zaro munosabatini tasvirlashda, ayniqsa, tarjima jarayonida mavzuga mos terminlarga duch kelinadi. Til birliklari orasida terminlar so‘z va so‘z birikmasi obyektlarini nomlash va farqlash kabi vazifalari, shuningdek, individuallashtirish va identifikatsiyalash kabi tamoyillari bilan alohida ajralib turadi. Xalqlar va madaniyatlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarda terminlar muammosi azal-azaldan mavjud.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Madvaliyev, A. va boshqalar. (2006). “O’zbek tilining izohli lug’ati”. Toshkent. 73-bet
2. Kalinina M.A. Structural and Semantic Organization of Choreographic Terminology in Russian (Based on Gallicisms and French Barbarisms). Bulletin of the South Ural State University. Ser. Linguistics. 2018, vol. 15, no. 2, pp. 38-42. (in Russ.). DOI: 10.14529/ling18020
3. Usmonov, S. (2007). “Yuristning nutq madaniyati”. Toshkent - 233-bet
4. Винокур, Г.О. (1993). “О некоторых явлениях словообразования в русской технической терминологии”. Т. 5
5. Nishonov, P. (2009)“Fransuz va o'zbek tillari yuridik terminologiyasining qiyosiy-tipologik tadqiqi” Номз.диссер... автореф. – Тошкент. 17-bet
6. Суперанская, А.В. (2003). «Общая терминология». – Москва : URSS, –S.56. - 246 с.
7. Реформатский, А.А. (1996). «Введение в языковедение». – М.: Аспект Пресс, . – 536 с.
8. Головин, Б.Н. (1987). «Лингвистические основы учения о терминах»: Учеб. Пособие для филол. Спец. Вузов. – М.:Высш.шк – 104 с.
9. Сонневельд, Х., Лоеннинг, К.: (1994): Введение в терминологию, в "Терминологии". 1-6 с
10. Райт, С. Э.; Будин, Г.: (1997): Справочник по управлению терминологией, том 1, Основные аспекты управления терминологией, Амстердам, Филадельфия, Джон Бенджаминс, 370 с.
11. Moschitz-Hagspiel (1994). “Die Sowjetische Schule der Terminologie” (1931–1991), Wien: TermNet, IITF-Series 5.
12. H. Dadaboyev. “O‘zbek tili terminologiyasi”. Toshkent 2019- 4-8 b
13. Vikipedia, Erkin ensiklopediya
https://uz.wikipedia.org/wiki/Terminologiya

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 1-son)

FILOLOGIYA

PHILOLOGY

SAMAR BONUNING BIR G‘AZALI LINGVOPOETIKASI

Mahbuba Tojiboeva
QDPI dotsenti, arabshunos,
Sadoqat Sotvoldieva
erkin tadqiqotchi
sotvoldiyevasadoqatxon@gmail.com

Annotatsiya Maqolada Huvaydoyi Chimyoniy shajarasidan chiqqan sohibidevon Samarbonuning hazrat Alisher Navoiyning bir g‘azaliga tazmin bo‘lgan “sanga” radifli g‘azalining lingvopoetikasi haqida mulohaza yuritilgan. Unda lingvopoetik unsurlarning matn fonetikasi, leksikasi hamda sintaksisida namoyon bo‘lishiga e’tibor qaratilgan. Bular orqali g‘azal matnida badiiy tilning jozibadorligi, obrazlilik hamda ta’sirchanlikni yuzaga keltirishdagi imkoniyatlari yuzasidan fikr bildirilgan. Natija o‘laroq, Alisher Navoiyning asarlarining nafaqat mavzulari, balki tildan foydalanish mahorati ham keyingi avlod shoirlari uchun, hatto ayollar she’riyati uchun ham bir maktab vazifasini o‘taganligi xususida xulosalar havola etilgan.

Kalit so‘zlar An’ana, tazmin, lingvopoetika, badiiy til, g‘azal, radif, qofiya, tovush, metafora, antonim, sinonim, omonim, arabizm, intertekstuallik, allyuziya, musajja’lik, ellips.

ГАЗАЛЬ САМАР БОНУ ЛИНГВОПОЭТИКА

Аннотация В статье рассматривается лингвопоэтика лучистой газели «Санга» Сахидевавана Самарбану, выходца из семьи Хувайдои Чимёни, основанной на газели хазрата Алишера Навои. Основное внимание уделяется проявлению лингвопоэтических элементов в фонетике, лексике и синтаксисе текста. Через них текст газели выражает мнение о привлекательности, образности и возможностях художественного языка в создании впечатляемости. В результате делаются выводы о том, что не только тематика произведений Алишера Навои, но и мастерство владения языком послужили школой для поэтов следующего поколения, даже для женской поэзии.

Ключевые слова Традиция, тазмин, лингвопоэтика, художественный язык, газель, радиф, рифма, звук, метафора, антоним, синоним, омоним, арабизм, интертекстуальность, аллюзия, муджаджи, многоточие.

A GHAZAL OF SAMAR BONU LINGUOPOETICS

Annotation The article discusses the linguopoetics of the radiative ghazal "sanga" by Sahibidevan Samarbanu, who came from the family of Huvaidoi Chimyoni, based on a ghazal

of Hazrat Alisher Navoi. It focuses on the manifestation of linguopoetic elements in text phonetics, lexis and syntax. Through these, the ghazal text expresses an opinion on the attractiveness, imagery and the potential of the artistic language in creating impressiveness. As a result, conclusions are drawn that not only the themes of Alisher Navoi's works, but also the skill of using language served as a school for poets of the next generation, even for women's poetry.

Key words Tradition, tazmin, linguopoetics, artistic language, ghazal, radif, rhyme, sound, metaphor, antonym, synonym, homonym, Arabism, intertextuality, allusion, musjaji, ellipsis.

KIRISH

Alisher Navoiy yaratgan lirik va epik asarlar necha yuz yilkim, shoir-u nosirlarga bir ijod manbai bo‘lib kelmoqda. Uning she’riyatiga muxammaslar bog‘lanishi, tatabbu’lar qilinishi, ayrim bir timsollar, badiiy til vositalaridan ijodiy foydalanib kelinayotganligining sababi bu daho san’atkor adabiy merosidagi tafakkur mevalari, timsollarning boqiyligi, til vositalarining zargarona tanlanib, ta’sir darajasining hamma zamonlarga mosligidandir. Kezi kelganda bir mulohazani aytib o‘tishni istardik: hazrat Alisher Navoiy she’riyatiga teng keladigan she’r, bizningcha, hali yaratilgan emas. Ayrim tadqiqotlarda muayyan bir shoir she’riyatining mukammallik darajasiga baho berilganida, “navoiyona” deyilgani bilan, bu benazir shoir she’riyatining “darajasida” deyilishiga istihola qilib turiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA.

O‘zbek she’riyati tarixiga murojaat qilinsa, aksariyat taxmislar, tazminlar-u tatabbu’lar Alisher Navoiy g‘azallariga bog‘langan. Bundan o‘zbek ayollar she’riyatining vakillari ham chetda qolmagan. Hech bo‘lmaganda, Alisher Navoiy qo‘l urgan misralar, baytlar, timsollar, badiiy til vositalari ular she’riyatiga bir bezak bo‘lib kirganligining o‘zi fikrlarimizga yaqqol dalil bo‘la oladi. Huvaydoyi Chimyoniy shajarasidan chiqqan sohibi devon shoir Samar Bonu adabiy merosida “senga” radifli bir g‘azal bor. [220] [190] Bu Alisher Navoiyning “Ko‘rgali husningni zor-u mubtalo bo‘ldim sango, Ne balolig‘ kun edikim, oshno bo‘ldim sango” [221][22] matla’li g‘azaliga tazmin qilingan. Chunki Samar Bonu g‘azalning matla’sining dastlabki misrasini Alisher Navoiydan olgan. To‘g‘ri, Samar Bonu misrasidagi bitta so‘zda – to‘liqsiz fe’lning ishlatilishida farq mavjud: “Ne balolug‘ kun ekandur oshno bo‘ldum sanga”: Navoiyda “edikim”; Bonuda “ekandur”. Shuningdek, hajmida: Navoiyda 7 bayt, Bonuda 9 bayt. G‘azal kompozitsiyasiga tegishli qofiya, radif hamda vazn bir xil: Navoiy qofiyasida “o” tovushi raviy, muqayyad qofiya; Samar Bonuda ham shunday. Navoiy radifi inversiyali “bo‘ldum sanga” birikmasi. Bonuda ham xuddi shunday. Navoiy g‘azalining vazni ramali musammani mahzuf (foilotun foilotun foilotun foilun). Bonuda ham shunday.

[220] Самар Бону ғазаллари. // Жалолов Т. Нафосат жилолари. – Т.: Адабиёт ва санъат нашр., 1974.- Б.181-221

[221] Навоий Алишер. Ғаройиб ус-сиғар. // Алишер Навоий. Тўла асарлар тўплами. 10 жилдлик. 1-жилд. – Т.: Ғ.Ғулом номидаги НМИУ, 2011.

Lingvopoetika lingvistika hamda poetikaning uyg‘unlashgan shaklini tekshiruvchi fan yo‘nalishi hisoblanar ekan, mazkur fan yo‘nalishi badiiy asarning so‘zlar (poetizmlar) vositasida yuzaga kelgan matnini ayni badiiy asar muallifining mahorati nuqtai nazaridan tekshiradi. SHu sababli lingvopoetikaning tekshirish ob’ekti badiiy matn hisoblanadi. Buni lingvopoetikaga berilgan ta’riflar ham to‘la tasdiqlaydi. Tilshunos A.A.Lipgart "lingvopoetika - bu filologiyaning bir bo‘limi bo‘lib, lingvopoetika masalalari doirasida badiiy matnda uslubiy markerlangan birliklar qo‘llanilishi, matnda ular estetik effekt berishga yo‘naltirilgan bo‘lishi hamda shu maqsadda badiiy matn mazmuniy strukturasida qo‘llanilishi",[222] degan ekan, uning lingvopoetika yo‘nalishi, birinchi galda, badiiy matn bilan ish ko‘radi, degan fikrlariga to‘la qo‘shilish mumkin. Bundan badiiy tilni tadqiq etishning asosiy ob’ekti badiiy matn hisoblanadi, degan qarash mutlaqo to‘g‘ri ekanligini anglanadi. Lingvopoetikada so‘z yetakchilik qiladi. Uni matndan ajratib olingandagina qanday semantik xususiyat kasb etishi e’tiborda tutiladi. Deylik, biror so‘z matndan tashqarida turar ekan, uni faqat denotativ ma’nosi bilan qabul qilinadi. Qachonki matn ichiga kirsagina, o‘z ma’nosida yoki baholash ma’nolarida (konnotativ ma’noda) namoyon bo‘ladi. So‘zlar uyushmasi gapni hosil qilsa, gaplar uyushmasi matnni yuzaga keltiradi. Demak, lingvopoetik tadqiqda so‘z e’tiborda tutilsa ham, uni matndan ajratgan holda baholab bo‘lmaydi.

Badiiy asarlarning g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari aynan so‘z vositasi orqali ochib beriladi. Shu sababli ham so‘zning asar mazmunini aks ettirishdagi roli beqiyos. Bu bilan badiiy asarda qo‘llanayotgan lingvistik birlik poetizmlar darajasiga ko‘tarilib, matnda emotsionallikni yuzaga keltirishi shart. SHu ma’noda yozuvchi badiiy asardagi voqelikni tasvirlar ekan, kitobxonning nozik tafakkuriga ta’sir qiluvchi vositalarni izlab topadi; leksemalarni fonetik, leksik, morfologmk va sintaktik shakllariga o‘zgartishlar kiritadi va bu orqali matnda rang-barang tasvirlar galareyasi paydo bo‘ladi va bular ishtirokida obraz yaratadi. Bunday ifodalanish ba’zida normativ lingvistikaga zid qo‘yiladi, zidlanish lisoniy vositalar ko‘magida ifodalanganligi uchun shakl va ma’nodagi rang-baranglik lingvopoetik vazifa bajaradi. Voqealarning badiiy tasvirida shunday vaziyatlar mavjud bo‘ladiki, ularni lisoniy shakllar bilan ifodalashning imkoniyati bo‘lmaydi. Bunga milliy urf-odatlar va milliy mentalitet yo‘l qo‘ymaydi. Shuning uchun ham biror predmet, narsa, hodisalar obrazli vositalar orqali ifodalanadi. Yozuvchi nazarda tutgan badiiy voqelikni ifodalash uchun lisoniy birliklar o‘rnida ekstralingvistik vositalar qo‘llaniladi. Bunday vaqtlarda nolisoniy va ekstralingvistik vositalardan ham foydalaniladi. SHuning uchun ham lisoniy vositalar tasviri qatorida boshqa vositalar ham o‘z ifodasini topadi, barcha poetik vositalar zimmasiga yozuvchi tomonidan badiiy-g‘oyaviy yuk yuklanadi.[223] Bu esa uning badiiy mahorati hisoblanadi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR.

Samar Bonuning biz nazarda tutayotgan g‘azalida lingvopoetikaning fonetik, leksik, morfologik va sintaktik vositalaridan birqanchasi ishtirok etgan. Masalan, “bo‘ldim” fe’lida “i”

[222] Липгарт А.А. Основы лингвопоэтики. – М.: Наука, 1992. - Стр 32.
[223] Тошхўжаева Ш. Эркин Аъзам лингвопоэтикаси.- Т.: Фан, 2015. – 43-44.

unlisining, “ekandur” fe’lida ham “i” unlisining, “o‘qidin” so‘zida “a” unlisining “i” bilan, “-ib” ravishdoshidagi “i” tovushining “u” bilan almashinuvi, “so‘rmading” so‘zidagi “a” unlisining, “nahlin” so‘zida o‘zakdagi “o” va oxirgi “i”ning (tushum kelishigining poetik varianti), “dodxo” so‘zida “h” undoshining tushirib qoldirishini, 7-baytda “savole” so‘zida “e” unlisining orttirilishini, garchi bular mumtoz she’riyat va eski adabiy tilga xos bo‘lsa ham, bugungi til nuqtayi nazaridan lingvopoetikaning fonetik vositasi sifatida qarash o‘rinli deb o‘ylaymiz. Yoki g‘azalning 8-baytining 2-misrasida “d” va “b” allitratsiyasining voqe’ bo‘lishi ham xuddi shunday poetik jiloga sabab bo‘lmoqda: “Dardim to‘la, darmoni yo‘q, bir bedavo bo‘ldim sanga”.

Ayrim o‘rinlarda qo‘shimchalarning poetik shakllaridan foydalanish ham g‘azal tiliga ohor, foniga ohangdorlik bag‘ishlaydi; undagi ritm maromining bir tekisda bo‘lishini ta’minlaydi. Mumtoz shoirlar she’riyatida, jumladan, ayollar she’riyatining vakili Samar Bonuda ham chiqish kelishigi qo‘shimchasi “din” shaklida, o‘tgan zamon –di qo‘shimchasi “du” ko‘rinishida, sifatdosh qo‘shimchasi –gan “-g‘on” va “mush” tarzida, nisbat shakli -il “-ul” holatida, -ib faol ravishdosh ko‘rsatkichi “-ub” bo‘lib, maqsad ravishdoshi qo‘shimchasi –gani “-g‘ali” shaklida kelib she’rning poetik ohangdorlik bilan ta’minlaydi. Bonu g‘azalida bu qo‘shimchalar “o‘lub”, “kuyub”, “o‘qidin”, “o‘lmush”, “borg‘ali”, “so‘rg‘ali”, “yozg‘ali”, “ayrulg‘on” so‘zlarida uchraydi. G‘azalning 8-baytida “topmadim” so‘zining “topmam” tarzda qo‘llanishini ham poetizmga daxldor deb bilamiz.

G‘azalda lingvopoetikaga tegishli leksik vositalar talaygina. Lingvovoetikada metaforaning o‘rni alohida. Qalamkashlar metafora orqali timsol va obrazlilikning ta’sirchan ko‘rinishlarini hosil qiladilar. Samar Bonu g‘azalidagi 4-baytda

Ohim o‘qidin bir sharar tegsa raqibning ko‘ksiga

Vayron etar koshonani, bir dodxo bo‘ldim sango, - deyilar ekan, baytdagi “o‘q”, “sharar” (uchqun, alanga, olov), “koshona” so‘zlarini metaforaga yo‘yish mumkin; “o‘q” metaforasi ko‘chma ma’noda kishi oh tortgandagi holatga daxldor. Bunda ham yashirin o‘xshatish mavjud bo‘lib, oshiqning ohidan chiqqan sadolar misoli o‘q bo‘lib, raqib ko‘ksiga tegadi. Raqibning ko‘ksi (koshona metaforasi)ni yorib yuboradi. Shuningdek, 6-baytda

Qomatlaring nahlin ko‘rub, qon bog‘ladi dil g‘unchasi,

Guldek jamolingga qarab, bir xushnavo bo‘ldum sanga, - degan shoira “nahl” (nihol), “g‘uncha”, “xushnavo” metaforalarini ishlatadi. Ayni chog‘da, g‘azal baytlarida “misli gado”, “guldek jamoling” o‘xshatishlarini shoira mahorati qatorida sanash mumkin. Negaki, ”nihol” so‘zi mumtoz she’riyatda aksar hollarda ma’shuqaning raso qomati tasvirida metafora bo‘ladi. Dilning “g‘unchasi” deyilganda esa ko‘ngil tushuniladi; “xushnavo” – bulbul. Ya’ni “dil g‘unchasi” birikuvi oldidan kelgan “qon bog‘ladi” etnonimi g‘unchaning qip-qizil qonni eslatuvchi xalq iborasi sifatida ko‘zga tashlanadi.

Samar Bonuning zikri borayotgan g‘azalida takrorlarga ham o‘rin berilgan. Jumladan, g‘azalning 1-, 2-, 4-, 5-,6- va 8-baytlarida ado, xokipo, dodho, mubtalo, xushnavo, bedavo

qofiyalaridan oldin hojib sifatida kelgan “bir” so‘zining qo‘llanilishi ham she’rga fayz bag‘ishlagan.

G‘azalning ikkinchi baytining lisoniy mazmuni tubandagicha: Sen mening qoshimda (yonimda) bir dam turmading, sening visoling hajrida bemor bo‘lgan holimni so‘ramading, olding yuzingni pardaga, natijada, men oyoq ostidagi tuproqqa aylanib qoldim. Lingvopoetikada “allyuziya” degan usul mavjud. Unga ko‘ra ayrim antropoetonimlar tamsil (yoki talmeh) san’ati sifatida tilga olinar ekan, ana shu vositaning tagma’nosiga ishora qilish bilan obrazlilik hosil qilinadi. Yoki muallif ana shundagi tagma’noni muxtasar ishora bilan o‘quvchiga eslatadi. Bu allyuziyaning boshqacha ko‘rinishi. Samar Bonu baytda Alloh taolo bilan so‘zlashgan Muso (a.s.)ning Yaratgandan yuzini ko‘rsatishini iltimos qilganida, Alloh taolo qirq ming pardadan turib, Muso (a.s.)ga Tur tog‘iga qarashini buyuradi. Muso (a.s.) Tur tog‘iga qaraganida, tog‘ bir samum (sahroning tekis joyi)ga aylanib qoladi. “Olding yuzingni pardaga” birikmasida shunga ishora mavjud.

G‘azaldagi inversiyalar (bog‘lab ko‘ngulni(ng) rishtasin; qon bog‘ladi dil g‘unchasi; ko‘ngul tilaydi vaslini, topmam muhabbat aslini; to‘ysam ko‘rub diydorini), forsiy izofalar (chorayi tadbir; sohib sado, sohib qazo) lar, musajja’ qofiyalar (g‘azalning 2-, 7-, va 8-baytlri) ham she’rga alohida ohor bag‘ishlagan.

XULOSA

Xullas, Samar Bonu mazkur tazmin g‘azalini hazrat Alisher Navoiyning zikr etilgan g‘azali darajasiga olib chiqishga harakat qilgan. Bular g‘azalda voqe’ bo‘lgan poetik mazmun va istifoda qilingan poetik vositalar fonida ko‘zga yaqqol tashlanadi. Ayni paytda lingvopoetik vositalar shoiraning shakllanib ulgurgan uslubini, nazokatga to‘yingan mahoratini ko‘rsatuvchi jihat sifatida ham baholanishini taqozo qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Қуръони карим. Ўзбекча изоҳли таржима. –Т.: Чўлпон, 1992.

2. Қуръони карим маъноларининг таржима ва тафсири (таржима ва тафсир муаллифи Абдулазиз Мансур). – Т., 2004.

3. Самар Бону ғазаллари. // Жалолов Т. Нафосат жилолари. – Т.: Адабиёт ва санъат нашр., 1974.- Б.181-221

4. Навоий Алишер. Ғаройиб ус-сиғар. // Алишер Навоий. Тўла асарлар тўплами. 10 жилдлик. 1-жилд. – Т.: Ғ.Ғулом номидаги НМИУ, 2011. –Б 22.

5. Липгарт А.А. Основы лингвопоэтики. – М.Наука, 1992. - Стр 32.

6. Тошхўжаева Ш. Эркин Аъзам лингвопоэтикаси.- Т.: Фан, 2015. – Б. 43-44.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 1-son)

FILOLOGIYA

PHILOLOGY

SHIMOLIY TOJIKISTON TURKIY TOPONIMLARI LEKSIKOGRAFIK TALQININI TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI

Mo‘min Turdibekov
Renessans Ta’lim Universiteti Professori
Filologiya fanlari doktori

Annotasiya Toponimik yo‘nalishda keyingi yillarda olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar toponimlarning leksikografik talqini olimlar tomonidan turlicha amalga oshirilganligini ko‘rsatadi. Toponimik lug‘atda joy nomlari va ularning lisoniy va nolisoniy asoslari yoritiladi. Tadqiqotlarning ko‘rsatishicha, sof so‘g‘dcha va tarkibida so‘g‘d tiliga tegishli unsurlar saqlanib qolgan toponimlar, asosan, aholi maskanlari nomlariga tegishli. Toponimiyada bu xil nomlar deyarli uchramaydi. Lekin orkografik obyektlarni ifodalovchi ayrim bir lug‘aviy birliklar joy nomlarida saqlanib qolgan.

Kalit so‘zlar: Toponimik, leksikografik, lug‘at tarkibi, til, So‘g‘d, joy nomlari.

ПЕРСПЕКТИВЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ЛЕКСИКОГРАФИЧЕСКОЙ ИНТЕРПРЕТАЦИИ ТЮРКСКИХ ТОПОНИМОВ СЕВЕРНОГО ТАДЖИКИСТАНА

Аннотация Научные исследования в топонимическом направлении, проведенные в последние годы, свидетельствуют о том, что лексикографическая интерпретация топонимов проводилась учеными по-разному.Топонимический словарь охватывает географические названия и их лингвистические и нелинейные основы.Исследования показали, что чисто согдийские названия и топонимы с сохранившимися в их составе элементами, относящимися к согдийскому языку, относятся в основном к названиям населенных пунктов.Озорные названия редко встречаются в топонимии. Но некоторые глоссарные единицы, представляющие орографические объекты, сохранились в топонимике.

Ключевые слова: топонимический, лексикографический, словарный состав, язык, Согдийские географические названия.

PROSPECTS FOR IMPROVING THE LEXICOGRAPHIC INTERPRETATION OF TURKIC TOPONYMS OF NORTHERN TAJIKISTAN

Annotation Scientific research in the field of toponymy conducted in recent years indicates that the lexicographic interpretation of toponyms was carried out by scientists in different ways.The toponymic dictionary covers geographical names and their linguistic and non-linear foundations.Studies have shown that purely Sogdian names and toponyms with

elements related to the Sogdian language preserved in their composition relate mainly to the names of settlements.Mischievous names are rarely found in toponymy. But some glossary units representing orographic objects have been preserved in toponymy.
Keywords: toponymic, lexicographic, vocabulary, language, geographical names of Sogd.

Kirish (Introduction). Toponimik yo‘nalishda keyingi yillarda olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar toponimlarning leksikografik talqini olimlar tomonidan turlicha amalga oshirilganligini ko‘rsatadi. Toponimik lug‘atda joy nomlari va ularning lisoniy va nolisoniy asoslari yoritiladi. O‘zbek leksikografiyasi ham bunday lug‘atlarga ega. S.Qoraev qalamiga mansub “Geografik nomlar ma'nosini bilasizmi?” (Toshkent, 1970); Z.Do‘simov va X.Egamovlar tomonidan nashr qilingan “Joy nomlarining izohli lug‘ati” (Toshkent, 1977); T.Nafasov tomonidan “O‘zbekiston toponimlarining izohli lug‘ati” kabilar joy nomlari lug‘atining ibratli namunalaridir. B.O‘rinboev tomonidan tuzilgan “Asrlardek barhayot nomlar” (Toshkent, 2003) lug‘ati ham joy nomlariga bag‘ishlangan bo‘lib, unda Samarqand viloyati toponimlari izohlangan.

Shimoliy Tojikistondagi toponimlarning tarkibi o‘zbekcha-tojikcha, o‘zbekcha-so‘g‘dcha, o‘zbekcha-arabcha, o‘zbekcha-ruschadan tashkil topgan. Bu Shimoliy Tojikistonda etnik ko‘pchilikni tashkil qiladigan o‘zbeklar bilan boshqa etnik tarkibning o‘zaro bir-biriga ta'siri natijasida yuzaga kelgan bo‘lsa ajab emas.

So‘g‘d tiliga tegishli lug‘aviy birliklar asos bo‘lgan toponimlarni oz bo‘lsada Shimoliy Tojikistonda uchratamiz. Ma'lumki, o‘zbek tili o‘zining leksik tarkibiga ko‘ra turli lug‘aviy qatlamlardan tashkil topgan. Ular orasida nisbatan qadimgisi eroniy tillarga, aniqroq qilib aytadigan bo‘lsak, so‘g‘d, fors-tojik, arab tillariga tegishli qatlam hisoblanadi. Hozirgi kunga kelib, o‘zbek tilshunosligida qadimiy so‘g‘d, xorazm, fors-tojik va arab tillarining o‘zbek tili bilan munosabati, buning zamirida ularning o‘zbek tiliga ta'siri masalasi toponimlar misolida ma'lum bir darajada o‘rganilgan va o‘rganilmoqda. Jumladan, Xorazm toponimlarining tadqiqiga bag‘ishlangan Z.Do‘simov, A.Otajonavalarning monografik tadqiqotlarida va boshqa tilshunos olimlarning bir qancha maqolalarida toponimlar tarkibida qadimgi xorazm tiliga mansub lug‘aviy birliklar ham saqlanib qolganligini ko‘rsatadi. Shuningdek, so‘g‘d tiliga tegishli toponimlar yoki tarkibida so‘g‘d tiliga tegishli lug‘aviy birliklar saqlanib qolgan toponimlarning tadqiqiga bag‘ishlangan bir qancha ishlar yuzaga keldi. Jumladan, O.Begimovning “Janubiy O‘zbekiston toponimlarining o‘zlashgan qatlami” mavzusida yozilgan dissertatsiya ishi bevosita o‘zbek tiliga eroniy tillardan o‘zlashgan toponimlar tadqiqiga bag‘ishlangan. Mazkur ishda qadimgi eroniy tillar sirasiga kiruvchi so‘g‘d tili va hozirgi eroniy tillar sirasiga kiruvchi fors-tojik tillariga tegishli toponimlar hamda bu tillarga tegishli lug‘aviy unsurlardan shakllangan o‘zbekcha toponimlar keng va atroflicha tadqiq etilgan. Undan tashqari, P.B.Lure tomonidan ham so‘g‘diy toponimlar tarixiy-lisoniy jihatdan monografik tarzda o‘rganilgan.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Tadqiqotlarning ko‘rsatishicha, sof so‘g‘dcha va tarkibida so‘g‘d tiliga tegishli unsurlar saqlanib qolgan toponimlar, asosan, aholi maskanlari nomlariga tegishli. Toponimiyada bu xil nomlar deyarli uchramaydi. Lekin orkografik obyektlarni ifodalovchi ayrim bir lug‘aviy birliklar joy nomlarida saqlanib qolgan.

g‘ar//xar komponentli toponimlar: Shimoliy Tojikistonning ayrim toponimlari tarkibida -*g‘ar* komponenti va uning fonetik variantlari ham uchraydi. Bunday toponimlar, ayniqsa, qadimda So‘g‘d va Istarafshanda keng tarqalgan. Dastlab *orkografik atama* bo‘lgan bu topoformant orqali yasalgan toponimlar, asosan, aholi maskanlari nomlariga tegishli. Ushbu hududida uchraydigan -*g‘ar* komponentli toponimlar etimologik jihatidan so‘g‘dcha “g‘ar” – tog‘ < qadimgi eroniy “g‘ari” (o‘rta avesto tilida “g‘arov”- tog‘, tog‘ tizmasi) so‘ziga borib taqaladi. A.L.Xromov So‘g‘d hududida bo‘lgan qadimgi Vazog‘ar, Xushog‘ar, Bishog‘ar, Jag‘rog‘ar, Shovg‘ar, Barg‘ar toponimlarini keltiradi. Afg‘oniston hududida ham -g‘ar komponentli toponimlar uchraydi. Lekin ular pushtu tilida mavjud bo‘lgan *g‘ar* so‘zi vositasida yaratilgan. Masalan: Sping‘ar – Safedko‘h “oq tog‘”. Yuqori Zarafshonda Ilg‘ar, Askig‘ar, *Tog‘ar qishloq* nomlari borligi qayd etilgan. Yag‘nobda *Shovg‘ar, Log‘ar, Safedg‘ar, Darg‘ag‘ar* toponimlari ham so‘g‘dcha *g‘ar* termini yordamida yasalgan. Tarkibida *g‘ar* (tog‘) ma'nosini beruvchi so‘z bo‘lgani bilan bu tipdagi nomlarning hammasi ham toponimlarga tegishli emas, -*g‘ar* komponentli toponimlar tog‘ ma'nosini anglatsa ham, ular asosan odamlar yashaydigan yoki insonlar tomonidan o‘zlashtirilgan, oshib o‘tish mumkin bo‘lgan tog‘li joylarni anglatadi. Bu so‘zdan shakllangan oronimlar keyinchalik shu xususiyatiga ko‘ra oykonimlarga o‘tgan.

Undan tashqari, Hisor tog‘ tizmasiga tegishli tog‘da *Arpaqori* nomli maydon bor. Bu nom tarkibidagi *qori* komponenti ham g‘ar so‘ziga daxldor. Uning tuzilishi Arpaqori< *arpa+qor+i; arpa<arba, arba* – tojikcha dovon ma'nosiga ega. Qor>g‘ar – tog‘, dovon; -i affiksi mavjudlik, xoslik ma'nosini beradi. Demak, arpaqori<arbag‘ari, ya'ni “tog‘ dovonidagi tekis maydon”.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology) Shu o‘rinda yana bir mulohazani keltirish lozim deb o‘ylaymiz. Oronimning ikkinchi komponenti bo‘lib kelgan *xara* so‘zi nisbatan qadimiy hisoblanishi ham mumkin. Bu fikrni ma'lum bir jihatdan “Avesto” kitobida keltirilgan *Xara* oronimi ham tasdiqlaganday bo‘ladi. U asarda zamin kurrasini ihota qilgan afsonaviy tog‘ silsilasi sifatida ko‘rsatilgan. Demak, bu nomga asos bo‘lgan *xara* so‘zi zamirida “tog‘, tosh” tushunchasi yotadi. Shuningdek, asarda “xar-barazayti” atamasi ham keltirilgan bo‘lib, u “yuksak xara” ma'nosida tarjima qilingan. O‘zbek tilida qo‘llanadigan “xarsang tosh” birikmasi tarkibidagi *xar* so‘zi ham shu so‘z bilan bog‘liq. Bu birikma tarixiy tuzilishiga ko‘ra uchta leksemadan tashkil topgan: *xar+sang tosh.* Ularning ma'nosi aslida bir xil. Dastlab, *xar* so‘zi qadimgi eroniy tilda “tosh, tog‘” tushunchalarini ifodalagan. Keyinchalik, fors-tojik tili bazasida sang (“tosh”) so‘ziga aniqlovchi komponent sifatida qo‘shilgan va “katta tosh, yirik tosh” ma'nosidagi qo‘shma so‘z yasalgan. Til taraqqiyotining ma'lum bir davriga kelib, bu

so‘zdan o‘zbek tili bazasida xarsang tosh (“yirik tosh”) birikmasi shakllangan. Shu bilan birga tosh indikatorli joy nomlarini Shimoliy Tojikistonda ko‘p uchratamiz. Masalan:

1. Qishloq nomlari: Panjikent tumanida *Ko‘ktosh,* Isfara tumanida *Toshqo‘rg‘on*, Spitamen tumanida *Toshko‘prik* toponimlari shunday hosil bo‘lgan.

2. Mahalla nomlari: Asht tumani Punuk qishlog‘ida *Toshsang*, Jabbor Rasulov tumani Xitoyreza qishlog‘ida *Toshloq,* Dehmoy qishlog‘ida *Toshloq,* G‘o‘lankandoz qishlog‘ida *Teppatosh*, *Toshloq,* Yangiqishloq qishlog‘ida *Toshloq,* Xo‘jand tumani Qatag‘an qishlog‘ida *Toshtepa* nomli mahallalar mavjud.

3. Qabriston nomlari: Panjikent tumanida *Ko‘ktosh,* Jabbor Rasulov tumani Dehmoy qishlog‘ida *Toshqo‘rg‘on* qabristonlari nomi bunga misol bo‘ladi.

4. Yaylov nomlari: Jabbor Rasulov tumani Dehmoy qishlog‘ida *Toshqo‘rg‘on,* Qo‘rg‘oncha qishlog‘ida *Toshqo‘ton,* Istaravshan tumani Kengko‘l qishlog‘ida *Oqtosh* kabilar yaylov nomlaridir.

5. Adir va tepalik nomlari: Jabbor Rasulov tumani Xitoy qishlog‘ida *Toshkalla*, G‘onchi tumani Anbarg‘oz qishlog‘ida *Toshloqqiya,* Istaravshan tumani Kunjak qishlog‘ida *Toshgachiqqan, Qoratosh,* O‘roqli qishlog‘ida *Qoratosh* oronimlarini hosil qilgan.

6. Bog‘ nomlari: Jabbor Rasulov tumani Xitoy qishlog‘ida *Toshqo‘rg‘on,* Qo‘rg‘oncha qishlog‘ida *Qo‘ytosh,* Quturbuloq qishlog‘ida *Qoratosh* bog‘ nomlari uchraydi.

7. Soy nomi: Istaravshan tumani Surxobcha qishlog‘idagi soy nomi Oqtosh deb yuritiladi.

8. Guzar nomi: O‘ratepa shahrida *Toshkandlik, Toshbek,* Istaravshan tumani Kunjak qishlog‘ida *Toshtepa* guzarlari.

9. Buloq nomi: Istaravshan tumani Pashshi qishlog‘ida *Toshbuloq* nomli gidronimni uchratamiz.

10. Jabbor Rasulov tumani Qo‘rg‘oncha qishlog‘ida *Choltosh* nomli bo‘r koni joylashgan.

Bu ro‘yxat ko‘rsatilgan toponimlar bilan yakun topmaydi. Tosh indikatorli toponimlar Shimoliy Tojikistonning istalgan hududidan topish mumkin. Buning sababi shu hududning geografik relefi hamda o‘zbek-tojik xalqlarining bir necha ming yillardan beri bir hududda yashab kelayotganligi bilan izohlash mumkin.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). -mas//-mos komponentli toponimlar. Shimoliy Tojikiston toponimiyasida tarkibida *-mas* va uning fonetik varianti -mos formantlaridan shakllangan nomlar ham uchraydi. Bugungi kunda ayrim toponimlar tarkibida formant sifatida saqlanib qolgan bu so‘z asli kelib chiqishiga ko‘ra sharqiy eroniy, aniqrog‘i so‘g‘d tiliga borib taqaladi. Demak, bu so‘z so‘g‘d tilida *mos~mas* – “tog‘, tog‘ tizmasi; cho‘qqi, qoya; balandlik” ma'nolariga ega bo‘lgan. Ayrim toponimlar tarkibida aniqlovchi komponent bo‘lib kelishiga qaraganda, bu so‘z “baland, yuksak” kabi belgi bildiruvchi ma'no xususiyatini ham namoyon qilgan. *–mas ~maz~mos* va bularning yana bir fonetik varianti *-mast* komponentli nomlar Shimoliy Tojikistonning tog‘li hududlari toponimiyasida uchraydi: Mastchoh//Matcho (Tojikistondagi tog‘, qishloq, tuman nomlari). Uning ma'no xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, quyidagi toponimlarni izohlash imkoniyati tug‘iladi. Zarmas Yakkabog‘ sharqidagi tog‘

nomi. Bu kabi nomlar Zarmos~Zormos~Zarmas~ Zarmost~Zarmast kabi turli shakllarda talaffuz qilinadi. X – XII asr tarixiy yozma manbalarida Muqanna va uning qo‘shinlari qarorgohi Zarmaz (ya'ni Zarmas) degan joyda bo‘lganligi qayd etilgan. Nom tarixiy yasalishiga ko‘ra qo‘shma so‘z shaklida bo‘lgan: Zar+mas. Zar so‘zi eroniy tillardagi sar “bosh” so‘zining fonetik o‘zgargan shakli bo‘lib, u toponimiyada “yuqori, baland, yuqori joy” kabi ma'nolarda ham qo‘llanadi. Boysundagi Sarmos tog‘ nomi tarkibida bu so‘z o‘zgarmasdan saqlangan. Bu so‘z ko‘pgina toponimlar tarkibida uchraydi: Zarabog‘, Zarkent, Zaravut, Zarmetan, Zarman va b. Demak, Zarmas nomi – baland tog‘ ma'nosiga ega deb izohlasak, to‘g‘ri bo‘ladi. Shuningdek, Pomir tog‘lari hududida Qoramos nomli tog‘ mavjud. Bu nom ham tarixiy yasalishiga ko‘ra ikki qismdan tashkil topgan qo‘shma nom: Qora+mos. Nomning birinchi komponenti bo‘lib kelgan qora so‘zi oronimiyada nomlanayotgan obyektning o‘lchovi yoki balandligini me'yordan past, ya'ni unchalik baland emasligini ifodalab keladi. Nomning ikkinchi komponenti bo‘lib kelgan –mos formanti esa obyektning turini ko‘rsatib kelgan. Demak, Qoramos oronimi – past tog‘, unchalik baland, yuksak bo‘lmagan tog‘ yoki cho‘qqi ma'nosini ifodalaydi. Bu nom Sarmos “baland, yuksak tog‘” oronimiga zid ma'no xususiyatni kasb etadi.

Baroz komponenti. Baroz – eroniy tillarga tegishli so‘z bo‘lib, o‘zbek tilida “baland joy” ma'nosiga ega. Shimoliy Tojikistonda bu so‘zdan yasalgan toponimlar ko‘p uchraydi: *Barozgo* “baland joy”. Qiyoslang: osetincha *barz* “to‘da, balandlik, qo‘rg‘on, ko‘plik”; *bar* “tog‘ bag‘ri”, qadimgi armancha *bardzravandon* “yassitog‘lik”. Bu so‘z Avestoda keltirilgan Xar-Barazayti atamasi tarkibida uchraydi. U “Yuksak xara” deb tarjima qilingan. Shundan bilish mumkinki, orkografik xarakterga ega bo‘lgan bu atama juda qadimiy tarixga ega. U orkografik termin sifatida oronimlar yasalishiga xizmat qilgan. *Olmabaroz* – G‘onchi tumanidagi qishloq nomi. Shu hududda Kattabaroz, Kichikbaroz kabi toponimlarni ham uchratamiz. Bu nom so‘g‘dcha *barz+ovut* komponentlaridan shakllangan. U qadimda turkiy tillarga ham o‘zlashgan. Eroniy va turkiy tillarda *burz~borz ~ barz* “baland, yuqori” variantlarida qo‘llangan. *–ovut ~ -ovat ~ -ut* – so‘g‘dcha avat “joy” so‘zidan shakllangan.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Yuqoridagilarga asoslanib O‘rta Osiyo xalqlari qadimdan birga yashab kelganligi va bu uning til lug‘at tarkibida ham namoyon bo‘lishi tabiiy ekanligidan dalolat beradi. Shuningdek, bu hol ularning turmush tarzi, urf-odatlari mushtarak ekanligini, hattoki joynomlarini tahlilida ham ko‘zga tashlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1- Avesto (tarixiy-badiiy yodgorlik). – Toshkent: Sharq nashriyoti, 2001 y. - B. 347

2- Bartold V.V. Sochineniya. – Moskva: Nauka. T.1, 1963. – S.258

3- Do‘simov Z. Xorazm toponimlari. -Toshkent. Fan, 1985. – 104 b.

4- Nafasov T. O‘zbekiston toponimlarining izohli lug‘ati. -Toshkent: O‘qituvchi, 1988.

5- Xromov A.L. O strukturnix osobennostyax iranskoy toponimii Maverannaxra v period IX-XIII v.v.// Vostochnaya filologiya. – Dushanbe. 1974. Vip.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 1-son)

FILOLOGIYA

PHILOLOGY

O‘ZBEK DIALEKTOLOGIYASIDA NAMANGAN SHEVASINING TUTGAN O‘RNI

Qosimova Shodiya Ulug‘bek qizi
Termiz davlat universiteti kompyuter lingvistikasi yo‘nalishi magistranti
e-mail: qosimovashodiya788@gmail.com
tel.: +998(94) 279 26 65

Annotatsiya: Maqolada Namangan viloyati dialektal arealidagi yashovchi sheva doirasida olib borilgan tadqiqotlar hamda hudud dialektining adabiy til hamda boshqa hudud shevalaridan farqlari borasida olimlarning qarashlari tahlil qilindi. Xususan, Namangan shevasining Farg‘ona vodiysining boshqa shevalaridan farqli jihatlari hamda hudud shevasi qadimiy unsurlarni o‘zida saqlab qolganligi bilan Farg‘ona vodiysining boshqa hududida yashovchi aholi dialeklaridan farqli jihatlari bilan ajralib turadi alohida ta’kidlandi, shuningdek, aholi shevasi xalq tilining mahalliy xususiyatlarini bilan bir qatorda o‘zbek adabiy tili o‘rtasidagi munosabatlarini o‘rganish uchun muhim elementlarga ekanligi qayd etildi.

Kalit so‘zlar: assimilyatsiya, lahja, umlautli, uyg‘urlashgan, etnogenez, dialekt, areal.

Аннотация: В статье анализируются исследования, проведенные в рамках диалектологии Наманганской области, а также взгляды ученых на различия между региональным диалектом и литературным языком и другими региональными диалектами. В частности, подчеркивалось, что наманганский диалект отличается от других диалектов Ферганской долины, а региональный диалект сохраняет древние элементы, что отличает его от диалектов населения, проживающего в других районах Ферганской долины. Также подчеркивалось, что региональный диалект сохраняет местные черты народного языка. Отмечено, что он является важным элементом для изучения взаимосвязи узбекского литературного языка с

Ключевые слова: ассимиляция, диалект, умлаутированный, уйгуризированный, этногенез, диалект, ареал.

Abstract: The article analyzes the research conducted within the framework of dialectology of Namangan region, as well as the views of scholars on the differences between the regional dialect and literary language and other regional dialects. In particular, it was emphasized that the Namangan dialect is different from other dialects of the Ferghana Valley, and the regional dialect retains ancient elements, which distinguishes it from the dialects of the population living in other areas of the Ferghana Valley. It was also emphasized that the regional

dialect preserves local features of the folk language. It is noted that it is an important element for studying the relationship between the Uzbek literary language and the Uzbek dialect.

Keywords: assimilation, dialect, umlautized, Uyghurized, ethnogenesis, dialect, areal.

KIRISH

O‘zbek tilshunosligida dialektologiyani o‘rganishga etibor kuchaydi. O‘zbek tilshunosligida shevalarni o‘rganish masalasi uzoq tarixni bosib o‘tgan bo‘lsa-da, keying 50 yil ichida bu yo‘nalishdagi ishlar ancha sustlashdi, lekin shevalarni ma’lum vaqt oralig’idan so‘ng yana o‘rganish tabiiy holdir[224].

Dialektologiya (yun. dialektos – sheva so‘zidan) tilshunosllikning muhim sohalaridan biri bo‘lib, u mahalliy sheva lahjalardan o‘ziga xos muhim xususiyatlari, shuningdek, adabiy tildan o‘zaro farqlari, shevalarning o‘zaro munosabati, adabiy tilning boyitishdagi ahamiyati, ularning tarmoq va guruhlarga bo‘linishi, rivojlanishi, kabi masalalarini o‘rganadi[225].

O‘zbek dialektologiyasida sheva, lahja hamda dialect atamalari ma’nosi izohida farqlik mavjud: sheva biror tilning o‘ziga xos fonetik, leksik va grammatik xususiyatlariga ega bo‘lgan eng kichik qismi; lahja – fonetik, leksik va garammatik xususiyatlarni o‘zida jamlagan shevalar yig’indisi[226]; dialekt ilmiy adabiyotlarda har ikki ma’noda qo‘llanadi[227].

Dialektologiya fanining obyekti mahalliy lahjalar va shevalar hisoblanib, ularning vazifalari quydagilardan iboratdir:

-milliy tilning shakllanishi va taraqqiyotida shevalarning tutgan o‘rni va shu milliy tilga asos bo‘lgan shevalarni aniqlash;

-shevalarning o‘zaro munosabatini va ularning adabiy tilga bo‘lgan munosabatini belgilash;

-o‘xshash xususiyatiga ko‘ra shevalarning tarqalish hududlarini aniqlash;

Shevalar xalqning tarixiy va madaniy merosining ajralmas qismi bo‘lib, ularninig o‘rganilishi tilshunoslikda muhim yo‘nalish hisoblanadi. Shu jumladan;o‘zbek tili shevalarini o‘rganish xalqning tarixiy va madaniy o‘ziga xosligini aks ettiruvchi muhim manbadir. Ular adabiy tilning boyib borishi, rivojlanishi uchun asosiy manbalardan biri hisoblanadi.

O‘zbek adabiy tili xalq shevalaridan ozuqa olib, ularning boy leksik qatlamlarini o‘zlashtiradi. O‘zbek tili dialektini Namangan viloyati misolida o‘rganadigan bo‘lsak, bu hududda yashovchi qatlamning shevasi Farg‘ona vodiysining eng boy shevalaridan biri bo‘lib, Namangan shevasi o‘zining o‘ziga xos fonetik, leksik va grammatik jihatlari bilan ajralib turadi.

[224] Xolova.M.A. Boysun shevasi onlayn ma’lumot bazasi (qidirish va saqlash imkoniyatlari asosida). Международный журнал искусство слова.-2021.-Т. 4-№. –1-1.- B. 5.

[225] Xolova . M.A. Boysun shevalari onlayin bazasi (qidirish va saqlash imkoniyatlari asosida) Международный журнал искусство слова..- 2021.-Т. 4-№.1-1. – B. 5.

[226] Abdulhakimovna X. M. Transcription in the Uzbek National Boysun Dialect Corps (Boysun District with the Example of “J” Dialect) //International Journal on Integrated Education. – Т. 3. – №. 3. – С. 105-109.

[227] Xolova . M.A. Boysun shevalari onlayin bazasi (qidirish va saqlash imkoniyatlari asosida).- 2021.-Т. 4-№.1-1. – B. 37.

Xususan Namangan shevasi Farg‘ona vodiysining boshqa shevalaridan farqli jihatlaridan biri, bu hudud shevasi qadimiy unsurlarni o‘zida saqlab qolganligi bilan Farg‘ona vodiysining boshqa hududida yashovchi aholi dialeklaridan farqli jihatlari bilan ajralib turadi. Bu hudud shevasi xalq tilining mahalliy xususiyatlarini ,shuningdek ,o‘zbek adabiy tili o‘rtasidagi munosabatlarini o‘rganish uchun muhim hisoblanadi.

Bugungi kunda bu hudud shevasining areal lingvistik nuqtayi nazardan o‘rganilishi o‘zbek tilshunosligida muhim ahamiyatga ega. Chunki ular xalqning turmush tarzi va madaniyatini aks ettiruvchi lingvistik hodisalar sifatida adabiy tilning boyishiga salmoqli hissa qo‘shadi.

Shevalarni o‘rganish turkologiyada Mahmud Qoshg‘ariy (XI asr)ning “Devonu lug‘otit turk” asaridan boshlangan bo‘lsa[228], bu asarni o‘rganish davomida tadqiqotchilar bu asarda qo‘llangan ayrim dialektlarning Namangan hududida yashovchi aholi tomonidan hanuzgacha ishlatilayotganini qayd etishgan. Masalan, Namangan shevasida uchraydigan ayrim so‘zlar “Devonu lug‘tit turk asarida ham keltirilgan. Ushbu asar turkiy xalqlarning til va shevalariga oid ko‘plab qimmatli ma’lumotlarni o‘z ichiga oladi.

Tadqiqotchilarning fikricha, asardagi ayrim lingvistik xususiyatlar va qadimgi so‘zlar, jumaladan*, qashqir(bo‘ri)* va *shamol* kabi so‘zlar, hozirgi kunda Namangan shevasiga ta’sir nafaqat lingvistik jihatdan qiziq, balki o‘zbek adabiy tili va shevalari o‘rtasidagi aloqalarni yanada chuqurroq o‘rganish uchun ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi[229].

Namangan shahar shevasining o‘ziga xos tarzda shakllanib borishida turkiy tillarning,shuningdek, fors-tojik tillarining fonetik, leksik hamda grammatik belgilari muhim ro‘l o‘ynagan.[230] O‘zbek tilshunosligidagi Namangan shevalari tadqiqiga bag‘ishlangan ishlarda, asosan, Namangan shahar va Uychi tuman shevalarining lingvistik xususiyatlari ko‘proq o‘rganilgan. Shahar shevasining hudud aholisiga hos bo‘lgan lisoniy xususiyatlarini E.D. Palivanov, A.K.Borokov, V.V.Reshetov, G‘.O.Yunusov kabi olimlar o‘rgandilar, tasnifladirlar hamda tahlil qilib o‘rganadilar.Shundan so‘ng shevaning linvistik xususiyatlari haqidagi asosli to‘xtamga kelinadi.

Namangan shahar shevasining morfologik hamda fonetik xususiyatlarini S.Otamirzayeva va S.Tulyakovlar o‘z nomzodlik dissertatsiyasida tadqiq etib o‘rganishgan. Uychi shevasining lisoniy xususiyatlarni esa A.Y.Aliyev o‘z nomzodlik dissertatsiyasida o‘rganib, viloyat shevalarining fonetik, leksik hamda morfologik jihatlariga o‘rganadi. Shuningdek, Shahar hududi va unga yaqin bo‘lgan hududda yashovshi aholi qatlamining shevalarini ham kengroq o‘rganishga harakat qilgan.

---

[228] Xolova . M.A. Boysun shevalari onlayin bazasi (qidirish va saqlash imkoniyatlari asosida). Международный журнал искусство слова..- 2021.-T. 4-№.1-1.-B. 5// Abdulhakimovna X. M. Transcription in the Uzbek National Boysun Dialect Corps (Boysun District with the Example of “J” Dialect) //International Journal on Integrated Education. – Т. 3. – №. 3. – С. 105-109.// Холова М. Практика создания диалектного корпуса узбекского языка //Каталог учебников. – 2024. – Т. 1. – №. 1. – С. 3-206.

[229] Mahmud Qoshg’ariy “Devonu lug’otit turk”.-1072.

[230] Sh.Qosimova “Mingbuloq tuman shevalarining leksik-grammatik xususiyatlari”;Dis. – 2022. – Namangan.- Universitet.1-№.1.1.-B. 16.

H.Sharipov nomzodlik ishining[231] ayrim o‘rinlarida Qirg‘iziston Respublikasining ayrim hududlari bilan chegaradosh bo‘lgan Yangiqo‘rg‘on tumaning bazi hudud shevalari haqida ham ma’lumotlar keltirilgan. Shuningdek Namangan viloyati hududi , u yerda yashovchi aholi dialekti haqidagi ma’lumotlar ilk bor V.Nalivkin hamda M.Nalivkinalar tomonidan yaratilgan lug‘atda qayd etilgan[232]. Bu lug‘atning dialektologiya fani uchun ahamiyatli jihatilaridan biri shundaki, bu Namangan viloyati hududi bo‘yicha qilingan ilk ishlardan biri bo‘lganligidadir. A.Aliyev va S.Tulyakovlarning ta’kidlashicha, Nalivkinning lug‘atida sheva xususiyatlari aniq transkripsiya bilan berilmaganligi uchun Namangan shevasining o‘ziga xos bo‘lgan xususiyatlarini ajratib olish qiyin[233]. Shu sababli ham bu ishga o‘sha davr nuqtayi nazari bilan yondashish o‘rinlidir.

Barchamizga ma’lumki, o‘zbek tili ko‘p shevali tillardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, Namangan shahar shevasi boshqa hudud shahar shevalaridan o‘ziga xos bo‘lgan lisoniy jihatlari bilan tubdan farq qiladi. Namangan shahar shevasida kuzatiladigan fonetik, leksik va grammatik belgilari, jahon tillarida kam kuzatiladigan holatlardan biri bo‘lganligi, shuningdek, *bu tilmi* yoki *shevami*? kabi savollarning ko‘plab qo‘yilishi sababli bu hudud shevasi tilshunoslarni ham qiziqtirib qo‘yadi va uni jiddiy o‘rganishga kirishishadi. Natijada Namangan shevasi bo‘yicha bir qator izlanishlar va tadqiqotlar olib boriladi[234].

Ildizi uzoq o‘tmishga ega bo‘lgan, turli xil etnogenezisiga ega bo‘lgan Namangan viloyati shevalari bir qator tilshunoslarning diqqatini tortadi.

Professor A.K. Borovkovning “Umlautli” yoki “uyg‘urlashgan” shevalar tasnifiga doir” nomli maqolasida Namangan, Uychi, Chortoq, Koroskon, Uchqo‘rg‘on va Qayqi kabi hududlarda uchraydigan umlaut hodisasining kelib chiqish sabablari misollar yordamida izohlangan. Bundan tashqari, u Uychi qishlog‘i vakillaridan yozib olgan bir nechta maqollarni ham ilova qilgan.[235]

Shuningdek, Namangan shevasini “Umlautli” tasnifiga kirishi haqida S.Ashirboyev o‘zining “O‘zbek dialektologiyasi” kitobida “Umlaut qonuniga ko‘ra affiksdagi old qator unli asosdagi (aksariyat hollarda bir bo‘g‘inli bo‘ladi) orqa qator unlini o‘z harekteriga moslashtirib oladi:

[231]Атамирзаева С. Звуковой состав Наманганского говоро уззбекского языка: Афтореф. Дис. …канд. Филю. Наук.- 1974.- С. 51; Тулаков С.Морфологические особенности наманганского говора: Афтореф.дис. …канд. Филю наук.- 1965.- Ташкент.- №.2.- С. 26(448)

[232] Наливкин В., Наливкина М., Русско-сартовскй и сартовско-русская словарь общеупотребительных слов с приложением краткой грамматики по наречиям Раманганского уезда.- 1884.- Казань.-№.1.1.- С.6.

[233] Алиев А.Ю. Наманган диалекти ҳақида. Ўзбек тили ва адабиёти масалалари. –1967. – Тошкент: Фан. Б. 37-45; Туляков С. Морфологические особенности Наманганского говора узбекского языка: Автореф. дис. ...канд. фил. наук. – 1965. – С. 6 .

[234] Наливкин В., Наливкина М. Русско-сартовский и сартовско-русская словарь общеупотребительных слов с приложением краткой грамматики по наречиям Наманганского уезда.- 1884. – Казань. С. 6.

[235] Боровков А.К. К характеристике узбекских “умляутных” или “уйгуризованных” говоров . Белек – Малову. –, 1946. – Фрунзе. С. 29-31; Вопросы классификации узбекских говоров . –1953. – Изв. АН УзССР № 5. – С. 58-74.

son ~ sān; sana ~ sänä; yosh ~ jāš; yasha ~ yäšä singari va mazkur qoniniyatlar Namangan, O‘sh hudud shevalarida hozirda ham amal qiladi. Masalan: mol ~ māl, molim ~ mälim, solish ~ sälïš, nok ~ näk, noki ~ näkï, toy ~ tāj, toying ~ tājïŋ singari misollar orqali keltirib o‘tadi.

Tarixiy jihatdan Namangan hududida yashaovchi aholi so‘zlashadigan til birliklari qarluq-chigil-uyg‘ur tilining birlikariga xos bo‘lib, uyg‘ur tiliga xos bo‘lgan bir qancha tipik birlik xususiyatlari qiman “umlaut”[236]ning mavjud bo‘lganligiga qarab Namangan shahrining shevasi, shuningdek, viloyatning ba’zi hudud shevalari, masalan, Uychi tumani alohisining shevasi alohida o‘rin tutadi.

1944-yilda o‘tkazilgan dialektologik ekspeditsiya davomida to‘plangan materiallarga asoslangan holda, professor Borovkov “Namangan viloyatidagi o‘zbek shevalari” nomli maqolasini yozgan. Ushbu ishda Namangan viloyatining turli hududlarida uchraydigan o‘zbek shevalarining fonetik, morfologik va leksik xususiyatlari yoritib berilgan. Shuningdek, maqolada Namangan shevalarining tarixiy genezisi va tasnifi masalalariga keng o‘rin berilgan bo‘lib, bu tadqiqot shevalar haqidagi bilimlarni yanada boyitadi[237].

Professor V.V. Reshetov esa “O‘zbek tilining Namangan shevasi haqida” nomli maqolasida Namangan shahar shevasining tarixiy shakllanishini va uning fonetik hamda morfologik xususiyatlarini birinchilardan bo‘lib ilmiy jihatdan asoslashga harakat qilgan. Mazkur tadqiqotlar Namangan shevalarining lingvistik o‘ziga xosliklarini chuqurroq tushunishga yordam beradi. Prof.Reshetov ilmiy izlanishlari davomida asosan markaziy hudud bo‘lgan shahar shevalarini o‘rgangan. U “O‘zbek dialektologiyasi” kitobida Namangan hududi shevasining asosiy xususiyatlariga misol qilib hozirgi zamon davom feli qo‘shimchasi: ***-űt: keɻűttimā,*** hamda bo‘lishsiz shakliga ***keɻműttimā*** so‘zini misol tariqasida keltirib o‘tadi[238].

Xususan Prof.Reshetov Namangan shevasi uyg‘ur tili tovushlarining tushishi vator unlilarning qisqaligi bilan xarekterlansa, Toshkent shevasi bilan xususiyat jihatdan bir biriga o‘xshash tomonlari borligi haqida aytib o‘tadi[239]. Ya’ni, Toshkent hamda Namanganda:ya’ni: *ϵdϵmlā:, keddïlā:, bïz>bzā, sïlϵ>slä* [240]kabi. Shunga ko‘ra Namangan shevasining paradigmasini quyidagi ko‘rinishdagi misollar orqali ko‘rib chiqamiz.

Birlik

kelyapman, ketyapman, boryapman // kelűtt(ï)ma:, ketűtt(ï)ma:, borűtt(ï)ma:

kelyapsan, ketyapsan, boryapsan // ketűttïsā: >kelűssa:, ketűssa:, ketűssa:n, ketűssa:, borűssa:

kelyapti, ketyapti // ketűttï, kelűttï, borűttï

---

236 Ashirboyev S. O ‘zbek dialektologiyasi . -2021.— Toshkent .Nodirabegim‖ nashriyoti. – T. 38. – B. 40-43.B. 347.

237 Боровков А.К. Узбекские говоры Наманганской области.- 1963. – Ташкент. – Научные труды ТашГУ. Языкознание С.3-39.

238 Решетов В.В. О Наманганском говоре узбекского языка. Сб. Академику В.А.Гордлевскому. –1953. –. М.- С. 216.

239 Xolova M. Dialektal korpusning fonetik metarazmetkasi haqida ayrim qaydlar //Prospects of Uzbek applied philology. – 2022. – T. 1. – №. 1.

240 V.Reshetov, SH.Shoabdurahmonov,”O‘zbek dialektologiyasi”.- 1962. – Toshkent .- B. 81-82.

Ko‘plik
kelyapmiz, ketyapmiz, boryapmiz // kelűtt(ï)mïz, ketűtt(ï)mïz, borűtt(ï)mïz
kelyapsiz, ketyapsiz, boryapsiz, // kelűss(ï)z, ketűss(ï)z, borűss(ï)z
kelyaptilar, boryaptilar // kelűtt(ï)la:, borűtt(ï)la:

kelyapmiz, ketyapmiz, boryapmiz // kelűttïmiz, ketűttïmiz, borűttïmiz
kelyapsiz, ketyapsiz, boryapsiz, // kelűttïsïz, ketűttïsïz, kelűssïz , borűssïz
kelyaptilar, boryaptilar // kelűttïlā, borűttïlā

Bo‘lishsiz shakli
qilmayapman, aytmayapman // qïlműtt(ï)ma:, ajtműtt(ï)ma:,
qilmayapsan, aytmayapsan // qïlműtt(ï)sa:, ajtműtt(ï)sa:
qilmayapti, aytmayapti // qïlműtt(ï), ajtműtt(ï)

qilmayapsan, aytmayapsan // qïlműttïsā, ajtműttïsā
qilmayapti, aytmayapti // qïlműttï~qïműttï, ajtműttï

Bo‘lishsiz ko‘plik shakli
ketmayaptilar, ko‘rmayaptilar // ketműtt(ï)la:, korműtt(ï)la:
kelmayaptilar, eshitmayaptilar // kelműtt(ï)la:, ešïtműtt(ï)la:
bormayaptilar, chiqmayaptilar // borműtt(ï)la:, čıqműtt(ï)la:

Yuqorida keltirib o‘tilgan shevaga oid bo‘lgan misollar faqatgina Namangan shahar hamda Uychi hamda Chortog‘ tumanining bazi hududlari yashovchi aholi so‘zlashadigan tillari yuzasidan olingan bo‘lib, Namangan viloyatining boshqa tuman va qishloqlari hududida yashovchi aholi misolda keltirilgandagi kabi shevada bu so‘zlardan foydalanishmaydi. Shuningdek, olim I. Darveshov o‘zining “Areal tilshunoslik: Janubiy-g’arbiy Namangan (keyingi o‘rinlarda JG‘N) shevalarining fonetik-fonologik xususiyatlari” nomli monografiyasida mazkur hudud shevalarini kuzatish natijasida: bir sheva areali hamisha ham doimiy bir kenglikni tashkil etmasligi; bir necha tuman, qishloq va ovullarni qamrab olishi; natijada aralash shevalarning paydo bo‘lishi; sheva belgilarining kengayishi; boshqa til va lahjalarga mansub aholining yangi maskanlarga ko‘chib kelib o‘rnashganda aloqa-aralashuv jarayonlarida bir shevaning ikkinchi shevaga ta’siridagi sintezlashish jarayoni sodir bo‘lishi aniqlaydi. U JG‘N shevalari arealida ham aralash shevalarda so‘zlashuvchilar guruhini Mingbuloq tumanining Jomashov shaharchasi, . Ular nutqida qarluq hamda qipchiq lahja unsurlari baravar qo‘llaniladi. Masalan: *meŋä//: meŋe >menga, bőxča > bog‘cha, sāmsāq > sarimsoq* kabi namunalarni namuna tariqasida keltirib o‘tadi. Damko‘l-Mazzang va Gulbog‘ qishloqlari aholisi tashkil etishini so‘zlab o‘tadi.Bunga qarluq sheva vakillarining JG‘N hududida yangi ekin maydonlar barpo etib, yerlarni o‘zlashtirish maqsadida viloyatning turli

joylaridan ko‘chib kelishi va o‘zaro aloqa-aralashuv munosabatlari ikki xil lahjada amalga oshganligi sabab bo‘lganligi aytib o‘tadi[241].

Shu bilan birga I. Darveshov Janubi-g‘arbiy Namangan shevalariga xos so‘zlarning leksik tabiati, semantik strukturasi turli omillarning ta’siri tufayli yuzaga kelganki, bunday so‘zlarning ayrimlari adabiy tilda yo‘q bo‘lib, ular shevalardagina uchraydi deb, bunga quyidagi misollarni keltiradi: shu yerda-*šejde, osh lagan-čorqi, o*g‘*ilxona-öyʲl, qamish-qoγa, temir tovoq(jom)-satʲl*[242] kabi misollarni keltirib o‘tadi

Namangan shahar shevasi “y” lovchi shevalardan biri hisoblanadi. Asosan so‘zlashuv nutqida undosh tovushlarning assimilyatsiya (proressiv hamda regressiv)ga uchrashini ko‘plab uchratish mumkin.xaridor ~Aka do‘konga xaridor keldi ~ *Öka dokonga xaddā: kєlűtti;*

yurdi –*yudd*i ~ Azamxon bugun piyoda yuddilar. *Äzämxon bugun pijoda jʲdʲlā;* bersa-*bessa* ~ Narxini arzonlatib bersalar. *Narxini āzzonlatb bessalā;*

o‘rnim-*o‘nnim* ~ Men o‘rnimni boshqalarga berib qo‘yadiganlardan emasman; *mā őnnummi biroplāga berib qojєdiganlādänmasmä*; chaqirdi-*chaqiddi* ~ Chaqirdi soat nechaga bo‘lyapti. Čaqiddi soat nєččiga bolűtti; *Chaqiddi soat nechchiga bo‘lutti.*

ichsa-*issa ~ Dedamlar issalar deb sut opkeluttimaan*

yaqinlashyapti –yaqinleshutti ~ Opodda sizga itlar yaqinleshutti

Quyida berilgan misollarda Namangan shahar shevasining 2 xil adabiy hamda shevaga xos bo‘lgan varintlari misol tariqasida berilgan.

Bu hudud shevasi *adabiy til* normasidan, shuningdek, *boshqa hudud shevalaridan* quydagi xususiyatlari bilan farq qiladi;

Namangan shevasining adabiy normadan farqi:

1. Namangan shevasida so‘zlashuvchilar talaffuz tilida adabiy tilidan sezilarli farq bilan bilinadi.
2. Adabiy tildagi bazi unlilar shevada o‘ziga xos tarzda boshqacha tallaffuz qilinadi(kelyapma~keluttiman).
3. Shevada so‘zlashyotganda so‘zlarning qisqarshi.(kelyapman~keloman).
4. adabiy tildagi - ***yap*** qo‘shimchasi ***–űt*** shaklida ishlatishi
5. Namangan shevasida adabiy tilga xo bo‘lmagan leksik birliklar saqlanib qolganligi.
6. Namangan shevasida urg‘u hamda intonatsiya adabiy normadan farq qiladi, ya’ni, so‘zlahuv nutqida urg‘uning o‘rni o‘zgaradi. Bu esa shevaga xos talaffuzning ohangini yaratadi.
7. Namangan shevasi adabiy tilga qaraganda ko‘proq jonli va og‘zaki nutq xususiyatlarini saqlab qolgan.

8. Namangan hududi shevasining boshqa viloyat shevalaridan farqi:

[241] I.Darveshov.Areal tilshunoslik: Janubiy g’arbiy Namangan shevalarining fonetik-fonologik xususiyatlari. Monografiya.2019.–T.- B. 26.

[242] I.Darveshov.Areal tilshunoslik: Janubiy g’arbiy Namangan shevalarining fonetik-fonologik xususiyatlari. Monografiya. .2019.–T.- B. 26.

9. Namangan shevasida ishlatiladigan ayrim so‘zlar boshqa hududlarda umuman uchrammaydi.

10. Hudud shevasidagi bazi so‘z shakllari hamda qo‘shimchalari boshqa viloyatlardan farqli ravishda qo‘llanishi*(Qaratqich k.- nin,-ni//Tushum kelishigi –di,-ti)*

11. Namangan shevasida o‘zbek tilining ilk tarixiy shakllarning saqlanib qolinganligi.

XULOSA. Bugungi kunda Namangan dialekti o‘zbek tilshunosligida o‘ziga xos til xususiyatlari bilan alohida o‘rin tutadi. Uning o‘ziga xosligi, boshqa shevalardan farqli ravishda fonetik, leksik va grammatik jihatdan ajralib turishidadir.

Namangan dialekti adabiy tildan, shuningdek, Respublikamizning boshqa viloyat shevalaridan ham o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Ushbu dialektni ilmiy o‘rganish bo‘yicha ko‘plab olimlar va professorlar tomonidan tadqiqotlar olib borilgan. Biroq, hozirgi kunga qadar olib borilgan tadqiqotlar hali to‘liq yoritilmagan. Tadqiqotlar asosan Namangan shahri va markazga yaqin hududlardagi aholi tomonidan so‘zlashiladigan shevalar asosida olib borilgan. Namangan viloyatining boshqa tuman va shaharlari shevalarini ilmiy jihatdan o‘rganish, dialektologiya faniga katta hissa qo‘shish bilan birga, o‘zbek adabiy tili uchun ham muhim manbalar topish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ashirboyev S.,”O‘zbek dialektologiyasi”.- 2016.- Toshkent.- B. 138.
2. Боровков А.К. Узбекские говоры Наманганской области.- 1963. – Ташкент. – Научные труды ТашГУ. Языкознание.- С. 211.
3. Боровков А.К. К характеристике узбекских “умляутных” или “уйгуризованных” говоров. – 1946.- Белек – Малову. – Фрунзе. – С. 219.
4. Abdulhakimovna X. M. Transcription in the Uzbek National Boysun Dialect Corps (Boysun District with the Example of “J” Dialect) //International Journal on Integrated Education. – Т. 3. – №. 3. – С. 105-109.
5. Атамирзаева С. Звуковой состав Наманганского говоро уззбекского языка: Афтореф. Дис. …канд. Филю. Наук.- 1974.- С. 51
6. I.Darveshov.Areal tilshunoslik:Janubiy g’arbiy Namangan shevalarining fonetik-fonologik xususiyatlari.Monografiya.2019.- T.- B. 137.
7. Решетов В.В. О наманганском говоре узбекского языка.-1953.- Сб. Академику В.А.Гордлевскому. – М. – С. 231.
8. Xolova.M.A. Boyun shevasi onlayn ma’lumot bazasi (qidirish va saqlash imkoniyatlari asosida).-2021.-T. 4-№.1-1.- B. 140.
9. Холова М. Практика создания диалектного корпуса узбекского языка //Каталог учебников. – 2024. – Т. 1. – №. 1. – С. 3-206.
10. V.Reshetov, SH.Shoabdurahmonov,”O‘zbek dialektologiyasi” .- 1962. – Toshkent .- B. 359.

11. Xolova M. Dialektal korpusning fonetik metarazmetkasi haqida ayrim qaydlar //Prospects of Uzbek applied philology. – 2022. – T. 1. – №. 1.

12. Тулаков С.Морфологические особенности наманганского говора: Афтореф.дис. …канд. Филю наук.- 1965.- Ташкент.- №.2.- С. 448.

13. Sh.Qosimova “Mingbuloq tuman shevalarining leksik-grammatik xususiyatlari”;Dis. – 2022. – Namangan.- Universitet.1-№.1.1.- B. 81.

14. Алиев А.Ю. Наманган диалекти ҳақида. Ўзбек тили ва адабиёти масалалари. – 1967. – Тошкент: Фан.- Б. 449.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 1-son)

FILOLOGIYA

PHILOLOGY

ISAJON SULTONNING “ALISHER NAVOIY” ROMANIDA AYOL RUHIYATINING BADIIY IFODASI

Shomurotova Charos Ravshan qizi
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti mustaqil tadqiqotchisi
Tel:+998990795061
Email: charosshomurotova9@gmail.com

Annotatsiya. Adabiyot so‘z san’ati, bilamizki, har bir ijodkor tarixga nazar solib, biror hikoya, qissa, roman yozar ekan, davrda yashab o‘tgan shaxslarning hayotiga oid ma’lumotlar bilan chuqur tanishadi. Shundan kelib chiqigan holda ijodkor o‘z tafakkuri doirasida pishib yetilgan asar qahramonlarini dunyoga keltiradi. Shu asnoda yozuvchi o‘zi yaratgan qahramonlariga badiiy ruhiyat bag’ishlaydi va ularning o‘y-kechinmalarini asar davomida ifodalaydi. Isajon Sultonning “Alisher Navoiy” romanidagi ayollar obrazini ochib berilishidagi mahoratini ushbu maqolamiz davomida bilib olishingiz mumkin.

Kalit so‘zlar: tarixiy obraz, epik tasvir, badiiy to‘qima obrazlar, Qutbiya, tarixiy haqiqat, Gavharshodbegim.

Аннотация. Литература — это искусство слова. Как известно, каждый творческий человек, обращаясь к истории и сочиняя рассказ, повесть или повесть, глубоко знакомится с информацией о жизни людей, живших в тот период. Исходя из этого, создатель выводит на свет персонажей произведения, сформировавшихся в рамках собственного мышления. В то же время писатель наделяет созданных им персонажей художественным духом и выражает их мысли и переживания на протяжении всего произведения. О мастерстве Исажона Султана в раскрытии образа женщины в романе «Алишер Навои» вы узнаете из этой статьи.

Ключевые слова: исторический образ, эпический образ, художественно сотканные образы, Кутбия, историческая правда, Гавхаршодбегим.

Annotation. Literature is the art of words, as we know, every creator, looking at history and writing a story, short story, or novel, deeply familiarizes himself with information about the lives of people who lived in that era. Based on this, the creator brings into the world the heroes of the work that have matured within the framework of his own thinking. At the same time, the writer gives artistic spirit to the heroes he created and expresses their thoughts and feelings throughout the work. You can learn about Isajon Sultan's skill in revealing the image of women in the novel "Alisher Navoi" in this article.

Keywords: historical image, epic image, artistically woven images, Qutbiya, historical truth, Gavharshodbegim.

Kirish.

Aksariyat hollarda har qanday san’at turidagi eng buyuk asarlar ayolga bag‘ishlangan holda yuzaga kelgan. Jumladan, adabiy asarlarda ham ayol muhabbat qaratilgan shaxs bo‘lgani bois u ijodkorning ilhom manbai vazifasini bajargan va shu jihatdan adabiyotni ayol obrazisiz tasavvur qilish bir qadar mushkul jarayon. Adabiyotshunos Z.Isomiddinov “Ikki ayol” maqolasida ta’kidlagani kabi “Insonshunoslik bo‘lmish adabiyot birinchi navbatda, ayolshunoslik, ya’ni ayolni o‘rganish, inkishof etish ilmidir. Kuzatsak, eng qadimgi asarlar ham ayolga bag‘ishlangan, ular konfliktni ayol va unga aloqador narsalar tashkil etadi. Hatto aytish mumkinki, adabiyot taraqqiyoti ayol mavzuining badiiy tadqiqi, uning teranlasha borishi bilan chambarchas bog‘liq” [1-47]. Ayni shu jihatlarga ko‘ra ayol adabiyotning doimiy qahramoni bo‘lib kelgan. O‘zbek adabiyotini Kumush, Zaynab, Ra’no, O‘zbekoyim, Oftoboyim kabi obrazlar ziynatlab kelayotgan bo‘lsa, “Dunyo adabiyotida XX asrning II yarmida yaratilgan asarlarda ayol obraziga alohida e’tibor qaratilgan. Ayol siymosini asarning birinchi sathida tasvirlash, uning shaxs sifatida ijtimoiy maqomini ochib berish muammosi hech qachon o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan” [Мухаммедова Н.]. Ayni shu jihatlarga ko‘ra o‘zbek adabiyotida ayollar obrazlarining tahlil va talqini alohida muhim masalalardan biridir. Ayniqsa, tarixiy romanlarda ayollar obrazining to‘laqonli tasvirlanishi, yoxud tarixda yashab o‘tgan ayollar xususida asarlar yaratish bugunning muhim ehtiyojlaridan biridir. Zamonaviy adabiyotda tarixiy ayollar qiyofasi aks etgan, yoxud ularga bag‘ishlangan asarlar u qadar ko‘p emas. Isajon Sulton asarida ayni ehtiyoj seziladi. Undagi ayollar obrazi ma’lum izchillik va badiiylikka tayanilgan holatda namoyon bo‘ladi.

Natijalar va muhokama.

Epik tasvir jarayonida har bir element, badiiy vosita katta ahamiyatga ega. Mukammal syujet jarayoni mukammal epik tasvirdan hosil bo‘ladi. Shu jihatdan har bir element yozuvchidan katta e’tibor va mahorat bilan yondashuvni talab qiladi. Epik tasvir mobaynida qahramonlar tasviri, ularning ichki olami, xarakter darajasiga ko‘tarilishi eng muhim bosqichlardan biridir. Isajon Sulton romanda ayni shu jihatni e’tibordan chetda qoldirmagan holda asardagi har bir qahramon tasvirini maromiga yetkazgan holda chizishga intiladi. “Alisher Navoiy” romani tarixiy roman bo‘lgani jihatidan unda ayollar obrazi u darajada ko‘p emas. Shunga qaramasdan asarda uchraydigan bir necha ayol qahramonlar yozuvchi tomonidan alohida ahamiyatga molik xarakterlar sifatida shakllantirilgan. Ayollar obrazi kompozitsion butunlikda, syujet chizig‘ining izchilligida, badiiy betakrorlikda katta ahamiyatga ega. Muallif ayollar obrazini tarixiy asarda bekorga qo‘llamaydi, ularga ma’lum estetik, badiiy funksiyalarni yuklaydi. Romanda asosan, ayollar obrazi ikki guruhga ajralgan holda tasvirlanadi:

Tarixiy ayollar obrazi;

Badiiy to‘qima ayollar obrazi.

Yozuvchining obrazlarni bu tarzda aks ettirishidan ko‘zlangan badiiy maqsadi ham ikki xil:

Ayollarning maishiy hayotdagi o‘rnini ko‘satish orqali davrning an’ana va qonun-qoidalari, xalq hayotini ko‘rsatish;

Ayollar orqali saroy muhiti, ijtimoiy-iqtisodiy hayot, tarixiy jarayon evrilishida ayollarning ta’siri va h.z.

Ko‘ringanidek, romandagi kam sonli ayollar obrazi, ularning ruhiy tasviri, xarakteri va yashash sharoiti tasviri muhim badiiy funksiyalarni aks ettirishga yo‘naltirilgan, ijodkorning baadiiy niyatini ochib berishga xizmat qiladi. Asardagi ***Badiiy to‘qima ayollar obrazi*** *Ayollarning maishiy hayotdagi o‘rnini ko‘satish orqali davrning an’ana va qonun-qoidalari, xalq hayotini ko‘rsatish*ga xizmat qildiriladi va muallif uchun badiiy vosita vazifasini bajaradi. Jumladan, “... davr haqiqatini o‘zida mujassamlashtirgan har bir tarixiy ma’lumot badiiy to‘qima uchun asos vazifasini o‘taydi va syujet rivoji davomida yanada to‘ldirilib, ta’sirchan voqelikka aylanadi. Ayni shu yo‘l bilan tarixiy haqiqat badiiy haqiqat yuksakligiga ko‘tariladi”[3-91]. Asardagi Qutb to‘qima obrazi ham ayni shunday badiiy funksiyalarni o‘zida aks ettiruvchi obrazdir. Muallif u haqidagi fikrlarni asarning boshlanish qismlarida berib o‘tadi: *Asli ismi Qutbiya bo‘lmish bu qizaloqni G‘iyosiddinbek Shoxrux Mirzoning Iroq yurishlari vaqtida , hech kimi bo‘lmagani uchun o‘zi bilan olib kelib tarbiyat qilgan, hozir oyday yetilib, oq tiniq yuzli, uzun kiprikli malakka aylangan edi. Qizlar to‘qqiz yoshida chodra o‘ramoqlari shart bo‘lib, shundan buyon unga tashqiga chiqish ta’qiqlab qo‘yilgan edi.* Muallif Qutbiya obrazi haqida ma’lumot berish, uni o‘quvchiga tanishtirish bilan birga bir qancha muhim tarixiy ma’lumotlarni ham keltirib o‘tadi:

Shoxrux Mirzoning Iroqqa yurish qilishi;

Ayni shu yurishlarda G‘iyosiddinbekning unga hamroh bo‘lib, qo‘shin tarkibida jangga kirishi;

G‘iyosiddinbekning Iroqdan Qutbiyani olib kelishi, bu yurishda g‘alaba kim tomonda bo‘lishini ham ko‘rsatib turadi.

Muallif birgina Qutbiya bilan o‘quvchini tanishtirish jarayonida shu kabi ko‘plab ma’lumotlar bilan ham o‘quvchini tanishtirib ketadi. Bu aslida voqea ichida voqeani keltirish usuliga o‘xshaydi. Muallif bu yo‘l orqali quruq bayonchilikdan, kitobxon uchun zerikarli tarzda ma’lumotlarni ustma-ust berib borishdan qochadi. Yozuvchi ma’lumot yetkazishda bu bilangina cheklanib qolmaydi. Qutb obrazi bilan o‘quvchini tanishtirar ekan, jamiyatga xos bo‘lgan, ayollarga tegishli qonun-qoidalarni ham berib ketishni maqsad qiladi:

Qutbning to‘qqiz yoshdan boshlab chodra o‘rashi, bu qonun-qoida faqat

Qutbga emas, shu jamiyatdagi barcha qizlar uchun ham belgilangan diniy qoida borligini bildiradi, o‘sha davr qiyofasini ochib beradi;

Ularning ruxsatsiz to‘qqiz yoshdan so‘ng berunga (tashqariga) chiqa olmasligi ham jamiyatning ma’lum bir ijtimoiy, siyosiy qiyofasini, tarixiy muhit shart-sharoitini tasavvur qilish imkonini beradi. Asarning bir o‘rnida yozuvchi Qutbiya tilidan bir qisqagina fikrni

keltirib o‘tadi. Alisherning kelishini tashqariga chiqib kutgan Qutb shunday deydi: *yuz - qo‘lingizni chaying, bo‘laqoling. Anavi chol baqirib qolmasin tag‘in.* Muallif qizning bu fikrlariga quyidagicha izoh bildiradi: “*Anavi chol” deb u bog‘bonni aytmoqda edi. Bog‘bon qo‘rs, badjahl kishi bo‘lib, kaniz-u joriyalarni ostona hatlagani qo‘ymas, gohida birov tashqi hovliga chiqib qolsa, baqirib kesak g‘irillatib qolardi.* Bu qisqagina fikr, voqelikni, jamiyatning qonun-qoidalarini aniqroq ilg‘ashga yordam berish asnosida, ayollar obrazini yanada to‘laqonli tasavvur qilish imkonini ham beradi. Shundan so‘ng yozuvchi qahramonning tashqi ko‘rinishi bilan ham kitobxonni tanishtiradi. Qutbning go‘zalligini tasvirlash asnosida uning husnidagi Iroq qizlariga xos bo‘lgan latofatni ham alohida ta’kidlab o‘tadi. Ammo ma’lumotlar bu bilangina tugab qolmaydi, muallif muhim ijtimoiy muhit haqida qiziqarli ma’lumotlarni berib borishda davom etadi: *Qutbning yana bir fazilati – musiqiyni bilmog‘i bo‘lib, gohida ud chalib Iroq qo‘shiqlaridan aytib berardi. Ovozi tiniq, dardchil bo‘lib, shunchalar go‘zal ediki, odamni sehrlab qo‘yardi.* Ayni shu o‘rinda bizning diqqatimizni jalb qilgan jihat Qutbning musiqiyni bilishi, ya’ni ud chalib qo‘shiq aytishidir. Demak, bundan xulosa qilish mumkinki, G‘iyosiddinbek uni Iroqdan olib kelgan payt Qutbiya aqlini tanir darajada bo‘lishi kerak. Chunki u o‘z yurtida musiqiy saboqni olib bo‘lgan. Ma’lumki, ud chalishni o‘rganish, Iroq kuylarini yoddan ayta olish uchun qiz kamida yetti, sakkiz yosh atrofida bo‘lishi kerak. Qolaversa, ma’lumki, aksariyat hollarda, zodagon oilalarning qizlari san’at, adabiyot, musiqiydan xabardor bo‘lgan holda voyaga yetgan. Shu o‘rinda kitobxonda Qutb ham boy oilaning farzandimi degan savol tug‘iladi. Ammo, Hirot, qolaversa, butun Xuroson nizomi, an’analariga ko‘ra har qanday holatda ham, hatto dushman tomon bo‘lsa-da, nasl-nasab masalasiga alohida e’tibor qaratilgan, hatto dushman tomonning ahli ayoliga ham alohida hurmat, ehtirom ko‘rsatilgan. Demakki, Qutb nasl-nasabi baland oilaning farzandi bo‘lganida edi, har qanday holatda ham G‘iyosiddinbekning oilasiga cho‘ri sifatida xizmat qilishiga yo‘l qo‘yilmas edi. Bundan ko‘rinadiki, Iroq ahli musiqasevar va san’atsevar. Natijada xalq hayotida ham musiqa muhim o‘rin tutishi aniq namoyon bo‘ladi. Qutbning musiqiydan yaxshigina xabardorlligining boisi ham shundan bo‘lish ehtimoli yuqori. Ayni shu o‘rinda ijodkorning nihoyatda keng qamrovli ma’lumotlarni kichik voqelikka, parchaga singdira olish qobiliyati namoyon bo‘ladi. Bu kabi usul kitobxon tafakkurini boyitishga, uni ortiqcha roviylik bilan zeriktirib qo‘ymaslikka ham yordam beradi. Ammo shu o‘rinda ma’lumotlarning alohida e’tiborli tomoni shundaki, Isajon Sulton qahramon ruhiyati, ichki olamining ham eng inja, nozik, dardli jihatlarini e’tibordan chetda qoldirmaydi. Zero, faqat tashqi tasvir qahramonni to‘laqonli tasavvur qilish uchun yetarli bo‘la olmaydi. Muallif ayni shu jihatni ham e’tibordan chetda qoldirmaydi. Zero, “Tarixiy romanlarda badiiy to‘qima masalasiga oid qoidaning yana bir muhim nuqtasi shuki, badiiy to‘qima tarix mantiqiga, hayotiy haqiqatga mos kelishidan tashqari badiiylik qonuniyatlariga ham rioya qilinishi shart. Badiiy asar voqealarida tabiiylik, tasvirda samimiyat, kompozitsiyada yaxlitlik va butunlik badiiy qonuniyatning muhim elementlari hisoblanadi” [4-200]. Isajon Sulton ham badiiylik qonuniyatiga amal qilgani holda, qahramon ichki olami, tuyg‘ulari bilan kitobxonni tanishtiradi, o‘quvchiga obrazning ruhiy

kechinmalarini yuqtirishga intiladi. Qutbga *ovozi tiniq, dardchil bo‘lib, shunchalar go‘zal ediki, odamni sehrlab qo‘yardi* kabi ifodaning berilishi ayni fiklarimiz isbotidir. Uning go‘zal ovozidagi dard tinglovchining ham qalbini o‘rtaydi. Chunki ovozdagi dard bekorga zohir bo‘lmaydi. Unda go‘zal qizning olislarda qolgan yurtining, yaqinlarining sog‘inchi bor. Garchi yonida u mehr qo‘ygan insonlar bo‘lsa-da, hech qayer insonga vatanichalik aziz bo‘la olmaydi. Bunga shoh Bobur qismati misol. Qizning qo‘shiqlaridagi dard ayni shu musofirlik, sog‘inch azoblarini aks ettiradi. Buni anglagan kitobxonning yuragi beixtiyor uvishadi, ta’sirlanadi. Qahramonni yanada aniqroq tasavvur qiladi. Ayni shu o‘rinda muallif psixologik portretga murojaat qiladi, Qutbiyani aniqroq va jonliroq tasavvur qilish uchun ud detal obrazidan mahorat bilan foydalanadi va psixologik portret namunasini yaratadi. Boisi, “Psixologik portretda muallifning asosiy diqqat - e’tibori qahramon xarakterini ochadigan, o‘y -kechinmalarini ifodalaydigan qabariq (noyob) detalga qaratiladi. Obrazni psixologik va axloqiy- ma’naviy mazmun bilan to‘ldiradigan bunday detal portretda o‘ziga xoslik kasb etadi. U orqali qahramonning psixologik belgilari aniq-ravshan ko‘rinadi” [5-94]. Asarda Qutbiya bilan o‘quvchini tanishtirish u qadar katta emas. Lekin biz tahlil qilganimizdek, kichik epizod katta ijtimoiy masalalarni o‘zida aks ettirmoqda, o‘quvchiga qahramonni to‘laqaonli anglash, tasavvur qilish imkonini bermoqda. “Alisher Navoiy” romanida bu kabi tasvir o‘rinlari juda ko‘plab o‘rinlarda, nafaqat, epizoodik qahramonlar tasvirida, qolavera, bosh qahramonlar tasvirida ham kuzatiladi. Badiiy to‘qima qahramonlar odatda, muallifning ijodiy niyatini ochib berishga, romandagi ta’sirchanlikni tasvirlashga, xalqning maishiy turmush tarzini o‘zida aks ettirishga ko‘mak beradi. Shu tariqa muallif o‘zining ko‘plab badiiy maqsadlarini yuzaga chiqarishga ham erishadi. Badiiy to‘qima obrazlarning yaratishning o‘ziga xos jihatlari romanda yaqqol ko‘zga tashlandi. Qolaversa, badiiy to‘qima obrazlar yozuvchi ijoiy niyatining yuzaga chiqishida ham muhim badiiy vosita sifatida ahamiyat kasb etadi. Tarixiy asarlar tarixiy ayol siymolarsiz yaralishi mumkin emas. Shu jihatdan Isajon Sulton tarixiy ayollar obrazlarini asarga kiritar ekan, ko‘plab badiiy-estetik jihatlarni ayni shu xarakterlar orqali ochib beradi. Boisi, odatda, muallif tarixiy ayol obrazlar zimmasiga jamiyatning bir qismi, bo‘lagi sifatida namoyon bo‘lishni yuklaydi. Ular orqali *saroy muhiti, ijtimoiy-iqtisodiy hayotni* ham ko‘rsatib berishni, bu jarayonda ayollarning o‘rni qanday ekani bilan kitobxonni tanishtirishni o‘z oldiga eng birlamchi maqsad qilib qo‘yadi. Ijodkorning ayni shunday maqsadlarini yuzaga chiqishida ahamiyatli bo‘lgan xarakter Gavharshodbegim obrazidir. Bu obraz yozuvchi uchun bir qadar yaralishi mushkul obrazdir. Buning bir qancha sabablari bor:

Eng birinchi navbatda, Gavharshodbegim obraziga bir qancha yozuvchilar murojaat qilganlari holda, uning aynan o‘z asarlari uchun xos bo‘lgan qiyofasini yaratib berishga urinadilar. Shu sababga ko‘ra Isajon Sulton oldida o‘z asarida boshqa asarlardagi Gavharshodbegimdan tamomila farqli, ammo tarixiy haqiqatga zid kelmaydigan Gavharshodbegim qiyofasini yaratishi zarur edi;

Ikkinchi navbatda esa, Gavharshodbegim bahsli tarixiy shaxsdir. Uning saroyda olib borgan faoliyatiga, farzandlari bilan bo‘lgan munosabatiga hamma turlicha yondoshadi, baho

beradi. Muallif esa ayni shu o‘rinda eng maqbul pozitsiyani tanlay olishi, xolislik prinsipiga amal qilishi, tarixiy haqiqatga betaraf munosabatda bo‘la olishi zarur edi.

Isajon Sulton o‘z oldida turgan ayni jihatlarni yaxshi ilg‘ay olgan. Shu boisdan u birinchi navbatda Gavharshodbegim qiyofasini yaratishda ortiqcha badiiy zeb, pafosdan qochadi, voqelikni imkon qadar sovuqqon, chetdan turib tasvirlashga urinadi. Eng avvalo, uning tarixiy jarayonda tutgan o‘rni, siyosiy kuchi va ahamiyati haqida to‘xtaladi, voqelikni aniq, konkret bayon etish yo‘lini eng maqbul jihat sifatida tanlaydi: *Malika Gavharshodbegim Shoxrux Mirzo ila cherikda ekan, Shoxrux Mirzo vafotidan so‘ng qo‘shinni Abdullatif Mirzoga topshirib, Hiriyga nabirasi Alouddavlaga “Poytaxtni mustahkamla” deb noma yuboribdi. Bundan Abdullatif Mirzo xabar topib, o‘z buvisi Gavharshodbegimni hibsga olib, Jayhun tomon yo‘l olibdi.* Yozuvchi bu o‘rinda ham kontekst orqali barcha maqsadni oydinlashtirishga urinadi: *Malika Gavharshodbegim Shoxrux Mirzo ila cherikda ekan...* ayni shu ifodadayoq Gavharshodbegimning mavqe’yi, saroyda, hukumat ishlarida tutgan o‘rni oydinlashadi. Boisi, uning cherikda bo‘lishining o‘ziyoq katta ahamiyatga ega. Chunki hukmdorlar odatiga ko‘ra shohning barcha yurishlarida ham ularning ahli ayoli yonida yuravermagan. Buning uchun ma’lum sabablar bo‘lishi joiz bo‘lgan. Ayni shunday sabablardan biri ayolning eri oldida katta hurmat va imtiyozlarga egaligi bo‘lsa, qolaversa uning ma’lum siyosiy o‘ringa ham egaligidir. Amaldagi hukmdorning vafotidan so‘ng esa, uning *qo‘shinni Abdullatif Mirzoga topshirishida* ham anchayin katta mazmun bor. E’tibor qilsak, muallif “qo‘shinni topshirib” degan ifodani qo‘llaydi. Ayni shu o‘rinda ham Gavharshodbegimning siyosiy jihatdan katta qudratga ega ekanligi, hattoki qo‘shinga ham ta’sir ko‘rsata olishi namoyon bo‘ladi. yozuvchi uning siyosiy qudratiga alohida to‘xtalib, uning kuch-qudrati, aql-u zakosini alohida ta’kidlab, urg‘ulab o‘tirmaydi. Shunga qaramasdan Gavharshodbegim obraziga tegishli hech bir jihat, xususiyat borki, uni e’tibordan chetda qoldirmaydi. Bu obrazni to‘laqonli tarzda, eng muhimi esa faqatgina o‘zigagina tegishli bo‘lgan uslubda tasvirlab berishga, o‘quvchiga tanishtirishga urinadi. Qisqagina parchani o‘qishi bilanoq kitobxon bu obrazning qudratini, uning saroyda tutgan o‘rnini, maqsadini ilg‘ay boshlaydi. Ammo yozuvchi bu obrazni yaratish asnosida qat’iy bir tomonda turib olmaydi, xulosalarni, voqelikka munosabatni o‘quvchining o‘ziga qoldiradi. O‘rni kelsa, kitobxon bu obrazga nisbatan o‘z munosabatining ham aynan qanday ekanligini, unga qanday munosabat bildirishni bilmay qoladi, uning maqsadini anglashga qiynalib qolgandek bo‘ladi. Yuqorida berilgan parchada *Hiriyga nabirasi Alouddavlaga “Poytaxtni mustahkamla” deb noma yuboribdi,* degan ifodani o‘qishimiz mumkin. Muallif bunga izoh bermagandek, bu masalani ochiq qoldirgandek ko‘rinadi. Ammo unday emasligi mana bu suhbat, aniqrog‘i diolog orqali oydinlashadi. Qolaversa, Isajon Sulton bu dialog orqali Gavharshodbegim timsoliga berib borilayotgan turlicha yondashuv mavjudligini ham ko‘rsatib beradi. Kimdir uni oqlasa, kimdir uni qoralaydi, kimdir uni tushunsa, kimdir uning xatti-harakatlaridan ko‘zlangan asl maqsadni anglamaydi. Boisi “Tarixiy asar ijodkori ham o‘z qo‘lida to‘plangan faktik materiallar bilan cheklanib qolmaydi. Chunki faktlar, informatsiyalar, ma’lumotlarning o‘zi bilan tarixiy mavzuda asar bitish mumkin emas. O‘tmish davr

odamlarining ruhiyati, yashash normalarining nozik jihatlari, dunyoqarashidagi o‘ziga xoslik, har bir shaxsga xos bo‘lgan individual xususiyatlar kitoblar yoki boshqacha vositalar orqali bizgacha yetarli darajada yetib kelgan. Muayyan real tarixiy shaxs obrazini so‘z san’atida gavdalantirmoqchi bo‘lgan ijodkor yana mushkulroq vaziyatga tushadi”[6-54]. Yuqorida ta’kidlaganimiz kabi Isajon Sulton oldida ham ayni shu mushkul vazifa mavjud edi. Shu sabab u barcha savollarga javobni o‘quvchining o‘ziga qoldirishni istasada, turli yo‘llar bilan o‘z munsabatini ham qistirib o‘tadi:

Malika Gavharshodbegim- chi? U xotinning qilmishlariga aql tong qoladi,

uyoq – buyoqqa alangladi kosib. Har ishi fitna, har yerni qo‘lga olmoq istaydi.

Bu diologda Gavharshodbegimning xarakter-xususiyatini to‘la va aniqroq anglash imkoni tug‘iladi. Uni kimdir to‘laligicha fitna-yu fasodning koni deb bilsa, muallif boshqa bir qahramon tilidan uni oqlab bergandek, bir qadar uni tushunishlarini istagandek bo‘lganini ko‘rsatadi:

Unday dema, dedi hunarmand achchiqlanib. – Sen bir kosib bo‘lsang, aqling

igna-yu bigizdan nari o‘tmas. Gavharshodbegim malikai ikromdir. Bor yo‘g‘i o‘z avlodining taxtga o‘tirishini istaydi, xolos. Ona avzoyi har doim shudir.

Ayni shu o‘rinda muallif Gavharshodbegimning ichki olamiga nazar tashlaganga, uni o‘quvchiga ham ko‘rsatishga uringanga o‘xshaydi. Gavharshodbegim har qancha kuchli ayol bo‘lmasin, qanchalik aqli rasolik bilan saltanat ishlariga baho bermasin, boshqarmasin, u eng avvalo, ona. Bu tuyg‘u uni har ishni qilishga, o‘rni kelsa gunohlardan ham qaytmaslikka undashi mumkin. Onalik tuyg‘usi ayolni o‘rni kelsa dunyodagi eng kuchli, qudratli zotga aylantirsa, o‘rni kelsa shunchalik ojiz, har narsadan hadiksiraydigan insonga aylantirib qo‘yishi mumkin. Yozuvchi ikki kishining diologi orqali ayni shu jihatga alohida urg‘u berib o‘tadi: *Ona avzoyi har doim shudir.*

“Alisher Navoiy” romanida ayollar obrazi u qadar ko‘p uchramaydi. Ular romanning bosh planida emas. Shunga qaramay sanoqli obrazlar ham yodda qolarli va badiiy ahamiyatga ega holda shakllantirilgan. Yozuvchi ularni voqelikning eng muhim o‘rinlari ishtirokchisiga aylantiradi. Uslub, badiiy mahorat va badiiy maqsad uchligida ayol obrazlarni xarakter darajasiga olib chiqadi, ularning xatti-harakatlarini syujet chizig‘ining mukammalligiga erishish jarayonida shakllantiradi. Asar syujeti va uning rivojida muhim tutgan ayol obrazlardan biri, shubhasiz, Xadichabegim obrazidir. Butun Temuriylar saltanati taqdiriga ta’sir ko‘rsatgan bu ayolning asarda o‘z o‘rni va vazifasi bo‘lishi tabiiy holdir. Yozuvchi bu obraz bilan kitobxonni tanishtirar ekan, malikaning go‘zalligiga alohida urg‘u beradi. Zero, “Yozuvchi qahramon va personajlarning tashqi qiyofasiga katta va jiddiy vazifa yuklaydi: sevimli qahramon va personajlarning zohiriy qiyofasi ijobiylashtiriladi, salbiy personajlarning qiyofasi esa ularning yovuz va badkirdor kishilar ekanini ta’kidlab turadi” [7-17], deya yozadi adabiyotshunos G‘. Murodov. Ammo har doim ham bu qat’iy qonun darajasiga ega emas. Boisi bugungi adabiyotda ichki va tashqi olam bir xil bo‘lishi kerak degan eski an’anaviy qonunlar bir qadar eskirgan uslub namunasidir. Xadichabegim go‘zalligi barobarida, yozuvchi uning yuksak aql-u zako sohibasi ekanini ham alohida ta’kidlaydi: *Bu nozikta’b malika aslida Sulton Abusaid Mirzoga*

hadya qilingan kanizlardan biri edi. Abusaid Mirzo Iroqda halok bo‘lgach, benihoya go‘zalligi va o‘tkir ishvasi bois uni Husayn Mirzo yoqtirib qolib, o‘z nikohiga olgan, Xadichabegim hukmdor ko‘ngliga yo‘l topa olgani uchun ham tez orada malikai karomga aylangan bo‘lib, sultondan ikki o‘g‘il ko‘rgan edi. Isajon Sulton ayollar ruhiyatini to‘qonli ochishda odatda, detallardan mahorat bilan foydalanadi. Shu jihatdan yozuvchi Xadichabegim obrazini to‘laqonli tasvirlashda muallif obraz go‘zalligini ta’riflashining o‘zi yetarli emas degan xulosaga keladi va malikaning ud sozini chalishidan yuksak badiiyat hosil qilishda foydalanadi: *Xadichabegim ud sozida tengi yo‘q mahorat egasi edi. Uning nozik sehrgar barmoqlari ko‘z ilg‘amas harakatlar bilan soz torlaridan shunday ajoyib sadolar chiqarardiki, tinglagan kishi hushi boshidan uchib, navo afsuniga g‘arq bo‘lardi. Ziyraklik bilan sulton kayfiyatidagi sezilar - sezilmas o‘zgarishni ilg‘ab olar, kuy yoki qo‘shiqni shunga qarab, sho‘xchan-u shodonini yoki dard-u hasratlisini tanlardi.* Yozuvchi obrazning asl nozik qirralarini shu tariqa ochib beradi, Xadichabegim ruhiyatidagi makr, nafosatning zakiylik bilan uyg‘unlikda namoyon bo‘lishini ud detal vositasida ko‘rsatib beradi. Ko‘rinib turganidek, “... detal badiiy voqelikni yaratish vositasi – ashyosi bo‘lib, u tasvirlanayotgan narsa-hodisani konkretlashtiradi, uni hissiy idrok qilish mumkin bo‘lgan tarzda gavdalantiradi. Boshqacha aytsak, detal asarda tasvirlangan obrazning kichik bir qismi (ya’ni u hamisha predmetlikni ko‘zda tutadi), detallarning birikuvi natijasida o‘sha obraz ko‘z oldimizda butun holda namoyon bo‘ladi” [8-13]. Xadichabegim va Qutbiya obrazlarining keng badiiy qiyofasi va ruhiyatini ochib berish jarayonida ayni shu holatga guvoh bo‘lishimiz mumkin.

Yozuvchi malikaning go‘zalligi, aql-u zakosiga bejizga urg‘u bermaydi, nazdimizda. Xadichabegim garchand Mo‘min Mirzoning qotili bo‘lsada, Isajon Sulton uni tushunishga uringandek, oqlashga harakat qilgandek, barcha voqea-hodisalarning zamirida avvalo, onalik hissi, mehri yotgani sababdek ko‘rsatmoqchi bo‘ladi, bizningcha uning o‘zi ham shunday fikrlaydi. Ehtimol, shu sabab ham uni salbiy bo‘yoqlar orqali tasvirlashdan, husn-u malohatiga qora bo‘yoqlarni qo‘shishdan ehtiyot bo‘ladi. Bu quyida berilgan fikrlarda yaqqol ko‘zga tashlanadi

Saltanatning oqila malikalari kelajak tadoriklarini ko‘rmoqliklari lozimki, avlodi xor bo‘lmasin, shaxzodalar olam zavqlari aro farog‘atli hayot kechirsinlar. Vaqti kelib, ular ulg‘ayib, mulku taxt taloshiga kirgaylar. Malikaning o‘tkir aqli Xuroson saltanati valiahdlarning o‘zaro nizolari tufayli parchalanib ketishini payqab turardi. Muallif malikaning bu xatti-harakatlariga onalik tuyg‘usi ila yuzaga kelgan harakat, kelajakka tadorik ko‘rish, shaxzodalar taqdiridan kuyinish sifatida yondashganga o‘xshab ko‘rinadi. To‘g‘ri, har bir ijodkor “voqealarni asarlarining o‘qishliligini ta’minlash maqsadida o‘z tafakkur dunyosidan kelib chiqqan holda badiiy asarlarga ko‘chiradi. Bu ko‘chirishda ham talqinlar yozuvchi uslubi va mahorati bilan bir xil shakllarda aks etadi”[9-91]. Shu jihatdan Isajon Sulton voqelikka o‘z dunyoqarashidan kelib chiqib munosabat bildirishga haqli. Ammo tarix Xadichabegimni hech qachon oqlamaydigan bir vaziyatda adabiyotning ham yelkasida gunohkorning gunohlarini yuvib bermaslik majburiyati bordir. Yozuvchi tasvirlarida xuddiki malikani oqlash yoki uni ham

tushunish kerak degan iddao bordek tuyuladi. Biroq, yozuvchi ehtimol uni mutlaqo oqlashga urinmagan bo‘lishi, aksincha, bu o‘rinda ham ayol, ona obrazining ichki kechinmalari, ruhiyatini ochib berish istagida tasvirni maromiga yetkazolmagan bo‘lishi mumkin. Chunki asar mobaynida biror o‘rinda Xadichabegimning jazolangani, yoxud uning afsus -nadomat ichida qolgani, hech bo‘lmasa tarix oldida nomi qaro ayolga aylangani qayd etilmaydi. Bizningcha, muallif ayni shu jihatlarga ham alohida ahamiyat qaratishi, e’tibordan chetda qoldirmasligi zaruriy ehtiyoj edi. Garchand muallif tasvir va xarakterlarni yaratish jarayonida qanchalik mustaqil va erkin bo‘lmasin, uning oldida adabiyotning kelajak avlodga ma’lumot yetkazuvchilik vazifasi ham turadi.

Asarda to‘la ochib berilmagan Volida beka obrazi ham mavjud bo‘lib, muallif bu obrazga yetarli darajada to‘xtalmaydi. Uni syujetga, undagi diologlarga ham ko‘pda aralashtiravermaydi. Bu Alisher Navoiyning onasi obrazidir. Alisher Navoiyning onasi haqida tarixiy manbalarda, badiiy asarlarda yetarlicha ma’lumotlar yo‘qligi bois, Isajon Sulton ham bu obrazni yetarlicha yoritib berolmaydi. Uni *“G‘iyosiddinbek bilan tag‘oyilar shahid bo‘lib, sevimli bekasi g‘am alam o‘tida halok”* bo‘lganini Qutb obrazi vositasida qistirib o‘tadi, xolos. Ammo ona mehrining chegarasi va qiyosi yo‘q. Farzand vafot etgach, hech kim bunga onalarchalik kuyunmaydi. Alisher Navoiy vafot etgan lahzada onasining bu yorug‘ dunyoni tark etganini inobatga oladigan bo‘lsak, yozuvchi bu o‘rinda Navoiy vafotining qayg‘usini asarda yanada yorqinroq qilish maqsadida Qutbiya obrazidan foydalanadi. Shu boisdan ham yozuvchi asar davomida deyarli syujetda ko‘rinmagan Qutb obraziga qaytadi: *Qutb zor-zor yig‘lab, o‘z odatiga ko‘ra bir yil motam tutdi. “Alisherim” deya bo‘zlardi. Faryodi falakka sig‘may ketardi. Goh qo‘llarini havolatib, goh yuzlarini tirnab-tirnab, girya aytib aylanardi. Ko‘zyoshlari nuqra kabi sochilar, ular esa quyosh nihon bo‘lgach paydo bo‘ladigan yulduzlarga o‘xshardi.* Bu orqali muallif o‘ziga xos badiiyatni, Navoiy vafoti fojiasining chinakam og‘riq va ko‘lamini ko‘rsatib berishga urinadi. Pafosni yanada oshirishga, kitobxonga qayg‘uni yaqinroq his qildirishga urinadi. Qutbning ko‘zyoshlarini quyosh ketgach sochilgan yulduzlarga o‘xshatadi va Navoiyning:

Orazin yopqach ko‘zimdin sochilur har lahza yosh,

O‘ylakim, paydo bo‘lur yulduz, nihon bo‘lg‘och quyosh

misralarini keltiradi. Bu orqali asardagi badiiyatni yanada yuqorilatishni, pafosni kuchaytirishni maqsad qiladi. Fikrimizcha, bu holat u qadar ham o‘zini oqlamaydi. Chunki asardagi har qanday ortiqchalik, yasamalik yaqqol sezilib qoladi va kitobxonni ham g‘ashlantiradi. Muallifning syujetda deyarli ishtirok etmayotgan qahramonni kutilmaganda syujetga qaytarishi, uning oh-voylarini ko‘rsatib, sun’iy tarzda Navoiyning nihoyatda mashhur misralari bilan bog‘lashi o‘zini oqlamaydi. Aksincha, asarda yasamalik, soxtalik kabi holatlarning kelib chiqishiga sabab bo‘ladi. Boisi, filologiya fanlari doktori A.Rahimov ta’kidlaganidek: “Aslini olganda, san’atkor niyatining ro‘yobga chiqish darajasi, obrazlar mohiyatini ochishning chuqurligi, g‘oyaning aniqligi, umuman, badiiy asarning yaxlitligi, o‘qishliligi va badiiy-estetik kuchi ko‘p jihatdan syujet va kompozitsiyaning mukammalligi,

mazmunga qay darajada muvofiqligi bilan bog‘liqdir. Asar syujeti va kompozitsiyasi yaxlit bo‘lishi uchun yozuvchi -san’atkor borliqdagi hodisalarning o‘zaro bog‘liqligini chuqur idrok etishi kerak” [10-8]. Isajon Sultonda pafosni oshirish maqsadida amalga oshirilgan harakat, ya’ni Qutbiyaning Navoiy vafoti qayg‘usiga ko‘milishi ayni shu syujet va undagi boshqa unsurlarning o‘zaro uzviyligiga putur yetkazadi, qaysidir ma’noda muallifning ko‘zlagan maqsadi amalga oshmasdan qoladi.

Isajon Sultonning “Alisher Navoiy” romanida har bir qahramonning o‘z funksiyasi mavjud. Muallif ularga asardagi o‘rnidan kelib chiqqan holda munosabat qoldiradi, syujetga olib kiradi yoki syujetdan chiqarib yuboradi. Ya’ni qahramonlar taqdiri, ularning xatti-harakatlarida qat’iy prinsipga tayanadi.asardagi kam sonli ayollar obraziga ham ayni shunday munosabatda bo‘ladi, ularni mukammal darajada tasvirlashga, ruhiy iztiroblari bilan birgalikda, uyg‘unlikda tasvirlashga intiladi. Muallif ularning ayol sifatidagi eng nozik kechinmalarini ham diqqatidan tashqarida qoldirmaydi. Har bir obrazni xarakter darajasiga olib chiqqani holda, mustahkam xarakterlarni shakllantirishga erishadi. Demakki, bu jarayonda, ya’ni ayollar obrazining butun bir ruhiy holatini ochib berishda muallif uch muhim omillarga murojaat qiladi:

Ayol obrazlarning xarakterini ochib berish jarayonida dialoglardan unumli tarzda foydalanish;

Detal obrazlarni ayol ruhiyatining nozik qirralarini ochib berish uchun xizmat qildirish;

Ayol ruhiyating tasvirini asardagi boshqa bir personaj tili orqali ko‘rsatib berish;

Xulosa va takliflar.

Ayni shu jihatlar orqali “Alisher Navoiy” romanida ayollar obrazi syujet liniyasiga qizg‘in tarzda olib kiriladi va ayol ruhiyatini badiiy tasvirlash asardagi pafosning yuqori bo‘lishiga, badiiylikning nozik tarzda aks etishiga yordam beradi. Garchand romanda ayollar obrazi u qadar ko‘p emas. Tarixiy ayollar obrazi, to‘qima ayollar obrazi muallif asarida alohida uslub bilan yaratilgan deyish ham mumkin. Yozuvchi tarixda yashab o‘tgan ayollar obrazini yaratishda, ularning ruhiyatini ochib berishda konkret tarixiy manbalarga tayanadi. Ortiqcha pafosga berilmaydi, bu kabi ayollar ruhiyatidagi kuchli jihatlarga, ularning aql-u zakosiga alohida e’tibor qaratadi. To‘qima obrazlarga esa jamyatning ma’lum jihatlarini, xususiyat va o‘ziga xosliklarini ochib berish funksiyasini yuklaydi. Ular orqali millat onalarining qiyofasini, urf-odat va an’analarini yorqin tarzda namoyon etishga yuklaydi. Shu ma’noda ularning badiiy yuki anchayin zalvorli. Isajon Sulton bu kabi ayollar qiyofasini tasvirlar ekan, ayol qalbining eng nozik jihatlariga, ayol tuyg‘usining betakror evrilishlariga ahamiyat qaratadi. Shu jihatdan badiiy to‘qimalik xususiyatiga ega ayollar obrazini yaratishda odatda pafosning anchayin yuqori ekaniga guvoh bo‘lamiz. Bir so‘z bilan aytganda esa, “Inson ruhiyatining chuqur tahlili, uning ong osti, yashirin sir-sinotlarini yanada mukammal tushunish va tasvrlash doimo, eng qadimgi davrlardan boshlab adabiyotning eng asosiy muammosi bo‘lib kelgan. Shu bois badiiy asarda inson ruhiyatining chuqur va batafsil tahlilini adabiyotning sifat belgisini ko‘rsatuvchi xususiyat

deyish mumkin. Ruhiyat tasviri muammosi jahon ilm -fanidagi kabi o‘zbek adabiyotshunosligida ham doimo muhim va dolzarb tadqiqot muammosiga aylanib kelgan” [11-75]. Isajon Sulton romanida ayollar xarakteri, ularning ruhiyatiga yondashuv usullari va uslubi ayni shu muammolarning dastlabki badiiy yechimlaridan biri bo‘lishi jihatidan ahamiyatlidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Isomiddinov Z. Ikki ayol. Tafakkur -2007. Toshkent. 4-son. B. 47.

2. Muxammedova N. Margaret Drebbl asarlarida Ayol obrazi va uning ijtimoiy-estetik talqini: Filol.

3. Zayniddinova A. Tarixiy voqelikning badiiy talqini. O‘zbek tili va adabiyoti. 2005. №3. – B. 91.

4. Karimov G‘. Prozamizda tarixiy tematika. Sharq yulduzi. 1979.№ 3. B. 200.

5. Botirova sh. B. 94

6. Murodov G‘. Badiiy asarda tarixiy va to‘qima obraz. O‘zbek tili va adabiyoti. 1985. № 2. – B. 54.

7. Murodov G'. Badiiy asarda tarixiy va to‘qima obraz. O‘zbek tili va adabiyoti. 1985. № 2. B.17

8. Sultonova M. Peyzaj san’ati. Toshkent. Fan, 1983. – B. 13

9. Allaberganov A. B.91

10. Rahimov A. Roman san’ati. Farg‘ona: Farg‘ona, 2015. –Б.8.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 1-son)

FILOLOGIYA

PHILOLOGY

LIFE AND DEATH IN THE SNOW: EXAMINING WAR THROUGH SHUKHRAT'S "GOLD IS RUSTPROOF"

Murtazayev Elyor Nizomiddinovich
Teacher of Asian Technological University

Abstract This comparative analysis delves into two pivotal works of war literature, exploring the profound themes of life, death, and human resilience amidst the Second World War's brutality. By juxtaposing a Russian and an Uzbek perspective, the study not only uncovers the universal existential quandaries precipitated by war but also highlights the unique narrative techniques and cultural insights embedded within each tradition. Through examining narrative structure, character evolution, and the philosophical underpinnings of these texts, the article reveals the war's multifaceted impact on both the front lines and the home front. This exploration emphasizes the importance of literary inquiry in grasping the complex legacies of war on literature and culture, showcasing literature's capacity to bridge cultural divides and enhance our understanding of shared human experiences in times of conflict.

Keywords Comparative analysis, war literature, life and death, human resilience, Second World War, Russian literature, Uzbek literature, Shukhrat, existential dilemmas, cultural insights, narrative techniques.

INTRODUCTION The exploration of life and death, as the quintessential dualism inherent to the human condition, finds a poignant and multifaceted expression in the theater of war, a setting where these themes are not only magnified but intertwined with the fate and psyche of individuals and nations. This article embarks on a critical comparative analysis of these seminal works, each a narrative beacon within their respective cultural and literary tradition- Uzbek. It aims to delve into the depiction of life and death amidst the tumultuous backdrop of war, as portrayed in Shukhrat's novels, to unravel the nuanced layers of human experience and existential reflection provoked by the extremities of wartime existence. Shukhrat's "Gold is rustproof" serve not merely as literary reflections but as cultural artefacts that encapsulate the Uzbek perspectives on the Second World War, respectively. Through the lens of these narratives, the article proposes to examine the variegated texture of war's impact on the individual and collective psyche, the oscillation between the will to live and the confrontation with death, and the ways in which these experiences are imbued with cultural significance. The central thesis posits that, despite the divergent historical and cultural contexts from which these stories emerge, they converge in their profound exploration of the themes of

life and death, thus offering a unique vantage point to understand the universalities of war’s existential quandaries. Furthermore, this comparative analysis is predicated on the assumption that the cultural and historical backdrop — Uzbek — significantly shapes the narrative structure, thematic depth, and philosophical underpinnings of these works. It contends that an understanding of the socio-political milieu, literary traditions, and cultural ethos that influenced Shukhrat is indispensable for a nuanced appreciation of how life and death are artistically rendered and philosophically contemplated in their novels. Therefore, this article aims not only to dissect the literary manifestations of life and death in “Gold is rustproof” but also to contextualize these explorations within the broader tapestry of Russian and Uzbek literature and history, thereby uncovering the interconnectedness of culture, literature, and the human condition as reflected through the prism of war. Author backgrounds and historical context. To illuminate the profound depths of Gold is rustproof” by Shukhrat, it is imperative to delve into the biographical backgrounds of these authors, whose personal encounters with war have indelibly shaped their literary landscapes. The historical canvas of the Second World War, as experienced by Russia and Uzbekistan, serves not only as a backdrop but also as a pivotal force in molding the narrative arcs and thematic essences of their novels. Shukhrat, hailing from Uzbekistan and born in 1918, offers a contrasting yet complementary perspective. His life, marked by the vicissitudes of Soviet rule in Central Asia, was profoundly influenced by the societal transformations wrought by the war. Uzbekistan, then a Soviet republic, became a refuge for many Russians fleeing the frontlines, a melting pot of cultures and stories that Shukhrat intricately weaves into “Gold is rustproof”. The novel reflects not only the physical battles waged but also the internal struggles of its characters, encapsulating the collective and personal histories of a people caught in the maelstrom of global conflict. Shukhrat’s narrative is steeped in the cultural ethos of Uzbekistan, offering insights into how the war altered its social fabric and the resilience of its people. The historical context of the Second World War in Russia and Uzbekistan is marked by stark contrasts and poignant similarities. For Russia, the war was a fight for survival against a formidable invader, a narrative of heroic resistance and immense sacrifice that has become a cornerstone of national identity. The Siege of Stalingrad, a pivotal event depicted, symbolizes this struggle, highlighting the resilience of the Russian spirit in the face of insurmountable odds. In contrast, Uzbekistan’s experience, though geographically removed from the frontlines, was no less transformative. The influx of refugees, the cultural exchanges that ensued, and the republic’s role in supporting the war effort through manpower and resources are narratives explored in “Gold is rustproof”. These historical nuances provide a fertile ground for examining how Shukhrat navigate the themes of life and death, embedding their tales within the larger tapestry of war’s impact on Russia and Uzbekistan. Thus, the exploration of “Gold is rustproof” through the prism of their authors’ backgrounds and the historical context of the Second World War offers a multifaceted understanding of how personal experiences and cultural narratives interlace to depict the universal themes of life, death, and the human condition during wartime.

Synopsis and thematic overview. “Gold is rustproof” by Shukhrat stand as monumental literary endeavors that delve into the harrowing experiences of war, each through the lens of its distinct cultural and historical milieu. These novels not only offer a narrative journey through the landscapes of conflict but also engage deeply with the themes of life and death, exploring the resilience of the human spirit against the backdrop of war’s devastation. “Gold is rustproof” by Shukhrat provides a compelling narrative from the perspective of the Uzbek people during the same war. Unlike “Gold is rustproof”, which is set on the frontlines, Shukhrat’s novel explores the war’s ripple effects on the home front, focusing on the lives of ordinary Uzbeks as they navigate the complexities of a world at war. The novel adeptly captures the cultural and societal shifts induced by the war, weaving together personal stories of loss, resilience, and the indomitable will to preserve humanity amidst chaos. The themes of life and death are explored through the prism of civilian experience, shedding light on the oft-overlooked aspects of war such as displacement, the blurring lines between the home front and the battlefield, and the enduring strength of community and tradition in safeguarding the human spirit. Both novels, though differing in setting and perspective, converge in their treatment of the themes of life and death. They underscore the omnipresence of these themes in every facet of wartime existence, from the frontlines to the home front. The existential quandaries posed by the proximity of death serve to accentuate the value of life, compelling characters in both narratives to confront their mortality and seek solace in the bonds of humanity that persist even in the darkest of times. The contrasts between the novels highlight the universality of war’s impact, transcending geographical and cultural boundaries to reveal the shared human experiences at its core.

Narrative techniques and literary devices. In “Years in overcoats” by Shukhrat, the authors employ a variety of narrative techniques and literary devices to convey the profound themes of life and death against the backdrop of war. Both novelists adeptly use narrative perspective, symbolism, imagery, and language to immerse readers in the visceral realities of war, albeit through their distinct cultural lenses. This comparative analysis reveals how these elements synergize to enhance the reader’s understanding of war’s multifaceted impact on the human spirit. The novel utilizes a close third person narrative perspective, enabling a deep exploration of individual soldier’s experiences and emotions amidst the Siege of Stalingrad. This choice of perspective allows for an intimate portrayal of the internal conflicts and external challenges faced by the characters, bringing to the forefront the precarious balance between life and death. The narrative is laden with detailed descriptions of the snow-covered battlefield, where snow becomes a symbol of both the beauty and cruelty of nature, reflecting the paradoxical nature of war itself. For instance, the relentless snowfall in Stalingrad is depicted not just as a natural phenomenon but as an embodiment of the soldiers’ isolation and the obliteration of individual identities. Shukhrat, on the other hand, employs a broader narrative scope in novel, weaving together multiple storylines that reflect the collective experience of the Uzbek people during the war. The novel’s use of language and imagery evokes the cultural and societal backdrop of Uzbekistan, enriching the narrative with a sense of place and identity.

Through the juxtaposition of life on the home front with the distant echoes of the frontlines, Shukhrat highlights the pervasive shadow of death even in areas removed from direct combat. The symbolic use of overcoats represents the burden of war carried by every individual, a protective layer against the cold that is simultaneously a reminder of the ongoing conflict. Both authors extensively utilize imagery to depict the harrowing realities of war, crafting vivid scenes that capture the essence of life amidst death. In novel, the imagery of the battlefield, marked by the stark contrast between the white snow and the blood of fallen soldiers, serves as a powerful visual metaphor for the loss of innocence and the omnipresence of death. Shukhrat’s narrative is imbued with images that contrast the serene beauty of the Uzbek landscape with the upheaval brought about by war, underscoring the disruption of everyday life and the looming specter of mortality. The use of language in both novels is tailored to evoke an emotional response from the reader, with Bondarev’s sharp, precise prose capturing the urgency and chaos of battle, while Shukhrat’s lyrical quality reflects the introspective and contemplative nature of the home front experience. This divergence in narrative style mirrors the differing impacts of war on the battlefield and civilian life, yet both authors succeed in conveying the profound effects of war on the human condition.

Cultural and philosophical insights. In “Years in overcoats” by Shukhrat, the exploration of cultural and philosophical insights into the nature of war, the value of life, and the inevitability of death is deeply interwoven with the fabric of their narratives, offering a reflective mirror on the societies from which these stories emerge. The novels provide a rich ground for examining how Russian and Uzbek cultural perspectives uniquely influence the portrayal of these universal themes, revealing a complex interplay between individual experiences and collective historical consciousness. It immerses readers in the existential realities of the Eastern Front during World War II, particularly the Siege of Stalingrad, a pivotal moment that is emblematic of the ultimate sacrifice and resilience. Through the prism of its characters, the novel delves into the philosophical underpinnings of sacrifice, heroism, and the human capacity for endurance in the face of existential annihilation. The Russian palpable in the narrative’s exploration of life and death. Bondarev portrays the war as a crucible that both forges and annihilates, a space where the philosophical questions of meaning, morality, and existence are contested and redefined. Conversely, Shukhrat’s “Gold is rustproof” offers a perspective from the home front, where the echoes of war permeate the daily lives of the Uzbek people. The novel reflects on the war’s impact on the individual’s place within the community and the broader societal changes it precipitates. Through the lens of Uzbek cultural values, where community and familial bonds hold significant importance, the narrative examines how war reshapes these relationships, highlighting the tension between the individual’s struggle for survival and the collective experience of loss and hope. Shukhrat presents a philosophical contemplation on the nature of war as an interminable cycle of life and death, one that transcends the immediacy of the battlefield to touch upon the existential continuity of the human experience. Both authors, through their cultural lenses, engage with the themes of life and death not as mere abstractions

but as lived realities that are intricately bound to the cultural and historical identity of their peoples. The Russian perspective, with its historical narratives of endurance against invasions, and the Uzbek perspective, with its emphasis on the communal fabric of society, both contribute to a nuanced understanding of war's universal impact on the human condition. The philosophical insights offered by Shukhrat illuminate the complexities of war, inviting readers to reflect on the profound questions of life, death, and the human capacity for resilience in the face of existential threats.

Comparative analysis. In the endeavor to dissect the thematic cores of Shukhrat's "Gold is rustproof", a comparative analysis unveils both stark contrasts and intriguing convergences in their portrayals of war's brutality and the human spirit's resilience. Through the lens of these literary works, one gleans profound insights into the multifaceted dimensions of life and death, set against the backdrop of war's inexorable desolation. This analysis endeavors to illuminate the nuanced interplay between the overarching narratives of survival and the inevitable confrontation with mortality that these novels encapsulate. "Gold is rustproof" immerses the reader in the visceral realities of the Siege of Stalingrad, delineating the war's brutality not merely as a backdrop but as an omnipresent force that shapes every aspect of existence. Bondarev crafts a narrative that is both a testament to the physical horrors of war and a profound exploration of the psychological and moral quandaries faced by those on the front lines. The resilience of the human spirit is portrayed through the camaraderie among soldiers, their moments of sacrifice, and the relentless pursuit of hope amidst despair. The novel's detailed depiction of the siege's hardships underscores a grim acceptance of death as an ever-present companion, yet it simultaneously elevates the act of living — no matter how beleaguered — as an act of defiance against the nihilism of war. Cultural context, with its historical emphasis on collective resilience and the stoicism of its people, is Conversely, "Gold is rustproof" offers a panoramic view of war's impact from the Uzbek home front, where the echoes of distant battles permeate the fabric of everyday life. Shukhrat employs a narrative that weaves together the personal and collective experiences of a society indirectly ensnared by the war's tentacles. The brutality of war, in this context, manifests through the socio-economic and psychological strains on the civilian population, revealing a different but equally poignant aspect of war's inhumanity. The resilience of the human spirit is depicted through the characters' endeavors to maintain a semblance of normalcy, their unwavering hope for peace, and the preservation of cultural and familial bonds as bulwarks against the erosion of their identities. In this narrative, life and death are interwoven into the daily fabric, with the shadow of war casting a long pall over the existential certainties of the characters' lives. The convergence of viewpoints in "Gold is rustproof" emerges in their shared contemplation on the significance of life and death amidst war. Both Shukhrat grapple with the existential paradoxes of war, where the omnipresence of death magnifies the value of life and the acts of living acquire heightened significance as affirmations of humanity.

CONCLUSION In conclusion, “Years in overcoats” not only enrich our understanding of the Second World War’s literary and cultural dimensions but also invite reflection on the enduring human questions that arise in the face of conflict. By examining these works together, we gain a deeper appreciation for the power of literature to traverse cultural boundaries, providing a shared space for contemplation, empathy, and understanding in the quest to comprehend the incomprehensible realities of war.

REFERENCE

1. Babur, Z. M. (2020, June). METHODS FOR CREATING AN ARTISTIC IMAGE IN THE NOVEL “OLTIN ZANGLAMAS. In *Archive of Conferences* (Vol. 2, No. 2, pp. 27-29).

2. Muhammadova, M. (2024). “OLTIN ZANGLAMAS” ROMANIDA IMON-E’TIQOD VA URUSH FOJIASI TASVIRI. *INTERNATIONAL SCIENCES, EDUCATION AND NEW LEARNING TECHNOLOGIES*, *1*(8), 36-39.

3. Muhammadova, M. (2024). “OLTIN ZANGLAMAS” ROMANIDA IMON-E’TIQOD VA URUSH FOJIASI TASVIRI. *INTERNATIONAL SCIENCES, EDUCATION AND NEW LEARNING TECHNOLOGIES*, *1*(8), 36-39.

4. Nurshoda, J., & To‘liboyev, S. (2023). SHUHRATNING «OLTIN ZANGLAMAS» ROMANIDA XARAKTERLAR TASVIRI. *JOURNAL OF SCIENCE, RESEARCH AND TEACHING*, *2*(12), 125-127.

5. Sobirovich A. S. Lecturer at the Department of Russian Language and Literature Bukhara State University //Scientific reports of bukhara state university. – C. 86.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 1-son)

FILOLOGIYA

PHILOLOGY

SOBIR SAYQALIY ASARLARIDA POETIK KO‘LAM VA BADIIY SAN’ATLARNING O‘RNI

Jumanov Bektosh Karimovich
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti doktoranti
Email:bektoshjumanov@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘zbek adabiyotida XVIII asrda ijod qilgan Sobir Sayqaliyning asarlarida poetik ko‘lam va badiiy san’atlar tasavvufiy-falsafiy tushunchalar, tarixiy voqealar va axloqiy qadriyatlar orqali o‘z aksini topganligi, Sayqaliy asarlari, nafaqat, diniy-tasavvufiy mazmuni, balki xalqning milliy ongini, qadimiy e’tiqodlarini va urf-odatlarini aks ettirganligi haqidagi ma’lumotlar ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: XVIII asr o‘zbek adabiyoti, Sobir Sayqaliy, poetik ko‘lam, “Ravzat ush-shuhado” ,diniy-falsafiy g‘oya, islom, barqaror e’tiqod, poetik ifoda, g‘azal, ruboiy, qit’a, masnaviy, tajnis, tazod, . istiora, tashbeh, ishqiy-tasavvufiy mavzu, badiiy san’atlar.

Annotation: This article examines how the poetic scope and artistic devices in the works of Sobir Sayqali, a poet who created during the 18th century in Uzbek literature, reflect mystical-philosophical concepts, historical events, and moral values. It highlights that Sayqali's works are not only of religious and mystical content but also depict the national consciousness, ancient beliefs, and traditions of the people.

Keywords: 18th-century Uzbek literature, Sobir Sayqali, poetic scope, Ravzat ush-shuhado, religious-philosophical ideas, Islam, steadfast belief, poetic expression, ghazal, rubai, qit’a, masnavi, tajnis, antithesis, metaphor, simile, romantic-mystical themes, artistic devices.

Аннотация: В данной статье рассматривается, как в произведениях Собира Сайкалия, творившего в узбекской литературе XVIII века, поэтический масштаб и художественные приёмы отражают суфийско-философские понятия, исторические события и моральные ценности. Отмечается, что произведения Сайкалия содержат не только религиозно-суфийское содержание, но также отображают национальное сознание, древние верования и традиции народа.

Ключевые слова: узбекская литература XVIII века, Собир Сайкалий, поэтический масштаб, «Равзат уш-шуходо», религиозно-философская идея, ислам, устойчивое убеждение, поэтическое выражение, газель, рубаи, кита, маснави, таджнис, антитеза, метафора, сравнение, романтико-суфийская тема, художественные приёмы.

Kirish

Badiiy adabiyot doimo borliq, inson qalbi, inson faoliyati, harakat mohiyati hamda uning sabablari haqida insonning qalbida ezgulik urug‘ini o‘stiradi. Sobir Sayqaliyning asarlari ham insonni pok muhabbat, buyuk jasorat, vatanga muhabbat, haqsizlikka qarshi murosasizlik, Haqqa barqaror e’tiqod, inson nomiga munosiblik mas’uliyati mavzularini kishi qalbida shakllantiradi. Jumladan, o‘zining "Ravzat ush-shuhado" asarida ham turli she’riy janrlardan foydalanib, poetik ifoda imkoniyatlarini kengaytirgan. Asar, asosan, masnaviy shaklida yozilgan bo‘lib, unda g‘azal, ruboiy va qit’a kabi janrlarga ham murojaat qilingan.

Natija va mulohazalar

Sobir Sayqaliyning "Ravzat ush-shuhado" asarida milliy ruhning ifodasi ko‘p jihatdan tasavvufiy-falsafiy tushunchalar, tarixiy voqealar va axloqiy qadriyatlar orqali o‘z aksini topadi. Ushbu asar nafaqat diniy-tasavvufiy mazmuni, balki xalqning milliy ongini, qadimiy e’tiqodlarini va urf-odatlarini aks ettirganligi bilan ham ahamiyatlidir.

Sayqaliy o‘zining "Ravzat ush-shuhado" asarida turli she’riy janrlardan foydalanib, poetik ifoda imkoniyatlarini kengaytirgan. Asar, asosan, masnaviy shaklida yozilgan bo‘lib, unda g‘azal, ruboiy va qit’a kabi janrlarga ham murojaat qilingan.

Asarning asosiy qismi masnaviy shaklida bo‘lib, bu janr voqeabandlikni ifodalashida qulaylik yaratagan. Masnaviyda har bir baytning misralari o‘zaro qofiyalanadi, bu esa hikoyaning ritmini ta’minlaydi.

Sayqaliy asarda g‘azal janridan ham foydalangan. Keltirilgan g‘azallar, asosan, ishqiy va tasavvufiy mavzularda bo‘lib, insonning ilohiy muhabbatga intilishi, ma’naviy kamolotga erishish yo‘lidagi kechinmalarini ifodalagan.

Ba’zi o‘rinlarida ruboiylar qisqa, lekin mazmunan chuqur bo‘lib, falsafiy mushohadalarni ifodalashda qo‘llanilgan. Sayqaliy ruboiylari orqali hayotning mazmuni, insoniy qadriyatlar va o‘tkinchi dunyo haqida fikr yuritadi.

Qit’alar janri ham asarda muayyan mavzuni qisqa, lekin ta’sirchan ifodalash uchun ishlatilgan. Bu janr orqali muallif axloqiy nasihatlar, hayotiy tajribalarini bayon etgan.

Sayqaliyning "Ravzat ush-shuhado" asarida ushbu janrlarning uyg‘unligi asarning badiiy qiymatini oshirib, kitobxonga turli poetik shakllar orqali boy ma’naviy va estetik tajriba taqdim etadi.

Sobir Sayqaliyning "Ravzat ush-shuhado" asarida ishlatilgan she’riy janrlar va ularning poetik ko‘lamini chuqurroq tahlil qilishda quyidagilarni yodda tutish lozim:

1. Masnaviy shakli:

Masnaviy janri asarning asosiy qismida qo‘llanilgan. Bu shakl voqeabandlikni samarali yetkazishga xizmat qilgan. Har bir baytning misralari o‘zaro qofiyalanadi (aa, bb, cc). Bu qofiyaviy tizim voqealar ketma-ketligini oson tushunish va musiqiylikni ta’minlashda katta rol o‘ynaydi.

“Ravzat ush-shuhado”da masnaviy janri orqali diniy va tarixiy voqealar, payg‘ambarlar, shahidlar va olijanob insonlarning qissalari badiiy tilda hikoya qilinadi.

Ushbu janr dostonning tasviriy kuchini oshiradi va undagi ma’rifiy mazmunni o‘quvchiga tushunarli qiladi.

2. G‘azal janri:

Sayqaliyning g‘azallari, asosan, tasavvufiy va ishqiy mavzularda yozilgan bo‘lib, inson qalbining ichki kechinmalari, ilohiy muhabbat va Allohga bo‘lgan sadoqatini aks ettiradi.

Shoir g‘azallari o‘zining yuqori badiiyligi, ma’noli ramzlari va ohangdorligi bilan ajralib turadi. G‘azallarida yor tasviri ko‘pincha ilohiy sevgining ramzi sifatida ishlatiladi, bu esa tasavvufiy adabiyotga xosdir.

3. Ruboiylar:

Ruboiylar qisqa, lekin mazmunan chuqur she’riy shakl bo‘lib, asarning falsafiy jihatlarini ifodalashda ishlatilgan. Ruboiylarida inson hayotining mazmuni, o‘tkinchiligi va ma’naviy poklanishga chaqiruvchi fikrlar bayon etilgan. Masalan, dunyo va oxiratni qiyoslash orqali insonni axloqiy kamolotga chorlash ruboiylarida yaqqol ko‘rinadi.

4. Qit’a janri:

Qit’alar "Ravzat ush-shuhado"da qisqa hajmda chuqur ma’no ifodalash uchun ishlatilgan.

Ular asosan axloqiy mavzularda, kishilarni yaxshi amallar qilishga undash va dunyoning haqiqatini tushunishga yo‘naltirilgan.

Asarda poetik ko‘lam va badiiy san’atlarning o‘rni:

1. Tajnis: Qofiyalarda bir xil talaffuzdagi so‘zlar turli ma’noda qo‘llanilib, she’rning musiqiyligi oshirilgan.

2. Tazod: Hayot va o‘lim, yorug‘lik va zulmat, dunyo va oxirat singari qarama-qarshiliklar orqali she’rlar mazmuni chuqurlashtirilgan.

3. Istiora va tashbeh: Tasviriy vositalar orqali ilohiy sevgining yuksakligi va insonning ma’naviy izlanishlari yoritilgan.

“Ravzat ush-shuhado” she’riy janrlarning o‘ziga xos uyg‘unligi orqali yuksak badiiy darajaga yetgan. Asar tasavvufiy mohiyatni estetik tarzda ifodalashda, inson qalbiga yo‘l topishda katta rol o‘ynaydi.

1. Tasavvufiy ruhdagi baytlardan ba’zilarini ko‘rib o‘tamiz:

Ilohi, ishqingda yonar bir shama,

Dunyoni qo‘yub, berar jon sadaqa.

Ushbu baytda insonning ilohiy sevgi yo‘lida o‘z jonini ham sadaqa sifatida berishga tayyorligi ifodalangan. Tasviriy vosita sifatida yorug‘lik va shama ramzi qo‘llangan.

2. Shahidlik mavzusidagi baytlar:

O‘rtar qalbni shahidlar nidosi,

Jannat bo‘ldi ularning makoni.

Bu bayt shahidlarning Alloh yo‘lida ko‘rsatgan jasoratini madh etadi va ularning oliy mukofoti sifatida jannat tasvirini beradi. Bu kabi tasvirlar diniy-falsafiy mazmun bilan boyitilgan.

3. Axloqiy pand-nasihatlar:

Bilgin, ey jon, umr o‘tkinchi,
Qilgin amal, bo‘lg‘il do‘st to‘g‘risi.

Bu bayt inson umrining qisqaligi va ezgu amallar qilish zarurligini ta’kidlaydi. Asardagi didaktik ruhiyat bu kabi baytlarda ko‘zga tashlanadi.

Ishq ila yonmoqni bilgan elda bir niyoz,
Na dunyo, na oxirat, faqat do‘stga roz.

Ma’nosi: Bu baytda ishq ilohiy sevgining oliy ifodasi sifatida tasvirlangan. Shoir ilohiy sevgining dunyo va oxiratda ustun ekanligini ta’kidlaydi.

Ko‘nglim ko‘zing vaslida devona bo‘ldi,
Qalbim har doim shavq ila mastona bo‘ldi.

Ma’nosi: Shoir ko‘nglining yor (Alloh yoki ilohiy sevgining ramzi) vasliga yetib borishga intilishidan mast ekanligini ifodalaydi.

Sobir Sayqaliyning "Ravzat ush-shuhado" asari o‘zbek mumtoz adabiyotida diniy-tasavvufiy yo‘nalishda yozilgan mashhur doston hisoblanadi. Asar Payg‘ambarlar, shahidlar va Alloh yo‘lida fidokorlik ko‘rsatgan shaxslar hayoti haqida hikoya qiladi. Asarning nomi "Shahidlar bog‘i" yoki "Shahidlar rozgori" ma’nosini anglatadi. Unda ilohiy muhabbat, jasorat, sabr-qanoat va haq yo‘lida fidoyilik singari mavzular yoritilgan.

Asarning umumiy tavsifiga nazar tashlasak, quyidagilar kifoyadir:

Janri: Tasavvufiy-diniy doston.

Shakli: Masnaviy (baytlardan iborat doston) bo‘lib, ba’zi qismlarida boshqa she’riy janrlardan ham foydalanilgan (masalan, g‘azal, ruboiy, qit’a).

Mavzusi: Islom tarixi, shahidlikning ulug‘vorligi, Payg‘ambarlar va ulug‘ shaxslarning hayoti, ma’naviy komillik.

Tili: O‘sha davrning mumtoz adabiyotiga xos ravishda badiiy-tasviriy ifodalarga boy.

Mazmuni: asar bir nechta qism va boblardan tashkil topgan bo‘lib, har bir qismda muayyan tarixiy yoki diniy voqea tasvirlanadi. Uning mazmuni quyidagi asosiy mavzularda jamlangan:

1. Shahidlik ulug‘vorligi:

Shahidlarning Alloh yo‘lidagi fidoiyligi va bu yo‘ldagi sabr-matonati tasvirlanadi. Shahidlar orqali sabr-qanoat va oxirat hayotiga tayyorlanish mavzusi targ‘ib etiladi.

2. Payg‘ambarlar va avliyolar qissalari:

Asarda Payg‘ambarlar va ularning izdoshlarining hayoti, Allohga bo‘lgan muhabbati va odamlarni haq yo‘lga boshlashdagi qiyinchiliklari hikoya qilinadi.

3. Ilohiy muhabbat va ma’naviy poklanish:

Shoir ilohiy sevgini inson hayotining eng oliy maqsadi sifatida talqin qiladi. Bu asarda ishq faqatgina dunyoviy ko‘rinishda emas, balki ilohiy muhabbat timsoli sifatida tasvirlanadi.

4. Axloqiy va falsafiy g‘oyalar:

Insonning o‘zini tanishi, dunyodagi vazifasini anglash va to‘g‘ri yo‘lni topish haqida pand-nasihatlar beriladi.

Badiiy xususiyatlari:

1. She’riy mahorat:

Sobir Sayqaliy masnaviy janrining imkoniyatlarini keng qo‘llab, asarni musiqiy va badiiy jihatdan boy qilgan. Qofiya va ritm she’rlarga xos musiqiylikni oshiradi.

2. Badiiy tasvir vositalari:

Tashbeh va istiora: Asarda yor, gul, sham kabi ramzlar orqali ilohiy sevgi va poklik ifodalanadi.

Tazod: Hayot va o‘lim, yorug‘lik va zulmat, dunyo va oxirat kabi qarama-qarshiliklar tasvirlanadi.

Tajnis va qofiya: So‘z o‘yinlari she’rlarni yanada ta’sirchan qiladi.

3. Ramziy obrazlar:

Yor – ilohiy sevgi ramzi, bog‘ – jannat, gul – poklik, shama – ruhning yo‘nalishi sifatida ishlatiladi.

Asarning ahamiyati haqida biz uni bugungi kungacha saqlanib, o‘qishliligini taminlab kelayotgan asosiy mezonlarga quyidagilarni sanab o‘tamiz:

Milliy ma’naviyat: "Ravzat ush-shuhado" o‘zbek xalqining diniy va axloqiy qadriyatlarini saqlash va targ‘ib qilishda muhim rol o‘ynaydi.

Tasavvuf adabiyoti: Bu asar tasavvufiy dunyoqarashni xalq orasida ommalashtirish va islomiy axloqni mustahkamlash vazifasini bajargan.

Tarixiy-huquqiy bilim: Asar orqali musulmonlarning diniy tarixiga oid ko‘plab ma’lumotlar yetkazilgan.

Milliy ruhning ifodasi asarda quyidagicha namoyon bo‘ladi:

1.Xalqlarning diniy va madaniy qadriyatlari:

Asarda xalq orasida tarqalgan islomiy qadriyatlar, jumladan, sabr-qanoat, poklik va halollik kabi axloqiy tamoyillar yuqori darajada madh etiladi. Bu qadriyatlar milliy ruhiyatning muhim qismidir. Shahidlikni ulug‘lash orqali insoniy mardlik, fidoyilik va xalqparvarlik tuyg‘ulari tasvirlangan.

2. O‘zbekcha tafakkur va tasviriy vositalar: Sobir Sayqaliy xalq tiliga xos bo‘lgan so‘z boyligidan keng foydalanadi. Masalan, o‘zbek xalqiga xos bo‘lgan timsollar (qush, gul, shama) orqali milliy poetik ruhni saqlab qolgan.

Milliylikni aks ettiruvchi misralarda yer, suv va tabiatga oid ramzlar ko‘p uchraydi, bu esa xalqning tabiat bilan uyg‘un yashash tamoyillarini ifodalaydi.

3. Adolat va ma’naviy komillikni ulug‘lash:

Asarda milliy ruhiyatga mos ravishda adolat va insoniy komillik muhim o‘rin egallaydi. Bu qadriyatlar nafaqat diniy, balki milliy merosning bir qismi hisoblanadi.

4. Tarixiy va diniy qahramonlarni ulug‘lash:

Sobir Sayqaliyning asarida milliy ruhiyat tarixiy qahramonlarni, jumladan, Payg‘ambarlar va shahidlarni ulug‘lash orqali o‘z aksini topadi. Ushbu qahramonlarning obrazlari xalqning iymon-e’tiqodi va urf-odatlari bilan uyg‘unlashgan holda tasvirlanadi.

5. Tinchlik va hamjihatlik g‘oyalari:

Asar xalqni birlashtirishga, milliy birlik va tinchlikni ta’minlashga qaratilgan. Bu esa milliy ong va milliy ruhning ajralmas qismi sifatida ifodalanadi.

Milliy ruhni ifodalovchi namunaviy baytlar (ilmiy tahliliy yondashuv):

“Qil odil hukm, ey do‘st, jahon adolatdin turar,
Zulm ila kim bo‘lgan yomon, oxiratda qolar zarar”.

Ushbu baytda adolatni ulug‘lash va milliy ruhning asosiy qismi bo‘lgan halollik tamoyilini ifodalash ko‘rinadi.

“Yer va osmon isming bilan chiroy topg‘ay,
Ey ulug‘, kim hamisha nomingdan yorug‘ bo‘lg‘ay”.

Bu baytda tabiat bilan uyg‘unlik va xalqning ilohiy qudratga bo‘lgan hurmati ko‘rinadi. Tabiat tasvirlari orqali milliy e’tiqodning badiiy ifodasi berilgan.

Sayqaliyning "Ravzat ush-shuhado" asarida ushbu janrlarning uyg‘unligi asarning badiiy qiymatini oshiradi, o‘quvchiga turli poetik shakllar orqali boy ma’naviy va estetik tajriba taqdim etadi.

"Ravzat ush-shuhado" she’riy janrlarning o‘ziga xos uyg‘unligi orqali yuksak badiiy darajaga yetgan. Asar tasavvufiy mohiyatni estetik tarzda ifodalashda, inson qalbiga yo‘l topishda katta rol o‘ynaydi. Bu asar Sharq mumtoz adabiyotining eng go‘zal namunalaridan biri hisoblanadi. Asar orqali musulmonlarning diniy tarixiga oid ko‘plab ma’lumotlar yetkazilgan.

Sobir Sayqaliyning “Ravzat ush-shuhado” asari Sharq mumtoz adabiyotida muhim o‘rin egallaydi. Unda tasavvufiy-falsafiy ruh, badiiy yuksaklik va milliy qadriyatlar uyg‘unlashgan. Sobir Sayqaliyning "Ravzat ush-shuhado" asari, asosan, diniy-tasavvufiy mazmunga ega bo‘lsa-da, uning ayrim qismlarida milliylik, jumladan, vatan madhi bilan bog‘liq g‘oyalar ham ifoda etilgan. Asarda vatanni ulug‘lash bevosita diniy va tasavvufiy qadriyatlar orqali yoritilgan bo‘lib, bu qadimiy Sharq adabiyoti an’analariga xosdir.

Asarda vatan madhining asosiy jihatlari:

1. Vatanni jannatga qiyoslash:

“Ravzat ush-shuhado”da “bog‘” va “Gulshan” kabi ramzlar faqat jannatni emas, balki vatanni ham ifodalaydi. Vatan Allohning inoyati sifatida tasvirlanadi va u inson uchun ulug‘ va aziz makon sifatida ko‘rsatiladi.

Vatanni sevish, uni himoya qilish va uning tinchligi uchun kurashish Alloh yo‘lida xizmat qilishning bir shakli sifatida ulug‘lanadi.

2. Vatanparvarlikning diniy mazmun bilan uyg‘unlashuvi:

Asar musulmonlik qadriyatlari orqali vatanga xizmat qilishni tavsiya etadi. Vatanni sevish imonning bir qismi ekanligi haqidagi islomiy qarash asarning ruhida aks etadi.

Shoirning vatan haqidagi qarashlari insonning o‘z yurtiga, oilasiga va xalqiga sadoqatini targ‘ib qiladi.

3. Vatan va shahidlik:

Shahidlarning vatan uchun jon fido qilishi Alloh yo‘lidagi eng oliy amal sifatida ko‘rsatiladi. Asarda vatan himoyasi, unga xizmat qilish, xalq farovonligini ta’minlash va bu yo‘lda shahid bo‘lish oliyjasorat timsoli sifatida tasvirlangan:

“Kimki vatan yo‘lida jon fido qilsa,

Jannat bag‘rida bo‘lgay unga joy, aniq”.

Ushbu bayt vatanni himoya qilishning diniy jihatdan ham, insoniy jihatdan ham qanchalik ulug‘ ekanligini ko‘rsatadi.

4. Tabiat va vatan tasviri:

Asarda vatan tabiatining go‘zalligi, undagi bog‘-rog‘lar, gullar va qir-adirlar ilohiy ne’mat sifatida madh etiladi. Bu Sharq mumtoz adabiyotida keng tarqalgan "gul va bog‘" tasvirlari orqali o‘z ifodasini topadi.

5. Vatan va axloqiy qadriyatlar:

Vatan madhi ko‘pincha xalqni yaxshi amallarga, birlik va hamjihatlikka chaqirish bilan uyg‘unlashgan. Vatanni sevish, unga xizmat qilish har bir musulmonning insoniy va diniy burchi sifatida ko‘rsatiladi.

Vatan madhi aks etgan namunaviy baytlar:

“Ey muqaddas yurt, sening tuprog‘ing aziz,

Senga bo‘lg‘ay doim qalbim ila tuyg‘um yaqin”.

“Shahid bo‘lsa kimki o‘z yurt uchun,

Olam unutmang bu qahramonni, har kun”.

Bu kabi baytlarda vatanni ulug‘lash, uni himoya qilish va u uchun qurbon bo‘lishning oliyjasorat ekanligi yuksak badiiylik bilan ifodalanadi.

Sobir Sayqaliyning "Ravzat ush-shuhado" asarida vatan madhi to‘g‘ridan-to‘g‘ri emas, balki diniy va tasavvufiy ramzlar orqali ifoda etiladi. Vatan Allohning inoyati sifatida tasvirlanib, uning tinchligi va himoyasi har bir insonning burchi ekanligi targ‘ib etiladi. Vatanparvarlik ruhini kitobxonga singdirish bilan birga, asar xalqni birdamlik va hamjihatlikka chorlash vazifasini ham bajaradi.

Sobir Sayqaliy o‘zining “Ravzat ush-shuhado” asarida turli she’riy janrlardan foydalanib, poetik ifoda imkoniyatlarini kengaytirgan. Asar, asosan, masnaviy shaklida yozilgan bo‘lib, unda g‘azal, ruboiy va qit’a kabi janrlarga ham murojaat qilingan.

Masnaviy: Asarning asosiy qismi masnaviy shaklida bo‘lib, bu janr voqeabandlikni ifodalashda qulaylik yaratadi. Masnaviyda har bir baytning misralari o‘zaro qofiyalanadi, bu esa hikoyaning ritmini ta’minlaydi. Sayqaliy asarda g‘azal janridan ham foydalangan. G‘azallar asosan ishqiy va tasavvufiy mavzularda bo‘lib, insonning ilohiy muhabbatga intilishi, ma’naviy kamolotga erishish yo‘lidagi kechinmalarini ifodalaydi.

Ruboiylar qisqa, lekin mazmunan chuqur bo‘lib, falsafiy mushohadalarni ifodalashda qo‘llanilgan. Sayqaliy ruboiylari orqali hayotning mazmuni, insoniy qadriyatlar va o‘tkinchi dunyo haqida fikr yuritadi. Qit’alar asarda muayyan mavzuni qisqa, lekin ta’sirchan ifodalash uchun ishlatilgan. Bu janr orqali muallif axloqiy nasihatlar, hayotiy tajribalarini bayon etadi. Asarning asosiy xulosalari:

1. Shahidlik va fidoyilikni ulug‘lash: Asarda shahidlik ilohiy yo‘ldagi eng oliy daraja sifatida ta’riflanadi. Alloh yo‘lida jon fido qilish, adolatni himoya qilish va haqqoniyat uchun kurashishning ulug‘vorligi madh etilgan. Bu g‘oya orqali insonlarni sabr, mardlik va o‘z e’tiqodiga sodiq bo‘lishga chaqiradi.

2. Diniy-tasavvufiy ma’rifat:

Asar tasavvuf falsafasining asosiy tamoyillarini o‘zida mujassam etadi: dunyoviy ne’matlardan voz kechish, ilohiy muhabbatni ustuvor qo‘yish, ruhiy poklanish va oxiratga tayyorgarlik. Bu jihatlar orqali insonning ma’naviy taraqqiyotiga qaratilgan.

3. Milliy qadriyatlarni ifoda etish:

Asar milliylikni ham chuqur aks ettiradi. Vatanparvarlik, birlik va insoniylikni targ‘ib etuvchi qahramonlar obrazlari orqali milliy ruhni mustahkamlash vazifasini bajargan. Vatanni sevish va himoya qilishning oliyjasorat ekanligi doimo yuksak darajada madh etiladi.

4. Axloqiy tarbiya va pand-nasihat:

Asar axloqiy saboqlarga boy. Halollik, adolat, rahm-shafqat, saxiylik va sabrli bo‘lish kabi fazilatlar insonning eng oliy sifati sifatida tasvirlanadi. Shoir o‘z asari orqali insonlarni o‘z hayotlarini ijobiy tomonga o‘zgartirishga undaydi.

5. Badiiy uslub va poetik mahorat:

Sobir Sayqaliyning she’riy uslubi badiiy obrazlar, tashbeh va ramzlar bilan boyitilgan. Tabiat tasvirlari, ilohiy va diniy ramzlar yordamida asar estetik zavq bag‘ishlash bilan birga, o‘quvchini chuqur mulohazaga undaydi.

Xulosa

Sobir Sayqali ijodida poetik ko‘lamning kengligi va badiiy san’atlarning rang-barang qo‘llanilishi uning ijodiga xos o‘ziga xos uslubni belgilab beradi. Shoir o‘z asarlarida badiiy tasvir vositalarini mohirona qo‘llash orqali milliy ruhni, xalqning urf-odat va an’analarini yorqin ifodalashga erishadi. Ayniqsa, ramziy ifodalar, tashbeh, isti‘ora, tazod, kinoya kabi badiiy san’atlarning turli shakl va ranglari uning she’rlariga estetik ta’sirchanlik, falsafiy chuqurlik hamda ma’naviy boylik bag‘ishlaydi.

Sayqalining she’rlaridagi poetik ko‘lam shoirning inson, tabiat va jamiyat o‘rtasidagi uyg‘unlikni poetik nuqtai nazardan tushunish va tasvirlashga intilishida namoyon bo‘ladi. U o‘z

ijodi orqali milliy adabiyot merosi va an’analarini boyitish bilan birga, zamon talablariga ham javob beruvchi ruhiy-estetik tus hosil qilishga harakat qiladi. Shuning uchun ham Sobir Sayqali nafaqat milliy she’riyatimizning o‘ziga xos so‘z ustalaridan biri, balki ijodiy merosida badiiy san’atlarning mukammal uyg‘unligiga erishgan shoir sifatida ham e’tibor qozongan.

Umuman, Sobir Sayqali asarlaridagi poetik ko‘lamning kengligi va badiiy san’atlarning o‘rni shoirning o‘z davri ruhini to‘la aks ettirgan, o‘ziga xos estetik mezonlarga ega, shakl va mazmun uyg‘unligi ta’minlangan she’rlar yarata olganidan dalolat beradi. Shu bois uning she’rlari milliy adabiyotimiz rivojida mustahkam o‘rin egallab, kelajak avlodlar uchun ham ijodiy ilhom manbai bo‘lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Qayumov A. "O‘zbek mumtoz adabiyoti". – Toshkent: Fan, 1997.
2. G‘aniev A. "O‘zbek mumtoz she’riyati tarixi". – Toshkent: Universitet, 2004.
3. Haqqulov A. "Mumtoz adabiyotimiz namoyandalari". – Toshkent: Adabiyot, 1980.
4. Usmonov N. "XVI asr o‘zbek adabiyoti". – Toshkent: Fan, 1974.
5. Xudoyberganova D. "Sobir Sayqaliyning g‘azalshunoslikdagi o‘rni". – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2003.
6. Bo‘ronov R. "Sobir Sayqaliy va tasavvuf she’riyati". – Toshkent: Fan, 1999.
7. Mumtoz adabiyot ensiklopediyasi. 1-jild. – Toshkent: O‘zbekiston milliy entsiklopediyasi, 2000.
8. Alisher Navoiy. "Mezon ul-avzon". – Toshkent: Fan, 1961.
9. Devonov M. "Tasavvuf she’riyatining badiiy usullari". – Toshkent: Sharq, 2010.
10. G‘afurov Z. "Mumtoz she’riyat poetikasi". – Toshkent: O‘zbekiston, 2012.
11. Sultonov Q. "G‘azal poetikasi va uning rivoji". – Toshkent: Fan va texnologiya, 2014.
12. Sayqaliy S. "Ravzat ush-shuhado". – Toshkent: Fan, 1973.
13. Toshpo‘latov N. "Sobir Sayqaliy g‘azallari tahlili". – Toshkent: Ma’naviyat, 2007.
14. Bertels E. E. "Sufiyskaya literatura". – Moskva: Nauka, 1965.
15. Zahiriddin Muhammad Bobur. "Boburnoma". – Toshkent: Sharq, 1997.
16. Safi S. "Tasavvuf va falsafa". – Toshkent: Fan va texnologiya, 2008.
17. Rasulov S. "Sobir Sayqaliyning adabiy merosi va uning tasavvufiy mohiyati". – O‘zbek tili va adabiyoti jurnali, 2010-yil, 3-son.
18. Karimova D. "Mumtoz she’riyatda poetik ramzlar". – Adabiyotshunoslik tadqiqotlari, 2015-yil, 2-son.
19. Aliyev R. “Sayqaliy “Bahrom va Gulandom”. Toshkent, Fan 1960”
20. Shayx Ahmad ibn Xudoydod Taroziy. Funun-ul-balog‘a. – T.: Xazina, 1996. – 212 b.
21. Husayniy A. “Badoyi-us-sanoyi”. – T.: Adabiyot va san’at, 1981. – 400 b.
22. Rustamov A. “Navoiyning badiiy mahorati”. – T.: Adabiyot va san’at, 1979. – 214 b.
23. Rahmonov V. “She’r san’atlari”. – T.: Sharq, 2020. – 237 b.
24. Is’hoqov Y. “So‘z san’ati so‘zligi”. – T.: Zarqalam, 2006. – 128 b.
25. Hojiahmedov A. “She’riy san’atlar va mumtoz qofiya”. – T.: Sharq, 1998. – 160 b.
26. Boboyev T., Boboyeva Z. “Badiiy san’atlar”. – T.: 2001. – 121 b.
27. Sayqaliy. “Bahrom va Gulandom”. – T.: Fan, 1960. – 223 b.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 1-son)

FILOLOGIYA

PHILOLOGY

O‘ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA RANGGA OID TURG‘UN FRAZEOLOGIK BIRLIKLAR TADQIQI

Iskandarova Sharifaxon Madaliyevna
FarDU tilshunoslik kafedrasi professori, filologiya fanlar doktori
Abelfazova Muxtasar Gulamovna
Farg‘ona davlat universiteti, Magistratura talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘zbek va ingliz tillaridagi manbalardan foydalangan holda tabiatdagi rang atamalari va ulardagi leksik birliklarning tarkibiy va ma’noviy xususiyatlari tahlil qilinadi. Maqolada dunyoning lingvistik tasviriy olamida ingliz va o‘zbek tilida so‘zlashuvchilarning rangni ko‘rib anglashning o‘ziga xos xususiyatlari ochib berilgan. Chog‘ishtirilayotgan tillardagi turg‘un frazeologik birliklarni ifodalashda ranglarning o‘rni va ma‘nolari chuqur taxlil qilingan.

Kalit so‘zlar: rang, frazeologik birlik, turg‘un birikma, ibora, maqol, semiologiya, koloronim, tevarak-atrof, rang nomlari, dunyoning lingvistik tahlili, kontekst.

Аннотация: В данной статье на основе источников на узбекском и английском языках анализируются структурные и семантические особенности цветовых терминов в природе и их лексических единиц. В статье раскрываются уникальные особенности восприятия цвета англо- и узбекоговорящими людьми в мировой языковой образности. Подробно анализируются роль и значения цветов в выражении устойчивых фразеологизмов в смешанных языках.

Ключевые слова: цвет, фразеологизм, устойчивое сочетание, словосочетание, пословица, семиология, колороним, среда, цветоназвания, лингвистический анализ мира, контекст.

Annotation: This article analyzes the structural and semantic features of color terms in nature and their lexical units using sources in Uzbek and English languages. The article reveals the unique features of the perception of color by English and Uzbek speakers in the world's linguistic imagery. The role and meanings of colors in the expression of stable phraseological units in the mixed languages are analyzed in depth.

Key words: color, phraseological unit, fixed combination, phrase, proverb, semiology, coloronym, environment, color names, linguistic analysis of the world, context.

Kirish. Inson o‘z bilimlarini rivojlantirar ekan, tevarak-atrofdan kelayotgan axborot oqimini tartibga solishga intiladi va shu orqali voqelikka bo‘lgan munosabatini belgilovchi

qarashlar tizimini shakllantiradi. Boshqacha qilib aytganda, u “dunyo tasviri”ni yaratadi. Bu tushuncha tilshunoslikda voqelik haqidagi g‘oyalar tilda qanday ifodalanishi va tilning ana shu “dunyo tasviri”ni shakllantirishdagi o‘rni va ahamiyatini o‘rganish maqsadida tahlil qilinadi[243].

Aslida, insonning dunyoqarashi shakllanishida til muhim rol o‘ynaydi. Bu esa turli tillarda so‘zlashuvchi madaniyatlar o‘rtasida dunyoqarash va idrokda farqlar mavjudligini ko‘rsatadi. Demak, tevarak-atrofni idrok etishdagi o‘ziga xosliklar leksik-semantik darajada yaqqol aks etadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Chog‘ishtirilayotgan tillardagi turg‘un frazeologik birliklarda ranglar ramziy ma’noda ishlatilinadi. Buning uchun avvalo, ramz nima ekanligini, u qanday namoyon bo‘lishini, qaysi soha bilan bog‘liqligini va turli belgilarga oid masalalar bilan qaysi fan shug‘ullanishini tushunish lozim. Semiotika (ba’zan "semiologiya" atamasi ham uchraydi) bu inson jamiyatida axborot uzatish usullarini, belgilar va belgi tizimlarining xususiyatlarini o‘rganadigan fandir. Bu asosan tabiiy va sun’iy tillar, shuningdek, ayrim madaniy hodisalar, mif va urf-odat tizimlari kabi belgilarni, shuningdek, tabiatda (hayvonlar olamidagi muloqot) yoki insonning o‘zida (vizual va eshituv idroki va hokazo) kuzatiladigan jarayonlarni o‘z ichiga oladi.

Semiotika belgi tushunchasiga – belgi tizimining eng kichik birligiga asoslanadi. Qisqacha qilib aytganda, semiotika har qanday hodisalarni belgi tizimlari va alohida belgilar sifatida o‘rganish vositasidir. Y. M. Lotman "semiotika" atamasini muloqot tizimlari va aloqa jarayonida ishlatiladigan belgilarni o‘rganuvchi fan sifatida tasvirlash uchun qo‘llaydi. Rang va unga oid frazeologik birliklar, tilshunoslikda muhim o‘rin tutadigan sohalardan biri hisoblanadi. Ranglar – insonlarning sezgi va tushunchalarini ifodalovchi, madaniy, tarixiy, psixologik xususiyatlarga ega bo‘lgan semantik birliklardir. Ranglarning tilshunoslikda tadqiqi, ayniqsa, frazeologiyada o‘rganilishi, ularning ma’no va madaniy kontekstini ochish uchun katta ahamiyatga ega.

Ranglar haqida o‘tkazilgan tadqiqotlar bir nechta asosiy yo‘nalishlarda amalga oshirilgan. Shu jumladan, ranglarning semantik tahlili, rang va til o‘rtasidagi munosabatlar, ranglarning frazeologik birliklar tarkibidagi roli va ularning madaniyatdagi ahamiyati kabi sohalar o‘rganilgan. O‘zbek tilida ranglar va frazeologik birliklar haqida, masalan, S. Sirojiddinov, M. Rahmon, A. To‘raqulov kabi olimlarning asarlarida ma’lumotlar mavjud. Ular ranglarning tilshunoslikda ahamiyati, frazeologik birliklarda aks etishi va madaniy kontekstdagi xususiyatlarini tahlil qilganlar.

Ingliz tilida ranglarga oid frazeologik birliklar ham keng o‘rganilgan. Taniqli tilshunoslar, masalan, S. H. Kuno, P. F. Zolotova va boshqalar ingliz tilida ranglar va frazeologik birliklarning semantik jihatlarini o‘rganganlar. Ular ranglarning tilga qanday kirib kelganini,

[243] Iskandarova Nilufar Toxirovna. Ingliz Tilida Tabiatdagi Ranglarni Tasvirlashning Oʻziga Xos Xususiyatlari. Ta’lim Va Rivojlanish Tahlili Onlayn Ilmiy Jurnali Jild: 04, Nashr: 12 | Dec – 2024 ISSN: 2181-2624.

frazeologik birikmalarda qanday o‘zgarishlar yuz berganini va bu o‘zgarishlarning madaniy konteksti bilan qanday bog‘liqligini tadqiq etganlar.

Bu tadqiqotda rangga oid frazeologik birliklarning o‘zbek va ingliz tillaridagi semantik va struktural tahlili amalga oshiriladi. Tadqiqotning metodologik asosida quyidagi yondashuvlar qo‘llaniladi:

Komparativ metod: O‘zbek va ingliz tillaridagi rangga oid frazeologik birliklarning o‘xshashliklari va farqlari tahlil qilinadi. Bu metod ranglarning ikki tildagi ifodalanish xususiyatlarini solishtirish imkonini beradi.

Semantik tahlil: Rangga oid frazeologik birliklarning ma’nosi va uning semantik tarkibi o‘rganiladi. Bu metod ranglar va ularning frazeologik birliklardagi o‘rni, ma’no o‘zgarishlari va ularning madaniy xususiyatlarini aniqlash imkonini beradi.

Madaniyatshunoslik yondashuvi: Ranglarning madaniy ahamiyati va ularning ijtimoiy va psixologik omillar bilan qanday bog‘lanishi tahlil qilinadi. Ranglar ko‘pincha milliy va etnik identifikatsiya, tarixiy va an’anaviy qadriyatlar bilan chambarchas bog‘liqdir.

Leksikografik yondashuv: Frazeologik birliklarni o‘rganishda lug‘at materiallaridan foydalanish, ranglarning frazeologik birliklarda qanday ifodalanganini va qanday kontekstlarda ishlatilishini aniqlashga yordam beradi.

Korpus lingvistika metodlari: O‘zbek va ingliz tillaridagi frazeologik birliklarni o‘rganish uchun zamonaviy lingvistik texnologiyalar, xususan, til korpuslarini tahlil qilish orqali ranglarga oid frazeologik birliklarning qaysi so‘zlar bilan birikib ishlatilishini aniqlash mumkin bo‘ladi. Bu metodologiyalar asosida tadqiqotda o‘zbek va ingliz tillaridagi rangga oid frazeologik birliklar va ularning ma’nolaridagi farq va o‘xshashliklar chuqur o‘rganiladi.

Natijalar. Turli tillardagi ranglarni ifodalovchi so‘zlar katta ma’lumot salohiyatiga ega bo‘lib, rangning ramziylik jihatining ko‘p darajali tizimini aks ettiradi. Xalq tili, o‘z navbatida, insonlarning fikrlarini aks ettiruvchi vosita bo‘lib, eng chuqur va murakkab munosabatlarni ifodalash imkonini beradi. "Rang nomlari" orqali hayotning turli jihatlari tasvirlanadi. Rang nomlari nafaqat lingvistik, balki madaniy jihatdan ham murakkab xususiyatlarga ega. Koloronimlar matnga kiritilganda, ular matnning rang-barangligini tashkil etib, uning ma’nolari strukturaning boyishiga yordam beradi. Odamlar asrlar davomida ranglar bilan bog‘liq tasavvurlarni o‘zlashtirib, ularni atrofdagi dunyo obyektlari va ularning hayotlarida muhim bo‘lgan elementlar bilan bog‘lashgan. Ranglarni idrok etish orqali, odamlar bu hislarni ijtimoiy guruhlar darajasida ifodalab, dunyoning oddiy tasvirini yaratdilar[244]. Ranglar bilan tasvirlangan dunyo sodda bir tasvirni anglatadi, chunki u atrof-muhitdagi obyektlar, hodisalar va jarayonlarni to‘liq aks ettira olmaydi. Rang nomlari faqatgina assotsiatsiyalarni yuzaga keltirishga yordam beradi, bu esa inson va tabiatning o‘zgarmas xususiyatlari bilan bog‘liqdir: qizil rang qon, yashil rang o‘t va daraxtlar, ko‘k rang esa osmonni ifodalaydi.

[244] Vejbitskaya, A. Til. Madaniyat. Idrok. / Per. ingliz tilidan / Ed. M.A. Krongauz. - M.: Ruscha lug'atlar, 1997. - 416 b.

Muhokamalar. Ranglar frazeologik birliklarda tilning semantik boyligini, madaniy xususiyatlarini va ijtimoiy kontekstini aks ettiradi. O‘zbek va ingliz tillarida ranglar tilshunoslikda katta ahamiyatga ega, chunki ular nafaqat fizika va tabiiy dunyoning tasvirini, balki insonning hissiy holatlari, ijtimoiy munosabatlari va qadriyatlarini ham ifodalaydi. Har bir tilda ranglarning frazeologik birliklarda ishlatilishi o‘ziga xos bo‘lib, ularning ma’nolari, kulminatsion jihatlari va madaniy konteksti farqlanadi.

O‘zbek tilida rang bilan bog‘liq frazeologik birliklar ko‘pincha ma’no jihatidan boy va ko‘p ma’noli bo‘ladi. Quyida shularning ayrimlariga misollar keltirilgan:

Oq yuzli bo‘lmoq – sharmanda bo‘lmaslik, or-nomusini saqlab qolmoq. Masalan: U barcha sinovlardan oq yuzli chiqdi. Qora ko‘ngil – dilida g‘araz yoki yomon niyat bo‘lmoq. Masalan: Qora ko‘ngil odam bilan yaxshi ish qila olmaysan. Oq yuvib, oq taramoq – hurmat va izzat bilan e’tibor ko‘rsatmoq. Ingliz madaniyatida esa ranglar bilan bog‘liq iboralar (idiomlar) ko‘pincha obrazli ma’no beradi va turli hayotiy holatlarni ifodalaydi. Masalan: White (Oq) As white as a sheet – juda qo‘rqib yoki hayajonlanib oqarib ketmoq. E.g.: He turned as white as a sheet when he heard the news. U yangilikni eshitgandan so‘ng yuzi oqarib ketdi. Yoki bo‘lmasa oq rang bilan bog‘liq keyingi ibora raise a white flag – taslim bo‘lmoq – oq bayrog‘ni ko‘tarmoq iborasi. E.g.: They raised a white flag after hours of negotiation – ular soatlab davom etgan muzokaralardan so‘ng oq bayroq ko‘tarishdi.

White lie – yaxshi niyat bilan aytilgan kichik yolg‘on. E.g.: She told a white lie to avoid hurting his feelings. Xis tuyg‘ularni og‘ritmaslik uchun u oq yolg‘ondan foydalandi. Bu yerda oq yolg‘on beg‘araz hech kimga ziyon keltirmaydigan ma’nosida ifodalangan. In the black sheep (of the family) – oila yoki guruhda qabul qilinmaydigan yoki boshqalardan ajralib turuvchi odamga nisbatan ishlatiluvchi birikma so‘zma so‘z tarjima qilinganda qora qo‘y ma’nosini beradi. E.g.: He’s the black sheep of the family because he chose a different career path. U ota kasbni egallamagani uchun oilasida boshqacha edi.

Xulosa. Xulosa qilib shuni ta’kidlashimiz mumkinki, ingliz va o‘zbek tillaridagi rang anglatuvchi frazeologik birliklar o‘rtasida o‘xshashliklar mavjud, chunki ranglar ko‘pincha insonlarning hissiy holatlarini, ijtimoiy munosabatlarini va voqealarni ifodalash uchun ishlatiladi. Biroq, madaniyatlar o‘rtasidagi farqlar tufayli ba’zi iboralar bir-biridan farq qilishi mumkin. Ranglar ham universal, ham madaniy jihatdan o‘ziga xos elementlardir, shuning uchun ularning frazeologik ishlatilishidagi o‘xshashlik va farqlar tilning ma’no tuzilishini yanada boyitadi. O‘zbek va ingliz tillarida rangga oid turg‘un frazeologik birliklar, nafaqat tilning semantik imkoniyatlarini kengaytiradi, balki milliy va madaniy xususiyatlarni ham aks ettiradi. Ranglar, frazeologik birliklarda, ko‘pincha insonning hissiy holatlari, xulq-atvorlari, ijtimoiy munosabatlari va dunyoqarashini ifodalashda muhim rol o‘ynaydi. Tadqiqotda o‘zbek va ingliz tillarida ranglarning ishlatilishi o‘xshash va farqli jihatlari aniqlangan. Har ikkala tilda ranglar ko‘pincha ma’naviy, axloqiy yoki ijtimoiy kontekstda ishlatiladi, lekin madaniyatlar o‘rtasidagi farqlar tufayli ba’zi frazeologik birliklarning ma’nosi va ulardan foydalanish uslubi o‘zgaradi.

O‘zbek tilida ranglar, ko‘proq ijtimoiy va madaniy qadriyatlar bilan bog‘liq holda, harakatlarni yoki hissiyotlarni tasvirlashda ishlatilsa, ingliz tilida ranglar ko‘proq universal his-tuyg‘ularni va hodisalarni aks ettirishda ishlatiladi. O‘xshashliklar esa ranglarning hayotdagi va tabiiy obyektlar bilan bog‘lanishiga, ya’ni ranglarning semantik asoslariga oiddir. Bu tadqiqot, ranglarga oid frazeologik birliklarni chuqur o‘rganish orqali, tilshunoslarga ranglarning lingvistik va madaniy ahamiyatini yanada tushunishga yordam beradi.

Umuman olganda, ranglar frazeologik birliklar orqali tilni boyitadi, tilshunoslikda ranglarning rolini yanada chuqurroq o‘rganish esa, tildagi nozik farqlarni va madaniyatlararo muloqotni yaxshiroq tushunishga imkon yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.

1 Abelfazova, M. (2024). Rangga Oid Leksemalarning Paradigmasi. B Theoretical Aspects In The Formation Of Pedagogical Sciences (Т. 3, Выпуск 22, сс. 51–55).

2 Gorn, E.A. Zamonaviy ingliz adabiyoti misolida badiiy matndagi rang atamalarining tavsiflovchi funktsiyasi // Fan, madaniyat va ta’lim olami. - 2013. -№5(42). - 312-314-betlar

3 Iskandarova Nilufar Toxirovna. Ingliz Tilida Tabiatdagi Ranglarni Tasvirlashning O‘ziga Xos Xususiyatlari. Ta’lim Va Rivojlanish Tahlili Onlayn Ilmiy Jurnali Jild: 04, Nashr: 12 | Dec – 2024 ISSN: 2181-2624.

4 Ivanova, Y.V. Color coding in the structure of poetic text and approaches to their study.

5 Moskovich, V.A. Zamonaviy ingliz tilidagi rang atamalari tizimi // Masalalar. tilshunoslik. - 1960. - No 6. - B. 83 - 87.

6 Vejbitskaya, A. Til. Madaniyat. Idrok. / Per. ingliz tilidan / Ed. M.A. Krongauz. - M.: Ruscha lug‘atlar, 1997. - 416 b.

7 Y.V. Ivanova // Social and Humanitarian Sciences. - M .: Publishing house of the Moscow State Pedagogical University, 2008 .-- Pp. 112-118

8 Шомаксудов Ш., Шорахмедов Ш. Хикматнома (узбек маколларининг изохли лугати). - Тошкент, 1990. - 528 б.

9 Узбек тилининг изохли лугати. 5 жилдли. 1-жилд. - Тошкент: Узбекистон миллий энциклопедияси, 2006. - 680 б.

10 Узбек тилининг изохли лугати. 5 жилдли. 2-жилд. - Тошкент: Узбекистон миллий энциклопедияси, 2006. - 672 б.

11 Узбек халқ маколлари. - Тошкент, 1978. - 288 б.

12 Узбек халқ маколлари. Тузувчилар: проф. Т.Мирзаев, А. Мускулов, Б.Саримсоков. - Тошкент, 2019. - 512.

13 Хожиев А. Узбек тили синонимларининг изохли лугати. - Тошкент: Укитувчи, 1974. - 308 б

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 1-son)

FILOLOGIYA

PHILOLOGY

THE NEOLOGISMS IN THE UZBEK LANGUAGE

Baymirzaeva Gulnoza Sadykovna
1st year master degree at the Faculty Linguistics of UESS

Abstract This article explores the emergence of neologisms in the modern Uzbek language, focusing on their sources and significance. The Uzbek language continuously evolves, incorporating new words and expressions to adapt to societal and technological advancements. Neologisms emerge due to technological progress, globalization, cultural, and social transformations. Specifically, the article examines new words influenced by modern technologies, the internet, social media, as well as governmental policies and cultural concepts. While these neologisms enrich the language and make it more relevant to contemporary needs, excessive borrowing may negatively affect the language's national identity. The article highlights the importance of new neologisms, their role in linguistics, and the necessity of their standardization.

Keywords: neologisms, modern Uzbek language, technology, globalization, culture, social changes, linguistic richness, borrowings, standardization, national identity.

O‘ZBEK TILIDAGI YANGI NEOLOGIZMLAR

Umar Xayyomni ruboiynavis shoir sifatidagina emas tarixchi-etnograf ekanlini ham unutmasligimiz kerak. Uning “Navro‘znoma” asari bunga yorqin misol bo‘la oladi. Uning to‘liq ismi G‘iyosiddin Abdufath Umar ibn Ibrohim – Xayyomiy Nishopuriy bo‘lib, 1048-1132 yillarda yashagan.

“Maaday qora” to‘rt qo‘shiqdan tashkil topgan dostondir. Uning bosh qahramoni Ko‘gudey Mergan. Lekin epos uning otasi nomi bilan atalgan. Birinchi qo‘shiq Maaday qoraga bag‘ishlangan. Bizga Maaday nomi antik davr tarixchilarining kitoblari orqali tanishdir. Ya’ni, VII asrda yashagan turk hoqoni, keyingi asrlar fors-tojik adabiyotida Afrosiyob, turkiy adabiyotda Alp Er To‘nga nomi bilan tasvirlangan shaxsning nomi Madidir.

Oltoyliklarning qahramonlik eposi yaratilishiga skiflar hoqoni Madining ham shaxsiyati asos bo‘lgan deb aytish mumkin[2].

Qashqadaryo viloyati Shahrisabz tumanidagi olis cho‘qqilarda joylashgan Ko‘l va G‘elon kabi qishloqlarning asosiy aholisi tojiklardan iborat. G‘elon qishlog‘idagi maktabda darslar tojik tilida olib boriladi. Aholining kelib chiqish tarixi, turmush tarzi va madaniyati bilan birga Bursi Ko‘tah va Mozori duodil kabi qabristonlar tarixini ham o‘rganish lozim. Qishloq aholisi tomonidan aytilgan rivoyatlarning tarixiy ildizi va asosi bor.

QarDU professori A.Chorievning ko‘rsatishicha, “qishloqning kunbotarida G‘ut degan katta g‘or bor. Rivoyat qilishlaricha, Alp Er To‘nga – Afrosiyob shu yerda dan etilgan”[4].

P.Ravshanovning ko‘rsatishicha, IX-X asrlardayoq olim va shoirlar ta’rif qilgan, o‘zbek va tojik folklorida doimiy tashbehlardan biriga aylangan “*Naxshab oyi*” haqidagi afsona va rivoyatlar ildizi esa yanada oldinroqqa, Movarounnahrda arablar hukmronlik qilgan davrga, aniqrog‘i, VIII asrning so‘nggi choragiga borib taqaladi.

Tarixiy-ilmiy asarlarda, o‘zbek va tojik xalqlari og‘zaki ijodiyotida “Mohi Naxshab” (Naxshab oyi), “Mohi Siyom” (Siyom oyi), “Mohi chohi Naxshab” (Naxshab qudug‘idan chiqqan oy) va nihoyat, “Qamar ul - Muqanna” (Muqanna oyi) degan turli nomlar bilan mashhur bo‘lgan sun’iy oy haqiqatda bo‘lganmi?.

Rivoyatlarda Muqanna nomiga nisbatan beriladigan va klassik adabiyotda yuqorida keltirilgan nomlar bilan mashhur bo‘lgan sun’iy oy haqida Sharqning talaygina shoirlari ijodida ko‘plab ishoralar uchraydi. Masalan, Abu Abdullo Ro‘dakiyning (X asr) bir baytida:

Na mohi Siyomy, na mohi falak
Ki nnat g‘ulom astu on peshkor*,

deyiladi. Xo‘sh Siyomning o‘zi nima?. [7,375] Bu savolning javobi “Farhangi zaboni tojiki” [8] lug‘ati oydinroq bayon qilingan. Lug‘atda keltirilishicha, Siyomning birinchi ma’nosi “ro‘za”, ikkinchisi esa Movarounahrdagi tog‘ bo‘lib, Muqanna o‘zi yaratgan nur sochuvchi oyni shu yerda namoyish qilar ekan.

Dahon bast Fazli ba ro‘zi siyom
Zi shurbi sharobu zi aqli taom*

Shuningdek, 1953 yilda nashr etilgan “O‘zbek klassik adabiyoti asarlari uchun qisqacha lug‘at” kitobida ham “Mohi Siyom” ya’ni, “Mohi Naxshab” – “Qarshi yaqinida Muqanna tomonidan oyga o‘xshatib yasalgan va bir muncha masofagacha yorug‘lik berib turadigan asbob”[7], deyiladi.

Tojik tilidagi manbalarda “Siyom - arabcha صيام savm; ayyomi siyom mohi ro‘za” ya’ni Siyom ayyomi kunlari ro‘za tutish, ro‘za oyi ma’nolarida qo‘llaniladi [9].

- **Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology)**. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 6-apreldagi “Turizm, sport va madaniy meros sohalarida davlat boshqaruvi tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6199-sonli Farmonida turizm turlarini diversifikatsiyalash, eng avvalo, ziyorat turizmi, ekologik turizm, etnoturizm, ishbilarmonlik turizmi, sport, gastronomik, tibbiy, ta’lim va ilmiy turizmni hamda ularning infratuzilmasini rivojlantirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish [1] vazifasi ham ko‘rsatilgan.

Tadqiqot ishida falsafiy, tarixiy-qiyosiy tahlil, tasniflash, kuzatish usullaridan foydalanildi.

- **Tahlil va natijalar (Analysis and results)**. Tadqiqotning nazariy-metodologik asoslari va manbashunosligi, tarixshunoslik masalalarini tarixiy va etnografik ma’lumotlar asosida yoritib berildi. Xalq og‘zaki ijodi va folklor hamda mintaqada etnomadaniy jarayonlarning shakllanishida tojiklarning o‘rnini tadqiq qilish dolzarb ahamiyatga ega.

- **Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations)**. O‘zbek va tojik xalqlari to‘qigan afsonalarda aytilishicha, aslida Naxshab chohiga (qudug‘iga) berkinib olgan oyni Muqanna sehr

* Tarjimasi: Unga quldek yetolmay halak,
Ham Siyom oyi, ham mohi falak.

* Tarjimasi: Fazliy ro‘za kuni og‘zini yopdi
Sharob va taomning aqli tufayli

va jodu bilan yer yuzasiga chiqazib olgan ekan. Bu yerda shunday g‘oya borki, aslida ikkinchi tabiiy Oy ham bo‘lgan, ammo u sehr bilan quduq ichiga jo etilgan va uni Muqanna tilsimot qilib, chiqazib olgan. Bunda juda katta ma’no bor. Shu sababdan ham bu oy “Mohi Naxshab” – Naxshab oyi sifatida mashhur bo‘lgan [7,378]. Qashqadaryo vohasida suvga bo‘lgan ehtiyoj tufayli tarixiy davr mobaynida sardoba va quduqlarga bo‘lgan talab yuqori bo‘lgan. Ilmiy adabiyotlarda Nasafiy yoki Naxshabiy taxallusini olgan ko‘plab allomalar tilga olinadi.

Sardoba (fors-tojik tilida – sovuq suv) – suv tanqis yerlarda uni saqlash uchun maxsus qurilgan gumbazli hovuz. Tarixiy ma’lumotlarga qaraganda, Movarounnahrda 44 ta sardoba bo‘lgan. Ulardan 29 tasi Qarshi cho‘lida, 3 tasi Mirzacho‘lda, 3 tasi Toshkent bilan Farg‘ona o‘rtasidagi qadimgi savdo yo‘lida, 1 tasi Karmana yaqinida Raboti Malikda qurilgan bo‘lib, u XIX asr oxirigacha ishlatilgan. Sardobalar keyingi yillarda qishloq va shaharlarni ichimlik suvi bilan ta’minlash uchun ham qurilgan. Sardobadan Markaziy Osiyoning ba’zi dasht-cho‘llarida hozir ham qisman foydalaniladi [11]. Kasbi tumanidagi Qamashi qishlog‘ida istiqomat qiluvchi tojiklar 1892-yilda bobolari Eshqul hojining shaxsiy mablag‘lari hisobilan barpo etilgan sardoba bilan faxrlanishadi. Aytishlaricha sardobani qurish uchun Eshqul hoji Buxoro amiri Muzaffarxondan ruxsat so‘rab kelgan ekan. Qashqadaryo vohasi aholisining suvning e’zozlashi qadimgi mifologiya va qarashlar bilan bog‘liq. Tojiklar suv va hosildorlik ma’budasi Anaxitaga sig‘inishgan va qurbonliklar qilishgan.

Xonobod - Qarshi tumanidagi shaharcha (2009). Tarkibi: *xon+obod*. Xonobod degan qishloq Respublika hududida bir nechta. Xon so‘zli nomlar: Xontepa, Xonariq (Qarshi, Chiroqchi), Xontaxti (Qamashi), Xontushdi (G‘uzor), Xonquriq (Shaxrixon), Xonchorvoq (Pastdarg‘om), Bandixon (Sho‘rchi), Xonimqo‘rg‘on (Yakkabog‘), Xonjizza (Denov), Xoniyon (Qarshi). Turkiy tillarga mansub *xon – hoqon* so‘zining soddalashgan shakli, o‘rta asrlarda oliy hokimlik unvoni va shu unvonli odam, xonlik lavozimidagi kishi ismiga qo‘shib qo‘llanadigan so‘z. Shu ma’noga asosan Xonobod - xon tomonidan yoki xon unvonli kishi tomonidan bunyod qilingan qishloq.

Eroniy tillarda: “Avesto”da *xan - chashma*; sug‘d tilida *xan/xon* - ariq; parfiyan tilida *xan, xanig* - chashma, ariq, hovuz, suv chiqadigan joy, Yag‘nob tilida *xan* - suv oqar ariq sug‘orish kanali, katta xan - katta ariq pulchak xan - kichik ariq; tojik tilida *xon* - kichik hovuz, *xani* - chashma, suv oqib chiqqan joy [6]. Eroniy tillarda *Xanabad/Xonobod* - anhor bo‘yidagi qishloq, ariq bo‘yida yangidan qurilgan qishloq. Qashqadaryodagi qadimiy shahar nomi Naxshab – *naxshi +ob,* Kitob – *kifti+ob,* Shahrisabz tumanipdagi Nushkent-*nushidan* – ichmoq kabi tojikcha suv bilan bog‘liq so‘zlar birikmasidan hosil bo‘lgan.

Ayrim o‘yinlar bugungi kunda unutilib ketgan bo‘lsada, Tan imperiyasi davrida sug‘d savdogarlari orqali Xitoyga borib qolgan va bir necha asrlar davomida o‘ynalgan.

Polochuy o‘yini O‘rta Osiyo orqali Xitoyga yetib keldi. O‘yin ishtirokchilari ikki jamoaga bo‘linib, otda o‘tirib to‘pni maxsus tayoq bilan urishlari kerak edi. Tan imperiyasi davrida bu o‘yin ham zodagonlar, ham oddiy odamlar orasida juda mashhur edi. Ko‘pchilik Tan imperatorlari bu o‘yinda ishqibozlari edi. Imperator saroyida va imperatorning shaxsiy

qarorgohida ushbu o‘yin uchun maxsus maydon ajratilgan va oddiy odamlar bu o‘yinni qayerda bo‘sh joy topsalar o‘ynashdi. Min sulolasigacha (1368-1644) bu o‘yin mashhur edi.

Shuanlu shakli shaxmatga o‘xshaydi. Ishtirokchilar navbatma-navbat zar uloqtirish va shaxmat donalarini harakatlantirishdi. Tan sulolasi davrida bu o‘yin juda mashhur edi. Arxeologik qazishmalar paytida zarlar, shashka va o‘yin taxtasi topilgan. O‘yin Xitoyda Sin sulolasi (1636–1912) hukmronligi boshigacha o‘ynalgan [10].

Qashqadaryodagi baxshichilik san’ati rivojida ham tojiklarning hissasi bor. O‘zbeklarda keng ma’noda xalq dostonlarini kuylovchi, yodda saqlovchi va nasldan naslga o‘tkazuvchi san’atkor bo‘lib hisoblanadi. Xalq dostonchilarini O‘zbekistonning ayrim yerlarida *baxshi* so‘zidan boshqa nomlar bilan ham yuritiladi. Masalan, Surxondaryo va Qashqadaryoning ayrim joylarida yuzboshi, Janubiy Tojikiston o‘zbeklari orasida soqi, Surxondaryo va Janubiy Tojikistonning ayrim joylarida sozanda, Farg‘ona vodiysida sanovchi, ayrim joylarda jirov, jirchi, oqin, oxun va hokazo [3]. Mirishkor va Kasbi tumanlarida yashovchi tojiklar tabiblarni ham *baxshi* deb atashadi.

Tojikcha maqollarning qo‘llanilishi. Qashqadaryo tojiklarida “Naxan da(r) xesh, mibet da(r) pesh” (Ma’nosi: Qarindoshga kulma, sening ham oldingga keladi), “Roste gufta dil rasti” (To‘g‘risini aytib ko‘ngilga tegding), ayrim mug‘ombir shaxslarga nisbatan “Da tagi dor girextagi” (Dor tagidan qochgan), “Xud bad begonaparaz” (Qarindosh yomon begona yaxshi), “Az devona pursiden moh chan gufta” (Tentakdan hozir qaysi oy deb so‘rashibdi), “Oba nadida mo‘za nakash” (Suvni ko‘rmasdan etik yechma), Xuro‘s da hamma joy barobar jeg‘ mizanad (Xo‘roz hamma joyda bir xil qichqiradi), Dar qatori sholi kurmak ob mexo‘rad (Sholining qatorida kurmak suv ichadi) kabi maqollar keng qo‘llaniladi. Quyi Qashqadaryo she’valarida maqollar qo‘llanilganda “*dar*” old qo‘shimchasi o‘rniga “*da*” shakli qo‘llaniladi.

Ayrim iboralarni og‘zaki nutqda aytilishi yozilishidan farq qiladi. Shuningdek, Qashqadaryo tojiklari orasida “Sadqai sar” (Boshingni sadaqasi ketsin), “Sadqai chiz shudas” (narsaning sadaqasi ketsin), “Da jon rasondan” (Joniga tegish) kabi iboralar keng qo‘llaniladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 6 апрелдаги “Туризм, спорт ва маданий мерос соҳаларида давлат бошқаруви тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-6199-сонли Фармони // https://lex.uz/docs/-5356705

2. Abdurahmonov A. Turkiy xalqlar og‘zaki ijodi (Eng qadimdan islomgacha bo‘lgan davr). Elektron darslik. Samarqand, 2006 y. - Б.162.

3. Yo‘ldosheva S., Sayfullayev B. O‘zbek milliy folklor san’ati va etnomadaniy qadriyatlar. O‘quv qo‘llanma. - B. 124.

4. Чориев А. Ҳазрати Султон тарихи. – Т: Янги аср авлоди, 2019. – Б. 36.

5. МирзоевХ. Историко-этимологический анализ иппологических терминов в таджикском и английском языках. Вестник таджикского национального университета (научный журнал). № 8 (56). Душанбе: “Сино”, 2009 – С. 3.

6. Нафасов Т. Қашқадарё қишлоқномаси. Қашқадарё вилояти қишлоқлари номининг тадқиқи. Т.:“Муҳаррир” нашриёти, 2009 й. – Б. 272; Андреев М.С. и Пещерова Е.М . Ягнобские тексты. -М .- Л.: 1957. – С. 335.

7. Равшанов П. Қашқадарё тарихи. Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси “Фан” нашриёти, 1995 й. – Б. 235-236,375.

8. Фарҳанги забони тожики. М. 1969. – С. 233.

9. ФАРЊАНГИ ТАФСИРИИ ЗАБОНИ ТОЉИКЇ. Пажўњишгоњи забон ва адабиёти Рўдакї. ЧИЛДИ 2 Душанбе. 2010. С. – 274.

10. Чжао Сяоцзя. Переселение согдийцев в Китай и их влияние на культурную и бытовую жизнь династии Тан. // Оазисы Шелкового пути: современные проблемы этнографии, истории и источниковедения народов Центральной Азии: К 100-летию доктора исторических наук Балкис Халиловны Кармышевой, – М., 2018. – С. 109-110.

11. Қандаҳаров Анвар. Бухоро хонлиги ва унда карманалик шайхлар фаолияти: монография / Қандахаров А. – Тошкент: “Tafakkur qanoti”, 2018. – Б. 74-75.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 1-son)

FILOLOGIYA

PHILOLOGY

“IMOM BUXORIY” (U.QO‘CHQOR) TARIXIY SHE’RIY DRAMASIDA KONFLIKT TURLARI

G‘ulomjon Atadjanov,
O‘zR FA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti tayanch doktoranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada Usmon Qo‘chqorning “Imom Buxoriy” she’riy tarixiy dramasida badiiy konflikt masalasi tahlil qilindi.

Kalit so‘zlar: tarixiy drama, konflikt, xarakter, she’riy drama, obraz, syujet, Imom Buxoriy, tarixiy shaxs, dramaturg.

Аннотация: В данной статье проанализирован вопрос художественного конфликта в поэтической исторической драме Османа Кочкара «Имам Бухари».

Ключевые слова: историческая драма, конфликт, персонаж, поэтическая драма, образ, сюжет, имам Бухари, историческое лицо, драматург.

Annotation: This article analyzed the issue of artistic conflict in the poetic historical drama "Imam Bukhari" by Osman Kochkar.

Key words: historical drama, conflict, character, poetic drama, image, plot, Imam Bukhari, historical person, dramatist.

KIRISH:

Istiqlol davri o’zbek adabiyotida dramaturgiya adabiy turi xususan, tarixiy drama yaratish jadal rivojlandi. Chunki, sovet davri adabiyotida taqiqlangan, qoralangan tarixiy shaxslarning hayoti, faoliyati, millat hayotidagi ulkan ma’naviy o’rni tarixiy dramalarda adolatli va holis yoritilmagan edi. Istiqlol sharofati bilan millatimiz ma’naviyati taraqqiyotida chuqur iz qoldirgan Imom Buxoriy, Najmiddin Kubro, Alisher Navoiy, Mashrab, Muqimiy kabi buyuk tarixiy va adabiy shaxslar haqida tarixiy dramalar yaratildi. Bizga ma’lumki, o’zbek dramaturgiyasida tarixiy mavzularda yaratilgan dramalarning aksariyatini tarixiy-biografik xarakterdagi dramalar tashkil etadi. 1998-yilda hadis ilmining sultoni Imom Buxoriy haqida yetti drama yozildi. O’sha yili O’zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi tomonidan Imom Buxoriy tavalludining 1225 yilligi munosabati bilan allomaga bag’ishlangan dramalar tanlovida Usmon Qo’chqorning “Imom Buxoriy” tarixiy she’riy dramasi birinchi o’rinni oldi. “Ma’lumki, Imom al - Buxoriy o’z umrining asosiy qismini Bag’dodda o’tkazib, asl (sahih) hadislarni ajratib olib, birinchi bo’lib tasnif etgan allomadir. Ushbu zot va u qoldirgan meros mana o’n ikki asrdirki, islom olamini hayratga kelmoqda. O’tgan davr mobaynida bu benazir insonning ibratli

hayoti, aql bovar qilmas darajadagi iqtidori afsonaviy quvvai hofizasi, ilmiy salohiyati va avlodlarga qoldirgan ma’naviy merosi haqida ko’plab tarixiy va ilmiy asarlar yaratildi. Madaniyat ishlari vazirligi tomonidan bu daho hayoti va faoliyatiga bag’ishlangan asarlar tanlovining e’lon qilinishi dramaturgiyaning o’zida Imom Buxoriyga bag’ishlangan yettita pyesaning dunyoga kelishiga sabab bo’ldi. Ular orasida Muhammad Ali Ergashevning “Saodat yo’li”, Usmon Qo’chqorning “Rasulloh kotibi”, Rustam Ma’diyevning “Bir kechalik tush”, Sobir Ehsonning “Muhaddis”, Jasur Rasultoyevning “Muqaddas ziyo”, Tohir Julmatovning “Imom al Buxoriy”, Muhiba Hamidovaning “Buxoriy muhabbati” singari asarlar bor. Bu asarlar asosida qator teatrlarimiz sahnasida buyuk alloma siymosi o’zining sahnaviy tajassumini topdi. Tilga olingan asarlar orasida Usmon Qo’chqorning muqaddima va olti ko’rinishdan iborat “Rasulloh kotibi” she’riy dramasi ajralib turadi”[245]. Drama dastlab “Rasulloh kotibi” nomi bilan nashr qilingan bo’lsa, keyingi nashri esa “Imom Buxoriy” tarixiy she’riy dramasi nomi bilan qaytadan nashr qilingan[246]. Mazkur tarixiy she’riy dramada Imom Buxoriy (60 yoshda), Abu Muso Termiziy (Imom Buxoriyning shogirdi), Yahyo az-Zuhayliy (nishopurlik shayx), Abu Miskin, Asror Qoziy, Hajjoj, Saloma (Yahyo az-Zuhayliyning shogirdlari), Ash’or Nishopuriy (nishopurlik shoir), Birinchi savdogar, Ikkinchi savdogar, Uchinchi savdogar (savdogarlar), Qaroqchiboshi, Amir Xolid az-Zuhaliy (Buxoro amiri), Ja’far (Xolid az-Zuhaliy vaziri), G’unjor (buxorolik tarixchi olim), Muhtasib (Buxoro muhtasibi), Haris ibn Abul Varqo (Buxoro qozikaloni), Birinchi talaba, Ikkinchi talaba, Uchinchi talaba (Imom Buxoriy talabalari, 10-12 yoshlarda), Ona (Imom Buxoriy onasining arvohi), G’olib Jabroyil (Xartang qishlog’idagi Imom Buxoriy tushgan xonadon sohibi), Xartangiy (xartanglik olim), Ibn Subkiy (xartanglik fozil bir shaxs), Mulla Qosid (Xartang masjidining imomi) kabi tarixiy va to’qima obrazlar ishtirok etadi. Xususan, bu dramada Imom Buxoriy, Abu Iso Termiziy, Yahyo az-Zuhayliy, Abu Miskin kabi tarixiy shaxslar obrazi yaratilgan. Shu bilan birga Dramaturg Usmon Qo’chqorning badiiy fantaziyasi bilan yaratilgan Birinchi savdogar, Ikkinchi savdogar, Uchinchi savdogar, Hajjoj, Qaroqchiboshi, Xartangiy kabi badiiy to’qima obrazlar ham mavjud.

Tarixiy drama syujetidagi voqealar uch badiiy makonda Nishopurda, Buxoroda va Samarqandda bo’lib o’tadi. Dramaning muqaddima qismida Imom Buxoriyning Nishopurga kelishi, xalq, shahar ahli uni hurmat-e’tibor bilan kutib olishidan boshlanadi. Nishopur xalqi buyuk vatandoshimizni kutib olishga chiqadi. Hatto quyoshga ham tenglashtirib “Nishopur osmonida juft bo’ldi quyosh!”[247] deya ta’riflaydilar. Imom Buxoriyga nisbatan xalqning maqtov va hurmat-e’tiborni ko’ra olmagan badbin kimsalar jumladan, Zuhayliy, Abu Miskin, Asror Qoziy kabi salbiy obrazlar buni qila olmaydi. Ichiqora va baxl, o’zlarining obro’si tushib ketishidan xavfsiragan Muhammad ibn Yahyo az-Zuhayliy va uning shogirdlari bo’lgan Abu

[245] Rahmatullayeva D. N. XX asr o’zbek dramaturgiyasi va teatr san’atida tarixiy drama (shakllanishi va rivojlanish muammolari) diss…Toshkent, 2004. – B. 282

[246] Qo’chqor U. Imom Buxoriy. – Toshkent: O’zbekiston, 2020 . - 112 b.

[247] Qo’chqor U. Imom Buxoriy. – Toshkent: O’zbekiston, 2020 . - B. 4.

Miskin va Asror Qoziylarning ichiqoraligi sababli dramada Imom Buxoriy va unga qarshi kuchlar o’rtasida konflikt yuzaga keladi. Zuhayliy shogirdlariga qarata shunday deydi:

Uch kundirkim, o’zingizga xo’b yaxshi ayon,
Nishopurda Muhammad al-Buxoriy mehmon.
Peshvoz chiqdi uni kutib butun bir shahar,
Naq payg’ambar kelgan deysiz, tavba, alhazar[248].

Tarixiy dramaning birinchi ko’rinishida Buxoriy Nishopurda yashab qolishni niyat qiladi. Ammo, tuhmat, bo’hton, g’iybatlar yog’dirgani va muhaddisni shakkoklikda ayblaganlari uchun u yerdan ketishga majbur bo’ladi. Birinchi ko’rinishda konfliktni ikki bo’lamiz. Imom Buxoriyga qarshilar Zuhayliy va uning shogirdlari Abu Miskin, Asror Qoziylar, ikkinchisi esa Imom Buxoriy tarafidagilar Hajjoj, Salomalar. Aslida ular ham Zuhayliyning shogirdlari. Hayotda oq va qora, yaxshi va yomon bo’lganidek, hayot ham ularni ikki qutbga bo’lgandi. She’riy dramaning ikkinchi ko’rinishi Ash’or Nishopuriy-Buxoriy, Birinchi ulamo-Buxoriy, Qizlardan biri-Buxoriy, Ikkinchi ulamo-Buxoriy, Asror Qoziy-Buxoriy, Abu Miskin-Buxoriy kabilarning suhbat-dialoglaridan iborat. “Konflikt –dramaning qalbi, asar syujetini ishga soluvchi prujina (o’zak), unga alohida kuch beruvchi qudratli jichag. Konflikt asar g’oyasini, muallifning ijodiy niyatlarini, personajlarning o’zaro aloqalari va ular o’rtasida yuz bergan kurashni ifoda etadi. Demak, dramaturgik konflikt – voqelikdagi ziddiyatlarning badiiy ifodasidir. Konflikt, ayniqsa, dramada hal qiluvchi omildir”[249]. Konfliktga bag’ishlab “Adabiyotshunoslik terminlar ensiklopediyasi”da ham maxsus maqola yozilgan. Unda shunday deyiladi: “Konflikt – (lot. Confilictes- to’qnashuv) adabiyotda- personaj va muhit, qahramon va taqdir o’rtasidagi to’qnashuv hamda personaj yoki lirik fikr subyekti ongidagi qarama-qarshilik”[250].

“Konflikt” termini so’ngi davr nazriyotchilari tomonidan “Kolliziya” deb tadqiq etilgan. Aslida, “Kolliziya” ham yangi termin emas. “Umumiy vaziyat bilan bir qatorda butun syujetning asosini umumiy kolliziya yoki konflikt ham tashkil etishi mumkin. Unisi ham, bunisi ham badiiy makon-zamonda joylashgan: qahramon olami, uning koinoti, Gegel ta’biri bilan aytganda muayyan “hatti-harakatlarning umumiy kuchlari”ni o’z ichiga oladi. Kolliziya – syujet asosi sifatida kuchlar muvozanatining vaqtinchalik buzilishidan iborat: butun syujet (butun “voqea”) ana shu buzilish, olamdagi tomonlardan birining bir yoki bir nechta personajda mujassam bo’lgan hamda oxir-oqibatda qarama-qarshi tomonning personifikasiyalashgan (qahramonda va uning xatti-harakatlarida aks etgan) “javob”iga sabab bo’luvchi ekspansiyasi sifatida qaralishi mumkin.”

[248] Qo’chqor U. Imom Buxoriy . – Toshkent: O’zbekiston , 2020 . – B. 6 .

[249] Abdusamatov H . Drama nazariyasi. – Toshkent: G’.G’ulom nomidagi Adabiyot va san’at, 2000. – B. 26.

[250] Литературная энциклопедия терминов и понятий. (Главный редактор и составитель А.Н.Николюкин)– Москва: НПК Интелвак, 2001. - С. 392-393.

Nazariy adabiyotlarda belgilanganidek, “Imom Buxoriy” tarixiy dramasida ham ezgulik va yovuzlik o’rtasidagi kurash ya’ni, Imom Buxoriy va unga qarshi qora kuchlar o’rtasidagi kurash badiiy konfliktni tashkil etadi.

Imom Buxoriyga qarshi bo’lgan kuchlardan biri Asror Qoziy Zuhayliyga qarab “Nishopurda ular oddiy bir ulamo” ekanligini pisanda qiladi. Zuhayliyning yana bir shogirdi Abu Miskin ham Asror Qoziyning fikrlarini ma’qullab, ustoziga yaltoqlanib “Nishopurning quyoshi”- Abu Zuhayliy ekaniga urg’u beradi. Ichiqora Zuhayliy ham hadisshunos Imom Buxoriyning hadis yod olish qobilyatini uydirma deb hisoblaydi. Hatto, uni shakkoklikda ayblaydi. Ya’ni Imom Buxoriyning Qur’on ilohiydir degan javobida talaffuzi ilohiy emas deb ayb qo’yadi. Zuhayliy boshchiligidagi Abu Miskin, Asror Qoziy Imom Buxoriyni “murtad”, “betayin”, “mug’ambir” deb ayblaydi. Ular Imom Buxoriyning hadislarni tasnif etib, sahih va g’ayrisahih deb ajratishini qoralaydi. Bu ichiqora obrazlar bilan Imom Buxoriyning shogirdlari Hajjoj va Saloma fikriy to’qnashuvga kirishadi. Demak, “Imom Buxoriy” tarixiy dramasida qahromonlar o’rtasidagi konflikt yetakchilik qiladi. Ya’ni Abu Zuhayliy boshchiligidagi Abu Miskin va Asror Qoziy bir taraf bo’lib, ular salbiy obraz sifatida yaratilgan. Imom Buxoriy boshchiligidagi Hajjoj, Saloma va boshqalar ijobiy obrazlardir.

Dramada Imom Buxoriy obrazi badbin kayfiyatli dindor emas, balki dunyoqarashi keng katta ulamo sifatida aks ettiriladi. Chunki, shoir Nishopuriyni ulamolar insoniy muhabbat kuychisi, uning g’azallari botil va harom deb ayb qo’yilganida Imom Buxoriy uni oqlaydi. U ishqning har ikki turini ijobiy baholaydi. Bundan tashqari, ulamolar ayollar masalasida ham Imom Buxoriy bilan bahslashadi. Ulamolar orasida “Ayoldan payg’ambar chiqmagan”, “Ayollar majlisga kiritilmasin” degan noroziliklar paydo bo’ladi. Bu bahslarga katta ulamo Imom Buxoriy shunday javob beradi:

“Buxoriy

Ayol jami mushfiqlikning misoli erur,
Ayol mehru muhabbatning timsoli erur.
Inson mehrin ne uchun siz aytasiz botil?
Bolalarni so’ydirganda Fir’avn qotil,
Bo’lmaganda zaifasi mushfiq Osiyo,
Omon qolgan bo’larmidi hazrati Muso?
Bibi Maryam homilador bo’lib Isoga,
Sharm aylabon iltijolar etgach Xudoga,
Bir ovloqda och qolibon holdan ketganda,,
Chanqoqlikdan joni aniq bo’g’ziga yetganda,
Olloh uning poylaridan ariqlar ochgan,
Olloh uning boshlaridan xurmolar sochgan.
Ko’ngildagi otashimiz, volamiz ayol,
Hadis borkim: ona, qizu xolamiz ayol.
Behudaga demamishlar Rasul bir hikmat:

Onalarning oyoqlari ostida jannat.
Musiqadek dilafro’zdir, dilrabo ayol,
Dilnavozdir, tilkushodir, dilrabo ayol.
Shuning uchun biz oylarga etamiz qiyos,
Shuning uchun jamoliga gul tashbehi mos.
Bu dunyoda neki go’zal ashyo aylanar,
Barchasi ham shu ayolga kelib boylanar.
Go’zalliklar go’zallikka hamdam yuradir,
Tangri go’zal, go’zallikni yaxshi ko’radir”[251].

Tarixiy dramaning to’rtinchi va beshinchi ko’rinishlaridagi voqealar Buxoroda kechadi. O‘z ona shahri Buxoroga kelgan alloma bu yerda ham qarshiliklarga uchraydi. Tarixiy dramada qarama-qarshi kuchlar, qarama-qarshi g’oyalar, qarama-qarshi xarakterlar kurashi keskinlashadi. Demak, dramada dramaturg konfliktning turli tiplaridan unumli foydalangan.

Usmon Qo’chqor ayniqsa, dramada tashqi konfliktdan foydalangan. Ya’ni asarda personajlar o’rtasidagi konfliktdan dramaning boshidan oxirigacha istefoda qilingan. Zero, konflikt badiiy mazmun va shaklni aks ettirib qolmasdan, jonli hayotning badiiy ifodasi o’laroq namoyon bo’lgan. Kuchli qarama-qarshiliklar xarakterlarni ochadi. Jumladan, mazkur dramada ham Imom Buxoriyning fozil olimligi, Abu Zuhayliy boshchiligidagi ulamolarning johilligi namoyon bo’ladi.

Xuddi Nishopurdagi singari bu yerda ham Haris ibn Abdul Barqo va Muhtasiblar tomonidan shakkoklikda ayblashadi. O‘zlarining niyatlarini amalga oshirish uchun Amir Zuhayliy va Imom Buxoriy o‘rtalarida sovuqchilik soladilar. Hammani Buxoriyga qarshi undaydi. Madrasadagi talabalar ham ketishga majbur bo‘ladilar. Bu ham yetmaganidek, hatto o‘z niyatlariga yetishlarida Haris ibn Abdul Barqo va Muhtasib qalandarlardan xam foydalanadilar. Natijada o‘z ona shahrini tashlab Samarqandga ketishga majbur bo‘ladi.

Dinimizda mazlumning duosi qabul bo’ladi degan gap bor. Hayoti davomida qayerga borsada, tuhmatga, bo’htonu ig’volarga duchor bo’lavergan alloma birinchi marta qarg’anadi. Buxorodan ketarkan ichki kechinmalarini quyidagicha ifodalaydi:

Buxoriy
So’nggi damda Vatanimdan etdilar judo,
Endi esa qarg’anaman, ey bor Xudoyo!
Kim qasd qilgan bo’lsa, ahli ayoli-
Barchasiga, yolboraman, yuborgil jazo,
Ey Ollohim! Ey Yaratgan, Ey bor Xudoyo!...[252]

[251] Qo’chqor U. Imom Buxoriy . – Toshkent: O’zbekiston , 2020 . – B. 25-26.
[252] Qo’chqor U. Imom Buxoriy. Toshkent. O’zbekiston nashriyoti. 2020. B -100.

Dramaning so‘nggi oltinchi ko‘rinishidagi voqealar Xartang qishlog‘ida sodir bo’ladi. Xorijda ham, o‘z yurtida ham qadr topmagan allomaning umri quvg‘inlikda o‘tadi. Xartang qishlog‘idan ham ketishini talab qiliganida umri payoniga yetganini his qilgan alloma hasadgo‘ylar, bo‘htonchilar, riyokor va zolimlarning zulmlarini barchasini kechirib, hayotni tark etadi. Buyuk alloma Xartang qishlog‘ida jon taslim etadi. Asarda bosh qahramon Imom Buxoriy obrazida dramaturg Usmon Qo’chqorning eng muhim badiiy-estetik g’oyasi, ya’ni, ma’rifat va jaholat, ezgulik va yovuzlik o’rtasidagi keskin to’qnashuvlarda doimo ma’nan-ruhan g’olib bo’luvchi yengilms iroda, ulkan bilim sohibining ezgu amallari singdirib yuborilgan.

Xulosa shuki, tarixiy dramada mahoratli adib va tarjimon Usmon Qo’chqorning katta badiiy tafakkuri bilan yaratilgan “Imom Buxoriy” tarixiy she’riy dramasida buyuk muhaddisshunnos allomaning hayoti va ezgu amallari bugungi zamondoshlarimizga yorqin bo’yoqlarda badiiy ifodalab berilgan. Dramaturg Imom Buxoriy hayoti va uning qarama-qarsiliklarga to’la hayotini tushunarli va soda shaklda yetkazish uchun badiiy konfliktdan barcha tip va ko;rinishlaridan unumla foydalangan. Qolaversa, Imom Buxoriy obrazi uzoq o’tmishning buyuk allomasi sifatida, islom dinining chinakam targ’ibotchisi va katta ulamosi sifatida zamondoshlarimizga faqat va faqat ibrat bo’lib xizmat qiladi. Shuningdek, dramaturg U.Qo’chqorning uzoq tarixga murojaati, hadis ilmining sultoni Imom Buxoriyga bo‘lgan katta ehtiromining natijasidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abdusamatov H . Drama nazariyasi. – Toshkent: G’.G’ulom nomidagi Adabiyot va san’at, 2000.

2. Qo’chqor U. Imom Buxoriy. – Toshkent: O’zbekiston, 2020 .

3. Rahmatullayeva D. N. XX asr o’zbek dramaturgiyasi va teatr san’atida tarixiy drama (shakllanishi va rivojlanish muammolari) diss…Toshkent, 2004.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 1-son)

FILOLOGIYA

PHILOLOGY

ORCID : 0009-0009-9793-8890

LINGUISTICS AND ARTIFICIAL INTELLIGENCE: SCIENTIFIC FOUNDATIONS OF NATURAL LANGUAGE PROCESSING

Yandashaliyev Muhammadali Abduvaliyevich
University of Exact and Social Sciences
Linguistics (English)
First-year Master's student
Muhammadaliyandashaliyev25@gmail.com
Ilmiy rahbar dots : ***Bekmuradova Firuza***

Abstract This article explores the intersection of linguistics and artificial intelligence (AI) with a focus on the scientific foundations of natural language processing (NLP). The study reviews core linguistic principles, discusses their integration into AI-driven NLP systems, and highlights challenges in semantic analysis, syntactic parsing, and machine learning. The paper concludes by emphasizing the future potential of NLP in advancing human-computer interaction.

Keywords: linguistics, artificial intelligence (ai), natural language processing (nlp), linguistic theories, machine learning, deep learning, syntax and semantics, language models, semantic analysis, computational linguistics.

Introduction

Linguistics and artificial intelligence (AI) have traditionally been distinct fields, each with its own goals, methods, and areas of study. Linguistics is the scientific study of language, focusing on understanding the structure, meaning, and use of language in human communication. Its subfields, such as phonology, morphology, syntax, semantics, and pragmatics, provide insights into how languages are formed, understood, and utilized.

On the other hand, AI is an interdisciplinary field aiming to create systems capable of performing tasks that typically require human intelligence, such as learning, reasoning, and problem-solving. AI employs computational models and algorithms to simulate human-like capabilities, making it a transformative tool across industries.

The intersection of these fields, particularly in natural language processing (NLP), has gained prominence as AI seeks to replicate and understand human language capabilities. By integrating linguistic theories into AI systems, NLP aims to enable machines to process, analyze, and generate human language in meaningful ways.

NLP acts as a bridge between linguistic theory and AI applications. It applies linguistic principles and computational techniques to solve real-world problems related to human language. Key applications of NLP include:

- **Machine Translation**: Enabling the automatic translation of text between languages, such as through systems like Google Translate.
- **Speech Recognition**: Facilitating voice-controlled systems and transcription services, like Apple's Siri or Amazon Alexa.
- **Sentiment Analysis**: Analyzing text data to determine sentiment or emotional tone, widely used in social media monitoring and customer feedback systems.
- **Chatbots and Virtual Assistants**: Enhancing human-computer interaction by creating conversational agents capable of understanding and responding in natural language.

These applications underscore the importance of NLP in making AI systems more user-friendly, accessible, and aligned with human communication norms. By incorporating linguistic theories, NLP strives to overcome complexities such as polysemy, context-dependent meanings, and cultural nuances.

Methods

The foundation of this study relies on a comprehensive review of the existing body of literature in the fields of linguistics and artificial intelligence, particularly natural language processing (NLP). Peer-reviewed journal articles, conference papers, and seminal books are analyzed to understand how linguistic principles have been integrated into NLP systems over time.

The review also includes case studies of significant NLP breakthroughs, such as the development of Hidden Markov Models (HMM) for speech recognition, word embeddings like Word2Vec for semantic analysis, and large-scale language models like GPT. This analysis provides insights into how linguistic principles and computational techniques complement each other.

The study examines how specific linguistic components are utilized in NLP algorithms:

Results

The study reveals that linguistic principles are integral to the development of effective NLP systems. However, their integration comes with varying degrees of success and challenges:

1. **Syntax**:
   - **Contribution**: Syntactic parsing plays a critical role in analyzing sentence structures, enabling machines to understand the grammatical relationships between words. Techniques such as dependency parsing and constituency parsing are widely used to dissect sentences into hierarchical structures. For instance, in machine translation, understanding sentence syntax allows NLP systems to preserve grammatical accuracy when translating between languages.
   - **Current Implementation**: Rule-based models and probabilistic context-free grammars (PCFG) have been replaced or augmented by neural networks that implicitly learn syntactic

structures. Modern models like transformers often outperform traditional methods in syntactic parsing.

2. **Semantics**:

- **Contribution**: Semantic analysis helps NLP systems understand the meanings of words and their relationships within sentences. Tasks such as word sense disambiguation, semantic role labeling, and named entity recognition rely heavily on semantic understanding.
- **Challenges**:
  - **Polysemy**: Many words have multiple meanings, which can lead to errors in interpretation (e.g., "bank" as a financial institution versus the side of a river).
  - **Context Dependence**: NLP models often struggle to derive the correct meaning of words or phrases without considering broader context, especially in idiomatic expressions.
  - **Semantic Drift**: Meaning may evolve during extended conversations, further complicating understanding.

3. **Pragmatics**:

- **Contribution**: Pragmatics focuses on meaning in context, including implied meanings, sarcasm, and cultural references. In conversational AI, pragmatic understanding is crucial for natural and meaningful interactions.
- **Limitations**: Current NLP systems often fail to infer implied meanings or understand nuances like sarcasm and humor, as they lack the cognitive and cultural awareness humans naturally possess. For example, interpreting "Great, just what I needed!" as sarcasm requires contextual and emotional cues that most NLP systems do not process effectively.

The success of NLP heavily relies on advanced AI techniques, including machine learning and deep learning:

1. **Machine Learning (ML) Algorithms**:

- Supervised learning remains vital for tasks like sentiment analysis and part-of-speech tagging, where annotated datasets guide model training.
- Unsupervised learning is used in clustering and topic modeling, allowing systems to identify patterns in data without pre-defined labels.

2. **Deep Learning for Language Models**:

- **Pre-trained Language Models**: Pre-training on large corpora followed by fine-tuning for specific tasks has become the standard approach in NLP, enabling models to generalize better across various applications.

By integrating more robust linguistic theories and improving computational techniques, these challenges can be progressively addressed. However, achieving human-like language understanding remains a long-term goal requiring interdisciplinary research and innovation.

Discussion

Linguistic theories form the backbone of many natural language processing (NLP) systems, yet their integration remains uneven across different tasks:

- **Strengths**:

- Syntax and semantics are well-represented in tasks like machine translation and syntactic parsing, where linguistic rules directly contribute to accuracy and grammatical coherence.

- **Limitations**:
  - Pragmatics is underutilized, as most systems struggle to interpret implied meanings, cultural nuances, and non-literal language like idioms or sarcasm.
  - The reliance on data-driven methods has reduced the explicit use of linguistic rules, shifting the focus to statistical and deep learning techniques. While effective for large datasets, this approach often lacks interpretability and fails in low-resource settings.

Transformer models like BERT and GPT have significantly improved language understanding by addressing key challenges in NLP:

Conclusion

To overcome these challenges, collaborative efforts across disciplines are crucial. Future research should prioritize integrating linguistic theories more deeply, improving contextual and cultural understanding, and addressing ethical concerns. By doing so, NLP systems can become more accurate, inclusive, and human-like, unlocking their full potential for applications across diverse domains.

REFERENCE

1. Brown, P. F., Pietra, V. J. D., Pietra, S. A. D., & Mercer, R. L. (1993). The mathematics of statistical machine translation: Parameter estimation. *Computational Linguistics, 19*(2), 263–311.

2. Devlin, J., Chang, M. W., Lee, K., & Toutanova, K. (2019). BERT: Pre-training of deep bidirectional transformers for language understanding. *Proceedings of the 2019 Conference of the North American Chapter of the Association for Computational Linguistics: Human Language Technologies, 1*, 4171–4186.

3. Chomsky, N. (1957). *Syntactic structures*. Mouton.

4. Jurafsky, D., & Martin, J. H. (2023). *Speech and language processing: An introduction to natural language processing, computational linguistics, and speech recognition* (3rd ed.). Pearson.

5. Mikolov, T., Chen, K., Corrado, G., & Dean, J. (2013). Efficient estimation of word representations in vector space. *arXiv preprint arXiv:1301.3781*.

6. Vaswani, A., Shazeer, N., Parmar, N., Uszkoreit, J., Jones, L., Gomez, A. N., ... & Polosukhin, I. (2017). Attention is all you need. *Advances in Neural Information Processing Systems, 30*, 5998–6008.

7. Saussure, F. (1916). *Course in general linguistics* (W. Baskin, Trans.). Philosophical Library. (Original work published 1916)

8. Peters, M. E., Neumann, M., Iyyer, M., Gardner, M., Clark, C., Lee, K., & Zettlemoyer, L. (2018). Deep contextualized word representations. *Proceedings of the 2018 Conference of the North American Chapter of the Association for Computational Linguistics: Human*

Language Technologies, 1, 2227–2237.

9. Hovy, E., & Spruit, S. L. (2016). The social impact of natural language processing. *Proceedings of the 54th Annual Meeting of the Association for Computational Linguistics (Volume 2: Short Papers)*, 591–598.

10. Pennington, J., Socher, R., & Manning, C. D. (2014). GloVe: Global vectors for word representation. *Proceedings of the 2014 Conference on Empirical Methods in Natural Language Processing (EMNLP)*, 1532–1543.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 1-son)

FILOLOGIYA

PHILOLOGY

VOLFGANG BORXERT: INSONIY TUYG‘ULAR VA URUSH FOJEALARINING BADIIY IFODASI

Tursunova Shahnoza Ikromovna
Navoiy davlat universiteti doktoranti

Annotatsiya: Borxertning asarlari bugungi zamonaviy o‘quvchi uchun ham muhim ahamiyatga ega. Insoniy tuyg‘ularni tasvirlashdagi universallik, ijtimoiy va falsafiy masalalarga yondashuv hozirgi dunyo muammolari bilan hamohang. Ushbu maqolada Borxertning o‘ziga xos tili va ifoda uslubi nafaqat urush avlodini, balki hozirgi o‘quvchilarni ham insoniylik haqida chuqur mulohaza yuritishga undaydigan fikrlar haqida gap boradi.

Adabiyotshunoslikda Borxertning ijodini baholashda turli qarashlar mavjud. Ba’zilar uni “erta yetilgan, ammo tugallanmagan” yozuvchi deb ataydi. Biroq uning asarlaridagi mavzular va uslublarning xilma-xilligi bunday yondashuvni qayta ko‘rib chiqishni talab qiladi. Borxert o‘z asarlarida badiiy va estetik yetuklikni qo‘lga kiritgan yozuvchi sifatida qayta baholanishi kerak degan fikrdamiz.

Kalit so‘zlar: Volfgang Borxert, urush, hikoya, drama, badiiy ifoda, ruhiy holat

Аннотатция: Произведения Борхерта имеют важное значение и для современного читателя. Универсальность в изображении человеческих чувств, подход к социальным и философским вопросам гармонично перекликаются с проблемами сегодняшнего мира. В данной статье рассматривается уникальный язык и стиль выражения Борхерта, которые побуждают к глубоким размышлениям о человечности не только поколение войны, но и современных читателей.

В литературоведении существуют различные точки зрения на творчество Борхерта. Некоторые называют его «рано созревшим, но незавершённым» писателем. Однако разнообразие тем и стилей в его произведениях требует пересмотра такого подхода. Мы придерживаемся мнения, что Борхерт должен быть переоценён как писатель, достигший художественной и эстетической зрелости в своём творчестве.

Ключевые слова: Вольфганг Борхерт, война, рассказ, драма, художественное выражение, психологическое состояние

Abstract: Borchert's works hold significant relevance for contemporary readers as well. The universality in depicting human emotions and his approach to social and philosophical issues resonate with the challenges of today's world. This article explores Borchert's distinctive language and expressive style, which inspire profound reflections on humanity not only for the war generation but also for modern readers.

In literary studies, there are various perspectives on evaluating Borchert's creative legacy. Some describe him as a "prematurely mature yet incomplete" writer. However, the diversity of themes and styles in his works calls for a reassessment of this view. We believe that Borchert should be re-evaluated as a writer who achieved artistic and aesthetic maturity in his craft.

Keywords: Wolfgang Borchert, war, short story, drama, artistic expression, psychological state

Kirish

Volfgang Borxert (1921–1947) urushdan keyingi nemis adabiyotining eng yorqin vakillaridan biri bo‘lib, o‘z asarlarida insoniyatning ma’naviy va ruhiy muammolarini yoritishga bag‘ishlangan. U qisqa umri davomida inson hayoti, urushning halokatli oqibatlari va umidni saqlab qolish zarurati haqidagi muhim adabiy asarlar yaratgan. Ushbu maqola Borxertning asarlari, xususan, “Tashqarida, eshik oldida” (“Draußen vor der Tür”) dramasini va “Momaqaymoq”(Hundeblume”) qissasining adabiy tahlil qilish orqali yozuvchi ijodining zamonaviy adabiyotdagi o‘rnini aniqlashga qaratilgan. Borxert o‘zining asarlarida insoniyatning global muammolarini o‘rganadi, jumladan, urushning halokatli ta’siri, jamiyatdagi yolg‘izlik va ijtimoiy ajralish muammolari, shuningdek, umidning kuchi qanchalik muhim ekanligi ko’rsatadi. Uning eng mashhur asarlaridan biri “Tashqarida, eshik oldida” (Draußen vor der Tür) dramasida urushdan qaytgan askar Bekmanning insoniylik va jamiyat bilan ziddiyatli munosabatlari tasvirlanadi. Ushbu drama urushdan keyingi davr nemis jamiyatida o‘z o‘rnini izlayotgan odamlarga to‘g‘ridan-to‘g‘ri murojaat bo‘lib xizmat qiladi.

Metodologiya

Maqolada quyidagi usullar qo‘llanildi:

1. Adabiy tahlil: Borxertning tanlab olingan asarlari, jumladan, "Tashqarida, eshik oldida" dramasi va qisqa hikoyalari mazmun, tuzilma va badiiy uslub nuqtai nazaridan tahlil qilindi. Asarlardagi ramziy obrazlar, mavzular va tilning lirik xususiyatlari o‘rganildi.

2. Tarixiy va kontekstualizatsiya: Borxertning asarlari yaratilgan davrning ijtimoiy, siyosiy va madaniy sharoitlari hisobga olindi. Xususan, Ikkinchi Jahon urushi va undan keyingi nemis jamiyatidagi muammolar, urushning insoniyatga bo‘lgan ta’siri va jamiyatning qayta tiklanish jarayoni tahlil qilindi.

3. Ijodiy ta’sirlar tahlili: Borxert ijodiga Heminguey, ekspressionizm va zamonaviy nemis adabiyotining boshqa yo‘nalishlari ta’sirini aniqlash uchun qiyosiy tahlil o‘tkazildi. Uning qisqa hikoyalari va dramalarida ushbu ta’sirlarning badiiy shakllanishga qanday yordam bergani o‘rganildi.

4. Tematik tadqiqot: asarlarda tez-tez uchraydigan mavzular, jumladan, urush fojeasi, inson hayoti va o‘limning falsafiy yondashuvi, insoniylikning ahamiyati va umid tushunchasi batafsil tahlil qilindi.

Mazkur metodologik yondashuvlar Borxertning ijodiy xususiyatlarini aniqlash va uning asarlarida aks etgan insoniy va falsafiy tushunchalarni chuqurroq yoritishga imkon berdi.

-Adabiy tahlil: Borxertning hikoya va dramalari mavzu, til va uslub nuqtai nazaridan o‘rganildi.

-Tarixiy kontekst: Asarlarning yaratilgan davri, urushdan keyingi ijtimoiy va siyosiy muhit inobatga olindi.

-Ijodiy ta’sirlar tahlili: Heminguey va ekspressionizmning Borxert ijodiga bo‘lgan ta’siri o‘rganildi.

-Lirik va ramziy unsurlarni tahlil qilish: Til, rang va tovushlarning adabiy uslubdagi roli batafsil tahlil qilindi.

Tahlil

Borxert asarlarida insoniyatning ruhiy, ma’naviy muammolari — qo‘rquv, yolg‘izlik, umid va o‘limni chuqur badiiy yondashuvda ifoda etadi. Uning asarlari lirik va ramziy ifodalarning uyg‘unligidan foydalanib, urushning inson ruhiyatiga halokatli ta’sirini yoritadi. "Tashqarida, eshik oldida" dramasida askar Bekmanning jamiyat bilan ziddiyatlari va insoniylikni qidirishi markaziy mavzuga aylangan. Qisqa hikoyalarida esa oddiy voqealar murakkab falsafiy va hissiy tajribalarni ochib beradi. Masalan, “Hundeblume” “Momaqaymoq guli" hikoyasida insonning mayda tafsilotlar orqali hayot ma’nosini anglash jarayoni tasvirlanadi.

Natijalar

Volfgang Borxertning asarlari, ayniqsa, qisqa hikoyalari va dramalari, inson hayoti va urushning halokatli ta’sirini badiiy jihatdan chuqur ifodalash bilan ajralib turadi. Tahlillar natijasida quyidagi asosiy jihatlar aniqlandi:

1. Mavzular va timsollarni chuqur yoritish: Borxert o‘z asarlarida insoniy tuyg‘ularni markaziy mavzu sifatida tanlagan. Bekmanning insoniylikni qidirishi va jamiyatda o‘z o‘rnini topishga bo‘lgan umidsiz urinishlari, jamiyatning urushdan keyingi moral va psixologik holatini yoritadi. Qisqa hikoyalarida oddiy voqealar va detallar orqali inson hayotining murakkab falsafiy va hissiy jihatlari aks ettiriladi.

2. Til va uslubning betakrorligi: Borxert qisqa, ammo mazmunli jumlalar orqali o‘z g‘oyalarini yetkazadi. Uning uslubi lirik va ramziy bo‘lib, insonning ichki ruhiy tajribalarini chuqur ifoda etadi. Asarlarida ranglar va ovozlar ko‘p ishlatilgan bo‘lib, ular inson holatini va ichki dunyosini ramziy tarzda aks ettiradi. Masalan, "binafsha" rang umidsizlik va qayg‘uni, "ko‘k-qora" esa qo‘rquv va yolg‘izlikni ifodalaydi.

3. Falsafiy yondashuv: Yozuvchi o‘z asarlarida inson va dunyo o‘rtasidagi ziddiyatni, insoniyatning hayotiy qo‘rquvlari va umidlari orasidagi muvozanatni aks ettiradi. U falsafiy tushunchalarni oddiy, ammo chuqur badiiy ifodalar orqali yetkazadi. Asarlarida inson va jamiyat o‘rtasidagi masofaning oshishi, urushning individual hayotga bo‘lgan salbiy ta’siri va umidni saqlab qolish muammolari yoritilgan.

4. Ijodiy o‘zgarish va yuksalish: Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, Borxertning keyingi asarlarida o‘ziga xos uslubiy elementlar kuchayib, uning ijodi tobora yetuklashgan. Ayniqsa, lirik unsurlar va ramziy ifodalar keyingi qisqa hikoyalarida ko‘proq o‘z aksini topgan. Borxert

ijodining rivojlanishi uning proza va qisqa hikoya yozishdagi ishonchining ortishi bilan bog‘liq. Keyingi asarlarida u til va ifoda vositalarini yanada mahorat bilan qo‘llagan.

5. Urushdan keyingi davrni aks ettirish: Borxert urush va uning inson ruhiyatiga ta’sirini yoritish orqali zamonaviy adabiyotda yangi yo‘nalish ochdi. Uning asarlari insoniyatning universal muammolariga qaratilganligi bilan urushdan keyingi davr nemis adabiyotining asosiy poydevoriga aylangan. Borxertning "yo‘q de" “Sag nein!”degan chaqirig‘i faqat urushga emas, balki insoniy qadriyatlarga tahdid qiluvchi barcha yomonliklarga qarshi bir isyon edi. Ushbu natijalar Borxertning ijodiy merosi nafaqat o‘z davri uchun, balki zamonaviy o‘quvchi uchun ham dolzarb ekanligini ko‘rsatadi. Uning asarlari inson hayotining murakkabliklarini yoritishda universallikni saqlaganligi sababli bugungi adabiyotshunoslikda alohida o‘rin egallaydi.

Munozara

Borxertning asarlarida insoniyatning hayotiy mavzulari markaziy o‘rinni egallaydi, o’quvchini bu muammolar haqida o‘ylashga undaydi. Bundan tashqari urushning vayronkor ta’sirini va insoniyatning ijobiy taraqqiyot yo‘liga bo‘lgan umidini aks ettirgan fikrlarni tez-tez uchratishimiz mumkin. Shuningdek, uning ijodida "yolg‘izlik", "qo‘rquv" va "umid" kabi mavzularning uzviyligi seziladi. "Tashqarida, eshik oldida" dramasida urushdan qaytgan Bekmanning insoniylikni va jamiyatda o‘z o‘rnini izlash jarayoni tasvirlangan. Bu asar inson hayotidagi umidsizlik va insoniy munosabatlarning buzilishiga qaratilgan teran qarashlarni ochib beradi. Qisqa hikoyalarida esa, masalan, “Hundeblume”(“Momaqaymoq guli”) oddiy detallar orqali murakkab hissiy va falsafiy mazmun yoritiladi. Borxertning tilga bo‘lgan ishonchi va lirik ramziy ifodalari inson ruhining chuqur qatlamlariga kirib boradi. U nafaqat urushdan keyingi davrning ovozi, balki bugungi kunda ham insoniylik va axloqiy qadriyatlarni saqlashning ahamiyatini targ‘ib qiladi. Adabiyotshunoslikda uning asarlari ko‘pincha “erta yetilgan, ammo tugallanmagan”[1] deb baholangan. Ammo tahlillar shuni ko‘rsatadiki, Borxertning ijodiy yetukligi uning asarlaridagi badiiy va falsafiy qatlamlar orqali yaqqol namoyon bo‘ladi. Uning urushga va insoniyatga tahdid soluvchi yovuzlikka qarshi isyonli “yo‘q de” “Sag nein!” chaqirig‘i har doim dolzarbdir. Volfgang Borxertning ijodi urushdan keyingi nemis adabiyotining muhim qismiga aylangan bo‘lsa-da, uning asarlari faqatgina tarixiy kontekst bilan cheklanib qolmaydi. U insoniyatning ruhiy muammolari va badiiy tajribalarni o‘rganish uchun keng imkoniyat yaratadi. Ushbu qismda Borxertning asarlaridagi asosiy jihatlar va ularning zamonaviy adabiyotshunoslikdagi o‘rni kengroq tahlil qilinadi.

Borxertning "Tashqarida, eshik oldida" dramasi urushdan qaytgan askarlarning jamiyatdagi rolini qayta ko‘rib chiqish uchun muhim vosita bo‘ldi. Bekmanning insoniylikni qidirishi va jamiyat tomonidan rad etilishi urushning inson ruhiyatiga qanchalik salbiy ta’sir ko‘rsatganini yoritadi. Bu jihat Borxertni nafaqat adabiy shaxs, balki ijtimoiy arbob sifatida ham o‘rganish kerakligini ko‘rsatadi.

Borxert asarlarida tilning lirikligi va ramziyligi sezilarli o‘rin egallaydi. Uning qisqa hikoyalari insonning ichki iztiroblarini yoritishda o‘ziga xos badiiy yondashuvni qo‘llaydi. Ranglar va tovushlar, masalan, "binafsha" rang va qushlarning qichqirig‘i, insonning ichki

dunyosini aks ettirish uchun metafora sifatida ishlatiladi. Bu uslub Heminguey ta’siridagi ifoda bilan uyg‘unlashib, o‘ziga xos adabiy boylik yaratadi. Borxertning ramziyligi uni zamonaviy nemis adabiyotining boshqa vakillaridan ajratib turadi.

Borxertning ijodiy rivojlanishi uning keyingi asarlarida yaqqol namoyon bo‘ladi. Uning dastlabki hikoyalari, masalan, “Hundeblume” (“Momaqaymoq guli”), lirizm va ramziy ifodalarga boy bo‘lsa, keyingi asarlari mavzularning chuqurligi va shakllarning yetukligi bilan ajralib turadi. Ayniqsa, “Draußen vor der Tür” (“Tashqarida, eshik oldida”) dramasining muvaffaqiyati uning keyingi qisqa hikoyalarida o‘ziga xos lirik unsurlarni kuchaytirgan.

Bugungi kunda Borxert ijodini o‘rganishda zamonaviy falsafiy va psixologik metodlarni qo‘llash imkoniyati mavjud. Uning asarlaridagi ramziylik va badiiy qatlamlar inson ruhiyatining murakkab tomonlarini chuqurroq o‘rganishga imkon beradi. Shuningdek, uning “yo‘q de!” (“Sag nein!”) chaqirig‘i ijtimoiy va madaniy kontekstda global muammolarni hal qilishda ham muhim manba bo‘lishi mumkin.

Xulosa

Volfgang Borxert urushning vayronkor ta’siri va insoniyatning qayg’u va iztiroblarini yoritishda mislsiz muvaffaqiyatga erishgan. Uning asarlarida inson hayoti va ruhiyatining chuqur badiiy tahlili aks etadi. Uning qisqa hikoyalari va dramalari insonning ichki ruhiy olamini, uning qo‘rquv va umidlari, yolg‘izligi va insoniy qadriyatlarni saqlashga bo‘lgan intilishini chuqur yoritadi. U urush davrining og‘ir psixologik yukini badiiy shaklda aks ettirib, insoniyat taqdirining murakkabligini ko‘rsatadi. Yozuvchi asarlarida lirik elementlar va ramziy ifodalarni ishlatib, o‘ziga xos ijodiy uslub yaratdi. U urushdan keyingi nemis adabiyotida qisqa hikoya janrining yangi standartlarini belgiladi, xususan, "Tashqarida, eshik oldida" , jamiyatning urushdan keyingi davrdagi axloqiy va ijtimoiy muammolarini o‘rganishga qaratilgan. U jamiyatning insoniy qadriyatlarga nisbatan mas’uliyatsizligi va urushning halokatli oqibatlari haqida chuqur mulohazalarni ilgari suradi. Ushbu yondashuv bugungi adabiyotshunoslik va sotsiologik tahlil uchun muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

Borxertning asarlari hali to‘liq o‘rganilmagan boylikdir. Ularning tahlili zamonaviy adabiyotshunoslikda yangi yondashuvlarni qo‘llash imkonini beradi. Ayniqsa, uning ramziy uslubi, rang va tovushning adabiy ifodadagi o‘rni hamda qisqa hikoya janridagi o‘ziga xosligi kelgusidagi tadqiqotlar uchun boy manba hisoblanadi. Uning asarlari insoniyatning umumiy tajribalarini aks ettirganligi sababli, hozirgi zamonaviy dunyo muammolari uchun dolzarb saboqlar beradi. Borxert ijodining teran falsafiy va badiiy yondashuvlari bugungi va kelajak avlodlar uchun ham ahamiyatini saqlab qoladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Rühmkorf P. Wolfgang Borchert mit Selbstzeugnissen und Bilddokumenten. Hamburg : Rowohlt Taschenbuch Verlag, 1996

2. W. Borchert. Gesamtwerk. Hamburg. Rowohlt-Verlag. 1994. S. 241.

3. Kindels Neues Literaturlexikon in 20 Bänden. Bn 2. München Kindels Verlag. 1991. S. 928.

4. Böll, Heinrich (1961). Erzählungen, Hörspiele, Aufsatze. Kiepenhauer & Witsch, Köln – Berlin. Deutschland.

5. Burgess, Gordon (2007). Wolfgang Borchert. Ich glaube an mein Glück. Aufbau Verlagsgruppe GmbH, Berlin. Deutschland.

6. Durzak, Manfred (1981). Deutsche Gegenwartsliteratur: Ausgangspositionen und aktuelle Entwicklungen. Philipp Reclam jun., Stuttgart. Deutschland.

7. Rühmkorf, Peter (1961). Wolfgang Borchert. 25. Auflage. Reinbek bei Hamburg: Rowohlt Taschenbuch Verlag GmbH, Deutschland.

8. Şahin, Veysel (2007). Roman Tekniği Bakımından Yaban. Newsa – New World Sciences Academy. Volume:2, Number:3, s. 179-196.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 1-son)

FILOLOGIYA

PHILOLOGY

MUTUALLY SYNONYMOUS AUXILIARY VERBS AND THEIR EXPRESSION IN KOREAN

Yeon Sangheum
PhD in Philology
Head of the Higher School of Korean Studies,
Tashkent State University of Oriental Studies,
e-mail: yucekaan23@gmail.com
Gulshoda Dilshadovna Yunusova
PhD in Philology
Associate Professor, Higher School of Korean Studies,
Tashkent State University of Oriental Studies
e-mail: gulyamir9@gmail.com

Abstract: In this article, auxiliary verbs in the Uzbek language that perform similar functions are compared. Specifically, the unique characteristics of the auxiliary verbs “yurmoq” (to walk) and “o‘tirmoq” (to sit), which serve auxiliary functions in Uzbek, are highlighted. Additionally, an analysis is conducted on how these auxiliary verbs are expressed in the Korean language.

Keywords: verb, auxiliary verb, modal meaning, similar meaning, continuity, repetition, speaker, imperative-optative mood.

O‘ZARO SINONIM KO‘MAKCHI FE’LLAR VA ULARNING KOREYS TILIDA IFODALANISHI

Annotatsiya: Mazkur maqolada o‘zbek tilida o‘zaro o‘xshash vazifani bajaruvchi ko‘makchi fe’llar qiyoslanadi. Xususan, o‘zbek tilida ko‘makchilik vazifasiga ega “yurmoq” va “o‘tirmoq” ko‘makchi fe’llarining o‘ziga xos jihatlari yoritiladi. Shuningdek, mazkur ko‘makchi fe’llar koreys tilida aynan qanday fe’llar orqali ifodalanishi ham tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: fe’l, ko‘makchi fe’l, modal ma’no, yaqin ma’no, davomiylik, takroriylik, so‘zlovchi, buyruq-istak mayli.

ВЗАИМОЗАМЕНЯЕМЫЕ ВСПОМОГАТЕЛЬНЫЕ ГЛАГОЛЫ И ИХ ВЫРАЖЕНИЕ В КОРЕЙСКОМ ЯЗЫКЕ

Аннотация: В данной статье проводится сравнительный анализ вспомогательных глаголов, выполняющих схожие функции в узбекском языке. В частности, рассматриваются специфические особенности вспомогательных глаголов с функцией

помощи, таких как «yurmoq» и «o‘tirmoq» в узбекском языке. Также исследуется, с помощью каких глаголов эти вспомогательные глаголы выражаются в корейском языке.

Ключевые слова: глагол, вспомогательный глагол, модальное значение, близкое значение, длительность, повторяемость, говорящий, повелительное-волевое наклонение.

Introduction

The concept of “auxiliary verb” in the Uzbek language, its essence, the characteristics of auxiliary verbs, the origins of the meanings they convey, and related issues have been thoroughly studied by academician A. Hojiyev, which is no secret. To this day, new research continues to be conducted, relying on A. Hojiyev’s studies. In his research, A. Hojiyev explained the essence of the term “auxiliary verb” and shed light on one of the challenges related to the ambiguity of linguistic terminology [1]. According to A. Hojiyev: “In the Uzbek language, there is no verb that has completely transformed into an auxiliary verb (i.e., used only as an auxiliary verb). Certain independent verbs are also used in the role of auxiliary verbs and serve to convey a variety of meanings. These include the following: *boshla* (start), *yot* (lie), *tur* (stand), *yur* (walk), *o‘tir* (sit), *bo‘l* (become), *bit* (finish), *ol* (take), *ber* (give), *qol* (stay), *qo‘y* (put), *chiq* (go out), *bor* (go), *kel* (come), *ket* (leave), *yubor* (send), *tashla* (throw), *sol* (put in), *tush* (descend), *o‘l* (die), *o‘t* (pass), *yet* (reach), *ko‘r* (see), *qara* (look), *boq* (gaze), *bil* (know), and *yoz* (write)” [2].

The scholar categorized auxiliary verbs in the Uzbek language into three main groups based on their general meanings and functions:

1. Auxiliary verbs that express the characteristics of the action process.
2. Auxiliary verbs that convey modal meanings.
3. Auxiliary verbs that express directional meanings.

In general, by the 21st century, despite numerous studies conducted on auxiliary verbs in Uzbek linguistics, most of these studies focused only on certain auxiliary verbs. This article aims not only to analyze the characteristics of auxiliary verbs in the Uzbek language but also to explore how they are expressed in the Korean language.

Main Section:

In Uzbek, the auxiliary verbs *yurmoq* (“to walk”) and *o‘tirmoq* (“to sit”) convey the meaning of the undesirability or disapproval of the action being performed. For example:

- *...men uni izlab markazga borib yuribman* (*I keep wandering to the center looking for him* – Sh. G‘ulomov, *Bo‘z yer uyg‘ondi*).
- *Tirik odamni dabdurustdan «yo‘q qilindi» deb o‘tiribdi* (*He’s casually saying a living person was “eliminated”* – A. Muxtor, *Opa-s.*) [3].

The modal meanings of the auxiliary verbs *yurmoq* and *o‘tirmoq* in Korean can be expressed using the auxiliary verb 있다 (*itda*), as well as alternative forms such as 앉다 (*andda*, “to sit”) and 자빠지다 (*jabbajida*, “to fall over”).

Additionally, the auxiliary verbs 대다 (*deda*), 터지다 (*tojida*), 빠지다 (*bbajida*), and 들다 (*dilda*) can also be used to convey a meaning similar to the speaker's disapproval or lack of support for the action described by the main verb.

The Uzbek verb *yurmoq* corresponds to the Korean verb 걷다 (*godda*, “to walk”). However, in Korean linguistics, 걷다 (*godda*) is not classified as an auxiliary verb. This verb is often used alongside 가다 (*gada*, “to go”), which conveys a meaning similar to *yurmoq* in Uzbek.

Additionally, in Korean linguistics, the auxiliary verb 가다 (*gada*, “to go”) is associated with meanings similar to the Uzbek auxiliary verbs *turmoq* (“to stand”) and *yozmoq* (“to write”). Meanwhile, *o‘tirmoq* (“to sit”), when used as both an independent and auxiliary verb, conveys the same meaning as the Korean verb 앉다 (*anda*, “to sit”).

Furthermore, the primary meanings of these auxiliary verbs contain an element of continuity or repetition. The Korean auxiliary verbs 터지다 (*tojida*), 빠지다 (*bbajida*), and 들다 (*dilda*) are equivalent in modal meaning to the Uzbek auxiliary verbs *yurmoq* and *o‘tirmoq*. This is because, in Uzbek, these verbs, when used to express modal meaning, do not indicate continuity. Similarly, in Korean, these auxiliary verbs are used only when evaluating the previous statement or the state expressed by the main verb, that is, when conveying the speaker’s opinion (often in the sense of disapproval, as with the Uzbek auxiliary verbs *yurmoq* and *o‘tirmoq*).

Moreover, these auxiliary verbs clearly express a modal meaning. However, when it comes to characterizing actions, the auxiliary verbs *yurmoq* and *o‘tirmoq* in Uzbek linguistics are rarely translated into Korean using the aforementioned auxiliary verbs (터지다, 빠지다, 들다). In fact, these Korean auxiliary verbs are almost never used in such translations, as their use is incompatible with the Uzbek modal meanings conveyed by *yurmoq* and *o‘tirmoq*.

That is, the speaker uses this case when he does not want to do something, because it is an action that is morally and contextually unacceptable and the action in the leading verb should not be performed.

The auxiliary verb *yurmoq*, when combined with the adverbial suffix *-(i)b* and conjugated with person-number markers, expresses that the action of the main verb pertains to the present tense (e.g., *ishlab yuribman* – “I am working”).

However, when used in the meaning mentioned above (to express undesirability or disapproval), this form never conveys a present tense meaning. Instead, it takes on a modal or evaluative nuance rather than directly indicating the time frame of the action.

The auxiliary verb *yurmoq* expressing this meaning is also used with the verb *o‘tirmoq*. In fact, the auxiliary verb *o‘tirmoq* is more frequently used in this context than *yurmoq*. Additionally, the origin of this meaning and the characteristics of their usage in both *yurmoq* and *o‘tirmoq* are nearly identical. Both auxiliary verbs convey a sense of disapproval or undesirability regarding the action, and their usage reflects similar patterns in meaning and context [3. 59].

The auxiliary verb *o‘tirmoq* conveys the meaning that the action expressed by the main verb is not appropriate or desirable, and that the subject or speaker does not support the completion of that action. For example:

“Agar ota-onangiz men bilan shu yerda umr qilishingizga rozi bo‘lishsa, o‘zingiz ham shuni xohlasangiz, shariat-tariqat deb o‘tirmaymiz”
(*If your parents agree to live here with me, and you wish the same, we will not just sit idly by, following tradition* – A. Qahhor, *Q. ch.*).

In this example, *o‘tirmaymiz* expresses that the action (sitting idly) is not acceptable or desired in the context, reflecting the speaker's disapproval.

When the auxiliary verb *o‘tirmoq* is used in this context, it typically does not convey a meaning of continuity. Therefore, when it is combined with the *-(i)b* suffix and conjugated with person-number markers, it primarily expresses the past tense (though it rarely expresses the present tense).

For example:

“Men sodda shuning gapiga ishonib o‘tiribman”
(*I was simply sitting, believing in what he said* – A. Qahhor, *Q. ch.*).

In this example, *o‘tiribman* (sitting) refers to an action that occurred in the past, not indicating any ongoing or continuous action [3. 61].

As previously mentioned, the auxiliary verbs *yurmoq* and *o‘tirmoq* convey similar meanings in Uzbek. In Korean, however, the auxiliary verbs 있다 (*itda*), 앉다 (*anda*, “to sit”), and 자빠지다 (*jabbajida*, “to fall over”) have nearly identical core meanings as well. In fact, they can often be used interchangeably in some contexts.

The difference lies in the intensity of the meaning: while 있다 (*itda*) conveys a basic sense of existence or location (e.g., “to be,” “to exist,” “to be located”), the verbs 앉다 (*anda*) and 자빠지다 (*jabbajida*) carry a stronger, more specific sense in certain contexts. All three auxiliary verbs express continuity. However, both continuity and modal meanings can be conveyed, particularly with *앉다* and *자빠지다*, where the modal or evaluative nuance becomes more pronounced.

- **-고 있다 [go‘ itda]**: This form is created by combining the verb 있다 (*itda*, “to be,” “to exist,” “to be located,” etc.) with the -*고* suffix. It expresses the continuity of the action or the ongoing state of the main verb. It conveys that the action is happening continuously or that a completed action is still in progress.
- **-고 앉다 [go‘ anda]**: This form combines -*고* with 앉다 (*anda*, "to sit"). It is used to express the continuity of the action, similar to -*고 있다* but is employed when referring to a specific action, such as sitting.
- **-고 자빠지다 [go‘ jabbajida]**: This is a more colloquial or vulgar form of the -*고 있다* structure. It combines -*고* with 자빠지다 (*jabbajida*, “to fall over”) and carries a more informal or blunt expression of continuity, often used in casual speech or to intensify the action.

The explanations provided above are based on the *표준대국어사전* (Pyo‘jungugodesajon), which is the standard Korean dictionary. In vulgar or colloquial expressions, there is little noticeable difference between the auxiliary verbs 앉다 (*anda*, “to sit”) and 자빠지다 (*jabbajida*, “to fall over”). Furthermore, when the auxiliary verb 있다 (*itda*, “to be,” “to exist”) is used instead of *앉다* or *자빠지다* in such constructions, the meaning remains essentially the same. In these cases, both forms communicate the idea of an ongoing action or state without significant change in meaning.

.

- *그가 내 친구라고? 친구 같은 소리 하**고 있네**.*

[giga ne chingurago‘? Chingu gatin so‘ri hago‘ itne]

- *그가 내 친구라고? 친구 같은 소리 하**고 앉았네**.*

[giga ne chingurago‘? Chingu gatin so‘ri hago‘ anjatne]

- *그가 내 친구라고? 친구 같은 소리 하**고 자빠졌네**.*

[giga ne chingurago‘? Chingu gatin so‘ri hago‘ jabbajyotne]

(Are you saying he’s my comrade? He’s sitting there saying he's my comrade.)

In the provided example, the auxiliary verbs 있다 (*itda*), 앉다 (*anda*), and 자빠지다 (*jabbajida*) combined with the -*고* suffix convey the same meaning: opposition to the main action or the speaker’s disapproval of it. This indicates that the action being performed is undesirable or against the speaker’s preference.

Additionally, if these three auxiliary verbs are used interchangeably, their core meaning remains the same. The only difference is that *앉다* (*anda*) and *자빠지다* (*jabbajida*) have a

stronger connotation, intensifying the meaning compared to *있다* (*itda*). In other words, these auxiliary verbs can be distinguished based on the intensity or strength of the meaning they convey, with *앉다* and *자빠지다* carrying a more forceful implication.

The following auxiliary verbs do not correspond syntactically to the Uzbek auxiliary verbs *yurmoq* and *o‘tirmoq*. However, in terms of semantics, they convey the meaning that the action or state expressed by the main verb is disliked or considered undesirable by the subject or speaker.

• -*어 대다* [o deda]. This form is used to express the meaning of repetition of the action in the main verb or the meaning of the level of performance of the action being deeper, harder, or stronger.

그는 쉬지 않고 계속 먹어 댄다.

He is eating non-stop without resting.

The auxiliary verb **대다** (*deda*, *(tegmoq)* can be divided into two meanings. The first refers to the action expressed by the main verb, such as the act of eating being repeated or continuously carried out. The second meaning indicates that the action is being performed more forcefully or intensely.

It should also be noted that in the second case, the speaker’s evaluation of the main action is involved. Therefore, when using **대다** (*deda*), it expresses that the speaker disapproves of the action, such as the act of eating being disliked. When expressed in this second meaning, the repetition of the action is not clearly perceived. Since the focus is on the speaker’s strong reaction to the action, the sense of repetition is not emphasized in this case.

The auxiliary verbs **-어 터지다** (*o tojida*) and **-어 빠지다** (*o bbajida*) combine with a verb or adjective with the affix **-어** (*o*) to express disapproval of the intensity or severity of the action or state indicated by the main verb. These auxiliary verbs convey the idea of the action or condition being excessively severe or difficult, showing the speaker’s dissatisfaction with it.

Both of these auxiliary verbs express the same meaning, and there are cases where they can be used interchangeably.

.

- *착해 빠졌다.* [chaghe bbajyotda, tojyotda] (**He fell down in mercy. – literal translation)*

- *그 애는 유순해 터져서 (빠져서) 늘 당하고만 산다.* [gi ening yusunhe tojyoso(bbajyoso) nil danghago‘man sanda] [4] (**That child is always in conflict because he fell while being obedient*).

These two auxiliary verbs are mainly used after adjectives. They are not considered auxiliary verbs in Uzbek linguistics. However, in Korean, they are included in the auxiliary verb and have a modal meaning (평가 양태[pyongga yangte], evaluative modality).

• *들다* [go‘ dilda] It is an auxiliary verb that conveys a meaning similar to the verb “kirmoq”.

This auxiliary verb is used in various forms. These are -*려(고) 들다* [ryo(go‘) dilda], -*기로 들다* [giro‘ dilda], -*자고 들다* [jago‘ dilda], -*고 들다* [go‘ dilda]. Brought -*려(고) 들다* [ryo(go‘) dilda], -*기로 들다*[giro‘ dilda], -*자고 들다*[jago‘ dilda] In the case of the verbs, there is no distinction at all when it comes to the moral aspect. They indicate an attempt to actively perform the action in the leading verb or the previous action. That is, they are used when trying to perform the action with enthusiasm, intensity, and activity. *들다* [dilda] a form of the auxiliary verb other than the above forms -*고 들다*[go‘ dilda] When used in the form of “to” it means to carry out the action of the leading verb or a previous action in a harsh, hasty manner or as a punishment.

- *그는 얘기도 듣기 전에 신경질부터 내려고 든다.* [ginin yegido‘ didgi jone shingyongjilbuto neryogo‘ dinda] [4] (**He is starting to get nervous before he hears the words. – literal translation*)

As can be seen from the provided example, the literal translation can also be expressed using the auxiliary verb *o‘tir* (to sit), which reflects the meaning that the action or activity in the main verb should not be performed or is unnecessary. This also indicates that the action in the main verb is something that the speaker disapproves of. The reason for this is that such a meaning is also present when using the form*고 들다* [go‘ dilda].

Despite the fact that the auxiliary verb **들다** (*dilda*) can express a meaning similar to that of **qo‘ymoq** (to allow), it has its own distinct character. The verb **들다** (*dilda*) originates from the meaning of entering or starting an action, as in the verb **kirmoq** (to enter). When the auxiliary verb **들다** (*dilda*) is used, it indicates that the speaker has entered into the action with their own thoughts and is providing an evaluation of it.

In most cases, this evaluation is negative (opposed to the action) since the action is not in line with the speaker's expectations or approval. This meaning is present regardless of the specific form in which **들다** (*dilda*) is used. However, this is not always the case, and such a situation can often be understood through the context.

Despite the fact that the auxiliary verb **들다** (*dilda*) can express a meaning similar to that of **qo‘ymoq** (to allow), it has its own distinct character. The verb **들다** (*dilda*) originates from the meaning of entering or starting an action, as in the verb **kirmoq** (to enter). When the auxiliary verb **들다** (*dilda*) is used, it indicates that the speaker has entered into the action with their own thoughts and is providing an evaluation of it.

In most cases, this evaluation is negative (opposed to the action) since the action is not in line with the speaker’s expectations or approval. This meaning is present regardless of the specific form in which **들다** (*dilda*) is used. However, this is not always the case, and such a situation can often be understood through the context.

When the auxiliary verb **o‘tir** (to sit) is used in the meaning of “the speaker’s disapproval of the action being performed,” its forms **o‘tiribman**, **o‘tiribsan**, and **o‘tiribdi** express the past tense.

The auxiliary verb **o‘tir** is also used in the imperative mood without the negative marker (bo’lishsiz forma), as seen in phrases like: “aytib o‘tirma” (don’t say), “so‘rab o‘tirma” (don’t ask), “xafa qilib o‘tirmasin” (don’t let him/her sit while upset), and “javob berolmay o‘tirma” (don’t sit without answering).

In this situation, in Korean, the auxiliary verb **말다** (malda), in its form **-지 말다** (-ji malda), is used, but it cannot express the modal meaning in the same way. For example: **말하지 마** (malhaji ma) – “Don’t say.” **물어보지 마** (muroboji ma) – “Don’t ask.” **화내지 마** (hoaneji ma) – “Don’t make (someone) angry.”

Here, the Korean verb **말다** (malda) is used to indicate a prohibition or suggestion not to do something, but it does not convey the modal meaning of disapproval or the speaker’s stance on the action, which is typically expressed by **o’tirma** in Uzbek.

In spoken language, the meaning is derived from the general context. The meaning of continuity often becomes apparent even outside of the immediate context. For example, in the phrase **yozib o‘tiribdi** (writing), it is clear that the action (writing) is taking place at the moment of speech. The meaning of the speaker’s disapproval or lack of support for the action (writing) is not explicitly conveyed in this construction. However, when saying **Shuni ham yozib o‘tiribdi-ya** (even writing this), the speaker’s disapproval of the action (writing) becomes clearly expressed. This meaning, therefore, materializes through specific words used in the sentence [5].

In this situation, using **있다 [itda]** (to be) instead of **앉다 [anda]** (to sit) and **자빠지다 [jabbajida]** (to fall) in Korean would not clearly convey the same meaning. For example, in the provided case, even without the word “ham” (also), if **앉다 [anda]** or **자빠지다 [jabbajida]** is

used, disapproval of the action would still be clearly understood. In Korean, when the **-ya** suffix (likely in spoken language **-야 [ya]**) is used with these auxiliary verbs, the speaker’s disapproval is clearly conveyed. Additionally, when using **있다 [itda]**, the meaning of disapproval is clearly expressed through the word “ham” (also).

In conclusion, it can be said that auxiliary verbs are a topical topic in both Uzbek and Korean linguistics. And new research is being conducted on these topics continuously. Since both languages are classified as agglutinative languages, there are similarities in the functions and meaning of auxiliary verbs in sentences.

It has been clarified that the modal meaning of the auxiliary verbs **yurmoq** (to walk) and **o‘tirmoq** (to sit) can be expressed in Korean through the auxiliary verbs **있다 [itda]** (to be), **앉다 [anda]** (to sit), and **자빠지다 [jabbajida]** (to fall). Additionally, it was shown that the use of auxiliary verbs **대다 [deda]** (to touch), **터지다 [tojida]** (to burst), **빠지다 [bbajida]** (to fall into), and **들다 [dilda]** (to lift) can convey a meaning close to the speaker’s disapproval of the action in the main verb.

The auxiliary verb **o‘tirmoq** (to sit) expresses the meaning that the action in the main verb is not appropriate or suitable, and that the subject or speaker does not approve of its execution. In Korean, this meaning can be conveyed through verbs like **앉다 [anda]** (to sit), **자빠지다 [jabbajida]** (to fall), **대다 [deda]** (to touch), **터지다 [tojida]** (to burst), and **빠지다 [bbajida]** (to fall into).

REFERENCES:

1. Sayfullaeva R.R. Morphology of the modern Uzbek language. - Tashkent, 2008. - B. 353.
2. Khojiev A. Verb. – Tashkent: Fan, 1973. – P. 14-15.
3. Khojiev A. Auxiliary verbs in the Uzbek language. – Tashkent: Fan, 1966. – P. 197.
4. 표준국어대사전. – 국립국어원 (https://stdict.korean.go.kr/main/main.do)
5. Hojiyev A. Referenced work, p. 63.
6. Yeon Sangheum. Modal auxiliary verbs in the Uzbek language and their expression in Korean. (author's abstract). Tashkent: TDSHU, 2022.
7. 손세 모돌.국어 보조용언 연구. 서울: 한국문화사, 1996. -P.176.
8. Yunusova G.D. Auxiliary verbs in the Korean language. – Tashkent: TDSHU, 2023.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 1-son)

FILOLOGIYA

PHILOLOGY

UO‘K:821.512.133
ORCID: 0009-0002-8162-356X

“BAXSHIYONA” TURKUMI: SHAKLLANISH OMILLARI VA FUNKSIONAL XUSUSIYATLARI

Eshanova Zilolaxon Qo‘chqarovna
Andijon davlat universiteti doktoranti,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent.
E-mail: zeshanova79@gmail.com, +998936314632;

Annotatsiya. Maqolada hozirgi kunda adabiyotshunosligimiz oldidagi dolzarb vazifalardan biri bo‘lgan folklor an’analari sintezi asosida yaratilgan baxshiyona asarlarning o‘ziga xos xususiyatlari, shakllanish omillari va funksional xususiyatlari yoritildi. Ushbu maqsadga erishish uchun Mirtemir, Usmon Azim, Halima Xudoyberdiyeva, Xurshid Davron, Faxriyor, Sharifa Salimova, Rauf Subhon kabi shoirlar ijodidagi baxshiyona uslubida yaratilgan asarlar qiyosiy tahlil qilindi hamda “Baxshiyona” turkumi xalq dostonlari va termalari stilizatsiyasi asosida yaratilganligi asoslandi, xalq dostonlari stilizatsiyasi jarayonidagi modifikatsiyalar aniqlandi. Baxshiyona asarlarda xalq dostonlari syujetidan ijodiy foydalanish, an’anaviy mifologik obraz va motivlarni, ritmni stilizatsiya qilish orqali ramziy-estetik mazmunni ifodalash maqsadi ustuvor ekanligi tahlillar orqali yoritildi. Baxshiyona asarlar ijtimoiy-siyosiy voqelikdagi turli omillar ta’sirida shakllanganligi ochiqlandi.

Kalit so‘zlar: sintez, turkum, baxshiyona, baxshi obrazi, xalq dostonlari, xalq qo‘shiqlari, terma, stilizatsiya, uslub, saj’.

ЦИКЛ “БАХШИЁНА”: ФАКТОРЫ ФОРМИРОВАНИЯ И ФУНКЦИОНАЛЬНЫЕ ОСОБЕННОСТИ

Аннотация. В статье освещена, что являющейся одной из актуальных задач стояших сегодня перед нашим литературоведением которой созданных на основе синтеза фольклорных традиций специфика, факторы формирования и функциональные особенности произведений в стиле бахшияна. Для достижения этой цели были проанализированы произведения в стиле бахши в творчестве таких поэтов, как Миртемир, Усмон Азим, Халима Худойбердиева, Хуршид Даврон, Фахриёр, Шарифа Салимова, Рауф Субхон и обосновано, что цикл "Бахшиёна" создан на основе стилизации народных дастанов и терма, выявлены модификации в процессе стилизации народных дастанов. На основе анализа освещено, что в произведениях бахшияна приоритетным

является творческое использование сюжета народных дастанов, выражение символического и эстетического содержания через стилизацию традиционных мифологических образов и и мотивов, ритма. Было раскрыто, что произведения бахшияна были сформированы под влиянием различных факторов социально-политической действительности.

Ключевые слова: синтез, цикл, бахшияна, образ бахши, народные дастаны, народные песни, терма, стилизация, стиль, садж.

THE “BAHSHIYANA” CYCLE: FACTORS OF FORMATION AND FUNCTIONAL FEATURES

Annotation. The article illuminated ch specifics, factors of formation and functional features of the works created on the basis of the synthesis of folklore traditions in the style of bakhshiyana which are one of the pressing tasks facing our literary studies today. To achieve this goal, were analyzed works created in the Bakhshi style in the works of poets such as Mirtemir, Usman Azim, Halima Khudoyberdiyeva, Khurshid Davron, Fakhriyor, Sharifa Salimova, and Rauf Subhon and it is substantiated that the cycle “Bakhshiyana” was created on the basis of stylization of folk epics and termas, modifications in the process of stylization of folk epics have been identified. Based on the analysis, it is illuminated that in the works of Bakhshiyana, the creative use of the plot of folk epics, the expression of symbolic and aesthetic content through the stylization of traditional mythological images, motifs and rhythms is a priority. It was revealed that the works of Bakhshiyana were formed under the influence of various factors of socio-political reality.

Keywords: synthesis, cycle, bakhshiyana, image of bakhshi, folk epics, folk songs, terma, stylization, style, saj (prose rhyme).

KIRISH. XX so‘nggi choragi o‘zbek adabiyotida ijodkorlar xalq dostonlariga xos tayyor va o‘zgarmas strukturadan, ifoda uslubidan ijodiy foydalangan holda uning yangi shakllarini, stilizatsiyalarini yaratdilar. S.Mirzayeva ”Folklordan ijodiy foydalanish ko‘pincha sintez xarakteriga ega bo‘lishi”ni [1,7] aytadi. Ana shunday folklor an’analari sintezi, xususan, xalq dostonlari, qo‘shiqlari, termalari va rivoyatlarining kompozitsion unsurlari sintezi asosida yaratilgan bunday yangi shakllar “Baxshiyona” turkumidagi asarlar bo‘lib, ularning mazmun-mundarijasi xalq dostonlari syujeti ta’sirida yoki baxshi obrazi yetakchi bo‘lgan bir nechta mustaqil asarlarning yaxlit kontekstga biriktirilishi asosida shakllangan bo‘ladi. Bunday turkum asarlarda xalq dostonlari va ertaklariga xos syujetlar, personajlar obrazini poetiklashtirish orqali davr muammolarini berish yetakchilik qiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR.O‘zbek adabiyotshunosligida “Baxshiyona” turkumidagi asarlarning shakllanish omillari va funksional xususiyatlari monografik planda tadqiq etilmagan. Aksariyat tadqiqotlarda Usmon Azim va Xurshid Davron ijodidagi baxshiyonalar borasidagi fikrlarni uchratamiz. Jumladan, N.Shukurov, J.Suvonova,

D.Xoliqova kabi olimlar Usmon Azim ijodidagi baxshiyonalarni o‘rgangan. N.Shukurov:”Usmon Azim she’rlarida xalq og‘zaki ijodi... an’anasini sintezlashtirib, yangicha bir uslubga intilish tendensiyasi ko‘zga tashlanadi” [2,112] deydi. J.Suvonova baxshiyona she’rni o‘zbek yozma she’riyatiga birinchi bo‘lib Mirtemir olib kirganini, 70-yillarga kelib esa baxshiyona ohanglar Usmon Azim she’riyatida yangi bir ko‘rinishda zuhur topganligini ta’kidlaydi va “... Mirtemir baxshiyona ohangga o‘zgacha bir sifat berdi. U.Azimning baxshiyona she’rlari esa Mirtemir kelib to‘xtagan nuqtadan boshlanadi”[3,49] – degan fikrlarni bildiradii. F.N.Buriyeva esa Usmon Azim va Xurshid Davron ijodidagi janrlarni organar ekan **“**Ikkala shoir ijodida folklorning kuchli ta’siri borligini ular ijodida qo‘llanish darajasi yuqori va muntazam bo‘lgan obraz, timsol, motiv, detallar misolida ko‘rish mumkin”ligini[4,21] aytadi. D.Xoliqova esa “Usmon Azimning “Oqbotir va Qorabotir” she’riy dostoni ham xalq ertak va dostonlaridan ta’sirlanish, qolaversa, shoirning ijodiy fantaziyasi asosida yangicha she’r namunasi sifatida yaratilgan”[5,71-73] deya baxshiyonalarni yangicha she’r, she’riy doston nomlari bilan ataydi. “Baxshiyona” turkumi xalq an’analari sintezi asosida yaratilgan, biroq uni she’r, yangi paydo bo‘lgan janr sifatida baholab bo‘lmaydi. Bizningcha, “Baxshiyona” turkumi folklordagi xalq dostonlarini stilizatsiya qilish asosida yaratilgan asarlar majmuidir.

Maqolada germenevtik, qiyosiy-tipologik, struktural tahlil metodlaridan foydalangan holda “Baxshiyona” turkumidagi asarlar tahlil qilindi va ularning o‘ziga xos xususiyatlari, shakllanish omillari va funksional xususiyatlari yoritildi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA. “Baxshiyona” turkumidagi asarlarning tematik kompozitsiyasi:1) xalq dostonlari syujeti, obrazlari va motivlari asosidagi epizodlardan iborat bo‘lishi; 2) zamonaviy mavzuni xalq dostonlariga xos uslub asosida yoritishi; 3) ijodkor baxshi obrazi orqali o‘zining davr bilan bog‘liq muammolarini o‘quvchilar auditoriyasi yetkazishi asosida tashkillanishi kabi xususiyatlarga ega.

1976-yilda Mirtemir baxshiyona to‘rtliklar yaratdi. “Birga edik”, “Kuning kelipti-da...”, “Sen”, “Men”, “Hech qurimas ...”, “Go‘dakligim”, “Tong”, “Bo‘z”, “U go‘yo...” kabi sarlavhali to‘rtliklar turkumida xalq qo‘shiqlari uslubiga xos sodda ifodalar orqali zamondosh insonlar obrazini yaratdi. Uning bu asari xalq dostonlari stilizatsiyasi asosida shakllanmagan bo‘lsa-da, zamonaviy adabiyotda yaratilgan baxshiyonaning ilk namunasi ekanligi, keyingi davr ijodkorlari ijodida “Baxshiyona” turkumining shakllanishiga zamin bo‘lgani bilan ahamiyatlidir. Uning “Sen” va “Men” baxshiyona to‘rtliklarida o‘z xalqini sotishga ham tayyor insonlar va vatanini sevgan inson obrazlari tazod asosida qarshilantiriladi. Baxshiyona to‘rtlikda Mirtemir buloq ramzi orqali vatan, oila tushunchalarini va o‘z yurtiga xiyonat qilguvchi shaxslar tavsifini beradi.

Ha, men turkistonlik. Turkistondanman.

Olis bobolarning oltin tuprog‘i [6,321] to‘rtligida shoir oltin tuproq metaforasi, jafokash jahon kabi alliteratsiya va takrorlardan mahorat bilan foydalanish orqali o‘z zamonasidagi vatanparvar va vatan xoini bo‘lgan insonlar obrazini yaratadi. Uning “Bo‘z” to‘rtligi esa folklor asarlariga xos 4+3=7 turoqlanish hamda a-a-b-a tarzidagi qofiyalanish asosidagi folklor

asarlariga xos sodda ifoda uslubi orqali bo‘z, oddiy bo‘lsa ham, qumloq, to‘zon-to‘z, quyunlik, qorbo‘ronlik (sifatlash) bo‘lsa ham, u mening o‘z tuprog‘im, vatanimdir, degan g‘oya beriladi.

Ko‘rinadiki, 1976-yillarda o‘zbek she’riyatida vatan, uning o‘tmishi, vatanni ozod ko‘rish istagi haqidagi fikrlar Mirtemir va boshqa shoirlar ijodida bo‘y ko‘rsata boshladi. Ijtimoiy-siyosiy hayot va adabiyotdagi bu omil ta’sirida Usmon Azim ijodida baxshiyona asarlar shakllandi va ular ijodkorning vatan, uning ozodligi haqidagi fikrlarini berish vositasiga aylandi. 80-90-yillarda esa ijtimoiy-siyosiy hayotda oshkoralik deb atalmish siyosiy jarayonlar kechdi. Natijada xalqning milliy urf-odatlari, an’analari, qadriyatlari o‘ziga qaytarildi va adabiyotda ham ayni shu tamoyillar ko‘zga tashlana boshlandi. Navro‘z, kurash kabi milliyligimiz ko‘zgusi bo‘lgan an’analarimiz tasviri orqali milliy o‘zlikni anglash g‘oyalari tarannum qilina boshladi. Ijtimoiy-siyosiy hayotdagi ushbu o‘zgarishlar va adabiyotimizdagi milliy o‘zlikni anglashga intilish, vatan taqdiri va ozodligini tarannum etish kabi tamoyillar (ijtimoiy-siyosiy omillar) mazkur davr adabiyotida baxshiyona turkumidagi asarlar takomiliga zamin yaratdi. Mazkur davr adabiyotidagi ushbu tamoyil Halima Xudoyberdiyeva, Xurshid Davron, Faxriyor kabi shoirlar ijodida ko‘zga tashlanadi. Halima Xudoyberdiyeva milliy o‘zlikni anglash haqidagi qarashlarini, Xurshid Davron baxshi obrazi borasidagi qarashlarini, Faxriyor esa baxshining armonli muhabbati tasvirini berishda xalq dostonlari stilizatsiyalaridan foydalangan. Shu tariqa baxshiyona she’rlar istiqlolning ilk yillaridan to hozirgi kunimizga qadar turli o‘zgarishlar asosida taraqqiy etdi. Istiqlol davrida ijod qilgan Sharifa Salimova, Rauf Subxon kabi ijodkorlar mustabid davr oqibatlari asosida yuzaga kelgan muammolarni: ayollarning og‘ir mehnatdagi hayoti, paxta yakkahokimligi, Orol muammolari kabilarni baxshiyona asarlarida qalamga oldilar va ijtimoiy-siyosiy hayot hamda davr muammolari ta’sirida yuzaga kelgan kechinmalar tasvirini berishga intildilar. Baxshiyona asarlarning funksional xususiyatlari ayni shu jihatlarda ko‘zga tashlanadi.

Yozma adabiyotda “turkumga mavzu, g‘oya, qahramon, tarixiy davr, poetik ruh, voqelik o‘rni jihatidan umumiylikka ega bo‘lgan bir janrga mansub asarlar majmuasi”[7,343] sifatida qaraladi. Shuningdek, “turkum muallif tomonidan mavzusiga yoki boshqa tamoyillar va kriteriyalarga (janr, mavzu, syujet, personajlar, xronotop) asoslanib tuzilgan va birlashtirilgan, o‘ziga xos badiiy yaxlitlikni ifodalovchi asarlar guruhidir. Turkumning muhim belgilaridan biri muallif tomonidan berilgan sarlavha va bir nechta nashrlarda matnning barqarorligidir”[8,292] deya ta’riflanadi. Ushbu fikrlardan ko‘rinadiki, turkum ma’lum mavzu doirasida yoki janriy belgilariga ko‘ra birlashtirilgan badiiy yaxlitlik ekan. “Baxshiyona” turkumi ham ayni shu xususiyatlarga ega bo‘lib, u o‘ziga xos yaratilishi bilan ajralib turuvchi organik yaxlitlik, yaxlit badiiylik sanaladi.

“Baxshiyona” turkumining mukammal namunasi Usmon Azim ijodida bo‘lib, uning xalq og‘zaki ijodi an’analari sinteziga xos uslubining shakllanishi uning yoshligidan (Surxondaryoning Boysunida) xalq baxshilari ijodidan bahramand bo‘lganligi, ular bilan bevosita muloqot qilganligi bilan belgilanadi. Ijodkor biografiyasiga xos bo‘lgan ushbu omil uning ijodida baxshi obrazi asosida yaratilgan va baxshilarga bag‘ishlab yozilgan she’rlar

hamda “Baxshiyona” turkumidagi asarlarning yaratilishiga zamin bo‘lgan. Usmon Azim “Baxshiyona” turkumidagi asarlarni xalq dostonlari kompozitsiyasiga xos ayrim xususiyatlarni saqlagan holda bu janr modelining u yoki bu o‘ziga xosliklarini modifikatsiyalash asosida yaratgan. “Baxshiyona” turkumidagi asarlarda Elbek baxshi bilan bog‘liq voqealar va personajlar tasviri saj’li nasrda, personajlarning fikr va kechinmalari tasviri esa 8, 9, 11, 12 bo‘g‘inli barmoq vaznidagi misralar yoki to‘rt, besh misrali bandlar orqali berilgan. “Baxshiyona” turkumidagi asarlarni undagi voqealar kechuvchi Asqartog‘, Boysun, Qo‘ng‘irot kabi makonlar va Elbek baxshi obrazi birlashtirib turadi. Asardagi xalq dostonlariga xos uzoq o‘tmish voqeligi tasviri ijodkorning o‘z davri ijtimoiy-siyosiy hayoti bilan bog‘liq muammolarni yoritish, elning ma’naviy tarbiyasi orqali ozod yurtga ega bo‘lish kabi g‘oyaviy konsepsiyasini berishga xizmat qiladi.

Usmon Azim ijodidagi “Qo‘ng‘irot ayollarining qo‘shiqlaridan” deb nomlangan asari ham “Baxshiyona” turkumiga kiradi. Yetti qismdan iborat bu baxshiyonada Elbek baxshining Oyyorug‘, Qorasoch, Norbibi, Ko‘nglioy momo, Mingsuluv, Mingchechak kabi Qo‘ng‘irot ayollari qo‘shiqlari, ularning sevgi iztiroblari, armonlari, kechinmalari ifodalanadi. Ushbu turkumda ham yetakchi obraz Elbek baxshi. U xalqiga qishloqma-qishloq yurib, o‘tovlarda ayollar dardi va armonlari berilgan qo‘shiqlarni kuylaydi. Ushbu turkumdagi she’riy qismlar xalq qo‘shiqlari stilizatsiyasi asosida yaratilgan. Unda ishqiy kechinma tasviri berilgan o‘ynoqi ohang 7 bo‘g‘inli, sevgi armonlari berilgan hazin ohang esa 10,11,12 bo‘g‘inli misralarda beriladi. Usmon Azim Mingchechak qiz qo‘shig‘ida:“Voy, jonim! Voy, jonim! Voy, jonim!/Kelsang ketar armonim-a,/ Voy, jonim!”[9,194] kabi xalq qo‘shiqlariga xos naqoratlardan uning musiqiyligini ta’minlashda, qizning sevgi armonlari ifodasini berishda ijodiy foydalangan.

Halima Xudoyberdiyeva ijodidagi “Baxshining to‘ydagi kurashda aytganlari”, “Qasam”, “Ko‘zi borlar to‘g‘ri yo‘ldan yurmasa...”, “Ona sadoqati va yolg‘iz o‘g‘il armoni qissasi” kabi asarlari baxshiyona uslubida yozilgan. Garchi shoira bu asarlarini baxshiyona deb atamasa-da, folklor an’analari sintezi asosida yaratilgan asarlarini alohida faslda birlashtiradi. O‘zbek xalqiga xos to‘y marosimida kurash o‘tkazish an’anasi sintezi hamda xalq dostonlari stilizatsiyasi asosida yaratilgan ushbu asarlarda baxshi obrazi (Mamatqul baxshi, Tangriqul baxshi) tilidan aytilgan voqelik va uning ta’sirida yuzaga kelgan kechinma tasviri beriladi. “She’rning ramka unsuri bo‘lgan sana qaydidan biz ushbu asarni 1985-yil 21-iyulda yozilganini bilishimiz mumkin. Mazkur davr adabiyotida esa xalqqa qaytarilgan milliy qadriyatlar va an’analar tarannumi asosida milliy o‘zlikni anglashga qaratilgan asarlar yaratish yetakchilik qilayotgan edi. Halima Xudoyberdiyeva ham Mamatqul baxshi tilidan xalq kurashini ta’riflash va kurashga chaqirish orqali milliy o‘zlikni anglash haqidagi qarashlarini beradi.

Baxshiyona uslubidagi asarlarning barchasini turkum deb bo‘lmaydi. X.Davron hamda Faxriyor ijodidagi asarlarni turkum sifatida olmasak-da, ular ham xalq dostonlari stilizatsiyasi asosida yaratilgan. X.Davronning 1983-yilda yaratilgan “Baxshi o‘g‘illari haqida rivoyat” (“Usmon Azimga”) asarida Ochil baxshi, to‘ng‘ich o‘g‘il va kenja o‘g‘il obrazlari mavjud.

Xurshid Davron xalq dostonlari va ertaklari uslubini stilizatsiya qilish orqali yurtni dardini kuylash, uning xizmatini qilish farzandlarning burchi ekanligi haqidagi qarashlarini ta’sirchan ifodalaydi. Asarning kirish qismida Ochil baxshining ikki o‘g‘li bor ekanligi, muddati yetib olamdan o‘tganligi haqidagi axborot beriladi. Xalq ertak va dostonlariga xos sajli nasrda berilgan “... har o‘g‘ilkim mushti gurzi edi, ko‘zi yo‘lbarsning ko‘zi edi. Otga minsa yer gursillab, qizlarning yuragi chirsillab turardi” kabi tasvirlar orqali personajlar tasviri beriladi. Xurshid Davron xalq ertaklariga xos otaning vafotidan so‘ng merosining bo‘linishi, to‘ng‘ich o‘g‘ilning moddiy manfaatni tanlashi, kenja o‘g‘ilning esa otaning ma’naviy merosini tanlashi syujet motividan ijodiy foydalangan holda otaning ma’naviy merosi avlodlarni saodatga yetaklashi haqidagi qarashlarini beradi. To‘ng‘ich o‘g‘il otasidan qolgan moddiy merosni tanlashi to‘rt misrali bandlarning oxirgi misralarida beriladi. Kenja o‘g‘ilning akasiga murojaati b-b-b-a tarzida qofiyalangan to‘rt misrali bandlarda beriladi. Shoir to‘ng‘ich va kenja o‘g‘il savol-javoblari orqali ajdodlardan qolgan “Do‘mbira, doston va qo‘shiqlar” kabi ma’naviy meros avlodlarga og‘ir damlarda yupanch, avlodlar tarbiyasi va dushmanga qarshi kurashish vositasi bo‘lishi haqidagi g‘oyaviy maqsadini ifodalaydi. Shoir asarni to‘ng‘ich o‘g‘ilning nadomat qilishi va kenja o‘g‘ilning do‘mbirasini sayratib, elning xizmatini qilib yurgani haqidagi xabarni berish bilan xulosalaydi. Asar so‘nggida berilgan xalq afsona va rivoyatlar kompozitsiyasiga xos bo‘lgan, unda tasvirlangan voqealarga ishonchni mustahkamlashga xizmat qiluvchi “ hali ham ... eshitilib turgan emish” kabi xulosaviy konstruksiyadan foydalanib, asarda tasvirlangan voqeaga ishontirishga erishadi. Shoir alqissa, shuytib, bir so‘z degani, aytib turgan ekan, so‘zini davom etib turgani kabi xalq dostonlariga xos barqaror birikmalardan foydalangan holda xalq dostonlariga xos uslubni stilizatsiya qiladi. Xurshid Davron “Baxshi o‘g‘illari haqida rivoyat” asarini “eshitganlar murodiga yetsin” kabi ertakka xos an’anaviy xulosa bilan yakunlaydi. Yuqoridagi tahlillardan ko‘rinadiki, “Baxshi o‘g‘illari haqida rivoyat” asari garchi rivoyat deb atalgan bo‘lsa-da, rivoyat emas, balki xalq dostonlari, ertaklari va rivoyatlari kompozitsion unsurlarini sintezlash asosida yaratilgan, baxshi obrazi haqidagi muallifning g‘oyaviy maqsadi berilgan asar. Asar xulosasida berilgan “rivoyat bag‘ishlanganim” Usmon Azim bo‘lib, Xurshid Davron Usmon Azimdek xalqning ma’naviy merosi bo‘lgan xalq dostonlari, qo‘shiqlarini kuylovchi baxshilar (shoirlar) yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalab kelayotganini ta’kidlaydi.

Xalq dostonlari stilizatsiyasi asosida yaratilgan asarlardan bir Faxriyorning 1984-yilda yozilgan “Baxshining sevgisi” asari bo‘lib, garchi u baxshiyona deb nomlanmasa-da, uni baxshiyona uslubida yaratilgan asar deya olamiz. “Baxshining sevgisi” asari yuqorida tahlilga tortgan baxshiyona asarlarning xususiyatlariga ega, biroq ulardan farqli ravishda asarda baxshi obrazi, uning armonli sevgisi bilan bog‘liq voqea va kechinma tasviri beriladi. Asardagi Sobir baxshi obrazi yig‘inlarda o‘zining armonli muhabbatini kuylaydi. Ushbu asarning kirish qismida voqea yuz beruvchi joy va qahramonlar haqida axborot beriladi. Asarda Sangijumon elida yuz bergan o‘tmishdagi voqea: Sobir baxshining o‘zidan 2-3 yosh katta Maxfirat ismli qiziga oshiq bo‘lishi, qizning uning sevgisini rad qilishi xalq ertaklariga xos bayon usulida

beriladi. Sobir baxshining kechinmalari Maxfirat hurliqoga murojaati 4 misrali 6 banddan iborat she’riy qism orqali beriladi. Faxriyor xalq dostonlariga xos “Ot chopsa gumburlar tog‘ning darasi” barqaror she’riy misralariga ijodiy yondashib “Oqtov yoqdan ot dupuri keladi, Daralari gumburlarga to‘ladi” kabi o‘zgargan holda berish, “Yoshim daryosiga cho‘kib boraman” kabi mubolag‘ali tasvir, “Ko‘nglimday soviydi tunlar tuprog‘i”,” Qoshingday qarodir zulmat so‘rog‘i” [10,26] kabi tashbeh va metaforalarni yaratish orqali Sobir baxshi qalbidagi sevgi iztiroblarini beradi. Usmon Azim, Halima Xudoyberdiyeva, Sharifa Salimovadan farqli o‘laroq Faxriyor nasriy qismdagi voqealar tasvirini xalq ertaklari (”Sobir baxshi kuyib-kuyib, kuylab-kuylab qolaveribdi. Kunlar o‘tibdi, onlar o‘tibdi, yillar o‘tibdi, lekin qaytib boshqaga ko‘ngil qo‘yolmabdi”) va dostonlariga (“Bir kuni undan yolg‘izligi sababini so‘rsalar, ko‘ngliga qo‘l solib ko‘rsalar, do‘mbirasini tiringlatib, yig‘in ahliga qaratib, bir so‘z deb turgan ekan”) xos ifoda usulini sintezlash orqali yaratadi.

Sharifa Salimovaning “Baxshiyona” turkumida “Baxshiyona”, “Ertakdan so‘ng”, “Yo‘qolgan ishonch yoxud yolg‘onchi shoh haqida” deb nomlangan uch asar mavjud. Ko‘rinadiki, shoira folklor an’analari, xalq dostonlari, ertakona obraz va motivlar stilizatsiyasi asosidagi asarlarni turkum sifatida olmoqda. Ushbu turkumdagi asarlar tematik mundarijasi, kompozitsion xususiyatlariga ko‘ra mustaqil. Ular alohida olinganda ham ma’lum g‘oyaviy mazmunni anglatishi mumkin. Biroq ushbu turkumdagi asarlar bir butunlikda olinsa, mazmuniy yaxlit va tugal konsepsiya (mustabid tuzum va turg‘unlik yillarining keyingi davr uchun keltirgan ayanchli oqibatlari: paxta yakkahokimligi, Orolning qurishi, til va tarixning unutilishi, ayollarning mashaqqatli hayoti kabi muammolar tasvirini berish) kelib chiqadi. Sh.Salimovaning “Baxshiyona” turkumi bir xil kompozitsion strukturaga ega emas, bunday “tematik jihatdan turkumlangan sikllarda esa janriy rang-baranglik kuzatilaveradi”([11,355]). “Baxshiyona” turkumidagi “Ertakdan so‘ng” she’rida turg‘unlik yillaridagi paxta yakkaxokimligi bilan bog‘liq muammolar tasviri beriladi. Ushbu she’r voqeband bo‘lib, uning olti bandi 4 misrali, ilk va so‘nggi bandi 5 misradan iborat. Shoira qizning kechinmalarini ertakka xos shohning qizidagi barcha imkoniyatlarning borligi motividan o‘z davridagi paxta yakkahokimligi, ayollarning og‘ir va mashaqqatli mehnati, ayollarning o‘zini yoqishi kabi dolzarb muammolar tasvirini beradi: Ertakdan so‘ng... sira yerga tushmasam,/Bir kunga malikaga aylansam.[12,21]

Baxshi obrazi asosida, folklorga xos syujet, motivlar asosida yaratilgan asarlar, baxshiyona yo‘lida yozilgan she’rlarni turkum deya olmaymiz. Rauf Subxon ijodidagi “Baxshiyona” she’ri (1997-yilda yaratilgan) ana shunday xususiyatga ega bo‘lib, she’rga ertakdan olingan parcha (“... Quyosh bilan oyni ajdaho yutib yuboradi. Uni bir botir qutqaradi... ”[13,201]) epigraf sifatida berilgan. Baxshiga murojaat asosida yaratilgan she’r 4 misrali 6 banddan iborat bo‘lib, xalq qo‘shiqlari va termalariga xos turoqlangan (4+3=7). She’r lirik subyektning baxshidan terma aytishni so‘rashi bilan boshlangan va xotimalangan. Shoir lirik subyektning baxshini termalar aytishga chaqirishi orqali “Quyosh yutgan, oy yutgan, bedor ajdaholarni yengishga”, xalqni qorong‘ulikdan yorug‘ kunlarga chiqish uchun uyg‘otishga, kurashga chaqirishi asosida

yaratgan. Bu asar garchi baxshiyona turkumidagi asarlarga xos xalq dostonlari stilizatsiyasi asosida yaratilmagan bo‘lsa-da, unda baxshi obraziga murojaat va xalq ertaklari motivlaridan ijodiy foydalanish mavjud. Bu esa baxshiyona ohanglarning istiqlolning ilk yillaridan 2016-yilgacha bo‘lgan davr adabiyotida davom ettirilganini ko‘rsatadi.

Аннотация. В статье раскрыты основные символические образы, мотивы сна и путешествия в художественном произведении, а также их философские и социальные интерпретации. Это произведение является ярким примером символизма в узбекской литературе, позволяя глубоко анализировать общество и человеческую психологию. Кроме того, в исследовании рассматривается проблема символизма в современной узбекской литературе.

Ключевые слова: символизм, образ, метафора, художественное изображение, современная узбекская литература, «Сон», эстетический анализ, идеология, социальные проблемы.

Annotation: The article highlights the main symbolic images, the motifs of dreams and journeys in the literary work, as well as their philosophical and social interpretations. This work serves as a vivid example of symbolism in Uzbek literature, offering a profound analysis of society and human psychology. Moreover, the study examines the issue of symbolism in modern Uzbek literature.

Keywords: symbolism, image, metaphor, artistic depiction, modern Uzbek literature, “A Dream”, aesthetic analysis, ideology, social issues.

Kirish. Inson madaniyati va tafakkurining o‘ziga xos ko‘rinishi hisoblangan ramziylik qadimgi mifologiyada, turli dinlarda, san’atning arxaik shakllarida ko‘zga tashlanadi. Qadimgi Misr, Sharq, Antik dunyo, O‘rta asrlar va Uyg‘onish madaniyatini ramziylikning o‘ziga xos ko‘rinishlarisiz tasavvur etish qiyin.

Bir-biridan uzoq bo‘lgan predmetlar o‘rtasidagi “muvofiqlik” tamoyili (masalan, ma’naviy va moddiy dunyo o‘rtasidagi) voqea-hodisalarning transsendent aloqalari sifatida o‘rta asrlar falsafasi va adabiyotida ancha jiddiy tadqiq etilgan. Bundan tashqari, majoziylik Sharq mumtoz adabiyoti, Yevropa klassitsizmi, barokko va ma’rifatparvarlik davri san’atida ham keng tarqalgan. Shundan kelib chiqib, oyna, ko‘zgu, surat, portret ramzlari poetikasi tadqiqiga o‘tishga avval ramz va unga yaqin bo‘lgan majoz tushunchasi, ular o‘rtasidagi umumiy va farqli jihatlar hamda badiiy adabiyotdagi ramziylik masalasiga to‘xtalish lozim, deb hisobladik[256].

Ma’lumki, biron-bir hodisa mohiyatini shartli ravishda ifodalovchi narsa va so‘z simvol yoki ramz deb ataladi. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da ramzga “biror g‘oya, tushuncha, hodisa kabilarni ifodalovchi, eslatuvchi shartli belgi, ishora” [1] deb ta’rif berilsa, “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”da ramz – voqelikni badiiy aks ettirishning shartli usuli va badiiy shartlilik shakllaridan ekanligi, u majozdan farq qilib, mazmun obrazli qurilish bilan bog‘liq bo‘lishi hamda ko‘pma’noliligi bilan ajralib turishi izohlanadi.[2]

Asosiy qism. “Adabiyotshunoslik lug‘ati”da ramz “ko‘chim turlaridan biri, faqat shartli ravishda va shu matn doirasida ko‘chma ma’no kasb etuvchi so‘z yoki so‘z birikmasi; obrazlilik turi” deb ta’riflanadi.[3] Haqiqatan ham, ramz majoz (allegoriya)ga yaqin bo‘lib, ba’zi hollarda ularni bir xil hodisa deb qarash ham mavjud. Lekin ularning farqi shuki, ramz kontekst doirasida ham o‘z ma’nosida, ham ko‘chma ma’noda qo‘llanilishi mumkin. U.Xarmon ta’kidlashicha, ramz o‘zida asliga muvofiqlik va hissiy jihatlarni mavhum aspekt bilan birlashtiradi.[4] Professor H.Boltaboyev ramz va ramzlikka xos belgilarga quyidagicha ta’rif beradi: “Ramz… faqat shartli ravishda va shu matn doirasida ko‘chma ma’no kasb etuvchi so‘z yoki so‘z birikmasi; obrazlilik turi. Ramzning ma’nosi kontekst doirasida va shartdan xabardorlik bo‘lganda reallashadi. Cho‘lpon she’riyatidagi “yulduz”, “bulut”, “bahor”, “qish” obrazlari ramzning yorqin timsoli bo‘la oladi. Jumladan, mashhur “Qalandar ishqi” she’rini ishqiy mavzudagi she’r sifatida tushunaverish mumkin. Biroq undagi ramzlar qatida boshqa ma’no ham mustaqil holda mavjud bo‘lib, uni o‘z vaqtida shoirga ruhan yaqin kishilar yaxshi tushunishgan. Sababi ular ramzlarning ma’nosi anglashiladigan kontekstdan - shoirning hayot yo‘li, orzu-intilishlari, she’r yozilgan paytdagi ruhiy holati va hokazo omillardan xabardor bo‘lganlar”. [5] Demak, ramzlarning haqiqiy ma’nosi – ko‘chma ma’nosini anglash uchun kontekstdan shoir yoki yozuvchining hayot yo‘li, orzu-intilishlari, asar yozilishiga turtki bo‘lgan vaziyat yoki ijodkorning o‘sha paytdagi ruhiy holatidan xabardor bo‘lishi talab etiladi. Ramziylikda so‘zni tushunish, anglash barobarida ishorani ko‘zda tutish taqozo qilinadi. Shu o‘rinda ramz va majoz o‘rtasidagi farqqa yanada aniqlik kiritish lozim bo‘ladi.

Badiiy ijodda qo‘llaniladigan ramz (simvol)lar o‘zining xarakteri va bajaradigan vazifasi jihatidan farqlanadi. Poetik simvollar haqida fikr yuritgan A.Sharopov simvol-obraz va simvol

[256] O‘zbek tilida “oyna”, “ko‘zgu” atamalari orqali deyarli bir xil – aks ettirish vositasiga aylanadi. “Surat” orqali har qanday tasvirni (inson, tabiat, turli jonzotlar), “portret” da esa o‘z navbatidagi faqat inson tasviri aks ettirilgan san’at asarini tushunamiz. Shundan kelib chiqib, ishimizda oyna va ko‘zgu hamda surat va portret atamalaridan sinonimlar sifatida foydalandik.

belgi o‘rtasidagi munosabatni alohida tahlil qiladi. [6] Simvollarning qo‘llanish chegarasi xilma-xil bo‘lib, u turli sohalarda uchraydi. Simvol tushunchasi faqat san’atdagina emas, me’morchilik, matematika, fizika, kimyo, kibernetika, tilshunoslik, falsafa kabi ijtimoiy va aniq fanlarda ham keng qo‘llaniladi. Shuning uchun ham hozirda simvollar bilan bog‘liq bo‘lgan semiotika fani ham jadal rivojlanmoqda. Simvol keng ma’noda belgi tushunchasini anglatadi. Poetik simvol badiiy shartlilik vositasida nisbatan kengroq abstrakt ma’noni ifoda etadi. Simvol – belgida mohiyat va ifoda o‘rtasida ichki bog‘liqlik bo‘lmaydi. Fikrimizni matematika yoki fizika faniga oid simvollar misolida isbotlash mumkin. Poetik simvol yoki ramziy obrazlarda predmet bilan ma’no o‘rtasida ichki, mantiqiy aloqa bo‘lishi shart hisoblanadi.

Ma’lumki, ramzlar ilmiy, falsafiy, badiiy va mifologik turlarga bo‘linadi. Xususan, matematikada ramzlarning mukammal shakllaridan foydalaniladi. Matematikadan umuman xabari bo‘lmaganlar uchun to‘g‘ri chiziqning bo‘lagi ma’lum sondagi bo‘laklarga bo‘lish mumkin bo‘lgan katakni yodga solsa-da, aslida u ko‘plab haqiqiy (ya’ni barcha ratsional va barcha irratsional) sonlarni hosil qilish ramzi ham hisoblanadi.

Falsafiy ramzlar ilmiylardan faqatgina xulosalarning benihoya umumlashganligi bilan farqlanadi. Qaysi bir falsafiy kategoriyani olmaylik (reallik, sabab, zarurat, ozodlik va h.k) biz o‘zimizga o‘zimiz savol berib, ularning ramziy mohiyatini aniq kuzata olmaymiz.

Badiiy va mifologik ramzlar haqida gap borganda, so‘z san’ati bo‘lgan adabiyotning o‘zi ramz va ishoralardan iborat ekanligini yana bir bor ta’kidlash lozim bo‘ladi. O‘z navbatida, mazkur turga mansub ramzlar haqida kengroq to‘xtashga to‘g‘ri keladi.

Har qanday san’at, hatto o‘ta realistik bo‘lgan taqdirda ham ramziy obrazlarsiz mavjud bo‘lmaydi. XIX asr oxiri XX asr boshlarida ijod qilgan simvolistlar badiiy realizmda ramzlardan foydalanganligi bilan emas (chunki ushbu ramzlardan realizmda ham foydalanganlar), balki sof g‘oyaviy o‘ziga xosliklari bilan farq qilganlar. Hech kim Gogolning “Revizor”idagi realizmga shubha bilan qaramaydi. Biroq ushbu asar XIX asr o‘rtalaridagi islohotgacha bo‘lgan Rossiya amaldorlarining ramziga aylangan. Bu ramzsiz “Revizor” o‘tkir satira bo‘la olmas edi. Asar so‘ngidagi so‘zsiz sahna daxshat va kutilmagan hodisaning ramzi bo‘lib, adib uni juda puxta tayyorlagan (hatto qalam bilan ularning qanday holatda qotib qolishlarigacha chizgan). Imperator nomi bilan kirib kelgan jandarm esa komediyada tasvirlangan “kichkina odamlardan” yuqori turuvchi davlat hokimiyatining ramzi sifatida gavdalanadi.

Nemis adibi T.A.Gofman asarlari, O.Balzakning “Sag‘ri teri tilsimi”, Gogolning “Portret”, O.Uaylidning “Dorian Greyning portreti” roman va qissalari, Eldar Poning hikoyalari, mifologik-ramziy yo‘nalishdagi asarlar hisoblanadi.

Ramz va majozdan foydalanish borasida Dantening “Ilohiy komediya”si bitmas-tuganmas xazina hisoblanadi. Asarning boshlanishida (“Do‘zax” 1, 2-60 b) Dante o‘zini o‘rmonda adashib qolganligini tasvirlaydi. Qo‘rqinchli o‘rmonda u uchta hayvon bilan uchrashadi, bular: yolg‘on, xoinlik va shahvatparastlik ramzi qoplon; mag‘rurlik va zo‘ravonlik ramzi bo‘lgan sher; makkorlik va manmanlik ramzi bo‘lgan bo‘ridir. Ularning erkin va rang-barang bo‘yoqlarda berilishi badiiy obrazlar ekanligidan dalolat beradi. Shu bilan birga, ular ramz va

majoz ekanligi ham oydek ravshan. Xulosa qilib aytish mumkinki, asarda badiiylik, ramziylik, majoziylik va mifologiya uyg‘unlashib ketgan.

Biz ramzni obrazli ifodaning bir ko‘rinishi sifatida badiiy nutqda hayotiy voqea, tushuncha va narsalarni ifodalash uchun shartli ravishda ko‘chma ma’noda ishlatiladigan so‘z yoki so‘zlar birikmasi deb bilamiz. [8] Lekin bugungi kunga kelib, ramz tor ma’nodagi so‘z va so‘zlar birikmasining ko‘chma ma’noda qo‘llanishidan chuqur falsafiy mazmunni anglatuvchi matn darajasiga ko‘tarildi. Hozirda ramzni inson va jamiyatning adabiy va global muammolarini qamrab oluvchi hamda shartli ravishda ko‘chma ma’nolarga tayanuvchi badiiy matn ko‘rinishi, deb hisoblash mumkin.

Zamonaviy adabiyotda qo‘llanilayotgan ramziy obrazlar nafaqat boy va xilma-xil, balki sirli hamda murakkab ekanligi bilan diqqatga sazovordir. Ana shu ramzlar ortida yashiringan mazmunni to‘la anglash, his etish uchun kitobxondan birmuncha tayyorgarlik, turli xil bilimlardan xabardor bo‘lish talab etiladi.

A.Kamyuning Ikkinchi jahon urushidan keyin (1947) yaratgan “Vabo” romanida o‘lat tasviri orqali fashizmning majoziy obrazi aks ettirilgan, degan fikr adabiyotshunoslikda muhrlanib qolgan. Adabiyotshunos D.Quronov Cho‘lpon nasri poetikasini tadqiq etar ekan, badiiy asar muayyan davr mahsuli bo‘lgani holda, ularni faqat davr bilan bog‘labgina tushunish xato ekanligi haqida yozadi. Zero, “… chinakam san’atkor ijod onlarida voqelikdan uziladi, bu ilohiy damlarda uning uchun vaqt chegaralari mavjud emas – u o‘tmish, hozir va kelajakni birlashtirgan katta VAQT hukmida yashaydi”. [9] Shunga ko‘ra, Kamyu “Vabo”da nafaqat fashizmning majoziy obrazini, balki hech qachon to‘la chekinmaydigan, vaqti-vaqti bilan bo‘y ko‘rsatib, insonlarni esankiratib qo‘yadigan sirli kuchni ham tasvirlaganligiga guvoh bo‘lamiz. Bunday ofat loqaydlik, befarqlik avj olgan har qanday jamiyatda ro‘y berishi mumkin, degan xulosa kelib chiqadi.

O‘zbek adabiyotida ham ramziy (simvolik) asarlar ko‘plab yozuvchilar va shoirlar tomonidan yaratilgan. Quyida ba’zi ramziy asarlar va ularning mualliflariga misollar keltirishni lozim topdik. Abdulla Qodiriy – “O‘tkan kunlar” romani ramziylikka boy bo‘lib, unda o‘zbek xalqining tarixiy o‘tmishi, erkinlikka intilishlari va o‘sha davrda jamiyatning ijtimoiy-siyosiy muammolari ramziy tasvirlangan. Chingiz Aytmatov – “Asrga tatigulik kun” (O‘zbek tiliga tarjima qilingan) asarida “Manqurt” obrazi ramz sifatida ishlatilgan bo‘lib, bu xalqning tarixini unutgan, o‘z ildizidan uzilgan odamlar obrazini ifodalaydi. Abdulla Qahhor – “Sarob” romani shaxsiy hayot, sevgi va ideallar bilan bog‘liq ramziy obrazlarga to‘la bo‘lib, insonning ichki kechinmalari va ijtimoiy muhit ta’siri ramziy ravishda ochib beriladi. Erkin Vohidov – “Ruhlar isyoni” she’riy asarida insoniyatning ma’naviy qadriyatlari, ijtimoiy muammolari va inson erkinligi masalalari ramzlar orqali tasvirlangan. O‘tkir Hoshimov – “Dunyoning ishlari” qissa va hikoyalarida hayotiy voqealar ramziy ma’noga ega bo‘lib, oddiy odamlar hayotidagi murakkabliklar va insoniy qadriyatlarning qiymati ifodalanadi. Mirtemir – “Turon” she’rida Turon o‘lkasi ramzi orqali xalqning buyuk tarixi, orzu-umidlari va o‘zlikni anglash jarayonlari tasvirlangan. Ramziy asarlar odatda chuqur ma’noga ega bo‘lib, ular orqali muallif o‘z fikr va

hissiyotlarini nozik tarzda ifoda etadi. Shu kabi asarlarni o‘qish ham adabiy, ham falsafiy zavq bag‘ishlaydi.

Ramziy timsollardan foydalanish zamonaviy o‘zbek yozuvchilari ijodida ham muhim o‘rin tutadi. Bu o‘rinda Asqad Muxtorning “Chinor”, Murod Muhammad Do‘stning “Lolazor”, Asad Dilmurodning “Fano dashtidagi qush”, Omon Muxtorning “Aflotun” romanlarini ta’kidlash lozim bo‘ladi. Bu asarlar chuqur tagma’noga ega bo‘lgan ramziy detal va obrazlarga boy. Xususan, “Aflotun” asarida yozuvchi tomonidan qo‘llanilgan quduq detaliga falsafiy – tasavvuriy ma’no yuklatilgan. Ya’ni quduq dunyo ramzi. Yoki asardagi Suqrot obrazini tahlil davomida Komil inson ramzi deb talqin qildik.

Zamonaviy o‘zbek adabiyotidagi o‘ziga xos tasvir uslubiga ega bo‘lgan adiblardan biri Nazar Eshonqul ham “Tobut” hikoyasida ramziy tagma’noga asoslangan timsolga murojaat qilganligini anglash mumkin. Shahardagi barcha uchun jumboq bo‘layotgan o‘lat sababi hikoya oxirida ma’lum bo‘ladi: telba me’mor chizgan loyihadan ma’lum bo‘lishicha, shahar tobut shaklida qurilgan ekan. Shaharning kelajagi inqiroz va zavol ekanligini oldindan bashorat qilish mumkin edi. Chunki tobutdan hech kim chiqib keta olmaydi.

Hikoya bilan tanishgach, Nazar Eshonqul tobut shaklida qurilgan makon timsolida sho‘rolar tuzumi, shahar bo‘ylab kezib yuruvchi badbo‘y hid orqali sho‘rolar mafkurasi ramzini yaratgan, degan xulosaga kelish mumkin.

“Tobut” hikoyasi singari 90-yillarda o‘zbek adabiyotida yaratilgan bir qator asarlarda mavhum bir jamiyat, tuzum, mafkuraning ramziy tasviriga duch kelamiz. Ulardagi qahramonlar ko‘pincha notabiiy sharoitlarda, mavhum, sirli muhitda tasvirlanadi. Mana shu absurt olamni aks ettirish ortida, asosan, sobiq Ittifoq yoxud kommunistik tuzum davridagi insonlar va ularning ruhiy, ma’naviy olami nazarda tutilayotganini ilg‘ab olish qiyin emas.

Shu ma’noda, Xurshid Do‘stmuhammadning “Jajman” hikoyasi ham xarakterlidir. “Jajman”da nemifologik tasvir tamoyillaridan unumli foydalanilgan. Vaqtning siklik modeli asosida bir necha ming yil avval yashagan payg‘ambar Zardusht qariya – iymon, e’tiqod, doonishmandlik ramzi sifatida namoyon bo‘ladi.

Shu o‘rinda, adabiyotshunos Q.Yo‘ldoshevning ramziylikning asosiy xususiyati undan jo‘yali ma’no chiqarish mumkinligi haqidagi fikriga [10] qo‘shilish mumkin.

Demak, insoniyat tamaddunining ilk bosqichidayoq ramz va ramziylik hayot haqidagi tasavvurlarning ajralmas qismiga aylandi. G‘orlardan topilgan qadimgi suratlardan boshlab hayotdagi har bir holat, buyum, belgi qat’iy bir tizimga solingan, texnika tili bilan aytganda, kodlangan davrni boshdan kechirdi. Lekin shunga qaramay, ramz badiiy adabiyotda insonning murakkab ichki dunyosini, olam bilan aloqasini tasvirlash uchun muhim vosita vazifasini bajaradi.

Muayyan badiiy-estetik maqsadda so‘zni ko‘chma ma’noda qo‘llash san’ati hisoblangan ko‘chimning majoz, ramz singari ko‘rinishlari badiiy matnda tasviriylik va ifodaviylikni kuchaytirish vositasi sifatida keng qo‘llaniladi.

Ramz va majoz tushunchalari ifoda jihatdan yaqin bo‘lsa-da, ular o‘rtasidagi asosiy tafovut ramzning matnda ham o‘z ma’nosida, ham ko‘chma ma’noda qo‘llanilishi, majoz esa tasvirlanayotgan narsani emas, muallif ko‘zda tutgan ma’noni anglatishi bilan belgilanadi.

Yozuvchining assotsiativ fikrlashi mahsuli bo‘lgan ramziy obrazlar asarning g‘oyaviy-estetik ta’sirini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Umuman olganda, ramziylik san’at va adabiyotning asosiy unsurlaridan biri sifatida qadimgi davrlardan hozirgacha taraqqiy etib, o‘ziga xos ko‘rinishlarga ega bo‘lib kelmoqda.

Tadqiqot ishimizning asosiy obyekti A.A’zamning “Ro‘yo yohud G‘ulistonga safar” asari tanlab olinganligi uchun ushbu asardagi ramziylik masalalariga to‘xtalib o‘tamiz. Ushbu asar o‘zbek adabiyotida muhim ahamiyat kasb etib, o‘quvchilarni g‘ayrioddiy va qiziqarli syujet bilan tanishtiradi. Asar qahramoni tush ko‘rib, qadimiy G‘uliston shahriga sayohat qiladi. Bu tush va sayohat orqali yozuvchi jamiyatda mavjud ijtimoiy muammolar, inson axloqi va ma’naviy qadriyatlar haqida o‘z mulohazalarini bayon etadi. Yozuvchi o‘ziga xos obrazlar va ramzlar orqali jamiyatdagi ba’zi kamchiliklarni tanqid qiladi, xuddi “O‘tkan kunlar” va “Mehrobdan chayon” asarlarida bo‘lgani kabi. Shu bilan birga, u o‘zbek xalqining boy madaniyati, tarixiy an’analari va ma’naviy qadriyatlarini ham ulug‘laydi. Asar Ahmad A’zam ijodida alohida o‘rin tutib, o‘z davrining ilg‘or g‘oyalari va ijtimoiy adolat haqidagi o‘ylarini ifodalaydi. Asar “Boshlanma”sida yozuvchi jumladan quyidagilarni yozadi: “Yozmoqchi bo‘lganlarimning yaxlit bir syujeti yo‘qligini ham aytib qo‘yay, balki tanqidchilar iborasi bilan aytganda, obrazga prototip, ya’ni jonli odamlardir. Men bir voqea yoki ishqiy sarguzasht to‘qib, ularni bosh yoki ikkinchi darajali qahramonlar sifatida harakatlantira olmayman. Chunki ma’lum toifa odamlardan badiiy obraz yaratish, ularning boshidan kechgan voqealarini qalamga olish uchun, avvalo, ularning o‘zini, yashayotgan hayot muhitini ham bilishi kerak”.[7]

“Ro‘yo yoxud G‘ulistonga safar” asarida ramziylik (simvolizm) asarning asosiy g‘oyaviy va falsafiy qatlamlarini ochib berishda muhim o‘rin tutadi. Quyida ushbu asardagi ramziy obrazlar va motivlar haqida ayrim tahlillar keltirib o‘tamiz. Ushbu asarning nomining o‘zidanoq ramziylikni topish mumkin. “G‘uliston” – bu asarda inson zanjirga hukm etilgan makon sifatida talqin qilinadi.

“Oltmishga yetdim, boshqatdan yigit bo‘lib qolmayman, qirq beshimda yoza olmagan ro‘monga endi ham kuchim yetmasa kerak, bu yog‘i sog‘liq ham hamin qadar. Shuning uchun qanaqa asar bo‘lib chiqishidan qat’iy nazar, qissa deymanmi, ro‘monmi yo kuzatuvlarmi, balki safar taassurotlaridir, o‘qib chiqsangiz, undagi voqealardan voqif bo‘lsangiz kifoya. Ularga ishonish - ishonmasligingiz ham ikkinchi darajali masala. Eng muhimi – shunday bir mamlakatning borligi va mening o‘sha yoqqa borib kelganim”. [7] Ushbu yoziqlar asar boshlanmasidan olingan bo‘lib, u yerda muallif o‘zining yoshligi va ijodiy hayotiga oid chuqur mulohazalarini ifoda etadi. “Oltmishga yetdim, boshqatdan yigit bo‘lib qolmayman” jumlasi orqali yozuvchi o‘zining hayot yo‘lining muhim bir bosqichida ekanini anglatadi. Oltmishga yaqinlashgani, hayotining katta qismi o‘tganini va hayotning yoshlikdagi energiyasi, kuch-quvvati bilan taqqoslab, buni qayta qo‘lga kiritib bo‘lmasligini ta’kidlaydi. Bu yerda inson

umrining qimmatli vaqtlarini o‘ylab, nostalgiya bilan yodga olish hissi yaqqol seziladi. “Qirq beshimda yoza olmagan ro‘monga endi ham kuchim yetmasa kerak” jumlalari esa ijodiy faoliyatga oid fikrlarini aks ettiradi. Yozuvchi o‘zining ijodiy imkoniyatlarini o‘ylab, o‘tgan yillardagi rejalari va amalga oshmagan orzulari haqida gapirib, qirq beshida yoza olmagan romani haqida qayg‘urib, endi uni yozish uchun zarur energiya va ilhom yetishmasligini, yozayotgan asarini esa kamtarlik bilan qanday chiqishidan qat’iy nazar kitobxon shundayligicha qabul qilishidan umid qiladi.

Umuman olganda, bu so‘zlar inson hayoti, vaqt va imkoniyatlar haqida falsafiy mulohaza va o‘z-o‘ziga hisob berishdir. Yozuvchi hayotining biror davrida amalga oshirmoqchi bo‘lgan ijodiy rejalari, orzulari va ularning amalga oshmaganligidan qayg‘urishini ochiq ifodalaydi. Bu hayotning o‘tkinchiligi hamda vaqtni qadrlash zaruratini ko‘rsatadi.

“Qanaqa asar bo‘lib chiqishidan qat’iy nazar…” so‘zlari bilan muallif o‘z asarining aniq janrga yoki shaklga sig‘masligini ta’kidlamoqda. U asarni qissa, roman, kuzatuv, yoki safar taassurotlari sifatida belgilashga o‘zi ham shart qo‘ymaydi.

Bu orqali yozuvchi asarining ko‘p qirrali ekanini va uni o‘qirman qanday qabul qilishi muhimroq ekanligini ta’kidlamoqda. “Ularga ishonish ishonmasligingiz ham ikkinchi darajali masala.” Bu jumla asar mazmuni va undagi voqealar qanchalik haqiqatga yaqin yoki fantastik bo‘lishidan qat’iy nazar, o‘quvchi uchun asosiy e’tibor mazmunga, voqealarning mohiyatiga qaratilishi kerakligini anglatadi. Muallif voqealarning ishonchliligini emas, balki ulardagi fikr va g‘oyalarning ahamiyatini birinchi o‘ringa qo‘yadi.

Endi biz asosiy e’tborni tadqiqotimiz obyekti, aslida mavjud bo‘lmagan ramziy istiloh hisoblangan joy nomi “G‘uliston”ga qaratamiz. Yuqorida aytib o‘tilgan “Shunday bir mamlakatning borligi va mening o‘sha yoqqa borib kelganim” jumlalari bilan muallif asarning asosiy motiviga ishora qilmoqda. “Shunday bir mamlakat” degan jumla G‘ulistonni ramziy bir joy sifatida tasvirlaydi. Bu mamlakat real hayotda mavjud bo‘lishi yoki yo‘qligidan qat’iy nazar, uning ramziyligi muhim. Muallifning “borib kelganim” degan so‘zlari esa bu joyni shunchaki tasavvur emas, balki o‘z tajribasidan kelib chiqqan bir voqelik sifatida ko‘rsatishga urinayotganini anglatadi. Ahmad A’zam ushbu jumlalar orqali asarni mutlaqo o‘ziga xos va erkin shaklda yaratganini bildiradi. U o‘quvchidan voqealarga faqat haqiqat yoki fantastika nuqtayi nazridan emas, balki mazmun va xulosaga e’tibor qaratishni so‘raydi. Bu so‘zlar asarning ramziy va falsafiy jihatlari kuchli ekaniga ishora qiladi. O‘quvchi bu asarni fikrlash va tushunish vositasida qabul qilishi kerak.

Xulosa. Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, A.A’zamning “Ro‘yo yohud G‘ulistonga safar” asari ramziylik tamoyillariga asoslangan holda insonning ichki dunyosi, ma’naviy izlanishlari va jamiyat muammolarini yoritadi. Asar ramziy obrazlari, falsafiy qatlamlari va tush motivi orqali o‘zbek adabiyotida ma’naviy yuksalish va ijtimoiy tanqidni ifodalashda alohida o‘rin tutadi. Zamonaviy o‘zbek adabiyotida ramziylik o‘ziga xos uslub va badiiy-estetik tamoyillar bilan namoyon bo‘lmoqda. Nazar Eshonqulning “Tobut” va Xurshid Do‘stmuhammadning “Jajman” hikoyalari ramziylikning yorqin namunalari hisoblanadi.

Ushbu asarlarda sobiq Ittifoq mafkurasi va insonning ruhiy-ma’naviy dunyosi mavhum va timsoliy tasvirlar orqali ochib berilgan. Ramziylik o‘quvchini chuqur falsafiy mulohazaga chorlab, voqelikni ko‘chma va timsoliy ma’nolar orqali idrok qilishga undaydi. Badiiy matnda ramziy obrazlar g‘oyaviy-estetik ta’sirni kuchaytirib, jamiyatdagi ijtimoiy muammolarni tanqid qilish va inson ma’naviyatini ulug‘lashda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Ahmad A’zamning “Ro‘yo yohud G‘ulistonga safar” asari o‘zbek adabiyotidagi ramziylik va falsafiy mulohazalarning yorqin namunasidir. Yozuvchi o‘z hayoti, ijodiy faoliyati va inson umrining o‘tkinchiligi haqida chuqur mulohazalarini asar boshlanishidayoq ochiq-oydin ifodalaydi. Ahmad A’zam ramziy va falsafiy tushunchalar yordamida inson hayotining mazmuni, vaqtning qadr-qimmati hamda amalga oshmagan orzular haqida o‘ylashga chorlaydi. Ahmad A’zam o‘ziga xos uslubda yozgan ushbu asar bilan o‘quvchini ijtimoiy hayot va inson ma’naviyatiga oid chuqur xulosalar chiqarishga undaydi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 6-tom. – T: Ga‘fur G‘ulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi , 2022 . – B 384.
2. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. 7- tom. – T. : O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2004. – B 247.
3. Quronov.D. Mamjonov.Z . Sheraliyeva M.Adabiyotshunoslik lug‘ati. – T.: Akademnashr, 2010. – B 244.
4. Harmon.W.A Handbook to literature.https://www.ebookworking.net
5. Boltaboyev H. Adabiyot ensiklopediyasi. – T. : Mumtoz so‘z, 2014. – B. 290
6. Sharopov A. Olamlar ichra olamlar. – T. : Adabiyot va san’at, 1978. – B. 22-41
7. Ahmad A’zam “Ro‘yo yohud G‘ulistong safar” romani, Toshkent -B.6
8. Hotamov N, Sarimsoqov B. Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o‘zbekcha izohli lug‘ati. – T.: O‘qituvchi, 1979. – B. 279.
9. Quronov D. Cho‘lpon nasri poetikasi. – T. : Sharq,2004. – B 283
10. Yo‘ldoshev Q. Postmodernizm: mohiyat, ildizlar va belgilar // Jahon adabiyoti. 2015. – B. 124

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 1-son)

FILOLOGIYA

PHILOLOGY

ANALYSIS OF ENGLISH PHRASEOLOGICAL UNITS WITH FLORISTIC COMPONENTS.

Kushkarbekova Marjan Usenovna
senior teacher, Department of Russian and kazakh philology,
Navoi state university, Navoi, Republic of Uzbekistan.

Abstract: This article analyzes the phytonymic phraseologisms in English. Phytonymic phraseological units form phytonymic picture of the world, which is considered as a linguistic reflection or expression of social and cultural identity of the British people. Important social values of the British people, as shown by analysis phytonymic phraseological units are: justice, peace, equality and fair competition, competitiveness.

Key words: phraseological units, ethno cultural code, phytonymic idioms, qualitative, quantitative.

Introduction. Phraseological units with a floristic component reflect human observations of the world of flora for many centuries, convey the attitude of people to their surrounding nature and become the cultural foundation of the language. Phraseological units with a floristic component (or further phytonym) belong to a specific subject group. They are relatively stable in semantic terms, their value does not change within the boundaries of special use. Due to the peculiarities of the natural environment habitat of the people, its cultural and historical development, flora is one of the most specific areas of culture, which, in turn, is reflected in natural language as the main ethno cultural code. Images of plants in the conventional language of folklore myths according to their semantics are closely related to general cultural meanings, which some are very diverse. Floristic components are used in the speech of a modern person.
Methods and analysis. Phytonym vocabulary includes phraseological units, which includes an element denoting a particular plant as a whole (flowering plant, berry, fruit, etc.), its component (leaf ,plate, stem, root, etc.), species (tree, shrub, grass). Thus, the following types of phraseological units with phytonyms in English can be distinguished:

1. ***Names of individual species and varieties of plants***, which can be divided into classification groups: a) **vegetable crops**: carrot, potato, cabbage, cucumber, onion, pumpkin, cauliflower, beetroot, gourd, pepper, for instance, not the clean potato - ` suspicious person; know your onions -`be specialist in one’s area';

b) **the names of herbaceous crops, flowers, mushrooms** : daisy, lily, laurel, reed, clover, for example, paint the lily wasting time and energy '; be in clover - live happily ever after ';

c) **the names of crops:** oat, grist, barley, wheat, grain, chaff, malt: feel one's oats - `be happy; cry barley - ` beg for mercy;

d) **names of trees and shrubs** : oak, palm, woodbine plum-tree, pagoda, gum tree, fig tree: shake the pagoda tree -`get rich quickly; be up a gum-tree - ` to be in an extremely difficult situation ';

2) ***Names of generic plant***- example: flower, fruit, vegetable: sprinkle the flowers - ` give bribes'; old fruit - `fruit';

3) ***Names of fruits and berries*** : apple, cherry, huckleberry, peach, acorn, walnut, lemon: hand somebody a lemon - `to cheet'; rake up the persimmons - ` break the game ';

4) ***Names of plant parts***: branch, root, bur, leaf: take root - ` take root '; to nip in the bud - ` hook up ';

5) ***collective names of vegetation*** - for example: wood, garden, hedge, bush, jungle: get out of the wood - ` get out of a predicament '; the law of the jungle - `law of jungle'[1].

Phytonyms are important cultural concepts, used "in the study of the role of plants in the mythological, religious, historical, ethnographic and cultural contexts ” [2].

From the standpoint of expressivity, PU can be classified by different criteria.

1) **qualitative** (or figurative) and 2) **quantitative** (intensifying).

The quantitative criterion of expressiveness is easy to determine by the presence in the definition of such words as many, little, few, very, as well as the presence of degrees of comparison of adjectives and adverbs. For example, *Go bananas*- spoken to become very angry or excited; *Not amount to a hill of beans* (no amount of a row of beans) - to be worth it little importance; Be it up lot of energy; *Beat the bushes* (often used in business); *Couch potato*- someone who spends a lot of time mental or physical energy, such as watching television; *The grass is (always) greener (on the other side of fence seems to be you have*; *Know your onions* British English- old-fashioned- used in order to say that someone knows about their job or main activity; *Small potatoes*- used compared with other things or people of the same kind.

Results. The figurative criterion is determined by the presence of a specific image in a phraseological unit. To this group we attributed following phraseological units(hereinafter PU):

All PUs with the ―rose component (for example, *English rose* ― the real English lady; *have roses in one‘s cheeks* – have blush full cheek, etc.); *A rotten apple*- used about someone who is dishonest or immoral and who has a bad effect on others; You can’t compare apple and oranges; *A banana skin*- a situation in which someone important, especially a politician, makes problem, and it is embarrassed or made to seem stupid; *Go beetroot*- spoken to become reddened because you are embarrassed; (*As) cool as a cucumber* used where you expect them to be nervous, upset, or embarrassed; *Bears fruit* it produces the good results that you wanted;

Forbidden fruit- used about you are not allowed them; A lot of people are talking or arguing about because it upsets or offends people.

Analysis. According to most Britons, the generally recognized symbols sorrow for the numerous victims of world wars and military conflicts are the rose and the poppy: The rose represents the paradigm of Englishness as well as bearing the traditional priority amongst apocalyptic flowers. By the tongue language does not know the brighter representative of the plant a world that is so organic in the unity of life and death: The rose is so numerous in British war cemeteries that its shadow falls across every grave at some time during the day [3]. Even colour of flowers can symbolize national identity of British people. Color associations in flower etiquette: red was associated with the color of life, love, (hence a rose is a symbol of love, a carnation is a flower passion), as well as the color of blood, a symbol of anger and revenge (the color of war and evolution). White is a symbol of purity and innocence (lily); black - a symbol of sadness, mourning; yellow - a symbol of disgust, hatred; golden - a symbol of the sun and joy; green is a symbol of hope;blue is the color of the gods; blue - a symbol of fidelity (forget-me-nots, violets); purple is a symbol of greatness.

Discussion. In the British tradition, plant symbolism is often associated with monarchy (rose and lily, oak). The list of phraseological units characterizing positive actions includes, for example, the following: «lay up in lavender», «clutch at straws», «grasp the nettle», «make hay», «cry barley», «knock on wood», «sow the seeds», «turn a new leaf'». The list of phraseological units characterizing negative actions includes, for example, the following: «paint the lily», «throw straws against the wind», «gild the lily», «kick something into the long grass», «watch grass grow», «to feed smb. on soft corn», «barking up the wrong tree», «beat about the bush», «sprinkle the flowers», «hand somebody a lemon», «wood for the trees». So, we can conclude that most the phraseological units selected by us for work have in their based on the image, so the qualitative (figurative) expressiveness in this the sample prevails.

Conclusion. Phraseological units, meaning human behavior, awaken in the minds of native speakers a specific set of information about a person, a connection with life situations, events of the history and culture of a people. Their expressiveness is associated with the mapping of the norms of behavior of a people, which are fixed in the public consciousness and are passed on from generation to generation using lexical and phraseological units. They are usually used to convey positive or negative traits of a person‘s character. Evaluation of human behavior, his actions, appearance, character traits is very important for cultures of different nations, so we observe the overwhelming majority of phraseological units with this component.

REFERENCE:

1.Gafiyatova, E.V. Phytonymic linguistic picture of the world (based on the Tatar and English languages) [Electronic resource] / E.V. Gafiyatov. - URL: http://cyberleninka.ru/article/n/fitonimicheskaya-yazykovaya-kartina-mira-na-materiale-tatarskogo-i-angliyskogo-yazykov

2. Khudentsova O.V. Features of phraseological units with floristic component: dis. ... Cand. philol. sciences. M., 2008.213 p.
3. Language of flowers. URL: http://rosmari.ru/fl owers-language.html.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 1-son)

FILOLOGIYA

PHILOLOGY

ZAMONAVIY INGLIZ BOLALAR ADABIYOTINING RIVOJLANISH BOSQICHLARI

Xolibekova Omongul Kenjaboyevna.
Navoiy davlat universiteti,
Ingliz tili va adabiyoti fakulteti dotsenti, PhD
Email: Khalibekova8484@mail.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada Buyuk Britaniyada zamonaviy bolalar adabiyotida taqdim etilgan madaniy qadriyatlarning shakllanishini ko'rib chiqish va ingliz tilini o'qitish jarayonida adabiy asarlarni tanlash bilan bog'liq didaktik muammolarni hal qilishga harakat qilinadi. Milliy qadriyatlarning paydo bo'lishi, rivojlanishi va tarqalishi tarixiy jarayondir. Adabiy-axloqiy munosabatlar o‘ziga xos tarixiy va iqtisodiy omillarga bog‘liq bo‘lib, shakllanish va mafkuradagi o‘zgarishlarga qarab o‘zgaradi. Umuman adabiyot, xususan, bolalar adabiyoti jamiyatda mavjud bo‘lgan g‘oyalarni aks ettirishning o‘ziga xos vositasidir. U millatning va jamiyatning har bir a'zosining madaniy muhitini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi, shuning uchun adabiy asarlarning "qiymat" mazmunini o'rganish tegishli milliy madaniyatlarni tushunish uchun zarurdir.

Kalit so‘zlar: bolalar adabiyoti, chet tillarini o’rganish, tarixiy va adabiy kontekst, mentalitet, madaniy aloqalar.

Kirish. Bolalar adabiyoti - bu bolalar muhitida ishlaydigan, bolaga maxsus nashrlarda (kitoblar va davriy nashrlarda), shu jumladan og'zaki, tasviriy va dizayn san'ati asarlarida taqdim etiladigan, inson hayotining boshida (bolalik davrida) mavjud bo'lgan umumiy adabiyotning bir qismi sanaladi. shaxsni shakllantirish va rivojlantirish maqsadida dunyo tasvirini bilvosita yoki mustaqil idrok etish uchun. Ingliz bolalar adabiyotini o'rganish asosan 19-asr oxiri va 20-asr boshlaridagi klassik asarlar bilan bog'liq bo'lib kelgan va hozirgi vaqtda aynan shunday asarlar mahalliy o'quv adabiyotlari ro'yxatida saqlanib qolgan. Ingliz bolalar adabiyoti xalqaro adabiy jarayonning bosqichlari bilan bog'liq bo'lgan uzoq davom etgan adabiy rivojlanish natijasi edi. Natijada, milliy o'ziga xoslik, madaniy yoki boshqa tarixiy qadriyatlarni o'zida mujassam etgan muayyan janrlar paydo bo'ldi. Bu chet tillarni o‘rganish va o‘qitish sohasidagi o‘quv dasturlarini yanada takomillashtirishning zarur sharti ekanligiga dalil bo’la oladi.

Shuni ta'kidlash kerakki, mahalliy tadqiqotchilarning ingliz bolalar adabiyoti tarixiga bag'ishlangan ishlari nisbatan kam sonli bo'lib, bu ingliz ilmiy an'analaridagi vaziyatga keskin qarama-qarshidir. Rus fanida N.I.ning doktorlik dissertatsiyalari ingliz adabiyoti tarixiga

bag'ishlangan. Demurova , L.I. Skuratovskaya , bir nechta nomzodlik dissertatsiyalari va kitoblarida, A. Ternovskiy, E. Zubareva, Y. Chernyavskaya, T.D.ning darsliklarida. Polozova, T.E. Benkovskaya , I.N. Arzamastseva , S.A. Nikolaeva , E. Galkina kitoblarida, N.V. Budur , G.M.Pervovoy, AB Danovskiy bolalar adabiyoti nazariyasining elementlarini o'z ichiga oladi, xususan, ko'plab mualliflar va o'quv materiallarini tuzuvchilar o'ziga xoslik masalasini, bolalar uchun ijodkorlikning o'ziga xos stilistik usullarini muhokama qiladilar. Rus tilshunosligida ingliz bolalar adabiyoti tarixining etarli darajada rivojlanmaganligi tarixiy va adabiy materialni o'zlashtirishning qo'shimcha vazifasini qo'ydi, bu esa bolalar adabiyoti evolyutsiyasining janr, mavzu va qiymat yo'nalishi bo'yicha to'liq tasvirini taqdim etishga imkon berdi.

Materiallar va tadqiqot usullari

Biz Buyuk Britaniya maktablarida o'qish uchun taklif qilingan kitoblar ro'yxatini sifat jihatidan baholashni erta deb hisoblaymiz va shuning uchun ushbu tadqiqotning asosini tarixiy-evolyutsion va tipologik usul tashkil etdi. Muammolarni hal qilish uchun yuqorida ko'rsatilganlardan tashqari, J.R.ning ishlari ham qo'llanilgan. Townsend , H. Darton , P. Hunt va N.V. Budura ingliz bolalar adabiyoti tarixidan; umumiy, bolalar va ijtimoiy psixologiya bo'yicha L.I. Bozhevich , V.V. Zenkovskiy, V.S.Muxina, D.I. Feldshteyn ; “ ertak terapiyasi ” va badiiy metaforaning terapevtik xususiyatlariga oid materiallar T.D. Zinkevich -Evstigneeva, M. J. Krouli , N. Pezeshkyan , T.D. Zinkevich va M.A. Mixaylova; madaniyatlararo muloqot nazariyasi bo'yicha S.G. Ter-Minasova, V.V. Safonova, G.G. Pocheptsova , J.R. Bittner .

Tadqiqotning dolzarbligi zamonaviy dunyoda bolalar adabiyotining ortib borayotgan ahamiyati bilan bog'liq. Bolalar adabiyoti mustaqil yo‘nalish sifatida mavjudligini e’tirof etgan, o‘z qonuniyatlari asosida rivojlanayotgan zamonaviy bolalar adabiyoti fani har qanday madaniyatning ajralmas qismi sifatida bolalik toifasini idrok etish zaruriyatiga duch kelmoqda. Biroq, zamonaviy bolalar adabiyoti fani hali uni mutlaqo mustaqil bilim sohasi deb atash imkonini beradigan mustahkam uslubiy asosga ega emas. Olimlar o'z asarlarida ta'kidlaganidek, bolalar uchun kitob san'atining umumiy kontseptsiyasi hali ishlab chiqilmagan, bolalar kitobi rivojlanishining davriyligi yaratilmagan, turli mamlakatlar uchun bolalar kitoblarining umumiy tarixi yozilmagan.

Xorijiy bolalar adabiyotini o'rganish yo'nalishi bo'yicha tadqiqotlar olib borish xorijiy tildagi mavjud adabiyotlar hajmi keskin o'sib borayotgan zamonaviy sharoitda alohida ahamiyatga ega, chunki u adabiy asarni tushunishni belgilaydigan ma'lum bir madaniyatga tegishli. [1, 56]. Chet tilidagi matnni o‘qiyotganimizda biz nafaqat chet tili, balki boshqa madaniyatga ham duch kelamiz. "Albatta, chet el mualliflarini o'qish - bu boshqa birovning monastiriga bostirib kirish, biz bu begona dunyoni madaniyatimiz prizmasi orqali ko'ramiz va baholaymiz, bu ham madaniyatlar to'qnashuviga aylanadi" [2, 289].

Muammo shundaki, turli madaniyat vakillari dunyoga boshqacha qarashadi. Ehtimol, shuning uchun ham madaniyatlararo muloqot - shaxsiy hayotda, ishda va siyosatda - bugungi kunda tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Rivojlanayotgan rivojlanish tendentsiyalari bilan biz madaniyatlararo muloqot kelajakning eng muhim vazifalaridan biriga aylanishini kutishimiz

mumkin. Agar ilgari turli madaniyatdagi odamlar bir-birlaridan uzoq masofalar bilan ajralib turishgan va kamdan-kam hollarda aloqa qilishgan bo'lsalar, bizning davrimizda ilmiy-texnika taraqqiyoti tufayli aloqa qilish imkoniyati nihoyatda oshdi.

Ayni paytda Buyuk Britaniya hukumati tomonidan bolalar kitobxonligi to‘garagini shakllantirish, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining adabiy savodxonlik darajasini oshirish borasida olib borilayotgan islohotlar jahon hamjamiyatida bu sohaga qiziqish ortib borayotganidan dalolat beradi. Mamlakatimiz ta’limini isloh qilish, maktablarda o‘qitishni qayta tashkil etish davri xorijiy tajribani puxta o‘rganishni taqozo etmoqda.

Natijalar. Zamonaviy bolalar global muammolarni hal qilishda ishtirok etadilar, ular siyosiy qarorlarga ta'sir qilishlari mumkin, zamonaviy texnologiyalar jamiyatning barcha a'zolarining huquqlarini tenglashtirishga imkon berdi va madaniyatlararo muloqot uchun ulkan imkoniyatlar yaratdi. Aloqa texnologiyalari tufayli bolalar dunyosi o'zgardi va kengaydi. Shu sababli, faqat zamonaviy mualliflar bolaga uni o'rab turgan haqiqatni ko'rsatishi, uni tanish narsaga qiziqtirishi mumkin, bu ayniqsa ushbu yoshda muhimdir, chunki O'quvchining hayotiy tajribasi hali juda kichik. Bolalar yozuvchilari o'z asarlarida bolaning ichki muammolarini hal qilishga intiladilar, ular bolaning ichki ziddiyatini hal qiladigan yoki hal qiladigan xatti-harakatlar modellarini taklif qiladilar va aynan shu bosqichda bolaning kitoblardagi qahramonlar bilan tanishish qobiliyati alohida ahamiyatga ega bo'ladi.

Empatiya, qat'iyatlilik, o'ziga ishonch va g'alabaga ishonish kabi ma'lum xarakterli xususiyatlarni shakllantirishga yordam beradi. Misol uchun, ingliz mentalitetining muhim xususiyati har doim eng yaxshi bo'lish, birinchi bo'lish istagi bolalikdan kitob o'qish paytida paydo bo'ladi. [3, 352].

18-asr - 20-asr oxirlari ingliz bolalar adabiyotining eng muhim asarlarini tarixiy ko'rib chiqish va ularni keyingi kontekstual tahlil qilish zamonaviy mualliflarning bolalar asarlarida aks ettirilgan qadriyatlarning rivojlanishini kuzatish imkonini berdi. Chet el madaniyatini o‘rganish jarayonida bolalar adabiyoti muhim o‘rin tutadi. Bolalar adabiyoti paydo bo‘lganidanoq azaliy, bukilmas insonparvarlik qadriyatlariga qaratilgan bo‘lib, ezgulik bilan yomonlikni, haqiqat va yolg‘onni farqlashga o‘rgatadi. Biroq, shu bilan birga, bolalar yozuvchisi o‘z davrining ijtimoiy g‘oyalaridan butunlay xoli bo‘la olmaydi. Uning individual badiiy uslubi ham, bolalar uchun kitob yaratishda e’tibor qaratgan qadriyatlari ham ma’lum darajada davr normalari va jamiyat ehtiyojlariga javob beradi.

Zamonaviy ingliz bolalar adabiyotining bir qator asarlari ilmiy muomalaga kiritildi, ular ilgari rus tadqiqotchilari tomonidan ko'rib chiqilmagan, chunki zamonaviy ingliz mualliflarining asarlariga kirish qiyin (ya'ni, Rossiya davlat kutubxonalarida mavjud emas).) va ularning ko'plari so'nggi besh yil ichida nashr etilgan. Ushbu maqola ingliz bolalar adabiyoti tarixi, zamonaviy ingliz bolalar adabiyoti kurslari va uyda o'qish darslari uchun boy va tematik jihatdan tuzilgan materiallarni taqdim etadi.

Hozirgacha "uyda o'qish" deb ataladigan barcha o'quv faoliyati jiddiy ilmiy va amaliy asoslarsiz ko'proq yoki kamroq intuitiv tarzda aniqlangan. Adabiyot sohasidagi asosiy

koordinata jahon amaliyotida “astar” tushunchasi va chet el adabiyotini o‘qitishning rus amaliyotida “astar + mafkura” tushunchasi edi. [4, 83]. Madaniyatlararo muloqotning zamonaviy sharoitlari mahalliy akademik fan oldiga ta'lim orqali ingliz tilida so'zlashuvchilarning mentalitetini shakllantiradigan markaziy yoki asosiy (asosiy) adabiyot asarlarini aniqlash vazifasini qo'yadi . Mentalitetni shakllantirish jarayonida maktab ta'limi asosiy rol o'ynaydi, shuning uchun maktab o'quv dasturining bir qismi sifatida o'rganilgan ishlarni tahlil qilish ushbu ishning asosini tashkil etdi.

Xulosa

Shunday qilib, biz ishonch bilan aytishimiz mumkinki, bolalar adabiyoti insonning dunyoqarashi quriladigan asosdir. Bu milliy qiyofani, milliy o'ziga xoslikni shakllantirishga yordam beradi va keyinchalik milliy mentalitetning asosiga aylanadi. Bunday keng ko'lamli tadqiqot ingliz millatining zamonaviy qadriyatlarini oldindan belgilab bergan madaniy va tarixiy jihatlarga global nuqtai nazardan qarash imkonini berdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.

1. Odysheva A. S. Ingliz adabiyotida bolalikning namoyon bo'lishi. Tyumen davlat universiteti xabarnomasi. 2011 yil. № 1.
2. Karavaeva N.A. J. K. Roulingning "Garri Potter va falsafa toshi" romani ruscha tarjimalarda / N.A. Karavaeva // Tatyana kuni: T.A. xotirasiga bag'ishlangan "XXI asrda adabiyotshunoslik va estetika" IV Respublika ilmiy-amaliy konferentsiyasining maqolalari va materiallari to'plami. Geller. - Qozon: RIC "Maktab", 2007. - 4-son. – 289-294-betlar
3. Karavaeva N.A. Ingliz bolalar adabiyotida adabiy ertak va fantastik janrlarning o'zaro ta'siri to'g'risida / N.A. Karavaeva // Bolalar va bolalar uchun jahon adabiyoti. jild . 15. – M., 2010. – B. 348-351.
4. Karavaeva N.A. Voyaga etgan postmodern adabiy ertak / N.A. Karavaeva // Ijtimoiy-gumanitar bilimlar institutining ilmiy eslatmalari. jild . 1 (8) - Qozon: Universum nashriyoti , 2010. - P. 82-83.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 1-son)

FILOLOGIYA

PHILOLOGY

ЖЕЙН ОСТИННИНГ “АНДИША ВА ҒУРУР” РОМАНИДА ОИЛА КОНЦЕПТИ

Кандилатхан Иусупова
Ренессанс таълим университети,в.б.доцент, (PhD),
E-mail: kandilatyusupova71@gmail.com

Аннотация Мазкур мақолада Жейн Остиннинг “Андиша ва ғурур” асарида оила мавзуси ҳамда характерлар ўртасидаги оилавий муносабатлар ҳақида сўз юритилади. Оила мавзусини романда етакчи ўрин олиниши мисоллар билан ифодаланган.

Калит сўзлар: оила, концепт, асар, Беннетлар оиласи, жамият, мисоллар

Аннотация В данной статье рассматривается тема семьи и семейных отношений между героями романа Джейн Остин «Гордость и предубеждение». Ведущее место семейной темы в романе выражено примерами.

Ключевые слова: *семья, концепция, работа, семья Беннет, общество, примеры*

Annotation This article discusses the theme of family and the family relationships between characters in Jane Austen's “Pride and Prejudice”. The leading place of the family theme in the novel is expressed by examples.

Key words: *family, concept, work, Bennet family, society, examples*

КИРИШ. Бугунги давр адабиётшунослари, тилшунос ва психологлари нуқтаи назари билан қараганда, бадиий матн асарнинг асл ғояси, муаллифнинг ички олами ҳамда асар образлилигини очиб берувчи муҳим элемент ҳисобланади. Миллий концептнинг тил бўйича матнда аён этиши асосий ва индивидуал матн ўртасидаги асимметрияни бир-бирига боғлайди ҳамда гўё матннинг “фон”и каби акс этади.

АДАБИЁТЛАР ТАҲЛИЛИ. Маълумки, оила мавзуси барча миллат адабиётида асосий ва барҳаёт мавзулардан бири саналади. Ўзбек адабиётида А.Қодирийнинг “Ўтган кунлар”, Чўлпоннинг “Кеча ва кундуз” асарларида, Ў.Ҳошимовнинг “Икки эшик ораси”, Ў.Умарбековнинг “Одам бўлиш қийин” ва бошқа кўплаб асарларида оила мавзуси асарларнинг градациясини кучайтирувчи ва бош мазмунини белгиловчи йирик омил бўлиб хизмат қилади. Жаҳон адабиётида ҳам оила концепти алоҳида аҳамиятга эга. Инглиз адабиаси Жейн Остин (Jane Austen, 1775-1817)нинг “Андиша ва ғурур” (“Pride and prejudice”, 1813) романида оила мавзуси ва оилавий муносабатлар асарнинг аксар қисмини қамраб олади ва сюжетнинг муҳим компоненти сифатида иштирок этади. Ўзбек тилининг изоҳли луғатида оила концепти қуйидагича ифодаланади:

Оила – бола-чақа, хонадон; уруғ, авлод.

1. Эр-хотин,уларнинг бола-чақалари ва энг яқин туғишганларидан иборат бирга яшовчи кишилар мажмуи; хонадон.

2. *кўчма* Бир мақсад,маслак билан бирлашган кўп кишилар, халқлар,мамлакатлар.

3. Ўсимликлар ва ҳайвонлар систематикасида тузилиш жиҳатидан бир-бирига ўхшаш, келиб чиқиш жиҳатидан ҳам ўзаро яқин бир неча уруғн ўз ичига олган гуруҳ.

4. Қардош тиллар гуруҳи.

5. Рафиқа, хотин[257].

НАТИЖАЛАР. Инглиз романи “Андиша ва ғурур” том маънода реалист асар ҳисобланади, чунки асар сюжетининг асосини ўша даврдаги ижтимоий ҳаёт, турғун жамиятнинг қонуний ва ноқонуний қоидалари *Беннетлар оиласи* мисолида очиб берилади. Е. А. Кострубина “Оила” концепти бўйича ёзган илмий тадқиқотида оила тушунчасини горизонтал структура тарзида қуйидагича чизади:

Оила – қондошлик жамияти – тўғри чизиқ

Оила – никоҳ қурилганда ноқондошлик жамияти – қарши чизиқ[258]

“Андиша ва ғурур” романида ҳам оила муносабатларини худди Е. А. Кострубина таҳлили сингари кесишган схемада белгилаш мумкин. Беннетларнинг беш нафар қизи беш хил феъл-атвор соҳибалари: Жейн, Элизабет, Мэри, Кэтрин (Китти) ва Лидия Беннетлар. Асардаги опа-сингиллар диалогларида, она ва қизлар ўртасидаги суҳбатларда бу характер турлари яққол намоён бўлади:

Инглизчаси:	Ўзбекчада:
“Remember, Eliza, that he does not know Jane’s disposition as you do.” (Chapter VI, p.28)	“- Элиза, у Жейннинг характерини сен билганчалик билмаслигини ёдингдан чиқарма”. (VI боб, Б.25)
«Her daughters listened in silence to this effusion , sensible that any attempt to reason with her or soothe her would only increase the irritation». (Chapter XX, p.117)	“Қизлар онасининг гапларини чурқ этмай эшитишарди, чунки уни тўхтатишга бўлган ҳар бир ҳаракат онанинг баттар жаҳлини чиқарарди”. (XX боб, Б.107)
“Don’t keep coughing so, Kitty, for Heaven’s sake! Have a little compassion on my nerves. You tear them to pieces.” (Chapter II, p.11)	“Худо ҳаққи, Китти, бунақа йўталмагин! Менинг асабларим ҳақида бироз ўйласанг-чи!” (II боб, Б.11)

МУҲОКАМА. Асарда миссис Беннет характерига алоҳида тўхталиш жоиз. Негаки унинг феълида бир пайтнинг ўзида бир неча кайфият омухталашиб кетади. Буни ҳатто

[257] *Ўзбек тилининг изоҳл луғати. Тошкент. “Ўзбекистон миллий энциклопедияси”, 2021. Б.97*

[258] *Кострубина, Е. А. Гиперконцепт СЕМЬЯ/ДОМ — FAMILY/HOME в русской и английской лингвокультурах: специальность 10.02.20 «Сравнительно-историческое, типологическое и сопоставительное языкознание»: автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата филологических наук / Кострубина Елена Алексеевна; Институт языкознания РАН. — Москва, 2011. — 20 с. — Текст: непосредственный.*

унинг эри мистер Беннет ҳам илова этади. Миссис Беннет шамол каби кайфиятини жуда тез ўзгартириш табиатига эга бўлган аёл, ҳатто эри билан суҳбатлашаётиб ҳам фикрларини айқаш-уйқаш қилиб юборади:

“Оналари уларни жуда ҳам хурсанд бўлиб кутиб олмади. Миссис Беннет ҳаммага иш орттириб, қизлари бекор қайтиб келганларидан афсусда эди ва Жейннинг яна касал бўлиб қолишига амин эди” [XII боб, Б.59].

“Никоҳининг биринчи кунлариданоқ, бу аёл ўзининг тор дунёқараши ва ақлининг жуда ҳам ўткир эмаслиги билан эрининг ҳамма орзуларини йўққа чиқарди”. (XIX боб, Б.208)

O‘quv dasturlarining aksariyatida kabi SDL Trados, MemoQ va Wordfast kabi eng so‘nggi tarjima texnologiyalaridan foydalanishga keng e’tibor beriladi. MIIS mashina tarjimasi va post-texnik tahrir kurslarini taklif qiladi. Merilend Universiteti ham kompyuter yordamidagi tarjima (CAT) kurslarini taklif qiladi, shu jumladan huquqiy va texnik tarjimaga oid tarjima xotiralari tizimlaridan foydalanish. AQSh universitetlarida, masalan, Merilend Universiteti va Middlebury Xalqaro Tadqiqotlar Institutida tarjimonlikda etika muammolari, shu jumladan maxfiylik, neytralitet va maxfiy ma’lumotlarni boshqarish kabi mavzular o‘qitiladi. Talabalarni siyosiy yoki huquqiy tarjimadagi etik dilemmani (ethical dilemmas) o‘rganishda faol ishtirok etishga undaydi.

TAHLIL VA NATIJALAR

AQShda tarjimonlarni tayyorlash dasturlarining o‘quv dasturi loyihasi kasbiy ehtiyojlarga moslashtirilgan keng qamrovli yondashuvlarga asoslangandir. Badiiy matnlarni tarjima qilishga qaratilgan tarjimashunoslikdan farqli o‘laroq, ushbu dasturlar sog‘liqni saqlash, huquq, diplomatiya va xalqaro biznes kabi sohalar uchun funksional tarjima va talqin qilish ko‘nikmalarini ustuvor hisoblaydi. Dasturlar odatda quyidagi qismlarni o‘z ichiga oladi:

1. Asosiy Kurslar:
   - o Sinxron va va ketma-ket tarjima texnikalari.
   - o Yuridik, tibbiy va texnik sohalarda maxsus tarjima.
   - o Tarjima va interpretatsiyada etika me’yorlari va professionallik.
   - o Semantika, sintaksis va pragmatikani o‘z ichiga oluvchi ilg‘or lingvistik tadqiqotlar.
2. Ixtisoslashgan Modullar:
   - o Mahalliylashtirish va audiovizual tarjima.
   - o Mashina tarjimasini post-tahrirlash (Machine translation post-editing (MTPE)).
   - o Sog‘liqni saqlash va davlat xizmatlari uchun soha tarjima.
3. Bitiruv loyihalari (Capstone Projects) va amaliyotlar.
   - o Aksariyat dasturlar bitiruv loyihalari bilan yakunlanadi, bunda talabalar haqiqiy hayotdagi tarjima va talqin qilish vazifalari ustida ishlashlari talab etiladi.
   - o Birlashgan Millatlar Tashkiloti, AQSh Davlat Departamenti va xususiy sektordagi tarjima kompaniyalari kabi tashkilotlar bilan hamkorlikda amaliyot imkoniyatlari taqdim etiladi.
4. Texnologik Integratsiya:
   - o SDL Trados va MemoQ kabi kompyuter yordamida tarjima qilish vositalaridan (CAT tools) keng foydalanish.
   - o Masofaviy sinxron tarjima platformalari bo‘yicha tayyorgarlik.
5. Baholash Usullari:
   - o Imtihonlar, jonli interpretatsiya sessiyalari va tarjima loyihalari orqali uzluksiz baholash.
   - o Nazariya va amaliy ko‘nikmalarni qamrab oluvchi yakuniy imtihonlar.

Tadqiqot va innovatsiya ishlari tarjima va talqin qilish sohalarini rivojlantirishga faol hissa qo‘shadi. Tadqiqotning asosiy yo‘nalishlari quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

o Interpretatsiyadagi kognitiv jarayonlar: Sinxron tarjima paytida kognitiv yuk va jarayonlarni o‘rganish.

o Tarjima texnologiyalari: Yangi CAT vositalari va MTPE metodologiyalarini ishlab chiqish.

o Madaniyatlararo muloqot: Tillar va madaniyatlar bo‘ylab samarali muloqot strategiyalarini o‘rganish.

Amerika universitetlari tajribasi O‘zbekistondagi tarjimonlarni tayyorlash tizimi uchun bir qator dolzarb imkoniyatlar taqdim etadi. Bu tajriba, ayniqsa, texnologiyalardan keng foydalanishni ta’minlash va madaniyatlararo muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirish orqali milliy ta’lim tizimini yanada takomillashtirishga xizmat qiladi. Zamonaviy global dunyoda tarjimonlar nafaqat tilni bilishi, balki tarjima dasturlari va ma’lumotlar bazalari kabi texnologik vositalardan unumli foydalanishni o‘rganishlari lozim.

Madaniyatlararo muloqotga e’tibor qaratish talabalarni nafaqat tarjimon, balki madaniyatlar o‘rtasidagi ko‘prik vazifasini bajaruvchi mutaxassis sifatida ham tayyorlash imkonini beradi. Zotan, tarjimon nafaqat so‘zlarni, balki ularning madaniy ma’no-mazmunini ham to‘g‘ri yetkazib berishi kerak.

Bundan tashqari, Amerika universitetlari bilan hamkorlikda xalqaro tashkilotlar, elchixonalar va turli kompaniyalar bilan tajriba almashish dasturlarini tashkil etish milliy ta’lim tizimi uchun yangi imkoniyatlar eshigini ochadi. Bu hamkorlik talabalarni hayotiy amaliy vaziyatlarga tayyorlashga yordam beradi. Masalan, talabalarning xalqaro anjumanlarda tarjimon sifatida ishtirok etishi, amaliyot davomida xalqaro mutaxassislar bilan ishlashi ularga katta foyda keltiradi.

Shunday qilib, Amerika universitetlarining ilg‘or tajribasini milliy ta’lim tizimiga tatbiq etish O‘zbekiston uchun keng imkoniyatlar yaratadi va professional tarjimonlarni tayyorlashda yangi bosqichga ko‘tarilishga ko‘maklashadi

Oligohlardagi soha professor-o‘qituvchilar muntazam xalqaro loyihalarda ishtirokini, nufuzli jurnallarda maqolalar chop etashini va xalqaro konferensiyalarda ma’ruzalar o‘qishini kuzatish mumkin. E’tiborga molik yutuqlar qatoriga masofaviy interpretasiya va diplomatik kontekstda ko‘p tilli muloqotning yangi usullarini rivojlantirish kiradi.

Mukammal o‘quv reja asosida mashg‘ulotlarning olib borilishi, amaliyotiga e’tibor qaratish va tadqiqotni qo‘llab-quvvatlash orqali AQShda tarjimonlarni tayyorlashda yetakchi ekanligigini kuzatish mumkin. Undagi boy tajribalar O‘zbekistonda tarjimonlarni tayyorlashda ilmiy jihatdan o‘rganib chiqish maqsadga muvofiq hisonlanadi.

XULOSA

Demak yuqoridagi AQSh oliygohlari tajribalaridan kelib chiqib O‘zbekiston uchun bir qator ilg‘or tajribalarni keltirish ta’kidlash mumkin. Masalan, **Middlebury xalqaro tadqiqotlar instituti** va **Monterey xalqaro tadqiqotlar instituti** kabi texnologiyalarni o'rgatish va ixtisoslashuvga e'tibor qaratish O'zbekistonda talabalarni xalqaro tarjima bozoriga tayyorlash uchun muhim. **Merilend Universiteti** misolida O'zbekistonda tarjima agentliklari va

xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni rivojlantirish zarur. Bu talabalar uchun amaliy tajriba va sohada nufuzli ishlarga joylashishda yordam beradi. **Kaliforniya Universiteti, Berkli** va **Monterey xalqaro tadqiqotlar institut**ining metodlari orqali O'zbekistonda tarjima ta'limini o'z ichiga olgan kurslarni kengaytirish, talabalarni manba va maqsad tillarining madaniy kontekstlarini yaxshiroq o'rganishga yordam beradi. **ATA (American Translators Association)** sertifikatsiya tizimini O'zbekistonda joriy etish, tarjimonlar kasbining nufuzini oshiradi. **Chikago Universiteti** va **Middlebury xalqaro tadqiqotlar instituti** kabi tadqiqot muassasalarida tarjima bo'yicha ilmiy ishlarni rivojlantirish O'zbekistonning akademik imijini mustahkamlashi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Translation and Localization Management Program, Monterey Institute of International Studies. Retrieved from www.miis.edu

2. Pöchhacker, F. (2015). *Introducing Interpreting Studies*. Routledge.

3. Tymoczko, M. (2007). *Translation in a Postcolonial Context: Early Irish Literature in English Translation*. St. Jerome Publishing.### References

4. Baker, M. (2018). *In Other Words: A Coursebook on Translation*. Routledge.

5. Pym, A. (2014). *Exploring Translation Theories*. Routledge.

6. Hatim, B., & Mason, I. (2017). *Discourse and the Translator*. Longman.

7. Kelly, D. (2005). *A Handbook for Translator Trainers: A Guide to Reflective Practice*. St. Jerome Publishing.

8. American Translators Association (ATA). Retrieved from www.atanet.org

9. Pöchhacker, F. (2015). *Introducing Interpreting Studies*. Routledge.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 1-son)

FILOLOGIYA

PHILOLOGY

ULUG‘BEK HAMDAM ROMANLARIDA XRONOTOP TALQINI

Avazov Vahobjon Tolibjon o‘g‘li
Samarqand davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annatatsiya: Ulug‘bek Hamdamning romanlarida makon va zamon zamiridagi turfa xil xarakterlarning badiiy ifodasi, ularning ruhiy-ma’naviy olamini yoritishdagi o‘ziga xosliklar haqida so‘z boradi. Badiiy voqelikning talqinida ijodkor konsepsiyasining ifoda shakllari mujassamlashganligi, badiiy vaqt kategoriyasining matndagi funksiyalari haqidagi tushunchalar tahlillar misolida yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Vaqt, makon, xronotop, tasvir, talqin, badiiylik.

ХРОНОТОПИЧЕСКАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ В РОМАНАХ УЛУГ-БЕКА ХАМДАМА

Аннотация: В романах Улугбека Ҳамдама рассматриваются художественное выражение разнообразных характеров, скрытых за пространством и временем, а также особенности освещения их духовно-нравственного мира. Анализируется воплощение концепции автора в интерпретации художественной реальности, а также функции категории художественного времени в тексте.

Ключевые слова: время, пространство, хронотоп, изображение, интерпретация, художественность.

CHRONOTOPIC INTERPRETATION IN THE NOVELS OF ULUGH BEK HAMDAM

Abstract: In the novels of Ulugbek Hamdam, the artistic expression of various characters hidden behind space and time, as well as the features of the illumination of their spiritual and moral world are considered. The embodiment of the author's concept in the interpretation of artistic reality, as well as the functions of the category of artistic time in the text are analyzed.

Keywords: time, space, chronotope, image, interpretation, artistry.

Kirish. Insoniyat ongli tafakkurga ega bo‘lgan davrdan boshlab, olamni, borliqni anglashga intilib yashaydi. Bu xususiyat esa ma’lum bir makonda va zamonda yuzaga chiqadi. Shuning uchun badiiy adabiyot insonni anlash tamoyilida xronotop poetikasi birlamchi vosita bo‘lib xizmat qiladi. Adabiyot nazariyasida aytilganidek: “Ijodkor badiiy obrazlarga odatdagidek muhabbat bilan qaraydi, hayotga o‘zida bor ideallarning ko’pisini shu obraz

siymosida mujassamlashtiradi. Biroq, ma’lum bir hayot sharoiti ijtimoiy muhit, xususan asarda ko‘zda tutilgan g‘oya asosida badiiy obraz faol kurashchi darajasiga ko‘tarilmaydi” [1,168-bet]. Asosli ta’kidlanganidek, badiiy asardagi qahramonlarning o‘zi bir olam, ularning o‘ziga xos xarakter xususiyati mavjud bo‘lgani kabi, qaysidir oilaviy muhitda tarbiyalanadi, shakllanadi, bu esa xronotopning badiiy funksiyasini yuzaga chiqaradi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Ijodkor tafakkurining mahsuli bo‘lgan badiiy asardagi turfa xil ifoda shakllari uning poetik xususiyatlarini tahlili uchun imkon beradi. Istiqlol yillariga kelib badiiy adabiyotning o‘ziga xos talqinlarida jiddiy o‘zgarishlar, Sharq va G‘arb adabiy hodisalaridan oziqlanish jarayonlarini alohida qayd etib o‘tish lozim. Badiiyatdagi o‘zgarishlarning turfa olamini tahlil qilish esa, adabiyotshunoslikda ham turlicha yondoshuvlarni, asosli xulosalarni yuzga chiqardi. Zamon va makon san’atga taalluqli ekanligini birinchi bo’lib G.E. Lessing, keyinroq G.V.Gegel ta’kidlagan bo‘lsa, u XIX asr oxiri, ayniqsa XX asr san’atning barcha turlarini, shu jumladan, badiiy adabiyot, adabiyotshunoslikning diqqat markaziga tortilayotgan mavzulardan biriga aylandi.

Bu fikrlarni inkor qilmagan holda, biz vaqtning yuqoridagi majoziy belgilaridan tashqari san’atkorlarning to‘g‘ridan-to‘g‘ri vaqni ko‘rsatib o‘tishlarini, yil fasllari tasvirini, oqarsuv va badiiy obrazlarning kelajak haqidagi orzu-umidlari, bizga ba’zan lirik chekinishga o‘xshab ko‘rinadigan, aslida esa qahramonning hozirgi vaqtdan tarixga, aniqroq qilib aytganda esa, o‘z o’tmishiga sayohati bilan bog‘liq va boshqa epizodlarni, jumladan inson hayoti haqida so‘z yuritganda vaqt unga hamma vaqt hamrohligini ham e’tiborga olish lozim deb hisoblaymiz. Shundagina asardagi xronotop haqida to‘liqroq tushunchaga ega bo‘lamiz.

Bizga ma’lumki, adabiyotning asosiy ob’ekti-inson. Uning hayotida vaqt katta ahamiyatga ega. Shuning uchun yozuvchi, rassom, haykaltarosh, umuman san’atkorlar asarda vaqt tasviriga katta ahamiyat berishadi. Adiblar oz asarlarida vaqtni tasvirlash muammosini hal etishni dolzarb vazifalardan biri deb bilishadi. Haqiqatdan ham badiiy asarda vaqtni aks ettirish, ayniqsa tarixiy asarlarda tarixni yorita bilish demakdir. Badiiy adabiyotda vaqtni aks ettirishning turli shakllari mavjud. M. Baxtin xronotopni romanlarda berilishini yo‘l, uchrashuv, qal’a, mehmonxonalar bilan bog‘liq deb hisoblasa, N. Gey esa soat, daryo, soya va asarning kompozitsion qurulishini asardagi vaqtning tasviri bilan chambarchas aloqadorligini ta’kidlaydi [2, 56-bet].

Adabiyotshunos A.To‘ychiyev qayd qilganidek: “XX asr nosirlari adabiy faoliyatini o‘rganish, ijodkor shaxsi va jamiyat, yozuvchi uslubi, voqelikni ifoda etish usullari, hayot haqiqati, tagma’no tasvirlar orqali pafos va badiiy g‘oyaning ifodalanishi kabi qator umumestetik muammolarni idrok etish hamda milliy tafakkurimizning yuksak namunasi bo‘lmish o‘zbek romanchiligining badiiy tah;lil qilish, unga xos poetik unsur va vositalarni o‘rganish, janrdagi makon va zamon konsepsiyasini tadqiq etish shu kun adabiyotshunosligining muhim vazifalaridan biridir” [3, 3-4-betlar], - deb ta’kidlaganda, asosli qarashlarni bayon etgan edi. Chunki badiiy adabiyotning asosiy unsuri bo‘lgan makon va zamonnning badiiy ifoda shakllari ham yangilanib, zamonaviy adabiyotda ham kompozitsion yaxlitlikni yuzaga chiqarishda etakchilik qilmoqda.

Ulug‘bek hamdamning “Muvozanat” romanida ham badiiy vaqt talqini, insonni o‘zligini anglashga, uni ruhiy-ma’naviy olamini talqin etishga zamin bo‘lgan: “Nonushtadan so‘ng Yusuf xotini va o‘g‘li Abdullajonni bog‘chaga kuzatib qaytarkan, yo‘l-yo‘lakay “uyga borsammi, yo‘qmi? – deya o‘ylandi. Axir, nima ham qilardim betonning ichida? Kun bo‘yi kitob o‘qib, televizor ko‘rib yotish jonga tekkan bo‘lsa. Holbuki, yoshim o‘ttiz behsdan oshdi” [4, 6-bet]. Talqinlardan shu narsani anglash mumkinki, Yusuf o‘z hayotiga nazar solishga, ma’lum vaqt oralig‘idagi hayotni sarhisob qilishga imkon beradi.

Adabiyotshunos A.Nasirov qayd qilganidek: “Badiiy asarlarda vaqtning tasviri tush bilan ham bog‘liq. Tarixiy asarlar ham badiiyat namunasi sifatida bundan mustasno emas. To‘g‘ri, roman qahramoni bo‘lmish tarixiy shaxslar tush ko‘rgan, uni o‘z xotiralarida qayd qilgan bo‘lishlari mumkin. Lekin qahramonlar tush ko‘rishsa, aksariyat hollarda, asosan muallifning badiiy niyatlari bilan bog‘liq bo‘ladi. Ma’lumki, tushda ba’zan kishi o‘z o‘tmishiga sayohat qilishi, o‘zining kelajakda amalga oshiradigan ishlarini, ishtirok qiladigan voqealarni ko‘rish, gohida butunlay notanish zamon va makonga borib qolishi mumkin. Har qanday tush ko‘radigan shaxs o‘zi yashab turgan davrdan boshqa bir davrga “sayohat” qiladi” [5, 46-bet].

Tahlil va natijalar. Darhaqiqat, faqat tarixiy asarlarda emas, zamonaviy asarlarda ham badiiy vaqt kategoriyasi birlamchi vosita sifatida e’tirof etilishi bejiz emas. Zamonaviy romanlardagi talqinlarda ham asar qahramonining tush ko‘rishi, uning qahramon taqdiri bilan chambarchas bog‘liq bo‘lishida ham, ijodkorning ma’lum bir ideyasi mujasssamlashgan bo‘ladi. “Yusuf cho‘chib hushiga keldi: Hammasi xayol, shirin xayol, - o‘landi u divanda yotgancha, - nahotki endi o‘sha tuyg‘lar qaytib kelmaydi, nahotki hayotim bundan buyon mana shunday samarasiz va zerikarli kechaveradi? Axir, qirchillama qirq yosh ostonasida nega bunchalalar abgorman, bunchalalar xo‘rlanganman. Kim meni shu kuyga soldi” [4, 6-bet]. Tasvirlardan ko‘rinadiki, qahramon hayotining turli qirralarini, o‘z hayot yo‘lini, umrning o‘tgan sarhadlarini taftish qilishga ega bo‘ldi.

Yusufning qalb istiroblari bevosita insonning ruhiy-ma’naviy olamini anglashga kengroq imkon beradi. Uning istiroblari cheksiz, ammo hammasiga chidashga majbur, hali oldinda murakkab hayot kutayotganligini tasavvur etish qiyinligini, u juda yaxshi anglab etadi. Ammo shunday bo‘lsa-da, o‘zini o‘zi taftish qilar ekan bu holatga kim solganligini, kum buncha xo‘rlayotganligini ich-ichidan sezar, lekin javobsiz sukunatni lozim ko‘rar edi.

Bolalikning yorqin xotiralalariga berilar ekan, inson olamining o‘ziga xosligini, turmush tarzini, murakkab hayotning qirralalarini his eta boshlaydi, chuni uni anglashga, his etishga hayotning o‘zi majbur qilar edi. Yusufdagi insoniylik tamoyillari, odamlarning murakkab xarakterini anglashga imkon bermas edi. Chunki har bir davrning o‘z tamoyillari mavjud bo‘lib, ezgu niyatli insonlarni muhit asta-sekin bir chetga uloqtira boshlaganligini xayolan his etadi. Talalabalikning eng murakkab va yodda qolarli damlari juda ko‘p bo‘lganidek, bularning barchasi Yusufning xayollarida aylana boshladi. Talabalikning sho‘x damlari, do‘stlarning sadoqatli yurishlari, yillar davomida unitilmas lahzalalarga aylanib ulgurgan edi.

Yusufning talabalik davridagi do‘stlarida ham bir vaqtlar shunday insoniylik, go‘zal fazilatlar mujassamlashganligi ham bejiz emas edi. Davrning turli jihatlariga birgalikda javob berar, ammo yillar o‘tib begonalashish, uzoqlashish, tabbiiy hol sifatida qabul qilinsa-da, Yusufdagi ma’lum bir xarakter xususiyatlar davrning go‘zal lahzalalari ekanligini unita olmasdi.

Asardagi talqinlarning matiqiy izchilligi xuddi shunday tasavvurlarni yuzaga chiqaradi: “Kuzning so‘lim kechasi edi. Boshlarida ulug‘vor shovullab daraxtlar mangu qo‘shiqlarini barilla aytar, oyoqlari ostida endi-endi to‘kilib, er yuzini hali qoplab ulgurmagan xazonlar mayin shitirlar, quloqlari tagida sarrin shaboda esib turar, yosh va baqquvvat vujudlari sharobning engil kayfidan mastona tebranib borardilar” [2, 6-7-betlar]. Yozuvchi aynan, nega kuz ramziga diqqat qilganligini ham nazardan chetda qoldirmaslik kerak, chunki Yusufning ruhiyatiga hamohang tarzda kuz talqini berilgan. Yusufning ruhiyatidagi tushkun kayfiyat, undagi ruhiy kechinmalarga uzviy bog‘liq holda ifodalangan. Metaforik talqinning badiiy funksiyasi juda mahorat bilan asar sujetiga singdirib yuborilgan.

“Muvozanat” romanidagi xronotop talqinlarining o‘ziga xosligi shunda ediki, asar qahramonlarining turli xarakter xususiyatlarini ochishga, ularning ruhiy-ma’naviy olamini yoritishga xizmat qilgan. Shuning uchun adabiyotshunos olima Bahor To‘rayeva bu haqida yozadi: “Epik zamon – mutloq o‘tmish, hozirgi kundagi real zamondan o‘tib bo‘lmas chegara bilan ajratilgan ajdodlar va qahramonlar zamoni. Epik janrga mansub asarlarda badiiy zamon (epik zamon) ko‘p qatlamli, zich-tig‘iz (o‘nlab yillarni real zamonning sanoqli kunlariga sig‘dirish) va murakkab bo‘ladi” [6, 28-bet].

Ta’kidlanganidek, zamonning voqeligini asar sujetiga yoki kompozitsiyasiga singdirish, ijodkordan katta badiiy mahoratni talab etadi. Zamon va makon kategoriyalari badiiy funksiyani bajarar ekan, uning asosida qahramon hayoti, o‘tmishi, kelajagi, qalb kechinmalalari bilan uzviy bog‘lanig ketadi. Bunday talqinlar esa, “Muvozanat”, “Isyon va itoat” romanlarida ham juda teran talqin etilganligini kuzatish mumkin.

Zamon va makon kategoriyalalarining badiiy funksiyasi haqida gap ketganda, asar sujetidagi voqealarni rivijoga yoki qahramonning turli badiiy qiyofasini yoritishga xizmat qilishi mumkin. Shu jihatdan, Yusufning bolalik yillaridagi bir voqelikka nazar tashlaylik, bunda bolalikning yorqin xotiralari, ularning yuksak olami, beg‘ubor yoshlik chog‘larining go‘zal onlari haqida mulohaza yuritishga imkon beradi: “Yusufning quvonchi ichiga sig‘masdi. Nahotki, u shu choqqacha huv anovi erda savlat to‘kib, xayolini uzoq-uzoqlarga olib qochib yurgan afsonaviy tog‘ - Ulug‘toqqa bugun borsa! Uning toshlariga qadam bossa, hatto shu erdan bulutlarga yondosh ko‘rinib turgan osmono‘par cho‘qqiga chiqsa!” [4, 11-bet].

Badiiylik qonuniyatiga ko‘ra, makon insonning turli ruhiy qiyofasini ochib berish bilan bir qatorda uning xarakterini ham shakllanishiga sezilarli ta’sirini o‘tkazadi. Shuning uchun epik asarlardagi voqealar rivoji, qahramonlarning turga xil xarakterini shakllantirish uchun epik zamondan unumli foydalanish imkonini beradi. Zamonaviy epik romanlarda muallif ijodiy niyatidan, badiiy ideyasidan kelib chiqib, asar kompozitsiyasi, murakkab sujet qurilishi, badiiy

talqindagi zamonni turli xususiyatlarini ochib berishga imkon beradi. Sjihatdan, badiiy vaqt kategoriyasi ham asar qahramonlarining turfa olamini ochishga xizmat qiladi. Romanda epik zamon aynan ma’lum bir voqelikni yoritishga, ularning turli makonda va zamonda yuzaga chiqishini ta’minlaydi. Badiiy zamonning turli kategoriyalari mavjud bo‘lib, asar qahramonlarining xarakterini shakllantirish bilan uzviy birlikda, ruhiy olamini ham yoritishga xizmat qiladi.

Badiiy vaqt talqinlari insonni anglashga, uning turli olamini ochib berishga xizmat qiladi. Zamon kategoriyasi makonni ham uzviylikda yoritishjga xizmat qiladi. Badiiy qahramon harakatlanayotgan muhitni ham teran shakllantiradi. Bu esa Yusuf obrazining turli qirralarini badiiy bo‘yoqlar yordamida kitobxon ko‘z o‘ngida yanada yorqinroq chizilishiga xizmat qiladi. Vaqt Yusufning inson, shaxs, sifatida uning xarakterining shakllanishida va olamni, odamlarni anglashiga imkon beradi. Davrning murakkab ziddiyatlari, Yusufning ham turli istirob iskanjalaridan olib o‘tadi. Tasvirlarga nazar tashlar ekanmiz, insonning o‘z hayoti, murakkab tamoyillari, do‘stlar o‘rtasida yuzaga kelgan yaxshilik, bir-biriga bo‘lgan mehr-muhabbatning yillar o‘tib, uzoqlashishlar, oddiygina rishtalarning qolishi ham bejiz emasligini yana-da teranroq his eta boshlashi ham bejiz emasdi.

Moziy haqida yozilgan, ayniqsa tarixiy shaxslar hayotini yoritishga bag’ishlangan badiiy asarlarning syujet, kompozitsiyasining asosini qahramon yashagan vaqt tashkil qiladi. Badiiyat namunalaridagi vaqt qahramon hayotidagi asosiy voqealarni ikkinchi darajali, har kuni qaytariladigan voqealardan ajratib, muallif so’z yuritayotgan zamonda obraz yoki tarixiy shaxs alohida diqqatga sazavorligini bildiradi.

Bir qaraganda, makon va zamon kotegoriyalari falsafiy termin, deb hisoblanadi, ammo badiiy adabiyotda har bir qahramon ma’lum bir makon va zamonda harakat etishi inobatga olsak, uning badiiy funksiyasi yanada teranlashadi. Uning zamiridagi turfa xil voqelikning badiiy ifodasidagi qarashlar, talqinlar inson ruhiyatining xarakterini ochib berishda ham etakchilik qilishi ma’lum bo‘ladi. Badiiy xronotop asarning turli o‘rinlarida ijodkor konsepsiyasiga asosan ifoda shaklini namoyon qiladi.

Adabiyotshunos A.Nasirov ta’kidlaganidek: “Badiiy asardagi metaforik vaqtning tasviri tush bilan ham bog‘liq holda tasvirlanish xususiyatiga ega. Tarixiy asarlar ham badiiyat namunasi sifatida bundan mustasno emas. To‘g‘ri roman qahramoni bo‘lmish tarixiy shaxslar tush ko‘rgan, uni o‘z xotiralarida qayd qilgan bo‘lishlari mumkin. Lekin qahramonlar tush ko‘rsa, aksariyat hollarda, asosan muallifning badiiy niyatlari bilan bog‘liq bo‘ladi” [5, 44-bet]. Bu tushunchalarda, tarixiy romandagi vaqt konsepsiyasi haqida so‘z borsa-da, ammo barcha janrdagi asarlarga xos xususiyatdir. Shu jihatdan, epik asarlarda, bevosita roman janridagi asarlarda makon va zamonning badiiy talqinlarida esa, unson xarakterini shakllanishiga, uning ruhiy-ma’naviy qiyofasini talqin etishga asos bo‘lishi, tabiiy holdir. Makon va zamon kotegoriyalarining badiiy ifodasida insonning turli xususiyatlarini ochish bilan bir qatorda, makon yuz bergan, yuz berayotgan voqealar silsilasini umumlashtirish imkonini ham beradi.

Iste’dodli adib Ulug‘bek Hamdamniung “Isyon va itoat” romanidagi makon va zamonning o‘ziga xos tamoyillari, insonni anglash, muhitning murakkab qirralarini his etish imkonini beradi. Adabiyotshunos olima Bahora To‘rayeva qayd qilganidek: “Ob’ektiv real zamonni aks ettiruvchi zamon tushunchasi konseptual yaxlit tizim sifatida nihoyatda murakkab bo‘lib, falsafa, fizika, teologiya va adabiyotshunoslikda zamon fonomeni to‘g‘risida turli nazariy-konseptual qarashlar, yondoshuv va talqinlar mavjud. Materiya hamisha harakatda mavjud. Harakat esa usluksiz davomiylik bo‘lib, zamonning fizik mohiyatini belgilaydi” [6, 12-bet].

Ta’kidlanganidek, mohiyat davrning zamonnning xususiyatlarini o‘zida umumlshtirib borsa, badiiy vaqt va makon konsepsiyasini muhit va insonni teranroq ilg‘ashga, uning butun murakkabliklarini his etishga imkon beradi. Shuning uchun adibning “Isyon va itoat” romanida zamonning dealektik birligi makonga uzviy bog‘lansa, xarakter shakllanishining tamoyillari esa, ruhiy istiroblar bilan o‘zaro dialektik birlikda namoyon bo‘ladi.

Yozuvchi tasvirlaganidek: “Qamoqxona tuynugidan tashqariga qarab turarkan, Akbar ustoznining “Hikmat uqqanga gapirgin, bolam, yo‘qsa, har ikki tomonga jabr qilasan....” degan gaplarini, lof bo‘lmasa, minginchi bor xayolidan o‘tkazdi. Biroq afsuski, vaqtida bunga amal qilmadi. Endi esa mana, bir yildirki, alamini tortayapti. “Qiziq, ustoz o‘z o‘gitining uchunchi tomoni borligi haqida ham o‘ylab ko‘rganmikin? Axir johilga hikmat so‘ylab qo‘yib, uning jazosini olayotgan uchinchi tomon – men-ku!.. Bir oydan so‘ng o‘ttizga chiqaman. Etti uxlab tushumga kirmagandi o‘ttizinchi bahorni qamoqda qarshilash. Hyot qiziq ekan... yo‘q... shafqatsiz ekan” [7, 3-4-betlar].

Akbar qalbidagi istiroblarning yuzaga chiqishiga eng avvolo, o‘sha muhitning adolatsiz tamoyillari deb qaraydigan bo‘lsak, uning qarashlaridagi istiroblarning yuzaga kelishiga esa, davr muhiti, ya’ni makon va zamonda ro‘y berayotgan voqealar silsilasini anglash mumkin. Akbardagi insoniy fazilatning asta-sekin bilan yovuzlik, insonga uning qilmishlariga nafrat hissini kuchayib borishi ham bejiz emas edi. Adolatsizlik qurboniga aylanib ulgurgan jizm o‘z ruhiyati bilan kurashadi, buning sababi ham muhitdagi tengsizlik va adolatsiz hukmning mavjudligi edi. Akbar ustozining o‘gitlarini xayolan jonlantirar ekan, uning qarashlarida asoslar muvjudligini inkor qilmagan holda, jamiyatdagi adolalatsizliklarning yuzaga chiqishidagi sabablarni topa olmas, shu erga kelganda, xayollari chalkash-chulkash bo‘lib ketardi.

Yozuvchi asar qahramonining bu xususiyatlarini ruhiy kechinmalar asosida juda asosli talqin etgan: “Akbar cho‘chib uyg‘ondi. Tag‘in o‘sha tush. Tag‘in o‘sha o‘quvchi... Sadr, uning haqoratli so‘zlari, ko‘kragiga kelib urilgan mushtlari... Keyin shapaloq.. sud... Sudiyaning og‘zidan chiqqan shafqatsiz hukm: “uch yilga ozodlikdan mahrum etilsin!” Har safar ana shu “mahrum etilsin!” degan so‘zlardan keyin Akbar “Yo‘q, yo‘q, yo‘q!” deya baqirib uyg‘onib ketadi va hushuga kelgach ham uni takrorlayveradi: “Yo‘q, yo‘q, yo‘q! Axir bu shafqatsizlik, axir bu adolatsizlik, axir bu...” [7, 4-5-betlar].

Achchiq qismatning taqdirning shafqatsiz o‘yinlarini hazm qilaolmaslikning zamirida ruhiy istiroblar, qiynoqlarning kuchayib borishi kuzatiladi, ammo hayotning bu shafqatsizligi va adolatsizligining zamirida ham inson uning fazilatlari mujassamlashgan. Sudiya qarata

“adolatsizlik” – degan qarashlarida o‘sha davr muhitiga, uning adolatsiz hukmiga nisbatan ichki va tashqi bir isyonning mujassamlashganligini kuzatish mumkin. Axir, insonning qadri, uning qiymati shu darajada “psat”ga urilgan muhitdan yana “nima”ni kutish mumkin ekanligini juda kech anglashga intiladi, ammo bu tushunchani zamirida shafqatsizlik, adolatsizlik, haqsizlik, oddiy insonning qadr-qiymatini, ori-g‘urini paymol etilishini kuzatish mumkinligini his etadi,amm bu qarashlarni o‘z ruhiyatidagi kechinmalar bilan inkor ham qiladi: “Sudni haqorat qilganing uchun yana qo‘shib berishim mumkin” degandi. Akbar esa o‘zini qo‘yarga joy topolmay, o‘tirgan o‘rnini jon-jahdi bilan mushtlagan edi. So‘ng ana shu erdan hammaning ko‘z o‘ngida, ayniqsa, o‘z o‘quvchilarining oldida qo‘liga kishan solib etaklab ketishgandi” [7, 5-bet].

Talqinlarga nazar solar ekanmiz, Akbarning tushlarida ham bu jarayon o‘z igodasini topganligiga shuba qilinmaydi. Makonda yuz bergan voqelik, zamonda namoyon bo‘lmoqda, Akbar qalbidagi istiroblarning iskanjasida, insonning ruhiy ma’naviy olamidagi murakkabliklar yuzaga chiqadi. Adolatsizlik, haqsizlikning qurboniga aylangan inson fojialariga ham yana o‘sh muhit, makon va zamonnning tala-to‘plari sababchi bo‘lganligini his qilish mumkin.

Akbar qalbidagi istoroblarning istoroblarning zamirida inson fojiasi mujassamlashganligini kuztish mumkin. Uning qalb kechinmalaridagi ziddiyatlarning asosida insonni tushunish, uni inkorb etish holati mavjud. Agar o‘z o‘quvchisining bir shapoloq urgani uchun shunday jazoga mahkum etilganini inobatga olsak, uning zamirida adolatsizlik bilan bir qatorda, shafqatsizlikning eng ayanchli holatlari ham namoyon bo‘ladi. Axir, Sadrning otasi Akbarga nisbatan haqsizlik qilgan edi, ammo adolatli jamiyatning sudi ham uning tarafini oladi. Xuddi shu nuqtada Akbarning nafratini, uning nohaq hukum chiqarilganligiga yan bir bor ichonch hosil bo‘ lishiga imkon yaratiladi: “-Sadrning otasini bilmasmiding, uchiga chiqqan firibgar, mutahham. Bolasi ham shu shunday-da. Ular atayin ham shunaqa majora qidirib yurishadi. Sen esa shartta ilinib o‘tiribsan. – Ha ustoz, buni keyin... pul talab qilishganda tushundim. Shunda bergan arizamizni qaytarib olamiz deyishgandi. Men bir so‘m ham bermadim” [7, 7-8-betlar].

Inson tafakkur tarziga ega bo‘lgan davrdan boshlab, adolatsizlik, haqsizlik bilan kurashib keladi, ammo uning chegarasini topa olmaydi, shuning uchun istiroblar iskanjasida yashashga mahkub bo‘ladi. Akbardagi insoniylik fazilatlarini o‘rnini keyinchalik shafqatsizlik egallab boradi. Uning qalbidagi isyonning chegarasi yo‘q edi, ammo qachondir itoat sari qadam tashlashi tabiiy hol edi. Shu jihatdan ham romanda ilgari surilgan talqinlar asosida, badiiy makon va zamonning turl;i qirralarining ifodasi, insonning ruhiy-ma’naviy olamidagi evrilishlarni ham yuzaga chiqishiga imkon beradi.

Shuning uchun ham, makon va zamonning badiiy ifodasi asardagi mavjud tasvir ob’ekti, muallif qarashlariga hamohang tarzda shakllantiriladi. Bu esa asardagi qahramonlarning qanday makon va zamonda harakatlanayotganindan, undagi o‘ziga xosliklarni teranroq anglashga imkon beradi. Asardagi obtrazlar olamiga nazar solar ekanmiz, makon va zamonning turli xususiyatlardan istirob chekkan inson qismatining guvohi bo‘lamiz. Talqinlardagi ifoda shakli

esa adabiy olam manzarasini teran anglashga, asosli xulosalar chiqarishga zamin hozirlaydi. Shuining uchun ham, talqinlardagi kurashlar, inson ruhiy istiroblari barchasi ma’lum bir zamon va makonda yuz berishi bejiz emasde, degan taassurotni uyg‘otadi.

Umuman olganda, badiiy asarda tasvirlanayotgan voqealar makon va zamonda kechadi, shunga ko‘ra adabiyot nazariyasida “badiiy vaqt” kategiriyasining o‘ziga xos badiiy funksiyasi mavjudki, bu esa obrazlar olamini, uning turga xil xarakter xususiyatlarini yoritishga asos bo‘ladi. Har qanday badiiy asarda zamon va makon o‘ziga xos, betakror o‘ringa ega. Chunki bu kategoriyalarsiz asarning syujeti, kompozitsiyasini tasavvur qilish qiyin. Axir har qanday badiiy obraz ma’lum bir zamon va makonda harakat qiladi, bu esa uning badiiy funksiyasini reallashtiradi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1.Адабиёт назарияси. Икки томлик. 1-том. Адабий асар. – Тошкент, Фан, 1978. – 416 бет.

2.Тўйчиев А. Ўзбек романларида макон ва замон. Монография. – Тошкент, “Mumtoz so‘z”, 2009. – 152 бет.

3.Бахтин М. Литературно-критические статьи. –Москва: Художествен-ная литература, 1986. – 544 с.

4.Ҳамдам Улуғбек. Мувазанат. Роман. – Тошкент, “Минҳож” нашриёти, 2004ю – 200 бет.

5.Nasirov A. Badiiy vaqt talqini va xarakter ifodasi. Ma’lumot uchun qarang: Badiiylik va hayotiy haqiqat (“Yulduzli tunlar” va “Ona lochin vidosi” romanlari misolida). Monografiya. Turkiya, Istanbul, KESIT, 2019. – 139 bet.

6.Тўраева Б. Замонавий романларда хронотоп поэтикаси. Монография. – Тошкент, “EFFECT-D”, 2022. – 288 bet.

7.Ҳамдам Улуғбек. Исён ва итоат. Роман. – Тошкент, “Янги аср авлоди”, 2003. – 140 bet.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 1-son)

FILOLOGIYA

PHILOLOGY

RUS TILINI RIVOJLANTIRISHDA TARJIMANING O‘RNI VA AHAMIYATI

Esanov Uktam Djabborovich
Oriental Universiteti
G‘arb tillar kafedrasi
Elektron pochta: Uktam-1957@mail.ru

Annotatsiya. Bu maqolada rus tilining rivojlanishi tufayli tilshunoslikda sezilarli o‘zgarishlar bo‘lganligi va rus xalqining milliy tili ekanligi haqida so ‘z boradi. Tarjimada Rus tili dunyodagi yetakchi tillardan biri ekanligi va odamlar bir-biri bilan aloqa qilishning eng muhim vositasi ekanligi ham ta’kidlab o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: rus tili, tilshunoslik, muloqot tili, madaniyat, milliy madaniyat, terminologiya

Аннотация. В статье рассматриваются существенные изменения в языкознании, связанные с развитием русского языка и его статусом как национального языка русского народа. В переводе также подчеркивается, что русский язык является одним из ведущих языков в мире и важнейшим средством общения между людьми.

Ключевые слова: русский язык, языкознание, язык общения, культура, национальная культура, терминология.

Annotation. This article discusses the significant changes in linguistics due to the development of the Russian language and its status as the national language of the Russian people. The translation also emphasizes that the Russian language is one of the leading languages in the world and is the most important means of communication between people.

Key words: Russian language, linguistics, language of communication, culture, national culture, terminology

Kirish. XIX asrning 2-yarmidan boshlab uning rivojlanishiga yozuvchilar bilan bir qatorda jamoat arboblari, fan va madaniyat namoyandalari ham katta ta’sir ko‘rsatib kelmoqdalar. Hozirgi kunda fan va texnikaning rivojlanishi tufayli rus tilida, ayniqsa, uning tilshunosligida sezilarli o‘zgarishlar paydo bo‘ldi va bu adabiy tilning umumiy demokratlashuvi kuchayishiga olib keldi. Rus tilining millatlararo muloqot tili sifatida o‘ziga xos xususiyati uning o‘z ijtimoiy funksiyalarini bajarishi bilan bir qatorda yonma-yon va parallel ravishda ishlashida namoyon bo‘ldi. O‘zbek tili bilan bir qatorda, rus tili ham ijobiy ahamiyatga ega, chunki u o‘zaro tajriba almashishga va har bir millat va millatni boshqa barcha xalqlarning madaniy yutuqlari va jahon madaniyati bilan tanishtirishga yordam beradi. Rus tili va dunyo xalqlari tillarini o‘zaro

boyitishning doimiy jarayoni mavjud. Rus tili dunyodagi yetakchi tillardan biri bo‘lgan va bo‘lib qolmoqda. Bugungi kunda rus tilida so‘zlashadigan insonlar soni bo‘yicha xitoyliklar va ingliz tilidan keyin uchinchi o‘rinda turadi. Rus tili rus xalqining milliy tili, rus milliy madaniyatining bir shakli, bu rus xalqining ona tili hisoblanadi. Rus tili dunyodagi eng rivojlangan tillardan biridir. U ilm-fan va texnikaning barcha sohalarida boy lug‘at va terminologiyaga grammatik vositalarning ifoda etuvchi qisqaligi va ravshanligiga atrofdagi olamning barcha xilma xilligini aks ettiruvchi qobiliyatiga egadir.

Hozigi davrda har bir taraqqiy etgan xalq jahondagi yuzlab xalqlar tilidan o‘z ona tiliga ilm-fan va madaniyatning o‘nlab sohalariga oid materiallarni (lirik she’rlar, xabarlar, texnologiya adabiyoti va boshqalar) tarjima qiladi.

Tarjima har doim chet tilini o‘rganishda haqiqatan ham samarali vosita bo‘la oladimi yoki yo‘qmi degan munozaralarning o‘zagi bo‘lib kelgan. Tarjima ko‘pincha tilshunoslikda bir tildan ikkinchi tilga mexanik ko‘chirish sifatida qaralgan (Braun). Hatto bugungi kunda ham u til o‘rganish uchun foydali vosita sifatida qabul qilinmoqda, chunki u til o‘rganuvchining umumiy ehtiyojlariga mos kelishi kerak bo‘lgan aloqa vositasidir. So‘ngi yillarda chet tili darslarida tarjima amaliyotiga qiziqish tobora ortib bormoqda. Tarjimadan ilm-fanning barcha sohalarida ya’ni o‘quv jarayonida foydalanish imkoniyatlari o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan holda keng qo‘llanilmoqda.

Ko‘pgina chet tili o‘qituvchilari tarjimadan turli ta’lim maqsadlarida foydalanishni qayta tiklamoqda. Tarjima faoliyatini boshqacha aytganda, an’anaviy til o‘rganish vazifalari bilan bir qatorda pedagogik maqsadlarda ham qo‘llanilishi mumkinligi ta’kidlandi. O‘qish, grammatika mashqlari va tarjima til o‘rganuvchilar tomonidan “o‘rganish qobiliyatini” rivojlantirish vositasi sifatida qabul qilinadi (McDonough 409). Tarjima qobiliyatiga ega bo‘lish har qanday talabaning o‘rganilayotgan tilda allaqachon shakllangan ko‘nikma va ko‘nikmalarini nutq faoliyatining yangi turiga, ya’ni tarjimaga o‘tkazish qobiliyatini ko‘rsatadi.

K.Schaffner chet tilini o‘rganayotgan talabalar uchun tarjima foydali bo‘lishi mumkinligini ta’kidlaydi:

1. Nutq amaliyotini takomillashtirish.
2. Tilshunoslikda lug’atni kengaytirish.
3. Tilning qanday ishlashini tushunish.
5. Faol foydalanish uchun so‘z strukturasini birlashtirish.
6. Tilshunoslikni tushunishni nazorat qilish va takomillashtirish.

O‘quv jarayonida tarjima haqida bir qancha olimlarning ilmiy nashrlarini ko‘rib chiqishimiz mumkin, bular E.G. Asimov, L.S. Barxudarov, A.N. Shchukin, G.I. Der-gacheva, K. Malmkjaer, E.R. Mixaylova, I.B. Getskina va boshqalar. Shunday qilib, O.V. Sheremet tarjimadan “ayniqsa, chet tilini o‘rganishning dastlabki bosqichida foydalanish zarurligini ta’kidlaydi: talabalar ongli yoki ongsiz ravishda ikki tildagi lingvistik faktlarni solishtirish va solishtirishga intilishadi. [...]. “O‘quv jarayonida tarjimadan oqilona foydalanish bo‘lajak filologlarning o‘z kasbiy faoliyatini amalga oshirishlari uchun zarur bo‘lgan tarjima mahorati

va ko‘nikmalarini har tomonlama rivojlantirishga xizmat qiladi”. Rus olimi B.V. Belyaev tarjimani “psixologik asosga ega bo‘lgan inson faoliyati” deb ta’riflaydi. Bu shuni anglatadiki, nafaqat nutq faoliyati turlari xorijiy tildagi fikrlash bilan, balki tarjima ham o‘zaro bog‘liqdir, chunki tarjima qilishda fikrni chet tili orqali yetkazish kerak. Tarjima qilish qobiliyati ma’lumot ma’nosini bir tildan ikkinchi tilga o‘tkazishdir va bu ko‘nikma tinglash, gapirish, o‘qish va yozishning boshqa ko‘nikmalari kabi rivojlantirilishi kerak. Bu nutq faoliyatining alohida turi (Belyaev 151).

B.V. Belyaev o‘qitishda tarjimadan foydalanishning bir qancha usullarini belgilaydi: “ham o‘qitishning asosiy vositasi ham chet tilini o‘zlashtirish vositasi sifatida va ushbu ta’limning asosiy maqsadlaridan biri sifatida. Bundan tashqari, talabalarga til haqidagi nazariy ma’lumotlarni yetkazishda tarjimadan foydalanish va o‘rtadagi farqni ham ajratib ko‘rsatish lozimdir va talabalarning chet tili nutqida amaliy mashg‘ulotlar o‘tkazishda tarjimadan foydalanish (masalan, o‘qilayotgan narsani tushunish yoki bu tushunchani nazorat qilish maqsadida)” (Belyaev 150).

Chet tilini o‘qitishda tarjimani mustaqil o‘rganish predmeti bo‘lgan professional tarjimadan farqli o‘laroq, kommunikativ faoliyatning yordamchi turi sifatida ishlaydi. Chet tilini o‘rgatishda tarjimadan foydalanganda shuni yodda tutish kerakki, psixologik nuqtai nazardan, ikkinchi til muqarrar ravishda birinchi, ona tili (Leontyev) prizmasi orqali olinadi, shuning uchun tanlov haqida o‘ylash kerakdir. Shuni hisobga olish kerakki, “tarjima faoliyati alohida-alohida amalga oshirilmasligi kerak, lekin darslarga kiritilishi kerak". Demak, tarjima til birliklarini ularning paradigmatik, sintagmatik va boshqa aloqalarida kiritish, mustahkamlash va faollashtirish vositasi sifatida foydalanish mumkin. Tarjima kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish vositasi sifatida ham samaralidir. Chet tilini o‘zlashtirish u yoki bu tarzda talabaning ona tili orqali vositachilik qiladi, shuning uchun nutq ko‘nikmalari va ko‘nikmalarining ma’no o‘xshashligi asosida ona tilidan o‘rganilayotgan tilga ongsiz ravishda o‘tishi mavjuddir. Agar siz tarjimadan ataylab foydalansangiz ta’lim jarayonida, keyin bu ongsiz uzatishni ongli ravishda uzatishga aylantiradigan samarali uslubiy texnika hisoblanadi.

R. Popovich tarjimadan foydalaniladigan dars modelini taqdim etgan. Ushbu model tarjimadan oldingi faoliyatni o‘z ichiga oladi, uning maqsadi tarjima va o‘qish qobiliyatlarini birlashtirishdir. Ushbu bosqichda 3 bosqich amalga oshiriladi.

1-bosqich: O‘qituvchi dars mavzusini muhokama qilishni boshlaydi. Keyinchalik, talabalar matndan kalit so‘zlarni ajratib olishadi. O‘qituvchi o‘quvchilar bilmagan so‘zlarni yozadi.

2-bosqich: Talabalar matnni o‘qiydilar va juftlik yoki kichik guruhlarda doskada yozilgan so‘zlardan ekvivalentlarini topishga harakat qiladilar.

3-bosqich: Barcha talabalar natijalarni solishtiradilar. Quyidagi misol, shuningdek, tarjimadan oldingi faoliyatga tegishli bo‘lib, uning maqsadi lug‘at va yozma tilni tarjima bilan birlashtirishdir.

Ikki tildagi so‘z ma’nolari o‘rtasidagi munosabatga qarab quyidagi tarjima qilish mumkin:

- bir so‘z yoki iborada;
- ona tilidagi so‘z ma’nosini izohlash orqali;
- ko‘rgazmali qurollardan foydalanish orqali.

O‘quv jarayonida biz o‘quv tarjimasidan foydalanishning bir nechta variantlarini taklif qilamiz:

1. talabalar uchun chet tilidagi nutqni o‘rgatishda;
2. yangi o‘quv materialini tushunishni nazorat qilishda;
3. talabalarni nutq faoliyati usuli sifatida o‘quv tarjimasining xususiyatlari bilan tanishtirishda;
4. ikki tilli va maxsus lug‘at va ma’lumotnomalardan foydalanishni o‘rganish;
5. lug‘atlardan foydalangan holda va rus tili me’yorlariga rioya qilgan holda rus tiliga tarjima qilishni o‘rganish;
6. ona tilingizga tarjima qilishni o‘rganish.

Xulosa sifatida shuni ta’kidlash joizki, tarjima bu nutq faoliyati turlarini takomillashtirish vositasi ekanligini ko‘rsatadi. Bunda tarjimani tizimli ravishda joriy etish orqali talabalarning o‘qish, nutq va yozish ko‘nikmalarini rivojlantirish va yaxshilash, so‘z boyligini kengaytirish va grammatikasini yaxshilashga yordam berishimiz lozimdir. Tarjima til o‘rganayotgan talabalarga tilning tuzilishini yaxshiroq tushunishga yordam beradi va ularning tarjima qilish qobiliyatini oshiradi. Albatta, ushbu samarali o‘qitish vositasidan ortiqcha foydalanmaslik kerak, lekin shunga qaramay, talabalarga o‘z vaqtida va aniq o‘rganish maqsadi bilan o‘rgatish bilan birlashtirish kerakdir. Jamiyatimizda rus tili o‘rganishning oson va samarali bo‘lishi uchun rus tili o‘qitish texnologiyalari ham o‘z vaqtida rivojlanib kelmoqda deyiladi. Maqola natijasida, rus tilini rivojlantirishda tarjimani o‘rganishning ahamiyati va dunyodagi o‘rni haqida ma’lumotlar berildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Belyayev, B. V. *Ocherki po psikhologii obucheniya inostrannym yazykam*. 2-ye izd. Prosveshcheniye, 1965
2. Brown, H. Douglas. *Principles of Language Learning and Teaching*. 4th ed. Longman, 2002.
3. Malmkjaer, Kirsten. *Translation and Language Teaching*. St Jerome, 1998.
4. McDonough, Jo. «The Teacher as Language Learner: Worlds of Differences?». *ELT Journal*, vol.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 1-son)

FILOLOGIYA

PHILOLOGY

ПРОБЛЕМЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ ИЗУЧЕНИЯ ФРАЗЕОЛОГИИ В СОВРЕМЕННОМ ЯЗЫКОЗНАНИИ

Темирова Фарангис Анваровна
Стажер-преподаватель кафедры «Преподавание языков»
Самаркандский институт экономики и сервиса

Аннотация. Фразеология представляет собой одну из наиболее сложных и одновременно значимых областей лингвистики. В статье рассматриваются ключевые проблемы, связанные с классификацией, семантическим анализом и вариативностью фразеологизмов. Также анализируются современные подходы к исследованию фразеологических единиц, включая текстолингвистические и межкультурные аспекты. Особое внимание уделено перспективам использования цифровых технологий для автоматизированного анализа фразеологии.

Ключевые слова: Фразеология, устойчивые выражения, культурный код, семантический анализ, сопоставительная лингвистика, текстолингвистика, межкультурная коммуникация, классификация фразеологизмов, вариативность, искусственный интеллект.

PROBLEMS AND PROSPECTS OF STUDYING PHRASEOLOGY IN MODERN LINGUISTICS

Abstract. Phraseology is one of the most complex and at the same time significant areas of linguistics. The article examines key issues related to the classification, semantic analysis and variability of phraseological units. It also analyzes modern approaches to the study of phraseological units, including text-linguistic and intercultural aspects. Particular attention is paid to the prospects for using digital technologies for automated analysis of phraseology.

Keywords: Phraseology, set expressions, cultural code, semantic analysis, comparative linguistics, text-linguistics, intercultural communication, classification of phraseological units, variability, artificial intelligence.

Введение. Фразеология, будучи самостоятельной дисциплиной языкознания, изучает устойчивые словосочетания, которые играют важную роль в языковой системе и культурном наследии. Несмотря на значительный прогресс в её изучении, остаётся множество нерешённых вопросов, касающихся как теоретических основ, так и практического применения фразеологических знаний.

Основные проблемы исследования фразеологии

1. Определение объёма и границ фразеологии. Одной из ключевых проблем фразеологии является отсутствие единого подхода к определению её объёма. Исследователи разделяются на сторонников "широкого" и "узкого" подходов. В первом случае фразеология охватывает все устойчивые словосочетания, включая частично переосмысленные выражения. Во втором - только полностью переосмысленные единицы. Такое разночтение затрудняет унификацию терминологии и классификацию фразеологизмов.

На протяжении десятилетий вопрос об объёме фразеологии обсуждался в работах таких учёных, как В.В. Виноградов, Н.М. Шанский и О.С. Ахманова. Их исследования позволили сформулировать несколько подходов, которые до сих пор остаются предметом споров. Например, включение в сферу фразеологии "свободных" словосочетаний остаётся дискуссионным[1]. Такой подход расширяет понимание предмета, но затрудняет создание точных классификаций.

2. Семантическая слитность и вариативность. Семантическая слитность компонентов фразеологизмов остаётся предметом дискуссий. Многие исследователи отмечают, что некоторые фразеологизмы допускают лексическое варьирование, что вызывает вопросы о границе между вариантами и синонимами. Например, выражения "от всей души" и "от всего сердца" могут рассматриваться как дублетные синонимы или вариации одной фразеологической единицы. [2].

Исследования семантической вариативности становятся особенно актуальными в условиях межъязыкового сопоставления. Так, в английском языке фразеологизм "spill the beans" и его русский аналог "выдать секрет" имеют сходные значения, но различаются в метафорической основе, что влияет на их восприятие в речи.

3. Культурный контекст и межъязыковая сопоставимость. Фразеологизмы тесно связаны с культурным кодом народа, что делает их трудными для перевода и анализа в сопоставительном аспекте. Например, многие идиомы на русском языке не имеют прямых аналогов в других языках, что требует глубокого анализа их семантического и культурного содержания.

В контексте межкультурной коммуникации фразеологизмы часто вызывают затруднения. Например, японские идиомы, такие как "猿も木から落ちる" (буквально: "даже обезьяна падает с дерева"), требуют не только перевода, но и пояснения их культурного значения.

4. Методологическая разобщённость. Разнообразие методов исследования фразеологии - от структурного анализа до когнитивного подхода - затрудняет выработку интегративной методологии. Разработанные классификации часто не согласуются друг с другом, что создаёт путаницу в научной терминологии.

Современные подходы к изучению фразеологии

Современная лингвистика активно развивает текстолингвистические, когнитивные и межкультурные аспекты изучения фразеологии. Текстолингвистика рассматривает фразеологизмы как элементы, играющие ключевую роль в создании текста и его восприятии. Когнитивный подход изучает фразеологизмы как средства концептуализации и отражения ментальных моделей мира.

Примером успешного применения когнитивного подхода является анализ метафорических фразеологизмов. Например, идиома "взять быка за рога" демонстрирует стратегию смелого подхода к решению проблем, а её английский эквивалент "take the bull by the horns" подтверждает универсальность этой концепции. [4].

Перспективы исследований

1. Развитие цифровых технологий. Использование технологий искусственного интеллекта открывает новые возможности для автоматизированного анализа фразеологических единиц. Машинное обучение позволяет выявлять устойчивые сочетания в больших текстовых массивах, анализировать их употребление и частотность. Например, современные алгоритмы могут выявлять тенденции в использовании новых фразеологизмов, таких как "быть на хайпе" или "жить в потоке".

Технологии также позволяют создавать интерактивные фразеологические словари, которые учитывают контекстное употребление выражений и их культурные особенности.

2. Сопоставительные исследования. Анализ фразеологизмов в межкультурном аспекте помогает углубить понимание их семантики и выявить универсальные и специфические черты. Особое значение имеют исследования, посвящённые переводу и адаптации фразеологизмов.

Например, в работе над переводом литературных произведений важно учитывать не только смысл фразеологизмов, но и их эмоциональную окраску. Это особенно актуально для произведений с богатым использованием идиоматики, таких как произведения Гоголя или Диккенса.

3. Создание новых словарей. Разработка современных фразеологических словарей, учитывающих вариативность и культурные особенности, остаётся важной задачей. Такие словари могут быть полезны не только для исследователей, но и для преподавателей и переводчиков.

Примером может служить создание билингвальных словарей, которые содержат не только перевод фразеологизмов, но и объяснение их культурных и исторических корней. Такие словари способствуют повышению качества межкультурной коммуникации.

4. Изучение динамики фразообразования. Исследование процессов появления новых фразеологизмов и изменений в существующих единицах позволит глубже понять механизмы языковой эволюции. Например, влияние социальных сетей и массовой культуры приводит к появлению новых устойчивых выражений, таких как "разрыв шаблона" или "зайти за грань".

Современные технологии также позволяют анализировать, как фразеологизмы адаптируются к изменениям в языке. Например, выражение "не в своей тарелке" стало использоваться в переносном значении намного шире благодаря его популяризации в медийной среде.

Заключение. Фразеология остаётся одной из наиболее перспективных областей лингвистики, открывающей новые горизонты для научных исследований. Несмотря на существующие проблемы, развитие технологий и междисциплинарных подходов способствует решению многих задач. Будущее фразеологии связано с интеграцией теоретических и практических знаний, что позволит углубить понимание языка как средства коммуникации и культурного кода.

ЛИТЕРАТУРА

1. Anward, Jan & Linell, Per (1976): Om lexikaliserade fraser i svenskan. In: Nysvenska studier. Tidskrift för svensk stiloch språkforskning 55/56. 1975-1976. Lund: Carl Bloms Boktryckeri. S. 77-119
2. Skog-Södersved, Mariann (2006): Phraseologismen in Überschriften. Am Beispiel der Regionalzeitung Vasabladet. In: Breuer, Ulrich & Hyvärinen, Irma (Hg.): Wörter – Verbindungen. Festschrift für Jarmo Korhonen zum 60. Geburtstag. Frankfurt am Main: Peter Lang. S. 291-300.;
3. Skog-Södersved, Mariann (2008): Phraseologisches in schwedischen Zeitungsüberschriften. In: Szurawitzki, Michael & Schmidt, Christopher M. (Hg.): Interdisziplinäre Germanistik im Schnittpunkt der Kulturen. Festschrift für Dagmar Neuendorf zum 60. Geburtstag. Würzburg: Königshausen & Neumann. S. 259-269.
4. Clausén, Ulla (1993): Idiom och variation. In: Garde, Anna & Jarvad, Pia (Hg.): Nordiske studier i leksikografi II. Rapport fra Konference om Leksikografi i Norden 11.-14. maj 1993. Kopenhagen: Gods Forlag. S. 47-52;
5. Clausén, Ulla (1996): Idiom i bruk. In: Språket lever! Festskrift till Margareta Westman den 27 mars 1996. Falun: ScandBook AB. S. 36-42;
6. Clausén, Ulla (1999): Om pragmatiska fraser i Svensk konstruktionsordbok. In: Slotte, Peter, Westerberg, Pia & Orava, Eva (Hg.): Nordiska studier i lexikografi 4. Rapport från Konferensen om lexikografi i Norden, Esbo 21-24 maj 1997. Helsinki: Nordiska föreningen för lexikografi. S. 27-35;
7. Clausén, Ulla (2005): Om dynamik och variation i svensk fraseologi. In: Spåk och stil 15. S. 53-83.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 1-son)

FILOLOGIYA

PHILOLOGY

BUYUK SHOIR I.YUSUPOVNING SHER’IY MISRALAR TAHLILI

Atashova Feruza Dauletbaevna
Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti
Chet tillar fakulteti ingliz tili va adabiyoti, katta o`qituvchisi
atashovaferuza@gmail.com

Annotatsiya. Ibrayim Yusupovning bosh quroli bo‘lgan she’riyat orqali xalqimiz ruhida, ichki dunyosida halollik, to‘g‘rilik, qardoshlik, do‘stlik, birodarlik, Vatanga muhabbat, mardlik, pok muhabbat, unga sadoqat tuyg‘ularini uyg‘otdi va tarbiyaladi. Uning o‘lmas she’riyati kelajak avlodlarni ham shunday samimiy tuyg‘ular bilan tarbiyalay oladi, deb ishonch bilan ayta olamiz. Shu bois xalqimiz O‘zbekiston Qahramoni, O‘zbekiston va Qoraqalpog‘iston xalq shoiri, ko‘plab nufuzli mukofotlar sohibi Ibrayim Yusupovni buyuk faylasuf va vatanparvar shoir sifatida biladi va qadrlaydi.I.Yusupov she’riyati mavzusi bo‘yicha hayotning barcha sohalarini qamrab oladigan, poetik xususiyati bo‘yicha insonning eng nozik qalb torlarini chertadigan, yurak tebranishlarini, ruhiy iztiroblarini aks ettiradigan ajoyib bir dunyo, poyonsiz dengiz. Shu bois biz I.Yusupov she’riyatining mahoratiga to‘xtalib o‘tamiz.

Kalit so‘zlar; I.Yusupov, she’riyat, Vatan g‘oyasi, farzandlik mehr-muhabbati, hurmat-ehtirom, qoraqalpoqlar, bag‘rikenglik, mehmondo‘stlik.

АНАЛИЗ ПОЭТИЧЕСКИХ СТРОК ВЕЛИКОГО ПОЭТА И. ЮСУПОВА

Аннотация. Через поэзию, являющуюся главным оружием Ибраима Юсупова, он пробудил и воспитал в духе и внутреннем мире нашего народа чувства честности, справедливости, братства, дружбы, товарищества, патриотизма, отваги, чистой любви и преданности ему. Можно с уверенностью сказать, что его бессмертная поэзия сможет воспитать такие же благородные чувства и в будущих поколениях. Поэтому наш народ знает и почитает Героя Узбекистана, народного поэта Узбекистана и Каракалпакстана, обладателя многих почетных наград Ибраима Юсупова как великого философа и поэта-патриота. Поэзия И.Юсупова по тематике охватывает все сферы жизни, по поэтическому свойству - это прекрасный мир, бесконечное море, отражающее самые нежные душевные волнения, душевное потрясение человека. Поэтому мы остановимся на мастерстве поэзии И.Юсупова.

Ключевые слова; И.Юсупов, поэзия, идея Родины, любовь, уважение, каракалпаки, толерантность, гостеприимство

ANALYSIS OF POETRY LINES OF THE GREAT POET I.YUSUPOV

Abstract. Through poetry, which was the main weapon of Ibrayim Yusupov, he awakened and educated in the soul and inner world of our people the feelings of honesty, truthfulness, brotherhood, friendship, brotherhood, love for the Motherland, courage, pure love, and loyalty to it. We can say with confidence that his immortal poetry can educate future generations with such sincere feelings. Therefore, our people know and appreciate Ibrayim Yusupov, the Hero of Uzbekistan, the People's Poet of Uzbekistan and Karakalpakstan, the winner of many prestigious awards, as a great philosopher and patriotic poet. I. Yusupov's poetry is a wonderful world, an endless sea, covering all spheres of life in terms of its subject matter, and touching the most delicate strings of a person's soul in terms of its poetic nature, reflecting the vibrations of the heart and spiritual suffering. Therefore, we will dwell on the mastery of I. Yusupov's poetry.

Keywords: I. Yusupov, poetry, the idea of the Motherland, filial love, respect, Karakalpaks, tolerance, hospitality.

Kirish. Buyuk kishilarning nomlarini tilga olganda, birdan ularning tug‘ilib o‘sgan joyi, el-u yurti yodga tushadi. Chunki ular o‘zlarining buyuk ishlari, xizmatlari bilan o‘z xalqini, yurtini dunyoga tanitgan. Shunday ulug‘ insonlardan biri - Ibroyim Yusupov deganda birdan qoraqalpoq xalqi, Qoraqalpog‘iston o‘lkasi, O‘zbekiston Respublikasi yodga keladi. U o‘zining asosiy quroli bo‘lgan she’riyat orqali xalqimiz ruhida, ichki dunyosida halollik, to‘g‘rilik, qardoshlik, do‘stlik, birodarlik, Vatanga muhabbat, mardlik, pok muhabbat, unga sadoqat tuyg‘ularini uyg‘otdi va tarbiyaladi. Uning o‘lmas she’riyati kelajak avlodlarni ham shunday samimiy tuyg‘ular bilan tarbiyalay oladi, deb ishonch bilan ayta olamiz. Shu bois xalqimiz O‘zbekiston Qahramoni, O‘zbekiston va Qoraqalpog‘iston xalq shoiri, ko‘plab nufuzli mukofotlar sohibi Ibroyim Yusupovni buyuk faylasuf va vatanparvar shoir sifatida biladi va qadrlaydi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. I.Yusupov she’riyati mavzusi bo‘yicha hayotning barcha sohalarini qamrab oladigan, poetik xususiyati bo‘yicha insonning eng nozik qalb torlarini chertadigan, yurak tebranishlari, ruhiy iztiroblarini aks ettiradigan ajoyib bir dunyo, poyonsiz dengiz. Uni bitta maqolada tushuntirish yoki izohlab berish g'oyatda mushkul ish. Shu bois ushbu maqolada I.Yusupov she’riyatining ayrim qirralari va sirlarigagina to‘xtalib o‘tamiz.

Barchamizga ayonki, tug‘ilgan yurt, tabarruk Vatan haqida, tarbiyalab o‘sgan el-yurt, millat haqida yozmagan, kuylamagan shoir yo‘q. Bu mavzuda yozilgan asarlar soni jihatidan ham adabiyotda kamchilik yo‘q. Lekin bu mavzuni har bir shoir o‘zicha kuylaydi, o‘zicha aks ettiradi, lekin, ularning ko‘pchiligi keyingi zamon, keyingi avlodlar talablariga yaramay qoladi. I.Yusupovning Vatan mavzusiga erta, o‘tgan asrning 50-yillari va 60-yillarida yozilgan she’rlari hozir ham o‘quvchilar e’tiborida, hozir ham efirda va sahnada yangraydi. Masalan, uning "Qora tal" (1955), "Kegeyli" (1956), "Tug‘gan yer" (1961), "Vatan" (1963), "O‘zbekiston" (1964) va boshqa she’rlari ta’riflanib, maxsus janrda yozilgan bo‘lsa-da, hali o'z ahamiyatini yo'qotgani

yo‘q. Odatda, maxsus she’rlar kun talabiga javoban yozilib, umri uzoq bo‘lmaydi. Lekin I.Yusupovning kun talabiga yozilgan she’rlari hozir ham oramizda, qalbimizda, tilimizda yashamoqda. Masalan, yuqorida tilga olingan "O‘zbekiston" degan ta’rif she’ri 1964-yilda O‘zbekiston Respublikasi tashkil etilganiga bag‘ishlab yozilgan.

Sáyir etip men sáhár waqta,
Kirdim bir ájayıp baǵqa,
Japıraq jamılıp awlaqta,
Búlbúllerge sır sırlastım,
Samal menen sıbırlastım.

Búlbúl aytar usı bostan,
Meni tarttı azel bastan,
Sol ushın da bir tınbastan,
Sayray-sayray esim keter,
Háwes artar onnan beter.

Sonıńday ájayıp bostan,
Táriyp etip tawsalmaspan,
Perzentim dep qushaq ashqan,
Ózge emes, óz janımsań,
Gózzal Ózbekstanımsań.

Tahlil va natijalar. She'rdagi Vatan g‘oyasini, Vatanga bo‘lgan farzandlik mehr-muhabbati, hurmat-ehtirom tuyg‘ularini boshqa shoirlar ham berishi mumkin. Ammo I.Yusupov she’rida ular boshqacha berilgan. Shunchalik ulug‘ tantana - O‘zbekistonning 40 yillik yubileyiga bag‘ishlangan she’r matniga e’tibor qaratsak, boshqa shoirlar juda ko‘p qo‘llaydigan Vatan, xalq so‘zlari umuman yo‘q, asarning bevosita obyekti bo‘lgan O‘zbekiston so‘zi faqat ikki o‘rinda qo‘llangan. Yuqorida aytilgan Vatan g‘oyasi asosan moddiy tasvirlar va mavhum ma’nodagi metaforik tasvirlar orqali berilgan.

Go‘zal bog‘ - O‘zbekiston timsoli, unga oshiq bo‘lib tinimsiz sayragan bulbul, sahrolardan uzib, quturib esgan, O‘zbekistonga yetib kelganda tinimsiz esgan va sarobga aylangan shamol, mevani uz deb iltijo qilib turgan olma daraxti, sharbatga mast bo‘lib qizargan uzum, sho‘x qora ko‘zini qisgan qovoq, ishq otashida kuygan qizil anor, sarin suvga talpingan anhor, shirin xayollarga talpingan majnuntol, farzandi deb bag‘rini ochgan - O‘zbekiston. Bu she’rning uzoq umr ko‘rish sabablarini ham shu poetik xususiyatlarida deb tushunish mumkin.

Umuman, Vatan mavzusini shovqinli, dabdabali, qizil so‘zlar bilan emas, balki kichik bo‘lakchalar, moddiy tasvirlar bilan ochib berishni qoraqalpoq adabiyotida uslubiy o‘ziga xoslik, uslubiy yo‘nalish sifatida I.Yusupov boshlab berdi. Uning ko‘plab she’rlarida tug‘ilgan joy, Vatan mavzusi o‘zimiz esga olmaydigan, Vatan deb hisoblamaydigan kichik-kichik

belgilar, narsalar, detallar orqali ko‘ngilga jozibali, ko‘ngilga yoqimli qilib kuylangan. Masalan, poshsho torg‘ay, qirg‘ovul, chirillab turgan tirnalar, janubga qarab g‘o‘ng‘illab uchib borayotgan g‘ozlar, chiqayotgan ohakka, shamol bilan chayqatilgan mahobatli qorag‘atol, qo‘llarini yoyib yotgan saksovul, sarg‘aygan sahro va hokazo jonli, jonsiz narsalarning har biriga shoir bir necha she'rlar bag‘ishlagan.

Bunga shoirning "Qora tol," "Seksovul," "Chegirtkaning ko‘zlari," "Poshsha to‘rg‘ayga," "Qirg‘ovul," "Boyvuchchaga," "Tirnoqlar," "Qo‘ng‘ir g‘oz," "Keksalar," "Cho‘kma," "Qoraqalpoq haqida so‘z" va boshqa she’rlarini misol qilib keltirish mumkin. Bu she’rlarning har biri ko‘z ilg‘amas detallar orqali ulug‘ Vatan g‘oyasini aks ettiradi, shoirning shirali tili bilan yurakka juda yoqimli, juda mehribon bo‘lib tuyuladi. Ushbu detallarning barchasini jamlaganda ulug‘ Vatan tushunchasi paydo bo‘ladi, turli ranglarga ega mozaika usulida ishlangan Vatan tasviri namoyon bo‘ladi. Shoir Vatan mavzusini kuylashning bunday yangi uslubini qoraqalpoq adabiyotida birinchilardan bo‘lib shakllantirdi.

Vatan mavzusini shunday bir motiv, bir detal bilan olib chiqish, uni mayda bo‘laklarga bo‘lib kuylash, so‘ngra ularni qo‘shib yaxlit Vatan tushunchasini hosil qilish qoraqalpoq adabiyotida katta poetik yangilik bo‘ldi. I.Yusupovning bu poetik yangiligi keyinchalik adabiy an’anaga aylanib, shoirlar U.Xojanazarov, U.Pirjanov, Sh.Seytov, K.Raxmanov, T.Sarsenbayev, K.Karimov, B.Genjemuratovlar she’riyatida davom ettirildi.

I.Yusupovning ko‘plab asarlarida xalq va millat mavzusi, milliy xarakterning o‘ziga xosligi va uning umuminsoniy me’yorlar bilan uyg‘unligi mahorat bilan aks ettirilgan. Bu mavzudagi she’rlarida shoir qoraqalpoq xalqining xalqchilligini, bag‘rikengligini, mehmondo‘stligini tarannum etadi. Bunday belgilar, xususiyatlar boshqa xalqlarda ham bor, albatta. Lekin qoraqalpoqlarning bag‘rikengligi, mehmondo‘stligi har qanday mezonlardan oshib tushadi:

Bizde sóz bar: miyman-ırıs bereket,
Qonaq kútiw – ziyneti hár adamnıń,
Eger úyge bes kún qonaq kelmese,
Shayı qonbas meniń bayǵus anamnıń.
«Kúnshıǵıs jolawshısına»

Qonaq kórseń quwjınlap,
Suwǵa kirgen balıqsań..
«Begligińdi buzba sen»

Jalǵız atın soyıp berip qonaqqa,
Jayaw qalıp bul xalıq talay tarıqqan.
«Qaraqalpaqtı kóp maqtama kózimshe»

I.Yusupov faqat Vatan, el-yurt, millat kabi siyosiy-ijtimoiy yo‘nalishdagi ulkan tushunchalarni aks ettirish bilan cheklanib qolmasdan, insonning ko‘ngli, qalb dardlarini, qalb to‘rida yotgan eng sirli, eng samimiy his-tuyg‘ularni ham kuyladi. Bu - muhabbat tuyg‘ulari. I.Yusupov - tom ma’noda pok muhabbat kuychisi. Uning lirik qahramoni o‘z mashuqasini chin ko‘ngildan sevadigan, uning muhabbatida kuyib va yonadigan beg‘ubor, sadoqatli muhabbat sohibidir.

Bir qayrılıp baqpadıń, shadlanıp kúle almadım,
Basta dáwranım turıp, dáwran súre almadım.
Sen júre aldıń mensiz basqalar menen shaǵlap,
Sensiz basqalar menen men shaǵlap júre almadım.
«Báhár hám sen»

Jalbarınıp men tabınsam,
Muhabbatqa tabınaman,
Sen qol jetpes ármanımsan,
Seni bárhá saǵınaman
«Saǵınısh»

Lirik qahramonning muhabbati aqliy chegaralardan chetga chiqqan, aqlsiz, yuksiz muhabbat emas, balki tabiiy ishqiy his-tuyg‘ularni xalqning ming yillar davomida shakllantirgan axloqiy tajribalariga solib insoniylashtirilgan nasliy his-tuyg‘ulardir.

Shoir lirikasida muhabbatning turli holatlari, hayotiy motivlari kuzatiladi: ilk iliq his-tuyg‘ular, shirin uchrashuvlar, sog‘inch, ayriliq, pushaymon, javobsiz muhabbat, rashk kabi sevgan qalbga xos turli his-tuyg‘ular beriladi. Bu fikrlarga asos sifatida shoirning "Sog‘inch", "Bulutlar ko‘p tunagan oskor tog‘larning", "Chintlab sevgan ko‘ngil aslo esmas", "Anor gulladi", "Mening yigit vaqtim, sening qiz vaqting", "Bahor va sen", "Ko‘ngil osmonimda yulduzlar so‘ndi", "Sog‘inch", "Gullar tushunmas" va h.k. she'rlarini keltirish mumkin.

I.Yusupovning lirik qahramoni tarixiy, ijtimoiy, hayotiy o‘zgarishlarga, islohotlarga befarq qaramaydi, ularga o‘zining tarixiy, axloqiy, ijtimoiy mazmundagi munosabatini bildirib boradi. Bu o‘zgarishlarni u xalqning axloqiy-etik mezonlari, tushunchalari bilan baholaydi. Shoirning fikricha, har qanday ijtimoiy tuzum, siyosiy-iqtisodiy o‘zgarishlar, islohotlar inson manfaatiga, uning hayotiy va ma’naviy ehtiyojlariga xizmat qilishi lozim.

Bu yo‘nalishdagi asarlaridan "Monokultura haqida she’r", "Anemiya", "Orol elegiyalari", "Qayta qurishning ballariga", "Vijdon monologi" va boshqa ko‘plab she’rlarni keltirish mumkin. Ularda shoir iqtisodiy siyosatning, ishlab chiqarish munosabatlarining, xo‘jalik yuritish usullarining noto‘g‘ri olib borilishi oqibatida yuzaga kelgan ijtimoiy murakkab holatlarni yuksak shoirona iste’dod bilan ochib beradi.

I.Yusupovning she’riy davrining yangi nafasini, borayotgan yo‘nalishida har qanday e’tiborli o‘zgarishlar, yangiliklar shoir e’tiboridan chetda qolmagan. U O‘zbekiston mustaqilligini, Qoraqalpog‘iston suverenitetini katta quvonch, chuqur qalb tuyg‘ulari, baland

ovoz bilan kuyladi. Masalan, "Qoraqalpog‘iston Respublikasi madhiyasi", "Prezident", "Ikki so‘z", "Mustaqillik maydonidan o‘tganda", "Sahro guli" she'rlarida istiqlol tongiga, istiqlol quyoshiga suyangan insonning quvonchli tuyg‘ulari bilan birga qiyinchilik tomonlari, ya’ni eski jamiyatdan yangi jamiyatga o‘tish davri bo‘ldi. Mana shu o‘tish davrining qiyinchiliklarini I.Yusupov yashirib o‘tirmay, ochiq-oydin aytdi.

Yangi zamonning go‘zalligi, uning g‘adir-budur joylari shoirning yuqorida aytilgan she’rlaridan tashqari "Begligingni buzma sen", "Tadbirkorlarga", "Qishloqda kech", "Har kimning o‘z vaqti bor", "Bozor yo‘lida" va boshqa asarlarida aks etgan.

I.Yusupov teran fikrlarni, g‘oyalarni, hayotiy o‘tkir masalalarni estetik, emotsional va ekspressiv tuyg‘ular bilan, ta’sirchan, o‘tkir qilib bera oladigan mohir shoir. Uning she’rlaridagi so‘zlar mavzu mazmuniga ko‘ra qat’iy tanlangan. Shu bois uning she’rlari na bir so‘zi, na bir tovushi ajratib olinmaydigan, hatto so‘zlarni birlashtirgan choki bilinmaydigan quyma satrlar bo‘lib keladi. U satrlarning boshqa variantlarini yaratish qiyin. Bir misol:

Adamnıń bir parası bar:
Oqımay-aq sanası bar.
Ot jaqqıshtan dana shıǵar,
Sózge qulaq túre-túre.
Qalawın tapsań qar janar,
Júysiz ursań balta sınar,
Jigit jaslay dilwar bolar,
Májiliske kire-kire.
Dúnya quwǵan bayır óter,
El qıdırǵan sayıl óter,
Iz qaldırıp shayır óter,
Sóz marjanın tere-tere.

«Xalıq sózleri»

Xalq temuriylari va Maxtumquli, Ajiniyoz shoirlari namunasi bilan yozilgan bu she’rning har juft satri aforizmlarga, ya’ni hikmatli so‘zlarga aylanib ketgan; ularni xalq yodlab yuradi, ulardan bir so‘zni olib tashlash yoki ularga bir so‘z qo‘shish, bir so‘zni boshqa bir so‘z bilan almashtirish mohir zargar to‘qigan ajoyib uzukning qoshini qoqish bilan barobar bo‘lardi.

She'rning mavzusi, g‘oyasini bir motiv bilan olib chiqish I.Yusupovning she’riy mahoratining bir qirra ekanligi yuqorida misollar bilan aytib o‘tildi.

Agarda I.Yusupovning she’riyatini faqat milliy folklor, milliy mumtoz san’at an’analari doirasida tahlil qilsak va baholasak, u holda u qal’ada faqat bir bobni kuylab, uy ichiga san’at bag‘ishlab turuvchi dekorativ qushga o‘xshab qolardi. Shu bois I.Yusupovning she’riy mahoratini, ulug‘vorligini anglash uchun uni jahon adabiyoti kontekstida qarash va baholash kerak bo‘ladi. Uning she’riyatini har tomonlama sinchiklab o‘rganilsa ham Sharq she’riyatining, ham G‘arb she’riyatining yoqimli ruhi, xushbo‘y hidini sezish mumkin.

Shoir she’riyatida Umar Xayyomning poetik falsafasini, Nizomiy, Sa’diy, Hofizning badiiy izlarini, ayniqsa, g‘azal mulkining sultoni Alisher Navoiyning g‘azal bobidagi, I.Yusupovning o‘zi ta’biri bilan aytganda, "she'rning xudosi Maxtumquli"ning, shuningdek, Ajiniyoz, Berdaq va Abayning she’r janri bobidagi ustozlik, maktabchilik faoliyatini anglash mumkin.

Shu bilan birga I.Yusupov o‘z zamonasidagi mashhur shoir va yozuvchilar Rasul Gamzatov, Chingiz Aytmatov, David Qo‘g‘ultinov, Qaysin Quliyev, Zulfiya, Rimma Kazakova, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov va boshqalar bilan do‘stlik, qardoshlik, ijod, ustoz va shogirdlik bobida yaqindan muloqotda bo‘ldi. Ular bir-birlaridan ijod sirlarini o‘rganib, namuna oldilar. Shoir ularning har biriga do‘stlik, qardoshlik, shogirdlik, birodarlik tuyg‘ulariga to‘la she’rlar bag‘ishladi. Masalan, "Navoiyga," "Maxtumqulining yo‘liga," "Men Abayni yod bilgan xalqman," "Ayt, sen Ajiniyoz she’rlaridan," "Berdaqqa," "Aleksandr Pushkinga," "Blokni o‘qiganda," "Anna Axmatovani o‘qiganda," "Rasul Hamzatov xotirasiga," "Qizing go‘zal bo‘lsin, shoira bo‘lsin" (Zulfiyaga bag‘ishlangan) va hokazo she’rlar bu so‘zimizning isbotidir.

Buyuk rus tanqidchisi V.G.Belinskiyning aytishicha, A.S.Pushkinning ulug‘vorligi shundaki, u o‘zidan oldingi va o‘z zamondoshlari shoirlaridan ko‘p narsalarni oldi va ularni qayta ishlab o‘zlariniki qilib yubordi. Ayniqsa, I.Yusupovning ham shoirlik ulug‘vorligi shundaki, u Sharq va G‘arbning ko‘plab e’tiborli shoirlaridan ko‘p narsalarni oldi va qoraqalpoq she’riyatiga qorishtirib yubordi, qoraqalpoq adabiyotini boyitdi, qoraqalpoq she’riyatini rivojlangan zamonaviy she’riyat darajasiga ko‘tardi. Uning shoirona ulug‘vorligi ham shunda deb tushunsa bo‘ladi.

Xulosa qilib aytganda, I.Yusupov o‘zining shoirlik iste’dodini asrab-avayladi, uni xudo bergan taqdir deb bildi, shoirlik yo‘lini buzmay umrining oxirigacha ehtirom bilan ijro etdi. "Haqiqiy shoirning ikki umri bor, biri uning ko‘zi tiriklikdagi hayoti, ikkinchisi o‘lgandan keyingi hayoti" degan gap bor. Birinchi umr hamma shoirlarga tegishli, ikkinchi umr she’riyati asrlar davomida yashaydigan alohida iste’dodli shoirlarga tegishli. I.Yusupov umri bino bo‘lib eng ko‘p o‘qiladigan, kitoblari eng ko‘p o‘qiladigan, odamlar izlab yuradigan hosildor mulkka, xalqimizning bebaho ma’naviy xazinasiga aylandi.

Chunki I.Yusupovning she’riyatini odamlar ko‘ngil ermagi, hordiq uchun o‘qimaydi, balki undan jon ozuqasini olib, ruhan nurafshon bo‘ladi, sermahsul tuyg‘ularga bo‘linadi, o‘zini qiynayotgan savollarga ishonchli javoblar topadi.

I.Yusupov o‘z xalqini cheksiz sevardi, xalq ham uni ardoqlardi. Shoir xalqdan bitmas-tuganmas kuch-quvvat, ilhom, toshqin yosh oldi, xalq shoirdan ko‘ngil ozuqasini oldi, ma’naviy boylik oldi. Shu bois I.Yusupov xalq shoiri bo‘lib umrbod yashaydi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1.I.Yusupov:Tumaris ham basqa poemalar, “Qaraqalpaqstan” baspasi,Nokis-1974

2. I.Yusupov:Baxit lirikasi, qosiqlar, “Qaraqalpaqstan” baspasi, 1955

3.I.Yusupov:Begligin`di buzba sen,qosiqlar, “Qaraqalpaqstan” baspasi, 1995
4. I.Yusupov:Tan`lamali shig`armalari, I-tom
5. I.Yusupov:Tan`lamali shig`armalari, II-tom
6. I.Yusupov:Tan`lamali shig`armalari, III-tom
7.D.Paxratdinov: I.Yusupov to`rtlikleri, Nokis-2005
8. D.Paxratdinov:Ayaziy (I.Yusupov lirikasin ko`rkem tallaw) No`kis-2023

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 1-son)

FILOLOGIYA

PHILOLOGY

TA’LIM TIZIMIGA GERMINEVTIK YONDASHUVNI TATBIQ ETISHNING O‘ZIGA XOSLIKLARI

Kaziyeva Turg`unoy Tursunboyevna
Andijon davlat pedagogika instituti
Maktabgacha ta`lim metodikasi kafedrasi mudiri
p.f.d dots.

Annotatsiya: Ushbu maqolada germinevtikaga oid ma`lumotlar va islohotlar yoritilgn bo`lib, aynan germinevtikaning tafakkur rivojlanishidagi muhim bo`lgan ahamiyati to`la yoritilgan. Ta`lim tizimiga germinevik yondashuvni tatbiq etish va yangi bilimlarni kashf etishda germinevtik yo`nalishmi tanlashning o`ziga xosliklari yoritilgan.

Kalit so`zlar: Germinevtika, falsafa, tarix, lug‘atshunoslik, tafakkur, ong, adabiyot, tahlil, tavsir, sharq, uyg‘onish davri, kreativlik. kompitentlik.

O`zbekistonda yangi uyg‘onish - Uchinchi Renessans davri boshlandi. Barcha sohalarda kundan kunga yangi yutuqlar va yangi imkoniyatlarning paydo bo`lishi hamda kundan - kunga rivojlanishning jadallashuvi buning yaqqol isbotidir. Mamlakatda ta`lim sifatini, uni jamiyatda kechayotgan islohotlardagi o‘rni va ishtirokini ta`minlamay turib, taraqqiyotga yuz tutish mushkul. Shu ma`noda yurtimizda xalqaro talablarga javob beradigan oliy ta`lim tizimini yaratish bo‘yicha keng qamrovli ishlar amalga oshirilmoqda.

Respublikamiz ta`lim sohasidagi islohotlar ta`lim-tarbiyaning samarali omillaridan keng ko‘lamda foydalanish, bu jarayon qatnashchilari orasida ongli hamkorlik munosabatlarini yo‘lga qo‘yish, milliy merosimidan unumli foydalanishni taqozo etadi. Shu ma`noda germenevtikaga daxldor barcha bilimlar bizga asqotadi.

Germenevtika bu qadimiyligi sababli asl ma`nosi tushunarsiz bo‘lgan matnlarni tushunish, va talqin qilishni o‘rganuvchi san`at hisoblanadi. Yunonchadan olingan ushbu so‘z “ tushunishish va tushuntirish o`qituvchisi “ deb ham talqin qilinadi.

Ta'lim tizimiga germenevtik yondashuvni tatbiq etish — bu ta'lim jarayonini tushunish, talaba va o'qituvchi o‘rtasidagi muloqotni yaxshilash va bilimlarni aniq, chuqur tushunish maqsadida amalga oshirilgan yondashuvdir. Germenevtika — bu matn va nutqni tushunish, talqin qilish ilmidir, shuningdek, tarixiy va madaniy kontekstda ma'nolarni anglashni nazarda tutadi. Germenevtik yondashuv ta'lim tizimiga bir qancha o‘ziga xosliklarni olib kiradi.

Germenevtik yondashuvning ta'lim tizimiga tatbiq etilishining ba'zi o‘ziga xosliklari quyidagilarda o‘z aksini topadi

1. Talabalar bilan faol muloqot: Germenevtik yondashuvda o‘qituvchilar va talabalar o‘rtasidagi muloqotning ahamiyati katta. Bu yondashuvda o‘qituvchi talabalar bilan fikr almashish, savol berish va javob olish, shuningdek, talabalarning fikrlash jarayonini qo‘llab-quvvatlash orqali bilimlarni chuqurroq tushunishga erishishga harakat qiladi.

2. Kontekstual tushunish: Germenevtik yondashuvda har bir bilimni o‘rganishda kontekstning ahamiyati katta. Talabalar faqat biror mavzu yoki darsni o‘rganib qolmay, balki uni ijtimoiy, madaniy va tarixiy kontekstda tushunishga harakat qiladilar. Bu yondashuv talabalarning bilimlarni chuqurroq anglashiga yordam beradi.

3. Interaktiv o‘qitish metodlari: Germenevtika talqin va muhokama jarayoniga asoslangan yondashuvni o‘z ichiga oladi. Shuning uchun, ta'lim jarayonida interaktiv metodlar, masalan, guruh ishlar, rolli o‘yinlar, diskussiyalar va boshqalar qo‘llaniladi. Bu talabalarning fikrini rivojlantiradi va mustahkam bilimlarni shakllantirishga yordam beradi.

4. Talabaning faolligi: Germenevtik yondashuv talabaning o‘z bilimlarini yaratishdagi faolligini qo‘llab-quvvatlaydi. Bu, talaba o‘rgangan ma'lumotni passiv ravishda qabul qilishdan ko‘ra, uni aktiv ravishda tahlil qilish, so‘rovlar bilan yordam olish va o‘z tushunchalarini rivojlantirish jarayonini o‘z ichiga oladi.

5. Shaxsiy talqin: Germenevtik yondashuv talabalarga o‘zlarining bilimlarini va tushunchalarini yaratishda erkinlik beradi. Har bir talaba o‘zining shaxsiy tajribalari, bilimlari va qarashlari asosida biror mavzuni talqin qilishi mumkin. Bu individual yondashuv o‘qitish jarayonini yanada samarali qiladi.

6. Bilimlarni o‘zlashtirishning chuqurligi: Germenevtik yondashuv faqat yuzaki bilimlarni o‘rganish emas, balki ularni chuqurroq anglashni nazarda tutadi. Bu metod talabalarga o‘rganilayotgan mavzuni bir necha qirralari bilan o‘rganish imkonini beradi, masalan, mavzuni tarixiy, madaniy va falsafiy jihatlardan yoritish.

7. Tushuncha va qiyoslash: Germenevtik yondashuvda talaba o‘rganilayotgan kontseptlarni bir-biriga qiyoslab, tushunishga harakat qiladi. Bu jarayon, ilgari o‘rgangan ma'lumotlar asosida yangi bilimlarni o‘zlashtirishga yordam beradi.

Ta'lim tizimiga germenevtik yondashuvni tatbiq etish talabalarning fikrlash, anglash va talqin qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan. Bu metod orqali ta'lim jarayoni yanada interaktiv va shaxsiylashtirilgan bo‘lib, talabalar faolligini oshirish va bilimlarni chuqurroq tushunishni ta'minlaydi. Bugunning germinevtikasi aynan bugungi talablarga moslashadi. Bugungi yosh avlod har tomonlama mukammallika intilar ekan, yangicha dunyoqarash bilan birgalikda tarixiy obidalardan ham foydalanish va yangicha usulda ularni tatbiq qilish aynan germinevtikaning rivoji uchun hizmat qilmoqda.

Masalan, tibbiyot sohasini olaylik bundan necha asrlar avval yozilgan buyuk ajdodimiz Abu Ali Ibn Sinoning mashhur “ Tib Qonunlari” asari ham bugungi kunda yanada chuqurroq o‘rganilib, yangidan yangi bilimlarni ochilishiga va tibbiyot sohasidagi ulkan yutuqlarga zamin yaratishiga yo‘l ochmoqda.

Aksariyat manbalarda matnni tahlil qilish nazariyasi sifatida e`tirof etiladigan germinevtika , tom ma`noda juda keng doirada qo‘llanuvchi sohalar aro ta`limotdir. Chunki, ma`noni talqin qilish, tushunish, tushuntirish, izohlash, sharxlash kabi hodisalar falsafa, tarix, psixologiya, filologiya, san`atshunoslik, huquqshunoslik kabi fanlarning asosini tashkil qiladi. Germinevtika talabaning tafakkurini rivojlantiruvchi asosiy omil hisoblanadi. G‘arb mutafakkiri Gadamerning fikriga ko‘ra germinevtika haqiqiy tushunishning mahsuldor munosabatidir. Bu bilan tarixni bevosita tushunish jarayonini yengillashtiradi. Tarixshunos bir muallif asarini o‘rganar, tarixiy hodisani talqin qilar ekan, o‘rganuvchining tasavvuri, mulohazalari doimo asar mazmunini, ruhiyatini aynan aks ettiradi va tafakkurini yanada rivojlantiradi.

Badiiy asarlarni ilmiy tahlilida ham germinevtikaning ahamiyati kattadir. Germenevtika tushunilishi og‘ir bo‘lgan biror badiiy asar matnini anglash kechimi, ruhoniy butunlikning betakror qismlarda ifodalanish yo‘sinini tushunishdan iborat.

Ilmiy manbalarda hermenevtikaning umumiy va maxsus singari ikki ko‘rinishi borligi qayd qilinadi. Umumiy hermenevtika «Injil»ning butun matnini izohlash qoidalarini o‘rganish bilan shug‘ullanadi.U tarixiy-madaniy, sintaktik va ilohiy sharhlarni o‘z ichiga oladi. Maxsus hermenevtika esa rivoyat, majoz, timsol singari konkret janrlarni sharhlashda qo‘llaniladigan qoidalarni o‘rganadi.

Germenevtika metodologiyasi hozirda barcha jamiyatlarning boshqaruv bo‘g‘inlarida ham qo‘llaniladi. Bu istiloh avvalda muqaddas diniy kitoblarning matnini o‘rganar va tushuntirar edi. Tafsir va ta’vil, buyuk mutafakkirlarimizning asarlariga sharhlar bizning eng katta ma’naviy boyligimizdir. Shunday ekan bugungi kunda yoshlarimizni tafakkurini rivojlantirishda germinevtikani yo‘lga qo‘yish orqali milliy me`rosimizni o`rganib, hayotga yorqin tatqiq qilish lozimdir.

Germenevtikani talqin qilish va tushunish usullariga murojaat qilish zarurati tarixchi-tadqiqotchining, birinchi navbatda, har xil turdagi matnlar bilan ishlashi bilan izohlanadi. Tushunish doirasining kengayishi germenevtik doiraning to‘rtinchi ishtirokchisi - potentsial o‘quvchi-talabalar o‘rtasida amalga oshadi va talabalar orqali o‘tadi, u kitob haqida ma'lumotni birinchi o‘qituvchining og‘zaki yoki reklama tasviri orqali oladi. Birinchi o‘quvchining ma'nolari ikkinchi o‘quvchining tegishli ma'nolarini o‘z ichiga oladi. Shunday qilib, biz germenevtik doirani yangi tushuncha orbitasiga olib boradigan ushbu to‘rtinchi ishtirokchi orqali “ ma’no birligini kengaytiruvchi konsentrik doiralar” haqida gapirishimiz mumkin bo‘ladi. Bu esa fanda gadamer taktikasi deyiladi. Aynan gadamer taktikasini adabiyotga yo`naltirish orqali esa o‘quvchilarda adabiyotga bo‘lgan qiziqishni yanada orttirish va bugungi kundagi davlat siyosati darajasiga aylangan kitobxonlikni ommaviy targ‘ibot qilishga eishish mumkin.

Adabiyot va jamiyat, adabiy asar va jamoatchilik o‘rtasidagi munosabatlarni o‘rganish asarning maqsadini ham, ularni tushunishni ham oldindan belgilab beruvchi janrni kutish ufqini qayta yaratishga qodir bo‘lgan darajada sotsiologik va psixologik soddalashtirishlardan qochish

imkonini beradi. Kitobxonlar tomonidan taqdim etiladi va shu orqali ularni u yoki bu tarixiy vaziyatni avvalgi dolzarbligi bilan tushunishga undaydi.

Germinevtikada talaba tushunchani boshlang‘ich sifatida emas, o‘z ma’nosini faqat uzoq oxirida, to‘la rivojlangan milliy adabiyotda oladi, balki o‘ziga xos ma’noga ega bo‘lgan boshlang‘ich sifatida o‘rta asrlar adabiyoti yana o‘zgarmas paradigmaga aylanishi mumkin, chunki u xalq tillarida shakllanayotgan avtonom harakatning namoyon bo‘lishi, uning arxaik janrlari ham ideal, ham yopiq hayot haqiqatidan dalolat beradi. Tarixiy dunyo bizga muloqotning ijtimoiy (ozodlashtiruvchi yoki himoya qiluvchi) va ijodiy roli, har qanday adabiy faoliyatning roli ma'lum bir yangi nuqtai nazardan o‘zini namoyon qiladigan birlamchi tuzilmalarni ochadi.

Klassik germenevtikada ularni tahlil qilish va talqin qilish uchun ushbu matnlarning ma’nosini ochib berishning ko'plab umumiy va maxsus texnikasi va usullari ishlab chiqilgan bo‘lib, shuning uchun ularni talqin qilish va tushunish bir qancha yangiliklarni fanga olib kirmoqda. Bu metod jamiyatning boshqaruv tizimida musulmon mamlakatlarida katta o‘rin tutadi. Tafsir va ta’vil, buyuk mutafakkirlarimizning asarlariga sharhlar bizning eng katta ma’naviy boyligimizdir. Ayniqsa, Alisher Navoiy asarlari, Imom Buxoriy hadislarini taxlili orqali halgan maqsad esa aynan mamlakatimiz kelajagiga munosib hissa qo1shish bilan birgalikda, hali aniqlanmagan, hali sayqal berilmagan, hali tamomila o‘rganilib ulgurmagan hodir qo`lyozma me’rosimizdan unumli foydalangan holda ta`lim-tarbiya sohasida bir qancha yutuqlarga erishishdir.

Talabalarni fikrlashga, tinimsiz o‘z ustida izlanishga undovchi kuch bo‘lgan o‘quvchiga tanish bo‘lmagan yangidan yangi bilimlarni ham aynan germinevtikaga asoslangan holda anglashimiz va yangicha tushuncha va bilimlarni keng jamoatchilikka yoyishga erishishimiz mumkin. Vaholanki, G‘arbda Gadamerga davriga kelib germenevtika to‘la ratsionallashdi.

Gadamerga kelsak, haqiqiy tushunish mahsuldor munosabatdir. Bu bilan tarixni bevosita tushunish jarayonini yengillashtiradi. Tarixshunos bir muallif asarini o‘rganar, tarixiy hodisani talqin qilar ekan, o‘rganuvchining tasavvuri, mulohazalari doimo asar mazmunini, ruhiyatini aynan aks ettira olmaydi, degan xulosaga keladi (Istina i metod. M. 1988. Str.304).

Falsafiy germenevtika Forobiyning aktsidentsiyalarning ko‘chish qonunida ham bor. “Rasoil ul-xukamo” ta’kidlashicha, tushunishdan avval anglash keladi. Buni zamondoshlarimiz E. Betti, Gadamer germenevtika va uning sferalari to‘g‘risidagi ta’limotlarida endigina ta’kidlashdi. Gadamerning matnlarni qismlarga bo‘lib o‘rganish to‘g‘risidagi ta’limoti to‘g‘risida ham fikrimiz shunday. Bu metodning ham tajribadan o‘tgan usuli aslida bizda mavjuddir.

Misol qilib aytadigan bo‘lsak, Qur`oni-Karim suralarini oyatma-oyat o`rganish tavsirini tahlil qilish, hadislardagi asl ma`noni anglash va tahlil qilish ham bugungi kundagi germinevtikaning tub ildizlari hisoblanadi va o‘quvchidan faqatgina tafakkur qilishni talab qiladi.

G`arbda ilm-fandagi nufuzingiz unvon va daraja bilan belgilanmaydi va bu to‘g‘ri deb o‘ylayman. Kechagina doktorlik dissertatsiyasini yoqlagan bo‘lsangiz ham o‘z ustingizda ishlashda davom etmasangiz –tadqiqotlarda qatnashmasangiz , maqolalar yozmasangiz , ilmiy jurnallarda chiqish qilmasangiz ilmiy salohiyatingiz ko‘tarilmaydi. Germinevtikaning ham ilm-fan salohiyatini ko`tarishdagi ahamiyati ham juda kattadir. Ya`ni aynan germinevtikaga asoslanib, adabiyotlardan yangicha bilimlarni tafakkur qilish orqaligina yangi bilimlar, ihtirolarga yo‘l ochiladi. Bu esa Germinevtikaning bugungi kundagi naqadar dolzarbligi va yangi innovatsiyalar asosi ekanligidan darak bermoqda.

Ta’lim, fan va izlanish chegara bilmaydi, balki eng yangi bilim va ko‘nikmalarni ulashish orqali insoniyatni taraqqiyotga yetaklaydi, bir necha xalqlar taqdiriga daxldor bo‘lgan muammolarga birgalikda yechim topish orqali mamlakatlar o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlik aloqalari ham mustahkamlanmoqda. Bunda ilm-fan rivoji uchun boshqa mamlakatlarning adabiyotlari va milliy meroslarini o‘rganish va chet el adabiyotlarini o‘zimizga qiyoslab tahlil qilish orqali yuqori natijalarga erishish mumkin. Aynan germinevtika tafakkurni boyitish va ta’limni yuqori samaradorlikka olib chiqishda bizga dasturul amal bo‘lib hizmat qiladi.

Narsa-hodisalar mohiyatini tushunish va tushuntirish fan oldida turgan eng asosiy vazifalardan biri ekan, germenevtik tadqiqotlar mohiyatini o‘rganish ma’naviy – ma’rifiy tarbiya sohasida muhim ahamiyat kasb etadi. Germenevtik metodologiya asosida ijtimoiy-siyosiy hodisalar mazmunini talqin qilish, ular mohiyatini tushunish mustaqil bo‘lganiga ko‘p bo‘lmagan O‘zbekiston tarixi, milliy merosi, tafakkur uslubi va dunyoqarashidagi o‘zgarishlarni chuqur tahlil etish va shu asosda ularga mustaqil munosabatni shakllantirish imkonini beradi. Global o‘zgarishlar, axborot oqimi ko‘lami oshayotgan bir paytda, milliy qadriyatlar mazmunini tushunish bilan birga, o‘zga madaniyatlarni ham anglash davr talabidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Diltey V. Vvedeniye v nauku o duxe / Sobr. soch.: V 6 t. t.1.-M.: 2000.

2. Diltey. V. Germenevtika i teoriya literaturi. Sobr. soch. v 6 t. — M.: Dom intellektualnoy knigi, 2001. - T. 4.

3. Jabborov Sh. Germenevtika – tushuntirish san’ati. –Toshkent: Akademiya, 2010.

4. Jabborov Sh., Abdushukurov B. Sharq germenevtikasining o‘ziga xos xususiyatlari. – Toshkent: Akademiya, 2013.

5. Jahon falsafasi tarixidan lavhalar / Nazarov Q. tahriri ostida. -Toshkent: Sharq, 2005.

6. Jumaniyozov R. Ta’lim, tarbiya, tafakkur, taraqqiyot. –Toshkent: Abu Matbuot-konsalt, 2015.

7. Jo‘rayev N. Tarix falsafasining nazariy asoslari. -Toshkent: Ma’naviyat, 2008.

8. Jervolino D. Paul Ricouer: une hermeneutique de la condition humaine / D. Jervolino. P., 2003.

9. Izer V. Akt chteniya. –M.: Nauka, 2006.

10. Izer V. Problema perevodimosti: germenevtika i sovremennoye gumanitarnoye znaniye: Leksii, prochitanniye na filologicheskom fakultete Moskovskogo universiteta. Per. s angl. -M.: 2009.

11. www.wikislovar.ru

12. http://www.philosophypages.com/dy/

13. http://www.seop.leeds.ac.uk/entries/husserl/

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 1-son)

FILOLOGIYA

PHILOLOGY

BINO-INSHOAT VA QURILISH ISHI ATAMALARINING RUS, O‘ZBEK VA INGLIZ TILLARIDAGI TUZILMAVIY TARKIBI VA YASALISH USULLARI

Madina Nosirovna Musurmankulova
(PhD), dotsent, Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
Rus tili va adabiyoti kafedrasi mudiri

Annotatsiya Mazkur ilmiy ish bino-inshoat va qurilish ishlariga oid atamalarning rus, o‘zbek hamda ingliz tillaridagi tuzilma va yasalish usullarini qiyosiy tahlil qilishga bag‘ishlangan. Unda terminshunoslik nazariyasi asosida so‘z yasash usullari, qisqartmalar, kompozitsiya, kalkalash hamda o‘zlashma terminlarning shakllanishi o‘rganilgan. Shuningdek, ushbu terminlarni unifikatsiya qilish va xalqaro standartlar (ISO, ГОСТ, ASTM) doirasida to‘g‘ri qo‘llash masalalariga ham e’tibor qaratilgan. Tadqiqot natijalari qurilish sohasiga oid ilmiy-texnik matnlarni soddalashtirish, xalqaro loyihalarda terminlarni aniq qo‘llash va tarjima jarayonini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: bino-inshoat, qurilish, terminshunoslik, rus, o‘zbek, ingliz tillari, so‘z yasalishi, unifikatsiya, xalqaro standartlar

СТРУКТУРНЫЙ СОСТАВ И СПОСОБЫ ОБРАЗОВАНИЯ СТРОИТЕЛЬНЫХ ТЕРМИНОВ НА РУССКОМ, УЗБЕКИСТАНСКОМ И АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКАХ

Аннотация Данное исследование посвящено сравнительному анализу структуры и способов образования терминов, связанных со строительством и строительными работами, в русском, узбекском и английском языках. В работе на основе теории терминоведения изучаются способы словообразования, аббревиации, композиции, калькирования, а также заимствования. Особое внимание уделяется унификации терминов и правильному их использованию в рамках международных стандартов (ISO, ГОСТ, ASTM). Результаты исследования способствуют упрощению научно-технических текстов в строительной области, точному применению терминов в международных проектах и совершенствованию процесса перевода.

Ключевые слова: строительство, строительные работы, терминоведение, русский, узбекский, английский языки, словообразование, унификация, международные стандарты

STRUCTURAL COMPOSITION AND METHODS OF FORMATION OF BUILDING AND CONSTRUCTION TERMS IN RUSSIAN, UZBEKISTAN AND ENGLISH

Annotation This research is devoted to the comparative analysis of the structure and formation methods of terms related to building construction in Russian, Uzbek, and English. Based on terminological theory, it explores various word-formation processes, abbreviations, compounding, calquing, and loanwords. The study also focuses on the unification of terms and their correct usage within the framework of international standards (ISO, GOST, ASTM). The findings contribute to simplifying scientific and technical texts in the construction field, ensuring accurate use of terminology in international projects, and improving the translation process.

Keywords: construction,building works, terminology, Russian, Uzbek, English, word formation, unification, international standards

KIRISH

Bugungi kunda jamiyatning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishida qurilish sohasi ustuvor ahamiyat kasb etadi. Mintaqaviy yoki xalqaro miqyosdagi yirik loyihalardan tortib, mahalliy darajadagi inshootlarni barpo etishgacha bo‘lgan jarayonlarning barchasi puxta ilmiy–texnik asos hamda aniq terminologiyani talab qiladi. Ayniqsa, globalizatsiya sharoitida xorijiy davlatlar bilan hamkorlikning kengayishi, qo‘shma loyihalar ko‘lami ortishi natijasida qurilish terminlarining bir xilda va tizimli qo‘llanilishi, tarjima jarayonlarining soddalashtirilishi katta ahamiyatga ega bo‘lib bormoqda.

Shu ma’noda, **bino-inshoat va qurilish ishlarida** qo‘llaniladigan terminlarning **rus, o‘zbek va ingliz tillaridagi** o‘ziga xos xususiyatlarini, ularning tuzilma va yasalish qonuniyatlarini o‘rganish nafaqat lingvistik, balki amaliy jihatdan ham dolzarbdir. Ilmiy–texnik terminologiya umumiy adabiy tildan bir qancha xususiyatlari bilan farq qiladi: yuqori darajadagi aniqlik, qisqalik, birma’nolilikka intilish, normativlik, leksik–morfologik modelga qat’iy rioya qilish va boshqalar. Demak, qurilish sohasidagi terminlarni tadqiq etish vaqtida mazkur omillarni inobatga olish, tahlil qilish, taqqoslash va ularni o‘zaro bog‘liq holda ko‘rib chiqish zarur bo‘ladi.

Mazkur ishda soha terminlari ildiziga nazar tashlash bilan birga, ularning paydo bo‘lishi, shakllanishi, o‘zlashuv jarayonlari, tuzilish (struktura) va semantik jihatlari chuqur tahlil qilinadi. Tilshunoslikning terminshunoslik bo‘limi doirasida olib boriladigan ushbu tadqiqot quyidagi asosiy maqsadlarga qaratilgan:

1. **Bino-inshoat va qurilish ishlariga oid atamalar bazasini shakllantirish**: rus, o‘zbek va ingliz tillarida eng ko‘p qo‘llaniladigan qurilish terminlarini ajratib olish va ularning qiyosiy lug‘atini tuzish.

2. **Terminlarning tuzilma va yasalish usullarini aniqlash**: har bir tilda ushbu atamalarning so‘z yasalishi, qo‘shma so‘zlar yoki qisqartmalar hosil qilish modellari va ularning kelib chiqish manbalarini ko‘rsatish.

3. **Morfologik va semantik xususiyatlarni qiyosiy tahlil qilish**: terminlarning til ichidagi va tillararo o‘zaro aloqalari, qanday omillar asosida o‘zlashishi yoki kalkalash yo‘li bilan paydo bo‘lishiga e’tibor qaratish.

4. **Terminlarni unifikatsiya va standartlashtirish muammolarini ochib berish**: bugungi globalizatsiya jarayonida xalqaro me’yorlar va standartlar bilan uyg‘unlikdagi terminologik siyosatning ahamiyatiga urg‘u berish.

Tadqiqotning nazariy ahamiyati shundaki, mazkur ish terminshunoslikning pirovardida aniq bir soha – qurilish sohasidagi o‘ziga xos terminlarni, ularning evolyutsiyasi va til mazmuni bilan bog‘liq masalalarni yoritishda xizmat qiladi. Amaliy jihatdan esa rus, o‘zbek va ingliz tillaridagi qurilish terminlaridan foydalanuvchi mutaxassislar – arxitektorlar, qurilish muhandislari, tarjimonlar, ilmiy-texnik matnlar mualliflari uchun qo‘llanma sifatida foydalanish imkonini beradi.

Shu tariqa, ishning kirish qismida bino-inshoat va qurilish terminologiyasining dolzarbligi, tadqiqotning asosiy maqsad hamda vazifalari, uning amaliy va nazariy qiymati xususida so‘z yuritildi. Kelgusi bo‘limlarda ushbu terminlarni qiyosiy–tahliliy nuqtai nazardan har tomonlama ko‘rib chiqish, tahlil qilish va xulosa chiqarish maqsad qilinadi.

Terminlarning o‘ziga xos xususiyatlari

Aniqlik va qisqalik. Terminlar, odatda, ixtisoslashgan ilmiy mazmunni ifodalaganligi sababli, iloji boricha aniq va ixcham bo‘lishi kerak.

Birma’nolilik. Termin ma’nosi boshqa sohalarda murakkab ko‘pma’nolilik yoki sinonimlikdan holi bo‘lishi kerak. Albatta, ba’zan bir so‘z turli sohalarda har xil ma’noda qo‘llanishi kuzatiladi, lekin terminshunoslikda buni cheklashga harakat qilinadi.

Standartlashganlik. Terminlarning yozilishida, talaffuzida va ma’nosida birdamlik bo‘lishi kerak. Ayniqsa, qurilish va bino-inshoat sohasi kabi xalqaro hamkorlik keng yo‘lga qo‘yilgan sohalarda terminlarning unifikatsiyasi zarur.

2. Bino-inshoat va qurilish ishlarida tez-tez uchraydigan terminlar tavsifi

Bino-inshoat va qurilish ishlarida ishlatiladigan terminlar texnik leksika bo‘lib, ular konstruktsiyalar, materiallar, jarayonlar, mashina va mexanizmlarni aniq ifodalaydi. Masalan, quyidagi atamalarni uchratishimiz mumkin:

O‘zbek tilida: fundament, tom, devor, g‘isht, sement, qurilish, armatura, beton, temir-beton, panjara, ustun, plita, silliqlash, suvoq, chizma, loyiha, smeta, montaj, demontaj, blok, mustahkamlash va h.k.

Rus tilida: фундамент, крыша, стена, кирпич, цемент, строительство, арматура, бетон, железобетон, решётка, колонна, плита, шлифовка, штукатурка, чертёж, проект, смета, монтаж, демонтаж, блок, укрепление va h.k.

Ingliz tilida: foundation, roof, wall, brick, cement, construction, reinforcement, concrete, reinforced concrete, railing/grille, column, slab, polishing, plastering, drawing, project, estimate, installation, dismantling, block, strengthening va h.k.

Ushbu atamalarning shakli, kelib chiqishi hamda yasalishi har uch tilda ham har xil jarayonlarga ega bo‘lishi mumkin. Quyida ularning tuzilishi hamda yasalishi usullarini ko‘rib chiqamiz.

Yasalish usullari: qiyosiy tahlil

So‘z yasovchi qo‘shimcha (affiks)lar orqali

Rus tilida qurilish va bino-inshoat ishlariga oid terminlarning asosiy qismi rus tilining o‘z so‘z yasovchi modeliga ko‘ra yasaladi (masalan: строить → строительный → строитель; армировать → армирование). Shuningdek, tarixiy jihatdan xorijiy tillardan (ko‘pincha fransuz, nemis, ingliz) kirib kelgan terminlarda ham rus tilining fonetik va morfologik qonuniyatlariga moslashgan shakllar uchraydi.

Uzbek tilida so‘z yasovchi qo‘shimchalar yordamida termin yasash nisbatan cheklangani kuzatiladi. Chunki ko‘plab texnik terminlar aynan o‘zlashma shaklida yoki kalkalash orqali kirib kelgan. Masalan, sement (rus. цемент), beton (rus. бетон) kabi so‘zlar tildagi fonetik qonuniyatlarga qisman moslashgan yoki deyarli o‘zgarmagan holda o‘zlashgan. Biroq milliy negizdagi terminlarda -la, -lash, -chi, -lik, -kor, -zor kabi qo‘shimchalar orqali ham yasalish kuzatiladi: qurmoq → qurilish; suvoq → suvoqchi; loyiha → loyihalashtirmoq va hokazo.

Ingliz tilida so‘z yasovchi affikslar (masalan, -tion, -ment, -ing, -er) hamda old qo‘shimchalar (pre-, re-, de-, un- va hokazo) keng qo‘llanadi: construct → construction, reinforce → reinforcement, build → building, plaster → plastering, install → installation va h.k.

Qo‘shma so‘zlar (kompozitsiya) orqali

Ingliz tilida kompozitsiya eng asosiy yasalish usullaridan biri hisoblanadi. Masalan, reinforced concrete, drywall, waterproofing, load-bearing wall, scaffold tower kabi atamalar ikki yoki undan ortiq leksik birlikning birikishidan yuzaga keladi.

Rus tilida ham qo‘shma so‘zlar uchrab turadi, ammo ular odatda yoki bir so‘z ko‘rinishida yoziladi (железобетон, газоблок) yoki defis bilan (вход-выход, gün-dön). Lekin texnik terminlarda ko‘proq ikki so‘zli birikmalar (армированная сетка, несущая стена, строительные леса) ko‘rinishida qo‘llaniladi.

Uzbek tilida bu jarayon juda faol, masalan: temir-beton, gazoblok, yirik-panelli, yuk-ko‘taruvchi devor, suvoq-molatash va h.k. Ayni paytda termin sifatida mustahkamlangan shakl uzoq muddat mobaynida adabiy tilda bir xillik kasb etadi (temir-beton so‘zi yozuvda defis bilan, ba’zi adabiyotlarda esa bitishiq shaklda ham uchrashi mumkin).

Qisqartmalar (abbreviaturalar) orqali

Rus tilida qurilish terminologiyasida qisqartmalar juda ko‘p uchraydi: ГОСТ (Государственный стандарт), СНиП (Строительные нормы и правила), ЖБИ (железобетонные изделия) va h.k.

Uzbek tilida ham ushbu rus abbreviaturalari o‘z shaklida yoki qisman adaptatsiya qilinib ishlatiladi: GOST, SNIP, JBI (JBI shaklida yozish hollari uchrab turadi). Shuningdek, O‘zDST (O‘zbekiston Davlat Standarti) kabi milliy qisqartmalar ham mavjud.

Ingliz tilida ISO (International Standards Organization), ASTM (American Society for Testing and Materials), OSHA (Occupational Safety and Health Administration), CAD (Computer-Aided Design) kabi abbreviaturalar keng qo‘llanadi.

Xorijiy tillardan o‘zlashma (zahiriy) so‘zlar va kalkalash

O‘zlashma (transliteratsiya yo‘li bilan): ko‘plab texnik terminlar rus tilidan o‘zlashgan bo‘lsa, rus tilining o‘zi ham ularni asosan Yevropa tillaridan qabul qilgan. Masalan, бетон (frans. béton), цемент (lotin. cæmentum).

Kalkalash (mazmuniy tarjima yo‘li bilan)**: Ingliz tilidagi load-bearing wall → rus. несущая стена → uzb. yuk ko‘taruvchi devor (ba’zida to‘g‘ridan-to‘g‘ri rus tilidan olingan: несущая стена → yukko‘taruvchi devor). Bunda so‘zning semantik komponentlari boshqa tilda so‘zma-so‘z tarjima qilinadi.

Tuzilma va semantik xususiyatlar

Bir va ikki komponentli terminlar: masalan, fundament (bitta leksik birlik) va temir-beton (ikki leksik birlik). Rus tilida железобетон bir so‘z ko‘rinishida yozilsa, o‘zbek tilida temir-beton ikki bo‘lak yoki defis bilan ifodalanadi. Ingliz tilida esa reinforced concrete ikki so‘z sifatida yoziladi.

Ko‘p komponentli terminlar: masalan, prefabricated reinforced concrete structure (oldindan tayyorlangan temir-beton konstruksiya). Ingliz tilida bunday birikmalar ko‘pincha so‘z bog‘lanishlari bilan ifodalanadi; rus tilida сборная железобетонная конструкция, o‘zbek tilida esa yig‘ma temir-beton konstruksiya.

So‘z qo‘shilishidagi tartib: Ingliz tilida aniqlovchi so‘zlar ko‘pincha aniqlanuvchi so‘zdan avval keladi (load-bearing wall), rus va o‘zbek tillarida esa aniqlovchi so‘zlar ba’zan aniqlanuvchidan keyin keladi (devor yuk ko‘taruvchi), yoki ayni paytda oldingi o‘rinda ham kelishi mumkin (yukko‘taruvchi devor).

XULOSA

Bino-inshoat va qurilish ishlariga oid atamalarni rus, o‘zbek hamda ingliz tillarida qiyosiy o‘rganish ushbu sohaning terminologik apparatini chuqur anglashga va uni takomillashtirishga xizmat qiladi. Mavzuga oid tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, har uch tilda ham terminlarning yasalishi va tuzilishida o‘ziga xos leksik-morfologik xususiyatlar mavjud bo‘lib, ular lingvistik jihatdan bir-birini boyitishi, tarbiyalashi hamda boy ma’no qatlamlarini yuzaga chiqarishi mumkin.

1. **Terminlarning shakllanish manbalari**.

Rus va o‘zbek tillari terminlarining aksariyati asosan boshqa Yevropa tillaridan (ko‘pincha fransuz, ingliz, nemis) o‘zlashma shaklda yoki rus tili vositasida kirib kelgan. Ingliz tilidagi terminlar esa yirik texnik-adabiy meros va zamonaviy texnologiyalar rivoji bilan bog‘liq holda muntazam yangilanib, xalqaro maydonda keng tarqalmoqda.

2. **So‘z yasash usullari**.

O‘zbek tilida affiksatsiya unchalik faol bo‘lmasa-da, qo‘shma so‘zlar (temir-beton, gazoblok), qisqartmalar (JBI, O‘zDST) va o‘zlashmalar (sement, beton) keng tarqalgan. – Rus tilida so‘z yasovchi qo‘shimchalar (армировать → армирование, строить → строитель), qo‘shma so‘zlar (железобетон), qisqartmalar (ГОСТ, СНиП, ЖБИ) va o‘zlashmalar (фундамент, цемент) orqali terminlar paydo bo‘ladi. – Ingliz tilida esa old qo‘shimchalar (re-, de-), so‘z yasovchi qo‘shimchalar (-tion, -ing, -ment) hamda kompozitsiya (reinforced concrete, load-bearing wall) termin hosil qilishda asosiy rol o‘ynaydi.

3. **Mazmuniy va semantik xususiyatlar**

Terminlar soha doirasida ma’nosining birma’noliligini saqlab qolishi juda muhimdir. Shu bois xorijiy terminlar o‘zlashganda, ularning semantik ifoda doirasi barqaror shaklda mustahkamlanishi va standartlashtirilishi zarur.

4. **Xalqaro standartlar va unifikatsiya**

Bino-inshoat va qurilish ishlarida normativ hujjatlar (ISO, ASTM, ГОСТ, O‘zDST) muhim ahamiyat kasb etib, terminlarning rasmiylashtirilishi va to‘g‘ri qo‘llanilishiga ko‘maklashadi. Turli tillarda turlicha yasalish modellariga ega terminlarni bir xilda rasmiylashtirish me’yorlari sohadagi hujjat almashinuvi, texnik muhokama va xalqaro loyihalarda samaradorlikni oshiradi.

5. **Amaliy ahamiyati**

Tadqiqot natijalari, bir tomondan, terminlarni standartlashtirish, yagona lug‘at va qo‘llanmalarni yaratish uchun poydevor bo‘lsa, ikkinchi tomondan, tarjimonlar, qurilish mutaxassislari va ilmiy-texnik matnlar bilan ishlovchi boshqa sohaga oid mutaxassislar uchun terminlarni aniq va to‘g‘ri qo‘llash imkoniyatini kengaytiradi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, bino-inshoat va qurilish ishlariga oid terminlarning o‘zbek, rus va ingliz tillarida yasalishi va strukturasini qiyosiy tahlil qilish orqali tilshunoslikka xos umumiy va xususiy qonuniyatlarni aniqlash, shuningdek, amaliy sohadagi terminlarning muvofiqlashtirilgan hamda aniqlashtirilgan tusga kirishini ta’minlash mumkin. Kelgusida ushbu tadqiqotni yanada kengaytirib, terminlarni elektron lug‘atlar, terminologik ma’lumotlar bazalari shaklida sistemalashtirish, termin tarixi hamda ularning soha rivojidagi o‘rnini aniqlash yo‘nalishlari bo‘yicha ishlarni davom ettirish zarur. Shu tariqa, mazkur mavzuning nazariy va amaliy dolzarbligi, kelgusi ilmiy izlanishlar uchun ham keng ufqlar ochib beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Buranov B. T. O‘zbek tilining terminologiyasi masalalari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2002.

2. Makhmudov N. O‘zbek tilida termin yaratish masalalari. – Toshkent: Fan, 2015.

3. Крысин Л. П. Толковый словарь иноязычных слов. – М.: Русский язык, 1998.

4. Марченко А. И. Терминоведение и научно-техническая терминология. – М.: Высшая школа, 2007.

5. ISO 6709: Standard representation of geographic point location by coordinates. – ISO Central Secretariat. (Standart terminlar bo‘yicha misol tariqasida)

6. ГОСТ 27751-2014: Надежность строительных конструкций и оснований. – М.: Стандартинформ, 2014.

7. O‘zDST 2255:2009: Qurilish materiallari. Asosiy tushuncha va ta’riflar. – Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Davlat Standartlari, 2009.

8. Xolmatov R. A. Qurilish terminlarini qiyosiy tahlil qilish muammolari. – “Til va adabiyot” jurnali, 2020, №4, 56-62-betlar.

9. Azimov Sh. Terminshunoslik va texnik tarjima masalalari (qurilish leksikasi misolida). – Toshkent: Fan, 2017.

10. Rey C. Terminology: A Practical Approach. – Amsterdam / Philadelphia: John Benjamins, 2007.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 1-son)

FILOLOGIYA

PHILOLOGY

ANVAR OBIDJON IJODINI MAVZULASHTIRISH MUAMMOLARI

Mamatalimov Zafar Mamaraimovich
Alfraganus universiteti dotsenti
E-mail: mamatalimovz@gmail.com,
ORCID: 0009-0007-1628-1635
UDK: 821.512.133-1(092)(043.3)

Annotatsiya: Maqolada bolalar shoiri Anvar Obidjon ijodini mavzulashtirish masalalari xususida muallifning shaxsiy qarashlari aks ettirilgan.
Kalit so‘zlar: g‘oya, uslub, qissa, transformatsiya, ertak, motiv, syujet, stilizatsiya, lirika...

ПРОБЛЕМЫ ТЕМАТИЗАЦИИ ТВОРЧЕСТВА АНВАРА АБИДЖАНА

Аннотация: В статье отражены личные взгляды автора на проблему тематизации детского поэта Анвара Обиджона.
Ключевые слова: идея, стиль, сюжет, превращение, сказка, мотив, сюжет, стилизация, лирика...

PROBLEMS OF THEMATIZING ANVAR OBIDJON'S WORK

Annotation: The article reflects the author's personal views on the issue of thematization of children's poet Anvar Obidjon.
Key words: idea, style, story, transformation, fairy tale, motive, plot, stylization, lyrics...

Ijodkor shaxs sifatida jamiyatda kun kechirar ekan, uning hayotida ro‘yo berayotgan voqealarni ichki ko‘nikmalari yordamida tasdiqlashi yoki inkor qilishi mumkin. Mana shu tasdiq yo inkorga sabab bo‘luvchi “hukmlar” birikib, uning ongida muayyan mavzuni shakllantira boradi. Mavzu pishib yetila borgani sari uni qay holatda o‘quvchiga taqdim etish masalasi kun tartibidan o‘rin oladi. Ijodkor biror mavzuga qo‘l urar ekan, shakl va mazmun mutanosibligi, g‘oya, uslub, bayon izchilligi, badiiyat singari masalalar bilan bir qatorda uning oldida kamida yana ikki yo‘l turadi. Biri – ayni mavzuda o‘zidan oldin yaratilgan asarlar syujetini takrorlamaslik, ikkinchisi – o‘z-o‘zini takrorlashga yo‘l qo‘ymaslik. Mana shu muammolar ijobiy hal etilganda, ko‘p hollarda mavzular xilma-xilligi yuzaga keladi.

Akademik Izzat Sulton “Adabiyot nazariyasi” darsligida “Haqiqiy yozuvchi mavzu tanlaganda uning yangiligiga va jamiyatning bugungi ehtiyojlari jihatidan muhimligiga alohida e’tibor beradi”[1;174], deb yozadi. Shu ta’rifni to‘lig‘icha O‘zbekiston xalq shoiri Anvar

Obidjon ijodiga daxldor deyish mumkin. Biz tubanda Anvar Obidjon “ehtiyoj” sanab o‘z asarlarida ilgari surgan ba’zi hayotiy muammo va mavzular haqida to‘xtalishni lozim topdik:

1. Xalqaro hamjihatlik, tinchlik, millatlararo totuvlikni ulug‘lash.

Anvar Obidjon ijodida insoniyat baxtu kamoliga raxna solayotgan urushni qoralash, xalqlar o‘rtasida tinchlik, ahillikni yuqori pardalarda tarannum etish g‘oyasi asosiy mavzulardan biri hisoblanadi. U qaysi janrda, kim uchun yozmasin, bu mavzuga o‘ziga xos yo‘sinda yondashganiga amin bo‘lamiz. “Atom kecha qonga cho‘ktirdi Xirosimani...”, “Qirg‘iz do‘stimga”, “Qizalog‘im”, “Kichkintoy qo‘mondon”, “Urush”, “Qishloq kampirining polk komandiriga maktubi” she’rlari fikrimizning yaqqol dalilidir. Urushni “tentaklar o‘yini” deb baholagan shoir xuddi shu mavzudagi she’rida yozadi:

Zambaraklar hanuz aytmoqda o‘lan,
Miltiqlar madh etar
Bedavolikni.
Afrika olishar Afrika bilan,
Osiyolik so‘yar osiyolikni.

Bombaga aylanib
Ajal jon o‘rar
Hatto Ovro‘poning bolqonlarida.
Nashavand askarlar raqs tushib yurar
Odam suyagining talqonlarida.

Raqs tushar
Keksayu ayolni tuyib,
Og‘zidan qon purkab chirqirar go‘dak...
Bularning barini o‘yinga yo‘yib,
Pul tikib tomosha qilar bir tentak[2;344].

Ikkinchi jahon urushi tugaganiga yetmish yildan ortiq vaqt o‘tgan bo‘lsa ham, jahondagi urush olovi hali hanuz o‘chgani yo‘q. Dunyoning hali u, hali bu burchagida zabaraklar og‘zidan o‘t purkab, miltiqlar “bedavolikni madh etmoqda”. Bashariyatni tashvishga solayotgan eng ulkan muammo – shu. Bashar farzandi sifatida shoirni ham o‘ylantirayotgan muammo ham shu. Urush nafaqat norg‘ul yigitlarni, balki himoyasiz keksalar, ayollarni ham o‘z domiga tortmoqda. Hech kimga rahm qilmay, ho‘l-u quruqni baravar mahv qilmoqda. Birgina “talqon” so‘zi ayovsiz jang, beomon qirg‘in manzarasini yorqin ifoda etayotgani ko‘rinib turibdi. “Og‘zidan qon purkab chinqirar go‘dak” ifodasi qattol urush odam nasli boshiga solgan ulkan fojeaning ko‘lami naqadar kengligini ko‘rsatadi. U bugungi kun kishilarinigina emas, kelajak nasllar poyiga ham bolta urayotganini anglatadi. Boshqa tomondan nashavand askarlar o‘zi kimning suyaklari talqonlarida raqs tushib yuribdi? *Afrika olishar Afrika bilan, Osiyolik so‘yar osiyolikni* satrlari yordamida bu og‘riqli savolga javob topish mumkin. Nashavand askarlar – miyasi zararli

g‘oyalar bilan zaharlangan xalq porakandalikka yuz tutib, bir-birining qoniga zomin bo‘layotgani, suyagi talqonga aylangan odamlar shu zo‘rovonlarning qondoshi, jigargo‘shalari ekanligi ayon bo‘ladi. Lekin bunday xunrezliklar kimlar uchundir oddiy o‘yin, xolos. Biror hududda tartibsizliklar yuzaga keltirib, qurol savdosi, narkotik vositalar va boshqa qing‘ir yo‘llar bilan daromad olishni ko‘zlaydigan “tentak”larni ona sayyoramizning ertangi kuni, insoniyat taqdiri, farovon hayot yanglig‘ tushunchalar zarracha qiziqtirmasligi ham ayni haqiqat. Qonli urushni o‘yinga yo‘yib tomoshabin bo‘lib turgan kimsa E.Vohidovning “Ruhlar isyoni” dostonida hindi-yu musulmonni bir-biriga gij-gijlab, qora qahva ho‘plaganicha qora niyatining natijasini kutayotgan janob qiyofasini yodga soladi. Shu sabab she’rni ogohlikka da’vat, hushyorlikka chorlash ma’nolarida tushunish foydadan holi bo‘lmaydi.

Anvar Obidjon bolalarga mo‘ljallangan asarlarda tinchlik, millatlar orasidagi totuvlikning oliy ne’mat ekanligi, vayronkorliklarga sabab bo‘luvchi urushni qoralash mavzuga o‘ziga xos yo‘sinda yondashadi. Ya’ni, bolalar dunyoqarashi, fikrlash doirasi imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda kichkintoylarga tanish bo‘lgan badiiy detallardan foydalanishga harakat qiladi. Shoir “Kamonning zambarakka yozgan xati” da mohir qo‘g‘irchoqbozday jonsiz narsalarga go‘yo jon kiritadi. Qo‘liga qalam berib, birini boshqasiga xat yozishga undaydi:

Zax muzeyda yotibman
Qilmishimdan uyalib.
Sen yuribsan qaydadir
Hanuz qonga bo‘yalib.

Rostin aytsam yolg‘izlik –
Tegib ketdi jonimga.
Zo‘r bo‘lardi seni ham
Opkelishsa yonimga[3;198].

Nega kamon qilmishidan “uyaladi”? Chunki uyam o‘tmishda qon to‘kkan, insoniyat boshiga katta-katta qirg‘inlarni solgan. Yangi qirg‘in qurollari kashf etilgach, kamonga ehtiyoj qolmadi. Endi u zax zindonda yotib o‘tmishini sarhisob qilayotgan mahbus kabi qilmishlarini birma-bir yodga olyapti. Xunrezliklarni eslab chin dildan afsuslanmoqda. Qani endi zambaraklar ham kamonlar yoniga keltirilsa. O‘z navbatida, zambaraklar boshqa qurollarga maktub yo‘llashsa. Shoir shu taxlit barcha qirg‘in qurollari muzeylardan joy olsayu, odamzod tinch-xotirjam hayot kechirsa, degan juda samimiy, totimli tuyg‘ulariga yosh kitobxonlarni ishontiradi.

2. E***rk, istiqlol, vatanparvarlik, yurtga muhabbat.***

Yurt kelajagi bo‘lgan yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, mashaqqatlar, kurashlar evaziga qo‘lga kiritilgan istiqlolni qadrlash masalasi “Ey, yorug‘ dunyo” (asar keyingi nashrlarda qayta ishlanib “Alamazon va uning piyodalari” deb nomlangan – Z.M.) qissasining yetakchi g‘oyasini tashkil etadi. Qissa voqealari Yorug‘ dunyo vakillari – Alamazon, Eshmat;

Yulduziston aholisi – Feruz, Xumo Xartum, Isqirt Birinchi kabi personajlar vositasida hikoya qilib beriladi.

“O‘g‘irlangan pahlavon”, “Odil Burgutshoh va Zamburug‘ laqabli josus haqida ertak” asarlari vatanparvarlik, o‘zlikni anglash, yurtga sadoqat, ona tiliga mehr-muhabbat, e’tiqodda sobitlik kabi dolzarb mavzularni o‘zida aks ettirgani bilan “Alamazon va uning piyodalari” qissasiga ruhan yaqin turadi.

Adabiyotshunos S.Irisxo‘jayeva Anvar Obidjon she’riyati haqida gapira turib, “Vatan madhi” maqolasida: “Anvar Obidjonning jajji she’rlari ona-Vatanga, insonlarga mehr-muhabbat tuyg‘usi bilan sug‘orilgan, qisqa, lo‘nda qilib tasvirlangan”[5;52] deb yozadi. Olimaning bu fikrlari ko‘pchilikka yod bo‘lib ketgan “Boyqush”, “Tillaqo‘ng‘izning javobi”, “Uchinchi palapon”, “Yaylovni sog‘ingan qo‘y”, “Yantoqlar haqida qo‘shiq”, “Dengizda”, “Shamdonga yozilgan she’r”, “Makon”, “Tut”, “Kalish afsonasi” kabi she’rlar xususida bo‘lsa ajab emas.

Yurt haqida bu o‘g‘lon
Gapirmasdi hech qachon...
Yurti uchun jon tikdi![2;156]

“Uchchanoqlar” turkumiga kiruvchi bu she’r o‘zicha hayqirib, to‘lqinlanib vatanni ta’rif-tavsif qiluvchi maddohlardan el-yurt koriga yaraydigan mard o‘g‘lonlar ming karra afzal, degan g‘oyani o‘zida mujassam etgan.

Yengil-yelpi kun kechirish mumkin bo‘lgan joyni o‘ziga makon sanaydigan kimsalar
G‘ildiragi yo‘qdir Vatanning![2;220]

ignabarg she’ri orqali fosh etiladiki, bu mashhur yozuvchi Ch.Aytmatovning “Qiyomat” romanidagi Guram Jo‘xadze tomonidan aytilgan “Agar vatanni xurjun kabi olib yurish, tashib ketish mumkin bo‘lganida, u sariq chaqaga ham arzimasdi”[6;335] qabilidagi iqrorini beixtiyor yodga soladi.

Qullik – o‘zi go‘rkov, o‘zi go‘r[2;220].

Birovga qaram odamning ham ko‘nglida o‘ziga yarasha orzu-umidlari bo‘ladi. Biroq erkinlik, boshpana, oila, kelajak haqida ko‘z ochgan orzulari mutelik tufayli zavol topib boraveradi. Ya’ni, dildan tilga ko‘cholmay, armonga aylanib, qalb sohibi tomonidan go‘rga – qalbning tub-tubiga ko‘mib qo‘yilaveradi.

3. Ona tabiat, uni asrash, ekologik tarbiya.

“Ertak” deya sarlavha qo‘yilgan she’rga biror xalq ertagi syujeti transformatsiya qilinmagan. Ayni holatda she’rning o‘zini ham ertak sifatida baholab bo‘lmaydi. Ammo ertakka oid motiv stilizatsiyasi shoir badiiy maqsadini ochishda juda qo‘l kelgan. Bugungi kunda jahon miqyosida global muammoga aylangan tabiatga munosabat, sayyoramizning biz insonlar bilan teng huquqli a’zolari sanalmish jonzotlarga munosabat masalasi mo‘jaz she’rning favqulodda

ulkan ogohnomasidir. Bordiyu, odamzod hayvonot-u nabotot, o‘zini o‘rab turgan muhitga odamona munosabatda bo‘lmas ekan, tez orada Ayiq, Bo‘ri, Tulki singari jonzotlar “Qizil kitob”dan ertaklarga ko‘chadi. Shu ma’noda ikkinchi banddagi ko‘pnuqta shoirning chuqur xo‘rsinig‘ini, afsuslanishini, kuyunishini ifoda etayotganiga shubha yo‘q. Yana shuni aytish o‘rinliki, “ekan” to‘liqsiz fe’li o‘tmishda bo‘lgan voqea-hodisa haqida boshqa bir shaxsdan eshitilganlik ma’nosini bildiradi. Po‘stin – qo‘ng‘ir ayiq, telpak – tulki, charm kostyum – bo‘ri ekan aslida, demayapti shoir. Bu, bir tomondan, insonning tabiatga teskari munosabatini ifodalasa, ikkinchi tomondan, hali ham sayyoramizni saqlab qolishga umid-ilinj borligini, faqat “oliy ong da’vogarlari” xalq ertaklaridagi singari qaysi yo‘lni tanlashi masalani hal qilishi mumkinligi tagmatnga singdirilgan.

Qo‘ng‘ir Ayiq –
Po‘stin ekan.
Bo‘ri – charm
Kostyum ekan.

Tulki esa
Telpak ekan...
Bu biz uchun
Ertak ekan [3;88].

Yurtimizning betakror tabiati katta yoshdagi kitobxonlarga mo‘ljallab yozilgan “Er”, “Mevasizlik”, “Tun qo‘ynida bug‘doyzor”, “Kuntug‘di tongi” she’rlarida ham o‘z aksini topgan. “Kuntug‘di tongi”da bahor mavsumida jilg‘alarga tushayotgan yomg‘ir tomchilari jon talvasasida irg‘ishlab sakrayotgan oshiqlarga, arpa kelinchakka qiyoslanadi.

4. Ishq-muhabbat tuyg‘usini ulug‘lash, hijron iztiroblari.

Shoirning 2006 va 2014 yillarda chop etilgan “Saylanma”lari ko‘zdan kechirilsa, bu mavzudagi she’rlar salmog‘i ancha yuqori ekanini ko‘ramiz. “Kipriging nega nam?”, “Shodon xushlash, malagim...”, “Orom olar bezavol”, “Ketmagil”, “Ilinjli kecha”, “Suluvim”, “Yarmi bo‘sh bog‘kursi” she’rlarini ishqiy lirikaning ajoyib namunalari sifatida baholash mumkin.

Ma’lumki, sho‘ro davri adabiyotida sof muhabbat, ayriliq motivlari, oshiqlarning o‘z sevgisi uchun bemisl kurashlarga otlanishi, hatto o‘limga tik boqishi bachkanalik, be’manilik sifatida baholangan. Kommunizm quruvchisi har xil havoyi hislarga berilmasligi, jiddiy, hamma narsani aql tarozisi bilan o‘lchay oladigan mehnatkash bo‘lmog‘i kerakligi bot-bot ta’kidlangan. Shu ma’noda 80-yillarda o‘zbek bolalar adabiyotida sevgi-muhabbat mavzusining o‘ziga xos talqin qilinishini alohida hodisa sifatida baholash mumkin. “Yaltiroq tugma”, “Olovjon va uning do‘stlari” qissa va hikoyalarida, “Odil Burgutshoh va Zamburug‘ laqabli josus haqida ertak”da o‘smir yoshlar qalbida nish ura boshlagan olijanob tuyg‘ular haqida so‘z boradi.

5. Hayotsevarlik.

Hayotga muhabbat, vaqt qadri, yashash zavqi kabi o‘lmas mavzular, albatta, Anvar Obidjon asarlarining ham bosh mavzularidan biridir. Qaysi asarini varaqlamang, hayotsevarlik

nafasi ufurib turadi. Adib yaratgan Gulmat, Kulkul afandi, Meshpolvon, Olovjonu Alamazonlar – bari hayot nashidasini yurak-yuragidan his etadigan, qiyinchiliklarga bo‘yin egmaydigan, o‘z maqsadi sari dadil intiladigan qahramonlardir. Jannatmakon O‘zbekistonimizning fayzu quvonchga to‘la bir kuni avj pardalarda tarannum etilgan “Hayotning har lahzasi go‘zal” she’ri o‘quvchida milliyligimizning o‘ziga xos yorlig‘iday taassurot uyg‘otadi.

Qaymoq isi yayratar tanni,
Dasturxonda issiq kulchalar.
Suv bosganday qaqroq o‘zanni
Odamlarga to‘lar ko‘chalar.
Asli hatto go‘dak emizmoq
Barobardir og‘ir yumushga.
Oshiqarlar yuraklar qaynoq,
Birov ishga, birov o‘qishga...
Hayotning har lahzasi go‘zal,
Umrning har dami g‘animat[2;322].

Olti banddan iborat bu she’rda xalqimizning yashash tarzi, urf-odatlari, yaratuvchanlik qudrati umr mazmuniga hamohang ifoda etiladi.

6. ***Ijtimoiy-falsafiy masalalar.*** Har qanday ijodkor – xoh u shoir, xoh yozuvchi, xoh rassom yo haykaltarosh – o‘zi yashab turgan jamiyat, ijtimoiy muhit, davr ruhini o‘z asarlarida muayyan darajada aks ettiradi. Unda ijtimoiy hayotda yuz berayotgan o‘zgarishlarga munosabat shakllana boradi. Xalq hayotida yuz berayotgan turmush voqeliklariga teran nigoh tashlar ekan, ijodkor sifatida shaxsiy pozitsiyasiga ega bo‘la boradi. Xalqining quvonchini o‘z quvonchi deb biladi, farovonligiga to‘siq bo‘ladigan muammolardan tashvishlanadi. Bunday muammolarni imkon qadar oldinroq sezib, yurtdoshlarini ogohlikka da’vat etishni o‘z vijdoniy burchi hisoblaydi. Anvar Obidjon ham xuddi shunday qalbi uyg‘oq ijodkor sifatida jonajon O‘zbekistonimiz istiqboliga daxldor masalalarga munosabat bildirib kelmoqda. Uning goh majoz pardasiga o‘ralgan, goh ochiq-oshkora ruhda yozilgan “Kalish afsonasi”, “Chigirtka qo‘shig‘i”, “Quduqdagi paqirga yozilgan she’r”, “Farg‘onaliklar”, “Kasal bola”, “E, ma’yus yoshligim, kechirgin meni”, “Turmush muvozanati”, “Er”, “Ishbuzuqi”, “Chalatanish”, “Oddiylik saodati” she’rlari xalq turmushining turli jabhalarini aks ettirgan ijtimoiy lirika namunalaridir.

7. Ma’rifiy tarbiya, ma’rifatparvarlik.

O‘zbekistonimiz mustaqillikka erishgach, yurtimizning haqiqiy tarixini qayta tiklash, buyuk ajdodlarimizning nafaqat O‘rta Osiyo, balki jahon sivilizatsiyasi taraqqiyotiga qo‘shgan hissalarini to‘g‘ri talqin etishga ehtiyoj sezildi. Bu xayrli vazifani tarixnavislar bilan birgalikda ijod ahli ham o‘zlarining vijdoniy burchi deb hisobladilar. Qisqa vaqt oralig‘ida o‘zbek adabiyotida Beruniy, Ibn Sino, Xorazmiy, Imom Buxoriy, Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur, Mirzo Ulug‘bek singari bobokalonlarimizning dunyo ilm-fani, madaniyati taraqqiyotidagi xizmatlari o‘z ifodasini topgan bir qator asarlar vujudga keldi.

Ko‘rinib turibdiki, Anvar Obidjon asarlarining mavzu-mundarijasi rang-barang. Masalaga kattalar va bolalar adabiyoti nuqtai nazaridan yondashilsa, miqyos yanada ortadi. Shu bois biz yuqorida ijodkor asarlaridagi ayrim mavzularga e’tibor qaratdik, xolos.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Sulton I. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1986.
2. Obidjon A. Tanlangan she’rlar. – Toshkent: Sharq, 2006.
3. Obidjon A. Juda qiziq voqea. – Toshkent: Yulduzcha, 1987.
4. “O‘zbekiston adabiyoti va san’ati” gazetasi. 1990 yil 24 avgust soni.
5. Bolalar olami. – Toshkent: Yosh gvardiya, 1988.
6. Aytmatov Ch. Qiyomat. – Toshkent: O‘zbekiston, 2011.
7. Mamatalimov Z. Anvar Obidjon she’riyatining janr va mavzu rang-barangligi. / Til va adabiyot elektron jurnali. 2023 yil, 4-son. – B. 26-29.
8. Mamatalimov Z. Anvar Obidjon she’riyatida majoz va falsafiylik. World Bulletin of Social Scienses. – Germaniya, 2024. https://www.scholarexpress.net. ISSN: 2749-361X. – B. 105-108.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 1-son)

FILOLOGIYA

PHILOLOGY

DISKURS TUSHUNCHASI, TAHLILI VA UNING ASPEKTLARI

Yusupova Aziza
Andijon davlat chet tillar instituti o’qituvchisi
E-mail: aziza.yusupova.84x@mail.ru
+998937377779

Annotatsiya. Mazkur maqolada zamonaviy tilshunoslikda muhin o‘rin tutadigan tushuncha – diskurs haqida umumiy tasavvur va uning asosiy aspektlari o‘zbek, rus, ingliz tillari misolida tahlil qilingan. Diskursning nazariy asoslarini o‘rganishda uning ma‘no shakllantirish jarayonidagi rolini va madaniy-ijtimoiy aloqalarni qay darajada aks ettirishini ko‘rsatadi. Maqolada M. Fuko, T. Van Deyk, Yu. S. Stepanov va boshqa olimlarning nazariyalari keltirilib, ularning o‘zaro bog‘liqligi yoritilgan.

Kalit so‘zlar: diskurs, nutq, matn, lingvokulturologik aspekt, pragmatik aspekt, siyosiy diskurs, ilmiy diskurs, media diskurs.

ПОНЯТИЕ ДИСКУРСА, АНАЛИЗ И ЕГО АСПЕКТЫ

Аннотация. В данной статье на примере узбекского, русского и английского языков анализируется общее понятие дискурса, занимающее важное место в современной лингвистике, и его основные аспекты. Изучая теоретические основы дискурса, он показывает его роль в процессе смыслообразования и в какой степени он отражает культурные и социальные отношения. В статье изложены теории М. Фуко, Т. Ван Дейка, Ю. С. Степанова и других ученых и объяснена их взаимосвязь.

Ключевые слова: дискурс, речь, текст, лингвокультурный аспект, прагматический аспект, политический дискурс, научный дискурс, медиадискурс.

CONCEPTS OF DISCOURSE, ANALYSIS AND ITS ASPECTS

Annotation. This article analyzes the general idea of discourse, a concept that plays an important role in modern linguistics, and its main aspects using the examples of Uzbek, Russian, and English. In studying the theoretical foundations of discourse, it shows its role in the process of meaning formation and the extent to which it reflects cultural and social relations. The article presents the theories of M. Foucault, T. Van Dijk, Yu. S. Stepanov, and other scholars, and highlights their interrelationships.

Key words: discourse, speech, text, linguocultural aspect, pragmatic aspect, political discourse, scientific discourse, media discourse.

KIRISH

Diskurs – bu nutq yoki matnda bilim, g‘oyalar va fikrlarni shakllantirish va ularni taqdim etish usuli bo‘lib, o‘z ichiga nafaqat ma’lumotning o‘zi, balki uning taqdim etilgan kontekstini, shuningdek, muloqotning ijtimoiy va madaniy jihatlarini ham oladi. Diskurs ifodalanishiga ko‘ra og‘zaki yoki yozma shaklda bo‘ladi va ilmiy maqolalar, adabiy asarlar, siyosiy nutqlar kabi akademik vositalarni qamrab oladi.

Diskurs tadqiqoti tilshunoslik, falsafa, sotsiologiya va madaniyatshunoslik kabi fanlarda tilning ijtimoiy munosabatlar, boshqaruv va mafkuralarni qanday shakllantirishi haqida tushuncha beradi.

Olamning lisoniy manzarasida diskurs, nutq va matn tushunchalarinig o‘zaro farqlanuvchi va bog‘liqlik xususiyatlari bo‘lib, bu tushunchalar bir-biriga yaqin, lekin o‘ziga xos xususiyatlari va kontekstiga ega.

Diskurs – ma’nolarni tashkil etish va ijtimoiy-madaniy kontekstda ularni ishlatish usullarini o‘rganadi. U muammolar, fikrlar va kommunikatorlar o‘rtasidagi munosabatlarni keng qamrovda tahlil qiladi. U lingvistik strukturadan kengroq bo’lib, ijtimoiy munosabatlar, ijtimoiy kontekst va ma’noni o’rganadi.

Nutq – til orqali insonning hissiyot va fikrlarini ifoda etib, odatda aniq vaziyatlarda, masalan, suhbat yoki ma’ruza jarayonida paydo bo‘ladi. Nutqdan asosiy maqsad- ma’lumot almashinish, fikrlarni bildirish va ijtimoiy munosabatlarni o’rnatish (kommunikatsiyalashtirish)dir.

Matn – yozma belgilarning ma’noli to‘plami bo‘lib, kitoblar, maqolalar va boshqa grafik ko‘rinish shakllarida ifodalanadi. Ularning o’z struktural tuzilishi, grammatikasi, va leksikasi bor. Matnni diskurs va nutqdan tafovuti shundaki u ko’pincha statik (turg’un) va aniq bir kontekstda ishlatilishi mumkin.

Diskurs nutq va matn bilan uzviy bog‘liq: nutq diskursiv jarayonni tashkil etsa, matn diskursiv kontekstda analiz qilinadi.

NAZARIY ASOS

“Diskurs” atamasi XX asrning 20-yillarida ilm-fan doirasida keng muhokama qilingan tushunchaga aylangan. Fransuz faylasufi Mishel Fuko va lingvist Norman Ferstenberg uni birinchi bo‘lib o‘rganishni boshlagan. U diskursni faqat lisoniy emas, balki umummadaniy tushuncha sifatida ko‘rib, uning ijtimoiy va boshqaruv munosabatlarini aks ettiruvchi vosita ekanligini ta’kidlagan[271]. M. Fukoning fikricha diskurs birligi va “atom”i bu fikrdir.

V.Z. Demyankov esa diskursni nutq va matnning ijtimoiy-madaniy kontekstdagi to‘liq tizimi sifatida ko‘rib, uni insonlar o‘rtasidagi aloqalar va ma’no yaratish jarayonlari bilan bog‘lagan. Uning fikricha, diskurs bu faqatgina alohida nutq yoki matn emas, balki ularning ijtimoiy, madaniy, psixologik va komminikativ kontekstdagi ma’nosi va funksiyasini qamrab oladi. Demyankov diskursni insonlar o’rtasidagi aloqalar, ijtimoiy strukturalar va ma’no

[271] Foucault, M. (1992). The archaeology of Knowledge. Tavistock Publications.

yaratish jarayonlari bilan bog’liq ravishda tahlil qiladi. Uning tahlili diskursning shakllanishi, o’zgarishi va ijtimoiy kontekstdagi roliga e’tibor qaratiladi[272]. Olim diskursni nafaqat lingvistik, balki tarmoqlararo yondashuvni tatbiq etgan holda o‘rganishni taklif etgan. Diskurs tabiatiga ko‘ra dinamik hodisa bo‘lib, uning elementlari muloqot shartlari va ijtimoiy kontekstga qarab o‘zgaradi. Diskurs kommunikatorlar maqsadi va motivlaridan kelib chiqib, ifoda etish, ko‘ndirish va manipulyatsiya vazifalarini bajaradi.

Yu.S. Stepanov diskursni “til ichidagi til” sifatida tasvirlab, uni ijtimoiy, madaniy va kommunikativ jarayon sifatida o‘rganishni taklif qilgan. Uning fikricha diskurs ijtimoiy va kommunikativ jarayon bo’lib, diskurs-bu faqatgina nutq yoki matn emas, balki ularning ijtimoiy kontekstdagi ma’nosi, funksiyasi va strukturasini ham o’z ichiga oladi. Stepanov diskursni faqatgina til vositasi sifatida emas, balki insonlar o’rtasidagi aloqalar, ularning ijtimoiy rollari va madaniy kontekst bilan bog’liq ravishda ko’rib chiqadi. Uning ta’rifida diskurs ijtimoiy voqealar, munosabatlar va madaniy qadriyatlarni aks ettiradi, shuning uchun u tildan tashqari omillarga ham e’tibor qaratishni talab qiladi[273]. Stepanovning diskurs konsepsiyasi til va ma’no o’rtasidagi murakkab munosabatlarni tushunishga yordam beradi.

Zamonaviy tilshunoslikda yuqoridagi olimlardan tashqari yana ko’plab olimlarning diskurs haqidagi ta’riflarini keltirish mumkin: T. Van Deyk, I. R. Galperin, Debora Shifrin, Kaplunenko, Robert de Bogrand va boshqalar.

O’zbek tilshunoslaridan Sh. S. Safarov esa V. A. Zveginsevning diskursga “diskurs bulutlar orqasiga yashiringan lisoniy hudud” deb bergan ta’rifini keltirar ekan uni kashf etish va tadqiq qilish yo’llarini topish zarurligini ta’kidlagan[274].

Diskurs tadqiqotining asosiy aspektlari muloqot jarayoni, kontekst, Ijtimoiy funktsiya, struktura (shakl).

Diskursda muloqot ishtirokchilari (adresat, adresant) va ular o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir jarayoni muhim ahamiyatga ega.

Diskursning ijtimoiy, madaniy va tarixiy sharoitda qanday yuz berishini o‘rganadi.

Diskurs ijtimoiy normalar, boshqaruv va kommunikatorlar o‘rtasidagi munosabatlarni shakllantirishda vosita bo‘lib xizmat qiladi. Masalan, siyosiy nutqlar jamoatchilik fikrini shakllantiradi.

Bayonotlar yoki matnlar maqsad, predmet va strategiya bilan birlashtirilgan holda tahlil qilinadi.

DISKURS TADQIQOTI

Zamonaviy tilshunoslikda diskursni tahlil qilish turli sohalarda qo‘llaniladi:

---

[272] Демьянков В.З. Когнитивная лингвистика как разновидность интерпретирующего подхода / В.З.Демьянков // Вопросы языкознания. - 1994. – № 4. - С.17 – 33.

[273] Степанов Ю.С. Альтернативный мир, Дискурс, Факт и принцип Причинности / Ю.С.Степанов // Язык и наука конца XX века. – М.: Российский Государственный гуманитарный институт, 1995. – С. 35 – 73.

[274] Safarov Sh. Pragmalingvistika. Mongrafiya. Toshkent 2008yil, 318b

Siyosiy diskurs – siyosiy hayotga oid matn va nutqlar. Siyosiy yetakchining saylovoldi nutqi. Masalan, o’zbek misolida: Amir Temur o’z farmonlarida adolat va kuchni birlashtirish orqali davlat boshqaruvini mustahkamlash g’oyalarini ilgari surgan. Rus tilidagi misolni ko‘rsak, “Уважаемые граждане России!” degan murojaatda ijtimoiy birdamlik va ishonchni shakllantirishga qaratilgan maqsad bor.

Barak Obamaning “Yes, we can” shiori siyosiy diskursda umid, birdamlik va o’zgarishlar g’oyasini aks ettirgan.

Ilmiy diskurs – ilmiy ishlarda foydalaniladigan terminologiya va argumentatsiya tili. Olimlar orasida aniq ilmiy til ishlatiladi. Masalan, ilmiy maqolalardagi jumlalar oddiy muloqotdan farqli ravishda qat’iy grammatik tuzilmalar va maxsus atamalar bilan ajralib turadi. Immanuel Kantning “Aqlning tanqidi” asarida ishlatilgan terminologiyalar (masalan, “transsendental idealizm”) ilmiy diskursning murakkabligiga misol bo‘la oladi.

Misol: “Fotosintez jarayoni quyosh energiyasini kimyoviy energiyaga aylantirishni ta’minlaydi.”

Media diskursi – ommaviy axborot vositalaridagi matnlar va ma’lumotlar. Ommaviy axborot vositalarida foydalaniladigan tilni reklama orqali tahlil qilish.

Misol: Reklamada “Yangi avlod smartfoni! Siz o’ylagan hamma narsaga ega!” degan ibora muloqotning his-tuyg’ularga asoslanganligi va xaridorni jalb qilishga qaratilganini ko’rsatadi.

Diskursning o‘rganilishi ijtimoiy munosabatlarni, hokimiyatning ta’sirini va tilning madaniy qirralarini yaxshiroq tushunishga yordam beradi.

Diskursning lingvokulturologik jihati madaniy qadriyatlar va milliy xususiyatlarning aksidir. Misollarni tahlilga tortadigan bo‘lsak, o‘zbek diskursida kollektivizm va emotsionallik ko‘rinsa, rus tilida fikrda aniqlik va konkret maqsad ifodalansa, ingliz tilidagi diskursda individuallik va aniq fikr bildirish ustunlik qiladi. Bu esa sanab o‘tilgan tillarda izomorfik va allomorfik jihatlar mavjudligini bildiradi.

Keyingi misolda ham boshqa farqli holatni kuzatishimiz mumkin: o‘zbek tilida: “Vaqt g‘animat” iborasi vaqtdan to‘g‘ri foydalanish madaniyatini, vaqtning moddiy jihatdan ko‘ra ma‘naviy masalalarini aks ettirib, unda ko‘proq ma’naviy va ma’rifiy mazmun mavjud. Rus tilida “Время деньги” (“Vaqt pul”) frazemasi vaqtning qadrlanishi va uni iqtisodiy resursga qiyoslash g‘oyasi yotibdi. Ingliz tilida: “Time is money” iborasi vaqtni resurs sifatida ko’rgan madaniyatni aks ettiradi. Ibora zamirida vaqtni yo‘qotish xarajatlar oshishiga va daromad kamayishiga olib kelishi mumkinligi to‘g‘risida ogohlantirish yotibdi.

Diskursning pragmatik aspekti bo’yicha misollarni tahlil qiladigan bo‘lsak, muloqot jarayonida maqsadga erishishda quyidagi vositalar yordamida amalga oshadi: ishontirish, boshqarish yoki auditoriyaga ta’sir qilish usullari (masalan, reklama yoki siyosiy nutqlar) pragmatik tahlil obyekti bo‘ladi. Ularni quyida keltirib o‘tamiz: 1)muloqotdagi maqsadlar: ishontirish: Siyosatchi saylovoldi kampaniyada: “Biz bu mamlakatni yangidan tiklaymiz! Har bir fuqaro uchun imkoniyatlar yaratamiz!” Bu orqali siyosatchi tinglovchini o‘z rejalariga

ishontirishga harakat qilmoqda; hissiy ta’sir: reklama: “Bu yangi avtomobil bilan siz hayotingizni yengillashtirasiz va oilangiz uchun xavfsizlik yaratishingiz mumkin!”;

2)Nutq aktlari: va’da: Do‘stingizga: “Ertaga sening tug‘ilgan kuning uchun tort olib kelaman.”; so‘rov: Do‘konda: “Iltimos, menga yangi mahsulot haqida ma’lumot bera olasizmi?”

XULOSA

Diskurs – bu oddiy nutq yoki matndan tashqarida bo‘lgan murakkab tushuncha bo‘lib, u til, madaniyat va ijtimoiy munosabatlarning o‘zaro bog‘liqligini o‘rganish uchun asosiy vositadir. Unda lingvokulturologik jihatlar (madaniyat va tilning o‘zaro ta‘siri) va pragmatic jihatlar (maqsadga yo‘nalgan ta‘sir) uyg‘unlashgan. Diskurs insonlar o‘rtasidagi muloqotni nafaqat til orqali, balki madaniy dunyoqarash va qadriyatlar orqali ham shakllantiradi.

Shuning uchun, diskurs tahlili nafaqat tilni o‘rganish, balki xalqning madaniy dunyoqarashini tushunish uchun ham muhim vositasidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Foucault, M. (1992). The archaeology of Knowledge. Tavistock Publications.

2. Дейк Т.А. Язык. Познание. Коммуникация. М.: Прогресс, 1989. - 312 с.

3. Демьянков В.З. Когнитивная лингвистика как разновидность интерпретирующего подхода / В.З.Демьянков // Вопросы языкознания. - 1994. – № 4. - С.17 – 33.

4. Звегинцев В. А. «Предложение и его отношение к языку и речи». 1976. МГУ 308 с.

5. Карасик В.И. Языковая круг: личность, концепты, дискурс. – М.: Гнозис, 2004.

6. Каплуненко А.М. Историко – функциональный аспект английской идиоматики: Монография /А.М.Каплуненко. – Ташкент: Изд - во Ташкент. ГПИ им. Низами, 1991. – 126 с.

7. Очилова Н. Н. Замонавий илмий дискурснинг фарқли белгилари Хорижий филология №3, 2020 йил

8. Safarov Sh. Pragmalingvistika. Mongrafiya. Toshkent 2008yil, 318b

9. Степанов Ю.С. Альтернативный мир, Дискурс, Факт и принцип Причинности / Ю.С.Степанов // Язык и наука конца XX века. – М.: Российский Государственный гуманитарный институт, 1995. – С. 35 – 73.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 1-son)

FILOLOGIYA

PHILOLOGY

UDK: 811.512.133

TILSHUNOSLIKDA RAVISHNING AJRATILISHI VA SHARHLANISH TAMOYILLARI

Qurbonmurodova Aziza Shavkatovna
Renessans ta’lim universiteti Filologiya kafedrasi o‘qituvchisi
E-mail: qurbonmurodovaa@gmail.com
ORCID ID: https://orcid.org/0009-0009-4472-9649

Annotatsiya: Ushbu maqolada tilshunoslikda ravish so‘zlarni turkum sifatida ajratilishi, ajratilishda olimlarning turli davrlardagi qarashlari, ravishning so‘z turkumi sifatida shakllanish bosqichlari ko‘rib chiqildi. Ravishning mustaqil so’z turkumi sifatida bugungi kunda tilshunoslikda o‘rni va o‘rganilishi keng ahamiyatga ega.

Kalit so‘zlar: so‘z turkumi, grammatik belgi, semantik xususiyat, ravish so‘zlar.

ПРИНЦИПЫ РАЗДЕЛЕНИЯ ПОВЕСТВОВАНИЯ И ИНТЕРПРЕТАЦИИ В ЛИНГВИСТИКЕ

Аннотация: В статье рассматривается классификация идиом как категории в языкознании, взгляды ученых разных периодов на данную классификацию, а также этапы формирования идиом как категории слов. Роль и изучение красноречия как самостоятельной группы слов в лингвистике сегодня имеют большое значение.

Ключевые слова: класс слов, грамматический признак, семантический признак, идиоматические выражения.

PRINCIPLES OF SEPARATION AND INTERPRETATION OF SPEECH IN LINGUISTICS

Abstract: This article examines the classification of idioms as a category in linguistics, the views of scholars in different periods on the classification, and the stages of the formation of idioms as a category of words. The role and study of idioms as an independent category of words in linguistics today is of great importance.

Keywords: category of words, grammatical feature, semantic feature, idioms.

KIRISH

Har bir so‘z turkumi o‘ziga xos grammatik kategoriyalar to‘plami bilan ajralib turadi. Bu kategoriyalar (masalan, otlardagi kelishik, egalik, son; sifatlardagi daraja; fe’llardagi shaxs-son,

mayl, nisbat va boshqalar) har bir So‘z turkumlaridagi aksariyat so‘zlarga tegishli buladiki, bu narsa so'zlarni turkumlarga ajratishning morfologik mezoni sanaladi. Tilshunoslikda olimlar so‘zlarni turkumlarga ajratishni asosiy omil sifatida qarashgan. Fanning rivojlanib borishi, so‘z turkumlarini ham takomillashib borishiga asos bo‘ldi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Tilshunoslikda morfologiyaga oid qarashlar arab tilshunosligi ta’sirida X-XI asrlarda shakllana boshlagan. M.Qoshg‘ariy “Devonu lug‘otit turk” asarining katta qismini “So‘z yasalishi” va “Morfologiya”ga bag‘ishlangan. Asarning 2-jildi asosan olimning morfologiyaga oid qarashlarini o‘zida aks ettirgan. Avvalo, olim so‘zlarni uchta turkumga ajratadi va bular ichida fe’l va fe’l shakllari bo‘yicha o‘z qarashlarini bildirib o‘tadi. Professor A.Nurmonov ta’kidlaganidek, “M.Qoshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asari X-XI asr turkiy tillar morfologiyasi haqida to‘la tasavvur beruvchi qomusiy asardir”.[275]

Har bir tildagi so‘zlar grammatik belgisi va semantik xususiyatlariga ko‘ra turli guruhlarga ajratiladi. Muayyan bir tildagi so‘zlarni turkumlarga ajratish, shu tildagi so‘zning o‘ziga xos ma‘nosi, grammatik xususiyati, so‘z yasalish tizimi va so‘zlarning o‘zaro birikish usullari asosida ishlab chiqilishi kerak.

T.Asadov nomzodlik ishida fanda ravishni ziddiyatli talqinda ekanligini quyidagicha izohlanganini keltirgan. Ravish boshqa so‘z turkumlari hisobidan boyigan so‘z turkumligini, ravish guruhining aksariyat qismi tublanish asosida tarkib topgani, o‘zbek tili hodisalariga rus tili grammatikasi qolipi asosida yondashilganligini ko‘satib o‘tgan.

Ravish deb baholanadigan so‘zlar ma’no jihatdan ot, sifat, son, olmoshlarga yaqin. Bu haqda N.Mahmudov shunday degan: O‘zbek tilshunosligida sifat va ravish farqlanadi. Sifat predmet belgisini, ravish harakat belgisini bildiradi. Ko‘rinadiki, har ikkisi ham belgi bildiradigan so‘z, shunday ekan, ularni ikkisini ham turkumga ajratish shart emas, chunki ularning shaklida ham farqi yo‘q.

Tilshunoslikda ravishga shunday ta’rif beriladi. Mazmunan ot, son va qisman olmoshga yaqin bo‘lib, morfologik jihatdan o‘zgarmaydigan mustaqil so‘zlarga ravish deyiladi. Bu ta’rifni barcha darslik va qo‘llanmalarda ko‘rish mumkin. Ravishning grammatik belgisi sifatida morfologik o‘zgarmaslik va belgining belgisini ifodlash mezoni ilgari surilgan bo‘lsa-da,ko‘plab ilmiy ishlarda shu me’yordan chetga chiqish hollarini kuzatish mumkin.[276]

Ravish orasida belgining belgisini ifodalovchi o‘zgarmas so‘zlar (*qasddan, taxninan, baralla, butkul, do‘stona hamisha, andak, vijdonan, birga, mardlarcha, endi, hali, mutlaqo, aslo*) bilan bir qatorda morfologik o‘zgarish qobiliyatini to‘la-to‘kis saqlagan o‘nlab ravish

[275] M.Qoshg’ariy. Devonu lug’otit turk.–Toshkent,1960-1963.II jild.–41-71 b.

[276]Asadov T.So'z turkumlari tizimida ravish:Filologiya fanlari nomzodi diss.—Toshkent,2009 -17 b.

bo‘lmagan nutqiy va lug’aviy birliklar (*u yoq, bu yer, shu vaqt, ichkari, tashqari, ko‘p, atrof*) ko‘rish mumkin.[277]

Ravishning grammatik ma’nosi, morfologik belgilari va sintaktik vazifasi bor. Ravishlarning ma’no turlari: holat, miqdor-daraja, payt, o‘rin sabab, maqsad ravishlari mavjud. Ravishlar daraja (oddiy, qiyosiy, orttirma darajalar)ga ega.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Ravishlarga xos bo‘lgan grammatik xususiyatlar va bu xususiyatlarga bog‘liq holda sodir bo‘ladigan leksik-semantik o‘zgarishlar o‘zbek tilshunosligida o‘rganilgan va o‘quv adabiyotlariga kiritilgan. Bu tadqiqotlar orasida. S.Fuzailovning ushbu so‘z turkumini o‘rganishga bag‘ishlangan nomzodlik dissertatsiyasini va «O‘zbek tilida ravishlar» nomli asarini alohida ko‘rsatishimiz mumkin. Grammatik xususiyatlari haqida deyarli barcha darsliklar va o‘quv qo‘llanmalarida so‘z yuritilgan. Ammo ularning stilistik xususiyatlari to‘g‘risidagi fikrlarni deyarli uchratmaymiz. O‘zbek tilida ravishlar uslubiyati va me’yori haqida olimlarimiz haligacha o‘z mulohazalarini bildirishgan emas. Buning sabablari bor, albatta. Sh.Shoabdurahmonov va boshqlar tomonidan yaratilgan «Hozirgi o‘zbek adabiy tili» darsligida shunday fikrlar bayon etilgan: «Ravishlar mustaqil so‘z turkumi sifatida o‘ziga xos morfologik belgilarga ega. Bunday belgilardan biri ravishlarning o‘zgarmasligidir: ravishlar biror so‘zga bog‘langanda, formasi o‘zgarmaydi. Ular tarkibida uchraydigan ko‘plik, egalik va kelishik affikslari ham forma yasovchi sifatida qatnashmaydi. Bu affikslar ravishning o‘z xiliga kiradi. Ya’ni shu affiks bilangina u so‘z ravish hisoblanadi. Masalan: birdan, birga, kunda, chalqanchasiga, birdaniga, yonlamasiga, qatorasiga kabi ravishlardagi kelishik va egalik affikslari o‘z asl ma’no va vazifasini yo‘qotgan».[278]

Mana shu masala olimlarimizning ravishlar stilistikasini tahlil etishdan cho‘chishlariga sabab bo‘lgandir. Buning ustiga ravishlarning ma’no anglatishi birmuncha aniq bo‘lib, sinonimik xususiyatlari ko‘zga kam tashlanadi. Bu masalaning ikkinchi tomoni. Ammo qanday mushkulliklar bo‘lishidan hat’iy nazar, o‘zbek tilidagi ravishlar stilistikasi xususida so‘z yuritish lozim va unga zaruriyat deb qaraymiz. Ravishlardagi belgini, xususan harakatning belgisini ifoda etish xususiyati va bu jarayonda belgilarni darajalab ko‘rsatish imkoniyatining mavjudligi hamda buning natijasida vujudga kelgan sinonimik variantlar va uslublararo funksional chegaralanishlar ushbu so‘z turkumining ham stilistik resurslari yetarli darajada ekanligidan dalolat beradi va bu resurslarni kelajakda tadqiqot ob’ekti sifatida o‘rganish dolzarb masala bo‘lib turadi. Ravishlardagi ana shu o‘zgarmaslik uning qo‘llanishidagi uslubiy xilma-xillik bo‘lishini chegaralaydi. Shu bilan birga, ularning nutq jarayonidagi me’yorlashishini, turg‘unlashishini osonlashtiradi. Ilmiy adabiyotlarda ravishlar anglatgan ma’nolari jihatidan holat-tarz, o‘rin, payt, maqsad, miqdor daraja ravishlariga ajratilgan va shu tarzda talqin qilingan. Biz ham an’nani buzmasdan, ushbu tartib asosida ularni qarab chiqamiz. *Holat ravishi*.

[277]Asadov T.So'z turkumlari tizimida ravish:Filologiya fanlari nomzodi diss.—Toshkent,2009 -17 b.

[278]Shoabdurahmonov Sh. va boshq. Hozirgi o‘zbek adabiy tili, I qism. – T.: O‘qituvchi, 1980

O‘zbek tilida ish-harakatning bajarilish tarzini ko‘rsatadigan bir qancha ravishlar mavjud va ular miqdor jihatdan ravishlarning boshqa turlariga nisbtan ko‘pchilikni tashkil etadi. Ulardagi uslubiy imkoniyatlarni tahlil etish maqsadida A.Hojievning “O‘zbek tili sinonimlarining izohli lug‘ati” (Toshkent,1974) ga murojaat qilamiz. O‘zbek tilida *abadiy, mangu, umrbod, toabad, ilalabad* ravishlarining ma’nolari bir-biriga yaqin va shuning uchun bir sinonimik qatorni tashkil etadi. Ular orasida abadiy stilistik jihatdan neytral va barcha uslublarda baravar qo‘llaniladi: *Shu ko‘zlar yulduzday abadiy kulsin, / Bahor yo‘llaringga to‘shasin chechak* (Zulfiya.Kelinchak). *Gaz esa abadiy muzliklar qa’rida yotgan o‘simliklar va daraxtlar qoldiqlarini chirishi oqibatida paydo bo‘lgan.* («Zarafshon» gaz.). *Qo‘shiqday Osiyo, qaynoq Afrika / Qo‘lga-qo‘l berganin mahkam umrbod* . (Zulfiya. Salom, Misr). Ammo keyingi paytlarda huquq sohasida olib borilayotgan islohotlar, jazoni liberallashtirish bilan bog‘liq bo‘lgan tadbirlar umrbod so‘zining Jinoyat kodeksiga atama sifatida kirib kelishini va rasmiy uslubga xoslanishini taqozo etdi: *Mazkur Farmonga binoan mamlakatimizda 2008 yilning 1 yanvaridan jinoiy jazo turi sifatida o‘lim jazosi bekor qilinadi va uning o‘rniga umrbod yoki uzoq muddatga ozodlikdan mahrum etish jazosi joriy qilinadi.* («Zarafshon» gaz.). *Mangu, toabad, ilalabad* ravishlarida ekspressivlik ottenkasi kuchli bo‘lib, bu ularning tarixiyligi bilan bog‘lik va badiiy matnlarda faol qo‘llaniladi: *Bir tasalli: Mangu sarg‘ayish bilmay / Dilda bir bahor ochib har so‘zing* (Zulfiya. Otashparastlar). *–Faqir ham rozimen, ustod, toabad rozimen... Tabarruk boshlariga qo‘ngan humo qushi bul zoti sharifni toabad tark etmagay. Tegsang... ota qarg‘ishiga uchrab toabad badnom bo‘lursen*!

Garchi bu ravishlar bir sinonimik qatorda deb hisoblansa ham, ularning stilistik qiymati bir xilda emas. *Abadiy muzliklar* o‘rnida *mangu muzliklar* deyish mumkin bo‘lgani holda ilmiy matnlarda bu tarzda qo‘llanilmaydi. Chunki bayonning axborot xarakterida ekspressiv ottenkasi bo‘lgan so‘zni qo‘llashga ehtiyoj yo‘q. *Umrbod qamoq jazosi* o‘rnida *abadiy qamoq jazosi*ni ham qo‘llab bo‘lmaydi. Chunki umrbod so‘zida abadiyga nisbatan aniqlik ottenkasi bor. *Toabad, ilalabad* so‘zlarida yuqori uslubga xos ohang mavjud va uni asosan badiiy uslubda qo‘llash mumkin. *Shoshilinch* sememasi ostida birlashadigan apil-tapil, naridan-beri, shosha-pisha juft so‘zlari ham harakatning tarzini ifoda etadi (Apil-tapil o‘ng cho‘ntagini kovladi. T.Murod) va o‘zro sinonim bo‘ladi: apil-tapil - shosha-pisha : O‘lim dahshatidan qo‘rqib – o‘z jonini apil-tapil topshirib qo‘yadi (TM) - *O‘lim dahshatidan qo‘rqib – o‘z jonini shosha-pisha topshirib qo‘yadi*. Ularga *shoshilib* so‘zi ham sinonim bo‘ladi*: Shoshilib ketayotganingizda oyog‘ingiz ostida allaqayoqdan sakrab tushgan chigirtka paydo bo‘ladi* (O‘.X). Ammo bu sinonimlik odamlarning harakatiga nisbatan qo‘llanganda amalga oshishi mumkin.

XULOSA

Tilshunoslikda olimlar so‘zlarni turkumlarga ajratishni asosiy omil sifatida qarashgan. Fanning rivojlanib borishi, so‘z turkumlarini ham takomillashib borishiga asos bo‘ldi. Ravishlardagi belgini, xususan harakatning belgisini ifoda etish xususiyati va bu jarayonda belgilarni darajalab ko‘rsatish imkoniyatining mavjudligi hamda buning natijasida vujudga kelgan sinonimik variantlar va uslublararo funksional chegaralanishlar ushbu so‘z turkumining

ham stilistik resurslari yetarli darajada ekanligidan dalolat beradi va bu resurslarni kelajakda tadqiqot ob’ekti sifatida o‘rganish dolzarb masala bo‘lib turadi. Ravishlardagi ana shu o‘zgarmaslik uning qo‘llanishidagi uslubiy xilma- xillik bo‘lishini chegaralaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdullayeva O.O‘zbek tilida ravish so‘z turkumini modellashtirishda so‘z yasalish masalalari va ularning morfoanalizatorda tahlili: fil. fan. bo‘y fal dokt… (PhD) xalqaro ilmiy anjuman konfirinsiyasi – Toshkent, 2023-.B.249-260

2..Bozorov O. O‘zbek tiida darajalanish: fil.fan dokt… diss – Toshkent,1997. -270 b.

3. M.Qoshg’ariy. Devonu lug’otit turk.–Toshkent,1960-1963.II jild.–41-71 b.

4.Jumabayeva J.Sh .O‘zbek va ingliz tillarida leksik graduanimiya:fil.fan.dokt.. diss.avtoreferat. – Toshkent, 2016.-82 b.

5.Mirxonova G. O‘zbek tilining sinonimlar o‘quv izohli lug‘atini tuzishning lingvistik asoslari. Filol.dan.bo‘yich fals,dokt. (PhD) … diss. – Qarshi,2022. – B.138.

6.Orifjonova Sh. O‘zbek tilida lug‘aviy graduonimiya. Filol.fan.nomzodi diss… - Toshkent, 1997. -113 b.

7.Shoabdurahmonov Sh. va boshq. Hozirgi o‘zbek adabiy tili, I qism. – T.: O‘qituvchi, 19 80,

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 1-son)

FILOLOGIYA

PHILOLOGY

X.K.ONETTI VA O‘ZBEK HIKOYACHILIGIDA QAHRAMON RUHIYATI. RAMZLARNING G‘OYAVIY-ESTETIK VAZIFALARI

Obidova Nafisa Odiljon qizi
Navoiy Davlat Universteti tayanch doktaranti

Annotatsiya. Lotin Amerikasi adabiyotida badiiy psixologizm inson ruhiyatining murakkab jihatlarini, hissiy va psixologik jarayonlarni chuqur ifodalash orqali yorqin namoyon bo‘ladi. Ushbu yo‘nalish, ayniqsa, XX asrning ikkinchi yarmida Lotin Amerikasi “Bum” adabiyoti vakillarining ijodida rivojlangan. Lotin Amerikasi yozuvchilari badiiy psixologizmni ijodiy uslubda boyitib, uni mahalliy madaniyat, tarix va mifologiya bilan uyg‘unlashtirgan.

Kalit so‘zlar: badiiy psixologizm, ong oqimi, qiyosiy tahlil,ichki konfilikt, absurd.

Х.К.ОНЕТТИ И ДУХ ГЕРОЯ В УЗБЕКИСТАНСКОМ ПОВЕСТВОВАНИИ. ОБРАЗНО-ЭСТЕТИЧЕСКИЕ ФУНКЦИИ СИМВОЛОВ

Аннотация. В латиноамериканской литературе художественный психологизм ярко проявляется в глубоком представлении сложных сторон человеческой психики, эмоциональных и психологических процессов. Это направление особенно развито в творчестве представителей латиноамериканской литературы “бума” второй половины XX века. Латиноамериканские писатели обогатили художественный психологизм творческим стилем, соединив его с местной культурой, историей и мифологией.

Ключевые слова: художественный психологизм, поток сознания, сравнительный анализ, внутренний конфликт, абсурд.

H.K.ONETTI AND THE SPIRIT OF THE HERO IN UZBEKISTAN'S STORYTELLING. ILLUSTRATIVE-AESTHETIC FUNCTIONS OF SYMBOLS

Annotation. In Latin American literature, artistic psychologism is clearly manifested in a deep understanding of the complex aspects of the human psyche, emotional and psychological processes. This trend is especially developed in the works of representatives of Latin American literature of the “boom" of the second half of the 20th century. Latin American writers have enriched artistic psychology with a creative style, combining it with local culture, history and mythology.

Key words: artistic psychologism, stream of consciousness, comparative analysis, internal conflict, absurdity.

Kirish. Badiiy asar qanday ifodalanishidan qat’iy nazar eng muhim jihati uning kishilik ongiga qanday ta’sir ko‘rsatishi muhim hisoblanadi. Obrazli qilib aytilgan so‘z kishi ruhini o‘ziga bo‘ysundiradigan bir holat kasb etadi ya’niki, psixologik ta’sirlanish yuz beradi. Adabiyotshunoslikka badiiy psixologizm masalasi ilmiy maydonga o‘tgan asrning o‘rtalaridan kirib kelib, ruhiyat termini bilan sinonim tarzda qo‘llanib kelmoqda. Badiiy adabiyotda asarning g‘oyaviy estetik ahamiyatini personajlar xarakteri ochib bersa, personaj xarakterining yozuvchi tomonidan ochib berilishi psixologik tahlil vositasi hisoblanadi. Yozuvchi personaj xarakterini yaratar ekan , uni ruhiyatini bevosita yoki bilvosita ochib berishi mumkin. Personaj o‘y – kechinmalari, his - tuyg‘ularining “ichki monolog”, “ong oqimi” tarzida yoki muallif tilidan bayon qilinishi psixologik tasvirning bevosita shakli hisoblanadi. Qahramon ruhiyatining uning hatti - harakatlari, gap - so‘zlari, yuz - ko‘z ifodalari undagi fiziologik o‘zgarishlarni ko‘rsatish orqali ochib berilishi bilvosita psixologik tasvirdir.

Adabiyotlar tahlili. Xuan Karlos Onettining asarlari, jumladan “Un gozo imprevisto” (Kutilmagan zavq) kabi hikoyalari ustida turli tadqiqotchilar adabiyotshunoslik va psixologiya nuqtai nazaridan ilmiy izlanishlar olib borgan. Emir Rodrígez Monegal[1] -Lotin Amerikasi adabiyoti tadqiqotchisi va Onetti ijodining yetakchi tahlilchilaridan biri.Uning Onettining hikoyalari, jumladan “Un gozo imprevisto” haqida yozgan asarlari Onettining yozuv uslubi, psixologik tahlili va hayotiy absurdlikni qanday tasvirlaganini ochib beradi.Hugo Verani[2] -Onettining asarlaridagi ichki konfliktlar va ekzistensializmni chuqur o‘rgangan.U Onettining qahramonlarining psixologik o‘zgarishlarini va ularning yolg‘izlikni boshdan kechirishlarini tahlil qilgan. Josefina Ludmer[3] -Onettining hikoyalarini feministik va psixoanalitik nuqtai nazardan o‘rganib, uning qahramonlaridagi ruhiy holatlarning murakkabligini tahlil qilgan.Uning tadqiqotlarida Onetti ijodida ayollar obrazlari va ularning psixologiyasi muhim mavzu sifatida ajratib ko‘rsatilgan. Roberto Echavarren[4] -Onettining psixologik hikoyalarida tasvirlangan ichki dunyo, vaqtning nisbiyligi va zavqning mavhum tushunchasi ustida ishlagan.U Onettining asarlaridagi mavhumlik va o‘zlikni anglash jarayonini chuqur o‘rganib chiqqan.

Tadqiqot metodologiyasi. Lotin Amerikasi adabiyotiga nasriy psixologik uslubni olib kirgan ijodkor sifatida adabiyotshunoslikda Xuan Karlos Onetti e’tirof etiladi. Yozuvchi asarlarida kattalar dunyosi bolalik, o‘smirlik dunyosiga ya’ni beg‘uborlikka qarama - qarshi qo‘yiladi. Kattalar dunyosini hayotning aynigan, o‘zanidan adashgan davr sifatida talqin etadi. Hikoya qahramonlari hayot haqida orzu qiluvchi insonning ichki monologiga qurilgan. Adib insonning ichki monologi orqali fabula va harakat yaratishni asosiy uslub qilib oldi. Uning deyarli barcha asarlarida hayotdan alamzada bo‘lgan, bezigan, ko‘ngli to‘lmagan odamning hayot haqidagi orzulari, kechinmalari, xulosalari va dardlarini bayon qiluvchi qahramonlar galereyasi yaratiladi. Har bir qahramoni bitta kishini emas, butun boshli avlodning, jamiyat yakkalab tashlagan chetga surgan yoki yolg‘on, aldov, xiyonat va ikkiyuzlamachilikka qarshi isyon sifatida o‘zini chetga surgan, o‘zini xayol o‘pqoniga tashlagan ziyoli qatlamning timsolidir. Onettining qahramonlari voqelik qahramonlari emas, balki ko‘ngil tarixining

qahramonlari, orzu, xayol olamining odamlaridir va ularning aksaryati oddiy va baxtsiz odamlardir. Ammo ana shu oddiy odamlar qalbi shunday ustalik bilan ochiladiki, bu qahramonlarning kechinmalaridagi go‘zal tuyg‘ularni beixtiyor chuqur his qilasiz. Istioralar, o‘xshatishlar, hayajon va obrazli ifodar orqali qahramon dunyosi ochib beriladi. Uning qahramonlari asarda hamisha hayotning keskin burulish pallasida – tushkunlik va umidsizlikka g‘arq holatda paydo bo‘ladi. Aynan shu holatda hissotlar va aql junbishga keladi, ong osti kechinmalari o‘zini namoyon qiladi, oqibatda inson psixikasidagi barcha jarayonlarni kuzatish va tahlil qilish imkoniyati tug‘iladi. Tadqiqotchi Djelal Kadir[5] Onetti hikoyalarini batafsil tahlil qilib, uning ijodini Lotin Amerikasi modernizmi va ekzistensializmi kontekstida o‘rganadi.Kadir Onettining hikoyalarini insoniy psixologiya, yolg‘izlik va yashash ma’nosi haqida falsafiy izlanishlar deb ta’riflaydi.”El Pozo’’(Chuqur)[6] Onettining birinchi hikoyasi bo‘lib, insonning ichki kechinmalari va subyektiv idrokini ko‘rsatishga bag‘ishlangan. Kadir bu asarni “yangi Lotin Amerikasi yozuvchiligiga kirish eshigi” deb ta’riflaydi “Los Adioses”[7] (Xayrlashuvlar): Bu novellada hikoya qiluvchining noaniq va ishonchsiz nuqtayi nazari muhim rol o‘ynaydi. Kadirning fikriga ko‘ra, bu asar Onettining insonni chuqur ichki qarama-qarshiliklar bilan tasvirlashdagi mahoratini aks ettiradi. Ushbu hikoya inson his-tuyg‘ularining nozikligi , xotira va o‘tgan vaqt bilan aloqalar haqidagi falsafiy mulohazalarga to‘la. Hikoya bir odamning o‘tgan voqealar, munosabatlar va xotiralardan xayrlashuvi haqida. Syujet markazida qahramon o‘tmishiga yuzlanib, o‘sha voqealarni xotirlaydi va ular bilan vidolashishga urinadi. Bu jarayon shaxsiy o‘zgarishlar va hayotning ma’nosini izlashni o‘z ichiga oladi. Asar qahramonning xotiralariga qaytishidan boshlanadi. Bu qismda qahramonning ichki kechinmalari va o‘tmishga bo‘lgan bog‘lanish hissi namoyon bo‘ladi. Qahramon o‘tmishdagi muhim voqealarni tasvirlaydi, ularning har biri hayotidagi o‘ziga xos bosqichni ifodalaydi. O‘tmishdagi odamlar bilan bo‘lgan munosabatlari haqida mulohaza qiladi va o‘tmish bilan vidolashish jarayonida ichki kurashni boshdan kechiradi. Asar qahramonnig hozirgi vaqtga moslashishi intilgani bilan tugaydi ammo undan butunlay uzilmaydi, o‘tmish uning shaxsiyati va hayotiy qarashlarining bir qismi sifatida qoladi. Onetti asarlarida inson shaxsiyati , idenfikatsiya va shaxsiylik mavzusi muhim o‘rin egallaydi. Maryse Renaudning[8] tadqiqotida yozuvchining shaxsiyatini qidirish mavzusi va uning shahar hayotiga ta’siri tahlil qilingan. Ushbu mavzuda Onetti qahramonlari murakkab, ma’nosiz va aksaryat hollarda iztirobli voqealar bilan yuzlashadi. Yozuvchi ijodida amerikalik Uilyam Folkner ta’siri ko‘p muhokama qilingan[9] Onetti qahramonlari ko‘pincha o‘zlarini jamiyatdan va atrofdagi dunyodan ajralgan his qiladilar. Masalan, “La vida breve” (Qisqa hayot) asarida bosh qahramon o‘zining o‘tgan va hozirgi hayoti o‘rtasida chuqur tafovutlar va o‘zini anglashdagi noaniqlikni boshdan kechiradi. Ularning ichki iztiroblari va yolg‘izligi Onettining psixologizmga bo‘lgan yondashuvini namoyish etadi.Hikoya inson hayotining qisqaligi , uning murakkabligi va insonning o‘z joyini anglash qiyinchiliklarini yoritadi. Hikoya murakkab ichki syujetga ega bo‘lib , xotiralar va ichki kechinmalar orqali rivojlanadi. Qahramon o‘zining o‘tmishi va hozirgi holatini solishtiradi, hayotiy tanlovlarining noto‘g‘ri yoki befoyda ekanligini his qiladi. Xuan Karlos Onettining “Un

gozo imprevisto” (Kutilmagan zavq) hikoyasi inson ruhiyatining murakkabligini, hayotning mayda zavqlari va ularning kutilmagan tarzda paydo bo‘lishi orqali inson hayotiga bo‘lgan ta’sirini o‘rganadi. Bu hikoya Onettining psixologik asarlari qatoriga kirib, unda jamiyatdan ajralgan insonning yolg‘izlik va ichki konfliktlari ustalik bilan tasvirlangan.

Tahlil va natijalar. Hikoya asosiy qahramonning hayotdagi kichik va kutilmagan quvonchlarni boshdan kechirishi haqida hikoya qiladi. Qahramonning ruhiy kechinmalari va o‘z hayotiga bo‘lgan qarashlari hikoya davomida o‘zgaradi. Bu zavq oddiy, kundalik hayotdan yoki kichik voqealardan paydo bo‘lib, qahramon uchun ma’lum darajada hayotning ma’nosini tiklash imkoniyatini beradi.Qahramon jamiyatdan ajralgan holda, ichki dunyosida yashaydi. U o‘z muhitidan uzoqlashgan, hayotning oddiy zavqlarini his qilishga qodir emasdek tuyuladi.Yolg‘izlik qahramonning ichki konfliktlarini oshiradi va uning ichki dunyosi bilan tashqi dunyo o‘rtasidagi ziddiyatni kuchaytiradi.Hikoya inson hayotida kutilmagan va mayda narsalarning ham zavq keltirishi mumkinligini ko‘rsatadi. Bu zavqlar orqali qahramon hayotga boshqa nuqtai nazardan qarashga imkon topadi. Onetti hikoyada hayotning absurdligini tasvirlash orqali insonning ichki hissiyotlari va tashqi dunyo o‘rtasidagi qarama-qarshilikni ochib beradi. Qahramon hayotning hech narsaga arzimaydiganligini his qiladi, lekin kichik zavqlar bu his-tuyg‘ularni vaqtincha susaytiradi.Qahramon o‘z hayotining ma’nosizligini his qilsa-da, kutilmagan zavqlar uning ichki dunyosini tiklashga yordam beradi. Bu insonning murakkab va o‘zgaruvchan tabiatini aks ettiradi.Hikoya qahramonning ruhiy holatini o‘rganish orqali inson psixologiyasidagi quyidagi jihatlarni ochib beradi:

1. Ichki konfliktlar. Qahramonning ichki olamida yuz beradigan ziddiyatlar hikoyaning asosiy mazmunini tashkil qiladi. U hayotdan zavq olishga harakat qilsa-da, bu jarayon doimiy emas.

2. Yolg‘izlikning ta’siri. Qahramon yolg‘izligi sababli boshdan kechirayotgan iztiroblar hayotning kichik zavqlari orqali vaqtinchalik bosiladi, ammo bu holat uning ichki tinchligini tiklay olmaydi. Hikoyada tasvirlangan muhit qahramonning ichki kechinmalarini aks ettiruvchi metafora sifatida xizmat qiladi

3. Zavqning vaqtinchaligi. Hikoya davomida kutilmagan zavqning vaqtinchalikligi va uning inson hayotiga chuqur ta’sir qilmasligi o‘z aksini topadi.Kutilmagan zavq hayotning kutilmagan tomonlarini ifoda etuvchi ramz sifatida xizmat qiladi. Bu qahramonning ruhiy dunyosini vaqtinchalik yoritib yuboradi.

Hikoyada hayotning absurd jihatlari va inson ruhiyatidagi murakkabliklar surrealistik ruhda tasvirlanadi.Xuan Karlos Onettining “Kutilmagan zavq” hikoyasi inson hayotining ma’nosizligi, yolg‘izlik va kichik zavqlar orqali hayotga bo‘lgan qarashni o‘zgartirish imkoniyati haqida falsafiy va psixologik izlanishdir. Hikoya qahramonning ichki dunyosini chuqur tahlil qilib, inson ruhiyatining murakkabligini, hayotning absurdligini va kutilmagan zavqlarning vaqtinchalik bo‘lsa ham inson hayotiga ta’sir qilish kuchini ko‘rsatadi.

Xuan Karlos Onettining qahramonlari inson ruhiyatining murakkab va ziddiyatli tabiatini o‘rganishda alohida ahamiyatga ega. Ularning yolg‘izlik, begonalik, o‘zlikni anglash va

ekzistensial ruhiy azoblari Lotin Amerikasi modernizmi va ekzistensializm adabiyotining asosiy mavzularini o‘zida aks ettiradi. Onetti inson ruhiyatini yoritishda nafaqat adabiy, balki falsafiy chuqurlikka ega bo‘lib, uning asarlari zamonaviy psixologik va falsafiy adabiyotning muhim qismini tashkil etadi.

Xulosa. O‘zbek adabiyoti hikoyachiligida ichki iztirob va insonning ruhiy holatini tasvirlashda Nazar Eshomqulning hikoyalari alohida ahamiyatga molik. “To‘fon eshiklari” hikoyasi insonning hayot oldidagi ojizligi va ruhiy izlanishlar bilan to‘la.

Xuan Karlos Onettining qahramonlari inson ruhiyatining murakkab va ziddiyatli tabiatini o‘rganishda alohida ahamiyatga ega. Ularning yolg‘izlik, begonalik, o‘zlikni anglash va ekzistensial ruhiy azoblari Lotin Amerikasi modernizmi va ekzistensializm adabiyotining asosiy mavzularini o‘zida aks ettiradi. Onetti inson ruhiyatini yoritishda nafaqat adabiy, balki falsafiy chuqurlikka ega bo‘lib, uning asarlari zamonaviy psixologik va falsafiy adabiyotning muhim qismini tashkil etadi.

Onetti ijodining murakkab modernistik uslubini o‘zbek adabiyotining xalqona va voqeaband uslublari bilan qiyoslash orqali universal va milliy adabiy yondashuvlar tushuniladi.

Madaniy va ijtimoiy kontekst.Onetti: Uning ijodi Lotin Amerikasining siyosiy beqarorlik, diktaturalar va inson huquqlari buzilishi sharoitida shakllangan. Bu muhit asarlaridagi pessimizm va umidsizlikni kuchaytiradi.

O‘zbek adabiyoti: XX asrda o‘zbek adabiyoti mustaqillik yillaridagi ijtimoiy o‘zgarishlardan ilhomlangan. Bu jarayonlarda jamiyat va millat taqdiri markaziy o‘rinni egallaydi.

Madaniy kontekstni qiyoslash orqali yozuvchi va shoirlarning o‘z davrlariga qanday munosabat bildirgani va qanday badiiy yo‘nalish tanlaganligi ochiladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Emir Rodríguez Monegal Uruguayan writer Written by Fact-checked by Last Updated: Nov 10, 2024 • Article History
2. Reviewed Work: Juan Carlos Onetti Hugo J. Verani Review by: Jonathan Tittler
3. Hispanic Review Vol. 58, No. 4 (Autumn, 1990), pp. 557-559 (3 pages)
4. Published By: University of Pennsylvania Press https://doi.org/10.2307/473684
5. JOSEFINA LUDMER ONETTI Spanish edition https://doi.org/10.2307/473684
6. Roberto Echavarren, Cristina Miraballes, Federico Sosa Machó
7. Amuleto, 2007 - 61
8. Juan Karlos Onetti, Boston: Twayne Publishers 1977, 469p
9. El pozo , Spanish Castilian 2007
10. Juan Carlos Onetti, Dario Puccini. Los adioses. 2003 by Seix Barral
11. Marie Joseph Renaud Marysela Quete De L'identite Dans L'oeuvre De Juan Carlos Onetti 22 | 2021
12. Mémoires dans la Caraïbe et l’Amérique latine : entre tradition, modernité et post-modernité. 1920-2020 : un siècle de capitalisme
13. La poetica de la lentitud y la infinitude. Gomez 2016, Grafiati

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 1-son)

FILOLOGIYA

PHILOLOGY

LINGUISTIC FEATURES OF ENGLISH ONOMASTIC IDIOMS

Muhitdinov Dilshod Tohirovich
Teacher, Uzbekistan state world languages university
muxitdinov.1992@gmail.com
+998934975332

Abstract This article deals with the linguistic analysis of English idiomatic expressions with onomastic components and also try to understand the linguo-cognitive aspects of more than 20 idioms which contain names of people, place, objects and some historical figures. Moreover, we will discuss the role of idioms in nation’s cultural heritage and cognition.

Key words: onomastic component, linguo-cultural, sociocultural factors, convey, symbolic, proper names

Annotatsiya Ushbu maqola ingliz tilidagi onomastik komponentli idiomatik iboralarning lingvistik tahlili bilan shug'ullanadi, shuningdek, odamlar, joy, narsa va ba'zi tarixiy shaxslar nomlarini o'z ichiga olgan 20 dan ortiq idiomalarning lingvistik-kognitiv jihatlarini tushunishga harakat qiladi. Bundan tashqari, maqolada idiomalarning xalqning madaniy merosi va dunyoni lisoniy anglashidagi o'rni haqida muhokama qilinadi.

Kalit so‘zlar: onomastik komponent, lingvo-madaniy, sotsio-madaniy omil, yetkazmoq, simvolizm, atoqli nomlar

Аннотация В этой статье рассматривается лингвистический анализ английских идиоматических выражений с ономастической составляющей, а также делается попытка понять лингвокогнитивные аспекты более 20 идиом, которые содержат имена людей, мест, объектов и некоторых исторических личностей. Кроме того, мы обсудим роль идиом в культурном наследии и познании нации.

Ключевые слова: ономастический компонент, лингвокультурный, социокультурные факторы, передавать, символический, имена собственные

INTRODUCTION

Idioms play an essential role nearly in every language in the world since they are considered to depict real cultural and historical image of the nation who use the language. If we look at some components of idioms, they contain names of people, place, animals or some objects. Idioms with proper names can reveal us more interesting data that may help us to find out the nature and origin of the idioms. Especially, idioms with the names of people and place are very popular for a lot of reasons; they are related some historical events, cultural or

traditional rituals dating back to very far, even some of them are very modern. Until recent years, scientists have had a view that idioms are frozen and do not give and convey any semantic meaning. But, current linguists contradict these views and claim that idioms have a lot of features to convey and reveal about the cognition of the people. Anthropologists, philosophers, psychologists may find some social, cultural and historical data for their work by investigating the idioms.

MATERIALS AND METHOD

Onomastics is a branch of linguistics that studies any common names, the history of their origin and change, also collection of all common names. The term onomastics is taken from the ancient Greek language and means ‘the art of naming, naming’. On some studies, the term onomastics is also used in the sense of anthroponymics. So, onomastics are divided into literary and dialectal, usual and poetic, modern and historical, theoretical and practical types depending on the linguistic features of famous names.

Onomastics is connected with such subjects as history, geography, ethnography, archeology, literary studies, astronomy, geology and demography.

The term ‘onomasiology’ was first used in 1902 by A. Zauner, who noted that the concept of onomasiological direction as a starting point and defines what names are available in the language for this concept. In this case, onomasiology is considered as a branch of lexicology. [4]

The extralinguistic conditionality of the nomination allows names to be divided into groups depending on their thematic relationship. O.I. Blinova states “Principles of naming are rules formed by the speaking community based on the generalization of motivational characterisctics and at the same time serve as a starting point for new names. The principle of naming is a semantic, meaning category that is fixed in the minds of native speakers”.

Let’s analyze some idioms that contain proper names and see peculiar features of them.

“Rob Peter to pay Paul” is very popular idiom and it means *to take or borrow money from someone in order to pay a debt to another person*. If you take money from a credit card to pay off another, it's a case of robbing Peter to pay Paul. It will not take you anywhere. The idiom refers to times before the Reformation when Church taxes had to be paid to St. Paul's church in London and to St. Peter's church in Rome; originally it referred to neglecting the Peter tax in order to have money to pay the Paul tax. The idiom dates back to the long time period in the history of England pointing put specific historical and religious conditions of that time. Ordinary people did not see differences in paying to either to this church or another; they had to pay anyway! Therefore, idiom says there is no difference to pay Paul after borrowing money from another person as there cannot be seen any profit. [7]

Another famous English idiom is *“Keep up with the Joneses”*. It means *to try to be as good as the neighbors by getting what they have and matching their lifestyle*. Her neighbor bought a new car and she went out and bought another; she's always trying to keep up with the Joneses. There is no any exact origin of this idiom but one can possibly say that it was probably

thought by ordinary people of English society as the content is related to simple neighborhood or ordinary actions.

All work and no play makes Jack a dull boy is another idiom containing a proper name. People say this to warn someone that they will not be an interesting person by working all the time. If you talk about females, it changes to *“all work and no play makes Jill a dull girl”*. The exact origins of the idiom remain unclear, though it was recorded in the middle of XVII century.

“Jack of all trades, master of none” is one of the most popular idioms in the English language. This idiom is used in reference to a person who has dabbled in many skills, rather than gaining expertise by focusing on one. The shortened version *“a jack of all trades”* is often a compliment for a person who is good at fixing things, and has very good broad knowledge. The idiom is one of the most popularly used lexical unit that contains a famous English male name. If we look into origin of the idiomatic expression, we can come up with some essential data related to it. The idiom *'Jack of the trades, master of none'* originates from Elizabethan English. The idiom was used by Robert Greene in his booklet 'Greene's Groats-Worth of Wit' that refers to William Shakespeare with this. [7]

Mary is another popular female name in English speaking countries including England and it is included in various vocabulary items as well. “Contrary Mary” is an idiom containing a proper name meaning “a girl or woman who often disagrees with other people or does the opposite of what other people want them to do”.

Analyzing the idioms with toponymic component we have found that all the place names mentioned in idioms are real. In spite of that some of them were mentioned in the Bible, for example, *Road to Damascus* - if someone has a great and sudden change in their ideas or beliefs, then this is a road to Damascus change, after the conversion of Saint Paul to Christianity while heading to Damascus to persecute Christians, place Damascus is real. The most common place name used in idioms is Rome. [1]

For example:

All roads lead to Rome – this idiomatic expression means that there are many different ways to achieve the same result. The saying refers to the vast network of roads built up during the course of Rome's history, which stretched for more than 250,000 miles at the height of the Roman Empire.

Rome was not built in a day - this idiom means that many things cannot be done at once, and require time and patience.

Fiddle while Rome burns - used when you disapprove because someone is spending too much time or attention on unimportant matters instead of trying to solve bigger and more important problems.

Coals to Newcastle - (UK) Taking, bringing, or carrying coals to Newcastle is doing something that is useless.

Crossing the Rubicon - When you are crossing the Rubicon, you are passing a point of no return. After you do this thing, there is no way of turning around. The only way left is forward.

Dunkirk spirit - (UK) Dunkirk spirit is when people pull together to get through a very difficult time.

Fiddle while Rome burns - used when you disapprove because someone is spending too much time or attention on unimportant matters instead of trying to solve bigger and more important problems.

From Missouri - (USA) If someone is from Missouri, then they require clear proof before they will believe something.

Himalayan blunder - a Himalayan blunder is a very serious mistake or error.

Lie back and think of England - a humorous expression used when someone has sex without wanting it or enjoying it, and often used when someone has to do another activity or job that they do not want to.[1]

RESULTS AND DISCUSSION

Proper names can be included in any lexical unit, they can be part of idioms, proverbs, aphorisms and others. This may refer to the fact that language is linked with culture, history of the nation, some historical events, cultural ties may cause of deriving such idioms in the language. Nearly every idiom containing proper names has really interesting origin and tells us some interesting stories, traditions, rituals related to the nation. When scientists have analyzed those idioms, they found out that there are more idioms containing personal than places. Moreover, predominance of male over female names tells us that the very low presence of female names is motivated by sociocultural factors. That’s because men have played more active role than women.

Analysis show that *Bob, Joe, Mike, Tom, Dick, Harry, jack Mickey and Larry* are the very firsts common names used in a lot of idioms. While *Alice, Joan, Pandora, Jane, Sally, Mrs. Grundy and Florence* names are used in English idioms a lot. As we mentioned before, every language has got mainly popular names that are probably linked to some interesting stories.

Analysis of them proved that most idioms with proper names in the English language are linked to cultural, historical, traditional, social activities of society members. Some can reveal data related to religion or religious beliefs, music, historical event, cultural or traditional rituals, personal stories. Interestingly, some idioms with proper names have got negative but some can be used in positive context. However, popularity of the name does not make any sense in forming that concept. It may even be difficult for some people unfamiliar with culture, history, customs, and social norms to understand the meaning of these lexical pieces.

CONCLUSION

All in all, we can state that idioms with proper names in the English language are able to give some cultural, historical data about events, customs, traditions, rituals and even life-styles of local people living in the world. Idioms with proper names may be compared to the boxes that contain much related to outer and inner parts of the containers as well as inside liquid. Idioms with popular proper names have been used in various social ranks for long time, they form a link of stories related to various aspects of life.

REFERENCES

1. Balyasnikova M., Saitmuratov F. (2024). *Linguistic features of idioms with toponymic components in English.* International Conference: The development history and modern significance of intercultural dialogue.

2. Bui Thi Kim Loan. (2023). *An investigation into syntactic and semantic features of English idioms.* VNU Journal of foreign studies, Vol. 39, No. 4

3. Concise Oxford Dictionary. (2004). / Eleventh Edition. / Edited by Catherine Soanes, Angus Stevenson. – Oxford: Oxford University Press. – 1728 p.

4. Kurbanova Z. H. (2022). *Analysis of onomastic units in English and Uzbek*. International Conference on Research in Humanities, Applied Sciences and Education Hosted from Berlin, Germany https://conferencea.org, June 30th.

5. Longman Dictionary of English Idioms.(1979). – Harlow, L.: Longman, – 412 p.

6. Radjabova M. (2021). *Semantic analysis of phraseological units with onomastic components.* Scientific reports of Bukhara State University, Vol. 5 Issue 2 BSU (2)

7. Tursunov M. (2022). *Analysis of some English idioms containing popular proper names.* European Journal of Interdisciplinary Research and Development, Vol. 5.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 1-son)

FILOLOGIYA

PHILOLOGY

ADABIYOT SOHASIDA ISMOILXON FAQIRIY YANGI IJODKOR

Yoqubova Safiya Xamdamovna
Sharof Rashidov nomidagi SamDU Urgut filiali
tillarni o‘qitish metodikasi kafedrasi assistenti

Annotatsiya Ushbu maqolada Faqiriy ijodi adabiyotda yangilik kasb etishi Ijodkorning merosi orifona mazmuni, oshiqona ruhi bilan o‘zbek adabiyotida yangilik sifatida o’rganilishi Faqiriy ijodini o‘rganilish tarixi va davr adabiy muhitida tutgan o‘rni, shoir devonining nusxalari, ularning tarkibi, shoir ijodida zullisonaynlik an’analari, irfoniy-tasavvufiy motivlar, o‘zbekcha g‘azallarining irfoniy sintezi va badiiy obrazlarning majoziy, diniy, falsafiy talqini ochib berilgan; shoir she’riyatida mavzular rang-barangligi, janr xususiyatlari, shoir ijodida payravlik, tatabbu’ va naziralar bitish, uning lirik devonidagi g‘azal, qasida, qit’a, tarjiot, soqiynoma, munojot, munoqaba, mussamat va mustazod turkumidagi she’rlarning an’anaviylik va novatorlik xususiyatlari aniqlangan. Ismoilxon Faqiriy adabiy merosi muhim ahamiyatga egaligi va uning ijod namunalari adabiyot ahliga yetib borishi haqida so’z yuritilgan.

Kalit so‘zlar: yombi ijodkor, orifona mazmuni, oshiqona ruh, ma’rifiy she’riyat, devon adabiyoti, sohibi devon, bayoz tushunchasi

ИСМАИЛХАН ФАХИРИ – НОВЫЙ ТВОРЦ В ЛИТЕРАТУРЕ

Аннотация В данной статье творчество Факири является новинкой в литературе, наследие создателя исследуется как новизна в узбекской литературе с его орифонным содержанием, романтическим духом, история изучения творчества Факири и его место в литературной среде Узбекистана. время, копии кабинета поэта, их композиция, Зуллисанайн в традициях творчества поэта, мистико-мистические мотивы, мистический синтез узбекских газелей и художественных раскрывается образная, религиозная, философская интерпретация образов; многообразие тем в поэзии поэта, жанровые особенности, композиция произведений поэта, композиция стихов, татаббу' и назира, стихи газели, касыды, кита, тарджиот, сокинама, муноджот, мунокаба, муссамат и мустазад серии в его лирической книге определены характеристики традиционности и новаторства. Было сказано, что литературное наследие Исмаила Хана Факири важно и что его произведения дойдут до литераторов.

Ключевые слова: создатель, значение орифоны, романтический дух, просветительская поэзия, деванская литература, владелец девана, концепция баяза.

ISMAILKHAN FAHIRI – A NEW CREATOR IN LITERATURE

Annotation In this article, Fakhiri's work is a novelty in literature, the legacy of the creator is explored as a novelty in Uzbek literature with its orifon content, romantic spirit, the history of the study of Fakhiri's work and its place in the literary environment of Uzbekistan. time, copies of the poet's office, their composition, Zullisanayn in the traditions of the poet's work, mystical and mystical motives, mystical synthesis of Uzbek ghazals and artistic figurative, religious, philosophical interpretation of images is revealed; the diversity of themes in the poet's poetry, genre features, the composition of the poet's works, the composition of poems, tatabbu' and nazira, verses of the ghazal, qasida, kita, tarjot, sokiynama, munojot, munoqaba, musamat and mustazad series in his lyrical book are defined the characteristics of traditionality and innovation. It was said that the literary legacy of Ismail Khan Fakhiri is important and that his works will reach the literary community.

Key words: creator, meaning of oriphon, divine spirit, educational poetry, Devan literature, owner of the devan, concept of bayaz**.**

Kirish (Introduction). Har bir ulug‘ shoirning dunyoga kelishi alohida hodisa. Alohidaligi shundaki, chin shoir ijodiyoti millat ma’naviy hayotida yangi o‘zgarishlar, tafakkurda esa yuksalishlar paydo etadi. Shuningdek, haqiqiy shoir har qanday sharoitda ham xalqining ishonchlarini oqlash bilan bir qatorda, uning qalb tayanchi ham bo‘la oladi. Faqiriy ijodini o‘rganilish tarixi va davr adabiy muhitida tutgan o‘rni, shoir devonining nusxalari, ularning tarkibi, shoir ijodida zullisonaynlik an’analari, irfoniy-tasavvufiy motivlar, o‘zbekcha g‘azallarining irfoniy sintezi va badiiy obrazlarning majoziy, diniy, falsafiy talqini ochib berilgan; shoir she’riyatida mavzular rang-barangligi, janr xususiyatlari, shoir ijodida payravlik, tatabbu’ va naziralar bitish, uning lirik devonidagi g‘azal, qasida, qit’a, tarjiot, soqiynoma, munojot, munoqaba, mussamat va mustazod turkumidagi she’rlarning an’anaviylik va novatorlik xususiyatlari aniqlangan..

Faqiriyning mumtoz adabiyotning turli tarixiy bosqichlarida vujudga kelgan so‘fiya, kubraviya, qalandariya, naqshbandiya ta’limotlariga moyilligi, uning lirik she’rlarida ushbu motivlarning hayotiy voqeliklar bilan uyg‘un holda aks etishi isbotlangan. Shoir nomi davlat miqyosida ilk marta Shahrisabzning 2700-yilligiga bag‘ishlangan anjumanda O‘zbekiston birinchi Prezidenti tomonidan tilga olindi. Darhahihat, doktor, professor Shodmon Vohidov hamda yosh olim, adibning nabirasi Mas’udxon Ismoiliyning say’u-g‘ayratlari bilan Faqiriy nomi jahon qomuslariga kirgan edi. Bu ma’noda Faqiriy ularning kashfiyoti deb aytsak xato bo’lmas. So’nggi yillarda barcha fanlar qatori adabiyot sohasiga ham alohida e’tibor berilib kelinmoqda. Shu o‘rinda yana bir mulohazani keltirish lozim deb o‘ylaymiz. Izlanishlar natijalari va undan chiqarilgan xulosalar fors-tojik adabiyotining tadrijiy shakllanish bosqichlarini belgilash, milliy adabiyot taraqiyotida adabiy oqimlar va madaniy markazlarning o‘rnini aniqlash, tojik adabiyoti tarixida tasavvuf ta’limoti ildizlarini ochib berish hamda adabiy aloqalar, adabiy jarayon, adabiyot tarixi kabi fanlardan muhim manba bo‘lib xizmat qilishi

adabiyot sohasi uchun yangilik sanaladi. Ijodkorning taxallusi “Shahrisabziy” deb yuritilgan bo’lsada shoirona taxallus emas, balki mazkur Vatanga mansublik guvohnomasidir, Faqiriy hazratlarining tug‘ilib o‘sgan vatanlari Markaziy Osiyoning qadimiy ilm-fan o‘choqlaridan bo‘lmish Shahrisabz shahridir.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). XX asr o‘zbek ma’rifiy she’riyatining yombi ijodkori, devon adabiyotining kamtar vakili, alloma va shayx, Naqshbandiya tariqati murshidi komili, Payg‘ambar avlodi, zokir, ijodkor, shokir va sobir so‘z san’atkori, Faqiriy-Shahrisabziy hazratlari o’zlarining devonu g’azaliyotlari bilan adabiyotimizga yangitdan kirib keldi desak xato bo’lmaydi. Birinchi prezident iltifotidan keyin Ismoilxon Faqiriy vorislarining ko‘ngli ko‘tarildi va adibning boy ijodi faolroq o‘rganila boshlandi. Xususan, professor Shodmon Vohidov hamda yosh olim, adibning nabirasi Mas’udxon Ismoiliylarning ushbu adib haqida ko’plab ma’lumotlar ijodiga doir bir qancha ilmiy maqolalar bitishgan.

Demak, So’nggi yillarda barcha fanlar qatori adabiyot sohasiga ham alohida e’tibor berilib kelinmoqda. Ismoilxon Faqiriy I., Homidov N. va boshqalar. Avlodlar bayozi.-Toshkent A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1996. Adib haqidagi dastlabki izlanishlar uning ijod namunalari haqida alohida so’z boradi. Vohidov Sh.Fakiriy // Sobiq Rossiya imperiyasi hududida islom. Ensiklopedik lug'at. 3-son. - Moskva: Sharq adabiyoti, 2001. - S. 107-10, Nosir Muhammad. Nasaf va Kesh allomalari. Tazkira - Toshkent: G'afur g'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 2001. - B. 49. Ushbu tazkirada Ismoilxon Faqiriy haqida alohida tariff berilgan. Vohidov. Sh, Erkinov.A, Shahrisabzlik xattot va shoirlar //Ming yillar merosi Shahrisabz. 2700.-Toshkent "Sharq" nashriyot -matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati 2002 B.126. Ismoilov M. Faqiriy va Najotiy ijodiy faoliyatlarining Shahrisabz ilmiy-adabiy muhitida tutgan o‘rni xususida // Shahrisabz shahrining jahon tarixida tutgan o‘rni. Xalqaro ilmiy konferensiya maruzalari tezislari. - Toshkent: Fan, 2002. – B. 143. Vohidov Sh. Les specificites paleographiques et codicologiques des fonds particuliers de Rawnaqi et Faqiri (Sahrisabz, O'zbekiston) // Manuscripta Orientalia. 9-jild №3 2003 yil sentyabr - s. 52-56. Mirzo Kenjabekov Ilm o‘rganu xat o’rganu odob o‘rgan. Sohibi devoni Faqiriy hazratlari // "Ma’rifat" gazetasi ,2004yil ,28-yanvar. Ismoilxon Faqiriy. Intizoramkim ulam gardi firoqing sumlarin //Ma’rifat 2004 yil , 17-mart Ismoilxon Faqiriy. Ahli duoni izlagil //Hidoyat. 2004. N4-b. 24-25. Vohidov Sh., Ismoilov M. Faqiriy olim, shoir va shayx // Moziydan sado. 2004 yil.- 4-son. Mirzo Kenjabek. Mumtoz shoir va komil shayx Fakiriy-Shaxrisabziy // Sino. - 2004 yil (tanasi). - № 15. - B. 44-51 Hasanov A. XVI-XIX asrlarda shaharsozlik va me’morchilik (Qashqadaryo vohasi misolida): Nomzodlik dissertatsiyasi. – T.: 2008. 200-b. J. Qarshi shahrining XVIII asr ikkinchi yarmi XX asr boshlaridagi tarixidan. – Samarqand: 2008. 71-b.Ravshanov P. Naxshab va Kesh tarixi manbalari. – Qarshi: Nasaf, 2005. Faqiriy hazratlari biz o‘rgangan Oybek, G‘afur G‘ulom, Shayxzoda, Habibiy kabi adiblarga zamondosh esalar-da, shayxligi, islomiy hayoti, ijodining ilohiy ma’rifatga asoslangani bois nomlari ham, ijodlari ham aslo yuzaga chiqmagan, adib ham bunga zinhor parvo qilmasdan: «Bizning hazfporaga ham bir xaridor topilarda», deb

sabri jamil ko‘rsatgan edilar.[1] Mana, Allohning lutfu -karami bilan adib ijodiga xaridor topildi. Istiqlol zamoni u zotning merosiga talabgor chiqdi. Ko‘zlar ko‘nikkan tog‘lar orasida yam-yashil, pokiza bir cho‘qqi paydo bo‘ldi. Adib ijodiga qiziqishlar adabiyotshunoslar orasida ham ko’payib bormoqda. ***Albatta har qanday adabiyot sohasida qalam tebratgan ijodkorning ismu-nasablari va taxalluslari o’quvchini befarq qoldirmaydi deb hisoblasak bo’ladi.[6]*** To‘liq ismlari - Ismoilxon ibn Ibrohim Xoja ibn Hidoyatulloh ibn Mirzo Kalon Abdulaziz Xojai Shahrisabziy.[11] Ushbu ma’lumotlar ularning nabiralari Mas’udxon Ismoiliy qo’llaridagi ma’lumotlar asosida yaratilgan devon va bayozlardan olingani asosli albatta. Taxalluslari Faqiriy-Shahrisabziy; she’rlarida Faqriy, Faqir shakllarida ham keladi. Xalili Ixvon taxalluslari ham bo‘lib, bu nomni tog‘alari shoir Hone Shukrulloh Xoja qo‘yganlar va undan shoirning tavallud tarixlarini chiqarganlar. Abjad hisobida bu taxallus raqamlaridan hijriy 1328-yil chiqadi.[1]

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). To‘plangan materiallar o‘zbek adabiyoti fanida keng qo‘llanilayotgan qiyosiy-tarixiy, ilmiy -tahliliy, qiyosiy tipologik metodlari yordamida tahlil etiladi.. Izlanishlar natijalari va undan chiqarilgan xulosalar fors-tojik adabiyotining tadrijiy shakllanish bosqichlarini belgilash, milliy adabiyot taraqiyotida adabiy oqimlar va madaniy markazlarning o‘rnini aniqlash, tojik adabiyoti tarixida tasavvuf ta’limoti ildizlarini ochib berish hamda adabiy aloqalar, adabiy jarayon, adabiyot tarixi kabi fanlardan muhim manba bo‘lib xizmat qilishi adabiyot sohasi uchun yangilik sanaladi shu sababli ham, tadqiqotni amalga oshirishda asosan qiyosiy uslubdan keng foydalanildi. Adibning merosi adabiyot sohasida o’rganilishi lozim bo’lgan yangidan - yangi mazmunli g’azaliyotlari va purmano ijodi va devonlari kelajak avlod uchun ushbu sohada muhim manba bo’lib xizmat qilsa ajabmas. Bu borada o‘zbek xalqi adabiyoti uzoq yillik tarixga egaligi va hanuzgacha yangi yangi ijodkorlar va mavzularni tadqiq etishni taqozo qilmoqda.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Ismoilxon Faqiriy milodiy 1910-yil, hijriy 1328-yilda Shahrisabzda tavallud topdilar. Uch yoshda otalaridan, to‘rt yoshda ustoz bobolaridan judo bo‘lib, avval onalari, keyin tog‘alari tarbiyatlarida kamol topib, ilm-ma’rifat sohibi bo‘ladilar. Adib 1980-yilda hozirgi Qashqadaryo viloyati, Kitob tumani, Sariosiyo qishlog‘ida vafot etdilar.[11] Avlodlari hozirgi vaqtda mazkur manzilda yashaydilar. Faqiriy hazratlarining tug‘ilib o‘sgan vatanlari Markaziy Osiyoning qadimiy ilm-fan o‘choqlaridan bo‘lmish Shahrisabz shahridir.

Shahrisabz Rusiya bosqinidan keyin ham to 1917-yillargacha o‘z ma’rifiy mavqeini saqlab kelgan.[2] Undan so‘ng maktab-madrasalar rasman yo‘qotilgan bo‘lsa-da, sayyidlar va tariqat mansublari yurti sifatida shu kungacha o‘z e’tiborini yo‘qotmagan. Mustamlaka davrida Faqiriy, Ravnaqiy, Maxdum Hamidiy, shoir Qone’ singari shayx va alloma-ijodkorlarning yashagani bunga dalildir[12]. Shahrisabzda necha-necha ulug’ zotlar o‘tgan, ammo u tarixda Sohibqiron Amir Temur tug‘ilib o‘sgan yurt sifatida ham mashhurdir. Unda temuriylar dahmasi, aziz avliyolar marhadi, Amir Temurning jasadsiz maqbarasi mavjud. Shu bois shoir Shahrisabz xususidagi turkiy va forsiy she’rlarida o‘z yurtlarini Sohibqiron nomi bilan ulug‘laydilar.

Bizni(ng) Vatan - joyi surur, aysh ila xalsi barcha hur, Ilmu ma’orif konidur, yo‘s dilda armon o‘zgacha, deya shoir orzu-armonlari vatanda ilmu maorif ekanini izhor etadilar. Nomlaridagi “Shahrisabziy” degai ilova maxsus shoirona taxallus emas, balki mazkur Vatanga mansublik guvohnomasidir,[6]. Ismoilxon Faqiriy ilm-ma’rifatli, ziyoli, e’tiborli muftiy va qozilar avlodidandirlar. Shoirning bobolari Inoyatulloh Xoja O‘roq ibn Mirzo Kaloni Shahrisabz muftiysi edilar. Otalari Ibrohim Xoja O‘roq esa Shahrisabzda XV asrda Mirzo Ulug‘bek qurdirgan Jome’ masjidda imom-xatib, amir hukumatining shahar vakili (o‘roh), madrasa rahbari bo‘lganlar. 1914-yilda otalari vafot etgach, uch yashar Ismoilxon bobolari Inoyatulloh Xoja tarbiyatlarida qoladilar. Ul zot ham olamdan o‘tgach, mehribon onalari to‘rt-besh yashar o‘g‘lon tarbiyatlarida ulug‘ say’u g‘ayrat ko‘rsatib, uni maktabga berib, savodxon qiladilar[3]. Sho‘rolar hukumati tuzilib, islomiy maktablar yopilgach, yana o‘zlari ta’limni davom ettiradilar. Onalari ilm-ma’rifatli otinoyi bo‘lib, Mahzuna taxallusi bilan she’rlar yozganlar. Faqiriy “Devon”lari debochasida onalarini ko‘p ulug‘ ehtirom bilan zikr hiladilar. Ismoilxon Faqiriy to‘qqiz yoshlarida Navoiyni o‘qiydigan bo‘ladilar. Navoiyni tushunish uchun esa turkiy-o‘zbek tilini puxta bilish bilan birga, arab va fors lug‘atlaridan ham xabardor bo‘lmoq zarur. Faqiriy ham dovrug‘u dabdabaga, unvonu mansabga aslo qiziqmasdan, iymon-e’tiqodda sobitqadam, mumtoz she’riyatga sodiq yashaganlar, Zero, shoir yaxshi bilganlarki, hayot bugundan iborat emas. Zamonlar aylanadi. Vaqt o’tishi bilan adib bilimlari va ijodga ishtiyoqlari ortib boradi. Faqiriy yosh bo‘la turib, Hoji Mirzo Hamiduddin Maxdum Hamidiy, tog‘alari Shukrulloh Xoja Hone’, bobolari Inoyatulloh Xoja O‘roh Jurmiy, Mullo Mirzo Fayzulloh Xoja Ravnahiy, Mirzo Umrbohiy-Shahrisabziy kabi ulug’ insonlar qatori turadi desak mubolog’a bo’lmas. Savol tug‘ilishi mumkinki, XX asrda mustamlaka iskanjasida O‘zbekistonda irfoniy she’riyat bo‘lganmi? Devon adabiyoti qanday adabiyot? Irfoniy ruh, ilohiy mazmun devon adabiyotining xos xususiyatlari bo‘lganidan, «devon adabiyoti» ta’rifiga kirishsak. Devon adabiyoti saroy adabiyoti yoki saroy shoirlari degan ma’noda emas. Balki, tamoman aksinchadir. Devon adabiyoti XI asrda Movarounnahrda (bugungi O‘zbekiston zaminida) Qoraxoniylar davrida boshlangan, islomiy madaniyatdan bahra olgan, shu sababdan arab va fors adabiyotlaridan ta’sir topgan islomiy adabiyotdir. Qur’oni karim va hadisi sharif ma’nolarini o‘ziga singdirgan bu mumtoz adabiyot «majoz haqiqatning ko‘prigidir» degan hadisi sharifga asoslanadi, ya’ni majoz yo‘li bilan haqiqatni kuylaydi, majoziy muhabbatni bahona qilib, ilohiy ishqni tarannum etadi. Faqiriy ana shunday adabiyotning so‘nggi zabardast vakillaridan biridirlar. “So‘nggi”deyishimizga sabab: sho‘rolar tuzumida islomiy ilm-ma’rifat taqiqlanib, irfoniy she’riyatga ham futur yetdi, hatto 30-40-50-yillarda aruz vaznida yozish man etildi, bora-bora devon adabiyoti deyarli barham topdi. Keyingi adabiyotdan irfoniy ma’no qochdi, ilohiy ruh chekindi, oxirat g‘oyasi uzildi, jahon va asosan rus adabiyoti muhitida xalqchil-ommabop she’riyat vujudga keldi. “Devon” istilohining ma’nosi ko‘p. “Devon” avvalo aruz vaznida bitilgan va arab alifbosi asosida tartib berilgan g‘azallar to‘plamining nomidir: “Devoni Navoiy”, “Devoni Xoja Hofiz”, “Devoni Fuzuliy” kabi. Devon tuzishga muvaffaq bo‘lgan shoirlarni “Sohibi devon” deb ulug‘laydilar. Davlat idorasi, mahkama, hukumat uyi ham devon

deyiladiki, aytganimizdek, devon adabiyotining bunga aloqasi yo‘q. Mumtoz adabiyotning hammasi devon adabiyoti bo‘lmasligi mumkin, lekin devon adabiyotining hammasi mumtoz, ya’ni o‘lmas adabiyotdir ma'no xususiyatni kasb etadi. Devoni Faqiriy haqida so’z borar ekan, bevosita uning g’azallarini eslamaslikni iloji yo’qdur. Faqiriy devoni 1950-1965-yillarda tuzilgan bo‘lib, o‘zlari tanlab, saralab kiritgan she’rlardan iborat. Devon mumtoz nazm san’atining deyarli barcha turlaridan: g‘azal, muxammas, musaddas, musabba’, musamman, mustahzod, masnaviy, ruboiyyot va qit’alardan tarkib topgan. Kitobda tatabbu’ va tazminlar birmuncha bo‘lib, muvashshax va mutoyibotdan hazil she’rlardan ham holi emas. She’rlarning ko‘pi asl san’at namunalaridir. Devon an’anasiga muvofiq, xuddi Navoiy, Fuzuliy va Nodiralar kabi, Faqiriy ham o‘z devonlariga debocha bitganlar. Debochada matla mavjud bo’lib, mehribon va rahmli Alloh ismi bilan boshlanib, Haq taologa hamdu sano aytish va hazrati Rasulullohga salovot keltirish bilan davom etadi. Unda shoirning qisqa hasbi hollari va dunyoda bir yodgor qoldirish ishtiyohlari yuksak odob va valiylarga xos xoksorlik bilan bayon etilgan. Ammo shoirning kamtarliklarida ham kuchli jasorat, yorqin iste’dod va yuksak ma’rifat nuri balqib turadi. Chunonchi, adib yozadilar: «Toki o‘n besh va o‘n olti yoshlarimdan boshlab, shoirlar zumrasiga qo‘shulishga jiddiy harakat ko‘rguzgan bo‘lsam-da, bu ishga, birinchidan, bilimsizlik, va ikkinchidan, zamonamizni(ng) kundalik o‘zgarishlari natijasida she’r yozolmasdan va yozganlarim ham har joylarda beparvolik bilan solib va ba’zilari esa birodaroni kiromiylar talablariga muvofiq ularga yuborilib, qo‘limda bori ham juzdonga darida va jarida bo‘lub yotar edi...» Bu qisqa so‘zda ko‘p ma’no va qismat manzaralari bor. Chunonchi, ***«zamonaning kundalik o‘zgarishlari»,*** muallifning o‘z ta’birlari bilan aytganda, ***«sho‘rolar hukumati tashkil topib, butun O‘zbekiston va Tojikiston va Buxoro tufroqlarida ham hukmronlik shevasini yurgizgani»***dir. Ya’ni, qadimiy madrasalar berkitilgan, xalqning tarixini yo‘qotishga urinilgan, dahriylik saltanati o‘rna- tilgan, mumtoz adabiyot tahqirlangan, ma’rifatli iste’dod sohiblari muvozanatini yo‘qotib, she’r yozolmay qolgan. *Yillar o‘tib, shoir aytadilar:* «Ammo ko‘nglimdan goxho shundog kechar erdiki, «Ey tan, san dunyoga kelib nima Ahli dunyo - siymu zar, ahli hunar - fazlu kamol. Va bu ashyolarni(ng) o‘ziga yarasha xaridori ham topiladi. Chunonchi, Navoiy aytur: Sarvu gulu lola xaridori bor, Lek tikonning dagi bozori bor. Ya’nikim har bir gulning o’z xaridori bo’lgani singari tikonning ham o’z o’rni borligi haqida alohida fikr yuritadilar. Shu o’rinda bevosita Faqiriy hazratlarining ijodiga ham qiziqishlar ortgan. Idodkor devoni Alloh taoloning qudrati, san’atini olqishlab, hamdu sanolar aytguvchi, Haq taoloning dargohiga yolborib munojot qilguvchi hamda sayyidi mursaliyn-hazrati Rasulullоh alayhissalomga nat-hamd keltirguvchi g‘azallar bilan boshlanadi. Zotan, bu mumtoz devon adabiyotining odobu an’anasidir. Turkiyda aytilgan “Paydo”, “Yo Rab”, “Bo‘ldim” radifli hamda “Zulfing girihi” kabi g‘azallar, “Sun’ung Sani” mustahzodi, “Izlagil”, “Hasrat” kabi muxammaslar, forsiydagi “Chi shudi?” musaddasi va “Kunand” radifli tazmini musabba’lari Faqiriy hazratlarining shoh asarlaridir. Lutfiy, Fuzuliy, Hiloliy, Amiriy (Amir Umarxon), Furqat, Sayyid Ahmad Vasiliy, Gulshaniy, Mullo Orif Gulxaniy, Muxlis Namangoniy, Maxdum Hamidiy, Ulfat (Nusrat), Boqiy, Tufayliy Yusufxon To‘ra Dehlaviy

kabi zotlarning mumtoz g‘azallariga bog‘langan turkiy va forsiy muxammaslar, Xoja Hofiz Sheroziy, Boborahim Mashrab baytlari asosida bitilgan tazminlar, tatabbu’ va payravlar favqulodda san’at durdonalaridir. Bular Faqiriy iste’dodi, ilmu ma’rifati, ishqu muhabbati izhoriga maydon va imkon ochgan.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Yuqoridagilarga asoslanib, Faqiriy o’zbek va fors tillarida ijod qilgan zullisonayn shoirdir. Ijodkorning merosi orifona mazmuni, oshiqona ruhi bilan mustamlaka davri o‘zbek adabiyotida yangilik desak adashmagan bo’lamiz. Adibning merosi adabiyot sohasida o’rganilishi lozim bo’lgan yangidan - yangi mazmunli g’azaliyotlari va purmano ijodi va devonlari kelajak avlod uchun ushbu sohada muhim manba bo’lib xizmat qilsa ajabmas. Bu borada o‘zbek xalqi adabiyoti uzoq yillik tarixga egaligi va hanuzgacha yangi yangi ijodkorlar va mavzularni tadqiq etishni taqozo qilmoqda. Shu nuqtayi-nazardan adabiy merosimizning mazkur jihatlarini o‘rganish, tasavvuf va mumtoz poetikaning insoniyat badiiy tafakkuri taraqqiyotidagi ta’sirini aniqlash bugungi kunning dolzarb mavzulardan biri hisoblanmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1- Kattaev K. Maxdumi A’zam va Dahbed. Samarqand Sutdiyon, 1994.- B.73. 2. Faqiriy I., Homidov N. va boshqalar. Avlodlar bayozi.-Toshkent A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1996.

2- Vohidov Sh.Fakiriy // Sobiq Rossiya imperiyasi hududida islom. Ensiklopedik lug'at. 3-son. - Moskva: Sharq adabiyoti, 2001. - S. 107-108.

3- Nosir Muhammad. Nasaf va Kesh allomalari. Tazkira - Toshkent: G'afur g'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 2001. - B. 49.

4- Vohidov. Sh, Erkinov.A, Shahrisabzlik xattot va shoirlar //Ming yillar merosi Shahrisabz. 2700.-Toshkent "Sharq" nashriyot -matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati 2002 B.126

5- Ismoilov M. Faqiriy va Najotiy ijodiy faoliyatlarining Shahrisabz ilmiy-adabiy muhitida tutgan o‘rni xususida // Shahrisabz shahrining jahon tarixida tutgan o‘rni. Xalqaro ilmiy konferensiya maruzalari tezislari. - Toshkent: Fan, 2002. – B. 143.

6- Vohidov Sh. Les specificites paleographiques et codicologiques des fonds particuliers de Rawnaqi et Faqiri (Sahrisabz, O'zbekiston) // Manuscripta Orientalia. 9-jild №3 2003 yil sentyabr - s. 52-56.

7- Mirzo Kenjabekov Ilm o‘rganu xat o’rganu odob o‘rgan. Sohibi devoni Faqiriy hazratlari // "Ma’rifat" gazetasi ,2004yil ,28-yanvar.

8- Ismoilxon Faqiriy. Intizoramkim ulam gardi firoqing sumlarin //Ma’rifat 2004 yil , 17-mart

9- Ismoilxon Faqiriy. Ahli duoni izlagil //Hidoyat. 2004. N4-b. 24-25

10- Vohidov Sh., Ismoilov M. Faqiriy olim, shoir va shayx // Moziydan sado. 2004 yil.- 4-son.

11- Vohidov.Sh ,Ismoilov .M //O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi 2005.-B.213

12- Mirzo Kenjabek. Mumtoz shoir va komil shayx Fakiriy-Shaxrisabziy // Sino. - 2004 yil (tanasi). - № 15. - B. 44-51

13- Hasanov A. XVI-XIX asrlarda shaharsozlik va me’morchilik (Qashqadaryo vohasi misolida): Nomzodlik dissertatsiyasi. – T.: 2008. 200-b.

14- Ko‘charov J. Qarshi shahrining XVIII asr ikkinchi yarmi XX asr boshlaridagi tarixidan. – Samarqand: 2008. 71-b.

15- Ravshanov P. Naxshab va Kesh tarixi manbalari. – Qarshi: Nasaf, 2005. 120-b

16- Yakubava S.H. American Journal of Scieneseand Humanitly Recearch. Comparative analysis of the interpresentation as a genre in travel novels in uzbek and world literature. http://theusajournals.com/index.php/ajsshr/article/view/1015 2023.7.164

17- Yoqubova S. H. Idea scientific journal. https://doi.org/10.5281/zenodo.7789626 Pretsedent birlik va Pretsident nom, ularni ng o’zbek lingvomadaniy jamiyatda qo’llanilishi. 2023, 23-39 bertar. Yakubova, S. H. (2024). Ismoilxon Faqiriy o’zbek adabiyotida yangi va yorqin ijodkor. Innovative development in educational activities, 3(5), 20–27. https://doi.org/10.5281/zenodo.1082355.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 1-son)

FILOLOGIYA

PHILOLOGY

ELEKTRON RESURSLAR TIPOLOGIYASI

Turakulova Lola Xamidjanovna
Sergili tumanidagi 300 iqtisoslashgan maktab ingliz tili o'qtuvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada “Elektron resurs” (ER) tushunchasining mazmun-mohiyati, elektron resurs tasniflari, elektron o’quv nashrlar klassifikatsiyasi yoritilgan. Shuningdek, elektron resurslar ma'lumotlarni saqlash, ularga kirish va ularni taqdim etish usullari, turli sohalarda, shu jumladan ta'lim, ilmiy-tadqiqot, ijtimoiy va tijorat faoliyatlarida keng qo'llanilishi bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: bosma elektron matnli ekvivalentlar, ma'lumotlar bazasi, bosma analoglari bo'lmagan nashrlarning yangi shakllari, audio va video ma'lumotlarning elektron nashrlari, multimedia mahsulotlari, aralash dasturiy va axborot mahsulotlari, elektron o'yinlar, bosma nashrlarning elektron tasvirlari, elektron kutubxonalar, elektron kutubxona tizimlari, interent loyihalari, onlayn-xizmatlar, matnli resurslar, ma'lumotlar bazalari, multimedia resurslar, onlayn kurslar va o'quv platformalari, veb-saytlar va onlayn manbalar, onlayn kutubxonalar, mobil ilovalar, virtual laboratoriyalar va simulyatsiyalar, xaritalar va geoinformatsiya tizimlari (gis), interaktiv resurslar, elektron arxivlar va kolleksiyalar, elektron hujjatlar va shablonlar.

Kirish. Zamonaviy texnologik taraqqiyot bizning ongimiz va jamiyatimizga chuqur ta'sir ko'rsatdi. Bu, o'z navbatida, kutubxona sohasidagi o'zgarishlarga olib keldi: elektron manbalar, elektron kutubxonalar paydo bo'ladi. Kutubxonalar kutubxonachi-elektron resurslar bo'yicha mutaxassis, koordinator kabi yangi lavozimlarni joriy etishga majbur.

“Elektron resurs” (ER) tushunchasi moddiy muhitda qayd etilgan yoki mavjud interaktiv (on-layn) rejimdagi elektron shaklda taqdim etilgan materiallar tushuniladi. Elektron resurslar bosma elektron matnli ekvivalentlar (kitoblar, jurnallar va boshqalar), ma'lumotlar bazasi, bosma analoglari bo'lmagan nashrlarning yangi shakllari: elektron e'lonlar, elektron konferensiya materiallari, ya'ni elektron tarmoq orqali iste'molchilarga taqdim etiladigan xabarlar, audio va video ma'lumotlarning elektron nashrlari, multimedia mahsulotlari, aralash dasturiy va axborot mahsulotlari (masalan, gipermatnli axborot tizimlari), elektron o'yinlar, bosma nashrlarning elektron tasvirlari, elektron kutubxonalar, elektron kutubxona tizimlari, interent loyihalari, onlayn-xizmatlardan iborat.

Tadqiqot usullari. Umumiy holatda, elektron resurs tushunchasi har qanday ma'lumotlarni elektron qurilmalar yordamida olish mumkin. Shubhasiz, har qanday ma'lumot ta'lim uchun mo'ljallanmagan va o'quv jarayonida ishlatilishi mumkin (1-rasmga qarang) [6]:

1-rasm. Elektron resurslar tasnifi

Elektron resurs tasniflari bilan tanishamiz (2-rasmga qarang):



2-rasm. Elektron resurs tasniflari

Ta'lim maqsadlari uchun ma'lumotlar, qoida tariqasida, materialni taqdim etishning izchilligi, ma'lum bir auditoriyaga yo'naltirilganligi, oldindan belgilangan natijani olishga qaratilganligi va boshqa bir qator o'ziga xos xususiyatlari bilan tavsiflanadi [3].

Kirish usuli bo'yicha elektron resurslar lokal va o'chirilgan manbalarga bo'linadi. *Bosma manbalarga nisbatan*: bosma analoglari bo'lmagan elektron resurslar, mavjud bosma resurslarni saqlash uchun yaratilgan elektron resurslar, texnologik maqsadlar uchun qisqa muddatga yaratilgan elektron resurslar. *Ijtimoiy maqsadlar* bo`yicha quyidagicha tasniflanadi:

ilmiy, ma'rifiy, ko'ngilochar, badiiy adabiyotlar;

ilmiy va texnik ma'lumotlar;

ommaviy axborot vositalari (yangiliklar, TV);

reklama, targ'ibot;

elektron tijorat;

ishlab chiqarish, texnologik, moliyaviy ma'lumotlar va boshqalar.

Mavjudlik darajasi bo'yicha: pullik va bepul. *Ochiqlik darajasi* bo'yicha: ochiq, maxfiy, yashirin. *Mulkchilik shakli* bo'yicha: davlat, xususiy, shahar va boshqalar. *Huquqiy maqomi* bo'yicha: qonuniy kutubxonalar, noqonuniy. *Hajmi* bo'yicha ham tasniflangan [6].

Zamonaviy o’quv elektron nashrlarni tahlil etish ularning murakkab tuzilishga ega bo’lib, kassifikatsiyaga muhtojligini ko’rsatdi. Elektron o’quv nashrlar klassifikatsiyasi asosida ham o’quv, ham elektron hamda dasturiy vositalar klassifikatsiyalarining umumiy metodlari yotadi (1-jadvalga qarang):

1-jadval.

Elektron o’quv nashrlar klassifikatsiyasi

O’quv nashrlari turlari	**Elektron nashrlar turlari**	**O’quv nashrlarining to’rt xil turdagi nashrlarni o’z ichiga oluvchi tipologik modeli**
o’quv jarayonidagi ahamiyati va o’rnini belgilovchi funksional xususiyatiga ko’ra	bosma ekvivalentining mavjudligiga ko’ra	dasturiy-uslubiy (o’quv rejasi va dasturlari)
maqsadiga ko’ra	asosiy axborot tabiatiga ko’ra	o’quv-uslubiy (uslubiy ko’rsatmalar, yo’riqnomalar)
taqdim etiluvchi axborot xarakteriga ko’ra	maqsadiga ko’ra	o’qituvchi (darsliklar,o’quv qo’llanmalari, ma’ruza matnlari)
matnning tashkil etilishiga ko’ra	tarqatilish texnologoyasiga ko’ra	yordamchi (praktikumlar, masala va mashqlar to’plamlari
ifoda etilish shakliga ko’ra	elektron nashr va foydalanuvchi orasidagi muloqot xarakteriga ko’ra	
	davriyligiga ko’ra	

	strukturasiga ko’ra	

O’quv nashrlari quyidagi turlarga bo’linadi:

o’quv jarayonidagi ahamiyati va o’rnini belgilovchi funksional xususiyatiga ko’ra;

maqsadiga ko’ra;

taqdim etiluvchi axborot xarakteriga ko’ra;

matnning tashkil etilishiga ko’ra;

ifoda etilish shakliga ko’ra.

Elektron nashrlar quyidagi turlarga bo’linadi:

bosma ekvivalentining mavjudligiga ko’ra;

asosiy axborot tabiatiga ko’ra;

maqsadiga ko’ra;

tarqatilish texnologoyasiga ko’ra;

elektron nashr va foydalanuvchi orasidagi muloqot xarakteriga ko’ra;

davriyligiga ko’ra;

strukturasiga ko’ra.

Hozirgi vaqtda o’quv nashrlarining to’rt xil turdagi nashrlarni o’z ichiga oluvchi tipologik modeli mavjud bo’lib, bularga:

dasturiy-uslubiy (o’quv rejasi va dasturlari);

o’quv-uslubiy (uslubiy ko’rsatmalar, yo’riqnomalar);

o’qituvchi (darsliklar,o’quv qo’llanmalari, ma’ruza matnlari);

yordamchi (praktikumlar, masala va mashqlar to’plamlari) [2].

Elektron ta‘lim resurslaridan foydalangan holda ta‘lim quyidagi maqsadlarga qarab bir necha yo‘nalishlarda tashkil etiladi:

birlashtirilgan ta‘lim (sinf ishi, o`quvchilar va o‘qituvchilarning elektron ta‘lim muhitidagi faoliyati)

web-quvvatlash bilan mashg‘ulotlar (asosiy ta‘lim jarayoniga qo‘shimcha)

onlayn ta‘lim (sinfsiz elektron ta‘lim orqali intizomni o‘zlashtirish) [4].

Elektron resurslar tipologiyasi – bu ma'lumotlar va resurslarni turli mezonlar bo'yicha tasniflashni anglatadi. Elektron resurslar ma'lumotlarni saqlash, ularga kirish va ularni taqdim etish usullarini o'z ichiga oladi. Elektron resurslar turli sohalarda, shu jumladan ta'lim, ilmiy-tadqiqot, ijtimoiy va tijorat faoliyatlarida keng qo'llaniladi (3-rasmga qarang):

3-rasm. Elektron resurslar tipologiyasi

Matnli resurslar **kitoplar, maqolalar, PDF hujjatlari, elektron jurnallardan iborat. Kitoblar va maqolalar sifatida** elektron kitoblar (e-books) va ilmiy maqolalar (journal articles), tadqiqotlar, monografiyalar, ensiklopediyalar va boshqa matnli ma'lumotlarni taqdim etadi. **PDF hujjatlar**dagi resurslar ilmiy va ma'lumotlar to'plamlari sifatida keng tarqalgan. **Elektron jurnallar sifatida** onlayn platformalarda nashr etiladigan ilmiy va ommaviy jurnallar tushuniladi. Misol uchun, JSTOR, Springer, Elsevier kabi resurslar.

Ma'lumotlar bazalari **ilmiy va statistik ma’lumotlar bazalaridan iborat. Ilmiy ma'lumotlar bazalari** tadqiqotlar va ilmiy ishlanmalarni saqlash va qidirish uchun mo'ljallangan elektron tizimlar hisoblanib, masalan, **PubMed**, **Google Scholar**, **ERIC**, **Scopus**, **Web of Science kabilar**. **Statistik ma'lumotlar bazalari sifatida** demografik, iqtisodiy va boshqa tahliliy ma'lumotlarni o'z ichiga olgan bazalar olingan, misol uchun **World Bank Data**, **Eurostat**. ***Multimedia resurslariga*** **audio va video fayllar, interaktiv dasturlar kiritiladi. Audio va video fayllar** ta'lim va o'quv materiallarini taqdim etish uchun mo'ljallangan videolar (YouTube, Vimeo), podkastlar, audio kitoblar va musiqalardan iborat. **Interaktiv dasturlar** o'quvchilarni interaktiv tarzda o'qitishga imkon beruvchi multimedia materiallari tushuniladi, masalan, interaktiv video, o'quv ilovalari.

Onlayn kurslar va o'quv platformalariga **MOOK va onlayn o'quv platformalari kiritiladi. MOOC (Massive Open Online Courses)** bepul yoki pullik tarzda mavjud bo'lgan onlayn kurslar va ta'lim materiallari bo`lib, masalan, **Coursera**, **edX**, **Udemy**, **Khan Academy kabilar**. **Onlayn o'quv platformalari** ta'lim sohasida interaktiv o'qitish va o'qish uchun mo'ljallangan resurslar. Masalan, **Duolingo**, **Memrise va boshqalar**. ***Veb-saytlar va onlayn manbalar*** **Veb-saytlar, bloglar va forumlardan iborat. Veb-saytlar** foydalanuvchilar uchun turli ma'lumotlarni taqdim etadigan va muayyan sohalarda xizmat ko'rsatuvchi saytlardir. Misol uchun yangiliklar saytlaridan (BBC, CNN) tortib, ilmiy-tadqiqot saytlarini (ResearchGate, Academia.edu) keltirish mumkin. **Bloglar va forumlar** esa foydalanuvchilar tomonidan yozilgan maqolalar, fikrlar va muhokama saytlarida joylashgan resurslar tushuniladi. ***Onlayn kutubxonalar*** **elektron kutubxonalar va o'quv materiallari platformalaridan iborat. Elektron kutubxonalari k**itoblar, maqolalar va boshqa ilmiy materiallarni raqamli formatda taqdim etuvchi onlayn kutubxonalar hisoblanadi. Masalan, **Google Books**, **Internet Archive**, **Project Gutenberg**. **O'quv materiallari platformalari** o'quvchilar va talabalarga bepul yoki pullik materiallar taqdim etuvchi kutubxonalardir, masalan, **Open Library**.

Mobil ilovalar. **Ta'lim mobil ilovalari**ga Ingliz tili o'rganish, matematikani o'rgatish yoki boshqalar kabi turli sohalarda foydalanuvchilarga yordam beruvchi ilovalar (masalan, **Kahoot!, Quizlet**, **Mathway**) kiritiladi. **Grammatikani o'rganish va so'z boyligini rivojlantirish** kabi ilovalarni ham misol keltirish mumkin.

Virtual laboratoriyalar va simulyatsiyalar. **Onlayn laboratoriyalar** tadqiqotlar va eksperimentlarni amalga oshirish uchun virtual muhitda mavjud bo'lgan resurslardir (masalan, **PhET Interactive Simulations**). **Simulyatsiya dasturlari** kiberxavfsizlik, fizika, kimyo va boshqa sohalarda virtual simulyatsiyalar orqali tajriba o`rganish mumkin.

Xaritalar va geoinformatsiya tizimlari (GIS). **Xaritalar va GPS tizimlari** onlayn xaritalar va geografik ma'lumotlar uchun mo`ljallangan. Masalan, **Google Maps**, **ArcGISlar. Geoinformatsiya tizimlari** xalqaro miqyosda ishlov berilgan geografik ma'lumotlar va analitik vositalardan iborat.

Interaktiv resurslar. **Vebinarlar** onlayn seminarlarda qatnashish va interaktiv tarzda o'rganishga yo`naltirilgan. **Virtual ko'rgazmalar** muzeylar va ilmiy institutlar tomonidan tashkil etilgan virtual ko'rgazmalar va taqdimotlardan iborat.

Elektron arxivlar va kolleksiyalar. **Ilmiy arxivlar** tadqiqot va ilmiy ishlar toplami bolib, ilmiy maqolalar va tadqiqotlar saqlanadi (masalan, **arXiv**, **SSRN**). **Madaniy arxivlar** tarixiy, madaniy yoki san'at bilan bog'liq resurslarga mo`ljallangan. Masalan, **Europeana**.

Elektron hujjatlar va shablonlar. **Onlayn shablonlar** turli maqsadlar uchun (prezentatsiyalar, hisobotlar, diagrammalar) tayyorlangan elektron shablonlar va hujjatlar tushuniladi.

Tadqiqot natijalari. Elektron ta’lim resurslaridan o‘quv jarayonida to‘liq foydalanish natijasida quyidagilarga erishiladi:

1) xotiraga qabul qiladilar, anglaydilar, yig‘adilar, biroq xatosiz, ongli ravishda qayta tiklamaydilar;

2) bevosita o‘qituvchi hamkorligida tahlil qiladilar, taqqoslaydilar, umumlashtiradilar, namuna bo‘yicha amaliy harakatlarni bajaradilar;

3) muammolarni yechish jarayonida mustaqil izlanadilar, kutilayotgan natijaga erishishning yo‘l va vositalarini mustaqil ravishda aniqlaydilar [1].

Bizning fikrimizcha, elektron ta’lim vositalaridan foydalanishda quyidagilarga alohida e’tibor qaratish kerak bo‘ladi:

o‘quv materiallarga qo‘yiladigan uslubiy talabalarni ishlab chiqish;

animatsion dasturlardan foydalanish davomiyligini 25-30 minutdan oshirmaslik;

namoyish etilayotgan mavzuga doir tushunchalar o‘qituvchi va talabalar tomonidan ikki tomonlama aloqa tarzida muhokama etib borilishi;

namoyish etilib borilayotgan lavhalarning talaba tomonidan mustaqil ravishda qayta ishlab, yangi tushunchalarni shakllantirib borishiga erishish;

o‘qitish natijalarini baholash me’zonlarini aniqlash [5].

Ingliz tili darslarida elektron resurslarni tanlashda quyidagi mezonlar asosiy o'rin tutadi:

1. ***Maqsadga muvofiqlik mezoni.*** Elektron resurs darsning maqsadlariga muvofiq bo'lishi kerak. Masalan, grammatika, lug‘at, tinglash va gapirish kabi ko‘nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan materiallar tanlanishi kerak. **Yosh guruhiga moslikda** resurs o‘quvchilarning yoshiga, bilim darajasiga va ehtiyojlariga mos bo‘lishi kerak. Masalan, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun sodda va qisqacha resurslar, ilg‘or darajadagi o‘quvchilar uchun esa murakkab va keng qamrovli materiallar tanlanadi.

2. ***Interaktivlik mezoni.*** **O‘quvchi faoliyatini rag‘batlantirishda** resurslar o‘quvchilarni faol ishtirok etishga, fikrlashga, bahslashishga va amaliyotda foydalanishga undashi kerak. Masalan, testlar, mashqlar, interaktiv video yoki o‘yinlar. **Fikr almashish imkoniyatida** resurslar o‘quvchilarga o‘zaro muloqot qilish va bir-birlari bilan fikr almashish imkoniyatlarini taqdim etishi kerak.

3. ***Visual va audio yordamlar mezoni.*** Resursda grafikalar, diagrammalar, rasmlar va videolar kabi v**izual materiallar** bo‘lishi o‘quvchilarni yanada jalb qilish va tushunishni osonlashtiradi. **Audio materiallar esa** tinglash ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun to‘g‘ri talaffuz va tilni tushunish qobiliyatini oshiruvchi audio materiallar muhimdir.

4. ***Yangilik va ishonchlilik mezoni.*** Resurslar eng so‘nggi texnologiyalar va ilmiy-amat birikmalarini aks ettirishi kerak. Yangi va innovatsion usullarni o‘z ichiga olgan resurslar samarali bo‘lishi mumkin. Resurslar ishonchli manbalardan olingan bo‘lishi zarur. O‘quv materiallarining aniq, to‘g‘ri va ilmiy asoslangan bo‘lishi o‘quvchilarni noto‘g‘ri ma'lumotlardan saqlaydi.

5. ***Mavzuning qamrovligi va xilma-xilligi mezoni.*** Elektron resurslar keng mavzularni qamrab olish va turli xil vazifalarni bajarishga yo‘naltirilgan bo‘lishi lozim. Masalan, til o‘rganishning barcha jihatlari (grammatika, lug‘at, tinglash, gapirish, yozish) bo‘yicha resurslar mavjud bo‘lishi kerak. Resurslar turli formatlarda (audio, video, test, o‘yin, maqolalar, tasvirlar) bo‘lishi, o‘quvchining ehtiyojiga mos variantni tanlash imkonini beradi.

6. ***Foydalanish qulayligi mezoni.*** Resurslar qulay interfeysga ega bo‘lishi, foydalanishda qiyinchilik tug‘dirmasligi kerak. Foydalanuvchi uchun foydalanish qulayligi, harakat qilish uchun kerakli amallarni tez va oson bajarish imkoniyati muhimdir. Resurslar offlayn yoki onlayn foydalanish imkonini berishi kerak, o‘quvchilarga internetga ulanmasdan ham o‘rganish imkoniyatini taqdim etish zarur.

7. ***Baholash va feedback mezoni.*** Elektron resurslarda o‘quvchilarga tezda natija olish imkoniyati beruvchi testlar va mashqlar bo‘lishi lozim. Bu o‘quvchilarga o‘z bilimini baholash va qayerda xato qilganini tushunish imkonini beradi. Darslar davomida o‘quvchilarga feedback (fikr-mulohaza) taqdim etilishi kerak. Bu o‘quvchining yutuqlari va kamchiliklarini aniqlashga yordam beradi. *8.* ***Moslashuvchanlik va shaxsiylashtirish mezoni.*** Resurslar o‘quvchilarning individual ehtiyojlariga moslashuvchan bo‘lishi kerak. Har bir o‘quvchining qobiliyatlari va tezligi bo‘yicha mos materiallar va mashqlar taqdim etilishi muhimdir. Resurs turli darajadagi o‘quvchilar uchun moslashtirilgan bo‘lishi kerak, shu orqali o‘quvchilar o‘z bilim darajasiga mos material bilan ishlashlari mumkin.

Bu mezonlar ingliz tili o‘rganish jarayonida elektron resurslardan samarali foydalanish imkonini beradi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, elektron resurslar, bugungi kunda keng tarqalgan va turli sohalarda ishlatiladigan texnologiyalar orqali ma'lumotlar va bilimlarni taqdim etishga imkon yaratadi. Ular talabalarga, ilmiy tadqiqotchilarga, o'qituvchilarga va boshqa foydalanuvchilarga bilimlarni osonroq o'zlashtirishda va izlanishlar olib borishda yordam beradi. Resurslarning turli xil tipologiyasi (matnli, multimedia, interaktiv va boshqalar) o'qitish va o'rganish jarayonlarini yanada samarali va qiziqarli qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Maxmudova Maloxat Axmatovna, Nasirova Shaira Narmuradovna Elektron resurslarni ta’limda qo‘llashdagi imkoniyatlar samaradorligi // Oriental Art and Culture. 2020. №II. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/elektron-resurslarni-ta-limda-qo-llashdagi-imkoniyatlar-samaradorligi (дата обращения: 17.12.2024).

2. Mengliyev SH. Ta`limda elektron resurslar. Ta`limda elektron resurslar.

3. Лекция 2: Виды электронных ресурсов. НОУ ИНТУИТ | Основы разработки электронных образовательных ресурсов. Лекция 2: Виды электронных ресурсов.

4. Положение о реализации электронного обучения и дистанционных образовательных технологий в СФУ [Электронный ресурс]. – Режим доступа: http://about.sfu-kras.ru/docs/9739/pdf/384920.

5. Хамидов, Ё. Ё. Ta’lim samaradorligini oshirishda elektron ta’lim resurslarining o‘rni / Ё. Ё. Хамидов. — Текст : непосредственный // Молодой ученый. — 2019. — № 21 (259). — С. 611-612. — URL: https://moluch.ru/archive/259/59591/ (дата обращения: 17.12.2024).

6. Электронные ресурсы. Понятие. Состав. Свойства. Классификация. Лекция-2-ЭР.Понятие.Состав.свойства.Классификация.pdf.

7. Электронные ресурсы. Понятие. Состав. Свойства. Классификация. Лекция-2-ЭР.Понятие.Состав.свойства.Классификация.pdf.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 1-son)

FILOLOGIYA

PHILOLOGY

HAYVONLAR OBRAZIDA SHAKLLANGAN FRAZEOLOGIZMLAR (Xorazm o‘g‘uz shevalari misolida)

Shamuratova Malohat Ilhambekovna
O‘zbekiston Davlat san’at va madaniyat instituti Nukus filiali o‘zbek tili fani bo‘yicha assistent o‘qituvchi

Annatatsiya Bu maqolada o‘g‘uz lahjasining Xorazm shevalari asos qilib olingan. Ushbu shevadagi hayvon nomlari bilan bog‘liq frazeologizmlar tahlil qilingan. Shuningdek shu sheva og‘zaki nutqidan misollar keltirilgan.

Tayanch so‘zlar: sheva, lahja, dialekt, o‘g‘uz lahjasi, frazeologizm, frazema, leksik,

Резюме Статья основна на Кошкопирском наречии Хорезмской области огузского наречии анализирует их лексические особенности.

Ключевые слова: диалект, огузский диалект, фразеология, лексика.

Annatation: This article is based on the Khorezm dialects of the Oghuz dialect. Phraseologisms related to animal names in this dialect are analyzed. Examples of oral speech of this dialect are also given

Keywords: dialect, dialect, Oghuz dialect, phraseology, lexicon.

KIRISH VA MAVZUNING DOLZARBLIGI.

Til jamiyat taraqqiyotini harakatga keltiruvchi asosiy kushdir. Insonning o‘zligini anglashi, unda milliy g‘urur, iftixor kabi oliy tuyg‘ularning qaror topishida tilning o‘rni nihoyatda beqiyos. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev «Xalqimizning ko‘p asrlik madaniy, ilmiy-ma’rifiy va badiiy tafakkuri, intellektual salohiyatining yorqin va bebaho mahsuli bo‘lgan o‘zbek tili jahondagi boy va qadimiy tillardan biridir»[279] deb ta’kidlaganidek, o‘zbek millatining nafaqat jamiyatdagi o‘z mavqeini belgilashga, balki eng rivojlangan xalqlar qatoridan munosib o‘rin egallashga bo‘lgan da’vat hamdir. Ona tilimizning ravnaqi davlat siyosati darajasiga ko‘tarilishi xalqimiz ma’naviy-ma’rifiy salohiyatining yanada yuksalishiga asos bo‘ldi. Har bir xalqning asriy tajribasini o‘zida mujassam qilgan ona tilidagi lisoniy boyliklarni asrab qolish, ularni ilmiy tahlil qilish, keyingi avlodlarga yetkazish hozirgi fan oldida, xususan, tilshunoslik oldida turgan muhim vazifalardan biri hisoblanadi[280].

[279] https://lex.uz/docs/4561730/ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 -yil 21 -oktabrdagi PF-5850-son "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" Farmoni

[280] Xudayarova M. O‘zbek tilidagi taom nomlari (Qoraqalpog‘iston hududi materiallari asosida). - Toshkent: Noshirlik yog‘dusi, 2020. 3 -b.

O‘zbekiston o‘zining milliy mustaqilligiga erishgach, o‘zbek tili Davlat tili maqomini oldi. Shundan keyin o‘zbek tilining mahalliy shevalarini o‘rganish, ayniqsa, turli arealdagi o‘g‘uz va qipchoqlar shevasi, ular tarkibidagi etnografik leksikani jiddiy o‘rganishga ehtiyoj kuchaydi. Mustaqillik mafkurasini yaratishda milliy qadriyatlarga, ota-bobolarimiz muqaddas deb bilgan marosim, urf-odat va ma’naviy boylikka, birinchi navbatda, shevalar va ular bag‘rida yashayotgan etnolingvistik omillarga ahamiyat berish tadqiqotimiz oldiga qo‘yilgan etakshi vazifa hisoblanadi. Shunday ekan, tadqiqotimiz mavzusi bugungi siyosatimiz, mafkuramiz, ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotimiz uchun dolzarb sanaladi.

Jahon tilshunosligida xalqlarning tili, tarixi, turmush tarzi, milliy xususiyatlari, urf-odat va an'analari milliy-madaniy o‘ziga xosligidagi umumiy va farqli jihatlarini frazemalar asosida o‘rganishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar ko‘lami kundan-kunga kengayib bormoqda. Keyingi davrlarda olib borilayotgan tadqiqotlarda frazemalarni olamning lisoniy manzarasi doirasida qiyosiy, chog‘ishtirma, sistem-struktur hamda shaxs tavsifli paradigma asosida o‘rganish yo‘nalishi ustuvorlik qilmoqda. Frazemalar har qanday til lug‘at tarkibining eng boy qatlami bo‘lib, nutqqa obrazlilik, emotsionallik va ekspressivlik baxsh etishi bilan ajralib turadi. Ular tarkibidagi obrazlar tizimi millat dunyoqarashining shakllanishi bilan bog‘liq bo‘lganligi bois, ular shu millatning milliy-madaniy xususiyatlari, an'analari, milliy mentaliteti haqida ma'lumot berganligi uchun ham katta ahamiyatga egadir.

O‘zbek tilshunosligida, jumladan, o‘zbek shevashunosligida dialektal frazeologizmlar kam o‘rganilgan mavzu bo’lib, o’zining tadqiqotchisini kutayotgan dolzarb muammolardan biridir.

Shunday ekan, o‘g‘uz lahjasidagi frazemalarni o‘rganish, chuqur ilmiy tadqiqotlar olib borish, ularning bir-biriga yaqin, o‘xshash va farqli lisoniy jihatlarini yangi metodologik tamoyil va zamonaviy tadqiqot usullari bilan ochib berish zarur.

MAVZUNING METODLARI VA O‘RGANILISH DARAJASI.

1) frazemalarni o‘rganishda tavsiflash metodi qo‘llanildi. Bu metod yordamida o‘g‘uz lahjasidagi frazemalar to‘plandi, kartochkalarga tushirildi hamda ular sistemalashtirildi. Bu esa frazemaning turli qirralarini bilish uchun katta imkon beradi, umumadabiy til leksikasiga munosabati, ulardagi semantik o‘ziga xosliklar hamda variantlari aniqlandi;

2) tadqiqotda tarixiy metod yordamida frazemalarning kelib chiqishi, ularning tarixiy holatidan hozirgi ko‘rinishigacha bo‘lgan o‘zgarishlar aniqlandi, eng qadimgi o‘z va o‘zlashgan qatlamlari o‘rganildi, semantik bog‘liqlik tomonlari tahlil etildi;

3) areal (lisoniy-jug‘rofiy) metod asosida frazemalar birma-bir, birin-ketinlikda talqin qilindi, tahlil natijalariga ko‘ra ularning tarqalish chegarasi xaritalar yordamida belgilandi;

4) qiyosiy-chog‘ishtirma metod yordamida frazemalarning hududlararo farqli tomonlari qiyosiy-chog‘ishtirma metod yordamida aniqlandi, o‘rganilayotgan hudud qardosh tillaridagi dublet variantlari tadqiq qilindi;

6) statistik metod. Bu metod yordamida o‘rganilgan frazemalarning qo‘llanish darajasi, statistikasi aniqlandi, shundan keyin asosiy ilmiy kuzatish ishlari olib borildi.

O‘zbek frazeologiyasining nazariy masalalari bo‘yicha dastlab E.D.Polivanov[281], keyinchalik SH.Rahmatulaev, YA.Pinxasov, B.Yo‘ldoshev, Abdimurod Mamatov, Abdug‘afur Mamatov, A.Isaev, A.Rafiev, M.Sodiqova, Q.Hakimov, SH.Usmanova, K.Bozorboev, B.Jo‘raeva, SH.Almamatova, M.Vafoeva, G.Adashulloeva va boshqa qator tilshunoslarning tadqiqotlari nashr qilindi.[282]

Qoraqalpoq va o‘zbek tillaridagi tarjimalarda frazeologizmlarning berilishi SH.Abdullaev hamda M. Babadjanovlar tomonidan tadqiq qilingan.[283] Ammo hozirga qadar o‘g‘uz lahjasidagi frazemalarning semantik va milliy-madaniy xususiyatlari maxsus monografik yo‘sinda qiyosiy tadqiq etilmagan.

TADQIQOT NATIJALARAI.

O‘zbek tilshunosligida o‘g‘uz lahjasidagi frazemalarilk bor o‘rganildi. Bu birliklar ma’lum sistemaga solindi, mavzuviy guruhlarga bo‘lindi va tahlil qilindi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilar:

- o‘g‘uz lahjasidagi frazemalar ilk marta ma'no turlariga ajratilib, ularning bir-birlaridan farqli jihatlari til faktlari yordamida dalillangan;

- o‘g‘uz lahjasidagi frazemalarning leksik-semantik xususiyatlari, frazeologik sinonimiya hodisalarining paydo bo‘lish yo‘llari va qo‘llanishi aniqlangan;

- o‘g‘uz lahjasidagi frazemalar tarkibiga ko‘ra ikki, uch, to‘rt va undan ortiq komponentli turlarga ajratilib, ularning qurilish modellari aniqlangan, frazemalarning paradigmatik va sintagmatik munosabatlari nazariy jihatdan asoslab berilgan.

Bugungi kunda o‘zbek tilshunosligi ham boshqa sohalar singari rivojlanib bormoqda. Alohida aytadigan bo‘lsak, frazeologizmlarni ham turli jihatlarini o‘rganish bo‘yicha jiddiy yutuqlarga erishildi. Frazeologizmlarni ilmiy tadqiq etish bo‘yicha qator doktorlik va nomzodlik ishlari himoya qilingan, ilmiy maqolalar, o‘quv qo‘llanmalari, frazeologik lug‘atlar tuzilgan edi. O‘zbek tilshunosligida frazeologizmlarni ilmiy tadqiq etishni birinchi bo‘lib Sh.Rahmatullayev

---

[281] Йўлдошев Б. Ўзбек фразеологияси ва фразеографияси масалалари.–Тошкент: Муҳаррир, 2013.–Б.24.

[282]Раҳматуллаев Ш.У. Основные грамматические особенности образных глаголных фразеологических единиц современного узбекского языка: Афтореф. дис. …канд. филол. наук. – М., 1952; Пинхасов Я.Д. Фразеологические выражения в языке произведений Хамида Алимджана.: Афтореф. дис. ... канд. филол. наук. – Т., 1953; Салямов Г. Литературные традиции и проблемы художественного перевода (сопоставителный, стилистический и типологический аспекты): – дис. ... канд. филол. наук. – Т., 1964; Йўлдошев Б. Ҳозирги ўзбек адабий тилида фразеологик бирликларнинг функционал-услубий хусусиятлари: Филол. фан. д-ри... дис. автореф. – Т., 1993; Маматов А.Э. Ўзбек тили фразеологизмларининг шаклланиши масалалари: Филол. фан. д-ри... дис. автореф.–Т., 2000; Исаев А. Соматические фразеологизмы узбекского языка: Автореф.дис. … канд.филол. наук–Т., 1976; Рафиев А. Ўзбек тили фразеологик бирликларининг структурал-функционал хусусиятлари: Филол. фан. ном. ... дисс. автореф.– Т., 1982 Сиддиқова М. Ўзбек ва тожик тилларида муштарак иборалар. – С., 1971; Ҳакимов Қ.М Ўзбек тилидаги содда гап қолипли фразеологизмларнинг зарурий бирикувчанликлари: Филол. фан. ном. ... дис. автореф.– Т., 1994; Бозорбоев К.Т. Ўзбек сўзлашув нутқи фразеологизмлари: филол. фан. ном. дис. автореф.– С., 2001; Алмаматова Ш.Т. Ўзбек тили фраземаларининг компонент таҳлили: Филол. фан. ном. ... дис. автореф.– Т., 2008; Вафоева М.Й. Ўзбек тилида фразеологик синонимлар ва уларнинг структурал-семантик таҳлили;Филол. фан. ном. ... дис. автореф.–Т., 2009; Ғаниева Ш. Ўзбек фразеологизмлари структураси (шаклий ва мазмуний моделлаштириш:Филол. фан. ном. ... дис. автореф.– Фарғона., 2017; Адашуллоева Г.М. Тожик ва ўзбек тилларида шахс хусусиятини ифодаловчи фразеологизмларнинг қиёсий типологик таҳлили. Филол. фан. бўй.фалс. докт.(PhD) дисс. автореф. –Самарқанд, 2018. –С.53.

[283] Абдуллаев Ш. Таржима асарларида фразеологизмлар семантикаси (Т.Қайипбергенов асарларининг ўзбекча таржимаси асосида): Филол. фан. ном. ... дисс. автореф. –Т., 2006.; Бабаджанов М.К. Ўзбекча-қорақалпоқча бадиий таржималарда фразеологизмларнинг ифодаланиши. Филол. фан. бўй. фалс. докт. дисс автореф. – Т., 2020.

boshlab bergan edi. Uning 1966-yilda himoya etilgan doktorlik ishida va «O‘zbek frazeologiyasining ba’zi masalalari» nomli monografiyasida frazeologizmlar keng ko‘lamda yoritilgan. Muhimi, bu asarda frazeologizmlar lug‘aviy birlik sifatida o‘rganilishi zarur ekanligi asoslab beriladi. Monografiyada o‘z ifodasini topgan fikr-mulohazalar, xulosalar frazeologizmlarni semantik, grammatik, stilistik jihatlardan o‘rganishga imkoniyat yaratdi. Olimning keyingi yillarda yaratgan qator ilmiy ishlari[1] ham o‘zbek frazeologiyasining rivojiga muhim hissa bo‘lib qo‘shildi. Xullas, tilshunos frazeologogizmlarni grammatik va semantik planda o‘rganishni boshlab berdi. Sh.Rahmatullayevdan keyingi avlod tadqiqotchilari ichida A.Rafiev, A.Mamatov va Q.Hakimovlarning nomzodlik ishlari va ilmiy qo‘llanmalari bu sohani rivojiga yana bir hissa bo‘ldi.

O‘zbek shevalari o‘zbek tilining mahalliy ko‘rinishlari bo‘lib, uni o‘rganish fan uchun nazariy ahamiyat kasb etsa, bo‘lajak tilshunoslar uchun amaliy ahamiyatlidir. Bu fanni o‘rganishdan maqsad o‘zbek shevalarining eng muhim xususiyatlari haqida ilm ahliga ko‘plagan ma’lumotlar berishdir.

Bu o‘rinda xuddi ana shunday maqsadlarni amalga oshirish uchun tilshunoslikdagi biror sohani ochilmagan qirralarini topib, tahlilga tortish ahamiyatlidir.

Biz quyida keltirib o‘tmoqchi bo‘lgan frazeologizmlar ham aynan shevalar ichida shakllangan, adabiy tildan ancha yiroq bo‘lgan iboralardir. Bilamizki, fanda yoritilgan frazeologizmlar tabiati turlicha bo‘lib, ularning ayrimlarida uy-ro‘zg‘or buyumlari, ba’zilarida tabiat hodisalari asnosida shakllangan bo‘lsa, bir qator frazeologizmlar hayvonlarning u yoki bu xususiyatlarini timsollashtirish bilan bog‘liq holda shakllangan. Hayvonlarning yurish turishi, o‘ziga xos xususiyatlariga ko‘ra: tulki-ayyorlik va chaqqonlik; bo‘ri-yirtqichlik va ochko‘zlik; cho‘chqa-ifloslik; ilon-makkorlik, hiylakorlik, razillik, qabihlik; ayiq-muruvvatlilik, qo‘pollik, beso‘naqaylik; arslon- kuchlilik, muruvvatlilik, oliyjanoblilik; qo‘y-yuvvoshlik; chumoli-mehnatkashlik; eshak-ahmoqlik, qaysarlik hamda mehnatkashlik; it-vafodorlik va h., ramziy belgisi sifatida talqin etiladi.

Hayvonlarning xalq tomonidan idrok etilgan umumiy xislatlarini timsollashtirish asosida o‘zbek tilida, asosan, salbiy ma’noli frazeologizmlar shakllangan.Chunki hayvonlar timsoli inson tafakkurida aksariyat hollarda salbiylik bilan birikadi. Aynan shuning uchun ham so‘kish, qarg‘ishni ifodalovchi so‘z va so‘z birikmalari tarkibida hayvonga oid so‘zlar ko‘p uchraydi. Masalan, kishining o‘zining salbiy munosabatini bildirishda «hayvon» deya xitob qiladi. **«Ichki forma, ya’ni obraz ma’noning dinamik komponenti bo‘lib, bu komponent birinchi planga suriladi va ikkilamchi ma’no yuzaga keladi»(Varina:1976:243).** Hayvonlar obrazi ham dialektal frazeologizmlar tarkibida muhim dinamik komponent bo‘lib, frazelogik ma’noni shakllantiradi. Masalan, «it» sodiqlik, vafodorlik timosli sifatida «iyt vafadar bolmaq», «iyt kynin gərmək», «iytniң kynin bashыna samaq» dialektal frazeologizmlari esa itning hayot tarzini inson hayotiga qiyoslash asosida paydo bo‘lgan. «iytdən bir suyək qarыz olыp yəshəsh»

[1] Rahmatullayev Sh. Leksikologiya bilan frazeologiya//Hozirgi o‘zbek adabiy tili. T., 1992, -B.49-186.; O‘zbek tilining frazeologik lug‘ati; O‘zbek tilida fe’l frazemalarning bog‘lashuvi.-T., 1992.

frazeologizmi esa o‘ta kambag‘al ahvolni obrazli ifodalash asosida shakllangan. «iyt hurədi, kərvan ötədi» frazelogizmi ham iytiң salbiy, ya’ni bo‘lar-bo‘lmasga hurishi asosida yuzaga kelgan.

Shuningdek, dialektal frazeologizmlarning shakllanishida ədjək **«buzoq», «bashmaq», «tana»** so‘zi ishtirokida «əjəkiң yүgirəni siysxanagachəlli», «ədjəkiң haqы», «namaqul əjəkiңətini epti» kabi; **«qo‘y»** so‘zi ishtirokida «qoyы miңəətibdi», «qoy ag‘zыnan chəp amыydы», «qoydiyin yүvash»,»qoydыyыn musvpыr» singari frazeologizmlar; **«eshak»** so‘zi ishtirokida «əshəkdəiyin ishlətmək», «ish bitənchəlli, əshək ыlaydыn ötənchəlli», «əshəgi laydыn ətdi», «əshəki suvdan ətdi», «əshək semirsəəgəsini yiqыqытadы» kabi frazeologizmlarning shakllanishiga mantiqiy asos bo‘ladi.

Salbiy ma’no ifodalovchi dialektal frazeologizmlar yovvoyi yoki yirtqich hayvonlarini simvollashtirish hisobiga shakllangan. Masalan, ilonning salbiy belgi-xususiyatlariga ko‘ra «er təyində yылan qыmыrlasa bilədi». «yылanың mayыnы ichən:yылannың yag‘ын yalag‘an», singari dialektal frazeologizmlar shakllanadi.

Faqat o‘zbeklarda emas, balki boshqa xalqlarda ham bo‘ri yirtqichlik ramzini ifodalab keladi. Shu sababli «bo‘ri yeb ketarmidi?!», «bo‘ri yeydimi», «bo‘ri kelayapti», «bəri-bərigə bə: depti» kabi frazeologizmlar paydo bo‘lgan. Frazeologizmlarning hosil bo‘lishida asos rolini o‘ynagan timsoliy obrazlar ko‘pgina tillarda umumiyligi bilan xarakterlanadi. T.Z.Cherdanseva hayvonlar nomlari obrazlari va ularni simvollashtirish turli tillarda umumiy yoki farqli bo‘lishi(Cherdansev:1977:35) ni ta’kidlaydi. Bu hol hayvonlar belgilarining bir xilligi va kishilar tomonidan bir xil qabul qilinishi bilan izohlanadi.

Biz tahlil qilayotgan o‘g‘uz lahjasining Xorazm shevalarida hayvionlar bilan bog‘liq bo‘lgan quyidagi iboralar mavjud.

Inna yutgon itdin” iborasi oldinlari to‘lachadan kelgan ammo hozir juda ozib qolgan odamga nisbatan ishlatiladi va juda ozg‘in degan ma’noni bildiradi.

Shuningdek, Xorazmning Qo‘shko‘pir shevasida **“Mol yolog‘on qoziqdin”** degan variantdoshi ham uchraydi. Bu frazeologizmlar o‘zbek adabiy *tilidagi “Eti suyagiga yopishgan”, “Qulog‘idan kun ko‘rinadi”,* iboralariga teng keladi. Bi bechoro bizmiqdin adi, menati og‘ir o‘xshidi inna yutgon itdin bo‘lipti. (Shu sheva og‘zaki nutqidan)

Shuningdek, Xorazm viloyati Urganch shahar va Qo‘shko‘pir tumanlarida bu frazeologizmga qarama-qarshi yana bir ibora mavjud bo‘lib bu o‘ta semiz ma’nosida qo‘llanadigan **“Ho‘bbini o‘kizidin”** tarzida ishlatiladi.(Nadagan samirip getipsan Ho‘bbini o‘kizidin).

Ita soyo barmidi(ita hayri deymidi) hech kimga nafi tegmaydigan odamga nisbatan qo‘llaniladi. *Ita soyo barmin girip-chiqovarma*(Shu sheva og‘zaki nutqidan)

«Yuzi eshakni derisidin qolin» ayrim holatlarda **«Yuzi eshakni derisinnanam qoling»** tarzida qo‘llaniluvchi ushbu ibora uyalmaslik, andisha qilmaslik ma‘nolarini bildiradi. Uning o‘zbek adabiy tilida «Yuzi chidaydi», **«**Beti chidaydi» singari sinonimlari mavjud. Masalan: *Uzi qiz bolo bo‘som yuzi eshakni derisinnin qolingakan, gapam ta’sir atmidi* (Qo‘shko‘pir shevasida).

«Eshaki tushoqino loyiq» iborasi esa munosib, loyiq ma'nolarini ifoda etadi. Ushbu lug‘aviy birlik, o‘zbek adabiy tilidagi «Uzukka ko‘z qo‘ygandek» iborasiga teng, ammo ularning bir-biridan farqli jihati shundaki, ushbu iboraning o‘zbek adabiy tilidagi varianti ijobiy, sheva varianti esa salbiy ma’nolarda qo‘llaniladi: *Hamma voxt biloship yurido‘n qiz, Nargizni, Masur olipti. Ay uzi vilo eshaki tushoqino loyiq adi.* (Qo‘shko‘pir shevasida)

Shu shevaga xos **«Pishik eti yegan**» iborasi ham salbiy ma’noda qo‘llanilib, ayyor, shayton ma’nolarini bildiradi. O‘zbek adabiy tilidagi *«Ilonning yog‘ini yalagan»* iborasiga sinonim bo‘la oladigan mazkur iboraning e’tiborga molik tomoni shundaki, uni faqat Xorazm viloyatining Xiva tuman va shahar aholisiga nisbatlab ishlatishadi: *Sanam xivolilodin pishik eti yeganmisan yo?* (Qo‘shko‘pir shevasida).

“Mulla mingan eshakdin” iborasi yuvosh degan ma`noni bildiradi hamda o‘zbek adabiy tilidagi qo‘y og‘zidan cho‘p olmagan iborasiga teng. Mn: Bikani qizi ara borip, mullo mingan eshakdin bo‘lip qolipmi? (Shu sheva og‘zaki nutqidan)

“Itni odini marjon qo‘yg‘ondin” iborasi ham mavjud bo‘lib, bu ibora xarakteri yomon, hurmat qilish va maqtashga loyiq bo‘lmagan insonga mos bo‘lmagan ijobiy tarzda murojaat qilish.

Azizbeka siz-bizlab, bek dap so‘llap yurvadim yoxshiliq yoroshmidi akan itni odini marjon qo‘yipmon oxir. (Shu sheva og‘zaki nutqidan)

“Tondiro qorog‘on kuchukdin” iborasi bir narsadan umidvor bo‘lib, ta’ma qilib qarab o‘tirgan odamga nisbatan ishlatiladi. Bolog‘inom tondiro qorog‘on kuchukdin amizishimni kutib o‘tiripti (Shu sheva og‘zaki nutqidan).

Har qanday frazeologizm ma’lum bir xalqning turmush tarzi, milliy madaniyati bilan bevosita bog‘liq bo‘ladi. Agar iboralar so‘zlashuv uslubida va aynan o‘zbek shevalarida qo‘llanganda esa, nafaqat o‘sha insonning, balki u bilan bir hududda yashovchi xalqning turmush tarzini hamda ma’naviy dunyosini ko‘rsatib beradi desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

“Eshak eshakdan qolso quloq minnini kasamish” bir to‘ydan yoki bir narsadan quruq qoligan va buning uchun katta janjal qiladigan odamlarga nisbatan qo‘llaniladi.

XULOSALAR.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, frazeologizmlarni tarixiy jihatdan, ya’ni frazeologik shakllanish manbalari tarixini o‘rganish, frazeologogik ilm oldida turgan asosiy muammolardan biridir. Frazeologizmlar faqat til hodisasi bo‘lmay, ular ijtimoiy-tarixiy davrning ham mahsuli hisoblanadi. Shu ma’noda frazeologizmlarning shakllanish xususiyatlari tadqiq etilganda, ularni tarixiylik jihatdan o‘rganish ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Dastlabgi tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, frazeologizmlarning paydo bo‘lishi va shakllanishi uzoq o‘tmishga borib taqaladi. O‘zbek tilida frazeologizmlarning ko‘pchilik qismi shaxsning psixologik holatini, ichki kechinmalarini ifodalash zarurati asosida shakllanadi. Shuningdek, insonlarga hos jihatlar hayvonlarning ayrim hislatlari bilan yoki hayvon nomlari bilan ham bir qator sheva frazeologizmlari shakllangan.

Aslida frazeologizmlarda eksperssivlikka boy bo‘lgan nutqiy vositalar bo‘lib, ular orqali ifodalanadigan ma’nolar ko‘p qirralidir va turli omillar asosida shakllanadi. Frazeologizmlarda so‘zlovchining voqea, belgi, narsa-predmetga nisbatan bo‘lgan sub’ektiv ijobiy yoki salbiy munosabatlari o‘z aksini topadi. Bu munosabat orqali frazeologizmlar nutqning ta’sirchanligini oshirishga xizmat qiladi. Chunki ibora anglatayotgan ma’no, ijobiy yoki salbiy, qo‘pol yoki muloyim va bir nechta ma’no ottenkalarig a ega bo‘lishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1.Mamatov A.E. O‘zbek tili frazeologizmlarining shakllanish masalalari: Filol. fan. dok. …dis. –T., 1999. –321 b.

2.Mamatov A. Frazeologik stilistika masalalari. –T., 1991. -120 b.

3.Rahmatullayev Sh. O‘zbek frazeologiyasining ba’zi masalalari. -T.: Fan, 1966. -264 b.

4, Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilida fe’l frazemalarning bog‘lashuvi. –T.: Universitet, 1992.126 b 5. A. Ashirboyev S. O‘zbek dialektologiyasi. – Toshkent, 2011.

6.Ishaev A. O‘zbek dialektal leksikografiyasi.- Toshkent: Fan, 1990

7.Polivanov E.D. Uzbekskaya dialektologiya i uzbekskiy literaturnыy yazыk. – Tashkent: Uzgosizdat, 1933. str. 3.

8.Frazeologiya i kontekst. –S., 1987. -151s.

9. Mamatov A. Hozirgi zamon o‘zbek adabiy tilida leksik va frazeologik norma muammolari. Fil. fan. dok... diss. –T., 1991. -285 b.

10. Pinxasov Ya.D. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Leksikologiya va frazeologiya.- T.:O‘qituvchi, 1960, -80 b.

11.Rahmatullayev. Sh “O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati”. – O‘qituvchi, 1978.

12. Qosimova A. “O‘zbek va ingliz frazeologiyasi”. – Scientific progress, 2021. (“Uzbek and English phraseology”).

13.Urokov Sh, Isayeva M. “Linvokulturologik iboralar va ularning semantik ma’nolari”. – “Sharq tillarini o‘qitishning dolzarb masalalari” mavzusidagi ilmiy-amaliy konferensiya, 2022. (“Linvocultural expressions and their semantic meanings”).

14.Kaxarov, Q., & Dehqonova, D. (2024). O‘ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA IBORALARNING QO‘LLANISHI. *Farg’ona Davlat Universiteti*, *30*(1),

15. Retrieved from https://journal.fdu.uz/index.php/sjfsu/article/view/35565. Qahramonova D. “O‘zbek va ingliz tillari idiomalarini taqqoslashning lingual tahlili”. – Ustozlar uchun, 2023. (“Lingual analysis of the comparison of Uzbek and English idioms”).

16.Xudayarova M. O‘zbek tilidagi taom nomlari (Qoraqalpog‘iston hududi materiallari asosida). - Toshkent: Noshirlik yog‘dusi, 2020. 3 -b.

17.Йўлдошев Б. Ўзбек фразеологияси ва фразеографияси масалалари.–Тошкент: Муҳаррир, 2013.–Б.24.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 1-son)

FILOLOGIYA

PHILOLOGY

POETIK MAZMUNDA IJODIY TAFAKKUR

Musurmonkulova Oysuluv Yulbekovna,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti O‘zbek tili va adabiyoti ta’limi kafedrasi o‘qituvchisi, erkin tadqiqotchi.

Annotatsiya. Maqolada adabiy ta’lim jarayoni, yoshlarning o‘z yo‘llarini tanlash, tafakkurini rivojlantirish, nostandart fikrlashga o‘rgatishda lateral yondashuvning ilmiy-metodik asoslari haqida so‘z boradi. Shuningdek, o‘quvchilarning savodxonligini oshirish, bilimlarini hayotiy ko‘nikmalarga uyg‘unlashtirish yuzasidan ayrim tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: ijodkorlikni rivojlantirish, anglashni farqlash, lateral yondashuv, tahlil turlari, nostandart fikrlash, yangi g‘oyalar, noan’anaviy usullar, nazariy asoslar, amaliy natijalar.

Annotation. The article discusses literary education, educational processes, young people’s choice of paths, the development of thinking, lateral approaches and scientific-methodological theories of approach in training in non-standard thinking. Also, some recommendations are given on methods used in the approach, ways to use methods, improving students’ literacy, aligning their knowledge with life skills.

Keywords: creativity development, comprehension differentiation, lateral approach, types of analysis, non-standard thinking, new ideas, unconventional methods, theoretical foundations, practical results.

Аннотatsия. В статье речь идет о литературном образовании, образовательных процессах, выборе молодежью своего пути, развитии мышления, латеральном подходе и научно-методических теориях подхода в обучении нестандартному мышлению. Также даны некоторые рекомендатсии по методам, исползуемым в подходе, способах исползования методов, повышению грамотности учащихся, согласованию их знаний с жизненными навыками.

Ключевые слова: развитие творчества, дифференциatsiя понимания, латеральный подход, виды анализа, нестандартное мышление, новые идеи, нетрадиционные методы, теоретические основы, практические результаты.

KIRISH Har qanday davlatning ta’limi rivoji o‘zining milliy yuksalish tamoyillari, tarixiy yutuqlari, xalqning milliy, ma’naviy va intellektual salohiyati hamda umumbashariy

qadriyatlarga tayanadi. De Bono ta’kidlaganidek, “har qanday yo‘l yangilanishlardan iborat”[284]. Bu yangilanish va o‘zgarishlar zamirida ta’lim tizimi o‘ziga xos muhim o‘rin tutadi. Yurtboshimiz Yangi O‘zbekiston taraqqiyotini ta’limning yuksalishiga bog‘liqligini bejiz ta’kidlamagan.: “Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma’naviy salohiyatga ega bo‘lib, dunyo miqyosida o‘z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo‘sh kelmaydigan insonlar bo‘lib kamol topishi, baxtli bo‘lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz”.[285]

Binobarin, milliy pedagogikamiz yaqin yillarga qadar o‘quvchilar mavzuni qayta so‘zlab berishi egallangan bilimlari sifatida qaraldi. Qaysi fan mutaxassis bo‘lmasin olingan bilimlarni amalda qo‘llay olmasa, ishlari samarasizdir. Shu boisdan, bugungi ta’limda bilim o‘rgatishdan ko‘ra, ularni o‘rganishga o‘rgatish muhimdir. Ta’lim yo‘nalishida bosqichma-bosqich joriy etilayotgan Milliy o‘quv dasturi: DTS, o‘quv dastur va darsliklarda o‘quvchilarni mustaqil qaror chiqarishga yo‘naltirish, turli madaniyatlar va qarashlarga moslashuvchan bo‘lish, nostandart fikrlashga o‘rgatish, ijodiy tafakkurni rivojlantirish, emotsional zo‘riqishlarni anglash va stressni boshqarish hamda turli vaziyatlarga har tomonlama yondashish va xulosa chiqarish kabi XXI asr ko‘nikmalarini rivojlantirish belgilangan. Bu haqda Z. Mirzayeva shunday yozadi: “Adabiy ta’lim sifati dastur va darsliklardagi muayyan bir asarni boshqasiga almashtirish bilan emas, balki prinsipial yondashuvlarni tatbiq etish orqali amalga oshirilishini esda saqlashishmiz zarur”[286]. Darhaqiqat, 2019-yildagi darsliklar yangilanish jarayonida kuzatilgan adabiyot fani o‘quv dasturida “Susambil” ertagi “Ovchi, ko‘kcha va dono” ertagi bilan almashtirilishi yoki Said Ahmadning “Sobiq” hikoyasi dasturdan chiqarilishi ta’lim sifatini oshirishga xizmat qilmagani barchamizga ayon. Ta’lim dasturlarini takomillashtirishdan maqsad o‘quvchilarni mustaqil fikrlash, hayotda o‘z o‘rnini topish va har tomonlama barkamol bo‘lish uchun mustahkam zamin yaratishdan iborat. S.Sayyid aytganidek, bola “diliga nedir yuqtirsa”, adabiyot muallimi o‘z vazifasini ado etgan, adabiyot darslarining samarasi ta’minlangan bo‘ladi[287].

MULOHAZA VA JARAYON

Olimlarning fikricha, zamonaviy dunyoda hayotdagi muvaffaqiyat kaliti emotsional intellekt deb ataladigan, ya’ni his-tuyg‘ularga egalik qilish va ularni boshqarish qobiliyati muhim ahamiyatga ega. Inson miyasidan kuniga taxminan 50-70 ming fikrlar o‘tadigan bo‘lsa, bu fikrlar muammolarni yanada kuchaytiradigan tegishli hissiyot va emotsiyalar uyg‘otishi aniqlangan. Demak, emotsional vaziyatlarning paydo bo‘lish sabablari kabi emotsional tafakkurning ongda aqliy asoslari mavjud. Adabiyot fanining kuchi mana shunda. Adabiy jarayonda fikriy munosabatlar, hissiy o‘zgarishlar ko‘p kuzatiladi. O‘qituvchilar bu

[284] De Bono “lateral thinking” (laterativ fikrlash) tushunchasini joriy etgan.
[285] Mirziyoyev Sh. M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: O‘zbekiston, 2016, – 14-b.
[286] Mizayeva Z., Jalilov K. O‘zbek adabiyotini o‘qitish metodikasi. – Toshkent: Academ Space, 2024, – 47-b.
[287] To‘xliyev B. Adabiyot o‘qitish metodikasi. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2016, – 9-b.

munosabatlarda qadriyat, ilm, hikmat, ezgulik fazilatlarini anglab ergashishga, qadrlashga, xulosalar olishga yo‘naltiradi. Q. Yo‘ldoshev ta’kidlaganidek: “Biz dunyoni tafakkur bilan egallaydigan millatga aylanishimiz kerak”[288].

Adabiyot darslarida o‘quvchilar fikrlashida ongdagi to‘g‘ri qarorlarni topishga o‘rgatish, fikrlarini asoslash yo‘llarini yoritishda o‘qituvchiga lateral yondashuv birmuncha qulayliklar yaratadi. Bu yondashuv masalalarga yangicha qarash yoki an’anaviy chegaralardan chiqib tahlil qilishga asoslangan. Ma’lumki, Edvard de Bono bu lateral fikrlash sifatida muammolarga yechimlar topish yo‘llari, nostandart fikrlash, yon tomondan fikrlash tushunchalarini birinchi marta 1967-yilda qo‘llagan. Bunday fikrlash insonlar uchun muhimligini har tomonlama izohlar va tavsiyalar umumlashmasidan iborat kitoblar, psixologik ko‘rsatmalar yaratgan. Tadqiqotchi muammolarga standart yondashuv emas, balki yangicha yondashuv orqali qarashni taklif qiladi.

Bu haqida xorij olimlarning tadqiqot ishlarga murojaat qilinsa quyidagilar ayonlashadi:

- Aql xaritasi asoschisi Toni Byuzan fikrlashda “aqliy tartibsizlikni kamaytirish, tasavvurni kuchaytirish va ijodiy g‘oyalarni rag‘batlantirish; haqiqiy maqsadlaringiz nima ekanligini tushunish” [289]ga chorlagan;
- Joy Pol Gilford fikrlashni xotira bilan bog‘liqliklarini asoslaydi, xotiraga kirish va undan foydalanish haqida “biror savol yoki vaziyatga yagona javob uchun xotirani qidirish – konvergent ishlab chiqarish”[290] sifatida baholagan;
- Robinson xatodan qo‘rqmaslik haqidagi: “o‘quvchi o‘z tilida xato qilishni istamasa, uning tildan foydalanish qobiliyati hech qachon rivojlanmaydi” [291] kabi ilmiy talqinlarini asoslagan;
- “Aqliy hujum” (brainstorming) konsepsiyasi asoschisi Aleks Osborn ijodkorlik tasavvurdan ko‘ra ko‘pligini ta’kidlash bilan birga tanqidiy fikrlashni ijodiy fikrlashdan ustun qo‘ymaslikka, g‘oyalar bo‘yicha mulohaza yuritmaslik, ya’ni keraklisini tanlashga chaqiradi. "Ijodkorlik – bu kran kabi yoqib-o‘chirishimiz mumkin bo‘lgan narsa. Bu ishlab chiqilishi kerak bo‘lgan hayotimizdagi tajriba va ifodadir” [292] – degan. Shuningdek, Osborn tomonidan “g‘oyalarni yaratish samaradorligi”ga hissa qo‘shadigan ikkita asosiy tamoyil taklif qilingan:
    - g‘oyalar bo‘yicha mulohaza yuritishni to‘xtatish;
    - sifatni hosil qiluvchi miqdorga intilish.

Tadqiqotchi olimlarning xulosalariga ko‘ra ijodkorlik orqali inson ruhiyatidagi tashqi va ichki qiziqishlarini yuzaga chiqarish mumkin. Ijodiy fikrlashni o‘stirish – ta’lim faoliyatining omillari, darajasi yoki ishtirokchilaridan qat’i nazar, zamonaviy ta’limning zaruriy shartlaridan biridir. Nostandart fikrlash ham ijodiy fikrlash yo‘nalishida ko‘rganimizda, insoning bilim va tajribalari asosida uyg‘unlashgan yangi bir g‘oyani kashf etish deb baholash mumkin. Ta’kidlangan o‘quvchilarning xotiralarini boyitish, xatolarini o‘zlari tushunish, aqliy

[288] https://www.gazeta.uz/uz/2024/09/11/kutubxona-qozoqboy-yoldoshev/
[289] https://4brain.ru/blog/kljuchevye-idei-toni-bjuzena
[290] https://www.cocreativity.com/handouts/guilford.pdf
[291] https://www.mindbrained.org/2024/09/do-schools-kill-creativity
[292] https://geniusrevive.com/aleks-osborn-avtor-brejnstorminga-i-metoda-tvorcheskogo-resheniya-problem

tartibsizliklarini anglash, qarorlarni tanlashda yangicha fikrlash adabiy maqsadlarga monand keladi. Buni biror mavzu doirasida ko‘rib chiqsak. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 5-sinflarida Mirtemirning “Shudring[293]” she’ri organiladi. Mavzuni lateral yonlashuv asosida tashkil etish she’rning ichki ma’nosini, undagi ramzlarni, obrazlarni har xil kontekstlar va talqinlar orqali o‘zgartirishni talab qiladi. Muammoga odatiy yoki standart yo‘ldan emas, balki noodatiy, ijodiy va ko‘p burchakli yondashuvni to‘g‘ri tashkil etsa o‘quvchilar ramziy ifodalar orqali boshqa muqobil fikrlar ustida ishlanadi. Masalan, mutolaadan oldin quyidagicha savollar berish mumkin:

Shudringni ilk bor qachon va qayerda ko‘rgansiz?

Shudring tabiat uchun foydalimi?

Shudring tushishining fasllarga aloqasi bormi?

Shudringning bug‘lanishi nimalarga bog‘liq deb o‘ylaysiz?

Bu kabi savollar o‘quvchilarda shudring haqidagi o‘y-xayollarini eslashga, ko‘rgan-bilganlarini xotirlashga olib keladi.

Muallif “Shudring” she’rida shudringni yaltiroq, momiq tasvirlarini o‘quvchilardagi beg‘ubor onlariga, insonlar ko‘nglidagi tinchlikka o‘xshatadi. She’rda tabiat va inson o‘rtasidagi ma’naviy aloqalar, inson his-tuyg‘ularining musaffoligi va hayotning o‘tkinchiligi uyg‘un tarzda ifodalagan.

Tong belgi bergandanoq
O‘tib osma ko‘prikdan,
Jar ketiga chopardim –
Jar keti o‘zga olam.

Tongni kuzatganlar yaxshi bilishadi, tong insonga hayratlanarli manzaralarni taqdim etadi. Muallif tasvirlagan tabiatning go‘zalligi chopayotgan bolalarning quvonchli damlari bilan uyg‘unlashib ketganki, oddiy osma ko‘prik ham o‘zida nafosat va noziklikni mujassam etadi. O‘qituvchi o‘quvchilarning she’rni o‘qishida ifodalilikka ahamiyat berishi lozim. She’r o‘qishning ifodaliligi uning jozibasini oshirsa, nutq ta’sirchanligi qalbni ruhlantiradi O‘quvchilar she’rni ifodali o‘qish davomida “tong” so‘zidan oldin “chopish”, “chopish zavqi”ni his etishadi. O‘qituvchi adabiy jarayonda muallifning jar tasviri misolida tongning otishiga berilgan ishoralarni anglatish, tasviriy vositalarni tushuntirishda “Tong belgisini nimalarda ko‘ramiz?”, “Osma ko‘prik qanday bo‘ladi?”, “Jar xavflimi?” kabi savollar orqali o‘quvchilar fikrini muayyan maqsadga yo‘naltiradi. O‘quvchilar bu savollar haqida o‘ylar ekan, tong belgilari, shudringning tabiat hodisasini tasavvur qilishadi. Tong belgisi haqida ayrimlari “qizg‘ish alvon rangdagi qora tunning oqarishi” – desa, ayrim o‘quvchilar ramziy ma’noda “yangilanish, yangi umid, imkoniyat” deyishi mumkin. Bu o‘z-o‘zidan muayyan bir so‘zga

[293] Adabiyot 5-sinf darsligi. Q Yo‘ldoshev va boshqa. Edutainment. Toshkent: 2024, 93-bet.

boshqa nuqtayi nazardan qarashni taqozo qiladi. Zero, “Gap faqat yaxshi topilgan o‘xshatish-u aniq ifodalarni topa bilishda emas. Badiiy asarda, shu jumladan, bolalar uchun yozilgan asarlarda ham ma’lum bir fikr oqimi va aniq tugallik bo‘lishi muhimdir”[294]. O‘qituvchi jarayonda grafik tasvir haqida to‘xtalmasada, fikr oqimida asoslar keltirishiga, xulosalangan bo‘lishiga ahamiyat berishadi.

She’rdagi ramziy ifodalarni tushuntirishda yondashuvga mos bo‘lgan “Tasodifiy so‘z” metodini qo‘llash va guruhlarda ishlash tavsiya etiladi. Metodning asosiy maqsadi – muammo bo‘yicha yuqori, aniq va original qarorlar va yangi g‘oyalar topishdir. Shuningdek, tasodifiy so‘z tanlash, she’rdagi ramziy so‘zlarni tasodifiy so‘zga bog‘lash va so‘zlarning tagma’nolarini tushunishni nazarda tutadi. Guruhlar tomonidan tanlangan tasodifiy so‘zlar jadvalli grafiklarda taqdim etishi yoki tanlagan so‘zlarni ixtiyoriy yozib borishlari tushuntiriladi. Badiiy tasvirlar bilan o‘quvchi tomonidan idrok etilgan tasvir (so‘z) bir xil bo‘lishi tahlil me’yorini anglatmaydi, o‘quvchilar hayotiy ko‘rganlariga mos o‘z fikrlarini ifodalashi va asoslashi muhim. Badiiy tasvirlar insonni nafaqat olam, odam, tabiatni his qilishga, balki uning chuqur ma’nolarini anglashga chaqiradi.

To‘ldirib chanoq-chanoq
Go‘yo sutdek ko‘pikdan,
Tutgandek g‘oyib qo‘llar –
Jilvagar ko‘zga olam.

Muallif shudringni chanoqlar, barglar ustida suv aksi sutdek yaltirashiga o‘xshashini, qo‘llar bilan qo‘yib chiqqandek jilvalanishini o‘zgacha nafis tasvirlagan. “Aqlning eng yaqin yordamchisi fikr va tabiat, eng uzoq yordamchisi beshta sezgidir. Sezgilar bilganlaridan bir bo‘lagini fikrga yetkazsa, fikr uni yangilishlardan tozalab aqlga topshiradi”[295]. Chanoqni va u siqilganda sizib chiqadigan sutdek ko‘pikni bu yoshdagi shahar o‘quvchilari ko‘rmagan bo‘lishi mumkin. Demak, aqlning uzoq yordamchilari ish bermaganida, chanoq ko‘pigini ko‘rmagan o‘quvchilarga ta’kidlab o‘tish maqsadga muvofiqdir. O‘quvchilar chanoq ichida sutdek ko‘pikni shudringga qiyoslanganligi va qo‘llarda terib chiqilgan tomchilarning ma’no tashishini tahlil orqali yaxshiroq tushunadilar. Tahlildagi estetik go‘zallik asarning jozibasini anglash bilan birga o‘quvchilar tuyg‘ularini o‘zgartirishga qodir.

G‘o‘za yaproqlarida,
Ko‘katlarning bargida,
Chechaklarning bag‘rida
Yaltirar lak-lak inju.

Shudring shunchalik nozikki, o‘quvchilarni ham noziklik, ziyraklikka chorlaydi. Adabiy jarayonda “g‘o‘za”, “ko‘kat”, “chechak”ni ko‘z oldiga keltira olishi uchun “bargi”, “bag‘ri” so‘zlari urg‘u berish lozim. Shunda, durdek yaltiragan inju chechakning qat-qat bag‘riga kirib

[294] Qo‘shjonov M. Mohiyat va badiiyat. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 1977, 198-b.
[295] Pedagogika tarixidan xrestomatiya. Tuzuvchi muallif O. Hasanboyeva. – Toshkent:, O‘zbekiston nashriyoti, 1993, – 93-b.

yashiringanini, uni faqat yaltirashi orqali ko‘rish mumkinligiga ishoralarni o‘quvchilar tahlil orqali hamda tabiatning bir qismi, balki inson his-tuyg‘ularini aks ettiruvchi ramzlar sifatida farqlaydilar.

Qiyosiy, ramziy ishoralar yuzasidan quyidagi savollarga murojaat qilinadi:

- Shudring qanday rangda bo‘lishini istardingiz?
- Shudring – hayotning sof bir lahzasi deganda nimani tushunasiz?
- Shudring hayotdagi kichik quvonchlarning timsoli bo‘lishiga fikr bildiring.
- Ong yoki fikrlaringizdagi “shudring”ni izohlang.

Bahs-munozarada shudring vaqtning tashqi olamdagi aksi, o‘tkinchi fikrlarga o‘xshatish yoki uning haqiqiy shakli doimo qalbda yashiringan degan xulosalar uchraydi. Ranglar keltirishda, o‘quvchi quvonchli damlariga qiyoslash mumkin. O‘qituvchi hech kim xayoliga keltirmagan muqobil fikrlarga ahamiyat berishi lozim.

Yaltirar suyri tepa,
Yaltirar qir uzunchoq,
Kelinlar taqinchog‘i,
Uzuk ko‘zlarimi yo.

O‘quvchilarni tahlilga tortishda, asosan. ijodiy va g‘ayrioddiy usulda misralarni tahlil qilish va yangi nuqtayi nazarni shakllantirish bilan bog‘liq bo‘ladi. Masalan, “suyri tepa” (odatda qandaydir balandlikka ishora) so‘zini shudringning bir-biriga yaqinligidan namlangan qirlarning yaltirab ko‘rinishini inson yuqori natijalarga erishish sifatida izohlar berishi muhim.

Shudring shaklini uzuk shakliga o‘xshatish va qiyoslashlarda asoslarni so‘rab turish hamda topshiriqqa mos guruhlarning yozib borayotganlarini kuzatib borish zarur.

Yo‘q, bu giryon ko‘zlarning
Yarqiroq zamzamasi.
Kechasi onam tag‘in
Yig‘labdi-da chamasi...

Misradagi giryon ko‘z “mushtoqlik”, “chanqoqlik” belgisi sifatida, muallif, o‘sha yaltiroq shifobaxsh suvni ko‘zdagi nurga, nurdan chiqqan injuni onaning yoshlariga qiyoslagan. O‘quvchilarda misradagi da-yuklamasining o‘zi mazmunga biror sirni olib kirganini, bu sir har qanday narsa bo‘lishligi haqida tasavvurlar uyg‘otadi. O‘sha yashirin narsa cheksizlik ifodasi, kechasi – sokinlikda kelgan onaning ko‘z yoshlarida farzandga bo‘lgan cheksiz mehr, ularning baxti uchun qilgan qayg‘u va harakatlari gavdalanadi. Bu yoshda ular zamzama bilan giryon ko‘zning aloqalarini izohlashga e’tiborsiz bo‘lsalar-da, eng yaqin ishongan va suyangan onalarining ko‘z yoshlari haqida o‘ylanib qolishi tabiiy. O‘quvchilar onasi ko‘zlardagi tomchilar nimadandir ko‘ngli to‘lmaganini xayolan his qiladi, balki, onasi oldidagi vazifalarini o‘ylaydi. Bu achinish ularga yordam berish, xatolarini tuzatish ehtiyoji paydo qiladi. Poetik matndagi muallifning undividual orfografiysidagi yuklama (yig‘labdi-da) grafik vizuallikni oshirish bilan birga mehrni tuydirishga hizmat qilgan.

Guruhlar o‘zlari yozgan tasodifiy so‘zlariga shudringga aloqadorligini, shudringning qaltirab turish holati tasviri, injuga qiyoslanganligi, uning musaffoligi, ayni vaqtda o‘tkinchiligi va zaifligi bog‘lashlarida umumlashtirish xususiyatiga e’tibor berish lozim, bog‘lash mumkin bo‘lmagan holatlarda boshqaga almashtirishga ruxsat berilmasligi kerak.

Birinchi guruh ishlaridan namuna:

She’rdagi tasviriy ifoda va vositalar		Tasodifiy so‘zlar va uning ma’nolari	
shudring		vaqt	o‘tkinchi
g‘o‘za	yaproq	yangilanish	
chechak	bag‘ri	umid	ilinji
uzuk	ko‘z	tor	belgilangan maqsad
suzuk		oqim	
giryon		doira	
suyri		latofat	silliq
tepa	balandlik	maqsad	harakat
zamzama	suv	ko‘z yosh	ezgu his-tuyg‘ular
tag‘in	takrorlanayotgan jarayon	intilish	mehr-shafqat

Ikkinchi guruh ishidan namuna:

Fikrlar	Nostandart fikrlar
Tong belgi bergandanoq	
Tong otishi	uyg‘onish
Go‘yo sutdek ko‘pikdan	
Oq rangli shirali suv	soflik
Chechaklarning bag‘rida	
Gul barglari orasidagi suv tomchilari	nasiba
Yaltirar qir uzunchoq	
Keng vohaning yaltirab tovlanishi	orzular
Uzuk ko‘zlarimi yo	
zeb-u ziynat, tomchi shaklidagi suvga qiyoslangan ashyo	qadriyat

Yondashuvning muhim jihati shundaki, muqobili deganda, falsafiy fikrlar muhokamasiga aylanib qolmaslikni unutmaslik muhim. Noodatiy fikrlar har doim oddiy so‘zlarni qiziqarli uslubda ifodalashni talab qiladi. Guruhlar ishi taqdimotida o‘qituvchilar fikrini bo‘lmasligi, tasodifiy so‘zlarini asoslashga urg‘u berishi, o‘xshamagan bog‘lanmagan holatlarini muhokama qilmasligi, misralardagi mantiqdan tashqari mazmun birliklarini anglash, bir so‘zni aytish uchun ham teran o‘ylashga chorlashi muhim hisoblanadi.

Ta’kidlash o‘rinliki, tafakkur miya, ong bilan bog‘lanar ekan, o‘quvchilarning miyasini tinimsiz mashq qildirish bu o‘z-o‘zidan maxsus neyroariqchalar hosil qilsa, bu ulardan ichki nigoh uchun javob beruvchi impulslar paydo qiladi. O‘quvchilarni bunday turli qarashlarga yo‘naltirish ularda fikrlarining to‘laqonli bo‘lishiga asos yaratadi.

XULOSA

Xulosa qilinganda, adabiyot o‘qitishda tanqidiy fikrlash, kommunikativlik, kreativ, ijodiy yaratuvchanlik kompetensiyalarni rivojlantirish, dars jarayonlarining amaliy jihatlariga e’tibor qaratish, raqobatbardoshlikni oshirish bugungi kunda nafaqat zarurat, balki ehtiyojga aylandi. Binobarin, bugungi akadek infilatsiya jarayonida, mafkuraviy maydonlarga rishtasiz tutashgan minbardagi o‘qituvchilar hatto tasavvurimizdan ortiq ma’noda javobgardirlar. Dars mashg‘ulotlarini samarali o‘tkazish uchun o‘qituvchi o‘qishdan oldin – o‘quvchilarni o‘qish faoliyatiga tayyorlash, kontekstni o‘rnatish, ularni noma’lum lug‘at bilan tanishtirish, qiziqish uyg‘otish, poetik mazmunda tafakkurini rivojlantirish, fikrini tinglash, taqdimot paytida o‘zaro umumiylikni ta’minlash asosiy vazifasidir. Zero, muallifning poetik mahorati, shaxsiyatiga aloqadorlik (jarlik, ko‘priklar muallifning yashash o‘rinlari bilan bog‘liqlik) adabiyot fani tabiat va boshqa fanlar bilan aloqalari kabi jihatlarni tushunish uchun o‘qituvchining ko‘magi zarur. O‘qituvchilar istasa, hatto, bahoriy kayfiyatda mehrli iliq so‘zlari ila qalblarida bir soatlik darsning o‘zida ezgulik urug‘larini qadashga qodir.

Lateral yondashuv samarasi – yoshlarning qaysi kasbga qiziqmasin tafakkurini boyitish, xato qilishdan cho‘chimaslik, hayot muammolarni yengib o‘tish, o‘ziga nisbatan ishonchi balandligi, Vatani – onasiga bo‘lgan muhabbati, jamiyatda o‘z o‘rnini topishi ijobiy natijalari sifatida xarakterlanadi. Bu o‘z- o‘zidan ta’lim sifati va uning xalqaro standartlarda egallagan o‘rni, milliy o‘quv dasturlarga mosligi va yoshlarning jahon bilan bo‘ylasha oladigan salohiyati borligiga asos bo‘ladi.

FOYDALANILGAN MANBALAR:

1. Mirziyoyev Sh. M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O‘zbekiston. – Toshkent, 2016.

2. Abu Rayhon Beruniy. O‘ylar, hikmatlar, naqllar, she’rlar. To‘plovchi va nashrga tayyorlovchi A.Irisov, Yosh gvardiya. – Toshkent, 1973.

3. Abdullayeva M. Adabiy ta’limda innovatsion yondashuv. “BOOKMANIY PRINT” – Toshkent, 2024.

4. Тўхлиев Б. “Адабиёт ўқитиш методикаси” Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти. – Тошкент, 2016.

5. Sharafiddinov O. Iste’dod jilolalari. G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, – Toshkent, 1976.

6. Yo‘ldoshev. Q., Kambarova S. va boshqalar 5-sinflar uchun darslik – Тошкент, Novda edutaintment. 2024.

7. Pedagogika tarixidan xrestomatiya. Tuzuvchi muallif O. Hasanboyeva. “O‘zbekiston nashriyoti”. – Toshkent, 1993.

8. Қўшжонов М. Моҳият ва бадиият. – Тошкент:, Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1977.

9. https://www.gazeta.uz/uz/2024/09/11/kutubxona-qozoqboy-yoldoshev

10. https://4brain.ru/blog/kljuchevye-idei-toni-bjuzena

11. https://www.cocreativity.com/handouts/guilford.pdf

12. https://www.mindbrained.org/2024/09/do-schools-kill-creativity

13.https://geniusrevive.com/aleks-osborn-avtor-brejnstorminga-i-metoda-tvorcheskogo-resheniya-problem

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 1-son)

FILOLOGIYA

PHILOLOGY

UDK:81.373
ORCID: 0009-0007-7420-3942

OQOVA SUV TERMINLARIDA POLIFUNKSIONALLIK MUNOSABATI

Xurramova Dilobar Muxtorovna
O‘zbekiston, Qarshi, Xalqaro innovatsion universitet
katta o‘qituvchisi
e-mail: khurramov58@mail.ru Tel: 97 3166985

Annotatsiya Borliq hodisalarini sanoqli so‘z, iboralar orqali ifodalash, son-sanoqsiz ma’nolarni ma’lum miqdordagi birliklar bag‘rida saqlash tilning funksional imkoniyatlarini behad kengaytiradi, foydalanishni qulaylashtiradi. O‘zbek tilida bir so‘z yoki bir termin umumiste’mol qatlamda ham, turli fan sohalarida ham qo‘llanishi kuzatiladi. Turli sohalarda qo‘llanadigan polifunksional terminlar semantik strukturasida sohaviy ma’nolar ajralsa-da, ular orasidagi semik aloqalar saqlanib qoladi. Polifunksional terminning turli sohalarga doir tushunchalarni ifodalaydigan sememalari o‘zaro birlashtiruvchi semalarga ega bo‘ladi, bu birlashtiruvchi semalarning mavjudligi ularni omonim birliklardan farqlaydi. Polifunksional terminlar fan-texnika, ishlab chiqarishning barcha sohalarida qo‘llanilmoqda. Buni oqova suv terminlari tizimida ham uchratamiz. Maqolada oqova suv va tozalash tizimi terminlarida polifunksionallik hodisasi haqida so‘z yuritiladi. Oqova suv, uni tozalash tizimiga oid polisemantik terminlarning hosila sememalari, polisemantik umumiste’mol leksemalarning terminologik ma’nolari metaforik, vazifadoshlik asoslarda vujudga keladi. Soha terminlar tizimida oqova, uni tozalash tizimiga oid polisemantik terminlarning hosila sememalarini, polisemantik umumiste’mol leksemalarning terminologik ma’nolari metaforik, vazifadoshlik asoslarda kuzatiluvchi lingvistik hodisalarni o‘rganish terminshunoslik uchun qimmatli ma’lumotlar beradi.

Kalit so‘zlar: terminologik leksika, izohli lug‘at, biofiltr, bioindikator, oqiziq, oqindi, nasos, ohak.

ВЗАИМОСВЯЗЬ ПОЛИФУНКЦИОНАЛЬНОСТИ В УСЛОВИЯХ СТОЧНЫХ ВОД

Аннотация Выражение явлений бытия посредством нескольких слов и словосочетаний, удержание бесчисленных значений в пределах определенного числа единиц значительно расширяет функциональные возможности языка и облегчает его

использование. В узбекском языке наблюдается употребление одного слова или одного термина как на общем уровне, так и в различных областях науки. В семантической структуре полифункциональных терминов, используемых в разных областях, хотя полевые значения и разобщены, семиотические связи между ними сохраняются. Семы полифункционального термина, обозначающие понятия разных областей, имеют взаимно объединяющие схемы, наличие этих объединяющих схем отличает их от омонимичных единиц. Полифункциональные термины используются во всех областях науки и техники и производства. Мы также видим это в системе терминов сточных вод. В статье говорится о явлении полифункциональности с точки зрения систем очистки сточных вод. Производные семы многозначных терминов, связанных со сточными водами, системой их очистки, терминологические значения многозначных универсальных лексем возникают на метафорических, предметно-ориентированных основах. Изучение производных сем многозначных терминов, связанных с отходами в системе терминов поля, многозначных терминов, связанных с системой его очистки, терминологических значений многозначных универсальных лексем метафоричны, а также изучение языковых явлений, наблюдаемых на основа связанности задач дает ценную информацию для терминологии.

Ключевые слова: терминологическая лексика, толковый словарь, биофильтр, биоиндикатор, слив, слив, насос, известь.

THE RELATIONSHIP OF POLYFUNCTIONALITY IN WASTEWATER TERMS

Abstract Expressing the phenomena of existence through a few words and phrases, keeping countless meanings within a certain number of units greatly expands the functional capabilities of the language and facilitates its use. In the Uzbek language, it is observed that one word or one term is used both in the general level and in various fields of science. In the semantic structure of the polyfunctional terms used in different fields, although the field meanings are separated, the semiotic connections between them are preserved. Semes of the polyfunctional term, which represent concepts of different fields, have mutually unifying schemes, the existence of these unifying schemes distinguishes them from homonymous units. Polyfunctional terms are used in all fields of science and technology and production. We also see this in the system of wastewater terms. The article talks about the phenomenon of polyfunctionality in the terms of wastewater and treatment systems. Derivative semes of polysemantic terms related to waste water, its treatment system, terminological meanings of polysemantic universal lexemes arise on metaphorical, task-related bases. The study of the derived semes of the polysemantic terms related to the waste in the system of field terms, the polysemantic terms related to its cleaning system, the terminological meanings of the polysemantic universal lexemes are metaphorical, and the study of the linguistic phenomena observed on the basis of task-relatedness provides valuable information for terminology.

Key words: terminological lexicon, explanatory dictionary, biofilter, bioindicator, discharge, discharge, pump, lime.

KIRISH.

O‘zbek tilida bir so‘z umumiste’mol qatlamda ham, terminosistemada ham yoki bir termin turli fan sohalarida qo‘llanishi kuzatiladi. Masalan, *biotexnologiya* termini qishloq xo‘jaligi, sanoat, ekologiya, tibbiyot, oqova suv tozalash tizimida qo‘llanilishi bilan ajralib turadi. Quyidagi terminlar ham umumiste’molda yoki turli sohalarda qo‘llaniluvchi terminlar hisoblanadi: *biokimyoviy, biomassa, biomaydon, bioresurs, dezodaratsiya, dozator, ekin maydoni, elak, gidrofitlar, hovuz, iflos, kanal, kollektor, mag‘zava, nasos, ohak, panjara, pulpa, quduq, rezervuar, tarnov.*

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR.

Bir qator sohalarda bir xil terminlarning ishlatilishi, ularning semantik strukturasi ayrim sohaviy qurilishga oidlikni bildiruvchi ba’zi semalar bilangina farqlanishi, lekin birlashuvchi va birlashtiruvchi semalarining differensial semalardan ancha yuqori ekanligi, denotativ semadan yiroqlashmaganligi, ma’lum bir terminning tejamkorlik qonuniyati asosida amal qiladigan polifunksional belgiga ega ekanligini ko‘rsatadi.

Turli sohalarda qo‘llaniladigan *polifunksional terminlar* semantik strukturasida sohaviy ma’nolar ajralgan bo‘lsa-da, ular orasidagi semik aloqalar saqlanib qoladi. Polifunksional terminning turli sohalarga doir tushunchalarni ifodalaydigan sememalari o‘zaro birlashtiruvchi semalarga ega bo‘ladi, ana shu birlashtiruvchi semalarning mavjudligi ularni omonim birliklardan farqlaydi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA.

Polifunksional terminlar fan-texnika va ishlab chiqarishning barcha sohalarida keng qo‘llanilmoqda. Biz buni oqova suv terminlari tizimida ko‘plab uchratamiz. Oqova suv va tozalash tizimi terminologiyasida *biomaydon* termini mavjud. Quyida uning sohada terminologik ma’noda qo‘llanishiga ayrim misollar keltiramiz. *Biomaydon* so‘zi “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da quyidagicha izohlangan:

BIOMAYDON Biologik ta’sir o‘tkazish doirasi, maydoni. *Hammasi bekor gap. Biomaydon, ekstrasens degan gaplarga ishonmayman*. “Yoshlik” [2, 1-jild, B.469].

Demak, so‘z bir ma’noli, uning bu ma’nosi oqova suv terminosistemasiga kirishiga asos bo‘lgan. *Biomaydon* termini oqova suv va tozalash tizimi terminologiyasida “suvni biologik usulda tozalash inshooti” ma’nosida qo‘llanadi. Ushbu terminologik ma’noning vujudga kelishida so‘zning “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da qayd etilgan ma’no ham asos bo‘lgan. Terminologik ma’noning vujudga kelishi ko‘chimning vazifadoshlik tamoyili asosida sodir bo‘lgan.

QUDUQ 1 Suv olish maqsadida vertikal tarzda qazilgan tor va teran chuqurlik; gidrotexnika inshooti. *Quduqdan suv tortmoq. Suv ichadigan qudug‘ingga tupurma. Maqol.*

Paqirni olib.. quduqdan suv keltirib, ayvonga, do‘kon ichiga qalin qilib sepadi. S. Siyoyev, Avaz.

2 Yer ostidan gaz, neft olish yoki yer-tuproqni tekshirish uchun parmalash mashinalari vositasida qazilgan juda chuqur tor o‘ra; skvajina. *Issiq mineral suv qudug‘i. Neft qudug‘i. Olib chiqdi tog‘ning boshiga, Sanolmadim neft minorasin. Ko‘rdim quduq parmalayotgan Yigitlarning polvon – sarasin.* Y.Mirzo.

3 *maxs.* O‘racha shaklidagi detal. *Karbyuratorning kompensatsiya qudug‘i* [2, 4-jild, B. 264.].

Ushbu so‘z oqova suv terminologiyasida oqova suv tarmoqlarida turli maqsadlarda: tarmoqlarning ishlashini tekshirish, tozalash, tarmoqlarda tiqilib qolgan chiqindilarni tozalash va yuvish uchun quriladigan inshoot; kuzatish quduqlari, ulash quduqlari, yuvish quduqlari, maxsus quduqlar ma’nosida qo‘llanadi. Ko‘rinadiki, tilda quduq so‘zining terminologik ma’no kasb etishi metaforik ma’no asosida sodir bo‘lgan.

TARNOV *[f. suv oqadigan, o‘tadigan quvur]* Yomg‘ir, qor suvlari oqib tushishi uchun tom chetlariga o‘rnatiladigan quvur yoki ariqcha shaklida yasalgan moslama. *Tunuka tarnov. Yog‘och tarnov. Tarnov yasamoq. Mo‘rilarda jon saqlagan musichalar kukulab, tarnovlarga qo‘nib olishdi.* S.Ahmad, Ufq. *Jimjit xonada tarnovlardan tushayotgan suvning shitirlashi.. eshitilib turardi.* P.Qodirov, Uch ildiz[2, 5-jild, B. 115].

Tarnov so‘zi soha terminologiyasida oqova suvni tozalash jarayonida qurilmalarga suvni eltish uchun o‘rnatiladigan jihoz ma’nosida qo‘llanadi. Terminologik ma’no vazifadoshlik tamoyili asosida sodir bo‘lgan.

CHO‘KMOQ 1 Tizzalamoq, cho‘kka tushmoq. **2** Umuman, biror joyga o‘tirmoq. **3** Sath, yuzadagi dastlabki vaziyatiga nisbatan pastlamoq; botmoq; ich-ichiga kirib ketmoq. **4** Tinib, tagiga o‘tirmoq, tinmoq (suyuqlikdagi aralashma, quyqa va sh.k. haqida). **5** G‘arq bo‘lmoq, botmoq; suvga botib, oqib halok bo‘lmoq. **6** *ko‘chma* Qaddi, bo‘yi qisqarib, pastroq, kaltaroq bo‘lib qolmoq, qisqa tortmoq. **7** Tepadan pastga tushib, sathni qoplamoq. **8** Qoplamoq, yoyilmoq. **9** *ko‘chma* Egallamoq, o‘rnashmoq (ruhiy holatga nisbatan). **10** Ma’lum muddat davom qilmoq. **11** *ko‘chma* Ruhiy tushkunlikka tushmoq. **12** *ko‘chma* Iqtisodiy jihatdan tang ahvolga tushmoq; orqada qolmoq [2, 6-jild, B.846].

Ko‘rinadiki, so‘z ko‘p ma’noli, “tinib, tagiga o‘tirmoq, tinmoq (suyuqlikdagi aralashma, quyqa va sh.k. haqida)” sememasi oqova suv va tozalash tizimiga oid terminologik ma’no kasb etgan. Mazkur termin sohada oqova suv tarkibidagi tosh, qum zarralarini suv tubiga cho‘ktirish, tindirish, cho‘ktirib tozalash ma’nosida qo‘llanadi. Terminologik ma’no o‘xshatish asosida vujudga kelgan.

Quyida tadqiq sohasiga oid bir qator shunday polifunksional terminlardan misollar keltiramiz:

ABSORBSIYA *fiz., kim.* Eritma yoki gazlar aralashmasidagi moddalarning qattiq jism yoki suyuqlikka yutilishi; yorug‘likning modda orqali o‘tayotganda yutilishi [2, 1-jild, B.39.].

BIJG‘IMOQ 1 Mikroorganizmlar yoki ular ajratadigan fermentlar ishtirokida parchalanib achib, qaynay boshlamoq (organik moddalar haqida). 2 Havosi buzilib, sasib ketmoq; ozodalikka rioya qilmay ivirsib o‘tirmoq. 3 ko‘chma Achchiq gap, fisqu fasod qilmoq. 4 ko‘chma To‘lib-toshib, g‘uj-g‘uj bo‘lib yotmoq; avj olmoq, ko‘paymoq (ig‘vo, fitna va sh. k. haqida).

FILTR 1 Suyuqlik yoki gazlarni nokerak aralashmalardan tozalash uchun xizmat qiladigan moslama; suzg‘ich. **2** Elektr zanjiriga ulanadigan va ma’lum chastotadagi elektr toki, elektromagnit, yorug‘lik nurlari yoki tovush to‘lqininigina ajratib o‘tkazadigan asbob [2, 2-jild, B.137.].

IFLOS 1 Nopok narsalar bilan bulg‘angan; bulg‘anch. 2 Kir bosgan; kir, isqirt. 3 *ko‘chma* Har qanday yomon, qalb ishga yuradigan; nopok. 4 Shunday odamga nisbatli, haqoratni bildiradi; yaramas, razil, palid. 5 Odobdan tashqari; yaramas, yomon.

KOLLEKTOR 1 Zax qochirish (drenaj) tarmog‘ining suv yig‘uvchi qismidan kelayotgan (sizot) suvni to‘plab, suvi qochirilayotgan maydondan boshqa tomonga oqizib, chiqazib yuborish uchun xizmat qiladigan drenaj quvuri yoki ochiq kanal; sizot suvlarni tortadigan katta zovur; **2** *maxs.* Kanalizatsiya tarmog‘ining kanalizatsiya hovuzlaridan oqova suvlarni yig‘adigan qismi (beton, temir-beton yoki keramik bloklardan qilinadigan quvur, hovuz kabilar; **3** *maxs.* Aloqa kabellari hamda suv, gaz o‘tkazuvchi va b. quvurlar yotqiziladigan yer osti yo‘laklari; **4** *tex.* Ayrim texnik qurilmalarning nomi, mas, ichki yonuv dvigatelining chiqarish va kiritish kollektori; **5** *tex. fiz.* Elektr toki chastotasini mexanik tarzda o‘zgartiruvchi moslama; konstruktiv jihatdan elektr mashina rotori (yakori) bilan birlashtirilgan bo‘ladi); **6** Biror narsa namunalarini to‘plash, ro‘yxatga kiritish, saqlash va tarqatish bilan shug‘ullanuvchi muassasa yoki shaxs.

MAG‘ZAVA **1** Kir yuvilgan sovunli suv. **2** *ko‘chma salb.* Ezma va shalviragan, maydagap, lanj odam haqida.

OQOVA 1 Hovuz, ekinzor kabi joylarga bir tomondan kirib, ikkinchi tomondan chiqib ketadigan suv. **2** Partov suv, chiqit, iflos suv. **3** ko‘chma s.t. Bo‘lib o‘tgan ishning qoldiq asari, oqibati [2, 3-jild, B.508.].

QUYULMOQ 1 Suvi, suyuqlik qismi kamayib, quyuq holga kelmoq, quyuqlashmoq. 2 Bir yerga ko‘p miqdorda yig‘ilmoq, to‘planib qalinlashmoq. 3 *ko‘chma* Aql-hushini yig‘ib, o‘zini tutib, qo‘lga olib, og‘ir, vazmin bo‘lib qolmoq, yengiltaklikdan qutulmoq.

SIZMOQ 1 Biror narsa orqali yoki uning orasidan asta-sekin yoki tomchilab o‘tmoq. 2 *ko‘chma* Asta-sekinlik bilan, ohista.

YUVUNDI 1 Qozon-tovoq, idishlarni yuvishdan chiqqan, taom qoldiqlari aralash suv. **2** *ko‘chma* Xuddi yuvindi kabi, juda sifatsiz suyuq ovqat, sarqit. **3** Yuvish, yuvinishlardan chiqqan suv [2, 6-jild, B.295.].

Qayd etilgan polifunksional terminlar sememalarining semantik strukturasini ko‘rib chiqamiz.

Semema	**Birlashtiruv**	**Farqlovchi semalar**

	chi semalar	
Absorbsiya		
1 *kim.* Eritma yoki gazlar aralashmasidagi moddalarning qattiq jism yoki suyuqlikka yutilishi	Yutilish, shimish	Eritma, gazlar aralashmasidagi moddalar qattiq yutilishi
2 *fiz.*Yorug‘likning modda orqali o‘tayotganda yutilishi.		yorug‘likning yutilishi
Bijg‘imoq		
1 Mikroorganizmlar yoki ular ajratadigan fermentlar ishtirokida parchalanib achib, qaynay boshlamoq (organik moddalar haqida)	Achimoq, aynimoq, sasimoq	organik moddalar
2 Havosi buzilib, sasib ketmoq; ozodalikka rioya qilmay ivirsib o‘tirmoq.		havo aynimoq
3 ko‘chma Achchiq gap, fisq-u fasod qilmoq.		gap-so‘z, fisq-u fasod qilish
4 ko‘chma To‘lib-toshib, g‘uj-g‘uj bo‘lib yotmoq; avj olmoq, ko‘paymoq (ig‘vo, fitna va sh. k. haqida).		avj olmoq, ko‘paymoq
Kollektor		
1 Zax qochirish (drenaj) tarmog‘ining suv yig‘uvchi qismidan kelayotgan (sizot) suvni to‘plab, suvi qochirilayotgan maydondan boshqa tomonga oqizib, chiqazib yuborish uchun xizmat qiladigan drenaj quvuri yoki ochiq kanal; sizot suvlarni tortadigan katta zovur;	yig‘uvchi va o‘tkazuvchi texnik qurilma, inshoot	sizot suvlarni yig‘uvchi va oqizuvchi
2 *maxs.* Kanalizatsiya tarmog‘ining kanalizatsiya hovuzlaridan oqova suvlarni yig‘adigan qismi (beton, temir-beton yoki keramik bloklardan qilinadigan quvur, hovuz kabilar;		oqova suvlarni yig‘adigan
3 *maxs.* Aloqa kabellari hamda suv, gaz o‘tkazuvchi va b. quvurlar yotqiziladigan yer osti yo‘laklari;		aloqa kabellari hamda suv, gaz o‘tkazuvchi
4 *tex.* Ayrim texnik qurilmalarning nomi, mas, ichki yonuv dvigatelining chiqarish va kiritish kollektori;		ichki yonuv dvigatelining chiqaruvchi va kirituvchi
5 *tex. fiz.* Elektr toki chastotasini mexanik tarzda o‘zgartiruvchi moslama; konstruktiv jihatdan elektr mashina rotori (yakori) bilan birlashtirilgan bo‘ladi);		elektr toki chastotasini mexanik tarzda o‘zgartiruvchi moslama

6 Biror narsa namunalarini to‘plash, ro‘yxatga kiritish, saqlash va tarqatish bilan shug‘ullanuvchi muassasa yoki shaxs.		Biror narsa namunalarini to‘plash, ro‘yxatga kiritish, saqlash va tarqatish bilan shug‘ullanuvchi muassasa
Sizmoq		
1 Biror narsa orqali yoki uning orasidan asta-sekin yoki tomchilab o‘tmoq.	asta-sekin o‘tmoq	Biror narsa orqali yoki uning orasidan o‘tmoq
2 *ko‘chma* Asta-sekinlik bilan, ohista.		inson qalbi, ko‘nglidan o‘tmoq

Oqova suv terminologiyasida birikma terminlarni hosil qilishda *chiqindi* terminidan unumli foydalaniladi. Masalan, *bakterial chiqindi, organik chiqindi, radioaktiv chiqindi, sun’iy chiqindilanish, tabiiy chiqindilanish, chiqindilangan oqova suv, chiqindilantiruvchi moddaning massaviy konsentratsiyasi* kabi. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da terminning bir nechta ma’nosi mavjudligi qayd etilgan. Biz uchun terminning “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da qayd etilgan quyidagi ma’nosi muhim:

1 Kerakli qismi ishlatilgandan qolgan narsalar; chiqit qoldiq.

2 Axlat.

Chiqindi termini bu ma’nolari bilan oqova suv terminlari sirasidan o‘rin oladi. Oqova suv, uning hosil bo‘lishi, ifloslanish tarkibi ma’nolarini ifodalashga xizmat qiladi.

Chiqindi terminining oqova suvga nisbatan qo‘llanishiga doir misollarni maxsus ilmiy adabiyotlarda ham uchratdik. Dissertatsiya natijasi sifatida yaratilgan “O‘zbek tili oqova suv va uni tozalash tizimi terminlarining illyustrativ-izohli lug‘ati”da *chiqindi* termini quyidagicha izohlangan:

Chiqindi 1 Kerakli qismi ishlatilgandan qolgan narsalar; chiqit qoldiq.

2. Inson tomonidan suvga tashlangan chiqit, axlat.

Sun’iy ifloslanish / sun’iy chiqindilanish suv havzalariga oqova suvlarning tushirilishi va qo‘shilishi oqibatida yuz beradigan ifloslanish; chiqindilarni havzalarga tushishi.

Tabiiy ifloslanish / tabiiy chiqindilanish suvda yashaydigan o‘simlik va jonivorlarning nobud bo‘lishi; suvdagi flora va faunaning halok bo‘lishi; yomg‘ir, erigan qor suvlarning kelib tushishi natijasida hosil bo‘ladigan ifloslik.

Chiqindilantiruvchi moddaning massaviy konsentratsiyasi eritmaning hajm birligidagi moddalar massasi.

Demak, terminologiyada universaliya, polisemiya, polifunksionallik va hodisalari ko‘plab uchraydi. Umuman olganda terminlarning stixiyali tarzda vujudga kelishi, umumiste’mol so‘zlaridan farqli ravishda alohida shaxslar ijodi mahsuli ekanligi hamda mutaxassislarning termin hosil qilishda obyektning turli soha o‘xshashliklariga asoslanishi kabilar shakl va ma’no munosabatiga ko‘ra o‘ta murakkab ekanligini belgilaydi.

XULOSA.

Yuqoridagi tahlillardan ma’lum bo‘ladi-ki, ayrim terminlar bir necha sohaga xos bir xil hodisalarni nomlab keladi. Bu kabi hodisalar birdan ortiq maxsus sohalar uchun universal

bo‘lganligi sababli ularni ifodalovchi terminlar ham universallik tabiati bilan ajralib turadi. Ayrim polisemantik tabiatli umumiste’mol leksemalarning ba’zi sememalari esa terminologik mohiyat kasb etadi.

Shuningdek, oqova suv va uni tozalash tizimiga oid polisemantik terminlarning hosila sememalari, polisemantik umumiste’mol leksemalarning terminologik ma’nolari metaforik, vazifadoshlik asoslarda vujudga keladi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, oqova suv va tozalash tizimi terminlarida polifunksionallik hodisasi ham uchraydi. Soha terminlar tizimida kuzatiluvchi bunday lingvistik hodisani tadqiq etish terminshunoslik uchun qimmatli ma’lumotlar beradi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Djalilova A., Xamidov A., Abduqodirov M. Kanalizatsiya va oqova suvlarni tozalash. – Toshkent: Voris, 2012. –B.199.

2. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 6 jildli. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022.

3. Khurramova Dilobar. On problems of wastewater and its treatment system terms. B Academic research in modern science (T.3, Выпуск3). Zenodo. https://doi.org/10.5281/zenodo.10575361 C. 223-226

4. Khurramova Dilobar, Khurramov Mukhtor, Ganieva Sharifa, Nazirov Zulqaynar Energy and resource-saving method for enriching the waste water purified without sufficient purification with oxygen. Chemistry and chemical engineering. 2022. – C. 62-66.

5. Хуррамов М.Г. и др. Энергосберегающее устройство для выделения волокнистых и грубодисперсных примесей из технологических стоков красильно-отделочного производства //Известия высших учебных заведений. Технология текстильной промышленности. – 2021. – №. 3. – С. 132-135.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 1-son)

FILOLOGIYA

PHILOLOGY

УДК: 821.163.

“IKKI ESHIK ORASI”ROMANIDA INSON RUHIY HOLATNI IFODALOVCHI LEKSIK VOSITALAR TADQIQI

Sharipova Mahliyo G’ayratovna
TATU FF akademik litsey o’quv bo’lim boshlig’i

ANNOTATSIYA: Mazkur maqolada O`zbekiston xalq yozuvchisi O‘tkir Hoshimovning mashhur asarlaridan biri bo`lgan “Ikki eshik orasi” asaridagi inson ruhiy holatini ifodalovchi leksik vositalar xususida fikr yuritilgan.

KALIT SO‘ZLAR: Ironiya, gradual(darajali)ironiya, situativ ironiya , assotsiativ ironiya, paralingvistika, noverbal vositalar.

ИССЛЕДОВАНИЕ ЛЕКСИЧЕСКИХ СРЕДСТВ ВЫРАЖЕНИЯ ПСИХИЧЕСКОГО СОСТОЯНИЯ ЧЕЛОВЕКА В РОМАНЕ «МЕЖДУ ДВУМЯ ДВЕРЯМИ»

АННОТАЦИЯ: В данной статье рассматриваются лексические средства, выражающие душевное состояние человека в одном из известных произведений узбекского народного писателя Откира Хошимова «Между двух дверей».

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: Ирония, градуальная ирония, ситуативная ирония, ассоциативная ирония, паралингвистика, невербальные средства.

A STUDY OF LEXICAL MEANS EXPRESSING HUMAN MENTAL STATE IN THE NOVEL "BETWEEN TWO DOORS"

ANNOTATION: This article discusses the lexical means that express the human mental state in one of the famous works of the Uzbek people's writer Otkir Khashimov, "Between two doors."

KEYWORDS: Irony, gradual (darazal) irony, situational irony, associative irony, paralinguistics, nonverbal vositalar.

KIRISH. Matn o’z faoliyatining verbal va noverbal ko’rinishlari asosida namoyon qiladi. Bunda uning nutqiga singib, ko’rishib ketuvchi va uning nutqiy axloqini, namoyish etuvchi ichki xolati ham sezilib turadi. Inson verbal vositalar yordamida o’z fikrini ifoda etar yoki o’zgalar fikrini kabul qilar ekan, ana shu nutqiy jarayonda tinglovchining ichki his-tuyg’ularini

sezadi. Bu his-tuyg’ular uning nutqida oshkora, ba’zida yashirin holda amalga oshiriladi. Bu esa uning biror voqea, hodisa, fikrga nisbatan xususiy munosabatini belgilaydi. Bunday xususiy munosabatlardan biri ironik mazmun — munosabat ifodalashdir. Voqea, hodisa yoki u haqidagi fikrga bo’lgan xususiy munosabat ba’zan ochiq aytilmay, yashirin tarzda ifoda etiladi. Uslubshunoslikda nutq jarayonida suhbatdosh harakati yoki holatiga nisbatan bildiriladigan ichki yashirin salbiy munosabat ifodalash usuli ironiya deb ataladi.[296] Demak, ironiya badiiy matnda uslubiy vositalardan biri sanaladi va so’zlovchining tinglovchiga salbiy munosabatini ifoda qilish ko’rinishi sifatida xizmat qiladi. So’zlovchining noroziligi, g’azabi to’g’ridan-to’g’ri bildirilmay, tagma’no yordamida ifoda qilinishida ironiya namoyon bo’ladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI. Ironik mazmun ifodalash usuli subyektiv munosabatning bir ko’rinishi bo’lib, ko’proq suhbatdoshga nisbatan tanqidiy qarash va shu asosda yashirin salbiy munosabat bildirishdan iborat bo’ladi.

Kechqurun ovqatdan keyin bobom Kimsan akamni so‘roqqa tutib qoldi: - Uchuvchi bo‘laman, deng, boyvachcha? Kimsan akam iyagidagi husnbuzami timog‘i bilan sitib, o‘shshayib o‘tiraverdi. Bu uning: «Ha, qo‘lingizdan kelganini qiling», degani edi. - Menga qarang, boyvachcha! - bobom tajanglik bilan bo‘ynini cho‘zdi. - Ketmoningiz yengillik qilib qolganga o‘xshaydi. Molxonaga kiring, yarim pudli ketmon turibdi! Ana o‘shani mining-da, dalaga chiqib ayriplon qilib uching, xo‘pmi? (72-bet)

Ironiya faqat istehzoli kulgini yuzaga chiqaruvchi badiiy asar vositasigina bo’lib qolmasdan, katta bir ijtimoiy mazmun kasb etishi mumkin. Uning badiiy uslubdagi xizmati shundan iboratki, fikr vulgar, qo’pol holda emas, balki bir muncha silliq, madaniy libos kiydirilgan holda bayon qilinadi. Ironiya orqali badiiy asarda zaharxandalik va hatto, alamli his-tuyg’ular ma’lum qobiqqa o’ralgan holda ifoda etiladi.[297] Ko’rinadiki, ironiya subyektiv munosabat ifodasidir. Nutqda ironiyaning qo’llanishida suhbatdoshga nisbatan salbiy munosabat sezilib turadi. Biroq bu munosabat ochiq-oshkor bayon qilinmasligiga ham ayrim sabablar bo’lishi mumkin. vaziyat nuqtayi nazaridan qo’pol gapirishdan qochish, suhbatdoshni ranjitib qo’yishdan qo’rqish, fikrini oshkora bildirishdan qo’rqish kabilar shular jumlasidandir. Bu esa ironiyaning ichki his-tuyg’ular, ruhiy holat ifodalovchi vosita ekanidan dalolat beradi.

Bobom «chiqimning beti qursin», deydiganlardan. Menga-ku, tishini sug‘urgandek qilib bo‘lsayam ming joyini kavlab pul chiqaradi. Kimsan akamga kelganda peshonasi tirishib ketadi: “Yangi shim kiymasalar kimning ko‘ngli qopti, boyvachchaning!” - deydi to‘ng‘illab. (73-bet)

Keltirilgan kontekstda kesatiq ifodalashning eng keng tarqalgan usuli – *-lar* qo’shimchasi va *boyvachcha* so’zi yordamida ironik mazmun ifoda etilgan. Bundan tashqari, ironiya yordamida suhbatdoshga nisbatan norozilik bilan bir qatorda so’zlovchining xarakter xususiyatlari ham namoyon bo’ladi. Duma aslida o’zi ziqna bo’lgani uchun ham o’g’liga pul berishni xohlamaydi va o’g’liga nisbatan norozilik kayfiyati yuzaga chiqqan. Demak, aytish

[296] Ибрагимова Э. Ўзбек тилида ирония ва ироник мазмун ифодаланишининг усул ҳамда воситалари. Б.7.
[297] Ибрагимова Э. Юқоридаги манба. Б.8.

mumkinki, ironiya badiiy matnda qahramonning xarakter qirralarini namoyon qilish vazifasini ham bajaradi.

E.Ibragimova ironiyaning ikki turi – situativ va assotsiativ turi mavjudligini e’tirof etadi. Situativ ironiya — emotsional jihatdan bo’yalgan munosabat ko’rinishi bo’lib, aniq, ravshan ironiya hisoblanadi. Uning bu turini tezdagina anglash mumkin. So’z, gap yoki so’z birikmasining to’g’ri ma’nosi bilan kontekstdagi ma’no orasidagi farq — ziddiyat darhol seziladi.[298] Quyidagi matn parchasida suhbatdoshning tinglovchiga nisbatan jahli, noroziligi situativ ironiya yordamida0 ifodalangan:

- Bo‘pti-da! - Bobom battar tutoqdi. - Shu Zakunching aqlli odamni biylatarmikin? Basharasi aytib turibdi-ku, kimligini. Xalq dod deb yoqlab tursa-yu, bu kishim noz qilsalar! 0‘rgildim oliftagarchiligingdan. Yo xalq bir qadrimni bilib qo‘ysin, dedilarmi? (70-bet)

Xalq dod deb yoqlab tursa-yu, bu kishim noz qilsalar!, Yo xalq bir qadrimni bilib qo‘ysin, dedilarmi? gaplari vaziyatdan kelib chiqqan situativ ironiya hisblanadi, chunki u emotsional jihatdan bo’yalgan, aniq, ravshan ifoda qilingan.

MUHOKAMA VA NATIJA. Assotsiativ ironiya. Badiiy asar tizimida o’zining ifodalanish usuli, vositalari jihatidan murakkab xususiyatga ega bo’lgan ironiya ko’rinishi, bu — assotsiativ ironiyadir. Assotsiativ ironiya shunday bir usuldirki, unda shaxsiy munosabat anchagacha yashirin, asta- sekinlik bilan ifoda etiladi. Bunda til yoki nutq birliklari ko’chma ma’noda qo’llangan bo’lib, so’zlovchining asosiy maqsadi, sekin-asta, darajalangan holda oshkor etiladi. Ironik mazmun ifodalashning bu usulini darajali (gradual) ironiya deb ham atash mumkin. Gradual (darajali) ironiya, ko’pincha, megokontekst (makromatn ko’rinishlari)da kuzatiladi. Bunday hollarda megokontekst vazifasini bir necha super- sintaktik butunliklar — SSBlar birikmasi, bir butun asar yoki uning biror tarkibiy kqismidan iborat bo’lgan yozma nutq ko’rinishlari bajarishi mumkin.[299]

*Ukraina tomonlarda bug‘doyni moshina o‘ryapti. Yaqin orada olimlar havodan o‘g‘it oladi. Pastdan kimdir asabiy luqma tashladi: - Olsa, ja yaxshi-da, o‘sha o‘g‘itni siz bilan birgalashib dalaga solamiz, Oqsoqol! (*66-bet)

Hurmatli raykomimiz oldida va’da berib aytamanki, kelasi xo‘jalik yilida sabzavot hosildorligini ikki hissa oshiramiz! Pastdan kimdir kinoyali baqirdi: - Balki uch hissa oshirarmiz, rais! - Kim? - yangi raisning qoshi chimirilib ketdi - Kim aytdi shu gapni? 0‘rnidan tursin-chi! Sovuq sukunat cho‘kdi. Gapirgan odam birovning orqasiga yashirindi shekilli, hech kim o‘midan turmadi (67-bet)

Keltirilgan matn parchasida majlis jarayoni tasvirlangan. Umar zakunchining rais bo’lib kelgani xalqqa yoqmaydi, ular majlis davomida ironiya yordamida noroziliklarini ifoda qiladilar. Bu norozilik majlis davomida kuchayib boradi. Birinchi mikromatnda *Olsa, ja yaxshi-da, o‘sha o‘g‘itni siz bilan birgalashib dalaga solamiz, Oqsoqol!* gapi orqali norozilik bilan birga umid, Oqsoqolning o’zi rais bo’lib qolishiga ilinj ifoda etilgan, lekin ikkinchi

[298] Ибрагимова Э. Юқоридаги манба. Б.9-10.
[299] Ибрагимова Э. Юқоридаги манба. Б.10.

miktomatnda norozilik kuchayib, yangi rais – Umar zakunchining ustidan kulishgacha yetib boradi. Shu bilan birga, ishonchsizlik, yangi raisni yoqtirmaslik ham seziladi.

Shunday qilib, badiiy matnda ironiya yordamida norozilik, jahl, g’azab kabi salbiy ruhiy-hissiy holatlar ifoda qilinadi. Ayrim hollarda ilinj va aksincha, umidsizlik, ishonchsizlik ham ironiya yordamida ifodalanishi mumkin. Shuningdek, badiiy uslubda ironiya qahramon shaxsiy xarakterini ham namoyon qiladi.

Frazeologizmlar voqea-hodisa, belgilarning inson ongiga kuchli ta’sir qilishi, shu kuchli ta’sir natijasini nutqda to’laligicha ifodalash, umuman, fikrning ta’sirchanligiga erishish maqsadi zaminida yaratilgan til hodisasidir.[300]

Voqelikni obrazli tasvirlashda, uni kitobxon ko’zi o’ngida aniq va to’la gavdalantirishda frazeologik iboralarning o’rni, ahamiyati beqiyosdir. Iboralar hayotdagi voqea-hodisalarni kuzatish, jamiyatdagi maqbul va nomaqbul harakatlarni baholash, turmush tajribalarini umumlashtirish asosida xalq chiqargan xulosalarning o’ziga xos obrazli ifodalaridir. Yozuvchilar odatda tasvir maqsadiga muvofiq iboralarni tanlab qo’llash bilangina kifoyalanib qolmaydilar. Balki, qahramonlar tabiati, ruhiy holati, hayot tarziga moslab o’zgartiradi va qayta ishlaydi.[301] Badiiy matnda iboralar qahramonlarning xarakteri, ruhiy-psixik holati, kayfiyati va suhbatdoshga munosabatini aks ettirishning samarali vositasi hisoblanadi va keng qo’llanadi. Chunki “frazeologizmlar shaxsning psixik holati, his-hayajoni, ichki kechinmalari, voqea-hodisalarga munosabatini obrazli, emotsional - ekspressiv ifodalash zaruriyati asosida shakllangan til hodisasidir.[302]

XULOSA. *Xullas, uch kun avval «Moskvich»ida kelib qoldi. Yigitlar uchinchi qavatda domino o‘ynab o‘tirishar, shaqur-shuqur tovushlar pastdan bemalol eshitilib turardi. Shavkat Qudratovichning rangi o‘chib ketdi.* (6-bet)

Keltirilgan matn parchasida rangi o’chib ketdi iborasi qo’llangan bo’lib, uning ma’nosi qo’rqib ketdi, demakdir. Agar yozuvchi tomonidan *rangi o‘chib ketdi* iborasi emas, leksik vositalar tanlanganda, Shavkat Qudratovichning qo’rqib ketgani, vahimaga tushgani, dovdirab qolgani, shunga yarasha psixofiziologik holat – rangi o’chib, yuz oqarishi yuzaga kelgani aniq ifodalanmagan bo’lardi. Ko’rinadiki, aynan o’quvchi tasavvurida qahramonning fiziologik va ruhiy holatini aks ettirishda frazeologizmlar ahamiyatlidir. Iboralar ekspressivlik ifodalashga xizmat qilishi bilan ularda tilning ekspressiv funksiyasi bor bo’yicha namoyon bo’ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Аслонов И.Н. Ижтимоий фаолият ва муомала психологияси. Методик қўлланма. – Тошкент, 2019. – 105 б.

[300] Абдуллаев А. ЎЗБЕК ТИЛИДА ЭКСПРЕССИВЛИК ИФОДАЛАШНИНГ СИНТАКТИК УСУЛИ. Тошкент, 1987. Б.4.
[301] Yo’ldoshev M. Badiiy matnning lisoniy tahlili. Toshkent, 2008. -b.64.
[302] Маматов А. ЎЗБЕК ТИЛИ ФРАЗЕОЛОГИЗМЛАРИНИНГ ШАКЛЛАНИШИ МАСАЛАЛАРИ. Фило.фан.доктори...дисс.автореф. Тошкент, 2000. Б.16.

2. Ахмедов Б. Паралингвистик воситаларнинг гендерологик ва прагматик тадқиқи: Филол.фан.бўй.фалс.д-ри (PhD)... дисс. – Андижон, 2021. – 145 б.

3. Бурханова М. Креолизатив матнларнинг паралингвопоэтик тадқиқи: Филол.фан.бўй.фалс.д-ри (PhD)... дисс. – Фаргона, 2022.

4. Исмоилов Х. Суд лингвистикасининг социолингвистик ва психолингвистик аспектлари (жиноят ишлари бўйича суд мажлиси мисолида): филология фанлари бўйича фалсафа доктори (phd) диссертацияси автореферати. –Андижон, 2021. –Б.17.

5. Маҳмудов Н. Ўқитувчи нутқи маданияти. –Тошкент, 2007. – Б.40.

6. Нурмонов А. Танланган асарлар. III жилдлик. I жилд. –Тошкент: Akademnashr, 2012. –Б.221.

7. Нурмонов А. Ўзбек тилининг паралингвистик воситалари ҳақида. – Андижон, 1980. – 42 б.;

8. Саидхонов М. Новербал воситалар ва уларнинг ўзбек тилида ифодаланиши: Филол.фан.ном...дисс. автореферат. – Тошкент, 1993. – 24 б.;

9. Саидхонов М. Алоқа аралашув ва имо-ишоралар. – Т: Фан, 2008;

10. Саидхонов М. Мимик новербал воситалар. Нутқ маданияти ва ўзбек тилшунослигининг долзарб муаммолари // халқаро илмий-амалий конференция материаллари. – Андижон, 2020-йил, 4-май. – Б.238

11. Хасанова Г. **Dialogik nutqda noverbal vositalarning o‘rni va ularning pragmatik xususiyatlari.**

12. Юнусов Қ. Танамиз тилга кирганда. – Т.: Истиқлол нури, 2016. 152 б.;

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 1-son)

FILOLOGIYA

PHILOLOGY

ISAJON SULTONNING “ABU RAYHON BERUNIY” ROMANI TALQINI

Shomurodov San’at Dilmurod o‘g‘li,
Nukus innovatsion instituti assistent o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqola Abu Rayhon Beruniy obrazi talqini hamda allomaning hayot yo‘li, bizga qadar yetib kelgan asarlarining yaratilish tarixi, amalga oshirgan tadqiqotlari va ularning bugungi kundagi ahamiyatini adib tomonidan yoritilishiga bag‘ishlangan. Maqolada, tahlilar Isajon Sultonning “Abu Rayhon Beruniy” romani misolida ko‘rsatib beriladi. Natijada, Beruniyning olim va inson sifatidagi qarashlariga bugungi kun nuqtayi nazaridan baho beriladi.

Kalit so‘zlar: Abu Rayhon Beruniy, ilmiy meros, tarixiy roman, yil hisobi, jon va ruh, Batlimus.

INTERPRETATION OF ISAZON SULTAN'S NOVEL "ABU RAYKHON BERUNI"

Annotation: This article is devoted to the interpretation of the image of Abu Rayhan Beruni and the writer's explanation of the scholar's life path, the history of the creation of his works that have reached us, his researches and their significance today. In the article, the analysis is shown on the example of Isajon Sultan's novel "Abu Rayhan Beruni". As a result, Beruni's views as a scientist and human being are evaluated from today's point of view.

Key words: Abu Rayhan Beruni, scientific heritage, historical novel, reckoning of the year, soul and spirit, Batlimus.

ИНТЕРПРЕТАЦИЯ РОМАНА ИСАЗОНА СУЛТАНА «АБУ РАЙХАН БЕРУНИ»

Аннотация: Данная статья посвящена интерпретации образа Абу Райхана Беруни и объяснению писателем жизненного пути учёного, истории создания его произведений, дошедших до нас, его исследований и их значения в наши дни. В статье анализ показан на примере романа Исаджона Султана «Абу Райхан Беруни». В результате взгляды Беруни как учёного и человека оцениваются с точки зрения сегодняшнего дня.

Ключевые слова: Абу Райхан Беруни, научное наследие, исторический роман, отсчет года, душа и дух, Батлимус

Kirish. Ulug‘ alloma, o‘rta asarlar musulmon sharqining buyuk namoyondasi Abu Rayhon Beruniy ilmiy merosi va amalga oshirgan amaliy ishlari va shaxsiy hayoti manzaralari aks etgan turli xil janrdagi asarlar[6] yaratilganiga qaramasdan, olim hayotining keng qamrovda, yaxlit konseptual tarzda aks ettiruvchi asar yaratilmagan edi.

“Alisher Navoiy” romani bilan keng jamoatchilikning nazariga tushgan Isajon Sultonning “Abu Rayhon Beruniy” romani esa shu bo‘shliqni to‘ldirdi. Ushbu qarashlarimizni adabiyotshunos Anvar Allambergenovning roman haqida: *“...alloma obrazi talqin qilingan boshqa asarlarga qaraganda bir qator jihatlari bilan o‘ziga xoslik kasb etadi. Jumladan, yozuvchi Beruniy davrini to‘laqonli aks ettirishga urinish bilan bir qatorda Hazrat Beruniyning hayotini, shaxsiyatini, uning diniy, falsafiy siyosiy qarashlarini to‘laqonli ochib berishga harakat qilgan”[1]* degan e’tirofi to‘liq tasdiqlaydi.

“Abu Rayhon Beruniy” romanining eng muhim xususiyati olimning ilmiy, ijodiy va shaxsiy hayotiga doir manzaralarni to‘liq badiiy tasvir etganligida ko‘rinadi. Darhaqiqat, asarni o‘qish davomida ulug‘ ajdodimiz Beruniy ilmiy merosi, asarlarining yaratilish tarixi va ularning bugungi kunda va o‘sha davrdagi ahamiyati, shaxs sifatidagi insoniy qiyofasini to‘liq kashf etamiz. Va aytish joizki, asarning ayni shu jihati ijodkor mahoratining yuksakligi va so‘nggi yillar tarixiy romanchiligining o‘ziga xos yutug‘i hisoblanadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Romanga so‘zboshi yozgan AQShning Shimoliy Korolina universiteti professori xalqaro Nobel mukofoti laureti Aziz Sanjar: *“Abu Rayhon Beruniy yer yuzining diametrini bugungi o‘lchovlarga yaqin bir tarzda hisoblagan va geodeziya ilmiga asos solgan buyuk turkiy mutafakkirdir. Mazkur bilimning asoschisi bo‘lmish Beruniy, Hindistonda ekanida trigonametriyaning astronomiyadan ajralishi kerakligini ilgari surgan va tirgonametrik funksiyalarni hisoblagan. O‘z tadqiqotlari bilan G‘arb dunyosida ham mashhur bo‘lgan bu olim Nyutondan avval yerning tortish kuchidan xabar bergan, Gallileydan oldin yerning shar shaklida ekanini aytgan”[8]* ligini aytar ekan, shunday inson haqida roman yaratilgani ayni muddao ekanligini qayd etadi. Shu o‘rinda aytish joizki, ushbu tarixiy roman tezda adabiy jaomatchilik e’tiboriga tushdi[4].

Tadqiqot metodologiyasi. Tarixiy-biografik romanda tarixiy davr, tarixiy muhitga xos asosiy muammolar, birinchi navbatda, bosh qahramon obrazida ifodalanar ekan, adib ham Beruniyning olim sifatidagi ilmiy tadiqoqotlari, yaratgan asarlari ular ustida olib borgan uzoq yillik izlanishlarga mahoratli yozuvchi romanda, alohida urg‘u berishga harakat qiladi. Zero, “Epik tasvir qahramonlarni butun hayoti mobaynida yoxud ular xarakteri shakllanishining eng muhim davrlarida har tomonlama ko‘rsatilgan holdagina to‘laqonli bo‘ladi. Bu yo‘nalishdagi asarlarning mualliflari makon va zamonni tasvirlash, xilma–xil hayotiy hodisalar va vaziyatlarni ko‘rsatish, voqelikni turli nuqtadan (muallif, voqealar qatnashchisi, ularni chetdan turib kuzatuvchi personajlar nuqtai nazaridan) aks ettirish, qissa shakli (muallif nomidan, ishtirokchi tilidan, yozishma, kundalik tarzida va h.k.)ni tanlash imkoniyatlari cheklanmaydi. Bular hammasi eposdagi murakkab hayotiy jarayonlarni teran va har tomonlama tushuntirishga yordam beradi”[9].

Tahlil va natijalar. “Abu Rayhon Beruniy” romanida ham qahramon, uning faoliyati, u bilan bog‘liq boshqa personajlar, voqea-hodisalar hammasi birgalikda davrning to‘laqonli, mukammal epik manzarasini badiiy mujassamlashtirishga xizmat qiladi. Romanda bu jarayonlar talqini va tasviri Beruniy bilan birga yashagan, u bilan birga ijod qilgan zamondoshlar nutqini individuallashtirish orqali ochib berilgan. Xususan, Beruniy bilan bog‘liq voqealar rivoji alloma hayotining ma’lum bir bosqichidan boshlamasdan, bolalik davri xotiralari va dastlabki ilm olgan ustozlari ular bilan bo‘lgan ustoz shogirdlik munosabatlarida tadrijiy ravishda yoritilib boriladi. Romandagi Abul A’lo Gurganjiy hikoyatida yosh Abu Rayhon Gurganjiy qo‘lida xizmatkor bo‘lib xizmat qilgani, ammo u tirishqoq, harakatchan va o‘qishga qiziqqani bois, chorvador bo‘lib qolishni istamasdan ilm olish istagi borligini ochiqdan oydin bildirganda, Abul A’lo Gurganjiy 14 yoshli Abu Rayhonni zamonasining eng mashhur hakimlaridan biri bo‘lgan Mansur Ibn Iroq yoniga olib kelgani va Abu Rayhon o‘zining yuksak aqli va mantiqiy tafakkurining kuchliligi bilan allomani ko‘nglini rom etgani romanda ular dialogida:

“-Xo‘sh, nechun ilm olmoq istaysan? Xojang aytganidek, son-sanoqsiz chorvaga egaluk qilib, davru davron surang bo‘lmaydimi?

-Hurmatli rais, men o‘zimni butlamoq istarman,- deb javob qildi o‘smir.

-Ne emish u, o‘zni butlamoq?-Xojam ixtiyorida qo‘y boqib yurar ekanman, tabiatga razm solib, to‘kislikka intilmaydigan hech nima yo‘qligini ko‘rdim. Qush ham, hayvon ham juftlashib, to‘kis bo‘ladi. Jonsiz suv ham o‘zini butlamoq istar. To‘kis bo‘lmasa, mahsul beraolmaydi. Mening vujud quvvatim etarli, lekin bilim quvvatim oz bo‘lgani sababli ikkisini tenglab, butlamoq istadim”(18-bet) mantiqli, ishonarli tasvirlar orqali asarda berilgan. Shuningdek, asarda Mansur Ibn Iroq ilmpesha ekanligi “-Sira tashvish chekma. Bu yigitchaning sarfiyotlarini biz qarshilagaymiz”(19-bet) deya maktabida Abu Rayhonni o‘z hisobidan o‘qitishga rozi bo‘lganligida ochib beriladi. Asarda, bo‘lajak allomaning Abu Mansur bilan o‘tgan Qiyotdagi ustoz shogirdlik yillari Abu Rayhonning bo‘lajak olim bo‘lib yetishishida muhim rol o‘ynaygani tarixiy fakt asosida bayon etilgan.

Tarixdan yaxshi ma’lumki, Abu Mansur Ibn Iroq Yaratgan tomonidan ato etilgan tug‘ma iqtidor va aqliy qobiliyat egasi, yosh Abu Rayhonga o‘z davrining barcha ilmlaridan saboq berish bilan birgalikda antik davr yunon olimlarining asarlari bilan tanishtirgan. Asarda, yozuvchi Abu Rayhonni aqli zakovatining yuksakligi haqida Mansur Ibn Iroq tilidan beriladi: *“Abu Rayhon saboqlarni juda tez yodlab olardi. Shu bilan birga, ongida so‘ngsiz savollar paydo bo‘lar va ularni mendan so‘rashdan tortinmasdi. Batlimus qilgan kuzatishlarni va hisoblarni bajarib ko‘rishni istardi. Uni qo‘yavering, borliq sirlarini bilgisi kelardi. Chunonchi, yulduzlar nimalardan iborat? Ular chaqnashining boisi ne? Quyosh nima uchun falakda yoysimon xarakatlanadi?... ayni vaqtda jon va ruh masalalariga ham qiziqdi”* (22-bet). Fikrni bayon etishning bu uslubi yozuvchining mahorati bilan bog‘liq individual ifoda usuli bo‘lib, ushbu tasvir holatidan kelib chiqib aytish mumkinki, Abu Rayhon xarakter xususiyatlarini o‘quvchi ko‘z o‘ngida shakllantirgan yozuvchi “Hayotni qayta tiklab tasvirlash (vosproizvedenie) – san’atni umumiy tasvirlovchi, uning mohiyatini tashkil etuvchi alomat”[11]

ekanligini yaxshi anglagan. Shu bilan birgalikda asarda ustoz shogird o‘rtasi kechgan iliq munosabatlar hamda Mansur Ibn Iroqning ilmiy xazinasidan keng bahramand bo‘lish yosh mutafakkir kamolotida muhim hisoblangan davr tasviri badiiy buyoqlarda asarda to‘liq aks etgan. Demak, romanda Beruniyning yoshlik davri xotiralari tasviri yozuvchi tomonidan mana shunday lavhalatda jonli tarzda yoritilgan.

Yozuvchi badiiy talqiniga ko‘ra, Abu Rayhonni borliqdagi jamiki bilimlarga qiziqishi va ular ustida izlanishlar olib borishi uning kelgusida yaratiladigan asarlari turtki bo‘lishi, romanda ishonarli lavhalarda o‘z badiiy ifodasini topgan. Shu bilan birgalikda romanda alloma faoliyatining barcha jabhalariga oid talqinlarini uchratamiz.

U olgan bilimlari va tadqiqotlari natijasi o‘laroq turli hududlarga tashrif buyuradi va safari natijasida har bir joyning geografik joylashuvi, tabiati ob-havosi haqida ma’lumotlar to‘playdi. O‘sha davrda qo‘llanilgan og‘irlik o‘lchovlari, uzunlik o‘lchovlarini qaytadan tadqiq etadi va mukammalroq nusxalarini yaratadi. Qimmatbaho toshlar, ma’danlar, ularni aniqlash, rang va xil xususiyatlariga qarab baho berish, ayniqsa, tilla va kumushlarning tarkibi sofligi va qaerda quyilganiga qarab qiymatini belgilash kabi nafaqat o‘z davri va bugungi kundagi fundamental tadqiqotlarga asos bo‘ladigan qimmatli ma’lumotlar qoldirgan.

“Roman taqdiri inson taqdirida yashaydi. Roman – shaxs qalbi va hayotiga tutilgan oyna”,-ekanligini romanda to‘liq aksini ko‘rish mumkin. Alloma, Abu Rayxon Beruniy nafaqat o‘z davri uchun balki bugungi kunda ham tarixiy jarayonlarni tadqiq etishda muhim manbaa hisoblangan asari “An osorul boqiya anil – kurunil xoliya”, ya’ni “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar”ini Jurjon hokimi “Shamsulmaoliy” ya’ni “Ma’nolar quyoshi” unvoniga ega bo‘lgan Qobus ibn Vushmgir tomonidan buyurilgani va ushbu asar 1004-yilgacha bo‘lgan muddatda yozib tugatilgani haqidagi qimmatli tarrixiy fakt ham asarga yozuvchi tomonidan olib kiritilgani, yuqorida e’tirof etilgan adabiyotshunos olimnung naqadar haq ekanligini ko‘rsatib turibdi. Tarixda qahri qattiqligi va hech kimni kechirmasligi bilan nom qozongan hukmdor Qobus ibn Vushmgirni olim kishilarni e’zozlashi ularga izzat hurmat ko‘rsatishi ularga yaxshi maosh va ijodiy sharoit yaratib bergani, jumladan uning saroyida zamonasining nomdor olim-u mutafakkirlari xorazmlik olim Mansur ibn Iroq, Abu Mansur as Saolibiy va Rayda istiqomat qilayotgan Abu Rayhon Beruniy ham umrining ma’lum bir qismini shu yerda o‘tkazib ilmiy izlanishlar olib borgani romanda ketma-ketlikda bayon etib boriladi. Va aytish joizki, ushbu asar shu paytgacha yaratilgan tarix kitoblardagi yil hisobining boshlanishi turli xalqlar va qavmlar o‘rtasidagi ixlofli jihatlari tahlil etish va kun va tun hisobini belgilash kabi masalalarni turli davrda yashagan xalqlarning nuqtayi nazarlarini o‘rganishdek murakkab masalalarni ko‘rsatib bera olgan. Masalan, olim yunonlarning bir kunni belgilashdagi qarashlarini o‘rganib chiqadi va mavjud taqvimlar bilan qiyosiy tadqiq etish kerak degan xulosaga kelishi, uni o‘z tilidan o‘chib berilgan: *“Yunonlar esa quyosh chiqishini kunning boshlanishi deb, to ertasi kungi quyosh chiqishigacha bo‘lgan vaqtni bir kun deb hisoblashgan. Lekin biz kecha va kunduzlardan tarkib topuvchi oylar va yillarga to‘xtalib, oy va quyosh chiqib botishiga asoslangan mavjud taqvimlarning to‘g‘‘ri yoki yanglishligini tahlil qilishim kerak”(98*-bet*).*

Shu o‘rinda alohida qayd etish lozimki, adib badiiy asar qahramonining so‘zi orqali, shuningdek, uning oldin bo‘lib o‘tgan voqealarni o‘ylashi asosida fikr bayon etilgan matnlarda, shaxsning o‘z so‘zi orqali ichki olamini ochib berish maqsad qilgan.

Ma’lumki, bugungi kunda hijriy va milodiy yil hisoblaridan foydalaniladi. Lekin o‘rta asrlarda masihiylar, yohudiylar, otashparastlar, majusiylar va musulmon olami vakillarida alohida alohida foydalanadigan yil hisoblari mavjud bo‘lgan va hozir ham ulardaan foydalanilmoqda. Olimning fikricha yil hisobining boshlanishi turli davrlarda yuz bergan muhim tarixiy jarayonlar, yangi sulola vakillarining taxtga kelishi va imperiyalarning qulashi, dinlarning paydo bo‘lishi yoki to‘fon rivoyatlari bilan bog‘liq voqea hodisalar asos qilib olinganini o‘rganib chiqadi va ularning naqadar xilma xil ekanligi va bunday bo‘lmasligi kerakligini ta’kidlaydi va o‘z asarida bu masalalarni qiyoslab tadqiq etadi. Yozuvchi olimning turli davrda va turfa makondagi hayoti manzalarini va ilmiy taqdidotlarini shu tarzda ochib berishga harakat qilgan.

Xulosa. Fikrlarimizni umumlashtirgan holda quyidagicha xulosaga keldik. Yozuvchi Isajon Sulton “Abu Rayhon Beruniy” romani orqali ulug‘ alloma, qomusiy olim, Beruniy obrazini, uning butun boshli ilmiy merosi va olib borgan tadqiqotlarini va ularning ilmiy amaliy ahamiyatini va shu kungacha yaratilgan romanlardan farqli ravishda to‘laqonli yoritib berishga erisha oldi. Roman tili va obraz yaratish mahoratida adibning o‘ziga xos va original uslubi to‘liq namoyon bo‘ladi. Alloma obrazi faqatgina yozuvchi mushohadalari orqali ochib berilmasdan, u bilan birga yashagan zamondoshlar va birga faoliyat yuritgan olimu-fuzalolar nutqini individuallashtirish orqali talqin qilinadi. Albatta bu holat asarning hayotiyligini ta’minlagan va tarix haqiqatini to‘laqonli ochib berishga zamin yaratgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Allamberganov A. Gullayotgan chechaklar – T.: Adabiyot, 2020.
2. Allambergenov A. Abu Rayhon Beruniy obrazi Isajon Sulton talqinida // “O‘zbek adabiyotshunosligining dolzarb masalalari mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami.–T.: O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti, 2024.
3. Yoqubov O. Ko‘hna dunyo. – T.: Sharq, 2008.
4. Madaminova D. Isajon Sultonning “Abu Rayhon Beruniy” romanida Mahmud G‘aznaviy obrazi // Published July 29, 2024 | Version 1. Konferensiya, 2024
5. Muhammadrizo Q. Omonat tuhfa. – T.: Noshirlik yog‘dusi, 2017.
6. Osim M. Jayhun ustida bulutlar. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 1975.
7. Rahmatilla E. Isajon Sultonning “Abu Rayhon Beruniy” romanida sujet dinamikasi // International Scientific and Practical Conference. April 23-24, 2024
8. Sulton I. Abu Rayhon Beruniy. –T.: Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi, 2023
9. Soatova N. Ana'aniylik va vorislik,-T.: Mumtoz so‘z, 2019.
10. Tojiev D. Abu Rayxon Beruniyning ilmiy xazinasi tarixiga bir nazar // “Oriental Art and Culture” Scientific-Methodical Journal – (2) I/2020.
11. Чернишевский Н.Г. Избранные философ соч. ГИХЛ. Т. 1. – М: 1950.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 1-son)

FILOLOGIYA

PHILOLOGY

METHOD OF SEMANTIC SHIFT REPRESENTING VARIABILITY

Saymanova Shakhzada Sultanbaevna
Karakalpak state university,
a PhD student

ABSTRACT. This article deals with variability that is used to study the structure and functions of various fields. The phenomenon of language changes is related to the entire system of language and its realization in spoken language. In any language, when there is an attempt to preserve the original content (general, invariant), change occurs constantly.

Key words: variability, semantic shift, literal meaning, figurative meaning, polysemy, semantic ambiguity,

Introduction. According to Sapir's theory of "linguistic drift", since individual changes in spoken language are determined by the "drift" of the language moving in a certain direction, the language moves in its own direction in time and space. "Linguistic drift has its own direction, it is determined by individual changes that move only in a certain direction, that is, it is similar to the rise and fall of ocean waves in a single movement. Linguistic shift is carried out through uncontrolled selection of individual changes that correspond to some predetermined direction by the speakers" [Sepir 1993: 144].

In this part of the work, the views are proved using the materials of different languages, in which it is confirmed that the issues of modern linguistics are the result of a number of intra-language and additional changes in the language. The dynamic nature of language is reflected in the specific patterns of phonetic, lexical, and grammatical variability of each specific language. Changes in language are determined by real mechanisms, which are linguistic and extralinguistic factors.

Discussion. Variability, like constancy, is a necessary feature of language structure, because it is determined by the meaning of the language: language does not exist and does not develop without existing variability. Variation is studied in all layers of the language in accordance with the specifics of the problem under study and is reflected in their units.

Analyzing the structure of language on the basis of synchronic and diachronic tradition is one of the important tasks of both general and special linguistics, as well as applied linguistics.

On the one hand, the phenomenon of polysemy is very simple when the sound form (word or phrase) is used in oral speech in different meanings.

For example, the word "head" in the Karakalpak language is "the highest part of man and animal, a part of the body, the location of the brain," "the top of various plants, trees, grass... the fruit of maize is like a horsebag," "the top of the house, the top of the roof," "the top of the mountain, the top of the mountain, the top of the building and other things," "the beginning of something, the first appearance," "the beginning of something, the circle," “the amount, the number of something that is measured by numbers”, the concepts of "higher in terms of service, a person in a leading position," "a person's personal level, person," "primary," "face, side, main place of axes, ploughs and other similar tools," "part of the plough and other similar things," "the beginning of the lake, river, channel, mountain." Moreover, it is often clear from context in which meaning the graphic form of the head is used. Of course, such a phenomenon does not pose any difficulties for scientific understanding and description.

For this reason, questions about the polysemy of lexical units constantly arise in research around the semantic aspect. There are several reasons why this issue remains an urgent problem, and the first and main reason is that polysemy is one of the most obvious manifestations of linguistic variability. That is, it is impossible to accept a system without it because it is a broad part of any language system. Variation not only ensures the functioning, movement, and direction of language systems, but also contributes to their historical development. Variability, first and foremost, is formed through semantically limited language units - words, phrases, and grammatical constructions - into infinitely many meanings, and can serve as a means of conveying new knowledge, comprehensive assessments, and feelings acquired by society to future generations.

The problem of variability in the language system and the problem of variability in the language system have attracted the attention of researchers throughout the development of the entire field of linguistics and have been studied in connection with a number of other fundamental issues of linguistics. During communication, the variability and flexibility of the language system, which ensures the ability to correctly convey even the most delicate meaningful tones, does not change the stability of the language system, while the language system itself can change at the stages of historical development, and in this case, the language system retains its basic principles. Therefore, in the theory of language knowledge, a number of contradictions have emerged: variability - variance, variability - norm, variability - constancy, variability - stability (Belyaevskaya, 2014)

The study of language stability and variability has found its reflection as a method for studying lexical polysemy as one of the most important areas of research in the studied languages. Within the framework of the theory of polysemy, opinions are given about the different meanings of polysemantic words, and its variants are called lexical-semantic variants. This term was introduced by A.I. Smirnitsky, who linked it to the lexical-semantic variability and specific problem of the word.

"Any unity of the word and the general language, including the productive ability of their components," writes A.I. Smirnitsky, "is necessary for the functioning of language as a means

of communication, and therefore it is used as each segment of the conversation spoken or perceived by different participants of the conversation, which, of course, consists of the same meaning at different times and in different periods, namely, in the same structural part" [Smirnitsky 1954:35-36]. The presence of a common material (phonetic, orthographic and grammatical) form in the content of a language unit allows us to highlight lexical-semantic variants, for example, “at” – “horse” is a type of animal (a type of domestic animal), “at” – “the name”, "determination of a certain object or person" (identifier used to denote people and objects from each other), “at” - the term "action" (verbative form used to denote the action to throw, move).

According to A.I. Smirnitsky, the lexical-semantic variant is a unit with a two-sided feature (the smallest two-sided lexical unit), its formal part is the sound or phonetic form of the word, and the content part is the meanings of the word, that is, the determinants of a certain class of objects. Words with one meaning are represented in the language system only by one lexical-semantic variant, in turn, they are represented by several lexical-semantic variants that correspond to the number of polysemantic words. Thus, the concept of lexical-semantic variability is mainly associated with the polysemy of words, that is, the idea of polysemy.

The theory of A.I. Smirnitsky, the development of the problem of lexical-semantic variation of words, was based on the doctrine of Academician V.V. Vinogradov about the lexical-phraseological form of the word. "Traditionally, different lexical meanings of a word," - wrote V.V. Vinogradov, - from another point of view, can be considered as lexical-phraseological forms of a word. The lexical-phraseological form of a word denotes one of the lexical meanings of a word and is a form related to strictly defined phraseological contexts" [Vinogradov 1947:42].

According to Academician V.V. Vinogradov's theory, two issues are particularly effective for studying the word as the main unit of language and understanding its nature:

1) in the individual, lexical meaning of the word, it is divided into minimal mutual lexical units called lexical-semantic variants, which are widely used today;

2) expresses an attitude that reflects the interaction of lexical-semantic variants with typical contexts (phraseological).

Thus, in the traditions of Karakalpak linguistics, polysemy is considered one of the manifestations of semantic variability, in which one sound form has several variants that differ in its lexical meaning. However, this tradition is not generally "traditional" for linguistic literature in English language studies, because in most works of English speakers, the issue of polysemy is studied in the context of the general problem of semantic ambiguity, according to Ullmann [Ullmann 1977:59].

The concept of semantic ambiguity is usually not used in a terminological context: researchers of semantics do not define this word more or more accurately [Ullmann 1990:89], but describe many situations that can be called ambiguity. The category of semantic ambiguity includes the expression of several meanings in one form, as well as various forms of realizing

several meanings - changes in intonation in the same lexical composition of a word, polysemy of words and affixes, homonymy of words, affixes, inflections and grammatical constructions related to different interpretations of context and texts [Ullmann 1977:62]. At the same time, within the framework of the phenomenon of general ambiguity, the problem of polysemy or polysemy of lexical units acquires a certain new meaning. Instead of analyzing the principles of semantic variability existing in the language system, it is studied taking into account the criteria for distinguishing polysemy and homonymy, and the foundations for distinguishing different types of semantic ambiguity come to the forefront.

Thus, we can conclude that the direction of studying a specific linguistic phenomenon (this is phenomenon of lexical ambiguity) depends on how this phenomenon is expressed in the general theoretical meaning (although it is very insignificant).

In the study of lexical polysemy in the traditions of Karakalpak linguistics, a question arises about the boundaries of specific lexical-semantic variability, that is, the fact that the lexeme, as a language unit, ensures the generalization of its individual meanings and units of different content. Of course, the complex of meanings consistently connected to the same sound form can be different, it is difficult to attach it to the general content to justify the reasons for the classification of different lexical-semantic variants as a single word (beyond history). Defining many meanings of a word as meaningful meanings of lexical-semantic variants implies not a simple mechanical connection of different meanings connected by a single form between them, but a certain generality. According to A.I. Smirnitsky:..."the variants of the word must differ in some way in order to be different variants; however, it is necessary to pay attention to the fact that they do not turn into different words, that is, they must be firmly connected to each other in some way in order to be clear variants of the same word" [Smirnitsky 1954:22]. Based on these data, it can be said that there are obvious lexical-semantic variants, while at the same time, some semantic commonality of different meanings of the word or a certain semantic consistency arising from a single semantic connection, the consistency of the semantic structure of the lexeme, the connection between meanings should be ensured. Determining the principles that ensure the unity of all lexical-semantic variants of a single word has always been an important direction of semantic research in the linguistics of the studied languages. Opinions about the unified semantic basis of the word among scientists are still controversial, however, it is possible to distinguish several different concepts that are conditionally limited by the main parameter that ensures the unity of meanings.

The idea that there is some general concept that allows to combine different meanings of the word was almost immediately recognized as ineffective by scientists, because this led to the recognition that different objects (concepts) can represent classes of words, that is, they are related to a number of separate concepts. At the same time, it is impossible to confirm the hypothesis that a polysemous lexeme has any general meaning, this critical theory can be studied in the works of V.V. Zvegintsev and E.G. Belyaevskaya.

The concepts of the semantic core and the core of the semantic center were effectively introduced into the theory of lexical-semantic variability of V.V. Vinogradov and A.I. Smirnitsky. However, terms such as "semantic basis of the word," "semantic core of the word" and "semantic center of the word" have an intuitive meaning, they were not fully developed, therefore they were used in different concepts. Another group of this concept is characterized by the fact that all the meanings of the lexeme are interconnected in a certain way, in particular, these connections allow us to define the polysemantic word within the framework of the "unity and its variant" model. In other words, the lexical-semantic variants of the same word show that they are not separate, but interconnected and correlate with each other in a certain way. Therefore, the semantic set of a polysemantic lexeme can consist of an ordered and semantic unit. It is difficult to find a common opinion about what linguistic mechanisms ensure the interaction and mutual influence of different lexical-semantic variants of the word. In this case, the main features are:

1. The direct nominative meaning of the lexical-semantic variant has a special place, usually the semantic composition of the word with a high degree of consistency is rearranged, in practice it can be changed to name new classes of words.

2. In the process of the historical development of the language system, to establish the connection and determine the basis of semantic creations that do not always coincide with the direct nominative meaning of the word.

According to I.V. Arnol and E.M. Mednikov, synchronous logical connections with a diachronic basis between the meanings of polysemantic words in most cases do not correspond to the structural content [Arnold, 1966; Mednikova, 1974]. According to Karakalpak linguistics, in the study of the relationship between the meanings of polysemantic words in the traditions of English linguistics, according to researchers, the search for synchronously existing semantic connections is based only on diachronic criteria [Ullmann, 1977:45].

At the end of the 20th century, the formation of the cognitive paradigm in language learning took the place of the paradigm of structural linguistics and influenced the approach to the problem of lexical-semantic variability. It should also be noted that opinions about lexical polysemy, which is inherent in the tradition of English linguistics, change, and with the development of cognitive language knowledge, researchers transition from a simple definition of polysemy to a simple expression of polysemy in defining the principles of polysemy formation.

Language cannot only perform a communicative function, because its structural elements are not only indicators that name classes of a specific object, which is the direction of cognitive linguistic knowledge that arose at the heart of the ideas. To describe accurately how language works, it serves as a means of receiving, storing, processing, and disseminating information in the process of language communication, because language is a phenomenon with a message structure (words, word combinations, grammatical models, texts, etc.). Accordingly, within the framework of cognitive linguistic knowledge, concepts of the semantics of language phenomena

have expanded and changed to the form of definition. Lexical semantics accepted in structuralism, to be exact, the meaning of a word is based on a certain set of components, and in this case, the idea that it forms a concept consisting of necessary and sufficient semantics to determine a certain class of objects, was replaced with the expression of a semantic unit, its explanation of the entire complex of knowledge located behind the specified object. Thus, the cognitive category of knowledge, not linguistic, was introduced into linguistic research, which was accepted as the first distinctive feature of the new scientific paradigm.

Various controversial opinions are given about variability, semantics, polysemy, semantic shift, as we see, and if we generalize them, the following definition emerges.

The variability of semantic shift is a linguistic phenomenon associated with the change of word meanings depending on the context, which allows for the expression of different meanings. This term can be used to denote variation in the meaning of words or phrases that convey different meanings in language learning and help to highlight certain aspects of reality in the surrounding environment.

The meaning of the word "white":

In the literal sense - "the name of the colour" (white sky, white paint, white snow)

In the figurative meaning - "old, pure, peace" (an old woman, conscientious, white chest, safe journey)

As we mentioned above, this term can be used more in works related to cognitive linguistics, linguistics and semantics. It is shown how the variability of such semantic shift reflects the diversity of people's thoughts and feelings through language, changes in the meanings of words depending on the context and the state of the conversation.

The word "red" in English is basically the term "color."

In the sense of semantic shift - physical color, emotional state, abstract concepts [See: Table 2.1].

Table 2.1

Semantic shift of the color term "red"

Context	**Meaning**	**Description**
A red dress	Dress with red colour (qizil ko’ylek)	Literal meaning
To see red	Anger, to be angry (ashiwlaniw, g’a’zep)	figurative meaning: strong anger
Red tape	Paperwork (qag’azbazliq)	Idiomatic meaning: very formal requirements
A red flag	Disclaimer (eskertiwshi belgi)	figurative meaning: a sign of trouble and alarm

Words related to colors are often contextual and acquire metaphorical meanings that can convey thoughts, attributes, or social phenomena. In this case, the word "red" can mean physical color, emotional state (anger) or abstract concepts.

The English word "blue" is essentially a color term.

In the sense of semantic shift - physical color, emotional state, abstract concepts [See: Table 2.2].

Table 2.2

Semantic shift of the color term "Blue"

Context	**Meaning**	**Description**
A blue sky	Sky with blue colour (ko’k aspan)	literal meaning
Feeling blue	To be upset (qapa boliw)	figurative meaning: disappointment or sadness
Out of the blue	Unexpectedly (ku’tilmegende)	Idiomatic meaning: unexpectedly, without notice
Blue-collar worker	Worker (jumisshi)	figurative meaning: labourer (physical worker)

The word "blue" refers to an emotional state, a unit of time, or a social quality.

"Green" [See Table 2.3].

Table 2.3

Semantic shift of the color term "green"

Context	**Meaning**	**Description**
Green leaves	Leaves with green colour (jasil japiraqlar)	literal meaning
Green with envy	To get sick with envy (qizg’anshaqliqtan ko’geriw)	figurative meaning: strong envy
A greenhorn	A beginner student (taza u’yrenshik)	Idiomatic meaning: inexperienced person
Green energy	Ecologically clean energy (ekologiyaliq taza energiya)	figurative meaning: harmless

As we can see, the word "green" has meanings related to nature, feelings and ecological concepts.

"Yellow" [See Table 2.4].

Table 2.4

Semantic shift of the color term "yellow"

Context	**Meaning**	**Description**
Yellow flowers	Flowers with yellow colour (sari gu’ller)	literal meaning

Yellow press	Yellow press (sari pressa)	figurative meaning: widespread and unproven news
A yellow streak	Cowardice (qorqaqliq)	Idiomatic meaning: sign of fear

This color is mainly used in the English language in the literal sense, and in semantically derived meanings it is used in connection with negative adjectives. "Black" [See Table 2.5].

Table 2.5

Semantic shift of the color term "Black"

Context	**Meaning**	**Description**
A black car	A car with black colour (qara mashina)	literal meaning
Black mood	Frown (timsirayiw)	figurative meaning: depression and anger
Black sheep	A person who stands out in a certain group (aq g’arg’a)	Idiomatic meaning: to stand out from a certain group
Black market	Illegal trade (qara bazar)	figurative meaning: illegal trade

The peculiarity of this color term in English from the Karakalpak language is that it is used in negative connotations, ranging from emotional states to social phenomena.

"White" [See Table 2.6].

Table 2.6

Semantic shift of the color term "white"

Context	**Meaning**	**Description**
White shirt	White shirt (men's clothing) (aq ko’ylek)	Literal meaning
White lie	A harmless lie (ziyansiz o’tirik)	figurative meaning: falsehood for someone else's benefit
White collar job	Office work (ofis jumisi)	Idiomatic meaning: intellectual work
White flag	Capitulation	figurative meaning: surrender or reconcile

White is used in different meanings in all manifestations of many peoples, as well as in English, and this color is a separate symbolic color. From the analysis of examples, white also represents purity, reconciliation, and social status.

Results. Thus, color words describe semantic shift and help to verbalize the following situations:

- emotional state (feeling blue – sadness (qapashiliq), turning blue – anger (qatti ashiwlaniw))
- anthropocentric qualities (greenhorn – inexperienced (ta’jiriybesiz), unsuccessful (a’wmetsiz))
- social phenomena (white-collar job - intellectual job (aqiliy miynet), aristocrat, or a class of educated people)
- abstract concepts (red-tape - bureaucratic).

Conclusion. In conclusion, the problem of variability in the semantic shift of words is one of the urgent issues both for the structural paradigm of language knowledge and for the cognitive paradigm of language knowledge. In addition, the fact that linguists pay attention to the techniques and methods of cognitive linguistics in their research on this problem creates the basis for achieving very important results.

REFERNCES

1. Беляевская Е.Г. Семантика слова. – М.: Высш. школа, 1987. – 128 с.

2. Беляевская Е.Г. Концептуальные основания семантики языковых единиц: (От лексикологии к фразеологии) // Несколькословные единицы номинации в английском языке: От лексикологии к фразеологии. – М., 2005 а. – С. 9–24.

3. Беляевская Е.Г. Семантическая вариативность в когнитивном аспекте // Когнитивное варьирование в языковой интерпретации мира. – Тамбов, 2014. – С. 227–237.

4. Виноградов В.В. Русский язык: Грамматическое учение о слове. – М.; Л.: Гос.уч.-пед. изд-во Мин-ва просвещения РСФСР, 1947. – 784 с.

5. Звегинцев В.В. Семасиология. – М.: МГУ, 1957. – 323 с.

6. Медникова Э.М. Значение слова и методы его описания. – М.: Высш. школа, 1974. – 202 с.

7. Смирницкий А.И. К вопросу о слове: (Проблема «тождества слова») // Труды Института языкознания. – М.: Изд-во АН СССР, 1954. – Т. 4. – С. 3–49.

8. Стернин И.А. Проблемы анализа структуры значения слова. – Воронеж: Изд-во Воронеж. ун-та, 1979. – 156 с.

9. Evans V. How words mean: Lexical concepts, cognitive models, and meaning construction. – Oxford: Oxford univ. press, 2009. – 377 p.

10. Lakoff G. Women, fire, and dangerous things:. What categories reveal about the mind. – Chicago; L: Univ. of Chicago press, 1990. – 614 p.

11. Ullmann S. Semantics: An шntroduction to the science of meaning. – Oxford: Blackwell, 1977. – 278 p.

12. OED – The compact edition of the Oxford English dictionary. – Oxford: Oxford univ.press, 1980. – Vol. 1 / 2. – 4116 p

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 1-son)

FILOLOGIYA

PHILOLOGY

TARJIMA JARAYONIDA TARJIMONNI O‘YLANTIRADIGAN MASALALAR

Axmedova Muxayyoxon Tadjimuxamedovna
Andijon davlat chet tillar instituti,
E-mail:ahmedovamuhayyo305@gmail.com
Tel: (91) 489 53 77

Annotatsiya. Ushbu maqolada tarjima uzoq yillik faoliyat ekanligi, tarjima nazariyasining tarjima amaliyotiga ijobiy ta’siri, tarjima jarayonida qo‘llaniladigan strategiyalar va o‘zgarishlar haqida so‘z boradi. Tarjimada har bir millatning milliy mentalitetiga asoslangan uslub masalasi har bir muallifning o‘z uslubiga ko‘ra to‘g‘ri uslubni tanlashi va tarjima jarayonida tarjima qilingan tilning lingvistik resurslaridan foydalanishida namoyon bo‘ladi.

Kalit so‘zlar: ekvivalentlik, so‘zma-so‘z tarjima, erkin tarjima, bevosita tarjima, uslubiy yo‘qotish, metafora, emfaza.

ВОПРОСЫ, РАССМАТРИВАЕМЫЕ ПЕРЕВОДЧИКОМ В ПРОЦЕССЕ ПЕРЕВОДА

В этой статье рассказывается о том, что перевод-это многолетняя деятельность, о положительном влиянии теории перевода на практику перевода, о стратегиях и изменениях, применяемых в процессе перевода. В переводе проблема стиля, основанного на национальном менталитете каждого народа, проявляется в том, что каждый автор выбирает правильный стиль в соответствии со своим стилем и использует лингвистические ресурсы переводимого языка в процессе перевода.

Ключевые слова: эквивалентность, дословный перевод, свободный перевод, прямой перевод, стилистическая потеря, метафора, эмфаза.

ISSUES CONSIDERED BY THE TRANSLATOR DURING THE TRANSLATION PROCESS

This article explains that translation is a long-term activity, the positive impact of translation theory on translation practice, and the strategies and changes applied in the translation process. In translation, the problem of style based on the national mentality of each nation is manifested in the fact that each author chooses the right style in accordance with his style and uses the linguistic resources of the translated language in the translation process.

Key words: equivalence, literal translation, free translation, direct translation, stylistic loss, metaphor, emphase

KIRISH

Inson dunyoga kelib, tabiatni ongli tushuna boshlagandan buyon til paydo bo‘lgan. Yer yuzining turli hududlarida turli insonlar yashashi oqibatida turli tillar, turli tushunchalar paydo bo‘lgan. Faqat bir muqaddas tushuncha dunyoning har bir xalqida mavjuddir bu “yaxshilik” va “yomonlik” o‘rtasidagi ziddiyatlar. Bu tushunchalar har bir xalqda o‘z ko‘rinishida e’tirof etiladi: zulmat bilan yorug‘lik, sovuq bilan iliqlik, oq bilan qora, go‘zallik bilan xunuklik, ma‘rifat bilan johillik va boshqalardir. Xalqlar ongidagi tushunchalarni bir-birlariga tushuntirish uchun qadimdan xalqlar o‘rtasidagi “tilmochlarlar” va “tarjimonlar” faoliyat ko‘rsatganlar.

Tarjimonlar asosan iqtisodiy – savdo aloqalarni tiklashga xizmat qilganlar va bu aloqalar xalqlararo, keyinchalik davlatlararo diplomatik aloqalar darajasiga o‘sgan. Bu aloqalar o‘zaro madaniy aloqalarning shakllanishiga olib keladi.

Tarjima til va tafakkurning buzilmas ittifoqi, muqoyasi, shirin hosili o‘laroq, tabiat insonga ato etgan ulug‘ ne’mat, ajoyib mo‘jizadir. Tarjima bor ekan, xalqlar bir-birlari bilan doimiy jonli muloqotda, adabiyotlar bir-biriga vobasta, bir-biridan bahramand bo‘ladi. Tarjima bor ekan, fikr-fikrdan suv ichadi, boyiydi, o‘tkirlashadi.

ADABIYOTLAR

Tarjima davrlar osha tillarni boyitib turli tillarda yangi atamalar paydo bo‘lishiga sabab bo‘lib kelmoqda. Tarjimaning eng baxsli bo‘lgan badiiy tarjima turi bevosita adabiyot, tilshunoslik, tarix, falsafa va madaniyatshunoslik fanlariga bog‘liq bo‘lib, tarjima jarayonida turli muammolarga sabab bo‘ladi. Tarjimada P. Nyumarkning fikricha tarjima jarayoni 1) tarjimadan oldingi va 2) tarjimadan keying rejaga ega. [3]Trajimadan oldingi jarayon tarjimaga tayyorgarlik ko‘rish jarayoni bo‘lib, unda tarjimon muallif asarini tarjima qilishdan avval uning hayoti va ijodi, u ijod qilgan davr, jamiyatning qadriyatlari, umuminsoniy qarashlari haqida ma‘lumotlar yig‘ib, ularni o‘rganish jarayonidir. Tarjimadan keyingi davr tarjima tanqidiga tegishli bo‘lib, uning boshqa ekspert, mutaxassislar fikrlarini hisobga olgan holda o‘rganish va rivijlantirishga qaratilgan. Axir Nidaning fikricha tarjima dinamik ekvivalentlikka ega.[2] Ya’ni tarjima bir urinishda maromiga yetmaydi, unga yana o‘zgartirishlar kiritib rivojlantirish mumkin va yanada mukammalroq bo‘lishi mumkin. Bu bilan dastlabki tarjimaninmg bahosi pastlamaydi, balkim u birinchi qo‘yilgan qadam sifatida qadrlanadi, axir keyingi tarjimon uchun u zinapoya vazifasini bajaradi.

Buyuk o‘zbek romannavisti Abdulla Qodiriyning mashhur “O‘tgan kunlar” asarini amerikalik tarjimon Mark Riz ingliz tiliga tarjima qilish uchun 15 yil vaqt ketkazdi. Albatta bu yerda mahalliy aholi bilan muloqotga kirish uchun yetarli sharoitlar bo‘lmagan holatlar ham bo‘lgan, lekin asosiy masala xalqning mentalitetini tushunib yetishda bo‘lgan. Uning fikricha: “ —Adabiy tarjimon bo‘lish uchun, avvalo, shaxs muayyan jamiyat madaniyatini imkon qadar aniq aks ettirish uchun yetarli darajada tushunadigan yozuvchi bo‘lishi kerak.” [17] U albatta haq, chunki ingliz zabon o‘quvchi birgina Qutidorning: “— Uyatsizga maning uyimdan o‘rin yo‘q, uytsiz bilan so‘zlashishga ham toqatim yo‘q…” – degan hitobini tushunish va Otabekning bu da‘voga tortishmay orqaga qaytib ketishini tushunish uchun tarjimon Abdulla

Qodiriy davriga borib, o‘zbek kiborlarining olgan tarbiyasi haqida chuqur mulohaza qilmog‘i lozim.

USULLAR

Tarjima nazariyasining ahamiyati shundaki, u ayrim amaliyotchi- tarjimonlarning sub’yektiv mayliga hamda «intuitsiya» yo‘li bilan o‘zboshimchalik qilib o‘girishlariga chek qo‘yadi. Har qanday nazariy faoliyat qonuniyatlar joriy qilishga va nazariy umumlashmalar yaratishga zarurat sezadi, bular esa kengroq miqyosda xulosalar chiqarishga, ularni bir qancha tarjima hodisalariga tatbiq etishga hamda ilmiy tamoyillarni mensimaslik va uddaburonlikka chek qo‘yishga yordam beradi. Shuning uchun o‘tmishdagi va hozirgi buyuk tarjimonlar tarjimachilik sohasidagi til, adabiyotga munosabatlari hamda dunyoqarashlari bilan bog‘liq nazariy bilimlar tizimiga asoslanib ish ko‘rganlar.

Darhaqiqat matn asliyatdan tarjima tiliga o‘girilganda tarjimon bir qator qiyinchiliklarga duch keladi. Bunda tarjimaning turli yondashuvlari mavjudligi haqida gapiramiz. Tarjima “literal translation” (so‘zma-so‘z tarjima), va “free translation” (erkin tarjima) turlariga bo‘linadi.[1] Bu tarjima turlari tanqidchilar tomonidan qattiq qoralanib, ular sohta tarjimalar hisoblanib keladi. Chunki ushbu tarjimalarda muallifning yaratgan asarini uslubiy bo‘yoqdorligi yetarlicha ochib berilmaydi va asardagi axborot lo‘nda va quruq qilib yetkaziladi. Tarjimada o‘qilgan ma’lumot o‘quvchiga asliyatdagidek ta’sir etmaydi va muallif yozuv uslubining mahorati yetakzib berilmaydi.

Shunga qaramay biz darslarimizda amaliy tarjimalar bilan shug‘ullanamiz va “so‘zma-so‘z” va “erkin” qilingan tarjimalar jiddiy uslubiy tarjimaga kirishishimiz uchun bir pog‘ona bo‘lib xizmat qiladi.

Bundan tashqari biz dastlabki tarjima tarixiga nazar solsak, o‘zbek tiliga tarjima qilingan jahon adabiyoti durdonalari bevosita tarjima qilinmay, balkim rus tili orqali tarjima qilinib kelgan. Bu holat rus tilini “medium tili” bo‘lishiga sabab bo‘lgan. Bu o‘tgan asrning tilshunos tanqidchilari tomonidan tanqidga olingan. N. Chukovskiyning “O‘ninchi san’at ilohasi” nomli maqolasida bunday bilvosita tarjimaga qarshi chiqqani haqida Q. Musayev ozining “Tarjima nazariyasi” kitobida ko‘rsatib o‘tgan.[11]

Bilvosita tarjimada tarjimada o‘rtakashlik qilayotgan asardan tarjima jarayonida yo‘l qo‘yilgan bir qator xatolar uchinchi tarjimaga ko‘chib o‘tadi.

Lekin tarjima jarayonida ingliz tilidan o‘zbek tiliga to‘g‘ridan – to‘g‘ri tarjima qilinishida, ingliz tilidan rus tiliga tarjima qilingan asar taglama sifatida yordam berishi mumkin.

Tarjimada uslub masalasi alohida e’tibor talab qilinadi.

Badiiy tarjimada asliyatning uslubiy xususiyatlari aks ettirilishi lozim. Matnlararo invariantlik saqlangandagina uslubiy yo‘nalishlar ham o‘rinli aks etgan bo‘ladi. Tarjimadagi mavzu va usluban o‘zgarishlar haqidagi gap borganda uslubiy muvofiqlik, uslubiy almashtirish, uslubiy almashuv-inversiya, uslubiy kuchaytirish, uslubiy tipiklashtirish, uslubiy o‘ziga xoslik, uslubiy susaytirish, uslubiy tenglashtirish, uslubiy yo‘qotish tushunchalarining mohiyatiga e’tibor qilmoq darkor.

Ijodkorning uslubiy o‘ziga xosligi til zahiralari, vositalari asosida yuzaga keladi. Har bir muallifning o‘z tili, uslubini qayta yaratish badiiy tarjimaning muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Ayni bir til – rus tilida ijod qilgan F. M. Dostoyeskiy bilan A.P. Chexov uslubida katta farq bor. Shuningdek, o‘zbek tilida ijod qilgan Oybek bilan A. Qahhor uslubida ham jiddiy o‘ziga xoslik mavjud. Lekin boshqa-boshqa tillarda qalam tebratgan A.P.Chexov bilan A.Qahhorning uslubi bir- biriga yaqin. Bu uslubiy hamohanglik ikki adibning adabiy-estetik qarashlaridagi yaqinlik, tildan foydalanishdagi mahorat (qisqalik) bilan izohlanadi. Arab romannavisi J. Zaydon bilan A. Qodiriy uslubidagi mushtaraklikda esa mavzu va tarixiy kolorit muhim o‘rin egallaydi.

Tarjimadagi uslub muammosini va badiiy adabiyotni tarjima qilishda ona tilining ro‘lini o‘rganib, tadqiqotchilar badiiy adabiyot yozish uslubidagi farqni ta’kidlashga moyildirlar. Tarjima uslubidagi nazariy tadqiqotlar Jan Boaz-Bayerning “Tarjimaga stilistik yondashuvlar” (2006) kitobida keltirilgan. Tarjimadagi uslub Gabriela Saldanyaning "Tarjimadagi uslub" (2014) asarining asosiy mavzularidan biridir. Tadqiqotning dolzarb linguometodologik jihatiga ko‘ra, tarjimada uslubning ifodasi va badiiy adabiyotda ommaviy tarjima nafaqat badiiy tarjimada, balki biznes aloqasi va ommaviy tarjima kabi adabiyotning turli sohalarida ham muhim sohaga aylandi.

NATIJALAR

Tarjimada uslub masalasiga to‘xtalar ekanmiz, turg‘un birikmalar, idiomalar, emfaza, metonimiyalar va metaforalar tarjimasiga e’tobor qaratamiz. Tarjimada asarning bo‘yoqdorligini saqlab qolish uchun tarjima qilinayotgan tildagi muqobil variantlardan foydalanish zarurati tug‘iladi.

Masalan: “To wash dirty linen in public” iborasi “Kir choyshabni omma oldida yuvish” deb tarjima qilinadi. Uning o‘zbekcha muqobil varianti: “Uydagi gapni ko‘chaga olib chiqma” iborasi mos keladi yoki “To Newcastle with coals” – “O‘rmonga o‘tin bilan bormoq” deb o‘giriladi.

Agar diqqat bilan kuzatsak turg‘un birikmalarning tarjimalarida mahalliy xalqning urf-odati va yashah sharoitidan kelib chiqib tarjima qilinadi. Masalan, “To Newcastle with coals” iborasi Newcastlning o‘zi ko‘mir ishlab chiqargani uchun ko‘mir olib boorish oshiqcha ekanini bildiradi. Buni ruschada “В Тулу со своим самоваром” iborasi bilan almashtiriladi, chunki Tula shahri samovarlar yarmarkasi bilan mashhur.

Demak, tarjimada uslubiy o‘zgarishlar tipologiyasi, ya’ni matnlararo invariantlikni saqlashday uslubiy holat katta ahamiyatga ega. O‘zaro invariantlik saqlangandagina har ikki matnda uslubiy yo‘nalishni ro‘yobga chiqarish haqiqatday ko‘rinadi. Tarjimadagi mavzu va usluban o‘zgarishlar haqida gap borganda, ko‘rib o‘tganimizdek, uslubiy muvofiqlik, uslubiy almashtirish, uslubiy almashuv-inversiya, uslubiy kuchaytirish, uslubiy tipiklashtirish, uslubiy o‘ziga xoslik, uslubiy susaytirish, uslubiy tenglashtirish, uslubiy yo‘qotish kabi tushunchalarining mohiyatiga e’tibor qilmoq darkor.

Asliyatda yozuvchi o‘zining axborotini kommunikativ kuchini oshirish uchun turli xil til birliklar funktsiyasini ifodolovchi stilistik vositalardan foydalanadi. Har bir tilni o‘ziga xos stilistik ekspressiv birliklari mavjudki, bunda tarjimon ustalik bilan kerakli vositalarni tanlab oladi. Rus tilida ekspressivlikni ifodalash uchun, xususan, semantik elementlarga tayanishning umumiy tendentsiyasini va ingliz tilida rasmiy elementlardan ko‘proq foydalanishni qayd etish mumkin. Bundan kelib chiqadiki, tarjimon asl tilning ekspressiv vositalarini nusxalashdan qochishi va tarjima tiliga xos bo‘lgan vositalardan foydalanishga harakat qilishi kerak. Ingliz tilida stilistik vositalardan keng foydalanishni frazeologik birliklarni qo‘llashda ko‘rish mumkin. Frazeologik birliklarning eng turg‘un ifodalaridan biri bo‘lgan idiomalar axborot berishdan tashqari ekspressivlikni oshiradi. Ular kitobxonga estetik ta’sir o‘tkazib, uning madaniy va badiiy bilimini oshiradi.

MUNOZARALAR

Umuman olganda tarjimon lug‘at bilan ishlashni bilishi kerak.Ingliz tilida “**end**” so‘zi o‘zbek tiliga va rus tiliga biror narsaning nihoyasi va oxirini anglatadi. Masalan, Jek Londonning asarida “ His hope was that all would **end** in laughter and in laughter be forgotten.” – Он надеялся, что все **кончится** смехом и в смехе забудется.(Semen Grigorivich Zaymovskiy tarjimasdi) – U hamma ofatlar kulgu bilan **tugashiga** va unitilishiga umid qildi. Bunda “end” so‘zi o‘zining birlamchi ma’nosida keladi. Biroq Boris Leonidovich Pasternakning “Doktor Jivago” asaridagi “To that **end** large forces of the partisans were detached and concentrated against the western bend of the circle” gapida ‘to that end’- ‘maqsad uchun’ deb tarjima qilinmoqda “**Для этого** выделили большие партизанские силы и сосредоточили их против западной дуги круга”, o‘zbekcha tarjimasi “**Buning uchun** katta partizan kuchlari ajratilib, ularni aylananing g‘arbiy yoyiga qarshi to‘plashdi”. Bundan ko‘rinib turibdiki ‘**end**’ so‘zi bu yerad boshqa ma’noda kelmoqda.

Tarjimada ekpressivlikni ko‘rsatib berish uchun tarjima qilinayotgan tilning til boyliklaridan foydalanish haqida gapirdik, asliyatda ifodalangan holat boshqacha bo‘lishi mumkin va buni tarjima tilida tarjimani xuddi asliyatdek o‘qishga kirishgan kitobxon asliytni o‘qigandek ta’sirlanishini ta’minlanishi kerak. Masalan Ernest Hemingweyning “Chol va dengiz” asaridan quyidagi misolni ko‘rsak “ How old was I when you first took me in a boat? – Five and you nearly were killed, when I brought the fish in *too green* and he nearly tore the boat to pieces. Buni ruscha tarjimasi: “Сколько мне было лет, когда ты первый раз взял меня в море? — Пять, и ты чуть было не погиб, когда я втащил в лодку совсем *еще живую* рыбу и она чуть не разнесла все в щепки, помнишь?” – deb tarjima qilinadi. Ko‘rinib turibdiki, “too green” so‘zi aslida birinchi ma’nosi ‘zap-zangori’ degan rangni anglatsa ham tarjimon uni “совсем еще живую” deb tarjima qilyapti. O‘zbekchada taniqli tarjimon Ibrohim G‘ofurov ham “— Birinchi marta meni dengizga olib chiqqaningda yoshim nechada edi? — Beshda. Qayiqqa *tirik* baliqni tortib olganimda, u sag‘al bo‘lmasa hamma narsani chilparchin qilib yuborayozgan va sen ham bazo‘r jon saqlab qolgan eding, esingdami?” – deb ustalik bilan tarjima qilgan. Ahamiyat berib qarasak o‘zbekcha tarjimada tarjimon “tirik” – deb tarjima

qilyapti. “Green” so‘zi zangori ma’noni anglatish bilan birga “yemish uchun ishlatiladigan ko‘katlar”, “xom- hatala”, “juda g‘or, yosh, tajribasiz, ishonuvchan”, agar miniladigan ot haqida gap ketsa “asov, minilmagan”, “hali kuchga to‘la, ya’ni kuchdan qolmagan”, va hattoki “nimjon, kasalmand” ma’nolarni ham berar ekan, “green winter” – “qorsiz, yumshoq qish” ni anglatar ekan. Ko‘rib turganimizdek, tarjimon “green” so‘zini birinchi ma’nosiga yopishib olganda ancha qiyinchilikka uchragan bo‘lar edi. Biroq shuni ta’kidlash kerakki, “green” so‘zi, rus tilida ham “hali pishmagan”, “tajribasiz” ma’noni anglatadi. Masalan “зеленый юнец”, “зеленая молодежь”, bu va bu kabi so‘zlar rus mumtoz asarlarining ko‘p sahifalarida uchraydi. O‘zbek tilida bo‘lsa “zangori” rang yoshlik, g‘ayratlilik, tajribasizlik va g‘orlikni anglatsa ham bu so‘zni o‘rniga o‘z sifatini anglatadigan so‘zlar bilan yozish ko‘proq o‘ng keladi. Masalan “Soddagina qiz aldanib qoldi” bu ma’noda o‘sha ingliz tilidagi “zangori” so‘zining tag ma’nosi yotadi. Lekin o‘zbek tilida bu so‘zni “Zangori qiz aldanib qoldi” – deb yozish to‘g‘ri bo‘lmaydi

Yana bu tarjima asliyatdan grammatik transformatsiyaga uchrab tarjima qilinyapti. “you nearly were killed, when I brought the fish in *too green* and he nearly tore the boat to pieces”. Bunda bosh gap bilan ergash gapning o‘rni almashib qolyapti. “Qayiqqa tirik baliqni tortib olganimda, u sag‘al bo‘lmasa hamma narsani chilparchin qilib yuborayozgan va sen ham bazo‘r jon saqlab qolgan eding, esingdami”. Asliyatda birinchi natija berilyapti, tarjimada esa birinchi navbatda sabab dahshatini ko‘rsatib, keyin natija berilyapti. Bu ham gapning ekpressiv ifodasini kuchaytirmoqda.

Ingliz tilida “too green”, ya’ni “juda ham zangori” yoki “juda yosh baquvvat” baliq haqida gap ketyapti, tarjimon buni oddiy qilib “tirik baliq” deb tarjima qiladi. Asliytada tirik baliqning kuchini unga ta’rif berayotgandagina ko‘rsatib o‘tdi, biz bilamiz dengizda katta tirik baliq kichkina qayiqda qanday mashaqqat bilan tinchlantirilishini. Agar bu holatda voyaga yetmagan “besh” yoshli bola qayiqda bo‘lsa – bu dahshatni tasavvur ham qilish qiyin. Tarjimon bu shiddatli ovni “sen ham bazo‘r jon saqlab qolgan eding, esingdami” – deb beryapti. Tarjimon bolani dahshatga tushganini “jon saqlab qoldmoq” iborasi bilan beryapti. Agar bu iborani chuqur konseptiga qarasak “hayot uchu kurashmoq” ma’nosini beradi. Tarjimon sodda qilib “bazo‘r tirik qolganding” – desa ham bo‘lar edi, lekin bunda kichik bo‘laning ko‘z oldida namoyon bo‘lgan dahshatni tasvirlay olmagan bo‘lar edi.

XULOSA

Xulosa qilib shuni aytamanki, tarjimada turli emotsional holatlarni asliyatda bayon qilinganday kuchli ifoda qilish uchun tarjima tilining butun so‘z boyligi potentsialidan habardor bo‘lish kerak. Agar tarjimon asliyat asari qahramonlari bilan birga bo‘lib o‘tgan voqeani his qilmas ekan, ularning boshidan kechirgan tuyg‘ularini o‘zlarida o‘tkazmas ekan, tarjimada adekvatlikka erishish qiyindir. Bunda tarjimon tarjima strategiyalari va tarjimada qo‘llaniladigan transformatsiyalardan keng foydalanishi kerak. Agar tarjimon manba tilidan tarjima qilinayotgan tildan tashqari asliyatni o‘zi biladigan boshqa tildagi variant bo‘lsa o‘sha tarjimadan to‘g‘ri foydalanib, uni taglama tarjima sifatida olishi mumkin. Buni ko‘p tarjimonlarimiz o‘z tajribalarida qo‘llab-kelgan.

ADABIYOTLAR:

1. Basil Hatim and Jeremy Munday “Translation”. Routledge. 2020
2. E.Needa “Towards a science of translation” 1964
3. P Newmark “Approaches to Translation”. 1988
4. Rainer Schulte, John Biguenet “Theories of Translation” London 1992.
5. Roger T. Bell “Tarnslatio and Translating: Theory and practice” Published in the United states of America by longman Inc., New York. Longman group UK Limited 1991
6. Saldanha G. “The Translator: Literary or Performance Artist?” 2020
7. Г. Саломов «Таржима назариясига кириш». Тошкент – 1978
8. I.G‘ofurov, O. Mo‘minov, N. Qambarov “Tarjima nazariyasi”. Toshkent 2012
9. Комилжон Жураев, Матлуба Расулова, Мухайё Ахмедова «Таржимашунослик» Тошкент 2015
10. M. Axmedova “Tarjimada uslub masalalari” Andijon 2024
11. Q. Musayev “Tarjima nazariyasi asoslari” FAN 2005
12. Антон Попович: Проблемы художественного перевода. – М.: Высшая школа, 1980
13. В.Н. Комиссаров «Теория перевода». Москва «Высшая школа» 1990
14. В.Н. Крупнов «Курс перевода». Москва 1979
15. Дюришин Д. Теория сравнительного изучения литературы. – М.: Прогресс, 1979. – С. 69
16. Ф.В. Федоров «Основы общей теории перевода». Москва «Высшая школа» 1983
17. https://www.gazeta.uz/ru/2021/06/19/mark-reese/

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 1-son)

FILOLOGIYA

PHILOLOGY

O‘ZBEK TILIDA TA’LIM SOHASIGA DOIR TEZAURUS UCHUN TERMINOLOGIK BIRLIKLARNING SEMANTIK MUNOSABATLARI TADQIQI

Ubaydullayeva Ziroatxon Davron qizi
O‘ZMU O‘zbek filologiyasi fakulteti
Kompyuter lingvistikasi yo‘nalishi 2-kurs magistranti

Annotatsiya: Ta’lim sohasida terminologiya muhim ahamiyatga ega bo‘lib, u bilimlarni tizimlashtirish, ularni o‘zaro bog‘lash va tushunishni osonlashtirishda xizmat qiladi. O‘zbek tilida ta’lim sohasiga doir terminologik birliklar tezaurusini yaratish, nafaqat tilning rivojlanishiga, balki ta’lim jarayonining samaradorligini oshirishga ham yordam beradi. Ushbu maqolada O‘zbek tilida ta’lim sohasiga doir terminologik birliklarning semantik munosabatlari tadqiq qilinadi.

Kalit so‘zlar: terminologiya, til, terminologik birliklar, sinonimlar, antonimlar, ta’lim, giperonimlar, psixologiya, pedagogika.

Аннотация: Терминология имеет важное значение в сфере образования, она служит для систематизации знаний, их связи и облегчения понимания. Создание тезауруса терминологических единиц, относящихся к сфере образования, на узбекском языке поможет не только развитию языка, но и повышению эффективности учебного процесса. В данной статье изучаются семантические отношения терминологических единиц, относящихся к сфере образования, в узбекском языке.

Ключевые слова: терминология, язык, терминологические единицы, синонимы, антонимы, образование, гиперонимы, психология, педагогика.

Abstract: Terminology is important in the field of education, it serves to systematize knowledge, connect them and facilitate understanding. Creating a thesaurus of terminological units related to the field of education in the Uzbek language will help not only the development of the language, but also increase the efficiency of the educational process. In this article, the semantic relations of terminological units related to the field of education in the Uzbek language are studied.

Key words: terminology, language, terminological units, synonyms, antonyms, education, hyperonyms, psychology, pedagogy.

KIRISH

Terminologiya - bu ma’lum bir soha yoki fan doirasida ishlatiladigan maxsus atamalar to‘plamidir. U har bir sohaning o‘ziga xos tilini, tushunchalarini va ularning o‘zaro

munosabatlarini ifodalaydi. Terminologiya, asosan, ilmiy, texnik va professional sohalarda muhim ahamiyatga ega. U bilimlarni aniq va ravshan ifodalashga yordam beradi, shuningdek, mutaxassislar o‘rtasida samarali muloqotni ta’minlaydi. Terminologiyaning asosiy vazifalaridan biri - soha ichidagi tushunchalarni aniqlash va ularni bir xil ma’noda ishlatishni ta’minlashdir. Bu, o‘z navbatida, ilmiy tadqiqotlar, texnik hujjatlar va boshqa professional materiallar uchun zarurdir. Terminologiya yordamida biror sohadagi bilimlar tizimlashtiriladi va tartibga solinadi, bu esa o‘z navbatida, yangi bilimlarni o‘zlashtirishni osonlashtiradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA TADQIQOT METODOLOGIYASI

Terminologiya o‘z ichiga bir qator elementlarni oladi. Birinchidan, terminlar - bu maxsus atamalar bo‘lib, ular ma’lum bir tushunchani ifodalaydi. Ikkinchidan, terminologik birliklar o‘rtasidagi semantik munosabatlar - sinonimlar, antonimlar, giperonimlar va giponimlar kabi aloqalar mavjud. Bu munosabatlar terminlarning ma’nosini yanada chuqurroq tushunishga yordam beradi. Terminologiya, shuningdek, tilning rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi. Yangi texnologiyalar va ilmiy kashfiyotlar paydo bo‘lishi bilan yangi terminlar yaratiladi. Bu jarayon, o‘z navbatida, tilning boyishiga va uning zamon talablariga moslashishiga olib keladi. Terminologiya, shuningdek, xalqaro aloqalarda ham muhim ahamiyatga ega. Turli tillarda bir xil tushunchalarni ifodalovchi terminlar mavjud bo‘lib, bu esa global muloqotni osonlashtiradi. Terminologiya sohasida ishlash, shuningdek, terminologik tadqiqotlarni talab etadi. Bu tadqiqotlar orqali terminlarning kelib chiqishi, ularning ma’nosi va ishlatilishi o‘rganiladi. Terminologiya mutaxassislari, shuningdek, yangi terminlarni ishlab chiqish va ularni standartlashtirish bilan shug‘ullanadilar. Bu jarayon, o‘z navbatida, soha ichidagi tushunchalarni yanada aniqlashtirishga yordam beradi. Umuman olganda, terminologiya - bu bilimlarni aniq va ravshan ifodalash, soha ichidagi muloqotni osonlashtirish va yangi bilimlarni o‘zlashtirishda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan bir soha. U har bir mutaxassis uchun zaruriy vosita bo‘lib, ilmiy va professional faoliyatda muvaffaqiyat qozonish uchun muhimdir.Umumiy terminologiya bo‘yicha asosiy ishlardan biri sifatida S.Grinevning "Terminologiyaga kirish" ni ajratib ko‘rsatish kerak. Muallif terminologiyaning fan sifatida mohiyatini ochib beradi, terminologiyaning asosiy jihatlarini ajratib ko‘rsatadi, maxsus lug‘at tipologiyasini o‘rganadi, atamani alohida belgi sifatida tahlil qiladi. Bu ilm-fan bilan bevosita bog‘liq, chunki u turli bilim sohalariga xizmat qiladi. Konsepsiya, ya’ni, ilmiy tushunish natijasida, bu tizimning boshqa a’zolariga mos keladigan atamasiz fanga kirish mumkin emas. Terminologiya va mantiq o‘rtasida o‘zaro bog‘liqlik munosabatlari mavjud, chunki terminologiyada turli xil mantiqiy texnikalar qo‘llaniladi (tasniflash, har qanday sohadagi bilimlarni tizimlashtirish) va mantiq tegishli atamalar bilan tavsiflanadi. Terminologiya axborot nazariyasi bilan bog‘liq, chunki maxsus bo‘linmalar yordamida professional ahamiyatga ega bo‘lgan ma’lumotlar yoziladi, saqlanadi va uzatiladi. Bu maxsus ma’lumotlarni makon va vaqtda saqlash va uzatish shartlari. Texnik topshiriq va nomzodlik nazariyasi o‘rtasida bevosita bog‘liqlik mavjud.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Terminologiya, asosan, muayyan soha yoki fan doirasida ishlatiladigan atamalar to‘plamidir. Ta’lim sohasida terminologiya, o‘z navbatida, ta’lim jarayonining barcha jihatlarini qamrab oladi: o‘qitish, o‘qish, baholash, pedagogika, psixologiya va boshqalar. Ta’lim sohasidagi terminlar, ko‘pincha, o‘zaro bog‘liq bo‘lib, ularning semantik munosabatlari o‘zaro aloqalarini aniqlashda muhim rol o‘ynaydi.Terminologik birliklarning semantik munosabatlari, asosan, sinonimlar, antonimlar, giponimlar va giperonimlar kabi turli xil munosabatlar orqali ifodalanadi. Sinonimlar - bu bir xil yoki o‘xshash ma’noga ega bo‘lgan so‘zlar. Ta’lim sohasida "o‘qituvchi" va "pedagog" atamalari sinonim sifatida ishlatiladi. Ularning har ikkalasi ta’lim jarayonida muhim rol o‘ynaydigan shaxslarni ifodalaydi, lekin ularning qo‘llanilishi kontekstga bog‘liq bo‘lishi mumkin.[9]

Antonimlar esa bir-biriga qarama-qarshi bo‘lgan atamalardir. Ta’lim sohasida "o‘qitish" va "o‘qish" atamalari antonim sifatida ko‘rilishi mumkin. O‘qitish jarayoni o‘qituvchining faoliyati bo‘lsa, o‘qish esa o‘quvchining faoliyatidir. Bu ikki atama ta’lim jarayonining ikki tomonini ifodalaydi va ularning o‘zaro munosabati ta’lim jarayonining samaradorligini oshirishda muhimdir.[8]

Giponimlar va giperonimlar esa atamalar o‘rtasidagi ierarxik munosabatlarni ifodalaydi. Giponim - bu ma’nosi kengroq bo‘lgan atama, giperonim esa ma’nosi torroq bo‘lgan atama. Masalan, "ta’lim" giperonim sifatida "o‘rta ta’lim", "yuqori ta’lim" va "kasb-hunar ta’limi" kabi giponimlarga ega. Bu munosabatlar ta’lim sohasidagi turli darajadagi ta’lim tizimlarini tushunishga yordam beradi. Terminologik birliklarning semantik munosabatlarini tadqiq qilishda, ularning kontekstda qanday ishlatilishini ham hisobga olish muhimdir. Har bir atama o‘z kontekstida o‘ziga xos ma’no kasb etadi va bu ma’no atamaning semantik munosabatlariga ta’sir qiladi. Misol uchun, "baholash" atamasi ta’lim jarayonida o‘quvchilarning bilimlarini aniqlash va baholash jarayonini ifodalaydi, lekin bu atama boshqa kontekstlarda, masalan, iqtisodiyotda yoki psixologiyada boshqacha ma’noga ega bo‘lishi mumkin. O‘zbek tilida ta’lim sohasiga doir terminologik birliklarning semantik munosabatlarini o‘rganish, nafaqat ta’lim jarayonini yaxshilashga, balki o‘zbek tilining rivojlanishiga ham xizmat qiladi. Ta’lim sohasidagi terminologiya, o‘zbek tilining boyligini va uning ilmiy sohalardagi ahamiyatini ko‘rsatadi. Shuningdek, bu tadqiqotlar ta’lim sohasida ishlovchi mutaxassislar uchun ham foydali bo‘ladi, chunki ular terminlarni to‘g‘ri va aniq ishlatishlari kerak. Terminologik birliklarning semantik munosabatlarini o‘rganish jarayonida, ularning o‘zaro bog‘liqligini aniqlash uchun turli xil metodologiyalarni qo‘llash mumkin. Masalan, lingvistik tahlil, korpus tahlili va so‘z birikmalarini o‘rganish metodlari yordamida terminologik birliklarning semantik munosabatlarini aniqlash mumkin. Bu metodlar yordamida ta’lim sohasidagi terminlarning o‘zaro aloqalari, ularning qo‘llanilishi va ma’nolari haqida chuqurroq tushuncha hosil qilish mumkin. Shuningdek, ta’lim sohasidagi terminologiya rivojlanishi uchun zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash muhimdir. Internet va raqamli resurslar yordamida ta’lim sohasidagi terminlarni o‘rganish va ularni tizimlashtirish jarayonini tezlashtirish mumkin. Online

platformalar va ma’lumotlar bazalari orqali ta’lim sohasidagi terminologiya haqida ma’lumot olish, ularni o‘zaro bog‘lash va yangi terminlar yaratish imkoniyatlari mavjud.[6]

O‘zbek tilida ta’lim sohasiga doir tezaurus yaratish, nafaqat ta’lim jarayonini yaxshilashga, balki o‘zbek tilining ilmiy va madaniy rivojlanishiga ham hissa qo‘shadi. Bu jarayon, o‘z navbatida, ta’lim sohasida ishlovchi mutaxassislar, o‘qituvchilar va o‘quvchilar uchun ham foydali bo‘ladi. Ta’lim sohasidagi terminologiya, o‘zbek tilining boyligini va uning ilmiy sohalardagi ahamiyatini ko‘rsatadi.[1]

Ta’lim sohasida terminologiyani rivojlantirish uchun zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash, ta’lim jarayonini yanada samarali va qulay qilishga yordam beradi.Onlayn platformalar va ma’lumotlar bazalari ta’lim sohasidagi terminologiyani to‘plab, tizimlashtirish uchun muhim vositalardir. Bu platformalar orqali o‘qituvchilar va talabalar terminlarni oson topish, ularni o‘rganish va yangi terminlar qo‘shish imkoniyatiga ega bo‘lishadi. Korpus tahlili yordamida ta’lim sohasidagi terminlarning qo‘llanilishi va ularning kontekstdagi ma’nolari o‘rganiladi. Bu metod terminlarning o‘zaro aloqalari va semantik munosabatlarini aniqlashda yordam beradi. Lingvistik dasturlar terminlarni avtomatik ravishda aniqlash va ularning ma’nolarini tushunish uchun sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanadi. Bu dasturlar terminlarni avtomatik ravishda tarjima qilish yoki sinonim va antonimlarni aniqlashda foydalidir. Mobil ilovalar ta’lim sohasidagi terminologiyani o‘rganish jarayonini qulaylashtiradi. Foydalanuvchilar terminlarni o‘rganish, ularni amaliyotda qo‘llash va baholash imkoniyatiga ega bo‘lishadi.[4]

Interaktiv ta’lim vositalari, masalan, onlayn testlar, viktorinalar va o‘yinlar yordamida terminologiyani o‘rganishni qiziqarli va samarali qilish mumkin. Bu vositalar o‘quvchilarni faol ishtirok etishga undaydi. Vebinarlar va onlayn kurslar ta’lim sohasidagi terminologiyani o‘rganish uchun yangi imkoniyatlar yaratadi. Mutaxassislar va o‘qituvchilar yangi terminlar va ularning qo‘llanilishi haqida ma’lumot olishlari mumkin. Ochiq ta’lim resurslari ta’lim sohasidagi terminologiya haqida keng qamrovli ma’lumotlar taqdim etadi. Bu resurslar orqali o‘qituvchilar va talabalar terminlarni o‘rganish va ulardan foydalanish imkoniyatiga ega bo‘lishadi. Ijtimoiy tarmoqlar va forumlar ta’lim sohasidagi terminologiyani muhokama qilish va yangi terminlar yaratish uchun platforma bo‘lib xizmat qiladi. Mutaxassislar va o‘qituvchilar o‘z fikrlarini almashishlari va tajriba almashishlari mumkin. Sun'iy intellekt va mashinani o‘rganish texnologiyalari ta’lim sohasidagi terminlarni avtomatik ravishda tahlil qilish va yangi terminlar yaratish jarayonini tezlashtiradi. Bu texnologiyalar terminlarning o‘zaro bog‘liqligini aniqlashda yordam beradi. Virtual va kengaytirilgan haqiqat texnologiyalari ta’lim jarayonini interaktiv va qiziqarli qilish imkonini beradi. O‘quvchilar terminlarni amaliyotda qo‘llash va ularni yanada chuqurroq o‘rganish imkoniyatiga ega bo‘lishadi. Ushbu zamonaviy texnologiyalar ta’lim sohasida terminologiyani rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi va ta’lim jarayonini yanada samarali va qiziqarli qilishga yordam beradi.[3]

XULOSA

O‘zbek tilida ta’lim sohasiga doir tezaurus uchun terminologik birliklarning semantik munosabatlari tadqiqi, ta’lim jarayonining samaradorligini oshirish va o‘quvchilarning bilim olish jarayonini yanada chuqurlashtirishda muhim ahamiyatga ega. Ushbu tadqiqot davomida olingan natijalar, ta’lim sohasidagi terminlarning o‘zaro bog‘liqligini, sinonimlar, antonimlar, giperonimlar va giponimlar kabi semantik munosabatlarni aniqlashga yordam berdi. Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, ta’lim sohasida sinonimlar va antonimlar keng tarqalgan bo‘lib, ular o‘quv jarayonida tushunchalarni boyitadi va o‘quvchilarga qarama-qarshi fikrlarni anglash imkonini beradi. Giperonimlar va giponimlar o‘rtasidagi munosabatlar esa, ta’lim sohasidagi tushunchalarni tizimlashtirishda muhim rol o‘ynaydi. Ko‘p ma’noli terminlar esa o‘quv jarayonida muhim ahamiyatga ega bo‘lib, o‘quvchilarga turli kontekstlarda ma’lumot olish imkonini beradi. Umuman olganda, ta’lim sohasidagi terminologik birliklarning semantik munosabatlarini o‘rganish, o‘zbek tilida ta’lim sifatini oshirish va zamonaviy ta’lim jarayoniga moslashtirish uchun zaruriy shartdir. Ushbu tadqiqot, kelajakda ta’lim sohasida yanada aniq va samarali terminologiya yaratishga xizmat qiladi, bu esa o‘qituvchilarning pedagogik faoliyatini yaxshilash va o‘quvchilarning bilimlarini chuqurlashtirishga yordam beradi. Ta’lim sohasida terminologiya va tezaurusni rivojlantirish, o‘zbek tilida ta’lim sifatini oshirishga xizmat qiladi va bu jarayon, o‘z navbatida, jamiyatning intellektual rivojlanishiga hissa qo‘shadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Абдукадиров А. (2018). «Учебная терминология на узбекском языке». Ташкент: Национальный университет Узбекистана.

2. Маматкулов С. (2020). «Терминологические единицы и их семантический анализ в сфере образования». Ташкент: Министерство образования Республики Узбекистан.

3. Рахмонов Б. (2019). «Образовательные термины в узбекском языке: проблемы и решения». Ташкент: Наука и технологии.

4. Холматов Д. (2021). «Терминология и ее значение в образовании». Ташкент: Министерство высшего и среднего специального образования Республики Узбекистан.

5. Каримова Н. (2017). «Развитие учебной терминологии на узбекском языке». Ташкент: Национальный университет Узбекистана.

6. Турсунов А. (2022). «Семантические отношения в образовании: теоретические и практические аспекты». Ташкент: Министерство образования Республики Узбекистан.

7. Исмаилов И. (2020). «Терминология и ее место в образовательном процессе». Ташкент: Академия наук Республики Узбекистан.

8. Кадыров М. (2019). «Основные принципы учебной терминологии в узбекском языке». Ташкент: Министерство высшего и среднего специального образования Республики Узбекистан.

9. Нурматов Р. (2021). «Терминологические единицы и их семантический анализ в сфере образования». Ташкент: Национальный университет Узбекистана.

10. Абдуллаева З. (2023). «Учебная терминология на узбекском языке: проблемы и перспективы». Ташкент: Министерство образования Республики Узбекистан.

11. Ашуров У. (2018). «Современные тенденции в развитии учебной терминологии узбекского языка». Ташкент: Национальный университет Узбекистана.

12. Бобоев Ф. (2020). «Проблемы стандартизации образовательной терминологии». Ташкент: Институт развития образования.

13. Юлдашев Ж. (2022). «Инновации в создании и использовании образовательных терминов». Ташкент: Наука и технологии.

14. Рузметов Х. (2019). «Роль терминологии в образовательной политике». Ташкент: Академия наук Республики Узбекистан.

15. Умаров А. (2023). «Культурно-исторический аспект образовательной терминологии». Ташкент: Национальный университет Узбекистана.

16. Садиков Р. (2020). «Методология разработки учебной терминологии». Ташкент: Министерство высшего и среднего специального образования Республики Узбекистан.

17. Насыров О. (2021). «Эволюция терминологии в образовательной системе Узбекистана». Ташкент: Министерство образования Республики Узбекистан.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 1-son)

FILOLOGIYA

PHILOLOGY

УДК: 81'42 + 811.1/.8: 323.2

“ВАТАНПАРВАРЛИК” КОНЦЕПТИНИНГ ЛИНГВИСТИК ОБЪЕКТИВЛАШТИРИШДАГИ ДЕРИВАТИВ МУНОСАБАТЛАР

Юсупова Маржона Икромжон қизи
Фарғона давлат университети 10.00.11
Тил назарияси. Амалий ва компьютер лингвистикаси
мутахассислиги таянч докторанти

АННОТАЦИЯ: Мазкур мақолада “ватанпарварлик” концептнинг рус, инглиз ва ўзбек тилларидаги лингвистик тасвири таҳлил қилинади. Тадқиқот концептуал таркибни аниқ ифода этадиган лексемалар ўртасидаги сўз ясалиш алоқалари ва муносабатларини аниқлашга асосланган. Муаллифлар лексик маълумотлар ва турли луғат ҳамда корпуслар контекстлари асосида юқори “ватанпарварлик” билан сўз ясовчи уяни моделлаштирадилар. Улар уянинг рус, инглиз ва ўзбек тилларидаги маданий аҳамиятига ишора қилиб, унинг мураккаб иерархик ташкил этилишини қайд этадилар. Ясама сўзлардан иборат гуруҳ ватанпарварлик жиҳатларини акс эттирувчи мазмунли ва сифатдош сўзлар билан ифодаланган турли ҳосилалардан иборат. Мақолада, шунингдек, концепциянинг баҳоловчи компонентлари муҳокама қилинади, уларни “ура-патриотизм”, “ультрапатриотизм” ва “анти-патриотизм” каби лотин сўзлар орқали тасвирлайди. “Ватанпарварлик” концепти билан боғлиқ турли хил когнитив хусусиятларни кашф этилади, уларнинг семантикаси ва баҳолаш маънолари таҳлил қилинади.

КАЛИТ СЎЗЛАР: концепт, когнитивистика, ватанпарварлик, деривация, лексема, семантика, тил объективлашуви, оламнинг лисоний манзараси, лингвокултурология, концептология.

ДЕРИВАЦИОННЫЕ СВЯЗИ И ОТНОШЕНИЯ В ЯЗЫКОВОЙ ОБЪЕКТИВАЦИИ КОНЦЕПТА ПАТРИОТИЗМ

АННОТАЦИЯ: Статья анализирует языковую репрезентацию концепта “патриотизм” в русском, английском и узбекском языках. Исследование основано на выявлении словообразовательных связей и отношений между лексемами, которые эксплицитно выражают концептуальное содержание. Авторы моделируют словообразовательное гнездо с вершиной “патриот” на основе лексических данных и

контекстов из различных словарей и корпусов. Они отмечают сложную иерархическую организацию гнезда, указывая на его культурную значимость в русском, английском и узбекском языках. Гнездо состоит из различных дериватов, представленных субстантивными и адъективными словами, отражающими аспекты патриотизма. Статья также обсуждает оценочные составляющие концепта, иллюстрируя их через производные слова, такие как “ура-патриотизм”, “ультрапатриотизм” и “анти-патриотизм”. Также обнаруживается разнообразие когнитивных признаков, связанных с концептом “патриотизм”, и анализируется их семантику и оценочные значения.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: концепт, когнитивистика, ватанпарварлик, деривация, лексема, семантика, тил объектлашуви, оламинирование лисоний манзараси, лингвокультурология, концептология.

DERIVATIONAL CONNECTIONS AND RELATIONS IN THE LANGUAGE OBJECTIFICATION OF THE CONCEPT PATRIOTISM

ANNOTATION: The article analyzes the linguistic representation of the concept of “patriotism” in the Russian, Uzbek, English languages. The study is based on identifying derivational relationships and connections between lexemes that explicitly express the conceptual content. Organized model of the derivational nest with the main word “patriotism” based on lexical data and contexts from various dictionaries and sources. They note the complex hierarchical organization of the nest, indicating its cultural significance in the Russian, Uzbek, English languages. The nest consists of various derivatives represented by substantive and adjectival words, reflecting aspects of patriotism. The article also discusses the evaluative components of the concept, illustrating them through derived words such as “super-patriotism”, “jingoism”, and “anti-patriotism”. There is also identified a variety of cognitive features associated with the concept of “patriotism” and analyzed their semantics and evaluative meanings.

KEY WORDS: concept, cognitive science, vatanparvarlik, derivation, lexeme, semantics, til obektlashuvi, olaminning lisoniy manzarasi, lingvoculturology, conceptology.

КИРИШ. Илмий изланишимизнинг объектига айланган “ватанпарварлик” концептига мувофиқ, унинг лингвистик ифодаланиш хусусиятларини тавсифлаш концептуал мазмунни кенгайтирадиган лексемалар ўртасидаги сўзларни шакллантириш алоқалари ва муносабатларини аниқлашдан бошланади. Бу эса, ўз навбатида, “ватанпарвар” /“патриот”/ “patriot” ўзаги остида бирлашадиган ўзакдош ясама сўзлар семантикаси орқали когнитив белгилар таркибини кенгайтириш имконини беради. Тадқиқот ишимизда сўз ясаш орқали ҳосил қилинган ўзакдош сўзлар рус тилида А.Н.Тихонов луғати, ўзбек тили “Ўзбек тили изоҳли луғати” (1-жилдидан), инглиз тилидагиси “Oxford English Dictionary” ва бошқа онлайн луғатлар маълумотлари

мониторинги асосида моделлаштирилган. Бир ўзакка эга бўлган сўзларнинг маънолари изоҳли ва хорижий тил луғатлари орқали ҳам тасдиқдан ўтган.

АДАБИЁТЛАР ТАҲЛИЛИ. Рус тили учун “ватанпарвар” маъносини англатадиган “патриот” сўзи бошқа тилдан ўзлаштирилган ўзлашма бўлишига қарамай, ушбу тилда “патриот” ўзак сифатида олиниб, унга қўшимчалар қўшиш орқали ясаладиган сўзлар иерархияси мураккабдир ва турли хил деривацион муносабатларга эга саналади. Бу эса унинг рус тилида сўзлашувчилар онги томонидан сезиларли даражада ўзлаштирилганлиги ҳамда шунга мос равишда мазкур концептнинг “маданий ривожланиши”га ишора қилади [2, 412-б]. Рус тилидаги “патриот” ўзагига асосланган 28 та ўзакдош сўз дериватлар мавжуд. Бу дериватлар қаторига иккита “сўз ясовчи омонимлар” деб аталувчи, яъни кўриниши бир-бирга ўхшаш ёки мос келувчи, аммо турли хил сўз ясалиш структурасига эга ва ҳар хил дериватив моделлар орқали шакллантирилган сўзлар киритилмайди ва шунга мос равишда таҳлилга ҳам тортилмайди [7, 255-б]: *патриотик* – “род ткани из кружевной пряжи”, яъни гулли ипдан тўқилган мато маъносини англатувчи тусланмайдиган неологик сифат [9, 1482-устун] ва ҳудди шу кўринишда инглиз тилидаги *“patriotic”* сўзидан ўзлашган *“патриотический”* сифати; *компатриот* – деярли *соотечественник (ватандош)* – яна инглиз тилидаги *compatriot* сўзидан ўзлашган неологик от. Қуйида берилган диаграммада ўзаги “патриот” бўлган рус тилидаги ясама сўзлар берилган:

ПАТРИОТ

- Патриот-изм →ультра-патриот-изм
  →анти-патриот-изм
  →ура-патриот-изм
- Патриот-ический-ий →Патриот-ическ-и
  → ультра-патриот-ическ-ий
  → анти-патриот-ическ-ий
  → ура-патриот-ическ-ий
  → военно-патриот-ическ-ий
  → национально-патриот-ическ-ий
- Патриот-ичн-ый →Патриот-ичн-ость
  →Патриот-ичн-о
  →не-патриот-ичн-ый → не-патриот-ичн-ость
  → не-патриот-ичн-о
  →ультра-патриот-ичн-ый → ультра-патриот-ичн-ость
  → ультра-патриот-ичн-о
  →анти-патриот-ичн-ый → анти-патриот-ичн-ость
  → анти-патриот-ичн-о
  →ура-патриот-ичн-ый → ура-патриот-ичн-ость

Ушбу сўз ҳосил қиладиган гуруҳни ташкил этувчи дериватларнинг ўзига хос хусусияти шундаки, унда фақат отлашган ва сифат ҳамда унинг равишга ўзгарган шакли

(–о қўшимчаси орқали) бўлган сўзлар мавжуд. Феъл дериватлари мавжуд эмас, бу эса билвосита ушбу концептнинг “динамик эмаслиги”, “ноаниқлиги”ни, унинг мазмунида ушбу ғоянинг мавҳум семантикаси туфайли белги компоненти (атрибут, хусусият, ҳолат ва бошқалар) биринчи ўринга чиқишини кўрсатиши мумкин.

Ўзбек тилида эса бу жараён сўзнинг этнографияси туфайли бошқачароқ кўринишда бўлади. Чунки она тилимиздаги “ватанпарварлик” сўзининг асоси рус ёки инглиз тилидагидек *“patriot”/“ватанпарвар”* емас. Агар эътибор қаратадиган бўлсак, рус ва инглиз тилларида *патриот/patriot*, яъни ватанпарвар сўзига *–изм/ -ism*, яъни ўзбек тилидаги *-лик* қўшимчасини қўшиш орқали ватанпарварлик (патриотизм/патриотисм) ҳосил бўляпти. Ўзбек тилида ҳам деярли шу жараён бор, аммо ўзак сўз сифатида бу ўринда араб тилидан кириб келган *ватан* сўзи олинади, *ватанпарвар* сўзи еса негиз сифатида келади. Ўзаги *ватан* бўлган сўзлар (*ватангадо, ватангадолик, ватандош, ватандошлик, ватанжудолик, ватанли, ватанпарвар, ватанпарварона, ватанпарварлик, ватанфуруш, ватанфурушлик, ватансевар, ватансеварлик, ватансиз, ватансизлик, ватангоҳ, ватанпарварчасига, ватандўст, ватандўстлик*) сони 19 тани ташкил етади. Бироқ 4 тагина сўз таркибида бутун *ватанпарвар* негизи қатнашган: *ватанпарвар, ватанпарварона, ватанпарварлик* ва *ватанпарварчасига*. Бу тилда рус тилидаги военно-патриотический (ҳарбий ватанпарварлик), национально-патриотический (миллий ватанпарварлик), ультра-патриотический (маддоҳлик), анти-патриотический (ватанпарварликка зид) каби сўзларни ифодалаш учун сўз бирикмалари ва алоҳида сўзлардан фойдаланилади.

PATRIOT

- Patriot-eer
- Patriot-ism → super-patriot-ism
- Patriot-ess
- Patriot-ic →patriot-ic-al → patriot-ic-al-ly
  →ultra-patriot-ic
  →super-patriot-ic
  →un-patriot-ic →un-patriot-ic-al-ly
- Patriot-ly
- Patriot-ship
- Com-patriot

Инглиз тилида ҳам рус тилидаги каби *patriot* ўзлашма ўзак сўздан бир қанча сўзлар келиб чиқади: Юкоридаги **Диаграмма 2.** Ўзаги “патриот” бўлган инглиз тилидаги ясама сўзлар гуруҳи

МУҲОКАМА. Инглиз тилида ҳам рус тилидаги каби сўз от, сифат ва равиш ясаш учун асос бўлиб хизмат қилмоқда.

“Ватанпарварлик” концептининг вакиллари, яъни репрезентантлари сифатида янги ясалган сўз – отларнинг мавжудлиги ватанпарварлик туйғусига эгалик қиладиган жонли

субъект ғояси билан боғлиқ потенсиал янги когнитив белгиларни кашф қилиш имконини беради. Бу ўзбек тилидаги *ватанпарвар*, рус тилидаги *патриот/патриотка*, инглиз тилидаги *patriot/patriotess* лексемаларига тўғри келади. Луғатларда бу сўзлар қуйидагича талқинлар орқали ифодаланган:

- “тот, кто любит свое отечество, предан своему народу, готов на жертвы и подвиги во имя интересов своей Родины” (“Ўз ватанини севадиган, ўз халқига содиқ, ўз Ватанининг манфаатлари йўлида қурбонлик ва жасоратга тайёр шахс);

- (оғз.) “тот, кто предан чему-л., горячо любит что-л.” [4, 1088-б];

-“человек, преданный интересам какого-нибудь дела, глубоко привязанный к чему-нибудь” [8, 207-б].

-“Ўз ватанини, она юртини, халқини чексиз севувчи, ватан манфаатлари учун жонбозлик кўрсатувчи” [11, 444-б]

- “A person who loves his or her country, esp. one who is ready to support its freedoms and rights and to defend it against enemies or detractors”

Ўзбек тилидан фарқли ўлароқ, инглиз ва рус тилларида *ватанпарвар* тушунчаси гендер фарқланишига эга, яъни *патриот/патриотка, patriot/patriotess*. Аслида бу жинс борасида бир-бирига оппозиция ҳосил қилса ҳам, аслида семантик жиҳатдан бир хил маънони англатади.

Юқорида келтирилган фикрларни умумлаштирган ҳолда, янги, субъектга йўналтирилган когнитив хусусиятни шакллантиришимиз мумкин: (- “Ўз ватанини, она юртини, халқини чексиз севувчи, ватан манфаатлари учун жонбозлик кўрсатувчи шахс”.

Инглиз тилида мавжуд бўган *super-patriot* деривати ўзбек тилига *юксак ватанпарвар*, рус тилига *великий патриот* сўз бирикмалари сифатида таржима қилинади ва қуйидаги маънони ўзида мужассам этади:

a person who is extremely patriotic (= shows love for their country and, if necessary, fights for it) [https://dictionary.cambridge.org/dictionary/english/ super-patriot] (Ватанга муҳаббатини кўрсатадиган ва керак бўлса у учун курашадиган юксак ватанпарварлик ҳиссига эга шахс).

Жонсиз субстантив дериватлар “ватанпарварлик” концептуал мазмунининг бошқа томони, яъни унинг баҳоловчи хусусиятини ўзида мужассам этган, яъни бу ҳолатда турли тизимли тилларда мавжуд бўлган мазкур концептнинг даражаси, белги-хусусияти баҳолаб кўрсатилади. Булар рус тилидаги *ура-патриотизм, ультрапатриотизм, анти-патриотизм* ва инглиз тилидаги *super-patriotism* отлардир. Мазкур дериватлар сўзловчининг нормага мос келмайдиган, “нотўғри” ҳисобланган ватанпарварлик нуқтаи назаридан салбий маъно юкламасини “ўз зиммасига олади”. Ушбу салбий маъно юкланишининг табиати ва йўналиши дериватларнинг луғавий маънолари талқини орқали амалга оширилади. Инглиз ва рус тилларида юқоридаги жонли отларни ифодаловчи дериватларнинг баҳоловчи турлари ҳам мавжуд, яъни *super-patriot* ва *patrioteer* ҳамда рус

тилидаги *ура-патриот* сўзларидир. Бунда инглизча *patriot* русча *ура-патриот* га тенг синоним бўлади.

Қуйида рус ва инглиз тилларидаги ушбу от-дериватларнинг луғавий маънолари келтирилган:

ура-патриотизм:

-“безрассудно-самонадеянный, неосновательный, хвастливый, ложный патриотизм” [1, 1536-б] (такаббурона, асоссиз, манман, ёлғон ватанпарварлик);

- “показной и шумный патриотизм” (юзаки ва овоза қилинадиган ватанпарварлик).

Юқоридаги келтирилган дериватнинг ўзбек тилида тенг эквиваленти йўқ, унинг ўрнига шу маънони берувчи сўз бирикмалари ишлатилади: юзаки ватанпарварлик, хўжакўрсинга ватанпарварлик қилиш ва ҳоказо. Инглиз тилидаги *jingoism* сўзига тўғри келади.

Ультрапатриотизм/ ultra-nationalism /миллатчилик:

- “идеология и политика, исходящая из идей национального превосходства и противопоставления своей нации другим, подчиняющая общечеловеческие интересы и ценности национальным интересам; национализм” [1, 1536-б] (“Миллий устунлик ғояларидан келиб чиқадиган ва ўз миллатини бошқаларга қарши қўядиган, умуминсоний манфаатлар ва қадриятларни миллий манфаатларга бўйсундирадиган ғоя ва сиёсат; миллатчилик”).

анти-патриотизм:

- “враждебное чувство к отечеству” [8, 944-б; 5, 1042-б] (ватанга душманлик, хоинлик ҳисси).

-изм билан тугайдиган ясама отларнинг салбий маъносини жонли отлар *ура-патриот, ультрапатриот, анти-патриот* ҳам, адектив *ура-патриоти-ческий/ура-патриотичный, ультрапатриотический/ ультрапатриотич-ный, анти-патриотический/ антипатриотичный,* инглиз тилидаги *ultrapatriotic, unpatriotic* сўзлар ҳам ўз семантик таркибига бириктириб олади.

